

SHAVKAT BUTAYEV

ENGLISH-UZBEK
UZBEK-ENGLISH
DICTIONARY
80 000
words and expressions

INGLIZCHA-O‘ZBEKCHA
O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA
LUG‘AT
80 000
so‘z va ibora

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
„FANUM“ ILMIY-O‘QUV MARKAZI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARINING O‘ZBEKISTONDAGI ELCHIXONASI

SHAVKAT BUTAYEV

ENGLISH-UZBEK
UZBEK-ENGLISH
DICTIONARY

80 000 words and expressions

INGLIZCHA-O‘ZBEKCHA
O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA
LUG‘AT

80 000 so‘z va ibora

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Ikkinchi nashri

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2015

UO'K 811.111.(038)811.512.133(038)
KBK 81.2Ingl-4
81.2O'zb-4
B-98

Ushbu „Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at" Respublika ta'lim markazi xorijiy tillar bo'limining 2012- yil 19- sentabrdagi ilmiy metodik kengashi tomonidan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etildi.

Mas'ul muharrirlar:

professor A. Irisqulov
dotsent A. Madvaliyev
dotsent N. Mahkamov

Muharrirlar:

Lutfullo Jo'rayev
Zamirjon Butayev
Sunnat Xo'jaahmedov

Taqrizchilar:

professor G. Boqiyeva
professor E. Umarov
professor O. Mo'minov

Ushbu „Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at" 80 000 so'z va iboralarni o'z ichiga oladi. Lug'at ilmiy xodimlar, tarjimonlar, muharrirlar, o'qituvchilar, maktab o'quvchilari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari talabalari, doktorantlar hamda ingliz tiliga qiziquvchi mustaqil o'rganuvchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-02-841-8

© „O'qituvchi" NMIU.
Shavkat Butayev, 2013

INGLIZCHA-O'ZBEKCHA, O'ZBEKCHA-INGLIZCHA LUG'ATGA MUQADDIMA

Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'atlarning eng yirigi hisoblangan ushbu lug'atning nashr etilishi tillar tarixi hamda Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan yutuqdir. Odatda, lug'atlar nafaqat ulardan foydalanuvchilarga bilim beradi, balki xalqlarni ham o'zaro bir-biriga yaqinlashtiradi. Men O'zbekistondagi Amerika Qo'shma Shtatlari elchixonasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bilan yaqindan hamkorlikda bu lug'atning nashr etilishini qo'llab-quvvatlash imkoniga ega bo'lganidan benihoya mamnunman. Albatta, mazkur loyiha yana ko'plab boshqa shaxslar va muassasalarning samimiy ko'magisiz dunyo yuzini ko'rmagan bo'lur edi. Kamina „O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, ushbu lug'atning tolmas muharrirlari hamda muallifga samimiy minnatdorchiligimni izhor qilaman.

Bizga ma'lumki, ingliz tili „amerikacha" til emas. Yillar davomida, ta'bir joiz bo'lsa, u universal bir tilga aylandi. Butun dunyoda tijorat, diplomatiya, texnologiya, transport, fan sohalarida asosiy muloqot vositasi sifatida undan keng foydalanib kelinmoqda. Shu ma'noda, ingliz tilidan xabardorlik va ushbu lug'at O'zbekistonga jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini mustahkamlashda yordam bera oladi. Boshqa tomondan qaraganda, mazkur lug'at universal ingliz tilining o'zbekcha so'zlashuvchilar orasida keng tarqalishiga xizmat qilishi barobarida boy va go'zal sanalmish o'zbek tilini ingliz tilida so'zlashuvchilarga ham yaqindan tanishtiradi.

Umid qilamanki, ushbu lug'at nafaqat ingliz va o'zbek talabalariga o'z bilimlarini oshirish hamda ingliz va o'zbek tillaridan foydalanishga yordam beradi, balki mening mamlakatim bo'lmish Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilashga hissa qo'shadi, qolaversa, butun dunyoda o'zaro hamjihatlikni kuchaytirish asnosida ingliz va o'zbek so'zlashuvchilarini ham bir-biriga yaqinlashtiradi.

Jorj A. Krol,
AQSHning O'zbekistondagi elchisi,
iyul, 2013- yil

FOREWORD TO THE ENGLISH-UZBEK, UZBEK-ENGLISH DICTIONARY

The publication of this English-Uzbek-English dictionary, the largest of its kind to date, is a momentous achievement in the history of languages and in relations between the cultures of the United States of America and Uzbekistan. Dictionaries not only educate the user but bring people together. I am pleased the Embassy of the United States in Uzbekistan was able to support this publication in conjunction with the Uzbek State World Languages University. However, this project would not have been possible without the support of many other individuals and institutions. I would like to extend my sincere gratitude to the „O'qituvchi" publishing and creative house, the dictionary's tireless editors and the author.

English, as we know, is not an "American" language. It has become over time very much a universal language, widely used in commerce, diplomacy, technology, transportation, science and basic communication around the world. Knowledge of the English language and this dictionary can therefore help Uzbekistan develop its role in the global community. On the other hand, while this dictionary will make the universal language of English more easily accessible to speakers of Uzbek, it will also make the rich and beautiful Uzbek language accessible to English speakers.

Finally, it is my hope this dictionary will not only assist students of English and Uzbek to improve their knowledge and use of the English and Uzbek languages but also bring English and Uzbek speakers together to foster greater mutual understanding and contribute to the betterment of relations not only between my country, the United States of America and Uzbekistan, but also across the globe.

George A. Krol
U.S. Ambassador to Uzbekistan
July 2013

LUG'ATNING TUZILISHI VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI

Lug'atning tuzilishi

1. Bosh so'zdan keyin o'rta qavs „[ ]" ichida uning transkripsiyasi, o'rta qavsdan keyin so'zning qaysi so'z turkumiga mansub ekanligi va qaysi tildan olinganligi yoki qaysi sohaga taalluqli ekanligi kursiv bilan berilgan. Undan keyin so'zning ma'nosi berilgan:
   aspidistra [ˌæspɪˈdɪstrə] *n bot.* osiyo marvarid guli
   brioche [ˈbriːɒʃ, briː ˈəʊʃ] *n fr.* briosh, kichkina bulka non
2. Bosh so'zlar alifbo tartibida to'q qora rang bilan berilgan.
3. Barcha so'z turkumlariga oid tub va yasama so'zlar kiritilgan.
4. Ba'zi so'zlarning ma'nolarini yanada yaxshiroq yoritib berish maqsadida ular ishtirok etgan iboralar berilgan. Bu holatda so'z yana qaytarilmasligi uchun tilda „ ~ " belgisidan foydalanilgan:
   coign(e) [kɔɪn] *n me'mor.* (*binoning*) tashqi burchagi; **~ of vantage** eng qulay nazorat punkti
5. Omonimlar rim raqamlari bilan berilgan:
   denture I [ˈden(t)ʃə] *n* yasama tish
   denture II [ˈden(t)ʃə] *n kam.* kesib olingan narsa, qirqim

Lug'atda so'zlarning ma'no xarakteristikasi:

1. Har bir so'zning ma'nosi qisqa va aniq ifoda etilgan.
2. So'zlarning, asosan, hozirgi ingliz adabiy tilida keng qo'llanadigan ma'nolari berilgan.
3. So'z ma'nolarini ochishda misol va iboralardan keng foydalanilgan.
   enormous [ɪˈnɔːməs] *a* juda katta, ulkan; **~ sum** katta summa; **~ changes** katta o'zgarishlar
4. Ilmiy atamalar ma'nosini ochishda ta'rifiy izohdan keng foydalanilgan:
   faience [faɪˈɑːns] *n fr.* fayans (*ganch aralash loy*)

So'z ma'nolarining joylashish tartibi:

So'zlarning eng asosiy ma'nosi oldin, ikkinchi darajali ma'nolari keyin berilgan:
finery [ˈfaɪn(ə)rɪ] *n* 1) yaxshi kiyinish; 2) qimmatbaho zeb-ziynatlar

Lug'atda frazeologiya:

1. Ingliz tilidagi frazeologik iboralar kiritilgan:
   gage [geɪdʒ] *n* garovga qo'yish; **to give on ~** garovga bermoq
2. Frazeologik iboralar, ko'pincha, birinchi komponent hisoblangan so'z maqolasida joylashtirilgan. Agar frazeologik iboraning birinchi komponenti olmosh, son yoki yordamchi so'z bo'lsa, u ikkinchi o'rindagi mustaqil ma'noli so'z maqolasida berilgan.
3. Frazeologik birikmalar faqat bir marta izohlangan.

So'zlarning grammatik xarakteristikasi:

Lug'atda so'zlarning grammatik kategoriyasini (qaysi so'z turkumiga mansubligini) ko'rsatish uchun maxsus belgilar qabul qilingan.

Otlar:

Otlar bosh kelishikda va birlik shaklida berilgan:

hayfork ['heɪfɔ:k] *n* ayri, panshaxa

Sifatlar:

Sifatlar oddiy daraja shaklida berilgan:

interesting ['ɪntrɪstɪŋ] *a* qiziqarli, qiziq, qiziqish uyg'otadigan

Sonlar:

Sonlar turli tegishli grammatik belgilar bilan ko'rsatilgan:

one [wʌn] *num. card.* bir

second ['sekənd] *num. ord.* ikkinchi

Olmoshlar:

Olmoshlar turli tegishli grammatik belgilar bilan berilgan.

he [hi:] *pron. pers.* (*III shaxs birlik sondagi kishilik olmoshi*) u

his [hɪz] *pron. poss.* uning, uniki (*erkaklarga nisbatan*)

Fe'llar:

Fe'llar «**to**» yuklamasisiz berilgan:

joke [dʒəʊk] *v* hazillashmoq

Ravishlar:

Barcha ravishlar grammatik belgi bilan ko'rsatilgan:

knowingly ['nəʊɪŋlɪ] *adv* ongli ravishda, tushunib

Talaffuz va urg'u:

1. So'zlarning talaffuz qilinishi transkripsiya orqali o'rta qavs ichida ko'rsatilgan.

manly ['mænlɪ] *a* mard, botir, jasur, erkaklarcha

2. Transkripsiya qilingan paytda so'zning urg'usi ham ko'rsatilgan.

nippy ['nɪpɪ] *a* sovuq, juda sovuq

INGLIZCHA QISQARTMALAR

a	adjective	sifat
adv	adverb	ravish
attr.	attributive	aniqlovchi
cj.	conjunction	bog'lovchi
emph.	emphatic	kuchaytiruvchi
imp.	imperative	buyruq mayli
indef	indefinite	gumon
inf.	infinitive	infinitiv
int.	interjection	undov
n	noun	ot
num. card.	numeral cardinal	sanoq son
num. ord.	numeral ordinal	tartib son
p.p. of	past participle of	...ning o'tgan zamon sifatdosh shakli
part.	particle	yuklama
pass.	passive	majhul nisbat
past of	past of	...ning o'tgan zamon shakli
phr.	phraseology	frazeologiya
pl	plural	ko'plik
pl of	plural of	...ning ko'plik shakli
predic.	predicative	qo'shma kesimning ot qismi
pref.	prefix	prefiks
prep.	preposition	predlog
pres. p.	present participle	hozirgi zamon sifatdoshi
pron	pronoun	olmosh
pron. conj.	conjunctive pronoun	bog'lovchi olmosh
pron. def.	definite pronoun	belgilash olmoshi
pron. demonstr.	demonstrative pronoun	ko'rsatish olmoshi
pron. indef.	indefinite pronoun	gumon olmoshi
pron. neg.	negative pronoun	bo'lishsizlik olmoshi
pron. pers.	personal pronoun	kishilik olmoshi
pron. poss.	possessive pronoun	egalik olmoshi
pron. refl.	reflexive pronoun	o'zlik olmoshi
pron. rel.	relative pronoun	nisbiy olmoshlar
sing	singular	birlik shakl
smb.	somebody	biror kimsa
smth.	something	biror narsa
sl.	slang	jargon
v	verb	fe'l

O‘ZBEKCHA QISQARTMALAR

adab. adabiyotga oid atama
afs. afsona
ak. akustika
amer. amerikanizm
anat. anatomiyaga oid atama
antr. antropologiyaga oid atama
arab. arabcha
arxeol. arxeologiyaga oid atama
asal. asalchilikka oid atama
asos. asosan
astr. astronomiyaga oid atama
av. aviatsiyaga oid atama
avstral. Avstraliyaga oid
avt. avtomobil
b. boshqalar
bakt. bakteriologiya
bank. bank ishlariga oid atama
bibl. biblеizm
biol. biologiyaga oid atama
bol. bolalar tilida
bosm. bosmaxonaga oid atama
bot. botanikaga oid atama
bog‘. bog‘dorchilikka oid atama
deng. dengizchilikka oid atama
dial. dialektizm
din. dinga oid so‘z
dip. diplomatik atama
el. elektrotexnikaga oid atama
ent. entomologiya
erk. erkalashni ifodalovchi so‘z, ibora
esk. eskirgan so‘z, ibora
etn. etnografiya
evf. evfemizm
fals. falsafaga oid atama
farm. farmatsevtikaga oid atama
fiz. fizikaga oid atama
fiziol. fiziologiyaga oid atama
folk. folklor
fon. fonetika
fors. forscha
foto. fotosuratchilikka oid atama
fr. fransuzcha
geod. geodeziyaga oid atama
geogr. geografiyaga oid atama
geol. geologiyaga oid atama
geom. geometriyaga oid atama
gerald. geraldika, gerbshunoslik
gidr. gidrologiya, gidrotexnika
gram. grammatika
grek afs. grek afsonasi
harb. harbiy atama
hazil. hazilga oid so‘z
hind. hindcha
hisob. hisob-kitobga oid
h. k. hokazo
idiom. idioma
ingl. inglizcha
iqt. iqtisodga oid atama
irl. Irlandiyaga oid
ital. Italiyancha
jan. afr. Janubiy Afrikaga oid
jarg. jargon so‘z
kam. kam qo‘llaniladigan so‘z va ibora
kamsit. kamsitish
kanad. Kanadaga oid
kasb. kasbga oid atama
kim. kimyoga oid atama
kin. kinoya
kino. kinematografiya
kit. kitobiy uslub
komp. kompyuterga oid atama
konch. konchilikka oid atama
kriket. kriketga oid atama
kuch. kuchaytirma
ko‘ch. ko‘chma ma’no
lot. lotincha
makt. maktab
mant. mantiq
maq. maqol
mat. matematikaga oid atama
maxs. maxsus ibora
mens. mensimaslikni bildiradigan so‘z
metal. metallurgiyaga oid atama
meteor. meteorologiyaga oid atama
me’mor. me’morchilikka oid atama
mif. mifologiya
min. mineral
mol. moliyaga oid atama
mus. musiqaga oid atama
nafr. nafratlanish iborasi
nem. nemischa
odat. odatda
opt. optikaga oid atama
ov. ovchilikka oid atama
oshx. oshxona
paleont. paleontologiya
paz. pazandachilik
poligr. poligrafiyaga oid atama
psix. psixologiyaga oid atama
qadim. qadimgi
qart. qarta
qisq. qisqartma
qo‘pol. qo‘pol so‘z, ibora
qur. qurilishga oid atama
q.x. qishloq xo‘jaligiga oid atama
radio. radiotexnikaga oid atama
ras. rassomchilikka oid atama
rasm. rasmiy so‘z, ibora
rim. Rimga oid
rit. ritorik
ruh. ruhshunoslik
rus. ruscha
salb. salbiy
san. san’atga oid so‘z, ibora
siyos. siyosatga oid atama
sod. sodda til
sport. sportga oid so‘z, ibora
stil. stilistika
so‘zl. so‘zlashuv tilidagi so‘z, ibora
tar. tarixiy
teatr. teatrga oid atama
tel. telefon
telv. televideniyaga oid atama
tem. y. temiryo‘l transporti
tex. texnikaga oid atama
tib. tibbiyotga oid atama
tij. tijoratga oid atama
tilsh. tilshunoslikka oid atama
top. topografiyaga oid atama
turk. turkcha
to‘q. to‘qimachilik atamasi
tog‘. tog‘-konchilikka oid so‘z, ibora
to‘g‘r. so‘zning to‘g‘ri ma’nosi (*ko‘chma emas*)
univer. universitet
vengr. vengrcha
xitoy. xitoycha
yap. yaponcha
yun. yunoncha
yur. yuridik atama
yo‘l. yo‘l ishlari
zool. zoologiyaga oid atama
o‘rmon. o‘rmonchilikka oid atama
shaxm. shaxmatga oid atama
she’r. she’riyatga oid atama
sheva. shevaga oid so‘z
sh. k. shu kabilar
shoir. shoirona so‘z va ibora
shotl. shotlandcha
shun. shuningdek
cherk. cherkovga oid atama

INGLIZ ALIFBOSI

Aa	[eɪ]
Bb	[bi:]
Cc	[si:]
Dd	[di:]
Ee	[i:]
Ff	[ef]
Gg	[dʒi:]
Hh	[eɪtʃ]
Ii	[aɪ]
Jj	[dʒeɪ]
Kk	[keɪ]
Ll	[el]
Mm	[em]
Nn	[en]
Oo	[əʊ]
Pp	[pi:]
Qq	[kju:]
Rr	[ɑ:]
Ss	[es]
Tt	[ti:]
Uu	[ju:]
Vv	[vi:]
Ww	[ˊdʌblju:]
Xx	[eks]
Yy	[waɪ]
Zz	[zed]

O‘ZBEK ALIFBOSI

A a	a
Bb	be
Dd	de
Ee	e
Ff	ef
Gg	ge
Hh	he
Ii	i
Jj	je
Kk	ke
Ll	el
Mm	em
Nn	en
Oo	o
Pp	pe
Qq	qe
Rr	er
Ss	es
Tt	te
Uu	u
Vv	ve
Xx	xe
Yy	ye
Zz	ze
O‘o‘	o‘
G‘g‘	g‘e
Sh sh	she
Ch ch	che
Ng ng	nge
(’)	tutuq belgisi

A

A [eɪ] *n* 1) ingliz alifbosining birinchi harfi; **from ~ to Z** a) avvalidan (boshidan) oxirigacha; b) mukammal; **to know smth. from ~ to Z** biror narsani mukammal bilmoq; **not to know ~ from B** A bilan B ning farqiga bormaydigan; hech narsani bilmaydigan; 2) *mus.* lya; **~ sharp** lya-diez; **~ flat** lya-bemol; 3) *mat.* ko'plik belgisi (alomati, ishorasi); 4) birinchi, oliy, eng yuqori (nav, tur, sifat, daraja); 5) *amer.* a'lo, besh (*maktabdagi eng yuqori baho*); **to get an ~** besh baho olmoq; **straight ~** faqat „a'lo" (*Amerika maktablarida o'quvchilarning bilimlari olti balli tartibda baholanadi, eng yuqori baho A, eng past baho esa F hisoblanadi*); **to get straight A's** faqat a'lo baholarga o'qimoq; 6) *jam.* eng yuqori kasbiy mahorat; 7) Angliyada birinchi darajali yo'llar belgisi; 8) qonning A guruhi; 9) qog'oz o'lchami (o'lchovi)ning xalqaro belgisi; 10) a) **A1** [ˊeɪ ˊwʌn], *amer.* **A No1** [ˊeɪ ˊnʌmbə ˊwʌn] yangi yoki ta'mirdan chiqqan kema; b) *ko'ch.* birinchi darajali, eng yaxshi; a'lo darajadagi, ajoyib

a [eɪ] (urg'uli yoki to'liq shakli); [ə] (*urg'usiz yoki reduksiyaga uchragan shakli*) 1) *undosh tovush bilan boshlanadigan birlik sondagi sanaladigan otlardan oldin ishlatiladigan noaniq artikl bo'lib, quyidagi umumlashtiruvchi ma'nolarni beradi:* har qanday, har qanaqa, har bir, xohlagan, istagan, istalgan; 2) bir; **~ dozen eggs** bir dujina (12 dona) tuxum; **~ metre of fabric** bir metr gazlama; 3) a) miqdorni bildiruvchi quyidagi so'z va iboralardan oldin: **little, few, good many, great many; ~ little** ozgina, biroz, oz miqdorda, ko'p emas; **~ few stars** bir nechta yulduz; **~ great many years** ko'p yillar; b) **dozen** dujina (o'n ikki) va **score** yigirma so'zlaridan oldin; **half ~ dozen** yarim dujina (olti dona); **~ score of students** yigirmata talaba; 4) bir xil, baravar, teng, birdek, xuddi shunday; **all of ~ size** hammasi bir xil o'lchamda; **two at ~ time** ikkalasi bir paytda; 5) har, har bir, har qaysi; **a man has two ears** har bir odamning ikkita quloq'i bo'ladi; 6) muallif nomidan oldin kelib, „asar", „adabiyot" yoki „san'at" so'zlari o'rnida ishlatiladi; **~ Van Gogh** Van Gog asari; 7) qandaydir; **~ Mr. Black** qandaydir janob Blek degan kishi; 8) *atoqli otlardan oldin ishlatilib, uning qaysi oilaga mansubligini bildiradi*; 9) **many** *so'zidan keyin ishlatilib, otni ko'plik shaklga aylantiradi*: **many ~ man** ko'p odamlar; **many ~ book** ko'p kitoblar; **many ~ day** ko'p kunlar

aard-vark [ˊɑ:dvɑ:k] *n zool.* Afrika chumolixo'ri (*chalatishlilar turkumiga mansub sutemizuvchilar oilasiga kiruvchi hayvon*)

aard-wolf [ˊɑ:dwolf] *n zool.* yer bo'risi (*qorong'ida yaxshi ko'ra oladigan, sirtlonlar oilasiga mansub, asosan, termitlarni yeb kun kechiradigan qora yo'l-yo'l yoldor bo'ri*)

ab- [æb-] *pref.* bo'lishsiz shaklda ishlatiladigan prefiks, masalan: **abnormal** aqldan ozgan, esi past, tentak

aba [ˊɑ:bɔ, əˊbɑ:] *n arab.* 1) tuya yoki echkining junidan to'qilgan gazlama; 2) keng ustki kiyim

abac [əˊbæk] *n mat.* to'r shaklidagi (to'rsimon) nomogramma; nomogramma (*turli kattaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadigan va ularni topishni osonlashtiradigan grafik chizma*)

abaca [ˊæbəkə] *n* 1) *bot.* abaka daraxti *yoki* shu daraxtdan qilingan ip; 2) kanoptola; 3) *me'mor.* boshtirgak

abaci [ˊæbəkaɪ, ˊæbəsaɪ] *pl of* **abacus**

aback [əˊbæk] *adv esk.* 1) orqaga; 2) orqasidan; 3) orqasi bilan; **to hold oneself ~ from ...** ...dan o'zini uzoqda olib yurmoq, o'zini chetga olmoq, o'zini olib qochmoq; **to stand ~ from** ...dan o'zini olib qochmoq; **to take ~** hayratda qoldirmoq; **taken ~** hayratda qolgan

abacterial [ˌæbækˊtɪ(ə)rɪəl] *a* mikrobsiz, mikroblardan tozalangan; **~ cystitis** *tib.* mikroblardan tozalangan sistit (qovuqning yallig'lanishi)

abaction [æbˊækʃ(ə)n] *n yur.* katta o'g'irlik *yoki* molni o'g'irlash

abactor [əˊbæktə] *n* mol (chorva, hayvon) o'g'risi; ot o'g'risi

abaculus [əˊbækjʊləs] *n* marmar plita

abacus [ˊæbəkəs] *n* (*pl* **-ci, -ses** [-sɪz]) 1) *me'mor.* boshtirgak; ustunning tepa qismi; 2) *mat.* cho't, hisobcho't (*XVIII asrgacha Yunoniston, Qad. Rim, keyinchalik G'arbiy Yevropada arifmetik amallarni yechishda ishlatilgan hisob taxtakachi*); **to operate/to use an ~** cho'tda hisoblamoq, cho't qoqmoq, cho't solmoq; **~ ball** cho't tugmasi, cho't donasi; 3) *mat.* nomogramma (*turli kattaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadigan va ularni topishni osonlashtiradigan grafik chizma*)

Abaddon [əˊbædən] *n kit.* jahannam, do'zax

abaft [əˊbɑ:ft] **1.** *adv deng.* qayiq orqasidan, qayiq izidan; **2.** *prep.* orqasida(n), ketida(n); keyin; **~ the beam** traverz orqasidan (*traverz – kemaning yo'nalishiga perpendikular bo'lgan yon tomon*)

abandon [əˊbændən] **1.** *v* 1) bosh tortmoq; **they must ~ the idea** ular bu g'oyadan bosh tortishlari kerak; **to ~ a right** huquqdan bosh tortmoq; **to ~ a claim** da'vo (shikoyat, talab)dan bosh tortmoq; **to ~ call** suhbatdan bosh tortmoq; **to ~ mine** shaxtadan foydalanishni to'xtatmoq; **to ~ patent** patentdan bosh tortmoq; **to ~ take-off** uchish (parvoz qilish)ni to'xtatmoq; **to ~ theory** nazariyadan bosh tortmoq; 2) tashlab ketmoq; **to ~ ship** kemani tark etmoq; 3) adashtirmoq; 4) qoldirmoq; **2.** *n* 1) *esk.* erkinlik, bemalollik; 2) *kit.* odobsizlik, surbetlik; o'zini tuta olmaslik

abandoned [əˊbænd(ə)nd] *a* 1) tashlab (chiqib) ketilgan, tark etilgan; bosh tortgan, bahridan o'tgan, voz kechgan, qoldirilgan; tashlandiq, tashlab qo'yilgan, qarovsiz qolgan (qoldirilgan), qarovsiz qolib (qoldirilib) ketilgan; tashlandi; xaroba; **an ~ area** bekor yotgan (bo'sh, obod qilinmagan) yer; **an ~ child** tashlab ketilgan bola; **an ~ garden** tashlandiq bog', chaldivor; **an ~ house** tashlab ketilgan uy; **an ~ town** tashlab chiqib ketilgan shahar; **an ~ derrick** tashlab ketilgan burg'ilash minorasi; **~ property** egasiz mulk; **an ~ well** tashlab ketilgan quduq; **an ~ call** kechiktirilgan (qoldirilgan) telefon suhbati; 2) hurmatini (obro'sini) yo'qotgan, obro'sizlangan; buzuq, axloqsiz, badaxloq, sayoq; suyuqoyoq, fohishaboz, fohisha; **an ~ woman** buzuq ayol; **an ~ wretch** o'taketgan yaramas; 3) o'zini tuta (tiya) olmasdan qilingan, jahl bilan (qizishib) aytilgan, ixtiyorsiz, tiyiqsiz; to'xtatib (tiyib bo'lmaydigan); **~ hilarity** tiyiqsiz xursandchilik; **an ~ laugh** o'zini to'xtatib bo'lmaydigan kulgi; o'zini to'xtata olmay (tutolmay) kulish

abandonee [əˌbændɔˊni:] *n* kemani falokatdan sug'urta qilish

abandonment [əˊbændənmənt] *n* 1) qarovsiz qoldirib ketish; **an ~ job** tugatish ishlari (quduqda); 2) *yur.* bolasini *yoki* xotinini tashlab ketish; 3) qarovsiz qoldirganlik; yolg'izlik, kimsasizlik; 4) *yur.* voz kechish, bosh tortish (huquqdan, da'vodan); **an ~ application** birovning kuchidan (mehnatidan) foydalanishni to'xtatish haqidagi ariza

abarticulation [ə´bɑ:tikjʊ´leɪʃ(ə)n] *n* 1) toyish, chiqish; 2) chiqiq (*suyak chiqqan, toygan joy*)

à bas [ə´bɑ:] *int. fr.* bitsin! yo'qolsin! yo'qol!

abase [ə´beɪs] *v* 1) kamsitmoq; yerga (pastga) urmoq; **to ~ oneself** o'zini (kamsitmoq) yerga urmoq; 2) (*mansabdan*) tushirmoq

abasement [ə´beɪsmənt] *n* 1) kamsitish, yerga (pastga) urish; 2) (*mansabdan*) pasaytirish, tushirish; 3) tanazzul, zavol, inqiroz; 3) *tib.* pasayish, pastroq tushib qolish (*insonning biror-bir a'zosi haqida*); tushmoq, tushib ketmoq, to'kilmoq (*tish va b. haqida*)

abash [ə´bæʃ] *v* uyaltirmoq, uyaltirib qo'ymoq, uyatga qoldirmoq, xijolat qilmoq, xijolatda qoldirmoq, xijolatga (qo'ymoq) solmoq; o'ng'aysiz ahvolga solmoq, o'saf (izza) qilmoq; sarosimaga tushirmoq, dovdiratib (shoshiltirib, hovliqtirib) qo'ymoq

abashed [ə´bæʃt] *a* uyalib (uyatga) qolgan, xijil (o'sal) bo'lgan, xijolat (izza) tortgan, xijil, uyaltirilgan, xijolatda qolgan; **to feel/to be/to stand ~** sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq

abashment [ə´bæʃmənt] *n* 1) uyalib qolish, xijolat bo'lish, xijolat tortish; 2) sarosimaga tushish, dovdirash, shoshib (shoshilib, hovliqib) qolish; 3) sarosimalik, gangib (dovdirab, esankirab) qolish(lik), parishonlik

abasia [ə´beɪzɔ, ə´beɪzɪə] *n tib.* abaziya, yura olmaslik

abask [ə´bɑ:sk] *adv esk.* 1) quyoshda isinib; 2) *a. predic.* quyoshda yotgan

abatable [ə´beɪtəb(ə)l] *a yur.* bekor (yo'q) qilinadigan, kuchdan qoldiriladigan (*qonun, qaror, hukm va b.*); **the writ is thereby ~** shunday qilib qaror o'zgartirilishi (o'zgarishi) mumkin; **an ~ nuisance** bartaraf etsa bo'ladigan zarar (ziyon)

abate [ə´beɪt] *v* 1) kuchsizlantirmoq; pasaytirmoq; kamaytirmoq; **to ~ the pain** og'riqni pasaytirmoq; **to ~ pride** kekkayish (gerdayish)dan o'zini tiymoq; **to ~ noise** shovqinni pasaytirmoq; 2) (*umumiy miqdordan*) olib yoki chiqarib tashlamoq, kamaytirmoq, pasaytirmoq, tushirmoq; **to ~ a tax** soliqni kamaytirmoq; 3) o'tmas qilmoq (*uchni, tig'ni*); **to ~ the knife** pichoqni o'tmas qilib qo'ymoq; 3) *yur.* bekor qilmoq

abated [ə´beɪtɪd] *a* 1) ovozi pasaygan, ovozi o'chgan, tinchigan; 2) *ko'ch.* bosilgan, tinchigan, jim bo'lib qolgan; 3) *yur.* bekor qilingan, to'xtatilgan

abatement [ə´beɪtmənt] *n* 1) kuch-quvvatdan qolish, zaiflashish; **the ~ of noise** a) shovqin bilan kurashish; b) shovqinning pasayishi; 2) (*narxni, soliqni*) tushirish; **to make ~** narxni tushirish; **no ~ made** o'zgarmas narxda; **the ~ of tax** soliq chegirmasi; 3) *yur.* bekor qilish; **the ~ of action** sud ishini (jarayonini) to'xtatish

abatis [´æbətɪs, ´æbəti:] *n* ag'darilgan daraxtlardan qilingan to'siq, uyum, to'da, to'p

abat-jour [ˌɑ:bɑ:´ʒuə] *n fr. esk.* 1) lampa qalpog'i; 2) shiftdagi tuynuk; 3) shiftdagi tuynukdan keladigan yorug'lik

abator [ə´beɪtə] *n yur.* birovning merosi bo'lgan mulkni g'ayriqonuniy o'zlashtirib olgan kishi

abattis [´æbæti:, ´æbətɪs] = **abatis**

abattoir [´æbətwɑ:] *n fr.* qushxona, kushxona (*chorva mollarini so'yish, go'shti yog' tayyorlash bilan shug'ullanuvchi korxona*); sallohxona, mol so'yiladigan joy

abat-vent [ˌɑ:bɑ:´vɔ:ŋ] *n fr.* 1) jalyuza (*yog'och darparda va shu k.*); 2) bir tomoni qiya (nishab) tom; 3) mo'rining qalpog'i

abatvoix [ˌɑ:bɑ:´vwɑ:] *n maxs.* akustik ekran

Abazin [´æbəzɪn] *n* 1) abaza, abaza ayol; 2) abaza (*Qorachoy-Cherkas va Adigeya avtonom viloyatlari aholisining bir qismini tashkil etuvchi xalq*) tili

abb [æb] *n to'q.* arqoq (*gazlamaning o'rishi bilan ko'ndalangiga kesishuvchi iplari*)

abba [ə´bɑ:] = **aba**

abbacinare [´æbəsɪ´neə] *v yur.* tan jazosi; jismoniy jazo

abbacy [´æbəsɪ] *n* abbatlik unvoni, abbatlik

abbatial [ə´beɪʃ(ə)l] *a* abbatga oid, abbat...

abbé [´æbeɪ] *n fr.* 1) abbat; 2) ruhoniylarga mansub bo'lgan har bir kishi, har bir ruhoniy

Abbe [æbeɪ] *n nem. fiz.* Abbe (*Mikroskop nazariyasini yaratgan, ko'pgina optik asboblar yasagan nemis fizik olimi*); **~ condenser** Abbe kondensori (*optik asboblarda yorug'lik oqimini konsentratsiyalash va barcha tasvir maydonini bir tekisda yoritish uchun foydalaniladigan qisqa fokusli linza*); **~ theory** Abbe nazariyasi (*tasvir nazariyasi*); **~ value** Abbe soni (*dispersiya (yoyilish, ajralish; yoyish, ajratish; mayda zarralarga bo'lish, bo'linish) koeffitsiyenti*)

abbess [´æbes] *n* abbatisa (*katolik ayollar monastirining boshlig'i*); rohiba

abbey [´æbɪ] *n* 1) abbatlik (*katoliklar monastiri va unga qarashli joy-mulk*), monastir; **~ lubber** tekinxo'r; 2) monastirlik (*monastir va unga qarashli yer-mulk*); 3) *so'zl.* **the Abbey** Vestminstr abbatligi

abbot [´æbət] *n* abbat (*1. katolik erkaklar monastirining boshlig'i; 2. Fransiyada: katoliklar ruhoniysi*)

abbotcy [´æbətsɪ] = **abbacy**

abbotship [´æbətʃɪp] = **abbacy**

abbreviate [ə´bri:vɪeɪt] *v* qisqartmoq, qisqartirmoq, kamaytirmoq, kichraytirmoq, ozaytirmoq, qisqaroq (kichikroq, ozroq) qilmoq (*matn, vaqt va b.*); **to ~ notation** *mat.* belgi (alomat, ishora)ni qisqartirmoq; **to ~ to...** ...gacha qisqartirmoq

abbreviated [ə´bri:vɪeɪtɪd] *a* qisqartirilgan, qisqaroq (kaltaroq) qilingan, qisqacha, qisqa, kalta; **~ partly** qisman qisqartirilgan; **an ~ edition** qisqartirilgan nashr; **~ trousers** kaltaroq qilingan shim; **an ~ address** qisqartirilgan adres; **an ~ call** *tel.* qisqartirilgan raqamlar majmuyi; **an ~ calling** qisqartirilgan kod bilan chaqirish; **an ~ dialling** qisqartirilgan raqamlar majmuyi; **an ~ method** *mat.* qisqartirilgan usul (yo'l); **an ~ model** *mat.* qisqartirilgan model

abbreviation [əˌbri:vɪ´eɪʃ(ə)n] *n* qisqartirish; qisqartma

abbreviature [ə´bri:vɪeɪtʃə] *n* 1) qisqartirish, ixchamlashtirish; 2) qisqartirilgan hikoya

ABC [ˌeɪbi:´si:] *n* 1) alifbo; **~ book** alifbe kitobi; 2) asos, negiz; **the ~ of Uzbek Grammar** o'zbek tili grammatikasining asoslari; **as easy (yoki simple) as ~** juda oson

ABC Powers [ˌeɪbi:´si:ˌpaʊəz] *n* Argentina, Braziliya, Chili

abdicate [´æbdɪkeɪt] *v* 1) kechmoq, voz kechmoq, yuz o'girmoq, bahridan o'tmoq, o'zini mahrum qilmoq (*taxtdan, hokimiyatdan, o'z huquqidan* **~ from**); 2) *yur.* bolasidan voz kechmoq

abdication [ˌæbdɪ´keɪʃ(ə)n] *n* kechish, voz kechish, yuz o'girish, bahridan o'tish, o'zini mahrum qilish (*nimadandir*)

abdicant [´æbdɪkənt] *a* voz kechgan, tongan, yuz o'girgan, bahridan o'tgan

abdomen [´æbdəmən, əb´dəʊmən] *n* 1) *anat.* qorin, qorin bo'shlig'i; **a pendulous ~** osilgan (*osilib tushgan*) qorin; **a protuberant ~** bo'rtib chiqqan qorin; **a retracted ~** ichiga kirgan qorin; 2) *zool.* qorin (*qushlarda*)

abdominal [æb´dɒmɪn(ə)l] *a anat.* qoringa oid, qorin...; **an ~ pain** qorin og'rig'i; **an ~ cavity** qorin bo'shlig'i;

an ~ pregnancy bachadondan tashqari homila; **an ~ belt** beldamcha, qorinbog'; **an ~ wound** qorindagi (*oshqozondagi*) jarohat

abdominous [æb ´dɒmɪnəs] *a* semiz, yo'g'on, qorni katta

abducent [æb´dju:s(ə)nt] *a anat.* ajratadigan (*muskullar to'g'risida*)

abduct [æb ´dʌkt, əb ´dʌkt] *v* (*zo'rlab, majburan*) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, olib qochmoq (*from*); **to ~ a child from its home** bolani uyidan olib qochmoq

abduction [æb´dʌkʃ(ə)n, əb´dʌkʃ(ə)n] *n* (*zo'rlab, majburan*) o'g'irlash, o'g'irlab ketish; olib qochish (*asosan, bolalar va ayollarni*); **~ by fraud** birovni aldov yo'li bilan olib qochish; **~ by open violence** birovni ochiqdan ochiq kuch ishlatib olib qochish; **forcible ~** kuch ishlatib olib qochish; **fraudable ~** aldab olib qochish; **violent ~** kuch ishlatib (zo'rlab, majburan) olib qochish

abductor [æb´dʌktə] *n* o'g'ri, o'g'irlovchi; olibqochar (*asosan, bolalar va ayollarni*)

Abe [eɪb] *n* Eyb; **honest** (*yoki* **old**) **~** *amer.* vijdonli (*yoki* qariya) Eyb (*prezident Avraam Linkolnning laqabi*)

abeam [ə´bi:m] *adv deng.* kemaning izidan, orqasidan

abear [ə´beə] *v* toqat qilmoq, chidamoq, bardosh bermoq, ko'tarmoq

abecedarian [ˌeɪbi(:)si(:)´de(ə)rɪən] **1.** *a* 1) alifbo tartibida joylashtirilgan; 2) oddiy, sodda; **2.** *n* savod o'rgatadigan, o'qituvchi

abed [ə´bed] *adv* 1) ko'rpa-to'shakda; karavotda; 2) ko'rpa-to'shakka, karavotga; 3) ko'rpa-to'shakka mixlanib qolgan, kasal, bemor; xasta, betob, nosog'; **~ with gout** podagra (*nodda almashinuvining buzilishi tufayli yuz beradigan, bo'g'inlarni, mas., barmoqlarni qizishganday zirqiratib og'ritadigan kasallik*) bilan og'rib ko'rpa-to'shakka mixlanib qolgan

abele [ə´bi:l, ´eɪb(ə)l] *n bot.* oq terak

abend [ə´bend] *n komp.* (*abnormal end*) g'ayritabiiy natija (*kompyuterga berilgan topshiriq bajarilayotganda dastur yoki kompyuter tizimidagi mavjud xato tufayli avtomatik ravishda yuz beradigan to'xtalish*)

aberdevine [ˌæbədə´vaɪn] *n zool.* tog'-chumchuq (*modasi*)

aberrance, -cy [æ´berəns, ə´berəns, -sɪ] *n* 1) to'g'ri yo'ldan chiqish; 2) *biol.* normal turdan chetga chiqish

aberrant [æ´berənt, ə´berənt] *a* 1) adashgan, adashib qolgan, yo'lini yo'qotib qo'ygan; 2) og'gan, chetga chiqqan, burilib ketgan; **a plane on an ~ course** belgilangan yo'ldan chetga chiqib ketgan samolyot

aberration [ˌæbə´reɪʃ(ə)n] *n* adashish, adashib qolish, yo'lini yo'qotish

abet [ə´bet] *v* yomon ishga undamoq **(in)**; **to ~ smb. in a crime** *yur.* kimnidir jinoyat sodir etishga undamoq

abetment [ə´betmənt] *n* ig'vo, fitna

abetter [ə´bɒtə] *n* 1) sherik; 2) g'iybatchi, g'alamis, fitnachi

abetting [ə´betɪŋ] *n yur.* birga qatnashish, aralashish

abettor [ə´betə] = **abetter**

ab extra [ˌæb´ekstrə] *lot.* 1) tashqaridan, sirtdan, tashqari (sirt) tomondan; 2) tashqarisi, tashqari tomoni, sirti; 3) tashqari tomonini, sirtini

abeyance, -cy [ə´beɪəns, -sɪ] *n* 1) noma'lum, mavhum holat; 2) *yur.* vaqtincha amalda bo'lmaslik, vaqtincha bekor qilinish (*qonun, huquq*); **this rule has fallen into ~** bu qonun eskirgan (boshqa amal qilmaydi); **in ~** a) mavhum, kutish holatida; b) egasiz (*meros to'g'risida*); d) vaqtincha bekor qilingan (*qonun to'g'risida*)

abeyant [ə´beɪənt] *a yur.* 1) faoliyatsiz, amal qilmayotgan, amalda bo'lmagan, o'z kuchini yo'qotgan; 2) egasiz bo'lib qolgan

abhor [əb´(h)ɔ:] *v* 1) juda yomon ko'rmoq; nafrat bilan qaramoq; 2) *so'zl.* toqat qila olmaslik; yoqtirmaslik; **my son ~s being idle** o'g'lim bekor yurishni yoqtirmaydi

abhorrence [əb´(h)ɒrəns] *n* jirkanish, nafratlanish, yomon ko'rish; **to hold in ~** nafratlanmoq, jirkanmoq

abhorrent [əb´(h)ɒrənt] *a* 1) nafrat uyg'otadigan; **an ~ deed** qabih harakat, yaramas ish; 2) birga yashay olmaydigan, birga bo'lolmaydigan (**to** *bilan*)

abidance [ə´baɪd(ə)ns] *n* rioya qilish (*nimagadir*); **~ by rules** qoidalarga rioya qilish

abidden [ə´bɪdn] *p. p. of* **abide**

abide [ə´baɪd] *v* (**abode, abided, abidden**) 1) chidamli (pishiq) bo'lmoq; buzilmas bo'lib qolmoq; 2) yashamoq; umr ko'rmoq, istiqomat qilmoq; **to ~ at** biror joyda (istiqomat qilmoq) yashamoq; **to ~ by** sodiq bo'lib qolmoq; rioya qilmoq; amal qilmoq; **to ~ by one's promises** so'zining (va'dasining) ustidan chiqmoq; **to ~ in** biror joyda (istiqomat qilmoq) yashamoq; **to ~ with** kim bilandir qolmoq

abider [ə´baɪdə] *n esk.* yashovchi (turuvchi, istiqomat qiluvchi) kishi

abiding [ə´baɪdɪŋ] *a* doimiy, o'zgarmas, abadiy, mustahkam; **~ friendship** mustahkam do'stlik

abiding-place [ə´baɪdɪŋˌpleɪs] *n* turar (yashash) joy, yashaydigan (istiqomat qiladigan) joy

abietene [ˈæbɪətiːn] *n kim.* abietin, ignabargli daraxt moyi

abigail [ˈæbɪgeɪl] *n esk.* xizmatkor, cho'ri, oqsoch (*boylar xonadonida*)

abilitate [ə´bɪlɪteɪt] *esk.* = **habilitate**

ability [ə ´bɪlɪtɪ] *n* qobiliyat, iste'dod, mahorat; **(at, in; to+inf.)**; **the ~ to hear** eshitish qobiliyati; **the ~ to pay** to'lashga qodirlik; **inborn (innatenatural) ~** tug'ma qobiliyat (talant); **negotiation ~** to'siqlarni yengish qobiliyati; **spring ~** sakrash qobiliyati; **the ~ to read** o'qish qobiliyati

ab initio [ˌæbɪ´nɪʃɪəʊ] *lot.* avvaliga, avvalida, boshida

abintestate [ˌæbɪn´testɪt] *n yur.* qonuniy merosxo'r

ab intra [ˌæb´ɪntrə] *adv lot.* ichdan, ichkaridan, ichki tomondan

abiological [ˌæbaɪə´lɒdʒɪk(ə)l] *a* biologiyaga oid bo'lmagan

abiotic [ˌæbaɪ´ɒtɪk] *a maxs.* jonsiz, noorganik; **an ~ environment** atrofni o'rab olgan jonsiz narsalar, jonsiz muhit; **~ waste** organik bo'lmagan chiqindilar

abirritate [æ´bɪrɪteɪt] *v tib.* tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin (orom) bermoq, xotirjam qilmoq, asabiylashishni pasaytirmoq

abirritation [æˌbɪrɪ´teɪʃ(ə)n] *n tib.* tinchitish, tinchlantirish, yupatish, ovutish, taskin (orom) berish, xotirjam qilish, asabiylashishni pasaytirish

abisher [ə´bɪʃə] *v* musodara va jarimadan ozod qilmoq

abishered [ə´bɪʃəd] *a* musodara va jarimadan ozod qilingan

abject [ˈæbdʒekt] *a* 1) ayanchli, qabih, yaramas, pastkash, razil; past; **an ~ coward** manfur, qo'rqoq odam; 2) xo'rlangan, haqoratlangan, kamsitilgan; 3) juda, o'taketgan, g'oyat; **in ~ poverty** juda nochor ahvolda; **~ failure** butunlay barbod bo'lish; **~ despair** juda ham mushkul ahvol

abjection [æb ´dʒekʃ(ə)n] *n* 1) past, xarob, g'arib; 2) kamsitish, pastga urish

abjudge [æb´dʒʌdʒ] *v yur.* mahrum qilmoq, sud orqali tortib olmoq

abjuration [ˌæbdʒ´reɪʃ(ə)n] *n* voz kechish, yuz o'girish

abjure [əb´dʒʊə] *v* yuz o'girmoq, voz kechmoq; **to ~ one's religion** o'z dinidan yuz o'girmoq

ablactation [ˌæbləkˈteɪʃ(ə)n] *n* ko'kragidan (bag'ridan) tortib olish (*bolani*), ko'krak sutidan ajratish

ablate [əˈbleɪt] *v tib.* olib tashlamoq; kesib tashlamoq; ajratib olib tashlamoq

ablation [əˈbleɪʃ(ə)n] *n* 1) *jarg.* olib tashlash, kesib tashlash; 2) *geol.* jinslarning yuvilishi, muzlarning erishi

ablatitious [ˌæbləˈtɪʃəs] *a maxs.* ozaytiradigan, kamaytiradigan, pasaytiradigan, sekinlatadigan

ablative [ˈæbləɪtɪv] *n gram.* o'rin-payt kelishigi

ablator [əˈbleɪtə] *n tib.* amputatsiya (kesish) uchun ishlatiladigan asbob

ablaut [ˈæblaʊt] *n tilsh.* ablaut (*o'zgaruvchan unli*)

ablaze [əˈbleɪz] 1. *a; predic.* yonayotgan, chaqnayotgan; **to be ~** porlamoq; **to set smth. ~** nimagadir o't qo'yib yubormoq, nimanidir yondirib yubormoq; 2. *adv* o'tda, olovda

able [ˈeɪb(ə)l] *a* qobiliyatli, mohir; **to be ~ to...** qo'lidan kelmoq; **~ to meet competition** raqobatlasha oladigan; **~ to pay** to'lashga qurbi yetadigan; **~ to perform a contract** shartnomani bajarishga qurbi yetadigan

able-bodied [ˌeɪb(ə)lˈbɒdɪd] *a* chidamli, baquvvat, sog'lom, yaroqli (*harbiy xizmatga*)

ablegate [ˈæblɪgeɪt] *n* legat (*Rim papasining diplomatik vakili*)

ablen [ˈæblɪn] = **ablet**

ablet [ˈæblɪt] *n zool.* zog'orabaliq

ablin(g)s [ˈeɪblɪnz] *adv shotl.* ehtimol, balki, bo'lishi mumkin

abloom [əˈbluːm] *adv* gulli, gullagan; **gardens ~ with roses** atirgullar ochilib turgan bog'lar

abluent [ˈæbluənt] *a tib.* tozalaydigan, tozalovchi

ablush [əˈblʌʃ] *a* uyaltirilgan, qizargan

ablution [əˈbluːʃ(ə)n] *n* 1) tahorat; 2) tahorat suvi; 3) *tex.* yuvish

ably [ˈeɪblɪ] *adv* mohirlik bilan, mahorat bilan, mohirona

abnegate [ˈæbnɪgeɪt] *v* 1) (*biror narsadan*) bosh tortmoq; 2) rad qilmoq

abnegation [ˌæbnɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* 1) inkor etish; 2) bahridan o'tish, voz kechish

abnodate [ˈæbnədeɪt] *v q.x.* daraxtlarning shox-butoqlarini qirqib tashlamoq

abnormal [æbˈnɔːm(ə)l] *a* 1) normaga (me'yorga, tabiiy holatga, odatdagiga) to'g'ri kelmaydigan; g'ayritabiiy; 2) telba, devona; **~ psychology** psixopatologiya (*ruhiy kasalliklarni o'rganish va davolash haqidagi umumiy ta'limot*)

abnormality [ˌæbnɔːˈmælɪtɪ] *n* 1) g'ayritabiiylik; noto'g'rilik; xatolik, g'alatilik; **reversive abnormalities** asl holiga kela oladigan o'zgarishlar; 2) *so'zl.* esi pastlik, tentaklik

abnormity [æbˈnɔːmɪtɪ] = **abnormality**

Abo [ˈæbəʊ] *n* (**Aborigine** *so'zining qisqartmasi*) *avstral. so'zl.* mahalliy kishi

aboard [əˈbɔːd] *adv* 1) kemada; 2) kemaga; **to take goods ~** kemaga yuklarni yuklamoq; **to (get) step ~** kemaga (samolyotga) o'tirmoq

abode [əˈbəʊd] *n* 1) manzil, maskan; **a mean ~** faqirona kulba; 2) turar joy, yashaydigan (istiqomat qiladigan) joy; **to take up one's ~** ko'chib kelib (borib) joylashmoq; **of no fixed ~, (with no fixed ~)** doimiy (ma'lum) yashash joyi bo'lmagan; **the ~ of the spirits** narigi dunyo

abolish [əˈbɒlɪʃ] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, tugatmoq; **to ~ taxes** soliqni bekor qilmoq; **to ~ a duty** bojni bekor qilmoq

abolishment [əˈbɒlɪʃmənt] *n* o'zgartirish, bekor qilish, yo'q qilish, yo'qotish

abolition [ˌæbəʊˈlɪʃ(ə)n] *n* bekor qilish, yo'q qilish, tugatish (*shartnoma, qonun va b.*); **the ~ of capital punishment** o'lim jazosini bekor qilish

abolitionary [ˌæbəˈlɪʃən(ə)rɪ] *a* halokatli; buzadigan, buzuvchi

abolitionism [ˌæbəʊˈlɪʃ(ə)nɪz(ə)m] *n amer. tar.* abolitsionizm (*biror qonunni yo'q qilish uchun biror jamiyatning qiladigan harakati*)

abolitionist [ˌæbəʊˈlɪʃ(ə)nɪst] *n* 1) (*qonun va b. ni*) bekor qilish tarafdori bo'lgan kishi; 2) *amer. tar.* abolistionizm (*biror qonunga barham berish uchun qilinadigan ijtimoiy harakat*) tarafdori

abolitionize [ˌæbəˈlɪʃ(ə)naɪz] *v amer. tar.* abolitsionizmni targ'ibot qilmoq

abomasum [ˌæbəˈmeɪs(ə)m] *n anat.* shirdon (*kavsh qaytaruvchi hayvonlar me'dasining bir bo'limi*)

abomasus [ˌæbəˈmeɪsəs] = **abomasum**

A-bomb [ˈeɪbɒm] *n* atom bombasi; **an ~ burst** atom bombasining portlashi; **an ~ explosion** atom bombasining portlashi; **an ~er** atom bombasini tashlovchi samolyot

abominable [əˈbɒmɪnəb(ə)l] *a* 1) jirkanch, qabih, yoqimsiz, juda yomon, juda xunuk, nafratni qo'zg'aydigan, jirkantiradigan; 2) yaramas, juda yomon; **the ~ weather** juda yomon ob-havo

abominably [əˈbɒmɪnəblɪ] *adv* kir (iflos) qilib, iflos holda

abominate [əˈbɒmɪneɪt] *v* nafratlanmoq, jirkanmoq

abomination [əˌbɒmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* nafratlanish, yomon ko'z bilan qarash; **to hold in ~** nafrat bilan qarash

à bon marché [ɑːˌbɒŋmɑːˈʃeɪ] *adv fr.* arzon, arzimagan narxda; tekindek, suvtekin

aboriginal [ˌæbəˈrɪdʒ(e)nəl] 1. *a* 1) tub joylik; mahalliy; 2) tabiiy holicha saqlangan, tabiiy holatdagi, qo'l tegmagan; **~ forests** haligacha inson qo'li tegmagan o'rmonlar; 2. *n* tub joyli kishi

aborigine [ˌæbəˈrɪdʒɪnɪ(:)] *n* mahalliy kishi

aborigines [ˌæbəˈrɪdʒɪniːz] *n pl* mahalliylar, tubjoyliklar, qadimgilar, muqimlar, mahalliy xalqlar

abort [əˈbɔːt] *v* 1) bola tashlamoq; 2) baxtsizlikka uchramoq; **our plans ~ed** rejalarimiz barbod bo'ldi (amalga oshmadi); 3) *komp.* kompyuterga berilgan topshiriq bajarilayotganda mutaxassis tomonidan yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash maqsadida jarayonni to'xtatmoq

aborted [əˈbɔːtɪd] *a* 1) chala tug'ilgan; 2) *biol.* yaxshi rivojlanmagan; 3) to'xtatilgan, qoldirilgan; **~ escape** sindirilgan novda; **~ attempt** muvaffaqiyatsiz urinish

abortion [əˈbɔːʃ(ə)n] *n* 1) oldindan homilador bo'lishni to'xtatish, homiladorlikning oldini olish, homiladorlikni to'xtatish, bolani sun'iy yo'l bilan olib tashlash, bola tashlash; **accidental ~** shikastlanish natijasida g'ayriixtiyoriy bola tashlash; **natural ~, spontaneous ~** g'ayriixtiyoriy bola tashlash; **criminal ~, illegal ~** maxfiy ravishda (yashirin tarzda) bolani sun'iy yo'l bilan olib tashlash; **justifiable ~, legalized ~, legal ~** qandaydir jiddiy sabablarga ko'ra tibbiyot xodimlari tomonidan qonuniy tarzda bolani sun'iy yo'l bilan olib tashlash; 2) nogiron; 3) falokat, ish o'ngmasligi, muvaffaqiyatsizlik; 4) *biol.* biror a'zoning yaxshi rivojlanmaganligi; 5) chetga chiqish hodisasi

abortionist [əˈbɔːʃ(ə)nɪst] *n* maxfiy doya

abortive [əˈbɔːtɪv] *a* 1) bevaqt, vaqtidan ilgari (*tug'ish haqida*); 2) badbaxt, baxtsiz, tug'maydigan; 3) *biol.* chala, chala tug'ilgan; 4) natijasiz, befoyda; **an ~ attempt** befoyda urinish; 5) amalga oshmaydigan; **an ~ scheme** amalga oshmaydigan reja; **to be ~** o'ngmaslik, o'ngidan kelmaslik, muvaffaqiyatsiz chiqmoq

abortively [əˈbɔːtɪvlɪ] *adv* samarasiz, behuda, foydasiz

abound [ə´baund] *v* 1) mo'l bo'lmoq, ko'paymoq; **fish ~ in the sea** dengizda baliqlar ko'p; 2) (**in, with**) serob bo'lmoq; **land ~s in oil** yerda neft ko'p

about [ə´baut] **1.** *adv* 1) tevaragida, atrofida, hamma yerda, har yerda, barcha joylarda; **to look ~** atrofga nazar solmoq; **to worry ~** -dan tashvishlanmoq; **don't leave the papers ~** qog'ozlarni tashlamang! 2) taxminan, yaqin: **a woman ~ fifty (years old)** taxminan ellik yoshlardagi ayol; **2.** *prep.* to'g'risida, haqida, xususida; **to be ~ to** qilmoqchi bo'lmoq; otlanmoq; **a book ~ travels** sayohatlar haqidagi kitob; **to bring ~** biror natijaga olib kelmoq, sabab bo'lmoq

about-face [ə,baut´feis] **1.** *n* orqaga burilish, orqaga aylanish, orqaga qaytish; **2.** *v* orqaga qaytmoq, orqaga burilmoq, orqaga aylanmoq; **he did a complete ~** u yo'lni tubdan o'zgartirdi

about-sledge [ə´bautsledʒ] *n* bosqon, temirchining to'qmog'i

above [ə´bʌv] **1.** *adv* ustida, ustiga, yuqorida; **my room is just ~** mening xonam yuqorida; **as stated ~** yuqorida aytib o'tilganidek; **2.** *prep.* ustida, yuqori; **~ all (things)** eng avval (oldin, ilgari), hammadan avval, birinchi navbatda; eng muhimi; asosan, xususan; **be get** (*yoki* **to rise**) **~ oneself** 1) o'zini katta tutmoq (olmoq), gerdaymoq, kekkaymoq, kibrlanmoq, kattakonlik (kattalik) qilmoq, manmanlik qilmoq, dimog'i shishmoq, o'ziga ishonib ketmoq; = burni (dimog'i) ko'tarilmoq; 2) itoatdan bosh tortmoq, amridan chiqmoq, o'zboshimcha bo'lib (qo'ldan chiqib) ketmoq

above-board [ə,bʌv´bɔ:d] **1.** *a* halol, vijdonli, to'g'riso'z; **2.** *adv* insof bilan, to'g'rilik bilan

above-ground [ə,bʌv´graund] **1.** *a* 1) tirik, yashab yurgan; 2) yer ustidagi (yuzidagi); **2.** *adv* tiriklayin

above-mentioned [ə,bʌv´menʃ(ə)nd] *a* yuqorida aytilgan; **the ~ story** yuqorida aytilgan hikoya

abovesaid [ə,bʌv´sed] *esk.* = **above-mentioned**

above-water [ə´bʌv,wɔ:tə] *a* suv ustidagi

ab ovo [æb ´əuvəu] *lot.* eng boshidan (avvalidan); **~ usque ad mala** boshidan oxirigacha

abracadabra [,æbrəkə´dæbrə] **1.** *n* safsata, bema'ni gap; **2.** *v* 1) duo qilmoq; 2) bema'ni (bemaza) gaplarni gapirmoq

abradant [ə´breidənt] **1.** *n tex.* abraziv material (*charxlash, silliqlash asboblari uchun ishlatiladigan mayda donador qattiq material*); **2.** *a tex.* (*metall, oyna, yog'och va sh. k. ning yuzini silliqlash, jilolash, pardozlash, shuningdek, asboblarni charxlash uchun ishlatiladigan*) abraziv

abrade [ə´breid] *v* 1) yuvmoq, ishqalab yirtmoq; 2) uzib olmoq, yulib tashlamoq, shilib olmoq (*terini, po'stni, charmni*); 3) *tex.* silliqlamoq

abrading [ə´breidiŋ] *n maxs.* 1) yeyilish; 2) yer (tuproq)ning yemirilishi (*yer qobig'ining turli ta'sirlar ostida parchalanishi*)

Abraham-man [´eibrəhæm,mæn] *n* (*pl* **-men** [-men]) *tar.* sadaqa bilan hayot kechiradigan uy-joysiz daydi kishi

abranchial [ə´brænkiəl] = **abranchiate**

abranchiate [ə´brænkiit] *a zool.* oyquloqsiz (*oyquloq – suv hayvonlarining nafas organlari*)

abrase [ə´breis] *v* shilmoq, shilib olmoq, ajratmoq (terini); 2) *tex.* silliqlamoq, tarashlamoq, ishlov bermoq; pardoz (jilo) bermoq, sayqallamoq

abrasion [ə´breiʒ(ə)n] *n* 1) ishqalash, ishqalab yo'qotish; 2) shilingan (timdalangan, sidirilgan, qirilgan) joy, chaqa (*badanda*); **~ on one's knee** tizzaning shilingan (sidirilib ketgan, chaqa bo'lgan) joyi

abrasive [ə´breisiv] **1.** *a tex.* pardoz beradigan; **2.** *n tex.* pardoz beradigan material

abraxas [ə´bræksəs] *n* 1) afsun, jodu, sehr, duo, kuf-suf; 2) tumor yoki tumor o'rnida taqib yuriladigan narsa

abreast [ə´brest] *adv* qatorda, bir safda; **three ~** bir safda uchtadan; **to stay ~ of a runner** yugurayotgan kishidan orqada qolib ketmaslik

abridge [ə´bridʒ] *v* qisqartmoq, qisqartirmoq, kichraytirmoq, kamaytirmoq; **to ~ the labour** mehnat xarajatlarini qisqartirmoq

abridged [ə´bridʒd] *a* qisqartirilgan; **an ~ edition** qisqartirilgan nashr; **~ accounts** qisqartirilgan hisobotlar; **an ~ form** qisqartirilgan shakl; **an ~ method** qisqartirilgan metod; **an ~ notation** qisqartirilgan yozuv; **an ~ system** *mat.* qisqartirilgan sistema (tizim)

abridgement [ə´bridʒmənt] *n* 1) qisqartirish; **this article requires no ~** bu maqolani qisqartirish shart emas; **the ~ of table** jadvalni qisqartirish; 2) qisqartirilgan matn; 3) (*huquq va b.*) cheklash

abridgment [ə´bridʒmənt] = **abridgement**

abroach [ə ´brəutʃ] *adv esk.* harakatdagi, yurib turgan

abroad [ə´brɔ:d] **1.** *adv* chet elga, chet elda; **at home and ~** vatanda va chet elda; **during my residence ~** men chet elda yashab yurgan paytlarimda; **to be ordered ~** chet elga jo'natilmoq; **to get smth. from ~** chet eldan nimadir olmoq; **to go ~** chet elga (xorijiy mamlakatlarga) bormoq; **to come from ~** chet eldan kelmoq; **to live ~** chet elda yashamoq; **to serve ~** chet elda xizmat qilmoq; **to travel ~** chet elga sayohat qilmoq; **2.** *prep. esk.* har yerda; **~ the world** butun dunyoda; **to noise ~** mish-mish tarqatmoq

abrogate [´æbrəgeit] *v* (*qonun va b. ni*) o'zgartirmoq, bekor qilmoq; **to ~ a constitution** qonunni o'zgartirmoq, qonunni bekor qilmoq

abrogation [,æbrəu´geiʃ(ə)n] *n* bekor qilish, kuchini yo'qotish; (*qonun va b. ni*) o'zgartirish

abrupt [ə´brʌpt] *a* 1) kutilmagan, tasodifiy; **an ~ turn** kutilmagan burilish; 2) tik jarlik, tik kesilib tushgan; **an ~ coast** tik qirg'oq, tik jarlik

abruption [ə´brʌpʃ(ə)n] *n* 1) yoriq, yorilgan joy, ajratish, ayirish, bir-biridan judo qilish, uzib qo'yish, yulib ajratmoq, kuch bilan ajratmoq; 2) *geol.* balandlikka chiqish (*qatlam*)

abruptness [ə´brʌptnəs] *n* kutilmaganlik; nogahoniylik

abscess [´æbsis] *n tib.* yiringlash, chipqon, yiringli shish; **to lance an ~** yiring boylagan yarani ochmoq

abscis [´æbsis] = **abscissa**

abscissa [æb´sisə] *n mat.* abssissa (*nuqtaning tekislikdagi yoki fazodagi vaziyatini aniqlovchi koordinatalardan biri*)

abscissae [æb´sisi(:)] *pl of* **abscissa**

abscisse [´æbsis] = **abscissa**

abscission [æb´siʃ(ə)n] *n* 1) *tib.* kesib tashlash; 2) *bot.* ajralib tushish; **the ~ of leaves** daraxtlardagi barglarning yerga tushishi; **~ fruits** mevalarning (*pishgandan keyin yoki shamol natijasida*) daraxtlardan yerga tushishi

abscond [əb ´skɔnd] *v kit.* yashirinmoq; (*suddan*) qochib ketmoq (**from, with**)

absence [´æbs(ə)ns] *n* ishtirok etmaslik; vaqtincha qatnashmaslik (**from**); **~ from school** maktabga bormaslik; **~ from work** ishdan qolish; **sickness ~** kasallik tufayli ishga chiqmaslik; **~ makes the heart grow fonder** *maq.* (firoq yuraklarda muhabbatni kuchaytiradi) yolg'izlikda yor yaxshi; **the ~ of mind** parishonxotirlik, fikri tarqoqlik; **to be conspicuous by its ~** jo'rttaga (atayin) kelmay o'zini ko'rsatish

absent ['æbs(ə)nt] **1.** *a* kelmagan kishi; **to be ~** yo'q bo'lmoq; **to be ~ from school** (*maktabdagi*) darslarni qoldirmoq; **who is ~ today?** bugun kim yo'q? **the ~ are always (in the) wrong** *maq.* (davrada yo'q doim aybdor), o'zi yo'qning ko'zi yo'q; **2.** *v* kelmay qolmoq, yo'q bo'lmoq

absentee [ˌæbs(ə)n'ti:] *n* kelmagan (*yo'q, qatnashmagan, hozir bo'lmagan*) kishi

absenteeism [ˌæbs(ə)n'ti:ɪz(ə)m] *n* sababsiz ishga chiqmaslik

absentia [æb'senʃɪə] *adv lot.* yo'qligida, sirtdan (**in ~**); **to be tried in ~** *yur.* birovni sud qilmoq; sirtdan muhokama qilmoq

absently ['æbs(ə)ntlɪ] *adv* parishonxotirlik bilan

absent-minded [ˌæbs(ə)nt'maɪndɪd] *a* parishonxotir, xayoli qochgan, e'tiborsiz; **an ~ person** parishonxotir odam; **an ~ look** e'tiborsiz (beparvo) qarash

absent-mindedly [ˌæbs(ə)nt'maɪndɪdlɪ] *adv* parishonxotirlik (e'tiborsizlik) bilan, xayoli qochib

absent-mindedness [ˌæbs(ə)nt 'maɪndɪdnəs] *n* parishonxotirlik

absinth(e) ['æbsɪnθ] *n* ermanga to'yintirilgan spirtli ichimlik, ermanli araq, erman arag'i

absinthial [æb'sɪnθɪəl] *a* 1) shuvoqqa, ermanga (yoshvanga) oid; shuvoq (yoshvan) ...; 2) *ko'ch.* achchiq, alamli, qayg'uli, musibatli, hasratli, g'amg'ussali, og'ir, ayanchli

absinthium [æb'sɪnθɪəm] *n bot.* erman (*murakkab gullilar oilasiga mansub ko'p yillik to'p bo'lib o'sadigan o't*)

absit ['æbsɪt] *n* darslarda qatnashmaslik uchun ruxsatnoma (*kollej yoki universitetda*)

absolute ['æbsəlu:t] *a* 1) to'la, to'liq, shubhasiz, mutlaq, absolut; **an ~ control** to'liq nazorat; **~ trust** to'liq ishonch; **an ~ value** *komp.* absolut qiymat (*uning belgisidan qat'i nazar ma'lum bir sonning ifodalangan qiymati*); 2) toza, sof; **~ alcohol** toza spirt

absolutely [ˌæbsə'lu:tlɪ] *adv* mutlaqo, juda, g'oyat; **~ indispensable** juda ham zarur; **you are ~ right** siz mutlaqo haqsiz

absoluteness ['æbsolu:tnəs] *n* 1) mutlaqo, batamom, shubhasiz, qat'iy; 2) chegaralanmagan, cheklanmagan, mutlaq hokimiyat

absolution [ˌæbsə'lu:ʃ(ə)n] *n* 1) oqlash, kechirish; 2) *cherk.* gunohlarni yuvish (*katoliklarda*)

absolutism ['æbsəlu:tɪz(ə)m] *n* cheklanmagan hokimiyat

absolutist ['æbsəlu:tɪst] *n* absolutizm tarafdori

absolutory [æb'sɔljot(ə)rɪ] *a yur.* aybsizligini ko'rsatadigan; **an ~ document** tasdiqlovchi hujjat

absolve [əb'zɔlv] *v* 1) (**from**) kechirmoq; **to ~ from blame** gunohidan o'tmoq

absolvent [əb'zɔlvənt] 1. *n* 1) kechiruvchi; 2) qutqaruvchi, xaloskor; **2.** *a* kechiruvchi

absonant ['æbsə(o)nənt] *a* norozi, qarshi; **~ to nature** g'ayritabiiy

absorb [əb'sɔ:b, əb'zɔ:b] *v* so'rmoq; shimmoq; namni tortib olmoq; **to ~ heat** issiqlikni yutmoq (o'ziga singdirmoq)

absorbability [əbˌsɔ:bə'bɪlɪtɪ] *n* namni tortib olish qobiliyati

absorbable [əb'sɔ:bəb(ə)l] *a* namni tortuvchi

absorbed [əb'sɔ:bd] *a* 1) shimgan, shimib olgan, singdirgan, yutgan, o'ziga singdirgan; **deeply (completely, thoroughly, totally) ~** butunlay o'ziga shimib olgan; 2) (*nimagadir*) berilib ketgan, sho'ng'ib ketgan; **~ in thought** chuqur o'yga sho'ng'ib ketgan

absorbency [əb'sɔ:bənsɪ] *n* yutish, namni tortib olish

absorbent [əb'sɔ:bənt] **1.** *a* namni tortib oladigan, shimadigan, yutib yuboradigan; **~ cotton** nam tortadigan paxta; **~ material** namni tortib oladigan material; **2.** *n* namni tortib oluvchi modda

absorber [əb'sɔ:bə] *n tex.* shimuvchi, namni tortuvchi; **~ material** namni tortib oladigan material

absorbing [əb'sɔ:bɪŋ] **1.** *a* nam tortuvchi, shimuvchi; **~ capacity** yutish qobiliyati; **2.** *n* yutish (*o'ziga tortib olish*)

absorptance [əb'sɔ:pt(ə)ns] *n fiz.* radiatsiyaning yutish darajasi

absorptiometer [əbˌsɔ:pʃɪ'ɔmɪtə] *n kim.* absorbsiometr; **photoelectric ~** fotoelektrik absorbsiometr

absorption [əb'sɔ:pʃ(ə)n] *n* shimirish, shimish, o'ziga singdirish, yutish; **~ power (ability)** o'ziga olish (shimish) qobiliyati; **~ material** shimadigan material; **~ method** shimish metodi

absorptive [əb'sɔ:ptɪv] *a* shimiruvchan, so'ruvchan, tortadigan, emadigan; **~ ability** o'ziga olish (shimish) qobiliyati

absorptivity [ˌæbsɔ:p'tɪvɪtɪ] *n* yutish qobiliyati

abstain [əb'steɪn] *v* o'zini tutmoq, o'zini (nafsini) tiymoq, sabr-qanoat qilmoq; tonmoq, rad qilmoq; **to ~ from entering into contract** shartnoma (bitim) tuzishni rad etmoq

abstainer [əb'steɪnə] *n* ichkilik ichmaydigan, hushyor

abstemious [əb'sti:mɪəs] *a* 1) o'zini tiygan, o'z nafsini tiygan (*ovqatdan*); 2) kambag'alona; **~ diet** kambag'alona (*nochor*) ovqat; 3) o'rtacha, o'rtamiyona; **~ life** o'rtacha hayot

abstention [əb'stenʃ(ə)n] *n* 1) o'zini tiyish (*yeb-ichishdan*); 2) betaraflik (*ovoz berishda*); **a vote of twenty in favour, five against, and two ~** ovoz berishda qatnashganlardan yigirma kishi tarafdor, beshta qarshi va ikkita betaraf

abstentious [əb'stenʃəs] *a* o'zini (nafsini) tiygan; sabr-qanoatli

absterge [əb'stɜ:dʒ] *v* 1) artmoq, artib tozalamoq, yuvmoq; 2) gunohi yuvilmoq; **to ~ oneself from one's sins** gunohlardan forig' bo'lmoq

abstergent [əb'stɜ:dʒ(ə)nt] **1.** *a* yuvuvchi, tozalovchi; **2.** *n* (*suv va b. ni*) tozalaydigan moddalar, yuvadigan moddalar

abstersion [əb'stɜ:ʃ(ə)n] *n* artish, yuvib tozalash

abstinence ['æbstɪnəns] *n* (**from**) o'zini tiyish, o'zini tortish; **the day of ~** go'shtli, sutli ovqatlarni yeyish taqiqlangan kun (*xristianlarda*); **the ~ from meat** go'sht yemaslik

abstinency ['æbstɪnənsɪ] *n* o'zini (nafsini) tiyish, ro'za tutish

abstinent ['æbstɪnənt] **1.** *n* o'z nafsini tiygan kishi, (*yeb-ichishdan*) o'zini tiygan kishi; **2.** *a* o'z nafsini tiygan, (*yeb-ichishdan*) o'zini tiygan

abstract ['æbstrækt] **1.** *n* 1) mavhum tushuncha; **in the ~** mavhum; 2) umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot; **an ~ journal** referativ jurnal; **an ~ of record** protokoldan ko'chirma; 3) *komp.* referat, konspekt, tezis (*qisqa qilib tuzilgan axborot*); **2.** *a* mavhum, aniq bo'lmagan; **an ~ notion** mavhum tushuncha; **an ~ noun** mavhum ot; **an ~ algebra** universal algebra; **an ~ art** abstraksionizm (*tasviriy san'atda: real narsalarni mavhum shakllar bilan tasvirlash tarafdori bo'lgan formalistik oqim*); **3.** *v* tortib olmoq; zo'rlik bilan olmoq

abstracted [əb'stræktɪd] *a* 1) xayolga cho'mgan; 2) uzoq, olis

abstractedly [əb'stræktɪdlɪ] *adv* parishonxotirlik bilan

abstractedness [əb'stræktɪdnəs] *n* 1) mavhumlik, aniq emaslik; 2) parishonlik, parishonxotirlik; 3) parokandalik, tarqoqlik

abstracter [əb'stræktə] *n* referat yozadigan kishi

abstracting [əb'stræktɪŋ] *n* mavhumlashtirish

abstraction [əb´strækʃ(ə)n] *n* mavhum tushuncha; noaniq narsa
abstractionism [əb´strækʃ(ə)nɪz(ə)m] *n san.* abstraksionizm (*real borliqni aks ettirishdan voz kechuvchi, predmet yoki hodisalarni shartli chiziqlar, nuqtalar va shakllar bilan tasvirlashga intiluvchi formalistik oqim*)
abstractive [əb´stræktɪv] *a* noaniq, mavhum
abstractiveness [əb´stræktɪvnəs] *n* mavhumlik, umumiylik
abstractness [æb´stræktnəs] = **abstractiveness**
abstruse [əb´stru:s] *a* 1) chuqur ma'noli, ma'nodor, jiddiy; 2) tushunish qiyin bo'lgan; 3) maxfiy
abstrusity [əb´stru:sɪtɪ] *n* ravshan emaslik, noaniqlik, xiralik; anglab (tushunib) bo'lmaydiganlik
absurd [əb´sɜ:d] *a* bema'ni, bo'lmag'ur; ahmoqona; kulgini qistatadigan; **patently, totally** ~ umuman bo'lmag'ur
absurdist [əb´sɜ:dɪst] *n san.* absurdist
absurdity [əb´sɜ:dɪtɪ] *n* bema'nilik, behudalik, ahmoqlik, tentaklik
absurdly [əb´sɜ:dlɪ] *adv* bema'ni; ahmoqona; kulgili
absurdness [əb´sɜ:dnəs] = **absurdity**
abundance [ə´bʌndəns] *n* 1) mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinchilik; farovonlik, to'qchilik; **to be in ~** serob bo'lmoq, to'lib-toshib yotmoq; **the ~ of one's** (*yoki* **the**) **heart** hissiyotga boylik, ortiq darajada hissiyotga berilish; sevinchi ichiga sig'maslik; 2) boylik, mol-mulk, dunyo, davlat; **to live in ~** farovon(likda) yashamoq; 3) juda ko'p, ancha, bir talay; **the ~ of people** xalqning yog'ilib kelib to'planishi
abundant [ə´bʌndənt] *a* serob; to'lib-toshgan; **to be ~** to'lib-toshmoq
ab-unit [´æb,ju:nɪt] *n* (**absolute unit**) *so'zining qisqartirilgan shakli*) *maxs.* butun son
aburst [ə´bɜ:st] *adv* portlab, portlab ketib, yorilib, yorilib ketib
abuse [ə´bju:s] **1.** *n* so'kish, haqorat qilish; tahqirlash; **to exchange ~** bir-birini haqorat qilmoq; **~ of authority** amaldan (o'z manfaati uchun) foydalanish; **the ~ of environment** atrof-muhitni iflos qilish; **the ~ of law** qonunni buzish, qonundan (o'z manfaati uchun) foydalanish; **the ~ of power** amaldan (o'z manfaati uchun) foydalanish; **the ~ of privilege** imtiyozdan (o'z manfaati uchun) foydalanish; **2.** *v* so'kmoq, haqorat qilmoq; tahqirlamoq; **to ~ a child** bola bilan zolimona (juda ham yomon) muomalada bo'lmoq; **to ~ a horse** otni haydab (urib, quvib) kirgizmoq, kiritmoq
abuser [ə´bju:zə] *n* alkogolik (*ichkilik kasaliga mubtalo bo'lgan kishi*) *yoki* narkoman, bangi (*giyohvand, nashavand, ko'knori odam*)
abusive [ə´bju:sɪv] *a* haqoratli, tahqirli, xo'rlik keltiradigan, tahqirlaydigan, nafsoniyatga (izzat-nafsga, shaxsiyatga) tegadigan, qattiq tegadigan; haqoratomuz, tahqiromuz; **an ~ act** o'z manfaati uchun foydalanish; **~ language** so'kish, haqorat, dashnom; **an ~ letter** so'kib *yoki* qarg'ab yozilgan xat; **~ treatment** yomon muomala
abut [ə´bʌt] *v* (**on, upon**) borib taqalmoq; chegaradosh bo'lmoq; **to ~ against** biror narsaning ko'ndalang joyiga borib taqalmoq; **to ~ on** yopishib (taqalib) turmoq, jips bo'lib turmoq; tutashmoq, yondashib turmoq, tutash (yondosh) bo'lmoq
abutilon [ə´bju:tɪlən] *n bot.* g'o'zor, dag'al kanop (*tolali bir yillik o'simlik*)
abutment [ə´bʌtmənt] *n* 1) tutashish, yondashish, yonida (qatorida) turish, tutash (yondosh) bo'lish; 2) uvat, chegara, marza
abuttal [ə´bʌt(ə)l] *n pl* 1) bir-birlariga tutashib turgan yer maydonlari; 2) yer maydonlarining chegaralari
abutter [ə´bʌtə] *n yur.* nimagadir yondashib turgan qandaydir narsa
abutting [ə´bʌtɪŋ] *a* tutashgan, chegaradosh, yondosh, bir qatorda (yonida) joylashgan; **~ buildings** yonma-yon joylashgan binolar (imoratlar)
abuzz [ə´bʌz] *a* 1) vizillaydigan; 2) faol
aby(e) [ə´baɪ] *v* (**abought**) *esk.* 1) qilmishiga yarasha jazolanmoq, o'z harakatining azobini chekmoq, jazosini tortmoq; 2) gunohini yuvmoq, o'zini oqlamoq, gunohini kechirarli ish qilmoq
abysm [ə´bɪz(ə)m] *n* tubsiz jar, chuqurlik, girdob
abysmal [ə´bɪzməl] *a* 1) chuqur, teran, tagsiz, tubsiz, tagi yo'q, juda chuqur; **the ~ depth of the oceans** okeanlarning tubsiz chuqurliklari; 2) haddan tashqari, juda, g'oyat; cheksiz, benihoyat; to'liq, to'la, mutlaqo, butunlay; **~ misery** mutlaqo qashshoqlik; 3) juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz **his taste is abysmal** uning didi juda yomon
abyss [ə´bɪs] *n* tagsiz (tubsiz) chuqurlik, jar, choh, chuqur joy, qa'r, girdob; **a bottomless ~** tubsiz jar; **a gaping (yawning) ~** lang ochilib turgan (chuqur bo'lib ko'rinib turgan) jar
abyssal [ə´bɪs(ə)l] *a* chuqurlikdagi, suvning chuqur joyida yashaydigan; **an ~ sea** dengizning eng chuqur joyi
Abyssinia [,æbɪ´sɪnɪə] *n geogr. tar.* Abissiniya, Gabesh (*Efiopiyaning norasmiy nomi*)
Abyssinian [,æbɪ´sɪnɪən] **1.** *n* Abissiniyalik kishi yoki ayol; **2.** *a* abissiniyaliklarga oid, abissiniyaliklar ...; **~ gold** Abissiniya oltini
acacia [ə´keɪʃə] *n bot.* akatsiya (*daraxt*)
academe [´ækədi:m] *n* 1) akademiya o'quv muassasasi; 2) Afina yaqinidagi Aflotun o'qigan maktab joylashgan bog'; 3) oliy o'quv yurtlarining o'qituvchisi; professor; 4) o'qimishli odam
academia [,ækə´di:nɪə] *n* ilmiy birlashma (uyushma)
academic [,ækə´demɪk] **1.** *n* akademik (*biror akademiyaning haqiqiy a'zosi va shu kishining unvoni*); **2.** *a* akademiyaga oid; akademiyaga qarashli; akademiya ...; akademik...; pedagogik; o'quv-ta'limga oid; **an ~ year** o'quv yili; **an ~ lyceum** akademik litsey; **an ~ adviser** ilmiy maslahatchi; **an ~ degree** ilmiy daraja; **an ~ hour** akademik soat; **the ~ profession** o'qituvchi (pedagog)ning kasbi; **an ~ rank** ilmiy unvon
academical [,ækə´demɪk(ə)l] *a* akademiyaga oid, universitetga oid
academicals [,ækə´demɪk(ə)lz] *n pl* plash va beret (*universitet kiyimi*)
academician [ə´kædə´nɪʃ(ə)n] *n* akademik, akademiya a'zosi
academics [,ækə´demɪks] *n amer.* o'quv mashg'ulotlari
academicism [,ækə´demɪsɪz(ə)m] *n* akademizm (*1. quruq nazariyabozlik, quruq nazariyaga berilib ketish; 2. fan va san'atda: belgilangan an'analarga rioya qilish; 3. tasviriy san'atda: antik dunyo va uyg'onish davrining klassik uslub va qoidalariga ko'r-ko'rona rioya qiluvchi oqim*)
academist [ə´kædəmɪst] *n* 1) filosof, faylasuf; 2) akademik; 3) akademizm tarafdori (*san'atda*)
academy [ə´kædəmɪ] *n* akademiya (*oliy ilmiy muassasa*)
academy-figure [ə´kædəmɪ,fɪgə] *n ras.* yalang'och odam rasmini chizish
acantha [ə´kænθə] *n bot.* tikan, tikanak
acanthaceae [ə´kænθə´si:] *n* 1) *bot.* ayiqtovon (*o'tsimon o'simlik*); 2) *me'mor.* akant (*arxitektura bezagi*)
acanthaceous [ə´kænθə[əs] *a bot.* tikanli, tikanakli
acanthi [ə´kænθaɪ] *pl of* **acanthus**
acanthoid [ə´kænθɔɪd] *a* tikanga o'xshagan, tikansimon, tikan shaklidagi
acanthous [ə´kænθəs] *a* tikanli, tikanakli
acanthus [ə´kænθəs] *n* 1) *bot.* ayiqtovon (*o'simlik*); 2) *me'mor.* naqsh

a cap(p)ella [ˌɑ:kə:ˈpelə] *ital. mus.* a kapella (*cholg'u asboblarisiz ijro etiladigan ko'p ovozli qo'shiq*)
acari [ˈækəraɪ] *pl of* **acarus**
acaricide [ə´kærɪsaɪd] *n* akaritsid (*pestitsidlar guruhiga mansub kimyoviy preparatlar; qishloq xo'jalik o'simliklari va hayvonlari uchun zararli bo'lgan kanalarni qirishda qo'llaniladi*)
acarid [ˈækərɪd] *n* kana, jo'lak
acaridae [ə´kærɪdi:] *pl of* **acaridan**
acaridan [ə´kærɪdən] *n* (*pl* **-dae** [-di:]) kana, jo'lak
acaroid [ˈækəˌrɔɪd] *a* kana shaklidagi, kanaga o'xshagan, kanasimon
acarology [ˌækə´rɔlədʒɪ] *n* akarologiya (*araxnologiya (zoologiyaning o'rgimchaksimonlarni o'rganadigan bo'limi) ning kanalar sinfini o'rganuvchi bo'limi*)
acarotoxic [ˌækərə´tɔksɪk] *a* kanalarni zaharlaydigan, kanalar uchun zararli
acarpous [ə´kɑ:pəs] *a bot.* mevasiz, samarasiz
acarus [ˈækərəs] *n* (*pl* **-ri** [-raɪ]) *ent.* kana, jo'lak
acarus scabies [´ækərəs ´skeɪbɪi:z] *n* qichima kanasi
acarpous [ə´kɑ:pəs] *a bot.* mevasiz, meva bermaydigan
acataleptic [ə,kætə´leptɪk] *a kit.* tushunib bo'lmaydigan
acatalepsia [ə,kætə´lepsɪə] *n tib.* 1) aqli kamlik, aqli pastlik (zaiflik); 2) noaniqlik, noto'g'rilik, aniq (to'g'ri) emaslik (*kasallikni aniqlashda yoki oldindan aytishda*)
acatalepsy [ə,kætə´lepsɪ] = **acatalepsia**
acaudal [ə ´kɔ:d(ə)l] *a zool.* dumsiz, quyruqsiz
acaudate [ə´kɔ:deɪt] = **acaudal**
acaulescent [ˌækɔ:´les(ə)nt] *a bot.* poyaga oid bo'lmagan, poyadan chiqmagan; tanaga oid bo'lmagan, tanadan chiqmagan
acaulous [ə´kɔ:ləs] = **acaulescent**
accede [æk´si:d] *v* rozi bo'lmoq, qabul qilmoq; **to ~ to request (to a proposal)** iltimosga rozi bo'lmoq, taklifni qabul qilmoq
accedence [æk´si:d(ə)ns] *n* rozi bo'lish, qabul qilish
accelerant [ək´selərənt] *n kim.* katalizator (*kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi modda*)
accelerate [ək´seləreɪt] *v* tezlashtirmoq, tezligini oshirmoq
accelerated [æk´seləreɪtɪd] *a* tezlashtirilgan; oshirilgan (*tezlik va b. haqida*); **~ charge** tezlashtirilgan zaryad; **~ determination** tezlashtirilgan sinov; **an ~ electron** tezlashtirilgan elektron; **an ~ examination** tezlashtirilgan ekspertiza, tekshirish; **an ~ flight** tezlashtirilgan uchish (parvoz); **an ~ flow** tezlashtirilgan oqim; **an ~ graphics** tezlashtirilgan grafika; **~ irradiation** tezlashtirilgan nurlantirish; **an ~ motion** tezlashtirilgan harakat; **an ~ particle** tezlashtirilgan zarra; **~ payments** tezlashtirilgan to'lovlar; **~ plasma** tezlashtirilgan plazma; **an ~ proton** tezlashtirilgan proton; **an ~ rotation** tezlashtirilgan aylanish; **an ~ system** tezlashtirilgan tizim; **an ~ test** tezlashtirilgan sinov
accelerating [ək´seləreɪtɪŋ] *a* tezlashuvchi, tezlashtiruvchi; **~ agent** tezlashtiruvchi modda; **~ anode** tezlashtiruvchi anod; **~ cathode** tezlashtiruvchi katod; **~ force** *fiz.* tezlashtirish kuchi; **an ~ electrode** tezlashtiruvchi elektrod; **an ~ chamber** *fiz.* tezlashtiruvchi kamera; **an ~ system** tezlashtiruvchi tizim
acceleration [ək,selə´reɪʃ(ə)n] *n* tezlatish, tezlashtirish, jadallashtirish, oshirish, tezlashuv, tezlashish, jadallashuv; **the ~ of gravity** *fiz.* og'irlik kuchi tezlanishi; **~ amplitude** tezlanish amplitudasi; **~ center** tezlashish markazi; **~ field** tezlashish maydoni; **~ period** tezlashish jarayoni
accelerative [æk´seləreɪtɪv] *a* tezlashtiruvchi; **~ force** tezlashtiruvchi kuch
accelerator [ək´seləreɪtə] *n* 1) *tex.* tezlatgich, akselerator; 2) *kim.* katalizator
accelerin [ək´seləɪn] akselerin
accelerogram [ək ´seləregræm] akselogramma
accelerograph [ək´selərəgrɑ:f] akselerograf
accelerometer [æk,selə´rɔmɪtə] *n tex. lot.* akselerometr (*uchish apparatlari va boshqalarda tezlanishni o'lchovchi asbob*)
accelometer [æk,selə´rɔmɪtə] aksilometr
accent [´æks(ə)nt] **1.** *n* 1) urg'u; **a sentence ~** gap urg'usi; **an ~ mark** urg'u belgisi; **to put the ~ on the third syllable** uchinchi bo'g'inga urg'u qo'ymoq; **a syllabic ~** bo'g'in urg'usi; **to put the ~ on smth.** nimanidir ta'kidlab o'tmoq, nimagadir urg'u berib o'tmoq; 2) talaffuz; **a good ~** yaxshi talaffuz; **2.** *v* 1) urg'u qo'ymoq, urg'u bilan talaffuz qilmoq; 2) ta'kidlamoq
accented [´æks(ə)ntɪd] *a* 1) ta'kidlab o'tilgan; 2) urg'u bilan talaffuz etilgan; **an ~ letter** urg'u oladigan (olgan) harf
accentor [ək´sentə] *n mus. esk.* yakkaxon xonanda (ashulachi)
accentual [æk´sentʃʊəl] *a* urg'uga oid bo'lgan; **~ prosody** barmoq vaznli she'r to'qish
accentuate [æk ´sentʃʊeɪt] *v* 1) urg'u qo'ymoq; 2) urg'u belgisini qo'ymoq; 3) ta'kidlamoq
accentuation [æk,sentʃʊ´eɪʃ(ə)n] *n* 1) urg'u qo'yish; 2) talaffuz qilish uslubi; 3) ta'kidlash
accept [ək´sept] *v* qabul qilmoq, olmoq; rozi bo'lmoq; **to ~ blindly** ko'r-ko'rona ishonmoq; **to ~ a proposal/a suggestion/an offer** taklifni qabul qilmoq; **to ~ a present** sovg'ani qabul qilmoq; **to ~ failure** muvaffaqiyatsizlikni tan olmoq; **to ~ the responsibility** javobgarlikni o'z bo'yniga olmoq; **to ~ an apology** uzr deb qabul qilmoq; **to ~ the goods** tovar (molni) qabul qilib olmoq; **to ~ the losses** zararlarni o'z bo'yniga olmoq
acceptability [ək,septə´bɪlɪtɪ] *n* maqbul bo'lish, to'g'ri kelish
acceptable [ək´septəb(ə)l] *a* 1) ma'qul; muvofiq keladigan; 2) yoqadigan, ko'ngildagi; **if the proposal is ~ to you** agar taklif sizga ma'qul bo'lsa
acceptably [ək´septəblɪ] *adv* qabul qilsa bo'ladigan (muvofiq keladigan) tarzda
acceptance [ək´septəns] *n* qabul qilish; kutib olish; **the ~ of an invitation** taklifni qabul qilish; **the~ of persons** yuzxotir qilish, yuzidan o'tolmaslik, oshna-og'aynigarchilik
acceptant [ək´septent] *a* qabul qiluvchi, qabul qiladigan
acceptation [ˌæksep´teɪʃ(ə)n] *n* so'zning mazmunini yaxshi tushunib olish
accepted [ək´septɪd] *a* hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan; rasm bo'lib qolgan; oddiy, keng tarqalgan, barchaga tanilgan; **~ pronunciation** qabul qilingan talaffuz; **~ proposal** qabul qilingan taklif; **~ truth** hammaga ayon bo'lgan haqiqat
accepter [ək ´septə] *n* qabul qiluvchi shaxs; qabul qiluvchi
accepting [ək´septɪŋ] *n* qabul qilish, qabul qilib olish
acceptive [æk´septɪv] *a* qabul qilsa bo'ladigan, maqbul, ma'qul, yaroqli, muvofiq
accepter [ək´septə] *n* qabul qiluvchi kishi
acceptor [ək´septə] *n tij.* akseptant (*qabul qiluvchi kishi*)
access [ˈækses] *n* 1) kirish yo'li, kiradigan joy; 2) kirish (yoki foydalanish) huquqi, kirish (yoki foydalanish) uchun ruxsat, ijozat, kira (foydalana) olish; **easy / free ~** bemalol kirishi mumkin, hammaga yo'l ochiq; 3) *komp.* komp-

yuterga kirish (*kompyuterni ochib, kerakli dastur ustida ishga tushish*); ~ **code** kompyuterga kirish kodi (*boshqalar tomonidan kompyuter yoki undagi faylni ochib ishlatishdan muhofaza qilish maqsadida operator tomonidan ishlatiladigan maxsus kod*); ~ **time** ishga tushish vaqti (*kompyuterda so'ralgan axborot va ana shu axborotni kompyuter ekranida paydo bo'lishi o'rtasidagi interval*)

accessary [ək´ses(ə)rɪ] = **accessory**

accessibility [ək,sesə´bɪlɪtɪ] *n* 1) kirish (o'tish, borish) mumkinlik; 2) *tex.* ko'rish va xizmat ko'rsatishning qulayligi

accessible [ək´sesəb(ə)l] *a* 1) kirish (borish, o'tish) mumkin bo'lgan; yo'lab (borib, chiqib) bo'ladigan; ochiq; 2) hammaning kuchi (qurbi, imkoni) yetadigan; hammaning imkoni doirasidagi; hammaning qo'lidan keladigan; 3) hamma tushunadigan, hammabop, ommabop; tushunilishi oson, jo'n; ...sa bo'ladigan; **easily** ~ oson erishsa bo'ladigan; 4) tushunish uchun oson, tushunarli, yengil; 5) gapga ko'nadigan (unaydigan), gapga kiradigan, ko'ngli bo'sh, **ko'ngilchan**; ~ **to bribery** sotqin; poraxo'r; 6) *tex.* qulay, soz, yaxshi

accession [æk´seʃ(ə)n] **1.** *n* 1) o'tish, yaqinlashish; 2) o'sish; ko'payish; to'ldirish; **an ~ book** inventar daftari; **an ~ catalogue** yangi tushgan kitoblarning katalogi (*kutubxonada*); **an ~ number** inventar raqami **2.** *v* ro'yxatga (katalogga) kiritmoq

accessorial [,æksə´sɔrɪəl] *a* ko'makchi; qo'shimcha

accessories [ək´sesərɪz] *n pl* buyumlar; narsalar; **computer** ~ kompyuter buyumlari

accessory [ək´sesərɪ] **1.** *n yur.* birga ishtirok etgan (qatnashgan) odam, sherik; **2.** *a* qo'shimcha; **an ~ after the fact** *yur.* jinoyat sodir etilgandan keyingi sherik, yashiruvchi, bekituvchi; **an ~ before the fact** *yur.* jinoyat sodir etilishidan oldingi sherik; g'alamis, ig'vogar; fitnachi; yomon ishlardagi hamkor (sherik, hamtovoq), jinoyatga aralashgan odam (sherik); ~ **material** qo'shimcha material; ~ **defenses** *harb.* ko'makchi mudofaa inshootlari; **an ~ building** qo'shimcha bino; **an ~ program** qo'shimcha dastur; **an ~ word** yordamchi so'z

accidence [´æksɪd(ə)ns] *n* 1) *gram.* morfologiya; 2) qandaydir fanning asosi (negizi, poydevori); 3) avariyalarning bo'lib turishi; buzilish, zararlanish, shikastlanish; avariyalar

accident [´æksɪd(ə)nt] *n* 1) hodisa, tasodif; **by ~** tasodifan, kutilmagan; 2) baxtsiz hodisa, ko'ngilsiz voqea, baxtsizlik; halokat; fojia; **a dreadful/horrible/shocking ~** mudhish fojia; **a factory/professional/industrial ~** ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa; **a hunting ~** ovdagi baxtsiz hodisa; **a railway/train ~** temir yo'l halokati; **an unavoidable ~** oldini olib bo'lmaydigan; **to meet with an/to have an ~** halokatga uchramoq; **to be involved in a serious car ~** jiddiy avtohalokatga uchramoq; **there was an ~** baxtsiz hodisa yuz berdi; **a car/road ~** avtomobil halokati; **road/traffic ~s** yo'l-transportida shikastlanish; ~ **measures** *harb.* tasodifning oldini olish uchun ko'riladigan choralar; **an ~ at work** ish joyida sodir bo'lgan (bo'ladigan) baxtsiz hodisa; **an ~ book** baxtsiz hodisalarning ro'yxati yozib qo'yiladigan daftar; **a ~ cause** ko'ngilsiz voqeaning sababi; **an ~ certificate** baxtsiz hodisa haqida tuzilgan akt; **an ~ condition** avariya holati; ~ **damage** baxtsiz hodisa natijasida shikastlanish; **an ~ investigation** avariya natijalarini tekshirish; **an ~ investigator** baxtsiz hodisaga oid ishlarni olib boruvchi tergovchi; **an ~ lawyer** baxtsiz hodisaga oid ishlarni olib boruvchi advokat; **an ~ rate** sodir etilgan baxtsiz hodisalarning miqdori; **an ~ scene** baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joy; **an ~ service** baxtsiz hodisa sodir bo'lganda shoshilinch yordam ko'rsatadigan tibbiy xizmat; **an ~ site** avariya joyi; ~ **statistics** baxtsiz hodisalarning miqdori; **an ~ summary** baxtsiz hodisalar haqidagi hisobot; **an ~ threat** baxtsiz hodisaning xavfi; **an ~ victim** baxtsiz hodisadan jabrlangan kishi

accidental [,æksɪ´dentl] *a* 1) tasodifiy, tasodifan bo'lgan (bo'lib qolgan), kutilmaganda yuz bergan (sodir bo'lgan); kutilmagan, nogahoniy; ~ **abortion** shikastlanish natijasida bola tashlash (g'ayriixtiyoriy tug'ish); ~ **benefits** qo'shimcha to'lovlar; **an ~ coincidence** tasodifiy mos kelish, tasodifan bir xilda bo'lib chiqish; **an ~ death** baxtsiz hodisa natijasida vafot etish; **an ~ error** tasodifiy xato; **an ~ event** tasodifiy hodisa (voqea); ~ **exposure** tasodifiy ta'sir ko'rsatish; tasodifiy nurlantirish; ~ **fault** tasodifiy ziyon (zarar) yetkazish, ziyon keltirish; ~ **harm** baxtsiz hodisa natijasida ko'rilgan ziyon (zarar); **an ~ injury** tasodifiy zarar (ziyon); **an ~ invention** tasodifiy ixtiro (kashfiyot); **an ~ killer** to'satdan kimnidir o'ldirgan kishi; **an ~ result** tasodifiy natija; **an ~ hemorrhage** tasodifiy qon oqish; **an ~ discharge** *harb.* to'satdan o'q otish; 2) ikkinchi darajali

accidentally [,æksɪ´dent(ə)lɪ] *adv* tasodifan, bexosdan, to'satdan

accidie [´æksɪdɪ] *n* 1) lanjlik, bo'shashganlik, lohaslik; sustlik; 2) shilviraganlik, shalpayganlik, so'lganlik

accipiter [ək´sɪptə] *n zool.* lochin, qirg'iy, qarchig'ay

acclaim [ə´kleɪm] **1.** *n* baqiriq, xursandchilik bilan qutlash (tabriklash, kutib olish); **2.** *v* (*kimnidir*) baqirib olqishlamoq; **to ~ the winner** g'olibni baqirib tabriklamoq

acclamation [,æklə´meɪʃ(ə)n] *n* qizg'in ma'qullash; **carried by ~** bir ovozdan ma'qullanganligi tufayli ovozga qo'ymay qabul qilindi

acclamatory [ə´klæmət(ə)rɪ] *a* ma'qullaydigan; ~ **shouts** ma'qullash (qabul qilish) nidolari

acclimatation [ə,klaɪmə´teɪʃ(ə)n] *n* 1) iqlimlashish, yangi iqlimga, yangi sharoitga o'rganish, ko'nikish, moslashish; 2) iqlimlashtirish, yangi iqlimga, yangi sharoitga o'rgatish, ko'niktirib moslashtirish (akklimatizatsiya)

acclimate [´æklɪmeɪt, ə´klaɪmət] *v amer.* yangi iqlimga (sharoitga) moslashtirmoq, yangi sharoitga o'rgatmoq, ko'niktirmoq

acclimation [,æklɪ´meɪʃ(ə)n] = **acclimatization**

acclimatization [ə,klaɪmətaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* iqlimga (sharoitga) moslashtirish, yangi sharoitga o'rgatish, ko'niktirish

acclimatize [ə´klaɪmətaɪz] *v* iqlimga muvofiqlashtirmoq; **to ~ oneself to the surroundings** atrofdagi sharoitga moslash(tir)moq

acclivity [ə´klɪvɪtɪ] *n* qiya ko'tarilib boradigan yo'l, qiya tepalik; qiyalik, yonbag'ir, nishab, nishablik

acclivous [ə´klaɪvəs] *a* qiya, qiyalama, nishab

accolade [´ækəleɪd] *n* maqtash, maqtab qo'yish; **to bestow an ~ on** maqtamoq, maqtab qo'ymoq

accommodate [ə´kɒmədeɪt] *v* 1) moslashmoq, moslashtirmoq; **to ~ oneself to smth.** biror narsaga moslashmoq, biror narsaga odatlanmoq; ~ **to smb.** biror kishiga o'rganib qolmoq; 2) ta'minlamoq, yetkazib bermoq; **to ~ with a loan** kimgadir pul qarz bermoq; 3) boshpana (joy) bermoq; **to be well ~d** yaxshi joylashmoq, barcha qulayliklarga ega bo'lmoq; 4) xizmat ko'rsatmoq; **to ~ a client** mijozga xizmat ko'rsatmoq

accommodating [ə´kɒmədeɪtɪŋ] *a* 1) xizmatini ayamaydigan; 2) chiqishib ketadigan, gapga ko'nadigan; **in an ~ spirit** murosa ruhida

accommodation [ə,kɒmə´deɪʃ(ə)n] *n* 1) ko'nikish, moslashish; **~ capability** moslashish qobiliyati; 2) boshpana; bino, imorat, uy, xona, maskan, odamlar turadigan (yashaydigan) yer, joy, uy-joy (*kulba, xona va h. k.*); **deluxe ~ / first-class ~** qulay va shinam turar joy; **furnished ~s** mebellar bilan jihozlangan xonalar; **secure ~** xavfsiz bino (imorat, uy-joy); **hotel ~** mehmonxonadagi xona; **~ with every convenience** barcha qulayliklarga ega bo'lgan turar joy; **to seek ~** turar joy qidirmoq; **~ house** 1) karvonsaroy; 2) *yur.* fohishaxona (*kapitalistik jamiyatda*); **~ car** mahalliy yo'lovchilar uchun mo'ljallangan (*hech qanday qulayliklarga ega bo'lmagan, yaqin masofaga mo'ljallangan arzon*) vagon

accommodation-address [ə,kɒmə´deɪʃ(ə)nə,dres] *n* yo'qlab olinadigan xatlar manzili

accommodation-ladder [ə,kɒmə´deɪʃ(ə)n,lædə] *n* olib qo'yiladigan narvon

accommodation train [ə,kɒmə´deɪʃ(ə)n-,treɪn] *n amer.* har bir bekatda to'xtaydigan mahalliy yo'lovchi poyezdi

accommodative [ə´kɒmədeɪtɪv] *a* 1) qulay; munosib, bop, o'ng'ay, mos, muvofiq; 2) chiqishadigan, chiqisha oladigan, murosa qila biladigan, murosali, inoqlik bilan yashay oladigan; **~ character** har kim bilan chiqisha olish xarakteri

accommodometer [ə,kɒmə´dɒmɪtə] *n* akkomodometr (*ko'zning moslashuvini tadqiq etuvchi asbob*)

accompaniment [ə´kʌmp(ə)nɪmənt] *n* 1) kuzatish; 2) *mus.* jo'r bo'lish; **a piano ~ to a song** pianino jo'rligida kuylanadigan qo'shiq; **to the ~ of soft music** tinch musiqa jo'rligida

accompanist [ə´kʌmp(ə)nɪst] *n* jo'rlik qiluvchi sozanda

accompany [ə´kʌmpənɪ] *v* 1) kuzatib qo'ymoq; yo'ldosh bo'lmoq; 2) *mus.* jo'r bo'lmoq

accompanying [ə´kʌmp(ə)nɪɪŋ] *a* kuzatuvchi, ergashib boruvchi, birga yuradigan; **an ~ letter** ilova qog'ozi (xati)

accompanyist [ə´kʌmp(ə)nɪɪst] = **accompanist**

accomplice [ə´kʌmplɪs] *n yur.* (*jinoyatda*) sherik, birga ishtirok etgan; **an ~ in crime** jinoyatda birga ishtirok etgan odam

accompliceship [ə´kʌmplɪsʃɪp] *n yur.* (*jinoyatda*) birga ishtirok etish

accomplish [ə´kʌmplɪʃ] *v* 1) bajarmoq, amalga oshirmoq, qilmoq, ko'rsatmoq; erishmoq; tugatmoq, oxiriga yetkazmoq; **to ~ a promise** va'dasiga vafo qilmoq; **to ~ a distance** masofani bosib o'tmoq; **how did you ~ this?** siz buni qanday bajardingiz? **to ~ a task** topshiriqni bajarmoq; 2) mukammallashtirmoq; bekam-ko'st qilmoq

accomplishable [ə´kʌmplɪʃəb(ə)l] *a* bajarilishi (amalga oshirilishi) mumkin bo'lgan, amalga oshadigan, bajarsa bo'ladigan

accomplished [ə´kʌmplɪʃt] *a* 1) tugatilgan, oxiriga yetkazilgan, bajarilgan; 2) tajribali, eng yaxshi; **an ~ violonist** eng yaxshi skripkachi

accomplishment [ə´kʌmplɪʃmənt] *n* 1) bajarish, amalga oshirish, ijro etish; 2) tugatish, bitirish, oxiriga (poyoniga, nihoyasiga) yetkazish; 3) yutuqqa (muvaffaqiyatga) erishish, yutuq, muvaffaqiyat

accord I [ə´kɔ:d] *n* rozilik, yakdillik; **in ~ with smth.** nimagadir muvofiq (binoan, ko'ra); **out of ~ with smth.** nimagadir qarshi; **with one ~** bir ovozdan, yakdillik bilan; **be in ~** qarashlarning bir xil bo'lib chiqishi; fikrlarning bir yerdan chiqishi; **of one's own ~** ixtiyoriy ravishda, o'z xohishi (ixtiyori) bilan, ko'ngilli bo'lib

accord II [ə´kɔ:d] *v* bermoq, taqdim etmoq, in'om (tortiq, hadya) qilmoq; **to ~ a warm welcome** samimiy (yaxshi) kutib olmoq

accordance [ə´kɔ:d(ə)ns] *n* muvofiqlik, moslik; **in ~ with smth.** -ga muvofiq (ko'ra, binoan)

accordant [ə´kɔ:d(ə)nt] *a* (**with**) munosib, muvofiq, mos

according [ə´kɔ:dɪŋ] **1.** *prep.* (**to**) -ga ko'ra (muvofiq, binoan, asosan); **~ to all accounts** (*shuningdek,* **by all accounts**) ko'pchilikning fikricha, umumiy xulosalarga qaraganda, odamlarning aytishlariga qaraganda (aytishlaricha); **~ to contract** shartnomaga asosan; **~ to law** qonunga binoan; **~ to plan** rejaga binoan; **~ to schedule** jadvalga asosan; **~ to the circumstances** sharoitga (vaziyatga) qarab; **2.** *adv* shunday qilib, shuning uchun ham

accordingly [ə´kɔ:dɪŋlɪ] *adv* 1) tegishlicha, tegishli ravishda, yarasha, qarab, mos ravishda; 2) shunday qilib, demak

according to [ə´kɔ:dɪŋtə] *phr. prep.* ...ga muvofiq, ...ga binoan, ...ga ko'ra, bo'yicha; **~ rule** qoida bo'yicha

accordion [ə´kɔ:dɪən] *n* 1) *mus.* akkordeon, garmon, bayan; 2) *tex.* qat-qat (nova-nova) qilib ulangan joy

accordion-pleated [ə,kɔ:dɪən´pli:tɪd] *a* nova-nova; qat-qat burma

accordionist [ə,kɔ:dɪənɪst] *n* akkordeon (garmon, bayan) chaluvchi, akkordeonchi (garmonchi, bayanchi)

accost [ə´kɒst] **1.** *n* murojaat qilish (*kimgadir*); **2.** *v* murojaat qilmoq, yopishmoq, xiralik qilmoq, shilqimlik qilmoq (*kimgadir*)

accouche [ə´ku:ʃ, ə´kaʊtʃ] *v fr. to'g'r. va ko'ch.* tug'ishda(ga) yordam bermoq

accouchement [ə´ku:ʃmɒn, ə´ku:ʃmənt] *n fr.* tug'ish, ko'zi yorish

accoucheur [ə,ku:´ʃɜ:] *n fr.* akusher (*homiladorlarga, tug'adigan va tug'gan xotinlarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassis shifokor*), doya

accoucheuse [ə,ku:´ʃɜ:z] *n fr.* doya ayol (*homiladorlarga, tug'adigan va tug'gan xotinlarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassis shifokor ayol*)

account [ə´kaʊnt] **1.** *n* 1) raqam, hisob raqami; **to charge smb.'s ~** kimningdir hisob raqamiga yozib qo'ymoq; **to close an ~ with a bank** bankdagi hisob raqamini yopmoq; **to overdraw an ~** bankdagi hisob raqami xarajatlarini oshirmoq; **to pay an ~** hisob-kitobni to'lamoq; **to pay into an ~** hisob raqamiga pul qo'ymoq; **to settle an ~** hisob raqami bo'yicha hisoblashmoq; **according to all ~s** (*shun.* **by all ~s**) ko'pchilikning fikriga ko'ra; **to be called** (*yoki* **gone**) **to one's ~** olamdan o'tmoq, o'lmoq; **to bring** (**call, hold** *yoki* **take**) **smb. to ~** kimnidir javob berishga chaqirmoq (undamoq), javobgarlikka chaqirmoq; kimdandir hisobot berish (tushuntirib berish, sababini aytib berish)ni talab qilmoq; **a dormant ~** *tij.* mijozlar tomonidan juda uzoq muddatdan beri ishlatilmayotgan joriy hisob; **to give a good** (**fine, splendid,** *etc.*) **~ of oneself** o'zini (yaxshi tomonlarini) ko'rsatmoq, nimanidir muvaffaqiyatli bajarmoq, yaxshi (a'lo darajadagi) natijalarga erishmoq = qiyinchiliklarni sharaf bilan yengmoq, uyalib (yerga qarab) qolmaslik; **for ~ of smb.** kimningdir hisobidan; **a bank ~** bankdagi hisob (raqam); 2) hisobot; **to give an ~ of smth.** nimadir haqida hisobot bermoq; **to call to ~** nimadir haqida hisobot berishni talab qilmoq; **the great ~** *din.* qiyomat; **to lay (one's) ~ for (on** *yoki* **with) smth.** nimanidir ko'zda (nazarda) tutmoq, mo'ljallamoq; nimanidir kutmoq, nimagadir umid qilmoq (umid bog'lamoq, ko'z tutmoq); **to make little ~ of smth.** nimanidir uncha muhim emas deb hisoblamoq; **to make much ~ of smth.** nimanidir

juda muhim deb hisoblamoq; **to make no ~ of smb.** (*yoki* **smth.**) kimgadir (*yoki* nimagadir) hech qanday e'tibor bermaslik; **of much ~** qiymatga, ahamiyatga ega bo'lgan; **of no ~** (*so'zl.* **no ~**) hech qanday qiymatga, ahamiyatga ega bo'lmagan; **of small ~** uncha ko'p (katta) bo'lmagan, arzimas, uncha ham katta ahamiyatga ega bo'lmagan, obro'ga ega bo'lmagan, izzat-hurmatga sazovor bo'lmagan; **on ~ of smth.** (*jarg.* **~ of smth.** *yoki* **on ~**) nimaningdir munosabati bilan, nimadir bo'lgani uchun, nimadir boisdan (sababli, tufayli, natijasida, oqibatida, orqasida); **on all ~** (*shun.* **on every ~**) hamma narsani e'tiborga (inobatga, nazarga) olib; nazarda tutib; har jihatdan, hamma tomondan; **on no ~** hech qanday holat (sharoit, vaziyat)da, aslo, hech, zinhor, sira, hech bir; **on smb.'s ~** kimningdir hurmati uchun; **to send smb. to his ~** kimnidir narigi dunyoga jo'natmoq, o'ldirmoq; **to settle** (*yoki* **to square**) **~s** (*yoki* **one's ~**) **with smb.** (*shun.* **to settle smb's ~**) 1) kim bilandir hisob-kitob qilmoq, hisoblashmoq, hisoblashib orani ochiq qilmoq; 2) kimdandir o'ch (qasos, qasd) olmoq, kim bilandir hisoblashib qo'ymoq; **to turn smth. to (good) ~** nimadandir foyda (manfaat) ko'rmoq, naf topmoq, foyda olmoq, nimanidir o'z foydasi uchun ishlatmoq; **2.** *v* **(for)** tushuntirmoq; **to ~ for one's absence** kelmaganligining sababini tushuntirib bermoq

accountability [ə,kaontə'bılıtı] *n* 1) javobgarlik; 2) hisobot beruvchi; **she is ~ to her father** u otasining oldida hisobot beradi

accountable [ə'kaontəb(ə)l] *a* mas'ul, javobgar; **to be ~ for one's actions** o'z qilmishiga javob bermoq

accountably [ə'kaontəblı] *adv* sababli (tuzrli) tarzda, sababini tushunib (tushuntirib)

accountancy [ə'kaontənsı] *n* hisobchilik ishi, hisobchilik

accountant [ə'kauntənt] *n* 1) hisobchi, buxgalter; 2) *yur.* javobgar; **~'s office** hisob-kitob bo'limi, buxgalteriya

accountant-book [ə 'kaontəntbok] *n* buxgalteriya daftari

accountant-general [ə 'kaontənt,dʒen(ə)r(ə)l] *n* bosh hisobchi

accountantship [ə'kaontənʃıp] *n* 1) buxgalterlik ishi; 2) buxgalterlik vazifasi

accounting [ə'kaontıŋ] *n* 1) buxgalterlik, hisobchilik ishi; **~ check** *komp.* kompyuterga kiritilgan axborotning to'g'ri o'zlashtirilganligini tekshirish (nazorat qilish); 2) buxgalterlik daftarlarini yuritish

accouter [ə'ku:tə] = **accoutre**

accoutre [ə'ku:tə] *v* 1) kerakli narsalar (kiyim-kechak, oziq-ovqat, transport vositalari va sh. k.) bilan ta'minlamoq; 2) kiyintirmoq, kiygizmoq; 3) kerakli (*asosan, harbiy*) anjom-aslaha bilan ta'minlamoq

accoutrements [ə'ku:trəmənts] *n pl harb.* (*shaxsiy*) anjom (*asosan, charmdan qilingan*)

accredit [ə'kredıt] *v* vakolat bermoq

accreditation [ə,kredı'teıʃ(ə)n] *n* 1) *dipl.* chet davlatga vakil qilib yuborish (*diplomatik vakillarni, jurnalistlarni*); 2) rasmiylashtirish, rasmiy ro'yxatdan (qaytadan) o'tkazish (*tashkilot, o'quv muassasasi haqida*)

accredited [ə'kredıtıd] *a* 1) vakil qilib yuborilgan; 2) rasmiylashtirilgan, rasmiy ro'yxatdan (qaytadan) o'tkazilgan (*tashkilot, o'quv muassasasi haqida*); **an ~ advertising agency** rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan (*reklamalarni joylashtirishga huquqi va imkoniyatlari mavjud bo'lgan*) reklama agentligi; 3) rasm bo'lib qolgan

accrementition [,ækrımın 'tıʃ(ə)n] *n biol.* tabiiy o'sish

accrescence, -cy [ə 'kres(ə)ns, -sı] *n* 1) to'xtamasdan o'sish; 2) *bot.* gullagandan keyin o'sish

accrescent [ə'kres(ə)nt] *a* 1) o'sib boruvchi, o'sayotgan; 2) *bot.* gullagandan keyin o'sib boruvchi

accrete [ə 'kri:t] **1.** *a bot.* tutashib o'sgan; **2.** *v* (*o'sish yoki rivojlanish jarayonida*) bitta bo'lib qo'shilib (bitib) ketmoq.

accretion [ə'kri:ʃ(ə)n] *n* 1) o'sish, ko'payish; **the ~ of territory** maydonning kengayishi; **the ~ of the capital** *iqt.* mablag' (sarmoya)ning ko'payishi; 2) *biol.* tabiatan o'sish

accretive [ə'kri:tıv] *a* 1) o'sib boruvchi, o'suvchi, kattalashib borayotgan; 2) *geol.* (suv, shamol yoki muz olib kelgan) o'tirindi, cho'kindi

accroach [ə 'krəotʃ] *v* (*hokimiyatni*) qonunga xilof ravishda (zo'rlik bilan) tortib olmoq

accroachment [ə'krəotʃmənt] *n* (*hokimiyatni*) qonunga xilof ravishda (zo'rlik bilan) tortib olish

accrual [ə'kruəl] **1.** *n* 1) kuchayish, zo'rayish, oshish, oshib (ortib) borish, o'sish; 2) jamg'arish, orttirish, to'plash; **the ~ of funds** mablag' to'plash; **2.** *a* o'sib (zo'rayib, kuchayib) boruvchi, jadallashib (tezlashib) boradigan (borayotgan), tezlashuvchi, o'suvchi

accrue [ə'kru:] *v* ko'paymoq; to'planib qolmoq

accrued [ə'kru:d] *a* ko'paygan; to'planib qolgan

accruer [ə'kru:ə] = **accrual**

accubation [,ækjo'beıʃ(ə)n] = **accouchment**

accumulate [ə'kju:mjoleıt] *v* to'plamoq, yig'moq; jamg'armoq

accumulated [ə'kju:mjoleıtıd] *a* to'plangan, yig'ilgan; jamg'arilgan; **~ sum** yig'ilgan summa

accumulation [ə,kju:mjo'leıʃ(ə)n] *n* to'plash, yig'ish; jamg'arish; **~ of power** kuch to'plash

accumulative [ə'kju:mjolətıv] *a* jamg'arilgan, jamlangan, to'plangan

accumulator [ə'kju:mjoleıtə] *n* 1) *tex.* akkumulator; 2) *komp.* akkumulator (*protsessorning maxsus registri (tugmachalar) qatori*)); 3) manfaatparast odam

accuracy ['ækjorəsı] *n* aniqlik, to'g'rilik; **calculation ~** hisobning (hisoblab chiqishning) aniqligi (to'g'riligi); **the ~ of translation** tarjimaning aniqligi (aynan to'g'riligi); **the ~ of fire** *harb.* merganlik; **~ control characters** *komp.* akselerator (*jarayonni tezlashtiruvchi blok*)

accurate ['ækjərət] *a* aniq, to'g'ri; **~ within 0,001 mm** 0,001 mm gacha bo'lgan aniqlik bilan; **an ~ description** aniq tasvirlash; **an ~ diagnosis** aniq tashxis; **~ information** aniq (ishonchli) ma'lumot

accurately ['ækjərətlı] *adv* xatoga yo'l qo'ymay, yanglishmay, xato qilmay, xatosiz, aniq, to'ppa-to'g'ri, bexato

accurateness ['ækjərətnəs] *n* aniqlik, to'g'rilik, rostlik, chinlik, xatosizlik, bexatolik

accurse [ə'kɜ:s] *v esk.* so'kmoq, urishmoq, koyimoq, la'natlamoq, qarg'amoq

accursed [ə'kɜ:sıd] *a* 1) la'nati, la'natlangan, la'nat o'qilgan; **an ~ problem** mushkul (hal qilinishi qiyin bo'lgan) masala; 2) nafrat qo'zg'aydigan

accurst [ə'kɜ:st] = **accursed**

accusal [ə'kju:z(ə)l] *n* ayblash, qoralash

accusant [ə 'kju:z(ə)nt] *n* ayblovchi, qoralovchi

accusation [,ækjo'zeıʃ(ə)n] *n* ayblash, qoralash; **to deny/to refute an ~** aybni o'z bo'yniga olmaslik; **to bring an ~ against smb.** kimnidir ayblamoq

accusational [,ækju:'zeıʃ(ə)nl] *a* ayblash bilan bog'liq bo'lgan, ayblaydigan; ayblash ... (*jinoiy jarayon haqida*)

accusative [ə'kju:zətıv] *a gram.* tushum kelishigi

accusatorial [ə,kju:zə'tɔ:rıəl] *a yur.* ayblashga oid

accusatory [ə´kju:zət(ə)rɪ] *a* ayblanadigan, ayblash bilan bog'liq bo'lgan

accuse [ə´kju:z] *v* ayblamoq, kimsaga ayb qo'ymoq, aybni kimsaga yuklamoq, kimsani aybdor, gunohkor hisoblamoq; **to ~ smb. of a crime** kimnidir jinoyat sodir qilganlikda ayblamoq

accused [ə´kju:zd] *a yur.* ayblanuvchi (*jinoyatda*)

accuser [ə´kju:zə] *n* 1) *yur.* ayblovchi, qoralovchi; 2) shikoyatchi

accustom [ə´kʌstəm] *v* o'rgatmoq, odatlantirmoq, ko'niktirmoq, o'rgatib (odatlantirib) qo'ymoq (**to**); **to ~ oneself to smth.** (nimagadir) o'rganib qolmoq; **to ~ oneself to getting up early** ertalab turishga odatlanib qolmoq; **to be ~ed to hard work** og'ir ishlarga o'rgatilmoq; **to be ~ed to working hard** qattiq mehnat qilishga o'rganib qolmoq

accustomed [ə´kʌstəmd] *a* odatlangan; o'rgangan; **~ to smth.** nimagadir o'rgatilgan; **~ to hard work** og'ir mehnatga o'rgatilgan; **~ to walking long distances** ko'p piyoda yurishga odatlangan

ace [eɪs] **1.** *n* 1) *sport.* bir zarba bilan yutib olingan (qo'lga kiritilgan) xol (*tennisda, gandbolda*); 2) *qart.* tuz; **one's** (*yoki* **the**) **~ of trumps** asosiy kuzir; **an ~ up one's sleeve** (*amer.* **an** *yoki* **one's ~ in the hole**) *so'zl.* „zaxiradagi kuzir", qo'shimcha imkoniyat (yashirincha ustunlik); **to trump smb.'s** (*yoki* **the**) **~** tuzni kuzir bilan bosmoq, kimningdir zarbasini qaytarmoq (daf qilmoq); kimningdir zarbasiga qarshi zarba bermoq; **within an ~** *so'zl.* oz (sal) bo'lmasa, sal qoldi; hozir, hademay, tez orada, hash-pash deguncha = nimaningdir oldida (yoqasida); nimagadir juda yaqin; 3) yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon; eng yaxshi mutaxassis; o'z ishining ustasi; **2.** *v* xol olmoq (*o'yinda*)

acellular [eɪ´seljʊlə] *a biol.* hujayrasiz

acentric [ə´sentrɪk] *a* 1) markazlashtirilmagan; 2) *tib.* ustki, sirtqi

acephalous [ə´sefələs] *a* 1) *zool.* boshsiz (*molluskalar guruhi to'g'risida*); 2) rahbardan mahrum etilgan, boshliqsiz

acequia [ə´seɪkɪə] *n amer. qur.* irrigatsion kanal

acer [´eɪsə] *n* zarang (*daraxt*)

acerate [´æsəreɪt] *a biol.* ignaga o'xshagan, igna shaklidagi, ignasimon

acerb [ə´sɜ:b] *a* 1) nordon, og'iz burushtiradigan, tish qamashtiradigan, qimizak, turush, achchiq, taxir; 2) achchiq, o'tkir; o'yuvchi, yeyuvchi, achitadigan, achishtiradigan; alam qildiradigan, zaharli, achchiq, zahar

acerbate [´æsəbeɪt] *v* 1) g'azablantirmoq, achchig'ini chiqarmoq; 2) achitmoq, taxir (*tish qamashadgan*) qilmoq

acerbic [ə´sɜ:bɪk] *a* nordon, achchiq

acerbity [ə´sɜ:bɪtɪ] *n* 1) taxirlik, nordonlik; 2) qo'pollik, qo'rslik (*xarakter haqida*)

acerdese [æ´sɜ:di:s] *n min.* manganit (*gidroksidlar kenja sinfiga mansub mineral*)

acerose [´æsərəʊz] *a bot.* ignasimon; **an ~ leaf** ignabarg (*ignabargli daraxtning bargi*)

acerous [´æsərəs] *a biol.* 1) ignaga o'xshagan, igna shaklidagi, ignasimon; tikanakli; uchi o'tkir, uchli, qirrali; 2) shoxi yo'q, shoxsiz; 3) paypaslagichsiz, qisqichsiz (*ba'zi hasharot va hayvonlar haqida*)

acervate [ə´sɜ:vɪt] *a* g'uj (to'p) bo'lib o'sadigan

acervuline [ə´sɜ:vəlaɪn] *a* kichik to'dachalarga to'plab (yig'ib) qo'yilgan

acervulus [ə´sɜ:vələs] *n bot.* 1) bog', bog'lam, tutam; 2) bosh, popuk

acescence [ə´ses(ə)ns] *n* oksidlash, oksidlanish

acescent [ə´ses(ə)nt] *a* oksidlovchi

acetabuliform [ˌæsɪ´tæbjʊlɪfɔ:m] *a biol.* likopchasimon, likopchaga o'xshagan, likopcha shaklidagi

acetal [´æsɪˌtæl] *n* atsetal (*aldegidning gidratlangan oddiy efiri, rangsiz xushbo'y suyuqlik*)

acetaldehyde [ˌæsɪ ´tældɪhaɪd] *n kim.* atsetaldegid (sirka aldegid, etanal), alifatik aldegid

acetamide [ˌæsɪ ´tæmaɪd] *n* atsetamid (*sirka kislota amidi, rangsiz kristall*)

acetanilide [ˌæsɪ´tænɪlaɪd] *n* atsetanilid (*antifebrin, sirka kislota anilidi, rangsiz kristall*)

acetate [´æsɪteɪt] *n* 1) *kim.* sirka kislotasining tuzi, atsetat; 2) *attr.* atsetatli; sun'iy; **~ silk** atsetatli, sun'iy ipak

acetate dye [´æsɪteɪt´daɪ] atsetat tolani bo'yaydigan bo'yoq modda (rang)

acetate fiber [´æsɪteɪt´faɪbə] atsetat tola

acetate fibre [´æsɪteɪt´faɪbə] = **acetate fiber**

acetate rayon [´æsɪteɪt ´reɪɔn] atsetat tola, atsetat ipak

acetic [ə´si:tɪk] *a kim.* sirkali; **~ acid** uksus kislotasi

acetic aldehyde [ə´sɪtɪk´ældɪhaɪd] atsetaldegid (*sirka aldegid, etanal*)

acetic anhydride [ə´sɪtɪkæn´haɪdraɪd] sirka angidridi

acetic ester [ə´sɪtɪk´estə] sirka kislotasining efiri

acetic ether [ə ´sɪtɪk ´i:θə] etilatsetat (*sirka etil efiri*)

acetification [əˌsi:tɪfɪ´keɪʃ(ə)n] *n kim.* oksidlash, oksidlanish

acetify [ə´si:tɪfaɪ] *v kim.* sirka (kislotasi)ga aylanmoq (aylantirmoq)

acetilene lime [ə´setɪli:n laɪm] ohak qorishma

acetimeter [ˌæsɪ ´tɪmɪtə] *n kim.* atsetometr

acetoacetic [ˌæsɪtəʊə´si:tɪk] *kim.* atsetosirkaga oid, atsetosirka...

acetoacetic acid [ˌæsɪtəʊə´si:tɪk´æsɪd] atsetosirka kislotasi

acetomorphine [ˌæsɪtəʊ´mɔ:fi:n] *n tib.* geroin (*kuchli narkotik modda, dori*)

acetone [´æsɪtəʊn] *n kim.* atseton (*lok-bo'yoq sifatida va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan organik birikma, rangsiz suyuqlik*)

acetose [´æsɪtəʊs] = **acetous**

acetous [´æsɪtəs] *a* 1) sirkaga oid, sirka...; 2) sirkali, nordon, achchiq

acetum [´æsɪtəm] *n farm.* sirka

acetyl [´æsɪtɪl] *n kim.* atsetil

acetylacetone [ˌæsɪtɪl´æsɪtəʊn] atsetilatseton

acetylate [ə´setɪleɪt] *v* atsetillamoq (*organik birikmalardagi vodorodni sirka kislota qoldig'iga almashtirmoq*)

acetylated [ə´setɪleɪtɪd] *a* atsetillangan (*organik birikmalardagi vodorodni sirka kislota qoldig'iga almashtirilgan*)

acetylation [əˌsetɪleɪʃ(ə)n] *n* atsetillash (*organik birikmalardagi vodorodni sirka kislota qoldig'iga almashtirish*)

acetyl cellulose [ˌæsɪtɪl´seljʊləʊs] atsetilselluloza (*sellulozaning atsetat efiri*)

acetyl chloride [ˌæsɪtɪl´klɔ:raɪd] atsetilxlorid (*o'tkir hidli rangsiz suyuqlik*)

acetylcholine [ˌæsɪtɪl ´kəʊli:n] *n* atsetilxolin (*xolinning atsetat efiri, rangsiz organik modda*)

acetylenic [ə ´setɪli:nɪk] *a* atsetilenga oid; atsetilen bilan ishlaydigan; atsetilenli; atsetilen...

acetylene [ə´setɪli:n] *n kim.* atsetilen

acetylenedivinyl [ə´setɪli:n´dɪvaɪnɪl] *n kim.* divinatsetilen

acetylenide [ə´setɪli:naɪd] atsetilenid

acetylethanolamine [ə´setɪl´eθənɔleɪmi:n] atsetiletanolamin

acetylglycine [ə´setɪl ´glaɪsi:n] *n kim.* atsetilglikol

acetylhydroperoxide [ə´setɪl´haɪdrəʊpə´rɔksaɪd] *n kim.* atsetilgidroperoksid

acetylide [ə ´setɪlaɪd] *n kim.* 1) karbid (*uglerodning metall birikmasi*); 2) atsetilenid, atsetilinid

acetylization [əˌsetɪlaɪzeɪʃ(ə)n] = **acetylation**

acetylize [ə´setılaız] *v* atsetillamoq (*organik birikmalardagi vodorodni sirka kislota qoldig'iga almashtirmoq*)
acetylmethylcarbinol [ə´setıl´meθ(ə)-ku:bın(ə)l] *n kim.* atsetoin, atsetilmetilkarbinol
acetyl peroxide [ə´setılpə´rɒksaıd] atsetil peroksid (*rangsiz o'ziga xos hidli modda*)
acetylsalicinic [ə´setıl´salısınık] atsetilsalitsilga oid, atsetilsalitsil...
acetylsalicylic acid [ˌæsıtılsælı,sılık´æsıd] atsetilsalitsil kislota
achademe [´ækədi:m] = **academe**
achanthus [ə´kænθəs] *n me'mor.* akant (*ayiqtovon o'simligining bargisimon qilib ishlangan me'moriy naqsh bezagi*)
achat(e) [ə´tʃeıt] *n yuv.* sotib olish, xarid qilish
Achates [ə´keıti:z] *n* sodiq do'st
ache [eık] **1.** *n* og'riq (*surunkali*); **to have an ~** og'riqni his qilmoq, og'riqni boshdan kechirmoq; **a dull ~** simillab og'rish; zirqirab turadigan og'riq; **a persistent ~** doimiy og'riq; **a steady ~** to'xtamaydigan og'riq; **2.** *v* 1) og'rimoq (*qayeridir*); og'riqni his qilmoq; kasal bo'lmoq; **my head ~s** mening boshim og'riyapti; 2) ichi kuymoq, achinmoq
acheless [´eıkləs] *a* og'riqsiz, og'ritmaydigan
Achernar [´eıkə,nɑ:] *n arab.* daryoning oxiri (tugashi)
achievable [ə´tʃi:vəb(ə)l] *a* yetib (*erishib*) bo'ladigan
achieve [ə´tʃi:v] *v* erishmoq; yetishmoq; **to ~ one's aim** o'z maqsadiga erishmoq; **to ~ success (results)** muvaffaqiyatga (natijaga) erishmoq; **to ~ an object of invention** kashfiyotdagi maqsadiga erishmoq; **to ~ economy** iqtisodga erishmoq
achievement [ə´tʃi:vmənt] *n* yutuq, muvaffaqiyat, g'alaba; **considerable ~s** katta muvaffaqiyatlar; **the ~ of goal** maqsadga erishish; **a crowning ~** eng katta yutuq; **an epic ~** tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yutuq (muvaffaqiyat); **great/major ~s** katta yutuq, ulkan g'alaba; **a memorable ~** esda qoladigan (unutilmaydigan) yutuq; **remarkable ~s** g'oyat katta muvaffaqiyatlar; **outstanding ~s in science** ilmdagi ulkan yutuqlar; **scientific ~s** ilmiy yutuqlar; **~s in industry (national economy, trade)** sanoat (xalq xo'jaligi, savdo)dagi yutuqlar
Achillean [ˌækı´li:ən] *a* olib (ishg'ol qilib) bo'lmaydigan, yengilmas, yengilmaydigan, yengib bo'lmaydigan
Achilles [ə´kıli:z] *n anat.* oyoq yuzi paylari; **Achilles' heel** bo'sh (nozik) joy
aching [´eıkıŋ] *a* nosog', betob, kasal; **an ~ tooth** og'riyotgan tish
achingly [´eıkıŋlı] *adv* 1) ortiq darajada kuyinib, qiynalib, mashaqqat bilan; 2) g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada; **~ beautiful** g'oyat go'zal
achlamydeous [ˌæklə´mıdıəs] *a bot.* ochiq, yalang, qup-quruq, yalang'och, qoq (*mas.* yalang'och (yaprog'i to'kilgan) daraxt)
achondrite [ə´kɒndraıt] *n kim.* axondrit (*tarkibida xondrit bo'lmagan, kam uchraydigan tosh meteorit turi*)
achromacyte [ˌækrəʊ´mæsaıt] *n tib.* axromatsit (*bo'yoq moddalarga qo'shilib, boshqa tusga kirish qobiliyatiga ega bo'lmagan qizil qon tanachalari*)
achromasia [ə´krəʊ´meıʃə] *n tib.* ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi
achromat [´ækrə(ʊ)meıt] *n* 1) *tib.* ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi bilan og'rigan (azoblanayotgan) kishi; 2) *fiz.* axromat (*murakkab optik tizim*)
achromatic [ˌækrə(ʊ)´mætık] *a* 1) rangsiz, tussiz, rangpar, xira; **~ color** axromatik (*nurni tarkibiy qismlarga ajratmasdan o'tkazadigan*) rang; **an ~ image** axromatik tasvir; **~ light** axromatik (oq) rang; **an ~ system** axromatik sistema; **an ~ television** oq-qora televizor; 2) *tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*) bilan og'rigan (azoblanayotgan); **~ vision** daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*)
achromatin [ə´krəʊmətın] *n biol.* axromatin (*o'simlik va hayvon hujayralarining mag'zi (yadrosi)da bo'ladigan sust bo'yaluvchi modda*)
achromatinic [ə´krəʊmətınık] *a* axromatinga oid, axromatin ...; tarkibida axromatin bo'lgan
achromation [ˌækrəʊ´meıʃ(ə)n] *n* axromatizm (*optik shishalarning nurni tarkibiy qismlarga ajratmasdan o'tkazish xususiyati*)
achromatism [ə´krəʊmətız(ə)m] *n maxs.* 1) axromatizm (*optik shishalarning nurni tarkibiy qismlarga ajratmasdan o'tkazish xususiyati*); 2) rangsizlik
achromatization [ˌækrəʊ´mætızeıʃ(ə)n] *n* rangini yo'qotish (o'chirish), rangsiz qilib qo'yish, rangini ketkazish
achromatize [ə´krəʊmətaız] *v maxs.* rangini yo'qotmoq, o'chirmoq, rangsiz qilib qo'ymoq, rangini ketkazmoq
achromatized [ə´krəʊmətaızd] *a* rangi yo'qotilgan (o'chirilgan), rangsiz qilib qo'yilgan, rangi ketkazilgan
achromatizing [ə´krəʊmətaızıŋ] *n* rangini yo'qotish (o'chirish), rangsiz qilib qo'yish, rangini ketkazish
achromatocyte [ə´krəʊmətəʊ´saıt] *n* axromatsit
achromatolysis [ə´krəʊmə´tæləsıs] *n* axromatoliz, axromatinning buzilishi
achromatophil [ə´krəʊ´mætəfıl] *n* axromatofil
achromatophilous [ə,krəʊmə´tɒfıləs] *a* bo'yalmaydigan, qiyin bo'yaladigan
achromatous [ə´krəʊmətəs] *a* rangi o'chgan (ketgan), rangi oqargan, rangsiz
achromia [ə´krəʊmıə] *n* axromiya, axromatoz (*terida pigmentning yetishmasligi*)
achromic [ə´krəʊmık] *a* axromatik; bo'yalmagan, rangsiz
achromophilous [ə´krəʊmə´fıləs] *a* bo'yalmaydigan, qiyin bo'yaladigan
achromoreticulocyte [ə´krəʊmə:´tıkjʊləsaıt] *n* axromoretikulotsit
achromous [ə´krəʊməs] *a* bo'yalmagan, rangsiz
achroous [´ækrəʊəs] *a* rangsiz
Achtung [´ɑ:htʊŋ] *int. nem.* diqqat!
achy [´eıkı] *a* kasal, kasalmand, xasta, bemor, betob, nosog'
aciculae [ə´sıkjʊli:] *pl of* **acicula**
acicular [ə´sıkjʊlə] *a maxs.* ignasimon, igna shaklidagi, ignaga o'xshagan
acicular crystal [ə´sıkjʊlə´krıstl] ignasimon kristall
acicular structure [ə´sıkjʊlə´strʌktʃə] ignasimon struktura
aciculiform [ə´sıkjʊlı´fɔ:m] = **acicular**
acid [´æsıd] **1.** *a* 1) nordon, achchiq; 2) kislotaga oid; kislotali; kislota...; **an ~ brick** silikat (*tarkibida kremniy kislotasining tuzlari bo'lgan*) g'isht; **~ burn** kislota bilan kuydirish; **~ cleaning** kislota bilan tozalash; **an ~ conduit** kislota quvuri; **~ dye** kislotali bo'yoq; **~ estimation** kislota miqdorini aniqlash; **~ -fast** kislotaga chidamli; **~ formers** kislota shaklidagi bakteriyalar; **~ liquor** kislotali eritma; **~ proof** kislotaga chidamli, kislotabardosh; **an ~ room** kislota saqlanadigan bino; **~ salt** nordon tuz (*tarkibida metall bilan almashina oladigan vodorod bo'lgan tuz*); **~ stability** kislotaga chidamlilik, kislotabardosh; **an ~ tank** kislota saqlanadigan bak; **~ value** kislota miqdori; **~(ic) waste** ishlatib bo'lingan (ishdan chiqqan) kislota; **~ water** achchiq (nordon) suv (*uglekislotali mineral suv*); **~-based** kislotaga oid; kislo-

tali; kislota ...; **~-cut water** achchiq (nordon) suv (*uglekislotali mineral suv*); **~-etch** buyum sirtiga kislota bilan ishlov bermoq; **~-free** tarkibida kislotasi bo'lmagan; **~-like** kislotasimon. kislotaga o'xshagan; **~-proof paint** kislotaga chidamli bo'yoq; **~-proof paint**; **~-resisting steel** kislotaga chidamli (kislotabardosh) po'lat; **~-resisting tile** kislotaga chidamli (kislotabardosh) plitka (kichkina toshtaxta); **~-seal** = **~-resistant**; **~-seal paint** kislotaga chidamli (kislotabardosh) bo'yoq; **~-tolerant** kislotaga chidamli (kislotabardosh); **~-washed** kislota bilan yuvilgan; **2.** *n kim.* kislota; **~ residual** kislota qoldig'i; **acetic (ethanoic) ~** sirka kislotasi; **citric ~** limon kislotasi; **nitric ~** azot kislotasi, nitrat kislota; **sulfuric ~** oltingugurt kislotasi, sulfat kislota; **hydrochloric ~** xlor kislotasi. xlorid kislota; **to come the ~** *jarg.* achchiq (qattiq) gapni aytib yubormoq, alam qiladigan so'z aytmoq, zaharxanda bilan gapirmoq, achchiq gap qilmoq; **to put the ~ on smb.** *avstral. jarg.* 1) kimdandir qarzga so'rab olib turmoq; 2) nafsoniyatga (izzat-nafsiga, shaxsiyatiga) tegadigan gap qilmoq, shilqimlik qilavermoq (ayol kishiga)

acidate [ə´sɪdeɪt] *v* biroz nordonroq qilmoq, nordonlashtirmoq

acidation [ə´sɪdeɪʃ(ə)n] *n* biroz nordonroq qilish, nordonlashtirish

acidic [ə´sɪdɪk] *a* 1) nordon, achchiq; 2) kislotaga oid; kislotali; kislota...; **~ amino acid** kislotali aminokislota; **~ solution** kislotali eritma; **~ waste** ishlatib bo'lingan (ishdan chiqqan) kislota; **~ water** achchiq (nordon) suv (*uglekislotali mineral suv*)

acidiferous [ˌæsɪdɪ´fɪərəs] *a* kislotali xususiyatga ega bo'lgan; tarkibida kislotasi bo'lgan

acidification [əˌsɪdɪfɪ´keɪʃ(ə)n] *n kim.* oksidlash; oksidlanish

acidify [ə´sɪdɪfaɪ] *v kim.* oksidlamoq

acidimeter [ˌæsɪ´dɪmɪtə] *n kim.* atsidometr

acidimetry [ˌæsɪ´dɪmɪtrɪ] *n* atsidimetriya (*kislota miqdorini aniqlashda hajmiy analizning neytrallanish reaksiyasiga asoslangan usul*)

acidity [ə´sɪdɪtɪ] *n* 1) kislotalilik; **~ coefficient** kislotalilik koeffitsiyenti; **~ constant** kislotalilikning doimiy miqdori; **~ level** kislotalilik darajasi; 2) o'yuvchanlik

acidize [´æsɪdaɪz] *v* oksidlamoq

acidless [´æsɪdləs] *a* kislotasiz, tarkibida kislota bo'lmagan

acidly [´æsɪdlɪ] *adv* istar-istamas; ijirg'anib; ijirg'angan chehra bilan

acidoanabiosis [ˌæsɪdəʊˌænəbaɪ´əʊsɪs] atsidoanabioz

acidoid [ə´sɪdɔɪt] *a* kislotaga o'xshagan, kislotasimon

acidometer [ˌæsɪ´dɒmɪtə] atsidometr

acidophil [´æsɪdəʊˌfɪl] = **acidophilic**

acidophile [´æsɪdəʊˌfaɪl] *n* atsidofil (*kislotali muhitda yashay oladigan*) organizm

acidophilic [əˌsɪdəʊ´fɪlɪk] *a biol.* atsidofillar (*bir turli cho'psimon bakteriyalar*)ga oid; **~ bacterium** atsidofil (*kislotali muhitda yashay oladigan*) bakteriya; **~ microorganism** atsidofil (*kislotali muhitda yashay oladigan*) organizm

acidophilus milk [ˌæsɪ´dɒfɪləs´mɪlk] *n* atsidofilin (*atsidofil deb ataluvchi bakteriyalar bilan achitib tayyorlanadigan qatiq turi*)

acidosis [ˌæsɪ´dəʊsɪs] *n tib.* atsidoz (*organizmda (qon va suyuqliklarda) kislota-ishqor muvozanatining buzilishi*)

acidotic [ə´sɪdɒtɪk] *a* atsidozga oid; atsidoz...

acidotus [ə´sɪdəʊtəs] uchi o'tkir, uchli, nayzador

acidproof [´æsɪdpru:f] kislotaga chidamli, kislotabardosh; **an ~ brick** kislotaga chidamli (kislotabardosh) g'isht; **~ glass** kislotaga chidamli (kislotabardosh) shisha; **~ material** kislotaga chidamli (kislotabardosh) material; **~ paint** kislotaga chidamli (kislotabardosh) bo'yoq; **~ paper** kislotaga chidamli (kislotabardosh) qog'oz; **~ steel** kislotaga chidamli (kislotabardosh) po'lat; **~ varnish** kislotaga chidamli (kislotabardosh) lok

acidulant [ə´sɪdjʊlənt] nordonlashtiruvchi modda

acidulate [ə´sɪdjʊleɪt] *v kim.* kislota qo'shmoq

acidulous [ə´sɪdjʊləs] *a* nordonroq, achchiqroq; **~ water** achchiq (nordon) suv, uglekislotali mineral suv

aciduria [əˌsɪdjʊərɪə] atsiduria (*siydikdagi kislotani ajratish*)

aciduric bacterium [əˌsɪdjʊərɪkbæk´tɪərɪəm] atsidofil (*kislotali muhitda yashay oladigan*) bakteriya

acinaceous [ˌæsɪ´neɪʃəs] *a bot.* urug'li *yoki* danakli

acinacifolious [əˌsɪnəsɪ´fəʊlɪəs] *a bot.* qilichsimon bargli

acinaciform [ə´sɪnəsɪfɔ:m] qilichsimon (*barg haqida*)

acinar carcinoma [ə´sɪnɑ:ˌkɑ:sɪ´nəʊmə] *tib.* adenokarsinoma (*bezli a'zolar (ko'krak bezi, me'da shilliq pardasi va b.) epiteliysidan o'sadigan xavfli o'sma*)

acinetic [ə´sɪnətɪk] *a tib.* 1) akineziya (*bo'g'inlar falajligi, og'riq, bukilmasligi va b. sabablarga ko'ra faol harakat qila olmaslik*)dan azob tortayotgan; 2) akineziyaga oid, akineziya...

acini [´æsɪnaɪ] *pl of* **acinus**

aciniform [ə´sɪnɪˌfɔ:m] *a* uzum boshiga (shingiliga) o'xshagan, uzum boshi (shingili) shaklidagi, uzum boshi (shingili)simon; uzum boshi (shingili)ga oid

acinose [´æsɪnəʊs] *a maxs.* doni ko'p, serdon

acinus [´æsɪnəs] *n bot.* danakli meva

acipenser [ˌæsɪ´pensə] *n zool.* asyotrsimonlar (*osyotrsimon baliqlar oilasi*)

ack [´æk] (**acknowledge(d)** *so'zining qisqartmasi*) olganimni tasdiqlayman (*tilxat*)

ack-ack [´æk,æk] *n* 1) *harb. jarg.* zenit to'pi; 2) zenit artilleriyasi; 3) zenit artilleriyasining o'qi

ack-emma [´æk´emə] *adv* ertalabdan tush (choshgoh) vaqtigacha

ackey [´ækɪ] *n* tezob (*metallarni tozalash uchun ishlatiladigan dori*)

ack(gt) [æk(gt)] = **acknowledgement**

ackn [ækn] = **acknowledge(d)**

acknowledge [ək´nɒlɪdʒ] *v* 1) tushunmoq, bilmoq, anglamoq, fahmlamoq; iqror bo'lmoq, bo'yniga olmoq, tan olmoq; **to ~ a debt** qarzini bo'yniga olmoq; **to ~ character** qabul qilib olganini tasdiqlovchi belgi; **to ~ receipt of** nimanidir olganini tasdiqlamoq; **to ~ the corn** *idiom.* o'z aybini bo'yniga olmoq; **to ~ one's mistakes** o'z xatolarini tushunmoq; 2) o'z minnatdorchiligini izhor etmoq; **to ~ gifts** sovg'alar uchun o'z minnatdorchiligini yozma ravishda izhor etmoq

acknowledged [ək´nɒlɪdʒd] *a* tanilgan, tan olingan, e'tirof etilgan; **~ sequence number** tasdiqlangan tartib raqami

acknowledgement [ək´nɒlɪdʒmənt] *n* 1) tan olish, e'tirof etish; 2) tasdiqlash; (nimanidir) olish uchun berilgan tilxat; 3) bilish, tanish; 4) minnatdorchilik, minnatdorlik, minnatdor bo'lishlik; **an ~ of a mistake** xatoni tan olish (e'tirof etish); **an ~ signal** qabul qilib olganligini tasdiqlovchi signal

aclinal [ə´klaɪnəl] *a* gorizontal, yotiq

aclinic [ə´klɪnɪk] *a* gorizontal, yotiq, nishabsiz; **an ~ line** gorizontal chiziq

acmastic fever [ək´mæstɪk´fi:və] doimiy isitma

acme [´ækmɪ] *n* (*nimaningdir*) eng yuqori nuqtasi, eng avji, eng yuksak dara-

jasi, eng qizg'in payti; **the ~ of skill** mahorat cho'qqisi

acmite ['ækmaıt] *n min.* akmit

acne ['ækni] *n tib.* husnbuzar, g'udda (*yuzda*)

acock [ə'kɒk] *adv* chakkaga qo'yib, chakkaga qo'ndirib (*bosh kiyim haqida*)

acolyte ['ækəlaıt] *n* 1) *cherk.* xizmatkor; 2) yordamchi; 3) *astr.* yo'ldosh

aconite ['ækənaıt] *n bot.* akonit, parpi (*dorivor o'simlik*)

aconitine [ə'kɒnıti:n] *kim.* akonitin

acorn ['eıkɔ:n] *n* cho'chqayong'oq (*dub daraxtining mevasi*)

acosmism [ə'kɒzmız(ə)m] *n fals.* akosmizm

acoumeter [ə'ku:mıtə] *n tib.* akumetr (*eshitish qobiliyatining kuchliligini o'lchaydigan asbob*)

acoumetry [ə'ku:mıtrı] *n tib.* akumetriya (*eshitish qobiliyatining kuchliligini o'lchash*)

acous [ə'ku:s] = **acoustics**

acoustic [ə'ku:stık] *a* akustik, tovushga oid; **an ~ apparatus** akustika apparati; **an ~ element** akustik element; **~ energy** akustik energiya; **an ~ field** akustik maydon; **an ~ generator** akustik generator; **an ~ guitar** akustik gitara; **~al material** akustik material; **an ~ method** akustik metod; **an ~ microscope** akustik mikroskop; **an ~ pipe** akustik quvur; **an ~ radiometer** akustik radiometr; **an ~ signal** akustik signal; **an ~ system** akustik tizim; **an ~ thermometer** akustik termometr; **~ velocity** tovush tezligi

acoustical [ə'ku:stık(ə)l] = **acoustic**

acoustically [ə'ku:stık(ə)lı] *adv* akustika nuqtayi nazaridan

acoustician [ˌækʊ:'stıʃ(ə)n] *n* 1) akustika bo'yicha mutaxassis; 2) eshitish apparatlari ustasi

acoustics [ə'ku:stıks] *n* akustika (*1. fizikaning tovush haqidagi bo'limi; 2. binoning hamma yerida tovushning yaxshi eshitilish-eshitilmaslik xususiyati*)

acquaint [ə'kweınt] *v* 1) **(with)** tanishtirmoq, tanitmoq (*kim bilandir*); **to get/to become ~ed with smb.** kim bilandir tanishmoq; **to ~ smb. with smth.** kimnidir biror narsa bilan tanishtirmoq; 2) **(oneself with)** tanishmoq, tanishib chiqmoq; **to ~ oneself with smth.** nima bilandir tanishib chiqmoq

acquaintance [ə'kweıntəns] *n* tanish (oshna) bo'lish; tanishish; tanishlik, tanish-bilishlik, oshnachilik, og'aynilik; og'aynigarchilik; **to make the ~ of smb.** kim bilandir tanishmoq; **to renew an ~** oshnalikni qaytadan boshlamoq; **to strike up an ~ with** kim bilandir tanishmoq (tanishib olmoq); **a casual ~** tasodifiy tanishuv (uchrashuv); **nodding ~** ko'z oshna (tanish) bo'lish, salom-alik qilib yurish; **a passing ~** tasodifiy tanishuv (uchrashuv); **slight ~** yuzaki tanishuv; **superficial ~** yuzaki tanishuv; **to scrape (up) ~ (*yoki* an ~) with smb.** *so'zl.* kim bilandir tanishishga intilmoq; **a speaking ~** rasmiy tanishuv; **short ~ brings repentance** *maq.* (*qisqa muddatli tanishuv pushaymonga sababchi*) yangi do'stga uncha ham ishonib bo'lmaydi; kiyimning yangisi yaxshi, do'stning eskisi

acquaintanceship [ə'kweıntənsʃıp] *n* tanish (oshna) bo'lish, tanishlik, tanish-bilishlik, oshnachilik, og'aynigarchilik

acquainted [ə'kweıntıd] *a* 1) (*kim bilandir*) tanish, oshna; 2) (*nimanidir*) biladigan, qandaydir ma'lumotga ega bo'lgan

acquest [æ'kwest] *n* 1) *kit.* olish, ega bo'lish, egallash; 2) *yur.* sotib *yoki* in'om sifatida olingan narsa (*ammo meros sifatida emas*)

acquiesce [ˌækwı'es] *v* indamay *yoki* istar-istamay rozilik bildirmoq; **he will never ~** u hech qachon rozi bo'lmaydi

acquiescence [ˌækwı'es(ə)ns] *n* indamay *yoki* istar-istamay rozi bo'lish; rozilik; **complete / total ~** to'liq rozilik

acquiescent [ˌækwı'es(ə)nt] **1.** *n* indamay rozi bo'ladigan kishi; **2.** *a* indamay rozi bo'ladigan; qarshi chiqmaydigan

acquirable [ə'kwaı(ə)rəb(ə)l] *a* erishib (egallab, qo'lga kiritib) bo'ladigan

acquire [ə'kwaıə] *v* 1) olmoq, ega (molik) bo'lmoq, erishmoq, egallamoq, qo'lga kiritmoq; orttirmoq; **to ~ friends** do'stlar (oshna-og'aynilar) orttirmoq; **to ~ distinction** mashhurlikka erishmoq; **to ~ a patent** patent (*ixtirochiga o'z ixtirosi uchun olgan huquqni tasdiqlovchi hujjat; savdo-sotiq yoki hunar bilan shug'ullanish uchun beriladigan hujjat*) olmoq; **to ~ a right** qandaydir huquqqa ega bo'lmoq; qandaydir huquqni qo'lga kiritmoq; **to ~ a skill** malaka hosil qilmoq; **to ~ shares** aksiyalarni sotib olmoq; **to ~ wealth** boylik orttirmoq; 2) sotib olmoq, xarid qilmoq

acquired [ə'kwaıəd] *a* o'z mehnati bilan topilgan, peshana teri bilan (ter to'kib) orttirilgan, erishilgan; nasliy emas; **~ agammaglobulinemia** naslda bo'lmagan agammaglobulinemiya; **~ anaphylaxis** naslda bo'lmagan (ya'ni keyin yuqtirilgan, orttirilgan) anafilaksiya; **~ deafness** naslda bo'lmagan karlik (qulog'i og'irlik, garanglik); **an ~ disease** naslda bo'lmagan (ya'ni keyin yuqtirilgan, orttirilgan) kasallik; **~ heart disease** naslda bo'lmagan (ya'ni keyin yuqtirilgan, orttirilgan) yurak kasalligi; **~ hernia** naslda bo'lmagan dabba (churra tushish); **~ Immune Deficiency Syndrome (~ immunodeficiency syndrome) (AIDS)** Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS); **~ property** o'z mehnati bilan topilgan mulk, o'z mehnati bilan orttirilgan mol-dunyo; **~ reflex** naslda bo'lmagan refleks; **an ~ right** olingan (ega bo'lgan) huquq; **an ~ surplus** qo'lga kiritilgan qo'shimcha mablag'; **an ~ target** erishilgan maqsad

acquirement [ə'kwaıəmənt] *n* (*bilimni*) olish, egallash

acquisition [ˌækwı'zıʃ(ə)n] *n* 1) olish, erishish, egallash, qo'lga kiritish, o'zlashtirish; **the ~ of land** yerni o'zlashtirish; 2) o'rganib (bilib) olish, egallash, o'zlashtirish; **language ~** tilni o'rganib olish; **the ~ of knowledge** bilimni egallash (o'zlashtirish); **an ~ agent** sug'urtaning yangi shartnomalarini tuzuvchi agent; **~ control** xaridlarni tartibga solish; **an ~ date** olish sanasi; **an ~ interval** ro'yxatga olish vaqti; **an ~ method** o'zlashtirish metodi; **an ~ mode** ma'lumotlarni yig'ish tartibi (tartiboti); **~ negotiations** xarid qilish haqidagi muzokaralar; **the ~ of components** detallarni yig'ish; **the ~ of expert knowledge** maxsus bilimlarni egallash (o'zlashtirish); **the ~ of goods** mollar (tovarlar)ni sotib olish; **the ~ of income** daromad olish; **the ~ of license** ruxsatnoma (litsenziya) olish; **the ~ of nationality** fuqarolik olish, fuqarolikni qabul qilish; **the ~ of nationality by marriage** oila qurish natijasida fuqarolikni qabul qilish; **the ~ of patent** patent olish; **the ~ of patent information** patentga oid ma'lumot olish; **the ~ of property** mulkka egalik qilish; **the ~ of right** huquqni qo'lga kiritish, huquqqa egalik qilish; **the ~ of skill** malaka hosil qilish; **~ planning** dala ishlarini loyihalashtirish; **an ~ price** sotib olish narxi; **an ~ process** xarid qilish jarayoni; **an ~ system** ma'lumotlarni to'plash tizimi; **~ value** xarid narxi

acquisitive [ə'kwızıtıv] *a* tamagirlarcha

acquisitiveness [ə'kwızıtıvnəs] *n* 1) manfaatparastlik, tamagirlik, yulg'ichlik; 2) ochko'zlik, suqlik; 3) qurumsoqlik, xasislik, baxillik, ziqnalik, qizg'anchiqlik

acquit [ə'kwıt] *v* 1) **(of)** oqlamoq; 2) *kit.* o'zini tutmoq; **to ~ oneself well (ill)**

o'zini yaxshi (yomon) tutmoq; 3) **(of, from)** ozod qilmoq (*majburiyat, qarz va sh. k. dan*)

acquitment [ə´kwɪtmənt] *n yur.* oqlash, oqlash haqidagi hukm; kechirish, afv etish, gunohidan o'tish; kechirib yuborish

acquittal [ə´kwɪtl] *n* 1) *yur.* oqlab hukm chiqarish; 2) bajarish, ustidan chiqish (*majburiyat, qarz va shu kabilar*)

acquittance [ə´kwɪt(ə)ns] *n* 1) bo'shatish, xalos qilish (*vazifasidan, qarzdan*); 2) tilxat (*qarzni to'laganlik haqida*)

acquitted [ə´kwɪtɪd] *a* 1) oqlangan, gunohsiz deb hisoblangan; 2) ozod qilingan (*majburiyat, qarz va shu kabilardan*); ~ **an person** sudda (sud tomonidan) oqlangan kishi

acranial [ə´kreɪnɪəl] *a zool.* bosh suyagisiz

acre [´eɪkə] *n* 1) akr (*Angliyada va Shimoliy Amerikada 0,4047 gektarga teng yer o'lchovi*); 2) *pl* yer, yer-suv; ~ **allocation** yer maydonini taqsimlash (bo'lib berish); ~**-shot** yer solig'i; **God's Acre** qabriston, go'riston

acraturesis [ə´kreɪtʃəsɪs] *n tib.* qovug'i bo'shlik, siydikni tutolmaslik, chakmazak

acreage [´eɪk(ə)rɪdʒ] *n* akrlarda o'lchangan yer maydoni

acred [´eɪkəd] *a* 1) keng, bepoyon (*yer maydoni haqida*); 2) yer maydoniga ega bo'lgan

acres [eɪkəz] *n pl* yerlar, yer-suvlar, yer-mulklar; ~ **in farm** fermaning barcha yer-mulklari; ~ **of crop** umumiy ekin maydoni; **marginal** ~ qo'shimcha yer maydonlari; **tillable** ~ haydaladigan (ekiladigan) yer maydonlari; **total** ~ umumiy yer maydoni

acrid [´ækrɪd] *a* o'tkir, achchiq (*ta'm va b.*)

acridine [´ækrɪd(a)ɪn] *n kim.* akridin (*och-sariq rangli kristallar*)

acridity [ə´krɪdɪtɪ] *n* 1) o'tkirlik, keskinlik (*taom, ichimlik*); 2) dag'al, qo'pol (*xatti-harakat*)

acridness [´ækrɪdnəs] = **acridity**

acridoid [ə´krɪdɔɪd] : ~ **grasshoppers** chigirtkasimonlar

acrimonious [ˌækrɪ´məʊnɪəs] *a* badjahl, jahli yomon, jahldor, serzarda (*xulqatvorga oid*); zahar (*tili yomon, gap bilan uzib oladigan*); yovuz

acrimony [´ækrɪmənɪ] *n* badjahllik, serzardalik, zaharlik, achchiqlik (*xulqatvorga oid*)

acrobat [´ækrəbæt] *n* akrobat (*murakkab mashqlarni bajaruvchi sportchi yoki sirk artisti*)

acrobatic [ˌækrə´bætɪk] *a* akrobatikaga oid

acrobatics [ˌækrə´bætɪks] *n* 1) akrobatika; 2) *av.* figurali uchishlar

acrodendrophilous [ˌækrɒ´dendrəʊfɪləs] daraxtlarning uchida yashaydigan (yashovchi)

acrohidrosis [ˌækrəhɪ´drəʊsɪs] *n tib.* akrogidroz (*qo'l yoki oyoq kaftining ko'p terlashi*)

acrolein [ə´krəʊlɪɪn] *n kim.* akrolein (*o'tkir hidli rangsiz suyuqlik*)

acromegaly [ˌækrə(ʊ)´megəlɪ] *n tib.* akromegaliya (*o'sish gormoni ortiqcha mahsulot hosil qilganda paydo bo'ladigan endokrin kasallik*)

acromiohumeral muscle [ˌækrəmaɪəʊ´hju:mərəlmʌsl] *n tib.* deltasimon mushak

acronical [ə´krɒnɪk(ə)l] *a astr.* quyosh botish paytida *yoki* kechqurun bo'ladigan

acronycal [ə´krɒnɪk(ə)l] = **acronical**

acronychal [ə´krɒnɪk(ə)l] = **acronical**

acronym [´ækrənɪm] *n* akronim (*so'zlarning bosh harfini olib yozilgan qisqartma, mas.: AQSH – Amerika Qo'shma Shtatlari*)

acropolis [ə´krɒpəlɪs] *n* (*pl* **-ses** [-sɪz], **leis**) *me'mor.* akropol (*Qadimgi Yunon shaharlarining, odatda, tepalikda joylashgan va mustahkamlangan markaz qismi; qal'a, qasr*)

acrospire [´ækrəspaɪə] *n bot.* birinchi bargning kurtagi; bug'doyning nishi

across [ə´krɒs] **1.** *adv* 1) a) ko'ndalang, ko'ndalangiga, eniga; **a line drawn** ~ ko'ndalangiga (eniga) chizilgan chiziq; b) yotig'iga, gorizontal chiziq bo'ylab (*krossvordda*); 2) u tomonga; u tomonda; ro'parada, qarshida, qarshi tomonda, ro'parama-ro'para; **to put** ~ o'tkazib qo'ymoq, olib o'tmoq (*transport vositasida*); 3) biri ustiga ikkinchisini ko'ndalang qo'yib, chalishtirib, kesishtirib; **with arms** ~ qo'l qovushtirib; 4) *tex.* parallel holda (ravishda), parallel (yondash) qilib, yonma-yon (*ulangan*); **2.** *prep.* orqali, orasidan, ichidan; -dan; narigi tomoni (tarafi, cheti, chekkasi, yoni, yoqasi)da; ~ **the river** daryoning narigi tomonida; **to run** ~ **the street** ko'chani chopib kesib o'tmoq; **to come (run)** ~ to'satdan duch kelib (uchratib) qolmoq; **to put it** ~ **smb.** 1) kim bilandir hisoblashmoq (hisoblashib orani ochiq qilmoq); 2) kimdandir o'ch (qasos, qasd) olmoq

acrostic [ə´krɒstɪk] **1.** *n adab.* muvashshah, akrostix (*satrlarining birinchi harflaridan biror so'z, ibora yoki ism hosil bo'ladigan she'r*); **2.** *a* muvashshah shakliga ega bo'lgan

acroter [ə´krəʊtə] *n me'mor.* akroteriy, qo'llab qurilgan me'moriy inshoot fronton burchaklari ustiga joylashtiriladigan haykaltaroshlik bezagi (haykal, palmetto va b.)

acroteric [ə´krəʊtərɪk] *a biol.* qanday-dir a'zoning uchida joylashgan (*mas. barmoq, burun va b.*)

acroterion [ə ´krəʊtərɪən] *n me'mor.* akroteriy, qo'llab qurilgan me'moriy inshoot fronton burchaklari ustiga joylashtiriladigan haykaltaroshlik bezagi (haykal, palmetto va b.)

acrylamide [ə´krɪləmaɪd] **1.** *n* akrilamid (*rangsiz kristall*); **2.** *a* akrilamid (*rangsiz kristall*)ga oid; ~ **dye** akrilamid bo'yoq

acrylate [´ækrɪleɪt] **1.** *n* akrilat (*akril kislotaning efiri va tuzi*); **2.** *a* akrilat (*akril kislotaning efiri va tuzi*)ga oid; ~ **rubber** akrilat kauchugi

acrylic [ə´krɪlɪk] *a* akrilga oid, akril...; ~ **acid** akril kislota; ~ **aldehyde** akrolein (*o'tkir hidli suyuqlik*); ~ **colour** akril bo'yoq; ~ **fibre** akril tola; ~ **plastic** plastmassa; ~ **resin** akril plastmassa; akril yelim; ~ **rubber** akril kauchugi

acrylics [ə´krɪlɪks] *n* akril tola

acrylonitrile [ˌækrɪlə´naɪtraɪl] *n* akrilonitril (*rangsiz suyuqlik*)

act [ækt] **1.** *n* 1) ish, xatti-harakat, faoliyat, muomala; **an** ~ **book** *shotl.* sud protokoli; **an** ~ **of kindness** xayrli ish; **an** ~ **of faith** katta bardosh va kuch talab qiladigan og'ir ish; 2) *tij.* tabiiy ofat (*kemada yuk tashish shartnomasi va sug'urta qilinganlik to'g'risidagi hujjatlarda ishlatiladi*); **a heroic** ~ qahramonona ish, mardonavor harakat, qahramonlik; **a criminal (illegal)** ~ jinoiy xatti-harakat (kirdikor); **an impulsive (rash)** ~ o'ylamasdan qilingan xatti-harakat; **an** ~ **of bravery** qahramonona ish, mardona xatti-harakat; **a foolish** ~ ahmoqona ish (xatti-harakat), ahmoqlik, bema'nilik; **a kind** ~ yaxshi (xayrli, ezgu) ish; **a statesmanlike** ~ davlat arbobiga munosib xatti-harakat; **a thoughtful** ~ puxta o'ylab (yaxshi o'ylab, chuqur mulohaza bilan) qilingan ish (xatti-harakat); **do the ...** ~ *amer. so'zl.* ish (harakat) qilmoq, ish ko'rmoq, ish tutmoq (*harakatning xarakteri* ***act*** *so'zidan oldin kelgan sifat orqali aniqlanadi*); **the Dutch** ~ *amer. jarg.* o'zini o'zi o'ldirish, o'z joniga qasd qilish; 2) harakat, jarayon; 3) qaror; **the** ~ **of Parliament** parlament qarori; 4) sahnadagi harakat (opera, drama va b.); 5) dissertatsiya

(*universitetlarda*); ~ **liability insurance** avtomobil halokatidan sug'urta qilish; **the ~ of adjournal** 1) *shotl.* adliya sudining protokolga kiritilgan qarori; 2) jinoyat ishi bo'yicha protokolga kiritilgan hukm; **an ~ of aggression** bosqinchilik harakati; **the ~ of bankruptcy** bankrotlik (sinish) haqida(gi) qonun; **an ~ of civil status** fuqarolik holatlari akti; **the ~ of condonation** javobgarlikdan ozod qilish akti; ~ **of Congress** kongress qonuni; **an ~ of crime** jinoiy xatti-harakat, jinoyat; **an ~ of defence** mudofaa harakati; **an ~ of faith** e'tiqodini sinab ko'rish; **an ~ of force** (jismoniy) kuch ishlatish; ~ **of God** yengib bo'lmaydigan kuch; **an ~ of grace** umumiy afv; kechirish, gunohidan o'tish; **an ~ of law** qonun chiqarish ishi (akti); ~ **of legislature** qonun chiqarish ishi (akti), qonun; **the ~ of maternity** onalik haq-huquqlarini himoya qiluvchi qonun; **an ~ of mutiny** isyonkorona harakat; **an ~ of oblivion** kechirish, gunohidan o'tish; **an ~ of omission** harakatdan to'xtash, harakatsizlik; **an ~ of outrage** kuch ishlatish; **an ~ of piracy** dengiz qaroqchiligi; **an ~ of protest** norozi bo'lib shikoyat arizasi berish (yozish); **an ~ of providence** yengib bo'lmaydigan kuch; ~ **of state** davlat akti, hujjat; **an ~ of terrorism** terroristik akt; **an ~ of the law** yuridik akt; **an ~ of union** birlashish (birlashtirish) akti; **an ~ of use** foydalanish akti; **an ~ of violence** zo'ravonlik harakati; **an ~ of war** harbiy harakat; **an ~ of worship** ibodat qilish; **2.** *v* 1) harakat qilmoq, ish ko'rmoq, ish tutmoq; o'zini biror tarzda tutmoq; **to ~ a lie** gap bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan aldamoq; **to ~ a part** rol o'ynamoq, o'zini biror ko'yga (holga) solmoq, mug'ambirlik qilmoq; **to ~ as** 1) ...sifatida ishlamoq; 2) kimningdir vazifasini bajarmoq, vaqtincha kimningdir o'rniga ishlamoq; **to ~ as mediator** dallollik vazifasini bajarmoq; **to ~ as principal** o'zining nomidan harakat qilmoq (*ibtim tuzishda*); **to ~ by deputy** o'rinbosar vositasida (orqali, yordamida) harakat qilmoq; **to ~ call** *teatr.* 1) tomosha boshlanganligi haqida aktyorlarga beriladigan xabar (imo, ishora, signal); 2) tomoshabinlarni tomosha zaliga chaqirish uchun chalinadigan qo'ng'iroq; **to ~ effectively** samarali harakat qilmoq; **to ~ faithfully** aniq harakat qilmoq; **to ~ for** 1) boshqa shaxsning vazifasini bajarmoq; 2) kimningdir vakili bo'lib qatnashmoq; **to ~ freely** erkin harakat qilmoq; **to ~ in concert** birgalikda (birga, hamjihatlik bilan, birgalashib) harakat qilmoq (ish ko'rmoq); **to ~ in good faith** vijdonan (halol) ish tutmoq; **to ~ kindly** ohista ta'sir qilmoq (*dori haqida*); **to ~ on** 1) kimgadir maslahat berish orqali uning axloqini tuzatmoq; 2) (*kasallik, tana qismlari va b. ga*) ta'sir etmoq, ko'rsatmoq; **to ~ on behalf of another** boshqa shaxs nomidan harakat qilmoq (ishlamoq); **to ~ on one's authority** mustaqil (ravishda) harakat qilmoq; **to ~ one's age** o'z yoshiga qarab ish tutmoq; **to ~ out** o'zining his-tuyg'usini harakat bilan ifoda etmoq; g'ayrixtiyoriy harakat qilmoq; **to ~ out of spite** qasdma-qasdiga, qasddan harakat (ish) qilmoq; **to ~ reciprocally** birgalikda (birgalashib) harakat qilmoq; **to ~ the ape** ko'r-ko'rona taqlid qilmoq; biror kimsa yoki narsaga masxaraomuz taqlid qilmoq; maynabozchilik qilmoq; **to ~ the ass** ahmoqlik (tentaklik, maynabozchilik, jinnilik) qilmoq; **to ~ the fool** ahmoqlik (ahmoqchilik, maynabozchilik) qilmoq; **to ~ the maggot** *irl.* ahmoqlik (ahmoqchilik, maynabozchilik) qilmoq; **to ~ the part** rol o'ynamoq (ijro etmoq); **to ~ unlawfully** g'ayriqonuniy ish (xatti-harakat) qilmoq; **to ~ up** yomon ishlamoq (*mashina haqida*); o'zini yomon tutmoq; **to ~ up to one's opinions** ishonch bilan harakat qilmoq; **to ~ with judgment** ehtiyotkorlik bilan ish tutmoq; **to ~ with the authority of law** qonun asosida ish tutmoq; **to ~ irresponsibly** mas'uliyatsizlik bilan (*javobgarlikni his qilmay, beparvolarcha*) harakat qilmoq; **to ~ impulsively** g'ayriixtiyoriy harakat qilmoq; **to ~ immediately** kechiktirmasdan (kechikmay) harakat qilmoq; **to ~ generously** oliyjanoblik bilan (himmat kamarini bog'lab) harakat qilmoq; **to ~ up to a promise** so'zining (va'dasining) ustidan chiqmoq, so'zida (va'dasida) turmoq, va'daga vafo qilmoq; 2) ishlamoq, tuzuk (butun, ishga yaroqli) bo'lmoq; **to refuse to ~** buzilib qolmoq; 3) ta'sir ko'rsatmoq; **to ~ on smb.'s nerves** kimningdir asabiga ta'sir ko'rsatmoq (tegmoq); 4) *teatr.* o'ynamoq, rol ijro etmoq; **I love to ~** men teatrda rol ijro etishni yaxshi ko'raman; **to ~ the leading part** bosh rolni ijro etmoq; **to get into the ~** 1) nimadadir faoliyat ko'rsatmoq; 2) *amer.* foydali ishda qatnashmoq; **to ~ wisely** o'zini yaxshi tutmoq

actable ['æktəb(ə)l] *a* 1) sahnaga mos, sahnabop (*sahna asari haqida*); 2) namoyish etishga (ijro etishga) yaroqli

actigraph ['æktıgrɑ:f] *n* (*modda yoki organizmning*) faolligini ro'yxatga oluvchi asbob

acting ['æktıŋ] **1.** *a* 1) vazifasini bajaruvchi (vaqtincha); **an ~ manager (director)** boshqaruvchi (direktor) vasifasini vaqtinchalik bajaruvchi; **an ~ mechanism** boshqaruvchi mexanizm; **an ~ officer** mansabdor shaxsning vazifasini bajaruvchi; **an ~ president** prezident vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi; ~ **in concert** kelishib ish-harakatlar qilish; **an ~ judge (lieutenant, sub-lieutenant)** sudya (leytenant, kichik leytenant) vazifasini bajaruvchi (ijro etuvchi); 2) ishtirokchi, qatnashuvchi, harakatdagi; **an ~ army** harakatdagi qo'shin (armiya); **an ~ system** amaldagi tizim; **2.** *n teatr.* (*rolni*) ijro etish

actinia [æk 'tınıə] *n* (**actiniae**) *zool.* aktiniya (*dengiz hayvonining bir turi*)

actiniae [æk'tını:] *pl of* **actinia**

actinic [æk 'tınık] *a kim.* aktiniyaga oid; aktinik, aktiniya...; ~ **dermatitis** nur dermatiti (*radioaktiv nur ta'sirida terining yallig'lanishi*); ~ **glass** issiqlikni o'ziga tortib oladigan (*issiqlikni o'tkazmaydigan*) oyna; ~ **injury** radiatsiya (nurlanish)dan zararlanish; ~ **keratosis** qarigandagi keratoz (*terining ba'zi kasallikiarida muguz qavatining qalinlashuvi*); ~ **light** aktinik yorug'lik; ~ **light rays** aktinik nurlar; ~ **radiation** aktinik nurlanish; ~ **rays** aktinik nurlar

actinide ['æktınaıd] **1.** *n* aktinid(lar), aktinoid(lar) (*radioaktiv elementlar*); **2.** *a* aktinid(lar) (aktinoidlar)ga oid; aktinid(lar)..., aktinoid(lar)...; **an ~ family** aktinoidlar oilasi; **an ~ hypothesis** aktinid gipotezasi; ~ **magnet** aktinid magnit; **an ~ nucleus** aktinid yadro; **an ~ series** aktinidlar qatori

actiniform [æk'tını,fɔ:m] *a* nursimon, bir nuqtadan taralgan (chiqqan, ketgan), radial

actinisation [,æktın(a)ı'zeıʃ(ə)n] *n nuxs.* aktinizatsiya (*radiatsiya nurlaridan zararsizlantirish*)

actinism ['æktınız(ə)m] *n kim.* aktinizm

actinium [æk'tınıəm] **1.** *n kim.* aktiniy (*radioaktiv element, metall*); **2.** *a* aktiniyga oid; aktiniy...; ~ **emanation** aktiniy emanatsiya; **an ~ family** aktiniy oilasi; **an ~ isotope** aktiniy izotopi; **an ~ series** aktiniy qatori; aktinoidlar, aktinidlar; ~**-uranium** *fiz.* aktinouran; **an ~-uranium series** aktinouran qatori

actino- [,æktınə-] *murakkab so'zlarning oldiga qo'shilib, radiatsiya tar-*

kibini (tuzilishini) ko'rsatadi: **~-dielectric** fotoelektr o'tkazadigan; fotoelektr o'tkazuvchi

actinobacillosis [ækti:nəʊ,bæsɪl'əʊsɪs] *n tib.* aktinobatsillez (*hayvonlarda, kamdan-kam odamda, uchraydigan surunkali kasallik*)

actinobiology [,æktɪnəʊbaɪ 'ɒlədʒɪ] *n* aktinobiologiya (*nurlanishning organizmga ta'sirini o'rganuvchi fan*)

actinochemistry [æk,tɪnəʊ'kemɪstrɪ] *n* aktinokimyo (*kimiyoning yorug'lik va boshqa elektromagnetik radiatsiyalarning kimyoviy ta'sirini o'rganuvchi bo'limi*)

actinodermatitis [,æktɪnəʊ'dɜ:mə'taɪtɪs] *n tib.* radiatsion dermatit (*radiatsiya ta'siri natijasida terining yallig'lanishi kasalligi*)

actinoid ['æktɪ,nɔɪd] *a* nursimon, nurga o'xshagan

actinolite [æk'tɪnəlaɪt] *n min.* aktinolit (*shishasimon yashil mineral*)

actinometer [,æktɪ'nɒmɪtə] *n astr.* aktinometr (*quyosh nuri energiyasini o'lchaydigan asbob*)

actinomycin [,æktɪnəʊ'maɪsɪn] *n* aktinomitsin

actinomycosis [,æktɪnə(ʊ)maɪ kəʊsɪs] *n tib.* aktinomikoz (*hayvonlar (ba'zan odam)da uchraydigan surunkali kasallik*)

actinon ['æktɪ,nɒn] *n* aktinon

actinotherapy [,æktɪnə(ʊ)'θerəpɪ] *n tib.* nur bilan davolash

actinouranium [,æktɪnə(ʊ)jʊ(ə) 'reɪnɪəm] *n kim.* aktinouran

actiometer [,æktɪ'nɒmɪtə] *n kim.* aktiometr; **bimetallic ~** bimetall (qo'shmetall, ikki xil metalldan iborat bo'lgan) aktiometr

action ['ækʃ(ə)n] *n* harakat, faoliyat; **an ~ area** imorat quriladigan yer maydoni (joy); **an ~ area plan** imorat quriladigan yer maydonining chizmasi (plani); **an ~ at law** sud da'vosi; **an ~ chart** funksional chizma; **~ current** biotok (*miyada paydo bo'ladigan elektromagnit to'lqin*); **~ data automation** ma'lumotlarni avtomatik ravishda tayyorlash; **an ~ field** harakat maydoni; **an ~ file** operatsiya (harakat) fayli; **~ flexibility** konstruktiv (tuzilishidagi) egiluvchanlik (bukiluvchanlik); **~ for damages** ziyonni qoplash haqidagi da'vo; **~ for infringement** huquqni buzganlik haqidagi da'vo; **~ for possession** egalik qilish haqidagi da'vo; **~ for revocation** bekor qilish haqidagi da'vo; **an ~ function** *fiz.* harakat funksiyasi; **functional ~** funksional harakat; **an ~ grant** biror narsani ko'zlab pul (mablag') bilan ta'minlash; **an ~ integral** harakat integrali; **~ is final** qat'iy (yakuniy) qaror; **~ learning** tajribada o'rganish; **~ limits** tartibga solish (boshqarish) chegaralari; **an ~ line** amaldagi aloqa liniyasi (chizig'i); **~ of debt** qarzni undirish uchun yozilgan da'vo; **~ of detinue** g'ayriqonuniy tortib olingan mulkni qaytarib olish uchun yozilgan da'vo; **~ of rescission** bekor qilish haqidagi da'vo (shartnoma, bitim, kelishuv); **an ~ period** ish vaqti; **an ~ plan** harakat rejasi; **~ potential** biopotensial, bioelektrik potensial; **~ proceeding** da'vo arizalarini ko'rib chiqish; **an ~ program (programme)** harakat dasturi; **~ pulse** harakatga keltiruvchi (ishga soluvchi) impuls (ichki turtki); **an ~ radius** harakat radiusi; **an ~ spectrum** harakat spektri; **~ time** ish vaqti; **variable ~** o'zgaruvchan harakat; **~ variation** harakat variatsiyasi (juz'iy o'zgarishi); **~-and-reaction** harakat va qarshi harakat; **in ~** harakatdagi; **to bring into ~** harakatga keltirmoq; **to take ~** harakat qilmoq, harakat qilishni boshlamoq, choralar ko'rmoq; **to bring** (*yoki* **to take**) **~ against smb.** kimgadir qarshi jinoiy ish qo'zg'atmoq; **to come (to go** *yoki* **to move) into ~** harakatga kirishmoq, jangga kirishmoq; **to put in** (*yoki* **to into**) **~** harakatga keltirmoq; **to put out of ~** 1) ishdan (safdan, qatordan) chiqarmoq; ishdan chiqarib (ishga yaroqsiz qilib) qo'ymoq; **to suit the ~ to the word** so'zining to'g'riligini ish bilan isbotlamoq; **~s speak louder than words** *maq.* (so'zlardan ishlarning salmog'i baland), gap bilguncha ish bil, kishiga gapiga qarab emas, ishiga qarab baho beradilar; **amicable ~** *yur.* ikkala tomonning roziligi bilan qo'zg'atilgan sud ishi

actionable ['ækʃ(ə)nəb(ə)l] *a yur.* sudlov ishini qo'zg'ashga asos bo'ladigan; **an ~ issue** da'vo qilishga sabab bo'luvchi munozarali masala; **~ negligence** da'vo qilishga asos bo'ladigan beparvolik

actional ['ækʃ(ə)nl] *a* da'voga oid, da'vo...

actioned ['ækʃ(ə)nd] *a* ma'lum bir maqsad uchun tayyorlangan

actions ['ækʃ(ə)nz] *n* 1) ish, faoliyat; **commercial ~** savdo-sotiq bilan shug'ullanish; **economic ~** iqtisodiy ahvol; 2) tadbir, chora

activate ['æktɪveɪt] *v* 1) *maxs.* faollashtirmoq; qo'ymoq, yurgizmoq, ishga solmoq, ishga tushirmoq, harakatga keltirmoq; reaktiv qobiliyatini kuchaytirmoq; (*gazni*) ionlashtirmoq; 2) *fiz.* radioaktivlashtirmoq; 3) *amer. harb.* harbiy qismga qabul qilmoq

activated ['æktɪveɪtɪd] *a maxs.* faollashtirilgan, faolligi oshirilgan, faol harakatga keltirilgan, aktivatsiya qilingan, aktivlashtirilgan, kuchaytirilgan, jonlantirilgan

activation [,æktɪ'veɪʃ(ə)n] *n maxs.* 1) faollashtirish, faolligini oshirish, faol harakatga keltirish, aktivatsiya qilish, aktivlashtirish, kuchaytirish, jonlantirish; 2) harakatga keltirish

activator ['æktɪveɪtə] *n kim.* aktivator (*kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi, ferment yoki katalizator aktivligini oshiruvchi modda*)

active ['æktɪv] *a* 1) faol, serharakat; **an ~ child** serharakat bola; 2) haqiqiy; **~ help** haqiqiy yordam; 3) amal qilib turgan, amaldagi; **~ laws** amal qilib turgan (amaldagi) qonunlar; **~ algolagnia** *tib.* sadizm (*birovni qiynab shahvoniy hirsni qondirish kasalligi*); **~ assets** faol jamg'armalar (*foyda keltiradigan jamg'armalar*); **an ~ balance** aktiv balans; **~ bond** katta miqdorda sotiladigan; **an ~ bud** o'sayotgan kurtak; **an ~ buyer** faol xaridor; **an ~ capability** faol nazorat qilish imkoniyati; **an ~ capacity** *yur.* yuridik salohiyat; salohiyatlilik; **an ~ center** faol markaz; **an ~ channel** amaldagi kanal; **an ~ check** faol nazorat; **to take an ~ part (in)** faol qatnashmoq

actively ['æktɪvlɪ] *adv* faollik bilan, faol tarzda, faol

activist ['æktɪvɪst] *n* 1) faol jamoatchi; biror tashkilotning faol a'zosi; 2) yuqori mehnat samaradorligiga erishayotgan ishchi

activities [æk'tɪvɪtɪz] *n* 1) ish, faoliyat; xizmat; g'ayrat; faollik; **~ of functions** vazifalarni bajarish; **broadcasting ~** radioeshittirish va televideniya; **commercial ~** savdo-sotiq bilan shug'ullanish, savdo sohasida faoliyat ko'rsatish; **day-to-day ~** oddiy ish kunlari; **economic ~** iqtisodiy faoliyat; **educational ~** ta'lim sohasidagi faoliyat; **make-work ~** ishchi o'rinlari miqdorini oshirish chora-tadbirlari; **procurement ~** xarid qilish, sotib olish, xarid qilish (sotib olish) ishlari; **real estate ~** ko'chmas mulk bilan bajariladigan operatsiyalar; **research ~** ilmiy ishlar, tadqiqot ishlari; **rural ~** shahar atrofi rayonlaridagi (qishloq joylardagi) faoliyat turlari; **rural nonfarm ~** shahar atrofi rayonlaridagi (qishloq joylardagi) qishloq xo'jaliklariga oid bo'lmagan faoliyat turlari; **service ~** xizmat ko'rsatish; ishlab chiqarish xizmatlari; **social**

~ a) o'yin-kulgi, sayr-tomosha, ermak, ovunchoq; b) qandaydir tashkilot tomonidan o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar; 2) konyunktura (*biror sohada yuzaga kelgan ahvol, vaziyat, mavjud sharoit*); 3) ko'rsatkichlar (*iqtisodiy tadqiqotlarda*)

activity [æk'tıvıtı] *n* 1) faoliyat; **an ~ analysis** faoliyat tahlili; **~ arrangement** faoliyatni tashkil qilish; **an ~ capacity** ishlab chiqarish faoliyatining hajmi; **an ~ category** faoliyat turi; **an ~ centre** faoliyat markazi; **an ~ coefficient** faollik koeffitsiyenti; **an ~ count** faollik ko'rsatkichi (indeksi); **an ~ cycle** faollik sikli; **~ decay** faollikning pasayishi; **an ~ description** ishni tasvirlash (bayon etish); **~ determination** faollikni aniqlash; **an ~ dip** faollikning susayishi, pasayishi; **~ drive** faoliyatga bo'lgan havas (mayl, intilish, qiziqish); **an ~ factor** ishlatish koeffitsiyenti; **an ~ file** faollik fayli; **an ~ graph** operatsiya grafigi; **an ~ identifier** faollikni tenglashtiruvchi, birday qiluvchi, identifikatsiyalovchi shaxs yoki narsa; **~ in progress** tugatilmagan ish (operatsiya); **~ in the market** bozordagi jonlanish; qizg'in savdo-sotiq; **an ~ increment** faollikning o'sishi; **an ~ index** faollik ko'rsatkichi (shartli belgisi, indeksi); **an ~ level** faollik darajasi; **an ~ light** faollik indikatori (*masalan, biror qurilmaning ishga tayyor ekanligini ko'rsatuvchi indikator*); **an ~ list** ishlar ro'yxati; **an ~ manager** konsentrator (*boshqaruv dasturlarini taqsimlaydigan qurilma*); **an ~ memory** harakat xotirasi; **an ~ meter** radiometr (*radioaktiv manbalarning faolligini o'lchaydigan asbob*); **an ~ network** tarmoq ish tartibi; **the ~ of a commission** komissiyaning ish faoliyati; **the ~ of an agency** agentlik faoliyati; **the ~ of an agent** agent (vakil)ning harakati; **the ~ of an enterprise** korxonaning faoliyati; **the ~ of cement** sementning faolligi; **an ~ quota** faollik ko'rsatkichi; **an ~ ratio** faollik koeffitsiyenti; **an ~ register** faollik ro'yxati, ko'rsatkichi (registri); **an ~ report** faoliyat haqidagi hisobot; **an ~ rhythm** faollik ritmi; **an ~ spread** faollikni ommalashtirish; **an ~ status** faoliyat turi; **an ~ test** faollikni aniqlash (*mas., katalizatorning*); **~ time** ishning davom etish (cho'zilish) muddati; **an ~ unit** faoliyat birligi; **~-oriented** ishga (faoliyatga) mo'ljallangan; **~-sensing equipment** radioaktivlikni ushlash uchun moslama; 2) faollik, serharakatlik; **time of full ~** eng faollik davri

activize ['æktıvaız] *v* kuchaytirmoq, jonlantirmoq, faol harakatga keltirmoq

acton ['æktən] *n tex.* sovut ostidan kiyiladigan erkaklarning charm kurtkasi

actor ['æktə] *n* 1) aktyor; **to cast an ~** ijro etish uchun rol bermoq; **a had ~** *amer. jarg.* razil odam; 2) ashaddiy jinoyatchi, shubhali shaxs; o'taketgan bezori (kallakesar); 3) yomon (tepag'on, qopag'on, tishlong'ich, ters, asov) hayvon

actorish ['æktərı] *a* 1) aktyorlarga, aktyorlikka oid; aktyorlarga xos bo'lgan; aktyor ... (lar); 2) sun'iy, yasama, soxta, qalbaki, yolg'ondakam

actress ['æktrıs] *n* aktrisa; **a comic ~** komik aktrisa; **a tragic ~** tragik aktrisa

actressy ['æktrısı] *a* 1) aktrisaga xos bo'lgan; 2) jo'rttaga (ataylab, bila turib, qasddan) qilingan; yolg'ondakam, sun'iy, yasama, soxta

actual ['æktʃuəl] *a* 1) haqiqiy, asl, bor narsa; **an ~ address** haqiqiy manzil (adres); **an ~ allotment** *amer.* kongress tomonidan tasdiqlangan biror maqsad uchun budjetdan ajratilgan pul; **an ~ amount** aniq (bor) summa; **an ~ antenna** haqiqiy antenna; **an ~ application** haqiqiy ariza; **~ appropriation of property** mulkni qonuniy ravishda o'zlashtirish; **an ~ arrangement** haqiqiy kelishuv (bitim); **~ authority** haqiqiy hokimiyat, haqiqiy vakolat; **an ~ balance** haqiqiy ortib qolgan narsa; **an ~ bearing height** podshipnikning haqiqiy balandligi; **an ~ bearing width** podshipnikning haqiqiy kengligi; **an ~ budget** haqiqiy budjet; **an ~ capacity** haqiqiy sig'im (hajm, kattalik); **an ~ capital** haqiqiy kapital; **an ~ code** mutlaq (absolut) kod; **~ coding** mutlaq manzillarda dasturlashtirish; **~ colour** (ekrandagi) amaldagi rang; **an ~ completion date** operatsiya (ish)ning haqiqiy tugash muddati; **an ~ cone** konusning haqiqiy burchagi; **an ~ contact** haqiqiy kontakt (aloqa, bog'lanish, munosabat); **an ~ cost** haqiqiy narx; **an ~ cost method** qilingan haqiqiy xarajatlarning tannarxini hisoblab chiqish; **~ costing** qilingan haqiqiy xarajatlarning tannarxini hisoblab chiqish; **~ costs** haqiqiy xarajatlar (chiqimlar); **an ~ count** ma'lum (aniq) son (biologik birlikni o'rgatadigan); **an ~ crime** haqiqiy sodir etilgan jinoyat; **an ~ criminal act** haqiqiy sodir etilgan jinoiy harakat; **an ~ crisis** haqiqiy inqiroz; **an ~ curve** haqiqiy bukik; **~ cutting force** kesish kuchlarining ahamiyati; **an ~ cycle** haqiqiy sikl; **~ damage** haqiqiy zarar; **~ danger** haqiqiy xavf (xatar); **~ deficit** haqiqiy tanqislik; **an ~ delivery commencement** (yoqilg'i) berishning haqiqiy boshlanishi; **an ~ design** haqiqiy obraz; **an ~ deviation** haqiqiy og'ish; **an ~ dimension** haqiqiy o'lcham; **an ~ discharge** haqiqiy (sarf) xarajat; **an ~ distribution** haqiqiy taqsimlash; **an ~ doubt** asosli shubha; **an ~ drilling depth** burg'ilab kovlangan joyning haqiqiy chuqurligi; **~ drilling time** burg'ilashning aniq vaqti; **~ earnings** haqiqiy ish haqi; **an ~ elevation** haqiqiy belgi; **an ~ error** haqiqiy xato; **an ~ event** haqiqiy voqea; **~ eviction** egalik qilishdan qonunan mahrum etish; **~ evidence** haqiqiy (dalil) isbot; **an ~ exhaust velocity** oqib chiqishning haqiqiy tezligi; **~ expenses** haqiqiy xarajat, sarf; **~ experience with the product** tovardan foydalanish tajribasi; **an ~ filing date** ariza beriladigan aniq sana; **an ~ final route** chaqiruvning haqiqiy yo'nalishi; **an ~ finish date** haqiqiy tugash sanasi; **~ force** haqiqiy kuch ishlatish; **~ gas** haqiqiy gaz; **~ goods** haqiqiy tovarlar; **an ~ holder** haqiqiy xo'jayin (ega, sohib); **~ hours** foydali ish vaqti; **~ income** haqiqiy daromad; **an ~ increase** haqiqiy o'sish (ko'payish, ortish); **an ~ invention** haqiqiy ixtiro; **~ inventor** haqiqiy ixtirochi; **~ investment** haqiqiy investitsiya (mablag' sarflash); **~ knowledge** haqiqiy bilim; yaxshi bilish, xabardorlik, bilimdonlik; **~ law** amaldagi huquq; qo'llangan *yoki* qo'llanadigan huquq normalari; **an ~ loss** haqiqiy ziyon (zarar); **~ magnitude** haqiqiy kattalik (o'lcham); **an ~ market** sotuvdagi haqiqiy narx; **an ~ mass** *tex.* haqiqiy massa; **~ mean** *mat.* haqiqiy o'rtacha son (miqdor, kattalik); **~ measurement** fizikaviy (fizik) o'lchov; **an ~ military service** haqiqiy harbiy xizmat; **~ motion** haqiqiy harakat; **an ~ name** haqiqiy ism (ot, nom); **~ necessity** haqiqiy zarurat (hojat, ehtiyoj); **~ net weight** haqiqiy sof og'irlik; **~ noise** shovqinning haqiqiy koeffitsiyenti; **an ~ notice** haqiqiy xabar (ma'lum) qilish; **~ observation** haqiqiy kuzatish; **an ~ offence** haqiqiy sodir etilgan jinoyat; **an ~ oil temperature** neftning haqiqiy harorati; **~ output** foydali mahsulot; **an ~ parametre** haqiqiy parametr; **an ~ parametre list** haqiqiy parametrlar ro'yxati; **an ~ pass** (*to'lqinning*) haqiqiy yo'li; **an ~ path** haqiqiy trayektoriya (*harakatda*); **~ payments** haqiqiy to'lov; **an ~ performance** haqiqiy ko'rsatkich; **~ pitch** *tex.* haqiqiy qadam

(*biror mexanizm yoki detalning muayyan yo'nalishda siljish masofasi*); **an ~ point** haqiqiy nuqta; **an ~ population** haqiqiy aholi; **an ~ position** haqiqiy holat (ahvol); **~ power** haqiqiy kuch; **~ pressure** haqiqiy bosim; **an ~ price** haqiqiy narx; **an ~ problem** aktual (eng muhim) muammo; **an ~ product** haqiqiy tovar (mol, mahsulot); **an ~ production** ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi; **an ~ profit** haqiqiy daromad (foyda); **~ proprietor** haqiqiy ega (sohib, xo'jayin); **an ~ range** haqiqiy diapazon (bilim, o'zgarish va shu kabilarning ko'lami, hajmi, chegarasi, doirasi); **an ~ rate** haqiqiy stavka (qat'iy belgilangan o'lcham, miqdor, me'yor, marom); **~ receipts** pulning haqiqiy kelib tushishi; **an ~ residence** haqiqiy yashash joyi; **an ~ result** haqiqiy natija; **~ savings** haqiqiy yig'ilgan (to'plangan, jamg'arilgan) pul, mablag', jamg'arma; **an ~ seismogram** haqiqiy seysmogramma; **~ sentence** haqiqiy jazo; **~ sentencing** haqiqiy jazo tayinlash; **an ~ service** haqiqiy xizmat (qurolli kuchlarda, militsiyada); **~ services** sug'urta bo'yicha xizmatlar; **an ~ settler** haqiqatdan ham mamlakat zaminida yashovchi shaxs; **~ sound** sinxron tovush; **~ speed** haqiqiy tezlik; **an ~ state of the market** bozordagi mavjud (amal qilayotgan) holat; **~ storage** haqiqiy xotira; **~ strength** haqiqiy pishiqlik (mustahkamlik, chidamlilik); **~ stress** haqiqiy kuchlanish; **an ~ surface** (*detalning*) haqiqiy sirti (yuzi, yuzasi, beti, usti); **an ~ temperature** haqiqiy harorat; **an ~ test** ishlatish (foydalanish, tabiiy, dala) sinov(i); **~ time** haqiqiy vaqt; **~ tooth density** tish(cha)lardagi haqiqiy magnit induksiyasi; **an ~ transformation ratio** transformatsiyaning haqiqiy koeffitsiyenti; **~ use** haqiqiy ishlatish (qo'llash, foydalanish); **~ value** haqiqiy ahamiyati (narxi, bahosi, qiymati); **an ~ value test** (*ma'lumotlar maydoning*) haqiqiy ahamiyatini nazorat qilish; **an ~ velocity field** tezlikning haqiqiy maydoni; **~ violence** haqiqiy kuch ishlatish; **an ~ wage** haqiqiy maosh (oylik); **~ weight** haqiqiy og'irlik; **an ~ weld throat** tikuv chokining haqiqiy qalinligi; **~ working** haqiqiy ishlatish (qo'llash, foydalanish); **an ~-use environment** ishlatishning haqiqiy sharoiti; **in ~ fact** haqiqatda; 2) hozirgi, zamonaviy, dolzarb; **an ~ position of affairs** ishning hozirgi ahvoli

actualism [ˈæktʃʊəlɪz(ə)m] *n fals.* aktualizm

actualist [ˈæktʃʊə] *n* realist, realizm tarafdori

actuality [ˌæktʃʊ ˈælɪtɪ] *n* haqiqat, bor narsa

actualization [ˌæktʃʊəlaɪ ˈzeɪʃ(ə)n] *n* amalga oshish (oshirilish), bajarish, hayotga tatbiq etish

actualize [ˈæktʃʊəlaɪz] *v* 1) bajarmoq, amalga oshirmoq; **~d labour** moddiylash(tiril)gan mehnat; 2) haqqoniy qilib (*amaliy*) bayon qilmoq

actually [ˈæktʃ(ʊ)əlɪ] *adv* 1) dalil-isbotga asoslangan, haqiqatda, aslida; **do you ~ mean it?** haqiqatda ham shuni nazarda tutyapsizmi?; **~ cognizant** (*ishning ahvolini*) haqqoniy (haqiqatdan ham) biladigan; **~ infinite** juda cheksiz

actuals [ˈæktʃʊəlz] *n iqt.* haqiqiy (bor, mavjud, naqd) tovar, mol; **an ~ market** naqd mol bozori

actuarial [ˌæktʃʊ ˈe(ə)rɪəl] *a* ehtiyot uchun qo'yilgan, olib qo'yilgan; saqlangan, (*ehtiyot sifatida*) xavfdan saqlaydigan; **~ statistics** sug'urta qilish statistikasi (soni, miqdori); **~ tables** sug'urta jadvallari; **an ~ theory** sug'urta nazariyasi; **~ valuation** sug'urta bahosi; **~ value** sug'urta bahosi, narxi, qiymati

actuary [ˈæktʃʊ(ə)rɪ] *n* kotib, ro'yxatga oluvchi, sud xizmatchisi

actuate [ˈæktʃʊeɪt] *v* 1) harakatga keltirmoq; 2) qo'zg'atmoq, kuchaytirmoq, tezlashtirmoq; **~d equipment** bajaruvchi (boshqaruvchi) jihoz; **an ~d part** siljiydigan (harakatlanadigan) detal

actuating [ˈæktʃʊeɪtɪŋ] *a* harakatlantiruvchi, harakatga keltiruvchi; **an ~ arm** uzatma pishang (dastak, richag); **an ~ device** boshqaruvchi mexanizm; **an ~ element** bajaruvchi element; **an ~ hitch** oshiq-moshiqli ulash; **an ~ lever** boshqaruvchi (ishga tushiruvchi) pishang, dastak, richag; **~ magnet** qo'zg'atuvchi (harakatga soluvchi) magnit; **an ~ means** nimanidir harakatga keltiruvchi moslama (mexanizm); **an ~ mechanism** boshqaruvchi mexanizm; **an ~ motor** uzatma (ishga soluvchi, boshqaruvchi) dvigatel; **an ~ path** ta'sir etuvchi zanjir; boshqaruv kanali; **an ~ piston** ishlaydigan porshen; **an ~ position** yeyilish holati; **~ pulse** boshqaruvchi impuls (ichki turtki); **an ~ relay** boshqaruvchi rele; **an ~ rod** uzatma pishang (dastak, richag); **an ~ screw** yurgizuvchi vint; **an ~ shaft** uzatma val; **an ~ unit** boshqaruvchi mexanizm; **~ technology** uzatma texnik vositalar

actuation [ˌæktʃʊ ˈeɪʃ(ə)n] *n* harakatga keltirish; **an ~ device** boshqaruvchi mexanizm; **~ force** yeyilish kuchi; **~ gas** ishlayotgan gaz; **an ~ interval** yeyilish masofasi (intervali); **an ~ length** kontaktlar o'rtasidagi zazor (tor tirqish); **an ~ level** yeyilish darajasi; **an ~ mechanism** boshqaruvchi mexanizm; **an ~ signal** ta'sir etuvchi signal

actuator [ˈæktʃoeɪtə] *n tex.* 1) kuchli tok uzatadigan uzatma; 2) solenoid (*magnit maydoni hosil qiladigan maxsus spiral*); 3) datchik (*qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilma*); **~ adjustment** boshqaruvchi mexanizmni nazorat qilish; **an ~ component** boshqaruvchi (bajaruvchi) element; **an ~ cylinder** uzatma silindr; **an ~ handle** uzatma dastagi (tutqichi); **an ~ knob** boshqaruv dastagi (tugmachasi); **an ~ pin** stopor (to'xtatish, tormozlash) shtifti; **an ~ screw** yurgizuvchi vint; **an ~ solenoid** boshqaruvchi mexanizmning elektromagniti; **an ~ system** boshqaruvchi tizim; **~ technology** uzatma texnik vositalar; **an ~ valve** boshqaruvchi (tartibga soluvchi) klapan

acuate [ˈækjoɪt] *a* o'tkir, keskir; uchli, qirrali

acuity [əˈkju:ətɪ] *n* o'tkirlik; **visual ~ (~ of vision)** ko'zning o'tkirligi, ko'rish qobiliyatining kuchliligi; **~ of hearing** quloqning o'tkirligi; eshitish qobiliyatining kuchliligi

aculeate [əˈkju:lɪt] *a* 1) *bot.* mayda tikan (tikanak)lar bilan qoplangan, tikanakli; 2) *zool.* nishli, nayzali (*ari, chayon kabi chaqadigan hasharot-jonivorlar haqida*)

aculeus [əˈkju:lɪəs] *n* o'simlik tikani

acumen [əˈkjʊmən] *n* o'tkirlik, ziyraklik, fahm-idroki o'tkirlik, sezgirlik, farosatlilik, zakovatlilik, zehnlilik, zehni o'tkirlik; farosat, zakovat; **to demonstrate/to display ~** zehni o'tkirligini namoyish qilmoq; **business ~** ishbilarmonlik; **legal ~** yuridik zakovat; **diagnostic ~** diagnostik sezgirlik; **political ~** siyosiy sezgi (his qilish)

acuminate [əˈkju:mɪneɪt] **1.** *a bot., biol.* uchli, o'tkir uchli; **an ~ aster** o'tkir uchli qo'qongul; **an ~ leaf** o'tkir uchli barg; **2.** *v* o'tkirlamoq, uch chiqarmoq

acupressure [ˈækjʊˌpreʃə] *n tib.* qon oqishni to'xtatish (*qon tomirini tikish yo'li bilan*)

acupuncture [ˈækjʊˌpʌŋktʃə] *n tib.* akupunktura, ignaterapiya (*igna bilan davolash*); **~ clinic** igna bilan davolash klinikasi; **~ loci** igna bilan davolash nuqtalari; **to do/to perform ~** igna bilan davolamoq

acupuncturist [ˌækjʊˈpʌŋktʃərɪst] *n* igna bilan davolovchi mutaxassis

acushla [ə´koʃlə] *n* qadrli do'stim, qadrdonim, azizim, jonim, jonginam, sevgilim, mahbubam, ma'shuqam (*birovga murojaat qilganda ishlatiladi*)

acutance [ə´kju:t(ə)ns] *n* aniqlik, ravshanlik, tiniqlik (*rasm, tasvir haqida*)

acute [ə´kju:t] *adv* 1) o'tkir; **an ~ angle** o'tkir burchak; **~ appendicitis** og'ir kechayotgan (davridagi) appenditsit, ko'richak kasalligi; **an ~ arch** tepasi uchli ravoq (arka, peshtoq); **~ articular rheumatism** kuchli bo'g'im revmatizmi, bo'g'imlardagi bod; **an ~ asthmatic attack** bronxial astma (ziqnafas)ning kuchli xuruj qilishi (tutib qolishi); **an ~ attack** kasallikning kuchli boshlanishi (xuruji); **~ bacterial endocarditis** kuchli bakterial endokardit (*yurak ichki pardasining yallig'lanishi*); **~ brain syndrome** kuchli miya sindromi (*miya kasalligi uchun xarakterli alomatlar majmuyi*); **~ cardiac aneurysm** yurakning kuchli anevrizmi (*arteriyaning bir yeridagi kengayishi*); **an ~ constraint** *mat.* qat'iy (o'zgartirib bo'lmaydigan) chek, chegara; **an ~ crisis** keskin kechayotgan moddiy tanqislik; **an ~ enteric infection** kuchli ichak infeksiyasi; **an ~ exposition** kuchli nurlanish; **~ eyesight** ko'zning yaxshi ko'rish qobiliyati; **an ~ flame** kuchli alanga; **an ~ hammer** teshadigan (o'yadigan) bolg'a; **an ~ hinge** o'tkir burchakli oshiq-moshiq; **~ inflammation** kuchli yallig'lanish; **~ intoxication** kuchli intoksikatsiya, zaharlanish (organizmning zaharli moddalar – toksinlar bilan (zaharlanishi); **~ irradiation** qisqa muddatli kuchli nurlanish; **an ~ medical unit** shoshilinch tibbiy terapiya bo'limi; **an ~ organic reaction** kuchli organik reaksiya; **an ~ pain** kuchli og'riq; **~ proctitis** kuchli proktit (*to'g'ri ichak shilliq pardasining yallig'lanishi*); **~ radiation syndrome** kuchli nur sindromi; **an ~ reaction to stress** qattiq hayajon (ruhiy zarba) oqibatidagi reaksiya; **an ~ respiratory disease** kuchli nafas yo'llari kasalligi; **~ rheumatic arthritis** kuchli bo'g'im revmatizmi, bo'g'imlardagi kuchli bod; **an ~ single dose** bir martali katta o'lchovli miqdor (doza); **an ~ splenic tumor** qorajigar (taloq)ning kuchli kattalashishi; **~ toxicity** kuchli zaharlilik; **~ viral hepatitis** virusli gepatit; **~ vision** kuchli ko'rish qobiliyati; **~ yellow atrophy** jigarning sariq distrofiyasi (*to'qima va a'zolarda modda almashinuvining buzilishi*); 2) o'tkir farosatli, sezgir; **an ~ mind** o'tkir aql

acute-angled [ə,kju:t´æŋg(ə)ld] *a* uchli, o'tkir burchakli; **an ~ triangle** o'tkir burchakli uchburchak

acutely [ə´kju:tli] *adv* 1) qo'pollik (dag'allik, qo'rslik, achchiq, kinoya) bilan; 2) kuch (zarb, shiddat) bilan

acuteness [ə´kju:tnəs] *n* (*ko'z, quloq, aql haqida)* o'tkirlik, sezgirlik, kuchlilik

acutifoliate [ə,kju:tɪ´fəolɪɪt] *a bot.* nayzabargli, ingichka bargli, barglari uchli bo'lgan

acyclic [ə´sɪklɪk] *a kim.* davrlarga bo'linmaydigan, atsiklik; **~ algebra** atsiklik algebra; **an ~ compound** atsiklik birikma (ulash, ulanish, qo'shish); **an ~ cover** atsiklik qoplama; **an ~ function** atsiklik funksiya; **an ~ graph** atsiklik graf; **~hydrocarbon** atsiklik uglevodorod (*uglerod bilan vodorodning kimyoviy birikmasi*); **~ manifold** atsiklik turli-tumanlik (xilma-xillik, rang-baranglik); **~ morphism** atsiklik morfizm; **an ~ net** atsiklik tarmoq; **~ orientation** atsiklik orientatsiya (biror kimsa yoki narsani mo'ljallab (ko'zda tutib) ish qilish); **~ potential motion** atsiklik potensial oqim; **an ~ set** *mat.* atsiklik to'plam; **an ~ star** atsiklik yulduz; **an ~ tree** atsiklik daraxt

ad [æd] *n* (**advertisement** *so'zining qisqartirilgan shakli*), e'lon, reklama, bildirish; **a want ~(s)** gazetaning talab va taklif bo'limidagi e'lon

ad absurdum [,ædæb´sɜ:dəm] *adv lot.* bema'nilik (tuturiqsizlik, ahmoqlik) darajasigacha

adactylous [ə´dæktɪləs] *a* barmog'i (barmoqlari) yo'q, barmoqsiz

adage [´ædɪdʒ] *n* maqol, matal, zarbulmasal, hikmatli so'z, chuqur ma'noli gap

adagio [ə´dɑ:dʒɪ(ɪ)əʊ] *n mus.* adajio (*notada: musiqa asarini sekin, shoshmasdan, cho'zib ijro etish haqidagi ko'rsatma*)

Adah [´eɪdə] *n* Ada, Eyda (*ayollar ismi*)

Adalbert [´æd(ə)lbɜ:t] *n* Adalbert (*erkaklar ismi*)

Adam [´ædəm] *n* 1) Adam (*erkaklar ismi*); 2) inson, odam, kishi, erkak kishi; 3) *din.* Odam, Odam Ato, Odam alayhissalom; **~s ale** (*yoki* **wine**) *hazil.* „Adamning vinosi", suv; **not to know smb. from ~** *so'zl.* kimdir haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmaslik, kimnidir yuzidan (ko'rib) tanimaslik; **the old ~** „keksa Adam", insonning gunohli xulq-atvori; **(as) old as ~** almisoqdan qolgan, juda eski (qadimgi) = tamoman unutilgan, esdan chiqib ketgan; **one's outward ~** *amer. kam. hazil.* o'lik tan, jasad, murda; **since ~ was a boy** *so'zl.* ancha oldin (ilgari, burun), allaqachon, allaqachonlardan beri, azaldan, burundan, qadim zamonlardan buyon

adamant [´ædəmənt] **1.** *n* juda qattiq ma'dan *yoki* metall; 2) she'riy qat'iylik; **a will of ~** mustahkam iroda; 3) *so'zl.* olmos, brilliant; **2.** *a* sabotli, matonatli, qat'iyatli; **to be ~** matonatli bo'lmoq

adamantine [,ædə´mæntaɪn] **1.** *n* 1) *min.* adamantin; 2) *kon.* toblangan po'lat pitrasi (*burg'ilash uchun*); **2.** *a* 1) olmos xususiyatiga ega bo'lgan; juda qattiq; 2) yengilmas, bukilmas

Adam's apple [,ædəmz´æp(ə)l] *n anat.* kekirdak olmasi; qo'shtomoq

Adam's-flannel [,ædəmz´flæn(ə)l] *n bot.* 1) o'rmon to'ng'iztarog'i; 2) o'rmon to'ng'iztarog'ining tikanagi

adapt [ə´dæpt] *v* 1) moslashmoq, moslashtirmoq, muvofiqlashtirmoq; **to ~ plans to suit new circumstances** rejalarni yangi vaziyatga muvofiq o'zgartirmoq; **to ~ for light** yorug'likka moslashmoq; 2) soddalashtirmoq; **to ~ the text** matnni soddalashtirmoq; 3) sahnalashtirmoq (*biror badiiy asarni teatr sahnasi yoki kinoda qo'yishga moslamoq*); **to ~ a film from a novel** romanni sahnalashtirmoq

adaptability [ə,dæptə´bɪlɪtɪ] *n* moslashuvchanlik, moslashish (muvofiqlashish) qobiliyati; qo'llanishlik, tatbiq etilishlik, ishlatishga yaroqlilik

adaptable [ə´dæptəb(ə)l] *a* osonlik bilan ko'nikadigan (moslashadigan, muvofiqlashadigan); **~ algorithm** moslashadigan algoritm

adaptation [,ædæp´teɪʃ(ə)n] *n* 1) moslashish, moslashtirish; **~ brightness** moslashish maydonining ravshanligi (yorug'ligi); **~ illuminance** adaptatsiya maydonining yoritilganlik darajasi; **an ~ kit** texnik xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladigan asboblar sidrasi (to'plami, komplekti); **an ~ layer** moslashish (moslashtirish) darajasi; **an ~ level** moslashish (moslashtirish) maydonining ravshanligi; **~ luminance** (moslashtirish) maydonining ravshanligi; **an ~ mechanism** moslashish (moslashtirish, adaptatsiya) mexanizmi; **~ power** moslashuvchanlik, moslashish (muvofiqlashish) qobiliyati; **~ right** adaptatsiya huquqi; **~ syndrome** adaptatsiya sindromi; **~ through identification** tenglashtirish yo'li bilan (orqali) moslashtirish; **an ~-companion** yordamchi moslama; **auditory ~** eshitib moslashish (moslashtirish); **chromatic ~** rangga moslashish; xromatik adaptatsiya; **dark ~** qorong'ilikka moslashish;

light ~ yorug'likka moslashish; 2) qayta ishlash

adaptative [ə´dæptətɪv] = **adaptive**

adapted [ɔ´dæptɪd] *a* 1) moslashgan, moslashtir(il)gan, to'g'ri keltirilgan; munosib, bop; 2) soddalashtirilgan, osonlashtirilgan; ~ **mapping** moslashtirilgan tasvir; ~ **marketing mix** moslashtirilgan marketing kompleksi; **an** ~ **race** ma'lum bir tashqi sharoitga moslashgan irq; ~ **sludge** moslashtirilgan loyqa (balchiq); ~ **technology** mahalliy sharoitga javob bera oladigan texnologiya; **an** ~ **vector field** moslashtirilgan vektor maydoni; **an** ~ **virus** moslashtirilgan virus; **an** ~ **text** soddalashtirilgan matn

adapter [ə´dæptə] *n* 1) tovush olgich; 2) tutqich, qisqich; 3) bir-biriga kirgizib ulaydigan moslama; 4) adabiy asarlarni soddalashtiradigan kishi; **an** ~ **arm** o'rnatishga xizmat qiladigan dastak (richag); **an** ~ **cable** biriktiruvchi kabel; **an** ~ **card** moslashtiruvchi karta, qarta; **an** ~ **circuit** moslash(tir)ish sxemasi, moslashuvchi (moslashtiruvchi) sxema; **an** ~ **lens** tarqatuvchi linza; **an** ~ **module** biriktirish (ulash) modeli; **an** ~ **object** moslashtiruvchi (biriktiruvchi, ulovchi) obyekt; **an** ~ **plate** biriktiruvchi (ulovchi) plastina (taxtasimon yoki plankasimon narsa, yassi qattiq jism); **an** ~ **plate unit** biriktiruvchi (ulovchi) plita; **an** ~ **plug** biriktiruvchi (ulovchi) shtepsel, rozetka; **an** ~ **ring** moslashtiruvchi (biriktiruvchi) halqa; **an** ~ **screw** ulovchi bolt; **an** ~ **sleeve** mustahkamlovchi (biriktiruvchi) vtulka; **an** ~ **socket** vtulka, nipelli mufta; **an** ~ **transformer** oraliqdagi (ajratuvchi) transformator; **an** ~ **unit** 1) tovush olgich; 2) ulovchi (biriktiruvchi) mexanizm, moslama; **a bus** ~ shinani moslashtiruvchi; **a channel** ~ kanallarni moslashtiruvchi; **a channel-to-channel** ~ kanallar o'rtasidagi aloqalarni moslashtiruvchi; **a colour graphics** ~ rangli grafikani moslashtiruvchi; **a communication** ~ aloqalarni moslashtiruvchi (*kanal yoki tarmoqlar o'rtalaridagi*); **a communication line** ~ kanal yoki tarmoqlar o'rtalaridagi aloqalarni moslashtiruvchi; **a data-interchange** ~ ma'lumotlarni almashtirishni moslashtiruvchi; **a dataphone** ~ telefon tarmoq (kanal)larini moslashtiruvchi; **a graphics** ~ grafikani moslashtiruvchi; **a link** ~ aloqani moslashtiruvchi; **a peripheral** ~ chetdagi moslashtiruvchi; **a signal** ~ signallarni moslashtiruvchi; **a slave** ~ yetaklanuvchi moslamalarni moslashtiruvchi; **a transmission** ~ aloqa kanallarini moslashtiruvchi; **a video display** ~ videomoslashtiruvchi

adapting [ə´dæptɪŋ] *n* moslashish, muvofiqlashish, ko'nikish, o'rganish; moslashtirish, muvofiqlashtirish, ko'niktirish, o'rgatish; ~ **luminance** rangning ochiqligi (ravshanligi, yorug'ligi); **an** ~ **machine** o'zidan-o'zi (avtomatik ravishda) sozlanadigan mashina; **an** ~ **piece** biriktiruvchi (sozlovchi, bog'lovchi, ulovchi) qism (detal); **an** ~ **pipe** quvurning ulaydigan qismi

adaption [ə´dæpʃ(ə)n] = **adaptation**

adaptive [ə´dæptɪv] *a* moslashadigan, muvofiqlashadigan, o'rganib (ko'nikib) ketadigan, ko'nikadigan; moslashuvchi, ko'nikuvchi; **an** ~ **antenna** moslashtiruvchi (adaptiv) antenna; ~ **behaviour** moslashuvchi fe'l-atvor; **an** ~ **biped** moslashuvchi ikki oyoqli robot; ~ **coding** adaptiv kodlash; ~ **communication** adaptiv muloqot; **an** ~ **computer** adaptiv hisoblash moslamasi; ~ **control action** adaptiv boshqaruvchi ta'sir; **an** ~ **control mode** o'z-o'zidan (avtomatik ravishda) sozlanish; **an** ~ **control network** adaptiv boshqaruv mexanizmining tarmog'i; **an** ~ **control transfer line** adaptiv boshqaruvdagi avtomatik tarmoq; **an** ~ **controller** adaptiv boshqaruv mexanizmi; **an** ~ **device** adaptiv mexanizm; ~ **diagnosis** adaptiv diagnostika; **an** ~ **dialogue** adaptiv dialog; **an** ~ **element** adaptiv element; ~ **enzyme** adaptiv ferment; ~ **equalization** adaptiv kompensatsiya; **an** ~ **equalizer** adaptiv kompensator; ~ **estimation** adaptiv baholash; ~ **evolution** adaptiv evolutsiya; **an** ~ **field** adaptiv maydon; **an** ~ **filter** o'z-o'zidan (avtomatik ravishda) sozlanadigan filtr; ~ **filtering** adaptiv filtrlash; ~ **flexibility** adaptiv egiluvchanlik; **an** ~ **gripper** adaptiv tutqich (qisqich); ~ **hypertrophy** adaptiv gipertrofiya; ~ **immunity** adaptiv immunitet; **an** ~ **inference** adaptiv xulosa; **an** ~ **inspection** adaptiv nazorat; ~ **integration** *mat.* adaptiv integrallash; ~ **learning** adaptiv o'rganish; **an** ~ **lock** adaptiv qulf; ~ **logic** adaptiv mantiq; **an** ~ **loop** adaptiv boshqaruv zanjiri (sxemasi, konturi); ~ **management** adaptiv boshqaruv; **an** ~ **mechanism** adaptiv mexanizm; ~ **metallurgy** metallshunoslik; **an** ~ **method** adaptiv metod; **an** ~ **mirror** adaptiv oyna (ko'zgu); **an** ~ **mode** adaptiv rejim; **an** ~ **model** adaptiv model; **an** ~ **modem** adaptiv modem; ~ **motion** adaptiv harakat; **an** ~ **norm** adaptiv norma; **an** ~ **observer** adaptiv kuzatuvchi; ~ **optics** adaptiv optika; ~ **peak** maksimum moslashish (moslashtirish); **an** ~ **policy** adaptiv strategiya; **an** ~ **poll** adaptiv so'rov; **an** ~ **predictor** adaptiv prediktor; **an** ~ **process** adaptiv jarayon; **an** ~ **projector** adaptiv proyektor (proyeksion apparat); **an** ~ **radar** adaptiv radiolokatsiya stansiyasi; ~ **radiation** adaptiv radiatsiya; **an** ~ **radio** adaptiv radiostansiya; **an** ~ **receiver** adaptiv priyomnik (*radiotexnika va telemexanikada*: *signal, nutq, musiqa, tasvir va sh. k. ni qabul qilishda qo'llaniladigan moslama*); **an** ~ **regulator** adaptiv regulator (*mashinalarning yurishini yoki ishlashini tartibga solib turuvchi asbob*); **an** ~ **robot** adaptiv robot; **an** ~ **search** adaptiv izlanish; ~ **selection** moslashtiruvchi saralash; ~ **smoothing** adaptiv tekislash; ~ **steroids** organizmning moslashishida qatnashadigan steroidlar; **an** ~ **strategy** adaptiv strategiya; ~ **synthesis** adaptiv sintez *telv.* (*rangning sintezi*); **an** ~ **system** adaptiv sistema; ~ **technique** adaptiv boshqaruv (boshqarish); **an** ~ **teleinformation system** adaptiv teleinformatsion sistema; **an** ~ **telescope** adaptiv teleskop; **an** ~ **test** adaptiv kriteriya; ~ **tuning** adaptiv sozlash; ~ **value** adaptiv qiymat (baho, narx); **an** ~ **zone** adaptiv zona

adaptor [ə´dæptə] = **adapter**

ad arbitrium [ˌædɑː´bɪtrɪəm] *adv* ixtiyoriy ravishda, erkin tarzda, o'z ixtiyori (xohishi) bilan

ad astra [ˌæd ´æstrə] *adv lot.* yulduzgacha

adawn [ə´dɔːn] *adv esk.* 1) tongotar paytida; 2) uyg'onib, uyqudan turib(oq)

A-day [´eɪˌdeɪ] *n* birinchi atom bombasini sinash kuni

aday [ə´deɪ] = **a-day**

a-day [ə ´deɪ] *adv esk.* har kun(i), har kunda; kun sayin

adays [ə´deɪz] = **a-days**

a-days [ə ´deɪz] *adv esk.* kunduzi, kunduz kuni

ad captandum [ˌædkæp´tændəm] *adv lot.* biror shaxsga xushomad qilib, unga yoqishni ko'zlab

add [æd] **1.** *v* **(to)** qo'shmoq, qo'shib olmoq, orttirmoq, birlashtirmoq; **to** ~ **five to nine** beshni to'qqiz bilan qo'shmoq; **to** ~ **a cubit to one's stature** vazni (og'irligi) oshmoq; **2.** *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) yoki olingan (olinadigan); **an** ~ **card** qo'shimcha plata; ~ **activation** qo'shimcha faollashuv (faollashtiruv); **an** ~ **circuit** qo'shuv (qo'shish) sxemasi

added [ædıd] *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilingan; **an ~ copy** qo'shimcha nusxa; **an ~ cost** qo'shimcha narx; **~ damages** jarima uchun to'langan (to'lanadigan) zarar; **an ~ head** qalpoqcha (*mas., bolida*); **an ~ line** qo'shimcha chiziq; **an ~ loss** qo'shimcha talafot; **~ metal** qo'shilgan metall; **an ~ noise** paydo bo'lgan shovqin; **an ~ object** qo'shimcha maqsad; **~ selling** qo'shimcha savdo; **~ shotpoint** portlashning qo'shimcha nuqtasi; **~ value (cost)** qo'shimcha narx (qiymat); **a value ~ statement** qo'shimcha narx haqidagi hisobot; **an ~ value tax** qo'shimcha narx uchun solingan soliq; **an ~ worker effect** qo'shimcha ishchi (kuchi)ning samarasi, foydasi; **an ~-value condition** detalning sifatiga bo'lgan qo'shimcha talab

addend [ˈædend] *n mat.* ikkinchi qo'shiluvchi (tarkibiy qism)

addenda [əˈdendə] *n pl* (*sing.* - **dum**) ilovalar, qo'shimchalar

addendum [əˈdendəm] *n* (*pl* **-da**) ilova, qo'shimcha (*kitob, shartnoma va b. ga*); ilova qilish, to'ldirish; **an ~ circle** tishlar uchining aylanasi (*tishli g'ildirakda*); **an ~ cone** tishlar uchining konusi (*konus shaklidagi tishli g'ildirakda*); **an ~ cut** tish (dandana)lar uchini kesish (qirqish); **~ factor** tish (dandana) tepa qismining balandlik koeffitsiyenti; **an ~ line** tashqi (sirtqi) tomonidagi aylana; **~ modification coefficient** tish (dandana) tepa qismining koeffitsiyenti; **an ~ to a contract** shartnomaga qo'shimcha

adder [ˈædə] *n zool.* 1) qora ilon (*yapaloq boshli zaharli ilon*); **to have death ~s** (*yoki* **death-adders**) **in one's pocket** *avstr. jarg.* xasis (ziqna, qurumsoq) bo'lmoq; 2) *amer.* suvilon; 3) jamlagich, jamlovchi asbob; **an ~ accumulator** jamlovchi akkumulator; **an ~ amplifier** jamlovchi kuchaytirgich; **an ~ (adding) circuit** jamlovchi (umumlashtiruvchi) sxema (shartli tasvir, chizma); **~ flies** qanotlari bir tekisda bo'lmagan ninachi; **an ~ gate** jamlagich ventili; **an ~ network** jamlagich sxemasi (shartli tasviri, chizmasi); **an ~ unit** jamlagich, jamlovchi asbob

addict [ˈædıkt] **1.** *n* 1) bangi (*giyohvand, nashavand, ko'knori odam*); 2) ashaddiy ishqiboz, muxlis, ixlosmand; **a ballet ~** balet ixlosmandi; **2.** *v* o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qiziqtirib qo'ymoq; **I am ~ed to music** men musiqa ixlosmandiman; men musiqani juda yaxshi ko'raman

addicted [əˈdıktıd] *n* berilib ketgan, ixlosmand (*nimagadir*); **~ to drugs** narkotik moddalar qabul qilishga o'rganib qolgan; **~ to drink** ichkilikbozlikka berilib ketgan

addiction [əˈdıkʃ(ə)n] *n* nimagadir bo'lgan mayl (havas, qiziqish, ishtiyoq, moyillik); zararli (yomon) odat; **hopeless ~** tuzatib bo'lmaydigan odat; **alcohol ~** doimiy (uzoq muddat davom etadigan) ichkilikbozlik

addictive [əˈdıktıv] *a* odatlantiradigan, odat bo'lishga chorlaydigan, odat bo'lishga sabab bo'ladigan (*ko'pincha, narkotik moddalar haqida*); **~ behavior** narkotik qabul qilish odati

adding [ˈædıŋ] **1.** *n* qo'shilgan narsa, qo'shimcha, ilova; qo'shish, jamlash, yig'indisini chiqarish; **2.** *a* qo'shadigan, jamlaydigan, yig'indisini chiqaradigan; **an ~ circuit** qo'shuv (qo'shish) sxemasi; **an ~ counter** jamlovchi (jamlab yig'indisini chiqaruvchi) hisoblagich; **an ~ device** qo'shadigan (jamlaydigan, yig'indisini chiqaradigan) moslama; **an ~ element** jamlovchi (jamlab yig'indisini chiqaruvchi) element; **an ~ machine** hisoblash mashinasi; **an ~ mechanism** qo'shadigan (jamlaydigan, yig'indisini chiqaradigan) mexanizm (moslama); **an ~ network** qo'shuv (qo'shish) sxemasi; **an ~ prediction** qo'shimcha bashorat qilish; **an ~-storage register** ma'lumotlarni yig'ib, saqlab qo'yadigan hisoblagich

additament [əˈdıtəmənt] *n* 1) qo'shish, qo'shib berish, qo'shimcha qilish; 2) qo'shilgan narsa, qo'shimcha; ilova; 3) qo'shimcha detal (tafsilot)

addition [əˈdıʃ(ə)n] *n* qo'shish, ko'paytirish, to'ldirish; **in ~ to** ...dan tashqari, ...ga qo'shimcha, ...ning ustiga, ustiga-ustak, qo'shimchasiga, yana, tag'in; **an ~ alloy** ligatura (*tex. oltinni, kumushni, platinani qattiqroq yoki arzonroq qilish uchun qo'shiladigan mis yoki qalay*); **an ~ cure** rezinka buyumlarni xom rezinkadan yamoq solib ta'mirlash; **an ~ element** legirlovchi (*metallga boshqa metall qo'shib fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydigan*) element; **an ~ formula** 1) qo'shuv formulasi; 2) qo'shuv teoremasi; **~ hydrogenation** (*ekologiyaga zarar keltirmaydigan tarzda*) gidrogenlash (*kimyoviy birikmalardan vodorodni ajratish*); **~ identities** *mat.* qo'shuv formulalari (*trigonometriyada*); **an ~ item** *komp.* qo'shimcha tarzda qo'shiladigan element (*faylga kiritiladigan ma'lumotlarda*); **an ~ law** *fiz.* qo'shuv qoidasi; **the ~ of clay** loy qo'shish; **the ~ of concepts** tasniflash (*tushunchaning tuzilishi*); **the ~ of interest** foizning ko'payishi (o'sishi, ortishi); **the ~ of sand** qum qo'shish; **the ~ of starter** 1) achitish, ivitish, oshirish, ko'pchitish; 2) ekiladigan materiallar qo'shish; **the ~ of tannin** (vinoga) tanin (*tishni qamashtiradigan modda*) qo'shish

additional [əˈdıʃ(ə)nəl] *a* qo'shimcha; **~ charges** qo'shimcha xarajatlar

additionally [əˈdıʃ(ə)nəlı] *adv* qo'shimcha ravishda, qo'shimcha qilib, ...dan tashqari, yana

addititious [ˌædıˈtıʃəs] *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) *yoki* olingan (olinadigan)

additive [ˈædıtıv] *n* qo'shimcha, ma'lum bir maqsadda qo'shiladigan narsa

addle [ˈædl] **1.** *a* aynigan, palag'da; **an ~ egg** aynigan tuxum; **2.** *v* aynimoq (*tuxum*); palag'da bo'lmoq; **to ~ one's brain** (*yoki* **head**) **with smth.** qandaydir bir fikrni ma'qullab turib olmoq, qandaydir bir fikrni tutib olmoq, nimaningdir ustida bosh qotirmoq, nimaningdir ustida o'ylanib qolmoq

addle-brain [ˈædlˌbreın] *n* ahmoq, galvars, kallavaram

addle-brained [ˈædlˌbremd] *a* kallasi bo'm-bo'sh, bemiya

addled [ˈædld] *a* aynigan, hidlangan, sasigan, palag'da bo'lib qolgan (*tuxum haqida*)

addle-head [ˈædlˌhed] *n* kallasi bo'm-bo'sh, bemiya odam

addle-headed [ˈædlˌhedıd] = **addle-brained**

addle-pate [ˈædlˌpeıt] = **addle-brained**

addle-pated [ˈædlˌpeıtıd] = **addle-brained**

add-on [ˌædˈɔn] *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) yoki olingan (olinadigan); **an ~ board** qo'shimcha plata; **an ~ card** kengaytirish uchun plata (*mas. sistema imkoniyatlarini*); **an ~ component** osma (ilma, oshiq-moshiqli) komponent, element; **an ~ conference** konferens-telefon tarmog'ini qo'shimcha abonent bilan gaplashish uchun ulash; **an ~ device** osma (ilma, oshiq-moshiqli) element, qo'shimcha element; **an ~ editor** dasturni tahrir qilish uchun ulangan moslama; ulangan (o'rnatilgan) elektron qurilma; **~ equipment** (o'rnatilgan) qo'shimcha jihozlar; **an ~ fare** proporsional (qo'shimcha) tarif; **~ interest** qo'shimcha qilingan foizlar; **an ~ memory** sistemani kengaytiruvchi xotira, qo'shimcha xotira; **an ~ method** qo'shilgan foiz metodi; **an ~ module** kengaytiruvchi modul (*mas., sistema funksiyasini*), qo'shim-

cha modul; **an ~ package** (dasturlarni) kengaytiruvchi paket; **~ products** (tarmoqqa) ulaydigan mexanizm (moslama); **an ~ recording** qo'shimcha qilingan (video) yozuv; **an ~ sale** qo'shimcha savdo; **~ security** (qo'shimcha qilib) o'rnatilgan xavfsizlik; **~ selling** qo'shimcha savdo; **an ~ spindle** qo'shimcha shpindel (*dastgohlarning aylanma harakat qiladigan asosiy qismi*); **an ~ table** qo'shimcha stol

address [ə´dres] **1.** *n* 1) manzil; **to change one's ~** o'z manzilini o'zgartirmoq; 2) murojaat, nutq; **openning ~** kirish so'zi; **2.** *v* yubormoq; **to ~ a letter to smb.** biror kishiga xat yo'llamoq

addressed [ə´drest] *a* nomiga yuborilgan, yo'llagan, yo'naltirilgan, yo'nalgan

addressee [ˌædre´si:] *n* (*xat va shu kabilarni*) oluvchi

adduce [ə´dju:s] *v* (*dalil sifatida*) ko'rsatmoq

adducent [ə´dju:s(ə)nt] *a anat.* muskulni majburan chiqazmoq, mushaklarni mashqlar yordamida katta qilmoq

adduction [ə´dʌkʃ(ə)n] *n* dalil keltirish

adeem [ə´di:m] *v* 1) *kit.* qaytarib (qaytib) olmoq; 2) *yur.* merosdan mahrum qilmoq

ademption [ə´dempʃ(ə)n] *n yur.* (kishini nimadandir) mahrum qilish; vasiyat qilgan narsani bekor qilish

adenoids [´ædənɔɪdz] *n pl anat.* adenoidlar (*og'izdagi shish*)

adenology [ˌædə´nɒlədʒɪ] *n* bez haqidagi ta'limot

adenous [´ædənəs] *a biol.* bezga oid; bezli; bez...

adeps [´ædeps] *n* mol yog'i

adept [ə´dept] **1.** *n* bilimdon, tekshiruvchi; **2.** *a* (**in**) yaxshi biladigan

adequacy [´ædɪkwəsɪ] *n* yetarlilik

adequate [´ædɪkwɪt] *a* yetarli, talabga javob beradigan

adequately [´ædɪkwɪtlɪ] *adv* 1) yetarli, yetarli darajada, yetarlicha; 2) tegishlicha, tegishli ravishda, mos ravishda, yarasha, qarab; 3) chuqur bilimga asoslanib

adequation [ˌædɪ´kweɪʃ(ə)n] *n* 1) tenglash, tenglashtirish; 2) ekvivalent (*bir narsaga har jihatdan tengdosh bo'lgan ikki narsa*)

a deux [ɑ:´də:] *adv fr.* 1) ikkov, ikkovlon, ikki kishi bo'lib, ikki kishilashib, ikki kishi; 2) ikki kishi uchun, ikki kishiga

ad exemplum [ˌædeg´zempləm] *adv lot.* 1) misol uchun; 2) namunaga qarab, namuna bo'yicha, namuna asosida

ad extra [ˌæd ´ekstrə] *adv lot.* tashqariga, tashqarisida, sirtida

ad extremum [ˌædeks´tri:məm] *adv lot.* 1) nihoyat, oxir, oxiri, axiyri, natijada, pirovardida; 2) haddan tashqari, juda ham, o'ta

ad finem [ˌæd´fi:nem] *adv lot.* batamom, butunlay, oxirigacha, to'la-to'kis

ad gloriam [ˌæd´glɔ:rɪəm] *adv lot.* (*kimnidir yoki nimanidir*) sharaflash (maqtash) uchun, shon-shuhratini oshirish uchun

ad gustum [ˌæd´gostəm] *adv lot.* ko'nglidagidek bo'lmoq, didiga yoqmoq, ta'biga to'g'ri kelmoq

adhere [əd´hɪə] *v* (**to**) yopishmoq, yopishib qolmoq, yopishib turmoq, osilmoq; **mud ~d to our shoes** loy botinkamizga yopishib qoldi

adherence [əd ´hɪ(ə)rəns] *n* sadoqat, sodiqlik; **~ to a case** biror ishga sodiqlik

adherent [əd ´hɪ(ə)rənt] **1.** *n* tarafdor, yoqlovchi, izdosh, ergashuvchi; **2.** *a* yopishqoq, shirali

adherer [əd ´hɪərə] *n* ishqiboz, ixlosmand

adhesion [əd ´hi:ʒ(ə)n] *n* yopishish, yelimlab ulash; **the ~ of soil** *q.x.* yopishqoq (*tuproq*)

adhesive [əd´hi:sɪv] *a* yopishqoq, shirali, yelimshak, bog'lovchi; **an ~ plaster** yopishqoq tasma (*plastir*)

adhesiveness [əd´hi:sɪvnəs] *n* yopishqoqlik, shiralilik; 2) *psixol.* tasavvurlarni fikran bir-biriga bog'lash qobiliyati

adhibit [æd´hɪbɪt] *v kam.* 1) qo'ymoq, bosmoq; **to ~ the seal** muhr bosmoq; 2) yutmoq, ichmoq, yemoq, iste'mol qilmoq (dorini)

ad hoc [æd´hɒk] *a lot.* maxsus, ushbu maqsadda tashkil etilgan; **~ access** epizodik (rejalashtirilmagan) kirish yoki foydalanish yo'li; **~ algorithm** maxsus algoritm; **an ~ analysis** maxsus tur tahlili; **an ~ approach** maxsus metod (yondashuv); **an ~ assumption** maxsus qilingan taxmin (mo'ljal, niyat, chama); **an ~ committee** maxsus qo'mita; **an ~ decision** maxsus qaror; **an ~ method** maxsus metod; **an ~ network** maxsus(lashtirilgan) tarmoq; **an ~ officer** maxsus topshiriqni bajarish uchun tayinlangan amaldor shaxs; **an ~ project** maxsus loyiha; **an ~ query** rejalashtirilmagan savol (so'rov); **~ regulations** tartibga soluvchi maxsus choralar; **an ~ research** rejalashtirilmagan (maxsus) tadqiqot; **an ~ tribunal** maxsus sud; **an ~ user** epizodik (muntazam bo'lmagan, tasodifiy) foydalanuvchi

ad honorem [ˌædhə´nɔ:rem] *adv lot.* biror kimsa, narsa *yoki* voqea sharafiga

adiaphorous [ˌædɪ´æfərəs] *a* 1) *kit.* biror (yoki hamma) narsaga beparvo (befarq) qaraydigan; betaraf, xolis; 2) *tib.* zarar (ziyon) yetkazmaydigan, zararsiz, bezarar, beziyon

ad idem [ˌæd´(a)ɪdem] *adv lot.* kelishib (birdamlik, hamjihatlik) bilan, inoq, inoqlik bilan harakat qilib

adieu [ə´dju:] **1.** *n.* xayrlashish; **to make one's ~s (to smb.)** (*kim bilandir*) xayrlashmoq; **2.** *int.* alvido!

ad infinitum [ˌædɪnfɪ´naɪtəm] *adv lot.* 1) haddan tashqari uzoq, juda uzoq, cheksiz; 2) ortiq darajada, juda ham

ad initium [ˌædɪ´nɪʃɪəm] *adv lot.* boshiga, avvaliga, boshlanishiga; boshida, avvalida, boshlanishida

ad interim [ˌæd´ɪntərɪm] **1.** *a lot.* 1) ikki narsa orasidagi, o'rtasidagi, oraliqdagi, o'rta, oraliq; 2) vaqtinchalik, muvaqqat; **~ alimony** vaqtinchalik nafaqa (ta'minot, oylik, maosh, moyana); **an ~ appointee** vaqtinchalik tayinlangan shaxs; **~ copyright** vaqtinchalik mualliflik huquqi; **~ designation** biror mansabga vaqtinchalik tayinlash; **an ~ privilege** vaqtinchalik yengillik (imtiyoz); **~ protection** vaqtinchalik mudofaa (himoya) qilish (*ixtironi*); **2.** *adv* shu orada, shu asnoda

adipic [ə´dɪpɪk] *a maxs.* 1) yog'li, tarkibida yog' bo'lgan; yog'...; 2) yog' ishlaydigan, yog' mahsulotini beradigan

adipose [´ædɪpəʊs] **1.** *n* mol yog'i; **2.** *a* yog'li, yog' bosgan

adiposity [ˌædɪ´posɪtɪ] *n* semirish, yog' bosish

adipsous [ə´dɪpsəs] *a tib.* chanqoq bosadigan (qondiradigan)

adit [´ædɪt] *n* kirish, o'tish

adjacency [ə´dʒeɪs(ə)nsɪ] *n* 1) qo'shnilik; chegaradoshlik; 2) *pl* tevarak-atrof; atrof-muhit

adjacent [ə´dʒeɪs(ə)nt] *a* yondosh, tutash, qo'shni, yonma-yon; **~ villages** yaqin atrofdagi qishloqlar

adjacently [ə´dʒeɪs(ə)ntlɪ] *adv* yonma-yon, bir qatorda

adject [ə´dʒekt] *v kit.* 1) qo'shimcha qilmoq, to'ldirmoq, kam-ko'stini (yetishmaganini) qo'shmoq, qo'shib mukammallashtirmoq, ilova qilmoq; 2) qo'shmoq, birlashtirmoq, qo'shib (birlashtirib) yubormoq

adjectival [ˌædʒɪk´taɪv(ə)l] *a gram.* sifat tarzida ishlatiladigan

adjective [´ædʒɪktɪv] *n gram.* sifat (*so'z turkumi*)

adjoin [ə´dʒɔɪn] *v* yondashmoq, yopishib turmoq, chegaradosh bo'lmoq; **the playground ~s the school** sport maydonchasi maktabga tutashgan

adjoining [ə´dʒɔɪnɪŋ] 1. *n* yondashish; 2. *a* yondosh, chegaradosh, qo'shni; **~ houses** qo'shni uylar
adjourn [ə´dʒɜ:n] *v* (*yig'ilish va b. ni*) keyinga surmoq, keyinga qoldirmoq; **to ~ a meeting** majlisni keyinga qoldirmoq
adjournment [ə´dʒɜ:nmənt] *n* 1) (*majlis va b. ni*) keyinga surish; 2) (*majlis va b. da*) tanaffus
adjudge [ə´dʒʌdʒ] *v* hukm qilmoq, qaror chiqarmoq; **to ~ smb. (to be) guilty** birovni aybdor deb topmoq
adjudge(e)ment [ə´dʒʌdʒmənt] *n* sud hukmi (*qarori*); hukm chiqarish
adjudicate [ə´dʒu:dɪkeɪt] *v* hukm qilmoq; hukm chiqarmoq
adjudication [ə,dʒu:dɪ´keɪʃ(ə)n] *n* 1) sud hukmi, sud qarori; 2) sud qarorini (hukmini) chiqarish; 3) berish, berilish; belgilash, qaror qilish (sud tomonidan badal, tovon va b.)
adjudicator [ə´dʒu:dɪkeɪtə] *n* 1) hakamlar sudi (*manfaatdor bo'lmagan, xolis shaxs ishtirokida o'tkaziladigan sud*); 2) (*bellashuv va b. da*) hakam, hay'at a'zosi
adjunct [´ædʒʌŋkt] *n* 1) qo'shimcha, ilova; 2) yordamchi; 3) *gram.* aniqlovchi
adjunct professor [´ædʒʌŋktprə,fesə] *n amer.* adyunkt-professor
adjunction [ə´dʒʌŋkʃ(ə)n] *n* qo'shish; ilova qilish
adjunctive [ə´dʒʌŋktɪv] *a* qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) yoki olingan (olinadigan) qo'shimcha
adjuration [,ædʒʊ´reɪʃ(ə)n] *n* 1) yalinib-yolvorish, iltijo qilish; 2) qasam (ont)
adjure [ə´dʒʊə] *v* yalinmoq, iltijo qilmoq
adjust [ə´dʒʌst] *v* tartibga keltirmoq
adjustable [ə´dʒʌstəb(ə)l] *a* tartibga keltiriladigan, moslanadigan; **an ~ bookshelf** kitob javonidagi suriladigan tokcha
adjusted [ə´dʒʌstɪd] *a* 1) tartibga solingan, yo'lga qo'yilgan; 2) belgilangan, muqarrar; solishtirib chiqilgan, tekshirib to'g'rilangan; **an ~ fire** mo'ljalga olib otilgan o'q
adjuster [ə´dʒʌstə] *n* 1) yig'uvchi, sozlovchi; 2) yo'lga soluvchi
adjusting [ə´dʒʌstɪŋ] *a tex.* tartibga keltiradigan, sozlaydigan
adjustment [ə´dʒʌstmənt] *n* tartibga solish; kelishish; **to make ~ to** ...ga moslashmoq
adjutancy [´ædʒʊt(ə)nsɪ] *n* adyutant unvoni, vazifasi
adjutant [´ædʒʊt(ə)nt] *n* 1) adyutant (*harbiy rahbar yoki shtab topshiriqlarini bajaruvchi ofitser*); 2) safdagi xizmat *yoki* shaxsiy tarkib bo'lim boshlig'i
adjuvant [´ædʒʊvənt] 1. *n* yordamchi, yordamchi xo'jalik; 2. *a* yordam beruvchi, foydali
ad-lib [,æd´lɪb] *v lot.* tayyorgarliksiz (ijro etmoq) gapirmoq (*radioda, sahnada*)
ad litteram [,æd´lɪtəræm] *adv lot.* so'zma-so'z, aynan
ad locum [,æd´ləʊkəm] *adv* oshig'ich ravishda, darhol, tezlik (zudlik) bilan, kechiktirmay, ... bilanoq, ...hamon(o), zahoti
adman [´ædmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) reklama mutaxassisi, reklama agenti, reklama agentligi xodimi
admass [´ædmæs] *n so'zl.* 1) har narsaga (kimga) ishonaveradigan omma; 2) reklamalarga yoki targ'ibot-tashviqotlarga darrov ishonadigan keng xalq ommasi (omma)
admeasure [æd´meʒə] *v* o'lchamoq; chegarani aniqlamoq
admeasurement [æd´meʒəmənt] *n* 1) o'lchab ajratish, o'lchab berish, o'lchab chiqish; 2) o'lcham, katta-kichiklik
adminicle [æd´mɪnɪk(ə)l] *n* 1) yordamchi vosita; 2) *yur.* ikkinchi darajali (qo'shimcha) dalil
adminicular [,ædmɪ´nɪkjələ] *a* yordamchi, ko'makchi, qo'shimcha
administer [əd´mɪnɪstə] *v* boshqarmoq, ishlarni yuritmoq; **to ~ smb.'s affairs** kimningdir ishini yuritmoq; **to ~ the affairs of the state** davlatni boshqarmoq, idora qilmoq
administrant [əd´mɪnɪstrənt] *a* 1) ma'muriyatga, ma'muriy organlarga oid, ma'muriy; 2) ijro etuvchi, bajaruvchi; amalga oshiruvchi; boshqaruvchi; ijroiya...
administrate [əd´mɪnɪstreɪt] *amer.* = **administer**
administration [əd,mɪnɪ´streɪʃ(ə)n] *n* ishlar boshqarmasi; 2) ma'muriyat; **military ~** harbiy boshqarish; 3) hukumat; 4) vazirlik
administrative [əd´mɪnɪstrətɪv] *a* ma'muriy; boshqarmaga oid; ma'muriy-xo'jalikka oid; **~ duties** ma'muriy vazifalar
administrator [əd´mɪnɪstreɪtə] *n* boshqaruvchi, ma'mur; ma'muriy mansabdor shaxs; **an ~ with the will annexed** vasiyning vazifasini bajarish uchun tayinlangan shaxs
administratrices [əd,mɪnɪ´streɪtrəsi:z] *pl of* **administratrix**
administratrix [əd´mɪnɪstreɪtrɪks] *n* (*pl* **-ices**) ayol boshqaruvchi
admirable [´ædm(ə)rəb(ə)l] *a* juda yaxshi, ajoyib, a'lo darajada
admiral [´ædm(ə)rəl] *n* admiral; **the ~ of the fleet** flot admirali
admiralty [´ædm(ə)rəltɪ] *n* harbiy-dengiz vazirligi (*Angliyada*)
admiration [,ædmə´reɪʃ(ə)n] *n* zavq-shavq, shavq; **lost in ~** juda xursand, zavqqa (zavq-shavqqa) to'lib-toshgan
admire [əd´maɪə] *v* zavqlanmoq, ko'rib huzur qilmoq, shodlanmoq; **to ~ smb.** kimgadir qoyil qolmoq
admirer [əd´maɪ(ə)rə] *n* ixlosmand; **an ~ of music** musiqa ixlosmandi
admiring [əd´maɪ(ə)rɪŋ] *a* zavqlangan, zavqqa to'lgan
admissible [əd´mɪsəb(ə)l] *a* yo'l qo'yiladigan, qabul qilsa bo'ladigan
admission [əd´mɪʃ(ə)n] *n* 1) ruxsat (ijozat) berish; 2) kirish; **the price of ~** kirish haqi
admissive [əd´mɪsɪv] *a* yo'l qo'yiladigan, ruxsat (ijozat) beriladigan, 2) bo'lishi mumkin bo'lgan
admit [əd´mɪt] *v* tan olmoq, yo'l qo'ymoq, qabul qilmoq
admittable [əd´mɪtəb(ə)l] *a kit.* yo'l qo'yilgan (qo'yiladigan), ruxsat (ijozat) etilgan, mumkin bo'lgan
admittance [əd´mɪt(ə)ns] *n* kirish uchun ruxsat; **no ~!** kirish man etiladi!
admitted [əd´mɪtɪd] *a* hamma e'tirof qilgan, hamma tan olgan; hamma taniydigan; **an ~ fact** hamma e'tirof qilgan fakt
admittedly [əd´mɪtɪdlɪ] *adv* ko'pchilikning tan olishicha
admix [æd´mɪks] *v* aralashtirmoq, qo'shmoq, qorishtirmoq
admixtion [əd´mɪkʃ(ə)n] *n kam.* 1) biror narsa aralashtirib qorish, qo'shib qorishtirish (aralashtirish); 2) aralashtirish, qorishtirish
admixture [əd´mɪkstʃə] *n* aralashtirish, qorishtirish
ad modum [,æd´məʊdəm] *adv lot.* o'xshash, o'xshagan, singari, kabi, bamisoli
admonish [əd´mɒnɪʃ] *v* ogohlantirmoq; ogohlantirib qo'ymoq
admonishment [əd´mɒnɪʃmənt] *n* ogohlantirish, ogohlantirib qo'yish
admonition [,ædmə´nɪʃ(ə)n] *n* ogohlantirish, maslahat
admonitory [əd´mɒnɪt(ə)rɪ] *a* ogohlantiradigan, ogohlantiruvchi, oldini oluvchi
admortization [əd,mɔ:tɪ´zeɪʃ(ə)n] = **amortization**
admove [əd´mu:v] *v esk.* 1) siljitilmoq, surilmoq; 2) siljimoq, jilmoq; yurmoq; 3) oldinga (olg'a) yurmoq, siljib bor-

moq; 4) *ko'ch.* mansabi oshmoq; yuqori ko'tarilmoq; 5) *ko'ch. so'zl.* yurishmoq, yurishib ketmoq; tezlashmoq

adnation [æd´neɪʃ(ə)n] *n bot.* bitta bo'lib (qo'shilib) o'sish

ad nauseam [ˌæd´nɔ:zɪəm] *adv lot.* nafratlanishgacha, jirkanishgacha

adnexa [æd´neksə] *n pl anat.* o'simta, ortiq

adnexal [æd´neksəl] *a anat.* o'simtaga oid; **~ affection** bachadon bezining zararlanishi (shikastlanishi, lat yeyishi)

adnominal [æd´nomɪn(ə)l] *a tilsh.* adnominal

ado [ə´du:] *n* yugur-yugur, hovliqish, tashvish; **much ~ about smth.** nimanidir bahona qilib katta shovqin ko'tarmoq; **to have much ~** qiyinchilik, qiyin (og'ir, mushkul) ahvolni boshdan kechirmoq, boshida tashvishi ko'p bo'lmoq; **to make much ~ about smth.** nima sababdandir to'polon (shov-shuv) ko'tarmoq; **much ~ about nothing** hech narsadan (arzimagan narsaga) shov-shuv ko'tarmoq; **without further (*yoki* more) ~** to'xtatmasdan, tez, darhol, kechiktirmasdan, uzoqqa cho'zmay (cho'zmasdan)

adobe [ə´dəobɪ] *n* 1) xom g'isht; 2) somon suvoqli paxsa uy

adolescence [ˌædəo´les(ə)ns] *n* yoshlik, o'spirinlik

adolescency [ˌædəo´les(ə)nsɪ] *n* yoshlik, o'spirinlik, yoshlik (o'spirinlik) cho-g'i *yoki* davri

adolescent [ˌædəu´les(ə)nt] **1.** *n* yosh yigit; voyaga yetgan qiz; o'spirin; **2.** *a* yoshlarga oid

adonis [ə´dəonɪs] *n* ko'rkam, chiroyli yigit

adopt [ə´dopt] *v* 1) o'g'il qilib asrab olmoq; qiz qilib asrab olmoq; **to ~ a child** bolani o'g'il qilib asrab olmoq; 2) qabul qilmoq; **to ~ a law** qonun qabul qilmoq; **to ~ a decision** qaror qabul qilmoq

adoptability [əˌdoptə´bɪlɪtɪ] *n* yaroqlilik

adoptable [ə´doptəb(ə)l] *a* maqbul, ma'qul, yaroqli, muvofiq, qabul qilsa bo'ladigan

adopted [ə´doptɪd] *a* 1) asrab olgan, asrandi; **an ~ child** asrandi bola; 2) o'zlashtirgan; 3) boshqa tildan olingan (o'zlashtirilgan); **an ~ word** boshqa tildan olingan so'z

adoptee [ˌædop´ti:] *n* asrandi bola, boqib olingan bola

adopter [ə´doptə] *n* 1) asrab olgan ota, asrab olgan ona; 2) *yur.* o'g'il qilib oluvchi, bolalikka oluvchi, bola qilib oluvchi

adoption [ə´doptʃ(ə)n] *n* 1) (*bolani*) asrab olish; 2) qabul qilish

adoptive [ə´doptɪv] *a* 1) boqib olingan, asrab olingan; 2) oson o'zlashtiradigan

adorable [ə´do:rəb(ə)l] *a* aziz, mo'tabar

adoral [æ´do:rəl] *n anat.* og'izning yaqinida joylashgan

adoration [ˌædə´reɪʃ(ə)n] *n* qattiq sevish, hurmat qilish

adore [ə´do:] *v* qattiq sevmoq, hurmat qilmoq

adorer [ə´do:rə] *n* hurmat qiladigan, muxlis, ishqiboz

adorn [ə´do:n] *v* bezatmoq, yasatmoq; **to ~ a room with flowers** xonani gullar bilan bezatmoq

adornment [ə´do:nmənt] *n* bezak, zebziynat, bezash

adown [ə´daon] *esk. shoir.* **1.** *adv* 1) ostga, pastga, quyiga, tubanga, pastga qarab, pastga tomon; 2) ostda, pastda, quyida, tubanda, pastki tomonda; **2.** *prep.* ostida, oxirida

ad patres [ˌæd´pɑ:treɪz] *adv lot.* ota-bobolar oldiga, o'limga, u dunyoga

adpress [æd´pres] *v kit.* siqmoq

ad referendum [ˌædrefə´rendəm] ko'rib chiqishdan oldin, oldindan, avvaldan, oldinroq

ad rem [ˌæd´rem] *adv* o'rinli (o'z vaqtida, jo'yali) qilingan

adrenal [ə´dri:n(ə)l] **1.** *n anat.* buyrak usti bezi; **2.** *a anat.* buyrakdagi, buyrak ustidagi

adrenalin [ə´drenəlɪn] *n maxs.* adrenalin (*hayvonlar va odamning buyrak usti bezi mag'iz qavatining garmoni, sovuqqonli hayvonlar asab sistemasining mediatori*)

adrift [ə´drɪft] *adv* oqimga qarab, oqim ixtiyorida; **to set ~** a) oqimga qarab qo'yib yubormoq; b) o'z holiga tashlab qo'ymoq

adroit [ə´drɔɪt] *a* epchil, chaqqon; mohir, hozirjavob

adroitly [ə´drɔɪtlɪ] *adv* epchillik bilan; mohirlik bilan; hozirjavoblik bilan

adroitness [ə´drɔɪtnəs] *n* epchillik, chaqqonlik; mohirlik; hozirjavoblik

adscititious [ˌædsɪ´tɪʃəs] *a kit.* 1) qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) *yoki* olingan (olinadigan); qo'shimcha; 2) ikkinchi darajali, uncha ahamiyatli bo'lmagan

adscript [´ædskrɪpt] *a* (pastga, pastda) yozib qo'yilgan, ro'yxatga olingan, qayd qilingan

adsorb [əd´zɔ:b] *v kim.* o'ziga tortib olmoq, shimdirmoq

adsorbate [əd´zɔ:beɪt] *n kim.* shimib (singdirib, yutib) olingan modda

adsorbent [əd´zɔ:b(ə)nt] *n kim.* yutuvchi modda

adsorption [æd´zɔ:pʃ(ə)n] *n kim.* yutish, o'ziga tortish, shimib olish

ad summum [ˌæd´somən] *adv lot.* g'oyat, nihoyatda, juda, juda ham, o'taketgan, g'irt

adularia [ˌædjo´le(ə)rɪə] *n min.* oytosh (*nim shaffof, yashil tovlanadigan mineral*)

adulate [´ædjoleɪt] *v* laganbardorlik qilmoq; xushomadgo'ylik qilmoq; egilib ta'zim qilmoq

adulation [ˌædjo´leɪʃ(ə)n] *n* laganbardorlik; xushomadgo'ylik; egilib ta'zim qilish; **a master of ~** laganbardor

adulatory [´ædjoleɪt(ə)rɪ] *a* xushomadgo'ylarcha, laganbardorlarcha

adult [´ædʌlt] **1.** *n* katta yoshli, balog'atga yetgan kishi; **courses for ~s** kattalar maktabi; **2.** *a* 1) balog'atga yetgan, voyaga yetgan, katta yoshli; 2) kattalar uchun; **an ~ film** kattalar uchun film

adulter [ə´dʌltə] *n esk.* yomon yo'lda yuradigan erkak

adulterant [ə´dʌltərənt] **1.** *n* aralashma (*sifatni pasaytiradigan*); **2.** *a* aralash, aralashgan; toza (sof) emas

adulterate [ə´dʌltəreɪt] *v* qalbakilashtirmoq, soxtalashtirmoq

adulterated [ə´dʌltəreɪtɪd] *v* 1) soxtalashtirilgan, qalbakilashtirilgan; 2) buzilgan, aynigan, hidlangan, sasigan, chirigan (oziq-ovqat va b.); **~ milk** suv qo'shilgan sut

adulteration [əˌdʌltə´reɪʃ(ə)n] *n* soxtalashtirish, qalbakilashtirish

adulterer [ə´dʌlt(ə)rə] *n* yomon yo'lga yuradigan erkak

adulteress [ə´dʌltrɪs] *n* yomon yo'lga yuruvchi ayol

adulterine [ə´dʌltəraɪn] *a* 1) nikohlanmagan ota-onadan tug'ilgan, haromi; 2) er-xotinning vafosizligiga oid; (er xotiniga, xotin eriga nisbatan) bevafolik qilish, xiyonat qilish bilan bog'liq bo'lgan; 3) soxta, qalbaki, yasama

adulterize [ə´dʌltəraɪz] *v esk.* (*er xotiniga yoki xotin eriga*) bevafolik qilmoq, xiyonat qilmoq

adulterous [ə´dʌlt(ə)rəs] *a* (*er xotiniga yoki xotin eriga*) xiyonat qilishda aybланayotgan, xiyonatkor

adultery [ə´dʌlt(ə)rɪ] *n* erga (*yoki* xotinga) xiyonat qilish

adumbral [æ´dʌmbr(ə)l] *a kit.* 1) sersoya, soya-salqin; 2) soya qilgan, soyalagan, oftobdan (nurdan) pana qilingan; 3) to'silgan, panalangan

adumbrate [´ædʌmbreɪt] *v* 1) xomaki reja tuzmoq, nazarda tutmoq; 2) oldindan aytib bermoq, karomat qilmoq; 3) umumiy tushuncha bermoq

adumbration [ædʌm´breɪʃ(ə)n] *n kit.* 1) xomqolip, xomaki reja (loyiha va h. k.); 2) eskiz (*1. chizilgan rasmning dastlabki, taxminiy, xomaki nusxasi, namunasi; 2. biror narsaning yasashga, qurishga asos bo'ladigan surati yoki loyihasi*); 3) belgi, alomat, nishona; 4) panalash, to'sish, qorong'ilashtirish, qoraytirish

adunc [ə´dʌŋk] *a* ichkariga qayril(tiril)gan, qarmoqqa o'xshagan, ilmoqqa o'xshash

aduncate [ə´dʌŋkeɪt] *v* ichkari tomonga bukilmoq (buklanmoq)

ad unguem [ˌæd´ʌŋwem] *adv lot.* hech kamchilik topib bo'lmaydigan yo'sinda, benuqson, bekam-ko'st, bequsur

adust [ə´dʌst] *a* 1) kuydirilgan, quyoshda kuydirilgan; 2) quyoshda toblangan

ad valorem [ˌædvæ´lɔ:rem] *adv lot.* e'lon qilingan narxga mos (muvofiq, to'g'ri) keladigan

ad valorem [ˌædvæ´lɔ:rem] *a* qiymatiga munosib, arziydigan

ad valorem tax [ˌædvæ´lɔ:remtæks] *n* narxidan kelib chiqib to'lanadigan soliq

advance [əd´vɑ:ns] **1.** *n* oldinga harakat qilish; **to be in ~ (of)** oldinda bo'lmoq; oldin (ilgari kelmoq); **in ~** oldindan, oldinroq, ilgaridan, barvaqt; **to make ~s (to)** a) o'ynashmoq, tegishmoq, hazil (hazilkashlik) qilmoq; *ko'ch.* xushomadgo'ylik (laganbardorlik, tilyog'lamalik) qilmoq; b) urinib (sinab, harakat qilib) ko'rmoq; **2.** *v* oldinga harakat qildirmoq; **to ~ in years** eskirmoq

advanced [əd´vɑ:nst] *a* ilg'or, yetakchi

advance-guard [əd´vɑ:nstˌgɑ:d] *n* ilg'or, avangard (*1. harbiy harakat vaqtida asosiy kuchlarning eng oldida turuvchi yoki boruvchi harbiy qism, bo'linma va sh. k.; 2. ko'ch. ijtimoiy guruh yoki sinfning oldingi safda boruvchi yetakchi, ilg'or qismi*)

advancement [əd´vɑ:nsmənt] *n* ilgarilash, olg'a yurish

advantage [əd´vɑ:ntɪdʒ] **1.** *n* afzallik, ustunlik; **to gain (to get, to have, to score** *yoki* **to win) an** (*yoki* **the) ~ of (***yoki* **over) smb.** kimdandir ustun kelmoq, kimnidir yengmoq, kimdandir yaxshiroq holatda bo'lib chiqmoq, biror kimsa yoki narsadan ustunlik qilmoq (ustun bo'lmoq); **to take ~ (of smth.)** nimadandir o'z manfaati uchun foydalanmoq, foydalanib qolmoq; **to take an ~ of the situation** vujudga kelgan vaziyatdan foydalanmoq; **to give smb. an ~ over smb. else** kimgadir ustunlikni berib qo'ymoq; **to turn smth. to ~** nimanidir o'z foydasiga hal qilmoq, nimadandir o'z manfaati uchun foydalanmoq; **to play the ~s over smb.** *amer. dial.* kimnidir aldamoq (aldab ketmoq, tovlamoq, firib bermoq); **to show smb. (***yoki* **smth.) to (the) best ~** kimningdir (*yoki* nimaningdir) faqat yaxshi tomonlarini bo'rttirib ko'rsatmoq; **to show to good ~** hammadan (boshqalardan) ko'ra yaxshiroq ko'rinmoq

advantageous [ˌædvən´teɪdʒəs] *a* qulay, foydali

advection [æd´vekʃ(ə)n] *n meteor.* adveksiya (*yerning bir joyidan ikkinchi joyiga havoning gorizontal yo'nalishda ko'chishi*)

advent [´ædvent] *n* kelish, yetib kelish

adventitious [ˌædvən´tɪʃəs] *a* tasodifiy, kutilmagan

adventure [əd´ventʃə] **1.** *n* sarguzasht; **2.** *v* tavakkal (qaltis ish) qilmoq

adventurer [əd´ventʃ(ə)rə] *n* tavakkalchi

adventuress [əd´ventʃ(ə)rɪs] *n* 1) tavakkalchi ayol; 2) *esk.* a) o'rganilmagan yerlarga sayohat qiluvchi ayol; b) sarguzashtlar ishqibozi

adventurous [əd´ventʃ(ə)rəs] *a* xavfli, xatarli

adverb [´ædvɜ:b] *n gram.* ravish

adverbial [əd´vɜ:bɪəl] *a gram.* ravishga oid

adverbialize [əd ´vɜ:bɪəlaɪz] *v gram.* ravishlashtirmoq

adverbially [əd´vɜ:bɪəlɪ] *adv gram.* ravish sifatida, ravishdek

ad verbum [ˌæd´vɜ:bəm] *adv lot.* so'zma-so'z, aynan

adversaria [ˌædvə´seərɪə] *n pl* izoh, mulohaza, fikr

adversary [ˌædvə´se(ə)rɪ] *n* dushman, raqib.

adversative [əd´vɜ:sətɪv] *a* 1) *tilsh.* zid tushunchani anglatadigan (*so'z, atamalar to'g'risida*); 2) *gram.* zidlovchi

adverse [´ædvɜ:s] *a* 1) dushmanlarcha; 2) zararli

adversion [əd´vɜ:ʃ(ə)n] *n esk* 1) diqqat, e'tibor; 2) g'amxo'rlik, iltifot, izzat-hurmat, izzat-ikrom

adversity [əd´vɜ:sɪtɪ] *n* baxtsizlik, omadsizlik; **~ is a good discipline** (*yoki* **a great school master**) *maq.* mashaqqat – yaxshi maktab; bosh toshga tegsa, aql boshga kelar

advert [´ædvɜ:t] *v* dalil keltirmoq, isbot keltirmoq

advertence, -cy [əd´vɜ:t(ə)ns, -sɪ] *n* e'tiborlilik, mehribonlik, g'amxo'rona munosabat

advertise [´ædvətaɪz] *v* e'lon qilmoq; **to ~ for workers** ishchilar yollash uchun e'lon bermoq; **to ~ various things** turli narsalarni reklama qilmoq

advertisement [əd´vɜ:tɪsmənt] *n* e'lon; reklama; **an ~ for workers** ishchilar yollash uchun e'lon

advertiser [´ædvətaɪzə] *n* 1) reklama beruvchi shaxs; 2) e'lonlar yozilgan gazeta

advertising [´ædvətaɪzɪŋ] *n* 1) reklama, ko'z-ko'z qilish, ovoza qilish, dovruq qilish, jar solib maqtash; 2) reklama ishi

advertize [´ædvətaɪz] *v* e'lon qilmoq, bildirmoq

advice [əd´vaɪs] *n* 1) maslahat, nasihat; kengash; **a piece of ~** bitta maslahat; **to give ~** maslahat bermoq; **to take (follow) smb.'s ~** maslahatga amal qilmoq; **good ~ is beyond price** *maq.* yaxshi maslahatning bahosi yo'q; 2) *pl* xabar, axborot

advice-boat [əd´vaɪsˌbəʊt] *n esk.* jo'natiladigan kema

advice-yatch [əd´vaɪsjɒt] = **advice-boat**

advisable [əd´vaɪzəb(ə)l] *a* 1) o'ylab (aql bilan) ish qiladigan, aqlli, dono, mulohazali, ehtiyotkor; 2) tavsiya etilayotgan

advisableness [əd´vaɪzəb(ə)lnəs] = **advisability**

advisably [əd´vaɪzəblɪ] *adv* aql bilan, o'ylab, aql ishlatib, mulohaza qilib

advise [əd´vaɪz] *v* maslahat bermoq

advised [əd´vaɪzd] *v* 1) maslahat berilgan, kengash berilgan; 2) puxta o'ylangan

advisedly [əd´vaɪzɪdlɪ] *adv* puxta o'ylab, andisha bilan

advisement [əd´vaɪzmənt] *n amer. kam.* batafsil (mufassal, mukammal, ipidan ignasigacha) ko'rib chiqish, muhokama qilish, o'ylashib ko'rish, maslahatlashish

adviser [əd´vaɪzə] *n* maslahatchi

advisor [əd´vaɪzə] = **adviser**

advisory [əd ´vaɪz(ə)rɪ] *a* 1) maslahat (kengash) beruvchi, maslahat (kengash)..., advokatlar...; 2) maslahat beruvchi, maslahat berish huquqiga ega bo'lgan

ad vitam [ˌæd´vi:təm] *adv lot.* umrbod, umrining oxirigacha, abadiy

advocacy [´ædvəkəsɪ] *n* himoya; oqlash

advocate [´ædvək(ə)t] 1. *n* himoyachi, tarafdor; **devil's ~** 1. *cherk.* „iblis (shayton) advokati"; 2. to'g'ri-noto'g'riligini surishtirmay tanqid qilaveradigan niyati buzuq odam; **2.** *v* himoya qilmoq

advocatory [´ædvəkeɪtərɪ] *a* advokatga, advokatlikka oid, advokatlik..., advokatlar...

advowee [ədˌvaʊ´i:] *n cherk.* 1) kambag'al-bechoralarni o'z homiyligiga olgan odam; 2) kirim (daromad)ni taqsimlash (bo'lish) huquqiga ega bo'lgan kishi

advowry [ədˈvaʊrɪ] = **avowry**

advowson [ədˈvaʊz(ə)n] *n cherk.* kirim (daromad)larni taqsimlab (bo'lib) berish huquqi (kafolati)

adwoman [ˈædwʊmən] *n lot.* reklama sohasida ishlovchi ayol, reklama mutaxassisi (ayol)

adynamia [ˌædaɪˈneɪmɪə] *n tib.* bequvvatlik, bedarmonlik, kuchsizlik, darmonsizlik, zaiflik

adynamic [ˌædaɪˈnæmɪk] *a tib.* kuchquvvatdan qolgan, bequvvat, bedarmon, kuchsiz, darmonsiz, zaif, notavon

adynamy [əˈdɪnəmɪ] = **adynamia**

adyta [ˈædɪtə] *pl of* **adytum**

adytum [ˈædɪtəm] *n* (*pl* **-ta** [-tə]) 1) ko'ngildagi orzu, eng muqaddas orzu (*ibodatxonada*); 2) chekkadagi (alohida) xona, kabinet

adz(e) [ædz] **1.** *n tex.* poytesha, randa; **2.** *v* randalamoq, tekislamoq

aegis [ˈiːdʒɪs] *n* himoya, tayanch, suyanchiq; **under the ~ of** biror narsa yoki kimsa himoyasida

aegrotat [ˈegrətæt] *n* kasallik haqida ma'lumotnoma

aeneous [eˈiːnɪəs] *a* 1) jezga oid; jezdan yasalgan, jez...; 2) misga oid; tarkibida mis bo'lgan, misli, mis...; 3) misdan qilingan; 4) qizil-sariq, mis rangidagi, mis rangiga o'xshagan

aeolotropy [ˌiːəʊˈlɒtrəpɪ] *n fiz.* allotropiya (*biror moddaning turli ko'rinishlarda, mas., uglerodning ko'mir, grafit va olmos ko'rinishida mavjud bo'la olishi*)

aeon [ˈiːən, ˈiːɒn] *n* 1) azaliylik va abadiylik; abadiyat, mangulik, doimiylik, hamishalik; 2) *geol.* era (*katta geologik davr*)

aerarian [tˈre(ə)rɪən] *a* xazinaga aloqador bo'lgan, xazina bilan bog'liq bo'lgan, xazinaga oid, xazina...

aerate [ˈe(ə)reɪt] *v* shamollatmoq

aeration [e(ə)ˈreɪʃ(ə)n] *n* shamollatish, havoni yangilash; **the ~ of the soil** tuproqning havoga to'yintirilishi

aerator [ˈe(ə)reɪtə] *n* 1) aerator; 2) saturator (*ichimliklarni gazlaydigan asbob, qurilma*)

aerial [ˈe(ə)rɪəl] **1.** *n* antenna; **2.** *a* havoga oid

aerie [ˈe(ə)rɪ] *n* 1) yirtqich qush uyasi; 2) burgut ini; 3) tik qoyadagi uy

aeriform [ˈe(ə)rɪfɔːm] *a* havoga oid; gazsimon

aerify [ˈe(ə)rɪfaɪ] *v* gazli qilmoq, gaz bilan to'yintirmoq

aerobatics [ˌe(ə)rəˈbætɪks] *n av.* figurali uchish

aerobe [ˈe(ə)rəʊb] *n biol.* aeroblar, aerob organizmlar (*faqat atmosfera kislorodi bor joydagina yashash qobiliyatiga ega bo'lgan deyarli barcha hayvonlar, o'simliklar va ko'pgina mikroorganizmlar*)

aerobic [e(ə)ˈrəʊbɪk] *a biol.* aeroba (*faqat erkin kislorod bo'lgan sharoitda yashay oladigan*); **an ~ organism** aerob organizmlar

aerobics [e(ə)ˈrəʊbɪks] *n* aerobika

aerobiology [ˌe(ə)rə(ʊ)baɪˈɒlədʒɪ] *n* aerobiologiya

aerobomb [ˈe(ə)rə(ʊ)bɒm] *n* aviabomba

aerocamera [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈkæmərə] *n* aerokamera

aerodrome [ˈe(ə)rədrəʊm] *n* aerodrom

aerocrete [ˈeərə(ʊ)kriːt] *n qur.* gazobeton (*g'ovak beton*)

aerodynamic(al) [ˌe(ə)rəʊdaɪˈnæmɪk(əl)] *a* aerodinamikaga oid

aerodynamics [ˌe(ə)rəʊdaɪˈnæmɪks] *n* aerodinamika

aerodyne [ˈe(ə)rə(ʊ)daɪn] *n* havodan og'irroq bo'lgan uchish apparati

aeroembolism [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈembəlɪz(ə)m] *n* kesson kasalligi (*kesson sharoitida ishlovchilarda yuz beradigan kasallik*)

aero-engine [ˌe(ə)rəʊˈendʒɪn] *n* aviatsiya dvigateli

aerofoil [ˈe(ə)rə(ʊ)fɔɪl] *n av.* aerodinamika yuzasi

aerogel [ˈerə(ʊ)dʒel] *n kim.* aerogel

aerogram [ˈe(ə)rəgræm] *n* radiogramma

aerograph [ˈe(ə)rə(ʊ)grɑːf] *n* 1) aerograf; 2) materograf (*atmosfera hodisalarini o'zi yozib oladigan asbob*); 3) *kam.* radiotelegraf, simsiz telegraf (*radio orqali xabarlar beriladigan aloqa tizimi*)

aerography [e(ə)ˈrɒgrəfɪ] *n* aerografiya

aerogun [ˈe(ə)rə(ʊ)gʌn] *a* aviapushka

aerohydroplane [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈhaɪdrə(ʊ)pleɪn] *n* gidroplan (*suvdan ko'tariladigan va suvga qo'nadigan samolyot*)

aerojet [ˈe(ə)rə(ʊ)dʒet] *a* havo-reaktiv

aerolite [ˈe(ə)rəolaɪt] *n geol.* aerolit (*tosh meteoritning eski nomi*)

aerolith [ˈe(ə)rəlɪθ] = **aerolite**

aerology [e(ə)ˈrɒlədʒɪ] *n* aerologiya (*atmosferaning yuqori qatlamlari xususiyatlarini o'rganadigan fan*)

aeromechanic [ˌe(ə)rə(ʊ)mɪˈkænɪk] *a* aeromexanik (*mexanikaning gazlarning muvozanati va harakatini o'rganadigan bo'limiga oid, bog'liq bo'lgan, aloqador bo'lgan*)

aeromechanics [ˌe(ə)rə(ʊ)mɪˈkænɪks] *n* aeromexanika

aerometer [e(ə)ˈrɒmɪtə] *n fiz.* aerometr

aerometry [e(ə)ˈrɒmɪtrɪ] *n* aerometriya

aeronaut [ˈe(ə)rənɔːt] *n* aeronavt, havoda yengil apparatlarda uchuvchi

aeronautic(al) [ˌe(ə)rə ˈnɔːtɪk(əl)] *a* havoda uchishga oid

aeronautics [ˌe(ə)rə ˈnɔːtɪks] *n* aeronavtika

aeronavigation [ˌe(ə)rəˌnævɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* aeronavigatsiya (*havo navigatsiyasi*)

aeronavigator [ˌe(ə)rəˈnævɪgeɪtə] *n av.* shturman (*paroxod, samolyot kabilarni boshqaruvchi*)

aeropause [ˈe(ə)rəpɔːz] *n* aeropauza (*yer atmosferasining qatlami*)

aerophobia [ˌe(ə)rəˈfəʊbɪə] *n tib.* aerofobiya

aerophone [ˈe(ə)rəfəʊn] *n* tovush kuchaytirgich

aerophore [ˈe(ə)rəfɔː] *n* aerofor (*sun'iy nafas oldirish asbobi, qurilmasi, apparati*)

aerophotography [ˌe(ə)rəfəˈtɒgrəfɪ] *n* samolyotdan suratga olish va shu usulda olingan surat (*erofotosyomka*)

aerophyte [ˈe(ə)rəfaɪt] *n bot.* epifit(lar) (*boshqa o'simliklar tanasida o'sadigan, lekin parazit bo'lmagan, ularning hisobidan yashamaydigan o'simliklar*)

aeroplane [ˈe(ə)rəplem] *n* samolyot

aeroscope [ˈeərəskəʊp] *n* aeroskop (*havoning ifloslanishini o'rganish uchun ishlatiladigan asbob*)

aerosiderite [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈsaɪdəraɪt] *n fiz* aerosiderit, temir meteorit (*fazodan yerga tushgan temir jism*)

aerosol [ˈe(ə)rəsɒl] *n kim.* aerozol

aerosphere [ˈe(ə)rəsfɪə] *n* aerosfera (*yer atmosferasining qatlami*)

aerostat [ˈe(ə)rəustæt] *n* aerostat

aerostatic [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈstætɪk] *a* aerostatika (*gazlarning muvozanati haqidagi fan*)ga oid

aerostatics [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈstætɪks] *n* 1) aerostatika (*gazlarning muvozanati haqidagi fan*); 2) havodan yengil apparatlarda uchish amaliyoti va nazariyasi

aerostation [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈsteɪ[(ə)n] *n* havoda uchish (suzish)

aerosurveying [ˌe(ə)rə(ʊ)sɜːˈveɪɪŋ] *n* samolyotdan suratga olish va shu usulda olingan surat (*erofotosyomka*)

aerotechnics [ˌe(ə)rə(ʊ)ˈteknɪks] *n* aviatsiya texnikasi

aerugo [iːˈruːgəʊ] *n* 1) misning zangi; 2) *kam.* zang (*metall*)

aery [ˈe(ə)rɪ] *n* burgut uyasi

Aesculapian [ˌeskjʊˈleɪpɪən] *a* 1) shifokorlarga va shifokorlikka oid; 2) tibbiyotga oid, tibbiy, tibbiyot

Aesop [ˈiːsɒp] *n* Ezop (*1. masal janrining yaratuvchisi; 2. afsonalarda Ezop tog'dan aybsiz tashlab yuborilgan, cho'loq qul qiyofasidagi devonasi-*

mon xalq donishmandi sifatida tasvirlanadi)

aesthesis [i:s´θi:sıs] *n* estetizm

aesthete [´i:sθi:t] *n* estet (*go'zallika, nafis san'atga berilgan kishi*)

aesthetic [i:s´θetık] *a* 1) nafis; 2) estetik

aestheticism [i:s´θetısız(ə)m] *n* estetizm (*1. san'atda mazmunni va g'oyaviylikni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, tashqi shakllarga berilish; 2. estetika talablariga javob beradigan narsalarni, go'zallikni, nafis san'atni, yetuk badiiy shakllarni sevish*)

aesthetics [i:s´θetıks] *n* estetika (*1. san'at va badiiy ijodiyotdagi nafosat, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati va shakllarini, inson va olam o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganuvchi falsafiy fan; 2. biror narsaning go'zalligi, nafosati, latofati*)

aestho-physiology [´i:sθəo,fızı´ɒlədʒı] *n* sezish organlarining fiziologiyasi

aestivate [´i:stıveıt] *v zool.* yoz (fasli)ni uyqu bilan o'tkazmoq (*ba'zi hayvonlar haqida*)

aestivation [,i:stı´veıʃ(ə)n] *n zool.* yozni uyqu bilan bilan o'tkazish (*ba'zi hayvonlar haqida*)

aethrioscope [´i(:)θrıəskəop] *n maxs.* etrioskop (*kriometr, kriogen termometri*)

aetiology [,i:tı´ɒlədʒı] *n tib.* etiologiya (*kasallik paydo bo'lish sabablari haqidagi bilim*)

afar [ə´fɑ:] *adv* uzoq; **~ from** uzoqdan

afebrile [eı ´fi:brıl] *a tib.* isitmasiz, isitmasi bo'lmagan

a few [ə´fju:] **1.** *a* bir qancha, bir necha; **~ hours** bir necha soat; **~ people** bir necha kishi; **~ minutes** bir necha daqiqadan so'ng; **2.** *adv* 1) bir qadar, bir muncha, biroz, sal, sal-pal, ozgina; andak; 2) oz miqdorda, juda oz, qittak, jindak, ko'p emas

affability [,æfə´bılıtı] *n* xushmuomalalik

affable [´æfəb(ə)l] *a* xushmuomala

affair [ə´feə] *n* ish, xizmat; **an ~ of honour** duel, yakkama-yakka olishuv; **the ~ of the heart** ishq-muhabbat; oshiq-ma'shuqlik, ishqiy sarguzasht; **it's none of my ~** bu mening ishim emas; **a kid-glove ~** rasmiy qabul, ziyofat; **to settle one's ~s** vasiyatnoma yozmoq

affect [ə´fekt] **1.** *v* ta'sirini o'tkazmoq; **2.** *v* mug'ambirlik qilmoq

affectation [,æfek´teıʃ(ə)n] *n* mug'ambirlik

affected [ə´fektıd] *v* yuzaki

affectedly [ə´fektıdlı] *adv* 1) soxta, yolg'ondakam, yasama, munofiqona, ayyorlarcha; 2) yasama, g'ayritabiiy ravishda

affectedness [ə´fektıdnəs] *n* mug'ambirlik, ayyorlik, quvlik, munofiqlik, soxtakorlik, riyokorlik, yasamalik

affecting [ə´fektıŋ] *a* 1) ta'sirli, ko'ngilni yumshatadigan, eritadigan, mehr-shafqatni qo'zg'atadigan, kuchli ta'sir qiladigan; **an ~ story** ta'sirli hikoya; 2) *esk.* zo'r taassurot qoldiradigan (tug'diradigan), ta'sir ko'rsatadigan, haybatli, savlatli, salobatli

affection [ə´fekʃ(ə)n] *n* mehribonlik, muhabbat; **to fix (*yoki* to set) one's ~(s) on smb.** kimnidir sevib qolmoq, kimgadir ko'ngil bermoq

affectional [ə´fekʃ(ə)nəl] *a kit.* o'ta ta'sirchan; nozik, nozik tabiatli, hissiyotga beriluvchan

affectionate [ə´fekʃ(ə)nıt] *a* mehribon, sevuvchi

affectionately [ə´fekʃ(ə)nıtlı] *adv* 1) yumshoq (muloyim, yoqimli) qilib, yumshoqlik (muloyimlik) bilan; 2) *esk.* zo'r berib, tirishib, g'ayrat bilan, zavq bilan, qattiq (berilib)

affective [ə ´fektıv] *a* his-tuyg'uga (hissiyotga) oid

afferent [´æfərənt] *a fiz.* markazga intilish, markazga intiladigan

affiance [ə ´faıəns] **1.** *n* unashtirish; **2.** *v* unashtirmoq

affianced [ə ´faıənst] *a* unashtirilgan, unashtirib qo'yilgan, fotiha qilib qo'yilgan

affiant [ə´faıənt] *n yur.* guvoh

affiche [ə´fi:ʃ] *n fr.* 1) plakat (*targ'ibot, axborot yoki reklama maqsadlarida ko'cha va jamoat muassasalariga ilib qo'yiladigan qisqa matnli surat*); 2) afisha (*tomosha, leksiya va sh. k. haqidagi e'lon*)

affidavit [,æfı´deıvıt] *n yur.* qasam *yoki* tantanali va'da bilan tasdiqlangan yozma guvohlik (*ma'lumot*)

affiliable [ə´fılıəb(ə)l] *a kit.* (*nimagadir*) birlashtiradigan, biriktiradigan

affiliate [ə´fılıeıt] *v* birlashtirmoq, tasarrufiga (o'tkazmoq) bermoq

affiliation [ə,fılı´eıʃ(ə)n] *n* qo'shilish

affinage [ə´fınıdʒ] *n kam.* (*aralashmalardan*) tozalash, oqlash; tozalanish, oqlanish

affinal [ə´faın(ə)l] *n kit.* 1) qarindoshlikka oid, qarindoshlik...; 2) yaqin, o'xshash, bir-biriga bog'langan, qardosh, qarindosh

affined [ə´faınd] *a* (*biror narsasi bilan*) yaqin, o'xshash, bog'liq

affinitive [ə ´fınıtıv] *a kit.* qardoshlik (qarindoshlik) rishtalari bilan bog'liq bo'lgan, qardosh (qarindoshlik)...

affinity [ə´fınıtı] *n* qarindoshlik

affirm [ə´fə:m] *v* tasdiqlamoq

affirmance [ə ´fə:məns] *n* tasdiqlash, isbotlash

affirmant [ə ´fə:mənt] *n* tasdiqlovchi (isbotlovchi) kishi

affirmation [,æfə:´meıʃ(ə)n] *n* tasdiqlash

affirmative [ə ´fə:mətıv] *a* tasdiqlovchi

affirmatory [ə´fə:mət(ə)rı] *a kit.* tasdiqlovchi, isbotlovchi, tasdiqlaydigan, isbotlaydigan

affix [´æfıks] **1.** *n gram.* affiks; **2.** *v* 1) biriktirmoq; 2) qo'l (imzo) qo'ymoq

affixation [,æfık´seıʃ(ə)n] *n* affiksatsiya

affixion [ə´fıkʃ(ə)n] = **affixture**

affixture [´æfıkstʃə] *n* 1) *kit.* birlashtirish, birikish, biriktirish; 2) qo'shiladigan (birlashadigan) narsa

afflate [ə´fleıt] *v kam.* puflamoq, (*nimagadir*) dam bermoq

afflated [ə´fleıtıd] *a kit.* 1) ilhomi jo'sh urgan, ilhomga to'lgan, ilhomli, serzavq; 2) ilhomlangan, ruhlangan, ruhi ko'tarilgan, ruhi baland

afflatus [ə´fleıtəs] *n kit.* ilhom, ilhomlanish, ruhlanish, ko'tarinki ruh

afflict [ə´flıkt] *v* xafa qilmoq

afflicted [ə´flıktıd] *a* ranjigan

affliction [ə´flıkʃ(ə)n] *n* baxtsizlik

afflictive [ə´flıktıv] *a kit.* 1) o'ta achinarli, qayg'uli, hasratli; 2) kasalmand, tez kasal bo'lib turadigan, kasaldan chiqmaydigan

affluence [´æfloəns] *n* mo'lchilik, to'kinsochinlik

affluent [´æfloənt] *a* serob; mo'l-ko'l

afflux [´æflʌks] **1.** *v* oqib kelmoq; **2.** *n* oqib kelish

affluxion [ə´flʌkʃ(ə)n] = **afflux**

afforce [ə´fɔ:s] *v* 1) *kam.* mustahkamlamoq, mahkamlamoq, mustahkamlab qo'ymoq; 2) *esk.* kuch ishlatmoq

afforcement [ə´fɔ:smənt] *n kam.* 1) mustahkamlash, mahkamlash, mustahkamlab qo'yish; 2) istehkom, mudofaa inshooti

afford [ə´fɔ:d] *v* 1) imkoniyat bo'lmoq; 2) biror narsaga qurbi yetmoq (*ko'pincha,* **can afford, to be able to afford**); **to ~ smth.** biror narsaga qurbi yetmoq; **to ~ to do smth.** biror narsa qilishni o'ziga ep ko'rmoq; 3) bermoq, bag'ishlamoq; **to ~ pleasure** rohat (huzur) bag'ishlamoq

affordable [ə´fɔ:dəb(ə)l] *a* 1) bo'lishi (yuz berishi) mumkin bo'lgan, bo'lishi (kutilishi, yo'l qo'yilishi) mumkin, joiz; 2) amalga oshirsa bo'ladigan, ro'yobga chiqadigan

afforest [ə´fɒrıst] *v* daraxtzorlashtirmoq

afforestation [ə,fɒrɪ´steɪʃ(ə)n] *n* daraxtzorga aylantirish, daraxt ekish
afforested [ə´fɒrɪstɪd] *a* daraxtlar ekilgan, daraxtzorga aylantirilgan, daraxtzor qilingan
affranchise [ə´fræntʃaɪz] *v* ozodlikka chiqarmoq
affranchisement [ə´fræntʃɪzmənt] *n kit.* 1) ozodlik hujjati, ozod qilish (qilinganlik) haqidagi guvohnoma (*krepostnoy dehqon haqida*); 2) ozodlik xati (*krepostnoylarga ozod qilinganlik haqida berilgan hujjat*); 3) (*qullikdan*) qutulish, ozod (xalos) bo'lish
affray [ə´freɪ] *n* urishish, yoqalashish
affreightment [ə´freɪtmənt] *n deng.* yuk tashishga kema yollash
affricate [´æfrɪkɪt] *n fon.* qorishiq tovush
affright [ə´fraɪt] *v sher.* qo'rqitmoq
affront [ə´frʌnt] **1.** *n* haqorat qilish; **2.** *v* haqorat qilmoq
affronte [ə´frʌntɪ:] *a gerald.* 1) yuzma-yuz turgan; 2) hamma narsa (diqqat-e'tibor, kuch va vositalar) biror narsaga qaratilgan (safarbar qilingan); 3) kuzatuvchiga yuz o'girilgan, tikka, ro'baro' qarab turgan
affronted [ə´frʌntɪd] *a* 1) qattiq xo'rlangan (haqorat qilingan); qattiq xafa bo'lgan (ranjigan), ko'ngli og'rigan; 2) *esk.* surbet, bezbet, beor, behayo, uyatsiz, yuzsiz
affronter [ə´frʌntə] *n kit.* 1) haqorat (tahqir) qilgan kishi, xo'rlovchi; 2) dilozor, jafokor, kimsani xafa qilgan, ranjitgan odam
affrontive [ə´frʌntɪv] *a kit.* 1) haqoratomuz, tahqiromuz; haqoratli, tahqirli, xo'rlik keltiradigan, tahqirlaydigan, nafsoniyatga (izzat-nafsga, shaxsiyatga) tegadigan, qattiq tegadigan; 2) xafa qiladigan, kishini ranjitadigan, ko'ngilni (dilni) og'ritadigan; odamga alam qiladigan, alamli, og'ir
affusion [ə´fju:ʒ(ə)n] *n* sepish, purkash
Afghan [´æfgæn] *a* Afg'onistonga va afg'onlarga oid
afghani [æf´gæmɪ] *n* afg'oni (*Afg'onistonning pul birligi*)
aficionado [ə,fɪʃɪə´nɑ:dəʊ] *n* ishqiboz, havaskor
afield [ə´fi:ld] *adv* 1) dalada, maydonda; 2) uydan uzoqda; 3) yo'lning chekkasida
afire [ə´faɪə] *a* 1) o'tda; 2) o'tda yonayotgan
aflame [ə´fleɪm] *a* 1) o'tda; 2) olovli, o'tli
aflat [ə´flæt] *adv* tekis, yassi, yalpoq
aflaunt [ə´flɔ:nt] *adv esk.* juda bashang bo'lib, oliftalarcha, oliftalardek, satanglardek
aflicker [ə´flɪkə] *adv esk.* miltillab, jimillab, milt-milt qilib, yilt-yilt etib
afloat [ə´fləʊt] *a* suvda, suvning ustida suzayotgan, oqimga qarab suzayotgan
aflower [ə´flaʊə] *adv kit.* qiyg'os (avji) gullagan davrda
aflush [ə´flʌʃ] *adv tex.* bir tekisda, bir tekis (baravar) qilib
aflutter [ə´flʌtə] *adv esk.* titrab, qaltirab, dirillab
afoam [ə´fəʊm] *adv esk.* ko'pik bilan, ko'piktirib
a fond [ɑ:´fɒŋ] *adv fr.* to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila
afoot [ə´fʊt] *a* 1) piyoda; 2) harakatda; **to be ~** urinmoq
afore [ə´fɔ:] *adv* 1) oldinda; **marching on ~** oldinda harakat qilib; 2) boshlanishida, oldin, ilgari
aforecited [ə´fɔ:,saɪtɪd] *a* yuqorida keltirilgan; yuqorida aytib o'tilgan
aforegoing [ə´fɔ:gəʊɪŋ] *a* oldingi, ilgarigi
aforehand [ə´fɔ:hænd] *a esk.* tayyorlangan, tayyorgarlik (hozirlik) ko'rilgan
aforementioned [ə´fɔ:,menʃ(ə)nd] *a* yuqorida eslatib o'tilgan, zikr qilingan, mazkur
aforenamed [ə´fɔ:(,)neɪmd] *a* yuqorida nomi aytilgan
aforesaid [ə´fɔ:sed] *a* yuqorida eslatib o'tilgan
aforethought [ə´fɔ:θɔ:t] *a yur.* oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilgan
aforetime [ə´fɔ:taɪm] *adv* avval, oldin, qadim zamonda
a fortiori [,eɪfɔ:tɪ´ɔ:r(a)ɪ] *lot.* inchunin, ayniqsa
afraid [ə´freɪd] *a* qo'rqqan; **to be ~** qo'rqmoq; **to be ~ of smth.** nimadandir qo'rqmoq
afreet [´æfrɪ:t] *n afs.* shayton, iblis
afresh [ə´freʃ] *adv* yangidan, qaytadan
African [´æfrɪkən] **1.** *n* afrikaliklar; afrikalik, afrikalik ayol; **2.** *a* Afrikaga oid; **~ languages** Afrika tillari
African(d)er [,æfrɪ´kæn(d)ə] *n* afrikander (*asli Gollandiyalik bo'lgan Janubiy Afrika fuqarosiga berilgan nom*)
afrit [ə´frɪt] *n afs.* shayton, iblis
aft [ɑ:ft] *adv deng.* kemaning quyruq qismida
after [´ɑ:ftə] *a* keyin, so'ng; **~ breakfast** nonushtadan so'ng; **~ all** nihoyat, oxiri, oqibatda; **day ~ day** kundan kunga, kun ortidan kun; **the day ~ tomorrow** indinga, ertadan keyin; **long ~** ko'p vaqt o'tgandan keyin; **not long ~** birozdan so'ng; **to name ~ somebody** kimningdir nomiga qo'ymoq, kimningdir nomi bilan atamoq; **~ classes** darsdan so'ng
afterbirth [´ɑ:ftəbɜ:θ] *n anat.* yo'ldosh
afterbrain [´ɑ:ftəbreɪn] *n anat.* orqa miya
afterburning [´ɑ:ftə,bɜ:nɪŋ] *n tex.* yonib tamom bo'lgan yoqilg'i
after-care [´ɑ:ftəkeə] *n* sog'ayayotgan kasalni parvarish qilish
aftercrop [´ɑ:ftəkrɒp] *n q.x.* ikkinchi hosil; ikkinchi o'rim
afterdamp [´ɑ:ftədæmp] *n* zaharli gaz aralashmasi
afterdays [´ɑ:ftədeɪz] *n pl* so'nggi (keyingi) paytlar
after-dinner [´ɑ:ftə,dɪnə] *a* tushlikdan keyingi
after-effect [´ɑ:ft(ə)rɪ,fekt] *n* natija, oqibat, yakun, samara
after-game [´ɑ:ftəgeɪm] *n* qaytadan yutib olish uchun urinib ko'rish
afterglow [´ɑ:ftəgləʊ] *n* kechki shafaq
after-grass [´ɑ:ftəgrɑ:s] *n* yangi o't (maysa)
afterimage [´ɑ:ftər,ɪmɪdʒ] *n telv.* yo'qolmaydigan (qoldiq) tasvir
after-life [´ɑ:ftəlaɪf] *n* narigi dunyodagi hayot
afterlight [´ɑ:ftəlaɪt] *n teatr.* orqadagi yorug'lik
aftermath [´ɑ:ftəmæθ] *n* oqibat, talafot, falokat
aftermost [´ɑ:ftəməʊst] *a deng.* kema quyrug'iga yaqinroq joydagi
afternoon [,ɑ:ftə´nu:n] *n* kunduzi, tushdan keyin; **the ~ of life** *kit.* umrning zavoli, umrning oxiri, yosh qaytganda, qariganda, qarigan chog'ida; **good ~!** *so'zl.* 1. (kunduzgi) salom, xayrli kun! 2. xayr, ko'rishguncha omon bo'ling! **in the ~** kunduzi, kunduz kuni
after-pain [´ɑ:ftəpeɪn] *n pl tib.* tug'gandan keyin (tug'ishdan) keyingi og'riq (dard)
afterpiece [´ɑ:ftəpi:s] *n* tomoshaning oxirida ko'rsatiladigan kichik sahna asari *yoki* konsertning oxirida beriladigan qo'shimcha konsert dasturi
afters [´ɑ:ftəz] *n pl* ikkinchi va uchinchi taom
aftershave [´ɑ:ftəʃeɪv] *n* soqol olingandan so'ng surtiladigan suyuqlik
aftertaste [´ɑ:ftəteɪst] *n* ovqatdan keyin og'izda qoladigan ta'm
afterthought [´ɑ:ftəθɔ:t] *n* vaqt o'tgandan so'ng keladigan g'oya (fikr)
aftertime [´ɑ:ftətaɪm] *n kit.* kelajak, istiqbol
after-touch [´ɑ:ftətʌtʃ] *n rasm.* tush berish; retushlash (*tush, bo'yoq, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini to'g'rilash, tuzatish, yaxshilash*)
after-treatment [´ɑ:ftə,tri:tmənt] *n* 1) *tib.* keyingi davolanish; 2) *tex.* keyingi ishlov berish

afterwards [ˈɑ:ftəwədz] *adv* so'ngra, keyin
after-world [ˈɑ:ftəwɜ:ld] *n* 1) narigi dunyo; 2) kelajak avlod
after-wrist [ˈɑ:ftərɪst] *n kam. anat.* bilak
afteryears [ˈɑ:ftəjɪəz] *n pl* keyingi yillar
agadic [əˈgædɪk] *a kit.* afsonadan (rivoyatdan) iborat bo'lgan; afsonalarda bo'ladigan, afsonaviy
again [əˈge(ɪ)n] *adv* qaytadan, yana; ~ **and** ~ yana va yana, qayta-qayta; doimo, hamisha; uzluksiz, tinmasdan, dam-badam
against [əˈge(ɪ)nst] *prep.* qarshi, qarama-qarshi; **to be up** ~ **smth.** qiyinchiliklarni qarshi olmoq; **to learn** ~ **smth.** nimagadir tayanib turmoq; **to strike one's foot** ~ **smth.** oyog'ini nimagadir urib olmoq
agalactia [ˌægəˈlækʧɪə] *n tib. vet.* sutning yo'qligi, agalaktiya
agalactous [ˌægəˈlæktəs] *a tib. vet.* sutsiz (*emizish uchun*)
agama [ˈægəmə] *n zool.* agama (*kaltakesaksimonlar oilasi*)
agamous [ˈægəməs] *a bot.* sporali, sporalar orqali ko'payadigan
agamic [eɪˈgæmɪk] *a biol.* erkak *yoki* urg'ochilik alomati yo'q
agapanthus [ˌægəˈpænθəs] *n bot.* 1) Afrika liliyasi (*lolagullilarga mansub dekorativ o'simlik*); 2) Afrika lolasi
agape [əˈgeɪp] *a* (*hayratdan*) angrayib
agar-agar [ˌeɪgɑ:rˈeɪgɑ:] *n* agar-agar (*ba'zi suv o'simliklaridan tayyorlanadigan dirildoq modda*)
agaric [ˈægərɪk] *n bot.* qalpog'ining osti burmali (plastinkasimon) qo'ziqorin
agasp [əˈgɑ:sp] *adv esk.* nafas olgan holda, nafas olib; og'izni katta ochgan holda, og'izni katta ochib
agast [əˈgɑ:st] = **aghast**
agastric [əˈgæstrɪk] *a zool.* ovqatni hazm qiluvchi organlari (mavjud) bo'lmagan
agate [ˈægət] *n min.* aqiq (*kvarsning bir turi*)
agateware [ˈægətweə] *n* sirlangan idish-tovoq
agave [əˈgeɪvɪ] *n bot.* agava (*katta-katta bargli tropik o'simlik*)
agaze [əˈgeɪz] *a predic.* hayratda qolgan, mahliyo bo'lgan
age [eɪdʒ] **1.** *n* 1) yosh; **to act** (*yoki* **to be**) **one's** ~ o'zini o'z yoshiga munosib bo'lgan tarzda tutmoq, o'zini juda yaxshi tutmoq; bolalik qilishni bas qilmoq, bachkanalik qilishni bas qilmoq; **the** ~ **of consent** turmushga chiqish mumkin bo'lgan yosh, balog'at yoshi (*qizlarda*); **the Augustan** ~ adabiyot va san'atning ravnaq topish (*rivojlanish*) davri; **at the** ~ **of** ... yoshda; **at an early** ~ yoshligidan, yoshlikdan; **the awkward** ~ balog'atga o'tish davri; **to bear** (*yoki* **to carry**) **one's** ~ **well** borgan (yetgan) yoshiga nisbatan (qaraganda) yoshroq ko'rinmoq; **to be of** ~ voyaga (balog'atga) yetmoq; **to be under** ~ voyaga (balog'atga) yetmaslik; **to come of** ~ voyaga (balog'atga) yetmoq; **the full** ~ yoshiga (voyaga) yetish, balog'at (*Angliyada 21 yosh*); **golden** ~ (*shun.* **Golden Age**) 1. oltin asr (*hamma narsa, fan, madaniyat va b.*); ravnaq topgan asr, gullab-yashnash, (ravnaq topish, yuksalish, rivojlanish, taraqqiy etish, kamol topish) davri (*madaniyat, san'at va b.*); 2. hayotning baxtiyor onlari, hayotdagi baxtiyor onlar; **a green old** ~ baxtli keksalik (davri), tetik keksalik (davri); **lawful** ~ yoshiga (voyaga) yetish, balog'at (*Angliyada 21 yosh*); **to look one's** ~ o'zining yoshiga nisbatan katta ham, kichik ham ko'rinmaslik; o'zining yoshidagi ko'rinishga ega bo'lmoq; **tender** ~ murg'ak yosh; 2) asr, davr; **stone** ~ tosh davri; **for** (*amer.* **in**) ~**s** *so'zl.* juda uzoq vaqt; qachonligini eslay olmayman
aged [eɪdʒ(ɪ)d] *a* keksaygan, qarigan, yoshi qaytgan
ageing [ˈeɪdʒɪŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish
ageless [ˈeɪdʒləs] *a* eskirmaydigan, abadiy; bir umr yashaydigan, umrbod qoladigan
agelong [ˈeɪdʒlɒŋ] *a* azaliy, abadiy
agen [əˈgen] = **again**
agency [ˈeɪdʒ(ə)nsɪ] *n* 1) harakat; 2) agentlik; **by** (*yoki* **through**) **the** ~ **of...** ... yordami (vositasi) bilan, ...yordamida, ... orqali
agenda [əˈdʒendə] *n* kun tartibi, ko'riladigan masala; **to be on the** ~ juda muhim (eng zarur) bo'lmoq, kun tartibida turmoq; **to place smth. on the** ~ nimanidir kun tartibiga qo'ymoq, nimanidir birinchi galdagi vazifa deb hisoblamoq
agendum [əˈdʒendəm] *n* (*pl* **-da** [-də]) 1) xotira daftari; 2) *esk.* diniy marosimlar; marosim tartibi, tartib, tamoyil, odat
agenesis [ˌeɪˈdʒenəsɪs] *n tib.* 1) naslsizlik, bola bo'lmaslik, tug'maslik, bepushtlik, pushtsizlik; 2) jinsiy zaiflik
agent [ˈeɪdʒ(ə)nt] **1.** *n* agent; **an advance** ~ *amer.* shartnoma (bitim) tuzish uchun yuboriladigan vakil, agent (*mas., teatr guruhining gastrol safarlarida*); **a parliamentary** ~ parlament a'zolarini u yoki bu qonun loyihasini qo'llashga undaydigan kishi; **2.** *a* harakat qiluvchi
agential [əˈdʒenʃ(ə)l] *a* agent *yoki* agentlikka oid
age-old [ˈeɪdʒˌəʊld] *a* qadimdan qolib kelayotgan, azaliy
agent-provocateur [ˌɑ:ʒɒŋprɒvɒkəˈtɜ:] *n* (*pl* **agends-provocateurs**) *fr.* ig'vogar, fitnachi, g'alamis (*ig'vo, fitna uyushtiradigan maxsus agent*)
ageus(t)ia [əˈgu:s(t)ɪə] *n tib.* ta'mni (mazani) sezish qobiliyatini yo'qotish, ta'mni (mazani) sezmay qolish
aggerate [ˈæʤəreɪt] *v kam.* 1) uyib (qalashtirib) tashlamoq; 2) *ko'ch.* ko'paytirib (oshirib, to'ldirib) yubormoq
agglomerate [əˈglɒməreɪt] **1.** *n* 1) yig'ish, to'plash, jamg'arish; 2) uyib (qalashtirib) tashlash; 3) aglomerat (*1. geol. har xil tog' jinslari va minerallarning bir-biriga yopishuvidan hosil bo'lgan g'ovak to'plami; 2. tex. ruda kukuni yoki parchalarini qorishtirib hosil qilingan yirik bo'laklar*); **2.** *v* yig'moq, to'plamoq
agglomeration [əˌglɒməˈreɪʃ(ə)n] *n* to'plash, jamlash, yig'ish
agglutinant [əˈglu:tɪnənt] *n* yopishadigan (yopishqoq) narsa
agglutinate [əˈglu:tɪneɪt] **1.** *v* yelimlab (*sirachlab*) yopishtirmoq; **2.** *a* yelimlab yopishtirilgan
agglutination [əˌglu:tɪˈneɪʃ(ə)n] *n* yopishtirish
agglutinative [əˈglu:tɪnətɪv] *a* yopishadigan; ~ **languages** agglutinativ tillar
agglutinin [əˈglu:tɪnɪn] *n fiziol.* agglutinin
aggrace [əˈgreɪs] *v esk.* 1) homiylik qilmoq, himoyasiga olmoq, homiy bo'lmoq; soyasi (qanoti) ostiga olmoq; 2) marhamat qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq, lutf (iltifot) qilmoq, xayrixohlik ko'rsatmoq
aggradation [ˌægrəˈdeɪʃ(ə)n] *n geogr.* agradatsiya; qirg'oqdagi cho'kindi
aggrade [əˈgreɪd] *v geogr.* bir miqdor oqizib keltmoq (*keltirmoq*), oqizib kelib o'ymoq, to'plamoq (*cho'kindi, qatlam, qum va b.*)
aggrandize [əˈgrændaɪz] *v* kattalashtirmoq
aggrandizement [əˈgrændɪzmənt] *n* ko'paytirish
aggranoy [ˈægrənɔɪ] *v* 1) g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, g'ashiga tegmoq, jahlini chiqarmoq, qonini (zardasini) qaynatmoq; 2) xafa qilmoq, ko'nglini ranjitmoq, dilini og'ritmoq, dilini siyoh qilmoq
aggravate [ˈægrəveɪt] *v* yomonlashtirmoq, yomon holatga keltirmoq
aggravated [ˈægrəveɪtɪd] *a* 1) kuchaygan, oshgan, chuqurlashgan, og'irlash-

gan; yomonlashgan, battar bo'lgan; **an ~ assault** qattiq hujum; **~ illness** kuchaygan (og'irlashgan) kasallik; 2) *dial.* g'azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, qoni (zardasi) qaynagan, darg'azab; **to feel (to be) ~** g'azablanmoq, jahli chiqmoq

aggravating ['ægrəveitiŋ] *a* yomonlashtiradigan, yomon holatga tushirib qo'yadigan

aggravation [ˌægrə'veiʃ(ə)n] *n* yomonlashish

aggregate ['ægrigeit] **1.** *n tex.* agregat (*mashinalar to'plami*); **2.** *a* bir joyga yig'ilgan; **3.** *v* bir joyga to'plamoq

aggravator ['ægrəveitə] *n* 1) ta'sir qiluvchi, qo'zg'ovchi, keltirib chiqaruvchi; 2) vaziyatni chuqurlashtiruvchi

aggregation [ˌægri'geiʃ(ə)n] *n* 1) agregatsiya, qismlarni biriktirish (ulash, qo'shish); 2) agregat (*1. bir necha mashinadan iborat murakkab mashina; 2. murakkab mashinalarning ma'lum vazifasini bajaruvchi mustaqil mexanizm*)

aggregative ['ægrigeitiv] *a* 1) birgalikda, birga qilingan (qo'shilgan), umumiy; 2) tarkibiga kiradigan, tashkil etadigan, tarkibiy

aggress [ə'gres] *v* 1) *kam.* (birinchi bo'lib) hujum (tajovuz, hamla) qilmoq; 2) janjal (urish, nizo) boshlamoq; 3) *esk.* hujum bilan (bostirib) yaqinlashmoq, yaqinlashib kelmoq (bormoq)

aggression [ə'greʃ(ə)n] *n* hujum, tajovuz

aggressive [ə'gresiv] *a* tajovuzkor; hamla qiluvchi

aggressively [ə'gresivli] *adv* 1) tajovuzkorona; 2) kishining g'ashiga (jig'iga) tegib, g'ashini keltirib; 3) g'ayrat bilan, qat'iy ravishda, keskin; qizg'in suratda; 4) sabot bilan, qunt-matonat (qat'iyat) bilan, qattiq turib, tirishib-tortishib, ketidan qolmay

aggressiveness [ə'gresivnəs] *n* tajovuzkorlik, hujumkorlik

aggressor [ə'gresə] *n* bosqinchi, tajovuzkor

aggrieve [ə'gri:v] *v* ranjitmoq, xafa qilmoq

aggrieved [ə'gri:vd] *a* achchiqlangan, xafa

aghast [ə'gɑ:st] *a* qo'rquvdan esankirab qolgan

agile ['ædʒail] *a* epchil, uddaburon, chaqqon

agility [ə'dʒiliti] *n* chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik

agin [ə'gin] *prep.* qarshi, teskari

aging ['eidʒiŋ] *n* 1) qarish, keksayish; 2) yetilish

agio ['ædʒiəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) *ital. mol.* 1) ajio (*oltinning bozor bahosi, valuta, veksel va belgilangan nominaldagi boshqa qimmatbaho qog'ozlar kursining ko'tarilishi*); 2) laj (*1. qog'oz pul qadrsizlanganda oltinning nominal kursiga qo'shiladigan foyda; 2. qog'oz pul, veksel, aksiya va obligatsiyalar kursining nominal qiymatdan oshib ketishi*); 3) birja o'yini

agiotage ['ædʒətidʒ] *n* ajiotaj; sun'iy ko'tarilgan shov-shuv; birja o'yini; chayqovchilik, olibsotarlik

agist [ə'dʒist] *v* 1) (*ma'lum bir narxda kelishilgan holda*) birovlarning molini (dala, o'tloq, yaylovga olib borib) boqib kelmoq; 2) yaylov (o'tloq)ni ijaraga olmoq

agistage [ə'dʒistidʒ] *n n esk.* mollarni boqish (o'tlatib kelish) uchun haq to'lash

agister [ə'dʒistə] = **agistor**

agistment [ə'dʒistmənt] *n* 1) mollarni boqib kelish (o'tlatib kelish) huquqi; 2) mollarni boqib (o'tlatib) kelish uchun to'lanadigan haq (pul)

agistor [ə'dʒistə] *n* 1) o'tzor (o'tloq, yaylov)ni ijaraga olgan kishi; 2) o'tzor (o'tloq, yaylov)ni ijaraga beruvchi kishi

agitate ['ædʒiteit] **1.** *v* tashviqot yurgizmoq; **2.** *v* hayajonlanmoq

agitated ['ædʒiteitid] *a* hayajonlangan

agitation [ˌædʒi'teiʃ(ə)n] **1.** *n* tashviqot; **2.** *n* hayajon

agitator ['ædʒiteitə] *n* 1) tashviqotchi; 2) *tex.* aralashtirgich (*chilcho'p*)

aglare [ə'gleə] *adv esk.* ko'zni oladigan (qamashtiradigan) yorug'lik bilan

agleam [ə'gli:m] *adv esk.* miltillab, jimillab, milt-milt (yilt-yilt) etib

aglet ['æglit] *n* 1) shnurning metalldan qilingan uchi; 2) *bot.* bargak (*osilib turgan meva guli*)

agley [ə'gli:, ə'glei] *adv dial.* 1) qiyalab, qiyalatib, qiyamasiga, qiyshiq; 2) yondan, ko'z qiri bilan, zimdan, qiyshayib

a-glimmer [ə'glimə] *adv esk.* xira yonib, milt-milt etib, nur sochib

aglitter [ə'glitə] *adv esk.* yarqirab, chaqnab, porlab

aglow [ə'gləu] *a* qizib (cho'g' bo'lib) turgan

agly [ə'glai] = **agley**

agminate ['ægminit] *a esk.* bir yerga to'plangan, guruhlarga bo'lib, ajratib (bo'lib) chiqilgan

agnail ['ægneil] *n* milk (*tirnoqning milki*)

agname ['ægneim] *n esk.* laqab

agnate ['ægneit] **1.** *n* er tomonidan qarindosh; **2.** *a* yaqin, qadrdon (*qarindoshlar haqida*)

agnation [æg'neiʃ(ə)n] *n* ota tomonidan qarindoshlik

agnomen [æg'nəomen] *n* (*pl* **-mina**) *lot.* laqab

agnomina [æg'nomiə] *pl of* **agnomen**

agnominate [æg'nomineit] *v kam.* laqab qo'ymoq (bermoq)

agnomination [æg'nomineiʃ(ə)n] *n kam.* 1) laqab; 2) *stil.* alliteratsiya (*badiiy nutqda, she'rda bir xil yoki ohangdosh undoshlarning qaytarilishi, ketma-ket, yonma-yon kelishi*)

agnostic [æg'nostik] **1.** *n* agnostitsizm tarafdori; **2.** *n* agnostikaga oid

agnosticism [æg'nostisiz(ə)m] *n* agnostitsizm (*falsafiy ta'limot*)

ago [ə'gəu] *adv* muqaddam; **not long ~** yaqinda; **years ~** ancha yillar ilgari; **five days ~** besh kun ilgari (oldin)

agog [ə'gɒg] *a* ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan; **to be (all) ~ (about, for, on, over, upon** *yoki* **with**; *shun.* **to be (all) ~ to do smth.)** nimadir qilishni juda ham istamoq, nimagadir chin yurakdan intilmoq (harakat qilmoq); mahliyo qilmoq; sabrsizlik bilan kutmoq, kutaverib toqati toq bo'lmoq

a-going [ə'gəuiŋ] *a* harakatda

agonic [ə'gɒnik] *a* burchak chiqazmaydigan

agonistic [ˌægəu'nistik] *a* atletikaga va atletikachiga oid

agonistics [ˌægə'nistiks] *n* agonistika (*Qadimgi Yunonda gimnastik musobaqalarni o'tkazish san'ati*)

agonize ['ægənaiz] *v* qiynalmoq, azob bermoq

agonized ['ægənaizd] *a* azob beradigan, qiynaydigan, qiyin, og'ir, mashaqqatli

agonizing ['ægənaizin] *a* mashaqqatli, qiyin, og'ir, murakkab

agonothete [ə'gɒnəθi:t] *n* musobaqa va o'yinlarning tashkilotchisi (*Qadimgi Yunon va Qadimgi Rimda*)

agony ['ægəni] *n* eng kuchli og'riq; **~ in red** *kom. hazil.* och-qizil (rangdagi) kastum; **to be in an ~ of despair** (*yoki* **of grief**) qattiq qayg'urmoq (g'am yemoq, kuymoq, achinmoq, hasrat chekmoq); **to pile on (*kam.* up) the ~** kuchli ta'sir ko'rsatish uchun bo'rttirib ko'rsatmoq, noto'g'ri (yomonligini oshirib) ko'rsatmoq

agoraphobia [ˌæg(ə)rə'fəubiə] *n tib.* keng (bo'sh) joydan qo'rqish

agrace [ə'greis] = **aggrace**

agraffe [ə'græf] *n* 1) bezakli ilgak yoki to'qa; 2) *qur.* (*chelak, sandiq va h. k. da*) band, halqa, tutqich, dasta; uchi qaytgan mix

agrarian [ə'gre(ə)riən] *a* agrar (*yer va undan foydalanish masalalariga oid*)

agrarianism [ə ˈgre(ə)rɪənɪz(ə)m] *n* 1) yerni teng bo'lish prinsipi; 2) yerni yangidan (qaytadan) taqsimlash uchun olib boriladigan siyosiy kurash
agravic [ə ˈgrævɪk] *a maxs.* vaznsiz, vazni (salmog'i, og'irligi) yo'q, qushday yengil
agree [ə ˈgri:] *v* rozi bo'lmoq **(to, with)**; kelishmoq; **to ~ to differ** bir-birlarining fikrlarini o'zgartirishga harakat qilib ko'rishdan voz kechmoq; o'z fikrlarida qolmoq (*bahslashuvchilar haqida*); **to ~ with smb.** kimningdir fikriga qo'shilmoq
agreeable [ə ˈgri:əb(ə)l] *a* ma'qul, maqbul, kelishib bo'ladigan
agreeability [ə,grɪə ˈbɪlɪtɪ] *n kit.* yoqimlilik, yoqimtoylik (*asosan, muomala haqida*)
agreeably [ə ˈgri:əblɪ] *adv* yoqimli
agreed [ə ˈgri:d] *a* kelishilgan, rozi bo'lgan
agreement [ə ˈgri:mənt] *n* 1) (*ikki tomonlama*) rozilik **(about, on)**; **~ of opinion** hamfikrlik; 2) shartnoma, bitim **(about, on; between; with)**; **to come to an ~** bitim tuzmoq; **an executive ~** *amer.* Senatning tasdig'ini talab qilmasdan prezident tomonidan xorijiy davlat bilan tuziladigan shartnoma (bitim); **a gentleman's ~** o'zaro jentelmenlarcha kelishuv; tantilik bilan tuzilgan o'zaro og'zaki bitim; **a stand-still ~** *tij.* talab qilib olinmay yotgan qarzlar haqidagi kelishuv; 3) *gram.* moslashuv **(in)**
agreer [ə ˈgri:ə] *n esk.* tarafdor, yoqlovchi
agrest [ə ˈgrest] *a esk.* 1) qishloqqa xos bo'lgan, qishloqdagi; 2) dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, xunuk, beso'naqay, yomon ishlangan
agricultural [ˌægrɪ ˈkʌltʃ(ə)rəl] *a* qishloq xo'jaligiga oid
agriculturalist [ˌægrɪ ˈkʌltʃ(ə)rəlɪst] = **agriculturist**
agriculturally [ˌægrɪ ˈkʌltʃ(ə)rəlɪ] *adv* 1) qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan; 2) qishloq xo'jaligi sohasida
agriculture [ˈægrɪˌkʌltʃə] *n* qishloq xo'jaligi
agriculturer [ˌægrɪ ˈkʌltʃərə] = **agriculturist**
agriculturist [ˌægrɪ ˈkʌltʃ(ə)rɪst] *a* 1) agronom; 2) yer mutaxassisi
agrief [ə ˈgri:f] *adv esk.* g'am (qayg'u, dard-alam, hasrat) chekib
agrimony [ˈægrɪmənɪ] *n bot.* chakanug', alomatchoy
agrimotor [ˈægrɪˌməʊtə] *n q.x.* traktor
agrin [ə ˈgrɪn] *adv esk.* kulimsirab
agrobiological [ˈægrə(ʊ),baɪəʊ ˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* agrobiologiyaga oid
agrobiologist [ˌægrəʊbaɪ ˈɒlədʒɪst] *n* agrobiolog
agrobiology [ˌægrə(ʊ)baɪ ˈɒlədʒɪ] *n* agro-biologiya (*o'simlikshunoslik va chorvachilikka bevosita aloqador umumiy biologik qonuniyatlarni o'rganuvchi fan*)
agrologic [ˌægrə ˈlɒdʒɪk] *a* agrologik, tuproqshunoslikka va tuproqshunosga oid, tuproqshunos...
agrology [ə ˈgrɒlədʒɪ] *n* agrologiya, tuproqshunoslik
agronome [ˈægrənəʊn] = **agronomist**
agronomic(al) [ˌægrəʊ ˈnɒmɪk(əl)] *a* agronomik
agronomics [ˌægrəʊ ˈnɒmɪks] *n* agronomiya (*qishloq xo'jaligi va ziroatchilik haqidagi fan*)
agronomist [ə ˈgrɒnəmɪst] *n* agronom
agronomy [ə ˈgrɒnəmɪ] *n* qishloq xo'jaligi, ziroatchilik
agrostography [ˌægrɒ ˈstɒgrəfɪ] *n* 1) o't (alaf, ko'kat)larni tasvirlash; 2) botanikaning o't (ko'kat)larni tasvirlaydigan bo'limi
agrostologist [ˌægrə ˈstɒlədʒɪst] *n* o't (ko'kat)larni o'rganadigan mutaxassis
agrostology [ˌægrə ˈstɒlədʒɪ] *n bot.* o't-larni o'rgatadigan ilm (fan)
aground [ə ˈgraʊnd] *a deng.* og'ir ahvolda
agrypnia [ə ˈgrɪpnɪə] *n tib.* uyqusizlik, bedorlik, uyqusizlik kasali
ague [ˈeɪgju:] *n* bezgak; isitma; **~s come on horseback but go away on foot** *maq.* (bezgakning kelishi ot ustida, ketishi yayov), og'riq joyini topsa, olti oy qishlaydi
ague-cake [ˈeɪgju:keɪk] *n tib.* uzoq davom etgan isitma natijasida jigarning kattalashishi
ague-spleen [ˈeɪgju:spli:n] *n tib.* bezgak natijasida kattalashgan jigar
aguey [ˈeɪgjʊɪ] = **aguish**
aguish [ˈeɪgjʊɪʃ] *a* bezgakka oid
agush [ə ˈgʌʃ] *adv esk.* tizillab (jildirab) oqib
ah [ɑ:] *int.* a! eh!
aha [ɑ:ˈhɑ:] *int.* aha!
ahead [ə ˈhed] *a* oldinga, oldinda; **breakers (*yoki* rocks) ~!** oldinda xavf (xatar)! ehtiyot bo'ling! saqlaning! **to get ~ (of)** o'zib o'tmoq **~ of time** muddatdan ilgari: **go ~** olg'a, davom eting, boshlang; **to be ~ of** oldinda bormoq, orqada qoldirmoq
aheap [ə ˈhi:p] *adv* g'aramda, to'dada
a-height [ə ˈhaɪt] *adv esk.* 1) yuqoriga, balandga, osmonga, yuksakka; 2) yuqorida, tepada, balandda, uchida, ustida
ahem [ə ˈhm, ə ˈhʊm] *int.* hm (*shubha, kinoya kabi ma'nolarni ifodalaydi*)
a-high [ə ˈhaɪ] *adv esk.* baland tutib, yuksaklikda, balandda, yuksak, yuqori
ahind, ahint [ə ˈhaɪnd, ə ˈhɪnt] *adv dial.* orqadan, orqa tomonda(n), ketida(n), orqasida(n), orqasi
a-hold [ə ˈhəʊld] *adv esk.* shamol yo'nalishida
ahorse [ə ˈhɔ:s] *a* ot ustida; ot mingan
ahoy [ə ˈhɔɪ] *int. deng.* chaqiriq ovozi, chaqiriq; **ship ~!** ey kemadagilar! (*chaqiriq*)
a huis clos [ɑ: ˈwi:ˌkləʊ] *adv fr.* yashirincha, maxfiy suratda, zimdan, xufiya, bildirmay
ahull [ə ˈhʌl] *adv deng.* yelkanlari yig'ishtirilgan va kemaning yon tomoni shamolga qaratib qo'yilgan holat
ahungered [ə ˈhʌŋgəd] *a esk.* och, ochiqqan, och qolgan, qorni och qolib ketgan
a-hunt [ə ˈhʌnt] *adv. esk.* ov qilib, ov qilib yurganda
aid [eɪd] **1.** *n* yordam, ko'mak; **to ~ and abet** 1) *yur.* sherik bo'lmoq va yomon ishga undamoq; 2) yo'l qo'ymoq, yo'l qo'yib qo'ymoq, erk bermoq; o'ta erkalatib yubormoq; rag'batlantirmoq, qiziqtirmoq, taqdirlamoq, qo'llab-quvvatlamoq, yordam bermoq (qilmoq, ko'rsatmoq), imkon (imkoniyat) tug'dirmoq, osonlashtirmoq; **2.** *v* yordam bermoq
aidant [ˈeɪd(ə)nt] *a kit.* yordam beradigan, ko'maklashadigan, yordamlashadigan
aide [eɪd] *n* yordamchi, maslahatchi
aide-de-camp [ˌeɪddə ˈkæmp, ˌeɪddəˈkɒŋ] *n fr.* (*shaxsiy*) adyutant
aide-memoire [ˌeɪdmeˈmwɑ:] *n fr.* xotira yozuvi
aidless [ˈeɪdləs] *a* 1) mustaqil ravishda, o'z kuchi bilan, yordamsiz (ko'maksiz) amalga oshirilgan; 2) qo'lidan hech narsa kelmaydigan, o'zini eplay olmaydigan, ojiz, nochor, notavon; 3) *esk.* foyda bermaydigan, befoyda, foydasiz
aid-man [ˈeɪdmæn] *n* (*pl* **-men** [-men]) *harb. so'zl.* sanitar (*davolash muassasalarida, harbiy qismlarda xizmat qiluvchi kichik tibbiyot xodimi*)
aigrette [ˈeɪgret] *n* 1) jig'a, ukpar; 2) oq qo'ton; 3) *tex.* nur tarami
aiguille [eɪˈgwi:l] *n fr.* tog' cho'qqisi
aiguillette [ˌeɪgwɪˈlet] *n harb.* akselbant (*chor Rossiyasi va ba'zi chet el armiyalarida: harbiylarning unvoniga ko'ra yelkasiga taqiladigan zarbof shnur*)
ail [eɪl] *v* kasal bo'lmoq, betob bo'lmoq

ailanto, ailantus [eɪˊlæntəo, eɪˊlæntəs] *n bot.* xitoy shumtoli

aileron [ˊeɪlərɒn] *n* eleron (*samolyot qanotlarining burilishiga xizmat qiladigan qismi*)

ailette [eɪˊlet] *n tar.* epoletlar (*inqilobdan ilgarigi Rossiyada va ba'zi chet el harbiylari zobitlarida: hashamatli zar pogon(lar)*)

ailing [ˊeɪlɪŋ] betob, tobi qochgan, kasal

ailment [ˊeɪlmənt] *n* kasallik, betoblik

aim [eɪm] **1.** *n* maqsad, niyat; nishon; **to take ~** nishonga olmoq; **to ~ at** ...ni mo'ljalga (nishonga) olmoq; **2.** *v* **(at)** nishonga olmoq

aimed [eɪmd] *a* mo'ljalga olib otishga oid; mo'ljalga (nishonga) olish...; **~ fire** *harb.* mo'ljalga olib otilgan o'q; mo'ljallab o't ochish; **~ shoots** mo'ljalga olib (mo'ljallab) otish

aimful [ˊeɪmfʊl] *a esk.* 1) aniq bir maqsadga qaratilgan (yo'naltirilgan); 2) aniq bir maqsadga erishishni ko'zda tutadigan

aiming [ˊeɪmɪŋ] *n* mo'ljalga (nishonga) olish; **an ~ point** *harb.* mo'ljalga olish nuqtasi

aimless [ˊeɪmləs] *a* maqsadsiz, bemaqsad

aimlessly [ˊeɪmləslɪ] *adv* bemaqsad, bekor, behuda, foydasiz

aimlessness [ˊeɪmləsnəs] *n* maqsadsizlik, bemaqsadlik

ain't [eɪnt] *qisq.* 1) *dial.* = **am not, is not, have not;** 2) *so'zl.* = **are not**

air [eə] **1.** *n* 1) havo; havo qatlami; **~s and graces** noz-karashma, qiliqdorlik, qiyshang'ilik; **to assume (to give oneself** *yoki* **to put on) ~s** o'zini katta tutmoq (olmoq), gerdaymoq, kekkaymoq, kibrlanmoq, kattakonlik (kattalik) qilmoq; **to be in the ~** bilib (tushunib, anglab) bo'lmaydigan ahvolda bo'lmoq (ahvolga tushmoq); = na u yoqlik, na bu yoqlik bo'lmay (arosatda) qolmoq; **to be** (*yoki* **to go) off the ~** a) radiolashtirishni tugatmoq; b) (*radio orqali*) berishni (eshittirishni, olib eshittirishni) to'xtatmoq; **to be on the ~** a) ishlamoq, eshittirish olib bormoq (*radiostansiya haqida*); b) radioda (radio orqali) so'zlamoq; d) radio orqali eshittirmoq (bermoq, olib eshittirmoq); **to clear the ~** holatni (vaziyatni) yumshatmoq, (*biror narsaga*) aniqlik kiritmoq, nizo (janjal, mojaro)ni bartaraf qilmoq; **to come up for ~** *avstral. so'zl.* dam olmoq, nafasini rostlamoq, o'ziga kelib olmoq; **by ~** samolyot bilan; **to fish in the ~** (*shun.*, **to plough the ~**) *kam.* befoyda ish bilan mashg'ul bo'lmoq; bekorga harakat qilmoq; **hot ~** *so'zl.* bekorchi gap, safsata; **to leave in the ~** a) (**smb.**) kimnidir taajjubga (hayratga) solmoq, kimningdir boshini qotirmoq (garang qilmoq), kimnidir o'yga (tashvishga) solmoq (solib qo'ymoq); b) (**smth.**) nimanidir hal etmasdan, tugatmasdan, bir bitimga kelmasdan qoldirmoq (qo'ymoq); **to make** (*yoki* **to turn) the ~ blue** so'kishmoq, urishmoq, olishmoq, xafalashmoq; so'kinmoq; so'kmoq, haqorat qilmoq, qarg'amoq; beodob (behayo) gaplar gapirmoq, og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq; **in the open ~** ochiq havoda; **to put on the ~** radio orqali olib eshittirmoq, efirga uzatmoq; **to rend the ~** *kit.* havoni larzaga solmoq (*baqir-chaqir bilan*); **to saw the ~** zarb bilan qo'l silkitmoq (siltamoq), (*qattiq*) zo'r berib imo-ishoralar qilmoq; **to take the ~** a) toza havoda sayr qilmoq, toza havodan nafas olmoq; b) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq, bildirmasdan (sekingina) qochmoq, *ko'ch.* quyon bo'lmoq, quyonning rasmini chizmoq; jo'nab (ketib) qolmoq, yo'q bo'lib qolmoq, g'oyib bo'lmoq, bildirmay qochib ketmoq; d) *av.* havoga ko'tarilmoq, uchmoq; 2) muhit; **to tread** (*yoki* **to walk) on** (*yoki* **upon) ~** shodlanmoq, shod-xurram (shodmon) bo'lmoq, sevinmoq, quvonmoq, zavqlanmoq, xursand (shod) bo'lmoq; = terisiga sig'may ketmoq, shodlikdan dunyoni unutmoq; **with an ~ of finality** shunday vajohat bilanki, go'yo hammasi tugagandek (hal etilgandek); = gap tugadi, gap tamom, boshqa gap yo'q; **a friendly ~** do'stona muhit; **2.** *a* havoga oid; **3.** *v* shamollatmoq

air-bag [ˊeəbæg] *n* 1) *av.* ballonet; 2) dam beriladigan (puflanadigan, damlama) moslama (qurilma, mexanizm); 3) dam beriladigan rezinali qayiq

air-ball [ˊeəbɔ:l] *n* havo shari (*puflanadigan o'yinchoq shar*)

air-balloon [ˊeəbə,lu:n] *n* havo shari

air-barrage [ˊeə,bærɑ:ʒ] *n* havoni to'sish (*aerostatlar bilan*)

air-base [ˊeəbeɪs] *n* aviatsiya bazasi

air-bath [ˊeəbɑ:θ] *n* havo vannasi

air-bed [ˊeəbed] *n* damlama matras

air-bladder [ˊeəblædə] *n* 1) suzgich pufak (*baliqda*); 2) shishacha, kichkina shisha

air-blast [ˊeəblɑ:st] *n* havo to'lqinining birdan kuchayishi

airborne [ˊeəbɔ:n] *a* havo yo'li orqali tashiladigan

air-box [ˊeəbɒks] *n* havo kamerasi

air-brake [ˊeəbreɪk] *n tex.* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*) tormoz

air-breaking [ˊeəbreɪkɪŋ] *n* aerodinamik (ravishda) tormozlanish, tormozlash, tormoz berish, to'xtatish

air-brick [ˊeəbrɪk] *n* xom g'isht

air-bridge [ˊeəbrɪdʒ] *n* havo (ko'prigi) yo'li

air-brush [ˊeəbrʌʃ] *n* bo'yoq purkagich

air-built [ˊeəbɪlt] *a* 1) hech narsaga asoslanmagan; 2) tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilinadigan, faraziy, xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan

air-castle [ˊeəkɑ:s(ə)l] *n* 1) xayoliy narsa; 2) fantaziya, xayol, orzu, istak, tilak

air-cell [ˊeəsel] *n anat.* o'pka pufakchalari

air-channel [ˊeətʃænl] *n tex.* havo o'tkazuvchi quvurlar yoki kanallar

air-chamber [ˊeə,tʃeɪmbə] *n tex.* havo kamerasi

Air Chief Marshal [ˊeəˊtʃi:f,mɑ:ʃ(ə)l] *n* aviatsiya bosh marshali

air-chute [ˊeəʃu:t] *n* parashut

air-cock [ˊeəkɒk] *n* biror apparatni siqilgan havo yoki gaz oqimi bilan tozalaydigan jo'mrakcha

Air command [ˊeəkə,mɑ:nd] *n* aviatsiya qo'mondoni (*harbiy havo kuchlarining oliy tashkiliy birlashmasi*)

air-commodore [ˌeəˊkɒmədɔ:] *n harb.* aviatsiya kommodori (Angliyada)

air-condition [ˊeəkən,dɪʃ(ə)n] *v* havo haroratini bir xilda saqlamoq

air-conditioned [ˊeəkən,dɪʃ(ə)nd] *a* sun'iy havo bilan hosil qilingan

air-conditioner [ˊeəkən,dɪʃ(ə)nə] *v* konditsioner, sovitgich

air-conditioning [ˊeəkən,dɪʃ(ə)nɪŋ] *n* havo haroratini bir xilda saqlash

air-cooled [ˊeəku:ld] *a* havo yo'li bilan sovitiladigan

air-cooler [ˊeə,ku:lə] *n tex.* 1) havoni sovitadigan moslama, havosovitgich; 2) havo radiatori

air-cooling [ˊeə,ku:lɪŋ] *n* havo bilan sovitish

Air Corps [ˊeəˊkɔ:] *n harb. tar.* harbiy-havo kuchlari

air-course [ˊeəkɔ:s] *n tex.* havo o'tkazuvchi quvurlar yoki kanallar

aircraft [ˊeəkrɑ:ft] *n* samolyot

aircraft-carrier [ˊeəkrɑ:ft,kærɪə] *n* avianoses (*samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun moslangan harbiy kema*)

aircraft(s)man [ˊeəkrɑ:ft(s)mən] *n* aviatsiya oddiy askari (*Angliyada*)

aircrew [ˊeəkru:] *n* samolyot ekipaji

aircrewman [ˊeəkru:mən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) samolyot ekipajining a'zosi

air-cure [ˊeə,kjuə] *n tib.* aeroterapiya (*bemorni ochiq havoda uzoq vaqt saqlash orqali davolash, badanni chiniqtirish*)

air-curing [ˈeə,kjo(ə)rıŋ] *n maxs.* ochiq havoda saqlab turish
air-cushion [ˈeə,koʃ(ə)n] *n* damlama yostiq
air-defense [ˈeədı,fens] *n harb.* havo hujumiga qarshi mudofaa
air-drain [ˈeədrem] *n tex.* 1) (*havo, gaz, tutun chiqib turishi uchun*) tuynuk, yo'l; 2) hovurak (*qolipga metall quyilganda undan havoning chiqib ketishi uchun qo'yilgan teshik*)
air-drawn [ˈeədrɔ:n] *a esk.* xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy, tasavvurdagi, faraz qilingan
air-dried [ˈeədraıd] *a* havo bilan quritilgan
airdrome [ˈeədrəum] *n* aerodrom
airdrop [ˈeədrɒp] *n harb.* parashutchi desantning samolyotdan tashlashi
air-dry [ˈeədraı] *a tex.* havo bilan quritilgan
air-duct [ˈeədʌkt] *n tex.* havo quvuri
Airedale [ˈeədeıl] *n* erdelteryer (*it zoti*)
aireddy [ˈeəredı] *n* havo uyurmalari (quyuni, girdobi)
air-engine [ˈe(ə)r,endʒın] *n* samolyot motori
air-exhauster [ˈe(ə)rıg,zɔ:stə] *n tex.* tortuvchi ventilator
air express [ˈe(ə)rıks,pres] *n* 1) posilkalarni havo (samolyot) orqali bir joydan ikkinchi joyga tez olib borish (yetkazish); 2) havo (samolyot) orqali bir joydan ikkinchi joyga olib borilgan posilkalar; 3) samolyot orqali olib borilgan (tashilgan) narsalar uchun to'lanadigan haq
airfast [ˈeəfɑ:st] *a tex.* havo o'tkazmaydigan; havo o'tmaydigan
airfield [ˈeəfi:ld] *n* aerodrom
air-fitter [ˈeə,fıtə] *n av.* motorist-mexanik
air-flow [ˈeəfləu] *a tex.* yurganda havoning qarshiligiga kamroq uchraydigan shaklda yasalgan (*mas.*, samolyot, avtomobil va h. k.)
Air Force [ˈeəfɔ:s] *n* harbiy-havo kuchlari
air-frame [ˈeəfreım] *n* uchish apparati korpusi
airfreight [ˈeəfreıt] *n* 1) samolyot yuki (*samolyotga ortiladigan yoki ortilgan yuk*); 2) samolyot orqali tashiladigan yuklar uchun olinadigan pul
air-freighter [ˈeə,freıtə] *n* yuk samolyoti
air-gap [ˈeəgæp] *n* zazor (*mashina qismlari o'rtasidagi juda tor tirqish*)
air-gas [ˈeəgæs] *n* yonuvchi aralashma
air-gate [ˈeəgeıt] *n* havo klapani
air-gauge [ˈeəgeıdʒ] *n* manometr
air-grating [ˈeə,greıtıŋ] *n* 1) pechkaning uyga issiq beradigan teshigi; 2) ventilator; 3) (*havo, gaz, tutun chiqib turishi uchun*) tuynuk, yo'l
air-gun [ˈeəgʌn] *n* havo kuchi bilan ishlaydigan miltiq
air-gunner [ˈeə,gʌnə] *n harb.* samolyotdan otadigan o'qchi
air-hammer [ˈeə,hæmə] *n* pnevmatik bolg'a
air-hardening [ˈeə,hɑ:dnıŋ] *n metal.* havoda chiniqtirish
air-head, air-heading [ˈeəhed,ˈeə,hedıŋ] *n harb.* havo desanti plasdarmi (*harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko'riladigan maydon*)
air-heater [ˈeə,hi:tə] *n tex.* 1) kalorifer (*issiq suv, bug' yoki issiq havo o'tadigan quvurlardan iborat isitish qurilmasi*); 2) havoni isitadigan qurilma; havoisitgich
air-highway [ˈeə,haıweı] *n* havo yo'llari trassasi
air-hole [ˈeəhəul] *n* 1) havo (gaz) chiqib turadigan tuynuk; 2) daryoning erigan *yoki* muzlamay qolgan joyi; 3) *av.* havo o'pqoni
air-hostess [ˈeə,həostəs] *n* samolyotning stuardessasi
airily [ˈe(ə)rılı] *adv* 1) yengil, oson; 2) nazokatli; 3) tuturiqsizlarcha, yengiltaklik bilan
airing [ˈe(ə)rıŋ] *n* shamollatish va quritish; **to take smb. for an ~** *amer.* kimnidir o'ldirmoq, halok qilmoq
air-jacket [ˈeə,dʒækıt] *a* damlanadigan qutqarish nimchasi
air-jet [ˈeədʒet] *n tex.* forsunka (*suyuq kukunsimon moddalarni purkab beruvchi asbob*)
airless [ˈeələs] *a* 1) shamolsiz; 2) havosiz
air-level [ˈeə,lev(ə)l] *n tex.* adilak, shayton (*binokorlik, duradgorlik ishlarida sathning gorizontal holatini ko'rish uchun ishlatiladigan asbob*)
air-lift [ˈeə,lıft] *n harb.* havo yo'li orqali boshqa joyga ko'chirish
airline, air-line [ˈeəlaın] *n* havo yo'li; **by ~** to'g'riga qarab
air liner [ˈeə,laınə] *n* 1) muayyan bir yo'nalishda uchuvchi samolyot; 2) odam tashiydigan samolyot
air-lock [ˈeəlok] *n tex.* havo probkasi
air mail [ˈeəmeıl] *n* havo pochtasi
airman [ˈeəmen] *n* uchuvchi
airmanship [ˈeəmənʃıp] *n* uchuvchilik mahorati
air-map [ˈeəmæp] *n* havo navigatsiyasining xaritasi
air marshal [ˈeəˈmɑ:ʃ(ə)l] *n* aviatsiya marshali
air mechanic [ˈeəmı,kænık] *n* bortmexanik (*uchish apparati mexanigi*)
air-medicine [ˈeə,meds(ə)n] *n* aviatsion tibbiyot
air-minded [ˈeə,maındıd] *a* aviatsiya masalalarining farqiga boradigan
air-monger [ˈeə,mʌŋgə] *n* xayolparast
air-motor [ˈeə,məutə] *n harb.* pnevmatik dvigatel
air-operated [ˈeə(r),ɒpəreıtıd] *a tex.* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*)
air-oven [ˈe(ə)r,ʌv(ə)n] *n tex.* havo hammomi
air-photography [ˌeəfəˈtɒgrəfı] *n* samolyotdan suratga olish va shu usulda olingan surat
air-pillow [ˈeə,pıləu] = **air-cushion**
air-pipe [ˈeəpaıp] *n tex.* ventilatsion (*binoning havosini almashtirish, tozalab turish uchun xizmat qiladigan*) quvur.
air-pit [ˈeəpıt] = **air-shaft**
airplane [ˈeəpleın] *n amer.* samolyot
air-plant [ˈeəplɑ:nt] *n bot.* epifit (*boshqa o'simlik tanasida o'sadigan, ammo boshqa organizm hisobidan yashamaydigan o'simlik*)
air-pocket [ˈeə,pɒkıt] *n adv* havo o'pqoni
airport [ˈeəpɔ:t] *n* aeroport
airpost [ˈeəpəost] = **air-mail**
air-powered [ˈeə,paʊəd] *a tex.* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*)
air-proof [ˈeəpru:f] *a* 1) zich yopiladigan; 2) havo kirmaydigan, chiqmaydigan; 3) havoni o'tkazmaydigan; havo o'tmaydigan
air-raid [ˈeəreıd] *n* havo hujumi
air-raider [ˈeə,reıdə] *n* havo hujumida qatnashadigan samolyot
air-rifle [ˈeə,raıfl] *n* havo kuchi bilan ishlaydigan miltiq, pnevmatik miltiq
air-root [ˈeəru:t] *n bot.* tashqaridagi (ochiq) ildiz (*o'simliklarda*)
air-route [ˈeəru:t] *n* havo trassasi
air scout [ˈeə,skaʊt] *n harb.* 1) havo razvedkachisi; 2) havoni kuzatuvchi
airscrew [ˈeəskru:] *n* havo parragi
air-setting [ˈeə,setıŋ] *n tex.* ochiq havoda qotish (*beton va b.*)
air shaft [ˈeəʃɑ:ft] *n tex.* ventilatsiya shaxtasi
airshed [ˈeəʃed] *n* angar (*samolyot, vertolyot va sh. k. turadigan yoki ta'mirlanadigan maxsus bino*)
airship [ˈeəˌʃıp] *n* havo kemasi
air show [ˈeəˌʃəu] *n* aviatsiya ko'rgazmasi
airsick [ˈeəˌsık] *a* havo kasalligidan azob chekayotgan

airsickness [ˈeəˌsɪknəs] *n* havo kasalligi
air-space [ˈeəspeɪs] *n* havodagi bo'shliq
air speed [ˈeəspi:d] *n* samolyotning uchish tezligi
air-spray [ˈeəspreɪ] *n* samolyot bilan sepish
air spraying [ˈeəˌspreɪɪŋ] *n* havodan dori sepish
air-stone [ˈeəstəʊn] *n* meteorit (*fazodan yerga tushgan jism*)
air-stop [ˈeəstɒp] *n* odam tashiydigan vertolyotning stansiyasi *yoki* qo'nish maydonchasi
air-stove [ˈeəstəʊv] *n* kalorifer (*issiq suv, bug' yoki issiq havo o'tadigan quvurlardan iborat isitish qurilmasi*)
air-strainer [ˈeəˌstreɪnə] *n tex.* 1) havoni tozalaydigan (yoki yangilaydigan) moslama; havotozalagich; 2) changyutgich (*havoni changdan tozalaydigan asbob*)
airstream [ˈeəstri:m] *n maxs.* havo oqimi
air strip [ˈeəˌstrɪp] *n* uchish-qo'nish maydoni
airt [ˈeət] *v shotl.* yo'nalishni ko'rsatmoq
air-tight [ˈeətaɪt] *n* havo o'tkazmaydigan
air-tightly [ˈeəˌtaɪtlɪ] *adv* ichiga havo kirmaydigan qilib
airtillery [eə tɪlərɪ] *n harb. jarg.* raketadan o'qqa tutish
air-to-air [ˌeətəˈeə] *n* bir samolyotdan ikkinchisiga o'tish
air-to-ground [ˌeətəˈgraʊnd] *a tex.* reaktiv (*orqaga tepish kuchidan foydalanadigan*)
air-trap [ˈeətræp] *n tex.* havotutqich
air-unit [ˈeəˌju:nɪt] *n* aviatsiya bo'limi
airvent [ˈeəvent] *tex.* sapun (*so'rish klapani*), porshenli ichki yonuv dvigateli karteridan gazlarni chiqarib yuboradigan klapan
air-washer [ˈeəˌwɒʃə] *n tex.* havoni tozalaydigan (yoki yangilaydigan) moslama; havotozalagich
airway [ˈeəweɪ] *n* havo yo'li
airwoman [ˈeəˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) uchuvchi ayol
airworthiness [ˈeəˌwɜ:ðɪnəs] *n* samolyotning uchishga yaroqliligi
airworthy [ˈeəˌwɜ:ðɪ] *a* uchishga yaroqli (*samolyot to'g'risida*)
airy [ˈe(ə)rɪ] *a* havoga oid
aisle [aɪl] *n* (*poyezd va teatrda*) o'rindiqlar orasidagi yo'lak; **to have (to lay** *yoki* **to send) smb. (rolling) in the ~s** *so'zl.* a) tomoshabinlarni quvontirmoq, shodlik (quvonch) hislarini tug'dirmoq; b) zo'r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldirmoq, ulkan muvaffaqiyat qozonmoq, katta yutuqqa erishmoq; d) kimnidir kuldirmoq, kulgisini qistatmoq; kimningdir vaqtini chog' qilmoq, ko'nglini ochmoq, xursand qilmoq
aisled [aɪld] *a* o'tish joyi (o'tib bo'ladigan joyi) bo'lgan (*qatorlar orasida*)
aisleless [ˈaɪlləs] *a* o'tish joylari bo'lmagan
ait [eɪt] *n* oroloha (*asosan, daryoda*)
aitchbone [ˈeɪtʃbəʊn] *n anat.* dumg'aza suyagi
ajar [əˈdʒɑ:] *a* yarim ochiq, zich yopilmagan
ajoint [əˈdʒɔɪnt] *adv* 1) duch kelgan (to'qnashgan, tutashgan, yaqinlashgan joyda); 2) oshiq-moshiqda
ajon joli [əˌʒɒnʒɒˈli:] *n bot.* kunjut (*janubda o'sadigan, urug'idan yog' olinadigan o'simlik va shu o'simlikning urug'i*)
akimbo [əˈkɪmbəʊ] *adv* ikki qo'lini beliga qo'yib
akin [əˈkɪn] *a* qarindoshlikka oid
akinesia [ˌækɪˈni:sɪə] *a tib.* akineziа (*qimirlash holatini yo'qotish*)
aknee [əˈni:] *adv esk.* tiz cho'kib, tiz cho'ktirib
akola [əˈkəʊlə] *n bot.* arab qalampiri (garmdorisi)
ala [ˈeɪlə] *n* (*pl* **alae**) 1) *anat. zool.* qo'shimcha qism, quyruq, dum, dum shaklidagi o'simta; **the ~e of the nose** burunning solinchagi; 2) *bot.* qanotli urug'
alabaster [ˈæləbɑ:stə] *n* ganch, alibastr
alabastrine [ˌæləˈbæstrɪn] *a* 1) alibastrdan qilingan, alibastrga oid, alibastr...., ganch...; 2) alibastrdek oppoq
alack [əˈlæk] *int.* afsus! attang!
alack-a-day [əˈlækədeɪ] = **alack**
alacrious [əˈlækrɪəs] *a esk.* jonli, tez, ildam, chaqqon, serg'ayrat, serharakat; sho'x
alacritous [əˈlækrɪtəs] *a kam.* 1) tayyor (shay) holatda, tayyorgarlik bilan; 2) g'ayrat (ishtiyoq, sa'y-harakat, jahd-u jadal) bilan
alacrity [əˈlækrɪtɪ] *n* tayyor turish
alae [ˈeɪli:] *pl of* **ala**
alala [ˌɑ:lɑ:ˈlɑ:] *n* jangovar chaqiriq, jangovar xitob (*qadimgi Yunonda*)
alalia [əˈleɪlɪə] *n tib.* gapirish qobiliyatini yo'qotish
alameda [ˌæləˈmeɪdə] *n kit.* atrofiga (tevaragiga) daraxtlar ekilgan xiyobon
alamodality [ˌæləmə(ʊ)ˈdælɪtɪ] *n esk.* keng tarqalganlik, hammaga rasm bo'lganlik
alamode [ˈæləməʊd] *a* 1) modali, rasm bo'lgan; 2) keng tarqalgan, hammaga rasm bo'lgan; 3) modaga oid, moda...; 4) *paz.* sabzavotlar bilan dimlab pishirilgan (*mol go'shti haqida*); **beef ~** mol go'shti
alamort [ˌɑ:ləˈmɔ:] *adv fr.* 1) o'lar (tuzalishidan umid yo'q) darajada, o'lar holatda, halokatli; 2) juda, juda ham, g'oyat, o'lguday
alan [ˈælən] *n esk.* bo'ribosar (*katta ovchi it*)
aland [əˈlænd] *adv* qirg'oqda, quruqlikda
alar [ˈeɪlə] *a* 1) qanotli; 2) qanotga o'xshagan; qanotga taalluqli (tegishli) bo'lgan
alarm [əˈlɑ:m] **1.** *n* vahima; **~s** (*yoki* **alarums**) **and excursions** *kit.* shovqin, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur, shovshuv, yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon, tartibsizlik, ortiqcha harakat, behuda (befoyda) urinish; **a false ~** yolg'ondakam trevoga (xavfni bildiruvchi xabar); **to take (the) ~** tashvishlanmoq, tashvishga tushmoq; bezovta bo'lmoq; qattiq qo'rqmoq, juda cho'chib ketmoq, o'takasi yorilguday bo'lmoq; hurkib ketmoq; sarosimaga (dahshatga) tushmoq; **2.** *v* qo'rqitmoq
alarm-clock [əˈlɑ:mklɒk] *n* qo'ng'iroqli soat
alarmed [əˈlɑ:md] *a* bezovta bo'lgan, hayajonlangan, hayajonga tushgan; bezovta, hayajonli, tashvishli, betinch
alarming [əˈlɑ:mɪŋ] *a* cho'chitadigan, qo'rqitadigan; hayajonli
alarmingly [əˈlɑ:mɪŋlɪ] *adv* tashvishlanib, xavotirlanib, qo'rqib, xavfsirab
alarmist [əˈlɑ:mɪst] *n* vahimachi
alarm-post [əˈlɑ:mpəʊst] *n* trevoga vaqtida qo'shin to'planadigan joy
alarum [əˈlærəm] *n* soatning jiringlashi
alas [əˈlæs] *int.* afsus! attang!
alaunt [əˈlɔ:nt] = **alan**
alb [ælb] *n cherk.* stixar (*dyakolarning ibodat vaqtida kiyadigan uzun kimxob kiyimi*)
Albanian [ælˈbeɪnɪən] **1.** *n* 1) albaniyalik erkak *yoki* ayol; 2) alban tili; **2.** *a* Albaniyaga va albanlarga oid
albatross [ˈælbətrɒs] *n zool.* albatros (*tumshug'i uzun, katta dengiz qushi*)
albert [ˈælbət] *n* erkaklar soatining zanjiri
albescent [ælˈbes(ə)nt] *a* rangi oqaradigan
albiness [ælˈbi:nəs] *n* albinizm belgilari bo'lgan ayol
albinism [ˈælbɪnɪz(ə)m] *n* albinizm (teri yoki sochlarda ularga xos normal rang beruvchi pigmentning yetishmasligi)
albino [æˈbi:nəʊ] *n* albinos (*albinizm belgilari bo'lgan kishi, o'simlik yoki jonivor*)

Albion [ˈælbɪən] *n she'r.* Albion, Angliya; **perfidious ~** „makkor Albion" (*Angliyaning laqabi*), Albion (*Buyuk Britaniyaning qadimgi nomi*)
albugo [æl ˈbju:gəo] *n tib.* ko'z dog'i, ko'zga tushgan oq
album [ˈælbəm] *n* albom
albumen [ˈælbjomɪn] *n biol.* oqsil, oqsil modda
albumen-free [ˈælbjomɪn,fri:] *a biol.* tarkibida oqsil moddasi bo'lmagan, oqsilsiz
albumin [ælbjomɪn] *n kim.* albumin (*suvda eriydigan moddasi bo'lmagan, oqsil modda*)
albuminoid [æl ˈbju:mɪnɔɪd] *a* oqsilsimon, oqsilga o'xshagan
albuminose [æl ˈbju:mɪnəos] = **albuminous**
albuminous [æl ˈbju:mɪnəs] *a* albumin *yoki* oqsil xususiyatiga ega bo'lgan
alburn [æl ˈbɜ:n] *n* ukleyka (karpsimonlar oilasiga mansub kichik baliq)
alburnum [æl ˈbɜ:nəm] *n* po'stloq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*)
alcayde [æl ˈkaɪdɪ, æl ˈkeɪd] *n* qamoqxona nazoratchisi
alcazar [æl ˈkæzə, ælkə ˈzɑ:] *n* saroy, o'rda
alchemic(al) [ˌæl ˈkemɪk(əl)] *a* alkimyoviy (*alkimyo o'rta asrlarda: oddiy metallarni oltin yoki kumushga aylantiruvchi „hikmat toshi" – iksir izlash bilan shug'ullangan xayoliy fanga oid*)
alchemist [ˈælkəmɪst] *n* kimyogar
alchemistry [æl ˈkemɪstrɪ] = **alchemy**
alchemy [ˈælkəmɪ] *n* alkimyo
alcohol [ˈælkəhɒl] *n* alkogol; spirt
alcoholate [ˈælkəhɒleɪt] *n kim.* alkogolyot (spirt)
alcoholic [ˌælkə ˈhɒlɪk] *a* 1) spirtga oid; 2) spirtli
alcoholism [ˈælkəhɒlɪz(ə)m] *n* alkogolizm (*ichkilik kasalligi*)
alcoholmeter [ˌælkəhɒ ˈmɪtə] *n* spirtomer
Alcoran [ˌælkɒ ˈrɑ:n] *n* Qur'on
alcove [ˈælkəov] *n* tokcha, taxmon
aldehyde [ˈældɪhaɪd] *n pl kim.* aldegidlar (*uglevodorod radikali bilan bog'langan aldegid guruhli organik birikmalar*)
alder [ˈɔ:ldə] *n bot.* olxa (*daraxti va butasi*)
alderman [ˈɔ:ldəmən] *n* shahar boshqarmasining a'zosi; **(as) fat as an ~** „oldermen"dek semiz (yo'g'on), semiz, yo'g'on, qorni katta
aldermanry [ˈɔ:ldəmənrɪ] *n* shahar boshqarmasidagi hudud
aldern [ˈɔ:ldən] *a* olxaga oid, olxadan qilingan
ale [eɪl] *n* pivo; **Adam's ~** *hazil.* suv; **to mend like sour ~ in summer** *esk. dial.* „yozdagi achchiq pivodek yaxshilanmoq", demak, yana ham yomonlashmoq
aleak [ə ˈli:k] *a predic.* oqayotgan; **the vessel is ~** kemaga suv kiryapti
aleatory [ˈeɪlɪətərɪ] *a* tasodifiy
Aleck [ˈælɪk] *n* : **a smart ~** *so'zl.* a) o'zini katta oladigan bezbet (surbet); b) bekor (sandiroqlab) yuradigan odam, tanbal, takasaltang; d) o'zini bilimdon (deb) hisoblovchi kishi, mahmadona
alee [ə ˈli:] *a* shamol esayotgan tomonga
alegar [ˈælɪgə] *n* achigan pivo
ale-house [ˈeɪlhaos] *n* pivoxona
ale-knight [ˈeɪlnaɪt] *n esk.* kanda qilmay pivoxonaga kelib turadigan odam
alembic [ə ˈlembɪk] *n tex.* suv qaynatish *yoki* suyuqliklarni haydash uchun ishlatiladigan berk idish
alert [ə ˈlɜ:t] *n* 1) tashvish, vahima, xavotirlik; 2) xavfni bildiruvchi ishora (xabar); 3) *harb.* jangovar tayyorgarlik holati; **to be on the ~** tayyorlanib (shaylanib) turmoq; **to keep on the ~** tinchini buzmoq; **a red ~** xatar (xavf) oldidagi jangovar shaylik
alertness [ə ˈlɜ:tnəs] *n* hushyorlik, sergaklik, ogohlik, sezgirlik
ale-score, ale-shot [ˈeɪlskɔ:, -ʃɒt] *n* ichilgan pivoga haq to'lash
ale-tap [ˈeɪltæp] *n* pivo bochkalari saqlanadigan yerto'la
alethoscope [ə ˈleθəskəop] *n fiz.* steoroskop (*ikkita yassi tasvirni bir-biriga qo'shib, bo'rttirib ko'rsatadigan optik asbob*)
alette [ə ˈlet] *n me'mor.* pilastra (*bir tomoni devordan chiqib turgan ustun*)
ale-vat [ˈeɪlvæt] *n* pivo tayyorlanadigan bir tomoni ochiq yog'och bochka
alevin [ˈælɪvɪn] *n* mayda baliqcha
ale-wife [ˈeɪlwaɪf] *n* pivoxona sohibasi
alexandrite [ˌælɪg ˈzɑ:ndraɪt] *n min.* aleksandrit (*qimmatbaho tosh*)
ale-yeast [ˈeɪlji:st] *n* pivo achitqisi
alezan [ˌɑ:lə ˈzɑ:n] *n* to'riq ot
alfalfa [ælˈ fælfə] *n bot.* beda
alfresco [æl ˈfreskəo] *a* ochiq havoda yuz beradigan
alga [ˈælgə] *n* dengiz suv o'tlari (o'simliklari)
algae [ˈældʒi:] *n* dengiz to'lqinlari
algebra [ˈælfdʒɪbrə] *n* algebra
algebraic [ˌældʒɪ ˈbreɪɪk] *a* algebraik; jabriy
Algerian [æl ˈdʒɪ(ə)rɪən] *a* Jazoirga va jazoirliklarga oid
algid [ˈældʒɪd] *a* sovuq, izg'irin
algist [ˈældʒɪst] *n* suv o'tlari (o'simliklari) mutaxassisi
algo [ˈælgə] *n* **algorithm** *so'zining qisqartmasi*
algology [ælˈ gɒlədʒɪ] *n* algologiya (*botanikaning suv o'tlarini o'rganuvchi bo'limi*)
algophobia [ˌælgə ˈfəobɪə] *n kit.* kasallikdan qo'rqish (vahimaga tushish)
algorithm [ˈælgərɪz(ə)m] *n mat.* algoritm (*biror masalani yechish qoidalari yoki amallari majmuyi*)
alias [ˈeɪlɪəs] *adv* boshqacha (*nomlanadigan*)
alibi [ˈælɪbaɪ] *yur.* aybdor emasligiga dalil
alibility [ˌælə ˈbɪlɪtɪ] *n kit.* to'yimlilik, to'q tutish xossasi
alible [ˈæləb(ə)l] *a kit.* to'q tutadigan, to'yimli
alidad, alidade [ˈælɪdæd, -deɪd] *n tex.* burchak o'lchagich
alien [ˈeɪlɪən] **1.** *n* chet ellik kishi; **2.** *a* begona, chet ellik
alienability [ˌeɪlɪənə ˈbɪlɪtɪ] *n yur.* davlat (yoki jamoat tashkilotlari) ixtiyoriga o'tkazish, musodara qilish
alienable [ˈeɪlɪənəb(ə)l] *a yur.* begonalashtiriladigan (*mulk to'g'risida*)
alienate [ˈeɪlɪəneɪt] *v* begonalashtirmoq
alienation [ˌeɪlɪə ˈneɪʃ(ə)n] *n* begonalashish
alienator [ˈeɪlɪəneɪtə] *n yur.* mol-mulki musodara qilingan kishi
alienee [ˌeɪlɪə ˈni:] *n yur.* mulk foydasiga musodara qilinayotgan shaxs
alien-enemy [ˈeɪlɪən,enɪmɪ] *n yur.* dushman davlatning mamlakatda yashovchi fuqarosi
alien-friend [ˈeɪlɪən,frend] *yur.* do'st davlatning mamlakatda yashovchi fuqarosi
alienigenate [ˌeɪlɪə ˈnɪdʒɪnɪt] *a kit.* asli (kelib chiqishi) chet ellik bo'lgan (*odamlar haqida*)
alienism [ˈeɪlɪənɪz(ə)m] *n* chet ellik kishining begona mamlakatdagi holati
alienist [ˈeɪlɪənɪst] *n* ruhiy kasallik shifokori
aliens duty [ˈeɪlɪənz,dju:tɪ] *n tar.* chet elliklarga solinadigan savdo solig'i
aliform [ˈeɪlɪfɔ:m] *a* qanotsimon
alight [ə ˈlaɪt] **1.** *v* 1) (*tramvay va b. dan*) tushmoq; **2.** *a* kuydirilgan
alighting [ə ˈlaɪtɪŋ] *n* kelib qo'nish
align [ə ˈlaɪn] *v* saf tortmoq, saflanmoq
aligning [ə ˈlaɪnɪŋ] **1.** *n* bir qator qilib joylashtirish; **2.** *v* bir qator qilib joylashtirmoq
alignment [ə ˈlaɪnmənt] *n* bir qator qilib joylashtirish

alike [ə ´laık] *a* o'xshash, ayni o'sha; **to be ~** bir-biriga o'xshamoq

aliment [´ælımənt] *n* taom, ovqat

alimentary [ˌæh´ment(ə)rı] *a* oziq-ovqatga oid

alimentation [ˌælımen´teıʃ(ə)n] *n* ovqatlantirish

alimentative [ˌælı ´mentətıv] *a kam.* 1) yeb bo'ladigan, ovqat (oziq) bo'ladigan; 2) to'q tutadigan, to'yimli

alimony [´ælımənı] *n* aliment, nafaqa

aline [ə´laın] = **align**

alineation [əˌlını ´eıʃ(ə)n] *n* (*mulkni*) musodara qilish

alinement [ə´laınmənt] = **alignment**

aliped [´ælıped] *a zool.* panjaqanotli (*ko'rshapalak va b.*)

aliquant [´ælıkwənt] *a mat.* qoldiqsiz bo'linadigan

alist [ə´lıst] *a deng.* bir yonga qiyshaygan, og'gan (*kema haqida*)

a little [ə´lıtl] **1.** *adv* 1) ozgina, biroz, andak, sal; 2) oz miqdorda, qittak, jintak, ko'p emas; **~ more** yana jindak; **~ later** sal kechroq; **~ older** biroz kattaroq; **not ~** oz (ozmuncha) emas, anchagina; **qisqa** (ozgina) vaqt, bir fursat, birpas; uzoq (ko'p) emas; **please wait ~** iltimos, birpas kuting; **2.** *a* unchalik katta (yoki ko'p) bo'lmagan, kichkina, oz, kam; **~ cake** bir bo'lak pirog (tort); **not ~ trouble** ko'p (ancha) tashvish, sarsongarchilik; **3.** *n* oz, qisqa vaqt (davr); **after ~** biroz o'tgandan keyin; **biroz** vaqt o'tgach; **for ~** ozgina (biroz) vaqtga, qisqa muddatga, birikki kunga

alive [ə´laıv] *a* 1) jonli; **more dead than ~** na o'lik, na tirik; **to be ~** tirik bo'lmoq; **to remain ~** tirik qolmoq, omon qolmoq; 2) tetik; **~ and kicking** *hazil.* sog'-salomat, eson-omon

alizarin(e) [ə ´lızərın] *n kim.* alizarin, ro'yan (*ba'zi o'simliklar ildizidan olinadigan yoki sun'iy yo'l bilan tayyorlanadigan bo'yoq modda*); **~ colours** alizarin bo'yoqlar

alkahest [´ælkəhest] *n* universal eritgich, erituvchi (*eritadigan suyuqlik*)

alkalescence [ˌælkə ´les(ə)ns] *n kim.* (*kuchsiz*) ishqorlilik

alkalescent [ˌælkə ´lesnt] *n kim.* kam ishqorli

alkali [´ælkəlaı] *a kim.* ishqor

alkalimeter [ˌælkə´lımıtə] *n kim.* alkalimetr (*eritgichdagi ishqor miqdorini o'lchaydigan asbob*)

alkalimetry [ˌælkə´lımıtrı] *n kim.* alkalimetriya

alkaline [´ælkəlaın] *a kim.* 1) ishqorga oid, ishqorli, ishqor...; 2) ishqor hosil qiladigan; 3) ishqor bilan (ishqor vositasida) ishlaydigan; **~ soil** ishqorli yer

alkalinity [ˌælkə´lınıtı] *n kim.* ishqorlilik

alkalization [ˌælkəl(a)ı´zeıʃ(ə)n] *n kim.* ishqorga aylantirish; ishqorga aylanish

alkaloid [´ælkəlɔıd] *n kim.* alkaloid

alki(e) [´ælkı] *n jarg.* 1) *kim.* alkagol, spirt; 2) spirtli ichimlik (*araq, vino va sh. k.*); 3) texnik spirt

Alkoran [ˌælkɔ´rɑ:n] = **Alcoran**

all [ɔ:l] *a* barcha; **after ~** oxiri, axiyri; pirovardida, oqibatda; **~ aboard!** chiqish tugadi (*kemaning jo'nashidan ogohlantirish*); **~ along** *so'zl.* hamma vaqt, eng avvalidan; doimo; **~ and sundry** bitta ham qolmasdan hamma, hamma qatorasiga, qatorasiga hamma, ketma-ket, birin-ketin; **~ anyhow** *so'zl.* naridan-beri, chala-chulpa, pala-partish; tartibsiz ravishda, to's-to'polonda; **~ at once** a) to'satdan, birdan, kutilmaganda; b) bir vaqtda, bir vaqtning o'zida, baravar, birdan; **~ but** a) oz bo'lmasa, sal bo'lmasa; b) -dan boshqa, -dan tashqari, -dan bo'lak; **~ for nothing** hammasi befoyda (foydasiz, bekor, behuda); **~ in** *so'zl.* a) juda charchagan, horg'in, so'lg'in, tinkasi qurigan, holdan toygan; b) jon deb (bajonidil, mamnuniyat bilan) qatnashadigan (*nimadadir*); d) hammasini o'z ichiga olganda, hammasini qo'shib hisoblaganda, hammasi bilan birga; **~ in ~ 1.** *n phr.* a) sevgili, sevikli; yaxshi ko'rgan (sevgan) mashg'uloti; b) hal qiluvchi omil, (*qandaydir ishda*) hamma narsa; **2.** *adv phr.* a) to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila; b) asosan, umuman, xullas, umuman aytganda (olganda); xullas kalom; **~ of** *amer.* ... dan ko'p emas; ortig'i bilan ..., faqat, atigi, bor-yo'g'i; **~ over** a) har yerda, hamma yoqda, har yoqda, har joyda, aylanib, atroflab; b) ma'lum tipga xos bo'lgan, o'ziga xos bo'lgan, aniq ko'rinib turadigan, boshqalardan ajralib turadigan; biror kimsa yoki narsa(ning o'zi)ga xos bo'lgan; kimningdir o'ziga xos; d)...ning xuddi o'zi, juda ham o'xshash (o'xshaydi), o'zginasi, quyib qo'yganday o'xshash; e) o'tmishda, orqada, o'tmishda (orqada) qoldi; f) 1) butunlay (uzil-kesil, batamom) hal bo'ldi; ish biti; 2) butunlay yo'q (barbod, tamom) bo'ldi, bitdi; **~ round** (*amer. shim.* **~ around**) a) har yerda, hamma yoqda, har yoqda, hamma (har) joyda, tevarak-atrofda, har tomondan (yoqdan); b) hammasini qo'shib hisoblaganda, ...bilan birga, har taraflama, atroflicha; **~ serene** *kam. so'zl.* xo'p, mayli, roziman, bo'pti, bo'ladi; binoyiday, yaxshigina, durustgina, durust, tuzuk; ko'ngildagidek; hamma narsa joyida; **~ square** *kam.* 1) a) ora ochiq, orani ochiq qildik, ora ochiq bo'ldi, qarzdan qutuldik, qarzni uzdik; b) *ko'ch. so'zl.* o'ch (qasd, qasos) olindi, hisoblashib qo'yildi; 2) xo'p, bo'pti, yaxshi, yomon emas; ajoyib, juda soz, ko'ngildagidek; hamma narsa joyida; **~ the go** (*shim.* **~ the rage**) *so'zl.* eng so'nggi antiqa moda, yoppasiga (hamma) baravariga qiziqadigan (shug'ullanadigan) narsa; **~ there** *so'zl.* aqlli, zehni o'tkir, idrokli, topqir, tez tushunadigan, aqli (kallasi) yaxshi ishlaydigan, fahmli; **first of ~** eng avvalo; **most of ~** hammasidan ko'ra; **~ of us** biz hammamiz; **~ day (all day long, all the day)** kun bo'yi; **~ right 1.** *int. phr. so'zl.* bo'pti! xo'p! mayli! roziman! bo'ladi! to'g'ri keladi! shubha qilmang! xotirjam bo'ling! ishoning! **2.** *adv phr.* 1) qoniqarli, qanoatlanarli, qoniqarli ravishda, qabul qilsa bo'ladigan ravishda, butunlay, tamoman, to'la, bemalol, yetarlicha, to'liq ravishda; 2) albatta, shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan, shak-shubhasiz, begumon, aniq, muqarrar, o'z-o'zidan ma'lum (ravshan, tushunarli); 3) muvaffaqiyatli ravishda, muvaffaqiyat bilan, muvaffaqiyatli; sog'-salomat, beshikast, bus-butun holda; **3.** *a phr.* 1) qoniqarli, ma'qul, yaroqli, muvofiq, qabul qilsa bo'ladigan; yaxshi, yomon emas, munosib, bop, mos; 2) sog', sog'lom, tani sog', sihat-salomatligi yaxshi, sog'aygan, tuzalgan, sog'ayib (tuzalib) ketgan; 3) *jarg.* halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil, insofli, andishali, nomusli; 4) *jarg.* juda yaxshi, juda soz, a'lo darajadagi, ajoyib; **~ the same** 1) baribir, farqi yo'q; 2) shunga qaramay (qaramasdan), shunday bo'lsa ham, har holda, biroq; **and ~** *so'zl.* va hokazo, va boshqalar; **and ~ that** va boshqalar, ana shu tarzda, aytganlaridek, aytilganidek, aytishlaricha; ayni payt, xuddi payti; **as ~ that** uncha, unchalik, shuncha, shunchalik, shu qadar, chandon; **at ~** 1) *esk.* mutlaqo, tamoman, butunlay, to'liq; juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada (tasdiq gaplarda ishlatiladi); 2) mutlaqo, also, sira, hech (*bo'lishsiz gaplarda ishlatiladi*); 3) umuman, umuman olganda (*tasdiq va inkor gaplarda, shu bilan birga, shart ergash gaplarda ishlatiladi*); **to be ~ abroad** 1) (nimanidir) tushunmaslik, tushunib (bilib, fahmlab, anglab) olmaslik; 2) shoshib (shoshi-

lib, hovliqib) qolmoq, sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq; **to be ~ adrift** sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq, miyasi gangib qolmoq, og'ir (mushkul, qiyin) ahvolga tushib qolmoq; **to be ~ for smb.** (*yoki* **smth.**) *so'zl.* kimnidir (*yoki* nimanidir) to'la qo'llab-quvvatlamoq; **to be ~ one to smb.** *so'zl.* kimgadir tamoman (mutlaqo) befarq, baribir; **to be** (*yoki* **to go**) **~ out** *so'zl.* har qanaqasiga (turli, har xil yo'l bilan) harakat qilmoq, kuchni ayamaslik, kuchni ayamasdan harakat qilmoq; zo'r bermoq, kuyib-pishib urinmoq, o'lgan-tirilganiga qaramay harakat qilmoq (tirishmoq); **to be ~ over** 1) (**smb.**) *so'zl.* 1) kimgadir nisbatan nozik tuyg'uni his qilmoq (etmoq); 2) (**smth.**) nimagadir juda qoyil qolmoq; **to be ~ over oneself** *so'zl.* 1) har tomonlama harakat qilmoq, kuchini ayamoq; 2) g'oyat mamnun (juda qoyil) bo'lmoq, haddan tashqari (juda, o'ta) xursand bo'lmoq; 3) o'zini katta tutmoq; **(sweet) damn ~** *so'zl.* hech balo (vaqo, narsa); **the deuce** (*yoki* **the devil**) **and ~** jin ursin! obbo; **for ~** ga qaramasdan; **for ~ of me** *amer. so'zl.* menga kelganda, menga kelsak; **for ~ that** (*yoki* **this**) har holda, shunga qaramay, shunga qaramasdan, shunday bo'lsa-da; **in ~** hammasi, jami, hammasi bo'lib; **in ~ likelihood** (*yoki* **probability**) ehtimol shunday(dir), ajab emas shunday bo'lsa, shunday bo'lsa kerak; aftidan (chamasi) shunday; **not at ~** 1) hech (sira, zarracha) ham (...yo'q); 2) marhamat, arzimaydi (*„rahmat" deganga javoban*)

Allah ['ælə,'ælɑ:] *n* Olloh, Xudo, Tangri

all along [ˌɔ:lə'lɒŋ] *phr. prep. so'zl.* sababli, tufayli, vajdan, orqasida, ...ni deb, uchun, natijasida; **it's ~ of you** bu hammasi siz tufayli

all-American [ˌɔ:lə'merɪkən] *a* 1) sof (haqiqiy) amerikacha; 2) butunlay AQSHga taalluqli bo'lgan; 3) AQSH chegarasidan chiqmaydigan; 4) barcha Amerika davlatlariga qarashli bo'lgan; 5) *sport.* terma, terilgan, terib olib tuzilgan (*AQSH jamoasi haqida*)

all-around [ˌɔ:lə'raʊnd] *n sport.* ko'p kurash (*sportning turli xillari*)

allay [ə'leɪ] *v* tinchlantirmoq, ovutmoq

all-clear [ˌɔ:l'klɪə] *n* havo xatari tugaganligi haqidagi ishora

all-crop drill ['ɔ:lkrɒpˌdrɪl] *n q.x.* universal seyalka (*urug' sepish, ekish uchun xizmat qiladigan mashina*)

allegation [ˌælɪ'geɪʃ(ə)n] *n* tasdiqlash (*dalilsiz*); **~ of faculties** *yur.* (*eridan aliment talab qilish maqsadida*) erining moddiy ahvolini bilish uchun xotinining yozgan arizasi

allege [ə'ledʒ] *v* tasdiqlamoq

alleged [ə'ledʒd] *a* 1) tasdiqlaydigan, tasdiqlovchi (*odatda, dalil-isbotsiz*); 2) yolg'ondakam, yolg'on; 3) xayol (faraz) qilingan

allegedly [ə'ledʒɪdlɪ] *adv* go'yo, go'yoki

allegiance [ə'li:dʒ(ə)ns] *n* sodiqlik

allegoric(al) [ˌælɪ'gɒrɪk(əl)] *a* kinoyali

allegorically [ˌælɪ'gɒrɪk(ə)lɪ] *adv* 1) qochirimlar (kinoyalar, majozlar)ga asoslangan; kinoya..., majoz...; 2) kinoya bilan, kinoya (shama, qochirim) qilib, kesatib

allegorist ['ælɪg(ə)rɪst] *n* kinoya bilan gapiradigan kishi

allegorize ['ælɪg(ə)raɪz] *v* kinoya (shama) qilib gapirmoq

allegory ['ælɪg(ə)rɪ] *n* kinoya

allegretto [ˌælɪ'gretəʊ] *n ital. mus.* 1) allegrodan birmuncha sekin, lekin moderatodan birmuncha tez sur'at; 2) allegretto (*sur'atidagi pyesa yoki asar qismining nomi*)

allegro [ə'le(ɪ)grəʊ] *mus.* **1.** *adv* tez (*musiqa asarining tez, jadal ijro etilishi haqida*); **2.** *n* allegro (*tez, jadal ijro etiladigan musiqa asari yoki uning bir qismi*)

all-electric [ˌɔ:lɪ'lektrɪk] *a* elektrlashtirilgan, elektr energiyasi bilan ta'minlangan

alleleu [ˌælɪ'lu:] *n esk.* 1) qichqiriq, hayqiriq, baqiriq; chinqiriq, ayyuhannos; 2) dod, dod-voy, nola, faryod, fig'on, afg'on; o'kirib yig'lash

allelomorph [ə'li:ləmɔ:f] *n biol.* allelomorf (*bir xil genning turli shakllaridan biri*)

allemande ['ælmɑ:nd] *n* allemande (*raqs*)

all-embracing [ˌɔ:lɪm'breɪsɪŋ] *a* keng qamrovli, ko'p narsani o'z ichiga olgan

allenarly [ə'lenɜ:lɪ] **1.** *adv dial.* 1) endi(gina), hozir(gina); yaqinda; 2) birdan-bir, birgina, yagona; **2.** *a* tengi (misli) yo'q, yolg'iz

allergic [ə'lɜ:dʒɪk] *a tib.* allergiyaga oid

allergy ['ælədʒɪ] *n tib.* allergik, o'ta ta'sirchanlik

alleve [ə'li:v] *v esk.* osonlashtirmoq, yengillashtirmoq, yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, muloyimlashtirmoq

alleviate [ə'li:vɪeɪt] *v* yengillashtirmoq

alleviation [əˌli:vɪ'eɪʃ(ə)n] *n* yengillashtirish

alley ['ælɪ] *n* xiyobon; **to be (right) down** (*yoki* **up**) **one's ~** *jarg.* 1) biror kishi bilan sherik bo'lmoq; 2) kimningdir didiga yoqmoq (o'tirmoq), kimningdir qandaydir talabiga to'liq javob bermoq; **a blind ~** 1) boshi berk ko'cha, (hech qayerga chiqib bo'lmaydigan) boshi berk yo'l; 2) boshi berk ko'cha, qiyin (mushkul) ahvol; **blind ~ employment (job** *yoki* **occupation)** istiqbolsiz, kelajagi (istiqboli) yo'q ish

alleyway ['ælɪweɪ] *n* tor ko'cha, tor o'tish yo'li

all-fired ['ɔ:l'faɪəd] *a jarg.* 1) do'zaxga, jahannamga oid, do'zaxda bo'ladigan; do'zax...; jahannam...; 2) *ko'ch.* juda og'ir, chidab bo'lmaydigan

All Fool's Day [ˌɔ:l'fu:lzˌdeɪ] *n* hazil, yolg'onlar kuni (*1-aprel*)

all fours [ˌɔ:l'fɔ:z] *n* 1) (*hayvonlarning*) to'rtta qo'l-oyoqlari; 2) *hazil.* (*insonning*) qo'l va oyoqlari; **on ~** emaklash, emaklab yurish; 3) ikki kishi o'ynaydigan qarta o'yini

all-honoured [ˌɔ:l'ɒnəd] *a* hamma hurmat qiladigan

alliable [ə'laɪəbl] *a kam.* ittifoqqa kirish (qo'shilib a'zo bo'lish) imkoniyatiga ega bo'lgan

alliance [ə'laɪəns] *n* 1) ittifoq; **the Holy Alliance** *tar.* muqaddas uyushma (ittifoq) (*Avstraliyadagi reaksion uyushma*); **the unholy ~** *kin.* gunohkorlar uyushmasi (ittifoqi); 2) qarindoshlik

allicit [ə'lɪsɪt] *v esk.* 1) qiziqtirmoq, havasini keltirmoq, qiziqtirib, biror ishga tortmoq, yo'ldan urmoq; 2) o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qiziqtirib qo'ymoq; 3) maftun etmoq, es-hushini olib qo'ymoq

allied [ə'laɪd] *a* ittifoqdosh

alligation [ˌælɪ'geɪʃ(ə)n] *n* qotishma, aralashma

alligator ['ælɪgeɪtə] *zool.* alligator, timsoh

all-important [ˌɔ:lɪm'pɔ:t(ə)nt] *a* birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan, eng (juda) muhim

all-in [ˌɔ:l'ɪn] **1.** *a* charchagan, toliqqan, holdan toygan; **2.** *adv* hammasini qo'shib hisoblaganda

all-in-all [ˌɔ:lɪn'ɔ:l] *a* juda muhim, juda kerakli

all-in-one [ˌɔ:lɪn'wʌn] *a tex.* butun, yaxlit

allision [ə'lɪʒ(ə)n] *n esk.* to'qnashuv, to'qnashish, urushish, bir-biriga urilib

alliteration [əˌlɪtə'reɪʃ(ə)n] *n adab.* alliteratsiya (*badiiy nutqda, she'rda bir xil yoki ohangdosh undoshlarning qaytarilishi, ketma-ket, yonma-yon kelishi*)

allium ['ælɪəm] *n* piyozlilar oilasiga mansub o'simlik, piyoz

all-knowing [ˌɔ:l'nəʊɪŋ] *a* hamma narsani biladigan, hamma narsadan xabardor

all-mash [ˈɔ:lmæʃ] *n q.x.* kombikorm (*omuxta yem, ozuqa*)
all-metal [ˌɔl:ˈmetl] *a* nuqul metalldan qilingan (yasalgan)
allness [ˈɔ:lnəs] *n kit.* 1) umumiylik, yalpilik, ommaviylik, barchaga baravar taalluqlilik; 2) universallik, har tomonlama bilimdonlik, har yoqlama ma'lumotga egalik
all-night [ˌɔ:lˈnaɪt] *a* tungi, tun bo'yi ishlaydigan (*restoran, qahvaxona va b.*)
allocate [ˈæləkeɪt] *v* 1) joylashtirmoq; 2) tayinlamoq (**to**)
allocation [ˌælə ˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) taqsimot; 2) tayinlash
allocatur [ˌælə ˈkeɪtə] *lot. yur.* ruxsat (ijozat) etilgan, yo'l qo'yilgan
allochroic [ˌælə ˈkrɔʊɪk] *a tib.* rangi o'zgarib turadigan
allocution [ˌæləʊ ˈkeɪʃ(ə)n] *a* pand-nasihatli nutq, murojaat
allodial [ə ˈləʊdɪəl] *a tar.* soliq majburiyatlaridan ozod bo'lgan
allodium [ə ˈləʊdɪəm] *n* to'la xususiy mulk hisoblanadigan va soliq majburiyatlaridan ozod yer
allogamy [ə ˈlɒgəmɪ] *n bot.* chetdan changlanish
allogeneous [ˌælə ˈdʒi:nɪəs] *a kit.* har xil, xilma-xil, turli, turli-tuman, boshqa-boshqa
allogenic [ˌælə ˈdʒenɪk] *a geol.* begona, chet, yot (*siniq, chaqiq tog' jinslari haqida*)
allomerism [ə ˈlɒmə,rɪzəm] *n maxs.* allomerizm (*kimyoviy tarkibini o'zgartirganda kristallik tuzilishini saqlab qolish*)
allomorphism [ˌælə ˈmɔ:fɪz(ə)m] *n maxs.* allomorfizm
allonge I [ə ˈlɒnʒ] *n esk.* rapira (*qilich-bozlikda qo'llaniladigan, chor qirrali qilichsimon qurol*) bilan beriladigan zarba
allonge II [ə ˈlɒnʒ] *n sav.* allonj (*hujjat yoki vekselga yopishtirib qo'yiladigan qo'shimcha qog'oz varag'i*)
allonym [ˈælənɪm] *n* 1) allonim (*taxallus sifatida olingan nom*); 2) taxallus bilan yozilgan (nashr etilgan) kitob
alloo [ə ˈlo] *v esk.* qichqiriq (hayqiriq, baqiriq) bilan haydab bormoq (kelmoq)
allopath [ˈæləpæθ] *n* allopat
allopathic [ˌælə ˈpæθɪk] *a* allopatik
allopathist [ə ˈlɒpəθɪst] = **allopath**
allopathy [ə ˈlɒpəθɪ] *n* allopatiya (*kasallik belgilariga qarama-qarshi, ammo samarali bo'lgan dorilar bilan davolash prinsipi*)
allophane [ˈælə,fem] *n min.* allofan
allophylian [ˌælə(ʊ) ˈfɪlɪən] *a kit.* 1) boshqa irqqa qarashli bo'lgan; 2) urug'i (aymog'i, nasli, zoti, zurriyoti, avlodi) boshqa bo'lgan
allot [ə ˈlɒt] *v* taqsimlamoq, bo'lmoq
allotheism [ˌælə(ʊ)θi:ɪzm] *n* alloteizm (*boshqalarning xudosini hurmat qilish*)
allotment [ə ˈlɒtmənt] *n* 1) taqsimlash, bo'lib berish; 2) tayinlash, belgilab berish; 3) qism, bo'lak; hissa, ulush; 4) ijaraga beriladigan yer maydoni
allotropism [ə ˈlɒtrəpɪz(ə)m] *n kim.* allotropiya (*biror moddaning turli ko'rinishlarda, masalan: uglerodning ko'mir, grafit va olmos ko'rinishida mavjud bo'la olishi*)
allotropy [ə ˈlɒtrəpɪ] = **allotropism**
allottee [ə,lɒ ˈti:] *n* 1) yer maydonini oluvchi; 2) mayda ijarachi
all-out [ˌɔ:lˈaʊt] **1.** *a* to'la; umumiy, yalpi; **2.** *adv* bor kuch bilan
all-outer [ˌɔ:lˈaʊtə] *n amer.* qat'iy *yoki* so'nggi choralar tarafdori
all over [ˌɔ:lˈəʊvə] **1.** *so'zl.* qoplagan, qoplab olgan, toshib ketgan, to'lib-toshgan; **2.** *adv so'zl.* har yerda, hamma yoqda, har yoqda, har joyda; **3.** tamom bo'ldi, tugadi, yig'ishtirildi
all-overish [ˌɔ:lˈəʊv(ə)rɪʃ] *a* mazasi qochayotgan
all-overishness [ˌɔ:lˈəʊv(ə)rɪʃnəs] *n so'zl.* umumiy darmonsizlik
allow [ə ˈlaʊ] *v* 1) ijozat bermoq; 2) bermoq; **to ~ time** vaqt bermoq
allowable [ə ˈlaʊəb(ə)l] *a* 1) bo'lishi mumkin bo'lgan, yo'l qo'yish mumkin bo'lgan; 2) ijozat berilgan, ruxsat etilgan, yo'l qo'yilgan; 3) qonuniy
allowably [ə ˈlaʊəblɪ] *adv* mumkin (joiz, ravo) bo'lgan holda, yo'l qo'yib bo'ladigan tarzda
allowance [ə ˈlaʊəns] *n* ruxsat; ijozat; **make ~(s) for smth.** nimanidir e'tiborga (hisobga) olmoq; nimaningdir narxini tushirmoq; nimagadir tuzatish kiritmoq; **monkey's ~** *esk. jarg.* mukofot o'rniga kaltaklash
allowedly [ə ˈlaʊɪdlɪ] *adv* ijozat berilgan yo'sinda
alloy [ə ˈlɔɪ] *n* (*qandaydir metallning*) qotishmasi
alloyage [ə ˈlɔɪɪdʒ] *n metal.* legirlash (*metallga boshqa metall qo'shib, fizika-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash*)
alloying [ə ˈlɔɪɪŋ] *n metal.* qotishtirish, birga eritib, qotishma hosil qilish; **an ~ element** legirlovchi (*metallarga boshqa metall qo'shib, fizika-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilovchi*) element
all-powerful [ˌɔ:lˈpaʊəf(ə)l] *a* har narsaga qodir, qudratli, kuchli
all-purpose [ˌɔ:l,pɜ:pəs] *a* universal, keng qo'llaniladigan; **an ~ tractor** universal traktor
all-red [ˌɔ:lˈred] *a esk.* Britaniyaga va inglizlarga oid; Britaniya ...; ingliz(lar)...
all-right [ˌɔ:lˈraɪt] **1.** *a* qoniqarli; hammasi joyida; **2.** *adv* juda ma'qul tarzda; **3.** *int.* yaxshi! xo'p! bo'pti!
all-round [ˈɔ:lraʊnd] *adv* har taraflama, ko'p tomonlama
all-rounder [ˌɔ:lˈraʊndə] *n sport.* o'nkurashchi
all-seeing [ˌɔ:lˈsi:ɪŋ] *a* hamma narsani ko'ruvchi, ko'zi o'tkir, ziyrak
allspice [ˈɔ:lspaɪs] *n bot.* Yaman murchi
all-star [ˈɔ:lstɑ:] *a teatr.* kinoyulduzlardan iborat bo'lgan, yulduzlardan tashkil topgan
all-sufficient [ˌɔ:lsəˈfɪʃ(ə)nt] *a* 1) mutlaqo (juda) yetarli, yetadigan, kifoya qiladigan; 2) *iqt.* birovlarning yordamiga muhtoj bo'lmagan, chetdan (sirtdan) yordam olmaydigan
allthing [ˈɔ:lθɪŋ] *n esk.* barcha (hamma, bor) narsa
all-time [ˈɔ:ltaɪm] *a* misli ko'rilmagan, eshitilmagan
allude [ə ˈlu:d] *v* aytib o'tmoq
All-Union [ˌɔ:lˈju:nɪən] *a* umumittifoq
allure [ə ˈl(j)uə] *v* maftun etmoq
allurement [ə ˈl(j)uəmənt] *n* qiziqtiradigan (havasni keltiradigan) narsa
allurer [ə ˈl(j)uərə] *n* 1) yo'ldan ozdiruvchi (yo'ldan uruvchi, vasvasaga soluvchi) narsa, odam, avroqchi; qiziqtirib (havasini keltirib) yo'ldan uradigan odam; 2) ayollarni yo'ldan uruvchi kishi
alluring [ə ˈl(j)uərɪŋ] *a* qiziqtiradigan
alluringly [ə ˈl(j)ʊ(ə)rɪŋlɪ] *adv* 1) qiziqtirib, havasini keltirib, o'ziga tortib; 2) jozibadorlik (dilbarlik, ko'rkamlik) bilan
allusion [ə ˈlu:ʒ(ə)n] *n* 1) luqma; 2) surgun
allusive [ə ˈlu:sɪv] *a* kinoyali, shamali, qochirimli (**to**)
allusively [ə ˈlu:sɪvlɪ] *adv* 1) (nimagadir) shama (ishora) qilib; 2) kinoya (shama) bilan, kinoya (shama) qilib, kesatib
alluvial [ə ˈlu:vɪəl] *a geol.* o'tirindi, cho'kindiga oid
alluvion [ə ˈlu:vɪən] *n* o'tirindi, cho'kindi
alluvium [ə ˈlu:vɪəm] *n* cho'kindi qatlamlari
all-wool [ˌɔ:lˈwʊl] *a* sof jundan qilingan
all work [ˈɔ:lwɜ:k] *n* barcha uy yumushlari; **a maid of ~** barcha uy yumushlarini bajaradigan ayol
ally [ˈælaɪ] **1.** *n* ittifoqdosh; **2.** *v* birlashtirmoq

alma [ˈælmə] *n* alme (*misrlik raqqosa*)
almadia [ˌælməˈdi:ə] *n* 1) hind qayig'i; 2) afrika qayig'i (*yog'ochni o'yib yasalgan*)
almagra [ælˈmeɪgrə] *n* to'q oxra (*mineral bo'yoq*)
almah [ˈælmə] = **alma**
almanac [ˈɔ:lmənæk] *n* taqvim; almanax
almandite [ˈælməndaɪt] *n min.* almandine (*granatlar guruhiga mansub mineral*)
almighty [ɔ:lˈmaɪtɪ] *a* qudratli, qodir
almoign [ˈælmɔɪn] *n esk.* 1) xayr, ehson, sadaqa; 2) iona qutichasi (*yordam puli, sadaqa yig'iladigan quti*)
almond [ˈɑ:mənd] *n bot.* bodom (*daraxti*)
almond-butter [ˈɑ:mənd,bʌtə] *n* bodom yog' upasi (kremi)
almond-milk [ˈɑ:mənd(ˌ)mɪlk] *n* bodom suti
almond-oil [ˈɑ:mənd(ˌ)ɔɪl] *n* bodom moyi
almond-shaped [ˌɑ:mənd ˈʃeɪpt] *a* bodomsimon
almondy [ˈɑ:məndɪ] *a* 1) bodomga oid; bodom...; 2) bodom mag'zidan olingan, tayyorlangan, bodomli; 3) bodomsimon, bodomga o'xshash
almoner [ˈɑ:mənə] *n esk.* xayr-ehson ulashuvchi (*saroy va b. dagi mansabdor shaxs*)
almonry [ˈɑ:mənrɪ] *n tar.* sadaqa tarqatadigan joy
almost [ˈɔ:lməʊst] *adv* deyarli; ~ **never killed a fly** (*shun.* **almost was never hanged**) *maq.* hatto pashshaga ham ozor yetkazmagan
alms [ɑ:mz] *n* xayr-ehson
alms-basket [ˈɑ:mzˌbɑ:skɪt] *n* sadaqa solinadigan quti; **to live on the** ~ sadaqa olib kun kechirmoq
alms-deed [ˈɑ:mzdi:d] *n* muhtojlarga yordam, xayr-saxovat, ehson
alms-folk [ˈɑ:mzfəʊk] *n pl* ehson hisobidan kun kechiruvchi kambag'allar
alms-gift [ˈɑ:mzgɪft] = **almsgiving**
almsgiving [ˈɑ:mzˌgɪvɪŋ] *n* sadaqa tarqatish (ulashish, taqsimlash, ulashib, taqsimlab berish)
alms-house [ˈɑ:mzhaʊs] *n* g'aribxona
almsman [ˈɑ:mzmən] *n* 1) xayr-sadaqa hisobiga kun kechiradigan kishi; 2) *esk.* muruvvat ko'rsatuvchi, yaxshilik qiluvchi, valine'mat
almug [ˈælmʌg] *n kam.* sandal daraxti (*yog'ochi xushbo'y, doim yashil daraxt*)
alodial [əˈləʊdjəl] = **allodial**
aloe [ˈæləʊ] *n bot.* aloy, sabur
aloedary [æ ˈləʊdərɪ] *n esk.* aloy (sabur)dan qilingan surgi dori
aloft [əˈlɒft] *adv* yuqorida, tepada
alogy [ˈælədʒɪ] *n esk.* 1) bema'nilik, tuturiqsizlik; 2) bema'ni (bo'lmag'ur, bekor) gap, safsata, behuda, gaplar
aloid [ˈæləɪd] *a* 1) aloyga o'xshagan, aloysimon; 2) aloyga oid, aloy bilan bog'liq bo'lgan
alone [əˈləʊn] *a* yolg'iz; **to let** ~ tinch qo'ymoq
along [əˈlɒŋ] *prep.* bo'ylab, yoqalab; **to go (to come)** ~ **with smb.** kim bilandir birga bormoq (kelmoq); ~ **a river (a street)** daryo (ko'cha) bo'ylab; **(all)** ~ **of** *so'zl.* tufayli, sababli, orqasida, natijasida, sharofati bilan
along-shore [əˌlɒŋˈʃɔ:] *adv* qirg'oqda, qirg'oq bo'yida
alongside [əˌlɒŋˈsaɪd] *adv* yonma-yon, bir qatorda; yaqinida
alongst [əˈlɒŋst] *adv esk.* bilan birga, bilan bir qatorda
aloof [əˈlu:f] *adv* nariroqda, chetroqda
aloofness [əˈlu:fnəs] *n* 1) uzoqlashib ketganlik, begonalik; 2) befarqlik, beparvolik, e'tiborsizlik
alopecia [ˌæləˈpi:ʃə] *n* 1) *tib.* soch to'kilish, siyqabosh (yaltirbosh) bo'lib qolish; kallik, boshida sochi yo'qlik; 2) siyqa, sochi to'kilgan joy, yaltiroq (kal) joy
aloud [əˈlaʊd] *adv* baland, ovoz chiqarib
alow I [əˈləʊ] *adv* 1) ostda, pastda, quyida, tubanda, pastki tomonda; ostga, pastga, quyiga, tubanga, pastga qarab; 2) kemaning pastki qismiga(da)
alow II [əˈləʊ] *adv. dial.* 1) o'tda (olovda) yonayotgan; 2) o'tdek yonib, isitmalab
alp [ælp] *n* tog' cho'qqisi
alpaca [ælˈpækə] *n* alpoka junidan qilingan gazlama
alpenstock [ˈælpənstɒk] *n sport.* alpinistlarning nayzador uzun tayog'i
alpestrian [ælˈpestrɪən] *n kam.* alpinist (*alpinizm bilan shug'ullanuvchi sportchi*)
alpha [ˈælfə] *n* alfa (*grek alifbosining birinchi harfi*); **the Alpha and Omega** avvali va oxiri, mohiyat, asl (tub) ma'no, ahamiyatli, eng muhim
alphabet [ˈælfəbet] *n* alifbo
alphabetarian [ˌælfəbəˈte(ə)rɪən] *n kam.* yosh (endigina boshlagan, o'rganuvchi) shogird (talaba)
alphabetic [ˌælfəˈbetɪk] *a* alifboga oid.
alphabetical [ˌælfəˈbetɪk(ə)l] *a* alifboga oid
alphabetically [ˌælfəˈbetɪk(ə)lɪ] *adv* alifbo tartibida
alphabetize [ˈælfəbətaɪz] *v* alifbo tartibida joylashtirmoq
alpha decay [ˌælfədɪˈkeɪ] *n fiz.* alfa-yemirilish (*atom yadrolarining radioaktiv yemirilishlaridan bir turi, bunda zarra ajratib chiqadi, yadro zaryadi 2 birlikka, massa soni 4 birlikka kamayadi*)
alpha particle [ˈælfəˌpɑ:tɪk(ə)l] *n fiz.* alfa-zarralar (*geliy atomi yadrosi*)
alpha rays [ˈælfəˌreɪz] *n pl fiz.* alfa nurlari
alphenic [ælˈfenɪk] *n farm.* qamishdan olingan oq qand, shakarqamish oq qandi
alphin [ˈælfɪn] = **alfin**
alpine [ˈælpaɪn] *a* baland tog'larga xos *yoki* mansub bo'lgan
alpinist [ˈælpɪnɪst] *n* alpinist
already [ɔ:lˈredɪ] *adv* allaqachon
alright [ɔ:lˈraɪt] *predic.* yaxshi, qoniqarli, qanoatlantirarli; ma'qul
als [æls] = **also**
alsatia [ælˈseɪʃ(ɪ)ə] *n ko'ch.* jinoyatchilar uyasi (makoni)
alsatian I [ælˈseɪʃ(ə)n] *n esk.* qochib yurgan qarzdor yoki jinoyatchi
alsatian II [ælˈseɪʃ(ə)n] *n* sharqiy yevropa ovcharkasi (iti)
alsike clover [ˈælsaɪkˌkləʊvə] *n bot.* gibrid (chatishtirib hosil qilingan, chatishma) beda, yo'ng'ichqa
also [ˈɒlsəʊ] *adv* shuningdek, ham; ~ **ran** *so'zl. sport.* musobaqaning omadsiz qatnashchisi
alt [ælt] *n mus.* baland ovoz; **to be in** ~ ko'tarinki ruhda bo'lmoq; *mus.* bir oktava baland olmoq
altar [ˈɔ:ltə] *n* minbar, arsh (butxonada), mehrob (*cherkovning ibodat qilinadigan asosiy qismi, cherkov ibodatxonasi*); **to lead to the** ~ er-xotin bo'lmoq, uylanmoq, nikohiga olmoq, nikohiga o'tmoq
altazimuth [ælˈtæzɪməθ] *n maxs.* altazimut
alter [ˈɔ:ltə] *v* 1) o'zgartmoq, o'zgartirmoq, o'zgarishlar kiritmoq, boshqacha qilmoq; 2) *amer. dial.* bichmoq, axta qilmoq
alterability [ˌɔ:ltərəˈbɪlɪtɪ] *n* o'zgarish, turlanish
alterable [ˈɔ:ltərəb(ə)l] *a* o'zgaruvchan
alterant [ˈɔ:ltərənt] *a* taklifni o'zgartirishga olib keladigan
alteration [ˌɔ:ltəˈreɪʃ(ə)n] *n* o'zgartirish
alterative [ˈɔ:ltərətɪv] *a* o'zgartirishga sabab bo'lishga qodir
altercate [ˈɔ:ltə:keɪt] *v* janjallashib qolmoq; gap talashmoq (**with**)
altercation [ˌɔ:ltəˈkeɪʃ(ə)n] *n* janjal, mojaro
alter ego [ˌæltərˈi:gəʊ] *n lot.* eng yaqin do'st va hamfikr
alterity [ɔ:lˈterɪtɪ] *n kam.* tafovut, farq, o'zgachalik, o'xshamaslik, har xillik, farq qilish, tafovut qilish; o'xshash (monand) emaslik

alternant [ɔːlˈtɜːnənt] *a* 1) navbatma-navbat (galma-gal) qiladigan, almashib turadigan; 2) *maxs.* o'zgaradigan, o'zgarib turadigan, o'zgaruvchan
alternate [ɔːlˈtɜːnɪt] **1.** *a* navbati bilan qilinadigan; **2.** *v* galma-gal qilmoq
alternately [ɔːlˈtɜːnɪtlɪ] *adv* navbat bilan, galma-gal, navbatma-navbat, navbatlashib
alternating [ˈɔːltəneɪtɪŋ] *a* almashib turadigan
alternation [ˌɔːltəˈneɪʃ(ə)n] *n* galma-gal qilish
alternative [ɔːlˈtɜːnətɪv] **1.** *n* ikki yo'ldan birini tanlash; **2.** *a* ikki yo'ldan birini tanlashni taqozo etadigan
alternatively [ælˈtɜːnətɪvlɪ] *adv* muqobil ravishda
alternator [ˈɔːltəneɪtə] *n el.* o'zgaruvchan tok generatori, alternator
althaea [ælˈθɪːə] *n bot.* gulxayri; **an ~ root** gulxayrining ildizi
although [ɔːlˈðəʊ] *cj* garchi; ... ga qaramay
alti [ˈælt(a)ɪ] *pl of* **alto**
altigraph [ˈæltɪgrɑːf] *n* altigraf
altiloquence [ælˈtɪləkwəns] *n ritor.* dabdabalilik, tamtaroqlilik, ortiq vajohat
altimeter [ˈæltɪˌmiːtə] *n* altimetr, balandlik o'lchagich
altiscope [ˈæltɪskəʊp] *n opt.* periskopik moslama (*pana joydan turib kuzatishga moslangan durbinsimon optik asbob*)
altisonant [æl ˈtɪsənənt] *a* dabdabali, balandparvoz
altitude [ˈæltɪtjuːd] *n* balandlik
altitudinal [ˌæltɪˈtjuːdɪn(ə)l] *a* baland, osmono'par
alto [ˈæltəʊ] *n* alt (*ovoz va torli musiqa asbobi*)
alto-cumulus [ˌæltəʊˈkjuːmjuːləs] *n meteor.* osmondagi to'p-to'p bulutlar
altogether [ˌɔːltə ˈgeðə] *adv* butunlay; to'la, tamoman, butkul, mutlaqo, juda, g'oyat; **in the ~** *so'zl.* yalang'och (ko'rinish) qiyofa (*mas., rassomning modelida*)
alto-relievo [ˌɑːltəʊrɪˈliːvəʊ] *n me'mor.* gorelf (*tekis sathda ishlangan bo'rtma naqsh*)
alto-stratus [ˌæltəʊˈstreɪtəs] *n meteor.* ko'p qatlamli bulut
altruism [ˈæltruɪz(ə)m] *n* altruizm
altruist [ˈæltruɪst] *n* altruist, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi odam
altruistic [ˌæltruˈɪstɪk] *a* altruistik
alum [ˈæləm] *n* achchiqtosh
alumina [əˈl(j)uːmɪnə] *n* aluminiy oksidi
alumine [ˈæljʊmi(ː)n] = **alumina**
aluminium [ˌæljʊˈmɪnɪəm] *n* aluminiy
aluminous [əˈl(j)uːmɪnəs] *a* achchiqtoshga oid
alumna [əˈlʌmnə] *n lot.* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*)
alumnae [əˈlʌmniː] *pl of* **alumna**
alumni [əˈlʌmnaɪ] *pl of* **alumna**
alumnus [əˈlʌmnəs] *n* sobiq shogird (*kollej yoki universitetda*)
alunite [ˈæljʊnaɪt] *n min. fr.* 1) alunit (*sulfatlar sinfiga mansub mineral*); 2) achchiqtosh (*giltuproq olishga xomashyo*)
alunogen [əˈljuːnədʒɪn] *n min.* alunogen (*temir achchiqtosh*)
alure [ˈæljʊə] *n esk.* 1) *me'mor.* yer osti yo'li; 2) monastir
alveary [ˈælvɪərɪ] *n* 1) asalari uyasi; 2) „Asalari uyasi" (*birinchi ko'p tilli lug'atning nomi*)
alvei [ˈælvɪaɪ] *pl of* **alveus**
alveola [ælˈvɪələ] *n* (*pl* **lae** [-li]) *biol.* chuqurcha (*asosan, tanada*)
alveolae [ælˈvɪəliː] *pl of* **alveola**
alveolar [ælˈvɪə(ʊ)lə] *a anat.* pufakchalardan tuzilgan
alveolate [ˈælvɪəleɪt] *a* alveolalarga oid
alveole [ˈælvɪəʊl] *n anat.* 1) alveolalar (*1. pufakchalar; 2. jag' suyaklarida tish ildizlari o'rnashgan uyalar*); 2) (*biror ichki organdagi, mas., o'pkadagi*) kaverna, kavak, illat
alveolus [ˌælvɪ ˈəʊləs] *n anat.* pufakchalar; katak, ko'z, uyacha
alveus [ˈælvɪəs] *n* (*pl* **-vei** [-vɪaɪ]) *esk.* 1) o'zan, daryo yo'li; 2) dengizning tagi (tubi, osti)
alvine [ˈælvɪn, -vaɪn] *a* 1) ichakka oid; ichak... 2) qoringa oid, qorin...; **~ discharge** yozilish, ichni bo'shatish; **~ flux** ich ketish, ichburug'
alway [ˈɔːlweɪ] = **always**
always [ˈɔːlw(e)ɪz] *adv* doimo, har doim, muntazam; hamisha, hamma vaqt
am [æm] „**to be**" fe'lining hozirgi zamonda birinchi shaxs uchun birlik sonda ishlatiladigan aniqlik maylidagi shakli
amability [ˌæməˈbɪlɪtɪ] *n kit.* 1) dilbarlik, dilrabolik, joziba, sehr, afsungarlik, tarovat; 2) maftunlik, mahliyolik
amadelphous [ˌæməˈdelfəs] *a kit.* poda-poda (gala-gala) bo'lib yashaydigan
amadou [ˈæmədu:] *a* pilik, qov
amah [ˈɑːmə, ˈɑːmɑ] *n* (*Sharq mamlakatlarida*) 1) cho'ri, oqsoch, xodima, uy xizmatchisi; 2) enaga, bolaga qaravchi ayol
amain [əˈmeɪn] *adv esk.* 1) tez, tezda, darrov, darhol; 2) bor kuch bilan
amaine [əˈmeɪn] *v* 1) *kit.* kuch-quvvatdan qolmoq, zaiflashmoq, darmonsizlanmoq, susaymoq; 2) (*ovozi*) pasaymoq, (*ovozi*) o'chmoq, tinchimoq; 2) taslim bo'lish belgisi sifatida bayroqni tushirmoq; taslim bo'lmoq
amalgam [əˈmælgəm] *n* 1) amalgama; 2) *ko'ch. kit.* aralash-quralash narsa
amalgamate [əˈmælgəmeɪt] *v* birlashtirmoq
amalgamated [əˈmælgəmeɪtɪd] *a* o'zaro bog'langan
amalgamation [əˌmælgəˈmeɪʃ(ə)n] *n* aralashish
amanita [ˌæməˈnaɪtə] *n* 1) qalpoqchali qo'ziqorin; qurbaqasalla (*zaharli qo'ziqorin*); 2) *bot.* muxomor (*zaharli zamburug' turi; suvidan pashshadori sifatida foydalaniladi*)
amanuenses [əˌmænjʊˈensiːz] *pl of* **amanuensis**
amanuensis [əˌmænjʊˈensɪs] *n lot.* oqqa ko'chiruvchi; kotib, (*aytib turganni*) yozadigan, shaxsiy kotib
amaranth [ˈæmərænθ] *n* 1) *bot.* amarant; 2) baxmalrang, to'q qizil rang
amaranthine [ˌæməˈrænθ(a)ɪn] *a* 1) so'lmaydigan, so'lmas; 2) to'q qizil, qirmizi
amaryllis [ˌæməˈrɪlɪs] *n* 1) *she'r.* podachi (cho'pon) ayol; 2) *bot.* amarilis (*turli rangdagi chiroyli gulli dekorativ piyozli o'simlik*)
amass [əˈmæs] *v* yig'moq, to'plamoq
amassment [əˈmæsmənt] *n* uyum, g'aram
amate [əˈmeɪt] *v esk.* 1) birovni xafa qilmoq; 2) ezmoq, jabr-zulm qilmoq; 3) *ko'ch.* ranjitmoq, xafa qilmoq, qiynamoq, azob bermoq
amateur [ˈæmətə(ʃ)ə, ˈæmətɜː] *n* havaskor; **an ~ painter** havaskor rassom; **an ~ show** havaskorlik konserti
amateurish [ˌæmətərɪʃ] *a* havaskorga oid
amateurishly [ˌæmətərɪʃlɪ] *adv* havaskorlarga (shunchaki qiziquvchilarga) xos bo'lgan tarzda
amateurishness [ˌæmətərɪʃnəs] *n* 1) havaskorlik, yuzaki ishqibozlik, shunchaki qiziqish; 2) yuzakichilik, yuzaki qarash
amateurism [ˌæməˈtɜːrɪz(ə)m] *n* havaskorlik, yuzaki ishqibozlik, shunchaki qiziqish
amateurship [ˈæmətɜːʃɪp] = **amateurishness**
amative [ˈæmətɪv] *a* (tez, darrov) oshiq bo'ladigan, hadeb sevaveradigan, sevuvchan
amatol [ˈæmətɔl] *n* amatol (*portlovchi modda*)
amatorial [ˌæməˈtɔːrɪəl] *a kit.* 1) ishq-muhabbatga oid; ishqiy, ishqnoma, ishq...; 2) shahvoniy, shahvatparast...
amatory [ˈæmət(ə)rɪ] *a* ishq-muhabbatga oid

amaurosis [ˌæmɔːˈrəʊsɪs] *n tib.* butunlay (to'la) ko'rlik, so'qirlik
amaze [əˈmeɪz] *v* taajjublantirmoq
amazed [əˈmeɪzd] *a* hayratlangan; **to be ~ at smth./smb.** nimadandir *yoki* kimdandir hayratda qolmoq
amazedly [əˈmeɪz(ɪ)dlɪ] *adv* ajablanib, hayron bo'lib, hayratda qolib
amazedness [əˈmeɪz(ɪ)dnəs] *n kit.* ajablanish, hayron bo'lish, hayratda qolish
amazement [əˈmeɪzmənt] *n* taajjublanish
amazing [əˈmeɪzɪŋ] *a* hayratlanarli
amazingly [əˈmeɪzɪŋlɪ] *adv* hayron qolarli darajada, hayratomuz
Amazon [ˈæməz(ə)n] *n grek. mif.* amazonka (*yunon afsonalarida jangovar xotin*)
Amazonian [ˌæməˈzəʊnɪən] *a* 1) jangovar, qahramon; 2) jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; yurakli, jasoratli, jur'atli; 3) dadil, mardonavor, jasurona
amazonite [ˈæməz(ə)naɪt] *n min.* amazonit (*mikroklinning havorang turi*)
ambages [æmˈbeɪdʒiːz] *n* kinoya, imo-ishora, qochirim, shama
ambagious [æmˈbeɪdʒəs] *a kit.* 1) chetlab o'tadigan, aylanma; 2) tavsif bilan cheklangan, tasviriy, tavsifiy, tavsifli
ambary (hemp) [æmˈbɑːrɪ(hemp)] *bot.* kanop (*tolali bir yillik o'simlik*)
ambassade [ˈæmbəseɪd] = **embassy**
ambassador [æmˈbæsədə] *n* elchi
ambassadorial [æmˌbæsəˈdɔːrɪəl] *a* elchiga va elchixonaga oid, elchi...; elchixona...
ambassadorship [æmˈbæsədəʃɪp] *n* 1) elchilik martabasi; 2) elchilik vakolati va huquqi
ambassadress [æmˈbæsədrɪs] *n* 1) elchining xotini, 2) ayol elchi
ambassage [ˈæmbəsɪdʒ] = **embassy**
amber [ˈæmbə] **1.** *n* kahrabo; **2.** *a* kahraboga oid
ambergris [ˈæmbəgrɪ(:)s] *n* kulrang anbar
ambery [ˈæmbərɪ] *a* kahrabo xususiyatiga yoki rangiga ega bo'lgan
ambidexter [ˌæmbɪˈdekstə] *n* 1) ikkala qo'li bilan bir xilda ishlay oladigan kishi; 2) *kit.* munofiq, riyokor; sotqin, xoin; 3) ikkiyuzlama odam; 4) *yur. so'zl.* sud maslahatchisi (*burjua sudida*); ikki tomondan ham pora oluvchi kishi
ambidexterity [ˌæmbɪdeksˈterɪtɪ] *n* 1) ikki qo'l bilan ham bir xilda ishlay olish qobiliyati; 2) *kit.* munofiqlik, riyokorlik; sotqinlik, ikkiyuzlamachilik
ambidext(e)rous [ˌæmbɪˈdekstrəs] *a* 1) ikkala qo'lini bir xilda ishlata oladigan (*odam*); 2) ikki tomoni (orqa-o'ng, o'ng-tersi) bir xil; ikki tomonlama, ikki taraflama; ikki tomon o'rtasidagi; o'zaro; 3) *kit.* ikkiyuzlama, munofiq, riyokor
ambidextral [ˌæmbɪˈdekstrəl] *a maxs.* ikki tomonga ham qarashli (daxldor) bo'lgan
ambience [ˈæmbɪəns] *n* muhit, sharoit, tevarak-atrof
ambient [ˈæmbɪənt] *a* har tomondan o'rab olgan
ambigenal [æmˈbɪdʒɪnəl] *a ritor.* chatishtirilgan, ikki nuqtayi nazardan iborat bo'lgan (*mubolag'a haqida*)
ambigenous [æmˈbɪdʒɪnəs] *a maxs.* chatishtirib hosil qilingan, chatishtirilgan, chatishma, duragay
ambiguity [ˌæmbɪˈgjuːɪtɪ] *n* 1) ishora, piching, shama, kinoyali (ikki ma'noli) gap; 2) noaniqlik, noma'lumlik; noaniq (gap, fikr) narsa
ambiguous [æmˈbɪgjʊəs] *a* ikki ma'noli
ambiguously [æmˈbɪgjʊəslɪ] *adv* ikki ma'noli qilib, ikki ma'noda tushunishi mumkin bo'lgan, kinoyali qilib
ambiguousness [æmˈbɪgjʊəsnəs] *n* 1) ikki ma'nolilik, dudmollik; 2) ikki ma'noli gap; odobdan tashqari qochirim; ishora, shama; 2) noaniqlik, noaniq (qorong'i) narsa, gap, fikr va h. k.
ambil(a)evous [ˌæmbɪˈliːvəs] *a kit.* kelishmagan, qovushmagan, o'xshovi yo'q, beso'naqay, beo'xshov, qo'pol
ambit [ˈæmbɪt] *n* atrof, tevarak, tevarak-atrofdagi joylar, o'rab olgan muhit, sharoit
ambition [æmˈbɪʃ(ə)n] *n* 1) shuhratparastlik; 2) kuchli orzu, niyat, maqsad, ishtiyoq; **it is her ~ to become a teacher** uning maqsadi o'qituvchi bo'lish; **to realize one's ~s** o'z orzularini amalga oshirmoq
ambitionist [æmˈbɪʃ(ə)nɪst] *n kit.* shuhratparast odam, shuhratparast, izzattalab (mulozamatni yaxshi ko'radigan) odam
ambitious [æmˈbɪʃəs] *a* shuhratparast
ambitiously [æmˈbɪʃəslɪ] *adv* shuhratparastlik bilan, shuhratparastlarcha, izzattalablik bilan, izzattalablarcha, mulozamatni yaxshi ko'rib
ambitiousness [æmˈbɪʃəsnəs] *n* shuhratparastlik, izzattalablik; izzati nafs
ambitus [ˈæmbɪtəs] *n* (*pl* o'zgarishsiz) 1) tashqi (sirtqi) tomoni (*chanoq va b.*); 2) *me'mor.* bino (imorat) atrofidagi ochiq joy
ambivalence [æmˈbɪvələns] *n* ikkilanish
ambivalent [æmˈbɪvələnt] *a* ikkilangan (*o'y-fikr haqida*)
amble [ˈæmb(ə)l] *n* 1) yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish; 2) yengil qadam tashlash, chaqqon yurish
ambleocarpus [ˌæmblɪəˈkɑːpəs] *a bot.* urug'i o'sishdan to'xtab, yetilmay qolgan, unumsiz
ambler [ˈæmblə] *n* yo'rg'a (*ot*)
ambling [ˈæmblɪŋ] *n* yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish
amblosis [æmˈbləʊsɪs] *n tib.* 1) bola tashlash; chala tug'ilgan bola; 2) abort (*bola oldirish*)
ambo [ˈæmbəʊ] *n* (*pl* -os [-əʊz]) *cherk.* alratga (mehrobga) kiraverishdagi baland joy, minbar
ambolic I [æmˈbɒlɪk] *n tib.* bola tashlatadigan (vosita) dori
ambolic II [æmˈbɒlɪk] *a tib.* bola tashlatadigan, bola tashlashga sabab bo'ladigan
ambrosia [æmˈbrəʊzɪə] *n* 1) *grek. mif.* yunon afsonalarida ilohlar taomi; 2) asalari ovqati (*asalarilarning uyasiga gul changlaridan to'plagan asal bilan aralashtirilgan ovqatlari*)
ambrosial [æmˈbrəʊzɪəl] *a* 1) *din.* ilohiy, dunyoviy bo'lmagan; 2) tahsinga loyiq, g'oyat go'zal, chiroyli, ajoyib, qoyilmaqom; maftunkor, dilrabo
ambrosian [æmˈbrəʊzɪən] = **ambrosial**
ambry [ˈæmbrɪ] *n* 1) shkafcha, javoncha, kichkina shkaf; 2) narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy, omborxona; 3) *esk.* arxiv
ambs-ace [ˈeɪmzeɪs] *n* 1) ikki marta (ikki baravar) ortiq bo'lgan ochko (xol, oshiq o'yinidagi eng kam miqdordagi xol; 2) muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik, sira omadi yurishmaslik, doim muvaffaqiyatsizlikka uchrash; 3) (nimaningdir) juda oz miqdori
ambulance [ˈæmbjʊləns] *n* tez yordam mashinasi
ambulance-chaser [ˈæmbjʊləns,tʃeɪsə] *n amer.* baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga o'z xizmatini taklif qiluvchi advokat
ambulant [ˈæmbjʊlənt] *a* bir joydan ikkinchi joyga o'tadigan; ko'chma (*kasallik haqida*)
ambulate [ˈæmbjʊleɪt] *v kam.* yurmoq, yura boshlamoq, qadam tashlamoq, bormoq
ambulation [ˌæmbjʊˈleɪʃ(ə)n] *n kam.* 1) siljish, siljitish, joyidan qo'zg'atish; 2) yurish, yura boshlash, qadam tashlash, borish
ambulator [ˈæmbjʊleɪtə] *n* 1) qadam o'lchagich; 2) *amer.* dalnomer, masofa o'lchagich
ambulatory [ˈæmbjʊlət(ə)rɪ] *a* 1) ko'chma; 2) ambulatoriyaga oid
ambury [ˈæmbərɪ] = **anbury**
ambuscade [ˌæmbʊsˈkeɪd] *v* bir joyda o'tirmoq; pistirmada bo'lmoq; qurshovda bo'lmoq

ambush [ˈæmbʊʃ] *n* pistirma
ambushment [ˈæmbʊʃmənt] = **ambush**
ambustion [æmˈbʌstʃən] *n tib. esk.* 1) kuyish, kuyib qolish; 2) kuygan joy, kuyuk
ameer [əˈmɪə] *n* amir
ameliorate [əˈmi:lɪəreɪt] *v* yaxshilamoq
ameliorater [əˈmi:lɪəreɪtə] *n* meliorator, melioratsiya ishlari mutaxassisi
amelioration [ə,mi:lɪəˈreɪʃ(ə)n] *n* yaxshilash
ameliorative [əˈmi:lɪərətɪv] *a* yaxshilaydigan; meliorativ
amen [ɑ:ˈmen] *int.* omin; **say ~ to smth.** *hazil.* nimagadir rozi bo'lmoq, nimanidir ma'qul topmoq (to'g'ri deb hisoblamoq, qo'llab-quvvatlamoq), nimagadir o'z roziligini bermoq
amenability [ə,mi:nəˈbɪlɪtɪ] *n* javobgarlik, mas'uliyat
amenable [əˈmi:nəb(ə)l] *a* javobgar
amenably [əˈmi:nəblɪ] *adv kit.* 1) gapga (*so'zga*) kirib, itoat bilan, bo'ysunib, quloq solib; 2) ... ga muvofiq, ...ga binoan, ...ga ko'ra, bo'yicha; **~ to the rules** qoidalarga binoan
amend [əˈmend] *v* yaxshilamoq, tuzatmoq
amendable [əˈmendəb(ə)l] *a* tuzaladigan
amendatory [əˈmendət(ə)rɪ] *a* 1) o'zgarish kiritadigan, o'zgartiradigan; 2) *amer.* o'zgartirishga yordam beradigan, o'zgartirishni osonlashtiradigan
amended [əˈmendɪd] *a* tuzatilgan
amendment [əˈmendmənt] *n* (xatoni) tuzatish, to'g'rilash, yaxshilash; **a wrecking ~** *siyos.* qabul qilingan qonun loyihasini buzish maqsadida unga tuzatish kiritish
amends [əˈmendz] *n* qoplash, o'rnini to'ldirish; **to make ~ (for)** 1) zararlarning o'rnini qoplamoq; 2) o'z aybini yuvishga harakat qilmoq
amene [əˈmi:n] *a kit.* 1) iltifotli; nazokatli, xushomadli, shirinso'z; 2) yoqimli, yoqimtoy, dilkash
amenity [əˈmi:nɪtɪ, əˈmenɪtɪ] *n* yoqimlilik, mehribonlik
ament I [ˈeɪmənt] *n bot.* bargak, kuchala (*gullash shakli*)
ament II [ˈeɪmənt] *n tib.* aqli kam, aqli past (zaif) kishi
amenta [əˈmentə] *n pl tib.* aqli zaif kishilar
amental [əˈment(ə)l] *a kit.* miyasi ayniqan, aqli (kam, past) zaif
amentia [əˈmenʃə] *n* aqli zaiflik
amentum [əˈmentəm] = **amenta**
amerce [əˈmɜ:s] *v* jarima solmoq
amercement [əˈmɜ:smənt] *n* jarima solish
amerciament [əˈmɜ:sɪəmənt] = **amercement**
America [əˈmerɪkə] *n* Amerika; **to discover ~** Amerika ochmoq, hammaga allaqachon ma'lum bo'lgan narsa haqida gapirmoq
American [əˈmerɪkən] **1.** *n* amerikalik; **2.** *a* amerikaga oid
Americana [ə,merɪˈkɑ:nə] *n* Amerikaning turmush madaniyatiga doir bo'lgan asarlar, maqolalar to'plamlari va yodgorliklar
American aloe [ə,merɪkənˈæləʊ] *n bot.* Amerika aloyi; saburi (*o'simlik*)
American bollworm [ə,merɪkənˈbəʊlwɜ:m] *n zool.* ko'sak qurti kapalagi
American chestnut [ə,merɪkənˈtʃesnʌt] *n bot.* Amerika kashtani (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong'og'i*)
Americanism [əˈmerɪkənɪz(ə)m] *n* amerikanizm
Americanize [əˈmerɪkənaɪz] *v* amerikalashtirish
American lotus [əˈmerɪkənˈləʊtəs] *n bot.* sariq nilufar
American mulberry [ə,merɪkənˈmʌlb(ə)rɪ] *n bot.* qizil mevali tut daraxti; tutning qizil mevasi, qizil tut
American plane tree [ə,merɪkənˈpleɪntri:] *n bot.* Amerika chinori
American red raspberry [əˈmerɪkən,redˈrɑ:zb(ə)rɪ] *n bot.* Amerika qizil malinasi, xo'jag'ati (*o'simligi va mevasi*)
americium [,æməˈrɪsɪəm] *n kim.* ameritsiy (*radioaktiv element*)
ametallous [əˈmetələs] *a maxs.* metalldan qilinmagan, metallarga oid bo'lmagan, metallarga xos bo'lmagan
amethyst [ˈæmɪθɪst] *n* ametist (*qimmatbaho tosh*)
amethystine [,æmɪˈθɪstaɪn] *a* ametistga oid
amiability [,eɪmɪəˈbɪlɪtɪ] *n* mehribonlik
amiable [ˈeɪmɪəb(ə)l] *a* xushmuomala; do'stona
amiably [ˈeɪmɪəblɪ] *adv* iltifot bilan, nazokat (muloyimlik) bilan, lutfan; yoqimli qilib, yoqimli, juda yaxshi; xushmuomalalik bilan, ochiq chehra bilan, mehribonlik bilan; **to speak ~** xushmuomalalik (iltifot) bilan gapirmoq
amianthus [,æmɪˈænθəs] *n min* tog' zig'iri
amicability [,æmɪkəˈbɪlɪtɪ] *n* do'stona munosabat
amicable [ˈæmɪkəb(ə)l] *a* do'stona
amicably [ˈæmɪkəblɪ] *adv* 1) do'stona, samimiyat bilan, do'stlarcha; 2) tinchlik (osoyishtalik) bilan, do'stlarcha; **to live ~** totuv (ahil, inoq) yashamoq
amid [əˈmɪd] *prep.* (*biror narsaning*) o'rtasida
amides [ˈæmaɪdz] *n pl kim.* amidlar
amidmost [əˈmɪdməʊst] *adv kit.* (*nimaningdir*) o'rtasida, markazida
amidships [əˈmɪdʃɪps] *adv deng.* kemaning o'rtasida
amidst [əˈmɪdst] *prep.* orasida, o'rtasida
amildar [ˈæməldɑ:] *n* soliq yig'uvchi inspektor
amino [əˈmɪnəʊ] *n tex.* aminoplast, karbomid plastik (*mochevina formaldegid yoki melaminformaldegid smolalar asosida tayyorlanadigan plastmassa*)
amino acids [ə,mɪnəʊˈæsɪdz] *n kim.* aminokislotalar
amir [əˈmɪə] = **ameer**
amiss [əˈmɪs] *adv* adashib
amit [əˈmɪt] *v esk.* yo'qotmoq, yo'qotib qo'ymoq
amity [ˈæmɪtɪ] *n* do'stlik
ammeter [ˈæmɪtə,ˈæm,mi:tə] *n el.* ampermetr (*elektr toki kuchini o'lchaydigan asbob*)
ammo [ˈæməʊ] *n harb.* o'q-dorilar (*o'q, granata, snaryad, mina va sh. k. zahirasi*)
ammodyte [ˈæmə(ʊ)daɪt] *n zool.* 1) qumsichqon (*yumronqoziqning bir turi*); 2) qumbaliq (*qumloq qirg'oqlarda yashovchi mayda baliq*)
ammonal [ˈæmənæl] *n* ammonal (*portlovchi modda*)
ammoniac [əˈməʊnɪæk] *a kim.* ammiakka oid
ammonium [əˈməʊnɪəm] *n kim.* ammoniy
ammonium chloride [ə,məʊnɪəmˈklɔ:raɪd] *n kim.* nashatir spirt (*ammiakning suvdagi o'n foizli eritmasi*), navshadil, ammoniy xlorid (*texnika va tibbiyotda qo'llanadi*)
ammophos [əˈ məfɔs] *n q.x.* ammofos (*turli qishloq xo'jalik o'simliklari uchun har xil tuproqlarga solinadigan qo'sh kompleks o'g'it*)
ammophoska [,æməˈfɒskə] *n q.x.* ammofoska (*o'g'it*)
ammunition [,æmjoˈnɪʃ(ə)n] **1.** *n* o'q-dorilar; **2.** *v* o'q-dori bilan ta'minlamoq
amnesia [æmˈni:zjə] *n* es-hushini yo'qotish
amnestic [æm ˈnestɪk] *a tib.* hushni yo'qotadigan
amnesty [ˈæmnəstɪ] **1.** *n* gunohidan o'tish; jazodan ozod qilish; **2.** *v* gunohidan o'tmoq; jazodan ozod qilmoq
amock [əˈmɒk] = **amuck**
amoeba [əˈmi:bə] *n zool.* (*pl* **-ae** [i:]) amyoba
amoebae [əˈmi:bi:] *pl of* **amoeba**

amok [ə´mɔk] = **amuck**

among [ə´mʌŋ] *prep.* o'rtasida, orasida (*uch va undan ortiq narsa yoki kishilar uchun ishlatiladi*)

amongst [ə´mʌŋst] = **among**

amoral [eɪ´mɒrəl] *a* axloqsiz, adabsiz, odobsiz, beadab

amorality [ˌeɪmɒ´rælɪtɪ] *n* axloqsizlik, badaxloqlik; axloq qoidalariga xilofllik, axloqi buzuqlik

amorce [ə´mɔ:s] *n* 1) o'q otadigan qurol uchun ishlatiladigan porox o'q dorisi; 2) qog'oz piston, o'yinchoq miltiq pistoni

amoretti [ˌæmə´retɪ] *pl of* **amoretto**

amoretto [ˌæmə´retəʊ] *n* (*pl* **-ti** [-tɪ]) *ital. esk.* 1) sevgi, ishq-muhabbat ramzi; 2) oshiq, ma'shuq, mahbub; o'ynash, jazman; 3) muhabbat

amorini [ˌæmə´ri:nɪ] *pl of* **amorino**

amorino [ˌæ:mə´ri:nəʊ] *n* (*pl* **-ni** [-nɪ]) *ital.* 1) Amur (*qadimgi afsonalarda: kamalak bilan qurollangan qanotli bola qiyofasidagi sevgi xudosi*); 2) kupidon (*afsonalarda: sevgi tangrisi va uning haykalchasi*)

amorous [´æm(ə)rəs] *a* 1) oshiq; 2) tez oshiq bo'ladigan

amorously [´æm(ə)rəslɪ] *adv* 1) oshiqlardek, oshiqona; 2) muhabbat (mehr, ko'ngil) qo'yib, sevib, ardoqlab, sidqidildan

amorousness [´æm(ə)rəsnəs] *n* hadeb sevaverish

amorphism [ə´mɔ:fɪz(ə)ɪm] *n* 1) tez (darrov) oshiq bo'lib qolish, hadeb sevaverish, sevuvchanlik; 2) oshiqlik, ma'shuqlik, xushtorlik, ishqibozlik

amorphous [ə´mɔ:fəs] *a* shaklsiz

amort [ə´mɔ:t] *adv* o'lik, jonsiz

amortisation [ə,mɔ:taɪ´zeɪʃ(ə)n] = **amortization**

amortise [ə´mɔ:taɪz] = **amortize**

amortisseur [ɑ:ˌmɔ:tɪ ´sɜ:] *n fr. tex.* 1) dempfer (*tebranishni pasaytiruvchi yoki yutuvchi asbob, qurilma*); 2) amortizator (*urilish zarbini yumshatadigan asbob, moslama (avtomashina, samolyot va sh. k. da)*)

amortizable [ə´mɔ:taɪzəb(ə)l] *a* to'lasa (uzsa, qaytarsa) bo'ladigan (*qarz haqida*)

amortization [ə,mɔ:taɪ´zeɪʃ(ə)n] *n yur.* qarzni to'lash

amortize [ə´mɔ:taɪz] *v yur.* qarzni to'lamoq

amortizement [ə´mɔ:tɪzmənt] = **amortization**

amotion [ə´məʊʃ(ə)n] *n esk.* 1) uzoqlashtirish, uzoqlatish, yiroqlatish; 2) ishdan bo'shash, ishdan bo'shatilish; ishdan bo'shatish; 3) ozod etish, ruxsat etish, ruxsat etilish; 4) egalik (mulkka egalik) huquqidan mahrum etish

amount [ə´maʊnt] **1.** *n* 1) son, miqdor; **a large ~ of work** ko'p ish; 2) umumiy son, miqdor, yig'indi, jami, hammasi, majmuyi; **2.** *v* (*miqdorni, summani*) tashkil qilmoq

amour [ə´mʊə] *n* sevgi, muhabbat

amourette [ˌæmʊ´ret] *n* ishqiy fitnachi

amour-propre [ə,mʊə´prɒprə] *n fr.* ta'bi noziklik

amove [ə´mu:v] *v esk.* hayajonlantirmoq, to'lqinlantirmoq, bezovta qilmoq; hayajonga (iztirobga) solmoq, xavotirlikka (tashvishga) solib qo'ymoq, tinchsizlantirmoq

amp [æmp] *n* amper (*elektr kuchi birligi*)

ampelite [´æmpəlaɪt] *n min.* ko'mirli slanes (*tog' jinsi*)

ampelography [ˌæmpə´lɒgrəfɪ] *n yun.* ampelografiya (*uzum turlari va navlarini o'rganadigan fan*)

ampelopsis [ˌæmpə´lɒpsɪs] *n bot.* yovvoyi uzum

amper [´æmpə] *n dial.* shish, g'urra

amperage [´æmp(ə)rɪdʒ] *n el.* elektr tok kuchi

ampere [´æmpeə] *n fiz.* amper (*elektr kuchi birligi*)

ampere hour [ˌæmpeə´raʊə] *n el.* amper soat (*elektr miqdorining o'lchov birligi*)

ampere turn [ˌæmpeə´tɜ:n] *n el.* amper-o'ram(lar) (*elektr toki o'tuvchi chulg'amdagi o'ramlar sonining amperlarda hisoblangan tok kuchi qiymatiga ko'paytmasi*)

amperometer [ˌæmpə´rɒmɪtə] *n el.* ampermetr (*o'zgarmas yoki o'zgaruvchan tok kuchini o'lchaydigan elektr o'lchov asbobi*)

ampersand [´æmpəsænd] *n* (&) belgisi

amphibia [æm´fɪbɪə] *n pl zool.* ham yerda, ham quruqlikda yashovchilar

amphibian [æm´fɪbɪən] *a* suvda va quruqlikda yashovchi

amphibious [æm´fɪbɪəs] *a* suvda ham, quruqlikda ham yashovchi

amphibole [´æmfɪbəʊl] *n fr. min.* amfibol (*jins hosil qiluvchi mineral*)

amphibolic [ˌæmfɪ´bɒlɪk] *a* 1) *esk.* ma'noli, ikki ma'noda tushunish mumkin bo'lgan; 2) *min.* amfibol xususiyatiga ega bo'lgan

amphibological [ˌæmfɪbə´lɒdʒɪk(ə)l] *a kit.* 1) ikki ma'noli, ikki ma'noda tushunish mumkin bo'lgan, kinoyali (*asosan, jumla va iboralarda*); 2) (*savolga to'g'ri javob berishdan*) o'zini (chetga) olib qochadigan

amphibology [ˌæmfɪ´bɪɒlədʒɪ] *n* ikki ma'noni ifodalovchi ibora

amphigam [´æmfɪgəm] *n bot.* jinssiz o'simlik

amphigony [æm´fɪgənɪ] *n biol.* ikki ma'nolilik, ikki ma'noli gap

amphilogy [æm´ fɪlədʒɪ] *esk.* ikki ma'nolilik, ikki ma'noli gap

amphimixis [ˌæmfɪ´mɪksɪs] *n biol.* (o'zaro) chatishuv; chatishtiruv (*hayvon va o'simliklar haqida*)

amphisbaena [ˌæmfɪs´bi:nə] *n* 1) yunon va rim afsonasida ikki boshli ilon; 2) *zool.* amfisbenlar (*kaltakesaksimonlar oilasida dumi bilan (dumi tarafida) ham harakatlanishi mumkin bo'lgan ikki boshli kaltakesak*)

amphitheatre [´æmfɪˌθɪətə] *n* amfiteatr (*balandlab boruvchi o'rinlar*)

amphitheatric, amphitheatrical [ˌæmfɪθɪ´ætrɪk, -(ə)l] *a* 1) amfiteatr ko'rinishiga ega bo'lgan; 2) amfiteatrda bo'lib o'tadigan; 3) amfiteatrga aloqador bo'lgan

amphora [´æmfərə] *n* (*pl* **-ae** [-ri:]) ko'zasimon qo'shquloq sopol idish (*Qadimgi Yunonistonda*)

amphorae [´æmfəri:] *pl of* **amphora**

amphoral [´æmf(ə)rəl] *a* amfora (*ko'zasimon qo'shquloq sopol idish*)ga o'xshagan

amphoric [æm´fɒrɪk] *a tib.* amforik

ample [´æmp(ə)l] *a* mo'l-ko'l, yetarli, ko'p

ampliation [ˌæmplɪ´eɪʃ(ə)n] *n* 1) *esk.* ko'paytirish, oshirish, orttirish; kattalashtirish; kengaytirish; kuchaytirish; 2) *yur.* qo'shimcha qidiruv olib borish maqsadida ishning xulosasini keyinga qoldirish (surish, kechiktirish)

ampliative [´æmplɪətɪv] *a* 1) o'sadigan, oshadigan, rivojlanadigan (*xotira, ong, fikr, g'oya va b. haqida*)

amplidyne [´æmplɪdɪn] *n el.* elektromexanik kuchaytirgich

amplification [ˌæmplɪfɪ´keɪʃ(ə)n] *n* ko'paytirish, kengaytirish

amplificatory [´æmplɪfɪkeɪt(ə)rɪ] *a kam.* 1) ko'paytiradigan, oshiradigan, orttiradigan, o'stiradigan; 2) kattalashtiradigan, yiriklashtiradigan; 3) kuchini oshiradigan, kuchaytiradigan; 4) qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) yoki olingan (olinadigan); qo'shimcha

amplifier [´æmplɪfaɪə] *n* kuchaytirgich

amplify [´æmplɪfaɪ] *v* ko'paytirmoq, oshirmoq, kengaytirmoq, keng yoymoq

amplitude [´æmplɪtju:d] *n fiz.* amplituda

amply [´æmplɪ] *adv* serob, to'kin-sochin; yetarli

ampoule [ˊæmpu:l] *n* ampula (*dori va shu kabi quyib, og'zi payvandlangan naycha*)
ampule [ˊæmp(j)u:l] = **ampoule**
ampulla [æmˊpolə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) *Qad. Rim.* yumaloq butilka shaklidagi, pufakka o'xshagan, ikki dastakli yumaloq flyaga (*suyuqlik tashiladigan idish*)
ampullae [æmˊpoli:] *pl of* **ampulla**
ampullar, ampullary [æmˊpolə, -(ə)rɪ] *a* ampula (*dori va sh. k. quyib, og'zi payvandlangan naycha*)ga o'xshagan, ampula shaklidagi
ampullate [ˊæmpəlɪt] *a kit.* 1) flyaga shaklidagi, flyaga shakliga ega bo'lgan; 2) keng, katta, yo'g'on, qorni katta, qorindor
ampullosity [ˌæmpoˊlɔsɪtɪ] *n esk.* o'ziga bino qo'yganlik, gerdayganlik, manmanlik
amputate [ˊæmpjʊteɪt] *v* kesib tashlamoq
amputation [ˌæmpjʊˊteɪʃ(ə)n] *n* kesib tashlash
amputee [ˌæmpjʊˊti:] *n* qo'li *yoki* oyog'i kesilgan odam
ampyces [ˊæmptksi:z] = **ampyx**
ampyx [ˊæmpɪks] *n* (*pl shuningdek,* **ampyces**) *qad. yun.* 1) (*sochlarni tutib turuvchi*) chambar; 2) peshanabog'
amrita I [ʌmˊri:tə] *n hind. afs.* 1) afsonalarda ilonlarning ovqati, ozuqasi: 2) *ko'ch.* lazzatli taom
amrita II [ʌmˊri:tə] *a she'r.* 1) abadiy yashaydigan, o'lmaydigan, boqiy, o'lmas; 2) ilohiy
amuck [əˊmʌk] *adv* jahli chiqqan
amulet [ˊæmjolɪt] *n* tumor
amuse [əˊmju:z] *v* vaqtini xush qilmoq; **to ~ oneself** vaqtini chog' qilmoq, yupatmoq
amused [əˊmju:zd] *a* mamnun, xursand, shod; mamnun (shod, xursand) bo'lgan, mamnuniyat hosil qilgan; mamnuniyatni (xursandchilikni) ifodalovchi; **~ spectators** mamnun bo'lgan tomoshabinlar; **~ look** xursand ko'rinish
amusement [əˊmju:zmənt] *n* o'yin-kulgi
amuser [əˊmju:zə] *n* qiziqchi, kuldiruvchi; hazilkash; masxaraboz
amusing [əˊmju:zɪŋ] *a* kulgili
amusingly [əˊmju:zɪŋlɪ] *adv* qiziq (kulgili, maroqli) qilib, kuldirib
amusive [əˊmju:sɪv] *a esk.* kishini aldaydigan, yanglishtiradigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan, aldovchi
amygdal [əˊmɪgdəl] *n pl anat.* bodomsimon bez
amygdalaceous [əˌmɪgdəˊleɪʃəs] *a* 1) bodomga oid, bodom...; 2) bodom mag'zidan olingan, tayyorlangan, bodomli
amygdalitis [əˌæmɪgdəˊlaɪtɪs] *n tib.* 1) tonzillit (tomoq bodomsimon bezlarining yallig'lanishi); 2) bodomsimon bez
amylaceous [ˌæmɪˊleɪʃəs] *a* kraxmalli, serkraxmal
amyloid [ˊæmɪlɔɪd] **1.** *n* amiloid; **2.** *a* kraxmalli; kraxmalga oid
amylum [ˊæmɪləm] *n maxs.* 1) kraxmal (*ko'pchilik o'simliklarda fotosintez natijasida hosil bo'ladigan uglevod; ba'zi o'simliklardan olinadigan ta'msiz oq kukun*); 2) ohor (*oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik sanoatlarida ishlatiladi*)
amyotrophy [ˌeɪmɪˊɒtrəfɪ] *n tib.* muskullarning qurishi (qurib qolishi, faoliyat qobiliyatini yo'qotishi)
amyous [ˊæmɪəs] *a tib.* nimjon, kuchsiz, kuchi (quvvati, madori) yo'q, ojiz, zaif, bequvvat, sust, bo'sh
an [æn, ən] *gram. unli tovushlar bilan boshlanadigan so'zlardan oldin ishlatiladigan noaniq artiklning shakli*
ana [ˊɑ:nə] *n* xotira to'plami
Anabaptism [ˌænəˊbæptɪz(ə)m] *n din.* anabaptizm (*xristian dini mazhablaridan biri*)
Anabaptist [ˌænəˊbæptɪst] *n din.* anabaptizm mazhabidagi kishi, anabaptist
anabaptize [ˌænəˊbæptaɪz] *v kam.* 1) ikkinchi marta cho'qintirib (xristian) diniga kiritmoq; 2) ikkinchi marta cho'qintirib boshqa ism (ot) qo'ymoq
anabases [əˊnæbəsi:z] *pl of* **anabasis**
anabasis [əˊnæbəsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) 1) *tar. ko'ch.* harbiy yurish; **Napoleon's anabases** Napoleon yurishlari; 2) *tib.* kuchayish (zo'rayish) darajasi (davri) (*kasalliklarning paydo bo'lishi haqida*)
anabatic [ˌænəˊbætɪk] *a meteor.* yuqoriga yo'nalgan, ko'tariladigan (ko'tarilayotgan), ko'tariluvchi
anabiosis [ˌænəbaɪˊəʊsɪs] *n biol.* anabioz (*organizm hayotiy faoliyatining vaqtincha sekinlashib yoki to'xtab, zarur sharoit tug'ilishi bilan yana tiklanishi*)
anabiotic [ˌænəbaɪˊɒtɪk] *a biol.* anabioz bilan bog'liq bo'lgan
anabolic [ˌænəˊbɒlɪk] *a biol.* assimilatsiya (*aralashtirib, bir qilib yuborish; bir bo'lib yoki o'xshab ketish*)ga oid; assimilatsiya bilan bog'liq bo'lgan
anabolism [əˊnæbəlɪz(ə)m] *n yun. fiziol.* anabolizm (*tirik organizmdagi kimyoviy jarayonlar majmuyi*); assimilatsiya jarayonlari
anachorism [əˊnækərɪz(ə)m] *n kit.* 1) mamlakatga, mahalliy sharoitga hech ham xos bo'lmagan; 2) geografik xato
anachronism [əˊnækrənɪz(ə)m] *n* anaxronizm (*1. yil hisobi yoki tarixiy sanani ko'rsatishda, xronologiyada yo'l qo'yilgan xatolik; 2. bir davrni tasvirlashda bir davrga xos xususiyatlarni unga taalluqli qilib ko'rsatish; 3. o'z zamonasiga mos kelmaydigan eski qarashlar, urf-odatlar; eskilik, sarqit*)
anachronistic [əˌnækrəˊnɪstɪk] *a* anaxronik
anaclastics [ˌænəˊklæstɪks] *n opt.* dioptika (*optikaning yorug'likning ikki muhitda tarqalishini o'rganadigan bo'limi*)
anaconda [ˌænəˊkɒndə] *n zool.* anakonda (*bo'g'ma ilonlarga mansub eng katta ilon*)
anadem [ˊænədem] *n she'r.* girlyanda (*barg, novda va sh. k.*) o'rimi, tizmasi; marjon; gul marjon, chechaklardan tuzilgan gulchambar
anaemia [əˊni:mɪə] *n tib.* kamqonlik
anaemic [əˊni:mɪk] *a tib.* qoni kam, kamqon
anaerobe [əˊneɪrəʊb] *n biol.* (*erkin kislorod bo'lmagan sharoitda yashay oladigan*) anaeroblar (anaerob organizmlar)
anaesthesia [ˌænɪsˊθi:zɪə] *n tib.* 1) og'riqsizlantirish, og'riqni yo'qotish, og'riqni sezmaydigan qilish, etni o'ldirish; 2) anesteziya (*1. og'riq sezish qobiliyatini yo'qotish; 2. behush qilish, og'riq sezmaydigan qilish, etni o'ldirish*)
anaesthetic [ˌænɪsˊθetɪk] **1.** *n tib.* og'riqni yo'qotadigan (etni o'ldiradigan, og'riqsizlantiradigan) dori; **2.** *a* og'riqni yo'qotadigan, etni o'ldiradigan, og'riqsizlantiradigan
anaesthetize [əˊni:sθətaɪz] *v* og'riqsizlantirmoq, og'riqni yo'qotmoq, og'riqni sezmaydigan qilmoq, etni o'ldirmoq
anagnorisis [ˌænəgˊnɒrɪsɪs] *n kit.* 1) tanish, e'tirof qilish, tan olish; 2) *adab.* yechim, oqibat, yakun; pirovardi, oxirgi (*drammatik asarlarda*)
anagram [ˊænəgræm] *n* anagramma (*harflarning o'rin almashinuvidan boshqa so'z yasalishi, mas., son – nos*)
anagrammatic, anagrammatical [ˌænəgrəˊmætɪk, -(əl)] *a* anagrammatik
anagrammatically [ˌænəgrəˊmætɪkəlɪ] *adv adab.* anagrammatik tarzda
anagrammatism [ˌænəˊgræmətɪz(ə)m] *n* anagramma tuzish
anagrammatist [ˌænəˊgræmətɪst] *n* anagramma tuzuvchi kishi
anagrammatize [ˌænəˊgræmətaɪz] *v* anagramma tuzmoq
anagraph [ˊænəgræf] *n esk.* ro'yxat, molmulk ro'yxati; inventar (*korxona yoki*

muassasaning asbob-uskunalari, mol-mulki, ashyoviy anjomlari majmuyi)

analects [ˈænəlekts] *n pl* adabiy to'plam

analepsy [ˈænəlepsɪ] *n tib.* (kasallikdan keyingi) sog'liqni tiklash yoki mustahkamlash

analeptic [ˌænəˈleptɪk] *n tib.* mustahkamlaydigan yoki qo'zg'atadigan (uyg'otadigan) dori

analgesia [ˌæn(ə)lˈdʒi:zɪə] *n tib.* og'riqsizlantirish, og'riqni yo'qotish, og'riqni sezmaydigan qilish, etni o'ldirish

analgesic [ˌæn(ə)lˈdʒi:zɪk] **1.** *a* og'riqni qoldiradigan; **2.** *n* og'riqni qoldiradigan dori

analgesics [ˌæn(ə)l ˈdʒi:zɪks] *n pl tib.* og'riqni qoldiradigan (bosadigan, to'xtatadigan) dorilar

analog [ˈænəlɒg] *n* analog (*o'xshashlik, o'xshash narsa*)

analogic [ˌænəˈlɒdʒɪk] *a kam.* analogiyaga oid, analogik (*bir-biriga yoki boshqasiga o'xshash, o'xshagan*)

analogical [ˌænəˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* analogiyaga asoslangan

analogism [ə ˈnælədʒɪz(ə)m] *n* analogizm

analogist [əˈnælədʒɪst] *n* analogiyadan foydalanadigan kishi

analogize [əˈnælədʒaɪz] *v* 1) nimanidir analogik (analogiya bo'yicha) tushuntirmoq yoki tasvirlamoq; 2) analogiyadan foydalanmoq

analogous [əˈnæləgəs] *a* o'xshash

analogue [ˈænəlɒg] *n* analog (*o'xshashlik, o'xshash narsa*)

analogy [əˈnælədʒɪ] *n* o'xshashlik

analysable [ˈænəlaɪzəbl] *a* tahlil qilsa (tekshirib ko'rsa) bo'ladigan

analyse [ˈænəlaɪz] *v* tahlil qilmoq

analyser [ˈænəlaɪzə] *n* analizator (*tahlil qiladigan, tekshiradigan asbob*)

analyses [əˈnæləsi:z] *pl of* **analysis**

analysing [ˈænəlaɪzɪŋ] *n tlv.* tasvirni ajratib berish, tasvirni tarqatib berish

analysis [ə ˈnælɪsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) 1) analiz (*ilmiy tekshirish, ilmiy tadqiqot usuli; obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o'rganish vositasi*); **in the final** (*yoki* **last**) ~ oqibatda, natijada, pirovardida, oxiri, axir; 2) tahlil, tahlil qilish; 3) analiz, tekshirish (*moddalarning tarkibiy qismlarini aniqlash*)

analyst [ˈænəlɪst] *n* 1) analitik (*analiz bilan shug'ullanuvchi mutaxassis*); 2) sharhlovchi

analytical [ˌænəˈlɪtɪkəl] *a* tahliliy

analytics [ˌænəˈlɪtɪks] *n pl* tahlil usulini ishlatish

analyze [ˈænəlaɪz] = **analyse**

anamnesis [ˌænæmˈni:sɪs] *n* eslash, esga olish

anamorphism [ˌænə ˈmɔ:fɪz(ə)m] *n maxs.* 1) optik asboblar yordamida ekranga tasvirni noto'g'ri tushirib berish; 2) anomorfizm

anamorphosis [ˌænəˈmɔ:fəsɪs] *n* predmetning buzilgan tasviri

anamorphotic [ˌænəmɔ:ˈfɒtɪk] *a kino.* anamorfotik

anamorphous [ˌænəˈmɔ:fəs] *a kam.* noto'g'ri, xato, anamorfik

anan [əˈnæn] *int. esk.* 1) hozir! bir daqiqa! 2) kechirasiz, nima dedingiz? a? (*qaytadan so'ragan paytda*)

ananas [ˈænənəs] *n bot.* ananas (*o'tsimon tropik o'simlik va uning tomoshaqovoqqa o'xshash xushbo'y shirador hosili*)

ananym [ˈænənɪm] *n* haqiqiy ismi yoki familiyasi harflarini teskari tartibda yozmoq (*taxallus sifatida*)

anapaest [ˈænəpest, ˈænəpi:st] *n adab.* anapest (*urg'u ikki urg'usiz bo'g'indan keyingi bo'g'inga tushadigan uch hijoli she'riy turoq*)

anapaestic, anapaestical [ˌænəˈpestɪk, ˌænə ˈpi:stɪk, -(ə)l] *a* anapest (*urg'u ikki urg'usiz bo'g'indan keyingi bo'g'inga tushadigan uch hijo (bo'g'in)li she'riy turoq*) tartibida yozilgan

anaphrodisiac [ˌænæfrəˈdɪzɪæk] *a tib.* jinsiy uyg'onish (qo'zg'alish)ni tinchlantiruvchi (pasaytiruvchi, to'xtatuvchi)

anaphylaxis [ˌænəfɪˈlæksɪs] *n tib.* anafilaksiya

anaplasty [ˈænəplæstɪ] *n tib.* plastik jarrohlik

anaplerosis [ˌænəplɪˈrəʊsɪs] *n kit.* yaraning bitishi

anaplerotic [ˌænəplɪˈrɒtɪk] *a* (yarani) tuzatadigan, bitkazadigan

anaptyctic [ˌænæpˈtɪktɪk] *a tilsh.* evfoniyaga oid; evfoniya..., evfonik, hamohang, ohangdosh

anarch I [ˈænɑ:k] *n* 1) boshliq, sardor; 2) rahnamo, sarvar; 3) dohiy, peshvo, yo'lboshchi

anarch II [ˈænɑ:k] *a kam.* anarxizmga (anarxiyaga) oid, anarxizm ruhidagi, anarxistik; davlat hokimiyati va siyosatiga ega bo'lmagan

anarchic(al) [ænɑ:kɪk(əl)] *a* anarxiyaga oid

anarchically [ænɑ:kɪkəlɪ] *adv* anarxizm ruhida

anarchism [ˈænəkɪz(ə)m] *n* anarxizm (*har qanday davlat hokimiyatini va siyosiy kurashni inkor etuvchi, revolutsion proletariat diktaturasiga qarshi bo'lgan reaksion mayda burjua oqimi*)

anarchist [ˈænəkɪst] *n* anarxist (*anarxizm tarafdori*)

anarchy [ˈænəkɪ] *n* anarxiya (*hokimiyatsizlik*)

anarthrous [æˈnɑ:θrəs] *a* 1) *gram.* artiklsiz ishlatiladigan (*asosan, yunon tilidagi ot so'z turkumiga oid*); 2) *zool.* bo'g'imsiz

anasarca [ˌænəˈsɑ:kə] *a tib.* teri istisqosi (*yurak, buyrak va sh. k. ning kasallanishi natijasida tana to'qimasiga suv to'planish kasalligi*)

anastaltic [ˌænə ˈstæltɪk] *a esk.* qon to'xtatadigan

anastatic [ˌænə ˈstætɪk] *a* 1) *poligr.* anastatik; 2) *tib.* tiklanadigan, asliga (ilgarigi holiga) qaytadigan

anastigmat [əˈnæstɪgmæt] *n opt.* anastigmatik

anastomosis [əˌnɒstəˈməʊsɪs] *n anat.* anastomoz (*hayvon va odamda tomirlar, asablar, chiqaruv naylari, kovak organlarini tutashtiradigan kanal*)

anastrophe [əˈnæstrəfɪ] *n tilsh.* anastrofa (*odatiy so'z tarkibining o'zgarishi*)

anathema [əˈnæθɪmə] *n* la'natlash, qarg'ish

anathematize [əˈnæθɪmətaɪz] *v* 1) la'nat o'qimoq, la'natlamoq; 2) qarg'amoq, nafrat yog'dirmoq, urishmoq, koyinmoq

anatomic [ˌænəˈtɒmɪk] *a* anatomiyaga oid, anatomik

anatomical [ˌænəˈtɒmɪk(ə)l] *a* anatomiyaga oid; anatomik, anatomiya...

anatomiless [əˈnætɒmɪlɒs] *a kam.* aniq anatomik tuzilishga ega bo'lmagan

anatomism [əˈnætəmɪz(ə)m] *n* 1) anatomik tuzilishni tahlil qilish; 2) anatomizm

anatomist [ə ˈnætəmɪst] *n* 1) anatom, anatomiya olimi, mutaxassisi; 2) dori tayyorlovchi mutaxassis

anatomize [əˈnætəmaɪz] *v* 1) (*o'likni*) yorib tekshirmoq; 2) tahlil qilmoq

anatomy [əˈnætəmɪ] *n* anatomiya (*tirik organizmlarning tuzilishi haqidagi fan*)

anatripsis [ˌænəˈtrɪpsɪs] *n tib.* (*malhamni*) surkab (surtib) singdirmoq

anaunter(s) [əˈnɔ:ntə(z)] *cj. dial.* 1) qo'rqib, xavfsirab, xavotirlanib, tashvishlanib; 2) ehtiyot bo'lib, saqlanib

anbury [ˈænb(ə)rɪ] *n* chipqon, gazak olgan yara

ancestor [ˈænsəstə] *n* ajdod, avlod

ancestral [ænˈsestrəl] *a* meros (bo'lib) qolgan

ancestress [ˈænsɪstrəs] *n* asos solgan ayol

ancestry [ˊænsəstrɪ] *n* ajdod, avlod

anchor [ˊæŋkə] *n* langar; **to cast (to have** *yoki* **to lay) an ~ to windward** xavfsizlik choralarini ko'rmoq, oldindan tayyorgarlik ko'rmoq, shay bo'lib turmoq; **to cast (to come to** *yoki* **to drop) ~** langar tashlamoq; **a (***yoki* **smb.'s) sheet ~** so'nggi (oxirgi) chora, so'nggi (oxirgi) umid, birdan-bir (yolg'iz) umid

anchorage [ˊæŋk(ə)rɪdʒ] *n* langar tashlab turish

anchorage-ground [ˊæŋk(ə)rɪdʒˌgraond] *n* tirgovchi, tirgak, tirak, tayanch, suyanchiq

anchored [ˊæŋkəd] *a* langar tashlaydigan

anchoress [ˊæŋk(ə)rəs] *n* tarki dunyo qilgan (*ayol*)

anchoret [ˊæŋk(ə)rət] *n* tarki dunyo qilgan (*erkak*)

anchoretic [ˌæŋkəˊretɪk] *a kit.* 1) tarki dunyochilikka va tarki dunyochilarga (monaxlarga, zohidlarga) oid, xos; 2) darveshona, yolg'izlikdagi

anchoring-ground [ˊæŋk(ə)rɪŋˌgraond] *n* langar tashaydigan joy

anchorless [ˊæŋkələs] *a* 1) langarsiz; 2) *ko'ch.* oqimga qarab suzuvchi (suzadigan)

anchor-ring [ˊæŋkərɪŋ] *n* langar zanjiri

anchor-watch [ˊæŋkəwɒtʃ] *n* langar tashlab to'xtaydigan joydagi posbonlik (soqchilik)

anchovy [ˊæntʃəvɪ] *n zool.* kamsa (*mayda dengiz balig'i*)

anchovy-paste [ˊæntʃəvɪ ˊpeɪst] *n* selyodka (seld balig'i)ning moyi

anchylosis [ˌæŋkaɪˊləʊsɪs] *n tib. yun.* ankiloz (*bo'g'imlar harakatsizligi*)

anciency [ˊeɪnʃ(ə)nsɪ] *n esk.* uzoq o'tmish, qadimgi zamon, qadim

ancient [ˊeɪnʃ(ə)nt] *a* 1) qadimgi, burungi, uzoq o'tmishdagi, qadimiy; 2) juda eski, ko'hna, qadimdan (almisoqdan, daqqiyonusdan) qolgan

anciently [ˊeɪnʃ(ə)ntlɪ] *adv kit.* 1) azaldan, qadimdan, burundan; 2) qadimda, qadim zamonlarda

ancientness [ˊeɪn(ə)ntnəs] *n* uzoq o'tmish, qadimgi zamon, qadim

ancientry [ˊeɪnʃˊ(ə)ntrɪ] *n kam.* 1) uzoq o'tmish; 2) *pl* qadimdan qolgan yodgorliklar, obidalar, antiqa buyumlar; 3) eskilik, eskirganlik

ancienty [ˊeɪnʃ(ə)ntɪ] *n yur.* (*yosh, martaba, mavqe va h. k. jihatdan*) kattalik, ulug'lik, yuqorilik

ancillary [æn ˊsɪlərɪ] *a* 1) yordamchi; ko'makchi; qo'shimcha; 2) *kit.* xushomadgo'y, laganbardor, xushomadgo'ylarga xos, xushomadgo'ylarcha, xushomadgo'ylik (laganbardorlik) bilan qilingan

ancipital [ænˊsɪpɪt(ə)l] *a kam.* 1) ikki boshli; 2) ikki o'tkir uchli, ikki tomoni o'tkir, ikki tig'li, dudama

ancistroid [ænˊsɪstrɔɪd] *a kit.* ilmoqsimon, ilmoqqa o'xshagan, qayrilgan, qayrilma

ancome [ˊænkəʊm] *n esk. dial.* gazak olgan yara; chipqon

and [ænd] *cj* va, ham; esa

andante [ænˊdæntɪ] *ital. mus.* andante (*1. adv sekin, ravon musiqa asari ijrosining sur'ati haqida; 2. n shunday sur'atdagi musiqa asari*)

andesite [ˊændəzaɪt] *n min.* andezit (*effuziv tog' jinsi*)

andiron [ˊændaɪən] *n* kamindagi o'tin qo'yish uchun yasalgan temir taglik

androecium [ænˊdri:ʃɪəm] *n bot.* androtsey (*guldagi changchilar majmuyi*)

androgyne [ˊændrədʒɪn] *n* 1) germarodit, xunasa; 2) *esk.* haram og'asi; haram xodimi (*bichilgan qul*); xotinchalish erkak; 3) *bot.* ikki jinsli o'simlik

androgynous [ænˊdrɒdʒɪnəs] *n bot.* ikki jinsli

anear [əˊnɪə] **1.** *adv esk.* deyarli, qariyb; **2.** *prep.* yaqinida, yonida, oldida; **3.** *v esk.* 1) yaqinida joylashmoq; 2) yaqinlashmoq, yaqinlashib bormoq (kelmoq, qolmoq)

anecdotage [ˌænɪkˊdəʊtɪdʒ] *n* 1) *kam.* anekdotlar majmuyi; 2) *hazil.* keksalarga xos bo'lgan sergaplik (ezmalik)

anecdote [ˊænɪkdəʊt] *n* latifa

anecdotic [ˌænɪkˊdɒtɪk] *a* kulgili

anelectric [ˌænɪˊlektrɪk] *a* elektrga oid bo'lmagan, elektrsiz, elektr zaryadi chiqarmaydigan

anelectrode [ˌænɪˊlektrəʊd] *a el.* anod (*nusbat elektrod*)

anemious [əˊni:mɪəs] *a kam.* 1) shamolli, izg'irinli; 2) shamolli joylarda o'sadigan; 3) *so'zl.* yengiltak, yengil, havoyi, betayin

anemograph [əˊnemægrɑ:f] *n* anemograf

anemology [ˌænɪˊmɒlədʒɪ] *n* anemologiya (*shamol haqidagi fan*)

anemometer [ˌænɪˊmɒmɪtə] *n* anemometr (*havo va gaz oqimi tezligini o'lchaydigan asbob*)

anemometry [ˌænɪˊmɒmɪtrɪ] *n meteor.* anemometriya

anemone [əˊneməni] *n bot.* ayiqtovon (*yovvoyi gullilar oilasiga mansub o'tlar*)

anemophily [ˌænɪˊmɒfɪlɪ] *n bot.* o'simliklar (*mas., g'alladoshlar, qayinlar va b.*)ning shamol yordamida changlanishi

anemoscope [əˊneməskəʊp] *n* anemoskop (*shamolning yo'nalishini ko'rsatadigan asbob*)

an-end [əˊnend] *adv. esk.* 1) nihoyat, oxiri, natijada; 2) batamom, butunlay, oxirigacha, to'la-to'kis

anent [əˊnent] *prep.* 1) *kit.* to'g'risida, haqida, xususida, yuzasidan, taalluqli, doir, tegishli; 2) *esk. dial.* ro'parasida, qarshisida

anenterous [æˊnent(ə)rəs] *a zool.* oshqozoni (ichagi) bo'lmagan, oshqozon (ichak)siz

aneroid [ˊænərɔɪd] *n* aneroid (*metall barometr*)

anet [ˊænet] *n bot.* ukrop, shivit

anetic [əˊnetɪk] *a tib.* og'riqni qoldiradigan, og'riqni bosadigan, to'xtatadigan (*dori-darmon haqida*)

aneurism [ˊænjʊərɪz(ə)m] *n tib.* arteriyaning bir yeridagi kengayishi

anew [əˊnju:] *adv* yana, qaytadan

anfractuous [ænˊfræktjʊəs] *a kam.* 1) egri-bugri, ilang-bilang, ilon izi; 2) to'lqinsimon, taram-taram, jingalak; qat-qat; egri-bugri; 3) past-baland

angary [ˊæŋgərɪ] *n* urushuvchi tomonlarning bosib olish huquqi

angel [ˊeɪndʒ(ə)l] *n* farishta, malak, hur, g'ilmon; **the ~ of death** (*shun.*, **the Angel of Death**) *din.* Azroil; **an ~ of light** hamma yaxshi ko'radigan, aziz inson; **an ~ of mercy** *hazil.* „shafqat farishtasi" (*shafqat (tibbiyot) hamshirasi haqida*); **as an ~** *ko'ch.* farishtadek, farishtaga o'xshagan; **an avenging ~** qasos (o'ch, intiqom, qasd) olish farishtasi; **enough to make the ~s weep** gayriixtiyoriy ravishda (beixtiyor) ko'zlarga yosh keladi, kimni bo'lmasin yig'lashga majbur qiladi; **to entertain an ~ unawares** *kit.* kishining yuqori lavozimi, buyuk xizmati va fazilatlarini bilmasdan qabul qilmoq; **a fallen ~** 1) iblis, shayton, jin; 2) buzuq, fohisha (*ayollar haqida*); **a guardian ~** rahmon (*boshqalarga yaxshilik qiluvchi odam*): diniy tasavvurga ko'ra, biror kishini qo'riqlovchi farishta; **to join the ~s** *amer. hazil.* narigi dunyoga jo'namoq (ravona bo'lmoq), o'lmoq; **like an ~** farishtadek, ajoyib bir tarzda, go'zal, benazir, hech kim tenglasha olmaydigan qilib, qoyilmaqom qilib; **a little lower than the ~s** „deyarli farishtadek" baqiqiy farishtaning o'zginasi, ajoyib fazilatlarga ega bo'lgan kishi; **a ministering ~** yaxshi farishta (yaxshilikni ayamaydigan, marhamatli kishi), (*shafqat hamshirasi, tibbiyot hamshirasi haqida*); **to rush in where ~s fear to tread** „hattoki farishta ham oyoq qo'-

yishga qo'rqadigan joyga tashlanmoq", mulohaza qilmasdan xavfli ishga kirishmoq; **a swamp ~** *amer. hazil.* „botqoqlik (farishtasi) malagi" (*serbotqoq joyda yashaydigan kishi haqida*); **to wrestle with an ~** *kit.* kuchli raqib bilan kurashmoq (olishmoq)

angelet ['eɪndʒɪlet] *n kit.* yaqin yoki sevikli kishiga murojaat qilganda erkalash ma'nosida ishlatilib, *farishtaginam, jonginam* deb tarjima qilinadi

angelic [æn'dʒelɪk] *a* farishtalarga (malaklarga) oid

angelica [æn'dʒelɪkə] *n bot.* oyboltirg'on, oqsasir (*o'tsimon o'simlik*)

angelically [æn'dʒelɪk(ə)lɪ] *adv* farishtalarcha, malaklardek

angel-like ['eɪndʒ(ə)llaɪk] *a* farishtaga (malakka) o'xshagan

angels' eyes ['eɪndʒ(ə)lz,aɪz] *n bot.* veronika (*binafsha gulli o'tsimon o'simlik*)

anger ['æŋgə] **1.** *n* g'azab; **~ is a short madness** *maq.* (g'azab – qisqa muddatli telbalik), jahl kelganda aql ketadi; **2.** *v* g'azablanmoq

angild ['æŋgɪld] *n yur. esk.* ko'rilgan zararning o'rnini qoplash uchun to'lanadigan haq (badal, tovon)

angina [æn'dʒaɪnə] *n* angina (*tanglay murtak bezlarining yallig'lanishi bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallik*)

angiology [ˌændʒɪ'ɒlədʒɪ] *n* angiologiya (*anatomiya va klinik tibbiyot bo'limlari, qon va limfa tomirlari hamda ularning kasalliklarini o'rganadi*)

angiospermous [ˌændʒɪə 'spɜ:məs] *a bot.* 1) yopiq urug'li (*o'simlik haqida*); 2) gul chiqaradigan, gullaydigan, gulli (*o'simliklar haqida*)

angle I ['æŋg(ə)l] *n* 1) *mat.* burchak; 2) nuqtayi nazar, qarash, fikr; (*savol, masala, ish va h. ning*) tomonlari; **to look at the question from all ~s** masalani turli nuqtayi nazar bilan (har tomonlama) ko'rib chiqmoq; **to get/to use a new ~ on smth.** nimagadir boshqa nuqtayi nazar bilan qaramoq, nimagadir nisbatan o'z nuqtayi nazarini (qarashini, fikrini) o'zgartirmoq

angle II ['æŋg(ə)l] **1.** *n* qarmoq; **2.** *v* baliq ovlamoq

angle-brace ['æŋglbreɪs] *n maxs.* hovon, qiya sinch, qiya kergi, tirgovich

angledozer ['æŋgl,dəʊzə] *n* universal buldozer

angle-iron ['æŋg(ə)l,aɪən] *n maxs.* ugolnik, uchburchak (*rom burchagiga qoqiladigan temir*)

angler ['æŋglə] *n* baliqchi

anglesite ['æŋg(ə)lsaɪt] *n min.* 1) anglezit (*sulfatlar sinfiga mansub mineral*); 2) qo'rg'oshinli kuporo, qo'rg'oshin kuporosi

angle-wise [æŋg(ə)lwaɪz] *adv* biror nuqtayi nazardan

angleworm ['æŋ(ə)lwɜ:m] *n* chuvalchang

Anglican ['æŋglɪkən] **1.** *a* 1) anglikan (*protestant dinining Angliyada ustun bo'lgan turiga oid*); 2) *amer.* Angliyaga va inglizlarga oid; **2.** *n* anglikan mazhabidagi shaxs

Anglicism ['æŋglɪsɪz(ə)m] *n* 1) ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'z *yoki* ibora; 2) inglizlarga xos urf-odat; maxsus iboralar va b.

Anglicist ['æŋglɪsɪst] *n* inglizshunos

Anglicize ['æŋglɪsaɪz] *v* inglizchalashtirish

angling ['æŋglɪŋ] *n* qarmoq bilan (baliq) tutish; **an ~ rod** baliq ovlaydigan (tutadigan) qarmoq

Anglistics [æŋ'glɪstɪks] *n pl* inglizshunoslik

Anglomania [ˌæŋglə'meɪnɪə] *n* inglizparastlik

Anglomaniac [ˌæŋglə'meɪnɪæk] *n kam.* inglizparast

Anglophil, Anglophile ['æŋglə(ʊ)fɪl, -faɪl] *n* Angliyaga va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlovchi odam

Anglophobe ['æŋglə(ʊ)fəʊb] *n* Angliyaga va inglizlarga xos bo'lgan barcha narsalarga qarshi odam

Anglophobia [ˌæŋgləʊ'fəʊbɪə] *n* Angliyaga va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam

Anglo-Saxon [ˌæŋgləʊ 'sæks(ə)n] **1.** *a* anglo-saksonlarga oid; **2.** *n* qadimgi ingliz tili

angola [æŋ'gəʊlə] *n* angoriy mushuk

Angolan [æŋ 'gəʊlən] *n* Angolada turuvchi, istiqomat qiluvchi kishi; angoladik

angor ['æŋgə] *n tib.* siqish, siqilgan holat, siqilish

angora [æŋ'gɔ:rə] *n* angoriy echki junidan qilingan gazlama; **an ~ cat** angoriy mushuk; **an ~ goat** angoriy echki

angrily ['æŋgrɪlɪ] *adv* g'azabli, g'azablangan, g'azab (jahl) bilan

angry ['æŋgrɪ] *a* badjahl; **to be ~** jahli chiqmoq; **to be ~ with smb.** kimdandir xafa bo'lmoq

anguiform ['æŋgwɪfɔ:m] *a* ilonsimon, ilon shaklidagi, ilonga o'xshash

anguilliform [æŋ'gwɪlɪfɔ:m] *a* ilonbaliqqa o'xshagan

anguine ['æŋgwɪn] *a* ilonsimon

anguish ['æŋgwɪʃ] *n* qattiq og'riq

angular ['æŋgjʊlə] *a* burchakli

angularity [ˌæŋgjʊ 'lærɪtɪ] *n* qirradorlik

angularly ['æŋgjʊləlɪ] *adv* beso'naqay (qo'pol, dag'al) qilib

angulate ['æŋgjʊlɪt] *a* burchakli, burchakka o'xshagan

angulometer [ˌæŋgjʊ'lɒmɪtə] *n* tashqi burchaklarni o'lchaydigan asbob

anhelation [ˌænhɪ'leɪʃ(ə)n] *n tib. kam.* nafas qisish, nafas siqilish, harsillash

anhistous [æn 'hɪstəs] *a biol.* tuzilishsiz

anhydride [æn'haɪdraɪd] *n kim.* angidrid (*biror elementning kislorod bilan birikmasi*)

anhydrite [æn'haɪdraɪt] *n min.* angidrit (*kalsiy sulfat, ko'pincha, oq rangli mineral*)

anhydrous [æn'haɪdrəs] *a kim.* suvsiz

anigh [ə'naɪ] *a kit.* yaqinda, yaqin joyda, yaqinida, yonida, yaqindan; **~ the tree** daraxtning yaqinida

anight(s) [ə'naɪt(s)] *adv esk.* tunda, kechasi, kechalari

anil ['ænɪl] *n* nil bo'yog'i

anile ['eɪnaɪl] *a* 1) eskirib qolgan; 2) esi past

anilic [ə'nɪlɪk] *a* nil bo'yog'iga oid

aniline ['ænɪli:n] *n kim.* anilin (*bo'yoq va dori tayyorlashda ishlatiladigan moysimon zaharli rangsiz modda*); **~ dye** anilin bo'yog'i

anility [æ'nɪlɪtɪ] *n* keksalik, qarilik

animadversion [ˌænɪmæd 'vɜ:ʃ(ə)n] *n* tanbeh, tanbeh berish

animadvert [ˌænɪmæd'vɜ:t] *v* tanqid qilmoq, tanbeh bermoq

animal ['ænɪm(ə)l] **1.** *n* hayvon; **2.** *a* hayvonlarga oid; **~ husbandry** chorvachilik; **~ products** chorvachilik mahsulotlari

animalcule [ˌænɪ'mælkju:l] *n* mikroskop orqali ko'riladigan jonivor

animalism ['ænɪməlɪz(ə)m] *n filos.* 1) animalizm (*har bir narsaning ruhi, joni bor degan e'tiqod*); 2) sezgirlik qobiliyati

animalist ['ænɪməlɪst] *n* animalist (*asosan, hayvonlar tasvirini ishlaydigan rassom, haykaltarosh*)

animate ['ænɪmeɪt] **1.** *a* tirik; jonli; **2.** *v* jon kiritmoq

animated ['ænɪmeɪtɪd] *a* tirik, jonli

animater ['ænɪmeɪtə] = **animator**

animation [ˌænɪ'meɪʃ(ə)n] *n* jonlanish

animative ['ænɪmeɪtɪv] *a* odamni tetik qiladigan, jonlantiradigan, bahr-dilini ochadigan, kuch-quvvat beradigan, jonbaxsh, hayotbaxsh

animatograph [ˌænɪ'mætəgrɑ:f] *n esk.* 1) kinoteatr, kino; 2) kino san'ati

animator ['ænɪmeɪtə] *n* multiplikatorrassom

animism [ˈænɪmɪz(ə)m] *n fals.* animizm (*ibtidoiy xalqlarda: har bir narsaning joni, ruhi bor degan e'tiqod*)
animist [ˈænɪmɪst] *a* animist
animistic [ˌænɪ ˈmɪstɪk] *a* animizmga asoslangan, animistik
animosity [ˌænɪˈmɒsɪtɪ] *n* dushmanlik
animus [ˈænɪməs] *n* 1) noto'g'ri tushuncha; 2) dushmanlik
anion [ˈænaɪən] *n fiz.* anion (*manfiy zaryadlangan ion*)
anisated [ˈænɪseɪtɪd] *a* arpabodiyon bilan aralashtirilgan
anise [ˈænɪs] *n bot.* arpabodiyon (*o'simlik*)
anisette [ˌænɪˈzet] *n* arpabodiyon arag'i
anisic [ə ˈnɪsɪk] *a* arpabodiyonga oid, arpabodiyondan yoki uning urug'idan tayyorlangan
anisomerous [ˌænaɪ ˈsɒmərəs] *a bot.* izomeriya (*izomer moddalarning mavjud bo'la olish hodisasi*)ga oid bo'lmagan
anisophylly [ˌænaɪsəʊˈfɪlɪ] *n bot.* anizofiliya
anisotropic [ˌænaɪsə(ʊ) ˈtrɒpɪk] *a maxs.* anizotropik
anker [ˈæŋkə] *n* anker (*suyuqlik o'tchovi*)
ankle [ˈæŋk(ə)l] *n* to'piq suyagi
ankle-joint [ˈæŋklˈdʒɔɪnt] *n* boldir suyagi bilan tovon suyagi
anklet [ˈæŋklɪt] *n* oyoq bilaguzugi
ankylosis [ˌæŋkɪˈləʊsɪs] *n tib.* ankiloz (*bo'g'imning qotib qolishi*)
anlace [ˈænləs] *n esk.* (*belga taqib yuriladigan*) xanjar
anna [ˈænə] *n* anna (*hind puli=1/16 rupiya*)
annalist [ˈænəlɪst] *n* tarixni yozib boruvchi (*solnomanavis*)
annalistic [ˌænəˈlɪstɪk] *a* solnomaga (yilnomaga) oid; solnoma (yilnoma) tarzidagi
annals [ˈæn(ə)lz] *n pl* yilnoma
anneal [əˈni:l] *v tex.* yumshatmoq; qizdirmoq
annealing [əˈni:lɪŋ] *n tex.* yumshatish
Annelida [əˈnelɪdə] *n pl zool.* bo'g'imbo'g'im qurtlar (chuvalchanglar)
annex [ˈæneks] **1.** *n* qo'shimcha, ilova (*hujjat*); **2.** *v* birlashtirmoq
annexation [ˌænekˈseɪʃ(ə)n] *n* birlashtirish
annexationist [ˌænek ˈseɪʃ(ə)nɪst] *n* 1) anneksiya (*bosib olish, zabt etish, bosqinchilik*) tarafdori; 2) bosib oluvchi; zabt etuvchi, bosqinchi
annexe [ˈæneks] *n* qo'shish
annihilate [əˈnaɪəleɪt] *v* yo'q qilmoq
annihilated [əˈnaɪəleɪtɪd] *a* (butunlay) yo'q qilib (qirib) tashlangan
annihilation [əˌnaɪə ˈleɪʃ(ə)n] *n* yo'q qilish
annihilative [əˈnaɪəletɪv] *a* qiruvchi, qiron soluvchi, qirg'in keltiruvchi, qironli, qirg'in...
anniversarily [ˌænɪˈvɜ:s(ə)rɪlɪ] *adv kit.* har yil(i), har yilda, yil sayin
anniversary [ˌænɪˈvɜ:s(ə)rɪ] *n* yillik; yubiley
Anno Domini [ˌænəʊ dɒmɪnaɪ] *adv lot.* yangi (asr) era
annomination [əˌnɒmɪˈneɪʃ(ə)n] *n stil. kam.* kalambur, so'z o'yini, tajnis
annotate [ˈænəteɪt] *v* 1) izoh bermoq; 2) annotatsiya yozmoq
annotated [ˈænəteɪtɪd] *a* izohli, eslatmali (*kitob*)
annotation [ˌænəˈteɪʃ(ə)n] *n* annotatsiya (*asar haqidagi qisqa ma'lumot, uning qisqa mazmuni*)
annotator [ˈænəteɪtə] *n* sharhlovchi, izohlovchi, izohlab beruvchi
announce [əˈnaʊns] *v* xabar qilmoq, e'lon qilmoq; **to ~ on the radio** radio orqali e'lon qilmoq
announcement [əˈnaʊnsmənt] *n* e'lon, xabar
announcer [ə naʊnsə] *n* suxandon, notiq
annoy [əˈnɔɪ] *v* 1) xafa qilmoq; 2) jonga tegmoq
annoyance [əˈnɔɪəns] *n* 1) jahli chiqish; 2) o'kinch, alam
annoyed [əˈnɔɪd] *a* g'azablangan, achchiqlangan
annoying [əˈnɔɪɪŋ] *a* biror narsani qo'zg'aydigan
annual [ˈænjʊəl] **1.** *n* yilda bir marta chiqadigan to'plam; **hardy ~** (*gazetada, parlamentda*) har yil(i) (har yilda, yil sayin) ko'tariladigan masala; **2.** *a* bir yilda bir marta bo'ladigan (o'tkaziladigan)
annually [ˈænjʊəlɪ] *adv* har yili; har yilda; yil sayin
annuary [ˈænjʊərɪ] *n* yilda bir marta chiqadigan to'plam
annuitant [əˈnju:ɪt(ə)nt] *n* har yilgi (yillik) daromadni oladigan kishi
annuity [əˈnju:ɪtɪ] *n* yillik daromad
annul [əˈnʌl] *v* 1) bekor qilmoq; 2) yo'q qilmoq
annular [ˈænjʊlə] *a* halqasimon
annularly [ˈænjʊləlɪ] *adv* halqaga o'xshab
annulary [ˈænjʊlərɪ] *n* so'fi barmoq (*jimjiloq yonidagi to'rtinchi barmoq*)
annulate [ˈænjʊlɪt] *a* halqali
annulated [ˈænjʊleɪtɪd] *a* halqalardan tuzilgan, halqali, halqa-halqa
annulet [ˈænjʊlɪt] *n* halqacha
annulment [əˈnʌlmənt] *n* bekor qilish; yo'q qilish
annuloid [ˈænjʊlɔɪd] *a zool.* bo'g'imbo'g'im (*botanika va zoologiya terminlari tarkibida*)
annum [ˈænəm] *n lot.* yil; **per ~** bir yilda
annunciate [əˈnʌnsɪeɪt] *v* e'lon qilmoq
annunciation [əˌnʌsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* hammaga e'lon qilish
annunciator [əˈnʌnsɪeɪtə] *n* xabar beruvchi asbob
annuntiate [əˈnʌnʃɪeɪt] = **annunciate**
anode [ˈænəʊd] *n el.* anod (*musbat elektrod*)
anodic [æ ˈnɒdɪk] *a el.* anod (musbat elektrod)ga oid, anod...
anodyne [ˈænəʊdaɪn] **1.** *n* og'riqni qoldiradigan dori; **2.** *a* og'riqni qoldiradigan
anogenic [ˌænə(ʊ)ˈdʒenɪk] *a geol.* otilib chiqqan, otilgan
anoint [əˈnɔɪnt] *v* surtmoq, surkamoq
anointed [əˈnɔɪntɪd] *a* 1) yog'langan, moylangan, yog' (moy, dori, malham) surtilgan, yog'lab (moylab) qo'yilgan; 2) *cherk. esk.* „muqaddas" yog' surtilgan; 3) (**the ~**) muqaddas yog' surilgan, podsholikka ko'tarilgan shaxs (podsho)
anointing [əˈnɔɪntɪŋ] = **anointment**
anointment [əˈnɔɪntmənt] *n* 1) yog'lash, moylash, yog' (moy, malham dori) surtish; 2) *cherk.* surtish, surkash (*cherkovda cho'qintirish yoki o'lim oldida va podsholarning taxtga o'tirish munosabati bilan peshanasiga „muqaddas" yog'ni xoch (salib) shaklida surkash marosimi*)
anolyte [ˈænə(ʊ)laɪt] *n maxs.* anolit (*elektrolizda kotoddan g'ovakli diafragma (to'siq) bilan ajratilgan va anod atrofida joylashgan elektrolit*)
anomalism [əˈnɒməlɪz(ə)m] *n* anatomiya, qat'iy belgilangan me'yor (o'lcham, miqdor, marom), umumiy qonuniyatdan chetga chiqish; umumiy qonuniyatga xiloflik
anomalist [əˈnɒməlɪst] *n tilsh.* anomalist
anomalistic [əˌnɒməˈlɪstɪk] *a* normadan chetga chiqqan; noto'g'ri
anomalous [əˈnɒmələs] *a* noto'g'ri, xato
anomaly [əˈnɒməlɪ] *n* normadan chetga chiqish
anomy [ˈænɒmɪ] *n esk.* 1) qonunga rioya qilmaslik, qonunni buzish; 2) qonunga xilof harakat; qonunsizlik
anon [əˈnɒn] *adv* hozir, tezda, darrov
anonym [ˈænənɪm] *n* anonim (*nomini yashirgan muallif*)
anonymity [ˌænəˈnɪmɪtɪ] *n* anonimlik (*nomsizlik*)
anonymous [əˈnɒnɪməs] *a* noma'lum

anopheles [ə´nɒfili:z] *n zool.* anofeles, bezgak chivini
anorak [´ænəræk] *n* kapushonli kurtka (*anorak*)
anorexia [ænə´reksıə] *n tib.* ishtahaning yo'qligi
anorganic [ˌænɔ:´gænık] *a* noorganik
anorthite [æ´nɔ:θaıt] *n min.* anortit, dala shpati, ohak shpati (*silikatlar jinsiga mansub mineral*)
anorthoscope [æ´nɔ:θɒskəʊp] *n* anortoskop (*optik o'yinchoq*)
anosmia [æ´nɒzmıə] *n tib.* isni (hidni) sezuvchi qobiliyatini yo'qotish
another [ə´nʌðə] *indef. pron.* 1) boshqa; **one ~** bir-birini; **ask (me) ~** men qayoqdan (qayerdan, qaydan) bilaman (bilay); **like ~** hech qiziq joyi yo'q, hech ajablanarli joyi yo'q; **you are ~** *so'zl.* sen o'zing shunaqasan; 2) yana bitta (biri)
anourous [ə´nʊərəs] *a zool.* dumsiz, quyruqsiz
anoxaemia [ˌænɒk´si:mıə] *n tib.* qonda kislorodning yetishmasligi
anoxia [æ´nɒksıə] *n tib.* (qonda) kislorodning yetishmasligi
anserine [´ænsəraın] *a* 1) g'ozga oid; 2) aqlsiz
answer [´ɑ:nsə] **1.** *v* javob bermoq; **to ~ the bell** (*yoki* **the door**) (*biror kishi eshikni taqillatgandan yoki eshik qo'ng'irog'ini bosgandan so'ng*) eshikni ochmoq; **to ~ the phone** (telefon qo'ng'irog'iga) javob bermoq; **to ~ in the affirmative** ijobiy javob bermoq; **2.** *n* javob; **the ~'s a lemon** *jarg.* yo'q (bo'lmaydi, ketmaydi, ovora bo'lasiz, xomtama bo'lmang)! **bunday** nayrang ketmaydi; **to know all the ~s** hamma narsaga javobi doimo tayyor bo'lmoq, hamma narsaga tez javob bermoq (fikrini bildirmoq); **the ~ to a maiden's prayer** *so'zl. hazil.* „qiz bolaning orzusi", chiroyli bo'ydoq yigit, havas qilgudek qalliq, go'zal (chiroyli, xushro'y) erkak; **a soft ~ turns away wrath** *maq.* muloyim (yumshoq) javob nafrat (g'azab)ni yo'q qiladi (ketkazadi, uzoqlashtiradi) = egilgan boshni qilich kesmaydi; **in ~ to your letter** sizning xatingizga javoban
answerable [´ɑ:nsə)rəb(ə)l] *a* (mas'ul) javobgar (*kimningdir oldida*)
answerableness [´ɑ:nsə)rəb(ə)lnəs] *n* javobgarlik, mas'uliyat
ant [ænt] *n zool.* chumoli
antacid [ænt´æsıd] *a tib.* kislotani neytrallashtiruvchi
antagonism [æn´tægənız(ə)m] *n* 1) raqiblik; 2) dushmanlik
antagonist [æn´tægənıst] *n* raqib; dushman; g'anim
antagonistic [æn,tægə´nıstık] *a* dushmanlik ruhidagi
antagonistically [æn,tægə´nıstık(ə)lı] *adv* dushmanlarcha, dushmanlik bilan
antagonize [æn´tægənaız] **1.** *n* qarshi harakat; **2.** *v* qarshi harakat qilmoq
antalgic [æn´tældʒık] *a* og'riqni qoldiradigan, og'riqni bosadigan, to'xtatadigan (*dori-darmon haqida*)
antalkaline [æn´tælkəlaın] *a kim.* ishqorlik xususiyatini yo'qotadigan; ishqorlilikni kamaytiradigan
Antarctic [æn´tɑ:ktık] *a* Antarktidaga oid
ant-bear [´ænt,beə] *n zool.* chumolixo'r (*chala tishlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon*)
ante- [´æntı-] *pref. biror-bir vaqt va voqeaning oldin sodir bo'lganligini ifoda etish uchun xizmat qilib.* oldin, ilgari, -gacha *deb tarjima qilinadi*
ant-eater [´ænt,i:tə] *n zool.* chumolixo'r (*chala tishlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon*)
ante-bellum [ˌæntı´beləm] *a lot.* urushdan oldingi
antecede [ˌæntı´si:d] *v esk.* 1) biror kimsa yoki narsa oldida yurmoq (bormoq); 2) biror kimsa yoki narsadan oldinga o'tmoq, ilgari bo'lmoq (*vaqt, joy, martaba va b.*)
antecedence [ˌæntı´si:d(ə)ns] *n* 1) biror kimsa yoki narsadan oldinga o'tib olish; 2) birinchi darajadalilik, birinchilik, ustunlik
antecedency [ˌæntı´si:d(ə)nsı] *n esk.* 1) oldinga o'tib olish; 2) *pl* ilgarigi (oldingi, o'tgan, oldin bo'lgan) hodisalar, voqealar
antecedent [ˌæntı´si:d(ə)nt] **1.** *n pl* o'tgan umr, o'tmish; **my ~s** mening o'tmishim; **2.** *a* oldingi, avvalgi; burungi, o'tgan
antecedently [ˌæntı ´si:d(ə)ntlı] *adv* 1) (*biror ish qilishdan yoki biror narsa deyishdan*) oldin, ilgari, avval; 2) tajribaga (dalillarga) asoslanmagan holda, tajribada ko'rmasdan, tekshirmasdan, dalilsiz, asossiz
antecessor [ˌæntı´sesə] *n* 1) ma'lum bir sohada oldin faoliyat ko'rsatgan, oldin o'tgan; 2) birovdan oldin o'sha sohada (lavozimda, mansabda) ishlagan odam, vazifadosh
antechamber [´æntı,tʃeımbə] *n* dahliz
antedate [´æntı,deıt] 1. *n* o'tib ketgan kun bilan qo'yilgan sana; 2. *v* o'tib ketgan sanani qo'ymoq
antediluvially [ˌæntıdı´lu:vıəlı] *adv* almisoqdan (daqqiyunusdan) qolgan, oyoqdan qolgan, allaqachon eskirgan holda
antediluvian [ˌæntıdı´lu:vıən] *a* qadimiy
antefix [´æntıfıks] *n me'mor.* antefiks (*ibodatxonaning binosidan uzunasiga marmardan qilingan bezak*)
anteflexion [ˌæntı´flek[(ə)n] *n tib.* oldinga bukilgan joy; (bachadonning) oldinga burilishi
ant-eggs [´æntegz] *n pl* chumoli tuxum(lar)i
antelope [´æntıləʊp] *n zool.* antilopa (*kiyik*)
antelucan [ˌæntı´lju:kən] *a kam.* tong (otish)dan oldingi
antemeridian [ˌæntımə´rıdıən] *a* ertalabki, erta bilan bo'ladigan
antemeridiem [ˌæntımə´rıdıəm] *adv* choshgohdan oldin
antemundance [ˌæntı´mʌndəns] *a kit.* dunyo yaratilishidan oldin (mavjud) bo'lgan
antenatal [ˌæntı´neıtl] *a* qorindagi rivojlanish davriga oid
antenati [ˌæntı´neıtaı] *n pl* ota-onalari nikohdan o'tmasdan yoki nikohdan o'tgandan keyin belgilangan vaqtdan oldin tug'ilgan bolalar
antenna [æn´tenə] *n* 1) *rad.* antenna; 2) *zool.* mo'ylov
antennae [æn´teni:] *pl of* **antenna**
antennal [æn´ten(ə)l] *a ent.* mo'ylovli, sermo'ylov, mo'ylovchali
antennary [æn´tenərı] = **antennal**
antenniferous [ˌæntı´nıfərəs] *a ent.* mo'ylovli, sermo'ylov, mo'ylovchali
antennule [æn´tenju:l] *n ent.* mikroskop orqali ko'rinadigan juda kichik mo'ylovchalar
antenuptial [ˌæntı´nʌpʃ(ə)l] *a* nikohdan oldingi
antepast [´æntıpɑ:st] *n esk.* oldindan sezib lazzatlanish (rohatlanish, huzur qilish, zavqlanish)
antepenultimate [ˌæntıpı´nʌltımət] *a* oxiridan uchinchi bo'g'in
anteprandial [ˌæntı´prændıəl] *a* tushlikdan oldingi
anterior [æn´tı(ə)rıə] *a* oldingi, burungi, ilgarigi, avvalgi
anteriority [ˌæntı(ə)rı´ɒrıtı] *n* birinchilik
anteriorly [æn´tı(ə)rıəlı] *adv* erta, barvaqt, vaqtli
ante-room [´æntıru:m] *n* dahliz, qabulxona
anthem [´ænθ(ə)m] *n* madhiya; **a national ~** davlat madhiyasi
anther [´ænθə] *n bot.* changdon
antheral [´ænθərəl] *a bot.* changdonli
antherozoid [ˌænθərə(ʊ)´zɔıd] *n bot.* spermatozoid (*ko'pgina o'simliklarda erkaklik jinsiy hujayrasi*)

antherozooid [ˌænθərə(ʊ)ˊzu:ɪd] = **antherozoid**

ant-hill [ˊænt,hɪl] *n* chumoli uyasi

anthological [ˌænθəˊlɔdʒɪk(ə)l] *a* 1) antologiya (*turli mualliflarning saylanma asarlari, ko'pincha, she'riy to'plamlari*)ga oid; 2) yunon lirik poeziyasi (she'riyati) ruhidagi, antologik

anthologist [ænˊθɔlədʒɪst] *n* antologiya tuzuvchi

anthology [ænˊθɔlədʒɪ] *n* antologiya (*turli mualliflarning saylanma asarlari, ko'pincha, she'rlar to'plami*)

anthracite [ˊænθrəsaɪt] *n* antratsit (*toshko'mirning eng yaxshi navi*)

anthracnose [ænˊθræknəʊs] *n* o'simliklarning parazit zamburug'lar qo'zg'atadigan kasalligi

anthrax [ˊænθræks] *n tib.* ho'ppoz (*ko'k yara*)

anthropic [ænˊθrɒpɪk] *a kam.* inson (odam)ga oid; inson (odam, kishi)...

anthropical [ænˊθrɒpɪk(ə)l] = **anthropic**

anthropocentric [ˌænθrəpə(ʊ)ˊsentrɪk] *a* antropotsentrik (*antropotsentrizmga xos bo'lgan*)

anthropogenetic [ˌænθrəpə(ʊ)dʒɪˊnetɪk] *a* antropogenetik, antropogenezga oid

anthropogeny [ˌænθrəˊpɒdʒɪnɪ] *n* antropogenez (*odam zotining tarixiy evolutsion shakllanishi, uning mehnat faoliyati, nutqi, shuningdek, jamiyatning dastlabki rivojlanish jarayoni*)

anthropoid [ˊænθrəʊpɔɪd] **1.** *n* odamsimon maymun; **2.** *a* odamsimon

anthropolite [ænˊθrɒpəlaɪt] *a* antropolit (*odamning toshga aylangan qoldiqlari*)

anthropolith [ænˊθrɒpəlɪθ] = **anthropolite**

anthropological [ˌænθrəpəˊlɔdʒɪk(ə)l] *a* antropologiyaga oid, antropologik, antropologiya...

anthropologically [ˌænθrəpəˊlɔdʒɪk(ə)lɪ] *adv* antropologiya nuqtayi nazariga ko'ra

anthropologist [ˌænθrəˊpɒlədʒɪst] *n* antropologiya olimi

anthropology [ˌænθrəˊpɒlədʒɪ] *n* antropologiya (*odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi, jismoniy tuzilishi va irqlarning paydo bo'lishi haqidagi fan*)

anthrometric [ˌænθrəpəˊmetrɪk] *a* antropometriyaga oid, antropometrik, antropometriya...

anthrometrically [ˌænθrəpəˊmetrɪk(ə)lɪ] *adv* antropometriya nuqtayi nazariga ko'ra

anthropometry [ˌænθrəˊpɒmɪtrɪ] *n* antropometriya (*antropologiya ilmida: odam tanasi va a'zolarini o'lchashga asoslangan tekshirish usuli*)

anthropomorphic, anthropomorphical [ˌænθrəpəˊmɔ:fɪk, -(ə)l] *a* antropomorfiyaga oid, antropomorfik, antropomorfiya...

anthropomorphism [ˌænθrəpəˊmɔ:fɪz(ə)m] *n* antropomorfizm (*1. odamga xos ruhiy xususiyatlarni narsalar, jonivorlar va tabiat hodisalariga ham xos deb bilish, ularni odamga o'xshatish; 2. xudolarni xos deb bilish, ularni odamga o'xshatish*)

anthropomorphology [ˌænθrəpəmɔ:ˊfɒlədʒɪ] = **anthropomorphism**

anthropomorphous [ˌænθrəpəˊmɔ:fəs] *a* xudolar odam obrazida tasavvur qilingan

anthroponomical [ˌænθrəpəˊnɒnɪk(ə)l] *a* antroponomik, antroponomiyaga oid, antroponomiya...

anthropophagi [ˌænθrəˊpɒfəgaɪ] *n pl* odamxo'rlar

anthropophagic [ˌænθrəpəˊfædʒɪk] *a* 1) odamxo'rlarga oid; 2) *ko'ch.* yovuz, vahshiyona

anthropophagism [ˌænθrəˊpɒfədʒɪz(ə)m] *n* 1) odamxo'rlik, odam go'shtini yeyish; 2) *ko'ch.* yovuzlik, zolimlik, qonxo'rlik, vahshiylik

anthropophagist [ˌænθrəˊpɒfədʒɪst] = **anthropophagite**

anthropophagistic [ˌænθrəˊpɒfədʒɪstɪk] = **anthropophagic**

anthropophagite [ˌænθrəˊpɒfədʒaɪt] *n* 1) odamxo'r, vahshiy; 2) *ko'ch.* yovuz odam, zolim, qonxo'r

anthropophagous [ˌænθrəˊpɒfəgəs] *a* 1) odamxo'rlarga oid; 2) *ko'ch.* yovuz, vahshiyona

anthropophagy [ˌænθrəˊpɒfədʒɪ] *n* odamxo'rlik

anthropophobia [ˌænθrəpəˊfəʊbɪə] *n* odamsevmaslik; insoniyatga qarshilik, odamlarga dushmanlik

anthropophuism [ˌænθrəpəˊfjʊɪz(ə)m] *n* antropofuiz (*xudolarni insoniy fe'l-atvor bilan tasavvur qilish*)

anthroposophy [ˌænθrəˊpɒsəfɪ] *n* antroposofiya (*mistik ta'limot; teosofiyaning ko'rinishlaridan biri, nemis mistik filosofi R. Shteyner 1913- yili asos solgan*)

anthropotomy [ˌænθrəˊpɒtəmɪ] *n* antropotomiya; odam anatomiyasi

anti [ˊæntɪ] *n* 1) *so'zl.* biror organ, tashkilot va sh. k. ichida ko'pchilikka, ko'pchilik fikriga qarshi bo'lgan kishi (oppozitsiyachi, oppozitsiya tarafdori); 2) *jarg.* raketaga qarshi (qo'llanadigan) qurol

antiaerial [ˌæntɪ ˊe(ə)rɪəl] *a harb.* osmonga otadigan, samolyotni otib tushiradigan, zenit...; havo hujumiga qarshi (qo'llanadigan)

antiager [ˌæntɪˊeɪdʒə] *n* qarib (eskirib) qolishdan saqlaydigan dori (vosita)

anti-aircraft [ˌæntɪˊeəkrɑ:ft] *a* havo hujumiga qarshi; **an ~ gunner** zenitchi

antiaircrafter [ˌæntɪˊeəkrɑ:ftə] *n harb. so'zl.* zenitchi

antiairborne [ˌæntɪˊeəbɔ:n] *a* havo desantlariga qarshi bo'lgan, havo desantlarini yo'q qiladigan; **~ troops** dushmanning havo desantlarini yo'q qiladigan qo'shin

antiamphibious [ˌæntɪæmˊfɪbɪəs] *a* desantlarga qarshi (bo'lgan); **an ~ mine field** desantlarga qarshi minalangan maydon

antiar [ˊæntɪə] *n bot.* zaqqum (*zaharli sutsimon shira chiqaradigan daraxt, buta*)

antibilious [ˌæntɪˊbɪlɪəs] *a tib.* o't (safro)ga qarshi (qo'llanadigan)

antibiotic [ˌæntɪbaɪˊɒtɪk] **1.** *n* antibiotik (*ba'zi mikrob va bakteriyalarning ko'payishini to'xtatadigan organik modda, dorivor*); **2.** *a* antibiotik, antibiotikka oid; **~ treatment** antibiotik bilan davolash

antiblackout suit [ˌæntɪˊblækaʊt,sju:t] *n* yuk tashish uchun kiyiladigan kiyim

antibody [ˊæntɪ,bɒdɪ] *n fiziol.* antijismlar (*organizmda antigenlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladigan va ularning ta'sirini yo'qotadigan moddalar*)

antibrachium [ˌæntɪˊbrækɪəm] *n anat.* bilak

antic [ˊæntɪk] **1.** *n* hazil-huzul, sho'xlik; **2.** *a* hazilkashlik bilan qilingan

anticatalyst [ˊæntɪ,kætəlɪst] *n kim.* katalizator (*kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi modda*) og'usi

antichlor [ˊæntɪ,klɔ:] *n kim.* giposulfit (*sulfit kislota turlaridan biri; bo'yoq, qog'oz sanoatida, suratga olishda qo'llaniladigan kristall modda*)

anticipant [ænˊtɪsɪpənt] **1.** *n* kutayotgan kishi; **2.** *a* kutayotgan

anticipate [ænˊtɪsɪpeɪt] *v* bashorat qilmoq; **that which one least ~s soonest comes to pass** *maq.* (sira kutilmagan hodisa tez orada ro'y beradi), kafil turma kafansiz ketasan; kutilmagan narsa oyoq ostidan chiqar

anticipation [æn,tɪsɪˊpeɪʃ(ə)n] *n* oldindan sezish

anticipative [ænˊtɪsɪpətɪv] *a* 1) boshqalardan oldin payqaydigan, oldindan sezadigan (biladigan), oldinroq bilib qoladigan

anticipatorily [æn´tısıpeıtərılı] *adv kit.* 1) biror narsadan oldin, oldindan, avvaldan, oldinroq; 2) oldindan, ilgaridan, barvaqt

anticipatory [æn,tısı´peıt(ə)rı] *a* oldingi, avvalgi

anticivic [,æntı´sıvık] *a kam.* fuqarolarga, ularning haq-huquqlari va o'zaro munosabatlariga qarshi (qo'llanadigan)

anticize [´æntısaız] *v kam.* 1) bachkanabozlik qilmoq, maynabozchilik (masxarabozlik) qilmoq; ko'nglini ochmoq; kuldirmoq

anticlerical [,æntı´klerık(ə)l] *a* antiklerikal, klerikalizmga qarshi

anticlericalism [,æntı´klerık(ə)lız(ə)m] *n* antiklerikalizm (*mamlakatning siyosiy va madaniy hayotda cherkov ta'sirini kuchaytirishga qarshi qaratilgan reaksion oqim*)

anticlimax [,æntı´klaımæks] *n* kuchsizlanish, kuchini yo'qotish

anticlockwise [,æntı´klokwaız] *a* soat miliga (teskari) qarshi

anticly [´æntıklı] *adv esk.* 1) grotesk (*ortiq mubolag'a bilan bo'rttirib tasvirlash*) uslubda; 2) g'alati (ajoyib, g'aroyib) tarzda

anticonstitutional [´æntı,kɒnstı´tju:ʃən(ə)l] *a* konstitutsiyaga qarshi qaratilgan

antics [´æntıks] *n pl* g'alati, g'ayritabiiy qiliqlar

anticyclone [,æntı´saıkləun] *n* antisiklon

antidazzle [,æntı´dæz(ə)l] *a* ko'zni olmaydigan (*chiroqning yorug'ligi to'g'risida*)

antidemocrat [,æntı´deməkræt] *n* demokratiya dushmani, demokratiyani ko'rolmaydigan (yoqtirmaydigan) kishi

antidemocratic [,æntı,demə´krætık] *a* demokratiyaga qarshi

antidotal [,æntı´dəutl] *a* zaharga qarshi

antidote [´æntıdəut] *n* zaharga qarshi dori

antielectron [´æntı,lektrɒn] *n fiz.* positron (*musbat elektron*)

anti-fascist [,æntı´fæʃıst] **1.** *n* fashizm dushmani; **2.** *a* fashizm dushmaniga oid

antifebrile [,æntı´fi:braıl] *a* isitmaga qarshi

antifederalist [,æntı´fed(ə)rəlıst] *n tar.* antifederalist

antifogmatic [,æntıfog´mætık] *n amer. hazil.* spirtli ichimlik (*shamollashning oldini olish uchun ishlatiladigan*)

antifreeze [´æntı,fri:z] *n tex.* antifriz (*suvning muzlash haroratini pasaytiradigan modda*)

antifriction [´æntı,frıkʃ(ə)n] *a tex.* ishqalanishni kamaytiruvchi

anti-Gallican [,æntı´gælıkən] *a* fransuzlarga qarshi qaratilgan

antigen [´æntıdʒən] *n fiziol.* antigen (*organizm uchun yot modda*)

antigravity [´æntı,grævıtı] *n fiz.* antigravitatsiya

anti-guggler [,æntı´gʌglə] *n esk.* sifon (*1. yuqoridagi idishdan pastroqdagi idishga suyuqlik o'tkazadigan bukik naycha; 2. shunday naychali maxsus idish; 3. tem. y. parovoz mo'risining tortishini kuchaytiruvchi naycha*)

anti-hum [´æntıhʌm] *n* ovoz pasaytirgich (*shovqinni pasaytiradigan asbob, moslama* (*shun.*, **an ~ device**))

anti-icer [,æntı´aısə] *n* muzlashga qarshi vosita, modda

anti-imperialistic [,æntım´pı(ə)rıə´lıstık] *a* antiimperialistik, imperializmga qarshi

antijamming [´æntı,dʒæmıŋ] **1.** *n radio.* to'siqni bartaraf etish; **2.** *a radio.* to'siqni bartaraf etuvchi

antiknock [,æntı´nɒk] *n* antidetonator

antilibration [,æntılaı´breıʃ(ə)n] *n esk.* 1) (og'irlikni) tenglashtirish, baravarlashtirish, baravar (teng) qilish; tekislash; 2) *ko'ch.* (kuchini, darajasini) teng qilish, tenglashtirish; baravar qilish

antilogarithm [,æntı´lɒgərıð(ə)m] *n mat.* antilogarifm

antilogy [æn´tılədʒı] *n* qarama-qarshilik

antimacassar [,æntımə´kæsə] *n* qo'l sochiq

anti-matter [´æntı,mætə] *n* antimodda (*antimateriyadan tarkib topgan modda*)

anti-mechanized [,æntı´mekənaızd] *a amer.* tankka qarshi qo'llanadigan

antimere [´æntımıə] *n pl zool.* antimerlar (*tuzilishi bir xil yoki o'xshash bo'lgan hayvon tanasining qismi*)

antimilitarism [,æntı´mılıtərız(ə)m] *n* antimilitarizm (*militarizmga, imperialistik urushlarga qarshi qaratilgan xalqaro ommaviy-siyosiy kurash, harakat*)

antimilitaristic [,æntı´mılıtə´rıstık] *a* militarizmga qarshi

antimonarchical [,æntımə´nɑ:kık(ə)l] *a* monarxiya (*hokimiyat bir kishining – monarxning qo'lida bo'lgan davlat tuzumi va shunday davlatning o'zi*)ga qarshi; monarxiyaga qarshi qaratilgan, monarxiyaga dushman

antimonarchist [,æntı´mɒnəkıst] *n* monarxiya dushmani, monarxiyani ko'rolmaydigan (yoqtirmaydigan) kishi

antimony [´æntımənı] *n kim.* surma (*kimyoviy element, kumushrang mo'rt metall*); **an ~ glance** *min.* yaltiroq surmatosh

antinational [,æntı´næʃən(ə)l] *a* millatga, millat manfaatlariga qarshi, zid, dushman

antineutrino [´æntı,nju:tri:nəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) *fiz.* antineytrino (*neytronning antizarrasi*)

antineutron [´æntı,nju:trɒn] *n fiz.* antineytron (*neytronning antizarrasi, Neytrondan zaryadi va magnit ishoralari bilan farq qiladi*)

antinome [´æntınəum] = **antinomy**

antinomic [,æntı´nɒmık] *n* antinomik, antinomiyaga oid

antinomical [,æntı´nɒmık(ə)l] = **antinomic**

antinomy [´æntınəmı] *n* antinomiya (*to'g'ri deb qabul qilingan ikki hol o'rtasidagi ziddiyat, qarama-qarshilik*)

antioxidant [,æntı´ɒksıd(ə)nt] *n kim.* ingibitor (*fermentlar faolligini susaytiradigan kimyoviy moddalar*)

antiparticle [,æntı´pɑ:tık(ə)l] *n fiz.* antizarra (*qarama-qarshi zaryadli zarra, mas., elektron va pozitron bir-biriga nisbatan antizarralardir*)

antipathetic [,æntıpə´θetık] *a* yoqimsiz, xunuk

antipathetical [,æntıpə´θetık(ə)l] = **antipathetic**

atipathetically [,æntıpə´θetık(ə)lı] *adv* yoqtirmasdan, xush ko'rmasdan; nafrat bilan; jirkanib; ko'ngli tortmay

antipathy [æn´tıpəθı] *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik

antipersonnel [,æntıpɜ:sə´nel] *a harb.* piyoda askarlarga qarshi

antiphlogistic [,æntıflə(ʊ)´dʒıstık] *a tib.* yallig'lanishga qarshi

antiphon [´æntıfən] *n* 1) *cherk.* antifon (*ikki xor yoki yakkaxon bilan xorning navbatma-navbat kuylashi*); 2) *esk.* (*chaqiriqqa, chaqiriq ovoziga, murojaatga*) javob; aks sado

antiphonary [æn´tıfən(ə)rı] *n cherk.* antifonlar kitobi

antiphony [æn´tıfənı] *n cherk.* ikki xorning navbatma-navbat kuylashi

antipodal [æn´tıpədl] *a* antipodlarga oid

antipode [´æntıpəud] *a* antipod (*1. Yer sharining qarama-qarshi tomonlarida yashovchi odamlar; 2. fe'li, didi, qarashlari qarama-qarshi odamlar*)

antipole [´æntıpəul] *n* qarama-qarshi qutb

antipope [´æntıpəup] *n tar.* papa (*katoliklar cherkovi boshlig'i*)ga qarshi

antiproton [´æntı,prəutɒn] *n fiz.* antiproton (*protonga nisbatan qarama-qarshi zaryadli zarra*)

antipyretic [ˌæntɪpaɪ(ə)ˈretɪk] **1.** *n* isitmani pasaytiradigan dori; **2.** *a* isitmani pasaytiradigan

antiquarian [ˌæntɪˈkwe(ə)rɪən] **1.** *n* antiqiy narsalar bilan savdo qiluvchi kishi; **2.** *a* antiqiy

antiquarianism [ˌæntɪˈkwe(ə)rɪənɪzm] *n* antikvarlik (*antiqiy narsalar bilan savdo qilish*) kasbi, hunari

antiquarium [ˌæntɪˈkwe(ə)rɪəm] *n kam.* antikvarlar (*antiqiy narsalar*) saqlanadigan (asraladigan) joy

antiquary [ˈæntɪkwərɪ] *n* nodir narsalarni to'plovchi

antiquated [ˈæntɪkweɪtɪd] *a* eskirgan, ishdan chiqqan

antique [ænˈtiːk] **1.** *n* qadimiy (eski) narsa; **2.** *a* qadimiy

antiquitarian [ænˌtɪkwɪˈte(ə)rɪən] *n kam.* antik dunyo (*qadimgi rimliklar va yunonlar dunyosi, ularning madaniyati, san'ati*) ishqibozi

antiquities [ænˈtɪkwɪtɪz] *n pl* 1) qadimdan qolgan yodgorliklar, obidalar, antiqiy narsalar; 2) *esk.* qadimgi davrdan qolgan (*eski*) rasm, odat, udum, urf-odat, tamoyil

antiquity [ænˈtɪkwɪtɪ] *n* qadim zamon

antirattler [ˌæntɪˈrætlə] *n tex.* (*avtomashina, samolyot va sh. k. da*) amortizator (*urilish zarbini yumshatadigan asbob, moslama*)

antireligious [ˌæntɪrɪˈlɪdʒəs] *a* dinga qarshi qaratilgan, ateistik

anti-revolutionary [ˈæntɪˌrevəˈluːʃ(ə)n(ə)rɪ] *a* revolutsiyaga qarshi qaratilgan

antirrhinum [ˌæntɪˈraɪnəm] *n bot.* sher og'zi (*gullaydigan o'tsimon o'simlik*)

antiscorbutic [ˌæntɪskɔːˈbjuːtɪk] **1.** *n* singa (lavsha) kasalligiga qarshi dori; **2.** *a* singa (lavsha) kasalligiga qarshi

anti-Semite [ˌæntɪˈsiːmaɪt] *n* antisemit (*yahudiylar dushmani*)

anti-Semitic [ˌæntɪsɪˈmɪtɪk] *a* antisemitga oid

anti-Semitism [ˌæntɪˈsemɪtɪz(ə)m] *n* antisemitizm

antisepsis [ˌæntɪˈsepsɪs] *n tib.* antseptika (*1. yarani kimyoviy vositalar bilan zararsizlantirish, gazak olishdan, yiringlashdan saqlash; 2. shu maqsadda qo'llaniladigan dori-darmonlar*)

antiseptic [ˌæntɪˈseptɪk] **1.** *n* gazak olishdan saqlaydigan dori; **2.** *a* gazak olishdan saqlaydigan

antiskid [ˌæntɪˈskɪd] *a tex.* sirg'anmaydigan

antisocial [ˌæntɪˈsəʊʃ(ə)l] *a* jamiyatga qarshi bo'lgan

anti-submarine [ˌæntɪˈsʌbməriːn] *a deng.* kemaga qarshi

antitank [ˌæntɪˈtæŋk] *a* tankka qarshi bo'lgan

antitheism [ˌæntɪˈθiːɪz(ə)m] = **antheism**

antitheist [ˌæntɪˈθiːɪst] = **antheist**

antitheses [ænˈtɪθəsiːz] = **antithesis**

antithesis [ænˈtɪθəsɪs] *n* ko'zga tashlanadigan qarama-qarshilik

antitoxic [ˌæntɪˈtɒksɪk] *a* zahardan himoya qiladigan

antitoxin [ˌæntɪˈtɒksɪn] *n* zaharga qarshi dori

anti-trade [ˌæntɪˈtreɪd] *n meteor.* antipassat (*tropik kengliklarda: tropiklardan ekvatorga tomon doim esib turadigan quruq shamolga qarshi yo'nalgan doimiy havo oqimlari*)

antitype [ˈæntɪtaɪp] *n adab.* 1) obrazning mavjud emasligi, 2) qahramonning mavjud emasligi

antitypous [ænˈtɪtɪpəs] *a kam.* kuchlarga bardosh bera oladigan; mahkam, pishiq, chidamli, mustahkam, bardosh beradigan

antitypy [ænˈtɪtɪpɪ] *n kam. fiz. tex.* materiallar qarshiligi, materiallarning shakli o'zgarishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyati va shu haqdagi fan

antiviral [ˌæntɪˈvaɪ(ə)r(ə)l] *a* virusga qarshi

antiwar [ˌæntɪˈwɔː] *a* urushga qarshi

antizymic [ˌæntɪˈzaɪmɪk] *a maxs.* g'alayon (shov-shuv, to'polon)ga qarshilik

antizymotic [ˌæntɪzaɪˈmɒtɪk] = **antizymic**

antler [ˈæntlə] *n* bug'u shoxi

antlered [ˈæntləd] *a* shoxli, muguzli

antlerless [ˈæntləlɪs] *a* shoxsiz, muguzsiz

antonym [ˈæntənɪm] *n tilsh.* antonim (*biror so'z ma'nosiga zid ma'noli so'z*)

antonymous [ænˈtɒnɪməs] *a tilsh.* antonimik

antonymy [ænˈtɒnɪmɪ] *n tilsh.* antonimiya

antra [ˈæntrə] = **antrum**

antral [ˈæntrəl] *a kam.* tanadagi bo'shliqqa (ichga) oid; ich (bo'shliq)...

antre [ˈæntə] *n shoir.* g'or, ungur, mo'g'ora

antrorse [ænˈtrɔːs] *a kit.* oldinga yoki yuqoriga qayrilgan

antrum [ˈæntrəm] *n* (*pl* **-ra** [-rə]) *fiziol.* biror narsaning ichi, biror narsaning ichidagi bo'shliq, kovak

anuclear [æˈnjuːklɪə] *n maxs.* yadro qurolidan xoli (bo'lgan)

anury [əˈnjuːrɪ] *n tib.* anuriya (*siydik to'xtab qolishi*)

anus [ˈeɪnəs] *n anat.* orqa yo'l (*ko'tan*)

anvil [ˈænvɪl] *n* sandon (*temir kunda*); **a good ~ does not fear the hammer** *maq.* yaxshi sandon bosqondan qo'rqmaydi; **on** (*yoki* **upon**) **the ~** ishda, ishlayapti, tayyorlanyapti, tayyorlanib (tayyor, taxt bo'lib) turibdi, tayyorgarlik (hozirlik) ko'rilyapti; ko'rib chiqilyapti, muhokama qilinyapti (muhokamada)

anxiety [æŋˈzaɪətɪ] *n* notinchlik, bezovtalik

anxious [ˈæŋkʃəs] *a* tashvishga tushgan; bezovtalangan; **on the ~ bench** (*yoki* **seat**) *amer.* 1) (*cherkovda*) pushaymon bo'lgan (afsuslangan), gunohkorlar uchun belgilangan joyda; 2) xavotirda, vahimada, tashvishda; xavotirga (vahimaga, tashvishga) tushib qolgan

anxiously [ˈæŋkʃəslɪ] *adv* xavotirlik bilan

any [ˈenɪ] **1.** *indef. pron.* 1) kim bo'lsa ham; 2) qanday bo'lmasin; 3) biror (*bo'lishli gaplarda*); **2.** *adv* biroz, ozgina (*so'roq va bo'lishsiz gaplarda*)

anybody [ˈenɪˌbɒdɪ] *pron. indef.* 1) har bir; 2) kim bo'lsa ham

anyhow [ˈenɪhaʊ] *adv* qanday qilib bo'lmasin

anymore [ˌenɪ ˈmɔː] *adv amer. so'zl.* (*inkor gaplarda ishlatiladi*) endi, ortiq, bundan keyin, bundan boshqa (*tashqari*); ikkinchi

anyone [ˈenɪwʌn] *indef. pron.* 1) har bir; 2) kim bo'lsa ham

anyplace [ˈenɪpleɪs] = **anywhere**

anything [ˈenɪθɪŋ] *indef. pron.* biror narsa; **~ but** 1) nima xohlasangiz (xohlagan narsangizga) mayli deyman, faqat ... emas; 2) hech (sira) ... emas, mutlaqo (aslo) ... emas; **as ~** *so'zl. kuch.* juda, g'oyatda, nihoyatda, juda ham, o'ta, haddan tashqari, o'lguday; **for ~** *so'zl.* juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, ortiq (g'oyat, nihoyat) darajada, bag'oyat, haddan tashqari; **if ~** ehtimol, balki, shekilli; ish (gap, masala) shunday ekan, agar shunday bo'lsa, agar bilishni xohlasangiz, har ehtimolga qarshi, ehtiyot shart; qanday bo'lmasin; **like ~** *so'zl. kuch.* kuch (zarb, shiddat) bilan, tez sur'at bilan, jon-jahdi bilan, joni (kuchi) boricha, astoydil

anytime [ˈenɪtaɪm] *adv* doim, doimo, hamisha, hamma vaqt

anyway [ˈenɪweɪ] *adv* nima bo'lganda ham, baribir

anywhen [ˈenɪwen] *adv kam.* bir kunmas bir kun, axir bir kun, qachon bo'lmasin, bir payti kelib

anywhence [ˈenɪwens] *adv esk.* qayerda bo'lsa ham, har qayerda (istagan) joydan

anywhere [ˈenɪweə] *adv* 1) qayerda bo'lmasin; qayerga bo'lmasin, har qanday joyga (*bo'lishli gaplarda*); 2) qayerda bo'lmasin (*so'roq va bo'lishsiz gaplarda*)

anywhither [ˈenɪˌwɪðə] *adv esk.* xohlagan tomonga, istagan joyga

anywise [ˈenɪwaɪz] *adv* qanday qilib bo'lsa ham

aorta [eɪˈɔːtə] *n anat.* shotomir

aortal [eɪˈɔːt(ə)l] *a anat.* aorta, shotomir (*yurakning chap qorinchasidan boshlanadigan, butun tana a'zolarini qon bilan ta'minlaydigan eng katta tomir*)ga oid

aortic [eɪˈɔːtɪk] *a anat.* shotomirga oid

apace [əˈpeɪs] *adv* tezda, darhol

apache [əˈpæʃɪ] *n* bezori, o'g'ri, qarollangan o'g'ri

apaid [əˈpeɪd] *a esk.* 1) qoniqqan, qanoatlangan, qanoat hosil qilgan, qongan; mamnum bo'lgan; 2) tegishlicha (yarasha) taqdirlangan, haq to'langan

apanage [ˈæpənɪdʒ] *n* parlament tomonidan monarx uchun ajratiladigan mablag'

aparithmesis [ˌæpərɪθˈmiːsɪs] *n ritor. esk.* sanab (hisoblab, yo'qlab) chiqish

apart [əˈpɑːt] *adv* 1) tomoniga; 2) chetda

apartheid [əˈpɑːt(h)eɪt] *n* irqchilik, irqiy kamsitish siyosati

apartment [əˈpɑːtmənt] *n* 1) xona; 2) turar joy; **to have got ~s to let** *jarg.* bir vinti kam (yetishmaydi), tomi ketgan, aqli kirarti-chiqarli

apartness [əˈpɑːtnəs] *n* alohidalik

apathetic [ˌæpəˈθetɪk] *a* beparvo, bee'tibor

apathetical [ˌæpəˈθetɪk(ə)l] = **apathetic**

apathetically [ˌæpəˈθetɪk(ə)lɪ] *adv* beparvolik (e'tiborsizlik) bilan, ahamiyat bermay, loqayd, befarq

apathist [ˈæpəθɪst] *n kam.* beparvo, bee'tibor, loqayd

apathize [ˈæpəθaɪz] *v kam.* loqayd qilmoq

apathy [ˈæpəθɪ] *n* loqaydlik, beparvolik

apatite [ˈæpətaɪt] *n min.* fosforli mineral

ape [eɪp] **1.** *n* maymun; **to act** (*yoki* **to play**) **the ~** ko'r-ko'rona taqlid qilmoq, birovga o'xshatib (o'xshab) harakat qilmoq, birovning qiliqlarini o'rganib olmoq; ahmoqlik (ahmoqchilik) qilmoq, maynabozchilik qilmoq; **to gibber like an ~** tez va noaniq (tushunib, anglab bo'lmaydigan) qilib qapirmoq; **to go ~ (for** *yoki* **over smb., smth.)** *amer. jarg.* juda qoyil bo'lmoq, aqldan ozmoq, eshushini yo'qotmoq, esankirab (gangib, dovdirab) qolmoq, telbalanib qolmoq (*nimadandir yoki kimdandir*); **the higher the ~ goes, the more he shows his tail** *maq.* (maymun qanchalik yuqori chiqsa, dumini shunchalik ko'proq ko'rsatadi), echki yugurib, kiyik bo'lolmas; **to lead ~s in hell** *kin.* qari qiz bo'lib o'lmoq; **to play the sedulous ~** (*biror yozuvchi yoki shoirning uslubiga*) ko'r-ko'rona taqlid qilmoq, ko'r-ko'rona ergashmoq; **2.** *v* ko'r-ko'rona taqlid qilmoq

apeak [əˈpiːk] *adv.* tik holatda

aper [ˈeɪpə] *n zool.* to'ng'iz, yovvoyi cho'chqa; xonaki erkak cho'chqa

aperient [əˈpɪərɪənt] *n tib.* surgi dori

aperiodic [ˌepɪ(ə)rɪˈɒdɪk] *a* davriy bo'lmagan, davrlarga bo'linmagan

aperitif [əˌperiːtiːf] *n* aperitiv (*ovqatdan oldin ichilgan spirtli ichimlik*)

apertly [əˈpɜːtlɪ] *adv esk.* 1) yashirmasdan, ochiq, ochiqdan-ochiq, oshkora suratda, ro'yirost; 2) dadillik (botirlik, jasurlik) bilan, qo'rqmasdan, tortinmasdan, jasurona, dadil

aperture [ˈæpətʃə] *n* teshik

apery [ˈeɪp(ə)rɪ] *n* ko'r-ko'rona taqlid qilish

apetalous [ə ˈpet(ə)ləs] *a bot.* gulbarg (gultojbarg)siz, gulbarg (gultojbarg)ga oid bo'lmagan

apex [ˈeɪpeks] *n* tepa, cho'qqi

apex-beat [ˈeɪpeksˌbiːt] *n fiziol.* yuqoridagi (cho'qqidagi) zarba

aphanite [ˈæfənaɪt] *n min.* afanit

aphasia [æˈfeɪzə] *n tib.* afaziya (*so'zlash qobiliyatini yo'qotish*)

aphelion [əˈfiːlɪən] *n astr.* afeliy (*Quyosh atrofidagi orbitaning Quyoshdan eng uzoq nuqtasi*)

aphid [ˈeɪfɪd] *n ent.* shira, o'simlik biti

aphides [ˈeɪfɪdiːz] *n pl* shira, o'simlik biti

aphis [ˈeɪfɪs] *n* shira, o'simlik biti

aphlogistic [ˌæflɔˈdʒɪstɪk] *a esk.* alangasiz, yonadigan

aphonia [æˈfəʊnɪə] *n tib.* afoniya (*ovozni yo'qotish*)

aphonic [æˈfɒnɪk] *a* afonik, ovozsiz

aphony [ˈæfənɪ] *n* afoniya (*ovozni yo'qotish*)

aphorism [ˈæfərɪz(ə)m] *n* aforizm (*hikmatli so'z*)

aphorismic [ˌæfəˈrɪzmɪk] *a* aforizm (hikmatli so'z, ibora) shaklidagi

aphorist [ˈæfərɪst] *n* aforizm muallifi (yaratuvchisi, ijodkori)

aphoristic [ˌæfə ˈrɪstɪk] *a* aforizmdan iborat bo'lgan

aphorize [ˈæfəraɪz] *v* 1) aforizm bilan gapirmoq; 2) aforizm yaratmoq

apthotic [əˈfɒtɪk] *a maxs.* yorug'likdan mahrum etilgan

aphrodisiac [ˌæfrəˈdɪzɪæk] *n* jinsiy hisni oshiradigan dori

Aphrodite [ˌæfrəˈdaɪtɪ] *n mif.* Afrodita, go'zallik timsoli

aphtha [ˈæfθə] *n tib.* til (og'iz) oqarishi, yelikish (*chaqaloqlarda bo'ladigan kasallik*)

aphtous [ˈæfθəs] *a vet.* 1) oqsim kasaliga oid; oqsim...; 2) oqsim kasaliga duchor bo'lgan; **~ fever** oqsim, oqsim kasalligi

aphyllous [əˈfɪləs] *a bot.* bargsiz, yaprog'i yo'q yoki to'kilib ketgan

aphylly [əˈfɪlɪ] *n bot.* bargi yo'qlik, bargsizlik

apiaceae [ˌeɪpɪˈeɪʃɪiː] *n pl bot.* to'pgul (chochoq)lar oilasi

apiaceous [ˌeɪpɪˈeɪʃəs] *a bot.* to'pgul (chochoq)lar oilasiga mansub bo'lgan, to'pgul (chochoq)ga oid

apian [ˈeɪpɪən] *a* asalariga oid

apiarian [ˌeɪpɪˈeərɪən] *a* asalarichilikka oid

apiarist [ˈeɪpɪərɪst] *n* asalarichi

apiary [ˈeɪpɪərɪ] *n* asalari qutilari qo'yilgan joy, asalarizor

apical [ˈæpɪk(ə)l] *a* yuqoridagi, cho'qqidagi

apices [ˈeɪpɪsiːz] *pl of* **apex**

apiculate [əˈpɪkjʊlɪt] *a maxs.* uchi o'tkir, cho'qqili, uchli, nayzador

apiculture [ˈeɪpɪˌkʌltʃə] *n* asalarichilik

apiece [əˈpiːs] *adv* har bir, har bir donasiga

apis [ˈeɪpɪs] *n* asalari

apish [ˈeɪpɪʃ] *a* maymunga oid

apishly [ˈeɪpɪʃlɪ] *adv* maymunga o'xshab, maymun kabi, maymundek

apishness [ˈeɪpɪʃnəs] *n* ko'r-ko'rona taqlid qilish, birovga o'xshatib (o'xshab) harakat qilish, birovning qiliqlarini o'rganib olish

apisination [ˌeɪpɪsɪˈneɪʃ(ə)n] *n* asalari zaharidan zaharlanish

apism [ˈeɪpɪzm] *n kam.* ko'r-ko'rona taqlid qilish

apivorous [əˈpɪvərəs] *a* asalari zahariga oid

aplacental [ˌæplə ˈsent(ə)l] *a biol.* yo'ldoshsiz

aplanat [ˈæplənət] *n opt.* aplanat (*simmetrik joylashgan ikkita bir xil axromatik linzadan iborat fotoobyektiv*)

aplanatic [ˌæplə ˈnætɪk] *a opt.* aplanatik

aplastic [ə ˈplæstɪk] *a* plastik bo'lmagan

a-plenty [ə ˈplentɪ] *adv amer.* juda ko'p, serob

aplomb [əˈplɒm] *fr.* o'ziga bino qo'yish, oro berish

apnoea [ˈæpnɪə] *n tib.* nafas olishning to'xtalishi; nafas olishni to'xtatish
apocalypse [əˈpɒkəlɪps] *n* apokalipsis (*xristianlarning „oxir zamon" haqidagi rivoyatlarni o'z ichiga olgan diniy kitobi*)
apocopate [əˈpɒkəpeɪt] *v tilsh.* so'zning oxirini qisqartirmoq
apocope [əˈpɒkəpɪ] *n tilsh.* so'zda oxirgi harf *yoki* tovushning tushib qolishi
apocopic [ˌæpɒˈkɒpɪk] *a tilsh.* qisqartirilgan (*so'z haqida*)
apocrisiary [ˌæpəˈkrɪsɪərɪ] *n* Papa nunsiysi (*Rim papasining diplomatik vakili*)
apocryphal [əˈpɒkrɪf(ə)l] *a* cherkov tan olmaydigan
apodal [ˈæpəd(ə)l] *a zool.* oyog'i yo'q, oyoqsiz (*baliqlar haqida*)
apodictic [ˌæpəˈdɪktɪk] *a mant.* isbot qilingan, ishonchli, shak-shubhasiz
apodixis [ˌæpə(ʊ)ˈdɪksɪs] *n esk.* rad qilib bo'lmaydigan dalil (isbot)
apodous [ˈæpɒdəs] *a zool.* oyoqsiz
apogean [ˌæpəˈdʒi:ən] *a* apogey (*Oy yoki sun'iy yo'ldosh orbitasining Yerdan eng uzoq nuqtasi*)ga oid
apogee [ˈæpədʒi:] *a astr.* apogey (*Oy yoki sun'iy yo'ldosh orbitasining Yerdan eng uzoq nuqtasi*)
apograph [ˈæpəgrɑ:f] *n kit.* aniq (asil) nusxa
Apollo [əˈpɒləʊ] *n grek.* go'zal (chiroyli) kishi
apologetic [əˌpɒləˈdʒetɪk] *a* iltijoli
apologetical [əˌpɒləˈdʒetɪk(ə)l] *adv* o'z aybini (xatosini) bo'yniga olgan holda
apologetics [əˌpɒləˈdʒetɪks] *n pl ko'ch.* ko'r-ko'rona himoya qilish
apologia [ˌæpəˈləʊdʒɪə] *n* apologiya (*ko'r-ko'rona himoya qilish, madh etish, maqtash; maqtov, madhiya*)
apologist [əˈpɒlədʒɪst] *n* 1) apologet (*ko'r-ko'rona madh etuvchi, maqtovchi, maddoh*); 2) himoyachi, himoya (mudofaa) qiluvchi
apologize [əˈpɒlədʒaɪz] *v* kechirim so'ramoq
apologue [ˈæpəlɒg] *n* ibratli masal
apology [əˈpɒlədʒɪ] *n* kechirish
aponeurosis [ˌæpənjʊˈrəʊsɪs] *n tib.* aponevroz (*tarkibida qalin elastik va kollagen tolalar bo'lgan biriktiruvchi serbar to'qima*)
apopemptic [ˌæpəˈpemptɪk] *a kam.* xayrlashuvga oid, xayrlashuv...
apopetalous [ˌæpəˈpetələs] *a bot.* ko'p gulbargli, gulbargi ko'p bo'lgan
apophthegm [ˈæpəθem] *n ritor.* apoftegma
apophysis [əˈpɒfəsɪs] *n* 1) *bot.* apofiza; 2) *anat.* apofiz; 3) *geol.* apofiza
apoplectic [ˌæpəˈplektɪk] *a* apopleksiya oqibatidagi
apoplexy [ˈæpəpleksɪ] *n tib.* shol
aporose [ˌæpəˈrəʊs] *a* teshiklari yo'q, teshiksiz
aposematic [ˌæpəsɪˈmætɪk] *a zool.* xabar beruvchi, ogohlantiruvchi
apostasy [əˈpɒstəsɪ] *n* dindan qaytish
apostate [əˈpɒsteɪt] *n* dindan qaytgan kishi
apostatize [əˈpɒstətaɪz] *v* qaytmoq; voz kechmoq, bahridan o'tmoq
aposteme [ˈæpəstiːm] *n esk.* yiring to'plangan (gazak olgan) joy, yiring (fasod) bog'lagan yara
a posteriori [ˌeɪpɒsterɪˈɔ:r(a)ɪ] *adv lot.* aposteriori, tajribaga, dalillarga asoslanib
apostil [əˈpɒstɪl] **1.** *n kit.* (*kitob yoki daftar*) hoshiyasidagi qayd (belgi); **2.** *v kam.* (*kitobdagi yoki daftardagi*) hoshiyaga qayd qilmoq (belgi qo'ymoq)
apostle [əˈpɒs(ə)l] *n* targ'ibotchi
apostolic [ˌæpəˈstɒlɪk] *a* targ'ibotchilikka oid
apostrophe [əˈpɒstrəfɪ] *n* 1) (*nutqda kimgadir qilinadigan*) murojaat; 2) apostrof (' *ajratish belgisi*)
apostrophic [ˌæpəsˈtrɒfɪk] *a* apostrofik, apostrof (ajratish belgisi)ga oid
apostrophize [əˈpɒstrəfaɪz] *v* (*nutqda, dostonda va b. da kimgadir yoki biror narsaga*) murojaat qilmoq
apothecaries' measure [əˈpɒθək(ə)rɪz ˌmeʒə] *n* dorixona og'irlik va hajm o'lchovlari
apothecaries' weight [əˈpɒθək(ə)rɪz ˌweɪt] *n* dorixona uchun belgilangan og'irlik
apothecary [əˈpɒθək(ə)rɪ] *n* 1) *so'zl.* aptekachi; 2) *amer.* dorixona
apothem [ˈæpəθem] *n mat.* apofema (*ko'pburchak markazidan biror tomoniga tushirilgan perpendikular chiziq uzunligi*)
apotheoses [əˌpɒθɪˈəʊsi:z] *pl of* **apotheosis**
apotheosis [əˌpɒθɪˈəʊsɪs] *n* (*pl* **-oses** [-si:z]) maqtash, ko'klarga ko'tarish
apotheosize [ˌæpəˈθi:əʊsaɪz] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq
appal(l) [əˈpɔ:l] *v* qo'rqitmoq
appalling [əˈpɔ:lɪŋ] *a* dahshatli, qo'rqinchli
appallingly [əˈpɔ:lɪŋlɪ] *adv* dahshat solib, qo'rqitib
appalment [əˈpɔ:lmənt] *n kam.* 1) shoshib (shoshilib, hovliqib) qolish; 2) sarosimalik, parokandalik
apparatus [ˌæpəˈreɪtəs] *n* 1) asbob; 2) apparat
apparel [əˈpærəl] **1.** *n* libos, kiyim; **2.** *v* kiy(*in*)moq
apparency [əˈpærənsɪ] *n esk.* aniqlik, ayonlik, yaqqollik, ravshanlik
apparent [əˈpærənt] *adj* ravshan, tushunarli, aniq, shak-shubhasiz
apparently [əˈpærəntlɪ] *adv* 1) aniq, ravshan, shubhasiz; 2) ehtimol, balki, chamasi, aftidan
apparition [ˌæpəˈrɪʃ(ə)n] *n* paydo bo'lish
apparitional [ˌæpəˈrɪʃ(ə)nəl] *a* xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoliy, xayoldagi
apparitor [əˈpærɪtə] *n* sud ijrochisi
appassionata [əˌpæsjəˈnɑ:təʊ] *n ital. mus.* appasionata (*ehtirosli, hayajonli musiqa ijrosining xususiyati*)
appeach [əˈpi:tʃ] *v esk.* 1) xalal bermoq, to'siqinlik qilmoq; 2) chaqimchilik (ayg'oqchilik) qilmoq, g'iybat qilmoq
appeal [əˈpi:l] **1.** *n* 1) murojaat (**to** – ga); 2) iltimos (**for** – haqida); 3) yoqimlilik, jozibalilik, jozibadorlik; dilbarlik, ko'rkamlik, istarasi issiqlik; **eye ~** tashqi ko'rinishning yoqimliligi (jozibadorligi, dilbarligi, ko'rkamligi); **to have ~** yoqmoq, xush kelmoq, yaxshi ko'rinmoq, ma'qul bo'lmoq, yaxshi (ijobiy) taassurot qoldirmoq, ishonch tug'dirmoq, o'ziga jalb etmoq, yoqmoq, xush kelmoq; 4) *yur.* shikoyat arizasi; **2.** *v* shikoyat arizasi bilan murojaat qilmoq
appealable [əˈpi:ləb(ə)l] *a* shikoyatga loyiq bo'lgan
appealing [əˈpi:lɪŋ] *a* 1) ta'sirli; 2) jozibali
appealingly [əˈpi:lɪŋlɪ] *adv* 1) yalinib, yolvorib, o'tinib, yalinchoqlik bilan; 2) ta'sirli (ko'ngilni yumshatadigan, mehr-shafqatni qo'zg'atadigan) qilib; 3) dilrabo (dilbar, jozibador, jozibali, yoqimli, o'ziga tortadigan) qilib
appealingness [əˈpi:lɪŋnəs] *n* 1) ta'sir qilishlik, ko'ngilni yumshatishlik; 2) yoqimlilik, jozibalilik, dilbarlik, ko'rkamlik, istarasi issiqlik
appear [əˈpɪə] *v* paydo bo'lmoq
appearance [əˈpɪ(ə)rəns] *n* paydo bo'lish; **~s are deceptive** (*esk.* **deceitful** *shun.*, **never judge by** *yoki* **from ~s**) *maq.* (tashqi ko'rinish aldar), usti yaltiroq, ichi qaltiroq; **to keep up** (*yoki* **to save**) **~s** tartib-intizomni saqlamoq, o'zini hech narsa bo'lmagandek qilib ko'rsatmoq; **to make an** (*yoki* **one's**) **~** (*shun.*, **to put in an ~**) yo'l-yo'lakay kirib chiqmoq (o'tmoq), ozgina (biroz) vaqtga ko'rinmoq, ko'rinish bermoq,

o'zini ko'rsatmoq (*ziyofat, majlis va b. da*); **to all ~(s)** aftidan, chamasi, shekilli

appearingly [ə´pɪ(ə)rɪŋlɪ] *adv kit.* aftidan, ko'rinishidan, chamasi, bo'lsa kerak, o'xshaydi, shekilli

appeasable [ə´pi:zəb(ə)l] *a* qobil, gapga ko'nadigan

appease [ə´pi:z] *v* tinchlantirmoq

appeasement [ə´pi:zmənt] *n* tinchlantirish

appeaser [ə´pi:zə] *n* tinchlik o'rnatuvchi shaxs

appellant [ə´pelənt] *n* shikoyatchi

appellate [ə´pelɪt] *a* shikoyatga oid

appellation [ˌæpɪ´leɪʃ(ə)n] *n* nom, ot, ism

appellative [ə´pelətɪv] **1.** *n gram.* turdosh ot; **2.** *a gram.* turdosh

appellee [ˌæpe´li:] *n yur.* shikoyat bo'yicha javobgar shaxs

append [ə´pend] *v* birlashtirmoq

appendage [ə´pendɪdʒ] *n* qo'shimcha

appendant [ə ´pendənt] *n* 1) *yur.* qo'shimcha (ravishda beriladigan) huquq; 2) qo'shimcha narsa

appendical [ə´pendɪk(ə)l] *a* 1) *kit.* qo'shimcha, qo'shimcha bo'lib xizmat qiladigan; 2) *anat.* appendiks (*ko'richakning chuvalchangsimon o'sig'i*)ga oid

appendices [ə´pendɪsi:z] *pl of* **appendix**

appendicitis [əˌpendɪ´saɪtɪs] *n tib.* ko'richak kasalligi

appendicle [ə´pendɪk(ə)l] *v kit.* ozgina qo'shimcha qilingan narsa, ozgina qo'shilgan narsa

appendicular [ˌæpən´dɪkjʊlə] *a kit.* 1) *tib.* appendikularga oid, appendikular; 2) *zool.* o'simtaga oid

appendiculate, appendiculated [ˌæpən´dɪkjʊleɪt, -ɪd] *a maxs.* o'simtali

appendix [ə ´pendɪks] **1.** *n* (*pl* **-dices** [-si:z]) 1) qo'shimcha, ilova (*kitob, hujjat va b. da*); 2) *anat.* appendiks (*ko'richakning chuvalchangsimon o'sig'i*); **2.** *v kam.* qo'shimcha (ilova) sifatida qo'shmoq, ilova qilmoq

apperceive [ˌæpɜ:´si:v] *v esk.* anglamoq, tushunib olmoq, tushunib yetmoq, fahmlamoq; tan olmoq, iqror bo'lmoq

apperception [ˌæpɜ:´sepʃ(ə)n] *n psixol.* appersepsiya (*mavjud tajriba, bilim, tushuncha, tasavvur va sh. k. asosida o'rganish*)

appertain [ˌæpə´teɪn] *v* (*nimagadir*) qarashli bo'lmoq

appetence, -cy [´æpɪt(ə)ns,-sɪ] *n* istak, orzu

appetent [´æpɪt(ə)nt] *a kit.* 1) (*nimagadir*) intilayotgan, harakat qilayotgan, urinayotgan; 2) (*nimanidir*) qattiq istovchi; (*nimagadir*) orzumand, ishtiyoqmand, tashna

appetible [´æpɪtɪbl] *a esk.* 1) tilangan, istalgan, orzu qilingan, kutilgan, ko'ngildagi; 2) yoqimli, jozibali, ko'rkam

appetite [´æpɪtaɪt] *n* ishtaha; **~ comes with eating** *maq.* (ishtaha ovqat payti ochiladi), borga yetti kun hayit, yo'q-qa – bir kun; **whet smb.'s ~** birovning ishtahasini qo'zg'atmoq (ochmoq)

appetition [ˌæpɪ ´tɪʃən] *n esk.* intilish, kuchli orzu, niyat, ishtiyoq, havas, zo'r istak

appetitive [´æpɪˌtaɪtɪv] *a esk.* ishtahani (qo'zg'aydigan, qo'zg'atadigan, keltiradigan) ochadigan

appetize [´æpɪtaɪz] *v kam.* ishtaha keltirmoq, ishtahani ochmoq

appetizer [´æpɪtaɪzə] *n* 1) **ishtahani** ochadigan narsa; 2) *amer.* gazak

appetizing [´æpɪtaɪzɪŋ] *a* ishtahani qo'zg'atadigan

applaud [ə ´plɔ:d] *v* olqishlab chapak (qarsak) chalmoq; **to ~ smb.** kimnidir olqishlamoq

applaudingly [ə´plɔ:dɪŋlɪ] *adv* 1) chapak (qarsak) chalib, olqishlab; 2) ma'qullab, ma'qul topib, manzur ko'rib, maqtab

applause [ə´plɔ:z] *n* olqishlar, qarsak; qarsaklash; **to greet smb. with (a storm of) ~** kimnidir gulduros qarsaklar bilan olqishlamoq

applausible [ə´plɔ:sɪbl] *a esk.* maqtovga loyiq, maqtashga arzirli, maqtasa arziydigan, maqtovga sazovor

applausive [ə´plɔ:sɪv] *a kit.* maqtovni (olqishni, madh etishni) ifodalaydigan, tarannum etadigan

apple [´æpl] *n* olma; **Adam's ~** kekirdak olmasi; qo'shtomoq; **~ pie** olmali pirog; **an ~ a day keeps the doctor away** *maq.* har kuni bittadan olma yegan odam sira tabibga uchramas, bir anor ming dardga davo; **the ~ of discord** janjal (adovat) sababchisi; **the ~ of one's eye** ko'z qorachig'i; **the ~ of Sodom** (*shun.*, **Sodom ~**) „chiroyli, ammo chirigan meva", rohat bag'ishlaydigan, ammo faqat achchiq musibat keltiradigan qandaydir narsa; **for sour ~** *amer. esk. jarg.* mutlaqo, sira, aslo, hech (*faqat inkorni bildiruvchi iboralarda ishlatiladi*); **the rotten ~ injures its neighbours** *maq.* bitta chirigan olma yonidagi olmalarni ham chiritadi, tirraqi buzoq podani bulg'ar

apple-cart [´æp(ə)lkɑ:t] *n* olma solingan arava

apple dumpling [ˌæp(ə)l´dʌmplɪŋ] *n* xamirga o'rab pishirilgan olma

apple-jack [´æp(ə)ldʒæk] *n amer.* olma sharobi

apple-pie [ˌæp(ə)l´paɪ] *n* olma solingan (olmali) pirog

applesauce [´æp(ə)lsɔ:s] *n* olma puresi

apple-squire [´æpl, skwaɪə] *n esk.* qo'shmachi; qo'shmachi ayol, dalla

apple-tree [´æp(ə)ltri:] *n bot.* olma daraxti

apple-woman [´æpl,wʊmən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) olma sotadigan ayol

appliance [ə ´plaɪəns] *n* moslama, asbob, asbob-uskunalar, anjom

appliancy [ə´plaɪənsɪ] *n esk.* 1) ishlovga keladiganlik (moslik), muloyimlik, yumshoqlik; 2) moslashuvchanlik, moslashish (muvofiqlashish) qobiliyati

applicability [ə,plɪkə ´bɪlɪtɪ] *n* qo'llanishlik, tatbiq etilishlik; ishlatishga yaroqlilik

applicable [´æplɪkəb(ə)l] *a* ishlatsa bo'ladigan

applicant [´æplɪkənt] *n* 1) nomzod, da'vogar, talabgor; 2) iltimos qiluvchi, so'rovchi, homiy; 3) ariza beruvchi kishi; iltimosnoma bilan murojaat qiluvchi kishi

applicate [´æplɪkɪt] *a esk.* 1) tajribada qo'llaniladigan; 2) mos keladigan, to'g'ri keladigan

application [ˌæplɪ´keɪʃ(ə)n] *n* ariza.

applicative [´æplɪkətɪv] *a esk.* qo'llab (*yoki* ishlatsa) bo'ladigan, qo'llaniladigan, ishlatishga yaraydigan

applied [ə´plaɪd] *a* amaliy; **~ sciences** amaliy fanlar

applique [ə ´pli:keɪ] *n fr.* applikatsiya (*rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish usuli; shu usulda hosil qilingan naqsh, gul*)

applot [ə´plɒt] *v esk.* 1) taqsimlamoq, bo'lmoq, bo'lib chiqmoq; 2) qismlarga (bo'laklarga) bo'lmoq

apply [ə´plaɪ] *v* 1) murojaat qilmoq; 2) qo'llamoq; 3) (*bo'yoq, malham*) surtmoq

applying [ə´plaɪɪŋ] *n* ishlatish, qo'llash, foydalanish, ishga solish

appoint [ə´pɔɪnt] *v* belgilamoq, tayinlamoq

appointable [ə´pɔɪntəbl] *a esk.* ko'zlangan narsaga ishlatsa bo'ladigan

appointed [ə´pɔɪntɪd] *a* tayinlangan; **to be ~ director** direktor etib tayinlanmoq

appointee [ə,pɔɪn´ti:] *n* topshiriq olgan shaxs

appointive [ə´pɔɪntɪv] *a amer.* saylov yo'li bilan emas, balki kimningdir tomonidan (*u yoki bu lavozimga*) vaqtincha tayinlangan

appointment [ə´pɔɪntmənt] *n* uchrashuv; **to break an ~** uchrashuvga kelmaslik;

to make an ~ with smb. kim bilandir uchrashuv belgilamoq; **to have an ~** uchrashmoq; **to keep an ~** kelishgan vaqtda kelmoq; **to cancel an ~** uchrashuvni bekor qilmoq

apportion [ə´pɔ:ʃ(ə)n] *v* taqsimlamoq

apportionment [ə´pɔ:ʃ(ə)nmənt] *n* mutanosib taqsimlash

apposite [´æpəzɪt] *a* munosib **(to)**

apposition [ˌæpə´zɪʃ(ə)n] *n* 1) qo'shish; 2) *gram.* izohlovchi

appositional [ˌæpə´zɪʃ(ə)nəl] *a kit.* ilova qilinadigan

appositively [æ´pɔzɪtɪvlɪ] *adv* ilova sifatida

appraisable [ə´preɪzəb(ə)l] *a* qadrlasa (qadriga yetsa) bo'ladigan, hurmatga sazovor

appraisal [ə´preɪz(ə)l] *n* narxni aniqlash

appraise [ə´preɪz] *v* baholamoq, narx qo'ymoq

appraisement [ə´preɪzmənt] *n* baho, narx

appraiser [ə´preɪzə] *n* baholovchi, narx qo'yuvchi

appraisingly [ə´preɪzɪŋlɪ] *adv* qadrlab, hurmat qilib

appreciable [ə´pri:ʃəb(ə)l] *a* sezilarli, bilinarli

appreciably [ə´pri:ʃəblɪ] *adv* 1) sezilarli darajada, ancha; 2) jiddiy ravishda

appreciate [ə´pri:ʃɪeɪt] *v* yuqori baholamoq (narxlamoq)

appreciated [ə´pri:ʃɪeɪtɪd] *a* yuqori baholangan, yuqori narx qo'yilgan

appreciatingly [ə´pri:ʃɪeɪtɪŋlɪ] *adv* to'g'ri baholagan holda; yuqori baholab

appreciation [ə´pri:ʃɪ´eɪʃ(ə)n] *n* yuqori baho, yuqori narx

appreciative [ə´pri:ʃɪətɪv] *a* 1) zehni o't-kir; 2) yuqori baho bera oladigan

apprehend [ˌæprɪ´hend] *v* (*aql bilan*) tushunib yetmoq

apprehended [ˌæprɪ´hendɪd] *a* 1) *kit.* xavfni oldindan sezadigan; 2) *kit.* tushunilgan; 3) *kam.* ushlangan, qamoqqa olingan

apprehendingly [ˌæprɪ´hendɪŋlɪ] *adv* yomonlikni (yovuzlikni) oldindan sezib

apprehensible [ˌæprɪ´hensɪb(ə)l] *a* tushunib bo'ladigan

apprehension [ˌæprɪ´hənʃ(ə)n] *n* xavotirlanish

apprehensive [ˌæprɪ´hensɪv] *a* xavfsirayotgan (*ninadandir*)

apprehensively [ˌæprɪ´hensɪvlɪ] *adv* qo'rqib, qo'rqa-pisa, cho'chinqirab, yurak hovuchlab, yuragi po'killab, xavfsirab, hadiksirab; ehtiyotkorlik bilan

apprehensiveness [ˌæprɪ´hensɪvnəs] *n* xavfni (xatarni) sezish; qo'rqish, xavfsirash, xavotirlanish, cho'chish, hadiksirash; qo'rquv, hadik, xavf

apprentice [ə´prentɪs] *n* 1) o'quvchi; 2) shogird

apprenticeship [ə´prentɪsʃɪp] *n* ta'lim olish; shogirdlik

apprise [ə´praɪz] *v* xabar bermoq

appro [´æprəo] *n* ma'qullash, manzur ko'rish

approach [ə´prəʊtʃ] **1.** *n* yaqinlashish; **2.** *v* yaqinlashmoq

approachability [əˌprəʊtʃə´bɪlɪtɪ] *n* 1) kirish (borish, o'tish) mumkinlik, yo'llab (borib, chiqib) bo'ladiganlik, ochiqlik; 2) yetib (erishib, qozonib) bo'ladiganlik

approachable [ə´prəʊtʃəb(ə)l] *a* kirish (foydalanish) mumkin bo'lgan; erishsa bo'ladigan

approachless [ə´prəʊtʃləs] *a she'r.* erishib (yetishib) bo'lmaydigan, yoniga borib (yaqin kelib) bo'lmaydigan, chiqib (olib, egallab) bo'lmaydigan

approbate [´æprə(ʊ)beɪt] *amer.* ma'qul topmoq

approbation [ˌæprəʊ´beɪʃ(ə)n] *n* ma'qul topish

approbative [´æprəbeɪtɪv] *a kit.* ma'qullaydigan, ma'qullovchi, ijobiy, maqtovli

approbatory [´æprəbeɪt(ə)rɪ] *a* ma'qullaydigan

apprompt [ə´prɒm(p)t] *v kam.* 1) rag'batlantirmoq, qiziqtirmoq; 2) tayyorlamoq, tayyorlab qo'ymoq, tayyor (taxt, shay) qilib qo'ymoq

approof [ə´pru:f] *n esk.* 1) sinov, imtihon, tekshirish, tekshirib ko'rish, sinash, sinab ko'rish; 2) rozilik, ruxsat; 3) ma'qullash, ma'qul topish, ijobiy baho

appropinquate [ˌæprə(ʊ)´pɪŋkweɪt] *v esk.* 1) yaqinlashtirmoq, yaqin keltirmoq, yaqin olib kelmoq; 2) yaqinlashmoq, yaqin kelmoq

appropriate [ə´prəʊprɪɪt] **1.** *a* mos, muvofiq, munosib, loyiq, to'g'ri keladigan, javob beradigan, tegishli; **2.** *v* o'zlashtirmoq, egallab (o'ziniki qilib) olmoq; mo'ljallamoq

appropriateness [ə´prəʊprɪɪtnəs] *n* 1) moslik, muvofiq, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri (mos) kelish; 2) o'rinli (o'z vaqtida) ekanlik, o'rinli (jo'yali) bo'lishlik (*fikr; mulohaza va b.*)

appropriately [ə´prəʊprɪtlɪ] *adv* tegishlicha, tegishli (mos) ravishda, yarasha, qarab

appropriation [əˌprəʊprɪ´eɪʃ(ə)n] *n* o'zlashtirish

approvable [ə´pru:vəb(ə)l] *a* maqtovga (tahsinga) loyiq

approval [ə´pru:v(ə)l] *n* ma'qullash, ma'qul ko'rish, quvvatlash

approve [ə´pru:v] *v* ma'qullamoq, ijobiy baho bermoq

approved [ə´pru:vd] *a* 1) tasdiqlangan; 2) ma'qullangan

approvedly [ə´pru:vdlɪ] *adv kit.* ma'qullagan holda; maqtov bilan (maqtab)

approvingly [ə´pru:vɪŋlɪ] *adv* ma'qullab, ma'qul topib

approximate [ə´prɒksɪmɪt] **1.** *a* taxminiy; **2.** *v* yaqinlashmoq

approximately [ə´prɒksɪmɪtlɪ] *adv* taxminan, taqriban, deyarli

approximation [əˌprɒksɪ´meɪʃ(ə)n] *n* 1) yaqinlashish; 2) aynan bir xillik, tenglik, moslik

approximative [ə´prɒksɪmətɪv] *a* yaqin, taxminiy

appulse [æ´pʌls] *n* 1) *esk.* istak, niyat, maqsad, (*nimagadir*) intilish; 2) *astr.* bir sayyoraning ikkinchisiga yaqinlashishi

appurtenance [ə´pɜ:tɪnəns] *n* asbob, buyum, jihoz; ashyo; narsa

appurtenant [ə´pɜ:tɪnənt] **1.** *n* buyum, asbob, narsa; **2.** *a* tegishli

apricate [´æprɪkeɪt] *v kam.* 1) quyoshda isinmoq; 2) quyoshda isitmoq, qizdirmoq

apricot [´eɪprɪkɒt] *n bot.* o'rik

April [´eɪprəl] **1.** *n* aprel: **the first of ~** birinchi aprel; **2.** *attr.* aprel oyidagi

April-fool [ˌeɪprəl fu:l] *n* 1-aprel – hazil kunida aldangan odam

a priori [ˌeɪpraɪ´ɔ:raɪ] *lot.* **1.** *a* tajribada ko'rilmagan; **2.** *adv* tajribada ko'rmasdan

apriority [ˌeɪpraɪ´ɒrɪtɪ] *n* tajribaga asoslanmaganlik

apron [´eɪprən] *n* 1) g'ilof, jild; 2) etak

aproner [´eɪpr(ə)nə] *n esk.* fartuk (etak) taqqan kishi

apronless [´eɪpr(ə)nləs] *a* fartuk (etak)siz, etak taqmagan

apron-man [´eɪpr(ə)nmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) ishchi, hunarmand; 2) mexanik

apron-rogue [´eɪpr(ə)nrəog] = **apron-man**

apron-strings [´eɪprən,strɪngz] *n pl* etak (peshband) bog'ichi

apropos [ˌæprə´pəʊ] *fr.* **1.** *a* o'rinli; o'z vaqtida (qilingan); **2.** *adv* aytganday

apse [æps] *n me'mor.* (*pl* **apsides**) toq, ravoq

apsides [´æpsɪdi:z] *pl of* **apsis**

apsis [´æpsɪs] *n me'mor.* toq, ravoq

apsychic [æp´saɪkɪk] *a esk.* 1) aql bilan boshqarilmaydigan; 2) ong (shuur)ga aloqador bo'lmagan

apsychical [æp´saɪkɪk(ə)l] = **apsychic**

apt [æpt] *a* 1) **(to)** moyil; 2) **(at)** layoqatli; 3) mos keladigan

apterous [ˈæptərəs] *a zool.* qanotsiz
aptitude [ˈæptitju:d] *n* qobiliyat, layoqat
aptly [ˈæptli] *adv* 1) o'z vaqtida, joyida, mavridida, zarur paytda; o'rinli, o'rnida, jo'yali; 2) o'rni kelganda
aptness [ˈæptnəs] *n* moslik, muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, (*nimagadir*) to'g'ri (mos) kelish
aptote [ˈæptəut] *n gram.* turlanmaydigan ot
aptotic [æpˈtɒtɪk] *a* 1) *tilsh.* amorf, shaklsiz, uyushmagan, so'zlari turlanmaydigan (*tillar haqida*); 2) *gram.* turlanmaydigan
apyretic [ˌæpaɪˈretɪk] *a tib.* isitmasiz, bezgaksiz
apyrexia [ˌæpɪˈreksɪə] *n tib.* isitmasizlik, bezgaksizlik
apyrexy [ˈæpɪreksɪ] = **apyrexia**
apyrous [əˈpaɪrəs] *a* o'tga chidamli
aqua-belle [ˈækwəbel] *n fr. hazil.* cho'milish kastumidagi go'zal ayol
aquacade [ˈækwəkeɪd] *n* suvdagi ajoyib manzara
aquafortis [ˌækwəˈfɔ:tɪs] *n san.* ofort (*kislota bilan o'yib ishlangan naqsh va undan bosilgan surat*)
aquafortist [ˌækwəˈfɔ:tɪst] *n* ofortchi (*ofort yasovchi rassom*)
aqualung [ˈækwəlʌŋ] *n* akvalang (*suv ostida bemalol nafas olib suzishga imkon beradigan moslama, asbob*)
aqualunger [ˈækwəˌlʌŋə] *n* akvalangchi (*akvalang bog'lab suzuvchi sportchi*)
aquamarine [ˌækwɔməˈri:n] *n min.* akvamarin (*yashil, havorang qimmatbaho tosh*)
aquaplane [ˈækwəpleɪn] *n sport.* akvaplan
aqua regia [ˌækwəˈri:dʒɪə] *n kim.* zar suvi (*azot kislotasi bilan xlorid kislota qorishmasi*)
aquarelle [ˌækwəˈrel] *n* akvarel (*suvda qoriladigan bo'yoq*)
aquarellist [ˌækwəˈrelɪst] *n* akvarelchi (*akvarel bo'yoqlar bilan rasm soluvchi rassom*)
aquarian [əˈkwe(ə)rɪən] **1.** *n esk.* akvarium egasi; **2.** *a kam.* akvariumga oid, akvarium...
aquarium [əˈkwe(ə)rɪəm] *n* akvarium
Aquarius [əˈkwe(ə)rɪəs] *n* Dalv (*o'n ikki burjning biri*)
aquatic [əˈkwætɪk] *a* suvli; ~ **sports** suv sporti
aquatically [əˈkwætɪk(ə)lɪ] *adv* suvda, suv orqali (bilan), suv yo'li orqali (bilan)
aquatics [əˈkwætɪks] *n pl* suvda o'ynaydigan sport turlari
aquatint [ˈækwətɪnt] *n san.* akvatinka
aqua-vitae [ˌækwəˈvartɪ:] *n* araq, o'tkir spirtli ichimlik
aqueduct [ˈækwɪdʌkt] *n* osma quvur
aqueous [ˈeɪkwɪəs] *a* suvga oid, suvli
aquifer [ˈækwɪfə] *n geol.* yerning nam saqlaydigan qatlami
aquiferous [æˈkwɪfərəs] *a geol.* nam saqlaydigan qatlam
aquilegia [ˌækwɪˈli:dʒ(ɪ)ə] *n bot.* akvilegiya (suvyig'ar) (*ayiqtovondoshlarga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi*)
aquiline [ˈækwɪlaɪn] *a* burgutga oid
aquilon [ˈækwɪlɒn] *n esk.* akvilon
a-quiver [əˈkwɪvə] *adv esk.* qimirlab, titrab, dirillab, tebranib, qaltirab, qaltiroq bosib
aquose [ˈeɪkwəʊs] *a kam.* suvi ko'p, sersuv, sernam
Arab [ˈærəb] **1.** *n* arab; arab ayoli; **the ~ of the gutter** (*shun.*, **city** *yoki* **street** ~) ko'cha bolasi, bebosh (darbadar) bola, boqimsiz bola, qarovchisiz (ko'chada qolgan) bola; **2.** *a* arablarga oid, arabcha
arabesque [ˌærəˈbesk] **1.** *n* arabeska (*1. me'morlik va rassomlik san'atida: geometrik shakllardan, barg, gul va sh. k. ning tasviridan tarkib topgan murakkab naqsh; 2. adabiy yoki musiqa asarlari to'plami; 3. raqsda: ayrim harakat, muqom*); **2.** *a* arabeska bilan bezatilgan
arabesqued [ˌærəˈbeskt] *a* arabeskali, arabeska bilan bezatilgan
arabesquely [ˌærəˈbesklɪ] *adv kit.* arabeska usuli bilan
Arabian [əˈreɪbɪən] *a* arabcha
Arabian camel [əˌreɪbɪən ˈkæm(ə)l] *n zool.* bir o'rkachli nortuya
Arabic [ˈærəbɪk] *n* 1) arab; 2) arab tili
Arabism [ˈærəbɪz(ə)m] *n* arabizm (*arab tilidan o'zlashtirilgan so'z yoki ibora*)
Arabist [ˈærəbɪst] *n* arabshunos
arable [ˈærəb(ə)l] **1.** *n* yer haydash; **2.** *a* haydaladigan
arable farming [ˌærəb(ə)l ˈfɑ:mɪŋ] *n* 1) dehqonchilik, ziroatchilik; 2) dehqonchilik (ziroatchilik) ilmi; 3) g'allakorlik; g'alla yetishtirish; 4) dalachilik
Araby [ˈærəbɪ] *a esk. shoir.* Arabiston ga, Arabiston yarim oroliga oid
arachnean [əˈræknɪən] *a esk.* o'rgimchak iniga (uyasiga) oid; o'rgimchak ini...
arachnid [əˈræknɪd] *n* o'rgimchaksimonlar
arachnoid [əˈræknɔɪd] *a bot.* o'rgimchaksimon
arachnoidal [ˌærəkˈnɔɪd(ə)l] *a zool.* o'rgimchak iniga (uyasiga) oid; o'rgimchak ini...
arachnology [ˌærækˈnɒlədʒɪ] *n* araxnologiya (*zoologiyaning o'rgimchaksimonlar sinfini o'rganuvchi sohasi*)
arain [ˈɑ:rən] *n dial.* 1) o'rgimchak; 2) *ko'ch. so'zl.* boshqalarning mehnatidan (kuchidan) foydalanuvchi shafqatsiz kishi
a-rake [əˈreɪk] *adv esk.* qiya (nishab) qilib
Aramaic [ˌærəˈmeɪɪk] *n* aramey tili
araneidan [ˌærəˈni:ɪdən] *zool* **1.** *n* o'rgimchak; **2.** *a* o'rgimchakka o'xshagan, o'rgimchak shaklidagi, o'rgimchak...
arango [əˈræŋgəʊ] *n* (*pl* **-oes** [-əʊz]) serdolik (*yarim qimmatbaho tosh*)dan yasalgan munchoq
araphorostic [ˌærəfəˈrɒstɪk] *a kam.* 1) bir butun bo'lakdan qilingan; 2) choksiz, choki yo'q, uloqsiz
aration [əˈreɪʃ(ə)n] *n esk.* yerga ishlov berish, yer haydash
araucaria [ˌærɔ:ˈke(ə)rɪə] *n bot.* araukariya (*ignabargli baland daraxtning turi*)
arbalest [ˈɑ:bəlɪst] *n tar.* 1) arbalet (*kamonga o'xshash qadimiy qurol*); 2) qo'ndoqli kamon
arbalester [ˈɑ:bəlɪstə] *n tar.* kamon otuvchi
arbiter [ˈɑ:bɪtə] *n* 1) hakam; **the ~ of elegance** modalarni rasm qiluvchi; 2) *sport.* arbitr, sudya
arbitrage [ˈɑ:bɪtrɪdʒ] *n* hakamlar sudi muhokamasi
arbitral [ˈɑ:bɪtrəl] *a* arbitrajga oid, arbitraj (*hakamlik sudi*)ga oid
arbitrament [ɑ:ˈbɪtrəmənt] *n* hakamlik sudi qarori
arbitrarily [ˈɑ:bɪtrərɪlɪ] *adv* 1) ixtiyoriy ravishda, erkin holatda; 2) o'zboshimchalik bilan; 3) hech narsaga asoslanmasdan; 4) *kit.* zolimlik (zulmkorlik) bilan
arbitrariness [ˈɑ:bɪtrərɪnəs] *n* 1) ixtiyoriylik, erkinlik; 2) o'zboshimchalik; beboshlik; 3) asossizlik, mantiqsizlik, puchlik; 4) *kit.* qattiq zulm qilish, zulmini o'tkazish, zolimlik, zulmkorlik
arbitrary [ˈɑ:bɪtrərɪ] *a* tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy
arbitrate [ˈɑ:bɪtreɪt] *v* xolis hukm (*qaror*) chiqarmoq
arbitration [ˌɑ:bɪˈtreɪʃ(ə)n] *n* hakamlar sudi muhokamasi
arbitrator [ˈɑ:bɪtreɪtə] *n* hakam
arbitress [ˈɑ:bɪtrəs] *n* 1) hakam (*ayol haqida*); 2) arbitr (*davlat arbitrasining xodimasi*); 3) *sport.* arbitr, hakam (*ayol haqida*)
arbor [ˈɑ:bə] **1.** *n* daraxt; **2.** *n tex.* val; o'q; shpindel

arboraceous [ˌɑ:bə ´reɪʃəs] *a* daraxtzor..., daraxtlari ko'p bo'lgan, serdaraxt
Arbor Day ['ɑ:bəˌdeɪ] *amer.* daraxt (ko'chatlari) o'tqazish kuni
arboreal [ɑ:´bɔ:rɪəl] *a zool.* daraxtlarda yashovchi
arboreous [ɑ:´bɔ:rɪəs] *a* serdaraxt, daraxtzor
arborescence [ˌɑ:bə´res(ə)ns] *n* daraxt shaklida paydo bo'lgan narsa; daraxtga o'xshab (daraxtsimon bo'lib) vujudga kelgan narsa
arborescent [ˌɑ:bə´res(ə)nt] *a* daraxtga o'xshagan
arboret ['ɑ:bərət] *n esk.* 1) yosh (*yoki* kichkina) daraxt, daraxtcha; 2) buta, buta o'simlik, butazor, changalzor; kichkina o'rmon, daraxtzor; 3) atrofi ko'k o'simliklar bilan o'rab olingan ayvoncha
arboreta [ˌɑ:bə´ri:tə] = **arboretum**
arboretum [ˌɑ:bə ´ri:təm] *lot. n* ko'chatxona
arboriculture ['ɑ:bərɪˌkʌltʃə] *n* o'rmonshunoslik
arboriculturist [ˌɑ:bərɪ ´kʌltʃərɪst] *n* o'rmonshunos
arborization [ˌɑ:bərɪ ´zeɪʃ(ə)n] *n min.* tog' jinslari, kristallardagi daraxtsimon shakllar
arborous ['ɑ:bərəs] *a* 1) daraxtga oid, daraxt...; 2) yog'ochdan olinadigan (tayyorlanadigan); yog'och...; 3) daraxtda yashaydigan
arbor vitae [ˌɑ:bɔ:´vaɪti:] *n bot.* sharq tuya daraxti (*sarguldoshlar oilasiga mansub archasimon o'simliklar turkumi*)
arbour ['ɑ:bə] *n* shiyponcha
arbuscle ['ɑ:bʌsl] *n bot.* pastbo'y (pastak) daraxt
arbust ['ɑ:bʌst] *n esk.* 1) pastbo'y (pastak) daraxt; 2) tup
arbutus [ɑ:´bju:təs] *n* yertut daraxti
arc [ɑ:k] **1.** *n* 1) *mat.* yoy; 2) *el.* elektr yoyi; **2.** *v el.* elektr yoyi hosil qilmoq
arcade [ɑ:´keɪd] *n* do'konlar rastasi
Arcadia [ɑ:´keɪdɪə] *n* Arkadiya (*baxtiyor o'lka: Yunonistonning baxtiyor cho'ponlar maskani sifatida tavsiflangan Arkadiya o'lkasi*)
arcane [ɑ:´keɪn] *a esk.* yashirin, maxfiy, pinhon, sir tutilgan (tutiladigan)
arcanum [ɑ:´keɪnəm] *n* sir, maxfiy narsa
arcature ['ɑ:kətʃə] *n me'mor.* gumbaz (qubba) shaklidagi naqshinkor panjara
arc-boutant [ˌɑ:bu(:)tɑ:ŋ] *n fr.* (*pl* **arcs-boutants**) *qur.* tirgakli ravoq
arch [ɑ:tʃ] **1.** *n* ravoq, gumbaz; **2.** *a* o'taketgan
Archaean [ɑ:´ki(:)ən] *a geol.* arxey erasi (*Yerda hali hayot yuzaga kelmagan eng qadimiy davr*)
archaeography [ˌɑ:kɪ´ɒgrəfɪ] *n* arxeografiya (*tarix fanining qadimiy yozma yodgorliklarini nashrga tayyorlash va chop qilish uslublari haqidagi yordamchi tarmog'i*)
archaeologian [ˌɑ:kɪə´ləʊdʒɪən] = **archaeologist**
archaeological [ˌɑ:kɪə´lɒdʒɪk(ə)l] *a* arxeologiyaga (qadimshunoslikka) oid
archaeologist [ˌɑ:kɪ´ɒlədʒɪst] *n* arxeolog, qadimshunos
archaeopteryx [ˌɑ:kɪ´ɒptərɪks] *n* arxeopteriks (*kaltakesakdumlilar kenja sinfiga mansub eng qadimgi qirilib ketgan qush*).
archaelogy [ˌɑ:kɪ´ɒlədʒɪ] *n* arxeologiya (*qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklari asosida xalqlarning tarixiy o'tmishini, turmush va madaniyatini o'rganuvchi fan*)
archaic [ɑ:´keɪɪk] *a* eskirgan, eski; iste'moldan chiqqan
archaical [ɑ:´keɪɪk(ə)l] = **archaic**
archaically [ɑ:´keɪɪkəlɪ] *adv* 1) arxaizm (*o'tmishning qoldig'i*) sifatida; eskilik (sarqit) sifatida; 2) *tilsh.* arxaizm (*eskirgan so'z, ibora, grammatik shakl*) sifatida
archaism ['ɑ:keɪɪz(ə)m] *n* eskirib qolgan so'z
archaist ['ɑ:keɪɪst] *n kit.* 1) arxaizm ishqibozi (havaskori, shinavandasi); 2) antiqa narsalar bilan savdo qiluvchi kishi; antiqa narsalarni yig'ib yuruvchi kishi
archaistic [ˌɑ:keɪ´ɪstɪk] *a* 1) uzoq o'tmishga oid; qadimiy, arxaik; 2) *tilsh.* eski, eskirgan, iste'moldan chiqqan; 3) eskicha uslubda qilingan
archaize ['ɑ:keɪaɪz] *v* uzoq o'tmishga taqlid qilmoq
archangel ['ɑ:kˌeɪndʒ(ə)l] *n* Arxangel (*farishtalarning eng kattasi*)
archbishop [ˌɑ:tʃ´bɪʃəp] *n* arxiyepiskop (*bir necha cherkov okrugini boshqaruvchi yepiskop*)
archbishopric [ˌɑ:tʃ´bɪʃəprɪk] *n* 1) arxiyepiskoplik; 2) arxiyepiskop iyerarxiyasi (*arxiyerey qo'l ostidagi cherkov okrugi*)
arched [ɑ:tʃt] *a* 1) gumbaz (qubba) shaklidagi, gumbazsimon; 2) egilgan, bukilgan, qayrilgan
arch-chamberlain [ˌɑ:tʃ´tʃeɪmbəlɪn] *n tar.* bosh kamerger (*chor Rossiyasida va ba'zi monarxiya davlatlarida: saroy a'yonlarining unvonlaridan biri va shu unvondagi kishi*)
arch-chanter [ˌɑ:tʃ´tʃɑ:ntə] *n* xor dirijori (*asosan, cherkovda*)
archdeacon [ˌɑ:tʃ´di:kən] *n* arxidiakon (*xristianlarning katta ruhoniysi*)
archdiocese [ˌɑ:tʃ´daɪəsɪs] *n* arxiyepiskop iyerxiyasi
archducal [ˌɑ:tʃ´dju:k(ə)l] *a tar.* ersgersog (*Avstriya shahzodalarining unvoni va shu unvonga ega odam*)ga oid
archduchess [ˌɑ:tʃ´dʌtʃɪs] *n tar.* ersgersoginya (*ersgersogning rafiqasi yoki qizi*)
archduchy [ˌɑ:tʃ´dʌtʃɪ] *n* ersgersoglik
archduke [ˌɑ:tʃ´dju:k] *n tar.* ersgersog
archegonia [ˌɑ:kɪ´gəʊnɪə] *pl of* **archegonium**
archegonium [ˌɑ:kɪ´gəʊnɪəm] *n* (*pl* **-nia** [-nɪə]) *bot.* arxegoniy (*qirqquloqsimonlar va yalang'och o'simliklar urg'ochi jinsiy organi*)
arch-enemy [ˌɑ:tʃ´enəmɪ] *n* ashaddiy dushman
archer ['ɑ:tʃə] *n* kamonboz
archery ['ɑ:tʃərɪ] *n* kamon otish (*san'ati*)
archetypical ['ɑ:kɪtaɪpɪk(ə)l] *a* 1) dastlabki, eng boshdagi, eng avvalgi (oldingi); 2) boshlang'ich, ibtidoiy; 3) azalgi, qadimgi; burungi; qadimdan qolgan, azaldan qolib (bo'lib) kelgan
archetype ['ɑ:kɪtaɪp] *n* asl nusxa; namuna
archetypist ['ɑ:kɪtaɪpɪst] *n* birinchi marta (eng avval) bosilgan kitoblar tadqiqotchisi
arch-father [ˌɑ:tʃ´fɑ:ðə] *n* urug' boshlig'i, urug' oqsoqoli
arch-fiend [ˌɑ:tʃ´fi:nd] *n* iblis (*shayton*)
arch-flamen [ˌɑ:tʃ´fleɪmen] *n* arxiyepiskop (*bir necha cherkov okrugini boshqaruvchi yepiskop*)
arch-foe [ˌɑ:tʃ´fəʊ] *n* inson zotining dushmani; iblis, shayton
archiater [ˌɑ:kɪ´eɪtə] *n tar.* saroyning (bosh) shifokori, qirol shifokori
archidiaconal [ˌɑ:kɪdaɪ´ækən(ə)l] *a din.* arxidiakonga oid, arxidiakon...
archie ['ɑ:tʃɪ] *harb.* **1.** *n* zenitning og'ir to'pi; **2.** *v* zenit to'pi bilan o'qqa tutmoq (otmoq)
archiepiscopacy [ˌɑ:kɪ´pɪskəpəsɪ] *n* arxiyepiskoplik
archiepiscopate [ˌɑ:kɪ´pɪskəpət] = **archiespiscopacy**
archimage ['ɑ:ɪmeɪdʒ] *n* katta sehrgar (jodugar, afsungar)
archimandrite [ˌɑ:kɪ´mændraɪt] *n* arximandrit (*monaxlarning oliy unvoni va shu unvonga ega bo'lgan monax, odatda, monastir boshlig'i*)
Archimedean [ˌɑ:kɪ´mi:dɪən] *a* Arximedga oid, Arximed...; **an ~ principle** Arximed qonuni

Archimedes [ˌɑːkɪˈmiːdiːz] *n* Arximed (*yunon olimi*)
archimime [ˈɑːkɪmaɪm] *n tar.* (bosh) qiziqchi (*podshoh saroyidagilarni va mehmonlarni kuldirish uchun saqlangan kishi*)
arching [ˈɑːtʃɪŋ] *n sport.* egish, bukish
archipelago [ˌɑːkɪˈpelɡəʊ] *n* arxipelag (*bir-biriga yaqin orollar guruhi*)
architect [ˈɑːkɪtekt] *n* arxitektor, me'mor; **every man is the ~ of his own fortune** *maq.* (har bir inson o'z taqdirining me'-mori), taqdir deb o'ylama, qismat o'chog'i qo'lda; har kimning taqdiri, baxti o'z qo'lida
architectonic [ˌɑːkɪtekˈtɒnɪk] *a* me'-morchilikka oid
architectonics [ˌɑːkɪtekˈtɒnɪks] *n* arxitektonika (*bir butunning ayrim qismlari o'rtasidagi uyg'unlik, mutanosiblik, kompozitsiya, tuzilish*)
architectural [ˌɑːkɪˈtektʃ(ə)rəl] *a* me'-moriy
architecturalist [ˌɑːkɪˈtektʃ(ə)rəlɪst] *n* me'morchilik mutaxassisi, me'morchilik ishlarini yaxshi biladigan kishi
architecturally [ˌɑːkɪˈtektʃ(ə)rəlɪ] *adv* me'morlik va me'morchilik nuqtayi nazaridan
architecture [ˈɑːkɪtektʃə] *n* me'morchilik
architrave [ˈɑːkɪtreɪv] *n me'mor.* asosiy to'sin
archival [ɑːˈkaɪv(ə)l] *a* arxivga oid
archives [ˈɑːkaɪvz] *n pl* arxiv
archivist [ˈɑːkɪvɪst] *n pl* arxiv boshlig'i
archly [ˈɑːtʃlɪ] *adv* makkorona
archlute [ˈɑːtʃluːt] *n* teorba (*chertib chalinadigan qadimiy musiqa asbobi*)
archness [ˈɑːtʃnəs] *n* hiyla, makr
archon [ˈɑːkɒn] *n* 1) *tar.* arxont (*Qadimiy Yunonistonda: oliy martabali kishi*); 2) *esk.* hokim, hukmdor
arch-see [ˌɑːtʃˈsiː] *n* arxiyepiskop iyerarxiyasi (*arxiyerey qo'l ostidagi cherkov okrugi*)
arch-traitor [ˌɑːtʃˈtreɪtə] *n* 1) katta xoin (sotqin, xiyonatchi, xiyonatkor); 2) (A) xoin, sotqin, munofiq (*xristian afsonalariga ko'ra o'z ustozi, Iso payg'ambarga xiyonat qilgan Iuda Iskariot nomidan*); 3) (A) iblis, shayton, jin
arch-villiain [ˌɑːtʃˈvɪlən] *n* 1) katta jinoyatchi; 2) badkor, badkirkor, yaramas
archway [ˈɑːtʃweɪ] *n* ark ostidagi o'tish yo'li
archwise [ˈɑːtʃwaɪz] *adv* gumbaz (qubba) shaklida, gumbaz (qubbaga) o'xshatib
arciform [ˈɑːsɪfɔːm] *a* yoy shaklidagi, yoysimon
arcing [ˈɑːkɪŋ] *n el.* uchqun chiqish
arctation [ɑːkˈteɪʃ(ə)n] *n tib.* torayish, toraytirish
Arctic [ˈɑːktɪk] **1.** *n* Arktika; **2.** *a* Arktikaga oid
arctic fox [ˌɑːktɪkˈfɒks] *n* shimol (qutb) tulkisi
arcticize [ˈɑːktɪsaɪz] *v* Arktika sharoitidagi ishga moslashmoq
Arcturus [ɑːkˈtjʊərəs] *n astr.* Arktur (*yulduz*)
arcuate, arcuated [ˈɑːkjʊ(e)ɪt, -ɪd] *a* ravoqshakl, egilgan
arcuation [ˌɑːkjʊˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) qubba (gumbaz) shaklida egish (bukish); 2) *tib.* (*suyakni*) egish, bukish
ardea [ˈɑːdɪə] *n zool.* qo'ton, qarqara
Ardenn [ˈɑːdn] *n* (~ **horse**) arden (*og'ir yuk tashuvchi ot turi*)
ardent [ˈɑːd(ə)nt] *a* 1) qizg'in; 2) jo'shqin; 3) tirishqoq
ardently [ˈɑːd(ə)ntlɪ] *adv* jon-jahd bilan, g'ayrat bilan
ardometer [ɑːˈdɒmɪtə] *n fiz.* ardometr (*yuqori haroratlarni o'lchaydigan asbob*)
ardor [ˈɑːdə] = **ardour**
ardour [ˈɑːdə] *n* 1) jo'shqinlik; 2) ishtiyoq
arduous [ˈɑːdjʊəs] *a* qiyin, og'ir
arduously [ˈɑːdjʊəslɪ] *adv* 1) arang, zo'r-g'a, bor kuchini ishlatib; 2) g'ayrat bilan, faol ravishda, keskin, qizg'in suratda
are [ɑː] „**to be**" *fe'lining hozirgi zamon ko'plik sonda ishlatiladigan shakli*
area [ˈe(ə)rɪə] *n* maydon, hudud, yer maydoni; **a depressed ~** 1) *tar.* Angliyaning, asosan, 1929 – 33- yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi natijasida (oqibatida) zarar ko'rgan hududi; 2) iqtisodiy (moddiy) tanglikdagi hudud; 3) ishchilari uzoq muddat ishsiz qoladigan hudud (*Angliyada*)
aread [ˈe(ə)rɪːd] *v esk.* 1) maslahat bermoq, yo'l ko'rsatmoq; 2) muayyan bir fikrga (to'xtamga) kelmoq, qaror qilmoq, aniqlamoq
areal [ˈe(ə)rɪəl] *a* region (*o'zaro chegaradosh, bir guruh mamlakatlar yoki viloyatlardan iborat katta tuman*)ga oid, regional...; **~ linguistics** lingvistik geografiya
a-rear [ˈe(ə)rɪə] *adv esk.* 1) orqa tomoniga; 2) orqada, orqa tomonda
area sketch [ˈe(ə)rɪəˌsketʃ] *n top.* xomaki chizma
areaway [ˈe(ə)rəweɪ] *n* binolar orasidagi yo'l (o'tish joyi)
areca [ˈærɪkə] *n bot.* areka (*palmalar turkumi*)
arefy [ˈærɪfaɪ] *v esk.* quritmoq, namini qochirmoq
arena [əˈriːnə] *n* sahna, kurash maydoni
arenaceous [ˌærɪˈneɪʃəs] *a* qumli, qumloq
arenaria [ˌærɪˈne(ə)rɪə] *n bot.* qumo't (*qumda o'sadigan ba'zi o'simliklarning nomi*)
arenose [ˈærɪnəʊz] *a* qumli, qum bilan qoplangan
areography [ˌærɪˈɒgrəfɪ] *n* areografiya (*Mars sayyorasining tashqi ko'rinishi atmosferasi kabi boshqa fizik xususiyatlarini tasvirlash*)
areola [əˈriːələ] *n anat.* emchak uchi yaqinidagi aylana
areolar tissue [əˌriːələˈtɪʃuː, -ˈtɪsjuː] *n anat.* biriktiruvchi (po'k) tikan
areology [ˌærɪˈɒlədʒɪ] *n* areologiya (*Mars sayyorasini o'rganadigan fan*)
areometer [ˌærɪˈɒmɪtə] *n* areometr (*suyuqlikning zichligini, solishtirma og'irligini o'lchaydigan asbob*)
areopagite [ˌærɪˈɒpəgaɪt] *n* areopag (*qadimgi Afina shahrida: oliy sud va oliy hokimiyat organi*) a'zosi
Areopagus [ˌærɪˈɒpəgəs] *grek. n tar.* areopag (*qadimgi Afinada: oliy sud va oliy hokimiyat*)
Ares [ˈeəriːz] *n yun. afs.* Ares (*urush xudosi*)
arete [əˈre(ɪ)t] *n fr.* tog'ning o'tkir qirrasi
Arethusa [ˌærɪˈθjuːzə] *n yun.* 1) *afs.* Aretuza (*tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohasi*); 2) (**a**) *ko'ch.* manba, asos, kalit
argali [ˈɑːgəlɪ] *n zool.* yovvoyi tog' quyoni
argan [ˈɑːg(ə)n] *n bot.* arganiya (*vatani Marokko bo'lgan doim yashil tikanli daraxt, uning moyi kosmetikada va taom pishirishda ishlatiladi*)
argent [ˈɑːdʒənt] **1.** *a* kumushdek, kumushsimon; **2.** *n* kumush, nuqra
argentan [ˈɑːdʒəntən] *n nem.* neyzibler (*Cu (asos)ning Ni (5–35%) va Zn (13–45%) bilan qotishmasi*)
argentic [ɑːˈdʒentɪk] *a kim.* tarkibiga kumush qo'shilgan, kumushli
argentiferous [ˌɑːdʒənˈtɪfərəs] *a geol.* tarkibida kumushi bo'lgan (*ruda haqida*)
Argentine [ˈɑːdʒəntaɪn] **1.** *n* argentinalik kishi (ayol); **2.** *a* Argentina va argentinaliklarga oid
argentine [ˈɑːdʒəntaɪn] *a* kumushdan qilingan
Argentinean [ˌɑːdʒənˈtɪnɪən] *n* argentinalik kishi (ayol)
argentite [ˈɑːdʒəntaɪt] *n min.* argentit (*kumush yaltirog'i, sulfidlar sinfiga mansub mineral*)
argentry [ˈɑːdʒəntrɪ] *n esk.* kumush idish-tovoqlar

argentum [ɑ:ˈdʒəntəm] *n kim.* kumush, nuqra
argh [ɑ:] *a dial.* 1) qo'rqoq, yuragi yo'q, yuraksiz, irodasiz; 2) faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust; dangasa, ishyoqmas
argil [ˈɑ:dʒɪl] *n* kulolchilik tuprog'i *yoki* oq tuproq
argillaceous [ˌɑ:dʒɪˈleɪʃəs] *a* tuproqli; tarkibiga tuproq qo'shilgan, sertuproq
argillite [ˈɑ:dʒɪlaɪt] *n min.* argillit (*cho'kindi tog' jinsi, gilning zichlanishi, suvsizlanishi va sementlanishi natijasida hosil bo'ladi*)
Argive [ˈɑ:gaɪv, ˈɑ:dʒaɪv] *n shoir.* grek, greklar, grek xalqi
argol [ˈɑ:gəl] *n turk.* tezak, tappi; chalma
argon [ˈɑ:gɒn] *n kim.* argon (*kimyoviy element, hidsiz, tussiz inert gaz*)
Argonaut [ˈɑ:gənɔ:t] *n* 1) *amer.* oltin qidiruvchi; 2) *zool.* agronavt (*boshoyoqli molluskalarning bir turi*)
argosy [ˈɑ:gəsɪ] *n tar.* katta savdo kemasi
argot [ˈɑ:gəʊ] *n fr.* argo, jargon (*ma'lum doirada qo'llaniladigan yasama so'zlar, iboralar*)
argotic [ɑ: ˈgɒtɪk] *a* argotik, jargonga oid
arguable [ˈɑ:gjʊəb(ə)l] *a* munozarali, tortishuvli
argue [ˈɑ:gju:] *v* 1) isbot qilmoq; 2) bahslashmoq; **to ~ round and round** asosiy masala ustida gapirmaslik, asosiy gapni gapirmaslik; **to ~ with smb. about or over smth.** kim bilandir nimadir haqida bahslashmoq
argufy [ˈɑ:gjʊfaɪ] *v so'zl.* arzimagan narsaga bahslashmoq
argument [ˈɑ:gjʊmənt] *n* 1) dalil-isbot. 2) bahs; munozara; **a baculine ~** *hazil.* kaltak (tayoq) bilan „ko'ndirish"; **a knock-down ~** *so'zl.* esni og'diradigan (anqaytirib qo'yadigan, og'iz ochilib qoladigan, hayratda qoldiradigan, hayron qolarli, ajib, g'alati) dalil, isbot, asos
argumentation [ˌɑ:gjʊmenˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) dalillar; 2) bahs
argumentative [ˌɑ:gjʊˈmentətɪv] *a* bahslashishni yoqtiradigan
Argus [ˈɑ:gəs] *n grek.* hushyor, sergak
Argus-eyed [ˌɑ:gəsˈaɪd] *a* hushyor, ziyrak
argus pheasant [ˌɑ:gəsˈfez(ə)nt] *n zool.* argus (*qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub xol-xol qanotli qush*)
argute [ɑ:ˈgjʊt] *a* o'tkir, uchli
aria [ˈɑ:rɪə] *n mus.* ariya (*bir ovoz uchun yozilgan musiqa asari – opera va sh. k. ning bir qismi*)
arid [ˈærɪd] *a* 1) quruq; 2) hosilsiz
aridity [æˈrɪdɪtɪ] *n* quruqlik
Ariel [ˈe(ə)rɪəl] *n astr.* Ariel (*Uran burjining yo'ldoshi*)
ariel [ˈe(ə)rɪəl] *n zool.* arab g'izoli (ohusi)
Aries [ˈe(ə)ri:z] *n* qo'y burji; qo'y burji vakili
aright [əˈraɪt] *adv* to'g'ri, bexato
aril [ˈærɪl] *n bot.* qobiq, po'choq
arillate, arillated [ˈærɪleɪt, -ɪd] *a bot.* po'choqli, qobiqli, pardali
ariose [ˈɑ:rɪəʊs] *a mus.* ohangdor, yoqimli, xushohang
arioso [ˌɑ:rɪˈəʊzəʊ] *n mus.* ariozo (*kichik ariya*)
a-riot [əˈraɪət] *adv kam.* 1) tez, shiddat bilan, avj olib, qiyg'os; 2) tartibsiz holda (ravishda); ayqash-uyqash; palapartish
arise [əˈraɪz] *v* (**arose; arisen**) 1) ko'tarilmoq; 2) paydo bo'lmoq
arisen [əˈrɪz(ə)n] *p. p. of* **arise**
arista [əˈrɪstə] *n* (*pl* **-ae** [-ti:]) *bot.* qiltiq, qiltanoq
aristae [əˈrɪsti:] *pl of* **arista**
aristarch [ˈærɪstɑ:k] *n kit.* qattiq tanqid qiladigan kishi
aristate [əˈrɪsteɪt] *a bot.* qiltiqli, serqiltiq (*bug'doy va b. haqida*)
aristo [ˈærɪstəʊ] *n so'zl.* aristokrat, oqsuyak, aslzoda, zodagon
aristocracy [ˌærɪsˈtɒkrəsɪ] *n* oqsuyaklar, zodagonlar
aristocrat [ˈærɪstəkræt] *n* oqsuyak, zodagon
aristocratic [ˌærɪstəˈkrætɪk] *a* zodagonlarga oid
aristocraticism [ˌærɪstəˈkrætɪsɪz(ə)m] *n* aristokratizm, aristokratiklik (*burjuadvoryan jamiyatida: aristokratlarga xos yurish-turish, aristokratlarcha nozik nuomala, nazokat*)
aristocratism [ˌærɪ ˈstɒkrətɪz(ə)m] *n* aristokratlar (oqsuyaklar, zodagonlar)ga xos bo'lgan manmanlik (dimog'dorlik, kibr-havo)
Aristotelian [ˌærɪstə(ʊ)ˈti:lɪən] **1.** *n* Aristotelning izdoshi; **2.** *a* Aristotelga oid, Aristotel...
aithmancy [əˈrɪθmænsɪ] *n* raqamlar (sonlar)ga qarab rom (fol) ochish
arithmetic [əˈrɪθmətɪk] *n* arifmetika, hisob (*matematikaning sonlar va ular ustidagi amallar haqidagi bo'limi*)
arithmetical [ˌærɪθˈmetɪk(ə)l] *a* arifmetikaga (hisobga) oid
arithmetically [ˌærɪθ ˈmetɪk(ə)lɪ] *adv* arifmetik yo'l bilan
arithmetician [ə,rɪθmə'tɪʃ(ə)n] *n* arifmetika sohasi mutaxassisi
arithmograph [əˈrɪθməgrɑ:f] *n* arifmograf (*arifmetik amallarni bajaradigan va o'zi yozib boradigan hisoblash mashinasi*)
arithmometer [ˌærɪθ ˈmɒmɪtə] *n* arifmometr (*arifmetik amallarni bajaradigan va o'zi yozib boradigan hisoblash mashinasi*)
a rivederci [ˌærɪvə ˈdeəʧɪ] *part. ital. so'zl.* xayr, hozircha xayr
ark [ɑ:k] *n* Nuh kemasi (*afsonaviy to'fonda Nuh, uning oilasi va hayvonlar saqlanib qolgan kema*); **must have come out of the Ark** *hazil., so'zl.* 1) (**of smb.**) osmondan tushgan, hech narsadan bexabar (*haqiqiy ahvol, sharoit, vaziyatni tushunmaydigan inson haqida aytiladi*); 2) (**of smth.**) yuz yil ilgarigi vaqtda, juda qadim vaqtlarda, daqyonus zamonida; **to touch the ~ (of the covenant)** tahqirlamoq, masxaralamoq, tahqir qilmoq, xor qilmoq, xo'rlamoq, rasvo qilmoq; hurmatsizlik bilan muomalada (munosabatda) bo'lmoq, muomala (munosabat) qilmoq
arkose [ˈɑ:kəʊs] *n min.* arkoz, arkozli qumtosh (*qumning jipslanishidan hosil bo'lgan tog' jinsi*)
arle [ɑ:l] *v dial.* bay puli (zakolat) bermoq
arles [ɑ:lz] *n* (*fe'llar bilan birlik va ko'plikda ishlatiladi*) 1) bo'nak, bay puli; 2) garovga qo'yish; garovga qo'yilgan (*yoki* olingan) narsa; 3) *ko'ch.* garov, kafolat, dalil
arm [ɑ:m] **I.** *n* 1) qo'l (*panjadan yelkagacha bo'lgan*); **~ in ~** ahillik bilan, qo'lni qo'lga berib; **the (long) ~ of the law** qonunning kuchi (qudrati); **a babe (baby** *yoki* **infant) in ~s** qip-qizil go'dak (odatda, g'o'r, xom, sodda, go'l, tajribasiz odamlar haqida); **to chance one's ~** *so'zl.* tavakkal qilmoq, tavakkaliga ish qilmoq, tavakkaliga harakat qilmoq, taqdirni sinab ko'rmoq; **to drive one into smb's ~s** (*yoki* **into the ~s of smb.**) kimnidir kimdandir yordam axtarishga (so'rashga) majbur qilmoq (zo'rlamoq); **to have a long ~** „qo'li uzun", qo'li hamma yerga yetadi, qo'l uzatgan narsasini olishga qodir, hamma yerga gapi o'tadi, xohlagan ishini qila oladi; **in the ~s of Morpheus** *hazil.* Morfeyaning quchog'ida (bag'rida, og'ushida), tushda, uyquda, tushida, uyqusida (*qadimgi yunon afsonalarida Morfeyetush va tush ko'rish xudosi*); **the long ~ of coincidence**; ajoyib (ajib) o'xshashlik; kamdan-kam uchraydigan (favqulodda) hodisa; (**as**) **long as one's ~** *so'zl.*; eng (juda) uzun; **to make a long ~ (for)** *so'zl.* qo'l cho'zmoq (bermoq, uzatmoq), biror narsaga intilmoq, unga qarab qo'lini yoki bo'ynini cho'z-

moq; **on the ~** *amer. jarg.* pul olmay (*yoki* to'lamay), bepul, pulsiz, tekin, tekinga, bekorga, „kreditga"; **the strong ~** kuch ishlatish (*asosan, o'q otish qurollarini ishlatgan holda kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lgan*); **to throw oneself into smb.'s ~** (*yoki* **into the ~s of smb.**) kimdandir panoh izlamoq, kimdandir tayanch (suyanchiq) qidirmoq; **to twist smb.'s ~** (*yoki* **the ~ of smb.**) 1) *amer. siyos.* „qo'lni siqmoq", birovga ta'sir etmoq, tazyiq qilmoq, nojo'ya (mumkin bo'lmagan) usullarni qo'llamoq; 2) kimnidir qiyinchilik bilan (zo'rg'a) ko'ndirmoq; **under the ~** *jarg.* hech narsaga yaramaydigan; **with one ~ (tied) behind one's back** 1) nochor yoki noqulay holatda; 2) osonlik bilan, osongina, qiyinchiliksiz, qiynalmay, bemashaqqat, bemalol; **with open ~s** quchoq ochib, xursandlik (hurmat yoki mehr) bilan; 2) *pl* qurol; **to take up ~s** jang qilmoq; **2.** *v* qurollantirmoq

armada [ɑ:ˊmɑ:də] *n* armada (*tanklarning yirik to'dasi*)

armadillo [ˌɑ:məˊdɪləʊ] *n zool.* chumolixo'r (*zirhlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon*)

Armageddon [ˌɑ:məˊgedən] *n bibl.* qiyomat kunidagi katta jang

armament [ˊɑ:məmənt] *n* qurollanish; **the ~s race** (*yoki* **drive**) qurollanish poygasi, zo'r berib qurollanish; **an ~ works** harbiy zavod

armature [ˊɑ:mətʃə] *n* 1) qurol-yarog'; 2) armatura

armband [ˊɑ:mbænd] *n* yengga taqiladigan (bog'lanadigan) lenta, yengbog'

arm-chair [ˊɑ:mtʃeə] *n* tayanma stul, kreslo

armdrag [ˊɑ:mdræg] *n* zo'r berib qo'lni siltash (*musobaqa*)

arme blanche [ˌɑ:mˊblɔnʃ] *n fr.* sovuq qurol

armed [ɑ:md] **1.** *a* qurollangan, qurolli; **2.** *murakkab so'zlarda quyidagilarni bildiradi:* a) *nechta qo'li borligini*; **one ~** bir qo'lli; b) *qanday qo'li borligini*; **long ~** qo'li uzun

Armenian [ɑ:ˊmi:nɪən] **1.** *n* 1) arman, arman ayol; **the ~s** armanlar; 2) arman tili; **2.** *a* Armanistonga va armanlarga oid; Armaniston...; armanlar...; armancha

arm file [ˊɑ:mfaɪl] *n* uzunchoq katta chorqirra egov

armful [ˊɑ:mful] *n* quchoq

arm-hole [ˊɑ:mhəʊl] *n* o'miz, yeng o'rni, yeng o'tqaziladigan o'yma

armiger [ˊɑ:mɪdʒə] *n* (*pl* **-ri** [-rɪ]) 1) gerbni ko'tarib borish huquqiga ega bo'lgan kishi; 2) *tar.* qurolbardor (*o'rta asrlarda: ritsarning qurol-aslahasini ko'tarib yuruvchi yigit*)

armigeri [ˊɑ:mɪdʒ(ə)rɪ] *pl of* **armiger**

armillaria [ˌɑ:mɪleə(ə)rɪə] *n bot.* to'nka zamburug'i, to'nka (*yoki* daraxt) atrofida o'sadigan qo'ziqorin

arm-in-arm [ˌɑ:mɪnˊɑ:m] *adv* 1) qo'lni qo'lga berib, birgalikda; **to walk ~** qo'l ushlashib yurmoq; 2) qadrdonlik bilan, qalin do'st bo'lib

arming [ˊɑ:mɪŋ] *n* qurollantirish

armipotence [ɑ:ˊmɪpət(ə)ns] *n kam.* harbiy kuch

armipotent [ɑ:ˊmɪpət(ə)nt] *a* kuchli, qudratli (*harbiy kuchga nisbatan aytiladi*)

armistice [ˊɑ:mɪstɪs] *n* vaqtinchalik sulh

armless [ˊɑ:mləs] **1.** *a* qo'lsiz; **2.** *a* qurolsiz

armlet [ˊɑ:mlɪt] *n* 1) bilaguzuk; 2) ko'rfaz

armor [ˊɑ:mə] *n* qurol-yarog'

armored [ˊɑ:məd] *amer. n* zirh bilan qoplangan

armorial [ɑ:ˊmɔrɪəl] *a* gerbli (*tamg'ali*)

armory [ˊɑ:mərɪ] *n* qurol-aslaha zavodi

armour [ˊɑ:mə] **1.** *n* zirh; **a chink (a weak joint** *yoki* **a weak point) in smb.'s ~** kimningdir zaif (qaltis) tomoni, nozik joyi, kimningdir kamchiligi (tanqidbop tomoni); **2.** *v* zirh qoplamoq

armour-bearer [ˊɑ:mə,be(ə)re] *n tar.* qurolbardor

armour-clad [ˌɑ:məˊklæd] **1.** *a* zirhli, zirh bilan qoplangan; **2.** *n* zirhli katta harbiy kema

armoured [ˊɑ:məd] *a* zirhlangan

armoured concrete [ˌɑ:mədˊkɔŋkri:t] *n* temir-beton

armoured scales [ˌɑ:mədˊskeɪlz] *n ent.* 1) qalqonli daraxt bitlari, qalqonli bitlar (*qalqonsimon qobiq bilan qoplangan mayda hasharotlar*)

armourer [ˊɑ:mərə] *n* qurol-aslaha ustasi

armour-piercing [ˌɑ:məˊpɪəsɪŋ] *a* bronteshar

armour-plate [ˌɑ:məˊpleɪt] *n* zirh sifatida ishlatiladigan po'lat list

armour-plated [ˌɑ:məˊpleɪtɪd] *a* zirhli; zirh bilan qoplangan

armoury [ˊɑ:mərɪ] *n* qurol-aslaha ombori

armozeen, armozine [ˌɑ:mə(ʊ)ˊzi:n] *n* amozin (*ruhoniylar kiyimlari va motam marosimlarida kiyiladigan kiyimlar tikishga mos keladigan yo'g'on ipak gazlama*)

armpit [ˊɑ:m,pɪt] *n* 1) qo'ltiq; 2) qo'ltiqosti chuquri; **up to the ~s** *amer.* qulog'igacha botib ketmoq (*mas., qarzga*)

armrack [ˊɑ:m,ræk] *n harb.* piramida shaklida terib qo'yilgan miltiqlar, piramida shaklida (bir-biriga) tiralgan miltiqlar

armroll [ˊɑ:m,rəʊl] *n* qo'lni siqib qayirish (*musobaqa*)

arms [ɑ:mz] *n pl* qurol, qurollar; **the ~ race** (*yoki* **drive**) qurollanish poygasi, zo'r berib qurollanish; **the assumptive ~** qaytadan (yana) o'zlashtirib olingan, meros bo'lib qolmagan gerb; **to bear ~** harbiy qismda (armiya safida) xizmat qilmoq; **cold ~** sovuq qurol (*pichoq, nayza, xanjar va sh. k. tig'li qurollar*); **a companion** (*yoki* **a comrade) in ~** quroldosh (jangovar, birgalikda jang qilgan, urushda birga bo'lgan, jangovar) o'rtoq; **to fly to ~** urushga shoshilinch tayyorlanmoq (shaylanmoq), qo'lga qurol olmoq; **to lay down one's ~** qurolni tashlamoq, taslim bo'lmoq; **to rise in** (*yoki* **to take up**) **~ (against)** (-ga qarshi) qo'lga qurol olmoq; **to throw down one's ~** qurolni tashlamoq, taslim bo'lmoq; **to turn one's ~ against smb.** qurolni dushman tomonga qarab o'qtalmoq; **under ~** harbiy holatda, qurollangan; jangovar (shay) holatda; **up in ~** 1) kurashga, jangga, qarshilik ko'rsatishga tayyor (shay); 2) qo'zg'algan, turgan, ko'tarilgan; bosh ko'targan, qo'zg'olon (g'alayon, isyon) qilgan; qarshi chiqqan, qarshilik qilgan

arm-saw [ˊɑ:msɔ:] *n* qo'larra, dastarra

arm-twisting [ˊɑ:m,twɪstɪŋ] *n* qo'lni qayirish, azoblash

armure [ˊɑ:mjʊə] *n to'q.* armyur (*ipak yoki jun gazlama*)

army [ˊɑ:mɪ] *n* armiya, qo'shin; **a blue ribbon ~** hushyorlik jamiyati

army-beef [ˊɑ:mɪ,bi:f] *n* go'shtli konserva (*harbiylar uchun*)

army-list [ˊɑ:mɪ,lɪst] *n* armiya zobitlar tarkibi ro'yxati

arnica [ˊɑ:nɪkə] *n bot.* arnika (*dorivor o'simlik*)

a-roar [əˊrɔ:] *adv* 1) bo'kirib, o'kirib, na'ra tortib; 2) guvullab, g'uvullab, uvullab, gumburlab, gurullab; 3) *so'zl.* qattiq yig'lab, uvvos tortib

aroma [əˊrəʊmə] *n* muattar hid

aromatic [ˌærəʊˊmætɪk] *a* xushbo'y, muattar

aromatization [ə,rəʊmət(a)ɪˊzeɪʃ(ə)n] *n* 1) ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan narsalar (*mas: ziravor va b.*) qo'shish; 2) *kim.* aromatizatsiya

arose [əˊrəʊz] *past. of* **arise**

around [əˊraʊnd] 1) *adv* atrofga, atrofda; **to look ~** atrofga nazar tashlamoq; **all ~** har yerda; 2) *prep.* atrofida, tevaragida

around-the-clock [ə,raʊndðəˊklɒk] *a* kecha-kunduz davom etadigan, kecha-yu kunduz to'xtamaydigan, tun-kun ishlaydigan

arousal [əˊraʊz(ə)l] *n* 1) uyg'onish, uyqudan turish; uyg'otish, uyqudan turg'izish; 2) *ko'ch.* uyg'onish, tug'ilish, paydo bo'lish; 3) uyg'onish, jonlanish

arouse [əˊraʊz] *v* uyg'otmoq

a-row [əˊrəʊ] *adv esk.* yonma-yon, bir qatorda, qator, biror narsa *yoki* kimsa qatorida, ichida

arpeggio [ɑ:ˊpedʒɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) *mus.* arpedjio (*1. musiqa asarini ijro etishda pardalarni sekin-asta balandlatib borish haqidagi ko'rsatma; 2. shu tarzda yozilgan musiqa asari*)

arr [ɑ:r] *n dial.* 1) yara, jarohat; 2) yara izi (o'rni), chandiq

arrack [ˊærək] *n* araq (*guruch yoki kokosdan tayyorlangan kuchli spirtli ichimlik*)

arraign [əˊreɪn] *v* ayblamoq

arraignment [əˊreɪnmənt] *n* sudga berish, ayblash

arrange [əˊreɪndʒ] *v* tartibga solmoq; **to ~ to do smth.** nimadir qilishga kelishib olmoq; **to ~ for smb. to do smth.** kimningdir nimanidir qilishini kelishib olmoq; **to ~ about smth.** nimadir haqida kelishib olmoq

arrangement [əˊreɪndʒmənt] *n* 1) tartibga keltirish, joylashtirish, nav (xil, tur)-larga bo'lib joylashtirish, xillash, tartibga solish; **an ~ by number** tartib raqamiga qarab joylashtirish; 2) shartnoma, bitim, kelishuv; to'xtam; ahd-paymon; tozilik, murosa; **to come to an ~** kelishmoq, bir bitimga kelmoq; **to make ~s with smb.** kim bilandir kelishmoq, bitishmoq, va'dalashmoq, kelishib olmoq

arrant [ˊærənt] *a* haqiqiy, chin

arras [ˊærəs] *n* gobelenlar (*devorga osib qo'yiladigan suratli gilam*)

array [əˊreɪ] **1.** *n* harbiy intizom; **2.** *v* harbiy intizom o'rnatmoq

arrear [əˊrɪə] *n* 1) (*odatda, pl*) qarz, qarzdorlik; 2) *esk.* oxirgi (so'nggi, eng keyingi) qism

arrearage [əˊrɪərɪdʒ] *n* 1) qarzdorlik; 2) qarz

arrect [əˊrekt] *a* 1) tikkayib (dikkayib) turgan (*quloqlar haqida*); 2) *kam.* qulog'i ding, hushyor, sergak, bezovta

arrest [əˊrest] **1.** *n* qamoqqa olish; **2.** *v* qamoqqa olmoq

arrester [əˊrestə] *n el.* yashin qaytargich

arresting [əˊrestɪŋ] *a* e'tiborini jalb qiladigan

arrestive [əˊrestɪv] *a* birovning diqqatini (qiziqishini) biror kimsa *yoki* narsaga tortadigan

arrestment [əˊrestmənt] *n yur.* ushlab (tutib) olish, qo'lga tushirish, qamoqqa (hibsga) olish

arrêt [əˊreɪ] *n fr. tar.* fransuz qiroli va parlamentining farmoni

arrhythmic, arrhythmical [əˊrɪðmɪk, -(ə)l] *a tib.* bir maqomda (maromda) bo'lmagan, notekis

arride [əˊraɪd] *v esk.* 1) xursand (mamnun) qilmoq, rohat (huzur) bag'ishlamoq, maza qildirmoq; 2) yoqmoq, ko'nglini topmoq

arriere-ban [ˌærɪeəˊbæn] *n fr. tar.* vassallarni urushga chaqirmoq

arriere-pensee [ˌærɪeəˊpɒnseɪ] *n fr.* g'araz, yomon niyat

arris [ˊærɪs] *n tex.* 1) qirra; 2) o'tkir burchak

arrival [əˊraɪv(ə)l] *n* kelish, yetib kelish, kelib yetish (**at, in; from**); **an early ~** erta (barvaqt) kelish; **a late ~** kech kelish; **the new ~** *so'zl.* yangi (endigina, yaqinda) tug'ilgan

arrive [əˊraɪv] *v* kelmoq; **to ~ at a decision** qaror qabul qilmoq; **to ~ at** (*transport vositasida*) ... ga yetib (kelmoq) bormoq; ...ga kelib (borib) yetmoq; **to ~ in a city (a country)** shaharga (mamlakatga) kelmoq (tashrif buyurmoq); **to ~ at a port (station)** portga (stansiyaga) kelmoq

arriviste [ˌærɪːˊviːst] *n* shuhratparast, amalparast, mansabparast; manfaatparast

arroba [əˊrəʊbə] *n* 1) Ispaniya va Lotin Amerikasi davlatlarida og'irlik o'lchovi (*11,5 kg. ga yaqin*); 2) Ispaniyada suyuqlik o'lchovi (*8 dan 30 litrgacha*)

arrogance [ˊærəgəns] *n* takabburlik, kekkayish, dimog'dorlik, mag'rurlik

arrogant [ˊærəgent] *a* takabbur, kekkaygan

arrogate [ˊærəgeɪt] *v* dag'allik *yoki* takabburlik bilan talab qilmoq

arrogation [ˌærəˊgeɪʃ(ə)n] *n* 1) asossiz da'vo; 2) o'zlashtirib, egallab (o'ziniki qilib) olmoq

arrosion [əˊrəʊʒ(ə)n] *n tib.* arroziya

arrow [ˊærəʊ] *n* 1) o'q, kamon o'qi, nayza; **to shoot an ~ at** biror kishiga qarab kamondan o'q uzmoq, yoydan o'q otmoq; 2) strelka, ko'rsatkich, chiziccha (*shartli tasvir, chizma*); 3) yoy, o'q shaklidagi qandaydir narsa; 4) *astr.* O'q-Yoy (*Shimoliy yarimsharning o'rtacha kattalikdagi yulduz turkumi, O'zbekistonda bahor, yoz va kuz fasllarida ko'rinadi*); **an ~ left in one's quiver** ishlatilmagan (zaxira uchun qoldirilgan) narsa; **the broad ~** inglizlarning davlat tamg'asi (*keng uchli kamon o'qiga o'xshagan, davlat omborlari va b. ga qo'yiladi; ilgari u mahbuslar libosiga qo'yilar edi*); **a straight ~** *amer.* to'g'ri (to'ppa-to'g'ri, rostgo'y, dangal gapiradigan, halol, pok, vijdonli, sofdil) odam; (**as**) **straight as an ~** o'qday (alifday) to'g'ri; **you cannot miss the way; the road is as straight as an ~** siz yo'ldan adashmaysiz; yo'l o'qdek to'g'ri ketgan

arrow-head [ˊærəʊhed] *a* uchli, qirrali, o'tkir

arrow-headed [ˊærəʊˌhedɪd] *a* uchli, uchi o'tkir

arrow-grass [ˊærəʊgrɑ:s] *n bot.* barglari yoyga o'xshagan (yoybargli) boshoqli o'simliklar (o'tlar)

arrow-loop [ˊærəʊlu:p] *n* shinak, tuynuk (*istehkomlarda, qo'rg'on devorlarida*)

arrow-poison [ˊærəʊˌpɔɪz(ə)n] *n* kurare (*loganidoshlarga mansub (asosan, tropiklarda o'sadigan) o'simliklar ekstraktini quyultirib olinadigan kuchli zahar*)

arrow-root [ˊærəʊru:t] *n bot.* maranta (*ildizidan kraxmal olinadigan, yirik bargli ko'p yillik o'tsimon tropik o'simlik*)

arrow-wood [ˊærəʊwʊd] *n amer. bot.* itshumurt (*guli oq xushbo'y butasimon daraxt va uning qora, nordon mevasi*)

arrowy [ˊærəʊɪ] *a* kamon o'qiga o'xshagan

arroyo [əˊrɔɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) soy, anhor, ariq, jilg'a, kichikroq daryo, daryocha; 2) *amer.* qurib qolgan daryo o'zani

arse [ɑ:s] *n qo'p.* orqa (*dumba*); **~ over tip** *so'zl. qo'p.* umbaloq (dumbaloq) oshib, chirpirak bo'lib keldi; **my ~** *so'zl. qo'p.* yolg'onchilik ham evida-da! (evi bilan-da!), olib qochma! **not to know one's ~ from one's elbow** *so'zl. qo'p.* biror narsani tushunmaslik (farqiga bormaslik), biror sohadan hech narsani bilmaslik (baloni ham tushunmaslik)

arsenal [ˊɑ:s(ə)n(ə)l] *n* qurol-yarog' ombori

arsenate [ˊɑ:s(ə)neɪt] *n kim.* mishyak (arsenat) kislotasining tuzi

arsenic [ɑ:ˊsenɪk] **1.** *n* margimush; **2.** *a* margimushli

arsenolite [ɑ:ˊsenəlaɪt] *n min.* arsenolit, mishyakning tabiiy oksidi

arsenopyrite [ˌɑ:s(ə)nə(ʊ)ˊpaɪraɪt] *n min.* arsenopirit; mishyak kolchedani (*sulfidlar sinfiga mansub mineral*)

arses [ˊɑ:si:z] *pl of* **arsis**

arsheen [ɑːrˈʃiːn] *n rus.* 1) gaz, arshin (*0,71 m ga teng uzunlik o'lchovi*); 2) gazcho'p, gaz
arsis [ˈɑːsɪs] *n* (*pl* **arses**) 1) *she'r.* turoqning urg'uli bo'g'ini; 2) *mus.* musiqa asarining baravar vaqt davom etadigan har bir bo'lagining urg'usiz qismi (*sust ijro etiladigan bo'lagi*)
arson [ˈɑːs(ə)n] *n yur.* o't qo'yib yuborish
art [ɑːt] *n* 1) san'at; **~ is long, life is short** *maq.* (san'at abadiy – umr qisqa), ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar; **to be ~ and part in smth.** 1) jinoyatni tayyorlash va amalga oshirishda birga qatnashmoq, jinoyatga sherik bo'lmoq (*bu termin, asosan, Shotlandiya yuridik tajribasida keng tarqalgan*); 2) *so'zl.* nimadadir qatnashmoq (ishtirok etmoq), kim bilandir birgalikda (birgalashib) harakat qilmoq; nimagadir qatnashgan (aloqador bo'lgan); **the black ~** afsungarlik, folbinlik, sehrgarlik, jodu, amal; **to get it down to a fine ~** *so'zl.* nimagadir erishmoq, muvaffaq bo'lmoq, nimadandir muvaffaqiyatga erishmoq, muvaffaqiyat qozonmoq, kamolotga erishmoq; **the Hermetic ~** *kam.* Alkimyo (*o'rta asrlarda: oddiy metallarni oltin yoki kumushga aylantiruvchi „hikmat toshi" – iksir (afsonaviy toshni) izlash bilan shug'ullangan xayoliy fan*); **the manly** (*yoki* **noble**) **~ (of self-defence)** o'zini jasurona (yoki mardonavor) himoya qilish san'ati, boks; 2) kasb, hunar
artefact [ˈɑːtɪfækt] = **artifact**
artel [ɑː ˈtel] *n rus.* artel (*biror kasb-hunar egalarining birlashmasi*)
artemisia [ˌɑːtɪˈmɪzɪə] *n bot.* artemiziya (*muattar yoki achchiq hidli o'simlik, uning bir necha turi tibbiyotda ishlatiladi*)
arterialize [ɑːˈtɪ(ə)rɪəlaɪz] *a fiziol.* vena qonini arteriya qoniga aylantirmoq
arteriole [ɑːˈtɪ(ə)rɪəʊl] *n anat.* mayda arteriya
arteriology [ɑːˌtɪ(ə)rɪˈɒlədʒɪ] *n* arteriologiya
arteriosclerosis [ɑːˌtɪ(ə)rɪəʊsklɪə ˈrəʊsɪs] *n tib.* arterioskleroz (*arteriya sklerozi*)
artery [ˈɑːtərɪ] *n* 1) arteriya; 2) tomir
artesian [ɑːˈtiːzɪən] *a* artezian...
artful [ˈɑːtf(ə)l] *a* ayyor; epchil; chaqqon
artfulness [ˈɑːtf(ə)lnəs] *n* 1) epchillik; 2) ayyorlik
arthritic [ɑːˈθrɪtɪk] *a maxs.* 1) bo'g'imga oid, bo'g'im...; 2) bo'g'imlarning yallig'lanishiga oid; 3) podagraga (podagra kasalligiga) oid, podagra bilan kasallangan; podagra tufayli sodir bo'ladigan
arthritis [ɑː ˈθraɪtɪs] *n tib.* artrit, bo'g'imlarning yallig'lanishi
arthritism [ˈɑːθrɪtɪzm] *n tib.* artritizm, podagra (*modda almashinuvining buzilishi tufayli yuz beradigan, bo'g'imlarni, mas., barmoqlarni qizishganday zirqiratib og'riladigan kasallik*)
arthropathy [ɑːˈθrɒpəθɪ] *n* bo'g'imlarning kasal bo'lishi
arthropoda [ɑːˈθrɒpədə] *n pl ent.* bo'g'imoyoqlilar
arthrotomy [ɑːˈθrɒtəmɪ] *n tib.* artrotomiya, biror bo'g'imni *yoki* uning bir qismini kesib tashlash
arthrous [ˈɑːθrəs] *a* bo'g'imga oid; bo'g'imdagi, bo'g'im...
artichoke [ˈɑːtɪtʃəʊk] *n bot.* artishok (*o'tsimon poliz o'simligi*)
article [ˈɑːtɪk(ə)l] *n* 1) maqola; **a leading ~** bosh maqola; 2) paragraf; 3) *gram.* artikl; 4) lahza; **in the ~ of death** *kit.* o'lim to'shagida, o'layotgan paytda; 5) din aqidalari, **the ~s of Faith** 1) din aqidalari, qandaydir dinning asosiy qoidalari; 2) *din.* a) xristian dini aqidalarining qisqacha bayoni; b) diniy aqida, katolik dini aqidalari; 3) aqida, maslak, e'tiqod; **the Thirty-nine Articles** anglikan (*protestant dinining Angliyada ustun bo'lgan turi*) cherkovining 39 din aqidalari; **the ~s of war** *harb.* sud (qonunlar majmuyi) kodeksi (*quruqlikdagi qo'shinlarda*); **a genuine ~** 1) qalbaki (yasama, soxta) bo'lmagan toza (asl, sof, chin, haqiqiy) narsa; kimningdir haqiqiy (chinakam, rostakam) o'zi, o'zini boshqa kishi (o'rnida) qilib ko'rsatmagan; 2) vijdonli (halol, insofli) odam; **in the ~ of ...** *kam.* biror kimsa (narsa) haqida (to'g'risida); biror kimsa yoki narsaga nisbatan; ... ga kelsak, ...ga kelganda; ...ning haqida
articular [ɑːˈtɪkjʊlə] *n anat.* bo'g'imga oid
articulate [ɑːˈtɪkjʊlɪt] **1.** *a* 1) burro; 2) aniq; **2.** *v* (burro) talaffuz qilmoq
articulated harrow [ɑːˈtɪkjʊleɪtɪd ˈhærəʊ] *n q.x.* bo'g'imlardan iborat bo'lgan sixmola (borona)
articulation [ɑːˌtɪkjʊ ˈleɪʃ(ə)n] *n fon.* artikulatsiya (*talaffuzda, so'zlashda nutq organlarining holati, harakati, ishi*)
articulator [ɑːˈtɪkjʊleɪtə] *n maxs.* preparatchi, preparator (*preparat yoki dori tayyorlovchi mutaxassis*)
artifice [ˈɑːtɪfɪs] *n* 1) uydirma; 2) ayyorlik
artificer [ɑːˈtɪfɪsə] *n* hunarmand
artificial [ˌɑːtɪˈfɪʃ(ə)l] *a* sun'iy, yasama
artificiality [ˌɑːtɪfɪʃɪˈælɪtɪ] *n* 1) sun'iylik, yasamalik, g'ayritabiiylik; 2) g'ayritabiiy bo'lgan qandaydir narsa
artificialness [ˌɑːtɪ ˈfɪʃ(ə)lnəs] = **artificiality**
artificials [ˌɑːtɪ ˈfɪʃ(ə)lz] *n pl* 1) *amer.* sun'iy gullar; 2) sun'iy o'g'itlar
artillerist [ɑːˈtɪl(ə)rɪst] *n* to'pchi
artillery [ɑːˈtɪl(ə)rɪ] *n* artilleriya (*to'p va zambarak kabi qurollar*)
artilleryman [ɑːˈtɪl(ə)rɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) artilleriyachi, to'pchi
artiodactyl [ˌɑːtɪə(ʊ) ˈdæktɪl] *n zool.* **1.** *n* juftuyoqlilar, qo'shuyoq; **2.** *a* juftuyoqlilar (qo'shtuyoqlilar)ga oid, juftuyoqlilar..., qo'shtuyoqlilar...
artisan [ˌɑːtɪˈzæn] *n* 1) hunarmand; 2) usta
artist [ˈɑːtɪst] *n* 1) musavvir, rassom; 2) artist; **a burn-cork ~** *amer. jarg.* negrcha qo'shiqlarni ijro etuvchi, grimlab o'zini negrga o'xshatib ko'rsatgan kishi; 3) o'z ishining ustasi
artiste [ɑː ˈtɪst] *n* estrada artisti
artistic [ɑːˈtɪstɪk] *a* 1) artistlarga oid, artistlarga xos bo'lgan, artistlarcha; 2) katta mahorat (ustalik) bilan qilingan; mohirona, san'atkorona; 3) badiiy
artistical [ɑːˈtɪstɪk(ə)l] *a* mohir, usta, san'atni sevuvchi
artistically [ɑːˈtɪstɪk(ə)lɪ] *adv* 1) artistlarga xos bo'lgan tarzda, artistlarcha; 2) *ko'ch.* katta mahorat (ustalik) bilan, mohirlik bilan, mohirona, san'atkorona; 3) san'at nuqtayi nazaridan
artistry [ˈɑːtɪstrɪ] *n* san'atkor tajribasi, artistlik qobiliyati
artless [ˈɑːtləs] *n* oddiy
artlessly [ˈɑːtləslɪ] *n* sodda, hiyla ishlatmay
arty [ˈɑːtɪ] *a so'zl.* badiiylikka da'vo qilingan; **~ and crafty** (*shun.*, **arty-and-crafty**) oddiy (sodda) emas, jimjimador, bejamdor, serhasham (*asos., mebel haqida*)
arty-and-crafty [ˌɑːtɪənd ˈkrɑːftɪ] *a* serhasham, bejamdor, jimjimador, balandparvoz, oddiy (sodda) emas
arundinaceous [əˌrʌndɪ ˈneɪʃəs] *a bot.* qamishga o'xshagan, qamish shaklidagi, qamishsimon
aryl [ˈærɪl] *n kim.* aril (*aromatik uglerodlarning 1 valentli qoldiqlari (radikallari) nomi*)
as [æz] **1.** *cj.* bilanoq; **~ for** (*shun.*, **~ to**) ...ga qolsa, ...ga kelganda, ...ga kelsak; ...ning haqida; **~ if** (*shun.*, **~ though**) xuddi, go'yoki, go'yo ..., -dek, xuddi... -dek, -ga o'xshaydi; **~ it is** (*yoki* **was**) 1) usiz ham, buning ustiga; 2) sharoit og'ir bo'lib qolgan paytda, bu holatda,

bu sharoitda; ~ **it were** agar aytish joiz bo'lsa, go'yo; o'ziga xos; ~ **you were!** *harb.* bekor! boshqatdan! (og'zaki buyruq); ~ **usual** odatdagidek; ~ **much** ~ qancha ... bo'lsa, shuncha ...; **2.** *adv* sifatida; **to work ~ a doctor** shifokor bo'lib ishlamoq

asafoetida [ˌæsəˊfetɪdə] *n* asafetida (*tibbiyotda ishlatiladigan smola o'simligi*)

a-sale [əˊseɪl] *adv maxs.* sotuvda, sotuvga qo'yilgan

as... as [æz... æz] *cj.* ...dek

asbestine [æsˊbestɪn] *a* asbestga oid

asbestos [æzˊbestəs] *n min.* asbest (*egiluvchan va ingichka tolalarga ajralish xususiyatiga ega bo'lgan tolasimon minerallar nomi*)

asbestosis [ˌæzbeˊstəʊsɪs] *n tib.* asbestoz (*o'pka kasalligi*)

ascarides [əsˊkærɪdi:z] *n pl zool.* askaridalar, yumaloq gijjalar

ascend [əˊsend] *v* ko'tarilmoq

ascendancy [əˊsendənsɪ] *n* hokimiyat, hukumat

ascendant [əˊsendənt] *a* ko'tarilayotgan

ascendency [əˊsendənsɪ] *n* hukmron hisoblangan hokimiyat

ascendent [əˊsendənt] *a* yuqoriga yo'nalgan

ascending [əˊsendɪŋ] *a* ko'tarilayotgan, o'sib borayotgan

ascension [əˊsenʃ(ə)n] *n* ko'tarilish

ascensional [əˊsenʃ(ə)nəl] *a* yuqoriga yo'nalgan

Ascension-day [əˊsenʃ(ə)ndeɪ] *n din.* me'roj (*Isoning arshi a'loga ko'tarilishi va xristianlarning shunga bag'ishlangan bayrami*)

ascent [əˊsent] *n* ko'tarilish

ascertain [ˌæsəˊteɪn] *v* ishonch hosil qilmoq

ascertainment [ˌæsəˊteɪnmənt] *n* aniqlash; oydinlashtirish

ascetic [əˊsetɪk] **1.** *n* tarki dunyo qilgan kishi (zohid); **2.** *a* o'zini tiygan

asceticism [əˊsetɪsɪz(ə)m] *n* zohidlik

ascidia [əˊsɪdɪə] *pl of* **ascidium**

ascidium [əˊsɪdɪəm] *n* (*pl* **-dia** [-dɪə]) *zool.* assidiyalar (*pardalilar kenja tipiga mansub dengiz xordali hayvonlarning sinfi*)

ascigerous [əˊsɪdʒərəs] *a bot.* xaltali, qopchiqli (*mas., zamburug'lar*)

ascites [əˊsaɪti:z] *n tib.* assit (*qorin bo'shlig'ida tiniq rangsiz yoki och sariq suyuqlik yig'ilishi*)

ascomycetes [ˌæskəˊmaɪsi:ti:z] *n pl bot.* qopchiqli zamburug'lar

ascorbic acid [əˌskɔ:bɪk ˊæsɪd] *farm., kim.* askorbin kislotasi

Ascot [ˊæskət] *n* Eskot (*poyga uyushtiriladigan joy*)

ascribe [əˊskraɪb] *v* (*kimgadir*) nisbat bermoq

ascription [əˊskrɪpʃ(ə)n] *v* nisbat berish

a-sea [əˊsi:] *adv* 1) dengizda; 2) dengizga qarab

aseismatic [ˌeɪsaɪzˊmætɪk] *a geol.* aseysmik (*yer qimirlashidan ozod bo'lgan, zilzila bo'lmaydigan*)

aseismic [əˊsaɪzmɪk] *a qur.* antiseysmik (*zilzilaga qarshi*)

asepsis [eɪˊsepsɪs] *n* aseptika (*jarrohlik vaqtida, shuningdek, yaralarni davolashda infeksiyadan saqlash uchun qo'llaniladigan usul va choralar*)

aseptic [eɪˊseptɪk] **1.** *n* aseptik dori-darmonlar; **2.** *a* aseptik, zararsizlantirilgan

asexual [eɪˊseksjʊəl, eɪˊsekʃʊəl] *a* erkak *yoki* urg'ochilik alomati bo'lmagan, jinssiz

ash [æʃ] **1.** *n bot.* shutmol; **2.** *n* kul; **to rake over old ~es** eski ishlarni eslamoq (eslatmoq); eski gapni (ishni) kovlamoq; **to rise from one's** (*yoki* **the**) **~es** vayrongarchilikdan qayta tiklanmoq, yangilanmoq, tiklanmoq, yangiday bo'lmoq, yangi tusga (qiyofaga) kirmoq, butunlay o'zgarmoq; **3.** *v* kul sepmoq

a-shake [əˊʃeɪk] *adv kam.* zirillab, dirillab, titrab, qaltirab, tebranib, larzaga kelib, qaltiroq bosib, tebranib

ashame [əˊʃeɪm] *v kam.* 1) uyaltirmoq, izza qilmoq; 2) sharmanda qilmoq, uyaltirmoq, qizartirmoq, xijolatda qoldirmoq, izza qilib qo'ymoq; 3) uyatga qoldirmoq, isnod keltirmoq, rasvo qilmoq, badnom qilmoq

ashamed [əˊʃeɪmd] *a* uyalgan, uyaltirilgan; **to be ~ (of)** uyalmoq; **to be (to feel) ~ of oneself** o'z qilmishidan uyalib qolmoq

ashberry [ˊæʃberɪ] *n* ryabina, chetan (*daraxti va mevasi*)

ash-bin [ˊæʃˌbɪn] *n* axlat tashlaydigan idish

ash-box [ˊæʃbɒks] *n tex.* kulxona; kuldon

ash-cake [ˊæʃkeɪk] *n amer.* kulda (tandirda) yopilgan non

ash-can [ˊæʃkæn] *n amer.* axlat tashlaydigan idish

ashen [ˊæʃ(ə)n] *a* kulrang

ashery [ˊæʃərɪ] *n tex.* kulxona, kuldon

ash-heap [ˊæʃhi:p] *n metal.* shlak ag'dargich (*plug tishining tuproqni ag'daruvchi qismi*)

a-shine [əˊʃaɪn] *adv kit.* nur sochib, yarqirab, chaqnab

a-shipboard [əˊʃɪpbɔ:d] *adv kam.* paroxod bortida

a-shiver [əˊʃɪvə] *adv* zirillab, titrab, qimirlab ketib, larzaga kelib, qaltirab, seskanib, iztirobga (larzaga) kelib

ash-key [ˊæʃki:] *n bot.* qanotli urug'

ashlar [ˊæʃlə] *n qur.* yo'nilgan (tarashlangan) tosh

ashling [ˊæʃlɪŋ] *n* shumtolning yosh daraxti (ko'chati)

ashman [ˊæʃmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) axlat (supurindi)larni yig'ishtirib yuradigan kishi

ashore [əˊʃɔ:] *adv* sohilga, qirg'oqqa

ash-pan [ˊæʃpæn] *n* kulxona; kuldon

ash-pit [ˊæʃpɪt] *n* kuldon; kulxona

ash-pot [ˊæʃpot] *n* kuldon, kul soladigan idish

ash-stand [ˊæʃstænd] *n* kuldon

ash-tray [ˊæʃtreɪ] *n* kuldon

ashy [ˊæʃɪ] *a* kulga oid

Asia [ˊeɪʃə] *n* Osiyo

Asian [ˊeɪʃ(ə)n] **1.** *n* Osiyolik kishi (*yoki* ayol); **2.** *a* Osiyo qit'asi va osiyoliklarga oid

Asiatic [ˌeɪʃɪˊætɪk] *n* Osiyo qit'asi va osiyoliklarga oid

aside [əˊsaɪd] *adv* 1) tomoniga; 2) bir chetga; **to speak ~** sekin gapirmoq

asiderate [əˊsɪdər(a)ɪt] *n* asiderit (*temirsiz tosh meteorit*)

as if [əzˊɪf] *phr. cj.* xuddi, -dek, go'yo...

a-simmer [əˊsɪmə] *adv kit.* qaynab, qaynab ketib, qaynab turib

asinine [ˊæsɪnaɪn] *a* 1) eshakka oid; 2) tentak

ask [ɑ:sk] *v* 1) so'ramoq; **to ~ for it** *so'zl.* o'ziga-o'zi ko'ngilsizlikni sotib olmoq, o'ziga-o'zi boshiga balo orttirmoq, o'ziga-o'zi ko'ngilsizlik orttirmoq = o'zini-o'zi baloga qo'ymoq, o'zini o'tga urmoq; **if you ~ me** *so'zl.* agar mening fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz; mening fikrimcha; ~ **the way** yo'lni so'ramoq; **to ~ a question** savol bermoq; **to ~ for** nimadir so'ramoq; nimanidir iltimos qilmoq; 2) iltimos qilmoq

askance [əˊskæns] *adv* 1) qiyshiq, qiyalatib; 2) gumon bilan, shubhali tarzda

askant [əˊskænt] = **askance**

askew [əˊskju:] *adv* 1) qiyshiq; 2) qiyalatib

asking [ˊɑ:skɪŋ] *n* 1) savol bilan murojaat qilish, so'rash; **for the ~** so'rasa (bir og'iz aytsa) bo'ldi (bas, kifoya), faqat xohlasa kifoya; 2) *so'zl.* bildirish, e'lon qilish, o'qib eshittirish (*cherkovda*)

aslant [əˊslɑ:nt] *adv* 1) qiyalatib; 2) *prep.* ko'ndalang

asleep [əˊsli:p] *a predic.* uyqudagi, uxlayotgan; **to be ~** uxlamoq; **to fall ~** uyquga ketmoq; **to be fast ~** qattiq uxlamoq

aslope [ə´sləup] *adv* qiyalatib; ko'ndalangiga
a-smear [ə´smɪə] *adv kit.* dog' tushirib, bulg'ab, kir (iflos) qilib
a-smoke [ə´sməuk] *adv* tutunda
a-snort [ə´snɔ:t] *adv kit.* pishqirib, xirillab, harsillab
asocial [ə´səuʃ(ə)l] *a* jamoatchilikka oid bo'lmagan; jamiyat huquqini buzadigan
asomatous [ə ´səomətəs] *a* jismsiz, tanasiz, gavdasiz
a-south [ə´saoθ] *adv kam.* janubda
asp [æsp] **1.** *n bot.* tog'terak (*ansol*); **2.** *n zool.* qora ilon
asparagus [ə´spærəgəs] *n bot.* sarsabil (*ko'p yillik sabzavot o'simligi*)
a-sparkle [ə´spɑ:k(ə)l] *adv* yarqirab, chaqnab, yarqirab (chaqnab) turib, porlab
aspect [´æspəkt] *n* 1) ko'rinish; 2) nuqtayi nazar
aspectual [æ´spektʃʊəl] *a gram.* turga oid, tur...
aspen [´æspən] **1.** *n bot.* tog'terak (*ansol*); **2.** *a* tog'terakka oid
asperges [æs´pɜ:dʒi:z] *n cherk.* 1) cherkovda turli marosimlarda muqaddas suv sepish; 2) muqaddas suv sepilayotganda kuylanadigan madhiya
asperity [æ´sperɪtɪ] *n* 1) notekis (g'adir-budur, past-baland) joy, notekislik, g'adir-budurlik, past-balandlik; 2) qo'pollik, qo'rslik (*xarakter haqida*)
aspermia [ə´spɜ:mɪə] *n biol., tib.* aspermiya (*spermatozoid urug'larida hujayra elementlarining mavjud emasligi*)
asperse [ə´spɜ:s] *v* sharmanda qilmoq
aspersion [ə´spɜ:ʃ(ə)n] *n* tuhmat, bo'hton; g'iybat; yolg'on-yashiq, uydirma; **to cast ~s on smb.** (*yoki* **smth.**) kimningdir (*yoki* nimaningdir) ustidan tuhmat (bo'hton, g'iybat) qilmoq; biror kishi (yoki narsa)ni badnom qilish (qoralash, yomonlash)ga harakat qilmoq
aspersorium [ˌæspə´sɔ:rɪəm] *n cherk.* cherkovda muqaddas suv solinadigan idish
asphalt [´æsfælt] **1.** *n* asfalt; **2.** *v* asfalt qilmoq
asphaltic [´æsfæltɪk] *a* asfaltga oid; asfaltli; asfalt...; asfaltlangan
asphyxia [æs´fɪksɪə] *n tib.* bo'g'ilish
asphyxiant [æs´fɪksɪənt] *n* zaharlovchi, zaharli
asphyxiate [æs´fɪksɪeɪt] *v* bo'g'moq
asphyxiator [æs´fɪksɪeɪtə] *n* (*karbonat kislotali*) o'to'chirgich
asphyxy [æs´fɪksɪ] = **asphyxia**
aspic [´æspɪk] *n* ustiga sardak solingan ovqat
aspidistra [ˌæspɪ´dɪstrə] *n bot.* Osiyo marvarid guli
aspidium [æ´spɪdɪəm] *n bot.* qirqquloq
aspirant [ə´spaɪ(ə)rənt] *n* 1) shuhratparast; 2) da'vogar
aspirate [´æspɪreɪt] **1.** *n* nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadigan tovush; **2.** *v fon.* nafas chiqarish bilan talaffuz qilmoq
aspiration [ˌæspɪ´reɪʃ(ə)n] *n* 1) (**to**) intilish, kuchli orzu, niyat, ishtiyoq, zo'r istak (*nimanidir qo'lga kiritish uchun*); 2) *fon.* nafas tovushi
aspirator [´æspəreɪtə] *n* so'rib oluvchi qurilma
aspire [ə´spaɪə] *v* intilmoq
aspirin [´æsprɪn] *n* aspirin (*isitma dori*)
aspiring [ə´spaɪ(ə)rɪŋ] **1.** *n* zo'r ishtiyoq; **2.** *a* shuhratparast, izzattalab, mulozamatni yaxshi ko'radigan
asportation [ˌæspɔ:´teɪʃ(ə)n] *n yur.* o'zlashtirib olish maqsadida birovning mulkini noqonuniy ravishda olib ketmoq
a-spout [ə´spaʊt] *adv kam.* jildirab (tizillab) oqib, qattiq (jo'shqin, shiddatli) oqib turganga o'xshab; **fountains ~** shildirab oqib turgan favvoralar
a-sprawl [ə´sprɔ:l] *adv kam.* 1) cho'zib, cho'zib-kengaytirib, katta qilib; 2) yoyib, yozib, yoyib (yozib) qo'yib; **he threw himself all ~ on the ground** u polning ustiga cho'zilib yotib oldi
a-spread [ə´spred] *adv kam.* 1) yoyib, yozib, katta ochib; 2) katta (keng) ochgan holatda
a-squat [ə´skwɒt] *adv kam.* oyoqlarini yig'ishtirib o'tirgan holatda, oyoqlarini yig'ishtirib (o'tirib), chordana qurib (o'tirib)
asquint [ə´skwɪnt] *adv* 1) qiyalab, qiyalatib, qiyamasiga, qiyshiq, qing'ir; (*asosan,* **look** *fe'li bilan ishlatiladi*); **to look ~** ko'z qiri bilan qaramoq; 2) *ko'ch.* yomon ko'z bilan, dushmanlik hissi bilan, ko'z olaytirib, olayib, qing'ir; **to look ~** *ko'ch.* birovga yomon ko'z bilan qaramoq, birovga ko'z olaytirmoq
ass [æs] *n* eshak; **to act** (*yoki* **to play**) **the ~** ahmoqlik (tentaklik, jinnilik, maynabozchilik) qilmoq, o'zini ahmoqlarcha (tentaklarcha, jinnilarcha) tutmoq; **an ~ between two bundles** (*yoki* **bottles**) **of hay** (*shun.,* **Buridan's ~**) Buridan eshagi (*qaysi birini tanlashni bilmasdan bir qarorga kela olmaydigan kishi haqida*); **all ~es wag their ears** *maq.* (eshaklarning hammasi qulog'ini ding qilar), ahmoqlar tushunmaydigan (fahmi yetmaydigan) narsalar haqida bahslashishni yoqtiradilar; **~es as well as pitchers have ears** *maq.* ahmoqlar va bolalar so'zlovchi o'ylaganga qaraganda juda ko'p tushunadilar; **an ~ in a lion's skin** tovus patiga kirgan qarg'a (*o'zini katta qilib ko'rsatishga urinuvchi odam haqida*) (*so'zl.* sher terisidagi eshak); **an ~ with two panniers** *hazil.* „ikki savatli (kajavali) eshak", ikki ayol bilan qo'l ushlashib borayotgan erkak; **Balaam's ~** Valaam jodugarning eshagi tilga kirdi, og'zi yo'q, tili yo'q, kamgap, indamas, qo'ydan yuvosh odam birdan gap qaytarib qoldi; **never bray at an ~** *maq.* ahmoq bilan aloqa qilma; ahmoq bilan teng kelib (bahslashib) o'tirma
assagai [´æsəgaɪ] *n* nayza (*Afrika qabilalarida*)
assail [ə´seɪl] *v* hujum qilmoq
assailable [ə´seɪləb(ə)l] *a* hujum qilish uchun ochiq
assailant [ə´seɪlənt] *n* 1) raqib; 2) hujum qiluvchi tomon
assart [ə´sɑ:t] **1.** *n* 1) daraxt va butalarni ildizi bilan sug'urib (kovlab) tashlash; 2) daraxtlarini ildizi bilan sug'urib tashlangan, shudgor qilib qo'yilgan o'rmon yer maydoni; **2.** *v* daraxt va butalarni ildizi bilan sug'urib tashlamoq; o'rmon yer maydonini shudgor qilib qo'ymoq
assassin [ə´sæsɪn] *n* 1) terrorchi; 2) (*yollanma*) qotil; **character ~** *amer. siyos.* badniyat (niyati buzuq), bo'htonchi (tuhmatchi, g'iybatchi)
assassinate [ə´sæsɪneɪt] *a* (*xiyonatkorona*) o'ldirmoq
assassination [əˌsæsɪ´neɪʃ(ə)n] *n* (*xiyonatkorona*) o'ldirish
assassinator [ə´sæsɪneɪtə] *n* 1) terrorchi; 2) (*yollamna*) qotil
assault [ə´sɔ:lt] *n* (*qurolli*) hujum; hamla; **~ and battery** *yur.* harakat (xatti-harakat, kirdikor) orqali qilingan haqorat
assaulter [ə´sɔ:ltə] *n* hujumchi
assay [ə´seɪ] **1.** *n* sinov; **2.** *v* sinab ko'rmoq
assayer [ə´seɪə] *n* kimyo laboratoriyasining ilmiy *yoki* texnik xodimi (laboranti)
assaying [ə´seɪɪŋ] *n* sinab ko'rish; ruda tarkibidagi metallni aniqlash
assay-master [ə´seɪˌmɑ:stə] *n* laboratoriya mashg'ulotlarini olib boruvchi professor *yoki* o'qituvchi
assemblage [ə´semblɪdʒ] *n* majlis
assemble [ə´semb(ə)l] *v* 1) chaqirmoq; 2) jamlamoq, yig'moq
assembling [ə´semblɪŋ] *n* yig'ish, qo'yish, o'rnatish, qurish, o'tkazish
assembly [ə´semblɪ] *n* majlis, yig'ilish
assemblyman [ə´semblɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *amer.* mahalliy qonun chiqaruvchi organ a'zosi

assembly-room [ə´sembli,ru:m] *n* (*konsert, majlis va b. uchun*) zal
assent [ə´sent] *n* 1) rozilik; 2) ruxsat
assentaneous [,æsən´teiniəs] *a* hamma narsaga rozi bo'ladigan, hamma bilan kelisha oladigan, odobli
assentation [,æsen´teiʃ(ə)n] *n* xushomadgo'ylik
assenter [ə´sentə] = **assentor**
assentor [ə´sentɔ:] *n* ko'rsatilgan nomzodni qo'llab-quvvatlaydigan saylovchi
assert [ə´sə:t] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) isbot qilmoq
assertion [ə´sə:ʃ(ə)n] *n* tasdiqlash
assertive [ə´sə:tiv] *a* tasdiqlaydigan
assertor [ə´sə:tə] *n* himoyachi, himoya (mudofaa) qiluvchi, yoqlovchi, tarafdor
assess [ə´ses] *v* soliq (*yoki jarima summasi*)ni aniqlamoq
assessable [ə´sesəb(ə)l] *a* soliq solinishi lozim bo'lgan
assessment [ə´sesmənt] *n* soliq solish
assesseur [,ɑ:se´sə:] *n fr.* yon(dagi) hakam (*qilichbozlikda*)
assessor [ə´sesə] *n yur.* 1) sudyaning huquqiy maslahatchisi; 2) sud, komissiya va b. qoshidagi ekspert, maslahatchi
asset [´æsət] *n pl yur.* qarz hisobiga berilishi mumkin bo'lgan mol-mulk, meros
asseverate [ə´sevəreit] *v* tantanali e'lon qilmoq
asseveration [ə,sevə´reiʃ(ə)n] *n* tantanali e'lon qilish
ass-head [´æshed] *n* befarosat, befahm, esi past, ahmoq, tentak, nodon kishi
ass-headed [,æs´hedid] *a* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm, ahmoq, tentak, befarosat, befahm, ahmoqona, bema'ni
assiduity [,æsi´dju:iti] *n* 1) tirishish, g'ayrat qilish: qunt, g'ayrat, hafsala, ishtiyoq, tirishqoqlik; 2) *pl* xushtorlik qilish, xotin-qizlarga mulozamat qilish, ko'nglini olish
assiduous [ə´sidjuəs] *a* qunt bilan ishlaydigan
assidiousness [ə´sidjuəsnəs] *n* harakat qilish
assign [ə´sain] *v* tayinlamoq; belgilamoq
assignat [,æsin´jɑ:] *n fr. tar.* assignatsiya (*Fransiya inqilobi davrida chiqarilgan qog'oz pul*)
assignation [,æsig´neiʃ(ə)n] *n* tayinlash
assignee [,æsi´ni:] *n* vakil
assignment [ə´sainmənt] *n* tayinlash; **~ to a position** lavozimga tayinlash
assignor [ə´sainə] *n yur.* kimgadir huquq *yoki* mulkni beradigan kishi
assimilate [ə´simileit] *v* 1) o'xshatmoq; 2) taqqoslamoq
assimilation [ə,simi´leiʃ(ə)n] *n* o'xshatish
assimilationism [ə,simi´leiʃ(ə)nizm] *n* zo'rlik bilan (majburan) birlashtirish siyosati
assimilative [ə´similətiv] *a* assimilatsiyaga oid; assimilatsiya bilan bog'liq bo'lgan; **~ coloration** *biol.* mimikriya (*ba'zi hayvon va o'simliklarning o'z muhitidan ajratib bo'lmaydigan shakli va tusi*)
assise [æ´si:z] *n geol.* 1) svita (*tog' jinslari tizmasi*); 2) qatlam, yer qatlami (*geologik asr ichida yig'ilgan tog' jinslari qatlami*)
assish [´æsiʃ] *a kam.* tentaknamo, ahmoqroq
assist [ə´sist] *v* yordam bermoq
assistance [ə´sist(ə)ns] *n* yordam, yordam berish
assistant [ə´sist(ə)nt] *n* yordamchi, ko'makchi
assistless [ə´sistləs] *a shoir.* qo'lidan hech narsa kelmaydigan, o'zini eplay olmaydigan, ojiz, nochor, notavon
assize [ə´saiz] *n* ishning sudda ko'rilishi
assizer, assizor [ə´saizə] *n shotl. esk.* sud maslahatchisi (*burjua sudida*)
associable [ə´səuʃ(i)əb(ə)l] *a* assotsiatsiya (uyushma) orqali fikran bog'lanadigan (maslahatlashadigan)
associate [ə´səuʃiit] *n* kasbdosh; hamkasb
associated [ə´səuʃieitid] *a* birlashgan
association [ə,səusi´eiʃ(ə)n] *n* 1) qo'shilish; 2) birlashma
associative [ə´səuʃiətiv] *n* assotsiativ; **~ activity** assotsiativ faoliyat
assoil [ə´sɔil] *v esk.* 1) *cherk.* gunohlarini kechirmoq; 2) himoya qilmoq, oqlamoq (*sud orqali*)
assonance [´æsənəns] *n* ohangdoshlik
assonant [´æsəunənt] *a* ohangdosh
assort [ə´sɔ:t] *a* tanlamoq, (*navlarga*) ajratmoq
assorted [ə´sɔ:tid] *a* navlarga ajratilgan
assorting cylinder [ə´sɔ:tiŋ´silində] *n q.x.* navlarga (turlarga) ajratadigan baraban
assorting engine [ə,sɔ:tiŋ ´endʒin] *n q.x.* navlarga (xillarga) ajratadigan mashina
assortment [ə´sɔ:tmənt] *n* navlarga ajratish
assuage [ə´sweidʒ] *v* taskin bermoq
assuagement [ə´sweidʒmənt] *n* taskin berish
assuasive [ə´sweisiv] *a* tinchlantiruvchi, yumshatadigan
assume [ə´sju:m] *v* o'z zimmasiga olmoq (*javobgarlik, boshqarish va b. ni*)
assumed [ə´sju:md] *a* to'qilgan, uydirma
assuming [ə´sju:miŋ] *a* dimog'dor
assumpsit [ə´sʌmpsit] *n yur.* yozib muhr bilan tasdiqlanmagan og'zaki majburiyat
assumption [ə´sʌmpʃ(ə)n] *n* zimmasiga olish
assumptive [ə´sʌmptiv] *a* taxminiy
assurance [ə´ʃu(ə)rəns] *n* kafolat, kafillik, garov; ta'min etish, ishonch; **to make – double** (*yoki* **doubly**) **sure** o'zini ikki hissa ortiq qilib sug'urta qilmoq (*ko'proq ishonchli bo'lishi uchun*)
assure [ə´ʃuə] *v* 1) ishontirmoq; 2) kafolat bermoq; 3) sug'urta qilmoq
assured [ə´ʃuəd] *a* ishonchli
assuredly [ə´ʃuədli] *adv* 1) albatta; 2) shubhasiz
assuredness [ə´ʃuədnəs] *n* o'ziga ishonish
assurer [ə´ʃu(ə)rə] *n* sug'urtachi
assurgent [ə´sə:dʒənt] *a* 1) yuqoriga chiqadigan, yuqori ko'tariladigan; 2) *bot.* chirmashadigan (*chirmashuvchi o'simliklarning poyasi haqida*)
assuror [ə´ʃu(ə)r(ə)] *n* sug'urta qiluvchi shaxs (*yoki* tashkilot)
Assyrian [ə´siriən] **1.** *n* 1) aysor, osuriy; aysor (osuriy) ayol; 2) aysor (osuriy) erkak; 3) aysor tili; **2.** *a* aysorlarga, osuriylarga oid, aysor...
Assyriology [ə,siri´ɔlədʒi] *n* assiriologiya
a-starboard [ə´stɑ:bɔ:d] *adv deng.* kema sahnasining o'ng tomonida (o'ng bortda)
astart [ə´stɑ:t] *adv* to'satdan, qo'qqisdan, birdan, bexosdan, benagoh, nogahon
astatic [ə´stætik] *a fiz.* astatik; **an ~ coil** *radio.* astatik katushka; **an ~ needle** astatik magnit mili (strelkasi)
asteism [´æstiiz(ə)m] *n ritor.* (*yengil*) og'ir botmaydigan qilib aytilgan piching
aster [´æstə] *n bot.* qo'qongul
asteriated [æ´stiə)rieitid] *a* nurli, shu'lali, nur sochib turadigan; nurafshon, yorqin, yorug'
asterisk [´æst(ə)risk] **1.** *n* yulduzcha (*belgi*); **2.** *v bosm.* yulduzcha belgisini qo'ymoq
asterism [´æst(ə)riz(ə)m] *n astr.* yulduzlar turkumi, burj
astern [ə´stə:n] *adv deng.* orqada
asteroid [´æstərɔid] **1.** *n astr.* kichik sayyora; **2.** *a zool.* dengiz yulduzi
asthenia [æs´θi:niə] *n tib.* darmonsizlik

asthenic, asthenical [æs'θenɪk, -(ə)l] *a tib.* asteniklarga oid; asteniklarga xos bo'lgan, astenik; zaif, bedarmon, sust

asthma ['æsmə] *n tib.* astma, ko'ksov

asthmatic [æs'mætɪk] **1.** *a* ko'ksov kasaliga oid; **2.** *n* ko'ksov kasaliga yo'liqqan odam

as though [æz'ðəʊ] = **as if**

astigmatic [ˌæstɪg'mætɪk] *a tib., opt.* astigmatizmga oid, astigmatik

astigmatism [ə'tɪgmətɪz(ə)m] *n tib.* astigmatizm (*optik shisha va ko'z nuqsonlaridan biri – aksning chaplashib, xiralashib ko'rinishi*)

astigmatizer [ə'stɪgmətaɪzə] *n opt.* astigmatizator, masofa o'lchagich

astillen [ə'stɪln] *n tog'.* ko'tarma, suvto'sgich (*vaqtincha suvni to'sib turish uchun yasalgan g'ov, to'siq, to'g'on*)

astir [ə'stɜ:] **1.** *a predic.* harakatdagi; **2.** *adv* harakatda, harakatdagi

astonied [ə'stənɪd] *a esk.* xijolatda qolgan, xijolat tortgan, uyalib qolgan, xijolatdagi; xijil

astonish [ə'stɒnɪʃ] *v* hayron qoldirmoq

astonishing [ə'stɒnɪʃɪŋ] *a* **1)** ajoyib; **2)** g'aroyib

astonishment [ə'stɒnɪʃmənt] *n* hayron qolish

astoop [ə'stu:p] *adv kit.* egilib, engashib, egilgan (engashgan) holatda

astound [ə'staʊnd] *v* lol (qoyil) qoldirmoq

astounding [ə'staʊndɪŋ] *a* hayratda qoldiradigan

astraddle [ə'strædl] *adv predic.* oyoqlar orasini keng ochib

Astraea [æ'stri:ə] *n yun. afs.* Astreya (*Zevs va Femidlarning qizi; adolat xudosi*)

astragal ['æstrəg(ə)l] *n me'mor.* astragal, ustun atrofidagi gardish

astragali [æ'strægəlaɪ] *pl of* **astragalus**

astragalomancy [æ'strægələˌmænsɪ] *n* oshiq bilan fol (rom) ochish (fol ko'rish)

astragalus [æ'strægələs] *n* (*pl* **-li** [-laɪ]) **1)** *anat.* to'piq suyagi; **2)** *bot.* astragal (*dukkakli o'simlik*)

astral ['æstrəl] *a* yulduzga oid

a-strand [ə'strænd] *adv kit.* qirg'oqda, sohilda; **a boat washed ~** qirg'oqqa tashlangan (tashlab yuborilgan) qayiq

astray [ə'streɪ] *adv* egri, noto'g'ri yo'lga; **to go ~** adashmoq

Astrea [æ'stri:ə] = **Astraea**

astrict [ə'strɪkt] *v* **1)** cheklamoq, chegaralamoq, chegara bo'lib xizmat qilmoq (**to**); **2)** *kam.* qattiq (siqib, tortib) bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; **3)** ich qotishga sabab bo'lmoq (majbur qilmoq)

astriction [ə'strɪkʃ(ə)n] *n* **1)** (*bog'laydigan narsalar bilan*) qattiq (siqib, tortib) bog'lash, bog'lab qo'yish; **2)** *tib.* ich qotish, qabziyat

astride [ə'straɪd] **1.** *adv* otda, ot minib; **2.** *prep.* (*biror narsaga*) minib

astringe [ə'strɪn(d)ʒ] *v kam.* **1)** qattiq (siqib, tortib) bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; **2)** siqmoq, qismoq; siqib qo'ymoq; qisib olmoq

astringency [ə'strɪndʒənsɪ] *n* biriktiradigan (bog'lovchi) narsa; **2)** taxirlik, nordonlik, achchiqlik; **3)** qattiqlik, og'irlik; qattiqqo'llik, talabchanlik

astringent [ə'strɪndʒənt] *a* tish qamashtiradigan

astrionics [ˌæstrɪ'ɒnɪks] *n* astrionika (*kosmik elektronika; kosmik radioelektronik asbob-uskuna*)

astro- ['æstrə(ʊ)-] *murakkab (termin) so'zlarning komponenti bo'lib, o'zbek tilida:* „astro" *deb beriladi va bu bilan kelgan so'zlar osmon jismlari, kosmik fazoga oidligini ifodalaydi* (*mas.,* **astrology** *astrologiya*)

astrodome ['æstrədəʊm] *n av.* astronomik kuzatishlar uchun mo'ljallangan minora

astrogate ['æstrəgeɪt] *v maxs.* kosmik kemani boshqarmoq (*masofadan emas, balki qo'l bilan*)

astrogation [ˌæstrə'geɪʃ(ə)n] *n* astronavigatsiya, kosmik navigatsiya

astrogator ['æstrəgeɪtə] *n* astronavt (*ba'zi mamlakatlar mas., AQSHda kosmonavt atamasi o'rnida ishlatiluvchi so'z*), kosmonavt

astrogeography [ˌæstrə(ʊ)dʒɪ'ɒgrəfɪ] *n* astrogeografiya (*geografiya va astrobiologiyaning koinotning turli tabiiy sharoitlarini o'rganuvchi bo'limi*)

astrogeology [ˌæstrə(ʊ)dʒɪ'ɒlədʒɪ] *n* astrogeologiya (*quyosh sistemasidagi boshqa sayyoralarning tuzilishi, tarkibi va tarixini o'rganadigan fan*)

astrognosy [æs'trɒgnəsɪ] *n* astrognoziya (*yulduz turkumlari va ravshan yulduzlarning osmon sferasida joylashishi haqidagi fan*)

astrograph ['æstrəgrɑ:f] *n* astrograf (*osmon obyektlari fotosuratini oladigan teleskop*)

astrohatch ['æstrəhæt[] *n av.* astronomik kuzatishlar olib borish uchun mo'ljallangan qopqoqli tuynuk (lyuk)

astroide [æ'strɔɪd] *n mat.* astroida, egri chiziq (*biror narsaning o'zgarishlarini ko'rsatuvchi grafik tasvir*)

astrolabe ['æstrəleɪb] *n geod.* astrolabiya (*burchak o'lchash asbobi*)

astrolatry [æ'strɒlətrɪ] *n* astrolatriya, yulduzlarga sig'inish

astrolithology [ˌæstrəlɪ'θɒlədʒɪ] *n* astrolitologiya, meteorlar haqidagi fan

astrologer [ə'strɒlədʒə] *n* astrolog (*astrologiya bilan shug'ullanadigan kishi*)

astrologic(al) [ˌæstrə'lɒdʒɪk(əl)] *a* astrologiyaga oid, astrologik

astrology [ə'strɒlədʒɪ] *n* astrologiya, ilmi nujum (*inson taqdiri va tarixiy hodisalar osmon jismlarining vaziyatiga bog'liq deb bilgan va yulduzlarga qarab fol ochish bilan shug'ullangan soxta ta'limot*)

astromancy ['æstrəmænsɪ] *n* **1)** astrologiya; yulduzlarga qarab inson taqdirini aytib berish; **2)** *esk.* astronomiya

astrometry [æ'strɒmɪtrɪ] *n* astronometriya (*astronomiyaning osmon jismlari vaziyatini aniqlash, vaqtni o'lchash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi bo'limi*)

astronaut ['æstrənɔ:t] *n* astronavt (*ba'zi mamlakatlar mas., AQSHda kosmonavt atamasi o'rnida ishlatiluvchi so'z*), kosmonavt

astronautics [ˌæstrə'nɔ:tɪks] *n sing* astronavtika, kosmonavtika (*kosmosda uchish nazariyasi va praktikasi*)

astronomer [ə'strɒnəmə] *n* astronom (*astronomiya olimi, mutaxassisi*)

astronomical [ˌæstrə'nɒmɪk(ə)l] *a* astronomiyaga oid (*astronomik*)

astronomically [ˌæstrə'nɒmɪk(ə)lɪ] *adv* astronomiyaga oid bo'lgan; astronomiya nuqtayi nazaridan

astronomy [ə'strɒnəmɪ] *n* astronomiya (*osmon jismlari va ularning sistemalari, kelib chiqishi, tuzilishi va harakati haqidagi fan*)

astrophotography [ˌæstrə(ʊ)fə'tɒgrəfɪ] *n* astrofotografiya (*astronomiyaning osmon jismlarini fotografik suratga olish yo'li bilan tekshiruvchi bo'limi*)

astrophotometer [ˌæstrəfə'tɒmɪtə] *n* astrofotometr (*osmon jismlaridan kuzatuvchiga yetib kelgan yorug'lik miqdorini o'lchaydigan asbob*)

astrophysical [ˌæstrə(ʊ)'fɪzɪk(ə)l] *a* astrofizikaga oid, astrofizik; astrofizika...

astrophysics [ˌæstrə(ʊ)'fɪzɪks] *n* astrofizika (*astronomiyaning osmon jismlari tuzilishi, ularning fizik holati va kimyoviy tarkibini o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limi*)

astute [ə'stju:t] *a* ayyor, ziyrak

astuteness [ə'stju:tnəs] *n* **1)** makkorlik, ayyorlik, hiylagarlik, mug'ambirlik; makr, hiyla, nayrang; **2)** o'tkirlik, ziyraklik, sezgirlik; farosat, zakovat

asunder [ə'sʌndə] *adv* alohida

a-swarm [ə´swɔ:m] *adv kit.* 1) bir **to'da** bo'lib, yig'ilishib, to'planishib, to'planib; 2) bir uyaga (oilaga) to'planishib
a-sway [ə´sweı] *adv kit.* tebranib, silkinib, qimirlab, likillab
a-swim [ə´swım] *adv maxs.* suvda, suzib yurgan holda (*kema haqida*)
a-swing [ə´swıŋ] *adv kit.* 1) tebranib, silkitib, qimirlatib, likillatib; 2) tebranib, silkinib, qimirlab, likillab
a-swoon [ə´swu:n] *adv* hushidan (o'zidan) ketib, behush bo'lib, hushdan ketib, esi og'ib, es-hushini yo'qotib
asyla [ə´saılə] *pl of* **asylum**
asyllabical [ˌæsı´læbık(ə)l] *a tilsh.* bo'g'inga oid bo'lmagan; bo'g'insiz
asylum [ə´saıləm] *n* (*pl* **asyla**) boshpana, panoh, pana joy
asymmetric(al) [ˌeısı´metrık(əl)] *a* asimmetrik (*simmetrik bo'lmagan, simmetriyasiz*)
asymmetry [eı´sımətrı] *n* asimmetriya (*simmetriyaning yo'qligi yoki buzilganligi; simmetriyasizlik*)
asymptote [´æsımtəut] *n mat.* asimptota (*egri chiziq nuqtasi cheksiz uzoqlasha borganda, bu egri chiziqqa yetarli darajada yaqin bo'ladigan to'g'ri chiziq, mas., giperbola asimptotasi*)
asynchronism [eı´sıŋkrənız(ə)m] *n* asinxronizm (*sinxronizmning yo'qligi*)
asynchronous [eı´sıŋkrənəs] *a* 1) asinxron, nosinxron; 2) vaqti bir-biriga to'g'ri kelmaydigan
asyndetic [ˌæsın´detık] *a gram.* bog'lovchisiz
asyndeton [æ´sındıtən] *n stil.* asindeton, bog'lovchisizlik, bog'lovchisi yo'qlik
asyntactic [ˌæsın´tæktık] *a stil.* sintaksisga oid bo'lmagan, sintaksis qoidalariga amal (itoat) qilmaydigan
asystole [ə´sıstəlı] *n tib.* asistoliya (*yurak urishining to'xtashi*)
at [æt] *prep.* (*joyni bildirganda*) yonida, oldida, yaqinida; ~ **that** ...ning ustiga, ustiga-ustak, ...dan tashqari, qo'shimchasiga, yana, tag'in; ~ **the moment** (*shun.*, ~ **present**) ayni vaqtda
atabal [´ætə,bæl] *n tar.* litavra, nog'ora, qishnog'ora (*mavrlarda*)
at-a-boy [´ætə,bɔı] *int amer. so'zl.* yashavor! ofarin! balli!
atactic [ə´tæktık] *a maxs.* o'zaro muvofiqlashtirilmagan, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, nomuvofiq
Atalanta [ˌætə´læntə] *yun. afs.* Atalanta (*faqat ot poygasida undan o'tib ketgan kishiga turmushga chiqishga rozi bo'lgan Arkadiyalik ovchi qiz*)
ataraxy [´ætəræksı] *n* 1) ataraksiya (*yunon etikasida halovat, xotirjamlik haqidagi tushuncha*); 2) tinchlik, osoyishtalik; xotirjamlik
ataunt [ə´tɔ:nt] *adv deng.* ko'tarilgan yelkan bilan, yelkanni ko'tarib
atavic [ə´tævık] = **atavistic**
atavism [´ætəvız(ə)m] *n biol.* atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'indan keyingi avlodda, naslda yana takrorlanishi, suyak surishi*)
atavistic [ˌætə´vıstık] *a* nasliy
ataxic [ə´tæksık] *a tib.* ataksik, ataksiya (*bosh miyaning peshana qismlari, miyacha va b. shikastlanishi natijasida harakat koordinatsiyasining buzilishi*)ga oid
ataxite [ə´tæksaıt] *n geol.* ataksit (*temir meteorit turi*)
ataxy [ə´tæksı] *n tib.* ataksiya (*bosh miyaning peshana qismlari, miyacha va b. shikastlanishi natijasida harakat koordinatsiyasining buzilishi*); **locomotor** ~ sifilis (zahm) tufayli orqa miyaning (asab sistemasining) kasallanishi
ate [et, eıt] *past. of* **eat**
atechnic [ə´teknık] *a* yaxshi ishlanmagan, mahoratsiz ishlangan, maxsus tayyorgarliksiz
atellan [ə´telən] *n* atellana (*ko'pincha, siyosiy xarakterga ega bo'lgan Qadimgi Yunonistonning xalq namoyishi*)
atelier [´ætelıeı] *n fr.* 1) atelye; 2) studiya (*xususan, rassomlar va b.*)
a tempo [ˌɑ:´tempəu] *mus.* oldingi ohangda
atemporal [ə´tempər(ə)l] *a* ma'lum vaqtga taalluqli bo'lmagan, ma'lum vaqt bilan bog'liq bo'lmagan
athanasy [ə´θænəsı] *n* boqiylik, abadiylik, abadiy yashashlik
Athapascan [ˌæθə´pæskən] **1.** *n* 1) atapasklar (*hind qabilalari guruhi*); 2) (**the** ~) atapask tillari; **2.** *a tilsh.* atapasklarga oid, atapasklar...
atheism [´eıθıız(ə)m] *n* xudoni inkor qilish, ateizm
atheist [´eıθıst] *n* xudosiz, ateist
atheistic(al) [ˌeıθı´ıstık(əl)] *a* ateizm ruhidagi
atheling [´æθəlıŋ] *n tar.* shahzoda, knaz (*anglosaklarda*)
Athena [ə´θi:nə] *n grek. mif.* Afina
Athenaeum [ˌæθı´ni:əm] *n* 1) ateney (*Qadimgi Yunonistondagi Afina ma'budasi ibodatxonasi*); 2) notiqlik san'ati maktabi (*Qadimgi Rimda*); 3) klub, kutubxona; 4) adabiyot va san'at masalalariga bag'ishlangan jurnal va b.
Atheneum [ˌæθə´ni:əm] = **Athenaeum**
Athenian [ə´θi:nıən] **1.** *a* Afinaga oid; **2.** *n* afinalik kishi (*yoki* ayol)
atheous [´eıθıəs] *a esk.* xudosiz, dahriy, betavfiq, munkir, murtad, gunohkor
athermanous [ə´θə:mənəs] *a maxs.* atermik, issiqlik o'tkazmaydigan
atherosclerosis [ˌæθərə(u)sklə´rəusıs] *n tib.* ateroskleroz (*yurak va qon tomirlari sklerozi, arteriosklerozning eng ko'p uchraydigan turi*)
athirst [ə´θə:st] *a esk. shoir.* chanqoqlik azob berayotgan, tashnalikdan qiynalayotgan; ~ **for knowledge** bilimga chanqoq (bo'lgan)
athlete [´æθli:t] *n* atlet (*atletika bilan shug'ullanuvchi sportchi*)
athletic [æθ´letık] *a* atletikaga va atletikachiga oid
athletics [æθ´letıks] *n* atletika (*kuch va chaqqonlikni rivojlantirishga yordamlashuvchi mashqlar tizimi*)
at-home [ət´həum] *n so'zl.* mehmonlarni belgilangan ma'lum kun va vaqtlarda kutib olish
a-thrill [ə´θrıl] *adv kit.* titrab, qaltirab, titroq (qaltiroq) bosib
a-throb [ə´θrɔb] *adv kit.* hayajonlanib, (hayajondan) qaltirab, titrab; (yuragi) dukullab
a-throng [ə´θrɔŋ] *adv kit.* bir to'da bo'lib, yig'ilishib, to'planishib, to'planib
athwart [ə´θwɔ:t] 1) *adv* qiyshiq; 2) *prep.* ko'ndalang
athymia [ə´θi:mıə] = **athymy**
athymy [´æθımı] *n kit.* melanxoliya, dilgirlik
atilt [ə´tılt] *adv esk.* nayzani yotiq holda (o'rta belidan) ushlab; **to ride** ~ **with (at, against) smb.** qo'lga nayza olib kim bilandir ot ustida olishmoq (urishmoq); **to run** ~ **at death** o'lim bilan olishmoq
a-tingle [ə´tıŋg(ə)l] *adv kam.* sanchish, sanchib og'rish, qotib qolish, uyushib qolish va b. ni sezib, his qilib
a-tiptoe [ə´tıptəu] *adv* oyoq uchida
Atlantic [ət´læntık] *a* Atlantika...; **the** ~ **Ocean** Atlantika okeani; **to try to sweep back the** ~ **with a broom** *hazil.* „Atlantika okeanini supurgi bilan supirishga harakat qilmoq", bajarib bo'lmaydigan ishni bajarishga harakat qilmoq
Atlantis [ət´læntıs] *n yun. afs.* Atlantida
at large [ət´lu:dʒ] 1) ozodlikda, ozod; **to set** ~ ozod qilmoq; 2) batafsil, mufassal, to'la, mukammal, ipidan ignasigacha; **to write** ~ batafsil yozmoq; 3) barcha, butun, hamma, bor, bari, jamiki; **the city** ~ butun shahar; **the world** ~ butun dunyo, olam

Atlas [ˈætləs] *n yun. afs.* Atlant, Atlas (*osmon gumbazini ko'tarib turuvchi pahlavon*)

atlas [ˈætləs] **1.** *n* 1) (A) *yun. afs.* atlant, Atlantida aholisi; 2) (*pl* **atlantes**) *me'mor.* atlantlar (*imorat peshayvonini ko'tarib turadigan erkaklar qiyofasidagi ustun-haykallar, tayanchiqlar*); 3) atlas (*geografik, zoologik, botanik, anatomik va b.*); 4) yozish *yoki* chizish uchun ishlatiladigan katta format (bichim)dagi qog'oz; 5) *anat.* atlant (*odam va yuksak umurtqali hayvonlarning kalla suyagi bilan birikkan halqasimon 1-bo'yin umurtqasi*); **2.** *v kit.* tiramoq, tirab turmoq, tutib turmoq, ko'tarib turmoq

atmidometer [ˌætmɪˈdɒmɪtə] = **atmometer**

atmogenic [ˌætmə(ʊ)ˈdʒenɪk] *a geol.* 1) atmogenik (*narsalar haqida*); 2) atmosferik (*cho'kindi, qatlam haqida*); 3) shamol ta'siri ostida vujudga kel(a-di)gan

atmolysis [ətˈmɒlɪsɪs] *n fiz.* atmoliz

atmometer [ətˈmɒmɪtə] *n meteor.* atmometr (*bug'lanish tezligini o'lchaydigan asbob*)

atmosphere [ˈætməsfɪə] *n* 1) atmosfera; 2) vaziyat, sharoit

atmospheric [ˌætməsˈferɪk] *a* atmosferaga oid

atmospherical [ˌætməsˈferɪk(ə)l] = **atmospheric**

atmospherics [ˌætməsˈferɪks] *n pl radio.* atmosfera to'siqlari

atoll [ˈætɒl] *n* atoel, marjonlar oroli

atom [ˈætəm] *n* 1) atom; **to blow to ~s** (portlash natijasida) vayron (yakson) qilmoq, tit-pitini (dabdalasini) chiqarmoq, tilka-pora qilmoq (qilib yubormoq); kulini ko'kka sovurmoq; **the house was blown to ~s** portlash natijasida uy tilka-pora bo'lib ketdi; **to break** (*yoki* **to smash**) **to ~s** chil-chil qilmoq, sindirib chil-parchin qilmoq; 2) eng kichik zarra

atomaniac [ˌætəˈmeɪnɪæk] *n* atom urushi targ'ibotchisi

atom bomb [ˈætəmbɒm] *n* atom bombasi

atomic [əˈtɒmɪk] *a* atomga oid

atomical [əˈtɒmɪk(ə)l] = **atomic**

atomicity [ˌætəˈmɪsɪtɪ] *n kim.* valentlik

atomism [ˈætəmɪz(ə)m] *n* atomizm (*moddalarning juda mayda zarralardan uzluksiz tuzilganligi haqidagi materialistik ta'limot*)

atomistic [ˌætəʊˈmɪstɪk] *a* atomistik (*ko'pgina alohida elementlardan tashkil topgan*)

atomize [ˈætəʊmaɪz] *v* kukunlamoq

atomizer [ˈætəʊmaɪzə] *n* purkagich (*suyuq yoki kukun moddalarni purkaydigan, changitib sepadigan asbob*)

atom-monger [ˈætəmˌmʌŋgə] *n so'zl.* urush olovini yoquvchi odam

atom-smasher [ˈætəmˌsmæʃə] *n* yadro zarrachalarini tezlatkich

atomy [ˈætəmɪ] *n* 1) atom; 2) mayda modda (*zarra*)

atonal [eɪˈtəʊnl] *a mus.* uyg'unsiz, ohangdosh bo'lmagan

atonality [ˌeɪtəʊˈnælɪtɪ] *n mus.* ohangdosh (hamohang) emaslik, uyg'unsizlik

atone [əˈtəʊn] *v* yuvmoq (*aybini*)

atonement [əˈtəʊnmənt] *n* gunohini yuvish

atonic [æˈtɒnɪk] *a fon.* urg'u olmaydigan, urg'usiz; **an ~ syllable** urg'usiz bo'g'in

atony [ˈætənɪ] *n tib.* lanjlik

atop [əˈtɒp] *adv* yuqorida, ustida, tepada

at par [ətˈpɑ:] *adv phr.* nominal (*biror narsaning ustiga yozilgan, belgilangan*) bahosi bilan, nominal narxda

atrabilarian [ˌætrəbɪˈle(ə)rɪən] *n* ipoxondrik, vahima kasal

atrabilarious [ˌætrəbɪˈleərɪəs] *a* 1) badjahl, serzarda; 2) dilgirlikka moyil, doim g'amgin, dilgir; 3) g'amgin, ma'yus

atrabiliary [ˌætrəˈbɪlɪərɪ] *a maxs.* o'tga, safroga oid; o't...; safro...; **~ capsules** *anat.* buyrak usti bezlari

atrabilious [ˌætrəˈbɪlɪəs] *a* o'tga (safroga) oid

atrament [ˈætrəmənt] *n esk.* siyoh, qora bo'yoq

a-tremble [əˈtremb(ə)l] *adv kam.* titrab, qaltirab, qaltiroq bosib

atria [ˈɑ:trɪə] *pl of* **atrium**

atrip [əˈtrɪp] *a predic.* **to be ~** *deng.* langarni ko'tarmoq

atrium [ˈɑ:trɪəm] *n* (*pl* **-ia** [-ɪə]) atrium (*1. me'mor. usti yopiq kichkina hovli; 2. anat. yurak bo'lmasi*)

atrocious [əˈtrəʊʃəs] *a* qahri qattiq

atrociously [əˈtrəʊʃəslɪ] *adv* juda ham, judayam, nihoyat darajada, benihoyat, g'oyat, chunon ham, chunonam, juda, nihoyat, bag'oyat; **an ~ bad breakfast** juda ham yomon nonushta; **~ bad manners** juda ham yomon odatlar; bo'lmag'ur qiliqlar

atrocity [əˈtrɒsɪtɪ] *n* zolimlik

atrophic [əˈtrɒfɪk] *a* 1) ozib (oriqlab) ketgan, ozib-to'zgan; 2) oriqlab (qurib) qolgan

atrophous [ˈætrəfəs] = **atrophic**

atrophied [ˈætrəfɪd] *a* ozib (oriqlab) ketgan

atropine [ˈætrəpɪn] *n kim. farm.* atropin (*ba'zi o'simliklardan olinadigan alkaloid; og'riqni bosadigan dori sifatida ishlatiladi*)

atrophy [ˈætrəfɪ] **1.** *n tib.* ozib (oriqlab) ketish; **2.** *v* kichrayib (qurib) qolmoq

attaboy [ˈætəˌbɔɪ] = **at-a-boy**

attach [əˈtætʃ] *v* yopishtirmoq, biriktirmoq

attachable [əˈtætʃəb(ə)l] *a* boshqalar bilan tez do'stlashib (qo'shilib) ketadigan

attache [əˈtæʃeɪ] *n fr.* attashe (*elchixonalarning biror soha bo'yicha mutaxassis xodimi*)

attache case [əˈtæʃeɪkeɪs] *n* qo'lda olib yuradigan, charmdan qilingan kichik yassi chamadon (*kitob va hujjatlar uchun*)

attached [əˈtætʃt] *a* yopishtirilgan

attachedly [əˈtætʃɪdlɪ] *adv* sadoqat (sodiqlik) bilan

attachment [əˈtætʃmənt] *n* yaqinlik (do'stlik) tuyg'usi

attack [əˈtæk] **1.** *n* hamla (*hujum qilish*); **~ is the best method of defence** hujum – himoyaning eng yaxshi usulidir; **2.** *v* hujum qilmoq

attackable [əˈtækəb(ə)l] *a* juda nozik

attain [əˈteɪn] *v* 1) yetmoq, yetib olmoq; 2) erishmoq

attainability [əˌteɪnəˈbɪlɪtɪ] *n* yetish, erishish

attainable [əˈteɪnəb(ə)l] *a* yetib (erishib) bo'ladigan

attainder [əˈteɪndə] *n yur.* davlatga xiyonat qilgani uchun fuqarolik va mol-mulk huquqidan mahrum qilish

attainment [əˈteɪnmənt] *n* yetishish, erishish

attaint [əˈteɪnt] **1.** *n* dog', isnod, sharmandalik; **2.** *v* badnom qilmoq, sharmanda qilmoq

attar [ˈætə] *n* efir moyi (*gullarda*)

attellan [əˈtelən] = **atellan**

attemper [əˈtempə] *v* tegishli mutanosiblikda aralashtirmoq

attemperator [əˈtempəreɪtə] *n tex.* termostat (*haroratni bir maromda saqlab turadigan asbob*)

attemperment [əˈtempəmənt] *n* zarur (kerak) bo'lgan haroratni yaratish

attempt [əˈtempt] **1.** *n* urinish; **a maiden ~** birinchi urinish, birinchi marta urinib (sinab, tekshirib, harakat qilib) ko'rish; **2.** *v* urinmoq, urinib ko'rmoq; **to make an ~** urinib ko'rmoq

attend [əˈtend] *v* 1) (*kimgadir, nimagadir*) e'tibor bermoq (**to**); **to ~ to smth., smb.** kimgadir yoki nimagadir e'tiborini qaratmoq; 2) g'amxo'rlik qilmoq (**to**); 3) xizmat ko'rsatmoq (**on, upon**); 4) qatnashmoq; **to ~ school** maktabga qatnashmoq

attendance [ə´tendəns] *n* qatnashish, ishtirok etish (**at**); **to dance ~ on smb.** (*atrofida*) girdikapalak bo'lmoq, parvona bo'lmoq, aylanib-o'rgilmoq, birovning ketidan (orqasidan) yugurmoq, ayolning ko'nglini olmoq (ovlamoq)

attendant [ə´tendənt] **1.** *n* 1) hamroh, yo'ldosh; 2) xizmatkor **2.** *a* 1) hamrohlik qilayotgan, birga yuradigan; 2) xizmat ko'rsatadigan (**upon**); 3) ishtirok etayotgan

attender [ə´tendə] *n* xizmatkor, malay

attending physician [ə,tendıŋfı´zıʃ(ə)n] *n* ordinator (*kasalxonada, klinikada davolovchi shifokor*)

attent [ə´tent] *a esk.* iltifotli, marhamatli, g'amxo'r, joʻnkuyar, mehribon, kuyinchak

attention [ə´tenʃ(ə)n] *n* 1) diqqat, e'tibor; **to be all ~** diqqat (e'tibor) bilan eshitmoq, ko'rmoq va b.; **to call** (*yoki* **to draw**) **(smb.'s) ~ to smb.** (*yoki* **smth.**) (*shun., to call yoki to draw smth. to smb's ~*) birovning e'tiborini kimgadir yoki nimagadir jalb qilmoq (qaratmoq); **to catch smb.'s ~** birovning diqqatini o'ziga tortmoq; **to compel ~** birovning diqqatini biror kimsaga yoki narsaga tortmoq; **to engage smb's ~** kimningdir e'tiborini o'ziga jalb qilmoq (etmoq); **to pay ~ to smb.** (*yoki* **smth.**) (*shun. to pay smb. yoki smth. ~*) kimgadir (*yoki* nimagadir) e'tibor (ahamiyat) bermoq; **to rivet one's ~ on** (*yoki* **to**) **smb.** (*yoki* **smth.**) diqqat-e'tiborini biror kishiga (yoki biror narsaga) qaratmoq; **to slip smb.'s ~** kimningdir e'tiboridan (nazaridan) chetda qolmoq; **to stand at** (*yoki* **to**) **~** qaddi rostlangan holatda tik turmoq, qaddini rostlab (tik) turmoq; 2) g'amxo'rlik

attentive [ə´tentıv] *a* diqqat bilan qaraydigan, ziyrak, hushyor; 2) xushmuomala

attenuant [ə´tenjʊənt] **1.** *n farm.* qonni quyultiradigan modda, quyultirgich; **2.** *a* 1) suyultiradigan, suyuq qilib qo'yadigan; 2) quvvatini ketkizadigan, darmonini quritadigan, bo'shashtiradigan, zaiflashtiradigan

attenuate [ə´tenjʊıt] **1.** *a* oriqlab ketayotgan, ozg'in; **2.** *v* oriqlab ketmoq

attenuated [ə´tenjʊeıtıd] *a* 1) holdan toygan, ozib-to'zgan, so'ppaygan, behol, bemajol; 2) eritilgan, suyultirilgan

attenuation [ə,tenjʊ´eıʃ(ə)n] *n* ozib ketish

attenuator [ə´tenjʊeıtə] *n radio.* attenuator (*elektr kuchlanishi, tok kuchi, elektr yoki elektromagnit tebranishlarining quvvatini bir me'yorda bosqichma-bosqich yoki muayyan qiymatgacha pasaytiruvchi qurilma*)

atter [´ætə] *n* 1; *dial.* yiring, fasod; 2) *esk.* zahar, og'u

attercop [´ætəkɒp] *n* 1) *esk. dial.* o'rgimchak; o'rgimchak uyasi; 2) yomon (yovuz, serjahl, badjahl, g'azablangan, darg'azab, jahli tez) odam

attermine [ə´tɜ:mın] *v yur. esk.* qarzni to'lash muhlatini kechiktirish (keyinga surish)

attery [´ætərı] *a esk. dial.* yiringga, fasodga oid; yiringdan, fasoddan iborat bo'lgan; yiringli, fasodli, yiring (fasod) bog'lagan, gazak olgan

attest [ə´test] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) guvohlik bermoq

attestant [ə´testənt] **1.** *n* nimanidir o'z imzosi bilan tasdiqlovchi shaxs; **2.** *a* tasdiqlovchi, isbotlovchi, guvohlik beruvchi

attestation [,ætе´steıʃ(ə)n] *n* guvoh ko'rsatmasi

attested [ə´testıd] *a* tasdiqlangan, tasdiqlab berilgan, tasdiqlatib olingan; **an ~ copy** tasdiqlangan nusxa

attester [ə´testə] = **attestor**

attestor [ə´testə] *n yur.* guvoh, shohid

attic [´ætık] *n* qiya shipli boloxona

atticism [´ætısızm] *n* nozik ibora; chiroyli so'z

attire [ə´taıə] **1.** *n* kiyim, libos; **2.** *v* kiydirmoq; kiyintirmoq

attitude [´ætıtju:d] *n* munosabat; **to assume** (*yoki* **to strike**) **an ~** (yasama, soxta, sun'iy ravishda) o'zini (gavdasini) biror holatda tutmoq; **a friendly ~** do'stona munosabat; **one's ~ towards (to) smth., smb.** kimningdir nimagadir *yoki* kimgadir bo'lgan munosabati

attitudinize [,ætı´tju:dınaız] *v* gavdani ma'lum vaziyatda tutmoq

attitudinizing [,ætı´tju:dınaızıŋ] *n* da'vo (talab) qilishlik, da'vogar (talabgor) bo'lishlik

attorn [ə´tɜ:n] *v* 1) (nimanidir) topshirmoq, zimmasiga yuklamoq; 2) qandaydir huquq bermoq; 3) ishonmoq, inonmoq, ishonib bermoq, inonib topshirmoq

attorney [ə´tɜ:nı] *n yur.* advokat; huquqshunos; prokuror; **a letter** (*yoki* **a warrant**) **of ~** ishonch qog'ozi, vakolatnoma

attorney-at-law [ə,tɜ:nıət´lɔ:] *n* advokat (*AQSHda*)

attorneyship [ə´tɜ:nıʃıp] *n* 1) advokatlik kasbi; 2) advokatlik unvoni, mansabi

attract [ə´trækt] *v* o'ziga tortmoq, o'ziga jalb qilmoq

attractable [ə´træktəb(ə)l] *a* o'ziga tortadigan

attraction [ə´trækʃ(ə)n] *n* o'ziga jalb qilishlik

attractive [ə´træktıv] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq; **an ~ smile** jozibali tabassum

attractiveness [ə´træktıvnəs] *n* 1) yoqimlilik, jozibalilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik, istarasi issiqlik; 2) jozibali (jozibador) kuch

attributable [ə´trıbjʊtəb(ə)l] *a* 1) (*nimanidir*) qo'shimcha ravishda yozib (qo'shib) qo'ysa bo'ladigan; 2) (*nimagadir*) qo'shimcha qilib kiritib qo'ysa bo'ladigan

attribute [´ætrıbju:t] *n* o'ziga xos xususiyat

attribution [,ætrı´bju:ʃ(ə)n] *n* 1) (*nimagadir*) qo'shib *yoki* kiritib qo'yish; 2) atributsiya (*badiiy asar (rasm, haykal va b.)ning asilligini, muallifini, yaratilgan joyi, vaqtini aniqlash*); 3) (*boshqaruvchi vakil va b. ning*) hokimiyati, vakolati, huquqi, ixtiyori

attributive [ə´trıbjʊtıv] **1.** *n gram.* aniqlovchi; **2.** *a* aniqlovchiga oid, aniqlovchi o'rnida ishlatiladigan

attrition [ə´trıʃ(ə)n] *n* ishqalanish, surkalish

attrition mill [ə´trıʃ(ə)n,mıl] *n* 1) disk (gardish)li maydalash mashinasi; 2) disk (gardish)li tegirmon

attritus [ə´traıtəs] *n geol.* maydalanib ketgan mahsulot (narsa)

attry [´ætrı] = **attery**

attune [ə´tju:n] *v* hamohang qilmoq

a-tumble [ə´tʌmbl] *adv kam.* qoqilib, yiqilib, qulab, yiqilib (qulab) tushib

a-twain [ə´tweın] *adv* 1) *shotl.* ikkiga (qoq o'rtasidan) bo'lib, ikki bo'lak qilib; 2) bo'lak-bo'lak, ayrim-ayrim, boshqa-boshqa, alohida-alohida

atweel [ə´twi:l] *adv shotl.* shubhasiz, albatta, turgan gap, tabiiy

atween [ə´twi:n] *prep. esk. dial.* orasida, o'rtasida, oralig'ida, mobaynida

a-twist [ə´twıst] *adv kam.* qiyalab, qiyalatib, qiyamasiga, qiyshiq, qing'ir

a-twitter [ə´twıtə] *adv esk.* 1) hayajonlanib, (hayajondan) qaltirab, titrab, o'zini yo'qotib qo'yib; 2) qimirlab, titrab, pirpirab, hilpirab

atwixt [ə´twıkst] *prep. esk. dial.* orasida, o'rtasida, oralig'ida; mobaynida

atypical [eı´tıpık(ə)l] *a* ma'lum tipga xos bo'lmagan, aniq ko'rinib turmaydigan, boshqalardan ajralib turmaydigan

aubade [´əʊ,bɔ:d] *n fr.* 1) qushlarning tongda sayrashi; 2) tongda kuylanadigan (tonggi) serenada (*ma'shuqaga*

atab aytilgan ishqiy qo'shiq); 3) tonggi konsert

auberge [əʊˈbeəʒ] *n fr.* 1) traktir (*mehmonxonali restoran*); 2) mehmonxona

aubergine [ˈəʊbədʒi:n] *n fr. bot.* baqlajon

auburn [ˈɔ:bən] *a* to'q qizg'ish

au contraire [ˌəʊkɒnˈtreə] *adv fr.* chappa, teskari, teskarisiga, teskari qilib

auction [ˈɔ:kʃ(ə)n] **1.** *n* kimoshdi savdosi; **Dutch ~** „gollandcha auksion, gollandlar auksioni, Gollandiya auksioni" (*to xaridor topilmaguncha narxlar asta-sekin (sekin-asta) tushirilib boriladigan auksion*); **2.** *v* kimoshdi savdosida sotmoq

auctioneer [ˌɔ:kʃəˈnɪə] *n* kimoshdi savdosini olib boruvchi

aucupate [ˈɔ:kjʊpeɪt] *v esk.* qushlarni ovlamoq

audacious [ɔ:ˈdeɪʃəs] *a* jasur, botir, mard

audaciousness [ɔ:ˈdeɪʃəsnəs] = **audacity**

audacity [ɔ:ˈdæsɪtɪ] *n* dadillik, botirlik, jasurlik

audibility [ˌɔ:dɪˈbɪlɪtɪ] *n* eshitilish darajasi

audible [ˈɔ:dəb(ə)l] *a* eshitiladigan

audibleness [ˈɔ:dəblnəs] = **audibility**

audibly [ˈɔ:dɪblɪ] *adv* qattiq, baland ovoz bilan

audience [ˈɔ:dɪəns] *n* omma, tomoshabinlar; **the ~ applauded the actor** tomoshabinlar aktyorni olqishladilar

audient [ˈɔ:dɪənt] *a kit.* eshitadigan, quloq soladigan, tinglaydigan

audifilm [ˈɔ:dɪfɪlm] *n amer.* 1) ovozli kino; 2) *pl* ovozli kinofilmlar

audio [ˈɔ:dɪəʊ] *a amer.* 1) ovozli, tovushli; 2) eshitishga oid; eshitish uchun xizmat qiladigan, eshitish...

audiograph [ˈɔ:dɪəʊgrɑ:f] *n ak.* audiograf (*eshitish o'tkirligini o'lchaydigan asbob*)

audiometer [ˌɔ:dɪˈɒmɪtə] *n ak.* audiometr (*tovush kuchini o'lchaydigan asbob*)

audit [ˈɔ:dɪt] *n* tekshirish, taftish

auditing committee [ˌɔ:dɪtɪŋkəˈmɪtɪ] *n* taftish (tekshiruv) komissiyasi

audition [ɔ:ˈdɪʃ(ə)n] **1.** *n* eshitish; **2.** *v* eshitmoq

auditor [ˈɔ:dɪtə] *n* taftishchi, tekshiruvchi; nazoratchi

auditoria [ˌɔ:dɪˈtɔ:rɪə] = **auditorium**

auditorial [ˌɔ:dɪˈtɔ:rɪəl] *a* nazoratga, taftishga oid

auditorium [ˌɔ:dɪˈtɔrɪəm] *n* tomosha zali, auditoriya

auditorship [ˈɔ:dɪtəʃɪp] *n* taftishchi (tekshiruvchi)lik lavozimi (vazifasi)

auditory [ˈɔ:dɪt(ə)rɪ] *a anat.* eshitishga (*eshittirish organiga*) oid

auger [ˈɔ:gə] *n tex.* parma

augh [ɔ:(k)] = **faugh**

aught [ɔ:t] **1.** *n* biror narsa; nimadir; **2.** *adv* qandaydir darajada

augite [ˈɔ:dʒaɪt] *n min.* avgit (*zanjirli silikatlarning kenja sinfiga mansub jins hosil qiluvchi mineral*)

augment [ɔ:gˈment] *n* ko'paytirish, qo'shish

augmentation [ˌɔ:gmenˈteɪʃ(ə)n] *n* oshirish, ko'paytirish, o'sish

augmentative [ɔ:gˈmentətɪv] *a* kattalashtiradigan

augmented [ɔ:gˈmentɪd] *a* ko'paytirilgan, oshirilgan, orttirilgan, o'stirilgan, kattalashtirilgan, kengaytirilgan, mufassal; **an ~ edition** mufassal nashr

augur [ˈɔ:gə] **1.** *n* bashorat qiluvchi, avliyo; **2.** *v* oldindan aytmoq, bashorat qilmoq

augural [ˈɔ:gjʊr(ə)l] *a* darak beradigan (*yaxshilik yoki yomonlikdan*)

augury [ˈɔ:gjʊrɪ] *n* fol ochish; oldindan bashorat qilish

August [ˈɔ:gəst] **1.** *n* avgust; **2.** *attr.* avgust oyida bo'lgan yoki bo'ladigan

august [ɔ:ˈgʌst] *a* ulug'vor

Augustan [ɔ:ˈgʌstən] *a* Rim imperatori Avgust va uning davriga oid

auh [ɔ:] *int.* uh, voy-bo'y (*nafratni bildiradigan xitob*)

auk [ɔ:k] *n zool.* gagarka (*Shimol dengizlarida yashaydigan xonaki o'rdak kattaligidagi qush*)

aula [ˈɔ:lə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) 1) ichki hovli; 2) katta xona; zal; 3) universitetning zali

aulae [ˈɔ:li:] *pl of* **aula**

aularian [ɔ:ˈle(ə)rɪən] *n* yotoqxonada yashaydigan talaba (*Oksford va Kembrijda*)

auld [ɔ:ld] *a shotl.* eski, qadimiy, qadimgi; **~ lang syne** *shotl.* qadimdagi (o'tmishdagi) yaxshi davrlar (*s. so'z ingl.* **old long since; „Auld Lang Syne"** 1789- *yilda yozilgan buyuk shotlandcha qo'shiqning nomi*)

auldfarran(d) [ˌɔ:ldˈfærən(d)] *a shotl.* ishda ko'zi pishgan, ishni yaxshi o'rgangan, ishning baland-pastligini biladigan

aulic [ˈɔ:lɪk] *a tar.* saroyga (podsho saroyiga) oid; saroy...

aulophyte [ˈɔ:ləfaɪt] *n bot.* aulofit, simbiont (*birga yashovchi ikki xil organizmdan har biri*)

aumail [ɔ:ˈmeɪl] *n kam.* emal, sir (*maxsus bo'yoq*)

au naturel [ˌəʊnætjʊˈrel] *fr.* 1) tabiiy ko'rinishda; 2) hech qanday ziravorsiz oddiy tayyorlangan (*ovqat haqida*); 3) yalang'och holda, qip-yalang'och

aunt [ɑ:nt] *n* xola; amma; **my (giddy** *yoki* **sainted) ~!** obbo! ana xolos! vo ajabo! zap ish bo'libdi-da! qarang-a! bay-bay-bay! voy-bo'y! (*ajablanish, hayron bo'lish, o'kinch, achinish, ranj, alam, zavq olish, tahsin o'qish, tasanno aytish, qoyil qolish, tan berish, zavq-shavq, tahsin, tasanno va b. ni ifoda etuvchi xitob*); **we were at my ~'s last week** o'tgan hafta biz xolam (ammam)nikida bo'ldik

auntie [ˈɑ:ntɪ] *n erk.* xolajon; **since ~ had her accident** *avstral. jarg.* qachondan beri, anchadan beri, qachonlardan beri

aunt-in-law [ˌɑ:ntɪnˈlɔ:] *n* (*pl* **aunts-** [-s]) amaki (*yoki* tog'asi)ning xotini

aunty [ˈɑ:ntɪ] = **auntie**

aura [ˈɔ:rə] *n* yengil shabada, yengil shamol esish

aural [ˈɔ:rəl] *a* 1) quloqqa oid; 2) eshitishga oid

auramine [ˈɔ:rəmi(:)n] *n kim.* auramin (*sariq bo'yoq, rang*)

aurally [ˈɔ:rəlɪ] *adv* og'zaki

aurata [ɔ:ˈreɪtə] *n zool.* oltinday sap-sariq (oltinrang, tillarang) dengiz tovonbalig'i

aureate [ˈɔ:rɪɪt] *a* oltinday sap-sariq, oltinrang

aureola [ɔ:ˈrɪələ] *n astr.* toj (*oy, quyosh va yorug' yulduzlar atrofida hosil bo'ladigan gardishsimon shu'la*)

auric [ˈɔ:rɪk] *a* tarkibida oltin bo'lgan

auricle [ˈɔ:rɪk(ə)l] *a anat.* quloq suprasi

auricula [ɔ:ˈrɪkjʊlə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) *bot.* navro'zgul, avrikula (*navro'zgulning xushmanzara turi*)

auriculae [ɔ:ˈrɪkjʊli:] *pl of* **auricula**

auricular [ɔ:ˈrɪkjʊlə] *a* quloqqa oid; eshitish organi

auriferous [ɔ:ˈrɪf(ə)rəs] *a* oltinga boy, oltinli

auriform [ˈɔ:rɪfɔ:m] *a* quloq shaklida bo'lgan

aurilave [ˈɔ:rɪleɪv] *n* quloqni yuvadigan apparat (moslama)

auriphrygiate [ˌɔ:rɪˈfrɪdʒɪɪt] *a* atrofiga oltin yugurtirilgan, atrofiga oltin bilan hoshiya chizilgan

auriscope [ˈɔ:rɪskəʊp] *n* quloqni tekshiradigan asbob

aurist [ˈɔ:rɪst] *n* quloq shifokori

aurited [ˈɔ:raɪtɪd] = **auriculate**

aurochs [ˈɔ:rɒks] *n zool.* o'rmonda yashaydigan yovvoyi hayvon

auroral [ɔ:ˈrɔ:r(ə)l] *n she'r.* tonggi

aurous [ˈɔ:rəs] *a* oltin qo'shilgan, oltinli

aurulent [ˈɔːrʊlənt] *a* oltin rangli, oltin rangidagi, oltinday sap-sariq, oltin (tilla) rang, oltin tusli (rangli)
aurum [ˈɔːrəm] *n kim.* oltin, tilla, zar
auscultate [ˈɔːskəlteɪt] *v tib.* (*kasalni*) eshitib ko'rmoq
auscultation [ˌɔːskəlˈteɪʃ(ə)n] *n tib.* (*kasalni*) eshitib ko'rish
auscultatory [ɔːˈskʌltət(ə)rɪ] *a tib.* eshitib ko'rib (quloq solib tekshirib) olingan
auspex [ˈɔːspeks] *n* (*pl* **-pices** [-pɪsɪz]) (*Qadimgi Yunonda*) oldindan bashorat qilish maqsadida muqaddas qushlarning uchishini kuzatadigan kohin (majusiylar ruhoniysi)
auspicate [ˈɔːspɪkeɪt] *n kit.* 1) (*nimanidir yaxshi sharoitda*) boshlamoq; 2) (*nimaningdir*) boshlanishini nishonlamoq; 3) oldindan bashorat qilmoq
auspice [ˈɔːspɪs] *n pl* 1) yaxshilik alomati; 2) alomat, belgi (*asosan, yaxshilik*); **under favourable ~s** qulay fursat (muvofiq sharoit) tug'ilganda; 3) *pl* himoya qilish, homiy bo'lish, homiylik; **under the ~s of ...** ...ning homiyligida, himoyasida; ...ning yordami bilan, yordami tufayli (yordamida)
auspices [ˈɔːspɪsɪz] *pl of* **auspex**
auspicious [ɔːˈspɪʃəs] *a* ko'ngildagidek
auspiciously [ɔːˈspɪʃəslɪ] *adv* ma'qul (maqbul) tarzda, qulay sharoitda
Aussie [ˈɔːzɪ] *n so'zl.* **1.** *n* avstriyalik, avstriyalik ayol; **2.** *a* Avstriyaga va avstriyaliklarga oid
austenite [ˈɔːstɪnaɪt] *n metal.* austenit (*temir-uglerod qotishmalarining tarkibiy tuzilmalaridan biri*)
auster [ˈɔːstə] *n shoir.* 1) janub shamoli, janubiy shamol; 2) janubiy o'lka (mamlakat, yurt, diyor)
austere [ɒˈstɪə] *a* talabchan
austerity [ɒˈsterɪtɪ] *n* talabchanlik
austral [ˈɔːstr(ə)l] *a* janubiy
Australia [ˌɒˈstreɪlɪə] *a* Avstraliya
Australian [ɒˈstreɪlɪən] *a* 1) Avstraliyaga oid; 2) avstraliyalik
Australianism [ɒˈstreɪlɪənɪz(ə)m] *n* avstralianizm (*avstraliyaliklarga xos bo'lgan so'z yoki ibora*)
Austrian [ˈɒstrɪən] **1.** *n* avstriyalik, avstriyalik kishi, avstriyalik ayol; **2.** *a* Avsriyaga va avstriyaliklarga oid; Avstriya...; avstriyalik(lar)...
austringer [ˈɔːstrɪndʒə] *n esk.* 1) mirishkor qush ovi amiri (*Qadimgi Rusda*); 2) lochinboz, lochinboqar (*Qadimgi Rusda: ov lochinlariga qarovchi odam*)
autarch [ˈɔːtɑːk] = **autocrat**
autarchy [ˈɔːtɑːkɪ] *n* yakka hokimiyatchilik (*oliy hokimiyat bir kishining – monarxning, podshoning qo'lida bo'lgan davlat tuzumi*)
autarky [ˈɔːtɑːkɪ] *n iqt.* avtarkiya (*1. davlatlarning boshqa davlatlar iqtisodiyotiga bog'liq bo'lmagan mustaqil milliy xo'jalik yaratishga qaratilgan reaksion siyosati; 2. zarur narsalarni chetdan olmasdan o'zi yetkazishga asoslangan milliy xo'jalik tizimi*)
autel [ɔːˈtel] *n* motel (*avtouristlar mehmonxonasi bo'lib, unda texnika xizmati, yonilg'i quyish shoxobchasi, garajlari bo'ladi*)
authentic [ɔːˈθentɪk] *a* 1) asl; 2) shubhasiz, to'g'ri
authentically [ɔːˈθentɪk(ə)lɪ] *adv* hech shubhasiz, aniq
authenticate [ɔːˈθentɪkeɪt] *v* tasdiqlamoq
authentication [ɔːˌθentɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* aynan o'xshatish, tenglashtirish
authenticity [ˌɔːθenˈtɪsɪtɪ] *n* asillik, chinlik
author [ˈɔːθə] *n* muallif; **the ~ of a book** kitobning muallifi; **choose an ~ as you choose a friend** *maq.* (kitob muallifini do'st tanlagandek tanla), kitob ko'rmagan kalla – giyoh unmagan dala
authoress [ˈɔːθ(ə)res] *n* yozuvchi ayol, adiba
authorial [ɔːˈθɔːrɪəl] *a* muallifga oid, mualliflarga tegishli; mualliflik...; mualliflik...; **~ merits** mualliflning xizmatlari
authoritarian [ɔːˌθɒrɪˈteə)rɪən] *a* avtoritar (*hokimiyatga ko'r-ko'rona bo'ysunishga asoslangan*)
authoritative [ɔːˈθɒrɪtətɪv] *a* obro'ga ega bo'lgan, obro'li
authoritatively [ɔːˈθɒrɪtətɪvlɪ] *adv* qat'iy ishonch bilan, qat'iyat bilan, ikkilanmay; **I can state ~ that ...** men qat'iy ishonch bilan ayta olamanki...
authoritativeness [ɔːˈθɒrɪtətɪvnəs] *n* 1) obro'lilik, obro'ga, nufuzga egalik; 2) ishonchlilik, e'tiborlilik, mo'tabarlik; 3) so'zini o'tkazish, hukmini yurgizish, shaddodlik
authority [ɔːˈθɒrɪtɪ] *n* 1) hokimiyat; 2) obro', e'tibor, nufuz; **to carry ~** nufuzli (obro'li, e'tiborli) bo'lmoq, obro'ga ega bo'lmoq; **on good ~** ishonchli manbalardan, ishonchli ma'lumotlardan
authorization [ˌɔːθəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* ruxsat berish, ruxsat
authorize [ˈɔːθəraɪz] *v* ruxsat bermoq
authorized [ˈɔːθəraɪzd] *a* muallif ma'qullagan
authorless [ˈɔːθələs] *a* muallifi noma'lum, muallifi aniqlanmagan, muallif nomini yashirgan, muallifsiz
authorly [ˈɔːθəlɪ] = **authorial**
authorship [ˈɔːθəʃɪp] *n* mualliflik
auto- [ˈɔːtə(ʊ)-] *n* (**automobile** *so'zining qisqartirilgan shakli*) avtomashina
Autobahn [ˈɔːtə(ʊ)bɑːn] *n* (*pl* **-en** [-ən]) *nem.* avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunalangan katta yo'l*)
autobiographer [ˌɔːtəʊbaɪˈɒgrəfə] *n* avtobiografik asar yozadigan yozuvchi
autobiographic(al) [ˌɔːtəʊbaɪəˈgræfɪk(əl)] *a* muallif tarjimayi holidan iborat bo'lgan
autobiographist [ˌɔːtəbaɪˈɒgrəfɪst] = **autobiographer**
autobiography [ˌɔːtəbaɪˈɒgrəfɪ] *n* tarjimayi hol
autobus [ˈɔːtəbʌs] *n amer.* avtobus
autocar [ˈɔːtəkɑː] *a* yengil mashina
autochthon [ɔːˈtɒkθən] *n* mahalliy aholi
autochthonal [ɔːˈtɒkθən(ə)l] *a* tub joyli (*mamlakat aholisi to'g'risida*)
autoclave [ˈɔːtəkleɪv] *n tex.* avtoklov (*narsalarni yuqori bosim ostida qizdirish uchun ishlatiladigan germetik qopqoqli idish, moslama*)
auto court [ˈɔːtə(ʊ)kɔːt] *n* avtopansionat (*dam oluvchilarni oziq-ovqat, yotoqxona, mashina turadigan joy va sh. k. lar bilan to'la ta'minlaydigan mehmonxonasimon muassasa*)
autocracy [ɔːˈtɒkrəsɪ] *n* yakka hokimiyatchilik
autocrat [ˈɔːtəkræt] *n* yakka hokim
autocratic, autocratical [ˌɔːtəˈkrætɪk, -(ə)l] *a* 1) yakka hokimiyatchilikka asoslangan, mustabid; 2) avtoritar (*hokimiyat, diktatura, obro' va sh. k. ga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan*)
auto-da-fe [ˌɔːtəʊdɑːˈfeɪ] *n* autodafe (*o'rta asrlarda: shakkoklarni va dinga qarshi kitoblarni xaloyiq o'rtasida gulxan qilib yoqish, o'tga tashlash*)
autodidact [ˌɔːtəʊˈdaɪdækt] *n kit.* maktab ko'rmagan, mustaqil o'rgangan (o'zicha yetishgan) kishi
autodrome [ˈɔːtə(ʊ)drəʊm] *n amer.* avtodrom (*avtopoyga o'tkaziladigan va avtomobillar sinaladigan maydon*)
autodyne [ˈɔːtə(ʊ)daɪn] *n radio.* avtodin (*radioto'lqinlarni qabul qilib oladigan moslama*)
autogamous [ɔːˈtɒgəməs] *a biol.* o'z-o'zidan urug'lanishga oid, o'z-o'zidan urug'lanadigan (*bir hujayrali organizmlarda, mas., ba'zi eng sodda hayvonlarda*)
autogamy [ɔːˈtɒgəmɪ] *n biol.* bir hujayrali organizmlarda o'z-o'zidan urug'lanish

autogenous [ɔ:ˈtɒdʒɪnəs] *a tex.* avtogen (*gaz alangasida eritib payvandlash*)-ga oid; ~ **welding** gaz alangasida eritish (avtogen) usuli bilan payvandlash

autogiro [ˌɔ:təˈdʒaɪ(ə)rəʊ] *n av.* (*pl* **-os** [-əʊz]) *av.* 1) vertolyot; 2) avtojir (*vertikal o'q atrofida aylanuvchi parrakli va samolyotdagi kabi havo vintli vertolyot*)

autograph [ˈɔ:təgrɑ:f] **1.** *n* 1) dastxat; 2) qo'lyozmaning asl nusxasi; **2.** *v* dastxat yozib bermoq

autographer [ɔ:ˈtɒgrəfə] *n* dastxatlarni to'plovchi kishi

autographic [ˌɔ:təgˈræfɪk] *a* o'z qo'li bilan yozilgan

autogyro [ˌɔ:təˈdʒaɪ(ə)rəʊ] = **autogiro**

autoinfection [ˌɔ:təʊɪnˈfekʃ(ə)n] *n tib.* organizmning o'zidan-o'zi zaharlanishi

autoing [ˈɔ:təʊɪŋ] *n amer. so'zl.* avtomobilda yurish

autointoxication [ˌɔ:təʊɪnˌtɒksɪ ˈkeɪʃ(ə)n] *n tib.* organizmning o'z-o'zidan zaharlanishi

autoist [ˈɔ:təʊɪst] *n amer. so'zl.* avtomobilchi (*1. avtomobil ishi bo'yicha mutaxassis; 2. avtomobil haydovchi; avtomobil sporti bilan shug'ullanuvchi sportchi*)

automat [ˈɔ:təmæt] *n amer.* kafe avtomat

automata [ɔ:ˈtɒmətə] *pl of* **automation**

automate [ˈɔ:təmeɪt] *v* avtomatlashtirmoq

automatic [ˌɔ:təˈmætɪk] *a* avtomatlashtirilgan, avtomatik ravishda ishlaydigan

automatical [ˌɔ:təˈmætɪk(ə)l] = **automatic**

automatically [ˌɔ:təˈmætɪk(ə)lɪ] *adv* g'ayriixtiyoriy ravishda, beixtiyor, o'ylamasdan, avtomatik ravishda

automation [ˌɔ:təˈmeɪʃ(ə)n] *n* avtomatika (*mexanizmlar majmuyi*)

automatism [ɔ:ˈtɒmətɪz(ə)m] *n* avtomatizm (*1. g'ayriixtiyoriy ravishda harakat qilish; harakatning g'ayriixtiyoriyligi; beixtiyor harakat; 2. ba'zi organlarning, mas., yurakning o'z-o'zidan ishlashi*)

automatize [ɔˈtɒmətaɪz] *v* avtomatlashtirmoq

automaton [ɔ:ˈtɒmətən] *n* avtomat (*belgilangan ishni ichki mexanizmlar yordamida o'zi bajaradigan mashina, asbob*)

automobile [ˈɔ:təməʊbi:l] **1.** *n* avtomobil; **2.** *a* avtomobilga oid; **an ~ wagon** yuk tashuvchi mashina

automobiling [ˈɔ:təməʊbi:lɪŋ] *n* avtomobilda yurish (borish, safar qilish)

automobilist [ˌɔ:təˈməʊbɪlɪst] *n kam.* avtomobilchi (*1. avtomobil ishi bo'yicha mutaxassis; 2. avtomobil haydovchi; avtomobil sporti bilan shug'ullanuvchi sportchi*)

automobilize [ˌɔ:təˈməʊbɪlaɪz] *v* 1) avtomobil transporti (avtotransport)dan foydalanmoq, avtomobilda yurmoq; 2) avtomobilni boshqarmoq (yurgizmoq); 3) avtomobil bilan ta'minlamoq, avtomobil yetkazib bermoq; **the city is becoming ~d** shaharda avtomobil juda ko'payib bormoqda

automorphic [ˌɔ:təˈmɔ:fɪk] *a geol.* avtomorfik

automotive [ˌɔ:təˈməʊtɪv] *a* 1) o'zi yuradigan, o'ziyurar, motorli; 2) o'z-o'zidan (o'zidagi mexanizm vositasida) harakatga keladigan (yuradigan); **an ~ industry** avtomobil sanoati

autonomic [ˌɔ:təˈnɒmɪk] *a biol.* 1) o'zini-o'zi boshqaradigan, erki o'zida bo'lgan, qaram bo'lmagan, erkin; 2) vegetativ asab tizimiga bog'liq bo'lgan, aloqador, taalluqli; **an ~ nervous system** vegetativ asab tizimi

autonomist [ɔ:ˈtɒnəmɪst] *n* avtonomist, avtonomiya tarafdori

autonomous [ɔ:ˈtɒnəməs] *a* avtonom; o'zini o'zi idora qiladigan, o'zini boshqaradigan

autonomy [ˈɔ:tɒnəmɪ] *n* avtonomiya (*o'z-o'zini mustaqil idora qilish huquqi*); muxtoriyat

autopilot [ˈɔ:təʊˌpaɪlət] *n* avtopilot (*uchish moslamalarini avtomatik ravishda boshqaradigan qurilma*)

autopolo [ˈɔ:təˌpəʊləʊ] *n* avtopolo (*avtomobil minib o'ynaladigan to'p o'yini*)

autopsy [ˈɔ:tɒpsɪ] *n* murdani yorib ko'rish

auto-racing [ˌɔ:təʊˈreɪsɪŋ] *n* avtomobil sporti, avtomobil poygasi

autorifle [ˈɔ:təˌraɪf(ə)l] *n amer. harb.* qo'l pulemyoti

autostrada [ˈɔ:tə(ʊ)strɑ:də] *n* avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunalangan katta yo'l*)

autosuggestion [ˌɔ:tə(ʊ)səˈdʒestʃ(ə)n] *n* o'zini-o'zi ishontirish

autotransformer [ˌɔ:tə(ʊ)trænsˈfɔ:mə] *n el.* avtotransformator (*o'zgaruvchan tok manbayiga ulash uchun bir necha chiqish simi bor bo'lgan bir chulg'amli elektr transformator*)

autotrophic [ˌɔ:təˈtrɒfɪk] *a biol.* avtotrofik (*fotosintez, fotoreduksiya va xemosintez jarayonlari tufayli noorganik moddalardan o'z hayoti uchun zarur organik moddalar tayyorlab olish qobiliyatiga ega bo'lgan*); **an ~ plant** avtotrofik o'simlik

autotropism [ɔ:ˈtɒtrəpɪz(ə)m] *n bot.* avtotropizm (*biror ta'sir ostida egilgan o'simlikning, shu ta'sir yo'qolgach, qayta tiklana olish xususiyati; mas., boshoqli o'simliklarning yomg'irdan so'ng ko'tarilishi*)

autotruck [ˈɔ:tətrʌk] *n amer.* yuk mashinasi

autotype [ˈɔ:tətaɪp] *n polig.* avtotipiya (*1. surat, fotografik tasvir va sh. k. ni fotomexanik yo'l bilan chop etish usuli; 2. shu usul bilan bosilgan surat*)

autumn [ˈɔ:təm] **1.** *n* kuz; **in ~** kuzda; **2.** *attr.* kuzgi; **~ fruits** kuzgi mevalar

autumnal [ɔ:ˈtʌmnəl] *a she'r.* kuzgi; **~ leaves** kuzgi yaproqlar

autunite [ˈɔ:tənaɪt] *n min.* otunit, radioaktiv uran rudasi

auxanometer [ˌɔ:ksəˈnɒmɪtə] *n biol.* auksanometr (*o'sish jarayonini o'rganadigan moslama*)

auxiliary [ɔ:gˈzɪljərɪ] **1.** *n* 1) yordamchi; 2) *gram.* yordamchi fe'l; **2.** *a* yordamchi

auxin [ˈɔ:ksɪn] *n* auksin, (*o'simlikni*) o'stiradigan modda

avail [əˈveɪl] **1.** *n* foyda; **2.** *v* foydali bo'lmoq

availability [əˌveɪləˈbɪlɪtɪ] *n* foydali bo'lish; mavjudlik

available [əˈveɪləb(ə)l] *a* yaroqli; bor, mavjud

aval [ɑ:ˈvɑ:l] *n kom.* (*vekselning o'zida belgilab qo'yilgan*) to'lov kafolati

avalanche [ˈævəlɑ:nʃ] *n* ko'chki (*tog'lardan ko'chib tushadigan qor uyumi*)

avaner [ˈævɪnə] *v tar.* qirolning bosh otboqari

avania [ˌɑ:vəˈni(:)ə] *n* 1) soliq, o'lpon (*Turkiyada*); 2) *tar.* turklarning xristianlardan oladigan katta solig'i

avant-garde [ˌævɒŋˈgɑ:d] *a* yangi, zamonaviy (*adabiyot va san'atga nisbatan*)

avarice [ˈæv(ə)rɪs] *n* 1) ochko'zlik; 2) qizg'anchiqlik

avaricious [ˌævəˈrɪʃ(ə)s] *a* 1) ochko'z; 2) qizg'anchiq

avast [əˈvɑ:st] *int. deng.* to'xta!

avatar [ˈævətɑ:] *n kit.* timsol, mujassam

avaunt [əˈvɔ:nt] *int. esk.* yo'qol! ket! daf bo'l!

ave [ˈɑ:v(e)ɪ] *n lot.* 1) tabrik; tabriklash; 2) salomlashish

avellan(e) [əˈveləŋ] *n bot.* 1) o'rmon yong'og'i (*butasimon o'simlik*); 2) funduk (*1. Kavkaz va Qrimda o'sadigan yong'oq daraxti; 2. shu daraxtning mevasi*); 3) amerikaning o'rmon yong'og'i

avenge [ə´vendʒ] *v* qasos olmoq; **to ~ oneself** o'zi uchun qasos olmoq
avengeful [ə´vendʒf(ə)l] *a* kek saqlovchi
avenger [ə´vendʒə] *n* qasoskor
aventail, aventayle [´ævənteɪl] *n tar.* shlemning oldinga qo'zg'aladigan (siljiydigan) qismi
avenue [´ævɪnju:] *n* atrofi daraxtzor ko'cha; **to explore every ~** (*kam.* **to leave no ~ unexplored**) barcha imkoniyatlarni ishga solmoq, barcha imkoniyatlardan foydalanmoq; barcha kuchni sarflamoq, bor kuchni bermoq; **Madison Avenue** *amer.* Amerika reklamasi (*ko'pgina reklama agentliklari Nyu-Yorkdagi Medison-avenyuda joylashgan*)
aver [ə´vɜ:] *v* rostligini tasdiqlamoq
average [´æv(ə)rɪdʒ] **1.** *n* o'rtacha son; **above the ~** o'rtadan yuqori; **a batting ~** *amer.* (*qandaydir ishda*) shaxsiy yutuqlar, muvaffaqiyatlar; **below the ~** o'rtadan past; **2.** *a* o'rtacha; **~ temperature** o'rtacha harorat; **an ~ price** o'rtacha narx
averaged [´ævərɪdʒd] *a tex.* umumiy o'rtacha namunalarga yaqinlashtirilgan; o'rtacha qilib bajarilgan, o'rta hisobda ko'rsatilgan
averin [´eɪv(ə)rɪn] *n bot.* xushbo'y mevali botqoq o'simligi va uning mevasi
averment [ə´vɜ:mənt] **1.** *n kit.* tasdiqlash, tasdiq qilish; **2.** *yur.* dalil, isbot, isbotlash, isbot qilish
averruncator [ˌævərʌn´keɪtə] *n* tokqaychi, gulqaychi
averse [ə´vɜ:s] *a* nafratlanuvchi, yoqtirmaydigan (**to**)
aversely [ə´vɜ:slɪ] *adv* istamasdan, xohlamay
aversion [ə´vɜ:ʃ(ə)n] *n* nafrat; **one's pet ~** *hazil.* juda yoqtirmaslik (xush ko'rmaslik)
avert [ə´vɜ:t] *v* 1) ko'zini boshqa tomonga olib qochmoq; 2) (*biror noxushlik, xavfning*) oldini olish
Avesta [ə´vestə] *a fors.* Avesto (*Qadimgi Eron va turkiy xalqlarning diniy yodgorligi; zardushtiylikning muqaddas kitoblari (yozuvlari) to'plami*)
avian [´eɪvɪən] *a zool.* qushga (parrandaga) oid; qush.., parranda...
aviarist [´eɪvɪərɪst] *n esk.* parrandachi, parrandaboqar (*parrandachilik bilan shug'ullanuvchi kishi*)
aviary [´eɪvɪərɪ] *n* katak
aviate [´eɪvɪeɪt] *v* samolyotda uchmoq
aviation [ˌeɪvɪ´eɪʃ(ə)n] *n* aviatsiya
aviator [´eɪvɪeɪtə] *n* uchuvchi
aviculture [´eɪvɪˌkʌltʃə] *n* parrandachilik
avid [´ævɪd] *a* qizg'anchiq
avidity [ə´vɪdɪtɪ] *n* 1) ochko'zlik, suqlik; 2) hirs, ishtiyoq, havas; 3) qurumsoqlik, xasislik, baxillik, ziqnalik, qizg'anchiqlik
avidly [´ævɪdlɪ] *adv* qizg'anib, nokaslarcha
aviette [ˌeɪvɪ´et] *n* avietka (*kamquvvat motorli bir yoki ikki o'rinli samolyot*)
avifauna [ˌeɪvɪ´fɔ:nə] *n zool.* qush faunasi (*azaldan ma'lum joyda yashovchi qush turlarining majmuyi*)
avigation [ˌævɪ´geɪʃ(ə)n] *n amer.* 1) aeronavigatsiya, havo navigatsiyasi (*uchish apparatlariga yo'l ko'rsatib borish nazariyasi va amaliyoti*); 2) paroxod, samolyot kabilarni boshqarish ishlari
avionics [ˌeɪvɪ´ɒnɪks] *n* aviatsiya elektronikasi
avirulence [eɪ´vɪrjʊlənsˌ] *n biol.* virulentlik (*kasal yuqtirish, tarqatish xususiyati*)ning yo'qligi
avirulent [eɪ´vɪrjʊlənt] *a biol.* virulent (*kasal yuqtirish, tarqatish xususiyati*)ga oid bo'lmagan
aviso [ə´vaɪzəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) *bank.* avizo (*yuborilgan pul, mol va sh. k. haqida oluvchiga yo'llangan xabarnoma*)
avital [ə´vaɪtl] *a kit.* qadimgi, juda eski, qadim-qadim, qadimdan qolgan, qadimdan (qadim zamonlardan) mavjud bo'lgan
avitaminosis [eɪˌvaɪtəmɪ´nəʊsɪs] *n tib.* avitaminoz (*vitaminlar yetishmasligi natijasida yuz beradigan kasallik*)
avocado [ˌævə´kɑ:dəʊ] *n bot.* avokado (*lavrdoshlarga mansub doim yashil o'simliklar (daraxtlar) turkumi*)
avocation [ˌævə´keɪʃ(ə)n] *n kit.* 1) oddiy mashg'ulot, kasb, hunar; 2) moyillik, mayl, rag'bat, qiziqish, havas; iste'dod; **she is an artist by ~** u tabiatan tug'ma rassom, u rassom bo'lish uchun tug'ilgan
avoid [ə´vɔɪd] *v* o'zini chetga olmoq; **he ~ed danger** u xavfdan qutuldi; **to ~ smth., smb.** nimadandir, kimdandir o'zini olib qochmoq; **to ~ doing smth.** nimanidir qilmaslikka harakat qilmoq; **to ~ (danger) a mistake** (xavfdan) xatodan qutulmoq
avoidable [ə´vɔɪdəb(ə)l] *a* qilmaslik *yoki* uchratmaslik mumkin bo'lgan
avoidance [ə´vɔɪd(ə)ns] *n* 1) o'zini chetga olish; 2) bekor qilish
avoiding line [ə´vɔɪdɪŋˌlaɪn] *n yo'l.* aylanma (aylanib o'tishga mo'ljallangan) yo'l
avoidless [ɔ´vɔɪdlɔs] *a she'r.* bo'lishi aniq (muqarrar), albatta yuz beradigan, shak-shubhasiz bo'ladigan; qochib (qutulib, oldini olib) bo'lmaydigan
avolitional [ˌævə´lɪʃ(ə)nəl] *a kit.* 1) g'ayriixtiyoriy, beixtiyor; 2) erki o'zida bo'lmagan
avouch [ə´vaʊtʃ] *v* kafolat bermoq
avouchment [ə´vaʊtʃmənt] *n kit.* 1) bayonot; 2) ariza, arznoma, arz, arzi hol; 3) kafolat, kafillik; 4) e'tirof qilish, tan olish
avoue [ˌɑ:vu:´eɪ] *n fr.* 1) homiy, himoyachi; 2) advokat (*Fransiyada: fuqarolik ishlari bo'yicha*)
avoure [ə´vaʊə] *n yur. esk.* aybini tan olish
avouter(e) [ə´vaʊtə] *n* = **adulterer**
avow [ə´vaʊ] *v* tan olmoq
avowed [ə´vaʊd] *a* 1) ochiqdan ochiq tan olingan; 2) hamma e'tirof qilgan, hamma tan olgan
avowal [ə´vaʊəl] *n* tan olish
avowedly [ə´vaʊɪdlɪ] *adv* ochiqdan ochiq; yashirmasdan
avowment [ə´vaʊ(ə)mənt] = **avowal**
avowry [ə´vaʊrɪ] *n* 1) *esk.* himoyachi, homiy; 2) *yur.* qilgan ishini tan olish va uni oqlash
avowter [ɔ´vaʊtə] *n* = **adulterer**
avowterer [ə´vaʊtərə] *n esk.* (*er xotiniga, xotini eriga*) bevafolik (xiyonat) qilishda birgalikda qatnashgan sherik
avulse [ə´vʌls] *v esk.* 1) yulib olmoq, sug'urib olmoq; 2) kovlab (qazib) olmoq, kovlab (chiqarib) olmoq
avulsion [ə´vʌlʃ(ə)n] *n esk.* 1) uzish, uzib olish, uzib yuborish, ajratish, ajratib yuborish; 2) uzilgan joy, yoriq, darz; 3) yorilish, yorilib ketish, uzilish; 4) kuch ishlatib ajratish (bir-biridan judo qilish); 5) shilish, shilib olish
avuncular [ə´vʌŋkjələ] *a esk.* 1) amakiga (*yoki* tog'aga) tegishli, amaki(m)niki, tog'a(m)niki; 2) *hazil.* sudxo'rlikka (ijaraxo'rlikka, foydaxo'rlikka) oid; sudxo'rlik (ijaraxo'rlik, foydaxo'rlik)...; **an ~ relation** sudxo'r, ijaraxo'r, foydaxo'r
aw [ɔ:] = **awe, owe**
await [ə´weɪt] *v* kutmoq, kutib turmoq
awaiter [ə´weɪtə] *n esk.* xizmatkor, malay
awake [ə´weɪk] **1.** *v* (**awoke, awoken, awaked**) 1) uyg'otmoq; 2) qiziqish uyg'otmoq; 3) uyg'onmoq; **to ~ early** erta turmoq; **2.** *a predic.* tetik; **to be ~** uyg'oq (bedor) bo'lmoq
awaken [ə´weɪkən] *v* uyg'otmoq, qo'zg'atmoq
awakening [ə´weɪkənɪŋ] *n* uyg'onish, uyqudan turish; uyg'otish; **rude ~** ixlosi qaytish, ko'ngli g'oyat sovib ketish
awalt [´ɑ:wəlt] *adv vet.* kasalmand (dardchil) holatda (*odatda, qo'y haqida*)

a-wane [ə´weɪn] *adv esk.* 1) kamayib, ozayib, kamayib (ozayib) qolib, pasayib, pasayib ketib; 2) tushkunlikda, tushkun ahvolda

awanting [ə´wɔntɪŋ] *a esk.* yo'q (kam) bo'lgan, yetishmaydigan, kam chiqqan

award [ə´wɔ:d] **1.** *n* berish, tayinlash (*mukofot va b.*); **2.** *v* mukofotlamoq; **he was ~ed order** uni orden bilan taqdirladilar

aware [ə´weə] *a predic.* xabardor, biluvchi; **to be ~ of** bilmoq; xabardor bo'lmoq

awash [ə´wɒʃ] *a* suv bilan to'ldirilgan

a-waste [eɪ´weɪst] *adv esk.* bekor, behuda, befoyda; bekorga, behudaga

a-watch [ə´wɒtʃ] *adv esk.* hushyor bo'lib, sergak, ogoh

a-wave [ə´weɪv] *adv esk.* 1) hilpirab, pirpirab; hilpiratib, pirpiratib; 2) hayajonlanib, to'lqinlanib

away [ə´weɪ] **1.** *adv* uzoqda; **~ with you!** *so'zl.* yo'qol! ket! daf bo'l! bu yerdan yo'qol! tur yo'qol! **~ with you! I am tired of your company** bu yerdan ket! sening ulfatlaring jonimga tegdi; **~ from home** o'z uyidan yiroqda; **to go ~** ketmoq, ketib qolmoq; **far and ~** (*shun.*, **out and ~**) ancha, anchagina, ko'p, sezilarli (aytarli) darajada, nisbatan ko'p (ortiq, tez va h.), xiyla, ko'p (bir necha) marta; albatta, so'zsiz, shak-shubhasiz, tortishmay, shak-shubha qilmay, shubhasiz; **2.** *prep* yo'qligida; **to be ~** yo'q bo'lmoq (*uzoq vaqt*); **to be far ~** uzoqda bo'lmoq; **to go (to walk) ~** nari (nariga) ketmoq; **to drive ~** ketib qolmoq, jo'nab ketmoq (*mashinada*); **to sail ~** suzib ketmoq (*qayiq, kema va b.da*); **to run ~** yugurib ketmoq, qochmoq; **to swim ~** suzib ketmoq (*odam, baliq va b.*); **to move ~** uzoqlashmoq, uzoqqa ketmoq; **to look ~** teskari qaramoq, yuz o'girmoq; **to put ~** bir chetga qo'ymoq; **to take ~** tortib olmoq; **to throw ~** chiqarib tashlamoq, tashlab yubormoq; **to keep ~** chetda (aralashmay, ishtirok etmay) turmoq

away-team [ə,weɪ´ti:m] *n sport.* mehmonlar jamoasi

awe [ɔ:] **1.** *n* 1) qo'rqish; 2) izzat-ikrom; **2.** *v* qo'rqitmoq; **to hold** (*yoki* **to keep**) **in ~** (*shun.*, **to strike with ~**) o'zini yo'qotib qo'ymoq, qo'rquvdan (*yoki* hayajondan) qaltiramoq; **to stand in ~ of smb.** (*yoki* **smth.**) ortiq darajada hurmat qiladigan biror kishi (*yoki* biror narsa)dan qo'rqmoq, qaltirab turmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq

awearied [ə´wɪərɪd] *a esk.* charchagan, toliqqan, horg'in, horgan

aweary [ə´wɪ(ə)rɪ] *a predict. shoir.* (*nimadandir*) charchagan, toliqqan, holdan toygan, horgan

aweather [ə´weðə] *adv deng.* shamolga ro'para tomondan

a-week [ə´wi:k] *adv esk.* har hafta, haftada bir marta

a-weel [ə´wi:l] *int. shotl. esk.* 1) qani; 2) qo'y, qo'y-e, bor-e, qo'ysang-chi; 3) qursin, qurib ketsin

aweigh [ə´weɪ] *adv deng.* osilib turgan holda, osilib (*langar haqida*)

aweless [´ɔ:ləs] *a* qo'rqmas, dadil, mard, botir, dovyurak, qo'rqmaydigan, cho'chimaydigan, jasur

awesome [´ɔ:s(ə)m] *a* to'lqinlantiruvchi, hayajonga soluvchi

awe-strike [´ɔ:straɪk] *v esk.* qo'rquv hissini uyg'otmoq

awestruck [´ɔ:strʌk] *a* qo'rqqanidan hurmat qiladigan

awful [´ɔ:f(ə)l] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli; **~ weather** juda yomon havo; **it is ~!** bu dahshat

awfully [´ɔ:f(ə)lɪ] *adv so'zl.* juda ham, nihoyat darajada, benihoyat, g'oyat, haddan tashqari; dahshatli, vahimali, mudhish; **~ bad** juda yomon

awhile [ə´waɪl] *adv* ozgina; biroz, jindak; **let's wait ~!** biroz kutamiz!

a-whiles [ə´waɪlz] *adv esk.* 1) ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqtda, goho; onda-sonda, ahyon-ahyonda; ora-sira; 2) ayrim hollarda

a-whir [ə´wɜ:] *adv esk.* g'uvullab, g'o'ng'illab, vizillab

a-whirl [ə´wɜ:l] *adv esk.* 1) aylanib; 2) quyunda, girdobda

a-wing [ə´wɪŋ] *adv esk.* uchib, parvoz qilib, qanot qoqib

a-wink [ə´wɪŋk] *adv esk* ko'z qisib, ko'z qisib qo'yib, ko'z bilan imlab

awkward [´ɔ:kwəd] *a* qo'pol; beso'naqay (*odamlar, harakat va b.*); **~ movement** qo'pol harakat; **to feel ~** o'zini noqulay sezmoq, xijolat bo'lmoq

awkwardly [´ɔ:kwədlɪ] *adv* 1) qo'pollik bilan, qovushmay; 2) noqulay holda

awkwardness [´ɔ:kwədnəs] *n* qo'pollik, noqulaylik

awl [ɔ:l] *n* bigiz; **to pack up one's ~s and be gone** *kam. hazil.* (o'z) lash-lushlarini (ko'ch-ko'ronlarini) yig'ishtirib, o'z uyiga (kelgan joyiga) jo'nab qolmoq (ketmoq)

awn [ɔ:n] *n bot.* qiltiq, qiltanoq, qiltiriq (*g'alla, arpa va b. da*)

awnchaff [´ɔ:ntʃɑ:f] *n q.x.* o'zak (*zig'ir, nasha, kanop va sh. k. o'simliklar o'zagi*)

awned [ɔ:nd] *a bot.* qiltiqli, serqiltiq; **~ wheat** qiltiqli bug'doy

awning [´ɔ:nɪŋ] *n* bostirma

awningless [´ɔ:nɪŋləs] *a* bostirma (ayvon, shiypon, soyabon)siz

awnless [´ɔ:nləs] *a bot.* qiltiqsiz, qiltiriqsiz; **~ wheat** qiltiriqsiz bug'doy

a-wobble [ə´wɒbl] *adv esk.* titrab, qaltirab, tebranib, qaltiroq bosib, silkinib, chayqalib

awoke [ə´wəʊk] *past of* **awake**

a-work [ə´wɜ:k] *adv esk.* ish paytida, ishlayotganda, ish ustida

a-wrack [ə´ræk] *adv esk.* 1) buzilgan (xarob bo'lgan) holatda; 2) qarovsiz, huvullab qolgan

a-wreck [ə´rek] *adv esk.* 1) xaroba (vayrona, xarobazor)ga aylangan; 2) sinib tushgan, singan

awrong [ə´rɒŋ] *adv esk.* 1) noto'g'ri, xato, yanglish, yolg'on holatda; 2) yomon holatda

awry [ə´raɪ] *adv* 1) qiyshiq; 2) yonboshlab

ax(e) [æks] **1.** *n* bolta; **to have (got) an ~ to grind** o'z manfaatini ko'zlab (tama, g'araz bilan) ish tutmoq; qiziqqan kishi bo'lmoq **to lay the ~ to the root of smth.** ildiziga bolta urmoq, nimanidir yo'q qilishga kirishmoq; **(as) savage as a meat ~** g'azablangan, g'azabi kelgan, g'azabi qo'zg'agan, darg'azab bo'lgan, qoni qaynagan, juda jahli chiqqan; **to use the ~** *jarg.* (*asosan, ishchi o'rinlarini*) keskin qisqartirmoq; **the manager decided to use the ~ to solve his staff problem** ishchilar muammolarini hal etish maqsadida boshqaruvchi ishchi o'rinlarni keskin qisqartirishga qaror qildi; **with an ~ to grind** o'z manfaatini ko'zlab (tama, g'araz bilan) ish tutib; **to send the ~ after the helve** *kam.* oxirgi (so'nggi) marta tavakkal qilib ko'rmoq; bo'lmaydigan ishni bajaraman deb (qaysarlik, o'jarlik qilib) harakat qilib, tirishib ko'rmoq; **smb.'s** (*yoki* **the**) **~ falls (on)** kimningdir zarbasi (-ga) tushadi; **2.** *v* bolta bilan ishlamoq

axe-man [´æksmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) daraxt (yog'och) kesuvchi

axial [´æksɪəl] *v tex., mat.* o'qqa oid

axifugal [ˌæk´sɪfju:g(ə)l] *a* markazdan qochma *yoki* qochirma, markazdan qochadigan *yoki* qochiradigan

axil [´æks(ə)l] *n bot.* 1) qin (yaproq qini); 2) qo'ltiq, yaproq qo'ltig'i (*yaproq bandi asosi bilan poya orasidagi chuqurcha*)

axile [´æksaɪl] *a bot.* barg qo'ltig'idagi, barg qo'ltig'ida paydo bo'ladigan

axilla [æk´sɪlə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) *anat.* qo'ltiqosti chuquri

axillae [æk´sɪli:] *pl of* **axilla**

axillar, axillary [æk ´sılə, -rı] *a anat.* qo'ltiq ostidagi, qo'ltiqosti...; 2) *bot.* barg qo'ltig'idagi, barg qo'ltig'ida paydo bo'ladigan, qo'ltiq...

axiology [ˌæksı ´plədʒı] *n* aksiologiya (*qadriyat haqidagi ta'limot*)

axiom [´æksıəm] *n* aksioma (*isbotsiz qabul qilinadigan va boshqa da'volarning isboti uchun asos qilib olinadigan haqiqat*)

axiomatic [ˌæksıə´mætık] *a* o'z-o'zidan ko'rinib turgan, aniq, tushunarli

axiomatical [ˌæksə´mætık(ə)l] *a* aniq, tushunarli

axis [´æksıs] *n* (*pl* **axes** [-i:z]) *tex.* o'q (*mashina va b. da*)

axis deer [´æksıs,dıə] *n zool.* olachipor (xol-xol) bug'u

axle [´æks(ə)l] *n tex.* o'q (*mashina va b. da*)

axle-bearing [´æks(ə)l,be(ə)rıŋ] *n tex.* buksa (*vagon, lokomotiv g'ildiragining gupchagi*)

axle-box [´æks(ə)l,bɔks] *n tex.* buksa (*vagon, lokomotiv g'ildiragining gupchagi*)

axled [´æks(ə)ld] *a tex.* o'qqa oid

axle-journal [´æksl,dʒɜ:nl] *n tex.* sapfa (*o'q yoki valning podshipnikda aylanuvchi qismi, bo'yni*)

axle-tooth [´æksltu:θ] *n* (*pl* **-teeth** [-ti:θ]) *esk. dial.* oziq tish, jag' tishi

axle-pin [ˌæks(ə)lpın] *n tex.* chuv, cheka (*arava o'qining g'ildirakni tutib turadigan qulog'i*)

axle-tree [´æks(ə)l,tri:] *n* g'ildirak o'qi

axman [´æksmən] = **axe-man**

Axminster [´æksmınstə] *n* qo'lda to'qilgan gilam (*shun.* **an ~ carpet, an ~ rug**)

axoidean [æk´sɔıdıən] = **axial**

axon, axone [´æksɒn, ´æksəon] *n anat.* akson (*asab hujayrasi (neyron)ning sistemasi*)

axonometry [ˌæksə´nɒmıtrı] *n mat.* aksonometriya (*narsalarni chizmada parallel proyeksiyalar yordamida tasvirlash usuli*)

axstone [´æksstəon] *n min.* nefrit (*yashil yoki sarg'ish sarg'ish yarim shaffof mineral*)

axunge [´æksʌndʒ] *n so'zl.* moy, yog'

ay [eı] **1.** *adv dial.* doimo, hamisha, hamma vaqt, abadiy; **for ~, for ever and ~** umrbod, abadiy, batamom; **2.** *int.* 1) *dial.* (*ajablanish, hayrat, qo'rquv kabi his-tuyg'ularni ifodalovchi undov so'z*) ax! voy-vo! 2) **~ me** evoh! hayhot! voy! voh! afsus!

aye [aı] *n* ijobiy (ma'qullaydigan) javob, ovoz berishda „tarafdor" degan ma'noni beradi; **the ~s have it** ko'pchilik tarafdor

a-year [ə´jɜ:] *adv esk.* yilda, har yilda bir

a-yelp [ə´jelp] *adv esk.* baqirib, qichqirib, chinqirib, dod solib, chiyillab

ayemer [´eımə] *n teatr.* tonggi dasturlarda chiqadigan aktyor

ayenbite [ə´jenbaıt] *n esk.* 1) vijdon azobi; 2) achinish, afsuslanish, pushaymon bo'lish, o'kinish

ayne [eın] *a esk.* katta (yoshi katta), to'ng'ich, bosh

ayrie [´e(ə)rı] = **aerie**

azalea [ə ´zaılıə] *n bot.* azaliya (*manzarali o'simlik*)

azeotrope [ə´zi:ətrəop] *n kim.* azeotrop aralashma (*muayyan bosim ostida haydalganda komponentlarga ajralmaydigan suyuq aralashma*)

Azerbaijan [ˌæzəbaı´dʒɑ:n] *n* Ozarbayjon

Azerbaijanese [ˌæzəbaı´dʒɑ:ni:z] *n* 1) ozarbayjonlik (erkak, ayol); 2) ozarbayjon tili

Azerbaijanian [ˌæzəbaı´dʒɑ:nıən] *a* Ozarbayjonga (*ozarbayjonlikka*) oid

Azilian [ə´zılıən] *a arxeol.* paleolit (*eng qadimgi tosh davri*)ning oxiriga tegishli bo'lgan

azimuth [´æzıməθ] **1.** *n* azimut (*astr. kuzatish nuqtasi orqali o'tgan meridian tekisligi bilan shu nuqta va biror yulduz, planeta yoki narsa orqali o'tkazilgan tik tekislik o'rtasidagi burchak*); **2.** *attr.* azimutga oid; **an ~ circle** bussol (*geodeziyada: burchak o'lchash asbobi*)

azimuthal [ˌæzı´mu:θ(ə)l] *a* azimutga va uni aniqlashga oid; azimutni aniqlaydigan; azimutal

azo dyes [´æzə(ʊ) ´daız] *n kim.* azobo'yoqlar (*to'qimachilik materiallari, teri, qog'oz, rezina, plastmassalarni bo'yashda qo'llaniladigan azobirikmalar*)

azoic [eı´zəʊık] *a* o'lik, jonsiz

azonic [æ´zɒnık] *a* hech qanday mintaqa (zona) bilan chegaralanmagan

azoospermia [ə,zəʊə ´spɜ:mıə] *n vet.* azoospermiya (*spermatozoidlarning spermada mavjud bo'lmasligi*)

azote [ə´zəʊt] *n* azot

azoth [´æzɒθ] *n* simob (*alkimyo (hozirgi kimyoning ibtidosi)da*)

azotic [ə´zəʊtık] *a* tarkibida azot bo'lgan, azotli; **~ acid** azot kislotasi

azotize [ə ´zəʊtaız] *v kim.* azotlamoq (*metall (asosan, po'lat va titan) buyumlarning qattiqligi, yeyilishga va zanglashga chidamliligini oshirish maqsadida ularning sirtini azotga to'yintirmoq*)

azotobacter [ə´zəʊtə,bæktə] *n bakt.* azotobakter (*tuproqda yashaydigan va havodagi azotni o'zlashtira oladigan bakteriyalar*)

azotobacterin [ə,zəʊtə ´bækt(ə)rın] *n* azotobakterin (*tarkibida azobakter bakteriyalari bo'lgan o'g'it*)

Azores [ə´zɔ:z] *n* : **the ~** Azor orollari

Azrael [´æzreı(ə)l] *n* Azroil (*islomda e'tiqod qilinadigan to'rt farishtaning biri, Xudo amri bilan odamlar jonini oluvchi*)

azuline [´æzjʊlaın] *n* moviy (ko'k, havo, lojuvard) rang

azurine [´æʒʊraın] *a* och-ko'k

azurite [´æʒʊraıt] *n min.* azurit (*mis lazuri, karbonatlar sinfiga mansub mineral*)

azure [´æʒə] **1.** *a* lojuvard; **2.** *n she'r.* osmon

azury [´æʒ(ə)rı] *a* 1) havorang, zangori, moviy; 2) ko'kka moyil, ko'kimtir, ko'kroq, ko'kish

azygous [´æzıgəs] *n maxs.* juft emas, toq; poyma-poy

B

B, b [bi:] *n pl* 1) ingliz alifbosining ikkinchi harfi; 2) *mus.* si (*notasi*)

baa [bɑ:] **1.** *n* qo'yning ma'rashi; **2.** *v* ma'ramoq (*qo'y va echkilar haqida*)

Baal [´bɑ:l, ´beıəl] *n* (*pl* **Baalim**) 1) Vaal *yoki* Baal (*Falastin va Suriyada: hosildorlik, suv, bo'ron va harbiy jasorat xudosi*); 2) but, sanam

baa-lamb [´bɑ:læm] *n bol.* qo'zi, qo'zichoq

Baalim [´bɑ:lım, ´beıəlım] *pl of* **Baal**

Baalish [´bɑ:lı], ´beıəlıʃ] *a* 1) *afs.* Vaal va vaalliklarga oid; 2) butparastlik va butparastlarga oid; butparastlik...; butparastlar...

Baalism [´beıəlızm] *n* 1) Vaalga sajda qilish (sig'inish); 2) butparastlik

Baalist [´beıəlıst] *n* 1) Vaal xizmatchisi (xodimi); 2) butparast yosh bola, kichkintoy; o'g'ilcha

baba I [´bɑ:bɑ:] *n bol.* dada, ota, ada

baba II [´bɑ:bɑ:] *n fr. oshx.* rom solib pishirilgan oq bulkacha

babbie [´bæbı] *n* chaqaloq, bola, go'dak

babbit [´bæbıt] = **babbitt**

Babbit-metal [´bæbıt´metl] *n metal.* babbit (*qalay, surma, mis qotishmasi*)

Babbitry [´bæbıtrı] *n* tor manfaatparastlik, o'z tirikchiligidan boshqani o'ylamaslik

babbitt [´bæbıt] *tex.* **1.** *n* babbit (*qalay, surma, mis qotishmasi*); **2.** *v* babbit quymoq (yurgizmoq)

babblative [ˈbæblətɪv] *a kam.* 1) sergap, ezma, vaysaqi; 2) sir saqlay olmaydigan, og'zi bo'sh
babble [ˈbæbl] **1.** *n* shildirash; g'uldirash; **2.** *v* shildiramoq; g'uldiramoq
babblement [ˈbæblmənt] *n* shildirash; g'uldirash
babbler [ˈbæblə] *n* sergap odam, ezma
babbling [ˈbæblɪŋ] *a* 1) sergap, ezma, vaysaqi, ko'p gapiradigan, hech kimga gap bermaydigan; 2) shildirovchi, shildir-shildir qiluvchi; **a ~ brook** a) shildirab oquvchi jilg'a; b) *jarg.* sergap ayol
babby [ˈbæbɪ] = **babbie**
babe [beɪb] *n* 1) yangi kelgan kishi; 2) tajribasiz odam
babehood [ˈbeɪbhʊd] = **babyhood**
babel [ˈbeɪbl] *n* qiyomat-arosat, qiy-chuv, to's-to'polon; shovqin-suron
babies'-breath [ˈbeɪbɪzbreθ] *n bot.* 1) qamg'oq, sho'rak; 2) chaqamiq, qumrio't
baboo [ˈbu:bu] *n hind.* xo'jayin, janob, taqsir (*murojaat uchun ishlatiladi*)
baboon [bə ˈbu:n] *n* babuin (*maymun*)
baboonery [bə ˈbu:nrɪ] *n* 1) maymunlar koloniyasi (*to'p-to'p bo'lib yashovchi yoki biror yerda to'plangan maymunlar to'dasi*); 2) qiyshanglash, tannozlik qilish, nozlanish; tantiqlik; yomon (yaramas) yurish-turish; **stop this ~!** nozlanishni bas qiling! o'zingizni yaxshi tuting! odob bilan muomala qiling!
baboonish [bə ˈbu:nɪʃ] *a* maymunga o'xshagan, maymunsimon; **~ manners** maymunning qiliqlari; yomon (yaramas) qiliqlar
babouches [bə ˈbu:ʃɪz] *n pl* babushi (*o'kchadan yuqori qismisiz tufli*)
babu [ˈbɑ:bu:] = **baboo**
babuina [ˌbæbju:ˈaɪnə] *n zool.* babuin (*maymun turi*)ning urg'ochisi
babushka [bə ˈbʊʃkə] *n rus.* boshga o'raydigan ro'mol; kosinka, uchburchak ro'mol, qiyiq ro'mol
baby [ˈbeɪbɪ] **1.** *n* go'dak, chaqaloq; **2.** *a* bolalarga xos bo'lgan
baby-beef [ˈbeɪbɪbi:f] *n* (*pl* **-beeves** [-bi:vz]) 1) 12 dan 20 oygacha bo'lgan buzoq; 2) *shun., sing.* buzoq go'shti (*ovqat sifatida*)
baby blue [ˌbeɪbɪ ˈblu:] *n* och zangori (moviy) rang
baby buggy [ˈbeɪbɪˌbʌgɪ] *n amer.* bolalar kolyaskasi (aravachasi)
baby-farm [ˈbeɪbɪfɑ:m] *n* bolalarni pulli tarbiyalash uchun qabul qilib oladigan oila
baby-farmer [ˈbeɪbɪˌfɑ:mə] *n* bolalarni (pulli) tarbiyalash uchun oladigan ayol
baby(-)grand [ˌbeɪbɪˈgrænd] *n* xonabop kichik royal (*shun.*, **a ~ piano**)
babyhood [ˈbeɪbɪhʊd] *n* bolalik, go'daklik
baby-house [ˈbeɪbɪhaʊs] *n* qo'g'irchoq bilan bezatilgan xona
babyish [ˈbeɪbɪɪʃ] *a* bolalarga xos bo'lgan
babyism [ˈbeɪbuzm] *n* 1) bolalarcha xulq-atvor, bolalik, bachkanalik, yengiltaklik; 2) bolalarga xos bo'lgan so'z *yoki* ibora
baby-jumber [ˈbeɪbɪˌdʒʌmpə] *n* hali yurishni bilmaydigan chaqaloqni tutib turadigan moslama
baby-like [ˈbeɪbɪlaɪk] **1.** *a* bolalarga oid; bolalarcha, bolalarga xos; bolalar...; bolalik...; **2.** *adv* xuddi bolalardek (kabi, singari)
Babylon [ˈbæbɪlən] *n* 1) Vavilon; 2) *jarg.* Vavilon, papa (*katolik cherkovining boshlig'i*) taxti (*Vatikan haqida*)
Babylonian [ˌbæbɪˈləʊnɪən] *n* 1) *tar.* Vavilonda istiqomat qiluvchi (yashovchi) kishi; 2) *tar.* katolik (*katoliklar mazhabidagi kishi*); 3) astrolog (*astrologiya (ilmi nujum) bilan shug'ullanuvchi odam*)
baby-minding [ˈbeɪbɪˌmaɪndɪŋ] *n* bolani boqish, bolani tarbiyalash
baby-moon [ˈbeɪbɪmu:n] *n so'zl.* yerning sun'iy yo'ldoshi
baby-sit [ˈbeɪbɪsɪt] *v so'zl.* qatnab ishlaydigan enaga bo'lmoq
baby-sitter [ˈbeɪbɪˌsɪtə] *n* qatnab ishlaydigan enaga
baby-snatcher [ˈbeɪbɪˌsnætʃə] *n* 1) bolalarni o'g'irlovchi; 2) *hazil.* yosh bola o'g'risi (*o'zidan kichkina kishiga turmushga chiqqan kampirlar haqida*)
baby-snatching [ˈbeɪbɪˌsnætʃɪŋ] *n* bolalarni o'g'irlash
baby talk [ˈbeɪbɪtɔ:k] *n* tili chiqa boshlagan bolaning noaniq gapi
baccalaurean [ˌbækəˈlɔ:rɪən] *a kit.* bo'ydoqlikka va bo'ydoq(lar)ga oid; bo'ydoqlik (bo'ydoq)...
baccalaureate [ˌbækəˈlɔ:rɪət] *n* bakalavr darajasi
baccarat [ˈbækərɑ:] *n qart.* bakkara (*qarta o'yinining bir turi*)
baccate [ˈbækeɪt] *a bot.* mayda meva shaklidagi, mayda (reza) mevaga o'xshagan
bacchanal [ˈbækənl] **1.** *n* 1) Baxus (*sharob xudosi*)ga sig'inuvchi, sajda qiluvchi kishi; 2) ichkilikboz, araqxo'r, piyonista; 3) shodiyona qo'shiqlar; shodiyona raqslar; **2.** *a* 1) Vakxga va vakxanaliya bayramiga oid, shu bayramlarda aytiladigan; vakxanaliya...; 2) ishratparast, aysh-ishratga (kayf-safoga) berilgan
Bacchanalia [ˌbækəˈneɪlɪə] *n pl tar.* vakxanaliya (*Qadimgi Rimda: may va aysh-ishrat xudosi Vakx-Baxus sharafiga qilingan bayram*)
bacchanalian [ˌbækəˈneɪlɪən] **1.** *n kit.* maishatparast odam, ishratparast. **2.** *a* ishratparast, aysh-ishratga (kayf-safoga) berilgan
bacchanalize [ˈbækənəlaɪz] *v kit.* 1) aysh-ishratga (kayf-safoga) berilib ketmoq; 2) aysh-ishratga (kayf-safoga) aylantirmoq
Bacchant(e) [bəˈkæntɪ] *n* aysh-ishratga berilgan ayol
Bacchantic [bəˈkæntɪk] *a* Vakxga va vakxanaliya bayramiga oid, shu bayramlarda aytiladigan, vakxanaliya...
bacchic [ˈbækɪk] *a* 1) *afs.* Vakxga oid; 2) maishatparast
Bacchus [ˈbækəs] *n afs.* Baxus, Vakx (*Qadimgi Rimda may va aysh-ishrat xudosi*)
bacciform [ˈbæksɪfɔ:m] *a bot.* mayda (reza) mevaga o'xshagan, mayda meva shaklidagi
baccivorous [bækˈsɪvrəs] *a* mayda mevalarni yeb kun ko'radigan (yashaydigan)
baccy [ˈbækɪ] *n so'zl.* (**tobacco** *so'zining qisqartmasi*) tamaki
bach [bætʃ] *n* (**bachelor** *so'zining qisqartirilgan shakli*) bo'ydoq, uylanmagan
bachelor [ˈbætʃələ] *n* 1) bo'ydoq; 2) bakalavr (*universitetni bitiruvchilarga beriladigan eng kichik ilmiy daraja*)
bachelorhood [ˈbætʃələhʊd] *n* 1) bo'ydoqlik davri; 2) bakalavr darajasi
bachelorism [ˈbætʃələrɪzm] *n* bo'ydoqlik odati
bechelor's-button [ˈbætʃələzˌbʌtn] *n bot.* ayiqtovon (*zaharli o't*)
bachelorship [ˈbætʃələʃɪp] *n* 1) bakalavr darajasi; 2) bo'ydoqlik davri
bacillary [bəˈsɪlərɪ] *a maxs.* 1) batsillaga oid; 2) tayoqchaga o'xshagan, tayoqchasimon
bacilli [bə ˈsɪlaɪ] *n* batsilla (*tayoqcha shaklidagi bakteriya*)
bacilli-carrier [bə ˈsɪlaɪˌkærɪə] *n tib.* batsilla tarqatuvchi odam yoki hayvon
bacilliform [bəˈsɪlɪfɔ:m] *a maxs.* 1) batsillaga oid; 2) batsillaga o'xshagan; batsillasimon; 3) tayoqchaga o'xshagan, tayoqchasimon
bacillus [bə ˈsɪləs] *n* (*pl* **bacilli** [-laɪ]) batsilla (*tayoqcha shaklidagi bakteriya*)
back [bæk] **1.** *n* 1) orqa; 2) bir tomoni ochiq katta yog'och bochka; **2.** *adv* orqaga; **3.** *v* qo'llamoq; **to ~ a plan** rejani qo'llamoq; **to ~ down** (*nimadandir*)

bosh tortmoq; **to ~ out** qatnashishdan bosh tortmoq; **to ~ up** qo'llab-quvvatlamoq; **4.** *prep.* orqadagi

backache [ˈbækeɪk] *n* beldagi og'riq, bel og'rig'i

back action [ˌbækˈækʃn] *n tex.* 1) tisarilish, orqaga tislanish; 2) teskari (aks, zid, qarama-qarshi) harakat

back-answer [ˈbækˌɑ:nsə] = **back-talk**

back-arching [ˈbækˌɑ:tʃɪŋ] *n* belni bukish (*gimnastikada*)

back-axle [ˌbækˈæksl] *n tex.* ketingi (orqadagi) ko'prik (*avtomobil shassisining o'qlar o'rnatilgan qismi*); ketingi (orqadagi) o'q

backband [ˈbækbænd] *n* tirkish (*ot-arava jabdug'i*)

back-bencher [ˌbæk ˈbentʃə] *n* parlamentning oddiy a'zosi, „oxirgi qatorda o'tiradiganlar"

back-bend [ˈbækbend] *n* belni orqaga bukib hosil qilingan ko'prik (*gimnastikada*)

backbit [ˈbækbɪt] *past. of* **backbite**

backbite [ˈbækbaɪt] *v* (**backbit; backbitten**) yomonlamoq; orqasidan yomonlab gapirmoq

back-blocks [ˈbækblɒks] *n pl avstr. so'zl.* aloqa yo'llaridan uzoqdagi joy; chekka joy

back-blow [ˈbækbləʊ] *n* kutilmagan zarba; to'satdan urilgan zarba, nogahoniy (tasodifiy) zarba

backboard [ˈbækbɔ:d] *n* yog'och suyanchiq (*qayiq yoki aravada*)

backbone [ˈbækbəʊn] *n* 1) *anat.* umurtqa; 2) asos, mohiyat

back-breaker [ˈbækˌbreɪkə] *n jarg.* 1) tish o'tmaydigan narsa, epga solib (uddalab) bo'lmaydigan odam; 2) qiyin ish, og'ir masala; 3) juda og'ir (mashaqqatli) mehnat (ish)

back-breaking [ˈbækˌbreɪkɪŋ] *a* juda og'ir; mashaqqatli; **~ labour** mashaqqatli ish

back-cast [ˈbækkɑ:st] *a* orqaga tashlangan (uloqtirilgan, uloqtirib yuborilgan); **a ~ glance** orqaga qarash

backcast [ˈbækkɑ:st] *n dial.* orqaga (qarama-qarshi tomonga, teskari tomonga) qarab irg'ish, tashlash

back-chain [ˈbæktʃeɪn] *n* tirkish (*ot-arava jabdug'i*)

back-chat [ˈbæktʃæt] *n so'zl.* qo'rs javob

back-cloth [ˈbækklɒθ] *n teatr.* to'rdagi dekoratsiya

back-coat [ˈbækkəʊt] *n qur.* suvash, surkash, chaplash

back country [ˈbækˌkʌntrɪ] *a* aholi kam joylashgan markazdan uzoq hududlar

back-countryman [ˈbækˌkʌntrɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *amer.* qoloq (orqada qolgan) odam, ko'p narsadan xabarsiz odam, go'l odam

back-court [ˈbækkɔ:t] *n* 1) *sport.* himoya chizig'i; 2) *q.x.* qushxona, parrandalar saqlanadigan (boqiladigan) bino *yoki* mol hovli (mol saroy)

backdate [ˌbækˈdeɪt] *v* (*nimanidir*) o'tib ketgan sana bilan o'tkazmoq

backdoor [ˌbækˈdɔ:] **1.** *n* zaxira (maxfiy) yo'l; **2.** *a* yashirin, maxfiy

backdown [ˈbækdaʊn] *n* chekinish

back-draught [ˈbækdrɑ:ft] *n* 1) orqaga (qarama-qarshi tomonga) tortuvchi kuch; 2) orqaga tashlanish (*dvigatel haqida*)

backdrop [ˈbækdrɒp] *n teatr.* to'rdagi dekoratsiya

backed [bækt] *a* suyanchig'i bor, suyanib o'tirsa bo'ladigan, suyanchiqli

backen [ˈbækən] *v esk.* 1) orqaga surmoq, kechiktirmoq, kechiktirib yubormoq, oldindan qo'yib yubormaslik; 2) orqaga tashlab yubormoq

back-end [ˌbækˈend] *n* oxirgi qism

backer [ˈbækə] *n* 1) qo'llaydigan kishi; 2) tarafdor

backet [ˈbækɪt] *n* 1) uncha chuqur bo'lmagan chan (*bir tomoni ochiq yog'och bochka*); 2) tog'oracha, kichkina tog'ora; 3) chetan, qirtil (*baliq tutadigan voronkasimon savat*)

backfall [ˌbækˈfɔ:l] *n sport.* orqa bilan yiqilish (*kurashda*)

back fat [ˈbækfæt] *n* 1) shpik (*tuzlangan, ba'zan dudlangan cho'chqa yog'i*); 2) orqadagi (*hayvon tanasining orqasida joylashgan*) yog' (moy)

backfill [ˈbækfɪl] **1.** *n* 1) ariq (zovur, chuqur, o'yilgan joy)ni biror narsa solib (tashlab, to'kib) to'ldirmoq; 2) (*ariq, zovur va b. ni*) to'ldirish uchun ishlatiladigan material; **2.** *v* oldin qazilgan chuqurni biror narsa solib to'ldirmoq

backfiller [ˈbækˌfɪlə] *n yo'l.* to'ldiradigan (ko'madigan) mashina

back-fire [ˌbækˈfaɪə] *n amer.* o'rmondagi yong'inni o'chirish maqsadida qarama-qarshi tomondan (*sun'iy ravishda*) yoqiladigan gulxan

backfisch [ˈbækfɪʃ] *n* qizcha

back-formation [ˈbækfɔ:ˌmeɪʃən] *n tilsh.* qaytadan so'z yasash

back-frame [ˈbækfreɪm] *n* o'rtadagi to'sin (*mototsikl va b. da*)

backfriend [ˈbækfrend] *n shotl. esk.* 1) yolg'ondakam (yolg'on, soxta) do'st; 2) maxfiy dushman

backfurrow [ˈbækˌfʌrəʊ] *n q.x.* buzib tashla(n)gan ariq (egat, jo'yak)

backgammon [ˈbækgæmən] *n* triktrak (*o'yin*)

background [ˈbækgraʊnd] *n* orqa tomoni; **to stay in the ~** panada qolmoq

back-hair [ˌbæk ˈheə] *n* ayollarning uzun sochlari; kokil, soch o'rimi

backhand [ˈbækhænd] *n* chap tomondan urish (*tennisda*)

backhanded [ˌbækˈhændɪd] *a* qo'lning orqa tomoni bilan urilgan (*zarba to'g'risida*)

backhandedness [ˌbækˈhændɪdnəs] *n* 1) qovushmaganlik, kelishmaganlik, o'xshamaganlik (*ishda*); 2) beparvolik, sovuqqonlik, e'tiborsizlik, pala-partishlik; 3) shubhali maqtov, xushomad; 4) nozik shama

back-hander [ˈbækhændə] *n* 1) qo'lning orqa (teskari, tashqi) tomoni bilan urish; 2) *jarg.* orqadan pichoq suqmoq; 3) temirchining shogirdi (yordamchisi)

back-haul [ˈbækhɔ:l] *n tem. y.* bo'sh (yuksiz) vagonlarni yetkazib (eltib) berish

backhouse [ˈbækhaʊs] *n amer.* 1) hov lidagi bino; 2) hojatxona

backie(-bird) [ˈbækɪ(bɜ:d)] *n shotl.* ko'rshapalak

backing [ˈbækɪŋ] *n* qo'llab-quvvatlash; yordam, madad, dalda

back-jack-knife [ˈbækdʒækˈnaɪf] *n* qaddini bukib suvga sakrash

backlash [ˈbæklæʃ] *n tex.* to'xtash nuqtasi

backless [ˈbækləs] *a* orqa tomoni kesib tashlangan (*kiyim*)

backlog [ˈbæklɒg] *n iqt.* qarzdorlik

back-lying [ˈbækˌlaɪŋ] *n* orqa bilan yotish holati (*gimnastikada*)

backmost [ˈbækməʊst] *a* eng oxirgi, orqadagi, so'nggi

backpack [ˈbækpæk] *n* safar xalta, yuk xalta

backpage [ˈbækpeɪdʒ] *n* 1) (kitobning) chapdagi sahifasi; 2) varaqning orqa tomoni; oxirgi varaq

back pay [ˈbækpeɪ] *n amer.* oylik (maosh) berishning kechiktirilishi

back-pedal [ˌbækˈpedl] *v* 1) velosiped yurishini sekinlatmoq (*yoki* to'xtatmoq); 2) *jarg.* (*ishda*) sustkashlik qilmoq; (*ishni*) cho'zmoq, orqaga sudramoq, kechiktirmoq, to'xtatmoq, (*ishga*) xalal bermoq, ishning borishiga to'sqinlik qilmoq, susaytirib qo'ymoq; 3) so'zidan, fikridan qaytmoq, gapidan (fikridan) aynimoq

back-piece [ˈbækpi:s] *n* 1) *tex.* sovutning orqa qismi; 2) kiyim va b. ning orqasi

back-plate [ˈbækpleɪt] = **back-piece**

backrest [ˈbækrest] *n* suyanchiq (*stul va b. da*)

back-road [ˈbækrəʊd] *n* qishloq yo'li, tuproq yo'l
backroom [ˌbækˈruːm] *n so'zl.* yashirin, maxfiy bo'lim (qism)
back-rope [ˈbækrəʊp] *n* tirkish (*otarava jabdug'i*)
back-scratcher [ˈbækˌskrætʃə] *n* 1) orqani qashish uchun ishlatiladigan kaltak (tayoq); 2) xushomadgo'y, laganbardor, tilyog'lamachi
back-set [ˈbækset] *n* 1) xalal, xalaqit; to'siq, to'sqinlik, g'ov; qarshi harakat, teskari harakat, qarshi ta'sir, aks ta'sir; 2) teskari (qarama-qarshi) oqim; kichkina girdob (aylanma); 3) *q.x.* (*yerni*) yangidan haydash
backset [ˈbækset] *v amer. q.x.* (*yerni*) qaytadan (yangidan) haydamoq
back settlement [ˌbækˈsetlmənt] *n amer.* uzoq (olis, yiroq) manzilgoh
back-settler [ˌbækˈsetlə] *n amer.* uzoq joyda istiqomat qiluvchi (yashovchi, turuvchi) odam (kishi)
back-shift [ˈbækʃɪft] *n tog'.* ikkinchi smena (*smena – o'rin almashinib ishlovchi, o'quvchi, dam oluvchi va sh. k. kishilar guruhining boshqa kishilar guruhi bilan almashinuviga qadar davom etadigan vaqt bo'lagi*)
back shop [ˈbækʃɒp] *n* yordamchi (ko'makchi) ustaxonalar (ishxonalar)
back-shot [ˈbækʃɒt] *n avt.* „otish" glushitel (*ovozni, shovqinni pasaytiradigan asbob, moslama*)da
backside [ˈbæksaɪd] *n* 1) orqa (teskari) tomon; 2) orqa, ort, ket; 3) *dial.* a) hovlidagi binolar; b) hojatxona
backsight [ˈbæksaɪt] *n harb.* mo'ljallagich, nishonga olgich (*o'q otadigan qurollarda nishonga olish moslamasi*); **~ leaf** *harb.* nishonga olish plankasi (*uzun taxtachasi*)
back slang [ˌbækˈslæŋ] *n* teskari talaffuz qilinadigan so'zlar jarayoni (*mas., mis – sim*)
backslapper [ˈbækˌslæpə] *n kamsit.* ko'ngli ochiq (sodda) odam
back-slapping [ˈbækˌslæpɪŋ] *n* ma'qullab, yelkaga urib qo'yish
backslide [bækˈslaɪd] *v* dindan chiqmoq
backslider [ˌbækˈslaɪdə] *n* 1) *din.* dindan qaytgan kishi, murtad; 2) xoin, o'z maslagidan (e'tiqodidan) qaytgan odam
backsliding [ˌbækˈslaɪdɪŋ] *n* 1) *din.* dindan qaytish, kufr ketish, murtadlik; 2) maslagidan qaytish (qaytganlik), xoinlik, murtadlik; 3) retsidiv (*1. kasalning qaytalanishi, qo'zishi; 2. yur. jinoyatning takrorlanishi*)
backspin [ˈbækspɪn] *n* (*koptok, soqqa va b. ning*) teskari aylanma harakati
backstage [ˈbæksteɪdʒ] *a* parda (sahna) orqasida; yashirin
backstairs [ˈbæksteəz] *n pl* pana zina, yashirin yo'l
backstay [ˈbæksteɪ] *n tex.* tortuvchi arqon va h. k.; tortqi; tirgak
backstitch [ˈbækstɪtʃ] *n* chok, mashina choki
backstop [ˈbækstɒp] *n* to'siq, g'ov; devor
backstroke [ˈbækstrəʊk] *n* javob tariqasida berilgan zarba
backswept [ˈbækswept] *a* orqaga taralgan
backswing [ˈbækswɪŋ] *n* orqaga o'qtalish (*koptokni urayotganda*)
backsword [ˈbæksɔːd] *n tar.* ikki tig'li qilich
back-talk [ˈbæktɔːk] *n so'zl.* qo'rs javob; e'tiroz, qarshilik
backtrack [ˈbæktræk] *v* chekinmoq
back-up [ˈbækˈʌp] *n* dublyorlik qilish (*kosmonavtikada*)
backward [ˈbækwəd] 1. *adv* qarama-qarshi (orqa) tomonga; 2. *a* orqada qolmoq
backwardness [ˈbækwədnəs] *n* orqada qolish; qoloqlik, orqada qolganlik, ulgurmaslik
backwards [ˈbækwədz] *adv* orqaga; qarama-qarshi tomonga; orqasi bilan, teskari (orqa) tomonga
backwash [ˈbækwɒʃ] *n* qarama-qarshi oqim
backwater [ˈbækˌwɔːtə] *n* daryo *yoki* ko'l qo'ltig'i; qo'ltiq
back-way [ˈbækweɪ] *n* 1) qo'shimcha eshik, orqa yo'l, orqa eshik; 2) aylanma yo'l; **there is no ~** faqat bitta yo'l bor
backwoods [ˈbækwʊdz] *n pl* o'rmonning odam oyog'i yetmagan joylari
backwoodsman [ˈbækwʊdzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) o'rmonning ichkarisida, xilvat joyida yashovchi odam
back-word [ˈbækwɜːd] *n dial.* 1) va'dani bajarmaslik; 2) qo'pol javob
back-yard I [ˌbækˈjɑːd] *n* 1) uy orqasidagi hovli yoki bog'cha, tomorqa, tomorqadagi yer; 2) poliz; poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer
back-yard II [ˌbækˈjɑːd] *a* mahalliy, shu yerli, tubjoy; **~ production** mahalliy mahsulot
backyarder [ˌbækˈjɑːdə] *n* mayda ishlab chiqaruvchi (*tovuq, quyon va b. ni tomorqadagi hovlida boquvchi, ko'paytirib parvarish qiluvchi*)
bacon [ˈbeɪkən] *n* bekon, dudlangan cho'chqa go'shti; **to save one's ~** o'z jonini panaga olib qochmoq
bacony [ˈbeɪkənɪ] *a* 1) yog'i ko'p, seryog', sermoy, yog'li; 2) semiz, bo'rdoqi; 3) yog' bosgan, yog' bosib ketgan; **a ~ liver** *tib.* yog' bosgan jigar
bacteria [bækˈtɪrɪə] *pl of* **bacterium**
bacterial [bækˈtɪrɪəl] *a* 1) bakteriyaga oid, bakteriya...; **~ action** mikroblarning faoliyati; **~ equilibrium of soil** *q.x.* tuproqning bakterial balansi (*olingan va sarflangan energiya nisbati*)
bacterian [bækˈtɪrɪən] = **bacterial**
bactericidal [bækˌtɪrɪˈsaɪdl] *a bakt.* bakteriyalarni o'ldiradigan, qiradigan, bakteritsid
bacteriological [bækˌtɪrɪəˈlɒdʒɪkl] *a* bakteriologiyaga oid; bakteriologik
bacteriologist [bækˌtɪrɪˈɒlədʒɪst] *n* bakteriolog (*bakteriologiya mutaxassisi*)
bacteriology [bækˌtɪrɪˈɒlədʒɪ] *n* bakteriologiya (*bakteriyalar haqidagi fan*)
bacteriophage [bækˈtɪrɪəfeɪdʒ] *n maxs.* bakteriofag, bakteriyalar kushandasi
bacterioscopy [bækˌtɪrɪˈɒskəpɪ] *n* bakterioskopiya (*bakteriyalarni mikroskop orqali o'rganish usuli*)
bacteriosis [bækˌtɪrɪˈəʊsɪs] *n maxs.* bakterioz (*o'simliklarda baktariyalar qo'zg'atadigan yuqumli kasallik*)
bacterium [bækˈtɪərɪəm] *n* (*pl* **-ria** [-rɪə]) bakteriya (*mikroskop orqaligina ko'rinadigan juda mayda organizm*)
Bactrian [ˈbæktrɪən] *n zool.* ikki o'rkachli tuya
baculiform [bæˈkjuːlɪfɔːm] *a maxs.* tayoqchasimon, tayoqcha shaklidagi
baculine [ˈbækjʊlaɪn] *a kit.* tayoqqa (kaltakka) oid, urib (kaltaklab) jazolashga oid (asoslangan)
baculus [ˈbækjʊləs] *n* (*pl* **baculi** [-laɪ]) *lot.* 1) hassa, aso (*podsholik yoki yuqori martaba alomati, belgisi*); 2) saltanat hassasi (*podshoh saltanatining alomati*)
bad [bæd] 1. *a* (**worse; worst**) 1) yomon, yaramas, buzuq, noto'g'ri; **~ language** so'kinib gapirish, haqoratli so'zlarni ishlatib gapirish; **a ~ name** yomon nom (*chiqarish*); **~ money** qalbaki pul; 2) betob, kasal; nosog', zararli; **to feel ~** betob bo'lmoq; **a ~ leg** kasal oyoq; 3) buzilgan; **to go ~** buzilmoq, aynib qolmoq; *amer.* **a ~ man** kallakesar; **my brother feels ~** mening akam o'zini yomon sezyapti; **a ~ coin** qalbaki tanga; 4) sifati past, yaramas, buzuq; 5) zararli; **smoking is ~ for your health** chekish sog'lig'ingiz uchun zararli; 6) kasal; **a ~ head** og'rigan (kasal) bosh; 2. *n* omadsizlik, baxtsizlik, omadi kelmaganlik
baddy [ˈbædɪ] *n* badkor, yaramas
bad(e) [bæd (beɪd)] *past. of* **bid**
badge [bædʒ] *n* 1) alomat, ishora; 2) belgi, nishon

badged [bædʒd] *a* 1) tamg'a solingan, tamg'alangan, tamg'a bosilgan; 2) belgilangan, belgilab qo'yilgan; belgi (*nishon va h. k.*) qo'yib ko'rsatilgan

badgeless [ˈbædʒləs] *a* 1) tamg'a solinmagan, tamg'alanmagan, tamg'a bosilmagan; 2) belgilanmagan, belgilab qo'yilmagan, belgi (nishon, alomat va h. k.) qo'yib ko'rsatilmagan

badgeman [ˈbædʒmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) gadoychilik qiluvchi, gadoy, tilanchi; 2) qashshoq, kambag'al, faqir, bechora

badger [ˈbædʒə] *n zool.* bo'rsiq

badger-baiting [ˈbædʒəˌbeɪtɪŋ] *n* bo'rsiqlarni it bilan ovlash

badger-dog [ˈbædʒədɒg] *n* taksa (*it zoti*)

badger-drawing [ˈbædʒəˌdrɔ:ɪŋ] = **badger-baiting**

badgerer [ˈbædʒərə] = **badger-dog**

badger-fly [ˈbædʒəflaɪ] *n* sun'iy pashsha (chivin)

badger-legged [ˌbædʒəˈlegd] *a* 1) bir oyog'i kalta, oqsoq; 2) bir oyog'i siniq (*yoki* kalta); shaloq; **a ~ chair** bir oyog'i kalta (*yoki* siniq) stul; shaloq stul

badinage [ˈbædmɑ:ʒ] *n fr.* hazillashish; hazil qilish

badlands [ˈbædlændz] *n pl amer.* unumsiz yerlar

badly [ˈbædlɪ] *adv* 1) yomon, chatoq, nojo'ya; 2) juda yomon, juda qattiq, kuchli; **it is ~ needed** juda kerak, **~ injured** qattiq shikast yegan; **to be ~ off** zoriqmoq, og'ir ahvolda bo'lmoq; **~ wounded** og'ir yaralangan; **my father wants this book ~** bu kitob mening otamga juda kerak

badminton [ˈbædmɪntn] *n* badminton (*sport o'yini*)

badness [ˈbædnəs] *n* yaroqsizlik, yomonlik

bad-tempered [ˌbædˈtempəd] *a* badjahl; tajang, jahli yomon

baff [bɑ:f] *n* 1) tarsaki, shapaloq; shappati; 2) yengil zarba

baffle [ˈbæfl] **1.** *n* 1) *tex.* to'siq; 2) muvaffaqiyatsizlik; umidsizlik; **2.** *v* to'sqinlik qilmoq, xalaqit bermoq, (*rejani*) buzmoq

baffle-board [ˈbæflbɔ:d] *n tex.* bo'ladigan (ajratadigan, bo'luvchi) to'siq

baffled [ˈbæfld] *a* tushunarsiz, juda chalkash

bafflegab [ˈbæflgæb] *n* bema'ni (quruq, tushunib bo'lmaydigan) narsa

baffle-plate [ˈbæflpleɪt] = **baffle**

baffler [ˈbæflə] *n tex.* to'siq, g'ov

baffle-wall [ˈbæflwɔ:l] = **baffle board**

baffling [ˈbæflɪŋ] *a* qiyin, murakkab, chigal, og'ir

baft [bɑ:ft] *adv* 1) *deng.* orqada(n), orqa tomonda(n), ketida(n), keyinda(n), orqasida(n); 2) *kam.* keyin, so'ng, so'ngra, bir qancha vaqt o'tgach

bag [bæg] **1.** *n* qop, sumka, chamadon; **2.** *v* qopga joylamoq (solmoq)

baga [ˈbeɪgə] *n* (**rutabaga** *ning qisqartmasi*) *so'zl.* brukva (*sholg'omsimon sabzavot*)

bagasse [bə´gæs] *n* qoldiq (*siqib suvi olingan narsa qoldig'i*)

bagatelle [ˌbægəˈtel] *n* arzimagan (ahamiyatsiz) gap *yoki* voqea

bag-fox [ˈbægfɒks] *n* (*qopga solingan va keyinroq qo'yib yuborilib, it bilan qiynaladigan*) tirik tulki

bagful [ˈbægfʊl] *n* bir qop, to'la qop

baggage [ˈbægɪdʒ] *n* yuk, yo'lovchi yuki

baggage car [ˈbægɪdʒkɑ:] *n amer.* bagaj (yuk) vagoni

baggage-check [ˌbægɪdʒˈtʃek] *n amer.* bagaj (yuk) kvitansiyasi

baggage-man [ˈbægɪdʒmæn] *n amer.* (*pl* **-men** [-mən]) hammol (*vokzalda yuk tashuvchi*)

baggage-master [ˈbægɪdʒˌmɑ:stə] *n amer.* hammol, yuk tashuvchi (*vokzallarda*)

baggage room [ˈbægɪdʒru:m] *n amer.* yuk saqlash kamerasi (*yuklar vaqtincha saqlanadigan joy*)

baggage-smasher [ˈbægɪdʒˌsmæʃə] *n amer.* 1) *hazil.* hammol, yuk tashuvchi; 2) *harb. jarg.* (*harbiy*) qismning kotibi

bagged [bægd] *a* qopga (xaltaga, chamadonga) joylashtirilgan

bagger [ˈbægə] *n* suv havzalarini chuqurlashtirib loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina

baggie [ˈbægɪ] *n shotl.* 1) qorin (*hayvonlarda*); 2) qopchiq, xalta, xaltacha

bagging [ˈbægɪŋ] *n* qop-qanor tikiladigan mato

baggy [ˈbægɪ] *a* qo'pol, keng (*kiyim haqida*)

bag-holder [ˈbægˌhəʊldə] *n q.x.* 1) qop tutqichi; 2) qop qisqichi

bagman [ˈbægmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) sayyor savdogar

bagnio [ˈbænjəʊ] *n* 1) fohishaxona; 2) hammom; 3) *tar.* qullar qamoqxonasi (*sharqda*)

bagpipe [ˈbægpaɪp] *n* 1) *pl* volinka (*dam bilan chalinadigan rus xalq cholg'u asbobi*); 2) *ko'ch.* mahmadona, ezma, vaysaqi, sergap odam

bagpiper [ˈbæg,paɪpə] *n* volinka chaluvchi

bagpipes [ˈbægpaɪps] *n pl* volinka (*dam bilan chalinadigan rus xalq cholg'u asbobi*)

bag-punching [ˈbæg,pʌntʃɪŋ] *n* osib qo'yilgan nok shaklidagi qopga urish (zarba berish)ni mashq qilmoq (*boksda*)

baguette [bæˈget] *n me'mor.* baget (*rom, karniz va sh. k. uchun tayyorlangan ensiz jimjimador taxta*)

bah [bɑ:] *int.* e! ajabo! voy bo'!

baignoire [ˈbeɪnwɑ:] *n fr. teatr.* benuar (*tomosha zallarida: pastki qavat lojalari*)

bail [beɪl] **1.** *n* 1) kafolat; 2) kafil; **2.** *v* kafillikka olmoq

bailable [ˈbeɪləbl] *a* kafillik *yoki* kafolat asosida qamoqdan ozod qilinish huquqiga ega bo'lgan

bailee [beɪˈli:] *n yur.* mollarni (tovarlarni) saqlash uchun javobgar shaxs

bailer [ˈbeɪlə] *n* cho'mich, yog'log'i

bailey [ˈbeɪlɪ] *n tar.* saroy (qal'a, qasr, qo'rg'on) hovlisi

bailie [ˈbeɪlɪ] *n shotl. tar.* shahar sudyasi

bailiff [ˈbeɪlɪf] *n yur.* sud ijrochisi

bailing [ˈbeɪlɪŋ] *n* (kondan) suvni tortib chiqarish

bailment [ˈbeɪlmənt] *n* kafillik *yoki* garov evaziga ozod qilish

bailor [ˈbeɪlə] *n yur.* 1) deponent (*puli, ish haqi depozitga o'tkazilgan kishi*); 2) qarz (ssuda) beruvchi; 3) ijaraga beruvchi

bailsman [ˈbeɪlzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) kafil, kafil bo'lgan kishi

bain [beɪn] *adv dial.* 1) yaqinda, yaqin joyda; 2) qulay, o'ng'ay

bain-marie [ˌbænməˈri:] *n* (*pl* **bains-**[ˌbæŋ-]) *fr. maxs.* suv hammom

bairn [beən] *n shotl.* go'dak, bola, farzand, chaqaloq; o'g'il, qiz

bairnie [ˈbeənɪ] *n shotl. erk.* 1) bolam, bolaginam, qo'zichog'im (*murojaat yoki erkalatish shakli*); 2) kichkina bola, yosh bola, kichkintoy; o'g'ilcha

bairnish [ˈbeənɪʃ] *a shotl.* bolalarga oid; bolalarga xos; bolalar...; bolalik...

bairn-team, bairn-time [ˈbeəntɪ:m, -taɪm] *n shotl.* 1) bolalar; yosh bolalar; bola-baqra; bola-chaqa; o'g'il-qizlar; 2) onasidan ajralmagan bolalar

bait [beɪt] **1.** *n* don, xo'rak (*baliq, qush va sh. k. ga aldash uchun ishlatiladigan*); **2.** *v* xo'rak qo'ymoq (*qopqon, tuzoq va b.*)

baited [ˈbeɪtɪd] *a* 1) it (*yoki* ov qushi) solib ovlangan, tutilgan; 2) yem, xo'rak qo'yilgan (*qarmoq haqida*); **the ~ hook** yem qo'yilgan qarmoq

baiting [ˈbeɪtɪŋ] *n* 1) qush *yoki* tozi it solib ovlash; 2) yo'lda dam olish uchun to'xtash, qo'nish; dam olish; 3) otlarni ovqatlantirish

baize [beɪz] *n* paxmoq; tukli movut

bake [beɪk] *v* non yopmoq, non pishirmoq
baked [beɪkt] *a* pishirilgan; qo'rda pishirilgan; ~ **apples** pishirilgan olmalar (*mas., pechkada, tandirda*); ~ **potatoes** qo'rda pishirilgan kartoshka
baked-apple berry [ˌbeɪktˌæplˈberɪ] *bot.* xushbo'y mevali botqoq o'simligi va uning mevasi
bakehouse [ˈbeɪkhaʊs] *n* novvoyxona
bakelite [ˈbeɪkəlaɪt] *n maxs.* bakelit (*sintetik smola*)
bake-off [ˈbeɪkɒf] *n amer.* eng yaxshi pirog pishirish uchun musobaqa
baker [ˈbeɪkə] *n* novvoy, bulkapaz, bulkachi, bulka (non) sotuvchi
baker-legged [ˌbeɪkəˈlegd] *a* qiyshiq oyoq, maymoq, oyog'i qiyshiq
bakery [ˈbeɪkrɪ] *n* novvoyxona
baking [ˈbeɪkɪŋ] *n* yopish, pishirish (*non*)
baking coal [ˈbeɪkɪŋˈkəʊl] *n* non pishirish uchun ishlatiladigan ko'mir
baking-powder [ˈbeɪkɪŋˌpaʊdə] *n* xamirturushning o'rniga ishlatiladigan kukun, non poroshogi
bal [bɔ:l] *n dial.* shaxta, kon
Balaam [ˈbeɪlæm] *n bibl.* Valaam (*jodugar*)
Balaamite [ˈbeɪləmaɪt] *n* (*o'z manfaatini ko'zlab*) dindan tama va g'araz niyatlar uchun foydalanadigan odam, dinni niqob qilib olib, o'z manfaatini ko'zlab (tama, g'araz bilan) ish tutadigan odam; riyokor, munofiq, ikkiyuzlama(chi)
Balaclava helmet [ˌbæləˈklɑ:vəˈhelmɪt] *n* 1) *kam.* to'qilgan shlem (*boshni urilish yoki zarbadan saqlovchi maxsus bosh kiyim*) (*asosan, askarlarda*); 2) *harb. shun.,* shlem *yoki* kaska tagidan kiyiladigan to'qima bosh kiyim
baladine [ˈbæləˌdi:n] *n kam.* o'yinchi, raqqosa
balance [ˈbæləns] **1.** *n* 1) tarozi; 2) muvozanat; **2.** *v* 1) tortmoq, o'lchamoq; 2) muvozanatga keltirmoq, tenglashtirmoq
balance-beam [ˈbæləns,bi:m] *n* tarozi shayini
balance-bridge [ˈbæləns,brɪdʒ] *n* ko'tariladigan ko'prik
balanced [ˈbælənst] *a* bosiq, og'ir, vazmin
balance-master [ˈbæləns,mɑ:stə] *n* ekvilibrist (*dor. shar va sh. k. da o'yin ko'rsatadigan sirk artisti*)
balance-mistress [ˈbæləns,mɪstrɪs] *n* 1) ekvilibristka (*dor. shar va sh. k. da o'yin ko'rsatadigan sirk artistkasi*); 2) arqonda, dorda o'ynaydigan artistka
balancer [ˈbælənsə] *n* 1) ekvilibrist (*dor. shar va sh. k. da o'yin ko'rsatadigan sirk artisti*); 2) dorboz (*akrobat*); 3) tenglashtiruvchi, balans chiqaruvchi
balance-room [ˈbælənsru:m] *n* 1) tarozixona; 2) og'irlikni (vaznni) tortadigan xona
balance-sheet [ˈbælənsʃi:t] *n mol.* balans (*ma'lum bir muddat mobaynidagi kirim-chiqim, daromad-buromad va h. k. ning yakuniy nisbati*)
balance-step [ˈbæləns,step] *n harb.* paradda tantanali qadam tashlab yurish
balance weight [ˈbælənsweɪt] *n tex.* posangi
balance-wheel [ˈbælənswi:l] *n* soat kapgiri
balancing [ˈbælənsɪŋ] *n* 1) kompensatsiya, badal, muzd, haq, tovon; 2) o'rnini to'ldirish, haq (badal, tovon) to'lash; 3) muvozanatni saqlash, muvozanatga keltirish; 4) (*og'irlikni*) tenglashtirish, baravarlashtirish, teng qilish
balanoid [ˈbælənɔɪd] *a* oshqozon (me'da) shaklidagi
balboa [bælˈbəʊə] *n* balboa (*Panamaning pul birligi*)
balbriggan [bælˈbrɪgən] *n to'q.* 1) silliq ip gazlama; 2) *pl* trikotajdan qilingan ich kiyim
balbutient [bælˈbju:ʃnt] *a kam.* duduq, duduqlanadigan, tutiladigan, duduqlanib (tutilib) gapiradigan
balbuties [bælˈbju:ʃi:z] *n tib.* 1) duduqlik, soqovlik; 2) *kam.* „s" tovushi o'rniga „sh", „z" o'rniga „j" aytish
balconette [ˈbælkənet] *n* boloxonadagi ayvoncha, balkoncha
balconied [ˈbælkənɪd] *a* balkonli
balcony [ˈbælkənɪ] *n me'mor.* balkon
bald [bɔ:ld] *a* sochi yo'q, yaltirbosh, sochi to'kilgan, kal, sochsiz
baldachin [ˈbɔ:ldəkɪn] *n* choyshab
baldaquin [ˈbɔ:ldəkɪn] = **baldachin**
bald-coot [ˈbɔ:ldku:t] *n zool.* qashqaldoq (*qush*)
balden [ˈbɔ:ldn] *v kam.* sochlari to'kilmoq, sochi to'kilib siyqa (yaltiroq, kal) bo'lib qolmoq
balderdash [ˈbɔ:ldədæʃ] *n* bema'ni (*bo'lmag'ur*) gap, safsata
bald-faced [ˈbɔ:ldfeɪst] *a* 1) peshanasida oq xoli bo'lgan (*ot haqida*); 2) ochiq, ochiqdan-ochiq, oshkora, ro'yirost; ochiqchasiga (barala) qilingan; g'irt, aniq, shubhasiz, ko'rinib (bilinib) turgan; a ~ **lie** g'irt yolg'on
bald-head [ˈbɔ:ldhed] *a* 1) kal (sochi yo'q, sochi to'kilgan, siyqabosh) kishi; 2) peshanasida oq dog'i (xoli) bor hayvon
bald-headed [ˌbɔ:ldˈhedɪd] *a* 1) sochi yo'q, yaltiroq, kal, sochsiz; 2) qashqa (*hayvonlar haqida*)
baldicoot [ˈbɔ:ldɪku:t] = **bald-coot**
balding [ˈbɔ:ldɪŋ] *a* sochlari to'kilayotgan
baldly [ˈbɔ:ldlɪ] *adv* yashirmasdan, ro'yirost, ochiqdan ochiq, dangal
baldness [ˈbɔ:ldnəs] *n* kallik, boshida sochi yo'qlik, sochi to'kilganlik
bold-nosed [ˈbɔ:ldnəʊzd] = **bald-faced**
bald-pate [ˈbɔ:ldpeɪt] *a* sochi yo'q, sochi to'kilgan, siyqa, yaltiroq, toz, kal
bald-rib [ˈbɔ:ldrɪb] *n* 1) qovurg'a (cho'chqa to'shi); 2) *hazil.* qovurg'asini sanasa bo'ladigan odam (*juda ham oriq bo'lgan odamlar to'g'risida aytiladi*)
baldric [ˈbɔ:ldrɪk] *n* tasma, qayish
baldy [ˈbɔ:ldɪ] *n jarg.* sochi yo'q, sochi to'kilgan, siyqa, yaltiroq, kal
bale [beɪl] **1.** *n* bog'lam, taxlam, to'p, toy, tugun, bo'xcha, g'aram, dasta; **cotton** ~s paxta toylari; **2.** *v* g'aram qilmoq; toy qilib to'plamoq, bir yerga uymoq
baled [beɪld] *a maxs.* 1) bog'langan, bog'lab qo'yilgan (*pichan, xashak haqida*); (bir) toy qilib bog'langan (*paxta haqida*); 2) yumshoq tara (*tovar-buyum joylanadigan yoki o'raladigan qog'oz*)da; 3) briketlangan (*presslab g'ishtga o'xshatib tayyorlangan*)
baleen [bəˈli:n] *n* kit mo'yi (*kitlarning og'zidagi muguz plastinka*)
balefire [ˈbeɪlˌfaɪə] *n* 1) signal chirog'i; 2) gulxan
baleful [ˈbeɪlfl] *a* yovuz, yomon, serjahl
balefully [ˈbeɪlfəlɪ] *adv* xusumat (kek) bilan, dushmanlik ko'zi bilan, g'azab bilan, achchiqlanib, darg'azab bo'lib, jahl bilan, zarda (achchiq) qilib, g'azablanib, o'qrayib
bale-goods [ˈbeɪlgʊdz] *n pl* 1) toy (tugun, bo'xcha, dasta, bog'lam, taxlam, to'p)dagi tovarlar (mollar); 2) yumshoq taradagi tovarlar (mollar)
baleless [ˈbeɪlləs] *a esk.* 1) ranjitmaydigan, xafa qilmaydigan, qattiq tegmaydigan; 2) zarar (ziyon) yetkazmaydigan, zararsiz, bezarar, beziyon; 3) yuvosh, muloyim, beozor
baler [ˈbeɪlə] *n tex.* 1) yig'ib presslagich (*pichanni yig'ish bilan birga presslab bog'lab boradigan qishloq xo'jalik mashinasi*); 2) narsalarni o'rab joylaydigan iskanja (taxtakach, press)
Balinese [ˌbɑ:lɪˈni:z] *a* 1) Bali orolida yashovchi (istiqomat qiluvchi); 2) Bali oroliga oid, Bali oroliga taalluqli bo'lgan, Bali oroli...
balinger [ˈbælɪndʒə] *n tar.* velbot (*tezyurar yengil qayiq*)
baling-press [ˈbeɪlɪŋpres] *n* o'rab (joylab) bog'laydigan, paket (qog'oz-xaltaga joylaydigan, briketlaydigan, iskanjalab, taxtakachlab, presslab) g'ishtga

o'xshatib tayyorlaydigan) iskanja (taxtakach, press)

balistraria [ˌbælɪˈstreɪrɪə] *n tar.* shinak, tuynuk (*qal'ada, qo'rg'onda*)

balk [bɔ:k] **1.** *n* to'siq, xalal, xalaqit; **2.** *v* 1) xalal bermoq, to'sqinlik qilmoq; 2) o'jarlik qilmoq, qaysarlik qilmoq (*ot haqida*)

Balkan [ˈbɔ:lkən] *a* bolqonga oid

balky [ˈbɔ:kɪ] *a* o'jar, qaysar (*hayvonlar haqida*)

ball [bɔ:l] *n* 1) koptok; 2) bal (*raqs kechasi*)

ballad [ˈbæləd] *n adab.* ballada (*she'r bilan yozilgan kichkina qissa*)

ballade [bæˈlɑ:d] *n adab.* ballada (*kichik she'riy qissa, manzuma*)

ballad-monger [ˈbæləd,mʌŋgə] *n tar.* ballada muallifi *yoki* sotuvchisi

balladry [ˈbælədrɪ] *n esk.* xalq balladalari va ularning usullari

ballast [ˈbæləst] *n* posangi yuk

ballastage [ˈbæləstɪdʒ] *n* (*kema, aerostat va h. k. da*) posangi yuk uchun to'lanadigan haq; posangi yuk uchun haq to'lash

ballasting [ˈbæləstɪŋ] *n* temir yo'l shpallari tagiga yotqiziladigan material (*qum yoki shag'al*)

ball-bearing [ˌbɔ:lˈbeərɪŋ] *n tex.* sharikli podshipnik

ball-cartridge [ˌbɔ:l ˈkɑ:trɪdʒ] *n harb.* o'qli (o'qi bor) patron

ball-clay [ˈbɔ:lkleɪ] *n maxs.* 1) yaxshi ezilmagan loy; 2) o'ralib halqadek (kulchadek, koptokdek) bo'lib qolgan loy; 3) mijig'langan (cho'ziluvchan) loy

balled up [ˌbɔ:ldˈʌp] *a amer. jarg.* 1) chigal, chuvalgan, chalkashgan, chuvalib (chigallashib, chalkashib) qolgan (ketgan), chalkash-chulkash; 2) *ko'ch.* chalkash, chigal, chatoq, chuvalgan, tushunib bo'lmaydigan, chalkashib (chigallashib) ketgan

ballerina [ˌbælə ˈri:nə] *n* balerina, balet raqqosasi

ballerine [ˌbælə ˈri:neɪ] *pl of* **ballerina**

ballet [ˈbæleɪ] *n* balet (*sahna raqsi*)

ballet-dancer [ˈbæleɪˌdɑ:nsə] *n* balerina; balet raqqosasi

ballet-master [ˈbæleɪˌmɑ:stə] *n* balet-meyster (*raqslarni sahnalashtiruvchi*)

balletomane [ˈbælɪtəumeɪn] *n* balet ishqibozi

balling [ˈbɔ:lɪŋ] *n* 1) koptok shaklida o'rash; 2) *to'q.* kalava shaklida o'rash; 3) *tex.* yumaloq-yumaloq qilish

ballism [ˈbælɪzm] *n tib.* 1) titrash, qaltirash, qaltiroq bosish; 2) qaltirab turadigan, shollik (falajlik)

ballista [bəˈlɪstə] (*pl* **-tae** [-ti:], **-s** [-z]) *harb. tar.* ballista (*qal'ani ishg'ol etishda qo'llaniladigan tosh otish mashinasi*)

ballistae [bəˈlɪsti:] *pl of* **ballista**

ballistic [bəˈlɪstɪk] *a* ballistik (*erkin otilgan jism trayektoriyasi bo'ylab uchadigan raketa*): **a ~ rocket** ballistik raketa

ballistics [bəˈlɪstɪks] *n pl* ballistika (*o'q-snaryadlarning harakat qonunlari haqidagi fan*)

ballistite [ˈbælɪstaɪt] *n harb.* ballistit (*tutunsiz porox*)

balloon [bəˈlu:n] **1.** *n* havo shari; **2.** *v* havo sharida ko'tarilmoq

balloon-borne [bəˈlu:nbɔ:n] *a maxs.* aerostatda ko'tariladigan; **a ~ rocket** aerostatdan uchirib yuboriladigan raketa

balloon-car [bəˈlu:nkɑ:] *n* aerostat gondolasi

ballooner [bəˈlu:nə] *n* 1) havodan yengil apparatlarda uchuvchi; 2) havoda suzish (uchish) tajribasi va nazariyasi bilan shug'ullanadigan mutaxassis

balloonist [bəˈlu:nɪst] *a* havodan yengil apparatlarda uchuvchi

balloon tire [bəˈlu:nˌtaɪə] *n* ballon (*shina*)

ballot [ˈbælət] **1.** *n* 1) saylov bulleteni; yashirin ovoz berish; 2) ovoz berish, ovozga qo'yish, saylash; **by secret ~** yashirin ovoz berish yo'li bilan; **2.** *v* ovoz bermoq; ovozga qo'ymoq

ballot-box [ˈbælətbɔks] *n* saylov qutisi

ballot-paper [ˈbælətˌpeɪpə] *n* saylov bulleteni

ball-point pen [ˌbɔ:lpɔɪntˈpen] *n* sharikli ruchka

ball-room [ˈbɔ:lrom] *n* raqs zali

ball-up [ˈbɔ:lʌp] *n jarg.* chalkashlik, chigallik, tartibsizlik; chatoqlik; fikrlashdagi chalkashlik

ball-valve [ˈbɔ:lvælv] *n tex.* shar shaklidagi (yumaloq) klapan

ballyhoo [ˌbælɪˈhu:] *n* shov-shuv, shovqin-suron, g'ala-g'ovur

ballyrag [ˈbælɪræg] *v* (qo'pol) qaltis hazil qilmoq

balm [bɑ:m] *n* malham dori

balm-cricket [ˈbɑ:mˌkrɪkɪt] *n* chirildoq (*hasharot*)

balmy [ˈbɑ:mɪ] *a* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar

balnea, balneae [ˈbælnɪə,ˈbælnɪ:] *pl of* **balneum**

balneal [ˈbælnɪəl] *a tib.* balneologiyaga oid

balneary [ˈbælnɪərɪ] *n* 1) hammom; cho'milish joyi; 2) davolaydigan (davolovchi, shifobaxsh) mineral suvlar bulog'i; 3) *tib.* balneologiya bo'limi

balneography [ˌbælnɪˈɒgrəfɪ] *n* balneografiya (*mineral suv va loy-balchiqlar bilan shug'ullanadigan fan*)

balneological [ˌbælnɪəˈlɒdʒɪkl] *a* balneologiyaga oid; balneologik, balneologiya...

balneology [ˌbælnɪˈɒlədʒɪ] *n tib.* balneologiya (*tibbiyotning mineral suv va loy-balchiqlar xususiyati va ular vositasida davolash bilan shug'ullanadigan bo'limi*)

balneotheraphy [ˌbælnɪəˈθerəpɪ] *n* balneoterapeya, tabiiy yoki sun'iy tayyorlangan mineral suvlar bilan davolash usuli; vanna (cho'milish) bilan davolash

balneum [ˈbælnɪəm] *n* (*pl* **-neae** [-nɪi:], **-nea** [-nɪə]) 1) *tib.* a) vanna (*1. cho'milish yoki davolash uchun belgilangan katta tos; 2. vannada cho'milish yoki davolanish*); b) cho'milish, cho'miltirish; 2) *tex.* suv hammom

baloney [bəˈləunɪ] *n* ahmoqona narsa, bo'lmag'ur (bema'ni) narsa

balsa [ˈbɔ:lsə] *n* balza (*daraxt*)

balsam [ˈbɔ:lsm] *n* malham dori

balsamation [ˌbɔ:lsəˈmeɪʃn] *n* balzamlash, malham dori qo'yish; mumiyolash (*maxsus moddalar yordami bilan murdani chirimaydigan qilish*)

balsam fir [ˌbɔ:lsmˈfɜ:] *n bot.* balzamli oqqarag'ay

balsamic [bɔ:lˈsæmɪk] *a* 1) malhamdek yoqadigan, shifobaxsh; balzamli; 2) xushbo'y; 3) (*ko'ngilni*) tinchitadigan, tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, taskin (orom) beradigan; xotirjam qiladigan

balsamiferous [ˌbɔ:lsəˈmɪfrəs] *a* balzam ajratadigan, balzam ajratuvchi

balsamine [ˈbɔ:lsəmɪn] *n bot.* xinagul, xina

balter [ˈbɔ:ltə] *v dial.* 1) bosmoq, bosib ezmoq, payhon qilmoq; 2) tepmoq, ezmoq; tepib (ezib) pishitmoq

baluster [ˈbæləstə] *n* naqshinkor (jimjimador) g'o'lacha, ustuncha (*panjara va shu kabilar uchun ishlatiladi*)

balustered [ˈbæləstəd] *a* suyanchiqli, to'siqli, panjarali

balustrade [ˌbælə ˈstreɪd] *me'mor.* zinapoya dastagi

bam [bæm] *v* aldamoq

bambini [bæmˈbi:nɪ] *pl of* **bambino**

bambino [bæmˈbi:nəu] *n* (*pl* **-ni** [-nɪ]) *ital.* 1) yosh bola, go'dak; 2) bola, farzand; 3) bolam, bolaginam, qo'zichog'im (*murojaat yoki erkalatish shakli*)

bamboo [ˌbæmˈbu:] *n bot.* bambuk (*tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadigan, tanasi qamishga o'xshash, ichi kovak, bo'yi baland o'simlik*)

bamboozle [bæmˈbu:zl] *v* aldamoq, chalg'itmoq; yolg'on gapirmoq

bamboozler [bæm´bu:zlə] *n* aldamchi, aldoqchi, yolg'onchi, firibgar, qallob, muttaham, tovlamachi
ban [bæn] **1.** *n* man etish; **2.** *v* man etmoq
banal [bə´nɑ:l] *a* ko'p chaynalgan
banality [bə´nælıtı] *n* ko'p chaynalganlik
banana [bə´nɑ:nə] *n bot.* banan (*tropik mamlakatlarda o'sadigan baland o'simlik*)
banana-head [bə´nɑ:nəhed] *n amer. jarg.* kaltafahm, qovoqbosh, zehni yo'q, zehni past, befarosat, befahm, esi past
banate [´bænət] *n tar.* banat, generalgubernatorlik
banausic [bə´nɔ:sık] *a kam.* mexanikka xos bo'lgan
banc [bæŋk, bɑ:ŋk] *n lot.* sudya kursisi, sud; **in ~, in banco** to'liq tarkibda, hamma (*sud haqida*)
banco [´bɑ:ŋkəʊ] *n lot. makl.* uy ishini (vazifasini) tayyorlash
band [bænd] **1.** *n* 1) tasma, lenta; 2) odamlar guruhi; 3) orkestr **2.** *v* 1) bog'lamoq; 2) birlashtirmoq
bandage [´bændıdʒ] **1.** *n* 1) yara bog'laydigan doka; **2.** *v* bog'lamoq
bandaging [´bændıdʒıŋ] *n tib.* 1) yarani bog'lash, bog'lab qo'yish, bintlash, bint bilan bog'lash; 2) bog'lash materiali (*doka, dori va b.*)
bandana [bæn´dænə] = **bandanna**
bandanna [bæn´dænə] *n* turli rangdagi dastro'mol (ro'molcha)
bandbox [´bændbɒks] *n* karton (*shlapa, lenta va b.*)
band-brake [´bændbreık] *n tex.* lentali (tasmali) tormoz
band-case [´bændkeıs] = **bandbox**
band-collar [´bænd,kɒlə] *n* 1) yoqa (*kiyim yoqasi*); 2) *tar.* burma hoshiya (*biror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mato*)
bandeau [´bændəʊ] *n fr.* (*pl* **-x** [-z]) sochga o'raydigan lenta
bandeaux [´bændəʊz] *pl of* **bandeau**
banded [´bændıd] *a* hoshiyali
bandelet [´bændılıt] *n* kambar hoshiya, jiyak, uqa
bander [´bændə] *n* birga qatnashgan sherik (*jinoyatga*)
banderol(e) [,bændə´rəʊl] *n* vimpel (*1. harbiy kemalarda: uzun va ensiz bayroqcha, taniqlik belgisi; 2. umuman, biror narsaning ramzi bo'lgan bayroqcha*)
bandhouse [´bændhaʊs] *n jarg.* qamoq, qamoqxona
bandicoot [´bændıku:t] *n zool.* bandikut, katta kalamush
banding I [´bændıŋ] *n* birlashtirish; **the ~ of the three groups** uchta guruhni birlashtirish
banding II [´bændıŋ] *n* 1) yo'l-yo'l chiziq bilan belgilash; 2) qushlarni halqalash; 2) (*tog' jinslarining*) qatlam-qatlamligi
band-iron [´bænd,aıən] *n tex.* tasma temir
bandit [´bændıt] *n* (*pl* **-itti** [-i:tı]) bosqinchi
banditti [bæn´di:tı] *n* 1) *pl of* **bandit**; 2) (*sing dek ishlatiladi*) shayka, to'da, guruh, banda (*o'g'rilar, qotillar yoki bosmachilar to'dasi*)
bandle [´bændl] *n* irlandlarning uzunlik o'lchovi (*2 futga teng*)
bandlet [´bændlıt] = **bandelet**
band master [´bænd,mɑ:stə] *n* 1) dirijor (*asos., duxovoy orkestrniki*); 2) kapelmeyster (*1. xor yoki orkestr rahbari, dirijori; 2. harbiy orkestr dirijori*)
bandog [´bændɒg] *n* zanjirband (zanjirdagi) it
bandoleer [,bændə´lıə] *n harb.* patron sumka
bandolero [,bændə´lırəʊ] *isp.* (*pl* **-os** [-əʊz]) bosqinchi
bandolier [,bændə´lıə] = **bandoleer**
bandoline [´bændəli:n] *n* fiksatuar (*sochni silliqlash uchun surtiladigan moy*)
bandore [bæn´dɔ:] *n esk.* ud (*qadimgi musiqa asboblaridan birining nomi*)
bandrol [´bændəʊl] = **banderol(e)**
band-saw [´bændsɔ:] *n* tasma arra
bandsman [´bændzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) orkestr musiqachisi
band-stand [´bændstænd] *n* orkestr uchun (ochiq) sahna
bandster [´bændstə] *n* bog' bog'lovchi kishi
bandurria [bɑ:n´dʊrıɑ:] *n isp.* ud (*qadimgi musiqa asboblaridan birining nomi*)
band-wagon [´bænd,wægən] *n amer.* orkestrli soyabon arava *yoki* yuk mashinasi
bandy [´bændı] **1.** *v* aytishmoq; **2.** *a* qiyshiq
bandy-legged [,bændı´legd] *a* oyog'i qiyshiq
bane [beın] *n* achchiq, zahar, zaharli narsa
baneful [´beınfl] *a* halokatli; falokatli
banewort [´beınwɜ:t] *n bot.* ayiqtovon
bang [bæŋ] **1.** *n* urish; **2.** *v* urmoq
banged [bæŋd] *a jarg.* mast, kayfi oshgan, araq ichgan; **~ up to the eyes** g'irt mast, o'lguday mast
banger [´bæŋə] *n* 1) kolbasa, sosiska; 2) mushak; 3) eski avtomobil
banging [´bæŋıŋ] *a* 1) ulkan, juda katta, azim, haybatli; 2) bahaybat, qo'rqinchli
Bangladeshi [,bæŋglə´deʃı] **1.** *n* 1) Bangladeshda istiqomat qiluvchi (yashovchi, turuvchi) kishi; 2) bangladesh, bangladesh ayol; **2.** *a* Bangladesh va bangladeshliklarga oid, Bangladesh va bangladeshliklarga tegishli (taalluqli) bo'lgan
bangle [´bæŋgl] *n* (*bilakka taqiladigan*) bilaguzuk
bangled [´bæŋgld] *a* osma, osilib turadigan, osilgan, osilib tushgan, osiq
bang-tail [´bæŋteıl] *n* kalta qilib kesib tekislangan dum (*otlarda*)
bang-up [´bæŋʌp] *a* birinchi darajali
banian [´bænıən] *n* savdogar hindu
banian day [´bænıəndeı] *n din. xristianlarda*: go'shtli, sutli ovqatlarni yeyish taqiqlangan kun
banian-hospital [´bænıən,hɒspıtl] *n* veterinariya (*hayvonlar kasalliklari va ularni davolash*) shifoxonasi
banish [´bænıʃ] *v* 1) haydamoq, quvmoq, quvib yubormoq; 2) quvg'in qilmoq
banishment [´bænıʃmənt] *n* haydash, quvish, quvg'in qilish
banister [´bænıstə] *n pl* panjara (*zinada*)
banjo [´bændʒəʊ] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əʊz]) *mus.* banjo (*musiqa asbobi*)
banjore [´bændʒɔ:] *n* 1) banjo (*Amerika negrlarining torli musiqa asbobi*); 2) *tex.* a) korobka, quti, quticha, qobiq; b) kojux (*turli mexanizmlarning o'rab turuvchi qoplamasi*)
bank [bæŋk] **1.** *n* 1) qirg'oq (*daryoda*); 2) bank; **2.** *v* bankka pul qo'ymoq
bankable [´bæŋkəbl] *a mol.* hisobga olishga yaraydigan
bank-bill [´bæŋkbıl] *n mol.* bank bileti
bank-book [´bæŋkbʊk] *n mol.* 1) bank daftarchasi; 2) shaxsiy hisob raqami
bank-cheque [´bæŋktʃek] *n mol.* bank cheki
bank-court [´bæŋkkɔ:t] *n* 1) bank direktorlarining har haftalik kengashi; 2) bank aksionerlarining umumiy yig'ilishi
bank-credit [´bæŋk,kredıt] *n mol.* bank krediti, bankdagi kredit
banker I [´bæŋkə] *n* 1) bankir, bankchi (*bank egasi yoki xususiy bankka sherik bo'lgan yirik aksiyador*); 2) bank xizmatchisi; 3) *qarta o'yinida*: bank qo'ygan o'yinchi
banker II [´bæŋkə] *n* baliq ovlaydigan kema *yoki* baliqchi
banket [´bæŋkıt] *n konch.* tuproq (*yoki* shag'al) ko'tarma
banking [´bæŋkıŋ] *n* bank ishi
banking-up [´bæŋkıŋʌp] *n* chopish, chopiq qilish
banking-house [´bæŋkıŋhaʊs] *n* bank
bank locomotive [´bæŋk,ləʊkə´məʊtıv] *n tem. y.* itargich (*poyezdning ketidan itarib boruvchi parovoz*)

bank-note [ˈbæŋknəʊt] *n* qog'oz pul
bank-paper [ˈbæŋk,peɪpə] *n mol.* banknotlar (*bank tomonidan chiqariladigan va pul o'rnida yuradigan foizsiz kredit biletlari*)
bank-rate [ˈbæŋkreɪt] *n* bank hisobi
bankrupt [ˈbæŋkrʌpt] **1.** *n* qarzdor bo'lgan odam; **2.** *a* qarzdor bo'lgan
bankruptcy [ˈbæŋkrʌptsɪ] *n* sinish, qarzdorlikni to'lay olmaslik
bankseat [ˈbæŋksi:t] *n* ko'prik tirgagi
bankshall [ˈbæŋkshɔ:l] *n* 1) mol (tovar) ombori; 2) pakgauz (*qisqa muddatga yuk saqlanadigan ombor*) (*Hindistonda*)
bank-side [ˈbæŋksaɪd] *n* 1) qiya qirg'oq; 2) (*ko'l, daryoning*) qirg'og'i, cheti, yoqasi, chekkasi, labi, bo'yi
banksman [bæŋksmən] *n tog'.* (*pl* **-men** [-mən]) konning og'zida ishlaydigan ishchi
bank-stock [ˈbæŋkstɔk] *n* bankning aksiyadorlardan to'plagan kapitali
banky [ˈbæŋkɪ] *a dial.* 1) kovlab (qazib) tashlangan, o'ngir-cho'ngir bo'lib qolgan; o'ngir-cho'ngir, notekis, g'adir-budur, past-baland (*joy, yer, yo'l to'g'risida*); 2) (*balandliklar bilan qoplangan*) tepalik
banner [ˈbænə] **1.** *a* namunaviy; **2.** *n* bayroq; **the ~ of peace (freedom)** tinchlik (ozodlik) bayrog'i
banner-bearer [ˈbænə,beərə] *n* bayroqdor, bayroqchi
banner-cry [ˈbænəkraɪ] *n* jangovar xitob, jangovar chaqiriq
bannerer [ˈbænərə] = **banneret**
banneret I [ˈbænərɪt] *n* banneret (*Angliyada dvoryanlik unvoni*)
banneret II [ˈbænərɪt] = **bannerette**
bannerette [ˌbænə ˈret] *n* bayroqcha, kichkina bayroq
bannerman [ˈbænəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *shotl. esk.* bayroqdor, tug'dor
bannerol [ˌbænəˈrəʊl] = **banderol(e)**
bannister [ˈbænɪstə] = **banister**
bannock [ˈbænək] *n shotl.* (*suli, arpa yoki no'xat unidan tayyorlangan*) katta non
banns [bænz] *n pl* nikohdan o'tadiganlar nomlarini cherkovda o'qib eshittirish
banquet [ˈbæŋkwɪt] *n* **1.** *n* ziyofat, bazm; **2.** *v* (*nimaningdir sharofatiga*) ziyofat bermoq
banqueter [ˈbæŋkwɪtə] *n* 1) ziyofatdagi mehmon, ziyofat mehmoni; banket qatnashchisi; 2) *pl* bazmda (ziyofatda) bo'luvchilar (ishtirok etuvchilar); bazm quruvchilar
banquette [bæŋˈket] *n* ko'tarma, tepalik
bantam [ˈbæntəm] **1.** *a* mayda, kichik, pakana; **2.** *n* bantamka (*mayda, katta bo'lmaydigan tovuq*)
bantam-weight [ˈbæntəmweɪt] *n sport.* eng yengil vazn
banteng [bɑ:nˈteŋ] *n zool.* banteng (*zond ho'kizi – yovvoyi qoramol*)
banter [ˈbæntə] **1.** *n* muloyim (yoqimli) hazil qilish **2.** *v* muloyim (yoqimli) hazil qilmoq
banterer [ˈbæntərə] *n* birovdan (birovning ustidan) kulishni yaxshi ko'radigan, hammadan (hammaning ustidan) kulaveradigan odam, mazaxchi
banting [ˈbæntɪŋ] *n* parhez usuli bilan davolash
bantling [ˈbæntlɪŋ] *n nafr.* nasl, avlod, zot, zurriyot, -vachcha (*farzand haqida*)
banyan [ˈbænjən] *n* Hindistonda o'sadigan shoxlari katta daraxt
banzai [bæn'zaɪ] **1.** *int. yap.* ura (qichqiriq)! yashasin!; **2.** *v harb. jarg.* hujum qilmoq; **~ attack, ~ charge** *harb. jarg.* ruhiy hujum (*dushmanga ruhiy ta'sir qilish uchun qilingan hujum*)
baobab [ˈbeɪəbæb] *n* baobab (*tanasi yo'g'on tropik daraxt*)
bap [bæp] *n shotl.* bulochka, bulka
baptism [ˈbæptɪzm] *n* cho'qintirish (*xristian diniga kiritish*)
baptismal [bæpˈtɪzml] *a* cho'qintirishga oid
baptist [ˈbæptɪst] *n* cho'qintiruvchi
baptistery, baptistry [ˈbæptɪstrɪ] *n cherk.* 1) jom. tog'ora (*bolani suvga botirib cho'qintiriladigan katta idish*); 2) = **baptism**
baptize [bæpˈtaɪz] *v* 1) cho'qintirmoq; 2) nom qo'ymoq
bar [bɑ:] **1.** *n* 1) metall tasmasi, bo'lagi; 2) to'siq; 3) bar; 4) bufet; 5) tamaddixona
baragouin [ˌbærəˈgwɪn] *n fr.* tushunib bo'lmaydigan narsa
barathum [ˈbærəθəm] *n kam.* chuqur, chuqurlik, o'ra, tagsiz (tubsiz) chuqurlik, jar, choh
barb [bɑ:b] *n bot.* qiltiq, qiltanoq
Barbadian [bɑ:ˈbeɪdɪən] **1.** *n* Barbados orolida istiqomat qiluvchi (yashovchi, turuvchi); **2.** *a* Barbados va barbadosliklarga oid (taalluqli bo'lgan)
barbaralia [ˌbɑ:bəˈreɪlɪə] *n kit. kin.* chet el urg'usi (aksenti)
Barbaresque [ˌbɑ:bəˈresk] **1.** *n esk.* barbar(lar) (*Shimoliy Afrika g'arbiy qismining tub aholisi*); **2.** *a* 1) *esk.* barbarlarga oid; barbar(lar)...; 2) **(b.)** a) dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, xunuk; b) shafqatsiz, berahm, yovuz
barbarian [bɑ:ˈbeɪrɪən] **1.** *n* nodon, johil; **2.** *a* vahshiyona
barbaric [bɑ:ˈbærɪk] *a* dag'al, qo'pol, to'ng, xunuk
barbarism [ˈbɑ:bərɪzm] *n* johillik
barbarity [bɑ:ˈbærɪtɪ] *n* 1) qahri qattiqlik, berahmlik, yovuzlik, johillik; 2) qo'pollik
barbarize [ˈbɑ:bəraɪz] *v* yovvoyilashmoq, yovvoyilashib ketmoq, yovvoyi bo'lib qolmoq
barbarous [ˈbɑ:bərəs] *a* yovvoyi, vahshiy
barbate [ˈbɑ:beɪt] *a zool.* qiltiqli, sertiqli, sertuk, qiltiriqli
barbecue [ˈbɑ:bɪkju:] *n* butunlay qovurilgan (*qo'y yoki mol*) go'shti; **2.** *v* go'shtni butunligicha qovurmoq
barbed [bɑ:bd] *n* tikanakli: **a ~ wire** tikanli sim
barbel [ˈbɑ:bl] *n zool.* so'zanbaliq; ninabaliq
bar-bell [ˈbɑ:bel] *n pl sport.* shtanga
barber [ˈbɑ:bə] *n* sartarosh
barber-monger [ˈbɑ:bə,mʌŋgə] *n esk.* olifta, bashang (fason, kiyimiga zeb beradigan) odam, satang, po'rim, o'ziga bino qo'yuvchi (havoyi) odam
barbery [ˈbɑ:bərɪ] *n* 1) sartaroshlik san'ati; 2) *esk.* sartaroshxona
barberry [ˈbɑ:bərɪ] *n bot.* zirk (*daraxti va mevasi*)
barbigerous [bɑ:ˈbɪdʒərəs] *a kam.* soqolli, sersoqol
bar bit [ˈbɑ:bɪt] *n* suvluq (*yuganning ot og'zidagi temir qismi*)
barbital [ˈbɑ:bɪtæl] *n farm.* veronal (*uyqu dori*)
barbiton [ˈbɑ:bɪtən] *n tar.* 1) lira (*Yunonistonda: chertib chalinadigan turli musiqa asbobi*); 2) ud (*qadimgi musiqa asboblaridan birining nomi*)
barcarol(l)e [ˌbɑ:kəˈrəʊl] *n* 1) *mus.* barkarola (*1. Venetsiya qayiqchilarining qo'shig'i; 2. shu qo'shiq uslubida yozilgan musiqa*); 2) *kam.* qayiqchi, qayiq haydovchi
bard [bɑ:d] *n tar.* bard (*qadimgi keltlarda: kuychi shoir, baxshi*)
bardic [ˈbɑ:dɪk] *a tar.* bardlarga oid
bardish [ˈbɑ:dɪʃ] *a* shoirona, shoirlarga xos (bo'lgan)
bardocucullus [ˌbɑ:dəkjuˈkju:ləs] *n tar.* kapushonli (*ustki kiyim yoqasiga biriktirib tikiladigan qaytarma qalpoqli*) plash
bare [beə] **1.** *a* yalang'och, ochiq; **2.** *v* yechmoq, ochmoq, ko'rsatmoq
bareback [ˈbeəbæk] *a* egarlanmagan, egarsiz
bare-bones [ˈbeəbəʊnz] *n pl jarg.* eti borib suyagiga yopishgan, teri bilan suyagi qolgan, juda ozgan, qoq suyak

barefaced [ˌbeəˈfeɪst] *a* 1) ochiq yuz bilan, niqobsiz; 2) uyatsiz

barefacedly [ˌbeəˈfeɪstlɪ] *adv* 1) uyalmasdan, or-nomus qilmay, hayosizlik bilan, sharmadalarcha; 2) surbet (bezbet, behayo, uyatsiz, yuzsiz)larcha; 3) ochiqchasiga, ochiq, ochiqdan ochiq, oshkora (ro'yirost) qilib, ochiqchasiga, barala

barefacedness [ˌbeəˈfeɪstnəs] *n* 1) surbetlik, bezbetlik, betsizlik, beorlik, andishasizlik, uyatsizlik, yuzsizlik, behayolik; 2) dag'allik, qo'pollik; qo'rslik, to'rslik; dag'al muomala, qo'pol gap

barefoot [ˈbeəfʊt] **1.** *a* yalangoyoq; **2.** *adv* yalangoyoq holda

barefooted [ˌbeəˈfʊtɪd] *a* oyoq kiyimsiz, oyoq yalang, yalangoyoq

barege [bəˈreʒ] *n fr.* 1) *to'q.* a) barej (*harir gazlama turi*); 2) yengil shaffof gazlama; 2) „barej" mineral suvi (*buloqning nomi bilan atalgan*)

bare-headed [ˌbeəˈhedɪd] boshyalang, bosh kiyimsiz

barelegged [ˌbeəˈlegd] *a* yalangoyoq, oyoq kiyimsiz

barely [ˈbeəlɪ] *adv* zo'rg'a, bazo'r, arang

barenecked [ˌbeəˈnekt] *a* yalang'och (ochiq) bo'yin bilan

bareness [ˈbeənəs] *n* ochiqlik, yopilmaganlik, berkitilmaganlik

baresark [ˈbeəsɑːk] *a* quturgan, achchig'i tez

bar-fly [ˈbɑːflaɪ] *n so'zl.* bar (mayxona)ning hozir-u noziri

bargain [ˈbɑːgɪn] **1.** *n* savdo shartnomasi (bitimi); **2.** *v* savdolashmoq

bargainee [ˌbɑːgɪˈniː] *n yur.* yer sotib oluvchi kishi, yer xaridori

bargainer [ˈbɑːgɪnə] *n* savdogar, do'kondor

bargainor [ˈbɑːgɪnə] *n yur.* yer sotuvchi kishi, yer sotuvchisi

barge [bɑːdʒ] *n* barja (*shatakka olib yuriladigan yoki o'ziyurar yassi yuk kemasi*)

bargee [bɑːˈdʒiː] *n* barka (*yuk tashiydigan yassi daryo kemasi*)ga oid

bargeman [ˈbɑːdʒmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) barja (barka) jamoasi a'zosi

bargemaster [ˈbɑːdʒˌmɑːstə] *n* yuk tashiydigan yassi daryo kemasining xo'jayini (egasi)

barge-pole [ˈbɑːdʒpəʊl] *n* barja (*shatakka olib yuriladigan yoki o'ziyurar yassi yuk kemasi*)ni itarib (turtib, surib) qo'yish uchun xizmat qiladigan uzun xoda (cho'p, tayoq)

hargh [bɑːf] *n dial.* 1) tepalik (balandlik, tog') qirrasi (cho'qqisi); 2) tikka tushgan (*yoki* ko'tarilgan) tog' yo'li; 3) shaxta

baric [ˈbærɪk] *a* 1) *kim.* bariyga oid, bariyli; 2) barometrik (*atmosfera bosimiga oid*)

barilla [bəˈrɪlə] *n bot.* sho'r tuproqda o'sadigan ba'zi o'simliklarning umumiy nomi

baring [ˈbeərɪŋ] *n* 1) yalang'ochlanish, ochilib qolish; 2) *geol.* ochiq (yer yuziga chiqib qolgan) tog' jinslari

bar iron [ˈbɑːˌaɪən] *n tex.* xivichsimon sim

barite [ˈbɑːraɪt] = **barytes**

baritone [ˈbærɪtəʊn] *v mus.* bariton (*1. tenor bilan bas oralig'idagi erkaklar ovozi; 2. shunday ovozli qo'shiqchi; 3. puflab chalinadigan musiqa asbobi*)

barium [ˈbeərɪəm] *n kim.* bariy

bark [bɑːk] **1.** *n* 1) daraxt po'stlog'i; 2) vovullash, akillash; 3) kema; **2.** *v* 1) daraxtning po'stlog'ini shilib olmoq; 2) vovullamoq, akillamoq

bark beetle [ˈbɑːkˌbiːtl] *n zool.* po'stloq-xo'rqo'ng'iz

barkeeper [ˈbɑːˌkiːpə] *n amer.* 1) bar sohibi. 2) bar xizmatchisi

barken [ˈbɑːkən] *v* (*terini*) oshlamoq, oshlab qo'ymoq

barker [ˈbɑːkə] *n* baqiroq odam, e'lonchi, chopar

barkery [ˈbɑːkrɪ] *n* teri oshlash zavodi

barkie [ˈbɑːkɪ] *n kino. jarg.* 1) ovozli film; 2) *pl* ovozli kino

barking [ˈbɑːkɪŋ] **1.** *n* 1) shilish; 2) vovullash; akillash; **2.** *a* vovullayotgan, akillayotgan

barking-iron [ˈbɑːkɪŋˌaɪən] *n tex.* o'roq-randa

bark-pit [ˈbɑːkpɪt] *n* teri oshlaydigan tog'ora

barley [ˈbɑːlɪ] *n bot.* arpa

barley-bird [ˈbɑːlɪbɜːd] *n* boltatumshuq (*qush*)

barley-bree [ˈbɑːlɪbriː] = **barley-broth**

barley-broth [ˈbɑːlɪbrɒθ] *n* o'tkir arpa pivosi

barleycorn [ˈbɑːlɪkɔːn] *n* arpa doni

barley-hood [ˈbɑːlɪhʊd] *n kam.* mastlik, sarxushlik, kayfi oshish, ichib mast bo'lish

barley-straw [ˈbɑːlɪstrɔː] *n so'zl.* arzimagan (ahamiyatsiz) gap *yoki* voqea

barley sugar [ˈbɑːlɪˌʃʊgə] *n* obaki, obakidandon

barley-water [ˈbɑːlɪˌwɔːtə] *n* arpa qaynatmasi

barling [ˈbɑːlɪŋ] *n* xodacha, tayoq

barm [bɑːm] *n* (*pivo*) achitqisi

barmaid [ˈbɑːmeɪd] *n* bufetchi ayol

barman [ˈbɑːmən] *n* (*pl* **-man** [-mən]) barda ishlaydigan erkak

barmaster [ˈbɑːˌmɑːstə] *n* shaxta *yoki* konning boshqaruvchisi

barm-team [ˈbɑːmtiːm] = **bairn-team**

barmy [ˈbɑːmɪ] *a* ko'pikli, ko'pigi bor; serko'pik

barn [bɑːn] *n* 1) omborxona, ombor, xirmon, saroy; 2) depo, garaj; **a car ~** *amer.* tramvay parki

barnacle [ˈbɑːnəkl] *n* tikan, tikanak; tishlamasligi (baqirmasligi) uchun og'izga tiqib qo'yiladigan latta, yog'och (*o'ynoqi otlarda*)

barn-door [ˌbɑːnˈdɔː] *n* omborxona darvozasi

barn-floor [ˈbɑːnflɔː] *n q.x.* xirmon, usti yopiq saroy

barnman [ˈbɑːnmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) g'alla yanchuvchi

barnstorm [ˈbɑːnstɔːm] *v* saroyda tomosha ko'rsatmoq (*sayyor aktyorlar to'g'risida*)

barnstormer [ˈbɑːnˌstɔːmə] *n amer.* 1) sayoq aktyor; 2) gastroldagi artist

barn-yard [ˈbɑːnjɑːd] *n* 1) xirmon, saroy; usti berk xirmon; 2) mol hovli, mol saroy

barogram [ˈbærəgræm] *n* barogramma (*barograf yozib olgan atmosfera bosimining o'zgarishlarini ko'rsatadigan egri chiziq*)

barograph [ˈbærəgrɑːf] *n* barograf (*atmosfera bosimini o'zi yozib turadigan asbob*)

barometer [bəˈrɒmɪtə] *n* barometr (*atmosfera bosimini o'lchovchi asbob*)

barometric(al) [ˌbɑːrəˈmetrɪk(əl)] *a* barometrga (*atmosfera bosimiga*) oid

barometrically [ˌbærəˈmetrɪklɪ] *adv* barometr yordamida (yordami bilan)

baron [ˈbærən] *n* baron, grafdan quyi unvon va shu unvondagi kishi

barong [bɑːˈrɒŋ] *n* barong (*filippinlar xanjari*)

baronage [ˈbærənɪdʒ] *n* baronlik, baron unvoni

baroness [ˈbærənəs] *n* baronessa (*baronning qizi yoki xotini*)

baronet [ˈbærənɪt] **1.** *n* baronet (*unvon*); **2.** *v* baronet unvonini bermoq

baronetcy [ˈbærənɪtsɪ] *n* baronet unvoni

baronial [bəˈrəʊnɪəl] *a* baronga oid, baronlik, baron

barony [ˈbærənɪ] *n* baron mulki

baroque [bəˈrɒk] *n san.* (**the ~**) barokko (*san'atda, xususan, me'morchilikda: XVI–XVIII asrlarda rasm bo'lgan serhasham badiiy uslub*)

baroscope [ˈbærəskəʊp] *n fiz.* baroskop (*atmosfera bosimini o'lchaydigan asbob*)

barouche [bəˈruːʃ] *n* landо (*to'rt kishilik buklama soyabonli arava*)

barque [bɑ:k] *n* uch, to'rt yoki besh machtali suzish kemasi

barracan ['bærəkæn] *n* 1) dag'al jun gazlama (*yaktak, cho'ponlar plashi va b. uchun*); 2) *to'q.* suv (nam) o'tkazmaydigan gazmol „barakan"

barrack ['bærək] **1.** *n* 1) barak (*yengil-yelpi qurilgan yog'och uy*); 2) kazarma (*harbiy qismlarda*); **2.** *v* 1) kazarmalarga joylashtirmoq; 2) baqirib birovning gapini bo'lmoq; 3) biror kimsa *yoki* narsani qo'llab-quvvatlayotganligini ko'rsatish uchun baqirmoq

barrack-room ['bærəkru:m] *n* kazarma (*harbiy qism joylashtiriladigan maxsus bino*)

barracoon [ˌbærə'ku:n] *n tar.* maydon (*qul negrlar, habashlar uchun*)

barracoota [ˌbærə'ku:tə] = **barracuda**

barracuda [ˌbærə'ku:də] *n zool.* dengiz cho'rtan balig'i

barragan ['bærəgən] = **barragon**

barrage ['bærɑ:ʒ] *n* to'siq, g'ov

barragon ['bærəgən] *n to'q.* barragon (*moleskin (shaytonteri) tipidagi gazmol*)

barrator ['bærətə] *n* g'iybatchi, ig'vogar

barratry ['bærətrɪ] tuhmat, g'iybat

barred [bɑ:d] *a* 1) berkitib (yopib) qo'yilgan; to'silgan, to'sib qo'yilgan; panjara bilan to'sib qo'yilgan; 2) yo'l-yo'l, ola-bula; yo'l-yo'l chiziqlar bilan belgilab qo'yilgan

barrel ['bærəl] **1.** *n* 1) bochka; 2) barrel (*suyuq, sochiladigan va ayrim qattiq materiallar o'lchov birligi*); **2.** *v* bochkalarga quymoq

barrel-bellied ['bærəlˌbelɪd] *a* qorni katta, katta qorinli

barrel-bulk ['bærəlbʌlk] *n* hajm o'lchaydigan barrel (*sochiluvchan jismlar o'lchovi*)

barrel-head ['bærəlhed] *n* bochkaning tagi

barrelled ['bærəld] *a* 1) bochkaga solingan (joylashtirilgan); 2) bochkasimon, bochka shaklidagi

barrelling ['bærəlɪŋ] *n* bochkaga solish (joylashtirish)

barrel-organ ['bærəlˌɔ:gən] *n* sharmanka (*burab chalinadigan qutisimon musiqa asbobi*)

barrel-roll ['bærəlrəʊl] *n av.* bochka (*oliy pilotaj figurasi*)

barrel-shaped [ˌbærəl'ʃeɪpt] *a* bochka shaklidagi, bochkasimon, bochkaga o'xshagan

barrel-vault ['bærəlvɔ:lt] *n me'mor.* silindrsimon (silindr shaklidagi) gumbaz (qubba)

barren ['bærən] **1.** *a* hosilsiz, hosil (meva) bermaydigan; **2.** *n* hosilsiz yer

barrener ['bærənə] *n* qisir sigir

barricade [ˌbærɪ'keɪd] **1.** *n* 1) barrikada (*chep*); 2) to'siq, g'ov; **2.** *v* barrikada qurmoq, chep bog'lamoq

barrier ['bærɪə] **1.** *n* g'ov, to'siq; **2.** *v* to'smoq

barrier-treaty ['bærɪəˌtri:tɪ] *n tar.* davlatlar chegarasi haqidagi shartnoma

barring ['bɑ:rɪŋ] **1.** *prep.* ...dan tashqari; **2.** *n tex.* (*mashinani*) ishga tushirish

barring-out [ˌbɑ:rɪŋ'aʊt] *n* o'qituvchilar darslarini qasddan buzish, ish tashlash (*o'qituvchilarni darslarga kirishga qo'ymaslik*)

barrister ['bærɪstə] *n* advokat

bar-room ['bɑ:ru:m] *n* (*mehmonxona va b. da*) bar, gazakxona, yemakxona, bufet (*kichkina yemakxona*)

barrow ['bærəʊ] *n* zambilg'altak, g'altak arava

barrow-boy ['bærəʊbɔɪ] *n* ko'cha savdogari

bartender ['bɑ:ˌtendə] *n amer.* bar xodimi

barter ['bɑ:tə] **1.** *n* 1) ayirboshlash; 2) ayirboshlashga asoslangan savdo; **2.** *v* ayirboshlamoq

barter's itch [bɑ:təzɪtʃ] *n vet.* qichima, qo'tir

bartizan ['bɑ:tɪzæn] *n tar.* soqchilar minorasi

barton ['bɑ:tən] *n* qo'rg'oncha

barvel(l) ['bɑ:vəl] *n kam.* charm (charmdan qilingan) etak (fartuk)

barycentric [ˌbærɪ'sentrɪk] *a fiz.* baritsentrik (*massa markaziga oid*)

baryphony [bə'rɪfə(o)nɪ] *n tib.* qiyinlashgan nutq, gapirishning qiyin (og'ir)lashishi, qiyinchilik bilan gapirilgan gap (aytilgan so'z)

barysphere ['bærɪsfɪə] *n geol.* barisfera (*yer sharining yadro va mantiyadan iborat ichki ikki qismi*)

baryta [bə'raɪtə] *n kim.* bariy oksidi

barytes [bə 'raɪti:z] *n min.* 1) barit (*rangsiz, ba'zi turlari rangli mineral*); 2) shpat (*silikatlar jinsiga mansub mineral*)

barytone ['bærɪtəʊn] *n* bariton (*ovoz va musiqa asbobi*)

basal ['beɪsl] *a* 1) zaminida yotgan; 2) asosiy, muhim

basalt ['bæsɔ:lt] *n min.* bazalt (*shishasimon vulkanik tog' jinsi*)

basaltic [bə'sɔ:ltɪk] *a min.* bazaltga oid.

bascart ['bɑ:skɑ:t] *n* savatli (savat o'rnatilgan) aravacha (*ko'pgina o'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan do'konlarda ishlatiladi*)

bascule ['bæskju:l] *n* ko'prikning ko'tariladigan tomoni

bascule-bridge [ˌbæskjʊl'brɪdʒ] *n* ko'tarma ko'prik

bascule-door [ˌbæskju:l'dɔ:] *n* ko'tarma darvoza

base [beɪs] **1.** *a* pastkash, yaramas; **2.** *n* 1) asos, tub, tag, ost; 2) bilim, manba, asos; 3) baza, boshqarma; 4) harbiy baza; **3.** *v* asos solmoq; (**on/upon**) asoslanmoq

baseball ['beɪsbɔ:l] *n sport.* beysbol

baseboard ['beɪsbɔ:d] *n qur.* plintus (*devorning pastida pol chetiga qoqiladigan ingichka taxta*)

base-court ['beɪskɔ:t] *n* (*saroy, fermadagi*) tomorqa

Basedow's disease ['bɑ:zɪdəʊzdɪˌzi:z] *n tib.* bazedov kasalligi (*qalqonsimon bez funksiyasining buzilishi natijasida paydo bo'ladigan kasallik*)

base frequency [ˌbeɪs'fri:kwənsɪ] *n fiz.* xususiy chastota

baselard ['beɪslɑ:d] *n tar.* xanjar

baseless ['beɪsləs] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan

baselessness ['beɪslɪsnəs] *n* asossizlik, dalilsizlik, asoslanmaganlik, noo'rinlik

base-line ['beɪslaɪn] *n maxs.* 1) asos, negiz, baza, tayanch, asosiy (tayanch) yo'l; 2) *harb.* harbiyning asosiy ta'minot yo'li (chizig'i); 3) *sport.* maydonning orqa chizig'i

basely ['beɪslɪ] *adv* razilona, vijdonsizlarcha

basement ['beɪsmənt] *n* 1) asos, manba; 2) eng pastki, poydevorda qolib ketgan qavat; 3) yerto'la; 4) zamin, poydevor

baseness ['beɪsnəs] *n* 1) pastlik, pastkashlik, tubanlik, razillik, vijdonsizlik; 2) razil ish, xatti-harakat, razolat

base-plate ['beɪspleɪt] *n tex.* tayanch plitasi

base-rate ['beɪsreɪt] *n iqt.* tarif to'lovi, tarif(lar) bo'yicha pul to'lash

bash [bæʃ] **1.** *n* zarba; **2.** *v* 1) urmoq; 2) qattiq zarba bermoq

basher ['bæʃə] *n amer.* qotil, bosqinchi

bashful ['bæʃfl] *a* uyatchan, tortinchoq, kamtarin

bashfulness ['bæʃflnəs] *n* 1) uyatchanlik, nomuslilik, ibolilik, tortinchoqlik, hayo, ibo; 2) kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik, sipolik; 3) jur'atsizlik, yuraksizlik, qo'rqoqlik, tortinchoqlik; hadiksirashlik

bashing ['bæʃɪŋ] *n* savalash, qamchilash, urish

basic ['beɪsɪk] *a* asosiy, bosh, eng muhim; **a ~ instruction** asosiy kurs (*o'qitish jarayonida*); **literacy ~** savod chiqarish manbayi (asosi)

basically ['beɪsɪklɪ] *adv* 1) asosan, umuman olganda; deyarli; 2) aslini (haqi-

qatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risini aytganda
basicity [beı ´sısıtı] *n kim.* valentlik, asosiylik
basil ['bæzl] *n bot.* rayhon
basilar [´bæsılə] *a anat.* asosiy, tub, bosh; eng muhim; ~ **artery** asosiy arteriya; **a ~ bone** asosiy suyak
basilic [bə´zılık] = **basilica**
basilica [bə ´zılıkə] *n* bazilika (*ichki qismi qator ustunlar bilan bir nechta qismga bo'lingan bino*)
basilicon [bə ´sılıkən] *n* 1) shifobaxsh maz (*malham dori*)
basilisk [´bæsılısk] **1.** *n afs.* ajdaho; **2.** *a* zaharli
basilisk-glance [´bæzılısk,glɑ:ns] *n so'zl.* 1) ko'z tegish, suq (kinna) kirish; 2) ko'z, suq; kinna
basin ['beısn] *n* tos, jom, tog'oracha
basinet [´bæsınət] *n* po'latdan qilingan dubulg'a, temir qalpoq
basinful ['beısnful] *n* 1) to'la kosa, bir kosa to'la (*qandaydir narsa*); 2) *ko'ch. so'zl.* bir talay, juda ham ko'p, behisob, son-sanoqsiz, cheksiz; **a ~ of work** juda ham ko'p ish; **a ~ of trouble** juda ko'p ko'ngilsiz voqealar; **a ~ of excitement** juda ko'p iztirob (hayajon, tashvish, besaranjomlik, bezovtalik, g'ulg'ula)
basin-hat [´beısnhæt] *n harb. so'zl.* shlem (*boshni urilish yoki zarbadan saqlovchi maxsus kiyim*)
basis ['beısıs] *n* 1) asos, zamin; 2) asosiy (tarkibiy) qism
bask [bɑ:sk] *v* 1) isinmoq (*quyoshda, o'tda*); 2) rohatlanmoq (*tinchlikdan, baxtdan*)
basket ['bɑ:skıt] **1.** *n* savat; **2.** *v* keraksiz narsalarni savatga tashlamoq
basket-ball ['bɑ:skıtbɔ:l] *n sport.* basketbol
basketballer [´bɑ:skıt,bɔ:lə] *n* basketbol o'yinchisi
basketful [´bɑ:skıtful] *n* nima bilandir to'la savat
basketing ['bɑ:skıtıŋ] *n* savat to'qish
basketry [´bɑ:skıtrı] *n* to'qish, o'rish, to'qilgan (savat) buyumlar
basket-work [´bɑ:skıtwɜ:k] = **basketry**
basking-shark [´bɑ:skıŋ ´ʃɑ:k] *n zool.* gigant akula (*akula (nahang)ning eng yirik turi*)
Basque [bæsk] **1.** *n* 1) basklar; 2) bask tili **2.** *a* basklarga oid
bas-relief [,bæsrı´li:f] *n* barelyef (*tekis yuzaga ishlangan bo'rtma naqsh*)
bass [bæs] *n zool.* olabug'a (*baliq*)
bass clarinet ['beıs,klærı´net] *n* bass-klarnet (*musiqa asbobi*)
bass-drum [,beıs ´drʌm] *n mus.* katta nog'ora
basset ['bæsıt] *n* taksa (*itning bir turi*)
basset-horn [´bæsıthɔ:n] *n* bassetgorn (*musiqa asbobi*)
bassinet [,bæsí net] *n* 1) (*usti*) to'qilgan beshik (belanchak); 2) yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun to'qilgan kichkina karavot; 3) (*ichi chuqur*) bolalar aravachasi (kolyaskasi)
bassinette [,bæsı´net] = **bassinet**
basso [´bæsəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) *muz.* bas (*ovoz*)
bassoon [bə´su:n] *n* fagot (*yog'ochdan yasalgan surnaysimon musiqa asbobi*)
bassoonist [bə´su:nıst] *n* fagot (*yog'ochdan yasalgan surnaysimon musiqa asbobi*) chaluvchi, fagotchi
bass-relief [,bæsrı´li:f] = **bas-relief**
bass-viol [,beıs ´vaıəl] *n* violonchel (*skripkasimon katta musiqa asbobi*)
bass-wood ['bæswud] *n bot.* jo'ka (lipa) daraxti
bast [bæst] *n* tola, po'stloq (*kanop, zig'ir va sh. k. o'simliklar poyasining tolasi*)
bastard I ['bæstəd] *n* nikohsiz tug'ilgan bola, haromi
bastard II ['bæstəd] *n bot.* duragay, chatishma
bastardize [´bæstədaız] *v* nikohsiz tug'ilgan deb e'lon qilmoq
bastard toadflax ['bæstəd´təʊdflæks] *n bot.* zig'irak (*dekorativ o'simlik*)
bastardy ['bæstədı] *n* bolaning nikohsiz tug'ilishi
baste [beıst] *v* 1) qovurish paytida qozonga yog' quymoq; 2) urmoq, yanchmoq
bastel-house ['bæstəlhaus] *n* juda mustahkamlangan (mustahkam) uy-joy (istiqomatgoh)
basten ['bæstn] *a* 1) po'stloqdan, chiptadan qilingan; po'stloq...; chipta...; lub...; 2) lubli, tolali; 3) chipta (*dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yupqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa*)ga oid, chipta..., chipta ishlab chiqaradigan
bastile [bæ´sti:l] = **bastille**
bastille [bæ´sti:l] *n fr* qal'a, qamoqxona
bastillion [bæs´ti:ljən] *n tar.* fort, kichikroq qal'a (qo'rg'on)
bastinado [,bæstı´neıdəʊ] **1.** *n* (*pl* **-ous** [-əuz]) kaltak bilan urish (*asosan, oyoqning kaftiga; sharqdagi jazolash usuli*); **2.** *v* kaltak bilan urmoq (*asosan, oyoqning kaftiga*)
bastion ['bæstıən] *n harb.* qo'rg'on
bat [bæt] **1.** *n* 1) *zool.* ko'rshapalak; 2) so'yil, to'qmoq; **2.** *v* tayoq (so'yil, to'qmoq) bilan urmoq
batata [bæ´tɑ:tə] *n* batat (*janub o'simligining bir turi va uning kartoshka ta'mli shirin ildiz mevasi*)
bat-blind ['bætblaınd] *a* butunlay ko'rmaydigan
batch [bætʃ] *n* bir yo'la pishiriladigan non miqdori
batcher ['bætʃə] *n tex.* bunker; ta'minlagich
batching ['bætʃıŋ] *n* 1) *maxs.* (*aralashma, qorishmani*) dozalarga bo'lish, dozasini (miqdorini) belgilash; 2) navlarga (xil-xiliga) ajratish, saralash, xillash; 3) guruhlarga bo'lish (ajratish); **a ~ plant** navlarga ajratadigan qurilma (*beton zavodida*)
batchy ['bætʃı] *a jarg.* miyasi aynigan, aqldan ozgan, telba, savdoyi, jinni, devona, aqli kam, aqli past (zaif)
bateau [bæ´təʊ] *n* (*pl* **-aux** [-əʊz]) *kanad.* 1) tagi yassi qayiq; 2) *harb.* ponton (*1. vaqtinchalik ko'prik, inshoot va sh. k. ni suvda ko'tarib turish uchun xizmat qiladigan tagi yassi qayiq yoki kema; 2. vaqtincha qurilgan ko'chma ko'prik; 3. maxs. cho'kkan kemalarni suv betiga ko'tarib chiqarish uchun xizmat qiladigan ichi bo'sh quti yoki silindr*); **a ~ bridge** ponton ko'prik
bated ['beıtıd] *a* 1) chiday oladigan, bardosh bera oladigan, ko'tara oladigan; 2) to'xtatib (tutib, ushlab) tura oladigan; **with ~ breath** nafas chiqarmay (turish)
batells ['bætlz] = **battels**
bat-eyed [´bætaıd] *a* 1) kaltabin, uzoqni ko'rmaydigan (ko'rolmaydigan); 2) idroksiz, sezgir (o'tkir) bo'lmagan, idroki (farosati) yo'q, zehni past
batfowl [´bætfaʊl] *v* qushlarni tunda yorug'lik bilan ko'zini qamashtirib, yog'och bilan urib ovlamoq
bat-fowler ['bæt,faʊlə] *n* tunda qush tutuvchi, tungi qushtutar (*asosan, tunda sayroqi qushlarni tutish bilan shug'ullanuvchi kishi*)
bath [bɑ:θ] *n* (*pl* **baths** [bɑ:ðz]) 1) vanna; 2) cho'milish (*vannada*); **to have (to take) a ~** (vannada) cho'milmoq; 3) hammom; cho'miladigan joy
Bath chair ['bɑ:θtʃeə] *n* kasallar uchun g'ildirakli kreslo
bathe [beıð] **1.** *n* cho'milish; **2.** *v* cho'milmoq
bather ['beıðə] *n* cho'miluvchi
bath-house ['bɑ:θhaus] *n* hammom
bathinette [,bæθə´net] *n amer.* rezinali bukiladigan bolalar vannachasi
bathing ['beıðıŋ] *n* cho'milish
bathing beauties ['beıðıŋ,bju:tız] *n amer.* cho'milish kiyimidagi nozaninlar (go'-

zal ayollar) (*go'zallar musobaqasi tomoshasidagi*)

bathing-place [ˊbeɪðɪŋpleɪs] *n* dengiz kurorti

batholith [ˊbæθəlɪθ] *n geol.* batolit (*yer po'stidagi burmali hududlarning cho'kindi qatlamlari orasida yotgan granitoid tog' jinslarining yirik (200 kv. km. dan ortiq) massivi*)

bathometer [bəˊθɔmɪtə] *n* batometr (*suvning kimyoviy va fizikaviy xossalarini tekshirish, undagi organik hamda anorganik qo'shilmalarni aniqlash maqsadida tabiiy suv havzalaridan muayyan chuqurlikda namuna oladigan asbob*)

bat-horse [ˊbɔ:hɔ:s] *n* 1) yuk oti, yuk tashish uchun xizmat qiladigan ot; 2) *q.x.* aravaga qo'shiladigan (aravakash) ot

bathos [ˊbeɪθɒs] *n* chuqurlik, jar

bathrobe [ˊbɔ:θrəʊb] *n* cho'milish xalati

bath-room [ˊbɑ:θru:m] *n* vannaxona

bath-side [ˊbɑ:θsaɪd] *n* cho'milish hovuzining yon devori

bath-towel [ˊbɑ:θˌtaʊəl] *n* katta paxmoq sochiq

bath-tub [ˊbɑ:θtʌb] *n* vanna

bathymetry [bæˊθɪmɪtrɪ] *n* batimetriya, katta chuqurliklarni o'lchash, juda chuqur joylarni o'lchash

bathyscaphe [ˊbæθɪskeɪf] *n* batiskaf (*suv ostida harakat qiladigan mexanizmli suv osti kamerasi*)

bathyseism [ˊbæθɪsaɪzm] *n* juda chuqur joylardagi yer qimirlash

bathysphere [ˊbæθɪsfɪə] *n* batisfera (*simli kanop orqali tushirilgan suv osti kamerasi*)

bathythermograph [ˌbæθɪˊθɜ:məgrɑ:f] *n maxs.* batitermograf (*suv haroratini o'lchaydigan asbob*)

bating [ˊbeɪtɪŋ] *prep.* ...dan boshqa, ...dan tashqari

batiste [bæˊti:st] *n* batist (*gazlama*)

batlet [ˊbætlɪt] *n esk.* 1) g'o'la shaklidagi g'alla yanchish asbobi; 2) yog'och to'qmoq

batman [ˊbætmən] *n harb.* navkar, chopar

bat-minded [ˌbætˊmaɪndɪd] *a* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm, aqlidroki past, bilim doirasi cheklangan, fikri tor

bat-money [ˊbætˌmʌnɪ] *n harb.* yuk tashish uchun (zobitga) beriladigan pul

bat-mule [ˊbætmju:l] *n* yuk ortiladigan (yuk tashish uchun xizmat qiladigan) xachir

baton [ˊbætɔn] **1.** *n* politsiya tayog'i; **2.** *v* tayoq bilan urmoq (*politsiyachi haqida*)

batsman [ˊbætsmən] *n* to'pni urib qaytaruvchi (*kriketda va beysbolda*)

battailous [ˊbætɪləs] *a esk.* 1) jangovar, qahramon; 2) urushga (urush olovini yoqishga) qaratilgan; harbiy; urush...; 3) urishqoq, jangari; 4) jangga (urishga) tayyor

battalia [bəˊteɪlɪə] *n* 1) *tar.* jangovar tartib; **in ~** jangovar tartibda; 2) *esk.* qo'shin, askar, lashkar; qurolli kuchlar

battalia pie [bəˊteɪlɪəˌpaɪ] *n* ichak-chovoq (kalla-pocha go'shti) bilan pishirilgan pirog (somsa)

battalion [bəˊtælɪən] *n* 1) *harb.* batalyon; 2) *amer.* artilleriya, divizion

battels [ˊbætlz] *n pl univ.* davlat ta'minoti (*Oksford universiteti talabalari haqida*)

batten [ˊbætn] **1.** *n* polbop taxta, pol taxta; **2.** *v* 1) pol qoqmoq; 2) yaxshi boqilib semirmoq

battening [ˊbætnɪŋ] *n* 1) taxta to'siq (*bino ichini bo'lib qo'yish uchun qilingan taxta devor*); 2) yupqa taxta bilan qoplash

batter [ˊbætə] **1.** *n* ko'pirtirilgan xamir; **2.** *v* qattiq urmoq

battered [ˊbætəd] *n* ko'p urilgan

battering [ˊbætərɪŋ] *n* 1) urish, kaltaklash, do'pposlash, savalash, do'lday yog'iladigan zarbalar; 2) qattiq taqillatish, urish, qoqish (*eshikni*); 3) zarb bilan kesib (o'yib) ishlash; 4) ezilgan joy, o'yiq zaxa

battering-engine [ˊbætərɪŋˌendʒɪn] = **battering-ram**

battering-ram [ˊbætərɪŋræm] *n harb.* 1) taran (*1. tar. qadimda qal'ani buzish uchun ishlatilgan uchli yog'och qurol; 2. harb. jangovar uslub sifatida o'z kemasi, tanki yoki samolyotini dushman kemasi, samolyoti yoki tankiga urib zarba berish; 3. harb. kemaning o'tkir tumshug'i*); 2) devorteshar qurollar

battering-train [ˊbætərɪŋtreɪn] *n harb. tar.* muhosara quroli (*to'pi, zambaragi*)

battery [ˊbætərɪ] *n* batareya; akkumulator (*asosan, avtomashinada*)

battery-operated [ˌbætərɪˊɒpəreɪtɪd] *a* batareya bilan ishlaydigan

batting [ˊbætɪŋ] *n* vatin (*astar bilan avra orasiga qo'yiladigan mato*)

battle [ˊbætl] **1.** *n* urush, kurash, olishish, jang; **2.** *v* jang olib bormoq; kurashmoq

battle-array [ˊbætləˊreɪ] *n* jangovar tartib

battle-axe [ˊbætlæks] *n* jangovar bolta

battle-bowler [ˊbætlˌbəʊlə] *n harb.* po'lat (po'latdan qilingan) shlem

battlecraft [ˊbætlkrɑ:ft] *n* harbiy mahorat

battle-cruiser [ˊbætlˌkru:zə] *n* safdagi kreyser

battle-cry [ˊbætlkraɪ] *n* jangovar shior

battledore [ˊbætldɔ:] *n* g'o'la, o'qlog'i, jo'va

battle dress [ˊbætldres] *n harb.* safar kiyimi

battle-field [ˊbætlfi:ld] *n* urush (jang) maydoni

battle-fleet [ˊbætlfli:t] *n* safdagi flot

battle-grey [ˌbætlˊgreɪ] *a* asrovchi (saqlovchi, himoya qiluvchi) tusdagi

battle-ground [ˊbætlgraʊnd] *n* harbiy harakatlar maydoni

battlement [ˊbætlmənt] *n* dandanali devor

battle-order [ˊbætlˌɔ:də] *n harb.* 1) jangovar tartib; 2) harbiy buyruq

battle-piece [ˊbætlpi:s] *n* urush manzaralari tasvirlangan rasm

battle-plane [ˊbætlpleɪn] *n av.* jangovar samolyot

battler [ˊbætlə] *n* 1) jangchi; 2) chidamli bokschi

battle-seasoned [ˊbætlˊsi:zɳd] *a* 1) urushni ko'rgan, jangda chiniqqan, jangga o'rganib qolgan; 2) ko'pni ko'rgan, boshidan ko'p narsa kechirgan, tajribali

battleship [ˊbætlˌʃɪp] *n* jangovar kema

battle-tested [ˊbætlˊtestɪd] *a harb.* 1) jangda (urushda) sinab (tekshirib) ko'rilgan, tekshirilgan, sinalgan; 2) urush tajribasiga ega (bo'lgan); 3) urushni ko'rgan, jangda chiniqqan

battle-tried [ˊbætltraɪd] *a* jang tajribasiga ega bo'lgan

battle-wagon [ˊbætlˌwægən] *n amer. deng. so'zl.* jangovar kema (*linkor*)

battle-worthy [ˊbætlˌwɜ:ðɪ] *a harb.* jang qilishga iqtidorli, jangga tayyor, shay

battology [bəˊtɒlədʒɪ] *n* 1) tavtologiya (*bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash*); 2) quruq mahmadonagarchilik, safsatabozlik; quruq (puch) gap

battue [bæˊtu:] *fr. n* o'rab (qurshab) olish (*ovda*)

batty [ˊbætɪ] *a so'zl.* aqldan ozgan, jinni, telba

baubee, baubie [bɔ:ˊbi:] = **bawbee**

bauble [ˊbɔ:bl] *n* 1) arzon taqinchoq; 2) Yangi yil archasini bezatish uchun ishlatiladigan koptok shaklidagi bezak

baubling [bɔ:blɪŋ] *a* arzimas

hauch [bɑ:k] *a shotl.* 1) kambag'al, qashshoq, nochor, bechorahol; 2) bebaxt, badbaxt, baxtsiz, baxti qora, toleyi past; sho'rpeshana, sho'rlik; 3) ayanch, ayanchli, achinarli, kishini achintiradigan; nochor, ojiz

bauchle [ˊbɔ:kl] *n shotl.* 1) kiyilaverib to'zgan boshmoq (botinka); 2) bekor-

chi; bekorchixo'ja, yalqov, tanbal, ishyoqmas, dangasa
baud [bɔ:d] *n maxs.* bod (*telegraf signallarini uzatish tezligi birligi*)
baudrons ['bɔ:drənz] *n shotl.* 1) mushuk, urg'ochi mushuk; 2) mushukning laqabi; mushukjon, miyovxon
bauge [bɔ:ʒ] *n qur.* somonli suvoq qorishmasi (*loy*)
baugh [bɔ:f] = **bauch**
bauld [bɔ:ld] = **bold**
baulk [bɔ:k] = **balk**
baum marten [ˌbəʊm 'mɑ:tɪn] *n zool.* 1) Yevropa suvsari; 2) Amerika suvsari
bauson ['bɔ:sn] *n esk.* 1) *zool.* bo'rsiq; 2) *ko'ch.* semiz (yo'g'on) odam; o'jar, qaysar, sarkash (odam)
bauxite ['bɔ:ksaɪt] *n min.* boksit, aluminiy rudasi
bavardage [ˌbɑ:vɑ: 'dɑ:ʒ] *n fr.* safsata, bekorchi (bo'lmag'ur, bema'ni, behuda) gap
Bavarian [bə'veərɪən] **1.** *n* 1) bavariyalik kishi, bavariyalik ayol; 2) Bavariya shevasi; **2.** *a* Bavariya va bavariyaliklarga oid; Bavariya va bavariyaliklarga qarashli (taalluqli) bo'lgan
bavin ['bævɪn] *n* 1) shox (*shox-shabba, quruq shoxchalar (o'tin) bog'lami*); 2) *maxs.* shox-shabba *yoki* qamish bog'lami (*to'g'on, ko'tarma va botqoqlikdagi yo'llarni mustahkamlash uchun bostiriladigan shox bog'lami*)
bawbee [bɔ:'bi:] *n shotl.* mayda pul, chaqa
bawcock ['bɔ:kɒk] *n esk.* azamat (barvasta) yigit
bawd [bɔ:d] *n so'zl.* 1) qo'shmachi ayol; 2) fohisha
bawdry ['bɔ:drɪ] *n* so'kinish; haqorat
bawdy ['bɔ:dɪ] **1.** *n* so'kinish; **2.** *a* yaramas, axloqsiz
bawdy-house ['bɔ:dɪhaʊs] *n* fohishaxona
bawl [bɔ:l] **1.** *n* qichqiriq, baqiriq; **2.** *v* qichqirmoq, baqirmoq
bawler ['bɔ:lə] *n* baqiroq odam, baqirib gapiradigan odam, baqiroq (*ko'chada mol sotib yuradigan kishi va b.*)
bawn [bɔ:n] *n tar.* saroyning mustahkamlangan (mudofaa inshootlari qurilgan) hovlisi
bawtie, bawty ['bɔ:tɪ] *n shotl.* katta it (kuchuk)
baxter ['bækstə] *n sheva.* novvoy
bay [beɪ] **1.** *n* 1) qo'ltiq, ko'rfaz; 2) akillash; 3) to'riq ot; 4) to'g'on; 5) dafna (*daraxti*); **2.** *a* to'riq; **3.** *v* 1) uvullamoq (*it haqida*); 2) qat'iy talab qilmoq
bayadere [ˌbɑ:jə'deə] *n* bayadera (*hind raqqosalariga yevropaliklar bergan nom*)
Bayard I ['beɪəd] *n* to'riq ot
Bayard II ['beɪəd] *n* mard, oliyjanob kishi
bay cherry ['beɪˌtʃerɪ] *n bot.* taflon (*atirgullilar oilasiga mansub doim yashil janub o'simligi; bargidan dori tayyorlanadi*)
bayonet ['beɪənɪt] **1.** *n* miltiq nayzasi; **2.** nayza tiqmoq
bayonet-joint ['beɪənɪt 'dʒɔɪnt] *n maxs.* zanjir bilan ulash (qo'shish, biriktirish)
bayou ['baɪu:] *n amer.* 1) daryoning tarmoqlanib, yoyilib, ko'lga *yoki* dengizga quyiladigan joydagi tarmog'i (shoxobchasi); 2) eski o'zan (*qurib qolgan daryo o'zani*)
bay-rum [ˌbeɪ 'rʌm] *n* taflon suvi
bay-salt ['beɪ 'sɔ:lt] *n* dengiz *yoki* ko'l cho'kindi tuzi
bay window [ˌbeɪ 'wɪndəʊ] *n me'mor.* tomdagi oynaband (*oynali tuynuk; deraza va b.*)
bayz [beɪz] = **baize**
baz(a)ar [bə'zɑ:] *n* bozor (*sharqda*)
bazoo [bə'zu:] *n jarg.* og'iz, tomoq, halqum, bo'g'iz; **shut up your ~!** bas qil! ovozingni o'chir!
bazooka [bə'zu:kə] *n amer. harb.* tankka qarshi qo'llanadigan „Bazuka" reaktiv granatamyoti
be [bi:] *v* (*sing* **was**, *pl* **were**) bo'lmoq, bor bo'lmoq; **to ~ about to** a) hozirlanmoq **my father is about to go** otam ketmoqchi; b) nima bilandir band bo'lmoq; d) oyoqqa turmoq; **to ~ at** rejalashtirmoq; **to ~ away** ishtirok etmaslik; **to ~ back** qaytmoq; **to ~ for** a) (*kimningdir yoki nimaningdir*) tarafdori bo'lmoq; b) ...ga jo'namoq; **to ~ in** kelmoq (*poyezd va b.*); **to ~ off** ketmoq; **to ~ on** (*kino, film, teatr tomoshasi*) bo'lmoq, qo'yilmoq; **to ~ out** uyda bo'lmaslik; **to ~ up** a) tugamoq; b) o'rnidan turmoq
beach [bi:tʃ] **1.** *n* dengiz bo'yi; plaj; **2.** *v* qirg'oqqa tortib chiqmoq
beach-comber ['bi:tʃˌkəʊmə] *n* 1) qirg'oqqa uriluvchi okean to'lqini; 2) qirg'oqdan kerak bo'lib qolishi mumkin bo'lgan narsalar izlab yuradigan odam
beach-combing ['bi:tʃˌkəʊmɪŋ] *n* 1) tasodifiy (ahyon-ahyonda bir bo'lib qoladigan) ish haqi bilan kun kechirish; 2) spirtli ichimliklar sotiladigan va b. joylarda gadoychilik (tilanchilik) qilib yurish
beached [bi:tʃt] *a* 1) qirg'oqqa sudrab olib chiqib (*yoki* chiqarib) tashlagan; 2) uncha tik bo'lmagan qirg'oq *yoki* plaji bor (bo'lgan); uncha tik bo'lmagan qirg'oqli (*yoki* plajli); 3) *esk.* shag'aldan iborat bo'lgan; shag'al bosgan, shag'al bilan qoplangan, shag'alli
beach-head ['bi:tʃhed] *n harb.* sohildagi plasdarm (*desant tushirishda*)
beach-master ['bi:tʃˌmɑ:stə] *n harb.* dengiz desantini tushirish joyi komendanti
beach-sand ['bi:tʃsænd] *n* dengiz *yoki* daryo qumi
beach-wagon ['bi:tʃˌwægən] *n* 1) furgon tipidagi yengil avtomobil; 2) *esk.* ochiq arava (*asosan, ikki kishilik*)
beachy ['bi:tʃɪ] *a* shag'aldan iborat bo'lgan, shag'al bosgan, shag'al bilan qoplangan, shag'alli
beacon ['bi:kən] *n* 1) mash'al; 2) mayoq; 3) radio *yoki* radar signali
beaconage ['bi:kənɪdʒ] *n* 1) ishorat qozig'i o'rnatish; 2) baken suzg'ich (*suv yo'llarida xavfli joylarni va kemalar yo'lini ko'rsatuvchi suzg'ich*) o'rnatish
beaconing ['bi:kənɪŋ] *n maxs.* ishorat qozig'i o'rnatish, to'g'riligini tekshirish
bead [bi:d] **1.** *n* munchoq, marjon; **2.** *v* marjon (munchoq) bilan bezatmoq
beaded ['bi:dɪd] *a* marjon (munchoq) bilan bezatilgan
bead-folk ['bi:dfəʊk] *n* 1) dindorlar, xudoga toat-ibodat qiluvchilar, ziyoratchilar; 2) g'aribxona (miskinlar uyi)da yashovchilar
bead-house ['bi:dhaʊs] *n* g'aribxona, miskinlar uyi
beading ['bi:dɪŋ] *n* 1) marjon bezagi; 2) mayda munchoq (marjon) qadab gul tikish; mayda munchoq (marjon) qadash
beadle ['bi:dl] *n* 1) *esk.* cherkov qorovuli; 2) *yur.* xat-xabar eltuvchi (*sudda*)
beadledom ['bi:dldəm] *n* rasmiyatchilik
bead-roll ['bi:drəʊl] *n* ro'yxat
beadsman ['bi:dzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *shotl.* 1) gadoychilik qiluvchi, gadoy, tilanchi; 2) qashshoq, kambag'al, faqir, bechora
beadwork ['bi:dwɜ:k] *n* mayda munchoq (marjon) qadab gul tikish; mayda munchoq (nozik, marjon) qadash
beady ['bi:dɪ] *a* munchoqqa o'xshash
beagle ['bi:gl] **1.** *n* tozi (*it*); **2.** *v* tozi it bilan ov qilmoq
beak [bi:k] *n* tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*)
beaked [bi:kt] *a* tumshuqli
beaker ['bi:kə] *n* menzurka (*o'lchovli shisha idish*)
beak-head ['bi:khed] *n deng.* burun (*quruqlikning suvga yorib kirgan cho'zinchoq qismi*)
beaky ['bi:kɪ] **1.** *a* 1) tumshuqli; 2) tumshuqqa o'xshagan; **2.** *n jarg.* burni katta (burundor) odam

beal I [bi:l] *v sheva.* maddalamoq, yiringlamoq, fasod bog'lamoq (*chipqon haqida*)

beal II [bi:l] *n kam.* daryoning quyilish joyi

beam [bi:m] **1.** *n* 1) nur; 2) yog'och *yoki* metall to'sin; 3) (xursandchilikdan) kulimsirash; **2.** *v* 1) nur (issiqlik, energiya) sochmoq; 2) xursandchilikdan kulmoq; 3) havo orqali uzoq masofaga radio *yoki* televizion signal yubormoq

beam-compass ['bi:m,kʌmpəs] *n* shtangensirkul (*biror detalning qalinligi, yo'g'onligi yoki ichki diametrini o'lchaydigan asbob*)

beamed [bi:md] *a* 1) shoxi ayri, ayri shoxli (*bug'u haqida*); 2) *maxs.* (*biror tomonga*) yo'naltirilgan, yo'nalgan (*nur haqida*)

beaming ['bi:mɪŋ] **1.** *n* 1) nurlantirish; 2) issiqlik tarqatish; **2.** *a* 1) nur chiqaruvchi (taratuvchi, sochuvchi); 2) yarqirab (nur sochib) turuvchi; 3) nurga to'la; nurafshon, nurli, yorqin, yorug', nur sochib turadigan

beamy I ['bi:mɪ] *a* nurli, shu'lali, nur sochib turadigan; nurafshon, yorqin, yorug'

beamy II ['bi:mɪ] *a* 1) katta, ulkan, yirik; 2) ayri shoxli (*bug'u haqida*)

bean [bi:n] *n* 1) *bot.* loviya (*o'simligi va mevasi*); 2) qahva doni

bean-feast ['bi:nfi:st] *n* korxona egasi yilda bir marta o'z xizmatchilari uchun uyushtiradigan an'anaviy tushlik

beano ['bi:nəʊ] *a* 1) kichkina ziyofat, o'tirish, xonaki bazm; 2) ichkilikbozlik, ichimlik bazmi

bean-pod ['bi:npɒd] *n* loviya dukkagi

beany ['bi:nɪ] *a jarg.* g'ayratli, serg'ayrat, serharakat, faol

burner [ˈbɜ:nə] *n* 1) o'txona, o'choq; 2) gorelka
burning [ˈbɜ:nɪŋ] **1.** *n* yonish, kuyish; **2.** *a* lovullab yonayotgan
burning-glass [ˈbɜ:nɪŋglɑ:s] *n* yondiruvchi shisha
burning-out [ˌbɜ:nɪŋˈaʊt] *n* 1) yonib bo'lish, yonib tugash, butunlay kuyish, kuyib ketish; kuyib ishdan chiqish; 2) *el.* kuydirish, kontaktlarning kuyib ishdan chiqishi; 3) raketa dvigatelining ishdan chiqishi
burning point [ˈbɜ:nɪŋpɔɪnt] *fiz.* alanga (o't olish) nuqtasi
burnish [ˈbɜ:nɪʃ] **1.** *n* 1) sayqal berish, silliqlash; 2) yaltirash; **2.** *v* 1) tozalamoq; 2) yarqiratmoq, sayqal bermoq
burnisher [ˈbɜ:nɪʃə] *n* silliqlovchi, sayqal beruvchi
burnous [bɜ:ˈnu:s] *n* burnus, yaktak, mursak
burnouse [bɜ:ˈnu:s] = **burnous**
burn-out [ˈbɜ:nˈaʊt] *n* yonishni to'xtatish (*raketa dvigatelida*)
burnt I [bɜ:nt] *a* yongan; kuygan
burnt II [bɜ:nt] *past., p. p.* **burn 2**
burnt(-)offering, burnt(-)sacrifice [ˌbɜ:ntˈɒf(ə)rɪŋ, -ˈsækrɪfaɪs] *n din.* qurbonlikni batamom kuydirish (*qadimiy xalqlar oduti*)
burp [bɜ:p] *v* kekirmoq
burr [bɜ:] *n* 1) *fon.* [r] tovushini til orqasida talaffuz qilish (*Angliya shimolida*); „r" tovushini noaniq (*chuchuk*) talaffuz qilish
burro [ˈbʊrəʊ] *n isp. so'zl.* (*pl* **-os** [-əʊz]) kichkina (pastak) eshak
burrock [ˈbɜ:rɔk] *n* daryodagi kichkina to'g'on
burrow [ˈbʌrəʊ] **1.** *n* in, uya; **2.** *v* in qazimoq
burry [ˈbɜ:rɪ] *a kam.* 1) tukli, sertuk, tuk bilan qoplangan, paxmoq; 2) tolali, sertola; 3) *ko'ch.* achchiq, zaharli, uzib oladigan, qattiq botadigan
bursa [ˈbɜ:sə] *n* (*pl* **-ae** [-sɪ]) 1) *anat.* xaltacha; 2) *kam.* talabalar yashaydigan turar joy (*nemis o'quv yurtlarida*)
bursar [ˈbɜ:sə] *n* (*kassir*) xazinachi (*asosan, universitetda*)
bursarial [bɜ:ˈse(ə)rɪəl] *a* 1) davlat xazinasiga oid, davlat xazinasi... (*asos. kollejda*); 2) stipendiyaga oid; stipendiya uchun belgilangan, stipendiya...
bursary [ˈbɜ:s(ə)rɪ] *n* xazinachi idorasi (*universitetda*)
burse [bɜ:s] = **bursary**
bursitis [ˌbɜ:ˈsaɪtɪs] *n tib.* bursit (*bo'g'im oldi shilliq xaltachalarining yallig'lanishi*)
burst [bɜ:st] **1.** *n* portlash, portlab ketish; **2.** *v* **(burst; burst)** portlamoq
bursten [ˈbɜ:stn] *a esk.* yorilgan, portlagan; yorilib (portlab) ketgan
burster [ˈbɜ:stə] *n* portlaydigan zaryad
bursting [ˈbɜ:stɪŋ] **1.** *n* portlash; portlab ketish; **2.** *a* portlaydigan, portlovchi
burst-up [ˈbɜ:stʌp] *n so'zl.* 1) sinish, barbod (bankrot) bo'lish; barbodlik, bankrotlik; 2) *ko'ch.* halokatga yo'liqish, qulash; halokat; puchga chiqish, muvaffaqiyatsizlikka uchrash, muvaffaqiyatsizlik
burthen [ˈbɜ:ð(ə)n] = **burden I**
burton [ˈbɜ:tn] *n tex.* polispast (*yuk ko'taruvchi mexanizm*)
bury [ˈberɪ] *v* dafn qilmoq, yerga qo'ymoq, ko'mmoq
bus [bʌs] *n* avtobus; **by ~** avtobus bilan; **to take a ~** avtobusda yurmoq
bushy [ˈbʌzbɪ] *n* 1) gusarlar kiveri (*harbiylarning jig'a taqilgan burungi bosh kiyimi*); 2) kiver kiygan gusar (*Chor Rossiyasi va ba'zi xorijiy armiyalarda: venger formali yengil kavaleriya askari, suvorisi*)
bus-conductress [ˈbʌskən ˈdʌktrɪs] *n* (*avtobusda*) bilet sotuvchi ayol (konduktor)
bush [bʊʃ] **1.** *n* 1) tup; buta; 2) *tex.* vtulka; vkladish (*podshipnik va boshqa mashina detallarining almashinuvchi qismi*); gilza; 3) bushel (*Angliyada 36,3, Amerikada 35,2 litrga teng, sochiluvchan narsalar o'lchovi*); **2.** *v*

amer. erkaklar ko'ylagini yamash (ta'mirlash) bilan shug'ullanmoq

bush-bean ['bʊʃbi:n] *n bot.* tup otadigan loviya (*o'simligi va doni*)

bushel ['bʊʃ(ə)l] **1.** *n* bushel (*Angliyada 36,3, Amerikada 35,2 litrga teng, sochiluvchan narsalar o'lchovi*); **2.** *v amer.* erkaklar kiyimini yamamoq

bushel weight ['bʊʃ(ə)lweɪt] hajm og'irligi, hajmiy og'irlik

bush-fighter ['bʊʃ,faɪtə] *n* 1) partizan (*dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun ko'ngilli ravishda qurolli kurash olib boruvchilar otradining a'zosi*); 2) partizanlar urushi tajribasiga ega bo'lgan kishi

bush-fruit ['bʊʃfru:t] *n* tup otadigan reza meva (*qorag'at, krijovnik va b.*)

bush-hammer ['bʊʃ,hæmə] *n* g'isht teruvchi ustaning bolg'asi (bolg'achasi)

bushiness ['bʊʃɪnəs] *n* 1) serpoyalik, to'p bo'lib o'sish, choylashlik, choylaganlik; 2) o'rmonning qalinligi

bushing ['bʊʃɪŋ] *n* 1) *tex.* vtulka (*asbob, mashina va mexanizmning silindr yoki konus shakli ichi teshik detali*); 2) *tex.* vkladish (*podshipnik va boshqa mashina detallarining almashinuvchi qismi*)

bush-telegraph [,bʊʃ'telɪgrɑ:f] *n* mish-mish, xabar va b. ning tez tarqalishi

bushwa(h) ['bʊʃwɑ:] *n amer. jarg.* behuda gap, safsata, bema'ni (bo'lmag'ur) narsa, valdirash, aljish

bushwhack ['bʊʃwæk] *v* chakalakzorni tozalamoq

bushwhacker ['bʊʃ,wækə] *n amer.* 1) darbadar, miskin; qo'nimsiz odam; 2) *harb.* partizan (*dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun qurolli kurash olib boruvchi ko'ngilli xalq armiyasining a'zosi*); 3) *tex.* butalarni tozalaydigan chopqi (katta pichoq)

bushy ['bʊʃɪ] *a* 1) baroq, serjun; 2) buta, changal bilan qoplangan

busily ['bɪzɪlɪ] *adv* ishbilarmon odamdek, bilimdonlik bilan

business ['bɪznɪs] *n* ish, yumush; mashg'ulot

business-like ['bɪznɪslaɪk] *a* 1) ishning ko'zini biladigan; 2) omilkor, ishbilarmon

businessman ['bɪznɪsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) ishning ko'zini biladigan odam; 2) ishbilarmon

business manager ['bɪznɪs,mænɪdʒə] *n* ish boshqaruvchi

business suit ['bɪznɪs,s(j)u:t] pidjak va shimdan iborat kastum

husk I [bʌsk] *v hazil.* yasanmoq, yaxshi kiyim kiymoq

busk II [bʌsk] *v* burilmoq (*kema haqida*)

busk III [bʌsk] *v jarg.* ko'chalarda qo'shiq aytmoq *yoki* tomosha ko'rsatmoq

busker ['bʌskə] *n jarg.* sayoq musiqachi; sayoq aktyor

buskin ['bʌskɪn] *n* 1) bog'ichli baland botinka; 2) juda qalin tagcharmli poyabzal (*Qadimgi Rim va Yapon teatrlarida*)

busman ['bʌsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) avtobus haydovchisi

buss [bʌs] *n* o'pmoq, bo'sa olmoq

bus-stop ['bʌsstɒp] *n* avtobus bekati

bust [bʌst] **1.** *n* 1) byust; 2) ayollar ko'kragi; 3) *so'zl.* sinish, barbod bo'lish; **2.** *v* sinmoq, barbod bo'lmoq

bustard ['bʌstəd] *n zool.* tuvaloq, to'xtatuvaloq

buster ['bʌstə] *n amer.* boshqalardan farq qiladigan (boshqacha bo'lgan) narsa

bustle ['bʌs(ə)l] **1.** *n* yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon; **2.** *v* shoshmoq, shoshilmoq; **3.** *int.* tezlik bilan, tezkor

bustling ['bʌslɪŋ] **1.** *n* hovliqish; hovliqmalik; **2.** *a* 1) hovliqma; 2) sershovqin

bust-up ['bʌst'ʌp] *n so'zl.* 1) to'xtatish, bitirish, tugatish; barham berish, chek qo'yish; **~ of a marriage** nikohni buzish, ajralish; ajratish; 2) mashmasha, janjal, mojaro, urish, nizo, araz

busy ['bɪzɪ] **1.** *a* 1) faol, serharakat, g'ayratli; 2) ish bilan band; **2.** *v* ish bermoq; ish bilan band bo'lmoq

busy-body ['bɪzɪ,bɒdɪ] *n* tinib-tinchimas, harakatchan

busyness ['bɪzɪnəs] *n* ish bilan bandlik; ishbilarmonlik

but [bʌt] **1.** *adv* hozirgina; yaqinda; **2.** *prep.* -dan boshqa; -dan tashqari, -dan bo'lak; **3.** *cj* ammo, lekin, biroq; **4.** *prom. rel.* kim bo'lmasin

butadiene [,bju:tə'daɪi:n] *n kim.* butadien (*qo'lansa hidli rangsiz gaz*)

but-and-ben [,bʌt(ə)n(d)'ben] *n* ikki xonali kottej

butane ['bju:teɪn] *n kim.* butan (*rangsiz va hidsiz gaz*)

butch [bʊtʃ] *v sheva.* qassoblik qilmoq

butcher ['bʊtʃə] **1.** *n* qassob; **2.** *v* so'ymoq (*hayvonni*)

butcher-bird ['bʊtʃəbɜ:d] *n zool.* kulrang qarqunoq (olato'g'anoq)

butchering ['bʊtʃ(ə)rɪŋ] *n* mol(ni) so'yish

butcherly ['bʊtʃəlɪ] *a* rahmsiz, shafqatsiz; zolim, qonxo'r

butchery ['bʊtʃ(ə)rɪ] *n* qushxona (*mol so'yiladigan joy*)

butler ['bʌtlə] *n* xizmatkorlar og'asi; bosh xizmatkor

butlery ['bʌtlərɪ] *n* ombor, omborxona (*saroyda*)

butt [bʌt] *n* 1) katta bochka (*vino va pivo uchun*); 2) *pl* otish maydoni (*otish mashqlari, mashg'ulotlari o'tkaziladigan maydon*)

butt-end [,bʌt'end] *n* 1) tupsa (*daraxtning, o'simlikning ildizga tutashgan pastki yo'g'on tomoni*); 2) yog'ochning yo'g'on tomoni

butter ['bʌtə] **1.** *n* moy, yog'; **2.** *v* moy (yog') surkamoq

butter and eggs [,bʌt(ə)rən(d)'egz] *bot.* zig'arak (*dekorativ o'simlik*)

butter-boat ['bʌtəbəʊt] *n* qayla idishi

buttercup ['bʌtəkʌp] *n bot.* ayiqtovon (*zaharli o't*)

butter-dish ['bʌtədɪʃ] *n* moy idish

butterfat ['bʌtəfæt] *n q.x.* sutdan olingan moy; hayvon sutidan olinadigan moy

butter-fingers ['bʌtə,fɪŋgəz] *n pl so'zl.* lalaygan, noshud, lapashang

butterfly ['bʌtəflaɪ] *n zool.* kapalak

butterfly-nut ['bʌtəflaɪ,nʌt] *n tex.* quloqli gayka

butterfly orchid ['bʌtəflaɪ'ɔ:kɪd] *bot.* tungi binafsha

butterfly-screw ['bʌtəflaɪ,skru:] *n tex.* quloqli burama mix; quloqli vint

butterfly-stroke ['bʌtəflaɪ 'strəʊk] *n* „batterflay" usulida suzish

butterfly table ['bʌtəflaɪ'teɪb(ə)l] *n* yon taxtasi olinadigan stol

butterfly-valve ['bʌtəflaɪ'vælv] *n tex.* drossel klapan (*dvigatellarda yonilg'i, gaz, bug' o'tishini tartibga solib turuvchi klapan*)

butteris ['bʌt(ə)rɪs] *n* tuyoq kesadigan pichoq, keskich (*otlar tuyog'ini kesish uchun ishlatiladi*)

butter-knife ['bʌtənaɪf] *n* (*pl* **-knives** [-naɪvz]) yog' kesadigan pichoq

butter-man ['bʌtəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) moy (yog') sotuvchi kishi

buttermilk ['bʌtə,mɪlk] *n* ayron

butter-print ['bʌtəprɪnt] *n* yog'ni qoliplaydigan moslama, yog' qolipi

buttery ['bʌt(ə)rɪ] **1.** *n* (*oziq-ovqat va ichimliklar saqlanadigan*) ombor, omborxona; **2.** *a* yog'li, moyli, moy surkalgan; sermoy

buttery-hatch ['bʌt(ə)rɪhætʃ] *n* ombordagi mahsulotni tarqatish tuynugi

butting ['bʌtɪŋ] *n* chegara; hudud

butt-joint ['bʌtdʒɔɪnt] *n tex.* uchma-uch (yonma-yon) kelgan joy; birikish (ulanish) joyi

buttocks ['bʌtəks] *n pl* odamning dumbasi

button ['bʌtn] **1.** *n* 1) tugma; 2) tugmacha; **to press the ~** tugmachani bos-

moq; **2.** *v* 1) tugmani tikib olmoq; 2) kiyimning tugmalarini to'g'nab (qadab, solib) olmoq; **to ~ up** barcha tugmalarni qadamoq

button-boot ['bʌtnbu:t] *n* (*tugmali*) botinka

buttoned up [ˌbʌtnd'ʌp] *so'zl.* 1) birovdan sirini yashiradigan; hech kimga sirini (ichidagini) aytmaydigan, damduz; 2) kamgap, indamas; 3) muvaffaqiyatli tugagan

buttonhole ['bʌtnhəʊl] **1.** *n* izma (*tugma qadaladigan teshik*); **2.** *v* izmani yo'rmalamoq

button-holer ['bʌtnˌhəʊlə] *n so'zl.* kiyimga taqilgan gul

button-hook ['bʌtnhʊk] *n* (*tugma qadash uchun*) ilgak

button-mould ['bʌtnməʊld] *n* (*siqib, yopishib turish uchun*) tugma

buttons ['bʌtnz] *n* yugurdak bola (*mehmonxonada*)

buttony ['bʌt(ə)nɪ] *a* 1) ko'p tugmali; 2) tugmaga o'xshagan

buttress ['bʌtrəs] **1.** *n* tirkagich, tirgovuch, tirgak; **2.** *v* ushlab turmoq; ko'tarib turmoq

butty ['bʌtɪ] *n so'zl.* 1) o'rtoq, oshna; 2) sherik

butyric [bju:'tɪrɪk] *a kim.* yog'li

buxom ['bʌks(ə)m] *n* semiz (*ayol*)

buxomness ['bʌksəmnəs] *n* 1) yoqimlilik, jozibalilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik, istarasi issiqlik; 2) chiroylilik, go'zallik; yoqimlilik; 3) xushfe'llik, xushmuomalalik, muloyimlik, ko'ngilchanlik

buy [baɪ] **1.** *v* (**bought**) sotib olmoq, xarid qilmoq; **2.** *n so'zl.* sotib olish, xarid qilish

buyer ['baɪə] *n* xaridor, sotib oluvchi

buzz [bʌz] **1.** *n* g'uvullagan ovoz, g'uvullash; **2.** *v* g'uvullamoq, vizillamoq

buzzard ['bʌzəd] *n zool.* sor (*qarchig'ayga o'xshash qush*)

buzz-bomb ['bʌzbɒm] *n harb. tar.* samolyot-snaryad

buzzer ['bʌzə] *n* sirena (*signal beradigan asbob va uning ovozi*)

buzz-saw ['bʌzsɔ:] *n amer.* yumaloq arra

by [baɪ] **1.** *prep.* 1) yaqinidagi; **a house ~ the river** daryo yaqinidagi uy; **a path ~ the river** daryo bo'yidagi yo'lak; 2) *biror predmet yoki ma'lum joyning yaqinidan o'tib ketishni ifodalaydi va* yaqinida, yaqini bilan, yaqinidan *deb tarjima qilinadi;* **he went ~ the lyceum** u litseyning yaqinidan o'tib ketdi; **2.** *adv* yaqin

by-blow ['baɪbləʊ] *n* tasodifiy zarba

bycocket ['baɪkɒkɪt] *n tar.* qadimiy bosh kiyim

bye [baɪ] *n* ikkinchi darajali qandaydir narsa

bye-bye ['baɪbaɪ] **1.** *n so'zl.* uyqu; uxlash payti; 2. *int.* xayr

by-effect ['baɪɪˌfekt] *n maxs.* nikohsiz vujudga kelish

by-election ['baɪɪˌlekʃ(ə)n] *n* qo'shimcha saylov

Byelorussian [ˌbjelə'rʌʃ(ə)n] **1.** *a* Belorussiyaga oid, belorus...; **2.** *n* belorussiyalik; belorus tili

by-end ['baɪend] *n* dil orzusi, ko'ngildagi orzu-havas

bygone ['baɪgɒn] *a* o'tgan

by-lane ['baɪleɪn] *n kam.* xilvat tor ko'cha

by-law ['baɪlɔ:] *n* mahalliy hukumat qarori

by-line ['baɪlaɪn] *n* qo'shimcha ish

by-matter ['baɪˌmætə] *n kam.* ikkinchi darajali masala

by-name ['baɪneɪm] *n* laqab

bypass ['baɪpɑ:s] *n* 1) aylanib o'tish; 2) aylanib o'tiladigan yo'l

by-past, bypast ['baɪpɑ:st] *a* o'tgan, o'tib ketgan

by-pit ['baɪpɪt] *n tog'.* ventilatsion *yoki* yordamchi kon qudug'i *yoki* stvoli (*konning tepadan to tagigacha bo'lgan qismi*)

byplay ['baɪpleɪ] *n* qo'shimcha sahna

by-product ['baɪˌprɒdʌkt] *n* qo'shimcha mahsulot

byre ['baɪə] *n* og'ilxona, molxona

byrnie ['bɜ:nɪ] *n tar.* sovut

by-road ['baɪrəʊd] = **by-way**

by-slip ['baɪslɪp] *n esk.* 1) biroz xato ketish, biroz xato qilish, biroz xato otish (nishonga tegiza olmay qolish); 2) nikohsiz tug'ilgan bola

bystander ['baɪˌstændə] *n* guvoh, shohid

by-street ['baɪstri:t] *n* 1) uzoq (olis)da joylashgan xilvat (noobod) ko'cha; 2) yondan (o'ngdan *yoki* chapdan) keladigan ko'cha; 3) tor ko'cha (*ikki parallel ko'chani birlashtiruvchi kichikroq ko'cha*)

byte [baɪt] *n* bayt (*kompyuterda*)

by-term ['baɪtɜ:m] *n* 1) o'quv semestri (*Kembrij universitetida*); 2) *esk.* laqab, nom

by-wash ['baɪwɒʃ] *n* tashlama (ortiqcha) suvni chiqarib yuboradigan kanal

by-way ['baɪweɪ] *n* odamlar kam yuradigan yo'l

byword ['baɪwɜ:d] *n* matal

by-work ['baɪwɜ:k] *n* qo'shimcha ish

Byzantine [b(a)ɪ'zæntaɪn] **1.** *n* vizantiyalik kishi; **2.** *a* Vizantiyaga oid

Byzantinesque [b(a)ɪˌzæntɪ'nesk] *a* Vizantiyaga oid (*uslub haqida*)

C

C, c [si:] *n* 1) ingliz alifbosining uchinchi harfi; 2) *mus.* do (*notasi*); 3) *amer.* yuz dollar

Caaba ['kɑ:(ə)bə] *n arab.* 1) Ka'ba (*Makka shahrida joylashgan va barcha musulmonlar o'sha tomonga yuzlanib ibodat qiladigan muqaddas joy, qibla*); 2) ziyoratgoh, (musulmonlar) borib ziyorat qilib keladigan muqaddas joy

cab I [kæb] **1.** *n* **cabriolet** *so'zining qisqartmasi;* 1) taksi; **to take a ~** taksida yurmoq; 2) izvosh, fayton, arava; **2.** *v so'zl.* 1) taksida yurmoq; 2) izvosh (fayton, arava)da yurmoq

cab II [kæb] *n* **cabin** *so'zining qisqartmasi;* avtomobil haydovchisining kabinasi

cabal [kə'bæl] *n* fitna; siyosiy hiyla (nayrang)

cabala [kə'bɑ:lə] *n* ahdnoma *yoki* tilxat

caballine ['kæbəlaɪn] *a kit.* 1) otga oid; ot...; 2) otni eslatadigan; otbashara

cabana [kə'bɑ:nə] *n isp.* pastak uycha, kichkina uycha

cabaret ['kæbəreɪ] *n fr.* kabare (*estradali qahvaxona yoki kichik restoran*)

cabas ['kæbɑ:] *n amer.* 1) savatcha; 2) kichkina sumka

cabbage ['kæbɪdʒ] **1.** *n* karam; **2.** *attr.* karamdan qilingan, karamli; **3.** *v* bosh o'ramoq (*karam haqida*)

cabbage butterfly ['kæbɪdʒˌbʌtəflaɪ] *n zool.* karam kapalagi, oq kapalak

cabbage caterpillar [ˌkæbɪdʒ'kætəˌpɪlə] *n* 1) karamdagi kapalak qurti; 2) karam kapalagi, oq kapalak

cabbage-head ['kæbɪdʒhed] *n* 1) karamning boshi; 2) *so'zl.* tentak, ahmoq

cabbage-lettuce ['kæbɪdʒˌletɪs] *n bot.* boshli (bosh o'raydigan) salat; boshligicha (to'g'ralmasdan) tuzlangan karam salati

cabbage-palm ['kæbɪdʒpɑ:m] *n* palmaning yeb (yesa) bo'ladigan turlari

cabbage-rose ['kæbɪdʒrəʊz] *n bot.* yuzbarg (sadbarg) atirgul

cabbala [kə'bɑ:lə] *n ko'ch.* qullik, tutqunlik, asorat

cabbalistic [ˌkæbə'lɪstɪk] *a* kabalistik; sirli, ajib, g'alati

cabber ['kæbə] *n* izvoshga qo'shiladigan ot

cabbing ['kæbɪŋ] *n* 1) taksomotor ishlari; 2) kirakashlik

cabble ['kæb(ə)l] *v metal.* parchalamoq, parcha-parcha qilmoq

cabby ['kæbɪ] *n so'zl.* 1) taksichi; 2) izvosh (fayton, arava) haydovchisi

caber [ˈkeɪbə] *n shotl.* 1) xoda; uzun tayoq; 2) sinch, xodacha, tayoq; langarchoʻp
cabernet [ˌkɑːbərˈneɪ] *n* kaberne (*uzum va vino navi*)
cabin [ˈkæbɪn] **1.** *n* xaroba uy, kulba; **2.** *v* xaroba uy (kulba)da yashamoq
cabin-boy [ˈkæbɪnbɔɪ] *n* yunga (*kemada shogird bola*)
cabined [ˈkæbɪnd] *a* siqiq; siqilgan, qisilgan
cabinet [ˈkæb(ɪ)nɪt] *n* 1) surilma qutili javoncha; 2) vazirlar mahkamasi
cabinet-maker [ˈkæb(ɪ)nɪtˌmeɪkə] *n* qimmatbaho mebel ishlovchi duradgor usta
cabinet-sized [ˈkæb(ɪ)nɪtˌsaɪzd] *a* kabinet oʻlchami yoki hajmidagi; kattakichikligi bitta kabinetcha keladigan
cabinet-type [ˈkæb(ɪ)nɪttaɪp] *a* stolga qoʻyiladigan, stol ustida turadigan (*radiopriyomnik, televizor haqida*)
cabinet-work [ˈkæb(ɪ)nɪtwɜːk] *n* nozik ustachilik ishlari
cable [ˈkeɪb(ə)l] **1.** *n* 1) kabel; 2) yoʻgʻon arqon; 3) telegramma; **2.** yoʻgʻon arqon bilan bogʻlamoq; 2) telegramma bermoq, telegraf orqali xabar qilmoq
cablegram [ˈkeɪb(ə)lgræm] *n* telegramma
cablese [ˌkeɪb(ə)ˈliːz] *n so'zl.* qisqa va aniq yozuv (*telegraf tili*)
cableway [ˈkeɪb(ə)lweɪ] *n* kanat yoʻl, osma yoʻl; 2) kabelli kran
cabling [ˈkeɪb(ə)lɪŋ] *n* kabel yotqizish
cabman [ˈkæbmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) taksi haydovchisi; 2) izvosh (fayton, arava) haydovchisi
cabob [kəˈbɒb] *n* kabob
cabochon [ˈkæbəʃɒn] *n fr.* kaboshon, qirra chiqarmagan qimmatbaho tosh; ~ **emerald** qirra chiqarmagan zumrad
caboodle [kəˈbuːdl] *n amer. so'zl.* (**the whole ~**) hamma ulfatlar, gala, toʻp
caboose [kəˈbuːs] *n deng.* kambuz (*kema oshxonasi va uning choʻyan yoki temir pechkasi*)
cabotage [ˈkæbətɑːʒ] *n deng.* kabotaj (*ichki portlar orasida qatnaydigan kemalar va shunday kemalar qatnovi*)
cab-rank [ˈkæbræŋk] *n* taksi toʻxtash joyi
cabrilla [kəˈbrɪlə] *n zool.* dengiz olabugʻa balig'i
cabriole [ˈkæbrɪəʊl] *a* egilgan, bukilgan (*mebellarning oyogʻi toʻgʻrisida*)
cabriolet [ˌkæbrɪəˈleɪ] *n* 1) avtomobil; taksi; 2) kiraga olingan fayton
cab-stand [ˈkæbstænd] *n* taksi toʻxtash joyi
caʼcanny [ˌkɑːˈkænɪ] *a* 1) ustomon, quv, ayyor, firibgar; 2) sustlik bilan ishlash
cacao [kəˈkɑːəʊ] *n bot.* kakao daraxti; 2) kakao (*doni va ichimligi*)
cacao-butter [kəˈkɑːəʊˌbʌtə] *n* kakao moyi (yogʻi)
cacao husks [kəˈkɑːəʊˌhʌsks] kakao urugʻining chiqiti (poʻsti)
cacao-tree [kəˈkɑːəʊtriː] *n* kakao daraxti
cachalot [ˈkæʃəlɒt] *n zool.* kashalot (*tishi oʻtkir yirtqich kit*)
cache [kæʃ] *n* 1) maxfiy (pana) joy; 2) maxfiy qurol-yarogʻ ombori
cachectic [kəˈkektɪk] *a* kasalmand; ozib ketgan; darmonsiz, holsiz
cachet [ˈkæʃeɪ] *n fr.* 1) muhr; 2) tamgʻa
cachexy [kəˈkeksɪ] *n tib.* ozib ketish, oriqlab ketish
cachinnate [ˈkækɪneɪt] *v* 1) oʻzini toʻxtata olmay, xaxolab kulib yubormoq, qah-qah urib kulmoq; 2) asabiylashganidan kulmoq
cachinnation [ˌkækɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) baland, oʻzini toʻxtatib boʻlmaydigan qattiq kulgi; 2) asabiy kulgi
cachucha [kəˈtʃuːtʃə] *n* kachucha (*ispancha raqs*)
cacique [kəˈsiːk] *n isp.* 1) qabila boshligʻi (*hindularda*); 2) *amer.* siyosiy korchalon
cackle [ˈkæk(ə)l] **1.** *n* 1) qaqaqlash; 2) qiqirlab (qiqir-qiqir) kulish; 3) bekorchi gap; **2.** *v* 1) qaqaqlamoq; 2) qiqirlab (qiqir-qiqir) kulmoq; 3) vaysamoq
cackler [ˈkæklə] *n* 1) qaqaqlaydigan qush; 2) sergap odam, ezma, vaysaqi; safsataboz; 3) ichida gap turmaydigan (ogʻzi boʻsh odam); 4) gʻiybatchi odam; gap tashuvchi
cacodorous [kæˈkəʊdərəs] *a kit. kam.* hidi yomon, sassiq, qoʻlansa, badboʻy
cocoethes [ˌkækəʊˈiːθɪs] *n kit.* 1) zararli (yomon) odat; 2) zoʻr (kuchli) mayl (havas, qiziqish, intilish); 3) halokatli kasallik
cacography [kəˈkɒgrəfɪ] *n kit.* 1) kakografiya (*yomon (oʻqib boʻlmaydigan)*); 2) qingʻir-qiyshiq yozuv; aji-buji xat
cacolet [ˌkɑːkəʊˈleɪ] *n harb.* yaradorlar olib yuriladigan zambil
cacology [kəˈkɒlədʒɪ] *n* yomon nutq
cacophonous [kəˈkɒfənəs] *a* quloqqa yoqmaydigan, uygʻunlashmagan, yoqimsiz, nosoz, gʻaliz, ohangsiz, hamohang boʻlmagan
cacophony [kəˈkɒfənɪ] *n* kakafoniya (*uygʻunlashmagan, yoqimsiz tovushlar yigʻindisi*)
cactaceous [kækˈteɪʃəs] *a bot.* kaktusga oid
cacti [ˈkæktaɪ] *pl of* **cactus**
cactus [ˈkæktəs] *n* (*pl* **cacti** [ˈkæktaɪ] *yoki* **cactuses** [ˈkæktəsɪz]) qumanjir, kaktus
cad [kæd] *n* tarbiya koʻrmagan kishi
cadastral [kəˈdæstrəl] *a yur.* kadastrlarga oid
cadastre [kəˈdæstə] *n yur.* kadastr (*biror narsa haqidagi maʼlumotlar toʻplami; biror narsaning roʻyxati*)
cadaver [kəˈdeɪvə] *n* oʻlik, murda, jasad
cadaveric [kəˈdæv(ə)rɪk] *a* murdaga oid
cadaverous [kəˈdæv(ə)rəs] *a* rangi murdadek oqargan
caddie [ˈkædɪ] = **caddy**
caddice-garter [ˈkædɪsˌgɑːtə] *n esk.* 1) xizmatkor, malay; 2) pastki tabaqadagi kishi
caddis [ˈkædɪs] *n* jundan qilingan dagʻal sarja (*bir xil astarbop gazlama*)
caddis fly [ˈkædɪsflaɪ] *n* may chivini (pashshasi)
caddish [ˈkædɪʃ] *a* qoʻpol
caddle [ˈkædl] **1.** *n dial.* 1) tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, toʻs-toʻpolon; 2) chigallik, chalkashlik; 3) ovoragarchilik; yugur-yugur, sarsongarchilik; urinish; tashvish, bosh ogʻrigʻi, besaranjomlik, bezovtalik; iztirob, hayajon; **2.** *v dial.* 1) bezovta qilmoq, urintirmoq, tinchini (oromini) buzmoq, ovora qilmoq; 2) (kimgadir) xalal bermoq, xalaqit bermoq, monelik (toʻsqinlik) qilmoq
caddow I [ˈkædəʊ] *n dial.* zogʻcha
caddow II [ˈkædəʊ] *n dial.* dagʻal jundan qilingan adyol
caddy [ˈkædɪ] *n* choy quti
cade [keɪd] *n* 1) *bot.* archa, qora archa; 2) kichkina bochka, bochkacha; 3) qoʻlga oʻrgatilgan qoʻzichoq
cadeau [kɑːˈdəʊ] *n* (*pl* **-deaux** [-dəʊ]) *fr.* sovgʻa, tuhfa, tortiq, hadya, armugʻon, inʼom
cadence [ˈkeɪd(ə)ns] *n* 1) ovozning (tovushning) pasayishi; 2) ritm, vazn
cadenced [ˈkeɪd(ə)nst] *a* 1) ritmik, ritmli; bir tekisda, bir maqomda, bir maromda; vaznli; 2) ritmikaga oid, ritmik; 3) bir tekisdagi, bir vazndagi, bir maromdagi
cadency [ˈkeɪd(ə)nsɪ] = **cadence**
cadent [ˈkeɪd(ə)nt] *a* 1) *shoir.* ogʻma, ogʻib turadigan; ~ **tears** oqib turgan koʻz yoshlar
cadenza [kəˈdenzə] *n mus.* kadensiya (*1. musiqiy kalomning xotima qismi; 2. orkestr joʻrligida ijro etiladigan musiqa asarining yakka sozda mohirlik bilan joʻrsiz ijro etiladigan qismi*)
cadet [kəˈdet] *n* 1) harbiy bilim yurtining talabasi; 2) kichik oʻgʻil
cadge [kædʒ] *v* gadoylik (tilanchilik) qilmoq

cadger [ˊkædʒə] *n* 1) ko'tarib yurib sotuvchi; 2) gadoy (*tilanchi*); 3) *tex.* yonda olib yuriladigan moy idishi

cadgy [kædʒɪ] *a dial.* 1) buzuq, axloqsiz, badaxloq, sayoq; suyuqoyoq, fohishaboz, fohisha; 2) shahvoniy hisga berilgan, shahvatparast; 3) shod, xursand, vaqti (kayfi, dimog'i) chog'; quvnoq; xushchaqchaq, xushtabiat, masrur; 4) quvonchli, sevinchli, shodiyona, xursand qiladigan, quvontiradigan, shodlantiradigan; kuldiradigan, ko'ngilni (dilni) ochadigan, dilkusho, sururli

cadi [ˊkɑ:dɪ] *arab. n* qozi, shariat qozisi

cadmium [ˊkædmɪəm] *n kim.* kadmiy (*kimyoviy element: kumushsimon, yumshoq metall*)

cadre [ˊkɑ:də,ˊkeɪdə] *n* 1) quruq gavda; 2) chizma; 3) *harb.* doimiy xizmatdagi tartib

cadreman [ˊkædrəmæn] *n harb.* (*pl* **-men** [-mən]) doimiy xizmatdagi harbiy xodim

caducity [kəˊdju:sɪtɪ] *n* 1) bebaqolik, foniylik; 2) qartayganlik, munkillaganlik

caducous [kəˊdju:kəs] *a bot.* erta to'kiladigan

caeca [ˊsi:kə] *pl of* **caecum**

caecum [ˊsi:kəm] *n* (*pl* **caeca** [ˊsi:kə]) *anat.* ko'richak

Caesar [ˊsi:zə] *n tar.* yakka hokim

caesardom [ˊsi:zədəm] *n* 1) imperiya (*1. monarxiyali yirik davlat, monarxiya davlati; 2. koloniyalarga ega bo'lgan, qaram xalqlarni ekspluatatsiya qiluvchi yirik agressiv imperialistik davlat*); 2) Qadimgi Rim imperatorlarining unvonlari (hoqon; qaysar; sezar)

Caesarian [sɪˊze(ə)rɪən] **I.** *n* 1) *tar.* (*papaga qarshi kurashda*) imperator tarafdori; 2) imperiya tarafdori; monarxizm tarafdori; **2.** *a* 1) imperator (xoqon)ga oid; imperator (hoqon)lar...

caesium [ˊsi:zɪəm] *n kim.* seziy (*kimyoviy element, tillarang yumshoq metall*)

caesura [sɪ ˊzjʊ(ə)rə] *n she'r.* sezura (*she'riyatda takrorlanib keluvchi to'xtamning alohida turi*)

café [ˊkæfeɪ] *n fr.* qahvaxona, kafe

cafeteria [,kæfɪ ˊtɪ(ə)rɪə] *n* qahvaxona turi

caffeine [ˊkæfi:n] *n farm.* kofein (*qahva urug'i yoki choy bargidan olinadigan alkoloid*)

caftan [ˊkæftæn] *n* 1) *fors.* belbog'li sharq choponi (xalati); 2) kaftan, chakmon

cag I [kæg] *n esk. dial.* kichkina bochka, bochkacha

cag II [kæg] *v dial.* so'kmoq, haqorat qilmoq, tahqir etmoq, xo'rlik keltirmoq, qattiq ranjitmoq, kamsitmoq, nafsoniyatiga (izzat-nafsiga, shaxsiyatiga) tegmoq; og'ir botmoq

cage [keɪdʒ] **1.** *n* qafas, katak; **2.** *v* qafasga qamab qo'ymoq

caged [keɪdʒd] *a* 1) nafasga qamab qo'yilgan, qafasda saqlanadigan; **a ~ animal** qafasdagi hayvon; 2) *jarg.* mahbus, qamoqdagi kishi; 3) *harb.* atrofi o'rab olingan joyda saqlanadigan

cageless [ˊkeɪdʒləs] *a* qafassiz, qafasga qamalmagan (*hayvonlarni parvarish qilish haqida*)

cageling [ˊkeɪdʒlɪŋ] *n* qafasdagi qush

cager [ˊkeɪdʒə] *n tog'.* kon qudug'iga oid; kon qudug'i...

cagey [ˊkeɪdʒɪ] *a* birovdan sirini yashiradigan, hech kimga sirini aytmaydigan

cagoule [kəˊgu:l] *n* suv (nam) o'tkazmaydigan kurtka

caggy [ˊkægɪ] *a* 1) *kam.* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli, yomon; sog'liq uchun zararli, nosog'lom, sog'lom emas; 2) *dial.* yovuz; serjahl, badjahl, g'azablangan, darg'azab, jahli tez

cagmag [ˊkæg,mæg] *n dial.* 1) qari g'oz, qattiq g'oz go'shti; 2) o'lgan mol (hayvon) go'shti, o'laksa; hidlangan (sasigan) go'sht

cagoulard [,kɑ:gʊˊlɑ:r] *n fr.* kagular (*fransuz imperialistik burjuaziyasining XX asr 30- yillarida paydo bo'lgan fashist tashkiloti a'zosi*)

cahoot [kəˊhu:t] *n amer. so'zl.* birga qatnashish; sheriklik

cailleach, cailliach [ˊkuljək] *n shotl.* qari jodugar, qari alvasti

caiman [ˊkeɪmən] *n zool.* kayman (*Markaziy va Janubiy Amerikada yashovchi timsohlarning bir turi*)

Cain [keɪn] *n bibl.* qotil, xoin (*o'z ukasi Hobilni o'ldirgan Qobil nomidan*); o'z og'a-inisini (yoki yaqin kishisini) o'ldirgan kishi

Cain-coloured [ˊkeɪn,kʌləd] *a esk.* malla, qizg'ish, sariq; **~ beard** sariq soqol (*xoinning belgisi sifatida ishlatiladi*)

Cainozoic [,keɪnəˊzəʊɪk] *a geol.* kaynozoy erasi (*Yerning geologik tarixida eng yangi era*)ga oid

caique [kɑ:ˊi:k] *n* qayiq

caird [keəd] *n shotl.* 1) mis buyumlarni qalay yugurtirib oqlaydigan sayoq usta; 2) lo'li

cairn [ˊkeən] *n* (*toshdan yasalgan*) piramida

cairngorm, cairngorum [ˊkeəngɔ:m, -ˌgɔ:rəm] *n shotl.* kulrang chaqmoqtosh

caisson [ˊkeɪs(ə)n, kəˊsu:n] *n* 1) *harb.* o'q-dori qutisi; 2) *tex.* kesson (*metallurgiya pechlarini sovitish uchun ichidan suv o'tib turadigan po'lat quti*)

caitiff [ˊkeɪtɪf] *n shoir.* 1) qo'rqoq (yuraksiz) odam; 2) razil (ablah) odam

cajole [kəˊdʒəʊl] *v* 1) xushomad (laganbardorlik) qilmoq; 2) atrofida girdikapalak bo'lmoq; 3) aldamoq

cajolement [kəˊdʒəʊlmənt] *n* tilyog'lama maqtov, xushomad

cajoler [kəˊdʒəʊlə] *n* 1) xushomadgo'y odam, laganbardor, tilyog'lamachi; 2) nimanidir aldab-suldab oluvchi odam

cajolery [kəˊdʒəʊl(ə)rɪ] *n* xushomad

cajolingly [kəˊdʒəʊlɪŋlɪ] *adv* sezdirmasdan tilyog'lamalik (muloyimlik) bilan, tulkilik qilib, silliqqina (xushomad) qilib, yaltoqlanib

cake [keɪk] **1.** *n* 1) tort (*shirin qandolat mahsuloti*); 2) keks; 3) pirojniy (*yog'li xamirdan pishiriladigan va ustiga krem-qiyomlardan gul solingan shirinlik;*) 4) obinon; 5) bo'lak, burda; **a ~ of soap** bir bo'lak sovun; **2.** *v* qotib qolmoq, qotmoq; 2) pishib yopishib ketmoq

cake-bread [ˊkeɪkbred] *n* 1) donalab sotiladigan non; 2) yog'li non

caked [keɪkt] *a* 1) qotgan, qotib qolgan, qattiq bo'lib qolgan; 2) quyultirilgan; quyulgan, quyuq tortgan; **~ blood** quyulib (qotib) colgan qon

cake ice [ˊkeɪkaɪs] *n* yupqa muz (*daryoda*)

cake-walk [ˊkeɪkwɔ:k] *n* kekuok (*raqs*)

caking [ˊkeɪkɪŋ] *n maxs.* 1) qizish (yonish) natijasida yaxlitlanish, qizdirish (yondirish) natijasida yaxlitlanish; qizdirib biriktirish; 2) briketlash (*presslab g'ishtga o'xshatib tayyorlash*); 3) so'xta (qasmoq)ning vujudga kelishi; paydo bo'lishi; **~ coal** *kon.* qiziganda (yonganda erib) birikib ketadigan ko'mir

caky [ˊkeɪkɪ] *a* 1) nonga o'xshagan; 2) *dial.* aqli kam, aqli past (zaif)

cal [kæl] *n dial. min.* volframit (*volframatlar guruhiga mansub mineral*)

calabar [ˊkæləbə] *n* kulrang olmaxon terisi

calabash [ˊkæləbæʃ] *n bot.* suvqovoq; chilim

calaber [ˊkæləbə] *n* kulrang olmaxon terisi

calaboose [,kælə ˊbu:s] *n amer. so'zl.* qamoqxona

calamanco [,kælə ˊmæŋkəʊ] *n to'q.* kalaminka (*zig'ir tolasidan to'qilgan gazmol turi*)

calamine [ˊkæləmaɪn] *n min.* kalamin (*mineral, ruhning suvli ortosilikati*)

calamitous [kəˊlæmɪtəs] *a* 1) halokatli; 2) og'ir, mushkul

calamity [kəˊlæmɪtɪ] *n* musibat; baxtsizlik

calamus [ˈkæləməs] *n* (*pl* **-mi** [-aɪ]) *bot.* igir (*qiyoqsimon o'simlik*); **a ~ root** igir ildizi

calash [kəˈlæʃ] *n* bolalar aravachasi

calcaneum [kælˈkeɪnəm] *n anat.* tovon suyagi

calcareous [kælˈke(ə)rɪəs] *a* ohakdan qilingan; ohak qo'shilgan

calces [ˈkælsi:z] *n pl* 1) metall zaki, to'pon; 2) kul; 3) ohak

calcic [ˈkælsɪk] *a* ohakka oid; ohakdan qilingan; ohakli; ohak...; kalsiyli, kalsiy...

calciferol [kælˈsɪfərɔl] *n* D vitamini

calcification [ˌkælsɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* ohaklash, ohak bilan qoplash; 2) qotish

calcify [ˈkælsɪfaɪ] *v* 1) ohakka aylanmoq; 2) qotmoq

calcimine [ˈkælsɪmaɪn] *n* ohakli qorishma (*oqlash uchun*)

calcination [ˌkælsɪˈneɪʃ(ə)n] *n tex.* kuydirish yoki ohakka aylantirish

calcine [ˈkæls(a)ɪn] *v tex.* kuydirmoq *yoki* ohakka aylantirmoq

calciner [ˈkælsaɪnə] *n* biror narsa pishiradigan pech (*mas., xumdon, qo'ra va sh. k.*)

calcite [ˈkælsaɪt] *n min.* kalsit, ohakli shpat

calcitrant [ˈkælsɪtrənt] *a tex.* 1) o'tga chidamli; 2) qiyin eriydigan

calcium [ˈkælsɪəm] *n kim.* kalsiy (*kimyoviy element*)

calc-spar [ˈkælkspɑ:] *n min.* ohakli shpat

calc-tuff [ˈkælktʌf] *n min.* ohaktoshli tuf (*g'ovak tog' jinsi, qurilish materiali sifatida ishlatiladi*)

calculability [ˌkælkjʊləˈbɪlɪtɪ] *n* hisoblashi (hisoblab chiqish; sanab chiqishi) mumkinlik; o'lchanishi mumkinlik

calculable [ˈkælkjʊləb(ə)l] *a* 1) hisobga olsa (o'lchasa) bo'ladigan; 2) ishonchli, ishonarli

calcular [ˈkælkjʊlə] *a* (differensial) hisoblashga oid

calculate [ˈkælkjʊleɪt] *v* 1) hisoblamoq; 2) mo'ljallamoq; hisobga olmoq

calculated [ˈkælkjʊleɪtɪd] *a* **1)** hisoblangan; 2) mo'ljallangan, hisobga olingan

calculating [ˈkælkjʊleɪtɪŋ] *a* 1) hisoblashga oid; 2) tejab-tergab sarf qiladigan, tadbirkor

calculatingly [ˈkælkjʊleɪtɪŋlɪ] *adv* puxta o'ylab, chuqur mulohaza qilib, andisha (mulohaza) bilan; ataylab, jo'rttaga, qasddan; rejali ravishda, tejab-tergab, ehtiyotkorlik bilan, tadbirkorlik bilan

calculating-machine [ˈkælkjʊleɪtɪŋməˌʃi:n] *n* hisoblash mashinasi

calculation [ˌkælkjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) hisoblab chiqish, hisoblash; 2) kalkulatsiya (*tovar, mahsulot va sh. k. ning tannarxini yoki olish-sotish bahosini hisoblab chiqish*)

calculative [ˈkælkjʊlətɪv] *a* 1) hisoblashga oid, hisoblash...; 2) hisoblaydigan; hisoblash bilan shug'ullanadigan; hisoblash...

calculator [ˈkælkjʊleɪtə] *n* hisoblash (asbobi) mashinasi

calculus I [ˈkælkjʊləs] *n* (*pl* **-li** [-laɪ]) 1) *mat.* hisob; **the differential ~** differensial hisob; **the ~ of variation** *mat.* variatsion hisob (*matematik tahlilning muhim tarmoqlaridan biri*); 2) kalkulatsiya (*tovar, mahsulot va sh. k. ning tannarxini yoki olish-sotish bahosini hisoblab chiqish*)

calculus II [ˈkælkjʊləs] *n* (*pl* **-li** [-laɪ]) *tib.* tosh (buyrakda, o'tda)

caldera [kælˈdeə(r)ə] *n geol.* kaldera (*vulqon og'zi – vulqon cho'qqisi, ba'zan unga yondosh joylarning o'pirilishi natijasida vujudga kelgan yon bag'irlari tik va tubi bir qadar tekis qozonsimon botiq*)

caldron [ˈkɔ:ldrən] *n* 1) qozon, doshqozon; 2) kichkina qozon, qozoncha

calean [ˌkælɪˈɑ:n] *n fors.* chilim

Caledonia [ˌkælɪˈdəʊnɪə] *n she'r.* Shotlandiya

Caledonian [ˌkælɪˈdəʊnɪən] **1.** *a* shotlandiyaliklarga va Shotlandiyaga oid; **2.** *n* shotlandiyalik (*ayol*)

calefaction [ˌkælɪˈfækʃ(ə)n] *n kam.* isitish, ilitish, qizdirish, cho'g'lantirish, cho'g' qilish

calefactor [ˌkælɪ ˈfæktə] *n* kichkina (ko'chma) pech

calefactory [ˌkælɪˈfækt(ə)rɪ] *a* isitadigan, qizdiradigan

calembour [ˌkɑ:ləmˈbʊə] *n fr.* kalambur, so'z o'yini, tajnis

calendar [ˈkælɪndə] **1.** *n* 1) taqvim, kalendar (*oy-kunlarni ko'rsatadigan kitobcha, jadval*); **by the ~** kalendar hisobi bo'yicha; **pull-off (tear-off) ~** yirtma kalendar; **desk ~** stolda turadigan kalendar; 2) ro'yxat; **2.** *v* qayd qilmoq, ro'yxatga olmoq

calendarian [ˌkælɪnˈde(ə)rɪən] *a kam.* 1) kalendarga oid; kalendar...; 2) kalendar bilan belgilanadigan, kalendar muddati (oy, kuni) aniq ko'rsatilgan

calender I [ˈkælɪndə] *n tex.* kalandr (*qog'oz, rezina kabi materiallarni yoyadigan, gazmol sirtini silliqlaydigan chig'irli mashina*)

calender II [ˈkælɪndə] *v tex.* yaltiratmoq, pardoz (jilo) bermoq; kudunglamoq; tekislamoq

calender III [ˈkælɪndə] *n* darvesh, qalandar

calendered paper [ˈkælɪndəd,peɪpə] *n* satindek jilo berilgan qog'oz; yaltiroq qog'oz

calends [ˈkælɪndz] *n pl* oyning birinchi kuni, oy boshi (*Qadimgi Rimda*)

calendula [kəˈlendjʊlə] *n bot.* gulhamishabahor

calenture [ˈkælənʧʊə] *n tib.* bosinqirash bilan birga bo'ladigan bezgak

calescent [kəˈles(ə)nt] *a kim.* 1) isib ketayotgan, qizib ketayotgan; 2) iliq, issiq, qiziq, iligan; (issiqdan) qizigan, qizib turgan

calf [kɑ:f] *n* (*pl* **calves**) 1) buzoq; **a cow in ~** bo'g'oz sigir; 2) (*bug'u, fil va b. hayvonlarning*) yangi tug'ilgan onasidan ajralmagan bolasi; 3) boldir

calf-bone [ˈkɑ:fbəʊn] *n anat.* kichik boldir suyagi

calfish [ˈkɑ:fɪʃ] *a* 1) buzoqqa oid; buzoq...; 2) buzoq go'shtidan tayyorlangan, buzoq go'shti...; 3) buzoqqa o'xshagan; 4) *ko'ch.* tajribasi yo'q (kam), tajriba ko'rmagan (orttirmagan), tajribasiz, malakasiz, turmush tajribasi yo'q; hayot ko'rmagan, go'r, xom

calf-knee [ˈkɑ:fni:] *n anat.* bukilgan tizza

calfling [ˈkɑ:flɪŋ] *n erk.* kichkina buzoq, buzoqcha

calflove [ˈkɑ:flʌv] *n* bolalik muhabbati

calf-skin [ˈkɑ:f,skɪn] *n* buzoq terisi

calf's-foot [ˈkɑ:fzfʊt] *n* ustiga sardak solingan, buzoq oyog'idan tayyorlangan ilvira (*rosa qaynatilgan go'sht sardagidan tayyorlanadigan dirildoq ovqat*)

calf's teeth [ˈkɑ:f,ti:θ] *n pl* sut tishlar

caliber [ˈkælɪbə] *n amer.* 1) kalibr (*otish qurollari og'zining yoki o'q, snaryad, mina va sh. k. ning diametri*); 2) diametr (*ko'ndalang kesim o'lchami*)

calibrate [ˈkælɪbreɪt] *v tex.* kalibrlamoq (*aniq bir o'lchamga keltirmoq*)

calibration [ˌkælɪˈbreɪʃ(ə)n] *n tex.* kalibrlash, aniq bir o'lchamga keltirish

calibre [ˈkælɪbə] = **caliber**

caliche [kəˈli:ʧɪ] *n* Chili sof (tabiiy) selitrasi

caliciform [ˈkælɪsɪfɔ:m] *a naxs.* kosasimon, kosa shaklidagi, kosaga o'xshagan

calico [ˈkælɪkəʊ] *n to'q.* kolenkor (*qalin surp*)

calico-printer [ˈkælɪkəʊˌprɪntə] *n to'q.* gul bosuvchi

calico-printing [ˈkælɪkəʊˌprɪntɪŋ] *n to'q.* chitga gul bosish ishlari

calif [ˈkælɪf] *n* xalifa

Californian [ˌkælɪˈfɔ:nɪən] **1.** *n* Kaliforniyada yashovchi kishi, kaliforniyalik, kaliforniyalik ayol; **2.** *a* Kaliforniya va

kaliforniyaliklarga oid, Kaliforniya...; kaliforniyaliklar...

California redwood [ˌkælɪˈfɔːnɪəˈredwʊd] *bot.* sekvoyya (*ignabargli daraxtlarning bir turi*)

californium [ˌkælɪˈfɔːnɪəm] *n kim.* kaliforniy (*D. I. Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kimyoviy element*)

caliginous [kəˈlɪdʒɪnəs] *a esk.* 1) bulutli, bulut bosgan, bulut qoplagan; 2) tumanli, tuman bosgan, tuman qoplagan; 3) noaniq, xira, sal-pal bilinadigan; 4) qorong'i

calipers [ˈkælɪpəz] *n* kronsirkul (*1. kichkina doiralar chizadigan sirkul; 2. detallarning ichki va tashqi diametrini o'lchaydigan asbob*)

caliph [ˈkælɪf] *n* xalifa

caliphate [ˈkælɪfeɪt] *n* xalifalik

calisthenics [ˌkælɪsˈθenɪks] *n pl shakli ko'plikda yozilishiga qaramasdan birlikda tarjima qilinadi:* 1) ritmik gimnastika; 2) jismoniy tayyorgarlik

caliver [ˈkælɪvə] *n tar.* yengil piltali miltiq

calk I [kɔːk] *amer.* **1.** *n.* taqa (*poshnada*); **2.** *v* (*poshnani*) taqalamoq

calk II [kɔːk] *n* so'ndirilmagan ohak

calkin [ˈkɔːlkɪn] *n* taqalash, taqa qoqish

calking I [ˈkɔːkɪŋ] *n* 1) (*qishda*) otlarga tishli taqa qoqish; 2) *amer.* (*oyoq kiyimning poshnasiga*) taqalash, taqa qoqish

calking II [ˈkɔːkɪŋ] *n* 1) zichlash tig'izlash, shibbalash; 2) zarb qilish (bosish, chekish); ~ **iron** chekan (*metall buyumlarning chokini bostiradigan asbob*)

call [kɔːl] **1.** *n* 1) chaqirish, chaqiriq; 2) hayvonlarning *yoki* qushlarning qichqirishi; 3) telefonda chaqirish; 4) tashrif, **2.** *v* 1) chaqirmoq, baqirmoq; **to ~ at** qayerdadir to'xtamoq; **to ~ away** chaqirib olmoq; **to ~ back** qaytarib olmoq; **to ~ down** duchor (giriftor) qilmoq; **to ~ for** talab qilmoq; **to ~ in** taklif qilmoq; **to ~ off** (*uchrashuv, yig'ilishni*) qoldirmoq; **to ~ on** shikoyat arizasi bilan murojaat qilmoq; **to ~ out** chaqirmoq; **to ~ over** yo'qlama qilmoq; **to ~ up** telefon orqali chaqirmoq; **to ~ upon** shikoyat arizasi bilan murojaat qilmoq; **to ~ together** chorlamoq

call-bird [ˈkɔːlbɜːd] *n ov.* 1) (*tulki, bo'ri kabilarni*) chaqirish, tutish uchun qo'yiladigan qush; 2) kirkik (*qush chaqiradigan hushtak*)

call-board [ˈkɔːlbɔːd] *n* 1) e'lonlar taxtasi; poyezdlar, leksiyalar, repetitsiya jadvali; 2) navbatchilar grafigi

call-box [ˈkɔːlbɒks] *n* telefon budkasi

call-boy [ˈkɔːlbɔɪ] *n* 1) xat-hujjat tashuvchi bola; 2) mehmonxonada bir necha xonalarga qarovchi xodim

caller [ˈkɔːlə] *n* mehmon

callet [ˈkælɪt] **1.** *n dial.* 1) manjalaqi, buzuq (suyuqoyoq) ayol; 2) janjalkash ayol; javraqi (vaysaqi) ayol, sergap ayol; **2.** *v dial.* 1) so'kishmoq, urishmoq, janjallashmoq; 2) javramoq, vaysamoq, ming'irlamoq; po'ng'illamoq, to'ng'illamoq; ming'ir-ming'ir qilmoq

call girl [ˈkɔːlgɜːl] *n* fohisha

callidity [kəˈlɪdɪtɪ] *n kam.* 1) makkorlik, ayyorlik, hiylagarlik, mug'ambirlik, quvlik, ustomonlik; 2) ahdini buzish, ahdidan qaytish, o'z so'zida turmaslik, makkorlik, xoinlik, munofiqlik, xiyonatkorlik

calligrapher [kəˈlɪgrəfə] *n* xushxat odam, kalligraf, xattot

calligraphic, calligraphical [ˌkælɪˈgræfɪk, -(ə)l] *n* kalligrafga, kalligrafiyaga oid

calligraphy [kəˈlɪgrəfɪ] *n* 1) chiroyli yozuv; 2) husnixat

calling [ˈkɔːlɪŋ] *n* 1) mayl, rag'bat, qiziqish; 2) kasb, hunar

calliper [ˈkælɪpə] *n tex.* kronsirkul (*1. kichkina doiralar chizadigan sirkul; 2. detallarning ichki va tashqi diametrini o'lchaydigan asbob*)

callisthenic [ˌkælɪsˈθenɪk] *a* 1) gimnastikaga oid; gimnastik; gimnastika...; 2) ritmik gimnastikaga oid

callisthenics [ˌkælɪsˈθenɪks] *n* gimnastika; **free ~** a) erkin mashqlar; 2) badiiy gimnastika

callosity [kəˈlɒsɪtɪ] *n* qadoq

callous [ˈkæləs] *a* 1) qadoqli; 2) berahm, bag'ritosh

calloused [ˈkæləst] *a* qadoqli, qadoq bosgan, qavargan, serqadoq

callousness [ˈkæləsnəs] *n* 1) qo'pollik; 2) berahmlik, toshbag'irlik

callow [ˈkæləʊ] *n dial.* tajribasiz

callowness [ˈkæləʊnəs] *n* tajribasi yo'q (kam)lik, tajriba ko'rmaganlik (orttirmaganlik), tajribasizlik, malakasizlik

call-up [ˈkɔːlʌp] *n* harbiy xizmatga chaqirish

callus [ˈkæləs] *n* 1) *tib.* qadoq, qavariq; 2) *bot.* bo'qoq (*daraxt bo'qog'i*)

calm [kɑːm] **1.** *a* 1) tinch, jimjit; 2) shamolsiz; **2.** *n* tinchlik, jimjitlik; **3.** *v* tinchlantirmoq

calmative [ˈkɑːmətɪv] *a tib.* tinchitadigan, tinchlantiruvchi

calmly [ˈkɑːmlɪ] *adv* 1) xotirjamlik bilan; 2) sovuqqonlik bilan

calmness [ˈkɑːmnəs] *n* tinchlik, jimjitlik

calomel [ˈkæləmel] *n kim.* 1) kalomel (*oq kukun holidagi simobli surgi dori*); 2) xlorli simob

caloric [kəˈlɒrɪk] **1.** *n* issiqlik; **2.** *a* issiqlikka oid

caloricity [ˌkælə ˈrɪsɪtɪ] *n maxs.* 1) issiqlik chiqarish qobiliyati; 2) kaloriyalilik

calorie [ˈkælərɪ] *n* kaloriya (*issiqlik miqdorining o'lchov birligi*)

calorific [ˌkælə ˈrɪfɪk] *a* issiqlikka oid

calorification [kəˌlɒrɪfɪ ˈkeɪʃ(ə)n] *n* issiqlik chiqarish

calorifics [ˌkælə ˈrɪfɪks] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) teplotexnika (*fanning issiqlik hosil qilish va undan foydalanish masalalari bilan shug'ullanadigan sohasi*)

calorifier [kə ˈlɒrɪfaɪə] *n* 1) isitadigan (qizdiradigan) asbob; 2) kalorifer (*issiq suv, bug' yoki issiq havo o'tadigan quvurlardan iborat isitish qurilmasi*)

calorify [kə ˈlɒrɪfaɪ] *v maxs.* isitmoq, ilitmoq, qizdirmoq

calorimeter [ˌkælə ˈrɪmɪtə] *n fiz.* kalorimetr (*issiqlik miqdorini o'lchaydigan asbob*)

calorimetry [ˌkælə ˈrɪmɪtrɪ] *n fiz.* kalorimetriya (*issiqlik sig'imi va issiqlik miqdorini o'lchash hamda uning metodlari majmuyi*)

calory [ˈkælərɪ] = **calorie**

calotte [kəˈlɒt] *n* do'ppisimon bosh kiyim

calque [kælk] *n tilsh.* kalka (*bir tilga boshqa tildan aynan tarjima qilib olingan yoki boshqa tildagiga taqlidan yasalgan so'z yoki ibora*)

caltrop [ˈkæltrəp] *n harb.* (tikanli) sim to'siq

calumet [ˈkæljomet] *n* kalumet; sigareta chekish uchun mo'ljallangan sarxonali mundshtuk (*Shimoliy Amerikalik hindlarda*)

calumniate [kəˈlʌmnɪeɪt] *v* tuhmat (bo'hton) qilmoq

calumniation [kəˌlʌmnɪˈeɪʃ(ə)n] *n* tuhmat; bo'hton

calumniator [kəˈlʌmnɪeɪtə] *n* tuhmatchi, g'iybatchi

calumniatory [kəˈlʌmnɪət(ə)rɪ] *n* tuhmatdan iborat bo'lgan

calumnious [kəˈlʌmnɪəs] = **calumniatory**

calumny [ˈkæləmnɪ] *n* tuhmat qilib aytilgan so'zlar

calurea [ˈkæljʊrɪ:] *n q.x.* mochevina (*konsentrlangan azotli o'g'it bo'lib, turli qishloq xo'jalik ekinlari uchun har xil tuproqlarga solinadi*)

calutron [ˈkæljʊtrɒn] *n fiz.* kalutron, elektromagnit separatori

Calvados [ˈkælvədɒs] *n* kalvados, olma arag'i
Calvary [ˈkælvərɪ] *n bibl.* chormixga tortish
calve [kɑ:v] *v* tug'moq (*hayvonlar haqida*)
calver [ˈkɑ:və] *n* bo'g'oz sigir
calves [kɑ:vz] *n pl of* **calf**
calville [ˈkælvɪl] *n* kalvil (*olma navi*)
calving [ˈkɑ:vɪŋ] *n* tug'ish, bolalash (*sigir haqida*)
Calvinism [ˈkælvɪnɪz(ə)m] *n* kalvinizm (*xristian dini mazhablaridan biri*)
Calvinist [ˈkælvɪnɪst] **1.** *n din.* kalvinist, kalvinizm tarafdori; kalvinizm mazhabidagi kishi; **2.** *a din.* kalvinizmga, kalvinistlarga oid, kalvinizmga asoslangan; kalvinizm, kalvinist(lar)
calvish [ˈkɑ:vɪʃ] *a* 1) buzoqqa oid; 2) ahmoq
calvity [ˈkælvɪtɪ] *n pl kam.* 1) kallik, boshida sochi yo'qlik; 2) siyqa, sochi to'kilgan joy, yaltiroq (kal) joy; toz, kal
calx [kælks] (*pl* **calces** [kælsi:z]) 1) metall zaki (*to'pon*); 2) kul; 3) ohak
calyces [ˈkeɪlɪsi:z] *pl of* **calyx**
calyx [ˈkeɪlɪks] *n bot.* gul kosachasi, gulkosa
cam [kæm] *n tex.* kulak (*mashina detallarining do'ng qismi*)
camaieu [ˌkɑ:məˈjɜ:] *n fr.* kameya (*naqshin tosh yoki chig'anoq; bezak buyumi*)
camaraderie [ˌkæməˈrɑ:dərɪ] *n fr.* o'rtoqlik, do'stlik
camarilla [ˌkæməˈrɪlə] *n isp.* kamarilya (*podsho saroyida o'z manfaatlari uchun davlat ishlariga turli fitna-ig'volar bilan ta'sir ko'rsatuvchi a'yonlar*)
cambered [ˈkæmbəd] *a maxs.* 1) bukilgan, egilgan, egma, qayrilma; egik, bukik; 2) yoy shaklidagi, yoysimon; 3) gumbaz (qubba) shaklidagi, gumbazsimon, qubbali, gumbazli
camber [ˈkæmbə] **1.** *n* bukilganlik, egrilik; **2.** *v* bukmoq, egmoq
cambial [ˈkæmbɪəl] *a esk. mol.* 1) pul (tanga) maydalaydigan; mayda; 2) veksellarni hisobga olishga oid; hisobga olish; 3) bankirlarga oid; bankir(lar)...; 4) *bot.* kambiyga oid; kambiy....
cambist [ˈkæmbɪst] *n* birja dalloli
cambium [ˈkæmbɪəm] *n bot.* kambiy (*o'simlik po'stlog'i ostidagi bo'linuvchan hujayralardan iborat to'qima*)
cambrel [ˈkæmbrəl] *n* nimtalangan go'sht osib qo'yiladigan ilgak
Cambria [ˈkæmbrɪə] *n shoir.* Uels
Cambrian [ˈkæmbrɪən] *a* Uelsga oid; **2.** *n* uelslik, uelslik ayol
cambric [ˈkeɪmbrɪk] *n* batist (*juda ingichka pishitilgan ipdan polotnoli o'rilishdan to'qilgan gazlama*)
Cambridge [ˈkeɪmbrɪdʒ] *n* Kembrij universiteti
camcorder [ˈkæm,kɔ:də] *n* videokamera
came [keɪm] *past. of* **come**
camel [ˈkæm(ə)l] *n zool.* tuya
camel-back [ˈkæm(ə)lbækl] *a* 1) bukur; buchaygan; 2) egik, bukuk, bukri
camel-bird [ˈkæm(ə)lbɜ:d] *n zool.* tuyaqush
camelcade [ˈkæm(ə)lkeɪd] *n* tuyalar karvoni
cameleer [ˌkæmɪˈlɪə] *n* sarbon (*tuyalarni haydab boruvchi*)
camelish [ˈkæm(ə)lɪʃ] *a* tuyaday o'jar
camellia [kəˈmi:lɪə] *n bot.* kameliya (*doim yashil buta yoki daraxt va uning oq yoki qizil yirik xushbo'y guli*)
camelopard [kəˈmeləpɑ:d] *n esk.* jirafa, zirofa
camelry [ˈkæm(ə)lrɪ] *n harb.* tuya mingan otrad
camel's-hair [ˈkæm(ə)lzheə] *n* 1) tuya juni; 2) tuya junidan qilingan material (gazlama, gazmol, mato)
camel-yarn [ˈkæm(ə)ljɑ:n] *n* angor echkisi junidan eshilgan (yigirilgan) ip
cameo [ˈkæmɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) kameya (*naqshin tosh yoki chig'anoq*)
camera [ˈkæm(ə)rə] *n* 1) fotoapparat; 2) kinokamera
cameral [ˈkæm(ə)rəl] *a maxs.* kameral (*uy yoki laboratoriya sharoitida bajariladigan*)
camera-man [ˈkæm(ə)rəmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) fotograf, fotosuratchi; 2) kinooperator (*kinofilmlarni suratga oluvchi operator*); 3) teleoperator, televideniya operatori
cameralistic [ˌkæm(ə)rəˈlɪstɪk] *a tar.* kameralistikaga oid
camerawork [ˈkæm(ə)rəwɜ:k] *n* kino olish, kinoga olish (*kinofilm uchun surat olish*), suratga olish ishlari
camerist [ˈkæmərɪst] *n amer.* fotosuratchi, fotograf
cami-knickers [ˈkæmɪˌnɪkəz] *n pl* xotin-qizlarning ichki ko'ylagi (tursi va ko'krakpechdan iborat)
camion [ˈkæmɪən] *n* yuk mashinasi
camisado [ˌkæmɪˈsɑ:dəʊ] *n harb. esk.* tungi hujum (hamla)
camise [kəˈmi:z] *n* erkaklarning keng va uzun ko'ylagi (*Sharqda*)
camisole [ˈkæmɪsəʊl] *n* ko'krakpech
camister [ˈkæmɪstə] *n jarg.* pop (*ruhoniy*)
camlet [ˈkæmlɪt] *n to'q.* kamlot (*pishiq jun gazlama; ba'zan ip yoki ipak qo'shib to'qiladi*)
cammed [kæmd] *a dial.* 1) vijdoni (insofi, diyonati) yo'q, vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, noinsof, tirriq; 2) yomon, yovuz
cammock [ˈkæmək] *n shotl.* boshi egri (tutqichi qayrilgan) hassa
camomile [ˈkæməmaɪl] *n bot.* moychechak
camouflage [ˈkæməflɑ:ʒ] **1.** *n* niqoblash; **2.** *v* niqoblamoq, maska (yoki maskarad kiyimi) kiydirib biror tusga kiritmoq; 2) dushman ko'zidan yashirmoq; 3) pana qilmoq
camouflet [ˌkɑ:mu:ˈfleɪ] *n harb.* snaryad, mina va sh. k. ni yer ostida portlatish
camp [kæmp] **1.** *n* lager, oromgoh; manzil, qarorgoh; **2.** *v* oromgohda joylashmoq
campagnol [ˈkɑ:pənjɔl] *n zool.* kulrang dalasichqon
campaign [kæmˈpeɪn] **1.** *n* 1) guruh; 2) yurish, sayohat, safar; **2.** *v* yurishda qatnashmoq
campaigner [kæmˈpeɪnə] *n* yurish (sayohat, safar) qatnashchisi
campane [kæmˈpeɪn]] *n* qo'ng'iroq
campanile [ˌkæmpəˈni:lə] *n* (*pl* **-li** [-lɪ]) *me'mor.* qo'ng'iroqxona, qo'ng'iroqlar minorasi (*butxonalarda*)
campanili [ˌkæmpəˈni:lɪ] *pl of* **campanile**
campanula [kəmˈpænjʊlə] *n bot.* qo'ng'iroqgul
campanulaceoues plant [kəmˌpænjʊˈleɪʃəsˈplɑ:nt] *bot.* qo'ng'iroqgullilar oilasiga kiruvchi o'simlik
campanulate [kəmˈpænjʊl(e)ɪt] *a* 1) qo'ng'iroqcha shaklidagi; 2) qo'ng'iroqchasimon (*gul shakli haqida*); 2) lager qurish san'ati
camp-bed [ˌkæmpˈbed] *n* buklama karavot
camp-chair [ˌkæmpˈtʃeə] *n* buklama (*buklanadigan*) stul
camp-cot [ˌkæmpˈkɒt] *n* yig'ma (buklama) karavot
camperafter [ˈkæmp,krɑ:ftə] *n sport.* lager tashkilotchisi (*alpinistlarda*)
camper [ˈkæmpə] *n* dam oluvchi, sayyoh
camper out [ˈkæmpəˈ(r)aʊt] 1) chodirda yashaydigan sayyoh (turist); 2) ochiq havoda tunaydigan kishi
campestral [kæmˈpestrəl] *a* dalaga oid
camp-fever [ˈkæmp,fi:və] *n tib.* tif, terlama
camp-fire [ˈkæmpfaɪə] *n* lashkargoh gulxani
Camp Fire Girls [kæmpfaɪəˌgɜ:lz] „Gulxan" (*AQSHdagi qizlar tashkiloti*)
camp-follower [ˈkæmp,fɒləʊə] *n harb.* 1) yollanma xodim (*harbiy qismlardagi ishchi-xizmatchilar haqida*); 2) mar-

kitant (*o'tmishda; qo'shin bilan birga yurib, oziq-ovqat mollari savdosi bilan shug'ullangan savdogar*)

camp-furniture [ˌkæmp´fɜ:nɪtʃə] *n* yengil buklama ko'chma mebel

camphor [´kæmfə] *n farm.* kamfara, kofur (*tibbiyotda va texnikada qo'llanadigan hidi o'tkir modda va undan tayyorlangan dori*)

camphorated [´kæmfəreɪtɪd] *a* kamfara bilan to'yintirilgan

camphor balls [´kæmfəbɔ:lz] *n* naftalin (*kuyadori*)

camphoric [kæm´fɔrɪk] *a farm.* kamfaraga oid

camphor tree [´kæmfətri:] *bot.* kamfara daraxti

camping [´kæmpɪŋ] *n* kemping (*avtoturistlar uchun oromgoh*)

campion [´kæmpɪən] *n bot.* echkimiya (smolali o't)

cample [´kæmp(ə)l] *v dial.* tortishmoq, aytishmoq, gap talashmoq; janjallashmoq, mojaro qilmoq; janjallashib (urishib) olmoq

camp-meeting [´kæmpˌmi:tɪŋ] *n amer.* ochiq havoda ibodat qilish

camp stool [´kæmpstu:l] *n* buklama (bukiladigan) stul

campus [´kæmpəs] *n amer.* universitet, kollej *yoki* maktab hududi (*hovlisi yoki shaharchasi*)

cam-shaft [´kæmʃɑ:ft] *n tex.* taqsimlovchi val

camstone [´kæmstəun] *n shotl.* 1) ohaktosh (ohakli tog' jinsi); 2) oq gil, chinni gil, kaolin

can I ([kæn] *urg'uli shakli;* [kən] *urg'usiz shakli*); *v* qila olmoq, uddalamoq, qo'lidan kelmoq

can II [kæn] *n* 1) biton, bidon; 2) tunuka quti; **a garbage ~** axlat qutisi; 3) konserva qutisi

Canaan [´keɪnən] *n bibl.* yerdagi jannat, jannatmakon yer

Canada balsam [´kænədə´bɔ:ls(ə)m] *n farm.* Kanada balzami (malham dorisi)

Canadian [kə´neɪdɪən] **1.** *n* kanadalik erkak (*ayol*); **2.** *a* Kanadaga oid, kanadada ishlab chiqarilgan

canaille [kə´neɪl] *n fr.* qalang'i-qasang'ilar; madaniyatsiz kishilar muhiti

canal [kə´næl] *n* kanal

canalization [ˌkænəlaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* kanallarning qurilishi

canalize [´kænəlaɪz] *v* 1) kanallar o'tkazmoq; 2) ma'lum kanallar orqali jo'natmoq

canapé [´kænəpeɪ] *n amer.* ustiga ikra yoki boshqa gazak bo'luvchi narsa surtilgan qovurilgan non burdasi

canard [kæ´nɑ:d] *n fr.* „uydirma", yolg'on xabar

canary [kə´ne(ə)rɪ] **1.** *n zool.* kanareyka (*qafasda saqlanadigan sayroqi qushcha*); **2.** *a* 1) och sariq, sap-sariq

canary-bird [kə´ne(ə)rɪbɜ:d] *a* kanareyka

canary-stone [kə´ne(ə)rɪstəun] *n min.* sariq serdolik (*yarim qimmatbaho tosh*)

Canasta [kə´næstə] *n* kanasta (*qarta o'yini*)

can-buoy [´kænbɔɪ] *n deng.* uchi to'mtoq buy (*buy – suvda sayozlik, yo'l va h. k. ni ko'rsatadigan qalqovich belgi*)

cancan [´kænkæn] *n fr.* kankan (*odobga to'g'ri kelmaydigan fransuzcha raqs*)

cancel [´kæns(ə)l] **1.** *n* 1) o'chirish; 2) bekor qilish; **2.** *v* 1) bekor qilmoq; 2) o'chirib tashlamoq

cancellated [´kæns(ə)leɪtɪd] *a* 1) panjaraga o'xshagan (*panjarasimon*) 2) torga o'xshagan (*torsimon*)

cancellation [ˌkænse´leɪʃ(ə)n] *n* bekor (yo'q) qilish

cancer [´kænsə] *n tib.* rak (*saraton kasali*)

cancerous [´kæns(ə)rəs] *a tib.* rak kasaliga oid

cancroid [´kæŋkrɔɪd] *n tib.* teri raki

cand [kænd] *n min.* rangsiz, shuningdek, binafsharang, pushti rang kristallar hosil qiladigan mineral (*metallurgiya, kimyo sanoati, optika va sh. k. da qo'llanadi*)

candelabra [ˌkændɪ´lɑ:brə] *pl of* **candelabrum**

candelabrum [ˌkændɪ´lɑ:brəm] *n* (*pl* **-ra** [-rə]) qandil, katta shamdon

candent [´kændənt] *a* 1) oppoq oqarguncha qizigan (qizitilgan); 2) qizigan, qizdirilgan, qizib (cho'g' bo'lib) turgan

candescence [kæn´des(ə)ns] *n* (*qizdirish natijasida*) oppoq oqarish

candescent [kæn´des(ə)nt] *a* oqarguncha qizdirilgan, ko'zni oladigan

candid [´kændɪd] *a* 1) samimiy, sofdil; 2) ko'ngli ochiq

candidacy [´kændɪdəsɪ] *n* nomzodlik

candidate [´kændɪdət] *n* nomzod

candidature [´kændɪdɪtʃə] *n* nomzodlik

candidness [´kændɪdnəs] *n* samimiyat, samimiylik, ochiqko'ngillik, sofdillik, sof (oq) ko'ngillik

candied [´kændɪd] *a* 1) shakarga bosilgan (*meva to'g'risida*); 2) shakarga pishirilgan

candle [´kændl] **1.** *n* sham; **2.** *v* tuxumning yangi *yoki* eskiligini yorug'lik yordamida tekshirmoq

candlebomb [´kændlbɒm] *n* yorug'lik beradigan bomba

candle-end [´kændlend] *n* sham qoldig'i

candle-holder [´kændlˌhəuldə] *n so'zl.* 1) sherik, hamkor, hamtovoq; 2) yordamchi, yordam ko'rsatuvchi; 3) *kam.* mash'al bilan olov yoquvchi, o't qo'yuvchi

candlelight [´kændllaɪt] *n* 1) shamning yorug'ligi; 2) sham bilan yoritish

candle-lighter [´kændlˌlaɪtə] *n* shamlarni yoqadigan cherkov xizmatkori

candle-power [´kændlˌpauə] *n el.* yorug'lik kuchi (*sham to'g'risida*)

candle-snuff [´kændlsnʌf] *n* (shamning) kuygan piltasi

candlestick [´kændlˌstɪk] *n* shamdon

candle-wick [´kændlˌwɪk] *n* pilik

candor [´kændə] = **candour**

candour [´kændə] *n* samimiyat, samimiylik

candy [´kændɪ] **1.** *n* 1) obakidandon (*konfet*); 2) *amer.* konfet; shirinlik; **2.** *v* shakar bilan (shakarda) pishirmoq

candytuft [´kændɪtʌft] *n bot.* soyabongullilar

cane [keɪn] **1.** *n* qamish; **2.** *v* xipchin bilan urmoq, savalamoq

cane-brake [´keɪnbreɪk] *n* qamishzor

cane chair [keɪntʃeə] *n* (qamishdan) to'qilgan stul

canella [kə´nelə] *n bot.* dolchin

cane-mill [´keɪnmɪl] *n* qamishni siqib suvini chiqaradigan (yoki suvsizlantiradigan, quritadigan) press

canephorus [kə´nefərəs] *n* (*pl* **-ri** [-raɪ]) *me'mor.* boshiga savat qo'ygan odamning haykali (tasviri)

canescent [kə´nes(ə)nt] *a* oqqa moyil, oqish

cane-sugar [´keɪnˌʃugə] *n* shakarqamish

can-hook [´kænhuk] *n deng.* ilgak, changak

canicular [kə´nɪkjulə] *a* jazirama, issiq

caniculars [kə´nɪkjuləz] *n pl hazil.* no'noq, bo'lar-bo'lmas she'rlar

canine [´keɪnaɪn] **1.** *a* itga oid; **2.** *n anat.* qoziqtish, so'yloqtish

caninity [kə´nɪnɪtɪ] *n kam.* 1) itning vafodorligi; 2) itlarga bo'lgan muhabbat

canister [´kænɪstə] *n* kichkina tunuka (tunukadan qilingan) quti (*choy, qahva va b. uchun*)

canister-shot [´kænɪstəʃɒt] *n harb.* kartech (*sochma o'qlar, o'q, yadro va shunday o'qlar, yadrolar bilan to'ldirilgan artilleriya snaryadi*)

cank [kæŋk] *v dial.* 1) (g'ozga o'xshab) g'aqillamoq, g'aq-g'aq qilmoq; 2) *ko'ch.* tez-tez (bidir-bidir) gapirmoq, bidirlamoq, valdiramoq, aljiramoq, vaysamoq

canker [´kæŋkə] **1.** *n* 1) yara, yarali kasallik; 2) qurt tushgan joy, qurt yegan

yoki teshgan joy; **2.** *v* **1)** o'ymoq, kemirmoq; 2) halok (nobud) qilmoq

canker-berry ['kæŋkəb(ə)rɪ] *n* na'matak (itburun) mevasi

canker-bloom ['kæŋkəblu:m] *n* na'matak (itburun) guli

cankered ['kæŋkəd] *a* 1) kemirgan, kemirib tashlagan; 2) yara qilib yuborgan, yara-chaqa bostirgan; 3) illatli, nuqsonli

cankerous ['kæŋkərəs] *a* 1) o'yadigan, kemiradigan; 2) halokatli, falokatli

canker-rose ['kæŋkərəuz] *n bot.* o'zi o'sib chiqadigan lolaqizg'aldoq

cankerworm ['kæŋkəwə:m] *n zool.* meva qurti

cankery ['kæŋkərɪ] *a* 1) illatli (nuqsonli); 2) *shotl.* javraqi, vaysaqi, sergap, ezma, ming'ir-ming'ir, chakagi ochiq

cannabic [kə'næbɪk] *a* 1) nasha o'simligiga oid; 2) kanopdan qilingan

canned [kænd] *a* konserva qilingan, konservalangan (*oziq-ovqat haqida*); **~ goods** konserva; **~ fish** baliq konservasi; **~ meat** go'sht konservasi

cannel coal ['kænlkəul] *n maxs.* alangalanib yonadigan ko'mir

cannelure ['kænəljuə] *n tex.* ustun bo'ylab vertikal yo'nalgan tarnov

canner ['kænə] *n amer.* **1)** konserva zavodining egasi yoki ishchisi; 2) faqat konservalash uchun yaraydigan mahsulot

cannery ['kænərɪ] *n* konserva zavodi

cannibal ['kænɪb(ə)l] **1.** *n* odamxo'r; **2.** *a* odamxo'rlarga oid

cannibalic [ˌkæn'bælɪk] *a* 1) odamxo'rlarga oid (xos); odamxo'r(lar)...; 2) odamlarni yomon ko'radigan; 3) yovuz, shafqatsiz

cannibalish ['kænɪbəlɪʃ] *a* qonxo'r, zolim, yovuz, vahshiy, berahm, yirtqich

cannibalism ['kænɪbəlɪz(ə)m] *n* odamxo'rlik

cannibalistic [ˌkænɪbə'lɪstɪk] *a* 1) odamxo'rlarga oid (xos); odamxo'r(lar)...; a **~ tribe** odamxo'r (vahshiy)lar qabilasi

cannikin ['kænɪkɪn] *n* tunuka (idish) quti

canniness ['kænɪnəs] *n shotl.* 1) ehtiyotkorlik; ehtiyotlik (ehtiyotkorlik) bilan ish tutish (ish qilish); 2) aql bilan ish qilish, o'ylab ish qilish, mulohazakorlik

canning ['kænɪŋ] *n* konservalash

cannon ['kænən] **1.** *n* 1) to'p, zambarak; 2) karambol (*1. bilyard o'yinida: bir shar bilan ikkinchi sharni urib, uchinchisiga tegizish; 2. sharni shu tarzda urib luzaga tushirish*); **2.** *v* sharni karambol usulida urib luzaga tushirmoq

cannonade [ˌkænə'neɪd] **1.** *n* zambarak o'qi; **2.** *v* to'plardan o't ochmoq

cannon-ball ['kænənbɔ:l] *n* zambarak o'qi

cannon-bit ['kænənbɪt] *n* tanglayga botadigan, plastinkali suvluq (*asov otlar uchun*)

cannon-bone ['kænənbəun] *n* boldir suyagi (*tuyoqlilarda*)

cannoned ['kænənd] *a* to'p (zambarak) bilan qurollangan

cannoneer [ˌkænə'nɪə] *n* to'pchi, artilleriyachi

cannon-royal [ˌkænən'rɔɪəl] *n tar.* 74 funtli zambarak

cannon-shot ['kænənʃɒt] *n* zambarakdan o'q uzish

cannot ['kænət] **can** *fe'lining hozirgi zamon bo'lishsiz shakli*

cannula ['kænjulə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) *tib.* kovak nayza

canny ['kænɪ] *a* 1) ayyor, mug'ambir; 2) ehtiyotkor

canoe [kə'nu:] **1.** *n* baydarka (*ensiz, yengil sport qayig'i*); 2) baydarkada suzmoq

canoeing [kə'nu:ɪŋ] *n sport.* ikki kishilik kanoe (*erkin eshkakli yengil sport qayig'i*)

canoe-single [kə'nu:ˌsɪŋg(ə)l] *n sport.* bir kishilik kanoe

canon ['kænən] *n* 1) kanyon (*suv yuvib hosil qilingan yoki sun'iy uzun vodiy*); 2) qoida

canonic [kə'nɒnɪk] *n* kanonik (*katoliklar soborining ruhoniysi*)

canonical [kə'nɒnɪk(ə)l] *a* qoidaga aylangan

canonicals [kə'nɒnɪk(ə)lz] *n pl* cherkov liboslari (kiyimlari)

canonicity [ˌkænə'nɪsɪtɪ] *n* muayyan (asosan, diniy) qoidalarga bo'ysunganlik (moslik)

canonist ['kænənɪst] *n yur.* kanonik, cherkov qoida-qonunlarini yaxshi biladigan kishi

canonistic, canonistical [ˌkænə'nɪstɪk, -(ə)l] *a yur.* kanonik, cherkov qoida-qonunlariga oid, cherkov qoida-qonunlari...

canonization [ˌkænənaɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* avliyolar qatoriga kiritish; ilohiylashtirish

canonize ['kænənaɪz] *v* qoidaga aylantirmoq

canonry ['kænənrɪ] *n cherk.* kanoniklik mansabi (unvoni)

canoodle [kə'nu:dl] *v so'zl.* erkalatmoq, navozish qilmoq

can-opener ['kænˌəup(ə)nə] *n* konserva ochadigan pichoq

canopy ['kænəpɪ] **1.** *n* 1) guldor qimmatbaho chodir (choyshab); 2) shiypon, bostirma; **2.** *v* ustini chodir bilan yopmoq

canorous [kə'nɔ:rəs] *n* xushohang

cant [kænt] *v* ikkiyuzlamachilik qilmoq

can't [kɑ:nt] **cannot** *ning qisqartmasi*

Cantab ['kæntæb] *a* Kembrijga oid

cantabile [kæn'tɑ:bɪlɪ] *mus.* kantabile, sho'x (*musiqa asarining sho'x ijro etilishini bildiruvchi ko'rsatma*)

Cantabrigian [ˌkæntə'brɪdʒɪən] **1.** *a* Kembrijga oid; **2.** *n* Kembrij universitetining talabasi

cantaloup(e) ['kæntəlu:p] *n* kantalupa (*qovun navi*)

cantankerous [kən'tæŋk(ə)rəs] *a* injiq; janjalkash

cantata [kæn'tɑ:tə] *n* kantata (*xor ijrosidagi tantanali kuy*)

cantatrice ['kæntətri:s] *n fr.* (professional) qo'shiqchi (*xonanda ayol haqida*)

canted ['kæntɪd] *a* 1) qiyshiq, qiyshayib qolgan, qiyshaygan; 2) qiya, nishab

canteen [kæn'ti:n] *n* 1) harbiy do'kon; 2) (*zavod, tashkilot va b. qoshidagi*) oshxona

canter ['kæntə] **1.** *n* 1) jargonda gapiruvchi; 2) yengil chopish (*ot haqida*); **2.** *v* otni yengil choptirmoq

canterbury ['kæntəb(ə)rɪ] *n* o'yma naqshli ochiq javon

Canterbury Bells [ˌkæntəb(ə)rɪ'bel(z)] *n* katta qo'ng'iroqgullar

cantharides [kæn'θærɪdi:z] *n pl tib.* daraxt va butalarni zararlaydigan qo'ng'izchalar quritilib, maydalanib tayyorlangan malham

cantharis ['kænθərɪs] *n* (*pl* **-rides** [-di:z]) daraxt va butalarni zararlaydigan qo'ng'izcha

canticle ['kæntɪk(ə)l] *n* qo'shiq, madhiya

cantilever ['kæntɪˌli:və] *n qur.* konsol (*to'sinning devordan chiqib turgan qismi*)

cantilevered ['kæntɪˌli:vəd] *a tex.* konsolga oid; konsolli; konsol...

cantillate ['kæntɪleɪt] *v* 1) ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylamoq; 2) ohang bilan kuylamoq; ohang bilan (kuylagandek) so'zlamoq (so'zlab bermoq)

cantillation [ˌkæntɪ'leɪʃ(ə)n] *n* rechitativ (*ba'zi vokal-musiqa asarlarining kuy, ohang bilan aytiladigan so'zlari*)

cantina [kæn'ti:nə] *n amer. dial.* (bitta binodagi) bar va oziq-ovqat magazini, do'koni

canting I ['kæntɪŋ] **1.** *n* 1) qiyshiq (qiya) qilib qo'yish; 2) qiyshaytirish, qiyshaytirib qo'yish; **2.** *a* **1)** qiyshiq, qiya; 2) qiyshaytirilgan, qiyshaytirib qo'yilgan

canting II ['kæntɪŋ] *n* jargon ishlatish

canting III ['kæntɪŋ] *n dial.* auksionda sotish

cantinier [ˌkæntɪˊnjeɪ] *n fr.* traktir (restoran) egasi (*erkak kishi haqida*)
cantiniere [ˌkæntɪˊnjer] *n fr.* traktir (restoran) egasi (*ayol kishi haqida*)
cantle [ˊkæntl] *n* 1) bo'lak, burda (*non haqida*); 2) (tort, pishloq) bo'lagi, parchasi, burdasi, kesigi, kesagi, yaprog'i
cantlet [ˊkæntlɪt] *n kam.* kichkina bo'lak (burda, parcha), bo'lakcha
canto [ˊkæntəʊ] *n* qo'shiq
canton [ˊkæntɒn] *n* kanton (*Shveysariya tarkibiga kiradigan har bir ayrim o'lka; Fransiya va Belgiyada: kichik ma'muriy-territorial bo'linma*), okrug, viloyat
cantonal [ˊkæntənl] *a* kantonal; o'lkaga oid
cantoned [kænˊtond] *a* kantonlarga bo'lingan
cantonment [kænˊtu:nmənt] *n* (*harbiy qismni*) joylashtirish
cantred [ˊkæntred] *n tar.* yuzta xalq turadigan joy (shahar, qishloq, posyolka va h. k.)larni o'z ichiga oladigan okrug
cantrip [ˊkæntrɪp] *n shotl.* sehrgarlik, jodugarlik
canty [ˊkæntɪ] *a shotl.* quvnoq, shod, xursand
Canuck [kəˊnʌk] *n amer.* kanadalik (*asosan, fransuzlardan kelib chiqqan odam*)
canvas [ˊkænvəs] *n* kanopdan to'qilgan mato; brezent
canvas-back [ˊkænvəsbæk] *n zool.* botqaldoq, baliqchi o'rdak
canvass [ˊkænvəs] *n* 1) (*saylovdan oldin*) ovoz yig'moq; 2) muhokama qilmoq
canvasser [ˊkænvəsə] *n* ovoz yig'ish maqsadida uyma-uy yuruvchi nomzod *yoki* uning tarafdori
cany [ˊkeɪnɪ] *a* qamishdan qilingan
canyon [ˊkænjən] *n* chuqur dara
canzona [kænˊtsəʊnə] *n* (*pl* **-ne** [-nɪ]) *mus.* kansona (*milliy kolorit saqlanib yozilgan sodda musiqa asari*)
canzone [kænˊtsəʊnɪ] *pl of* **canzona**
canzonet [ˌkænzəˊnet] *n mus.* kichik kansona
caoutchouc [ˊkaʊtʃu:k] *n* kauchuk (*ba'zi o'simliklarning shirasidan olinadigan yoki sun'iy yo'l bilan tayyorlanadigan, murakkab kimyoviy tarkibli elastik modda*)
cap [kæp] **1.** *n* bosh kiyim, telpak, shapka; **2.** *v* 1) shapka kiymoq; 2) boshni berkitmoq
capa [ˊkɑ:pə] *n isp.* kapushon (*ustki kiyim yoqasiga biriktirib tikiladigan qaytarma qalpoq*)li plash
capability [ˌkeɪpəˊbɪlɪtɪ] *n* qobiliyat, layoqat
capable [ˊkeɪpəb(ə)l] *a* qobiliyatli, layoqatli
capably [ˊkeɪpəblɪ] *adv* ustalik (mohirlik) bilan, mohirona
capacious [kəˊpeɪʃəs] *a* keng, erkin
capacitance [kəˊpæsɪt(ə)ns] *n el.* sig'im
capacitate [kəˊpæsɪteɪt] *v* qodir (qurbi yetadigan) qilmoq
capacitor [kəˊpæsɪtə] *n el.* kondensator (*elektr to'playdigan asbob*)
capacity [kəˊpæsɪtɪ] *n* 1) sig'im; 2) qodirlik, qobiliyat; 3) imkoniyat
cap-a-pie [ˌkæpəˊpi:] *adv* boshdan oyog'igacha
caparison [kəˊpærɪs(ə)n] *n* yopiq (*egar tagiga solinadigan mato*)
cape [keɪp] *n* plash
caped [keɪpt] *a* 1) plash kiygan; 2) pelerina (*yelkaga tashlab yuriladigan kiyim*)li; **a ~ jacket** pelerinali jaket (*ayollar kiyimi*)
capelet [ˊkæpəlet] *n vet.* yag'ir (*otlarda*)
capeline [ˊkæpəlɪn] *n* 1) *kam.* kapor (*xotin-qizlar va bolalarning quloqchinli issiq qalpog'i*); 2) *tib.* boshga bog'lanadigan bog'ich (bint)
capellet [ˊkæpəlet] = **capelet**
caper [ˊkeɪpə] **1.** *n* sakrash, irg'ish; **2.** *v* sakramoq, irg'imoq
capercailye [ˌkæpəˊkeɪl(j)ɪ] *n zool.* karqur
capercailzie [ˌkæpəˊkeɪlzɪ] = **capercailye**
capernoited [ˌkæpəˊnɔɪtɪd] *a shotl.* 1) javraqi, vaysaqi, sergap, ezma; 2) tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl, serzarda; jizzaki, jirtaki
capernoitie [ˌkæpəˊnɔɪtɪ] *n shotl.* bosh, kalla
capes [keɪps] *n pl dial. q.x.* chori, to'pon
capful [ˊkæpful] *n* bir shapka to'la (*qandaydir*) narsa
capias [ˊkeɪpɪæs] *n bot. yur.* qamoqqa olish uchun order
capillaceous [ˌkæpɪˊleɪʃəs] *a maxs.* kapillar, juda ingichka, nozik
capillarity [ˌkæpɪˊlærɪtɪ] *n fiz.* kapillarlik (*suyuqlikning kapillar bo'ylab ko'tarilish, tushish xossasi*)
capillary [kəˊpɪlərɪ] **1.** *n* kapillar (*juda ingichka naycha; juda ingichka tomir, qil tomir*); 2) kapillarga oid
capita [ˊkæpɪtə] *n lot. pl* : **per ~** jon boshiga; har bir kishiga
capital [ˊkæpɪtl] **1.** *n* 1) poytaxt; 2) kapital, mablag'; **2.** *a* 1) bosh (*harf*); 2) oldindagi; 3) katta; 4) asosiy
capitalism [ˊkæpɪtəlɪz(ə)m] *n* kapitalizm
capitalist [ˊkæpɪt(ə)lɪst] **1.** *n* kapitalist (*sarmoya egasi, sarmoyador*); **2.** *a* kapitalistlik
capitalistic [ˌkæpɪtˊlɪstɪk] *a* kapitalistik
capitalization I [ˌkæpɪtlaɪˊzeɪʃ(ə)n] *n iqt.* kapitalga aylantirish, kapitalizatsiya
capitalization II [ˌkæpɪtlaɪˊzeɪʃ(ə)n] *n* katta (bosh) harflar bilan yozish; **rules of ~** katta (bosh) harflarni ishlatish qoidasi
capitalize [ˊkæpɪtlaɪz] *v* 1) sarmoyaga aylantirmoq; 2) bosh harflar bilan yozmoq *yoki* bosmoq
capitally [ˊkæpɪtlɪ] *adv* jiddiy, yaxshi, a'lo darajada
capitated [ˊkæpɪteɪtɪd] *a* bosh (kalla) shaklidagi
capitation [ˌkæpɪˊteɪʃ(ə)n] *n* jon boshiga hisoblash
Capitol [ˊkæpɪtl] *n tar.* 1) kapitoliy (*Rimdagi tepalik va ibodatxona*); 2) AQSHdagi kongress binosi
capitulate [kəˊpɪtjʊleɪt] *v* tan bermoq, taslim bo'lmoq
capitulation [kəˌpɪtjʊˊleɪʃ(ə)n] *n* tan berish, taslim bo'lish
caple [ˊkæp(ə)l] *n dial.* ot, yilqi
capon [ˊkeɪpən] *n* semirtirilgan axta xo'roz; 2) qo'rqoq, yuraksiz
caponier [ˌkæpəˊnɪə] *n harb.* kaponir (*qarama-qarshi ikki tomonga o'q otish uchun imkon beradigan mudofaa inshooti*)
caponize [ˊkeɪpənaɪz] *v q.x.* (*parrandani*) axtalamoq, bichmoq
caporal [ˌkæpəˊrɔ:l] *n fr.* (*noxorkaga o'xshagan*) tamaki
capote [kəˊpəʊt] *n* qaytarma qalpoqli plash
cap-peak [ˊkæppi:k] *n* soyabon (*bosh kiyimda*)
capped [kæpt] *a* shapkali, shapka kiygan
capper [ˊkæpə] *n* 1) konserva bankalarining qopqoqlarini berkitadigan mashina; 2) shapkado'z; telpakdo'z; 3) shapkafurush, telpakfurush
cappie [ˊkæpɪ] *n shotl.* 1) (*yog'ochdan yasalgan*) rumka, qadah; 2) pivoning bir turi
capping [ˊkæpɪŋ] *n* 1) *qur.* chaspak (*pol bilan devor oralig'idagi yoriqni berkitib turadigan uzun, ingichka taxta*); 2) *tog'.* kaptaj (*1. buloq suvi yoki neftni quvur ichiga olish; 2. shu maqsadda buloq boshiga yoki manba ustiga qurilgan inshoot*)
cappy [kæpɪ] *a kam.* 1) shapkaga (telpakka) oid; shapka (telpak)...; 2) shapkaga (telpakka) o'xshagan, shapka (telpak)simon
capreolate [ˊkæprɪəleɪt] *a bot. zool.* mo'ylovi bor

capric [ˈkæprɪk] *a kam.* 1) echkinikiga o'xshash, echkisimon; 2) yomon (yoqimsiz) hid chiqaradigan, yomon hidli (isli), echkining hidi keladigan

capricci [kəˈprɪtʃɪ] *pl of* **capriccio**

capriccio [kəˈprɪtʃɪəʊ] *n* (*pl* **-cci** [-ʃɪ]) *ital. mus.* kaprichchio, kaprichcho (*erkin uslubda yozilgan sho'x musiqa asari*)

caprice [kəˈpri:s] *n* 1) injiqlik, g'alati qiliq, tantiqlik; 2) o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish, beqarorlik, betayinlik, tayini (subuti) yo'qlik

capricious [kəˈprɪʃəs] *a* injiq, serxarxasha

caprifoil [ˈkæprɪfɔɪl] *n bot.* shilvi, uchqat (*buta o'simlik*)

caprine [ˈkæpr(a)ɪn] *a* echki terisidan qilingan

capriole [ˈkæprɪəʊl] *v* joyida sakramoq (*otlar to'g'risida*)

capsicum [ˈkæpsɪkəm] *n* qalampir, butun garmdori

capsize [kæpˈsaɪz] *v* ag'darilmoq, qulamoq (*qayiq, kema, g'ildirakli arava va b. haqida*)

capstan [ˈkæpstən] *n* kabestan (*portlarda, temir yo'llarda ishlatiladigan vertikal chig'ir*)

cap-stone [ˈkæpstəʊn] *n qur.* sirtni qoplash uchun ishlatiladigan tosh

capsular [ˈkæpsju:lə] *a* kapsulaga oid

capsule [ˈkæpsju:l] *n* kapsula (*1. tib. yutiladigan achchiq yoki taxir dorilarning eruvchan g'ilofi; 2. anat. turli organlarni yoki ularning ayrim qismlarini o'rab olgan parda-qobiq*)

captain [ˈkæptɪn] **1.** *n harb.* kapitan; **2.** *v* boshqarmoq

captaincy [ˈkæptɪnsɪ] *n* kapitanlik unvoni

captainship [ˈkæptɪnʃɪp] *n* kapitan unvoni

captation [kæpˈteɪʃ(ə)n] *n* xushomadgo'ylik, laganbardorlik, ayyorlik

caption [ˈkæpʃ(ə)n] *n amer.* sarlavha (*maqola, bob*)

captious [ˈkæpʃəs] *a* injiq

captivate [ˈkæptɪveɪt] *v* 1) o'ziga asir qilmoq; 2) maftun qilmoq

captivating [ˈkæptɪveɪtɪŋ] *a* maftun qiladigan, maftunkor

captivation [ˌkæptɪˈveɪʃ(ə)n] *n* dilbarlik, dilrabolik, joziba, sehr, yoqimtilik, jozibadorlik, o'ziga tortish, tarovat

captive [ˈkæptɪv] **1.** *a* asirga olingan; **2.** *n* asir

captive balloon [ˌkæptɪvbəˈlu:n] *n harb.* aerostat, bog'lanma

captivity [kæpˈtɪvɪtɪ] *n* asir, asirga olish

captor [ˈkæptə] *n* asirga oluvchi kishi

capture [ˈkæptʃə] **1.** *n* qo'lga tushirish; **2.** *v* asirga olmoq

captured [ˈkæptʃəd] *a* 1) bosib (egallab) olingan, ishg'ol (zabt, istilo) qilingan, qo'lga olingan; 2) *harb.* o'lja qilib olingan; ~ **equipment** o'lja qilib olingan mol-mulk

car [ˈkɑ:] *n* avtomobil, mashina

carabine [ˈkærəbɪn] *n harb.* karabin (*qisqa stvolli miltiq*)

carabineer [ˌkærəbɪˈnɪə] *n harb.* karabiner (*karabin bilan qurollangan askar*)

carabus [ˈkærəbəs] *n zool.* sassiq qo'ng'iz

caracal [ˈkærəkæl] *n zool.* 1) qoraquloq (*yirtqich sut emizuvchi hayvon*); 2) cho'l silovsini

caracol(e) [ˈkærəkəʊl] **1.** *n* 1) ot o'ynatib yurish, otni gijinglatish; otda javlon qilish; **2.** *v* ot o'ynatib yurmoq, otni gijinglatmoq; otda javlon qilmoq

caracul [ˈkærək(ə)l] *n* 1) qorako'l (*qo'zisidan jingalak yungli nav'yna olinadigan zotli qo'y navi*); qorako'l teri; 2) qorako'l qo'yi

carafe [kəˈræf] *n* grafin (*suv, vino va sh. k. solib qo'yiladigan, bo'g'zi tor idish*)

carambole [ˈkærəmbəʊl] *n* karambol (*1. bilyard o'yinida: bir shar bilan ikkinchi sharni urib, uchinchisiga tegizish; 2. sharni shu tarzda urib luzaga tushirish*)

caramel [ˈkærəmel] *n* karamel (*konfet*)

carapace [ˈkærəpeɪs] *n zool.* toshbaqa *yoki* qisqichbaqasimonlar qalqonchasi

carat [ˈkærət] *n* qirot (*asl toshlar o'lchovi, taxminan 0,2 grammga teng*)

caravan [ˈkærəvæn] *n* karvon

caravaneer [ˌkærəvəˈnɪə] *n* (tuyalar) karvoniga yo'l boshlovchilik (yetaklovchilik) qiluvchi kishi

caravansary, caravansera, caravanserai [ˌkærəˈvænsərɪ, -rə, -raɪ] *n* 1) karvonsaroy; 2) katta mehmonxona

caravel(le) [ˈkærəvel] *n tar.* karavella (*XV–XVII asrlardagi ispanlar kemasi*)

caraway [ˈkærəweɪ] *n bot.* zira (*o'simlik va uning doni*)

carbamide [ˈkɑ:bəmaɪd] *n kim.* mochevina, karbamid (*siydik tarkibida bo'ladigan kristall modda*)

carbanil [ˈkɑ:bənɪl] *n kim.* karbonil (*metallarning uglerod oksid bilan hosil qilgan kimyoviy birikmalari*)

carbarn [ˈkɑ:bɑ:n] *n amer.* tramvay parki

carbazole [ˈkɑ:bəzəʊl] *n kim.* karbazol (*rangsiz kristall*)

carbide [ˈkɑ:baɪd] *n kim.* karbid (*uglerodning metall bilan birikmasi, kristallangan qattiq modda*)

carbine [ˈkɑ:baɪn] *n* karabin (*qisqa stvolli miltiq*)

carbineer [ˌkɑ:bɪˈnɪə] *n harb.* karabin bilan qurollangan askar

carbo [ˈkɑ:bəʊ] *n farm.* pista ko'mir

carbofossils [ˌkɑ:bə(ʊ)ˈfɒs(ə)lz] *n pl geol.* yer tagidan qazib olinadigan ko'mir

carbo-hydrate [ˌkɑ:bə(ʊ)ˈhaɪdr(e)ɪt] *n kim.* uglevodlar, karbon suvlar

carbolic [kɑ:ˈbɒlɪk] **1.** *a* karbolkaga (*karbol kislotaga*) oid; **2.** *n so'zl.* karbol kislota

carbon [ˈkɑ:bən] *n kim.* uglerod, karbon (*kimyoviy element*)

carbonaceous [ˌkɑ:bəˈneɪʃəs] *a kim.* uglerodli, uglerod qo'shilgan (aralashtirilgan)

Carbonari [ˌkɑ:bəˈnɑ:rɪ] *n pl tar.* karbonariy (*XIX asr boshida chet elliklar hukmronligiga qarshi Italiya mustaqilligi uchun kurashgan yashirin tashkilot a'zosi*)

carbonate [ˈkɑ:bən(e)ɪt] *n kim.* karbonat angidrid turi

carbonated [ˈkɑ:bəneɪtɪd] *a* karbonat kislotasi bilan to'yintirilgan (to'yingan); ~ **water** gazli suv

carbonation [ˌkɑ:bəˈneɪʃ(ə)n] *n* karbonizatsiya (*suyuqlik yoki eritmalarni karbonat kislotasi (uglevod) oksidi bilan to'yintirish*)

carbonic [kɑ:ˈbɒnɪk] *a* ko'mirga oid

carboniferous [ˌkɑ:bəˈnɪf(ə)rəs] *a* tarkibida karbon *yoki* ko'miri bor bo'lgan

carbonization [ˌkɑ:bənaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n tex.* ko'mirga aylantirish

carbonize [ˈkɑ:bənaɪz] *v tex.* ko'mirga aylantirmoq

carbon-paper [ˈkɑ:bənˌpeɪpə] *n* nusxa ko'chirish qog'ozi, qora qog'oz

carbonyl [ˈkɑ:bənɪl] *n kim.* 1) karbonil; 2) uglevod oksidi; is gazi (*karbon oksidi*)

carborundum [ˌkɑ:bəˈrʌndəm] *n* karborund, kremniy karbidi

carboxyl [kɑ:ˈbɒksɪl] *n kim.* karboksil (*karbonil va gidroksil guruhlaridan iborat bir valentli atom guruhi*)

carboy [ˈkɑ:bɔɪ] *n* poxol chetan to'qib atrofi o'ralgan shisha (*kislota uchun*)

carbuncle [ˈkɑ:bʌŋk(ə)l] *n tib.* karbunkul, ho'ppoz, ko'k yara

carbuncled [ˈkɑ:bʌŋk(ə)ld] *a shoir.* qimmatbaho toshlar bilan jihozlangan

carburation [ˌkɑ:bjʊˈreɪʃ(ə)n] *n tex. kim.* karburatsiya (*dvigatellarda yonilg'i va havodan yonilg'i aralashmasining tayyorlanishi*)

carburet [ˈkɑ:bjʊret] *v kim.* karbon bilan biriktirmoq

carburetter [ˌkɑ:bjʊˈretə] *n tex.* karburator (*ichki yonuv dvigatellarida ish aralashmasi hosil qiladigan qurilma*)

carburettor [ˌkɑ:bə´retə] = **carburetter**

carburize [´kɑ:bjəraɪz] *v tex.* 1) sementlamoq, sement bilan qoplamoq, sement yotqizmoq; 2) sementatsiyalamoq (*po'lat yoki temirning sirtiga uglerod singdirib qattiq qilmoq*)

carcajou [´kɑ:kə(d)ʒu:] *n zool.* rosomaxa (*suvsarlar oilasiga mansub yirtqich hayvon va uning mo'ynasi*)

carcanet [´kɑ:kənet] *n esk.* shoda, marjon

carcase [´kɑ:kəs] *n* 1) murda, o'lik tana, jasad; o'lik; 2) so'yilgan hayvonning nimtalanmagan go'shti

carcass [´kɑ:kəs] = **carcase**

carcinology [ˌkɑ:sɪ´nɒlədʒɪ] *n* karsinologiya (*zoologiyaning qisqichbaqasimonlarni o'rganadigan bo'limi*)

carcinomatous [ˌkɑ:sɪ´nɒmətəs] *a tib.* rak (saraton) kasaliga oid; rak...

carcoon [kɑ:´ku:n] *n hind.* klerk (*ba'zi mamlakatlarda: yozuv-chizuv ishlarini olib boradigan kichik xizmatchi*)

card I [kɑ:d] *n* 1) (*o'ynaladigan*) qarta; 2) kartochka; 3) bilet

card II [kɑ:d] **1.** *n to'q.* taraydigan asbob; **2.** *v to'q.* taramoq, titmoq

cardamon [´kɑ:dəmən] *n bot.* kardamon (*zanjabildoshlarga mansub ko'p yillik o't*)

cardan [´kɑ:dən] *n* kardan (*avtomobilda va umuman, mashinalarda oshiq-moshiqsimon mexanizm*)

cardboard [´kɑ:dbɔ:d] *n* karton (*qalin qog'oz*)

card-catalogue [ˌkɑ:d´kætəlɒg] *n* 1) kartochkalar katalogi; 2) kartoteka (*biror soha bo'yicha ma'lumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yig'indisi*)

carder [´kɑ:də] *n to'q.* tituvchi, tarovchi

cardiac [´kɑ:dɪæk] **1.** *n* yurakning ish faoliyatini kuchaytiradigan doridarmon; **2.** *a anat.* yurakka oid

cardigan [´kɑ:dɪgən] *n* tugmali yoqasiz jun kofta

cardinal [´kɑ:d(ə)nəl] **1.** *n* asosiy; bosh; **2.** *a gram.* sanoq sonlar

cardinalated [´kɑ:d(ə)nə](e)ɪtɪd] *n cherk.* kardinal (*Rim papasidan keyingi eng yuqori ruhoniy*)lik unvoni

cardinal-bird [´kɑ:d(ə)nəlbə:d] *n zool.* kardinal (*Amerikada yashaydigan qizil qanotli sayroqi qush*)

cardinal-grosbeak [ˌkɑ:d(ə)nəl´grəusbi:k] = **cardinal-bird**

cardinally [´kɑ:d(ə)nəlɪ] *adv* 1) qat'iy (keskin)lik bilan; 2) tubdan, butunlay, batamom, tamoman, tamomila, boshdan-oyoq

cardinal number [ˌkɑ:d(ə)nəl´nʌmbə] *gram.* sanoq son

card-index [´kɑ:d,ɪndeks] *n* kartoteka (*biror soha bo'yicha ma'lumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yig'indisi*)

carding [´kɑ:dɪŋ] *n to'q.* tarash, titib-tarab tayyorlash

cardiograph [´kɑ:dɪəgrɑ:f] *n* elektrokardiograf (*elektrokardiografiya usulida ishlatiladigan tibbiyot asbobi*)

cardioid [´kɑ:dɪɔɪd] *n mat.* kardioida (*biror aylananing radiusi shu aylana radiusiga teng bo'lgan qo'zg'almas aylana sirti bo'ylab sirpanmay g'ildiraganda uning biror nuqtasi chizadigan egri chiziq*)

cardiology [ˌkɑ:dɪ´ɒlədʒɪ] *n tib.* kardiologiya (*tibbiyotning yurak va uning kasalliklari haqidagi bo'limi*)

cardiopathy [ˌkɑ:dɪ´ɒpəθɪ] *n tib.* yurak kasalligi

cardiovascular [ˌkɑ:dɪə(ʊ)´væskjʊlə] *a anat.* yurak-tomir(lar)ga oid; yurak-tomir...; **a ~ system** yurak-tomir sistemasi

carditis [kɑ:´daɪtɪs] *n tib.* kardit (*yurakning yallig'lanishi*)

card-sharp, card-sharper [´kɑ:dʃɑ:p, -ˌʃɑ:pə] *n* g'irrom, tirriq, qartavoz, muttaham, qallob

care [keə] **1.** *n* g'amxo'rlik, parvarish qilish; **medical ~** tibbiy yordam; **2.** *v* g'amxo'rlik (parvarish) qilmoq

careen [kə´ri:n] *v deng.* chayqalmoq

careenage [kə´ri:nɪdʒ] *n deng.* chayqalish

career [kə´rɪə] **1.** *n* erishilgan mavqe (shuhrat); kasb, mashg'ulot; **2.** *v* tez harakat qilmoq

careerist [kə´rɪ(ə)rɪst] *n* shuhratparast, amalparast

carefree [´keəfri:] *a* g'am-tashvishdan xoli, betashvish

careful [´keəf(ə)l] *a* 1) g'amxo'r; 2) ehtiyotkor

carefully [´keəf(ə)lɪ] *adv* ehtiyotkorlik (e'tibor) bilan

carefulness [´keəf(ə)lnəs] *n* diqqatlilik, e'tiborlilik, ehtiyotkorlik

careless [´keələs] *a* beparvo, e'tiborsiz

carelessly [´keələslɪ] *adv* e'tiborsizlik (diqqatsizlik) bilan

carelessness [´keələsnəs] *n* beparvolik, sovuqqonlik, e'tiborsizlik, pala-partishlik

caress [kə´res] **1.** *n* erkalash; **2.** *v* erkalamoq

caressing [kə´resɪŋ] *a* yoqimli, yoqimtoy, nozik, muloyim, yumshoq, xushmuomala, mehribon, mushfiq

caressingly [kə´resɪŋlɪ] *adv* nozik (muloyim, yumshoq, xushmuomala, mehribon)lik bilan

caressive [kə´resɪv] *a kam.* 1) nozik, muloyim, yumshoq, xushmuomala, mehribon, mushfiq; 2) yoqimli, dilbar; 3) nafis, mayin, latif

care-taker [´keə,teɪkə] *n* 1) nazoratchi, qorovul, farrosh; 2) uyga qarovchi kishi

care-worn [´keəwɔ:n] *a* g'am-tashvishdan ezilgan

carfare [´kɑ:feə] *n* tramvayning yo'l haqi

carfax [´kɑ:fæks] *n* chorraha

cargo [´kɑ:gəʊ] kema (samolyot) yuki

carhop [´kɑ:hɒp] *n amer.* avtomobildagilarga xizmat ko'rsatadigan restoran ofitsianti

Carib [´kærɪb] *n* 1) karib, karib ayoli; 2) karib tili

Caribal [´kærɪb(ə)l] *a* Karib yoki karib(lar)ga oid; kariblik(lar)...

Cariban [´kærɪbən] *a* kariblik(lar)... (*til haqida*)

Caribbean [ˌkærɪ´bi(:)ən] *a* Karib yoki kariblik(lar)ga oid; Karib...; kariblik(lar)...

caribou [´kærɪbu:] *n zool.* karibu (*Kanada bug'usi*)

caricature [´kærɪkətʃʊə] **1.** *n* hajviy asar, karikatura; **2.** *v* kulgili tasvirda ijro etmoq

caricaturist [´kærɪkətʃʊ(ə)rɪst] *n* karikaturachi, hajviy asarlar yozadigan yozuvchi

caries [´keə(ə)rɪz] *n tib.* 1) suyak chirish kasalligi, oqma; 2) karioz, kariyes (*tish yoki suyakning chirishi*)

carillon [´kærɪljən] *n fr.* qo'ng'iroqlami tanlab olish

cariosity [ˌkærɪ´ɒsɪtɪ] *n tib.* chirish jarayoni

carious [´keə(ə)rɪəs] *a tib.* chirigan suyak

cark [kɑ:k] **1.** *n esk.* tashvish, vahima, xavotir(lik); **2.** *v esk.* tashvishlanmoq, tinchsizlanmoq, xavotirlanmoq, vahimaga tushmoq

carl [kɑ:l] **1.** *n* 1) *esk.* oddiy xalqdan (ishchi, dehqon va kosibdan) chiqqan kishi, dehqon; 2) qishloqda o'sgan odam; 3) *shotl.* o'taketgan xasis (ziqna) odam, qurumsoq; 4) *shotl.* kuchli (baquvvat, azamat) yigit; **2.** *v dial.* 1) qo'pol (dag'al) muomala qilmoq, qo'pollik qilmoq, qo'rs gapirmoq; 2) bo'kirmoq (*odam haqida*); 3) *ko'ch.* to'ng'illamoq, vaysamoq

carline [´kɑ:lɪn] *n* 1) *shotl.* qari jodugar, qari alvasti; 2) jodugar xotin, yalmog'iz, alvasti

car-load [´kɑ:ləʊd] *n* bir vagonda joylanadigan bir to'da yuk to'pi

carloadings [´kɑ:ˌləʊdɪŋz] *n pl tem. y.* yuklash, yuk ortish

carlot [ˈkɑːlət] *n esk.* oddiy xalqdan (ishchi, dehqon va kosibdan) chiqqan kishi, qishloqda o'sgan sodda odam
carmagnole [ˈkɑːmənjəʊl] *n fr.* karmanola (*fransuz inqilobchilarining qo'shig'i*)
carman [ˈkɑːmən] *n* aravakash, yuk tashuvchi
Carmelite [ˈkɑːmɪlaɪt] *n* monax, rohib
carminative [kɑːˈmɪnətɪv] **1.** *a* ichakdan gaz haydovchi; yel chiqaradigan; **2.** *n* yel chiqaradigan dori
carmine [ˈkɑːm(a)ɪn] **1.** *n* och qizil rang; **2.** *a* och qizil rangdagi
carnage [ˈkɑːnɪdʒ] *n* qonli urush
carnal [ˈkɑːnl] *a* shahvoniy; his (tuyg'u) qo'zg'atadigan
carnality [kɑːˈnælɪtɪ] *n* his-tuyg'u, hissiyot, shahvat, shahvoniy nafs
carnalize [ˈkɑːnlaɪz] *v kit.* 1) buyuklikdan mahrum etmoq; 2) ruhini tushirmoq
carnallite [ˈkɑːnəl(a)ɪt] *n min.* karnallit (*xloridlar kichik sinfiga mansub mineral*)
carnation [kɑːˈneɪʃ(ə)n] **1.** *n bot.* chinnigul; **2.** *a* alvon, och qizil
carneous [ˈkɑːnɪəs] *a kit.* tanga (badanga, jismga) oid; jismoniy
carney [ˈkɑːnɪ] *v so'zl.* xushomadgo'ylik (laganbardorlik) qilmoq, yaltoqlanmoq, (kimgadir) xushomad qilmoq, tilyog'lamalik qilmoq
carnifex [ˈkɑːnɪfeks] *n tar.* 1) jallod; 2) *ko'ch.* jabr-zulm qiluvchi, ezuvchi, zolim
carnificial [ˌkɑːnɪˈfɪʃ(ə)l] *a tar.* 1) jallodga oid; jallod...; 2) *ko'ch.* nohaq, noto'g'ri, adolatsiz
carnival [ˈkɑːnɪv(ə)l] *n* karnaval
carnivore [ˈkɑːnɪvɔː] *n zool.* etxo'r, yirtqich hayvon
carnivorous [kɑːˈnɪv(ə)rəs] *a* etxo'r, yirtqich (*boshqa hayvonlarning go'shti bilan ovqatlanadigan*)
carnose [ˈkɑːnəʊs] = **carnous**
carnotite [ˈkɑːnət(a)ɪt] *n min.* karnotit (*vanadatlar kichik sinfiga mansub mineral*)
carnous [ˈkɑːnəs] *a kit.* 1) eti (go'shti) ko'p, sergo'sht; 2) semiz, to'la, go'shtdor, 3) eti qalin, sergo'sht
carny [ˈkɑːnɪ] = **carney**
caroche [kə ˈrəʊ(t)ʃ] *n tar.* bezatilgan (yasatilgan) kareta (*to'rt g'ildirakli yengil soyabon arava*)
caroler [ˈkærələ] *n kit.* kuylovchi, madh qiluvchi, tarannum etuvchi
carol [ˈkær(ə)l] **1.** *n* sho'x (quvnoq) qo'shiq; **2.** *v* quvnoq qo'shiq kuylamoq
Carolinian [ˌkærə ˈlɪnɪən] **1.** *n amer.* Janubiy va Shimoliy Karolinada yashovchi kishi; **2.** *a amer.* Janubiy va Shimoliy Karolinaga oid, Janubiy va Shimoliy Karolina...
carom [ˈkærəm] *n amer.* karambol (*1. bilyard o'yinida: bir shar bilan ikkinchi sharni urib, uchinchisiga tegizish; 2. sharni shu tarzda urib luzaga tushirish*)
carotid [kəˈrɒtɪd] *n anat.* uyqu arteriyasi
carousal [kəˈraʊz(ə)l] *n* 1) xonaki bazm, kichik ziyofat; 2) ichkilikbozlik, ichimlik bazmi
carouse [kəˈraʊz] *v* 1) bazmda bo'lmoq, ziyofatda ishtirok etmoq; 2) aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq
carousel [ˌkærəˈsel] = **carrousel**
carp [kɑːp] *n zool.* zog'orabaliq, sazan
carpal [ˈkɑːp(ə)l] *a anat.* panjaga oid
carpe diem [ˌkɑːpeɪˈdiːem] *lot.* fursatdan foydalanib qol, fursatni qo'ldan boy berma
carpel [ˈkɑːp(ə)l] *n bot.* urg'ochi, onalik
carpenter [ˈkɑːpɪntə] **1.** *n* duradgor; **2.** *v* duradgorlik qilmoq
carpenter-ant [ˌkɑːpɪntə,(r)ænt] *n* yog'och qurti
carpenter-bee [ˈkɑːpɪntəˌbiː] *n* tukli ari
carpentry [ˈkɑːpɪntrɪ] *n* duradgorlik ishlari
carper [ˈkɑːpə] *n* ayblayveradigan odam, aybsituvchi, tirnoq ostidan kir qidiruvchi odam
carpet [ˈkɑːpɪt] **1.** *n* gilam; **2.** *v* gilam solmoq
carpet-bag [ˈkɑːpɪtbæg] *n* sakvoyaj
carpet-bagger [ˈkɑːpɪtˌbægə] *n amer.* 1) siyosiy avanturist; 2) siyosiy firibgar
carpeting [ˈkɑːpɪtɪŋ] *n* 1) gilamga o'xshash gazmol; 2) gilamlarni yozib (to'shab) tashlash
carpet-knight [ˈkɑːpɪtnaɪt] *n* front orqasidagi askar
carpetless [ˈkɑːpɪtləs] *a* gilamsiz, gilam to'shalmagan
carpet-moth [ˈkɑːpɪtmɒθ] *n* gilam kuyasi
carpet-rod [ˈkɑːpɪtrɒd] *n* zinapoyaga gilamni bog'lash uchun ishlatiladigan metall sim chiviq
carpet-slippers [ˈkɑːpɪtˌslɪpəz] *n pl* uyda kiyiladigan issiq tufli
carpet-sweeper [ˈkɑːpɪtˌswiːpə] *n* gilam tozalash uchun ishlatiladigan cho'tka
carpi [ˈkɑːpaɪ] *n pl anat.* bilak
carping [ˈkɑːpɪŋ] *a* asossiz ayblayveradigan, tirnoq ostidan kir qidiradigan
carpology [kɑːˈpɒlədʒɪ] *n* karpologiya (*botanikaning meva va urug'larni o'rganadigan bo'limi*)
carport [ˈkɑːpɔːt] *n* avtomobillar uchun shiypon (soyabon)
carpus [ˈkɑːpəs] *a anat.* bilak
carr I [kɑː] *n dial.* qoya, tik qoya; osilib turgan qoyatosh
carr II [kɑː] *n dial.* 1) kichkina botqoq; 2) botqoq joy, botqoqlik
carrag(h)een [ˈkærəgiːn] *n* brilliant *yoki* dur (marvarid) moxi
carrefour [ˌkærə ˈfʊə. ˌkærə ˈfɔː] *n fr.* chorraha; chorsu (*ikki yo'lning kesishgan joyi*)
carrel(l) [ˈkærəl] *n* ilmiy ish yozish uchun ajratilgan xona (*kutubxona va b. da*)
carriage [ˈkærɪdʒ] *n* 1) fayton, yengil arava; 2) *tem. y.* vagon. 3) olib borish, yuk tashish; 4) yuk tashish narxi
carriageable [ˈkærɪdʒəb(ə)l] *a* 1) qulay; 2) transport vositasi qatnaydigan, yuradigan (*yo'l haqida*)
carriage-company [ˌkærɪdʒ ˈkʌmpənɪ] *n* saralangan jamiyat, jamiyatning sarasi
carriage-dog [ˈkærɪdʒdɒg] *n zool.* dalmat xol-xol iti
carriage-forward [ˌkærɪdʒ ˈfɔːwəd] *n* yetkazib berish haqi
carriage-free [ˌkærɪdʒˈfriː] *n* yetkazib berish haqi to'langan
carriage-way [ˈkærɪdʒweɪ] *n* yo'lning transport qatnaydigan qismi
carrier [ˈkærɪə] *n* 1) hammol, yuk tashuvchi; 2) transport agentligi; 3) *amer.* pochtachi; 4) yuk tashuvchi samolyot
carrier-dog [ˈkærɪədɒg] *n* yuk iti (*yuk tashish uchun xizmat qiladigan it*)
carrier-nation [ˈkærɪəˌneɪʃ(ə)n] *n* boshqa mamlakatlarga yuk (mol, tovar) tashish uchun o'zining flotini keng ishlatadigan davlat (mamlakat)
carrier-pigeon [ˈkærɪəˌpɪdʒɪn] *n* xat tashuvchi kabutar
carrier-plane [ˈkærɪəpleɪn] *n* yuk tashuvchi samolyot
carrier rocket [ˈkærɪəˌrɒkɪt] *n* eltuvchi raketa (*ko'p pog'onali raketaning yo'ldoshni kosmosga olib chiqadigan oxirgi pog'onasi*)
carriole [ˈkærɪəʊl] *n* Kanada chanasi
carrion [ˈkærɪən] **1.** *n* 1) o'limtik; 2) yeb bo'lmaydigan go'sht; **2.** *a* chirigan, sasigan
carrion-crow [ˈkærɪənkrəʊ] *n* qora qarg'a
carriwitchet [ˌkærɪ ˈwɪtʃɪt] *n shutl.* kalambur, so'z o'yini
carrot [ˈkærət] *n* sabzi
carroty [ˈkærətɪ] *a* malla (sariq) sochli
carrousel [ˌkærəˈsel] *n* karusel (*o't o'yini*)
carry [ˈkærɪ] **1.** *v* 1) eltmoq, olib bormoq; 2) ko'tarib bormoq; **to ~ away** olib (uchirib) ketmoq; **to ~ back**; o'tmishni eslatmoq; **to ~ forward** oldinga surmoq (*ishni*); **to ~ off** olib ketmoq; **to ~ on** davom ettirmoq; **to ~ out** oxiriga yetkazmoq,

amalga oshirmoq, bajarmoq; **to ~ over** tashimoq; **to ~ through** 1) oxiriga yetkazmoq; 2) yordam bermoq; **2.** *n* bir joydan boshqa joyga olib borish

carryall [ˈkærɪɔ:l] *n* katta sumka

carrying [ˈkærɪŋ] *n* olib borish, ko'tarib olib borish, eltish, tashish

carryings-on [ˌkærɪŋzˈɔn] *n pl xo'zl.* yomon fe'l-atvor

carrying-over [ˈkærɪŋˌəʊvə] *n she'r.* so'zni bo'lib, keyingi satrga ko'chirish

carry-over [ˈkærɪˈəʊvə] *n* keragidan ortiq narsa

carry-tale [ˈkærɪteɪl] *n esk.* g'iybatchi odam; gap tashuvchi

carsick [ˈkɑ:ˌsɪk] *a* transportda yurishni ko'tara olmaydigan

cart [kɑ:t] **f.** *n* to'rt g'ildirakli arava; **2.** *v* to'rt g'ildirakli aravada yurmoq

cartable [ˈkɑ:təb(ə)l] *a* transportbop, transportda tashishga qulay, transportda tashisa bo'ladigan

cartage [ˈkɑ:tɪdʒ] *n* (*biror narsani*) otarava bilan tashish

carte [kɑ:t] *n fr.* taomnoma

carte blanche [ˌkɑ:tˈblɑ:nʃ] *n fr.* to'ldirmay qo'l qo'yilgan toza blanka

cartel [kɑ:ˈtel] *n iqt.* 1) kartel (*ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarning monopolistik birlashmalari shakli*); 2) *dipl.* kartel (*urushuvchi tomonlar o'rtasida asirlar, xat-xabarlar va b. ni o'zaro almashish haqidagi bitim*)

carter [ˈkɑ:tə] *n* kirakash arava haydovchisi

Cartesian [kɑ:ˈti:ʒən] *a* kartezianchilik (*Rene Dekart va uning izdoshlari yaratgan falsafiy ta'limot*)ka oid

cartful [ˈkɑ:tful] *n* aravaga ortilgan yuk miqdori

Carthaginian [ˌkɑ:θəˈdʒɪnɪən] **f.** *a* Karfagen (*Shimoliy Afrikadagi qadimiy shahar*)ga va karfagenliklarga oid; **2.** *n* karfagenlik (*kishi*)

carthamus [ˈkɑ:θəməs] *n bot.* maxsar (*urug'idan moy, gulidan bo'yoq olinadigan to'pgulli bir yillik o'simlik*)

cart-head [ˈkɑ:thed] *n* aravaning old qismi

cart-horse [ˈkɑ:thɔ:s] *n* aravaga qo'shiladigan ot

cart-house [ˈkɑ:thaʊs] *n* aravalar turadigan shiypon

Carthusian [kɑ:ˈθju:ʒən] *n* kartezianchi (*rohib*)

cartilage [ˈkɑ:tɪ(ə)lɪdʒ] *n* kemirchak, tog'ay

cartilaginous [ˌkɑ:tɪˈlædʒ(ə)nəs] *a* kemirchakka (tog'ayga) oid

cart-load [ˈkɑ:tləʊd] *n* aravaga ortilgan yuk miqdori (yuk o'lchovi)

cart-man [ˈkɑ:tmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) aravakash, yuk tashuvchi, kirakash

cartogram [ˈkɑ:təgræm] *n* kartogramma (*biror hodisaga oid statistik ma'lumotlar aks ettirilgan xarita*)

cartographer [kɑ:ˈtɒgrəfə] *n* kartograf (*xaritalar tuzuvchi mutaxassis*)

cartographic(al) [ˌkɑ:təˈgræfɪk(əl)] *a* kartografik

cartography [kɑ:ˈtɒgrəfɪ] *n* kartografiya (*xaritalar chizish*)

cartomancy [ˈkɑ:təmænsɪ] *n* qarta bilan fol ochish

carton [ˈkɑ:tən] *n* (*katta*) karton quti

cartoon [kɑ:ˈtu:n] **1.** *n* 1) hajviy tasvir; 2) multfilm; **2.** *v* hajviy tasvir chizmoq

cartoonews [kɑ:ˈtu:nju:z] *n kino* multiplikatsion kinojurnal

cartoonist [kɑ:ˈtu:nɪst] *n* hajvnavis, karikaturachi

cartouche [kɑ:ˈtu:ʃ] *n fr.* kartush (*ustun yoki kitob titulida*)

cartridge [ˈkɑ:trɪdʒ] *n harb.* patron

cartridge-bag [ˈkɑ:trɪdʒbæg] *n harb.* o'q-dori qutisi, porox xaltachasi

catridge-base [ˈkɑ:trɪdʒbeɪs] *n harb.* gilzaning qalpoqchasi

cartridge-belt [ˈkɑ:trɪdʒbelt] *n* patron sumka

catridge-body [ˈkɑ:trɪdʒˈbɒdɪ] *n harb.* gilzaning qutichasi (qobig'i, tanasi)

cartridge-box [ˈkɑ:trɪdʒbɒks] *n* patron solinadigan quti

cartridge-case [ˈkɑ:trɪdʒkeɪs] *n* patron gilzasi

catridge-chamber [ˈkɑ:trɪdʒˌtʃeɪmbə] *n harb.* o'qdon (*miltiqning o'q solinadigan joyi*)

cartridge-clip [ˈkɑ:trɪdʒklɪp] *n* patron oboymasi (*oboyma – otish qurollarining o'q joylanadigan ramkasi*)

catridge-drum [ˈkɑ:trɪdʒdrʌm] *n harb.* disk (gardish) shaklidagi magazin

cartridge-paper [ˈkɑ:trɪdʒˌpeɪpə] *n* qalin qog'oz (*rasm chizish va patron gilzasi uchun*)

cartridge-pouch [ˈkɑ:trɪdʒpaʊtʃ] *n* patron sumkasi, o'qdon

cart-road [ˈkɑ:trəʊd] *n* qishloq yo'li, tuproq yo'l

cast's-tail, cart-tail [ˈkɑ:tsteɪl, ˈkɑ:tteɪl] *n* aravachaning orqa qismi

cart-track [ˈkɑ:ttræk] = **cart-road**

cartulary [ˈkɑ:tjʊl(ə)rɪ] *n* qayd daftari, kundalik daftar

cartune [kɑ:t ˈtju:n] *n kino.* musiqali kinomultiplikatsiya

cart-way [ˈkɑ:tweɪ] *n* 1) ot arava yuradigan yo'l; 2) qishloq yo'li; tuproq yo'l

cart-wheel [ˈkɑ:twi:l] *n* arava g'ildiragi

cart-whip [ˈkɑ:twɪp] *n* uzun qamchi

cart-wright [ˈkɑ:traɪt] *n* fayton (yengil arava) ustasi

caruncle [ˈkærəŋk(ə)l] *n* ortiqcha go'sht

carve [kɑ:v] *v* **(carved** [-d]; **carved, carven)** 1) o'yib naqsh solmoq (*daraxtga*); 2) o'ymoq

carvel [ˈkɑ:v(ə)l] *n tar.* karavella (*XV–XVII asrdagi Ispaniya kemasi*); yelkanli kema turi

carven [ˈkɑ:v(ə)n] *a shoir.* o'ymakor, o'yma naqshli, naqshinkor

carver [ˈkɑ:və] *n* o'ymakor usta

carving [ˈkɑ:vɪŋ] *n* 1) o'ymakorlik, naqqoshlik; 2) o'ymakorlik ishlari

carving-knife [ˈkɑ:vɪŋnaɪf] *n* go'sht kesadigan pichoq (*stol atrofida*)

car-wash [ˈkɑ:wɒʃ] *n* (*avtomobillarni*) yuvish

caryatid [ˌkærɪˈætɪd] *n me'mor.* kariatida (*binoning ayollar gavdasi shaklida ishlangan tayanch ustuni*)

casal [ˈkeɪs(ə)l] *a gram.* padejga (kelishikka) oid; padej (kelishik)...

cascabel [ˈkɑ:skəbel] *n* shaqildoq ilon (*tropik joylarda bo'ladigan zaharli ilon*)

cascade [kæˈskeɪd] **1.** *n* 1) kaskad, pog'onali sharshara, shovva; **2.** *v* yuqoridan oqib tushmoq; shovullab oqib tushmoq

case [keɪs] **1.** *n* 1) hodisa, voqea; 2) *yur.* sud ishi; 3) chamadon; 4) quti; 5) *gram.* kelishik; **2.** *v* qutiga joylashtirmoq

caseation [ˌkeɪsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* suzmaga aylantirish

casebook [ˈkeɪsbʊk] *n* bemorlar, mijozlar, keluvchilar va boshqalarni ro'yxatga olish uchun ishlatiladigan qayd daftari

cased [keɪst] *a* (*kitob haqida*) qattiq muqovali

case-ending [ˈkeɪsˌendɪŋ] *n gram.* kelishik qo'shimchasi

case-harden [ˈkeɪsˌhɑ:dn] *v tex.* (*po'latni*) sementlamoq

case-hardened [ˈkeɪsˌhɑ:dnd] *a tex.* chiniqtirilgan, toblangan

case-hardening [ˈkeɪsˌhɑ:dnɪŋ] *n* sementlash

case-history [ˌkeɪsˈhɪst(ə)rɪ] *n* kasallik tarixi (tafsiloti)

casein [ˈkeɪsi:ɪn] *n kim.* kazein (*sutda bo'ladigan oqsil modda*)

case-knife [ˈkeɪsnaɪf] *n* qindagi pichoq

case-law [ˈkeɪslɔ:] *n yur.* teng huquq

casemate [ˈkeɪsmeɪt] *n harb.* harbiy kemada zirhlangan xona, bo'lma; mudofaa istehkomi

casement [ˈkeɪsmənt] *n* deraza tavaqasi

casemented [ˈkeɪsməntɪd] *a* (*deraza haqida*) tavaqali

caseous [ˈkeɪsɪəs] *a* pishloqqa o'xshagan, pishloqsimon

case-record [ˌkeɪs ˈrekɔːd] *n* kasallik tarixi

casern(e) [kəˈzɜːn] *n fr.* kazarma, barak (*muvaqqat yog'och uy, kasalxonada yuqumli kasalliklar uchun alohida bino*)

case-shot [ˈkeɪsʃɒt] *n* yirik pitra, o'q, yadro

case work [ˈkeɪswɜːk] *amer.* sharoiti og'ir oilalarning hayot tarzlarini o'rganib, ularga yordam berish

case-worm [ˈkeɪswɜːm] *n zool.* g'umbak, g'undak; pilla

cash [kæʃ] **1.** *n* pul, mablag'; **2.** *v* chek orqali pul to'lamoq yoki olmoq

cashable [ˈkæʃəb(ə)l] *a* sotiladigan, pullanadigan

cash-book [ˈkæʃbʊk] *n* kassa daftari

cashier [kəˈʃɪə] **1.** *n* kassir, kassachi; 2. *v* xizmatdan (ishdan, vazifadan) bo'shatilmoq

cashmere [ˈkæʃmɪə] *n* 1) kashmiri (*yung gazlama*); 2) kashmiri sholro'moli

casing [ˈkeɪsɪŋ] *n* qoplama, jild

casing-paper [ˈkeɪsɪŋˌpeɪpə] *n maxs.* narsa o'raladigan qog'oz

casings [ˈkeɪsɪŋz] *n pl* ichak-chovoq (*kolbasa mahsulotlari uchun*)

casino [kəˈsiːnəʊ] *n* (*pl* **-os** [-oz]) qimor o'ynaladigan joy, qimorxona

cask [kɑːsk] **1.** *n* bochka, kichkina bochka; **2.** *v* 1) bochkaga quymoq; 2) bochkaga joylashtirmoq

casket [ˈkɑːskɪt] **1** *n* 1) quticha, ishquti, g'aladon; 2) *amer.* tobut; **2.** *v* 1) qutichaga yashirmoq; 2) *amer. evf.* go'rga tiqmoq

Caspian [ˈkæspɪən] *a* Kasbiy dengizga oid, Kaspiy dengizi...

casque [kæsk] *n tar.* temir qalpoq, dubulg'a

casquet [ˈkæskɪt] *n tar.* dubulg'asiz yengil shlem (*boshni urilish yoki zarbadan saqlovchi maxsus bosh kiyim*)

cassation [kæˈseɪʃ(ə)n] *n yur.* shikoyat (norozilik) arizasi

casse [kɑːs] *n* nuqsonli qog'oz

casserole [ˈkæs(ə)rəʊl] *n fr.* (*o'ta chidamli materialdan yasalgan*) kastrulka

cassette [kəˈset] *n* 1) quticha, ishquti, g'aladon; 2) *foto.* kasseta (fotoplyonka) joylanadigan, yorug'lik o'tkazmaydigan quticha; **a ~ spool** *foto.* kasseta katushkasi (g'altagi)

cassia [ˈkæsɪə] *n bot.* kassiya (*surgi dori sifatida ishlatiladigan dukkakli lar oilasiga mansub o'simlik doni va barglari*)

cassidony [ˈkæsɪdənɪ] *n bot.* lavanda (*havorang yoki binafsharang gulli, xushbo'y, doim yashil o'simlik*)

cassiterite [kəˈsɪtəraɪt] *n min.* kassiterit, qalaytosh (*oddiy oksidlar kenja sinfiga mansub mineral*)

cassock [ˈkæsək] *n* jubba (*pravoslav ruhoniylari kiyadigan keng yengli, uzun ustki kiyim*)

cassolette [ˌkæsəˈlet] *n* tutatqi solinadigan idish; isiriqdon

cassowary [ˈkæsəwe(ə)rɪ] *n zool.* kazuar (*tuyaqushning bir turi*)

cast [kɑːst] **1.** *n* irg'itish, tashlash, otish; **2.** *v* **(cast)** 1) irg'itmoq, tashlamoq, otmoq; 2) *yur.* zararlarni to'lashga hukm qilmoq; **to ~ about** yaxshilab o'ylab ko'rmoq; **to ~ away** yuz o'girmoq; **to ~ down** tashlab yubormoq (yiqitmoq); **to ~ out** haydab yubormoq; **to ~ up** otib chiqarmoq

castability [ˌkɑːstəˈbɪlɪtɪ] *n tex.* suyulib oqib ketish xususiyati

castaneous [kæsˈteɪnɪəs] *a kam.* kashtanrang, och jigarrang; qizg'ish; qo'ng'ir (*rang haqida*)

castanets [ˌkæstəˈnets] *n pl* qayroq

castaway [ˈkɑːstəweɪ] **1.** *n* kema halokatidan jabr ko'rgan kishi; **2.** *a* (begona qirg'oqqa) chiqarib tashlangan

caste [kɑːst] *n* tabaqa, toifa

castellan [ˈkæstrlən] *n esk.* kastelyan (*qasr yoki jamoat uyi nazoratchisi*)

castellated [ˈkæstɪleɪtɪd] *a* qasr shaklida qurilgan

castellation [ˌkæstɪˈleɪʃ(ə)n] *n* dandanali devorlar

castellet [ˈkæstəlɪt] *n* 1) kichkina qasr; 2) pomeshchikning uyi

caster [ˈkɑːstə] *n* 1) quyuvchi degrez; 2) g'ildirakcha (*mebel oyoqlarida*)

caste-ridden [ˈkɑːst,rɪdn] *a* tabaqaga (toifaga) oid; biror tabaqa uchun xos bo'lgan

castigate [ˈkæstɪgeɪt] *v* jazolamoq, jazo bermoq

castigation [ˌkæstɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* jazo

castigator [ˈkæstɪgeɪtə] *n* 1) fosh qiluvchi, aybni (kamchiliklarni, nuqsonlarni) ko'rsatuvchi, qoralovchi; 2) jazo otryadining a'zosi (yoki ishtirokchisi)

castigatory [ˈkæstɪgeɪt(ə)rɪ] *a* fosh qiladigan, aybni (kamchiliklarni, nuqsonlarni) ochadigan

castilian [kæˈstɪlɪən] *n tar.* 1) qasr (saroy)da yashovchi kishi, qasr (saroy) sohibi; 2) qasr (saroy)ni qurol bilan himoya qiluvchi kishi

casting [ˈkɑːstɪŋ] **1.** *n* tashlash, uloqtirish; irg'itish; **2.** *a* metall quyishga oid

casting-box [ˈkɑːstɪŋbɒks] *n metal.* opoka (*quymachilikda: qolip qutisi*)

casting-form [ˈkɑːstɪŋfɔːm] *n metal.* metal quyiladigan maxsus qolip, quyuv qolipi

casting-net [ˈkɑːstɪŋnet] *n* matrap, to'r (*baliq tutish uchun*)

casting-off [ˌkɑːstɪŋ ˈɒf] *n* 1) tashlash, otish, irg'itish, tashlab (otib, irg'itib) yuborish; 2) *tib.* qabul qilmaslik, o'ziga olmaslik

casting-voice [ˌkɑːstɪŋˈvɒɪs] *n* hal qiluvchi ovoz

casting-vote [ˌkɑːstɪŋˈvəʊt] = **casting-voice**

cast-iron I [ˌkɑːst ˈaɪən] *n* cho'yan; ~ **production** cho'yan ishlab chiqarish

cast iron II [ˌkɑːst ˈaɪən] *a* cho'yanga oid; cho'yandan qilingan; cho'yan...

castle [ˈkɑːs(ə)l] **1.** *n* qal'a, saroy; **2.** *v* 1) qasr (saroy)ga qamamoq (qamab qo'ymoq); 2) *shaxm.* rokirovka qilmoq (*shoh bilan rux o'rnini almashtirib yonma-yon qo'ymoq*)

castle-builder [ˈkɑːs(ə)lˌbɪldə] *n* xayolparast, orzu-xayollarga beriluvchi odam

castle-building [ˈkɑːs(ə)lˌbɪldɪŋ] *n* 1) xomxayol; puch xayol; 2) amalga oshmaydigan (ushalmaydigan) orzular; 3) xayolparastlikka berilish

castled [ˈkɑːs(ə)ld] *a* 1) tishli; 2) dandanali, kungurador

castle-guard [ˈkɑːs(ə)lgɑːd] *n tar.* qasr (saroy) soqchilari (posbonlari, qo'riqchilari)

castle-town [ˈkɑːs(ə)ltaʊn] *n shotl.* qasr (saroy) yonida joylashgan qishloq

castling [ˈkɑːslɪŋ] *n shaxm.* rokirovka, rokirovka qilish (*shoh bilan rux o'rnini almashtirib yonma-yon qo'yish*)

cast-off [ˈkɑːstɒf] **1.** *a* xo'rlangan (tahqirlangan) odam; **2.** *n* yaroqsiz, keraksiz, tashlandiq

castor [ˈkɑːstə] *n* 1) suv qunduzi mo'ynasi; 2) g'ildirakcha (*mebel oyoqlarida*)

castoreum [kæˈstɔːrɪəm] *n maxs.* suv qunduzi ipori (mushki)

castor oil [ˌkɑːstə(r)ɔɪl] *n* kanakunjut moyi

castor sugar [ˈkɑːstəˌʃugə] *n* qand kukuni

castrate [kæˈstreɪt] **1.** *n* axta qilingan (bichilgan) hayvon; **2.** *v* axta qilmoq, bichmoq

castration [kæˈstreɪʃ(ə)n] *n* axtalash, bichish

casual [ˈkæʒjʊəl] **1.** *a* tasodifiy; **2.** *n* vaqtinchalik ishchi

casualize [ˈkæʒʊəlaɪz] *v* doimiy bo'lmagan ishga o'tkazmoq

casually [ˈkæʒʊlɪ] *adv* 1) tasodifan, tasodifiy ravishda, bir tasodif bilan bo'lib, kutmaganda, bexosdan, bilmasdan, kutilmaganda, nogahon; 2) (piyoda) o'tib ketayotib, borayotib, yo'l-yo'la-

kay; ~ **list** (*urushda*) bedarak yo'qolganlar, o'lganlar va yarador bo'lganlarning ro'yxati; ~ **ward** kasalxonadagi baxtsiz hodisalardan jabrlanganlar uchun ajratilgan palata (*xona*)

casualty ['kæʒʊəltɪ] *n* 1) baxtsiz hodisa (falokat); 2) *harb.* yarador

casuarina [ˌkæʒjʊ(ə)'raɪnə] *n bot.* kazuarina (*kazuarinadoshlarga mansub butalar va daraxtlar turkumi*)

casuist ['kæʒʊɪst] *n* kazuist (*chigal, murakkab ishlarni ochishga usta mohir yurist*)

casuistic(al) [ˌkæʒʊ'ɪstɪk(əl)] *a* kazuistikaga oid; kazuistikaga asoslangan

casuistry ['kæʒʊɪstrɪ] *n* kazuistika (*qonunning umumiy moddalarini turli yuridik holatlarga tatbiq qilish*)

casus ['kɑ:səs] *n lot. yur.* kazus, chigal, (chalkash, murakkab) ish

cat [kæt] *n* mushuk; **tom** ~ erkak mushuk

catabolism [kə'tæbəlɪz(ə)m] *n fiziol.* katabolizm (*murakkab organik moddalar, shu jumladan, oziq-ovqatlarning tirik organizmda fermentlar ishtiroki bilan kechadigan parchalanish reaksiyalari majmuyi*)

catachresis [ˌkætə'kri:sɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) *stil.* so'zni (so'zlarni) noto'g'ri ishlatish

cataclasm ['kætəklæz(ə)m] *n kit.* 1) yiqitish, ag'darish, qulatish, buzib tashlash; 2) katta baxtsizlik, harakat, fojia; 3) halok (nobud) bo'lish, yo'q bo'lish

cataclasmic [ˌkætə'klæzmɪk] *a kit.* vayron qiladigan, yemiradigan, vayron qiluvchi, yemiruvchi; halokatli, halokatga olib boradigan

cataclysm ['kætəklɪz(ə)m] *n yur.* kataklizm (*tabiatda, ijtimoiy hayotda keskin o'zgarish, ag'dar-to'ntar, halokat, falokat*)

catacomb ['kætəku:m] *n* katakomba (*yer ostidagi aylanma chalkash yo'llar, g'orlar*)

catafalque ['kætəfælk] *n* katafalk (*dafn marosimida tobut qo'yiladigan arava yoki mashina*)

catalepsy ['kætəlepsɪ] *n* katalepsiya (*asabiy yoki ruhiy kasallik, qattiq hayajon yoki gipnoz natijasida taxta bo'lib qotib qolish*)

cataleptic [ˌkætə'leptɪk] *a tib.* katalepsiyaga oid, kataleptik

catalog ['kætəlɔg] *n* = **catalogue**

catalogue ['kætəlɔg] **1.** *n* katalog (*kitob, surat, eksponat va sh. k. narsalarning ma'lum tartibi tuzilgan ro'yxati*); **2.** *v* katalog tuzmoq, katalogga kiritmoq

cataloguer ['kætəlɔgə] *n* katalog tuzuvchi

catalogue raisonne ['kætəˌlɔgre(ɪ)zə'neɪ] *n fr.* qisqacha tushuntirish berilgan sistemali katalog

cataloguize ['kætəlɔgaɪz] *v* katalog tuzmoq, katalogga kiritmoq

catalysis [kə'tælɪsɪs] *n kim.* kataliz (*katalizator tufayli kimyoviy reaksiyaning tezlashuvi yoki sekinlashuvi*)

catalyst ['kæt(ə)lɪst] *n kim.* katalizator (*kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi modda*)

catalytic [ˌkætə'lɪtɪk] *a kim.* katalizga oid, katalitik; kataliz...

catalyzator ['kætəl(a)ɪzeɪtə]= **catalyst**

catamaran [ˌkætəmə'ræn] *n deng.* katamaran (*umumiy paluba bilan birlashtirilgan ikki korpusli kema*)

catamount ['kætəmaʊnt] *n zool.* 1) Yevropa yovvoyi mushugi; 2) Shimoliy Amerika silovsini

cat-and-mouse [ˌkætənd'maʊs] *n* mushuk-sichqon o'yini (*bir-birini quvlab o'ynaladigan bolalar o'yini*)

cataphoresis [ˌkætəfə'ri:sɪs] *n maxs.* kataforez (*organizmga o'zgarmas tok va shifobaxsh moddalar bilan ta'sir etib davolash usuli*)

cataphract ['kætəfrækt] *n tar.* sovut

cataplasm ['kætəplæz(ə)m] *n* priporka (*og'rigan joyga suyuq dori yoki issiq suvga ho'llangan bint bog'lash bilan davolash*)

cataplexy ['kætəpleksɪ] *n tib.* kataplekssiya (*ruhiy (ichki) kechinma yoki qattiq kulgi natijasida holsizlanib qolish*)

catapult ['kætəpʌlt] **1.** *n* manjaniq (*qadimiy tosh otish quroli*); **2.** *v* katapult bilan otmoq

cataract ['kætərækt] *n* 1) katta sharshara; 2) kuchli yomg'ir; 3) katarakta (*ko'z kasalligi*)

cataracted ['kætəræktɪd] *a* 1) ko'p ostonali, serostona, ostonasi ko'p (*daryo haqida*); 2) *tib.* kataraktali (*ko'z haqida*)

cataractous [ˌkætə'ræktəs] *a tib.* kataraktali, xira tortishgan (*ko'z gavhariga oid*)

catarrh [kə'tɑ:] *n* 1) katar (*shilliq pardalarning yallig'lanishi*); 2) shamollash

catarrhal [kə'tɑ:r(ə)l] *a tib.* katarga, shilliq pardalarning yallig'lanishiga oid

catastrophe [kə'tæstrəfɪ] *n* halokat, katta baxtsizlik, falokat

catastrophic [ˌkætə'strɔfɪk] *a* halokatga olib boradigan, halokatli

catastrophism [kə'tæstrəfɪz(ə)m] *n maxs.* katastrofizm (*katastrofalar nazariyasi – metafizik ta'limot*)

catatonia, catatony [ˌkætə'təʊnə, kə'tætənɪ] *n tib.* qo'zg'almaydiganlik, qimirlamaydiganlik, harakat qilmaydiganlik, harakatsizlik, qo'zg'almaslik

Catawba [kə'tɔ:bə] *n amer.* 1) *bot.* katoba (*uzum navi*); 2) katoba (*vino markasi*)

catbird ['kæt,bɜ:d] *n zool. amer.* qorayaloq

catcall ['kætkɔ:l] **1.** *n* 1) hushtak chalish; hushtak ovozi; 2) hushtak; **2.** *v* hushtak chalmoq

catch [kætʃ] **1.** *v* **(caught)** ushlamoq; tutmoq; **2.** *n* ushlash, tutib (ilib) olish; **to ~ at** nimadandir xursand bo'lmoq; **to ~ away** sudrab ketmoq; **to ~ off** *amer. jarg.* uyquga ketmoq; **to ~ on** tushunmoq; **to ~ up** yerdan ko'tarmoq

catch-basin ['kætʃˌbeɪs(ə)n] *n* yomg'ir suvi oqib ketadigan joydagi panjara

catch-crops ['kætʃkrɔps] *q.x.* ikki qator oralig'idagi ekinlar

catcher ['kætʃə] *n tex.* 1) cheklovchi asbob, cheklagich; 2) tutqich (*biror narsani tutib qoladigan, tutib oladigan apparat*); 3) *fiz.* o'chirgich, so'ndirgich

catching ['kætʃɪŋ] *a* yuqumli, yuqadigan

catch letters ['kætʃˌletəz] *poligr.* kolontitul (*har betning ustki hoshiyasiga bosilgan yozuv, muallif va asar nomi: lug'atlarda shu betdagi birinchi va oxirgi so'z va sh. k.*)

catchment ['kætʃmənt] *n tex.* drenaj (*yerning zaxini qochirish*)

catchment-area ['kætʃmənt,e(ə)rɪə] *n* suv to'plash joyi

catchment-basin ['kætʃmənt,beɪs(ə)n] *n* daryoning havzasi, sun'iy ko'l

catchpenny ['kætʃˌpenɪ] *a* xaridorlarni jalb qilishga mo'ljallangan, ammo arzon va sifati past

catch-phrase ['kætʃfreɪz] *n* ommalashgan ibora

catchpoll ['kætʃpəʊl] *n* sud ijrochisi

catch-style ['kætʃˌstaɪl] *n sport.* erkin kurash

catchup ['kætʃəp] = **ketchup**

catchword ['kætʃwɜ:d] *n* rasm bo'lgan so'z

catchwork irrigation ['kætʃwɜ:k,ɪrɪ'geɪʃ(ə)n] suv oldini to'sib (bo'g'ib) sug'orish

catchy ['kætʃɪ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador

catechetical [ˌkætɪ'ketɪk(ə)l] *a* 1) savol-javob shaklidagi, savol-javob shakliga ega bo'lgan, savol-javob tarzidagi (*o'qitish haqida*); 2) *cherk.* katexizis (*diniy aqidalarning savol-javob tarzidagi qisqacha bayoni*)

catechetics [ˌkætɪ'ketɪks] *n pl* 1) savol-javob usulida dars o'tish metodikasi; 2) *cherk.* ilohiyot (*teologiya*)ning katexizisga bag'ishlangan bo'limi

catechism [ˈkætɪˌkɪz(ə)m] *n* 1) *cherk.* katexizis (*diniy aqidalarning savol-javob tarzidagi qisqacha bayoni*); 2) so'roq, so'roq qilish
catechist [ˈkætəkɪst] *n* 1) *cherk.* din muallimi (*revolutsiyadan ilgarigi Rossiya maktablarida*); 2) darslarni savol-javob usulida olib boradigan (o'tadigan) o'qituvchi
catechistic, catechistical [ˈkætəˌkɪstɪk, -(ə)l] *a* 1) *cherk.* katexizisga oid, katexizis; 2) savol-javob shaklida, savol-javob tarzidagi
catechize [ˈkætɪkaɪz] *v* savol-javob tarzida bayon (hikoya) qilmoq
catechu [ˈkætətʃu:] *n* teri oshlash ekstrakti (*ekstrakt — kimyoviy yo'l bilan organik to'qimalardan olingan modda*)
catechumen [ˌkætəˈkju:mɪn] *n* endigina kirishgan, endigina boshlangan, yosh
categoric [ˌkætɪˈgɒrɪk] = **categorical**
categorical [ˌkætɪ ˈgɒrɪk(ə)l] *a* shakshubhasiz, muqarrar, qat'iy, aniq
categorically [ˌkætəˈgɒrɪk(ə)lɪ] *a* qat'iy, uzil-kesil, keskin, so'zsiz
categoricalness [ˌkætəˈgɒrɪk(ə)lnəs] *n* qat'iylik, uzil-kesillik, keskinlik, dadillik
categorize [ˈkætɪgəraɪz] *v* toifa (daraja, kategoriya)ga qarab bo'lmoq
category [ˈkætɪg(ə)rɪ] *n* kategoriya, daraja, toifa
catena [kəˈti:nə] *n* (*pl* **-nae** [-naɪ]) zanjir, bog'lanish
catenae [kəˈti:naɪ] *pl of* **catena**
catenarian [ˌkætɪˈne(ə)rɪən] *n* zanjirga oid
catenary [ˈkætən(ə)rɪ] *n mat.* zanjir chiziq
catenate [ˈkætəneɪt] *v* 1) ulamoq; 2) zanjir hosil qilmoq
catenation [ˌkætəˈneɪʃ(ə)n] *n mat. kim.* zanjir hosil qilish
cater [ˈkeɪtə] *v* oziq-ovqat yetkazib bermoq
cateran [ˈkætərən] *n* 1) qaroqchi, bosqinchi, yo'lto'sar; 2) dengiz qaroqchisi; 3) *shotl.* tog'li joyda yashovchi bosqinchi
cater-cornered [ˌkeɪtəˈkɔ:nəd] *a kam.* diagonal yo'nalishdagi, diagonal orqali o'tgan; diagonal...
cater-cousin [ˈkeɪtəˌkʌz(ə)n] *n* uzoq qarindosh
caterer [ˈkeɪtərə] *n* oziq-ovqat bilan ta'minlovchi, oziq-ovqat yetkazib beruvchi
catering [ˈkeɪt(ə)rɪŋ] *n* umumiy ovqatlanish
caterpillar [ˈkætəˌpɪlə] *n zool.* kapalak qurti
caterwaul [ˈkætəwɔ:l] **1.** *n* mushuklarning miyov-miyovi (miyovlashi); **2.** *v* mushukka o'xshab miyovlamoq
cates [keɪts] *n pl esk. shoir.* taomlar, ovqatlar; noz-ne'matlar; tansiq taomlar
cat-footed [ˈkætˌfʊtɪd] *a* 1) eshitilmasdan kiradigan; 2) mushukka o'xshab bekinib keladigan yoki boradigan; mushukka o'xshab bildirmay (sezdirmay, oyoq uchida yurib) keladigan yoki boradigan
catgut [ˈkætgʌt] *n jarg.* ketgut (*jarrohlikda ishlatiladigan ichakdan eshilgan ip*); ichakdan qilingan tor
catharize [ˈkæθəraɪz] *v* (*oshqozonni*) tozalamoq
catharses [kəˈθɑ:sɪz] *pl of* **catharsis**
catharsis [kəˈθɑ:sɪs] *n* (*pl* **-ses** [-sɪz]) *tib.* oshqozonni tozalash; surgi bilan davolash
cathartic [kəˈθɑ:tɪk] **1.** *n* surgi dori; **2.** *a* ich suradigan, ichni bo'shashtiradigan
Cathay [kæˈθeɪ] *n so'zl. shoir.* Xitoy
cathedra [kəˈθi:drə] *n cherk.* 1) kafedra (*cherkovda: yepiskop minbari*); 2) kafedra (*bosh cherkov yepiskopi mansabi*)
cathedral [kəˈθi:drəl] **1.** *n* 1) katta butxona, bosh cherkov; **2.** *a* bosh butxonaga oid
Catherine-wheel [ˈkæθ(ə)rɪnwi:l] *n* alangali g'ildirak (*mushakbozlik*)
Cathern [ˈkæθɜ:n] *n* Avliyo Yekaterina bayrami
catheter [ˈkæθətə] *n tib.* kateter (*qovuqni bo'shatish yoki unga dori yuborish uchun ishlatiladigan naycha*)
catheterize [ˈkæθətəraɪz] *v tib.* dori yuborib, qovuqni bo'shatmoq
catheti [ˈkæθɪtaɪ] *pl of* **cathetus**
cathetometer [ˌkæθɪˈtɒmɪtə] *n tex.* katetometr (*bitta vertikal to'g'ri chiziqda yotmaydigan ikkita nuqta orasidagi masofani o'lchaydigan asbob*)
cathetus [ˈkæθɪtəs] *n* (*pl* **-ti** [-taɪ]) *mat.* perpendikular; tik chiziq
cathodal [kəˈθəʊd(ə)l] *a fiz.* katodga oid; katod...
cathode [ˈkæθəʊd] *n fiz.* katod (*manfiy elektrod*)
cat-hole [ˈkæthəʊl] *n* mushuk o'ta oladigan teshik, tuynuk (*eshikda*)
catholic [ˈkæθ(ə)lɪk] *a* katoliklarga oid
catholically [kəˈθɒlɪk(ə)lɪ] *adv* keng ravishda, keng ko'lamda, har taraflama (tomonlama, yoqlama)
catholicate [kəˈθɒlɪk(e)ɪt] *n cherk.* katolikos (*arman va gruzin cherkovi bosh ruhoniysi*)ning martabasi (mansabi, unvoni)
Catholicism [kəˈθɒlɪsɪz(ə)m] *n* katoliklik, katoliklik mazhabi
catholicity [ˌkæθəˈlɪsətɪ] *n* katoliklar mazhabi
catholicize [kəˈθɒlɪsaɪz] *v* katolik mazhabiga kiritmoq
catholicly [kəˈθɒlɪk(ə)lɪ] = **catholically**
catholicon [kəˈθɒlɪkən] *n* panatseya (*alkimyogarlar tomonidan go'yo har qanday kasalga davo deb qaralgan dori*)
Catholicos [kəˈθɒlɪkəs] *n cherk.* katolikos (*arman va gruzin cherkovining bosh ruhoniysi*)
catholyte [ˈkæθəlaɪt] *n kim.* katolit (*katod suyuqligi*)
cat-ice [ˈkætˌaɪs] *n* yupqa muz
cation [ˈkætaɪən] *n kim.* kation (*musbat zaryadli ion*)
catkin [ˈkætkɪn] *n bot.* bargak, kuchala (*daraxtlarda*)
cat-lap [ˈkætlæp] *n so'zl.* spirtsiz ichimliklar
cat-like [ˈkætlaɪk] *a* mushukka o'xshash (o'xshagan); mushukka oid
catling [ˈkætlɪŋ] *n tib. jarg.* kesish (amputatsiya) pichog'i
cat-mint [ˈkætmɪnt] *n bot.* cho'l yalpizi
catnap [ˈkætnæp] **1.** *n* qush uyqu (*o'tirgan joyda*); **2.** *v* mizg'ib olmoq
catnip [ˈkætnɪp] *amer n bot.* cho'l yalpizi
cat-o'mountain [ˌkætəˈmaʊntɪn] *n* Yevropa yovvoyi mushugi
cat-o'-nine-tails [ˌkætəˈnaɪnteɪlz] *n* charm darra, o'rma qamchi
catoptromancy [kəˈtɒprəmænsɪ] *n* oynaga qarab fol ochish
catoptric [kəˈtɒptrɪk] *a fiz. esk.* qaytaradigan, qaytaruvchi
cat-skinner [ˈkætˌskɪnə] *n jarg. kasb.* traktorchi, traktor haydovchisi
cat-sleep [ˈkætsli:p] *n* qush uyqu (*o'tirgan joyda*)
cat's-meat [ˈkætsmi:t] *n* mushuk uchun sotib olinadigan ot go'shti
cat's-paw [ˈkætspɔ:] *n* birovning qo'lida o'yinchoq (qurol) bo'lish
cat's-tail [ˈkætsˌteɪl] *n* 1) *bot.* lux, qo'g'a (*suv bo'yida o'sadigan bir xil baland o't*); 2) gorjetka (*tashlama mo'yna yoqa*)
cat's-trail grass [ˈkætsteɪlˌgrɑ:s] *bot.* ajriqbosh, qoraqiyoq
catsup [ˈkætsəp] = **ketchup**
cattily [ˈkætɪlɪ] *adv* qasddan, jo'rttaga
cattish [ˈkætɪʃ] *a* 1) mushukka oid; 2) makkor; 3) yovuz
cattle [ˈkætl] *n* (*sigir, ho'kiz kabi*) qoramol; chorva
cattle-dealer [ˈkætlˌdi:lə] *n* mollarni semirtirib sotuvchi, molfurush
cattle-feeder [ˈkætlˌfi:də] *n* mollarga avtomatik ravishda ozuqa tarqatuvchi mashina

cattle-grid [ˈkætlgrɪd] *n* mollarni molxonadan yo'lga chiqish uchun monelik (*qarshilik*) qiladigan moslama
cattle-grub [ˈkætlgrʌb] *n* buqa so'nasi
cattle-leader [ˈkætl,li:də] *n* mollar burnidan o'tkaziladigan halqa
cattle-lifter [ˈkætl,lɪftə] *n* mol o'g'risi
cattle-lifting [ˈkætl,lɪftɪŋ] *n* mollarni haydab olib borish (ketish)
cattleman [ˈkætlmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) podachi, cho'pon
cattle-post [ˈkætl,pəʊst] = **cattle-run**
cattle-ranch [ˈkætl,rɑ:ntʃ] *n* 1) chorvachilik fermasi; 2) chorvachilik xo'jaligi
cattle-run [ˈkætlrʌn] *n q.x.* katta yaylov (o'tloq)
cattle-rustler [ˈkætl,rʌslə] *n amer.* mol o'g'risi
cattle-show [ˈkætl,ʃəʊ] *n* shoxli mol ko'rgazmasi
cattle-station [ˈkætl,steɪʃ(ə)n] = **cattle-run**
catty [ˈkætɪ] *n* katti (*Xitoy va Hindistonda 604,82 gr. ga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi*)
cat-walk [ˈkætwɔ:k] *n* qurilish ishlarini bajarayotganda bir joydan boshqa joyga olib ishlatiladigan taxtasupa
cat-whiskers [ˌkætˈwɪskəz] *n radio.* kontakt prujinasi
cat-witted [ˈkæt,wɪtɪd] *a* 1) past, pastkash, nazari past; maydagap; 2) kaltabin, kaltafahm; uzoqqa aqli yetmaydigan; uzoqni ko'rmaydigan
Caucasian [kɔ:ˈkeɪʒ(j)ən] 1. *a* Kavkazga (*va kavkazliklarga*) oid; 2. *n* kavkazlik
caucus [ˈkɔ:kəs] *n amer.* partiyaning saylovoldi kengashi
caudal [ˈkɔ:dl] *a anat.* dumdagi, orqadagi
caudate [ˈkɔ:deɪt] *a anat.* dumli, quyruqli
caudiform [ˈkɔ:dɪfɔ:m] *a maxs.* dumga o'xshagan, dumsimon, dum shaklidagi
caudillo [kɔ:ˈdi:ljəʊ] *n isp.* 1) boshchi, boshliq, sarkor; 2) yetaklovchi, yetaklab (boshlab) boruvchi, yo'l ko'rsatuvchi; 3) yo'lboshchi, rahbar
caudle [ˈkɔ:dl] *n* kasallar uchun issiq xushta'm ichimlik
caught [kɔ:t] *past. p. p. of* **catch**
cauk [kɔ:k] *n dial.* 1) bo'r, oq bo'r; 2) ohaktosh (*ohakli tog' jinsi*); 3) *min.* barit (*rangsiz, ba'zi turlari rangli mineral*)
caul [kɔ:l] *n anat.* qorindagi bolaning suv qobig'i, pardasi
cauldron [ˈkɔ:ldrən] *n* qozon, doshqozon
caules [ˈkɔ:li:z] *pl of* **caulis**
caulescent [kɔ:ˈles(ə)nt] *a bot.* poyadan chiqqan, poyali, poyasi bor
caulicole [ˈkɔ:lɪkəʊl] *n pl me'mor.* (*ustun qoshida*) poyachalar
cauliflower [ˈkɒlɪ,flaʊə] *n bot.* gulkaram
cauline [ˈkɔ:laɪn] *a bot.* 1) poya shaklidagi, poyasimon; 2) poyaga oid; poyali, poya...
caulis [ˈkɔ:lɪs] *n* (*pl* **-les** [-li:z]) *bot.* o't (alaf) poyasi
caulk [kɔ:k] *v* biror narsa bilan teshik-tirqishlarni bekitmoq
caulker [ˈkɔ:kə] *n* teshik-tirqishlarni berkituvchi usta
causa [ˈkɔ:zə] *n* (*pl* **-sae** [-zi:]) *lot. kit.* sabab, bois; ~ **causans** bosh (birinchi) sabab, asosiy sabab
causae [ˈkaʊzi:] *pl of* **causa**
causal [ˈkɔ:z(ə)l] *a* 1) *fals.* sabab bilan bo'ladigan; 2) *gram.* sabab...
causal fungus [ˈkɔ:z(ə)lˈfʌŋgəs] *maxs.* kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'
causality [kɔ:ˈzælɪtɪ] *n filos.* sababiyat
causation [kɔ:ˈzeɪʃ(ə)n] *n* sabab bo'lish
causative [ˈkɔ:zətɪv] *a* sabab bilan bo'ladigan
causativity [ˌkɔ:zəˈtɪvɪtɪ] *n kit.* sababiyat
cause [kɔ:z] 1. *n* sabab; 2. *v* sabab bo'lmoq
causeless [ˈkɔ:zləs] *a* sababsiz
cause-list [ˈkɔ:z,lɪst] *n yur.* sudda ko'riladigan ishlar ro'yxati
causer [ˈkɔ:zə] *n* aybdor, gunohkor
causerie [ˈkəʊz(ə)rɪ] *n fr.* 1) bekorchi gap, safsata; 2) felyeton (*badiiy publitsistik gazeta-jurnal janri; asosiy xususiyati — tasvirlanayotgan voqeahodisa, shaxsga kuchli tanqidiy munosabatda bo'lish*); 3) suhbat tarzidagi maqola
causeuse [ˈkəʊˈzɜ:z] *n fr.* kozetka (*ikki kishi o'tiradigan divan*)
causeway [ˈkɔ:zweɪ] *n* 1) to'shama yo'l (*tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l*); 2) yo'lak; 3) to'g'on, g'ov
causey [ˈkɔ:zɪ] = **causeway**
caustic [ˈkɔ:stɪk] 1. *n* achchiq (o'tkir, o'yuvchi) modda; 2. *a kim.* o'tkir, o'yuvchi
caustically [ˈkɔ:stɪk(ə)lɪ] *adv* alam qiladigan qilib, zaharli (achchiq) qilib, achitib, kesatib, istehzo bilan, istehzoli (qattiq botadigan, uzib oladigan) qilib
causticity [ˌkɔ:ˈstɪsɪtɪ] *n* achchiqlik (*gap, so'z, kinoya va sh. k. haqida*), 2) zaharxandalik; achchiq kinoya (piching, istehzo)
cauter [ˈkɔ:tə] *n* kuydiradigan dori (*mas., yod va b.*), vosita
cauterant [ˈkɔ:tərənt] *n tib.* kuydiradigan modda
cauterization [ˌkɔ:tərəɪˈzeɪʃ(ə)n] *n tib.* kuydirish
cauterize [ˈkɔ:təraɪz] *v tib.* kuydirmoq
cautery [ˈkɔ:tərɪ] *n tib.* kuydirish
caution [ˈkɔ:ʃ(ə)n] 1. *n* 1) ehtiyotkorlik; 2) uzoqni ko'rishlik; 2. *v* ogohlantirib qo'ymoq
cautionary [ˈkɔ:ʃən(ə)rɪ] *a* ogohlantiruvchi, oldini oluvchi, tanbeh beruvchi
caution board [ˈkɔ:ʃ(ə)nbɔ:d] *n* xavf-xatar to'g'risida xabar beruvchi (*ogohlantiruvchi*) yozuv
cautioner [ˈkɔ:ʃ(ə)nə] *n shotl. yur.* kafil, kafil bo'lgan kishi
cautious [ˈkɔ:ʃəs] *a* ehtiyotkorlik bilan qilingan
cautiously [ˈkɔ:ʃəslɪ] *adv* avaylab, ehtiyot qilib, ehtiyotkorona
cavalcade [ˌkæv(ə)lˈkeɪd] *n* kavalkada (*sayr qilib yurgan bir to'da otliq; otda birgalashib sayr qilish*)
cavalier [ˌkævəˈlɪə] 1. *n* otliq, chavandoz; 2. *a* tortinib o'tirmaydigan (*takallufni bilmaydigan*)
cavaliere [ˌkɑ:vɑ:ˈljeə(ə)rə] *n ital.* kavaler yigit (*ayol bilan raqs tushuvchi yoki uning vaqtini chog' qilib o'tiruvchi kishi*)
cavalry [ˈkæv(ə)lrɪ] *n harb.* otliq qo'shin (askarlar), kavaleriya
cavalryman [ˈkæv(ə)lrɪmən] *n harb.* (*pl* **-men** [-mən]) otliq askar
cavatina [ˌkævəˈti:nə] *n mus.* (*operada kichik lirik ariya*) kavatina
cave I [keɪv] 1. *n* g'or; 2. *v* teshmoq, o'ymoq
cave II [keɪv] *n* oldini olish, ogohlantirish
caveat [ˈkeɪvɪæt] *n* tanbeh, ogohlantirish, oldini olish
cave-dweller [ˈkeɪv,dwelə] *n* g'orlarda yashovchi ibtidoiy odam
cave-in [ˈkeɪvˈɪn] *n maxs.* 1) qulatish, ag'darish, o'pirib yuborish; 2) qulash (qulatish, ag'darish, ag'darilish, o'pirilish) natijasida hosil bo'lgan chuqur
cave-man [ˈkeɪvmæn] = **cave dweller**
cavendish [ˈkæv(ə)ndɪʃ] *n* taxta (tosh-taxta shaklida qilingan) tamaki
cavern [ˈkævɜ:n] *n* g'or
cavernous [ˈkævənəs] *a* g'orga boy (serob) bo'lgan
cavernulous [kəˈvɜ:njʊləs] *a maxs.* g'alvirak, teshik-teshik, g'ovak, serkovak; ilma-teshik
caviar (e) [ˈkævɪɑ:] *n* ikra (*uvildiriqdan tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti*)
cavie [ˈkeɪvɪ] *n shotl.* tovuqxona, tovuq katagi
cavil [ˈkæv(ə)l] 1. *n* tirnoq ostidan kir qidirish; 2. *v* birovni asossiz ayblamoq
caviller [ˈkæv(ə)lə] *n* tirnoq ostidan kir izlaydigan odam
cavin [ˈkævɪn] *n top.* 1) pastlik, past joy 2) havza, tovoqsoy (*gir atrofi baland tepalar, tog'lar bilan o'ralgan tovoq-*

simon chuqur yer); 3) soy, jar, jarlik, chuqurlik

caving [ˈkeɪvɪŋ] *n maxs.* 1) o'pirilish (qulash, yemirilish, ko'chki) natijasida paydo bo'lgan kovak (joy); 2) qulash, ag'darilish, qulab tushish (*tog' jinslari haqida*)

cavings [ˈkeɪvɪŋz] *n pl* chori, to'pon

cavitation [ˌkævɪˈteɪʃ(ə)n] *n tib.* (biror ichki organizmdagi) kovak, illatning hosil bo'lishi

cavity [ˈkævɪtɪ] *n* 1) chuqurcha, chuqur; 2) biror narsaning ichidagi bo'shliq

cavort [kəˈvɔ:t] *v so'zl.* sakramoq, irg'imoq

cavy [ˈkeɪvɪ] *n zool.* dengiz cho'chqasi (*kemiruvchilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon*)

caw [kɔ:] **1.** *n* qag'illash, qag'-qag' qilish; **2.** *v* qag'illamoq (*qarg'a, quzg'un kabi qushlar haqida*)

cawk I [kɔ:k] = **cauk**

cawk II [kɔ:k] **1.** *n* 1) qag'illash; qag'-qag' qilish; 2) qushlarning qichqirishi, qichqirig'i; **2** *v* 1) qag'illamoq (*qarg'a, quzg'un kabi qushlar haqida*); 2) qichqirmoq (*qushlar haqida*)

cay [keɪ] *n* marjon qoyalari

cayenne [keɪˈen] *n* qizil qalampir

cayman [ˈkeɪmən] *n zool.* kayman (*Markaziy va Janubiy Amerikada yashovchi timsohlarning bir turi*)

cazique [kəˈzi:k] = **cacique**

cease [si:s] **1.** *v* to'xtatmoq; **2.** *n* to'xtatish

cease-fire [ˈsi:sfaɪə] *n harb.* o't ochishni to'xtatish

ceaseless [ˈsi:sləs] *a* uzluksiz, to'xtamaydigan

cecils [ˈsesɪz] *n pl* go'shtli frikadelka (*sho'rvada pishiriladigan yumaloq qiyma*)

cecity [ˈsi:sɪtɪ] *n* ko'rlik, so'qirlik

cecum [ˈsi:kəm] = **caecum**

cedar [ˈsi:də] *n bot.* kedr (*ignabargli doim yashil yirik daraxt*)

cedar-bird [ˈsi:dəbə:d] *n zool.* sviristel (*chumchuqsimonlar turkumidan bo'lgan o'rmon qushi*)

cedarn [ˈsi:dən] *a shoir.* kedr (*ignabargli doim yashil yirik daraxt*)ga oid; kedr...

cedar pine [ˈsi:dənpaɪn] *bot.* kedr qarag'ayi

cede [si:d] *v* (*maydonni*) topshirmoq

cedilla [sɪˈdɪlə] *n* sedil (*orfografik belgi*)

cedrat(e) [ˈsi:drɪt] *n bot.* sitron (*rutadoshlarga mansub doim yashil sitrus daraxti*)

cedrine [ˈsi:dr(a)ɪn] *a kam.* kedr (*ignabargli doim yashil yirik daraxt*)ga oid, kedr...

cee [si:] *n* „C" ingliz harfining nomi

ceil [si:l] *v* 1) qoplamoq; 2) suvoq qilmoq, suvamoq

ceiling [ˈsi:lɪŋ] *n* shift

ceilometer [si:ˈlɔmɪtə] *n meteor.* bulutlar balandligi ko'rsatkichi

celadon [ˈseləd(ɔ)n] *n* kulrang-ko'kimtir rang *yoki* dengiz to'lqinining rangi

celandine [ˈseləndaɪn] *n bot.* qoncho'p (*xalq tibbiyotida: ba'zi teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik*)

celation [sɪˈleɪʃ(ə)n] *n kit.* (*asos. homilador bo'lish va tug'ishni*) bekitish, yashirish

celebrant [ˈselɪbrənt] *n* cherkov ibodatini o'tayotgan (qilayotgan) ruhoniy (pop. kashish)

celebrate [ˈselɪbreɪt] *v* bayram qilmoq, nishonlamoq

celebrated [ˈselɪbreɪtɪd] *a* mashhur, atoqli

celebration [ˌselɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* bayram qilish; bayram tantanasi

celebrity [sɪˈlebrɪtɪ] *n* 1) mashhurlik; 2) taniqli odam

celerity [sɪˈlerɪtɪ] *n* tezlik, chaqqonlik

celery [ˈselərɪ] *n bot.* selderey (*kashnichsimon oshko'k*)

celesta [sɪˈlestə] *n mus.* chelesta (*qo'ng'iroqchalar kabi nozik jaranglaydigan musiqa asbobi*)

celestial [sɪˈlestɪəl] *a* 1) osmonga (ko'kka) oid, osmondagi, ko'kdagi; 2) astronomik; **a ~ map** osmon yulduzlarining xaritasi

celestite [ˈselɪst(a)ɪt] *n min.* selestin (*sulfatlar sinfiga mansub mineral*)

celiac [ˈsi:lɪæk] = **coeliac**

celibacy [ˈselɪbəsɪ] *n* nikohsizlik, uylanmaslik (*yoki* erga tegmaslik) haqidagi ahd

celibatarian [ˌselɪbəˈte(ə)rɪən] **1.** *a* nikohdan o'tmagan, nikohsiz, nikohlanmagan; **2.** *n* uylanmagan kishi, bo'ydoq

celibate [ˈselɪbɪt] **1.** *n* 1) uylanmagan kishi, bo'ydoq; 2) uylanmaslik ahdini bergan odam, turmushga chiqmaslik ahdini bergan qiz; **2.** *a* 1) uylanmagan, bo'ydoq; 2) uylanmaslikka (turmushga chiqmaslikka) ahd qilgan

cell [sel] **1.** *n* 1) qamoqxonadagi xona; 2) katak; 3) *biol.* hujayra; **2.** *v* 1) katakka joylashtirmoq, qamamoq; 2) qamoqda yotmoq

cellar [ˈselə] **1.** *n* yerto'la; **2.** *v* vino saqlanadigan yerto'lada saqlamoq

cellarage [ˈselərɪdʒ] *n* 1) yerto'la; 2) yerto'lada saqlash

cellarer [ˈselərə] *n* kelar (*monastir mutasaddisi*)

cellaret(te) [ˌselə'ret] *n* safar qutisi (*oziq-ovqat, idish-tovoq solib yuriladigan quticha*)

cellated [ˈseleɪtɪd] *a* teshik-teshik, serg'ovak, teshikli, g'ovak; ko'z-ko'z; ko'zli

cellblock [ˈselblɔk] *n* qamoqxona binosi

celled [seld] *a* qamoqxonaga qamab qo'yilgan

cellist [ˈtʃelɪst] *n* violonchelchi, violonchel chaluvchi

cello [ˈtʃeləʊ] *n* violonchel (*skripkasimon katta musiqa asbobi*)

celloid [ˈseləɪd] *a* hujayrasimon, hujayraga o'xshagan, hujayra shaklidagi

celloist [ˈtʃelə(ʊ)ɪst] = **cellist**

cellophane [ˈseləfeɪn] *n* sellofan (*sellulozadan tayyorlangan material*)

cellular [ˈseljʊlə] *a* hujayraga oid

cellulate [ˈseljʊleɪt] *a* 1) hujayralardan tarkib topgan; 2) teshik-teshik, serg'ovak

cellule [ˈselju:l] *n biol.* hujayra

celluloid [ˈseljʊlɔɪd] *n* selluloid (*sellulozadan tayyorlangan qattiq plastik material*)

cellulose [ˈseljʊləʊs] *n* selluloza (*yog'ochdan, o'simlikdan olinib, qog'oz, sun'iy ipak, portlovchi narsalar tayyorlash uchun ishlatiladigan modda*)

Celsius [ˈselsɪəs] *n* selsiy termometri, selsiy termometrining shkalasi

Celt [kelt] *n* keltlar (*G'arbiy Yevropada yashagan qabilalar*)

celt [selt] *n arxeol.* toshdan *yoki* bronzadan yasalgan uskuna

Celtic [ˈkeltɪk] **1.** *a* keltlarga oid; **2.** *n* kelt tili

Celticism [ˈkeltɪsɪz(ə)m] *n* 1) keltlar (*G'arbiy Yevropada yashagan qabilalar*)ning rasmi (odati, udumi, urf-odati, taomili); 2) keltlar iborasi (gapi)

celtium [ˈselʃɪəm] *n kim.* gafniy (*kimyoviy element*)

celtuce [ˈseltəs] *n* selderey (*kashnichsimon oshko'k*) bilan salatning chatishmasi (aralashmasi)

cembalo [ˈtʃembələʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) simbal (*changsimon cholg'u asbobi*)

cement [sɪˈment] **1.** *n* sement; **2.** *v* (*qum va shag'al aralashtirib*) sement quymoq

cementation [ˌsi:menˈteɪʃ(ə)n] *n* sement quyish, sementlash

cementite [sɪˈment(a)ɪt] *n* sementit, temir karbidi

cemeterial [ˌsemɪˈtɪ(ə)rɪəl] *a* qabristonga oid; qabristondagi; qabriston...

cemetery [ˈsemɪtrɪ] *n* qabriston, go'riston, mozor

cenacle [ˈsenək(ə)l] *n tar.* bazm o'tkaziladigan zal
cenobite [ˈsi:nə(ʊ)baɪt] = **coenobite**
cenoby [ˈsi:nə(ʊ)bɪ] = **coenoby**
cenotaph [ˈsenətɑ:f] *n* qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik (sag'ana, maqbara); 2) noma'lum askarga qo'yilgan yodgorlik
Cenozoic [ˌsi:nə(ʊ)ˈzəʊɪk] *a geol.* kaynozoy erasiga oid; **a ~ era** kaynozoy erasi (*Yerning geologik tarixida eng yangi era*)
cense [sens] *v cherk.* ladan tutatmoq, ladan solmoq
censer [ˈsensə] *n* ladandon (*ibodat vaqtida ladan tutatadigan idish*)
censor [ˈsensə] **1.** *n* nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qiluvchi shaxs; **2.** *v* ko'rib chiqmoq
censorial [senˈsɔ:rɪəl] *a* senzorga oid, senzor
censorious [senˈsɔ:rɪəs] *a* talabchan, qat'iy talab qiladigan
censoriously [senˈsɔ:rɪəslɪ] *adv* 1) tanqid ko'zi bilan, tanqidiy ravishda; 2) yopishib, aybsitib, tirnoq ostidan kir qidirgan holda; injiqlik bilan
censoriousness [senˈsɔ:rɪəsnəs] *n* asossiz ayblayverishlik, aybsitishlik, injiqlik; tirnoq ostidan kir izlash
censorship [ˈsensəʃɪp] *n* nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan material yoki asarlarni nazorat qilish
censurable [ˈsenʃərəb(ə)l] *a* tanbeh berishga arziydigan
censure [ˈsenʃə] **1.** *n* tanbeh (*berish*); **2.** *v* tanbeh bermoq
censurer [ˈsenʃərə] *n* 1) tanqidchi, tanqid qiluvchi, kamchiliklarni fosh qiluvchi odam; 2) yomonlovchi, qoralovchi, g'iybat qiluvchi
census [ˈsensəs] *n* ro'yxat qilish, ro'yxatga olish; **population ~** aholini ro'yxatga olish
census-paper [ˈsensəsˌpeɪpə] *n* ro'yxatga olish vaqtida to'ldiriladigan blank
cent [sent] *n* sent (*dollar, gulden, rupiyning 0,01 qismi*)
centaur [ˈsentɔ:] *n afs.* kentavr (*yunon afsonalarida: yarmi odam, yarmi ot maxluq*)
Centaurus [senˈtɔ:rəs] *n ast.* Kentavr (yulduzlar turkumi)
centaury [ˈsentɔ:rɪ] *n bot.* bo'tako'z
centenarian [ˌsentɪˈne(ə)rɪən] *a* yuz yillik
centenary [senˈti:n(ə)rɪ] *n* 1) yuz yillik vaqt (muddat); 2) yuz yillik yubiley (marosim); 3) yuz yillik yubileyni (marosimni) nishonlaydigan kun
centennial [senˈtenɪəl] *a* 1) yuz yillik, yuz yashar; 2) yuz yilda bir marta bo'ladigan
centennium [senˈtenɪəm] *n kit.* yuz yillik vaqt (muddat); yuz yil, asr
center [ˈsentə] *n amer.* = **centre**
centering [ˈsentərɪŋ] *n tex.* markazlashtirish (markazda joylashtirish)
centesimal [senˈtesɪm(ə)l] *a* 1) yuzinchi, yuzinchi raqamli; 2) yuz qismga bo'lingan; 3) yuz so'mlik, yuz kishilik
centigrade [ˈsentɪgreɪd] *a* 1) yuz darajali; 2) yuz darajaga bo'lingan
centigram(me) [ˈsentɪgræm] *n* santigramm (*yuzdan bir gramm*)
centime [ˈsɒnti:m] *n fr.* santim (*frankning 0,01 qismi*)
centimeter [ˈsentɪˌmi:tə] *amer.* = **centimetre**
centimetre [ˈsentɪˌmi:tə] *n* santimetr (*metrning yuzdan bir qismi*)
centipede [ˈsentɪpi:d] *n zool.* mingoyoq
centner [ˈsentnə] *n* sentner (*metrik o'lchov tizimida 100 kilogrammga teng og'irlik o'lchovi birligi*)
cento [ˈsentəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) kompilatsiya, quramachilik (*boshqalarning ishlaridan ulab-qurab asar yozish*); 2) boshi-keti yo'q tartibsizlik, chigallik, chalkashlik; aralash-quralashlik
centra [ˈsentrə] *pl of* **centrum**
central [ˈsentrəl] **1.** *a* asosiy, bosh, markaziy; **2.** *n amer.* markaziy telefon stansiyasi
centralism [ˈsentrəlɪz(ə)m] *n* 1) sentralizm (*markazlashtirilgan idora usuli*); 2) markazlashtirish
centralist [ˈsentrəlɪst] *n* sentralist; markazlashtirish tarafdori bo'lgan kishi
centrality [senˈtrælɪtɪ] *n* 1) markaziy holat, markazdagi vaziyat; 2) bir joyga to'planganlik, bir narsaga qaratilganlik (berilganlik); **the ~ of purpose** aniq bir maqsadga qaratilganlik (yo'naltirilganlik, mo'ljallanganlik)
centralisation [ˌsentrəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] = **centralization**
centralise [ˈsentrəlaɪz] = **centralize**
centralization [ˌsentrəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* markazlashtirish
centralize [ˈsentrəlaɪz] *v* markazlashtirmoq
centralized [ˈsentrəlaɪzd] *a* markazlashgan
centrally [ˈsentrəlɪ] *adv* markazda, markazdan turib; **~ situated** markazda (shaharning markazida) joylashgan; **~ guided** shaharning markazidan turib boshqariladigan; **a ~ directed system** markazlash(tiril)gan sistema; **~ mixed concrete** zavodda tayyorlangan beton
centre [ˈsentə] **1.** *n amer.* **center**; 1) markaz; 2) *sport.* markaziy o'yinchi (*hujumchi, himoyachi va b.*); **2.** *attr.* markaziy, markazdagi; **3.** *v* markazda (markazga) joylashtirmoq
centre-board [ˈsentəbɔ:d] *n deng.* tushirib-ko'tarib qo'yiladigan (tushirib-ko'tariladigan) kil (*kemaning tubini mahkam tutib turuvchi uzunasiga joylashgan asosiy balkasi, pushtagi*)
centreing [ˈsent(ə)rɪŋ] *n* markazlashtirish, markazga joylashtirish
centreless [ˈsentələs] *a tex.* 1) markazsiz; 2) markazi ko'rsatilmagan
centremost [ˈsentəməʊst] *a kam.* eng markaz(i)da joylashgan; hammasiga qaraganda markazda joylashgan
centre-piece [ˈsentəpi:s] *n* stol o'rtasidagi naqshinkor guldon
centric [ˈsentrɪk] *a kit.* 1) markazda joylashgan, markazdagi, markaziy; 2) markazga oid; markazga daxldor (taalluqli; aloqador) bo'lgan; 3) *fiziol.* asab markaziga oid
centrical [ˈsentrɪk(ə)l] = **centric**
centricity [senˈtrɪsɪtɪ] *n kit.* 1) markaziylik, markazda joylashganlik; 2) markazdagi holat (sharoit, ahvol)
centrifugal [ˌsentrɪˈfju:g(ə)l] *a* markazdan qochma *yoki* qochirma
centrifugation [ˌsentrɪfjʊˈgeɪʃ(ə)n] *n maxs.* sentrifugalash (*markazdan qochirma kuch ta'sirida qorishmani mexanik ravishda ajratish*)
centrifuge [ˈsentrɪfju:dʒ] *n* sentrifuga (*markazdan qochirma kuch ta'sirida qorishmani mexanik ravishda ajratuvchi asbob*)
centring [ˈsent(ə)rɪŋ] = **centering**
centripetal [senˈtrɪpɪtl] *a* markazga intiladigan
centripence [senˈtrɪpɪtəns] *n* markazga intilish; markazga harakat qilish
centrogenous [senˈtrɒdʒɪnəs] *a fiziol.* bir markazdan boradigan
centroid [ˈsentrɔɪd] *n fiz.* og'irlik markazi
centron [ˈsentron] *n fiziol.* neyron (*asab hujayrasi*)
centrum [ˈsentrəm] *n* (*pl shun.*, **centra** [ˈsentrə]) *maxs.* 1) markaz, o'rta, o'rta joy; 2) *geol.* (yer qimirlash) markazi
centuple [ˈsentjʊp(ə)l] **1.** *a* yuz marta kattalashtirilgan (ko'paytirilgan); **2.** *v* yuzga ko'paytirmoq
centuplicate [senˈtju:plɪkɪt] *n* yuz nusxa
centrial [senˈtjʊ(ə)rtəl] *a kit.* 1) yuz yillik, yuz yil davom etadigan, yuz yil mobaynidagi; 2) yuz yil yashagan, yuzga kirgan, yuz yoshlik, yuz yashar; 3) yuz yilda bir marta bo'ladigan
century [ˈsentʃərɪ] *n* yuz yillik; asr

century plant [ˈsentʃərɪ ˈplɑ:nt] *n bot.* aloy, sabur (*o'simlik*)
cephalalgia [ˌsefəˈlældʒɪə] *n tib.* bosh og'rig'i
cephalalgic [ˌsefəˈlældʒɪk] *n tib.* bosh og'riqqa qarshi dori, bosh og'riq dorisi
cephalic [sɪˈfælɪk] *a anat.* boshga (miyaga) oid
cephalitis [ˌsefəˈlaɪtɪs] *n tib.* ensefalit (*bosh miyaning yallig'lanishi*)
cephalized [ˈsefəlaɪzd] *a biol.* boshli, boshi bor, boshga ega bo'lgan
cephalometer [ˌsefəˈlɒmɪtə] *n maxs.* boshni o'lchaydigan asbob
cephalometry [ˌsefəˈlɒmɪtrɪ] *n maxs.* boshni o'lchash
cephalopoda [ˌsefəˈlɒpədə] *n pl zool.* bosh-oyoqlilar
cephalotomy [ˌsefəˈlɒtəmɪ] *tib.* bosh suyagini ochish; kraniotomiya
ceraceous [sɪˈreɪʃəs] *a* mumga o'xshagan, mumsimon, mum shaklidagi
cerago [sɪˈreɪgəʊ] *n asal.* asalari ovqati (*asalarilarning uyasiga gul changlaridan to'plagan, asal bilan aralashtirilgan ovqatlari*)
ceral [ˈsɪ(ə)rəl] *a* mumga oid; mumdan qilingan; mumli; mum...
ceramic [sɪˈræmɪk] *a* kulolchilikka oid
ceramics [sɪˈræmɪks] *n* 1) kulolchilik; 2) kulolchilik buyumlari
ceramist [sɪˈræmɪst] *n* kulol
cerastes [sɪˈræsti:z] *n zool.* qora ilon
ceratoid [ˈserətɔɪd] *a* 1) shox (muguz)ga o'xshagan, shox (muguz)simon, shox (muguz) shaklidagi; 2) shox (muguz)ga oid; shox (muguz)...; 3) shoxdan (muguzdan) qilingan
cere [sɪə] *v esk.* (o'likni) kafanga o'ramoq
cereal [ˈsɪ(ə)rɪəl] **1.** *n* boshoqli g'alla o'simligi; **2.** *a* g'allaga (donga) oid
cerebella [ˌserɪˈbelə] *pl of* **cerebellum**
cerebellar [ˌserɪˈbelə] *a anat.* kichik miyaga oid; kichik miya...
cerebellum [ˌserɪˈbeləm] *n anat.* kichik miya
cerebra [ˈserɪbrə] *pl of* **cerebrum**
cerebral [ˈserɪbrəl] *a anat.* miyaga oid
cerebrate [ˈserɪbreɪt] *v* o'ylamoq, fikr qilmoq, mulohaza qilmoq, fikr yuritmoq
cerebration [ˌserɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* miyaning faoliyati
cerebric [ˈserɪbrɪk] *a maxs.* miyaga oid; miya...
cerebrifugal [ˌserɪˈbrɪfjʊgəl] *a fiziol.* miyadan periferiya (*organizmning tashqi qismi*)ga boruvchi
cerebripetal [ˌserɪˈbrɪpɪtl] *a fiziol.* miyaga boruvchi
cerebrology [ˌserɪˈbrɒlədʒɪ] *n* bosh miyani o'rganadigan fan
cerebropathy [ˌserɪˈbrɒpəθɪ] *n tib.* bosh miyaning kasallanishi
cerebro-spinal [ˌserɪbrə(ʊ)ˈspaɪnl] *a anat. tib.* orqa miyaga oid; orqa miya...; ~ **axis** bosh va orqa miya; ~ **fluid** orqa miya suyuqligi
cerebrum [ˈserɪbrəm] *n anat.* bosh miya
cerecloth [ˈsɪəklɒθ] = **cerement**
cerement [ˈsɪəmənt] *n* kafan
ceremonial [ˌserɪˈməʊnɪəl] **1.** *a* rasmiy; **2.** *n* marosim
ceremonious [ˌserɪˈməʊnɪəs] *a* rasmiy tantanaga (tantanali marosimga) oid
ceremony [ˈserɪmənɪ] *n* marosim, rasm-rusum, udum
cereous [ˈsɪ(ə)rɪəs] *a maxs.* mumdan qilingan; mumli, mum...; mumlangan, mum surtilgan, mum surtib yaltiratilgan
cererite [ˈsɪ(ə)raɪt] = **cerite**
cererium [ˈsɪ(ə)rɪəm] = **cerium**
cerise [səˈri:z] *a* och qizil
cerite [ˈsɪ(ə)raɪt] *n min.* serit
cerium [ˈsɪ(ə)rɪəm] *n kim.* seriy (*kimyoviy element*)
cermet [ˈsɜ:mɪt] *n tex.* metall buyumlari
cernuous [ˈsɜ:njʊəs] *a kit.* egilgan, bukilgan, egilib (bukilib) qolgan (*gullar haqida*)
cerography [sɪˈrɒgrəfɪ] *n san.* kserografiya (*elektrofotografiyaning bir turi*)
ceromancy [ˈsɪ(ə)rəmænsɪ] *n* erigan mumga qarab fol ochish
ceromel [ˈsɪ(ə)rəmel] *n* mum va asaldan tayyorlangan malham dori (maz)
ceroplastics [ˌsɪ(ə)rə(ʊ)ˈplæstɪks] *n pl* mumdan narsalar yasash
certain [ˈsɜ:tn] *a* aniq, ma'lum, muqarrar
certainly [ˈsɜ:tnlɪ] *adv* albatta, turgan gap, shubhasiz
certainty [ˈsɜ:tntɪ] *n* 1) shubhasiz dalil, isbot; 2) ishonch
certes [ˈsɜ:tɪz] *adv esk. shoir.* 1) haqiqatdan ham, haqiqatda ham, chindan ham, chinakamiga, darhaqiqat; 2) albatta, turgan gap, shubhasiz, tabiiy
certifiable [ˈsɜ:tɪfaɪəb(ə)l] *a* guvohlik bera oladigan, guvohlik bersa bo'ladigan (*asos., yozma ravishda*)
certificate [səˈtɪfɪkət] **1.** *n* 1) guvohnoma; 2) yozma tasdiqlash; **2.** *v* 1) tasdiqlamoq; 2) guvohlik bermoq, guvohnoma bermoq
certificated [səˈtɪfɪkeɪtɪd] *a* diplom olgan, diplomli
certification [ˌsɜ:tɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) (*dalilni*) tasdiqlash; 2) guvohnoma berish
certificatory [səˈtɪfɪkət(ə)rɪ] *a kit.* guvohlik beruvchi, tasdiqlovchi; a ~ **letter** yozma tavsiyanoma
certified [ˈsɜ:tɪfaɪd] *a* 1) tasdiqlangan; a ~ **copy** tasdiqlangan nusxa; 2) tekshirilgan; ~ **milk** tekshirilgan sut
certify [ˈsɜ:tɪfaɪ] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) ishontirmoq
certiorate [ˌsɜ:tɪɔ:ˈreɪt] *v yur.* rasmiy ravishda xabar (ma'lum) qilmoq
certitude [ˈsɜ:tɪtju:d] *n* 1) ishonish; 2) shubha qilmaslik
cerulean [sɪˈru:lɪən] *n* havorang, moviy; lojuvard, ko'm-ko'k
cerumen [sɪˈru:men] *n* quloq kiri
ceruse [ˈsɪ(ə)ru:s] *n* qo'rg'oshinning oq mineral bo'yog'i
cerusite [ˈsɪ(ə)rəsaɪt] = **cerussite**
cerussite [ˈsɪ(ə)rəsaɪt] *n* 1) *min.* serussit (*karbonatlar sinfiga mansub mineral*); 2) *kim.* karbonat angidrid qo'rg'oshini
cervical [ˈsɜ:vɪk(ə)l] *a anat.* 1) ensaga oid; 2) bo'yinga oid
cervices [ˈsɜ:vɪsi:z] *pl of* **cervix**
cervicide [ˈsɜ:vɪsaɪd] *n kam.* (*ovlash taqiqlangan*) bug'ularni otib o'ldirish, bug'ularni ovlash
cervine [ˈsɜ:vaɪn] *a* bug'uga oid
cervix [ˈsɜ:vɪks] *n* (*pl* **cervices**) *anat.* bo'yin
Cesar [ˈsi:zəˌseɪsə] = **Caesar**
cesium [ˈsi:zɪəm] = **caesium**
cespitose [ˈsepɪtəʊs] *a kit.* 1) serajriq; serildiz; chimzor, ajriqzor, chim bosib ketgan, chim bilan qoplangan; 2) torf (*botqoq yerlardagi o'simliklarning chirishidan hosil bo'lgan yoqilg'i*)ga oid; tarkibida torf bo'lgan, torfli, torf...
cess [ses] *n* o'lpon; soliq
cessation [seˈseɪʃ(ə)n] *n* 1) to'xtatish; 2) tanaffus
cession [ˈseʃ(ə)n] *n* yon berish, rozi bo'lish
cesspipe [ˈsespaɪp] *n* suv oqadigan (oqib tushadigan) quvur
cesspit [ˈses,pɪt] *n* axlat (*to'kiladigan, tashlanadigan*) o'ra
cesspool [ˈsespu:l] *n* suv oqib tushadigan (ketadigan) quduq
cestoid [ˈsestɔɪd] *n zool.* lentasimon chuvalchang
cestus [ˈsestəs] *n lot. ko'ch.* muhabbat vasvasasi
cesure [sɪˈzjʊ(ə)rə] = **caesura**
cetacean [sɪˈteɪʃ(ə)n] **1.** *a zool.* kitga oid; **2.** *n* kitlar oilasiga mansub bo'lgan hayvon
cetaceous [sɪˈteɪʃəs] *a zool.* kitga o'xshagan
cete [si:t] *n* kit, afsonaviy dengiz maxluqi
cetologist [sɪˈtɒlədʒɪst] *n* kitlar bo'yicha mutaxassis
cetology [sɪˈtɒlədʒɪ] *n* kitlar haqidagi fan

Ceylonese [ˌsiːlə´niːz] **1.** *n* (*pl o'zgarishsiz*) seylonlik kishi, seylonlik ayol (*Seylon – Shri-lanka davlati va orolining 1972- yilgacha bo'lgan nomi*); **2.** *a* Seylon va seylonliklarga oid, Seylon va seylonliklar…

Chablis [´ʃæbli(ː)] *n* shabli (*oq vino, musallas*)

chabouk, chabuk [´tʃɑːbok] *n* uzun qamchi, darra (*Sharq mamlakatlarida*)

chack [tʃæk] **1.** *n shotl.* 1) tishda (tish bilan) chaqish, g'ajish, kemirish; 2) (*yong'oq va b. ni*) yorish, maydalash, parchalash; **2.** *v shotl.* tishda (tish bilan) chaqmoq, g'ajimoq, kemirmoq; 2) (*yong'oq va b. ni*) yormoq, maydalamoq, parchalamoq

chaconne [ʃə´kon, ʃæ´kon] *n mus.* chakona (*qadimiy ispancha raqs va shu raqs musiqasi*)

chad [tʃæd] *n* shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*)

chafe [tʃeɪf] **1.** *n* shilingan joy, chaqa (*badanda*); **2.** *v* ishqalamoq, ishqamoq

chafer [´tʃeɪfə] *n zool.* tillaqo'ng'iz

chaff [tʃɑːf] **1.** *n* 1) to'pon; 2) maydalangan somon; **2.** *v* (*poxolni*) maydalamoq, chopmoq

chaff-cutter [´tʃɑːf,kʌtə] *n q.x.* poxol qirqqich (*poxol, pichan, beda va h. k. qirqadigan mashina, jodi*)

chaffer [´tʃɑːfə] **1.** *n* savdolashish; **2.** *v* savdolashmoq

chaffinch [´tʃæfɪntʃ] *n zool.* zyablik (*sayroqi qush*)

chaffy [´tʃɑːfɪ] *a* to'pon bilan qoplangan

chafing [´tʃeɪfɪŋ] *n* 1) ishqalanish, surkalanish; ishqalash, surkash; surkab singdirish; 2) (*terini nima bilandir*) ishqalab tozalash; 3) *tex.* (*asbob-uskunalarning*) ishqalanishi natijasida yeyilib ketishi

chafing-dish [´tʃeɪfɪŋdɪʃ] *n* 1) kabob ko'ra; 2) elektrik kastrulka (*termos*)

chafing-gear [´tʃeɪfɪŋgɪə] *n deng.* ishqalanishdan saqlash uchun troslarni o'rash; (*troslarning*) himoya o'rovi

chafing-pan [´tʃeɪfɪŋpæn] = **chafing-dish**

chagan [kə´gɑːn] *n tar.* xon, hoqon

chagrin [´ʃægrɪn] **1.** *n* achinish, xafagarchilik; **2.** *v* xafa qilmoq, ranjitmoq

chain [tʃeɪn] **1.** *n* zanjir; zanjircha; **2.** *v* zanjirlamoq

chain-armour [´tʃeɪn,ɑːmə] = **chain-mail**

chain-bridge [´tʃeɪnbrɪdʒ] *n* zanjirli uzatma

chain-drive [´tʃeɪndraɪv] *tex.* zanjirli peredacha (*peredacha – harakatni mashinaning bir qismidan boshqa qismiga o'tkazuvchi mexanizm*)

chain-grate [´tʃeɪngreɪt] *n tex.* orasi ochiq-ochiq zanjirli so'ri, kat (*pichan quritish uchun*)

chainless [´tʃeɪnləs] *a shoir.* hur, erkin, mustaqil, ozod, ixtiyori ozida bo'lgan

chainlet [´tʃeɪnlɪt] *n* zanjircha

chain-mail [´tʃeɪnmeɪl] *n* sovut

chainman [´tʃeɪnmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *so'zl.* yer o'lchovchining yordamchisi

chain-react [ˌtʃeɪnrɪ´ækt] *v fiz.* zanjir reaksiyasini bermoq

chain-reacting [ˌtʃeɪnrɪ´æktɪŋ] *a fiz.* zanjir reaksiyasini beruvchi (beradigan); zanjir reaksiyali

chain-rule [´tʃeɪnruːl] *n mat.* zanjir qonuni

chainsmoke [´tʃeɪnsməʊk] *v* uzluksiz (tinmay) chekmoq

chainsmoker [´tʃeɪn,sməʊkə] *n* ashaddiy chekuvchi

chain-stitch [´tʃeɪnstɪtʃ] *n* kashta choki

chain-stores [´tʃeɪnstɔːz] *n pl amer.* bitta firmaning bir xil tipdagi chakana savdo do'konlari

chain-wheel [´tʃeɪnwiːl] *n tex.* (zanjirli) yulduzcha (*yulduz shaklidagi detal, shesterna*)

chain-work [´tʃeɪnwɜːk] = **chain-stitch**

chair [tʃeə] **1.** *n* 1) stul; 2) raisning o'rni; **2.** *v* boshqarmoq

chair-bed [´tʃeə,bed] *n* kreslo karavot, buklama kreslo

chair-car [´tʃeə,kɑː] *a amer.* salon-vagon

chairman [´tʃeəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) rais

chairmanship [´tʃeəmənʃɪp] *n* raislik lavozimi (vazifasi)

chairperson [´tʃeə,pɜːs(ə)n] *n pl* majlis *yoki* yig'ilishni boshqaruvchi (olib boruvchi)

chair warmer [´tʃeə,wɔːmə] *n amer. jarg.* dangasa, tanbal, ishyoqmas

chairwoman [´tʃeə,wʊmən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) raisa, rais ayol

chaise [ʃeɪz] *n fr.* fayton, izvosh

chaise-longue [´ʃeɪz´lɔŋ] *n fr.* shezlong (*yengil kresloning bir turi*)

chalcanthite [kæl´kænθaɪt] *n min.* mis kuporosi, to'tiyo

chalcedonic [ˌkælsɪ´dɔnɪk] *a min.* xalsedon (*kvars yoki chaqmoqtoshning bir turi bo'lgan yarimqimmat tosh*)li, xalsedon…

chalcedony [kæl´sedənɪ] *n min.* xalsedon (*kvars yoki chaqmoqtoshning bir turi bo'lgan yarimqimmat tosh*)

chalcocite [´kælkə(ʊ)saɪt] *n min.* mis temirtosh (*mis rudasi*)

chalcographer [kæl´kɒgrəfə] *n* mislarni o'yib naqsh soladigan naqqosh, o'ymakor usta

chalcography [kæl´kɒgrəfɪ] *n* misga (*o'yib*) naqsh tushirish

chalcopyrite [ˌkælkə´paɪraɪt] *n min.* mis kolchedani, xalkopirit (*sulfidlar sinfiga mansub mineral*)

Chaldaic [kæl´deɪɪk] **1.** *n* xaldey tili; **2.** *a* xaldey(lar)ga oid; xaldeycha, xaldey(lar)…

Chaldaical [kæl´deɪɪk(ə)l] *a* xaldey(lar)ga oid; xaldeycha, xaldey(lar)…; Xaldey va xaldeyliklarga taalluqli (qarashli, daxldor) bo'lgan

Chaldean [kæl´di(ː)ən] **1.** *a* xaldeylarga oid, xaldeycha, xaldeylar; **2.** *n* xaldey, xaldeyda yashovchi kishi

Chaldee [kæl´diː] *n* 1) xaldey (*miloddan avvalgi VII asrda Yangi Bobil davlatini tashkil etgan somiylar qabilasi*); 2) xaldey tili

chaldron [´tʃɔːldr(ə)n] *n tar.* cheldron (*inglizlarning 32 dan 72 gacha bushelini tashkil etadigan eski o'lchov birligi*)

chalet [´ʃæleɪ] *n* qishloq uyi (*asosan, Shveysariyada*)

chalice [´tʃælɪs] *n* 1) *shoir.* qadah, jom; 2) *bot.* gul kosachasi, gulkosa

chalk [tʃɔːk] **1.** *n* bo'r; **to write in** – bo'r bilan yozmoq; **2.** *v* bo'r bilan yozmoq

chalking [´tʃɔːkɪŋ] *n q.x.* ohak bilan o'g'itlash, yerga ohak berish

chalk-pit [´tʃɔːkpɪt] *n* bo'r koni

chalk-quarry [´tʃɔːk,kwɒrɪ] = **chalk-pit**

chalk-stone [´tʃɔːkstəʊn] *n* ohaktosh

chalky [´tʃɔːkɪ] *a* 1) bo'rga oid, bo'rli; 2) ohakdan qilingan, ohakli

challengeable [´tʃælɪndʒəb(ə)l] *a* 1) shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan; 2) har xil tushunsa bo'ladigan, mujmal, ilmoqli, shubhali

challenge [´tʃælɪndʒ] **1.** *n* da'vat qilish (*musobaqada*); **2.** *v* da'vat qilmoq

challenger [´tʃælɪndʒə] *n* da'vatchi, chaqiruvchi

challenging [´tʃælɪndʒɪŋ] *a* katta kuch talab qiladigan

chalybeate [kə´lɪbɪɪt] *a* tarkibida temir bo'lgan, temirli (*kon, manba haqida*)

cham I [kæm] *n esk.* xon

cham II [kæm] *v dial.* 1) tishlamoq, tishlab olmoq; 2) chaqmoq, chaqib olmoq; 3) chaynamoq; 2) *shotl.* ezmoq, ezib (bosib, yanchib) yumshatmoq

chambellan [ˌʃɒmbɪ´lɒŋ] *n fr.* kamerger (*chor Rossiyasida va ba'zi monarxiya davlatlarida: saroy a'yonlarining unvonlaridan biri va shu unvondagi kishi*)

chamber [´tʃeɪmbə] **1.** *n* xona, bo'lma, uy; **2.** *a* kameraga oid, kamerada bo'ladigan; **3.** *v* kameraga qamab qo'ymoq

chamber-deacon [ˈtʃeɪmbəˌdi:k(ə)n] *n tar.* erkin tinglovchi (*oliy o'quv yurtlarida talabalar qatori erkin dars oluvchi kishi*)
chambered [ˈtʃeɪmbəd] *a* 1) kameralarga bo'lingan; 2) kameraga qamalgan, kameraga qamab qo'yilgan
chamberlain [ˈtʃeɪmbəlɪn] *n* 1) kamerger (*chor Rossiyasida va ba'zi monarxiya davlatlarida: saroy a'yonlarining unvonlaridan biri va shu unvondagi kishi*); 2) *tar.* mahram, paj (*o'rta asrlarda zodagonlar yoki podsho huzurida xizmat qiluvchi o'g'il bola, o'smir*); 3) xazinachi, g'aznachi; 4) *esk.* kaznachi (*harbiy qismlarda: pul-buyumlar berish va qabul qilishni boshqaruvchi xizmatchi*); 5) *esk.* mehmonxonada bir necha nomer (xona)ga qarovchi xodim
chamber-maid [ˈtʃeɪmbəmeɪd] *n* mehmonxona xodimasi (*mehmonxonada uylarga qarovchi ayol*)
chamber-pot [ˈtʃeɪmbəpɒt] *n* tuvak
Chambertin [ˌʃɒmbeəˈtæŋ] *n fr.* shamberten (*vino navi*)
chameleon [kəˈmi:lɪən] *n* gapida turmaydigan (ikkiyuzlama) odam
chameleonic [kəˌmi:lɪˈɒnɪk] *a* gapida turmaydigan; tez o'zgaradigan, o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, aynib turadigan, beqaror
chamfer [ˈtʃæmfə] *n* 1) tarnov, nov; 2) chuqur (*o'yilgan joy*)
chamfering [ˈtʃæmfərɪŋ] *n tex.* yumaloqlash, dumaloqlash, tekislash, qirrasini (burchagini) olish
chamois [ˈʃæmwɑ:] *n fr. zool.* tog' kiyik, qora echki
chamois-leather [ˈʃæmɪˌleðə] *n* zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*)
chamomel, chamomile [ˈkæməmɪl, ˈkæməmaɪl] = **camomile**
chamotte [ʃɑ:ˈmɒt] *n max.* shamot (*olovda pishirilgan oq loy*)
champ [tʃæmp] **1.** *n* chapillatib chaynash; **2.** *v* chapillatib chaynamoq
champac [ˈtʃæmpʌk] *n bot.* magnoliya (*yirik xushbo'y gulli doim yashil daraxt yoki buta*)ning bir turi
champagne [ʃæmˈpeɪn] *n fr.* shampan vinosi
champaign [ʃæmˈpeɪn] *n* tekislik, tekis yer
champerty [ˈtʃæmpətɪ] *n yur.* noqonuniy ravishda sotib olish (xarid qilish)
champignon [ˈʃɒmpɪnjɒŋ] *n fr. bot.* shampinion (*qo'ziqorinning bir turi*)
champion [ˈtʃæmpɪən] **1.** *a so'zl.* birinchi darajali, eng yaxshi; **2.** *v* 1) himoya qilmoq; 2) nima uchundir kurashmoq; **3.** *n* 1) kurashchi, kurashuvchi; 2) chempion, g'olib
championship [ˈtʃæmpɪənʃɪp] *n sport.* birinchilik, chempionat
chance [tʃɑ:ns] *n* 1) imkoniyat; 2) tasodif
chanceable [ˈtʃɑ:nsəb(ə)l] *a kam.* tasodifan, tasodifiy ravishda, bir tasodif bilan bo'lib, kutmaganda, bexosdan, bilmasdan, kutilmaganda
chance-comer [ˈtʃɑ:nsˌkʌmə] *n* tasodifiy *yoki* kutilmagan mehmon
chance-child [ˈtʃɑ:nstʃaɪld] *n* nikohsiz tug'ilgan bola, haromzoda, haromi
chanceful [ˈtʃɑ:nsf(ə)l] *a* qaltis; xavfli, xatarli
chancel [ˈtʃɑ:ns(ə)l] *n* mehrob (*cherkovning ibodat qiladigan asosiy qismi*)
chancellery [ˈtʃɑ:ns(ə)lərɪ] *n* 1) kanslerlik unvoni, kanslerlik; 2) kansler idorasi; 3) kansler va uning qo'l ostidagi xodimlari ishlaydigan bino
chancellor [ˈtʃɑ:ns(ə)lə] *n* kansler (*ba'zi davlatlarda: oliy martabali amaldorlar unvoni*)
chancellory [ˈtʃɑ:ns(ə)lərɪ] *n* kansler (*ba'zi davlatlarda: oliy martabali amaldorlar unvoni*)
change-house [ˈtʃeɪndʒhaos] *n shotl.* 1) kichkina mayxona (restorancha); 2) pivoxona
chance-medley [ˈtʃɑ:n(t)sˌmedlɪ] *n yur.* qotillik
chancery [ˈtʃɑ:ns(ə)rɪ] *n* lord-kansler sudi
chancre [ˈʃæŋkə] *n tib.* yara
chancy [ˈtʃɑ:nsɪ] *a so'zl.* qaltis
chandelier [ˌʃændəˈlɪə] *n* qandil, katta shamdon, chilchiroq
chandler [ˈtʃɑ:ndlə] *n* sham ishlab chiqaradigan fabrika egasi
chandlery [ˈtʃɑ:ndlərɪ] *n* sham ombori
change [tʃeɪndʒ] **1.** *n* almashtirish; **2.** *v* almashtirmoq
changeability [ˌtʃeɪndʒəˈbɪlɪtɪ] *n* o'zgaruvchanlik
changeable [ˈtʃeɪndʒəb(ə)l] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan
changeful [ˈtʃeɪndʒf(ə)l] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan
changeless [ˈtʃeɪndʒləs] *a* o'zgarmaydigan, doimiy
changeling [ˈtʃeɪndʒlɪŋ] *n* 1) (bilib yoki bilmasdan) almashtirilgan bola; 2) maxfiy (yashirin) almashuv; 3) *esk.* gapida turmaydigan odam; 4) *esk.* aqli zaif, jinni
change-over [ˈtʃeɪndʒˌəʊvə] *n* o'zgartirish, almashtirish
changer [ˈtʃeɪndʒə] *n tex.* 1) o'zgartgich, o'zgartirgich; 2) perekluchatel (*tezlik darajasini o'zgartuvchi asbob*)
channel [ˈtʃænl] **1.** *n* kanal; **2.** *v* ariq qazimoq (kovlamoq)
channeled [ˈtʃæn(ə)ld] *a* 1) kanallar bilan kesilgan; 2) kanallar kesib o'tgan; 3) (ma'lum) kanal yoki oqim bo'yicha yo'naltirilgan; 4) *max.* nov shaklidagi, novsimon, novli, novlari bo'lgan, novanova
chanson [ˈʃæns(ə)n] *n fr.* ashula, qo'shiq, o'lan
chant [tʃɑ:nt] **1.** *n she'r.* ashula, qo'shiq; **2.** *v* ashula (qo'shiq) aytmoq
chantage [ʃɒnˈtɑ:ʒ] *n fr.* qo'rqitib, do'q qilib undirish (olish)
chanter [ˈtʃɑ:ntə] *n* 1) *shoir.* ashulachi, qo'shiqchi; hofiz; ashulachi (qo'shiqchi, kuychi) ayol; 2) (xorda qatnashadigan) ashulachi, xonanda; 3) xormeyster (*xor rahbari yoki dirijori*)
chanterelle [ˌʃæntəˈrel] *n fr.* qo'ziqorinning bir turi
chanteuse [ʃænˈtɜ:z, ˌʃɒnˈtɜ:z] *n fr.* (estrada) xonandasi
chantey [ˈ(t)ʃæntɪ] *n* matroslarning (ish paytida) xor bo'lib aytadigan qo'shig'i
chanticleer [ˌtʃæntɪˈklɪə] *n folk.* jo'jaxo'roz, xo'rozcha
chantry [ˈtʃɑ:ntrɪ] *n cherk.* 1) o'lganlar ruhiga duoyi fotiha qilish uchun qoldirilgan pul; 2) mehrobsiz kichik butxona; kichik ibodatxona
chanty [ˈ(t)ʃæntɪ] *n* dengizchilar (matroslar)ning xor bo'lib kuylaydigan qo'shiqlari
chaos [ˈkeɪɒs] *n* o'ta tartibsizlik
chaotic [keɪˈɒtɪk] *a* tartibsiz, chalkash
chap [tʃæp] *n* 1) *so'zl.* o'spirin, yigitcha; 2) yoriq, darz; 3) *n* jag' (*asosan, hayvonlarniki*)
chaparajos [ˌ(t)ʃæpəˈreɪə(ʊ)s] *n pl isp.* otliq podachi (yoki cho'pon)larning charm yoki mo'ynali shimlari
chaparral [ˌ(t)ʃæpəˈræl] *n amer.* tikanli buta
chaparejos [ˌ(t)ʃæpəˈreɪə(ʊ)s] = **chaparajos**
chap-book [ˈtʃæpbʊk] *n* arzon narxda nashr etilgan xalq ertaklari kitobi
chape [tʃeɪp] *n* 1) uchli qin; 2) tulki dumidagi popuk; 3) (to'qadagi) ilmoq, changak, ilgak
chapeau [ʃɑ:ˈpəʊ] *n* (*pl* **-peaux** [-pəʊ], **-peaus** [-pəʊz]) *fr.* zamonaviy shlapa
chapeau-bras [ˌʃɑ:pəʊˈbrɑ:] *n fr.* buklama treugolka (*chor Rossiyasida uch burchak shaklli bosh kiyim*)
chapel [ˈtʃæp(ə)l] *n* mehrobsiz kichik butxona (*kichkina ibodatxona*)
chapelet [ˈtʃæpəlet] *n tex.* 1) suv chiqaradigan g'ildirak (parrak); 2) noriya (*harakatlanuvchi lentaga yoki zanjirga o'rnatilgan bir necha kovshli elevator*)

chapel-master [ˈtʃæp(ə)l,mɑ:stə] *n* 1) kapelmeyster, dirijor (*xor yoki orkest rahbari, dirijori*) (*asos., saroyda*); 2) xor dirijori (*asos., cherkovda*); 3) xormeyster (*xor rahbari yoki dirijori*)

chaperon [ˈʃæpərəun] **1.** *n* yosh qizni balga kuzatib boruvchi keksa ayol; **2.** *v* (*yosh qizni*) kuzatmoq

chap-fallen [ˈtʃæp,fɔ:lən] *a* jag'i osilgan

chapiter [ˈtʃæpɪtə] *n me'mor.* ustunning qoshi (*ustunning shipga tutashgan yuqori qismi*)

chaplain [ˈtʃæplɪn] *n* ruhoniy

chaplaincy [ˈtʃæplɪnsɪ] = **chaplainship**

chaplainship [ˈtʃæplɪnʃɪp] *n* kapellan (*katoliklarda: xonaki cherkov popi, ruhoniysi*)ning martabasi (mansabi, nomi, unvoni)

chaplet [ˈtʃæplɪt] *n* gulchambar

chapman [ˈtʃæpmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) sayyor savdogar

chapped [tʃæpt] *a* yorilgan, darz ketgan; **a ~ ground** ko'p joyidan yorilib ketgan yer; **~ hands** yorilgan qo'llar

chappie [ˈtʃæpɪ] *n so'zl.* yigitcha, yigit, o'spirin

chappy [ˈtʃæpɪ] = **chappie**

chaps [tʃæps] *n pl so'zl.* **chaparajos** *so'zining qisqartmasi*

chapter [ˈtʃæptə] **1.** *n* bob (*kitoblarda*); **2.** *v* kitobni boblarga bo'lmoq

chapter-land [ˈtʃæptəlænd] *n* monastirga qarashli yer-suv (mulk)

char I [tʃɑ:] **1.** *n* kundalik (kunbay, kunlik) ish; **2.** *v* kundalik ishni bajarmoq

char II [tʃɑ:] **1.** *n* kuyib ko'mirga aylangan narsa; **2.** *v* ko'mirga aylantirmoq

char-a-banc(s) [ˈʃærəbæŋ(z)] *n* uzoqqa qatnaydigan (*o'rindiqli*) avtobus.

character [ˈkærɪktə] **1.** *n* xarakter, tabiat, xususiyat; **2.** *v* aks ettirmoq, gavdalantirmoq

characteristic [ˌkærɪktəˈrɪstɪk] **1.** *a* keskin harakatli, o'jar; boshqalardan ajralib turadigan; **2.** *n* o'ziga xos fazilat

characteristical [ˌkærɪktəˈrɪstɪk(ə)l] = **characteristic**

characteristically [ˌkærɪktəˈrɪstɪk(ə)lɪ] *adv* o'ziga xoslik bilan

characterization [ˌkærɪktəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* ta'rif, tasnif, baho

characterize [ˈkærɪktəraɪz] *v* ta'riflamoq, baho bermoq, ifoda etmoq

characterless [ˈkærɪktələs] *a* irodasiz, irodasi sust

charactery [ˈkærɪkt(ə)rɪ] *n kit.* fikrlarni belgilar yordamida ifoda etish

charactry [ˈkærɪktrɪ] *kam.* = **charactery**

charade [ʃə ˈrɑ:d] *n* sharada (*topishmoqning bir turi*)

charbon [ˈʃɑ:bən] *n vet.* kuydirgi

charcoal [ˈtʃɑ:kəul] **1.** *n* pista ko'mir; **2.** *v* ko'mir bilan chizmoq

charcoal-burner [ˈtʃɑ:kəul,bə:nə] *n* ko'mir qazuvchi

chare [tʃeə] *n* kunbay ish

charge [tʃɑ:dʒ] **1.** *n* 1) ayblash; 2) hujum; 3) *el.* zaryad (*elektrlangan jismdagi elektr miqdori*); **2.** *v* 1) ayblamoq; 2) hujum qilmoq; 3) narxni tayinlamoq (belgilamoq); 4) yozmoq (*kimningdir hisobiga*); **~ this to our account** buni bizning hisobimizga yozib qo'ying; 5) *el.* zaryadlamoq

chargeable [ˈtʃɑ:dʒəb(ə)l] *a* 1) ayblashga, ta'na qilishga arziydigan; 2) mas'ul, javobgar

charge d'affaires [ˌʃɑ:ʒeɪdæˈfeə] *n fr. dip.* ishonchli vakil (*martabasi elchidan pastroq bo'lgan diplomatik vakil*)

charger [ˈtʃɑ:dʒə] *n* 1) yuklovchi odam; 2) *yur.* ayblovchi, qoralovchi

charge-sheet [ˈtʃɑ:dʒʃi:t] *n* 1) politsiya bayonnomasi; 2) ayblov xulosasi

charging current [ˌtʃɑ:dʒɪŋˈkʌrənt] *el.* zaryadlovchi tok

charging desk [ˈtʃɑ:dʒɪŋdesk] kitob beriladigan stol (kutubxonada)

charging hopper [ˈtʃɑ:dʒɪŋˌhɔpə] *tex.* yuk ortadigan (ortuvchi) kovsh yoki maxsus tog'ora (*foydali qazilmalarni yuvib ajratib olish uchun ishlatiladi*)

charging plant [ˈtʃɑ:dʒɪŋˌplɑ:nt] *tex.* zaryadlash (zaryadkalash) stansiyasi

charging spout [ˈtʃɑ:dʒɪŋˌspaot] = **charging hopper**

charily [ˈtʃe(ə)rɪlɪ] *adv* 1) ehtiyotlik bilan, ehtiyot qilib, ehtiyot bo'lib; avaylab, ehtiyotkorlik bilan, ehtiyotini qilib, ketini o'ylab, ehtiyotkorona, ehtiyot shart; 2) tejab-tergab, ayab, tejamkorlik bilan, pulni sovurmasdan, qisib-qimtib, qizg'anib, ziqnalik (xasislik, qurumsoqlik, qattiqlik) bilan, qaltirab

chariness [ˈtʃe(ə)rɪnəs] *n* 1) ehtiyotkorlik; 2) tejamkorlik; 3) g'amxo'rlik, mehribonlik

chariot [ˈtʃærɪət] **1.** *n she'r.* ikki g'ildirakli jang (*yoki* poyga) aravasi (*qadimgi yunonlarda va rimliklarda*); **2.** *v* ikki g'ildirakli aravada yurmoq

charioteer [ˌtʃærɪəˈti:] *n tar.* (*ikki otliq uchun*) yengil kareta (*to'rt g'ildirakli yengil soyabon arava*)

charioteer [ˌtʃærɪəˈtɪə] *n so'zl.* aravakash, izvoshchi

charisma [kəˈrɪzmə] *n* Allohning in'omi

charismata [kəˈrɪzmətə] *pl of* **charisma**

charismatic [ˌkærɪzˈmætɪk] *a ko'ch.* 1) ilhomi jo'sh urgan, ilhomga to'lgan, ilhomli, serzavq; 2) ilhomlangan, ruhlangan, ruhi ko'tarilgan, ruhi baland; 3) xudo bergan iste'dod (qobiliyat) bilan; 4) dilrabo, dilbar, jozibador, jozibali, yoqimli, o'ziga tortadigan

charitable [ˈtʃærɪtəb(ə)l] *n* muhtojlarga yordam beruvchi

charitably [ˈtʃærɪtəblɪ] *adv* 1) marhamat yuzasidan muruvvat qilib, andisha bilan, ko'ngilchanlik bilan; 2) iltifot qilib (ko'rsatib), iltifot bilan, lutfan, xayrixohlik bilan

charity [ˈtʃærɪtɪ] *n* 1) rahm (shafqat, marhamat); 2) muhtojlarga yordam (xayr-saxovat; ehson)

charity-boy [ˈtʃærɪtɪbɔɪ] *n* yetimxonada tarbiya topgan bola, yetimxona o'quvchisi, yetimxona bolasi

charity-girl [ˈtʃærɪtɪgə:l] *n* yetimxonada tarbiya topgan qiz, yetimxona qizi

charity-school [ˈtʃærɪtɪsku:l] *n* yetimxona

charivari [ˌʃɑ:rɪ ˈvɑ:rɪ] *n fr.* shovqin, shovqin-suron

chark I [tʃɑ:k] **1.** *n* 1) pista ko'mir; 2) koks (*toshko'mir, neft, torf va sh. k. dan havosiz qizdirib tayyorlanadigan qattiq yoqilg'i*); **2.** *v* 1) (*ko'mirni*) kuydirmoq; 2) kokslamoq, koks tayyorlamoq, koksga aylantirmoq

chark II [tʃɑ:k] *n* qadah, piyola, jom

chark III [tʃɑ:k] *v shotl.* 1) javramoq, vaysamoq, ming'irlamoq, po'ng'illamoq, ming'ir-ming'ir qilmoq; 2) birovni asossiz ayblamoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq, injiqlik qilmoq

charlady [ˈtʃɑ:ˌleɪdɪ] *evf.* = **charwoman**

charlatan [ˈʃɑ:lət(ə)n] *n* 1) aldoqchi; 2) tovlamachi; 3) duoxon

charlatanic, charlatanical [ˌʃɑ:ləˈtænɪk, -(ə)l] *a* 1) sharlatanlar (*aldamchilar, lo'ttibozlar, firibgarlar*)ga oid; sharlatanlikka (*aldamchilikka, lo'ttibozlikka, firibgarlikka*) oid; sharlatanlarcha, lo'ttibozlarcha, firibgarlarcha...2) tabiblarga va tabiblikka oid; tabiblarga xos bo'lgan

charlatanry [ˈʃɑ:lət(ə)nrɪ] *n* 1) tabiblik, emchilik, azayimxonlik; 2) dori-darmon, dorivor savdosi (*odatda, xalq tibbiyotida qo'llaniladigan dori-darmon haqida*)

Charles's Wain [ˌtʃɑ:lzɪzˈweɪn] *so'zl. astr.* Katta Ayiq, Katta Yetti Og'ayni (*burj*)

Charleston [ˈtʃɑ:lst(ə)n] *n* charlston (*raqs va shu raqs musiqasi*)

Charley [ˈtʃɑ:lɪ] *n so'zl.* tungi qorovul

Charlie [ˈtʃɑ:lɪ] = **Charley**

charlock [ˈtʃɑ:lɔk] *n bot.* yovvoyi xantal (*o'simlik*)

charlotte [ˈʃɑ:lət] *n fr.* sharlotta (*qatqat xamir ichiga olma solib pishirilgan ovqat*)

charm [tʃɑ:m] **1.** *n* dilrabolik, dilbarlik; joziba, yoqimlilik; **2.** *v* maftun etmoq

charmer [ˈtʃɑ:mə] *n* dilbar (juda go'zal) kishi (*asosan, ayollar haqida*)

charmful [ˈtʃɑ:mf(ə)l] *a* sehrgarlarga va sehrgarlikka oid, sehr-jodu bilan bog'liq bo'lgan; sehr-jodu...; sehrgar(lar)...

charming [ˈtʃɑ:mɪŋ] *a* juda chiroyli, ko'rkam, dilbar

charmless [ˈtʃɑ:mləs] *a* o'ziga jalb qilmaydigan, tortmaydigan, jozibasiz, yoqimsiz, ko'rimsiz, xunuk

charmlike [ˈtʃɑ:mlaɪk] *a* 1) tumordek ta'sir etadigan; 2) ajoyib ta'sir ko'rsatadigan (dori-darmonlar haqida)

charnel [ˈtʃɑ:nl] **1.** *n* 1) = **charnel house**; 2) *esk.* qabriston, go'riston; **2.** *a* qabristonga oid; qabristondagi; qabriston...; 2) ko'mishga (dafn qilish)ga oid; ko'mish (dafn etish)...; 2) *ko'ch.* og'ir, mashaqqatli

charnel-house [ˈtʃɑ:nlhaʊs] *n* yer ostidagi sag'ana (*daxma*)

charpie [ʃɑ:ˈpi:] *n* lattadan titib olingan ip (*ilgarigi vaqtlarda yaraga bog'lash uchun ishlatilgan*)

charpoy [ˈtʃɑ:pɔɪ] *n hind.* 1) osma karavot (*asosan, kemalarda*); 2) ko'chma karavot

charqued [ˈtʃɑ:kɪd] *a* quritilgan, qoqlangan, surlangan (*go'sht haqida*)

charqui [ˈtʃɑ:kɪ] *n* sur go'sht

charr [tʃɑ:] *n zool.* 1) daryo baliqlarining zog'ora baliqlar oilasiga mansub bir turi; 2) lososlar oilasiga mansub bir turli baliq

charred [ˈtʃɑ:d] *a* kuygan, kuyib qoraygan

charring [ˈtʃɑ:rɪŋ] *n* 1) ko'mir kuydirish (*yog'ochni kuydirib ko'mir hosil qilish*); 2) kuyib ko'mirga aylanish; kuydirib ko'mirga aylantirish

charry [ˈtʃɑ:rɪ] *a* kuyib ko'mirga aylanadigan; kuydirib ko'mirga aylantiradigan

chart [tʃɑ:t] **1.** *n* dengiz xaritasi; **2.** *v* 1) xaritaga kiritmoq; 2) xarita tuzmoq

chartaceous [kɑ:ˈteɪʃəs] *a kam.* 1) qog'ozga oid; qog'ozdan qilingan, qog'oz...; 2) qog'ozga o'xshagan, qog'ozsimon

charter [ˈtʃɑ:tə] **1.** *n* 1) xartiya (*qadimgi qo'lyozma, hujjat va shunday qo'lyozma yozilgan material yoki qog'oz*); 2) nizom; **2.** *v* imtiyoz (yengillik) bermoq

chartered [ˈtʃɑ:təd] *a* imtiyozli, imtiyozga ega bo'lgan

charterer [ˈtʃɑ:tərə] *n deng.* kemani kiraga oladigan kishi *yoki* tashkilot

Charterhouse [ˈtʃɑ:təhaʊs] *n* qariyalar uyi

chartering [ˈtʃɑ:t(ə)rɪŋ] *n deng.* kemada yuk tashish

charter-party [ˈtʃɑ:tə,pɑ:tɪ] *n deng.* kemani yollash shartnomasi

charting [ˈtʃɑ:tɪŋ] *n* xaritada chizib ko'rsatish

Chartism [ˈtʃɑ:tɪz(ə)m] *n tar.* chartizm (*ingliz ishchilarining XIX asr 30 – 50-yillardagi birinchi ommaviy revolusion harakati*)

Chartist [ˈtʃɑ:tɪst] *n tar.* chartizm tarafdori

chartographer [kɑ:ˈtɒgrəfə] *kam.* = **cartographer**

chartreuse [ʃɑ:ˈtrə:z] *n* likor (*o'tkir shirin spirtli ichimlik*)

chartulary [ˈkɑ:tjʊl(ə)rɪ] *n* 1) monastirning ro'yxat (qayd) daftari; 2) arxivni saqlovchi (qo'riqlovchi)

charwoman [ˈtʃɑ:,wʊmən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) kunbay (*qatnab*) ishlaydigan uy xodimasi

chary [ˈtʃe(ə)rɪ] *a* ehtiyotkor

chase [tʃeɪs] **1.** *n* 1) quvish, ta'qib qilish; 2) ov; 3) ov qilish joyi; **2.** *v* 1) ov qilmoq; 2) o'yib naqsh tushirmoq

chaseable [ˈtʃeɪsəb(ə)l] *a ov.* otishga (otib olishga, ov qilishga) ijozat berilgan

chaser [ˈtʃeɪsə] *n* 1) ta'qib (quvg'in) qiluvchi; 2) zarb qiluvchi (bosuvchi, o'ymakor) usta

chasing [ˈtʃeɪsɪŋ] *n* 1) ta'qib qilish; ketidan quvish; 2) o'ymakorlik ishi

chasm [ˈkæz(ə)m] *n* 1) chuqur dara; 2) tubsiz chuqurlik, jar

chasmal [ˈkæzm(ə)l] *a* chuqur, teran, tagsiz, tagi yo'q; juda chuqur

chasmed [ˈkæz(ə)md] *a* darali, serdara, darasi ko'p

chasmy [ˈkæzmɪ] *a* 1) darali, serdara, darasi ko'p; 2) chuqur, teran, tagsiz, tubsiz, tagi yo'q, juda chuqur

chasse [ʃɑ:s] *n din.* raka (*xristianlar cherkovida: avliyolar jasadi saqlanadigan maqbara*)

chasseur [ʃæˈsɜ:] *n fr.* 1) professional (*shu hunarni o'ziga kasb qilib olgan va doim shu kasb bilan shug'ullanadigan*) ovchi; 2) o'q otuvchi, mergan

chassis [ˈʃæsɪ] *n tex.* shassi; yurgizadigan qism

chaste [tʃeɪst] *a* iffatli, bokira

chastelain [ˈtʃɑ:stəl(e)ɪn] = **castellan**

chasten [ˈtʃeɪs(ə)n] *v* tartib-intizom solmoq

chastener [ˈtʃeɪs(ə)nə] *n* jazo ortadining a'zosi (*yoki* ishtirokchisi)

chasteness [ˈtʃeɪstnəs] = **chastity**

chastise [tʃæsˈtaɪz] *v* jazo bermoq (*asosan, tan jazosi*)

chastisement [ˈtʃæstɪzmənt] *n* intizomiy jazo

chastity [ˈtʃæstɪtɪ] *n* iffatlilik, bokiralik

chasuble [ˈtʃæzjʊb(ə)l] *n cherk.* riza (*ruhoniylarning ibodat vaqtida kiyadigan libosi*)

chat I [tʃæt] **1.** *n* 1) do'stona suhbat; 2) safsata; **2.** *v* tortinmasdan (bemalol) gapirmoq

chat II [tʃæt] *n zool.* sirchumchuq (*qorayaloqlar oilasiga mansub qush*)

chateau [ˈʃætəʊ] *n fr.* (*pl* **chateaux** [ˈʃætəʊz]) qasr, saroy, ark, qo'rg'on

chatelaine [ˈʃæt(ə)leɪn] *n fr.* qasr, saroy bekasi (*yer-suv sohibasi*)

chatoyant [ʃəˈtɔɪənt] *a fr.* yarqiraydigan (*rang haqida*)

chattel [ˈtʃætl] *n* 1) *odat. pl. yur.* mulk, mol-mulk, amlok (*odat.* ko'chirib bo'ladigan): **goods and ~s** barcha ko'chirib bo'ladigan shaxsiy mulk; **~s real** ko'chmas mulk; **personal ~s, ~s personal** ko'chirib bo'ladigan mulk; 2) *esk.* gul; **a ~ slavery system** eng og'ir mehnat tizimi

chatter [ˈtʃætə] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* vaysamoq

chatteration [ˌtʃætəˈreɪʃ(ə)n] *n hazil.* 1) vaqirlash, valdirash, vaysash; 2) bekorchi gap, safsata, vati-kuti

chatterbox [ˈtʃætəbɒks] *n* sergap odam, ezma

chatterer [ˈtʃætərə] *n* sergap odam, ezma

chattery [ˈtʃætərɪ] *a kam.* sergap, ezma, vaysaqi

chattiness [ˈtʃætɪnəs] *n* sergaplik, ezmalik, vaysaqilik

chatty [ˈtʃætɪ] **1.** *a* sergap, vaysaqi; **2.** *n hind.* sopol ko'za

Chaucerian [tʃɔ:ˈsɪ(ə)rɪən] *a adab.* ingliz shoiri Jefri Choser uslubiga oid

chauffer [ˈtʃɔ:fə] *n* (*kichkina*) ko'chma temir pechka

chauffeur [ˈʃəʊfə] *n fr.* haydovchi

chaussee [ʃəʊˈseɪ] *n fr.* shosse (*asfalt, beton kabilar yotqizilgan katta yo'l*)

chaussure [ʃəʊˈsu:ə] *n fr.* oyoq kiyim, poyabzal

chauvinism [ˈʃəʊvɪnɪz(ə)m] *n* shovinizm (*ashaddiy burjua millatchiligi*)

chauvinist [ˈʃəvɪnɪst] *n* shovinist, shovinizm tarafdori

chauvinistic [ˌʃəʊvɪˈnɪstɪk] *a* shovinizmga oid, shovinistlarcha

chaw [tʃɔ:] **1.** *n* 1) chaynash; 2) saqich; **2.** *v* chaynamoq

chaw-bacon [ˈtʃɔ:,beɪk(ə)n] *n* qo'pol (madaniyatsiz) yigit

cheap [tʃi:p] **1.** *a* arzon, narxi past; **2.** *adv* arzimagan narxga, suvtekin

cheapen [ˈtʃi:p(ə)n] *v* arzonlashmoq (*narx-navo to'g'risida*)

cheapjack [ˈtʃi:pdʒæk] *n* ko'tarib yurib sotuvchi, arzon narxlarga sotuvchi kishi
cheaply [ˈtʃi:pli] *adv* arzimagan narxga
Cheapside [ˈtʃi:psaid] *n* Chipsayd (*Londondagi ko'cha*); ~ **bargain** narxi (bahosi) juda past (juda arzon) narsa
cheat [tʃi:t] **1.** *n* 1) firib berish, aldash; 2) tovlamachilik, qalloblik; **2.** *v* 1) aldamoq; 2) tovlamachilik qilmoq
cheatable [ˈtʃi:təb(ə)l] *a* laqma, go'l, sodda; har narsaga (kimga) ishonaveradigan
cheatee [tʃi:ˈti:] *n so'zl.* aldangan (pand yegan) kishi; aldamchilik qurboni bo'lgan kishi
cheater [ˈtʃi:tə] *n esk.* soliq yig'uvchi
check I [tʃek] **1.** *n* 1) nazorat; 2) tekshirish; 3) to'xtatish, orqaga surish; 4) to'siq, to'xtash; 5) belgi (*tekshirilganlik belgisi*); 6) *shaxm.* kisht; **2.** *v* 1) nazorat qilmoq; 2) to'xtatmoq, orqaga surmoq
check II [tʃek] **1.** *n* 1) yuk qog'ozi; 2) *amer.* chek; **2.** *v* (*omonat va b. ni*) bermoq, topshirmoq
checkable [ˈtʃekəbl(ə)l] *a* 1) to'xtatib (to'xtatib qolib, tutib qolib, ushlab qolib) bo'ladigan; 2) tekshirib (nazorat qilib) bo'ladigan
checkage [ˈtʃekɪdʒ] *n* 1) (*maoshdan*) ushlab qolish; 2) (*maoshdan*) ushlab (chegirib) qolingan pul, chegirma
checkback [ˈtʃek ˈbæk] *n amer.* qayta tekshirish
check-book [ˈtʃekbuk] = **cheque-book**
checked [tʃekt] *a* 1) to'xtatilgan, ushlangan; 2) sinalgan, tekshirilgan
checker [ˈtʃekə] *n amer.* shashka (*o'yin*)
checkerboard [ˈtʃekəbɔ:d] *n* shaxmat taxtasi
checkered [ˈtʃekəd] *a* 1) = **chequered**; 2) *maxs.* taram-taram (*botiq yoki bo'rtma chiziqlar bilan qoplangan*)
chekers [ˈtʃekəz] *n amer.* shashka (*o'yin*)
checker-work [ˈtʃekəwɜ:k] = **chequer-work**
chekery [ˈtʃek(ə)rɪ] *n kam.* katak-katak shaklida chizilgan
check-in [ˈtʃek ˈɪn] *n* ro'yxatdan o'tish joyi
checking [ˈtʃekɪŋ] *n* tekshirish, qiyoslash
checkless [ˈtʃekləs] *a* qarshiliksiz, moneliksiz, hech qanday to'sqinlik (monelik) yo'q, erkin, bemalol
check-list [ˈtʃek,lɪst] *n* 1) ro'yxat; 2) saylovchilar ro'yxati
check-lock [ˈtʃeklɔk] *n* kichkina osma qulf
check-man [ˈtʃekmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) tekshiruvchi, nazoratchi (*poyezd va b. da*); 2) hisobchi, hisobga oluvchi
checkmate [ˈtʃekmeɪt] **1.** *n* shoh va mot; **2.** *v* mot qilmoq
check-nut [ˈtʃeknʌt] *n tex.* kontrgayka (*asosiy gayka bo'shab ketmasligi uchun uning ustidan burab qo'yiladigan ikkinchi gayka*)
check-off [ˈtʃekɔf] *n amer.* (*a'zolik badali, kvartira haqini*) ish haqidan ushlab qolish
check-out [ˈtʃekaot] *n* nazorat, sinov
check-pass [ˈtʃekpɑ:s] *n amer. harb.* ruxsatnoma, ijozatnoma
check-point [ˈtʃekpɔint] *n* nazoratdan o'tkazish, (*tekshirib ko'rib*) o'tishga ijozat beradigan joy
check-roll [ˈtʃekrəol] *n* nomma-nom ro'yxat
check-room [ˈtʃekru(:)m] *n* 1) ust-bosh yechib qo'yiladigan joy; 2) omonatxona
checkrow [ˈtʃekrəo] *n q.x.* kvadrat uyalab ekish
check-strap [ˈtʃekstræp] *n maxs.* yugan
check-taker [ˈtʃek,teɪkə] *n teatr.* chipta tekshiruvchi
check-till [ˈtʃektɪl] *n* kassa apparati
check-up [ˈtʃekʌp] *n* tekshirish, nazorat
check-weigher [ˈtʃek,weɪə] *n* nazorat qilib turadigan tarozibon
checky [ˈtʃekɪ] *a* katak gulli, katak-katak
Cheddar [ˈtʃedə] *n* cheddar (*pishloq navi*)
cheek [tʃi:k] **1.** *n* bashara, yonoq; **2.** *v so'zl.* surbetlik qilmoq
cheek-bone [ˈtʃi:kbəon] *n* yuz (yonoq) suyagi
cheek-tooth [ˈtʃi:ktu:θ] *n* oziq tish, jag' tishi
cheeky [ˈtʃi:kɪ] *a so'zl.* surbet
cheep [tʃi:p] **1.** *n* chiyillash, chirqillash (*qush va sichqonlar to'g'risida*); **2.** *v* chirqillamoq
cheeper [ˈtʃi:pə] *n* qush bolasi, jo'ja
cheepy [ˈtʃi:pɪ] *a* chiyillagan, chiyildoq, yig'loqi
cheer [tʃɪə] **1.** *n* 1) *pl* ishlar; 2) xushchaqchaqlik; **2.** *v* ruhlantirmoq; 2) xursand qilmoq
cheerful [ˈtʃɪəf(ə)l] *a* quvnoq, xushchaqchaq
cheerfully [ˈtʃɪəf(ə)lɪ] *adv* 1) o'zini bardam (tetik) tutib, bo'sh kelmay, tetik, bardam; 2) vaqtichog'lik (xursandchilik) bilan; 3) jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan
cheerfulness [ˈtʃɪəf(ə)lnəs] *n* shodlik, xursandchilik
cheerio [ˌtʃɪ(ə)rɪˈəo] *so'zl.* sizning sog'-lig'ingiz uchun
cheerless [ˈtʃɪələs] *a* ma'yus, g'amgin, umidsiz
cheerly [ˈtʃɪəlɪ] *adv esk.* 1) o'zini bardam (tetik) tutib, bo'sh kelmay, tetik, bardam; 2) jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan
cheero [ˈtʃɪ(ə)rəo] = **cheerio**
cheers [tʃɪəz] *n* 1) nutq so'zlab qadah ko'tarish; 2) rahmat; 3) xayr
cheery [ˈtʃɪ(ə)rɪ] *a* shod, xursand, vaqtichog'
cheese [tʃi:z] *n* pishloq; ~-**cake** pishloqli pirog
cheese-cloth [ˈtʃi:zklɒθ] *n* doka
cheese-making [ˈtʃi:z,meɪkɪŋ] *n* pishloqpazlik, pishloq pishirish yoki tayyorlash
cheesemonger [ˈtʃi:z,mʌŋgə] *n* pishloq sotuvchi kishi
cheese-paring [ˈtʃi:z,pe(ə)rɪŋ] *n* xasislik
cheesy [ˈtʃi:zɪ] *a* pishloqqa oid
cheetah [ˈtʃi:tə] *n zool.* gepard, chita (*yirtqich hayvon*)
chef [ʃef] *n fr.* bosh oshpaz
chef-d'oeuvre [ˌʃeɪˈdə:vr(ə)] *n fr.* shoh (durdona) asar
cheirognomy [kaɪəˈrɒgnəmɪ] *n* xiromantiya, folbinlik (*kaftdagi chiziqlarga qarab fol ochishdan iborat firibgarlik*)
cheiromancy [ˈkaɪərəmænsɪ] = **chiromancy**
cheiroptera [kaɪəˈrɒptərə] *n pl zool.* qo'lqanotlilar (*sut emizuvchilar otradi*)
chela [ˈki:lə] *n zool.* (*pl* **-ae** [-i:]) panja, changal (*hasharotlarda*)
chelae [ˈki:li:] *pl of* **chela**
chemic I [ˈkemɪk] **1.** *n maxs.* xlorli kalsiy (oqartirish uchun); **2.** *v maxs.* xlorli kalsiy bilan oqartirmoq
chemic II [ˈkemɪk] *a esk.* kimyoviy, kimyoga oid
chemical [ˈkemɪk(ə)l] **1.** *a* kimyoviy; **2.** *n pl* kimyoviy preparatlar
chemically [ˈkemɪk(ə)lɪ] *adv* kimyoviy usulda; kimyoviy jihatdan
chemicals [ˈkemɪk(ə)lz] *n pl* kimyoviy mahsulotlar (preparatlar)
chemise [ʃəˈmi:z] *n* ayollar ko'ylagi
chemisette [ˌʃemi(:)ˈzet] *n* manishka (*ayollar ko'ylagining qadama ko'krak qismi*)
chemism [ˈkemɪz(ə)m] *n kam. maxs.* 1) ximizm (*biror hodisa, modda yoki jarayonning kimyoviy tabiati*); 2) kimyoviy energiya
chemisorption [ˌkemɪˈsɔ:pʃ(ə)n] *n kim.* xemosorbsiya (*moddaning biror jism (xemosorbent) yuzasiga yutilishi*)
chemist [ˈkemɪst] *n* 1) kimyogar; 2) dorixonada ishlovchi
chemistry [ˈkemɪstrɪ] *n* kimyo; **organic** ~ organik kimyo; **inorganic** ~ noorganik (anorganik) kimyo

chemmy [ˈʃemɪ] *n* qimorning bir turi (*qarta o'yinida*)
chemotherapy [ˌkiːməʊˈθerəpɪ] *n tib.* kimyoterapiya (*yuqumli kasalliklarni kimyoviy moddalar bilan davolash*)
chenar [tʃɪˈnɑː] *n fors.* chinor (*daraxt*)
chenille [ʃəˈniːl] *n* baxmal ip, xom ip (*gul tikish, popuk yasash uchun*)
cheque [tʃek] *n* bank cheki
cheque-book [ˈtʃekbʊk] *n* chek daftarchasi
cheque card [ˈtʃekkɑːd] *n* plastik kartochka
chequer [ˈtʃekə] *v* shaxmat tartibida joylashtirmoq
chequerboard [ˈtʃekəbɔːd] = **checkerboard**
chequered [ˈtʃekəd] *a* katak gulli, katak-katak
chequers [ˈtʃekəz] *n* 1) = **checkers**; 2) shaxmat taxtasi; 3) katak gulli material, gazmol
chequer-wise [ˈtʃekəwaɪz] *adv* shaxmat tartibida
chequer-work [ˈtʃekəwɜːk] *n* shaxmat gulli predmet (*kichkina plitalardan qilingan pol va b.*); 2) harf terish ishlari; 3) bezash ishlari
cherish [ˈtʃerɪʃ] *v* 1) umid bog'lamoq; 2) yodda tutmoq
cherished [ˈtʃerɪʃt] qimmatli, ardoqli, aziz, muqaddas, tabarruk
cherishingly [ˈtʃerɪʃɪŋlɪ] *adv* 1) g'amxo'rlik (mehribonlik) bilan, jon kuydirib, avaylab, ardoqlab; 2) muhabbat bilan
cherry [ˈtʃerɪ] **1.** *n* olcha (*mevasi*); **2.** *a* 1) to'q qizil, olcharang; 2) olchadan qilingan
cherry-bay [ˈtʃerɪˌbeɪ] = **cherry-laurel**
cherry-blossom [ˈtʃerɪˌblɒs(ə)m] *n* to'q qizil rang
cherry-bounce [ˈtʃerɪbaʊns] *n so'zl.* 1) = **cherry-brandy**; 2) qandli brendi
cherry-brandy [ˌtʃerɪˈbrændɪ] *n* olchadan qilingan likor (*o'tkir shirin spirtli ichimlik*)
cherry-laurel [ˈtʃerɪˌlɒrəl] *n bot.* taflon (*atirgullilar oilasiga mansub doim yashil janub o'simligi; bargidan dori tayyorlanadi*)
cherry-merry [ˌtʃerɪ ˈmerɪ] *a so'zl.* 1) shod, xursand, vaqti (kayfi, dimog'i) chog'; 2) quvnoq, xushchaqchaq, xushtabiat, masrur
cherry-pie [ˌtʃerɪpaɪ] *n* olchadan qilingan (olchali) pirog
cherry plum [ˈtʃerɪplʌm] *bot.* 1) sariq tog'olcha (*daraxti va mevasi*); 2) yovvoyi olcha
cherry-ripe [ˌtʃerɪˈraɪp] *a* olchadek pishgan
cherry-rum [ˌtʃerɪˈrʌm] *n* olcha solingan rom
cherry-stone [ˈtʃerɪstəʊn] *n* olcha danagi
cherry-tree [ˈtʃerɪtriː] *n* olcha daraxti
cherry-wine [ˈtʃerɪwaɪn] *n* olchadan qilingan (tayyorlangan) vino
chersonese [ˈkɜːsəniːz] *n shoir.* yarimorol
chert [tʃɜːt] *n* kremniyli slanes
cherub [ˈtʃerəb] *n* (*pl* **-s** [-z], **-bim** [-bɪm]) oliy martabali farishta (*xristian dinida*)
cherubic [tʃəˈruːbɪk] *a* farishtadek begunoh
cherubical [tʃəˈruːbɪk(ə)l] = **cherubic**
cherubim [ˈtʃerəbɪm] *pl of* **cherub**
cherubimic, cherubimical [ˌtʃerəˈbɪmɪk, -(ə)l] *kam.* = **cherubic**
chervonets [tʃerˈvɔːnets] *n* (*pl* **-ntsi** [-ntsɪ]) *rus. esk.* chervon (*3, 5 va 10 so'mlik tilla pul*)
chervontsi [tʃerˈvɔːntsɪ] *pl of* **chervonets**
cheskey [ˈtʃeskɪ] *n amer. jarg.* 1) chex; 2) kelib chiqishi chex bo'lgan amerikalik; 2) chex tili
chestnut [ˈtʃesnʌt] *n bot.* kashtan (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong'og'i*)
chess [tʃes] *n* 1) shaxmat; 2) deraza romi
chess-board [ˈtʃesbɔːd] *n* shaxmat taxtasi
chess-clock [ˈtʃesklɒk] *n* shaxmat soati (*shaxmat musobaqalarida foydalaniladigan soat*)
chess-man [ˈtʃesmæn] *n* shaxmat donalari
chess-player [ˈtʃesˌpleɪə] *n* shaxmat o'yinchisi, shaxmatchi
chest [tʃest] *n* sandiq, quti
chested [ˈtʃestɪd] *a* 1) (**-chested**) murakkab so'zlarning tarkibiy qismi (komponenti) sifatida keladi: **deep-chested** botiq ko'krakli; **full-chested** katta ko'krakli (*ayol haqida*); 2) sandiqda, qutida yotgan; 3) *kit.* tobutda yotgan
chesterfield [ˈtʃestəfiːld] *n* katta yumshoq divan
chest-foundering [ˌtʃestˈfaʊnd(ə)rɪŋ] *n vet.* jo'tkiruv, halloslash (*hayvonlar kasali*)
chestnut [ˈtʃesnʌt] **1.** *n bot.* kashtan (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong'og'i*); **2.** *a* jigarrang, qizg'ish
chest-on-chest [ˌtʃestɒnˈdrɒːz] *n amer.* ikki qavatli baland komod (*kiyim-kechak turadigan yashikli javon*)
chest-shot [ˈtʃestʃɒt] *n* koptokni ko'krakdan ikki qo'l bilan savatga tashlash (*basketbolda*)
chest-voice [ˈtʃest,vɒɪs] *n* ichdan (ko'krakdan) chiqariladigan to'la (past) ovoz
chesty [ˈtʃestɪ] *a so'zl.* 1) katta ko'krakli (*ayol haqida*); 2) o'zini katta oladigan, boshqalar bilan hisoblashmaydigan; 3) ichdan
chevage [ˈtʃiːvɪdʒ] *n tar.* jon boshiga solingan soliq
cheval de bataille [ʃəˌvældəbuːˈtuːj] *fr.* (*pl* **chevaux** [ʃəˌvəʊ-]) 1) jangchi ot; 2) *ko'ch.* asosiy dalil
chevalier [ˌʃevəˈlɪə] *n* yigit, yigitcha
chevelure [ˌʃevəˈlʊə] *n fr.* quyuq soch, savatsoch
cheverette [ʃɒvˈret] *n* layka (*mayin teri*)
chevin [ˈtʃevɪn] *n* 1) *zool.* zog'orabaliq; 2) buqacha, novvos
cheviot [ˈtʃevɪət] *n to'q.* sheviot (*jun gazlama*)
chevron [ˈʃevrən] *n* shevron (*muddatidan ortiq harbiy xizmatni davom ettirayotgan harbiylarning yengiga taqiladigan uqa*)
chevron-moulding [ˈʃevrənˌməʊldɪŋ] *n* siniq chiziq shaklidagi ganchkorlik ishlari
chevron-ways [ˈʃevrənweɪz] = **chevron-wise**
chevron-wise [ˈʃevrənwaɪz] *adv* 1) biror nuqtayi nazardan; 2) shevron (uqa) shaklida
chevrotain [ˈʃevrət(e)ɪn] *n zool.* bug'u bolasi
chevy [ˈtʃevɪ] **1.** *n* 1) ov; 2) quvish; **2.** *v* quvmoq
chew [tʃuː] **1.** *n* saqich; **2.** *v* chaynamoq
chewing [ˈtʃuːɪŋ] *n* chaynash, kavshash
chewing-gum [ˈtʃuːɪŋgʌm] *n* chaynaladigan rezinka
Chianti [kɪˈæntɪ] *n* kyanti (*spirt qo'shilmagan qizil vino*)
chiaroscuro [kɪˌɑːrəsˈkʊ(ə)rəʊ] *n ital.* (*rasmda, rassomchilikda*) yorug' va soya tomonlarni munosib bo'yoqlar vositasida ko'rsatish; oqish va qoramtir bo'yoqlar vositasida gavdalantirish (ifodalash)
chibouk [tʃɪˈbuː(ː)k] *n tar.* 1) nay, chilim nayi; 2) qalamcha, novda (*ekish uchun olingan*)
chibouque [tʃɪˈbuː(ː)k] *n* zeb-ziynat, hasham, oliftalik, bashanglik
chic [ʃiː(ː)k] **1.** *n fr.* nazokatlilik, orastalik; **2.** *a* orasta, kelishgan, zebo
chicane [ʃɪˈkem] *n* 1) asossiz ayblash; 2) ishkal chiqarish
chicanery [ʃɪˈkeɪn(ə)rɪ] *n* safsatabozlik
chiccory [ˈtʃɪk(ə)rɪ] = **chicory**
chick [tʃɪk] *n* 1) jo'ja; 2) qush bolasi
chickabidy [ˈtʃɪkəˌbɪdɪ] *n* erkak jo'jacha, xo'rozcha; qushcha
chickaree [ˈtʃɪkəriː] *n zool.* shimoliy Amerika olmaxoni

chicken ['tʃɪkɪn] *n* 1) tovuq; 2) jo'ja; **a brood of ~s** ona tovuqdan ajralmagan jo'jalar; 3) tovuq go'shti
chicken-breast ['tʃɪkɪnbrest] *n tib.* tovuqko'krak, turtib chiqqan (ikki yoni botiq) ko'krak qafasi
chicken-breasted ['tʃɪkɪnbrestɪd] *a tib.* tovuqko'krakli
chicken-cholera ['tʃɪkɪn,kɔlərə] *n vet.* qush (parranda) vabosi
chicken-heart ['tʃɪkɪnhɑ:t] *n* 1) qo'rqoqlik, yuraksizlik, irodasizlik, irodasi sustlik; ruhiy tushkunlik; 2) qo'rqoq, yuraksiz, irodasiz odam
chicken-hearted [,tʃɪkɪn'hɑ:tɪd] *a* qo'rqoq, yuraksiz
chicken-liver ['tʃɪkɪn,lɪvə] *n* qo'rqoq
chicken-livered [,tʃɪkɪn'lɪvəd] = **chicken-hearted**
chicken-pox ['tʃɪkɪnpɔks] *n tib.* suvchechak
chicken wire ['tʃɪkɪn,waɪə] *maxs.* (mayda to'rli) simto'r
chikenwort ['tʃɪkɪnwə:t] = **chickweed**
chickery ['tʃɪk(ə)rɪ] *n* jo'jaxona, jo'ja katagi, jo'jalar yashaydigan katak
chickling I ['tʃɪklɪŋ] *n* hali tuxumdan chiqmagan yoki endigina tuxumdan chiqqan jo'ja
chickling II ['tʃɪklɪŋ] *n bot.* madaniy burchoq (*burchoq – bir yillik dukkakli o'simlik*)
chickling vetch ['tʃɪklɪŋvetʃ] = **chickling I**
chick-pea ['tʃɪkpi:] *n bot.* turk no'xati
chickweed ['tʃɪkwi:d] *n bot.* qum o't (*qumda bo'ladigan bargli o'simlikning nomi*)
chicle ['tʃɪk(ə)l] *n* 1) chikl (*tabiiy kauchuk*); 2) saqich
chicory ['tʃɪk(ə)rɪ] *n bot.* sachratqi (*o'simlik*)
chid [tʃɪd] *past of* **chide**
chidden ['tʃɪdn] *p. p. of* **chide**
chide [tʃaɪd] *v* **(chid; chidden)** so'kmoq, urishmoq, koyimoq
chief [tʃi:f] **1.** *n* 1) boshliq, rahbar; bosh, eng katta, boshchilik qiluvchi; 2) eng muhim, asosiy, bosh; **a ~ problem** eng muhim masala; **2.** *a* rahbarlik qiluvchi
chiefery ['tʃi:fərɪ] *n* (*Irlandiyada*) boshliq (qabila boshlig'i)ning belgilangan haq-huquqlari
chiefly ['tʃi:flɪ] *adv* xususan, ayniqsa
chief-rent ['tʃi:frent] *n tar.* obrok (*krepostnoy dehqonlardan pul yoki mahsulot shaklida olingan to'lovlar*)
chiefry ['tʃi:frɪ] = **chiefery**
chiefship ['tʃi:fʃɪp] *n* boshliqning mavqeyi (jamiyatdagi o'rni)
chieftain ['tʃi:ftən] *n* qabila sardori (boshlig'i)
chieftaincy ['tʃi:ftənsɪ] *n kit.* qabila boshlig'i yoki guruh boshlig'ining jamiyatdagi o'rni va huquqi
chieftainry ['tʃi:ftənrɪ] *n* 1) qabila boshlig'i; 2) boshliqning vakolati, belgilangan haq-huquqlari
chieftainship ['tʃi:ftənʃɪp] = **chieftaincy**
chield [tʃi:ld] *n shotl.* o'spirin, bola, yigitcha
chiff-chaff ['tʃɪftʃæf] *n zool.* qoramtir (kulrang) patli kichkina sayroqi qushcha
chiffon I ['ʃɪfɔn] *n to'q.* shifon (yumshoq mayin ip yoki ipak gazlama)
chiffon II ['ʃɪfɔn] *a* shifonga oid; shifondan tikilgan, shifon ...; **a ~ dress** shifon ko'ylak
chiffonier [,ʃɪfə'nɪə] *n* shifoner (*kiyim shkafi*)
chignon ['ʃi:njɔŋ] *n fr.* shinon (*1. ayollar turmagi: sochlar bo'yin orqasiga to'plab qo'yiladi; 2. shu shakldagi ulama soch*)
chilbain ['tʃɪlbeɪn] *n* sovuqqa oldirib qo'yilgan joy
chilblains ['tʃɪlbeɪnz] *n pl tib.* 1) titrash, qaltirash, badan (et) uvushish; 2) qaltiroq, titroq
child [tʃaɪld] *n* (*pl* **children** ['tʃɪldrən]) chaqaloq, go'dak
child-hearing ['tʃaɪld,be(ə)rɪŋ] *n* tug'ish, bolalash
childbed ['tʃaɪldbed] *n* tug'ish, bolalash
child-birth ['tʃaɪldbə:θ] *n* 1) tug'ish, bolalash; 2) tug'ish (tug'ilish) miqdori
childed ['tʃaɪldɪd] *a kam.* bolali, bolasi bor, bola-chaqali
childhood ['tʃaɪldhʊd] *n* 1) bolalik davri; 2) bolalarga xos; **~ disease** bolalar kasalligi
childie ['tʃaɪldɪ] *n erk. kam.* 1) bolacha, kichkina go'dak; 2) bolagina, bolajon
childish ['tʃaɪldɪʃ] *a* bolalarga xos bo'lgan
childishness ['tʃaɪldɪʃnəs] *n* 1) bolalarga xos soddalik; samimiylik; bolalarga xos xulq-atvor; 2) bolalik, go'daklik, yengiltaklik, bachkanalik
childless ['tʃaɪldləs] *a* bolasiz, befarzand
childlessness ['tʃaɪldləsnəs] *n* bolasizlik, farzandsizlik
childlike ['tʃaɪldlaɪk] *a* oddiy, gunohsiz, samimiy
childly ['tʃaɪldlɪ] **1.** *a she'r.* bolalarga xos bo'lgan; **2.** *adv* bolalarcha ish tutadigan
child-minder ['tʃaɪld,maɪndə] *n* enaga
childness ['tʃaɪldnəs] *n* bolalarga xos soddalik, bolalarga xos xulq-atvor
children ['tʃɪldrən] *n pl* bolalar
child-rites ['tʃaɪldraɪts] *n pl cherk.* (bolalarni) cho'qintirish (xristian diniga kiritish) marosimi
childship ['tʃaɪldʃɪp] *n kit.* 1) o'g'il yoki qizning belgilangan haq-huquqlari; 2) o'g'il qilib olish, o'g'illikka qabul qilish; qiz qilib olish, qiz qilib asrash, farzandlari qatoriga qo'yish
Chilean ['tʃɪlɪən] **1.** *a* Chili va chililiklarga oid; **2.** *n* chililik ayol (*yoki erkak*)
chiliad ['kɪlɪæd] *a* 1) ming; 2) ming yillik
Chilian ['tʃɪlɪən] = **Chilean**
chiliarch ['kɪlɪɑ:k] *n qad. yun.* mingboshi, mingta jangchining boshlig'i
chill [tʃɪl] **1.** *n* sovuq; **2.** *a* salqin; **3.** *v* sovitmoq
chilled [tʃɪld] *a* 1) sovigan, sovitilgan; 2) muzlagan, yaxlagan, muzlatilgan, yaxlatilgan; 3) *metal.* toblangan (*po'lat haqida*)
chiller ['tʃɪlə] *n amer.* 1) sensatsion (*shov-shuv gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan*) roman; 2) detektiv (*maxfiy agentlar hayotiga oid asar*)
chilli ['tʃɪlɪ] *n isp. bot.* qizil garmdori
chilliness ['tʃɪlɪnəs] *n* 1) salqinlik, sovuqlik; 2) *ko'ch.* sovuqlik, rangi sovuqlik; iltifotsizlik, e'tiborsizlik
chilling ['tʃɪlɪŋ] *a* qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, mudhish, bahaybat
chilling-room ['tʃɪlɪŋru(:)m] *n maxs.* muzlatadigan kamera (xona)
chillness ['tʃɪlnəs] *n* 1) sovuq, salqin havo, sovuq shabada; 2) namlik, rutubatlilik
chilly ['tʃɪlɪ] **1.** *a* sovuq; **2.** *adv* sovitib
chimhley ['tʃɪmblɪ] *dial.* = **chimney**
chime [tʃaɪm] **1.** *n* 1) qo'ng'iroq; 2) qo'ng'iroq ovozi, jarangi; **2.** *v* jaranglamoq (*qo'ng'iroqlar haqida*)
chimer I ['tʃaɪmə] *n* qo'ng'iroqchi, qo'ng'iroq chaluvchi (*cherkovda*)
chimer II ['tʃɪmə] *n cherk.* podryasnik (*cherkov ruhoniylarining rido ostidan kiyadigan uzun kiyimi*)
Chimera [k(a)ɪ'mɪ(ə)rə] *n* xomxayol; amalga oshmaydigan orzu
chimere [tʃɪ'mɪə] = **chimer II**
chimeric(al) [kaɪ'merɪk(ə)l] *a* amalga oshmaydigan
chimney ['tʃɪmnɪ] *n* mo'ri
chimney-cap ['tʃɪmnɪkæp] *n* mo'rining qalpog'i
chimney-corner ['tʃɪmnɪ,kɔ:nə] *n* 1) kamin yaqinidagi joy; 2) qulay va issiq burchak
chimney-hook ['tʃɪmnɪhʊk] *n* choynak va boshqa narsalar olov ustiga osib qo'yiladigan ilgakli narsa
chimney-piece ['tʃɪmnɪpi:s] *n* kamin (*o'choqsimon uy pechkasi*)ning ustidagi taxtadan qilingan tokcha

chimney-shaft [ˈtʃɪmnɪʃɑ:ft] = **chimney-stalk**
chimney-stack [ˈtʃɪmnɪstæk] *n* mo'ri
chimney-stalk [ˈtʃɪmnɪstɔ:k] = **chimney-stack**
chimney-sweep [ˈtʃɪmnɪswi:p] *n* mo'ri tozalovchi
chimney-sweeper [ˈtʃɪmnɪˌswi:pə] = **chimney-sweep**
chimp [tʃɪmp] *n so'zl.* shimpanze (*odamsimon maymun*)
chimpanzee [ˌtʃɪmpænˈzi:] *n zool.* shimpanze (*odamsimon maymun*)
chin [tʃɪn] *n* iyak, engak
China [ˈtʃaɪnə] *a* Xitoy va xitoyliklarga oid
china [ˈtʃaɪnə] **1.** *n* chinni, chinni buyumlar; **2.** *a* chinnidan qilingan (yasalgan)
China-clay [ˌtʃaɪnəˈkleɪ] *n* chinnibop (chinni qilinadigan) loy: kaolin, chinnigil, oqgil
china-closet [ˈtʃaɪnəˌklɒzɪt] *n* bufet (*idish-tovoq javoni*)
China-crape [ˈtʃaɪnəkreɪp] *n esk.* krep-deshin (*ипқа, pishiq ipak gazmol*)
China ink [ˌtʃaɪnəˈɪŋk] *n* Xitoy tushi
Chinaman [ˈtʃaɪnəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) xitoylik
chinaman [ˈtʃaɪnəmən] *n* chinni buyumlarni sotuvchi
chinamania [ˌtʃaɪnəˈmeɪnɪə] *n* eski chinni buyumlarni to'plashni juda yaxshi ko'rish
Chinatown [ˈtʃaɪnətaʊn] *n* xitoyliklar mahallasi (*Nyu-York va b. shaharlarda*)
china-ware [ˈtʃaɪnəweə] *n* chinni buyumlar
Chinawoman [ˈtʃaɪnəˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) xitoylik ayol
chincapin [ˈtʃɪŋkəpɪn] *n bot.* past bo'yli (pastak) kashtan (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong'o-g'i*)
chinch [tʃɪntʃ] *n* 1) hayvon umurtqasi; 2) dara
chinchilla [tʃɪnˈtʃɪlə] *n* 1) *zool.* shinshilla (*1. olmaxonsimon mo'ynali kemiruvchi hayvon; 2. kumushsimon ko'kish mo'ynali uy quyoni*); 2) shinshilla mo'ynasi
chin-chin [ˌtʃɪnˈtʃɪn] **1.** *v hazil.* salom bermoq; ezgu tilaklar tilamoq; **2.** *int. hazil.* salom, assalomu alaykum
chine [tʃaɪn] *n* 1) hayvon umurtqasi; 2) suyaksiz go'sht; 3) tog' tizmasi; 4) dara
Chinee [tʃaɪˈni:] *n* xitoylik
Chinese [ˌtʃaɪˈni:z] **1.** *a* Xitoy va xitoyliklarga oid, xitoycha; **2.** *n* xitoylik erkak (*ayol*)
chink [tʃɪŋk] **1.** *n* 1) jaranglash (*stakan; tanga haqida*); 2) kovak; tirqish; yoriq; **2.** *v* jaranglamoq
chinkapin [ˈtʃɪŋkəpɪn] = **chinquapin**
chinky [ˈtʃɪŋkɪ] *a* yorig'i (tirqishi, teshigi) ko'p, serkovak, sertirqish, serteshik
chinless [ˈtʃɪnləs] *a* 1) iyaksiz, engaksiz; 2) *ko'ch.* irodasi bo'sh (sust); irodasiz
chin-music [ˈtʃɪnˌmju:zɪk] *n amer. jarg.* 1) bekorchi gap, safsata; 2) gap sotish, valdirash
chino [ˈtʃi:nəʊ] *n to'q.* pishiq ip gazlama
chinoiserie [ˌʃi:nwɑ:zəˈri:] *n fr.* Xitoy buyumlari (*asos., kashta, chinni va b. haqida*)
chinquapin [ˈtʃɪŋkəpɪn] *n bot.* pastak (*past bo'yli*) kashtan (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong'og'i*)
chinse [tʃɪns] *v* 1) *dial.* tirqishlarni bekitmoq; 2) *deng.* teshik (tirqish)larni los tiqib berkitmoq
chintz [tʃɪnts] *n* chit
chin-wag [ˈtʃɪnwæg] *n jarg.* bekorchi gap, safsata, ortiqcha gap-so'zlar, bema'ni (bemaza) gap
chip [tʃɪp] **1.** *n* mayda tarasha; **2.** *v* rang-lamoq
chip-ax [ˈtʃɪpˌbɑ:skɪt] *n* oshpichoq, chopqi, boltacha
chipmuck [ˈtʃɪpmʌk] = **chipmunk**
chipmunk [ˈtʃɪpmʌŋk] *n* olasichqon
chipped [tʃɪpt] *a* 1) o'nqir-cho'nqir, o'yilgan, tekis (silliq) emas; 2) shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*) to'shalgan
chipper I [ˈtʃɪpə] *n* 1) tosh yo'nuvchi, toshtarosh; 2) yog'och (daraxt) kesuvchi ishchi
chipper II [ˈtʃɪpə] *a amer.* tetik, bardam, g'ayratli, chaqqon, serg'ayrat, serharakat; sho'x
chipper III [ˈtʃɪpə] *v amer. dial.* vaqtini chog' qilmoq, quvontirmoq, shodlantirmoq, ko'nglini ochmoq
chipper IV [ˈtʃɪpə] *v* 1) chug'ur-chug'ur (vijir-vijir, chiyov-chyov) qilmoq, chug'urlamoq, vijirlamoq, chug'ur-chug'ur sayramoq (*qushlar haqida*); 2) *so'zl.* bidirlab (bijirlab) gapirmoq, chug'urlamoq, bijirlamoq, bidir-bidir gapirmoq (*bolalar haqida*)
chippie [ˈtʃɪpɪ] = **chippy**
chipping [ˈtʃɪpɪŋ] *n* 1) zubilo (*temir kesish, tosh tarashlash va sh. k. ishlarda qo'llaniladigan iskanasimon asbob*) bilan tozalash (tozalab tashlash); 2) *pl* parcha, bo'lak, siniq; qirindi, payraxa; shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*)
chipping-squirrel [ˌtʃɪpɪŋ ˈskwɪrəl] = **chipmunk**
chippy [ˈtʃɪpɪ] *a* 1) dami (tig'i) qaytgan (*pichoq to'g'risida*); 2) singan (*idishning cheti to'g'risida*)
chirk [tʃɜ:k] **1.** *a amer. so'zl.* xursand, quvnoq; **2.** *v* xursandchilik (vaqtichog'lik) qilmoq
chirl [tʃɜ:l] **1.** *n* qushlarning churullab sayrashi; **2.** *v* churullab sayramoq (*qushlar haqida*)
chirm [tʃɜ:m] *n* qushning sayrashi
chirognomist [kaɪ(ə)ˈrɒgnəmɪst] *n* xiromant; folbin; folbin ayol
chirognomy [kaɪ(ə)ˈrɒgnəmɪ] *n* xiromantiya, folbinlik (*kaftdagi chiziqlarga qarab fol ochishdan iborat firibgarlik*)
chirograph [ˈkaɪ(ə)rəgrɑ:f] *n yur.* 1) xirograf (*qo'lda yozilgan hujjat*); 2) jarima solinganligi haqidagi hujjat
chirographer [ˌkaɪ(ə)ˈrɒgrəfə] *n* 1) = **chirographist**; 2) *tar.* (*jarima yig'ish bilan shug'ullanadigan*) sud ijrochisi
chirographic [ˌkaɪ(ə)rəˈgræfɪk] *a kit.* 1) husnixatga oid, husnixat...; 2) o'z qo'li bilan qilingan, o'zi qilgan
chirographist [ˌkaɪ(ə)ˈrɒgrəfɪst] *n kit.* mirza, kotib; nusxa ko'chiruvchi
chirography [ˌkaɪ(ə)ˈrɒgrəfɪ] *n kit.* husnixat
chiromancer [ˌkaɪ(ə)rəmænsə] *n* xiromant, folbin (*kaftdagi chiziqlarga qarab fol ochadigan erkak yoki ayol*)
chiromancy [ˈkaɪ(ə)rəmænsɪ] *n* qo'lga qarab bashorat qilish
chiropodist [kɪˈrɒpədɪst] *n* qadoqlarni kesuvchi xodim
chiropody [kɪˈrɒpədɪ] *n* pedikur (*oyoq tirnoqlariga pardoz berish va qadoqlarni kesish*)
chiroptera [kɪˈrɒptərə] *n zool.* qo'lqanotlilar (*sut emizuvchilar otradi*)
chirp [tʃɜ:p] *n* chug'urlash (*qush to'g'risida*)
chirper [ˈtʃɜ:pə] *n* 1) sayroqi qush; 2) *ko'ch.* bidirlab gapiruvchi (bidir-bidir) bola
chirpy [ˈtʃɜ:pɪ] *a* quvnoq, xushchaqchaq, shod, xursand
chirr [tʃɜ:] **1.** *n* chirillash; **2.** *v* chirillamoq
chirrup [ˈtʃɪrəp] **1.** *n* 1) qushlarning sayrashi; 2) chug'ullash; **2.** *v* chug'ur-chug'ur qilib sayramoq (*qushlarga oid*)
chirruper [ˈtʃɪrəpə] *n jarg.* klakyor (*burjua mamlakatlarida: yollanma olqishchi yoki yollanma hushtakboz*)
chirrupy [ˈtʃɪrəpɪ] *a* 1) sayroqi, chug'ur-chug'ur (vijir-vijir) qiluvchi (*qushlar haqida*); 2) sergap, ezma, gapni (suhbatni) yaxshi ko'radigan; 3) xushchaqchaq, quvnoq, shodmon, ruhi ko'tarilgan, kayfi chog'

chirt [tʃɜːt] *v shotl.* siqib suvini chiqarmoq, siqib suvini olmoq; siqib suvini chiqarib tashlamoq; ezmoq, siqmoq

chirurgeon [k(a)ɪˈrɜːdʒ(ə)n] *n esk.* xirurg, jarroh

chirurgery [k(a)ɪˈrɜːdʒ(ə)rɪ] *n esk.* xirurgiya, jarrohlik

chisel I [ˈtʃɪz(ə)l] **1.** *n* 1) *tex.* iskana; 2) kesish asbobi, keskich; **2.** *v tex.* iskana bilan ishlamoq

chisel II [ˈtʃɪz(ə)l] *n* kepak, chori; elakdan qolgan chiqit

chiselled [ˈtʃɪz(ə)ld] *a* charxlangan

chiseller [ˈtʃɪz(ə)lə] *n* 1) zarb qiluvchi (bosuvchi, chekuvchi, o'yuvchi) usta; 2) o'ymakor usta, o'ymakor naqqosh; 3) *maxs.* kesadigan (qirqadigan) ishchi; kesuvchi, qirquvchi; 4) *so'zl.* muttaham, qalloh, firibgar, aldamchi, tovlamachi

chiselling [ˈtʃɪz(ə)lɪŋ] *n* 1) (*marmardan*) kesib (o'yib) naqsh solmoq; 2) (*daraxtdan*) o'yib naqsh solmoq; 3) o'ymakorlik, o'yma naqsh solish; o'yma naqsh, tasvir; 4) *q.x.* kultivator mashina (chizel) bilan yerni chuqur haydash

chit [tʃɪt] **1.** *n* 1) chaqaloq, go'dak; 2) nish, nihol; 3) qisqa xat; **2.** *v* nish urmoq

chit-chat [tʃɪttʃæt] *n* bekorchi gap, safsata

chitin [ˈkaɪtɪn] *n biol.* xitin (*qattiq organik modda*)

chitling [ˈtʃɪtlɪŋ] *n* 1) *dial. amer.* ichak-chovoq (*so'yilgan hayvonlarning qorin, ichak va sh. k. lari*); 2) *pl amer.* yirtiq-sirtiq (juldur) kiyim; uvada, eski-tuski, latta-putta kiyim-kechak

chiton [ˈkaɪt(ə)n] *n* xiton (*qadimiy yunonlar kiyimi*)

chitter [ˈtʃɪtə] *v dial.* 1) chug'urlamoq, chiriqlamoq, chirillamoq; 2) sovuqdan qaltiramoq (titramoq)

chitterling I [ˈtʃɪtəlɪŋ] *n pl* 1) ichak-chovoq (*so'yilgan hayvonlarning qorin, ichak va sh. k. lari*); kalla-pocha; 2) burma (*ko'ylakning qadama ko'krak qismida*); jabo (*yoqaning chetidagi to'r yoki matodan qilingan burma hoshiya*)

chitterling II [ˈtʃɪtəlɪŋ] *n* 1) chaqaloq, go'dak; 2) kichkina qizcha

chitterlings [ˈtʃɪtəlɪŋz] *n pl* ichak-chovoq

chitty I [ˈtʃɪtɪ] *n* 1) kichkina maktub (xat); 2) hisob, hisob-kitob; 3) tavsiyanoma; tavsifnoma

chitty II [ˈtʃɪtɪ] *a esk.* 1) sepkilli, sepkil bosgan, sepkildor, sepkil...; 2) so'galli, so'gal bosgan, serbuqoq

chitty III [ˈtʃɪtɪ] *a* 1) zaif, nimjon, darmonsiz, kuchsiz, holsiz, oriq, bemajol; kasalmand, dardchil; 2) qo'lidan hech narsa kelmaydigan, o'zini eplay olmaydigan, ojiz, nochor, notavon

chivalresque [ˌʃɪvə(ə)lˈresk] *a kit.* ritsar(lar)ga oid; ritsar(lar)...

chivalric [ˈʃɪv(ə)lrɪk] = **chivalrous**

chivalrous [ˈʃɪv(ə)lrəs] *a* ritsarlarga oid

chivalrously [ˈʃɪv(ə)lrəslɪ] *adv* 1) ritsarlarcha; 2) oliyjanoblik bilan, himmat bilan, vijdonan, mardonavor, muruvvat bilan, oliyjanoblik qilib, himmat kamarini bog'lab

chivalry [ˈʃɪv(ə)lrɪ] *n* ritsarlik unvoni

chive I [tʃaɪv] *n bot.* nish (*sepilgan urug'dan chiqqan*) piyoz

chive II [tʃaɪv] *n jarg.* pichoq

chivied [ˈtʃɪvɪd] *a* juda charchagan

chlamydes [ˈklæmɪdiːz] *pl of* **chlamys**

chlamys [ˈklæmɪs] *n* (*pl shun.* **-mydes** [-diːz]) xlamida (*qadimiy yunonistonlik va rimlik erkaklarning plashga o'xshash kiyimi*)

chlorella [klə(ʊ)ˈrelə] *n bot.* xlorella (*sun'iy sharoitda tez ko'payadigan oqsil va moyga boy, mayda, bir hujayrali, yashil suvo't*)

chloric [ˈklɔːrɪk] *a kim.* xlorli; ~ **acid** xlor kislotasi

chloride [ˈklɔːraɪd] *a kim.* xlorli

chlorinate [ˈklɔːrɪneɪt] *v kim.* 1) xlorlamoq, xlor bilan tozalamoq; 2) xlor bilan ishlov bermoq, tarkibiga xlor kiritmoq

chlorinated [ˈklɔːrɪneɪtɪd] *a* 1) xlorlangan, xlorli; xlor bilan tozalangan; 2) xlor bilan ishlov berilgan, tarkibiga xlor kiritilgan

chlorination [ˌklɔːrɪˈneɪʃ(ə)n] *n kim.* xlorlash, xlor bilan tozalash

chlorine [ˈklɔːriːn] **1.** *n kim.* xlor (*kimyoviy element*); **2.** *a* och ko'k, ko'k rang, yashil

chlorite I [ˈklɔːraɪt] *n min.* xlorit (*xlorli minerallarning bir turi*)

chlorite II [ˈklɔːraɪt] *n kim.* xlorit (*xlorli kislota tuzi*)

chloroform [ˈklɒrəfɔːm] **1.** *n* xloroform (*ko'pincha, narkoz uchun qo'llaniladi, shirinroq hidli suyuqlik*); **2.** *v* xloroform bermoq (*xloroform yordamida uyquga ketkazmoq*)

chloroformization [ˌklɒrəˌfɔːm(a)ɪˈzeɪʃ(ə)n] *n tib.* xloroform berish (*xloroform yordamida uyquga ketkazish*)

chlorophyll [ˈklɒrəfɪl] *n bot.* xlorofill (*o'simlikka yashil rang berib turuvchi modda*)

chloropicrin [ˌklɔːrəˈpɪkrɪn] *n kim.* xlorpikrin (*rangsiz o'tkir hidli, moysimon suyuqlik; tuproqni dezinfeksiyalashda va zaharlovchi modda sifatida qo'llaniladi*)

chloroprene [ˈklɔːrəpriːn] *n kim.* xloropren (*rangsiz suyuqlik*)

chlorosis [klɔːˈrəʊsɪs] *n* 1) *tib.* kamqonlik (*qon tanachalarida gemoglobin yetishmasligi natijasida paydo bo'ladigan kasallik*); 2) *bot.* rangsizlik, o'z rangini yo'qotish (*o'simliklarda xlorofill moddasi yetishmasligidan hosil bo'ladigan kasallik*)

chlorous [ˈklɔːrəs] *a kim.* xlorli; ~ **acid** xlor kislotasi

chock [tʃɒk] **1.** *n* 1) pona; 2) tirgovich, tirak; **2.** *v* tirgak qo'ymoq

chock-a-block [ˌtʃɒkəˈblɒk] *a so'zl.* liq, to'la

chock-full [ˌtʃɒkˈfʊl] *a* liq to'lgan, limlim bo'lgan, niqtalab joylashtirilgan

chocolate [ˈtʃɒklɪt] *n* shokolad

chocolate-house [ˈtʃɒklɪthaʊs] *n esk.* 1) qandolat do'koni; 2) qahvaxona

choice [tʃɔɪs] **1.** *n* tanlab olish; **2.** *a* eng yaxshi, tanlangan, saralangan

choiceful [ˈtʃɔɪsf(ə)l] *a* 1) injiq, nozik tabiatli, tabiati nozik; 2) tanlash imkoniyatini beruvchi

choicely [ˈtʃɔɪslɪ] *adv* 1) tanlab; 2) ehtiyot bo'lib

choiceness [ˈtʃɔɪnəs] *n kit.* 1) tanlanganlik, saralanganlik, saralik, eng yaxshilik, a'lo (yuqori) sifatlilik; 2) yuqori sifat

choir [ˈkwaɪə] **1.** *n* 1) xor ansambli; 2) cherkov xori; **2.** *v* xor bo'lib kuylamoq

choir-boy [ˈkwaɪəbɔɪ] *n* 1) ashulachi bola; 2) bolalar xori qatnashchisi

choir-master [ˈkwaɪəˌmɑːstə] *n* xormeyster (*xor rahbari*)

choise [tʃɔɪs] *shotl.* = **choose**

chokage [ˈtʃəʊkɪdʒ] *n* iflos qilish, bulg'ash

choke [tʃəʊk] **1.** *n* bo'g'ish, bo'g'ib o'ldirish; **2.** *v* bo'g'moq, bo'g'ib o'ldirmoq; **to ~ down** qiyinchilik bilan (zo'rg'a) yutmoq

choke-coil [ˈtʃəʊkkɔɪl] *n* drossel (*tok kuchini tartibga solish*) g'altagi

choke-damp [ˈtʃəʊkdæmp] *n* bo'g'uvchi gaz (*konlarda*)

choke-full [ˌtʃəʊkˈfʊl] *a* liq to'la, tiqilinch

choker [ˈtʃəʊkə] *n* bo'g'uvchi

choke-proof [ˈtʃəʊkəpruːf] *a jarg.* (yerga) botmaydigan (*qishloq xo'jaligi mashinalari haqida*)

chokidar [ˈtʃəʊkɪdɑː] *hind. n* qorovul, soqchi, qo'riqchi

choking [ˈtʃəʊkɪŋ] **1.** *n* 1) bo'g'ilish, nafas qaytish; 2) bo'g'ish, bo'g'ib o'ldirish, gaz bilan zaharlab o'ldirish; 3) iflos qilish, bulg'ash; 4) tiqishtirish, tiqilinch qilib qo'yish; 5) *maxs.* yutish, shimish, singdirish, o'ziga olish; **2.** *a*

dim. dimiqtiradigan, nafasni qaytaradigan
choking-coil [ˈtʃəʊkɪŋkɔɪl] *n el.* drossel (*tok kuchini tartibga soluvchi g'altak*)li katushka
chokingly [ˈtʃəʊkɪŋlɪ] *adv* (*hayajondan*) harsillab, entikib
choky [ˈtʃəʊkɪ] *a* nafasni qaytaradigan
cholecyst [ˈkəʊlɪsɪst] *n anat. kam.* o't pufagi (qopchasi); o'taka
cholecystitis [ˌkəʊlɪsɪsˈtaɪtɪs] *n tib.* o't pufagining yallig'lanishi, xoletsistit
cholelith [ˈkɒlɪθlɪθ] = **chololith**
choler [ˈkɒlə] *n* g'azab, nafrat, qahr, jahl, zarda
cholera [ˈkɒlərə] *n tib.* vabo
choleraic [ˌkɒləˈreɪɪk] *a tib.* vaboga oid
choleric [ˈkɒlərɪk] *a* vaboga yo'liqqan
cholerine [ˈkɒlər(ə)m] *n tib.* xolerina (*kuchli oshqozon kasalligi*)
cholesterin [kəˈlestərɪn] *esk.* = **cholesterol**
cholesterol [kəˈlestərɒl] *n* xolesterin (*organizmda, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarida bo'ladigan va hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan yog'simon modda*)
choline [ˈkəʊliːn] *n kim.* xolin (*B guruhiga mansub vitaminlar*)
chololith [ˈkɒləlɪθ] *n tib.* o't (safro)dagi tosh
choltry [ˈtʃɒltrɪ] = **choultry**
chomp [tʃɒmp] *amer. dial.* chapillatib chaynamoq, chapillatmoq, chaynamoq, kavshamoq
chondral, chondric [ˈkɒndr(ə), ˈkɒndrɪk] *a anat.* kemirchakka (tog'ayga) oid; kemirchakdan (tog'aydan) iborat, kemirchak (tog'ay)...
chondrite [ˈkɒndraɪt] *n paleont. min.* xondrit (*tosh meteoritlarning eng ko'p tarqalgan turi*)
choose [tʃuːz] *v* **(chose; chosen)** tanlamoq
chooser [ˈtʃuːzə] *n* tanlovchi kishi
choos(e)y [ˈtʃuːzɪ] *a so'zl.* injiq, nozik tabiatli
choosingly [ˈtʃuːzɪŋlɪ] *adv* xohlaganini, didiga yoqqanini, tanlab-tanlab
choosy [ˈtʃuːzɪ] *a so'zl.* injiq, noziktabiat(li), tabiati nozik
chop [tʃɒp] **1.** *n* 1) (*bolta va b. bilan*) chopish; 2) to'qmoqlangan go'shtdan tayyorlangan kotlet; **2.** *v* kesmoq
chop-chop [ˌtʃɒpˈtʃɒp] *adv* 1) *amer. so'zl.* tez-tez; 2) *gram. int.* qani, qimirla! qo'zg'al! tezroq!
chop-house [ˈtʃɒphaʊs] *n* arzon restoran
chop-in [ˈtʃɒpˈɪn] *n* 1) qirqish, kesish, qirqib (kesib) olish, qirqib (kesib) tashlash, butash; 2) sharikni kesib urish (*tennisda*)
chopin [ˈtʃɒpɪn] *n* yarim shtof, yarim shtof miqdoridagi (*shtof – chelakning o'ndan bir qismiga teng keladigan o'lchov birligi va shu miqdordagi vino, araq*)
chopped [ˈtʃɒpt] *a* to'g'ralgan, qiymalangan; ~ **meat** qiyma go'sht
chopper [ˈtʃɒpə] *n* 1) qassobning pichog'i; 2) *hind.* poxol yopilgan tom, poxolli tom
chopper switch [ˈtʃɒpəswɪtʃ] *n* rubilnik (*kuchli elektr toklarini ulash va uzish uchun ishlatiladigan moslama*)
chopping I [ˈtʃɒpɪŋ] *n* 1) kesish, chopish, yorish; to'g'rash, qiymalash, tilish; (o'tin) yorish; (*poxol va b. ni*) maydalab qirqish; 2) go'sht-qiymalagichdan o'tkazish; 3) *q.x.* yaganalash, yagana qilish, siyraklashtirish
chopping II [ˈtʃɒpɪŋ] *a* 1) bo'ychan, daroz, novcha; 2) sog'lom, baquvvat, tetik, chidamli, bardam
choppy [ˈtʃɒpɪ] *a* tez-tez o'zgarib turadigan; birdan kuchayib, yana pasayib ketadigan (*shamol*)
chop-sticks [ˈtʃɒpstɪks] *n pl* ovqat yeyish uchun ishlatiladigan tayoqchalar (*xitoyliklar, koreyaliklar va yaponiyaliklarda*)
chop-suey [ˌtʃɒpˈsuːɪ] *n* xitoylar jarkopi
choragi [kɒˈreɪdʒaɪ] *pl of* **choragus**
choragus [kɒˈreɪgəs] *n* (*pl* **-gi** [-dʒaɪ]) orkestr yoki xor rahbari
choral [ˈkɔːrəl] **1.** *n mus.* xoral (*cherkovda ko'p ovoz bo'lib aytiladigan qo'shiq va shu shakldagi musiqali pyesa*); **2.** *a* xorga oid, xor bilan aytiladigan
choralist [ˈkɔːrəlɪst] *n* xorda ashula aytuvchi kishi
chorally [ˈkɔːrəlɪ] *adv* xor bo'lib, xor bilan
chord [kɔːd] *n* 1) tor (*sim, ip*); 2) akkord (*turli balandlikdagi bir necha tovushning hamohang birligi*)
chorda [ˈkɔːdə] *n anat.* xorda (*ba'zi hayvonlarning umurtqa suyagi o'rnidagi elastik o'q skeleti; ko'pincha, u umurtqa suyagiga aylanadi*)
chordae [ˈkɔːdiː] *pl of* **chorda**
chordal [ˈkɔːd(ə)l] *a shoir.* torga oid; torli, tor...
chorded [ˈkɔːdɪd] *a kit.* 1) o'zaro mos, monand, muvofiq, uyg'un; bir-biriga to'g'ri keladigan; 2) ohangdosh, hamohang
chore [tʃɔː] *n amer.* 1) kunlik (kundalik) ish; 2) fermadagi qo'shimcha ish; 3) og'ir yoki yomon ish
chorea [kɒˈrɪə] *n tib.* shaytonlash (*kasallik*)
choree [kɒˈriː] *n she'r.* xorey (*she'riy vazn*)
choregi [kɒˈriːdʒaɪ] *pl of* **choregus**
choregus [kɒˈriːgəs] *n* (*pl* **-gi** [-dʒaɪ]) = **choragus**
choregy [ˈkɒrɪdʒɪ] *n* xor boshlig'ining mansabi (*qadimgi yunon teatrida*)
choreic [kɒˈriːɪk] *a she'r.* xorey (*she'r vazni*) bilan yozilgan
choreograph [ˈkɒrɪəgrɑːf] *kam.* = **choreographer**
choreographer [ˌkɒrɪˈɒgrəfə] *n* balet-meyster (*raqslarni sahnalashtiruvchi rahbar*)
choreographic [ˌkɒrɪəˈgræfɪk] *a* xoreografiyaga oid; xoreografik
choreography [ˌkɒrɪˈɒgrəfɪ] *n* xoreografiya (*raqs san'ati*)
choriamb [ˈkɒrɪæm(b)] *n she'r.* xoriyamb (*xorey va yamb she'r vaznlaridan tashkil topgan to'rt bo'g'inli turoq*)
choriambic [ˌkɒrɪˈæmbɪk] *a she'r.* xoriyambik, xoriyambga oid, xoriyamb...
choric [ˈkɒrɪk] *a* xorga oid, xor bilan aytiladigan, xor...
chorine [ˈkɔːriːn] *n amer.* xorda qatnashadigan ashulachi (*ayol*)
chorister [ˈkɒrɪstə] *n* xorda qatnashadigan ashulachi
choristic, choristical [kəˈrɪstɪk, -(ə)l] *a kam.* xorga oid, xor bilan (bo'lib) aytiladigan, xor...
chorography [kəˈrɒgrəfɪ] *n* joyning topografik tasviri
choroid [ˈkəʊrɔɪd, ˈkɔːrɔɪd] *n anat.* tomirli po'stloq
chorometry [kəʊˈrɒmɪtrɪ, kɔːˈrɒmɪtrɪ] *n top.* 1) chegaralash, chegaralarini belgilash, chegaralarini belgilab ajratish; 2) rasmga tushirish, planga olish
chortle [ˈtʃɔːtl] **1.** *n* qiqirlab (hiringlab) kulish; **2.** *v* past ovozda kulmoq
chorus [ˈkɔːrəs] **1.** *n* xor, xor guruhi; **2.** *v* xor bilan qo'shiq aytmoq, xor bilan qaytarmoq
chose [tʃəʊz] *past of* **choose**
chosen [ˈtʃəʊz(ə)n] **1.** *p. p. of* **choose; 2.** *a* tanlangan, tanlab olingan
chota hazri [ˈtʃəʊtəˈhɑːzrɪ] *hind.* ertalabki yengil nonushta
chough [tʃʌf] *n zool.* baland tog'larda yashaydigan qizil tumshuq zog' (qarg'a)
choultry [ˈtʃaʊltrɪ] *n hind.* karvonsaroy
chouse [tʃaʊs] **1.** *n so'zl.* muttahamlik, firibgarlik; **2.** *v* aldamoq
chow [tʃaʊ] *n* chau (*xitoy itlarining bir turi*)
chow-chow [ˈtʃaʊtʃaʊ] *n xitoy.* aralashma, qorishiq narsa
chowder [ˈtʃaʊdə] *n amer.* sabzavot, cho'chqa go'shti, molluskalar va baliqlardan tayyorlangan quyuq yovg'on sho'rva

chrestomathy [kres´tɒməθɪ] *n kit.* 1) xrestomatiya (*ta'limning biror sohasi bo'yicha muayyan ichki tamoyillar asosida tartib bilan berilgan o'quv kitobi*); 2) matnlar majmuyi

chrism [´krɪz(ə)m] *n cherk.* cherkovlarda ishlatiladigan maxsus zaytun moyi

chrismatory [´krɪzmət(ə)rɪ] *n cherk.* 1) surtish, surkash (*cherkovda cho'qintirish yoki o'lim oldidan va podsholarning taxtga chiqishi munosabati bilan peshanasiga „muqaddas" yog'ni krest shaklida surkash marosimi*); 2) (*xristianlarda*) xushbo'y moy (miro) surtish marosimi

chrisom [´krɪz(ə)m] *n cherk.* 1) yaqinda (endigina) cho'qintirilgan bola; 2) cho'qintirilgan o'g'il (*cho'qintirgan ota-onaga nisbatan*); 3) begunoh (gunohsiz) bola

chrisom-babe, chrisom-child [krɪz(ə)mbeɪb, -tʃaɪld] *n* 1) endigina cho'qintirilgan bola; 2) cho'qintirilgan o'g'il (*cho'qintirgan ota-onaga nisbatan*)

chrisom-cloth, chrisom-robe [´krɪz(ə)mklɒθ, -rəʊb] *n* cho'qintirish vaqtida kiyiladigan ko'ylak

Christ [kraɪst] *n* xristian; masih; *so'zl.* qutqaruvchi, xaloskor

christ-cross [´krɪskrɒs] *n dial.* alifbo, alfavit

christen [´krɪs(ə)n] *v* cho'qintirmoq

Christendom [´krɪs(ə)ndəm] *n* xristianlar olami

christening [´krɪs(ə)nɪŋ] *n* cho'qintirish

Christian [´krɪstʃən] *a* xristian diniga va xristianlarga oid

Christianity [ˌkrɪstɪ´ænɪtɪ] *n* xristianlik, xristian dini

christianize [´krɪstɪənaɪz] *v* xristian diniga kiritmoq

Christian-like [´krɪstɪənlaɪk] *adv* xristianlarcha, xristianlarga o'xshab, xristianlardek

Christless [´kraɪstləs] *a din.* xristian diniga oid bo'lmagan

Christmas [´krɪsməs] *n* rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*)

Christmas-box [´krɪsməsbɒks] *n* rojdestvo sovg'alari solingan quti

Christmas Day [´krɪstməsdeɪ] *n* 1) rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*) (*25- dekabr*); 2) rojdestvo bayramining birinchi kuni

Christmas Eve [ˌkrɪstməs´i:v] *n cherk.* arafa (*rojdestvo bayramining arafasi; 24- dekabr*)

Christmassy [´krɪsməsɪ] *a so'zl.* rojdestvo (milod) bayramiga oid, rojdestvo bayramida bo'ladigan

Christmas-tide [´krɪsməstaɪd] *n* svyatki (*rojdestvo bayrami kunlari*)

Christmas-tree [´krɪsməstrɪ:] *n* rojdestvo archasi

chroma [´krəʊmə] *n maxs.* rangning quyuqligi

chromate [´krəʊmeɪt] *n kim.* xromat (*sariq rangga bo'yalgan xrom kislotasining tuzi*)

chromatic [krə´mætɪk] *a* yorqin rangli

chromatics [krə´mætɪks] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) rang hamda bo'yoqlar to'g'risidagi ilm, rangshunoslik

chromatin [´krəʊmətɪn] *n biol.* xromatin (*o'simlik va hayvon hujayralari yadrosidagi xromosoma moddasi*)

chromatype [´krəʊmətaɪp] = **chromatics**

chrome [krəʊm] *n* 1) sariq bo'yoq; 2) sariq rang

chromic [´krəʊmɪk] *a kim.* xromga oid, xromlangan, xromli

chromite [´krəʊmaɪt] *n min.* 1) xromit (*tarkibida xrom va temir bo'lgan mineral*); 2) xromli temirtosh

chromium [´krəʊmɪəm] *n kim.* xrom (*och kulrang tusli qattiq kimyoviy element*)

chromize [´krəʊmaɪz] *v tex.* xromlamoq, xrom (bilan) qoplamoq

chromo [´krəʊməʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) *so'zl.* **chromolithograph** *ning qisqartma shakli*

chromolithograph [ˌkrəʊmə(ʊ)´lɪθəgrɑ:f] *n* xromolitografiya (*litografik usulda bir necha rangda kitob, jurnal va h. k. bosish*)

chromolithography [ˌkrəʊmə(ʊ)lɪ´θɒgrəfɪ] *n poligr.* 1) xromolitografiya (*litografik usulda bir rangda kitob, jurnal va h. k. bosish*); 2) oleografiya (*1. moybo'yoq bilan ishlangan rasmlardan ko'plab nusxa chop qilish usuli; 2. shu usulda bosilgan rasm*)

chromophotography [ˌkrəʊmə(ʊ)fə´tɒgrəfɪ] *n foto.* rangli (rangdor) fotografiya

chromosome [´krəʊməsəʊm] *n biol.* xromosoma (*hujayrasidagi genlarni o'zida saqlovchi hujayra va yaxlit organizm uchun xos xususiyatlarni belgilovchi organoid*)

chromosphere [´krəʊməsfɪə] *n* xromosfera (*quyosh atmosferasining qatlamlaridan biri*)

chromotype [´krəʊmə(ʊ)taɪp] *n poligr.* xromotipiya (*ko'p rangli tipografik bosma*)

chromotypography [ˌkrəʊmə(ʊ)taɪ´pɒgrəfɪ] *n poligr.* ko'p rangli nashr

chromotypy [´krəʊmə(ʊ)taɪpɪ] = **chromotype**

chromous [´krəʊməs] *a kim.* xromga oid; xromli; xromlash...

chromoxylography [ˌkrəʊmə(ʊ)taɪ´pɒgrəfɪ] *n poligr.* rangli ksilografiya (*yog'ochga o'yilgan naqsh va undan bosilgan surat*)

chronic [´krɒnɪk] *n* surunkali kasallik bilan har doim og'rib turadigan bemor

chronical [´krɒnɪk(ə)l] *a* 1) xronik, surunkali, azaliy, cho'ziladigan, uzoq davom etadigan, to'xtamaydigan; ~ **rheumatism** surunkali revmatizm; 2) doimo bo'lib turadigan, to'xtamaydigan, doimiy, muttasil

chronically [´krɒnɪk(ə)lɪ] *adv* 1) surunkali ravishda, to'xtamay, to'xtamasdan; 2) doimo, hamma vaqt, har doim (vaqt); hamisha, nuqul

chronicle [´krɒnɪk(ə)l] *n* yilnoma

chronicler [´krɒnɪk(ə)lə] *n* yilnoma yozuvchi, tarixni yozib boruvchi

chronograph [´krɒnəgrɑ:f] *n* xronograf (*qadimgi yozuvlar yodgorligi*)

chronographer [krə´nɒgrəfə] *n kit.* solnomachi, solnomanavis, tarixni yozib boruvchi kishi

chronographic [ˌkrɒnə´græfɪk] *a* xronografik, xronograf ...

chronography [krə´nɒgrəfɪ] *n kit.* (tarixiy) yilnomalarni yozib borish

chronologer [krə´nɒlədʒə] *n* tarixchi, xronologiya mutaxassisi

chronologic(al) [ˌkrɒnə´lɒdʒɪk(ə)l] *a* voqealarning ketma-ket sodir bo'lishiga asoslangan, xronologik

chronologist [krə´nɒlədʒɪst] = **chronologer**

chronologize [krə´nɒlədʒaɪz] *v* xronologik tartibda joylashtirmoq

chronology [krə´nɒlədʒɪ] *n* xronologiya (*muayyan bir vaqtdan boshlab tarixni hisoblab berish haqidagi fan*)

chronometr [krə´nɒmɪtə] *n* xronometr (*juda to'g'ri yuradigan, vaqtni aniq ko'rsatadigan soat*)

chronometrical [ˌkrɒnə´metrɪk(ə)l] *a* xronometr vositasida qilinadigan, xronometrik

chronometry [krə´nɒmɪtrɪ] *n* xronometriya (*vaqtni o'lchash*)

chronopher [´krɒnəfə] *n radio.* vaqtning xabarini avtomatik ravishda (usulda) beradigan apparat

chronoscope [´krɒnəskəʊp] *n maxs.* xronoskop (*juda qisqa bo'lgan vaqtni ham aniq o'lchay oladigan, shuningdek, turli mexanizmlarda ko'rsatilgan vaqtlarni taqqoslash uchun xizmat qiladigan asbob*)

chronoscopic [ˌkrɒnə´skɒpɪk] *a* xronoskopga oid; xronoskopik

chrysalid [´krɪsəlɪd] = **chrysalis**

chrysalides [krɪˈsælɪdi:z] *pl of* **chrysalis**

chrysalis [ˈkrɪsəlɪs] *n* (*pl shun.* **-lides** [-lɪdi:z]) pilla

chrysanthemum [krɪˈsænθɪməm] *n bot.* xrizantema (*murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bir va ko'p yillik o't o'simliklar turkumi*)

chryselephantine [ˌkrɪselɪˈfæntə(a)ɪn] *a* oltin va fil suyagidan qilingan (*haykal to'g'risida*)

chrysoberyl [ˈkrɪsə(ʊ)ˌberɪl] *n min.* xrizoberill (*sarg'ish-tillarang yoki ko'kish tusli, shaffof, qimmatbaho tosh*)

chrysograph [ˈkrɪsəgrɑ:f] *v maxs.* oltin harflar bilan yozmoq

chrysography [krɪˈsəgrəfɪ] *n maxs.* xrisografiya (*oltin harflar bilan yozish san'ati*)

chrysolite [ˈkrɪsəlaɪt] *n min.* xrizolit (*yashil rangli, shaffof qimmatbaho tosh*)

chrysoprase [ˈkrɪsəpreɪz] *n min.* xrizopraz (*yarim qimmatbaho tosh*)

chrysostomic [ˌkrɪsəsˈtɒmɪk] *a* so'zamol, gapga usta (chechan), gapdon, notiq

chrysotile [ˈkrɪsətaɪl] *n min.* xrizotil-asbest (*mineral, serpentining tolali turi*)

chub [tʃʌb] *n* zog'orabaliq

chubby [ˈtʃʌbɪ] *a* to'la yuzli

chub-faced [ˈtʃʌbfeɪst] *a* to'la yuzli, kulchayuz

chuck I [tʃʌk] **1.** *n tex.* qisqich; **2.** *v tex.* siqmoq, qismoq

chuck II [tʃʌk] *v so'zl.* irg'itmoq, uloqtirmoq; **to ~ away** (*imkoniyatni*) qo'ldan boy bermoq; **to ~ up** qusmoq, qayt qilmoq

chuck-a-luck [ˈtʃʌkəlʌk] *n* (uchtalik) oshiq o'yini

chuker [ˈtʃʌkə] *n* kichkina tosh, mayda tosh

chuker-out [ˌtʃʌkə(r)ˈaʊt] *n jarg.* mushti yo'g'on (*revolutsiyadan ilgari: pivoxona, fohishaxona va sh. k. joylardan mastlarni, to'polonchilarni haydab chiqaruvchi xodim*)

chuck-farthing [ˈtʃʌkˌfɑ:ðɪŋ] *n* osmonga tanga otish o'yini

chuck-full [ˌtʃʌkˈfʊl] = **chock-full**

chuck-halfpenny [ˈtʃʌkˌheɪpnɪ] *n* osmonga tanga otish, o'ynash (*qimorning bir turi*)

chuck-hole [ˈtʃʌkhəʊl] *n amer.* o'yilgan joy

chuckle [ˈtʃʌk(ə)l] **1.** *n* 1) bo'g'iq ovoz bilan kulish; qiqirlab (hiringlab) kulish, qiqir-qiqir (hiring-hiring) kulish, qiqirlash, hiringlash; 2) qaqag'lash, qag'-qag'; g'ag'illash, g'aq-g'aqlash; g'aqillash, g'aq-g'aq qilish (*g'oz haqida*); **2.** *v* 1) qiqirlab (hiringlab) kulmoq, qiqirqiqir (hiring-hiring) kulmoq, qiqirlamoq, hingillamoq; 2) qaqag'lamoq, qag'-qag' qilmoq; g'ag'illamoq, g'aq-g'aqlamoq, g'aq-g'aq qilmoq; 3) g'aqillamoq, g'aq-g'aq qilmoq (*g'oz haqida*)

chucklehead [ˈtʃʌk(ə)lhed] *n so'zl.* ahmoq, galvars, kallavaram

chuckle-headed [ˈtʃʌk(ə)lhedɪd] *a so'zl.* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) ahmoq, tentak; 3) befarosat, befahm

chuky [ˈtʃʌkɪ] *n esk.* jo'ja

chuddar [ˈtʃʌdə] *n hind.* jun (yung) sholro'mol

chuff [tʃʌf] *n* qo'rs (qo'pol muomalali) odam

chuffy [ˈtʃʌfɪ] *a* dag'al, qo'pol, tarbiya ko'rmagan, madaniyatsiz

chug [tʃʌg] **1.** *n* parovoz (mashina)ning pishillashi; **2.** *v* pishillab harakat qilmoq (*mashina, parovoz haqida*)

chum [tʃʌm] **1.** *n* do'st; jo'ra; **2.** *v* do'st bo'lmoq

chummage [ˈtʃʌmɪdʒ] *n* ikki *yoki* undan ortiq kishi o'tiradigan xona (*yotoqxona va b.*)

chummery [ˈtʃʌmərɪ] *n* bitta xonada yashash

chummy [ˈtʃʌmɪ] *a so'zl.* odamga el bo'ladigan

chump [tʃʌmp] *n* kunda, g'o'la

chumpish [ˈtʃʌmpɪʃ] *a amer. so'zl.* 1) anqov, befarosat, befahm, esi past, aqli kalta; 2) badjahl, jahli yomon, jahli tez, serjahl, xo'mraygan, badqovoq, qovog'i soliq

chunk [tʃʌnk] *n* bo'lak (burda); bir burda

chunking I [ˈtʃʌŋkɪŋ] *n* 1) jiringlash, jaranglash, jarang-jurung, jiring-jiring; 2) g'uldurash; guldurash; irillash; 3) gumbur-gumbur, tarar-turuq (*katta mashinalar harakati natijasida paydo bo'ladigan ovoz*)

chunking II [ˈtʃʌŋkɪŋ] *a* 1) katta, ulkan, azim, yirik; 2) kelishmagan, qovushmagan, o'xshovi yo'q, beso'naqay, beo'xshov, qo'pol; **a ~ piece of beef** go'shtning katta bo'lagi

chunky [ˈtʃʌŋkɪ] *a* 1) qisqa, lekin yo'g'on va qalin; 2) qalin (yo'g'on) materialdan ishlangan

chuprassy [tʃəˈprɑ:sɪ] *n hind.* 1) xathujjat tashuvchi xodim, chopar, xabarchi; 2) ordinares (*1. komandir topshiriqlarini bajaruvchi, aloqachi askar; 2. esk. qo'mondon huzuridagi turli topshiriqlarni bajaruvchi zobit*); 3) qurolbardor (*o'rta asrlarda ritsarning qurol-aslahasini ko'tarib yuruvchi yigit*)

church [tʃɜ:tʃ] *n* cherkov, butxona

churchdom [ˈ tʃɜ:tʃdəm] *n* 1) cherkov boshqaruvi; cherkov boshliqlari (ma'murlari); 2) diniy rutba

church-goer [ˈtʃɜ:tʃˌgəʊə] *n* xudojo'y, dindor kishi

church-government [ˌtʃɜ:tʃ ˈgʌv(ə)nmənt] *n* 1) cherkov boshqaruvi; 2) cherkov tuzumi

church-house [ˈtʃɜ:tʃhaʊs] *n* 1) cherkov binosi; 2) ibodatxona (*mas.*, cherkov)

churchism [ˈtʃɜ:tʃɪz(ə)m] *n* cherkovga sodiqlik; cherkovga berilganlik

churchless [ˈtʃɜ:tʃləs] *a* 1) birorta ham cherkovga qarashli bo'lmagan; 2) cherkovsiz, birorta ham cherkovi bo'lmagan (*qishloq va b. haqida*)

churchlet [ˈtʃɜ:tʃlɪt] *n* kichkina ibodatxona (butxona)

churchlike [ˈtʃɜ:tʃlaɪk] *a* 1) cherkov ruhidagi; 2) cherkovga munosib ravishda harakat qiluvchi; 3) cherkovdek, cherkovga o'xshagan; **a ~ organization** cherkovga o'xshagan tashkilot

churchly [ˈtʃɜ:tʃlɪ] *a* 1) cherkovga oid, cherkovda bo'ladigan; cherkovga xizmat qiladigan, cherkov...; 2) cherkovga tegishli (qarashli); cherkov ixtiyoridagi; 3) butxona (*cherkov ibodatxonasi*)ga oid; butxona...

churchman [ˈtʃɜ:tʃmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) xudoga ishonuvchi (dindor) kishi

church-rate [ˈtʃɜ:tʃreɪt] *n* cherkov uchun to'lanadigan soliq

church-robber [ˈtʃɜ:tʃˌrɒbə] *n* 1) cherkov o'g'risi; 2) *din.* shakkok, xudobezori, munkir, kofir; 3) *ko'ch.* muqaddas narsalarni tahqirlovchi, oyoqosti qiluvchi

church-scot, church-shot [ˈtʃɜ:tʃskɒt, -ʃɒt] *n tar.* cherkovga pul bilan emas, mahsulot bilan to'lanadigan soliq (mahsulot solig'i)

church service [ˈtʃɜ:tʃˌsɜ:vɪs] *n* 1) ibodat qilish; 2) cherkov xizmati

church-text [ˈtʃɜ:tʃtekst] *n* Angliyaning qora gotik shrifti (*gotik shrift — Angliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda qo'llanadigan uchli shrift*)

churchward [ˈtʃɜ:tʃwəd] *n tar.* cherkov yoki ibodatxona (butxona) nazoratchisi

churchwarden [ˌtʃɜ:tʃ ˈwɔ:dn] *n* cherkov oqsoqoli

churchwards, churchwise [ˈtʃɜ:tʃwədz, -waɪz] *adv* cherkov (tomon)ga qarab

churchwoman [ˈtʃɜ:tʃˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) taqvodor (cherkovga qatnab turuvchi, ibodatda berilgan) ayol

church-work [ˈtʃɜ:tʃˌwɜ:k] *n* 1) ibodatxona ishlarida qatnashish; 2) cherkovga daromad keltiradigan ish (xayrli ish)

churchy [ˈtʃəːtʃɪ] *a so'zl.* cherkovga berilgan (sodiq, sadoqatli, fidokor)
churchyard [ˈtʃəːtʃjɑːd] *n* qabriston, mozor, go'riston
churl [tʃəːl] *n* yomon tarbiyalangan inson
churlish [ˈtʃəːlɪʃ] *a* 1) qo'pol, qo'rs; 2) xasis, ziqna
churly [ˈtʃəːlɪ] *kam.* = **churlish**
churn [tʃəːn] **1.** *n* moyjuvoz; **2.** *v* sutni chayqatib yog'ini olmoq
churning [ˈtʃəːnɪŋ] *n* kuv pishish (kuvlash), kuvlab moy olish
churn-milk [ˈtʃəːnmɪlk] *n* kuv urish, kuvlash, sutdan yog' chiqarish
churn-staff [ˈtʃəːnstɑːf] *n* chilcho'p, kurakcha
churr [tʃəː] **1.** *n* 1) chiyillash, chirqillash, chirillash; 2) g'uldurash; guldurash; 3) g'uvullash, g'o'ng'illash, vizillash; **2.** *v* 1) chiyillamoq, chirqillamoq, chirillamoq; 2) g'ulduramoq; gulduramoq; irillamoq; 3) g'uvullamoq, g'o'ng'illamoq, vizillamoq
chut [tʃ(ʌ)t] *int.* bo'laqolsang-chi! (*sabrsizlikni ifoda etadi*)
chute [ʃuːt] *n so'zl.* parashut
chyle [kaɪl] *n* sutsimon shira
cibarious [sɪˈbe(ə)rɪəs] *a kam.* 1) yeyiladigan, ovqatga ishlatiladigan; 2) yeyishli, yeb (yesa) bo'ladigan
cicada [sɪˈkɑːdə, sɪˈkeɪdə] *n* (*pl* **-dae** [-diː]) chirildoq (hasharot)
cicadae [sɪˈkɑːdiː] *pl of* **cicada**
cicala [sɪˈkɑːlə] = **cicada**
cicatrice [ˈsɪkətrɪ(ː)s] *n tib.* yara o'rni, chandiq
cicatrices [ˌsɪkəˈtraɪsiːz] *pl of* **cicatrix**
cicatricial [ˌsɪkəˈtrɪʃ(ə)l] *a tib.* chandiqli
cicatric(u)le [ˈsɪkətrɪk(jo)l] *n* kichkina chandiq
cicatrix [ˈsɪkətrɪks] *n* (*pl* **-trices** [-traɪsiːz]) *tib.* yara izi (o'rni), chandiq
cicatrization [ˌsɪkətr(a)ɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) yaraning bitishi; 2) tuzalish (*yara haqida*)
cicatrize [ˈsɪkətraɪz] *v tib.* tuzalmoq, bitmoq; tuzalib (bitib) ketmoq
cicerone [ˌsɪsəˈrəʊnɪ, ˌʧɪʧəˈrəʊnɪ] *n* (*pl* **-ni**) yo'l ko'rsatib boruvchi
ciceroni [ˌsɪsəˈrəʊniː, ˌʧɪʧəˈrəʊnɪ] *pl of* **cicerone**
Ciceronian [ˌsɪsəˈrəʊnɪən] *a* gapga (chechan) usta
cicibei [ˌʧɪʧɪzˈbe(ɪ)iː] *pl of* **cicisbeo**
cicisbeo [ˌʧɪʧɪzˈbe(ɪ)əʊ] *n* (*pl* **-bei** [-ˈbe(ɪ)iː], **-beos** [-ˈbe(ɪ)əʊz]) *ital.* xotinlarning ko'nglini ovlovchi (shaxs), xotinparast
cicuta [sɪˈkjuːtə] *n bot.* sikuta (*zaharli suv o'ti*)
cider [ˈsaɪdə] *n* sidr, olma vinosi (*olma shirasidan tayyorlangan vino*)
cider-brandy [ˈsaɪdəˌbrændɪ] *n* olmadan tayyorlangan araq (likor)
ci-devant [ˌsiːdəˈvɒŋ] *a fr.* ilgarigi, avvalgi, burungi, sobiq; **a ~ chairman** sobiq rais
cigala, cigale [sɪˈgɑːlə, sɪˈgɑːl] = **cicada**
cigar [sɪˈgɑː] *n* sigara
cigarette [ˌsɪgəˈret] *n* sigareta
cigarette-case [ˌsɪgəˈretkeɪs] *n* papiros qutisi
cigarette-end [ˌsɪgəˈretend] *n* chekib tashlangan papiros
cigarette-holder [ˌsɪgəˈret,həʊldə] *n* mundshtuk (*papiros naychasi*)
cigarette-lighter [ˌsɪgəˈret,laɪtə] *n* papirosni yondirib olish uchun ishlatiladigan asbob (*gugurtning o'rniga ishlatiladi*)
cigarette-paper [ˌsɪgəˈret,peɪpə] *n* papiros qog'ozi
cigar-holder [sɪˈgɑː,həʊldə] *n* papiros naychasi
cigar-shaped [sɪˈgɑːʃept] *a* sigarasimon, sigara shaklidagi
cilia [ˈsɪlɪə] *n pl anat.* kiprikar; 2) *biol.* tuk (*hayvon va o'simliklar hujayralaridagi ingichka nozik tuk*)
ciliary [ˈsɪlɪərɪ] *a anat.* kiprikka oid
ciliate [ˈsɪlɪɪt] = **ciliated**
ciliated [ˈsɪlɪeɪtɪd] *n biol.* mayda (nozik) tukli
cilice [ˈsɪlɪs] *n* yung (*jun*)dan qilingan to'qima
cilium [ˈsɪlɪəm] *kam. sing. of* **cilia**
cillery [ˈsɪlərɪ] *n me'mor.* barg (yaproq) shaklidagi bezak
Cimmerian [sɪˈmɪ(ə)rɪən] *a afs.* hech narsani ko'rib bo'lmaydigan (*kechasi*)
cinch [sɪnʧ] *n amer.* qorinbog', ayil
cinchona [sɪŋˈkəʊnə] *n bot.* xin(in) daraxti (*Janubiy Amerikada o'sadigan, po'stlog'ida xinin bo'ladigan daraxt*)
cinchona-tree [sɪŋˈkəʊnətriː] = **cinchona**
cinchonic [sɪŋˈkɒnɪk] *a farm.* 1) xininga oid, xinin...; 2) xinindan tayyorlangan
cinct [sɪŋkt] *a kam.* 1) belbog' bog'lagan, kamar bog'lagan, belni bog'lagan; 2) belbog'ga (*yoki* kamarga) taqib (osib) olingan, belga taqib (*yoki* osib) olingan
cincture [ˈsɪŋkʧə] **1.** *n* belbog'; **2.** *v* belbog' bog'lamoq
cinder [ˈsɪndə] **1.** *n* tutab yonadigan ko'mir; **2.** *v* 1) yondirmoq; 2) yonib kulga aylanmoq
cinder-box [ˈsɪndəˌbɒks] *n tex.* kulxona, kuldon
Cinderella [ˌsɪndəˈrelə] *n* Zolushka, shumshuk qiz
cinder-path [ˈsɪndəpɑːθ] *n sport.* yugurish yo'lkasi
cinder-pit [ˈsɪndəpɪt] *n maxs.* 1) = **cinder-box**; 2) *tem. y.* kochegar (o'tyoqar) o'rasi (yamasi)
cinder track [ˈsɪndətræk] = **cinder-path**
cindery [ˈsɪndərɪ] *a* 1) kulga oid, kul...; 2) shlakka oid, shlakdan iborat, shlakdan qilingan, shlak...
cine-camera [ˈsɪnɪˌkæmərə] *n* kinoapparat (*kinofilm oladigan va uni ekranda ko'rsatadigan apparat*)
cine-film [ˈsɪnɪfɪlm] *n* kinoplyonka (*kinofilmlar suratga olingan maxsus lenta*)
cinema [ˈsɪnəmə] *n* 1) kino; 2) kinoteatr; 3) kinofilm; 4) kino san'ati (*kinokartinalar ishlab chiqarish va ularni ekranda ko'rsatish san'ati*)
cinemactor [ˈsɪnəmˌæktə] *n amer.* kinoaktyor
cinemactress [ˈsɪnəmˌæktrɪs] *n amer.* kinoaktrisa
cine-magazine [ˌsɪnɪˌmægəˈziːn] *n* kinojurnal (*film*)
cinema-geor [ˈsɪnɪməˌgəʊə] *n* kinotomoshabin
cinemagnate [ˈsɪnɪˌmægneɪt] *n amer.* 1) kino sanoatining korchalooni; 2) kinofirmalar boshlig'i (rahbari)
Cinemascope [ˈsɪnɪməskəʊp] *n* sinemoskop (*keng ekranli kino sistemasi*)
cinemascopic film [ˈsɪnɪməˌskɒpɪkˈfɪlm] *n* keng ekranli kino (kinofilm)
cinematic [ˌsɪnɪˈmætɪk] *a* kinematografga va kinematografiyaga oid; kinematografik; kinematografiya...
cinematics [ˌsɪnɪˈmætɪks] *n pl* (**sing.** *dek ishlatiladi*) *fiz.* kinematika (*nazariy mexanikaning jismlar harakatini yuzaga keltiruvchi kuchlardan qat'i nazar o'rganadigan bo'limi*)
cinematograph [ˌsɪnɪˈmætəgrɑːf] *n* kinofilm oladigan va uni ekranda ko'rsatadigan apparat (*kinoapparat*)
cinematographer [ˌsɪnɪməˈtɒgrəfə] *n* 1) kinooperator (*kinofilmlarni suratga oluvchi operator*); 2) teleoperator, televideniya operatori
cinematographic [ˌsɪnɪˌmætəˈgræfɪk] *a* kino san'atiga oid, kinematografik
cinematography [ˌsɪnəməˈtɒgrəfɪ] *n* kino san'ati, kinematografiya
Cinerama [ˌsɪnɪˈrɑːmə] *n kino.* sinerama (*keng ekranli kino*)
cineraria [ˌsɪnəˈre(ə)rɪə] *pl of* **cinerarium**
cinerarium [ˌsɪnəˈre(ə)rɪəm] *n* (*pl* **-ria** [-rɪə]) *lot.* kolumbariy (*krematoriyalar-*

da kuydirilgan murda kuli solingan idishchalar saqlanadigan xona)

cinerary [ˈsɪnərərɪ] *a* 1) kulga oid; kul…; 2) kulrang, kulga o'xshash; **a ~ urn** (**vase**) urna (*kuydirilgan jasadning kuli saqlanadigan idish*)

cinerator [ˈsɪnəreɪtə] *n* krematsiya (*maxsus pechda murdani kuydirish*) pechi

cinereous [sɪˈnɪ(ə)rɪəs] *a* kulrang

cingle [ˈsɪŋg(ə)l] *n kam.* 1) kamar, belbog'; 2) qorinbog', ayil

cingula [ˈsɪŋgjʊlə] *pl of* **cingulum**

cingulum [ˈsɪŋgjʊləm] *n* (*pl* **-la** [-lə]) *lot.* belbog' (*asos., cherk.* dyakonlarning ibodat vaqtida kiyadigan uzun kimxob kiyimi belbog'i)

cinnabar [ˈsɪnəbɑ:] *n* kinovar (*1. qizil rangli mineral, simob sulfid, simob rudasi; 2. shu mineraldan tayyorlangan qizil bo'yoq*)

cinnabaric, cinnabarine [ˌsɪnəˈbærɪk, ˈsɪnəbərɪ(:)n] *a* kinovarga oid; kinovar…

cinnamomic [ˌsɪnəˈmɒmɪk] *a* dolchinli, dolchindan olinadigan; dolchin…

cinnamon [ˈsɪnəmən] *n bot.* dolchin, dolchin daraxti

cinnamonic [ˌsɪnəˈmɒnɪk] = **cinnamomic**

cinnamon-oil [ˈsɪnəmənˌɔɪl] *n farm.* dolchin moyi

cinque [sɪŋk] *n fr.* besh (raqam), besh xol (*qarta, domino va b. da*)

cion I [ˈsaɪən] *n bot.* payvandust, payvand (payvand qilinadigan qalamcha yoki kurtak)

cion II [ˈsaɪən] *n anat.* til, tilcha, kichik til

cipher [ˈsaɪfə] *n* shifr (*maxfiy yozishma uchun qabul qilingan shartli belgilar*)

ciphered [ˈsaɪfəd] *a* shifrlangan, shifr bilan yozilgan; **a ~ message** shifrlangan xabar (ma'lumot); **a ~ code** shifrlangan kod

cipherer [ˈsaɪfərə] *n* shifrlovchi

cipher-key [ˈsaɪfəki:] *n* shifr, kodning kaliti

circa [ˈsɜ:kə] *prep.* taxminan (*sanaga nisbatan qo'llaniladi*)

Circassian [sɜ:ˈkæsɪən] **1.** *n* 1) cherkas; cherkas ayol; **the ~s** cherkaslar (Qorachoy-Cherkasiya avtonom oblastida yashovchi xalqlardan biri); 2) cherkas tili; **2.** *a* cherkas(lar)ga oid (qarashli); cherkas…

Circe [ˈsɜ:sɪ] *n* erkaklarni yo'ldan uruvchi ayol

Circean [sɜ:ˈsi(:)ən] *a* yurakdan uradigan, maftun etadigan, jozibali, juda go'zal, chiroyli, maftunkor

circensian [sɜ:ˈsenʃ(ə)n] *a kit.* sirkka oid, sirk…; sirkka tegishli (taalluqli) bo'lgan (*Qadimgi Rimda*): **~ games** (Qadimgi Rim) sirk o'yinlari

circle [ˈsɜ:k(ə)l] **1.** *n* 1) aylana; 2) davra, odamlar davrasi; 3) to'garak; **2.** *v* 1) aylanmoq; 2) aylantirib chiqmoq

circled [ˈsɜ:k(ə)ld] *a* 1) tevaragi (o'rab) qurshab olingan; 2) yumaloq, dumaloq, to'garak; aylanma, aylana, doiraviy, aylana (halqa) shaklidagi; 3) yumaloq (dumaloq) qilib belgilab qo'yilgan

circlet [ˈsɜ:klɪt] *n* 1) aylana; **a ~ of flowers** gulchambar; 2) bilaguzuk; uzuk

circle-wise [ˈsɜ:k(ə)lwaɪz] *adv* 1) aylanma yo'ldan, aylanma yo'l bilan; 2) doiraga (aylanaga) o'xshab

circling [ˈsɜ:klɪŋ] *n sport.* 1) aylanma harakat; 2) aylanish, o'girilish

circlip [ˈsɜ:klɪp] *n tex.* halqa shaklidagi prujinali qulf

circuit [ˈsɜ:kɪt] **1.** *n* aylanish (*davra*); **2.** *v* atrofini aylanib o'tmoq

circuit breaker [ˈsɜ:kɪtˌbreɪkə] *n el.* uzgich, to'xtatgich

circuiteer [ˌsɜ:kɪˈtɪə] *n* kommivoyajyor (*xususiy korxona yoki firma mollaridan nusxa ko'rsatib shaharma-shahar buyurtma to'plovchi vakil, gumashta*)

circuiter [ˈsɜ:kɪtə] *kam.* = **circuiteer**

circuition [ˌsɜ:kjoˈɪʃ(ə)n] *n esk.* 1) aylanib chiqish; aylanma harakat; (*nimaningdir atrofida*) harakat qilish (aylanish, yurish); 2) uzoqdan olib kelingan gap

circuitor [sɜ:ˈkju:ɪtə] *n lot.* ko'chma (sayyor) nazoratchi (taftishchi, tekshiruvchi)

circuitous [sɜ:ˈkju:ɪtəs] *a* chetlab o'tadigan, aylanma (*yo'l haqida*)

circuitously [sɜ:ˈkju:ɪtəslɪ] *adv* 1) aylanma yo'l bilan; 2) egri yo'l bilan

circuitry [ˈsɜ:kɪtrɪ] *n amer. el.* sxema (*shartli tasvir, chizma*)

circuity [sɜ:ˈkjʊɪtɪ] *n* 1) aylanma harakat; aylanma harakat qilish; 2) *kit.* cho'zish; paysalga solish; sudrash; susaytirish

circular [ˈsɜ:kjʊlə] *a* yumaloq, dumaloq

circularity [ˌsɜ:kjʊˈlærɪtɪ] *n* doiraga (aylanaga) o'xshashlik

circularization [ˌsɜ:kjʊlərɑɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) sirkular (*direktiv tashkilotlar tomonidan quyi tashkilotlarga yuboriladigan farmoyish*) xatlarni yuborish; 2) ko'paytirilgan hujjatni tarqatish; 3) reklama yoki reklama xarakteridagi ma'lumotnomalarni tarqatish

circularize [ˈsɜ:kjʊləraɪz] *v* 1) sirkular xatlarni yubormoq; 2) ko'paytirilgan hujjatni tarqatmoq; 3) reklama yoki reklama xarakteridagi ma'lumotnomalarni tarqatmoq; 4) yumaloq qilmoq, yumaloqlamoq, to'garak holga keltirmoq

circulate [ˈsɜ:kjʊleɪt] *v* aylanmoq, aylanib yurmoq

circulating [ˈsɜ:kjʊleɪtɪŋ] *a* ko'chuvchi, ko'chma

circulation [ˌsɜ:kjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) aylanish, aylanib turish; 2) aylanma harakat

circulative [ˈsɜ:kjʊlətɪv] *a kit.* 1) aylanadigan, aylanib yuradigan (turadigan); 2) doira bo'lib aylanadigan, doiraviy, aylanma, sirkulatsion

circulator [ˈsɜ:kjʊleɪtə] *n* tarqatuvchi, yoyuvchi

circulatory [ˈsɜ:kjʊlət(ə)rɪ] *a* aylanib turadigan

circum- [ˈsɜ:kəm-] *pref.* (*murakkab so'zlarda quyidagi ma'nolarni beradi*) atrofga, tevarak-atrofga; atrofda

circumadjacent [ˌsɜ:kəməˈdʒeɪs(ə)nt] *a kit.* 1) bevosita o'rab olgan (oladigan); 2) hamma tomondan o'rab (qurshab) olgan (oladigan); 3) atrofi biror narsa bilan o'rab olingan

circumambience [ˌsɜ:kəmˈæmbɪəns] *n kit.* 1) o'rab (qurshab) olish, o'rtaga olish; 2) qurshov

circumambiency [ˌsɜ:kəmˈæmbɪənsɪ] *n kit.* o'rab olgan muhit, sharoit

circumambient [ˌsɜ:kəmˈæmbɪənt] *a* 1) o'rab olgan (*muhit, sharoit haqida*); 2) butun vujudni qamrab oladigan, hammasidan baland, kuchli; boshqa his-tuyg'ulardan g'olib (ustun)

circumambulate [ˌsɜ:kəmˈæmbjʊleɪt] *v* 1) atrofidan aylanib o'tmoq; 2) chetlab o'tmoq; 2) gapni aylantirmoq, masalaga yaqindan yondashmaslik

circumaviate [ˌsɜ:kəmˈeɪvɪeɪt] *v* 1) samolyotda dunyo bo'ylab sayohat qilmoq, samolyot bilan yer shari atrofini aylanib sayohat qilmoq; 2) aylanib yurmoq (yoki uchmoq); uzoq yo'ldan aylanib o'tmoq

circumbendibus [ˌsɜ:kəmˈbendɪbəs] *n hazil.* aylanma yo'l

circumcise [ˈsɜ:kəmsaɪz] *v* 1) *cherk.* xatna qilmoq, kesmoq, kestirmoq; 2) *ko'ch.* ruhan tozalanmoq

circumcision [ˌsɜ:kəmˈsɪʒ(ə)n] *n* 1) *cherk.* xatna qilish, kesish, kestirish; 2) *ko'ch.* ruhan tozalanish

circumduct [ˌsɜ:kəmˈdʌkt] *v yur.* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq

circumduction [ˌsɜ:kəmˈdʌkʃ(ə)n] *n* 1) aylanma harakat; 2) *yur.* bekor qilish, yo'q qilish, kuchdan qoldirish

circumference [səˈkʌmf(ə)rəns] *n mat.* aylana, doira

circumferentor [sə´kʌmfə,rentə] *n* 1) *geod.* kurvimetr (*topografik chizmalar, xaritalar va grafik hujjatlarda egri yoki ilonizi chiziqlar kesmalarini o'lchaydigan asbob*); 2) *tog'.* burchak o'lchagich, uglomer. tog' kompasi

circumflect [ˌsɜ:kəm´flekt] *v* 1) egib (bukib) biror narsa atrofiga o'ramoq, kiygizmoq; 2) o'ramoq, chirmamoq; o'rab olmoq, o'rab qo'ymoq

circumflection [ˌsɜ:kəm ´flekʃ(ə)n] *n* 1) egrilik, qiyshiqlik, qing'irlik, egilganlik, bukilganlik, qiyshayganlik; qing'ir-qiyshiqlik, egri-bugrilik; 2) burilgan (egilgan) joy, egik, bukik

circumflex [´sɜ:kəmfleks] **1.** *n tilsh.* sirkumfleks, unlilar ustidagi (ˆ, ¡, ˜) diakritik belgilar; **2.** *a* 1) *tilsh.* sirkumfleksga oid; 2) *kit.* egri, qiyshiq, qing'ir, qing'ir-qiyshiq, egri-bugri; **3.** *v kit.* egib (bukib) biror narsa atrofiga o'ramoq, kiygizmoq; o'ramoq; o'rab olmoq, o'rab qo'ymoq

circumflexion [ˌsɜ:kəm ´flekʃ(ə)n] *n* 1) egrilik, qiyshiqlik, qing'irlik, egilganlik, bukilganlik, qiyshayganlik, qing'ir-qiyshiqlik, egri-bugrilik; burilgan (egilgan) joy, egik, bukik

circumfluence [sə´kʌmfluəns] *n* 1) *kit.* atrofidan (aylanib) oqish, yonidan oqib o'tish, oqib ketish; 2) *tib.* qoplash, bosish, egallab olish

circumfluent [sə´kʌmfluənt] *a* hamma tomonidan oqib o'tadigan

circumfluous [sə´kʌmfluəs] *a kit.* 1) atrofi suv bilan o'rab olingan; 2) atrofidan suv aylanib o'tadigan

circumfuse [ˌsɜ:kəm´fju:z] *v kit.* 1) (**around, about**) quymoq, to'kmoq, oqizmoq, ag'darmoq, to'kib tashlamoq; 2) (**with, in**) ustidan (ustiga) to'kib yubormoq, quymoq, sepmoq; cho'miltirmoq; yuvmoq

circumfusion [ˌsɜ:kəm´fju:ʒ(ə)n] *n kit.* 1) ustidan suv quyish; 2) to'kish, to'kib yuborish; to'kilib ketish

circumgyration [ˌsɜ:kəm,dʒaɪ(ə)´reɪʃ(ə)n] *n* (*o'z o'qi atrofida*) aylanish

circumgyratory [ˌsɜ:kəm´dʒaɪ(ə)rət(ə)rɪ] *a kit.* aylanadigan, aylanma

circumjacence [ˌsɜ:kəm´dʒeɪs(ə)ns] *n* o'rab olgan muhit, sharoit

circumjacency [ˌsɜ:kəm´dʒeɪs(ə)nsɪ] *n* 1) = **circumjacence**; 2) *pl* yopishib (taqalib, jips bo'lib, tutashib, yondashib) turgan qism

circumjacent [ˌsɜ:kəm ´dʒeɪs(ə)nt] *a* 1) o'rab (qurshab) olgan; 2) atrofdagi, tevarak-atrofdagi

circumjovial [ˌsɜ:kəm´dʒəʊɪəl] *a astr.* Yupiter atrofida aylanadigan

circumlittoral [ˌsɜ:kəm´lɪtər(ə)l] *a* qirg'oq bo'yidagi

circumlocution [ˌsɜ:kəmlə´kju:ʃ(ə)n] *n* ko'p gapirish, ezmalik

circumlocutional [ˌsɜ:kəmlə´kju:ʃ(ə)nəl] *a* ko'p gapiradigan, ezma

circumlocutionary [ˌsɜ:kəmlə´kju:ʃən(ə)rɪ] *a* 1) ko'p gapiradigan, gapni cho'zadigan, sergap, ezma; so'zamol; 2) gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan, noaniq, mujmal

circumlocutory [ˌsɜ:kəm´lɒkjot(ə)rɪ] *a* ortiqcha (keraksiz) so'zlari ko'p bo'lgan, cho'zilib ketgan

circumlunar [ˌsɜ:kəm´lu:nə] *a astr.* Oy oldidagi, Oy yaqinidagi, Oyga yaqin; Oy atrofida aylanadigan

circum-meridian [ˌsɜ:kəmmə´rɪdɪən] *a* meridianga yaqin, meridian yaqinidagi

circummure [ˌsɜ:kəm´mjuə] *v kit.* devor bilan aylantirib o'rab olmoq

circumnavigate [ˌsɜ:kəm ´nævɪgeɪt] *v* kemada atrofni aylanib chiqmoq; **to ~ the globe (earth, world)** kemada dunyo bo'ylab sayohat qilmoq

circumnavigation [ˌsɜ:kəm,nævɪ´geɪʃ(ə)n] *n* kemada dunyo bo'ylab sayohat qilish

circumnavigator [ˌsɜ:kəm´nævɪgeɪtə] *n* kemada dunyo bo'ylab sayohat qiluvchi

circumnavigatory [ˌsɜ:kəm´nævɪgeɪt(ə)rɪ] *a* dunyo bo'ylab (yer shari atrofida) bo'lgan; aylanma, aylana (*kemada suzish haqida*)

circumnuclear [ˌsɜ:kəm´nju:klɪə] *a biol.* yadro atrofida joylashgan

circumpolar [ˌsɜ:kəm´pəʊlə] *a geogr.* qutb doirasiga yaqin, qutb yaqinidagi, qutb yonidagi; qutb atrofidagi

circumpose [ˌsɜ:kəm´pəʊz] *v kit.* tevaragida joylashgan bo'lmoq, tevaragini qurshab (o'rab) turmoq, o'rab olmoq

circumrotation [ˌsɜ:kəmrəʊ´teɪʃ(ə)n] *n* 1) (*o'z o'qi atrofida*) aylanish; 2) girgir aylanish, tez-tez o'tib, o'zgarib turish

circumrotatory [ˌsɜ:kəmrəʊ´teɪt(ə)rɪ] *a* 1) aylanadigan, aylanma; 2) aylantiruvchi

circumscribe [´sɜ:kəmskraɪb] *v* cheklamoq, chegaralamoq

circumscription [ˌsɜ:kəm´skrɪpʃ(ə)n] *n* cheklash, chek qo'yish

circumscriptive [ˌsɜ:kəm ´skrɪptɪv] *a* cheklaydigan, chek qo'yadigan, cheklovchi, chegaralovchi, cheklash....

circumsolar [ˌsɜ:kəm´səʊlə] *a astr.* Quyosh atrofida aylanadigan; Quyoshga yaqin bo'lgan

circumspect [´sɜ:kəmspekt] *a* ehtiyotkorlik bilan ish qiladigan (*odam haqida*)

circumspection [ˌsɜ:kəm´spekʃ(ə)n] *n* ehtiyotkorlik

circumspective [ˌsɜ:kəm´spektɪv] *a* ehtiyotkor, ehtiyotli; ehtiyotkorlik bilan (ketini o'ylab) ish tutadigan; ehtiyotkorlik bilan (ketini o'ylab) qilingan

circumstance [´sɜ:kəmstəns] *n* 1) *pl* sharoit; vaziyat, ahvol; 2) tomon, jihat; hol

circumstantial [ˌsɜ:kəm´stænʃ(ə)l] **1.** *a* mufassal; batafsil; **2.** *n* mufassallik, mukammallik

circumstantiality [´sɜ:kəm,stænʃɪ´ælɪtɪ] *n* mufassallik, batafsillik

circumstantially [ˌsɜ:kəm´stænʃ(ə)lɪ] *adv* mufassal; batafsil

circumstantiate [ˌsɜ:kəm´stænʃɪeɪt] *v kit.* aniqlamoq, oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq; batafsil tekshirmoq

circumstantiation [´sɜ:kəm,stænʃɪ´eɪʃ(ə)n] *n kit.* aniqlash, oydinlashtirish, ravshanlashtirish; aniqlik, tafsilot; batafsil tekshirish

circumvallation [ˌsɜ:kəmvæ´leɪʃ(ə)n] *n kit.* (*muhofaza uchun nimaningdir atrofini*) devor bilan o'rab olish

circumvent [ˌsɜ:kəm´vent] *v* aldamoq

circumvention [ˌsɜ:kəm´venʃ(ə)n] *n* aldash

circumvolant [sə´kʌmvələnt] *a kit.* parillab uchadigan, parvoz qiladigan, qanot qoqadigan

circumvolute [ˌsɜ:kəmvə´lju:t] *v kit.* 1) aylantirmoq, buramoq; g'ildiratmoq; pirillatmoq; 2) o'ramoq, chirmamoq, chulg'amoq; o'rab olmoq, o'rab qo'ymoq

circumvolution [ˌsɜ:kəmvə´lu:ʃ(ə)n] *n* 1) ilang-bilang (egri-bugri, ilon izi) joy; muyulish; burilgan (egilgan) joy, egik, bukik; 2) aylanish; 3) aylanma yo'l; 4) uzoqdan olib kelingan gap, qochiriq, uchuriq, shama

circus [´sɜ:kəs] *n* sirk

cirque [sɜ:k] *n* sirk sahnasi, sahna

cirrate, cirrated [´sɪreɪt, -ɪd] = **cirriferous**

cirrhosis [sɪ´rəʊsɪs] *n tib.* jigar sirrozi (*to'qima kasal*)

cirri [´sɪraɪ] *pl of* **cirrus**

cirriferous [sɪ´rɪf(ə)rəs] *a* mo'ylovchasi bor, mo'ylovchali

cirro-cumulus [ˌsɪrə(ʊ)´kju:mjoləs] *n meteor.* to'p-to'p patsimon cho'zilgan yupqa bulutlar

cirrose [´sɪrəʊs] *a kit.* 1) mo'ylovchali (*hasharot yoki o'simliklar haqida*); 2) kokilchali, popukchali (*qush haqida*); 3) *meteor.* patsimon (*bulut haqida*); 4) *amer.* yumshoq, mayin (*soch haqida*)

cirro-stratus [ˌsɪrə(ʊ)´strɑ:təs] *n meteor.* qavat-qavat (qatma-qat) patsimon bulutlar

cirrous [ˈsɪrəs] *a* patsimon
cirrus [ˈsɪrəs] *n* (*pl* **cirri** [ˈsɪraɪ]) patsimon cho'zilgan yupqa bulutlar
cisalpine [sɪsˈælpaɪn] *a* Alpning janub tomonidagi, Alpning janub tomonida joylashgan
cisatlantic [ˌsɪsətˈlæntɪk] *a kit.* Atlantika okeanining Yevropa tomonida joylashgan
cisco [ˈsɪskəʊ] *n amer. zool.* sig, oq baliq, shimol balig'i (*Shimoldagi suvlarda ovlanadi*)
cislunar [sɪsˈluːnə] *n* Yer va Oyning orasidagi bo'sh joy
cismontane [sɪsˈmɒnteɪn] *a kit.* Alpning janub tomonidagi
cist [sɪst] *a arxeol.* maqbara
cistern [ˈsɪstən] *n* suyuqliklar saqlanadigan katta idish
cisternal [sɪsˈtɜːn(ə)l] *a anat.* biror narsaning ichidagi
cit [sɪt] *n esk.* shaharda yashovchi odam, shaharlik
citable [ˈsaɪtəb(ə)l] *a* dalil qilib ko'rsatsa bo'ladigan (*manba, muallif va h. haqida*)
citadel [ˈsɪtəd(e)l] *n* qal'a, qo'rg'on
citation [saɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) (*matn*) parchasi; 2) *yur.* (*sudga*) chaqirish
citatory [ˈsaɪtət(ə)rɪ] *a kit.* 1) dalillar bilan tasdiqlangan; 2) dalil qilib ko'rsatilgan (keltirilgan), havola tarzidagi, dalily; 3) sitatага oid; sitatabop, sitata...
cite [saɪt] *v* 1) matndan parcha keltirmoq; 2) *yur.* chaqirmoq (*sudga*)
citeable [ˈsaɪtəb(ə)l] = **citable**
cither [ˈsɪðə] *n* sitra (*cholg'u asbobi*)
cithern [ˈsɪðɜːn] = **cither**
citified [ˈsɪtɪfaɪd] *a* shahar aholisiga xos bo'lgan
citify [ˈsɪtɪfaɪ] *v* shahar ko'rinishini bermoq
citizen [ˈsɪtɪz(ə)n] *n* fuqaro
citizeness [ˈsɪtɪz(ə)nəs] *n tar.* fuqaro ayol
citizenhood [ˈsɪtɪz(ə)nhʊd] *n* fuqarolik
citizenry [ˈsɪtɪz(ə)nrɪ] *n* fuqaro; aholi; xalq
citizenship [ˈsɪtɪz(ə)nʃɪp] *n* fuqarolik
citizens-in-arms [ˌsɪtɪz(ə)nzɪnˈɑːmz] *n pl* xalq lashkari
citole [ˈsɪtəʊl] *n* sistra (*chertib chalinadigan qadimiy cholg'u asbobi*)
citoyen [ˌsiːtwɑːˈjæŋ] *n fr.* fuqaro
citoyenne [ˌsiːtwɑːˈjen] *n fr.* fuqaro ayol
citrate [ˈs(a)ɪtreɪt] *n kim.* sitrat, limon kislotasining tuzi
citrean [ˈsɪtrɪən] *a* limon daraxtidan qilingan (yasalgan)
citreous [ˈsɪtrɪəs] *a* och sariq, limonrang (*rang haqida*)
citric [ˈsɪtrɪk] *a* limonga oid
citriculture [ˈsɪtrɪˌkʌltʃə] *n* sitrus bog'dorchiligi
citriculturist [ˌsɪtrɪˈkʌltʃ(ə)rɪst] *n* sitruskor, sitruskorlik mutaxassisi
citrine [ˈsɪtrɪn] **1.** *n* 1) och sariq rang; 2) *min.* sitrin, qalbaki topaz (*qimmatbaho yaltiroq tosh*); **2.** *a* 1) och sariq (*rang haqida*)
citron [ˈsɪtrən] *n* och sariq rang
citrous [ˈsɪtrəs] *a* sitrusga oid, sitrus...
citrus [ˈsɪtrəs] *n bot.* sitrus (*apelsin, limon, mandarin kabi o'simliklar*)
cits [sɪts] *n pl amer. so'zl.* oddiy (noharbiy) kiyim, oddiy (noharbiy) ko'ylak
city [ˈsɪtɪ] *n* katta shahar
city-born [ˈsɪtɪbɔːn] *a* shaharda tug'ilgan
city-bred [ˈsɪtɪbred] *a* shaharda o'sgan (*odam haqida*); shaharlik
cityfied [ˈsɪtɪfaɪd] = **citified**
city-folk [ˈsɪtɪfəʊk] *n amer.* shahar aholisi
cityscape [ˈsɪtɪskeɪp] *n so'zl.* shahar manzarasi
city-wide [ˈsɪtɪwaɪd] *a* shahar miqyosidagi; butun shaharni egallagan
civic [ˈsɪvɪk] *a* fuqarolik, fuqarolarga oid
civicism [ˈsɪvɪsɪz(ə)m] *n kit.* fuqarolik his-tuyg'usi; vatanga sodiqlik, fidokorlik
civic-minded [ˌsɪvɪkˈmaɪndɪd] *a* fuqarolik his-tuyg'usi rivojlangan
civics [ˈsɪvɪks] *n pl* (**sing.** *dek ishlatiladi*) fuqarolik huquqi
civies [ˈsɪvɪz] *n pl* oddiy (noharbiy) kiyim
civil [ˈsɪv(ə)l] **1.** *a* fuqarolik, fuqarolarga oid; **2.** *n* xushmuomalalik
civilian [sɪˈvɪlɪən] *n* oddiy aholi, harbiy bo'lmagan odam
civilisation [ˌsɪv(ə)laɪˈzeɪʃ(ə)n] = **civilization**
civilise [ˈsɪv(ə)laɪz] *v* madaniylashtirmoq, madaniyatli qilmoq, madaniyatga erishtirmoq
civility [sɪˈvɪlɪtɪ] *n* muloyimlik, xushmuomalalik
civilization [ˌsɪv(ə)laɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* sivilizatsiya (*1. ijtimoiy va moddiy madaniyat taraqqiyotining muayyan bosqichi; 2. hozirgi zamon madaniyati*)
civilize [ˈsɪv(ə)laɪz] *v* madaniylashtirmoq
civilized [ˈsɪv(ə)laɪzd] *a* madaniyatli
civilizer [ˈsɪv(ə)laɪzə] *n* sivilizator (*hozirgi zamon dunyo madaniyatini tarqatadigan, singdiradigan, o'rnatadigan kishi*)
civilly [ˈsɪv(ə)lɪ] *adv* xushmuomalalik bilan
civil-spoken [ˌsɪv(ə)lˈspəʊkən] *a so'zl.* (suhbatda) izzat-hurmatni joyiga qo'yadigan; hurmat-ehtiromni ifodalaydigan; ehtirom bilan qilingan (aytilgan); xushmuomala
civism [ˈsɪvɪz(ə)m] *n kit.* fuqarolik his-tuyg'usi; vatanga sodiqlik; fidokorlik
civvy, civy [ˈsɪvɪ] *n harb. jarg.* 1) oddiy fuqaro, harbiymas (harbiy bo'lmagan) kishi; 2) *pl.* harbiycha bo'lmagan (fuqarolar kiyadigan, oddiy) ko'ylak
clabber [ˈklæbə] **1.** *n* chuchuk qatiq; **2.** *v* achimoq, achib qolmoq (*sut haqida*)
clachan [ˈklæk(h)ən] *n shotl.* tog'dagi kichkina qishloq, qishloqcha
clack [klæk] **1.** *n* qars-qurs, qasir-qusur; **2.** *v* qarsillamoq
clacker [ˈklækə] *n* 1) tartarak (*o'yinchoq va bog' qo'riydigan asbob*); 2) *mus.* shaqildoq; 3) shaqildoq (*bolalar o'yinchog'i*); 4) sergap odam, ezma, vaysaqi; safsataboz
clack-valve [ˈklækˌvælv] *n tex.* qaytarma yoki tavaqali klapan
clad [klæd] **1.** *p. p.* **clothe**; **2.** *a* kiyingan, libosli
claes [kleɪz] *n shotl.* kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh, libos; sarpo
clag [klæg] **1.** *n* 1) *dial.* (*kovak, tirqish, yoriq va b. ni*) ustidan bo'yab (yoki chaplab) bekitib yuborish; suvash, suvab tashlash; (*qandaydir yopishqoq narsa bilan*) bekitish, bekitib tashlash, tekislab yuborish; 2) *shotl.* og'ir yuk, ortiqcha tashvish, daxmaza, dardisar, tirik tovon; **2.** *v dial.* 1) chaplamoq, chaplab qo'ymoq, shuvab (suvab) bekitmoq; yopishtirib qo'ymoq; 2) yelimlab yopishtirmoq, yopishtirib tashlamoq, yelimlab (yopishtirib) qo'ymoq; 3) yopishmoq, yopishib qolmoq
claik [kleɪk] *n shotl.* 1) peshanasi oq (oq peshana, qashqa) g'oz; 2) g'ozning g'aqillagan ovozi
claim [kleɪm] **1.** *n* talab, talabnoma; **2.** *v* talab qilmoq
claimant [ˈkleɪmənt] *n* da'vo qiluvchi, da'vogar, talabgor
chair-obscure [ˌkle(ə)rəbˈskjʊə] = **chiaroscuro**
clairvoyance [kleəˈvɔɪəns] *n* oldindan bilish
clairvoyant [kleəˈvɔɪənt] *a* oldindan ko'ra oladigan (bila oladigan), uzoqni ko'ra oladigan
clam [klæm] **1.** *n* ikki pallali molluska; **2.** *v amer. so'zl.* gapni aylantirmoq, gapni boshqa yoqqa burmoq, javob berishdan bosh tortmoq
clamant [ˈklæmənt, ˈkleɪmənt] *a* shovqinli
clambake [ˈklæmbeɪk] *n amer.* 1) qo'rda pishirilgan molluskalar (*taom, ovqat*);

2) dengiz qirg'og'idagi sayr qiladigan joy (*piknik*)

clamber ['klæmbə] **1.** *n* o'rmalash, tirmashish; **2.** *v* o'rmalamoq, tirmashmoq

clamberer ['klæmbərə] *n* chirmashadigan o'simlik

clambering plant ['klæmbərɪŋ,plɑ:nt] *n* chirmashadigan o'simlik

clamminess ['klæmməs] *n* yopishqoqlik; shiradorlik

clammy ['klæmɪ] *a* yopishqoq; shirador

clamor ['klæmə] = **clamour**

clamorous ['klæm(ə)rəs] *a* shovqinli

clamour ['klæmə] **1.** *n* shovqin-suron; **2.** *v* baqirmoq; **to ~ against** nimagadir qarshi chiqmoq; **to ~ down** (*baqirib*) jim bo'lishga majbur qilmoq; **to ~ for** talab qilmoq

chamoursome ['klæməsəm] *a dial.* 1) shovqin-suronli, sershovqin; 2) ovozi baland (o'tkir), baqiroq, shang'i, vag'vag'

clamp [klæmp] **1.** *n* 1) tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h. k. da*); 2) qisqich, iskanja; **2.** *v* qismoq, siqmoq

clamper I ['klæmpə] *n pl* tishlar (*poyabzalda*)

clamper II ['klæmpə] *v* tez (naridan-beri, apil-tapil) yamamoq (tuzatmoq)

clamshell ['klæmʃel] *n* 1) molluska chig'anog'i; 2) *tex.* greyfer (*ko'targich kranlarning yakni changallab oluvchi ikki pallali cho'michi*); **a ~ excavator** greyfer kovshli ekskavator

clan [klæn] *n* urug' jamoasi; urug'-aymoqlar (*qadimiy shotlandiyaliklarda*)

clancular ['klæŋkjələ] *a esk.* yashirin, yashirib, yashirincha qilingan

clandestine [klæn 'destɪn] *a* maxfiy; yashirin

clandestinity [,klændə'stɪnɪtɪ] *n* yashirinlik, maxfiylik, sirlik

clang [klæŋ] **1.** *n* jiringlash, jaranglash; **2.** *v* jiringlamoq, jaranglamoq

clangor ['klæŋə] **1.** *n* jiringlash, jaranglash, jarang-jurung, jingir-jingir, jaranglagan (jiringlagan) ovoz; **2.** *v* jaranglagan ovoz chiqarmoq, jaranglamoq, jiringlamoq; jingillamoq; jarang-jurung qilmoq

clangorous ['klæŋərəs] *a* 1) jaranglab ovoz chiqaradigan, jaranglaydigan, jiringlaydigan; jingillaydigan; jarang-jurung qiladigan; 2) juda qattiq, quloqni qomatga keltiradigan (*mashinaning ovozi va b. haqida*)

clank [klæŋk] **1.** *n* (*zanjirning*) jiringlashi; **2.** *v* jaranglamoq

clannish ['klænɪʃ] *a* urug'-aymoqqa oid, avloddan avlodga o'tib kelgan

clanship ['klænʃɪp] *n* 1) urug' (aymoq, nasl, zot, zurriyot, avlod, sulola)ga mansublik (aloqadorlik, qarashlilik); 2) urug'iga sodiqlik

clansman ['klænzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) urug' a'zosi; **a ~ of mine** mening urug'im (qarindoshim)

clap [klæp] **1.** *n* chapak, qarsak; chapak (qarsak) chalish; **2.** *v* qarsak (chapak) chalmoq; qarsak chalib olqishlamoq

clapboard ['klæpbɔ:d] **1.** *n* 1) *mars.* bochka taxtasi; 2) *amer.* yupqa taxtacha(lar); **2.** *v amer.* taxta bilan qoplamoq, ustiga taxta qoqmoq (uy, tom)

clap-bread, clap-cake ['klæpbred, -keɪk] *n* suli noni

clap-net ['klæpnet] *n* qushlar uchun qo'yiladigan tuzoq

clapper ['klæpə] *n* qo'ng'iroq tili (*osilchog'i*)

clapperclaw ['klæpəklɔ:] *v* tirnamoq

claptrap ['klæptræp] *n* balandparvoz gap

claque [klæk] *n fr.* klakyorlar (*burjua mamlakatlarida: yollanma olqishchilar yoki yollanma hushtakbozlar*)

clarence ['klærəns] *n* yopiq to'rt o'rinli (kishilik) kareta

clarendon ['klær(ə)ndən] *n poligr.* yarim qora (qoraroq) shrift

clare-obscure [,kle(ə)rəb'skjuə] = **chiaroscuro.**

claret ['klærət] *n* qizil vino (*klaret*).

clarification [,klærɪfɪ'keɪʃ(ə)n] 1) aniq (ravshan) qilish; 2) tozalash.

clarifier ['klærɪfaɪə] *n mars.* 1) tindiradigan, tinitadigan moslama (*shakarqamishning siropi (qiyomi, sharbati) va b.*); 2) *radio.* to'siqlardan himoya qiluvchi moslama; 3) sut tozalagich (*sut tozalaydigan asbob, modda yoki vosita*)

clarify ['klærɪfaɪ] *v* oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq

clarinet [,klærɪ'net] *n mus.* klarnet (*surnayga o'xshagan musiqa asbobi*)

clarinettist [,klærɪ'netɪst] *n* klarnet chaluvchi sozanda

clarion ['klærɪən] *n shoir.* 1) *mus.* burg'ucha; sunray; gorn; 2) surnayning ovozi; 3) baqiriq, qichqiriq; **the cock's shrill ~** xo'rozning qattiq qichqirig'i; 4) chaqiriq, da'vat; nido, xitob, na'ra; **a ~ call** jangovar xitob; jangovar chaqiriq, jangovar shior

clarionet [,klærɔ'net] *n* klarnet (*surnayga o'xshagan musiqa asbobi*)

clarity ['klærɪtɪ] *n* 1) aniqlik, ravshanlik 2) ozodalik, tozalik; tiniqlik

clart [klɑ:t] **1.** *n shotl.* yopishqoq loy; **2.** *v shotl.* loy sachratib yubormoq, loy sachratib iflos qilmoq

clarty ['klɑ:tɪ] *a shotl.* 1) iflos, bulg'anch, loy; **a ~ street** loy ko'cha; 2) yopishqoq, yopishadigan, yelimshak

clash [klæʃ] **1.** *n* to'qnashish; **2.** *v* to'qnashmoq

clasp I [klɑ:sp] **1.** *n* ilgak, ilma, tugma; **2.** *v* tugmalarni (ilgaklarni) qadamoq (solmoq)

clasp II [klɑ:sp] *v* tasnif qilmoq

clasper ['klɑ:spə] *n* 1) ilgak, ilma tugma; 2) to'qa; 3) ilgak, ilmoq, zanjir; 4) *bot.* jingalak, gajak, chirmoviq (*o'simliklarda*)

clasp-knife ['klɑ:spnaɪf] *n* buklama pichoq

clasp-pin ['klɑ:sppɪn] *n* soch to'g'nag'ich

class I [klɑ:s] *n* sinf (jamoaga) oid; **a working ~** ishchilar sinfi; **a ~ struggle** sinfiy kurash

class II [klɑ:s] *n* 1) *biol.* sinf, turkum; 2) sinf (*maktabda*); 3) dars (*mashg'ulotlar*)

classable ['klɑ:səb(ə)l] *a kit.* klassifikatsiya qilsa (tasniflasa) yoki aniqlasa bo'ladigan

class-book ['klɑ:sbok] *n* darslik

class-conscious [,klɑ:s'kɔnʃəs] aqli (ongi) bor, aqlli, ongli

class-consciousness [,klɑ:s 'kɔnʃəsnəs] *n* sinfiy ong

class-fellow ['klɑ:s,feləʊ] *n* sinfdosh

classic ['klæsɪk] **1.** *a* klassik, eng ajoyib; mumtoz; **2.** *n* klassik (*asarlarning qiymati, ahamiyati jihatdan manzur bo'lgan fan, san'at yoki adabiyot arbobi*)

classical ['klæsɪk(ə)l] *a* klassik; mumtoz

classicalism ['klæsɪk(ə)lɪz(ə)m] *kam.* = **classicism**

classicalist ['klæsɪk(ə)lɪst] = *kam.* **classicist**

classicality [,klæsɪ'kælɪtɪ] *n kit.* 1) (*nimaningdir*) klassik xarakteri; 2) antiqa (go'zal) olamni o'rganish

classicalize ['klæsɪk(ə)laɪz] *kam.* = **classicize**

classicism ['klæsɪsɪz(ə)m] *n* 1) *adab.* klassitsizm (*XVII – XVIII asr boshlaridagi adabiyot va san'atda: yunon va lotin adabiyoti va san'ati namunalariga taqlid qiluvchi oqim*); 2) klassik tillar yoki klassik adabiyotlarni o'rganish; 3) *tilsh.* lotin yoki grek idiomasi (*ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora*)

classicist ['klæsɪsɪst] *n* 1) klassitsizm tarafdori yoki namoyandasi; 2) klassik (*o'z sohasida o'rnak bo'lgan va umume'tirof etilgan mashhur yozuvchi, shoir yoki fan, san'at arbobi*)

classicize [ˈklæsɪsaɪz] *v kit.* namuna bo'ladigan darajagacha ko'tarmoq (olib chiqmoq)

classifiable [ˈklæsɪfaɪəb(ə)l] *a* klassifikatsiya qilsa (tasniflasa) bo'ladigan

classification [ˌklæsɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* tasnif (*sinflarga bo'lish, turkumlarga ajratish*)

classifier [ˈklæsɪfaɪə] *n* 1) klassifikator (*1. klassifikatsiya qiluvchi, klassifikatsiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassis; 2. donador narsalarni saralovchi apparat*); 2) navlarga (xillarga) ajratuvchi, saralovchi mashina (qurilma); 3) *tex.* separator (*suyuq yoki qattiq jismlar tarkibidagi aralashmani ajratuvchi apparatlarning umumiy nomi*)

classify [ˈklæsɪfaɪ] *v* tasnif qilmoq

classifying [ˈklæsɪfaɪɪŋ] *n tog'.* klassifikatsiyalash, klassifikatsiya (tasnif) qilish; **a ~ screen** saralash elagi; saralovchi g'alvir

classing [ˈklɑːsɪŋ] *n sport.* baho; **~ for style** sakrash texnikasi uchun qo'yiladigan baho

classless [ˈklɑːsləs] *a* sinfsiz

class-list [ˈklɑːslɪst] *n* 1) o'quvchilar ro'yxati; 2) imtiyozli diplom olgan bitiruvchilar ro'yxati

class-man [ˈklɑːsmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *univ.* imtiyozli diplom olgan kishi; a'lochi (*a'lo baholar bilan o'quvchi*)

class-mate [ˈklɑːsmeɪt] *n* sinfdosh

class-name [ˈklɑːsneɪm] *n* umumiy nom

class-room [ˈklɑːsrom] *n* sinfxona

classy [ˈklɑːsɪ] *a so'zl.* eng yaxshi; a'lo darajali

clastic [ˈklæstɪk] *a geol.* siniq, chaqiq

clatter [ˈklætə] *n* taqillagan ovoz, taqtuq, taqillash; gumburlash

clause [klɔːz] *n gram.* gap

clausthalite [ˈklaʊstɑːlaɪt] *n min.* klaustalit (*mis selinidi*)

claustral [ˈklɔːstrəl] *a* monastirga oid; monastirga qarashli; monastir...; **a ~ rule** monastir ustavi

claut [klɔːt] *n dial.* 1) hovuch, siqim; 2) xaskash; 3) kurak, kurakcha, belcha, qirg'ich

clave [kleɪv] *past of* **cleave II**

clavecin [ˈklæv(ɪ)sɪn] *n mus.* klavesin (*fortopyanoga o'xshagan qadimiy cholg'u asbobi*)

claver [ˈkleɪvə] **1.** *n dial.* 1) bekorchi gap, safsata; 2) g'iybat, yolg'on-yashiq; gap-so'z; **2.** *v dial.* 1) valdiramoq, aljiramoq, vaysamoq; 2) g'iybat (suxanchilik) qilmoq; gap tashimoq, gap-so'z qilmoq

claves [ˈkleɪviːz] *pl of* **clavis**

clavi [ˈkleɪvaɪ] *pl of* **clavus**

clavichord [ˈklævɪkɔːd] *n* klavikord (*klavishli qadimiy cholg'u asbobi*)

clavicle [ˈklævɪk(ə)l] *n anat.* o'mrov, o'mrov suyagi

clavicular [klə ˈvɪkjolə] *a anat.* o'mrovga oid

clavier [ˈklævɪə] *n* klaviatura (*klavishlar majmuyi*)

clavis [ˈkleɪvɪs] *n* (*pl* **-ves** [-viːz], **-vises** [-vɪsɪz]) *kit.* 1) kalit, ochqich; 2) *ko'ch.* kalit (*shifrlangan yozuv belgilarining, harflarning sistemasi, izohi*); **a ~ to ciphers** shifrning kaliti

clavus [ˈkleɪvəs] *n* (*pl* **-vi** [-vaɪ]) *tib.* 1) ponasimon (ponaga o'xshash) qadoq (qavariq); 2) ergotizm (*hayvonlarning qoramug' bilan zaharlangan don, un, kepak va boshqalarni iste'mol qilganidan zaharlanishi*)

claw I [klɔː] **1.** *n* (*hayvon va qushlarda*) tirnoq, panja, changal; **2.** *v* timdalamoq

claw II [klɔː] *v* koptok qilib o'ramoq

clawed [klɔːd] *a* tirnoqli, tirnoqlari o'tkir; changalli

clawless [ˈklɔːləs] *a* tirnog'i yo'q; tirnoqsiz

clay [kleɪ] *n* 1) loy; 2) sho'rxok, tuproq

clay-brained [ˈkleɪˌbreɪnd] *a* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm

clay-cold [ˈkleɪkəʊld] *a* sovuq, o'lik, jonsiz

clayey [ˈkleɪɪ] *a* loyli, loy tuproqli

claymore [ˈkleɪmɔː] *n isp.* qilich, ikki tig'li uzun va og'ir qilich (*shotlandiyalik tog'liklarda*)

clay-slate [ˈkleɪsleɪt] *n* 1) *yur.* shifer (*tom yopish uchun ishlatiladigan qurilish materiali*); 2) sertuproq slanes (*tog' jinsi*)

clay-stone [ˈkleɪstəʊn] *n min.* argillit (*cho'kindi tog' jinsi bo'lib, gilning zichlanishi, suvsizlanishi va sementlanishi natijasida hosil bo'ladi*)

clean [kliːn] *a* toza, pokiza, ozoda

clean-cut [ˌkliːnˈkʌt] *a* yaqqol; aniq

cleaner [ˈkliːnə] **1.** *n* 1) tozalash (yig'ishtirish) uchun qo'llaniladigan vosita; 2) tozalovchi, farrosh; 3) yig'ishtiruvchi, supuruvchi; **2.** *v* tozalamoq

clean-fingered [ˌkliːn ˈfɪŋgəd] *a* sotilmaydigan (*poraga yurmaydigan*)

clean-handed [ˌkliːnˈhændɪd] *a* begunoh, aybsiz; halol, vijdonli

cleaning [ˈkliːnɪŋ] *n* tozalash, yig'ishtirish

clean-limbed [ˌkliːnˈlɪmd] *a* qad-qomati kelishgan, xushqad, xushbichim

cleanliness [ˈklenlɪnəs] *n* tozalik, ozodalik

cleanly [ˈkliːnlɪ] **1.** *a* toza, ozoda; **2.** *adv* tozalab, ozoda qilib

cleanness [ˈkliːnnəs] *n* tozalik, ozodalik, pokizalik

cleanout [ˈkliːnaʊt] *n tex.* tozalash uchun ishlatiladigan lyuk (teshik); **a ~ shop** a) ajratadigan, saralaydigan ustaxona; b) *metal.* obrubka qiladigan (*quyilgan detallarni arayishlardan tozalaydigan*) ustaxona

cleansable [ˈklenzəb(ə)l] *a* tozalasa bo'ladigan

cleanse [klenz] *v* tozalamoq, artmoq

clean-shaven [ˌkliːnˈ ʃeɪv(ə)n] soch-soqolni toza qirdirgan, pokiza

clean-up [ˈkliːnʌp] *n* tozalash; yig'ishtirish

clear [klɪə] *a* 1) ochiq, tiniq, sof, toza; **~ weather** ochiq havo; 2) aniq, ravshan; **~ letters** aniq harflar; 3) tushunarli; **2.** *v* tozalamoq; **to ~ away** stolning ustidan olib qo'ymoq; **to ~ out** tozalamoq

clearance [ˈklɪ(ə)rəns] *n* tozalash

clear-cole [ˈklɪəkəʊl] *n qur.* gruntlash, birlamchi (xomaki) bo'yoq berish (surtib chiqish)

clear-cut [ˌklɪəˈkʌt] *a* aniq, ochiq, ravshan

clearer [ˈklɪərə] *n* tozalaydigan (to-zalash uchun xizmat qiladigan) moslama (qurilma)

clear-eyed [ˌklɪə(r)ˈaɪd] *a* 1) ko'zi yaxshi ko'radigan; 2) o'tkir, ziyrak, sezgir; 3) uzoqni ko'ra biladigan, uzoqni o'ylab (ko'zlab) ish tutadigan, mulohazali

clear-headed [ˌklɪəˈhedɪd] *a* o'tkir (sog'lom) aqlli, sog'lom fikrlovchi

clearing [ˈklɪ(ə)rɪŋ] *n* o'rmon, daraxtzor ichidagi daraxtsiz maydon

clearing-house [ˈklɪ(ə)rɪŋhaʊs] *n* (bankning) hisob-kitob palatasi

clearing-off [ˌklɪərɪŋˈɒf] *n* 1) to'lash, to'lov; 2) hisob, hisoblash

clearly [ˈklɪəlɪ] *adv* aniq, muqarrar; shubhasiz

clearness [ˈklɪənəs] *n* 1) soflik, tozalik, tiniqlik, oydinlik, ochiqlik; 2) aniqlik, ravshanlik, yaqqollik, ayonlik; **the ~ of voice** tovushning sofligi

clear-obscure [ˌklɪə(r)əbˈskjʊə] = **chiaroscuro**

clear-sighted [ˌklɪə ˈsaɪtɪd] *a* uzoqni ko'ra oladigan, ziyrak; hushyor

clear-starch [ˈklɪəstɑːtʃ] *v* kraxmallamoq, ohorlamoq, ohor bermoq

clear-story [ˈklɪəst(ə)rɪ] = **clerestory**

cleat [kliːt] *n tex.* qisqich, klemma

cleavable [ˈkliːvəb(ə)l] *a* mo'rt, oson yoriladigan

cleavage [ˈkliːvɪdʒ] *n* 1) yorilish, tilinish; 2) bo'shliq, masofa

cleave I [kliːv] *v* (**clove, cleft; cloven, cleft**) yorilmoq, parchalanmoq

cleave II [kli:v] *v* (**clave; cleaved; cleaved**) sodiq bo'lib qolmoq
cleaver [ˈkli:və] *n* qassobning katta pichog'i
cleck [klek] *v shotl.* 1) tuxum bosib bola ochmoq; 2) muhokamaga qo'ymoq, tavsiya etmoq, olib chiqmoq (*g'oya, reja va h. ni*)
cleek [kli:k] *n shotl.* 1) qayrilma qoziq; 2) klushka (*golf o'yinida: uchi qayrilgan dasta*)
clef [klef] *n muz.* kalit, ochqich
cleft [kleft] *n* yoriq, yorilgan yer
cleg [kleg] *n* so'na
cleistogamy [klaɪˈstɒgəmɪ] *n bot.* o'z-o'zidan changlanish, o'zini o'zi changlash
clem [klem] *v dial.* och qolmoq
clematis [ˈklemətɪs, klɪ ˈmeɪtɪs] *n bot.* ilono't, ilonpechak
clemency [ˈkleməns ɪ] *n* mehribonlik, rahm, shafqat
clement [ˈkleмənt] *a* rahmdil, shafqatli; mehribon
clench [klentʃ] **1.** *n* (*mushtni*) siqish; **2.** *v* (*mushtni*) siqmoq
clenched [klentʃt] *a* 1) qattiq qisilgan (siqilgan); **~ fists** siqilgan (tugulgan) mushtlar; 2) biriktirilgan
clepsydra [ˈklepsɪdrə] *n* (*pl of shun.* **-rae** [-dri:]) *tar.* klepsidra (*suv soati*)
clepsydrae [ˈklepsɪdri:] *pl of* **clepsydra**
cleptomania [ˌkleptə(ʊ)ˈmeɪnɪə] = **kleptomania**
clerestory [ˈklɪəst(ə)rɪ] *n me'mor.* ravoq (*katta zallardagi yoki cherkov binosidagi ochiq boloxona*)ni yoritadigan yuqori qatordagi derazalar; 2) zenit fonari
clergy [ˈklɜ:dʒɪ] *n* ruhoniylar
clergyman [ˈklɜ:dʒɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) ruhoniy, monax
clergywoman [ˈklɜ:dʒɪˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) *hazil.* ruhoniyning xotini yoki qizi
cleric [ˈklerɪk] *n* 1) taqvodor; 2) ruhoniy
clerical [ˈklerɪk(ə)l] *n* idora xizmatchisi
clericalism [ˈklerɪk(ə)lɪz(ə)m] *n* klerikalizm (*mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida cherkov ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan reaksion oqim*)
clericalist [ˈklerɪk(ə)lɪst] *n* klerikalizm tarafdori
clerk [klɑ:k] *n* 1) amaldor, mansabdor; 2) kotib
clerkly [ˈklɑ:klɪ] *n* kotiblik vazifasi
clerkship [ˈklɑ:kʃɪp] *n* 1) kotib (*mirza, nusxa ko'chiruvchi*)ning mansabi; 2) *esk.* savodlilik, savodxonlik, o'qish-yozishni bilish; savod
cletch [kletʃ] *n dial.* ona tovuqdan ajralmagan jo'jalar
cleuch [klʊ:k] *n* (*daryo oqadigan*) tik tushgan tog' darasi
cleugh [klʊ:k] = **cleuch**
cleveite [ˈkleɪvɪaɪt] *n min.* kleveit, uran sludasi (*shaffof mineral*)
clever [ˈklevə] *a* 1) aqlli, fahm-farosatli; 2) qobiliyatli; 3) epchil, chaqqon
cleverness [ˈklevənəs] *n* 1) epchillik, chaqqonlik; 2) qobiliyat, talant
clevis [ˈklevɪs] *n tex.* 1) tortish ilgagi, ilmog'i (*biror narsani tortish uchun xizmat qiladigan ilgak, ilmoq*); 2) (boltli) band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h. k. da*)
clew [klu:] **1.** *n dial.* bir o'ram ip, ip o'rami, ip koptogi; **2.** *v dial.* ipni koptok qilib o'ramoq
cliche [ˈkli:ʃeɪ] *n* siyqasi chiqqan (chaynalgan, shablon bo'lib qolgan, bir qolipdagi) so'z, ibora va h. k.
click [klɪk] **1.** *n* shaqirlash, qarsillash (*eshik, zanjir haqida*); **2.** *v* qarsillatmoq, tarsillatmoq
click-beetle [ˈklɪkˌbi:tl] *n ent.* qirsildoq qo'ng'iz
clicker [ˈklɪkə] *n* 1) poyabzal (oyoq kiyim) tayyorlovchi; 2) *poligr.* metranpaj, sahifalovchi (*terilgan harflarni*); 3) *so'zl.* chorlovchi, chaqiruvchi, taklif qiluvchi (*do'konda*)
clicket [ˈklɪkɪt] *n dial.* lo'kidon, surilma zanjir
clicking [ˈklɪkɪŋ] *n radio.* (atmosferaning) charsillashi, qarsillashi; chirsillashi, qirsillashi
client [ˈklaɪənt] *n* mijoz (*xaridor, buyurtmachi va h. k.*)
clientage [ˈklaɪəntɪdʒ] *n* mijozlar
clientele [ˌkli:anˈtel] *n* xaridor, buyurtmachi, iste'molchi
cliff [klɪf] *n* tik qoya
cliff-dweller [ˈklɪfˌdwelə] *n amer. so'zl.* ko'p kvartirali uyda yashovchi kishi
cliff-hanger [ˈklɪfˌhæŋə] *n amer. so'zl.* 1) sensatsion (*shov-shuv gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan*) roman; 2) so'nggi satrlar (*bob, bo'lim va b.*)
cliffy [ˈklɪfɪ] *a* 1) qoyalardan iborat, qoyali, serqoya; 2) qoyasimon, tik
climacteric [klaɪˈmæktə(ə)rɪk, ˌklaɪmækˈterɪk] **1.** *n fiziol.* klimakteriy (*ayollarda jinsiy bezlar faoliyatining, hayz ko'rishning to'xtay borish davri*); klimakteriy davri; **2.** *a fiziol.* klimakteriy bilan bog'liq bo'lgan; klimakteriy…
climatal [ˈklaɪmət(ə)l] *a* iqlimga oid, iqlimiy, iqlim…; **~ influence** iqlimning ta'siri (ta'sir etishi, ta'sir ko'rsatishi)
climate [ˈklaɪmɪt] *n* iqlim
climatic [klaɪˈmætɪk] *a* iqlimga oid, iqlim bilan bog'liq bo'lgan
climatizer [ˈklaɪmətaɪzə] *n* sun'iy iqlim kamerasi
climatology [ˌklaɪməˈtɒlədʒɪ] *n* iqlimshunoslik
climax [ˈklaɪmæks] **1.** *n* eng yuqori nuqta; **2.** *v* eng yuqori nuqtagacha bormoq
climb [klaɪm] *n* ko'tarilish, chiqish
climbable [ˈklaɪməb(ə)l] *a* ko'tarilsa (chiqsa) bo'ladigan; **is the mountain ~?** bu tog'ga chiqsa bo'ladimi?
climb-down [ˈklaɪmˈdaʊn] *n* 1) qiya, qiyalik; 2) (*baliqda*) past kelmoq, yon bermoq, tan bermoq; 3) kamsitish, yerga urish, xo'rlash; kamsitish, xo'rlanish, tahqirlash; xo'rlik, haqorat
climber [ˈklaɪmə] *n* alpinist (*alpinizm bilan shug'ullanuvchi sportchi*)
climb indicator [ˈklaɪmˌɪndɪkeɪtə] variometr (*1. radio apparatlari zanjiridagi indiktuvlikni tekis o'zgartiruvchi asbob; 2. yer magnitizmi, og'irlik kuchi kabi fizik faktorlarning o'zgarishlarini kuzatadigan asbob*)
climbing [ˈklaɪmɪŋ] *n* 1) chiqish, ko'tarilish; 2) chirmashib (tirmashib) chiqish, chiqib olish; **is he fond of mountain ~?** u tog'larga chiqishni (chiqib yurishni) yaxshi ko'radimi? **a ~ registration** *sport.* tog'larga chiqish uchun ruxsatnoma; **~ iron** a) alpinistlar oyoq kiyimidagi mixlar; b) *tex.* elektromontyor tirnog'i (*oyoqqa bog'lab simyog'ochga chiqiladigan asbob*)
clime [klaɪm] *n shoir.* tomon, taraf, yurt, o'lka; yoq; joy; **to seek a milder ~** issiq o'lkalarga ketmoq
clinch [klɪntʃ] **1.** *n* qisqich, iskanja; **2.** *v* parchinlamoq, parchinlab qo'ymoq
clincher [ˈklɪntʃə] *n* 1) parchinlovchi ishchi; 2) mixparchin; chega
cling [klɪŋ] (**clung**) *v* (*bir narsaga*) yopishib olmoq; yopishmoq; yopishib qolmoq (*loy haqida*)
cling holds [ˈklɪŋˌhəoldz] ilintirish, ilib olish; ilgak, ilmoq, changak (*alpinizmda*)
clinging [ˈklɪŋɪŋ] *a* yopishib (taqalib) turgan, jips bo'lib turgan; **a ~ dress** yopishib turgan ko'ylak
clinician [klɪˈnɪʃ(ə)n] *n* klinitsist, klinika shifokori
clingstone [ˈklɪŋˌstəon] *n* danagi ajralmaydigan shaftoli
clingy [ˈklɪŋɪ] *a* yopishadigan
clinic [ˈklɪnɪk] *n* 1) klinika (*kasallarni davolash bilan birga o'quv va ilmiy-tekshirish ishlari ham olib boriladigan kasalxona*); 2) shifoxona, kasalxona
clinical [ˈklɪnɪk(ə)l] *a* klinikaga oid, klinikadagi

clink [klıŋk] **1.** *n* jaranglash; **2.** *v* jaranglamoq

clink-clank [ˌklıŋk ˈklæŋk] *n* ketma-ketlik (birin-ketinlik) bilan jiringlagan ovoz

clinker I [ˈklıŋkə] *n qur.* klinker, toshqol (*1. o'tga, suvga chidamli: kuyib pishgan g'isht; 2. kuydirib toshga aylantirilgan sement*)

clinker II [ˈklıŋkə] *n* 1) *pl jarg.* oyoqqa solinadigan kishan; 2) *jarg.* (*nimaningdir*) ajoyib namunasi: **he is a ~!** u juda ajoyib yigit!

clinkering [ˈklıŋkərıŋ] *n tex.* qizish (yonish) natijasida yaxlitlanish, qizdirish (yondirish) natijasida yaxlitlanish; qizdirib biriktirish

clinking [ˈklıŋkıŋ] *a* jaranglaydigan

clinographic [ˌkl(a)ınəˈgræfık] *a maxs.* klinografik, klinografiyaga oid, klinografiya

clinometer [klˈnomıtə] *n maxs.* klinometr (*qiyalik, nishablikni o'lchaydigan asbob*)

clinquant [ˈklıŋkənt] **1.** *n* 1) zar; zar ip; 2) usti yaltiroq, ichi qaltiroq narsa(lar); **2.** *a* yaltiroq, tilla (kumush) yaltiroq tangachalar yoki zar ip bilan bezatib yaltiratilgan

clip I [klıp] **1.** *n* qisqich; **2.** *v* (*qog'ozlarni*) biriktirib mahkamlab qo'ymoq

clip II [klıp] **1.** *n* (*soch, junni*) kesish, qirqish; **2.** *v* sochini olmoq

clip-fed [ˈklıpfed] *a harb.* o'qlangan oboymali (*oboyma – otish qurollarining o'q joylanadigan ramkasi*)

clipper [ˈklıpə] *n* qaychi

clippie [ˈklıpı] *n so'zl.* konduktor ayol (*avtobus va tramvayda*)

clipping I [ˈklıpıŋ] *n* 1) gazetadan qirqib olingan parcha; 2) qirqish, kesish, qirqib kaltaroq qilish; 3) *lingv.* so'zlarni qisqartirish

clipping II [ˈklıpıŋ] *a* 1) *so'zl.* tez harakat qiladigan; 2) *hissiy. kuch.* birinchi navli; birinchi darajali, a'lo darajali, eng yaxshi

clippings [ˈklıpıŋz] *n pl* gazetadan qirqib olingan parchalar

clique [kli:k] *n fr.* niyati buzuq kishilar

cliquey [ˈkli:kı] = **cliquish**

cliquish [ˈkli:kıʃ] *a* odamlarga aralashmaydigan, odamovi, damduz

clish-ma-claver [ˌklıʃməˈkleıvə] *n shotl.* g'iybat, yolg'on-yashiq; gap-so'z; bekorchi gap, safsata

clitch [klıtʃ] *v dial.* 1) qattiq ushlamoq, qattiq tutmoq; 2) yopishtirmoq, yelimlamoq, yopishtirib (yelimlab) qo'ymoq; yelimlab (sirachlab) yopishtirmoq, yelimlab ulamoq (yamamoq, biriktirmoq, tuzatmoq, yasamoq)

clite [klaıt] *n bot.* 1) qariqiz va uning bargi; 2) chaqamiq, qumrio't

clivers [ˈklıvəz] *n bot.* chaqamiq, qumrio't

cloaca [kləo ˈeıkə] *n* (*pl* **-cae** [-ki:]) 1) axlat oqadigan yer osti kanali; 2) axlat o'ra; axlatxona; 3) biliqsigan (ivirsigan) uy; iflos joy; 4) *zool.* kloaka (*qushlar va ba'zi hayvonlarda: siydik-tezak uchun bitta orqa teshik*)

cloacae [kləoˈeıki:] *pl of* **cloaca**

cloacal [kləo ˈeık(ə)l] *a* kloakaga oid; kloakali; kloaka...

cloak [kləok] *n* plash

cloak-room [ˈkləokru:m] *n* yechinish joyi (*ust-bosh yechib qo'yiladigan joy; ust-boshxona*)

cloam [kləom] *n dial.* sopol idish

clobber [ˈklobə] *v* qattiq urmoq

clock [klok] **1.** *n* soat (*devor, minora, stolda turadigan*); **2.** *v sport.* vaqtni ko'rsatmoq

clock-case [ˈklokkeıs] *n* soat g'ilofi

clocker [ˈklokə] *n dial.* kurk tovuq, tuxum bosgan tovuq

clock-face [ˈklokfeıs] *n* siferblat (*soatning raqamlar, yozuvlar va sh. k. belgilar yozilgan plastinka qismi*)

clocking [ˈklokıŋ] *n* vaqtni belgilash (qayd qilish)

clocking hen [ˈklokıŋˌhen] kurk tovuq, tuxum bosgan tovuq

clockmaker [ˈklokˌmeıkə] *n* soatsoz

clockwise [ˈklokwaız] **1.** *a* soat mili bo'yicha harakat qiluvchi; **2.** *adv* soat mili bo'yicha

clock-work [ˈklokwə:k] **1.** *n* soat mexanizmi; **2.** *a* burab yurgiziladigan

clod [klod] *n* 1) yumaloqlangan tuproq (kesak); 2) katta bo'lak, palaxsa

cloddish [ˈklodıʃ] *a* 1) qo'pol, beso'naqay; 2) ahmoq, tentak

cloddy [ˈklodı] *a* serkesak, kesakli, kesak-kesak, yumaloq-yumaloq

clodhopper [ˈklodˌhopə] *n* qo'pol odam

clodpate, clodpole, clodpoll [ˈklodpeıt, ˈklodpəol] *n* befarosat, befahm, esi past, ahmoq, tentak, nodon, galvars, kallavaram

clog [klog] **1.** *n* to'siq; **2.** *v* to'sqinlik qilmoq

cloggy [ˈklogı] *a* serkesak, kesakli, yumaloq-yumaloq

cloister [ˈkloıstə] *n* monastir (*tarki dunyo qilgan xristianlar – monaxlarning muayyan qoida va me'yorlarga amal qilib yashovchi diniy jamoaga qarashli cherkov, turar joy, yer-mulk*)

cloistered [ˈkloıstəd] *a* 1) yolg'iz, yakka, tanho, alohida ajralib turadigan; chekka joydagi, odamlardan uzoqdagi; xilvat joydagi; 2) *me'mor.* atrofi ravoq bilan o'ralgan

cloisterer [ˈkloıst(ə)rə] *n* rohib

cloistral [ˈkloıstr(ə)l] *a* 1) monastirga oid; monastirga qarashli; monastir...; 2) monax(lar)ga, monaxinya (lar)ga oid; monax...; rohib...

cloistress [ˈkloıstrıs] *n* rohiba

cloning [ˈkləonıŋ] *n biol.* vegetativ (*jinssiz, parxish va h. k. yo'llar bilan*) ko'payish yoki ko'paytirish

cloop [klu:p] *n* shishaning og'zidagi tiqinni (qopqoqni) ochayotgan paytda paydo bo'ladigan ovoz

cloot [klu:t] *n dial.* 1) tuyoq; 2) *pl* iblis, shayton, jin

clootie [ˈklu:tı] *n dial.* 1) tuyoqcha; 2) sho'x bola, shumtaka, tirrancha, jinqarcha, shayton

clop [klop] *n* taq-tuq (*ot yurganda eshitiladigan tovush*)

close [kləos] **1.** *a* yopiq; **2.** *adv* yaqin joyda; **3.** *n* oxir, intiho; **4.** *v* 1) (*darsni*) tugatmoq; 2) yopmoq

close-bodied [ˌkləosˈbodıd] *a* 1) badanga (gavdaga) yopishib turadigan, tanani siqib turadigan, xipcha (*ko'ylak haqida*); 2) *maxs.* mayda donali

close-cropped [ˈkləosˈkropt] *a* sochini kalta qilib qirqtirgan

closed [kləozd] *a* yopiq

close-down [ˈkləozˈdaon] *n* ishni to'xtatish (*tashkilotning yopilishi munosabati bilan*)

close-fisted [ˌkləosˈfistıd] *a* xasis, ziqna

close-fitting [ˌkləosˈfitıŋ] = **close-bodied**

close-grained [ˌkləosˈgreınd] *a* mayda donali

close-handed [ˌkləosˈhændıd] *a* qo'l kuchi yoki pichoq, nayza kabilar bilan qilinadigan mushtlashish (pichoqbozlik, nayzabozlik)...; **a ~ fight** qo'l jangi, qo'l kuchi bilan (pichoq, nayza kabilar bilan) olishuv; pichoqbozlik (nayzabozlik) jangi

close-in [ˈkləozˈın] *n harb.* bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) yaqinlashish, yaqinlashib jangga kirishish; **to come to ~** a) qo'l jangiga kirishmoq; b) bir-biri bilan bahslashib ketmoq; d) yuzma-yuz to'qnashmoq; **to inspect smth. at ~** nimanidir yaqin masofadan yaxshilab qarab (ko'rib) bilmoq

closely [ˈkləoslı] *adv* 1) diqqat bilan, sinchiklab; 2) yaqin joyda

closely-knit [ˈkləoslıˌnıt] *a* mustahkam birlashgan; yaxshi to'qilgan

closeness [ˈkləosnəs] *n* yaqinlik

close-out [ˈkləozˈaot] *n* sotib tugatish

close-stand [ˈkləosˌstænd] *n* qadning rostlangan vaziyati, „oyoqlar bir joyda" (*gimnastikada*)

close-stool [ˈkləʊs,stu:l] *n* hojatxona kursisi

closet [ˈklɒzɪt] **1.** *n* 1) *amer.* qaznoq, kichkina omborxona; 2) *esk.* devoriy (devorga ishlangan) shkaf; 3) *esk.* kabinet, ish joyi; hujra; **a bed ~** kichkina yotoqxona; 4) hojatxona, xalajoy; **2.** *a* yashirin, maxfiy, pinhoiy), sir tutilgan (tutiladigan), oshkor qilib bo'lmaydigan; **~ vows** yashirin ont ichish; 2) kabinetga oid; kabinet uchun belgilangan; kabinet...; **3.** *v kam.* qulflamoq, qulflab qo'ymoq; zanjirlamoq; qulflab (yoki zanjirlab) bekitmoq; **to be ~ed with smb., to be ~ed together** kim bilandir yolg'iz (tanho) maslahatlashmoq

close-tongued [ˌkləʊs ˈtʌŋd] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) kamgap, indamas

close-up [ˈkləʊsʌp] *n kino.* katta masshtab

closing [ˈkləʊzɪŋ] **1.** *n* oxiri, tugashi; **2.** *a* yakunlovchi, so'nggi

closing switch [ˈkləʊzɪŋˌswɪtʃ] *el.* 1) vikluchatel (*elektr tokini uzish va ulash uchun xizmat qiladigan moslama*); 2) rubilnik (*kuchli elektr toklarini ulash va uzish uchun xizmat qiladigan moslama*)

closing-time [ˈkləʊzɪŋtaɪm] *n* (*do'kon va h. k. ning*) ishlamaydigan vaqti

closure [ˈkləʊʒə] **1.** *n* 1) yopilish; tugash, oxiriga (poyoniga, nihoyasiga) yetkazish; **a one-month ~ of universities** universitetlarda bir oy muddatga darslarning to'xtatishi; **2.** *v* muzokarani to'xtatmoq (*parlament va b. da*)

clot [klɒt] *n* yumaloqlangan narsa

cloth [klɒθ] *n* gazlama, mato

clothe [kləʊð] *v* (**clothed; clad**) kiyintirmoq, kiymoq

clothes [kləʊ(ð)z] *n pl* kiyim, libos, sarpo; ust kiyim, ust-bosh

clothes-basket [ˈkləʊðz,bɑ:skɪt] *n* kiyim solinadigan savat, kiyim savati

clothes-brush [ˈkləʊ(ð)zbrʌʃ] *n* kiyim cho'tka

clothes-line [ˈkləʊ(ð)zlaɪn] *n* kirlarni osib quritadigan arqon

clothes-man [ˈkləʊ(ð)zmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) eskifurush

clothes-moth [ˈkləʊ(ð)z,mɒθ] *n* kiyim kuyasi

clothes-peg, clothes-pin [ˈkləʊ(ð)z,peg, -pɪn] *n* (*kiyim, kirlar uchun*) qisqich

clothes-press [ˈkləʊ(ð)z,pres] *n* kiyim-kechak turadigan shkaf yoki qutili javon

clothes-prop [ˈkləʊ(ð)z,prɒp] *n* kiyim-kechak ilinadigan arqonning tirgovuchi

clothier [ˈkləʊðɪə] *n* 1) *esk.* suknochi, suknofurush, movutfurush; 2) erkaklar kiyimlarini sotadigan savdogar; 3) kiyim tikuvchi, mashinachi; 4) kigizchi, namatchi, kigiz (namat) bosuvchi, sukno (movut) bosuvchi

clothing [ˈkləʊðɪŋ] *n* kiyim, libos

cloth-line [ˈklɒθlaɪn] *n so'zl.* radio-antenna

cloth-maker [ˈklɒθ,meɪkə] *n* movutbof, movut ishlab chiqarish mutaxassisi

cloth-yard [ˈklɒθjɑ:d] *n* bir yard uzunligidagi chizg'ich (*gazmol o'lchash uchun*)

clotted [ˈklɒtɪd] *a* 1) serkesak, kesakli, kesak-kesak, yumaloq-yumaloq, qumoq-qumoq; 2) quyultirilgan; quyulgan; **~ blood** quyulgan qon; **~ nonsense** g'irt bemani gap, qip-qizil safsata

clotty [ˈklɒtɪ] *a* 1) quyultirilgan, quyulgan, quyuq tortgan; 2) serkesak, kesakli

cloud [klaʊd] **1.** *n* bulut; **2.** *v* bulut bilan qoplangan

cloud-assembler [ˌklaʊdə ˈsemblə] *n* „bulut yig'uvchi", momaqaldiroq sochuvchi (*Zevs-Yupiter epiteti*)

cloudberry [ˈklaʊdb(ə)rɪ] *n bot.* xushbo'y mevali botqoq o'simligi va uning mevasi

cloud-built [ˈklaʊdbɪlt] *a* xayoliy, tasavvurdagi, bajarib (amalga oshirib) bo'lmaydigan, amalga oshmaydigan

cloud-burst [ˈklaʊdbə:st] *n* jala, sharros yomg'ir

cloud-capped, cloud-capt [ˈklaʊdkæpt] *a* bulutlar bilan qoplangan

cloud-castle [ˈklaʊd,kɑ:sl] *n* xomxayol, puch xayol

cloud-compeller [ˌklaʊdkəm,pelə] *n* 1) = **cloud-assembler**; 2) *hazil.* kashanda odam, chekadigan kishi, biror narsa chekuvchi

cloud-drift [ˈklaʊd,drɪft] *n* suzib yuruvchi bulutlar

clouded [ˈklaʊdɪd] *a* jilosiz, nursiz, yaltiramaydigan; **~ glass** xira oyna

cloudiness [ˈklaʊdɪnəs] *n* 1) bulut bosganlik, bulut bilan qoplanganlik, bulutlilik; 2) xiralashish; qorong'ilashish; xiralashtirish, xira qilib qo'yish; **the ~ of understanding** aqlning xiralashuvi (pasayishi)

cloud-land [ˈklaʊdlænd] *n* afsonaviy mamlakat

cloudless [ˈklaʊdləs] *a* bulutsiz, ochiq, musaffo

cloudlet [ˈklaʊdlɪt] *n* kichkina bulut, bulutcha

cloud-world [ˈklaʊdwə:d] = **cloudland**

cloudy [ˈklaʊdɪ] *a* bulutli

clough [klʌf] *n* chuqur dara; tor tog' oralig'i, tor yo'lak, dara; jarlik, jar

clour [klʊə] *n dial.* 1) (*boshda*) shish, g'urra, g'udda; 2) (*boshga*) zarba berish

clout [klaʊt] *n* qiyqim, qiyqindi, parcha

clouted I [ˈklaʊtɪd] *a* to'rlab yamalgan (tuzatilgan); yamalgan, yamoq solib tuzatilgan, yamoq solingan

clouted II [ˈklaʊtɪd] *a* quyultirilgan; quyulgan, quyuq tortgan

clout-nail [ˈklaʊtneɪl] *n* yassi (tekis) qalpoqli mix

clove I [kləʊv] *n* qalampirmunchoq, xushbo'ylik

clove II [kləʊv] *n* sarimsoqpiyoz pallachasi

clove-carnation [ˌkləʊvkɑ:ˈneɪʃ(ə)n] = **clove-pink**

cloven [ˈkləʊv(ə)n] *a* 1) yorilgan, tilingan; 2) ikkiga bo'lingan

cloven-footed, cloven-hoofed [ˌkləʊv(ə)nˈfʊtɪd, -ˈhu:ft] *a* 1) ayrituyoqli, qo'shtuyoqli, juftuyoqli; 2) iblisga (shaytonga) oid; iblisga (shaytonga) xos bo'lgan; iblis (shayton)...

clove-pink [ˈkləʊvpɪŋk] *n bot.* chinnigul

clover [ˈkləʊvə] *n bot.* beda (*yo'ng'ichqa*)

clover-leaf [ˈkləʊvəli:f] **1.** *n yo'l.* beda bargi shaklida kesib o'tish; **2.** *a* beda bargi shaklidagi; **a ~ crossing** *yo'l.* yo'llar beda bargi shaklida kesishib o'tgan joy (chorraha)

clow [klaʊ] *n* shluz darvozasi (*to'g'onlardagi suv darvozasi*)

clown [klaʊn] **1.** *n* masxaraboz, qiziqchi; **2.** *v* masxarabozlik (qiziqchilik) qilmoq

clownery [ˈklaʊnərɪ] *n* masxarabozlik, qiziqchilik

clownish [ˈklaʊnɪʃ] *a* qiziqchilik (masxarabozlik) bilan qilingan

cloy [klɔɪ] *v* (*biror narsani yediraverib*) juda to'ydirmoq, to'ydirib yubormoq

club I [klʌb] **1.** *n* so'yil, to'qmoq; **2.** *v* so'yil bilan urmoq

club II [klʌb] **1.** *n* klub; **2.** *v* bir joyda yig'ilmoq

clubbable [ˈklʌbəb(ə)l] *a* odamga el bo'ladigan, kirishimli; dilkash

clubbing [ˈklʌbɪŋ] *n* so'yil bilan urish

club-foot [ˈklʌbfʊt] *n* maymoqlik

club-footed [ˌklʌb ˈfʊtɪd] *a* maymoq, maymoq oyoq

club-house [ˈklʌbhaʊs] *n* klub binosi

club-law [ˈklʌb,lɔ:] *n* zo'ravonlik

clubman [ˈklʌbmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) klub a'zosi

clubmobile [ˈklʌb,məʊbɑ:l] *n* klub-avtomobil, bufet va klub jihozlari bilan jihozlangan avtomobil

club-shaped [ˈklʌb,ʃeɪpt] *a* bir tomoni yo'g'onlashgan

clubwoman [ˈklʌb,wʊmən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) klub a'zosi bo'lgan ayol

cluck [klʌk] **1.** *n* qaqag'lash; **2.** *v* qaqag'lamoq

clucker [ˈklʌkə] *n* mahmadona (safsataboz, quruq gap sotuvchi) odam
clue [klu:] *n* kalit (*qandaydir jumboqning yechimi*)
clumber-spaniel [ˈklʌmbəˈspænɪəl] *n* spaniel (*ovchi itning bir turi*)
clump [klʌmp] **I.** *n* 1) to'p, to'da; 2) og'ir qadam ovozi; **2.** *v* og'ir qadam tashlamoq
clumsily [ˈklʌmzɪlɪ] *adv* 1) kelishmagan (qovushmagan, o'xshovi yo'q, beso'naqay, qo'pol) tarzda; 2) qo'pollik bilan; qo'pollik qilib, dag'al, qo'pol, qo'rs, to'rs
clumsiness [ˈklʌmzɪnəs] *n* qo'pollik; beo'xshovlik; beso'naqaylik
clumsy [ˈklʌmzɪ] *a* beso'naqay, qo'pol
clunch [klʌnʧ] **1.** *n dial.* 1) katta bo'lak, palaxsa; 2) qo'pol (tarbiya ko'rmagan, madaniyatsiz) odam; **2.** *a dial.* 1) serkesak, kesakli, kesak-kesak, yumaloq-yumaloq; 2) g'adir-budur; 3) pakana, past bo'yli, bo'yi past; baqaloq
clung [klʌŋ] *past, p. p. of* **cling**
clunkhead [ˈklʌŋhed] *n amer. so'zl.* tentak, ahmoq
cluster [ˈklʌstə] *n* dasta, bog'lam
clustered [ˈklʌstəd] *a* 1) bog'lam yoki to'p bo'lib o'sadigan; 2) bir uyum (to'da, to'p, g'aram) qilib yig'ilgan (to'plangan)
clustery [ˈklʌstərɪ] *a* to'p-to'p, bog'lam yoki bosh bo'lib o'sadigan
clutch I [klʌʧ] **1.** *n* siqish, qisish; **2.** *v* mahkam ushlab (tutib) olmoq
clutch II [klʌʧ] **1.** *n* ona tovuqdan ajralmagan jo'jalar; **2.** *v* tuxum bosib jo'ja (bola) ochmoq
clutter [ˈklʌtə] **1.** *n* tartibsizlik; **2.** *v* tartibsizlik qilmoq
cly I [klaɪ] *n so'zl. jarg.* tanga; chaqa (yoki tilla) pul; pul; 2) cho'ntak, kissa
cly II [klaɪ] *v so'zl. jarg.* 1) o'g'irlamoq; 2) o'g'rilik qilmoq, o'g'rilik bilan kun kechirmoq
clypeate [ˈklɪpɪeɪt] *a zool.* qalqonsimon (*bez va b.*)
clyster [ˈklɪstə] **1.** *n tib.* klizma, huqna; **2.** *v tib.* klizma qo'ymoq, huqna qo'ymoq
clyster-pipe [ˈklɪstəˌpaɪp] *n tib.* klistir (klizma, huqna) naychasi
cnemial [ˈni:mɪəl] *a anat.* katta boldir suyagiga oid
co- [kə(o)-] *pref.* birgalik ma'nosini ifodalovchi ot va fe'llar yasaydi, mas., **coexist** birga yashamoq, birga (bir joyda, bir vaqtda) mavjud bo'lmoq; **co-operator** xizmatdosh, hamkor, birga ishlovchi
coach [kəʊʧ] **1.** *n* repetitor (*imtihonlarga tayyorlovchi*); **2.** *v* imtihonga tayyorlamoq
coach-box [ˈkəʊʧbɔks] *n* izvoshchi o'rindig'i
coachee [kəʊ ˈʧi:] *n so'zl.* aravakash, izvoshchi
coacher [ˈkəʊʧə] *n* 1) aravaga qo'shiladigan (aravakash) ot; 2) *esk.* aravakash, izvoshchi
coachful [ˈkəʊʧful] *n* bir arava to'la (qandaydir) narsa
coach-house [ˈkəʊʧhaʊs] *n* kareta (*to'rt g'ildirakli yengil soyabon arava*) turadigan saroy (bostirma)
coachman [ˈkəʊʧmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) aravakash, izvoshchi
coach-whip [ˈkəʊʧwɪp] *n* 1) aravakash (izvoshchi)ning qamchisi; 2) (*material, qog'oz va b. ning*) uzun ensiz parchasi (bo'lagi); 3) *pl* qiyqim, qiyqindi; rezgi, parcha; 3) *amer. deng.* vimpel (*harbiy kemalarda: uzun kumbar bayroqcha, taniqlik belgisi*)
coachwork [ˈkəʊʧwɜ:k] *n* kuzov (o'gracha) (*avtomobil yoki boshqa transport vositalarining odam tashiydigan, yuk ortiladigan joyi*)ni yasash
coachy [ˈkəʊʧɪ] = **coachee**
coact [kəʊ ˈækt] *v kam.* birgalikda harakat qilmoq
coadjutor [kəʊˈædʒʊtə] *n* 1) yordamchi; 2) o'rinbosar
coagula [kəʊˈægjʊlə] *pl of* **coagulum**
coagulability [kəʊˌægjʊləˈbɪlɪtɪ] *n* quyulish (ivish) xususiyati; quyulish; ivish
coagulable [kəʊ ˈægjʊləb(ə)l] *a* 1) quyulish (ivish) xususiyatiga ega bo'lgan; 2) quyuladigan, iviydigan
coagulant [kəʊˈægjʊlənt] *n kim.* quyultiruvchi modda
coagulate [kəʊ ˈægjʊleɪt] *v* quyulmoq, quyuqlashmoq
coagulation [kəʊˌægjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* quyulish, ivish
coagulative [kəʊ ˈægjʊlətɪv] *a* quyuluvchi, quyuladigan, iviydigan
coagulator [kəʊˈægjʊleɪtə] *n kim.* koagulator (*kimyo texnologiyasida mayda zarralarga bo'lingan kolloid sistemasini quyultirish uchun xizmat qiladigan asbob*)
coagulum [kəʊˈægjʊləm] *n* (*pl* **-la** [-lə]) quyulib qolgan narsa; quyqa
coak [kəʊk] *n qur.* 1) tiqin; 2) katta yog'och (yoki metall) mix, mixcho'p
coal [kəʊl] **1.** *n* toshko'mir; **2.** *v* kuyib sirti ko'mirga aylanmoq
coal-basin [ˈkəʊlˌbeɪs(ə)n] *n* ko'mir havzasi
coal-bearing [ˈkəʊlˌbe(ə)rɪŋ] *a* ko'mirli, toshko'miri bor
coal-bed [ˈkəʊlbed] *n* ko'mir qatlami
coal-black [ˈkəʊlˈblæk] *a* smoladek qop-qora
coal-breaker [ˈkəʊlˌbreɪkə] *n* 1) ko'mir boyitish (saralash) fabrikasi; 2) ko'mir maydalagich (mashina)
coal-cutter [ˈkəʊlˌkʌtə] *n* ko'mir maydalaydigan mashina
coal-dust [ˈkəʊldʌst] *n* ko'mir changi
coaler [ˈkəʊlə] *n* ko'mir qazuvchi, konchi
coalesce [ˌkəʊəˈles] *v* 1) bitmoq, bitib ketmoq (*singan suyak to'g'risida*); 2) (*guruh va b. ga*) birlashmoq
coalescence [ˌkəʊəˈles(ə)ns] *n* (*guruhlar va b. ga*) birlashish
coal-face [ˈkəʊlfeɪs] *n* ko'mir koni, ko'mir kovlab olinadigan joy
coal-field [ˈkəʊlfi:ld] *n* toshko'mir havzasi
coal-gas [ˈkəʊl gæs] *n* toshko'mir gazi
coal-heaver [ˈkəʊlˌhi:və] *n* toshko'mir tashuvchi
coal-hole [ˈkəʊlhəʊl] *n* ko'mir saqlanadigan yerto'la
coal-house [ˈkəʊlhaʊs] *n* ko'mir ombori, omborxona
coalification [ˌkəʊlɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* kuyib ko'mirga aylanish; kuydirib ko'mirga aylantirish
coaling [ˈkəʊlɪŋ] *n* ko'mir yuklash
coaling-station [ˈkəʊlɪŋˌsteɪʃ(ə)n] *n* ko'mir bazasi
coalition [ˌkəʊəˈlɪʃ(ə)n] *n* ittifoq
coalitional [ˌkəʊəˈlɪʃ(ə)nəl] *a* ittifoqqa oid, ittifoq asosida tuzilgan, ittifoqqa kiradigan, ittifoq...
coalitionist [ˌkəʊəˈlɪʃ(ə)nɪst] *n* koalitsiya (ittifoq) qatnashuvchisi, a'zosi
coalize [ˈkəʊəlaɪz] *amer.* = **coalise**
co-ally [kəʊˈælaɪ] *n* ittifoqdosh, ittifoqchi
coalman [ˈkəʊlmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) ko'mir qazuvchi ishchi, shaxtyor
coal-master [ˈkəʊlˌmɑ:stə] = **coal-owner**
coal-measures [ˈkəʊlˌmeʒəz] *n geol.* toshko'mir qatlamlari (svitalari, tog' jinslari tizmasi)
coal-meter [ˈkəʊlˌmi:] *n tex.* ko'mir o'lchaydigan yoki tortadigan (mansabdor, amaldor) kishi (*Angliyada*)
coal-mine [ˈkəʊlmaɪn] *n* ko'mir koni
coal-miner [ˈkəʊlˌmaɪnə] *n* kon qazuvchi, ko'mir qazuvchi ishchi
coal-oil [ˈkəʊlɔɪl] *n* 1) bitum ko'miridan olingan xom (ishlanmagan) neft; 2) mineral (mineralli, tarkibida mineral bo'lgan) moy
coal-owner [ˈkəʊlˌəʊnə] *n* toshko'mir koni xo'jayini (egasi)
coal-pit [ˈkəʊlpɪt] ko'mir shaxtasi
coalsack [ˈkəʊlsæk] *n* ko'mir qop
coalscuttle [ˈkəʊlˌskʌtl] *n* ko'mir chelak; ko'mir solinadigan kichkina chelak (chelakcha, paqircha), ko'mir idish
coal-seam [ˈkəʊlsi:m] = **coal-bed**

coal-tar [ˈkəʊlˈtɑ:] *n* toshko'mir qatroni
coaly [ˈkəʊlɪ] *a* ko'mirdan qilingan, ko'mirli
coal-works [ˈkəʊlwɜ:ks] *n* (*fe'llar bilan birlik va ko'plikda ishlatiladi*) ko'mir koni
coaptation [ˌkəʊæpˈteɪʃ(ə)n] *n* (predmetlarning, qismlarning bir-biriga) moslashishi; 2) (*singan paytda suvak parchalarini, jarohatning chekkalarini*) ulash
coarctate [kəʊˈɑ:kteɪt] *a* chambarchas bog'langan (*to'qima, a'zolar haqida*)
coarse [kɔ:s] *a* dag'al (*ovqat, kiyim va b. haqida*)
coarse-grained [ˈkɔ:sˌgreɪnd] *a* yirik donali
coarsely [ˈkɔ:slɪ] *adv* qo'pollik bilan; qo'pollik qilib, dag'al, qo'pol, qo'rs, to'rs
coarsen [ˈkɔ:s(ə)n] *v* dag'allashtirmoq, qo'pollashmoq
coarseness [ˈkɔ:snəs] *n* 1) qo'pollik, dag'allik; qo'rslik; 2) qo'pol muomala, qo'rs gap, qo'pol harakat, qo'pollik, dag'allik
coarticulate [ˌkəʊɑ:ˈtɪkjʊleɪt] *v maxs.* biriktirmoq, ulamoq
coast [kəʊst] **1.** *n* dengiz qirg'og'i; **2.** *v* qirg'oq bo'ylab suzmoq
coastal [ˈkəʊstl] *a* qirg'oqqa (sohilga) oid
coaster [ˈkəʊstə] *n* kabotaj kemasi (*kabotaj — ichki portlar orasida qatnaydigan kemalar va shunday kemalar qatnovi*)
coaster brake [ˈkəʊstəˌbreɪk] *n tex.* velosipedning oyoq tormozi
coastguard [ˈkəʊstgɑ:d] *n* qirg'oq qo'riqchisi
coasting [ˈkəʊstɪŋ] *n* kabotaj kemalar qatnovi
coasting-trade [ˈkəʊstɪŋˌtreɪd] *n* kabotaj kemalarida (ichki portlar o'rtasida) savdo qilish
coasting-vessel [ˈkəʊstɪŋˌves(ə)l] *n* kabotaj kemasi (*ichki portlar orasida qatnaydigan kema*)
coastline [ˈkəʊstlaɪn] *n* qirg'oq chizig'i
coast-to-coast [ˌkəʊsttəˈkəʊst] *a amer.* 1) qirg'oqdan qirg'oqqacha cho'ziladigan (Atlantikadan Tinch Okeanigacha); 2) butun AQSH maydoniga qarashli (oid, daxldor, aloqador) bo'lgan
coast-waiter [ˈkəʊstˌweɪtə] *n* bojxona nazoratchisi (tekshiruvchisi)
coastward(s) [ˈkəʊstwed(z)] *adv* qirg'oq tomonga qarab
coast warning [ˈkəʊstˌwɔ:nɪŋ] *n dengiz.* shtorm (dovul) signali
coastways [ˈkəʊstweɪz] *adv* qirg'oq bo'ylab
coastwise [ˈkəʊstwaɪz] *adv* qirg'oq bo'ylab
coat [kəʊt] **1.** *n* palto; **2.** *v* ustini (sirtini) qoplamoq
coast-dress [ˈkəʊstdres] *n* tugmali uzun ko'ylak
coated [ˈkəʊtɪd] *a* (*biror narsa bilan*) qoplangan
coatee [ˈkəʊti:] *n* kalta kamzul (*erkaklar nimchasi*)
coath [kəʊð] *n* qo'tir (qichima) bo'lish, qasmoq bog'lash, qirchang'i bo'lib qolish
coating [ˈkəʊtɪŋ] *n* (*bo'yoq va b. hosil qilgan*) qatlam
coatless [ˈkəʊtləs] *a* 1) paltosiz; 2) tamg'asiz
coat of mail [ˌkəʊtəvˈmeɪl] *n* sovut
coat-tail [ˈkəʊtteɪl] *n* falda (*1. frak, mundir kabi erkaklar kiyimining orqa etagi; 2. ayollar kiyimining naysimon burmasi*)
co-author [kəʊˈɔ:θə] *n* hammuallif
coax [kəʊks] **1.** *n* tilini topa oladigan (gapga ko'ndira oladigan) odam; **2.** *v* iltimos qilib (yalinib) ko'ndirmoq, rozi qilmoq, unatmoq
coaxal [kəʊˈæks(ə)l] *a maxs.* umumiy o'qqa ega bo'lgan
coaxial [kəʊˈæksɪəl] = **coaxal**
coaxing [ˈkəʊksɪŋ] *n* iltimos qilish
cob I [kɒb] *n* erkak oqqush, oqqush erkagi (xo'rozi)
cob II [kɒb] *n* 1) katta bo'lak, palaxsa; 2) somonli loy bilan suvash; ~ **wall** loy devor, paxsa
cob III [kɒb] *n zool.* chayka, baliqchi (*qush*)
cob IV [kɒb] *n dial.* to'qilgan savat
cob V [kɒb] **1.** *n* zarba; **2.** *v* zarba bermoq
cobalt [ˈkəʊbɔ:lt] *n kim.* kobalt (*kimyoviy element, kumush rangli metall*)
cobaltite [kəʊˈbɔ:ltaɪt] *n min.* kobaltin, kobalt yaltirog'i (*sulfidlar sinfiga mansub mineral*)
cobb I [kɒb] *n zool.* chayka, baliqchi (qush)
cobb II [kɒb] *n* zarba
cobber [ˈkɒbə] *n avstral. so'zl.* oshna, og'ayni, jo'ra, o'rtoq, do'st
cobble [ˈkɒb(ə)l] **1.** *n* yomon bajarilgan (qilingan) ish; **2.** *v* poyabzalni yomon yamamoq (tuzatmoq)
cobbler [ˈkɒblə] *n* 1) yamoqchi; 2) yomon ishchi
cobbler's wax [ˈkɒbləzˌwæks] iplarga surtiladigan mum
cobble-stone [ˈkɒb(ə)lstəʊn] *n* yirik tosh, chag'irtosh, yo'lga yotqiziladigan tosh
cobbling [ˈkɒblɪŋ] *n* poyabzal tuzatish (ta'mirlash)
cobby [ˈkɒbɪ] *a* past bo'yli, pastak
cob crusher [ˈkɒbˌkrʌʃə] *q.x.* so'ta maydalaydigan mashina
co-belligerent [ˌkəʊbɪˈlɪdʒ(ə)rənt] *n* ittifoqdosh (urushda)
coble [ˈkəʊb(ə)l] *n* baliqchining tagi yassi qayig'i
cob-loaf [ˈkɒbləʊf] *n* kulcha non
cob-nut [ˈkɒbnʌt] *n bot.* funduk (*Kavkaz va Qrimda o'sadigan yong'oq daraxti*)
cobra [ˈkɒbrə, ˈkəʊbrə] *n zool.* ko'zoynakli ilon, kobra
cob-swan [ˈkɒbˌswɒn] *n* qushning nari (*xo'rozi*)
coburg [ˈkəʊbɜ:g] *n to'q.* sarja (*bir xil astarbop gazlama*)
cobweb [ˈkɒbweb] *n* o'rgimchak ini (*uyasi va uning har tolasi*)
cobwerb bird [ˈkɒbweb,bɜ:d] *zool.* uzunquyruq; uzunquyruq chumchuq (*hasharotxo'r qush*)
cobwebby [ˈkɒbˌwebɪ] *a* o'rgimchak ini (uyasi) bilan qoplangan
Coca-Cola [ˌkəʊkəˈkəʊlə] *n* koka-kola (*ichimlik*)
Cocaigne [kɒˈkeɪn] = **Cockaigne**
cocaine [kə(ʊ)ˈkeɪn] *n* kokain (*koka bargidan olinadigan, og'riqni qoldiradigan modda, alkoloid*)
cocainize [kə(ʊ)ˈkeɪnaɪz] *v* ukol qilib kokain yubormoq
cocci [ˈkɒk(s)aɪ] *pl of* **coccus**
coccid [ˈkɒksɪd] *n zool.* chervets (o'simlik zararkunandasi)
coccus [ˈkɒkəs] *n* (*pl* **cocci** [ˈkɒk(s)aɪ]) *tib.* kokk (*yumaloq bakteriya*)
coccygeal [kɒkˈsɪdʒɪəl] *a anat.* dumg'aza, dum suyagiga oid; dumg'aza...
coccyges [kɒkˈsaɪdʒi:z] *pl of* **coccyx**
coccyx [ˈkɒksɪks] *n anat.* dum suyagi, dumg'aza
co-chairman [kəʊˈtʃeəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) galma-gal raislik qiluvchi shaxslardan biri, raisdosh
cochin(-china) [ˌkəʊtʃɪn(ˈtʃaɪnə)] *n* koxinxinka (*tovuq yoki xo'rozning turi, nasli, zoti*)
cochineal [ˌkɒtʃɪˈni:l] *n* koshenil (*qizil bo'yoq*)
cochlea [ˈkɒklɪə] *n* (*pl* **-eae** [-i:]) *anat.* quloq ichining tovush qabul qiladigan qismi
cochleae [ˈkɒkli:] *pl of* **cochlea**
cochleare [ˌkɒklɪˈe(ə)ri:] *n tib.* (*dori o'lchovchi*) qoshiq
cochleariform [ˌkɒklɪˈe(ə)rɪfɔ:m] *a* qoshiqsimon, qoshiqqa o'xshagan, qoshiq shaklidagi
cock I [kɒk] *n* 1) xo'roz; **fighting** ~ urishadigan xo'roz; 2) (*qushlarda*) nar, erkak; 3) xo'rozning qichqirishi; 4) flu-

ger (*shamolning yo'nalishi va tezligini ko'rsatadigan, aniqlaydigan asbob*); 5) *so'zl.* urishqoq, jangari, janjalkash; 6) (*miltiq va h. da*) tepki

cock II [kɒk] *v* ko'tarmoq; **to ~ the ears** quloqni ding qilmoq (*hayvon to'g'risida*); diqqat bilan quloq solmoq

cock III [kɒk] **1.** *n* (*miltiqda*) ko'tarilgan tepki; **2.** *v* tepkini ko'tarmoq

cock IV [kɒk] **1.** *n* g'aram, to'p, to'da, uyum; **2.** *v* xashakni g'aramlamoq, to'plamoq

cockade [kɒ'keɪd] *n* kokarda (*furajkaga qadaladigan nishon*)

cock-a-doodle-doo [ˌkɒkəˌduːdl´duː] *n* quqaraququ (*xo'rozning qichqirig'i*), chaqirish, qichqirish (*xo'roz haqida*)

cock-a-hoop [ˌkɒkə´huːp] *a* kekkaygan, kibr havosi baland

Cockaigne [kɒ´keɪn] *n* hech kim ishlamaydigan, ammo hamma narsa serob bo'lgan afsonaviy mamlakat

cock-a-leekie [ˌkɒkə ´liːkɪ] = **cocky-leeky**

cockalorum [ˌkɒkə´lɔːrəm] *n so'zl.* bo'yi past, ammo o'ziga ishongan yosh yigitcha, „xo'roz"

cockatiel [ˌkɒkə´tiːl] *n zool.* Avstraliya to'tiqushi

cockatoo [ˌkɒkə´tuː] *n zool.* kokadu (*tojli to'tiqush*)

cockatrice [´kɒkətr(ə)ɪs] *n* bir qarashi barcha jonzotni o'ldiradigan afsonaviy maxluq, ajdaho

Cockayne [kɒ´keɪn] = **Cockaigne**

cock-boat [´kɒkbəʊt] *n* bog'langan qayiq

cockchafer [´kɒkˌtʃeɪfə] *n zool.* tillaqo'ng'iz

cock-crow [´kɒkkrəʊ] *n* xo'rozlar qichqiradigan vaqt (tong)

cocked [kɒkt] *a* ko'tarilgan

cocker [´kɒkə] *v* (*bolalarni*) erkalamoq, erkalatmoq

cockerel [´kɒk(ə)rəl] *n* jo'jaxo'roz, xo'rozcha

cocker spaniel [ˌkɒkə´spænɪəl] koker-spaniel (*ovchi it*)

cocket I [´kɒkɪt] **1.** *n* 1) *kam.* bojxona boji; 2) *tar.* qirollik bojxonasining muhri; **2.** *v tar.* bojxona muhrini (tamg'asini) bosmoq

cocket II [´kɒkɪt] *n esk.* ikkinchi navli non

cocket III [´kɒkɪt] *a dial.* shod, xursand, vaqti (kayfi, dimog'i) chog'; quvnoq, xushchaqchaq

cock-eye [´kɒkaɪ] *a* g'ilay

cock-eyed [ˌkɒk´aɪd] *a so'zl.* g'ilay

cock-fight(ing) [´kɒkˌfaɪt(ɪŋ)] *n* xo'rozlar jangi, xo'roz urishtirish

cock-horse [´kɒkˌhɔːs] *n* 1) o'yinchoq otcha, kichkina o'yinchoq ot; 2) *kam.* ayg'ir ot

cockie-leekie [ˌkɒkɪ ´liːkɪ] = **cocky-leeky**

cocking [´kɒkɪŋ] *n* 1) xo'roz jangi; 2) yakantovuq ovi (ovlash)

cockish [´kɒkɪʃ] *a* 1) xo'rozga oid; xo'roz...; 2) o'ziga bino qo'ygan, gerdaygan, manman, mutakabbir; 3) *dial.* buzuq, axloqsiz, badaxloq, yomon yo'lga kirgan

cock-laird [´kɒkleəd] *n shotl.* kichik yer maydonining xo'jayini yoki ijarachisi

cockle I [´kɒk(ə)l] *n bot.* randak (*sariq gulli yovvoyi o't*)

cockle II [´kɒk(ə)l] *n zool.* yeyiladigan molluska

cockle-shell [´kɒk(ə)lʃel] *n* 1) molluska chig'anog'i; 2) chidamsiz (ishonib bo'lmaydigan, omonat) kemacha (*kichik kema*)

cockle-stairs [´kɒk(ə)lsteəz] *n pl* aylanma (burama) zina

cock-loft [´kɒkloft] *n* cherdak (*ustki tom bilan ostki tom yoki shipning oralig'i*)

cockney [´kɒknɪ] *n* 1) kokni, londonlik; 2) London shevasi

cockpit [´kɒkpɪt] *n* ekipaj kabinasi

cockroach [´kɒkrəʊtʃ] *n zool.* suvarak, tezgizak

cockscomb [´kɒkskəʊm] *n* xo'roz toji

cock's-foot, cockfoot [´kɒksfʊt,´kɒkfʊt] *n bot.* oqso'xta (o't turi)

cockshead [´kɒkshed] *n bot.* esparset (*ozuqabop dukkakli o'simlik*)

cockshot [´kɒkʃɒt] = **cock-shy**

cock-shut [´kɒkʃʌt] *n dial.* g'ira-shira payt, tong yorishgan yoki qosh qorayган payt

cock-shy [´kɒkʃaɪ] *n* 1) (*yarmarka va b. da*) qandaydir predmet yoki nishonga cho'p yoki boshqalarni otish; 2) cho'p bilan uriladigan nishon

cockspur [´kɒkspɜː] *n* 1) xo'rozning pixi; 2) *bot.* do'lana (*daraxi va mevasi*)

cock-sure [ˌkɒk ´ʃʊə] *a* to'la ishonch bilan qilingan

cockswain [´kɒkswem] *deng.* = **coxswain**

cocksy [´kɒksɪ] *a* 1) o'ziga ishongan, o'zini katta oladigan, boshqalar bilan hisoblashmaydigan, manman; 2) dag'al, qo'pol, qo'rs, to'rs; qo'pol muomala; 3) surbet, bezbet, sur, shilqim, orsiz, beor, sulloh

cocktail [´kɒkteɪl] *n* kokteyl (*konyak, likor, vino va sh. k. aralashmasidan shakar va ziravorlar qo'shib tayyorlangan shirin, xushbo'y ichimlik*)

cock-tailed [´kɒkteɪld] *a* dumi qirqilgan (*ot haqida*)

cock-up, cockup [´kɒk´ʌp] *n* oxiri yuqoriga qaratilgan qandaydir narsa

cockweed [´kɒkwiːd] *n bot.* 1) qoratundak, boltiriq; 2) randak (*sariq gulli yovvoyi o't*)

cocky [´kɒkɪ] *a* o'ziga ishongan

cocky-leeky [ˌkɒkɪ´liːkɪ] *n shotl.* piyoz solingan tovuq bulyoni (*qaynatma sho'rva*)

coco [´kəʊkə] *n* kokos palmasi (*doim yashil janub daraxti*)

cocoa [´kəʊkəʊ] *n* kakao (*shokolad daraxtining urug'i, doni va uning kukuni*)

coconut [´kəʊkənʌt] *n* kokos, kokos yong'og'i

coconut-tree [´kəʊkənʌtˌtriː] *n* kokos palmasi (*doim yashil janub daraxti*)

cocoon [kə´kuːn] *n* pilla

cocoonery [kə ´kuːnərɪ] *n amer.* ipak qurti boqiladigan xona, qurtxona

coco-palm [´kəʊkəpɑːm] *n* kokos palmasi (*doim yashil janub daraxti*)

cocotte [kə´kɒt] *n fr.* kokotka (*burjua jamiyatida: o'ynash hisobiga yashovchi suyuqoyoq ayol*)

cod [kɒd] **1.** *n* treska (*Shimol dengizidagi baliqlarning bir turi*); **2.** *v so'zl.* aldamoq

coda [´kəʊdə] *n mus.* koda (*musiqa asarining xotima qismi*)

coddle I [´kɒdl] **1.** *n* nozik-nihol odam, nozik; **2.** *v* parvarish qilmoq, yosh bolaga qaramoq

coddle II [´kɒdl] *v* past olovda (o'tda) qaynatmoq

code [kəʊd] **1.** *n yur.* kodeks (*qonunlar majmuyi*); 2) kod; shifr (*maxfiy yozishma uchun qabul qilingan shartli belgilar*); **2.** *v* kod bilan yozmoq, kodlamoq

co-debtor [kəʊ´detə] *n yur.* birga (birgalikda) qarzdor bo'lgan kishi

co-defendant [ˌkəʊdɪ ´fendənt] *n yur.* birga javob beruvchi shaxs, birgalikda javobgar bo'lgan odam

codeine [´kəʊdiːn] *n farm.* kodein (*afyun tarkibidagi alkaloid*)

codetta [kə´detə] *n mus.* kodetta (*ba'zan mavzuga daxldor bo'lmagan bir nechta notalar qo'shilgan qismi*)

codex [´kəʊdeks] *n* (*pl* **codices** [´kəʊdɪsiːz]) 1) *maxs.* kodeks (*muqovalangan qadimiy qo'lyozma*); 2) *maxs.* farmakopeya (*dori tayyorlash, saqlash va kasallarga yozib berishga oid qo'llanma yoki qoidalar to'plami*)

cod-fish [´kɒdfɪʃ] *n zool.* treska (*Shimol dengizidagi baliqlarning bir turi*)

codger [´kɒdʒə] *n so'zl.* g'alati (tentaksimon) odam

codices [ˈkəʊdɪsi:z] *pl of* **codex**
codification [ˌkəʊdɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* kodeks tuzish
codify [ˈkəʊdɪfaɪ] *v* shifrlamoq
codilla [kəˈdɪlə] *n to'q.* zig'irpoyaning dag'al tolasi, kanop losi
codlin [ˈkɒdlɪn] *n* yovvoyi olma
codling I [ˈkɒdlɪŋ] *n zool.* mayda (kichkina) treska
codling II [ˈkɒdlɪŋ] *n* yovvoyi olma
codling-moth [ˈkɒdlɪŋmɒθ] *n* olma daraxti mevaxo'ri (*qurti mevalarni yeydigan kapalak*)
cod-liver oil [ˌkɒdlɪvə(r)ˈɔɪl] *n* baliq moyi
coecum [ˈsi:kəm] = **caecum**
co-ed [ˌkəʊˈed] *n* (**co-educated** *ning qisqatmasi*) *amer. so'zl.* (*qizlar va o'g'il bolalar o'qiydigan o'quv yurtida*) o'quvchi qiz, toliba
co-education [ˌkəʊedjʊˈkeɪʃ(ə)n] *n* o'g'il bolalar va qizlarning birgalikda o'qishi, o'qitilishi
co-educational [ˌkəʊedjʊˈkeɪʃ(ə)nəl] *a* bir sinfda o'qiydigan, sinfdosh
coefficient [ˌkəʊɪˈfɪʃ(ə)nt] **1.** *n* koeffitsiyent (*1. biror matematik ifodaning o'zgarmas yoki ma'lum ko'paytiruvchisi; 2. biror fizik hodisani miqdor jihatidan ko'rsatadigan son*); **2.** *a* ko'maklashayotgan, yordam berayotgan
coelelminth [ˈsi:lelmɪnθ] *n zool.* yumaloq qurt, nematoda
coeliac [ˈsi:lɪæk] *a anat.* qoringa (qorin bo'shlig'iga) oid; **~ plexus** *anat.* quyosh o'rilmasi (*qorinda tutashgan vegetativ nervlar sistemasi*)
coenobite [ˈsi:nəbaɪt] *n* monastirda yashovchi rohib
coenoby [ˈsi:nəbɪ] *n kit.* monastir, monaxlar maskani
coequal [kəʊˈi:kwəl] *a* boshqalar bilan teng, baravar, bir xil (amal, mansab, martaba)
coerce [kəʊˈɜ:s] *v* majbur qilmoq, zo'rlamoq
coercibility [kəʊˌɜ:sɪˈbɪlɪtɪ] *n fiz.* siqilish xususiyati, siqilish, siqila olish (*gaz va b. haqida*)
coercion [kəʊˈɜ:ʃ(ə)n] *n* majbur qilish, zo'rlash
coercive [kəʊˈɜ:sɪv] *a* majburiy
coeval [kəʊˈi:v(ə)l] **1.** *n* 1) tengdosh, tengqur; 2) zamondosh; **2.** *a* zamonaviy
coexist [ˌkəʊɪgˈzɪst] *v* birga (bir vaqtda) mavjud bo'lmoq, birga yashamoq
coexistence [ˌkəʊɪgˈzɪst(ə)ns] *n* birga (bir vaqtda) mavjud bo'lish, birga yashash
coexistent [ˌkəʊɪgˈzɪst(ə)nt] *a* birga yashayotgan
cofactor [kəʊˈfæktə] *n mat.* birga(likda) harakat qiluvchi faktor
coffee [ˈkɒfɪ] *n* qahva
coffee-bean [ˈkɒfɪbi:n] *n* qahva dukkaki
coffee-berry [ˈkɒfɪˌberɪ] *n bot.* qahva daraxtining mevasi
coffee chicory [ˌkɒfɪˈtʃɪk(ə)rɪ] *bot.* sikoriy (*shu o'simlikning quritilgan va qahvaga aralashtiriladigan ildizi*)
coffee-cup [ˈkɒfɪkʌp] *n* qahva ichadigan kichkina piyola
coffee-grinder [ˈkɒfɪˌgraɪndə] *n* qahva yanchadigan mashina
coffee-grounds [ˈkɒfɪgraʊndz] *n pl* qahva quyqumi
coffee-house [ˈkɒfɪhaʊs] *n* qahvaxona
coffee-mill [ˈkɒfɪmɪl] *n* qahva yanchadigan mashina
coffee-palace [ˈkɒfɪˌpælɪs] = **coffee-house**
coffee-pot [ˈkɒfɪpɒt] *n* qahva qaynatadigan idish
coffee-room [ˈkɒfɪrʊm, -ru:m] *n* mehmonxonadagi qahvaxona
coffee shop [ˈkɒfɪʃɒp] *n* bufet, qahvaxona (*mehmonxonalarda*)
coffee-stall [ˈkɒfɪstɔ:l] *n* issiq qahva sotiladigan sayyor (ko'chma) do'koncha
coffee-table [ˈkɒfɪˌteɪb(ə)l] *n* qahva stoli
coffee tree [ˈkɒfɪtri:] *n* qahva daraxti
coffer [ˈkɒfə] **1.** *n* temir sandiq; **2.** *v* sandiqqa bekitib qo'ymoq
coffer-dam [ˈkɒfədæm] *n gidr.* kesson (*suv osti ishlarini bajarish uchun daryo, dengiz tagiga tushiriladigan maxsus kamera*)
cofferer [ˈkɒfərə] *n tar.* 1) xazinachi, g'aznachi; 2) saroy (podsho saroyi) xazinachisi
cofferet [ˈkɒf(ə)rɪt] = **coffret**
coffin [ˈkɒfɪn] **1.** *n* tobut; **2.** *n* tobutga qo'ymoq
coffin-bone [ˈkɒfɪnbəʊn] *n* tuyoq suyagi
coffin-nail [ˈkɒfɪnˌneɪl] *n jarg.* sigareta
coffle [ˈkɒf(ə)l] *n* tuya karvoni
coffret [ˈkɒf(ə)rɪt] *n* kichkina sandiq, sandiqcha
cog [kɒg] **1.** *n* 1) tish, tishcha; 2) aldash; **2.** *v* aldamoq
cogent [ˈkəʊdʒ(ə)nt] *a* ishonchli, ishonarli
cogged [kɒgd] *n* tishli
cogged-wheel [ˌkɒgdwi:l] *a:* **~ breathing** *tib.* entikib-entikib (to'xtab-to'xtab, uzoq-uzoq) nafas olish
cogger [ˈkɒgə] *n* g'irrom, tirriq, qurtavoz, muttaham, qallob, firibgar
coggie [ˈkɒgɪ] = **cogie**
coggle [ˈkɒg(ə)l] *n dial.* (*asosan, terish, yotqizish uchun ishlatiladigan*) yumaloq tosh
cogie [ˈkɒgɪ] *n shotl.* yog'ochdan yasalgan kichkina kosa (qadah, jom) yoki uning ichidagi narsa
cogitable [ˈkɒdʒɪtəb(ə)l] *a* to'g'ri keladigan, sig'adigan
cogitate [ˈkɒdʒɪteɪt] *v* yaxshilab o'ylab ko'rmoq
cogitation [ˌkɒdʒɪˈteɪʃ(ə)n] *n* yaxshilab o'ylab ko'rish
cogitative [ˈkɒdʒɪtətɪv] *a* fikrlashga (fikr qilishga) oid
cognac [ˈkɒnjæk] *n* konyak
cognate [ˈkɒgneɪt] *a* yaqin, o'xshash, bir-biriga bog'langan, qardosh
cognation [kɒgˈneɪʃ(ə)n] *n tilsh.* qardoshlik, yaqinlik (*so'z va tillar to'g'risida*)
cognisable [ˈkɒgnɪzəbl] *a* bilib (anglab) bo'ladigan, bilish mumkin bo'lgan
cognisance [ˈkɒgnɪz(ə)ns] *n* bilish, xabardorlik, voqiflik
cognisant [ˈkɒgnɪz(ə)nt] *a* (**of**) xabardor, yaxshi biladigan, bilimdon, bilarmon, bilag'on, ma'lumotli, tajribali, donishmand
cognise [kɒgˈnaɪz] *v* 1) *kit.* bilmoq, xabardor (voqif) bo'lmoq, ko'rib qolmoq, ko'zi tushmoq; 2) *fals.* tushunmoq, anglamoq, tushunib yetmoq; fahmlamoq; payqamoq
cognition [kɒgˈnɪʃ(ə)n] *n* 1) bilish; 2) bilish qobiliyati
cognitive [ˈkɒgnɪtɪv] *a* bilishga oid
cognizable [ˈkɒgnɪzəb(ə)l] *n* bilib (anglab) bo'ladigan
cognizance [ˈkɒgnɪz(ə)ns] *n* bilib olish, xabardor bo'lish
cognizant [ˈkɒgnɪz(ə)nt] *n* 1) yaxshi biladigan; 2) bilimdon
cognize [ˈkɒgnaɪz] *v* e'tibor bermoq
cognomen [kɒgˈnəʊmɪn] *n* 1) laqab; 2) familiya
cognominal [kɒgˈnɒmɪn(ə)l] *a* nomdosh, ismdosh, adash; bir nomli, nomi (ismi) bir xil bo'lgan; shu nomdagi; familiyadosh
cognoscente [ˌkɒnjəʊˈʃentɪ] *n* (*pl* **-ti** [-ti:]) *it. kit.* 1) yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; 2) san'atni yaxshi ko'radigan va yaxshi biladigan odam
cognoscenti [ˌkɒnjəʊˈʃenti:] *pl of* **cognoscente**
cognovit [kɒgˈnəʊɪt] *n yur.* da'vo yoki da'vogarning talabini yozma ravishda tan olish
cogue [kəʊg] *n shotl.* 1) yog'ochdan yasalgan chelak (paqir, satil); 2) kichkina yog'och kosa (qadah, jom)
cog-wheel [ˈkɒgwi:l] *n tex.* tishli g'ildirak
cohabit [kəʊˈhæbɪt] *v* birga (bir uyda) yashamoq (turmoq)

cohabitant [kəʊˈhæbɪt(ə)nt] *n* birga yashovchi
cohabitation [kəʊˌhæbɪˈteɪʃ(ə)n] *n* birga yashash, birga hayot kechirish
coheir [kəʊˈeə] *n* birga voris bo'ladigan kishi, hamvoris
coheiress [kəʊˈeərɪs] *n* birga voris bo'ladigan ayol, hamvoris
cohere [kəʊˈhɪə] *v* bog'liq bo'lmoq
coherence, -cy [kəʊˈhɪ(ə)rəns, -sɪ] *n* bog'lanish, aloqa
coherent [kəʊˈhɪ(ə)rənt] *n* bog'langan
coheritor [kəʊˈherɪtə] *n yur.* hamvoris, vorisdosh, birga voris bo'ladigan kishi
cohesion [kəʊˈhiːʒ(ə)n] *n* bog'lanish, aloqa
co-holder [kəʊˈhəʊldə] *n*: **~ of the record** *sport.* rekordni takrorlagan kishi
cohort [ˈkəʊhɔːt] *n* 1) *tar.* kogorta (*Qadimgi Rimda 600 kishilik otrad*); 2) *pl* otrad, qo'shin, askar, lashkar; 3) odamlar guruhi; 4) *amer.* a) tarafdor, yoqlovchi; b) birga qatnashgan (aralashgan) odam, sherik
coiffeur [kwɑːˈfɜː] *n fr.* sartarosh
coiffure [ˈkwɑːˈf(j)ʊə] *n fr.* tarab muayyan shaklga kiritilgan (silliqlangan) soch
coign(e) [kɔɪn] *n me'mor.* (*binoning*) tashqi burchagi; **~ of vantage** eng qulay nazorat punkti
coil [kɔɪl] **1.** *n* halqa, kalava: bir o'ram (*arqon, ilon va b.*); **2.** *v* halqa (*yoki* spiral) shaklida o'ramoq
coil pipe [ˈkɔɪlpaɪp] *n tex.* burama (spiral) naycha
coin [kɔɪn] **1.** *n* tanga-chaqa (*yoki* tilla) pul; **2.** *v* zarb qilmoq (bosmoq)
coinage [ˈkɔɪnɪdʒ] *n* tanga zarb qilish
coincide [ˌkəʊɪnˈsaɪd] *v* to'g'ri kelmoq, loyiq bo'lmoq
coincidence [kəʊˈɪnsɪd(ə)ns] *n* bir-biriga to'g'ri (mos) kelish
coincident [kəʊˈɪnsɪd(ə)nt] *a* bir-biriga to'g'ri keladigan
coincidental [kəʊˌmsɪˈdentl] *a* tasodifiy
coiner [ˈkɔɪnə] *n* (*tangalarni*) zarb qiluvchi (bosuvchi, chekuvchi, o'yuvchi) usta
co-inhere [ˌkəʊɪn ˈhɪə] *v yur.* merosni birgalikda olmoq, hamvoris bo'lmoq
co-inheritance [ˌkəʊɪnˈherɪt(ə)ns] *n yur.* merosni birgalikda olish, hamvoris bo'lish
co-inheritor [ˌkəʊɪnˈherɪtə] *n yur.* hamvoris, vorisdosh, birga voris bo'ladigan kishi
coinstantaneous [kəʊˌmstənˈteɪnɪəs] *a* 1) ayni bir vaqtda sodir bo'ladigan; 2) (*vaqtga nisbatan*) bir-biriga to'g'ri keladigan
coir [ˈkɔɪə] *n* kokos palmasining tolasi
coition [kəʊˈɪʃ(ə)n] *n* birlashish, qo'shilish; qo'shish, birlashtirish, qo'shib qo'yish
coke [kəʊk] **1.** *n* koks (*toshko'mir, neft, torf va sh. k. dan havosiz qizdirib tayyorlanadigan qattiq yoqilg'i*); **2.** *v* koksga aylantirmoq, kokslamoq
coker-nut [ˈkəʊkənʌt] = **coconut**
coking [ˈkəʊkɪŋ] *n* koksga aylantirish, kokslash
col [kɒl] *n* 1) egar; 2) bel (*hayvonlarning beli, egar uriladigan qismi*)
cola [ˈkəʊlə] *n* kola (*chanqoqni bosadigan ichimlik*)
colander [ˈkʌləndə] *n* chovli
colchicum [ˈkɒltʃɪkəm] *n bot.* savrinjon (*lolagullilar oilasiga mansub ko'p yillik o't*)
colcothar [ˈkɒlkəθə] *n* 1) *bot.* za'far; 2) krokus (*temir oksidi kukuni; metall va oyna buyumlarni silliqlash uchun ishlatiladi*)
cold [kəʊld] **1.** *a* sovuq; **2.** *n* sovuq havo
cold-arms [ˈkəʊld,ɑːmz] *n pl* sovuq qurol (*pichoq, nayza, xanjar va sh. k.*)
cold-blooded [ˌkəʊld ˈblʌdɪd] *a* sovuqqon, bosiq, og'ir, vazmin
cold-bloodedly [ˌkəʊld ˈblʌdɪdlɪ] *adv* 1) sovuqqonlik bilan, og'irlik (vazminlik, bosiqlik) bilan; 2) beparvolik (e'tiborsizlik) bilan
cold-bloodedness [ˌkəʊld ˈblʌdɪdnəs] *n* 1) sovuqqonlik; 2) e'tiborsizlik
cold-chisel [ˌkəʊld ˈtʃɪz(ə)l] *tex.* slesar (slesarlik) zubilosi (*temir kesish, tosh tarashlash va sh. k. ishlarda qo'llaniladigan iskanasimon asbob*)
cold cream [ˈkəʊldkriːm] *n* koldkrem (*yuz va qo'l terisini yumshatadigan moy*)
cold-frame [ˈkəʊldfreɪm] *n* issiqxona
cold-hearted [ˌkəʊld ˈhɑːtɪd] *a* bag'ritosh, berahm, shafqatsiz
coldish [ˈkəʊldɪʃ] *a* ancha sovuq
cold-livered [ˌkəʊld ˈlɪvəd] *a* 1) og'ir, vazmin; 2) zavq-shavqsiz, his-tuyg'usi o'lik
coldly [ˈkəʊldlɪ] *adv* 1) iltifotsizlik bilan; yoqimsiz, sovuq tarzda; 2) sovuq
coldness [ˈkəʊldnəs] *n* sovuqlik, iltifotsizlik
cold-pig [ˌkəʊld ˈpɪg] *v so'zl.* (*biror kishini uyqudan turg'izish uchun*) ustiga (ustidan) suv to'kib yubormoq yoki ko'rpani ustidan tortib olmoq
cold shoulder [ˌkəʊld ˈʃəʊldə] *n* sovuqqina kutib olish (qabul qilish)
cold-storage [ˌkəʊld ˈstɔːrɪdʒ] *n* sovitgich
cole [kəʊl] *n* karam
cole-rape [ˈkəʊlreɪp] *n* sholg'omkaram (*tusi, mazasi sholg'omga o'xshagan karam*)
cole-seed [ˈkəʊlsiːd] *n bot.* surepitsa (*urug'idan moy olinadigan o'simlik*)
cole-slaw [ˈkəʊlslɔː] *n amer.* to'g'ralgan karamdan qilingan salat
colewort [ˈkəʊlwɜːt] *n bot.* xashaki (yem-xashak bo'ladigan) karam
colibri [ˈkɒlɪbrɪ] *n zool.* kolibri (*Amerikada yashaydigan rangdor kichkina qush*)
colic [ˈkɒlɪk] *n* sanchiq; sanchib og'rish
coliseum [ˌkɒlɪˈsɪəm] *n* 1) (**C**) Rimdagi Flaviylar amfiteatri (*Qadimiy Rimda*); 2) katta maydon
colitis [kəˈlaɪtɪs] *n tib.* kulunj (*yo'g'on ichak yallig'lanishi*)
coll 1 [kɒl] *v shotl.* sochni kalta qilib olmoq (oldirmoq)
coll II [kɒl] *amer.* **collection** *so'zining qisqartmasi*
collaborate [kəˈlæbəreɪt] *v* hamkorlik qilmoq
collaboration [kəˌlæbəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) hamkorlikda ishlash, birga xizmat qilish, hamkorlik; **to work in ~ with smb.** kim bilandir hamkorlikda ishlamoq; 2) kollaboratsionizm (*ikkinchi jahon urushi davrida: vatan dushmanlari – fashistlar bilan hamkorlik qilish, xoinlik*)
collaborationist [kəˌlæbəˈreɪʃ(ə)nɪst] *n* kollaboratsionist, vatan xoini, sotqin
collaborator [kəˈlæbəreɪtə] *n* birga ishlovchi xodim, xizmatchi
collage [ˈkɒlɑːʒ] *n* kollaj
collagen [ˈkɒlədʒən] *n biol.* kollagen (*hayvonlardagi biriktiruvchi to'qima (pay, suyak, tog'ay)ning asosini tashkil etib, uning mustahkamligini ta'minlaydigan, fibrilla (uzun tola) ko'rinishidagi oqsil*)
collapse [kəˈlæps] **1.** *n* buzish, buzilish; **2.** *v* buzilmoq
collapsible [kəˈlæpsəb(ə)l] *a* buklama; yig'ma
collar [ˈkɒlə] **1.** *n* yoqa; ensiz yoqa; **2.** *v* yoqasidan olmoq, bo'g'moq
collar-bone [ˈkɒləbəʊn] *n anat.* o'mrov (*suyagi*)
collaret(te) [ˌkɒləˈret] *n* mo'yna yoqa
collate [kəˈleɪt] *v* solishtirmoq; taqqoslamoq
collateral [kəˈlæt(ə)rəl] *a* ikkinchi darajali, uncha ahamiyatli bo'lmagan
collation [kəˈleɪʃ(ə)n] *n* taqqoslash
colleague [ˈkɒliːg] *n* bir joyda ishlaydigan kishi, xizmatdosh
collect [kəˈlekt] *v* 1) yig'moq, bir yerga to'plamoq; 2) yig'ilmoq, bir yerga to'planmoq; 3) kolleksiya to'plamoq (tuzmoq)
collectanea [ˌkɒlekˈteɪnɪə] *n* antologiya (*turli muallifiarning saylanma asarlari, ko'pincha, she'rlari to'plami*)

collected [kə´lektɪd] *a* 1) fikr-xayoli bir yerda to'plangan; 2) yuvosh; bosiq, beozor
collection [kə´lekʃ(ə)n] *n* 1) yig'ish, to'plash; 2) kolleksiya (*bir turdagi narsalarning sistematik to'plami*); 3) tushgan pul
collective [kə ´lektɪv] *a* birgalikdagi, umumiy
collective farm [kə,lektɪv´fɑ:m] *n* jamoa xo'jaligi
collective farmer [kə,lektɪv´fɑ:mə] jamoa xo'jaligi a'zosi
collective fruit [kə ´lektɪv,fru:t] *bot.* to'pmeva
collectively [kə´lektɪvlɪ] *adv* jamoa bo'lib, birgalikda, birga, birgalashib, qo'lni qo'lga berib
collectivisation [kə,lektɪvaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* jamoalashtirish; jamoalashish
collectivise [kə´lektɪvaɪz] *v* jamoalashtirmoq
collectivism [kə´lektɪvɪz(ə)m] *n* jamoatchilik
collectivity [,kɒlek´tɪvɪtɪ] *n* 1) jamoa xo'jaligi a'zosi; 2) jamoa; jamoa tashkiloti
collectivization [kə,lektɪvaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* jamoalashtirish, jamoalashish
collectivize [kə ´lektɪvaɪz] *amer.* = **collectivise**
collector [kə´lektə] *n* (*soliq va h. ni*) yig'uvchi
colleen [´kɒli:n, kɒ´li:n] *n irl.* voyaga yetgan qiz
college [´kɒlɪdʒ] *n* 1) oliy o'quv yurti, kollej; 2) *amer.* universitet
colleger [´kɒlɪdʒə] *n amer.* talaba
collegial [kə´li:dʒɪəl] = **collegiate**
collegiality [kə,li:dʒɪ´ælɪtɪ] *n cherk.* jamoatchilik
collegian [kə´li:dʒən] *n* kollej talabasi
collegiate [kə ´li:dʒɪət] *a* universitetga oid
collenchyma [kə´leŋkɪmə] *n bot.* kollenxima (*ikki pallali o'simliklarning o'sayotgan poyalaridagi mexanik to'qima*)
collet [´kɒlɪt] *n tex.* 1) gilza; vtulka; 2) sanga (*metall kesuvchi stanokda: ishlanadigan detal yoki asbobni qisib turadigan moslama*); 3) qisqich halqa
colley [´kɒlɪ] = **collie**
collide [kə´laɪd] *v* to'qnashmoq
collie [´kɒlɪ] *n* Shotlandiya ovcharkasi (iti)
collier [´kɒlɪə] *n* ko'mir qazuvchi ishchi
colliery [´kɒljərɪ] *n* toshko'mir koni
collieshangie [,kɒlɪ´ʃæŋɪ] *n shotl.* urish, janjal, mushtlashish, yoqalâshish, urishish
colligate [´kɒlɪgeɪt] *v* birlashtirmoq; bog'lamoq
colligation [,kɒlɪ´geɪʃ(ə)n] *n* 1) (*dalillardan*) umumiy xulosa chiqarish; 2) (*dalillarni*) umumlashtirish
collision [kə´lɪʒ(ə)n] *n* to'qnashish
collocate [´kɒləkeɪt] **1.** *v* joylamoq, joylashtirmoq; **2.** *n* joylashish, o'rnashish
collocation [,kɒlə´keɪʃ(ə)n] *n* tuzish, joylashtirish
collocutor [kəʊ´lɒkjʊtə] *n* suhbatdosh
collodion [kə´ləʊdɪən] *n* kollodiy (*tibbiyot va surat olishda ishlatiladigan quyuq yelimshiq modda*)
collogue [kɒ´ləʊg] *v* 1) *dial.* yashirin (maxfiy ravishda) kelishmoq; 2) fitna solmoq, fitna uyushtirmoq, g'alamislik qilmoq
colloid [´kɒlɔɪd] **1.** *n* kolloid (*kristallanmaydigan, suvda quyuq eritma hosil qiladigan oqsil kraxmal, yelim singari modda*); **2.** *a* kolloidlarga oid
colloidal [kɒ´lɔɪd(ə)l] *a* kolloidlarga oid
collop [´kɒləp] *n esk.* yupqa qilib kesilgan bir parcha go'sht
colloquial [kə´ləʊkwɪəl] *a* so'zlashuvga oid
colloquialism [kə´ləʊkwɪəlɪz(ə)m] *n* so'zlashuvga oid ibora
colloquist [´kɒləkwɪst] *n kit.* suhbatdosh, hamsuhbat
colloquy [´kɒləkwɪ] *n* suhbat; gaplashish
collude [kə´lu:d] *v esk.* maxfiy ravishda kelishmoq
collusion [kə´lu:ʒ(ə)n] *n* maxfiy kelishuv, til biriktirish
colly I [´kɒlɪ] = **collie**
colly II [´kɒlɪ] *n dial.* qurum, qorakuya, dud, is
collyria [kə´lɪ(ə)rɪə)] *pl of* **collyrium**
collyrium [kə´lɪ(ə)rɪəm] *n* (*pl* **-ria** [-rɪə]) 1) ko'zga surtiladigan malham dori; 2) *tib.* shamcha, shamdori
collywobbles [´kɒlɪ,wɒb(ə)lz] *n pl so'zl.* 1) qorin(ning) guldirashi; 2) ichak kasalligi, ichak faoliyatining buzilishi
cologne [kə´ləʊn] *n* odikolon, atir
Colombian [kə´lɒmbɪən] **1.** *a* Kolumbiya va kolumbiyaliklarga oid; **2.** *n* kolumbiyalik kishi (*ayol*)
colon [´kəʊlən] *n* 1) ikki nuqta; 2) *anat.* yo'g'on ichak
colonel [´kɜ:n(ə)l] *n* polkovnik
colonelcy [´kɜ:n(ə)lsɪ] *n* polkovnik unvoni
colonial [kə´ləʊnɪəl] *a* mustamlakachilikka oid
colonialism [kə´ləʊnɪəlɪz(ə)m] *n* kolonializm, mustamlakachilik; **to abolish** ~ mustamlakachilikka barham bermoq; **to destroy** ~ mustamlakachilikni yo'qotmoq
colonialist [kə´ləʊnɪəlɪst] *n* mustamlakachi
colonist [´kɒlənɪst] ko'chmanchi (*yangi joyga ko'chib borib o'rnashgan kishi*)
colonitis [,kɒlə´naɪtɪs] *n tib.* yo'g'on ichakning yallig'lanishi
colonization [,kɒlənaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* mustamlakaga aylantirish
colonize [´kɒlənaɪz] *v* mustamlakaga aylantirmoq (*mustamlaka qilib olmoq*)
colonizer [´kɒlənaɪzə] *n* mustamlakachi
colony [´kɒlənɪ] *n* mustamlaka, qaram mamlakat
colophon [´kəʊləfɒn] *n esk.* (*qadimiy kitoblarda*) kolofon, nashrga oid ma'lumotlar (*nashrning bosilib chiqqan vaqti, joyi, nusxasi va h. k*); **from title-page to** ~ boshdan oyoq, boshidan oxirigacha
colophony [kə´lɒfənɪ] *n* kanifol (*ignabargli daraxt yelimidan, shirasidan olinadigan sarg'ish shaffof modda*)
color [´kʌlə] = **colour**
Colorado (potato) beetle [,kɒlərɑ:dəʊ(pə,teɪtəʊ)´bi:tl] Kolorado qo'ng'izi (*zararkunanda qo'ng'iz*)
coloration [,kʌlə´reɪʃ(ə)n] *n* bo'yash
coloratura [,kɒlərə´t(j)ʊə(ə)rə] *n mus.* koloratura (*1. vokal partiyaga rangbarang tus-ohang beruvchi tovush bezaklari; 2. shunday partiyalarni oson ijro eta oladigan ovoz*); ~ **soprano** koloraturali soprano (*koloraturali partiyalarni ijro etuvchi ayollarning baland ovozi*)
colorific [,kʌlə´rɪfɪk] *a* bo'yoqqa (rangga) oid
colorimeter [,kʌlə´rɪmɪtə] *n maxs.* kolorimetr (*ranglarni o'lchaydigan asbob*)
colossal [kə´lɒs(ə)l] *a* juda katta, ulkan, azim
Colosseum [,kɒlə´sɪəm] *n* Kolizey (*Rimdagi Flaviylar amfiteatri*)
colossi [kə´lɒsaɪ] *pl of* **colossus**
colossus [kə´lɒsəs] *n* juda katta haykal (*ustun va sh. k.*)
colostrums [kə´lɒstrəmz] *n fiziol.* og'iz suti
colour [´kʌlə] **1.** *n* rang; **2.** *v* bo'yamoq, rang bermoq
colour-blind [´kʌləblaɪnd] *a tib.* rang-tuslarni farqlamaydigan, ranglarning farqiga bormaydigan
colour-blindness [´kʌləblaɪndnəs] *n tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*)
colour-book [´kʌləbʊk] *n* rangli rasmli lug'at

colour-box ['kʌləbɒks] *n* bo'yoqlar solinadigan quti, bo'yoq quti
colourcast ['kʌləkɑ:st] *n* rangli televizor
coloured ['kʌləd] *a* rangli; bo'yalgan
colour-fast ['kʌləfɑ:st] *a* aynimaydigan, oqarmaydigan, rangi o'chmaydigan (*bo'yoq haqida*)
colour film ['kʌləfɪlm] *n* rangli film
colour filming ['kʌlə,fɪlmɪŋ] *kino.* rangli tasvirda suratga olish
colourful ['kʌləf(ə)l] *a* yorqin bo'yoqlar bilan ishlangan
colour index [,kʌlə'ɪndeks] *maxs.* rang ko'rsatkich; rangli ko'rsatkich
colouring ['kʌl(ə)rɪŋ] *n* bo'yash
colourist ['kʌl(ə)rɪst] *n* kolorist (*ranglar uyg'unligidan ustalik bilan foydalanuvchi, ranglarni xillashga usta rassom*)
colourless ['kʌləlәs] *a* rangsiz
colour-man ['kʌlәmәn] *n* (*pl* **-men** [-mәn]) bo'yoq sotuvchi kishi
colour-process ['kʌlə,prəʊses] *n foto.* rangli jarayon
colours ['kʌləz] *n* 1) *harb.* bayroq; **regimental ~** polk bayrog'i; **to sail under false ~** *deng.* begona bayroq ostida suzmoq (*kema haqida*); 2) (**the ~**) harbiy xizmat
colour-scheme ['kʌlə,ski:m] *n* bo'yoqlar birligi; xillangan bo'yoqlar
colour wash ['kʌləwɒʃ] yelimli bo'yoq; yelim qo'shilgan bo'yoq
colporteur ['kɒl,pɔ:tə] *n* eski kitoblarni ko'chalarda ko'tarib yurib sotuvchi savdogar (*Angliyada*)
colt [kəʊlt] *n* toycha, toy
colter ['kəʊltə] *n q.x.* chimqirqar
coltish ['kəʊltɪʃ] *a* toychaga xos bo'lgan
coltsfoot ['kəʊtlsfʊt] *n bot.* tuyatovon
coluber ['kɒljʊbə] *n zool.* chipor ilon
columbaria [,kɒlәm'be(ə)rɪə] *pl of* **columbarium**
columbarium [,kɒlәm'be(ə)rɪәm] *n* (*pl* **-ria** [-rɪə]) 1) kaptarxona (*xonaki kaptar uyasi*); 2) kolumbariy (*krematoriyalarda kuydirilgan murda kuli solingan idishchalar saqlanadigan xona*)
columbary ['kɒlәmbərɪ] *n* kaptarxona
Columbia [kə'lʌmbɪə] *n shoir.* Kolumb Yeri, Kolumbiya, Amerika. 2) Xristofor Kolumbga oid
columbite [kə'lʌmbaɪt] *n min.* kolumbit (*murakkab oksidlar kichik sinfiga mansub mineral (tantalo-niobitlar guruhi)*)
columbium [kə'lʌmbɪәm] *n kim.* niobiy (*D. I. Mendeleyev davriy sistemasining V guruhiga mansub kimyoviy element*)
columella [,kɒljʊ'melə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) *bot.* urug'chi ustunchasi, ustuncha
columellae [,kɒljʊ'meli:] *pl of* **columella**
column ['kɒlәm] *n me'mor.* ustun
columnar ['kɒlәmnə] *a* ustun shaklidagi
columned ['kɒlәmnd] *a* 1) *shoir.* ustunli; 2) ustun shaklidagi; 3) *poligr.* ustunlarga bo'lingan
columniation [kə,lʌmnɪ'eɪʃ(ə)n] *n* 1) *me'mor.* ustunlar guruhi (qatori); 2) sahifalarni ustunlarga bo'lish
columnist ['kɒlәm(n)ɪst] *n amer.* sharhlovchi
colza ['kɒlzə] *n bot.* surepitsa (*urug'idan moy olinadigan o'simlik*)
colza-oil ['kɒlzə,ɔɪl] *n* surepitsa moyi
coma ['kəʊmə] *n* (*pl* **-mae** [-mi:]) *tib.* koma (*og'ir behushlik holati*)
comae ['kəʊmi:] *pl of* **coma**
co-mate [kəʊ'meɪt] *n* birga bo'lgan (qatnashgan) o'rtoq, jo'ra, sherik
comatose ['kəʊmətəʊs] *a tib.* komaga (*og'ir behushlik holatiga*) oid
comb [kəʊm] **1.** *n* taroq; **2.** *v* taramoq
combat ['kɒmbət] **1.** *n* jang qilish, urushish; jang, urush; **2.** *v* jang qilmoq, urushmoq
combatant ['kɒmbət(ə)nt] *n* jangchi, jang qatnashchisi
combative ['kɒmbətɪv] *a* 1) urush (jang) bilan bog'liq bo'lgan, urush vaqtidagi, jangovar, harbiy; 2) urushga (urush olovini yoqishga) qaratilgan; 3) urishqoq, jangari
combat-ready [,kɒmbæt'redɪ] *a* urushga tayyor (shay, hozir); jangovar holatda; **a ~ rocket** uchirishga shay bo'lib turgan raketa
combe [ku:m] *n* chuqur jarlik, jar, cho'nqir yer, ichiga botgan (kirgan) yer
comber ['kəʊmə] *n to'q.* tituvchi, tarovchi
combination [,kɒmbɪ'neɪʃ(ə)n] *n* birikma, birikish
combination-room [,kɒmbɪ'neɪʃ(ə)nrʊm] *n* (*Kembrij universitetida*) professor xonasi
combinative ['kɒmbɪnətɪv] *a* 1) kombinatsiyaga asoslangan, kombinatsion; 2) lo'ttibozlikka (hiyla-nayrang ishlatishga) asoslangan
combine ['kɒmbaɪn] **1.** *n q.x.* kombayn (*bir yo'la bir necha ishni bajaradigan murakkab mashina*); **2.** [kəm'baɪn] *v* birlashtirmoq
combined [kəm'baɪnd] *a* birlashtirilgan
combing-machine ['kəʊmɪŋmə,ʃi:n] *n to'q.* (*ip qilinadigan jun va b. ni*) taraydigan mashina
combings ['kəʊmɪŋz] *n* titish (tarash) ishlari
comb-out ['kəʊm'aʊt] *n* taroq bilan tozalash
combustibility [kəm,bʌstə'bɪlɪtɪ] *n* tez o't olish, tez yonib ketish
combustible [kəm'bʌstəb(ə)l] **1.** *a* yonadigan; **2.** *n pl* yonilg'i
combustion [kəm'bʌstʃ(ə)n] *n* yonish, kuyish
come [kʌm] *v* (**came; come**) kelmoq; **to ~ about** yuz bermoq; sodir bo'lmoq; **to ~ after** qo'yarda-qo'ymay talab qilmoq; **to ~ across** kim bilandir to'satdan uchrashib qolmoq; **to ~ again** qaytib kelmoq; **to ~ along with** kuzatib qo'ymoq; **to ~ apart, to ~ asunder** mayda qismlarga bo'linib (ajralib) ketmoq; **to ~ at** tashlanmoq; **to ~ away** ketmoq; **to ~ back** qaytib kelmoq; **to ~ before** biror kimsa yoki narsadan oldin o'tmoq; **to ~ by** ko'rmay o'tib ketmoq; **to ~ down** yog'moq (*qor va yomg'ir to'g'risida*); **to ~ for** ... ga tashlanmoq; **to ~ forward** ochiq joyga (*yoki oldinga*) surilmoq; **to ~ in** kirmoq; **to ~ in for** nimanidir olmoq (*mas., o'z ulushi va b. ni*); **to ~ of** yuz bermoq (*sodir bo'lmoq*); **to ~ off** (*yuqoridan pastga*) tushmoq; **to ~ on** yaqinlashmoq; **to ~ out** chiqmoq; **to ~ over** boshqa tomonga o'tmoq; **to ~ round** yo'l-yo'lakay kirib o'tmoq; **to ~ through** ichiga kirmoq; **to ~ to** o'ziga kelmoq; **to ~ together** birlashmoq; **to ~ up** ko'tarilmoq; **to ~ upon** kutilmaganda hujum qilmoq
come-and-go [,kʌmәn(d)'gəʊ] **1.** *n* orqa-oldinga harakat qilish; **2.** *attr.:* **~ people** kelib-ketuvchi odamlar
come-at-able [,kʌm 'ætəb(ə)l] *a so'zl.* 1) kirish (borish, o'tish) mumkin bo'lgan, yo'lab (borib, chiqib) bo'ladigan; ochiq (*joy haqida*); 2) hammaning qo'lidan keladigan, hammabop, ...-sa bo'ladigan
come-back ['kʌm'bæk] *n* qaytish
come-between [,kʌmbɪ'twi:n] *n* dallol
come-by-chance [,kʌmbaɪ'tʃɑ:ns] *n so'zl.* 1) tasodifiy bo'lgan qandaydir narsa; 2) nikohsiz tug'ilgan bola, haromzoda
comedian [kə'mi:dɪən] *n* komik (*kulgili rollarni ijro etuvchi aktyor*)
comedienne [kə,mi:dɪ'en] *n fr.* komediya aktrisasi, qiziqchi artistka
comedietta [kə,mi:dɪ'etʃə] *n it.* bir pardali komediya
comedo ['kɒmɪdəʊ] *n* (*pl* **-ones** [-ni:z], **-os** [-əʊz]) *tib.* qora bo'jama (husnbuzar)
comedon(e)s [,kʌmɪ 'dəʊni:z] *pl of* **comedo**
come-down ['kʌm 'daʊn] *n* pasayish, tushish
comedy ['kɒmədɪ] *n* komediya (*kulgili sahna asari*)

come-from [ˈkʌmfrɔm] *n dial.* turar joy, yashaydigan, istiqomat qiladigan joy
come-hither [ˌkʌmˈhɪðə] *a amer. so'zl.* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq; **a ~ smile** yoqimli tabassum; **the ~ look** *hazil.* (ayollarning) jozibali qarashi
comeliness [ˈkʌmlɪnəs] *n* yoqimlilik, chiroylilik, go'zallik
comely [ˈkʌmlɪ] *a* chiroyli, go'zal, barno
come-off [ˈkʌmˈɔf] *n* tugatish, bitirish, oxiriga yetkazish
come-on [ˈkʌmˈɔn] *n amer. jarg.* muttaham, qallob, firibgar; aldamchi; tovlamachi
comer [ˈkʌmə] *n* keluvchi
comestible [kəˈmestəb(ə)l] *n odat. pl hazil.* yemoq-ichmoq uchun g'amlab qo'yilgan narsalar, oziq-ovqat zahiralari; ovqat, taom
comet [ˈkɔmɪt] *n astr.* kometa (*dumli yulduz*)
comeuppance [ˌkʌmˈʌpəns] *n amer. so'zl.* qasos, o'ch, jazo
comfit [ˈkʌmfɪt] *n* shakarga bosilgan (shakar qiyomi bilan qoplangan) mevalar
comfort [ˈkʌmfət] **1.** *n* yupatish, tasalli berish; **2.** *v* yupatmoq, tasalli bermoq
comfortable [ˈkʌmf(ə)təb(ə)l] *a* qulay, shinam
comforter [ˈkʌmfətə] *n* yupatuvchi, tasalli beruvchi
comforting [ˈkʌmfətɪŋ] *a* yupatadigan, tasalli beradigan
comfortless [ˈkʌmfətləs] *a* 1) qayg'uli; 2) noqulay
comfy [ˈkʌmfɪ] *a* qulay, shinam
comic [ˈkɔmɪk] *a* kulgili, qiziqarli
comical [ˈkɔmɪk(ə)l] *a* kulgili
comicality [ˌkɔmɪˈkælɪtɪ] *n* kulgililik
comics [ˈkɔmɪks] *n pl* komiks (*qisqa matn va rasmlar berilgan adabiy asar*)
coming [ˈkʌmɪŋ] **1.** *n* kelish, yetib kelish; **2.** *a* yaqinlashayotgan, kelayotgan
coming-in [ˌkʌmɪŋ ˈɪn] *n* tashqaridan mol keltirish
coming-out [ˌkʌmɪŋˈaʊt] *n* chetga mol chiqarish
comity [ˈkɔmɪtɪ] *n* xushmuomalalik, muloyimlik
comma [ˈkɔmə] *n* vergul
command [kəˈmɑːnd] **1.** *n* buyruq; **2.** *v* buyurmoq
commandant [ˌkɔmənˈdænt] *n* 1) harbiy o'quv yurtining rahbari; 2) kendant (*shahar va umuman, aholi yashaydigan nuqtalarga harbiylarning intizomi uchun javobgar boshliq*); 3) komendant (*jamoat uylarining boshqaruvchisi*)
commandeer [ˌkɔmənˈdɪə] *v* qo'mondonlik qilmoq, qo'mondonlikka tayinlamoq
commander [kəˈmɑːndə] *n* komandir; boshliq
commander-in-chief [kəˌmɑːnd(ə)rɪnˈtʃiːf] *n* bosh qo'mondon
commandership [kəˈmɑːndəʃɪp] *n* qo'mondon, boshliqning mansabi (martabasi)
commanding [kəˈmɑːndɪŋ] *a* qo'mondonlik qiluvchi
commandment [kəˈmɑːndmənt] *n* buyruq
commando [kəˈmɑːndəʊ] *n* tezkor hujumchi guruh
commeasurable [kəˈmeʒ(ə)rəb(ə)l] = **commensurable**
commemorable [kəˈmemərəb(ə)l] *a* esdan chiqmaydigan, xotirada saqlanadigan, unutilmas
commemorate [kəˈmeməreɪt] *v* (*yubileyni*) bayram qilmoq, nishonlamoq
commemoration [kəˌmemˈreɪʃ(ə)n] *n* (*yubileyni*) bayram qilish, nishonlash
commemorative [kəˈmem(ə)rətɪv] *n* xotira uchun belgilangan (qilingan)
commence [kəˈmens] *v* boshlamoq, boshlab yubormoq
commencement [kəˈmensmənt] *n* boshlanishi
commend [kəˈmend] *v* maqtamoq
commendable [kəˈmendəb(ə)l] *a* maqtashga arziydigan
commendation [ˌkɔmənˈdeɪʃ(ə)n] *n* maqtov
commendatory [kəˈmendət(ə)rɪ] *a* 1) maqtovga (madh qilishga) oid; maqtovli, maqtovdan iborat, maqtov (madhiya)...; 2) tavsiya etadigan, maslahat beradigan, tavsiya qilib berilgan; **a ~ letter** tavsiya qilib yozilgan xat, tavsiyanoma
commensal [kəˈmens(ə)l] *n* birga (bir dasturxonda) ovqatlanuvchi, hamtovoq
commensurable [kəˈmenʃ(ə)rəb(ə)l] *a* o'lchovdosh, umumiy o'lchovli
commensurate [kəˈmenʃ(ə)rɪt] *a* ...ga mos (to'g'ri) keladigan
comment [ˈkɔmənt] **1.** *n* mulohaza, fikr; **2.** *v* 1) (*tanqidiy*) mulohazalar bildirmoq; 2) sharhlamoq
commentary [ˈkɔmənt(ə)rɪ] *n* sharh, tushuntirish
commentation [ˌkɔmənˈteɪʃ(ə)n] *n* sharhlash, tushuntirib berish
commentator [ˈkɔmənteɪtə] *n* sharhlovchi
commerce [ˈkɔmɜːs] *n* savdo, savdo-sotiq
commerce-destroyer [ˈkɔmɜːsdɪˈstrɔɪə] *n harb.* dengiz yo'llarida dushmanning transport va savdo kemalariga qarshi mustaqil kurash olib boradigan harbiy kema (reyder)
commercial [kəˈmɜːʃ(ə)l] *a* savdo-sotiqqa oid
commercialism [kəˈmɜːʃəlɪz(ə)m] *n* savdogarlar tilida ishlatiladigan ibora
commercialize [kəˈmɜːʃəlaɪz] *v* 1) foyda olmoq; 2) daromad manbayiga aylantirmoq
commination [ˌkɔmɪˈneɪʃ(ə)n] *n kit.* 1) do'q, tahdid, po'pisa; 2) xavf-xatar, tahlika, qo'rqinch
comminatory [ˈkɔmɪnət(ə)rɪ] *a kit.* 1) do'q (tahdid) qiladigan, do'q (tahdid)ni ifodalaydigan; 2) fosh qiladigan, aybni (kamchiliklarni, nuqsonlarni) ochadigan
commingle [kəˈmɪŋg(ə)l] *v* 1) aralashmoq, qorishmoq; 2) aralashtirmoq, qorishtirmoq
comminute [ˈkɔmɪnjuːt] *v* maydalamoq, yanchmoq
comminuted [ˈkɔmɪnjuːtɪd] *a* tolqon (kukun) qilingan, maydalangan, sindirilgan, parchalanib ketgan
comminution [ˌkɔmɪˈnjuːʃ(ə)n] *n* 1) maydalash, yanchish, parchalash, sinish, maydalanish, chil-chil bo'lish, parchalanish; 2) kukunlash, sochish, tarqatib (sochib) yuborish
commiserate [kəˈmɪzəreɪt] *v* 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq
commiseration [kəˌmɪzəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) hamdard bo'lish; 2) ta'ziya bildirish
commissar [ˌkɔmɪˈsɑː] *n* komissar (*harbiy komissarlikning boshlig'i*)
commissary [ˈkɔmɪs(ə)rɪ] *n* komissar
commission [kəˈmɪʃ(ə)n] **1.** *n* 1) vakolat; 2) vakolatnoma; 3) komissiya (*ayrim masala yuzasidan tuzilgan muvaqqat yoki doimiy tashkilot*); **2.** *v* 1) biror vazifaga tayinlamoq; 2) vakolat bermoq
commission-agent [kəˈmɪʃ(ə)nˌeɪdʒ(ə)nt] *n* komissioner, vositachi, dallol (savdo ishida)
commissionaire [kəˌmɪʃəˈneə] *n* darbon (*mehmonxona, teatr, do'kon va b. da*)
commission-broker [kəˈmɪʃ(ə)nˌbrəʊkə] *n* dallol
commissioned [kəˈmɪʃ(ə)nd] *a* vakolatli; ishonilgan
commissioner [kəˈmɪʃ(ə)nə] *n* 1) maxsus vakil; 2) komissiya a'zosi
commission-merchant [kəˈmɪʃ(ə)nˌmɜːtʃ(ə)nt] = **commission-agent**
commissure [ˈkɔmɪsjʊə] *n* 1) ulash, ulanish; ulangan joy, uloq; 2) *anat., bot.* turli organ va to'qimalarning qo'shilgan joyi
commit [kəˈmɪt] *v* 1) (*jinoyat*) sodir qilmoq; **to ~ suicide** o'z joniga qasd

qilmoq; 2) fikrini ochiq ifoda etmoq; 3) va'da bermoq

commitment [kə'mɪtmənt] *n* majburiyat, burch

committal [kə'mɪtl] *n* 1) qamoqqa olish; qamab qo'yish; 2) ko'mish, dafn etish

committed [kə'mɪtɪd] *a* g'oyaviy, ideologik

committee [kə'mɪtɪ] *n* 1) komitet (*saylanma organ*); 2) *yur.* vasiy

committee-man [kə´mɪtɪmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) komissiya *yoki* qo'mita a'zosi

commix [kɒ'mɪks] *v esk. shoir.* 1) aralashtirmoq, qorishtirmoq, aralashtirib (qorishtirib) yubormoq, qo'shmoq, omixta qilmoq; 2) aralashmoq, qorishmoq, qorilmoq, aralashib (qorishib) ketmoq, omixta bo'lmoq

commixture [kɒ'mɪkstʃə] *n* aralashma; qorishma

commode [kə'məʊd] *n* komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*)

commodious [kə'məʊdɪəs] *n* keng

commodity [kə'mɒdɪtɪ] *n* mahsulot

commodore ['kɒmədɔ:] *n deng.* 1-rang kapitani

common ['kɒmən] **1.** *a* 1) umumiy; 2) oddiy; **2.** *n* umumiy hol, umumiylik

commonable ['kɒmənəb(ə)l] *a* jamiyatning mol-mulki bo'lgan; jamiyat hisobida bo'lgan, jamiyat hisobidagi

commonage ['kɒmənɪdʒ] *n* 1) jamoat o'tlog'ida (yaylovida) o'tlash huquqi; 2) jamoat o'tlog'i

commonalty ['kɒmən(ə)ltɪ] *n* 1) jamoa; 2) *esk.* jamiyat, tashkilot

common balm ['kɒmənbɑ:m] *n bot.* limono't (*dorivor*)

commoner ['kɒmənə] *n* oddiy odam

commonition [ˌkɒmə'nɪʃ(ə)n] *n kam.* 1) mulohaza, fikr; 2) tanbeh; koyish, nasihat; 3) rasmiy ravishda eslatish, esga solib qo'yish, ogohlantirish

common law [ˌkɒmən'lɔ:] *n* urf-odatlarga asoslangan (odatiy) huquq

commonly ['kɒmənlɪ] *adv* odatga ko'ra

commonness ['kɒmənnəs] *n* 1) oddiylik; soddalik, boshqalardan farqsizlik, el qatori bo'lgan (bo'ladigan)lik; 2) o'rtachalik, o'rta darajalilik

commonplace ['kɒmənpleɪs] **1.** *a* siyqasi chiqqan, ko'p chaynalgan; **2.** *n* siyqasi chiqqanlik (*ibora, fikr haqida*)

commonplace-book ['kɒmənpleɪsˌbʊk] *n* umumiy daftar

common-room ['kɒmənru:m, -rʊm] *n* umumiy xona (*jamoat tashkilotlarida*)

commons ['kɒmənz] *n* 1) oddiy xalq; 2) (**the C**) parlamentning quyi palatasi (*Angliyada*)

common-sense [ˌkɒmən'sens] *n* to'g'ri fikr, sog'lom aql

commonty ['kɒməntɪ] *n shotl.* 1) jamoa yerlari; 2) yaylovda o'tash huquqi

commonweal ['kɒmənwi:l] *n* umumiy manfaat

commonwealth ['kɒmənwelθ] *n* 1) mamlakat, davlat; 2) hamdo'stlik; 3) ittifoq, uyushma

commorancy ['kɒmərənsɪ] *n yur.* biror yerda yashash, turish, istiqomat qilish, yashab turish

commorant ['kɒmərənt] *a kam.* yashaydigan, yashovchi (*asosan, universitet qoshidagi biror joyda*)

commote [kə'məʊt] *v kam.* tashvishga solib qo'ymoq, tinchini buzmoq

commotion [kə´məʊʃ(ə)n] *n* (*yuzakidagi*) g'ashlik; iztirob, g'ulg'ula

communal ['kɒmjən(ə)l] *a* jamoaga qarashli

Communard ['kɒmjənɑ:d] *n tar.* 1) kommunar (*Parij kommunasi qatnashchisi*); 2) kommunar, kommuna a'zosi

commune ['kɒmju:n] **1.** *n* 1) kommuna (*mulk va mehnatni umumlashtirish asosida tuzilgan kishilar jamoasi*); 2) jamoa; **2.** *v* muomala qilmoq, aralashib yurmoq

communicable [kə'mju:nɪkəb(ə)l] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash

communicant [kə'mju:nɪkənt] *n* xabarchi, xabar beruvchi, darakchi, bildiruvchi; ma'lumot beruvchi

communicate [kə'mju:nɪkeɪt] *v* xabar qilmoq

communicating [kə´mju:nɪkeɪtɪŋ] *a* yonma-yonlik (*xona to'g'risida*)

communication [kəˌmju:nɪ'keɪʃ(ə)n] *n* axborot, xabar

communicative [kə'mju:nɪkətɪv] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash

communicatory [kə'mju:nɪkeɪt(ə)rɪ] *a* axborot beradigan

communion [kə'mju:nɪən] *n* 1) aloqa qilish, aloqada bo'lish; 2) umumiylik, bir xillik

communique [kə'mju:nɪkeɪ] *n fr.* rasmiy xabar

communism ['kɒmjənɪz(ə)m] *n* kommunizm

communistic [ˌkɒmjə'nɪstɪk] *a* kommunizmga va kommunistlarga oid

community [kə´mju:nɪtɪ] *n* 1) jamoa; 2) umumiylik

commutable [kə'mju:təb(ə)l] *a* almashtirishga yaraydigan, almashtirsa bo'ladigan (*samolyot, poyezd va b. ning chiptalari haqida*)

commutation [ˌkɒmjə'teɪʃ(ə)n] *n* almashtirish

commutative [kə'mju:tətɪv] *a mat.* o'rnini (tartibini) almashtiruvchi, o'rnini (tartibini) o'zgartiruvchi

commutator ['kɒmjʊteɪtə] *n* kommutator (*telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*)

commute [kə'mju:t] *v* almashtirmoq

commuter [kə'mju:tə] *n* 1) *amer.* mavsumiy yoki imtiyozli chipta (bilet)dan foydalanadigan passajir; 2) kommutator (*1. elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2. telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*)

commutual [kə'mju:tʃʊəl] *a shoir.* o'zaro, ikki kishi (ikki tomon) o'rtasidagi, ikki taraflama, ikki tomonlama, ikki o'rtada bo'lgan (bo'ladigan), har ikki tomonga tegishli

compact ['kɒmpækt] **1.** *n* bitim, kelishuv; shartnoma; **2.** *a* zich, g'uj; **3.** *v* zichlamoq

compacted [kəm'pæktɪd] *a* 1) zich, ixcham; 2) zichlab (qattiq, mahkam) o'ralgan (solingan, joylashtirilgan)

compaction [kəm´pækʃ(ə)n] *n kam.* 1) siqish, zichlash; 2) qalinlik, zichlik; 3) siqilganlik, qisilganlik, siqiqlik

compactly [kəm'pæktlɪ] *adv* zich, tig'iz, zichlab, zich qilib, tig'izlab, qattiq, mahkam; 2) qisqa (lo'nda) qilib, qisqa, lo'nda, qisqacha

compactness [kəm'pæktnəs] *n* 1) zichlik, ixchamlik; tig'izlik; 2) siqilganlik, qisilganlik, siqiqlik

compaginate [kɒm´pædʒɪneɪt] *v kom.* biriktirmoq, mahkamlamoq, ulamoq; qadamoq, biriktirmoq, biriktirib (mahkamlab) qo'ymoq, qadab qo'ymoq, qo'shmoq, ulab qo'ymoq

companion [kəm'pænɪən] **1.** *n* o'rtoq, og'ayni; **2.** *v* o'rtoq bo'lmoq

companionable [kəm'pænɪənəb(ə)l] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash

companion in arms [kəmˌpænɪənɪn 'ɑ:mz] *n* safdosh, quroldosh

companion-ladder [kəm'pænɪənˌlædə] *n deng.* kema narvoni

companionship [kəm'pænʃɪp] *n* o'rtoqlik, o'rtoqchilik, do'stlik

company ['kʌmpənɪ] *n* shirkat; jamiyat

comparable ['kɒmp(ə)rəb(ə)l] *a* taqqoslab (solishtirib) bo'ladigan

comparative [kəm'pærətɪv] **1.** *a* qiyosiy, solishtirma; chog'ishtirma; **2.** *n gram.* cho'g'ishtirma daraja

comparatively [kəm'pærətɪvlɪ] *adv* nisbatan

comparator [kəm´pærətə] *n tex.* komparator (*o'lchanayotgan kattalikni etalon bilan taqqoslaydigan o'lchov asbobi*)

compare [kəm´peə] *v* qiyoslamoq, solishtirmoq, taqqoslamoq
comparison [kəm´pærɪs(ə)n] *n* qiyoslash, taqqoslash
compart [kəm´pɑ:t] *v esk.* 1) qismlarga bo'lmoq; 2) biror narsa bilan to'sib (bo'lib; ajratib) olmoq
compartition [ˌkɔmpɑ:´tɪʃ(ə)n] *n esk.* bo'lish, bo'linish, qismlarga (bo'laklarga) ajralish, ajratish
compartment [kəm´pɑ:tmənt] *n* kupe (*temir yo'l vagonlarida; ayrim xona*) bo'lma
compass [´kʌmpəs] **1.** *n* 1) kompas; 2) *pl* sirkul, pargar; **2.** *a* kompasga oid; **3.** *v* amalga oshirmoq, yuzaga chiqarmoq
compassion [kəm´´pæʃ(ə)n] *n* rahm; shafqat
compassionate [kəm ´pæʃ(ə)nɪt] **1.** *a* rahmdillikni ifodalovchi; **2.** *v* rahm (shafqat) qilmoq
compassionately [kəm´pæʃ(ə)nɪtlɪ] *adv* 1) rahmdillik bilan, rahmi kelib, achinib; 2) xayrixohlik bilan, xayrixohona, ma'qullab, yoqlab
compassive [kəm´pæsɪv] *a kam.* rahmdil, rahmli, shafqatli; rahmdillik bilan qilingan; rahmdillikni ifodalovchi; ko'ngilchan
compass-saw [´kʌmpəs´sɔ:] *n tex.* qo'l-arra, dastarra
compatibility [kəmˌpætə´bɪlɪtɪ] *n* bir-biriga to'g'ri (mos) kelish
compatible [kəm´pætəb(ə)l] *a* birga (ayni bir vaqtda) bo'la oladigan, bir-biriga to'g'ri (mos) keladigan, sig'ishadigan, mos
compatriot [kəm´pætrɪət] *n* vatandosh
compeer [´kɔmpɪə] *n* tengdosh, o'rtoq, jo'ra
compel [kəm´pel] *v* majbur qilmoq, zo'rlamoq
compelling [kəm´pelɪŋ] *a* yengib bo'lmaydigan
compend [kɔm´pend] **compendium** *so'zining qisqartmasi*
compendia [kəm´pendɪə] *pl of* **compendium**
compendious [kəm ´pendɪəs] *a* qisqa; qisqartirilgan
compendium [kəm´pendɪəm] *n* (*pl* **-dia** [-dɪə]) 1) konspekt; 2) qisqa xulosa, qisqacha mazmun, yakun
compensate [´kɔmpənseɪt] *v* mukofotlamoq
compensation [ˌkɔmpen´seɪʃən] *n* mukofotlash
compensator [ˌkɔmpənseɪtə] *n fiz. el.* transformator (*o'zgaruvchan elektr tokining kuchlanishini pasaytiradigan yoki oshiradigan moslama*)
compensatory [ˌkɔmpənseɪt(ə)rɪ] *a* 1) badal (tovon, haq) to'laydigan; 2) o'rnini to'ldiradigan
compere [´kɔmpeə] *n* konferansye (*dasturni olib boruvchi va ora-sira qiziq gaplar bilan tomoshabinlarni mashg'ul qiluvchi artist*)
compete [kəm´pi:t] *v* musobaqalashmoq, bellashmoq
competence [´kɔmpɪt(ə)ns] *n* mahorat; qobiliyat
competency [´kɔmpɪt(ə)nsɪ] *n yur.* kompetensiya, vakolat, huquq, ixtiyor
competent [´kɔmpɪt(ə)nt] *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, xabardor; 2) asosli, e'tiborli, diqqatga sazovor
competition [ˌkɔmpɪ´tɪʃ(ə)n] *n* musobaqa
competitioner [ˌkɔmpɪ´tɪʃ(ə)nə] *n* musobaqa qatnashchisi
competitive [kəm´petɪtɪv] *a* 1) raqobatlashadigan, raqobatga ega; 2) raqobatbardosh
competitor [kəm´petɪtə] *n* raqib
compilation [ˌkɔmpɪ´leɪʃ(ə)n] *n* qura-machilik (*boshqalarning ishlaridan ulab-qurab asar yozish*)
compile [kəm´paɪl] *v* (*lug'at va b.*) tuzmoq
compiler [kəm´paɪlə] *n* tuzuvchi
complacence, -cy [kəm´pleɪs(ə)ns, -sɪ] *n* 1) o'ziga ishonib ketish, mag'rurlik; 2) muloyimlik
complacent [kəm´pleɪs(ə)nt] *a* 1) o'ziga ishonib ketgan, mag'rur; 2) ko'ngilchan
complain [kəm ´pleɪn] *v* shikoyat qilmoq
complainant [kəm´pleɪnənt] *n* shikoyatchi
complaint [kəm´pleɪnt] *n* 1) shikoyat; 2) norozilik
complaisance [kəm´pleɪz(ə)ns] *n* xushmuomalalik, iltifot
complaisant [kəm´pleɪz(ə)nt] *a* xushmuomala, iltifotli
complect [kəm´plekt] *v kam.* 1) to'qimoq, to'qib yasamoq, o'rmoq; 2) birga qo'shib to'qimoq
complected [kəm´plektɪd] *a kam.* 1) to'qilgan, to'qib yasalgan; 2) birga qo'shib to'qilgan
complement [´kɔmplɪmənt] *n gram.* to'ldiruvchi
complemental [ˌkɔmplɪ´mentl] *a* 1) qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) yoki olingan (olinadigan); 2) qo'shimcha; 3) to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi
complementary [ˌkɔmplɪ´ment(ə)rɪ] *a* qo'shimcha qilingan
complete [kəm´pli:t] **1.** *a* mukammal, to'liq; **2.** *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq
completely [kəm´pli:tlɪ] *adv* mutlaqo
completeness [kəm´pli:tnəs] *n* mukammallik
completion [kəm´pli:ʃ(ə)n] *n* oxiriga yetkazish, tugatish
completive [kəm´pli:tɪv] *a* yakunlovchi, oxirgi, so'nggi
complex [´kɔmpleks] **1.** *a* murakkab; **2.** *n* kompleks (*uyg'un birlik tashkil etgan predmetlar, voqea-hodisalar, harakat, belgi va sh. k. majmuyi*)
complexion [kəm´plekʃ(ə)n] *n* betning tusi (rangi)
complexity [kəm´pleksɪtɪ] *n* murakkablik
compliance [kəm´plaɪəns] *n* rozilik
compliant [kəm ´plaɪənt] *a* yon beradigan, gapga ko'nadigan
complicacy [´kɔmplɪkəsɪ] *n* murakkablik
complicate [´kɔmplɪkeɪt] *v* murakkablashtirmoq, mushkullashtirmoq, qiyinlashtirmoq
complicated [´kɔmplɪkeɪtɪd] *a* murakkab
complication [ˌkɔmplɪ´keɪʃ(ə)n] *n* murakkablik
complicative [´kɔmplɪkeɪtɪv] *a esk.* murakkablashtiruvchi, murakkablashtiradigan, qiyinlashtiradigan, chigallashtiradigan, og'irlashtiradigan
complicity [kəm´plɪsɪtɪ] *n* (*jinoyat va b. ga*) birga qatnashish
compliment [´kɔmplɪmənt] **1.** *n* maqtov; xushomad; **2.** *v* maqtamoq; xushomad qilmoq
complimentary [ˌkɔmplɪ´ment(ə)rɪ] *a* tabriklashga oid
complin [´kɔmplɪn] = **compline**
compline [´kɔmpl(a)ɪn] *n cherk.* kechki ibodat (*katoliklarda*)
complot [´kɔmplɔt] **1.** *n kam.* maxfiy kelishuv, til biriktirish; **2.** *v kam.* 1) fitna uyushtirmoq; 2) (*qandaydir jinoyatni*) o'ylab qo'ymoq
comply [kəm´plaɪ] *v* **(with)** 1) bajarmoq, ijro etmoq; **to ~ with smb.'s request** birovning iltimosini bajarmoq; 2) bo'ysunmoq; **to ~ with the rules** qoidalarga rioya qilmoq; 3) ko'nmoq, rozi bo'lmoq; 4) biror narsadan kechmoq, bahridan o'tmoq, bermoq, in'om qilmoq
component [kəm´pəunənt] *a* tarkibiy qism
comport [kəm´pɔ:t] *v* 1) o'zini yaxshi tutmoq; 2) muvofiq kelmoq
comportment [kəm ´pɔ:tmənt] *n kam.* 1) odat, qiliq, xulq-atvor; 2) muomala, yurish-turish
compose [kəm´pəuz] *v* 1) tuzmoq; 2) (*musiqali yoki badiiy asarni*) yozmoq, ijod qilmoq, yaratmoq

composed [kəm´pəʊzd] *a* yuvosh, bezovur; o'zini tuta biladigan
composedly [kəm´pəʊzdlɪ] *adv* 1) xotirjamlik bilan, xotirjam, bamaylixotir, bemalol; 2) o'zini qo'lga olib, o'zini bosib (tutib), tiyib, vazminlik (og'irlik) bilan, vazmin, og'ir
composer [kəm´pəʊzə] *n* bastakor
composing [kəm´pəʊzɪŋ] *a* 1) tuzuvchi, tashkil etuvchi; 2) (ko'ngilni) tinchitadigan, tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, taskin (orom) beradigan, xotirjam qiladigan; ~ **medicine** tinchlantiradigan (orom beradigan) dori
composing-machine [kəm´pəʊzɪŋmə,ʃi:n] *n poligr.* harf terish mashinasi
composing-room [kəm´pəʊzɪŋru:m] *n poligr.* harf tgrish sexi
composite [´kɒmpəzɪt] **1.** *n* aralashma, qorishma; **2.** *a* murakkab
composition [,kɒmpə´zɪʃ(ə)n] *n* musiqali *yoki* adabiy (badiiy) asar
composition-metal [,kɒmpə´zɪʃ(ə)n,metl] *n* jez (*mis va rux qotishmasi*)
compositive [kəm´pɒzɪtɪv] *a* sintez usuliga asoslangan, sintetik
compositor [kəm´pɒzɪtə] *n* harf teruvchi
compos mentis [,kɒmpəs ´mentɪs] *lot. yur.* aqli raso, o'z qilmishiga o'zi javob bera oladigan
compossible [kəm´pɒsəb(ə)l] *a kit.* birga yashay oladigan, birga (bir joyda, bir vaqtda) mavjud bo'la oladigan
compost [´kɒmpɒst] *n q.x.* kompost (*har xil chiqindilardan tuproq yoki torfda chiritib tayyorlangan organik o'g'it*)
composting [´kɒmpɒstɪŋ] *n q.x.* har xil chiqindilardan tuproq yoki torfda chiritib organik o'g'it tayyorlamoq
composure [kəm´pəʊʒə] *n* 1) xotirjamlik, og'irlik, bosiqlik; 2) sovuqqonlik
compotation [,kɒmpə´teɪʃ(ə)n] *n kam.* ichkilikbozlik, ichimlik bazmi
compotator [kɒm´pəʊteɪtə] *n kam.* hamtovoq, hamshisha
compote [´kɒmpəʊt] *n fr.* kompot
compound [´kɒmpaʊnd] **1.** *n* 1) birikma, aralashma, tarkib; 2) *tilsh.* murakkab so'z; **2.** *a* 1) qo'shma; murakkab; 2) *gram.* bog'langan qo'shma gap; **3.** *v* aralashtirmoq
comprador [,kɒmprə´dɔ:] *n* komprador (*chet el kapitali bilan mahalliy bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi yerlik savdogar*)
comprehend [,kɒmprɪ´hend] *v* tushunmoq, anglamoq
comprehensibility [,kɒmprɪhensə´bɪlɪtɪ] *n* 1) yengil (oson) tushunadiganlik, tushunishi osonlik (yengillik); 2) aniqlik, ravshanlik, tushunarlilik
comprehensible [,kɒmprɪ´hensəb(ə)l] *a* tushunarli, tushunsa bo'ladigan
comprehension [,kɒmprɪ´henʃ(ə)n] *n* tushunish, anglash
comprehensive [,kɒmprɪ´hensɪv] *a* 1) mufassal; 2) har tomonlama
compress 1. [´kɒmpres] *n tib.* kompress (*og'rigan joyga biror dorili suvga botirib yoki quruq holda bog'lanadigan latta, paxta va h.*); **2.** [kəm´pres] *v* siqmoq, bosmoq
compressed [kəm´prest] *a* siqilgan, qisilgan
compressed-air brake [kəm,prest´eəbreɪk] *tex.* pnevmatik tormoz
compressed-air disease, compressed-air illness, compressed-air sickness [kəmprest ´eədɪ,zi:z, -,ɪlnəs, -,sɪknəs] *tib.* kesson kasalligi (*kesson sharoitida ishlovchilarda yuz beradigan kasallik*)
compressibility [kəm,presə´bɪlɪtɪ] *n* siqilish xususiyati
compressible [kəm´presəb(ə)l] *a* siqish (siqilish) xususiyatiga ega bo'lgan, siqsa (zichlashtirsa) bo'ladigan
compression [kəm´preʃ(ə)n] *n* siqish, qisish
compressive [kəm´presɪv] *a* siqadigan, siquvchi; ~ **force** *fiz.* siqish kuchi
compressor [kəm´presə] *n tex.* kompressor (*dam beradigan, bosim ostida havo, gaz, bug' yuboradigan mashina*)
comprisal [kəm´praɪz(ə)l] *n kam.* 1) kirgizish, kiritish, qo'shish, qo'shib qo'yish, o'z ichiga olish; 2) konspekt, qisqa xulosa, qisqacha mazmun, qisqa bayon
comprise [kəm´praɪz] *v* ichiga olmoq
compromise [´kɒmprəmaɪz] **1.** *n* bir-biriga yon berish (*murosa*); **2.** *v* murosa qilmoq
compromiser [´kɒmprəmaɪzə] *n* kelishuvchi, murosachi
comprovincial [,kɒmprə´vɪnʃ(ə)l] *a kit.* bitta okrugdagi, bitta okrugga qarashli bo'lgan
comptometer [komp´tɒmɪtə] *n* arifmometr (*arifmetik amallarni bajaradigan sodda hisoblash mashinasi*)
comptroller [kən´trəʊlə] = **controller**
compulsion [kəm´pʌlʃ(ə)n] *n* majbur qilish, zo'rlash
compulsive [kəm´pʌlsɪv] *a* majburiy
compulsory [kəm´pʌls(ə)rɪ] *a* majburiy
compunction [kəm´pʌŋkʃ(ə)n] *n* vijdon azobi
compunctious [kəm´pʌŋkʃəs] *a* vijdon azobini tortayotgan
computable [kəm´pju:təb(ə)l] *a* hisoblanadigan, sanaladigan
computation [,kɒmpjʊ´teɪʃ(ə)n] *n* hisoblash
compute [kəm´pju:t] *v* sanamoq, hisoblamoq
computer [kəm´pju:tə] *n* kompyuter
computerisation [kəm,pju:t(ə)raɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* hisoblash mashinasidan foydalanish; kompyuterlashtirish
computing [kəm´pju:tɪŋ] *a* 1) hisoblashga oid; hisoblash; 2) hisoblaydigan; hisoblash bilan shug'ullanadigan; hisoblash...
computus [´kɒmpjʊtəs] *n* 1) *kam.* hisoblash, sanash, hisob, sanoq; hisob-kitob; 2) *tar.* astronomik hisoblash va kalendar tuzish jadvali
comrade [´kɒmr(e)ɪd] *n* o'rtoq (*do'st*)
comrade-in-arms [,kɒmr(e)ɪdɪn´ɑ:mz] *n pl* quroldosh
comradely [´kɒmrɪdlɪ] *a* do'stona, o'rtoqlarcha
comradeship [´kɒmr(e)ɪdʃɪp] *n* do'stlik munosabatlari
comte [kɔ:nt] *n fr.* graf (*barondan yuqori dvoryanlik unvoni va shunday unvonli kishi*)
con I [kɒn] *v* yodlab olmoq
con II [kɒn] **1.** *n* 1) firibgar, qallob, muttaham; 2) firibgarlik, qalloblik; muttahamlik; **2.** *a* qalloblikdan iborat bo'lgan; **3.** *v* qalloblik (muttahamlik) qilmoq
conaria [kə´ne(ə)rɪə] *pl of* **conarium**
conarium [kə ´ne(ə)rɪəm] *n* (*pl* **-ria** [-rɪə]) *anat.* g'uddasimon bez
concatenate [kɒn´kætɪneɪt] *v* ulamoq, bog'lamoq
concatenation [kɒn,kætɪ´neɪʃ(ə)n] *n* 1) *tex.* zanjir; 2) ulash, bog'lash
concave [´kɒn´keɪv] **1.** *a* ichiga botgan, bukilgan, egilgan; **2.** *n* chuqur, chuqurcha; **3.** *v* bukmoq, egmoq
concavity [kɒn´kævɪtɪ] *n* botiqlik, egilganlik
concavo-concave [kɒn,keɪvəʊkɒn´keɪv] *a* ikki yoqlama botiq (*linza haqida*)
conceal [kən´si:l] *v* berkitmoq, yashirmoq
concealed [kən´si:ld] *a* yashirin, maxfiy, pinhoniy, sir tutilgan (tutiladigan); ichdagi
concealer [kən´si:lə] *n* yashiruvchi, berkituvchi
concealment [kən´si:lmənt] *n* yashirish
concede [kən ´si:d] *v* 1) yon bermoq; 2) ruxsat etmoq
conceit [kən´si:t] *n* manmanlik, o'ziga ortiqcha ishonish
conceited [kən´si:tɪd] *a* o'ziga bino qo'ygan, mag'rur

conceivable [kən´si:vəb(ə)l] *a* aqlga to'g'ri keladigan (sig'adigan)
conceivably [kən´si:vəblı] *adv* taxminan
conceive [kən´si:v] *v* fikr yuritmoq; ko'z oldiga keltirmoq, tasavvur etmoq
conceiving [kən´si:vıŋ] *n* homilador bo'lish
concenter [kɒn´sentə] *amer.* = **concentre**
concentrate [´kɒns(ə)ntreıt] *v* 1) to'plamoq, jamlamoq; 2) to'planmoq, jamlanmoq
concentrated [´kɒns(ə)ntreıtıd] *a* bir yerda to'plangan
concentration [ˌkɒns(ə)n ´treıʃ(ə)n] *n* to'plash
concentrative [´kɒns(ə)ntrətıv] *a* bir yerga to'plovchi, bir narsaga qaratadigan
concentrator [´kɒnsˌ(ə)ntreıtə] *n* 1) *kim.* konsentrator; 2) *tog'.* foydali qazilmalarni boyitish uchun xizmat qiladigan qurilma (mexanizm, mashina)
concentre [kɒn´sentə] *v* (*fikr va b. ni*) bir yerga to'plamoq, biror narsaga qaratmoq
concentric [kən´sentrık] *a* konsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*)
concentrically [kɒn´sentrık(ə)lı] *adv* konsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*)
concentricity [ˌkɒnsen´trısıtı] *n* bitta umumiy markazga egalik, konsentriklik
concentual [kən´sentʃuəl] *a kam.* 1) o'zaro mos, monand, muvofiq, uyg'un; birbiriga to'g'ri keladigan; 2) ohangdosh, hamohang
concept [´kɒnsept] *n* tushuncha, g'oya
conception [kən´sepʃ(ə)n] *n* tushunish, tushuncha
conceptual [kən´septʃuəl] *a* tajribaga asoslanmagan, sinalmagan
conceptualism [kən´septʃuəlız(ə)m] *n fals.* konseptualizm (*o'rta asrlar Yevropa falsafasidagi oqim*)
concern [kən´sə:n] **1.** *n* 1) munosabat, aloqa; **it is no ~ of mine** bu mening ishim emas; **to have no ~ with** ...ga hech qanday aloqasi bo'lmaslik; 2) tashvishlanish, g'amxo'rlik; **to show ~ for an invalid** nogironga g'amxo'rlik qilish; 3) ishtirok etish, qiziqish; 4) firma, korxona; **a paying ~** daromadli korxona; 5) muhimlik, ahamiyatlilik; **a matter of great ~** o'ta muhim masala; **2.** *v* 1) aloqador bo'lmoq, daxldor bo'lmoq; **that doesn't ~ you at all** uning sizga hech qanday aloqasi yo'q; 2) tashvishlanmoq, g'amxo'rlik qilmoq; 3) qiziqmoq, shug'ullanmoq
concerned [kən´sə:nd] *a* 1) (*biror narsaga*) aloqador bo'lgan; (*biror narsa bilan*) bog'liq bo'lgan; manfaatdor; **all ~** barcha manfaatdor shaxslar; 2) tashvishli, tashvishlangan; 3) (*biror narsa bilan*) band bo'lgan, mashg'ul
concerning [kən´sə:nıŋ] *prep* 1) haqida, to'g'risida; xususida; 2) taalluqli, tegishli
concernment [kən´sə:nmənt] *n* 1) ish, korxona; 2) munosabat; **a matter of private ~** xususiy tusdagi ish; 3) muhimlik; **of vital ~** juda muhim; 4) ishtirok etish, manfaatdorlik
concert [´kɒnsət] **1.** *n* 1) konsert; 2) rozilik, kelishish; **2.** *v* kelishmoq
concerted [´kənsə:tıd] *a* kelishib olingan
concertina [ˌkɒnsə´ti:nə] *n* konsertino (*1. olti qirrali garmon; 2. konsert tipidagi sodda musiqa asari*)
concertino [ˌkɒntʃə´ti:nəo] *n mus.* konsertino (*1. olti qirrali garmon; 2. konsert tipidagi sodda musiqa asari*)
concretize [´kɒnsətaız] *v so'zl.* konsert bermoq
concertmaster [´kɒnsətˌmɑ:stə] *n amer.* konsertmeyster (*1. orkestrda boshlovchi mashshoq yoki solist; 2. ashulachilarni mashq qildiruvchi, tayyorlovchi pianist*)
concerto [kən´tʃə:təo] *n ital.* konsert (*musiqa asari*)
concession [kən´seʃ(ə)n] *n* 1) yon berish (ko'nish, rozi bo'lish); 2) konsessiya (*yer, kon, korxona va sh. k. dan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist yoki firma o'rtasida tuziladigan shartnoma*)
concessionaire [kənˌseʃə´neə] *n fr.* konsessioner, konsessiyachi, konsessiya egasi
concessionary [kən´seʃən(ə)rı] **1.** = **concessionaire**; **2.** *a* konsessiyaga oid, konsessiya asosidagi; konsession; konsessiya...
concessioner [kən´seʃ(ə)nə] *amer.* = **concessionnaire**
concessionnaire [kənˌseʃə´neə] = **concessionaire**
concessive [kən´sesıv] *a* 1) yon beradigan, gapga ko'nadigan; 2) *gram.* to'siqsiz
conch [kɒntʃ, kɒŋk] *n* chig'anoq
concha [´kɒŋkə] *n anat.* quloq chanog'i (suprasi)
conchoid [´kɒŋkɔıd] *n mat.* konxoida (4-tartibli algebraik egri chiziq)
conchoidal [kɒŋ´kɔıdl] *a maxs.* konxoidaga oid, konxoida...
concierge [ˌkɒnsı´eəz] *n fr.* konserj (*Fransiyada: darbon*)
concilia [kən´sılıə] *pl of* **concilium**
conciliate [kən´sılıeıt] *v* 1) murosaga keltirmoq, yarashtirmoq; 2) tinchlantirmoq, yupatmoq
conciliation [kənˌsılı´eıʃ(ə)n] *n* murosaga keltirish, yarashtirish
conciliative [kən´sılıətıv] = **conciliatory**
conciliator [kən´sılıeıtə] *n* 1) yarashtiruvchi, kelishtiruvchi, murosaga keltiruvchi; 2) tinchlik o'rnatuvchi shaxs
conciliatory [kən´sılıət(ə)rı] *a* murosaga keltiruvchi, yarashtiruvchi
concilium [kən´sılıəm] *n* (*pl* **-lia** [-lıə]) konsilium (*og'ir yoki noaniq kasallikni aniqlash va uni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan shifokorlar kengashi*)
concinnity [kən´sınıtı] *n kit.* nazokatlilik, latofatlilik, noziklik, nafislik, go'zallik (adabiy uslub haqida)
concinnous [kən´sınəs] *a kit.* nazokatli, latofatli, nozik, nafis, go'zal (adabiy uslub haqida)
concise [kən´saıs] *a* qisqartirilgan, qisqa, lo'nda
concisely [kən´saıslı] *adv* 1) qisqa (lo'nda) qilib, qisqa, lo'nda, qisqacha, qisqacha qilib; 2) ifodali (jonli, ta'sirli) qilib, ma'nodor, dona-dona
conciseness [kən´saısnəs] *n* qisqalik, qisqachalik, lo'ndalik
concision [kən´sıʒ(ə)n] = **conciseness**
conclamation [ˌkɒŋklə´meıʃ(ə)n] *n kit.* qattiq baqiriq (qichqiriq, qiyqiriq, hayqiriq), ko'p tovushli (har xil tovushlardan tashkil topgan)
conclave [´kɒŋkleıv] *n* maxfiy kengash
conclude [kən´klu:d] *v* 1) tugatmoq, yakunlamoq; **to ~ a lecture** ma'ruzani yakunlamoq; 2) tuzmoq; **to ~ a treaty** shartnoma tuzmoq; 3) xulosaga kelmoq, xulosa chiqarmoq; 4) hal qilmoq, (*biror narsa qilish uchun*) qarorga kelmoq
concluding [kən´klu:dıŋ] *a* yakunlovchi, so'nggi, oxirgi; xulosa...
conclusion [kən´klu:ʒ(ə)n] *n* 1) tugatish, yakunlash; **the ~ of a speech** nutqning yakuniy qismi; 2) tuzish; **~ of truce** yarash ahdi tuzish; 3) xulosa; **to draw a ~** xulosa chiqarmoq; 4) yakun, natija; **what will be the ~ of all this?** buning natijasi qanday bo'ladi?; 5) *yur.* sud qarori
conclusive [kən´klu:sıv] *a* 1) yakunlovchi, so'nggi, oxirgi; 2) hal qiluvchi
conclusively [kən´klu:sıvlı] *adv* 1) tamomila, qat'iyan, butunlay, uzil-kesil, qat'iy, batamom, mutlaqo, also, sira, hech; 2) qattiq turib, qat'iy o'tinib
conclusiveness [kən´klu:sıvnəs] *n* ishonchlilik, ishonarlilik, ishontirarlilik, asoslilik, dalil bo'la oladiganlik
concoct [kən´kɒkt] *v* 1) ovqat tayyorlamoq (pishirmoq, qilmoq); 2) o'ylab topmoq, to'qimoq

concoction [kənˈkɔkʃ(ə)n] *n* 1) qaynatma ovqat, suyuq osh; 2) uydirma, to'qima, bo'lmagan, yolg'on; 2) o'ylab topish

concomitance [kənˈkɔmɪt(ə)ns] *n* birga yurish, bir vaqtda sodir bo'lish

concomitant [kənˈkɔmɪt(ə)nt] **1.** *a* birga yuradigan, bir vaqtda sodir bo'ladigan; **2.** *n* ketidan keladigan ahvol

concord [ˈkɔŋkɔ:d] *n* 1) rozilik; 2) bitim, shartnoma

concordance [kənˈkɔ:d(ə)ns] *n* moslik, muvofiqlik

concordant [kənˈkɔ:d(ə)nt] *a* rozi bo'lgan, rozilik bergan

concordantly [kənˈkɔ:d(ə)ntlɪ] *adv* tegishlicha, tegishli ravishda, mos ravishda, yarasha, qarab

concordat [kɔnˈkɔ:dæt] *n* shartnoma, bitim

concorporate [kənˈkɔ:pərɪt] *v kit.* bir butun qilib qo'shmoq yoki aralashtirmoq

concourse [ˈkɔŋkɔ:s] *n* 1) omma to'planadigan ochiq joy; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi, olomon

concrement [ˈkɔŋkrɪmənt] *n kit.* bitish, bitib ketish, bitib (bitta bo'lib, qo'shilib) ketish, bitta bo'lib (qo'shilib) o'sish, birlashib ketish, bir bo'lib ketish

concrescence [kəŋˈkres(ə)ns] *n biol.* bitish, ulanish, bitgan (ulangan) joy

concrete [ˈkɔnkri:t] **1.** *n* beton (*sement, qum va qorib tayyorlangan qurilish materiali*); **2.** *a* 1) aniq, ravshan; 2) betondan ishlangan; **3.** *v* betonlamoq, beton bilan mustahkamlamoq

concrete-mixer [ˈkɔŋkri:t,mɪksə] *n* betonqorgich, beton qoradigan mashina

concreting [ˈkɔŋkri:tɪŋ] *n* betonlash, beton bilan ishlash, beton bilan mustahkamlash

concretion [kənˈkri:ʃ(ə)n] *n* bitish, ulanish

concretize [ˈkɔŋkrɪtaɪz] *v* aniqlamoq

concubinage [kɔnˈkju:bɪnɪdʒ] *n* nikohsiz birga yashash

concubine [ˈkɔŋkjobaɪn] *n* o'ynash, nikohsiz xotin, jazman

concupiscence [kənˈkju:pɪs(ə)ns] *n* 1) zo'r istak, xohish, orzu; suqlanish; 2) nafs, hirs, shahvat

concupiscent [kənˈkju:pɪs(ə)nt] *a* shahvatparastlarcha, shahvoniy

concur [kənˈkə:] *v* 1) to'g'ri kelmoq; 2) rozi bo'lmoq

concurrence [kənˈkʌrəns] *n* 1) mos kelish, o'xshashlik (*fikr va b. haqida*); 2) rozilik

concurrent [kənˈkʌrənt] **1.** *n* ajralmas qism; **2.** *a* 1) bir-biriga to'g'ri keladigan; 2) bir vaqtda yoki birgalikda amalga oshadigan

concuss [kənˈkʌs] *v* 1) tebratmoq; 2) (*ni-magadir*) majbur qilmoq

concussion [kənˈkʌʃ(ə)n] *n* 1) titrash; chayqalish; turtki; **~ of the brain** miyaning chayqalib lat yeyishi; 2) kontuziya (*zarba natijasida shikastlanish*); 3) *yur.* do'q *yoki* zo'ravonlik bilan biror narsa qilishga majburlash

condemn [kənˈdem] *v* 1) ayblamoq, tanbeh bermoq; 2) *yur.* hukm qilmoq; 3) yaroqsiz deb topmoq; **to ~ to death** o'limga hukm qilmoq; 4) musodara qilmoq, hibsga olmoq

condemnation [ˌkɔndemˈneɪʃ(ə)n] *n* qoralash, ayblash; hukm

condemnatory [kənˈdemnət(ə)rɪ] *a* ayblash bilan bog'liq bo'lgan

condemned [kənˈdemd] *a* jazoga hukm qilingan

condensable [kənˈdensəb(ə)l] *a* suyuqlikka aylantirsa bo'ladigan, suyuqlikka aylanish xususiyatiga ega bo'lgan

condensate I [kənˈdenseɪt] *n tex.* kondensat, kondensatsiya mahsuloti

condensate II [kənˈdenseɪt] *kam.* = **condense**

condensation [ˌkɔndenˈseɪʃ(ə)n] *n* quyulish, zichlanish

condense [kənˈdens] *v* quyultirmoq, zichlashtirmoq

condensed [kənˈdenst] *a* quyultirilgan, zichlangan; **~ milk** quyultirilgan sut

condenser [kənˈdensə] *n* kondensator (*1. elektr to'playdigan asbob; 2. bug'-ni sovitib suyuqlikka aylantiradigan, kondensat to'playdigan asbob*)

condensery [kənˈdens(ə)rɪ] *n* quyultirilgan sut ishlab chiqaradigan sut

condensity [kənˈdensɪtɪ] *n* 1) siqilganlik, qisilganlik, siqiqlik; 2) qisqalik, lo'ndalik, qisqachalik

condescend [ˌkɔndɪˈsend] *v* marhamat ko'rsatmoq; iltifot qilmoq

condescending [ˌkɔndɪˈsendɪŋ] *a* marhamatli, iltifotli, iltifot bilan qilingan

condescension [ˌkɔndɪˈsenʃ(ə)n] *n* ko'ngilchanlik, ko'ngli bo'shlik

condign [kənˈdaɪn] *a* (*jazoga*) loyiq, sazovor

condiment [ˈkɔndɪmənt] *n* ziravor (*ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan narsa*)

condisciple [ˌkɔndɪˈsaɪp(ə)l] *n kit.* maktabdosh

condition I [kənˈdɪʃ(ə)n] **1.** *n* 1) holat, ahvol; **the house is in a terrible ~** uy juda yomon holatda; **in good ~** iste'-molga yaroqli; 2) *pl* muhit, shart-sharoit; **~ s of life** turmush shart-sharoitlari; 3) shart; **to meet the ~** s shartlarni bajarmoq; **2.** *v* shart qo'ymoq, talab qo'ymoq

conditional [kənˈdɪʃ(ə)nəl] *a* shartli, o'zaro shart qilingan

conditionally [kənˈdɪʃ(ə)nəlɪ] *adv* shartli ravishda; **he was ~ discharged** u shartli ravishda ozod etilgan edi

conditionate [kənˈdɪʃ(ə)nɪt] **1.** *a kit.* shart qilingan, shart (qilib) qo'yilgan; **2.** *v kam.* shart qilmoq, shart (qilib) qo'ymoq

conditioned [kənˈdɪʃ(ə)nd] *a* shart qilingan

conditioning [kənˈdɪʃ(ə)nɪŋ] *a sport.* chiniqtirish; umumrivojlantiruvchi mashqlar

condolatory [kənˈdəolət(ə)rɪ] *a* xayrixoh

condole [kənˈdəol] *v* 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq

condolence [kənˈdəoləns] *n* dardiga (qayg'usiga) sherik bo'lish, ta'ziya bildirish

condominium [ˌkɔndəˈmɪnɪəm] *n* kondominium (*bir hududning bir necha davlat tomonidan birgalikda tasarruf qilinishi, boshqarilishi*)

condonation [ˌkɔndəˈneɪʃ(ə)n] *n* chidab turishlik (*asosan, er-xotinning xiyonatida*)

condone [kənˈdəon] *v* murosa qilmoq, ko'nikmoq; chidamoq

condor [ˈkɔndɔ:] *n zool.* kondor (*Janubiy Amerikada yashaydigan o'limtik-xo'r yirik yirtqich qush*)

condottiere [ˌkɔndɔˈtje(ə)ri:] *n* (*pl* **-ri** [-ri:]) *tar.* kondotyer (*1. o'rta asrlarda Italiyada yollanma askarlar boshlig'i; 2. ko'ch. pul uchun hech narsadan qaytmaydigan odam, sotqin*)

condottieri [ˌkɔndɔˈtje(ə)ri:] *pl of* **condottiere**

conduce [kənˈdju:s] *v* imkon (imkoniyat) tug'dirmoq

conducive [kənˈdju:sɪv] *a* yaxshi ta'sir ko'rsatadigan

conduct 1. *n* [ˈkɔndəkt, -dʌkt] *n* 1) yurish-turish, xulq-atvor; **good (bad) ~** yaxshi (yomon) xulq-atvor; 2) yuritish, rahbarlik qilish; **~ of a business** ishni boshqarish; **2.** *v* [kənˈdʌkt] 1) olib bormoq, hamroh bo'lmoq; 2) boshqarmoq, rahbarlik qilmoq; **to ~ a meeting** majlisni boshqarmoq; 3) (*orkestrga, xorga*) dirijorlik qilmoq

conductance [kənˈdʌktəns] = **conduction**

conductibility [kən,dʌktəˈbɪlɪtɪ] *n fiz.* 1) elektr o'tkazuvchanlik; 2) o'tkazuvchanlik (*elektr, issiqlik kabilarni o'tkazish qobiliyati*)

conduction [kənˈdʌkʃ(ə)n] *n fiz.* o'tkazuvchanlik, o'tkazish qobiliyati

conductive [kən´dʌktɪv] *a fiz.* o'tkazgich xususiyatiga ega bo'lgan; o'tkazgichga oid, o'tkazgich...; **a ~ body** o'tkazgich, o'tkazuvchi

conductivity [ˌkɒndʌk´tɪvɪtɪ] *n fiz.* elektr o'tkazuvchi

conductor [kən´dʌktə] *n* 1) (*tramvay, avtobusda*) chipta sotuvchi, konduktor; 2) yo'l ko'rsatuvchi, gid, rahbar; a ~ **of a party** guruh rahbari; 3) dirijor; 4) *fiz.* o'tkazgich

conductress [kən´dʌktrɪs] *n* (*avtobus, tramvay va b. da*) chipta sotuvchi ayol

conduit [´kɒndɪt] *n* 1) suv quvuri; 2) truboprovod (*uzoq masofaga quvur orqali gaz, suv yoki suyuqlik o'tkazadigan inshoot*)

condyloma [ˌkɒndɪ´ləʊmə] *n* (*pl* **-ta** [-tə]) *tib.* kondiloma (*terining tuguncha simon o'smasi*)

condylomata [ˌkɒndɪ´ləʊmətə] *pl of* **condyloma**

cone [kəʊn] *n* 1) *mat.* konus; 2) *bot.* so'ta (*ignabargli daraxtlarning so'tasimon to'pguli*)

coney [´kəʊnɪ] *n* uy quyoni

confab [´kɒnfæb] *so'zl.* **confabulation** *so'zining qisqartmasi*

confabulate [kən´fæbjʊleɪt] *v* suhbatlashmoq; gaplashmoq

confabulation [kənˌfæbjʊ´leɪʃ(ə)n] *n* 1) do'stona suhbat; 2) bekorchi gap

confect I [kən´fekt] *esk.* = **comfit**

confect II [kən´fekt] *v* 1) shirinliklar (qand-qurs) tayyorlamoq; 2) konservalamoq, konserva qilmoq

confection [kən´fekʃ(ə)n] **1.** *n* shirinliklar (*qand-qurs*); **2.** *v* shirinliklar tayyorlamoq (pishirmoq)

confectionary [kən´fekʃən(ə)rɪ] qandolat mahsulotlari

confectioner [kən´fekʃ(ə)nə] *n* qandolatchi, shakarpaz

confectionery [kən´fekʃən(ə)rɪ] *n* 1) qandolat do'koni; 2) qandolatchilik

confederacy [kən´fed(ə)rəsɪ] *n* konfederatsiya (*ba'zi tashkilotlarning ittifoqi, birikmasi*)

confederal [kən´fed(ə)rəl] *a* 1) konfederatsiyaga oid; 2) *tar.* federal, federativ

confederate [kən´fed(ə)rɪt] **1.** *n* 1) ittifoqchi; 2) konfederatsiya a'zosi; **2.** *a* o'zaro birlashgan; ittifoq tuzgan; **3.** *v* o'zaro birlashmoq, ittifoq tuzmoq

confederation [kənˌfedə´reɪʃ(ə)n] *n* ittifoq, uyushma

confederative [kən´fed(ə)rətɪv] *a* konfederativ (*davlat tuzilishining biror-bir shakliga oid*)

confer [kən´fɜ:] *v* 1) bermoq, bag'ishlamoq; 2) (*ilmiy daraja va b.*) bermoq; 3) maslahatlashmoq, kengashmoq

conferee [ˌkɒnfə´ri:] *n* kengash qatnashchisi

conference [´kɒnf(ə)rəns] *n* kengash, konferensiya

conferment [kən´fɜ:mənt] *n* 1) unvon berish; 2) (*ilmiy daraja*) berish

confess [kən´fes] *v* 1) tan olmoq, e'tirof qilmoq; 2) e'tiqod (amal, rioya) qilmoq

confessant [kən´fes(ə)nt] *n cherk.* tavba qilib sig'inuvchi kishi

confessedly [kən´fesɪdlɪ] *adv* hammaning e'tirof etishiga ko'ra

confession [kən´feʃ(ə)n] *n* 1) bo'yniga olish; (*xatosiga, aybiga*) iqror bo'lish; 2) *chek.* tavba, gunohlariga tavba qilish

confessional [kən´feʃ(ə)nəl] *n cherk.* istig'for keltiriladigan (tavba qilib sig'inadigan) joy (*katoliklar cherkovida*)

confessor [kən´fesə] *n* tavbani qabul qiluvchi ruhoniy

confetti [kən´fetɪ] *n it.* konfetti (*bayramlarda kishilar ustidan sochiladigan rangli qog'oz tangachalar*)

confidant [´kɒnfɪdænt, ˌkɒnfɪ´dænt] *n* sirdosh (yaqin) do'st, ishonchli shaxs

confidante [ˌkɒnfɪ´dænt] *n* sirdosh (yaqin) dugona

confide [kən´faɪd] *v* ishonmoq

confidence [´kɒnfɪd(ə)ns] *n* ishonch, ishonish

confident [´kɒnfɪd(ə)nt] *a* 1) ishonch bilan qilingan; 2) o'ziga ishongan

confidential [ˌkɒnfɪ´denʃ(ə)l] *a* maxfiy

confidentially [ˌkɒnfɪ´denʃ(ə)lɪ] *adv* maxfiy ravishda, yashirincha

configuration [kənˌfɪgjʊ´reɪʃ(ə)n] *n* tashqi ko'rinish (qiyofa, shakl)

confine [kən´faɪn] *v* cheklamoq, cheklanmoq

confined [kən´faɪnd] *a* chegaralangan, cheklangan

confinement [kən´faɪnmənt] *n* chegaralash, cheklash

confines [´kənfaɪnz] *n pl* chegaralar, hududlar

confirm [kən´fɜ:m] **1.** *v* tasdiqlamoq; **2.** *n* tasdiqlash

confirmation [ˌkɒnfə´meɪʃ(ə)n] *n* tasdiq, isbot, tasdiqlash

confirmative [kən´fɜ:mətɪv] *a* tasdiqlaydigan, tasdiqlovchi

confirmatory [kən´fɜ:mət(ə)rɪ] *a* 1) = **confirmative**; 2) *cherk. esk.* konfirmatsiyaga oid

confirmed [kən´fɜ:md] *a* 1) uzoq davom etadigan (cho'ziladigan); 2) qat'iy ishongan

confiscable [kɒn´fɪskəb(ə)l] *a* konfiskatsiya (musodara) qilinadigan

confiscate [´kɒnfɪskeɪt] *v* musodara qilmoq

confiscation [ˌkɒnfɪ´skeɪʃ(ə)n] *n* musodara qilish

confitent [´kɒnfɪtənt] = **confessant**

confiteor [kɒn´fɪtɪɔ:] *n cherk.* gunohlariga tavba qilayotganda o'qiladigan duo (*katoliklarda*)

confiture [´kɒnfɪtʃə] *n* murabbo, qiyom

confix [kən´fɪks] *v* mahkamlamoq, yopishtirmoq, mahkamlab (yopishtirib) qo'ymoq

conflagrant [kən´fleɪgrənt] *a* o'ta yonayotgan

conflagrate [´kɒnfləgreɪt] *v* 1) yona boshlamoq, o't olmoq, o't tushmoq; 2) yondirmoq, o't yoqib yubormoq

conflagration [ˌkɒnflə´greɪʃ(ə)n] *n* katta yong'in

conflate [kən´fleɪt] *v kam.* qotishtirmoq, birga eritib qotishma hosil qilmoq

conflation [kən´fleɪʃ(ə)n] *n* qotishma

conflict [´kɒnflɪkt] **1.** *n* 1) nizo, mojaro; 2) to'qnashuv; 3) ziddiyat, qarama-qarshilik; **2.** *v* 1) qarshi chiqmoq; 2) kurashmoq

conflicting [kən´flɪktɪŋ] *a* qarama-qarshi, zid, teskari

confluence [´kɒnfluəns] *n* 1) daryoning tutashgan joyi; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi; 3) yo'llar kesishib o'tgan joy, chorraha

confluent [´kɒnfluənt] *n* irmoq, jilg'a

conflux [´kɒnflʌks] = **confluence**

conform [kən´fɔ:m] *v* to'g'ri (muvofiq) kelmoq

conformability [kənˌfɔ:mə´bɪlɪtɪ] *n* moslik, muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri (mos) kelish

conformable [kən´fɔ:məb(ə)l] *a* to'g'ri (muvofiq) keladigan

conformably [kən´fɔ:məblɪ] *adv* tegishlicha, tegishli ravishda, mos ravishda, yarasha, qarab

conformation [ˌkɒnfɔ´meɪʃ(ə)n] *n* 1) tuzilish, qurilish; 2) shakllanish

conformist [kən´fɔ:mɪst] *n asos., cherk. tar.* konformist (*mavjud ijtimoiy tartib, hukmron g'oya va fikrlarga moslashadigan, ularni passiv qabul qiladigan kishi*)

conformity [kən´fɔ:mɪtɪ] *n* to'g'ri kelish (*munosiblik*)

confound [kən´faʊnd] *v* 1) uyaltirib qo'ymoq; 2) adashtirmoq; 3) (*reja, orzu-umidni*) buzmoq, barbod qilmoq

confounded [kən´faʊndɪd] *a so'zl.* o'taketgan, ashaddiy

confoundedly [kən´faʊndɪdlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari

confraternity [ˌkɒnfrə´tɜ:nɪtɪ] *n* do'stlik, qardoshlik

confrere [´kɒnfreə] *n fr.* hamkasb, kasbdosh

confront [kən´frʌnt] *v* yuzma-yuz turmoq, qarshi turmoq
confrontation [ˌkɒnfrʌn´teɪʃ(ə)n] *n* qarshi kurashish, qarshilik ko'rsatish
confuse [kən´fju:z] *v* adashtirmoq, chalkashtirmoq
confused [kən´fju:zd] *a* 1) chigal, chalkash-chulkash; 2) xijolatda (uyalib) qolgan
confusedly [kən´fju:zɪdlɪ] *adv* xijolat bo'lib, uyalib, xijolatda
confusion [kən´fju:ʒ(ə)n] *n* 1) xijolat bo'lish, uyalib qolish; 2) tartibsizlik
confutable [kən´fju:təb(ə)l] *a* rad etuvchi, rad etadigan
confutation [ˌkɒnfju:´teɪʃ(ə)n] *n* rad (etish) qilish
confute [kən´fju:t] *v* rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq
conge [´kɒnʒeɪ] *n fr.* xayrlashish paytida takalluf bilan ta'zim qilish
congeal [kən´dʒi:l] *v* muzlatmoq
congee I [´kɒndʒi:] *n tar.* xayrlashish paytida takalluf bilan ta'zim qilish; **to make one's ~s** (*kim bilandir*) xayrlashmoq, vidolashmoq
congee II [´kɒndʒi:] *n hind.* guruch qaynatmasi
congelation [ˌkɒndʒɪ´leɪʃ(ə)n] *n* muzlatish
congener [kən´dʒi:nə] *a biol.* bir jinsli (*hamma yeri bir xilda tuzilgan, bir xil bo'lgan*)
congeneric(al) [ˌkɒndʒɪ´nerɪk(əl)] *a* bir turdagi, o'xshash
congenerous [kən´dʒen(ə)rəs] *a* 1) bir turdagi, o'xshash; 2) qarindoshlikka oid
congenial [kən´dʒi:nɪəl] *a* munosib, bop, muvofiq
congeniality [kənˌdʒi:nɪ´ælɪtɪ] *a* 1) yaqinlik; 2) o'xshashlik
congenital [kən´dʒenɪtl] *a* tug'ma, zotida bo'lgan
conger [´kɒŋgə] *n zool.* dengiz ilonbalig'i
conger-eel [ˌkɒŋgə(r)´i:l] *n amer. zool.* ilonbaliq
congeries [kən´dʒɪ(ə)ri:z] *n* 1) (*pl o'zgarishsiz*) juda ko'p; bir talay; 2) yig'ish, to'plash, jamg'arish
congery [kɒn´dʒɪ(ə)ri:] *n ko'p. pl* 1) omma, keng xalq ommasi; 2) yig'in, gala, to'da, to'p (*odamlar, hayvonlar haqida*)
congest [kən´dʒest] *v* 1) ortiqcha yuklamoq; 2) to'ldirib yubormoq
congested [kən´dʒestɪd] *a* aholisi g'oyat ko'p (*rayon va b.*)
congestion [kən´dʒestʃ(ə)n] *n* aholining juda zichligi, aholining tig'iz joylashganligi
conglobate [´kɒnləʊbeɪt] *a* sharsimon, dumaloq
conglobe [kɒn´gləʊb] *v* 1) shar shakliga kiritmoq; 2) shar shaklini olmoq
conglomerate [kən´glɒm(ə)rɪt] **1.** *n* konglomerat (*xilma-xil narsalarning tartibsiz, tasodifiy yig'indisi*); **2.** *v* yig'moq, to'plamoq
conglomeration [kənˌglɒmə´reɪʃ(ə)n] *n* yig'ish, to'plash
conglutinate [kən´glu:tɪneɪt] *v kam.* 1) yelimlab (sirachlab) yopishtirmoq, yelimlab ulamoq (yamamoq, tuzatmoq, yasamoq); 2) yopishmoq, yopishib qolmoq
conglutination [kənˌglu:tɪ´neɪʃ(ə)n] *n* yopishtirish, yelimlab ulash
congou [´kɒŋgəʊ] *n* Xitoy qora choyining bir navi
congratulate [kən´grætjʊleɪt] *v* tabriklamoq, qutlamoq
congratulation [kənˌgrætjʊ´leɪʃ(ə)n] *n* tabriklash, qutlash
congratulatory [kənˌgrætjʊ´leɪt(ə)rɪ] *a* tabriklashga (qutlashga) oid
congregate [´kɒŋgrɪgeɪt] *v* yig'moq, yig'ilmoq
congregation [ˌkɒŋgrɪ´geɪʃ(ə)n] *n* yig'in, yig'ilish
congress [´kɒŋgres] *n* 1) kongress (*siyosiy, ilmiy yoki jamoat tashkilotlarining xalqaro majlisi, kengashi*); 2) qurultoy
congressional [kən´greʃ(ə)nəl] *a* kongressga oid
Congressman [´kɒŋgrɪsmən] *n amer.* (*pl* **-men** [-mən]) kongress a'zosi
congruence [´kɒŋgruəns] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik, muvofiqlik, birdamlik, hamjihatlik, kelishilganlik
congruent [´kɒŋgruənt] = **congruous**
congruity [kən´gru:ɪtɪ] *n* muvofiqlik, moslik, to'g'ri kelish, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri (mos) kelish; **to lack ~ with one another** bir-biriga to'g'ri kelmaslik (mos tushmaslik)
congruous [´kɒŋgruəs] *a bot.* mos, muvofiq, munosib, loyiq, to'g'ri keladigan
conic [´kɒnɪk] *a* konusga oid
conical [´kɒnɪk(ə)l] *a* konusga o'xshagan
conidia [kəʊ´nɪdɪə] *pl of* **conidium**
conidium [kəʊ´nɪdɪəm] *n* (*pl* **-dia** [-dɪə]) *bot.* konidiya (*takomillashmagan va ba'zi tuban zamburug'lar tanasining maxsus o'simtalardagi spora hosil qiluvchi organlarida rivojlanadigan spora*)
conifer [´kəʊnɪfə] *n* ignabargli daraxt
coniferous [kə´nɪf(ə)rəs] *a bot.* ignabargli daraxtga oid, ignabargli daraxtdan olingan
coniform [´kɒnɪfɔ:m] = **conical**
conjecturable [kən´dʒektʃ(ə)rəb(ə)l] *a* faraz (gumon, taxmin) qilingan, mo'ljallangan, chamalangan
conjectural [kən´dʒektʃ(ə)rəl] *a* taxminiy, chamalab belgilangan
conjecture [kən´dʒektʃə] **1.** *n* taxmin, faraz; **2.** *v* taxmin (faraz) qilmoq, chamalamoq
conjee [´kɒndʒi:] *n* yovg'on xo'rda
conjobble [kən´dʒɒb(ə)l] *v so'zl.* 1) til biriktirmoq; kelishmoq, gapni bir yerga qo'ymoq; 2) o'zaro til topmoq, kelishmoq, bir-birini ko'ndirmoq
conjoin [kən´dʒɔɪn] *v* qo'shilmoq, birlashmoq
conjoined [kən´dʒɔɪnd] *a* qo'shilgan, birikkan, birlashgan, birlashtirilgan, qo'shma, birgalikdagi
conjoint [kən´dʒɔɪnt] *a* qo'shilgan, birlashgan
conjointly [kən´dʒɔɪntlɪ] *adv* birgalikda, birga, birgalashib, qo'lni qo'lga berib
conjugal [´kɒndʒʊg(ə)l] *a* nikohga (erxotinlikka) oid
conjugality [ˌkɒndʒʊ´gælɪtɪ] *n* er-xotinlik
conjugate [´kɒndʒʊgɪt] *a gram.* tuslamoq (*grammatik shakllar bo'yicha o'zgartirmoq*)
conjugation [ˌkɒndʒʊ´geɪʃ(ə)n] *n gram.* tuslanish
conjunct [kən´dʒʌŋkt] *a* 1) *gram.* bog'lovchi; 2) birikish, qo'shilish
conjunction [kən´dʒʌŋkʃ(ə)n] *a* 1) qo'shilish; aloqa; **in ~** birgalikda; 2) *amer.* bog'lovchi
conjuctional [kən´dʒʌŋkʃ(ə)nəl] *a gram.* bog'lovchili, bog'lovchi orqali bog'langan
conjunctive [kən´dʒʌŋktɪv] *a* 1) bog'laydigan, bog'lovchi; 2) *gram.* bog'lovchili, bog'lovchi orqali bog'langan
conjunctivitis [kənˌdʒʌŋktɪ´vaɪtɪs] *n tib.* konyunktivit (*ko'z jildi, shilliq pardasining yallig'lanishi*)
conjuncture [kən´dʒʌŋkʧə] *n* voqealarning bir-biriga to'g'ri kelib qolishi, zamonaning zayli
conjuration [ˌkɒndʒʊ´reɪʃ(ə)n] *n* sehrgarlik, jodugarlik
conjure [´kʌndʒə] *v* sehrlamoq, sehrjodu qilmoq
conjurer, conjuror [´kʌndʒərə] *n* sehrgar, jodugar, afsungar
conk [kɒŋk] **1.** *n* 1) burun; 2) burunga urish; 3) dvigatelning ishdan chiqishi; **2.** *v* 1) burunga urmoq; 2) o'lmoq; **to ~ out** buzilib qolmoq (*mashina haqida*)
conky [´kɒŋkɪ] *a qo'pol.* 1) burni katta, burundor, burni uzun, uzunburun; 2) tumshug'i uzun; uzuntumshuq

conn [kɒn] *n* rul bilan (orqali) boshqarish
connate [ˈkɒneɪt] *a* tug'ma, zotida bor
connatural [kəˈnætʃ(ə)rəl] *a kit.* 1) tug'ma, tabiiy; zotida bor; 2) bir xil, bir turdagi, o'xshash
connect [kəˈnekt] *v* bog'lamoq
connected [kəˈnektɪd] *a* bog'langan, aloqador
connectedly [kəˈnektɪdlɪ] *adv* bir-biriga bog'lab, bog'lanishli ravishda, kelishtirib, ravon
connecter [kəˈnektə] *n* 1) ulovchi, tirkovchi; 2) *tex.* ulagich, qo'shgich (*bir-biriga qo'shish yoki ulash uchun ishlatiladigan moslama*); 3) *el.* mufta (*ulovchi yoki ajratuvchi mexanizm*)
connecting [kəˈnektɪŋ] *n* bog'lanish
connecting-link [kəˈnektɪŋˌlɪŋk] *n* bog'lovchi bo'g'in
connecting-rod [kəˈnektɪŋˌrɒd] *n tex.* shatun (*porshen va dvigatelni birlashtiruvchi detal*)
connection [kəˈnekʃ(ə)n] *n* bog'lanish, aloqa
connective [kəˈnektɪv] **1.** *a* biriktiruvchi, bog'lovchi; **2.** *n gram.* biriktiruvchi so'z
connector [kəˈnektə] = **connecter**
connexion [kəˈnekʃ(ə)n] *n* bog'lanish, aloqa
connexity [kəˈneksɪtɪ] *n* 1) bog'lanish, aloqa, aloqadorlik, bog'langanlik, bog'liqlik; 2) erkin (bemalol) emaslik, cheklanganlik
conning tower [ˈkɒnɪŋˌtaʊə] *n deng.* jangovar rubka (*rubka — kema palubasi ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy*)
conniption [kəˈnɪpʃ(ə)n] *n amer. so'zl.* isterika (*isteriya tutqanog'i, asabiy tutqanoq, vasvasa natijasida qattiq jazavasi tutish*)
connivance [kəˈnaɪv(ə)ns] *n* erkalatib yuborish, erk berish
connive [kəˈnaɪv] *v* erkalatib yubormoq, erk bermoq
connivance, -cy [kəˈnaɪv(ə)ns, -sɪ] *n* erkalatib yuborish, nojo'ya harakatlarga yo'l berish, erk berish, nojo'ya ishlarga beparvo qarash, ko'ra-bila turib yo'l qo'yishlik
connoisseur [ˌkɒnəˈsɜː] *n fr.* yaxshi biladigan (bilimdon, bilarmon) kishi
connotate [ˈkɒnəteɪt] = **connote**
connotation [ˌkɒnəˈteɪʃ(ə)n] *n* qo'shimcha ma'no
connote [kəˈnəʊt] *v* qo'shimcha ma'noga ega bo'lmoq (*so'z to'g'risida*)
connubial [kəˈnjuːbɪəl] *a* er-xotinga *va* er-xotinlikka oid
connumerate [kəˈnjuːməreɪt] *v* hisoblamoq, hisoblab chiqmoq; sanab chiqmoq; hisoblab topmoq (aniqlamoq, chiqarmoq), hisob-kitob qilmoq
conoidal [kəʊˈnɔɪdl] *a* konussimon, konusga o'xshagan
conoscente [ˌkəʊnəˈʃentə] *n* (*pl* **-ti** [-tɪ]) = **cognoscente**
conoscenti [ˌkəʊnəˈʃentɪ] *pl of* **conoscente**
conquer [ˈkɒŋkə] *v* 1) zabt etmoq; 2) yengmoq, g'alaba qilmoq
conqueror [ˈkɒŋkərə] *n* 1) zabt etgan kishi; 2) g'olib, yengib chiqqan kishi
conquest [ˈkɒŋkwest] *n* 1) zabt etish; 2) g'alaba
conquistador [kɒnˈkwɪstədɔː] *n isp.* 1) konkistador(lar) (*Markaziy va Janubiy Amerika yerlarini bosib olgan ispan va portugaliya bosqinchilari, istilochilari*); 2) umuman, bosqinchilar, istilochilar
consanguine [kɒnˈsæŋgwɪn] = **consanguineous**
consanguineous [ˌkɒnsæŋˈgwɪnɪəs] *a* qon-qarindosh, qondosh
consanguinity [ˌkɒnsæŋˈgwɪnɪtɪ] *n* qon-qarindosh, qondoshlik
conscience [ˈkɒnʃ(ə)ns] *n* 1) vijdon; **a clear (a good) ~** toza vijdon; **the freedom (the liberty) of ~** vijdon erkinligi; 2) ong; **a public ~** ijtimoiy ong
conscienceless [ˈkɒnʃ(ə)nsləs] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz
conscience-smitten [ˈkɒnʃ(ə)nsˌsmɪtn] = **conscience-stricken**
conscience-stricken [ˈkɒnʃ(ə)nsˌstrɪk(ə)n] *a* vijdon azobini tortayotgan
conscientious [ˌkɒnʃɪˈenʃəs] *a* halol, vijdonli, insofli
conscientiously [ˌkɒnʃɪˈenʃəslɪ] *adv* vijdonan, insof bilan
conscious [ˈkɒnʃəs] *a* 1) anglaydigan, tushunadigan; **to be ~ of one's guilt** o'z aybini tushunadigan; 2) sezadigan; **~ of pain** og'riqni sezadigan; 3) *predic.* aql-hushi o'zida bo'lgan; **he was ~ to the last** u so'nggi daqiqagacha es-hushini yo'qotmadi
consciously [ˈkɒnʃəslɪ] *adv* 1) ongli ravishda, tushunib, bilib; 2) atayin, ataylab, bilaturib, ko'ra-bila; qasddan, biror maqsad bilan
consciousness [ˈkɒnʃəsnəs] *n* 1) tushunish, bilish, anglash; 2) onglilik, ong
conscribe [kənˈskraɪb] *v kam.* harbiy xizmatga chaqirmoq
conscript [ˈkɒnskrɪpt] **1.** *n* harbiy xizmatga chaqirilgan kishi; **2.** *a* harbiy xizmatga chaqirilgan
conscription [kənˈskrɪpʃ(ə)n] *n* majburiy harbiy xizmat
consecrate [ˈkɒnsɪkreɪt] **1.** *a* bag'ishlangan; **2.** *v* bag'ishlamoq; **3.** *n* bag'ishlash
consecrated [ˈkɒnsɪkreɪtɪd] *a kit.* atalgan, bag'ishlangan
consecration [ˌkɒnsɪˈkreɪʃ(ə)n] *n* bag'ishlash; **the ~ of one's life to study** hayotini fanga bag'ishlash
consecution [ˌkɒnsɪˈkjuːʃ(ə)n] *n* ketmaketlik
consecutive [kənˈsekjʊtɪv] *a* ketma-ket (birin-ketin) sodir bo'ladigan
consenescence [ˌkɒnsɪˈnes(ə)ns] *n* keksayish, qarib qolish
consensus [kənˈsensəs] *n* rozilik
consent [kənˈsent] **1.** *n* rozilik; 2) ijozat, ruxsat; **2.** *v* rozi bo'lmoq
consentaneity [kənˌsentəˈniːɪtɪ] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik
consentaneous [ˌkɒnsenˈteɪnɪəs] *a* bir-biriga mos, muvofiq
consentant [kənˈsentənt] *a kit.* rozi bo'lgan, rozilik beruvchi, rozilik beradigan
consentient [kənˈsenʃ(ə)nt] *a* yakdillik bilan qabul qilingan, yakdil, hamjamiyat
consequence [ˈkɒnsɪkwəns] *n* 1) oqibat, natija; **the ~ s of an action** xatti-harakat oqibati; 2) xulosa, yakun; **it follows as a logical ~ that ...** buning mantiqiy xulosasi ... hisoblanadi; 3) ahamiyatga ega bo'lgan ish, ahamiyat, imkoniyat; **a matter of great ~** muhim masala
consequent [ˈkɒnsɪkwənt] **1.** *a* ketmaket sodir bo'ladigan; **2.** *n* natija
consequential [ˌkɒnsɪˈkwenʃ(ə)l] *a* muhim
consequently [ˈkɒnsɪkwəntlɪ] *adv* shunday qilib
conservable [kənˈsɜːvəb(ə)l] *a* saqlanadigan, saqlasa bo'ladigan
conservancy [kənˈsɜːv(ə)nsɪ] *n* tabiatni muhofaza qilish
conservation [ˌkɒnsəˈveɪʃ(ə)n] *n* saqlash
conservatism [kənˈsɜːvətɪz(ə)m] *n* konservatizm, eskilikka yopishib olish
conservative [kənˈsɜːvətɪv] **1.** *a* eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan; **2.** *n* eskilik tarafdori
conservatoire [kənˈsɜːvətwɑː] *n fr.* konservatoriya
conservator [ˈkɒnsəveɪtə, kənˈsɜːvətə] *n* 1) saqlovchi, asrovchi; qo'riqlovchi, soqchi; **a ~ of a museum** muzeyni saqlovchi (qo'riqlovchi); tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining a'zosi
conservatory [kənˈsɜːvət(ə)rɪ] *n* 1) issiqxona; 2) *amer.* konservatoriya (*oliy musiqa o'quv yurti*)
conserve [kənˈsɜːv] *v* saqlamoq, asramoq
consider [kənˈsɪdə] *v* 1) ko'rib chiqmoq; 2) e'tiborga olmoq; 3) hisoblamoq, deb bilmoq, tushunmoq

considerable [kən´sıd(ə)rəb(ə)l] *a* muhim, ahamiyatli, zarur
considerably [kən´sıd(ə)rəblı] *adv* ancha, nisbatan ko'p (ortiq)
considerate [kən´sıd(ə)rıt] *a* xushmuomala
consideration [kən,sıdə´reıʃ(ə)n] *n* 1) ko'rib chiqish, muhokama qilish; **the question is now under ~** masala hozir ko'rib chiqilyapti; 2) fikr, mulohaza; **to take into ~** e'tiborga olmoq; 3) e'tibor, hurmat; **to show great ~ for smb.** birovga katta e'tibor bilan qaramoq
considered [kən´sıdəd] *a* 1) puxta (chuqur) o'ylangan, puxta o'ylab qilingan, yaxshi o'ylab (chuqur mulohaza bilan) qilingan, yaxshilab o'ylab ko'rilgan; 2) *amer.* hurmatli, izzatli, aziz, muhtaram
considering [kən´sıd(ə)rıŋ] *prep.* nazarga (e'tiborga, hisobga) olib
consign [kən´saın] *v* zimmasiga yuklamoq, topshirmoq
consignation [,kɒnsaı´neıʃ(ə)n] *n* (*pul-ni*) depozitga qo'yish (o'tkazish)
consignee [,kɒnsaı´ni:] *n* yukni oluvchi kishi
consigner [kən´saınə] = **consignor**
consignment [kən´saınmənt] *n* yuk; bir to'p mol
consignor [kən´saınə] *n* yuk jo'natuvchi kishi
consilience [kən´sılıəns] *n* bir-biriga to'g'ri kelish
consilient [kən´sılıənt] *a* bir-biriga to'g'ri keladigan
consimilar [kən´sımılə] *a kam.* o'xshash, bir xil, bir xildagi, xil tushgan
consist [kən´sıst] *v* ...dan iborat bo'lmoq, tuzilgan bo'lmoq, tarkib topmoq
consistence [kən´sıstəns] *n* qalinlik, zichlik
consistency [kən´sıst(ə)nsı] *n* 1) ketma-ketlik; 2) doimiylik, o'zgarmaslik
consistent [kən´sıst(ə)nt] *a* 1) to'g'ri keladigan, uyg'unlashadigan; **this is not ~ with what you told me** bu siz menga aytgan narsaga ziddir; 2) izchil, tadrijiy; **he is not ~ in his actions** u o'z xatti-harakatida izchil emas
consistently [kən´sıst(ə)ntlı] *adv* 1) **(with)** -ga muvofiq, -ga binoan, -ga ko'ra, bo'yicha; 2) ketma-ket, birin-ketin, paydar-pay
consistorial [,kɒnsıs´tɔ:rıəl] *a cherk.* konsistoriyaga oid; konsistoriya...
consistory [kən´sıst(ə)rı] *n cherk.* 1) konsistoriya (*revolutsiyadan ilgarigi Russiyada: arxiyerey huzuridagi ma'muriy va sud organi*); 2) cherkov sudi
consociate [kən´səuʃıɪt] **1.** *n kam.* birga bo'lgan (qatnashgan) o'rtoq, ulfat, jo'ra, sherik; **2.** *v kit.* 1) do'st deb qabul qilmoq; 2) do'stlashmoq; 3) birlashmoq, birga qo'shilmoq, birikmoq
consociation [kən,səuʃı´eıʃ(ə)n] *n* 1) *kit.* birlashish, birlashuv; birlashtirish; **the ~ of tribes** qabilalarning birlashishi; 2) shirkat, uyushma, ittifoq, jamiyat
consolation [,kɒnsə´leıʃ(ə)n] *n* yupatish so'zlari, taskin beradigan so'zlar
consolatory [kən´sɒlət(ə)rı] *a* yupatadigan, taskin beradigan
console [kən´səul] *v* yupatmoq, taskin bermoq
console-mirror [´kɒnsəul,mırə] *n* toshoyna, tikka turadigan katta toshoyna
consolidate [kən´sɒlıdeıt] *v* 1) mustahkamlamoq; mustahkamlanmoq; 2) birlashtirmoq; birlashmoq
consolidated [kən´sɒlıdeıtıd] *a* 1) birlashgan; birlashtirilgan; birgalikdagi, qo'shma, terma; 2) jamlovchi, yig'ma, jamlama, jamlangan; **~ return** jamlovchi (jamlama) hisobot; 3) qotgan, qotib (qattiq, zarang bo'lib) qolgan; **~ mud** qotib qolgan loy
consolidation [kən,sɒlı´deıʃ(ə)n] *n* mustahkamlash
consols [kən´sɒlz] *n pl* uzoq muddatga aylantirilgan davlatning qisqa muddatli qarzlari; konsolidatsiya qilingan renta
consommé [kən´sɒmeı, ´kɒnsəmı] *n fr.* go'shtli bulyon
consonance [´kɒnsənəns] *n* 1) hamohanglik, ohangdoshlik; 2) *mus.* tovuslarning o'zaro ohangdoshligi
consonant [´kɒnsənənt] **1.** *a* to'g'ri keladigan, bir xil; **2.** *n fon.* undosh tovush
consort [´kɒnsɔ:t] **1.** *n* er; xotin (*asosan, qirol oilalarida*); **2.** *v* (*kim bilandir*) aloqada bo'lmoq, muomala qilmoq
consortium [kən´sɔ:tıəm] *n* konsorsium (*bir necha bank yoki bankirlarning yirik moliyaviy operatsiyani amalga oshirish uchun tuzgan muvaqqat bitimi, monopolistik birlashmasi*)
consortism [´kɒnsɔ:tız(ə)m] *n biol.* konsortizm (*turli organizmlarning birga yashashi*)
conspectus [kən´spektəs] *n lot.* konspekt; obzor (*umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot*)
conspicuous [kən´spıkjuəs] *a* ko'zga ko'ringan, atoqli, taniqli
conspicuously [kən´spıkjuəslı] *adv* 1) aftidan, chamasi, shekilli; 2) baralla, yaqqol, aniq (qilib); 3) sezilarli darajada, ancha
conspiracy [kən´spırəsı] *n* fitna, til biriktirish
conspirator [kən´spırətə] *n* fitnachi, til biriktiruvchi
conspiratorial [kən,spırə´tɔ:rıəl] *a* makkorona
conspire [kən´spaıə] *v* til biriktirmoq
conspirer [kən´spaı(ə)rə] = **conspirator**
constable [´kʌnstəb(ə)l] *n* politsiyachi, mirshab (*lavozim*)
constabulary [kən´stæbjol(ə)rı] *a* politsiyaga oid
constancy [´kɒnstənsı] *n* doimiylik
constant [´kɒnstənt] **1.** *a* doimiy; **2.** *n mat.* o'zgarmas miqdor, kattalik
Constantinopolitan [kɒn,stæntınə´pɒlıtən] *a* 1) Konstantinopol va konstantinopolliklarga oid; Vizantiya va vizantiyaliklarga oid
constantly [´kɒnstəntlı] *adv* 1) doimo, hamma vaqt, har doim; hamisha, nuqul, uzluksiz (to'xtovsiz) ravishda; 2) o'zgarmasdan, o'zgarmay, o'zgarmagan holda, bir zaylda; **~ changing fashion** doimo o'zgarib turadigan moda; **my friend is ~ going over to London on business** mening do'stim ish bilan tez-tez Londonga borib turadi
constate [kən´steıt] *v kam.* qayd qilmoq, ta'kidlamoq, tasdiqlamoq
constellate [´kɒnstılеıt] *v kit.* ekib (sepib) to'ldirmoq, ekib (sepib) tashlamoq; **flowers that ~ on earth** yerni to'ldirib ekilgan gullar
constellation [,kɒnstı´leıʃ(ə)n] *n astr.* yulduzlar turkumi (*burj*)
consternation [,kɒnstə´neıʃ(ə)n] *n* qo'rquv
consternate [´kɒnstəneıt] *v* qo'rqitmoq, qo'rqitib yubormoq, qattiq qo'rqitmoq, vahimaga solib qo'ymoq, cho'chitmoq; hurkitmoq
constipate [´kɒnstıpeıt] *v tib.* ichi qotmoq; **to be ~d** ich qotish (qabziyat)dan qiynalmoq (azoblanmoq)
constipation [,kɒnstı´peıʃ(ə)n] *n tib.* ich qotish (*qabziyat*)
constituency [kən´stıtjuənsı] *n* 1) saylovchilar; 2) saylov okrugi
constituent [kən´stıtjuənt] **1.** *a* 1) saylovga oid; 2) tarkibiy, tarkibli, murakkab; **2.** *n* 1) saylovchi; 2) tarkibiy qism
constitute [´kɒnstıtju:t] *v* 1) yaratmoq, hosil qilmoq; 2) tayinlamoq, belgilamoq
constitution [,kɒnstı´tju:ʃ(ə)n] *n* 1) *siyos.* konstitutsiya (*asosiy qonun*); 2) qad-qomat, bo'y-bast; 3) tuzilish
constitutional [,kɒnstı´tju:ʃ(ə)nəl] *n* 1) *siyos.* konstitutsion, konstitutsiyaga oid; 2) *tib.* organik
constitutionalism [,kɒnstı´tju:ʃ(ə)nəlız(ə)m] *n* konstitutsionalizm (*siyosatda va davlat huquqida konstitutsiyali monarxiyani himoya qiluvchi reaksion burjua oqimi*)

constitutionality [ˌkɒnstɪtju:ʃəˈnælɪtɪ] *n* 1) konstitutsiyaga moslik (muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri (mos) kelish); 2) konstitutsiyaga asoslanganlik

constitutionally I [ˌkɒnstɪˈtju:ʃ(ə)nəlɪ] *adv* 1) konstitutsiyaga muvofiq, konstitutsiyaga ko'ra (binoan); 2) qonunga muvofiq (asoslangan) tarzda

constitutionally II [ˌkɒnstɪˈtju:ʃ(ə)nəlɪ] *adv* qad-qomat, xarakter, aql tuzilishi (xususiyati)ga yarasha (muvofiq, qarab); **she was ~ timid** xarakteriga ko'ra u uyatchan (tortinchoq, iboli) edi

constitutive [ˈkɒnstɪtju:tɪv] *a* 1) ta'sis (joriy) etadigan, tuzadigan, tuzuvchi; ta'sis etuvchi; 2) o'rnatuvchi, quruvchi; 3) belgilovchi, aniqlovchi, tayinlovchi, joriy qiluvchi; 4) asosi, tub, bosh, eng muhim; **the ~ essence** tub (asosiy) ma'no; 5) tarkibiga kiradigan, tashkil etadigan, tarkibiy; **~ part** tarkibiy qism; **~ elements** tarkibiy elementlar

constrain [kənˈstreɪn] *v* majburiy qilmoq, zo'rlamoq

constrained [kənˈstreɪnd] *a* noiloj, majburiy

constrainedly [kənˈstreɪnɪdlɪ] *adv* g'ayriixtiyoriy ravishda; majburan

constraint [kənˈstreɪnt] *n* majbur qilish, zo'rlash

constrict [kənˈstrɪkt] *v* qattiq (tortib, siqib) bog'lamoq

constricted [kənˈstrɪktɪd] *a* 1) qattiq (siqib, tortib) bog'langan, bog'lab qo'yilgan; 2) qisqartirilgan, qisqa, lo'nda, qisqacha; 3) chegaralangan, tor; **~ outlook** tor saviya

constriction [kənˈstrɪkʃ(ə)n] *n* qattiq (tortib, siqib) bog'lash

constrictor [kənˈstrɪktə] *n zool.* oddiy bo'g'ma ilon

constringe [kənˈstrɪndʒ] *v* 1) siqmoq, qismoq; 2) qattiq (siqib, tortib) bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; 3) qisqartmoq, qisqartirmoq, kichraytirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq, qisqaroq (kichikroq, ozroq) qilmoq

constringency [kənˈstrɪndʒ(ə)nsɪ] *n* 1) siqilganlik, qisilganlik, siqiqlik; 2) qisqalik, lo'ndalik, qisqachalik

constringent [kənˈstrɪndʒ(ə)nt] *a* siqadigan, qisadigan; siqib qo'yadigan, qisib oladigan

construct [kənˈstrʌkt] *v* 1) qurmoq; 2) yaratmoq, ishlab chiqmoq

construction [kənˈstrʌkʃ(ə)n] *n* 1) qurish, bino qurish, qurilish; 2) inshoot, qurilayotgan bino

constructional [kənˈstrʌkʃ(ə)nəl] *a* qurilishga (binokorlikka) oid

constructionism [kənˈstrʌkʃ(ə)nɪz(ə)m] *n san.* konstruktivizm (*1920- yillar san'atida yuzaga kelgan yo'nalish bo'lib, arxitekturada inshootlarning sodda, ehtiyojga mos, tejamli bo'lishigagina intilgan, adabiyot va tasviriy san'atda esa g'oyaviy mazmundan ko'ra ko'proq asarning tuzilishiga, mavhum shakllariga e'tibor bergan oqim*)

constructionist [kənˈstrʌkʃ(ə)nɪst] *n* konstruktivist, konstruktivizm tarafdori

constructive [kənˈstrʌktɪv] *a* 1) qurilishga (binokorlikka) oid; 2) ijodiy, ijod qilishga oid

constructivism [kənˈstrʌktɪvɪz(ə)m] = **constructionism**

constructor [kənˈstrʌktə] *n* quruvchi, binokor

construe [kənˈstru:] *v* gapni sintaktik tahlil qilmoq

consuetude [ˈkɒnswɪtju:d] *n* 1) *shotl.* odat, o'rganish; 2) do'stona munosabat

consuetudinary [ˌkɒnswɪˈtju:dɪn(ə)rɪ] **1.** *n* ustav (asosan, monastir ustavi); **2.** *a* 1) odat bo'lib qolgan, odatga aylangan, ko'nikib ketilgan, o'rganib qolinganlik, odatdagi; 2) *yur.* urf-odatlarga asoslangan, urf-odatlardan kelib chiqadigan; odatiy; **~ law** urf-odatlarga asoslangan huquq, odatiy huquq

consul [ˈkɒns(ə)l] *n* konsul (*biror davlatning boshqa bir davlat shahariga o'z davlati fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish uchun qo'ygan rasmiy vakili*)

consular [ˈkɒnsjʊlə] *a* konsulga va konsullikka oid

consulate [ˈkɒnsjʊlɪt] *n* 1) konsulxona; 2) konsullik vazifasi

consulate-general [ˌkɒnsjʊlɪtˈdʒen(ə)rəl] *n* bosh konsullik

consul-general [ˌkɒns(ə)lˈdʒen(ə)rəl] *n* bosh konsul

consulship [ˈkɒns(ə)lʃɪp] *n* konsullik vazifasi

consult [kənˈsʌlt] *v* 1) maslahat olmoq, maslahatlashmoq; 2) maslahat bermoq

consultant [kənˈsʌlt(ə)nt] *n* maslahatchi

consultation [ˌkɒns(ə)lˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) konsultatsiya (*biror masala yuzasidan mutaxassis maslahati*); 2) kengash (*maslahat majlisi*)

consultative [kənˈsʌltətɪv] *a* maslahat beruvchi

consulting [kənˈsʌltɪŋ] *a* 1) maslahat beradigan, maslahat beruvchi; **a ~ physician** a) davolovchi shifokor; b) maslahatchi shifokor; **a ~ engineer** maslahatchi muhandis; 2) : **~ hours** (*shifokor va b. ning*) qabul soatlari; **a ~ room** shifokor kabineti; shifokor qabulxonasi

consumable [kənˈsju:məb(ə)l] *a* 1) iste'mol qilinadigan, foydalaniladigan; ehtiyojga ishlatiladigan (sarf qilinadigan); 2) iste'mol (iste'mol qilish, foydalanish) uchun yaroqli

consume [kənˈsju:m] *v* iste'mol qilmoq, ehtiyojga ishlatmoq; sarf qilmoq

consumer [kənˈsju:mə] *n* iste'molchi, iste'mol qiluvchi

consumership [kənˈsju:məʃɪp] *n iqt.* (xalq) iste'moli; iste'mol qilish, foydalanish; ehtiyojga ishlatish, sarf qilish

consummate [kənˈsʌmɪt] **1.** *a* tugatilgan; **2.** *v* tugatmoq

consummately [kənˈsʌmɪtlɪ] *adv* mutlaqo, g'oyat

consummation [ˌkɒnsəˈmeɪʃ(ə)n] *n* ishni tugatish

consumption [kənˈsʌmpʃ(ə)n] *n* 1) iste'mol qilish, ehtiyojga ishlatish; 2) *tib.* o'pka sili

consumptive [kənˈsʌmptɪv] *a* sil kasaliga oid

contact [ˈkɒntækt] **1.** *n* 1) aloqada (muomalada) bo'lish; 2) aloqa, munosabat; **2.** *v* kim bilandir aloqa o'rnatmoq

contact-breaker [ˈkɒntækt,breɪkə] *n el.* 1) uzgich; to'xatkich; 2) rubilnik (*kuchli elektr toklarini ulash va uzish uchun xizmat qiladigan moslama*)

contactor [ˈkɒntæktə] *n el.* kontaktor (*o'zgarmas va o'zgaruvchan tokli elektr kuch zanjirlarini masofadan turib ulash, uzish va qayta ulashga (soatiga 1500 martagacha) mo'ljallangan elektr apparati*)

contagion [kənˈteɪdʒ(ə)n] *n* 1) yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblar; 2) infeksiya (*kasallikning yuqishi*)

contagious [kənˈteɪdʒəs] *a* yuqumli, yuqadigan

contain [kənˈteɪn] *v* o'z ichiga olmoq

container [kənˈteɪnə] *n* 1) konteyner (*yuk joylab avtomobilga yoki temir yo'l platformasiga ortiladigan maxsus quti*); 2) biror narsa saqlanadigan idish

contaminate [kənˈtæmɪneɪt] *v* iflos (kir) qilmoq

contaminated [kənˈtæmɪneɪtɪd] *a* 1) zaharlangan, zaharli moddalar (*yoki* kasal tarqatuvchi mikroblar) bilan zararlangan; **a ~ zone** *harb.* zaharlangan zona (mintaqa)

contamination [kənˌtæmɪˈneɪʃ(ə)n] iflos (kir) qilish; zaharlash

contemn [kənˈtem] *v kit.* 1) iltifotsizlik ko'rsatmoq, mensimay (pisand qilmay) qaramoq; 2) e'tiborsizlik (beparvolik) bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik;

3) (*qonun va b. ni*) nazar-pisand qilmaslik (mensimaslik)

contemplate [ˈkɒntempleɪt] *v* 1) o'ylamoq, fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq; 2) xayoliga keltirmoq, eslamoq

contemplation [ˌkɒntəmˈpleɪʃ(ə)n] *n* 1) xayoliga keltirish, eslash; 2) o'ylash, fikr yuritish

contemplative [ˈkɒntemplətɪv] *a* 1) xayolotga beriluvchi, o'z fikr-xayoliga cho'madigan; 2) o'ychan

contemporaneity [kənˌtempərəˈni:ɪtɪ] *n* zamonaviylik, zamon talabiga moslik

contemporaneous [kənˌtempəˈreɪnɪəs] *a* 1) hozirgi kundagi (zamondagi), hozirgi, zamonaviy; ~ **styles in women's clothing** ayollar kiyimlarining zamonaviy fasonlari; 2) (ko'pincha, ~ **with**) bir vaqtda bo'lgan (bo'ladigan), birdan (bir yo'la) qilingan, baravar yuz bergan (yuz beradigan); ~ **events** bir vaqtda bo'lgan (bo'ladigan) hodisalar (voqealar)

contemporaneousness [kənˌtempəˈreɪnɪəsnəs] *n* 1) zamonaviylik, zamon talablariga moslik; 2) baravar yuz berish, ayni bir vaqtda bo'lish

contemporary [kənˈtemp(ə)rərɪ] **1.** *n* 1) zamondosh, asrdosh, bir zamonda yashagan (o'tgan) kishi; 2) tengdosh, tengqur; 3) boshqa gazeta yoki nashr bilan baravar bir vaqtda chiqadigan gazeta yoki nashr; **2.** *a* 1) hozirgi kundagi (zamondagi), hozirgi, zamonaviy; ~ **writers** zamonaviy yozuvchi; ~ **literature** zamonaviy adabiyot; 2) bir vaqtda bo'lgan (bo'ladigan), birdan (bir yo'la) qilinadigan, baravar yuz bergan (yuz beradigan); **events ~ with each other** bir vaqtda (baravar) yuz bergan (beradigan) voqealar; 3) bir xil yoshdagi, yoshlari baravar (teng) bo'lgan, teng yoshli, tengdosh, tengqur

contemporize [kənˈtempəraɪz] *v* sinxronlamoq, sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq (to'g'rilamoq)

contempt [kənˈtempt] *n* nafratlanish, jirkanish

contemptible [kənˈtemptəb(ə)l] *a* jirkanch, razil

contemptuous [kənˈtemptʃuəs] *a* nafrat (*yoki* jirkanish)ni ifodalaydigan

contemptuously [kənˈtemptʃuəslɪ] *adv* nafratlanib, nafrat bilan; jirkanib

contend [kənˈtend] *v* 1) kurashmoq; 2) tasdiqlamoq

contender [kənˈtendə] *n* raqib (*saylov va b. da*)

contending [kənˈtendɪŋ] *a*: ~ **interests** bir-biriga zid manfaatlar; ~ **parties** *yur.* bahslashuvchi (tortishuvchi) tomonlar

content I [ˈkɒntent] *v* kurashmoq; bahslashmoq

content II [ˈkɒntent] **1.** *a* mamnun, xursand, shod; **2.** *v* mamnun (xursand) qilmoq

contented [kənˈtentɪd] *a* mamnun, xursand, shod

contention [kənˈtenʃ(ə)n] *n* 1) bahs, kurash; 2) musobaqa

contentious [kənˈtenʃəs] *a* munozarali

contentiously [kənˈtenʃəslɪ] *adv* 1) yopishib, tirnoq ostidan kir qidirgan holda; injiqlik bilan; 2) ming'ir-ming'ir qilib, mijg'ovlik (janjalkashlik) bilan

contentment [kənˈtentmənt] *n* mamnunlik, xursandlik; mamnuniyat

contents [ˈkɒntentz] *pl* mazmun; mundarija (*kitobda*)

conterminal [kɒnˈtɜ:mɪn(ə)l] *a* 1) umumiy chegaraga ega bo'lgan; 2) chegaradosh, qo'shni, yonma-yon; 3) bir-biriga yaqin, o'zaro bog'langan

conterminant [kɒnˈtɜ:mɪnənt] *a kit.* qo'shni, bir-biriga yaqin, chegaradosh

conterminate [kɒnˈtɜ:mɪnɪt] = **conterminous**

conterminous [kɒnˈtɜ:mɪnəs] *a* yonma-yon, chegaradosh

contest 1. *v* [kənˈtest] bahslashmoq, kurashmoq; **2.** *n* [ˈkɒntest] 1) bahs; 2) musobaqa

contestable [kənˈtestəb(ə)l] *a* janjalli, munozarali, talash

contestant [kənˈtest(ə)nt] *n* raqib

contestation [ˌkɒntesˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) musobaqa; 2) kurash

contested election [kənˈtestɪdɪˈlekʃən] bir nechta nomzodlar qatnashadigan saylov

context [ˈkɒntekst] *n* 1) kontekst (*nutq yoki asarning tugal fikr anglatuvchi parchasi*); 2) vaziyat

contextual [kənˈtekstʃuəl] *a* kontekstdan kelib chiqadigan

contextually [kənˈtekstʃuəlɪ] *adv* kontekstual, matnga aloqador bo'lib

contexture [kənˈtekstʃə] *n* to'qish, to'qib yasash

conticent [ˈkɒntɪs(ə)nt] *a kam.* 1) kamgap, indamas; 2) lom-mim demay (g'ing demay) qilingan; so'zsiz, e'tiborsiz

contiguity [ˌkɒntɪˈgju:ɪtɪ] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik

contiguous [kənˈtɪgjuəs] *n* chegaradosh, qo'shni

continence [ˈkɒntɪnəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik

continent [ˈkɒntɪnənt] **1.** *a* o'zini tuta biladigan, og'ir, bosiq; **2.** *n* materik, qit'a

continental [ˌkɒntɪˈnentl] *n* qit'aga (materikka) oid

continently [ˈkɒntɪnənth] *adv kit.* o'zini qo'lga olib, o'zini bosib (tutib, tiyib), vazminlik (og'irlik) bilan, vazmin (og'ir, osoyishta, sipo) bo'lib; 2) iffat bilan

contingency [kənˈtɪndʒ(ə)nsɪ] *n* tasodifiy (kutilmagan) hol

contingent [kənˈtɪndʒ(ə)nt] *n* 1) miqdor; 2) *harb.* shaxsiy tarkib

contingently [kənˈtɪndʒ(ə)ntlɪ] *adv kit.* shartli ravishda

continua [kənˈtɪnjuə] *pl of* **continuum**

continual [kənˈtɪnjuəl] *a* doimiy

continually [kənˈtɪnjuəlɪ] *adv* 1) bir necha bor, bir necha marta (takror-takror, qayta-qayta) aytib; 2) uzluksiz (to'xtovsiz) ravishda

continuance [kənˈtɪnjuəns] *n* davom etish (cho'zilish) muddati (*uzunlik, uzoqlik*)

continuant [kənˌtɪnjuənt] *n fon.* sirg'aluvchi undosh tovush

continuation [kənˌtɪnjuˈeɪʃ(ə)n] *n* davom (etish) ettirish, biror narsaning davomi

continuator [kənˈtɪnjueɪtə] *n* 1) davom ettiruvchi, davomchi; rivojlantiruvchi; 2) boshqa shaxs tomonidan boshlangan ishni davom ettiruvchi kishi

continue [kənˈtɪnju:] *v* 1) davom ettirmoq; 2) davom etmoq

continued [kənˈtɪnju:d] *a* uzluksiz, to'xtovsiz

continuer [kənˈtɪnjuə] *n* davom ettiruvchi, davomchi; rivojlantiruvchi

continuity [ˌkɒntɪˈnju:ɪtɪ] *n* uzluksiz

continuous [kənˈtɪnjuəs] *a* 1) uzluksiz, to'xtovsiz; 2) doimiy harakatdagi; 3) *gram.* uzoq davom (etadigan) etgan; davomli

continuously [kənˈtɪnjuəslɪ] *adv* 1) uzluksiz (to'xtovsiz) ravishda; 2) doimo, hamma vaqt, har doim (vaqt); hamisha, nuqul

continuum [kənˈtɪnjuəm] *n* (*pl* **-nua** [-njuə]) *mat.* kontinuum (*uzluksiz to'plam, mas., to'g'ri chiziq kesmasidagi hamma nuqtalar yoki to'g'ri chiziqning barcha haqiqiy sonlar to'plamiga ekvivalent hamma nuqtalari majmuyi*)

contort [kənˈtɔ:t] *v* 1) egib (qiyshaytirib) yubormoq, egmoq, bukmoq; 2) noto'g'ri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq

contorted [kənˈtɔ:tɪd] *a* 1) qiyshaygan, bukilgan, egik, bukik, qiyshiq; 2) buzilgan, buzuq; noto'g'ri; 3) burishtirmoq, **afti o'zgarmoq; a face ~ with anger** g'azabdan o'zgarib ketgan bashara

contortion [kənˈtɔ:ʃ(ə)n] *n* 1) egib (qiyshaytirib) yuborish, egish, bukish; 2) noto'g'ri talqin qilish, buzib ko'rsatish

contortionist [kənˈtɔ:ʃ(ə)nɪst] *n* akrobat

contortuplicate [ˌkɒntɔˈtju:plɪkɪt] *a bot.* 1) o'ralgan, eshilgan, burilgan; 2) qiyshaygan, bukilgan egik, bukik, qiyshiq

contour [ˈkɒntʊə] *n* 1) yotiq chiziq; 2) sirtqi ko'rinish (shakl, chiziq)

contra- [ˈkɒntrə-] *pref. qo'shma so'zlarda „qarshi" ma'nosini bildiradi*

contraband [ˈkɒntrəbænd] **1.** *n* kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazish*); **2.** *a* kontrabandaga oid

contrabandist [ˈkɒntrəbændɪst] *n* kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi

contra-bassoon [ˌkɒntrəbəˈsu:n] *n* kontrafagot (*musiqa qsbobi*)

contraception [ˌkɒntrəˈsepʃ(ə)n] *n* homilador bo'lishdan saqlaydigan vositalardan foydalanish

contraceptive [ˌkɒntrəˈseptɪv] *a* homilador bo'lishdan saqlanadigan dori (vosita); homila bo'lishga qarshi

contract [ˈkɒntrækt] **1.** *n* shartnoma, bitim; **2.** *v* 1) shartnoma (bitim) tuzmoq; 2) toraymoq; 3) qisqarmoq

contract-bridge [ˌkɒntrækt ˈbrɪdʒ] *n qart.* brij-kontrakt (*qarta o'yinining bir turi*)

contracted [kənˈtræktɪd] *a* shartnoma asosidagi; shartnomadan kelib chiqadigan

contractile [kənˈtræktaɪl] *a* siqiladigan, qisqaradigan

contractility [ˌkɒntrækˈtɪlɪtɪ] *n fiz.* siqilish qobiliyati

contraction [kənˈtrækʃ(ə)n] *n* 1) qisqarish, qisqartirish; 2) siqish, qisish

contractive [kənˈtræktɪv] *a* qisqartirsa bo'ladigan

contractor [kənˈtræktə] *n* pudratchi

contractual [kənˈtræktʃʊəl] *a* shartnoma asosidagi

contracture [kənˈtræktʃə] *n tib.* 1) tirishish, tortishish, tortishib qolish; 2) kontratura, akashak (*bo'g'imlarning bukilmay qolishi; teri chandiqlari, paylar tortishishi, mushaklar, bo'g'im kasalliklari, og'riq reflekslari va b. da*)

contradance [ˈkɒntrədɑ:ns] = **country-dance**

contradict [ˌkɒntrəˈdɪkt] *v* 1) qarshi chiqmoq, e'tiroz bildirmoq; 2) rad qilmoq

contradiction [ˌkɒntrəˈdɪkʃ(ə)n] *n* ziddiyat, qarama-qarshilik

contradictious [ˌkɒntrəˈdɪkʃəs] *a* gap qaytarishni (e'tiroz bildirishni, qarshi chiqishni) yaxshi ko'ruvchi

contradictive [ˌkɒntrəˈdɪktɪv] *a* zid, qarama-qarshi, teskari; biri boshqasini inkor qiladigan

contradictor [ˌkɒntrəˈdɪktə] *n* raqib; muxolif

contradictory [ˌkɒntrəˈdɪkt(ə)rɪ] *a* qarama-qarshi, zid, tezkor

contradistinction [ˌkɒntrədɪˈstɪŋkʃ(ə)n] *n* 1) qarshi (zid) qo'yish; 2) farq qilish

contradistinguish [ˌkɒntrədɪˈstɪŋgwɪʃ] *v* 1) qarshi (teskari) qo'ymoq; 2) farq qilmoq

condrafagotto [ˌkɒntrəfəˈgɒtəʊ] = **contra-bassoon**

contrahent [ˈkɒntrəhənt] **1.** *n kit.* ahdlashuvchi (kelishuvchi) tomonlar; **2.** *a kit.* ahdlashuvchi, kelishuvchi

contrail [ˈkɒntreɪl] *n* samolyotning o'rin almashishdagi izi

contraindication [ˌkɒntrəˌɪndɪˈkeɪʃ(ə)n] *n tib.* (*biror dori yoki davolashning*) yoqmasligini yoki to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgi

contralti [kənˈtræltɪ] *pl of* **contralto**

contralto [kənˈtræltəʊ] *n* (*pl* **-ti** [-tɪ]) kontralto (*ayollarning eng past, yo'g'on ovozi*)

contranatural [ˌkɒntrəˈnætʃ(ə)rəl] *a* g'ayritabiiy

contrapose [ˌkɒntrəˈpəʊz] *v* 1) 1) taqqoslab (solishtirib ko'rmoq; qarshisiga qo'ymoq); 2) qarshi qo'ymoq, zid qo'ymoq

contraposition [ˌkɒntrəpəˈzɪʃ(ə)n] *n* qarama-qarshi qo'yish

contraption [kənˈtræpʃ(ə)n] *n so'zl.* makkorlik bilan o'ylab chiqarilgan narsa (*ish, gap va b.*)

contrapuntal [ˌkɒntrəˈpʌntl] *a* kontrapunktga oid; kontrapunkt prinsiplariga asoslangan (*kontrapunkt — musiqa nazariyasining ko'p ovozlilik prinsiplari haqidagi bo'limi*)

contrapuntist [ˌkɒntrəˈpʌntɪst] *n mus.* kontrapunktchi

contrariety [ˌkɒntrəˈraɪətɪ] *n* qarama-qarshilik, zidlik

contrarily [ˈkɒntrərɪlɪ] *adv so'zl.* 1) qaramay, qaramasdan, qarshi, xilof ravishda, aksiga; **to testify ~** qarshi guvohlik bermoq; 2) qarshida, qarshisida, ro'parasida, ro'parama-ro'para; 3) chappa, teskari, teskarisiga qilib; qarama-qarshi tomonga; 4) injiqlik (serxarxashalik, tantiqlik) bilan, o'jarlik (qaysarlik, terslik) bilan

contrariness [ˈkɒntre(ə)rɪnəs] *n* 1) qaysarlik, o'jarlik; 2) o'zboshimchalik

contrarious [kənˈtre(ə)rɪəs] *a* 1) *esk.* o'jar, qaysar, gapga ko'nmaydigan (unamaydigan), muomalaga yurmaydigan, ters; 2) *kam.* salbiy, yomon, zararli, halokatli

contrariwise [ˈkɒntrərɪwaɪz] *adv* 1) aksincha, teskari; teskarisiga; 2) boshqa tomondan

contrarotation [ˌkɒntrərəʊˈteɪʃ(ə)n] *n* qarama-qarshi tomonga aylanish

contrary [ˈkɒntrərɪ] **1.** *a* qarshidagi, ro'paradagi; **on the ~** aksincha; **2.** *n* o'xshamaslik; **3.** *adv* qaramay, aksincha

contrast [ˈkɒntrɑ:st] **1.** *n* 1) kontrast, farq, aksi; **there was striking ~ between the two friends** ikkala do'st mutlaqo bir-biriga o'xshamasdi; 2) qiyoslash, taqqoslash, solishtirish; **in ~ with** ...ga qiyoslanganda; **2.** *v* qiyoslamoq, taqqoslamoq, solishtirmoq

contrastimulant [ˌkɒntrəˈstɪmjʊlənt] *n tib.* tinchlantiruvchi (tinchlantiradigan, xotirjam qiladigan, taskin beradigan, orom beradigan) dori

contravene [ˌkɒntrəˈvi:n] *v* (*qonunni*) buzmoq

contravention [ˌkɒntrəˈvenʃ(ə)n] *n* (*qonunni*) buzish

contredanse [ˌkɒntrəˈdɑ:ns] = **country-dance**

contrefort [ˈkɒntrəfɔ:t] = **counterfort**

contretemps [ˈkɔ:ntrəˌtɒŋ] *n fr.* 1) ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz voqea; 2) kutilmagan qiyinchilik

contribute [kənˈtrɪbju:t] *v* 1) (*pul va shu kabilarni*) in'om qilmoq, sadaqa qilmoq; 2) (*fan va shu kabilarga*) hissa qo'shmoq (**to**); 3) (*gazetada, jurnalda*) hamkorlik qilmoq (**to**)

contribution [ˌkɒntrɪˈbju:ʃ(ə)n] *n* 1) in'om, xayr-ehson, sadaqa (*pul va b.*); 2) hissa, ulush; **a ~ of peace** tinchlik ishiga hissa qo'shish; 3) (*gazetada, jurnalda*) hamkorlik; 4) yordam berish; 5) soliq; **to lay under ~** soliq solmoq

contributor [kənˈtrɪbjʊtə] *n* yordamchi

contributory [kənˈtrɪbjʊt(ə)rɪ] *a* yordam beruvchi

contrite [ˈkɒntraɪt] *a* qattiq xafa bo'ladigan, qayg'uradigan

contritely [ˈkɒntraɪtlɪ] *adv* qattiq xafa bo'lib, qayg'urib; kuyib-pishib

contrition [kənˈtrɪʃ(ə)n] *n* achinish, afsuslanish; pushaymon bo'lish

contrivance [kənˈtraɪv(ə)ns] *n* 1) o'ylab topilgan narsa; 2) ijodkorlik; 3) *tex.* moslama, asbob

contrive [kənˈtraɪv] *v* 1) o'ylab topmoq (chiqarmoq); 2) ixtiro qilmoq

contriver [kənˈtraɪvə] *n* ixtirochi

control [kənˈtrəʊl] **1.** *n* 1) tekshirish; nazorat qilish; 2) idora qilish, boshqarish; **2.** *v* 1) tekshirmoq; nazorat qilmoq; 2) boshqarmoq

control-gear [kənˈtrəʊlgɪə] *n tex.* boshqarish mexanizmi

controllability [kən,trəʊləˊbɪlɪtɪ] *n tex.* 1) chaqqon harakat qilish, chaqqonlik; 2) boshqaruvchanlik, boshqarish qulaylik

controllable [kənˊtrəʊləb(ə)l] *a* boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan

controlled [kənˊtrəʊld] *a* 1) boshqariladigan, boshqarsa (tartibga solsa, yo'lga qo'ysa, yaxshilasa) bo'ladigan; 2) nazorat qilsa bo'ladigan

controller [kənˊtrəʊlə] *n* tekshiruvchi, nazoratchi

control tower [kənˊtrəʊl,taʊə] *av.* 1) dispetcherlik minorasi; 2) dispetcherlik va nazorat punkti

controversial [,kɒntrəˊvɜːʃ(ə)l] *a* munozarali

controversialist [,kɒntrəˊvɜːʃ(ə)lɪst] *n* bahsni yaxshi ko'radigan odam

controversy [ˊkɒntrəvɜːsɪ] *n* bahs, tortishuv, munozara

controvert [ˊkɒntrəvɜːt] *v* 1) bahslashmoq, tortishmoq; 2) rad etmoq

contumacious [,kɒntjoˊmeɪʃəs] *a* 1) o'jar, qaysar; ters; 2) itoatsiz, bo'ysunmaydigan, so'zga (gapga) kirmaydigan, quloq solmaydigan; 3) *yur.* a) sudga chaqirilganda kelmaydigan (bormaydigan); b) sudning hukmiga bo'ysunmaydigan

contumacy [ˊkɒntjoməsɪ] *n* bo'sunmaslik, itoat qilmaslik

contumelious [,kɒntjuˊmiːlɪəs] *a* haqoratomuz, tahqirli

contumely [ˊkɒntjuːmlɪ] *n* haqorat, so'kish

contuse [kənˊtjuːz] *v* (*biror joyga*) urib olib lat yedirmoq, shikastlamoq

contusion [kənˊtjuːʒ(ə)n] *n* urilgan (lat yegan) joy

conundrum [kəˊnʌndrəm] *n* 1) jumboq, muammo; 2) topishmoq

conurbation [,kɒnɜːˊbeɪʃ(ə)n] *n* konurbatsiya (*rivojlanib, o'sib, birlashib ketgan bir qancha shaharlar guruhi*)

convalesce [,kɒnvəˊles] *n* sog'ayib ketish, tuzalish

convalescence [,kɒnvəˊles(ə)ns] *n* sog'ayish, tuzalish; sog'ayib (tuzalib) ketish

convalescent [,kɒnvəˊles(ə)nt] *a* tuzaladigan, tuzatadigan

convection [kənˊvekʃ(ə)n] *n fiz.* konveksiya; issiqlik yoki elektr zaryadining muhit oqimi tufayli ko'chishi, tarqalishi

convectional [kənˊvekʃ(ə)nəl] *a maxs.* konveksiyaga oid, konveksiyaga asoslangan, konveksiya tufayli yuzaga keladigan, konveksion, konveksiya...

convective [kənˊvektɪv] = **convectional**

convector [kənˊvektə] *n qur.* konvektor (*markaziy isitish tizimidagi isitish asbobi*)

convenable [kənˊviːnəb(ə)l] *a* 1) chaqiriladigan, chorlaydigan, aytadigan, xabarlar to'playdigan, yig'adigan, o'tkazadigan; 2) chaqiruvchi, chorlovchi, aytuvchi, xabarlar to'plovchi, yig'uvchi, o'tkazuvchi

convenances [,kɒnvɪ ˊnɑːnsɪz] *n pl fr.* odob saqlash, odob-axloq chegarasidan chiqmaslik

convene [kənˊviːn] *v* (*yig'ilish, qurultoy*) o'tkazmoq (chaqirmoq)

convener [kənˊviːnə] *n* majlis kunini belgilab, uni o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'radigan (mas'ul bo'lgan) qo'mita *yoki* jamoaning a'zosi

convenience [kənˊviːnɪəns] *n* qulaylik

convenient [kənˊviːnɪənt] *a* 1) qulay; 2) munosib, muvofiq

conveniently [kənˊviːnɪəntlɪ] *adv* 1) o'ng'ay, qulay, yaxshilab, qulay qilib; 2) jo'yali, o'rinli

convent [ˊkɒnv(ə)nt] *n* monastir (*ko'pincha, ayollarniki*); **to go into a ~** monaxlikka qabul qilishda sochni qirqmoq

conventicle [kənˊventɪk(ə)l] *n* 1) sektantlar (mazhabparastlar) ibodatxonasi; 2) *tar.* maxfiy (yashirin, sirli) yig'ilish yoki ibodat qilish

convention [kənˊvenʃ(ə)n] *n* 1) yig'ilish, qurultoy; 2) shartnoma; bitim

conventional [kənˊvenʃ(ə)nəl] kelishilgan

conventionalism [kənˊvenʃ(ə)nəlɪz(ə)m] *n* 1) rasm, taomil, rasm-rusum; 2) eskirganlik, qoloqlik, qotib qolganlik; 3) bir xillik, bir qolipdalik, hamma vaqt bir andazada bo'lishlik, siyqasi chiqqanlik; 4) an'anaviylik, odat (rasm) bo'lib ketganlik, an'anaga (odatga) aylanib ketganlik; 5) *fals.* konvensionalizm (*fanni subyektiv-idealistik izohlovchi falsafiy yo'nalish*)

conventionalist [kənˊvenʃ(ə)nəlɪst] *n* 1) rasmiyatchi, rasmiyatparast; 2) formalist, formalizm tarafdori

conventionality [kən,venʃəˊnælɪtɪ] *n* rasm, taomil, rasm-rusum

conventionary [kənˊvenʃən(ə)rɪ] *n yur. kam.* 1) ijara; ijaraga olish yoki berish; ijara haqi; 2) ijaraga oluvchi; ijarachi

conventual [kənˊventʃʊəl] **I.** *n* 1) monax, rohib; 2) monax ayol, rohiba; **2.** *a* 1) monastirga oid; monastirga qarashli; monastir...; 2) odamlardan ajralgan holdagi, yolg'izlikdagi, darveshona

converge [kənˊvɜːdʒ] *v* bitta nuqtada kesishmoq (*chiziqlar va b. haqida*)

convergence, -cy [kənˊvɜːdʒ(ə)ns, -sɪ] *n fiz.* konvergensiya (*ikkala ko'z o'q chizig'ining bir nuqtada uchrashuvi*)

conversable [kənˊvɜːsəb(ə)l] *a* odamga el bo'ladigan, kirishimli

conversance [kənˊvɜːs(ə)ns] *n* xabardor ekanlik, yaxshi bilish

conversant [kənˊvɜːs(ə)nt] *a* yaxshi tanish bo'lgan

conversation [,kɒnvəˊseɪʃ(ə)n] *n* suhbat, gaplashish, so'zlashish

conversational [,kɒnvəˊseɪʃ(ə)nəl] *a* so'zlashuvga oid

conversationalist [,kɒnvəˊseɪʃ(ə)nəlɪst] = **conversationist**

conversationist [,kɒnvəˊseɪʃ(ə)nɪst] *n* gaplashib (so'zlashib) o'tirishni yaxshi ko'radigan hamsuhbat (suhbatdosh); ajib suhbatdosh

conversazione [,kɒnvəsætsɪˊəʊnɪ] *n* (*pl shun.*, **-ni** [-nɪ]) *it.* ilmiy *yoki* adabiy jamoa tomonidan uyushtiriladigan kecha

converse [kənˊvɜːs] **I.** *v* suhbatlashmoq, gaplashmoq; **2.** *a* 1) orqaga yo'nalgan; 2) ag'darilgan

conversely [kənˊvɜːslɪ] *adv* 1) qarama-qarshi tomonga; 2) teskarisiga

conversion [kənˊvɜːʃ(ə)n] *n* boshqa narsaga aylanish, aylantirish

convert [ˊkɒnvɜːt] *v* boshqa narsaga aylantirmoq

converter [kənˊvɜːtə] *n* 1) *tex.* konverter (*eritilgan cho'yan orqali havo o'tkazib po'lat hosil qiladigan pech*); retorta (*laboratoriyalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qayrilgan idish*); 2) *el.* (*tok, chastotani*) o'zgartirgich, o'zgartgich; 3) *amer. harb.* shifrlash mashinasi, shifrlovchi mashina; **a ~ plant** *fiz.* reaktor-konverter

convertibility [kən,vɜːtəˊbɪlɪtɪ] *n* 1) dastlabki holiga qayta (tiklana) olish, qaytariluvchanlik; 2) *mol.* valutalarni erkin tarzda ayirboshlash (almashtirish)

convertible [kənˊvɜːtəb(ə)l] *a* asl holiga qayta (tiklana) oladigan; qaytariladigan, qaytariluvchi

converting [kənˊvɜːtɪŋ] *n* boshqa narsaga aylanish

convex [kənˊveks] *a* qavariq, do'ng

convexity [kənˊveksɪtɪ] *n* qavariqlik, do'nglik

convexo-convex [kən,veksəʊkənˊveks] *a* ikkiyoqlama qavariq

convey [kənˊveɪ] *v* 1) (*mollarni*) yubormoq, jo'natmoq; 2) (*fikrni*) bayon etmoq

conveyance [kənˊveɪəns] *n* bir joydan ikkinchi joyga olib borish

conveyer [kənˊveɪə] *n tex.* konveyer (*yuk tashish yoki ishlanayotgan narsalarni bir ish joyidan ikkinchi joyiga ketma-ket yetkazib berish uchun to'x-*

tovsiz aylanib turadigan lentasimon maxsus qurilma)

convict **1.** *v* [kən´vıkt] *yur.* aybdor deb hisoblamoq; **2.** *n* [´kɒnvıkt] jazoga hukm etilgan kishi

conviction [kən´vıkʃ(ə)n] *n yur.* hikm qilish (kesish)

convictive [kən´vıktıv] *a* ishonchli, ishonarli, ishontiradigan, ishontirarli, asosli, puxta, aniq; **a ~ answer** ishonarli (puxta) javob

convince [kən´vıns] *v* ishontirmoq

convinced [kən´vınst] *a* qat'iy ishongan

convincing [kən´vınsıŋ] *a* ishontiradigan

convincingly [kən´vınsıŋlı] *adv* 1) aniq, puxta, ishonarli qilib, ishontirib; 2) qat'iq turib, qat'iy o'tinib

convive [´kɒnvaıv] *n* hamtovoq, hamshisha

conviviality [kən,vıvı ´ælıtı] *n* vaqtichog'lik, quvnoqlik

convocation [,kɒnvə´keıʃ(ə)n] *n* chaqiriq, chaqirish; 2) yig'ilish

convoke [kən´vəʊk] *v* chaqirmoq, (*yig'ilish*) o'tkazmoq

convolute [´kɒnvəlu:t] *a bot.* o'ralgan, bujmaygan

convoluted [´kɒnvəlu:tıd] *a* 1) spiral shaklida o'ralgan; 2) egri-bugri, ilon izi; 3) o'ralgan, buralgan; jingalak; 4) egilgan, bukilgan; qayrilgan; egik, bukik, qayrilma; **~ like a ram's horn** qo'chqor shoxiga o'xshab qayrilgan

convolution [,kɒnvə´lu:ʃ(ə)n] *n* 1) o'rash, o'ralish; 2) egilganlik, bukilganlik, bukiklik, egrilik; 3) (spiral) o'rami, bir o'ram; 4) *anat.* miyaning burma-burma bo'lib turgan joylari

convolve [kən´vɒlv] *v* 1) o'ramoq, o'rmoq, pishitmoq, eshmoq, chiyratmoq; 2) to'qimoq, to'qib yasamoq, birga qo'shib to'qimoq, ulamoq, chirmashtirmoq; 3) buralmoq, o'ralmoq, o'rilmoq, eshilmoq, chiyralmoq; bir-biriga o'ralmoq (chirmashmoq), o'ralib (chirmashib) ketmoq; 4) bir-biriga qo'shilmoq, birlashib ketmoq; aralash-quralash bo'lib ketmoq

convolvulaceous [kən,vɒlvjʊ´leıʃəs] *a bot.* chirmoviq (pechak)ka oid, chirmoviq (pechak)...

convolvulus [kən´vɒlvjʊləs] *n bot.* pechak, chirmoviq

convoy [´kɒnvɔı] **1.** *n* kuzatish, kuzatib borish, kuzatib qo'yish; **2.** *v* kuzatmoq, kuzatib bormoq, kuzatib qo'ymoq

convulse [kən´vʌls] *v* silkitmoq, qoqmoq

convulsion [kən´vʌlʃ(ə)n] *n* 1) silkitish, qoqish; 2) akashak (changak) bo'lish, tomir tortishish

convulsionary [kən´vʌlʃən(ə)rı] *a* titrab-qaqshaydigan, tomir tortishtiradigan, tirishtiradigan, akashak (changak) qilib qo'yadigan

convulsive [kən´vʌlsıv] *a* akashak (changak) qilib qo'yadigan

convulsively [kən´vʌlsıvlı] *adv* 1) tirishib-tortishib, titrab-qaqshab, g'ayriixtiyoriy ravishda, beixtiyor; 2) bezovtalanib, joniqib, bezovta, besaranjom

cony [´kəʊnı] *n* uy quyoni

conyburrow [´kəʊnı,bʌrəʊ] *n* uy quyonining ini (uyi, uyasi)

conywarren [´kəʊnı,wɒrən] *n* quyonxona, quyon boqiladigan katalak

coo [ku:] **1.** *v* g'uv-g'uvlamoq (*kaptarlar haqida*); **2.** *n* g'uv-g'uvlash

cook [kʊk] **1.** *v* ovqat (tayyorlamoq) pishirmoq; **2.** *n* oshpaz

cookbook [´kʊkbʊk] *n amer.* oshpazlik kitobi

cookee [kʊ´ki:] *n amer.* oshpazning yordamchisi

cooker [´kʊkə] *n* plita, pechka, o'choq

cookery [´kʊk(ə)rı] *n* 1) pazandalik, oshpazlik; 2) ovqat tayyorlash

cookery-book [´kʊk(ə)rı,bʊk] *n* oshpazlik kitobi

cook-galley [´kʊk,gælı] *n deng.* kambuz (*kema oshxonasi va uning cho'yan yoki temir pechkasi*)

cook-house [´kʊkhaʊs] *n* ko'chma oshxona

cookie [´kʊkı] *n amer.* pishirilgan (yopilgan) narsalar, pishiriqlar

cooking [´kʊkıŋ] *a* ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, yemakxona (oshxona) uchun belgilangan, ovqatlanish..., oshxona (yemakxona)..., oshxonaga oid; ovqatga solinadigan (ishlatiladigan), yeyiladigan; **~ salt** osh tuzi; **~ butter** ovqatga solinadigan moy; **~ utensil** idish-tovoq; **~ soda** ichiladigan soda; **~ peas** oshga solinadigan no'xat

cook-room [´kʊkru:m, -rʊm] *n* oshxona

cook-shop [´kʊkʃɒp] *n* oshxona, ovqatxona, yemakxona, ovqatlari arzon oddiy restoran

cook-table [´kʊk,teıbl] *n* oshxona stoli

cooky [´kʊkı] *n* oshpaz ayol

cool [ku:l] **1.** *a* 1) salqin, sovuq; 2) sovuqqon; 3) qo'pol, qo'rs; **2.** *n* salqin, shabada; **3.** *v* sovimoq, salqinlashmoq

cooler [´ku:lə] *n* sovitgich

cool-headed [,ku:l´hedıd] *a* sovuqqon; og'ir, bosiq

coolie [´ku:lı] *n* kuli (*ba'zi Osiyo mamlakatlarida: qora ishchi; hammol*)

cooling [´ku:lıŋ] *n* sovitish

cooling down [,ku:lıŋ´daʊn] *sport.* (*mashq, musobaqa va b. dan keyin*) organizmni normal holatga keltirish

coolish [´ku:lıʃ] *a* salqin

coolly [´ku:lı] *adv* 1) salqin, sovuq; 2) tinch, osoyishta, xotirjamlik bilan, xotirjam, bamaylixotir, bemalol; 3) sovuqqonlik (og'irlik, bosiqlik, vazminlik) bilan; 4) beparvolik (e'tiborsizlik, loqaydlik) bilan

coolness [´ku:lnəs] *n* 1) salqinlik, toza havo; 2) sovuqqonlik, bosiqlik

coolth [ku:lθ] *so'zl.* = **coolness**

coom [ku:m] *n dial.* 1) ko'mir changi; 2) qipiq; qirindi

coomb [ku:m] *n* jar, jarlik

coon [ku:n] *n amer.* yenot (*1. sarg'ish kulrang mo'ynali kichkina hayvon; 2. shu hayvon terisi*)

coon-can [,ku:n´kæn] *n* kunken (*qarta o'yini*)

coop [ku:p] **1.** *n* tovuqxona; **2.** *v* tovuqxonaga qamamoq

co-op [´kəʊɒp] *n* (**co-operative** *ning qisqartmasi*) *so'zl.* 1) kooperativ (*1. kooperatsiya tashkiloti; 2. kooperativ magazini*); 2) kooperativ uyushmasi

cooper [´ku:pə] **1.** *n* bochkasoz, bochka yasovchi usta; **2.** *v* bochka yasamoq

cooperage [´ku:p(ə)rıdʒ] *n* 1) bochkasozlik kasbi; 2) bochkasozlik ustaxonasi

co-operate [kəʊ´ɒpəreıt] *v* 1) hamkorlik qilmoq; 2) ko'maklashmoq

co-operation [kəʊ,ɒpə´reıʃ(ə)n] *n* hamkorlikda ishlash

co-operative [kəʊ´ɒp(ə)rətıv] **1.** *a* birlashma, qo'shma; **2.** *n* kooperativ *1. kooperatsiya tashkiloti; 2. kooperativ magazini*

co-operator [kəʊ´ɒpəreıtə] *n* birga ishlovchi, xizmatdosh

coopery [´ku:p(ə)rı] *n* 1) bochkasozlik kasbi; 2) bochkasozlik korxonasi

co-opt [,kəʊ´ɒpt] *v* to'ldirmoq

covered [ˈkʌvəd] *a* 1) yopiq, usti yopilgan, usti yopiq, soyabonli, tomli; 2) qopqoqli; 3) pana qilingan, himoya qilingan, pana qilib qo'yilgan, usti yopib (o'rab) qo'yilgan

cover-glass [ˈkʌvəglɑ:s] *n* qoplama shisha (*analiz uchun*)

covering [ˈkʌv(ə)rɪŋ] *n* 1) pokrishka; 2) g'ilof, chexol, jild; **a water-repellent** ~ suv o'tkazmaydigan jild (*qop ko'rpa uchun*); 2) qoplama, o'rtuk, ko'rpa (*biror narsani qoplab turgan qatlam*); yopiladigan yoki yopilgan narsa;

yashirish, yashirib qo'yish; yopib qo'yish; 3) *q.x.* qochish, qochtirish; chopish, choptirish, juftlashtirish; **a ~ slate** tomga yopiladigan shifer; **a ~ detachment** *harb.* zaslon (*flanglarni yoki asosiy kuchlarni panalovchi askariy qism*); **~ force** *harb.* himoyachi (biror tomondan qo'riqlovchi) qo'shin (askar, lashkar)

covering letter [ˌkʌv(ə)rɪŋˈletə] *rasm.* ilova qog'ozi (xati)

coverlet [ˈkʌvəlɪt] *n* o'rin yopinchig'i (*karavotda*)

cover picture [ˈkʌvəˌpɪktʃə] (ko'rgazmali, tasviriy, illustrativ) jurnalning muqovasi ustidagi rasm yoki portret

cover-point [ˈkʌvəˌpɔɪnt] *n kriket.* 1) himoyachi; 2) himoyachining o'rni

cover-slut [ˈkʌvəslʌt] *n* etak, fartuk, xalat

covert [ˈkʌvət] **1.** *a* yashirin, maxfiy; **2.** *n* o'rmon, chakalakzor

coverture [ˈkʌvətʃʊə] *n* boshpana

covet [ˈkʌvɪt] *v* zo'r ishtiyoq bilan orzu qilmoq; xiralik bilan qo'lga kiritishga intilmoq

covetous [ˈkʌvɪtəs] *a* 1) ochko'z, qizg'anchiq; 2) g'ayir, baxil

covey [ˈkʌvɪ] *n* 1) hayvon yoki parrandaning onasidan ajralmagan bolalari; 2) (*asosan, kakliklarning*) galasi; to'dasi

covin [ˈkʌvɪn] *n yur.* uchinchi kishiga zarar yetkazish niyatidagi ikki (yoki undan ortiq) kishilar o'rtasidagi maxfiy bitim

coving [ˈkəʊvɪŋ] *n qur.* gumbaz, qubba

cow [kaʊ] **1.** *n* sigir; **2.** *v* qo'rqitmoq

cowan [ˈkaʊən] *n shotl.* 1) g'isht teruvchi (quruvchi) ustaning shogirdi; 2) xabardor (voqif) bo'lmagan, bexabar, bilmaydigan (bilmagan), bilimsiz; 3) *so'zl.* ayg'oqchi, josus, chaqimchi, gap tashuvchi, g'iybatchi

coward [ˈkaʊəd] **1.** *n* qo'rqoq (yuraksiz) kishi; **2.** *a* qo'rqoq (yuraksiz)

cowardice [ˈkaʊədɪs] *n* qo'rqoqlik, yuraksizlik, irodasizlik, irodasi sustlik; ruhiy tushkunlik

cowardly [ˈkaʊədlɪ] **1.** *a* 1) qo'rqoq, yuraksiz, yuragi yo'q, irodasiz; irodasi sust; 2) qo'rqoqlarga xos, qo'rqoqlik tufayli bo'ladigan, qo'rqib qilinadigan, qo'rqoqlik...; **2.** *adv kam.* qo'rqib, hadiksirab, qo'rqinch (hadik) bilan

cowardness [ˈkaʊədnəs] *n* qo'rqoqlik

cow-bane [ˈkaʊbeɪn] *n bot.* sikuta (*zaharli suv o'ti*)

cowberry [ˈkaʊb(ə)rɪ] *n bot.* brusnika (*butasi va mevasi*)

cow-boy [ˈkaʊbɔɪ] *n amer.* otliq cho'pon (*Shimoliy Amerikada*)

cow college [ˈkaʊˌkɒlɪdʒ] *amer. so'zl.* 1) qishloq xo'jaligi kolleji; 2) unchalik ma'lum-mashhur bo'lmagan kichkina kollej

cower [ˈkaʊə] *v* (*sovuqdan, qo'rquvdan*) burishmoq, bujmaymoq, tirishmoq

cow-fish [ˈkaʊfɪʃ] *n zool.* kulrang delfin

cow-girl [ˈkaʊgɜ:l] *n amer.* mol boquvchi (molboqar) ayol

cowhand [ˈkaʊhænd] *n* cho'pon, podachi

cow-heel [ˈkaʊhi:l] *n* mol kalla-pochasidan tayyorlangan ilvira

cowherd [ˈkaʊhɜ:d] *n* 1) podachi; 2) molboqar, mol boquvchi

cow-hide [ˈkaʊhaɪd] **1.** *n* 1) ho'kiz terisi; 2) *amer.* ho'kiz terisidan qavilgan o'rma qamchi; **2.** *v amer.* ho'kiz terisidan o'rma qamchi qavimoq

cow-house [ˈkaʊhaʊs] *n* molxona, og'il

cow-hunt [ˈkaʊhʌnt] *n amer.* sigirlar podasidan ajralib qolgan sigirlarni qidirish

cowish [ˈkaʊɪʃ] *a* og'ir, vazmin, sekin, sust, beso'naqay, beo'xshov, qo'pol (*harakatda*)

cowl [kaʊl] *n* 1) kapushon (*ustki kiyim yoqasiga biriktirib tikiladigan qaytarma qalpoq*); 2) (*mo'rining*) qalpog'i

cowle [kaʊl] *n hind.* ijaraning yozma majburiyati yoki yozma shartnomasi

cow-leech [ˈkaʊli:tʃ] *n so'zl.* veterenar, mol doktori

cowlick [ˈkaʊˌlɪk] *n* 1) tikkaygan soch, tepa soch; 2) peshanagajak (*peshanaga tushib, hurpayib turadigan bir tutam soch*); 3) yakka kokil (*qadimgi ukrainlarda: ustara bilan qirilgan bosh cho'qqisida qoldirilgan bir tutam soch*)

cowlike [ˈkaʊlaɪk] *a* moldek, molga o'xshagan (*yo'g'on va katta ko'zli kishi haqida*)

cowman [ˈkaʊmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) ferma ishchisi; 2) *amer.* qoramol sanoatchisi

cow-puncher [ˈkaʊˌpʌntʃə] *n amer. so'zl.* otliq podachi, otliq cho'pon (*Shimoliy Amerikada*)

cowshed [ˈkaʊʃed] *n* molxona

cowslip [ˈkaʊˌslɪp] *n bot.* 1) navro'zgul; 2) erta gullash (*o'simliklarning birinchi bo'lib, oldin gullashi*); 3) (*biror o'simlikda*) birinchi bo'lib ochilgan gul

cow-town [ˈkaʊtaʊn] *n amer. so'zl.* mahalliy chorvachilik markazi hisoblangan shahar

cox I [kɒks] *so'zl.* **coxswain** *so'zining qisqartirilgan shakli*

cox II [kɒks] *v so'zl.* qayiqni boshqarmoq (haydamoq)

coxa [ˈ kɒksə] *n* (*pl* **coxae** [ˈkɒksi:]) *anat.* tos suyagi bilan son suyagini tutashtirgan bo'g'in

coxae [ˈkɒksi:] *pl of* **coxa**

coxcomb [ˈkɒkskəʊm] *n* olifta (o'ziga bino qo'ygan) odam

coxcombical [ˌkɒksˈkəʊmɪk(ə)l] *a* o'ziga bino qo'ygan, mag'rur

coxcombry [ˈkɒks,kəʊmrɪ] *n* o'ziga ishonib ketish, mag'rurlik

coxitis [kɒkˈsaɪtɪs] *n tib.* koksit (*chanoq-son bo'g'imining yallig'lanishi*)

coxswain [ˈkɒks(ə)n, -sweɪn] *n deng.* rulchi, rulda turuvchi, rulni boshqaruvchi, darg'a

coxy [ˈkɒksɪ] = **cocksy**

coy [kɔɪ] *a* uyatchan, tortinchoq, iboli

coyly [ˈkɔɪlɪ] *adv* uyalinqirab, tortinib, xijolat tortib; ibo bilan; kamtarlik (sipolik) bilan, o'zini kamtar tutib, o'zini katta olmay

coyness [ˈkɔɪnəs] *n* uyatchanlik, tortinchoqlik, ibo; kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik, sipolik

coyote [ˈkɔɪəʊt, kɔɪˈəʊtɪ] *n* 1) *zool.* koyot, Amerika bo'risi; 2) *jarg.* razil (qabih, past, yaramas, ablah) odam, pastkash, nobakor

coypou [ˈkɔɪpu:] = **coypu**

coypu [ˈkɔɪpu:] *n zool.* nutriya (*suv kalamushi va uning qimmatbaho mo'ynasi*)

coz [kʌz] **cousin** *so'zining qisqartmasi*

coze [kəʊz] *v* do'stona (samimiyat bilan, do'stlarcha) suhbatlashmoq, so'zlashib o'tirmoq, hangomalashmoq, gurunglashmoq

cozen [ˈkʌz(ə)n] *v* 1) aldamoq, tovlamoq; 2) laqillatmoq

cozenage [ˈkʌz(ə)nɪdʒ] *n* aldamchilik; tovlamachilik

cozener [ˈkʌz(ə)nə] *n* aldamchi, aldoqchi, yolg'onchi, firibgar, qallob, muttaham, tovlamachi

cozily [ˈkəʊzɪlɪ] = **cosily**

cozy [ˈkəʊzɪ] *a* o'ng'ay, qulay, orom beradigan, shinam

craal [krɑ:l] = **kraal**

crab [kræb] **1.** *n zool.* dengiz qisqichbaqasi, krab; **2.** *v* changali bilan tirmamoq (*yirtqich qushlar haqida*)

crabbed [kræbd] *a* 1) badjahl, jahli yomon, jahli tez, serjahl; 2) ko'ngli to'lmagan, norozi, rozi (xursand, mamnun) emas, domangir, jahli chiqqan; 3) tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serzarda; jizzaki; 4) zo'rg'a (qiyinchilik bilan) tushuniladigan; noaniq, chaplashib ketgan, o'qib bo'l-

maydigan (*husnixat haqida*); 5) g'aliz (*uslub haqida*)

crabbery ['kræb(ə)rɪ] *n* krablar (*dengiz qisqichbaqalari*) yashaydigan joy

crabbing I ['kræbɪŋ] *n* 1) dengiz qisqichbaqalarini tutish; 2) *av.* yo'nalishdan chetga chiqib ketish (*raketalar haqida*)

crabbing II ['kræbɪŋ] *n* yovvoyi (nordon) olmalarni terish

crabby ['kræbɪ] *a* tez achchiqlanadigan, jizzaki

crab-grass ['kræbrɑ:s] *n* yer bag'irlab o'sadigan begona (yovvoyi) o't

crab-like ['kræblaɪk] *a* ilang-bilang, egri-bugri, ilon izi, zigzag (siniq chiziq) shaklidagi (*harakat va h. haqida*)

crack [kræk] **1.** *n* 1) qars-qurs, qasir-qusur; 2) yoriq, darz; tarsaki, shapaloq; **2.** *v* 1) qarsillatmoq, tarsillatmoq; 2) darz ketmoq, yorilmoq; **3.** *a so'zl.* ajoyib, qoyilmaqom

crackajack ['krækədʒæk] **1.** *n jarg.* juda yaxshi yigit; juda yaxshi narsa (*buyum va h.*); **2.** *a jarg.* 1) a'lo, juda yaxshi, ajoyib, zo'r; 2) mashqi chiqqan, yetuk, mohir, usta; 3) birinchi darajali; a'lo darajali, eng yaxshi

crack-brain ['krækbreɪn] *n so'zl.* miyasi aynigan, aqldan ozgan, telba, savdoyi, jinni, devona, esi past, aqli noraso, tentak

crack-brained [ˌkræk'breɪnd] *a* miyasi aynigan; aqldan ozgan

cracked [krækt] *a* yorilgan, darz ketgan

cracker ['krækə] *n amer.* quritilgan pishiriqlar

crackerjack ['krækədʒæk] = **crackajack**

crack-headed [ˌkræk'hedɪd] = **crack-brained**

cracking ['krækɪŋ] *n* 1) ko'p joyidan yorilib ketish; 2) *fiz.* vayron bo'lish, buzilish (*molekulalar haqida*); 3) neftni krekinglash (*neft va neft qoldiqlarini qayta ishlab benzin, gaz olish usuli*)

crackjaw ['krækdʒɔ:] *a so'zl.* talaffuz qilinishi qiyin bo'lgan (so'z haqida)

crackle ['kræk(ə)l] **1.** *n* chirsillash, qirsillash; **2.** *v* chirsillamoq, qirsillamoq

crackling ['krækɪŋ] *n* qars-qurs, tarsturs

cracknel ['krækn(ə)l] *n* 1) qotgan (suvi qochgan) pishiriqlar; 2) *pl.* jizza

crackpot ['krækpɒt] *n so'zl.* esi past, tentak, jinni

crack-rope ['krækrəup] *n jarg.* dorga osilgan odam

crack-skull ['krækskʌl] = **crack-brain**

cracksman ['kræksmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) qulfbuzar o'g'ri

cracky ['krækɪ] *a* 1) oson yoriladigan; 2) *so'zl.* miyasi aynigan, aqldan ozgan, telba, jinni, devona

cracovienne [krəˌkəʊvɪ'en] *n* krakovyak (*polyakcha raqs va uning musiqasi*)

cradle ['kreɪdl] **1.** *n* beshik; belanchak; **2.** *v* belanchakni (beshikni) tebratmoq

cradling ['kreɪdlɪŋ] *n* belanchakni (beshikni) tebratish

craft [krɑ:ft] *n* 1) hunar, kasb; 2) chaqqonlik, epchillik; 3) makkorlik, ayyorlik

craft-brother ['krɑ:ft,brʌðə] *n* kasbdosh o'rtoq

craftily ['krɑ:ftɪlɪ] *adv* makkorlik bilan

craftiness ['krɑ:ftɪnəs] *n* makkorlik, ayyorlik

craftsman ['krɑ:ftsmən] *n* usta; hunarmand, kosib

craftsmanship ['krɑ:ftsmənʃɪp] *n* ustalik, hunarmandchilik

craftmaster ['krɑ:fts,mɑ:stə] *n* mahoratli (mohir) usta

crafty ['krɑ:ftɪ] *a* makkor, hiylagar

crag I [kræg] *n* qoya

crag II [kræg] *n shotl.* 1) bo'yin, gardan; 2) bo'g'iz, halqum, hiqildoq, tomoq

cragged ['krægɪd] = **craggy**

craggy ['krægɪ] *a* qoyali, serqoya

cragsman ['krægzmən] *n* alpinist (*tog' cho'qqilariga ko'tarilish sporti bilan shug'ullanuvchi sportchi*)

crake I [kreɪk] *n zool.* tartar (*qush*)

crake II [kreɪk] *v* yoqimsiz tovush chiqarmoq

crake III [kreɪk] *v dial.* maqtanmoq, kerilmoq, maqtanib gapirmoq

cram [kræm] **1.** *n* tiqilinch; **2.** *v* turtib (itarib) kirgizmoq

crambo ['kræmbəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) qofiyabozlik

cram-full [ˌkræm'fʊl] *a* limmo-lim; liq to'la, liq to'lgan

crammer ['kræmə] *n* 1) *so'zl.* repetitor (*o'quvchiga uyda darsdan yordam ko'rsatuvchi o'qituvchi*); 2) *kam.* tushunmasdan yodlovchi, qiroatxon; 3) *jarg.* a) yolg'on, yolg'on-yashiq, uydirma, behuda gaplar; b) yolg'onchi, aldoqchi, aldamchi, yolg'on gapiruvchi

cramp [kræmp] **1.** *n* changak (akashak) bo'lish; **2.** *v* changak (akashak) bo'lmoq

cramped [kræmpt] *n* noaniq dastxat

cramp-fish ['kræmpfɪʃ] *n zool.* elektrli skat (*elektr zaryadi chiqaradigan dumi ingichka, yapaloq dengiz balig'i*)

cramp-iron ['kræmp,aɪən] *n tex.* (*toshlarni ushlash uchun*) kaj, ombur, qisqich

crampon ['kræmpən] *n* 1) *pl* sportchilar oyoq kiyimlarining tagidagi tishlar (*sirg'anmaslik uchun qilingan*); 2) *tirnoq* (*toymaslik uchun poyabzal tagiga bog'lab olinadigan moslama*) (*alpinistlarda*); 3) *bot.* tashqaridagi ochiq ildiz (*o'simliklarda*)

cranage ['kreɪnɪdʒ] *n* 1) yuk ko'taradigan kran (yukko'targich)dan foydalanish; 2) yuk ko'taradigan krandan foydalanganligi uchun (haq to'lash), to'lanadigan haq

cranberry ['krænb(ə)rɪ] *n* klukva (*qizil, nordon mevali buta va uning mevasi*)

crane [kreɪn] **1.** *n* 1) turna; 2) *tex.* yuk ko'taradigan kran; **2.** *v* kran bilan ko'tarmoq

crane-fly ['kreɪnflaɪ] *n zool.* uzunoyoq, ikki qanotli hasharot (*karam zarar-kunandasi*)

crane's-bill ['kreɪnzbɪl] *n bot.* yorongul

crang [kræŋ] *n* kit skeleti

crania ['kreɪnɪə] *pl of* **cranium**

cranial ['kreɪnɪəl] *a* bosh suyagiga oid

craniometry [ˌkreɪnɪ'ɒmɪtrɪ] *n* kraniometriya, bosh suyagini o'lchash

cranium ['kreɪnɪəm] *n* bosh suyagi

crank [kræŋk] *v* egmoq, bukmoq

crank case ['kræŋkkeɪs] *n tex.* dvigatelning karteri (*dvigatellarning moy turadigan, ayni vaqtda shikastdan, ifloslardan saqlaydigan qutisi*)

cranked [kræŋkt] *a* 1) tirsakli; 2) egilgan, bukilgan

crankle ['kræŋk(ə)l] **1.** *n* 1) burilish, muyulish; burilgan (egilgan) joy, egik, bukik, qayrilish, burilgan joy; 2) zigzag, siniq (egri-bugri) chiziq; **2.** *v* 1) buralib-buralib ketmoq; bilanglamoq, to'lg'anmoq; 2) egri-bugri (ilon izi) bo'lib ketmoq; 3) egilmoq, egiladigan (egilish xususiyatiga ega) bo'lmoq; 4) burilmoq, qayrilmoq; bilanglamoq

crankshaft ['kræŋkʃɑ:ft] *n tex.* tirsakli val

cranky ['kræŋkɪ] *a* liqillaydigan, shaloq (*mexanizm haqida*)

crannied ['krænɪd] *a* kovakli, tirqishli, yoriqli

cranny ['krænɪ] *n* tirqish; yoriq

cranreuch ['krɑ:nrək] *n shotl.* 1) qirov; 2) bulduruq; 3) sovuq nam havo

crap I [kræp] *n* 1) *dial.* marjumak (*g'alla ekinlarining bir turi va uning doni*); 2) *jarg. dial.* pul, aqcha; **to kick the ~ out of smb.** *amer.* kimnidir chalajon bo'lguncha (hushidan ketguncha) urmoq

crap II [kræp] *n jarg.* dor

crape [kreɪp] *n* krep (*yupqa qora g'ijim gazmol va undan qilingan motam lentasi*)

craps [kræps] *n amer.* 1) oshiq o'yini (qimor); 2) *int.* jin ursin! obbo!

crapulence [ˈkræpjʊləns] *n* 1) (*ichkilikdan*) karaxtlik, bosh og'rig'i; 2) araq-xo'rlik, ichkilikbozlik

crapy [ˈkreɪpɪ] *a* krep (*yupqa g'ijim gazmol*)dan qilingan, krep...

crash [kræʃ] **1.** *n* 1) gumburlash; 2) qars-qurs; 3) avariya, buzilish; **2.** *v* gumburlab yiqilmoq; **3.** *adv* gumburlab; qars-qurs qilib

crash-ambulance [ˈkræʃˌæmbjʊləns] *n so'zl.* navbatchi (navbatchilik qiluvchi) sanitariya mashinasi (*aerodromda*)

crash boat [ˈkæʃbəʊt] *n* tezyurar qutqarish kateri, qutqarish uchun xizmat qiladigan tezyurar kater

crash crew [ˈkræʃkru:] *n harb.* avariya jamoasi (*avariyalar oqibatini tuzatuvchi, avariyani bartaraf qiluvchi jamoa*)

crash-dive [ˈkræʃdaɪv] *n deng.* oshig'ich (shoshilinch) suv ostiga tushish (tushirish)

crash-helmet [ˈkræʃˌhelmɪt] *n harb.* saqlovchi shlem (boshni urilish yoki zarbadan saqlovchi maxsus bosh kiyim)

crash-land [ˈkræʃlænd] *v av.* 1) majburan (noilojlikdan, ilojsizlikdan) qo'nmoq; 2) qo'nish paytida parchalanmoq (*chilparchin bo'lmoq*)

crash-landing [ˌkræʃ lændɪŋ] *n av.* majburiy (noilojlikdan, ilojsizlikdan, noiloj) qo'nish

crash truck [ˈkræʃtrʌk] *n harb.* avariya holatida yuk tashish uchun xizmat qiladigan avtomobil, avariya yuk avtomobili

crash wagon [ˈkræʃˌwægən] *n so'zl.* tez yordam karetasi

crass [kræs] *a* qo'pol

crassitude [ˈkræsɪtju:d] *n kit.* o'ta ahmoqlik (tentaklik, befahmlik, esi pastlik)

crassula [ˈkræsjʊlə] *n bot.* sedum, semizak

cratch I [krætʃ] *n q.x.* mollarning daladagi (yaylovdagi) oxuri (teganasi)

cratch II [krætʃ] *n dial. tib.* qichima, qo'tir

crate [kreɪt] *n* quti, yashik

crater [ˈkreɪtə] *n* 1) vulqon og'zi; 2) bomba yoki zambarak portlagan joyda hosil bo'lgan chuqur

craunch [krɔ:ntʃ] = **crunch**

cravat [krəˈvæt] *n* galstuk, bo'yinbog'; sharf

crave [kreɪv] *v* 1) yalinmoq; 2) juda istamoq

craven [ˈkreɪv(ə)n] **1.** *a* qo'rqoq, yuraksiz; **2.** *n* qo'rqoq (yuraksiz) kishi

craving [ˈkreɪvɪŋ] *n* iltijo, o'tinch, yolvorish, o'tinib so'rash

craw [krɔ:] *n* 1) jig'ildon (*qushlarda*); 2) oshqozon, me'da (odam va hayvonlarda)

craw-craw [ˌkrɔˈkrɔ:] *n* qichima (qo'tirning) halokatli (xatarli) turi (*G'arbiy Afrikada*)

crawfish [ˈkrɔ:ˌfɪʃ] **1.** *n zool.* daryo qisqichbaqasi; **2.** *v amer. so'zl.* 1) qisqichbaqaga o'xshab orqaga qarab yurmoq (orqaga tisarilmoq); 2) o'zini chetga tortmoq (olmoq), o'zini olib qochmoq; o'zini orqaga olmoq, nari ketmoq; (*nimadandir*) chekinmoq, tislanmoq, tisarilmoq

crawl [krɔ:l] **1.** *n* sudralish, emaklab yurish; **2.** *v* sudralmoq, emaklab yurmoq

crawler [ˈkrɔ:lə] *n* 1) tiz cho'kib sajda qiluvchi, xushomadgo'y, laganbardor; 2) *pl* polzunka (*emaklaydigan bolalarning maxsus kiyimi*); 3) yer bag'irlab o'sadigan o'simlik; 4) gusenitsa (*g'ildirak vazifasini o'tovchi keng zanjir tasma*)li traktor

crawling [ˈkrɔ:lɪŋ] *n* 1) emaklash, emaklab yurish, emaklab (o'rmalab) borish (kelish); emaklab o'tish; 2) biror tomonga sudralib (o'rmalab) o'tish

crawlist [ˈkrɔ:lɪst] *n sport.* krolchi (*krol uslubida, quloch otib suzuvchi sportchi*)

crawly [ˈkrɔ:lɪ] *a so'zl.* eti (badani) jimirlashib ketayotganligini his etayotgan

crayer [kreə] *n tar.* kichkina savdo kemasi

crayfish [ˈkreɪˌfɪʃ] *n* daryo qisqichbaqasi

crayon [ˈkreɪən, -ɒn] **1.** *n* 1) rangli bo'r bo'lagi; 2) rangli qalam; **2.** *v* rangli qalam yoki bo'r bilan chizmoq

craze [kreɪz] **1.** *n* savdoyilik, vasvasa; **2.** *v* 1) aqldan ozdirmoq; 2) aqldan ozmoq

crazed [kreɪzd] *a* aqldan ozgan, jinni, telba, devona

crazy [ˈkreɪzɪ] *a* aqldan ozgan

crazy house [ˈkreɪzɪhaos] *n so'zl.* jinnixona

creaght [krekt] *n irl. tar.* ko'chib yuradigan (ko'chmanchilikda hayot kechiradigan) gala, poda

creak [kri:k] **1.** *n* g'ichirlagan tovush; **2.** *v* g'ichirlamoq

creaker [ˈkri:kə] *n so'zl.* 1) keksa (qari) odam, qariya, mo'ysafid, chol; 2) qari xotin, kampir

creaking [ˈkri:kɪŋ] *a* g'ijirlaydigan, g'ichirlaydigan, g'archillaydigan; g'archli, g'arch; ~ **shoes** g'archli botinka

cream [kri:m] **1.** *n* 1) qaymoq; 2) krem (*nisholdasimon shirinlik*); **2.** *v* qaymog'ini ajratib olmoq; **3.** *a* kremli

cream-cheese [ˌkri:mˈtʃi:z] *n* qaymoqli (qaymoqdan tayyorlangan) pishloq

cream-coloured [ˈkri:mˌkʌləd] *a* 1) oqsariq, och sariq, sarg'ish oq; 2) dumi va yoli, qora saman (*ot haqida*)

creamed [kri:md] *a paz.* ko'pchitgan, ko'pirtirgan; ~ **chicken** tovuq (jo'ja) pyuresi

creamer [ˈkri:mə] *a* 1) qaymoq solinadigan ko'zacha; 2) sut separatori (*sutdan qaymoqni ajratib beradigan moslama*)

creamery [ˈkri:m(ə)rɪ] *n* moy (yog') ishlab chiqaradigan korxona

creamy [ˈkri:mɪ] *a* 1) qaymoqqa oid; qaymoqdan olingan (tayyorlangan), qaymoqli, qaymoq...; 2) yog'i ko'p, seryog', sermoy; yog'dan hosil bo'lgan, yog'ga belangan; 3) kremdan qilingan, krem solingan, kremli; 4) yo'g'on, do'rillagan (*ovoz haqida*); yumshoq, mayin (*ovoz haqida*); **a ~ voice** yumshoq (mayin) ovoz; 5) *so'zl.* dumi va yoli qora saman (*ot haqida*)

crease [kri:s] **1.** *n* tax, qat, burma; **2.** *v* g'ijimlanmoq (*material, gazlama haqida*)

creasing machine [ˈkri:sɪŋməˌʃi:n] *tex.* bortlarni bukadigan (egib, qayirib qo'yadigan) dastgoh

creasy [ˈkri:sɪ] *a* g'ijimlangan

create [krɪˈeɪt] *v* yaratmoq; vujudga keltirmoq

creatine [ˈkri:ətɪ:n] *n kim.* kreatin (*tarkibida azoti bo'lgan organik kislota*)

creation [krɪˈeɪʃ(ə)n] *n* yaratish; bunyod etish

creative [krɪˈeɪtɪv] *a* ijodiy

creator [krɪˈeɪtə] *n* 1) ijodkor, bunyodgor; 2) muallif

creature [ˈkri:tʃə] *n* 1) asar; ijod; 2) tirik mavjudot

creche [kreɪʃ] *n fr.* bolalar yaslisi

credence [ˈkri:d(ə)ns] *n* ishonch; ishonish

credenda [krɪˈdendə] *n pl lot. din.* din aqidalari

credent [ˈkri:d(ə)nt] *a* ishonuvchi

credential [krɪˈdenʃ(ə)l] *n* 1) shaxsiy guvohnoma; 2) tavsiyanoma

credentials [krɪˈ denʃ(ə)lz] *n pl* ishonch yorlig'i

credibility [ˌkredəˈbɪlɪtɪ] *n* haqiqatnamolik, haqiqatga o'xshashlik; ehtimollik, yuz berishi (bo'lishi) mumkinlik; ehtimol

credible [ˈkredəb(ə)l] *a* ishonchga loyiq, munosib

credibly [ˈkredəblɪ] *adv* hech shubhasiz, aniq; **to be ~ informed that ...** ... haqida aniq ma'lumotga ega bo'lmoq

credit ['kredɪt] **1.** *n* 1) ishonch; 2) obro'-e'tibor, iftixor; 3) kredit, qarz, nasiya; **2.** *v* 1) ishonmoq; 2) *mol.* kredit (qarz) bermoq

creditable ['kredɪtəb(ə)l] *a* maqtashga arziydigan

creditor ['kredɪtə] *n* kredit (*qarz*) beruvchi kishi *yoki* tashkilot

credo ['kri:dəʊ] *lot. n* (*pl* **-os** [-əʊz]) imon, e'tiqod

credulity [krɪ'dju:lɪtɪ] *n* ishonuvchanlik; laqmalik

credulous ['kredjʊləs] *a* ishonuvchan; laqma

credulousness ['kredjʊləsnəs] = **redulity**

cree [kri:] *v dial.* 1) (donni) qaynatib (qaynatish yo'li bilan) yumshatmoq, muloyim qilmoq; 2) qaynatish natijasida yumshamoq, muloyim bo'lmoq (*don haqida*); 3) tuymoq, yanchmoq, tuyib maydalamoq; 4) maydalamoq, parchalamoq, ushatmoq, sindirmoq, maydalab (ushatib) qo'ymoq

creed [kri:d] *n* imon, iymon, e'tiqod

creek [kri:k] *n* ko'rfaz; qo'ltiq

creel [kri:l] *n* baliq soladigan savat

creep [kri:p] **1.** *v* (**crept**) 1) sudralmoq; 2) zo'rg'a yurmoq; 3) titramoq (*qo'rquvdan; nafratdan*); **2.** *n* titrash

creeper ['kri:pə] *n* yer bag'irlab o'sadigan o'simlik

creep feed, creep feeding ['kri:pfi:d, -,fi:dɪŋ] *q.x.* 1) yosh chorva mollariga beriladigan qo'shimcha oziqa; 2) yosh chorva mollarini qo'shimcha oziqlantirish

creepie ['kri:pɪ] *n dial.* pastak kursi, taburetka

creepie-peepie [,kri:pɪ'pi:pɪ] *n jarg.* portativ (*ixcham, mo'jaz, ko'tarib yurishga qulay*) telekamera

creeping ['kri:pɪŋ] *a* 1) sudraluvchi, sudralib yuradigan (*chuvalchang, ilon va sh. k. haqida*); 2) yer bag'irlab o'sadigan, yerga yoyilib o'sadigan (*o'simliklar haqida*); 3) sur'ati past, sekin, sust (*yurish haqida*); ~ **gait** sekin qadam tashlash; 4) xushomadgo'ylik (laganbardorlik) qiluvchi, tiz cho'kib sajda qiluvchi; ~ **sycophant** xushomadgo'y (laganbardor, yaltoq)

creeping barrage [,kri:pɪŋ 'bærɑ:ʒ] *n harb.* to'suvchi o't (*dushman yo'lini kesish uchun yog'dirilgan o't*), olov devor (*artilleriya o'ti yog'dirib hosil bo'lgan olov devor*)

creeping eruption [,kri:pɪŋ ɪ'rʌpʃ(ə)n] 1) *tib.* yoyilib ketgan (avj olib ketgan) toshma; 2) *vet.* dermatit (*teri yallig'lanishi*)ning yoyilishi (tarqalishi)

creepingly ['kri:pɪŋlɪ] *adv* 1) emaklab, o'rmalab, sudralib; 2) sezdirmasdan, bildirmasdan; 3) razilona, razillik (qabihlik) bilan

creeping sickness ['kri:pɪŋ,sɪknəs] *tib.* ergotizm (*hayvonlarning qoramig' bilan zararlangan don, un, kepak va boshqalarni iste'mol qilganda zaharlanishi*)

creepy ['kri:pɪ] *a* sudraluvchi

creepy-scrawly [,kri:pɪ'skrɔ:lɪ] = **creepy**

creese [kri:s] *n* malayyaliklar xanjari

creesh, creish [kri:ʃ] *n shotl.* moy, yog'

cremate [krɪ'meɪt] *n* o'likni kuydirmoq

cremation [krɪ'meɪʃ(ə)n] *n* krematsiya (*o'likni maxsus pechda kuydirish*)

cremator [krɪ'meɪtə] *n* krematsiya pechi

crematoria [,kremə'tɔ:rɪə] *pl of* **crematorium**

crematorium [,kremə'tɔ:rɪəm] *n* (*pl* **-ria** [-rɪə]) krematoriy (*o'liklarni kuydirish uchun maxsus jihozlangan bino*)

crematory ['kremət(ə)rɪ] = **crematorium**

crenel ['kren(ə)l] = **crenelle**

crenellate ['kren(ə)leɪt] *v* (*istehkomlar va qo'rg'on devorlarini*) shinak (tuynuk) bilan jihozlamoq, ta'minlamoq

crenellated ['kren(ə)leɪtɪd] *a* tishli

crenelle [krə'nel] *n me'mor.* shinak, tuynuk (*istehkomlarda va qo'rg'on devorlarida*)

creophagous [krɪ'ɒfəgəs] *a zool.* (*boshqa hayvonlarning go'shti bilan ovqatlanadigan*) etxo'r, yirtqich

creosote ['krɪ:əsəʊt] *n kim.* kreozot (*yog'och yoki toshko'mirdan haydab olinadigan o'tkir hidli suyuq moy modda*)

crepance ['krɪ:pəns] *n vet.* chalishishdan hosil bo'lgan yara, chaqa (*otlar oyog'ida*)

crepe [kreɪp] *n* krep (*1. yupqa g'ijim gazmol; 2. yupqa qora g'ijim gazmol va undan qilingan motam lentasi*)

crepitant ['krepɪt(ə)nt] *a* tir-tir (chir-chir) ovoz chiqazadigan, chirillaydigan, tirillaydigan, chig'illaydigan (*chigirtka va b. haqida*)

crepitate ['krepɪteɪt] *v* g'archillamoq, g'ichirlamoq

crepitation [,krepɪ'teɪʃ(ə)n] *n* g'archillash, g'ichirlash

crept [krept] *past, p. p. of* **creep**

crepuscle [krɪ'pʌs(ə)l] *n* g'ira-shira payt, tong yorishgan yoki qosh qoraygan payt

crepuscular [krɪ 'pʌskjʊlə] *a* 1) xira; 2) g'ira-shira qorong'i

crescendo [krɪ'ʃendəʊ] *n mus.* borgan sari balandlashadigan (tobora avjga chiqadigan) musiqa

crescent ['kres(ə)nt] **1.** *n* yarimoy; **2.** *a* o'roq (yarimoy) shaklidagi

cresol ['kri:sɒl, -səʊl] *n kim.* krezol, bir atomli fenol (*qo'lansa hidli rangsiz suyuqlik*)

cresset ['kresɪt] *n* katta sham, mash'ala

crest [krest] **1.** *n* (*xo'roz*) toji; **2.** *v* toj kiydirmoq

crested ['krestɪd] *a* kokil (po'pak, toj)li

crest-fallen ['krest,fɔ:l(ə)n] *a* g'amgin, ma'yus

Cretaceous [krɪ'teɪʃəs] *a geol.* bo'rga oid, bo'rli

cretin ['kretɪn] *n* esi past, ahmoq

cretinism ['kretɪnɪz(ə)m] *n* esi pastlik, ahmoqlik

cretinous ['kretɪnəs] *a* aqli kam, aqli past (zaif)

cretonne [kre'tɒn] *n to'q.* kreton (*qalin ip gazlama turi*)

crevasse [krɪ'væs] *n* qalin muzdagi yoriq

crevice ['krevɪs] *n* kovak, tirqish; yoriq

crew I [kru:] *n* (*kema*) ekipaji

crew II [kru:] *past of* **crow 2.**

crew-cut ['kru:kʌt] *n* kirpisoch (*erkaklarda – kalta qilib qirqilgan, dikkayib turadigan soch*)

crewel ['kru:əl] *n* (*narsa tikish uchun ishlatiladigan*) eshilgan ingichka jun ip

crewels ['kru:əlz] *n pl shotl.* shirincha (*bolalar kasalligi*)

crewman ['kru:mən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) brigada a'zosi; 2) *amer. harb.* ekipaj a'zosi (*samolyot yoki kemada*)

crib I [krɪb] **1.** *n* 1) bolalarning kichkina karavotchasi; 2) oxur; **2.** *v* tor joyga qamab qo'ymoq

crib II [krɪb] **1.** *n* shpargalka (*javoblar yoki nutq mazmuni yozilgan qog'oz*); **2.** *v* (*yashirincha*) ko'chirib yozib olmoq

cribbage-faced [,krɪbɪdʒ 'feɪst] *a* cho'tir, bujur (*yuz haqida*)

cribble ['krɪb(ə)l] *n* 1) g'alvir, katta sim g'alvir; elak; suzg'ich; 2) *esk.* yirik tortilgan un

cribrate ['krɪbr(ə)ɪt] *a maxs.* 1) panjarasimon, panjaraga o'xshagan, panjara shaklidagi; 2) panjarali

cribriform ['krɪbrɪfɔ:m] *a* panjarasimon, to'r

cribrose ['krɪbrəʊs] = **cribriform**

cribwork ['krɪbwɜ:k] *n qur.* yog'och devorli (devori ustma-ust terilgan yog'ochdan qilingan) qurilma

crick [krɪk] *n* muskullarning cho'zilishi

cricket ['krɪkɪt] **1.** *n* qora chigirtka; **2.** *sport.* kriket (*to'p o'yinining bir turi*)

cricketer ['krɪkɪtə] *n* kriketdagi o'yinchi

crier ['kraɪə] *n* 1) jarchi, xabarchi; 2) jinoyat

crikey ['kraɪkɪ] *int. so'zl.* voy-bo'y! ana xolos!

crime [kraɪm] **1.** *n* 1) jinoyat; **capital ~** o'lim jazosi beriladigan jinoyat; **war ~s** harbiy jinoyat; 2) noto'g'ri, zararli xatti-harakat, yovuzlik; **2.** *v harb.* hukm chiqarmoq

Crimean [kraɪ'mɪən] *a* Qrim va qrimliklarga oid, Qrim va qrimliklar...

crimeless ['kraɪmləs] *a* beayb, begunoh, aybsiz, gunohsiz; aybi (gunohi) yo'q, oq, jinoyati yo'q

crime passionnel [ˌkri:mˌpɑ:sjə'nel] *n fr.* rashk qilish natijasida sodir etilgan jinoyat

criminal ['krɪmɪn(ə)l] **1.** *a* jinoiy; jinoyatkorona; **2.** *n* jinoyatchi

criminalist ['krɪmɪnəlɪst] *n* kriminalist, jinoiy huquq mutaxassisi

criminalistics [ˌkrɪmɪnə'lɪstɪks] *n* kriminalistika (*jinoiy ishlarni tekshirish uslubi, taktikasi va texnikasi haqidagi yuridik fan*)

criminality [ˌkrɪmɪ'nælɪtɪ] *n* jinoyatchilik

criminally ['krɪmɪn(ə)lɪ] *adv* jinoyatchilarcha, jinoyatkorlarcha, jinoyatchilarga o'xshab

criminate ['krɪmɪneɪt] *v* jinoyatchilikda ayblanmoq

crimination [ˌkrɪmɪ'neɪʃ(ə)n] *n* jinoyatchilikda ayblash

criminative ['krɪmɪnətɪv] *a* ayblash bilan bog'liq bo'lgan

criminator ['krɪmɪneɪtə] *n kit. yur.* ayblovchi, qoralovchi

criminatory ['krɪmɪnət(ə)rɪ] *a kit. yur.* ayblovchi, qoralovchi

criminology [ˌkrɪmɪ'nɔlədʒɪ] *n* kriminologiya (*jinoyatchilik, uning sabablari va jinoyatlarning oldini olish choralari haqidagi fan*)

crimp [krɪmp] *v* o'rmoq, o'ralib olmoq (*soch to'g'risida*)

crimped [krɪmpt] *a* o'ralgan

crimper I ['krɪmpə] *n* askar va dengizchilarni aldash yo'li bilan yollaydigan agent

crimper II ['krɪmpə] *n tex.* 1) qisqich; ombur; 2) otashkurak

crimple ['krɪmp(ə)l] *v dial.* 1) burushtirmoq, tirishtirmoq; 2) bujmaytirmoq, qurishtirmoq, qovjiratmoq, qovjiratib qo'ymoq; 3) burushmoq, tirishmoq; 4) (yuz) burushtirmoq, tirishtirmoq

crimpy ['krɪmpɪ] *a* jingalak

crimson ['krɪmz(ə)n] **1.** *a* to'q qizil; malinarang; **2.** *v* qizarmoq

crinate ['kraɪn(e)ɪt] = **crinite**

crine [kraɪn] *v shotl.* siqilmoq, qisilmoq

cringe [krɪndʒ] *v* xushomadgo'ylik (laganbardorlik) qilmoq; tiz cho'kib sajda qilmoq

cringer ['krɪndʒə] *n* tiz cho'kib sajda qiluvchi; xushomadgo'y, laganbardor

crinigerous [krɪ'nɪdʒ(ə)rəs] *a* sochlari o'sib ketgan; sochlari hurpaygan; sermo'y, sertuk, serjun

crinite ['kraɪnaɪt] *a ko'p. bot.* tukli (*ba'zi o'simliklarning sirtida bo'ladigan tuk*)

crinkle ['krɪŋkl] **1.** *n* egri-bugri joy; **2.** *v* egilib chambarak bo'lmoq, halqa shaklida o'ralmoq

crinkle-crankle [ˌkrɪŋk(ə)l'kræŋk(ə)l] **1.** *n* siniq (egri-bugri) chiziq; **2.** *a* siniq chiziq shaklidagi, egri-bugri, ilonizi ...

crinkly ['krɪŋklɪ] *a* 1) burushgan, ajin bosgan, burushiq; 2) g'ijimlangan, mijg'aloq; burushiq; 3) jingalak, qo'ng'iroq

crinkum-crankum [ˌkrɪŋkəm'kræŋkəm] **1.** *n so'zl.* 1) chalkashib (chigallashib) ketgan qandaydir narsa, qandaydir g'alati narsa; 2) g'alati qiliq; tantiqlik, injiqlik; **2.** *a* 1) chigal, chuvalgan, chalkashgan, chuvalib (chigallashib, chalkashib) qolgan (ketgan), chalkash-chulkash; 2) g'alati, ajoyib, g'aroyib; 3) *so'zl.* qilig'i g'alati, g'alati qiliqli, injiq, tantiq

crinoline ['krɪnəlɪn] *n* krinolin (*o'tgan asrda rasm bo'lgan chambarakli keng yubka*)

cripes [kraɪps] *int.* ana xolos! vo ajabo! zap ish bo'libdi-da!

cripple ['krɪp(ə)l] **1.** *n* 1) cho'loq odam; 2) nogiron; **2.** *v* mayib qilib qo'ymoq

crises ['kraɪsi:z] *pl of* **crisis**

crisis ['kraɪsɪs] *n* 1) (*pl* **crises** [-si:z]) 1) krizis, tanazzul; 2) tang (mushkul) ahvol

crisp [krɪsp] **1.** *n* g'archillaydigan kartoshka (*qog'ozxaltada*); **2.** *a* g'irchillaydigan, qarsillaydigan, qasirlaydigan, qisirlaydigan, g'ichirlaydigan; **3.** *v* g'archillamoq, qarsillamoq, g'ichirlamoq, qisirlamoq

crisp-head lettuce ['krɪsphed'letɪs] *bot.* boshli (bosh o'raydigan) salat

crispin ['krɪspɪn] *n* etikdo'z; yamoqchi

crisply ['krɪsplɪ] *adv* dadil, qat'iy, qat'iyat bilan; tortinmay, ikkilanmay, tap tortmay, ishonch bilan (*gapirmoq*)

crispy ['krɪspɪ] *a* 1) *shoir.* jingalak, qo'ng'iroq; **~ locks** jingalak zulflar; 2) qarsilloq, qarsildoq, kasir-kusur (qasir-qusur, g'arch-g'urch) qiladigan; kuvrak (*bodring, tarrak kabilar haqida*); 3) toza, sof, musaffo (*havo haqida*)

criss-cross ['krɪskrɒs] *a* bir ustiga ikkinchisi ko'ndalang qilib (kestirib) qo'yilgan

cristate ['krɪsteɪt] *a* 1) kokilli; 2) taroqsimon, taroqqa o'xshagan

criteria [kraɪ'tɪ(ə)rɪə] *pl of* **criterion**

criterion [kraɪ'tɪ(ə)rɪən] *n* (*pl* **-ai** [-ɪə]) o'lchov; mezon

critic ['krɪtɪk] *n* tanqidchi, kamchiliklarni fosh qiluvchi odam

critical ['krɪtɪk(ə)l] *a* 1) tanqidiy; 2) o'ta (juda) muhim; 3) jiddiy, xavfli, og'ir

critically ['krɪtɪk(ə)lɪ] *adv* 1) tanqid ko'zi bilan, tanqidiy ravishda, tanqidiy; 2) keskin, jiddiy, og'ir; **my friend is ~ ill** do'stim og'ir kasal

criticaster ['krɪtɪˌkæstə] *n* tanqidboz, aybsituvchi

criticism ['krɪtɪsɪz(ə)m] *n* tanqid (qilish)

criticize ['krɪtɪsaɪz] *v* tanqid qilmoq

critique [krɪ'ti:k] *n fr.* tanqidiy maqola; taqriz

croak [krəʊk] **1.** *n* qag'illash, qag'-qag'; **2.** *v* qag'illamoq (*qarg'a va b. qushlar haqida*)

croaker ['krəʊkə] *n* 1) qag'illaydigan (qag'-qag' qiladigan) qush; 2) qurullaydigan (vaqirlaydigan, vaq-vaq qiladigan) hayvon; 3) javraqi (sergap) odam, vaysaqi, ezma; 4) xirilloq (xirillagan) ovozli odam; 5) *jarg.* taslim (mag'lub) bo'lish tarafdori, qo'rqoq, jur'atsiz

Croat ['krəʊæt] *n* 1) xorvat (*erkak, ayol*); 2) xorvat tili

Croation [krəʊ'eɪʃ(ə)n] *a* xorvat(*lar*)ga oid, xorvat(*lar*)

croc [krɒk] *so'zl.* **crocodile** *so'zining qisqartmasi*

crochet ['krəʊʃeɪ] *n* to'qish, to'qimachilik

croci ['krəʊsaɪ] *pl of* **crocus**

crock [krɒk] *n* sopol ko'za yoki tuvak

crocked [krɒkt] *a* holdan toygan, horigan

crockery ['krɒk(ə)rɪ] *n asos.*, chinnidan yasalgan idishlar

crokery-ware ['krɒk(ə)rɪweə] = **crockery**

crocket ['krɒkɪt] *n me'mor.* barglar shaklidagi gotik naqsh

crocky I ['krɒkɪ] *a dial.* qora, qoraygan; qurum (is) bosgan, iflos, kir, isqirt; **~ home** qoraygan (is bosgan) uy

crocky II ['krɒkɪ] *a* kuchsiz, darmonsiz, bemajol, holsiz, zaif, nimjon; kasalmand, dardchil

crocodile ['krɒkədaɪl] *n* 1) *zool.* timsoh; 2) timsoh terisi

crocodilian [ˌkrɒkə'dɪlɪən] *a* timsoh terisidan qilingan

crocus ['krəʊkəs] *n* 1) *bot.* za'faron (*ziravor o'simlik*); 2) *tex.* krokus (*temir oksidi kukuni; metall va oyna buyumlarini silliqlash uchun ishlatiladi*)

Croesus ['kri:səs] *n* qorun, katta boy, oshib-toshib yotgan boy

croft [ˈkrɒft] *n* kichkina ferma (*Shotlandiyada*)

cofter [ˈkrɒftə] *n* kichik ijarachi yoki fermer (*asos., Shotlandiyada*)

croissant [ˈkrwɑːsɒŋ] *n* shoxsimon (shox shaklidagi) bulochka

Cromwellian [krɒmˈwelɪən] *a* 1) *tar.* Oliver Kromvelga oid (taalluqli, daxldor, qarashli, aloqador) bo'lgan; 2) Oliver Kromvelning tarafdori yoki izdoshi

crone [krəʊn] *n* qari (jodugar) alvasti

cronk [krɒŋk] *n* 1) *dial.* qarg'aning qag'illashi; 2) *amer.* yovvoyi g'ozlarning g'aqillashi (g'aq-g'aq qilishi)

crony [ˈkrəʊnɪ] *n* yaqin do'st

crood [kruːd] *v shotl.* g'uv-g'uvlamoq, g'urullamoq (*kaptarlar haqida*)

crook [krʊk] **1.** *n* 1) qayrilma qoziq; 2) vijdonsiz odam; **2.** *v* 1) egilib (bukilib, bukchayib) qolmoq; 2) egmoq, bukmoq

crook-backed [ˈkrʊkbækt] *a* bukur, bukchaygan

crooked [ˈkrʊkɪd] *a* egri, qiyshiq

crookedly [ˈkrʊkɪdlɪ] *adv* 1) qiyalab, qiyalatib, qiyamasiga, qiyshiq, qing'ir; 2) aldash (aldamchilik) yo'li bilan, aldab

crookedness [ˈkrʊkɪdnəs] *n* 1) egrilik, qiyshiqlik, qing'irlik, egilganlik, bukilganlik, qiyshayganlik; qing'ir-qiyshiqlik, egri-bugrilik, ilang-bilanglik; 2) vijdonsizlik, insofsizlik, diyonatsizlik, noinsoflik; vijdonini sotish, vijdonsizlik bilan qilingan ish

croon [kruːn] **1.** *n* past va bo'g'iq ovozda qo'shiq aytish; **2.** *v* yarim ovozda qo'shiq aytmoq

crooner [ˈkruːnə] *n* estrada xonandasi

crop [krɒp] **1.** *n* hosil; **2.** *v* hosilni yig'moq

crop-eared [ˈkrɒpɪəd] *a* 1) chinoq, qulog'i kesilgan; 2) sochi qirqilib kalta qilingan (*sipo odamlar haqida*)

cropper [ˈkrɒpə] *n* o'roqchi

crop plants [ˈkrɒpplɑːnts] *n fr.* boshoqli g'alla o'simliklari

croquet [ˈkrəʊkeɪ] *n fr.* kroket (*sharlarni to'qmoqchalar bilan urib sim darvozalardan o'tkazish o'yini*)

crosier [ˈkrəʊʒə, -zɪə] *n* yepiskop hassasi

cross [krɒs] **1.** *n* xoch, but, salib; **2.** *v* 1) (*transport vositasida*) o'rtasidan kesib o'tmoq; 2) narigi tomoniga o'tmoq; 3) kesishtirmoq; 4) kesishmoq, bir-birini kesib o'tmoq; **to ~ off** (**to ~ out**) o'chirib tashlamoq; **to ~ over** kesib o'tmoq; **3.** *a* badjahl, xafa bo'lgan, achchig'i chiqqan

cross-action [ˌkrɒsˈækʃ(ə)n] *n yur.* qarshi da'vo

cross-arm [ˈkrɒsɑːm] *n tex.* 1) ko'ndalang to'sin; 2) traversa (*biror narsani mustahkamlash yoki osib qo'yish uchun ko'ndalang qo'yilgan narsa yoki temir moslama*)

cross-bar [ˈkrɒsbɑː] *n* 1) *tex.* ko'ndalang qo'yilgan narsa; tirgak; 2) *sport.* (*balandlikka sakrash uchun ishlatiladigan*) uzun taxtacha (*planka*)

cross-beak [ˈkrɒsbiːk] = **crossbill**

cross-beam [ˈkrɒsbiːm] *n* 1) *tex.* ko'ndalang to'sin; shayin (*tayanch nuqtasi o'rtasida bo'lgan richag, pishang*); 2) tutqich, dasta, band

cross-bearer [ˈkrɒsˌbeɪ(ə)rə] *n* salib yurishlari qatnashchisi (*cherkov marosimida*)

cross-bench [ˈkrɒsbentʃ] *n* Angliya parlamentidagi betaraf deputatlar uchun mo'ljallangan o'rindiq

cross-bencher [ˈkrɒsˌbentʃə] *n* parlamentning betaraf a'zosi

crossbill [ˈkrɒsbɪl] *n zool.* to'qaychumchuq

cross-bit [ˈkrɒsbɪt] *n* krest (salib) shaklidagi iskana

cross-bones [ˈkrɒsbəʊnz] *n pl* bir-birini kesishgan ikkita suyakning tasviri (*o'lim belgisi*)

cross-bow [ˈkrɒsbəʊ] *n tar.* qo'ndoqli kamon, arbolet

cross-bred [ˈkrɒsbred] *a* chatishtirilgan

cross-breed [ˈkrɒsbriːd] **1.** *n* duragay, chatishma; **2.** *v* kesishtirmoq, chatishtirmoq

cross-breeding [ˈkrɒsˌbriːdɪŋ] *n maxs.* (o'zaro) chatishuv; chatishtiruv (*hayvon va o'simliklar haqida*); metizatsiya, chatishtirish, duragaylash

cross-counter [ˈkrɒsˌkaʊntə] *n* javob zarbasi, qarshi zarba

cross-country [ˌkrɒsˈkʌntrɪ] **1.** *n* 1) *sport.* past-baland, yo'lsiz joyda o'tkaziladigan poyga, chopish, yugurish musobaqasi; **2.** *a* 1) o'nqir-cho'nqir joylarda yuruvchi; **~ terrain** o'nqir-cho'nqir joy; **~ race** *sport.* o'nqir-cho'nqir joylarda o'tkaziladigan kross; **~ run** *sport.* o'nqir-cho'nqir joylarda yugurish; 2) *tex.* har qanday yo'lda yoki yo'lsiz joylarda ham yura oladigan; **~ ability** o'ta olish, (*yo'ldagi to'siqlardan*) yura olish qobiliyati; yura olishlik, o'ta olishlik; **a ~ car** (**vehicle, lorry**) o'ta qiyin (yomon) yo'llardan ham yura oladigan avtomobil (yuk mashinasi); 3) **~ flight** *av.* belgilangan yo'nalish bo'yicha uchish (parvoz qilish)

cross-cut [ˈkrɒskʌt] **1.** *n* eng yaqin yo'l; **2.** *a* ko'ndalang

cross-division [ˌkrɒsdɪˈvɪʒ(ə)n] *n* bir nechta belgilar asosida tasniflash

cross-drift [ˈkrɒsdrɪft] *n tog'.* diagonal shtrek (*konchilikda: yer yuziga bevosita chiqmaydigan qilib diagonal kovlangan joy*)

crosse [krɒs] *n* lakross o'yini uchun raketka

cross-examination [ˌkrɒsɪgzæmɪˈneɪʃ(ə)n] *n yur.* bir yo'la ikki yoqdan so'roq berib tergov qilish

cross-examine [ˌkrɒsɪgˈzæmɪn] *v yur.* bir yo'la ikki yoqdan so'roq qilmoq, ikir-chikitirgacha so'ramoq

cross-examiner [ˌkrɒsɪgˈzæmɪnə] *n* bir yo'la ikki yoqdan so'roq berib tergov qiladigan (chaparasta so'roqqa tutadigan) odam

cross-eye [ˈkrɒsaɪ] *n* g'ilaylik

cross-eyed [ˈkrɒsaɪd] *a* g'ilay, qiyshiq

cross-fertilization [ˌkrɒsˌfɜːtɪlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) *bot.* chetdan changlanish; 2) *zool.* chetdan urug'lantirish (urug'lash, otalantirish; homilador qilish)

cross-fertilize [ˌkrɒsˈfɜːtɪlaɪz] *v* 1) *bot.* chetdan changlatmoq; 2) *zool.* chetdan urug'lantirmoq (urug'lamoq, otalantirmoq; homilador qilmoq)

cross-fire [ˈkrɒsfaɪə] *n harb.* bir necha tomondan o'qqa tutish

cross-grained [ˌkrɒsˈgreɪnd] *a* 1) tolalari buralgan, burama, buralib ketgan, ipir-ipir (*yog'och-taxta haqida*); 2) o'jar, qaysar, sarkash, ters, qiyiq; tutgan joyini kesadigan, injiq; tixir; 3) javraqi, vaysaqi, sergap, ezma; ming'ir-ming'ir, chakagi ochiq

cross-head [ˈkrɒshed] *n* 1) = **cross-heading**; 2) *tex.* polzun (*mashina va mexanizmlarning to'g'ri chiziq bo'ylab sirg'aluvchi qismi*)

cross-heading [ˈkrɒsˌhedɪŋ] *n* ikkinchi sarlavha, qo'shimcha (kichik) sarlavha (*gazetadagi maqolada*)

crossing [ˈkrɒsɪŋ] *n* 1) yo'llar kesishib o'tgan joy; 2) chorraha; 3) o'tish joyi (*ko'chada*)

cross-interrogatory [ˌkrɒsɪntəˈrɒgə-t(ə)rɪ] *n yur.* = **cross-examination**

cross-legged [ˌkrɒsˈlegd] *a* bir oyog'ini ikkinchi oyog'ining ustiga qo'yib o'tirgan *yoki* chordana qurib o'tirgan

crosslet [ˈkrɒslɪt] *n* kichkina but (xoch, salib)

cross-light [ˈkrɒslaɪt] *n* masalani yoritish (*turli nuqtayi nazarlar bilan*)

crossline [ˈkrɒslaɪn] = **cross-heading**

cross-lots [ˈkrɒslɒts] **1.** *a amer. so'zl.* dala (o'tzor, maysazor, ko'kalamzor, o'tloq, yaylov) orqali o'tadigan; **awful ~ riding** dala (yaylov)da qattiq ot choptirish; **2.** *adv amer. so'zl.* dala orqali, eng qisqa yo'l bilan

crossly [ˈkrɒslɪ] *adv* achchiqlanib, jahl, g'azab bilan

crossness [ˈkrɒsnəs] *n* achchiqlanish; tez g'azablanish

crossover [ˈkrɒsəʊvə] *n amer.* 1) o'tish joyi, o'tiladigan joy; 2) kesishgan yo'l ustida o'tkazilgan ikkinchi ko'prik yo'l

cross-patch [ˈkrɒspætʃ] *n so'zl.* janjalkash odam

cross-piece [ˈkrɒspi:s] *n* ko'ndalang o'tkazilgan narsa

cross-pollination [ˌkrɒspɒlˈneɪʃ(ə)n] *n bot.* chetdan changlanish

cross purpose [ˌkrɒsˈpɜ:pəs] *n* 1) birbiriga zid bo'lgan, butunlay qaramaqarshi bo'lgan (maqsad) niyat; 2) kelishmovchilik, tushunmovchilik

cross question [ˌkrɒsˈkwestʃ(ə)n] *n* chaparasta so'roqqa tutishda berilgan savol, so'roq

cross-reference [ˌkrɒsˈref(ə)rəns] *n* havola (*fikr, mulohaza va sh. k. haqida ma'lumot uchun biror manbaga qarashga undash, shu manbani ko'rsatish*)

cross-road [ˈkrɒsrəʊd] *n* chorraha; chorsu

cross section [ˌkrɒsˈsekʃ(ə)n] *n* ko'ndalang kesim

cross-talk [ˈkrɒstɔ:k] *n* 1) telefondagi tovush (suhbat)ning tiniq eshitilishiga xalal beruvchi shovqin; 2) = **back-talk**

cross-tie [ˈkrɒstaɪ] *n tem. y.* shpal (*relslarning tagiga yotqiziladigan yog'och yoki temir-beton to'sin*)

cross-town [ˈkrɒstaʊn] **1.** *a amer.* shahar orqali o'tadigan (olib boriladigan); **the payment of fares to go on ~ lines** shahar ichi yo'nalishida yuradigan transportga to'lanadigan yo'l haqi; **2.** *adv* shahar orqali; **to go ~** shahar orqali bormoq

cross-walk [ˈkrɒswɔ:k] *n* tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan o'tish joyi

cross-way [ˈkrɒsweɪ] = **cross-road**

cross-wind [ˈkrɒsˌwɪnd] *n* qarshidan esayotgan shamol

crosswise [ˈkrɒswaɪz] *adv* birining ustiga ikkinchisini ko'ndalang qo'yib

cross-word [ˈkrɒsˌwɜ:d] *n* krossvord (*topishmoqning bir turi: kataklarni harflar bilan to'ldirib, yashirilgan so'zlarni topish*)

crotch [krɒtʃ] *n* 1) ayri (*poyashox yoki daraxtda*); 2) ayri, panshaxa; 3) ayrilish (*masalan, yo'lda*)

crotch-circle [ˈkrɒtʃˌsɜ:k(ə)l] *n* turnikda yuqoriga qarab aylanish (*gimnastikada*)

crotchet [ˈkrɒtʃɪt] *n* 1) *mus.* choraktalik nota; 2) *so'zl.* xayol, orzu; 3) ilgak, ilmoq (*zanjir*)

crotcheteer [ˌkrɒtʃəˈtɪə] *n* xayolparast

crotchety [ˈkrɒtʃɪɪ] *a* o'jar; qaysar

croton [ˈkrəʊt(ə)n] *n bot.* kroton (*sut shirali o'simliklar oilasiga mansub daraxt*)

croton-bug [ˈkrəʊt(ə)nbʌg] *n zool.* qizg'ish suvarak

croton oil [ˈkrəʊt(ə)nɔɪl] kroton moyi

crouch [kraʊtʃ] *v* 1) egilmoq, bukilmoq; 2) tiz cho'kib sajda qilmoq

croud [kru:d] = **crood**

croup [kru:p] *n* 1) *tib.* krup (*tomoq yallig'lanishi va uning natijasida nafas siqilishi*); 2) sag'ri, ot sag'risi

croupe [kru:p] *n* tog'ning yumaloq cho'qqisi

croupier [ˈkru:pɪə] *n fr.* qimorxona egasi *yoki* xizmatchisi; qimorga pul qo'ygan kishi

crouse [kru:s] *a dial.* qizg'in, jo'shqin; jonli, chaqqon, serg'ayrat, serharakat, sho'x; quvnoq, xushchaqchaq, masrur

crout [kraʊt] *n nem.* tuzlangan karam

crow [krəʊ] **1.** *n* 1) qarg'a; 2) xo'rozning qichqirishi; **2.** *v* (**crowed, crew; crowed, crown**) 1) qichqirmoq (*xo'roz haqida*); 2) shodlanmoq

crow-bar [ˈkrəʊbɑ:] *n tex.* 1) panjasimon misrang lom; 2) pishang, havoza

crow-bill [ˈkrəʊbɪl] *n tib.* jarrohlik qisqichi

crowd [kraʊd] **1.** *n* olomon; **2.** *v* to'planmoq

crowded [ˈkraʊdɪd] *a* limmo-lim, to'lib ketgan

crowdie [ˈkraʊdɪ] *n shotl.* suli unidan (yormasidan) tayyorlangan bo'tqa

crowding [ˈkraʊdɪŋ] *n* tiqilinch; ur-yiqit, to'polon

crowdy [ˈkraʊdɪ] = **crowdie**

crowfoot [ˈkrəʊfʊt] *n bot.* ayiqtovon

crown I [kraʊn] **1.** *n* 1) toj, taxt; 2) gulchambar; 3) krona (*Yevropadagi ba'zi mamlakatlarning pul birligi*); 4) (*tish*) qoplamasi; **2.** *v* 1) toj kiydirmoq; 2) taqdirlamoq

crown II [kraʊn] *p. p. of* **crow 2.**

crown-agent [ˌkraʊnˈeɪdʒ(ə)nt] *n shotl.* prokuror (*sud jarayonida davlat qoralovchisi*)

crowned [kraʊnd] *a* toj kiygan, taxtga mingan

crown-glass [ˌkraʊnˈglɑ:s] *n* kronglas (*optik shishalarning maxsus turi*)

Crown-land, Crowland [ˌkraʊnˈlænd] *n odat. pl* podsholik yerlari

crown law [ˌkraʊnˈlɔ:] *n* jinoyat haqidagi (jinoiy) qonun

crown lawyer [ˌkraʊnˈlɔ:jə] *yur.* jinoiy ishlar bo'yicha advokat

Crown prince [ˌkraʊnˈprɪns] *n* valiahd, shahzoda

crown-wheel [ˈkraʊnwi:l] *n tex.* tishli g'ildirak

crow-quill [ˈkrəʊkwɪl] *n* qarg'a pati

crow's bill [ˈkrəʊzbɪl] = **crowbill**

crow's-foot [ˈkrəʊzfʊt] *n* ajin (*ko'z atrofidagi*)

crow's-nest [ˈkrəʊznest] *n* „qarg'aning ini" (*machtada*)

crozier [ˈkrəʊzɪə] = **crosier**

cruces [ˈkru:si:z] *pl of* **crux**

crucial [ˈkru:ʃ(ə)l] *a* 1) hal qiluvchi, asosiy; eng muhim; 2) tanqidiy; 3) *anat.* but shaklidagi

crucials [ˈkru:ʃ(ə)lz] *n pl bot.* krestgullilar

crucian carp [ˌkru:ʃ(ə)nˈkɑ:p] *n zool.* tovonbaliq

cruciate [ˈkru:ʃɪeɪt] *a* but shaklidagi

crucible [ˈkru:səb(ə)l] *n* 1) eritish tigeli (*tigel — o'tga chidamli gildan qilingan qozon*); 2) *ko'ch.* qattiq, jiddiy, og'ir

cruciferous [kru:ˈsɪf(ə)rəs] *a bot.* krestgulli

crucifier [ˈkru:sɪfaɪə] *n* azob-uqubatlarga soluvchi, azob beruvchi, zolim; sitamgar

crucifix [ˈkru:sɪfɪks] *n* chormixga tortish

crucifixion [ˌkru:sɪˈfɪkʃ(ə)n] *n* jafo, azob, mashaqqat

cruciform [ˈkru:sɪfɔ:m] *a* but shaklidagi

crucify [ˈkru:sɪfaɪ] *v* 1) chormixga tortmoq; 2) azob bermoq, qiynamoq

crude [kru:d] *a* 1) pishmagan, xom; 2) ishlov berilmagan, chala ishlangan, bitkazilmagan

crudity [ˈkru:dɪtɪ] *n* 1) pishmaganlik, xomlik; 2) chala ishlanganlik, bitkazilmaganlik

cruel [kru:əl] *a* 1) shafqatsiz, berahm, zolim; 2) qiynaydigan, og'ir; mashaqqatli

cruelly [ˈkru:əlɪ] *adv* 1) shafqatsizlik bilan, zolimlarcha; 2) qiynalib, mashaqqat bilan

cruels [ˈkru:ɪlz] = **crewels**

cruelty [ˈkru:əltɪ] *n* shafqatsizlik

cruet [ˈkru:ɪt] *n* moy *yoki* sirka quyiladigan shishacha grafincha

cruet-stand [ˈkru:ɪtstænd] *n* quloqli idish

cruise [kru:z] **1.** *n* 1) dengiz sayohati; 2) *harb.* dengizdagi soqchilik *yoki* razvedka xizmati; 3) qatnash, qatnab turish, borib-kelish; **2.** *v deng.* qatnamoq, qatnab turmoq; borib-kelmoq

cruiser [ˈkru:zə] *n deng.* kreyser (*tez yurar katta harbiy kema*)

cruiser-carrier [ˈkru:zəˌkærɪə] *n deng.* kreyser-avianoses (*samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun moslangan tez yurar katta harbiy kema*)

cruiser-weight [ˈkru:zəweɪt] *n so'zl.* 1) yarimog'ir vazn; 2) yarimog'ir vaznli bokschi

cruising radius [ˈkru:zɪŋˌreɪdɪəs] *maxs.* harakat radiusi

cruising speed [ˈkru:zɪŋˈspi:d] *n deng.* oddiy (odatdagi) tezlik (*kemalar va samolyotlar haqida*)

cruising submarine [ˈkru:zɪŋ ˈsʌbməri:n] *n deng.* kreyser suvosti kemasi

cruising taxi [ˈkru:zɪŋ ˈtæksɪ] *n* yo'lovchi qidirayotgan bo'sh taksi

cruive [ˈkru:v] *n* 1) *kam.* chetan, qirtil (*baliq tutadigan voronkasimon savat*); 2) *shotl.* faqirona uy, kulba, kapa; olachiq; xaroba (qashshoq, vayrona) uycha, kulbacha; 3) *shotl.* supurib-sidirilmagan joy, iflos uy

cruller [ˈkrʌlə] *n amer.* yog'da qovurilgan burama pecheniy

crum [krʌm] = **crumb**

crumb [krʌm] **1.** *n* uvoq, ushoq, burda (*asosan, non haqida*); **2.** *v* maydalamoq, ushatmoq

crumb-brush [ˈkrʌmbrʌʃ] *n* stoldagi non uvoqlarini yig'ishtirib olish uchun ishlatiladigan cho'tka

crumble [ˈkrʌmb(ə)l] *v* maydalanmoq, ushalmoq

crumble structure [ˈkrʌmb(ə)lˈstrʌktʃə] donador tuzilish, donadorlik (*tuproq haqida*)

crumbling [ˈkrʌmblɪŋ] *a* serkesak, kesakli, kesak-kesak, yumaloq-yumaloq, qumoq-qumoq (tuproq haqida)

crumbly [ˈkrʌmblɪ] *a* sochiluvchan

crumby, crummy [ˈkrʌmɪ] *a* yoqimsiz, istarasi sovuq

crump [krʌmp] **1.** *n* qattiq zarba; **2.** *v* qattiq urmoq

crumpet [ˈkrʌmpɪt] *n* yog'li bulka non

crumple [ˈkrʌmp(ə)l] *v* 1) ezmoq, ezib yumshatmoq; 2) ezilmoq

crunch [krʌntʃ] **1.** *n* g'ichirlash; **2.** *v* g'archillamoq

cruor [ˈkru:ɔ:] *n esk.* quyulib qolgan qon

crupper [ˈkrʌpə] *n* quyushqon

crura [ˈkrʊ(ə)rə] *pl of* **crus**

crural [ˈkrʊ(ə)rəl] *a anat.* songa oid, son...

crus [krʌs] *n* (*pl* **crura** [ˈkrʊ(ə)rə]) *anat.* boldir

crusade [kru:ˈseɪd] **1.** *n* 1) *tar.* salib yurishlari (*G'arbiy Yevropadagi ritsarlarning sharq mamlakatlariga qarshi tajovuzkorlik yurishlari*); **2.** *v* (*nimagadir qarshi yoki nimaningdir (kimning)dir himoyasi uchun*) kurashmoq

crusader [kru:ˈseɪdə] *n tar.* salib yurishlari qatnashchisi

cruse [kru:z] *n esk.* sopol tuvak (xumcha, mo'ndi), sopol; **widow's ~** (nimaningdir) bitmas-tuganmas manbayi

crush [krʌʃ] **1.** *v* 1) ezib yubormoq; 2) yo'q qilmoq; **to ~ down** ezib (g'ijimlab yubormoq); **to ~ out** qirmoq (ezmoq, o'ldirmoq); **to ~ up** tuymoq, tuyib maydalamoq; **2.** *n* ezib yuborish

crushed [krʌʃt] *a* 1) ezilgan, ezib yuborilgan, pachoq qilingan; 2) g'ijimlab yuborilgan, g'ijimlab tashlangan, g'ijim (mijg'aloq) qilib qo'yilgan; 3) pachoqlab (yanchib) tashlangan; 4) maydalangan, parchalangan, sindirilgan, parchalanib ketgan, mayda-mayda bo'lgan, parcha-parcha, siniq; **~ stone** shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*)

crusher [ˈkrʌʃə] *n tex.* maydalash mashinasi

crush hat [ˈkrʌʃhæt] *n* buklanadigan silindr shlapa

crushing [ˈkrʌʃɪŋ] **1.** *n* ezish, ezib yuborish, pachaq qilish, g'ijimlab yuborish, g'ijimlab tashlash, g'ijim qilib qo'yish; **2.** *a* yo'q qilib yuboradigan, tor-mor keltiradigan, (yer bilan) yakson qiladigan, yanchib tashlaydigan, qaqshatqich, halok qiladigan, yo'q qiladigan, halokatli, beomon; **~ sorrow** qattiq musibat

crush-room [ˈkrʌʃru:m, -rʊm] *n teatr.* foye (*teatr, klub, kino va shu k. da: tanaffusda tomoshabinlar dam oladigan xona yoki zal*)

crust [krʌst] **1.** *n* qolgan-qutgan (qotgan-qutgan) nonning burdasi; **2.** *v* qobiq (parda) bilan qoplamoq

Crustacea [krʌsˈteɪʃɪə] *n pl zool.* qisqichbaqasimonlar

crustacean [krʌsˈteɪʃ(ə)n] **1.** *n zool.* qisqichbaqasimon hayvon; **2.** *a* = **crustaceous**

crustaceous [krʌˈsteɪʃəs] *a zool.* qisqichbaqasimonlarga oid, qisqichbaqasimonlar...

crustated [krʌˈsteɪtɪd] *a* qadama naqshli, naqshin

crusted [ˈkrʌstɪd] *a* qobiq (parda) bilan qoplangan

crustily [ˈkrʌstɪlɪ] *adv* janjalkashlik bilan

crustiness [ˈkrʌstɪnəs] *n* jizzakilik

crusty [ˈkrʌstɪ] *a* 1) ustki qatlam (qobiq, parda, po'stloq) bilan qoplangan; 2) tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl, serzarda; jizzaki; 3) ming'ir-ming'ir, mijg'ov; janjalkash; 4) qo'pol, dag'al, qo'rs (*inson haqida*)

crutch [krʌtʃ] *n* qo'ltiqtayoq

crutched I [krʌtʃt] *a* xoch (but, salib) ko'tarib olib boruvchi (keluvchi, yuruvchi)

crutched II [ˈkrʌtʃɪd] *a maxs.* kostil (*kutta qayrilma mix*) shaklidagi; **an umbrella with a ~ handle** qayrilma dastakli soyabon

crux [krʌks] *n* qiyinchilik, qiyin (og'ir, mushkul) ahvol, og'ir masala

cry [kraɪ] **1.** *n* 1) baqirish, baqiriq; **to give a ~** baqirmoq; 2) nola, faryod, iltijo; **to be deaf to smb's cries** birovning iltijolarini e'tiborsiz qoldirmoq; 3) ovoza, shov-shuv, mish-mish; **the ~ goes that** mish-mishlarga ko'ra; 4) qushlar ovozi, bo'rining uvullashi, itlarning akillashi va b.; **2.** *v* 1) baqirmoq, dodvoy qilmoq; 2) iltijo qilmoq, yalinmoq; 3) yig'lamoq; **to ~ bitter tears** achchiq ko'z yoshlarini to'kmoq; 4) e'lon qilmoq, ma'lum qilmoq; **to ~ the news** yangiliklarni e'lon qilmoq; 5) baqirmoq, qichqirmoq (*ko'chada narsa sotuvchi kishi to'g'risida*); 6) tovush chiqarmoq (*hayvonlar, qushlar to'g'risida*)

cry-baby [ˈkraɪˌbeɪbɪ] *n* yig'loqi bola

crying [ˈkraɪɪŋ] *a* 1) baqirayotgan; 2) yig'layotgan

cryochemistry [ˌkraɪəˈkemɪstrɪ] *n* past haroratlar kimyosi, kriokimyo

cryogen [ˈkraɪəʊdʒən] *n kim.* sovitadigan (sovituvchi) aralashma

cryolite [ˈkraɪəlaɪt] *n min.* kriolit (*ftoridlar kenja sinfiga mansub mineral*)

cryometer [kraɪˈɒmɪtə] *n fiz. kim.* kriometr (*past haroratni o'lchaydigan asbob*)

cryoscopy [kraɪˈɒskəpɪ] *n fiz. kim.* krioskopiya (*fizik-kimyoviy tahlil*)

cryostat [ˈkraɪəstæt] *n maxs.* kriostat (*ichida o'zgarmas kriogen haroratini tutib turiladigan metall, shisha yoki plastmassadan yasalgan qurilma*)

crypt [krɪpt] *n* yer ostidagi sag'ana (*daxma*)

cryptic [ˈkrɪptɪk] *a* 1) yashirin, maxfiy, pinhon(iy), sir tutilgan (tutiladigan); 2) sirli, ajib, g'alati, jumboqli, muammoli, tushunib bo'lmaydigan, tushunilishi qiyin; 3) *biol.* himoya (mudofaa) qiladigan, saqlaydigan, pana qiladigan, saqlovchi, panalovchi, saqlagich; **~ coloration** asrovchi tus (*ba'zi jonivorlarning muhitga qarab rang-tusini o'zgartirish xususiyati*)

crypto- [ˈkrɪptə(o)-] (*shun.*, **krypto**) *terminologik xarakterga ega bo'lgan murakkab so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'zbek tiliga* yashirincha, maxfiy suratda, zimdan, xufiya, bildirmay degan ma'nolarga to'g'ri keladi

cryptogam [ˈkrɪptəgæm] *n bot.* sporali (*sporalar orqali ko'payadigan*) o'simlik

cryptogamic, cryptogamous [ˌkrɪptəˈgæmɪk, krɪpˈtɒgəməs] *a bot.* 1) sporali, sporalar orqali ko'payadigan; 2) gul chiqarmaydigan, gullamaydigan, gulsiz

cryptogram [ˈkrɪptəgræm] *n bot.* kriptogramma (*sirli belgi va ishoralar bilan bitilgan xat yoki hujjat*)

cryptographic [ˌkrɪptəˈgræfɪk] *a* 1) shifrlashga oid; shifrlaydigan, shifrlash...; shifrlovchi; 2) kriptografiya (*sirli belgi va ishoralar bilan yozish sistemasi*)ga oid

cryptography [krɪpˈtɒgrəfɪ] *n* 1) kriptografiya (*sirli belgi va ishoralar bilan yozish sistemasi*); 2) sirli xat (*maxfiy belgilar bilan yozilgan xat*)

crypton [ˈkrɪptɒn] *n kim.* kripton (kimyoviy element, inert gaz)

crystal [ˈkrɪstl] **1.** *n* 1) kristall; 2) billur; **2.** *a* billurdan yasalgan

crystal-clear [ˌkrɪstlˈklɪə] *a* tiniq, shaffof, kristalldek shaffof

crystalline [ˈkrɪstəlaɪn, -li:n] *a* tiniq, shaffof

crystallite [ˈkrɪstəlaɪt] *n geol.* kristallit, mayda kristall

crystallization [ˌkrɪstəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* kristall holiga kelish (keltirish)

crystallize [ˈkrɪstəlaɪz] *v* 1) kristallga aylantirmoq; 2) kristallga aylanmoq

crystallized [ˈkrɪstəlaɪzd] *a* 1) kristallga oid; kristallik; kristal(lar)...; 2) kristallardan tuzilgan, kristallardan iborat bo'lgan; 3) shakarga bosilgan, shakar qiyomiga botirib olingan; **~ fruit** shakarga bosilgan (shakar qiyomi bilan qoplangan) mevalar

crystallography [ˌkrɪstəˈlɒgrəfɪ] *n* kristallografiya (*kristallar va moddaning kristall holati haqidagi fan*)

crystalloid [ˈkrɪstəlɔɪd] **1.** *n min.* kristalloid; **2.** *a maxs.* kristall shaklidagi

crystalloidal [ˌkrɪstəˈlɔɪdl] = **crystalloid**

crystalware [ˈkrɪst(ə)lweə] *n* billur buyumlar

csardas [ˈtʃɑ:dɑ:ʃ] *n veng.* chardash (*vengrcha raqs va shu raqs musiqasi*)

cub [kʌb] **1.** *n zool.* hayvonlarning yangi tug'ilgan (*onasidan ajralmagan*) bolasi; **2.** *v* bolalamoq, tug'moq (*it, bo'ri va b. haqida*)

cubage [ˈkju:bɪdʒ] *n* kubatura (*biror narsaning kubometr hisobidagi hajmi*)

Cuban [ˈkju:bən] **1.** *a* Kubaga va kubaliklarga oid; **2.** *n* kubalik

cubature [ˈkju:bətʃə] *n* kubatura (*biror narsaning kubometr hisobidagi hajmi*)

cubbing [ˈkʌbɪŋ] *n* tulkilarni ovlash

cubbish [ˈkʌbɪʃ] *a* beso'naqay

cubby [ˈkʌbɪ] *n* shinam joy

cubby-hole [ˈkʌbɪhəʊl] *n* kichkinagina shinam joy

cube [kju:b] **1.** *n mat.* kub; **2.** *v mat.* kubaga ko'tarmoq

cubed feed [ˈkju:bd,fi:d] *q.x.* briketlangan (*presslab, g'ishtga o'xshatib tayyorlangan*) xashak (pichan)

cube-root [ˌkju:bˈru:t] *n mat.* kub ildiz; **the ~ of 216 is 6** 216 ning kub ildizi 6 ga teng

cub-hunting [ˈkʌb,hʌntɪŋ] = **cubbing**

cubic(al) [ˈkju:bɪk(əl)] *a* kub shaklidagi, bir kub hajmidagi

cubicle [ˈkju:bɪk(ə)l] *n* 1) kichkinagina bir o'rinli yotoqxona (*yotoqxonada*) yoki palata (*kasalxonada*); 2) kichkina xona; **trying-on ~** kiyib ko'rish uchun xizmat qiladigan kabina yoki xona, kiyib ko'rish kabinasi (xonasi)

cubicula [kjʊˈbɪkjʊlə] *pl of* **cubiculum**

cubiculum [kjʊˈbɪkjʊləm] *n* (*pl* **-la** [-lə]) *hazil.* yotoq (uy); yotoqxona, uxlash xonasi

cubiform [ˈkju:bɪfɔ:m] *a* kub shaklidagi

cubism [ˈkju:bɪz(ə)m] *n* kubizm (*tasviriy san'atda XX asrning 1-choragida vujudga kelgan va realizmga qaramaqarshi o'laroq borliqni geometrik shakllarda tasvirlashga intilgan oqim*)

cubist [ˈkju:bɪst] *n san.* kubist, kubizm tarafdori

cubit [ˈkju:bɪt] *n* 1) *anat.* tirsak suyagi; 2) bir cho'zim (*taxminan 0,5 metr chamasidagi eski uzunlik o'lchovi*)

cubital [ˈkju:bɪt(ə)l] *a* tirsakka oid

cuboid [ˈkju:bɔɪd] **1.** *n anat.* (*oyoqning kafti, ya'ni tovon bilan barmoqlar o'rtasida bo'ladigan*) kub shaklidagi suyak; **2.** *n* kubga o'xshagan, kub shaklidagi

cucking-stool [ˈkʌkɪŋstu:l] *n tar.* axloqi buzuq ayollar va qallob-savdogarlar bog'lab qo'yiladigan sharmandalar stuli

cuckold [ˈkʌkəʊld] **1.** *n* xotini xiyonat qilgan er; **2.** *v* eriga xiyonat qilmoq

cuckoo [ˈkʊku:] **1.** *n zool.* kakkuqush; **2.** *v* kakkulamoq

cuckoo-clock [ˈkʊku:klɒk] *n* kakkuqushli soat

cucullate [ˈkju:kəleɪt] *a* 1) kapushonli (*ustki kiyim yoqasiga biriktirib tikiladigan qaytarma qalpoqli*); 2) kapushon shaklidagi, kapushonga o'xshagan

cucumber [ˈkju:kʌmbə] *n bot.* bodring

cucumber-tree [ˈkju:kʌmbə,tri:] *n bot.* 1) Amerika magnoliyasi (*yirik xushbo'y gulli doim yashil daraxt yoki buta*); 2) lola daraxti (*guli lolaga o'xshab ochiladigan daraxt*)

cucurbit [kju:ˈkɜ:bɪt] *n kim.* retorta (*laboratoriyalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qayrilgan idish*)

cud [kʌd] *n* 1) saqich; 2) mol kavsh qaytarganda ikkinchi marta chaynab yutadigan ovqati

cudbear [ˈkʌdbeə] *n* lakmus, yagel (*lakmus — to'q binafsharang bo'yoq modda; yagel — tundra o'simligi*)

cuddle [ˈkʌdl] **1.** *n* quchoq, bag'ir, og'ush; **2.** *v* quchoqlamoq, bag'riga bosmoq

cuddle-bunny [ˈkʌdl,bʌnɪ] *n jarg.* yosh (kichik yoshdagi) fohisha (buzuq, g'ar)

cuddy [ˈkʌdɪ] *n shotl.* eshak

cudgel [ˈkʌdʒ(ə)l] **1.** *n* so'yil, tayoq, to'qmoq; **2.** *v* so'yil bilan urmoq; tayoq bilan urmoq

cue [kju:] **1.** *n* 1) *teatr.* replika (*artistning boshqa artist gapirishidan oldin aytgan oxirgi so'zi*); 2) shama, luqma; **2.** *n* kiy (*billyard tayog'i*)

cuff [kʌf] **1.** *n* 1) qadama yeng; yeng qaytarmasi; 2) qo'l bilan berilgan yengil zarba; **2.** *v* 1) qo'l bilan sekin urmoq; 2) tarsakilatib urmoq

cuffee [ˈkʌfɪ] *n amer.* 1) negr, zanji, habash; 2) negrlar, zanjilar, habashlar (*tropik Afrikaning asosiy aholisini tashkil etgan qora tanli xalqlar*)

cuffer I [ˈkʌfə] *n* bokschi

cuffer II [ˈkʌfə] *n jarg.* 1) uydirma, to'qima, bo'lmagan (yolg'on) hikoya (gap), safsata, afsona; 2) cho'pchak, ertak

cuff-link [ˈkʌflɪŋk] *n* manjeta (*qadama yeng*)ning ilmatugmasi

cuffo [ˈkʌfəʊ] *adv jarg.* pul olmay (yoki to'lamay), bepul, tekin, pulsiz

cuffy [ˈkʌfɪ] = **cuffee**

cui bono [ˌkwi:ˈbɒnəʊ] *lot.* bundan kimga foyda? bu kimga kerak?

cuirass [kwɪˈræs] *n* sovut

cuirassier [ˌkwɪrəˈsɪə] *n tar.* sovut kiygan otliq askar

cuisine [kwɪˈzi:n] *n fr.* oshxona, ovqat tayyorlaydigan joy; oshpazlik mahorati

cuisse [kwɪs] *n pl harb. tar.* songa bog'langan (bog'lanadigan) narsa (*mas., bint va b.*)

cuittle [ˈkju:tl] *v shotl.* 1) yedirmoq, ko'nglini ovlamoq, og'zini moylamoq; ko'nglini ovlab (*yoki* og'zini moylab) yumshatmoq, o'ziga og'dirmoq, yedirib olmoq; 2) (*nimanidir*) xushomad bilan qo'lga kiritmoq

culch [kʌltʃ] *n* 1) axlat, supurindi, chiqit, chiqindi; 2) eski-tuski, lash-lush, lattaputta

cul-de-lampe [ˌkoldə´lɔnp] *n* (*pl* **culs-**[ˌkul-]) *fr. poligr.* vinetka (*kitobning bosh va oxirgi sahifasiga solingan gul*)

cul-de-sac [ˌkoldə´sæk] *n fr.* boshi berk ko'cha

culinary [´kʌlɪn(ə)rɪ] *a* pazandalikka (oshpazlikka) oid; pazandalik..., oshpazlik...

cull [kʌl] **1.** *n amer.* yaroqsiz narsalar; **2.** *v* yaroqsiz deb topmoq

culled [kʌld] *a* 1) *q.x.* yaroqsiz deb topilgan; 2) tanlangan, saralangan, tanlab (saralab) olingan, yaxshi-yomonga ajratilgan; 3) uzilgan, uzib (yulib) olingan (*gul haqida*)

cullender [´kʌlmdə] *n* chovli

culling [´kʌlɪŋ] *n q.x.* 1) yaroqsiz deb topish; 2) tanlash, saralash, tanlab (saralab) olish, yaxshi-yomonga ajratish

cullion [´kʌlɪən] *n esk.* razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah, nobakor, pastkash

cully [´kʌlɪ] *n* soddadil odam

culm [kʌlm] *n geol.* uch (*cho'qqi*)

culmen [´kʌlmen] *n esk.* kulminatsion (eng yuqori) nuqta

culminant [´kʌlmɪnənt] *a* 1) eng yuqori (kulminatsion) nuqtagacha ko'tariluvchi; 2) *astr.* meridian orqali o'tadigan; 3) eng yuqori (baland); yuqoridagi, cho'qqidagi, uchidagi, tepa qismidagi; yuqori, uchi

culminate [´kʌlmɪneɪt] *v* eng yuqori nuqtaga (darajaga) yetmoq

culmination [ˌkʌlmɪ´neɪʃ(ə)n] *n* eng yuqori nuqta

culottes [kju:´lɔts] *n* ayollarning yubkaga o'xshash tizzagacha uzunlikdagi shimi

culpability [ˌkʌlpə´bɪlɪtɪ] *n yur.* aybdorlik, gunohkorlik

culpable [´kʌlpəb(ə)l] *a* aybdor, aybli

culprit [´kʌlprɪt] *a* 1) gunohkor, aybdor; 2) jinoyatchi

cult [kʌlt] *n* sajda qilish, ibodat, sig'inish

cultivable [´kʌltɪvəb(ə)l] *a* haydaladigan, ekiladigan (*yer haqida*)

cultivate [´kʌltɪveɪt] *v* yerni haydamoq; yerga ishlov bermoq, o'stirmoq, yetishtirmoq

cultivated [´kʌltɪveɪtɪd] *a* 1) ishlov berilgan; 2) tarbiya ko'rgan

cultivation [ˌkʌltɪ´veɪʃ(ə)n] *n* 1) ishlov berish; 2) ekish, o'stirish; yetishtirish

cultivator [´kʌltɪveɪtə] *n* 1) dehqon, ziroatchi; 2) *q.x.* kultivator (*haydalgan yerni yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish va ekin qator oralarini ishlash uchun xizmat qiladigan qishloq xo'jalik mashinasi*)

cultural [´kʌltʃ(ə)rəl] *a* 1) madaniy, madaniyat...; madaniyatga oid, madaniyatli, keng ma'lumotli, ma'rifatli; **a ~ centre** madaniyat markazi, madaniyat saroyi; **~ achievements** madaniyat sohasidagi yutuqlar; 2) *q.x.* ishlanadigan, ishlov beriladigan (*yer*)

culture [´kʌltʃə] **1.** *n* 1) madaniyat; **Uzbek ~** o'zbek madaniyati; 2) qishloq xo'jalik ekini; **cotton ~** paxta ekini; 3) ko'paytirish, boqish, qarash (*asalari, ipak qurti va b. haqida*); **2.** *v* 1) yerga ishlov bermoq; 2) ekmoq, o'stirmoq

cultured [´kʌltʃəd] *a* madaniyatli

culver [´kʌlvə] *n* yovvoyi kaptar (kabutar)

culvert [´kʌlvət] *n kon.* yerning zaxini qochirish maqsadida qurilgan quvur

cum [kʌm, kʌm] *prep.* shuningdek, shu bilan birga

cumber [´kʌmbə] **1.** *n* qiynalish; **2.** *v* qiynab qo'ymoq

cumbersome [´kʌmbəs(ə)m] *a* beso'naqay, beo'xshov

Cumbrian [´kʌmbrɪən] **1.** *n* Kamberlendda yashovchi kishi; **2.** *a* Kamberlendga oid

cumbrous [´kʌmbrəs] *a* maloJ keladigan, malollik keltiradigan, og'ir, qiyin

cumin [´kʌmɪn] *n* zira (*o'simlik va uning urug'i*)

cummer [´kʌmə] *n* cho'qintirgan ona

cummerbund [´kʌməbʌnd] *n* belbog', kamar, qayish (*Hindistonda*)

cumshaw [´kʌmʃɔ:] *n* choychaqa, choy puli (*Xitoy bandargohlarida*)

cumulate [´kju:mjʊlɪt] **1.** *v* jamg'armoq, to'plamoq; **2.** *a* to'plangan

cumulation [ˌkju:mjʊ´leɪʃ(ə)n] *n* to'plash

cumulative [´kju:mjʊlətɪv] *a* to'planib boradigan

cumulo-nimbus [ˌkju:mjʊlə´nɪmbəs] *n* to'p-to'p yomg'ir bulutlari

cumuli [´kju:mjʊlaɪ] *pl of* **cumulus**

cumulo-stratus [ˌkju:mjʊlə ´streɪtəs, -´stro:təs] *n meteor.* qaval-qavat (to'p-to'p, qatma-qat) bulutlar

cumulus [´kju:mjʊləs] *n* (*pl* **-li** [-laɪ]) 1) *meteor.* to'p-to'p bulutlar; 2) gala, to'da, to'p; ko'pdan-ko'p, juda ko'p, ko'pgina, anchagina, birtalay; 3) yig'in, to'da, to'p; to'planib qolgan odamlar yoki narsalar

cunabula [kjʊ´næbjʊlə] *n pl lot.* 1) beshik; belanchak; 2) inkunabulalar (*harf terish yo'li bilan chiqarilgan dastlabki kitoblar*)

cunctation [kʌŋk´teɪʃ(ə)n] *n kit.* 1) imillash, orqaga sudrash, kechiktirish, sustlik (sustkashlik) qilish; cho'zilish; kechikish, kech (kechikib) qolish, hayallash; 2) kechiktirilgan harakat

cunctator [kʌŋk´teɪtə] *n kit.* imirsiragan (sekin ish qiladigan) odam

cuneate [´kju:nɪɪt] *a* ponasimon, ponaga o'xshash

cuneiform [´kju:nɪ(ɪ)fɔ:m] *a* ponasimon

cunning [´kʌnɪŋ] **1.** *n* makkorlik; **2.** *a* makkor

cunningly [´kʌnɪŋlɪ] *adv* 1) epchillik (chaqqonlik bilan); chaqqon, mohirona; 2) hiyla (nayrang, makr, makkorlik) bilan

cup [kʌp] *n* 1) piyola; **china ~s and saucers** chinni piyolalar va tarelkalar; 2) musallas, vino; **to be fond of the ~** ichishni yaxshi ko'rmoq; 3) *sport.* kubok, sovrin; **to win the ~** kubokni yutmoq, sovrinni qo'lga kiritmoq; 4) qismat, taqdir; **bitter ~** achchiq qismat

cup and ball [ˌkʌpən(d)´bɔ:l] *n* bilboke (*irg'itib ilib olinadigan soqqali o'yinchoq*)

cup-bearer [´kʌp,be(ə)rə] *n tar.* sharbatdor, soqiy

cupboard [´kʌpbəd] *n* 1) shkaf, javon, sandiq; 2) devorga ishlangan shkaf

cupboard-love [´kʌpbədlʌv] *n* g'arazli muhabbat

cupel [´kju:pel] *v* proba (*oltin, kumush kabilarning soflik darajasini ko'rsatuvchi raqam*)ni aniqlamoq

cupellation [ˌkju:pə´leɪʃ(ə)n] *n metal.* probani aniqlash (*oltin, kumush va b. haqida*)

cupful [´kʌpfʊl] *n* bir piyola to'la (*narsa*)

Cupid [´kju:pɪd] *n afs.* sevgi tangrisi va uning haykalchasi

cupidity [kjʊ´pɪdɪtɪ] *n* ochko'zlik, xasislik

cupola [´kju:pələ] *n* gumbaz, qubba

cuppa [´kʌpə] *n so'zl.* bir piyola choy

cupped [kʌpt] *a* kosasimon, kosa shaklidagi

cupper [´kʌpə] *n jarg.* kollejlar orasida kubok uchun o'ynaladigan o'yin (Oksfordda)

cupping [´kʌpɪŋ] *n tib.* banka ishlatish (qo'llash)

cupping-glass [´kʌpɪŋglɑ:s] *n tib.* banka

cupreous [´kju:prɪəs] *a* misga oid, tarkibida mis bo'lgan

cupriferous [kjʊ ´prɪf(ə)rəs] *a* misli, tarkibida mis bo'lgan

cuprite [´kju:praɪt] *n* qizil misli ruda

cupro-nickel [ˌkju:prə(ʊ)ʃ nɪk(ə)l] *n* melxior (*mis bilan nikel qotishmasi*)

cuprous [´kju:prəs] *a kim.* tarkibida bir valentli mis bo'lgan; **~ chloride** mis oksidi

cuprum [´kju:prəm] *n kim.* mis

cur [kə:] *n* ko'ppak it

curability [ˌkjʊ(ə)rə´bɪlɪtɪ] *n* davosi borlik

curable [´kjʊ(ə)rəb(ə)l] *a* tuzaladigan, davosi bor

curacao [ˈkjo(ə)rəˈsəo] *n* kuraso likori
curacy [ˈkjo(ə)rəsɪ] *n* 1) ruhoniylik mansabi (unvoni; darajasi); 2) qavm (*biror butxonaga qatnovchi dindorlar*)
curassow [kjoˈræsəo] *n zool.* kraks (*tovuqsimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi*)
curate [ˈkjo(ə)rɪt] *n* pop yordamchisi
curative [ˈkjo(ə)rətɪv] *a* shifobaxsh, shifoli, davo bo'ladigan, dorivor
curator [kjoˈreɪtə] *n* muzeyni qo'riqlovchi (*soqchi*)
curatory [ˈkjo(ə)rətə(ə)rɪ] = **curative**
curb [kɜ:b] **1.** *n* yugan, jilov, jilovlash; **a ~ to violence** zo'ravonlikka barham berish; **2.** *v* 1) (*otni*) jilovlamoq, yuganlamoq; 2) bo'ysundirmoq, tiymoq; **to ~ one's temper** jahlini tiymoq, o'zini bosmoq
curbie [ˈkɜ:bɪ] *n amer. jarg.* ovqatlarni to'g'ridan-to'g'ri mashinaga olib borib beradigan ofitsiantka
curb roof [ˈkɜ:bˌru:f] *n* qiya shipli bolo-xona tomi
curb-stone [ˈkɜ:bstəon] *n* (*asosan, ko'chadan terib olingan*) chekib tashlangan papiros yoki sigareta
curch [kɜ:tʃ] *n* boshga o'raladigan ro'-mol
curd [kɜ:d] *n* suzma
curdle [ˈkɜ:dl] *v* ivimoq, quyulmoq; ivib qolmoq (*qon, sut to'g'risida*)
curdy [ˈkɜ:dɪ] *a* ivigan, suzmaga aylangan
cure I [kjoə] **1.** *n* 1) dori, dori-darmon, vosita; **a ~ for a cough** yo'talga qarshi vosita; 2) davolash, davolash kursi; **to undergo a ~** davolash kursini o'tamoq; 3) davolanish, sog'ayish; **the doctor cannot guarantee a ~** shifokor sog'ayish kafolatini bermaydi; **2.** *v* 1) davolamoq, sog'aytirmoq; **to ~ a patient** kasalni davolamoq; 2) tayyorlamoq, konservalamoq, tuzlamoq; quritmoq; **to ~ fish** baliqni dudlamoq
cure II [kjoə] *n jarg.* g'alati (tentaksimon) odam, qiziq tabiatli odam
cure-all [ˈkjo(ə)rɔ:l] *n* panatsiya (*ming dardga davo, har baloдan qutqaradigan vosita deb qaraladigan narsa*)
cureless [ˈkjoələs] *n* tuzatib bo'lmaydigan, bedavo
curer [ˈkjo(ə)rə] *n* 1) dardni oluvchi, davolovchi, shifo baxsh etuvchi, dardga malham bo'luvchi (*odam yoki narsa*); 2) oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlab qo'yuvchi kishi
curettage [kjoəˈretɪdʒ] *n tib.* qirib tozalash
curfew [ˈkɜ:fju:] *n* komendant soati (*harbiy yoki qamal sharoitida ko'chalarda ruxsatsiz yurish man qilingan soatlar*)
curia [ˈkjo(ə)rɪə] *n* 1) *tar.* kuriya (*Qadimgi Rimda bir necha patritsiy urug'larining birlashmasi*); 2) **the C.**) Rim papasi hokimiyatining markaziy organlari
curie [ˈkjo(ə)rɪ] *n fiz.* kyuri (*radioaktivlikning o'lchov birligi*)
curing [ˈkjo(ə)rɪŋ] *n* davolash, davolanish; davo; muolaja
curio [ˈkjo(ə)rɪəo] *n* (*pl* **-os** [-əoz]) antiqiy (qadimiy; noyob va qimmatbaho) buyum
curiosity [ˌkjo(ə)rɪˈɒsɪtɪ] *n* qiziquvchanlik, sinchkovlik
curious [ˈkjo(ə)rɪəs] *a* har narsani bilishga intiluvchi, qiziquvchan
curiously [ˈkjo(ə)rɪəslɪ] *adv* kishini ajablantiradigan bir tarzda (ajib; g'alati)
curium [ˈkjo(ə)rɪəm] *n kim.* kyuriy (*sun'iy yo'l bilan qilingan radioaktiv kimyoviy element*)
curl [kɜ:l] **1.** *n* chirmashmoq; **2.** *v* jingalak soch (zulf)
curler [ˈkɜ:lə] *n* bigudi (*sochni jingalak qiladigan tizimcha yoki naycha*)
curlew [ˈkɜ:lju:] *n zool.* uzunburun balchiqchi, chonguldoq (*qush*)
curlicue [ˈkɜ:lɪkju:] *n* jimjimador gulbezak
curling [ˈkɜ:lɪŋ] *n* chirmashish
curling-iron(s) [ˈkɜ:lɪŋˌaɪən(z)] *n pl* jingalak qiladigan qisqich
curling-tongs [ˈkɜ:lɪŋtoŋz] = **curling-iron(s)**
curl-paper [ˈkɜ:lˌpeɪpə] *n* papilotka (*sochni jingalak qilish uchun ishlatiladigan qog'oz yoki latta*)
curly [ˈkɜ:lɪ] *a* jingalak (*soch haqida*)
curly-pate [ˈkɜ:lɪpeɪt] *n so'zl.* jingalak (qo'ng'iroq) sochli odam
curmudgeon [kɜ:ˈmʌdʒ(ə)n] *n so'zl.* 1) qo'rs (qo'pol muomalali) odam; 2) xasis (ziqna) odam
curmudgeonly [kɜ:ˈmʌdʒ(ə)nlɪ] *a* 1) qo'rs, qo'pol; 2) xasis, ziqna
curmurring [kəˈmɜ:rɪŋ] *n shotl.* quldirash, g'uldirash (*asosan, qorinda*)
curn [kɜ:n] *n shotl.* 1) bir dona yorma; 2) zarra, zarracha, dona; 3) qum donasi, qim zarrasi; 4) mayda don, donacha; 5) oz miqdor
curple [ˈkɜ:p(ə)l] *n shotl.* dumba, odamning dumbasi
curr [kɜ:] *v* 1) g'uv-g'uvlamoq, g'urullamoq (*kaptarlar haqida*); 2) xurullamoq, xur-xur qilmoq; 3) g'uldiramoq, gulduramoq, irillamoq
currach, curragh [ˈkʌrə(h)] *n* tol novdalaridan to'qilgan va charm qoplangan qayiq (*Irlandiya va Uelsda*)
currant [ˈkʌrənt] *n* 1) *bot.* smorodina, qorag'at (*butasi va mevasi*); 2) korinka (*qora kishmish navi*); sabza, sariq kishmish
currency [ˈkʌrənsɪ] *n* 1) qo'llanuvchanlik, tarqalganlik; **words in common ~** keng tarqalgan (ko'p ishlatiladigan) so'zlar; **to give ~ to smth.** biror narsani muomalaga (ishlatishga) kiritmoq; 2) pul muomalasi; 3) valuta, pul; **paper ~** qog'oz pul; **gold (silver) ~** oltin (kumush) valuta; 4) (*biror narsaning*) davomiyligi, amalda bo'lish muddati; **during the ~ of contract** shartnoma amalda bo'ladigan muddat mobaynida
current [ˈkʌrənt] **1.** *a* 1) joriy, shu kungi, zamonaviy; **a ~ month** joriy (shu) oyda; 2) amalda (ishlatilishda) bo'lgan, muomalada bo'lgan; **a ~ coin** ishlatilishda (muomalada) bo'lgan tanga; 3) *so'zl.* silliq (*uslub to'g'risida*); **2.** *n* 1) oqim; **great ocean ~s such as the Gulf Stream** Golfstrim kabi kuchli okean oqimlari; 2) borish, oqim; **the ~ of events** voqealarning borishi
curricle [ˈkʌrɪkl] *n* qo'sh otli fayton, yengil arava
curricula [kəˈrɪkjolə] *pl of* **curriculum**
curriculum [kəˈrɪkjoləm] *n* (*pl* **-la** [-lə]) 1) o'quv kursi; 2) o'quv rejasi (*maktab, institut, universitetda*)
curriculum vitae [kəˌrɪkjoləmˈvaɪtaɪ, -ˈvi:taɪ] *lot.* qisqacha tarjimayi hol
currier [ˈkʌrɪə] *n* 1) teri oshlovchi kishi, mutaxassis, ko'nchi (*terini pishirish, pardozlash, charm tayyorlash ishi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, teri pishiruvchi*); 2) otboqar, says
currish [ˈkɜ:rɪʃ] *a* tarbiyasiz, dag'al, qo'pol
curry [ˈkʌrɪ] *v* 1) ot qashlagich bilan qashlamoq (tozalamoq); 2) terisini shilmoq (ajratmoq); 3) urmoq, do'pposlamoq, po'stagini qoqmoq
curry-comb [ˈkʌrɪkəom] *n* otqashlag'ich
curse [kɜ:s] **1.** *n* 1) la'nat, nafrat, qarg'ish; **to call down ~s upon smb.** birovga la'natlar yog'dirmoq; 2) so'kish; 3) ofat, kulfat; **2.** *v* 1) la'natlamoq, qarg'amoq; **he ~d the day he was born** u tug'ilganiga la'natlar o'qirdi; 2) so'kinmoq; **he ~d loudly** u bor ovozi bilan so'kinardi; 3) dinni tahqirlamoq, shakkoklik qilmoq
cursed [ˈkɜ:sɪd, kɜ:st] **1.** *a* la'natlangan, la'nati; **2.** *adv* juda, rosa
cursedly [ˈkɜ:sɪdlɪ] *adv* yoqimsiz bir holda
cursive [ˈkɜ:sɪv] **1.** *n* sodda tez yozuv (*qadimiy qo'lyozmalarda*); **2.** *a* 1) tez

yozish usuliga asoslangan; 2) qo'l-yozmaga oid

cursor [ˈkɜ:sə] *n tex.* strelka, mil. ko'rsatkich

cursorial [kɜ:ˈsɔ:rɪəl] *a* yuguradigan, chopadigan (*qushlar to'g'risida*)

cursory [ˈkɜ:s(ə)rɪ] *a* naridan beri qilingan, yuzaki

curst [kɜ:st] qo'zg'atilgan

curt [kɜ:t] *a* qisqa, lo'nda (*javob haqida*)

curtail [kɜ:ˈteɪl] *v* qisqartirmoq

curtailment [kɜ:ˈteɪlmənt] *n* qisqartirish, ixchamlashtirish

curtain [ˈkɜ:tn] **1.** *n* parda; **2.** *v* parda tutib qo'ymoq

curtain-call [ˈkɜ:tnkɔ:l] *n* (*sahnaga*) aktyorni chaqirish, taklif qilish (*qarsaklar ostida*)

curtain-fire [ˈkɜ:tnˌfaɪə] *n harb.* o't parda

curtain-raiser [ˈkɜ:tnˌreɪzə] *n* spektakl boshlanishidan oldin bajariladigan (*odat., bir pardali*) pyesa

curtain-rod [ˈkɜ:tnrɔd] *n* parda osish uchun mo'ljallangan (metall) karniz yoki sterjen (*tayoqcha*)

curtain-tune [ˈkɜ:tntju:n] *n* spektakl boshlanishidan oldin ijro etiladigan musiqa (introduksiya, muqaddima, daromad)

curtilage [ˈkɜ:təlɪdʒ] *n yur.* uyga taqalib (yaqin) turadigan yer maydoni

curtsey [ˈkɜ:tsɪ] *n* tiz cho'kib ta'zim qilish

curtsy [ˈkɜ:tsɪ] = **curtsey**

curvature [ˈkɜ:vətʃə] *n* 1) egrilik, qiyshiqlik; 2) qiyshaygan (bukilgan) joy

curve [kɜ:v] **1.** *v* 1) egmoq, bukmoq; 2) egilmoq, bukilmoq; **2.** *n* egri (qiyshiq) chiziq

curvet [kɜ:ˈvet] **1.** *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi; **2.** *v* oldingi oyoqlarini bukib sakramoq (*ot haqida*)

curvilineal [ˌkɜ:vɪˈlɪnɪəl] = **curvilinear**

curvilinear [ˌkɜ:vɪˈlɪnɪə] *a* egri chiziqli, qing'ir-qiyshiq

cushat [ˈkʌʃət] *n dial.* govkaptar

cushion [ˈkoʃ(ə)n] **1.** *n* 1) divan yostig'i; 2) bilyard stolining yon devori (*borti*); **2.** *v* yostiq qo'ymoq

cushioned [ˈkoʃənd] *a* yostiq yoki yostiqlar bilan ta'minlangan, yostiqli; **a ~ seat** yumshoq o'rindiq; **a ~ voice** yumshoq (mayin) ovoz; silliq ohang

cushiony [ˈkoʃ(ə)nɪ] *a* yostiqqa o'xshagan yumshoq

cushy [ˈkoʃɪ] *a* yengil va yaxshi to'lanadigan; **a ~ job** issiq joy; **~ wound** yengil jarohat

cusp [kʌsp] *n* tog' cho'qqisi

cuspid [ˈkʌspɪd] *n anat.* qoziqtish, so'yloqtish

cuspidal [ˈkʌspɪd(ə)l] *a* uchi o'tkir, uchli

cuspidate, cuspidated [ˈkʌspɪdeɪt, -ɪd] *a* uchi o'tkir, uchli

cuspidor [ˈkʌspɪdɔ:] *n amer.* tupdon (*tupurish uchun ishlatiladigan idish*)

cuss [kʌs] **1.** *n so'zl.* qarg'ish, la'nat; **2.** *v* so'kishmoq, urishmoq

cussed [ˈkʌsɪd] *a so'zl.* o'jar, qaysar

custard [ˈkʌstəd] *n* (*tuxum va sutdan qilingan*) shirin krem

custode [kʌˈstəodɪ] *n* (*pl* **-odi** [-daɪ]) = **custodian**

custodes [kʌˈstəodi:z] *pl of* **custos**

custodian [kʌˈstəodɪən] *n* qorovul, soqchi; qo'riqchi

custody [ˈkʌstədɪ] *n* 1) vasiylik, vasiylik qilish; **to be in the ~** vasiyligida bo'lmoq; 2) saqlash, asrash, qo'riqlash; **to place securities ~** boyliklarni saqlashga qo'ymoq; 3) qamoqqa (hibsga) olish; **to commit to ~** hibsga (qamoqqa) olmoq

custom [ˈkʌstəm] **1.** *n* 1) urf-odat, udum; 2) odat, o'rganish; **2.** *v amer.* buyurtma asosida tayyorlangan

customable [ˈkʌstəməb(ə)l] *a kam.* bojxona solig'ini to'lash lozim (kerak) bo'lgan

customary [ˈkʌstəm(ə)rɪ] *a* 1) oddiy, odatdagi; 2) odat bo'lib qolgan, odatga aylangan

custom-built [ˌkʌstəmˈbɪlt] *a amer.* maxsus buyurtma asosida qurilgan

customer [ˈkʌstəmə] *n* (*odatda, doimiy*) xaridor, mijoz

custom-house [ˈkʌstəmhaos] *n* bojxona

custom-made [ˌkʌstəmˈmeɪd] *a* buyurtma asosida tayyorlangan (qilingan, qurilgan)

customs [ˈkʌstəmz] *n pl* bojxona boji; **~ free** bojsiz; **to pass through the ~** bojxona nazoratidan o'tmoq; **the C** bojxona boshqarmasi

custos [ˈkʌstos] *n* (*pl* **-todes** [-təodi:z]) *lot.* nazoratchi, nazorat qiluvchi, nozir

customal [ˈkʌstjoməl] = **customary**

cut [kʌt] **1.** *v* (**cut**) 1) kesmoq, qirqmoq, to'g'ramoq; 2) sochini olmoq; 3) qisqartirmoq; **to ~ at** (*qilich va b. bilan*) zarba bermoq; **to ~ away** qirqib (kesib) olmoq; **to ~ down** (*naqola va b. ni*) qisqartirmoq; **to ~ in** qo'shilmoq, aralashmoq; **to ~ off** kesib (qirqib) tashlamoq; **to ~ out** kesib (qirqib) olmoq; **to ~ over** o'rmondagi daraxtlarni kesmoq; **to ~ under** arzonroq narxda sotmoq; **to ~ up** bo'laklarga bo'lmoq; **2.** *n* 1) kesilgan (tilingan) joy; 2) qirqib olingan narsa; 3) qisqartirish; **3.** *a* kesilgan, qirqilgan

cut-and-come-again [ˌkʌt(ə)n(d),kʌməˈge(ɪ)n] *n so'zl.* 1) mehmondo'stlik, mehmonnavozlik; 2) mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik

cutaneous [kju:ˈteɪnɪəs] *tib.* teriga oid

cut-away [ˈkʌtəweɪ] *n* vizitka, kishilik (bayramdagidek) kiyim, bayram libosi

cutback [ˈkʌtbæk] *n* qisqartirish

cutcha [ˈkʌtʃə] *n hind.* quyoshda quritilgan g'isht

cutcherry [ˈkʌtʃerɪ] *n hind.* sud binosi

cute [kju:t] *a so'zl.* 1) aqlli; 2) jozibali, ko'rkam

cut-glass [ˌkʌtˈglɑ:s] qirrali (qirralangan) shisha (*oynak*)

cut-grass [ˈkʌtgrɑ:s] *n* mayda tikanakli o't

cutie [ˈkju:tɪ] *n amer. so'zl.* yosh dilbar ayol

cutikins [ˈkju:tɪkɪnz] *n pl shotl.* getr (*to'piqdan boldirgacha bekitib turadigan issiq oyoq kiyimi yoki qo'nj*)

cut-in [ˈkʌtˈɪn] *n maxs.* yurgizish, ishga solish, harakatga keltirish; ishning boshlanishi

cutis [ˈkju:tɪs] *n anat.* kutis (*umurtqali hayvonlar va odam terisining biriktiruvchi to'qimali qismi*)

cutlass [ˈkʌtləs] *n* 1) uchi o'tkir motiga (*ketmonsimon asbob*); 2) uchi o'tkir (qirrali) dastakli so'qa (*yer haydash uchun ishlatiladigan cho'yan tishli sodda asbob; omoch*)

cutler [ˈkʌtlə] *n* arrakash

cutlery [ˈkʌtlərɪ] *n* pichoqchilik (pichoqsozlik) kasbi

cutlet [ˈkʌtlɪt] *n* to'qmoqlangan go'shtdan tayyorlangan kotlet

cut-off [ˈkʌtˈɔf] *n* 1) qirqilgan (kesilgan) burda; bo'lak, parcha, kesik, laxtak, rezgi; 2) *amer.* eng qisqa yo'l

cut-out [ˈkʌtaot] *n el.* saqlagich

cut-over land [ˌkʌtˈəovəˌlænd] *o'rmon.* o'rmonning daraxt kesilayotgan (*yoki* daraxt kesish uchun ajratilgan, *yoxud* kesib olingan) uchastkasi

cut-purse, cutpurse [ˈkʌtpɜ:s] *n* cho'ntak o'g'risi, kosavur; cho'ntakkesar

cut rate [ˈkʌtreɪt] *amer.* pasaytirilgan (kamaytirilgan, tushirilgan) narx

cutt(e) [kʌt] *n* qur'a, chek

cutter [ˈkʌtə] *n* o'ymakor usta, o'ymakor naqqosh

cutthroat [ˈkʌtθrəot] *n* kallakesar, qotil

cut-through [ˈkʌtθru:] *n* o'rmon so'qmog'i (*o'rmonda daraxtlarni kesib ochilgan tor yo'l*)

cutting [ˈkʌtɪŋ] **1.** *n* kesish, qirqish; **2.** *a* o'tkir, keskir

cutting area [ˈkʌtɪŋˌe(ə)rɪə] *n* o'rmonning daraxt kesilayotgan joyi

cutting-back [ˌkʌtɪŋˈbæk] *n bog'.* kesish, qirqish; yaganalash, yagana qilish; siyraklashtirish
cutting bench [ˈkʌtɪŋbentʃ] *kino.* montaj qilish (yig'ish) stoli
cutting propagation [ˈkʌtɪŋˌpropəˈgeɪʃ(ə)n] *bog'. o'rmon.* qalamchalar o'stirish
cutting room [ˈkʌtɪŋru:m, -rʊm] *n kino.* yig'ish (montaj qilish) ustaxonasi
cutting tooth [ˈkʌtɪŋtu:θ] kurak tish, oldingi tish
cuttle [ˈkʌtl] *n zool.* karakatitsa (*dengiz molluskalarining bir turi*)
cuttoe [ˈkʌtəʊ] *amer.* = **couteau**
cutty [ˈkʌtɪ] *n* 1) kalta qoshiq; 2) *so'zl.* axloqsiz ayol
cutty-stool [ˌkʌtɪˌstu:l] *n* pastak stul
cutup [ˈkʌtʌp] *n amer. so'zl.* nayrangboz, masxaraboz, qiziqchi, hazilkash
cutwater [ˈkʌtˌwɔ:tə] *n deng.* suv keskich (*kemaning tumshug'i*)
cut-work, cutwork [ˈkʌtwɜ:k] *n* 1) o'ymakorlik ishi; 2) o'yma kashtado'zlik; 3) rishelye (*nafis kashtaning bir turi*)
cuvette [kju:ˈvet] *n rasm.* fotoplastinka, fotoqog'oz yuviladigan vannacha
cyanamide [saɪˈænəmaɪd] *n kim.* sianamid (*rangsiz kristall modda*)
cyanate [ˈsaɪəneɪt] *n kim.* sianat, sian kislotasining tuzi yoki efiri
cyanic [saɪˈænɪk] *a kim.* sianli, tarkibida sian bo'lgan, sian; ~ **acid** sian kislota
cyanide [ˈsaɪənaɪd] *n kim.* sianid (*vodorod sianid yoki sianid kislota tuzlari*)
cyanite [ˈsaɪənaɪt] *n min.* kianit (*orolsimon silikatlar sinfiga mansub mineral*)
cyanogen [saɪˈænədʒɪn] *n kim.* sian (*tussiz zaharli gaz*)
cyanose [ˈsaɪənəʊs] = **cyanosis**
cyanosis [ˌsaɪəˈnəʊsɪs] *n tib.* ko'karib qolgan joy (*badanda*)
cyanotic [ˌsaɪəˈnɒtɪk] *a tib.* ko'kargan, ko'karib qolgan
cyanuret [saɪˈænjʊrɪt] = **cyanide**
cybernated [ˈsaɪbənertɪd] *a* kompyuterlar bilan jihozlangan
cybernetics [ˌsaɪbəˈnetɪks] *n* kibernetika (*avtomatik boshqarish sistemalari va usullari haqidagi fan*)
cyclamen [ˈsɪkləmən] *n bot.* siklamen (*Alp binafshasi*)
cycle [ˈsaɪk(ə)l] **1.** *n* 1) sikl, davr, davra; **the ~ of the seasons** yil fasllarining davriy almashishi; 2) davriylik; 3) uzoq davr, asr; 4) *so'zl.* velosiped; **2.** *v* 1) rivojlanish davrini o'tamoq; davriy takrorlanmoq; 2) doira bo'ylab harakat qilmoq; 3) velosipedda uchmoq
cycle-car [ˈsaɪk(ə)lkɑ:] *n* mototsiklning kolaskasi
cycler [ˈsaɪklə] = **cyclist**
cyclery [ˈsaɪklərɪ] *n amer.* velosipedlarni ijaraga beradigan va velosipedlarni sotadigan do'kon
cycli [ˈsaɪkli:] *pl of* **cyclus**
cyclic(al) [ˈs(a)ɪklɪk(əl)] *a* davriy, ma'lum davrda bo'ladigan
cycling [ˈsaɪklɪŋ] *n* velosipedda yurish; velosport
cyclist [ˈsaɪklɪst] *n* velosipedchi
cycloid [ˈs(a)ɪklɔɪd] *n mat.* sikloida (*muqtalar bilan ko'rsatilgan doirasimon chiziq*)
cycloidal [s(a)ɪˈklɔɪdl] *a mat.* sikloidasimon, sikloida shaklidagi
cyclometer [s(a)ɪˈklɒmɪtə] *n* siklometr (*asbob*)
cyclometry [s(a)ɪˈklɒmɪtrɪ] *n mat.* aylana (doirani) o'lchash
cyclone [ˈsaɪkləʊn] *n meteor.* siklon (*atmosfera girdobi; bo'ron; dovul*)
cyclone collector [ˈsaɪkləʊnkəˈlektə] *tex.* siklon (*havoni yoki gazni har xil qattiq jismlardan tozalaydigan apparat*)
cyclonic, cyclonical [saɪˈklɒnɪk, -(ə)l] *a* siklonga oid, siklonsimon
Cyclop [ˈsaɪklɒp] = **Cyclops**
cyclopaedia [ˌsaɪklə ˈpi:dɪə] *n* ensiklopediya, qomus
cyclopaedic [ˌsaɪklə ˈpi:dɪk] *a* ensiklopediya (qomus)ga oid
Cyclopean [ˌsaɪklə ˈpɪən] *a* juda katta, zo'r, azim
Cyclopes [saɪˈkləʊpi:z] *pl of* **Cyclops**
cyclophon [ˈsaɪkləfɒn] *n tlv.* siklofon (*elektron-nurli kommutator (elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob*))
Cyclopian [saɪˈkləʊpɪən] = **Cyclopean**
Cyclopic [saɪˈklɒpɪk] = **Cyclopean**
Cyclops [ˈsaɪklɒps] *a* siklop (*qadimgi grek afsonalarida bir ko'zli pahlavon*)
cyclorama [ˌsaɪklə ˈrɑ:mə] *n kino.* siklorama (*doira shaklidagi binoning ichki devoriga gir aylana ishlangan, haqiqiy manzaraday tuyuladigan yirik rasmlar*)
cyclotron [ˈsaɪklətrɒn] *n fiz.* siklotron (*yadro tadqiqotida zaryadlangan og'ir mikrozarrachalarni tezlatadigan qurilma*)
cyclus [ˈsaɪkləs] *n* (*pl* **-li**) *lot.* sikl (*mazmunan o'zaro bog'liq bo'lgan, mas., qahramonlari yoki tasvirlangan muhiti bir bo'lgan badiiy asarlar*)
cyder [ˈsaɪdə] = **cider**
cygnet [ˈsɪgnɪt] *n* kichkina oqqushcha
cylinder [ˈsɪlɪndə] *n mat.* silindr (*1. mat. geometrik jism yoki shakl; 2. tex. porshenli mashinaning shu shakldagi qismi*)
cylindric, cylindrical [sɪˈlɪndrɪk, -(ə)l] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi
cylinder grader [ˈsɪlɪndə ˈgreɪdə] *q.x.* silindr shaklidagi trier (*don tozalash va saralash mashinasi*)
cylindriform [sɪˈlɪndrɪfɔ:m] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi, silindga o'xshagan
cymar [sɪˈmɑ:] *n ko'p. shoir.* uzun yengil ko'ylaklar; ayollar ko'ylagi
cymbalo [ˈsɪmbələʊ] *n* simbal (chang-simon cholg'u asbobi)
cymbals [ˈsɪmb(ə)lz] *n pl mus.* zil, tarelka
cymbiform [ˈsɪmbɪfɔ:m] *a maxs.* qayiqsimon, qayiq shaklidagi, qayiqqa o'xshagan
cyme [saɪm] *n bot.* to'pgul
cymograph [ˈsaɪməgrɑ:f] *n* kimograf (*organizmdagi fiziologik jarayonlarni egri chiziq shaklida yozib oladigan apparat*)
cymometer [saɪˈmɒmɪtə] *n el.* to'lqin o'lchagich
cymophane [ˈsaɪməfeɪn] *n min.* simofan (*qo'lda mayda zeb-u ziynat buyumlari yasashga yaraydigan tosh*)
cymoscope [ˈsaɪməskəʊp] *n el.* tebranish indikatori
cynic [ˈsɪnɪk] *n* beadab (uyatsiz, hayosiz, surbet) odam
cynical [ˈsɪnɪk(ə)l] *a* beadab, uyatsiz, hayosiz, surbet
cynicism [ˈsɪnɪsɪz(ə)m] *n* beadablik, uyatsizlik
cynocephalus [ˌsaɪnə(ʊ)ˈsefələs] *n* (*pl* **-li** [-laɪ]) *zool.* pavian, ittumshuq maymun
cynosure [ˈsɪnəzjʊə] *n* 1) qutb yulduzi; 2) yo'l ko'rsatadigan yulduz, yo'lchi yulduz
cypher [ˈsaɪfə] = **cipher**
cyphosis [saɪˈfəʊsɪs] *n tib.* kifoz (*umurtqa pog'onasi (odatda, ko'krak qismi)ning orqaga bo'rtib qiyshayishi*)
cypress [ˈsaɪprɪs] *n bot.* sarv
Cyprian [ˈsɪprɪən] **1.** *n* 1) Kiprda istiqomat qiluvchi (yashovchi, turuvchi) kishi yoki ayol; kiprlik kishi, kiprlik ayol; 2) *esk.* buzuq (suyuqoyoq) odam; fohisha, buzuq, g'ar; **2.** *a* 1) Kipr va kiprliklarga oid; 2) *esk.* buzuq, axloqsiz, badaxloq, sayoq; suyuqoyoq (*asosan, ayollar haqida*)
cyprinoid [ˈsɪprɪnɔɪd] *a zool.* karplar (zog'orabaliqlar)ga oid

Cypriot(e) |ˈsɪprɪət| *n* Kipr fuqarosi, kiprlik
Cyrillic |sɪˈrɪlɪk| *a* : **a ~ alphabet** kirill alifbosi
cyst |sɪst| *n* 1) *anat.* pufak, qovuq; 2) *tib.* kista (*sariq suv olgan shish, o'sma*)
cystic |ˈsɪstɪk| *a anat.* siydik pufagiga oid, qovuqqa oid
cysticercus |ˌsɪstɪˈsə:kəs| *n* 1) tasmasimon gijja; 2) *maxs.* finna (*hayvonlar etida yashovchi g'umbagi yoki tasmasimon chuvalchangning qurti*)
cystitis |sɪˈstaɪtɪs| *n tib.* siydik pufagining yallig'lanishi
cystoma |sɪˈstəomə| *n tib.* sistoma (*shish, o'sma*)
cystoscope |ˈsɪstəskəup| *n* sistoskop (*optik va yoritqich sistemalaridan iborat metall kateter*)
cystoscopy |sɪˈstɒskəpɪ| *n kit.* sistoskopiya (*tibbiy tekshirish usuli; qovuqning ichki yuzasidan siydik chiqaruvchi kanalidan kiritiladigan sistoskop yordamida ko'rish*)
cytogenetics |ˌsaɪtə(o)dʒɪˈnetɪks| *n* sitogenetika (*genetikaning hujayra va subhujayralar (asosan, xromosomalar)dagi irsiyat hamda o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi*)
cytology |saɪˈtɒlədʒɪ| *n biol.* sitologiya (*hujayralarning tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalarini o'rganadigan fan*)
cytoplasm |ˈsaɪtəplæz(ə)m| *n biol.* sitoplazma (*hujayraning yadro bilan plazmatik membrana oralig'ida joylashgan asosiy tarkibiy qismi*)
czar |zɑ:| *n rus.* podsho
czardas |ˈtʃɑ:dæʃ| *n* chardash (*vengrcha raqs va shu raqs musiqasi*)
czardom |ˈzɑ:dəm| *n* podsholik (hukmronlik, shohlik) qilish; podsholik (shohlik) davri
czarevitch |ˈzɑ:rɪvɪtʃ| *n rus.* shahzoda
czarevna |zɑ:ˈrevnə| *n rus.* malika, shohbekach (*podshoning qizi*)
czarewich |ˈzɑ:rɪwɪtʃ| = **czarevitch**
czarina |zɑ:ˈri:nə| *n rus.* malika
czarism |ˈzɑ:rɪz(ə)m| *n rus.* chorizm
czaritza |zɑ:ˈri:tsə| = **czarina**
Czech |tʃek| **1.** *a* chexlarga oid; **2.** *n* 1) chex, chex ayoli; 2) chex tili
Czechish |ˈtʃekɪʃ| = **Czech 2**
Czechoslovak |ˌtʃekə(o)ˈsləovæk| **1.** *n* Chexoslovakiyada yashovchi kishi; **2.** *a* Chexoslovakiyada ishlab chiqilgan, Chexoslovakiyaga oid
Czechoslavakian |ˌtʃekəoslə ˈvækɪən| *a* chexoslovaklarga va Chexoslovokiyaga oid; chexoslovak(lar)...; Chexoslovakiya...
Czekh I, II |tʃek| = **Czech 1, 2**

D

D, d |di:| *n* (*pl* **Ds, D's** |di:z|) ingliz alifbosining to'rtinchi harfi
da |dɑ:| *so'zl.* dada, ota, ada
dab I |dæb| **1.** *n* yengil zarba; **2.** *v* sekingina tegmoq; urmoq; tushirmoq
dab II |dæb| *n* 1) *zool.* kambala, qalqonbaliq (*ikki ko'zi bir tomonda bo'lgan yapaloq dengiz balig'i*); 2) *so'zl.* yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi
dabble |ˈdæbl| *v* 1) (*suvni*) shapillatmoq, sachratmoq; 2) (*loy*) sachratib iflos qilmoq
dabbler |ˈdæblə| *n* 1) ishqiboz, o'ch; havaskor, shunchaki qiziquvchi; 2) yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi, mutaxassis
dabby |ˈdæbɪ| *a* nam, zax, ho'l, zaxkash
dabster |ˈdæbstə| *n dial.* 1) usta, omilkor, bilarmon, mirishkor; 2) epchil, chapdast, jasur, chaqqon; 3) pixini yorgan odam
dabuh |ˈdɑ:bu:| *n arab. zool.* ola-bula (yo'l-yo'l) sirtlon (yoldor bo'ri)
da capo |ˌdɑ: ˈkɑ:pəo| *mus.* boshidan, yana, qaytadan (*takrorlash belgisi, ishorasi*)
dace |deɪs| *n zool.* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*)
dacha |ˈdɑ:tʃə| *n rus.* dacha (*shahar tashqarisidagi hovli-joy*)
dachshund |ˈdækshond| *n nem.* taksa (*oyoqlari katta, gavdasi uzun bir xil it*)
dacoit |dəˈkɔɪt| *n* qurollangan, bosqinchi (*Hindiston va Rimda*)
dacoity |dəˈkɔɪtɪ| *n* bosqinchilik, qaroqchilik, yo'lto'sarlik (*Hindiston va Rimda*)
dacron |ˈdækrɒn| *n* dakron (*sintetik tola*)
dacryops |ˈdækrɪɒps| *n tib.* ko'zdan doim yosh oqishi, yosh oqib turishi
dactyl |ˈdæktɪl| *n* daktil (*urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan uch bo'g'inli turoq*)
dactylic |dækˈtɪlɪk| *n* 1) daktilik; 2) daktilik she'r, bayt, misra
dactylioglyph, dactylioglyphist |dækˈtɪlɪə(o)glɪf, dækˌtɪlɪˈɒglɪfɪst| *n* o'ymakor usta, o'ymakor naqqosh (*qimmatbaho toshlarga va uzuklarga naqsh soluvchi usta*)
dactyliography |ˌdæktɪlɪˈɒgrəfɪ| *n* o'ymakorlik san'atining tarixi (*qimmatbaho toshlar va uzuklarda*)
dactylogram |dækˈtɪlegræm| *n* barmoq izi
dactylography |ˌdæktɪˈlɒgrəfɪ| *n* daktiloskopiya (*barmoq izlari va ularga qarab kishilarning shaxsini aniqlash*)
dactyloid |ˈdæktɪlɔɪd| *a kam.* barmoqni eslatadigan, barmoqqa o'xshagan
dactylology |dækˈtɪlɒlədʒɪ| *n* daktilologiya, barmoq tili (*kar-soqovlarning imo-ishoralarga asoslangan o'zaro tili*)
dactylonomy |ˌdæktɪˈlɒnəmɪ| *n maxs.* barmoq bilan sanash
dactylose |ˈdæktɪləos| *a kam.* 1) barmoqli, barmog'i bor; 2) barmoq shaklidagi, barmoqqa o'xshagan
dad, daddy |dæd, ˈdædɪ| *n so'zl.* dada, ota, ada
dada, dadda |dɑ:dɑ:| = **daddy**
daddle I |ˈdædl| *n dial.* musht
daddle II |ˈdædl| *v dial.* 1) sudralib (imillab) yurmoq; gandiraklab (chayqalib) yurmoq; 2) yalqovlik (tanballik) qilib yurmoq, dangasalik qilmoq, ishlamay bekor yurmoq
daddock |ˈdædək| *n dial.* chirigan daraxt, chirik yog'och parchasi
daddyism |ˈdædɪɪzm| *n amer. kit.* ota-bobolarga (ajdodlarga) bo'lgan hurmat (ehtirom)
daddy-long-legs |ˌdædɪˈlɒŋlegs| *n* uzun-oyoqlar, ikki qanotli hasharot (*karam zararkunandasi*)
dade |deɪd| *v esk. dial.* 1) oqsoqlanmoq, sudralmoq, kalovlanib (oqsab-to'qsab) zo'rg'a yurmoq, oyoqlarni sudrab (arang, bitta-bitta) qadam bosmoq; 2) (yosh bolani) yetaklab yurmoq
dado |ˈdeɪdəo| **1.** *n* sokol (*devorning pastki qalinroq qismi*); **2.** *v* panel (*devorning pastki qismini yog'och-taxta bilan qoplamoq*)
daedal |ˈdi:d(ə)l| *a shoir.* mohir, usta, mahoratli, ustasi farang
Daedalian |di:ˈdeɪlɪən| *n* murakkab tarkibli, qo'shma; chigal; aqli o'tkir, ziyrak, topqir, tadbirkor, makkor, hiylagar
daemon |ˈdi:mən| = **demon**
daemonic |dɪˈmɒnɪk| = **demonic**
daff I |dɑ:f| *v shotl.* 1) ahmoqlik (tentaklik) qilmoq; maynabozchilik (jinnilik) qilmoq; 2) vaqtichog'lik (xursandchilik) qilmoq, shodlanmoq, quvnamoq, ko'ngil ochmoq; ermak qilmoq, ovunmoq, o'zini yupatmoq, vaqtini chog' qilmoq
daff II |dɑ:f| *v esk.* 1) o'zidan chetga (nariga) surmoq; 2) boshqa yo'lga burib yubormoq, boshqa yo'lga solmoq
daffodil |ˈdæfedɪl| *n bot.* nargis, narkas (*gul*)

daffodilly [ˈdæfədɪlɪ] = **daffodil**
daffy [ˈdɑ:fɪ] *n so'zl.* ko'ngliga kelgan ishni (*noma'qulchilikni*) qilaveradigan, jinni-tantiq; beaql, esi yo'q, tentak, jinni
daft [dɑ:ft] *a so'zl.* aqli kam, aqli past, aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **to go ~** aqldan ozmoq
dag [dæg] *n* 1) *tar.* katta to'pponcha; 2) bir tutam jun
dagger [ˈdægə] **1.** *n* xanjar; **2.** *v* xanjar sanchmoq (suqmoq, tiqmoq)
dagger fern [ˈdægə,fɜ:n] *bot.* qirqquloq
daggle [ˈdægl] *v* loy (balchiq, botqoq) bilan sudramoq (tortmoq)
daggle-tail [ˈdæglteɪl] *n dial.* isqirt (iflos) odam (*asos., ayollar haqida*)
dag-lock [ˈdæg,lɔk] *n pl* bir tutam to'kilgan jun (*qo'y, it va h. da*)
dago [ˈdeɪgəʊ] *n amer.* dago (*italyan, ispan va portugallarning laqabi*)
dahlia [ˈdeɪljə] *n bot.* kartoshkagul
Dail Eireann [ˈdaɪl ˈeərən] *n* Irlandiya Respublikasi parlamentining quyi palatasi
daily [ˈdeɪlɪ] **1.** *adv* kun sayin, har kuni; maishiy; **2.** *a* har kungi, kundalik; **~ bread** tirikchilik uchun eng kerakli narsa; rizq-ro'z; **~ duty** navbatchilik; **3.** *n* kundalik gazeta
dain [deɪn] *n esk. dial.* sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid, qo'lansalik, badbo'ylik
dainteth [ˈdeɪntɪθ] *shotl.* = **dainty**
daintify [ˈdeɪntɪfaɪ] *v* bejirim (go'zal) qilmoq
daintihood [ˈdeɪntɪhʊd] *n kam.* nafislik, noziklik, nazokat
daintily [ˈdeɪntɪlɪ] *adv* nozik did bilan; nazokat bilan
daintiness [ˈdeɪntɪnəs] *n* nafislik, noziklik, nazokat
daintith [ˈdeɪntɪθ] *shotl.* = **dainty**
dainty [ˈdeɪntɪ] **1.** *n* shirinlik, shiravor; **2.** *a* shirin, totli, mazali, lazzatli, xushxo'r
dairy [ˈdeərɪ] *n* 1) moy ishlab chiqaradigan korxona; 2) sut mahsulotlari do'koni; **~ products** sut-qatiq mahsulotlari
dairy-farm [ˈdeərɪfɑ:m] *n* sutchilik xo'jaligi
dairy-farmer [ˈdeərɪ,fɑ:mə] *n* 1) sut fermasining egasi; 2) sutli (sog'iladigan) chorva mollarini parvarish qiladigan (boqadigan) fermer
dairy-farming [ˈdeərɪ,fɑ:mɪŋ] *n* sutli (sog'iladigan) chorva mollarini parvarish qilish (boqish)
dairy husbandry [ˈdeərɪ ˈhʌzbəndrɪ] sutchilik xo'jaligi
dairying [ˈdeərɪŋ] *n* sutchilik xo'jaligi
dairymaid [ˈdeərɪmeɪd] *n* sutchilik fermasidagi ishchi ayol; sut sog'uvchi; sigir sog'uvchi ayol
dairyman [ˈdeərɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) sutchilik fermasining ishchisi *yoki* egasi
dairy-women [ˈdeərɪ,womən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) sutchilik fermasining sohibasi (egasi, xo'jayini)
dais [ˈdeɪɪs] *n* 1) taxtasupa, minbar, ko'prik taxtasi; 2) tepalik, balandlik, baland joy
daisied [ˈdeɪzɪd] *a* dastorgul bilan qoplangan
daisy [ˈdeɪzɪ] *n bot.* dastorgul
daisy-chain [ˈdeɪzɪ,tʃeɪn] *n* dastorgul marjoni (*dastorguldan yasalgan marjon*)
daisy-clipping [ˈdeɪzɪ,klɪpɪŋ] *n av. kasb.* pastlab (yer bag'irlab) uchish
daisy-cutter [ˈdeɪzɪ,kʌtə] *n* yugurayotganda oyog'ini zo'rg'a ko'taradigan ot
dak [dɑ:k] *n hind.* almashinuvchi hammollar (*yuk tashuvchilar*) *yoki* otlar
dak bungalow [ˌdɑ:k ˈbʌŋgələʊ] *n* yo'l bo'yidagi (yo'lga yaqin joydagi) mehmonxona (*Hindistonda*)
daker [ˈdækə] *n* o'n(ta) dona, o'n nafar
daker-hen [ˈdeɪkəhen] *n dial.* tartar (qush)
dakoit [dəˈkɔɪt] = **dacoit**
Dalai Lama [ˌdælaɪˈlɑ:mə] *n* dalay-lama (*Tibet hokimi va bosh ruhoniysi*)
dale [deɪl] *n shoir.* vodiy, soylik; **hill and ~, ~ and down** tog'lar va vodiylar; **up hill and down ~** tog'larda va vodiylarda; **to curse up hill and down ~** og'ziga kelgan gap bilan so'kmoq (haqorat qilmoq)
dalesman [ˈdeɪlzmən] *n* vodiy aholisi, vodiyda yashovchi (*Shimoliy Angliyada*)
dalle [dæl] *n* kafel, koshin; plitka, kichkina plita (*pol qilish uchun*)
dalliance [ˈdælɪəns] *n* 1) bekor (behuda) vaqt o'tkazish; 2) o'yin-kulgi; 3) (*nimagadir*) jiddiy munosabatda bo'lmaslik
dallop [ˈdælәp] = **dollop**
Dall sheep [ˈdɔ:l,ʃi:p] *amer.* yovvoyi qo'y
dally [ˈdælɪ] *v* 1) imillamoq, sustkashlik qilmoq; 2) arzimagan narsalar bilan mashg'ul bo'lib yurmoq; vaqtni bekorga o'tkazmoq
dalt [dɔ:lt] *n shotl.* asrandi (o'g'il yoki qiz)
daltonian [dɔ:lˈtəʊnɪən] **1.** *n tib.* daltonik (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaydigan odam*); **2.** *a tib.* daltonizmga oid
daltonism [ˈdɔ:ltənɪzm] *n tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*)
daltonist [ˈdɔ:ltənɪst] = **daltonian**
dam [dæm] **1.** *n* damba, ko'tarma, to'g'on; **2.** *v* bo'g'moq, to'smoq, bog'lamoq
damage [ˈdæmɪdʒ] **1.** *n* zarar, ziyon, shikast, buzilish; **2.** *v* ziyon (zarar) yetkazmoq; ziyon keltirmoq
damageable [ˈdæmɪdʒəbl] *a* tez buziladigan yoki ayniydigan
damaged [ˈdæmɪdʒd] *a* zararlangan; buzuq
damage-feasant [ˈdæmɪdʒ,fi:zənt] *a yur.* begona yer maydonida noqonuniy ravishda o'tlovchi (mol boquvchi)
damaging [ˈdæmɪdʒɪŋ] *a* zarar yetkazadigan, shikastlaydigan
damascene I [ˌdæməˈsi:n] *n* 1) **(D)** Damashqning mahalliy odami; 2) Damashq ustalarining ishlari; 3) = **damson**
damascene II [ˌdæməˈsi:n] *v* qoraytirmoq, zoklamoq (*po'lat sirtini oksidlamoq*)
Damascus [dəˈmɑ:skəs, dəˈmæskəs] *n* Damashq
damask [ˈdæməsk] **1.** *n* ipak kimxob; **2.** *a* kimxob gulli, guldor; **3.** *v* gul solib gazlama to'qimoq
dam-brod [ˈdæmbrɔd] **1.** *n* shashka taxtasi; **2.** *a* katak gulli, katak-katak
dame [deɪm] *n* ayol, xotin
dame-school [ˈdeɪmsku:l] *n* (*ayollar boshqaradigan*) yosh bolalar maktabi
damme [ˈdæmɪ] **1.** *int.* (**damn me** *ning qisq. shakli*) la'nat menga! **2.** *n* 1) la'nat, nafrat, qarg'ish; 2) *so'zl.* la'nat, sabil, baloga yo'liqqur; 3) so'kish; haqorat
damming [ˈdæmɪŋ] *n tex.* kaptaj (1. *buloq suvi yoki neftni quvur ichiga olish; 2. shu maqsadda buloq boshiga yoki manba ustiga qurilgan inshoot*)
damn [dæm] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarg'ish; **2.** *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq
damnable [ˈdæmnəbl] *a* 1) jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz, yaramas; **~ lies** kishining nafratini qo'zg'aydigan yolg'on (yolg'onchilik); **~ weather** juda yomon ob-havo
damnably [ˈdæmnəblɪ] *adv* yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon
damnation [dæmˈneɪʃ(ə)n] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarg'ish; **2.** *int.* la'nati!
damnatory [ˈdæmət(ə)rɪ] *a* halokatga olib boradigan, halokatli, falokatli, nobud qiluvchi, juda og'ir, qaqshatqich
damned [dæmd] *a* jazoga hukm etilgan
damnific [dæmˈnɪfɪk] *a* zarar keltira oladigan, zararli, juda zararli
damnification [ˌdæmnɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n yur.* zarar yetkazish
damnify [ˈdæmnɪfaɪ] *v* zarar yetkazmoq

Damocles [ˈdæməkli:z] *n grek. afs.* Damokl

damoiesel, demoiselle [ˌdæmwɑˈzel] = **damsel**

Damon and Pythias [ˌdeɪmənənd ˈpɪθɪæs] *qad. yun. afs.* Damon va Pifias (*shun.*, ajralmas do'stlar); **~ friendship** mustahkam do'stlik

damosel [ˈdæməzəl] *esk.* = **damsel**

damp [dæmp] **1.** *a* namlik, zaxlik, ho'llik; **2** *n* nam, zax, ho'l, zaxkash; **3.** *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq

damp-course [ˈdæmpkɔ:s] *n qur.* gidroizolatsiya, namdan izolatsiyalash, izolatsiyalab nam o'tkazmaydigan (o'tmaydigan) qilish

dampen [ˈdæmp(ə)n] *v* 1) namlamoq, ho'llamoq; 2) susaytirmoq

damper [ˈdæmpə] *n* namlagich, ho'llagich

damping [ˈdæmpɪŋ] *n* namlash, ho'llash, nam berish; namlanish, nam bo'lish

damping-off [ˈdæmpɪŋ ˈɒf] *n* namgarchilikdan nobud bo'lish, zax bosib chirib qolish (*o'simliklar haqida*)

dampish [ˈdæmpɪʃ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash

dampness [ˈdæmpnəs] *n* namlik, zaxlik, ho'llik, zaxkashlik; nam, zax

damp-proof [ˈdæmppru:f] *a* suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan

dampy [ˈdæmpɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash

damsel [ˈdæmz(ə)l] *n* 1) *esk. hazil.* bo'yi yetgan qiz; 2) ko'rpa-to'shakni isitish uchun ishlatiladigan issiq dazmol; grelka

damsel-fly [ˈdæmz(ə)lˌflaɪ] *n* go'zal ayol, chiroyli (xushro'y, zebo) xotin; sohibjamol, nozanin

damson [ˈdæmz(ə)n] *n* tikan olxo'ri

damson-coloured [ˈdæmz(ə)nˌkʌləd] *a* qizil-ko'k (*olxo'ri rangi*)

dan I [dæn] *n esk. shoir.* xo'jayin, taqsir, janob

dan II [dæn] *n deng.* bo'y (*suvda sayozlik, yo'l va h. k. larni ko'rsatadigan qalqovich belgi*)

dan III [dæn] *n tog'. kash.* ko'mir tashiydigan aravacha

danaidean [ˌdæneɪˈdi:ən] *a* samarasiz va cheksiz (*mehnat va h. k.*)

dance [dɑ:ns] **1.** *n* raqs, o'yin va unga moslab yozilgan musiqa; **2.** *v* raqsga tushmoq, o'yinga tushmoq, o'ynamoq

dancer [ˈdɑ:nsə] *n* raqqos, raqqosa, o'yinchi

dancette [dɑ:nˈset] *n esk.* zigzag (siniq chiziq) shaklidagi naqsh (gul)

dancetté, dancettee, dancetty [dɑ:nˈsetɪ, dɑ:nˈsetɪ] *a* 1) tishli; 2) dandanali, kungurator

dancing [ˈdɑ:nsɪŋ] **1.** *n* raqslar, o'yinlar; o'yin, raqs; **2.** *attr.* raqsga oid; **~ party** raqs kechasi

dancing-girl [ˈdɑ:nsɪŋˌgɜ:l] *n* raqqosa, o'yinchi qiz, raqs tushishga usta qiz

dancing-hall [ˈdɑ:nsɪŋˌhɔ:l] *n* (*qahvaxona, restoranlarda*) o'yinga tushadigan zal

dancing-malady, dancing-mania [ˈdɑ:nsɪŋˌmælədɪ, -ˌmeɪnjə] *n tib.* xoreya, shaytonlash (*kasallik*)

dancing-master [ˈdɑ:nsɪŋˌmɑ:stə] *n* raqs o'qituvchisi

dancing-mistress [ˈdɑ:nsɪŋˌmɪstrɪs] *n* raqsdan saboq beruvchi o'qituvchi ayol, raqs muallimasi

dancing-plague [ˈdɑ:nsɪŋˌpleɪg] = **dancing-malady**

dancing-school [ˈdɑ:nsɪŋskʊ:l] *n* raqs maktabi

dandelion [ˈdændɪlaɪən] *n bot.* momaqaymoq, qoqi o't

dander I [ˈdændə] *n* g'azablanish; jahli chiqish, qoni qaynash

dander II [ˈdændə] **1.** *n* 1) *shotl.* sayr, tomosha; sayr (tomosha) qilish, aylanib kelish; 2) *dial.* titrash, qaltirash, badan (et) uvushish, qaltiroq, titroq, so'zak; **2.** *v shotl.* sayr qilmoq, aylanib (o'ynab, tomosha qilib) yurmoq

dandi [ˈdænd] *n hind.* qayiqchi, qayiq haydovchi (*Ganga daryosida*)

dandiacal [dænˈdaɪək(ə)l] *a* oliftalarcha (oliftalardek, satanglardek) kiyingan

Dandie Dinmont [ˌdændɪ ˈdɪnmont] Shotlandiya teryeri (*kichik hayvonlarni ovlaydigan it*)

dandified [ˈdændɪfaɪd] *a* juda chiroyli, kelishgan

dandify [ˈdændɪfaɪ] *v* olifta kiyinmoq; yasantirmoq, bezattirmoq, yasatmoq

dandiprat [ˈdændɪpræt] *n esk.* 1) juda pastbo'y (pak-pakana) odam; pakana, mitti; 2) pastak, mitti narsa; 3) *ko'ch.* biror sohada, doirada ko'zga ko'rinmas, arzimas odam; qo'lidan hech ish kelmaydigan odam; 4) to'polonchi, o'ta sho'x, shum, zumrasha (*bola haqida*)

dandizette [ˌdændɪˈzet] *n kam.* olifta, bashang (yasanchoq, kiyimiga zeb beradigan) ayol

dandle [ˈdændl] *v* 1) (*bolani*) tizzada *yoki* qo'lda tebratmoq; 2) erkalatmoq

dandriff [ˈdændrɪf] = **dandruff**

dandruff [ˈdændrəf] *n* qazg'oq, bosh kepagi

dandy I [ˈdændɪ] **1.** *n* olifta, yasanchoq (*kiyimiga zeb beradigan*) odam; **2.** *a* juda chiroyli, kelishgan

dandy II [ˈdændɪ] *n* 1) *deng.* bir machtali yelkanli kema; 2) *hind.* qayiqchi, qayiq haydovchi (*Gang daryosida*)

dandy-brush [ˈdændɪˌbrʌʃ] *n* ot qashlag'ich; qattiq cho'tka (*otlarni tarash uchun kit mo'ylovidan qilingan*)

dandyish [ˈdændɪɪʃ] *a* olifta

dandyism [ˈdændɪɪzm] *n* oliftalik, bashanglik; olifta kiyinish

Dane [deɪn] *n* daniyalik kishi

Danebrog [ˈdeɪnbrɒg] = **Dannebrog**

Danegeld, Danegelt [ˈdeɪnˌgeld, -ˌgelt] *n tar.* yer uchun to'lanadigan soliq

Dane-hole [ˈdeɪnˌhəʊl] = **dene-hole**

Danelagh [ˈdeɪnˌlɔ:] = **Danelaw**

Danelaw [ˈdeɪnˌlɔ:] *n tar.* Daniya qonunlari (*Britaniyaning shimoli sharqida X asrda joriy etilgan*)

Dane's hole [ˈdeɪnzhəʊl] = **dene-hole**

dang [dæŋ] *v* : **~ it!** jin ursin!

danger [ˈdeɪndʒə] *n* xavf, tahdid, xavf-xatar, xatar, qo'rqinch; **out of ~** xatardan xoli

danger arrow [ˈdeɪndʒərˌærəʊ] *n* zigzag (*siniq chiziq shaklidagi*) o'q; chaqmoq alomati

dangerous [ˈdeɪndʒərəs] *a* xavfli, tahdid soluvchi, xatarli, tahlikali, qaltis, yomon

dangerously [ˈdeɪndʒərəslɪ] *adv* xavf ostida, xavf ostiga qo'yib, xavfli bir tarzda, xatarli, qo'rqinchli, yomon; **~ ill** juda yomon kasal

danger-signal [ˈdeɪndʒəˌsɪgnl] *n* xavf (xatar) signali (xabari)

dangle [ˈdæŋgl] *v* osilib turmoq, osilib tushmoq

dangle-dolly [ˈdæŋglˌdɒlɪ] *n* avtomashinalarga osiladigan o'yinchoq

dangler [ˈdæŋglə] *n* ishyoqmas (bekorchi, tanbal) kishi

dangling [ˈdæŋglɪŋ] *a* osilib turgan, osib qo'yilgan, osilib tushgan

Danish [ˈdeɪnɪʃ] **1.** *a* Daniyaga va daniyaliklarga oid; **2.** *n* daniyaliklar tili

dank [dæŋk] *a* nam, ho'l

dankish [ˈdæŋkɪʃ] *a* sal nam (ho'l, zax)

Dannebrog [ˈdænəbrɒg] *n* 1) Daniyaning milliy bayrog'i; 2) Daniya ritsarining ordeni

danseuse [dɑ:nˈsɜ:z] *n fr.* raqqosa, o'yinchi ayol; balet raqqosasi

dant [dɑ:nt] *n* yomon yumshoq ko'mir

danta, dante [ˈdɑ:ntə] *n zool.* Amerika tapiri (*qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon*)

dap [dæp] **1.** *n* irg'ib ketish, sakrab ketish, irg'ib tushish (*koptok haqida*); **2.** *v* qarmoq bilan baliq tutmoq (*baliq ovlamoq*)

daphne [ˈdæfnɪ] *n bot.* mevasi zaharli buta

dapper [ˈdæpə] *a* ozoda, toza, pokiza

dapple [ˈdæpl] *v* yozib (*chizib*) tashlamoq, ola-bula qilib yubormoq

dapple-bay [ˈdæplˌbeɪ] *n* oriq ot

dappled [ˈdæpld] *a* xol-xol, olachipor, dog'li

dapple-grey [ˌdæplˈgreɪ] **1.** *a* kulrang, ko'kimtir, bo'z (*ot to'g'risida*); **2.** *n* kulrang chavkar ot

darbies [ˈdɑ:bɪz] *n pl jarg.* qo'lkishan, bilakka (qo'lga) solinadigan kishan; **to get the ~ on smb.** kimningdir qo'liga kishan solmoq

darby [ˈdɑ:bɪ] *n* suvoqchilik (gilkorlik) qoidasi; g'isht teruvchi ustaning belchasi

dare [deə] **1.** *v* botinmoq, jur'at etmoq, yuragi betlamoq; jazm qilmoq; **2.** *n* chaqiriq, chaqiruv, taklif, da'vat

dare-devil [ˈdeəˌdevl] **1.** *n* dovyurak odam; botir odam; **2.** *a* botir, jasur, mard, dovyurak, qo'rqmas, jur'atli, jasoratli, mardonavor, mardlarcha

dare-devilry [ˈdeəˌdevlrɪ] *n* 1) beg'amlik, beparvolik, beboshlik, avboshlik; 2) o'ylamay ish qilish, bemulohazalik; o'ylamay qilingan ish; 3) dovyuraklik, botirlik, mardlik

darer [ˈdeərə] *n so'zl. esk.* dovyurak (yurakli) odam, botir (qo'rqmas) odam

daresay [deəˈseɪ] *v* 1) joiz deb bilmoq, suyanmoq, umid bog'lamoq, orqa qilmoq, o'ylamoq, tuyulmoq; 2) jur'at qilmoq, yuragi dov bermoq, botinmoq

darg [dɑ:g] *n dial.* bir kun ichida bajariladigan ish; bir kunlik topshiriq, bir kunlik dars

darger [ˈdɑ:gə] *n dial.* kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi; mardikor

daric [ˈdærɪk] *n* darik (*qadimgi fors tilla tangasi*)

daring [ˈdeərɪŋ] **1.** *n* dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik; **2.** *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; jasoratli, jur'atli

dark [dɑ:k] **1.** *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q; noma'lum, tushunarli bo'lmagan; **~ eyed** qorako'z; **2.** *n* qorong'ilik, qorong'i; kechki payt; zulmat

darken [ˈdɑ:k(ə)n] *v* qorong'ilashtirmoq, qorong'i qilmoq, to'smoq

darkening [ˈdɑ:k(ə)nɪŋ] *v* qoraymoq, qorayib ketmoq, xiralanmoq

darkey [ˈdɑ:kɪ] *n* negr, qoracha, qorachadan kelgan

darkish [ˈdɑ:kɪʃ] *a* qoramtir, qoraga o'xshagan

dark-lantern [ˈdɑ:kˌlæntən] *n* maxfiy fonus, shishali chiroq

darkle [ˈdɑ:kl] *v* qoraymoq, qorayib qolmoq; qorong'ilashmoq, qorong'i tushmoq

dark light [ˈdɑ:kˌlaɪt] *n fiz.* ko'rinmas nurlar

darkling [ˈdɑ:klɪŋ] *a* qoraytiradigan, qorong'ilashtiradigan

darkly [ˈdɑ:klɪ] *adv* dushmanlik ko'zi bilan, g'azab bilan, yomon, yovuz, achchiqlanib

darkmans [ˈdɑ:kmənz] *n so'zl. jarg.* tun, kecha, kechasi

darkness [ˈdɑ:knəs] *n* qorong'ilik, qorong'i; timqorong'ilik, zimiston, zimziyo; kechki payt

dark-room [ˈdɑ:kru:m] *n foto.* qorong'i xona

dark-slide [ˈdɑ:kslaɪd] *n foto.* kasseta (*fotoplyonka joylanadigan, yorug'lik o'tkazmaydigan quticha*)

darksome [ˈdɑ:ksəm] *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q

darling [ˈdɑ:lɪŋ] *n* 1) sevimli, sevikli, sevilgan, sevgan, oshiq, muhabbat qo'yilgan, mehr qo'yilgan, ishqi tushgan; mahbub; 2) dilrabo, dilbar, jonon, yoqimli, aziz, chiroyli, go'zal, iltifotli

darn [dɑ:n] **1.** *n* to'rlab yamalgan joy; to'rlash, to'rlab yamash; **2.** *v* to'rlab yamamoq; to'rlamoq

darnel [ˈdɑ:nl] *n bot.* mastak (*begona o't*)

darner [ˈdɑ:nə] *n* to'rlovchi (*usta*); to'rlovchi ayol

darning [ˈdɑ:nɪŋ] *n* to'rlash, to'rlab yamash

darning-needle [ˈdɑ:nɪŋˌni:dl] *n* to'rlab yamaydigan igna

darrein [dəˈreɪn] *n yur. esk.* oxirgi, keyingi, so'nggi

dart [dɑ:t] **1.** *n* irg'itiladigan (otiladigan) o'q, nayza; **2.** *v* irg'itmoq, tashlamoq, otmoq; **to ~ glances** nazar tashlamoq

darter [ˈdɑ:tə] *n* 1) otuvchi, tashlovchi, irg'ituvchi; 2) *esk.* garpun (*katta baliqlarni ovlashda otiladigan uzun nayza*) otuvchi

darting [ˈdɑ:tɪŋ] *a* 1) jadal (ildam, tez, juda tez, shiddatli, shitob) bilan olib boriladigan; 2) g'ayrati ichiga sig'maydigan

dartingly [ˈdɑ:tɪŋlɪ] *adv* yashin tezligida; shiddat bilan

dartle [ˈdɑ:tl] *v kam.* tashlamoq, otmoq, irg'itmoq

dartman [ˈdɑ:tmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *tar.* nayza bilan qurollangan askar

dartre [ˈdɑ:tə] *n tib.* temiratki

dart-snake [ˈdɑ:tsneɪk] *n zool.* ilonsimon kaltakesak

Darwinian [dɑ:ˈwɪnɪən] **1.** *n* darvinist, darvinchi, darvinizm tarafdori; **2.** *a* darvinizmga oid, darvinizm…

Darwinianism [dɑ:ˈwɪnɪənɪzm] = **Darwinism**

Darwinism [ˈdɑ:wɪnɪzm] *n* Darvin ta'limoti (nazariyasi)

Darwinist [ˈdɑ:wɪnɪst] *v* darvinchi

dash I [dæʃ] **1.** *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; **the prisoner made a ~ for freedom** asir qochishga harakat qildi; 2) siltov, siltash, siltanish, irg'ish, sapchish; 3) g'ayrat, faollik, qat'iyat; amaliy kuch, kuch-quvvat, qunt, shiddat, tirishqoqlik; **~ and courage** mardlik va shijoat; 4) *amer. sport.* a) yugurish (*asos., qisqa masofada*); **hundred-metre ~** yuz metrga yugurish; b) bir aylanib kelish; 5) qattiq zarba; **a ~ with one's hand** qo'l bilan beriladigan zarba; **at (the) first ~** bir zarba bilan; **2.** *adv* 1) qars-qurs (tars-turs, chirs-chirs, shaqir-shuqur, shatir-shutur, qasir-qusur) qilib; 2) shaloplab (shovullab, shapillab); 3) tez sur'at bilan, shiddat (shitob) bilan, jon-jahd bilan, otilib, ildam, jadal, tez; **3.** *v* o'zini otmoq, otilmoq, tashlanmoq; oshiqmoq, oshiqib yugurmoq; yelmoq, yeldek uchmoq (yugurmoq, chopmoq), yeldek uchib (tez) bormoq; juda tez bormoq

dash II [dæʃ] **1.** *n jarg.* sovg'a, tuhfa, tortiq, hadya, armug'on, in'om, tortiq; **2.** *v jarg.* tortiq (sovg'a, tuhfa) qilmoq, tortiq (sovg'a) qilib bermoq; hadya (in'om, armug'on) etmoq, bekorga (tekinga) bermoq

dash-board [ˈdæʃbɔ:d] *n* asbob-uskuna taxtasi

dasher [ˈdæʃə] *n* zo'r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldiruvchi inson

dashing [ˈdæʃɪŋ] *a* epchil, chaqqon, abjir, uchqur

dash-pot [ˈdæʃˌpɔt] *n tex.* havoli *yoki* moyli bufer, amortizator

dashy [ˈdæʃɪ] *a so'zl.* o'zini ko'rsatishni (ko'z-ko'z qilishni) yoqtiradigan (yaxshi ko'radigan)

dastard [ˈdæstəd] *n* 1) qo'rqoq (yuraksiz) kishi; 2) yaramas (razil, ablah) kishi

dastardly [ˈdæstədlɪ] *a* qo'rqoq, yuraksiz, qo'rqoqlik, razil, qabih, yaramas, pastkash

dasyphyllous [ˌdæsɪˈfɪləs] *a bot.* 1) mayin (yumshoq, muloyim) bargli; 2) bargi ko'p (qalin), serbarg, seryaproq

dasyprocta [ˌdæsɪˈproktə] *n zool.* oltinday sap-sariq quyon

datable [ˈdeɪtəbl] *a* sanasi yoziladigan (ko'rsatiladigan)

dataller [ˈdeɪtələ] = **daytaler**

data [ˈdeɪtə] *n pl* ma'lumotlar, dalillar

data-sheet [ˈdeɪtəˌʃi:t] *n* 1) tasniflash; 2) tafsilotli ro'yxat

datcha [ˈdɑ:tʃə] = **dacha**

date [deɪt] **1.** *n* 1) sana (*oyning kuni*), kun, tarix; **the ~ of birth** tug'ilgan kun; 2) muddat; **out of ~** eskirgan; 3) uchrashuv; **to make a ~** uchrashuv belgilamoq; **2.** *v* sanasini ko'rsatmoq

dateable [ˈdeɪtəbl] = **datable**
date-dress [ˈdeɪtdres] *n so'zl.* bayram libosi (*qizlarniki*)
dated [ˈdeɪtɪd] *a* sanasi yozilgan; sanasi bor
dateless [ˈdeɪtləs] *a* sanasi yozilmagan, sanasi yo'q
date-line [ˈdeɪtlaɪn] *n* 1) (*maqola, hujjatlarda*) sana va joy yoziladigan qator: 2) *poligr.* nashrga oid ma'lumotlar (*nashrning bosilib chiqqan vaqti, joyi, nusxasi va h. k.*)
date-lined [ˈdeɪtlaɪnd] *a* sana va joyi ko'rsatilgan; ~ **from London** Londondan jo'natilgan (yuborilgan)
date-mark [ˈdeɪtmɑ:k] *n* (*ishlab chiqarilgan*) sanalarni ko'rsatish
date-palm [ˈdeɪt,pɑ:m] *n* xurmo daraxti
date-plum [ˈdeɪt,plʌm] *n* xurmo
dater [ˈdeɪtə] *n* sanalarni yozib (qo'yib) chiqadigan apparat
date-sugar [ˈdeɪt,ʃʊgə] *n* xurmo shakari
dation [ˈdeɪʃ(ə)n] *n yur.* hadya qil(in)ganlik haqidagi yozuv, hadya akti, hadyanoma
dative [ˈdeɪtɪv] *n gram.* jo'nalish kelishigi
datolite [ˈdætə(ʊ)laɪt] *n min.* datolit (*mineral, orolsimon silikatlar kenja sinfiga mansub borosilikat*)
datum [ˈdeɪtəm] *n* (*pl* **data** [ˈdeɪtə]) *mat.* 1) berilgan kattalik, ma'lum kattalik; 2) ma'lumot
datum line [ˈdeɪtəm,laɪn] *n* baza chizig'i
datura [dəˈtjʊərə] *n bot.* bangidevona
daturia [dəˈtjʊərɪə] = **daturine**
daturine [dəˈtjʊərɪn] *n farm.* atropin (*ba'zi o'simliklardan olinadigan alkaloid; og'riqni bosadigan dori sifatida ishlatiladi*)
daub [dɔ:b] **1.** *n* 1) yomon chizilgan rasm; 2) suvoq; **2.** *v* surkamoq, surtmoq, bo'yamoq, suvamoq
dauber [ˈdɔ:bə] *n* no'noq rassom, yomon rassom
daubery [ˈdɔ:bərɪ] *n* 1) aji-buji qilib bo'yalgan (chizilgan) narsa (*rasm, xat va sh. k.*); 2) no'noq rasm, yomon ishlangan surat
daubing I [ˈdɔ:bɪŋ] *n* 1) suvash, surkash, chaplash; 2) surkaladigan yoki suvaladigan narsa (material); suvoq
daubing II [ˈdɔ:bɪŋ] *amer.* = **dubbing I**
daubry [ˈdɔ:brɪ] = **daubery**
daubster [ˈdɔ:bstə] *n* yomon rassom, no'noq rassom
dauby [ˈdɔ:bɪ] *a* yomon chizilgan (*rasm to'g'risida*)
daughter [ˈdɔ:tə] *n* qiz (*farzand*); ~**-in-law** kelin
daughter-in-law [ˈdɔ:t(ə)rɪnlɔ:] *n* (*pl* **daughters-**) o'g'lining xotini, kelini, kelinoyi, yanga
daughterly [ˈdɔ:təlɪ] *a* qiz (*farzand*)ga oid; qiz (*farzand*)larga xos bo'lgan
dauk [dɔ:k] *n min.* 1) tuproqli (tuproq aralash) qumtosh; 2) qumoq tuproqli yer; qumoq tuproq
daunt [dɔ:nt] *v* 1) qo'rqitmoq, qo'rqitib qo'ymoq, cho'chitmoq; 2) hayvonlarni bo'ysundirmoq
dauntless [ˈdɔ:ntləs] *a* jasoratli, jasur, qo'rqmas
dauphin [ˈdɔ:fɪn] *n tar.* shahzoda (*1830-yildan ilgarigi Fransiyada*)
dauphiness [ˈdɔ:fɪnəs] *n tar.* shahzodaning xotini
davenport [ˈdævnpɔ:t] *n* 1) kichkina yozuv stoli; 2) *amer.* divan-karavot
daw I [dɔ:] *n* zog'cha
daw II [dɔ:] *v esk. shotl.* tong otmoq, tong yorishmoq
dawdle [ˈdɔ:dl] **1.** *v* 1) sudralib yurmoq, imillamoq; 2) vaqtini behuda o'tkazmoq; **2.** *n* 1) dangasa, yalqov, ishyoqmas, tanbal, bekorchi, bekorchixo'ja; 2) vaqtni bekor (behuda, befoyda) o'tkazish
dawdler [ˈdɔ:dlə] *n* dangasa, yalqov
dawk [dɔ:k] *n hind.* har bekatda otlari almashtirilib, shaharlar o'rtasida qatnaydigan pochta aravasi
dawn [dɔ:n] **1.** *n* sahar, azon, tong, tong payti; **2.** *v* tong otmoq; tong yorishmoq
dawning [ˈdɔ:nɪŋ] *n shoir.* 1) tong, tong payti, tong yorishgan payt, tongotar (payti), kun chiqish; 2) ilk davr, boshlanish davri (payti), boshi, avvali, ibtidosi, boshlanishi; boshlang'ich, boshlama, ibtido
dawsonite [ˈdɔ:sənaɪt] *n min.* dausonit (*mineral*)
day [deɪ] **1.** *n* kun, muhim sana, g'alaba; ~ **and night** erta-yu kech; **2.** *a* kunduzgi
day-and-night [ˈdeɪən(d),naɪt] *a* kecha-kunduz davom etadigan, kecha-kunduz to'xtamaydigan
day-bed [ˈdeɪbed] *n* pastak, keng divan
day-blindness [ˈdeɪ ˈblaɪn(d)nəs] *n tib.* kunduz kuni hech narsani ko'ra olmaslik (ajrata olmaslik)
day-book [ˈdeɪbʊk] *n* 1) kundalik daftari; 2) *hisob.* jurnal
day-boy [ˈdeɪbɔɪ] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi
daybreak [ˈdeɪbreɪk] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt
day-dawn [ˈdeɪdɔ:n] *n shoir.* tong, tong payti, tong yorishgan payt, tongotar payti, shafaq
day-dream [ˈdeɪdri:m] *n* shirin xayol, orzu
day-dreamer [ˈdeɪ,dri:mə] *n* xayol suruvchi, xayolparast kishi
day-drift [ˈdeɪdrɪft] *n kon.* shtolnya (*tashqariga chiqishi mumkin bo'lgan gorizontal yoki qiyaroq qilib kovlangan yer osti yo'li*); shtrek (*yer yuziga chiqadigan qilib gorizontal kovlangan joy*)
day-eye [ˈdeɪaɪ] *n kon.* qiya (nishab) kon; qiya (nishab) kon qudug'i (*konning tepadan to tagigacha bo'lgan qismi*)
day-flower [ˈdeɪ,flaʊə] *n* kunduzi ochiladigan gul
day-fly [ˈdeɪflaɪ] *n zool.* qisqa umrlilar, juda qisqa (*masalan, bir yoki bir necha kungina*) umr ko'radigan hasharotlar otradi
day-girl [ˈdeɪgɜ:l] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi qiz
day-hole [ˈdeɪhəʊl] = **day-drift**
day-hours [ˈdeɪ,aʊəz] *n pl cherk.* ertalabki yoki tushki ibodat (*xristianlarda*)
day-labour [ˈdeɪ,leɪbə] *n* kunbay ish
day-labourer [ˈdeɪ,leɪbərə] *n* kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor
dayless [ˈdeɪləs] *a* qorong'i
day letter [ˈdeɪ,letə] (*kunduzi yuboriladigan va past tarif bilan haq to'lanadigan*) telegramma-xat
daylight [ˈdeɪlaɪt] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt
daylight-saving [ˌdeɪlaɪt ˈseɪvɪŋ] *n* (*elektr energiyani tejash maqsadida*) soat milini yozda bir soat oldinga surish
day-lily [ˈdeɪ,lɪlɪ] *n bot.* lolagul
daylong [ˈdeɪlɔŋ] *adv* kun bo'yi davom etadigan
dayman [ˈdeɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor
day nursery [ˈdeɪ,nɜ:srɪ] *n* bolalarning kunduzgi bog'chasi
day-room [ˈdeɪru:m] *n* 1) kunduz kuni foydalanadigan xona; 2) *harb.* dam olish xonasi
day-scholar [ˈdeɪ,skɒlə] = **day-boy**
day-school [ˈdeɪsku:l] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchilarning maktabi; kunduz kuni o'qiydigan maktab; oddiy maktab
day-shift [ˈdeɪʃɪft] *n* kunduzgi smena
day-shine [ˈdeɪʃaɪn] *n* kunduzgi yorug'lik; quyosh yorug'ligi
day-sight [ˈdeɪsaɪt] *n* shabko'rlik
daysman [ˈdeɪzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) kunbay ishchi, mardikor
day-spring [ˈdeɪsprɪŋ] *n shoir.* shafaq, tong, subh
day-star [ˈdeɪstɑ:] *n* tong yulduzi
daytal [ˈdeɪtl] = **day-tale**
day-tale [ˈdeɪteɪl] *n* ishni kunbay hisobga olish; ~ **labour** kunbay ish; ~ **wages** kunbay haq to'lash

daytaler [ˈdeɪtələ] *n* kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi (*asosan, ko'mir konlarida*)
day-time [ˈdeɪtaɪm] *n* kun, kunduz kun
day-to-day [ˌdeɪtəˈdeɪ] *a* kunda bo'ladigan, har kungi
day-tracer bullet [ˌdeɪˌtreɪsəˈbʊlɪt] *harb.* otilganda (havoda) tutunli iz qoldiradigan o'q
day-wages [ˈdeɪˌweɪdʒɪz] *n pl* kunbay to'lanadigan yoki olinadigan pul (haq, to'lov)
day-water [ˈdeɪˌwɔːtə] *n* yuzadagi (sayoz) suv
day-woman [deɪˌwʊmən] = **dairy-woman**
day-work [ˈdeɪwɜːk] *n* kundalik ish
day's-work [ˈdeɪzwɜːk] *n* bir kunlik ish, bir kunda bajariladigan ish; **not to do a ~** hech ish qilmaslik
daze [deɪz] **1.** *v* hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilmoq; **2.** *n* hayron bo'lish, qoyil qolish
dazed [deɪzd] *a* hayron (qoyil) qolgan, mahliyo, hayratda qolgan, esankirab qolgan; 2) *tib.* **a ~ condition** es kirarli-chiqarli holat, esi kirdi-chiqdi bo'lib qolish holati
dazedly [ˈdeɪzədlɪ] *adv* hayron qolib, mahliyo bo'lib
dazzle [ˈdæzl] **1.** *n* 1) ko'zni qamashtirish; 2) yorqin nur; **2.** *v* ko'zni qamashtirmoq
dazzlement [ˈdæzlmənt] *n kit.* 1) ko'zni olish, ko'zni qamashtirish; 2) ko'zni oladigan (ko'zni qamashtiradigan) yorqin nur; 3) *ko'ch.* aqlni yo'qotgan holat, jaholat
dazzle-painted [ˈdæzlˌpeɪntɪd] *a harb.* niqoblash (dushman ko'ziga ko'rinmaslik) maqsadida bo'yalgan (rang berilgan)
dazzler [ˈdæzlə] *n so'zl.* 1) ajoyib (zo'r) inson; 2) juda yaxshi narsa (buyum)
d-d [dʌd] (**damned** *so'zining qisqartirilgan shakli*) *a* jazoga hukm etilgan kishi
D-day [ˈdiːdeɪ] *n harb.* operatsiya (harbiy harakat)ning boshlanish kuni
de- [diː-, dɪ-, de-] *pref* 1) ...dan ajratish, ...dan mahrum etish; 2) yomon sifat, yetishmovchilik; 3) so'zlarga teskari ma'no beradi
deacidification [dɪˌæsɪdɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n kim.* kislotani neytrallash (*eritmaga ishqor qo'shib, uning kislotalik xususiyatini yo'qotish*)
deacon [ˈdiːk(ə)n] *n* dyakon (*pravoslav cherkovida: ruhoniylarning quyi unvoni*)
deaconess [ˈdiːkənəs] *n* dyakon xotini
deaconhood [ˈdiːk(ə)nhʊd] *n* dyakonlik mansabi
deaconry [ˈdiːkənrɪ] = **deaconhood**
deaconship [ˈdiːk(ə)nʃɪp] = **deaconhood**
deactivate [diːˈæktɪveɪt] *v harb.* 1) tarqatmoq, tarqatib yubormoq; 2) harbiy xizmatdan bo'shatmoq; 3) zararsizlantirmoq, bezarar (zarar yetmaydigan) qilmoq; (*minani*) xavfsizlantirmoq
dead I [ded] **1.** *n* o'lik, murda, jasad; **2.** *a* o'lik, o'lgan, jonsiz
dead II [ded] *adv* to'la, to'liq, mutlaqo, g'oyat
dead abatis [ˈded ˈæbətɪs] *n harb.* ag'darilgan daraxtlardan qilingan ko'chma to'siq
dead-alive [ˈdedəˌlaɪv] *a* o'lik, jonsiz, ruhsiz
dead-beat I [ˈdedˌbiːt] *a so'zl.* 1) o'lgudek (rosa, qattiq) charchagan; holdan toygan, ozib to'zgan, so'ppaygan, behol, bemajol; tinkasi qurigan; 2) horigan, joni-holi qolmagan, holdan toygan, sillasi qurigan, daqqi (*ot haqida*)
dead-beat II [ˌdedˈbiːt] *a* 1) xotirjam, tinch, ovungan, taskin topgan; 2) tebranmaydigan (*magnit mili haqida*)
dead-born [ˈdedbɔːn] *a* 1) o'lik tug'ilgan; 2) *ko'ch.* behuda, amalga oshmaydigan
dead centre [ˌdedˈsentə] *n fiz. tex.* 1) turish nuqtasi; 2) *ko'ch.* ish to'xtagan, jilmay qolgan payt
dead-clothes [ˈdedˈkləʊðz] *n pl* o'likning kiyimlari
dead colour [ˈded,kʌlə] *n* xomaki bo'yoq berib chiqmoq
dead-doing [ˈdedˌduːɪŋ] *a esk.* o'ldiradigan, halok qiladigan, halokatli, ajal keltiradigan, qirg'in qiladigan
dead earth [ˈdedˈɜːθ] *el* yerga ulangan sim
deaden [ˈdedn] *v* 1) (*ovozni*) pasaytirmoq, yumshatmoq; 2) (*kasallikni*) pasaytirmoq
dead-end [ˌdedˈend] **1.** *n* tupik, boshi berk ko'cha; **2.** *a* hech qayoqqa jilmay o'tkaziladigan
deadfall [ˈdedˌfɔːl] *n amer.* qopqon, tuzoq
dead ground [ˈdedˈgraʊnd] *n harb.* o'q tushmaydigan (tegmaydigan) fazo
deadhead [ˈdedˌhed] *n* teatrga bepul kiruvchi kishi
dead-hearted [ˈdedˈhɑːtɪd] *a* rahmsiz, shafqatsiz, bag'ritosh, toshbag'ir; dag'al, qo'rs
dead heat [ˌdedˈhiːt] *sport. kasb.* 1) durang; 2) teng hisob (durang) bilan tugagan olishuv; 3) marraga (pakkaga) baravariga yetib kelish; 4) teng hisob, teng natija
dead-house [ˈdedhaʊs] *n* o'likxona
deadish [ˈdedɪʃ] *a kam.* 1) so'lg'in, ruhsiz, o'lik, o'liksimon, jonsiz; 2) murdadek jonsiz, rangsiz, rang-quti o'chgan; **~ paleness** murdadek rang-quti o'chganlik; 3) zaiflashib ketgan, kuchi kamaygan, susaygan, pasaygan; **~ sound** bo'g'iq ovoz (tovush); **~ beer** mazasi (yoki kuchi) ketgan pivo
dead-latch [ˈdedlætʃ] *n* lo'kidonli (surilma zanjirli) qulf
dead letter [ˌdedˈletə] *n* o'zgartirilmagan, ammo amalda joriy etilmaydigan qonun
dead-level [ˌdedˈlevl] *n* tekislik, tekis yer
dead lift [ˈdedlɪft] *n* behuda zo'r berish (*og'irlik ko'tarishda*)
deadlight [ˈdedlaɪt] *n deng.* ochilmaydigan oyna
deadline [ˈdedlaɪn] = **dead-line**
dead-line [ˈdedlaɪn] *n* so'nggi muddat
dead load [ˌdedˈləʊd] *n tex.* keraksiz yuk, ortiqcha yuk
dead lock [ˈdedlɒk] *n* o'yma qulf
deadlock [ˈdedlɒk] *n* boshi berk ko'cha
deadly [ˈdedlɪ] **1.** *a* o'limga (halokatga) olib boradigan, halokatli; **2.** *adv* o'lar (tuzalishdan umid yo'q) darajada
deadly nightshade [ˌdedlɪ ˈnaɪtʃeɪd] *n bot.* belladonna (*zaharli o'tsimon o'simlik va undan tayyorlangan dori*)
dead-man [ˈdedmæn] *n* (*pl* **-men** [-men]) 1) *pl jarg.* vinoning bo'sh shishalari; 2) *jarg. esk.* a) bulkachi, bulka do'koning egasi; bulka sotuvchi; b) bulka pishiruvchi, bulkapaz
deadman's bells [ˌdedmænz ˈbelz] *n shotl.* digitalis (*dorivor o'simlik turi*)
dead-man's finger [ˌdedmænz ˈfɪŋgə] *bot.* solib, orxis (*ildizidan dori tayyorlanadigan ko'p yillik o't-o'simlik*)
dead-man's handle [ˌdedmænzˈhændl] *n* elektr poyezdlarda avtomatik ravishdagi tormoz (*haydovchi to'satdan kasal bo'lib qolsa yoki o'lib qolsa, poyezdni to'xtatadigan tormoz*)
deadness [ˈdednəs] *n* 1) o'lim, ajal, qazo; 2) lanjlik, bo'shashganlik, sustlik, loqaydlik
dead-office [ˈdedˌɒfɪs] *n* janoza, janoza marosimi
dead-pan [ˈdedpæn] *n* xotirjam ko'rinish
dead-point [ˌdedˈpɔɪnt] *n* 1) *fiz. tex.* turish nuqtasi; 2) *ko'ch.* ish to'xtagan (jilmay qolgan) payt, holat
dead reckoning [ˌdedˈrek(ə)nɪŋ] *n av.* (*yo'lni*) navigatsion hisoblash
dead-ripe stage [ˈdedraɪpˈsteɪdʒ] *q.x.* pishib o'tganlik, tobidan o'tib ketganlik, pishib ezilganlik (*ekin hosillari haqida*)
dead set [ˈdedset] **1.** *n ov.* ovchi itning ovni payqab qotib turishi; **2.** *a* to'la jur'at etilgan, bir qarorga kelib bo'lingan

dead short |ˌdedˊʃɔːt| *n* 1) *el.* to'liq qisqa tutashuv; 2) xato ketmaydigan o'q; 3) bexato otadigan mergan
dead space |ˌdedˊspeɪs| *harb.* o'q tegmaydigan fazo
dead-spot |ˌdedˊspɒt| *n radio.* sukunat mintaqasi (doirasi)
dead stage |ˌdedˊsteɪdʒ| *kino. kash.* ovozsiz filmlar suratga olinadigan pavilyon
dead wall |ˌdedˊwɔːl| *n* teshik-tuynugi (derazasi) yo'q devor
dead-water |ˌded,wɔːtə| *n* ko'lmak suv
dead weight |ˌdedˊweɪt| *n (kemaning)* to'la yuk ko'tarish qobiliyati
dead-wind |ˌdedˊwɪnd| *n* qarama-qarshi tomondan esayotgan shamol
dead-wood |ˌdedˊwʊd| *n* qurib qolgan daraxt
dead-work |ˌdedˊwɜːk| *n tog'.* unumsiz mehnat
deaf |def| *a* qulog'i og'ir, kar, garang
deaf-adder |ˊdef,ædə| *n amer.* zaharsiz ilon
deaf-and-dumb |ˊdef(ə)nˊdʌm| *n* gung, kar-soqov
deaf-dumbness |ˌdef,dʌmnəs| *n* gunglik, gungalaklik, kar-soqovlik
deafen |ˊdefn| *v* kar (garang) qilmoq
deafening |ˊdef(ə)nɪŋ| *a* juda qattiq, quloqni kar qiladigan, quloqni qomatga keltiradigan
de-afforest |ˌdiːæˊfɒrɪst| = **disafforest**
deafly |ˊdeflɪ| *adv* 1) unchalik jaranglamasdan, bo'g'iq; 2) noaniq, tushunarli bo'lmagan tarzda; **~ heard** zo'rg'a eshitiladigan
deaf-mute |ˌdefˊmjuːt| *n* gung, kar-soqov
deafness |ˊdefnəs| *n* garanglik, qulog'i og'irlik, karlik
deal |diːl| **1.** *n* biroz miqdordagi, bir necha; **a great ~ of** ko'p; **2.** *v* (**dealt**) 1) tarqatmoq; taqsimlamoq; 2) shug'ullanmoq
dealable |ˊdiːləbl| *a* qobil, gapga ko'nadigan; ko'ngilchan, yon beradigan, bo'sh keladigan, yumshoq tabiatli
deal-ends |ˊdiːlendz| *n pl* taxta kesiklari (bo'laklari)
dealer |ˊdiːlə| *n* olibsotar
dealing |ˊdiːlɪŋ| *n* 1) (*nimanidir kimningdir orasida*) taqsimlash; 2) harakat, muomala, ish
dealt I |delt| *past., p. p. of* **deal 2**
dealt II |delt| *a* qarag'ay *yoki* archadan qilingan
deal-tree |ˊdiːltriː| *n sheva.* qoraqarag'ay
deambulation |diːˌæmbjʊˊleɪʃ(ə)n| *n kit.* sayr, tomosha; sayr (tomosha) qilish, aylanib kelish
deambulatory |dɪˊæmbjʊlətərɪ| *a kit.* 1) olamni (elma-el, yurtma-yurt) kezib yuradigan, safar (sayohat) qilib yuradigan; 2) joydan-joyga ko'chib yuradigan, sayyor
dean |diːn| *n* 1) *cherk.* bosh ruhoniy; 2) dekan; **the ~ of the faculty** fakultet dekani
deanery |ˊdiːnərɪ| *n* 1) dekanlik; 2) dekanat
deanship |ˊdiːnʃɪp| *n* dekan(lik) lavozimi, vazifasi
dear |dɪə| **1.** *a* sevikli, dildan sevgan, yurakdan urgan, qadrdon; **~est** jonajon, suyukli; 2) qimmat; **2.** *n* oshiq, ma'shuqa
dearborn |ˊdɪəbɔːn| *n amer.* to'rt g'ildirakli yengil arava
dear-bought |ˊdɪəbɔːt| *a* qimmatga topiladigan, topib bo'lmaydigan; qimmatga sotib olingan
dearie |ˊdɪərɪ| = **deary**
dearly |ˊdɪəlɪ| *adv* muloyimlik bilan, mehribonlik bilan, xushmuomalalik bilan
dearness |ˊdɪənəs| *n* 1) yumshoq muomala, muloyim (yoqimli) gap, mehr, muhabbat; 2) yaqinlik, do'stlik, birodarlik; 3) qimmatchilik; narxlarning balandligi, qimmatlik, yuqori (baland) narx
dearth |dɜːθ| *n* oziq-ovqatning yetishmasligi, ochlik
de-articulation |dɪɑːˌtɪkjʊˊleɪʃ(ə)n| *n* 1) taqsimot; bo'lish, taqsimlash, bo'linish, taqsimlanish; tarkibiy qismlarga bo'linish; 2) aniq (dona-dona) talaffuz
deary |ˊdɪərɪ| *n so'zl.* (*murojaatda*) azizim, jonim
death |deθ| *n* ajal, o'lim, qazo, vafot; **a ~ sentence** o'lim jazosi; **~less** o'lmas, abadiy yashaydigan
death-agony |ˊdeθˊægənɪ| *n* o'lim oldidagi jon talvasasi
deathbed |ˊdeθbed| *n* o'lim oldidagi damlar (lahzalar); o'lim to'shagi
death-bell |ˊdeθbel| *n* dafn marosimi qo'ng'irog'i
death-bill |ˊdeθbɪl| *n cherk.* 1) xotirotnoma (*o'lganlarni cherkovda yodlash uchun qilingan ro'yxat daftari*); 2) sinodik (*cherkovda: marhumlar ro'yxati*)
death-bird |ˊdeθbɜːd| *n* 1) o'limtik (o'laksa) bilan ovqatlanadigan qush, o'limtik (o'laksa)larni yeydigan qush; 2) *ko'ch.* o'limdan darak beradigan qush
death-blow |ˊdeθbləʊ| *n* halokatli (qattiq) zarba
death-cold |ˊdeθkəʊld| *a* o'likdek (murdadek) sovuq
death-cup |ˊdeθ,kʌp| *n* rangsiz qurbaqasalla (*zaharli zamburug'*)
death-damp |ˊdeθdæmp| *n* sovuq ter (*jon berayotgan odamda*)
death-day |ˌdeθˊdeɪ| *n* 1) o'lgan kun; 2) o'lgan kunni xotirlash marosimi
death-doing |ˊdeθ,duːɪŋ| *a so'zl.* o'limga (halokatga) olib boradigan, o'ldiradigan, halokatli, o'lar darajada, qattiq, jiddiy
death-feud |ˊdeθfjuːd| *n* ashaddiy dushmanlik
death-fire |ˊdeθ,faɪə| *n* 1) o'lik qabri ustidagi sham; 2) o'likni yondiradigan gulxan (olov)
death-flame |ˊdeθfleɪm| = **death-fire**
deathful |ˊdeθfʊl| *a* 1) o'ta xavfli, o'limga olib keladigan; **under ~ conditions** hayotini xavf ostiga qo'yib; 2) *ko'ch.* suv quygandek, o'ta, juda; **~ stillness** suv quygandek jimjitlik
death-hunter |ˊdeθ,hʌntə| *n* kafanduzd (*jang maydonida o'lgan va yarador bo'lganlarni talovchi odam*)
deathless |ˊdeθləs| *a* abadiy yashaydigan, o'lmaydigan, boqiy
deathlike |ˊdeθlaɪk| *a* 1) o'limga (halokatga) olib boradigan, o'ldiradigan, halokatli, o'lar darajada, qattiq, jiddiy; 2) *ko'ch.* suv quygandek, o'ta, juda; **~ silence** suv quygandek jimjitlik
deathling |ˊdeθlɪŋ| *n kam.* banda, odam, inson
deathly |ˊdeθlɪ| **1.** *a* o'ldiradigan, halokatli, halokatga (o'limga) olib boradigan; **2.** *adv* o'lar (tuzalishidan umid yo'q) darajada
death-penalty |ˌdeθ,penltɪ| *n* o'lim jazosi
death-pile |ˊdeθpaɪl| *n* dafn gulxani
death-rate |ˊdeθreɪt| *n* o'lim soni, miqdori
death-rattle |ˊdeθ,rætl| *n* o'lish oldidagi xirillash
death-roll |ˊdeθrəʊl| *n* o'lganlar ro'yxati
death's-head |ˊdeθshed| *n* bosh suyagi (*ajal timsoli*)
death-sick |ˊdeθsɪk| *a* qattiq (tuzalishidan umid yo'q darajada) kasal, halokatli kasal
deathsman |ˊdeθmən| *n pl* (*pl* **-men** |-mən|) *esk.* jallod
death-struck |ˊdeθstrʌk| *a* qattiq (tuzalishiga umid yo'q darajada) yaralangan, jarohatlangan, juda og'ir jarohatlangan; juda og'ir kasal
death-struggle |ˊdeθ,strʌgl| *n* o'lim talvasasi, jon talashish
death-throe |ˊdeθˈθrəʊ| *n* o'lim (jon) talvasasi, jon talashish
death-trap |ˊdeθtræp| *n* 1) xavfli (xatarli) joy; 2) halokatli (borsa-kelmas) joy
death-wound |ˊdeθwʊnd| *n* halokatli yara, o'ldiradigan darajada xavfli yara
deathy |ˊdeθɪ| *kam.* = **deathly**

deb [deb] (**debutante** *so'zining qisqartmasi*) *n so'zl.* debutantka, birinchi marta chiquvchi, boshlovchi (ayol)

debacle, débâcle [deɪ'bɑ:k(ə)l, dɪ'bɑ:k(ə)l] *n fr.* 1) daryoning ochilishi (muzdan tozalanishi); 2) to'g'onning o'pirilishi; 3) tor-mor qilish, tor-mor bo'lish; halokat

debar [dɪ'bɑ:] *v* taqiqlamoq, man qilmoq

debarcation [ˌdɪbɑ:'keɪʃ(ə)n] = **debarkation**

debark [dɪ'bɑ:k] *v* 1) tushmoq, tushib qolmoq, tushib ketmoq; 2) tushirmoq, tushirib qo'ymoq

debarkation [ˌdi:bɑ:'keɪʃ(ə)n] *n* yukdan bo'shatish; yukni tushirish

debarment [dɪ'bɑ:mənt] *n kit.* 1) oldini olish, ehtiyot chorasini ko'rish, oldindan bartaraf qilish, yo'l qo'ymaslik; 2) man qilish, taqiqlash; huquqidan mahrum etish

debarrass [dɪ'bærəs] *v kit.* 1) qiyinchilikdan (qiyin ahvoldan) qutqarmoq (chiqarmoq); 2) g'am (tashvish)dan qutqarmoq (xalos etmoq)

debase [dɪ'beɪs] *v* 1) (*narxni*) tushirmoq, arzonlashtirmoq; 2) (*narxni, sifatni*) pasaytirmoq

debased [dɪ'beɪst] *a* 1) pasaygan, pasaytirilgan; pastroqqa tushgan; 2) buzuq, buzilgan, ishdan chiqqan; 3) xo'rlangan, haqoratlangan, kamsitilgan, ezilgan

debasement [dɪ'beɪsmənt] *n* 1) kamsitish, xo'rlash; 2) narxlarning pasayishi; 3) sifatning yomonlashishi

debasing [dɪ'beɪsɪŋ] *a* buzuvchi, yo'ldan ozdiruvchi; yomon

debatable [dɪ'beɪtəbl] *a* janjalli, munozarali

debate [dɪ'beɪt] **1.** *n* munozara, muzokara, bahs, tortishuv; **2.** *v* muhokama qilmoq; munozara qilmoq; bahslashmoq

debater [dɪ'beɪtə] *n* bahs qatnashuvchisi (ishtirokchisi)

debating-society [dɪ'beɪtɪŋsə'saɪətɪ] *n* debat (bahs-munozara) klubi

debauch [dɪ'bɔ:tʃ] **1.** *n* urish-janjal, mushtlashish, to'polon; **2.** *v* axloqini buzmoq, axloqsizlikni o'rgatmoq; yo'ldan ozdirmoq; **~ed** axloqi buzuq; **~ery** yomon yo'lga kirganlik, axloqi buzilganlik

debauched [dɪ'bɔ:tʃt] *a* buzuq (yomon yo'lga kirib ketgan)

debauchee [ˌdebɔ:'ʃi:] *n* buzuq kishi, xotinboz, yomon yo'lga kirgan kishi

debaucher [dɪ'bɔ:tʃə] *n kit.* 1) buzuq (axloqsiz) kishi, xotinboz, fohishaboz; 2) qiziqtirib (havasini keltirib) yo'ldan uradigan odam, yo'ldan ozdiruvchi

debauchery [dɪ'bɔ:tʃ(ə)rɪ] *n* araqxo'rlik, ichkilikbozlik

debby ['debɪ] *so'zl. qisq.* **debutante**

debel(l) [dɪ'bel] *v esk.* 1) yengmoq, yengib chiqmoq, g'alaba qozonmoq; g'olib kelmoq, zafar qozonmoq; 2) zabt qilmoq, bosib olmoq, o'ziga bo'ysundirmoq

debenture [dɪ'bentʃə] *n* qarz olish-berish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar

debenture-bond [dɪ'bentʃə'bɔnd] *n* aksiyadorlik jamiyatining aksiyasi

debile ['di:baɪl] *a esk.* bedarmon, bemajol, bequvvat, darmonsiz, majolsiz; ojiz, zaif, munkillagan

debilitant [dɪ'bɪlɪtənt] **1.** *n tib.* tinchlantiradigan (orom beradigan) dori; **2.** *a tib.* 1) kuch-quvvatdan qoldiradigan, zaiflashtiradigan, darmonsizlantiradigan; kuchsizlantiradigan; bo'shashtiradigan; kuchini oladigan, bequvvat qilib qo'yadigan; 2) bo'shashtiradigan susaytiradigan

debilitate [dɪ'bɪlɪteɪt] *v tib.* 1) kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashtirmoq, darmonsizlantirmoq; kuchsizlantirmoq; bo'shashtirmoq, kuchini olmoq, bequvvat qilib qo'ymoq; 2) bo'shashtirmoq, susaytirmoq

debilitating [dɪ'bɪlɪteɪtɪŋ] *a tib.* kuch-quvvatdan qoldiradigan, zaiflashtiradigan, sillasini quritadigan; **a ~ disease** tinka-madorni quritadigan (kuch-quvvatni oladigan) kasallik

debilitation [dɪˌbɪlɪ'teɪʃ(ə)n] *n tib.* zaiflashib ketish, kuch-quvvatdan qolish, kuchsizlik

debilitative [dɪ'bɪlɪtətɪv] *a* tinka-madorni quritadigan, kuch-quvvatni oladigan, kuch-quvvatdan qoldiradigan, zaiflashtiradigan, sillasini quritadigan

debility [dɪ'bɪlɪtɪ] *n* kuchsizlik, zaiflik, darmonsizlik, kasalmandlik

debit ['debɪt] **1.** *n hisob.* debet, kirim; **2.** *v* debetga yozib qo'ymoq

debonair [ˌdebə'neə] *a* xushfe'l, xushmuomala, muloyim, ko'ngli ochiq, quvnoq

deboshed [dɪ'bɔʃt] *esk.* = **debauched**

debouch [dɪ'baʊtʃ] *v* daradan ochiq joyga chiqmoq (*daryo to'g' risida*)

debouch(e)ment [dɪ'bʊtʃmənt] *n* daradan chiqish (*yo'li*)

debrief [dɪ'bri:f] *v* (uchuvchi, kosmonavt va b.) topshiriqni bajarib bo'lganlaridan so'ng ularga savollar berib, ularning fikrlari bilan o'rtoqlashmoq (so'roq qilmoq)

debris, débris ['debri:,'deɪbri:] *n* 1) xaroba, vayrona, xarobazor; 2) asorat, qoldiq

debt [det] *n* qarz; nasiya; **to get into ~** qarzga botmoq

debtee [de'ti:] *n* qarz beruvchi (bergan) kishi (tashkilot)

debtless ['detləs] *a* qarzdan ozod (xalos) bo'lgan, qarzdan qutulgan

debtor ['detə] *n* qarzdor; **a ~'s prison** qarzdorlar qamoqxonasi

debulk [dɪ'bʌlk] *v* qisqartmoq, qisqartirmoq, hajmini kichraytirmoq; kamaytirmoq, ozaytirmoq, qisqaroq (kichikroq, ozroq) qilmoq

debunk [ˌdi:'bʌŋk] *n so'zl.* 1) obro'yini ketkazmoq, fosh qilmoq, sharmandasini chiqarmoq; 2) taxtdan tushirmoq

debunking [ˌdi:'bʌŋkɪŋ] *n so'zl.* 1) (*yolg'on va b.*) fosh qilish, oshkor qilish, ochib tashlash; 2) obro'yini ketkazish, sharmandasini chiqarish

debus [ˌdi:'bʌs] *v* 1) mashinadan tushmoq, tushib qolmoq; 2) tushirmoq; 3) avtomashinadan yukni tushirmoq

debussing-point [di:'bʌsɪŋ(')pɔɪnt] *n* avtomashinadan yuk tushirish joyi

debut ['deɪbju:] *n fr.* birinchi marta chiqish (boshlash); **to make one's ~** birinchi marta chiqmoq (boshlamoq)

debutant ['debju:tɑ:ŋ] *n fr.* boshlovchi, birinchi marta chiquvchi

debutante ['debju:tɑ:nt] *n fr.* boshlovchi (*ayol*)

deca- ['dekə-] *pref.* o'n, o'nta, o'nov

decachord ['dekəkɔ:d] **1.** *n mus.* o'n torli (simli) arfa (*qadimgi greklarda: chertib chalinadigan katta musiqa asbobi*); **2.** *a mus.* o'n torli (simli)

decadal ['dekəd(ə)l] *a* o'n yilda bir marta bo'ladigan

decadary ['dekədərɪ] *a* o'n kunlik (dekada)ga oid

decade ['dekeɪd] *n* 1) o'nta, o'n dona, o'n nafar; 2) o'n yillik muddat (*vaqt*); o'n yillik marosim

decadence ['dekəd(ə)ns] *n* pasayish, tushish, zaiflashish, kuchsizlanish

decadency ['dekəd(ə)nsɪ] = **decadence**

decadent ['dekəd(ə)nt] **1.** *n* dekadent (*dekadentlik oqimi namoyandasi*); **2.** *a* 1) tushkunlikka tushgan; 2) inqirozga uchragan

decadi ['dekədɪ] *n tar.* o'n yillikning oxirgi kuni (*Fransuz respublika taqvimi bo'yicha 1793- yilga to'g'ri keladi*)

decaffeinated [dɪ'kæfɪ:neɪtɪd] *a* kofein qo'shilmagan, kofeinsiz (*kofein — kofe urug'i yoki choy bargidan olinadigan alkogol*)

decagon ['dekəgən] *n mat.* o'nburchaklik (*shakl*)

decagonal [de'kægən(ə)l] *a* o'n burchakli

decagram(me) ['dekəgræm] *n* dekagramm (*o'n gramm*)

decahedral [ˌdekəˊhi:drəl] *a* o'n yoqlik (*shakl*)
decahedron [ˌdekəˊhi:drən] *n mat.* dekaedr, o'n yoqlik (shakl)
decalcomania [dɪˌkælkə(ʊ)ˊmeɪnjə] *n poligr.* dekalkomaniya (*1. qog'ozdagi ko'p rangli rasmni oyna, chinni yoki yog'och buyumlarga tushirish usuli; 2. shu usulda tushirilgan rasm*)
decalitre [ˊdekəˌli:tə] *n* dekalitr (*o'n litr*)
decalogue [ˊdekəlɔg] *n bibl.* dinda *(diniy kitoblarda)* buyurilgan o'nta din amri
decametre [ˊdekəˌmi:tə] *n* dekametr (*o'n metr*)
decamisado [ˌdekəmɪˊsɑ:dəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) *tar.* kambag'al, faqir, nochor
decamp [dɪˊkæmp] *v* 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) yashirinmoq; 3) lagerdan chiqmoq
decampment [dɪˊkæmpmənt] *n* 1) lagerdan chiqish; 2) qochish, qochib ketish
decanal [dɪˊkeɪnl] *a* dekanga oid, dekan
decandrous [dɪˊkændrəs] *a bot.* o'n changchili, o'nta changchisi (otaligi) bor bo'lgan
decangular [deˊkæŋgjʊlə] *a* o'n burchakli
decant [dɪˊkænt] *v* suzg'ichdan o'tkazmoq, suzmoq, g'alvirdan o'tkazmoq, saralamoq
decantation [ˌdi:kænˊteɪʃ(ə)n] *n* 1) a) filtratsiya, filtrlash; filtrdan (suzg'ichdan) o'tkazish, suzish; b) *maxs.* sizish, sizib (sirqib) o'tish; 2) quyish, olib quyish, bir joydan ikkinchi joyga olib quyish
decanter [dɪˊkæntə] *n* 1) grafin; 2) *tex.* tindirgich
decaphyllous [ˌdekəˊfɪləs] *a bot.* o'n bargli (*o'simlik*)
decapitate [dɪˊkæpɪteɪt] *v* 1) boshini uzmoq, kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq; 2) boshliqsiz (rahbarsiz) qoldirmoq
decapitation [dɪˌkæpɪˊteɪʃ(ə)n] *n* 1) boshini uzish, kallasini olish, kallasini olib (kesib) tashlash, boshini tanidan judo qilish; 2) *ko'ch.* boshliqsiz (rahbarsiz, yetakchisiz) qoldirish, boshlig'ini yo'qotish
decapod [ˊdekəpɒd] **1.** *n zool.* o'n oyoqli qisqichbaqa; **2.** *a zool.* o'n oyoqli
decarbonate [di:ˊkɑ:bəneɪt] *v* uglerodsizlantirmoq
decarbonization [di:ˌkɑ:bən(a)ɪˊzeɪʃ(ə)n] *n kim.* uglerodsizlantirish, uglerodsizlanish, uglerodini yo'qotish
decarbonize [di:ˊkɑ:bənaɪz] = **decarbonate**
decarburize [di:ˊkɑ:bjʊ(ə)raɪz] *v metal.* uglerodsizlantirmoq; uglerodsizlanmoq; uglerodni yo'qotmoq
decasualize [di:ˊkæʒjʊəlaɪz] *v* qo'nimsiz ishchi kuchlarni yo'qotmoq
decasyllabic [ˊdekəsɪˊlæbɪk] *a she'r.* o'n bo'g'inli, o'n bo'g'indan iborat bo'lgan
decasyllable [ˊdekəsɪləbl] **1.** *n* o'n bo'g'inli (o'n bo'g'indan iborat bo'lgan) so'z; **2.** *a* o'n bo'g'inli
decathlete [dɪˊkæθli:t] *n sport.* o'n kurashchi
decathlon [dɪˊkæθlɒn] *n sport.* o'nkurash *(sportning o'n turini o'z ichiga olgan musobaqa)*
decathlonist [dɪˊkæθlənɪst] = **decathlete**
decay [dɪˊkeɪ] **1.** *n* 1) chirish, yemirilish; parchalanish; 2) inqiroz, tanazzul; **2.** *v* yiringlamoq, chirimoq; **~ed** chirigan
decayed [dɪˊkeɪd] *a* 1) buzuq, buzilgan, aynigan, hidlangan, sasigan, chirigan; 2) yomon, yomonlashgan, chirib (irib) ketgan; **a ~ tooth** chiriq (qurt yegan) tish; **~ vegetables** chirib (irib, sasib) ketgan sabzavotlar
decaying [dɪˊkeɪɪŋ] *a* chiriy boshlagan, chirib borayotgan; **a ~ tooth** *tib.* chirigan tish
Deccan hemp [ˊdekənhemp] *bot.* kanop (*toladi bir yillik o'simlik*)
decease [dɪˊsi:s] **1.** *n* o'lim, vafot; qazo, ajal; **2.** *v* vafot etmoq, jon bermoq
deceased [dɪˊsi:st] *n* rahmatli, marhum
decedent [dɪˊsi:dənt] *n yur.* tinch, osoyishta
deceit [dɪˊsi:t] *n* makr, aldash, pand berish, muttahamlik
deceitful [dɪˊsi:tf(ə)l] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri; 2) kishini aldaydigan
deceitfully [dɪˊsi:tf(ə)lɪ] *adv* makkorona, xiyonatkorona, xoinona
deceivable [dɪˊsi:vəbl] *n* 1) *kam.* ishonuvchan, inonuvchan; laqma, laq etib tushadigan; 2) *esk.* yolg'on, haqiqatga xilof, noto'g'ri
deceive [dɪˊsi:v] *v* aldamoq, chalg'itmoq; avramoq, tovlamoq; laqillatmoq; **~d** adashgan; **~r** ko'zbo'yamachi, qallob
deceiver [dɪˊsi:və] *n* yolg'onchi
decelerate [ˌdi:ˊseləreɪt] *v* 1) sekinlashtirmoq, sekinlatmoq; 2) tezlikni pasaytirmoq
deceleration [ˊdi:ˌseləˊreɪʃ(ə)n] *n* 1) sekinlashtirish, sekinlashish, susaytirish; 2) tormoz berish, to'xtatish
decelerator [ˌdi:ˊseləreɪtə] *n* 1) *tex.* reduktor (*1. tishli g'ildiraklar yordami bilan bir valdan ikkinchi valga harakat o'tkazadigan mexanizm; 2. suyuqlik, gaz kabilar bosimini bir me'yorda saqlab turadigan yoki boshqa joyga o'tkazadigan asbob*); 2) *kim.* (*reaksiyani*) sekinlashtiruvchi (susaytiruvchi) mexanizm
December [dɪˊsembə] **1.** *n* dekabr; **2.** *attr.* dekabrda bo'ladigan
Decembrist [dɪˊsembrɪst] *n tar.* dekabrist
decenary [dɪˊsenərɪ] = **decennary**
decency [ˊdi:s(ə)nsɪ] *n* odob, tartib, xushxulqlik
decennary [dɪˊsenərɪ] *n* o'n yillik vaqt, muddat, o'n yil
decennia [dɪˊsenɪə] *pl of* **decenniem**
decenniad [di:ˊsenɪæd] = **decennary**
decennial [dɪˊsenjəl] *a* o'n yil davom etadigan
decennium [dɪˊsenɪəm] *n* (*pl* **-nia** [-nɪə]) *kit.* 1) o'n yillik vaqt, muddat; o'n yil; 2) o'n yillik (*marosim, yubiley*)
decent [ˊdi:s(ə)nt] *a* 1) odobli, tartibli, tarbiyali; 2) vijdonli, insofli, nomusli, to'g'ri, halol
decently [ˊdi:sntlɪ] *adv* 1) insof bilan, odob bilan; 2) yoqimli qilib, iltifot bilan
decentralization [di:ˌsentrəlaɪˊzeɪʃ(ə)n] *n* detsentralizatsiya (*markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tish yoki o'tkazish*)
decentralize [di:ˊsentrəlaɪz] *v* markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tmoq *yoki* o'tkazmoq
deception [dɪˊsepʃ(ə)n] *n* firibgarlik, tilyog'lamachilik; aldash, firib berish
deceptious [dɪˊsepʃəs] *a kam.* 1) yolg'ondan iborat bo'lgan, yolg'on; 2) kishini aldaydigan, yanglishtiradigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan, aldovchi; 3) soxta, shubhali
deceptive [dɪˊseptɪv] *a* 1) yolg'on, yolg'ondan iborat bo'lgan; 2) kishini aldaydigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan
deceptively [dɪˊseptɪvlɪ] *adv* yolg'ondakam, yolg'ondan
deceptiveness [dɪˊseptɪvnəs] *n* aldamchilik, aldoqchilik, yolg'onchilik, firibgarlik, qalloblik
decern [dɪˊsɜ:n] *v* tanimoq, ajratmoq, tanib olmoq, boshqalardan farqlay olmoq
decerniture [dɪˊsɜ:nɪtʃə] *n shotl. yur.* 1) sud hukmi; 2) *rasm.* buyruq, farmoyish, amr
decertification [dɪˌsɜ:tɪfɪˊkeɪʃ(ə)n] *n amer.* kasaba uyushmasi vakolatini davlat tomonidan bekor qilish
decession [dɪˊseʃ(ə)n] *n kam.* 1) ketish, jo'nash; yo'lga (safarga) chiqish, safar; 2) kamaytirish, ozaytirish, kichraytirish, pasaytirish, sekinlatish; kama-

yish, ozayish, kichrayish, pasayish, sekinlashish
deci- [ˈdesɪ-] *pref.* o'ndan bir
decibel [ˈdesɪbel] *n fiz.* detsibel (*ikkita bir jinsli fizik kattaliklar — energiya, quvvat, tovush bosimi va h. k. nisbati logarifmi bilan o'lchanadigan birlik; bel (elektrotexnika, radiotexnika va akustikada energiya nisbati logarifmi bilan o'lchanadigan birlik)ning 1/10 ulushiga teng*)
decidable [dɪˈsaɪdəbl] *a* hal bo'ladigan, hal qilib (yechib) bo'ladigan
decide [dɪˈsaɪd] *v* hal qilmoq, qaror qilmoq, botinmoq
decided [dɪˈsaɪdɪd] *a* 1) hal bo'lgan, hal etilgan; 2) qaror qilingan
decidedly [dɪˈsaɪdɪdlɪ] *adv* qat'iy, qat'iyat bilan, tortinmay, ikkilanmay
decider [dɪˈsaɪdə] *n sport.* hal qiluvchi uchrashuv
decidua [dɪˈsɪdjʊə] *n fiziol.* bachadonning tushadigan pardasi (qobig'i)
deciduary [dɪ ˈsɪdjʊərɪ] *kam.* = **deciduous**
deciduata [dɪˌsɪdjʊ ˈeɪtə] *n pl. zool.* yo'ldoshi tushadigan sutemizuvchilar
deciduate [dɪˈsɪdjʊɪt] *a fiziol.* tushadigan yo'ldoshi mavjud bo'lgan
deciduous [dɪˈsɪdjʊəs] *a bot.* bargi to'kiladigan (*daraxt to'g'risida*)
decigram(me) [ˈdesɪgræm] *n* o'ndan bir gramm; grammning o'ndan biri
decilitre [ˈdesɪˌliːtə] *n* o'ndan bir litr; litrning o'ndan biri
decima [ˈdesɪmə] *n* (*pl* **-mae** [-miː]) *lot.* 1) o'ninchi qismi; 2) ushr (*daromadning o'ndan biri miqdorida cherkov foydasiga olingan soliq*); 3) *mus. kam.* detsima (*diatonik gammasining birinchi va o'ninchi parda oralig'i va o'ninchi pardasi*)
decimae [ˈdesɪmiː] *pl of* **decima**
decimal [ˈdesɪm(ə)l] **1.** *n* o'nli kasr; **2.** *a* o'nli
decimalism [ˈdesɪməlɪzm] *n* o'nli sistemalarni qo'llash, ishlatish
decimalize [ˈdesɪməlaɪz] *v* o'nga bo'lmoq
decimally [ˈdesɪm(ə)lɪ] *adv* o'nli usulga ko'ra
decimate [ˈdesɪmeɪt] *v* har o'n kishidan bittasini o'ldirmoq (*qatl etmoq*)
decimation [ˌdesɪ ˈmeɪʃ(ə)n] *n* har o'n kishidan bittasini qatl etish
decimestrial [ˌdesɪ ˈmestrɪəl] *a kit.* o'n oylik; o'n oy davom etgan (etadigan); o'n oyga mo'ljallangan (*muddat, davr, vaqt va b.*)
decimetre [ˈdesɪˌmiːtə] *n* detsimetr, o'ndan bir metr, metrning o'ndan biri
decimo-sexto [ˈdesɪməˈsekstəʊ] *n poligr.* bosma tabog'i 1/16 ulushli kitob bichimi
decipher [dɪˈsaɪfə] *v* (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*) topib o'qimoq
decipherable [dɪˈsaɪf(ə)rəbl] *a* (*topib*) o'qisa bo'ladigan
decipherer [dɪˈsaɪfərə] *n* deshifrator (*shifrni, shifrlangan yoki noma'lum harflar bilan yozilgan narsani o'qiydigan (ochadigan) mashina*)
decipherment [dɪˈsaɪfəmənt] *n kit.* deshifrovka (*shifrni, shifrlangan yoki noma'lum harflar bilan yozilgan narsani o'qish, ochish*)
decision [dɪˈsɪʒ(ə)n] *n* qaror, hukm, xulosa, fikr
decisive [dɪˈsaɪsɪv] *a* hal qiluvchi
decively [dɪˈsaɪsɪvlɪ] *adv* 1) tamomila, qat'iyan, butunlay, uzil-kesil, qat'iy, batamom; 2) aniq, puxta, ishonarli qilib, ishontirib; 3) qattiq turib, qat'iy o'tinib; 3) qat'iyat bilan; tortinmay, ikkilanmay, tap tortmay; **to act ~** ikkilanmay (qat'iyat bilan) harakat qilmoq; 4) shubhasiz, shak-shubhasiz, aniq; **he is ~ the first Uzbek poet** shubhasiz u o'zbek shoirlari orasidagi eng birinchi shoirdir
decivilize [dɪˈsɪvɪlaɪz] *v* yovvoyilashtirmoq
deck I [dek] *n deng.* paluba, paroxod (*kema*) sahni
deck II [dek] *v* yasatmoq, bezamoq, zeb (oro) bermoq, bezatmoq; **to ~ a room with flowers** xonani gullar bilan bezatmoq
deck alighting [ˈdekəˌlaɪtɪŋ] *n deng.* kema sahniga chiqish
deck-beam [ˈdekbiːm] *n deng.* kema sahnidagi ko'ndalang balkabims
deck-bridge [ˈdekbrɪdʒ] *n* ustida mashinalar yuradigan ko'prik
deck-cabin [ˌdekˈkæbɪn] *n* kema sahnidagi xona (kayuta)
deck-cargo [ˌdekˈkɑːgəʊ] *n* kema sahnidagi yuk
deck-chair [ˈdekʧeə] *n* (*kema sahnidagi yo'lovchilar uchun*) yengil kreslo
decked [dekt] *a* bezatilgan, yasatilgan, zeb (oro) berilgan
decker [ˈdekə] *n* 1) palubali kema; 2) *deng. kasb.* palubada ishlaydigan dengizchi; 3) *so'zl.* paluba yo'lovchisi (passajiri)
-decker [-dekə] *murakkab so'zlarda:* nechta paluba borligini bildiradi; **double-decker** ikki qavatli avtobus
deck-hand [ˈdekhænd] *n* dengizchi
deck-house [ˈdekhaos] *n deng.* kema sahni ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy
decking [ˈdekɪŋ] **1.** *n* 1) bezak, zeb-ziynat; 2) bezatish; **2.** *v* kema sahnini bezatmoq
deckle [ˈdekl] *v* qog'ozlarning chekkalarini qirqmoq
deckle-edged [ˌdeklˈedʒd] *a* chekkalari tekis bo'lmagan (*qog'oz to'g'risida*)
deck-light [ˈdeklaɪt] *n deng.* paluba
deck-load [ˈdekləʊd] = **deck-cargo**
deck-passage [ˈdekˌpæsɪdʒ] *n* (*kayutadan foydalanmasdan*) palubaga o'tish
deck-piercing [ˈdekˌpɪəsɪŋ] *a deng.* bronteshar, zirhteshar (*snaryad, zambarak o'qi haqida*)
deck start [ˈdekˌstɑːt] *n deng.* kema sahnidan uchish
deck-tennis [ˈdekˌtenɪs] *n* kema sahnidagi tennis maydonida o'ynaladigan tennis
declaim [dɪˈkleɪm] *v* jo'shqinlik bilan nutq so'zlamoq
declamation [ˌdekləˈmeɪʃ(ə)n] *n* deklamatsiya, badiiy o'qish
declamatory [dɪˈklæmət(ə)rɪ] *a* 1) notiqlikka oid; notiqlik; 2) ifodali o'qishga oid; 3) balandparvoz, dabdabali
declarant [dɪˈkleərənt] *n yur.* ariza yozuvchi kishi
declaration [ˌdekləˈreɪʃ(ə)n] *n* bayonot, bayonnoma
declarative [dɪˈklærətɪv] *a* tantanali; **a ~ sentence** *gram.* darak gap
declaratory [dɪˈklærət(ə)rɪ] *a* tushuntirish uchun yozilgan; tushuntirib beradigan
declare [dɪˈkleə] *v* e'lon qilmoq, bildirmoq, aytmoq
declared [dɪˈkleəd] *a* 1) e'lon qilingan; 2) tan olingan
declarer [dɪ ˈkleərə] *n* deklaratsiyani imzolaydigan kishi
declassé [ˌdeɪklɑːˈseɪ] *n fr.* sinfsizlashgan, o'z sinfidan (*ijtimoiy hayotdan*) tamoman uzilgan, tubanlikka tushgan
declassed [ˌdiːˈklɑːst] *a* sinfsizlashgan, tubanlikka tushgan
declassify [ˌdiːˈklæsɪfaɪ] *v* sirni oshkor qilmoq, ma'lum qilmoq
declension [dɪˈklenʃ(ə)n] 1) *gram.* turlash, turlanish; 2) pasayish, kamayish, tushish; 3) yomonlashish
declensional [dɪˈklenʃənl] *a gram.* turlash bilan bog'liq bo'lgan; turlanishga oid
declinable [dɪˈklaɪnəbl] *a gram.* turlanadigan, turlanuvchi
declinate [ˈdeklɪnɪt] *a bot.* pastga egilgan (qayrilgan, bukilgan)
declination [ˌdeklɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) og'ish, chetga chiqish; 2) magnit og'ish burchagi; 3) *gram.* turlash, turlanish

declinator |ˈdeklɪneɪtə| *n* deklinator (*magnit og'ish burchagini o'lchaydigan asbob*)

declinatory |dɪˈklaɪnət(ə)rɪ| *a* 1) og'adigan; 2) rad qilingan, qabul qilmaydigan

declinature |dɪˈklaɪnətʃə| *n kit.* rad qilish, bosh tortish, qabul qilmaslik

decline |dɪˈklaɪn| **1.** *n* 1) qisqarish; 2) arzonlashish (*narx*); **2.** *v* 1) rad qilmoq, qaytarmoq; 2) egilmoq; egmoq; yomonlashmoq (*sog'liq haqida*); tushmoq (*harorat haqida*)

declining |dɪˈklaɪnɪŋ| *a* keksaygan, keksayib qolgan; ~ **years** keksayganlik, keksaygan

declinometer |ˌdeklɪˈnɒmɪtə| *n* deklinometr (*magnit og'ish burchagini o'lchaydigan asbob*)

declivitous |dɪˈklɪvɪtəs| *a* ancha tik tushib boradigan (*qiyalik to'g'risida*)

declivity |dɪˈklɪvɪtɪ| *n* qiyalik, nishablik

declivous |dɪˈklaɪvəs| *a* qiya, nishab

declutch |ˈdiːˈklʌtʃ| *v tex.* ajratib (uzib) qo'ymoq

decocoon |ˌdiːkəˈkuːn| *v harb. kasb.* (*jangovar texnikalardan*) suv o'tkazmaydigan yopqichini (g'ilofini) olib tashlamoq

decoct |dɪˈkɒkt| *v* qaynatmoq, qaynatib pishirmoq

decoction |dɪˈkɒkʃ(ə)n| *n* 1) qaynatish, tayyorlash; 2) (shifobaxsh) qaynatma (*qaynatib pishirilgan narsaning mazasi chiqqan suvi*)

decode |ˌdiːˈkəʊd| *v* (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*) topib o'qimoq

decoder |ˌdiːˈkəʊdə| *n* 1) shifrlovchi, shifrlaydigan mashina; 2) kodlangan (shifrlangan) matnni o'qiydigan mashina

decollate |dɪˈkɒleɪt| *v esk.* kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq

decollation |ˌdiːkəˈleɪʃ(ə)n| *n* kallasini olish, boshini tanasidan judo qilish

decolleté |deɪˈkɒlteɪ| *a fr.* dekolte yoqali (*dekolte — ayollar ko'ylagining chuqur o'yilgan yoqasi va shunday yoqali ko'ylak*)

decolorate |ˌdiːˈkʌlərɪt| **1.** *a kit.* rangini yo'qotgan, rangsiz qilib qo'yilgan; **2.** *v kit.* rangini yo'qotmoq, o'chirmoq, rangsiz qilib qo'ymoq

decolour |ˌdiːˈkʌlə| *v* rangini (yo'qotmoq) o'chirmoq, rangsiz qilib qo'ymoq

decolourant |ˌdiːˈkʌlər(ə)nt| *n* rangini (yo'qotadigan) o'chiradigan modda

decolouration |diːˌkʌləˈreɪʃ(ə)n| *n* rangini (yo'qotish) o'chirish

decolourize |ˌdiːˈkʌləraɪz| *v* rangini yo'qotmoq, o'chirmoq

decompensation |diːˌkɒmpənˈseɪʃ(ə)n| *n tib.* kompensatsiyaning buzilishi (*kompensatsiya — organizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi, nuqson o'rnining to'lishi*)

decomplex |ˌdiːkəmˈpleks| *a* 1) ikki baravar murakkab; 2) murakkab qismlardan iborat bo'lgan

decomposable |ˌdiːkəmˈpəʊzəbl| *a* tarkibiy qismlarga bo'linadigan

decompose |ˌdiːkemˈpəʊz| *v* tarkibiy qismlarga ajralmoq, parchalanmoq

decomposer |ˌdiːkəmˈpəʊzə| *n kim.* 1) (nimanidir) tarkibiy qismlarga bo'ladigan (ajratadigan) modda; 2) tarkibiy qismlarga ajratuvchi apparat

decomposite |diːˈkɒmpəzɪt| **1.** *a* murakkab qismlardan iborat bo'lgan; **2.** *n* tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa (*modda, so'z va b.*)

decomposition |ˌdiːkɒmpəˈzɪʃ(ə)n| *n* 1) *fiz. kim.* ajralish, ajratish, parchalanish; 2) buzilish, chirish

decompound |ˌdiːkəmˈpaʊnd| **1.** *n maxs.* 1) murakkab (tarkibiy) qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa; 2) murakkab so'z; **2.** *a maxs.* 1) ko'p qismli, ko'p bo'limdan iborat bo'lgan; ko'p bo'g'inli, murakkab qismlardan tarkib topgan

decompress |ˌdiːkəmˈpres| *v* bosimni pasaytirmoq

decompression |ˌdiːkəmˈpreʃ(ə)n| *n maxs.* dekompressiya, kompressiyaning pasayishi, yo'qolishi

decompressor |ˌdiːkəmˈpresə| *n tex.* dekompressor (*kompressiyani pasaytiruvchi moslama*)

deconsecrate |diːˈkɒnsɪkreɪt| *v* (*cherkov yeri yoki mulkini*) davlat mulkiga aylantirmoq

deconsecration |ˌdiːˌkɒnsɪˈkreɪʃ(ə)n| *n* sekularizatsiya (*1. cherkov yoki monastir mulkini davlat mulkiga aylantirish; 2. cherkov qaramog'idan olish, chiqarish, din ta'siridan chiqarish, xoli qilish*)

decontaminant |ˌdiːkənˈtæmɪnənt| *n* zaharli gazdan tozalab zararsizlantiruvchi vosita

decontaminate |ˌdiːkənˈtæmɪneɪt| *v* zararsizlantirmoq, zararli mikroblardan tozalamoq

decontaminating |ˌdiːkənˈtæmɪneɪtɪŋ| *a* zaharli gazdan tozalab zararsizlantiruvchi

decontamination |ˈdiːkənˌtæmɪˈneɪʃ(ə)n| *n* zaharlovchi gazdan tozalash, gazdan tozalab zararsizlantirish

decontrol |ˌdiːkənˈtrəʊl| *n* davlat nazoratidan ozod qilish (chiqarish)

décor |ˈdeɪkɔː| *n fr.* 1) (*ko'rgazma va b. ni*) bezash, bezatish; 2) *teatr.* dekoratsiya (*sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar*)

decora |dɪˈkɔːrə| *pl* sipogarchilik, yuzaki odob

decorate |ˈdekəreɪt| *v* 1) bezatmoq; 2) orden bilan taqdirlamoq

decorated |ˈdekəreɪtɪd| *a* 1) bezalgan, bezatilgan; 2) taqdirlangan

decoration |ˌdekəˈreɪʃ(ə)n| *n* 1) bezak; 2) mukofot

decorative |ˈdekərətɪv| *a* 1) savlat bag'ishlaydigan, fayzli; 2) (*zeb-ziynat berish uchun xizmat qiladigan*) bezak

decorator |ˈdekəreɪtə| *n* 1) bo'yoqchi; 2) mebel qoplovchi usta

decore |dɪˈkɔː| *v* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq, zeb (oro) bermoq

decoreographer |dɪˌkɔːrɪˈɒgrəfə| *n kam.* rassom-dekorator

decorous |ˈdek(e)rəs| *a* odobli, axloqli, axloq qoidalari doirasidagi

decorticate |dɪˈkɔːtɪkeɪt| *v* (*po'st, po'stloq va b. ni*) yulib olmoq, uzib olmoq, shilmoq, shilib olmoq

decorum |dɪˈkɔːrəm| *n* odob, tartib, xushxulqlik

decoy |ˈdiːkɔɪ| **1.** *n* qarmoq, tuzoq, qopqon; **2.** *v* aldab chaqirmoq

decoy-duck |ˈdiːkɔɪˌdʌk| *n* yovvoyi o'rdaklarni tuzoqqa ilintirish uchun qo'yilgan yem (*xo'rak*)

decrease |ˈdiːkriːs| **1.** *n* ozaytirish, kichraytirish; **2.** *v* kamaymoq, ozaymoq; **3.** *a* kamayish

decree |dɪˈkriː| **1.** *n* farmon, qaror, qonun, farmoyish; **2.** *v* qonun kuchiga kiritmoq

decrement |ˈdekrɪmənt| *n* ozaytirish, pasaytirish, kamaytirish

decrepit |dɪˈkrepɪt| *a* 1) qartaygan, qartayib kuch-quvvatdan qolgan; 2) eskirib ishdan chiqqan

decrepitate |dɪˈkrepɪteɪt| *v tex.* 1) qizdirib cho'g' qilmoq; 2) o'tga tutib qizdirmoq

decrepitation |dɪˌkrepɪˈteɪʃ(ə)n| *n tex.* 1) qizdirib chog' qilish; 2) o'tga tutib qizdirish

decrepitude |dɪˈkrepɪtjuːd| *n* 1) qartayganlik, munkillaganlik; 2) eskirganlik, eskilik

decrescent |dɪˈkres(ə)nt| *a* kamayadigan, ozayadigan, kamayuvchi, ozayuvchi

decretal |dɪˈkriːt(ə)l| **1.** *n cherk.* dekret (*qonun kuchiga ega bo'lgan qaror*); **2.** *a* 1) buyruq (farmoyish) beruvchi, buyuruvchi, amr qiluvchi; 2) ko'rsatma (yo'l-yo'riq, maslahat) beruvchi, tayinlovchi

decretive |dɪˈkriːtɪv| *a* dekret bilan belgilangan, dekret bilan ishlab chiqarilgan

decretory [dɪ´kri:t(ə)rɪ] = **decretive**
decrial [dɪ´kraɪ(ə)l] *n* ochiqdan-ochiq tanbeh berish, yomonlash, ayblash
decrown [ˌdi:´kraon] *v* taxtdan tushirmoq; tojdan mahrum qilmoq
decry [dɪ´kraɪ] *v* 1) ochiqdan-ochiq yomonlamoq (ayblamoq, qoralamoq), tanbeh bermoq; 2) (*asos., eski yoki chet el tangalarining*) qadr-qimmatini tushirmoq (ketkizmoq), qadrsiz qilib yubormoq
decubital [dɪ´kju:bɪt(ə)l] *a tib.* ~ **sore** yotaverishdan uyushib jonsiz bo'lib qolgan joy, yotaverishdan ezilib yoki qotib qolgan joy
decubitus [dɪ´kju:bɪtəs] *n tib.* 1) yotgan holat; 2) yotaverishdan uyushib jonsiz bo'lib qolgan joy
decuman [´dekjʊmən] *a* kuchli, baquvvat, qudratli (*to'lqin haqida*)
decumbence [dɪ´kʌmbəns] = **decumbency**
decumbency [dɪ´kʌmbənsɪ] *n kit.* 1) yotgan holat; 2) yonboshlash, yonboshlab yotish
decumbent [dɪ´kʌmbənt] *a* 1) *kam.* yotgan; 2) *bot.* yerga egilgan (*shox, novda haqida*); yer bag'irlab (yoyilib palak otib) o'sadigan
decumbiture [dɪ´kʌmbɪtʃə] *n kit.* yotish, yaslanib (yonboshlab) yotish
decuple [´dekjʊpl] *a* o'n hissa ko'paygan
decus [´di:kəs] *n jarg. esk.* krona (*Angliyaning 5 shillingga teng kumush tangasi (1971- yil fevralgacha)*
decussate [dɪ´kʌsɪt, dɪ´kʌseɪt] *a* to'g'ri burchakning ostidan ko'ndalang kesib o'tadigan
decussated [´dekʌseɪtɪd] *a* 1) *kit.* krest (but)ga o'xshash, krest (but) shaklidagi; 2) kesishib o'tgan; ko'ndalang kesib o'tgan
decussation [ˌdekə´seɪʃ(ə)n] *n kit.* ko'ndalang kesib o'tish; oralab (o'rtasidan) kesib o'tish
dedal [´di:d(ə)l] = **daedal**
Dedalian [di:´deɪlən] = **Daedalian**
dedecorate [dɪ´dekəreɪt] *v kam.* 1) husnini buzmoq, xunuk (ko'rimsiz) qilib qo'ymoq; 2) buzmoq, noto'g'ri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq
dedentition [ˌdi:den´tɪʃ(ə)n] *n fiziol.* tishlarning tushishi (to'kilishi)
dedicate [´dedɪkeɪt] *v* 1) xabardor qilmoq, ma'lum qilmoq; 2) bag'ishlamoq, atamoq
dedicated [´dedɪkeɪtɪd] *a* 1) sodiq, sadoqatli, fidokor; 2) atalgan, bag'ishlangan
dedication [ˌdedɪ´keɪʃ(ə)n] *n* 1) sadoqat, sodiqlik, fidokorlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov
dedicative [´dedɪkətɪv] = **dedicatory**
dedicator [´dedɪkeɪtə] *n* sadoqatli kishi
dedicatory [´dedɪkət(ə)rɪ] *a* bag'ishlovchi, bag'ishlaydigan
dedition [dɪ´dɪʃ(ə)n] *n esk.* 1) kapitulatsiya, taslim bo'lish, tiz cho'kish; 2) tengsiz shartnoma, kapitulatsiya (*kapitalistik davlat bilan qaram mamlakat o'rtasidagi bir tomonlama imtiyozli shartnoma*)
deduce [dɪ´dju:s] *v* xulosa chiqazmoq, iziga tushmoq
deducible [dɪ´dju:səbl] *a* biror xulosaga olib keladigan, xulosa chiqarsa bo'ladigan
deduct [dɪ´dʌkt] *v* ayirmoq, olib tashlamoq, ayiruv amalini bajarmoq
deduction [dɪ´dʌkʃ(ə)n] *n* 1) *mat.* ayirish, chiqarib tashlash; 2) faraz, xulosa
deductive [dɪ´dʌktɪv] *a mant.* deduksiyaga asoslangan (*deduksiya — umumiy holatdan xususiy xulosalar chiqarish*)
deductively [dɪ´dʌktɪv] *adv* deduksiya usuli bilan
dee [di:] *n* 1) D harfining nomi; 2) *tex.* D shaklidagi halqa
deed I [di:d] *n* 1) jasorat, mardlik; 2) ish, harakat, ishlash, muomala; ~**s** xatti-harakat
deed II [di:d] *adv. shotl.* aslida, haqiqatan
deedful [´di:dful] *a kit.* faol, ishchan, serg'ayrat, serharakat, g'ayratli
deedless [´di:dləs] *a kit.* faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust
deed-poll [´di:dpəol] *n yur.* bir tomonlama majburiyat
deem [di:m] *v* faraz qilmoq, hisoblamoq, ... deb hisoblamoq
deep [di:p] **1.** *a* chuqur, teran; **a** ~ **place** o'yiq, o'yilgan joy; **2.** *n* chuqur joy
deep-browed [ˌdi:p´braod] *a* juda aqlli (oqil, miyali, fahm-farosatli)
deep-brown [ˌdi:p´braon] *a* to'q jigarrang
deep cultivator [ˌdi:p´kʌltɪveɪtə] *q.x.* yerni chuqur shudgor qilish uchun ishlatiladigan kultivator
deep-cut [ˌdi:p´kʌt] *a* chuqur kesilgan
deep-drawing [´di:pˌdrɔ:ɪŋ] *a deng.* suvga to'la (chuqur) botadigan
deep-dyed [´di:p´daɪd] *a* 1) dog' bilan qoplangan, dog' bosgan; 2) ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan, borib turgan, nariyog'i yo'q, g'irt; ~ **villain** g'irt (uchiga chiqqan) yaramas (ablah) odam
deepen [´di:p(ə)n] *v* 1) chuqurlashmoq; 2) kuchayib ketmoq
deep-felt [ˌdi:p´felt] *a* chuqur his etilgan
deep-fetched [ˌdi:p´fetʃt] *a* chuqur (nafas olish va chiqarish haqida)
deepfreeze [ˌdi:p´fri:z] **1.** *n* muzlatuvchi qurilma; muzxona; **2.** *v* muzlatmoq (*mahsulotlarni*)
deep-frozen [ˌdi:p´frəoz(ə)n] *a* yangi muzlatilgan, endigina muzlatilgan
deep-green [ˌdi:p´gri:n] *a* to'q ko'k
deepie [´di:pɪ] *n so'zl.* stereoskopik (bo'rtma tasvirli) film
deep-laid [ˌdi:p´leɪd] *a* 1) mayda-chuydasigacha ishlab chiqilgan va maxfiy (reja); 2) chuqur joylashgan
deeply [´di:plɪ] *adv* chuqur, teran, chuqur qilib
deep mining [´di:pˌmaɪnɪŋ] *n* yer ostidan ko'mir qazish
deepmost [´di:pməʊst] *a kam.* juda chuqur
deep-mouthed [ˌdi:p´maʊðd] *a* 1) qattiq, o'tkir, jarangli, gulduros; 2) qattiq akillaydigan
deepness [´di:pnɪs] *n* chuqurlik, teranlik
deep-plough [´di:p´plaʊ] *q.x.* yerni chuqur haydaydigan plug
deep-read [ˌdi:p´red] *a* ko'p o'qigan, o'qimishli; alloma; yaxshi biladigan, bilimli, ma'lumotli, bilimdon
deep-rooted [ˌdi:p´ru:tɪd] *a* chuqur ildizli, ildizi chuqur
deep-sea [´di:psi:] *a* 1) dengiz qa'rida yashaydigan; 2) chuqur (*suv havzalari haqida*)
deep-seated [ˌdi:p´si:tɪd] *a* chuqur o'rnashgan, tomir (ildiz) otgan
deep-set [´di:pset] *a* chuqur joylashgan (o'rnashgan)
deer [dɪə] *n zool.* bug'u, kiyik; **red** ~ asl bug'u
deer-coloured [´dɪəˌkʌləd] *a* sarg'ish-qizil; malla, qizg'ish
deer-dog [´dɪədɔg] = **deer-hound**
deer-fence [´dɪəfens] *n* (*bug'ular saqlanadigan maydoncha atrofini o'rash uchun*) baland to'siq (panjara, devor)
deer-forest [´dɪəˌfɔrɪst] *n* bug'ular qo'riqxonasi
deer-hair [´dɪəheə] *n* bug'u juni
deer-hound [´dɪəhaond] *n* Shotlandiya tozi iti
deer-lick [´dɪəˌlɪk] *n* bug'ular tuz yalaydigan tuz tuproqlardan iborat bo'lgan yer maydoni
deer-neck [´dɪənek] *n* ingichka bo'yin (*otlarda*)
deer-park [´dɪəpɑ:k] = **deer-forest**
deerskin [´dɪəskɪn] *n* bug'u terisi
deerstalker [´dɪəˌstɔ:kə] *n* bug'ularni ovlaydigan ovchi
deerstalking [´dɪəˌstɔ:kɪŋ] *n* bug'ularni ovlash
deer-stealer [´dɪəˌsti:lə] *n* bug'ularni o'ldiradigan va o'g'irlaydigan og'rincha ovchi, brakonyer

deer-tiger [ˈdɪəˌtaɪgə] *n zool.* kaugar, puma (*Amerika yovvoyi mushugi*)

deface [dɪˈfeɪs] *v* 1) buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq, noto'g'ri talqin qilmoq; 2) obro'-e'tiborini to'kmoq

defacement [dɪˈfeɪsmənt] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish

de facto [ˌdiːˈfæktəʊ] *adv lot.* aslida, haqiqatan

defalcate [ˈdiːfælkeɪt] *v* 1) begonalarning pulini o'ziniki qilib olmoq; 2) ishonchni yo'qotmoq

defalcation [ˌdiːfælˈkeɪʃ(ə)n] *n kam.* 1) kamomad (*qonunga xilof ravishda sarf etilgan pul*); birovning pulini (o'zlashtirib) o'ziniki qilib olish; 2) kamomad qilingan pul miqdori; 3) xato (ayb, nojo'ya) ish; noo'rin xatti-harakat

defalcator [ˈdiːfælkeɪtə] *n kam.* 1) kamomad qilgan kishi; 2) talon-taroj qiluvchi, talab ketuvchi, o'g'ri

defamation [ˌdefəˈmeɪʃ(ə)n] *n* tuhmat, bo'hton; g'iybat; yolg'on-yashiq, uydirma

defamatory [dɪˈfæmət(ə)rɪ] *a* tuhmat qilib aytilgan, tuhmatdan (bo'htondan) iborat bo'lgan, bo'hton

defame [dɪˈfeɪm] *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq, g'iybat qilmoq

defatted [ˌdiːˈfætɪd] *a* yog'sizlantirilgan, yog'i olingan

default [dɪˈfɔːlt] **1.** *n* 1) o'z majburiyatini bajarmaydigan kishi; 2) kamomad qilgan kishi; 3) obro'-e'tiborini yo'qotgan shaxs; 4) singan savdogar

defeasance [dɪˈfiːz(ə)ns] *n* 1) bekor qilish; kuchdan qoldirish; 2) *yur.* bekor qilish shartlari

defease [dɪˈfiːz] *v kam.* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq

defeasible [dɪˈfiːzəbl] *a* bekor qilsa bo'ladigan

defeat [dɪˈfiːt] **1.** *n* 1) mag'lubiyat; **to sustain a ~** mag'lubiyatga uchramoq; 2) barbod bo'lish (*reja haqida*); 3) yo'qqa chiqish (*orzu-umidlar haqida*); 4) *yur.* bekor qilish; **2.** *v* 1) mag'lubiyatga uchramoq; 2) (*rejalarni*) barbod qilmoq; 3) (*orzu-umidlar va h. ni*) puchga chiqarmoq; 4) *yur.* bekor qilmoq

defeated [dɪˈfiːtɪd] *a* mag'lubiyatga uchragan

defeatism [dɪˈfiːtɪzm] *n* taslim bo 'lish, mag'lub bo'lish

defeatist [dɪˈfiːtɪst] *n* 1) taslim bo'lish tarafdori; 2) qo'rqoq, jur'atsiz

defeature [dɪˈfiːtʃə] *v* tanimaydigan qilib qo'ymoq

defecate [ˈdefɪkeɪt] *v* 1) tozalamoq, tozalanmoq; 2) (*suyuqlikni*) tinitmoq, tindirmoq; 3) yozilmoq, ichni bo'shatmoq

defecation [ˌdefɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) tozalash; 2) tinitish, tindirish; 3) yozilish, ichni bo'shatish

defect [dɪˈfekt] **1.** *n* 1) nuqson, illat, ayb; kamchilik, buzuqlik; 2) kamomad, kam chiqish, kam kelish; **2.** *v* 1) o'z burchini bajarmaslik; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq

defection [dɪˈfekʃ(ə)n] *n* (*burchni*) buzish, xizmatdan (vazifadan) bosh tortish

defective [dɪˈfektɪv] *a* 1) kam-ko'sti bor, chala; 2) kam, oz, yetmaydigan; 3) nuqsonli

defector [dɪˈfektə] *n* 1) maslagidan (e'tiqodidan, so'zidan va h. k.) qaytgan odam, murtad; 2) qochoq; chegaradan qochib o'tgan kishi

defedation [ˌdiːfɪˈdeɪʃ(ə)n] *n esk.* 1) iflosланish; 2) zaharlanish, yuqtirish, yuqish

defence [dɪˈfens] *n* mudofaa, himoya

defenceless [dɪˈfensləs] *a* himoyachisiz, ojiz, bechora, o'zini himoya qila olmaydigan

defenceman [dɪˈfensmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *sport.* himoyachi

defence counsel [dɪˈfensˈkaʊns(ə)l] *yur.* himoyachi

defend [dɪˈfend] *v* himoya qilmoq, mudofaa qilmoq, yoqlamoq

defendant [dɪˈfendənt] *n yur.* aybdor (javobgar, ayblanuvchi, sudlanuvchi) kishi

defender [dɪˈfendə] *n* himoyachi, himoya qiluvchi

defending line [dɪˈfendɪŋˈlaɪn] *sport.* himoya chizig'i

defenestration [dɪˌfenəˈstreɪʃ(ə)n] *n tar.* derazadan otib yuborish yo'li bilan o'ldirmoq

defense [dɪˈfens] *amer.* = **defence**

defenseless [dɪˈfensləs] *amer.* = **defenceless**

defensibility [dɪˌfensəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) himoya imkoniyati; 2) *harb.* mudofaa uchun yaroqlilik

defensible [dɪˈfensəbl] *a harb.* himoya uchun qulay

defensibly [dɪˈfensəblɪ] *adv kit.* oqlanib, oqlangan holatda

defensive [dɪˈfensɪv] **1.** *n* 1) mudofaa; 2) qo'shinning jang paytida mudofaa uchun o'rnashgan joyi; **2.** *a* mudofaaga qaratilgan, mudofaaga xizmat qiladigan

defensory [dɪˈfensərɪ] *a esk.* himoya (mudofaa) qiladigan, saqlaydigan, pana qiladigan, saqlovchi, panalovchi, saqlagich

defer [dɪˈfɜː] *v* 1) kechiktirmoq, keyinga qoldirmoq; **~red** qoldirilgan, kechiktirilgan; 2) kimningdir fikri bilan hisoblashmoq; 3) boshqalarning maslahat *yoki* xohishi bilan ish tutmoq

deference [ˈdef(ə)r(ə)ns] *n* hurmat, hurmat bilan qarash; **to show ~ to smb.** kimgadir hurmat bilan muomala qilmoq

deferent [ˈdef(ə)r(ə)nt] *n anat.* yo'l, kanal

deferential [ˌdefəˈrenʃ(ə)l] *a* 1) hurmat qiladigan, odobli; 2) ancha, anchagina, katta

deferentially [ˌdefəˈrenʃ(ə)lɪ] *adv* hurmat (ehtirom) bilan, hurmat yuzasidan

deferment [dɪˈfɜːmənt] *n* kechiktirish, keyinga qoldirish, muhlat berish

deferred [dɪˈfɜːd] *a* 1) sekinlashgan, paysalga solingan; 2) keyinga surilgan, kechiktirilgan

defervescence [ˌdiːfɜːˈvesns] *n tib.* haroratning pasayishi (tushishi)

defial [dɪˈfaɪəl] *kam.* = **defiance**

defiance [dɪˈfaɪəns] *n* bo'ysunmaslik, itoat qilmaslik, bosh tortish

defiant [dɪˈfaɪənt] *a* dag'al, qo'pol, qo'rs

defiantly [dɪˈfaɪəntlɪ] *adv* dag'allik (qo'rslik, qo'pollik) bilan, qo'rs

deficiency [dɪˈfɪʃ(ə)nsɪ] *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik

deficient [dɪˈfɪʃ(ə)nt] *a* 1) kamchil, tanqis, yetarli bo'lmagan; 2) takomillashmagan

deficiently [dɪˈfɪʃ(ə)ntlɪ] *adv* yetarli darajada (uncha yaxshi) emas, kam (oz)

deficit [ˈdefɪsɪt] *n* 1) kamomad, kam chiqish, kam kelish; 2) yetishmaslik, tanqislik

defier [dɪˈfaɪə] *n* inkor etuvchi (tonuvchi; tonadigan) kishi

defiguration [dɪˌfɪgjəˈreɪʃ(ə)n] *n esk.* 1) buzish, noto'g'ri talqin qilish, buzib ko'rsatish; 2) xato, yanglish, noto'g'rilik

defilade [ˌdefɪˈleɪd] *n harb.* tabiiy pana joy

defile I [dɪˈfaɪl] *v* 1) kir qilmoq, bulg'amoq; **~d** harom; 2) tahqirlamoq, xo'rlamoq

defile II [dɪˈfaɪl] **1.** *n* tor tog' oralig'i, tor yo'lak, dara; **2.** *v* tantanali yurish qilmoq

defilement [dɪˈfaɪlmənt] *n* iflos qilish, kir qilish, bulg'ash

defiliation [dɪˌfɪlɪˈeɪʃ(ə)n] *n kam.* bolalarni (ota-onalaridan) tortib olish, zo'rlik bilan olib qo'yish

definable [dɪ´faɪnəbl] *a* aniqlab bo'ladigan, bilib bo'ladigan, ta'riflab bo'ladigan, ta'riflanishi mumkin bo'lgan
define [dɪ´faɪn] *v* 1) aniqlamoq, belgilamoq, topmoq; 2) ta'riflamoq
definite [´definɪt] *a* aniq, ma'lum, muqarrar; **the ~ article** *gram.* aniq artikl; **~ly** aniq, shaksiz; **~ness** qat'iylik; qat'iyat
definitely [´definɪtlɪ] *adv* 1) ochiq, oydin; ravshan, baralla, yaqqol, aniq (qilib), shubha tug'dirmaydigan (begumon, aniq) qilib; 2) *so'zl.* albatta, shubhasiz
definiteness [´definɪtnəs] *n* aniqlik, muayyanlik, ma'lumlik; muqarrarlik, qat'iylik, ravshanlik, yaqqollik, ayonlik; shubha tug'dirmaydiganlik, shubhasizlik, shak-shubhasizlik, begumonlik
definition [ˌdefɪ´nɪʃ(ə)n] *n* izoh, ta'rif
definitive [dɪ´fɪnɪtɪv] *a* 1) shak-shubhasiz; 2) ikkilanmaydigan, jasur; 3) eng so'nggi
definitively [dɪ´fɪnɪtɪvlɪ] *adv* tamomila, qat'iyan, butunlay, uzil-kesil, qat'iy, batamom
definitude [dɪ´fɪnɪtju:d] *n kit.* aniqlik, to'g'rilik, muayyanlik, ma'lumlik; muqarrarlik, qat'iylik
deflagrable [´deflәgrәbl] *a* 1) tez alangalanadigan, tez o't oladigan, tez yonib ketadigan; 2) yonadigan, yonuvchi, yonuvchan
deflagrate [´deflәgreɪt] *v* tez yonmoq *yoki* yoqmoq
deflagration [ˌdeflә´greɪʃ(ə)n] *n* portlaydigan moddalarning birdan (*lov etib*) yonishi
deflate [dɪ´fleɪt] *v* 1) havoni nasos bilan tortib (so'rib) olmoq, chiqarib tashlamoq; 2) narxni kamaytirmoq (tushirmoq)
deflation [dɪ´fleɪʃ(ə)n] *n mol.* 1) muomaladagi pul miqdorini kamaytirish; 2) havoni chiqarib yuborish
deflect [dɪ ´flekt] *v* 1) biror tomonga (burmoq, og'dirmoq) burib qo'ymoq; 2) og'moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq; 3) yo'nalishini o'zgartirmoq
deflected [dɪ´flektɪd] *a* 1) qaytgan, yo'nalishni o'zgartirgan; 2) bukilgan, egilgan; 3) qiyshiq
deflection [dɪ´flekʃ(ə)n] *n* yo'nalishini o'zgartirish
deflective [dɪ´flektɪv] *a* bukiladigan, egiladigan
deflector [dɪ´flektə] *n tex.* qaytargich
deflexed [dɪ´flekst] *a bot. zool.* pastga qayrilgan (egilgan); osilib turgan, osilib tushgan
deflexion [dɪ´flekʃ(ə)n] = **deflection**
deflexure [dɪ´flekʃə] *n* og'ish, chetga chiqish, qiyshayish; bosh tortish
deflorate [dɪ´flɔ:rɪt] *a bot.* gullab bo'lgan, guldan tushgan
defloration [ˌdi:flɔ:´reɪʃ(ə)n] *n* 1) gullarini tushirish; 2) zo'rlash; nomusiga tegish
deflorescence [ˌdi:flɔ:´resns] *n tib.* toshmaning yo'q bo'lib ketishi *yoki* oqarishi
deflower [ˌdi:´flaʊə] *v* 1) gullarni uzmoq (yulmoq); 2) zo'rlamoq, nomusiga tegmoq
defluent [´defluənt] *a maxs.* pastga (qarab) oqadigan, oqib tushadigan
defoliate [dɪ´fəʊlɪɪt] **1.** *a* barglari tushgan, bargsiz; **2.** *v* 1) barglarini tushirmoq; 2) o'simliklarni yo'q qilmoq
defoliation [dɪ´fəʊlɪ´eɪʃ(ə)n] *n* barglarning tushishi; xazonrez, xazonrezlik
deforce [dɪ´fɔ:s] *v maxs.* 1) (*kimnidir*) mulkdan mahrum qilmoq; 2) birovning mulkini noqonuniy (g'ayriqonuniy, qonunga xilof) ravishda ushlab qolmoq
deforcement [dɪ´fɔ:smənt] *n maxs.* birovning mulkini g'ayriqonuniy (qonunga xilof) ravishda ushlab qolish
deforest [dɪ´frɪst] *v* o'rmondagi daraxtlarni kesib, o'rmonni yo'q qilmoq
deforestation [dɪˌfɒrɪs´teɪʃ(ə)n] *n* o'rmonni, dov-daraxtlarni yo'q qilish, daraxtsiz yalanglikka aylantirish
deform [dɪ´fɔ:m] *v* 1) majruh qilmoq, ishdan chiqarmoq; 2) (*fikrni*) buzib ko'rsatmoq; noto'g'ri talqin qilmoq
deformable [dɪ´fɔ:məbl] *a* bo'sh, chidamsiz, pishiq (puxta) emas, chidamaydigan
deformation [ˌdi:fɔ:´meɪʃ(ə)n] *n* 1) buzib ko'rsatish, noto'g'ri talqin qilish; 2) *tex.* shaklning o'zgarishi *yoki* o'zgartirilishi
deformed [dɪ´fɔ:md] *a* 1) xunuk (badbashara) qilib yuborgan, abjag'ini (dabdalasini, rasvosini) chiqarib yuborgan, abjag'i (dabdalasi) chiqqan; 2) buzuq, buzilgan, aynigan, hidlangan, sasigan, chirigan
deformity [dɪ´fɔ:mɪtɪ] *n* xunuklik, badbasharalik, beo'xshovlik
defossion [dɪ´fɒʃ(ə)n] *n tar.* tiriklayin ko'mish
defraud [dɪ´frɔ:d] *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq, firib bermoq, pand bermoq
defraudation [ˌdi:frɔ:´deɪʃ(ə)n] *n* aldash, firib (pand) berish; aldov, aldovchilik, pand, aldamchilik, tovlamachilik, firibgarlik, muttahamlik, qalloblik
defray [dɪ´freɪ] *v* to'lamoq, (*xarajat, soliq va h. k. uchun*) haq, pul to'lamoq
defrayal [dɪ´freɪ(ə)l] *n* to'lanadigan (olinadigan) pul, haq, to'lov
defrayment [dɪ´freɪmənt] = **defrayal**
defreeze [ˌdi:´fri:z] *v* (*oziq-ovqatni*) eritmoq, muzdan tushirmoq
defrock [ˌdi: ´frɒk] *v* (*rohibni*) martabadan tushirmoq
defrost [di:´frɒst] *v* muz (yax)dan tushirmoq, eritmoq
defroster [di:´frɒstə] *n tex.* eritgich, muz erituvchi asbob
deft [deft] *a* epchil, chaqqon, abjir; usta, mohir, chapdast
deftly [´deftlɪ] *adv* mohirona, san'atkorona, mahorat (mohirlik, ustalik) bilan, epchillik (chaqqonlik) bilan; chaqqon, epchil, tez; abjirlik (uddaburonlik) bilan
deftness [´deftnəs] *n* 1) epchillik, chaqqonlik, abjirlik, chapdastlik, ildamlik, uddaburonlik; 2) ustalik, ustomonlik
defunct [dɪ´fʌŋ(k)t] **1.** *a* marhum, rahmatli, o'lgan, vafot etgan; **2.** *n* (**the ~**) o'lib ketgan kishi
defunction [dɪ´fʌŋ(k)ʃ(ə)n] *n kam.* o'lim, ajal, vafot, qazo; o'lish, vafot (qazo) qilish, jon berish, jon uzilish
defuse [di: ´fju:z] *v* 1) vaziyatni yumshatmoq; 2) zararsizlantirmoq
defy [dɪ´faɪ] *v* 1) chorlamoq, chaqirmoq; 2) nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik; 3) e'tiborsizlik (beparvolik) bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik
dégagé [ˌdeɪgɔ ´ʒeɪ] *a fr.* erki (huquqi) o'zida bo'lgan, ozod, erkin, hur
degas [dɪ´gæs] *v* zaharli gazdan tozalab zararsizlantirmoq
degassing [dɪ´gæsɪŋ] *n* zaharlovchi gazdan tozalash, gazdan tozalab zararsizlantirish
degauss [ˌdi:´gaos] *v harb.* magnitsizlantirmoq, magnitlik xususiyatini yo'q qilmoq
degaussing [ˌdi:´gaosɪŋ] *n harb.* magnitsizlantirish, magnitlik xususiyatini yo'q qilish
degeneracy [dɪ´dʒen(ə)rəsɪ] *n* 1) zotning (naslning) buzilishi; boshqacha tug'ilish; 2) tushkunlik, inqiroz, tanazzul
degenerate [dɪ´dʒen(ə)rɪt] **1.** *n* zoti (nasli) buzilgan shaxs; chala (zoti, nasli buzilgan, jismoniy *yoki* ruhiy jihatdan aynigan holda) tug'ilgan odam; **2.** *a* chala tug'ilgan, zoti (nasli) buzilgan
degeneration [dɪˌdʒenə´reɪʃ(ə)n] *n* zotning (naslning) buzilishi
degenerative [dɪ´dʒen(ə)rətɪv] *a* 1) chala tug'ilgan; 2) zoti buzilgan
degenerescence [dɪˌdʒenə´resns] *n kit.* aynish (zoti, nasli) buzilish; yomon tomonga o'zgarish jarayoni
deglutinate [dɪ´glu:tɪneɪt] *v* don tarkibida bo'ladigan oqsil modda (kleykovina)ni chiqarib olmoq

deglutition [ˌdi:glu: ˈtʃ(ə)n] *n maxs.* yutish, yutinish, yutib yuborish
degradation [ˌdegrəˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) inqiroz, zavol, tanazzul, tushkunlik; 2) *geol.* (*biror yerni*) yuvib ketmoq; 3) *biol.* naslning buzilishi
degrade [dɪ ˈgreɪd] *v* 1) tushkunlikka (inqirozga) yuz tutmoq; zavol topmoq; 2) (*kuch, narx va b.ni*) pasaytirmoq, tushirmoq, kamaytirmoq; 3) (*mansabdan*) pasaytirmoq; 4) kamsitmoq, yerga urmoq
degraded [dɪˈgreɪdɪd] *a* inqirozga yuz tutib turgan
degrading [dɪ ˈgreɪdɪŋ] *a* pastkash; kamsitadigan
degree [dɪ ˈgri:] *n* 1) daraja, bosqich, palla, pog'ona; **by ~s** asta-sekin; **to the last ~** so'nggi darajagacha; 2) daraja, saviya; 3) unvon, ilmiy daraja; 4) qarindoshlik darajasi; 5) *gram.* daraja; 6) *mat.* daraja
degreeless [dɪˈgri:ləs] *a* daraja (unvon)siz, darajasi (unvoni) bo'lmagan
degression [dɪˈgreʃ(ə)n] *n* 1) kamayish, ozayish, 2) soliqlarning pasayishi
degressive [dɪˈgresɪv] *a* pasayuvchi, kamayib boradigan
degust, degustate [dɪˈgʌst, dɪˈgʌsteɪt] *v kam.* totib ko'rib (mazasiga qarab) sinamoq, farqlamoq, sifatini aniqlamoq
degustation [ˌdi:gʌs ˈteɪʃ(ə)n] *n kam.* totib ko'rib (mazasiga qarab) sinash, farqlash, sifatini aniqlash
dehardening [dɪ ˈhɑ:dnɪŋ] *n* sovuqbardoshlik (sovuqqa chidamlilik) xususiyatini yo'qotish (*o'simliklar haqida*)
dehelmintization [dɪˌhelmɪnt(a)ɪ ˈzeɪʃ(ə)n] *n* gijjalarni yo'q qilish
dehisce [dɪˈhɪs] *v* ochilmoq, yorilib chiqmoq (*ko'sak haqida*)
dehiscent [dɪ ˈhɪsnt] *a* ochilayotgan, yorilayotgan (*ko'sak haqida*)
dehorn [ˌdi:ˈhɔ:n] *v* shoxlarni (muguzni) arralamoq
dehorning [ˌdi:ˈhɔ:nɪŋ] *n* (*daraxtlarni*) butab (kallaklab) yoshartirish, shoxlarni kalta qilib kesish (butash, kallaklash)
dehors [dɪˈhɔ:] *prep. fr. yur.* -dan tashqari (xoli, sirtda) (*hokimiyat, vakolat, huquq va b. haqida*)
dehort [dɪˈhɔ:t] *v kam.* 1) biror ishdan qaytarmoq, qoldirmoq, qaytarishga (qolishga) ko'ndirmoq, rozi qilmoq; 2) biror fikrdan qaytarmoq (aynitmoq); nomaqbul yo'ldan qaytarmoq
dehortation [ˌdi:hɔ: ˈteɪʃ(ə)n] *n kam.* 1) biror ishdan qaytarish, qoldirish, qaytarishga (qolishga) ko'ndirish, rozi qilish; 2) biror fikrdan qaytarish (aynitish); nomaqbul yo'ldan qaytarish
dehortative, dehortatory [dɪˈhɔ:tətɪv, dɪ ˈhɔ:tət(ə)rɪ] *a kam* 1) biror ishdan qaytaradigan, qoldiradigan, qaytarishga ko'ndiradigan, rozi qiladigan; 2) biror fikrdan qaytaradigan (aynitadigan); nomaqbul yo'ldan qaytaradigan
dehuller [ˌdi:ˈhʌlə] *n q.x.* 1) oqlaydigan (tozalaydigan, archadigan, po'stini tozalaydigan) mashina; 2) yerni yumshatadigan, yuza (sayoz) haydaydigan mashina; 3) beda urug'ini ajratib oladigan mashina
dehumanize [ˌdi:ˈhju:mənaɪz] *v* vahshiy odamga aylantirmoq
dehumidify [ˌdi:hju: ˈmɪdɪfaɪ] *v* quritmoq, suvini (zaxini) qochirmoq
dehydrate [ˌdi:ˈhaɪdreɪt] *v kim.* suvsizlantirmoq, suvini qochirmoq, suvini chiqarib yubormoq yoki quritib qo'ymoq
dehydration [ˌdi:haɪ ˈdreɪʃ(ə)n] *n kim.* suvsizlantirish, suvini qochirish
dehydrofreezing [di:ˌhaɪdrə(ʊ)ˈfri:zɪŋ] *n* suvi chiqarib yuborilgan mahsulotlarning tez muzlashi
dehydrogenate [ˌdi: ˈhaɪdrədʒəneɪt] = **dehydrogenize**
dehydrogenization [dɪˌhaɪdrədʒənaɪ ˈzeɪʃ(ə)n] *n kim.* vodorodsizlantirish
dehydrogenize [dɪ ˈhaɪdrədʒənaɪz] *v kim.* vodorodni ketkizmoq (olib tashlamoq, yo'qotmoq)
de-ice [ˌdi: ˈaɪs] *v* muzlashning oldini olmoq (bartaraf etmoq)
de-icer [ˌdi: ˈaɪsə] *n* muzlashga qarshi vosita (modda)
deictic [ˈdaɪktɪk] *a mant.* bevosita isbotlovchi, ishontiruvchi
deific [di:ˈɪfɪk] *a kit.* 1) ilohiy; 2) dinga oid, diniy; 3) xudo deb biladigan, sig'inadigan, topinadigan
deification [ˌdi:ɪfɪ ˈkeɪʃ(ə)n] *n* ilohiylashtirish, sig'inish, xudo deb bilish
deiform [ˈdi:ɪfɔ:m] *a kit.* 1) xudo suratida, sanam, pok; 2) ilohiy
deify [ˈdi:ɪfaɪ] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq, topinmoq
deign [deɪn] *v* lozim ko'rmoq (topmoq); munosib ko'rmoq
dei gratia [ˌdi:aɪ ˈgreɪʃɪə, ˌdeɪi: ˈgrɑ:tɪɑ:] *lot.* Xudoning (Allohning, Tangrining) marhamati
deiktic [ˈdaɪktɪk] = **deictic**
deil [di:l] *n shotl.* 1) iblis, shayton; 2) battol (badjahl, juda yomon) odam
deinosaur [ˈdaɪnəsɔ:] = **dinosaur**
de integro [ˌdi:ˈɪntegrəo, ˌdeɪ-] *lot.* yangi(t)dan, boshqatdan, qaytadan, yana, tag'in
deism [ˈdi:ɪz(ə)m] *n* deizm (*Xudoni tan oluvchi, lekin uning tabiat taraqqiyotiga daxli yo'q deb biluvchi diniy-falsafiy ta'limot*)
deist [ˈdi:ɪst] *n* deizm tarafdori
deistic, deistical [di:ˈɪstɪk, -(ə)l] *a* deizmga asoslangan, deizm ruhidagi
deity [ˈdi:ɪtɪ] *n* 1) Tangri; Alloh; 2) ma'buda, but, sanam
deject [dɪ ˈdʒekt] *v* xafa qilib (ranjitib) qo'ymoq
dejecta [dɪˈdʒektə] *n pl* 1) ichni bo'shatish; 2) axlat, najas
dejected [dɪ ˈdʒektɪd] *a* xafa bo'lgan, ranjigan
dejectedly [dɪ ˈdʒektɪdlɪ] *adv* 1) xafa bo'lib, ranjib, gangib, garang bo'lib; 2) tashvishli (qayg'uli, g'amgin) holatda; 3) ruhi tushib, tushkunlikka tushib, ma'yus bo'lib
dejection [dɪ ˈdʒekʃ(ə)n] *n* ruhiy tushkunlik, g'amginlik, ma'yuslik
dejectory [dɪˈdʒektərɪ] *a tib.* ich suradigan, ichni bo'shashtiradigan
dejecture [dɪ ˈdʒektʃə] *n* bavl, chiqarindi (*najas, siydik*)
déjeuner [ˈdeɪʒəneɪ] *n fr.* dabdabali, bezatilgan *yoki* rasmiy (*nonushta*)
de jure [ˌdi:ˈdʒʊərɪ] *a lot.* yuridik
deka- [ˈdekə] = **deca-**
dekko [ˈdekəo] *n harb. jarg.* qarash, boqish, nazar, nigoh; **let's have a ~ at it** keling, ko'raylik-chi, bu nima narsa ekan
dekle [ˈdekl] = **deckle**
delacrimation, delacrymation [di:ˌlækrɪˈmeɪʃ(ə)n] *n* 1) *maxs.* ko'z yoshining ajralib chiqishi; ko'zdan doim yosh oqishi, yosh oqib turishi; 2) *esk.* ho'ngrab (o'pkasi to'lib) yig'lash, bo'zlash; fig'on, nola, yig'i-sig'i, yig'i, yig'lash
delaine [dəˈleɪn] *n* yengil ko'ylakbop mato
delaminate [ˌdi:ˈlæmɪneɪt] *v biol.* 1) qatlamlarga ajratmoq; qavat-qavat (palaxsa-palaxsa) qilib ko'chirmoq; 2) qatlamlanmoq, qatlamlarga (qavatlarga) ajralmoq; qavat-qavat (qatlam-qatlam) bo'lmoq
delamination [dɪˌlæmɪˈneɪʃ(ə)n] *n biol.* qatlamlarga (qavatlarga) ajralish, qavat-qavat bo'lib qolish, qatlamlarga (qavatlarga) ajratish
delate [dɪˈleɪt] *v* 1) ayblamoq; 2) xabardor qilmoq; 3) ovoza qilib yubormoq
delation [dɪˈleɪʃ(ə)n] *n* chaquv, zimdan berilgan xabar, chaqim
delator [dɪˈleɪtə] *n* chaqimchi, xabar beruvchi
delay [dɪˈleɪ] **1.** *n* kechiktirish, keyinga surish; **2.** *v* kechiktirmoq, keyinga surmoq
delayed [dɪˈleɪd] *a* 1) orqaga surilgan, kechiktirilgan, kechiktirib yuborgan;

2) to'xtatib turgan, sekinlatgan; sekinlashgan, past, sust; **a ~ action** sekinlashgan harakat; **a ~ drop** *av.* parashutni ancha vaqt ochmasdan tushish

delayed-action fuse |dɪ´leɪd,ækʃ(ə)n-´fju:z| *n* sekin portlatuvchi moslama

delayed-action mine |dɪ´leɪd,ækʃ(ə)n-´maɪn| *n harb.* belgilangan vaqtda portlaydigan mina

delayed drop |dɪ´leɪddrɔp| *n* parashutni ancha vaqt ochmay tushish

delaying |dɪ´leɪɪŋ| **1.** *n* cho'zish, paysalga solish, sudrash; susaytirish; **2.** *a* 1) cho'zadigan, paysalga soladigan, sudraydigan; susaytiradigan, kechiktiradigan, kechiktirib (cho'zib), vaqtidan o'tkazib yuboradigan; 2) sekinlashtiradigan, sekinlatadigan, pasaytiradigan

dele [´di:li(:)] **1.** *n* chiqarib tashlashning korrektura (korrekturaga oid) belgilari; **2.** *v* belgilarni o'chirib tashlamoq (*korrekturada*)

delectable |dɪ´lektəbl| *a* g'oyat go'zal, ajoyib, qoyilmaqom

delectate |dɪ´lekteɪt| *v kam.* rohatlantirmoq, lazzatlantirmoq, rohat (orom, huzur, lazzat) bag'ishlamoq

delectation |,di:lek´teɪʃ(ə)n| *n* 1) orom, lazzat, maza, zavq; 2) orom olish, lazzatlanish, zavqlanish

delectus |dɪ´lektəs| *n lot. makt.* lotin *yoki* grek xrestomatiyasi

delegacy |´delɪgəsɪ| *n* 1) delegatsiya; 2) delegatning vakilligi; 3) vakillik

delegate |´delɪgɪt| **1.** *n* vakil; **2.** *v* vakil qilib yubormoq

delegated legislation [´delɪgeɪtɪd,ledʒɪs-´leɪʃ(ə)n] *n* vazirning qonun kuchiga ega bo'lgan qaror chiqarish huquqi

delegation |,delɪ´geɪʃ(ə)n| *n* vakil, delegatsiya

delegatory [´delɪgət(ə)rɪ] *a* delegatlarga va delegatlikka oid, delegatlik...

delenda |dɪ´lendə| *n pl. lot.* 1) iste'moldan (muomaladan) chiqarib tashlanishi lozim bo'lgan narsalar; 2) matnning o'chirib tashlanishi lozim bo'lgan qismi

delete |dɪ´li:t| *v* o'chirib tashlamoq, chizib tashlamoq

deleterious |,delɪ´tɪərɪəs| *a* zararli, ziyon qiladigan, zarar keltira oladigan

deletion |dɪ´li:ʃ(ə)n| *n* 1) o'chirish, chizish; 2) o'chirib (chizib) tashlangan narsa

delf I |delf| *n dial.* 1) ariq, zovur; zovursimon (uzun) chuqurlik, uzun o'ra; 2) *harb.* xandaq; 3) *tog'.* ochiq usulda kon qazish ishlari, kovlanayotgan kon, qazilayotgan joy; 4) chimzor

delf II |delf| *n* fayans (*ganch aralash loy*)

delft |delft| *n* 1) fayans (*ganch aralash loy*); 2) fayans buyumlar

deliberate |dɪ´lɪb(ə)rɪt| **1.** *a* oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilgan; ataylab (qasddan, jo'rttaga) qilingan; g'arazli; **2.** *v* kengashmoq, maslahatlashmoq

deliberately |dɪ´lɪb(ə)rɪtlɪ| *adv* 1) ataylab, jo'rttaga, qasddan; 2) ehtiyotkorlik bilan; 3) sekin-asta, shoshilmasdan

deliberateness [dɪ´lɪb(ə)rɪtnəs] *n* oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilganlik; ataylab (qasddan, jo'rttaga) qilinganlik, g'araz

deliberation |dɪ,lɪbə´reɪʃ(ə)n| *n* 1) chuqur o'ylash, mulohaza qilish; 2) shoshilmaslik; **to speak with ~** shoshilmasdan gapirmoq

deliberative |dɪ´lɪb(ə)rətɪv| *a* maslahat (kengash)ga oid

deliberator |dɪ´lɪbəreɪtə| *n* muhokama qatnashchisi

delible |´delɪbl| *a kit.* o'chirsa bo'ladigan, o'chirilishi mumkin bo'lgan

delicacy |´delɪkəsɪ| *n* 1) nafislik, noziklik, xipchalik; 2) odoblilik, muloyimlik, nazokat

delicate |´delɪkɪt| *a* 1) nazokatli, mahoratli, mohir; 2) latofatli, nozik, go'zal; 3) quvvatsiz, nozik, nimjon

delicately [´delɪkɪtlɪ] *adv* 1) juda yaxshi, chuqur, ikir-chikirigacha; did bilan, nazokat bilan; 2) muloyimlik (yumshoqlik, xushmuomalalik, mehribonlik) bilan; 3) aniq, aynan, to'g'ri, rosa

delicatessen |,delɪkə´tesn| *n nem.* 1) yaxna ovqatlar; 2) rostbif (*molning biqin go'shtidan qilingan qovurma*); 3) oziq-ovqat do'koni

delicious |dɪ´lɪʃəs| *a* 1) g'oyat go'zal, maftunkor, dilrabo; 2) juda shirin; mazali

deliciously |dɪ´lɪʃəslɪ| *adv* 1) qoyilmaqom qilib, g'oyat go'zal, ajoyib, chiroyli, joziba bilan, juda yaxshi, juda ko'ngilli, juda yoqimli; 2) mazali qilib, shirin (xushxo'r) qilib; maza qilib, ishtaha bilan

delict [´di:lɪkt] *n yur.* qonunbuzarlik, qonunni buzish, qonunga xilof ish qilish

deligation |,delɪ´geɪʃ(ə)n| *n* 1) *tib.* ligatura (qon tomirlari bog'lanadigan ip, ipak) bog'lash; 2) *esk.* bint

delight |dɪ´laɪt| *v* 1) suyuntirmoq, ko'nglini (dilini) yorishtirmoq; shodlantirmoq; 2) lazzatlanmoq

delighted |dɪ´laɪtɪd| *a* 1) zavqqa to'lgan, zavqlangan, maftun, qoyil, maftun bo'lgan, mahliyo bo'lgan, mahliyo; 2) mamnun, xursand, shod; mamnun (xursand) bo'lgan, mamnuniyat hosil qilgan, mamnuniyat (xursandlik)ni ifodalovchi; 3) quvnoq, xursand, sevinchli, shodiyona

delightedly [dɪ´laɪtɪdlɪ] *adv* 1) zavq bilan, qoyil qolib, tan berib, tahsin aytib; 2) xursand bo'lib, sevinib, quvonib; zavqlanib, maza qilib

delightful |dɪ´laɪtf(ə)l| *a* maftunkor, dilrabo, jozibali, zavqli, fayzli

delightfully |dɪ´laɪtf(ə)lɪ| *adv* qoyilmaqom qilib, o'rinlatib, g'oyat go'zal, (juda) chiroyli, ajoyib, joziba bilan, juda yaxshi, juda ko'ngilli, juda yoqimli

delightsome |dɪ´laɪtsəm| *a* qoyilmaqom, ajoyib

delimit |,di:´lɪmɪt| *v* chegarani aniqlamoq, alohida bo'lmoq

delimitate |,di:´lɪmɪteɪt| = **delimit**

delimitation |dɪ,lɪmɪ´teɪʃ(ə)n| *n* chegarani aniqlash

delimitative [dɪ´lɪmɪtətɪv] *a* ajratadigan, chegaralaydigan, ajratuvchi, chegaralovchi, chegarasini belgilovchi

delineate |dɪ´lɪnɪeɪt| *v* 1) ustidan chizib chiqmoq, ustidan qalam yurgizmoq; 2) tasvirlab bermoq

delineation |dɪ,lɪnɪ´eɪʃ(ə)n| *n* tasvir, bayon, chizma

delineator |dɪ´lɪnɪeɪtə| *n* 1) o'lchamni belgilovchi (*odam, inson*); 2) andaza

delinquency |dɪ´lɪŋkwənsɪ| *n* 1) ayb, nojo'ya ish, noo'rin xatti-harakat; 2) jinoyatchilik, jinoyatkorlik

delinquent |dɪ´lɪŋkwənt| *n* qonunni buzuvchi (jinoyatchi, jinoyat qiluvchi) kishi

deliquesce |,delɪ´kwes| *v kim.* erimoq, erib ketmoq

deliquescence |,delɪ´kwesns| *n kim.* eruvchanlik, moddaning eruvchanlik xususiyati

deliquescent |,delɪ´kwesnt| *a* (*havodan yutilgan namlikdan*) eriydigan

deliquium |dɪ´lɪkwɪəm| *n esk.* hushidan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish, behushlik, hushsizlik, hushsizlik (behushlik) holati

deliration |,delɪ´reɪʃ(ə)n| *n esk.* 1) alahsirash holati; alahsirash; 2) aqldan ozganlik, jinnilik; 3) o'ylamasdan ish qilish; o'ylamasdan qilingan ish

deliriant |dɪ´lɪ(ə)rɪənt| *a tib.* alahsiratadigan, bosinqiratadigan

delirious |dɪ´lɪ(ə)rɪəs| *a* 1) bosinqiraydigan, alahsiragan; 2) aqldan ozgan, telba

deliriously |dɪ´lɪ(ə)rɪəslɪ| *adv* 1) alahlab, bosinqirab; 2) o'ylamasdan, mulohaza qilib ko'rmay, aqlsizlarcha, tentaklarcha, g'ayritabiiy ravishda; 3) gapni gapga qovushtirmay, bog'lanishsiz, munosabatsiz, poyma-poy

deliriousness [dɪˈlɪ(ə)rɪəsnəs] *n* 1) alahsirash holati, alahsirash; 2) behushlik, hushdan ketish, esi og'ish, es-hushini yo'qotish; 3) bog'lanishsizlik (*nutqda*)
delirium [dɪˈlɪ(ə)rɪəm] *n* darg'azab, ortiq darajada asabiylashish
delirium tremens [dɪˌlɪrɪəmˈtri:menz] *n* alkogolizm oqibatidagi og'ir ruhiy kasallik
delist [dɪ ˈlɪst] *v* ro'yxatdan o'chirib tashlamoq
delitescence, -cy [ˌdelɪˈtesns, -sɪ] *n tib.* yashirin, inkubatsion davr (*kasallikning yashirin davri*)
delitescent [ˌdelɪ ˈtesnt] *a tib.* sirtdan bilinmaydigan (*kasallik alomatlari haqida*)
deliver [dɪˈlɪvə] *v* (*xatlar, mollarni*) yetkazib bermoq, tarqatmoq
deliverance [dɪˈlɪv(ə)r(ə)ns] *n* ozod qilish, ozod bo'lish, ozodlikka chiqish
deliverer [dɪˈlɪv(ə)rə] *n* 1) *kit.* xaloskor, ozod qiluvchi (qilgan), ozodlik keltiruvchi (keltirgan) kimsa, qutqaruvchi, najotkor, xalos qiluvchi; 2) *kam.* (*xat, kitob va b. ni*) tashuvchi, yetkazib beruvchi, tarqatuvchi kishi
delivery [dɪˈlɪv(ə)rɪ] *n* eltib berish, ta'minlash, yetkazib berish
delivery note [dɪ ˈlɪv(ə)rɪnəʊt] *n* yopishtirma, qoplama
delivery van [dɪ ˈlɪvənvæn] *n* yuk tashuvchi arava
dell [del] *n* o'rmonli (serdaraxt) vodiy
Della Robbia (ware) [ˌdelə ˈrɒbjə(weə)] terrakota (*kuydirilgan qizg'ish-jigarrang gil*)dan ishlangan sirlangan buyumlar
delouse [ˌdi:ˈlaʊs] *v* 1) *so'zl.* bitdan qutqarmoq (xalos, ozod) qilmoq; 2) *jarg.* minalardan tozalamoq, xavfsizlantirmoq, xatarsiz (bexatar) qilmoq, xavfdan saqlamoq
Delphian [ˈdelfɪən] *a qad. grek.* 1) jumboqli, sirli; 2) tushunib bo'lmaydigan
Delphic, Delphical [ˈdelfɪk, -(ə)l] = **Delphian**
delphinine [ˈdelfɪnaɪn] *a* delfin(lar)ga oid, delfin (lar)...
delphinium [delˈfɪnɪəm] *n bot.* delfinium (*ayiqtovon (zaharli o't)liklar oilasiga mansub tibbiyotda va dekorativ maqsadda ishlatiladigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik*)
delphinoid [ˈdelfɪnɔɪd] *a* delfinga oid, delfin...
delphinus [delˈfaɪnəs] *n zool.* delfin
delta [ˈdeltə] *n* 1) *geogr.* delta (*daryoning tarmoqlanib ko'lga yoki dengizga quyiladigan joyi*); 2) delta (*grek alifbosining to'rtinchi harfi*)
deltaic [delˈteɪɪk] *a* delta yasovchi
deltiology [ˌdeltɪˈɒlədʒɪ] *n* (rasmli) pochta otkritkalarini to'plash
deltoid [ˈdeltɔɪd] *a* uchburchakli, delta shaklidagi
delubrum [dɪˈlju:brəm] *n lot.* 1) ibodatxona, butxona; 2) *cherk.* jom, tog'ora (*bolani suvga botirib cho'qintiriladigan katta idish*); 3) jomli (tog'orali) cherkov
delude [dɪˈlu:d] *v* aldamoq, firib bermoq
deluge [ˈdelju:dʒ] **1.** *n* toshqin, suv bosish; **2.** *v* suv bosmoq; suv bostirmoq
delusion [dɪ ˈlu:ʒ(ə)n] *n* adashtirish, yanglishtirish, chalg'itish
delusionist [dɪ ˈlu:ʒənɪst] *n kit.* 1) aldamchi, aldoqchi; yolg'onchi, firibgar, qallob; 2) amalga oshmaydigan orzuxayollarga beriluvchan odam, xayolparast
delusive [dɪˈlu:sɪv] *a* yolg'ondan iborat bo'lgan, yanglishtiradigan, chalg'itadigan, aldovchi; ~ **hopes** ushalmaydigan orzular
delusiveness [dɪ ˈlu:sɪvnəs] *n* 1) kishini aldash, yanglishtirish, chalg'itish; 2) xayoliylik, xom xayollik
delusory [dɪˈlu:s(ə)rɪ] = **delusive**
deluxe [dəˈlʊks] *a* dabdabali, hashamatli, ziynatli, yasatilgan, bezatilgan, dang'illama, muhtasham, serhasham
delve [delv] *v esk.* kovlamoq, qazimoq, qazib chuqurlashtirmoq
dem [dem] *v* so'kmoq, koyimoq, urishmoq
demagnetization [ˈdi:ˌmægnɪtaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* magnitsizlantirish, magnitlik xususiyatini yo'qotish
demagnetize [ˈdi:ˌmægnɪtaɪz] *v* magnitsizlantirmoq, magnitlik xususiyatini yo'qotmoq
demagog [ˈdeməgɒg] = **demagogue**
demagogic [ˌdemə ˈgɒgɪk] *a* demagogiyadan (safsatabozlikdan) iborat bo'lgan
demagogism [ˈdemɒgɒgɪzm] *n* demagogiya (*1. quruq gap, va'da bilan ommani aldash, laqillatish; safsatabozlik; 2. masalaga o'z tushunchasi yoki manfaati nuqtayi nazaridan qarab aytilgan gap, bir tomonlama fikr, safsata*)
demagogue [ˈdeməgɒg] *n* demagog, safsataboz
demagoguery [ˈdeməˌgɒg(ə)rɪ] *amer.* = **demagogism**
demagoguism [ˈdeməgɒgɪzm] = **demagogism**
demagogy [ˈdeməgɒgɪ] *n* laqillatish, safsatabozlik, quruq gap
demand [dɪˈmɑ:nd] **1.** *n* talab; ~s talablar; **2.** *v* talab qilmoq
demandable [dɪˈmɑ:ndəbl] *a* 1) kerakli, zarur, darkor; 2) zaruriy, zarur bo'lgan
demandant [dɪˈmɑ:ndənt] *n yur.* da'vogar, haq talab qiluvchi
demanding [dɪˈmɑ:ndɪŋ] *a* talabchan
demarcate [ˈdi:mɑ:keɪt] *v* 1) chegaralamoq, ajratmoq; 2) demarkatsiya chizig'i o'tkazmoq
demarcation [ˌdi:mɑ:ˈkeɪʃ(ə)n] *n* chegaralash, chegarasini belgilash; boshqalardan ajratish
demarcative [dɪˈmɑ:kətɪv] *a* 1) demarkatsiya (*chegaralash, chegarani aniqlash, belgilash*)ga oid; demarkatsion (*chegaralaydigan, chegarani aniqlaydigan, belgilaydigan*); 2) ajratadigan, chegaralaydigan, ajratuvchi, chegaralovchi, chegarasini belgilovchi
demarche [ˈdeɪmɑ:ʃ] *n fr. dip.* demarsh, namoyishkorona diplomatik harakat, murojaat
demark [dɪˈmɑ:k] = **demarcate**
dematerialize [ˌdi:məˈtɪ(ə)rɪəlaɪz] *v* 1) moddiylashtirmaslik, mujassamlantirmaslik, moddiy tus bermaslik; 2) moddiylashmaslik, mujassamlanmaslik, moddiy tus olmaslik
demd [demd] = **damned**
deme [di:m] *n biol.* hujayralar guruhi
demean [dɪ ˈmi:n] *v* 1) o'zini tutmoq; 2) kamsitmoq, yerga urmoq, xo'rlamoq; **to ~ oneself well** o'zini yaxshi (munosib) tutmoq
demeanor [dɪˈmi:nə] *amer.* = **demeanour**
demeanour [dɪˈmi:nə] *n* axloq, fe'l-atvor, muomala, yurish-turish
démêlé [dɪ ˈmeɪleɪ] *n fr.* 1) bahs, tortishuv, munozara; 2) urish, janjal, nizo, araz
demembration [ˌdi:mem ˈbreɪʃ(ə)n] *n asos. shotl. yur.* 1) o'zining biror a'zosini qasddan jarohatlash(lik), mayib qilish(lik); 2) birovni jarohatlash, mayib qilish
dement [dɪˈment] *v* aqldan ozmoq
dementation [ˌdi:menˈteɪʃ(ə)n] *n kit.* aqldan ozish, jinni (savdoyi, devona, telba) bo'lib qolish; savdoyilik, telbalik, jinnilik
demented [dɪˈmentɪd] *a* aqldan ozgan, jinni, savdoyi, telba, devona; **to become** ~ aqldan ozmoq
démenti [ˌdeɪmɑ:ŋˈti:] *n fr. dip.* rasmiy raddiya
dementia [dɪˈmenʃɪ(ɪ)ə] *n tib.* aqli kamlik, aqli pastlik
demerit [di: ˈmerɪt] *n* 1) nuqson, illat, ayb, kamchilik; 2) yetishmaslik, kamlik, tanqislik; 3) muhtojlik, kambag'allik
demeritorious [ˌdi:merɪˈtɔ:rɪəs] *a* tanbehga loyiq

demersal [dɪˈmɜːs(ə)l] *a* 1) suvga cho'kkan (g'arq) bo'lgan; 2) suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi, suvosti ...; 3) suv ostida harakat qiladigan; suv ostiga qo'yiladigan; 4) chuqur suv ostida, dengiz qa'rida yashaydigan; 5) chuqur suv ostida olib boriladigan, amalga oshiriladigan; 6) suv ostidagi (tagidagi, tubidagi), suv ostidan (tagidan, tubidan) olingan (olinadigan)

demesne [dɪˈmeɪn] *n mars.* 1) ega (sohib) bo'lish, molik bo'lish, xo'jayin bo'lish; ko'chmas mulkka ega bo'lish; 2) uyga yopishib (taqalib) turgan joy (bog' yoki park)

demi- [ˈdemɪ-] *pref.* yarimtasi, yarmi

demigod [ˈdemɪgɒd] *n* yarmi xudo

demijohn [ˈdemɪdʒɒn] *n* to'qib o'rilgan katta idish

demi-lance [ˈdemɪlɑːns] *n tar.* 1) irg'itiladigan (otiladigan) o'q; nayza; 2) nayza bilan qurollangan chavandoz (otliq askar)

demi-lancer [ˈdemɪˌlɑːnsə] = **demi-lance**

demilitarization [ˈdiːˌmɪlɪtəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* qurolsizlantirish, qurolli kuch va harbiy sanoatdan mahrum etish

demilitarize [ˌdiːˈmɪlɪtəraɪz] *v* demilitarizatsiyalashtirmoq, qurolsizlantirmoq

demilune [ˈdemɪljuːn] *n tar.* yarimoy

demi-mondaine [ˌdemɪmɒnˈdeɪn] *n fr.* oliy tabaqa xonimlarga taqlid qiluvchi yengiloyoq (suyuqoyoq) xotin

demi-monde [ˈdemɪˈmɒ(ː)nd] *n fr.* yarimchiroq

demi-rep [ˈdemɪrep] *n* yomon xulqli ayol

demisable [dɪˈmaɪzəbl] *a* meros sifatida qoldirsa bo'ladigan (*mulk haqida*)

demi-sang [ˈdemɪsæŋ] *n* chala zotli (yarim zotli) hayvon (*biri zotli, biri xashaki hayvonlarning chatishuvidan tug'ilgan nasl*)

demise [dɪˈmaɪz] *n* 1) o'lim, vafot, qazo; 2) mulkni meros sifatida qoldirish; 3) mulkni ijaraga berish

demi-semi [ˈdemɪˌsemɪ] *a* 1) *kam.* (nimaningdir) to'rtinchi qismini tashkil qiladigan (qilgan); 2) *mens.* e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'q, e'tiborsiz, arzimagan, juda kichkina, haqir; a ~ **man** juda kichkina (e'tiborsiz) odam, haqir odam

demi-semiquaver [ˌdemɪsemɪˌkweɪvə] *n mus.* o'ttiz ikkinchi nota

demiss [dɪˈmɪs] *a esk.* 1) xo'rlangan, haqoratlangan, kamsitilgan; ezilgan; 2) ruhi tushgan, g'amgin, ma'yus, xafa bo'lgan, ranjigan, gangigan, garang bo'lgan, tashvishli, qayg'uli, g'amgin

demission [dɪˈmɪʃ(ə)n] *n esk.* ishdan bo'shash, ishdan bo'shatilish, ishdan bo'shatish

demit I [dɪˈmɪt] *v kam.* 1) vazifasini bo'ynidan soqit qilmoq, mansabdan bosh tortmoq, iste'foga chiqmoq; 2) kechmoq, voz kechmoq; bahridan o'tmoq; o'zini mahrum qilmoq

demit II [dɪˈmɪt] *v kam.* tushirmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq

demiurge [ˈdiːmɪɜːdʒ] *n din.* yaratuvchi, egam, parvardigor

demob [ˌdiːˈmɒb] *so'zl. qisq.* **demobilize**

demobbed [ˌdiːˈmɒbd] *a so'zl.* harbiy xizmatdan bo'shatilgan

demobee [ˌdiːməˈbiː] *n* demobilizatsiya qilingan shaxs

demobilization [ˈdiːˌməʊbɪl(a)ɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* demobilizatsiya (*1. harbiy xizmatdan bo'shatish; 2. tinchlik holatiga o'tkazish*)

demobilize [ˌdiːˈməʊbɪlaɪz] *n* demobilizatsiya qilinmoq

democracy [dɪˈmɒkrəsɪ] *n* demokratiya, xalqparvarlik

democrat [ˈdeməkræt] *n* demokrat

democratic [ˌdemə'krætɪk] *a* demokratiyaga asoslangan; demokratik

democratical [ˌdemə'krætɪk(ə)l] *a* 1) demokratiyaga asoslangan, demokratiya asosida qurilgan, demokratik, demokratiya ...; 2) xalq ommasiga, xalqqa yaqin, hamnafas yoki xos bo'lgan; xalqparvar

democratically [ˌdemə'krætɪkəlɪ] *adv* 1) demorkatiyaga asoslanib, demokratiya asosida, demokratik tarzda; 2) xalq ommasiga mos ravishda, xalqparvarlik ruhida

democratization [dɪˌmɒkrət(a)ɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* demokratlashtirmoq, demokratlashish

democratize [dɪˈmɒkrətaɪz] *v* demokratlashtirmoq, demokratik asosda qayta qurmoq

Democritus [dɪˈmɒkrɪtəs] *n* Demokrit (*Yunon materialist faylasufi, antik atomizm asoschilaridan biri*)

demodé [ˌdeɪmeʊˈdeɪ] *a fr.* eskirgan, modadan qolgan

demoded [ˌdiːˈməʊdɪd] = **demodé**

demographer [diːˈmɒgrəfə] *n* statistik, demografiya (aholishunoslik) sohasi bo'yicha mutaxassis

demographic [ˌdiːməˈgræfɪk] *a* demografiyaga oid

demography [diːˈmɒgrəfɪ] *n* demografiya, aholishunoslik

demoid [ˈdiːmɔɪd] *a paleont.* keng tarqalgan *yoki* ommalashgan (*o'simlik yoki hayvon haqida*)

demoiselle [ˌdemwɑːˈzel] *n fr.* 1) qiz bola; 2) *zool.* go'zal turna

demolish [dɪˈmɒlɪʃ] *v* parchalamoq, buzmoq; yemirmoq; ~**ed** yemirilgan

demolishment [dɪˈmɒlɪʃmənt] *n kam.* buzish, vayron qilish, yiqitish, qulatish, yo'q qilish, qirib tashlash

demolition [ˌdemə'lɪʃ(ə)n] *n* buzish, yo'q qilib tashlash, qirib tashlash

demon [ˈdiːmən] *n* jin, ajina

demonetization [ˈdiːˌmʌnɪtaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n mars.* 1) qadr-qimmatini tushirish (ketkizish), qadrsiz qilib yuborish, beqadr qilish; 2) qadrsizlanish, qimmatining tushib ketishi, qadrini tushirib yuborish; 3) tanganı muomaladan (iste'moldan) chiqarish

demonetize [ˌdiːˈmʌnɪtaɪz] *v* o'z qiymatini yo'qotmoq (*tanganga nisbatan*)

demoniac [dɪˈməʊnɪæk] *a* 1) jin urgan, telbaroq, tentakroq, jinniroq; mukkasidan ketgan, vasvasaga tushgan, muhtalo, savdoyi, shaydo, jinni; 2) iblisga (shaytonga) oid, shaytonga xos bo'lgan, iblisona; iblis...; shayton...

demoniacal [ˌdiːməˈnaɪək(ə)l] *a* 1) iblisga (shaytonga) oid, iblisona; 2) johil, iblis

demonic [diːˈmɒnɪk] *a* iblisga (shaytonga) oid; iblisona

demonism [ˈdiːmənɪzm] *n* 1) ins-jins (shayton) borligiga ishonish; 2) iblis (shayton)ga sig'inish

demonolatry [ˌdiːməˈnɒlətrɪ] *n* iblisga (shaytonga) sig'inish

demonology [ˌdiːməˈnɒlədʒɪ] *n* demonologiya (*demon (shayton, iblis, jin, alvasti)lar haqidagi diniy ta'limot*)

demonopolize [ˌdiːməˈnɒpəlaɪz] *v* monopoliyani yo'q qilmoq

demonstrability [ˌdemənstrə'bɪlɪtɪ] *n* 1) isbotlanish, isbotlana olish; 2) *esk.* aniqlik, ayonlik, yaqqollik, ravshanlik

demonstrable [ˈdemənstrəbl] *a* isbotlanishi mumkin bo'lgan, isbot qilib bo'ladigan

demonstrably [ˈdemənstrəblɪ] *adv* aniq, ravshan, ayon, shubhasiz; sezilarli darajada

demonstrate [ˈdemənstreɪt] *v* ko'rsatmoq, namoyish qilmoq

demonstration [ˌdemənˈstreɪʃ(ə)n] *n* namoyish, ko'rsatish

demonstrational [ˌdemənˈstreɪʃ(ə)nl] *a* demonstratsiya (ko'rsatish) uchun xizmat qiladigan, namoyish uchun belgilangan; namoyish...

demonstrationist [ˌdemənˈstreɪʃ(ə)nɪst] = **demonstrator**

demonstrative [dɪˈmɒnstrətɪv] *n* **1.** *a* namoyish etiladigan, ko'rsatiladigan; 2 *gram.* ~ **pronouns** ko'rsatish olmoshlari

demonstratively [dɪˈmɒnstrətɪvlɪ] *adv* 1) aniq (puxta, ishonarli) qilib, ishontirib; 2) qattiq turib, qat'iy o'tinib; 3) tortishmay, shak-shubha qilmay; 4) asosli

(ishonchli qilib); 5) to'liqinlanib, jo'shib, o'zini tuta (tiya, bosa) olmasdan; jahl bilan, qizishib

demonstrativeness |dɪˈmɒnstrətɪvnəs| *n* 1) aniqlik, ayonlik; 2) tug'yon urishlik, o'zini tiya olmaslik; tez qizishib ketishlik

demonstrator ['demənstreɪtə] *n* namoyishchi

demoralization |dɪˌmɒrəlaɪˈzeɪʃ(ə)n| *n* intizomning, jangovar ruhning yo'qolishi, tushkunlik kayfiyati; 2) maishiy buzilish, buzuqlik, razolat

demoralize |dɪˈmɒrəlaɪz| *v* tushkunlikka solmoq, buzmoq

demos ['di:mɒs] *n Qad. Rim.* xalq

demote |dɪˈməʊt| *v amer.* (*mansabini*) pasaytirmoq

demotic |di(:)ˈmɒtɪk| *a* xalqqa mansub (oid); ommaviy

demotion |dɪˈməʊʃ(ə)n| *n* xizmat (mansab)da pasayish

demount |dɪˈmaʊnt| *v* qismlarga (bo'laklarga) ajratmoq

demountable |dɪˈmaʊntəbl| *a* qismlarga ajraladigan va qayta yig'ib qo'yiladigan, yig'ma

demulcent |di(:)ˈmʌlsənt| **1.** *n tib.* tinchlantiradigan dori; **2.** *a* tinchlantiradigan, og'riqni pasaytiradigan

demur |ˌdɪˈmɜ:| *v* e'tiroz (qarshi fikr) bildirmoq, qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq; so'z qaytarmoq

demure |dɪˈmjʊə| *a* kamtar, kamsuqum, oddiy, sipo; kamtarin

demurely |ˌdɪˈmjʊəlɪ| *adv* kamtarlik (sipolik) bilan, o'zini kamtar tutib, o'zini katta olmay; o'zini qo'lga olib, o'zini bosib (tutib, tiyib), vazminlik (og'irlik) bilan

demureness |dɪˈmjʊənəs| *n* 1) kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik, sipolik, soddalik; 2) o'zini tuta bilish, vazminlik, og'irlik, osoyishtalik, bosiqlik, tiyiqlik

demurity |dɪˈmju:rɪtɪ| *kam.* = **demureness**

demurrage |dɪˈmʌrɪdʒ| *n* bekor turish, bekor to'xtab turish (*kema, vagon haqida*)

demurral |dɪˈmʌrəl| *n* e'tiroz, qarshilik

demurrer |dɪˈmʌrə| *n* 1) shubhalanadigan, gumonsiraydigan, ikkilanadigan kishi; 2) |dɪˈmʌrə| *yur.* e'tiroz, qarshilik

demy |dɪˈmaɪ| *n* qog'ozning formati (bichimi)

den [den] *n* 1) ayiq ini; 2) uy, kulba

denarii |dɪˈneərɪaɪ| *pl of* **denarius**

denarius |dɪˈneərɪəs| *n* dinariy (*Qadimgi Rim tangasi*)

denary ['di:nərɪ] *a* o'nlik, o'ntalab sanaladigan

denationalization | di:ˌnæʃ(ə)nəlaɪˈzeɪʃ(ə)n| *n* 1) milliy xususiyatlarni yo'qotish; 2) egasiga (egalariga) qaytarib berish

denationalize |di:ˈnæʃ(ə)nəlaɪz| *v* 1) milliy xususiyatlarni yo'qotmoq; milliy huquqdan mahrum etmoq; 2) egasi (egalari)ga qaytarmoq

denaturalization | di:ˌnætʃ(ə)rəlaɪˈzeɪʃ(ə)n| *n* 1) milliy xususiyatlarni yo'qotish; fuqarolikdan mahrum etish; fuqarolikdan chiqish; 2) tabiiy xususiyat (xossa)lardan mahrum etish yoki tabiiy xususiyat (xossa)larni yo'qotish

denaturalize |ˌdi:ˈnætʃ(ə)rəlaɪz| *v* 1) milliy xususiyatlarni yo'qotmoq, fuqarolikdan mahrum et(il)moq; fuqarolikdan chiqmoq; 2) tabiiy xususiyat (xossa)lardan mahrum etmoq *yoki* tabiiy xususiyat (xossa)larni yo'qotmoq; 3) butunlay o'zgarmoq, boshqacha (o'zgacha) bo'lib qolmoq

denaturation ['di:ˌneɪtʃəˈreɪʃ(ə)n| *n* aynitish, ichib, iste'mol qilib bo'lmaydigan qilish, ichib (iste'mol qilib) bo'lmaydigan holga keltirish

denature |di:ˈneɪtʃə| *v* 1) o'zgartirmoq *yoki* tabiiy xususiyat (xossa)larini yo'qotmoq; 2) (*spirtni*) aynitmoq, ichib, iste'mol qilib bo'lmaydigan holga keltirmoq

denatured |di:ˈneɪtʃəd| *a* aynitilgan (*ichib, iste'mol qilib bo'lmaydigan holga keltirilgan*)

denatured alcohol |di:ˈneɪtʃədˈælkəhɒl| *n* denaturat (*denaturatsiya qilingan. aynitilgan spirt*)

denaturize |di:ˈneɪtʃəraɪz| = **denature**

denazification |dɪˌnɑ:tzɪfɪˈkeɪʃ(ə)n| *n* fashizmni yo'qotish

denazify |diˈnɑ:tzɪfaɪ| *v* denatsifikatsiya qilmoq

dendriform ['dendrɪfɔ:m] *a* daraxtga o'xshagan, daraxtsimon, daraxt shaklidagi

dendrite ['dendraɪt] *n* 1) daraxt shaklidagi iz (*tosh yoki mineralda*); 2) *min.* dendrit (*daraxtsimon tarmoqlangan kristall*)

dendritic |denˈdrɪtɪk| *a* daraxtga o'xshash

dendroid(al) ['dendrɔɪd(əl)] = **dendritic**

dendrology [denˈdrɒlədʒɪ] *n* dendrologiya (*botanikaning daraxt va butalar haqidagi bo'limi*)

dendrometer |denˈdrɒmɪtə| *n o'rmon.* dendrometr (*yog'och o'lchagich*)

dendrometry |denˈdrɒmɪtrɪ| *n* dendrometriya (*yog'ochli o'simliklar, daraxt, buta, butachalarni o'rganuvchi fan*)

dene [di:n] *n* 1) vodiy, soy; 2) qirg'oq bo'yidagi qumlar

denegation |ˌdenɪˈgeɪʃ(ə)n| *n kit.* inkor qilish, tonish, tan olmaslik, bo'yniga olmaslik, ko'nmaslik, bosh tortish

dene-hole ['di:nhəʊl] *n arxeol.* g'or, ungur, mog'ora (*bo'r tog'larida*)

denga ['deŋgə] = **dengue**

dengue |ˈdeŋgɪ| *n* tropik bezgak (isitma)

dengue-fever ['deŋgɪˌfi:və] = **dengue**

deniable |dɪˈnaɪəbl| *a* janjalli, munozarali, talash; **it's not ~ that ...** shakshubha yo'qki...

denial |dɪˈnaɪ(ə)l| *n* rad, inkor, salbiy javob

denigrate ['denɪgreɪt] *v* 1) qoraytirmoq, qoraga bo'yamoq; 2) yomonlamoq, qoralamoq, yomonga chiqarmoq, sharmanda qilmoq; 3) badnom qilmoq, obro'sini to'kmoq; yomon otliq qilmoq

denigration [ˌdenɪˈgreɪʃ(ə)n| *n* tuhmat, bo'hton, uydirma, g'iybat

denigrator [ˈdenɪgreɪtə] *n kit.* tuhmatchi, bo'htonchi; g'iybatchi

denim ['denɪm] *n* dag'al ip gazlama

denitrate [ˌdi:ˈnaɪtreɪt] *v kim.* nitrat(lar), azot kislotasining tuz(lar)ini kamaytirmoq, yo'qotmoq

denitrify, denitrize [ˌdi:ˈnaɪtrɪfaɪ, di:ˈnaɪtraɪz] *v kim. tex.* birikmadan azotni chiqarib tashlamoq (ketkazmoq)

denizen ['denɪz(ə)n] **1.** *n* 1) iqlimga moslashtirilgan o'simlik yoki hayvon; 2) istiqomat qiluvchi, yashovchi, turuvchi; **2.** *v* fuqarolikka qabul qilmoq

dennet ['denɪt] *n* ikki g'ildirakli yengil arava, ikki g'ildirakli izvosh

denominate |dɪˈnɒmɪneɪt| *v* 1) nomlamoq, atamoq, ot qo'ymoq; 2) aniqlamoq, ayon qilmoq, ko'rsatmoq

denomination |dɪˌnɒmɪˈneɪʃ(ə)n| *n* 1) nom, ot, ism; 2) din, e'tiqod, mazhab

developmental [dɪˌveləpˈmentl] *a kit.* 1) rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan; 2) evolutsiyaga (tadrijiy rivojlanishga) oid; **~ disease** o'sish davridagi kasallik; **~ age** o'smirlik yoshi
devest [dɪˈvest] *v* 1) *yur.* (*huquqidan*) mahrum qilmoq; tazoqlashtirmoq; ajratib yubormoq; 2) *esk.* (*kiyimni*) yechmoq, yechib qo'ymoq, yechib tashlamoq
deviate ['di:vɪeɪt] *v* og'moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq, surilmoq
deviation [ˌdi:vɪˈeɪʃ(ə)n] *n* chetga chiqish, qaytish
device [dɪˈvaɪs] *n* qurilma, mexanizm
devil ['devl] *n* shayton, iblis
devildom ['devldəm] *n* iblislar, shaytonlar; jinlar, ajinalar, ins-jins
deviled ['devld] *a* dorivor (ziravor) qo'shib tayyorlangan
devil-fish ['devlfɪʃ] *n zool.* skat (*dumi ingichka yapaloq dengiz balig'i*)
devilish ['devlɪʃ] **1.** *a* do'zaxga, jahannamga oid, do'zaxda bo'ladigan; **2.** *adv* juda, rosa, o'ta, o'lguday, g'oyat, chunon, benihoyat
devilishly ['devlɪʃlɪ] *adv* juda, rosa, o'lguday, o'ta, juda ham (judayam), nihoyat darajada, benihoyat, g'oyat, chunon ham (chunonam); **~ well done** juda ham yaxshi qilingan (bajarilgan)
devilize ['devlaɪz] *v* 1) qattiq jahlini chiqarmoq, g'azabini qaynatmoq, darg'azab qilmoq; 2) rahmsiz (shafqatsiz, beshafqat) qilib yubormoq, toshyurak (bag'ritosh) qilib qo'ymoq, diydasini qotirmoq; 3) qattiq jazavasi tutmoq, hayajonga kelmoq, g'azablanmoq, darg'azab bo'lmoq, qizishib ketmoq
devilled ['devld] = **deviled**
devil-may-care ['devlmeɪˈkeə] *a* g'amtashvishdan xoli, betashvish, beg'am
devilment ['devlmənt] *n* sho'xlik, shumlik

devilry [ˈdevlrɪ] = **devilment**

devil's apple [ˈdevlzˈæpl] *bot.* 1) bangidevona; 2) mehrigiyoh

devil's apron [ˈdevlzˈeɪprən] *bot.* laminariya (*dengiz o'simliklarining yirik bir turi; Xitoy, Koreya va Yaponiyada ovqatga ishlatiladi*)

devil's claw [ˈdevlzklɔ:] *deng.* ikki shoxli gak (*po'lat ilmoq*)

devil's coach-horse [ˌdevlzˈkəʊtʃhɔ:s] *zool.* katta qora qo'ng'iz

devil's darning-needle [ˌdevlzˈdɑ:nɪŋˌni:dl] *n amer.* ninachi, so'zanak

devil's guts [ˈdevlzgʌts] *bot.* 1) pechak, chirmoviq; chirmashadigan o'simlik; 2) zarpechak, devpechak

devil's leaf [ˈdevlzli:f] *bot.* zaharli qichitqi (gazanda) o't .

devil's milk [ˈdevlzmɪlk] *n bot.* sutlama, ixroj (*zaharli oq shira chiqaradigan o't*)

devious [ˈdi:vjəs] *a* egri-bugri, aylanib o'tiladigan

devisable [dɪˈvaɪzəbl] *a yur.* meros qilib qoldirsa bo'ladigan

devise [dɪˈvaɪz] **1.** *n yur.* vasiyat, vasiyatnoma; **2.** *v* o'ylamoq; niyat qilmoq

devisee [ˌdevɪˈzi:, dɪˌvaɪˈzi:] *n yur.* vasiyatnoma bo'yicha ko'chmas mulk merosxo'ri

deviser [dɪˈvaɪzə] *n* ixtirochi; kashfiyotchi

devisor [ˌdevɪˈzɔ:, dɪˈvaɪzə] *n yur.* ko'chmas mulkni vasiyat qilib qoldirgan shaxs

devitalization [di:ˌvaɪtəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* yashash qobiliyatidan mahrum qilish

devitalize [ˌdi:ˈvaɪt(ə)laɪz] *v* yashash qobiliyatidan mahrum qilmoq, kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashtirmoq, darmonsizlantirmoq, kuchsizlantirmoq

devoid [dɪˈvɔɪd] *a* erki (huquqi) o'zida bo'lmagan, biror narsadan mahrum

devoir [ˈdevwɑ:] *n* qarz, burch

devolution [ˌdi:vəˈlu:ʃ(ə)n] *n* 1) birovga yetkazish, topshirish, o'tkazish, berish; 2) *biol.* aynimoq, zoti (nasli) buzilmoq

devolve [dɪˈvɒlv] *v* topshirmoq (*mansabni*)

Devonian [deˈvəʊnjən] *a geol.* devon davri (*poleozoy erasining uchinchi davri*)ga oid

devonport [ˈdevnpɔ:t] = **davenport**

devonshire [ˈdevnʃɪə] = **denshire**

dévot [deɪˈvəʊ] *a fr.* 1) xudojo'y, dindor, taqvodor, tavfiqli, batavfiq; 2) chin ixlos bilan berilgan, ixlosmand, xudoga (dinga) astoydil ishonadigan (ixlos qiladigan)

devote [dɪˈvəʊt] *v* bag'ishlamoq, atamoq

devoted [dɪˈvəʊtɪd] *a* 1) bag'ishlangan; 2) fidoyi, sodiq

devotedly [dɪˈvəʊtɪdlɪ] *adv* sadoqat (sodiqlik) bilan, sidqidildan; o'zini unutish darajasida; o'zini (es-hushini) yo'qotish darajasida, butun vujudi bilan berilib, fidokorlik bilan; ~ **in love** astoydil yaxshi ko'radigan (sevadigan)

devotee [ˌdevəˈti:] *n* kurashuvchi, kurashchi; yoqlovchi, himoya qiluvchi; ixlosmand

devotion [dɪˈvəʊʃ(ə)n] *n* 1) fidoyilik, sodiqlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov

devotional [dɪˈvəʊʃənl] *a* 1) diniy, xurofiy; 2) dindor, dinga berilgan, xudojo'y, taqvodor, mo'min

devotionalism [dɪˈvəʊʃnəlɪz(ə)m] *n* xudojo'ylik, dindorlik, taqvodorlik

devotionalist [dɪˈvəʊʃnəlɪst] *n* 1) dindor, xudoga toat-ibodat qiluvchi; ziyoratchi; 2) o'zini xudojo'y qilib ko'rsatuvchi odam, riyokor, munofiq, ikkiyuzlama(chi)

devour [dɪˈvaʊə] *v* 1) yemoq, yeb qo'ymoq; 2) yamlamoq, komiga tortmoq; 3) qirmoq, qirib tashlamoq

devouringly [dɪˈvaʊərɪŋlɪ] *adv* 1) ochko'zlik bilan, suqlik bilan; ochko'zlik qilib; 2) zo'r ishtiyoq bilan, tashnalik bilan, qiziqib; 3) qurumsoqlik bilan, xasislik (baxillik, ziqnalik) bilan, qizg'anib; **to gaze ~ at smb.** kimnidir ko'z bilan yeb qo'yay demoq; kimgadir yeb qo'ygudek bo'lib qaramoq, kimgadir tikilib (suqlanib) qaramoq

devourment [dɪˈvaʊəmənt] *n* 1) yeyish, yeb qo'yish, yeb yuborish; 2) yutish, shimish, singdirish, o'ziga olish; yutilish, singish, singib ketish

devout [dɪˈvaʊt] *a* 1) xudojo'y, dindor, taqvodor; 2) samimiy, sidqidildan qilingan

devoutness [dɪˈvaʊtnəs] *n* xudojo'ylik, dindorlik, taqvodorlik, mo'minlik

dew [dju:] **1.** *n* shudring, shabnam; **2.** *v* sug'ormoq; ho'llamoq

dewater [dɪˈwɔ:tə] *v maxs.* 1) nasos bilan suvni tortib olmoq; 2) zaxni qochirmoq, quritmoq, suvini qochirmoq (*botqoqlik va b. haqida*); 3) suvsizlantirmoq, suvini chiqarib yubormoq yoki quritib qo'ymoq

dew-berry [ˈdju:b(ə)rɪ] *n* 1) maymunjon, parmachak (*butasi va mevasi*); 2) *sheva.* krijovnik (*krijovnikdoshlarga mansub butalar turkumi*)

dewdrop I [ˈdju:drɒp] *n* shudring tomchisi, shabnam donasi

dewdrop II [ˈdju:drɒp] *n* tovuqlarni sug'oradigan avtosug'orgich

dew-fall [ˈdju:fɔ:l] *n* 1) shabnam (shudring)ning tushishi; 2) shabnam (shudring) tushadigan vaqt

dewlap [ˈdju:læp] *n* bag'baqa (*ba'zi hayvonlarning tomog'i ostida osilib turadigan terisi*)

dewless [ˈdju:ləs] *a shoir.* quruq, qurigan, suvi qochgan, suvi ketkazilgan

dew-point [ˈdju:pɔɪnt] *n meteor.* erish yoki suvga aylanish harorati (nuqtasi)

dew-worm [ˈdju:wɜ:m] *n* chuvalchang

dewy [ˈdju:ɪ] *a* shudring bosgan, shabnam tushgan

dexter [ˈdekstə] **1.** *n kit.* o'ng tomon (taraf); **2.** *a kit.* o'ng, o'ng tomondagi (tarafdagi); **3.** *adv kit.* 1) o'ngga, o'ng tomonga; 2) o'ngdan, o'ng tomondan

dexterity [dekˈsterɪtɪ] *n* chaqqonlik, epchillik, ikdamlik

dexterous [ˈdekst(ə)rəs] *a* tez, chaqqon, shaxdam

dexterously [ˈdekst(ə)rəslɪ] *adv* 1) epchillik (chaqqonlik) bilan, chaqqon, epchil, tez, mohirona; 2) san'atkorona, mahorat (mohirlik, ustalik) bilan

dexterousness [ˈdekst(ə)rəsnəs] = **dexterity**

dextrad [ˈdekstræd] *adv kit.* 1) o'ng tomonga; o'ngga; 2) o'ngda, o'ng tomonda

dextral [ˈdekstrəl] *a kit.* 1) o'ng tomonda joylashgan; 2) o'ng tomondagi; 3) o'ng qo'li bilan ishlashga o'rganib qolgan

dextrality [dekˈstrælɪtɪ] *n* asimmetrik, nosimmetriklik, simmetriyaning, mutanosiblikning yo'qligi yoki buzilishi (buzilganligi), simmetriyasizlik

dextrally [ˈdekstrəlɪ] *adv maxs.* o'ng tomonga qarab, soat mili bo'yicha; **to rotate** ~ soat mili bo'yicha aylanmoq

dextrer(e), dextrier [ˈdekstrə(rə), ˈdekstrɪə] = **destrer, destrier**

dextrin [ˈdekstrɪn] *n kim.* dekstrin, kraxmal moddasi

dextrogyrate [ˌdekstrə(ʊ) ˈdʒaɪreɪt] = **dextro-rotatory**

dextro-rotatory [ˌdekstrə(ʊ)ˈrəʊtət(ə)rɪ] *a maxs.* o'ng tomonga qarab aylanadigan

dextrorse [dekˈstrɔ:s] *a* 1) *bot.* chap tomondan o'ng tomonga qarab chirmashadigan (*palak otuvchi o'simliklarning poyasi haqida*); 2) *tex.* o'ng tomonga buriladigan (aylanadigan)

dey [deɪ] *n sheva.* sutchilik fermasining xo'jayini

dhobi [ˈdəʊbɪ] *n hind.* kir yuvuvchi (kirchi) erkak

dhow [daʊ] *n* bir machtali kabotaj (*ichki portlar orasida qatnaydigan*) kemasi (*Hind okeanida*)

dia- [ˈdaɪə-] *pref.* orasida, o'rtasida, oralig'ida, mobaynida; orqali, vositasida

diabase [ˈdaɪəbeɪs] *n min.* diabaz (*to'la kristallangan, asosli vulqon jinsi*)

diabetes |ˌdaɪəˈbiːtiːz| *n tib.* diabet (*modda almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan va siydikning ko'payishi bilan kechadigan kasalliklar nomi*)

diabetic |ˌdaɪəˈbetɪk| *n* diabet kasaliga yo'liqqan kishi

diabolic [ˌdaɪəˈbɒlɪk] *a* 1) iblisga (shaytonga) oid, iblisga (shaytonga) xos bo'lgan; **~ grin** iblisona kulgi; **~ arts** sehrgarlik, jodugarlik; 2) yomon, yovuz, qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz, berahm, zolim

diabolical |ˌdaɪəˈbɒlɪk(ə)l| *a* iblisona, yovuz, makrli, makkorona

diabolically |ˌdaɪəˈbɒlɪkəlɪ| *adv* 1) juda, haddan tashqari, g'oyat; 2) shafqatsizlik bilan, beshafqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona

diabolism |daɪˈæbəlɪz(ə)m| *n* sehrgarlik, jodugarlik, sehr, jodu, amal

diabolize |daɪˈæbəlaɪz| *v* 1) qattiq jahlini chiqarmoq, g'azabini qaynatmoq; 2) rahmsiz (shafqatsiz, beshafqat) qilib yubormoq, toshyurak (bag'ritosh) qilib yubormoq, diydasini qotirmoq

diacid |daɪˈæsɪd| *a kim.* ikki asosli, ikki kislotali

diacodium [ˌdaɪəˈkəʊdɪəm] *n esk.* (*ko'knoridan qilingan*) behush (mast, karaxt qiladigan, uxlatadigan, etni oldiradigan) sirop, sharbat, qiyom

diaconal |daɪˈækən| *a* dyakan (*pravoslav cherkovida: ruhoniylarning quyi unvoni*)ga oid

diaconicon, diaconicum |ˌdaɪəˈkɒnɪkən, -kəm] *n cherk.* rizaxona (*rizalar va cherkov anjomlari saqlanadigan bino ombori*)

diacritic |ˌdaɪəˈkrɪtɪk| **1.** *n tilsh.* diakritik belgi (*harf ustidagi yoki ostidagi belgi*); **2.** *a tilsh.* diakritik; **a ~ mark** diakritik belgi

diacritical |ˌdaɪəˈkrɪtɪk(ə)l| **diacritic 2**

diactinic |ˌdaɪækˈtɪnɪk| *a opt.* ultrabinafsha nurlarni o'tkazadigan (o'tkazuvchi)

diadem |ˈdaɪədem| *n* diadema (*1. toj; 2. gultoj*)

diaeresis |ˌdaɪˈerɪsɪs| *n tilsh.* ikki unlini dona-dona (alohida-alohida, bo'lib-bo'lib) talaffuz etish

diagnose [ˈdaɪəgnəʊz] *v* tashxis qo'ymoq

diagnoses |ˌdaɪəgˈnəʊsiːz| *pl of* **diagnosis**

diagnosis |ˌdaɪəgˈnəʊsɪs| *n* (*pl* **-ses** |-siːz|) tashxiz, diagnoz

diagnostic |ˌdaɪəgˈnɒstɪk| *a* tashxisga oid, diagnostik, diagnostika…

diagnostically [ˌdaɪəgˈnɒstɪkəlɪ] *adv* 1) diagnostika (*tibbiyotning kasalliklarni aniqlash haqidagi bo'limi, shuningdek, kasalliklarni aniqlash usullari*) yordami bilan (yordamida); 2) diagnostika nuqtayi nazari bilan

diagnosticate |ˌdaɪəgˈnɒstɪkeɪt| *kam.* = **diagnose**

diagnostician |ˌdaɪəgnɒsˈtɪʃ(ə)n| *n* kasalni aniqlovchi mutaxassis shifokor

diagnostics [ˌdaɪəgˈnɒstɪks] *n* diagnostika; **skill in ~** kasalliklarga tashxis qo'yish mahorati

diagonal [daɪˈægənl] **1.** *n mat.* diagonal (*ko'p burchakning bir tomonida yotmaydigan ikki uchini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq kesmasi*); **2.** *a* diagonal yo'nalishidagi, diagonal orqali o'tgan, diagonal…

diagonally [daɪˈægənəlɪ] *adv* diagonal bo'yicha (bo'ylab); qiyamasiga, qiyalab, qiyg'och, burchakdan burchakka

diagram [ˈdaɪəgræm] *n* diagramma

diagrammatic, diagrammatical [ˌdaɪəgrəˈmætɪk, -(ə)l] *a* sxematik, sxema tarzida berilgan, sxemalashtirilgan, umumiy tarzda berilgan (tasvirlangan, ko'rsatilgan, bayon etilgan); **~ view** xomaki tasvir

diagrammatically [ˌdaɪəgrəˈmætɪkəlɪ] *adv* diagramma shaklida (tarzida), sxema shaklida (tarzida), sxematik tarzda

diagraph [ˈdaɪəgrɑːf] *n* pantograf (*chizma, reja va sh. k. ning ko'lamini o'zgartirib ko'rsatish uchun qo'llaniladigan asbob*)

dial [ˈdaɪəl] *v* 1) (*radiopriyomnik shkalasi bo'ylab yugurdakni siljitib*) stansiya izlamoq; (*priyomnik, televizorni*) sozlamoq; 2) telefon raqamini termoq

dialect [ˈdaɪəlekt] *n* dialekt, sheva

dialectal [ˌdaɪəˈlektl] *a* shevaga oid, shevaga xos bo'lgan

dialectic [ˌdaɪəˈlektɪk] **1.** *n* dialektika (*harakat va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi falsafiy ta'limot, shuningdek, harakat va rivojlanishning o'zi*); **2.** *a* dialektikaga oid; dialektik; dialektika …; **~ materialism** dialektik materializm; **~ method** dialektik metod

dialectical [ˌdaɪəˈlektɪk(ə)l] = **dialectic 2**

dialectically [ˌdaɪəˈlektɪk(ə)lɪ] *adv* dialektik tarzda, dialektika nuqtayi nazaridan

dialectician [ˌdaɪəlekˈtɪʃ(ə)n] *n* 1) dialektik (*dialektik falsafa tarafdori*); 2) tajribali munozarachi

dialectics [ˌdaɪəˈlektɪks] *n* dialektika (*harakat va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi falsafiy ta'limot, harakat va rivojlanishning o'zi*)

dialectologist [ˌdaɪəlekˈtɒlədʒɪst] *n* dialektolog, shevashunos, dialektologiya (shevashunoslik) olimi

dialectology [ˌdaɪəlekˈtɒlədʒɪ] *n* shevashunoslik, dialektologiya

dialing [ˈdaɪəlɪŋ] *n* 1) quyosh soati inshooti; 2) (*siferblatning*) darajalari; 3) quyosh soati yordamida vaqtni aniqlash; 4) telefon raqamini terish

diallelon [ˌdaɪəˈliːləʊn] *n mant.* tavtalogiya (*bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash*)

dialogic [ˌdaɪəˈlɒdʒɪk] *a* dialogik, dialog (*so'zlashuv, suhbat*) tarzidagi

dialogical [ˌdaɪəˈlɒdʒɪk(ə)l] = **dialogic**

dialogue [ˈdaɪəlɒg] *n* dialog, so'zlahuv, suhbat

dialphone [ˈdaɪəlfəʊn] *n* avtomatik telefon, diskli telefon apparati

dial-piece, dial-plate [ˈdaɪ(ə)lpiːs, -pleɪt] *n* siferblat

dial tone [ˈdaɪ(ə)ltəʊn] *tel.* past cho'ziq ovoz, gudok (*„tarmoq bo'sh" degan signal, xabar*)

dialyses [daɪˈælɪsiːz] *pl of* **dialysis**

dialysis [daɪˈælɪsɪs] *n* (*pl*-**ses**) *kim.* dializ (*kalloid sistemalar va yuqori molekulali birikmalarning eritmalari tarkibidagi quyi molekulali moddalarni yarimo'tkazgich membranal yordamida yo'qotish*)

diamagnet [ˈdaɪəˌmægnɪt] = **diamagnetic 1**

diamagnetic |ˌdaɪəmægˈnetɪk| **1.** *n fiz.* diamagnetik (*manfiy magnit singdiruvchanlikka ega bo'lgan modda*); **2.** *a fiz.* diamagnitga oid, diamagnit…

diamagnetism |ˌdaɪəˈmægnətɪz(ə)m] *n fiz.* diamagnetizm (*tashqi magnit maydonida moddaning bu maydonga qarama-qarshi yo'nalishda magnitlanish xossasi*)

diameter [daɪˈæmɪtə] *n* diametr, ko'ndalang kesim o'lchami

diametral [daɪˈæmɪtr(ə)l] *a* 1) diametrda joylashgan, diametr orqali o'tgan, diametral…; 2) ko'ndalang, ko'ndalangiga (eniga) tushgan, ko'ndalang qo'yilgan

diametric |ˌdaɪəˈmetrɪk] = **diametrical**

diametrical |ˌdaɪəˈmetrɪk(ə)l| *a* diametrda joylashgan, diametr orqali o'tgan, diametral

diametrically |ˌdaɪəˈmetrɪk(ə)lɪ| *adv* butunlay, tamoman, mutlaqo

diamond [ˈdaɪəmənd] *n* olmos (*qimmatbaho asl tosh*)

diamond-back [ˈdaɪəmən(d),bæk| = **diamond-backed**

diamond-backed [ˈdaɪəmən(d),bækt] *a* orqasida rombsimon (romb shaklidagi) rasmi bo'lgan

diamond-bearing [ˈdaɪəmən(d),beərɪŋ] *a tog'.* olmosli, tarkibida olmos bo'lgan
diamond-beetle [ˈdaɪəmən(d),bi:tl] *n zool.* uzuntumshuq (*zararkunanda qo'ng'iz*)
diamond-bird [ˈdaɪəmən(d),bɜ:d] *n zool.* qarqunoq, olato'g'anoq
diamond-borer [ˈdaɪəmən(d),bɔ:rə] = **diamond-drill**
diamond-cutter [ˈdaɪəmən(d),kʌtə] *n* olmoslarni silliqlovchi, olmoslarga sayqal beruvchi
diamond-drill [ˈdaɪəmən(d)ˈdrɪl] *n* olmosli burg'u (parma)
diamond-dust [ˈdaɪəmən(d)ˈdʌst] = **diamond-powder**
diamondiferous [ˌdaɪəmənˈdɪf(ə)rəs] *a* olmosga boy, olmosli, tarkibida olmosi bo'lgan
diamond-powder [ˈdaɪəmənd ˈpaʊdə] *a* olmos kukuni
diamond-shaped [ˈdaɪəmən(d)ˈʃeɪpt] *a* romb shaklidagi, rombsimon, rombga o'xshagan
diamond-weevil [ˈdaɪəmən(d)ˈwi:vl] = **diamond-beetle**
diapasm [ˈdaɪəpæzm] *n esk.* upa, hidi yaxshi (xushbo'y) kukun
diapason [ˌdaɪəˈpeɪsn] *n* diapazon (*bilim, o'zgarish va sh. k. ning ko'lami, hajmi, doirasi*)
diapause [ˈdaɪəpɔ:z] *n* karaxtlik, uyqu (*ba'zi hayvonlarning uzoq vaqt karaxt bo'lib, uxlab yotishi*)
diaper [ˈdaɪəpə] **1.** *n* 1) (*dasturxon, sochiq va h. k. uchun*) guldor gazlama; 2) yo'rgak; **2.** *v* yo'rgaklamoq
diaphane [ˈdaɪəfeɪn] *n* shaffof jism *yoki* narsa
diaphanous [daɪˈæfənəs] *a* tiniq, shaffof
diaphonic, diaphonical [ˌdaɪəˈfɒnɪk, -(ə)l] *a* diafoniyaga oid, diafoniya...
diaphony [daɪˈæfənɪ] *n mus.* diafoniya (*musiqada turli tonlarning bir vaqtda qattiq, nouyg'un yangrashi*)
diaphoretic [ˌdaɪəfə(ʊ)ˈretɪk] **1.** *tib.* ter chiqaruvchi (terlatadigan, terlatuvchi) dori; **2.** *a tib.* terlatuvchi, ter chiqaruvchi, terlatadigan, ter chiqaradigan
diaphragm [ˈdaɪəfræm] *n anat.* 1) diafragma (*ko'krak-qursoq pardasi*); 2) *zool.* parda
diaphragmatic [ˌdaɪəfrægˈmætɪk] *a* diafragmaga oid, diafragma...
diaplasis [daɪˈæpləsɪs] *n tib.* o'rniga solish (*chiqqan joyni*)
diapositive [ˌdaɪəˈpɒzɪtɪv] *n foto.* diapozitiv (*ekranga proyeksiyalash uchun tayyorlangan, shaffof fotosurat*)
diarchy [ˈdaɪɑ:kɪ] *n* qo'sh hokimiyatchilik
diarial, diarian [daɪˈeərɪəl, daɪˈeərɪən] *a* kundaliksimon, kundalik shaklidagi, kundalikka oid, kundalik...
diarist [ˈdaɪərɪst] *n* kundalik tutuvchi (tutadigan) kishi
diaristic [ˌdaɪəˈrɪstɪk] *a* kundalik shaklidagi, kundalikka o'xshagan
diarize [ˈdaɪəraɪz] *v* kundalik (xotira) daftari tutmoq
diarrhoea [ˌdaɪəˈrɪə] *n tib.* ich ketish, ichburug', dizenteriya
diarrh(o)eal, diarrh(o)eic [ˌdaɪəˈrɪəl, ˌdaɪəˈri:ɪk] *a tib.* ich ketishga oid, ichni ketkizadigan
diary [ˈdaɪərɪ] *n* kundalik (xotira) daftari
diaskeuast [ˌdaɪəˈskju:æst] *n kit.* matnni qayta ko'rib chiqadigan yoki tahrir qiladigan kishi (*asos., yunon matnlarini*)
diastole [daɪˈæstəlɪ] *n fiziol.* diastola (*yurak bo'shlig'ining kengayishi*)
diathermic [ˌdaɪəˈθɜ:mɪk] *n fiz.* diatermiyaga oid; diatermik
diathermy [ˈdaɪəθɜ:mɪ] *n tib.* diatermiya (*yuqori chastotali tok bilan qizdirib davolash*)
diatheses [daɪˈæθɪsi:z] *pl of* **diathesis**
diathesis [daɪˈæθɪsɪs] *n tib.* diatez (*organizmning kasalga moyillik holati*)
diatom [ˈdaɪətəm] *n bot.* diatom suv o'ti (*chuchuk va dengiz suv o'tlarida, nam tuproqda va sh. k. joylarda tarqalgan*)
diatomic [ˌdaɪəˈtɒmɪk] *a* ikki atomli, ikki atomdan iborat bo'lgan
diatribe [ˈdaɪətraɪb] *n* fosh qiluvchi (qoralovchi) sifatidagi nutq
dib I [dɪb] *n asos.* 1) oshiq (*o'yin*); 2) fishka (*turli o'yinlarda yutuqni hisoblash uchun ishlatiladigan tosh, soqqa va sh. k.*)
dib II [dɪb] *v* sekin zarba bermoq (urmoq), chertmoq
dib-hole [ˈdɪbhəʊl] *n tog'.* zumpf (*shaxta tagida suv to'planadigan chuqur*)
dicacity [dɪˈkæsɪtɪ] *n esk.* sergaplik, ezmalik, vaysaqilik
dicarbonate [daɪˈkɑ:bənɪt] *n kim.* bikarbonat, gidrokarbonat (*karbonat kislotasining nordon tuzi*)
dice [daɪs] **1.** *n* oshiq o'yini (*qimor*); **2.** *v* oshiq o'ynamoq (*qimor*)
dice-box [ˈdaɪsbɒks] *n* ichiga oshiqlar solib o'ynaladigan piyola (*stakan*)
dicephalous [daɪˈsefələs] *a maxs.* ikki boshli
dicer [ˈdaɪsə] *n* oshiqboz
dichloride [daɪˈklɔ:raɪd] *n kim.* ikki xlorli birikma
dichogamous [daɪˈkɒgəməs] *a bot.* dixogamiyaga oid; dixogamiya...
dichogamy [daɪˈkɒgəmɪ] *n bot.* dixogamiya (*o'simlik gulidagi changchi va urug'chi organlarining turli muddatda yetilishi*)
dichord [ˈdaɪkɔ:d] *n mus.* ikki torli (simli) musiqa asbobi
dichoree [ˌdaɪkə(ʊ)ˈri:] *n she'r.* ikki turoqli xorey (*she'r vazni*)
dichotomic [ˌdaɪkəˈ(ʊ)tɒmɪk] *a* ikki qismga bo'lingan yoki bo'linadigan
dichotomize [daɪˈkɒtəmaɪz] *v* 1) ikki qismga bo'lmoq; 2) ikki qismga bo'linmoq
dichotomous [daɪˈkɒtəməs] *a* ikki qismga bo'lingan yoki bo'linadigan
dichotomy [daɪˈkɒtəmɪ] *n maxs.* ketmaket (birin-ketin) ikkiga bo'lish (yoki bo'linish); ikki qismga ajralish (yoki ajratish)
dichroic [daɪˈkrəʊɪk] *a* ikki rangli (*kristall haqida*)
dichromatic [ˌdaɪkrə(ʊ)ˈmætɪk] *a* 1) ikki rangli; 2) *tib.* ikkita asosiy rangni ajrata oladigan
dichromatism [daɪˈkrəʊmətɪz(ə)m] *n* 1) *maxs.* ikki ranglilik, ikki rangga bo'yalganlik; 2) *tib.* qisman daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*)
dicing [ˈdaɪsɪŋ] *n* soqqa tashlab o'ynash
dick I [dɪk] *n sheva.* charm fartuk
dick II [dɪk] *n sheva.* o'r, chuqur, xandaq, ariq, zovur
dickens [ˈdɪkɪnz] *n so'zl.* shayton, iblis
dicker I [ˈdɪkə] *n so'zl.* 1) o'n(ta), o'n dona, o'n nafar; 2) dujina, o'n ikki dona
dicker II [ˈdɪkə] **1.** *n* alishish, almashish, almashtirish, ayirboshlash, **to make a ~** bitim tuzmoq; **2.** *v so'zl.* alishmoq, alishtirmoq, ayirboshlamoq; alishib (alishtirib, ayirboshlab) olmoq
dicky, dickey [ˈdɪkɪ] **1.** *n* 1) ko'ylakning qadama ko'krak qismi; 2) bolalar oshxo'ragi; **2.** *a* kuchsiz, bo'sh, nimjon, zaif, kasalmand
dicotyledon [ˈdaɪˌkɒtɪˈli:d(ə)n] *n bot.* ikki pallali (*urug'i, doni ikki pallali*) o'simlik
dicotyledonous [ˈdaɪˌkɒtɪˈli:d(ə)nəs] *a bot.* ikki pallali
dicta [ˈdɪktə] *pl of* = **dictum**
dictate [dɪkˈteɪt] *v* aytib turib yozdirmoq
dictation [dɪkˈteɪʃ(ə)n] *n* aytib turish; diktant
dictator [dɪkˈteɪtə] *n* o'z so'zini o'tkazuvchi; yakka hokim
dictatorate [dɪkˈteɪtərɪt] *n kit.* 1) diktatorlik, hukmronlik; o'z amrini o'tkazish, o'z amri bilan ish tutish; 2) yakka hokimlik, yakka hokimiyatchilik
dictatorial [ˌdɪktəˈtɔ:rɪəl] *a* yakka hokimiyatchilikka asoslangan

dictatorship [dɪkˈteɪtəʃɪp] *n* diktatura, hokimiyat
diction [ˈdɪkʃ(ə)n] *n* fikrni bayon etish uslubi; so'z tanlash
dictionary [ˈdɪkʃ(ə)n(ə)rɪ] *n* lug'at
dictophone [ˈdɪktəfəʊn] *n* diktofon (*ovoz yozish apparati*)
dictum [ˈdɪktəm] *n* hikmatli so'z
did [dɪd] **do** *fe'lning o'tgan zamon shakli*
didactic [daɪˈdæktɪk] *a* didaktikaga oid; ta'lim-tarbiyaviy
didactically [daɪˈdæktɪkəlɪ] *adv* ibratli (nasihatomuz, savob bo'ladigan) tarzda, ibratli qilib
didacticism [daɪˈdæktɪsɪz(ə)m] *n* nasihatgo'ylik, nasihatomuzlik
didactics [daɪˈdæktɪks] *n* didaktika (*pedagogikaning umumiy ta'lim-tarbiya berish nazariyasini bayon etadigan bo'limi*)
didactive [daɪˈdæktɪv] = **didactic**
didactyl(e) [daɪˈdæktɪl] *a zool.* ikki(ta) barmoqli, barmog'i ikkita bo'lgan
diddle [ˈdɪdl] *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq
diddle-daddle [ˈdɪdlˈdædl] *n so'zl.* behuda gap, safsata, bema'ni (bo'lmag'ur) narsa, bo'lmagan gap, bema'nigarchilik
diddler [ˈdɪdlə] *n so'zl.* muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi, aldoqchi
dido [ˈdaɪdəʊ] *n amer. so'zl.* sho'xlik, hazilkashlik; hazil-huzul; **to cut ~es** ahmoqlik (tentaklik) qilmoq
didrachm [ˈdaɪdræm] *n* ikki draxma (*qadimgi yunonlar tangasi*)
didymate [ˈdɪdɪmɪt] = **didyomous**
didyomous [ˈdɪdɪməs] *a bot. zool.* 1) qo'sh, qo'shaloq juft; 2) ikkilangan, qavatlangan, qo'shqavat
die [daɪ] *v* o'lmoq, vafot etmoq
die-away [ˈdaɪəˌweɪ] *a* 1) majolsiz, toliqqan, horg'in; 2) zahmat chekkan
die-hammer [ˈdaɪˌhæmə] *n tex.* shtamplaydigan bolg'a (dastgoh)
die-hard [ˈdaɪhɑ:d] *n* 1) aqidaparast; 2) ahmoq, aqlsiz, qovoqhosh, kallavaram
dielectric [ˌdaɪɪˈlektrɪk] **1.** *n el.* dielektrik (*elektr o'tkazmaydigan modda*); **2.** *a el.* dielektrik; elektr o'tkazmaydigan; izolatsiya (yakkalab qo'yish) uchun ishlatiladigan
diencephalon [ˌdaɪenˈsefəlɒn] *n anat.* o'rta miya
Diesel [ˈdi:zl] *n* dizel dvigateli, dizel (*shun.*, **~ engine, ~ motor**); **~ oil (fuel)** dizel yoqilg'isi
diesel-electric [ˈdi:z(ə)lɪˈlektrɪk] *a* dizel-elektr dvigateli
dieselize [ˈdi:zəlaɪz] *v* parovozlarni teplovozlarga almashtirmoq
Dies Irae [ˌdi:eɪzˈɪəraɪ] *n lot. din.* qiyomat, qiyomat qoyim, mahshar kuni
dies non [ˈdi:eɪzˈnɒn] *lot.* ish yo'q kun (*idora, mahkama va h. k. yopiq kun*)
die-sinker [ˈdaɪˌsɪŋkə] *n* 1) qolip bilan asboblar yasovchi usta; 2) *tex.* nusxa ko'chiradigan dastgoh
die-stock [ˈdaɪstɒk] *n tex.* klupp (*rezba qirqadigan asbob*); vint rezbasini yasaydigan asbob
diet [ˈdaɪət] **1.** *n* 1) ovqat, oziq, taom; 2) parhez; **2.** *v* parhez qilmoq
dietary [ˈdaɪətə(ə)rɪ] **1.** *a* parhezga oid; parhezli; **2.** *n* ovqatlanish tartibi, parhez
diet-bread [ˈdaɪətˈbred] *n* parhezli non
dietetic [ˌdaɪəˈtetɪk] *a* parhezli; parhezga oid
dietetics [ˌdaɪəˈtetɪks] *n* diyetetika (*ovqatlanish tartibi haqidagi fan*)
diethyl [daɪˈeθ(ɪ)l] *n kim.* butan (*to'yingan atsiklik uglevod; rangsiz gaz*)
dietic [daɪˈetɪk] = **dietetic**
dietine [ˈdaɪətɪ:n] *n tar.* mahalliy boshqaruv organi
dietist, dietitian [ˈdaɪətɪst, daɪəˈtɪʃ(ə)n] *n* parhez bo'yicha mutaxassis shifokor
diet-kitchen [ˈdaɪətˈkɪtʃɪn] *n* 1) *amer.* parhez oshxonasi; 2) muhtojlarga yordam beruvchi oshxona
differ [ˈdɪfə] *v* 1) ajralib turmoq, farq qilmoq; 2) ajratmoq
difference [ˈdɪfrəns] *n* farq, tafovut
different [ˈdɪf(ə)rənt] *a* turli, boshqa, bo'lak; o'zgacha
differential [ˌdɪfəˈrenʃ(ə)l] **1.** *a mat.* differensialga oid; **2.** *n* differensial (*o'zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik orttirmasi*)
differentiate [ˌdɪfəˈrenʃɪeɪt] *v* 1) farqlamoq, darajalamoq, tabaqalashtirmoq; 2) *mat.* differensialini (*o'zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik orttirmasini*) topmoq, hisoblamoq
differentiation [ˌdɪfərenʃɪˈeɪʃ(ə)n] *n* farqlash, darajalash, tabaqalashtirish
differently [ˈdɪfrəntlɪ] *adv* turlicha, o'zgacha, boshqacha, har xil
difficile [ˈdɪfɪsɪl] *a fr.* og'ir, vazmin
difficult [ˈdɪfɪk(ə)lt] *a* qiyin, murakkab, og'ir, mushkul
difficulty [ˈdɪfɪk(ə)ltɪ] *n* 1) qiyinchilik, mushkullik; **without ~** mushkulotsiz; qiyinchiliksiz; 2) moddiy qiyinchilik
diffidation [ˌdɪfɪˈdeɪʃ(ə)n] *n kit.* (*aloqa yoki munosabatni*) uzish, buzish
diffidence [ˈdɪfɪd(ə)ns] *n* o'ziga ishonmaslik, jur'atsizlik, yuraksizlik, qo'rqoqlik; tortinchoqlik, hadiksirash, uyatchanlik, ibo
diffident [ˈdɪfɪd(ə)nt] *a* 1) o'ziga ishonmaydigan; 2) uyatchan, tortinchoq, iboli
diffluence [ˈdɪfluəns] *n* 1) hamma yoqqa oqib ketish, yoyilib ketish, tarqalish; 2) suyuq holatga aylanish (o'tish)
diffluent [ˈdɪfluənt] *a* 1) hamma yoqqa oqib ketadigan (yoyilib, tarqalib) ketadigan; shaklsiz; suyuq holdagi, suyuq; 2) suyuq holga aylanish
diffract [dɪˈfrækt] *v fiz.* nurlarni sindirmoq (*qaytarmoq, yo'nalishni o'zgartirmoq*)
diffraction [dɪˈfrækʃ(ə)n] *n opt.* 1) nurning sinishi, nurni sindirish; 2) *fiz.* difraksiya (*to'lqinlarning to'siqdan aylanib o'tishi*)
diffractive [dɪˈfræktɪv] *a fiz.* sindiradigan, qaytaradigan, yo'nalishini o'zgartiradigan
diffuse [dɪˈfju:z] *a* 1) yoyilgan; 2) tarqoq (*nur va b. haqida*)
diffused [dɪˈfju:zd] a 1) sochilib (yoyilib yotgan), sochilib ketgan; keng tarqalgan, keng yoyilgan; **~ opinion** keng tarqalgan fikr; 2) ma'lum bir tomonga yo'nalmagan, tarqoq, chochiq; **~ light** tarqoq nur
diffused light [dɪ ˈfju:zdlaɪt] *n* tarqoq nur
diffuser [dɪˈfju:zə] *n tex.* 1) purkovchi, changlagich; 2) diffuzor (*1. lavlagining shirasini ajratadigan apparat; 2. quvurlarning toraygan joyi*); 3) *kino.* nur tarqatuvchi apparat, nur tarqatadigan linza
diffusible [dɪˈfju:zəbl] *a* 1) tarqaladigan yoki yoyiladigan; 2) *fiz.* diffuziyaga uchraydigan
diffusion [dɪˈfju:ʒ(ə)n] *n* 1) diffuziya, diffuziyalanish, shimilish, singish; 2) tarqalish, yoyilish
diffusive [dɪˈfju:sɪv] *a* 1) tarqaladigan, yoyiladigan 2) ortiqcha (keraksiz) so'zlari ko'p, cho'zilib ketgan, ezma; 3) diffuziya natijasida hosil bo'lgan, aralash, qorishgan
dig I [dɪg] *n so'zl.* turtki; **to give smb. a ~ with one's elbow** kimnidir tirsak bilan turtmoq
dig II [dɪg] *v* (**dug**) kovlamoq, qazimoq
digamist [ˈdɪgəmɪst] *n* ikkinchi marotaba oila qurgan kishi
digamous [ˈdɪgəməs] *a* ikkinchi marotaba oila qurgan
digamy [ˈdɪgəmɪ] *n* ikkinchi nikoh; ikkinchi xotinlik (*yoki* ikkinchi erlik)
digeneous [ˈdɪdʒɪnəs] *a biol.* ikki jinsli, ham erkak, ham urg'ochi bo'lgan
digenesis [daɪˈdʒenəsɪs] *n biol.* avlodlarning navbatlanishi, almashinuvi

digenetic [ˌdaɪdʒɪ ˈnetɪk] *a biol.* yiliga ikki marta ko'payadigan (bolalaydigan)
digenous [ˈdɪdʒɪnəs] *a biol.* ikki jinsli
digest [ˈdaɪdʒest] **1.** *n* 1) qisqa bayon; 2) ma'lumotnoma; 3) (*materiallar*) to'plami; **2.** *v* 1) hazm qilmoq (*ovqat haqida*); 2) o'zlashtirmoq, o'rganmoq; 3) chidamoq, toqat qilmoq
digester [dɪˈdʒestə] *n* 1) ovqatni hazm qilishda yordam beradigan vosita; 2) zich yopiladigan idish; 3) *tex.* avtoklav (*narsalarni yuqori bosim ostida qizdirish uchun ishlatiladigan zich yopiladigan qopqoqli idish*)
digestibility [dɪˌdʒestəˈbɪlɪtɪ] *n* tez (yaxshi) hazm bo'lishlik
digestible [dɪˈdʒestəbl] *a* yengil hazm bo'ladigan
digestion [dɪˈdʒestʃ(ə)n] *n* hazm qilish; ovqatni singdirish
digestive [dɪˈdʒestɪv] **1.** *n* ovqat hazm qilishga yordam beradigan dori; **2.** *a* ovqat hazm qiladigan; **~ organs** ovqat hazm qiladigan organlar
digestor [dɪˈdʒestə] = **digester**
digger [ˈdɪgə] *a* kovlovchi, yer qazuvchi
digging [ˈdɪgɪŋ] *n* 1) qazish, kovlash, qazib olish; 2) tuproq chiqarish, yer qazish ishlari
diggings [ˈdɪgɪŋz] *n pl* oltin konlari
dight [daɪt] *v* kiyintirmoq, yasantirmoq, bezamoq, zeb bermoq
digit [ˈdɪdʒɪt] *n* 1) barmoq (*asos., hayvonlarda*); 2) *mat.* bir xonali son
digital I [ˈdɪdʒɪt(ə)l] *n mus.* klavish (*pianino, royal kabi cholg'u asboblarining barmoq bilan bosiladigan tugmasi*)
digital II [ˈdɪdʒɪtəl] *a* raqamli; **a ~ phone** raqamli telefon
digitalis [ˌdɪdʒɪ ˈteɪlɪs] *n bot.* digitalis (*dorivor o'zimlik*)
digitally [ˈdɪdʒɪt(ə)lɪ] *adv* barmoqlar bilan
digitate [ˈdɪdʒɪt(e)ɪt] *a zool.* rivojlangan barmoqli
digitated [ˈdɪdʒɪt(e)ɪtɪd] = **digitate**
diglot [ˈdaɪglɒt] **1.** *n kit.* ikki turda yozilgan kitob; **2.** *a kit.* ikki tilli, ikki tilda yozilgan
dignified [ˈdɪgnɪfaɪd] *a* salobatli, mahobatli, savlatli
dignify [ˈdɪgnɪfaɪ] *v* loyiq topmoq; hurmatlamoq, muborakbod qilmoq
dignitary [ˈdɪgnɪtərɪ] *n* yuqori mansabdagi kishi, katta amaldor
dignity [ˈdɪgnɪtɪ] *n* 1) qadr-qimmat; e'tibor; 2) unvon; mansab
digram [ˈdaɪgræm] = **digraph**
digraph [ˈdaɪgrɑ:f] *a* digraf; ikkita harf birligi
digress [d(a)ɪˈgres] *v* o'zini orqaga olmoq, chekinmoq
digression [d(a)ɪˈgreʃ(ə)n] *n* (*mavzudan*) chetga chiqish
digressive [d(a)ɪˈgresɪv] *a* (*mavzudan*) uzoqlashadigan, chetga chiqadigan
digue [di:g] = **dike**
dihedral [daɪˈhi:drəl] *a mat.* ikki yoqli; **a ~ angle** ikki yoqli burchak
dihedron [daɪˈhi:dr(ə)n] *n mat.* ikki yoqli burchak
dihexagonal [ˌdaɪhekˈsægən(ə)l] *a* o'n ikki burchakli (*kristall haqida*)
dijudicate [daɪˈdʒu:dɪkeɪt] *v kam.* qaror chiqarmoq
dike [daɪk] **1.** *n* damba; to'g'on; **2.** *v* to'g'on solmoq
dilacerate [d(a)ɪˈlæsɪreɪt] *v kit.* har yoqqa tarqalmoq, har yoqqa yirtib (uzib) tashlamoq
dilapidate [dɪˈlæpɪdeɪt] *v* 1) og'ir ahvolga tushirmoq, inqiroz (tanazzul)ga uchratmoq; 2) og'ir ahvolga tushmoq, inqirozga (tanazzulga) uchramoq
dilapidated [dɪˈlæpɪdeɪtɪd] *n* yarim xaroba, yarim vayrona, eskirgan, ko'hna
dilapidation [dɪˌlæpɪˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) pasayish, tushish; 2) eskirish, xarob bo'lish
dilatable [daɪˈleɪtəbl] *n* cho'zilish qobiliyatiga ega bo'lgan
dilatant [daɪˈleɪtənt] **1.** *n tib.* kengaytirgich (*biror narsani kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob*); **2.** *a* kengayadigan, kengaytirsa bo'ladigan
dilatation [ˌdaɪləˈteɪʃ(ə)n] *n* cho'zilish, kengayish, cho'zish, kengaytirish
dilatator [ˈdaɪləˌteɪtə] *n* 1) *anat.* kengayadigan mushak (muskul); 2) *tib.* kengaytirgich (*biror narsani kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob*)
dilate [daɪ ˈleɪt] *v* kengaytirmoq, keng (katta) ochmoq; keng yoymoq
dilated [daɪ ˈleɪtɪd] *a* keng, kengaytirilgan
dilater [daɪˈleɪtə] = **dilatator**
dilation [daɪˈleɪʃ(ə)n] = **dilatation**
dilative [daɪ ˈleɪtɪv] *a* kengayadigan, kengaytirsa bo'ladigan
dilatometer [ˌdaɪlə ˈtɒmɪtə] *n tex.* dilatometr (*jismlarning issiqlikdan kengayishini o'lchaydigan asbob*)
dilator [daɪˈleɪtə] = **dilatator**
dilatory [ˈdɪlət(ə)rɪ] *a* sekin, sekinlik bilan sodir bo'ladigan; sust, sekin harakat qiladigan
dilemma [d(a)ɪˈlemə] *n* qiyin (tang) ahvol
dilettant [ˈdɪlɪtɑ:nt] = **dilettante 1, 2**
dilettante [ˌdɪlɪ ˈtæntɪ] **1.** *n* (*pl* **-ti** [-tɪ]) havaskor, yuzaki ishqiboz, shunchaki qiziquvchi; **2.** *a ital.* havaskorlarga (shunchaki qiziquvchilarga) xos bo'lgan, ishqibozlarga xos (oid, qarashli), havaskor(lar)...; **a ~ artist** havaskor rassom
dilettanti [ˌdɪlɪˈtæntɪ] *pl of* **dilettante 1**
dilettantism [ˌdɪlɪ ˈtæntɪz(ə)m] *n* havaskorlik, yuzaki ishqibozlik, shunchaki qiziqish
diligence [ˈdɪlɪdʒ(ə)ns] *n* qunt, g'ayrat, ishtiyoq, harakat
diligent [ˈdɪlɪdʒ(ə)nt] *a* 1) tirishqoq, g'ayratli; 2) *so'zl.* puxta bajarilgan
diligently [ˈdɪlɪdʒ(ə)ntlɪ] *adv* tirishib, qunt bilan, hafsala (ishtiyoq) bilan, g'ayrat qilib, jonbozlik ko'rsatib, zo'r berib, harakat qilib
dill I [dɪl] *n* ukrop, shivit
dill II [dɪl] *v sheva.* tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin (orom bermoq), xotirjam qilmoq
dilling [ˈdɪlɪŋ] *n sheva.* 1) kenja bola, yaxshi ko'rgan farzand; 2) nimjon (oriq) maxluq
dilly I [ˈdɪlɪ] *n sheva.* aravacha, kichkina arava
dilly II [ˈdɪlɪ] **daffodilly** *so'zining qisqartmasi*
dilly-dally | ˈdɪlɪˌdælɪ| *v* tebranmoq; pirpiramoq; hilpiramoq; silkinmoq
dilogy [ˈd(a)ɪlədʒɪ] *n* 1) *adab.* dilogiya (*umumiy mazmuni bilan bog'langan ikki asar*); 2) ikki ma'nolilik, dudmallik, muhmallik; ikki ma'noli gap: qochirim, ishora, shama
diluent [ˈdɪljʊənt] **1.** *n kim.* erituvchi, suyultiruvchi, suyuq holda keltiruvchi modda; **2.** *a* 1) suyultiradigan, eritadigan; eritgich, erituvchi; 2) qo'shiladigan, aralashtiriladigan
dilute [ˌdaɪˈl(j)u:t] **1.** *v* 1) suyultirmoq; suv qo'shmoq; 2) aralashtirmoq; qo'shmoq; **2.** *a* 1) suyultirilgan; 2) aralashtirilgan, qo'shilgan
diluted [daɪˈl(j)u:tɪd] *a* 1) eritilgan, eritib aralashtirilgan; 2) kuch-quvvatdan qolgan, zaiflashgan, darmonsizlangan, holsizlangan, bo'shashgan, lohas bo'lgan, holdan toygan, susaygan
dilution [daɪˈlu:ʃ(ə)n] *n* 1) suyultirish, suyuqlantirish, suyuq holga keltirish; 2) qo'shish, aralashtirish
diluvial [dɪˈlu:vjəl] *a* 1) *bibl.* Nuh to'foni (olamni suv bosishi)ga oid; 2) *geol.* deluvial; deluviy...
diluvian [dɪˈlu:vjən] = **diluvial** 1)
diluvium [daɪˈlu:vjən] *n geol.* deluviy (*tog' jinslari turi*)
dim [dɪm] **1.** *a* 1) xira, nursiz; **a ~ room** yoritilmagan (qorong'i) xona; 2) noaniq, farqlash qiyin bo'lgan; 3) yaltiramaydigan, xira; 4) noaniq, tushunarsiz;

a ~ idea noaniq fikr; **2.** *v* 1) xiralashtirmoq, qorong'ilashtirmoq

dimble ['dɪmbl] *n sheva.* chuqur va qorong'i jarlik

dime [daɪm] *n amer.* 10 sentlik tanga, dayum

dimension [d(a)ɪ 'menʃ(ə)n] **1.** *n* o'lcham, katta-kichiklik, kattalik; hajm; **2.** *v* 1) o'lchamlarini yozib qo'ymoq; 2) aniq o'lcham bo'yicha tayyorlamoq (ishlamoq, ishlov bermoq)

dimensional [d(a)ɪ'menʃ(ə)nəl] *a* 1) o'lchamni o'lchaydigan (ko'rsatadigan); o'lchamga yoki katta-kichiklikka oid; **~ characters** o'lchamlar; miqdorlar; parametrlar; 2) o'lchamli, hajmli; bo'rtma; **~ drawing** yaqqol (bo'rtma) tasvir

dimensioned [d(a)ɪ 'menʃ(ə)nd] = **dimensional 2**

dimensionless [d(a)ɪ'menʃ(ə)nləs] *a* 1) o'lchamsiz; o'lchami ko'rsatilmagan; 2) o'lchab bo'lmaydigan, g'oyat katta

dimeran ['dɪmərən] *a ent.* ikki bo'g'imli, ikki segmentli (*hasharotlarning tovon bilan harmoqlar o'rtasi haqida*)

dimeter ['dɪmɪtə] *n she'r.* ikki turoqli vazn

dimethyl [daɪ'meθɪl] *n kim.* etan (*organik birikma, yonuvchi gaz*)

dimication [ˌdɪmɪ'keɪʃ(ə)n] *n kam.* bahslashuv, bellashuv, tortishuv, musobaqa

dimidiate [dɪ'mɪdɪeɪt] **1.** *a* ikki qismga ajratilgan, ikki bo'lak qilingan; **2.** *v* ikki qismga bo'lmoq

diminish [dɪ'mɪnɪʃ] *v* kamaytirmoq, qisqartirmoq; zaiflashtirmoq

diminishable [dɪ'mɪnɪʃəbl] *a* qisqartirsa bo'ladigan

diminished [dɪ'mɪnɪʃt] *a* qisqartirilgan, kamaytirilgan, ozaytirilgan

diminishing [dɪ'mɪnɪʃɪŋ] *a* qisqartiruvchi, qisqartiriladigan; qisqaruvchi; qisqaradigan; **~ returns** *iqt.* qisqargan daromad

diminution [ˌdɪmɪ'nju:ʃ(ə)n] *n* kamaytirish, ozaytirish, kichraytirish, kamayish, ozayish

diminutival [dɪˌmɪnjʊ'taɪv(ə)l] **1.** *n gram.* kichraytirish suffiksi; **2.** *a gram.* kichraytirish...

diminutive [dɪ'mɪnjʊtɪv] *a* 1) kichkina, jajji; 2) *gram.* kichraytiruvchi

dimity ['dɪmɪtɪ] *n* kanifas (*yo'l-yo'l ip gazlama*)

dimly ['dɪmlɪ] *adv* xiralashib, nursizlanib, nuri ketib, xira bo'lib, yaltiramay, nur sochmay, yaltiramasdan, nur sochmasdan; **~ conscious** sal-pal tushunadigan

dimmer ['dɪmə] *n el.* reostat (*tok kuchini va uning kuchlanishini rostlab, tartibga solib turadigan apparat*); 2) *pl avt.* faraning yaqinni ko'rsatadigan chirog'i (lampasi)

dimming ['dɪmɪŋ] *n avt.* (faradagi) yorug'likning kuchini kamaytirish

dimmish, dimmy ['dɪmɪʃ, 'dɪmɪ] *a* xiraroq, nursizroq

dimness ['dɪmnəs] *n* xiralik, shaffof emaslik, nursizlik

dimorphic [daɪ'mɔ:fɪk] *a* ikki shaklda mavjud bo'la oladigan

dimorphism [daɪ'mɔ:fɪz(ə)m] *n maxs.* dimorfizm (*bir turga mansub individlar orasida bir-biridan morfologik va fiziologik belgilari bilan farq qiluvchi ikki shaklning mavjudligi*)

dimorphous [daɪ'mɔ:fəs] = **dimorphic**

dim-out ['dɪmaʊt] *n* qisman to'sish (qorong'ilashtirish); bir qismini to'sish (qorong'ilashtirish)

dimple ['dɪmpl] *n* 1) chuqurcha (*yuzda*); 2) jimirlash, mavj urish (*suvda*)

dim-sighted ['dɪm'saɪtɪd] *a* 1) ko'zlari xiralashgan (ojizlashgan); 2) yaqindan ko'ra oladigan, yaqinni ko'ruvchi, uzoqni ko'rolmaydigan (ko'rmaydigan); **~ politicians** uzoqni ko'rolmaydigan siyosatchilar

dim-witted [ˌdɪm'wɪtɪd] *a* zehni past, anqov, befahm, esi past

dimyary ['dɪmjərɪ] *a zool.* 1) ikki mushakli, ikki muskulli; 2) ikki tabaqali, qo'shtabaqa, qo'shqavat (*yurak klapani haqida*)

din [dɪn] **1.** *n* shovqin, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur, shov-shuv; **2.** *v* shovqin ko'tarmoq, shovqinlamoq, shovqin solmoq

dinanderie [dɪ'nɔ:ndərɪ:] *n* misdan qilingan (yasalgan) cherkov *yoki* oshxona anjomlari

dinar ['dɪ:nɑ:] *n* dinor (*Iroq, Tunis va b. da pul birligi*)

dindle I ['dɪndl] *n sheva. bot.* bo'ztikan

dindle II ['dɪndl] *n sheva.* titroq, titrash, qaltirash, dirillash, asabiy titrash

dine [daɪn] *v* 1) tushlik qilmoq, tush paytida ovqatlanmoq; 2) tushlikka taklif qilmoq

diner ['daɪnə] *n* 1) tushlik qilayotgan kishi; 2) tushlikka taklif qilingan mehmon

diner-out ['daɪnə(r) 'aʊt] *n* ko'pincha uyidan tashqarida tushlik qiladigan odam

ding I [dɪŋ] **1.** *n* jarang, jiring; jaranglagan (jiringlagan) ovoz; jaranglash (*qo'ng'iroq va b. haqida*); **2.** *v* 1) (*qo'ng'iroqqa, metallga o'xshab*) jaranglamoq, jiringlamoq; jingillamoq; darang-lamoq; jarang-jurung qilmoq; 2) jaranglatmoq, jiringlatmoq

ding II [dɪŋ] *v* (*shun.*, **dang**, **dung**) *esk. sheva.* 1) urmoq, kaltaklamoq, savalamoq, do'pposlamoq, qoqmoq; 2) taqillatib (dukillatib, taraqlatib) urmoq, qoqmoq; urishtirmoq

ding-dong ['dɪŋ'dɔŋ] *n* qo'ng'iroq ovozi

dinge [dɪndʒ] *n kam.* ezilgan joy, o'yiq

dingey ['dɪŋgɪ] *n deng.* ikki *yoki* to'rt eshkakli qayiq

dinghy ['dɪŋgɪ] = **dingey**

dingle ['dɪŋgl] *n* chuqur jar (jarlik)

dingle-dangle ['dɪŋgl'dæŋgl] **1.** *n* 1) oldinga va orqaga tebranish; 2) tebranadigan predmet (narsa); **2.** *a* (*bir tomondan ikkinchi tomonga*) tebranadigan, tebranuvchan, uchadigan; **3.** *adv* bir tomondan ikkinchi tomonga tebranib (uchib)

dingo ['dɪŋgəʊ] *n zool.* dingo (*Avstraliya yovvoyi iti*)

dingy ['dɪndʒɪ] *a* xira, shaffof emas, rangi ketgan, nursiz

dining-car ['daɪnɪŋkɑ:] *n* vagon-restoran

dining-hall ['daɪnɪŋhɔ:l] *n* oshxona (*maktab, kollej va b. da*)

dining-room ['daɪnɪŋru(:)m] *n* 1) ovqatxona; yemakxona (*xonadonda*); 2) oshxona

dining-table ['daɪnɪŋˌteɪbl] *n* ovqatlanadigan stol

dink [dɪŋk] **1.** *a sheva.* yaxshi kiyingan, yasangan, bezangan, yasan-tusan, olifta, bashang; **2.** *v shotl.* yasanmoq, bezanmoq, o'ziga zeb (oro) bermoq

dinkum ['dɪŋkəm] **1.** *n avstral.* haqiqat, chin (bor) narsa, to'g'ri (haq) gap; **2.** *a avstral.* haqiqiy, chin, rost, to'g'ri, asl, chinakam; **~ oil** *jarg.* chin (ayni) haqiqat

dinky ['dɪŋkɪ] *a so'zl.* 1) nafis, nozik, nafosatli, nazokatli, kelishgan, bejirim, go'zal; yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq; 2) miniaturaga oid; miniatura shaklidagi, miniatura...

dinmont ['dɪnmənt] *n sheva.* birinchi marta juni olingan qo'zichoq

dinner ['dɪnə] *n* tushki ovqat, tushlik

dinner-hour ['dɪnə(r)ˌaʊə] *n* 1) tushlik vaqti (payti); 2) tushlik vaqtidagi tanaffus

dinner-party ['dɪnəˌpɑ:tɪ] *n* imlama ziyofat (*chaqirilgan mehmonlar uchun*)

dinner-service ['dɪnəˌsɜ:vɪs] *n* ovqatlanish servizi (*serviz — yeyish, ichish uchun kerakli idish-tovoqlar*)

dinner-table ['dɪnəˌteɪbl] *n* ovqatlanadigan stol

dinner-time ['dɪnətaɪm] *n* tushki ovqat vaqti

dinner-wagon [ˈdɪnəˌwægən] *n* g'ildirakli kichkina ko'chma stolcha (*ovqat tashish uchun*)
dinomic [daɪˈnɒmɪk] *a* ma'lum bir yarimsharda keng tarqalgan (*hayvon yoki o'simlik turi haqida*)
dinosaur [ˈdaɪnəsɔ:] *n* dinozavr (*zoti qurigan sudraluvchi hayvon*)
dinsome [ˈdɪnsəm] *a shotl.* 1) shovqinsuronli, sershovqin; 2) serqatnov, gavjum
dint [dɪnt] **I** *n* 1) iz; 2) barmoq izi; 3) ezilgan joy, o'yiq; **2** *v* iz qoldirmoq
diocesan [daɪˈɒsɪs(ə)n] *a* yeparxiyaga oid; yeparxiya...; yeparxial...
diocese [ˈdaɪəsɪs] *n* 1) *cherk.* yeparxiya (*arxiyerey qo'l ostidagi cherkov okrugi*); 2) *tar.* viloyat (*ma'muriy bo'linma*); provinsiya (*poytaxtdan uzoqdagi joy*)
diode [ˈdaɪəʊd] *n radio.* diod (*radiolampa turi*)
dioecious [daɪˈi:ʃəs] *a bot.* ikki uyali
Dionysiacs [ˌdaɪəˈnɪsɪæks] *n pl* xudo Dionisga bag'ishlab o'tkaziladigan bayram (*Qadimgi Gretsiyada*)
diopside [daɪˈɒps(a)ɪd] *n min.* diopsid (*mineral, monoklin piroksin*)
dioptер. dioptre [daɪˈɒptə] *n* dioptriya (*optik shishalarning yorug'likni sindirish kuchi birligi*)
dioptric [daɪˈɒptrɪk] *a fiz.* yorug'likni sindiradigan (sindiruvchi)
dioptrical [daɪˈɒptrɪk(ə)l] = **dioptric**
dioptrics [daɪˈɒptrɪks] *n* dioptrika (*optikaning yorug'likning ikki muhitda tarqalishini o'rganadigan bo'limi*)
diorama [ˌdaɪəˈrɑ:mə] *n san.* diorama (*planda yarim aylana tarzida joylashgan lentasimon rassomlik asari*)
diorite [ˈdaɪəraɪt] *n min.* diorit (*intruziv tog' jinsi*)
diorthosis [ˌdaɪɔ:ˈθəʊsɪs] *n* 1) *tib.* tuzatish, to'g'rilash, yaxshilash; 2) *kit.* matnni ko'rib chiqish va xatosini to'g'rilash
diota [daɪˈəʊtə] *n* amfora (*Qadimgi Yunon va Qadimgi Rimda ko'zasimon qo'shquloq sopol idish*)
dioxid [daɪˈɒksɪd] = **dioxide**
dioxide [daɪˈɒks(a)ɪd] *n kim.* dvuokis (*biror elementning bir atomi bilan kislorodning ikki atomidan iborat bo'lgan kimyoviy birikma*)
dip [dɪp] **1.** *n* 1) (*suvga*) botirish, pishish; **the ~ of oars** eshkaklarni suvga botirish; 2) (*bo'yash, hasharotlarni yo'q qilish va b. uchun*) eritma; 3) bayroqning tushirilgan holati; **2.** *v* **1)** botirmoq, cho'ktirmoq, pishmoq; **to ~ one's fingers in the water** barmoqlarni suvga tiqmoq; 2) yuzaki (tez) tanishib chiqmoq; **to ~ into a book** kitobni varaqlab chiqmoq; 3) eritmaga botirmoq; 4) (*bayroqni*) tushirmoq
dipartite [daɪˈpɑ:taɪt] *a kit.* qismlarga bo'lingan
dip-circle [ˈdɪpˌsɜ:k|] *n* tog' kompasi
dipetalous [daɪˈpet(ə)ləs] *a bot.* ikki gulbargli
diphase [ˈdaɪfeɪz] = **diphasic**
diphasic [ˌdaɪˈfeɪzɪk] *a el.* ikki fazali
diphenyl [daɪˈfenɪl] *n kim.* difenil (*o'zaro bog'langan ikkita fenil radikalidan tashkil topgan rangsiz kristall modda*)
diphtheria [dɪfˈθɪ(ə)rɪə] *n tib.* difteriya, bo'g'ma (*asosan, bolalar kasalligi*)
diphtherial, diphtherian [dɪfˈθɪ(ə)rɪəl, dɪfˈθɪ(ə)rɪən] *a tib.* difteriyaga (bo'g'ma kasalligiga) oid; difteriya...; bo'g'ma kasalligi...
diphtheric, diphtheritic [dɪfˈθerɪk, dɪfθəˈrɪtɪk] *a tib.* difteriyaga (bo'g'ma kasalligiga) oid; difteriya...; bo'g'ma kasalligi...
diphtheritis [ˌdɪfθəˈraɪtɪs] = **diphtheria**
diphthong [ˈdɪfθɒŋ] *n fon.* diftong (*ikki unlining bir bo'g'inda ketma-ket, qator kelishi*)
diphthongal [dɪfˈθɒŋg(ə)l] *a* diftong xarakteriga ega bo'lgan
diphthongize [ˈdɪfθɒŋgaɪz] *v* diftong hosil qilmoq, diftong tarzida talaffuz qilmoq
diple [ˈdɪpli:] *n poligr.* > belgisi
diplegia [daɪˈpli:dʒɪə] *n tib.* ikki tomonlama falajlik (sholllik)
diploma [dɪˈpləʊmə] **1.** *n* 1) diplom; **a ~ in education** pedagog diplomi; 2) rasmiy *yoki* tarixiy hujjat; imtiyoz huquqi to'g'risidagi yorliq; **2.** *v kam.* diplom bermoq
diplomacy [dɪˈpləʊməsɪ] *n* diplomatiya (*hukumatning xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li va faoliyati*)
diplomaed [dɪˈpləʊməd] *a* diplom olgan, diplomli
diplomat [ˈdɪpləmæt] *n* 1) diplomat (*diplomatiya bilan mashg'ul bo'lgan lavozimli kishi*); 2) *ko'ch. so'zl.* muomalaga (muomala bilan ish bitirishga) usta odam; 3) *so'zl.* diplomat (*portfel turi*)
diplomate [ˈdɪpləmeɪt] *n* diplomli kishi; diplomli shifokor
diplomatic [ˌdɪpləˈmætɪk] *a* 1) diplomatiyaga va diplomatlarga oid; **a ~ agent** diplomatik vakil; **~ relations** diplomatik munosabatlar; 2) ustomonlik bilan qilingan; xushmuomala
diplomatical [ˌdɪpləˈmætɪk(ə)l] = **diplomatic**
diplomatically [ˌdɪpləˈmætɪkəlɪ] *adv* ustalik (ustomonlik) bilan
diplomatics [ˌdɪpləˈmætɪks] *n* 1) diplomatiya (*hukumatning xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li va faoliyati*); 2) *ko'ch.* muomalaga ustalik, muomala bilan ish bitirish, ustomonlik
diplomatist [dɪˈpləʊmətɪst] = **diplomat**
diplomatize [dɪˈpləʊmətaɪz] *v* ustomonlik bilan harakat qilmoq
diplopia, diplopy [dɪˈpləʊpɪə, dɪˈpləʊpɪ] *n tib.* diplopiya (*ko'zga narsalarning qo'shaloq bo'lib ko'rinishi*)
dip-needle [ˈdɪpˌni:dl] *n* magnit mili (strelkasi)
dip-net [ˈdɪpnet] *n* baliq ushlaydigan (uzun dastakli) kichkina to'r
dipneustal [dɪpˈnju:st(ə)l] = **dipnoan**
dipnoan [ˈdɪpnə(ʊ)ən] *a zool.* ikki xil (ham o'pka orqali, ham oyquloq orqali) nafas oladigan
dipnoous [ˈdɪpnə(ʊ)əs] *a* 1) = **dipnoan**; 2) *tib.* ikki boshi (tomoni) ochiq (*yara haqida*)
dipolar [daɪˈpəʊlə] *a fiz.* ikki qutbga ega bo'lgan
dipole [ˈdaɪpəʊl] *n* 1) *radio.* dipol antennasi (*bir-biridan ma'lum masofada joylashgan, o'zaro teng va qarama-qarshi bo'lgan magnit zaryadi majmuyidan iborat bo'lgan antenna*); vibrator, tebratkich; 2) *el.* dipol (*bir-biridan ma'lum masofada joylashgan o'zaro teng va ishoralari qarama-qarshi bo'lgan ikki nuqtali elektr zaryadi majmuyi*)
dipolymer [daɪˈpɒlɪmə] *n kim.* ikki monomerdan iborat bo'lgan sopolimer
dipper [ˈdɪpə] *n* 1) yog'log'i, cho'mich; 2) *tex.* kovsh
dipping [ˈdɪpɪŋ] *n* botirish, cho'ktirish, bo'ktirish
dipping-needle [ˈdɪpɪŋˌni:dl] *n* gorizontal o'qdagi magnit strelkasi (mili)
dippy [ˈdɪpɪ] *a so'zl.* aqldan ozgan, jinni
dipsetic [dɪpˈsetɪk] *a* chanqatadigan, tashna qiladigan, suvsatadigan
dipsomania [ˌdɪpsə(ʊ)ˈmeɪnjə] *n tib.* 1) ichkilikbozlik; 2) alkogolizm (*ichkilik kasali, kasalligi*)
dipsomaniac [ˌdɪpsə(ʊ)ˈmeɪnɪæk] *n* ichkilikbozlikka mubtalo bo'lgan kishi
dip-stick [ˈdɪpstɪk] *n tex.* suvning chuqurligini o'lchaydigan tayoqcha
dipteral [ˈdɪptər(ə)l] **1.** *n me'mor.* 1) dipteral, ikki qanotli bino; 2) atrofi ikki qator ustunlar bilan o'rab olingan greklar; **2.** *a* 1) *me'mor.* ikki qatorli ustunlardan iborat bo'lgan; 2) *zool.* ikki qanotli
dipteran [ˈdɪptər(ə)n] = **dipterous**
dipterous [ˈdɪptərəs] *a zool. em. bot.* ikki qanotli

diptych ['dɪptɪk] *n* 1) (*Yunoniston va Qadimgi Rimda:*) buklama yozuv taxtasi; 2) *din.* yig'ma, ikki qismdan iborat ikona (*xristian dini b. da: Iso, Bibi Maryam va avliyolarning tasvirlari*); 3) *san.* bir mavzudagi ikki kartina

dipus ['daɪpəs] *n zool.* uch barmoqli qo'shoyoq

dipyrenous [ˌdaɪpaɪ'ri:nəs] *a bot.* ikki danakli

dirdum ['də:dəm] *n sheva.* 1) baqiriq, qichqiriq, qiyqiriq, hayqiriq, shovqin, shovqin-suron, dod-faryod; 2) tanbeh, tanbeh berish

dire ['daɪə] *a* qo'rqinchli, dahshatli, vahimali; **~ plight** qo'rqinchli holat

direct [d(a)ɪ'rekt] **1.** *a* 1) to'g'ri, to'ppa-to'g'ri; **a ~ road (line)** to'g'ri yo'l (chiziq); 2) to'g'ri, ochiq, to'g'riso'z; **a ~ person (question, reply)** to'g'ri (rostgo'y) odam (savol, javob); 3) to'g'ridan to'g'ri, bevosita; **~ influence** bevosita ta'sir; **a ~ contact** bevosita (to'g'ridan to'g'ri) aloqa; 4) to'la, mutlaqo; **~ opposition** mutlaqo aksi; 5) **a ~ speech** ko'chirma gap; **a ~ object** vositasiz to'ldiruvchi; **2.** *adv* to'g'ri; **3.** *v* 1) yo'llamoq, yo'l olmoq; e'tiborni qaratmoq; **to ~ one's steps to a house** uyga yo'l olmoq; 2) boshqarmoq, rahbarlik qilmoq, nazorat qilmoq; **to ~ a business** korxonani boshqarmoq; 3) ko'rsatma bermoq, buyurmoq; 4) nasihat qilmoq, maslahat bermoq; 5) yo'lni ko'rsatmoq; **can you ~ me to railway station?** menga vokzalga boradigan yo'lni aytib berolmaysizmi? 7) dirijorlik qilmoq; **to ~ an orchestra** orkestrga dirijorlik qilmoq

directer [d(a)ɪ'rektə] *kam.* = **director**

directing-gun [d(a)ɪ'rektɪŋgʌn] *n harb.* asosiy yarog'-aslaha

direction [d(a)ɪ'rekʃ(ə)n] *n* 1) yo'nalish, tomon, taraf; **in the ~ of London** London yo'nalishida; **from all ~s** hamma tomondan; 2) rahbarlik, boshqarish; **the ~ of a bank** bankni boshqarish; 3) ko'rsatma, farmoyish; yo'riqnoma; **~ s for use** foydalanish qoidalari; 4) boshqaruv, direksiya

directional [d(a)ɪ'rekʃənl] *a* yo'llangan, yo'naltirilgan

direction-finder [d(a)ɪ'rekʃ(ə)n,faɪndə] *n* radiopelengator (*kema yoki samolyot yo'nalishini radio vositasi bilan aniqlovchi asbob*)

direction finding [d(a)ɪ'rekʃ(ə)n,faɪndɪŋ] **1.** *n* radiopelengatsiya (*kema, samolyot va sh. k. ning qayerdaligini radio orqali bilish*); **2.** *a* radiopelengatorga oid; **a ~ station** radiopelengator stansiyasi, radiomayak (*signallar vositasida kema va samolyotlarning turgan joylarini va ularning yo'nalishlarini aniqlashga yordam beruvchi radiostansiya*)

directive [d(a)ɪ'rektɪv] **1.** *a* yo'l ko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi; **2.** *n* yo'l-yo'riq, ko'rsatma, dastur

directly [d(a)ɪ'rektlɪ] *adv* 1) to'g'ri; **to go ~ towards a house** to'g'ri uy tomon yo'l olmoq; 2) to'ppa-to'g'ri, ochiqdan ochiq, haqqoniy; **to condemn smb. ~** birovni oshkora qoralamoq; 3) bevosita; **~ responsible** bevosita javobgar bo'lgan; 4) darhol, o'sha zahoti, tezlikda; **~ after this** shundan keyinoq; 5) to'la, mutlaqo

directness [d(a)ɪ'rektnəs] *n* 1) to'g'rilik, rostlik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik; dangallik; 2) soddalik, to'g'rilik, ochiqko'ngillik

Directoire [dɪˌrek'twɑ:] *n fr. tar.* direktoriya (*ba'zi mamlakatlarda, mas., Fransiyada: hukumat nomi*)

director [d(a)ɪ'rektə] *n* 1) boshqaruv (direktorat) a'zosi; direktor; **a board of ~ s** boshqaruv; 2) rahbar, boshliq; **the ~ of studies** tadqiqot rahbari; 3) (kino) rejissor, produser; 4) dirijor (*xorda, orkestrda*); **~y** qo'llanma

directorate [d(a)ɪ'rekt(ə)rɪt] *n* direktorlik; direktor rahbarligidagi ma'muriyat; idora, boshqarma

directorial [dɪˌrek'tɔ:rɪəl] *a* 1) direktorga oid; 2) yo'l-yo'riqqa (ko'rsatmaga) oid

director-plane [dɪ'rektəpleɪn] *n mat.* yo'naltiruvchi tekislik

directorship [d(a)ɪ'rektəʃɪp] *n* direktorlik

directory [d(a)ɪ'rekt(ə)rɪ] *n* yo'l-yo'riq, ma'lumotnoma, ko'rsatkich

directress [d(a)ɪ'rektrɪs] *n* rahbar ayol, direktor ayol

directrices [d(a)ɪ'rektrɪsi:z] *pl of* **directrix**

directrix [d(a)ɪ'rektrɪks] *n mat.* direktrisa (*chiziq nomi*)

direful ['daɪəf(ə)l] *a* qo'rqinchli, dahshatli

direly ['daɪəlɪ] *adv. kit.* 1) juda ham, nihoyat darajada, benihoyat, g'oyat, chunon ham (chunonam), haddan tashqari

direption [dɪ'repʃ(ə)n] *n esk.* talash, talon-taroj qilish, o'g'irlash, o'g'irlab ketish, talab qilish

dirge [də:dʒ] *n* 1) motam qo'shig'i; 2) janoza, janoza marosimi

dirhem [dɪə'hem] *n* dirham (*1. qadimgi arablarning kumush tangasi; 2. Marokash pul birligi; 3. Misr va Sudanda qimmatbaho metallar vaznining o'lchov birligi: 3,12 g. ga. teng*)

dirigibility [ˌdɪrɪdʒə'bɪlɪtɪ] *n avt.* boshqaruvchanlik, boshqarishga qulaylik

dirigible ['dɪrɪdʒəbl] **1.** *n* dirijabl (*ichiga to'ldirilgan gaz kuchi bilan havoga ko'tarilib, motor bilan yurgiziladigan, havodan yengil uchish apparati*); **2.** *a* boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan (*havo shari haqida*)

diriment ['dɪrɪmənt] *a* bekor qiladigan, yo'q qiladigan

dirk [də:k] **1.** *n* xanjar; **2.** *v* xanjar sanchmoq

dirk-knife ['də:knaɪf] *n* (*pl* **-knives** [-naɪvz]) katta buklama pichoq

dirt [də:t] *n* 1) loy, balchiq; **covered with ~** loy qoplagan; 2) yer, tuproq; 3) iflos-lik; 4) iflos, jirkanch narsa, razillik, yaramaslik; **to do smb. ~** birovga nisbatan qabihlik qilmoq; 5) axloqsizlik, uyatsizlik

dirt-bed ['də:tbed] *n geol.* rudaga aralashib qolgan keraksiz jinslarning yupqa (nozik) qatlami

dirt-cheap ['də:t'tʃi:p] *a so'zl.* juda ham arzon

dirtily ['də:tɪlɪ] *adv* 1) kir (iflos) qilib, kir (iflos) holda; 2) insofsizlik bilan, vijdonsizlarcha

dirtiness ['də:tɪnəs] *n* 1) kir, chang-chung, xas-cho'p, axlat; 2) iflos (jirkanch) narsa; 3) vijdonsizlik

dirt-pie ['də:tpaɪ] *n* loydan qilingan dumaloq kulcha non (*bolalar o'yini*)

dirt-track ['də:ttræk] *n* mototsikl treki (*mototsikl poygasi uchun mo'ljallangan maxsus doirasimon maydoncha*)

dirty ['də:tɪ] *a* 1) iflos, nopok, bulg'angan; **~ hands (street)** iflos qo'l (ko'cha); 2) qabih, razil, iflos; **a ~ war** iflos urush; 3) beadab, uyatsiz; **a ~ novel** pornografik roman

dis- [dɪs-] *pref so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, qarama-qarshi yoki inkor (bo'lishsizlik) ma'nosini beradi*

disability [ˌdɪsə'bɪlɪtɪ] *n* qobiliyatsizlik, gobiliyati yo'qlik

disable [dɪs'eɪbl] *v* 1) yaroqsiz qilmoq, buzmoq, ishdan chiqarmoq; 2) *yur.* huquqdan mahrum qilmoq

disabled [dɪs'eɪbld] *a* mayib bo'lib qolgan, majruh bo'lib qolgan; buzilgan, yaroqsiz

disablement [dɪs'eɪblmənt] *n* 1) safdan (qatordan) chiqarish; ishga yaramaydigan qilish; 2) huquqdan mahrum qilish

disabuse [ˌdɪsə'bju:z] *v* (*kimnidir*) yo'lga solmoq; xom xayollardan xalos qilish

disaccord [ˌdɪsə'kɔ:d] **1.** *n* kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof, zidlik; **2.** *v* (qarashlarda) farqlanmoq, qarama-qarshilik paydo bo'lmoq, kelisha olmaslik

disaccustom [ˌdɪsəˈkʌstəm] *v kit.* odatini tashlatmoq

disacknowledge [ˌdɪsəkˈnɔlɪdʒ] *v kit.* 1) tan olmaslik, e'tirof etmaslik (qilmaslik); 2) iqror bo'lmaslik, bo'yniga olmaslik

disadjust [ˌdɪsəˈdʒʌst] *v tex.* tartibga solmaslik, yo'l qo'ymaslik, yaxshilamaslik, sozlamaslik, rostlamaslik, to'g'rilamaslik

disadvantage [ˌdɪsədˈvɑ:ntɪdʒ] *n* 1) noqulay holat; **to be at a ~** noqulay holatda qolmoq; 2) zarar, ziyon

disadvantageous [ˌdɪsædvənˈteɪdʒəs] *a* foydasiz, befoyda, foydasi yo'q

disadvantageously [ˌdɪsædvənˈteɪdʒəslɪ] *adv* foydani ko'zlamay, foyda olmay (ko'rmay, qilmay); o'z narxiga (*yoki* zarariga)

disaffected [ˌdɪsəˈfektɪd] ko'ngli to'lmagan, norozi

disaffection [ˌdɪsəˈfekʃ(ə)n] *n* norozilik, adovat, g'araz

disaffirm [ˌdɪsəˈfɜ:m] *v* 1) inkor qilmoq, rad qilmoq; 2) *yur.* bekor qilmoq (*qarorni*)

disaffirmance [ˌdɪsəˈfɜ:məns] *n yur.* bekor qilish, yo'q qilish, kuchdan qoldirish

disafforest [ˌdɪsəˈfɒrɪst] *v* daraxtlarni kesib o'rmonni yo'q qilmoq

disaggregate [dɪsˈægrɪgeɪt] *v* 1) ayirmoq, ajratmoq, uzmoq, ayirib (ajratib, uzib) qo'ymoq, tarkibiy qismlarga bo'lmoq; 2) qismlarga bo'linmoq (ajralmoq)

disagree [ˌdɪsəˈgri:] *v* 1) farq qilmoq, nomuvofiq bo'lmoq, zid bo'lmoq; **to ~ with the facts** dalil-isbotlarga zid bo'lmoq; 2) fikrlarda kelisholmay qolmoq; fikrga qarshilik qilmoq; **to ~ with an opinion** fikrga qo'shilmaslik; 3) qarshi chiqmoq; rad qilmoq; **to ~ to amendment** tuzatishni rad qilmoq; 4) (**with**) yomon (zararli) ta'sir qilmoq, zararli bo'lmoq; **to ~ with one's digestion** oshqozonga yomon ta'sir qilmoq; **the climate ~ s with him** bu iqlim unga to'g'ri kelmaydi (unga zararli)

disagreeable [ˌdɪsəˈgri:əb(ə)l] *a* yoqimsiz, yomon; noxush

disagreement [ˌdɪsəˈgri:mənt] *n* 1) kelishmovchilik, qarama-qarshilik, zidlik; 2) fikrlardagi farq

disalignment [ˌdɪsəˈlaɪnmənt] *n tex.* o'qlarning bir-birlariga to'g'ri (mos) kelmasligi

disallow [ˈdɪsəˈlaʊ] *v* 1) man etmoq, taqiqlamoq; 2) rad qilmoq, qabul qilmaslik

disallowance [ˌdɪsəˈlaʊəns] *n* 1) rad qilish, qaytarish; 2) taqiqlash

disanimate [dɪsˈænɪmeɪt] *v kit.* birovni xafa qilmoq (ruhini tushirmoq), kayfiyatini buzmoq, tushkunlik kayfiyatiga keltirmoq, tushkunlikka tushirmoq

disannul [ˌdɪsəˈnʌl] *v* bekor qilmoq; to'la yo'q qilmoq

disappear [ˌdɪsəˈpɪə] *v* yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq; yashirinmoq

disappearance [ˌdɪsəˈpɪ(ə)rəns] *n* yo'q bo'lish, yo'q bo'lib ketish, barham topish, g'oyib bo'lish

disappoint [ˌdɪsəˈpɔɪnt] *v* 1) ixlosini qaytarmoq, ko'nglini sovutmoq; umidlarni puchga chiqarmoq; **he was ~ ed in his friend** do'stidan uning hafsalasi pir bo'ldi; 2) buzmoq, yo'qqa chiqarmoq, chilparchin qilmoq; **to ~ smb.'s plans** birovning rejasini buzmoq

disappointed [ˌdɪsəˈpɔɪntɪd] *a* ko'ngli qolgan, ko'ngli sovigan; ixlosi qaytgan, umidsizlangan, hafsalasi pir bo'lgan, umidi puchga chiqqan

disappointedly [ˌdɪsəˈpɔɪntɪdlɪ] *adv* ko'ngli qolib, ko'ngli sovib, ixlosi qaytib, umidsizlanib, hafsalasi pir bo'lib, umidi puchga chiqib, xafa bo'lib, ranjib, dili siyoh bo'lib

disappointing [ˌdɪsəˈpɔɪntɪŋ] *a* tasalli (taskin) bermaydigan, ko'ngilni qoldiradigan, ranjitadigan

disappointingly [ˌdɪsəˈpɔɪntɪŋlɪ] *adv* tasalli (taskin) bermasdan, ko'ngilni qoldirib, ranjitib

disappointment [ˌdɪsəˈpɔɪntmənt] *n* ko'ngil qolish, ko'ngil sovish, ixlosi qaytish; umidsizlik; umidi puchga chiqish

disapprobation [ˌdɪsæprəˈbeɪʃ(ə)n] = **disapproval**

disapprobative, disapprobatory [dɪsˈæprəbeɪtɪv, -beɪt(ə)rɪ] *a* ma'qullamagan, ma'qul deb topilmagan, ma'qullamay qilingan; salbiy

disappropriate [ˌdɪsəˈprəʊprɪeɪt] *v kit.* egalik (mulkka egalik) huquqidan mahrum qilmoq

disapproval [ˌdɪsəˈpru:v(ə)l] *n* ma'qullamaslik, ma'qullamaydigan fikr

disapprove [ˌdɪsəˈpru:v] *v* 1) qoralamoq, nomaqbul deb topmoq; 2) (*qonun loyihasi va b. ni*) rad qilmoq, qaytarmoq

disapprovingly [ˌdɪsəˈpru:vɪŋlɪ] *adv* ma'qullamay, ma'qul deb topmay, ma'qullamasdan, ma'qul deb topmasdan

disarm [dɪsˈɑ:m] *v* qurolsizlantirmoq, qurolni tortib olmoq

disarmament [dɪsˈɑ:məmənt] *n* qurolsizlantirish; qurolsizlanish

disarrange [ˌdɪsəˈreɪn(d)ʒ] *v* tartibsiz holga keltirmoq, parokanda qilmoq, barbod qilmoq, ishdan chiqarmoq, izdan chiqarmoq

disarrangement [ˌdɪsəˈreɪndʒmənt] *n* tartibsizlik, parokandalik

disarray [ˌdɪsəˈreɪ] *n* 1) tartibsizlik; 2) shoshib qolish, sarosimalik

disarticulate [ˌdɪsɑ:ˈtɪkjʊleɪt] *v* bo'lmoq, ajratmoq, parchalamoq, parchalab tashlamoq, bo'lib-bo'lib yubormoq

disarticulation [ˌdɪsɑ:ˌtɪkjʊˈleɪʃ(ə)n] *n maxs.* bo'lish, ajratish, bo'lib-bo'lib yuborish, parchalab tashlash, bo'linish, ajralish, ajralib (parchalanib) ketish; ayirish, uzish, ayirib (ajratib, uzib) qo'yish, bir-biridan judo qilish

disassemble [ˌdɪsəˈsembl] *v* qismlarga ajratmoq, bo'laklarga ajratmoq

disassociate [ˌdɪsəˈsəʊʃɪeɪt] *v* bir-biridan ajratmoq, aloqasini uzmoq

disaster [dɪˈzɑ:stə] *n* falokat, musibat, og'ir ahvol; **to meet with (to suffer) ~** mushkulotga duchor bo'lmoq, boshiga musibat tushmoq

disastrous [dɪˈzɑ:strəs] *a* halokatli, musibatli

disavow [ˌdɪsəˈvaʊ] *v* inkor qilmoq, rad qilmoq; mas'uliyatni o'zidan forig' qilmoq; **to ~ one's signature** o'z imzosini tan olmaslik

disavowal [ˌdɪsəˈvaʊəl] *n* rad qilish, inkor qilish, tonish, tan olmaslik, bo'yniga olmaslik, qarshi chiqish

disband [dɪsˈbænd] *v* 1) *harb.* ozod qilmoq, javob berib yubormoq, tarqatib yubormoq; **to ~ an army** armiyani tarqatib yubormoq; 2) tarqab ketmoq, qochib ketmoq

disbandment [dɪsˈbændmənt] *n harb.* tarqatish, tarqatib yuborish, tugatish, tugatib yuborish, ajratib yuborish

disbark [dɪsˈbɑ:k] *v* po'stini archmoq; qobig'ini shilmoq

disbelief [ˌdɪsbɪˈli:f] *n* ishonmaslik, bovar qilmaslik, gumon, shubha

disbelieve [ˌdɪsbɪˈli:v] *v* ishonmaslik, inonmaslik, ishonch komil bo'lmaslik; **to ~ a story** hikoyaning rostligiga shubhalanmoq

disbeliever [ˌdɪsbɪˈli:və] *n* dinga (Xudoga) ishonmaydigan, dinsiz, dahriy

disbody [dɪsˈbɒdɪ] = **disembody**

disboscation [ˌdɪsbɒsˈkeɪʃ(ə)n] *n q.x.* daraxtlarni kesmoq; o'rmonzorni shudgorga aylantirmoq

disbosom [dɪsˈbʊz(ə)m] *v so'zl.* yuragini ochmoq, ko'nglidagini aytmoq, yorilib gapirmoq

disbowel [dɪsˈbaʊəl] = **disembowel**

disbranch [dɪsˈbrɑ:nʧ] *v* 1) novdalarni qirqib tashlamoq; 2) daraxt butalarini qirqib tekislamoq

disbud [dɪsˈbʌd] *v* ortiqcha kurtaklarni kesib tashlamoq

disburden [dɪs´bɜ:dn] *v* yukini tushirmoq; yukdan bo'shatmoq; yengillatmoq

disburse [dɪs´bɜ:s] *v* to'lamoq, haq to'lamoq

disbursement [dɪs´bɜ:smənt] *n yur.* 1) to'lov; 2) xarajatlar, chiqimlar; 3) to'langan summa

disburthen [dɪs´bɜ:ðn] *esk.* = **disburden**

disc [dɪsk] *n* 1) disk, aylana, doira; 2) Oy, Quyosh gardishi; 3) umurtqalar orasi kemirchagi; 4) (EHM xotirasining) magnitli diski

discal [´dɪsk(ə)l] *a* diskka o'xshagan, disksimon, disk shaklidagi

discard [dɪs´kɑ:d] *v* 1) *(qartani)* tashlamoq; 2) tashlamoq, rad qilmoq, bosh tortmoq; **to ~ a hypothesis** gipotezani rad qilmoq; 3) ishdan bo'shatmoq; joydan mahrum qilmoq; 4) *tex.* yaroqsizga (brakka) chiqarmoq

discern [dɪ´sɜ:n] *v* 1) ilg'amoq, ko'rmoq; **to ~ a spire in the distance** uzoqdan tog' qoyasini ko'rmoq; 2) ko'rmoq, tushunmoq, farqlamoq; **to~ no difference** farqni sezmaslik

discernible [dɪ´sɜ:nəbl] *adv* 1) aftidan, chamasi, shekilli, balki; ehtimol, ...bo'lsa kerak; 2) aniq, ravshan, shubhasiz, sezilarli darajada, ancha

discerning [dɪ´sɜ:nɪŋ] *a* farq qila oladigan, farqiga boradigan

discernment [dɪ´sɜ:nmənt] *n* tanish, tanib olish; aniqlash; farqlay bilish

discerptible [dɪ´sɜ:ptəbl] *a kam.* ajraladigan, ajratiladigan, ajratib olib bo'ladigan, bo'linadigan

discerption [dɪ´sɜ:pʃ(ə)n] *n kam.* 1) qismlarga (bo'limlarga) bo'lish, bo'lib tashlash; 2) ko'chirish, qo'porish, shilish, ko'chirib (shilib) olish; ko'chirib (shilib) tashlash; 3) ajratib olingan (ajralgan) bo'lak

discharge [dɪs´tʃɑ:dʒ] **1.** *n* 1) bo'shatish, yukni tushirish; **~ of a ship** kemadagi yuklarni tushirish; 2) bo'shatish, o'q uzish (otish); **the ~ of a rifle** miltiqdan otish; 3) chiqarish, bo'shatish, oqizib yuborish; **~ of water from a lake** ko'l suvini chiqarib (oqizib) yuborish; 4) bajarish, ijro qilish; **~ of one's duties** o'z xizmat vazifalarini bajarish; 5) majburiyatlardan ozod qilish, bo'shatish; **~ from the army** harbiy xizmatdan bo'shatish; **2.** *v* 1) bo'shatmoq, yukni tushirmoq; 2) bo'shatmoq, otmoq; **to ~ a rifle** *(o'qni otib)* miltiqni bo'shatmoq; 3) ajralib chiqmoq, otilib chiqmoq, oqizib yubormoq, chiqarib tashlamoq; **the chimney ~s smoke** mo'ridan tutun chiqyapti; 4) bajarmoq, ijro etmoq; **to ~ one's duties** o'z vazifasini bajarmoq; 5) bajarib turgan vazifasidan ozod qilmoq; ishdan bo'shatmoq

dischargee [ˌdɪstʃɑ:´dʒi:] *n amer.* harbiy xizmatdan bo'shatilgan

discharger [dɪs´tʃɑ:dʒə] *n* 1) bo'shatadigan (yuk tushiradigan) mexanizm; 2) raketa uchiradigan moslama

disci [´dɪskaɪ] *pl of* **discus**

disciple [dɪ´saɪpl] *n* o'quvchi, shogird, izdosh; tarafdor

discipleship [dɪ´saɪplʃɪp] *n* o'quvchilik, shogirdlik

disciplinable [´dɪsɪplɪnəbl] *a* gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan, bo'ysunadigan, itoatkor

disciplinal [´dɪsɪplɪn(ə)l] *a* intizom bilan bog'langan, intizom o'rnatish va uni mustahkamlashga qaratilgan, shu maqsad uchun xizmat qiladigan, intizomiy...

disciplinarian [ˌdɪsɪplɪ´neərɪən] **1.** *n* qattiq intizom tarafdori bo'lgan kishi; **2.** *a* intizom bilan bog'langan, intizom o'rnatish va uni mustahkamlashga qaratilgan, shu maqsad uchun xizmat qiladigan, intizomiy...

disciplinary [´dɪsɪplɪnərɪ] *a* 1) intizomiy; **~ action** intizomiy chora-tadbirlar; 2) tarbiyalovchi

disciplinatory [´dɪsɪplɪˌneɪtərɪ] *a* = **disciplinary**

discipline [´dɪsɪplɪn] **1.** *n* 1) intizom, tartib; 2) intizomlilik, tarbiya ko'rganlik; 3) o'qish, mashg'ulot; **intellectual ~** aqlni charxlash; 4) fan; **2.** *v* 1) o'qitmoq, o'rgatmoq, mashq qildirmoq; 2) intizom o'rnatmoq

disciplular [dɪ´sɪpjulə] *a kit.* 1) o'quvchiga oid; 2) boshlang'ich

discission [dɪ´sɪʃ(ə)n] *n tib. esk.* kesik, kesilgan (yorilgan) joy

disclaim [dɪs´kleɪm] *v* 1) inkor qilmoq; voz kechmoq; 2) rad qilmoq, tan olishdan bosh tortmoq

disclaimer [dɪs´kleɪmə] *n* 1) biror narsaga egalik huquqidan voz kechish; 2) rad qilish, qaytarish

disclose [dɪs´kləʊz] *v* bilib olmoq; fosh qilmoq, ko'rsatmoq; oshkor etmoq

disclosure [dɪs´kləʊʒə] *n* ochish, fosh qilish, oshkor etish

disco [´dɪskəʊ] *n* diskoteka

discoboli [dɪs´kɒbəlaɪ] *pl of* **discobolus**

discobolus [dɪs´kɒbələs] *n* disk otuvchi sportchi

discoid [´dɪskɔɪd] *a maxs.* diskka o'xshagan, disk shaklidagi, disksimon

discolor [dɪs´kʌlə] = **discolour**

discoloration [dɪsˌkʌlə´reɪʃ(ə)n] *amer.* = **discolouration**

discolored [dɪs´kʌləd] *amer.* = **discoloured**

discolorment [dɪs´kʌləmənt] *amer.* = **discoloration**

discolour [dɪs´kʌlə] *v* rangsizlashtirmoq, rangini ketkizmoq

discolouration [dɪsˌkʌlə´reɪʃ(ə)n] *n* 1) rangini o'zgartirish, rangini yo'qotish (o'chirish), rangsiz qilib qo'yish, oqarish, rangi o'chish (ketish); 2) oqargan joy; dog'

discoloured [dɪs´kʌləd] *a* rangini o'zgartirgan, rangini yo'qotgan, rangi o'chib ketgan, rangi o'chgan (ketgan)

discolourment [dɪs´kʌləmənt] = **discolouration**

discomfit [dɪs´kʌmfɪt] *v* 1) *(rejani)* buzmoq, barbod qilmoq; 2) sarosimaga solmoq

discomfiture [dɪs´kʌmfɪtʃə] *n* tartibsizlik, parokandalik; rejalarning barbod bo'lishi

discomfort [dɪs´kʌmfət] **1.** *n* noqulaylik, qulaysizlik, xijolat; tinchsizlik; **2.** *v* noqulaylik tug'dirmoq

discomfortable [dɪs´kʌmfətəbl] *a kam.* xafa (dilni siyoh) qiladigan, ranjitadigan, qayg'uga soladigan, qayg'uli, noxush

discommend [ˌdɪskə´mend] *v* 1) tanbeh bermoq, tergamoq, koyimoq; 2) tavsiya qilmaslik, maslahat bermaslik

discommode [ˌdɪskə´məʊd] *v* 1) noqulaylik tug'dirmoq; 2) bezovta qilmoq, tinchini buzmoq

discommodity [ˌdɪskə´mɒdɪtɪ] *n* noqulaylik, qulaysizlik, o'ng'aysizlik

discommon [dɪs´kɒmən] *v* jamoa yeridan foydalanish huquqidan mahrum etmoq

discompose [ˌdɪskəm´pəʊz] *v* tashvishlantirmoq, tashvishga solmoq

discomposedly [ˌdɪskəm´pəʊzɪdlɪ] *adv* bezovta bo'lib; tashvishlanib, xavotirlanib, qo'rqib, xavfsirab

discomposure [ˌdɪskəm´pəʊʒə] *n* notinchlik, xavotirlik, jonsaraklik, bezovtalik

disconcert [ˌdɪskən´sɜ:t] *v* xijolat qilmoq, xijolatga solmoq, dovdiratib qo'ymoq

disconcerted [ˌdɪskən´sɜ:tɪd] *a* xijolatda qolgan, xijolat tortgan, uyalib qolgan, xijolatdagi

disconcerting [ˌdɪskən´sɜ:tɪŋ] *a* hayajonga soladigan, dovdiratib qo'yadigan

disconformity [ˌdɪskən´fɔ:mɪtɪ] *n* nomuvofiqlik, nomunosiblik, noloyiqlik, muvofiq (munosib, loyiq) emaslik, to'g'ri kelmaslik

disconnect [ˌdɪskə´nekt] *v* ajratmoq, ayirmoq, bir-biridan judo qilmoq, uzmoq

disconnected [ˌdɪskə´nektɪd] **1.** *a* ajratilgan, bir-biridan judo qilingan, uzilgan;

2. *adv* bog'lanmagan, yopishmagan, bog'lanishsiz, poyma-poy

disconnectedly [ˌdɪskəˊnektɪdlɪ] *adv* 1) chalkash-chulkash, poyma-poy, chigal, tutilib, gapni gapga qovushtirmay, bog'lanishsiz; **to speak ~** tutilib gapirmoq; 2) ayrim holda, ajratib, alohida, boshqa-boshqa, o'zaro bog'lamasdan

disconnectedness [ˌdɪskəˊnektɪdnəs] *n* 1) chalkashlik, poyma-poylik, chigallik, uzuq-uzuqlik, silliq (ravon) bo'lmaslik; bog'lanishsizlik; 2) alohidalik, yakkalik, ajralganlik

disconnection [ˌdɪskəˊnekʃ(ə)n] *n* ayirish, ajratish, uzish

disconnexion [ˌdɪskəˊnekʃ(ə)n] *n* ajratish, ayirish, bir-biridan judo qilish, uzish

disconsolate [dɪsˊkɒns(ə)lɪt] *a* yupatib bo'lmaydigan, ovunmaydigan, tasalli topmaydigan

discontent [ˌdɪskənˊtent] **1.** *n* norozilik; xo'rlik; **2.** *a* norozi; **3.** *v* norozilik uyg'otmoq

discontented [ˌdɪskənˊtentɪd] *adv* norozi, domangir

discontentedly [ˌdɪskənˊtentɪdlɪ] *adv* 1) ko'ngli to'lmay, norozi bo'lib, rozi (xursand, mamnun) bo'lmasdan; 2) o'kinch bilan, achinib, ranj (alam) bilan

discontentment [ˌdɪskənˊtentmənt] *n* norozilik, rozi emaslik

discontiguous [ˌdɪskənˊtɪgjʊəs] *a kam.* bir-biri bilan bog'lanmagan, bir-biridan ajralib (uzilib) qolgan, aloqasi yo'q, tarqoq

discontinuance [ˌdɪskənˊtɪnjʊəns] *n* to'xtatish, tanaffus, uzilish

discontinuation [ˌdɪskəntɪnjʊˊeɪʃ(ə)n] *n* to'xtatish, tugatish, barham berish, chek qo'yish

discontinue [ˌdɪskənˊtɪnju(:)] *v* to'xtatmoq, uzmoq, to'xtatib bo'lmoq, kesmoq

discontinuity [ˊdɪs,kɒntɪˊnju(:)ɪtɪ] *n* (*aloqa yoki munosabatni*) uzish, buzish

discontinuous [ˌdɪskənˊtɪnjʊəs] *n* uzilib-uzilib (to'xtab-to'xtab) sodir bo'ladigan

discontinuously [ˌdɪskənˊtɪnjʊəslɪ] *adv* uzib-uzib, bo'lib-bo'lib; entikib-entikib, to'xtab-to'xtab, uzilib-uzilib, titrab

disconvenience [ˌdɪskənˊvi:njəns] *n dial.* noqulaylik, qulaysizlik, o'ng'aysizlik

discophile [ˊdɪskə(ʊ)f(a)ɪl] *n* grammofon plastinkalarini kolleksiya qiluvchi (to'plovchi) kishi

discophoran [dɪsˊkɒfərən] *n zool.* zuluk

discord [ˊdɪskɔ:d] *n* kelishmovchilik, norozilik, nizo

discordance [dɪsˊkɔ:d(ə)ns] *n* 1) norozilik; qarama-qarshilik; zidlik; ziddiyat; 2) kelishmovchilik

discordant [dɪsˊkɔ:d(ə)nt] *a* zid, nomuvofiq, mos kelmaydigan

discotheque [ˊdɪskətek] *n* diskoteka

discount [ˊdɪskaʊnt] **1.** *n* 1) *tij.* chegirma, kamaytirish; **to give 20% ~ for cash** naqd to'langanda 20% chegirma berish; 2) *mol.* diskont (*muddati to'lmagan vekselni hisobga olish va undan ushlab qolinadigan haq*); **2.** *v* 1) veksellarni hisobga olmoq; 2) pasaytirmoq, kamaytirmoq; 3) hisobga, e'tiborga olmay qoldirmoq

discountenance [dɪsˊkaʊntɪnəns] *v* noma'qul topmoq, to'g'ri deb hisoblamaslik

discounter [ˊdɪskaʊntə] *n mol.* diskontor (*muddati to'lmagan vekselni bank hisobiga yoki o'z hisobiga oluvchi*)

discouple [dɪsˊkʌpl] *v* 1) ayirmoq, ajratmoq, uzmoq, ayirib (ajratib, uzib) qo'ymoq; 2) bir-biridan judo qilmoq, ajratib yubormoq

discourage [dɪsˊkʌrɪdʒ] *v* 1) umidsizlantirmoq, dovdiratmoq, sarosimaga solmoq; **the failures ~ed him** muvaffaqiyatsizliklar uni sindirdi; 2) hafsalani pir qilmoq, biror ishdan qaytarmoq

discouragement [dɪsˊkʌrɪdʒmənt] *n* 1) ko'ngilni sovitish, ko'ngilni qoldirish, qiziqishni so'ndirish, hafsalasini pir qilish, ixlosini (shaxtini) qaytarish; 2) esankiratish, esankiratib (dovdiratib, gangitib) qo'yish, sarosimaga tushirish

discouragingly [dɪsˊkʌrɪdʒɪŋlɪ] *adv* 1) ko'ngilni sovitib, ko'ngilni qoldirib, qiziqishni so'ndirib, hafsalasini pir qilib, ixlosini (shaxtini) qaytarib; 2) gangitib (esankiratib, dovdiratib) qo'yib, sarosima qilib, sarosimaga solib (qo'yib)

discourse [dɪsˊkɔ:s] *n* 1) so'zlash (gapirish) qobiliyati, nutq, til; 2) muhokama qilish; 3) leksiya

discourteous [dɪsˊkɜ:tjəs] *a* odobsiz, adabsiz, tarbiyasiz

discourtesy [dɪsˊkɜ:təsɪ] *n* qo'pollik, dag'allik, qo'rslik; odobsizlik, tarbiyasizlik, beadablik, tarbiya ko'rmagan

discover [dɪsˊkʌvə] *v* 1) ochmoq, kashf qilmoq; **to ~ that one has made a mistake** xatoga yo'l qo'yilganligini aniqlamoq; 2) bayon qilmoq, ochmoq, oshkor qilmoq; 3) tutib bermoq, sotmoq

discoverer [dɪsˊkʌv(ə)rə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi, kashfiyotchi

discovert [dɪsˊkʌvət] *a yur.* ersiz ayol, beva

discoverture [dɪsˊkʌvətʃə] *n yur.* bevalik, yesirlik, tullik

discovery [dɪsˊkʌv(ə)rɪ] *n* 1) kashfiyot; 2) topib olish, oshkor qilish

discredit [dɪsˊkredɪt] **1.** *n* obro'sini yo'qotish; **2.** *v* obro'sini tushirmoq; sharmanda qilmoq

discreditable [dɪsˊkredɪtəbl] *a* uyatli, uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan, sharmanda qiladigan

discreditably [dɪsˊkredɪtəblɪ] *adv* uyatsizlarcha, sharmandalarcha, uyatsizlik (sharmandalik) bilan

discreet [dɪsˊkri:t] *a* ehtiyotkor, ehtiyotli; ehtiyotkorlik bilan ish tutadigan

discreetly [dɪsˊkri:tlɪ] *adv* ehtiyot bo'lib, ehtiyotkorlik qilib; o'zini qo'lga olib

discrepancy [dɪsˊkrep(ə)nsɪ] *n* nomuvofiqlik, nomunosiblik, noloyiqlik, muvofiq (munosib, loyiq) emaslik, to'g'ri kelmaslik, farq, tafovut

discrepant [dɪsˊkrep(ə)nt] *a* muvofiq kelmaydigan, o'xshamagan, o'xshamaydigan, farq qiladigan (*nimadandir*)

discrete [dɪsˊkri:t] *a* 1) uzuq-yuluq; tarqoq, bir necha qismlardan iborat bo'lgan; 2) ajralgan

discretely [dɪsˊkri:tlɪ] *adv* 1) uzib-uzib, bo'lib-bo'lib, entikib-entikib, to'xtab-to'xtab, uzilib-uzilib; 2) tarqoq, yakka-yakka (boshqa-boshqa) bo'lib, bir-biri bilan bog'lanmagan holda, bir-biridan ajralib (uzilib) qolgan holda

discretion I [dɪsˊkreʃ(ə)n] *n* ehtiyotkorlik, ehtiyotkorlik bilan ish tutish

discretion II [dɪsˊkreʃ(ə)n] *n* 1) uzuq-uzuqlik, bir necha joyda bo'linishlik; 2) ajralib (uzilib) qolish, aloqaning uzilishi, tarqoqlik, boshqa-boshqa bo'lib qolish

discretional [dɪsˊkreʃənl] = **discretionary**

discretionary [dɪsˊkreʃən(ə)rɪ] *a* ixtiyoriga havola etilgan, o'z ixtiyori bilan ish tutadigan

discretive [dɪsˊkri:tɪv] = **disjunctive 2**

discriminant [dɪsˊkrɪmɪnənt] **1.** *n mat.* diskriminant (*ko'phad koeffitsiyentlaridan tuzilgan va ko'phad ildizlari orasida bir-biriga tenglari bo'lgandagina nolga aylanadigan ifoda*); **2.** *a mat.* diskriminantga oid. diskriminant

discriminate [dɪsˊkrɪmɪneɪt] *v* 1) farq qilmoq, ajratmoq, farqiga bormoq, tanimoq; 2) kamsitmoq

discriminating [dɪsˊkrɪmɪneɪtɪŋ] *a* boshqalardan ajratib (ajralib) turadigan; o'ziga xos; **a ~ mark** farqlovchi belgi

discrimination [dɪs,krɪmɪˊneɪʃ(ə)n] *n* 1) farq, farqlash; 2) farqlay bilish; sezgirlik, didlilik; **to show ~ in smth.** biror

narsani yaxshi bilish; 3) g'araz, noxolislik; **to make a ~** turlicha yondashish; 4) tahqirlash, huquqlarda cheklash; kamsitish; **racial (race) ~** irqiy kamsitish

discriminative [dɪsˈkrɪmɪnətɪv] *a* farqlovchi, ajratib turuvchi

discriminator [dɪsˈkrɪmɪneɪtə] *n* kamsituvchi

discrown [dɪsˈkraʊn] *v* tojidan mahrum etmoq; taxtdan tushirmoq

disculpate [dɪsˈkʌlpeɪt] *v kit.* oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq, haqligini tasdiqlamoq, to'g'ri (haq, haqli) deb topmoq

discumber [dɪsˈkʌmbə] = **disemcumber**

discursive [dɪsˈkɜːsɪv] *a mant.* mantiqiy fikrlashga asoslangan

discus [ˈdɪskəs] *n* (*pl* **disci** [ˈdɪskaɪ]) *sport.* disk; disk uloqtirish

discuss [dɪsˈkʌs] *v* bahslashmoq, muhokama qilmoq

discusser [dɪsˈkʌsə] *n maxs.* munozara (bahs) qatnashchisi

discussible [dɪsˈkʌsəbl] *a* muhokama qilsa bo'ladigan

discussion [dɪsˈkʌʃ(ə)n] *n* muhokama, munozara, bahs; **~ and debate** bahs-munozara

disdain [dɪsˈdeɪn] **1.** *v* mensimay qaramoq, e'tibor bermay qaramoq; **2.** *n* mensimaslik; e'tiborsizlik

disdainful [dɪsˈdeɪnfəl] *a* nafratli, jirkanch, nafratni ifodalaydigan; **~ smile (look)** takabburona jilmayish (qarash)

disdainfully [dɪsˈdeɪnfʊlɪ] *adv* 1) nafratlanib, jirkanib, nafrat bilan; mensimay, iltifotsizlik (hurmatsizlik) bilan, kamsitib; 2) yetarli e'tibor bermay, e'tiborsizlik bilan; 3) manmanlik (dimog'dorlik, mag'rurlik, takabburlik) bilan

disease [dɪˈziːz] *n* 1) *tib.* kasallik, xastalik, dard, og'riq; **an infections ~** yuqumli kasallik; 2) *tex.* nosozlik, buzilganlik (*mashina*)

diseased [dɪˈziːzd] *a* kasal, xasta, bemor, betob

disedge [dɪsˈedʒ] *v esk.* o'tmas qilmoq, to'mtoq qilmoq, o'tmaslashtirmoq, o'tmas qilib qo'ymoq, damini qaytarmoq

disembark [ˌdɪsɪmˈbɑːk] *v* yukni tushirmoq; bo'shatmoq

disembarkation [ˌdɪsembɑːˈkeɪʃ(ə)n] *n* (*kemadan*) tushirish, tushirib qo'yish

disembarrass [ˌdɪsɪmˈbærəs] *v* qiyinchilikdan xalos qilmoq; qutqarmoq, ozod qilmoq

disembody [ˌdɪsɪmˈbɒdɪ] *v* 1) tarqatmoq, tarqatib yubormoq, tugatmoq, tugatib yubormoq, ajratib yubormoq; 2) *din.* pushtsiz qilmoq

disembogue [ˌdɪsɪmˈbəʊg] *v* quyilmoq (*daryo to'g'risida*)

disembosom [ˌdɪsɪmˈbʊzəm] *v* (*sir va b. ni*) ochmoq, oshkor qilmoq

disembowel [ˌdɪsɪmˈbaʊəl] *v* ichak-chavog'ini olib tashlamoq, ichak-chavog'ini tozalamoq

disembroil [ˌdɪsɪmˈbrɔɪl] *v* (*chigal, tugun kabilarni*) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq

disemploy [ˌdɪsɪmˈplɔɪ] *v kam.* bo'shatmoq, chiqarmoq, haydamoq

disenable [ˌdɪsɪnˈeɪbl] *v* ishga yaroqsiz qilmoq, ishdan chiqarmoq

disenchant [ˌdɪsɪnˈtʃɑːnt] *v* ko'ngilni qoldirmoq, ko'ngilni sovitmoq, hafsalasini pir qilmoq, umidni puchga chiqarmoq

disenchanted [ˌdɪsɪnˈtʃɑːntɪd] *a* ko'ngli sovigan, ko'ngli qolgan, ixlosi qaytgan

disenchantment [ˌdɪsɪnˈtʃɑːntmənt] *n* ixlosi qaytish, ko'ngli qolish

disencumber [ˌdɪsɪnˈkʌmbə] *v* qiyinchilikdan olib chiqmoq, xalos etmoq, qutqarmoq

disendow [ˌdɪsɪnˈdaʊ] *v* ehson qilingan (meros qoldirilgan) mablag'dan mahrum etmoq

disenfranchise [ˌdɪsɪnˈfræn(t)ʃaɪz] = **disfranchise**

disengage [ˌdɪsɪnˈgeɪdʒ] *v* ozod qilmoq, xalos qilmoq; bo'shatmoq; **to ~ one's hand** qo'lini bo'shatmoq

disengaged [ˌdɪsɪnˈgeɪdʒd] *a* ozod qilingan, qutqarilgan, erkin; bo'shatilgan

disengagement [ˌdɪsɪnˈgeɪdʒmənt] *n* 1) ozod bo'lish, ozodlikka chiqish, ozod qilish; 2) bo'sh bo'lish, band bo'lmaslik; 3) nikohni bekor qilish

disentail [ˌdɪsɪnˈteɪl] *v yur.* mol-mulkni merosga olishni cheklovchi shartlarni bekor qilmoq

disentangle [ˌdɪsɪnˈtæŋgl] *v* (*chigal, tugun kabilarni*) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq

disentanglement [ˌdɪsɪnˈtæŋglmənt] *n* 1) chigalini (chalkashini) yozish; chalkashib (o'ralashib) qolgan joyidan chiqarib olish; 2) *ko'ch.* qutqarish, chiqarish, xalos qilish

disenthral(l) [ˌdɪsɪnˈθrɔːl] *v* ozodlikka chiqarmoq, qullikdan ozod qilmoq

disentitle [ˌdɪsɪnˈtaɪtl] *v* (*qandaydir*) huquqdan mahrum etmoq; unvonidan mahrum etmoq

disentomb [ˌdɪsɪnˈtuːm] *v* go'rdan kovlab olmoq

disentwine [ˌdɪsɪnˈtwaɪn] = **disentangle**

disestablish [ˌdɪsɪsˈtæblɪʃ] *v* bekor qilmoq, kuchdan qoldirmoq

disestablishment [ˌdɪsɪsˈtæblɪʃmənt] *n* 1) bekor qilish, kuchdan qoldirish; 2) cherkovni davlatdan ajratish

diseur [diːˈzɜː] *n fr.* melodeklamator, musiqa jo'rligida deklamatsiya qiluvchi

diseuse [diːˈzɜːz] *n fr.* deklamator, deklamatsiyachi (*badiiy asarni ifodali qilib o'qib beruvchi san'atkor*) ayol

disfavor [dɪsˈfeɪvə] = **disfavour**

disfavour [dɪsˈfeɪvə] **1.** *n* 1) ma'qullamaslik, ayblash; xush ko'rmaslik, yoqtirmaslik; **to regard smb. with ~** birovga yoqmaydigan nuomalada bo'lmoq; 2) g'azabga duchor bo'lish, yomon ko'rinish; **2.** *v* iltifotdan mahrum qilmoq, yoqtirmay qaramoq, ola ko'z bilan qaramoq

disfeature [dɪsˈfiːtʃə] *v* husnini buzmoq, xunuk (ko'rimsiz) qilib qo'ymoq

disfellowship [dɪsˈfelə(ʊ)ʃɪp] *n amer.* (*oliy o'quv yurtidan, diniy jamoalardan*) chiqarish, chiqarib tashlash, o'chirish, haydash

disfiguration [dɪsˌfɪgjʊ(ə)ˈreɪʃ(ə)n] = **disfigurement**

disfigure [dɪsˈfɪgə] *v* 1) husnini buzmoq, buzib ko'rsatmoq; **to ~ a face** husnini buzmoq; 2) buzmoq, zarar yetkazmoq; **to ~ smb.'s career** birovning martabasiga zarar yetkazmoq

disfigured [dɪsˈfɪgəd] *a* 1) husnini buzgan, xunuk (ko'rimsiz) qilib qo'yilgan, xunuk (badbashara) qilib yuborgan, abjag'ini (dabdalasini, rasvosini) chiqargan, abjaq (dabdala) qilgan; 2) buzilgan, buzuq

disfigurement [dɪsˈfɪgəmənt] *n* buzib ko'rsatish; g'alati qilish, buzish

disforest [dɪsˈfɒrɪst] *v* o'rmondagi daraxtlarni kesmoq; o'rmonni daraxtsiz yalanglikka aylantirmoq

disfranchise [ˈdɪsˈfræn(t)ʃaɪz] *v* fuqarolik *yoki* saylash huquqidan mahrum etmoq

disfranchisement [dɪsˈfræn(t)ʃɪzmənt] *n yur.* imtiyoz, fuqarolik *yoki* saylash huquqidan mahrum qilish

disfrock [dɪsˈfrɒk] *v* diniy mansabdan mahrum etmoq

disgorge [dɪsˈgɔːdʒ] *v* 1) qusmoq, qayt qilmoq; 2) otilib chiqmoq, otmoq; **to ~ lava** lava otmoq; 3) (*noqonuniy o'zlashtirilgan narsani*) bermoq, qaytarib bermoq; **to ~ property** noqonuniy o'zlashtirilgan mulkni qaytarib bermoq

disgown [dɪsˈgaʊn] *v* 1) *shoir.* yechintirmoq, kiyimini yechmoq, yechib qo'ymoq; 2) *cherk.* diniy mansab (unvon)dan mahrum qilmoq

disgrace [dɪsˈgreɪs] **1.** *n* isnod, uyat, sharmandalik; **2.** *v* sharmanda qilmoq, behurmat qilmoq, dog' tushirmoq

disgraceful [dɪsˈgreɪsf(ə)l] *a* behayo, sharmandali, uyatli

disgrade [dɪs´greɪd] *kit.* = **degrade**

disgruntle [dɪs´grʌntl] *v* g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq, achchig'ini keltirmoq

disgruntled [dɪs´grʌntld] *a* g'azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, darg'azab

disguise [dɪs´gaɪz] **1.** *n* 1) niqoblash; tashqi ko'rinishni o'zgartirish; 2) niqob, o'zgartirilgan qiyofa; **2.** *v* 1) niqoblamoq, tashqi ko'rinishini o'zgartirmoq; 2) soxtalashtirib ko'rsatmoq

disguised [dɪs´gaɪzd] *a* 1) boshqacha kiyim kiygan, boshqacha kiyingan; kiyimini o'zgartirgan, qiyofasini o'zgartirgan; 2) niqob kiygan, yuziga niqob tortgan, maskarad kiyimidagi, niqobdor

disgust [dɪs´gʌst] **1.** *n* 1) nafratlanish, jirkanish; 2) g'azablanish, norozi bo'lish; janjal; **2.** *v* nafrat uyg'otmoq, jirkantirmoq; **this smell ~s me** bu hidga toqat qilolmayman

disgusted [dɪs´gʌstɪd] *a* jirkantiradigan, nafratlantiradigan, yomon (xunuk) ko'rinadigan, boshqalarning ko'nglini qoldiradigan (sovitadigan), o'ziga nafrat uyg'otadigan, nazardan qoldiradigan

disgustedly [dɪs´gʌstɪdlɪ] *adv* nafrat bilan; jirkanib; ko'ngli tortmay

disgustful [dɪs´gʌstfol] *a* jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, yoqimsiz

disgusting [dɪs´gʌstɪŋ] = **disgustful**

disgustingly [dɪs´gʌstɪŋlɪ] *adv* yoqimsiz bir holda (tarzda), juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, iflos

dish [dɪʃ] **1.** *n* 1) idish (*tarelka, lagan, tog'oracha*); **a glass ~** shisha idish; 2) *pl* idish-tovoq; 3) taom, ovqat, yegulik; **2.** *v* idishga solmoq, dasturxonga tortmoq

dishabille [ˌdɪsə´bi:l] *fr.n* uyda kiyiladigan kiyim

dishabituate [ˌdɪshə´bɪtjoeɪt] *v* odatini tashlamoq, odatni yo'qotmoq

dishallow [dɪs´hæləʊ] *v* 1) tahqirlamoq, behurmat qilmoq, oyoqosti qilmoq, buzmoq, bulg'amoq; 2) (*muqaddas joyni*) harom qilmoq

disharmonious [ˌdɪshɑ:´məʊnjəs] *a* 1) nosoz, hamohang bo'lmagan; 2) to'g'ri kelmaydigan, nomunosib, noloyiq

disharmonize [dɪs´hɑ:mənaɪz] *v* kelishmovchilikni yuzaga keltirmoq

disharmony [ˌdɪs´hɑ:mənɪ] *n* hamohang, uyg'un emaslik; kelishmovchilik, ixtilof, nifoq; ziddiyat

dish-cloth [´dɪʃklɒθ] *n* oshxona sochig'i; qozonsochiq

dish-clout [´dɪʃklaʊt] = **dish-cloth**

dish-cover [´dɪʃˌkʌvə] *n* idish yoki laganchaning ustini yopib qo'yadigan qopqoq (issiqlikni saqlash uchun)

dishearten [dɪs´hɑ:tn] *v* 1) ko'ngilni sovitmoq, qiziqishni (tashabbusni) so'ndirmoq, ixlosni qaytarmoq; 2) yuraksizlantirmoq

disheartened [dɪs´hɑ:t(ə)nd] *a* g'amgin, xafa, ko'ngli qolgan

disheartening [dɪs´hɑ:t(ə)nɪŋ] *a* xafa qiladigan, tushkunlikka soladigan, ko'nglini qoldiradigan

disheartenment [dɪs´hɑ:tnmənt] *n* ma'yuslik, g'amginlik; umidsizlik; ma'yus bo'lish, umidsizlanish

dished [dɪʃt] *a* 1) *mar.s.* yarim shar shaklidagi; botiq, ichiga botgan; kosasimon, kosa (palla) shaklidagi; 2) *tex.* tarelkasimon, tarelka shaklidagi

disherison [dɪs´herɪzn] *n* merosdan mahrum qilish

dishevel [dɪ´ʃevəl] *v* to'zg'itmoq, to'zitmoq, titib tashlamoq

dishevel(l)ed [dɪ´ʃevə)ld] *a* paxmoq, to'ziq

dishful [´dɪʃfol] *n* bir idish to'la (qandaydir) narsa

dishonest [dɪs´ɒnɪst] *a* vijdoni (insofi, diyonati, nomusi) yo'q, vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, noinsof

dishonestly [dɪs´ɒnɪstlɪ] *adv* 1) vijdonan emas, insofdan emas, uyat; 2) tartibsizlik (betartiblik) bilan, or-nomusni unutib, vijdonsizlarcha, uyatsizlarcha, vijdonsizlik bilan

dishonesty [dɪs´ɒnɪstɪ] *n* noinsoflik, diyonatsizlik, vijdonsizlik, nopoklik

dishonor [dɪs´ɒnə] *amer.* = **dishonour**

dishonorable [dɪs´ɒn(ə)rəbl] *amer.* = **dishonourable**

dishonored [dɪs´ɒnəd] *amer.* = **dishonoured**

dishonour [dɪs´ɒnə] **1.** *n* 1) sharmandalik, badnomlik, haqoratlanish; 2) isnod, nomus, uyat; 3) haqoratlash; **2.** *v* 1) badnom qilmoq, uyatga qoldirmoq, dog' tushirmoq; 2) haqorat qilmoq, beqadr qilmoq

dishonourable [dɪs´ɒn(ə)rəbl] *a* vijdonsiz, diyonatsiz; isnod keltiradigan; sharmanda

dishonoured [dɪs´ɒnəd] *a* 1) badnom (sharmanda) qilingan, nomiga dog' tushirgan, sha'niga isnod keltir(il)gan, isnodga (malomatlarga) qolgan, tahqirlangan; 2) nomusiga tekkan, tajovuz qilingan

dishorn [dɪs´hɔ:n] *v q.x.* shoxni qirqib olmoq

dishorse [dɪs´hɔ:s] *v kit.* otdan tushmoq, otdan tushib piyoda bo'lmoq

dish-rag, dish-towel [´dɪʃræg, -taʊəl] = **dish-cloth**

dish-wash [´dɪʃwɒʃ] *n* idish yuvilgan suv, yuvindi

dish-washer [´dɪʃˌwɒʃə] *n* 1) idish yuvuvchi xotin; 2) idish yuvish mashinasi

dish-water [´dɪʃˌwɔ:tə] *n* yuvindi

disillusion [ˌdɪsɪ´lu:ʒ(ə)n] **1.** *n* ko'ngil qolish, ko'ngil sovish; **2.** *v* ko'ngilni qoldirmoq, ko'ngilni sovitmoq, ixlosi qaytmoq

disillusionize [ˌdɪsɪ´lu:ʒənaɪz] = **disillusion 2**

disillusionment [ˌdɪsɪ´lu:ʒ(ə)nmənt] *n* ko'ngli qolish, ixlosi qaytish, ko'ngli sovish

disimprison [ˌdɪsɪm´prɪz(ə)n] *v yur.* (qamoqdan) ozod qilmoq, qutqarmoq, xalos qilmoq, erkinlikka (ozodlikka) chiqarmoq

disimprove [ˌdɪsɪm´pru:v] *v kit.* 1) yomonlashtirmoq, og'irlashtirmoq, battar qilmoq; buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq; 2) yomonlashmoq, og'irlashmoq, yomonlashib (og'irlashib) ketmoq, battar bo'lib qolmoq

disinclination [ˌdɪsɪnklɪ´neɪʃ(ə)n] *n* istamaslik, xohlamaslik

disincline [ˌdɪsɪn´klaɪn] *v* ko'nglini qoldirmoq, ko'nglini sovitmoq

disincorporate [ˌdɪsɪn´kɔ:pərɪt] *v* (*jamiyatni, korporatsiyani*) tarqatib yubormoq, yopmoq, tugatmoq

disinfect [ˌdɪsɪn´fekt] *v* dezinfeksiya qil'moq, zararli (yuqumli kasallik tarqatuvchi) mikroblardan tozalamoq, zararsizlantirmoq; **~ing** dezinfeksiya

disinfectant [ˌdɪsɪn´fektənt] **1.** *n* dezinfeksiyalovchi vositalar; **2.** *a* dezinfeksiyalovchi

disinfection [ˌdɪsɪn´fekʃ(ə)n] *n* dezinfeksiya qilish, zararsizlantirish

disinfector [ˌdɪsɪn´fektə] *n* dezinfeksiya qiladigan (yuqumli kasallik tarqatuvchi mikroblardan tozalovchi) apparat (moslama, asbob)

disingenuity [ˌdɪsɪndʒɪ´nju(:)ɪtɪ] *n kit.* 1) samimiyatsizlik, ikkiyuzlamalik, riyokorlik, munofiqlik, nosamimiylik; 2) epchillik, chapdastlik, chaqqonlik

disingenuous [ˌdɪsɪn´dʒenjʊəs] *a* nosamimiy, munofiqona, soxta, yolg'ondakam

disingenuously [ˌdɪsɪn´dʒenjʊəslɪ] *adv* 1) samimiyatsizlik (ikkiyuzlamalik, riyokorlik, munofiqlik, nosamimiylik) bilan; 2) epchillik (chapdastlik, chaqqonlik) bilan

disingenuousness [ˌdɪsɪn´dʒenjʊəsnəs] = **disingenuity**

disinherison [ˌdɪsɪn´herɪzn] = **disinheritance**

disinherit [ˌdɪsɪnˈherɪt] *v* merosdan mahrum etmoq

disinheritance [ˌdɪsɪnˈherɪt(ə)ns] *n* merosdan mahrum etish

disinsectization [ˌdɪsɪnˌsektəˈzeɪʃ(ə)n] *n maxs.* dezinfeksiya, zararli hasharotlarni yo'qotish, qirish, qirib tashlash

disintegrate [dɪsˈɪntɪgreɪt] *v* tarkibiy qismlarga bo'lmoq; maydalamoq

disintegration [dɪsˌɪntɪˈgreɪʃ(ə)n] *n* bo'linish, maydalanish, parchalanish; **the ~ of colonial system** mustamlaka tizimining parchalanishi

disintegrator [dɪsˈɪntɪgreɪtə] *n tex.* dezintegrator (*maydalash mashinasi, maydalaydigan mashina*)

disinter [ˌdɪsɪnˈtɜ:] *v* go'rdan qazib (kovlab) olmoq

disinterested [dɪsˈɪntrɪstɪd] *a* betaraf, beg'araz, odil, xolis, haqqoniy, adolatli

disinterestedly [dɪsˈɪntrɪstɪdlɪ] *adv* beg'arazlik bilan, tamagirlik qilmasdan, o'z foydasini ko'zlamasdan (ko'zlamay)

disinterment [ˌdɪsɪnˈtɜ:mənt] *n kit.* go'rdan (qabrdan) qazib chiqarib olish; eksgumatsiya (*murdani sud-tibbiyot ekspertizachi uchun go'rdan kovlab olish*)

disinvest [dɪsɪnˈvest] = **divest**

disinvolve [ˌdɪsɪnˈvɒlv] *v kit.* 1) yozmoq, ochmoq; 2) (chigal, tugun kabilarni) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq; 3) tushovini yechmoq, tushovini yechib bo'shatmoq, bo'shatib yubormoq

disject [dɪsˈdʒekt] *v* har tarafga sochmoq, yoyib tashlamoq; parchalamoq

disjecta membra [dɪsˈdʒektəˈmembrə] *n lot. pl* tarqoq qismlar; bir-biriga bog'lanmagan matnlar

disjoin [dɪsˈdʒɔɪn] *v* ajratmoq, bir-biridan judo bo'lmoq (qilmoq), qismlarga ajratmoq; parchalamoq

disjoint [dɪsˈdʒɔɪnt] *v* ajratmoq, bo'lmoq, bo'lib-bo'lib yubormoq, parchalab tashlamoq

disjointed [dɪsˈdʒɔɪntɪd] *a* qismlarga (bo'laklarga) ajratilgan

disjointedly [dɪsˈdʒɔɪntɪdlɪ] *adv* gapni gapga qovushtirmay, bog'lanishsiz, munosabatsiz, poyintar-soyintar, poyma-poy; **to speak ~** mantiqsiz gapirmoq

disjointedness [dɪsˈdʒɔɪntɪdnəs] *n* bog'lanishsizlik, munosabatsizlik, poyintar-soyintarlik, poyma-poylik

disjunct [dɪsˈdʒʌŋ(k)t] *a* ajratilgan, qismlarga bo'lingan; alohida

disjunction [dɪsˈdʒʌŋ(k)ʃ(ə)n] *n* bo'lish, bo'linish, ajratish, ajralish

disjunctive [dɪsˈdʒʌŋ(k)tɪv] **1.** *n* 1) *gram.* ayiruvchi bog'lovchi; 2) *kit.* alternativa (*1. bir-biriga zid ikki yo'l, imkoniyat va sh. k. dan har biri; 2. shulardan birini: yo unisini, yo bunisini tanlash zaruriyati*); **2.** *a* bo'ladigan, ajratadigan; bo'luvchi, ajratuvchi, ayiruvchi; ayirish...; **a ~ conjunction** *gram.* ayiruvchi bog'lovchi

disjuncture [dɪsˈdʒʌŋktʃə] *n* ayirish, ajratish, uzish, ayirib (ajratib uzib) qo'yish, bir-biridan judo qilish; ajralish, ayirib ketish, uzilish, uzilib qolish

disk I [dɪsk] *amer.* = **disc**

disk II [dɪsk] *v q.x.* yerga diskli borona (yoki kultivator) bilan ishlov bermoq

diskette [dɪsˈket] *n* disket(a), egiluvchan (yumshoq) disk, floppi-disk

disk flower [ˈdɪskˌflaʊə] *bot.* naychasimon (nayga o'xshagan) gul

disking [ˈdɪskɪŋ] *n q.x.* yerga diskli borona (yoki kultivator) bilan ishlov bermoq

disk-jockey [ˈdɪskˌdʒɒkɪ] *n amer.* disk-jokey, diskotekani olib boruvchi

dislikable [dɪsˈlaɪkəbl] *a* 1) yoqimsiz, yomon; 2) ko'ngilsiz, noxush, sovuq, xunuk

dislike [dɪsˈlaɪk] **1.** *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; **2.** *v* yomon ko'rmoq

dislimn [dɪsˈlɪm] *v esk. shoir.* 1) noaniq (mujmal) qilib qo'ymoq; 2) ko'rinmay qolmoq, g'oyib bo'lmoq

dislocate [ˈdɪsləkeɪt] *v tib.* 1) chiqarmoq, o'rnidan qo'zg'atmoq (*suyak haqida*); **~d** chiqmoq; 2) buzmoq, tartibsiz holatga keltirmoq; **to ~ traffic** yo'l harakatini buzmoq

dislocation [ˌdɪsləˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) *tib.* siljish; qo'zg'alish; chiqish (*suyak haqida*); 2) *geol.* dislokatsiya (*yer qatlamlarining siljishi*)

dislodge [dɪsˈlɒdʒ] *v* 1) ketishga majbur qilmoq; siqib chiqarmoq; **to ~ a chairman** raisni bo'shatmoq, raisni ketishga majbur qilmoq; 2) *harb.* (*turgan joyidan*) surib chiqarmoq; **to ~ the enemy from a hill** dushmanni tepalikdan surib chiqarmoq

dislodged [dɪsˈlɒdʒd] *a* 1) siljitgan, qo'zg'atgan, surilgan, joyini almashtirgan, ko'chirilgan; 2) joyini (o'rnini) o'zgartirgan, boshqa joyga ko'chirilgan (ko'chirib joylashtirilgan), qayta (boshqatdan) joylashtirilgan

dislodgement [dɪsˈlɒdʒmənt] *n* siljitish, qo'zg'atish, surish, joyini almashtirish, ko'chirish, joyini (o'rnini) o'zgartirish, boshqa joyga ko'chirish (ko'chirib joylashtirish); qayta (boshqatdan) joylashtirish

disloyal [dɪsˈlɔɪəl] *a* xiyonatkor, xiyonatkorona; ayyor, makkor; vafosiz, bevafo, beburd; **~ty** vafosizlik

disloyalty [dɪsˈlɔɪəltɪ] *n* xiyonatkorlik, xoinlik; ayyorlik, makkorlik

dismal [ˈdɪzm(ə)l] *a* yurakni siqadigan, ziq qiladigan, ruhini ezadigan, og'ir, ziq

dismally [ˈdɪzməlɪ] *adv* qayg'uli (g'amgin, ma'yus, xafa) holatda, ma'yus (xafa, g'amgin) ravishda, g'amgin (xafa, ma'yus) tarzda

dismantle [dɪsˈmæntl] *v* 1) yechib olmoq, olib tashlamoq; chiqarib tashlamoq; 2) qurolsizlantirmoq, qurol-yarog'ini olib qo'ymoq

dismantlement [dɪsˈmæntlmənt] *n* 1) (*jihozlarni*) qismlarga ajratish, qismlarga (bo'laklarga yoki turlarga) ajratish; 2) (*qal'ani*) qurolsizlantirish

dismast [dɪsˈmɑ:st] *v deng.* machtani yig'ishtirmoq, buzib tashlamoq

dismay [dɪsˈmeɪ] **1.** *n* qo'rqinch, vahima, dahshat, qo'rqish; **2.** *v* qo'rqitmoq, cho'chitmoq

dismember [dɪsˈmembə] *v* bo'lib yubormoq; bo'laklarga ajratmoq; ajratmoq

dismembered [dɪsˈmembəd] *a* qo'l-oyoqlarsiz (tasvirlangan)

dismemberment [dɪsˈmembəmənt] *n* bo'lish, bo'lib yuborish, qismlarga ajratish

dismiss [dɪsˈmɪs] *v* 1) qo'yib yubormoq, tarqatib yubormoq; **to ~ the assembly** to'planganlarni tarqatib yubormoq; 2) ishdan bo'shatmoq, vazifasidan ozod qilmoq; **to ~ a servant** xizmatkorni bo'shatmoq; 3) rad qilmoq, chetga surib qo'ymoq; **to ~ the idea** fikr (g'oya)ni rad qilmoq; 4) (*muhokamani*) tugatmoq, yakun chiqarmoq; **to ~ the subject** masala muhokamasini to'xtatmoq; **to ~ a meeting** majlisni tugatmoq

dismissal [dɪsˈmɪs(ə)l] *n* 1) tarqatish; **~ of a jury** sud maslahatchilarini tarqatib yuborish; 2) ishdan bo'shatish, vazifasidan ozod qilish; 3) fikr (g'oya)dan voz kechish

dismission [dɪsˈmɪʃ(ə)n] *n* bo'shatish, ozod qilish

dismissive [dɪsˈmɪsɪv] *a kit.* ozodlik beruvchi, ozod etuvchi (qiluvchi)

dismount [ˌdɪsˈmaont] **1.** *n* tushish, pasayish, tushirish, pasaytirish; **2.** *v* otdan tushmoq, otdan tushib piyoda bo'lmoq, piyodaga aylanmoq

dismountable [ˌdɪsˈmaontəbl] *a tex.* qismlarga ajraladigan, bo'laklarga bo'linadigan; bo'linma, yig'ma, qismlarga ajraladigan va qayta yig'ib (butunlab) qo'yiladigan; olinadigan, olib qo'yiladigan, chiqadigan

dismounted [ˌdɪsˈmaontɪd] *a* piyoda, yayov

disobedience [ˌdɪsəˈbi:djəns] *n* itoat qilmaslik, bo'ysunmaslik, o'zboshimchalik

disobedient [ˌdɪsəˈbiːdjənt] *a* itoatsiz, bebosh, noqobil
disobediently [ˌdɪsəˈbiːdjəntlɪ] *adv* itoat qilmasdan, bo'ysunmasdan, gapga (so'zga) kirmasdan, gapga quloq solmasdan (solmay), rozi bo'lmasdan, yon bermasdan, ko'nmasdan; **to behave ~** gapga quloq solmaslik
disobey [ˌdɪsəˈbeɪ] *v* gapga kirmaslik, quloq solmaslik, bo'ysunmaslik, itoat qilmaslik
disoblige [ˌdɪsəˈblaɪdʒ] *v* xafa qilmoq, ko'nglini ranjitmoq, dilini og'ritmoq
disobliging [ˌdɪsəˈblaɪdʒɪŋ] *a* dag'al, qo'rs, sovuq, iltifotsiz, bemehr, izzat-hurmatni bilmaydigan, hurmat qilmaydigan, behurmat, beandisha, beadab, qo'pol
disorder [dɪsˈɔːdə] **1.** *n* tartibsizlik, besaranjomlik, alg'ov-dalg'ov; **~liness** intizomsizlik, besaranjomlik, tartibsizlik; **2.** *v* 1) tartibsizlikka olib kelmoq, to's-to'polon qilmoq, chalkashtirib yubormoq, ayqash-uyqash qilib (aralashtirib) yubormoq; **to ~ documents** hujjatlarni chalkashtirib yubormoq; 2) puchga chiqarmoq, barbod qilmoq, buzmoq; **to ~ smb.'s plans** kimnindir rejalarini barbod qilmoq; 3) izdan (ishdan) chiqarmoq; **to ~ the health** sog'liqni ishdan chiqarmoq
disordered [dɪsˈɔːdəd] *a* tartibsizlikka keltirilgan, chigallashtirilgan, chalkashtirilgan, aralashtirilgan, chigal (chalkash, aralash-quralash) qilib yuborilgan, adashtirilgan
disorderly [dɪsˈɔːdəlɪ] **1.** *a* tartibsiz, betartib, intizomsiz; **2.** *adv* 1) tartibsiz holda (ravishda); ayqash-uyqash; palapartish; uyushmagan (uyushtirilmagan, yaxshi tashkil etilmagan, tartibsiz, tarqoq) holda; 2) tez, shiddat bilan, avj olib, gurkirab, qiyg'os, shovullab, shovullaganicha, hayqirib, shovqin-suron bilan
disorganization [dɪsˌɔːgən(a)ɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* tartib-intizomni buzish, tartibsizlik
disorganize [dɪsˈɔːgənaɪz] *v* tartib-intizomni buzmoq, tartibsizlik qilmoq; **~d** tartibsiz
disorganizer [dɪsˈɔːgənaɪzə] *n* buzg'unchi; ishni (tartib-intizomni) buzuvchi, izdan chiqaruvchi
disorientate [dɪsˈɔːrɪentеɪt] *v* adashtirmoq, chalg'itmoq, yo'ldan ozdirmoq
disorientation [dɪsˌɔːrɪenˈteɪʃ(ə)n] *n* xato fikr tug'dirish, adashtirish, chalg'itish; xato fikrga kelish, adashish, chalg'ish
disour [ˈdɪzə] *n fr. tar.* masxaraboz, qiziqchi (*podsho saroyida*)
disown [dɪsˈəon] *v* tan olmaslik, rad etmoq, voz kechmoq, inkor etmoq
disparage [dɪsˈpærɪdʒ] *v* mensimasdan munosabatda bo'lmoq (muomala qilmoq), nazar-pisand qilmaslik
disparagement [dɪsˈpærɪdʒmənt] *n* yetarli baho bermaslik, mensimaslik, qadriga yetmaslik, kamsitish
disparagingly [dɪsˈpærɪdʒɪŋlɪ] *a* mensimay, nazar-pisand qilmay, kamsitib; **to speak ~ of smb.** birov haqida mensimay gapirmoq
disparate [ˈdɪspərət] *a* 1) tengi yo'q, tengsiz, bemisl; 2) tubdan farq qiladigan
disparity [dɪsˈpærɪtɪ] *n* tengsizlik, baravar emaslik, mutanosib emaslik
dispark [dɪsˈpɑːk] *v* park maydonini boshqa maqsadlar uchun ishlatmoq
dispart [dɪsˈpɑːt] *v* bo'lmoq, bo'linmoq, taqsimlamoq, taqsimlanmoq
dispassion [dɪsˈpæʃ(ə)n] *n kit.* ehtirossizlik, zavq-shavqsizlik, his-tuyg'usi o'liklik, beparvolik, sovuqqonlik, vazminlik
dispassionate [dɪsˈpæʃ(ə)nɪt] *a* betaraf, beg'araz, odil, xolis, haqqoniy, adolatli
dispassionately [dɪsˈpæʃ(ə)mtlɪ] *adv* 1) ehtirosga berilmay, beehtiros, zavq-shavqsiz; beparvolik (sovuqqonlik, vazminlik) bilan; 2) betaraflik bilan, beg'araz, xolis, odilona, haqqoniy ravishda
dispatch [dɪsˈpætʃ] **1.** *n* 1) yuborish, jo'natish; **~ of a letter** xatni jo'natish; 2) rasmiy xabar; **2.** *v* yubormoq, jo'natmoq
dispatch-bearer [dɪsˈpætʃˌbeərə] *n* diplomatik kuryer (*diplomatik hujjatlar tashuvchi xodim*)
dispatch-boat [dɪsˈpætʃbəot] *n* jo'natiladigan kema
dispatch-case [dɪsˈpætʃkeɪs] *n harb.* komandirlar sumkasi (*odatda, belga osib yuriladi*)
dispatcher [dɪsˈpætʃə] *n* 1) yuborgan (jo'natgan) shaxs, tashkilot; jo'natuvchi, yuboruvchi; 2) dispetcher (*markazlashgan boshqaruv punkti yoki tizimining xodimi*); 3) ekspeditor (*mol, tovar jo'natish va keltirish ishi bilan shug'ullanuvchi xodim*)
dispatching [dɪsˈpætʃɪŋ] *n maxs.* boshqaruvni markazlashtirish
dispatch-station [dɪsˈpætʃˌsteɪʃ(ə)n] *n* jo'nash stansiyasi
dispauperize [dɪsˈpɔːpəraɪz] *v kit.* qashshoqlik (kambag'allik)dan olib chiqmoq
dispel [dɪsˈpel] *v* tarqatib yubormoq, haydab yubormoq
dispend [dɪsˈpend] *v esk.* sovurmoq, isrof qilmoq, o'rinsiz sarf qilmoq, behuda (bekor) ketkizmoq, nobud qilmoq
dispendious [dɪsˈpendɪəs] *a kit.* 1) qimmat turadigan, baland narxli, qimmatbaho, bahosi (narxi) baland bo'lgan; 2) ko'p mablag' talab qiladigan, qimmatga tushadigan
dispensable [dɪsˈpensəbl] *a* majburiy bo'lmagan; majburiy emas, ixtiyoriy
dispensary [dɪsˈpens(ə)rɪ] *n tib.* 1) (*odatda, xayriya*) dorixona, kambag'allar uchun tekin dorixona; 2) (bepul) ambulatoriya, (bepul) dispanser
dispensation [ˌdɪspenˈseɪʃ(ə)n] *n* 1) taqsimlash; bo'lib berish; **~ of pensions** nafaqalarni taqsimlash; 2) boshqarish, (*rahbarlik va b. ni*) amalga oshirish, **~ of justice** adolat sudini amalga oshirish; 3) **(with)** xalos bo'lish, qutulish
dispensatory I [dɪsˈpensət(ə)rɪ] *n* farmakopiya (*dori tayyorlash, saqlash va kasallarga yozib berishga oid qo'llanma yoki qoidalar to'plami*)
dispensatory II [dɪsˈpensət(ə)rɪ] *a kit.* (*mansab, qasam, va'da va b. dan*) ozod qiladigan, bo'shatadigan, qutqaradigan, xalos qiladigan, xoli qiladigan
dispense [dɪsˈpens] *v* 1) taqsimlamoq, tarqatmoq; **to ~ bounties** qimmatbaho sovg'alarni tarqatmoq; 2) (*odillik bilan*) sud qilmoq; 3) (*dori-darmon*) yozib bermoq, tayinlamoq
dispenser [dɪsˈpensə] *n* 1) farmatsevt, dori tayyorlovchi; 2) *tex.* tarqatuvchi (taqsimlovchi) moslama, dozator, dozalagich; 3) savdo avtomati
dispensing [dɪsˈpensɪŋ] *n* 1) tarqatish; ulashish, taqsimlash, ulashib (taqsimlab) berish; 2) bo'shatish, (*majburiyatdan*) ozod qilish
dispeople [dɪsˈpiːpl] = **depopulate**
dispermous [daɪˈspɜːməs] *a bot.* ikki urug'li
dispersal [dɪsˈpɜːs(ə)l] = **dispersion**
disperse [dɪsˈpɜːs] *v* tarqalmoq, tarqatmoq; **to ~ a crowd** olomonni tarqatib yubormoq; **to ~ clouds** bulutlarni tarqatib yubormoq; 2) hamma yoqqa tarqalib (to'zib) ketmoq, sochilib ketmoq, tumtaraqay bo'lmoq
dispersed [dɪsˈpɜːst] *a* tarqatilgan, tarqatib (to'zitib) yuborilgan, bo'lib-bo'lib yuborilgan, yoyib yuborilgan
dispersedly [dɪsˈpɜːsɪdlɪ] *adv* har yerda, hamma yoqda, har joyda, har yondan, hamma yoqdan, har tomondan
dispersion [dɪsˈpɜːʃ(ə)n] *n* 1) tarqalish, taralish, yoyilish; bo'lib-bo'lib (yoyib) yuborish; 2) *maxs.* dispersiya, yoyilish, ajralish; mayda zarralarga bo'linish, bo'linish

dispersive [dɪs´pɜ:sɪv] *a opt.* sochiladigan, tarqaladigan, yoyiladigan, ajraladigan, mayda zarralarga bo'linadigan
dispersiveness [dɪs ´pɜ:sɪvnəs] *n fiz. kim.* yoyilganlik, ajralganlik, yoyishlik, ajratishlik, mayda zarralarga bo'lishlik, bo'linishlik
dispirit [dɪ´spɪrɪt] *v* xafa qilmoq; ranjitmoq; ruhini tushirmoq
dispirited [dɪ´spɪrɪtɪd] *a* xafa bo'lgan, ranjigan, g'amgin
dispiritedly [dɪ´spɪrɪtɪdlɪ] *adv. kit.* xafa bo'lib, ranjib, gangib, garang bo'lib, tashvish (qayg'u, g'am) bilan, ruhi tushib, ma'yus (g'amgin) bo'lib, ma'yuslik (g'amginlik, umidsizlik) bilan
dispiteous [dɪs ´pɪtɪəs] *a* shafqatsiz, rahmsiz, berahm
displace [dɪs ´pleɪs] *v* siljitmoq, qo'zg'atmoq, surmoq, joyni almashtirmoq, ko'chirmoq
displaceable [dɪs´pleɪsəbl] *a tex.* ko'chma, ko'chiriladigan
displaced [dɪs´pleɪst] *a* joyini (o'rnini) o'zgartirgan, boshqa joyga ko'chirilgan (ko'chirib joylashtirilgan), ko'chirilgan; **a ~ person** ko'chirilgan shaxs
displacement [dɪs´pleɪsmənt] *n* 1) joyini almashtirish, boshqa joyga qo'yish; 2) o'rnini bosish, almashtirish; **~ of human by machinary** qo'l mehnatini mashinalar bilan almashtirish; 3) olish, tushirish (*lavozimdan*); 4) siqib chiqarish
displacency [dɪs´pleɪsənsɪ] *n kam.* norozilik, mamnun (xursand) emaslik
displant [dɪs ´plɑ:nt] *v* 1) (*o'simlikni*) ko'chirib o'tqazmoq; (*o'simlikni*) ildizi bilan sug'urmoq; 2) (*aholini*) ko'chirmoq, haydamoq
display [dɪs´pleɪ] **1.** *n* 1) ko'rsatish, namoyish qilish; **a military ~** harbiy parad; **a fashion ~** modalar namoyishi; 2) namoyon qilish; **a ~ of power** kuchni namoyish qilish; 3) ko'z-ko'z qilish, maqtanchoqlik; **2.** *v* 1) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq; **to ~ the national flag** milliy bayroqni osib qo'ymoq; 2) namoyon qilmoq, namoyish qilmoq
displayed [dɪs ´pleɪd] *a* (*yirtqich qush haqida*) qanotini keng yoygan
display-type [dɪs´pleɪtaɪp] *n poligr.* ajratuvchi shrift (bosma harf)
displease [dɪs´pli:z] *v* 1) yoqtirmaslik, ma'qul bo'lmaslik, didiga o'tirmaslik; 2) g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq, achchig'ini chiqarmoq
displeased [dɪs´pli:zd] *a* norozi, yoqtirmagan
displeasing [dɪs´pli:zɪŋ] *a* noxush, g'ijintiradigan, g'ashga tegadigan, norozilik keltirib chiqaradigan
displeasure [dɪs´pleʒə] *n* norozilik, qoniqmaslik; **to incur smb.'s ~** birovning noroziligiga sabab bo'lmoq; **to take ~** xafa bo'lmoq
displicency [dɪsplɪsənsɪ] = **displacency**
displume [dɪs´plu:m] *v* 1) patini yulmoq; 2) imtiyozlar, ehtirom, mol-mulkdan mahrum qilmoq
dispone [dɪs´pəun] *v shotl. yur.* (*kimgadir huquq*) bermoq
disport [dɪs´pɔ:t] **1.** *n esk.* o'yin-kulgi, sayr-tomosha, ermak, ovunchoq, vaqtichog'lik, vaqtixushlik, tomosha; **2.** *v* ko'ngil ochmoq, vaqtichog'lik qilmoq
disposable [dɪs´pəʊzəbl] **1.** *a* 1) kirish (borish, o'tish) mumkin bo'lgan; borib bo'ladigan; foydalansa bo'ladigan; 2) bir marta ishlatiladigan (*banka, butilka va sh. k*); **2.** *n* (*banka, butilka va sh. k*) bir marta ishlatiladigan predmet
disposal [dɪs´pəʊz(ə)l] *n* 1) berish, topshirish; **~ of property** mol-mulkni berish; 2) olib tashlash, qutulish, xalos bo'lish; **~ of the dead** murdalarni ko'mish; **~ of bombs** *harb.* bombalarni zararsizlantirish; 3) tasarruf qilish huquqi; **at (in) smb.'s ~** kimningdir ixtiyorida; 4) joylashish, joylashtirish, qo'yib chiqish; **~ of furniture** mebelni joylashtirish
dispose [dɪs´pəʊz] *v* 1) joylashtirmoq, joy-joyiga qo'ymoq; **to ~ troops** qo'shinlarni joylashtirmoq; 2) imkon bermoq, sabab bo'lmoq, moyillikni oshirmoq; og'dirmoq; **to ~ smb. to smth.** birovni biror narsaga undamoq
disposed [dɪs´pəʊzd] *a* joylashgan, joylashtirilgan, o'rnatilgan, o'rnashtirilgan, joy-joyiga qo'yilgan
disposer [dɪs´pəʊzə] *n* 1) (*biror xo'jalik, muassasa va sh. k. ni*) boshqaruvchi kishi; 2) xo'jalik ishlarini boshqaruvchi, xo'jalik mudiri; 3) boshqaruvchi, idora qiluvchi, boshliq, boshchilik qiluvchi
disposition [ˌdɪspə´zɪʃ(ə)n] *n* 1) xulq; fe'l; 2) mayl, moyillik; 3) xarakter, kayfiyat; 4) joylashish, joylashtirish
dispositive [dɪs´pɒzɪtɪv] *a kit.* (*nimagadir*) hafsala qiladigan, (xohish, mayl) bildiradigan
dispossess [ˌdɪspə´zes] *v* mulkdan mahrum qilmoq
dispossession [ˌdɪspə ´zeʃ(ə)n] *n yur.* 1) (*biror mulkka*) qonunga xilof tarzda egalik qilish; 2) egalik qilish huquqidan mahrum etish; 3) (*ijarachi va b. ni*) bir joydan boshqa yerga ko'chirish
dispraise [dɪs´preɪz] **1.** *n* ayblash, qoralash, yomonlash, tanbeh berish, ta'na qilish; **2.** *v kit.* ayblamoq, qoralamoq, yomonlamoq, ta'na qilmoq, tanbeh bermoq, tergab-koyimoq
dispread [dɪs´pred] *v esk.* 1) yoymoq, tarqatmoq; 2) yoyilmoq, tarqalmoq
disprison [dɪs ´prɪzn] *v kit.* qamoqdan ozod qilmoq (qutqarmoq, xalos qilmoq)
disprofit [dɪs´prɒfɪt] *n esk.* talafot, zarar, ziyon, shikast
disproof [dɪs ´pru:f] *v* rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq, yolg'onligini ko'rsatmoq
disproportion [ˌdɪsprə´pɔ:ʃ(ə)n] **1.** *v* mutanosiblikni buzmoq; **2.** *n* nomutanosiblik, mos emaslik
disproportional [ˌdɪsprə´pɔ:ʃənl] = **disproportionate**
disproportionate [ˌdɪsprə´pɔ:ʃ(ə)nɪt] *a* nomutanosib, o'lchovi o'lchovga to'g'ri kelmaydigan
disproportionately [ˌdɪsprə´pɔ:ʃ(ə)nɪtlɪ] *adv* nomutanosiblik bilan, o'lchovi o'lchoviga to'g'ri kelmasdan, mutanosib bo'lmasdan
disprovable [dɪs´pru:vəbl] *a kit.* rad qiluvchi (etuvchi), noto'g'riligini isbot qiluvchi, yolg'onligini ko'rsatuvchi
disprove [dɪs´pru:v] *v* rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq
dispunishable [dɪs´pʌnɪʃəbl] *a kit. yur.* jazolanmaydigan, jazo berilmaydigan, jazoga tortilmaydigan
disputable [dɪs´pju:təbl] *a* bahsli, janjalli, munozarali, nizoli
disputant [dɪs ´pju:t(ə)nt] *n* tortishuv (bahs, munozara) ishtirokchisi
disputation [ˌdɪspju: ´teɪʃ(ə)n] *n* bahs, munozara, muhokama, tortishuv
disputatious [ˌdɪspju(:) ´teɪʃəs] *a kit.* 1) bahslashishni (tortishishni, janjallashishni) yaxshi ko'radigan; 2) gapga ko'nmaydigan (unamaydigan), muomalaga yurmaydigan, o'jar, qaysar, ters
disputative [dɪs´pju:tətɪv] *a kit.* 1) = **disputatious**; 2) ochiq munozara qiladigan, ochiq tortishadigan
dispute [dɪs´pju:t] **1.** *n* 1) muzokara, muhokama, bahs; 2) tortishish, gap talashish, janjallashish; **a border ~** chegara mojarosi; **2.** *v* 1) muhokama qilmoq, tortishmoq; tortishuvda ishtirok etmoq; **to ~ a question** masalani muhokama qilmoq; 2) shubha, gumon ostiga olmoq; ikkilanmoq; **to ~ a fact** dalilga shubha bilan qaramoq
disputer [dɪs´pju:tə] *n* bahslashuvchi, munozara ishtirokchisi
disqualification [dɪsˌkwɒlɪfɪ´keɪʃ(ə)n] *n* diskvalifikatsiya (*1. kvalifikatsiyani, ixtisosini yo'qotish; 2. biror ish, kasb bilan shug'ullanishga noloyiq deb*

topish yoki undan mahrum etish; 3. sport. o'yinda qatnashishdan mahrum etish)

disqualify [dɪs´kwɔlɪfaɪ] *v* diskvalifikatsiya qilmoq, huquqdan mahrum etmoq

disqualifying foul [dɪs´kwɔlɪfaɪɪŋ´faʊl] *sport.* (*sportchini o'yinda qatnashishdan*) mahrum etadigan darajadagi xato

disquiet [dɪs ´kwaɪət] **1.** *n* bezovtalik, notinchlik, tashvish, vahima, xavotirlik; **2.** *a* notinch, xavotirli; **3.** *v* bezovta qilmoq, tashvishga solmoq, tinchligini yo'qotmoq

disquieting [dɪs ´kwaɪətɪŋ] *a* notinch, xavotirli

disquietude [dɪs´kwaɪətju:d] *n* notinchlik, xavotirlik, jonsaraklik; tashvish, vahima, xavotirlik

disquisition [ˌdɪskwɪ´zɪʃ(ə)n] *n* tekshirish, o'rganish, ko'zdan kechirish

disquisitive [dɪs´kwɪzɪtɪv] *a kit.* 1) tadqiqiy; tadqiqot...; tekshirish...; 2) ilmiy tekshirish (tadqiqot) ishlari olib boriladigan; ilmiy tekshirish...; ilmiy tadqiqot...; **~ powers** tahlil qilish (aql-mulohaza yuritish) qobiliyatlari

disrank [dɪs ´ræŋk] *v harb.* darajasini *yoki* amalini pasaytirmoq, amaldan (mansabdan) tushirmoq, unvonini olib tashlamoq

disrate [dɪs ´reɪt] *v amer.* mahrum etmoq; unvonini pasaytirmoq; diskvalifikatsiya qilmoq

disrated [dɪs ´reɪtɪd] *a amer. harb.* unvoni olib tashlangan, darajasi yoki amali pasaytirilgan, amaldan (mansabdan) tushirilgan; amaldan tushgan

disregard [ˌdɪsrɪ´gɑ:d] **1.** *n* 1) beparvolik, befarqlik; 2) mensimaslik, e'tibor-sizlik; **2.** *v* 1) beparvolik qilmoq, e'tibor-siz qaramoq; 2) hurmat qilmaslik, mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik

disrelish [dɪs ´relɪʃ] **1.** *n* nafratlanish, nafrat; mayli (ko'ngli) yo'qlik; **2.** *v* nafratlanmoq, jirkanmoq, ijirg'anib qaramoq

disremember [ˌdɪsrɪ´membə] *v sheva.* unutmoq, unutib (esdan chiqarib) qo'ymoq, esdan chiqarmoq

disrepair [ˌdɪsrɪ´peə] *n* eskilik, ko'hnalik; vayronlik, xaroblik

disreputable [dɪs ´repjʊtəbl] *a* uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan, uyat; sharmandali, sharmandalarcha, uyatsizlarcha

disreputableness [dɪs ´repjʊtəblnəs] *n* yomon ot chiqarish, yomon shuhrat, badnomlik, qalbaki shuhrat

disreputably [dɪs´repjʊtəblɪ] *adv* isnod keltiradigan darajada, sharmandalarcha, uyatsizlarcha, vijdonni yutib (sotib), insofsizlik bilan, vijdonsizlarcha; **to behave ~** o'zini juda yomon tutmoq

disrepute [ˌdɪsrɪ´pju:t] *n* yomon ot, badnomlik

disrespect [ˌdɪsrɪs ´pekt] **1.** *n* hurmatsizlik; **2.** *v* hurmatsizlarcha muomala qilmoq; mensimay (iltifotsizlik, hurmatsizlik bilan) muomala qilmoq

disrespectable [ˌdɪsrɪs´pektəbl] *a* 1) hurmatga loyiq bo'lmagan, hurmat qilishga arzimaydigan; 2) savlatsiz, salobatsiz

disrespectful [ˌdɪsrɪs´pektf(ə)l] *a* qo'pol, to'ng, dag'al

disrespectfully [ˌdɪsrɪs´pektfolɪ] *adv* 1) hurmatsizlik bilan, hurmat qilmasdan; 2) dag'allik (qo'pollik, to'nglik, qo'rslik) bilan

disrespectfulness [ˌdɪsrɪs´pektf(ə)lnəs] *n* hurmatsizlik, odobsizlik, beodoblik, yuzsizlik, nazokatsizlik, qo'pollik, qo'rslik, dag'allik, to'rslik; dag'al muomala, qo'pol gap

disrobe [dɪs ´rəʊb] *v* 1) yechintirmoq; kiyimni yechmoq; 2) fosh qilmoq, sirini ochmoq (oshkor etmoq)

disroot [dɪs´ru:t] *v* 1) ildizi bilan sug'urib olmoq; 2) *ko'ch.* tag-tomiri bilan quritmoq

disrupt I [dɪs ´rʌpt] *a shoir.* 1) yirtiq, uzilgan, yirtilib (uzilib) ketgan, tilkapora bo'lgan, dabdalasi chiqqan; 2) buzilgan, barbod qilingan, ishdan chiqqan, chippakka (puchga) chiqqan; 3) yiqitilgan, qutulgan, vayron qiluvchi, yemiruvchi, buzuvchi; xarob qiluvchi

disrupt II [dɪs´rʌpt] *v* 1) bo'lmoq (*davlatni*); 2) g'alva qilmoq; 3) buzmoq

disrupter [dɪs´rʌptə] *kam.* = **disruption**

disruption [dɪs´rʌpʃ(ə)n] *n* 1) buzish, buzilish; 2) yemirilish; **~ of an empire** imperiyaning yemirilishi; 3) uzilish, ajralish, parchalanish; 4) vayronalar, xarobalar

disruptive [dɪs ´rʌptɪv] *a* buziladigan, yemiriladigan; parchalanadigan

dissatisfaction [dɪsˌsætɪs ´fækʃ(ə)n] *n* norozilik, qanoatlanmaganlik, qoniqmaslik

dissatisfactory [dɪsˌsætɪs ´fækt(ə)rɪ] *a* qoniqarsiz, qanoat hosil qilmaydigan, qoniqtirmaydigan

dissatisfied [dɪs´sætɪsfaɪd] *a* norozi, qanoat hosil qilmagan, norozilikni ifodalaydigan

dissatisfy [dɪs ´sætɪsfaɪ] *v* norozi qilmoq, qoniqmaslik

dissceptre [dɪs´septə] *v kit.* taxtdan tushirmoq

disseat [dɪs´si:t] *v kit.* 1) (*boshqaruvchini, boshliqni, mudirni*) ishdan olib tashlamoq; 2) (*deputatni, vakilni*) chiqarib olmoq, qaytarib olmoq; 3) (*mansabdan, vazifadan*) olib tashlamoq, bo'shatmoq

dissect [dɪ´sekt] *v* 1) (*o'likni*) yormoq, yorib ko'rmoq, tekshirmoq; 2) tahlil qilmoq

dissected [dɪ´sektɪd] *a* 1) qirqilgan, kesilgan, tilingan; chopib tashlangan, kesib bo'laklangan, kesib olingan, tilib yuborilgan, mayda qismlarga bo'lib yuborilgan; 3) qirqadigan, kesadigan; qirqma, kesma

dissecting [dɪ´sektɪŋ] *a* qirqadigan, kesadigan, to'g'raydigan; keskich, qirqqich

dissecting-knife [dɪ´sektɪŋ´naɪf] *n* (*pl* **-knives** [-´naɪvz]) skalpel, jarroh pichog'i (*maxsus pichoqcha*)

dissecting-room [dɪ´sektɪŋru(:)m] *n tib.* o'lik yorib ko'riladigan xona

dissection [dɪ´sekʃ(ə)n] *n* 1) tilish, kesish, yorish, qirqish; 2) tanqidiy muhokama qilish (tahlil qilish)

dissective [dɪ´sektɪv] *a* 1) ko'rib chiqsa (tahlil qilsa) bo'ladigan; 2) tarkibiy qismlarga bo'lsa bo'ladigan

dissector [dɪ´sektə] *n* 1) prozektor (*kasalxonalarda o'likni yorish bilan shug'ullanadigan mutaxassis*); 2) *maxs.* o'likni yorib ko'rish uchun ishlatiladigan asbob

disseisee [ˌdɪssi: ´zi:] *n yur.* ko'chmas mulkka egalik qilishdan noqonuniy mahrum qilingan shaxs

dissemblance [dɪ´semblans] *n* o'xshamaslik, har xillik; farq

dissemble [dɪ´sembl] *v* 1) yashirmoq, sir tutmoq, niqoblamoq; 2) e'tiborsiz qoldirmoq; (*biror narsadan*) ko'z yummoq

dissembler [dɪ´semblə] *n* 1) aldamchi, aldoqchi, yolg'onchi, firibgar, qallob; 2) tilyog'lama, munofiq, ikkiyuzlamachi, riyokor

disseminate [dɪ´semɪneɪt] *v* joriy qilmoq, tatbiq etmoq, (*fikr, nuqtayi nazarni*) yoymoq, kengaytirmoq

dissemination [dɪˌsemɪ ´neɪʃ(ə)n] *n* 1) sochish, yoyish, yoyib qo'yish, sochib tashlash; 2) joriy qilish, tatbiq etish, yoyib qo'yish, sochib tashlash; ommalashtirish; **~ of knowledge** bilimni ommalashtirish; **~ of false information** yolg'on ma'lumotni hamma yerga tarqatib yuborish

dissension [dɪ´senʃ(ə)n] *n* kelishmovchilik, qarama-qarshilik, zidlik, ziddiyat

dissent [dɪ´sent] **1.** *n* qarashlardagi qarama-qarshilik, kelishmovchilik; **2.** *v* qarashlarda ziddiyat vujudga kelmoq,

rozi bo'lmaslik, e'tiroz bildirmoq; qarshi chiqmoq

dissentaneous |ˌdɪsenˈteɪnɪəs| *a kam.* qo'shilmaydigan, qo'shilishmagan, norozi, qarshi

dissenter |dɪˈsentə| *n cherk.* 1) raskol (*XVII asrda Rossiyadagi diniy ijtimoiy harakat*) ishtirokchisi; 2) dindan qaytgan, murtad

dissentient |dɪˈsenʃɪənt| **1.** *n* boshqacha (o'zgacha) fikrlovchi (o'ylovchi) odam; **2.** *a* boshqa fikrdagi, boshqacha o'ylovchi, fikri (maslak-maqsadi) boshqa

dissenting |dɪˈsentɪŋ| *a* qarshi, zid, teskari

dissentious |dɪˈsenʃəs| *a kam.* boshqalar bilan til topisha olmaydigan; janjalkash; mijg'ov; tantiq; ming'ir-ming'ir

dissepiment |dɪˈsepɪmənt| *n* 1) pardevor, pardadevor; 2) to'siq, g'ov

dissert, dissertate |dɪˈsɜːt, ˈdɪsəteɪt| *v* gapdonlik (mahmadonalik) qilmoq; uzoq gapirmoq, gap sotmoq, safsatabozlik qilmoq

dissertation |ˌdɪseˈteɪʃ(ə)n| *n* dissertatsiya

dissertator [ˈdɪsə(ː),teɪtə] *n* dissertatsiya muallifi, dissertatsiya yoqlovchi

disserve [ˈdɪsˈsɜːv] *v* ishdan chiqarmoq, ziyon (zarar) yetkazmoq, shikast yetkazmoq; yomon xizmat ko'rsatmoq

disservice [ˈdɪsˈsɜːvɪs] *n* 1) yomon xizmat ko'rsatish; 2) zarar, shikast, ziyon

dissever |dɪsˈsevə| *v* 1) ajratmoq, ayirmoq; ayirib (ajratib) olmoq; bir-biridan judo qilmoq; 2) ajralmoq, ajralib (bo'linib) ketmoq; uzilmoq

disseverance |dɪsˈsevərəns| *n* 1) bo'lim; 2) xona, bo'lma

dissidence [ˈdɪsɪd(ə)ns] *n kit.* 1) ziddiyat, ixtilof; qo'shilmaslik, ko'nmaslik, rozi emaslik, rad qilish; 2) kelishmovchilik, noittifoqlik, nifoq; qarama-qarshilik; 2) har xil fikrlilik, fikrlarning har xilligi, turlicha fikrda bo'lish

dissident [ˈdɪsɪd(ə)nt] **1.** *n* dindan qaytgan; **2.** *a* boshqa fikrdagi, boshqacha o'ylovchi

dissight |dɪsˈsaɪt| *n kam.* qandaydir yoqimsiz narsa

dissimilar |dɪˈsɪmɪlə| *a* mislsiz; to'g'ri kelmaydigan, o'xshamaydigan

dissimilarity [ˈdɪˌsɪmɪˈlærɪtɪ] *adv* o'xshash (monand) emaslik, har xillik

dissimilarly |dɪˈsɪmɪləlɪ| *adv* o'xshamasdan, o'xshamay, bir-biriga to'g'ri kelmay, monand tushmay

dissimilars |dɪˈsɪmɪləz| *n pl* bir-biriga o'xshamaydigan narsalar

dissimilation [dɪˌsɪmɪˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) farq, tafovut, to'g'ri kelmaslik, o'xshamaslik; 2) *tilsh.* dissimilatsiya (so'zning 2 bir xil yoki o'xshash tovushlaridan birining undan farq qiluvchi yoki unga sal o'xshash boshqa tovush bilan almashinuvi); 3) *biol.* dissimilatsiya (*organizmda moddalarning sodda ko'rinishga o'tib o'zlashuvi, o'zlashtirilishi*)

dissimilitude [ˌdɪsɪˈmɪlɪtjuːd] *n* o'xshash (monand) emaslik, har xillik, farq, tafovut, o'zgalik

dissimulate |dɪˈsɪmjuleɪt| *v* 1) (*his-tuygu va b. ni*) bekitmoq, yashirmoq; 2) ikkiyuzlamachilik qilmoq, riyokorona ish tutmoq

dissimulation |dɪˌsɪmjuˈleɪʃ(ə)n| *n* ayyorlik, mug'ambirlik, firibgarlik

dissimulator |dɪˈsɪmjuleɪtə| *n* mug'ambir, ayyor, firibgar

dissipate [ˈdɪsɪpeɪt] *v* 1) tarqalmoq (*bulut, qo'rquv haqida*); 2) behuda sarflamoq

dissipated [ˈdɪsɪpeɪtɪd] *a* axloqsiz, axloqi buzuq, intizomsiz, tartibsiz

dissipater [ˈdɪsɪpeɪtə] *n* 1) pulni sovuruvchi, pulni aysh-ishratga (bo'lar-bo'lmasga) sarf qiluvchi odam, isrofgar, (*pul va molni*) bekorga sarf qiladigan (nobud qiladigan, sovuradigan) odam; 2) maishatparast odam, ishratparast

dissipation [ˌdɪsɪˈpeɪʃ(ə)n] *n* 1) tarqalish, sochilish, yoyilish; tarqalib ketish, tarqatib yuborish, yo'q bo'lish, yo'q bo'lib ketish, barham topish; 2) parchalanish, bo'linib ketish

dissipative [ˈdɪsɪpeɪtɪv] *a maxs.* 1) tarqaladigan, sochiladigan, yoyiladigan; 2) parchalanadigan, bo'linib ketadigan

dissociable |dɪˈsəʊʃəbl| *a* 1) kishiga qo'shilmaydigan; jamiyatdan ajralgan; 2) mos (muvofiq) kelmaydigan

dissocial [dɪˈsəʊʃ(ə)l] *a* 1) do'stona (samimiy) bo'lmagan; 2) do'st (ahil, inoq, totuv) bo'lmagan, do'stona munosabatda bo'lmagan

dissocialize [dɪˈsəʊʃəlaɪz] *v* odamga qo'shilmaydigan qilib qo'ymoq

dissociate [dɪˈsəʊʃɪeɪt] *a kam.* 1) ajratilgan, ayrilgan, ayirib (ajratib) tashlangan (yuborilgan), ajratib olingan; 2) bir-biri bilan bog'lanmagan, bir-biridan ajralib (uzilib) qolgan, aloqasi yo'q, tarqoq

dissociated |dɪˈsəʊʃɪeɪtɪd| *a ruh.* hardamxayol, xayoli boshqa yoqda bo'ladigan; **a ~ personality** hardamxayol odam

dissociation |dɪˌsəʊsɪˈeɪʃ(ə)n| *n* ayirish, ajratish, uzish, ayirib (ajratib, uzib) qo'yish, bir-biridan judo qilish; ajralish, uzilish, uzilib qolish

dissolubility [dɪˌsɒljʊˈbɪlɪtɪ] *n maxs.* 1) bo'linuvchanlik; 2) eruvchanlik

dissoluble |dɪˈsɒljʊbl| *a maxs.* 1) tarkibiy qismlarga bo'linadigan, parchalanadigan; 2) eriydigan

dissolute [ˈdɪsəluːt] *a* fahshga (shahvatga) berilgan; buzuq, yomon yo'lga kirgan

dissolutely [ˈdɪsəluːtlɪ] *adv* intizomsizlik (tartibsizlik, beboshlik) bilan, axloqsizlik (buzuqlik, sayoqlik, fosiqlik) bilan

dissoluteness [ˈdɪsəluːtnəs] *n* 1) intizomsizlik, tartibsizlik, beboshlik; 2) axloqsizlik, buzuqlik, axloqi buzuqlik, yo'ldan ozganlik (toyganlik), suyuqoyoqlik, sayoqlik, fosiqlik

dissolution [ˌdɪsəˈluːʃ(ə)n] *n* 1) eritish, qorish; erish, qorilib ketish; 2) ajralish, parchalanish, ajratish

dissolvable |dɪˈzɒlvəbl| *a* 1) eriydigan, erib ketadigan; eritib bo'ladigan; 2) tarkibiy qismlarga ajraladigan (bo'linadigan), parchalanadigan

dissolve |dɪˈzɒlv| **1.** *n kino.* ohista (asta-sekin) almashinuv (*ekranda bir manzaraning ikkinchi manzara bilan sekin-asta almashinuvi*); **2.** *v* 1) eritmoq; **to ~ sugar in water** qandni suvda eritmoq; 2) tarqatmoq, faoliyatni tugatmoq, barham bermoq; 3) vayron qilmoq; 4) bekor qilmoq **to ~ a marriage** nikohni bekor qilmoq

dissolvent |dɪˈzɒlvənt| **1.** *a* eruvchan, eriydigan; **2.** *n* eritgich (*eritadigan suyuqlik*)

dissolving |dɪˈzɒlvɪŋ| *a* 1) eritadigan, erituvchi; **~ agent** *kim.* eritgich, erituvchi (*eritadigan suyuqlik*); 2) **a ~ view** *kino.* ohista (asta-sekin) almashinuv (*ekranda bir manzaraning ikkinchi manzara bilan sekin-asta almashinuvi*)

dissonance [ˈdɪsənəns] *n* ohangsizlik, hamohang emaslik, quloqqa yoqmaslik, ohangsiz (*hamohang bo'lmagan, quloqqa yoqmaydigan*) tovushlar

dissonant [ˈdɪsənənt] *a* ohangsiz, hamohang bo'lmagan

dissuade |dɪˈsweɪd| *v* aynitmoq; yo'ldan urmoq

dissuasion |dɪˈsweɪʒ(ə)n| *n* biror ishdan qaytarish, qoldirish, qaytishga (qolishga) ko'ndirish, rozi qilish

dissuasive |dɪˈsweɪsɪv| *a* biror ishdan qaytaradigan, qoldiradigan, qaytishga (qolishga) ko'ndiradigan, rozi qiladigan; **~ advice** (*nimanidir*) qilmaslikka ko'ndiradigan, maslahat

dissyllabic |ˌdɪsɪˈlæbɪk| = **disyllabic**

dissymmetric, dissymmetrical [ˌdɪsɪ´metrɪk, -(ə)l] *a* simmetrik bo'lmagan
dissymmetry [dɪ´sɪmɪtrɪ] *n maxs.* ko'zgu simmetriyasi (*ko'zgudagi o'z aksidek simmetrlik*)
distaff [´dɪstɑ:f] *n* 1) charx, ip yigiradigan charx; 2) ayollar yumushi, mashg'uloti; 3) ayol; **the ~ side** ayol tomondan qarindoshlik (*genealogiyada*)
distaff thistle [ˌdɪstɑ:f´θɪsl] *bot.* yovvoyi za'faron
distal [´dɪst(ə)l] *a anat.* markazdan uzoqdagi; uzoq, olis, yiroq
distance [´dɪst(ə)ns] **1.** *n* masofa, oraliq, uzoqlik; **2.** *v* uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq
distanced [´dɪst(ə)nst] *a* uzoq o'tmishda qolib ketgan, umidsiz bo'lib qolgan
distant [´dɪst(ə)nt] *a* uzoq, olis; **a ~ place** olis joy
distantly [´dɪst(ə)ntlɪ] *adv* yiroqda, uzoqda, olisda, allaqayoqda, ancha narida
distaste [ˌdɪs´teɪst] *n* nafrat, jirkanish
distasteful [dɪs´teɪstf(ə)l] *a* bemaza, yoqimsiz, beyoqim; **~ness** bemazagarchilik
distemper [dɪs´tempə] **1.** *n* 1) noxush, yomon kayfiyat; 2) to'lqinlanish, hayajon, xovliqish; 3) *vet.* it vabosi; 4) ruhiy kasallik; **2.** *v* 1) sog'liqni yo'qotmoq; 2) kayfiyatni buzmoq
distemperature [dɪs´temprɪtʃə] *n esk.* kasallik, betoblik, xastalik, nosog'lik, kasal (betob) bo'lib turish, mazasi qochish, tobi aynish, lohaslik, darmonsizlik
distempered [dɪs´tempəd] *a* 1) hayajonlangan, to'lqinlangan; 2) kayfiyati buzilgan
distend [dɪs´tend] *v* 1) puflab yondirmoq; 2) puflab, dam berib shishirmoq
distensible [dɪs´tensəbl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan, kengayuvchan
distension [dɪs´tenʃ(ə)n] *n* 1) cho'zilish, uzayish, kengayish; 2) shishish
distensive [dɪs´tensɪv] *kam.* = **distensible**
distent [dɪs´tent] *a* puflab dam berib shishirilgan, ho'ppaytirilgan
distention [dɪs´tenʃ(ə)n] = **distension**
disthene [´dɪsθi:n] *n min.* kianit (*orolsimon silikatlar sinfiga mansub mineral*)
disthrone [dɪs´θrəʊn] = **dethrone**
distich [´dɪstɪk] *n* bayt (*ikki misrali she'r*)
distichous [´dɪstɪkəs] *a bot.* ikki qatorli, ikki qator qilib joylashtirilgan
distil(l) [dɪs´tɪl] *v* 1) (*suvni*) tozalamoq, soflamoq; 2) *tex.* tortmoq, haydamoq (tarkibiy qismlarga ajratmoq)
distillate [´dɪstɪlɪt] *n* distillat (*distillatsiya natijasida hosil bo'lgan suv, suyuqlik*); haydash natijasida olingan mahsulot
distillation [ˌdɪstɪ´leɪʃ(ə)n] *n* distillatsiya, distillash (bug'lantirib toza, sof suv, suyuqlik hosil qilish); haydash, tortish
distillatory [dɪs´tɪlət(ə)rɪ] *a* distillatsiya qiladigan, distillovchi, distillatsiya...; tortishga (haydashga) oid; tortish (haydash)...
distiller [dɪs´tɪlə] *n* spirt (araq) ishlab chiqaruvchi kishi, spirt, araq tortuvchi
distillery [dɪs´tɪlərɪ] *n* araq zavodi, spirt zavodi
distinct [dɪs´tɪŋ(k)t] *a* 1) aniq, yaqqol; 2) alohida, maxsus; 3) turli, har xil
distinction [dɪs´tɪŋ(k)ʃ(ə)n] *n* 1) ayirma, farq, tafovut; 2) farqlovchi belgi (alomat), xususiyat, o'ziga xoslik; 3) hurmatli munosabat, hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom; 4) mukofot, rag'bat
distinctive [dɪs´tɪŋ(k)tɪv] *a* boshqalardan ajratib (farqlab) turadigan, tafovut qiladigan, farqlovchi, o'ziga xos, maxsus
distinctively [dɪs´tɪŋ(k)tɪvlɪ] *adv* aniq, ravshan
distinctiveness [dɪs´tɪŋ(k)tɪvnəs] *n* soflik, tozalik, oydinlik, ochiqlik, aniqlik, ravshanlik, yaqqollik
distinctly [dɪs´tɪŋktlɪ] *adv* 1) aniq, ravshan, ochiq; 2) tushunarli, ayon, belgili, ma'lum
distinctness [dɪs´tɪŋ(k)tnəs] *n* 1) soflik, tozalik, ochiqlik, ravshanlik; 2) o'ziga xoslik, xarakterlilik
distingué [dɪs´tæŋgeɪ] *a fr.* nafis, go'zal, nozik, chiroyli
distinguish [dɪs´tɪŋgwɪʃ] *v* farq qilmoq, ajratmoq
distinguishable [dɪs´tɪŋgwɪʃəbl] *a* boshqalardan farqlasa (ajratsa) bo'ladigan; **a hardly ~ sound** zo'rg'a farqlanadigan tovush
distinguished [dɪs´tɪŋgwɪʃt] *a* xizmat ko'rsatgan, atoqli, mashhur, ko'zga ko'rinarli
distinguishing [dɪs´tɪŋgwɪʃɪŋ] *a* boshqalardan ajratib (farqlab) turadigan, tafovut qiladigan, farqlovchi
distort [dɪs´tɔ:t] *v* 1) buzib ko'rsatmoq; noto'g'ri talqin qilmoq; 2) burishtirmoq, tirishtirmoq, afti o'zgarmoq
distorted [dɪs´tɔ:tɪd] *a* 1) buzilgan, buzuq; 2) qiyshaygan, bukilgan; 3) burishgan, tirishgan
distortion [dɪs´tɔ:ʃ(ə)n] *n* 1) buzish, noto'g'ri tushuntirish, xato anglash; 2) burishish, tirishish, qiyshayish
distortionist [dɪs´tɔ:ʃ(ə)nɪst] *n* 1) dorboz, simdorchi, chig'iriqda o'ynovchi kishi; 2) karikatura chizuvchi; 3) (*dalillarni*) buzib ko'rsatuvchi
distract [dɪs´trækt] *v* (*diqqatni*) chetga tortmoq; chalg'itmoq
distracted [dɪs´træktɪd] *a* uyalgan, uyalib qolgan, xijolatda qolgan, xijil; esankiragan
distractedly [dɪs´træktɪdlɪ] *adv* 1) o'ylamasdan, mulohaza qilib ko'rmay, aqlsizlarcha, tentaklarcha; 2) juda ham, haddan tashqari, g'oyat(da), o'lguday
distraction [dɪs´trækʃ(ə)n] *n* 1) e'tibori (xayoli) qochganlik, esi og'ganlik, fikri tarqoqlik; 2) o'yin-kulgi, ko'ngil ochish
distrain [dɪs´treɪn] *v* o'z ta'siriga olmoq, o'ziga jalb qilmoq
distrait [dɪs´treɪ] *a fr.* parishonxotir, xayoli qochgan, beparvo
distraught [dɪs´trɔ:t] *a* 1) gangigan, esankiragan, sarosimaga tushgan, hayajonga kelgan, hijolatda qolgan, hijolat tortgan; 2) aqldan ozgan, aqlhushini yo'qotgan, aqlsiz
distress [dɪs´tres] *n* 1) qayg'u, alam, hasrat, dog', kulfat, iztirob; 2) kambag'allik, faqirlik, muhtojlik; 3) falokat, halokat
distressed [dɪs´trest] *a* 1) charchagan, holdan toygan; 2) xafa bo'lgan, ranjigan, xafa; 3) og'ir (mushkul) ahvoldagi, musibatli; 4) halokatga (falokatga) uchragan
distressful [dɪs´tresf(ə)l] *a* qayg'uli, g'am-g'ussali
distressing [dɪs´tresɪŋ] *a* xafa (dilni siyoh) qiladigan, ranjitadigan, qayg'uga soladigan, qayg'uli
distressingly [dɪs´tresɪŋlɪ] *adv* 1) azob berib, qiynab; 2) mashaqqat bilan, azob chekib, qiynalib
distress-warrant [dɪs´tres,wɒr(ə)nt] *n yur.* (*asos., qarzdor bo'lgan kishining*) mol-mulkini xatga olish haqidagi buyruq
distributable [dɪs´trɪbjʊtəbl] *a* tarqatsa bo'ladigan, tarqatiladigan
distribute [dɪs´trɪbju(:)t] *v* tarqatmoq, taqsimlamoq
distributee [dɪsˌtrɪbju´ti:] *n yur.* hamvoris, vorisdosh, birga voris bo'ladigan kishi
distributer [dɪs´trɪbju(:)tə] *n* 1) taqsimlovchi, bo'lib beruvchi; 2) *tex.* taqsimlagich, taqsimotchi (*gaz, elektr quvvati va h. k. ni rasamadi bilan taqsimlab turuvchi qurilma*)
distributing [dɪs´trɪbju(:)tɪŋ] *a* tarqatuvchi, taqsimlaydigan
distribution [ˌdɪstrɪ´bju:ʃ(ə)n] *n* taqsimlash, bo'lish, bo'lib berish, taqsimlanish, taqsimot

distributive |dɪsˈtrɪbjʊtɪv| *a* 1) taqsimlaydigan; 2) taqsimlash, tarqatish bilan shug'ullanadigan; 3) *gram.* ayiruvchi
distributor |dɪsˈtrɪbju(:)tə| *n* 1) avtomobil sotadigan agent; 2) *maxs.* taqsimlovchi; taqsimlash qurilmasi
district |ˈdɪstrɪkt| *n* tuman, okrug, nohiya, mahalla
district-attorney | dɪstrɪktəˈtɜ:nɪ| *n amer.* okrug prokurori
district-council | dɪstrɪktˈkaʊnsl| *n* tuman (okrug) kengashi
district-councillor |ˈdɪstrɪktˈkaʊnsɪlə| *n* tuman (okrug) kengashining a'zosi
district-court | dɪstrɪktˈkɔ:t| *n* tuman (okrug) sudi
district-judge | dɪstrɪktˈdʒʌdʒ| *n amer.* 1) tuman (okrug) federal sudyasi; 2) mahalliy sudning sudyasi
distrust |dɪsˈtrʌst| **1.** *n* ishonchsizlik, shubha; **2.** *v* ishonmay qo'ymoq, ikkilanmoq; gumonsiramoq
distrustful |dɪsˈtrʌstf(ə)l| *a* ishonmaydigan, shubha bilan to'la, gumonsirovchi
distune |dɪsˈtju:n| *v* buzmoq, izdan chiqarib yubormoq
disturb |dɪsˈtɜ:b| *v* tinchini buzmoq, bezovta qilmoq
disturbance |dɪsˈtɜ:b(ə)ns| *n* 1) bezovta qilish, tinchini buzish; 2) hayajon, tashvish, iztirob, besaranjomlik
disturbant I |dɪsˈtɜ:b(ə)nt| *esk.* = **disturber**
disturbant II |dɪsˈtɜ:b(ə)nt| *a* 1) buzadigan, rioya qilmaydigan; 2) hayajonlantiruvchi, to'lqinlantiruvchi, bezovta qiladigan, hayajonga (iztirobga) soladigan, xavotirlikka (tashvishga) solib qo'yadigan, tinchsizlantiradigan
disturbed |dɪsˈtɜ:bd| *a* 1) rioya qilinmagan, amal qilinmagan, (*intizom va b. ni*) buzgan; 2) bezovta bo'lgan, hayajonlangan, hayajonga tushgan
disturber |dɪsˈtɜ:bə| *n* 1) tinchlikni, xotirjamlikni buzuvchi; 2) *yur.* (*birovning*) huquqlarini buzuvchi
disuniform |dɪsˈju:nɪfɔ:m| *a* bir xil bo'lmagan, bir qolipda bo'lmagan, bir taxlitda bo'lmagan
disunion |dɪsˈju:njən| *n* ajratish, uzib qo'yish
disunite |ˌdɪsju:ˈnaɪt| *v* bo'lmoq, taqsimlamoq
disunity |dɪsˈju:nɪtɪ| *n* bir xil emaslik, o'xshamaslik, umumiy emaslik
disuse **1.** *n* |dɪsˈju:s| ishlatilmaslik, qo'llanilmaslik, iste'moldan qolganlik; **2.** *v* |dɪsˈju:z| ishlashni (qo'llashni, foydalanishni) to'xtatmoq
disutility |ˌdɪsju(:)ˈtɪlɪtɪ| *n kit.* 1) zarar, ziyon; zararlilik, ziyonlilik; 2) noqulaylik, qulaysizlik, o'ng'aysizlik; 3) foydasizlik, befoydalik, behudalik
disvalue |dɪsˈvælju:| *v kam.* kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, qadriga yetmaslik, nazarpisand qilmaslik
disyllabic |ˌdɪsɪˈlæbɪk| *a* ikki bo'g'inli
disyoke |dɪsˈjəʊk| *v kam.* jabr (zulm, asorat)dan qutqarmoq (xalos, ozod) qilmoq
dit I |dɪt| *esk.* = **ditty**
dit II |dɪt| *v mah.* tiqib (*yoki* tiqinlab) bekitmoq, tiqib qo'ymoq, bekitmoq, yopmoq
ditch |dɪtʃ| **1.** *n* ariq, zovur; **2.** *v* o'ra (chuqur, xandaq) qazimoq
ditcher |ˈdɪtʃə| *n* qazuvchi, yer kovlovchi kishi *yoki* mashina
ditching |ˈdɪtʃɪŋ| *n* yer kovlash
ditch-water |ˈdɪtʃˌwɔ:tə| *n* ko'lmak, turgan suv, oqmas suv
dithecous |daɪˈθi:kəs| *a bot.* ikki kamerali, ikki inli (*changdon va b. haqida*)
dither |ˈdɪðə| **1.** *n* 1) *so'zl.* sarosimaga tushish, gangish, esankirash, dovdirash, iztirob chekish; hayajonlanish; 2) *sheva.* titroq, qaltiroq, larza; titrash, qaltirash; **2.** *v* 1) *so'zl.* juda ham sarosimaga tushmoq, gangimoq, esankiramoq, dovdiramoq, iztirob chekmoq; hayajonlanmoq; 2) *sheva.* titramoq, qaltiramoq
dithyramb |ˈdɪθɪræm(b)| *n* 1) difiramb (*qadimgi yunonlarning xudosi Dionisga bag'ishlangan madhiya*); 2) *kit.* madh, madhiya, ortiq maqtov
dithyrambic |ˌdɪθɪˈræmbɪk| *a* difirambga oid, difiramb...; 2) *kit.* jazava (g'azab, hayajon va sh. k.)dan o'zini bilmaydigan, g'azabi oshgan, darg'azab, tutaqib (qizishib) turgan, quturgan
ditokous |ˈdɪtəkəs| *a zool.* 1) ikkita bola tug'adigan; 2) ikkita tuxum qo'yadigan
dittander |dɪˈtændə| *n bot.* baqajo'xori, sassiq tol
dittay |ˈdɪteɪˌdɪtɪ| *n shotl. yur.* 1) ayblash uchun asos; 2) ayblash akti
ditto |ˈdɪtəʊ| **1.** *n* (*pl* **-os** |-əʊz|) 1) aynan bir xil miqdordagi summa; 2) *so'zl.* aynan o'shanday nusxa; **2.** *adv* bir xil, aynan shu tarzda; **to act ~** aynan shu tarzda harakat qilmoq
dittography |dɪ ˈtɒgrəfɪ| *n* o'zaro xat yozishda biror harf yoki so'zning to'satdan qaytarilishi
dittology |dɪˈtɒlədʒɪ| *n* ikki marta (hissa) o'qish *yoki* sharhlash
ditty | ˈdɪtɪ| *n* (qisqa) ashula, qo'shiq; lapar, terma
ditty-bag |ˈdɪtɪbæg| *n* nina, iplar uchun xaltacha
ditty-box |ˈdɪtɪbɒks| *n* quticha (*nina, iplar uchun*)
diuretic |ˌdaɪjʊəˈretɪk| **1.** *a tib.* siydik haydovchi; **2.** *n* siydik haydovchi dori
diurnal |daɪˈɜ:nl| **1.** *n* 1) kunduzgi kapalak (mayda chivin, mayda pashsha) *yoki* qush; 2) *esk.* har kungi (kundalik) gazeta; 3) *esk.* kundalik; jurnal; **2.** *a astr.* 1) bir kecha-kunduzlik; 2) kunduzgi; 3) har kungi, kundalik
div |di:v| *n fors. afs.* dev (*fors-tojik va turkiy xalqlar afsonalarida yovuzlik timsoli*)
diva |ˈdi:və| *n* primadonna (*yetakchi rollarni bajaruvchi opera ashulachisi*)
divagate |ˈdaɪvəgeɪt| *v* 1) aylanib (sandiroqlab) yurmoq, kezmoq, tentiramoq, izg'imoq, laqillab yurmoq; 2) mavzudan chetga chiqmoq
divagation |ˌdaɪvəˈgeɪʃ(ə)n| *n* 1) bir joydan ikkinchi joyga maqsadsiz yurish; 2) (*mavzudan*) chetga chiqish
divalent |ˌdaɪˈveɪlənt| *a kim.* ikki valentli
divan I |dɪˈvæn| *n* 1) devon (*Turkiya davlat kengashi*); 2) devon, vazirlar hay'ati (*ba'zi Sharq mamlakatlarida*)
divan II |dɪˈvæn| *n* 1) suyanchig'i yo'q, pastak keng divan, kat; 2) keng yumshoq divan
divan III |dɪˈvæn| *n* devon, she'rlar to'plami (*sharq she'riyatida*)
divan-bed |dɪˈvænbed| *n* kushetka (*yumshoq kursi*)
divaricate **1.** *a* |daɪˈværɪkɪt| tarmoqlanadigan, tarqaladigan, sochiladigan; **2.** *v* |daɪˈværɪkeɪt| tarqalib ketmoq; tarmoqlanmoq, tarmoqlarga bo'linmoq; ikkiga bo'linmoq
divarication |daɪˌværɪˈkeɪʃ(ə)n| *n* 1) tarmoqlanish; 2) shoxobcha, tarmoq; 3) fikrlardagi farq, tafovut
dive |daɪv| **1.** *n* suvga sho'ng'ish (sakrash); **2.** *v* suvga sho'ng'imoq, sakramoq
dive-bomb |ˈdaɪvbɒm| *v harb.* (*pastga*) bomba tashlamoq
dive-bomber |ˈdaɪvˌbɒmə| *n* pastga qarab bomba otuvchi
dive-bombing |ˈdaɪvˌbɒmɪŋ| *n harb.* pastga qarab bomba otish
divective |dɪˈvektɪv| *a maxs.* markazga intiladigan
divellent |dɪ(a)ɪˈvel(ə)nt| *a kam.* yurakni ezadigan, mudhish, dahshatli
diver |ˈdaɪvə| *n* (*suv tagiga tushuvchi*), sho'ng'uvchi g'ovvos
diverge |daɪˈvɜ:dʒ| *v* 1) tarqalmoq, tarqalib ketmoq; 2) o'zini olib qochmoq
divergence |daɪˈvɜ:dʒ(ə)ns| *n* farq, tafovut, ayirma, kelishmovchilik, to'g'ri kelmaslik, ixtilof

divergency [daɪˈvɜːdʒ(ə)nsɪ] *n* tarqalish, ayrilish, sochilish
divergent [daɪˈvɜːdʒ(ə)nt] *a* 1) tarqaladigan, yoyiladigan; 2) farqlanadigan, farq qiladigan
divergently [daɪˈvɜːdʒ(ə)ntlɪ] *adv* turli tomonlarga
diverging [daɪˈvɜːdʒɪŋ] tarqaladigan, yoyiladigan
divers [ˈdaɪvəz] *a* har xil, turli, turlicha, boshqa-boshqa, turli-tuman
diverse [daɪˈvɜːs] *a* 1) turli; 2) har xil
diversely [daɪˈvɜːslɪ] *adv* 1) turli ko'rinishda (qiyofada, shaklda); har xil ko'rinishda, bir-biriga to'g'ri kelmasdan; 2) turli tomonlarga
diversified [daɪˈvɜːsɪfaɪd] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang, ko'p qirrali
diversiform [daɪˈvɜːsɪfɔːm] *a kit.* turli (har xil) shakllarga ega bo'lgan
diversify [daɪˈvɜːsɪfaɪ] *v* turli tusga kirmoq; har xil qilmoq, turli-tuman qilmoq
diversion [daɪˈvɜːʃ(ə)n] *n* chetga burilish, og'ish, chalg'itish
diversionist [daɪˈvɜːʃ(ə)nɪst] *n* qo'poruvchi, diversant
diversity [daɪˈvɜːsɪtɪ] *n* 1) farq, tafovut, o'zgalik, har xillik, farq qilish; 2) turli xillik, xilma-xillik
divert [daɪˈvɜːt] *v* 1) biror tomonga burmoq, boshqa tomonga yo'naltirmoq; 2) (*diqqat va sh. k. ni*) boshqa tomonga tortmoq, chalg'itmoq; 3) yo'ldan urmoq, adashtirmoq
diverticle [dɪˈvɜːtɪkl] *esk.* = **diverticulum**
diverticula [ˌdaɪvəˈtɪkjolə] *pl of* **diverticulum**
diverticulum [ˌdaɪvəˈtɪkjoləm] *n* (*pl* **-la** [-lə]) *anat.* divertikul (*kovak (naysimon) a'zolar devorining bo'rtib chiqishidan hosil bo'lgan xartum, kovakli bo'rtma*)
diverting [daɪˈvɜːtɪŋ] *a* ko'ngil ochadigan, kayfni chog' qiladigan, o'yin-kulgili, qiziq, ajib
divertissement [dɪˌvertɪsˈmɑːŋ] *n fr.* 1) ko'ngil ochish, tomosha qilish; 2) divertisment (*spektaklga yoki konsertga qo'shimcha qilingan mayda o'yin va ashulalar*)
divertive [daɪˈvɜːtɪv] *a kam.* 1) uzoqlashtiradigan, alahsitadigan, chalg'itadigan, uzoqlashtirib qo'yadigan; 2) burib yuboradigan, boshqa yo'lga soladigan
Dives [ˈdaɪviːz] *n* boy, badavlat odam
divest [daɪˈvest] *v* 1) yechintirmoq, kiyimini yechmoq, yechib qo'ymoq; 2) mahrum qilmoq, tortib olmoq, judo qilmoq
divestitive [daɪˈvestɪtɪv] *a kit.* 1) yechintiradigan, yechintirib qo'yadigan; 2) (*aybni*) fosh qiladigan, oshkor qiladigan, ochib tashlaydigan
divestiture [daɪˈvestɪtʃə] *n* 1) yechintirmoq, yechintirib qo'ymoq, yechib qo'ymoq; 2) huquqdan mahrum qilish
divestment [daɪˈvestmənt] *n* 1) kiyimini yechish, yechintirish; 2) (*huquq va b. dan*) mahrum qilish
dividable [dɪˈvaɪdəbl] *a* bo'linadigan, taqsimlanadigan, bo'laklarga (qismlarga) bo'lingan
divide [dɪˈvaɪd] *v* 1) bo'lmoq, ajratmoq; 2) qismlarga bo'lmoq; 3) turkumlamoq
divided [dɪˈvaɪdɪd] *a* bo'lingan, taqsimlangan
dividend [ˈdɪvɪdend] *n* 1) *iqt.* divident (*aksiyadan kelgan daromad*); 2) *mat.* bo'linuvchi
dividend-warrant [ˈdɪvɪdendˌwɒr(ə)nt] *n* divident olish uchun guvohnoma
divider [dɪˈvaɪdə] *n* 1) bo'luvchi kishi; 2) *tex.* bo'luvchi qurilma; 3) separator
dividers [dɪˈvaɪdəz] *n pl* 1) o'lchaydigan sirkul; 2) bo'lish sirkuli
dividing [dɪˈvaɪdɪŋ] *n* bo'luvchi, bo'ladigan
dividual [dɪˈvɪdjʊəl] *a* 1) alohida; ba'zi; 2) bo'linadigan, bo'linuvchi
dividuous [dɪˈvɪdjʊəs] *a kam.* bo'linuvchi, bo'linadigan, qismlarga bo'linadigan (ajraladigan)
divination [ˌdɪvɪˈneɪʃ(ə)n] *n* bashorat qilish, kelajakni oldindan aytish
divinator [ˈdɪvɪneɪtə] *n esk.* avliyo, valiy, karomat (bashorat) qiluvchi, sohibkaromat; folbin
divine [dɪˈvaɪn] **1.** *n* teolog (*din bo'yicha mutaxassis*); **2.** *a* 1) ilohiy; Xudoga, Tangriga oid; Xudo..., Tangri...; 2) muqaddas, aziz, tabarruk; 3) a'lo, afzal, juda yaxshi; **3.** *v* oldindan aytmoq, kelajakdan xabar bermoq
divinely [dɪˈvaɪnlɪ] *adv* 1) ajoyib bir tarzda, go'zal, benazir; 2) xudo singari (kabi), xudoga o'xshab, sanamdek
diviner [dɪˈvaɪnə] *n* 1) oldindan aytib beruvchi, bashorat (karomat) qiluvchi, bashoratgo'y, karomatchi; 2) avliyo, valiy, sohibkaromat
diving [ˈdaɪvɪŋ] *n* 1) sho'ng'ish; 2) yuqoridan suvga tashlash
diving-bell [ˈdaɪvɪŋbel] *n* suv tagiga tushishga oid qo'ng'iroq
diving board [ˈdaɪvɪŋbɔːd] *n* (*suvga sakrash uchun*) tramplin
diving-buck [ˈdaɪvɪŋbʌk] *n zool.* Janubiy Afrika antilopasi (kiyigi)
diving-dress [ˈdaɪvɪŋdres] *n* skafandr (*suv o'tmaydigan kiyim*)
diving-duck [ˈdaɪvɪŋdʌk] *n zool.* botqaldoq, baliqchi o'rdak
diving-helmet [ˈdaɪvɪŋˌhelmɪt] *n* g'avvos(lar) shlemi
diving-rudder [ˈdaɪvɪŋˌrʌdə] *n* 1) *av.* balandlik *yoki* pastlik ruli; 2) *deng.* gorizontal rul
divinify [dɪˈvɪnɪfaɪ] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq, topinmoq
divining-rod [dɪˈvaɪnɪŋrɒd] *n* 1) sehrli tayoqcha; 2) suv yoki ruda izlab topish uchun xivich, chiviq, novda
divinity [dɪˈvɪnɪtɪ] *n* ilohiyot, Xudo, Alloh, Iloh
divinize [ˈdɪvɪnaɪz] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq
divisibility [dɪˌvɪzɪˈbɪlɪtɪ] *n* bo'lish, ajratish, taqsimot, ajralish, tafovut
divisible [dɪˈvɪzəbl] *a* bo'linadigan, bo'linuvchi
division [dɪˈvɪʒ(ə)n] *n* 1) *harb.* diviziya; 2) bo'lish; taqsimlash; 3) *mat.* bo'lish; 4) fikrlardagi farq, tafovut; 5) tasniflanish, bo'lish; 6) (*bir necha fakultetlar*) bo'limi
divisional [dɪˈvɪʒənl] *a* 1) *harb.* diviziyaga oid; 2) bo'linishga oid; 3) kasrga oid
divisionary [dɪˈvɪʒən(ə)rɪ] *kam.* = **divisional**
divisive [dɪˈvaɪsɪv] *a* 1) bo'luvchi; 2) orani buzuvchi, ajratib yuboruvchi, bir-biridan judo qiluvchi, nifoq soluvchi
divisiveness [dɪˈvaɪsɪvnəs] *n* munozaralilik, hal bo'lmaganlik, noaniqlik; talashlik, janjallilik
divisor [dɪˈvaɪzə] *n mat.* bo'luvchi
divorce [dɪˈvɔːs] **1.** *n* taloq; ajralish; nikohning bekor qilinishi; **2.** *v* ajrashmoq; nikohni bekor qilmoq
divorcee [dɪˌvɔːˈsiː] *n* ajrashgan (*er yoki xotin*)
divorcement [dɪˈvɔːsmənt] *n* ajralish (*er-xotin haqida*); nikohning bekor qilinishi
divot [ˈdɪvət] *n* chim, chimzor
divulgate [ˈdaɪvʌlgeɪt] = **divulge**
divulgation [ˌd(a)ɪvʌlˈgeɪʃ(ə)n] *n* oshkor qilish, hammaga bildirib qo'yish
divulge [d(a)ɪˈvʌldʒ] *v* oshkor qilmoq, hammaga ma'lum qilmoq, ovoza qilmoq, (*sirni*) oshkor qilmoq
divulgence [daɪˈvʌldʒ(ə)ns] *n kit.* 1) hammaga ma'lum qilish, oshkor qilish, aytib qo'yish; gap tarqatish, ovoza qilish; 2) e'lon qilish, hammaga (xalqqa) bildirish, oshkor qilish
divulsion [daɪˈvʌlʃ(ə)n] *n kit.* 1) uzilish, ajralish, ayirish; 2) (*aloqa yoki munosabatni*) uzish, buzish; 3) yorilish, yorilib ketish, uzilish

divvy [ˈdɪvɪ] **1.** *n* haq, hissa, ulush; **2.** *v* bo'lishmoq; o'rtoqlashmoq, baham ko'rmoq

dixie, dixy [ˈdɪksɪ] *n harb.* oshxona qozoni

dixit [ˈdɪksɪt] *n kit.* shikoyatsiz, tasdiqlash

dizain [dɪˈzeɪn] *n* o'n qatorli she'r

dizdar [ˈdi:zdɑ:] *n tar.* qasr (qal'a, saroy) qo'riqlovchisi (posboni)

dizen [ˈdaɪzən] *v esk.* yasantirmoq, yaxshi (bashang) kiyintirmoq, bezantirmoq, yasanmoq, bejamoq, bezamoq, zeb (oro) bermoq, bezatmoq

dizzily [ˈdɪzɪlɪ] *adv* boshni aylantirib, miyani aynitib

dizziness [ˈdɪzɪnəs] *n* bosh aylanish

dizzy [ˈdɪzɪ] **1.** *a* boshi aylanayotgan; **2.** *v* bosh aylanmoq

do I [du:] *n* (*pl* **dos, do's** [du:z]) 1) *so'zl.* aldash, firib (pand) berish; aldov, aldovchilik, pand, aldamchilik; yolg'on-yashiq; 2) *so'zl.* o'yin-kulgi, sayr-tomosha, ermak, ovunchoq

do II [du:] *v* (**did, done**) bajarmoq, amalga oshirmoq, qilmoq

doable [ˈdu:əbl] *a* bajarsa bo'ladigan

do-all [ˈdu:ɔ:l] *n* har tomonlama mohir, qo'ligul

dobbin [ˈdɒbɪn] *n* kichkina finjon (chashka)

dobby [ˈdɒbɪ] *n* 1) *sheva.* ahmoq odam, esi yo'q odam; ahmoq, tentak, esi past; 2) *mah.* jin, ajina; 3) *sheva.* karetka (*to'qish dastgohining siljish qismi*)

dobla [ˈdəʊblə] *n* dobla (*ispanlarning eski tilla tangasi*)

dobson [ˈdɒbsn] *n* yem, xo'rak (*qarmoqqa, qopqonga qo'yilgan yemish*)

doc [dɒk] *n so'zl.* doktor, shifokor

docent [də(ʊ)ˈsent] **1.** *n* 1) *kam.* o'qituvchi, muallim, lektor, leksiya o'quvchi; 2) *amer.* assistent (*1. professor yoki shifokor yordamchisi; 2. oliy o'quv yurtlarida: kichik o'qituvchi va shu unvon egasi*); **2.** *a kit.* o'qitadigan, o'rgatadigan, ta'lim beradigan

docile [ˈdəʊsaɪl] *a* gapga kiradigan, gapga quloq soladigan, itoatkor

docilely [ˈdəʊsaɪllɪ] *adv* gapga (so'zga) kirib, itoat bilan, bo'ysunib, quloq solib, rozi bo'lib, yon berib, ko'nib

docility [də(ʊ)ˈsɪlɪtɪ] *n* 1) gapga quloq solish, itoatkorlik; 2) o'qishga qobiliyat; zehni o'tkirlik, ziyraklik

docimasy [ˈdɒsɪməsɪ] *n farm.* proba; tadqiqot; jasadni sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish

docity [ˈdɒsɪtɪ] *n sheva.* tushunuvchanlik, zehnlilik, zehni balandlik, ziyraklik, zehni o'tkirlik, fahm-idrokli, o'tkirlik

dock I [dɒk] **1.** *n* dok (*kema va paroxodlarni ta'mirlaydigan ishxona*); **2.** *v* 1) (*kemani*) dokka (*kemalar tuzatiladigan korxonaga*) olib kirmoq; 2) dokka kirmoq (*kema haqida*)

dock II [dɒk] *n yur.* qora kursi; sudlanuvchilar kursisi

dock III [dɒk] *n bot.* shovul

dock IV [dɒk] **1.** *n maxs.* 1) dumg'aza (*hayvonlar dumida*); 2) kesilgan dum; **2.** *v* 1) (*dumni*) qirqmoq, kesmoq; 2) (*sochni*) kalta qilmoq

dockage [ˈdɒkɪdʒ] *n* kemalarning turadigan joyi

dock-dues [ˈdɒkdju:z] *n* dok, port yig'imlari

docker [ˈdɒkə] *n deng.* portda ishlaydigan ishchi

docket [ˈdɒkɪt] **1.** *n* hujjatning ustiga yozilgan yozuv; **2.** *v* belgi qo'ymoq, tamg'a bosmoq

docking [ˈdɒkɪŋ] *n* (*kemani*) dokka kirgizish

dock-master [ˈdɒkˌmɑ:stə] *n* dok boshlig'i

dockyard [ˈdɒkjɑ:d] *n* kemasozlik zavodi

doctor [ˈdɒktə] **1.** *n* doktor, shifokor; **2.** *v so'zl.* davolamoq, muolaja qilmoq; **to ~ smb.** kimnidir davolamoq

doctoral [ˈdɒkt(ə)rəl] *a* doktorlik darajasiga oid; doktorlik

doctorate I. *n* [ˈdɒkt(ə)rɪt] 1) doktorlik darajasi; 2) doktoratura; **2.** *v* [ˈdɒkt(ə)reɪt] *kam.* doktorlik ilmiy darajasini bermoq

doctoress [ˈdɒkt(ə)rɪs] = **doctress**

doctorial [dɒkˈtɔ:rɪəl] = **doctoral**

doctorship [ˈdɒktəʃɪp] *n* doktorlik darajasi

doctress [ˈdɒktrɪs] *n* 1) *kam.* shifokor ayol; 2) *hazil.* shifokorning xotini; shifokorning qizi

doctrinaire [ˌdɒktrɪˈneə] **1.** *n* aqidaparast, qiroatxon, qori, harfxo'r; **2.** *a* aqidaparastlarga xos bo'lgan, aqidaparastlarcha; qiroatxonlikdan iborat, ko'r-ko'rona; quruq safsatadan iborat bo'lgan

doctrinal [dɒkˈtraɪnl] *a* aqidaparastlikka oid

doctrinarian [ˌdɒktrɪˈneərɪən] *kit.* = **doctrinaire 1, 2**

doctrinarianism [ˌdɒktrɪˈneərɪənɪz(ə)m] *n kit.* aqidaparastlik, qiroatxonlik

doctrinate [ˈdɒktrɪneɪt] *v esk.* o'rgatmoq, yo'l yo'riq ko'rsatmoq, ta'lim bermoq, o'qitmoq

doctrine [ˈdɒktrɪn] *n* ta'limot; nazariya

document [ˈdɒkjʊmənt] *n* hujjat, guvohnoma

documental [ˌdɒkjʊˈmentl] *kam.* = **documentary**

documentary [ˌdɒkjʊˈment(ə)rɪ] *a* hujjatli, hujjatlarga asoslangan; **a ~ film** hujjatli film

documentation [ˌdɒkjʊmenˈteɪʃ(ə)n] *n* hujjat, rasmiy qog'oz

dod I [dɒd] *int. sheva.* e xudo! xudoyim! tangrim! yo rabbiy! voy xudoyimey!; astag'firullo!; tavba!

dod II [dɒd] *n sheva. bot.* lux, qo'g'a (*suv bo'yida o'sadigan bir xil baland o't*)

dodder I [ˈdɒdə] *v* oqsoqlanmoq, sudralmoq, oyoqlarini sudrab qadam bosmoq

dodder II [ˈdɒdə] *n bot.* zarpechak, devpechak

doddered [ˈdɒdəd] *a* bargi to'kilgan, ship-shiydam bo'lgan (*daraxtlar haqida*)

doddery [ˈdɒdərɪ] *a* 1) tentak, ahmoq; 2) oyoqda tura olmaydigan

doddie [ˈdɒdɪ] = **doddy**

doddle [ˈdɒdl] *n* qulay (oson) ish

doddy [ˈdɒdɪ] *n shotl.* 1) shoxsiz sigir; 2) shoxsiz buqa (ho'kiz)

doddypoll [ˈdɒdɪpəʊl] *n esk.* ahmoq, tentak, nodon

dodecagon [dəʊ ˈdekəgən] *n* o'n ikki burchaklilik

dodecahedron [ˌdəʊdekəˈhi:dr(ə)n] *n* o'n ikki yoqlik; dodekaedr

dodge [dɒdʒ] **1.** *n* hiyla, nayrang; **2.** *v* 1) chap bermoq, o'zini chetga olmoq, chalg'itmoq; 2) (*ta'qibdan bekinib*) yashirinmoq; 3) (*biror kimsaning orqasidan*) bildirmasdan bormoq; 4) orqaga va oldinga harakat qilmoq

dodger [ˈdɒdʒə] *n* hiylagar, ayyor, mug'ambir

dodgery [ˈdɒdʒərɪ] *n* bahona, vaj, hiylanayrang

dodging [ˈdɒdʒɪŋ] *n* zarbadan o'zini chetga olish (*boksda*)

dodgy [ˈdɒdʒɪ] *n* ayyor, hiylakor, shayton

dodman [ˈdɒdmən] *n sheva.* shilliqqurt, chig'anoq

dodo [ˈdəʊdəʊ] *n* (*pl* **-oes, -os** [-əʊz]) johil (qoloq, nodon) kishi

doe [dəʊ] *n* urg'ochi, moda, makiyon (*bug'u, quyon va h. k. haqida*)

doer [ˈdu(:)ə] *n* amalga oshiruvchi, bajaruvchi, ijrochi

does [dʌz] **do** *fe'lining hozirgi zamon III saxs birlik shakli*; **he ~ his homework everyday** u har kuni uy ishini bajaradi

doeskin [ˈdəʊskɪn] *n* 1) bug'uning terisi; 2) zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*)

doff [dɒf] *v* (*kiyimni*) yechmoq, yechib qo'ymoq, yechib tashlamoq

doffer [ˈdɒfə] *n to'q.* oluvchi, teruvchi, yig'uvchi

dog [dɒg] **1.** *n* 1) it, kuchuk; 2) erkak (*bo'ri, tulki va b. haqida*); **2.** *v* 1) ketmaket bormoq; (*birovning orqasidan*) kuzatmoq, izidan bormoq; 2) **it bilan** ta'qib qilmoq; itga oldirmoq

dogana [dəʊˈgɑːnə] *n* 1) bojxona (*Italiyada*); 2) bojxona boji (*Italiya va Ispaniyada*)

dog-bane [ˈdɒgbeɪn] *n bot.* kendir (*tolali ko'p yillik o'tsimon o'simlik*)

dog-bee [ˈdɒgbiː] *n* 1) erkak asalari; 2) dangasa, ishyoqmas, tekinxo'r

dogberry [ˈdɒgb(ə)rɪ] *n bot.* ituzum (*yeb bo'lmaydigan mayda mevali o'simlik*)

dogberry-tree [ˈdɒgb(ə)rɪtriː] *n bot.* qizil (*qizil mevali buta va uning nordon mevasi*)

dog-biscuit [ˈdɒg,bɪskɪt] *n* itlarga beriladigan qotirilgan kulcha non

dog-bolt, dogbolt [ˈdɒgbəʊlt] *n tex.* (*quloqli, gaykali*) qaytarma bolt

dog-box [ˈdɒgbɒks] *n* yuk vagonlarida itlar uchun ajratilgan maxsus bo'linma

dog-bramble [ˈdɒg,bræmbl] *n bot.* 1) na'matak, itburun; 2) yovvoyi krijovnik (*buta*)

dog-cart [ˈdɒgkɑːt] *n* it qo'shilgan aravacha

dog-cheap [ˈdɒgtʃiːp] *a amer. so'zl.* arzon, juda arzon

dog-collar [ˈdɒg,kɒlə] *n* bo'yinbog', bo'yinga taqiladigan tasma, qayish (*hayvonlar uchun*)

dog-daisy [ˈdɒg,deɪzɪ] *n bot.* dastorgul

dog-days [ˈdɒgdeɪz] *n* 1) yozning issiq kunlari; 2) qora kunlar, og'ir paytlar

doge [dəʊd] *n tar.* doj (*XVIII asrdan ilgarigi Venetsiya va Genuya respublikalari boshlig'ining unvoni*)

dog-eared [ˈdɒgɪəd] : **a ~ book** titilgan (eskirgan) kitob

dogface [ˈdɒgfeɪs] *n amer. so'zl.* 1) piyoda askarlar; 2) rekrut (*chor Rossiyasida askarlikka olingan yangi askar*)

dog-fancier [ˈdɒg,fænsɪə] *n* 1) itboqar; 2) itboz

dogfight [ˈdɒg,faɪt] *n harb.* 1) havo jangi; 2) qo'l jangi

dogfish [ˈdɒgfɪʃ] *n zool.* nalim, yelimbaliq

dog-fox [ˈdɒgfɒks] *n* nar (erkak) tulki

dogged [ˈdɒgɪd] **1.** *a* o'jar, qaysar; **2.** *adv* juda, juda ham, haddan tashqari, o'ta, favqulodda

doggedly [ˈdɒgɪdlɪ] *adv* o'jarlik (qaysarlik) bilan, qattiq turib, zo'r berib, astoydil, sabot (matonat) bilan

doggedness [ˈdɒgɪdnəs] *n* o'jarlik, qaysarlik, sarkashlik

dogger [ˈdɒgə] *n* 1) *deng.* Gollandiyaning baliq ovlaydigan ikki minorali (machtali) kemasi; 2) *geol.* mezozoy erasining ikkinchi davri

doggerel [ˈdɒg(ə)rəl] **1.** *n* bo'lar-bo'lmas she'rlar, yomon yozilgan she'rlar; **2.** *a* yomon, nojo'ya, nobop, ma'nosiz, maznunsiz (*she'r haqida*)

doggery [ˈdɒg(ə)rɪ] *n* 1) itlar; 2) hayvoniy xulq, qabih fe'l

doggie [ˈdɒgɪ] *n* kuchuk, kichkina it

dogginess [ˈdɒgɪnəs] *n* 1) itlarga bo'lgan muhabbat; 2) it (go'shtning *yoki* yungining) hidi

doggish [ˈdɒgɪʃ] *a* 1) qo'rs, qo'pol, dag'al; 2) itga oid, itniki

doggo [ˈdɒgəʊ] *adv* yashirinib, bekinib; **to lie ~** yashirinmoq, bekinmoq

doggone [ˈdɒ,gɒn] *int.* attang! afsus! esizgina!

dog-grass [ˈdɒg(g)rɑːs] *n bot.* bug'doyiq (*yer bag'irlab o'sadigan bug'doysimon o'simlik*)

doggrel [ˈdɒgr(ə)l] = **doggerel 1, 2**

doggy [ˈdɒgɪ] **1.** *n* kichkina it, kuchukcha; **2.** *a* itlarni yaxshi ko'radigan

dog-hole [ˈdɒghəʊl] *n* itning uychasi

dog-hook [ˈdɒghʊk] *n* 1) gayka kaliti; 2) uzun dastali ilgak, changak

dog-house [ˈdɒghaʊs] *n* itning uychasi

dog-hutch [ˈdɒghʌtʃ] = **dog-house**

dog-in-the-manger [ˈdɒgɪnðəˈmeɪn(d)ʒə] *n* na o'ziga qiladi, na birovga; o'ziga ham qilmaydi, birovga ham bermaydi

dog-iron [ˈdɒg,aɪən] *n pl* ustiga o'tin qalanadigan temir taglik (*kaminda*)

dog-lead [ˈdɒgliːd] *n* itning yetaklash ipi, arqoni, jilovi

dog-licence [ˈdɒg,laɪsəns] *n* itning ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma

doglike [ˈdɒglaɪk] *a* sadoqatli, ishonchli, chin, vafodor

dog-louse [ˈdɒglaʊs] *n* (*pl* **-lice** [-laɪs]) it kanasi (jo'lagi)

dogma [ˈdɒgmə] *n* 1) aqida; 2) din aqidalari; 3) qotma, qotib qolgan

dogmata [ˈdɒgmətə] *pl of* **dogma**

dogmatic [dɒgˈmætɪk] *a* 1) dogmatik, aqidalarga asoslangan; 2) qotib qolgan

dogmatical [dɒgˈmætɪk(ə)l] = **dogmatic**

dogmatically [dɒgˈmætɪkəlɪ] *adv* qat'iy, uzil-kesil

dogmatics [dɒgˈmætɪks] *n* (*sing.*) aqidaparastlik

dogmatism [ˈdɒgmətɪz(ə)m] *n* aqidaparastlik; aqidalarga ko'r-ko'rona ishonish (yopishib olish)

dogmatist [ˈdɒgmətɪst] *n* aqidaparast

dogmatize [ˈdɒgmətaɪz] *v* aqidalarga ko'r-ko'rona ishontirmoq

dog nail [ˈdɒgneɪl] *n* 1) qo'ltiqtayoq; 2) qoziq mix

dog-nap [ˈdɒgnæp] *n* (*kresło va b. da*) qisqa muddatli uyqu; **to take a ~** suyanib yotmoq, sal yonboshlamoq, mudrab qolmoq, ko'zi ilinmoq

dog-poor [ˈdɒgpʊə] *a* gadoy, tilanchi

dog-rose [ˈdɒgrəʊz] *n bot.* na'matak, itburun

dog-salmon [ˈdɒg,sæmən] *n zool.* keta (*lososlar oilasiga mansub qizilgo'shti baliq*)

dog's-bane [ˈdɒgzbeɪn] *n bot.* kendir (*tolali ko'p yillik o'tsimon o'simlik*)

dog's-bramble [ˈdɒgz,bræmbl] = **dog-bramble**

dog's-grass [ˈdɒgzgrɑːs] *n bot.* bug'doyiq (*yerga yoyilib o'sadigan g'allasimon o'simlik*)

dog-sick [ˈdɒgˌsɪk] *a* noxush his qilish; **he was ~** u o'zini noxush (yomon) his qildi

dogskin [ˈdɒgskɪn] *n* layka (*mayin teri*)

dog-sleep [ˈdɒgsliːp] *n* hushyor (sezgir) uyqu

dog's letter [ˈdɒgz,letə] *n* „**R**" harfining eski nomi

dog's-meat [ˈdɒgzmiːt] *n* 1) o'limtik, o'laksa; 2) itga beriladigan go'sht

Dog's-tail [ˈdɒgzteɪl] *n astr.* Kichik Ayiq, Kichik Yetti og'ayni (*yulduz turkumi*)

Dog-star [ˈdɒgstɑː] *n astr.* Sirius (*yulduz*)

dog's-tooth [ˈdɒgztuːθ] = **dog-tooth**

dog's-wheat [ˈdɒgzwiːt] = **dog-grass**

dog tag [ˈdɒgtæg] *n* itni qaydga (ro'yxatga) olish raqami

dog tapeworm [ˈdɒgˈteɪpwɜːm] *zool. tib.* exinokokk (*gijjalarning bir turi*)

dog-tent [ˈdɒgtent] *n so'zl.* 1) kichkina chodir; 2) ikki kishilik ko'chma chodir

dog-tired [ˌdɒgˈtaɪəd] *a* qattiq (rosa, juda) charchagan, horigan, tinkasi qurigan, holdan toygan, itdek charchagan

dog-tooth [ˈdɒgtuːθ] *n* (*pl* **-teeth** [-tiːθ]) qoziq tish, so'yloq tish

dog-trick [ˈdɒgtrɪk] *n esk.* 1) iflos qiliq, yomon odat; 2) yomon xizmat ko'rsatish

dogtrot [ˈdɒgtrɒt] *n* yo'rtib chopish, yelish

dog-violet [ˈdɒg,vaɪəlɪt] *n bot.* yovvoyi binafsha

dog-weary [ˌdɒgˈwɪərɪ] = **dog-tired**

dog-wheat [ˈdɒgwiːt] = **dog-grass**

dogwood [ˈdɒgwʊd] *n bot.* qizil (*qizil mevali buta va uning nordon mevasi*)

doiled, doilt [dɔɪld, dɔɪlt] *a shotl.* aqldan ozgan, telba, jinni, ahmoq, tentak

doily [ˈdɔɪlɪ] *n* qo'l sochiq (*mato va qog'ozdan*)

doing [ˈdu(:)ɪŋ] **1.** *n* yumush; **2.** *a* 1) amaldagi, faol ishtirok etayotgan; 2) (*kino, teatrda*) qo'yilayotgan; **what's ~ tonight?** kechqurun nima qo'yilyapti?
doings [ˈdu:ɪŋz] *n pl* ish, harakat, muomala; qiliq
doit [dɔɪt] *n* 1) mayda-chuyda; 2) mayda pul
doited [ˈdɔɪtɪd] *a shotl.* qarib aqldan ozgan
doldrums [ˈdoldrəmz] *n* ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik
dole I [dəʊl] **1.** *n* 1) ishsizlik nafaqasi; 2) (*biror narsani xayriya maqsadida*) tarqatish, berish; **2.** *v* 1) istar-istamas (uncha xohlamasdan) tarqatmoq; 2) xayriya yordami ko'rsatmoq
dole II [dəʊl] *n shoir.* 1) qayg'u, g'am, dard-alam, dog'; 2) ingrash, oh-voh qilish, zorlanish; oh-voh, oh-zor, nola, fig'on, afg'on; **to make ~** ingramoq (oh-voh qilmoq)
doleful [ˈdəʊlf(ə)l] *a* qayg'uli, g'amgin, achinarli, motamsaro
dolefully [ˈdəʊlfʊlɪ] *adv* qayg'urib, achinib, motamsaro bo'lib, g'amgin bo'lib; ma'yus bo'lib, xafa bo'lib, g'amgin, g'amgin ravishda
dolefuls [ˈdəʊlf(ə)lz] *n* (**the ~**) *pl hazil.* 1) ruhiy qiynalish, azob-uqubat, **kulfat**, alam, jabr, jafo, qayg'u, dard-alam; 2) zerikish, siqilish, ma'yuslik; ko'ngil g'ashlik; g'am-g'ussa, xunobgarchilik; **to be in the ~** o'ta siqilmoq, g'am-g'ussaga botmoq
dolent [ˈdəʊl(ə)nt] *a esk.* qayg'uli, dard-alamli; achinarli; g'amgin, motamsaro
dolerite [ˈdɒlərəɪt] *n min.* dolerit (*magmatik tog' jinsi*)
dolesome [ˈdəʊlsəm] *a kam.* qayg'uli, dard-alamli; achinarli; g'amgin, motamsaro
dolia [ˈdəʊlɪə] *pl of* **dolium**
dolichocephalic [ˌdɒlɪkə(ʊ)sɪˈfælɪk] *a tib.* boshi cho'ziq, boshi uzun; guvalabosh
do-little [ˈdu:ˌlɪtl] *n so'zl.* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas, soyaparvar, bekorchi, bekorchixo'ja
dolium [ˈdəʊlɪəm] *n* (*pl* **-lia**) katta sopol ko'za
doll [dɒl] **1.** *n* qo'g'irchoq; **2.** *v* yasantirmoq, kiyintirmoq
dollar [ˈdɒlə] *n* dollar; **the ~s** pullar, boylik
dollish [ˈdɒlɪʃ] *a* qo'g'irchoqqa oid, qo'g'irchoqqa o'xshagan
doll-like [ˈdɒllaɪk] *a* qo'g'irchoqsimon, qo'g'irchoqqa o'xshagan
dollop [ˈdɒləp] *n* kattagina bo'lak, parcha, tishlam
dolly [ˈdɒlɪ] **1.** *n* kichkina qo'g'irchoq; **2.** *a so'zl.* 1) qo'g'irchoqqa oid; bolalarga xos; 2) oson, yengil
dolly-bag [ˈdɒlɪbæg] *n* ayollarning kichkina sumkachasi
dolly-shop [ˈdɒlɪʃɒp] *n* matroslar do'koni
dolly-tub [ˈdɒlɪtʌb] *n* tog'ora, jom
dolman [ˈdɒlmən] *n* doloman (*gusarlar kiyimi*)
dolmen [ˈdɒlmen] *n me'mor.* tosh maqbara
dolomite [ˈdɒləmaɪt] *n min.* dolomit (*minerал*)
dolomitic [ˌdɒləˈmɪtɪk] *a* dolomitli, dolomit...
dolor [ˈdəʊlə] = **dolour**
dolorific [ˌdɒləˈrɪfɪk] *a kam.* qayg'uli, g'am-hasratli, alamli; g'amgin
dolorous [ˈdɒlərəs] *a* qayg'uli, g'amgin
dolose [də(ʊ)ˈləʊs] *a yur.* badniyat, niyati buzuq
dolour [ˈdəʊlə] *n* qayg'u, g'am, xafagarchilik
dolphin [ˈdɒlfɪn] *n zool.* delfin
dolt [dəʊlt] *n* ahmoq, tentak, nodon kishi
doltish [ˈdəʊltɪʃ] *a* tentaknamo, ahmoqroq
domain [dəˈmeɪn] *n* 1) mulk, yer-suv; 2) oblast, soha, faoliyat maydoni
domal [ˈdəʊm(ə)l] *a kit.* 1) uyda (xonadonda) bo'ladigan, uy-ro'zg'or bilan bog'langan; uydagi; xonaki; uy ...; uy-ro'zg'or...; 2) uyda tayyorlangan, uyda (qo'lda) qilingan, qo'lbola
dome [dəʊm] **1.** *n* gumbaz, ravoq, qubba; **2.** *v* qubbaga o'xshagan shakl bermoq
domed [dəʊmd] *a* 1) gumbazsimon; 2) gumbaz bilan bezatilgan
Domesday Book [ˈdu:mzdeɪˌbʊk] *n* (*1086- yilda*) istilochi Vilgelm tomonidan o'tkazilgan Angliyaning yer ro'yxati, kadastr daftari (*kadastr – biror narsa haqidagi ma'lumotlar to'plami; biror narsaning ro'yxati*)
domestic [dəˈmestɪk] **1.** *a* 1) uyga oid, oilaviy; 2) oilaviy hayotni yoqtiradigan; 3) ichki, mamlakat ichidagi; 4) mahalliy; o'z mamlakatiga oid, mamlakatning o'zidagi; **~ industry** mamlakatning o'z sanoati; **2.** *n* 1) oqsoch, xizmatkor ayol, uy xizmatchisi; 2) *pl* mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan tovarlar; 3) *amer. pl* paxtadan qilingan oddiy matolar
domesticable [dəˈmestɪkəbl] *a* qo'lga o'rgatsa bo'ladigan; xonakilashtirish mumkin bo'lgan (*hayvonlar haqida*)
domesticate [dəˈmestɪkeɪt] *v* 1) (*hayvonlarni*) qo'lga o'rgatib olmoq; 2) yangi sharoitga (iqlimga) o'rgatmoq; 3) xo'jalik (ro'zg'or) yuritishni o'rgatmoq; 4) uyga o'rgatmoq; uyga havas uyg'otmoq
domestication [dəˌmestɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) uyga, oilaviy hayotga odatlanish; 2) (*hayvonni*) qo'lga o'rgatish
domesticity [ˌdəʊmesˈtɪsɪtɪ] *n* 1) oilaviy hayot; 2) oilaviy hayotga muhabbat
domesticize [dəˈmestɪsaɪz] = **domesticate**
domett [dəˈmet] *n* yarimjun mato
domic, domical [ˈdəʊmɪk, -(ə)l] *a* gumbazsimon; qubbaga o'xshagan
domicile [ˈdɒmɪsaɪl] **1.** *n* 1) doimiy turar joy; 2) *yur.* shaxs *yoki* firmaning yuridik manzili; **2.** *v* doimiy yashash uchun joylashtirmoq
domiciliary [ˌdɒmɪˈsɪljərɪ] *a* uy, turar joy bo'yicha; **a ~ visit** uyni tintuv qilish
domina [ˈdɒmɪnə] *n* (*pl* **-nae** [-ni:]) ayollar monastirining boshlig'i
dominae [ˈdɒmɪni:] *pl of* **domina**
dominance, -cy [ˈdɒmɪnəns, -sɪ] *n* hukmronlik, hokimlik, ustunlik; saltanat
dominant [ˈdɒmɪnənt] **1.** *n* dominanta (*1. asosiy belgi, ustun turgan narsa; hukmron g'oya; 2. mus. diatonik gammaning beshinchi pardasi; 3. biol. nasldan naslga o'tuvchi asosiy belgi*); **2.** *a* 1) hukmron, ustuvor, hokim; 2) tevarak-atrofda baland turgan, baland, hukmron
dominate [ˈdɒmɪneɪt] *v* 1) hukmronlik qilmoq, ustuvorlik qilmoq; 2) o'zini tiymoq, qo'lga olmoq; 3) tevarak-atrofda baland ko'tarilib turmoq, baland bo'lmoq, hukmron bo'lmoq
domination [ˌdɒmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* hukmronlik, ustuvorlik
dominative [ˈdɒmɪnətɪv] *a* 1) hukmron, hukumat tepasida turuvchi, idora qiluvchi; 2) hukmi (so'zi) o'tadigan; so'zini o'tkazadigan, hukmini yurguzadigan
dominator [ˈdɒmɪneɪtə] *n* 1) hukmdor, hokim; 2) idora qiluvchi, boshqaruvchi, boshliq, mudir
domineer [ˌdɒmɪˈnɪə] *v* idora qilmoq, boshqarmoq, hukmronlik qilmoq
domineering [ˌdɒmɪˈnɪərɪŋ] *a* mustabidlarcha; so'zini o'tkazadigan; e'tirozga yo'l qo'ymaydigan
domineeringly [ˌdɒmɪˈnɪərɪŋlɪ] *adv* 1) zolimlik (zulmkor) bilan; 2) qat'iyat bilan, qat'iy suratda, buyruq ohangida; 2) manmanlik (kibr) bilan, takabburona, kekkayib, mensimasdan
dominial [dəˈmɪnɪəl] *a kit.* mol-mulkka (va unga egalikka) oid, mulkiy; mol-mulk...
dominical [dəˈmɪnɪk(ə)l] *a cherk.* qaytadan vujudga keladigan, qayta tiriladigan

dominie [ˈdɒmɪnɪ] *n* 1) *shotl.* maktab o'qituvchisi; 2) *amer.* ruhoniy

dominion [də ˈmɪnjən] *n* 1) dominion (*1947- yilgacha Britaniya imperiyasiga kirgan, rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlat*); 2) suverenitet, mustaqillik, suveren (mustaqil) huquq, suveren (mustaqil) hokimiyat; 3) hokimlik, hukmronlik, hokimiyat, saltanat; 4) mulk, mol-mulk; egalik qilish huquqi

dominium [dəˈmɪnɪəm] *n yur.* mulk, mol-mulk; egalik qilish huquqi

domino [ˈdɒmɪnəʊ] *n* (*pl* **-oes** [-əʊz]) 1) domino (*maskarad kiyimi*); maskarad ishtirokchisi; 2) domino (*o'yin*)

dominoed [ˈdɒmɪnəʊd] *a* domino (maskarad) kiyimi kiygan

don [dɒn] **1.** *n* 1) (**D**) don (*ispan unvoni*); 2) o'qituvchi, kollej kengashining a'zosi (*Oksford va Kembrijda*); **2.** *v esk.* taqib (ilib, osib) olmoq

doña [ˈdɒnjə] *n isp.* xotin, xotin kishi, ayol

dona(h) [ˈdəʊnə] *n* 1) xotin kishi; 2) mahbuba, ma'shuqa

donary [ˈdəʊnərɪ] *n kit.* tortiq, sovg'a, hadya, tuhfa, in'om, armug'on, nazr

donatary [ˈdəʊnət(ə)rɪ] *n shotl. yur.* oluvchi, qabul qilib oluvchi

donate [de(ʊ)ˈneɪt] *v* tortiq qilmoq, sovg'a qilib bermoq, armug'on etmoq

donation [də(ʊ) ˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) tortiq, hadya, sovg'a; 2) sadaqa

donative [ˈdə(ʊ)nətɪv] **1.** *n* hadya, in'om, sovg'a, tuhfa; **2.** *a* hadya qilish bilan bog'liq bo'lgan, sovg'a qilib berilgan, sadaqa (hadya, xayr-ehson, nazr) qilingan

donator [dəˈ(ʊ)neɪtə] *n* 1) nazr beruvchi, sadaqa beruvchi, tortiq qiluvchi kishi, tortiq (sovg'a) qilgan (bergan) kishi; 2) donor

donatory [ˈdəʊnət(ə)rɪ] *n* hadya, sovg'ani oluvchi kishi, shaxs

done [dʌn] **1.** *p. p. of* **do**; **2.** *a* 1) qilingan, bajarilgan; ~ **in English** ingliz tilida bajarilgan (*rasmiy hujjat haqida*); 2) yaxshi tayyorlangan, pishirilgan; ~ **to a turn** ajoyib tayyorlangan

donee [dəʊˈniː] *n* sovg'ani oluvchi kishi

dong [dɒŋ] **1.** *n* qo'ng'iroq ovozi; **2.** *v* ovoz (tovush) chiqarmoq, jaranglamoq (qo'ng'iroq haqida)

donga [ˈdɒŋgə] *n* dara

donjon [ˈdɒndʒ(ə)n] *n* bosh minora (*o'rta asrlarga oid qasrda*)

donkey [ˈdɒŋkɪ] *n* 1) *zool.* eshak; 2) *amer.* Eshak (*demokratik partiyaning norasmiy emblemasi*)

donkey-engine [ˈdɒŋkɪˌen(d)ʒɪn] *n* 1) chig'ir (*yuqoriga yuk ko'taradigan eng oddiy mashina*); 2) *tex.* yordamchi (qo'shimcha) dvigatel

donna [ˈdɒnə] *n it.* xonim, beka, oyim

donnish [ˈdɒnɪʃ] *a* takabbur, gerdaygan, dimog'dor

donnot [ˈdɒnət] = **do-nought**

donor [ˈdəʊnə] *n* 1) nazr beruvchi, iona qiluvchi, sadaqa (xayr-ehson) qiluvchi; 2) *tib.* donor (*yarador va bemorlarga o'z qonini beruvchi kishi*)

do-nothing [ˈduːˌnʌθɪŋ] **1.** *n* bekorchi, ishyoqmas kishi; **2.** *a* 1) yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas; 2) bekorchi, ishlamaydigan, ishlamasdan yashaydigan

do-nought [ˈduːnɔːt] *n dial.* bekorchi, bekorchixo'ja, yalqov, tanbal, ishyoqmas

donzel [ˈdɒnzəl] *n esk.* mahram, paj (*o'rta asrlarda zodagonlar yoki podsho huzurida xizmat qiluvchi o'g'il bola, o'smir*)

doodle I [ˈduːdl] **1.** *n* ahmoq kishi, galvars, kallavaram; **2.** *v sheva.* aldamoq, aldab ketmoq, tovlamoq, firib bermoq, pand bermoq

doodle II [ˈduːdl] *v shotl.* volinka (*dam bilan chalinadigan rus xalq cholg'u asbobi*) chalmoq

doodle-bomb [ˈduːdlbɒm] *n harb. jarg.* samolyot-snaryad

doodle-sack [ˈduːdlsæk] *n shotl.* volinka (*musiqa asbobi*)

doohickey [ˈduːhɪkɪ] *n so'zl.* moslama, asbob, narsa

doolie, dooly [ˈduːlɪ] *n hind.* zambil

doom [duːm] **1.** *n* 1) taqdir, qismat; 2) halok bo'lish, yo'q bo'lish, halokat; **2.** *v* 1) mahkum qilmoq, duchor qilmoq; 2) ayblov hukmini chiqarmoq, jazoga hukm qilmoq, kesmoq

doomage [ˈduːmɪdʒ] *n amer.* jarima

doomed [duːmd] *a* jazoga hukm etilgan, kesilgan; ~ **to death** o'limga hukm etilgan

doomful [ˈduːmfʊl] *a kit.* muqarrar, taqdirda (qismatda) bor bo'lgan, peshanaga yozilgan

dooms [duːmz] *adv shotl.* juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari; ortiq darajada

doomsday [ˈduːmzdeɪ] *n din.* 1) qiyomat, qiyomat kuni; 2) *yur.* sud kuni

doomsman [ˈduːmzmən] *n* (*pl* **men** [-mən]) sudya, sud

door [dɔː] *n* 1) eshik, eshikcha; 2) yo'l; **a ~ to success** muvaffaqiyat yo'li; 3) uy, xonadon, bino; **next ~** qo'shni uy; ~ **step** ostona, bo'sag'a

doorbell [ˈdɔːbel] *n* eshik qo'ng'irog'i

door-case [ˈdɔːkeɪs] *n* eshik kesakisi

door-frame [ˈdɔːfreɪm] = **door-case**

door-handle [ˈdɔːˌhændl] *n* eshik dastagi

door-keeper [ˈdɔːˌkiːpə] *n* shveysar, darbon, darvoza (eshik) og'asi

door-knob [ˈdɔːnɒb] *n* eshikning sharsimon (dumaloq) dastagi

door-man [ˈdɔːmən] = **door-keeper**

door-mat [ˈdɔːmæt] *n* 1) oyoqartgich, oyoq artiladigan gilamcha; 2) *ko'ch.* „latta", irodasiz (bo'shashgan) kishi

door-money [ˈdɔːˌmʌnɪ] *n* kirish haqi

door-panel [ˈdɔːˌpænl] *n qur.* eshik dilasi, filyonkasi (*eshikka o'rnatiladigan yupqa taxta yoki faner*)

door-plate [ˈdɔːpleɪt] *n* (*familiya va b. yozilgan*) eshik taxtachasi

door-post [ˈdɔːpəʊst] *n* eshik yondori

doorstep [ˈdɔːstep] *n* ostona, bo'sag'a

door-stone [ˈdɔːstəʊn] *n* eshik oldi (*uyga kiraverishdagi soyabonli pillapoya*) toshtaxtasi

door-stop [ˈdɔːstɒp] *n* eshik prujinasi

doorway [ˈdɔːweɪ] *n* 1) binoga kirish yo'li, kiraverish; 2) *qur.* eshik o'rni; 3) (*biror narsaga*) yo'l

dooryard [ˈdɔːˌjɑːd] *n amer.* uy oldidagi qo'rali kichkina bog'cha (gulzor)

dop [dɒp] *n esk.* 1) bosh egib (ikki bukilib) ta'zim qilish; ta'zim (sajda) qilish; ta'zim, sajda; 2) bosh egib yoki bosh irg'ab salom berish (salomlashish)

dope [dəʊp] **1.** *n* 1) narkotik modda; 2) narkoman, giyohvand; **2.** *v* 1) narkotik modda *yoki* doping (*g'ayratni oshiruvchi modda, vosita*) bermoq; 2) narkotik qabul qilmoq; gangitmoq, miyasini aynitmoq, ongini zaharlamoq; aldamoq

dope-fiend [ˈdəʊpfiːnd] *n* narkoman, bangi (*giyohvand, nashavand, ko'knori odam*)

dopey [ˈdəʊpɪ] *a so'zl.* 1) lanj, shalpaygan; bo'shashgan; 2) gangitadigan, narkotik, behush (mast, karaxt) qiladigan

doping [ˈdəʊpɪŋ] *n* biror narsa aralashtirib qorish, qo'shib qorishtirish (aralashtirish)

dor [dɔː] *n* qo'ng'iz, go'ngqo'ng'iz, tillaqo'ng'iz

dor-beetle [ˈdɔːˌbiːtl] = **dor**

dor-bug [ˈdɔːbʌg] = **dor**

Dorcas [ˈdɔːkəs] *n* kambag'allarni kiyimkechak bilan ta'minlovchi ingliz ayollar jamiyatining nomi

dor-fly [ˈdɔːflaɪ] = **dor**

dorhawk [ˈdɔːhɔːk] *n zool.* tentakqush

Dorian [ˈdɔːrɪən] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyatiga*) oid; doriy, dorida...

Doric [ˈdɒrɪk] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyatiga*) oid; doriy, dorida; **a ~ order** *me'mor.* dorida uslubi (orderi)

Dorking [ˈdɔ:kɪŋ] *n* dorking (*Angliyaning go'shtdor tovuq zoti*)
dorm [dɔ:m] *so'zl. of* **dormitory**
dormancy [ˈdɔ:mənsɪ] *n* 1) harakatsizlik holati; 2) mudrash, mudroq bosish, pinak, mudroq
dormant [ˈdɔ:mənt] *a* 1) uyqudagi; 2) harakatsiz; tinch, sokin; 3) yashirin (*qobiliyat, kuch va b. to'g'risida*); **to lie ~** harakatsiz (yashirin) holatda bo'lmoq; 4) uyquda bo'lgan (*hayvonlar to'g'risida*); 5) daromad keltirmaydigan (*sarmoya to'g'risida*); **~ capital** daromad (foyda) keltirmaydigan boylik
dormant bolt [ˈdɔ:mənt ˈbəʊlt] *tex.* qotirilgan bolt
dormant -window [ˈdɔ:mənt ˈwɪndəʊ] = **dormer (-window)**
dormer [ˈdɔ:mə] *n* tuynuk (*havoni yangilash va yorug'lik tushishi uchun cherdak, minora kabilarga qurilgan tuynuk*)
dormeuse [dɔ:ˈmə:z] *n fr. tar.* dormez, yotadigan joyi bor to'rt g'ildirakli yengil soyabon arava
dormice [ˈdɔ:maɪs] *pl of* **dormouse**
dormient [ˈdɔ:mɪənt] *a kit.* uxlagan, uxlab yotgan, uyqudagi
dormition [dɔ:ˈmɪʃ(ə)n] *n kit.* 1) uyqu, uxlash, tush, tush ko'rish; 2) uxlab qolish, uyquga ketish
dormitive [ˈdɔ:mɪtɪv] **1.** *n* uyqu dori; **2.** *a* uxlatadigan, uyqu keltiradigan, uyqu...
dormitory [ˈdɔ:mɪt(ə)rɪ] *n esk.* talabalar umumiy yotoqxonasi, yotoqxona
dormouse [ˈdɔ:maʊs] *n zool.* sonya (*qishda uzoq vaqt uyquda bo'ladigan olmaxonga o'xshagan hayvon*)
dornick [ˈdɔ:nɪk] *n* drapirovka (*parda, devorga qoqiladigan guldor mato va sh. k.*)bop og'ir mato
Dorothy bag [ˈdɒrəθɪbæg] xotin-qizlar sumkachasi
dorp [dɔ:p] *n jar. afr.* qishloq
dorsa [ˈdɔ:sə] *pl of* **dorsum**
dorsad [ˈdɔ:sæd] *adv anat.* orqa (yelka) tomonga qarab, orqa (yelka) tomonga, orqaga
dorsal [ˈdɔ:s(ə)l] **1.** *a anat.* orqadagi, orqa..., orqa...; **2.** *n* 1) orqasuzgich (*baliqda*); 2) *anat.* orqa umurtqa
dorse [dɔ:s] *n zool.* yosh treska (*shimol dengizlaridagi baliqning bir turi*)
dorsiferous [dɔ: ˈsɪfərəs] *a zool.* orqasida olib boruvchi, ko'tarib olib yuruvchi, eltuvchi, tashuvchi (*shilliq qurt, chig'anoq va b. haqida*)
dorsiparous [dɔ: ˈsɪpərəs] = **dorsiferous**
dorsum [ˈdɔ:səm] *n* (*pl* **-sa** [-sə]) *maxs.* 1) orqa; 2) orqa qismi (tomoni); **~ of a foot** oyoq kaftining orqa qismi (sirti)
dorter, dortour [ˈdɔ:tə] *n tar.* monastirning umumiy yotoqxonasi
dory [ˈdɔ:rɪ] *n* baliqchilarning tagi yassi qayig'i (*Shimoliy Amerikada*)
dosage [ˈdəʊsɪdʒ] *n tib.* doza, o'lchovli miqdor (*dori-darmon va b.*)
dose [dəʊs] **1.** *n* 1) doza, o'lchovli miqdor; 2) *so'zl.* biror narsaning, ko'pincha, ovqatning muayyan, *mas.*, bir kishiga mo'ljallangan miqdori; **2.** *v* dozalamoq, dozalarga bo'lmoq
dosimeter [də(ʊ)ˈsɪmɪtə] *n* dozimetr (*radioaktiv nurlanish darajasini o'lchaydigan asbob*)
dosimetric [ˌdə(ʊ)sɪˈmetrɪk] *a fiz.* dozimetriyaga oid
dosimetry [də(ʊ)ˈsɪmɪtrɪ] *n fiz.* dozimetriya (*radioaktiv nurlanish darajasini o'lchash va fizikaning shu haqdagi bo'limi*); **radiation ~** radioaktiv nurlanish darajasini o'lchash
dosing [ˈdəʊsɪŋ] *n q.x.* (*o'simliklarni*) qo'shimcha oziqlantirish, o'g'itlash
doss [dɒs] **1.** *n* 1) karavot, osma karavot (*tunaydigan joylarda*); 2) uyqu, uxlash; **2.** *v* 1) tunamoq (*tunaydigan joylarda*); 2) uxlamoq
dossal, dossel [ˈdɒs(ə)l] *n cherk.* mehrob ortidagi parda
dosser I [ˈdɒsə] *n* (*yelkaga ko'tariladigan*) savat, kajava, po'stloqdan to'qilgan quti
dosser II [ˈdɒsə] *n jarg.* tunab qolgan (tunovchi) kishi, qo'noq
doss-house [ˈdɒshaʊs] *n* tunash joyi
dossier [ˈdɒsɪeɪ] *fr n* biror ish, masala *yoki* shaxsga doir hujjatlar to'plami, shaxsiy varaqa
dossil [ˈdɒsɪl] *n* 1) *tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan dorilangan paxta yoki doka*); 2) *poligr.* bo'yoqlarni artadigan yostiqcha
dot I [dɒt] **1.** *n* 1) nuqta; 2) kichkina narsa; 3) kichkintoy, chaqaloq, go'dak; **a ~ of a child** jajji chaqaloq; 4) kichkina dog'; **2.** *v* 1) nuqta qo'ymoq; 2) nuqtali chiziq bilan belgilamoq; nuqtali chiziq chizmoq
dot II [dɒt] *n yur.* sep, sep-sidirg'a
dotage [ˈdəʊtɪdʒ] *n* qarilikdagi (*qarigandagi, keksalarga xos bo'lgan*) aqli pastlik
dot-and-carry-one [ˈdɒtənˈkærɪwʌn] *n* 1) (*qo'shganda*) keyingi razryad (daraja)ga o'tkazish; 2) *hazil.* arifmetika o'qituvchisi
dot-and-dash [ˈdɒtən ˈdæʃ] *a* nuqtalar va tirelardan tarkib topgan; **~ code** Morze alifbosi
dot-and-go-one [ˈdɒtənˈgəʊwʌn] *n* oqsoqlanib yurish, oyoqlarni sudrab bosish
dotard [ˈdəʊtəd] **1.** *n* aqldan ozgan qariya; esini yeb qo'ygan chol; **2.** *a* 1) aqldan ozgan, esini yeb qo'ygan; esi yarimta bo'lib qolgan; 2) *esk.* chirigan, chirib qolgan (*daraxt haqida*)
dotation [də(ʊ)ˈteɪʃ(ə)n] *n* xayr-ehson, iona, sadaqa, hadya; nazr; qurbonlik; nazr-niyoz
dote [dəʊt] *v* haddan tashqari sevmoq (yaxshi ko'rmoq)
doting [ˈdəʊtɪŋ] *a* 1) haddan ortiq sevadigan; 2) qarilikdagi aqli zaiflikdan azob chekayotgan
dotish [ˈdəʊtɪʃ] *a* 1) ahmoqona, bema'ni; 2) bachkana, yengiltaklik bilan qilingan
dotted [ˈdɒtɪd] *a* 1) nuqtali; 2) nuqtalar bilan belgilab qo'yilgan; **a ~ line** nuqtali chiziq, punktir (*nuqta yoki uzun chiziqlardan iborat chiziq*)
dotterel [ˈdɒtrəl] *n zool.* rjanka (*Amerika, Hindiston, Eron, Avstraliya va boshqa yerlarda tarqalgan, loyxo'raklar oilasiga mansub qush*)
dottle [ˈdɒtl] *n* chala chekilgan trubkada qolgan tamaki qoldig'i
dottrel [ˈdɒtrəl] = **dotterel**
dotty [ˈdɒtɪ] 1. *a* aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **2.** *v* aqldan ozmoq, jinni bo'lmoq
doty [ˈdəʊtɪ] *a sheva.* chirik, chirigan, chirib qolgan (*yog'och haqida*)
douane [duˈ(:)ɑ:n] *n fr.* bojxona, gumrukxona
double [ˈdʌbl] **1.** *a* 1) ikkita, qo'shaloq, ikkilangan; **a ~ bed** ikki kishilik karavot; 2) ikki xil; ikkiyuzlamachi; **2.** *n* ikki miqdor (hissa); **3.** *adv* ikki marta; **4.** *v* ikki baravar oshirmoq
double-acting [ˌdʌblˈæktɪŋ] *n tex.* ikki baravar ko'p harakat qilish (*mexanizm haqida*)
double-action [ˌdʌblˈækʃ(ə)n] = **double-acting**
double-apron fence [ˈdʌblˌeɪprɔ(ə)nˈfens] *harb.* juda ham mustahkam (bo'lgan) sim devor (tikanli sim to'siq)
double-axe [ˈdʌblæks] *n* ikki tomoni o'tkir, ikki tig'li (dudama) bolta
double-barrelled [ˌdʌbl ˈbær(ə)ld] *a* 1) qo'shog'iz; **a ~ gun** qo'shog'iz miltiq; 2) ikki ma'noli
double-bass [ˌdʌblˈbeɪs] *n mus.* kontrabas (*skripkaga o'xshagan katta cholg'u asbobi*)
double-bedded [ˌdʌblˈbedɪd] *a* 1) ikkita karavotga ega bo'lgan (*xona to'g'-*

risida); 2) ikki kishilik (*mehmonxonadagi xona haqida*)

double-bent [ˈdʌblbent] *a* ikki marta bukilgan (qayrilgan)

double-breasted [ˌdʌblˈbrestɪd] *a* ikki yoqlama tugmali (*kastum haqida*)

double-charge [ˈdʌblʧɑ:dʒ] *v* ikki hissa o'qlamoq

double-concave [dʌblˈkonkeɪv] *a opt.* ikkiyoqlama botiq

double-convex [dʌblˈkonveks] *a opt.* ikkiyoqlama qavariq

double-cross [ˈdʌblkrɒs] **1.** *n so'zl.* 1) aldash, firib (pand) berish; aldov, aldovchilik, pand, aldamchilik, yolg'on, yolg'on-yashiq; 2) hiyla, nayrang, makr (qilish, ishlatish); **2.** *v so'zl.* aldab ketmoq, firib bermoq

double-dealer [ˌdʌblˈdi:lə] *n* aldoqchi, aldamchi, firibgar, yolg'onchi

double-dealing [ˌdʌblˈdi:lɪŋ] **1.** *n* munofiqona xatti-harakat, munofiqlik, xoinlik, sotqinlik; **2.** *a* 1) munofiqona ish tutadigan, munofiq, riyokor, ikkiyuzlamachi; 2) munofiq odamlarga (xoinlarga, sotqinlarga) xos bo'lgan; munofiqona

double-decker [ˌdʌblˈdekə] *n* 1) ikki qavatli avtobus; 2) ikki palubali kema

double-dye [ˌdʌblˈdaɪ] *v* ikki marta bo'yamoq

double-dyed [ˌdʌblˈdaɪd] *a* ikki marta bo'yalgan, bo'yoqqa to'yintirilgan

double eagle [ˈdʌblˈi:gl] *n* 1) *gerald.* ikki boshli burgut; 2) *amer.* 20 dollarlik eski oltin tanga

double-edged [ˌdʌblˈedʒd] *a* ikki tomoni o'tkir, ikki tig'li, dudama

double-ender [ˈdʌblˌendə] *n* ikki tomoni (orqa-o'ngi, o'ng-tersi) bir xil bo'lgan asbob

double entendre [ˈdu:blɒ:ŋˈtɑ:ŋdr] *n* ikki ma'noli ibora; ikki ma'nolilik

double entry [ˈdʌblˈentrɪ] *n tij.* ikki yoqlama buxgalteriya (*ikkiyuzlamachilik, munofiqona ikki tomonga ishlash*)

double-event [ˈdʌblɪˈvent] *n sport.* ikkikurash (*sportning ikki turini o'z ichiga olgan musobaqa*)

double-F [ˈdʌblˈef] *a harb. so'zl.* harbiy xizmatga umuman yaramaydigan (yaroqsiz, layoqatsiz)

double(-)face [dʌblfeɪs] 1) = **double-dealing 1, 2**; 2) = **double-dealer**

double-faced [ˌdʌblˈfeɪst] *a* 1) (*mato haqida*) ikki tomonli; 2) ikki tomoni bilan ursa bo'ladigan

double-first [ˌdʌblˈfɜ:st] *n* Angliya universitetini darajali diplom bilan ikki mutaxassislik bo'yicha bitirgan kishi

double-ganger [dʌblˈgæŋgə] *n* 1) tirik odamning ruhi; 2) o'xshash (*ikkita biribiriga o'xshagan odamlarning har biri*)

double-handed [ˌdʌblˈhændɪd] *a* 1) ikki qo'lli, qo'li ikkita bo'lgan; 2) ikki sop (dasta)li; tutqichi (dastasi, sopi) ikkita bo'lgan; 3) yordamchisi bilan ishlaydigan; 4) ikkiyuzlama, munofiq, riyokor, mug'ambir

double-headed [ˌdʌblˈhedɪd] *a* ikki boshli

double-hearted [ˌdʌblˈhɑ:tɪd] *a* 1) ikkiyuzlama, munofiq, riyokor; 2) xiyonatkor, bevafo

double-lock [ˈdʌblˈlɒk] *v* qulfni kalitni ikki marta burab qulflamoq (bekitmoq)

double-manned [ˈdʌblˈmænd] *a harb.* ikki baravar shaxsiy tarkibli

double-meaning [ˈdʌblˈmi:nɪŋ] **1.** *n* ikki ma'nolilik, ikki ma'noli gap; **2.** *a* alduydigan, aldamchi

double-minded [ˈdʌblˈmaɪndɪd] *a* qat'iyatsiz, ikkilanadigan

doubleness [ˈdʌblnəs] *n* 1) ikki taraflamalik; ikkiyuzlamachilik; munofiqlik; goh u yoqqa, goh bu yoqqa og'ish; ikkilanish; 2) ikki xil qiyofaga (ikki xil qarama-qarshi xususiyatlarga) egalik; 3) tilyog'lamachilik, riyokorlik

double-park [ˌdʌbl ˈpɑ:k] *v* (*harakat, yurishga xalaqit bergan holda*) mashinani ikkinchi qatorga qo'ymoq; transport harakatini qiyinlashtirmoq; ko'chani to'smoq (ko'chada liq to'la bo'lib ketmoq)

double-quick [ˌdʌblˈkwɪk] **1.** *n harb.* tez yurish, tez qadam tashlash; **2.** *a* juda tez; tezkor, tezlik bilan bo'ladigan; **3.** *adv* 1) *harb.* tez qadam tashlab; 2) juda tezlik bilan

doubler I [ˈdʌblə] *n el.* ikki baravar ko'paytiruvchi moslama

doubler II [ˈdʌblə] *n sheva.* katta tarelka

double snipe [ˌdʌbl ˈsnaɪp] *zool.* loyxo'rak (*qush*)

double-stop [ˌdʌblˈstɒp] *v* tor simlarni baravar bosmoq (*skripka chalganda*)

doublet [ˈdʌblɪt] *n* 1) juft narsa; 2) nuxsa, dublikat; 3) *pl* egizaklar

double-time [ˌdʌblˈtaɪm] *n* 1) *harb.* jadal yurish; 2) ishlagan ortiqcha soatlar uchun ikki hissa pul to'lash

double-tongued [ˌdʌblˈtʌŋd] *a* 1) yolg'onchi, aldamchi; 2) yolg'ondakam, soxta, yasama, qalbaki

double-u [ˈdʌblˈju:] *n so'zl. jarg.* hojatxona, xalajoy

double-weight hydrogen [ˈdʌblweɪtˈhaɪdrɪdʒ(ə)n] *kim.* deyteriy (*og'ir vodorod*)

double-worked [ˌdʌblˈwɜ:kt] *a bog'.* ikki marta payvand qilingan (*o'simlik haqida*)

double-wound [ˌdʌblˈwaund] *a el.* qo'sh chulg'amli

doubling [ˈdʌblɪŋ] *n* 1) (*biror narsani*) takrorlash; 2) ikki marta oshish; ikki baravar ko'paytirish

doubloon [dʌbˈlu:n] *n tar.* dublon (*qadimiy ispan oltin tangasi*)

doublure [du:ˈblu:r] *n fr.* muqovaning ich qismiga yopishtiriladigan ipak teri va h.

doubly [ˈdʌblɪ] *adv* ikki hissa qilib, ikki marta ortiq, ikki baravar ko'p

doubt [daot] **1.** *n* shubha, gumon, ikkilanish, qat'iyatsizlik, noaniqlik; **no ~** shubhasiz; **2.** *v* shubhalanmoq, shubha qilmoq

doubtable [ˈdaotəbl] *a* shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan

doubter [ˈdaotə] *n* har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaruvchi kishi

doubtful [ˈdaotf(ə)l] *a* shubhali, dargumon, ishonib bo'lmaydigan

doubtfulness [ˈdaotf(ə)lnəs] *n* 1) shubhalilik, ishonchli emaslik, dargumonlik; 2) noaniqlik, ravshan emaslik; noma'lumlik, aniq emaslik, mujmallik; 3) ikkilanish, jur'atsizlik, qat'iyatsizlik

doubting [ˈdaotɪŋ] *a* shubhalanadigan, shubha qiladigan

doubtingly [ˈdaotɪŋlɪ] *adv* shubha bilan, ikkilanib, gumonsirab, qat'iyatsizlik bilan, qo'rqa-pisa

doubtless [ˈdaotləs] **1.** *a* shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, shak-shubhasiz, begumon, aniq; **2.** *adv* shubhasiz, shak-shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan

douce [du:s] *a shotl.* tinch, xotirjam, osoyishta

douceur [du:ˈsɜ:] *n fr.* pora; „choy puli"

douche [du:ʃ] **1.** *n* 1) dush; 2) ustidan (ustiga) to'kib yuborish, quyish, sepish; **2.** *v* 1) dush qabul qilmoq; 2) o'z ustidan suv quymoq

douching [ˈdu:ʃɪŋ] *n* 1) yuvish, yuvib tozalash; bosim ostida suv yoki suyuq dori purkab yuvish; 2) purkatib (changlatib) sepish, purkash

dough [dəo] *n* xamir; **my cake is ~** ishim chatoq

dough-baked [ˈdəo ˈbeɪkt] *a sheva.* 1) pishmagan, xom; 2) yaxshi o'smagan, kuchi (quvvati, madori) yo'q, zaif, bequvvat, sust, bo'sh

dough-bird [ˈdəobɜ:d] *n zool.* kichkina uzunburun baliqchi, chonguldoq (*qush*)

doughboy [ˈdəobɔɪ] *n* 1) uzma, pilak, pilakcha; 2) yog'da ko'pchib pishgan kulcha

dough-face, doughface [ˈdəufeɪs] *n amer.* gapga ko'nadigan (unaydigan) odam,

ko'ngli bo'sh (ko'ngilchan) odam, qat'iyatsiz odam

dough-faced ['dəʊfeɪst] *a amer.* 1) gapga ko'nadigan (unaydigan), gapga kiradigan, ko'ngli bo'sh, ko'ngilchan; 2) bo'sh, bo'shashgan, bo'shang, ko'ngli bo'sh, irodasiz, qat'iyatsiz

dough-head ['dəʊhed] *n amer. so'zl.* ahmoq, tentak, nodon

doughiness ['dəʊɪnəs] *n* xamirsimon holat; yumshoqlik; g'ovaklik

doughnut ['dəʊnʌt] *n* 1) yog'da ko'pchib pishgan kulcha (ponchik); 2) parmuda bulka (*do'mboq, yumshoq bulka non*)

doughtily ['daʊtɪlɪ] *adv* mardlarcha, jasurona, qahramonlarcha

doughtiness ['daʊtɪnəs] *n* jasorat, botirlik, qahramonlik

doughty ['daʊtɪ] *a esk.* jasoratli, jasur, botir, qahramon; shavkatli; fidokor, jonboz, dovyurak, mard, jur'atli, jasoratli, qo'rqmas

doughy ['də(ʊ)ɪ] *a* 1) xamirsimon, xamirga o'xshagan; yumshoq; 2) befahm, tushunmaydigan (*kishilar haqida*); 3) solqigan, shishinqiragan, nosog'lom, kasalmand (*yuzning rangi haqida*)

Doukhobors ['du:kə(ʊ)bɔ:z] *n pl rus. din.* duxoborlar (*pravoslav dinining ba'zi marosim va aqidalarini rad etuvchi mazhabdagi kishilar*)

dour ['dʊə] *a* qattiqqo'l, qahri qattiq, berahm

douse [daʊs] *v* suvga sho'ng'imoq, suvga kirmoq

dout [daʊt] *v sheva.* (*olovni, chiroqni*) o'chirmoq

dove [dʌv] *n zool.* kabutar, kaptar; **~ of peace** tinchlik kabutari

dove-colour ['dʌv,kʌlə] *n* ko'k, ko'kimtir rang

dovecot, dovecote ['dʌvkɒt, 'dʌvkəʊt] *n* kaptarxona, kaptar uyasi

dove-eyed ['dʌv,aɪd] *a* 1) begunoh ko'rinish bilan; 2) beozor qarash bilan

dove-hawk ['dʌvhɔ:k] *n zool.* bo'ktargi (*yirtqich qushlarning bir turi*)

dovehouse ['dʌvhaʊs] = **dovecot**

dovekie ['dʌvkɪ] *n zool.* chistik (*shimolda yashaydigan baliqchilar turkumiga mansub qush*)

dovelet ['dʌvlɪt] *n* kichkina kaptar

dove-like ['dʌvlaɪk] *a* nozik, muloyim, yumshoq, xushmuomala, mehribon, mushfiq, yuvosh, beozor, mo'min-qobil

dovetail ['dʌvteɪl] *v* 1) to'g'ri keltirmoq, moslashtirmoq, kelishtirmoq; 2) to'g'ri kelmoq, mos kelmoq

dowager ['daʊədʒə] *n* (*martabasi ulug' kishining*) bevasi

dowd I [daʊd] *n* didsiz (o'xshovsiz) kiyingan kishi

dowd II [daʊd] *n sheva.* tunda kiyiladigan bosh kiyim

dowdily ['daʊdɪlɪ] *adv* 1) isqirtlik (iflos-lik) bilan; 2) bemaza, o'xshovsiz, didsiz

dowdiness ['daʊdɪnəs] *n* 1) isqirtlik; 2) didning yo'qligi; didsizlik; didsizlik bilan qilingan narsa

dowdy ['daʊdɪ] **1.** *n* didsiz kiyingan ayol; **2.** *a* modadan qolgan, eski modadagi, eski bichimdagi, eskicha (*kiyim haqida*)

dowdyish ['daʊdɪɪʃ] *a* kelishmagan, beo'xshov

dowel ['daʊəl] *n* 1) katta yog'och (*yoki* metall) mix, mixcho'p; 2) shpunt (*1. taxtaning yon qirrasi bo'ylab chiqarilgan tirnoq; 2. bochkadagi achib yetilmagan vinomi berkitib turuvchi maxsus tiqin*); 3) *tex.* shponka (*mashina, mexanizm va sh. k. qurilmalarning qismlarini bir-biriga mustahkamlaydigan detal*)

dower ['daʊə] **1.** *n* 1) merosning bevalarga qarashli bo'lgan qismi; 2) qobiliyat, iste'dod; **2.** *v* (*bevalarga*) meros qoldirmoq

doweress ['daʊərɪs] *n esk.* merosdagi ulushini olgan beva ayol

dowie ['daʊɪ] *a shotl.* qayg'uli, g'amgin, g'amli, ma'yus, xafa, noxush

dowl [daʊl] *n sheva.* par, pat, tivit, momiq; tuk (*qanotda*)

dowlas ['daʊləs] *n to'q.* „doulas", dag'al polotno (*gazlamaning qalinroq bir turi*)

down [daʊn] **1.** *n* 1) qiya, qiyalik, nishablik; **ups and ~s** balandlik va pastliklar; 2) g'arazgo'ylik, xush ko'rmaslik, yoqtirmaslik; **to have a ~ on smb.** biror narsaga g'araz bilan qaramoq; **2.** *a* pastga yo'nalgan, tushayotgan; **3.** *adv* 1) *past tomonga bo'lgan harakatni anglatadi*: **to come ~** pastga tushmoq; **the shades are ~** pardalar tushirilgan; 2) *miqdor, hajmning kamayishini, pasayishini, zaiflashishini, yomonlashishini anglatadi*: **to go ~** kamaymoq, pasaymoq, zaiflashmoq, aynimoq, yomonlashmoq; **to bring ~ the price** narxni tushirmoq; **4.** *prep.* past tomonga harakatni anglatadi: **to walk ~ the hill** tepalikdan tushmoq; **to fall ~ the stairs** zinadan yiqilib tushmoq; **5.** *v* 1) tushirmoq, tashlamoq; **to ~ one's opponent** raqibning yelkasini yerga tekkizmoq; 2) yutmoq; **to ~ medicine** dorini yutmoq; 3) yengmoq, bo'ysundirmoq, tinchitmoq; **to ~ opposition** qarshilikni yengmoq

down-and-out [,daʊnənd'aʊt] *a* 1) xarob (xonavayron) bo'lgan, hayotda hamma narsasini yo'qotgan; 2) *sport.* nokaut bo'lgan (qattiq yengilgan)

downbear [,daʊn'beə] *v* (**downbore; downborne**) *esk.* yengmoq, g'alaba qilmoq (qozonmoq), ustun kelmoq, zo'r chiqmoq

down-bed ['daʊn'bed] *n* parto'shak

downcast ['daʊnkɑ:st] **1.** *n* 1) tushirish, pasaytirish, quyi solish; 2) yerga qadalgan ko'zlar (nigohlar); g'amgin nigoh; 3) *tog'.* pasayib borayotgan havo oqimi; 4) *tog'.* ventilatsion shaxta (kon); **2.** *v shotl.* xafa qilmoq, ranjitmoq, xafa qilib (ranjitib) qo'ymoq, qayg'uga solmoq, ruhini tushirib yubormoq, dilini xufton qilib yubormoq

downcheck ['daʊntʃek] *n av. jarg.* yomon (muvaffaqiyatsiz) qo'nish (*asos., sinov uchishlarida*)

downcome ['daʊnkʌm] *n* 1) tushish, tushirish, pasayish, pasaytirish; 2) ag'darilish, qulash, ag'anab ketish, ag'darilib tushish

down-draught ['daʊn,drɑ:ft] *n* 1) *tex.* pastki tyaga (*tyaga — mexanizmning tortish quvvatini bir qismidan ikkinchisiga uzatib berib turuvchi uzun o'q*); 2) pasayib borayotgan havo oqimi

down-easter [,daʊn 'i:stə] *amer.* Yangi Angliyada istiqomat qiluvchi kishi, *ayniqsa,* Men shtati fuqarosi

downfall ['daʊnfɔ:l] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) qattiq qor yog'ish, qorning qattiq yog'ishi

downfallen [,daʊn'fɔ:l(ə)n] *a* 1) past, bo'shashgan, zaif, tushkun, ma'yus, g'amgin; 2) buzilgan, xarob bo'lgan

down-grade ['daʊngreɪd] **1.** *n* 1) nishablik, qiyalik, nishab; 2) pasayish, tushish; 3) tushkunlik, inqiroz; **2.** *a* qiyalikka qarab borayotgan (boradigan); qiyalikdan tushib ketayotgan; **3** *adv* ['daʊn'greɪd] pastga qarab, qiyalikka qarab, qiyalikdan

downhearted [,daʊn 'hɑ:tɪd] *a* ruhan tushkunlikka tushgan; ruhi tushgan

downhill ['daʊnhɪl] **1.** *adv* 1) tog'ning tagida, tog'ning tagiga; 2) ostga, pastga, quyiga; **to go ~** yomonlashmoq (*sog'liq haqida*); **2.** *a* qiya, nishab

Downing Street ['daʊnɪŋ'strɪ:t] *n* Dauning-strit (*Londonda tashqi ishlar vaziri va bosh vazir qarorgohi joylashgan ko'cha*)

downland ['daʊnlænd] *n* tepalik (balandlik)lar bilan qoplangan joy, past-baland joy

down-lying ['daʊn,laɪɪŋ] *n* 1) uyquga ketish, yotish; 2) *sheva.* tug'gandan (tug'ishdan) keyingi davr

downmost ['daunməust] **1.** *a* eng pastki (ostki, quyi); **2.** *adv* quyida, pastda, quyiga, pastga
down-pillow ['daun,pilәu] *n* paryostiq
downpour ['daunpɔ:] *n* jala, qattiq yomg'ir, sel
downright ['daunrait] **1.** *a* halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil; **2.** *adv* mutlaqo, batamom
downrightness ['daun,raitnәs] *n* to'g'rilik, rostlik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik; dangallik; to'g'ri ko'ngillilik, ochiq ko'ngillilik, sofdillik, oqko'ngillilik, samimiylik
downrights ['daunraits] *n pl* dag'al jun
down-run ['daunrʌn] *n* tushish, pasayish (*chang'i sporti*)
downrush ['dʌunrʌʃ] *n* tez tushish (pasayish)
downside ['daunsaid] *n* pastki (ostki, quyi) tomon
downstage [,daun'steidʒ] **1.** *a* 1) *so'zl.* do'stona, do'stlikka oid; 2) sahna oldiga (peshsahnaga) oid; **2.** *adv* 1) sahna oldi (peshsahna)da; 2) sahna oldi (peshsahna)ga
downstairs [,daun 'steәz] **1.** *a* pastda; pastki qavatda joylashgan; **2.** *adv* pastga, quyiga, tubga; **to go ~** pastga tushmoq; **to wait ~** pastda kutib turmoq
downstream [,daun 'stri:m] **1.** *a* oqim bo'yicha pastki, ostki, quyi, pastdagi; pastlikda bo'ladigan; **~ water** pastki (quyi) byef (*daryo yoki kanalning ikki to'g'on, shluz oralig'idagi sathi*); **2.** *adv* oqim bo'yicha pastga
downstroke ['daunstrәuk] *n tex.* pastga qarab qilingan (qilinadigan) harakat, porshenni pastga tushirish
downtake ['daunteik] *n* 1) qiya, qiyalik; nishab; 2) qiya yoki vertikal kanal
downthrow ['daunθrәu] *n geol.* uzilma (*tog' jinslarining uzilib tushishi*); uzilib siljib tushgan tog' jinsi
downtime ['dauntaim] *n* noilojlik, bekor turib qolish
downtown ['dauntaun] **1.** *n* 1) shaharning biznes qismi; shahar markazi; **2.** *a* shaharning markazida, biznes qismida joylashgan
downtrodden ['daun,trɔdn] *a* ruhan ezilgan, g'amgin, boshi qotgan
downturn ['dauntɜ:n] *n* 1) bukilgan joy, bukik, egik; 2) (*iqtisodiy*) inqiroz, tanazzul
downward ['daunwәd] **1.** *a* 1) tushuvchi, pasayuvchi, pastga yo'nalgan, qiya; **~ movement** past tomon harakat; **~ tendency** pasayishga moyillik; 2) pasayib borayotgan, tanazzulga yuz tutgan; **~ career** martabada (lavozimda) pasayish; 3) ezilgan, g'amgin, qayg'uli; **~ thoughts** noxush xayollar; **2.** *adv* 1) pastga, qiyalik bo'ylab; 2) borgan sari yomon, yomondan yomon
downwards ['daunwәdz] = **downward 2**
downweigh [daun 'wei] *v* 1) qaytadan tarozida tortmoq; boshqatdan tarozida tortib chiqmoq; 2) ranjitmoq, xafa qilmoq, qiynamoq, azob bermoq
downwind [,daun'wind] *a* shamolga teskari, shamoldan panada
downy I ['dauni] *a* 1) tivitli, parli, momiqli; par yoki tivit bilan qoplangan; baroq; 2) pardan yoki tivitdan qilingan; **a ~ pillow** paryostiq; 3) yumshoq, mayin, momiqday
downy II ['daun] *a so'zl.* ayyor, hiylagar, quv, shayton, mug'ambir, shum
downy III ['dauni] *a kam.* tepalik (balandlik)lar bilan qoplangan; past-baland
dowry ['dau(ə)ri] *n* 1) sep; qalin; 2) qobiliyat, iste'dod
dowse [dauz] *v* tol novdasi vositasida yerosti suvlari *yoki* minerallar borligini aniqlamoq
dowsing-rod ['dauziŋ,rɔd] *n* yerosti suvlari *yoki* mineral borligini aniqlaydigan tol novdasi, sehrli novda (*qadimgi afsonalarda*)
dowy ['daui] = **dowie**
doxology [dɔ'ksɒlәdʒi] *n cherk.* 1) ortiq darajada maqtash, ko'klarga ko'tarish, maqtov, madhiya; 2) rojdestvo bayramida o'qiladigan duo
doxy ['dɒksi] *n* 1) ta'limot, nazariya; 2) ishonch, e'tiqod, maslak
doyen ['dɔiәn] *n fr.* oqsoqol, boshliq (*diplomatlar hay'atida*)
doze [dәuz] **1.** *n* mudroq, pinak, uyqusirash; **2.** *v* mudroq bosmoq, mudramoq, uyqusiramoq
dozed [dәuzd] *a* qurigan, qurib qolgan (*daraxt haqida*)
dozen ['dʌz(ə)n] *n* dujina (*o'n ikki dona*)
dozenth ['dʌz(ə)nθ] *a so'zl.* o'n ikkinchi, o'n ikkinchi raqamli
dozer ['dәuzә] *so'zl.* **bulldozer** *ning qisq. shakli*
dozy ['dәuzi] *a* mudroq bosgan, uyqu aralash, uyqudagi, uyqusiragan, mudragan
drab [dræb] **1.** *a kit.* sarg'ish-jigarrang; xira jigarrang; **2.** *n* 1) isqirt ayol; 2) *so'zl.* fohisha, buzuq, g'ar
drabbet ['dræbit] *n* oqartirilmagan (yaxshi ishlanmagan) mato
drabble ['dræbl] *v* kir qilmoq, ifloslamoq, sachratmoq
drab(b)ler ['dræblә] *n deng.* yelkanning ulangan (ulanadigan) qismi
drachm [dræm] = **drachma**
drachma ['drækmә] (*pl* **-mae** [-mi:]) drахma (*Qadimgi Gretsiya tangasi*)
drachmae ['drækmi:] *pl of* **drachma**
Draco ['dreikәu] *n* 1) *astr.* Ajdar (*yulduzlar turkumidan biri*); 2) *zool.* qanotli kaltakesak
Draconian, Draconic [drei'kәunjәn, drә'kɒnik] *a* 1) juda qattiq, shafqatsiz, yovuz; 2) = **Dracontic**
Dracontic [drә'kɒntik] *a astr.* Ajdar yulduzlar turkumiga oid
dracunculus [drә'kʌŋkjuləs] *n* teri ostidagi gijja; qililon
draff [dræf] *n* 1) yuvundi, tashlandiq, chiqit, chiqindi, supurindi, axlat; 2) xom atala, ardob; 3) barda (*pivo, araq tayyorlashda chiqadigan quyqa, to'pon*)
draft [dra:ft] **1.** *n* 1) reja, chizma; **a ~ for a machine** mashina chizmasi; 2) loyiha, qoralama, eskiz; **first ~** dastlabki (qoralama) loyiha; **2.** *v* eskiz tayyorlamoq, qoralama qilmoq; reja (loyiha) tuzmoq; **to ~ a drawing** tasvirini chizmoq
draft-cattle ['dra:ft,kætl] *n* 1) ot-ulov; 2) ulov hayvonlari (*ot, ho'kiz va h. k.*)
draftee [,dra:f'ti:] *n harb.* harbiy xizmatga chaqiriluvchi
drafter ['dra:ftә] *n* aravaga qo'shiladigan ot, aravakash ot
drafting ['dra:ftiŋ] *n* 1) (*hujjat, qonun loyihasini*) tuzish; 2) chizmachilik
draftsman ['dra:ftsmәn] *n* (*pl* **-men** [-mәn]) 1) chizmachi, chizmakash; 2) qonun loyihasining muallifi
draftsmanship ['dra:ftsmәnʃip] *n* chizmachilik, chizmachilik san'ati
drag [dræg] **1.** *n* 1) sekin yurish (harakat qilish); **a heavy ~ uphill** qiyinchilik (mashaqqat) bilan tog'ga chiqish (ko'tarilish); 2) sudrash, sudrab bosish; **to walk with a ~** oyog'ini zo'rg'a sudrab bosmoq; **2.** *v* 1) tashimoq, sudramoq; **to ~ a net** to'rni tortmoq; 2) sudrab olib kelmoq; 3) azoblamoq, ezmoq
drag-anchor ['dræg,æŋkә] *n deng.* suzib (qalqib) yuruvchi langar
drag-bar ['drægba:] *n tex.* tirkash mexanizmi, tirkovchi mexanizm (moslama)
drag-boat ['drægbәut] *n* suv havzalarini chuqurlashtirib, loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina (zemlecherpalka)
drag-bolt ['drægbәult] = **drag-bar**
drag-chain ['drægtʃein] *n tex.* y. tortish zanjiri (*biror narsani tortish uchun xizmat qiladigan zanjir*)
dragée ['dra:'ʒei] *n fr.* mayda dumaloqlangan narsa, konfet, vitamin va b.
dragging I ['drægiŋ] *n* 1) sudrash, sudrab borish, tortish; 2) *q.x.* boronalash, molalash, mola bosish, mola bostirish

dragging II [ˈdrægɪŋ] *a* zirqirab (og'rib) turadigan, zirqirab og'ritadigan, siqib (achishtirib) og'ritadigan; zirqirab og'riydigan; zirqirab (simillab) turadigan; **~ pain** zirqirab (simillab, achishtirib) turadigan og'riq

draggle [ˈdrægl] *v* loyda sudrab bulg'amoq, kir qilmoq

draggled [ˈdrægld] *a* bulg'agan, bulg'ab iflos (kir) qilgan, bulg'angan, belangan, bo'yalgan; **a ~ appearance** bulg'angan aft-angor

draggle-tail [ˈdrægleɪl] *n* 1) kir etak; 2) isqirt (*ko'pincha, bolalar haqida*)

draggle-tailed [ˈdrægl,teɪld] *a* kir (iflos, yag'ir) bo'lib ketgan; taqiri chiqqan; kirlangan, bulg'angan, kirga belangan, iflos

drag-link [ˈdræglɪŋk] *n tex.* tyaga (*mexanizmning tortish quvvatini bir qismidan ikkinchisiga uzatib berib turuvchi uzun o'q*)

drag-man [drægmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) to'r bilan baliq ovlaydigan baliqchi

drag-net [ˈdrægnet] *n* 1) (*baliq ovlaydigan*) to'r; 2) (*qush ovlaydigan*) to'r

dragoman [ˈdrægə(o)mən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) tilmoch, tarjimon (*sharq mamlakatlariidagi Yevropa elchixonalarida*)

dragon [ˈdrægən] *n* 1) ajdaho, ajdar; 2) iblis, shayton; 3) beshafqat kishi, qattiqqo'l odam

dragonet [ˈdrægənɪt] *n zool.* yosh drakon (*qanotli kaltakesak*)

dragonfly [ˈdrægənflaɪ] *n zool.* ninachi

dragon's-blood [ˈdrægənzblʌd] *n* ajdar *yoki* ilon qoni (*drakon daraxtining qizil smolasi*)

dragon's teeth [ˈdrægənzti:θ] *n* 1) *mil.* ajdaho tishi; 2) *harb.* tankka qarshi to'siqlar

dragoon [drə'gu:n] *n* dragun (*chor armiyasi va ba'zi chet el armiyalarida: ham otda, ham piyoda harakat qila olgan otliq askar*)

drag-sheet [ˈdrægʃi:t] = **drag-anchor**

drain [dreɪn] **1.** *n* 1) oqib chiqish, oqib ketish, oqib tamom bo'lish, oqib tushish; **~ from a leaky faucet** suvning buzuq krandan oqib chiqib ketishi; 2) zaxini qochirish, quritish; 3) *tib.* yaraning fasodini oladigan naycha; **2.** *v* quritmoq, zaxini qochirmoq (*yerning*)

drainage [ˈdreɪnɪdʒ] *n* 1) yerning zaxini qochirish, quritish; 2) kanalizatsiya (*axlat, chiqindi va yog'in suvlari oqiziladigan quvurlar tarmog'i*); 3) *tib.* drenaj qilish, naycha yordamida fasodni olish

drainage-area, drainage-basin [ˈdreɪnɪdʒ,eərɪə, -,beɪsn] *n* havza (daryo havzasi); suv to'playdigan maydon, suv to'plash maydoni

drainage-tube [ˈdreɪnɪdʒ,tju:b] *n tib.* drenaj naychasi, fasodni olish naychasi

drainage-way [ˈdreɪnɪdʒ,weɪ] *n* tarmoqlangan ariq (zovur, kanal)

drainer [ˈdreɪnə] *n* 1) yer kovlovchi (qazuvchi); 2) tashqariga chiqaradigan (tushiradigan, to'kadigan) tuynuk; 3) tashqariga chiqaradigan kanal; 4) idishlami quritadigan apparat (qurilma)

draining [ˈdreɪnɪŋ] *n* 1) quritish, suvini (zaxini) qochirish; 2) oqova ariq, suvini (zaxini, namini) qochiradigan zovur; 3) oqish, oqib tushish (*suv yoki moy haqida*)

drainless [ˈdreɪnləs] *a* bitmas-tuganmas, tamom bo'lmaydigan, tugamaydigan

drain-pipe [ˈdreɪnpaɪp] *n* drenaj, yerning zaxini qochirish maqsadida qurilgan quvur

drake [dreɪk] *n* o'rdak

drake-stone [ˈdreɪkstəʊn] *n* yassi (silliq) tosh

dram [dræm] **1.** *n* ho'plam, qultum; **2.** *v* spirtli ichimlik ichmoq

drama [ˈdrɑ:mə] *n* 1) drama (*pyesa*); 2) (**the ~**) dramaturgiya, dramatik adabiyot, drama

dramatic [drə'mætɪk] *a* 1) dramatik, teatrga oid, dramaturgiyaga oid; **a ~ performance** teatr tomoshasi; **a ~ reading** badiiy o'qish; 2) og'ir, mushkul, jiddiy; 3) kuchli taassurot qoldiradigan, dabdabali

dramatically [drə'mætɪk(ə)lɪ] *adv* kuchli taassurot qoldiradigan (dabdabali) qilib

dramatics [drə 'mætɪks] *n* 1) drama san'ati; 2) spektakl, oshirib yubormoq

dramatis personae [,drɑ:mətɪspɜ:'səʊnaɪ] *n pl lot.* ishtirok etuvchilarning ro'yxati

dramatist [ˈdræmətɪst] *n* drama yozuvchi adib, dramaturg

dramatization [,dræmət(a)ɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* dramalashtirish

dramatize [ˈdræmətaɪz] *v* 1) sahnalashtirmoq; 2) vahima qilmoq, oshirib yubormoq

dramaturge [ˈdræmətɜ:dʒ] = **dramatist**

dramaturgic [,dræmə'tɜ:dʒɪk] *a* dramaturgga va dramaturgiyaga oid; dramaturgik, dramaturgiya...

dramaturgist [ˈdræmətɜ:dʒɪst] = **dramatist**

dramaturgy [ˈdræmət:dʒɪ] *n* dramaturgiya (*dramatik asarlar yozish nazariyasi va san'ati*)

dram-drinker [ˈdræm,drɪŋkə] *n* araqxo'r, ichkilikboz

drank [dræŋk] *past of* **drink 2**

drape [ˈdreɪp] **1.** *v* parda tutmoq; parda va gilamlar tutib yasatmoq; **2.** *n* 1) gazmol; mato; 2) eshik parda

draper [ˈdreɪpə] *n* drapirovkachi (*devorga parda va guldor matolar qoqadigan kishi*)

drapery [ˈdreɪp(ə)rɪ] **1.** *n* gazlama, gazmol, to'qima; **2.** *v* 1) pardalamoq, parda tutmoq, guldor mato (*yoki* gilam va sh. k.) qoqib bezatmoq; 2) (*gazlama, gazmol, mato, to'qima va b. bilan*) bezamoq, bezatmoq

drastic [ˈdræstɪk] *a* qattiq (kuchli) ta'sir qiladigan (*dori haqida*)

drastically [ˈdræstɪk(ə)lɪ] *adv* dadil, jasur, qat'iy, tortinmay, keskin

drat [dræt] *int. so'k.* 1) jo'nab qol! daf bo'l! tuyog'ingni shiqillat; 2) yer yutsun! yer yutkur! qurib ketsin! qurib ketkur!

dratted [ˈdrætɪd] *a* la'nati, la'natlangan, la'nat o'qilgan

draught I [drɑ:ft] *n* 1) tortish; **beasts of ~** ot-ulov; ish hayvonlari; 2) qultum; **a ~ of water** bir qultum suv; 3) yelvizak, yutish, yutinish

draught II [drɑ:ft] *n pl* shashka; **to play ~s** shashka o'ynamoq

draught-board [ˈdrɑ:ftbɔ:d] *n* 1) shashka taxtasi; 2) chizma chizish taxtasi

draught-horse [ˈdrɑ:ft,hɔ:s] *n* aravaga qo'shiladigan ot, aravakash ot

draught-line [ˈdrɑ:ftlaɪn] *n deng.* vaterliniya (*kemaning suvga botish chizig'i*)

draught-net [ˈdrɑ:ftnet] *n* baliq ovlaydigan to'r

draughtsman [ˈdrɑ:ftsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) = **draftsman**

draughty [ˈdrɑ:ftɪ] *a* yelvizakda joylashgan

Dravidian [drə'vɪdɪən] **1.** *n* 1) *pl* dravidlar (*Hindistonning Janubida yashovchi tili va madaniyati bir-biriga yaqin xalqlar guruhi*); 2) dravid tillar; **2.** *a* dravidlarga oid; dravid(lar)

draw I [drɔ:] **1.** *n* 1) tortish, tortib chiqarish; sug'urib chiqarish; **2.** *v* **(drew, drawn)** 1) tortmoq, sudramoq; **to ~ a train** poyezdni tortmoq; **to ~ a net** to'rni tortmoq; 2) tortib (surib) qo'ymoq, yaqinlashtirmoq; **to ~ a book towards oneself** kitobni o'zi tomon tortib (surib) qo'ymoq; 3) tortmoq; **to ~ a rope** arqonni tortmoq; 4) o'ziga tortmoq, jalb qilmoq; **to ~ smb.'s attention** birovning e'tiborini jalb qilmoq; 5) tortib olmoq, sug'urib olmoq; **to ~ a nail** mixni sug'urib olmoq; **to ~ a tooth** tishni sug'urmoq

draw II [drɔ:] *v* **(drew, drawn)** rasm solmoq, rasm chizmoq; **to ~ cartoons** hajviy rasm chizmoq

draw-arch [ˈdrɔ:ɑ:tʃ] *n* ko'tariladigan (ko'tarma) ko'prikning arkasi
drawback [ˈdrɔ:bæk] *n* 1) kamchilik, nuqson; 2) to'siq, g'ov
draw-bench [ˈdrɔ:bentʃ] *n tex.* metall cho'zadigan (kiryalaydigan) dastgoh
draw-bolt [ˈdrɔ: ˈbəʊlt] *n tex.* burab mahkamlaydigan bolt
drawbridge [ˈdrɔ:brɪdʒ] *n* ko'tarma *(ikki tomonga ajraladigan)* ko'prik
drawer I [ˈdrɔ:ə] *n* 1) bufetchi, ofitsiant; 2) chizmachi, chizmakash; 3) hujjat tuzuvchi
drawer II [ˈdrɔ:ə] *n* 1) surilma quti; 2) tortma *(stol, javon va b. da)*
drawers [drɔ:z] *n* ishton *(erkaklar ishtoni)*
drawing I [ˈdrɔ:ɪŋ] *n* 1) chizmachilik; 2) chizma, rasm, tasvir; **a ~ of a tree** daraxtning tasviri
drawing II [ˈdrɔ:ɪŋ] *a* 1) tortadigan, sudraydigan; 2) ulovga yaroqli, ulovbop *(hayvon haqida)*
drawing-bench [ˈdrɔ:ɪŋbentʃ] *n tex.* metall cho'zadigan (kiryalaydigan) dastgoh
drawing-block [ˈdrɔ:ɪŋblɒk] *n* rasm daftar
drawing board [ˈdrɔ:ɪŋbɔ:d] *n* chizmachilik taxtasi
drawing-book [ˈdrɔ:ɪŋbʊk] *n* rasm chizadigan albom, rasm daftari
drawing-bridge [ˈdrɔ:ɪŋbrɪdʒ] = **drawbridge**
drawing card [ˈdrɔ:ɪŋkɑ:d] *n* juda mashhur aktyor *yoki* spektakl; dasturning eng muhim (qiziq) joyi
drawing-compass(es) [ˈdrɔ:ɪŋ,kʌmpə-s(ɪz)] *n pl* chizma chizadigan sirkul (pargar)
drawing-knife [ˈdrɔ:ɪŋnaɪf] *n qur.* randa, o'roqranda
drawing-machine [ˈdrɔ:ɪŋmə,ʃi:n] *n tex.* 1) yuk ko'taradigan mashina; 2) chizadigan moslama
drawing-master [ˈdrɔ:ɪŋ,mɑ:stə] *n* rasm darsi o'qituvchisi
drawing-paper [ˈdrɔ:ɪŋ,peɪpə] *n* rasm chizish *yoki* chizmachilik qog'ozi
drawing-pen [ˈdrɔ:ɪŋpen] *n* reysfeder *(tush bilan chiziq chizadigan asbob)*
drawing-pin [ˈdrɔ:ɪŋpɪn] *n* chizmachilik *yoki* konselariya knopkasi
drawing-room [ˈdrɔ:ɪŋru(:)m] *n* 1) mehmonxona; 2) mehmonlar; 3) rasmiy qabul *(ayniqsa, saroyda)*; 4) chizma chizishga mo'ljallangan zal
drawl [drɔ:l] **1.** *n* cho'ziq talaffuz; **2.** *v* so'zni cho'zib talaffuz qilmoq
drawn I [drɔ:n] *p. p. of* **draw I, 2**
drawn II [drɔ:n] *p. p. of* **draw II**
drawn III [drɔ:n] *a* 1) burishgan, buzilgan, o'zgarib ketgan; **a ~ face** o'zgarib ketgan yuz; 2) erigan; **~ butter** erigan moy
drawn-work [ˈdrɔ:nwɜ:k] *n* 1) to'rdo'z *(matoning ipini sug'urib tikilgan gul)*; 2) ip to'rga gul solib tikish yoki to'rsimon to'qima gul tikish ishlari
draw-shave [ˈdrɔ:ʃeɪv] = **drawing-knife**
draw-tube [ˈdrɔ:tju:b] *n* mikroskop tubusi *(mikroskopdagi truba)*
draw-well [ˈdrɔ:wel] *n* quduq *(arqondagi chelagi bilan)*
dray I [dreɪ] *n* arava, ot arava
dray II [dreɪ] *n sheva.* olmaxon uyasi
drayage [ˈdreɪɪdʒ] *n* 1) ot-aravada yuk tashish; 2) yuk tashish uchun to'lanadigan haq
dray-cart [ˈdreɪkɑ:t] *n* arava, ot-arava
dray-horse [ˈdreɪhɔ:s] *n* aravaga qo'shiladigan ot, aravakash ot
drayman [ˈdreɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) kirakash arava haydovchisi
dread [dred] **I.** *n* qo'rqinch; vahima; **2.** *a kit.* qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, bahaybat, mudhish
dreadful [ˈdredf(ə)l] *a* 1) dahshatli, dahshatga soladigan, qo'rqinchli; vahimali; **a ~ monster** dahshatli mavjudot; 2) yaramas, juda yomon; **~ weather** juda yomon ob-havo
dreadfully [ˈdredfʊlɪ] *adv* qo'rqinch (dahshat, vahima) bilan, qo'rqinchli (dahshatli, vahimali) tarzda, qo'rqinchli qilib
dreadnought [ˈdrednɔ:t] *n* 1) *deng.* zirhli katta harbiy kema; 2) qalin movutdan tikilgan palto
dream [dri:m] **1.** *n* 1) tush, tush ko'rish, uyqu; **to awoke from a ~** uyqudan uyg'onmoq; 2) orzu; **the land of ~s** orzular mamlakati; 3) rohat-farog'at, go'zallik; **~ of delight** jannat lazzati; **2.** *v* **(dreamed, dreamt)** 1) tush ko'rmoq; **you must have ~t** tushingda ko'rgan bo'lsang kerak; 2) orzu qilmoq, xayol surmoq; **to ~ of happiness** baxtli bo'lishni orzu qilmoq
dreamer [ˈdri:mə] *n* xayolparast, hayotdan uzilib qolgan kishi, orzu-xayollarga beriluvchan odam
dreamery [ˈdri:m(ə)rɪ] *n* fantaziyaga (xayolparastlikka) berilish, xayol surish; quruq (amalga oshmaydigan) orzular
dream-hole [ˈdri:mhəl] *n* minorada yoritishni yaxshilashga xizmat qiladigan tuynuk
dreamily [ˈdri:mɪlɪ] *adv* 1) xayol surgan *(xayolga botgan, orzu-xayollarga cho'mgan)* holda; 2) tushdagidek
dreaminess [ˈdri:mɪnəs] *n* 1) xayolchanlik, orzu-xayollarga berilish, xayol surish, xayolparastlik; 2) o'ychanlik, serfikrlik
dream-land [ˈdri:mlænd] *n* afsonaviy mamlakat
dreamless [ˈdri:mləs] *a kit.* tush ko'rmaydigan, tush ko'rolmaydigan
dreamlike [ˈdri:mlaɪk] *a* afsonaviy, xayoliy
dream-reader [ˈdri:m,ri:də] *n* tushlarning ta'birini aytib beruvchi kishi
dreamt [dremt] *p. p. of* **dream 2**
dream-world [ˈdri:mwɜ:ld] = **dream-land**
dreamy [ˈdri:mɪ] *a* xayolparast, o'ychan, xayolchan, orzu-xayollarga beriluvchan
drear [drɪə] = **dreary**
dreariness [ˈdrɪərɪnəs] *n* qorong'ilik, zulmat bosganlik; zim-ziyolik, zimistonlik
dreary [ˈdrɪərɪ] *a* qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa, noxush
dredge I [dredʒ] **1.** *n* 1) *tex.* zemlecherpalka *(suv havzalarini chuqurlashtirib, loy-balchiqlarni chiqarib, tashlaydigan mashina)*; 2) *tex.* draga (*1. suv ostidan oltin, kumush kabi metallarga boy jinslarni oladigan, shuningdek, suv ostini kovlaydigan mashina; 2. tekshirish uchun suv osti o'simlik va jonivorlarini olib chiqadigan asbob*); **a hydraulic ~** tuproqni loyqalatib, kuchli nasos yordamida chiqarib tashlaydigan mashina; 3) dengiz molluskalarini tutadigan to'r; **2.** *v* 1) draga yordamida suv ostidan foydali qazilma olmoq yoki suv ostini chuqurlatmoq; draga yordamida suv osti o'simlik va jonivorlarini olib chiqmoq; 2) to'r bilan dengiz molluskalarini tutmoq
dredge II [dredʒ] *n maxs.* 1) ekish uchun suli va arpa aralashmasi; 2) suspenziya *(qattiq jism zarralari muallaq yurgan suyuqlik yoki gaz)*
dredger [ˈdredʒə] *n* 1) zemlecherpalka *(suv havzalarini chuqurlashtirib, loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina)*; 2) qopqog'i teshikli idish *(murchdon singari, shakar yoki un sepish uchun kichkina teshigi bo'lgan idish)*
dredging [ˈdredʒɪŋ] *n* 1) suv havzalarini chuqurlashtirish ishlari; tuproq chiqarish; 2) o'yilgan joydan chiqarilgan tuproq
dree [dri:] *v so'zl.* qiynalmoq, azoblanmoq, chidamoq, dosh bermoq
dreg [dreg] *n pl* chiqitlar, qoldiqlar, sarqitlar; **~s of a society** jamiyat sarqitlari
dreggy [ˈdregɪ] *a* loyqa, loyqalangan; axlatli
dregs [dregz] *n* qoldiq, yuvundi
drench [drentʃ] **1.** *n* 1) bo'kish, ho'l bo'lish; 2) jala, sharros yomg'ir; **2.** *v* 1) ja-

la yog'moq, sharros yomg'ir yog'moq; 2) suv o'tkazmoq, nam tortmoq; namlamoq, ho'llamoq

drencher ['drentʃə] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) yomg'ir yog'dirish moslamasi; 3) (*hayvonlar og'ziga*) dori quyishga mo'ljallangan moslama

drenching ['drentʃɪŋ] *a* shig'ab yog'adigan, sharros, shiddatli, qattiq; juda kuchli, dovuldek, bo'rondek; ~ **fire** *harb.* o'q yomg'iri, yomg'irdek yog'gan o'q; kuchli darajada o'q yog'dirish

dreng [dreŋ] *n tar.* erki (huquqi) o'zida bo'lgan ijarachi (*Nortumberlendda*)

dress [dres] **I.** *n* 1) ko'ylak, kiyim; **a morning** ~ uyda kiyiladigan ko'ylak, xalat-ko'ylak; **a fancy** ~ maskarad kiyimi; 2) libos, qatlam, qatlama; **spring** ~ bahorgi libos (*daraxtlarda*); **2.** *v* 1) kiyintirmoq, yasantirmoq; **to ~ a child** bolani kiyintirmoq; 2) bezamoq, yasatmoq; **to ~ a shop-window** vitrinani bezamoq

dressage ['dresɑ:ʒ] *n fr.* otni minishga o'rgatish, minib sovutish

dress-circle ['dres,sɜ:kl] *n teatr.* ikkinchi qavat, bo'loxona

dress coat ['dres,kəut] *n* 1) frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*); 2) *harb.* paradda (bayramda) kiyiladigan libos

dressed [drest] *a* 1) kiyingan, libos kiygan; 2) kiyim-bosh bilan ta'minlangan, ust-boshi but

dresser I ['dresə] *n* 1) bezatuvchi; 2) *teatr.* kiyim-kechak mutasaddisi; 3) *tib.* yordamchi (*operatsiya, yarani bog'lash vaqtida*); jarrohlik hamshirasi

dresser II ['dresə] *n* 1) (*idish-tovoqlar uchun*) oshxona shkafi; 2) tokchali oshxona stoli; oshxona javoni (*idish-tovoq uchun*); 3) pardoz stoli *yoki* ko'zguli javon

dress-guard ['dresgɑ:d] *n* (*ayollar velosipedidagi*) saqlash to'ri

dressiness ['dresɪnəs] *n* 1) oliftalik, po'rimlik; bashanglik; olifta kiyinish, olifta(gar)chilik, fasonlik; kiyimga zeb berish(lik); 2) zebolik, go'zallik, bejirimlik (*kiyimlar haqida*)

dressing ['dresɪŋ] *n* 1) kiyim kiyish; 2) kiyim; 3) yara bog'laydigan material; 4) ziravor, qayla, garnir

dressing-bag ['dresɪŋbæg] = **dressing-case**

dressing-bell ['dresɪŋbel] *n* tushlik uchun kiyinish vaqti bo'lganligini anglatuvchi qo'ng'iroq

dressing-case ['dresɪŋkeɪs] *n* bog'lash materiallarini soladigan quti

dressing-cloth ['dresɪŋklɒθ] *n* kosinka (*boshga o'rash uchun*)

dressing-down ['dresɪŋ'daon] *n* qattiq gap, koyish, tanbeh, jazolash

dressing-gown ['dresɪŋgaon] *n* 1) xalat; 2) ayollarning uyqudan turganda kiyib oladigan yengil yaktak bichim ko'ylagi

dressing-jacket ['dresɪŋ,dʒækɪt] *n* uyda kiyiladigan kurtka (kalta kamzul)

dressing-machine ['dresɪŋmə,ʃi:n] *n* shamolmashina (*don sovuradigan mashina*)

dressing-out [,dresɪŋ 'aot] *n* (*otlarni*) aravaga o'rgatish

dressing-room ['dresɪŋru(:)m] *n* garderobxona, kiyinish xonasi

dressing-station ['dresɪŋ,steɪʃ(ə)n] *n harb.* maxsus bog'lash joyi; birinchi yordam ko'rsatish joyi

dressing-table ['dresɪŋ,teɪbl] *n* 1) pardoz stoli; 2) bog'lash stoli

dressmaker ['dres,meɪkə] *n* tikuvchi ayol, chevar

dressmaking ['dres,meɪkɪŋ] *n* ayollar ko'ylagini tikish

dress-preserver [dresprɪ'zɜ:və] *n* qo'ltiqlik, qo'ltiqqa tikiladigan narsa

dress rehearsal ['dresrɪ,hɜ:s(ə)l] *n* oxirgi (so'nggi) tayyorgarlik, repetitsiya

dress-shield ['dresʃi:ld] *n* qo'ltiqlik, qo'ltiqqa tikiladigan narsa

dress-suit ['dres,sju:t] *n* frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*)

dressy ['dresɪ] *a* 1) yaxshi kiyinishni yoqtiradigan; 2) zamonaviy (*kiyim to'g'risida*)

drew I [dru:] *past of* **draw I, 2**

drew II [dru:] *past of* **draw II**

drey [dreɪ] *n* olmaxon uyasi

drib [drɪb] *n* 1) tomchi, qatra; 2) *ko'ch.* juda oz miqdor, zarra(cha); jindak, zig'irdak

dribbing ['drɪbɪŋ] *n* yo'lning o'yilgan joylarini ta'mirlash

dribble ['drɪbl] **I.** *n* kichkina soy, jilg'a, ariq; 2) tomchi, qatra; 3) tomchilab yog'ayotgan yomg'ir; **2.** *v* 1) tommoq, tomchilamoq; 2) so'lagini oqizmoq

dribbler ['drɪblə] *n sport.* koptokni boshqarib borayotgan o'yinchi

dribblet ['drɪblɪt] *n* 1) oz miqdordagi pul; 2) qittak, ozgina; **by (in)** ~**s** oz-ozdan tomchilab

dribbling ['drɪblɪŋ] *n sport.* koptokni boshqarib borish

driblet ['drɪblɪt] *n* 1) oz miqdordagi summa (*pul haqida*); 2) mayda tomchi, juda oz, ozgina, bir tomchi, qatra, jindak, qittak; **by (in)** ~**s** oz-ozdan, ozgina-ozgina

dried [draɪd] *a* quritilgan qoqi; ~ **melon(s)** qovun qoqi; ~ **milk** sut kukuni

drier ['draɪə] *n* 1) quritadigan modda; 2) quritgich, quritish moslamasi

drift [drɪft] **1.** *n* 1) oqim, **to be on the** ~ oqim bo'ylab suzish; 2) yo'nalish; **2.** *v* 1) (*shamol, suv bilan*) olib ketmoq, oqizib ketmoq; 2) oqim bo'ylab suzmoq

driftage ['drɪftɪdʒ] *n* 1) kema, muzlik va sh. k. ning shamol va oqim bilan siljib yurishi; 2) oqizib ketish (*kema to'g'risida*); 3) dengiz qirg'og'iga chiqarib tashlangan narsalar

drift-anchor ['drɪft,æŋkə] *n* suzuvchi (suv ustida qalqib turuvchi) langar

drift apart [,drɪftə'pɑ:t] *v* tarqalib ketmoq

drift-bolt ['drɪftbəolt] *n tex.* katta qayrilma mix; uchi qaytgan mix

drifter ['drɪftə] *n* 1) drifter (*baliqchilik kemasi*); 2) drifterda suzuvchi baliqchi; 3) *amer. so'zl.* hech narsaga arzimaydigan odam; bemaqsad, sandiroqlab yuruvchi odam; 4) *amer.* daydi

drift-ice ['drɪftaɪs] *n* suzib yuruvchi muz

drifting ['drɪftɪŋ] *n* 1) kemaning kursdan og'ishi; kemaning oqib ketishi; 2) qor *yoki* qum uyumi, qor *yoki* qum tepa

driftless ['drɪftləs] *a* 1) maqsadsiz, foydasiz, behuda; 2) ma'nosiz, mazmunsiz

driftmeter ['drɪft,mi:tə] *n av.* og'ishni o'lchaydigan asbob

drift-net ['drɪftnet] *n* suzib (qalqib) yuruvchi to'r

drift-pin ['drɪftpɪn] *n tex.* sumba, teshgich, po'lat qalam

drift-weed ['drɪftwi:d] *n bot.* laminariya (*dengiz o'simliklarining yirik bir turi; Xitoy, Koreya va Yaponiyada ovqatga ishlatiladi*)

drift-wood ['drɪftwod] *n* oqiziladigan yog'och

drifty ['drɪftɪ] *a* qor bo'ralayotgan, izg'irinli; shamol va bo'ronli

drill I [drɪl] **1.** *n tex.* parma, burg'i, dril; **2.** *v* parmalamoq, teshik ochmoq, burg'ilamoq

drill II [drɪl] **1.** *n* mashq, mashg'ulot; **to do one's** ~ mashqlarni bajarmoq; **2.** *v* mashq qildirmoq

drill III [drɪl] **1.** *n q.x.* 1) qatorlab ekadigan seyalka; 2) qatorlab ekish; 3) egat, ariq, joyak; **2.** *v* ekmoq; qatorlab ekmoq

drill IV [drɪl] *n* tik (*gazlama*)

driller ['drɪlə] *n* 1) parmalovchi, burg'ilovchi (*ishchi*); 2) parmalash dastgohi

drill ground ['drɪlgraond] *n harb.* mashq maydoni, harbiy mashq o'tkaziladigan maydon

drill-harrow ['drɪl,hærəo] *n q.x.* propashnik (*ekin qator oralariga ishlov beradigan qurol*)

drillhole ['drɪlhəol] *n* burg'ilangan quduq

drilling I [ˈdrɪlɪŋ] *n* parmalash, burg'ilash
drilling II [ˈdrɪlɪŋ] *n* mashq qildirish, o'rgatish
drilling III [ˈdrɪlɪŋ] *n q.x.* qatorlab (qator) ekish
drilling-machine [ˈdrɪlɪŋməˌʃi:n] *n* parmalash dastgohi
drill-press [ˈdrɪlpres] *n* 1) parmalash dastgohi; 2) *tog'.* perforator (*tog' jinslarini parmolovchi mashina*)
drill-rod [ˈdrɪlrɔd] *n tog'.* burg'ilash shtangasi (*uzun metall sterjen*)
drily [ˈdraɪlɪ] = **dryly**
drink [drɪŋk] **1.** *n* 1) ichish, ichimlik; **food and ~** oziq-ovqat va ichimlik; 2) ichimlik; **soft ~s** spirtsiz ichimliklar; 3) qultum, yutum; **a ~ of water** bir qultum suv; **2.** *v* **(drank, drunk)** 1) ichmoq; **to ~ a glass dry** qatra qoldirmay ichmoq; 2) ichmoq, ichkilikbozlik qilmoq; **to ~ hard** surunkali ichmoq; 3) ho'plamoq, totmoq, tatib ko'rmoq; **to ~ the cup of suffering** g'am-kulfat kosasini shimirmoq
drinkable [ˈdrɪŋkəbl] *a* ichishga yaroqli; ichsa bo'ladigan
drinker [ˈdrɪŋkə] *n* ichuvchi, ichkilikboz
drinker-moth [ˈdrɪŋkəmɒθ] *n ent.* ipak qurti
drinking-booth [ˈdrɪŋkɪŋbu:θ] *n* bufet peshtaxtasi
drinking-bout [ˈdrɪŋkɪŋbəʊt] *n* surunkasiga ichish, bir ichsa ichaverish, mayparastlik, to'xtovsiz ichish
drinking-bowl [ˈdrɪŋkɪŋbəʊl] *n* sug'orgich, suvdon (*chorva uchun*)
drinking-cup [ˈdrɪŋkɪŋkʌp] *n* kosa, qadah, jom
drinking- fountain [ˈdrɪŋkɪŋˌfaʊntɪn] *n* (*suvini*) ichib bo'ladigan favvoracha
drinking-horn [ˈdrɪŋkɪŋhɔ:n] *n* shoxqadah (*hayvon shoxidan qilingan qadah*)
drinking-house, drinking-saloon [ˈdrɪŋkɪŋhaʊs, -səˌlu:n] *n* bar, pivoxona, kichkina mayxona
drinking-song [ˈdrɪŋkɪŋsɒŋ] *n* ziyofatlarda jo'rlikda aytiladigan qo'shiq
drinking-trough [ˈdrɪŋkɪŋtrɒf] = **drinking-bowl**
drinking-water [ˈdrɪŋkɪŋˌwɔ:tə] *n* ichiladigan suv, ichimlik suvi
drink-money [ˈdrɪŋkˌmʌnɪ] *n* may uchun to'lanadigan pul
drink-penny [ˈdrɪŋkˌpenɪ] = **drink-money**
drip [drɪp] **1.** *n* tomish, tomchilash; tomchi; **2.** *v* tommoq, tomchilamoq, oqib turmoq; **the tap is ~ ping** jo'mrakdan suv tomchilayapti
drip-dry [ˈdrɪpdraɪ] *n* tez quriydigan mato
dripping [ˈdrɪpɪŋ] **1.** *n* tomish, tomchilab tushish; **2.** ho'l bo'lgan, ivib ketgan; **a ~ coat** butunlay ivib ketgan palto
dripping-pan [ˈdrɪpɪŋpæn] *n* tunuka tova; tova
dripple [ˈdrɪpl] *v* oqmoq, tommoq, chakka o'tmoq
dripstone [ˈdrɪpstəʊn] *n qur.* nov (*deraza oldi novi*)
drive [draɪv] **1.** *n* 1) yurish; sayr, safar (*otda, transportda*); **a full ~** to'la tezlikda; **within two hour's ~ of Oxsford** Oksforddan ikki soatlik masofada; **to go for a ~** aylanib kelgani ketmoq; 2) yo'lka, xiyobon; so'qmoq; 3) (*dushmanni, hayvonni*) haydash, quvish, ta'qib qilish; 4) *harb.* hujum, zarba; 5) poyga, shoshilish; **armament(s) ~** qurollanish poygasi; **2.** *v* **(drove, driven)** 1) haydamoq, boshqarmoq; **to ~ a car** mashina haydamoq; **to ~ in a car** mashinada ketmoq (yurmoq); 2) haydamoq, quvmoq; **to ~ cattle** mollarni haydamoq; **to ~ the clouds** bulutlarni haydamoq; 3) yelmoq, yeldek uchmoq; juda tez bormoq; **the ship drove across the waves** kema to'lqinlarni kesib, yeldek uchib borardi; 4) haydab (urib) kirgizmoq; sanchmoq; **to ~ a wedge** a) pona qoqmoq; b) *harb.* suqulib kirmoq; 5) tezlashtirmoq, qistovga olmoq; **to ~ a committee** komissiyani shoshiltirmoq (qistovga olmoq); 6) (*dushmanni*) ta'qib qilmoq, haydamoq; haydab chiqarmoq, chekintirmoq; **to ~ the invader across the border** bosqinchilarni mamlakat hududidan haydab chiqarmoq; 7) (*ish va b. ni*) yuritmoq, olib bormoq; **to ~ a trade** savdoni boshqarmoq
drive-bolt [ˈdraɪvbəʊlt] = **drift-bolt**
drive-down [ˈdraɪvdaʊn] *n tex.* pasaytiruvchi uzatma (*harakatni mashinaning bir qismidan boshqa qismiga o'tkazuvchi mexanizm*)
drive-in [ˈdraɪvɪn] *n* (*mijozlarga bevosita avtomobilda xizmat ko'rsatiladigan*) do'kon, restoran, bank *yoki* ustaxona
drivel [ˈdrɪvl] **1.** *n* bekorchi gap, safsata, bema'ni gap; **2.** *v* safsata sotmoq, bema'ni (behuda) gaplarni gapirmoq, valdiramoq
driveller [ˈdrɪvlə] *n* tentak vaysaqi, tentak, esi past, ovsar odam
drivelling [ˈdrɪvlɪŋ] *a* esini yeb qo'ygan, aqldan ozgan
driven I [ˈdrɪvn] = **drive 2**
driven II [ˈdrɪvn] *a tex.* harakatga kiritadigan, uzatmali, uzatmasi bo'lgan, yetaklanuvchi; **a ~ wheel** yetaklanuvchi g'ildirak
driver [ˈdraɪvə] *n* 1) haydovchi; 2) izvoshchi, kucher; 3) (*mol, podani*) haydovchi; 4) operator; **a crane ~** kranchi; 5) *tex.* dvigatel
drive-screw [ˈdraɪvskru:] *n tex.* yurgizuvchi vint
drive-shaft [ˈdraɪvʃɑ:ft] *n tex.* yetaklovchi (harakatga keltiruvchi) val
driveway [ˈdraɪvweɪ] *n* yo'l; o'tiladigan (transport o'tadigan) yo'l
drive-wheel [ˈdraɪvwi:l] = **driving-wheel**
drive-yourself car [ˈdraɪvjəˌself ˈkɑ:] haydovchisiz ijaraga beriladigan mashina
driving [ˈdraɪvɪŋ] **1.** *n* 1) (*otda, aravada, mashinada*) yurish, sayr qilish; 2) (*avtomobilni*) haydash; 3) *tex.* uzatmaga oid, uzatma; **2.** *a* 1) haydayotgan; 2) harakatlantiruvchi; harakatga keltiruvchi; **a ~ age** shiddatli (jo'shqin) zamon; 3) kuchli, juda kuchli, quturgan; **a ~ storm** dovul; **a ~ rain** kuchli yomg'ir; 4) *tex.* yetaklovchi, harakatga keltiruvchi; **a ~ machine** dvigatel
driving-axle [ˈdraɪvɪŋˌæksl] *n* yetaklovchi o'q
driving-belt [ˈdraɪvɪŋbelt] *n* uzatma tasmasi (qayishi)
driving-box [ˈdraɪvɪŋbɒks] *n* izvoshchi (faytonchi) o'rindig'i
driving-force [ˈdraɪvɪŋfɔ:s] *n* harakatlantiruvchi kuch
driving-gear [ˈdraɪvɪŋgɪə] *n tex.* uzatmali mexanizm
driving-wheel [ˈdraɪvɪŋwi:l] *n tex.* yetaklovchi g'ildirak
drizzle [ˈdrɪzl] **1.** *n* maydalab yog'gan yomg'ir; shivillab yog'gan mayda yomg'ir; **2.** *v* maydalab yog'moq, tomchilab yog'moq
drizzly [ˈdrɪzlɪ] *a* maydalab (tomchilab) yog'adigan (yog'ayotgan); **yesterday was ~** kecha yomg'ir maydalab yog'di
drogue [drəʊg] *n deng.* suv ustida qalqib yuruvchi (suzuvchi) langar
droit [drɔɪt] *n* yuridik huquq; alohida huquq
droll [drəʊl] **1.** *n* qiziqchi, hazilkash, masxaraboz; **2.** *a* qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat; **3.** *v* hazillashmoq, hazil qilmoq, masxarabozlik qilmoq
drollery [ˈdrəʊlərɪ] *n* hazil-mutoyiba, hazil
drome [drəʊm] **aerodrome** *ning qisqartmasi*
dromedary [ˈdrʌmədə(ə)rɪ] *n zool.* nortuya, bir o'rkachli tuya
dromond [ˈdrɒmənd] *n tar.* katta yelkanli galera (XIX asrgacha: ko'p eshkakli kema)

drone [drəʊn] **1.** *n* 1) erkak asalari; 2) tekinxo'r, haromtomoq; 3) *av.* uchuvchisiz hujum vositasi; boshqariladigan snaryad; uchuvchisiz samolyot; **2.** *v* 1) bekor yurmoq, birovning hisobiga yashamoq; 2) sarflamoq, bemaqsad sarflamoq; 3) g'uvullamoq

droningly [ˈdrəʊnɪŋlɪ] *adv* bir xilda, bir zaylda

drool [druːl] = **drivel**

droop [druːp] **1.** *n* 1) qiyalik; pasayish; 2) bukurlik, bukchayganlik; **to walk with a ~** bukchayib yurmoq; **2.** *v* 1) egilmoq, engashmoq, osilib turmoq; **the branches ~ed over the water** novdalar suv ustida osilib turardi; 2) tushmoq, sirpanib tushmoq

droopingly [ˈdruːpɪŋlɪ] *adv* lanj (lohas, sust) bo'lib, susayib

droopy [ˈdruːpɪ] *a* ruhan tushgan, umidsizlikka tushgan, umidsizlangan

drop [drɒp] **1.** *n* 1) tomchi; **a ~ of rain** yomg'ir tomchisi; 2) bir tomchi; qultum, ozgina; **a ~ of tea** bir qultum choy; 3) *pl tib.* tomchilar; 4) obaki; **chocolate ~s** shokoladga belangan obaki; 5) tushish, pasayish; **a great ~ in prices (temperature)** narxlarning (haroratning) keskin tushishi; **2.** *v* 1) tomchilamoq, tomib tushmoq; 2) tushmoq, tushib ketmoq, tushirib yubormoq; **to ~ a book** kitobni tushirib yubormoq; 3) tashlamoq, tushirmoq; **to ~ anchor** langar tashlamoq; 4) yiqilmoq, tashlamoq, tushmoq; **to ~ into a chair** stulga o'tirmoq; 5) o'lmoq, vafot etmoq (**~ off**); **men ~ ped like flies** odamlar pashshadek qirildi; 6) toshmoq, pasaymoq, kamaymoq, tinchimoq; **the production of oil ~ ped** neft qazib olish pasaydi; 7) tushmoq, tushirmoq; **her eyes ~ ped** u ko'zlarini tushirdi; **to ~ across** tanbeh bermoq; jazolamoq; **to ~ away** tomchilab oqib ketmoq; bitta-bittadan bo'lib ketmoq; **to ~ back** *sport. harb.* chekinmoq, orqaga qaytmoq; **to ~ behind** orqada qolmoq; **to ~ in** kirmoq, ko'rgani kirmoq; **to ~ off** bittadan bo'lib ketmoq, chiqmoq; birin-ketin chiqib ketmoq; tarqalishmoq

drop ammo [ˈdrɒp,æməʊ] *harb. jarg.* aviabomba

drop-curtain [ˈdrɒp,kɜːtn] *n teatr.* tushib-ko'tariladigan parda

drop-fly [ˈdrɒpflaɪ] *n* kichkina soxta pashsha (*qarmoqda*)

drop-hammer [ˈdrɒp,hæmə] *n* kopyor (*1. qurilishlarda qoziq qoqadigan qurilma; 2. laboratoriyalarda materiallarning zarbga chidamliligini aniqlaydigan moslama*)

drophead coupé [ˈdrɒpheˈkuːpeɪ] *n* qaytarma soyabonli avtomobil

drop-leaf [ˈdrɒp,liːf] *n* qaytarma taxta (*stolda*)

droplet [ˈdrɒplɪt] *n* mayda tomchi

drop-letter [ˈdrɒp,letə] *n amer.* mahalliy xat, maktub

drop-light [ˈdrɒplaɪt] *n amer.* tushirib-ko'tariladigan lampa

drop-message container [ˈdrɒp,mesɪdʒkənˈteɪnə] *av* vimpel (*1. harbiy kemalarda: uzun, kambar bayroqcha, taniqlik belgisi; 2. uchish apparatlaridan tashlanadigan shartli belgi, mas., bayroqcha, ichiga xat-xabar va h. k. solingan qutich a. idish*)

drop-meter [ˈdrɒp,miːtə] *n* buretka (*o'lchovli naycha*); doritomizg'ich

drop-out [ˈdrɒp ˈaʊt] *n so'zl.* chiqarib yuborilgan (haydalgan) odam

droppable [ˈdrɒpəbl] *a* tashlab yuboriladigan, otib yuboriladigan, otib yuborsa bo'ladigan

dropper [ˈdrɒpə] *n* 1) doritomizg'ich; 2) *q.x.* o'roqmashina, o'radigan mashina; 3) setter (*ovchi it turi*); 4) kichkina soxta pashsha (*qarmoqda*); 5) osilmachoq; shokila

dropping I [ˈdrɒpɪŋ] *n* 1) tushirish, pasaytirish; 2) tushish; 3) tashlab yuborish, tashlash; 4) tomish, tomchilash

dropping II [ˈdrɒpɪŋ] *a* 1) tartibsiz, ayqash-uyqash, pala-partish; 2) tashlab yuboradigan, tushirib qoldiradigan

dropping-bottle [ˈdrɒpɪŋ,bɒtl] *n* tomizg'ich (*dori tomizishga moslangan idish*)

dropping-gear [ˈdrɒpɪŋgɪə] *n av.* bomba tashlagich

droppings [ˈdrɒpɪŋz] *n* tezak, qumaloq, axlat, najas, qiy (*hayvonlarniki*)

dropping-tube [ˈdrɒpɪŋtjuːb] *n tib. kam.* buretka (*o'lchovli naycha*)

drop-scene [ˈdrɒpsiːn] *n* 1) = **drop-curtain**; 2) so'nggi ko'rinish, oxirgi parda

drop-seat [ˈdrɒpsiːt] *n* qaytarma o'rindiq

drop-shot [ˈdrɒpʃɒt] *n* qisqa zarba (*tennis*)

dropsical [ˈdrɒpsɪk(ə)l] *a tib.* istisqoli; shishgan, shishib ketgan; solqigan

dropsied [ˈdrɒpsɪd] *a tib.* 1) istisqo bilan kasallangan (og'rigan); 2) shishib ketgan, qavarib chiqqan

dropsonde [ˈdrɒpsɒnd] *n meteor.* parashutga bog'lab uchiriladigan radiozond (*havo sharoiti haqida radiosignal berib turadigan meteorologik asbob*)

dropsy [ˈdrɒpsɪ] *n tib.* istisqo (*kasallik*)

drop-table [ˈdrɒp,teɪbl] *n* devordagi qaytarma stol

dropwise [ˈdrɒpwaɪz] *adv* toma-toma, oz-ozdan, asta-sekin

dropwort [ˈdrɒpwɜːt] *n bot.* tobulg'i, tubulg'a

drop-zone [ˈdrɒpzəʊn] *n harb.* bomba tashlash zonasi (mintaqasi)

drosometer [drɒˈsɒmɪtə] *n meteor.* shabnam (shudring) o'lchaydigan asbob

dross [drɒs] *n tex.* metall zaki, to'pon; toshqol, shlak (*1. metall eritilganda qolgan qotishma; 2. qattiq yonilg'ilarning kulga aylanmagan qoldig'i*)

drossy [ˈdrɒsɪ] *a* iflos qilingan, kir qilingan, ifloslangan, bulg'angan, iflos, kir

drought [draʊt] *n* qurg'oqchilik, quruqchilik, yomg'irsizlik

drough-resistant [ˌdraʊtrɪ ˈzɪstənt] *a q.x.* qurg'oqbardosh, qurg'oqchilikka (suvsizlikka) chidaydigan, qurg'oqchilikda o'sa oladigan

droughty [ˈdraʊtɪ] *a* 1) yog'ingarchilik kam bo'lgan, quruq kelgan, quruq; qurg'oq, qurg'oqchil; 2) qurigan, qurib qolgan; 3) chanqagan

drouth [draʊθ] *shotl.* = **drought**

drouthy [ˈdraʊθɪ] *shotl.* = **droughty**

drove I [dreʊv] *past of* **drive 2**

drove II [dreʊv] **1.** *n* poda, gala; **a ~ of horses** otlar uyuri; **2.** *v* 1) qoramollarni bozorga haydamoq; 2) qoramol sotish bilan shug'ullanmoq

drover [ˈdrəʊvə] *n* 1) podachi, mol haydovchi; 2) mollarni semirtirib sotuvchi

drown [draʊn] *v* 1) cho'kmoq, cho'ktirmoq; **to be ~ed** cho'kib ketmoq; 2) botirmoq, suv bosmoq; **to ~ the land** joyni suv bosmoq

drowned [draʊnd] *a* 1) cho'kkan, cho'kib ketgan; 2) botgan, suvga botgan

drowner [ˈdraʊnə] *n* cho'kayotgan (g'arq bo'layotgan) kishi

drowning [ˈdraʊnɪŋ] **1.** *n* 1) cho'kish, g'arq bo'lish; **death by ~** *yur.* g'arq bo'lib (cho'kib) o'lish; 2) *q.x.* engashib qolish, yotib qolish (*g'alla ekinlari haqida*); **2.** *a* cho'kayotgan, g'arq bo'layotgan

drowse [draʊz] **1.** *v* mudramoq, pinakka ketmoq, ko'zi ilinmoq; **2.** *n* mudroq, pinak, mudrash

drowsily [ˈdraʊzɪlɪ] *adv* uyquli (uyqusiragan, uyqu bosgan) holda

drowsiness [ˈdraʊzɪnəs] *n* 1) mudroq, pinak, mudroq bosish, mudrash; 2) uyquchilik, seruyqulik, uyqudan bosh ko'tarmaslik

drowsy [ˈdraʊzɪ] *a* 1) uyquga oid, uyqudagi; 2) uyqusiragan, uyqu bosgan

drub [drʌb] **1.** *n* tayoq *yoki* so'yil bilan urish; **2.** *v* urmoq, taqillatmoq, qoqmoq

drubbing [ˈdrʌbɪŋ] *n* urish, kaltaklash

drudge [drʌdʒ] **1.** *n* og'ir ishni bajaradigan kishi, „eshak"; **2.** *v* og'ir, zerikarli ishni bajarmoq, eshakday ishlamoq

drudger [ˈdrʌdʒə] *n* ishchan odam, serg'ayrat (serhafsala, ishlab charchamaydigan) odam

drudgery [ˈdrʌdʒərɪ] *n* og'ir, zerikarli ish

drudgingly [ˈdrʌdʒɪŋlɪ] *adv* qunt qilib, harakat qilib

drug [drʌg] *n* 1) dori-darmon, dori, dorivor; 2) narkotik, giyohvand modda; **~ plant** dorivor o'simlik

drugget [ˈdrʌgɪt] *n* 1) yo'l (yo'lka, yo'lak)ga solinadigan mato; 2) oyoq artish uchun ishlatiladigan mato

druggist [ˈdrʌgɪst] *n* dorixona egasi, dorixona xodimi; dorishunos

drugstore [ˈdrʌgstɔ:] *n amer.* dorixona

Druid [ˈdru(:)ɪd] *n tar.* kohin (*majusiylar ruhoniysi*)

druidic, druidical [dru(:)ˈɪdɪk, -(ə)l] *a* kohinlarga oid; kohin(lar)...

drum [drʌm] **1.** *n* 1) do'mbira; nog'ora; 2) *anat.* quloq pardasi; **2.** *v* 1) do'mbira (nog'ora) chalmoq; 2) g'o'ng'illamoq (*hasharotlar to'g'risida*)

drumbeat [ˈdrʌmbi:t] *n* 1) do'mbira chalish; 2) *so'zl.* hammani o'ziga qaratadigan, shovqinli reklama

drumble [ˈdrʌmbl] **1.** *n dial. sheva.* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas, tekinxo'r; **2.** *v sheva.* bekor yurmoq, yalqovlik (tanballik) qilib yurmoq

drumfire [ˈdrʌmˌfaɪə] *n harb.* dovuldek o'q yog'dirish, o'q yomg'iri; yomg'irdek yog'gan o'q

drumhead [ˈdrʌmhed] *n* 1) do'mbira terisi; 2) *anat.* quloq pardasi

drumly [ˈdrʌmlɪ] *a shotl.* 1) bulutli, bulut bosgan, bulut qoplagan, buzuq, qorong'i; 2) loyqa; loyqalangan (*suv haqida*)

drum-major [ˌdrʌmˈmeɪdʒə] *n* polkning katta barabanchisi

drummer [ˈdrʌmə] *n* 1) nog'orachi, do'mbirachi

drumming [ˈdrʌmɪŋ] *n* do'mbiraning ovozi; do'mbiraning diriltashi

drumstick [ˈdrʌmstɪk] *n* 1) baraban cho'pi; 2) qaynatilgan *yoki* qovurilgan parranda oyog'i

drungar [ˈdrʌŋgə] *n tar.* qo'shin (lashkar) boshlig'i, lashkarboshi, sarkarda, qo'mondon

drunk I [drʌŋk] *p. p. of* **drink 2**

drunk II [drʌŋk] *predic. a* mast; **blind ~** o'lguday mast, g'irt mast; 2) zavqi oshgan, mast bo'lgan; **~ with success** muvaffaqiyatdan mast bo'lgan; 3) beqaror

drunkard [ˈdrʌŋkəd] *n* ichkilikboz, araqxo'r

drunken [ˈdrʌŋk(ə)n] *a* mast, shirakayf

drunkenness [ˈdrʌŋk(ə)nnəs] *n* 1) mastlik, sarxushlik, kayfi oshish, ichib mast bo'lish; 2) araqxo'rlik, ichkilikbozlik

drunkometer [drʌŋˈkɔmi:tə] *n so'zl.* mastlik darajasini aniqlaydigan asbob

drupaceous [dru:ˈpeɪʃəs] *a bot.* danakli (*meva to'g'risida*)

drupe [dru:p] *n bot.* danakli meva

drupel, drupelet [ˈdru:pl, -ɪt] *n bot.* danak

dry [draɪ] **1.** *n* 1) quruq; qurg'oqchilik; quruq ob-havo; 2) quruqlik; 3) (*pl* **drys** [draɪz]) *amer. so'zl.* spirtli ichimliklarni taqiqlash tarafdori; **2.** *a* 1) quruq; **~ clothing** quruq kiyim; **with ~ eyes** ko'z yoshisiz; 2) namsiz; suvi qochirilgan; **~ weight** quritilgan material og'irligi; **~ concrete** qattiq beton; 3) surilmagan, yog'siz, murabbosiz; **~ bread** yog' surilmagan non; 4) quruq, namgarchilik kam bo'lgan; **a ~ year** namgarchilik kam bo'lgan yil; **a ~ summer** quruq yoz; 5) qurigan, qurib qolgan; 6) quruq, muloyim, sovuq; **a ~ answer** quruq (vazmin) javob; **~ facts** quruq dalillar; 7) quruqlikda; quruqlikda bo'lgan; 8) qattiq, to'kiladigan (*suyuq emas*); **3.** *v* 1) quritmoq; namini qochirmoq; **to ~ herbs** o'tlarni quritmoq; 2) (*quruq qilib*) artmoq; **to ~ one's hands (on a towel)** qo'llarni artmoq (*sochiq bilan*); 3) sog'ishni to'xtatmoq; sut bermay qo'ymoq (*sigir to'g'risida*)

dry-bob [ˈdraɪbɔb] *n* 1) sport bilan shug'ullanuvchi (*suv sporti bilan emas*); 2) sportni yaxshi ko'radigan kishi (*suv sportini emas*)

dry-cargo ship [ˈdraɪˌkɑ:gəʊ ʃɪp] *n dengiz.* quruq yuk tashiydigan kema

dry-clean [ˌdraɪˈkli:n] *v* kimyoviy yo'l bilan tozalamoq

dry-cleaner's [ˌdraɪˈkli:nəz] *n* kimyoviy yo'l bilan tozalaydigan joy

dry-cleaning [ˌdraɪˈkli:nɪŋ] *n* kimyoviy tozalash (*jarayon*)

dryer [ˈdraɪə] *n* 1) qurituvchi; 2) quritadigan apparat

dry-fly [ˈdraɪflaɪ] *n* kichkina soxta pashsha (*baliq tutishda ishlatiladi*)

dry goods [ˈdraɪgʊdz] *n* gazmol, mato; attorlik mollari

dryish [ˈdraɪɪʃ] *a* quruq, namsiz, qaqragan, qurg'oq

dry-nurse [ˈdraɪˌnə:s] **1.** *n* enaga, bolaga qaraydigan ayol; **2.** *v* yosh bolaga qaramoq, enagalik qilmoq

dry-point [ˈdraɪpɔɪnt] *n* kislotasiz o'yib rasm solish uchun igna

dry-rot [ˌdraɪˈrɔt] *n* 1) ma'naviy tushkunlik, zavol; 2) ma'naviy (axloqiy) buzuqlik

dry-salter [ˈdraɪˌsɔ:ltə] *n* 1) bo'yoqchilik mollari sotuvchisi; 2) quritilgan mahsulotlar va konservalar sotuvchi kishi

drysaltery [ˈdraɪsɔ:ltərɪ] *n* 1) bo'yoqchilik mollari do'koni; 2) bo'yoqchilik mollari savdosi

dry-shod [ˌdraɪˈʃɔd] *a* suvga tegizmasdan; **to pass over ~** oyoqlarni ho'l qilmay o'tmoq

dry wall [ˈdraɪwɔ:l] *n* loysiz g'isht terib qurilgan devor

dual [ˈdju(:)əl] **1.** *a* 1) ikkilangan; **~ nationality (citizenship)** ikki (qo'sh) fuqarolik; 2) ikki xil; ikki taraflama; **~ personality** *tib.* o'zini boshqa odam deb faholash (*ruhiy kasallik turi*); **~ ownership** qo'sh egalik, birgalikda egalik qilish; **2.** *n gram.* ikkilik son

dualism [ˈdju(:)əlɪz(ə)m] *n* 1) *fals.* dualizm (*dunyoning negizi materiya bilan ruh deb biluvchi idealistik falsafiy ta'limot*); 2) ikki taraflamalik

duality [dju(:)ˈælɪtɪ] *n* ikki taraflamalik, ikkilanganlik, ikkilanish

dualize [ˈdju(:)əlaɪz] *v* ikkiga ajratmoq (bo'lmoq)

dub [dʌb] **1.** *v* 1) kesmoq, kesib tashlamoq; 2) filmga ovoz bermoq, dublaj qilmoq; **2.** *n amer.* beso'naqay odam, noshud (qo'pol) odam

dubbin [ˈdʌbɪn] = **dubbing I**

dubbing I [ˈdʌbɪŋ] *n* teriga suriladigan yog'

dubbing II [ˈdʌbɪŋ] *n kino.* dublaj; dublaj qilish (*bir tilda olingan filmni boshqa tilga tarjima qilish*)

dubiety [dju(:)ˈbaɪətɪ] *n* shubha, gumon, ikkilanish

dubious [ˈdju:bɪəs] *a* shubhali, shubha tug'diradigan; **a ~ character** shubhali shaxs

ducal [ˈdju:k(ə)l] *n* gersoglarga (oid) qarashli; gersoglik

ducat [ˈdʌkət] *n tar.* dukat (*ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: qadimgi kumush yoki oltin pul, tanga*)

duchess [ˈdʌtʃɪs] *n* gersoginya (*gersog xotini yoki qizi*)

duchy [ˈdʌtʃɪ] *n* gersoglik; **~ rights** gersoglik huquqi

duck [dʌk] **1.** *n* 1) *zool.* o'rdak; 2) suvga sho'ng'ish, kalla tashlash; suvga botirish; 3) dag'al mato, gazlama; **2.** *v* suvga sho'ng'imoq, kalla tashlamoq

duckbill [ˈdʌkˌbɪl] *n zool.* o'rdakburun (*Avstraliyada: tuxumidan bola ochadigan bir xil sutemizuvchi hayvon*)

duck-boards [ˈdʌkbɔ:dz] *n pl* taxta to'shama, yog'och kat

ducket [ˈdʌkɪt] *n* 1) lotereya chiptasi; 2) *amer.* kasaba uyushmasining bileti

duck-hawk [ˈdʌkhɔ:k] *n zool.* bo'ktargi (*yirtqich qush*)
ducking [ˈdʌkɪŋ] *n* sho'ng'ish
duckling [ˈdʌklɪŋ] *n* o'rdak bolasi
duck-out [ˈdʌkˈaʊt] *n harb.* qochoqlik, qochish
duck's-egg [ˈdʌkseg] *n* 1) o'rdak tuxumi; 2) nol hisobi (*kriket o'yinida*)
duck's meat [ˈdʌksmi:t] = **duckweed**
duckweed [ˈdʌkwi:d] *n bot.* baqato'n
ducky [ˈdʌkɪ] *n* jonginam, azizam
duct [dʌkt] *n* 1) *anat.* yo'l, tomir; 2) daryo shaxobchasi, irmoq
ductile [ˈdʌktaɪl] *a* 1) egiluvchan, qayishuvchan, cho'ziladigan; 2) bo'ysunadigan, itoatgo'y odam
ductility [dʌkˈtɪlɪtɪ] *n* 1) egiluvchanlik; 2) itoatkorlik
dud [dʌd] *a* foydasiz, yaroqsiz narsa, keraksiz
dude [dju:d] *n* olifta, satang; quruq savlatli kishi
dudgeon [ˈdʌdʒ(ə)n] *n* 1) *tar.* xanjarning yog'ochli (sopi) dastasi; 2) xafalik, dilsiyohlik, ranj
due [dju:] **1.** *n pl* yig'imlar, soliqlar, bojlar; badallar; **custom ~s** bojxona boji; **2.** *a* 1) kerak bo'lgan, tegishlicha; **a ~ process of law** qonuniy tartib; **in ~ course** navbati bilan; tegishli vaqtda; 2) *predic.* talab etilgan, majbur; **he is ~ at his office on Monday** u idorasiga dushanba kuni kelishi kerak; 3) to'lanishi lozim bo'lgan; **a ~ date** qarzni to'lash muddati; 4) mos, tegishlicha; **a ~ penalty** munosib jazo
duel [ˈdju(:)əl] *n* duel, yakkama-yakka olishuv; **to fight a ~** duelda olishmoq
duellist [ˈdju(:)əlɪst] *n* duel qatnashchisi
duenna [dju(:)ˈenə] *n* murabbiya (*boy oilalarda yosh bolalarni tarbiyalash uchun yollangan ayol*)
dues [dju:z] *n* to'lov, boj
duet [dju(:)ˈet] *n mus.* duet (*1. ikki so'z yoki ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. shunday asarni ijro etish va uning ijrochilari*)
duett [dju(:)ˈet] = **duet**
duetto [dju(:)ˈetəʊ] = **duet**
duff [dʌf] **1.** *n* 1) xamir; 2) chirindi; 3) ko'mir kukuni; **2.** *v* 1) yangilamoq; 2) aldamoq, laqillatmoq
duffel [ˈdʌf(ə)l] *n* jundan *yoki* ipdan paxmaytirib to'qilgan yumshoq mato; jundan ishlangan gazlama
duffel-bag [ˈdʌf(ə)l,bæg] *n* xalta, qopcha, to'rva
duffer [ˈdʌfə] *n* zehni yo'q, befarosat, befahm, esi past
duffle [ˈdʌfl] = **duffel**
duffle-coat [ˈdʌflkəʊt] *n* junli (paxmoq) palto
dug [dʌg] *n* yelin, emchak (*hayvonlarniki*)
dug-out [ˈdʌgaʊt] *n* 1) moki (*to'qay dastgohida*); 2) *harb.* bombapana; yerto'la
duiker [ˈdaɪkə] *n zool.* Janubiy Afrika antilopasi, ohu
duke [dju:k] *n* gersog (*G'arbiy Yevropada: yuqori tabaqa knazlarga va dvoryanlarga beriladigan unvon*)
dukedom [ˈdju:kdəm] *n* gersoglik (*1. gersog boshchiligidagi davlat; 2. gersog unvoni*)
dulcet [ˈdʌlsɪt] *a* 1) *she'r.* yoqimli, xushovoz, nozik; 2) *so'zl.* shirin
dulcify [ˈdʌlsɪfaɪ] *v* yoqimli, ko'ngilli qilmoq; yumshatmoq, yumshoq qilmoq
dulcimer [ˈdʌlsɪmə] *n mus.* simbal (*changsimon cholg'u asbobi*)
dull [dʌl] **1.** *a* 1) anqov, ongsiz, bema'ni; **~ brain** aqli past; 2) ezilgan, g'amgin; **~ mood** ma'yus kayfiyat; 3) zerikarli, zeriktiradigan; 4) o'tmas, charxlanmagan; **2.** *v* 1) shalpaytirmoq, lanj qilmoq; 2) o'tmaslashtirmoq; 3) xiralashtirmoq
dullard [ˈdʌləd] *n* befarosat, befahm, esi past kishi
dullish [ˈdʌlɪʃ] *a* 1) tentaknamo, ahmoqona; 2) o'tmaslashgan; 3) zerikarli
duly [ˈdju:lɪ] *adv* kerakli tarzda, tegishlicha; o'z vaqtida; **to pay ~** o'z vaqtida (muddatida) to'lamoq
dumb [dʌm] *a* 1) gung, kar-soqov; **~ from birth** tug'ma soqov; 2) tilsiz; **~ animals** tilsiz hayvonlar; 3) indamas, kamgap; sukut saqlaydigan; **to remain ~** sukut saqlamoq; 4) indamay *yoki* ovozsiz amalga oshiriladigan; **~ show** pantomima
dumb-bell [ˈdʌmbel] **1.** *n sport.* gantel, gimnastika toshi; **2.** *v* gantellar bilan mashqlar bajarmoq
dumbfound [dʌmˈfaʊnd] *v* qattiq taajjublantirmoq, hayratga solmoq
dumbly [ˈdʌmlɪ] *adv* gapirmasdan, indamay, so'zsiz
dumbness [ˈdʌmnəs] *n* 1) gunglik, soqovlik, tilsizlik; 2) sukut; jimjitlik, sukunat
dumb-waiter [ˌdʌmˈweɪtə] *n* ovqatni bir qavatdan boshqasiga yuborish uchun ishlatiladigan oshxonadagi kichkina lift
dummy [ˈdʌmɪ] **1.** *n* 1) qo'g'irchoq, tulum, model; 2) sun'iy *yoki* yasama narsa; yasama tish va h. k.; 3) rezinka so'rg'ich (*chaqaloqlar uchun*); 4) qo'g'irchoq, boshqalar qo'lidagi qurol; 5) *sport.* fint, aldovchi harakat; 6) *poligr.* nashr-maketi (kitob), **2.** *a* 1) haqiqiy bo'lmagan, qalbaki, yasama, yolg'ondakam; **a ~ watch** o'yinchoq soat; **a ~ cartridge** *harb.* mashq patroni; 2) shovqinsiz, ovozsiz
dump [dʌmp] **1.** *n* 1) axlat uyumi; 2) axlatxona; 3) *amer.* muvaqqat yog'och ombori; 4) *harb.* dala ombori; **2.** *v* 1) uymoq, to'plamoq; 2) chiqarib tashlamoq, ag'darmoq, tushirmoq; **to ~ coal** ko'mirni tushirmoq, ag'darmoq; 3) *iqt.* bozorni arzon mollar bilan to'ldirib yubormoq
dump cart [ˈdʌmpkɔ:t] *n* ag'darma arava *yoki* vagoncha
dumping [ˈdʌmpɪŋ] *n* 1) ag'darish, tushirish, uyumlab (betartib) tushirish; 2) *iqt.* chet el bozorlarida molni arzon sotish
dumpish [ˈdʌmpɪʃ] *a* qayg'uli, xafa, ma'yus
dumpling [ˈdʌmplɪŋ] *n* 1) uzma pilak, pilakcha; 2) *so'zl.* pakana, past bo'yli ayol
dumps [dʌmps] *n* g'am, g'am-g'ussa, ma'yuslik, ko'ngil g'ashlik, xunobgarchilik
dumpy [ˈdʌmpɪ] *a* 1) baqaloq, yo'g'on; 2) ma'yus, g'amgin
dun [dʌn] *n* 1) jonga tegadigan (bezor qiladigan) kreditor; 2) qarzni to'lashni qat'iy talab qilish
dunce [dʌns] *a* ovsar, esi past, befahm, befarosat, zehni past
dunderhead [ˈdʌndəhed] *n* ahmoq, galvars, kallavaram
dune [dju:n] *n* qumtepa (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*)
dung [dʌŋ] **1.** *n* go'ng, o'g'it; **2.** *v* o'g'itlamoq, go'ng solmoq
dungaree [ˌdʌŋgəˈri:] *n* dag'al ip gazlama
dungarees [ˌdʌngəˈri:z] *n* kombinezon (*shimi bilan ko'ylagi birga qo'shib tikilgan ish kiyimi, korjoma*)
dung-beetle [ˈdʌŋˌbi:tl] *n ent.* go'ngqo'ng'iz
dungeon [ˈdʌndʒən] *n* zindon, yer ostidagi qamoqxona
dung-fork [ˈdʌŋˌfɔ:k] *n* go'ng yuklaydigan panshaxa
dunghill [ˈdʌŋˌhɪl] *n* go'ngto'da, go'ng uyumi
dungy [ˈdʌŋɪ] *a* 1) go'ngga oid; 2) kir, iflos
duniwassal [ˈdu:nɪwɒs(ə)l] *n shotl.* kichik dvoryanin
dunk [dʌŋk] *v* botirmoq, botirib olmoq; ho'llamoq, namlamoq, cho'ktirmoq
dunnage [ˈdʌnɪdʒ] *n* yukning tagiga solinadigan narsa
duo [ˈdju:əʊ] *n* (*pl* **duos** [ˈdju(:)əʊz]) *mus.* duet (*1. ikki soz yoki ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. shunday asarni ijro etish va uning ijrochilari*)

duodecimal [ˌdju(:)ə(o)ˈdesɪm(ə)l] *n* 1) o'n ikkinchi qism; 2) *pl mat.* o'n ikkilik sistema

duodecimo [ˌdju(:)ə(o)ˈdesɪməo] *n* 1) (*pl* **-os** [-əoz]) varaqning 12-dan bir qismi shaklidagi kitob formati (bichimi) va shu formatdagi (bichimdagi) kitob

duodenal [ˌdju(:)ə(o)ˈdi:nl] *a anat.* o'n ikki barmoqli ichakka oid; **~ ulcer** o'n ikki barmoqli ichakning yarasi

duodenitis [ˌdju(:)ə(o)diˈnaɪtɪs] *n tib.* o'n ikki barmoqli ichakning yallig'lanishi

duodenum [ˌdju(:)ə(o)ˈdi:nəm] *n* (*pl* **-na**) *anat.* o'n ikki barmoqli ichak

duologue [ˈdju:əlog] = **dialogue**

dupable [ˈdju:pəbl] = **dupeable**

dupe [dju:p] **I.** *n* aldangan kishi; **2.** *v* 1) aldamoq; 2) ahmoq qilmoq

dupeable [ˈdju:pəbl] *a* yolg'on gapga laqqa tushadigan

duple [ˈdju:pl] *a mat.* ikki hissa ortiq, ikki marta ko'p

duplex [ˈdju:pleks] *a* 1) ikki tomonlama, ikki taraflama; 2) ikki marta ko'p, ikki hissa

duplicate [ˈdju:plɪkɪt] **1.** *n* nusxa, ko'chirma; **2.** *v* nusxa ko'chirmoq (olmoq)

duplication [ˌdju:plɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) nusxa ko'chirish; 2) ikki baravar ko'paytirish

duplicator [ˈdju:plɪkeɪtə] *n* nusxa ko'chiradigan apparat

durability [ˌdjo(ə)rəˈbɪlɪtɪ] *n* mustahkamlik, qattiqlik, chidamlilik, pishiqlik, sabotlilik, bardoshlilik

durable [ˈdjo(ə)rəbl] *a* mustahkam, pishiq, ishonchli; ustuvor

duramen [djoˈreɪmen] *n bot.* o'zak, mag'iz

duration [djoəˈreɪʃ(ə)n] *n* davom etish (cho'zilish) muddati, davomiylik

durbar [ˈdɜ:bɑ:] *n hind.* 1) tantanali kutib olish; 2) tantanali qabul marosimi o'tkaziladigan zal *yoki* saroy

duress(e) [djoˈres] *n* 1) ozodlikdan mahrum qilish; 2) majbur qilish, zo'rlash; **to do smth. under ~** nimanidir majburiyat yuzasidan bajarmoq

during [ˈdjoərɪŋ] *prep.* davomida, vaqtida, mobaynida

durst [dɜ:st] = **dare**

dusk [dʌsk] **1.** *n* oqshom, kechqurungi g'ira-shira vaqt; **2.** *a* qorong'i, g'ira-shira; **3.** *v* qorong'i tushmoq, qorong'ilashmoq

duskiness [ˈdʌskɪnəs] *n* qorong'i, qorong'ilik

dusky [ˈdʌskɪ] *a* g'ira-shira qorong'i, qosh qoraygan paytdagiga o'xshagan xira

dust [dʌst] **1.** *n* chang, to'zon, gard; **2.** *v* 1) changitmoq; 2) changni artmoq, artib tozalamoq

dustbin [ˈdʌstbɪn] *n* axlat qutisi, axlat tashlaydigan idish

dust-coat [ˈdʌstkəot] *n* changdan saqlaydigan yupqa plash

dust-colour [ˈdʌstˌkʌlə] *n* och jigarrang

duster [ˈdʌstə] *n* chang artadigan latta; supurish, tozalash va sh. k uchun cho'tka

dust-hole [ˈdʌsthəol] *n* axlat tashlaydigan chuqur

dusting [ˈdʌstɪŋ] *n* 1) changni artish; 2) sepish, sepib qo'yish; 3) sepki, sepiladigan narsa; sepish uchun antiseptik kukun

dustpan [ˈdʌstpæn] *n* kurakcha, xokandoz

dust-proof [ˈdʌstpru:f] *a* chang o'tkazmaydigan

dust-shot [ˈdʌstʃɒt] *n ov.* eng mayda sochma o'q, pitra

dust-storm [ˈdʌststɔ:m] *n* to'zonli bo'ron (dovul), changli qattiq shamol

dust-up [ˈdʌstˌʌp] *n* 1) *so'zl.* shovqin, shov-shuv, g'alva; 2) g'uvullagan tovush; 3) janjal, g'avg'o, mojaro

dusty [ˈdʌstɪ] *n* changli, to'zonli, chang bosgan

Dutch [dʌtʃ] **1.** *a* Niderlandiyaga (Gollandiyaga) oid; **2.** *n* 1) (**the ~**) niderlandiyaliklar; gollandiyaliklar; 2) niderland (golland) tili

dutch [dʌtʃ] *n so'zl.* xotin, rafiqa; **my old ~** mening kampirim (*xotin to'g'risida*)

Dutchman [ˈdʌtʃmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) niderlandiyalik kishi; gollandiyalik erkak

Dutchwoman [ˈdʌtʃˌwomən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) niderlandiyalik ayol; gollandiyalik ayol

dutiful [ˈdju:tɪf(ə)l] *a* itoatli, bo'ysunadigan, qobil, sharafli

duty [ˈdju:tɪ] *n* 1) burch, xizmat, vazifa; 2) majburiyat; 3) navbatchilik; **I am on ~ today** bugun men navbatchi; 4) hurmat, e'tibor, ehtirom, izzat; 5) davlat yig'imi, makka solig'i, soliq, boj; 6) *tex.* (*qozon, nasos va sh. k. ning*) unumdorligi; quvvat; (*mashinaning*) foydali ishi

duty-free [ˌdju:tɪˈfri:] *a* boj to'lanmaydigan, bojdan ozod (*tovar, mahsulot, mollarga nisbatan*)

duvet [ˈdu(:)veɪ] *n* tivit adyol

dwarf [dwɔ:f] *a* pak-pakana odam, mitti (pakana) kishi

dwarfish [ˈdwɔ:fɪʃ] *a* 1) kichkina, mitti, pakana; 2) hali o'sib yetilmagan, yaxshi o'smagan

dwell [dwel] *v* (**dwelt**) 1) yashamoq, kun kechirmoq; 2) qolmoq, yashamoq; 3) (*biror narsa ustida*) batafsil to'xtamoq; (*biror narsa haqida*) mulohaza qilmoq; 4) to'siq oldida to'xtab qolmoq *yoki* sekinlashmoq (*ot haqida*)

dweller [ˈdwelə] *n* turuvchi, yashovchi (*kishi*)

dwelling [ˈdwelɪŋ] *n* 1) uy-joy, turar joy, makon; 2) yashash

dwelling-house [ˈdwelɪŋhaos] *n* odam yashaydigan uy

dwelling-place [ˈdwelɪŋpleɪs] *n* yashash joyi

dwelt [dwelt] *past, p. p. of* **dwell**

dwindle [ˈdwɪndl] *v* 1) kichray(tir)moq, qisqar(tir)moq; 2) mazmunini yo'qotmoq; 3) yomonlashmoq, inqirozga uchramoq

dyad [ˈdaɪæd] *n* 1) juft, ikki; 2) *kim.* ikki valentli element

dye [daɪ] **1.** *n* bo'yoq, rang; **2.** *v* bo'yamoq

dye-house [ˈdaɪhaos] *n* bo'yoqchilik ustaxonasi, gazmollarni bo'yash sexi

dyeing [ˈdaɪɪŋ] *n* 1) bo'yoq (bo'yash) ishlari; 2) matolarni bo'yash

dyer [ˈdaɪə] *n* bo'yoqchi

dye-stuff [ˈdaɪstʌf] *n* bo'yoq moddalar

dye-works [ˈdaɪwɜ:ks] *n* bo'yoqxona, bo'yash fabrikasi

dying [ˈdaɪɪŋ] **1.** *n* o'lish, o'lim; **2.** *a* o'layotgan, o'lim to'shagida yotgan

dyke [daɪk] *n* to'g'on

dynamic [daɪˈnæmɪk] *a* 1) dinamik, dinamikaga oid; 2) faol, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat

dynamics [daɪˈnæmɪks] *n* 1) dinamika (*harakat haqidagi fanning bir bo'limi*); 2) harakatlantiruvchi kuchlar

dynamite [ˈdaɪnəmaɪt] *n* dinamit (*portlovchi modda*)

dynamitic [ˌdaɪnəˈmɪtɪk] *a* dinamitli, dinamitga oid

dynamo [ˈdaɪnəməo] *n* (*pl* **-os** [-əoz]) dinamo-mashina, o'zgarmas tok generatori

dynasty [ˈdɪnəstɪ] *n* sulola, dinastiya

dysentery [ˈdɪs(ə)ntə(ə)rɪ] *n tib.* ichburug'

dyslexia [dɪsˈleksɪə] *n tib.* disleksiya, o'qishga noqobillik, uquvsizlik

dyslexic [dɪsˈleksɪk] *a tib.* o'qishga qobiliyati yo'q, o'qishni o'rgana olmaydigan

dyspepsia [dɪsˈpepsɪə] *n tib.* dispepsiya (*me'da va ichaklarda ovqatning singmasligi va shuning oqibatidagi kasallik*)

dyspeptic [dɪsˈpeptɪk] **1.** *a* ovqatning yomon hazm bo'lishidan qiynalayotgan; **2.** *n* ovqat yomon hazm bo'lishi natijasida azob chekayotgan odam

dyspn(o)ea |dɪsˈpni(:)ə| *n tib.* nafas qisish, nafas siqilish, harsillash

dystrophy |ˈdɪstrəfɪ| *n tib.* distrofiya (*to'qima va a'zolarda modda almashinuvining buzilishi*)

E

E, e [i:] *n* 1) ingliz alifbosining beshinchi harfi; 2) *mus.* mi; 3) *deng.* ikkinchi darajali kema; 4) „qoniqarsiz" baho, „yomon" baho; 5) *so'zl.* o'zlashtirmaydigan o'quvchi

each |i:tʃ| **1.** *pron. indef.* har bir; har qaysi; **~ student has to learn it by heart** har bir talaba buni yoddan bilishi kerak; **2.** *n* har bir kishi, har kim

each other |ˌi:tʃˈʌðə| *pron. recip.* bir-birini, bir-biroviga (*odatda, ikki kishi haqida*)

eager [ˈi:gə] *a* **(for, after, about)** jon-jahdi bilan intiladigan; sabrsiz; intiluvchan; intizor

eagerness [ˈi:gənəs] *n* g'ayrat, jo'shqinlik, ishtiyoq, intilish

eagle [ˈi:g(ə)l] *n* 1) *zool.* burgut; 2) *amer. esk.* o'n dollarli oltin tanga; 3) burgut (*AQSH gerbi va emblemasi*)

eagle-eyed |ˌi:g(ə)lˈaɪd| **1.** *n* burgutko'z; o'tkir ko'z; sinchkovlik; **2.** *a* o'tkir, ziyrak, sezgir; o'tkir qarashli

eagle-owl [ˈi:g(ə)lˌaʊl] *n zool.* ukki (*qush*)

eaglet [ˈi:glɪt] *n* burgutcha, burgut bolasi

eagre [ˈeɪgə] *n* daryoning quyilish joyidagi ko'tariladigan to'lqin

ear [ɪə] **1.** *n* 1) quloq; 2) eshitish, eshitish qobiliyati; 3) boshoq, so'ta, makkajo'xori; **2.** *v* boshoqlamoq, boshoq chiqarmoq

ear-ache [ˈɪəreɪk] *n* quloq og'rig'i

eardrop [ˈɪədrɒp] *n* osilgan bezak (shokila)li zirak

ear-drops [ˈɪədrɒps] *n pl* quloq tomchi dorisi, tomizib ichiladigan dori (*quloq og'riganda*)

ear-drum [ˈɪədrʌm] *n anat.* quloq pardasi

ear-flap [ˈɪəflæp] *n* 1) quloqchin; 2) solinchak (*quloqda*)

earful [ˈɪəfʊl] *n so'zl.* 1) uzundan uzoq suhbatlar, uzunquloq gaplar; 2) kaltak, ta'zir, qattiq gap, tanbeh, koyish

earl [ɜ:l] *n* graf (*Angliyada*)

ear-lap [ˈɪəlæp] *n anat.* solinchak (*quloqda*)

earldom [ˈɜ:ldəm] *n* grafllik unvoni; grafllik

earless [ˈɪələs] *a* 1) quloqsiz, qulog'i yo'q; 2) tutqichsiz, dastasiz (*idish to'g'risida*)

ear-lobe [ˈɪələʊb] = **ear-lap**

ear-lock [ˈɪəlɒk] *n* kokil soch, quloq ostidagi gajak

early [ˈɜ:lɪ] **1.** *a* 1) barvaqt, erta, vaqtli; **an ~ morning** tong saharda; **in ~ spring** erta bahorda; 2) oldindan; 3) yaqin, yaqin kelajakda kutilayotgan, tez orada; **at an ~ date** yaqin orada; 4) vaqtidan oldin, muddatidan oldin; **an ~ death** bevaqt o'lim; **2.** *adv* erta, vaqtli; **to be up ~** vaqtli turmoq; **~ in life** yoshlikda; **~ in the year** yilning boshida

earmark [ˈɪəmɑ:k] **1.** *n* 1) hayvon qulog'idagi tamg'a; 2) farqlovchi belgi, kimgadir tegishlilikni bildiruvchi belgi; 3) sahifaning bukilgan burchagi; **2.** *v* tamg'alamoq, tamg'a bosmoq; 2) belgilamoq; **to ~ a page** sahifa burchagini bukib qo'ymoq; 3) mo'ljallamoq; muayyan maqsad uchun ajratib qo'ymoq

earmuffs [ˈɪəmʌfs] *n* (*sovuq, shovqin-suron va b. dan himoya qilish uchun*) quloqchin

earn [ɜ:n] *v* 1) ishlab topmoq; daromad keltirmoq; **how much do you ~?** qancha maosh olasiz? **to ~ one's living** tirikchilik uchun ishlab topmoq; 2) sazovor bo'lmoq, qozonmoq, erishmoq; **to ~ a fame** shuhrat qozonmoq

earner [ˈɜ:nə] *n* maosh oluvchi shaxs

earnest [ˈɜ:nɪst] **1.** *a* 1) jiddiy, muhim; 2) samimiy, qat'iy ishongan; 3) jonkuyar, g'ayratli, tirishmoq; **2.** *n* 1) bay puli (*zakalat*); 2) garovga qo'yilgan (*yoki olingan*) narsa

earnestly [ˈɜ:nɪstlɪ] *adv* qattiq turib, qat'iy sur'atda

earnings [ɜ: ˈnɪŋz] *n* 1) ishlab topilgan pul, maosh, mablag'; 2) daromad, tushum

ear-phone [ˈɪəfəʊn] = **head-phone**

earpiece [ˈɪəpi:s] *n* (*asos., pl*) 1) quloq (*bosh kiyimda*); 2) ko'zoynakning bandi; 3) telefon go'shagining quloqqa tutadigan qismi

earplug [ˈɪəplʌg] *n* (*odat. pl*) quloqqa tiqiladigan tiqin

ear-ring [ˈɪərɪŋ] *n* zirak, baldoq, isirg'a

earshot [ˈɪəʃɒt] *n* ovozni eshitib bo'ladigan uzoqlikdagi masofa; eshitilish masofasi

ear-splitting [ˈɪəˌsplɪtɪŋ] *a* juda qattiq; quloqni kar qiladigan

earth [ɜ:θ] **1.** *n* 1) yer, yer shari; **~'s surface** yer sathi; 2) **(the Earth)** Yer (*sayyora*); **the Earth goes round the Sun** Yer Quyosh atrofida aylanadi; 3) yer, tuproq; 4) in, uya; **to run to ~** inida yashirinmoq; **2.** *v* 1) chopmoq, yerni chopiq qilmoq, egat olmoq; 2) iniga haydab kiritmoq; yerga kirib ketmoq; 3) ko'mmoq; dafn qilmoq

earth-born [ˈɜ:θbɔ:n] *a* o'ladigan, odam (kishi; inson)ga oid, yerdan yaralgan; **creatures ~, not spirits** ruh emas, yer farzandi

earth-bound [ˈɜ:θbaʊnd] *a* 1) yer, dunyoviy, hayotiy; 2) yerga oid; yer bilan bog'liq; yerga yo'nalgan

earthen [ˈɜ:θ(ə)n] *a* tuproqli, loyli, yerlik; loydan qilingan (yasalgan)

earthenware [ˈɜ:θ(ə)nweə] **1.** *n* 1) loy, tuproq; 2) loydan yasalgan idish, sopol idish; **2.** *a* 1) loydan qilingan; loy ...; sopol...; 2) loydan (tuproqdan) iborat bo'lgan; tuproq...

earthing [ˈɜ:θɪŋ] **1.** *pres. p. of* **earth 2**; **2.** *n el.* yerga ulash; yerga ulangan sim

earth-flax [ˈɜ:θflæks] *n* toshpaxta, asbest

earth-light [ˈɜ:θˌlaɪt] = **earth-shine**

earthly [ˈɜ:θlɪ] *a* yerga oid; yer...; **an ~ globe** yer shari

earthly-minded [ˈɜ:θlɪˈmaɪndɪd] *a* o'ta omilkor (tajribakor)

earth-nut [ˈɜ:θnʌt] *n* yeryong'oq

earthquake [ˈɜ:θkweɪk] *n* yer qimirlash, zilzila

earthshaking [ˈɜ:θˌʃeɪkɪŋ] *a* o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'lgan; ajoyib, larzaga soladigan

earth-shine [ˈɜ:θˌʃaɪn] *n astr.* (*Oyning*) kumushrang nuri

earthward(s) |ˈɜ:θwəd(z)| *adv* yerga tomon

earthwork [ˈɜ:θwɜ:k] *n* yer qazish ishlari

earth-worm [ɜ:θwɜ:m] *n* 1) *zool.* chuvalchang; 2) *ko'ch.* xushomadgo'y, laganbardor

earthy [ˈɜ:θɪ] *a* 1) yerga oid, sertuproq; 2) hayotiy, dunyoviy

ear-wax [ˈɪəwæks] *n* quloq kiri

earwig [ˈɪəwɪg] *n zool.* uxovyortka (*to'g'ri qanotli hasharot*)

ease [i:z] **1.** *n* tinchlik, osoyishtalik, orom, huzur-halovat; **to take one's ~** dam olmoq; **2.** *v* 1) (*azob va b. ni*) yengillashtirmoq; (*og'riq va b. ni*) tinchitmoq, qoldirmoq; 2) (*og'riqni*) bo'shashtirmoq, yumshatmoq

easeful [ˈi:zf(ə)l] *a kit.* 1) (*ko'ngilni*) tinchitadigan, tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, taskin (orom) beradigan, xotirjam qiladigan; 2) tinch, osoyishta, xotirjam, bexavotir, beg'alva, bamaylixotir

easel [ˈi:z(ə)l] *n* 1) molbert (*rassomlar dastgohi*); 2) kitob uchun taglik; 3) nota va kitob qo'yadigan qiya moslama

easement [ˈi:zmənt] *n* qulaylik, o'ng'aylik; 2) yengillatish, yumshatish, tinchitish

easily [ˈi:zɪlɪ] *adv* osonlik bilan, osongina, qiyinchiliksiz, qiynalmay, bemashaqqat, bemalol: **they can ~ do it** ular buni osonlik bilan bajara oladilar; 2) bajonidil, qarshilik ko'rsatmay: **we agreed ~** biz bajonidil rozi bo'ldik

easiness [ˈi:zɪnəs] *n* yengillik, osonlik, o'ng'aylik

east [i:st] **1.** *n* 1) sharq; **to the ~** sharqqa; **in the ~** sharqda; **to the ~ of** a) ...dan sharqqa; b) ...ning sharqida; **the Far East** Uzoq Sharq; **the Middle East** O'rta Sharq; **the Near East** Yaqin Sharq; 2) sharqiy shamol; **2.** *a* 1) sharqiy; **~ wind** sharqiy shamol; 2) sharqqa qaragan, sharqqa chiqadigan; **an ~ window** sharqqa qaragan deraza; **3.** *adv* 1) sharqqa; 2) sharqiy-yo'nalishdan (*shamol haqida*); **to blow ~** sharqdan esmoq

eastbound [ˈi:stbaund] *a* sharqqa harakatlanuvchi (harakat qiluvchi)

East End [ˌi:stˈend] *n* Ist-End; Londonning sharqiy (*kambag'al*) qismi

Easter [ˈi:stə] *n cherk.* Pasxa (*xristianlar bayrami*)

easterly [ˈi:stəlɪ] **1.** *a* sharqqa oid, sharqdagi; **2.** *n* sharqiy shamol; **3.** *adv* sharqqa; sharqdan (*shamol to'g'risida*)

eastern [ˈi:stən] **1.** *a* sharqiy; **2.** *n* sharq fuqarosi, sharqda yashovchi kishi

Easterner [ˈi:stənə] *n* AQSHning shimoliy-sharqiy qismida yashovchi kishi

easternmost [ˈi:stənməust] *a* eng sharqiy

Eastertide [ˈi:stə,taɪd] *n cherk.* Pasxa haftaligi

East India Company [ˌi:stˈɪndɪəˈkʌmpənɪ] *n* Sharqiy Hindiston shirkati

easting [ˈi:stɪŋ] *n deng.* sharq tomonga yo'l olish, yurish (*kemalarning yo'nalishlari haqida*)

East Side [ˌi:stˈsaɪd] *n* Nyu-Yorkning sharqiy (*kambag'al*) qismi

eastward [ˈi:stwəd] **1.** *a* sharqqa harakat qiluvchi (qiladigan); **2.** *adv* sharqqa, sharq tomonga; **3.** *n* sharq tomon

easy [ˈi:zɪ] **1.** *a* 1) oson, yengil, qiyin bo'lmagan; **an ~ task** yengil topshiriq; **an ~ path** qulay so'qmoq; 2) yengil, og'irlik qilmaydigan; **on ~ terms** yengil shartlarda; **~ book** *max.* kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitob; 3) qulay, yoqimli; **an ~ coat** keng palto; 4) tinch, osoyishta, xotirjam; **make your mind ~** hayajonlanmang, o'zingizni bosing; 5) shoshilmay, bemalol; **to travel by ~ stages** dam olish uchun to'xtab-to'xtab sayohat qilish; 6) chiqishadigan, ko'nuvchan, yumshoq tabiatli; **~ disposition** yumshoq tabiat; 7) erkin, bemalol, tabiiy; **~ manners** tabiiy xatti-harakat, xulq-atvor; 8) ta'minlangan, badavlat; **~ circumstances** moddiy ta'minlanganlik; **2.** *adv* osonlik bilan, qiyinchiliksiz

easy-care [ˌi:zɪ keə] *a* qattiq parvarish qilishni talab qilmaydigan, parvarish qilishi oson bo'lgan

easychair [ˌi:zɪˈtʃeə] *n* yumshoq kreslo

easy-going [ˌi:zɪˈgəoɪŋ] *a* 1) yengil, osoyishta (*otning yurishi to'g'risida*); 2) xushmuomala, quvnoq; 3) parvosiz, beparvo, beg'am

easy meat [ˌi:zɪˈmi:t] *n so'zl.* 1) befahm (anqov, laqma) odam; 2) oson ish

eat [i:t] **(ate; eaten)** *v* yemoq, yeb qo'ymoq; **to ~ away** yemoq, ichmoq, yeb (ichib) qo'ymoq; **to ~ in** uyda ovqatlanmoq; **to ~ off** birovning bor-yo'g'ini yeb qo'ymoq, kimningdir hisobidan yashamoq; **to ~ up** yemoq, yeb qo'ymoq, yeb yubormoq

eatable [ˈi:təb(ə)l] *a* yeyishli, yesa bo'ladigan, ovqatga ishlatiladigan

eatables [ˈi:təb(ə)lz] *a pl* yemoq-ichmoq uchun belgilangan, yegulik, oziq-ovqat

eaten [ˈi:tn] *p. p. of* **eat**

eater [ˈi:tə] *n* 1) ovqatlanuvchi har bir kishi, xo'randa; 2) iste'molchi

eatery [ˈi:tərɪ] *n* 1) ovqatxona, yemakxona (*xonadonda*); 2) oshxona; 3) gazakxona

eating [ˈi:tɪŋ] **1.** *n* ovqat, oziq, taom; ovqat yeyish; **2.** *a* xom holda yesa bo'ladigan; **an ~ apple** yeyiladigan olma; **an ~ club** (*yoki* **hall**) *amer.* universitet oshxonasi

eating-house [ˈi:tɪŋhaos] *n* oshxona; arzon restoran

eats [i:ts] *n pl so'zl.* ovqat, oziq, taom

eau de Cologne [ˌəodəkəˈləɪn] *n* odekolon, atir

eau-de-vie [ˈəodəˈvi:] *n fr.* konyak, araq, viski

eaves [i:vz] *n* karniz

eavesdrop [ˈi:vzdrɒp] *v* bildirmay, yashirincha quloq solmoq, eshitib olmoq (*shuningdek, mikrofon vositasida ham*)

eavesdropper [ˈi:vzˌdrɒpə] *n* yashirincha quloq soluvchi; josus, ayg'oqchi

ebb [eb] **1.** *n* 1) (*suvning, to'lqinning*) orqaga qaytishi; 2) *ko'ch.* tushkunlik, tanazzul, yomonlashish; **to be at an ~** qiyin ahvolda bo'lmoq; **2.** *v* 1) chekinmoq (*to'lqinning qaytishi to'g'risida*); kamaymoq (*suv to'g'risida*); 2) zaiflashmoq, so'nmoq, o'lmoq; 3) (*buliqni*) suvning qaytishida ovlamoq

ebb-tide [ˌebˈtaɪd] *n* suvning, to'lqinning orqaga qaytishi

ebonite [ˈebənaɪt] *n tex.* ebonit (*izolatsion material*)

ebony [ˈebənɪ] **1.** *n* 1) *bot.* qora *yoki* obnus daraxti; 2) *amer.* negr, zangi, habash; **2.** *a* 1) qora *yoki* obnus daraxtidan qilingan; 2) mumdek qora

e-book [ˈi:bok] *n* kompyuter ekranida o'qish mumkin bo'lgan kitob, elektron kitob

ebullience [ɪˈbʌlɪəns] *n* 1) qaynash, biqirlab qaynash; 2) shodiyona, hayajonlanish, (*to'lib-toshgan*) g'ayrat, tashabbus

ebulliency [ɪˈbʌlɪənsɪ] = **ebullience**

ebullient [ɪˈbʌlɪənt] *a* 1) oshib-toshgan, ichiga sig'maydigan (*xursandchilik va b. haqida*); 2) qaynayotgan

ebullition [ˌebəˈlɪʃ(ə)n] *n* 1) qaynash; 2) birdan qizishib ketish (*his-tuyg'u, ehtiros*)

écarté [eɪˈkɑ:teɪ] *n fr.* ekarte (*qarta o'yinining bir turi*)

ecaudate [i:ˈkɔ:deɪt] *a zool.* quyruqsiz, dumsiz

eccentric [ɪkˈsentrɪk] **1.** *a* g'alati, ajib, qiziq; **2.** *n* g'alati (ajib, qiziq) inson

eccentricity [ˌeksenˈtrɪsɪtɪ] *n* ajiblik, qiziqlik; g'alatilik

ecclesiastic [ɪkˌli:zɪˈæstɪk] **1.** *n* ruhoniylarga mansub kishi, ruhoniy; **2.** *a* = **ecclesiastical**

ecclesiastical [ɪˌkli:zɪˈæstɪk(ə)l] *a* 1) cherkovga oid; 2) ruhoniy, diniy

echelon [ˈeʃəlon] **1.** *n harb.* eshelon (*birin-ketin joylashgan qo'shinlar qatori*); **2** *v harb.* eshelonlamoq, eshelonlarga bo'lmoq, eshelon-eshelon qilib (birin-ketin) joylashtirmoq

echidna [ɪˈkɪdnə] *n zool.* 1) yexidna (*Avstraliyada va uning atrofidagi ba'zi orollarda yashaydigan kirpisimon jonivor*); 2) yexidna (*Avstraliyada yashaydigan zaharli ilon*)

echini [ɪˈkaɪnaɪ] *pl of* **echinus**

echinus [ɪˈkaɪnəs] *n* (*pl* **-ni** [-naɪ]) *zool.* dengiz tipratikani

echo [ˈekəo] **1.** *n* (*pl* **-oes** [-əoz]) aks sado; **2.** *v* aks sado bermoq

echoic [eˈkəoɪk] *a* 1) aks sadoga o'xshash, aks etgan (*tovush haqida*); 2) tovushga taqlid yo'li bilan hosil qilingan, taqlidiy

echo-sounder [ˈekəoˌsaondə] *n deng.* exolot (*dengiz chuqurligini elektroakustik usul bilan o'lchaydigan asbob*)

eclair [ɪˈkleə, eɪ kleə] *n fr.* ekler (*pirojniyning bir turi*)

eclampsia [ɪˈklæmpsɪə] *n tib.* eklampsiya (*homiladorlikni va tug'ishni qiyinlashtiradigan og'ir kasallik*)

éclat [ˈeɪklɑ:] *n fr.* 1) mashhurlik, dongdorlik, buyuklik; 2) g'ulg'ula soladigan muvaffaqiyat; **with great ~** katta muvaffaqiyat bilan

eclectic [ɪˈklektɪk] **1.** *n* eklektik (*eklektizmga moyil odam*); **2.** *a* eklektizmga oid, eklektizmga asoslangan
eclecticism [ɪˈklektɪs(ə)zm] *n* eklektika, eklektizm (*turlicha qarashlarni, nazariyalarni bir-biriga o'zboshimchalik bilan qorishtirib yuborish*)
eclipse [ɪˈklɪps] **1.** *n* 1) *astr.* tutilish; **a total (partial)** ~ to'la (qisman) tutilish; xiralashish; 3) shukuhini, dabdabasini yo'qotish, tanazzul, tushkunlik; **the ~ of feudalizm** feodalizmning inqirozi; **an ~ of one's power** holdan toyish; **2.** *v* 1) qorong'i qilmoq, to'smoq (*osmon jismi to'g'risida*); 2) ustun kelmoq, soyasida qoldirmoq; 3) tanazzulga yuz tutmoq, shuhratini yo'qotmoq, zaiflashmoq (*qudrat to'g'risida*)
ecliptic [ɪˈklɪptɪk] **1.** *n astr.* ekliptika (*Quyosh bir yilda aylanib chiqadigan katta fazoviy doira*); **2.** *a* ekliptikaga oid
eclogue [ˈeklɒg] *n adab.* ekloga (*cho'ponlar va qishloq hayoti ideallashtirib tasvirlangan adabiy asar*) janri; idilliya (*tabiat quchog'idagi tinch va osoyishta hayotni tasvirlovchi kichik she'riy asar*); pastoral (*cho'ponlar hayoti tasvirlangan badiiy yoki musiqiy asar*)
ecofriendly [ˈi:kəʊˌfrendlɪ] *a* ekologiyaga zarar yetkazmaydigan, ekologik toza
ecological [ˌi:kəˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* ekologiyaga oid, ekologik
ecologist [ɪˈkɒlədʒɪst] *n* ekologiya mutaxassisi
ecology [ɪˈkɒlədʒɪ] *n biol.* ekologiya (*tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan biologik fan*)
e-commerce [ˌi:ˈkɒmə:s] *n* internet orqali amalga oshiriladigan tijorat (savdo-sotiq) ishlari
econometrics [ɪˌkɒnəˈmetrɪks] *n* ekonometriya, matematik iqtisod
economic [ˌekəˈnɒmɪk] *a* 1) iqtisodiy; xo'jalikka, xalq xo'jaligiga oid; **an ~ policy** iqtisodiy siyosat; **~ forces** iqtisodiy omillar; **~ development** iqtisodiy rivojlanish; 2) tejamli; iqtisodiy foydali *yoki* maqsadga muvofiq; foyda keltiradigan; 3) amaliy; **~ botany** amaliy botanika, qishloq xo'jaligi botanikasi
economical [ˌekəˈnɒmɪk(ə)l] *a* 1) tejamkor, rejali; **~ habits** tejamkorlik; tejash odatlari; 2) iqtisodiy
economically [ˌekəˈnɒmɪk(ə)lɪ] *adv* 1) tejab-tergab, reja bilan; 2) iqtisodiy nuqtayi nazardan
economics [ˌekəˈnɒmɪks] *n* 1) iqtisodiyot, xalq xo'jaligi; **planned ~** rejali (rejaga asoslangan) xo'jalik; 2) iqtisodiyot fani, siyosiy iqtisod fani; 3) xo'jalik hayoti; xo'jalik; **home ~** ro'zg'orshunoslik; **rural ~** qishloq xo'jaligi
economist [ɪˈkɒnəmɪst] *n* 1) iqtisodchi; 2) rejali xo'jayin; tejamkor kishi
economize [ɪˈkɒnəmaɪz] *v* tejamoq, iqtisod qilmoq, rejali sarflamoq
economizer [ɪˈkɒnəˌmaɪzə] *n* 1) tejamkor odam; 2) *tex.* suv isitgich, suv isitadigan asbob
economy [ɪˈkɒnəmɪ] *n* 1) xo'jalik, iqtisodiyot; 2) tejamkorlik; 3) iqtisod, tejash; **a political ~** siyosiy iqtisod
ecru [ˈe(ɪ)kru:] *a fr.* qattiq bo'z rangi, och jigarrang
ecstasize [ˈekstəsaɪz] *v* 1) g'oyat zavqlantirmoq, qoyil qoldirmoq; 2) qoyil qolmoq; tahsin o'qimoq
ecstasy [ˈekstəsɪ] *n* jazava; o'zini yo'qotish darajasida zavqlanish (hayajonlanish); **in the ~ of** shodlikdan entikib
ecstatic [ɪkˈstætɪk] *a* g'azabi oshgan, hayajonlangan, asabiylashgan
ectopic pregnancy [ekˌtɒpɪkˈpregnənsɪ] *n tib.* bachadondan tashqari homila
ecu [eˈkju:] *n fr.* ekyu (*qadimiy kumush tanga*)
Ecuadorean [ˌekwəˈdɔ:rɪən] **1.** *a* Ekvadorga oid, Ekvador...; **2.** *n* ekvadorlik, ekvadorlik ayol
ecumenic(al) [ˌi:kjʊˈmenɪk(əl)] *a cherk.* butunjahon (*asosan, xristianlar yig'ini haqida*)
eczema [ˈeksɪmə] *n tib.* ekzema, chilla yara
edacious [ɪˈdeɪʃəs] *a* 1) ochko'z, suq; 2) yebto'ymas, badnafs
edacity [ɪˈdæsɪtɪ] *n* 1) ochko'zlik, suqlik; 2) yebto'ymaslik, badnafslik
Edam [ˈi:dəm, ˈi:dæm] *n* Edam pishlog'i
edaphology [ˌedəˈfɒlədʒɪ] *n* tuproqshunoslik
eddish [ˈedɪʃ] *n q.x.* 1) yangi o't, maysa; 2) ang'iz (*ekin o'rib olingan yer*)
eddy [ˈedɪ] **1.** *n* girdob, quyun, dovul, uyurmali qattiq shamol, bo'ron; **2.** *v* 1) girdobga aylanmoq; 2) burqirab chiqmoq
edelweiss [ˈeɪdlvaɪs] *n bot.* edelveys (*murakkabguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik tog' o'simligi va uning guli*)
Eden [ˈi:dn] *n cherk.* jannat, jannatmakon joy
edentate [ɪˈdenteɪt] *a* 1) *zool.* sutemizuvchilarga oid; 2) *hazil.* tishi yo'q, tishi tushgan, tishsiz
edge [edʒ] **1.** *n* 1) dam, tig'; **the knife has no ~** pichoq o'tmas bo'lib qoldi; 2) chet, qirg'oq; **the ~ of a wood** o'rmon chekkasida; **on the ~ of winter** qish bo'sag'asida; 3) chet (*kitobda*); hoshiya (*sahifada*); 4) qirra, cho'qqi (*tog'da*); tog'lar tizmasi; **the ~ of a mountain** tog' qirrasi; **2.** *a* 1) charxlamoq, o'tkirlamoq; 2) hoshiyalamoq, atrofini o'ramoq; 3) (*sekin*) ilgarilamoq; (*ohista*) yaqinlashmoq
edge-bone [ˈedʒbəʊn] *n* dumg'aza suyagi
edge-stone [ˈedʒstəʊn] *n* tegirmon toshi, tegirmontosh
edge-tool [ˈedʒˌtu:l] *n* o'tkir, keskir, uchli, qirrali asbob; **to play with ~s** o't bilan o'ynashmoq
edgeways [ˈedʒweɪz] *adv* uchi bilan; yoni bilan; **to get a word in ~** luqma tashlamoq, gapga aralashmoq, gap qistirmoq
edgewise [ˈedʒwaɪz] = **edgeways**
edging [ˈedʒɪŋ] *n* qirg'oq, chet
edgy [ˈedʒɪ] *a* 1) o'tkir; kesuvchan; qirquvchan; keskir; 2) serjahl, serzarda
edibility [ˌedəˈbɪlɪtɪ] *n* yesa bo'ladiganlik, ovqatga ishlatishga yaraydiganlik
edible [ˈedəb(ə)l] *a* yeyishli, yesa bo'ladigan, ovqatga ishlatiladigan
edict [ˈi:dɪkt] *n* farmon, oliy farmon; qonun; **~s of nature** tabiat qonunlari
edification [ˌedɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* nasihat, o'git, pand-nasihat
edifice [ˈedɪfɪs] *n* hashamatli bino, imorat, inshoot
edify [ˈedɪfaɪ] *v* biror narsaga o'rgatmoq, ta'lim bermoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq; pand-nasihat bermoq
edit [ˈedɪt] *v* 1) tahrir qilmoq; nashrga tayyorlamoq; 2) muharrirlik qilmoq; **to ~ the newspaper** gazeta muharriri bo'lmoq; 3) (*kinofilmni*) montaj qilmoq; 4) nashr qilmoq, chop etmoq; 5) *maxs.* tekshirmoq, tahlil qilmoq, tuzatishlar kiritmoq; **to ~ out** o'chirmoq, o'chirib (chizib) tashlamoq
edition [ɪˈdɪʃ(ə)n] *n* 1) nashr, bosma asar; **popular ~** ommaviy nashr; 2) alohida nashr; **evening ~** oqshomda chiqadigan (*gazeta*); 3) bosilgan nusxalar soni (*kitob, gazeta va b.*)
editio princeps [ɪˌdɪʃɪəʊ ˈprɪnseps] *n lot.* birinchi nashr
editor [ˈedɪtə] *n* 1) muharrir; 2) bosh maqolaning muallifi (*gazetada*)
editorial [ˌedɪˈtɔ:rɪəl] **1.** *a* tahririy, muharrirga oid, tahrirga oid; **an ~ office** nashriyot bo'limi binosi; **an ~ staff** nashriyot xodimlari; **an ~ board** tahrir hay'ati; **2.** *n* bosh maqola
editorialist [ˌedɪˈtɔ:rɪəlɪst] *n* bosh maqola yozadigan kishi
editorialize [ˌedɪˈtɔ:rɪəlaɪz] *v amer.* xabarni g'arazli bayon qilish (*gazetada*)
editor-in-chief [ˌedɪtərɪnˈʧi:f] *n* bosh muharrir

educate ['edjʊkeɪt] *v* 1) bilim bermoq, tarbiyalamoq; 2) mashq qildirmoq, o'rgatmoq; **to ~ smb.'s taste in literature** adabiy didni o'stirmoq; **to ~ the ear** eshitish qobiliyatini o'stirmoq

educated ['edjʊkeɪtɪd] *a* 1) bilimdon, (oliy) ma'lumotli; 2) o'rgatilgan, mashq qildirilgan; **~ animals** o'rgatilgan hayvonlar

education [ˌedjʊ'keɪʃ(ə)n] *n* 1) ma'lumot, ta'lim, o'qitish; **all-round ~** har tomonlama o'qitish; **higher ~** oliy ma'lumot; **compulsory ~** majburiy ta'lim; **the ~ of the will** irodani tarbiyalash; 2) ma'lumotlilik, madaniy (*inson*); 3) (*hayvonlarni*) o'rgatish

educational [ˌedjʊ'keɪʃ(ə)nəl] *a* 1) ta'limiy, tarbiyaviy; 2) o'quv, pedagogik; **an ~ book** darslik, o'quv qo'llanma; 3) ma'rifiy; **an ~ film** o'quv-ma'rifiy film

educationalist [ˌedjʊ'keɪʃ(ə)nəlɪst] *n* pedagog, pedagogika nazariyachisi, xalq ta'limi arbobi

educationally [ˌedjʊ'keɪʃ(ə)nəlɪ] *adv* ta'lim nuqtayi nazaridan, pedagogika nuqtayi nazaridan

educationist [ˌedjʊ'keɪʃ(ə)nɪst] = **educationalist**

educative ['edjʊkətɪv] *a* tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan

educator ['edjʊkeɪtə] *n* tarbiyachi, tarbiyalovchi, pedagog, o'qituvchi, muallim

educe [ɪ'dju:s] *v* 1) (*yashirin qobiliyatini, iqtidorini*) ko'rsatmoq; ongini oshirmoq; 2) xulosa chiqarmoq (**from**); 3) *kim.* ajratmoq, ajratib chiqarmoq

eduction [ɪ'dʌkʃ(ə)n] *n* 1) (*qobiliyatlarni, imkoniyatlarni*) aniqlash; 2) xulosa; 3) aniqlangan narsa, aniqlangan natijalar

edulcorate [ɪ'dʌlkəreɪt] *v* 1) yumshamoq (*munosabat va sh. k. haqida*); 2) *kim.* kislota, tuz va b. dan yuvib tozalamoq

Edwardian [ed'wɔ:dɪən] *a* ingliz qirollari Eduardlardan birining zamondoshi

eel [i:l] *n zool.* ilonbaliq

eel-buck ['i:lbʌk] *n* chetan, qirtil (*baliq tutadigan voronkasimon savat*)

eelpout ['i:lˌpaut] *n zool.* beldyuga (*baliq turi*)

eel-spear ['i:lspɪə] *n* ilonbaliq ovlanadigan uch tishli ayri

eelworm ['i:lwɜ:m] *n biol.* nematoda (*chuvalchangning bir turi*)

e'er [eə] *a* doimo, har doim

eerie, eery ['ɪ(ə)rɪ] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli; mudhish

efface [ɪ'feɪs] *v* 1) o'chirmoq, siyqalanmoq; **the image on the coin is ~d** tangadagi tasvir siyqalanib o'chib ketgan; 2) o'chirmoq, chizib tashlamoq; **to ~ murals** devoriy rasmni ustidan bo'yab tashlamoq; 3) yo'q qilmoq, bekor qilmoq; **to ~ the boundaries** chegaralarni yo'q qilmoq (bekor qilmoq)

effacement [ɪ'feɪsmənt] *n* artish, o'chirish, artib tashlash

effect [ɪ'fekt] **1.** *n* 1) natija, oqibat; **cause and ~** sabab va oqibat; **~s of war** urush oqibatlari; **of no ~, to no ~, without ~** natijasiz; 2) maqsad; mo'ljal, niyat; **to this ~** bu maqsadda, buning uchun; 3) ta'sir; **the ~ of light** yorug'likning ta'siri; 4) amalga oshirish, bajarish; **to take ~** kuchga kirimoq; 5) ta'sir, taassurot; **for ~** ta'sir etish (*taassurot qoldirish*) maqsadida; **general ~** umumiy taassurot; **2.** *v* 1) amalga oshirmoq, ro'yobga chiqarmoq, bajarmoq, (*hayotga*) tatbiq qilmoq; **to ~ payment** to'lamoq, to'lovni amalga oshirmoq; 2) (*bitimni*) tuzmoq, rasmiylashtirmoq; **to ~ a marriage** nikohdan o'tmoq, nikohni rasmiylashtirmoq

effective [ɪ'fektɪv] **1.** *n harb.* 1) jangchi; 2) *pl* jangovar tarkib; **2.** *a* 1) haqiqiy, amaliy, foydali, muvaffaqiyatli; **~ cooperation** foydali (*unumli*) hamkorlik; **~ control** samarali nazorat; **~ steps** amaliy qadamlar; 2) amaldagi, ishlab turgan, kuchga ega bo'lgan (*qonun va b. haqida*); **to become ~** kuchga kirmoq; **~ until the end of the year** faqat yilning oxirigacha amal qiladi

effectless [ɪ'fektləs] *a* natijasiz; qonuniy kuchga ega bo'lmagan; bekor qilingan

effector [ɪ'fektə] *n tex.* ijrochi, bajaruvchi organ *yoki* mexanizm

effectual [ɪ'fektʃʊəl] *a* 1) ta'sirli, amaliy, haqiqiy, natija beradigan; **an ~ measure** amaliy chora; 2) amaldagi, ishlab turgan, qonuniy kuchga ega bo'lgan

effectuate [ɪ'fektʃʊeɪt] *v* amalga oshirmoq, ijro qilmoq; **to ~ a conclusion** xulosa chiqarmoq

effectuation [ɪˌfektʃʊ'eɪʃ(ə)n] *n* bajarish, amalga oshirish, ijro etish

effeminacy [ɪ'femɪnəsɪ] *n* 1) noziklik, ipakoyimlik (*erkak haqida*); erkakka nomunosib noziklik (nazokat); 2) xotinchalishlik

effeminate [ɪ'femɪnɪt] **1.** *n* xotinchalish erkak, zaif odam; **2.** *a* xotinchalish, xotinlarga o'xshagan

effendi [e'fendɪ] *n turk.* afandi, taqsir, janob

efferent ['efərənt] *a* markazdan qochma *yoki* qochirma, markazdan qochadigan *yoki* qochiradigan; **~ nerves** harakatlantiruvchi asablar

effervesce [ˌefə'ves] *v* vishillamoq, vijillamoq; ko'piklamoq, ko'pirmoq (*ichimlik to'g'risida*)

effervescence [ˌefə'ves(ə)ns] *n* vishillash, pishillash, shipillash, vijillash

effervescency [ˌefə'ves(ə)nsɪ] = **effervescence**

effervescent [ˌefə'ves(ə)nt] *a* 1) vishillaydigan, pishillaydigan; 2) qaynab toshgan, ko'pirib turgan

effete [ɪ'fi:t] *a* kuchsiz, bo'sh, kuchi (quvvati, madori) yo'q

efficacious [ˌefɪ'keɪʃəs] *a* amaliy natija (foyda) beradigan, ta'sir ko'rsatadigan, ta'sirli, ta'sirchan

efficacy ['efɪkəsɪ] *n* samaradorlik, foydalilik, ta'sir ko'rsatish, ta'sirchanlik

efficiency [ɪ'fɪʃ(ə)nsɪ] *n* 1) samaradorlik, unumdorlik, mahsuldorlik; **the ~ of labour** mehnat unumdorligi; 2) amaliylik, ta'sirlilik; 3) epchillik, g'ayratlilik, mahoratlilik

efficient [ɪ'fɪʃ(ə)nt] **1.** *n* 1) sabab, birinchi (bosh) sabab; 2) *matem.* faktor, ko'paytuvchi; **2.** *a* 1) samarali, ta'sirli, amaliy; g'ayratli, epchil; **an ~ worker** mohir va g'ayratli ishchi; 2) maqsadga muvofiq; **~ distribution** maqsadga muvofiq taqsimot

effigy ['efɪdʒɪ] *n* (*relyefli*) tasvir, haykal, portret; **a wax ~** mumdan yasalgan haykal

effloresce [ˌeflɔ:'res] *v* gullay boshlamoq, gulga kirmoq, ochilmoq

efflorescence [ˌeflɔ:'res(ə)ns] *n* gullash, gul chiqarish, gul ochish, gullash mavsumi, gul ochilgan payt

effluence ['efluəns] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqib chiqish, oqib tamom bo'lish; 2) nurlanish, nur sochish, nur chiqarish

effluent ['efluənt] **1.** *n* 1) boshqa daryo, ko'ldan oqib chiqadigan oqim; 2) tarnov, nov, ariq; **2.** *a* (*nimadandir*) oqib chiqadigan (tushadigan)

effluvia [e'flu:vɪə] *pl of* **effluvium**

effluvium [e'flu:vɪəm] *n* zaharli chirindi bug'lari

efflux ['eflʌks] *n* oqib chiqib ketish, to'kilib kamayish (*suyuqlik, gazlar haqida*)

effort ['efət] *n* zo'r berish, harakat qilish; urinish; **to make an ~** harakat qilib ko'rmoq

effortless ['efətləs] *a* 1) sust, sustkash; 2) oson, yengil

effrontery [ɪ'frʌnt(ə)rɪ] *n* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik, behayolik

effulgence [ɪ'fʌldʒ(ə)ns] *n* 1) nur, yog'du, shu'la; 2) nurga to'lalik, nurafshonlik, nurlilik

effulgent [ɪ'fʌldʒ(ə)nt] *a* 1) nurga to'la, nurafshon, nurli; 2) porloq, yorqin

effuse **1.** *n* [e ˈfju:s] to'kish, to'kilish; **much ~ of blood** ko'p qon to'kish; **2.** *v* [ɪˈfju:z] to'kmoq, quymoq; to'kilmoq, ag'darmoq, oqizmoq

effusion [ɪˈfju:ʒ(ə)n] *n* to'kilish, oqish; **~ of blood** qon oqish

effusive [ɪˈfju:sɪv] *a* 1) o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan; 2) (*chetidan*) oqadigan, to'kiladigan, quyiladigan

eft [eft] *n zool.* triton (*ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesak simon jonivor*)

egad(s) [i(:)ˈgæd(z)] *int. so'zl.* xudo haqi! xudo ursin! chindan! rostdan ham!

egalitarian [ɪˌgælɪˈteərɪən] **1.** *a* teng huquqlilik uchun kurashuvchi; **2.** *n* teng huquqlilik uchun kurashuvchi kishi

egg [eg] **1.** *n* tuxum; **a hen's ~** tovuq tuxumi; **powdered ~s** tuxum kukuni; **2.** *v* 1) tuxum sarig'ini surmoq; 2) *so'zl.* palag'da tuxumlarni otmoq

egg-beater [ˈeg,bi:tə] *n* 1) tuxum ko'pirtirgich; 2) *so'zl. amer.* vertolyot

eggcup [ˈegkʌp] *n* tuxum soladigan kichkina qadah (rumka)

egg-dance [ˈeg,dɑ:ns] *n* 1) ko'zlar bog'langan holda qo'yib chiqilgan tuxumlar o'rtasida raqs tushish; 2) og'ir vazifa (topshiriq); qaltis ish

egg-flip [ˈegflɪp] = **egg-nog**

egghead [ˈeghed] *n* aqlli (esli) kishi; o'qimishli, ziyoli kishi

egg-nog [ˌeg ˈnɒg] *n* vino qo'shib ko'pchitilgan; tuxum qo'shilgan ichimlik

egg-plant [ˈegplɑ:nt] *n bot.* baqlajon, patinjon

egg-roll [ˈegrəʊl] *n amer.* sabzavotli blinchik

egg-shaped [ˈeg,ʃeɪpt] *a* tuxum shaklidagi, tuxumga o'xshaganlar

egg-shell [ˈegʃel] *n* 1) tuxum po'chog'i; 2) tez sinadigan narsa; **to walk upon ~s** juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoq

egg-timer [ˈeg,taɪmə] *n* uch daqiqali qum soat (*tuxum pishirish uchun*)

egg-wife [ˈegwaɪf] *n* tuxum sotuvchi ayol

egg-white [ˈegwaɪt] *n* tuxumning oqi

eglantine [ˈeglənta:ɪn] *n bot.* na'matak, itburun

ego [ˈi:gəʊ, ˈegəʊ] *n* xudbinlik, o'z manfaatini ko'zlash

egocentric [ˌi:gəʊ ˈsentrɪk] *a* egoistik; xudbinlikka oid

egoism [ˈi:gəʊɪz(ə)m] *n* xudbinlik, o'z manfaatini ko'zlash

egoist [ˈi:gəʊɪst] *n* xudbin (faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan) odam

egoistic(al) [ˌi:gəʊˈɪstɪk(əl)] *a* xudbinlikka oid

egotism [ˈegəʊtɪz(ə)m] *n* manmanlik, dimog'dorlik, o'ziga o'ta bino qo'yishlik

egotist [ˈegətɪst] *n* o'taketgan xudbin, manman

ego trip [ˈi:gəʊtrɪp] *n so'zl.* maqtanchoqlik, katta og'izlik, katta gapirish; **to be on an ~** maqtanmoq, maqtanchoqlik qilmoq, katta gapirmoq

egregious [ɪˈgri:dʒəs] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan; **an ~ error** qo'pol xato; **an ~ fool** o'taketgan ahmoq

egress [ˈi:gres] *n* 1) chiqish; 2) *geol.* yer sathiga chiqish

egression [ɪ ˈgreʃ(ə)n] *n* chiqish, chiqish yo'li, chiqaverish

egret [ˈi:grɪt] *n zool.* oq qo'ton

Egyptian [ɪˈdʒɪpʃ(ə)n] **1.** *a* Misrga, misrliklarga oid; **2.** *n* misrlik, misrlik ayol

Egyptology [ˌi:dʒɪpˈtɒlədʒɪ] *n* misrshunoslik

eh [eɪ] *int* (*so'roq, hayratda qolish, tinglovchining roziligiga umid qilishni ifoddaydi*) a'? nima? qanday? nima dedingiz? hali shunaqami? shunday emasmi?

eider [ˈaɪdə] *n zool.* gaga (*Shimoliy qutb suvlarida yashaydigan qimmatbaho patli o'rdak*)

eider-down [ˈaɪdədaʊn] *n* gaga pari

eidolon [aɪˈdəʊlɒn] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish

eight [eɪt] **1.** *num. card.* sakkiz; **2.** *n* sakkiz raqami

eighteen [eɪˈti:n] *num. card.* o'n sakkiz

eighteenth [eɪˈti:nθ] **1.** *num. ord.* o'n sakkizinchi; **2.** *n* o'n sakkizinchi qism

eighth [eɪtθ] **1.** *num. ord.* sakkizinchi; **2.** *n* sakkizinchi qism

eighties [ˈeɪtɪz] *n pl* (**the ~**) saksoninchi yillar

eightieth [ˈeɪtɪəθ] **1.** *num. ord.* saksoninchi; **2.** *n* saksoninchi qism

eighty [ˈeɪtɪ] *num. card.* sakson

einsteinium [ˌaɪnˈstaɪnɪəm] *n kim.* eynshteyniy (*kimyoviy element*)

eirenicon [aɪˈri:nɪkɒn] *n grek.* 1) yarashishga da'vat; 2) tinchlikni qo'llabquvvatlash rejasi

eisteddfod [aɪˈstedfɒd] *n* (*Uelsda*) aystedvod, har yili bo'ladigan baxshi (bard)lar festivali

either [ˈaɪðə] **1.** *pron. ind.* 1) har bir; 2) qaysinisi bo'lsa ham; **2.** *n* 1) ikkalasidan bittasi; yo unisi, yoki bunisi; **~ of the two pupils may go to London** bu ikkala o'quvchidan bittasi Londonga borishi mumkin; 2) unisi ham, bunisi ham; **3.** *a* 1) u yoki bu, unisi yoki bunisi, ikkalasidan bittasi; 2) ikki kishidan har biri, har qaysi; **4.** *adv* ham (*inkor gaplarda*); **if he does not come, I shall not ~** agar u kelmasa, unda men ham kelmayman

either... or [ˈaɪðə...ˈɔ:] *cj.* yo..., yo...; yoki..., yoki; **~ come in or go out** yo kiring, yoki chiqing

ejaculate [ɪˈdʒækjoleɪt] *v* 1) chaqirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq; xitob qilmoq; 2) otilib chiqmoq, toshib chiqmoq (*suyuqlik haqida*)

ejaculation [ɪˌdʒækjoˈleɪʃ(ə)n] *n* xitob, nido, undov, na'ra, hayqiriq; xitob qilish, hayqirish, undash

eject [ɪˈdʒekt] *v* 1) haydamoq, quvmoq, quvib (surib) chiqarmoq; 2) *yur.* surgun qilmoq (**from**)

ejection [ɪˈdʒekʃ(ə)n] *n* 1) *yur.* surgun, badarg'a, quvg'in; 2) otilib chiqish (*tutun va b. haqida*); 3) vazifasidan (mansabidan) ozod qilish

ejection seat [ɪˈdʒekʃənˌsi:t] *amer.* = **ejector seat**

ejectment [ɪˈdʒektmənt] *n yur.* bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish

ejector [ɪˈdʒektə] *n tex.* ejektor (*bug' kuchi bilan ishlaydigan mexanizm*)

ejector seat [ɪˈdʒektəˌsi:t] *n* avtomatik ravishda otib yuboriladigan (*parashutda joylashtirilgan*) kreslo

eke [i:k] *adv so'zl.* hamda, yana, shuningdek, shu bilan birga

el [el] **1.** *n* «L» harfining nomi; **2.** *amer. so'zl.* (**El**) yer ostidagi temir yo'l

elaborate **1.** *v* [ɪˈlæbəreɪt] batafsil, puxta ishlab chiqmoq; **to ~ a plan** rejani puxta ishlab chiqmoq; **2.** *a* [ɪˈlæbərət] puxta, mufassal ishlab chiqilgan

elaboration [ɪˌlæbəˈreɪʃ(ə)n] *n* (*rejani, loyihani*) puxta ishlab chiqish, tayyorlash; 2) rivojlantirish, aniqlik kiritish, takomillashtirish

élan, elan [ˈeɪlɒn, eɪ ˈlɑ:ŋ] *fr. n* tezlik, shiddatlilik; shiddat, shitob

eland [ˈi:lənd] *n zool.* kanna (*sharqiy va janubiy Afrikada yashaydigan uzun shoxli katta kiyik*)

elapse [ɪˈlæps] *v* tezda o'tib ketmoq, tugab qolmoq (*vaqt haqida*); tugamoq (*muddat haqida*)

elastic [ɪˈlæstɪk] **1.** *n* rezina; rezinalangan tasma; rezinalangan shnur; **2.** *a* egiluvchan, qayishqoq, prujinasimon

elasticity [ˌi:læsˈtɪsɪtɪ] *n* egiluvchanlik, qayishqoqlik

elastic-sides [ɪˌlæstɪkˈsaɪdz] *n pl* erkaklarning bog'ichli rezina botinkasi

elastoplast [ɪˈlæstəˌplɑ:st] *n* elastoplast (*bakteriyalarni o'ldiradigan* (*bakteritsid*)) plastir

elate [ɪˈleɪt] *v* kayfiyatni ko'tarmoq, shodlantirmoq

elated [ɪˈleɪtɪd] *a* ruhi ko'tarilgan holda, ko'tarinki (kayfiyat) ruh bilan

elation [ɪˈleɪʃ(ə)n] *n* katta zavq-shavq, xursandlik, ruhiy bardamlik, zo'r quvonch

elbow ['elbəʊ] **1.** *a* tirsak; **2.** *v* tirsak bilan itarmoq, turtmoq

elbow-chair ['elbəʊˈtʃeə] *n* suyanchiqli kreslo

elbow-grease ['elbəʊˌgri:s] *n* og'ir mehnat, og'ir ish

elbow-rest ['elbəʊrest] *n* tirsakqo'ygich, tirsaklagich (*kursining tirsak qo'yiladigan yondori*)

elbow-room ['elbəʊru:m] *n* kenglik, yalanglik, sayxon yer (*harakat qilish uchun*)

eld [eld] *n so'zl. she'r.* **1)** keksalik; qarilik; 2) qadim, o'tmish; **monuments of ~** o'tmish yodgorliklari

elder I ['eldə] **1.** *n pl* kattalar, katta yoshlilar; **2.** *a* katta (*yoshi yoki mavqeyi jihatidan*); **the ~ brother** katta aka

elder II ['eldə] *n bot.* buzina, marjon (*qizil mevali buta yoki daraxt va uning mevasi*)

elderberry ['eldəb(ə)rɪ] *n* buzina (marjon) mevasi

elderly ['eldəlɪ] *a* yoshi qaytgan, qariy boshlagan, keksaygan; yoshi ulg'aygan, ulug', keksa

elder statesman [ˌeldəˈsteɪtsmən] *n* (*hozir nafaqada bo'lgan*) keksa davlat arbobi; oqsoqol (*tajribali davlat arbobi yoki siyosiy arbob*)

eldest ['eldɪst] *a* eng katta, to'ng'ich

El Dorado, Eldorado [ˌeldə rɑ:dəʊ] *n tar.* Eldorado, afsonaviy boyliklar mamlakati

eldritch ['eldrɪtʃ] *a* **1)** dahshatli; vahimali; 2) aql bovar qilmaydigan, mo'jizaviy

elecampane [ˌelɪkæmˈpem] *n bot.* ko'p yillik o'simlik

elect [ɪˈlekt] **1.** *a* **1)** saylanma; tanlangan, saralangan, eng yaxshisi; 2) tanlab olingan, saylangan; **the mayor ~** yangi (endigina saylangan) mer; **2.** *v* **1)** (*ovoz berish yo'li bilan*) saylamoq; 2) tanlamoq

electable [ɪˈlektəb(ə)l] *a* **1)** saylash huquqiga ega bo'lgan; 2) saylanishga arziydigan

electee [ˌɪlekˈti:] *n* (*ovoz berish yo'li bilan*) saylangan

election [ɪˈlekʃ(ə)n] *n* saylov, saylash; **general ~** umumiy saylovlar

electioneer [ɪˌlekʃəˈnɪə] *v* saylovoldi kampaniyasini o'tkazmoq; nomzod uchun tashviqot (ishlarini) olib bormoq

electioneering [ɪˌlekʃəˈnɪ(ə)rɪŋ] *n* saylovoldi kampaniyasi

elective [ɪˈlektɪv] **1.** *n amer.* fakultativ fan (*maktabda, kollejda*); **2.** *a* **1)** saylovga oid; saylanadigan; saylovga taalluqli; **~ office** saylov yo'li bilan tayinlanadigan vazifa; 2) saylash huquqiga ega bo'lgan; **an ~ body** saylovchilar; 3) fakultativ, majburiy bo'lmagan

elector [ɪˈlektə] *n* **1)** saylovchi; 2) saylashga vakil qilingan kishi

electoral [ɪˈlekt(ə)rəl] *a* saylovga oid, saylov; **~ law** saylov qonuni

electorate [ɪˈlekt(ə)rɪt] *n* **1)** saylovchilar tarkibi, saylovchilar; 2) saylov okrugi

electric [ɪˈlektrɪk] *a* **1)** elektrga oid; **by ~ light** elektr yorug'ida; 2) to'lqinlantiruvchi, ajoyib, hayajonlantiruvchi

electrical [ɪˈlektrɪk(ə)l] *a* elektrga oid, elektr, elektrik; **~ engineering** elektrotexnika (*elektrdan amaliy maqsadlar uchun foydalanish to'g'risidagi fan*)

electric blanket [ɪˌlektrɪk ˈblæŋkɪt] *n* elektroadyol (*elektrisitgich elementli adyol*)

electric blue [ɪˌlektrɪkˈblu:] *n* ko'kimtir kulrang

electric chair [ɪˌlektrɪkˈtʃeə] *n* elektr stul (*o'lim jazosiga hukm qilinganlarni qatl qilish uchun qo'llaniladigan moslama*)

electric guitar [ɪˌlektrɪkgɪˈtɑ:] *n* elektrogitara

electrician [ɪˌlekˈtrɪʃ(ə)n] *n* **1)** elektrotexnik (*elektrotexnika mutaxassisi*); 2) elektromontyor

electricity [ɪˌlekˈtrɪsɪtɪ] *n* elektr, elektr quvvati, elektr yorug'i, elektr chiroqlari

electric razor [ɪˌlektrɪkˈreɪzə] = **electric shaver**

electric shaver [ɪˌlektrɪkˈʃeɪvə] *n* elektr ustara

electric shock [ɪˌlektrɪkˈʃɒk] *n* elektroshok (*tokning ta'siri natijasida organizm funksiyalarining og'ir xastalanishi, buzilishi*)

electrification [ɪˌlektrɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n fiz.* elektr energiya bilan ta'minlash, elektrlash

electrify [ɪˈlektrɪfaɪ] *v* **1)** elektrlashtirmoq; 2) zaryadlamoq; 3) ilhomlantirmoq, kuch bag'ishlamoq, hayajonlantirmoq

electrization [ɪˌlektrɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* **1)** *fiz.* elektrlash; zaryadlash; 2) *tib.* elektr bilan davolash

electrize [eˈlektraɪz] = **electrify**

electro [ɪˈlektrəʊ] *so'zl.* „**electroplate**" *va* „**electrotype**" *so'zlarining qisqartmasi*

electrocardiogram [ɪˌlektrəʊ ˈkɑ:dɪəgræm] *n tib.* elektrokardiogramma

electrochemistry [ɪˌlektrə(ʊ)ˈkemɪstrɪ] *n* elektrokimyo (*kimyoning elektrik va kimyoviy jarayonlarining o'zaro bog'lanishini o'rganadigan bo'limi*)

electrocute [ɪˈlektrəkju:t] *v* **1)** elektr toki bilan o'ldirmoq; 2) elektr stulida o'ldirmoq

electrocution [ɪˌlektrəˈkju:ʃ(ə)n] *n* elektr toki (quvvati) bilan o'ldirish

electrode [ɪˈlektrəʊd] *n* elektrod

electrodynamics [ɪˌlektrə(ʊ)daɪ ˈnæmɪks] *n* elektrodinamika (*fizikaning bir bo'limi*)

electrolier [ɪˌlektrə(ʊ)ˈlɪə] *n* qandil, chilchiroq

electrolyse [ɪˈlektrə(ʊ)laɪz] *v* elektroliz yo'li bilan ajratmoq

electrolysis [ɪlekˈtrɒlɪsɪs] *n* **1)** elektroliz (*moddani shu modda eritmasi orqali elektr toki o'tkazib, tarkibiy qismlarga ajratish*); 2) (*o'simta, tosh va b. ni*) elektr toki vositasida yo'q qilish

electrolyte [ɪˈlektrə(ʊ)laɪt] *n* elektrolit (*elektr toki o'tkazilganda tarkibiy qismlarga ajraladigan kimyoviy modda*)

electromagnet [ɪˌlektrə(ʊ)ˈmægnɪt] *n* elektromagnit

electromagnetic [ɪˌlektrə(ʊ)mægˈnetɪk] *a* elektromagnitizmga oid, elektromagnitizm; **~ waves** elektromagnitik to'lqinlar

electromechanical [ɪˌlektrəʊmɪˈkænɪk(ə)l] *a* elektromexanikaga oid, elektromexanik

electrometallurgy [ɪˌlektrə(ʊ)meˈtælədʒɪ] *n* elektrometallurgiya (*metallar va qotishmalarni elektr toki yordamida olishning sanoat usullarini yaratish va ulardan amalda foydalanish bilan shug'ullanadigan metallurgiya sohasi*)

electrometer [ɪlekˈtrɒmɪtə] *n* elektrometr (*elektr kuchlanishini o'lchaydigan asbob*)

electromotive [ɪˌlektrəʊˈməʊtɪv] *a* elektr (toki) hosil qiluvchi; **~ force** elektr (toki) hosil qiluvchi kuch

electromotor [ɪˌlektrəˈməʊtə] *n* elektrodvigatel

electron [ɪˈlektrɒn] *n fiz.* **1.** *n* elektron (*manfiy elektr zaryadli elementar zarracha*); **2.** *attr.* elektronga oid, elektron…; **an ~ microscope** elektron mikroskop; **~ beam** elektron tarami

electronegative [ɪˌlektrə(ʊ)ˈnegətɪv] *a* manfiy zaryadli

electronic [ɪˌlekˈtrɒnɪk] *a fiz.* elektronga oid, elektron; **~ music** elektron musiqa; **an ~ lamp** elektron lampa; **an ~ watch** elektron soat; **an ~ device** elektron moslama (asbob)

electronic mail [ɪˌlekˈtrɒnɪkmeɪl] = **e-mail**

electronics [ɪˌlekˈtrɒnɪks] elektronika (*fizikaning elektron jarayonlar haqidagi bo'limi*)

electron volt [ɪˈlektrɒn,vəʊlt] *n fiz.* elektronovolt (*yadro fizikasi va atom fizikasida: energiya o'lchash birligi*)
electropathy [ɪˌlekˈtrɒpəθɪ] *n tib.* elektr (toki) bilan davolash
electrophone [ɪˈlektrəfəʊn] *n* elektrofon, elektr toki bilan ishlaydigan musiqiy asbob
electroplate [ɪˈlektrə(ʊ)pleɪt] *n* galvanivatsiya qilish (*1. tib. galvani toki bilan davolash; 2. tex. galvani toki yordamida biror metallning sirtini boshqa metall bilan qoplash*)
electroplating [ɪˌlektrə(ʊ)ˈpleɪtɪŋ] *n tex.* galvani toki yordamida biror metallning sirtini boshqa metall bilan qoplash
electropositive [ɪˌlektrə(ʊ) ˈpɒzɪtɪv] *a* musbat zaryadli.
electroscope [ɪ ˈlektrə,skəʊp] *n* elektroskop (*elektr zaryadlarini aniqlaydigan asbob*)
electrostatics [ɪˌlektrə(ʊ)ˈstætɪks] *n* elektrostatika (*fizikaning elektr zaryadlari haqidagi bo'limi*)
electrotherapy [ɪˌlektrə(ʊ)ˈθerəpɪ] *n* elektroterapiya (*elektr toki bilan davolash*)
electrotype [ɪ ˈlektrə(ʊ),taɪp] *n poligr.* 1) elektrotipiya; 2) galvano
electuary [ɪˈlektjʊərɪ] *n tib.* elektuariy, dorivor yo'ng'ichqa
eleemosynary [ˌelɪ ˈmɒsɪn(ə)rɪ] *a kit.* 1) sadaqa bilan kun ko'radigan; 2) muhtojlarga yordam beruvchi; xayrli
elegance [ˈəlɪgəns] *n* nafislik, noziklik, zebolik; **to dress with ~** did bilan kiyinmoq
elegancy [ˈɪlɪgənsɪ] = **elegance**
elegant [ˈelɪgənt] **1.** *a* 1) nafis, zebo; 2) bashang (orasta) kiyingan; **2.** *n so'zl.* modaga berilgan kishi, modaparast, olifta, bashang, satang
elegantly [ˈelɪgəntlɪ] *adv* bashang (orastalik) bilan; bashang, orasta
elegiac [ˌelɪˈdʒaɪək] **1.** *a* mungli, g'amgin; **2.** *n pl* mungli (g'amgin) she'rlar
elegize [ˈelɪdʒaɪz] *v* mungli lirik she'rlar yozmoq (**upon**)
elegy [ˈelɪdʒɪ] *n* 1) elegiya; 2) mungli ohang, mungli lirik she'r
element [ˈelɪmənt] *n* 1) element, tarkibiy qism; 2) *kim.* element; 3) *pl* asoslar; boshlang'ich (dastlabki) ma'lumotlar
elemental [ˌelɪˈmentl] *a* 1) tabiiy, tabiat kuchi bilan bo'ladigan; 2) asosiy, eng muhim
elementary [ˌelɪˈment(ə)rɪ] *a* boshlang'ich, ibtidoiy, dastlabki
elephant [ˈelɪfənt] *n* 1) *zool.* fil; 2) *so'zl.* fil suyagi
elephantiasis [ˌelɪfənˈtaɪəsɪs] *n tib.* fillashuv, yiriklashuv (*teri va teriosti kletchatkalarining keskin qalinlashuvi tufayli biror a'zoning, ko'pincha, oyoqlarning g'oyat katta, yirik bo'lib ketish kasalligi*); elefantiazis
elephantine [ˌelɪˈfæntaɪn] *a* 1) filga oid, fil; 2) filga o'xshash, beso'naqay, o'g'ir (yo'g'on); 3) kishiga qattiq botadigan, dag'al, qo'pol; **an ~ humour** qo'pol (qaltis) hazil
Eleusinian mysteries [ˌeljuːˈsɪnɪənˈmɪst(ə)rɪz] *n pl yun.* diniy bayram (*Qadimiy Yunonistonning Elevsin shahrida har yili Persefon sharafiga bag'ishlab o'tkaziladigan diniy bayram*)
elevate [ˈelɪveɪt] *v* 1) (*lavozimda, unvonda*) ko'tarmoq, oshirmoq; 2) ko'tarmoq, balandroq qilmoq; **to ~ the voice** ovozini ko'tarmoq; 3) qo'zg'altirmoq, zavq-shavqini oshirmoq; kayfiyatni ko'tarmoq
elevated [ˈelɪveɪtɪd] *a* 1) baland, yuqori; 2) yer ustidagi; 3) ko'tarinki, yuksak, buyuk; 4) hayajonlangan; ko'tarinki ruhda
elevating [ˈelɪveɪtɪŋ] *a* 1) ko'taradigan, oshiradigan; 2) ma'rifiy, tarbiyaviy
elevation [ˌelɪˈveɪʃ(ə)n] *n* 1) ko'tarilish, oshish; **~s and depressions** yuksalishlar va tushishlar; 2) yuksaklik, ulug'vorlik; **the ~ of style** uslubning ulug'vorligi; 3) tepalik, balandlik; 4) (*dengiz sathidan*) balandlik
elevator [ˈelɪveɪtə] *n* 1) yuk ko'targich (*mashina, mexanizm, qurilma*); 2) *amer.* lift
elevator operator [ˈelɪveɪtəˈɒp(ə)reɪtə] *n amer.* liftchi
eleven [ɪˈlev(ə)n] *n num. card.* o'n bir
elevenses [ɪˈlev(ə)nzɪz] *n so'zl.* ertalab soat o'n birlarda qilinadigan yengil nonushta
eleventh [ɪˈlev(ə)nθ] **1.** *num. ord.* o'n birinchi; **at the ~ hour** so'nggi daqiqada; **2.** *n* 1) o'n birinchi qism; 2) (**the ~**) o'n birinchi sana
elf [elf] *n* (*pl* **elves** [elvz]) 1) *folk.* elf (*Qadimgi Skandinaviya mifologiyasida: ruh, pari kabi afsonaviy maxluq*); 2) juda past bo'yli odam; 3) to'polonchi, shum (*kishi*)
elfin [ˈelfɪn] *a* 1) elflarga oid; 2) sehrlaydigan, sehrli
elf-lock [ˈelflɒk] *n* chigal sochlar
elicit [ɪˈlɪsɪt] *v* 1) olmoq, aniqlamoq; talab qilmoq; **to ~ truth by discussion** bahslashib haqiqatni aniqlamoq; 2) erishmoq; **to ~ reply** javob olishga erishmoq
elide [ɪˈlaɪd] *v* 1) qo'yib yubormoq, chiqarmoq; 2) og'izga olmay (chetlab) o'tmoq; e'tiborsiz qoldirmoq; 3) *tilsh.* talaffuz qilayotganda (*bo'g'in yoki unlini*) tushirib qoldirmoq
eligibility [ˌelɪdʒəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) saylash huquqi; 2) maqbullik, ma'qullik; muvofiqlik; yaroqlilik
eligible [ˈelɪdʒəb(ə)l] *a* ma'qul, muvofiq keladigan; **an ~ young man** *so'zl.* munosib qalliq
Elijah [ɪˈlaɪdʒə] *n bibl.* Iliya (payg'ambar)
eliminate [ɪˈlɪmɪneɪt] *v* 1) bartaraf qilmoq, tugatmoq; **to ~ all unnecessary words** ortiqcha so'zlarni olib tashlamoq; 2) yo'q qilmoq, tugatmoq; **to ~ war** urushlarga barham bermoq; 3) e'tiborsiz qoldirmoq; **to ~ the personal factor** shaxsiy fikrlarni chetga surib qo'ymoq; 4) *fiziol.* organizmdan chiqarib tashlamoq
elimination [ɪˌlɪmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) tugatish, bartaraf qilish, yo'q qilish; 2) inkor (rad) etish
eliminator [ɪ ˈlɪmɪneɪtə] *n* 1) (*suv va b. suyuqlikni*) ajratuvchi, ayiruvchi; 2) *tex.* separator (*suyuq yoki qattiq jismlar tarkibidagi aralashmani ajratuvchi asboblarning umumiy nomi*)
elision [ɪˈlɪʒ(ə)n] *n tilsh.* eliziya (*fonetikada: so'zdagi oxirgi unli tovushning tushib qolishi*)
elite, elite [eɪˈliːt, ɪˈliːt] *n* sara, eng yaxshi namoyanda (*kishilar haqida*)
elixir [ɪˈlɪksə] *n* eliksir (*ajoyib ta'sir etadigan ichimlik*); panatseya (*alximiklar tomonidan go'yo har qanday kasalga davo deb qaralgan dori*); **~ of life** obi hayot (*afsonaviy hayotbaxsh ichimlik*)
Elizabethan [ɪˌlɪzəˈbiːθ(ə)n] **1.** *a* Angliya qirolichasi Yelizaveta I davriga (zamoniga) oid; **2.** *n* Yelizaveta zamondoshi; Angliya qirolichasi Yelizaveta I davridagi shoir, dramaturg, davlat arbobi
elk [elk] *n zool.* los (*bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon*)
ell [el] *n* 1) *tar.* el (*uzunlik o'lchovi = 113 sm*); 2) uyning qanoti (tomoni)
ellipse [ɪˈlɪps] *n mat.* ellips (*berk egri chiziq*); oval (*tuxumsimon cho'ziq, yassi shakl*)
ellipses [ɪˈlɪpsiːz] *pl of* **ellipsis**
ellipsis [ɪˈlɪpsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-siːz]) 1) *tilsh.* ellipsis (*so'z yoki gap bo'lagining gap-da tushib qolishi*); 2) harflar *yoki* so'zlarning tushirib qoldirilganligini bildiruvchi belgi sifatidagi tire (—), ko'qnuqta (...) *yoki* yulduzchalar (***)
elliptic(al) [ɪ ˈlɪptɪk(əl)] *a tilsh.* ellipsisga oid, elliptik, to'liqsiz, qisqargan (*gap haqida*)
elm [elm] *n bot.* qayrag'och, bujun
elocution [ˈeləkjuːʃ(ə)n] *n* notiqlik san'ati; notiqlik

elongate [ˈi:lɒŋgeɪt] **1.** *a* uzaytirilgan, cho'zilgan; **2.** *v* uzaytirmoq, cho'zmoq

elongation [ˌi:lɒŋˈgeɪʃ(ə)n] *n* uzaytirish, cho'zish, cho'zilish, uzayish

elope [ɪˈləʊp] *v* 1) birovdan qochib yurmoq; o'zini olib qochmoq; 2) sevgani bilan qochib ketmoq

elopement [ɪˈləʊpmənt] *n* 1) (*sevgani bilan*) qochish, qochib ketish; 2) yashirincha qochish

eloquence [ˈeləkwəns] *n* notiqlik, so'zga ustalik

eloquent [ˈeləkwənt] *a* 1) gapga usta, notiq, so'zga chechan; **an ~ speech** ta'sirli nutq; 2) ifodali, ma'noli, ma'nodor; **an ~ look** ma'noli (ma'nodor) qarash

else [els] *adv pron.* yana, boshqa, tag'in, buning ustiga, shu bilan birga, -dan tashqari

elsewhere [elsˈweə] *adv* boshqa bir yerda; yana bir yerda

elucidate [ɪˈlu:sɪdeɪt] *v* tushuntirmoq, tushuntirib bermoq; **to ~ a text** matnni sharhlamoq

elucidation [ɪˌlu:sɪˈdeɪʃ(ə)n] *n* tushuntirish, anglatish, tushuntirib berish, (*matnni*) sharhlash

elucidative [ɪˈlu:sɪdeɪtɪv] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...

elucidatory [ɪˈlu:sɪdeɪt(ə)rɪ] = **elucidative**

elude [ɪˈlu:d] *v* 1) qochmoq, o'zini chetga olmoq; o'zini olib qochmoq; 2) bo'yin tovlamoq, bosh tortmoq

elusion [ɪˈlu:ʒ(ə)n] *n* bo'yin tovlash, bosh tortish

elusive [ɪˈlu:sɪv] *a* tutqich bermaydigan; gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan; noaniq; mujmal; **~ memory** sust xotira

elusory [ɪˈlu:s(ə)rɪ] *a* tutqich bermaydigan, ushlab (qo'lga tushirib) bo'lmaydigan

elutriate [i(:)ˈl(j)u:trɪeɪt] *v kim.* yuvmoq, yuvib qo'ymoq; yuvib tozalamoq, yuvib tashlamoq

eluvium [i(:)ˈl(j)u:vɪəm] *n geol.* eluviy (*tog' jinslari nurashi mahsuli*)

elver [ˈelvə] *n zool.* yosh ilonbaliq

elves [elvz] *pl of* **elf**

elvish [ˈelvɪʃ] *a* 1) sehrlaydigan, sehrli; 2) kichkina, jajji

Elysium [ɪˈlɪzɪəm] *n yun. mif.* elizium, eliziy; baxtiyor kishilarning narigi dunyodagi maskani; jannat

elytra [ˈelɪtrə] *pl of* **elytron**

elytron [ˈelɪtrɒn] *n* qanot-qalqon, qattiq qanot (*qo'ng'iz va hasharotlarda*)

Elzevir [ˈelzɪvɪə] *n* 1) elzevir (*XVI – XVII asrlarda Gollandiyada nashr etilgan kitob*); 2) *attr.* elzevirga oid, elzevir...; **~ type** elzevir shrifti

em [em] *n* „M" harfining nomi

emaciate [ɪˈmeɪʃɪeɪt] *v* holdan toydirmoq, darmonini quritmoq

emaciated [ɪˈmeɪʃɪeɪtɪd] *a* holdan toygan, darmoni qurigan, ozg'in, nimjon; **~ soil** oriq yer

emaciation [ɪˌmeɪsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* ozib (oriqlab) ketish, ozib-to'zish, oriqlik

e-mail [ˈi:meɪl] **1.** *n* elektron pochta; **2.** *v* elektron pochta orqali xabar jo'natmoq

emanate [ˈemәneɪt] *v* (**from**) sodir bo'lmoq, yuz bermoq, kelib chiqmoq

emanation [ˌemәˈneɪʃ(ə)n] *n* sodir bo'lish, paydo bo'lish, kelib chiqish, yaratilish

emancipate [ɪˈmænsɪpeɪt] *v* 1) (*qaramlikdan, qullikdan*) ozod qilmoq; 2) *yur.* yoshiga (balog'atga) yetgan deb e'lon qilmoq, ota-ona qaramog'idan ozod qilmoq

emancipation [ɪˌmænsɪˈpeɪʃ(ə)n] *n* (*qullik, qaramlik va b. dan*) ozod qilish; **~ of slaves** qullarni ozod qilish; **~ from slavery** qullikdan ozod qilish

emancipationist [ɪˌmænsɪˈpeɪʃ(ə)nɪst] *n* ozod qilish (erkinlikka chiqarish, erksizlikdan qutqarish) tarafdori bo'lgan kishi

emancipist [ɪˈmænsɪpɪst] *n austral.* oldin surgunda bo'lgan kishi

emasculate [ɪˈmæskjʊleɪt] *v* 1) bichmoq, axta qilmoq; 2) kuchsizlantirmoq, zaiflashtirmoq

emasculation [ɪˌmæskjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) axtalash, bichish; 2) kuchsizlantirish, zaiflashtirish

embalm [ɪmˈbɑ:m] *v* mo'miyolamoq (*maxsus moddalar yordami bilan murdani chirimaydigan qilmoq*)

embalmment [ɪmˈbɑ:mmənt] *n* mo'miyolash

embank [ɪmˈbæŋk] *v* damba bilan o'ramoq, damba bilan to'sib (bo'g'ib) qo'ymoq

embankment [ɪmˈbæŋkmənt] *n* damba, ko'tarma; to'siq, g'ov

embargo [emˈbɑ:gəʊ] *n* (*pl* **-oes** [-əʊz]) 1) taqiq, (*olib kirish, olib chiqish, kirishni*) taqiqlash; 2) kema *yoki* uning yukini hibsga olish; 3) taqiq, to'siq; 4) embargo (*chet el mollarini mamlakatga keltirish yoki mamlakatdan chiqarishning davlat tomonidan taqiqlab qo'yilishi*)

embark [ɪmˈbɑ:k] *v* kemaga yuklamoq (ortmoq); 2) kemaga *yoki* samolyotga o'tirmoq; 3) kemada (*biror yerga*) jo'natmoq (**for**)

embarkation [ˌembɑ:ˈkeɪʃ(ə)n] *n* kemaga *yoki* samolyotga chiqish

embarrass [ɪmˈbærəs] *v* 1) tashvishga solmoq, shoshiltirib qo'ymoq, garang qilib qo'ymoq; 2) uyaltirmoq; 3) xalaqit bermoq, to'sqinlik qilmoq; 4) (*ishni, masalani*) murakkablashtirmoq, chigallashtirmoq

embarrassed [ɪmˈbærəst] *a* 1) qiyin, tang, og'ir; 2) xijolatda qolgan, uyalib qolgan

embarrassing [ɪmˈbærəsɪŋ] *a* qiyinchilik tug'diradigan, shoshiltirib qo'yadigan, garang qiladigan; **an ~ situation** noqulay holat

embarrassingly [ɪmˈbærəsɪŋlɪ] *adv* hayratga soladigan (hayratda qoldiradigan, esankiratib qo'yadigan, hayratomuz, hayratlanarli) tarzda

embarrassment [ɪmˈbærəsmənt] *n* 1) xijolat bo'lish, uyalib qolish, sarosimaga tushish, dovdirash; 2) mushkul ahvolda qolish; 3) xalal, xalaqit, to'siq, to'sqinlik

embassy [ˈembəsɪ] *n* 1) elchixona; 2) elchilar, vakillar

embattle [ɪmˈbætl] *v* 1) jangovar tartibda qurmoq; jangovar tayyorgarlikka keltirmoq; 2) *tar.* istehkomlarda, qal'a devorlaridagi tuynuklarda turib qal'a, minora va b. ning devorlarini himoya (mudofaa) qilmoq

embay [ɪmˈbeɪ] *v* 1) qurshab olmoq, o'rab olmoq, o'rtaga olmoq; 2) (*kemani*) ko'rfazga olib kirmoq

embed [ɪmˈbed] *v* 1) o'yib o'rnatmoq, ichiga (orasiga, o'rtasiga) joylashtirmoq; 2) jo bo'lmoq, saqlanib qolmoq

embellish [ɪmˈbelɪʃ] *v* 1) bezamoq, bezatmoq, yasatmoq; 2) pardoz berib (bezab) gapirmoq, bo'rttirib gapirmoq; (*hikoya, ertak va b. ni*) xayoliy voqealar bilan bezamoq

embellishment [ɪmˈbelɪʃmənt] *n* bezash, bezatish

ember [ˈembə] *n* cho'g', o't

Ember days [ˈembədeɪz] ibodat qilish va ro'za tutish kunlari (*ingliz katolik cherkovlarida*)

ember-goose [ˈembəˌgu:s] *n* (*pl* **-geese** [-gi:s]) *zool.* gagara (*Shimolda yashaydigan quyuq patli yirik suv qushi*)

embezzle [ɪmˈbez(ə)l] *v* (*o'zgalar pulini*) o'zlashtirmoq, sarflab yubormoq

embezzlement [ɪmˈbez(ə)lmənt] *n* sarf qilish; begona mulk va pulni o'zlashtirish

embitter [ɪmˈbɪtə] *v* 1) g'azablantirmoq, g'azabini keltirmoq, qattiq xafa qilmoq; 2) (*hayotni*) zaharlamoq, buzmoq, xira qilmoq

emblazon [ɪmˈbleɪz(ə)n] *v* 1) gerbni tasvirlab (ta'riflab) bermoq; 2) juda ham

maqtab yubormoq, rosa ta'rif-tavsif qilmoq, ko'klarga ko'tarmoq

emblem [ˈembləm] *n* timsol, nishon, belgi, emblema; gerb; **the national ~ of the Republic of Uzbekistan** O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi

emblematic(al) [ˌemblə ˈmætɪk(əl)] *a* 1) simvolik, ramziy; 2) ramzlar (timsollar) bilan; ramzlar orqali, timsollar vositasida

emblematize [emˈbleməˌtaɪz] *v* timsol (ramziy ishora) bo'lib xizmat qilmoq, ramziy bo'lmoq

embodied [ɪmˈbɒdɪd] *a* 1) bitimdagi, bitimda aks etgan; 2) o'zida mujassamlashtirgan, timsol bo'la oladigan

embodiment [ɪmˈbɒdɪmənt] *n* 1) timsol, mujassam; 2) jonli obraz orqali mujassamlashtirish

embody [ɪmˈbɒdɪ] *v* 1) gavdalantirmoq, mujassamlantirmoq; 2) jonli qilib ko'rsatmoq; 3) o'z ichiga olmoq; 4) birlashtirmoq, qo'shmoq

embolden [ɪmˈbəʊld(ə)n] *v* dalda bermoq, ruhlantirmoq; g'ayrat bag'ishlamoq

embolism [ˈembəlɪz(ə)m] *n* emboliya (*qon tomirlarining bekilib qolishi kasalligi*)

embonpoint [ˌɔ:mbɔmˈpwæŋ] *n fr.* to'lalik, to'liqlik, semizlik

embosom [ɪmˈbuz(ə)m] *v* 1) bag'riga bosmoq; 2) (*bag'rida, yuragida*) ardoqlamoq, saqlamoq

emboss [ɪmˈbɒs] *v* 1) peshlamoq; 2) zarb qilmoq, bosib naqsh solmoq

embouchure [ˌɒmbʊˈʃʊə] *n* 1) *mus.* mundshtuk (*puflab chalinadigan asboblarning og'izga olinadigan qismi*); 2) daryoning quyilish joyi; 3) (*vodiyga, daraga*) kirish yo'li

embowel [ɪmˈbaʊəl] *v* ichak-chovog'ini olib tashlamoq, ichak-chovoqdan tozalamoq

embower [ɪmˈbaʊə] *v* bekitmoq, yashirmoq, soya solmoq

embrace [ɪmˈbreɪs] *v* 1) quchoqlamoq, quchog'iga olmoq, bag'riga bosmoq; 2) (*imkoniyatdan*) foydalanmoq, foydalanib qolmoq; 3) (*dinni*) qabul qilmoq; 4) o'z ichiga olmoq, qamrab olmoq; 5) (*kasbni*) tanlamoq

embracery [ɪmˈbreɪs(ə)rɪ] *n yur.* sudya *yoki* sud maslahatchilariga noqonuniy tarzda bosim, tazyiq o'tkazish

embranchment [ɪmˈbrɑ:ntʃmənt] *n* shox, butoq, novda

embrangle [ɪmˈbræŋgl] *v* adashtirmoq, chalg'itmoq, boshini aylantirmoq, gangitib qo'ymoq

embrasure [ɪmˈbreɪʒə] *n* 1) *harb.* tuynuk, shinak (*qo'rg'on devorlarida*); 2) *me'mor.* devordagi teshik (*eshik, deraza va sh. k. ning o'rni*)

embrittle [ɪmˈbrɪtl] *v* 1) tez sinadigan (mo'rt) qilmoq; 2) mo'rt bo'lib qolmoq; mo'rtlashmoq

embrocate [ˈembrə(ʊ)keɪt] *v* 1) suyuq malham surkamoq; 2) og'rigan joyga suyuq dori yoki issiq suvga ho'llangan bint qo'ymoq

embrocation [ˌembrəˈkeɪʃ(ə)n] *n* surkaydigan suyuq malham dori

embroider [ɪmˈbrɔɪdə] *v* gul (kashta) bilan bezamoq; gul (kashta) tikmoq

embroidery [ɪmˈbrɔɪd(ə)rɪ] *n* 1) gul (kashta) tikish; 2) tikilgan narsa, ish; kashta

embroil [ɪmˈbrɔɪl] *v* chalkashtirmoq, chuvalashtirmoq

embroilment [ɪmˈbrɔɪlmənt] *n* chigallik, chalkashlik, chatoqlik; chalkashtirish

embrown [ɪmˈbraʊn] *v* jigarrang *yoki* qoramtir rang bermoq

embryo [ˈembrɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) *biol.* embrion (*pusht, homila*); 2) *bot.* kurtak; 3) boshlang'ich holat

embryology [embrɪˈɒlədʒɪ] *n* embriologiya (*biologiyaning embrionlar rivojlanishini o'rganadigan bo'limi*)

embryonic [ˌembrɪˈɒnɪk] *a* 1) embrionga oid, embrion holidagi; 2) yetilmagan, xom, g'o'r; 3) rivojlanmagan

embus [ɪmˈbʌs] *v* avtomobilga o'tirmoq, yuklamoq

emcee [ˌemˈsi:] *n amer. so'zl.* (*konsert, ko'rsatuv va b. ni*) boshlovchi; olib boruvchi

emend [i(:)ˈmend] *v* (*matnni*) tuzatmoq, to'g'rilamoq; o'zgartishlar kiritmoq; xato (kamchilik)larni bartaraf qilmoq

emendate [ˈi:mendeɪt] = **emend**

emendation [ˌi:menˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) (*adabiy asar va b. ni*) to'g'rilash, yaxshilash; 2) (*matndagi*) xato va har xilliklarni bartaraf qilish

emerald [ˈem(ə)rəld] **1.** *n* 1) *min.* zumrad; 2) och yashil rang, yam-yashil rang; **2.** *a* zumradga oid, zumraddan qilingan, zumrad qadalgan, zumrad ko'zli

emerge [ɪˈmɜ:dʒ] *v* (**from**) paydo bo'lmoq, ko'rinmoq; (*qaverdandir*) chiqmoq

emergence [ɪˈmɜ:dʒ(ə)ns] *n* chiqish, paydo bo'lish

emergency [ɪˈmɜ:dʒ(ə)nsɪ] *n* 1) kutilmagan hodisa; zaruriyat; 2) favqulodda vaziyat, mushkul ahvol

emergency door, emergency exit [ɪˈmɜ:dʒ(ə)nsɪˌdɔ:, -ˌeɡzɪt] *n* avariya holatida ishlatish uchun mo'ljallangan chiqish yo'li (*yoki* qismi)

emergent [ɪˈmɜ:dʒ(ə)nt] *a* (**from**) kutilmaganda paydo bo'ladigan

emeritus [ɪˈmerɪtəs] *a lot.* xizmat ko'rsatgan, faxriy unvoni bo'lgan; **an ~ professor** iste'fodagi xizmat ko'rsatgan professor

emersion [ɪˈmɜ:ʃ(ə)n] *n* (*osmon jismining Quyosh, Oyning tutilishidan keyin*) ko'rinishi, paydo bo'lishi

emery [ˈem(ə)rɪ] *n* jilvir, qumqog'oz

emery-cloth [ˈem(ə)rɪˌklɒθ] *n* jilvir, qumqog'oz

emery paper [ˈem(ə)rɪˌpeɪpə] *n* jilvir(li) qog'oz

emery-wheel [ˈem(ə)rɪˌwi:l] *n* qayroqtosh, qayroq

emetic [ɪˈmetɪk] **1.** *a* qustiradigan (*dori to'g'risida*); **2.** *n* qustiradigan dori

emeu [ˈi:mju:] *n zool.* emu, tuyaqush (*Avstraliya tuyaqushi*)

emigrant [ˈemɪgrənt] **1.** *n* 1) ko'chib kelgan kishi; 2) muhojir (*siyosiy emas*); **2.** *a* chet mamlakatga ko'chib ketadigan; ko'chishga (ko'chirishga) oid; ko'chish (ko'chirish)...

emigrate [ˈemɪgreɪt] *v* boshqa mamlakatga ko'chib ketmoq

emigration [ˌemɪˈgreɪʃ(ə)n] *n* muhojirlik, ko'chish

emigratory [ˈemɪgrət(ə)rɪ] *a* muhojirlarga oid

émigré [ˈemɪgreɪ] *n fr.* muhojir (*odatda, siyosiy*)

eminence [ˈemɪnəns] *n* 1) balandlik, tepalik; baland joy; 2) yuqori mavqe, yuqori lavozim; **a man of ~** mashhur odam

eminent [ˈemɪnənt] *a* 1) yuksalgan, yuksalib turgan; 2) mashhur, atoqli, dong'i ketgan

eminently [ˈemɪnəntlɪ] *adv* yuqori darajada, o'ta, juda, haddan tashqari

emir [eˈmɪə] *n* amir (*unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs*)

emirate [ˈemɪ(ə)reɪt,ˈemɪrət] *n* amirlik

emissary [ˈemɪs(ə)rɪ] *n* 1) emissar (*maxfiy siyosiy topshiriq bilan chet mamlakatga yuborilgan kishi*); 2) josus, ayg'oqchi

emission [ɪˈmɪʃ(ə)n] *n* 1) ajralib chiqqan narsa (*issiqlik, gaz va b.*); tarqalish (*nur, hid va b.*); issiqlik chiqarish (tarqatish, ajratish), nur sochish; 2) *mol.* emissiya (*qimmatli qog'ozlar va qog'oz pul chiqarish*)

emissive [ɪˈmɪsɪv] *a* ajratadigan, chiqaradigan, tarqatadigan

emit [ɪˈmɪt] *v* taratmoq, tarqatmoq, chiqarmoq

emmet [ˈemɪt] *n esk.* chumoli; qumursqa

emollient [ɪˈmɒlɪənt] **1.** *a* pasaytiradigan, kamaytiradigan, yumshatadigan; **2.** *n* yumshatadigan vositalar

emolument [ɪˈmɒljʊmənt] *n* ish haqi, ishlab topiladigan pul; daromad

emote [ɪˈməʊt] *v* hissiyotni yuzaki namoyon etmoq
emotion [ɪˈməʊʃ(ə)n] *n* his-hayajon, his, tuyg'u, hissiyot; ruhiy, ichki kechinma
emotional [ɪˈməʊʃ(ə)nəl] *a* jo'shqin, hayajonli; hayajonlantiruvchi; to'lqinlantiruvchi
emotionalism [ɪˈməʊʃ(ə)nəlɪz(ə)m] *n* ortiq hissiyotlilik, hayajonlilik, his-tuyg'u bilan to'lalik
emotionality [ɪˌməʊʃəˈnælɪtɪ] *n* his-hayajonlilik; his-tuyg'u bilan to'lalik
emotive [ɪˈməʊtɪv] *a* hayajonli, jo'shqin, his-tuyg'uga to'la; jo'shqinlikni (his-tuyg'uni) ifodalaydigan
empale [ɪmˈpeɪl] = **impale**
empanel [ɪmˈpænl] *v* sud maslahatchilari ro'yxatini tuzmoq; sud maslahatchilari ro'yxatiga kirgizmoq
empennage [emˈpenɪdʒ] *n av.* dum qanoti
empathy [ˈempəθɪ] *n* 1) birga qayg'urish; 2) achinish, rahmi kelish, hamdardlik
emperor [ˈemp(ə)rə] *n* 1) imperator, hoqon; 2) qog'oz hajmi, bichimi (48x72 *d. – Angliyada;* 40x60 *d. – Amerikada*)
emphases [ˈemfəsi:z] *pl of* **emphasis**
emphasis [ˈemfəsɪs] *n* (*pl* **-ses**) 1) ta'kidlash, urg'u berish; **to lay special ~ on smth.** biror narsaga alohida e'tibor bermoq; 2) ifodalilik, jonlilik, ma'nodorlik; 3) urg'u, urg'u belgisi
emphasize [ˈemfəsaɪz] *v* 1) ta'kidlamoq, ajratib ko'rsatmoq, alohida urg'u bermoq, alohida e'tibor bermoq; 2) ifodalamoq, yaqqolroq qilmoq; 3) *tilsh.* urg'u qo'ymoq
emphatic [ɪmˈfætɪk] *a* ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor
emphatically [ɪmˈfætɪk(ə)lɪ] *adv* sabot bilan, qat'iyat bilan, qattiq turib, tirishib-tortishib, ketidan qolmay
emphysema [ˌemfɪˈsi:mə] *n tib.* emfizema (*kasallik tufayli biror organ to'qimalarining kengayishi va unda havo to'planishi*)
Empire [ˈempaɪə] *san.* **1.** *n* ampir uslubi; **2.** *a* ampir uslubidagi
empire [ˈempaɪə] **1.** *n* 1) imperiya (*monarxiyali yirik davlat; monarxiya davlati*); 2) hokimlik, hukmronlik; saltanat; **2.** *a* imperiyaga oid; imperiyaga qarashli; imperiya...
Empire City [ˈempaɪəˌsɪtɪ] *n amer.* „Imperiya shahri" (*Nyu-York shahrining laqabi*)
Empire State [ˈempaɪəˌsteɪt] *n* „Imperiya shtati" (*Nyu-York shtati laqabi*)
empiric [ɪmˈpɪrɪk] *a* emperizmga oid; emperizmga xos bo'lgan
empirical [ɪmˈpɪrɪk(ə)l] *a* tajribaga asoslangan, tajribadan kelib chiqqan, tajribadan olingan
empiricism [ɪmˈpɪrɪsɪz(ə)m] *n* empirizm (*nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan-bir manbayidir, deb biladigan falsafiy yo'nalish*)
empiricist [ɪmˈpɪrɪsɪst] *n* empirik (*1. empirizm tarafdori; 2. faqat tajriba, amaliy faoliyat tarafdori*)
empiriocriticism [ɪmˌpɪrɪə(ʊ)ˈkrɪtɪsɪz(ə)m] *n* empiriokrititsizm (*subyektiv-idealistik falsafiy oqim*)
emplace [ɪmˈpleɪs] *v* joylashtirmoq; o'rnatmoq, qo'ymoq, qurmoq; **~ment** joylashtirish, qo'yish, qurish
emplane [ɪmˈpleɪn] *v* (*samolyotga*) o'tqizmoq, o'tirg'izmoq
employ [ɪmˈplɔɪ] **1.** *n* 1) yollanma mehnat; 2) ish, mehnat; **2.** *v* 1) ish bermoq; ishga olmoq; 2) foydalanmoq; 3) yollanmoq
employable [ɪmˈplɔɪəb(ə)l] *a* mehnatga qobiliyatli, mehnat qilishga yaroqli, qo'lidan ish keladigan
employé [ɒmˈplɔɪeɪ] *fr.* = **employee**
employee [ɪmˌplɔɪˈi:, ˌemplɔɪˈi:] *n* xizmatchi, yollanib ishlovchi
employer [ɪmˈplɔɪə] *n* 1) korxona egasi; 2) xo'jayin; 3) ish beruvchi; ishga oluvchi; xo'jayin
employment [ɪmˈplɔɪmənt] *n* 1) xizmat, mashg'ulot; 2) ijara, kira; 3) qo'llash, ishlatish
empoison [ɪmˈpɔɪz(ə)n] *v* zahar berib o'ldirmoq, zaharlamoq
emporia [ɪmˈpɔ:rɪə] *pl of* **emporium**
emporium [emˈpɔ:rɪəm] *n* 1) bozor, rasta; 2) savdo markazi
empower [ɪmˈpaʊə] *v* vakolat bermoq, vakil qilmoq
empress [ˈemprɪs] *n* 1) imperator xotini; 2) imperator (hoqon) ayol
emprise [ɪmˈpraɪz] *n esk. shoir.* dadil tashabbus; mardonavor jasorat
emptiness [ˈemptɪnəs] *n* bo'shlik, xolilik
empty [ˈemptɪ] **1.** *a* 1) bo'sh; **an ~ box** bo'sh quti; 2) quruq; **an ~ talk** quruq gap; ma'nosiz gap; **2.** *v* quymoq, to'kmoq; **to ~ water out of a glass** stakandan suvni to'kmoq
empty-handed [ˌemptɪˈhændɪd] *a* bo'sh qo'l bilan
empty-headed [ˌemptɪˈhedɪd] *a* qovoqbosh, kallavaram
empurple [ɪmˈpɜ:p(ə)l] *v* qizartirmoq, qizil tus bermoq, qizil rangga bo'yamoq
empyreal [ˌemp(a)ɪˈri:əl] *a* osmonga oid, osmondagi, samoviy
empyrean [ˌemp(a)ɪˈri:ən] *n* 1) empirey (*yunonlar tasavvurida: osmonning xudolar turadigan eng yuqori qismi*); 2) osmon, ko'k, samo, falak
emu [ˈi:mju] *n* emu, tuyaqush (*Avstraliya tuyaqushi*)
emulate [ˈemjoleɪt] *v* musobaqalashmoq; bahslashmoq
emulation [ˌemjoˈleɪʃ(ə)n] *n* musobaqa, raqobat, bahs
emulative [ˈemjolətɪv] *a* musobaqaga (bellashuvga) oid
emulous [ˈemjoləs] *a* musobaqalashuvchi; bahslashuvchi
emulsify [ɪˈmʌlsɪfaɪ] *v* emulsiya hosil qilmoq, emulsiyaga aylanmoq
emulsion [ɪˈmʌlʃn] *n* emulsiya (*bir-biriga singmaydigan ikki xil suyuqlikning qorishmasi*)
emulsive [ɪˈmʌlsɪv] *a* 1) emulsiyaga oid, emulsion; 2) yog'li, seryog'
en [en] *n* „N" harfining nomi
enable [ɪˈneɪb(ə)l] *v* 1) imkoniyat bermoq; 2) yengillashtirmoq, osonlashtirmoq
enact [ɪˈnækt] *v* 1) qaror qabul qilmoq; qaror chiqarmoq; 2) rol o'ynamoq
enacting [ɪˈnæktɪŋ] *a* kiritiladigan, kiritish...: qaror chiqaradigan, qaror qabul qiladigan; **~ clause** qonun preambulasi (*xalqaro bitimlarning kirish qismi, qonun konvensiyasi (biror maxsus qonun yuzasidan davlatlar o'rtasida tuziladigan shartnoma, bitim, kelishuv*)
enactment [ɪˈnæktmənt] *n* 1) qonunni kuchga kiritish; 2) qonun, qoida, tartib, nizom, qonun chiqarish ishi (akti)
enamel [ɪˈnæm(ə)l] **1.** *n* emal, sir; **2.** *v* emal (sir) qoplamoq
enamour [ɪˈnæmə] *v* sevgi (muhabbat) uyg'otmoq
en bloc [ˌɒmˈblɒk] *adv fr.* 1) butunligicha, butun holda, butunlayin; 2) **butunlay**, tamomila, batamom
en brosse [ˌɒmˈbrɒs] *a fr.* sochi kalta qilib olingan, sochi kalta qilib qirqilgan
encaenia [enˈsi:nɪə] *n* yillik (yubiley)ni nishonlash
encage [ɪnˈkeɪdʒ] *v* qafasga (katakka) qamab qo'ymoq
encamp [ɪnˈkæmp] *v* lager qurmoq, lagerga joylashmoq
encampment [ɪnˈkæmpmənt] *n* lager, oromgoh
encapsulate [ɪnˈkæpsjoleɪt] *v* 1) kapsulaning ichiga joylashtirmoq, ustini kapsula bilan qoplamoq; 2) nimanidir qisqa shaklda (qisqacha qilib) bayon etmoq
encase [ɪnˈkeɪs] *v* o'ramoq, solmoq, joylamoq, saranjom qilmoq; **~ment** joylash, o'rash, solish
encash [ɪnˈkæʃ] *v tij.* 1) naqd pulga (naqd pul bilan) olmoq; 2) sotmoq, pullamoq

encaustic [en´kɔ:stık] **1.** *a* enkaustikaga oid; enkaustika ...; **2.** *n* enkaustika (*mum bo'yoqlar bilan rasm solish va shu usulda ishlangan surat*)
enceinte I [ɒn´sænt] *a fr. esk.* homilador, bo'yida bor; bo'g'oz
enceinte II [ɒn´sænt] *n fr. harb.* qal'a devori
encephalic [,ensı´fælık] *a anat.* miyaga oid
encephalitis [en,sefə´laıtıs] *n tib.* ensefalit (*bosh miyaning yallig'lanishi*)
encephalogram [ın´sef(ə)ləgræm] *n tib.* ensefalogramma (*bosh miya biotoklarini ensefalograf (bosh miya biotoklarini yozib oladigan asbob) yordamida yozib olish*)
enchain [ın´tʃeın] *n* kishanlamoq, zanjirband qilmoq
enchant [ın´tʃɑ:nt] *v* 1) sehrlamoq; 2) maftun qilmoq, mahliyo qilmoq
enchanted [ın´tʃɑ:ntıd] *a* 1) mahliyo bo'lgan, qoyil qolgan; 2) sehrlangan, jodulangan
enchanter [ın´tʃɑ:ntə] *n* sehrgar, jodugar, afsungar
enchanting [ın´tʃɑ:ntıŋ] *a* jozibador, mahliyo qiladigan
enchantment [ın´tʃɑ:ntmənt] *n* 1) jozibadorlik, yoqimlilik; joziba, tarovat; 2) sehr, jodu, afsun, jodugarlik
enchantress [ın´tʃɑ:ntrıs] *n* sehrgar, jodugar
enchase [ın´tʃeıs] *v* 1) gardishga (ramkaga, qinga, g'ilofga) solmoq; 2) biror narsa (yog'och, sadaf, suyak va sh. k.) qadab naqsh solmoq (naqshlamoq, bezamoq); o'ymakorlik usuli bilan naqsh solmoq, o'yib naqsh tushirmoq
enchiridion [,enkaı´rıdıən] *n kit.* ma'lumotnoma, qo'llanma
encipher [ın´saıfə] *v* shifrlamoq, (*ma'lumotni*) shifr bilan yozmoq
encircle [ın´sɜ:k(ə)l] *v* o'ramoq, o'rab olmoq
encirclement [ın´sɜ:k(ə)lmənt] *n* qurshov, o'rab olish, qurshab olish, o'rtaga olish
encircling [ın´sɜ:klıŋ] *a* : **~ manoeuvre** *harb.* 1) tomonidan (*yoki* orqasidan) kelish, aylanish, aylanib chiqish; 2) qurshovga olish uchun qilingan manyovr (*jang maydonida qo'shinlarning dushmanga zarba berish uchun qulay vaziyat olish maqsadidagi harakati*)
en clair [,ɒŋ´kleə] *fr.* **1.** *a* shifrlanmagan, shifrsiz yozilgan; **2.** *adv* ochiq matn bilan
enclasp [ın´klɑ:sp] *v* quchoqlamoq, bag'riga bosmoq
enclave [´enkleıv] *n* begona kishilar tomonidan o'rab olingan maydon
enclitic [ın´klıtık] **1.** *a* enklitik, urg'usiz, urg'usini yo'qotgan; **2.** *n* urg'usiz so'z, enklitika
enclose [ın´kləuz] *v* 1) (ichiga) qo'ymoq, solmoq; 2) (*yer maydonining*) atrofini o'rab qo'ymoq
enclosure [ın´kləuʒə] *n* 1) atrofi (cheti) o'rab olingan joy; 2) devor, to'siq; g'ov; 3) (*paketga*) solingan narsa; (*xat, hujjatga*) ilova
encode [ın´kəud] *v* shifrlamoq, shifr bilan yozmoq
encomia [en´kəmıə] *pl of* **encomium**
encomiast [en´kəumıæst] *n* madhiyachi, madh etuvchi odam
encomiastic [ın´kəumıæstık] *a* maqtovli, maqtovga oid; maqtaydigan, ko'klarga ko'taradigan
encomium [ın´kəumıəm] *n* (*pl* **-s** [-z], **-mia** [-mıə]) 1) maqtov, madhiya; 2) madhiyachi, madh etuvchi (*odam*)
encompass [ın´kʌmpəs] *v* tevaragida joylashgan bo'lmoq, tevaragini qurshab olmoq, o'rab olmoq
encore [ɒŋ´kɔ:] *n fr.* yana! yana bo'lsin!
encounter [ın´kaontə] **1.** *v* 1) (*qo'qqisdan yoki dushmanlarcha*) to'qnashmoq; uchrashmoq; 2) duelga chiqmoq; **2.** *n* 1) kutilmagan uchrashuv; 2) to'qnashuv, to'qnashish, urushish, jang
encourage [ın´kʌrıdʒ] *v* 1) ruhlantirmoq; 2) mukofotlamoq; **to ~ the arts** san'atni rag'batlamoq; **~ment** ruhlantirish, madad berish
encouraging [ın´kʌrıdʒıŋ] *a* ruhlantiradigan, umid uyg'otadigan
encroach [ın´krəutʃ] *v* 1) bostirib kirmoq; zo'rlik bilan kirib olmoq; 2) tajovuz qilmoq
encrochment [ın´krəutʃmənt] *n* tajovuzkorlik, bostirib kirish
encrust [ın´krʌst] *v* biror narsa (*yog'och, sadaf*) qadab naqsh solmoq; bezamoq
encrypt [ın´krıpt] *v* kod bilan yozmoq, kodlamoq, shifrlamoq, shifr bilan yozmoq
encumber [ın´kʌmbə] *v* to'siq bo'lmoq, xalal bermoq, to'sqinlik qilmoq
encumbrance [ın´kʌmbrəns] *n* to'siq, g'ov
encumbrancer [ın´kʌmbrənsə] *n yur.* garovga pul beruvchi kishi
encyclical [ın´sıklık(ə)l] *cherk.* **1.** *a* keng ommaga tarqatish uchun mo'ljallangan; **an ~ letter** sirkular (*ko'rsatmalar beradigan tashkilotlar tomonidan quyi tashkilotlarga yuboriladigan farmoyish*); sirkular xat; **2.** *n* ensiklika (*Rim papasining katoliklarga qaratilgan nurojaatnomasi*)
encyclope(a)dia [ın,saıklə´pi:dıə] *n* qomus, ensiklopediya, ensiklopediya lug'ati
encyclop(a)edic(al) [ın,saıklə´pi:dıə-k(əl)] = **encyclope(a)dia**
encyclop(a)edist [ın,saıklə´pi:dıst] *n* ensiklopedist (*har tomonlama ma'lumotga, qomusiy bilimga ega bo'lgan odam*)
encyst [en´sıst] *v maxs.* ustiga g'ilof kiygizmoq, ustini qobiq bilan qoplamoq
end [end] **1.** *n* 1) oxir, nihoya, xotima, tamom, tugatish; **at the ~** oxirida; **in the ~** nihoyat, oxiri; **to the ~** oxirigacha; **to make an ~ of smth.** biror narsani tugatmoq; 2) oxiri, oxirgi qism; **the ~ of the year** yil oxiri; **2.** *v* 1) oxirlamoq, tugatmoq; **to ~ in** ... bilan tugamoq; 2) ajali yetmoq, o'lmoq; 3) o'ldirmoq
endanger [ın´deınʒə] *v* xavf ostida qoldirmoq
endear [ın´dıə] *v* mehrini qozonmoq, yaxshi ko'rishga majbur qilmoq
endearment [ın´dıəmənt] *n* erkalash, erkalatish
endeavor [ın´devə] *amer.* = **endeavour**
endeavour [ın´devə] **1.** *v* urinmoq, harakat qilmoq, tirishmoq; **2.** *n* harakat, urinish
endemic [en´demık] *a* mahalliy, jaydari (*ma'lum bir joyga xos bo'lgan, ma'lum bir joyda bo'ladigan*)
end-game [´endgeım] *n* endshpil (*shaxmat o'yinining oxirgi, yakunlovchi pallasi*)
ending [´endıŋ] **1.** *n* 1) bitirish, tugatish, tamomlash; tugash, tamomlanish; 2) oxir, intiho, xotima qism; 3) *gram.* tugallanma; fleksiya (*so'zning turlanish yoki tuslanishda o'zgaradigan tugallanmasi*); **2.** *a* so'nggi, oxirgi, oxir-pirovardidagi; oxirida olingan (olinadigan); yakunlovchi, yakuniy
endive [´endıv] *n bot.* sachratqi
endless [´endləs] *a* 1) cheki yo'q, tugamas, cheksiz, bepoyon; 2) son-sanoqsiz, ko'p, beadad
endlessly [´endləslı] *adv* cheksiz ravishda, benihoya, behad, ortiq darajada
endlong [´endlɒŋ] *adv* to'g'ri, to'g'riga, to'ppa-to'g'ri, to'g'ridan to'g'ri
endocarditis [,endə(ʊ)kɑ:´daıtıs] *n tib.* endokardit (*yurak ichki pardasining yallig'lanishi*)
endocrine [´endə(ʊ)krın] *a* endokrin (*ichki sekretsiya bezlariga bog'liq bo'lgan*)
endocrinology [,endə(ʊ)krı´nɒlədʒı] *n* endokrinologiya (*ichki sekretsiya bezlari tuzilishi va funksiyasi to'g'risidagi fan*)

endogamy [enˈdɒgəmɪ] *n* endogamiya (*faqat o'z qabilasidagi, urug'idagi kishiga uylanish yoki erga tegish odati*)

endogenous [enˈdɒdʒɪnəs] *a* endogen (*ichki sabab yoki ta'sir bilan vujudga keladigan, ichki*)

endorse [ɪnˈdɔːs] *v* 1) ma'qullamoq, tasdiqlamoq; 2) qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq

endorsement [ɪnˈdɔːsmənt] *n* ma'qullash, tasdiqlash, qo'llab-quvvatlash

endosperm [ˈendə(ʊ)spɜːm] *n bot.* endosperm (*o'simlik urug'ida hosil bo'ladigan oziq to'qima*)

endow [ɪnˈdaʊ] *v* (*doimiy*) daromad bilan ta'minlamoq

endowment [ɪnˈdaʊmənt] *n* 1) bankka qo'yilgan pul; 2) iste'dod; qobiliyat, talant; **natural ~s** tabiiy iste'dod; 3) xayr-ehson, sadaqa, hadya

endpaper [ˈend,peɪpə] *n poligr.* forzas (*kitob varaqlarini muqova bilan biriktirib turadigan qog'oz yoki latta*)

end-play [ˈendpleɪ] *n* endshpil (*shaxmat o'yinining oxirgi, yakunlovchi pallasi*)

end product [ˈend,prɒdəkt] *n* tayyor mahsulot; eng so'nggi mahsulot

endue [ɪnˈdjuː] *v* mukofotlamoq, mukofot qilib bermoq, in'om etmoq, hadya qilmoq, bag'ishlamoq

end-up [ˈendˈʌp] *a* burni puchuq, burni qashqaygan

endurable [ɪnˈdjʊ(ə)rəb(ə)l] *a* 1) chidasa bo'ladigan; 2) mustahkam, pishiq

endurance [ɪnˈdjʊ(ə)rəns] *n* 1) chidamlilik; 2) sabr, bardosh, toqat

endure [ɪnˈdjʊə] *v* chidamoq, bardosh bermoq; ko'tarmoq

enduring [ɪnˈdjʊ(ə)rɪŋ] *a* 1) chidamli, pishiq, puxta; 2) chidamli, bardoshli, sabr-toqatli; 3) uzoq davom etadigan, uzoqqa cho'ziladigan

end user [ˈend,juːzə] *n* mahsulotlarning so'nggi xaridori (iste'molchisi)

end view [ˈend,vjuː] *n* yon tomonidagi ko'rinish (*chizmada*)

endways [ˈendweɪz] *adv* 1) tepaga, yuqoriga, ustiga, tepasiga; 2) bo'yiga, uzunasiga; 3) tikka qilib, turg'izib

endwise [ˈendwaɪz] = **endways**

enema [ˈenɪmə] *n tib.* klizma, huqna

enemy [ˈenəmɪ] **1.** *n* dushman, yov, raqib; **to be one's own ~** o'zining ziyoniga (zarariga) ishlamoq; **the (old) E.** iblis, shayton; **2.** *a* 1) dushmanlik (dushmanchilik) ruhidagi, dushmanlik ruhi bilan sug'orilgan; dushmanlarcha; 2) dushmanga (yovga) oid; dushman ...; yov...

energetic [ˌenəˈdʒetɪk] *a* 1) g'ayratli, kuchli; 2) qattiq (kuchli) ta'sir qiladigan

energetically [ˌenəˈdʒetɪkəlɪ] *adv* g'ayrat bilan, faol ravishda, shijoat ko'rsatib

energetics [ˌenəˈdʒetɪks] *n* energetika

energize [ˈenədʒaɪz] *v* 1) *kit.* energiyani uyg'otmoq (qo'zg'atmoq, yuzaga keltirmoq); 2) *el.* elektr quvvati bilan ta'minlamoq

energy [ˈenədʒɪ] *n* 1) quvvat, energiya; 2) *tex.* energiya quvvati; **electrical ~** elektr energiyasi

enervate 1. *a* [ɪˈnɜːvɪt] kuchsiz, bo'sh; **2.** *v* [ˈenəveɪt] kuch-quvvatdan qoldirmoq, holdan toydirmoq

enervation [ˌenəˈveɪʃ(ə)n] *n* 1) kuchsizlik, nimjonlik, zaiflik; 2) *tib.* asab faoliyatining susayishi

enfant terrible [ˌɒnfɒŋteˈriːbl] *n fr.* qo'pol odam

enfeeble [ɪnˈfiːb(ə)l] *v* zaiflashtirmoq, kuchsizlantirmoq

enfetter [ɪnˈfetə] *v kit.* 1) kishanlamoq, kishan solmoq; 2) ozodlikdan mahrum qilmoq, qul qilmoq, asoratga solmoq

enfilade [ˈenfɪleɪd] **1.** *n harb.* bo'ylama o'q (o't); **2.** *v harb.* bo'ylama o'qqa tutmoq; ustiga bo'ylama o'q yog'dirmoq

enfold [ɪnˈfəʊld] *v* 1) o'ramoq; aylantirmoq; 2) quchmoq, bag'riga bosmoq

enforce [ɪnˈfɔːs] *v* 1) majbur qilmoq, zo'rlamoq, zo'rlab bo'yniga qo'ymoq; 2) hayotga tatbiq qilmoq

enforceable [ɪnˈfɔːsəb(ə)l] *a* amalga oshadigan, amalga oshirib bo'ladigan

enforcement [ɪnˈfɔːsmənt] *n* 1) bosim, ta'sir; 2) amalga oshirish; nazorat qilish; **law ~** huquqiy tartibni ta'minlash; huquq-tartibot organlari faoliyati; 3) *attr.* majburiy; **~ measures** majburiy choralar

enfranchise [ɪnˈfræntʃaɪz] *v* saylov huquqini bermoq

enfranchisement [ɪnˈfræntʃɪzmənt] *n* 1) (*qullik, tobelik va b. dan*) ozod bo'lish, ozodlikka (erkinlikka) chiqish, xalos bo'lish; 2) saylov (saylash) huquqini berish

engage [ɪnˈgeɪdʒ] *v* 1) ijaraga olmoq, yollamoq, ishga olmoq; 2) buyurtma bermoq; **to ~ a seat** chipta buyurmoq; 3) **(in, on, with)** shug'ullanmoq, mashg'ul bo'lmoq; 4) qatnashmoq, ishtirok etmoq; 5) band qilmoq, egallamoq; 6) *harb.* jangga kirmoq

engaged [ɪnˈgeɪdʒd] *a* 1) ishi ko'p, ish bilan band; **to be ~ in** bilan shug'ullanmoq, band bo'lmoq; 2) unashtirilgan

engagement [ɪnˈgeɪdʒmənt] *n* 1) ish, mashg'ulot; 2) uchrashuv; 3) taklif; majburiyat; va'da; 4) unashtiruv

engaging [ɪnˈgeɪdʒɪŋ] *a* dilbar, dilrabo, juda go'zal, jozibali, yoqimli

engender [ɪnˈdʒendə] *v* 1) qo'zg'amoq, sabab bo'lmoq, tug'dirmoq; 2) dunyoga kelmoq; 3) uyg'otmoq, qo'zg'atmoq; **to ~ hope** ishonch paydo bo'lmoq

engine [ˈendʒɪn] *n* 1) mashina; motor; 2) parovoz; 3) qurol, mexanizm; vosita; 4) *attr.* parovozga oid, parovoz...; 5) *attr.* mashinaga oid; mashina(lar) uchun belgilangan, mashina; **~ oil** mashina moyi; 6) motorga oid, motor ...; motor o'rnatilgan, motorli

engine crew [ˈendʒɪnkruː] *n* parovoz brigadasi (*bir parovozda xizmat qiluvchilar tarkibi*)

engine driver [ˈendʒɪn,draɪvə] *n tem. y.* mashinist, haydovchi

engineer [ˌendʒɪˈnɪə] *n* 1) muhandis, injener; 2) *amer.* mashinist

engineering [ˌendʒɪˈnɪ(ə)rɪŋ] *n* 1) injenerlik mahorati, san'ati; mashinasozlik; 2) *attr.* mashinasozlikka (mashinalar qurishga) oid; mashinasozlik...; **an ~ plant** mashinasozlik zavodi; **an ~ worker** mashinasoz ishchi (mutaxassis)

engine-house [ˈendʒɪnhaʊs] *n* parovoz deposi

engine room [ˈendʒɪnruː(ː)m] *n* mashinaxona; mashinalar joylashgan xona; mashinalar bo'lmasi

enginery [ˈendʒɪn(ə)rɪ] *n* 1) mashinalar; mexanizmlar; 2) mexanik asbob-uskunalar (jihozlar)

engird [ɪnˈgɜːd] *v* (**engirded, engirt**) belbog' bog'lamoq, kamar bog'lamoq

engirdle [ɪnˈgɜːdl] = **engird**

engirt [ɪnˈgɜːt] *past., p. p. of* **engird**

English [ˈɪŋgɪʃ] **1.** *a* inglizcha, ingliz tiliga oid; **in ~** inglizcha, ingliz tilida; **an ~ teacher** ingliz tili o'qituvchisi; **2.** *n* 1) ingliz tili; **Modern (Standart) ~** zamonaviy (adabiy) ingliz tili; **to speak ~** ingliz tilida gaplashishni bilmoq (gapira olmoq); **to speak in ~** ingliz tilida nutq so'zlamoq (chiqish qilmoq); **spoken ~** inglizlarning so'zlashuv tili; **not ~** ingliz tilida emas; 2) **(the ~)** *pl* inglizlar; 3) *poligr.* kegl (*bosmaxona harflarining katta-kichiklik o'lchami*); **in plain ~** to'g'risi, ochig'i; kinoya (shama, qochirma)siz

Englishism [ˈɪŋglɪʃɪz(ə)m] *n* 1) inglizlarga xos bo'lgan fazilat, inglizlarning urf-odatlari (udumlari); 2) Angliyada ishlatiladigan idioma (*ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora*); 3) inglizparastlik, hammaning ingliz tili bilan shug'ullanishi

Englishman [ˈɪŋglɪʃmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) ingliz

Englishwoman [ˈɪŋglɪʃˌwomən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) ingliz ayol

engorge [ɪnˈgɔ:dʒ] *v* 1) *tib.* qonga to'lmoq, qizarmoq, qizarib ketmoq (*inson a'zosi haqida*); 2) ochko'zlik qilib ko'p yemoq

engraft [ɪnˈgrɑ:ft] *v* 1) *bot.* payvandlamoq, payvand qilmoq, ulamoq **(upon, into)**; 2) emlamoq **(in)**

engrail [ɪnˈgreɪl] *v* o'tmas qilib qo'ymoq, tig'ini (damini) qaytarib qo'ymoq

engrain [ɪnˈgreɪn] *v* 1) qizil bo'yoq bilan bo'yamoq; 2) joriy qilmoq, amalga oshirmoq, kirgizmoq

engrave [ɪnˈgreɪv] *v* o'ymakorlik usuli bilan naqsh solmoq, o'yib naqsh tushirmoq

engraver [ɪnˈgreɪvə] *n* o'ymakor, naqqosh

engraving [ɪnˈgreɪvɪŋ] *n* gravyura (*o'yma naqsh, surat*)

engross [ɪnˈgrəʊs] *v* 1) (*diqqatni*) o'ziga jalb etmoq; 2) (*suhbati bilan*) o'ziga qaratmoq, tortmoq

engrossed [ɪnˈgrəʊst] *a* qiziqib qolgan, mukkasidan ketgan (berilgan)

engrossing [ɪnˈgrəʊsɪŋ] *a* 1) butun vujudini qamrab oladigan, hammasidan baland (kuchli); boshqa his-tuyg'ulardan g'olib (ustun); 2) kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor

engulf [ɪnˈgʌlf] *v* 1) yutmoq, nafsiga (jig'ildoniga) urmoq; 2) to'ldirib tashlamoq, ko'mib tashlamoq, ko'milib ketmoq; **~ed by letters** xat bilan ko'mib tashlagan, xat bilan to'ldirib tashlagan

enhance [ɪnˈhɑ:ns] *v* 1) ko'paytirmoq, kuchaytirmoq, oshirmoq; 2) (*narxni, sifatni*) ko'tarmoq

enhancement [ɪnˈhɑ:nsmənt] *n* 1) ko'paytirish, kuchaytirish, oshirish; 2) (*narxni, sifatni*) ko'tarish; 3) (*atrof-muhitni*) yaxshilash, sog'lomlashtirish

enigma [ɪˈnɪgmə] *n* topishmoq, jumboq; **an answer to an ~** topishmoqning javobi

enigmatic(al) [ˌenɪgˈmætɪk(əl)] *a* jumboqli, sirli

enisle [ɪˈnaɪl] *v shoir.* 1) orolga aylantirmoq; 2) orolga joylashtirmoq

enjoin [ɪnˈdʒɔɪn] *v* 1) ko'rsatma (yo'l-yo'riq, maslahat) bermoq, tayinlamoq **(on, upon)**; 2) buyruq (farmoyish) bermoq, buyurmoq, amr qilmoq; **to ~ silence upon smb.** kimdandir jim bo'lishini so'ramoq; 3) *yur.* man qilmoq, taqiqlamoq

enjoy [ɪnˈdʒɔɪ] *v* 1) (*biror narsani*) yaxshi ko'rmoq, (*biror narsadan*) rohatlanmoq; 2) (*biror narsadan*) maza (huzur) qilmoq; xursandchilik qilmoq; vaqtni yaxshi o'tkazmoq; 3) foydalanmoq, ega bo'lmoq

enjoyable [ɪnˈdʒɔɪ(ə)bl] *a* yoqimli, ko'ngilli, yoqimtoy, dilkash

enjoyment [ɪnˈdʒɔɪmənt] *n* 1) mamnun bo'lish, huzur-halovat, lazzat; 2) (*biror narsaga*) egalik qilish; (*biror narsadan*) foydalanish

enkindle [ɪnˈkɪndl] *v* (*urush, ehtiros va sh. k. ni*) yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq

enlace [ɪnˈleɪs] *v* o'rab bog'lamoq, chulg'amoq; o'rab tashlamoq, kishanlamoq, tushovlamoq

enlarge [ɪnˈlɑ:dʒ] *v* 1) kengaymoq, kengaytirmoq; 2) tarqatmoq

enlarged [ɪnˈlɑ:dʒd] *a* kengaytirilgan, kengaygan; **an ~ meeting** kengaytirilgan majlis; **a revised and ~ edition** to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr

enlargement [ɪnˈlɑ:dʒmənt] *n* kengaytirish, ko'paytirish

enlighten [ɪnˈlaɪtn] *v* 1) *shoir.* yoritmoq, yoritib ko'rmoq; 2) ma'rifat tarqatmoq, bilim bermoq, ma'rifatli qilmoq; 3) xabar qilmoq, ma'lum qilmoq

enlightened [ɪnˈlaɪt(ə)nd] *a* 1) ma'rifatli, bilimli; 2) xabardor, biladigan, ma'lumotli

enlightener [ɪnˈlaɪtnə] *n* 1) ma'rifat tarqatuvchi, ong-bilim tarqatuvchi, ma'rifatchi, ma'rifatparvar; 2) xabardor qiluvchi, ma'lumot manbayi

enlightenment [ɪnˈlaɪt(ə)nmənt] *n* 1) ma'rifatli, ma'rifatlilik; 2) (qo'shimcha) ma'lumotlar

enlist [ɪnˈlɪst] *v* 1) harbiy xizmatga o'z ixtiyori bilan bormoq; 2) qo'llab-quvvatlaymiz degan va'dasini oldindan olib olmoq; o'z tomoniga og'dirmoq; **to ~ smb.'s support** kimningdir qo'llab-quvvatlaymiz degan va'dasini oldindan olib olmoq

enlisted [ɪnˈlɪstɪd] *a amer. harb.* muddatli xizmatdagi; **an ~ man** askar; oddiy tarkibdagi *yoki* serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchi

enlistee [ˌenlɪsˈti:] *n amer. harb.* harbiy xizmatga qabul qilingan shaxs

enliven [ɪnˈlaɪv(ə)n] *v* jon kiritmoq; jonlantirmoq, g'ayrat bag'ishlamoq

en masse [ˌɒŋˈmæs] *adv fr.* 1) asosan, aksar; ko'pchilik e'tibori bilan; 2) umuman aytganda, olganda; 3) hamma birga bo'lib (baravariga, birgalikda, birgalashib)

enmesh [ɪnˈmeʃ] *v* o'rab bog'lamoq, kishanlamoq

enmity [ˈenmɪtɪ] *n* dushmanlik, adovat; **unexpressed ~** dildagi dushmanlik; **to be at ~ with smb.** kim bilandir dushmanlik munosabatida bo'lmoq

ennoble [ɪˈnəʊb(ə)l] *v* ma'naviy jihatdan yaxshilamoq, fazilatlarini oshirmoq

ennoblement [ɪˈnəʊb(ə)lmənt] *n* 1) fazilatlarini oshirish; 2) naslini (zotini *yoki* sifatini) yaxshilash; 3) unvonini oshirish, yuqori darajaga ko'tarish

ennui [ɒnˈwi:] *n fr.* zerikish, ziq bo'lish, diqqati oshish

enormity [ɪˈnɔ:mɪtɪ] *n* jirkanchlik, yaramaslik, razillik, qabihlik

enormous [ɪˈnɔ:məs] *a* juda katta, ulkan; **~ sum** katta summa; **~ changes** katta o'zgarishlar

enormously [ɪˈnɔ:məslɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari, juda ham, o'ta; **the town has changed ~** shahar haddan tashqari o'zgarib ketgan

enough [ɪˈnʌf] **1.** *adv* yetarli, yetarli darajada, yetarlicha; kifoya; **2.** *n* yetarli miqdor; **3.** *a* yetarli, yetadigan, kifoya qiladigan

enounce [ɪ(:)ˈnaʊns] *v* aytmoq, bildirmoq

enow [ɪˈnaʊ] *so'zl. shoir.* **enough** *ga qarang*

enplane [ɪnˈpleɪn] = **emplane**

enquire, enquirer, enquiry [ɪnˈkwaɪə, -rə, -rɪ] = **inquire, inquirer, inquiry**

enrage [ɪnˈreɪdʒ] *v* achchig'ini (g'azabini) keltirmoq, qonini qaynatmoq

enrapture [ɪnˈræptʃə] *v* maftun qilmoq, qoyil qoldirmoq, g'oyat zavqlantirmoq

enrich [ɪnˈrɪtʃ] *v* boyitmoq, boyligini oshirmoq

enrobe [ɪnˈrəʊb] *v* kiyintirmoq, yasantirmoq; kiygizmoq

enrol(l) [ɪnˈrəʊl] *v* ro'yxatga yozmoq, ro'yxatdan o'tkazmoq

enrol(l)ment [ɪnˈrəʊlmənt] *n* ro'yxatga kiritish (qo'shish, yozib qo'yish); ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatga olish, qayd qilish

enroot [ɪnˈru:t] *v* 1) ildiz ottirmoq, ildiz otishiga (o'sishiga) sharoit yaratmoq; 2) *ko'ch.* joriy qilmoq, rasm qilmoq, singdirmoq, yoymoq, kirgizmoq

en route [ˌɒnˈru:t] *adv fr.* yo'l-yo'lakay

ensanguine [ɪnˈsæŋgwɪn] *v kit.* qonga belamoq, qon to'kmoq

ensanguined [ɪnˈsæŋgwɪnd] *a* qonga bo'yalgan; qonga belangan

ensconce [ɪnˈskɒns] *v* qulay o'rnashib (joylashib) olmoq; **to ~ oneself cosily** qulay o'tirib olmoq

ensemble [ɒnˈsɒmb(ə)l] *n* 1) *mus.* ansambl; 2) (*ijrochilar*) guruhi; 3) umumiy taassurot

enshrine [ɪnˈʃraɪn] *v* 1) *cherk.* raka (*xristianlar cherkovida: avliyolar jasadi saqlanadigan maqbara*)ga qo'ymoq (joylashtirmoq); 2) (*yodgorlik, xotira va b. ni*) saqlamoq, unutmaslik

enshroud [ɪnˈʃraʊd] *v* o'ramoq, burkamoq, o'rab qo'ymoq
ensign ['ensaɪn] *n* 1) nishon, belgi; 2) bayroq; **a blue ~** kema quyrug'idagi ko'k bayroq (inglizlarda); **a red ~** inglizlarning savdo bayrog'i; **a white ~** inglizlarning harbiy-dengiz bayrog'i
ensilage ['ensɪlɪdʒ] *n* silos tayyorlash; **an ~ harvester** silos yig'ish kombayni
ensile [enˈsaɪl] *v* silos bostirmoq
enslave [ɪnˈsleɪv] *v* qul qilmoq, asoratga solmoq, ozodlikdan mahrum qilmoq
enslavement [ɪnˈsleɪvmənt] *n* qul qilish, asoratga solish; bo'ysundirish
enslaver [ɪnˈsleɪvə] *n* qul qiluvchi, asoratga soluvchi, zolim, yovuz
ensnare [ɪnˈsneə] *v* tuzoqqa ilintirmoq (tushirmoq); ushlab olmoq
ensoul [ɪnˈsəʊl] *v* ruhlantirmoq; ilhomlantirmoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq
ensue [ɪnˈsju:] *v* 1) ketidan kelmoq; natijasi bo'lmoq, kelib chiqmoq; 2) *shoir.* intilmoq, izlamoq, yetishmoq
ensuing [ɪn sju:ɪŋ] *a* natijada kelib chiqadigan (yuzaga keladigan), keyingi, kelgusi, kelasi; **in the ~ year** kelasi yili, kelgusi yilda
en suite [ˌɒnˈswi:t] *a* qo'shma, yonma-yon
ensure [ɪnˈʃʊə] *v* 1) ta'minlamoq, kafolat bermoq; 2) sug'urta qilmoq; himoya qilmoq
entablature [enˈtæblətʃə] = **entablement**
entablement [ɪnˈteɪblmənt] *n me'mor.* antablement (*shiftning bevosita ustunlarga tayangan bezakli qismlari*)
entail [ɪnˈteɪl] **1.** *v* sabab bo'lmoq, ...ga olib bormoq; **2.** *n* mayorat (*feodalizmdan qolgan vorislik tartibi*)
entangle [ɪnˈtæŋgl] *v* chalkashtirmoq, chalkash-chulkash qilib yubormoq
entangled [ɪnˈtæŋgld] *a* chalkash, chigal, chalkashib ketgan
entanglement [ɪnˈtæŋg(ə)lmənt] *n* 1) chalkashlik, chigallik; 2) qiyin (tang) ahvol; 3) *harb.* (tikanli) sim to'siq
entente [ɒnˈtɒnt] *n* bir guruh davlatlar o'rtalaridagi do'stona shartnoma (bitim); **the E.** *tar.* Antanta (*imperialistik davlatlar o'rtasida tuzilgan turli bloklarning umumiy nomi*)
enter ['entə] *v* 1) (*ichkariga*) kirmoq; **to ~ a room** xonaga kirmoq; 2) kirmoq, a'zo bo'lmoq; **to ~ the army** armiya safiga kirmoq; 3) ro'yxatga kirmoq; 4) qatnashmoq; **to ~ a race** poygada qatnashmoq; 5) (**on**) kirishmoq, boshlamoq
enteric [enˈterɪk] **1.** *anat. a* qoringa oid, qorin; **2.** *n tib.* ich terlama
enteritis [ˌentəˈraɪtɪs] *n tib.* enterit, ingichka (achchiq) ichakning yallig'lanishi
enterprise ['entəpraɪz] *n* 1) muassasa, korxona; **a private ~** xususiy korxona; 2) uddaburonlik, epchillik, tashabbuskorlik
enterprising ['entəpraɪzɪŋ] *a* uddaburon, epchil; tashabbuskor
entertain [ˌentəˈteɪn] *v* 1) mehmonlarni qabul qilmoq, mehmon qilmoq; 2) ko'ngil ochmoq; 3) e'tiborga (nazarga) olmoq, hisobga olmoq, nazarda tutmoq; **to ~ a proposal** taklifni ko'rib chiqmoq; **to ~ a demand** talabni e'tiborga olmoq
entertaining [ˌentəˈteɪnɪŋ] *a* 1) qiziq, ajib, g'alati; 2) ko'ngil ochadigan, vaqtni chog' qiladigan
entertainment [ˌentəˈteɪnmənt] *n* 1) mehmonlarni qabul qilish; 2) o'yin-kulgi; sayr-tomosha
enthalpy [enˈθælpɪ] *n fiz.* entalpiya, tarkibida issiqlikni saqlash
enthral(l) [ɪnˈθrɔ:l] *v* o'ziga tortmoq, jalb qilmoq
enthralling [ɪnˈθrɔ:lɪŋ] *a* qiziq, qiziqtiradigan, zavqli, maroqli, jozibador, zavq (havas) keltiradigan
enthrone [ɪnˈθrəʊn] *v* taxtga o'tqazmoq, podsho qilib ko'tarmoq
enthronement [ɪnˈθrəʊnmənt] *n* taxtga o'tkazish, podsho qilib ko'tarish
enthuse [ɪnˈθju:z] *v so'zl.* 1) qoyil qolmoq; tahsin o'qimoq; 2) qoyil qoldirmoq, g'oyat zavqlantirmoq
enthusiasm [ɪnˈθju:zɪæz(ə)m] *n* zavq-shavq, g'ayrat, ishtiyoq, tashabbus
enthusiast [ɪnˈθju:zɪæst] *n* g'ayrat (zavq-shavq) bilan ishlaydigan odam, tashabbuskor
enthusiastic [ɪnˌθju:zɪˈæstɪk] *a* zavqli, quvonchli, zavqqa to'lgan, o'zida yo'q xursand
enthusiastically [ɪnˌθju:zɪˈæstɪk(ə)lɪ] *adv* g'ayrat bilan, ishtiyoq bilan
entice [ɪnˈtaɪs] *v* qiziqtirmoq, havasini keltirmoq; **to ~ away** qiziqtirib qo'ymoq, diqqatini chetga tortmoq
enticement [ɪnˈtaɪsmənt] *n* qiziqtiradigan narsa
enticing [ɪnˈtaɪsɪŋ] *a* yo'ldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi
entire [ɪnˈtaɪə] *a* to'la, butun, tugallangan, to'liq, to'la-to'kis, mukammal
entirely [ɪnˈtaɪəlɪ] *adv* to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila
entirety [ɪnˈtaɪ(ə)rətɪ] *n* to'lalik, to'liqlik; 2) butunlik, yaxlitlik; **in its ~** to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila
entitle [ɪnˈtaɪtl] *v* 1) sarlavha qo'ymoq; 2) vakolat bermoq; **to be ~d to smth.** nimagadir haqi (huquqi) bo'lmoq
entity ['entɪtɪ] *n* 1) mavjudot, organizm (*har qanday jon egasi*); 2) tashkilot, idora, muassasa; **a political ~** siyosiy tashkilot; **a legal ~** yuridik shaxs
entomb [ɪnˈtu:m] *v* ko'mmoq, dafn etmoq
entombment [ɪnˈtu:mmənt] *n* ko'mish, dafn etish
entomological [ˌentəməˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* entomologiyaga oid, entomologik
entomologist [ˌentəˈmɒlədʒɪst] *n* entomolog (*entomologiya mutaxassisi*)
entomology [ˌentəˈmɒlədʒɪ] *n* entomologiya (*zoologiyaning hasharotlarni o'rganadigan bo'limi*)
entourage ['ɒntʊrɑ:ʒ] *n* o'rab olgan muhit, sharoit
entr'acte ['ɒntrækt] *n* antrakt, tanaffus (*teatrda, konsertda*)
entrails ['entreɪlz] *n* 1) *anat.* qorin, ichak-chovoq; 2 yer tagi, yer osti
entrain [ɪnˈtreɪn] *v* o'tqizmoq, o'tirg'izmoq (*poyezdga*)
entrance I ['entrəns] *n* 1) kirish, kirish eshigi; **no ~** kirish taqiqlanadi; chiqish; 2) kirish (*maktabga*); **~ to university** universitetga kirish; 3) boshlanish, kelish; **the ~ of the spring** bahorning kelishi
entrance II [ɪnˈtrɑ:ns] *v* g'oyat xursand bo'lish, hushdan ketish va b. holatlarga olib kelmoq (keltirmoq)
entrancing [ɪnˈtrɑ:nsɪŋ] *a* dilbar, shaydo qiluvchi
entrant ['entrənt] *n* 1) (*tashkilotga*) kiruvchi (*yangi a'zo*); 2) o'qishga kiruvchi
entrap [ɪnˈtræp] *v* 1) qopqonga tushirmoq; **to ~ elephants for use in a circus** fillarni sirk uchun ovlamoq (tuzoqqa tushirmoq); 2) aldamoq
entreat [ɪnˈtri:t] *v* 1) yalinmoq, o'tinib so'ramoq; 2) ...deb hisoblamoq; **they were ~ed as maniacs** ularni aqldan ozishgan deb hisoblashdi
entreaty [ɪnˈtri:tɪ] *n* yalinish, o'tinib so'rash
entrechat ['ɒntrəʃɑ:] *n* antrasha (*baletda oyoqlarni bir-biriga urib sakrash*)
entrecôte ['ɒntrəkɒt] *n* antrekot (*1. molning qovurg'a go'shti; 2. shunday go'shtdan tayyorlangan ovqat turi*)
entree ['ɒntreɪ] *n* 1) kirish (yoki foydalanish) huquqi, kirish (*yoki* foydalanish) uchun ijozat (ruxsat); kira (foydalana) olish; 2) *amer.* asosiy ovqat (*tushlik ovqat paytida*)
entremets ['ɒntrəmeɪ] *n fr. pl* (*asosiy ovqatlar o'rtalarida beriladigan*) qo'shimcha ovqat
entrench [ɪnˈtrentʃ] *v* 1) o'ra qazimoq; xandaqlar bilan mustahkamlamoq, xandaq qazish ishlarini amalga oshir-

moq; 2) yashirmoq, bekitmoq; 3) (*huquq va b. ni*) buzmoq

entrenched [ɪnˈtrentʃt] *a* 1) *harb.* xandaqlar bilan mustahkamlangan; 2) mahkam, pishiq, kuchli; 3) ildiz otgan; ~ **habits** singib ketgan odatlar

entrenchment [ɪnˈtrentʃmənt] *n* 1) *harb.* okop, transheya, xandaq, o'ra; 2) *so'zl. amer.* buzish; tajovuz qilish

entrepreneur [ˌɔntrəprəˈnɜ:] *n* 1) antrepreniyor (*teatr, sirk va sh. k. xo'jayini*); 2) tadbirkor; korxona egasi; **small** ~ mayda korxona egasi

entresol [ˈɔntresɔl] *n* antresol (*pastak baloxona*)

entropy [ˈentrəpɪ] *n fiz.* entropiya (*tizim holatining termodinamik ehtimolini ifodalovchi kattalik*)

entruck [ɪnˈtrʌk] *v* (*mashinaga*) o'tqizmoq, o'tg'izmoq

entrust [ɪnˈtrʌst] *v* ishonib topshirmoq, yuklamoq

entry [ˈentrɪ] *n* 1) kirish; **no** ~ kirish taqiqlanadi; 2) boshlanish; 3) qatnashuvchilar ro'yxati; 4) eshik, darvoza

entry-level [ˈentrɪˌlev(ə)l] *a* endigina boshlagan (yosh) foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan

entwine [ɪnˈtwaɪn] *v* 1) qo'shib o'rmoq, qo'shib to'qimoq (**with**); 2) o'ramoq, chulg'amoq (**about**)

enucleate [ɪˈnju:klɪeɪt] *v* aniqlamoq, oydinlashtirmoq

enumerate [ɪˈnju:məreɪt] *v* sanab (hisoblab) chiqmoq

enumeration [ɪˌnju:məˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) ro'yxat, sanoq; 2) hisoblab chiqish

enumerator [ɪˈnju:məreɪtə] *n* hisobchi, sanoqchi (*aholini ro'yxatga olish bo'yicha*)

enunciate [ɪˈnʌnsɪeɪt] *v* 1) e'lon qilmoq, ma'lum qilmoq; 2) talaffuz qilmoq; **to** ~ **correctly** to'g'ri talaffuz qilmoq

enunciation [ɪˌnʌnsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) talaffuz, talaffuz qilish; 2) diksiya (*talaffuz tarzi, talaffuzning aniq-ravshanlik darajasi*); 3) bildirish, e'lon qilish

enure [ɪˈnjoə] *v yur.* 1) kuchga kirmoq; 2) yuridik ta'siri bo'lmoq

enuresis [ˌenjuˈri:sɪs] *n tib.* siydik ushlab turolmaslik, siyib qo'yish

envelop [ɪnˈveləp] *v* 1) o'ramoq, o'rab qo'ymoq; 2) *harb.* o'ramoq, qurshamoq, o'rab (qurshab) olmoq; 3) o'ramoq, burkamoq; o'rab (burkab) qo'ymoq; o'rab (burkab) olmoq; ~**ed in flames** o't (olov) o'z ichiga qamrab olgan, alanga olgan; ~ **ed in mystery** sirli; sirlarga chulg'angan

envelope [ˈenvələop] *n* konvert; ~ **paper** konvert qog'ozi

envelopment [ɪnˈveləpmənt] *n* 1) o'rash, o'rab qo'yish; 2) *harb.* o'rab (qurshab) olish

envenom [ɪnˈvenəm] *v* 1) zaharlamoq, zahar berib o'ldirmoq; 2) buzmoq, xira qilmoq, zaharlamoq; **to** ~ **smb.'s life** hayotini buzmoq

envenomed [ɪnˈvenəmd] *a* yomon, yovuz

enviable [ˈenvɪəb(ə)l] *a* havas keltiradigan, havas qilgudek; ~ **position** havas qiladigan holat

envious [ˈenvɪəs] *a* hasadli, ichi qora; ~ **looks** hasad bilan qarash

environ [ɪnˈvaɪ(ə)rən] *v* tevaragida joylashgan bo'lmoq

environment [ɪnˈvaɪ(ə)rənmənt] *n* atrof-muhit; **one's home** ~ oilaviy muhit

environmental [ɪnˌvaɪ(ə)rən mentl] *a kit.* atrof-muhitga oid; atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashga oid; **an** ~ **research** atrof-muhitni o'rganish

environmentalist [ɪnˌvaɪ(ə)rənˈment(ə)lɪst] *n* 1) atrof-muhitni muhofaza qilish; 2) atrof-muhit masalalari bo'yicha mutaxassis

environs [ɪnˈvaɪ(ə)rənz] *n pl* atrof, tevarak; **London and it's** ~ London va uning atrofi

envisage [ɪnˈvɪzɪdʒ] *n* 1) masalani ko'rmoq, muhokama qilmoq; 2) oldindan ko'rmoq, bilmoq; 3) tasavvur qilmoq

envision [ɪnˈvɪʒ(ə)n] *v kit.* tasavvur qilmoq, (*nimanidir*) ko'z oldiga (xayolga) keltirmoq

envoy I [ˈenvɔɪ] *n* 1) elchi, agent, vakil; 2) diplomatik vakil

envoy II [ˈenvɔɪ] *n* dostonning so'nggi bandi

envy [ˈenvɪ] 1. *n* hasad, rashk; **out of** ~ hasad (rashk) qilganidan; 2. *v* hasad qilmoq, rashk qilmoq

enwrap [ɪnˈræp] *v* o'ramoq, burkamoq

enzyme [ˈenzaɪm] *n* enzim, ferment (*tirik hujayrada ishlab chiqariladigan va organizmda modda almashinuvini tartibga solib turadigan organik modda*)

Eocene [ˈi:əosi:n] *n geol.* eotsen (*paleogen davrining o'rta bo'limi*)

eolation [ˌi:əoˈleɪʃ(ə)n] *n geol.* nurash, yemirilish

eon [ˈi:ən] = **aeon**

eparch [ˈepɑ:k] *n* yeparxiyaning boshlig'i

eparchy [ˈepɑ:kɪ] *n* yeparxiya (*arxiyerey qo'l ostidagi cherkov okrugi*)

epaulet(te) [ˌepəˈlet] *n* epolet (*hashamatli zar pogonlar*)

epee [ˈepeɪ] *n sport.* shpaga (*qilichsimon nayza*)

epenthetic [ˌepenˈθetɪk] *a tilsh.* epenteza (*tovushning ortishi*)ga oid; epentetik, orttirilgan (*tovush yoki harf haqida*)

ephedrin(e) [ˈefɪdrɪn, ɪˈfedrɪn] *n farm.* efedrin (*efedradan olinadigan dori*)

ephemera [ɪˈfemərə] *n* (*pl shun.* **-ridae** [-rɪdi:]) 1) *zool.* bir kun yashaydigan jonivor; 2) *pl* tez o'tib ketadigan qandaydir narsa

ephemeral [ɪˈfem(ə)rəl] *a* vaqtinchalik, bevafo, omonat

ephemeridae [ɪˈfem(ə)rɪdi:] *pl of* **ephemera**

epic [ˈepɪk] 1. *a* epik; 2. *n* epik doston

epical [ˈepɪk(ə)l] = **epic 1**

epicene [ˈepɪsi:n] *a* 1) *gram.* umumiy roddagi, umumiy rodga oid, umumiy rod ...; 2) ikki jinsli; 3) xotinchalish, xotinnamo; 4) erkak *yoki* urg'ochilik alomati yo'q, jinssiz

epicentre [ˈepɪˌsentə] *n* epitsentr (*zilzila markazi ustidagi yerlar*)

epicure [ˈepɪkjuə] *n* epikureyets, epikureizm tarafdori

epicurean [ˌepɪkjuəˈri:ən] *a* epikureistik, aysh-ishrat qilishga chaqiradigan

Epicureanism [ˌepɪkjoˈri:ənɪz(ə)m] *n* 1) Epikur ta'limoti; 2) ishratparastlik, aysh-ishratga berilish

epicurism [ˈepɪkjuərɪz(ə)m] = **Epicureanism**

epicycle [ˌepɪsaɪklɪk] *n astr.* epitsikl (*ptolemeyning geotsentrik sistemasidagi yordamchi aylana*)

epicycloid [ˌepɪˈsaɪklɔɪd] *n mat.* epitsikloida (*tekislikda radiusi R ga teng bo'lgan qo'zg'almas aylana bo'ylab, sirpanmay harakatlanuvchi R radiusli aylana nuqtasi (M) chizgan trayektoriya*)

epidemic [ˌepɪˈdemɪk] 1. *n* epidemiya (*yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi*); **an** ~ **disease** epidemik kasallik; 2. *a* epidemiyaga oid; keng tarqaladigan, epidemik

epidemical [ˌepɪˈdemɪk(ə)l] = **epidemic 2**

epidemiology [ˌepɪˌdi:mɪˈɒlədʒɪ] *n* epidemiologiya (*yuqumli kasalliklar haqidagi fan*)

epidermal [ˌepɪˈdɜ:m(ə)l] *a anat.* epidermik

epidermic [ˌepɪˈdɜ:mɪk] = **epidermal**

epidermis [ˌepɪˈdɜ:mɪs] *n biol.* epidermis (*umurtqali hayvonlar va odam terisining tashqi qavati*)

epidiascope [ˌepɪˈdaɪəskəop] *n* epidiaskop (*ekranga tasvir tushiradigan optik asbob*)

epigastric [ˌepɪˈgæstrɪk] *a* me'da (*jig'ildon qaynashi, zarda*)

epigastrium [ˌepɪˈgæstrɪəm] *n anat.* qorinning ustki qismi atrofidagi joy

epiglottis [ˌepɪˈglɒtɪs] *n* kichik til, tilcha
epigone [ˈepɪgəʊn] *n* epigon, taqlidgo'y (*biror oqimga ergashuvchi va ijoddan uzoq odam*)
epigoni [eˈpɪgənaɪ] *pl of* **epigone**
epigram [ˈepɪgræm] *n* epigramma (*kichik hajviy she'r*)
epigrammatist [ˌepɪˈgræmətɪst] *n* epigrafning mualliflı
epigraph [ˈepɪgrɑːf] *n* epigraf (*adabiy asarning tepasiga yozilgan biror jumla, ibora*)
epigraphy [eˈpɪgrəfɪ] *n* epigrafika (*qadimgi yozuvlarni o'rganadigan fan*)
epilate [ˈepɪleɪt] *v tib.* sochlarini oldirib tashlamoq
epilation [ˌepɪˈleɪʃ(ə)n] *n* sochni oldirib tashlash
epilepsy [ˈepɪlepsɪ] *n tib.* epilepsiya, tutqanoq (*kasallik*)
epileptic [ˌepɪˈleptɪk] **1.** *a tib.* tutqanoq kasalligi; **2.** *n tib.* tutqanoq kasaliga duchor bo'lgan odam
epilogue [ˈepɪlɒg] *n* epilog, xotima (*badiiy asarning oxirgi tugallanuvchi qismi*)
Epiphany [ɪˈpɪfənɪ] *n* 1) *cherk.* but yuvish bayrami; 2) (**e.**) ko'zi ochilish, ko'ra boshlash, ko'radigan bo'lib qolish
epiphyte [ˈepɪfaɪt] *n* 1) *bot.* epifit (*boshqa o'simlik tanasida o'sadigan, lekin parazit bo'lmagan o'simlik*); 2) *tib.* zamburug'lar tufayli yuzaga keladigan parazit (kasallik)
episcopacy [ɪˈpɪskəpəsɪ] *n* 1) cherkov boshqaruvidagi yepiskopik tuzum; 2) (**the ~**) yepiskoplar
episcopal [ɪˈpɪskəp(ə)l] *a* yepiskop (*xristianlarda: ruhoniylarning oliy unvoni va shu unvondagi ruhoniy; arxiyerey*)ga oid; yepiskopli…
episcopalian [ɪˌpɪskəˈpeɪlɪən] **1.** *n* yepiskop cherkovining a'zosi *yoki* tarafdori; **2.** *a* yepiskopga oid, yepiskop…
episcopate [ɪˌpɪskəpət] *n cherk.* 1) yepiskopning mansabi (unvoni, darajasi); 2) (**the ~**) yepiskoplar; 3) yeparxiya (*arxiyerey qo'l ostidagi cherkov okrugi*)
episode [ˈepɪsəʊd] *n* voqea, hodisa, epizod
episodic(al) [ˌepɪˈsɒdɪk(əl)] *a* har zamonda bir bo'ladigan, onda-sonda bir yuz beradigan
epistemology [ɪˌepɪstɪ(ː)ˈmɒlədʒɪ] *n fals.* epistemologiya, bilish nazariyasi
epistle [ɪˈpɪs(ə)l] *n* maktub, xat; epistola (*maktub, xat, noma shaklidagi adabiy asar*)
epistolary [ɪˈpɪstələrɪ] *a* epistolar, maktub (xat) shaklidagi
epistyle [ˈepɪstaɪl] *n* 1) *me'mor.* arxitrav, asosiy balka, sarrov; 2) xari (*qurilishda*)
epitaph [ˈepɪtɑːf] *n* epitafiya (*qabr toshiga bitilgan yozuv*)
epithelia [ˌepɪˈθiːlɪə] *pl of* **epithelium**
epithelial [ˌepɪˈθiːlɪəl] *a* epiteliyga oid, epitelial
epithelium [ˌepɪˈθiːlɪəm] *n* (*pl* **-lia** [-lɪə]) *biol.* epiteliy (*to'qimasi*), epitelial to'qima (*odam, hayvon va o'simlik a'zolarini sirtdan qoplab turuvchi to'qima*)
epithet [ˈepɪθet] *n* 1) epitet, sifatlash, vasf; 2) termin; atama, nom
epitome [ɪˈpɪtəmɪ] *n* 1) konspekt, qisqa bayon; 2) rezume; 3) yakun, natija
epitomize [ɪˈpɪtəmaɪz] *v* konspekt yozmoq, mazmunini qisqacha yozib olmoq
epizootic [ˌepɪzə(ʊ)ˈɒtɪk] **1.** *a* keng tarqaladigan (*hayvonlarda epidemiya tusini oladigan*); **2.** *n* epizootiya (*hayvonlarda yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi*)
epoch [ˈiːpɒk] *n* 1) davr; vaqt, asr; 2) burilish nuqtasi, keskin o'zgarish
epochal [ˈepɒk(ə)l] *a* davrga (epoxaga) oid, davrni tashkil etadigan
epoch-making [ˈiːpɒkˌmeɪkɪŋ] *a* davrga oid, davr tashkil etadigan; yangi davrni boshlab beradigan; **an ~ discovery** dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan (olamshumul) kashfiyot
eponym [ˈepə(ʊ)nɪm] *n* eponim, nimagadir o'zining nomini bergan kishi
eponymous [ɪˈpɒnɪməs] *a* nimagadir o'zining nomini beradigan
epopee [ˈepə(ʊ)piː] *n* epopeya (*katta epik asar*)
epos [ˈepɒs] *n* doston, epos
Epsom [ˈepsəm] *n* Epsom (*ot poygasi o'tkaziladigan joy va ot poygasining o'zi*)
Epsom salts [ˌepsəmˈsɔːlts] *n pl* ich suradigan tuz (*ingliz tuzi*)
equability [ˌekwəˈbɪlɪtɪ] *n* bir tekisdalik, bir maromdalik, bab-baravarlik
equable [ˈekwəb(ə)l] *a* bab-baravar, bir xil; **~ climate** bir xil iqlim
equal [ˈiːkwəl] **1.** *v* 1) teng bo'lmoq; 2) tenglashmoq; **2.** *a* teng, bir xil; **3.** *n* tenglik
equality [ɪˈkwɒlɪtɪ] *n* tenglik, teng huquqlilik; **the ~ of men** odamlarning tengligi
equalization [ˌiːkwəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* normalarni baravarlashtirish, baravar qilish
equalize [ˈiːkwəlaɪz] *v* tenglamoq; tenglashmoq, tenglashtirmoq
equalizer [ˈiːkwəlaɪzə] *n* 1) langarcho'p; 2) *amer.* to'pponcha
equally [ˈiːkwəlɪ] *adv* teng, bir xil
equanimity [ˌiːkwəˈnɪmɪtɪ] *n* sovuqqonlik, vazminlik, sabrlilik
equate [ɪˈkweɪt] *v* bir xil baholamoq, baravarlashtirmoq, tenglashtirmoq
equation [ɪˈkweɪʒ(ə)n] *n* 1) baravarlashtirish; tenglashtirish; 2) *mat.* tenglama
equator [ɪˈkweɪtə] *n* ekvator (*Yer sharining ikki qutbi o'rtasidan o'tadigan va Yerni Shimoliy ham Janubiy yarim sharlarga ajratadigan faraziy aylanma*); **a celestial ~** osmon ekvatori
equatorial [ˌekwəˈtɔːrɪəl] *a* ekvatorga (issiq iqlimga) oid, ekvator yaqinidagi
equerry [ɪˈkwerɪ, ˈekwərɪ] *n tar.* bosh otboqar
equestrian [ɪˈkwestrɪən] **1.** *n* ot mingan kishi, otliq; **2.** *a* otga oid, ot …, otda o'tkaziladigan, otli; **an ~ sport** ot sporti; **an ~ statue** ot haykali
equestrienne [ɪˌkwestrɪˈen] *n* otliq ayol
equiangular [ˌiːkwɪˈæŋgjələ] *a geom.* teng burchakli, burchaklari teng
equidistant [ˌiːkwɪ dɪst(ə)nt] *a geom.* teng masofada joylashgan
equilateral [ˌiːkwɪˈlæt(ə)rəl] *a* teng tomonli, tomonlari teng bo'lgan
equilibrate [ˌiːkwɪˈlaɪbreɪt] *v* (*vaznni*) baravarlashtirmoq
equilibration [ˌiːkwɪlaɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* muvozanat, baravar kelish
equilibria [ˌiːkwɪˈlɪbrɪə] *pl of* **equilibrium**
equilibrist [ɪˈkwɪlɪbrɪst] *n* 1) dorboz; 2) ekvilibrist (*dor, shar va sh. k. da o'yin ko'rsatadigan sirk artisti*)
equilibrium [ˌiːkwɪˈlɪbrɪəm] *n* muvozanat, baravar kelish
equine [ˈekwaɪn] *a* otga oid, ot
equinoctial [ˌiːkwɪˈnɒkʃ(ə)l] **1.** *a* tengkunlikka oid, tengkunlikda bo'ladigan; **2.** *n* tengkunlik xati (chizig'i); osmon ekvatori
equinox [ˈiːkwɪnɒks] *n* tengkunlik, tun va kun baravarlashadigan payt
equip [ɪˈkwɪp] *v* 1) ta'minlamoq, uskunalamoq; jihozlamoq; 2) kerakli narsalarni bermoq
equipage [ˈekwɪpɪdʒ] *n* fayton, yengil arava; **dressing ~** maxsus qituchaga solingan tikuv-bichuv uchun kerak bo'lgan bir sidra narsa
equipment [ɪˈkwɪpmənt] *n* 1) jihozlash, uskunalash; 2) jihoz, qurol, aslaha
equipoise [ˈekwɪpɔɪz] **1.** *n* muvozanat, baravar kelish; **2.** *v* (*og'irlikni*) tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq, baravar (teng) qilmoq
equipollent [ˌiːkwɪˈpɒlənt] *a kit.* 1) teng kuchli, teng kuchga ega bo'lgan; 2) teng (bir xil) qiymatga ega bo'lgan, bahosi

(qiymati) bir xil bo'lgan; bir xil ahamiyatga ega bo'lgan

equiponderant [ˌi:kwɪ´pɒnd(ə)rənt] *a* og'irligi bir xil bo'lgan, bir xil (teng) og'irlikdagi

equiponderate [ˌi:kwɪ´pɒndəreɪt] *v* (*og'irlikni*) tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq, baravar (teng) qilmoq

equitable [´ekwɪtəb(ə)l] *a* adolatli, odil, haqqoniy, betaraf, beg'araz, xolis; **an ~ treaty** teng huquqli shartnoma

equitation [ˌekwɪ´teɪʃ(ə)n] *n* 1) ot minish, otda yurish, ot minib yurish; 2) ot minish san'ati

equity [´ekwɪtɪ] *n* adolatlilik, haqqoniylik, xolislik, betaraflik, beg'arazlik

equivalence [ɪ´kwɪv(ə)ləns] *n* ekvivalentlik, biror jihatdan tenglik, teng ma'nolilik

equivalency [ɪ´kwɪv(ə)lənsɪ] = **equivalence**

equivalent [ɪ´kwɪv(ə)lənt] **1.** *n* ekvivalent (*bir narsaga har jihatdan teng bo'lgan, u bilan almashina oladigan narsa*); **2.** *a* teng qiymatli, teng baholi

equivocal [ɪ´kwɪvək(ə)l] *a* 1) ikki ma'noli, ikki ma'noda tushunilishi mumkin bo'lgan; 2) shubha tug'diradigan, shubhali

equivocate [ɪ´kwɪvəkeɪt] *v* ikki ma'noli qilib gapirmoq; gapni chalg'itmoq, gapni burmoq, gapni aylantirib javob berishdan qutulib qolmoq

equivocation [ɪˌkwɪvə´keɪʃ(ə)n] *n* noaniq qilib javob berish, gapni aylantirib javob berishdan qutulib qolish

equivoke [´ekwɪvəʊk] *n* ikki ma'nolilik; ikki ma'noli gap

equivoque [´ekwɪvəʊk] = **equivoke**

era [´ɪ(ə)rə] *n* davr, vaqt, era, epoxa, zamon

eradiate [ɪ´reɪdɪeɪt] *v* nur sochmoq, nurlanmoq

eradiation [ɪˌreɪdɪ´eɪʃ(ə)n] *n* nur sochish, nurlanish

eradicate [ɪ´rædɪkeɪt] *v* 1) ildizi bilan yulib tashlamoq; 2) yo'q qilmoq, barham bermoq, qirib bitirmoq

eradication [ɪˌrædɪ´keɪʃ(ə)n] *n* batamom yo'qotish, ildizi bilan yo'q qilish

erase [ɪ´reɪz] *v* o'chirmoq, artmoq

eraser [ɪ´reɪzə] *n* 1) o'chirg'ich; 2) doskani o'chiradigan latta

erasure [ɪ´reɪʒə] *n* 1) tozalash, tozalab qo'yish; 2) umumiy yo'q qilish

erbium [´ɜ:bɪəm] *n kim.* erbiy (*metall. kimyoviy element*)

ere [eə] *shoir. esk.* **1.** *prep.* -gacha, -ga qadar, -ga dovur; **~ long** tez orada, tez kunda; **2.** *cj* (*biror ish qilishdan*) oldin

Erebus [´erɪbəs] *n grek. mif.* 1) Ereb, narigi dunyo; 2) o'lganlar saltanati

erect [ɪ´rekt] **1.** *a* to'g'ri, to'ppa-to'g'ri, tikka, vertikal; **to stand ~** to'g'ri turmoq; **2.** *adv* to'g'ri, tik; tikka, tikkasiga, tik holatda, egilmagan holda; burilmay, tik yo'nalishda; **3.** *v* 1) qurmoq, solmoq, barpo qilmoq, o'rnatmoq; 2) to'g'rilamoq, rostlamoq; 3) *tex.* yig'moq, montaj qilmoq

erectile [ɪ´rektaɪl] *a* 1) to'g'rilasa (qaddini rostlasa) bo'ladigan; 2) *fiziol.* tarang bo'ladigan, tortiladigan; **~ tissue** g'alvirak (teshik-teshik) to'qima

erection [ɪ´rek](ə)n] *n* 1) qurish; bino qilish; 2) inshoot; bino; 3) to'g'rilanish, rostlanish, tikka bo'lish

erector [ɪ´rektə] *n* binokor, quruvchi

erelong [ˌeə´lɒŋ] *adv shoir.* tezda, ko'p o'tmay

eremite [´erɪmaɪt] *n* zohid, qalandar

eremitic(al) [ˌerɪ´mɪtɪk(əl)] *a* zohidlarga, tarki dunyochilarga oid, qalandar(lar)

erenow [ˌeə´naʊ] *adv shoir.* oldin, ilgari, avval

erethism [´erɪθɪz(ə)m] *n tib.* eretizm (*to'qima yoki a'zoning qattiq qo'zg'ashi*)

erf [ɜ:f] *n* (*pl* **erven**) *jan. afr.* tomorqa, tomorqadagi yer

erg [ɜ:g] *n fiz.* erg (*ish yoki energiya o'lchov birligi*)

ergo [´ɜ:gəʊ] *adv lot.* demak, shunday ekan, shunday qilib

ergon [´ɜ:gɒn] = **erg**

ergonomics [ˌɜ:gə´nɒmɪks] *n* ergonomika, ergonomiya; ish jarayonlarini yoki mehnat sharoitlarini o'rganish

ergot [´ɜ:gət] *n bot.* qorakuya, qorakosov (*g'alla o'simliklari boshida hosil bo'ladigan zaharli qora zamburug'lar*)

ergotism [´ɜ:gətɪz(ə)m] *n tib.* qorakuya, qorakosovdan zaharlanish

erica [´erɪkə] *n bot.* archagulga oid, archagul

Erin [´erɪn] *n esk. shoir.* Irlandiya

eristic [e´rɪstɪk] *kit.* **1.** *a* munozarali, bahsli, munozaratalab, bahstalab, tortishuvli; munozara tarzidagi; **2.** *n* 1) eristika, munozara (bahslashuv, tortishuv) san'ati; munozara, bahs; masala talashish; 2) munozarachi, bahschi, bahsni (bahslashishni, talashishni) yaxshi ko'radigan odam, bahschi; janjalkash

erk [ɜ:k] *n harb. jarg.* 1) oddiy askar; 2) befahm (anqov, laqma) odam, ahmoq odam

ermine [´ɜ:mɪn] *n* oq sichqon (oq suvsar) va uning terisi, mo'ynasi

ern [ɜ:n] *amer.* = **erne**

erne [ɜ:n] *n zool.* oq dumli suvburgut

erode [ɪ´rəʊd] *v* 1) (*asta-sekin*) o'ymoq, yeb qo'ymoq, zarar (putur) yetkazmoq, yemirmoq; 2) *geol.* yuvib (o'pirib) ketmoq, nuratmoq, yemirmoq

erogenous [ɪ´rɒdʒənəs] *a* erotizmga va erotika (*shahvatparastlik va shahvoniy hirs*)ga oid, erotik, shahvoniy, shahvatparast...

Eros [´ɪ(ə)rɒs, ´erɒs] *n grek. afs.* Eros, Erot, sevgi xudosi

erosion [ɪ´rəʊʒ(ə)n] *n geol.* yemirilish, eroziya (*yer qobig'ining turli ta'sirlar ostida parchalanishi, yemirilishi*)

erosive [ɪ´rəʊsɪv] *a* nurashga oid; nurash (eroziya) natijasida ro'y bergan

erotic [ɪ´rɒtɪk] *a* 1) ishq-muhabbatga oid, ishqiy, oshiqona; 2) shahvoniy

erotica [ɪ´rɒtɪkə] *n* 1) erotik (ishqiy) poeziya; 2) erotika, shahvatparastlik, shahvoniy hirs

eroticism [´erɒtɪsɪz(ə)m] *n* erotizm, shahvatparastlik (shahvoniy hirsga berilish)

erotism [´erətɪz(ə)m] = **eroticism**

err [ɜ:] *v* adashmoq; xato qilmoq, yanglishmoq

errancy [´erənsɪ] *n* adashish, chalg'ish, yanglishish

errand [´erənd] **1.** *n* 1) topshiriq; **to go on an ~** topshiriqqa borish; 2) og'zaki xabar; **2.** *v* topshirmoq

errand-boy [´erəndbɔɪ] *n* xat-hujjat tashuvchi; chopar; xabarchi

errant [´erənt] *a* 1) kezib yuradigan, sayyor; 2) adashadigan, yanglishadigan

errantry [´erəntrɪ] *n kit. esk.* olamni kezib (yurtma-yurt) sayr qilib yuruvchi ritsarning sarguzashtlari

errata [e´rɑ:tə] *n* 1) *pl of* **erratum**; 2) matbaa xatolari ro'yxati

erratic [ɪ´rætɪk] *a* 1) o'zgaruvchan, o'zgarib (aynib) turadigan; **~ temperature** o'zgaruvchan harorat; 2) tartibsiz, g'alati; **~ life** betartib hayot

erratum [e´rɑ:təm] *n* (*pl* **-ta** [-tə]) *lot. poligr.* terishda, bosishda yo'l qo'yilgan xato

erring [´ɜ:rɪŋ] *a* gunohkor, gunohli

erroneous [ɪ´rəʊnɪəs] *a* yolg'on, noto'g'ri; **~ policies** noto'g'ri siyosat

error [´erə] *n* 1) xato, adashish; **to make an ~** xato qilmoq; **in ~** bilmasdan, yanglishib, adashib; **to be in ~** yanglishmoq, xato o'ylamoq, xato (noto'g'ri) fikrda bo'lmoq; 2) kamchilik, xato, nuqson; 3) ayb, gunoh

ersatz [´eəzæts] *n nem.* 1) sun'iy (yasama) narsa; 2) biror narsa o'rnida ishlatiladigan sun'iy mahsulot

Erse [ɜ:s] *n* 1) Irlandiyaning gels tili; 2) Shotlandiyaning gels tili

erst [ɜ:st] *adv* avval, oldin, ilgari, burun

erstwhile [´ɜ:stwaɪl] *esk.* **1.** *a* ilgarigi, avvalgi, oldingi; **2.** *adv* avval, oldin, ilgari, burun, bir vaqtlar, bir zamonlar.

qachonlardir, bir zamonda; bir vaqtlar (bir zamonlar) ... bo'lib turardi

erubescent [ˌeruˊbes(ə)nt] *a kit.* 1) qizaradigan, qizarib turadigan (turgan); 2) *amer.* qizg'ish, qizilga moyil, qizilroq

eruct [ɪˊrʌkt] *v* kekirmoq, o'qchimoq; (o'qchib) qaytarib chiqarmoq, qayt qilib tashlamoq

eructate [ɪˊrʌkteɪt] *v* kekirmoq, o'qchimoq, qayt qilib tashlamoq

eructation [ˌiːrʌkˊteɪʃ(ə)n] *n* (*vulqon haqida*) otilish

erudite [ˊerədaɪt] **1.** *n* eruditsiyali odam, bilimdon kishi; **2.** *a* 1) keng va chuqur ma'lumotli, bilimdon; aql-zakovatli; ko'p o'qigan, o'qimishli; alloma; 2) ilmiy, ilmga (ilm-fanga) asoslangan

erudition [ˌeruˊdɪʃ(ə)n] *n* bilimdonlik, aql-zakovat, olimlik, o'qimishlilik

erupt [ɪˊrʌpt] *v* 1) (*vulqon, lava haqida*) otilib chiqmoq; 2) chiqmoq (*tish to'g'risida*)

eruption [ɪˊrʌpʃ(ə)n] *n* otilib chiqish (*vulqon, lava to'g'risida*)

eruptive [ɪˊrʌptɪv] *a* otilib chiqqan, otilgan

erven [ˊɜːv(ə)n] *pl of* **erf**

erysipelas [ˌerɪˊsɪp(ə)ləs] *n tib.* saramas (*yuqumli teri kasalligi*)

erythema [ˌerɪˊθiːmə] *n tib.* eritema, terining qizarishi

erythrocyte [ɪˊrɪθrəsaɪt] *n fiziol.* eritrotsit (*qizil qon tanachasi*)

escadrille [ˌeskəˊdrɪl] *n harb.* eskadrilya (*harbiy-havo flotining bo'linmasi*)

escalade [ˌeskəˊleɪd] *n harb. tar.* (*narvonlar yordamida*) devorlardan oshib o'tish uchun qilingan qattiq hujum, eskalada

escalate [ˊeskəleɪt] *v* 1) (*nizo va b.ni*) kengaytirmoq, kuchaytirmoq, ko'tarmoq; **to ~ confrontation** adovatni chuqurlashtirmoq (keskinlashtirmoq, kuchaytirmoq); 2) keskinlashmoq, og'irlashmoq, kuchaymoq, zo'raymoq, keskin tus olmoq (*nizo va b. haqida*); **to ~ down** yumshatmoq, yengillashtirmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, kuchini qirqmoq

escalating [ˌeskəleɪtɪŋ] *a* o'sadigan, ko'payadigan, kattalashadigan, o'sayotgan, ko'payayotgan, kattalashayotgan; **~ costs** o'sib borayotgan xarajatlar

escalation [ˌeskəˊleɪʃ(ə)n] *n* eskalatsiya (*o'sish, kengayish, ko'payish*)

escalator [ˊeskəleɪtə] *n* eskalator (*o'zi yurar zina*)

escallop [eˊskɒləp, eˊskæləp] *n* 1) *zool.* toj; 2) dandana, kungura (*naqsh va sh. k. da*)

escapade [ˊeskəpeɪd] *n* nojo'ya harakat, ahmoqona qiliq

escape [ɪˊskeɪp] **1.** *n* 1) qochish, qutulish; 2) hayotdan uzoqlashib ketish; o'zi bilan o'zi (ovora) bo'lib qolish; **2.** *v* qochib ketmoq, qutulmoq

escapee [ˌeskeɪˊpiː, ɪˌskeɪˊpiː] *n* qochoq; qochqin

escapement [ɪˊskeɪpmənt] *n* qochish, qochib ketish

escapism [ɪˊskeɪpɪz(ə)m] *n adab.* eskapizm, haqiqatdan (haqiqiy holdan) qochishga intilish

escapist [ɪˊskeɪpɪst] **1.** *n* 1) haqiqatdan qochishga harakat qiladigan kishi; 2) *adab.* haqiqatdan uzoqda bo'lgan narsalarni yozadigan yozuvchi; **2.** *a adab.* haqiqatga to'g'ri kelmaydigan

escarp [ɪˊskɑːp] **1.** *n* qiyalik, yonbag'ir; **2.** *v* (*tanklarga qarshi*) eskarp qurmoq

escarpment [ɪˊskɑːpmənt] *n harb.* eskarp (*dushman tanklariga qarshi jarsimon to'siq*)

eschar [ˊeskɑː] *n tib.* (*kuygandan keyingi*) qasmoq, qo'tir, qoraqo'tir

eschatology [ˌeskəˊtɒlədʒɪ] *n fals.* esxatologiya (*dunyo va insonning so'nggi qismati haqidagi diniy ta'limot*)

escheat [ɪˊstʃiːt] *yur.* **1.** *n* 1) egasiz qolgan mulkning davlat mulkiga aylanishi; 2) egasiz (baytalmon, sabil) qolgan mulk, baytulmol; **2.** *v* 1) egasiz qolgan mulkni musodara qilmoq; 2) davlat mulkiga aylanmoq (*mulk haqida*)

eschew [ɪsˊtʃuː] *v* qochmoq, o'zini chetga olmoq

escort 1. *n* [ˊeskɔːt] 1) konvoy (*qo'riqlab, kuzatib boruvchi soqchilar to'dasi*); 2) qo'riqchi; **2.** *v* [ɪsˊkɔːt] soqchilik qilib qo'riqlab bormoq, kuzatib bormoq

escribe [əˊskraɪb] *v* tasvirlamoq, ta'riflamoq

escritoire [ˌeskrɪˊtwɑː] *n* yozuv stoli, sekreter (*yozuv stolining bir turi*)

escudo [eˊskuːdəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) eskudo (*Portugaliya va boshqa mamlakatlarning pul birligi*)

esculent [ˊeskjʊlənt] *a* yeyiladigan, yesa bo'ladigan

escutcheon [ɪˊskʌtʃ(ə)n] *n* 1) gerb osib qo'yish uchun qilingan taxta (yoki maxsus joy); 2) *me'mor.* ornamental shit (*binokorlikda: devor, tom kabilarning alohida tayyorlangan yirik qismi*)

Eskimo [ˊeskɪməʊ] **1.** *n* eskimos (*AQSH Alyaskasida, shimoliy Kanadada va Grenlandiya orolida yashaydigan xalq*); **2.** *a* eskimoslarga oid; eskimos...

esophagus [ɪˊsɒfəgəs] *n anat.* qizilo'ngach (*og'iz bo'shlig'i bilan oshqozonni tutashtiruvchi naysimon ovqat yo'li*)

esoteric [ˌesəˊterɪk] *a* yashirin, maxfiy, sir tutiladigan, birov bilmaydigan

espalier [ɪˊspælɪə] *n bog'.* ishkom, so'ri, panjara (*o'simlik uchun*)

especial [ɪˊspeʃ(ə)l] *a* maxsus, alohida; **of ~ importance** o'ta muhim

especially [ɪˊspeʃ(ə)lɪ] *adv* ayniqsa, xususan, birinchi navbatda

Esperanto [ˌespəˊræntə] *n* esperanto (*xalqaro sun'iy til*)

espial [ɪˊspaɪəl] *n* maxfiy ravishda kuzatish; izidan borish, iziga tushish

espionage [ˊespɪənɑːʒ] *n* josuslik

esplanade [ˊesplənəɪd] *n* esplanada (*1. xiyobonli keng ko'cha; 2. qal'a bilan shahar o'rtasidagi yalanglik; 3. katta bino oldidagi maydon*); sayr qilish va kezish uchun maydon *yoki* yo'l

espousal [ɪˊspaʊz(ə)l] *n* 1) (*qandaydir ishda*) qatnashish; (*qandaydir ishni*) qo'llab-quvvatlash; 2) *esk.* to'y, nikoh to'yi; unashtirish, unashtirib qo'yish

espouse [ɪˊspaʊz] *v* 1) uylanmoq; xotin olmoq; turmush qurmoq; 2) erga tegmoq, turmushga chiqmoq; 3) erga bermoq

espresso [eˊspresəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) „ekspress" qahvaxonasi (*shun., ~ bar*); 2) „ekspress" qahva qaynatadigan asbobi; 3) „ekspress" qahvasi

esprit [eˊspriː] *n fr.* 1) gapga ustalik, piching; 2) donolik, zukkolik

espy [ɪˊspaɪ] *v* 1) uzoqdan ko'rmoq, ko'rib qolmoq; 2) (*kamchilik va sh. k. ni*) topmoq, bilib qolmoq

Esquimau [ˊeskɪməʊ] (*pl* **-aux** [-əʊz]) = **Eskimo**

esquire [ɪˊskwaɪə] *n* 1) **Esq.** janob (*silliq muomala sifatida: xatda konvertning ustiga qabul qiluvchining ismidan keyin ishlatiladi*); **Jack London, Esq.** janob Jek Londonga; 2) unvonsiz dvoryan, zodagon

essay 1. *n* [ˊeseɪ] 1) ocherk (*kichik adabiy asar*); 2) insho; 3) sinash, urinish; **2.** *v* [eˊseɪ] urinmoq, sinab ko'rmoq

essayist [ˊeseɪɪst] *n* ocherkchi, ocherk yozuvchi adib

essence [ˊes(ə)ns] *n* mohiyat, mag'iz, ma'no; **the ~ of the proposal** taklif mohiyati; **in ~** aslini (haqiqatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi; **of the ~** jiddiy ravishda, jiddiy

essential [ɪˊsenʃ(ə)l] **1.** *a* muhim, ahamiyatli; jiddiy; **it is ~** zarur; **water is ~ to life** suvsiz hayot yo'q; suv hayot uchun muhim; **~ service** muhim xizmat; **2.** *n pl* 1) eng zarur narsalar; 2) mohiyat, tub (asosiy) ma'no, mazmun, mag'iz;

3) ajralmas qism; **the ~s of education** tarbiyaning asosi (negizi)

essentiality [ɪˌsenʃɪˈælətɪ] *n* mohiyat, mazmun

essentially [ɪˈsenʃlɪ] *adv* 1) aslini (haqiqatni) olganda; 2) jiddiy ravishda, jiddiy, muhim

establish [ɪˈstæblɪʃ] *v* 1) qurmoq, tiklamoq; yaratmoq; **to ~ a newspaper** gazeta tashkil qilmoq; 2) (*aloqani*) yo'lga qo'ymoq; **to ~ relations** aloqa o'rnatmoq, munosabat qaror toptirmoq; 3) mustahkamlamoq; **to ~ one's health** sog'liqni mustahkamlamoq; 4) isbotlamoq

established [ɪˈstæblɪʃt] *a* 1) ta'sis etilgan; o'rnatilgan; 2) tanilgan, atoqli; ~ **authority** tanilgan nufuzli odam

establishment [ɪˈstæblɪʃmənt] *n* 1) barpo qilish, o'rnatish; **the ~ of a new state** yangi davlat barpo etish; 2) muassasa, idora; 3) jamiyatdagi holat; 4) qonun

estate [ɪˈsteɪt] *n* 1) mol, mol-mulk; **personal ~** ko'chirib bo'ladigan mol-mulk (mol-dunyo); **real ~** ko'chmas mulk (*yer-suv, imorat va sh. k.*); 2) jamiyatda tutgan o'rin; tabaqa; 3) holat; 4) joy, maydon, uchastka

estate car [ɪˈsteɪtkɑ:] *n* „**universal**" kuzovli yengil avtomobil

esteem [ɪˈsti:m] *n* 1) hurmat, izzat, ehtirom; **to hold in ~** hurmat qilmoq; 2) fikr, baho

ester [ˈestə] *n kim.* murakkab (tarkibli, qo'shma) efir

esthetic [i:sˈθetɪk] *a* 1) estetikaga oid; 2) go'zallikni sezish, undan zavqlanish bilan bog'liq bo'lgan; 3) estetik, badiiy

estimable [ˈestɪməb(ə)l] *a* 1) baholasa bo'ladigan; 2) hurmatga sazovor, hurmatli

estimate **1.** *n* [ˈestɪmɪt] baho; baholash, narx qo'yish; **2.** *v* [ˈestɪmeɪt] 1) baholamoq; baho qo'ymoq, narx qo'ymoq; **to ~ at** ...ga baholamoq (narxlamoq), bahosini belgilamoq; 2) (*biror narsa haqida*) fikr yuritmoq, baho bermoq

estimation [ˌestɪˈmeɪʃ(ə)n] *n* 1) mulohaza, fikr; **in my ~** menimcha; 2) hurmat

estimator [ˈestɪmeɪtə] *n* baholovchi, narx belgilovchi (qo'yuvchi)

Estonian [eˈstəʊnɪən] **1.** *a* Estoniyaga va estonlarga oid; **2.** *n* 1) eston, estoniyalik kishi; estonka, estoniyalik ayol; 2) eston tili

estop [ɪˈstɒp] *n yur.* raqib tomonning oldingi arizasiga qarama-qarshi fikr bildirilgan arizasini rad qilmoq (qabul qilmaslik)

estrange [ɪˈstreɪndʒ] *v* uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq, chetlashtirmoq

estrangement [ɪˈstreɪndʒmənt] *n* 1) begonalashib ketganlik, begonalik; 2) ayrilish, ayriliq

estreat [ɪˈstri:t] *v* jarima solmoq (olmoq)

estuary [ˈestjʊ(ə)rɪ] *n* 1) daryoning quyilish joyi, etagi, mansabi; delta (*daryoning tarmoqlangan mansabi*); 2) dengiz tarmog'i

esurient [ɪˈsjʊ(ə)rɪənt] *a* och, ochiqqan, och qolgan

et cetera [etˈset(ə)rə] = **etcetera**

etcetera [etˈset(ə)rə] *adv lot.* va boshqalar; va hokazo

et ceteras [etˈset(ə)rəz] = **etceteras**

etceteras [etˈset(ə)rəz] *n pl* 1) har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdagi bor narsalar; 2) unchalik ahamiyatli bo'lmagan qo'shimcha (ilova)

etch [etʃ] *v tex.* buyum sirtiga kislota yoki kimyoviy modda bilan ishlov bermoq

etcher [ˈetʃə] *n* o'ymakor, naqqosh

etching [ˈetʃɪŋ] *n* 1) o'yma naqsh, bezak, gul; 2) ofort (*kislota bilan o'yib ishlangan naqsh va undan bosilgan surat*)

eternal [ɪˈtɜ:n(ə)l] *a* abadiy, mangu; ~ **life** abadiy hayot

eternalize [ɪˈtɜ:nəlaɪz] *v* abadiy xotira (umrbod esdalik) qilib qoldirmoq

eternally [ɪˈtɜ:n(ə)lɪ] *adv* doim, doimo, hamisha, hamma vaqt

eternity [ɪˈtɜ:nɪtɪ] *n* mangulik, boqiylik

eternize [i:ˈtɜ:naɪz] = **eternalize**

etesian [ɪˈti:ʒ(ə)n] *a meteor.* 1) davriy, vaqt-vaqti bilan (o'qtin-o'qtin) bo'ladigan (takrorlanib turadigan); 2) bir yilda bir marta bo'ladigan (yillik); ~ **winds** yozda esadigan shimoliy-g'arbiy quruq shamollari (*O'rta dengiz*)

ethane [ˈi:θeɪn] *n kim.* etan (*organik birikma, yonuvchi gaz*)

ethanol [ˈeθənol] *n* etil spirt

ether [ˈi:θə] *n* 1) osmon, ko'k, samo; 2) efir, radio, **over the ~** radiodan, radio orqali; 3) *kim.* oddiy efir

ethereal [ɪˈθɪ(ə)rɪəl] *a* efirga oid, efirli, tarkibida efir bo'lgan

ethereality [ɪˌθɪ(ə)rɪˈælɪtɪ] *n* o'ta yengillik, nafislik, havo kabi yengillik

ethic(al) [ˈeθɪk(əl)] *a* etikaga (axloqqa, odobga) oid; etik, etika...; axloqiy, odob-axloq doirasida bo'lgan

ethics [ˈeθɪks] *n* etika (*odob-axloq qoidalari, normalari*), axloq; odob; **a code of ~** axloq kodeksi

Ethiopian [ˌi:θɪˈəʊpɪən] *a* 1) Efiopiya va efioplarga (habashlarga) oid; 2) negr, qora tanli

ethmoid [ˈeθmɔɪd] *a anat.* panjarasimon, panjaraga o'xshagan

ethnic(al) [ˈeθnɪk(əl)] *a* 1) etnik (*biror xalqqa va uning madaniyatiga oid*); 2) milliy; 3) *din.* majusiylikka (majusiylarga, butparastlarga) oid; majusiylar, butparastlar...

ethnographic(al) [ˌeθnəˈgræfɪk(əl)] *a* etnografiyaga oid, etnografik

ethnography [eθˈnɒgrəfɪ] *n* etnografiya (*1. xalqlarning kelib chiqishini, turmushini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadigan fan; 2. biror xalqning turmushi, madaniyati va urf-odatlariga xos xususiyatlar*)

ethnologic(al) [ˌeθnəˈlɒdʒɪk(əl)] *a* etnologik, etnologiyaga oid, etnologiya ...

ethnology [eθˈnɒlədʒɪ] *n* etnologiya, etnografiya, xalqshunoslik (*xalqlarning kelib chiqishini, turmushini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadigan fan*)

ethos [ˈi:θɒs] *n* xarakter, tabiat, fe'l, xulq

ethyl [ˈeθ(ə)l] *n kim.* etil (*uglerod bilan vodorodning atomlaridan iborat kimyoviy birikma*); ~ **alchohol** vino spirti, etil spirt

etiolate [ˈi:tɪəleɪt] *v* 1) *bot.* o'simliklarni qorong'i joyda o'stirmoq (yetishtirmoq); 2) rangini oqartirmoq, kasalmand holatga keltirmoq

etiology [ˌetɪˈɒlədʒɪ] *n* etiologiya (*1. kasallikning kelib chiqish sabablari haqidagi bilim; 2. kasallikning paydo bo'lish sabablari*)

etiquette [ˈetɪket] *n* etiket, odob, odob-axloq qoidalari

Eton [ˈi:tn] *n* 1) Iton kolleji; 2) *attr.*: ~ **collar** qaytarma keng yoqa; ~ **crop** ayollarning sochlarini kalta qilib oldirishi (kestirishi)

Etonian [i:ˈtəʊnɪən] **1.** *a* Iton kollejiga oid; **2.** *n* Iton kollejining o'quvchisi (talabasi, tarbiyalanuvchisi)

Etruscan [ɪˈtrʌskən] *tar.* **1.** *a* etrusk(lar)ga oid; etrusk(lar)...; **2.** *n* 1) etrusk, etrusklar (Italiyada yashagan qadimiy xalq); 2) etrusklar tili

etude [eɪˈtju:d] *n mus.* etud (*mohirona yozilgan musiqa asari*)

etui [eˈtwi:] *n fr.* nina solinadigan quti

etwee [eˈtwi:] = **etui**

etyma [ˈetɪmə] *pl of* **etymon**

etymologic(al) [ˌetɪməˈlɒdʒɪk(əl)] *a* etimologiyaga oid, etimologik, etimologiya...

etymologist [ˌetɪˈmɒlədʒɪst] *n* etimolog (*etimologiya mutaxassisi*)

etymologize [ˌetɪˈmɒlədʒaɪz] *v* etimologiyani o'rganmoq

etymology [ˌetɪˈmɒlədʒɪ] *n tilsh.* etimologiya (*1. tilshunoslikda: so'zlarning kelib chiqishini o'rganadigan fan; 2. so'zning kelib chiqishi*)

etymon [ˈetɪmɒn] *n* (*pl* **-ma** [-mə]) *tilsh.* etimon, asos qilib olingan (boshlang'ich) so'z

eucalypti [ˌju:kəˈlɪptaɪ] *pl of* **eucalyptus**

eucalyptus [ˌju:kəˈlɪptəs] *n* (*pl* **-es** [-ɪz], **-ti** [-taɪ]) *bot.* evkalipt (*asosan, Avstraliyada o'sadigan doim yashil ulkan daraxt*)

Eucharist [ˈju:kərɪst] *n cherk.* 1) prichastiye (*xristianlarning diniy marosimlaridan biri bo'lgan prichasheniye marosimida iste'mol qilinadigan bir turli vino va non*); 2) Allohning in'omi

enchre [ˈju:kə] **1.** *n* yuker (*qarta o'yinining turi*); **2.** *v* 1) *qart.* raqibini yuker o'yinida qiyin ahvolga solib qo'ymoq; 2) hiyla bilan yengmoq (ustun kelmoq); pand bermoq

Euclid [ˈju:klɪd] *n* 1) Evklid, Yevklid (*yunon matematigi*); 2) Evklid (Yevklid) geometriyasi

eudiometer [ˌju:dɪˈɒmɪtə] *n kim.* evdiometr (*gazlarni analiz qilish uchun ishlatiladigan asbob*)

eugenic [ju: ˈdʒenɪk] *a biol.* yevgenikaga oid, yevgenika...

eugenics [ju: ˈdʒenɪks] *n* yevgenika (*odamlar naslining irsiy sog'lomligi va uni yaxshilash yo'llari haqidagi ta'limot*)

eulogist [ˈju:lədʒɪst] *n* panegirik yozuvchi

eulogistic(al) [ˌju:ləˈdʒɪstɪk(əl)] *a* maqtovga (*madh qilishga*) oid, maqtovdan iborat

eulogize [ˈju:lədʒaɪz] *v* maqtamoq, madh etmoq

eulogy [ˈju:lədʒɪ] *n* 1) maqtov, tasanno, madh, hamd-u sano; 2) panegirik (*maqtov tarzidagi notiqlik nutqi*)

eunuch [ˈju:nək] *n* bichilgan odam, haram og'asi, haram xodimi

eupepsia [juːˈpepsɪə] *n tib.* normal ovqat hazm qilish

eupeptic [juːˈpeptɪk] *a* 1) ovqatni yaxshi hazm qiladigan; 2) ovqatni hazm qilishga yordam beradigan

euphemism [ˈju:fɪmɪz(ə)m] *n* evfemizm (*aytish noqulay bo'lgan so'z o'rnida ishlatiladigan pardali so'z yoki ibora*)

euphemistic(al) [ˌju:fɪˈmɪstɪk(əl)] *a* evfemizmga oid; evfemistik, pardali

euphonic(al) [juːˈfɒnɪk(əl)] *a* quloqqa yoqadigan, yoqimli, xushovoz, ohangdor

euphonious [juːˈfəʊnɪəs] = **euphonic(al)**

euphonize [ˈju:fənaɪz] *v* quloqqa yoqadigan qilmoq

euphony [ˈju:fənɪ] *n* xushovozlik, xushohanglik, ohangdorlik, yoqimlilik

euphoria [juːˈfɔ:rɪə] *n* 1) *tib.* eyforiya (*o'zidan o'zi xursand bo'laverishlik*); 2) ko'tarinki kayfiyat; **in a state of ~** ruhi ko'tarilgan holda, ko'tarinki ruh bilan

euphuism [ˈju:fju:ɪz(ə)m] *n adab.* evfuizm (*dabdabali, hashamdor uslub*)

Eurasian [jʊ(ə)ˈreɪʒ(ə)n] **1.** *a* Yevrosiyo (yoki yevrosiyoliklar)ga oid, Yevrosiyo (yoki yevrosiyoliklar)...; **2.** *n* yevrosiyoliklar, yevrosiyolik, yevrosiyo xalqi, yevrosiyolik kishi (ayol)

eureka [jʊ(ə)ˈri:kə] *int.* evrika! (*yalt etib miyaga kelgan fikr, biror masalaning bir zumda yechilganidan qanoatlanib, zavqlanib aytiladigan so'z*); topdim!

eurhythmics [juːˈrɪðmɪks] *n* 1) ritmika (*1. ritm yoki vazn sistemasi; 2. ritm (vazn, ohang, marom, maqom) to'g'risidagi ta'limot; 3. musiqa jo'rligida ijro etiladigan ritmik harakatlar*); 2) ritmik gimnastika, badiiy gimnastika

euro [ˈjʊərəʊ] *n* yevro (*Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyati a'zolarining pul birligi*)

eurocurrency [ˈjʊərəʊˌkʌrənsɪ] *n* yevrovaluta

eurodollar [ˈjʊ(ə)rəʊˌdɒlə] *n* Yevropa dollari

euroland, Euroland [ˈjʊərəʊˌlænd] = **eurozone**

European [ˌjʊ(ə)rəˈpɪən] **1.** *a* 1) Yevropa, Yevropaga oid; 2) yevropacha; **2.** *n* yevropalik

europium [juːˈrəʊpɪəm] *n kim.* yevropiy (*kimyoviy element*)

eurozone, Eurozone [ˈjʊərəʊˌzəʊn] *n* yevrozona, yevromintaqa (yevroni yagona valuta sifatida ishlatadigan yevropa mamlakatlari guruhi)

Eustachian tube [juːˈsteɪʃ(ə)nˈtju:b] *n anat.* yevstaxiy naychasi (*o'rta quloq bo'shlig'ini burun-tomoq bo'shlig'i bilan tutashtiruvchi naycha*)

euthanasia [ˌju:θəˈneɪzɪə] *n* 1) og'riqsiz oson o'lim; 2) *tib.* eytanaziya, (*insoniylik yuzasidan*) tuzalmaydigan kasallarni o'ldirish

evacuate [ɪˈvækjʊeɪt] *v* (*aholini*) ko'chirmoq; ko'chirib ketmoq

evacuation [ɪˌvækjʊˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) xavfli joydan ko'chish; 2) *tex.* havoni haydash (*vakuum hosil qilish*)

evacuee [ɪˌvækjʊˈi:] *n* evakuatsiya qilingan, ko'chirilgan, ko'chib kelgan, ko'chirib keltirilgan

evade [ɪˈveɪd] *v* qochmoq, o'zini chetga olmoq; chap bermoq

evaluate [ɪˈvæljʊeɪt] *v* 1) baholamoq, narx qo'ymoq; 2) miqdorini aniqlamoq; 3) baho bermoq; sifatini, muhimligini aniqlamoq

evaluation [ɪˌvæljʊˈeɪʃ(ə)n] *n* baholash, hisoblash, o'rganib chiqish

evanesce [ˌevəˈnes] *v* 1) ko'zdan g'oyib bo'lmoq; 2) tekislanib yo'q bo'lmoq, bilinmay ketmoq, o'chib ketmoq

evanescence [ˌevəˈnes(ə)ns] *n* ko'zdan g'oyib bo'lish, bildirmay ketib qolish, yo'qolib (yo'q bo'lib) dom-daraksiz ketish

evanescent [ˌevəˈnes(ə)nt] *a* 1) ko'pga bormaydigan, o'tkinchi; 2) bir lahzali, bir onli

evangelic [ˌi:vænˈdʒelɪk] *a* injilga oid; injil...

evangelical [ˌi:vænˈdʒelɪk(ə)l] **1.** *a* injilga oid; injil; **2.** *n* protestantlik mazhabidagi odam

evangelist [ɪˈvændʒɪlɪst] *n* 1) injilning to'rt afsonaviy muallifidan har biri; 2) injilchi (*xristian dinining injilga asoslangan mazhablaridan biriga mansub kishi*); 3) yurtma-yurt yurib dinni targ'ib qilib yuruvchi kishi; 4) missioner (*yerli xalqni xristian diniga o'tishga targ'ib qilish uchun o'zga yurtlarga yuborilgan shaxs*)

evangelistic [ɪˌvændʒɪˈlɪstɪk] *a* injilchilar mazhabiga oid; injilchi(lar)...

evanish [ɪˈvænɪʃ] *v shoir.* 1) yo'q bo'lmoq, yo'qolib (yo'q bo'lib) qolmoq; 2) titramoq; pasaymoq, so'nmoq (*ovoz haqida*)

evaporate [ɪˈvæpəreɪt] *v* 1) bug'lamoq, bug'lab tozalamoq; 2) bug'ga aylanmoq; 3) *so'zl.* ko'zdan g'oyib bo'lmoq, bildirmay ketib qolmoq, juftakni rostlamoq; yo'qolmoq, o'lmoq, so'nmoq; bekor ketmoq, unutmoq; **his hopes ~d** uning umidlari puchga chiqdi

evaporated [ɪˈvæpəreɪtɪ] *a* quyultirilgan; quyulgan, quyuq tortgan; **~ milk** quyultirilgan sut

evaporation [ɪˌvæpəˈreɪʃ(ə)n] *n* bug'lantirish, bug'ga aylantirish, bug'lanish

evaporative [ɪˈvæp(ə)rətɪv] *a* bug' hosil qiladigan

evaporator [ɪˈvæpəreɪtə] *n tex.* bug'latgich

evasion [ɪˈveɪʒ(ə)n] *n* 1) og'ish, chetga chiqish; 2) (*burch va sh. k. ni bajarishdan*) bosh tortish

evasive [ɪˈveɪsɪv] *a* gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan, noaniq, mujmal

Eve [i:v] *n* 1) Odam Atoning jufti Momo Havvo; 2) ayol; **daughters of ~** ayollar

eve [i:v] *n* arafa; **on the ~ of ...** ...ning arafasida; **Christmas ~** rojdestvo arafasi

even I [ˈi:v(ə)n] *n shoir.* oqshom, kechki payt, kechqurun

even II [ˈi:v(ə)n] **1.** *a* 1) to'g'ri, tekis; **~ development** tekis (bir maromda)

rivojlanish; 2) bir xil; **~ date** *hisob.* bir xil kun (sana); 3) bir xil darajada, teng, baravar **(with)**; **~ with the ground** yer bilan teng; **to get (*yoki* to be) ~ with smb.** kim bilandir orani ochiq qilmoq; 4) to'g'riso'z, sofdil; **2.** *v* tenglashtirmoq, to'g'rilamoq; **3.** *adv* hatto, hattoki; **~ if, ~ though** hatto... bo'lgan taqdirda ham

evenhanded [ˌi:v(ə)nˊhændɪd] *a* beg'araz, xolis, odil, betaraf, adolatli

evening [ˊi:vnɪŋ] *n* 1) kechqurun, oqshom; **in the ~** kechqurun, kechki paytda; **on Monday ~** dushanba oqshomida; 2) kunning ikkinchi yarmi; **good ~** xayrli oqshom

evenly [ˊi:v(ə)nlɪ] *adv* 1) teng, bah-baravar, teng-baravar, bir xil, bir xilda, bir maromda, bir me'yorda; 2) og'irlik (vazminlik, bosiqlik) bilan

even-minded [ˊi:v(ə)nˊmaɪndɪd] *a* yuvosh, beozor, vazmin, og'ir, bosiq

evensong [ˊi:v(ə)nsɒŋ] *n cherk.* kechki ibodat (*xristianlarda*)

event [ɪˊvent] *n* 1) voqea, hodisa; **in the ~ of** agar, mabodo ...sa; **an international ~** xalqaro voqea; 2) *sport.* musobaqa; **a jumping ~** sakrash musobaqasi; 3) natija

eventful [ɪˊventf(ə)l] *a* voqealarga to'la, voqealarga boy

eventide [ˊi:v(ə)ntaɪd] *n* tong yorishgan *yoki* qosh qoraygan payt

eventless [ɪˊventləs] *a* voqealarga boy bo'lmagan, zerikarli

eventual [ɪˊventʃuəl] *a* 1) bo'lishi mumkin bo'lgan, amalga oshirsa bo'ladigan; ro'yobga chiqadigan; 2) eng so'nggi, oxirgi, yakuniy

eventuality [ɪˌventʃuˊælɪtɪ] *n* qulay fursat; imkoniyat, imkon

eventually [ɪˊventʃ(ə)lɪ] *adv* axir, vaqti kelib, bir kun kelib

eventuate [ɪˊventʃueɪt] *v kit.* tamom bo'lmoq, tugamoq, bitmoq, bartaraf (bir yoqli, hal) bo'lmoq

ever [ˊevə] *adv* 1) qachondir, hech; **have you ~ been in the USA?** siz hech AQSHda bo'lganmisiz? 2) har doim, abadiy; **for ~** abadiy, umrbod; **Zulfiya will ~ be a great poet** Zulfiya har doim buyuk shoira bo'lib qoladi; 3) **~ so** juda (*nisbatan*); **this road is ~ so much shorter** bu yo'l anchagina qisqaroq; **for ~ and ~** abad ul-abad; **for ~ and a day** har doim

everglade [ˊevəgleɪd] *n* baland o'tlar o'sgan serbotqoq pasttekisliklar; **E.State** Serbotqoq shtat (*Florida shtatining nomi*)

evergreen [ˊevəgri:n] **1.** *a* hamisha yashil, doim ko'm-ko'k; **2.** *n* doim yashil o'simlik

ever-growing [ˌevəˊgrəʊɪŋ] *a* doimo (hamma vaqt, har doim, hamisha) o'sadigan

everlasting [ˌevəˊlɑ:stɪŋ] **1.** *a* abadiy, boqiy, mangu; **2.** *n* abadiylik, boqiylik, mangulik

evermore [ˌevəˊmɔ:] *adv* umrbod, mangu

everpresent [ˌevəˊprez(ə)nt] *a* har yerda hozir-nozir, hech joydan qolmaydigan

evert [ɪˊvɜ:t] *v* butunlay teskarisini (aksini) aytmoq; butunlay boshqacha qilib ko'rsatmoq

every [ˊevrɪ] *a* har bir, har qanday **~ word** har bir so'z; **~ year** har yili; **~ one** har kim; **~ time** har safar

everybody [ˊevrɪbɒdɪ] *pron.* 1) har bir kishi; 2) hamma

everyday [ˊevrɪdeɪ] *a* har kungi, kundalik, odatiy; **~ sentences** doim ishlatiladigan iboralar

everyman [ˊevrɪmən] *n* oddiy (el qatoridagi, hammaga o'xshagan) odam; 2) tor fikrli kishi, tirikchilikdan boshqani bilmaydigan odam

everyone [ˊevrɪwʌn] = **everybody**

everyplace [ˊevrɪpleɪs] *adv* har (hamma) yerda, hamma joyda

everything [ˊevrɪθɪŋ] *prep. indef.* hamma narsa, har narsa

everyway [ˊevrɪweɪ] *adv* har sohada; turlicha

everywhere [ˊevrɪweə] *adv* har joyda, hamma yoqda

evict [ɪˊvɪkt] *v* majburan ko'chirmoq, ko'chishga majbur qilmoq

eviction [ɪˊvɪkʃ(ə)n] *n* 1) ko'chirish, surgun, yangi rayonlarga ko'chirish; 2) mahrum bo'lish

evidence [ˊevɪd(ə)ns] **1.** *n* 1) dalil, asos; **historical ~** tarixiy dalillar; 2) dalil, ashyo; **oral and written ~** og'zaki va yozma dalillar; **2.** *v* 1) guvoh bo'lmoq; 2) tasdiqlamoq; 3) ko'rsatma bermoq

evident [ˊevɪd(ə)nt] *a* aniq, aydin, ravshan, ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, oshkora

evidential [ˌevɪˊdenʃ(ə)l] *a* asosli, dalil bo'la oladigan, ishonchli

evidentiary [ˌevɪˊdenʃ(ə)rɪ] = **evidential**

evidently [ˊevɪd(ə)ntlɪ] *adv* aniq, ravshan, shubhasiz

evil [ˊi:v(ə)l] **1.** *a* yomon, yaramas, halokatli; **2.** *n* yomonlik, yovuzlik

evil-doer [ˌi:v(ə)lˊdu:ə] *n* jinoyatchi, xiyonatchi; yomonlik qiluvchi; yovuz odam

evil-minded [ˌi:v(ə)lˊmaɪndɪd] *a* yovuz niyatli, niyati buzuq, jahli yomon, battol, badjahl

evince [ɪˊvɪns] *v* ko'rsatmoq, namoyon qilmoq

evincible [ɪˊvɪnsəb(ə)l] *a* isbotlanishi mumkin bo'lgan, isbot qilib bo'ladigan

evincive [ɪˊvɪnsɪv] *a* asosli, ishonchli, dalil bo'la oladigan

evirate [ˊi:vɪreɪt] *v kit.* axtalamoq, bichmoq

eviscerate [ɪˊvɪsəreɪt] *v* ichak-chovog'ini olib tashlamoq, ichak-chovoqdan tozalamoq (*parranda, baliq haqida*)

evocation [ˌevəˊkeɪʃ(ə)n] *n tex.* 1) esga solish, yodga tushirish, xotirlash; 2) *yur.* quyi suddan yuqori sudga ishni talab qilish

evocative [ɪˊvɒkətɪv] *a* esga soladigan, yodga tushiradigan

evoke [ɪˊvəʊk] *v* 1) esga solmoq; 2) (*hissiyotlar haqida*) uyg'otmoq; 3) *yur.* quyi suddan yuqori sudga ishni talab qilib olmoq

evolution [ˌi:vəˊlu:ʃ(ə)n] *n* 1) rivojlanish, avj olish; taraqqiyot; 2) evolutsiya (*tabiat va jamiyatdagi uzluksiz o'zgarish, rivojlanish jarayoni*), tadrijiy rivojlanish

evolutional [ˌi:vəˊlu:ʃ(ə)nəl] *a* evolutsiyaga (*tarixiy rivojlanishga*) oid

evolutionary [ˌi:vəˊlu:ʃən(ə)rɪ] = **evolutional**

evolutionism [ˌi:vəˊlu:ʃ(ə)nɪz(ə)m] *n* evolutsiya nazariyasi

evolutionist [ˌi:vəˊlu:ʃ(ə)nɪst] *n* evolutsionist (*evolutsionizm tarafdori*)

evolutive [ˌi:vəˊlu:tɪv] *a* rivojlanishga yordam beradigan; rivojlanish jarayonida turgan

evolve [ɪˊvɒlv] *v* rivojlantirmoq, taraqqiy ettirmoq

evolvent [ɪˊvɒlvənt] *n mat.* razvyortka, yoyilgan holat (*geometrik shaklning tekislikda yoyilgan holati*)

evulsion [ɪˊvʌlʃ(ə)n] *n* ildizi bilan yulib olish, majburan chiqarib olish

ewe [ju:] *n* sovliq qo'y, qo'y

ewer [ˊju:ə] *n* ko'za, kuvacha (*asosan, yuvinish uchun*)

ex- [eks-] *pref.* eks, sobiq, o'tgan; **ex-champion** sobiq chempion

exacerbate [ɪgˊzæsəbeɪt] *v* 1) o'tkirlashtirmoq, kuchaytirmoq; 2) *tib.* kasalning kuchayishi

exacerbation [ɪgˌzæsəˊbeɪʃ(ə)n] *n* tortishuvning (janjalning) kuchayishi, tortishuvni (janjalni) kuchaytirish; (*kasalning*) kuchayishi

exact [ɪgˊzækt] **1.** *a* 1) talabchan, qattiq; 2) aniq, puxta; **~ meaning** aniq ma'no (fikr); **~ sciences** aniq fanlar (*matematikaga asoslangan fanlar*); **~ memory** yaxshi xotira; **2.** *v* talab qilmoq, undirmoq

exacting [ɪgˊzæktɪŋ] *a* talabchan, qattiqqo'l

exaction [ɪgˈzækʃ(ə)n] *n* 1) qo'yarda-qo'ymay talab qilish, xiralik bilan so'rash, undirish; 2) *yur.* sudga chaqiruv
exactitude [ɪgˈzæktɪtju:d] *n* aniqlik, to'g'rilik
exactly [ɪgˈzæktlɪ] *adv* aniq, to'g'ri; **I don't know ~ what happened** aniq nima bo'lganini bilmayman
exactness [ɪgˈzæktnəs] *n* aniqlik, to'g'rilik
exactor [ɪgˈzæktə] *n* qo'rqitib (*yoki* do'q-po'pisa va boshqa yo'llar bilan) undiruvchi, oluvchi, tovlamachi, tamagir, yulg'ich
exaggerate [ɪgˈzædʒəreɪt] *v* 1) orttirib yubormoq, bo'rttirib ko'rsatmoq; **to ~ difficulties** qiyinchiliklarni bo'rttirmoq; 2) kengaytirmoq; **to ~ in scale** masshtabni kengaytirmoq
exaggerated [ɪgˈzædʒəreɪtɪd] *a* bo'rttirib yuborilgan
exaggeratedly [ɪgˈzædʒəreɪtɪdlɪ] *adv* oshirib, bo'rttirib
exaggeration [ɪg,zædʒəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) mubolag'a, lof; 2) bo'rttirib ko'rsatish, bo'rttirish
exaggerative [ɪgˈzædʒərətɪv] *a* oshirib yuboriladigan; bo'rttirib ko'rsatilgan
exalt [ɪgˈzɔ:lt] *v* ulug'lamoq, shuhratini oshirmoq, ko'klarga ko'tarmoq
exaltation [ˌegzɔ:lˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) ulug'lash; 2) katta shavq (zavq), xursandlik
exalted [ɪgˈzɔ:ltɪd] *a* g'oyat zavqli, zavqqa to'lgan, quvonchli, o'zida yo'q xursand
exam [ɪgˈzæm] *n so'zl.* imtihon
examination [ɪg,zæmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) tekshirish, ko'rik; **~ of equipment** texnik ko'rik; tekshirib (qarab, ko'rib) chiqish, tekshiruv, nazorat; **custom-house ~** bojxona tekshiruvi; 2) *yur.* qidiruv, so'roq; 3) imtihon; **to take an ~** imtihon topshirmoq; **to pass one's ~** imtihondan o'tmoq; **to fail an ~** imtihondan yiqilmoq
examinational [ɪg,zæmɪˈneɪʃ(ə)nəl] *a* imtihonga (sinovga) oid
examination-paper [ɪg,zæmɪˈneɪʃ(ə)n-ˌpeɪpə] *n* imtihon varaqasi
examine [ɪgˈzæmɪn] *v* 1) tadqiq qilmoq, tanishmoq; 2) tekshirmoq; **to ~ the conditions** holatni (shart-sharoitni) tekshirmoq; 3) imtihon olmoq
examinee [ɪg,zæmɪˈni:] *n* imtihon topshiruvchi kishi
examiner [ɪgˈzæmɪnə] *n* imtihon oluvchi
example [ɪgˈzɑ:mp(ə)l] *n* 1) misol; 2) namuna; **for ~** masalan; **to give an ~** misol keltirmoq
exanimate [ɪgˈzænɪmət] *a* o'lik, jonsiz, tiriklik nishonasi yo'q; so'lligan
exarch [ˈeksɑ:k] *n cherk.* ekzarx (*pravoslav cherkovi tashkilotida: mustaqil cherkov boshlig'i*)
exarchate [ˈeksɑ:keɪt] *n cherk.* ekzarxat
exasperate [ɪgˈzɑ:spəreɪt] *v* 1) g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; g'ashiga tegmoq; 2) (*og'riq, g'azab va h. ni*) kuchaytirmoq, zo'raytirmoq, oshirmoq; **to ~ enmity** adovat tug'dirmoq; adovatni avj oldirmoq
exasperating [ɪgˈzɑ:spəreɪtɪŋ] *a* jahlini chiqaradigan; g'ashiga tegadigan
exasperation [ɪgˈzɑ:spe ˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) g'azablanish, achchiqlanish, jahli chiqish; 2) *tib.* kasalning o'qtin-o'qtin tutib qolishi, zo'rayishi
ex cathedra [ˌekskəˈθi:drə] *adv lot.* qat'iy ishonch bilan; hukmnamo ohangda, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan tarzda
excavate [ˈekskəveɪt] *v* qazimoq, kovlamoq, o'ymoq
excavation [ˌekskəˈveɪʃ(ə)n] *n* kovlash, qazish, o'yish
excavator [ˈekskəveɪtə] *n* 1) ekskavator; 2) yer kovlovchi (qazuvchi)
exceed [ɪkˈsi:d] *v* ortiq bo'lmoq, o'tib ketmoq, ustun chiqmoq; oshirmoq, oshib ketmoq; **to ~ by** ...ga ko'tarilmoq, oshirib yubormoq
exceeding [ɪkˈsi:dɪŋ] *a* beo'lchov, behad, cheksiz
exceedingly [ɪkˈsi:dɪŋlɪ] *adv* juda, g'oyatda, nihoyatda; favqulodda
excel [ɪkˈsel] *v* 1) ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib ketmoq, ustun chiqmoq; 2) biror xususiyati bilan boshqalardan farq qilmoq (**in, at**); **to ~ smb. at smth.** kimnidir nimadandir ustun (afzal) ko'rmoq
excellence [ˈeks(ə)ləns] *n* ustunlik, afzallik, ortiqlik
excellency [ˈeks(ə)lənsɪ] *n* zoti oliy, janobi oliy
excellent [ˈeks(ə)lənt] *a* a'lo, oliy, zo'r, ajoyib
excalsior [ɪkˈselsɪɔ:] *lot.* **1.** *int.* yanada yuksakroq (*shun., Nyu-York shtatining shiori*); **2.** *n* yaxshilarning eng yaxshisi bo'lgan kishi
except [ɪkˈsept] **1.** *v* inkor (rad) etmoq, chiqarib tashlamoq; **2.** *prep.* ...dan boshqa, tashqari
excepting [ɪkˈseptɪŋ] *prep.* ...dan tashqari
exception [ɪkˈsepʃ(ə)n] *n* istisno, mustasno
exceptionable [ɪkˈsepʃ(ə)nəb(ə)l] *a* nomunosib, nojo'ya, benuqson (sof, pok) deb bo'lmaydigan, kamchiliklardan xoli emas, e'tirozga sabab bo'ladigan
exceptional [ɪkˈsepʃ(ə)nəl] *a* 1) maxsus, alohida; 2) g'ayrioddiy; o'zgacha
exceptionally [ɪkˈsepʃ(ə)nəlɪ] *adv* favqulodda, juda, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari
exceptive [ɪkˈseptɪv] *a* tirnoq ostidan kir izlaydigan, injiq
excerpt [ˈeksə:pt] **1.** *n* ko'chirma, parcha, bo'lak; sitata; **2.** *v* (*parchani*) tanlamoq, tanlab olmoq, sitata tanlamoq
excerption [ekˈsə:pʃ(ə)n] *n* 1) sitata (*matn parchasi*), parcha; 2) sitata (parcha) tanlab olish
excess [ɪkˈses] **1.** *n* 1) mo'llik, ortiqchalik; **in ~ of** (*norma va sh. k. dan*) ko'p, ortiq, oshiq; 2) keragidan ortiq narsa, ortiq, ortiqcha; **2.** *a* ortiqcha, ehtiyojidan ortiq; **~ luggage** qat'iy belgilangan miqdordan ortiqcha bo'lgan yuk; **~ fare** *tem. y.* (*chipta uchun*) qo'shimcha to'lov; **~ profit** qo'shimcha foyda; **~ profits tax** qo'shimcha foyda uchun to'lanadigan soliq
excessive [ɪkˈsesɪv] *a* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta
exchange [ɪksˈtʃeɪndʒ] **1.** *n* 1) almashish, ayirboshlash; **in ~ for** ...ni ...ga almashtirish; **cultural ~** madaniy boyliklarni o'rtoqlashish, madaniy aloqa; **~ of prisoners** harbiy asirlarni almashtirish; 2) *mol.* pulni maydalash; **rate of ~** valuta kursi (*valutalarning bir-biriga nisbatan qadr-qimmati: biror mamlakat pul birligining boshqa mamlakat valutasi bilan ifodalangan qiymati*); **foreign ~** a) chet el valutasi; b) chet el valutasining kursi; **bill of ~** veksel (*qarz hujjati, pul qarz olganlik haqidagi tilxat*); **2.** *v* almashmoq, (*pulni*) maydalamoq; **to ~ for** ...ga (...bilan) almashtirmoq
exchangeable [ɪksˈtʃeɪndʒəb(ə)l] *a* almashtirsa bo'ladigan
exchequer [ɪksˈtʃekə] *n* davlatga qarashli mol-mulk, pul, mablag', xazina, g'azna
excisable [ekˈsaɪzəb(ə)l] *a* aksiz solig'i solinadigan
excise I [ekˈsaɪz] *v* kesib olmoq, kesib tashlamoq
excise II [ekˈsaɪz] *n* aksiz (*keng iste'mol mollariga solinadigan qo'shimcha soliq*)
exciseman [ekˈsaɪzmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) aksiz amaldori, aksiz yig'uvchi; aksiz boshqarmasining xizmatchisi
excision [ekˈsɪʒ(ə)n] *n* 1) tishni olish (*sug'urib olib tashlash*); 2) qirqish, kesish
excitability [ɪk,saɪtəˈbɪlɪtɪ] *n* tez ta'sirlanish, hayajonga kelish, ta'sirchanlik
excitable [ɪkˈsaɪtəb(ə)l] *a* tez (salga) hayajonlanadigan; ta'sirlanadigan
excitant [ˈeksaɪt(ə)nt] **1.** *a* 1) hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi; 2) ha-

danni uyg'otuvchi, jonlantiruvchi, kishini harakatga soluvchi; **2.** *n* badanni uyg'otuvchi dori-darmon

excitation [ˌeksaɪ´teɪʃ(ə)n] *n* 1) *fiziol.* asablarning tashqi ta'sirdan qo'zg'alishi, uyg'onishi; 2) asabiy holat; hayajonlanish, to'lqinlanish

excitative [ek´saɪtətɪv] *a* hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi; jonlantiruvchi, kishini hayratga soluvchi

excitatory [ek´saɪtə(ə)rɪ] = **excitative**

excite [ɪk´saɪt] *v* 1) qo'zg'atmoq, undamoq; 2) ta'sir qilmoq, hayajonlanmoq, hayajonlantirmoq, to'lqinlantirmoq

excited [ɪk´saɪtɪd] *a* 1) xursand, xursand bo'lgan; 2) hayajonlangan, to'lqinlangan; **to be ~ about** ...dan hayajonlanmoq

excitedly [ɪk´saɪtɪdlɪ] *adv* hayajonlanib, to'lqinlanib, hayajon bilan

excitement [ɪk´saɪtmənt] *n* qiziqish tug'dirish; ta'sirlanish, hayajonlanish; **in ~** hayajonda

exciter [ɪk´saɪtə] *n* 1) *el.* qo'zg'atuvchi omil; 2) qiziqish uyg'otuvchi, hayajonlantiruvchi omil

exciting [ɪk´saɪtɪŋ] *a* 1) hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi, jonlantiruvchi; 2) badanni uyg'otuvchi, jonlantiruvchi, kishini harakatga soluvchi; 3) kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor; **an ~ story** maroqli hikoya

exclaim [ɪk´skleɪm] *v* xitob qilmoq, undamoq, chaqirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq; **to ~ against** norozilik (e'tiroz bildirmoq), qarshi chiqmoq; **to ~ at** juda ham hayron qolganini (ajablanganini) ifoda etmoq

exclamation [ˌekskla´meɪʃ(ə)n] *n* 1) xitob, nido, undov, hayqiriq; 2) *attr.* undov bildiruvchi; undov ...; **an ~ mark** undov belgisi

exclamatory [ek´sklæmət(ə)rɪ] *a* undovni bildiruvchi (ifodalovchi), xitobli, undalma; **an ~ sentence** undov gap

exclude [ɪk´sklu:d] *v* 1) ruxsat bermaslik, kiritmaslik; chiqarib yubormoq, chiqarmoq; 2) haydamoq

exclusion [ɪk´sklu:ʒ(ə)n] *n* 1) istisno, mustasno; 2) chiqarish, haydash; **to the ~ of** ...dan boshqa, ...dan tashqari

exclusive [ɪk´sklu:sɪv] *a* 1) maxsus, alohida, ayrim, boshqalardan farqli, o'ziga xos; **~ privileges** maxsus imtiyozlar; 2) birdan bir, yolg'iz; yakka-yagona; **an ~ occupation** birdan bir mashg'ulot (hunar, kasb; ovunchoq, ermak); **an ~ interview** maxsus intervyu

exclusively [ɪk´sklu:sɪvlɪ] *adv* yolg'iz, faqat, nuqul

excogitate [eks´kɒdʒɪteɪt] *v* o'ylab chiqarmoq, ixtiro qilmoq

excogitation [eks,kɒdʒɪ´teɪʃ(ə)n] *n* o'ylab topish, o'ylab chiqarish, o'zidan to'qib aytish

excommunicate [ˌekskə´mju:nɪk(e)ɪt] **1.** *v* cherkovdan ajratmoq (chiqarmoq); **2.** *a* cherkovdan ajratilgan, chiqarilgan, haydalgan

excommunication [ˌekskəmju:nɪ´keɪʃ(ə)n] *n* cherkovdan chiqarish (ajratish, haydash)

excoriate [ɪks´kɔ:rɪeɪt] *v* terisini shilmoq (shilib, ajratib olmoq)

excoriation [eks,kɔ:rɪ´eɪʃ(ə)n] *n* terisini shilish (shilib, ajratib olish)

excorticate [ɪks´kɔ:tɪkeɪt] *v* po'stlog'ini shilib olmoq (ajratmoq)

excrement [´ekskrɪmənt] *n* bavl, chiqindi (*najas, siydik*)

excrescence [ɪk´skres(ə)ns] *n* 1) o'sib (ko'payib) ketish; 2) o'simta, qatqaloq

excrescent [ɪk´skres(ə)nt] *a* ortiq, oshiq, ortiqcha, oshiqcha

excreta [ɪk´skri:tə] *n pl fiziol.* 1) najas, axlat; 2) organizmdan ajralib chiqqan narsa (*ter, yiring va h. k.*)

excrete [ɪk´skri:t] *v fiziol.* ajratmoq, ajratib chiqarmoq

excretion [ɪk´skri:ʃ(ə)n] *n fiziol.* ajratish, ajratib chiqarish

excretive [ɪk´skri:tɪv] *a* 1) organizmdan ajralib chiqadigan; 2) ajratib chiqishga yordam beradigan

excretory [ɪk´skri:t(ə)rɪ] *a anat.* tashqariga chiqadigan

excruciate [ɪk´skru:ʃɪeɪt] *v* azob (ozor) bermoq

excruciating [ɪk´skru:ʃɪeɪtɪŋ] *a* azob beradigan, qiynaydigan

excruciation [ɪk,skru:ʃɪ´eɪʃ(ə)n] *n* 1) azoblanish, qiynalish; 2) azob berish, qiynash

exculpate [´ekskʌlpeɪt] *v yur.* oqlamoq, gunohsiz (beayb) deb topmoq

exculpation [ˌekskʌl´peɪʃ(ə)n] *n* oqlash haqidagi hukm, oqlash, to'g'ri deb topish

exculpatory [ɪk´skʌlpət(ə)rɪ] *a* oqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan, isbotlaydigan

excursion [ɪk´skə:ʃ(ə)n] *n* sayr, (*qisqa muddatli*) safar *yoki* sayohat, ekskursiya; **to go on an ~** ekskursiyaga bormoq

excursionist [ɪk´skə:ʃ(ə)nɪst] *n* ekskursant, ekskursiyachi

excursive [ɪk´skə:sɪv] *a* 1) tartibsiz, betartib; **~ reading** tartibsiz o'qish; 2) (*yo'ldan, kursdan*) og'adigan

excursus [ek´skə:səs] *n* (*pl* **-es** [-ɪz]) 1) ekskurs (*asosiy mavzudan chetga chiqib, shu mavzuga doir ikkinchi darajali masalalarni ham aytib o'tish*); 2) (*mavzudan*) chetga chiqish

excusable [ɪk´skju:zəb(ə)l] *a* kechirsa bo'ladigan, kechirimli

excusatory [ɪk´skju:zət(ə)rɪ] *a* kechirim ohangiday, kechirimli

excuse [ɪk´skju:s] **1.** *n* 1) oqlash, bahona, vaj; **~ for** ...ga bahona; **in ~ of smth.** nimanidir bahona qilib; 2) uzr, kechirim; **2.** *v* [ɪk´skju:z] 1) kechirmoq, afv etmoq; 2) ozod qilmoq (*ishdan, vazifadan*); **~ me!** kechirasiz! **~ me for disturbing** bezovta qilganim uchun kechirasiz

ex-directory [ˌeksd(a)ɪ´rekt(ə)rɪ] *a* 1) ro'yxatda ko'rsatilmagan; 2) telefon daftariga kiritilmagan

exeat [´eksɪæt] *n lot.* biror yerga qanchadir muddatga borib kelish uchun universitet yoki monastirdan olinadigan ruxsatnoma

execrable [´eksɪkrəb(ə)l] *a* jirkanch, xunuk; juda yomon

execrate [´eksɪkreɪt] *v* 1) juda yomon ko'rmoq, nafratlanmoq; 2) la'natlamoq, la'nat o'qimoq, qarg'amoq, nafrat yog'dirmoq

execration [ˌeksɪ´kreɪʃ(ə)n] *n* la'nat, nafrat, qarg'ish

executant [ɪg´zekjʊt(ə)nt] *n* bajaruvchi, ijro etuvchi, amalga oshiruvchi

execute [´eksɪkju:t] *v* 1) bajarmoq, amalga oshirmoq; **to ~ plan** rejani amalga oshirmoq; 2) (*rol va sh. k. ni*) ijro etmoq, (*surat, haykal*) yaratmoq; 3) qatl etmoq

execution [ˌeksɪ´kju:ʃ(ə)n] *n* 1) bajarish, bajarilish, amalga oshirish, 2) (*san'at asarini*) ijro etish; 3) qatl etish

executioner [ˌeksɪ´kju:ʃ(ə)nə] *n* 1) jallod; 2) *ko'ch.* jabr-zulm qiluvchi, ezuvchi, zolim

executive [ɪg´zekjʊtɪv] **1.** *a* ijroiya, ma'muriy, ijro etuvchi, bajaruvchi, amalga oshiruvchi; **an ~ committee** ijroiya qo'mitasi; **an ~ council** *amer.* ijroiya kengashi; **an ~ secretary** mas'ul kotib; **an ~ order** *amer.* prezident farmoni; **2.** *n* 1) amaldor (mansabdor) shaxs, rahbar, boshliq (*firmalarda, shirkatlarda*); **business ~s** ishbilarmonlar doirasi vakillari; 2) (**the ~**) ijrochi hokimiyat; 3) (**the ~**) ijro etuvchi organ

executor [ɪg´zekjʊtə] *n* 1) vasiy; 2) sud ijrochisi; 3) jallod

executrix [ɪg´zekjʊtrɪks] *n* (*pl* **-trices** [-traɪsi:z]) *yur.* vasiy ayol

exegeses [ˌeksɪ´dʒi:sɪ:z] *pl of* **exegesis**

exegesis [ˌeksɪ´dʒi:sɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) *adab.* (*asosan, diniy narsalarni*) sharhlash, izohlab berish

exegetic(al) [ˌeksɪˈdʒetɪk(əl)] *a* (*asosan, diniy yozma manbalarni*) sharhlovchi, izohlovchi, sharhlab (izohlab) beruvchi
exemplar [ɪgˈzemplɑ:] *a* namuna, nusxa
exemplary [ɪgˈzemplərɪ] *a* namunali, namuna bo'ladigan
exemplification [ɪgˌzemplɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) misol bilan tushuntirish; 2) *yur.* hujjatning tasdiqlangan nusxasi
exemplify [ɪgˈzemplɪfaɪ] *v* 1) misol bilan tushuntirmoq, tasdiqlamoq; misol keltirmoq; 2) misol bo'lib xizmat qilmoq
exempt [ɪgˈzempt] **1.** *a* (*soliqdan, harbiy xizmatdan*) ozod qilingan, (*vazifasidan, soliq to'lashdan*) bo'shatilgan; **2.** *v* (*harbiy xizmat va b. dan*) ozod qilmoq
exemption [ɪgˈzempʃ(ə)n] *n* (*soliq to'lash va b. dan*) bo'shatish, ozod qilish; **~ from military service** harbiy xizmatdan ozod qilish
exequies [ˈeksɪkwɪz] *n pl* dafn qilish, ko'mish marosimi
exercise [ˈeksəsaɪz] **1.** *v* mashq qilmoq, ijro etmoq; **2.** *n* 1) mashq; mashg'ulot; 2) badantarbiya (jismoniy tarbiya) mashqi; **to take ~** sport bilan shug'ullanmoq
exergue [ekˈsɜ:g] *n* (*metall va qog'oz pullarning orqasida*) yozuvlarning joyi va yozuv
exert [ɪgˈzɜ:t] *v* 1) zo'r bermoq, chiranmoq; **to ~ oneself** harakat qilmoq; 2) ta'sir etmoq (ko'rsatmoq); **to ~ one's influence** ta'sir ko'rsatmoq
exertion [ɪgˈzɜ:ʃ(ə)n] *n* zo'r g'ayrat, diqqat-e'tibor, qizg'inlik
exes [ˈeksɪz] *n* (**expenses** *ning qisqartmasi*) *pl so'zl.* chiqimlar, xarajatlar, xarjlar, sarflar
exeunt [ˈeksɪənt] *v lot. teatr.* „ketadilar" sharhi (*muallifning pyesa matniga bergan tushuntirishi*)
exfoliate [eksˈfəʊlɪeɪt] *v* shilinmoq, archilmoq, po'st tashlamoq
exfoliation [ˌeksfəʊlɪeɪʃ(ə)n] *n* 1) oqlash, archish, tozalash, po'stini olish; 2) qatlam-qatlam qilib ko'chirish
ex gratia [ˌeksˈgreɪʃ(ɪ)ə] *adv lot.* ixtiyoriy, ko'ngilli; har kimning o'z ixtiyori (xohishi) bilan qilinadigan; **~ payment** ixtiyoriy to'lov
exhalation [ˌekshəˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) nafas chiqarish; 2) bug'lanish, bug'ga aylanish
exhale [eksˈheɪl] *v* 1) nafas chiqarmoq; 2) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq
exhaust [ɪgˈzɔ:st] **1.** *n* chiqarish, chiqish (*ishlangan gazlar haqida*); **2.** *v* 1) holdan toydirmoq; tinkasini quritmoq qiynamoq; 2) bitirmoq, tamom qilmoq, tugatmoq, sop (tamom) qilmoq, quritmoq; ishlatib (foydalanib) tugatmoq
exhausted [ɪgˈzɔ:stɪd] *a* ozib ketgan, oriqlagan, darmoni qurigan, holdan toygan, tinka-madori qurigan
exhauster [ɪgˈzɔ:stə] *n tex.* 1) so'ruvchi ventilator, 2) changso'rar, changyutgich (*uy va jihozlarning changini so'rib tozalaydigan apparat*)
exhaustible [ɪgˈzɔ:stəb(ə)l] *a* tugaydigan, tamom bo'ladigan; cheklangan
exhausting [ɪgˈzɔ:stɪŋ] *a* charchatadigan, zeriktiradigan, juda og'ir, mashaqqatli, tinka-madorni quritadigan, kuch-quvvatni oladigan; holdan toydiradigan
exhaustion [ɪgˈzɔ:stʃ(ə)n] *n* 1) ozib (oriqlab) ketish, ozib-to'zish, ozg'inlik; 2) holi-joni qolmay charchash, tinkasi qurish, sulayish, lohas bo'lish, lohaslik; **to dance oneself to ~** to yiqilib qolguncha raqsga tushmoq; 3) *tex.* so'rib olish, tortib olish
exhaustive [ɪgˈzɔ:stɪv] *a* 1) to'la-to'kis, tugal, mukammal; 2) ozdiradigan, oriqlatib yuboradigan; darmonni quritadigan, holdan toydiradigan
exhibit [ɪgˈzɪbɪt] **1.** *n* eksponat (*ko'rgazmaga qo'yilgan narsa, material*); **2.** *v* 1) ko'rgazmaga qo'ymoq; 2) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq
exhibition [ˌeksɪˈbɪʃ(ə)n] *n* ko'rgazma, namoyish
exhibitioner [ˌeksɪˈbɪʃ(ə)nə] *n* 1) eksponent (*ko'rgazmaga o'z eksponatini qo'yadigan kishi, tashkilot yoki mamlakat*); 2) stipendiat, stipendiya oluvchi (*kishi*)
exhibitionism [ˌeksɪˈbɪʃ(ə)nɪz(ə)m] *n* o'zini ko'z-ko'z qilishga qiziqish
exhibitor [ɪgˈzɪbɪtə] *n* eksponent (*ko'rgazmaga o'z eksponatini qo'yadigan kishi, tashkilot yoki mamlakat*)
exhilarate [ɪgˈzɪləreɪt] *v* 1) ko'nglini ochmoq, xursand qilmoq; 2) jonlantirmoq, dalda (madad) bermoq, ruhlantirmoq
exhilarated [ɪgˈzɪləreɪtɪd] *a* 1) shod, xursand; 2) tetik, bardam, g'ayratli, tiyrak, ruhi ko'tarilgan, kayfi chog', shodmon
exhilaration [ɪgˌzɪləˈreɪʃ(ə)n] *n* vaqtichog'lik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik
exhort [ɪgˈzɔ:t] *v* nasihat qilmoq, o'git bermoq
exhortation [ˌeksɔ:ˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) nasihat (o'git) qilish; pand-nasihat, o'git; 2) targ'ib (targ'ibot) qilish, tarqatish
exhortative [ɪgˈzɔ:tətɪv] *a* o'gitga (pand-nasihatga) oid; nasihatomuz
exhortatory [ɪgˈzɔ:tət(ə)rɪ] = **exhortative**
exhumation [ˌeksju:ˈmeɪʃ(ə)n] *n* eksgumatsiya (*murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olish*)
exhume [eksˈhju:m, ɪgˈzju:m] *v* 1) murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olmoq; 2) yerdan qazib olmoq
exigence [ˈeksɪdʒ(ə)ns] *n* biror narsaning juda zarurligi; biror narsaga g'oyat muhtojlik
exigency [ˈeksɪdʒ(ə)nsɪ] = **exigence**
exigent [ˈeksɪdʒ(ə)nt] *a* 1) talabchan, qattiqqo'l; 2) shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan
exigible [ˈeksɪdʒəb(ə)l] *a* talabchan, talabi zo'r; didi baland
exiguity [ˌeksɪˈgju:ɪtɪ] *n* 1) ozlik, yetarli (ko'p) emaslik; 2) sayozlik; 3) arzimaslik, arzimagarlik
exiguous [egˈzɪgjʊəs] *a kitob.* oz, kam, ozgina, yetarlicha bo'lmagan
exile [ˈeksaɪl, ˈegzaɪl] **1.** *n* quvg'in, surgun; badarg'a; **to live in ~** surgunda bo'lmoq *yoki* yashamoq; **to be sent into ~** surgun qilinmoq; **2.** *v* surgun qilmoq, badarg'a qilmoq
exility [egˈzɪlɪtɪ] *n* yupqalik, nafislik, ingichkalik, noziklik, nazokat
exist [ɪgˈzɪst] *v* 1) mavjud bo'lmoq; 2) tirikchilik o'tkazmoq; yashamoq
existence [ɪgˈzɪst(ə)ns] *n* 1) mavjudlik, borlik; 2) turmush, tirikchilik, hayot; **a wretched ~** nochorlik, bechoralik, ojizlik; **in ~** tabiatda mavjud bo'lgan
existent [ɪgˈzɪst(ə)nt] *a* mavjud, bor bo'lgan, bor, naqd
existential [ˌegzɪˈstenʃ(ə)l] *a* 1) *kit.* borliqqa (haqiqiylikka) oid; 2) *fals.* ekzistensial, ekzistensializmga oid
existentialism [ˌegzɪˈstenʃ(ə)lɪz(ə)m] *n fals.* ekzistensializm (*mavjudlik falsafasi — falsafiy yo'nalish*)
exit [ˈeksɪt, ˈegzɪt] **1.** *n* 1) chiqish, chiqish yo'li; **no ~!** chiqish uchun yo'l yo'q!; 2) (aktyorning sahnadan) chiqib ketishi; 3) yo'q bo'lish, o'lim; 4) *attr.* **an ~ visa** (*yoki* **permit**) chiqish vizasi; **2.** *v teatr.* „chiqib ketmoq" (*sharh*)
ex-libris [ˌeksˈli:brɪs] *n lot.* ekslibris (*kitob egasining familiyasi yozilgan, badiiy uslubda tayyorlangan yorliqcha*)
exobiology [ˌeksəʊbaɪˈɒlədʒɪ] *n* ekzobiologiya (*yerdan tashqaridagi hayot biologiyasi*)
exodus [ˈeksədəs] *n* ommaviy (ko'pchilik bo'lib) safarga chiqish (*asosan, ko'chmanchilar haqida*)
ex officio [ˌeksəˈfɪʃɪəʊ] *a lot.* vazifasi bo'yicha; egallab turgan lavozimiga ko'ra
exogamy [egˈzɒgəmɪ] *n* ekzogamiya (*o'z qabilasidagi, urug'idagi kishiga uy-*

lanish yoki erga tegishni man qiluvchi odat)

exonerate [ɪgˈzɒnəreɪt] *v* 1) og'ir yukni olib tashlamoq; (*majburiyat, javobgarlik va sh. k. dan*) ozod qilmoq; 2) yengillashtirmoq; 3) gunohini (oqlamoq) kechirmoq; shon-sharafini (obro'-e'tiborini yoki ilgarigi huquqlarini) tiklamoq; **to ~ oneself** o'zini oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq

exoneration [ɪg,zɒnəˈreɪʃ(ə)n] *n yur.* 1) oqlash, oqlash haqida hukm; 2) (*majburiyat, javobgarlik va sh. k. dan*) ozod qilish

exonerative [ɪgˈzɒnərətɪv] *a yur.* 1) oqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan; 2) (*majburiyat, javobgarlik va sh. k.*) og'ir vazifani olib tashlaydigan

exorbitance [ɪgˈzɔ:bɪt(ə)ns] *n* haddan tashqarilik, benihoya darajadalik, (o'ta) ortiqlik; cheksizlik

exorbitancy [ɪgˈzɔ:bɪt(ə)nsɪ] = **exorbitance**

exorbitant [ɪgˈzɔ:bɪt(ə)nt] *a* haddan tashqari, o'ta

exorcism [ˈeksɔ:sɪz(ə)m] *n* afsun (jodu, sehr, duo) orqali jin va ajinalarni haydab yuborish

exorcize [ˈeksɔ:saɪz] *v* 1) avramoq, afsunlamoq, sehrlamoq; 2) duo orqali jin va ajinalarni haydamoq

exordia [ekˈsɔ:dɪə] *pl of* **exordium**

exordial [ekˈsɔ:dɪəl] *a* boshlang'ich, kirish (*insho va sh. k. ning qismi haqida*)

exordium [ekˈsɔ:dɪəm] *n* (*pl* **-dia** [-dɪə]) kirish, muqaddima, daromad, so'zboshi

exosphere [ˈeksəʊsfɪə] *n* ekzosfera (*atmosferaning eng siyrak tashqi qatlami*)

exoteric [,eksə(ʊ)ˈterɪk] *a* hammaning kuchi (qurbi, imkoni) yetadigan; hammaning imkoni doirasidagi; hammabop

exothermal [,eksə(ʊ)ˈθɜ:məl] = **exothermic**

exothermic [,eksə(ʊ)ˈθɜ:mɪk] *a fiz.* ekzotermik (*kimyoviy reaksiya jarayonida o'zidan issiqlik chiqaradigan*)

exotic [ɪgˈzɒtɪk] **1.** *a* 1) ekzotik (*chet yoki uzoq mamlakatlarga xos*); 2) ajoyib, qiziq, g'alati, g'ayrioddiy; **2.** *n bot.* ekzotik o'simlik

expand [ɪkˈspænd] *v* 1) kengaytirmoq; yoymoq, rivojlantirmoq; 2) (*o'lcham, hajmni*) ko'paytirmoq, oshirmoq; 3) (*yelkan va sh. k. ni*) yoymoq

expanse [ɪkˈspæns] *n* keng sath, ko'lam (*bo'y, en va balandlik*), kenglik

expansible [ɪkˈspænsəb(ə)l] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan; kengayadigan, kengayuvchan

expansibility [ɪk,spænsəˈbɪlɪtɪ] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik

expansion [ɪkˈspænʃ(ə)n] *n* 1) kengaytirish, cho'zish, ko'paytirish; 2) yoyilish, tarqalish, eskpansiya

expansionism [ɪkˈspænʃ(ə)nɪz(ə)m] *n* bosqinchilik siyosati

expansive [ɪkˈspænsɪv] *a* 1) keng, bepoyon; 2) o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan; 3) ko'ngli ochiq, samimiy (*xarakter haqida*); **an ~ smile** yoqimli tabassum

expansivity [,ekspænˈsɪvɪtɪ] *n* o'zini tiya olmaslik, tez qizishib ketishlik

expat [,ekˈspæt] *so'zl.* = **expatriate**

expatiate [ɪkˈspeɪʃɪeɪt] *v* tarqalmoq, yoyilmoq, kengayib ketmoq

expatriate [ekˈspætrɪət] **1.** *n* 1) emigrant, muhojir; 2) o'z yurtini tark etuvchi; **2.** *v* haydamoq, surgun qilmoq (*Vatandan*)

expatriation [ek,spætrɪˈeɪʃ(ə)n] *n* emigratsiya (*chet mamlakatga ko'chib ketish*), muhojirlik

expect [ɪkˈspekt] *v* kutmoq, umid qilmoq; **I ~ed you yesterday** men sizni kecha kutdim

expectance [ɪkˈspekt(ə)ns] *n* 1) kutish; poylash; 2) umid, ishonch

expectancy [ɪkˈspekt(ə)nsɪ] = **expectance**

expectant [ɪkˈspekt(ə)nt] **1.** *n* 1) da'vogar, nomzod; **2.** *a* 1) homilador; **an ~ mother** ona bo'ladigan ayol; 2) ko'z tutayotgan, umid qilayotgan; 3) payt poylaydigan, fursat kutadigan; poylovchi, kutuvchi, ogoh; intizor; **an ~ policy** payt poylash siyosati; **an ~ treatmen** *tib.* simptomatik davolash

expectation [,ekspekˈteɪʃ(ə)n] *n* kutish, ko'z tutish; **to come up to one's ~** kutganidek bo'lmoq; **beyond one's ~s** kimningdir kutganidan ham ziyoda

expectorant [ɪkˈspektərənt] *n tib.* balg'am ko'chiradigan (tashlatadigan) dori

expectorate [ɪkˈspektəreɪt] *v* yo'talib tupurib tashlamoq

expectoration [ɪk,spektəˈreɪʃ(ə)n] *n* yo'talib tupurib tashlash

expedience [ɪkˈspi:dɪəns] *n* maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, maqbullik

expediency [ɪkˈspi:dɪənsɪ] = **expedience**

expedient [ɪkˈspi:dɪənt] **1.** *a* maqsadga muvofiq, ma'qul, maqbul; **2.** *n* 1) maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vosita; 2) hiyla, nayrang, makr (ishlatish); **to go to every ~** hammasiga ko'nmoq; rozi bo'lmoq; hech narsadan qaytmaslik (toymaslik)

expedite [ˈekspɪdaɪt] **1.** *a* 1) tezlik bilan bo'ladigan (qilinadigan), tez bo'lib o'tadigan; 2) qulay, soz, yaxshi, ma'qul, mos keladigan; **2.** *v* 1) ko'maklashmoq, yordamlashmoq; tezlashtirmoq; 2) tez tugatmoq (*ish va b. ni*); **to ~ matters** ishni osonlashtirmoq

expediter [ˈekspɪdaɪtə] *n* dispetcher (*markazlashgan boshqaruv punkti yoki sistemasining xodimi*)

expedition [,ekspɪˈdɪʃ(ə)n] *n* 1) ekspeditsiya (*biror maqsad bilan uyushtirilgan safar*); 2) tezlik, chaqqonlik, ildamlik, jadallik; 3) shoshilishlik, shoshqaloqlik, shoshma-shosharlik; shoshilish, oshiqish; **with ~** tezlik (zudlik) bilan, shoshilinch ravishda, kechiktirilmasdan

expeditionary [,ekspɪˈdɪʃ(ə)nərɪ] *a* 1) ekspeditsion (*mol, tovar tarqatish ishlari bilan shug'ullanadigan*); 2) ekspeditsiyaga oid; ekspeditsiya...; 3) ekspeditsion (*maxsus maqsad bilan uyushtirilgan otradga oid*); **~ force** ekspeditsion qo'shinlar (*maxsus qo'shinlar*)

expeditious [,ekspɪˈdɪʃəs] *a* tezlik bilan bo'ladigan; tez bo'lib o'tadigan; tez, ildam, jadal

expel [ɪkˈspel] *v* haydamoq, haydab chiqarmoq, haydab yubormoq

expellee [,ekspəˈli:] *n* haydalgan (badarg'a, surgun) qilingan odam

expend [ɪkˈspend] *v* sarflamoq, sarf qilmoq

expendable [ɪkˈspendəb(ə)l] *a* sarflanadigan, xarajat qilinadigan

expendables [ɪkˈspendəb(ə)lz] *n pl harb.* ta'minotdagi sarflanadigan narsalar

expenditure [ɪkˈspendɪtʃə] *n* sarf qilish, sarflash, xarajat

expense [ɪkˈspens] *n* chiqim, xarj, xarajat, sarf; **heavy ~s** katta xarajat; **to cut down ~s** xarajatlarni qisqartirmoq; **to go to ~** pulini sarflamoq; xarajat qilmoq; **to put smb. to ~** kimnidir pul sarflashga majbur qilmoq

expensive [ɪkˈspensɪv] *a* qimmat, bahosi baland; **~ clothes** qimmat kiyimlar

experience [ɪkˈspɪ(ə)rɪəns] **1.** *n* (*hayotiy*) tajriba; **to know smth. by (from) ~** nimanidir tajribasidan bilmoq; **to learn by ~** nimanidir tajribasidan o'rganib (bilib) olmoq; 2) ish tajribasi; 3) mahorat; **2.** *v* boshdan kechirib (tajribadan) bilib olmoq; **to ~ the bitterness of smth.** nimaningdir achchiq ta'mini (taxir mazasini, achchiq hidini) bilib olmoq

experienced [ɪkˈspɪ(ə)rɪənst] *a* tajribali, mahoratli, mohir

experiential [ɪk,spɪ(ə)rɪˈenʃ(ə)l] *a fals.* tajribaga asoslangan

experiment **1.** *n* [ɪkˈsperɪmənt] tajriba; **an ~ in chemistry** kimyoviy tajriba; **2.** *v* [ɪkˈsperɪment] tajriba o'tkazmoq

experimental [ɪk,sperɪˈmentl] *a* tajribaga oid, ilmiy tajribaga asoslangan

experimentalize |ɪkˌsperɪˊment(ə)laɪz| *v* ilmiy tajriba o'tkazmoq, sinab ko'rmoq

experimentally |ɪkˌsperɪˊment(ə)lɪ| *adv* 1) tajriba asosida; 2) sinov (tajriba) tariqasida

experimentation |ɪkˌsperɪmenˊteɪʃ(ə)n| *n* ilmiy tajriba (*eksperiment*) o'tkazish

experimenter |ɪkˊsperɪməntə| *n* ilmiy tajriba o'tkazuvchi; tajribachi, tajriba yo'li bilan biror narsa yetishtiruvchi (*dehqon*)

expert [ˊekspɜːt] **1.** *n* 1) ekspert (*tekshirish o'tkazadigan mutaxassis*); 2) mutaxassis; 3) *attr.* **an ~ evidence** mutaxassislarning ko'rsatmasi (fikri); **2.** *a* tajribali, mohir, mahoratli (**at, in**); (yuqori) malakali

expertise [ˌekspəːˊtiːz] *n fr.* 1) ekspertiza, tekshirish; 2) maxsus bilim va tajriba

expiate [ˊekspɪeɪt] *v kit.* gunohini yuvmoq

expiation [ˌekspɪˊeɪʃ(ə)n] *n* gunohini yuvish

expiatory [ˊekspɪeɪtərɪ] *a* gunohni yuvadigan, gunohdan xalos qiladigan

expiration [ˌekspɪˊreɪʃ(ə)n] *n* 1) nafas chiqarish; 2) o'tish, tugash, tamom bo'lish (*vaqt, muddat haqida*)

expiratory [ɪkˊspaɪə(ə)rət(ə)rɪ] *a* nafas chiqarishga oid, nafas chiqarish

expire [ɪkˊspaɪə] *v* 1) tugamoq, bitmoq, o'tmoq, to'lmoq (*muddat haqida*); 2) nafas chiqarmoq; 3) o'lmoq, vafot etmoq

expiry [ɪkˊspa(ɪ)ərɪ] *n* 1) yetish, tugash; 2) muddatning tugashi

explain [ɪkˊsplеɪn] *v* tushuntirmoq, izohlamoq; tushuntirib bermoq; **to ~ away** o'zini oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq, haqligini ko'rsatmoq

explainable [ɪkˊspleɪnəb(ə)l] *a* sababini tushunib (tushuntirib) bo'ladigan, sababi bor

explanation [ˌekspləˊneɪʃ(ə)n] *n* 1) tushuntirish, izohlash; 2) izoh, sharh, talqin

explanatory [ɪkˊsplænət(ə)rɪ] *a* tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...

fascinate [ˈfæsɪneɪt] *v* hayratda qoldirmoq, asir qilmoq; maftun qilmoq, jalb etmoq

fascinating [ˈfæsɪneɪtɪŋ] *a* o'ziga tortuvchi, o'ziga qaratadigan, asir qiladigan, maftunkor

fascination [ˌfæsɪˈneɪʃ(ə)n] *n* ko'rkamlik, go'zallik, joziba, maftun etish

fascinator [ˈfæsɪneɪtə] *n* 1) sehrgar, jodugar; 2) dilrabo, dilbar, maftunkor, jozibali

fascine [fæˈsi:n] *n* shox-shabba *yoki* qamish bog'lami (*to'g'on uchun ishlatiladi*)

fascism [ˈfæʃɪz(ə)m] *n* fashizm (*siyosiy oqim*)
fascist [ˈfæʃɪst] *n* fashist
fash [fæʃ] **1.** *n* tashvishlanish, bezovtalik, ranjish; **2.** *v* bezovtalanmoq, tashvishlanmoq; **never ~ yourself with me** mendan xavotir bo'lmang
fashion [ˈfæʃ(ə)n] *n* 1) harakat (muomala) tarzi; **he behaved in a strange ~** u o'zini g'alati tutdi. 2) fason, bichim, shakl; **the two cups are made after the same ~** ikkala piyolaning shakli bir xil; 3) uslub, rusum, moda; **he was dressed in the Easten ~** u sharqona rusumda kiyingandi; **to come (to bring, to grow) into ~** rusum (moda) bo'lmoq; **to be in the ~** modaga rioya qilmoq; **out of ~** modadan chiqqan
fashionable [ˈfæʃ(ə)nəb(ə)l] *a* zamonaviy; modadagi; rasm bo'lgan; **a ~ dressmaker** zamonaviy tikuvchi
fashion designer [ˈfæʃ(ə)ndɪˌzaɪnə] *n* modelyer (*kiyimlarning modelini ishlab chiquvchi mutaxassis*)
fashioner [ˈfæʃ(ə)nə] *n* tikuvchi, chevar
fashionist [ˈfæʃ(ə)ni:st] *n kam.* modaga berilgan kishi, modaparast, olifta, bashang, satang; modaga berilgan (modaparast) ayol, bashang (satang) ayol
fashion-monger [ˈfæʃ(ə)nˌmʌŋgə] *n* zamonaviy, modaga berilgan kishi, olifta (bashang) kishi
fashion-paper [ˈfæʃ(ə)nˌpeɪpə] *n* modalar jurnali
fashion-plate [ˈfæʃ(ə)nplеɪt] *n* 1) moda tasviri tushirilgan surat, moda sahifasi; 2) bashang kiyingan ayol
fast I [fɑ:st] **1.** *n* zanjir, zulfin, tamba; **2.** *a* 1) qattiq, pishiq, mustahkam; **~ rocks** qattiq qoyalar; **a hard and ~ rule** qattiq qoida; 2) mustahkam, pishiq biriktirilgan; 3) sabotli, matonatli, sodiq; **a ~ friend** sodiq do'st
fast II [fɑ:st] **1.** *a* 1) tezkor, chaqqon; **a ~ horse** uchqur ot; **a ~ tank** tezyurar tank; **he is a ~ worker** u tez ishlaydi; 2) tez yurish *yoki* tez harakatlanishga moslangan; **~ track** poyezdning tez yurishiga moslangan yo'l; 3) oldin ketish (*soat to'g'risida*); **my watch is 5 minutes ~** soatim 5 daqiqa oldin; 4) yengiltak, mulohazasiz, oqibatini o'ylamaydigan; **to lead a ~ life** sayoq yashamoq; **a ~ woman** suyuqoyoq ayol; **2.** *n din.* ro'za; **a day for a general ~** ro'za kuni
fasten [ˈfɑ:s(ə)n] *v* 1) bog'lamoq, tugmoq; **to ~ shoelaces** tufli ipini bog'lamoq; **to ~ a boat to a tree** qayiqni daraxtga bog'lamoq; 2) mustahkamlamoq, biriktirmoq; 3) yopmoq; **~ the window** derazani yoping (*deraza sumbasini solish*); 4) qotmoq, yopishmoq; **the plaster ~s slowly** suvoq sekin qotadi; 5) (*diqqatni, e'tiborni*) jamlamoq, to'plamoq, qaratmoq; **he ~ed his eyes on the picture** u rasmdan ko'zini uzmasdi; 6) **(on, upon)** majburan qabul qildirmoq, bo'yniga ortmoq, o'tqazmoq; **to ~ the blame upon smb.** aybni birovga ag'darmoq
fastener [ˈfɑ:s(ə)nə] *n* 1) qulf, ilgak, zanjir, zulfin, tamba, tirgak; 2) qisqich, iskanja; 3) qog'oz qisqichi
fastening [ˈfɑ:s(ə)nɪŋ] *n* biriktirish, bog'lash, qistirib qo'yish
faster-than-sound [ˈfɑ:stəðənˈsaond] *a* tovushdan tez uchadigan; **~ aircraft** tovushdan tez uchadigan samolyot
fastfood [ˈfɑ:stfu:d] *n* tez yeb olinadigan taom (*gamburger, sosiska va b.*)
fasti [ˈfæsti:] *n lot.* solnoma, yilnoma (*zamondoshlar tomonidan yilma-yil yozib borilgan tarix*)
fastidious [fæˈstɪdɪəs] *a* 1) farqiga boradigan, tanlaydigan, talabchan, injiq; **don't be so ~** bunchalik injiq bo'lma; 2) nozik, nafis; **~ hands** bejirim qo'llar
fasting [ˈfɑ:stɪŋ] **1.** *n* ro'za; **2.** *a* ro'za tutgan; **3.** *adv* och qoringa
fastness [ˈfɑ:stnəs] *n* 1) pishiqlik, mustahkamlik; 2) chidamlilik; 3) qal'a, qo'rg'on, istehkom; 4) *biol.* organizmning ayrim zaharlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati
fat [fæt] **1.** *n* 1) yog', moy; **vegetable ~** o'simlik yog'i; 2) semizlik, to'lalik, yo'g'onlik; **to be inclined to ~** semirishga moyil bo'lmoq; 3) (*biror narsaning*) eng yaxshi qismi; **to live on the ~ of the land** dabdabali yashamoq, barcha qulayliklardan foydalanmoq; **2.** *a* 1) yog'li, moyli; **~ soup** yog'li sho'rva; 2) semiz, yo'g'on, to'la; **with years he was grown ~** yillar o'tib u semirib ketdi; 3) bo'rdoqiga boqilgan, semirtirilgan; **a ~ ox** semirtirilgan buqa; 4) hosildor, semiz (*yer haqida*); 5) mo'l-ko'l, boy, serob; **a ~ larder** to'la ombor; 6) *so'zl.* foydali, daromadli; **a ~ job** daromadli ish
fatal [ˈfeɪtl] *a* 1) peshanaga yozilgan, taqdirdagi; 2) halokatli, falokatli, mash'um; o'ldiradigan
fatalism [ˈfeɪtəlɪz(ə)m] *n* fatalizm (*taqdirga ishonish*)
fatality [fəˈtælɪtɪ] *n* 1) baxtsizlik, halokat, o'lim (*urush, baxtsiz hodisa va shu kabilarda*); 2) taqdir, qismat; peshana; **to believe in ~** taqdirga ishonmoq
fata morgana [ˌfɑ:təmɔ:ˈgɑ:nə] *n* 1) sarob; 2) Morgana sarobi (*bunda suv o'rnida turli narsalar ko'ringanday bo'ladi*)
fate [feɪt] *n* taqdir, qismat, peshana
fated [ˈfeɪtɪd] *a* oldindan belgilangan, peshanasiga yozilgan
fateful [ˈfeɪtf(ə)l] *a* muqarrar, peshanaga yozilgan
fat-free [ˌfætˈfri:] *a* yog'sizlantirilgan, yog'i olingan, ketkizilgan, yo'qotilgan, yog'dan tozalangan, yog'siz, moysiz (*taom haqida*)
fat-guts [ˈfætgʌts] *n so'zl.* semiz odam, yo'g'on odam
fat-head [ˈfæthed] *n* ahmoq, tentak, nodon
father [ˈfɑ:ðə] *n* 1) ota; **an adoptive ~** tutingan ota; **a natural ~** nikohsiz tug'ilgan bolaning otasi; 2) yaratuvchi, ijodkor; 3) katta a'zo (oqsoqol); **city ~s** shahar otalari; shahar boshqaruvi a'zolari; 4) ma'naviy ota, ruhoniy
Father Christmas [ˌfɑ:ðə ˈkrɪsməs] *n* qorbobo
father figure [ˈfɑ:ðəˌfɪgə] *n* insonlar o'z otalaridek sevib hurmat qiladigan kishi
fatherhood [ˈfɑ:ðəhod] *n* otalik, ota bo'lish
father image [ˈfɑ:ðə(r)ˌɪmɪdʒ] = **father figure**
father-in-law [ˈfɑ:ð(ə)rɪnlɔ:] *n* qaynata (*xotini yoki erining otasi*)
fatherland [ˈfɑ:ðəlænd] *n* vatan, yurt
fatherless [ˈfɑ:ðələs] *a* otasiz qolgan, otasiz
fatherly [ˈfɑ:ðəlɪ] *a* otalarcha, otaga xos; **~ responsibility** otalik javobgarligi
fathom [ˈfæð(ə)m] **1.** *n* 1) dengiz sarjini (= 6 *fut yoki 182 sm.*); 2) izobata (*xaritalarda: dengiz, daryo, ko'l chuqurligi birday bo'lgan joylarni birlashtiruvchi chiziqlar*); **~ line** *deng.* lot (*chuqurlikni o'lchash asbobi*); **2.** *v* 1) (*suvning*) chuqurligini o'lchamoq; 2) tushunmoq; **I can't ~ his meaning** u nima demoqchiligini men tushuna olmayapman
fathometer [fəˈθɔmɪtə] *n deng.* exolot (*dengiz chuqurligini elektroakustik usul bilan o'lchaydigan asbob*)
fathomless [ˈfæð(ə)mləs] *a* 1) o'lchab bo'lmaydigan; tubsiz; **the ~ depths of the sea** dengizdagi tubsiz chuqurlik; 2) aql yetmaydigan, aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan
fatidic(al) [feɪˈtɪdɪk(əl)] *a* payg'ambarga oid, payg'ambarona
fatigue [fəˈti:g] **1.** *n* 1) toliqish, charchash; 2) charchaganlik; charchatadigan ish; 3) *q.x.* oriqlash (*yer haqida*); **2.** *v* charchamoq, toliqmoq
fatigue-dress [fəˈti:gdres] *n harb.* askar korjomasi, askarning ishga kiyadigan kiyimi

fatigue-duty [fə'ti:g,dju:ti] *n harb.* safdan tashqari(dagi) naryad

fatigue-party [fə'ti:g,pɑ:ti] *n harb.* ishchi jamoa (guruh)

fatso ['fætsəo] *n so'zl.* semiz (yo'g'on) odam; semiz ayol, semiz qiz

fatstock ['fætstɔk] *n* so'yish uchun boqib semirtiriladigan mol

fatten ['fætn] *v* semirtirmoq, bo'rdoqiga boqmoq

fatty ['fæti] *a* 1) yog'li, moyli; 2) to'la, yo'g'on, semiz; **~ degeneration of the heart** yurakning yog' bosib ketishi

fatuity [fə'tju:iti] *n* ahmoqlik, befarosatlik, bema'nilik

fatuous ['fætjoəs] *a* ahmoqona, tentaknamo; **a ~ smile** bema'ni tabassum

fat-witted [,fæt'witid] *a* ahmoq, esi past, tentak, befarosat, befahm

faubourg ['fəoboəg] *n fr.* shahar atrofi, shahar chegarasiga tutashgan qishloq *yoki* posyolka

fauces ['fɔ:si:z] *n pl anat.* jig'ildon, kekirdak, halqum

faucet ['fɔ:sit] *n* 1) *amer.* vodoprovodning (suv quvurining) jo'mragi; 2) jo'mrak; 3) *tex.* vtulka; 4) tiqin

faugh [fɔ:] *int* tuf! tfu! (*nafratni ifodalaydi*)

fault [fɔ:lt] *n* 1) kamchilik, nuqson; **a ~ in cloth** gazlamadagi nuqson; 2) ayb, gunoh; **in (at) ~** aybdor; **I am not in ~** men aybdor emasman; **whose ~ is it?** bunda kim aybdor? 3) xato; **there's your ~** mana xatoyingiz nimada; 4) xato, nojo'ya ish, buzish (*qonun va b. ni*)

faultfinder ['fɔ:lt,faində] *n* aybsituvchi, tirnoq ostidan kir izlaydigan odam

faultfinding ['fɔ:lt,faindiŋ] *n* asossiz ayblash, aybsitish, tirnoq ostidan kir izlash

faultless ['fɔ:ltləs] *a* xatosiz, benuqson, bekam-ko'st; beayb

faultly ['fɔ:lti] *a* 1) nuqsonli, xatoli, nomukammal; 2) noto'g'ri, xato; **a ~ argument** noto'g'ri dalil; 3) buzilgan, shikastlangan, yaroqsiz

faun [fɔ:n] *n* favn (*yunon mifologiyasida: hosildorlik xudosi; chorvachilik, dala va o'rmonlar homiysi*)

fauna ['fɔ:nə] *n* fauna (*ma'lum joy yoki davrga oid hayvonot dunyosi*)

faunae ['fɔ:ni:] *pl of* **fauna**

faux pas [,fəo'pɑ:] *n* noto'g'ri qadam

favor ['feivə] *amer.* = **favour**

favorable ['feiv(ə)rəb(ə)l] *amer.* = **favourable**

favorite ['feiv(ə)rit] *amer.* = **favourite**

favour ['feivə] **1.** *n* 1) xayrixohlik, moyillik, mayl; **in ~ of** ...ning foydasiga, nomiga; **to find ~ in smb.'s eyes** birovning iltifotiga sazovor bo'lmoq; **to be in hight ~ with smb.** birovga juda yoqmoq; 2) iltifot ko'rsatish, iltifot, marhamat; **do me (him) a ~** menga (unga) iltifot ko'rsatsangiz; **to heap ~s upon smb.** kimnidir marhamatlar bilan ko'mib tashlamoq; afzallik berish, homiylik qilish (*nufuzli kishi tomonidan*); **to gain a position by ~ more than by merit** mansab (mavqe)ga xizmati tufayli emas, balki homiylik tufayli erishmoq; 4) qo'llab-quvvatlash; yordam, ko'mak; 5) ruxsat, ijozat; **by (with) your ~** ijozatingiz bilan; 6) xabar, xat; **your ~ of yesterday** sizning kechagi xatingiz; **2.** *v* 1) marhamat qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq; **fortune ~s the brave** baxt botirlarga yo'ldosh bo'ladi; **please ~ me with an answer** iltifot qilib savolimga javob bersangiz; 2) qulaylik tug'dirmoq, yordam bermoq; **the darkness ~ed his escape** qorong'ilik uning qochishiga qo'l keldi; 3) qo'llab-quvvatlamoq, homiylik qilmoq; 4) biror narsani eslatmoq, o'xshash bo'lmoq; **the child ~s his mother** bola onasiga o'xshaydi

favourable ['feiv(ə)rəb(ə)l] *a* 1) qulay, muvofiq keladigan; **~ wind** muvofiq shamol; 2) xayrixoh, moyil, ko'ngli yaqin; **he was quite ~ to our project** u bizning loyihamizga xayrixohlik bilan qaradi; 3) ma'qullaydigan, ijobiy; **a ~ answer** ijobiy javob

favoured ['feivəd] *a* 1) imtiyozli, imtiyozlardan foydalanadigan; afzal ko'radigan; **a ~ friend** sevimli do'st; 2) rohat-baxsh, orombaxsh (*iqlim va b. haqida*)

favourer ['feiv(ə)rə] *n* homiy, tarafdor

favourite ['feiv(ə)rit] **1.** *a* sevimli, jonajon, yaxshi ko'rgan; **2.** *n* eng yaxshi ko'rgan narsa

favouritism ['feiv(ə)ritiz(ə)m] *n* favoritizm, favoritchilik, afzallik, ortiq (afzal) ko'rish

fawn [fɔ:n] **1.** *n* 1) bug'u bolasi (*bir yoshgacha*); 2) sarg'ish-jigarrang; 3 *so'zl.* qullarcha xushomad qilish, qullarcha tiz cho'kish; **2.** *v* 1) dumini likillatmoq, suykalmoq (*it haqida*); 2) xushomad qilmoq, tiz cho'kmoq

fawn-coloured ['fɔ:n,kʌləd] *a* sarg'ish-jigarrang

fawner ['fɔ:nə] *a* xushomadgo'y, laganbardor

fawning I ['fɔ:niŋ] *n* buzoqlash, bolalash, tug'ish (*sigir, bug'u, los kabi hayvonlar haqida*)

fawning II ['fɔ:niŋ] *a* xushomadgo'ylarga xos, xushomadgo'ylarcha, xushomadgo'ylik (laganbardorlik) bilan qilingan

fax [fæks] **1.** *n* faks; **2.** *v* faks orqali jo'natmoq (yubormoq)

fay [fei] **1.** *n* 1) ishonch, e'tiqod; 2) sodiqlik, vafodorlik, sadoqat, vafo; 3) maftun qiladigan (sehrlab qo'yadigan) go'zal ayol; pari (*G'arbiy Yevropa afsonasida*); **2.** *v* zich biriktirmoq

faze [feiz] *v amer.* 1) bezovta qilmoq; 2) ranjitmoq

fealty ['fi:(ə)lti] *n tar.* qaram bo'lgan kishining feodalga sodiqligi

fear [fiə] **1.** *n* 1) qo'rqish, cho'chish; **needless ~s** o'rinsiz cho'chishlar; **to be in ~** qo'rqmoq; **the ~ of death was upon him** o'lim dahshati uni chulg'ab olgandi; 2) xavfsirash, cho'chish; **there is not the slightest ~ of rain today** bugun yomg'ir yog'ishidan darak beradigan hech qanday xavf-xatar yo'q; **2.** *v* 1) qo'rqmoq; **to ~ of** ...dan qo'rqmoq; **for ~ of** ...dan qo'rqib; **never ~** qo'rqmang; 2) xavfsiramoq, (*biror noxushlikni*) kutmoq

fearful ['fiəf(ə)l] *a* dahshatli, qo'rqinchli; **~ to do smth.** qo'rqib bir narsa qilmoq

fearfulness ['fiəf(ə)lnəs] *n* qo'rqoqlik, qo'rqinchlilik, dahshatlilik

fearless ['fiələs] *a* qo'rqmas, dadil, mard, jasur

fearlessness ['fiələsnəs] *n* mardlik, botirlik, qo'rqmaslik

fear-monger ['fiə,mʌŋgə] *n* vahimachi

fearnought ['fiənɔ:t] *n* patli qalin movut

fearsome ['fiəs(ə)m] *a* dahshatli, qo'rqinchli, dahshatga soladigan

feasibility [,fi:zə'biliti] *n* bajarsa bo'ladiganlik, amalga oshadiganlik

feasible ['fi:zəb(ə)l] *a* bajarilishi (amalga oshirilishi) mumkin bo'lgan

feast [fi:st] **1.** *n* 1) to'y, bazm, ziyofat; 2) bayram; **a ~ for the eyes** yoqimli tomosha; **2.** *v* bayram qilmoq

feast-day ['fi:stdei] *n* oilaviy tantana, oilaviy bayram

feat [fi:t] **1.** *n* 1) jasorat; **~ of arms** harbiy jasorat; 2) mahorat, chaqqonlik, san'at; **2.** *a esk.* epchil, chaqqon, abjir

feather ['feðə] *n* 1) pat, par (*parrandaniki*); **as light as a ~** pardek yengil; 2) *ov.* parranda; 3) biror yengil narsa, arzimas narsa

feather-bed [,feðə'bed] **1.** *n* parto'shak; 2) qulay joy; **2.** *v* erkalamoq, erkalatmoq

feather-brain ['feðəbrein] *n* yengiltak (betayin, yengiltabiat) odam

feather-brained ['feðəbreind] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq

feathered ['feðəd] *a* 1) par (pat) bilan qoplangan *yoki* bezatilgan; 2) par (pat) shaklidagi; 3) qanotli, qanoti bor, bar-

qanot, uchar: **our ~ friends** bizning qanotli do'stlarimiz (*qushlar*)

feather-grass ['feðəgrɑ:s] *n bot.* kovil, chalov

featherhead ['feðəhed] = **featherbrain**

feather-headed [ˌfeðə'hedid] = **feather-brained**

feathering ['feð(ə)riŋ] *n* pat, qush patlari

feather-pate ['feðəpeit] = **feather-brain**

feather-pated [ˌfeðə'peitid] = **feather-brained**

feather-stitch ['feðəstitʃ] *n* boshoqqa o'xshatib gul tikish

feather-weight ['feðəweit] *n* juda yengil odam *yoki* narsa

feathery ['feð(ə)ri] *a* patga o'xshagan

feature ['fi:tʃə] **1.** *n* 1) yuz tuzilishi; **she had oriental ~s** uning yuz tuzilishi sharqona edi; 2) xususiyat, o'ziga xos belgi; **the geographical ~ of a district** joyning o'ziga xos geografik xususiyatlari; 3) dastur, tomoshaning eng qiziqarli joyi; **the actress is the main ~ of the show** aktrisa tomoshaning tayanchi hisoblanadi; 4) maqola, ocherk (*gazetada, jurnalda*); 5) to'la metrajli film; **2.** *v* 1) o'ziga xos, farqlovchi xususiyat bo'lmoq; 2) tasvirlamoq, chizmoq; rasm solmoq; 3) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq (*ekranda*); 4) gazetada bermoq (*ko'rinadigan joyda*)

feature-length ['fi:tʃələŋθ] *a kino.* to'la metrajli

featureless ['fi:tʃələs] *a* hech narsa anglatmaydigan, ifodasiz

febrifuge ['febrifju:dʒ] **1.** *tib. n* isitma pasaytirgich (*dori*); **2.** *a* isitmani pasaytiradigan, haroratni tushiradigan

febrile ['fi:brail] *a* isitma vaqtida bo'ladigan, isitmali; **~ chill** isitma aralash titroq; **a ~ state** isitma holati

February ['febru(ə)ri] *n* fevral; **~ days** fevral kunlari

feces ['fi:si:z] *amer.* = **faeces**

fecit ['fi:sit] *v lot.* bajarildi, ijro etildi; tayyorladi (*rassomning imzosi*)

feck [fek] *n* 1) kuch; 2) aksariyat, ko'p qismi

feckless ['fekləs] *a* 1) foydasiz, befoyda; 2) qo'lidan hech narsa kelmaydigan

feculence ['fekjuləns] *n* quyqum, loyqa

feculent ['fekjulənt] *a* loyqalangan

fecund ['fekənd] *a* unumdor, hosildor

fecundate ['fekəndeit] *v* 1) hosildor qilmoq; 2) *biol.* urug'lamoq, homilador qilmoq

fecundity [fi'kʌnditi] *n* unumdorlik, hosildorlik

fed [fed] *past., p. p. of* **feed 2**

federal ['fed(ə)rəl] *a* 1) federal, ittifoqchi; 2) *amer.* federal hukumat, umumdavlat

federate ['fed(ə)rit] *a* federatsiyaga oid, federativ

federation [ˌfedə'reiʃ(ə)n] *n* federatsiya, ittifoq, birlashma

federative ['fed(ə)rətiv] *a* federal, federativ

fedora [fi'dɔ:rə] *n amer.* yumshoq fetr shlapa (*fetr – a'lo nav yupqa namatsimon mato*)

fed-up [ˌfed'ʌp] *a* biror narsadan juda to'ygan, biror narsa joniga tekkan

fee [fi:] **1.** *n* 1) qalam haqi, maosh, haq; **the lawyer's ~** advokat haqi; **tuition ~s** o'qish haqi; 2) choy puli; **~ s are prohibited here** bu yerda choy puli berilmaydi (*yozuv*); 3) badal; **admission ~** kirish badali; **entrance ~** kirish haqi; **2.** *v* 1) qalam haqi *yoki* maosh to'lamoq; 2) choy puli bermoq

feeble ['fi:b(ə)l] *a* 1) zaif, past, kuchsiz; bo'sh; **a ~ pulse** zaif puls; **to give a ~ moan** zaif ingramoq; **a ~ argument** ishonchsiz dalil; 2) zaif, kuchsiz, nimjon; **a ~ old man** kuchsiz qariya

feeble-minded [ˌfi:b(ə)l'maindid] *a* aqli kam, aqli past (zaif)

feed [fi:d] **1.** *n* 1) ovqatlantirish, boqish; **to ~ the horse** otni boqmoq; 2) oziqa, yem-xashak; **~ for sheep** qo'ylar uchun oziqa; 3) yaylov, o'tloq; **to be out at ~** yaylovda boqilmoq; 4) *tex.* ta'minot, ta'minlash, materialni uzatish; **2.** *v* **(fed)** 1) ovqatlantirmoq, boqmoq; **to ~ a baby at the breast** bolani ko'krak suti bilan boqmoq; 2) boqmoq, ta'minlamoq, qarab turmoq; **he has a family of 8 to ~** u sakkiz kishilik oilani boqishi kerak

feedback ['fi:dbæk] *n* fikr-mulohaza

feeder ['fi:də] *n* 1) ovqatlanuvchi, xo'randa; 2) *tex.* ta'minlovchi, uzatuvchi mexanizm; 3) yordamchi havo, avtobus *va b.* yo'li; 4) *q.x.* oziqa, ekin

feeding bottle ['fi:diŋˌbɔtl] *n* bolani ovqatlantirish uchun ishlatiladigan shishacha

feed-pipe ['fi:dpaip] *n tex.* ta'minlovchi quvur

feed-pump ['fi:dpʌmp] *n tex.* (*suyuqlik, gaz kabilar bilan*) ta'minlovchi nasos

feed-screw ['fi:dskru:] *n tex.* harakatlantiruvchi parrak

feed-stuff ['fi:dstʌf] *n* xashak, pichan, yem, oziqa, don

feed-tank ['fi:dtæŋk] *n* suv saqlanadigan katta idish

feed-trough ['fi:dtrɔf] = **feed-tank**

fee-faw-fum [ˌfi:ˌfɔ:'fʌm] *n* fu-fo-fam! (*ingliz ertaklarida odamxo'rning xitobi*)

feel [fi:l] **1.** *n* 1) sezish, his qilish; 2) sezgi, tuyg'u, his; **2. (felt)** *v* 1) sezmoq, his qilmoq; **I ~ ten years younger** o'zimni o'n yoshga yoshargandek his qilyapman; 3) idrok qilmoq, tushunmoq; 4) anglamoq; **he felt the truth of what was said** u aytilganlarning haqiqatligini anglab turardi

feeler ['fi:lə] *n zool.* paypaslagich, qisqich, mo'ylov

feeling ['fi:liŋ] **1.** *n* sezgi, hissiyot, nazar, his-hayajon; sezish; **2.** *a* sezgir, hushyor, ziyrak

feelingly ['fi:liŋli] *adv* hissiyot bilan, his-tuyg'u bilan

feet [fi:t] *pl of* **foot**

feeze [fi:z] **1.** *n* 1) tashvish, xavotirlik; 2) hayajonlanish, to'lqinlanish; **2.** *v* bezovta qilmoq

feign [fein] *v* 1) mug'ambirlik qilmoq, o'zini biror kuyga solmoq; 2) to'qimoq, o'ylab topmoq; **to ~ a story** hikoya to'qimoq

feigned [feind] *a* yasama, yolg'ondakam, ayyorona; **a ~ smile** yolg'ondakam tabassum

feignedly ['feinidli] *adv* yolg'ondakam, soxta, yasama, ayyorlarcha

feint [feint] *n* mug'ambirlik, ayyorlik, yasamalik; **to take a ~ of doing smth.** o'zini nimadir qilayotgandek tutmoq

feist [faist] *n amer.* kichkina kuchuk, kuchukcha

feisty ['faisti] *a* 1) quntli, g'ayratli, shiddatli, tirishqoq; 2) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik, terisi yupqa, jizzaki

feldspar ['feldspɑ:] *n min.* dala shpati (*silikatlar jinsiga mansub mineral*)

felicitate [fi'lisiteit] *v* tabriklamoq, qutlamoq, baxt tilamoq

felicitation [fiˌlisi'teiʃ(ə)n] *n* tabrik, qutlov, tabriknoma

felicitous [fi'lisitəs] *a* muvaffaqiyatli, o'ngidan kelgan; omadli, baxtli

felicity [fi'lisiti] *n* baxt, saodat, iqbol, omad

feline ['fi:lain] **1.** *n zool.* mushuksimonlar oilasiga mansub bo'lgan hayvon; **2.** *a zool.* 1) mushuksimonlarga oid; 2) ayyor, makkor

fell I [fel] *n* teri (*hayvonniki*)

fell II [fel] **1.** *n* kesish, daraxt kesish; **2.** *v* kesmoq, chopmoq, yormoq, tilmoq, arralamoq

fell III [fel] *past. of* **fall**

fella ['felə] *n so'zl. jirk.* tip, nusxa, yaramas

fellah ['felə] *n* (*pl* **-heen, -s** [-z]) falloh (*arab mamlakatlarida: dehqon*)

fellaheen [ˌfelə'hi:n] *pl of* **fellah**

feller ['felə] *n so'zl.* tip, nusxa, yaramas

felling ['feliŋ] *n* o'rmon (daraxt) kesish

felloe ['feləu] *n* g'ildirak, g'ildirakning to'g'ini (tegarchigi)

fellow ['feləʊ] *n* o'rtoq, oshna, og'ayni; **my dear ~** qadrdonim; **I shall never find his ~** men hech qachon unga teng keladiganini topolmayman

fellow-countryman [ˌfeləʊ'kʌntrɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) hamshahar, hamqishloq, vatandosh

fellow-feeling [ˌfeləʊ'fi:lɪŋ] *n* achinish, hamdardlik, rahm, shafqat

fellowship ['feləʊʃɪp] *n* o'rtoqlik, o'rtoqchilik

fellow-traveller [ˌfeləʊ'trævə(l)ə] *n* yo'ldosh, hamroh

felly ['felɪ] = **felloe**

felo-de-se [ˌfi:ləʊdə'seɪ] *n* o'zini-o'zi o'ldirgan (*o'z joniga qasd qilgan*) kishi

felon I ['felən] **1.** *a* jinoiy, jinoyatkorona; **2.** *n yur.* jinoyatchi

felon II ['felən] *n tib.* milkak (*tirnoq ostining yallig'lanib yiring boylashi*)

felones de se [ˌfeləʊni:zdi'si:] *pl of* **felo-de-se**

felonious [fɪ'ləʊnɪəs] *a yur.* jinoiy, jinoyatkorona

felonry ['felənrɪ] *n* jinoyatchi

felony ['felənɪ] *n yur.* og'ir jinoyat, qattiq jinoyat

felspar ['felspɑ:] = **feldspar**

felt I [felt] *n* kigiz, namat

felt II [felt] *past., p. p. of* **feel 2**

felt-tip (pen) [ˌfel(t)tɪp'pen] *n* flomaster (*bo'yog'i ichidan sizib keladigan, qalamsimon yozish, chizish, rasm solish quroli*)

felucca [fe'lʌkə] *n deng.* feluga (*kichikroq, yelkanli ov kemasi*)

female ['fi:meɪl] *n* 1) ayol, xotin kishi; **~s** xotin-qizlar; 2) *zool.* urg'ochi; makiyon

feme [fi:m] *n yur.* xotin, xotin kishi, ayol; **a ~ covert** turmushga chiqqan ayol; **a ~ sole** turmushga chiqmagan ayol (*asos., ajrashgan*)

feminine ['femɪnɪn] **1.** *a* xotin-qizlarga oid; **2.** *adv* xotin-qizlarcha

femininity [ˌfemɪ'nɪnɪtɪ] *n* nazokat, zarofat, ayollik xislati; **~ general** *gram.* ayollar jinsi

feminism ['femɪnɪz(ə)m] *n* feminizm (*ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi uchun kurashuvchi xotin-qizlar harakati*)

feminist ['femɪnɪst] *n* feminist (*feminizm tarafdori*)

feminize ['femɪnaɪz] *v* nozik (erka) qilib o'stirmoq; nozik (erka) bo'lib o'smoq

femme fatale [ˌfæmfə'tɑ:l] *n fr.* falokat keltiradigan ayol

femora ['femərə] *pl of* **femur**

femoral ['femərəl] *a anat.* songa oid, son

femur ['fi:mə] *n* (*pl* **-s** [-s], **femora**) *anat.* son

fen [fen] *n* botqoq, botqoqlik; **~ grass** botqoq o'ti

fence [fens] **1.** *n* 1) devor, to'siq; panjara, g'ov; **a green ~** yashil to'siq; 2) saqlovchi to'siq; 3) *sport.* qilichbozlik; **2.** *v* 1) to'smoq, o'rab olmoq; 2) qilichbozlik qilmoq; 3) to'g'ri javob berishdan qochmoq; 4) himoya qilmoq; **to ~ one's head from blows** boshini zarbalardan himoya qilmoq

fenceless ['fensləs] *a* ochiq, yalang, to'siqsiz

fence-month ['fensmʌnθ] *n* yilning ov qilish man etilgan fasli

fencer ['fensə] *n* 1) qilichboz; 2) g'ov-to'siqlar osha poygada qatnashadigan ot

fence-season ['fens,si:z(ə)n] = **fence-month**

fencing ['fensɪŋ] *n* 1) o'rab olish, to'sib olish; 2) to'siq, devor; 3) qilichbozlik qilish

fencing-cully ['fensɪŋ,kʌlɪ] *n* o'g'irlangan narsalarni yashirib saqlovchi *yoki* sotib oluvchi kishi

fencing-ken ['fensɪŋken] *n* o'g'irlangan narsalar yashirib qo'yiladigan *yoki* sotiladigan makon

fend [fend] *v* 1) qaytarmoq, daf qilmoq; 2) qarshi zarba bermoq

fender ['fendə] *n* 1) kamin panjarasi; 2) saqlovchi (himoyalovchi) panjara (*tramvay va b. da*); 3) avtomobil qanoti

fender-bender ['fendə,bendə] *n amer. so'zl.* yengil yo'l-transport hodisasi

fen-fire ['fen,faɪə] *n* goh u yerda, goh bu yerda ko'rinadigan shu'lalar (*botqoqliklardagi metan gazining lip-lip yonib ko'rinadigan shu'lalari*)

Fenian ['fi:nɪən] *n tar.* feniy (*Irlandiyani inglizlar saltanatidan ozod qilish uchun kurashuvchi maxfiy jamiyat a'zosi*)

fennel ['fen(ə)l] *n bot.* arpabodiyon (*soyabonguldoshlar oilasiga mansub efir moyli dorivor o'simlik*)

fenny ['fenɪ] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq

feoff [fef] *n tar.* len. feod (*o'rta asrlarda: feodal tomonidan o'ziga qaram bo'lgan kishiga berilgan yer-suv, mulk va undan olinadigan soliq, o'lpon*)

ferae naturae [ˌfe(ə)raɪnæ'tʊ(ə)raɪ] *a tot.* yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan

feral ['fɪ(ə)rəl] *a* 1) yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan; 2) dafn etishga (ko'mishga) oid; ko'mish; dafn, motam

feretory ['ferɪt(ə)rɪ] *n cherk.* 1) raka (*xristianlar cherkovida: avliyolar jasadi saqlanadigan maqbara*); 2) sag'ana, qabr

ferial ['fɪ(ə)rɪəl] *a* kundalik, har kungi, oddiy

ferine ['fɪ(ə)raɪn] *a* 1) yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan; 2) yovvoyilashgan; dalada bo'ladigan, daladagi (*o'simliklar haqida*); 3) qo'pol, madaniyatsiz, to'ng

ferity ['ferɪtɪ] *n* yovvoyilik, vahshiylik

ferment 1. *n* ['fɜ:ment] achitqi, xamirturush; **2.** *v* [fə'ment] achitmoq

fermentable [fə'mentəb(ə)l] *a* to'polonchi, janjalkash

fermentation [ˌfɜ:men'teɪʃ(ə)n] *n* 1) achish, bijg'ish, ko'pchish; 2) g'alayon, g'ulg'ula, shov-shuv, to'polon

fermi ['feəmɪ] *n fiz.* fermi (*uzunlikning xalqaro birliklar sistemasiga kirmaydigan birligi 10 –13 sm ga teng*)

fermion ['fɜ:mɪ,ɒn] *n fiz.* fermion (fermizarra), yarim-butun spinli zarra *yoki* kvazizarra: elektron, proton, neytron va b. (*shuningdek, kvarklar*)

fern [fɜ:n] *n bot.* qirqquloq

fernery ['fɜ:n(ə)rɪ] *n* qirqquloqlar o'stiriladigan joy

fern-owl ['fɜ:naʊl] *n zool.* tentakqush

ferny ['fɜ:nɪ] *a bot.* qirqquloqdoshlar, qirqquloqsimonlar

ferocious [fə'rəʊʃəs] *a* yovvoyi, vahshiy

ferocity [fə'rɒsɪtɪ] *n* yovvoyilik, vahshiylik, qahri qattiqlik, bag'ritoshlik, rahmsizlik

ferrate ['ferɪt] *n* ferrat, temir kislotasining tuzi

ferret ['ferɪt] *n zool.* sassiqkuzan

ferriage ['ferɪdʒ] *n* 1) sol *yoki* kemada daryodan suzib o'tiladigan joy; 2) (*transport vositasida*) narsalarni tashish

ferric ['ferɪk] *kim.* : **~ acid** temir kislotasi

ferriferous [fe'rɪf(ə)rəs] *a* tarkibida temir bo'lgan, temirli

ferris wheel ['ferɪs,wi:l] *n amer.* shayton g'ildirak, charxpalak (*o'yin-kulgi qurilmasi*)

ferrite ['feraɪt] *n kim.* ferrit (*uglerodning temirdagi qattiq eritmasi*)

ferroalloy [ˌferəʊ'ælɔɪ] *n* ferroqotishma, temir qotishma (*temirning biror boshqa element bilan qotishmasi*)

ferroconcrete [ˌferəʊ'kɒnkri:t] *n* temirbeton

ferromagnetic [ˌferəʊmæg'netɪk] *a fiz.* tez va kuchli ravishda magnitlanadigan

ferrotype ['ferə(ʊ)taɪp] *n sur.* ferrotipiya (*metallga fotografik surat tushirish usuli*)

ferrous ['ferəs] *a kim.* tarkibida temir bo'lgan

ferruginous [fə´ruːdʒɪnəs] *a* temirli, tarkibida temir bo'lgan
ferrule [´ferəl, ´ferəl] *n* metall gardish, chambarak, halqa
ferry [´ferɪ] **1.** *n* 1) kechuv, kechik (*sol yoki kemada daryodan suzib o'tiladigan joy*); 2) parom (*solsimon kichik kema*): **to cross the ~** boshqa qirg'oqqa o'tkazmoq; boshqa joyga o'tkazmoq; **2.** *v* (*daryodan*) olib o'tmoq
ferry-boat [´ferɪbəʊt] *n* parom; yassi kema
ferry-bridge [´ferɪbrɪdʒ] *n* kemalar to'xtaydigan joy bilan parom o'rtasidagi taxta, zina (*parom solsimon yassi kema*)
ferryman [´ferɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) daryodan o'tkazib qo'yuvchi, kemachi
fertile [´fɜːtaɪl] *a* unumdor, hosildor, serhosil; **~ in resources** resurslarga boy
fertility [fɜː´tɪlɪtɪ] *n* 1) unumdorlik, hosildorlik; 2) boylik, seroblik, mo'l-ko'llik
fertilization [ˌfɜːtɪlaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n* o'g'itlash, o'g'it solish
fertilize [´fɜːtɪlaɪz] *v* o'g'itlamoq, o'g'it (go'ng) solmoq
fertilizer [´fɜːtɪlaɪzə] *n* o'g'it, go'ng
ferula [´ferʊlə] = **ferule**
ferule [´feruːl] *n* 1) chizg'ich, xivich (*o'quvchilarni jazolash uchun*); 2) maktab intizomi, qattiq tartib
fervency [´fɜːvnsɪ] *n* 1) qizg'inlik, qiziqqonlik, tezlik; 2) g'ayrat, ishtiyoq
fervent [´fɜːv(ə)nt] *a* otashin, qizg'in, jo'shqin, issiq, qaynoq; **~ desire** jo'shqin orzu
fervid [´fɜːvɪd] *a* issiq, qaynoq, qizg'in, jo'shqin, g'ayratli
fervour [´fɜːvə] *n* qizg'inlik, jo'shqinlik, g'ayrat, ishtiyoq
fescue [´feskjuː] *n* 1) ko'rsatkich, tayoq; 2) *bot.* betaga (*g'allasimon o'simlik*)
festal [´festl] *a* 1) bayramga oid; 2) xushchaqchaq
fester [´festə] *v* ilviramoq, yiringlamoq; **~ing** gazak
festival [´festɪv(ə)l] *n* 1) tantanali bayram; 2) festival
festive [´festɪv] *a* 1) tantanali; quvnoq, xushchaqchaq; 2) bayramga oid, bayram: **a ~ evening** bayram kechasi
festivity [fe´stɪvɪtɪ] *n* tantanali bayram, xushchaqchaqlik
festoon [fe´stuːn] **1.** *n* gul (*barg, novda va sh. k.*) o'rimi, tizmasi, marjoni; **2.** *v* gullar bilan bezamoq
festschrift [´fest,ʃrɪft] *n nem.* buyuk olim *yoki* jamoat arbobining faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar to'plami
fetal [´fiːtl] *a zool.* embrionga oid, embrion holidagi, embrion...
fetch I [fetʃ] **1.** *n* 1) hiyla-nayrang, ayyorlik, makkorlik; **to cast a ~** tuzoq qo'ymoq; 2) zo'r berish; **to take a ~** zo'r bermoq, g'ayrat qilmoq; **2.** *v* 1) olib kelmoq; **to go and ~ a doctor** borib doktorni olib kelmoq; 2) qo'zg'amoq, sabab bo'lmoq (*ko'z yoshi va b.*); **to ~ a laugh from the audience** tomoshabinlarni kuldirmoq; 3) chiqarmoq, chiqishga majbur qilmoq; 4) urmoq, zarba bermoq; 5) *so'zl.* jalb qilmoq, maftun qilmoq
fetch II [fetʃ] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh
fetching [´fetʃɪŋ] *a* yoqimli, jozibador, jozibali, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq
fete, fête [feɪt] *fr.* **1.** *n* tantanali bayram, ziyofat, tantana; **2.** *v* bayram qilmoq, nishonlamoq
fête champêtre [ˌfeɪtʃɒm´petr(ə)] *n fr.* ochiq havoda (tabiat quchog'ida) o'tkaziladigan bayram; bog' sayri; sayr qilib dalaga chiqish
fête-day [´feɪtdeɪ] *n* tantanali bayram; biror munosabat bilan o'tkaziladigan shodiyona kun (tantana, bayram, ziyofat)
fetich(e) [´fiːtɪʃ] = **fetish**
fetid [´fiːtɪd] *a* sassiq, badbo'y, qo'lansa; **~ breath** og'izdan keladigan sassiq hid
fetish [´fiːtɪʃ] *n* 1) tumor; 2) but, sanam, sajdagoh
fetishist [´fetɪʃɪst] *n* ko'r-ko'rona ishonuvchi, sajda qiluvchi
fetlock [´fetlɒk] *n* ot to'pig'ining popugi
fetor [´fiːtə] *n* sassiq hid, badbo'ylik
fetter [´fetə] *n* 1) kishan, tushov (*otda*); 2) oyoqqa solinadigan kishan; **in ~s** kishanlangan; 3) kishan, zanjir, band, asorat; **to burst one's ~s** kishanlarni parchalamoq, ozod qilmoq
fetterless [´fetələs] *a* ozod, erkin, hur
fetterlock [´fetəlɒk] *n* ot kishani, tushovi
fettle [´fetl] *n* ahvol, holat, vaziyat; **in good ~** yaxshi holatda
fetus [´fiːtəs] *n* qorindagi bola, homila, embrion
feud [fjuːd] *n* 1) uzoq vaqt davom etadigan (*yoki avloddan avlodga o'tib ketadigan*) dushmanlik, adovat; **the right of ~** xun olish huquqi; 2) o'zaro (ichki) urush, o'zaro (ichki) nizolar
feudal [´fjuːdl] *a* feodal va feodalizmga oid; **a ~ system** feodal tuzum
feudalism [´fjuːdlɪz(ə)m] *n tar.* feodalizm (*feodallarning xususiy mulkchiligiga, dehqonlarning kuchidan foydalanishga asoslangan ijtimoiy tuzum*)
feudalist [´fjuːdlɪst] *n* 1) feodal; 2) feodal tuzumi tarafdori
feudality [ˌfjuː´dælɪtɪ] *n* feodalizm, feodal idora usuli
feudalize [´fjuːdlaɪz] *v* yerni feodal mulkiga aylantirmoq
feudatory [´fjuːdət(ə)rɪ] *a* 1) qaram, tobe; 2) feodal mulki, feodalga qaram yerlar
feu de joie [ˌfɜːdə´ʒwɑː] *n fr.* umumxalq tantanasida miltiqdan o'q uzib qutlash
feuilleton [ˌfɜːjˊtɒŋ] *n fr.* 1) gazetaning adabiyot, tanqid va b. ga bag'ishlangan qismi; 2) felyeton (*tanqidiy maqolalar*)
fever [´fiːvə] *n* 1) issiqlik, harorat; **he has a high ~** uning harorati baland; 2) asab buzilishi
fever blister [´fiːvəˌblɪstə] *n amer.* uchuq (*ko'pincha, labga chiqadi*)
fevered [´fiːvəd] *a* isitmali, bezovta, asabi buzilgan
feverfew [´fiːvəfjuː] *n bot.* murakkabgullilarga kiradigan ko'p yillik o'simlik
feverish [´fiːv(ə)rɪʃ] *a* 1) isitmali, isitma vaqtida bo'ladigan titrash; 2) hayajonlangan, iztirobli
feverous [´fiːv(ə)rəs] = **feverish**
few [fjuː] **1.** *n* 1) ayrimlar, ba'zilar; **~ of them had travelled** ularning ayrimlarigina (*ba'zilarigina*) sayohat qilgan; 2) **the ~** ozchilik; imtiyozlilar, baxtlilar; **the fortunate ~** sanoqli baxtlilar; **2.** *a* ozchilik, kamchilik; kam, oz; **he has but ~ chances** uning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kam
fewness [´fjuːnəs] *n* ozchilik, kamchilik, uncha ko'p emaslik
fey [feɪ] *a* halokatga mahkum, o'lishi aniq bo'lgan
fez [fez] *a* feska, hojido'ppi (*ba'zi Sharq mamlakatlarida kiyiladigan popukli bosh kiyim*)
fiacre [fɪ´ɑːkr(ə)] *n* kirakash ekipaj *yoki* fayton (*G'arbiy Yevropa shaharlarida*)
fiancé [fɪ´ɒnseɪ] *n* unashtirilgan yigit, qalliq, kuyov
fiancée [fɪ´ɒnseɪ] *n* unashtirilgan qiz, qalliq, kelin, yor
fiasco [fɪ´æskəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) muvaffaqiyatsizlik, ish unmaslik, omadsizlik
fiat [´faɪæt, ´fiːæt] *n lot.* 1) dekret (*qonun kuchiga ega bo'lgan qaror, farmoyish*); 2) farmon, buyruq
fib [fɪb] **1.** *n so'zl.* 1) uydirma, yolg'on, aldash; 2) zarba berish, urish; **to give a ~** urmoq, zarba bermoq; **2.** *v so'zl.* 1) uydirma to'qimoq, aldamoq; 2) zarbalarga ko'mib tashlamoq
fibber [´fɪbə] *n* uydirmachi, aldoqchi
fiber [´faɪbə] *amer.* = **fibre**
fiberglass [´faɪbəglɑːs] *n* fiberglas, shisha plastik materiallar
fibre [´faɪbə] *n* tola; ipak tolasi
fibred [´faɪbəd] *a* tolali, sertola

fibreglass [ˈfaɪbəglɑːs] = **fiberglass**

fibril [ˈf(a)ɪbrɪl] *n* 1) *anat.* ingichka asab tolasi; 2) *bot.* ildiz tuki (tukchasi)

fibrin [ˈfaɪbrɪn] *n fiziol.* fibrin (*qon ivishi natijasida hosil bo'ladigan erimaydigan oqsil modda*)

fibroid [ˈfaɪbrɔɪd] *a* tolali, sertola

fibroin [ˈfaɪbrəʊɪn] *n kim.* fibrion (*ipak tolalarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan oqsil modda*)

fibroma [faɪˈbrəʊmə] *n* (*pl* **-ta** [-tə]) *tib.* fibroma (*biriktiruvchi to'qimadan yuzaga kelgan zararsiz o'sma*)

fibromata [faɪˈbrəʊmətə] *pl of* **fibroma**

fibroses [faɪˈbrəʊsiːz] *pl of* **fibrosis**

fibrosis [faɪˈbrəʊsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-siːz]) *tib.* tolali to'qimalarning paydo bo'lishi (yuzaga kelishi)

fibrous [ˈfaɪbrəs] *a* tolali, sertola

fibster [ˈfɪbstə] *n so'zl.* yolg'onchi, aldoqchi, aldamchi, yolg'on gapiruvchi, uydirma

fibula [ˈfɪbjʊlə] *n* (*pl* **-lae** [-liː], **-s** [-z]) *anat.* kichik boldir suyagi

fibulae [ˈfɪbjʊliː] *pl of* **fibula**

fichu [ˈfiːʃuː] *n* to'rdan to'qilgan (jimjimador, to'rsimon) uchburchak ro'mol (*qiviq ro'mol*)

fickle [ˈfɪk(ə)l] *a* 1) o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, vaqtinchalik; 2) ishonchsiz; ~ **friends** ishonchsiz do'stlar

fickleness [ˈfɪklnəs] *n* o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish; aynish, aynib turish

fictile [ˈfɪktaɪl] *a* 1) loydan qilingan; 2) kulolchilikka oid

fiction [ˈfɪkʃ(ə)n] **1.** *n* 1) badiiy asar; 2) uydirma, to'qima, afsona; **2.** *a* uydirma, to'qima, yolg'on

fictional [ˈfɪkʃ(ə)nəl] *a* o'ylab topilgan

fictionalize [ˈfɪkʃ(ə)n(ə)laɪz] *v* to'qimoq, o'ylab topmoq

fiction-monger [ˈfɪkʃ(ə)n,mʌŋgə] *n* uydirmachi, g'iybatchi

fictitious [fɪkˈtɪʃəs] *a* 1) lof, to'qima, xayoliy, tasavvurdagi; **a ~ being** afsonaviy mavjudot; 2) qalbaki, yolg'ondakam; **a ~ marriage** qalbaki nikoh; 3) yolg'ondakam, soxta; ~ **tears** soxta ko'z yoshlari; ~ **fame** puch shuhrat

fictive [ˈfɪktɪv] *a* 1) o'ylab chiqarilgan, to'qilgan, to'qib chiqarilgan, uydirma; 2) soxta, yolg'ondakam, yasama, qalbaki

fid [fɪd] *n* pona, qoziq

fiddle [ˈfɪdl] **1.** *n so'zl.* g'ijjak, skripka; **2.** *v* skripka chalmoq

fiddle-case [ˈfɪdlkeɪs] *n* skripka g'ilofi

fiddle-de-dee [ˌfɪdldiˈdiː] *n* safsata, bo'lmag'ur gap, bema'ni gap

fiddle-faddle [ˈfɪdl,fædl] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* bekor yurmoq; **3.** *a* behuda, arzimas

fiddlehead [ˈfɪdlhed] *n deng.* kemaning tumshug'i (old qismi)ga o'yib o'rnatilgan bezak

fiddler [ˈfɪdlə] *n* skripkachi, g'ijjakchi

fiddlestick [ˈfɪdl,stɪk] *n mus.* kamoncha, kamon

fiddling [ˈfɪdlɪŋ] *a* quruq, bema'ni, behuda, ahamiyatsiz

fiddly [ˈfɪdlɪ] *a so'zl.* 1) chigal, chalkashgan, chigallashib (chalkashib) ketgan; 2) noqulay, nobop; 3) charchatadigan, zeriktiradigan

fidelity [fɪˈdelɪtɪ] *n* 1) sodiqlik, vafodorlik; 2) to'g'rilik

fidget [ˈfɪdʒɪt] **1.** *v* tashvishli harakat qilmoq, hayajonlanmoq, asabiylashmoq; **2.** *n* 1) tashvishli (notinch) holat; 2) notinch kishi

fidgety [ˈfɪdʒɪtɪ] *a* tinch turolmaydigan, sho'x; **a ~ child** tinch turmaydigan bola

fiducial [fɪˈdjuːʃ(ə)l] *a* ishonchga asoslangan

fiduciary [fɪˈdjuːʃɪərɪ] *n* 1) vasiy; 2) *yur.* ishonchli odam

fie [faɪ] *int.* tuf, tfu, tuf-e (*nafratlanish ma'nosida*)

fief [fiːf] *n tar.* feodalning yer-mulki

field [fiːld] **1.** *n* 1) dala, o'tzor, ekinzor; **a ~ of wheat** bug'doyzor; **flowers of the ~** dala gullari; 2) (*biror maqsadga mo'ljallangan*) maydon, joy; **a flying ~** uchish maydoni; 3) *geol.* kon; **diamond ~s** olmos konlari; 4) jang maydoni; **in the ~** safarda; urushda; harakatdagi armiyada; 5) soha, faoliyat sohasi; **a wide ~ for trade** savdo uchun keng imkoniyatlar; **he's the best man in his ~** u o'z sohasining eng yaxshi mutaxassisi; 6) *max.* dala, maydon; **a magnetic ~** magnit maydoni; **2.** *v* 1) to'pni qabul qilmoq (*kriketda*); 2) ochiq havoda (*don va b. ni*) quritmoq; 3) garov o'ynamoq, dov qo'ymoq

field-allowance [ˌfiːldəˈlaʊəns] *n harb.* dala ta'minoti hajmi (normasi); dalada bo'lgani uchun to'lanadigan ustama haq

field-artillery [ˈfiːldɑːˈtɪl(ə)rɪ] *n* (*yengil*) dala artilleriyasi

field-book [ˈfiːldbʊk] *n* yer o'lchamlari yozib boriladigan daftar

field court martial [ˌfiːld,kɔːtˈmɑːʃ(ə)l] *n* harbiy-dala sudi

field crops [ˈfiːld,krɒps] *n pl q.x.* dala ekinlari, dala ishlari

field-day [ˈfiːldeɪ] *n harb.* taktik mashg'ulot

field duty [ˈfiːld,djuːtɪ] *n* harakatdagi armiya safidagi xizmat

fielder [ˈfiːldə] = **fieldsman**

field-events [ˈfiːldɪ,vents] *n pl* sportning yengil atletika turi bo'yicha musobaqalar (*uloqtirish, sakrashlar*)

fieldfare [ˈfiːldfeə] *n zool.* 1) qorayaloq; 2) katta kulrang mayna

field-glass(es) [ˈfiːld,glɑːs(ɪz)] *n* dala durbini

field-gun [ˈfiːldgʌn] *n harb.* dala zambaragi

field hockey [ˈfiːld,hɒkɪ] *n* chim ustidagi xokkey

field-hospital [ˈfiːld,hɒspɪtl] *n* 1) dala gospitali; 2) sanitariya mashinasi

field-house [ˈfiːldˈhaʊs] *n* sport maydonidagi sport jihozlari turadigan va kiyim yechadigan joy (*bo'lma, xona*)

field kitchen [ˈfiːld,kɪtʃɪn] *n harb.* daladagi oshxona

field-marshal [ˈfiːldˈmɑːʃ(ə)l] *n* feldmarshal (*chor armiyasi va ba'zi xorijiy armiyalarda: oliy generallik va shu mansabga ega bo'lgan shaxs*)

field-mouse [ˈfiːldmaʊs] *n zool.* dala sichqoni

field-officer [ˈfiːld,ɒfɪsə] *n* shtab-ofitser (*chor armiyasida: polkovnik, podpolkovnik va mayor unvoni hamda shu unvonga ega bo'lgan shaxslar*)

fieldsman [ˈfiːldzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *sport.* (*kriket o'yinida*) qabul qiluvchi o'yinchi

field-sports [ˈfiːldspɔːts] *n pl* baliq ovi va boshqa ovlar bilan shug'ullanish

field-work [ˈfiːldwɜːk] *n* dala ishi

fiend [fiːnd] *n* 1) iblis, shayton; 2) yovuz, razil; 3) *amer.* **a dope ~** narkoman

fiendish [ˈfiːndɪʃ] *a* shafqatsiz, rahmsiz

fierce [fɪəs] *a* 1) yovuz, yirtqich; rahmsiz; **a ~ dog** tishlaydigan, qopag'on it; 2) qiziqqon, o'zini tutolmaydigan; 3) tetik, g'ayratli; 4) *amer.* jirkanch, iflos, juda yomon; 5) shiddatli, qattiq

fiery [ˈfaɪ(ə)rɪ] *a* 1) o'tga oid; alangali, otashli; ~ **sun** otashin quyosh; 2) *tog'.* gazli

fiesta [fɪˈestə] *n isp.* bayram, festival; karnaval

fife [faɪf] **1.** *n* qamishsurnay, qamish nay; **2.** *v* nay chalmoq

fifer [ˈfaɪfə] *n* naychi, surnaychi

fifteen [fɪfˈtiːn] *num.* o'n besh; **Room ~** o'n beshinchi xona

fifteenth [fɪfˈtiːnθ] *num.* o'n beshinchi, o'n beshinchi raqamli

fifth [fɪfθ] *num. ord.* beshinchi, beshinchi raqamli; **on the ~ of May** beshinchi mayda

fifthly [ˈfɪfθlɪ] *adv* beshinchidan

fifties [ˈfɪftɪz] *n pl* 1) ellikdan ellik to'qqizgacha bo'lgan sonlar; 2) (**the ~**) elliginchi yillar

fiftieth [ˈfɪftɪɪθ] *num. ord.* elliginchi; **he arrived ~** u elliginchi bo'lib keldi

fifty [ˈfɪftɪ] *n num. card.* ellik, ellikta

fifty-fifty [ˌfɪftɪ ˈfɪftɪ] *adv so'zl.* teng, bab-baravar, teng-baravar

fig I [fɪg] *n* 1) *bot.* anjir (*daraxti va mevasi*); **green ~s** yangi anjir; 2) arzimagan, befoyda narsa

fig II [fɪg] **1.** *n* 1) kiyim, libos; 2) holat, kayfiyat; **to be in good ~** yaxshi kayfiyatda bo'lmoq; **2.** *v* bezamoq, yasantirmoq

fight [faɪt] **1.** *n* jang, urushish, mushtlashish, yoqalashish; **2.** *v* (**fought**) jang qilmoq, mushtlashmoq, urushmoq

fighter [ˈfaɪtə] *n* askar, jangchi, kurashuvchi; **a ~ pilot** qiruvchi samolyot uchuvchisi

fighting [ˈfaɪtɪŋ] *a* 1) kurash, jang; **a hand-to-hand ~** qo'lma-qo'l kurash; 2) *harb.* jangovar; **a ~ speech** jangovar nutq; **a ~ machine** jangovar mashina, qiruvchi samolyot

fig-leaf [ˈfɪgli:f] *n* anjir bargi

figment [ˈfɪgmənt] *n* to'qima, uydirma, xayoliy narsa, yolg'on gap

fig-tree [ˈfɪgtri:] *n bot.* anjir daraxti

figurant [ˈfɪgjʊrənt] *n fr.* statist (*so'zsiz rollarni ijro etuvchi artist*)

figurante [ˌfɪgjʊˈrɒnt] *n fr.* statistka (*so'zsiz rollarni ijro etuvchi artist ayol*)

figuration [ˌfɪgjʊˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) ko'rinish, chiroy, ko'rk; 2) rasmiylashtirish; 3) bezatish

figurative [ˈfɪgjʊrətɪv] *a* majoziy, obrazli, kinoyaviy, serkinoya

figure [ˈfɪgə] **1.** *n* 1) qad-qomat, bo'ybast, jussa; 2) obraz, tasvir, shakl, haykal; **in ~s** raqam bilan; **2.** *v* (*grafik, diagramma va sh. k. bilan*) tasvirlamoq

figured [ˈfɪgəd] *a* gulga (naqshga) oid; gul..., naqsh..., jimjimador

figure-head [ˈfɪgəhed] *n* 1) nomigagina boshliq; 2) *deng.* kema tumshug'ini bezash

figure-of-eight [ˌfɪgə(r)əvˈeɪt] *a* sakkiz shaklidagi narsa; **a ~ attack** sakkizlik hujum (*basketbolda*)

figure-skating [ˈfɪgəˌskeɪtɪŋ] *n* figurali uchish (*konkida*)

figure work [ˈfɪgəwɜ:k] *n poligr.* terilgan harflar to'plami (jadvali)

figurine [ˌfɪgjʊˈri:n] *n* haykalcha

filaceous [fɪˈleɪʃəs] *a bot.* tolali o'simliklarga oid

filagree [ˈfɪləgri:] = **filigree**

filament [ˈfɪləmənt] **1.** *n* tola; **2.** *attr*: **a ~ lamp** cho'g'lanma lampa

filamentary [ˌfɪləˈment(ə)rɪ] *a* tolali, sertola

filamentous [ˌfɪləˈmentəs] *a* tolali, sertola

filar [ˈfaɪlə] *a tex. a* ipga oid, ip...

filature [ˈfɪlətʃə] *n* 1) ipak yigirish; 2) ipak yigirish fabrikasi

filbert [ˈfɪlbət] *n bot.* 1) funduk (*Kavkaz va Qrimda o'sadigan yong'oq daraxti*); 2) yong'oq daraxti

filch [fɪltʃ] **1.** *n* o'g'ri, mayda o'g'rilik; **2.** *v* o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, o'g'irlab kelmoq

file I [faɪl] **1.** *n* egov; **2.** *v* egovlamoq; silliqlamoq

file II [faɪl] **1.** *n* tikilgan hujjatlar, qog'ozlar; **2.** *v* hujjatga tikib qo'ymoq

file cabinet [ˈfaɪlˌkæbɪnɪt] kartoteka (*biror soha bo'yicha ma'lumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yig'indisi*)

file-cutter [ˈfaɪlˌkʌtə] *n* arrani tishlaydigan, arraning tishini o'tkirlaydigan kishi

filet [ˈfɪleɪ] *n* file (*ip to'rga gul solib tikish yoki to'rsimon to'qimagul*)

filial [ˈfɪlɪəl] 1. *a* o'g'ilga (*farzandga*) oid, o'g'il (*farzand*); **~ duty** o'g'illik burchi; **2.** *n* bo'lim, filial

filiation [ˌfɪlɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) kelib chiqish, paydo bo'lish; nasl; 2) filial (*biror idora yoki korxonaning mahalliy bo'limi*)

filibeg [ˈfɪlɪbeg] *n* shotland askari yubkasi

filibuster [ˈfɪlɪbʌstə] *n* dengiz qaroqchisi

filicide [ˈfɪlɪsaɪd] *n* 1) bola o'ldirish, bolani o'ldirish; 2) bolalarini o'ldirgan kishi

filiform [ˈfaɪlɪfɔ:m] *a* ipsimon, tolasimon; ipga (tolaga) o'xshagan

filigree [ˈfɪlɪgri:] *n* nozik (nafis) ish

filing [ˈfaɪlɪŋ] *n* 1) qipiq, payraha, qirindi; 2) temir kukuni

filing cabinet [ˈfaɪlɪŋˌkæbɪnət] *n* 1) hujjatlar saqlaydigan javon; 2) kartoteka (*biror soha bo'yicha ma'lumotlar yozilgan va tartibga solingan kartochkalar yig'indisi*)

fill [fɪl] **1.** *v* 1) (**with**) to'ldirmoq; **to ~ in a form** blankani to'ldirmoq, to'lg'azmoq; **to ~ with** ... bilan to'lmoq (to'ldirmoq); **to ~ a bucket with water** chelakni suv bilan to'ldirmoq; 2) *amer.* tishni plomba qilmoq; 3) ovqatlantirmoq, to'ydirmoq; 4) (*vazifa, burchni*) bajarmoq; 5) (*idishni yonilg'i bilan*) to'ldirmoq; **2.** *n* yetarli miqdor

fill-dike [ˈfɪldaɪk] *n shotl.* yomg'irli davr, seryomg'ir vaqt

filler [ˈfɪlə] *n* to'ldiruvchi kishi *yoki* narsa

fillet [ˈfɪlɪt] **1.** *n* lenta, tasma, jiyak; **2.** *v* lenta bilan bog'lamoq

fill-in [ˈfɪlɪn] *n* vaqtinchalik o'rnini oluvchi (almashtiruvchi)

filling [ˈfɪlɪŋ] **1.** *n* 1) to'ldirish; 2) tish plombasi; **2.** *v* to'ldirmoq, to'latmoq

filling-station [ˈfɪlɪŋˌsteɪʃ(ə)n] *n amer.* avtomobillarga yonilg'i quyish tarmog'i

fillip [ˈfɪlɪp] **1.** *n* 1) chertki, chertish; **to give a ~** chertmoq; 2) mayda, arzimaydigan narsa; **2.** *v* 1) chertmoq; 2) rag'batlantirmoq; yordam bermoq

fillister [ˈfɪlɪstə] *n tex.* 1) bosma qog'ozni ma'lum tartibda buklash; 2) novranda; 3) novranda bilan randalash

filly [ˈfɪlɪ] *n* 1) kichkina biya, baytal; 2) *so'zl.* sho'x qizcha

film [fɪlm] **1.** *n* 1) plyonka (*parda, po'st*); 2) fotoplyonka (*surat tushiriladigan lenta*); kinoplyonka; **coloured ~** rangli plyonka; 3) (*kino*) film, (*kino*) kartina; **a feature ~** badiiy film; **a colour ~** rangli film; 4) kino san'ati; **the art of the ~** kino san'ati; **a ~ actor** kinoaktyor; **a ~ play** kinokartina; **a ~ studio** kinostudiya; 5) yengil tuman; **2.** *v* 1) suratga olmoq (*kinofilm, fotoplyonka*); 2) ekranlashtirmoq; **the story won't ~ well** bu hikoyani ekranlashtirib bo'lmaydi; 3) filmga tushmoq (*rol o'ynamoq*); **this actor has been ~ing for many years** bu aktyor ko'p yillardan buyon kinoda o'ynaydi

filmland [ˈfɪlmlænd] *n* kino olami; **a ~ actor** kinoaktyor

film star [ˈfɪlmstɑ:] *n* kinoyulduz (*mashhur kino artisti*)

film-strip [ˈfɪlmˌstrɪp] *n* diafilm, diapozitiv film

film test [ˈfɪlmtest] *n* rolni bajaradigan shaxsni sinab ko'rish (*kinoproba*)

filmy [ˈfɪlmɪ] *a* 1) xira, sal-pal bilinadigan; 2) o'rgimchak uyasidek yupqa

filoselle [ˈfɪləsel] *n* xom ipak

filter [ˈfɪltə] **1.** *n* filtr, suzg'ich; **~ cloth** havo o'tkazadigan mato; **2.** *v* filtrlamoq, suzmoq

filter-bed [ˈfɪltəbed] *n tex.* filtrlaydigan qatlam

filter-tipped [ˌfɪltə ˈtɪpt] *a* filtrli, suzg'ichli; **a ~ cigarette** filtrli sigaret

filth [fɪlθ] *n* kirlik, ifloslik

filthy [ˈfɪlθɪ] *a* 1) iflos, kir, bulg'anch; 2) ablahona, yaramas, razil, qabih, jirkanch

filtrate 1. *n* [ˈfɪltrɪt] filtrat (*filtrdan, suzg'ichdan o'tkazilgan suyuqlik*); **2.** *v* [ˈfɪltreɪt] suzmoq, suzg'ichdan o'tkazmoq

fin [fɪn] **1.** *n* (*baliqning*) suzgichi; **2.** *v* suzgichlar bilan suvni kesmoq

finable [ˈfaɪnəb(ə)l] *a* 1) jarima solinadigan; 2) tozalashga chidayolmaydigan (*dosh berolmaydigan*)

finagle [fɪˈneɪg(ə)l] *v so'zl.* aldamoq, aldab ketmoq, firib bermoq

final [ˈfaɪn(ə)l] *a* oxirgi, so'nggi, hal qiluvchi; **the ~ day of the term**

mashg'ulotlarning yakunlovchi oxirgi kuni

finale [fi´nɔ:li] *n mus.* oxir, so'ng, natija, yakun

finalist [´fain(ə)list] *n sport.* finalist, finalchi, yakuniy musobaqalar ishtirokchisi

finality [fai´nælıtı] *n* tugaganlik, yakunlaganlik; yakunlanish, yakuniy jarayon

finalize [´fain(ə)laiz] *v* tugatmoq; tamomlamoq, tugallamoq, yakunlamoq

finally [´fainəli] *adv* nihoyat, yakunida, oxiri(da); **~ I have to say...** oxirida men aytmoqchimanki...

finance **1.** *n* [´fainæns] *pl* moliya mablag'lari, pul mablag'lari; **Ministry of F.** Moliya vazirligi; **2.** *v* [fai´næns] mablag' bilan ta'minlamoq

financial [f(a)i´nænʃ(ə)l] *a* moliyaviy; **a ~ system** moliyaviy tizim

financier [f(a)i´nænsıə] *n* moliyachi, moliyashunos

fin-back [´finbæk] *n zool.* qorin terisi qat-qat bo'lib buklangan-tirishgan katta kit

finch [fintʃ] *n* 1) *zool.* vyurok (*chumchuqsimonlar turkumiga mansub qush*); 2) zyablik (*sayroqi qush*)

find [faind] **1.** *n* 1) topildiq, topilgan narsa; 2) *tog'.* yangi topilgan kon; **2.** *v* (**found**) topmoq, izlab topmoq; **I can't ~ my book anywhere** men kitobni hech qayerdan topa olmayapman; 2) ochmoq; 3) bilib olmoq; **to ~ out** bilmoq, oydinlashtirmoq, aniqlamoq; **I found the key missing** men kalit yo'qligini bildim; 4) ...deb hisoblamoq, topmoq; **to ~ it impossible** iloysiz deb hisoblamoq; 5) *yur.* hukm chiqarmoq; 6) ta'minlamoq; **the hotel doesn't ~ tea** mehmonxona choy bilan ta'minlamaydi; 7) *mat.* hisoblab chiqarmoq; 8) uchratmoq, duch kelmoq

finder [´faində] *n* qidiruvchi, izlovchi

finding [´faindıŋ] *n* 1) topilgan narsa; 2) hukm (*sud*)

fine [fain] **1.** *a* 1) yaxshi, aniq; **a ~ day** yaxshi kun; 2) zo'r, ajoyib, xushchaqchaq; **a ~ woman** ajoyib ayol; 3) yupqa, ingichka; **~ thread** ingichka ip; 4) mayda; **~ sand** mayda tuproq; 5) toza; sof; 6) yirik, katta; **a ~ baby** katta bola; 7) did bilan kiyingan; yorqin, charaqlagan; **2.** *n* jarima; **a heavy~** katta jarima; **3.** *v* jarima solmoq, jarima to'latmoq

fine-draw [´faindrɔ:] *v* (**fine-drew; fine-drawn**) bilinmaydigan qilib chok tikmoq

fine-drawn [ˌfain´drɔ:n] **1.** *p. p. of* **fine-draw**; **2.** *a* 1) juda yupqa; 2) bilinmaydigan qilib tikilgan; 3) *sport.* (*ortiqcha vaznsiz*) yaxshi tayyorlangan, tayyorgarligi yaxshi

fine-drew [´faindru:] *past. of* **fine-draw**

fine-fleece [ˌfain´fli:s] *a* mayin junli; **a ~ sheep** mayin junli qo'y

fine-grained [ˌfain´greind] *a* mayda donali

finely-fibred [ˌfainli´faibəd] *a* ingichka tolali

fineness [´fainnəs] *n* nafis, ingichka; **the ~ of thread** ipning ingichkaligi

finery [´fain(ə)rı] *n* 1) yaxshi kiyinish; 2) qimmatbaho zeb-ziynatlar

fine-spun [ˌfainspʌn] *a* jimjimador, murakkab

finesse [fi´nes] *n* mohirlik, ustalik, mahorat

fine-tune [´faintju:n] *v* (*radiopriyomnik, mexanizm va b. ni*) sozlamoq, rostlamoq, to'g'rilamoq

finger [´fıŋgə] **1.** *n* 1) barmoq; **index (first) ~** ko'rsatkich barmoq; 2) soat mili (strelkasi); **2.** *v* 1) qo'l bilan tegmoq; 2) musiqa asbobini chalmoq

finger-alphabet [´fıŋgə(r)ælfəbet] *n* karsoqovlarning alifbosi

finger-board [´fıŋgəbɔ:d] *n mus.* 1) grif (*cholg'u asboblari dastasi bo'ylab yopishtirilgan plastinka, parda*); 2) klaviatura (*klavishlar majmuyi*)

finger-bowl [´fıŋgəbəul] *n* kichkina idish (*ovqatdan keyin yeyiladigan meva va shirinlik yegandan so'ng barmoqlarni chayqaydigan idish*)

finger-end [´fıŋgə(r)end] = **fingertip**

finger-flower [´fıŋgəˌflauə] *n bot.* digitalis (*dorivor o'simlik turi*)

finger-glass [´fıŋgəglɑ:s] = **finger bowl**

fingerhold [´fıŋgəhəuld] *n* liqillab turadigan tirgak

finger-hole [´fıŋgəhəul] *n mus.* klapan, tugmacha (*puflab chalinadigan musiqa asbobi teshigini ochib-yopib turadigan tili, pardasi*)

fingering [´fıŋg(ə)rıŋ] *n* 1) barmoqlarning biror narsaga sal tegishi; 2) *mus.* biror musiqa asbobini chalish; 3) (*paypoq to'qish uchun ishlatadigan*) ingichka jun ip

finger-mark [´fıŋgəmɑ:k] **1.** *n* barmoq dog'i; **2.** *v* kir barmoqlar bilan ushlamoq

finger-nail [´fıŋgəneil] *n* tirnoq

finger-plate [´fıŋgəpleit] *n* kalit solinadigan teshik qoplamasi, eshik qulfi burnining qoplamasi

finger-post [´fıŋgəpəust] *n* yo'lning ayrilish joyidagi ko'rsatkich belgisi (*ko'pincha, barmoq shaklida*)

finger-print [´fıŋgəprınt] **1.** *n* barmoq izi; **2.** *v* barmoq izini olmoq

finger-tip [´fıŋgəˌtıp] *n* barmoqning uchi

finical [´finik(ə)l] *a* talabchan, sinchkov

finicking [´finikiŋ] = **finical**

fining [´fainiŋ] *n* tozalash

finis [´finis] *n lot.* oxir, poyon, yakun, tamom, nihoyat, so'ng

finish [´finiʃ] **1.** *n* 1) so'ng, oxir; **to fight to a ~** oxirigacha kurashmoq; 2) *sport.* finish; **2.** *v* 1) oxirlatmoq, tugatmoq; **to ~ one's work** ishni tugatmoq; 2) oxirigacha olib bormoq; **to ~ a book** kitobni oxirigacha o'qimoq; 3) tugatmoq, o'ldirmoq; **the news will about ~ your father** bu xabar otangizni o'ldirishi mumkin; 4) tugatmoq (*ta'lim to'g'risida*); 5) *sport.* tugatmoq; tamomlamoq, nihoyasiga yetkazmoq

finished [´finiʃt] *a* tugal, mukammal, to'liq; **~ goods** tayyor mahsulotlar

finisher [´finiʃə] *n to'q.* gazlama, teri va shu kabilarga maxsus moddalar bilan oxirgi ishlov beruvchi kishi

finishing [´finiʃiŋ] **1.** *n to'q.* teri bo'yash uchun ishlatiladigan modda, lok; **2.** *a* yakunlovhci, oxirgi, so'nggi

finite [´fainait] *a* 1) cheklangan; 2) *gram.* shaxsga oid; shaxs... (*fe'llar to'g'risida*)

fink [fiŋk] *n amer.* ish tashlash vaqtida ish tashlamay ish tashlovchilarga xiyonat qiluvchi shaxs

Finn [fin] *n* fin (*Finlandiyaning asosiy aholisi*); fin ayoli

finnan [´finən] *n* dudlangan piksha (*piksha – treskasimonlar oilasiga mansub baliq*)

Finnic [´finik] *a* finlarga oid, fincha

Finnish [´finiʃ] **1.** *n* fin tili; **2.** *a* finlarga oid, fincha

Finno-Ugric [ˌfinəu´jugrik] *a* fin-ugor (lar)ga oid; fin-ugor(lar)... (*til haqida*)

finny [´fini] *a shoir.* balig'i ko'p, serbaliq

fiord [fjɔ:d] *n norv.* fiord (*qirg'oqlari qoyali, tor va chuqur dengiz ko'rfazi*)

fir [fə:] *n bot.* archa

fir-cone [´fə:kəun] *n* archa g'uddasi

fire [´faiə] **1.** *n* 1) olov, o't; **an under ~** o't ichida (ostida), o'q ichida (ostida); **to be on ~** yonmoq; o't olmoq; 2) o't qalash, o'choq, o'txona; **an electric ~** elektr pechkasi; 3) yong'in; **forest ~s** o'rmon yong'ini; 4) *sheva.* isitma; 5) *harb.* o't; **to open ~** o't ochmoq; **between two ~s** ikki o't orasi; **there is no smoke without ~** *maq.* olovsiz tutun bo'lmas; **a little ~ is quickly trodden out** yong'inga qaraganda uchqunni o'chirish osonroq, uchqunni o't olguncha o'chir; **2.** *v* 1) o't qo'ymoq; **to ~ a house** uyga o't qo'ymoq; 2) portlatmoq; **to ~ a hole** tog' kovagini portlatmoq; 3) pechkaga o't yoqmoq; **to ~**

away 1) gapirishni boshlamoq; 2) (*patronlarni*) otib tashlamoq; **to ~ out** haydamoq, ishdan bo'shatmoq

fire-alarm ['faɪ(ə)rə,lɑ:m] *n* yong'in trevogasi, yong'in signali

fire-arm ['faɪ(ə)rɑ:m] *n* o'q otadigan qurol, otish quroli

fire-hall ['faɪəbɔ:l] *n* 1) bolid (*katta yorqin meteor „uchar yulduz"*); 2) sharsimon chaqmoq

fire-bar ['faɪəbɑ:] *n tex.* kolosnik (*o'txona panjarasi*)

fireboat ['faɪəbəʊt] *n* o't o'chiruvchi kema, o't o'chirish kemasi

fire-bomb ['faɪəbɒm] *n* yondiruvchi bomba

fire-box ['faɪəbɒks] *n tex.* o'txona, o'choq

fire-brand ['faɪəbrænd] *n* yarmi kuygan o'tin, so'xta o'tin, so'xta, chala kuyuk

fire-break ['faɪəbreɪk] *n* yong'inga qarshi (qo'llanadigan) mudofaa chizig'i (*yong'inning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun ishlatiladi*)

fire-brick ['faɪə,brɪk] *n* o'tga (olovga) chidamli g'isht

fire-bridge ['faɪəbrɪdʒ] *n tex.* o'txona ostonasi (bo'sag'asi)

fire brigade ['faɪəbrɪ,geɪd] *n* o't o'chirish (o'chiruvchilar) jamoasi

fire-bug ['faɪəbʌg] *n* 1) *zool.* tillaqo'ng'iz; 2) o't qo'yuvchi

fire-clay ['faɪəkleɪ] *n* o'tga, olovga chidamli loy

fire-cock ['faɪəkɒk] *n* o't o'chirish krani

fire-company ['faɪə,kʌmpəm] *n* 1) o't o'chirish jamoasi; 2) yong'inga qarshi sug'urta jamiyati

fire-control ['faɪəkən,trəʊl] *n* 1) *harb.* o'q otishni boshqarish; 2) o'rnom yong'iniga qarshi kurashish

firecracker ['faɪə,krækə] *n amer.* mushakbozlik

fire-damp ['faɪədæmp] *n* 1) kon gazi; 2) portlovchi gaz (*vodorod bilan kislorodning portlovchi aralashmasi*)

fire-department ['faɪədɪ,pɑ:tmənt] *n amer.* o't o'chiruvchilar deposi

firedog ['faɪədɔ:] = **andiron**

fire-door ['faɪədɔ:] *n tex.* o'txona eshigi

fire-drill ['faɪədrɪl] *n* o't o'chiruvchilar jamoasining o'quv mashg'uloti

fire-eater ['faɪə(r),i:tə] *n* 1) olovni yutadigan kishi (fokuschi, ko'zboyloqchi); 2) duel (yakkama-yakka olishuv) qatnashchisi; urishqoq odam

fire-engine ['faɪə(r),endʒɪn] *n* 1) o't o'chirish mashinasi; 2) o't o'chirish nasosi

fire-escape ['faɪ(ə)rɪ,skeɪp] *n* 1) o't o'chiruvchilar narvoni; 2) zapas chiqish yo'li, yong'in bo'lganda binoni tark etish yo'li

fire-extinguisher ['faɪ(ə)rɪk,stɪŋgwɪʃə] *n* o't o'chirgich

fire-eyed ['faɪ(ə)raɪd] *a* otashin nigoh bilan

fire-fighter ['faɪə,faɪtə] *n* o't o'chiruvchi

firefly ['faɪəflaɪ] *n* yaltiroq (kechasi yaltirab ko'rinadigan) qo'ng'iz, tillaqo'ng'iz (*uchadigan*)

fire-glass ['faɪəglɑ:s] *n* pechkaning panjarali eshikchasi

fire-grate ['faɪəgreɪt] *n tex.* o'txona panjarasi

fireguard ['faɪəgɑ:d] *n* 1) kamin panjarasi; 2) o't o'chirish

fire-hose ['faɪəhəʊz] *n* o't o'chirish shlangi

fire hydrant ['faɪə,haɪdrənt] *n* o't o'chirish krani

fire-insurance ['faɪə(r)ɪn,ʃʊ(ə)rəns] *n* yong'inga qarshi sug'urta qilish

fire-irons ['faɪ(ə)raɪənz] *n pl* kamin asboblari: temir kosov, qisqich, kurakcha (*kamin – o'choqsimon uy pechkasi*)

fire-light ['faɪəlaɪt] *n* alanga yorug'ligi

firelighter ['faɪə,laɪtə] *n* tutantiriq (*o't oldirib olish uchun xizmat qiladigan mayda tarasha va sh. k.*)

firelock ['faɪəlɒk] *n* 1) chaqmoq miltiq; 2) chaqmoq miltiqning zatvori (*qulflovchi mexanizmi*)

fireman ['faɪəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) o't o'chiruvchi; 2) kochegar, o'tyoqar

fire office ['faɪə(r),ɒfɪs] *n* yong'inga qarshi sug'urta qilish jamiyati

fire-pan ['faɪəpæn] *n* manqal(don), kabob qo'ra

fire-place ['faɪəpleɪs] *n* kamin (*o'choqsimon uy pechkasi*)

fire-plug ['faɪəplʌg] *n* o't o'chirish krani

fire-policy [,faɪə 'pɒlɪsɪ] *n* yong'indan sug'urta qilinganligi haqidagi hujjat

firepower ['faɪə,paʊə] *n harb.* o't ochish (o'qqa tutish, o'q yog'dirish) quvvati; otish qurollarining quvvati

fireproof ['faɪəpru:f] *a* 1) yonmaydigan, yonmas; 2) o'tga chidamli, olovbardosh

fire-raising ['faɪə,reɪzɪŋ] *n* o't qo'yish, yondirish, o't qo'yib yuborish

fire-screen ['faɪəskri:n] *n* 1) kamin ekrani; 2) yong'inga qarshi setka (to'r)

fire-ship ['faɪəʃɪp] *n deng.* o't o'chiruvchi kema

fireside ['faɪəsaɪd] *n* 1) oilaviy hayot; **~ comfort** oilaviy shinamlik; 2) kamin oldidagi joy

firespotter ['faɪə,spɒtə] *n* minoradagi o't o'chiruvchi

fire-squad ['faɪəskwɒd] *n* yong'inga qarshi guruh (brigada)

fire station ['faɪə,steɪʃ(ə)n] *n* o't o'chiruvchilar deposi

fire-step ['faɪəstep] *n harb.* o'q otish pog'onasi (*okopda*)

firetrap ['faɪətræp] *n* yong'in paytida undan chiqib ketish qiyin bo'lgan bino

fire-wall ['faɪəwɔ:l] *n qur.* brandmauer (*bino qismlarini bir-biridan ajratuvchi yonmaydigan g'ov-devor*)

firewarden ['faɪə,wɔ:dn] *n amer.* 1) o'rmon yong'inidan himoya qilish (qo'riqlash) boshlig'i; 2) brandmeyster (*o't o'chiruvchilar jamoasining boshlig'i*)

fire-watcher ['faɪə,wɒtʃə] = **firespotter**

fire water ['faɪə,wɔ:tə] *n so'zl.* „olovli suv" (*araq va b.*)

firewood ['faɪəwʊd] *n* o'tin

firework ['faɪəwɜ:k] *n* mushakbozlik

fire-worker ['faɪə,wɜ:kə] *n* mushakboz

fireworks ['faɪə,wɜ:ks] *n* serjahllik, jahli (achchig'i) tezlik, jizzakilik

fire-worship ['faɪə,wɜ:ʃɪp] *n* otashparastlik, majusiylik, o'tga cho'qinish

firing ['faɪ(ə)rɪŋ] *n* 1) otish, otishish; o't ochish; **cease ~!** o't ochishni to'xtating!; 2) yonilg'i; 3) otish, portlashni tayyorlash

firing ground ['faɪ(ə)rɪŋgraʊnd] *n* otish maydoni (*otish mashqlari, mashg'ulotlari o'tkaziladigan maydon*)

firing-line ['faɪ(ə)rɪŋlaɪn] *n harb.* olov chizig'i; **to be on the ~** olov chizig'ida bo'lmoq

firing party ['faɪ(ə)rɪŋ,pɑ:tɪ] *n harb.* salut berish (mushak otib qutlash) jamoasi

firing squad ['faɪ(ə)rɪŋ,skwɒd] *n harb.* otish vazifasini bajarish uchun tayinlangan (ajratilgan) jamoa

firkin ['fɜ:kɪn] *n* kichkina bochka

firm [fɜ:m] **1.** *n* 1) firma, savdo uyi; 2) odamlar guruhi; **2.** *a* 1) qattiq, qotib qolgan; **~ ground** quruqlik; 2) mustahkam; **~ nerves** mustahkam asab; 3) qattiq, ishonchli

firmament ['fɜ:məmənt] *n* osmon gumbazi

firman [fɜ:'mɑ:n] *n fors.* 1) farmon (*shoh yoki sultonning buyrug'i*); 2) ruxsatnoma, litsenziya

firmly ['fɜ:mlɪ] *adv* qat'iy, mustahkam, ishonchli

fir-needle ['fɜ:,ni:dl] *n* archaning ignali bargi

firry ['fɜ:rɪ] *a* qoraqarag'ayga oid; qoraqarag'aydan qilingan

first [fɜ:st] **1.** *num. ord.* birinchi; **~ form** birinchi sinf (*maktabda*); **for the ~ time** birinchi marta; **2.** *a num. ord.* 1) birinchi; ertangi; **the ~ thing to do** birinchi galda qilinadigan narsa; 2) bi-

rinchi, buyuk; **the ~ scholar of the day** zamonasining ilg'or (buyuk) olimi; **3.** *n* boshlanish, **at ~** avvalo, birinchidan; **4.** *adv* 1) avvalambor, avval; **to come ~** birinchi bo'lib kelmoq; 2) birinchilardan

first-aid [ˌfɜ:st´eɪd] *n* birinchi yordam, tez yordam; **to give ~ to smb.** kimgadir birinchi yordam ko'rsatmoq

first-born [´fɜ:stbɔ:n] *a* to'ng'ich; birinchi bo'lib tug'ilgan

first-chop [ˌfɜ:st´tʃɔp] *a* birinchi, birinchi navli

first-class [ˌfɜ:st´klɑ:s] *n* birinchi sinf, oliy nav, a'lo darajali; **a ~ hotel** a'lo darajadagi mehmonxona

first cost [´fɜ:stkɒst] *n* 1) tannarx; 2) boshlang'ich narx

first-cousin [ˌfɜ:st ´kʌz(ə)n] *n* amakivachcha, xolavachcha

First-day [ˌfɜ:st´deɪ] *n* (*kvakerlarda*) yakshanba (*kvaker – xristian dining Angliya va Amerikada tarqalgan bir mazhabiga mansub kishi*)

first-floor [ˌfɜ:st´flɔ:] **1.** *n* 1) ikkinchi qavat (*Buyuk Britaniyada*); 2) *amer.* birinchi qavat; **2.** *a* 1) ikkinchi qavatda joylashgan *yoki* ikkinchi qavatga taalluqli bo'lgan; 2) *amer.* birinchi qavatda joylashgan *yoki* birinchi qavatga taalluqli bo'lgan

first-foot [´fɜ:stfʊt] *n shotl.* yangi yilda kelgan birinchi mehmon

first-fruits [´fɜ:stfru:ts] *n pl* birinchi hosillar

first-hand [ˌfɜ:st´hænd] *a* birinchi qo'ldan olingan; **to have ~ knowledge** o'z tajribasidan bilmoq

firstling [´fɜ:stlɪŋ] *n pl* birinchi mevalar, natijalar

firstly [´fɜ:stlɪ] *adv* birinchidan

first name [´fɜ:stneɪm] *n* ism, nom, ot (*familiyadan farqli ravishda*)

first-night [ˌfɜ:st´naɪt] *n teatr.* premyera (*birinchi marta ko'rsatilayotgan tomosha*)

first-nighter [ˌfɜ:st´naɪtə] *n* teatr premyeralariga doim kelib turadigan kishi

first-rate [ˌfɜ:st´reɪt] *a* birinchi darajali; **~ quality** oliy sifat

first string [ˌfɜ:st´strɪŋ] *a* 1) ko'zga ko'rinarli, atoqli, mashhur, katta; muhim; 2) asosiy; eng muhim (*jamoa va b.*)

firth [fɜ:θ] *n* ko'rfaz, qo'ltiq

firtree [´fɜ:tri:] *n bot.* 1) oqqarag'ay; 2) qoraqorag'ay

fiscal [´fɪsk(ə)l] *a* moliyaviy, moliyaga oid

fish I [fɪʃ] **1.** *n* baliq; **2.** *v* baliq tutmoq

fish II [fɪʃ] *n* fishka (*turli o'yinlarda yutuqni hisoblash uchun ishlatiladigan tosh, soqqa va sh. k.*)

fish-ball [´fɪʃbɔ:l] *n* baliq va kartoshkadan tayyorlangan tefteli

fishbolt [´fɪʃbəʊlt] *n tex. tem. y.* ulanish (birikish) joyidagi bolt

fisher [´fɪʃə] *n esk.* baliqchi, baliq ovlovchi

fisherman [´fɪʃəmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) baliqchi

fishery [´fɪʃərɪ] *n* 1) baliqchilik; 2) serbaliq joy

fish farming [´fɪʃˌfɑ:mɪŋ] *n* baliq yetishtirish ishi; baliqchilik sanoati

fish-fork [´fɪʃfɔ:k] *n* baliq ovlaydigan changak, sanchqi

fish-gig [´fɪʃgɪg] *n* 1) garpun (*katta baliqlarni ovlashda otiladigan uzun nayza*); 2) baliq ovlaydigan changak, sanchqi

fish-hook [´fɪʃhʊk] *n* baliq ushlaydigan qarmoq

fishily [´fɪʃɪlɪ] *adv so'zl.* shubhalanib, shubha bilan, gumonsirab, ishonmay, ishonchsizlik bilan

fishing [´fɪʃɪŋ] *n* baliq tutish, baliq ovlash

fishing-line [´fɪʃɪŋlaɪn] *n* qarmoq ipi, qarmoq bog'langan ip

fishing-rod [´fɪʃɪŋrɔd] *n* 1) qarmoq yog'ochi, qarmoq sopi, qarmoq dastagi; 2) qarmoq

fish kettle [´fɪʃˌketl] *n* baliqni butunligicha pishirish uchun ishlatiladigan qozon

fish knife [´fɪʃnaɪf] *n* baliqlarni kesish uchun ishlatiladigan maxsus pichoq

fishmonger [´fɪʃmʌŋgə] *n* baliq sotuvchi

fishnet [´fɪʃnet] *a:* **~ stockings** to'rsimon ko'zli paypoq

fishplate [´fɪʃpleɪt] *n tem. y. tex.* ulanish (birikish, tutashish) joyidagi nakladka (*biror narsani yopib turadigan ustki qismi, detali*)

fishpond [´fɪʃpɒnd] *n* baliq yetishtirish uchun kovlangan sun'iy hovuz

fish-pot [´fɪʃpɒt] *n* chetan, qirtil (*baliq tutadigan voronkasimon savat*)

fish slice [´fɪʃslaɪs] *n* baliq maydalash uchun mo'ljallangan maxsus keng va to'g'ri burchakli oshxona pichog'i

fish-tackle [´fɪʃˌtæk(ə)l] *n* baliqchilik ashyolari, anjomlari

fishtail [´fɪʃteɪl] **1.** *n* baliqning dumi; **2.** *a* baliqning dumiga o'xshagan; **~ wind** yo'nalishini tez-tez o'zgartirib turadigan shamol

fishwife [´fɪʃwaɪf] *n* (*pl* **-wives** [-waɪvz]) 1) baqiroq (shang'i, to'polonchi) ayol; 2) baliq sotadigan ayol

fishy [´fɪʃɪ] *a* baliqsimon, baliqqa oid; baliq...

fissile [´fɪsaɪl] *a* yoriladigan, parchalanadigan

fission [´fɪʃ(ə)n] *n* 1) *biol.* hujayralarning bo'linishi; 2) yorilish, tilinish, bo'linish

fissionable [´fɪʃ(ə)nəb(ə)l] *a* parchalanadigan, tarkibiy qismlarga bo'linadigan

fissiparous [fɪ´sɪp(ə)rəs] *a biol.* bo'linish yo'li bilan ko'payadigan

fissure [´fɪʃə] *n* darz, yoriq, kovak

fist [fɪst] **1.** *n* musht, mushtum; **give your ~!** qo'lingizni bering! **2.** *v* musht bilan urmoq

fistful [´fɪstfol] *n* hovuch, siqim

fistic [´fɪstɪk] *a so'zl.* mushtga oid, mushtlashish bilan bog'liq bo'lgan

fisticuff [´fɪstɪkʌf] *n pl* mushtlashish

fistula [´fɪstjolə] *n tib.* 1) chipqon *yoki* yaraning ko'zi (teshigi); 2) teshik (oqma) yara; yara teshigi

fit [fɪt] **1.** *n* yarashishlik, mos kelishlik (*kiyim to'g'risida*); **to be a bad ~** yaxshi o'tirmaslik, yarashmaslik (*kiyim*); **2.** *a* 1) munosib, loyiq, bop, mos; **at a ~ter moment** qulay paytda; 2) yaroqli; **~ for duty (for service)** xizmatga yaroqli; 3) tayyor; 4) sog'lom, tetik; **to feel (to keep) ~** sog'lom va tetik bo'lmoq; **3.** *v* 1) muvofiq bo'lmoq, loyiq (munosib) bo'lmoq; mos kelmoq; **the coat ~s you** sizga palto yaxshi o'tiribdi (loyiq kelibdi); 2) yarashmoq; 3) tayyorlamoq; 4) o'rnatmoq; **to ~ in** qo'ymoq (*joyga*); **to ~ on** o'lchamoq; **to ~ up** ta'minlamoq

fitch [fɪtʃ] *n* 1) *zool.* sassiqkuzan; sassiqkuzan mo'ynasi; 2) sassiqkuzan junidan qilingan cho'tka, mo'yqalam

fitchew [´fɪtʃu:] *n* 1) *zool.* sassiqkuzan; 2) sassiqkuzan mo'ynasi

fitful [´fɪtf(ə)l] *a* 1) juda keskin, tez, shiddatli; 2) titrab-qaqshaydigan, tirishtiradigan

fitment [´fɪtmənt] *n* 1) (*odat., pl*) armatura (*mayda-chuyda o'rnatish qismlari*); 2) asbob-uskuna, jihoz

fitness [´fɪtnəs] *n* 1) moslik, muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri (mos) kelish; 2) chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik

fitter [´fɪtə] *n* mexanik; montyor; **~ing** montaj

fitting [´fɪtɪŋ] *a* mos, loyiq, to'g'ri

fitting room [´fɪtɪŋru:m, -rʊm] *n* kiyib ko'rish xonasi

fitting shop [´fɪtɪŋʃɒp] *n* 1) yig'ish ustaxonasi; 2) yig'ish sexi

five [faɪv] **1.** *num. card.* besh; **at ~ o'clock** soat beshda; **2.** *n* 1) besh; **it's ~ (minutes) to twelve** besh daqiqa kam o'n ikki; 2) beshinchi (*qo'ltiqop, oyoq kiyimi va sh. k. ning o'lchami*); 3) besh funt sterlinglik *yoki* besh dollarlik banknota; 4) besh kishilik sport jamoasi (*basketbol, kriketda*)

five-day [ˈfaɪvdeɪ] *a* besh kunlik

five-finger [ˈfaɪv,fɪŋgə] *n* 1) *bot.* g'ozpanja, beshbarg, yerchoy (*o'tsimon o'simlik*); 2) *zool.* dengiz yulduzi; 3) *attr.* beshburchak, yulduzsimon

fivefold [ˈfaɪvfəʊld] **1.** *a* besh karra, besh hissa oshiq; **2.** *adv* besh marta oshiq bahoda (miqdorda)

fiver [ˈfaɪvə] *n so'zl.* besh funt sterlinglik yoki dollarlik pul

fivescore [ˈfaɪvskɔ:] *n* yuz, yuztalik, yuz funt sterlinglik yoki dollarlik pul

five-star [ˌfaɪv ˈstɑ:] *a* besh yulduzli, eng yuqori darajadagi

five-year [ˈfaɪvˌjɪə] *a* besh yillik; **a ~ plan** besh yillik reja

fix [fɪks] *v* 1) o'rnatmoq, mahkamlamoq; 2) (*narx, muddat*) belgilamoq; 3) ta'mirlamoq; **to ~ a broken lock** buzuq qulfni tuzatmoq; **to ~ a coat** pidjakni yamamoq, tuzatmoq; 4) tatbiq qilmoq; kiritmoq; 5) (*diqqatni, e'tiborni*) o'ziga tortmoq; **to ~ one's eyes on smth.** biror narsaga ko'z tikmoq; 6) o'rnatmoq, joylamoq; **to ~ oneself in a place** o'rnashib olmoq, joylashib olmoq; 7) kelishmoq

fixate [ˈfɪkseɪt] *v* 1) mahkamlamoq, mahkam o'rnashtirmoq; 2) *psixol.* miyaga o'rnashib qolgan fikrdan azoblanmoq

fixation [fɪkˈseɪʃ(ə)n] *n* 1) qayd qilish, yozib olish; **price ~** bahoni qo'yish; 2) mustahkamlash

fixative [ˈfɪksətɪv] *n* fiksaj (*fotomaterial yuviladigan maxsus kimyoviy eritma, mahkamlagich*)

fixature [ˈfɪksəʧə, -jʊə] *n* fiksator (*sochni silliqlash uchun ishlatiladigan moy*)

fixed [fɪkst] *a* 1) qimirlamaydigan, doimiy; 2) belgilangan; 3) o'rnatilgan

fixedly [ˈfɪksɪdlɪ] *adv* 1) tikilib, sinchiklab; **to look ~ at smb.** tikilib qaramoq; 2) qattiq, mustahkam, pishiq qilib

fixedness [ˈfɪksɪdnəs] *n* 1) jimlik, sokinlik; 2) barqarorlik, turg'unlik, o'zgarmaslik

fixer [ˈfɪksə] *n* 1) sozlovchi usta; 2) fiksaj (*fotomaterial yuviladigan maxsus kimyoviy eritma, mahkamlagich*)

fixings [ˈfɪksɪŋz] *n pl so'zl.* 1) asbob-uskuna, jihoz; 2) (*libosni*) bezash; 3) *oshx.* garnir

fixity [ˈfɪksɪtɪ] *n* o'zgarmaslik, turg'unlik; **the ~ of look** sinchkovlik bilan tikilish

fixture [ˈfɪkstʃə] *n* moslama; armatura (*mayda-chuyda o'rnatish qismlari*)

fizgig [ˈfɪzgɪg] *n* tannoz ayol

fizz [fɪz] **1.** *n* 1) vishillash, pishillash, vijillash; 2) vishillaydigan ichimlik; 3) hushtak; **2.** *v* vishillamoq, pishillamoq, vijillamoq

fizzle [ˈfɪz(ə)l] *n* shipillaydigan tovush

fizzy [ˈfɪzɪ] *a so'zl.* gazlangan, vishillaydigan

fjord [fjɔ:d, fi:ɔd] *n* fiord (*qirg'oqlari qoyali, tor va chuqur dengiz ko'rfazi*)

flabbergast [ˈflæbəgɑ:st] *v so'zl.* hayron (lol) qoldirmoq

flabbergasted [ˈflæbəˌgɑ:stɪd] *a* hayratda qolgan, lol, hayron qolgan

flabby [ˈflæbɪ] *a* 1) osilgan, osilib tushgan; 2) kuchsiz, bo'sh, bo'shashgan

flaccid [ˈflæksɪd] *a* kuchsiz, bo'sh

flag [flæg] **1.** *n* 1) bayroq; **the ~ of truce** parlament bayrog'i; 2) bayroqcha (*taksi va shu kabilarda*); **a taxi with ~ up** bo'sh taksi; 3) *deng.* flagman (*1. eskadra qo'mondoni; 2. eskadra qo'mondoni turadigan yirik dengiz kemasi; ma'lum hudud flotining eng katta yoki eng yaxshi kemasi*); 4) **to keep the ~ flying** taslim bo'lmaslik; 5) *bot.* sapsargul; 6) toshtaxta (*plita*); **2.** *v* 1) signal (belgi, xabar) bermoq; 2) bayroqlar bilan bezamoq

flag-captain [ˌflæg ˈkæptɪn] *n* flagman kemasining kapitani

Flag Day [ˈflægdeɪ] *n amer.* 14-iyun AQSHning bayrog'i o'rnatilgan (ta'sis etilgan) kun

flagellant [ˈflædʒɪlənt] *n* o'zini-o'zi qiynaydigan kishi

flagellate [ˈflædʒəleɪt] *v* kaltaklamoq; qamchilamoq, savalamoq, do'pposlamoq

flagellation [ˌflædʒɪ ˈleɪʃ(ə)n] *n* savalash, urish, qamchilash, do'pposlash

flageolet [ˌflædʒəˈlet] *n mus.* flajolet (*1. puflab chalinadigan fleytasimon qadimiy musiqa asbobi; 2. cholg'u asbobining toriga qo'l tekkanda chiqadigan mayin tovush*)

flagging I [ˈflægɪŋ] *n* toshtaxtadan qilingan pol

flagging II [ˈflægɪŋ] *a* so'ligan, so'lib tushgan

flagitious [flə ˈdʒɪʃəs] *a* jinoyatkorona, jirkanch, yaramas, razil; sharmandalarcha

flagman [ˈflægmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *harb.* xabar (*signal*) beruvchi kishi

flag-officer [ˈflæg,ɒfɪsə] *n* 1) admiral (*harbiy flotda oliy unvon va shu unvonga ega bo'lgan kishi*); 2) qo'mondon

flagon [ˈflægən] *n* flyaga (*suyuqlik tashiladigan katta idish*); katta butilka

flagpole [ˈflægpəʊl] = **flagstaff**

flagrant [ˈfleɪgrənt] *a* mudhish, qo'pol, dahshatli; **a ~ crime** mudhish jinoyat

flagship [ˈflæg,ʃɪp] *n* flagman kemasi (*flagman – 1. eskadra qo'mondoni; 2. eskadra qo'mondoni turadigan yirik dengiz kemasi; ma'lum hudud flotining eng katta yoki eng yaxshi kemasi*)

flagstaff [ˈflægstɑ:f] *n* (*pl* **-staves** [-stɑ:vz]) flagshtok (*bayroq o'rnatiladigan tik xoda*)

flag-station [ˈflæg,steɪʃ(ə)n] *n* poyezdlar talab qilinganda to'xtaydigan bekat

flagstaves [ˈflægstɑ:vz] *pl of* **flagstaff**

flag-waving [ˈflæg,weɪvɪŋ] *n* 1) *harb. jarg.* bayroq bilan signal berish; 2) qilich yalang'ochlash, qurolni pesh qilish, urush bilan do'q urish (po'pisa qilish, tahdid qilish)

flail [fleɪl] *v* silkitmoq, qimirlatmoq

flair [fleə] *n* hid sezish qobiliyati; **to have a ~ for smth.** nimaningdir hidini sezmoq

flak [flæk] *n* 1) zenit artilleriyasi; 2) zenit to'plaridan yog'dirilgan o'q

flake I [fleɪk] **1.** *n* 1) parcha; **a ~ of fire** olov parchasi; 2) qatlam; **2.** *v* pag'a-pag'a bo'lib yog'moq, qoplamoq

flake II [fleɪk] *n* baliqlarni quritish qurilmasi

flake out [ˈfleɪk ˈaʊt] *v so'zl.* 1) (*charchoqdan*) holdan toymoq, tinkasi qurimoq; 2) bir lahzaga uyquga ketmoq; 3) hushidan ketmoq, behush bo'lib qolmoq

flaky [ˈfleɪkɪ] *a* 1) qat-qat, qatma-qat; 2) pag'a-pag'a

flam [flæm] **1.** *n* qalbaki, soxta; **2.** *v* aldamoq, ahmoq qilmoq

flambé [ˈflɒmbeɪ] *a fr.* spirt quyib kuydirilgan (*taom haqida*)

flambeau [ˈflæmbəʊ] *n* (*pl* **-eaux** [-əʊz]) mash'ala, mash'al

flamboyance [flæmˈbɔɪəns] *n* yorug'lik, ko'zga yaqinlik

flamboyancy [flæmˈbɔɪənsɪ] = **flamboyance**

flamboyant [flæmˈbɔɪənt] *a* ko'zga yaqin, yorqin, yarqiragan

flame [fleɪm] **1.** *n* 1) alanga, olov; **in ~s** alanga ichida; **2.** *v* lovullab yonmoq, alanga olmoq

flamenco [flə ˈmeŋkəʊ] *n* flamenko (*ispan lo'lilarining musiqiy uslubi va raqsi*)

flame-thrower [ˈfleɪm,θrəʊə] *n* o'tsochar

flaming [ˈfleɪmɪŋ] *a* 1) yorug', yorqin; 2) tiniq, yaltiroq; **~ colours** yorqin ranglar; 3) issiq; **~ August** issiq avgust

flamingo [flə ˈmɪŋgəʊ] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əʊz]) *zool.* qizil g'oz (*bo'yni va oyoqlari uzun, och pushti rang suv qushi*)

flammable [ˈflæməb(ə)l] *a* tez o't oladigan, yong'in jihatidan xavfli

flamy [ˈfleɪmɪ] *a* 1) o'tga oid; 2) alangali

flan [flæn] *n* pishloqli, mevali pirog

flange [flændʒ] *n* 1) *tex.* flanets, gardish; 2) chet, hoshiya, qirg'oq, qirra; 3) reborda (*g'ildirakning temir izdan chiqib ketishidan saqlaydigan yon gardishi*)

flank [flæŋk] **1.** *n* yon; yonbosh, chakka; **2.** *v* yon tomondan zarba bermoq

flanker [ˈflæŋkə] *n harb.* yon tomonidan (*yoki* orqasidan) kelib, o'tib

flannel [ˈflænl] *n* flanel (*ipdan yoki jundan to'qilgan yengil mato*)

flannelled [ˈflænld] *a* flanel kastum kiygan

flap [flæp] **1.** *n* 1) qanot qoqish; 2) yengil zarba; 3) itning osilgan uzun qulog'i; 4) telpak qulog'i; 5) taqillatish; **2.** *v* 1) qanot qoqmoq; 2) silkitmoq, qoqmoq; 3) taqillatmoq

flapdoodle [ˈflæp,du:dl] *n so'zl.* safsata, bema'ni gap

flap-eared [ˈflæpɪəd] *a* quloqlari osilgan, shalpangquloq

flapjack [ˈflæpdʒæk] *n* 1) blin (*qaymoqsimon xamir ovqat*); 2) oladya (*tovada pishirilgan qalin qaymoqsimon non*); 3) obinon, kulcha

flapper [ˈflæpə] *n* 1) pashsha qo'rigich; 2) shaqildoq

flare [fleə] **1.** *n* 1) yarqirash, chaqnash; 2) alanga, mash'al; **2.** *v* 1) kengaymoq; sirtiga chiqmoq, ko'rinmoq; 2) o't olmoq, tutashmoq

flared [fleəd] *a* yarqiragan

flared skirt [ˈfleəd ˈskə:t] *n* klyosh yubka (*karnay bichiq yubka*)

flare-up [ˈfleə(r) ˈʌp] *n* birdan (lov etib) yonish

flaring [ˈfle(ə)rɪŋ] *a* 1) ko'zni oladigan, yarqiroq; 2) ko'zga tashlanadigan

flash [flæʃ] **1.** *n* 1) chaqnash, chaqnab ketish; 2) oz vaqt, biron soniya; **2.** *v* 1) yaltiramoq, chaqnamoq; **his eyes ~ed fire** ko'zlaridan o't chaqnardi; **to ~ a look (a glance) at smb.** biror narsaga ko'z tashlamoq, ko'z qirini tashlamoq; 2) (*fikr*) yarq etmoq; 3) telegraf, radio va h. k. dan xabar (axborot) bermoq

flashback [ˈflæʃbæk] *n* 1) o'tmishga nazar tashlash; 2) esdalik, xotira

flashbulb [ˈflæʃbʌlb] *n foto.* birdan (lov etib) yonib o'chadigan lampa

flash burn [ˈflæʃbə:n] *n* yorug'lik nurlanishi natijasida kuygan joy

flasher [ˈflæʃə] *n* 1) milt-milt etib o'chib-yonib turadigan moslama; 2) milt-milt etib yonib turgan mash'ala

flash flood [ˈflæʃˌflʌd] *n* to'satdan paydo bo'lgan suv toshqini (*yomg'irdan so'ng*)

flashgun [ˈflæʃgʌn] *n foto* rasm tushiradigan apparatga o'rnatilgan birdan (lov etib) yonib o'chadigan lampa

flash-house [ˈflæʃhaus] *n* buzuqxona, o'g'rixona, yomonlar makoni

flashing [ˈflæʃɪŋ] *n* chaqnash

flash-light [ˈflæʃlaɪt] *n* 1) xabar chirog'i; 2) *foto.* yarq etuvchi chiroq

flash point [ˈflæʃpɔɪnt] *n* 1) alangalanish harorati; 2) chek, chegara (*sabr, bardosh va b. haqida*)

flashy [ˈflæʃɪ] *a* 1) namuna sifatida ko'rsatiladigan, ko'z-ko'z qilinadigan; 2) ko'zga tashlanadigan, hammani o'ziga qaratadigan, serhasham

flask [flɑ:sk] *n* 1) suvdon; 2) suyuqlik tashiladigan katta idish

flasket [ˈflɑ:skɪt] *n* 1) kichkina suvdon (flyaga), suyuqlik tashiladigan kichkina idish; 2) *shev.* kiyim solinadigan savat, kiyimsavat

flat I [flæt] *n* 1) kvartira, uy, xona, turar joy; 2) *pl* xonalari ko'p uy

flat II [flæt] **1.** *n* 1) yassilik, yalpoqlik; 2) past-tekislik; qirg'oq; 3) *amer. so'zl.* havosi (dami) chiqqan shina; **2.** *a* 1) yassi, bir tekis; **a ~ roof** yassi tom; **a ~ nose** puchuq (*burun*); 3) qat'iy, to'g'ri; **that's ~** bu qat'iy hal qilingan; 4) zerikarli, bir xildagi (*hayot haqida*)

flat-boat [ˈflætbəʊt] *n* tagi yassi qayiq

flat-broke [ˈflætbrəʊk] *a so'zl.* tamoman barbod bo'lgan

flat-car [ˈflætkɑ:] *n amer. tem. y.* ochiq yuk vagoni

flat-fish [ˈflæt,fɪʃ] *n* yassi (yapaloq) baliq

flat-foot [ˈflætfʊt] *n tib.* yassi oyoqlik, yassi tovonlik, yalpoq oyoqlik, tovonning tekisligi

flat-footed [ˌflætˈfʊtɪd] *a tib.* yassi oyoqli

flat-iron [ˈflætˌaɪən] *n* 1) daznol; 2) tilimtilim tunuka

flatland [ˈflætlænd] *n* tekislik, tekis

flatlet [ˈflætlɪt] *n* kichkina kvartira, kvartiracha

flatly [ˈflætlɪ] *adv* 1) tekis, tep-tekis, silliq; 2) zerikarli qilib, diqqatini oshirib

flatness [ˈflætnəs] *n* 1) yassilik, tekislik; 2) zerikish, diqqati oshish

flat-out [ˌflætˈaʊt] *adv so'zl.* bor kuchi bilan, kuchi boricha, umidsizlik bilan

flat spin [ˌflætˈspɪn] *n* 1) *av.* deyarli gorizontal shtopor (*samolyotning pastga qarab buralib sho'ng'ishi*); 2) *so'zl.* hayajonlanish holati, iztirob chekish holati

flatten [ˈflætn] *v* tekis qilmoq, tekislamoq, dazmollamoq, to'g'rilamoq, erib ketmoq

flatter [ˈflætə] *v* xushomad (laganbardorlik) qilmoq; **you ~ me!** siz menga xushomad qilyapsizmi!

flatterer [ˈflæt(ə)rə] *n* xushomadgo'y (laganbardor) odam

flattering [ˈflæt(ə)rɪŋ] *a* 1) xushomadgo'y, laganbardor; 2) ma'qul bo'ladigan, manzur bo'ladigan, xush yoqadigan, maqtovli

flattery [ˈflæt(ə)rɪ] *n* xushomad, tilyog'lama maqtov

flatting [ˈflætɪŋ] *n tex.* chig'irlash, chig'irlab yoyish

flatting mill [ˈflætɪŋmɪl] *n* metall yoyadigan (taxtalaydigan) mashina

flattop [ˈflættɒp] *n amer. so'zl.* samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun moslangan harbiy kema

flatulence, -cy [ˈflætjʊləns, -sɪ] *n* 1) *tib.* qorinda (ichda) gazning to'planishi; meteorizm (*ich dam bo'lishi*); ichakda ko'p yel to'planishi natijasida qorinning taranglashishi; 2) o'ziga bino qo'yganlik, gerdayganlik, manmanlik, mutakabbirlik

flatulent [ˈflætjʊlənt] *a* 1) *tib.* gaz to'plovchi (*ichakda*); 2) *tib.* qorinda gaz to'planishdan azob tortadigan; 3) o'ziga bino qo'ymoq, gerdaygan, manman, mutakabbir

flatus [ˈfleɪtəs] *n* ichakda (qorinda) gazning to'planishi; shishish, qappayish (*qorin haqida*)

flatware [ˈflætweə] *n* 1) yapaloq (sayoz, yassi) idish; 2) *amer.* oshxona (ovqatlanish) anjomlari (*likopcha, pichoq, vilka, qoshiq va sh. k.*)

flatways [ˈflætweɪz] *adv* yoni bilan, keng tomoni bilan

flaunt [flɔ:nt] *v* ko'z-ko'z qilmoq

flautist [ˈflɔ:tɪst] *n* fleyta chaluvchi (*fleyta – naysimon musiqa asbobi*)

flavescent [flə'ves(ə)nt] *a* sarg'ayib ko'rinadigan, sarg'ayib turgan, sariq bo'lib turgan; sarg'ish, sariqqa moyil, sariqroq

flavin [ˈfleɪvɪn] *n* sariq bo'yoq

flavor [ˈfleɪvə] *amer.* = **flavour**

flavoring [ˈfleɪv(ə)rɪŋ] *amer.* = **flavouring**

flavorless [ˈfleɪvələs] *amer.* = **flavourless**

flavorous [ˈfleɪvərəs] *a* 1) mazali, lazzatli, totli, shirin; 2) hidi yaxshi, xushbo'y, muattar

flavour [ˈfleɪvə] *n* 1) ta'm, maza, lazzat; 2) yoqimli hid; **the ~ of food** ovqat hidi

flavouring [ˈfleɪv(ə)rɪŋ] *n* 1) ovqatni xushbo'y qilish uchun ishlatiladigan ziravor; 2) xushbo'y narsalar

flavourless [ˈfleɪvələs] *a* 1) bemaza, ta'msiz; 2) hidi yo'q, hidsiz
flaw [flɔ:] **1.** *n* 1) kovak, tirqish, yoriq; 2) (*metall va b. haqida*) darz ketish; 3) yaroqsiz mahsulot; 4) *so'zl.* qattiq (shiddatli) shamol, bo'ron; **2.** *v* darz ketmoq, yorilmoq; yaroqsizlanmoq
flawless [ˈflɔ:ləs] *a* benuqson, bekamko'st
flawy [ˈflɔ:ɪ] *a* nuqsonli, illatli, kamchiligi bor
flax [flæks] *n* zig'ir, zig'irpoya tolasidan to'qilgan mato
flaxen [ˈflæks(ə)n] *a* 1) zig'ir, zig'irdek mayin (*soch haqida*); 2) och sariq, malla (*sochning rangi haqida*)
flax-seed [ˈflækssi:d] *n* zig'ir urug'i
flaxy [ˈflæksɪ] *a* 1) zig'irga oid; 2) zig'ir tolasidan tikilgan
flay [fleɪ] *v* shilmoq, terini ajratmoq
flay-flint [ˈfleɪflɪnt] *n* qo'rqitib undiruvchi (tovlamachi) kishi, tamagir, yulg'ich
flea [fli:] *n* 1) burga; 2) qizg'ish rang
flea-bag [ˈfli:bæg] *n so'zl.* qopko'rpa (*sovuq joylarda ichiga kirib yotiladigan qopsimon ko'rpa*)
fleabite [ˈfli:baɪt] *n* 1) arzimagan narsadan kamchilik topish, arzimagan narsaga koyish (ranjitish); 2) arzimagan og'riq; 3) otning oq junidagi sariq dog'
flea-bitten [ˈfli:ˌbɪtn] *a* 1) burga chaqqan, burga chaqib olgan; 2) xarob (abgor) bo'lib qolgan, pastlashib (qashshoqlashib, kambag'allashib) ketgan, singan, tushkunlikka (inqirozga) yuz tutgan; abgor, faqirona; 3) ola, chavkar (*ot tusi*)
fleam [fli:m] *n tib.* lanset (*dudama jarrohlar nishtari*)
flea market [ˈfli:ˌmɑ:kɪt] *n so'zl.* eskibozor; chayqov bozori
flea-pit [ˈfli:pɪt] *n* iflos uy (xona)
fleck [flek] **1.** *n* 1) tomchi; 2) dog', iz; 3) sepkil; **2.** *v* dog' bilan qoplanmoq
flecker [ˈflekə] *v* 1) yozib-chizib tashlamoq, ola-bula qilib tashlamoq; 2) har xil narsalar bilan to'ldirmoq
flection [ˈflekʃ(ə)n] = **flexion**
fled [fled] *past., p. p. of* **flee**
fledge [fledʒ] *v* 1) pat chiqazmoq; 2) qushlarni boqmoq
fledged [fledʒd] *a* 1) pat chiqargan; 2) ucha oladigan (*qushlar haqida*)
fledg(e)ling [ˈfledʒlɪŋ] *n* 1) pat chiqazgan qush bolasi; 2) tajribasiz yigitcha
flee [fli:] *v* (**fled**) 1) qochib qutulmoq; qochmoq; **to ~ the country** mamlakatdan qochmoq; 2) o'zini chetga olmoq; **to ~ the society of men** jamiyatdan o'zini chetga oladigan kishilar
fleece [fli:s] **1.** *n* qo'y juni; **2.** *v* 1) qo'y junini olmoq; 2) tozalamoq; shilib olmoq; **to ~ a person of all his money** kimningdir pulini oxirigacha shilib olmoq
fleecy [ˈfli:sɪ] *a* serjun, juni qalin, qalin junli; **~ hair** jingalak sochlar
fleer [flɪə] **1.** *n* 1) nafratli qarash; 2) masxara qilish; **2.** *v* 1) nafrat bilan tabassum qilmoq; 2) masxara qilmoq, ustidan kulmoq
fleet [fli:t] **1.** *n* 1) flot; 2) park (*avtomobil, traktor va b. uchun*); **2.** *a* tez, uchqur; **a ~ of foot** tezyurar
fleet-footed [ˈfli:tfʊtɪd] *a* chaqqon, chopqir, oyog'i yengil
fleeting [ˈfli:tɪŋ] *a* 1) tezlik bilan bo'ladigan; 2) bir lahzali, tez o'tib ketadigan, vaqtinchalik; **a ~ glance** ko'z (nazar) tashlash, bir qarab qo'yish; **~ impression** yuzaki taassurot
Fleet Street [ˈfli:tstri:t] *n* 1) Flit-strit (*Londonning asosiy nashriyotlari joylashgan ko'cha; Angliyaning gazeta ishlab chiqarish markazi*); 2) Angliya matbuoti
Fleming [ˈflemɪŋ] *n* flamand (*asosan, Belgiyaning shimolida yashaydigan, tili german tillari oilasiga mansub xalq*)
Flemish [ˈflemɪʃ] **1.** *a* flamandlarga va Flamandiyaga oid; **2.** *n* flamand tili
flench [flentʃ] = **flense**
flense [flens] *v* dengiz hayvonlarining moyini eritib olmoq
flesh [fleʃ] **1.** *n* 1) (xom) go'sht; **wolves live on ~** bo'rilar go'sht bilan oziqlanadilar; 2) tana; 3) jism; **2.** *v* 1) (*itlarni, lochinni*) ovga o'rgatmoq; 2) *so'zl.* to'lishmoq, semirmoq; 3) rahmsiz qilib yubormoq, bag'ritosh qilib qo'ymoq
flesh-coloured [ˈfleʃˌkʌləd] *n* oq-sariq rang
flesh-fly [ˈfleʃflaɪ] *n* go'sht pashshasi
fleshings [ˈfleʃɪŋz] *n pl* badanga yopishib turadigan oq-sariq rangdagi sportchilar kiyimi (*sahnaga chiqish uchun kiyiladigan*)
fleshly [ˈfleʃlɪ] *a* shahvoniy, shahvatga oid; his (tuyg'u) qo'zg'atadigan
flesh-pot [ˈfleʃpɒt] *n* go'sht pishiriladigan qozon
flesh tights [ˈfleʃtaɪts] = **fleshings**
flesh-wound [ˈfleʃwu:nd] *n* yuzdagi (*yengil*) jarohat
fleshy [ˈfleʃɪ] *a* 1) go'shtli; 2) semiz, to'la
fleur-de-lis [ˌflɜ:də ˈli:] *n fr. bot.* gulsapsar
flew [flu:] *past. of* **fly II, 2**
flews [flu:z] *n pl* osilgan lablar (*iskovuch it va b.*)
flex [fleks] **1.** *n* egiluvchan kanop; **2.** *v* egmoq, qayirmoq, egilmoq
flexible [ˈfleksəb(ə)l] *a* qayishqoq; egiluvchan, bukiluvchan
flexibility [ˌfleksəˈbɪlɪtɪ] *n* moslashuvchanlik, egiluvchanlik
flexion [ˈflekʃ(ə)n] *n* 1) egilgan *yoki* bukilgan joy; 2) egish, bukish, qayirish; 3) *gram.* fleksiya (*so'zning turlanish yoki tuslanishda o'zgaradigan qo'shimchasi, tugallanmasi*)
flexitime [ˈfleksɪtaɪm] *n* erkin ish tartibi (*ishning boshlanish va tugash vaqtini erkin ravishda tanlab olish*)
flexor [ˈfleksə] *n* egiladigan *yoki* bukiladigan mushak
flexure [ˈflekʃə] *n* egish, bukish, egilish, bukilish
flibbertigibbet [ˌflɪbətɪˈdʒɪbɪt] *n* 1) sergap (ezma, vaysaqi, safsataboz, ichida gap turmaydigan, og'zi bo'sh) odam; g'iybatchi odam; 2) mulohazasiz (yengiltak) *yoki* ishonchsiz odam
flick [flɪk] **1.** *n* 1) yengil zarba; 2) qo'pol harakat; 3) *so'zl.* kinoseans; **2.** *v* chertmoq
flicker [ˈflɪkə] **1.** *n* 1) miltillash, milt-milt yonib turish; 2) *amer.* qizilishton; **2.** *v* 1) miltillamoq, miltillab ko'rinmoq; 2) qaltiramoq
flickering [ˈflɪk(ə)rɪŋ] *a* tebranuvchi, tebranib turadigan
flick knife [ˈflɪknaɪf] *n* prujinali pichoq
flier [ˈflaɪə] *n* uchuvchi (*samolyot, vertolyot kabilarni boshqaruvchi mutaxassis*)
fliers [ˈflaɪəz] *n* 1) pashsha; 2) yirmoch
flight [flaɪt] **1.** *n* 1) uchish; **the ~ of a bee** asalarilarning uchishi; 2) (*to'xtovsiz*) parvoz; 3) vaqtning tez o'tishi; 4) gala; 5) to'da; 6) qochish, qochib ketish; **2.** *v* har yoqdan uchib kelib to'planmoq
flight-deck [ˈflaɪtdek] *n av.* kemaning uchish sahni (*samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun moslangan harbiy kema*)
flight-lieutenant [ˈflaɪtleftenənt] *n av.* havo floti kapitani (*Angliyada*)
flight-shot [ˈflaɪtʃɒt] *n* o'qning uzoqqa ketish masofasi
flighty [ˈflaɪtɪ] *a* 1) o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan; 2) tez aynib turadigan, tez-tez o'zgarib turadigan
flim-flam [ˈflɪmflæm] **1.** *so'zl. n* bema'ni gap, safsata; **2.** *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq
flimsy [ˈflɪmzɪ] *a* 1) nozik, hilpirama, yengil (*mato to'g'risida*); 2) chidamsiz, mo'rt; 3) tuturiqsiz, sabotsiz, asossiz
flinch [flɪntʃ] *v* seskanib ketmoq; cho'chib (sapchib) tushmoq
flinders [ˈflɪndəz] *n pl* singan bo'laklar, mayda tarashalar; **to break in ~** sinib sochilib ketmoq

fling [flɪŋ] **1.** *n* 1) irg'itish, uloqtirish, otib yuborish; 2) urinish; **to have a ~ at smth.** biror narsaga urinib ko'rmoq; 3) *shotl.* tez rad etish; **2.** *v* **(flung)** 1) irg'itmoq, otmoq; **to ~ a stone at smb.** kimgadir tosh otmoq; 2) oyog'idan chalmoq; 3) *shotl.* sho'x o'ynamoq; 4) *amer.* aldamoq

flint [flɪnt] *n* chaqmoq tosh

flint-glass ['flɪntglɑ:s] *n* flintglas (*optik shishaning bir turi*)

flint-hearted [,flɪnt'hɑ:tɪd] *a* qahri qattiq, bag'ritosh, rahmsiz

flint-lock ['flɪntlɔk] *n tar.* chaqmoq miltiq

flint-paper ['flɪnt,peɪpə] *n* jilvir(li) qog'oz

flinty ['flɪntɪ] *a* toshloq, toshi ko'p

flip [flɪp] **1.** *n*-1) chertki, chertish, yengil zarba; 2) spirtli issiq shirin pivo; **2.** *v* chertmoq, yengil zarba bermoq

flip-flop ['flɪpflɔp] *n* 1) *pl* rezinali shippak; 2) *amer.* salto-mortale, havoda umbaloq oshish; 3) arg'imchoq, hayinchak

flippancy ['flɪpənsɪ] *n* 1) yengiltaklik, mulohazasizlik; 2) betayinlik

flippant ['flɪpənt] *a* 1) yengiltak, mulohazasiz; 2) qo'pol, dag'al; **a ~ answer** qo'pol javob

flipper ['flɪpə] *n zool.* suzgich (*suv hayvonlarining suzish organi*)

flipping ['flɪpɪŋ] *a so'zl.* la'nati (*haqorat qilish*)

flirt [flɜ:t] **1.** *v* nozlanmoq, noz-karashma qilmoq, ishva qilmoq; **2.** *n* tannoz ayol, ishvagar ayol

flirtation [flɜ:'teɪʃ(ə)n] *n* ishva, noz-karashma

flirtatious [flɜ:'teɪʃəs] *a* tannoz, ishvagar, ishvali; noz-karashma qilishni yaxshi ko'radigan

flirty ['flɜ:tɪ] *a* tannoz, ishvagar, ishvali

flit [flɪt] *v* bir joydan boshqa joyga uchmoq, ko'chmoq

flitch [flɪtʃ] *n* gorbil, kapantaxta

flitter ['flɪtə] *v* parillab uchmoq, parvoz qilmoq

flivver ['flɪvə] *n so'zl.* eski, arzon avtomobil

float [fləʊt] **1.** *n* po'kak, qalqi; **2.** *v* 1) (*havo, oqim bo'ylab*) suzmoq; 2) (*suv va b. suyuqliklar*) yuzasida oqmoq, qalqimoq

floatable ['fləʊtəb(ə)l] *a* suzib yuruvchi, suzuvchi, qalqib yuruvchi

floatage ['fləʊtɪdʒ] *n* suzish (suzib yura olish) qobiliyati

floatation [fləʊ 'teɪʃ(ə)n] *n* 1) suzish, suzib yurish; 2) *tog'.* flotatsiya (*foydali qazilmalarni yoki rudani boyitish usuli*)

floater ['fləʊtə] *n* mavsumiy ishchi

floating ['fləʊtɪŋ] *a* 1) suzuvchi; **a ~ cargo** dengiz yuki; **a ~ island** suzuvchi orol; 2) qo'zg'aluvchan

floating bridge [,fləʊtɪŋ'brɪdʒ] *n* ponton (*vaqtincha qurilgan ko'chma*) ko'prik, suzuvchi (qalqima) tayanchdagi ko'prik

floatplane ['fləʊtpleɪn] *n* qalquvchi, suvda yura oladigan (suvdan ko'tarilib, suvga qo'na oladigan) gidrosamolyot

floaty ['fləʊtɪ] *a* 1) (*suvda*) suzib yuruvchi; 2) yengil

flocculate ['flɔkjʊleɪt] *v* 1) *kim.* parcha-parcha bo'lib tushmoq; 2) kesakchalar hosil qilish (*tuproq haqida*)

flock [flɔk] **1.** *v* katta-katta guruh bo'lib to'planmoq; **to ~ about smb.** kimningdir (*atrofiga to'planmoq*); **2.** *n* 1) guruh, gala; **a ~ of wild ducks** yovvoyi o'rdaklar galasi; 2) to'da

floe [fləʊ] *n* suzib yuruvchi katta muz parchasi

flog [flɔg] *v* urmoq, savalamoq, kaltaklamoq

flogging ['flɔgɪŋ] *n* 1) urish, kaltaklash; 2) tan jazosi; jismoniy jazo

flood [flʌd] **1.** *n* 1) (*muz. qor erishi tufayli bo'ladigan*) suv toshqini; 2) suvning ko'tarilishi (*okean va dengizlarda*); **2.** *v* suv bosmoq, suv toshmoq

flood-gate ['flʌdgeɪt] *n* shluz (*suv sathi turlicha bo'lgan bir joydan ikkinchi joyga kemalarni o'tkazish uchun xizmat qiluvchi gidrotexnik inshoot*)

floodlight ['flʌdlaɪt] **1.** *n* projektor, projektor yorug'ligi; **2.** *v* projektor bilan yoritmoq

floodlit ['flʌdlɪt] *a* projektorlar bilan yoritilgan

flood plain ['flʌdpleɪn] *n* qayir (*daryo yoqasidagi suv bosadigan, ko'pincha, o'tloq yerlar*); suv bosadigan o'tloq

flood tide ['flʌdtaɪd] *n* suvning ko'tarilishi (*okean va dengizlarda*)

floodwater ['flʌd,wɔ:tə] *n* toshqin paytida quruqlikni bosib oladigan suv

floor [flɔ:] **1.** *n* 1) pol; 2) okean tubi; 3) (*qonun chiqaruvchi*) majlis a'zolarining joyi; **the ~ of the House** majlislar zalidagi parlament a'zolarining joyi; 4) majlisda so'zga chiqish huquqi; **to have** (*yoki* **to take**) **the ~** so'zga chiqmoq, so'z olmoq; **to get the ~** o'tirgan o'rnidan savol bermoq; 5) parlament a'zolarining o'rni; 6) qavat; **2.** *v* 1) pol qoqmoq; 2) polga yiqitmoq

floorboard ['flɔ:bɔ:d] *n* pol taxtasi

floor-cloth ['flɔ:klɒθ] *n* 1) pollatta, pol yuviladigan latta; 2) linoleum

floorer ['flɔ:rə] *n* 1) qiyin (tang) ahvol; 2) og'ir topshiriq; 3) esni og'diradigan (anqaytirib qo'yadigan) zarba

flooring ['flɔ:rɪŋ] *n* 1) kat, to'shama; 2) pol qoqish; 3) *qur.* pol taxta

floor lamp ['flɔ:læmp] *n* torsher (*tik asosga baland o'rnatilib, polga qo'yiladigan chiroq*)

floor show ['flɔ:ʃəʊ] *n* xalq oldida (ichida) ko'rsatiladigan tomosha

floorwalker ['flɔ:,wɔ:kə] *n* universal magazinining ma'muriyati

floosie ['flu:zɪ] *n* sayoq (suyuqoyoq) xotin, buzuq (fohisha) ayol

floozie ['flu:zɪ] = **floosie**

floozy ['flu:zɪ] = **floosie**

flop [flɔp] *v* 1) shap etib tushmoq, tez va beso'naqay harakatlanmoq; 2) osilib turmoq; 3) muvaffaqiyatsizlikka uchramoq

floppy ['flɔpɪ] *n* disketa, kompyuter disketasi

floppy disk [,flɔpɪ'dɪsk] *n inform.* disketa, egiluvchan magnitli disk

flora ['flɔ:rə] *n* (*pl* **-ae, -s** [-z]) flora (*o'simliklar dunyosi*)

florae [flɔ:raɪ, -ri:] *pl of* **flora**

floral ['flɔ:rəl] *a* gulga oid, gul

Florentine ['flɒrəntaɪn] **1.** *a* Florensiya *yoki* florensiyaliklarga oid, Florensiya ...; florensiyaliklar ...; **2.** *n* Florensiya aholisi, florensiyalik, florensiyalik ayol

florescence [flɔ: 'res(ə)ns] *n* gullash, guli ochilish

floret ['flɔ:rɪt] *n* kichkina gul, gulcha

floriated ['flɔ:rɪeɪtɪd] *a* gul solingan naqshli

floriculture ['flɔ:rɪ,kʌltʃə] *n* gulchilik

florid ['flɒrɪd] *a* 1) qizil, qip-qizil, qirmizi (*yuz haqida*); 2) gulli, sergul; guldor; 3) dabdabali, balandparvoz

florin ['flɒrɪn] *n tar.* florin (*turli mamlakatlarning tilla tangasi*)

florist ['flɒrɪst] *n* gul sotuvchi

floruit ['flɔ:roʊt] *n* tarixiy shaxsning faoliyat ko'rsatgan yillari

floss [flɒs] *n* 1) xom ipak; 2) tikish uchun ishlatiladigan mayin ipak *yoki* paxtadan maxsus tayyorlangan ip

flossy ['flɒsɪ] *a* ipakdek mayin, ipaksimon, ipakka o'xshagan, ipak..., shoyi...

flotage ['fləʊtɪdʒ] = **floatage**

flotation [fləʊ'teɪʃ(ə)n] = **floatation**

flotilla [flə'tɪlə] *n* flotiliya (*biror daryo, ko'l yoki dengizda yuradigan harbiy kemalar majmuyi*)

flotsam ['flɒts(ə)m] *n* tashlab yuborilgan va suv ustida suzib yurgan tashlandiq narsa; suzib yuradigan tashlandiq parchalar

flounce [flaʊns] **1.** *v* otmoq, otishmoq; **2.** *n* 1) qo'pol harakat; 2) oborka, burma

flounder I ['flaʊndə] *n* kichkina kambala, kichkina qalqonbaliq (*ikki ko'zi bir tomonda bo'lgan yapaloq dengiz baliq'i*)

flounder II ['flaʊndə] *v* 1) tipirchilamoq, pitirlamoq; tipir-tipir (pitir-pitir) qilmoq; qiyinchilik bilan harakat qilmoq; 2) gapdan adashmoq, yanglishmoq, aralashtirmoq; **to ~ through a speech** qiyinchilik bilan (zo'rg'a) tushuntirib bermoq (*mas., chet tilida*)

flour ['flaʊə] *n* 1) un; 2) poroshok, kukun; 3) upa

flourish ['flʌrɪʃ] **1.** *v* yashnamoq; gullamoq; **2.** *n* gullash, yashnash

flourishing ['flʌrɪʃɪŋ] *a* 1) gullayotgan, gullab turgan; 2) *ko'ch.* gullayotgan, yashnayotgan, gulday (gul-gul) ochilgan, obod, taraqqiy etayotgan, ravnaq topayotgan

floury ['flaʊ(ə)rɪ] *a* 1) unga oid; un solingan (solinadigan); unli, un ...; undan (xamirdan) tayyorlangan, xamir...; 2) tarkibida un bo'lgan; 3) un sepilgan

flout [flaʊt] *v* iltifotsizlik ko'rsatmoq, mensimay qaramoq; **to ~ smb.'s advice** kimningdir (birovning) maslahatiga ahamiyat bermaslik

flow [fləʊ] **1.** *n* 1) oqim, oqish, oqib ketish; 2) ravonlik, silliqlik (*nutq haqida*);) 3) mo'l-ko'llik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik; farovon hayot, farovonlik, ma'murchilik, to'qchilik; **a ~ of spirits** xushchaqchaqlik, quvnoqlik, shodmonlik; 4) *tib.* menstruatsiya, oy ko'rish, hayz; **2.** *v* oqmoq, tommoq, chakka o'tmoq

flowchart ['fləʊtʃɑ:t] *n* diagramma, sxema (*shartli tasvir, chizma*)

flower ['flaʊə] **1.** *n* 1) gul; 2) gullash; **2.** *v* 1) gullamoq; 2) gullar bilan bezatmoq

flower-bed ['flaʊəbed] *n* klumba (*to'garak yoki boshqa biror shakldagi gulzor*)

flower-de-luce [ˌflaʊədə'lju:s] = **fleur-de-lis**

floweret ['flaʊ(ə)rɪt] *n* kichkina gul, gulcha (chechak)

flower-garden ['flaʊəˌgɑ:dn] *n* gulxona, gulzor, chamanzor

flower-girl ['flaʊəgɜ:l] *n* gulchi, gul sotuvchi ayol

flowering ['flaʊ(ə)rɪŋ] *n* gullash, guli ochilish

flower-piece ['flaʊəpi:s] *n ras.* gullar tasviri tushirilgan surat

flower-pot ['flaʊəpɒt] *n* tuvak, guldon

flower-show ['flaʊəʃəʊ] *n* gullar ko'rgazmasi

flowery ['flaʊ(ə)rɪ] *a* gulli, sergul, guldor

flowing ['fləʊɪŋ] *a* shoshmasdan (bir tekis) ijro etiladigan (*uslub haqida*); 2) hozirgi, shu kundagi

flown I [fləʊn] *a* boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan (*parvoz haqida*)

flown II [fləʊn] *p. p. of* **fly II, 2**

flu ['flu:] *n so'zl.* gripp

fluctuate ['flʌktʃʊeɪt] *v* tebranmoq, pirpiramoq, hilpiramoq, silkinmoq

fluctuation [ˌflʌktʃʊ'eɪʃ(ə)n] *n* tebranish

flue [flu:] *n* 1) dudburon, mo'ri, mo'rkon; 2) *tex.* bug' qozoni orqali issiq tutun o'tkazadigan truba, o't quvuri; 3) baliq ovlaydigan katta to'r

fluency ['flu:ənsɪ] *n* ravonlik, silliqlik (*nutq haqida*)

fluent ['flu:ənt] **1.** *a* 1) oquvchan, (suyulib) oqib ketadigan, suyuq; 2) ravon (*nutq haqida*); **2.** *n mat.* o'zgaruvchan miqdor

fluently ['flu:əntlɪ] *adv* 1) tekislab, silliq qilib; 2) tutilmasdan, qiynalmasdan, ravon (*nutq haqida*)

fluff [flʌf] *n* par, momiq, tuk, tivit, mo'y

fluffy ['flʌfɪ] *a* 1) yumshoq, mayin, momiqday; 2) *so'zl.* tez esidan chiqadigan (unutadigan), unutuvchan, xotirasi past, faromushxotir; 3) *so'zl.* mast, oyoqda tura olmaydigan

fluid ['flu:ɪd] **1.** *a* suyuq; **2.** *n* suyuqlik

fluidity [flu:'ɪdɪtɪ] *n* 1) suyuqlik holati; 2) oquvchanlik, (suyulib) oqib ketish xususiyati; 3) nutqning ravonligi; 4) o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish

fluke [flu:k] *n* 1) baxtli tasodif; 2) *zool.* kambala, qalqonbaliq; 3) langarning lapasi (*tayanch nuqtalari*)

fluky ['flu:kɪ] *a* 1) tasodifiy, tasodifan bo'lgan (bo'lib qolgan), kutilmaganda yuz bergan (sodir bo'lgan), kutilmagan, nogahoniy; 2) omadga bog'liq bo'lgan

flume [flu:m] *n* 1) sun'iy kanal; 2) oqimli tog' darasi; 3) *tex.* tarnov, nov

flummery ['flʌm(ə)rɪ] *n so'zl.* quruq xushomad; bekorchi gap, safsata

flummox ['flʌməks] *v so'zl.* xijolat qilmoq, xijolatga solmoq, uyaltirib qo'ymoq, uyatga qoldirmoq; qiyin (tang, og'ir) ahvolga solib qo'ymoq

flump [flʌmp] **1.** *n* noaniq tovush (gupullash, duk-duk urish, tepish); taqillagan (dukullagan, taraqlagan) ovoz; taqillash, dukullash, taraqlash; taqir-tuqur, taraq-turuq, duk-duk, dukur-dukur; **2.** *v* 1) taraq-turuq qilib tushmoq *yoki* harakat qilmoq; 2) (nimanidir) polga taraq etib otib yubormoq *yoki* qo'ymoq

flung [flʌŋ] *past. p. p. of* **fling 2**

flunk [flʌŋk] *amer. so'zl.* **1.** *n* to'la-to'kis barbod bo'lish; **2.** *v* imtihondan yiqilmoq; **to ~ out** o'zlashtira olmaganligi uchun haydab yubormoq (*o'quv yurtidan*)

flunkey ['flʌŋkɪ] *n* 1) xizmatkor; malay; 2) tiz cho'kib sajda qiluvchi, laganbardor

fluorescence [flʊ(ə)'res(ə)ns] *n* nurlanish, yorug'lik (nur) sochish; fluoressensiya (*ba'zi jismlarni nurlantirganda ularning yaltirab ko'rinishi*)

fluorescent [flʊ(ə)'res(ə)nt] *a* fluoressensiyaga oid, nurlatilganda yaltirab ko'rinadigan; **a ~ lamp** kunduzgi yorug'lik lampasi

fluoride ['flʊ(ə)raɪd] *n kim.* ftorid; **anhydrous hydrogen ~** ftorli vodorod

fluorine ['flʊ(ə)ri:n] *n kim.* ftor (*achchiq hidli, rangsiz gaz*)

fluorspar ['flʊəspɑ:] *n min.* rangsiz, shuningdek, binafsharang, pushti rang kristallar hosil qiladigan mineral (*metallurgiya, kimyo sanoati, optika va sh. k. da qo'llanadi*)

flurry ['flʌrɪ] *n* 1) to'satdan yog'gan yomg'ir yoki qor, bo'ron; 2) sarosima, tartibsizlik, besaranjomlik

flush I [flʌʃ] **1.** *v* 1) yuvib tozalamoq; 2) to'ldirib yubormoq; 3) qizarmoq; 4) pirillab uchib ketmoq; **2.** *n* 1) oqim; 2) qizillik (*yuzdagi*)

flush II [flʌʃ] 1. *n* qo'rqib (cho'chib) pirillab uchib ketgan qushlar galasi; **2.** *v* (*yovvoyi qushlarni*) qo'rqitib yubormoq

flush III [flʌʃ] *n* bir xil turdagi (rangdagi) qartalar

fluster ['flʌstə] *v* xavotirlanmoq

flute [flu:t] **1.** *n* nay; **2.** *v* nay chalmoq

flutist ['flu:tɪst] *n* naychi

flutter ['flʌtə] **1.** *v* 1) silkitmoq, qoqmoq; 2) hilpiramoq; 3) tez-tez urmoq, dukullamoq; **2.** *n* 1) hovliqish; 2) hilpirash; 3) qoqish

fluty ['flu:tɪ] *a* nay ovozini eslatadigan; yumshoq va toza

fluvial ['flu:vɪəl] *a* daryoga oid, daryoda bo'ladigan

flux [flʌks] **1.** *n* 1) doimiy harakat; 2) oqish, oqib ketish, borish; **2.** *v* oqib ketmoq, oqib chiqmoq

fluxion ['flʌkʃ(ə)n] *n* 1) *mat.* hosila, yasama; 2) *tib.* qon *yoki* suyuqlikning quyulishi (*yuzga yoki tananing boshqa a'zolariga*)

fly I [flaɪ] *n* pashsha; chivin

fly II [flaɪ] **1.** *n* uchish, parvoz qilish; **to ~ in** uchib kirmoq; **to ~ out** uchib chiqmoq; **to ~ over** uchib o'tmoq; **2.** *v* (**flew; flown**) uchmoq, ko'tarilmoq; **to ~ at** kimgadir hujum qilmoq, so'kish so'zla-

rini aytib tashlanmoq (yopishib ketmoq); **to ~ in** havo yo'li orqali yetkazib bermoq; **to ~ into** 1) qattiq g'azablanmoq; 2) qoyil qolmoq, tahsin o'qimoq; 3) uchib kirmoq (*xona va b. ga*); **~ off** 1) shoshganicha (shoshilib, shoshib) qochib qutulmoq; 2) chiqib ketmoq, uzilib (*yoki ko'chib*) tushmoq, uchib chiqib ketmoq (*mas., bolg'a sopi va b. dan*); **to ~ on = to ~ at; to ~ out** qizishmoq, jahli (achchig'i) chiqib ketmoq, qoni (zardasi) qaynamoq; **to ~ over** ...dan sakrab o'tmoq (oshib o'tmoq); **to ~ round** aylanmoq, aylanib yurmoq; gir-gir aylanmoq (*g'ildirak haqida*); **to ~ upon = to ~ at**; **3.** *a so'zl.* 1) chaqqon; 2) ayyor

fly III [flaɪ] *a* bilimdon, bilarmon, bilag'on, ma'lumotli, tajribali, donishmand, aqlli, fahm-farosatli

fly agaric [ˌflaɪˈægərɪk] *n* muxomor (*zaharli zamburug' turi; suvidan pashshadori sifatida foydalaniladi*)

fly-away [ˈflaɪəˌweɪ] *a* 1) keng; hilpiragan; 2) yengiltak, qat'iyatsiz

fly-bitten [ˌflaɪˈbɪtn] *a* pashshalar o'tirib (bulg'ab) tashlagan

flyblow [ˈflaɪbləʊ] **1.** *n* pashsha urug'i; **2.** *v* tuxum qo'ymoq (*pashsha haqida*)

French [frentʃ] **1.** *a* fransuzcha; fransuz; **in ~** fransuzcha, fransuz tilida; **2.** *n* fransuz tili; **~man** fransuz; **~woman** fransuz ayoli

French bean [ˌfrentʃˈbi:n] *n bot.* loviya (*o'simligi va doni*)

French bread [ˌfrentʃˈbred] *n* uzunchoq oq bulka (baton)

French Canadian [ˌfrentʃkəˈneɪdɪən] *n* fransuz tilida gapiradigan kanadalik (kishi)

French chalk [ˌfrentʃˈtʃɔ:k] *n* tikuvchilik bo'ri

French dressing [ˌfrentʃˈdresɪŋ] *n* sirka va o'simlik moyidan tayyorlangan salatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan narsa (dorivor)

French horn [ˌfrentʃˈhɔ:n] *n mus.* valtorna (*puflab chalinadigan musiqa asbobi*)

Frenchify, frenchify [ˈfrentʃɪfaɪ] *v* fransuzlashtirmoq, fransuzlashmoq

French leave [ˌfrentʃ ˈli:v] *n* xayrlashmasdan ketish; **to take ~** xayrlashmasdan (hech kimga bildirmasdan) ketmoq

Frenchman [ˈfrentʃmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) fransuz; 2) fransuz kemasi

French polish [ˌfrentʃ ˈpoliʃ] *n* polirol (*pardoz loki*)

French roof [ˌfrentʃ ˈru:f] *n* qiya shipli boloxona tomi

French window [ˌfrenʃ ˈwɪndəʊ] *n* polgacha yetadigan ikki tabaqali deraza

Frenchwoman [ˈfrentʃˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) fransuz ayol

frenetic [frɪ ˈnetɪk] *a* 1) jazava (g'azab, hayajon) va sh. k. dan o'zini bilmaydigan, g'azabi oshgan, darg'azab, qizishib turgan, quturgan; 2) fanatik (mutaassib) bo'lgan; fanatizmga berilgan, o'taketgan mutaassib

frenzied [ˈfrenzɪd] *a* yovvoyi, vahshiy, darg'azab

frenzy [ˈfrenzɪ] *n* aqldan ozishlik, quturish

freon [ˈfri:ɒn] *n kim.* freon (*suvda erimaydigan gazsimon yoki suyuq modda*)

frequency [ˈfri:kwənsɪ] *n* 1) tezlik; tez-tez qaytalanish, takrorlanish (qaytarish), sodir bo'lish darajasi (tezligi); **the ~ of the pulse** tomir urishining tezligi; 2) tez-tez bo'lib turishlik; 3) *fiz.* chastota (*tebranma harakat tezligining darajasi*); **high ~** yuqori chastota; **low ~** past chastota; 4) *attr.* chastotaga oid; chastota...; **a ~ divider** *radio* chastotani bo'luvchi mexanizm (moslama); **~ modulation** *radio* chastotaning o'zgarishi (modulatsiyasi); **~ range** *radio* chastota diapazoni (o'zgarish ko'lami, hajmi, chegarasi, doirasi)

frequent 1. *a* [ˈfri:kwənt] tez-tez bo'ladigan, qaytalanib, takrorlanib turadigan; **2.** *v* [frɪ ˈkwent] tez-tez borib turmoq

frequenter [frɪ ˈkwentə] *n* kanda qilmay (doim) kelib turadigan odam

frequentative [frɪ ˈkwentətɪv] *a gram.* takroriy

fresco [ˈfreskəʊ] **1.** *n* (*pl* **-os, oes** [-əʊz]) devorga ishlangan suratlar; **2.** *v* devorga ishlangan suratlar bilan bezatmoq

fresh [freʃ] *a* 1) yangi, endigina uzilgan, yangi chiqqan, buzilmagan, aynimagan; **~ paint** hali qurimagan bo'yoq; **~ paint!** ehtiyot bo'ling, bo'yalgan!; **~ sprouts** yangi chiqqan novdalar; 2) yangi, boshqa; **to begin a ~ chapter** yangi bobni boshlamoq; **to make a ~ start** hammasini yangidan (boshidan) boshlamoq; **no ~ news** hech qanday qo'shimcha xabar yo'q; 3) tabiiy, asl. sof, toza (sun'iy emas), konservalanmagan, konserva qilinmagan; **~ fruit** yangi uzilgan mevalar; 4) musaffo, toza; tiniq, yorqin; tetik, bardam; 5) tajribasiz; **a ~ hand** tajribasiz odam; **~ from school** tajribaga ega bo'lmagan, tajribasiz (*mutaxassis haqida*); **2.** *n* salqin, shabada

freshen [ˈfreʃ(ə)n] *v* 1) ochilmoq, ko'rkamlashmoq, chiroy bag'ishlamoq; 2) kuchaymoq, shiddatlashmoq (*shamolga nisbatan*); 3) (*suvni*) tozalamoq, chuchuk qilmoq, chuchuklashtirmoq

freshener [ˈfreʃ(ə)nə] *n so'zl.* rohatbaxsh (salqinlantiradigan) ichimlik

fresher [ˈfreʃə] *n* 1) yangi odam, endigina kelgan odam; 2) birinchi kurs talabasi; 3) *so'zl.* salqin shamol

freshet [ˈfreʃɪt] *n* daryoning toshishi

freshly [ˈfreʃlɪ] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina, hali, boya; **~ painted** yaqindagina bo'yalgan

freshman [ˈfreʃmən] = **fresher**

freshwater [ˌfreʃ ˈwɔ:tə] *a* 1) suvi chuchuk, chuchuk suvli; chuchuk suvda yashovchi; 2) *amer.* poytaxtdan uzoqdagi (*asos., maktab va kollej haqida*)

fret I [fret] **1.** *n* 1) tor, parda (*dutor, gitara va sh. k. da.*); 2) azob-uqubat, jafo, aziyat, ozor; **2.** *v* xavotirlanmoq, tashvishlanmoq

fret II [fret] **1.** *n* to'g'ri burchakli naqsh; **2.** *v* o'yma *yoki* ganchkor naqsh bilan bezamoq (bezatmoq)

fretful [ˈfretf(ə)l] *a* tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl, serzarda

fretsaw [ˈfretsɔ:] *n* qil arra (*arralab o'yib naqsh solish uchun ishlatiladigan arra*)

fretwork [ˈfretwɜ:k] *n me'mor.* naqsh bilan bezatish

friability [ˌfraɪə ˈbɪlɪtɪ] *n* yumshoqlik; g'ovaklik; mo'rtlik

friable [ˈfraɪəb(ə)l] *a* bo'sh, yumshoq (*yer*); mo'rt

friar [ˈfraɪə] *n tar.* monax, rohib

friary [ˈfraɪərɪ] *n* erkaklar monastiri

fribble [ˈfrɪb(ə)l] **1.** *n* bekorchi; bekorchixo'ja, yalqov, tanbal, ishyoqmas; **2.** *v* bekor yurmoq, yalqovlik (tanballik) qilib yurmoq

fricassee [ˈfrɪkəsi:, ˌfrɪkəˈsi:] *n oshx.* frikase (*to'g'ramcha go'shtdan pishirilgan qaylali ovqat*)

fricative [ˈfrɪkətɪv] **1.** *a fon.* frikativ, sirg'aluvchan; **2.** *n* frikativ; sirg'aluvchi tovush

friction [ˈfrɪkʃ(ə)n] *n* 1) ishqalanish; 2) *tib.* malhamning surtilishi; 3) *ko'ch.* kelishmovchilik

frictional [ˈfrɪkʃ(ə)nəl] friksion, ishqalanadigan, chig'iriqli

friction gear [ˈfrɪkʃ(ə)ngɪə] *n tex.* friksion (chig'iriqli) uzatma

Friday [ˈfraɪdɪ] *n* juma

fridge [ˈfrɪdʒ] *n* sovitgich, muzlatgich

friend [frend] **1.** *n* 1) do'st, o'rtoq, og'ayni; **to make ~s** yarashmoq, kelishmoq; **to make ~s with smb.** kim bilandir do'stlashmoq; **a ~ in need is a ~ indeed** *maq.* do'st boshga kulfat tushganda bilinadi; 2) tanish; **have you any ~s here?** bu yerda tanishingiz bormi?; **2.** *v shoir.* yordam bermoq, yordamlashmoq, ko'maklashmoq; do'st bo'lmoq, do'stlashmoq

friendless [ˈfrendləs] *a* yakka, yolg'iz, tanho, boshqalardan ajralgan

friendliness [ˈfrendlɪnəs] *n* do'stona munosabat, xayrixohlik, do'stlik, samimiyat

friendly [ˈfrendlɪ] **1.** *a* 1) do'stona, do'stlarcha, samimiy; do'stlik; do'stlar...; o'rtoqlik..; do'stona munosabatdagi, do'stlik ruhidagi, xayrixohona; do'stlikni (samimiyatni) ifodalovchi; **~ in manner** xushmuomala, sermulozamat; **F. Society** bir-biriga yordam berish (o'zaro yordam) jamiyati; **a ~ match** *sport.* o'rtoqlik uchrashuvi; **2.** *adv* do'stlik bilan, do'stlarcha, do'stona, xayrixohona

friendship [ˈfrendʃɪp] *n* 1) do'stlik; 2) xayrixohlik, samimiyat

frieze I [fri:z] *n to'q.* tukli movut; sertuk dag'al jun gazlama

frieze II [fri:z] *n* 1) friz (*tivitli qalin mato*); 2) friz (*bino peshanasidagi, shuningdek, devor, gilam, parket chetlaridagi keng naqshli yo'l, hoshiya*)

frig I [frɪg] *n amer. so'zl.* sovitgich, muzlatgich

frig II [frɪg] *v qo'p.* qovushmoq, jinsiy aloqa qilmoq, jinsiy aloqada bo'lmoq

frigate [ˈfrɪgɪt] *n deng.* fregat (*1. uch machtali yelkanli harbiy kema; 2. soqchi harbiy kema*)

frigate-bird [ˈfrɪgɪtbɜ:d] *n zool.* fregat (*dumi uzun yirik tropik dengiz qushi*)

frige [frɪdʒ] *n* sovitgich, muzlatgich

frigging [ˈfrɪgɪŋ] *a so'zl.* la'nati, la'natlangan, la'nat o'qilgan

fright [fraɪt] *n* qo'rqish, qo'rquv; **to give smb. a ~** biror kimni qo'rqitmoq; **to have a ~** qo'rqib ketmoq

frighten [ˈfraɪtn] *v* qo'rqitmoq, cho'chitmoq; **to ~ away** qo'rqitmoq, cho'chitmoq, qo'rqitib (cho'chitib, hurkitib) yubormoq, qo'rqitib qochirib yubormoq; **to ~ into** qo'rqitib nimanidir qilishga majbur qilmoq; **to ~ off** qo'rqitmoq, cho'chitmoq, hurkitib yubormoq; **to ~ out of** qo'rqitish yo'li bilan nimadandir

bosh tortishga (voz kechishga) majbur qilmoq

frightened [ˈfraɪtnd] *a* qo'rqqan, cho'chigan

frightful [ˈfraɪtf(ə)l] *a* vahimali, qo'rqinchli

frightfully [ˈfraɪtf(ə)lɪ] *adv* vahimali, dahshat, solib

frigid [ˈfrɪdʒɪd] *a* iltifotsiz, e'tiborsiz

frigidity [frɪ ˈdʒɪdɪtɪ] *n* e'tiborsizlik, iltifotsizlik

frill [frɪl] *n* 1) jabo (*yoqaning chetidagi to'r yoki matodan qilingan burma hoshiya*); 2) *pl* keraksiz bezaklar; 3) *pl* noz-karashma, ishva, g'amza; buralib-eshilib noz qilish; 4) *anat.* qatqorin (*kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozonining qat-qat qismi*)

frilled [frɪld] *a* 1) burma bilan bezatilgan; 2) nova-nova; qat-qat; 3) qirrali kesilgan

frillies [ˈfrɪlɪz] *n pl so'zl.* burmali ichki yubka

frilly [ˈfrɪlɪ] *a* burmali

fringe [frɪndʒ] **1.** *n* 1) popuk, shokila; popukli jiyak; **the ~ of curtain** pardadagi popuk; 2) peshana gajak; 3) jiyak, mag'iz; hoshiya; 4) qo'shimcha imtiyozlar (*nafaqalar, to'lanadigan ta'tillar va h. k.*); **2.** *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan (beriladigan) *yoki* olingan (olinadigan); **3.** *v* 1) popukli jiyak bilan bezamoq; 2) hoshiyalamoq, hoshiya solmoq

frippery [ˈfrɪp(ə)rɪ] *n* zar ip, zar, bezak

Frisco [ˈfrɪskəʊ] *n so'zl. sh.* San-Fransisko

Frisian [ˈfrɪːzɪən] **1.** *a* Frizga (frizliklarga) oid; Friz (frizliklar); **2.** *n* 1) frizlik (kishi); 2) friz tili

frisk [frɪsk] **1.** *v* tinmay o'ynamoq; o'ynoqlamoq; **2.** *n* chopqillash, sakrash

frisky [ˈfrɪskɪ] *a* sho'x, o'ynoqi, tinchimaydigan, tinib-tinchimas

frit [frɪt] *tex.* **1.** *n* frittlar (*shisha yoki keramikaning mikroelementlar (bor, rux, marganes, molibden, mis, temir) bilan qotishmasi*); **2.** *v* (*mayda zarralarni*) qizdirib yaxlitlamoq (yaxlit holga keltirmoq); qattiq qizdirib yirik bo'lak hosil qilmoq

frith [frɪθ] = **firth**

fritter [ˈfrɪtə] **1.** *n* 1) qism; 2) oladya (*taom turi*); **2.** *v* maydalamoq, ushatmoq

fritz [frɪts] *n* : **on the ~** *amer. so'zl.* buzuq, buzilgan, ishdan chiqqan, singan, parchalangan

frivol [ˈfrɪv(ə)l] *v* 1) ishlamasdan kun kechirmoq; 2) (*vaqt, pul va b. ni*) behudaga sarflamoq

frivolity [frɪ ˈvɒlɪtɪ] *n* mulohazasizlik, yengiltaklik

frivolous [ˈfrɪvələs] *a* mulohazasiz, yengiltak

friz [frɪz] = **frizz I**

frizz I [frɪz] **1.** *n* 1) qo'ng'iroq (jingalak) sochlar; 2) gajak qilish; **2.** *v* jingalaklamoq, jingalak qilmoq; **to ~ up** jingalaklanmoq, jingalak (gajak) bo'lmoq

frizz II [frɪz] *v* jiz-biz qilmoq (*qovurganda*)

frizzed [frɪzd] *a* jingalak; sochi jingalak, sochi o'ralgan

frizzle I [ˈfrɪz(ə)l] *v* 1) jaz-juz (jiz-jiz) qilib qovurmoq; 2) issiqdan lohas bo'lmoq

frizzle II [ˈfrɪz(ə)l] **1.** *n* jingalak (qo'ng'iroq) sochlar; **2.** *v* 1) jingalaklamoq, jingalak qilmoq; 2) jingalaklanmoq, gajak bo'lmoq, o'ralmoq

frizzly [ˈfrɪzlɪ] *a* jingalak, jingalak qilingan; sochi jingalak; sochi o'ralgan

frizzy [ˈfrɪzɪ] *a* jingalak

fro [frəʊ] *adv* : **to and ~** u yoqqa-bu yoqqa, orqaga va oldinga

frock [frɒk] *n* ayollar ko'ylagi (libosi)

frock-coat [ˌfrɒkˈkəʊt] *n* surtuk (*erkaklarning uzun belburma kamzuli*)

frog I [frɒg] *n zool.* baqa, qurbaqa

frog II [frɒg] *n* 1) guljiyak (*guldor ingichka ipak jiyak*); 2) akselbant (*ba'zi chet el armiyalarida: harbiylarning unvonlariga ko'ra yelkalariga taqiladigan zarbof shnurlar*)

froggy [ˈfrɒgɪ] *a* baqaga oid; baqa...

frog-in-the-throat [ˈfrɒgɪnðəˈθrəʊt] *n so'zl.* xirillash, xirillab qolish, bo'g'ilish

frogling [ˈfrɒglɪŋ] *n* baqacha, baqa bolasi

frogman [ˈfrɒgmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) g'avvos (*suv o'tkazmaydigan maxsus kiyimda suvosti ishlarini bajaruvchi ishchi*)

frogskin [ˈfrɒgˌskɪn] *n amer. jarg.* qog'oz pul (*dollar*)

frolic [ˈfrɒlɪk] **1.** *v* sho'xlik qilmoq, to'polon qilmoq; **2.** *a esk.* 1) shod, xursand, vaqti (kayfi, dimog'i) chog'; quvnoq, xurshchaqchaq; 2) o'ynoqi, sho'x, tinchimaydigan, tinib-tinchimas; **3.** *n* 1) sho'xlik, o'ynoqilik, hazilkashlik, hazil-huzul; 2) quvnoq kayfiyat, quvnoqlik, xushvaqtlik, xushchaqchaqlik

frolicsome [ˈfrɒlɪks(ə)m] *a* sho'x, o'ynoqi, xushchaqchaq

from [frɒm, frəm] *prep.* 1) ...dan (*jo'nalish, boshlanish nuqtasi, boshlang'ich punkti, chegarani ko'rsatadi*); **tell the story ~ the beginning** hikoyani boshidan boshlab so'zlab ber; **~ home to the lyceum** uydan litseygacha; **~ her point of view** uning fikricha; 2) ...dan (*vaqtga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ko'rsatadi*); **~ the beginning** boshi (boshlanish joyi, nuqtasi)dan, avvalgi (ibtidosi)dan; **~ the beginning of the 20th century** XX asrning bosh(lar)idan; **~ a childhood** bolalikdan; **~ before the war** urushdan oldingi paytdan boshlab; **beginning ~ the next month** kelasi oydan boshlab; **~ dusk to dawn** tong otgandan kun botguncha; oqshomdan tongotargacha; **~ seven p.m.** kechki soat yettidan; 3) ...dan (*tortib olish, zo'rlik bilan olib qo'yish, ayirish, olish, chiqarib tashlash, taqsimlash, bo'lish va b. ni ko'rsatish uchun ishlatiladi*); **to take the hook ~ the child** bolaning qo'lidan kitobni olib qo'ymoq; **take seven ~ thirty** o'ttizdan yettini ayirib tashlang; 4) ...dan (*vazifalardan ozod qilish, xatardan saqlab qolish (xalos etish) va b. ni ko'rsatadi*); **to hide ~ smb.** kimdandir yashirinmoq; **we were saved ~ ruin** bizni xarob bo'lishdan saqlab qoldilar; 5) ...dan (*manba, asos, kelib chiqishi va b. ni ko'rsatadi*); **he knows it ~ the newspapers** u buni gazetalardan biladi; **to speak ~ memory** yoddan gapirmoq; 6) ...dan (*harakatning sababini ko'rsatadi*); **to suffer ~ cold** sovuqdan qiynalmoq; **she died ~ heart attack** u yurak xurujidan o'ldi; 7) ...dan (*farqni, tafovutni ko'rsatadi*); **to distinguish good ~ bad** yaxshini yomondan ajratmoq; **customs differ ~ country to country** har bir mamlakatning o'z urf-odati bor; 8) ...dan (*ahvol, holat, vaziyat o'zgarishini ko'rsatadi*); **~ being a dull, indifferend boy, my friend now became a vigorous youth** mening do'stim shalpaygan, loqayd boladan chaqqon va serg'ayrat bolaga aylandi

frond [frɒnd] *n* qirqquloqning *yoki* palma daraxtining bargi

Fronde [frɒnd] *n fr. tar.* Fronda (*Fransiyada XVII asrda absolutizmga qarshi bo'lgan dvoryan-burjua harakati*)

front [frʌnt] **1.** *n* 1) fasad (*binoning old tomoni*); (*nimaningdir*) old tomoni; **to come to the ~** oldinga surilmoq (chiqmoq); **in ~ of** oldida, ro'parasida, qarshisida; **a bus stopped in ~ of the lyceum** avtobus litseyning oldida to'xtadi; **in ~ of smb.'s eyes** kimningdir ko'z oldida; **she never says it in ~ of me** u hech qachon bu haqida mening oldimda gapirmaydi; 2) *harb.* front, oldingi tomon; **at the ~** oldinda; **in the ~ of** ...ning oldida; **in the ~ of a car** avtomobilning oldida; **look to your ~** oldinga qara; 3) daryo (suv) bo'yidagi ko'cha; dengiz bo'yidagi (yoqasidagi, labidagi, yaqinidagi) xiyobon; **to present** (*yoki* **to show**) **a bold ~** ruhan tushmaslik (ezilmaslik); umidsizlikka tushmas-

lik; **to put on a bold ~** jasorat ko'rsatmoq; **2.** *a* 1) oldingi; old tomondagi; **~ teeth** oldingi tishlar; 2) *fon.* tiloldi; **~ consonants** tiloldi undoshlar; **~ vowels** tiloldi unlilar; **3.** *v* biror tomonga qaragan bo'lmoq; **the window ~s on** (*yoki* **towards**) **the garden** deraza bog' tomonga qaragan

frontage ['frʌntɪdʒ] *n* 1) fasad (*binoning old tomoni, oldi*); 2) uy oldidagi qo'rali kichkina bog'cha (gulzor)

frontal ['frʌntl] *a* 1) *anat.* peshana (manglay) suyagi; 2) *harb.* old tomonda joylashgan, oldingi tarafdagi

front bencher [ˌfrʌnt 'bentʃə] *n* 1) vazir; 2) sobiq vazir; 3) oppozitsiya (qarshi harakat) rahbari (boshlig'i)

frontier ['frʌntɪə] *n* 1) chegara; 2) chegara qal'asi; 3) *attr.* chegaraga oid; chegara ...; **a ~ town** chegaradagi shahar

frontiersman ['frʌntɪəzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) chegara mintaqasida yashovchi (istiqomat qiluvchi) kishi; 2) *amer. tar.* ko'chib kelgan (ko'chirib keltirilgan) kishi

frontispiece ['frʌntɪspi:s] *n* frontispis (*1. imoratning old tomoni, peshtoqi; 2. kitobning birinchi betidan oldingi betdagi yoki birinchi betdagi matn yuqorisidagi rasm*)

frontlet ['frʌntlɪt] *n* 1) peshanadagi bog'ich; 2) hayvon peshanasidagi dog' (qashqa)

front line [ˌfrʌnt 'lam] *n* front chizig'i; oldingi qism, birinchi chiziq (*frontda*)

fronton ['frʌntən] *n me'mor.* 1) fronton (*bino fasadining uchburchak shaklidagi tomchasi bo'lgan tepa qismi, shuningdek, eshik, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak*); 2) ikki yog'i nishab tomning tepa qirrasi

front page [ˌfrʌnt 'peɪdʒ] *n* 1) titul (*kitobning nomi, muallifi, nashr etilgan yili, nashriyot nomi va sh. k. yozilgan varag'i*); 2) birinchi bet, sahifa (*gazetada*)

front-page ['frʌntpeɪdʒ] *a* (*gazetaning*) birinchi sahifasida joylashtiriladigan (joylashadigan); juda muhim

front-rank [ˌfrʌnt 'ræŋk] *a* 1) oldingi, oldindagi; 2) ilg'or, yetakchi

front room [ˌfrʌnt 'ru:m, -'rom] *n amer.* mehmonxona (*kichik uyda*)

front-runner [ˌfrʌnt 'rʌnə] *n* bo'lishi ehtimol tutilgan (bo'lishi mumkin bo'lgan) da'vogar

frontward ['frʌntwəd] **1.** *a* fasad (*binoning old tomoni*)ga chiqqan; **2.** *adv* (*yuzini*) oldinga qaratib, oldinga yuzlanib

frontwards ['frʌntwədz] = **frontward 2**

frontways, frontwise ['frʌntweɪz, -waɪz] = **frontward 2**

frore [frɔ:] *a shoir.* 1) sovuq, juda sovuq; ayozli; 2) sovuqdan yuzaga kelgan (keladigan)

frost [frɔst] **1.** *n* sovuq, ayoz; **ten degrees of ~** o'n daraja sovuq; **hard ~** (**sharp ~, biting ~**) qattiq sovuq; **2.** *v* sovuq urib ketmoq; muzlamoq

frost-bite ['frɔstbaɪt] *n* sovuqqa oldirib (urdirib) qo'yilgan joy

frost-bitten ['frɔst,bɪtn] *a* sovuqqa oldirilgan (urdirilgan); sovuq olgan (urgan)

frost-bound ['frɔstbaund] *a* muzlatib qo'yilgan

frost-cleft [ˌfrɔstkleft] **1.** *n* sovuq urgan daraxt; sovuqdan (sovuqqa chidamasdan) zarar ko'rgan daraxt; sovuqqa chidamasdan qars etib sinib tushgan daraxt shoxi; **2.** *a* sovuqqa chidamaydigan; sovuqdan zarar ko'rgan (ko'radigan); sovuqdan sinib (tushgan) tushadigan (*daraxt va shoxlari haqida*)

frost crack ['frɔstkræk] = **frost-cleft**

frosted ['frɔstɪd] *a* 1) sovuq urib ketgan; 2) qirov bosgan; 3) xira, tiniq emas (*oyna haqida*); 4) qiyom qatlami bilan qoplangan (*tort haqida*)

frost-hardy ['frɔst,hɔ:dɪ] *a* sovuqqa chidaydigan, sovuqbardosh (*o'simliklar haqida*)

frostily ['frɔstɪlɪ] *adv* sovuqqina, iltifotsiz

frosting ['frɔstɪŋ] *n* 1) *amer.* shakar-qiyom, shira; 2) sirti (usti) xira, tiniq emas (*oyna, metall haqida*)

frost-work ['frɔstwɜ:k] *n* oynalardagi muz naqshi (*sovuqdan oynalarga tushgan jimjimador naqsh*)

frosty ['frɔstɪ] *a* 1) sovuq, muzlatadigan; juda sovuq, ayozli; sovuqdan yuzaga kelgan (keladigan); qirov bilan qoplangan, qirov bosgan; **a ~ night** sovuq (ayozli) tun; **~ trees** qirov bosgan daraxtlar; 2) soch-soqoli oqargan, soch-soqoliga oq tushgan; **a ~ head** oqargan bosh

froth [frɔθ] **1.** *n* ko'pik; **2.** *v* ko'piklanmoq, ko'pirmoq

frothy ['frɔθɪ] *a* ko'pikli, ko'pikka o'xshash

froufrou ['fru:fru:] *n* shitirlash, shildirash, shaldirash (*shoyi, ipak haqida*)

frounce ['fraun(t)s] *v* chirmashib (o'rab) ketmoq, o'ralib olmoq

froward ['frəʊəd] *a esk.* 1) o'jar, qaysar; 2) gapga ko'nmaydigan (unamaydigan); 3) injiq, serxarxasha, tantiq

frown [fraun] **1.** *v* qovog'ini solmoq; norozi bo'lmoq; **2.** *n* qovog'ini solish; norozi bo'lish

frowst [fraust] *so'zl.* **1.** *n* 1) (*xonadagi*) dimlik (*yoki* havoning buzuqligi, og'irligi); **2.** *v* 1) uyning buzuq havosida o'tirmoq; 2) bekor yurmoq, yalqovlik (tanballik) qilib yurmoq

frowsty ['fraustɪ] *a* dim, dam, bo'g'iq

frowzy ['fraʊzɪ] *n* isqirt, iflos, to'zg'igan

froze [frəʊz] **1.** *past of* **freeze 2**; **2.** *a* juda sovuq, muzdek; **~ water** muzdek suv; **~ wind** sovuq shamol

frozen ['frəʊz(ə)n] **1.** *p. p. of* **freeze 2**; **2.** *a* muzlagan, muzlatilgan

fructiferous [frʌk 'tɪf(ə)rəs] *a* mevali, meva qiladigan, hosil beradigan

fructification [ˌfrʌktɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n bot.* 1) meva (hosil) berish; 2) urug'lantirish (*o'simliklarni*)

fructify ['frʌktɪfaɪ] *v* 1) *bot.* urug'lantirmoq; 2) hosil (meva) bermoq

fructose ['frʌktəʊz, -əʊs] *n kim* fruktoza (*mevalarda, asalda, shuningdek, ayrim o'simliklarning bargida bo'ladigan uglevod*)

frugal ['fru:g(ə)l] *a* 1) tejab (ehtiyotkorlik bilan) sarf qiladigan, tejamkor; 2) o'rtacha, mo'tadil; uncha katta (ko'p) emas, o'rtamiyona, evidagi, oddiy; **a ~ dinner** o'rtamiyona tushlik

frugality [fru: 'gælɪtɪ] *n* tejab-tergash, ayash, tejamkorlik

fruit [fru:t] *n* 1) meva; **to grow ~s** mevali daraxt o'stirmoq; 2) natija

fruitage ['fru:tɪdʒ] *n* 1) hosil (meva) berish, hosilga (mevaga) kirish; 2) *shoir.* mevalar

fruitarian [fru: 'te(ə)rɪən] *n* faqat meva yeb yuradigan kishi

fruitcake ['fru:tkeɪk] *n* 1) uzum *yoki* qorag'atdan qilingan keks; 2) *so'zl.* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam

fruiter ['fru:tə] *n* 1) bog'dorchilik mutaxassisi, bog'shunos, bog'bon; 2) mevalarni tashiydigan kema; 3) meva daraxti

fruiterer ['fru:t(ə)rə] *n* meva sotuvchi

fruitful ['fru:tf(ə)l] *a* mevali, samarali, hosildor; **a ~ tree** sermeva daraxt

fruit-grower ['fru:t,grəʊə] *n* 1) bog'dorchilik mutaxassisi, bog'shunos, bog'bon; 2) mevachi, mevachilik mutaxassisi

fruitgrowing [ˌfru:t 'grəʊɪŋ] *n* bog'dorchilik, bog'shunoslik; bog'dorchilik xo'jaligi; bog'-rog'lar; mevachilik

fruition [fru: 'ɪʃ(ə)n] *n* orzuning ushalishi, rejaning amalga oshishi

fruitless ['fru:tləs] *a* 1) mevasiz; 2) samarasiz, foydasiz, natijasiz

fruit machine ['fru:tmə,ʃi:n] *n* o'ynaladigan avtomat

fruit salad [ˌfru:t 'sælәd] *n* mevali salat

fruit sugar [ˈfru:t,ʃʊgə] *n kim.* 1) fruktoza (*mevalarda, asalda, shuningdek, ayrim o'simliklarning bargida bo'ladigan uglevod*); 2) glukoza (*uzum shakari*)
fruit-tree [ˈfru:tri:] *n* mevali daraxt
fruity [ˈfru:ti] *a* (*mazasi, hidi va b. ga ko'ra*) mevaga o'xshagan
frumenty [ˈfru:məntɪ] *n* xushxo'r bo'lishi uchun dolchin solingan shirin sutli bug'doy bo'tqa
frump [frʌmp] *n* modasi eskirgan va yomon kiyim kiygan ayol
frumpish [ˈfrʌmpɪʃ] *a* bichimi (modasi) eskirgan, eski modadagi, eskicha
frumpy [ˈfrʌmpɪ] *a* 1) o'ziga jalb qilmaydigan, o'ziga tortmaydigan, jozibasiz, yoqimsiz, ko'rimsiz; 2) bichimi (modasi) eskirgan, eski modadagi, eski bichimdagi, eskicha
frusta [ˈfrʌstə] *pl of* **frustum**
frustrate [frʌˈstreɪt] *v* buzmoq, barbod qilmoq; **to ~ plans** rejalarni buzmoq
frustrated [frʌˈstreɪtɪd] *a* 1) ko'ngli qolgan, ko'ngli sovigan, ixlosi qaytgan, hafsalasi pir bo'lgan; 2) qoniqmagan, qanoatlantirmaydigan
frustration [frʌˈstreɪʃ(ə)n] *n* 1) buzilish, ostin-ustun bo'lish; **the ~ of smb.'s plans** kimningdir rejasining buzilishi; 2) barbod bo'lish
frustum [ˈfrʌstəm] *n* (*pl* **-ta** [-tə]) *geom.* (uchi) kesik piramida, (uchi) kesik konus
fry [fraɪ] **1.** *n* qovurdoq; **2.** *v* qovurmoq, qovurilmoq
frying-pan [ˈfraɪŋ,pæn] *n* tova (*qovurma ovqat pishirish uchun xizmat qiladigan, gir atrofi qayrilgan yassi metall idish*); **out of the ~ into the fire** o'tdan qochib yashinga uchramoq, qordan qutulib, yomg'irga tutilmoq
fubsy [ˈfʌbzɪ] *a* 1) semiz, to'ladan kelgan, yo'g'on; 2) pakana, past bo'yli, bo'yi past
fuck [fʌk] *v qo'p.* qovushmoq, jinsiy aloqa qilmoq, jinsiy aloqada bo'lmoq
fucking [ˈfʌkɪŋ] *qo'p.* **1.** *a* 1) la'nati, la'natlangan, la'nat o'qilgan; 2) shaytonlarcha, iblisona; **2.** *adv* 1) juda, rosa, o'ta, o'lguday; 2) yoqimsiz bir holda (tarzda), juda xunuk, juda yomon
fuck up [ˌfʌkˈʌp] *v qo'p.* 1) yomonlashtirmoq, buzmoq, ishdan chiqarmoq, buzib qo'ymoq; 2) harom qilmoq, iflos (murdor) qilmoq
fuddle [ˈfʌdl] **1.** *n* 1) mastlik, sarxushlik, kayfi oshish, ichib mast bo'lish; 2) ichkilikbozlik, ichimlik bazmi; **2.** *v* 1) (qattiq) mast bo'lguncha ichirmoq, ichirib mast qilmoq; 2) mast bo'lmoq, gangimoq; mast qilmoq, gangitmoq, miyasini aynitmoq
fuddy-duddy [ˈfʌdɪˌdʌdɪ] *n so'zl.* 1) javraqi (sergap) odam, vaysaqi, ezma; 2) jaholatparast, teskarichi, taraqqiyot dushmani; 3) eskilik tarafdori
fudge [fʌdʒ] **1.** *n* behuda gap, safsata, bema'ni (bo'lmagan) narsa, uydirma, to'qima; **2.** *v* naridan-beri (chala-chulpa) qilib bajarmoq; **3.** *int.* safsata, bo'lmag'ur gap, bema'ni (behuda) gap, bekor gap
fuel [fjʊəl] **1.** *n* yoqilg'i, **oil ~** yonilg'i; **2.** *v* 1) yoqilg'i (yonilg'i) bilan ta'minlamoq, yonilg'i yetkazib bermoq; 2) yonilg'i quymoq
fuelling [ˈfju:əlɪŋ] *n* 1) yonilg'i; 2) yonilg'i quyish
fuel pump [ˈfju:əlpʌmp] *n* yonilg'i quyiladigan nasos
fug [fʌg] *so'zl.* **1.** *n* 1) havoning issiqligi (buzuqligi, og'irligi), dimlik, dim havo, nafasni qaytaradigan og'ir havo; 2) supurindi, axlat, xas-cho'p; **2.** *v* dim havoda o'tirmoq; **to ~ at home** uyidan eshikka chiqmasdan yashamoq, uyida tuxum bosib yotmoq, chilla o'tirmoq
fugacious [fju:ˈgeɪʃəs] *a kit.* uchib ketuvchi, o'tkinchi; bir lahzali, bir onli; tez o'tib ketadigan
fuggy [ˈfʌgɪ] *a so'zl.* dim, dam, bo'g'iq, nafas qaytaradigan, og'ir (*havo to'g'risida*); havosi buzuq (og'ir)
fugitive [ˈfju:dʒɪtɪv] **1.** *n* qochoq, qochqin; **2.** *a* tez, bir onlik; naridan-beri qilingan, yuzaki
fugue [fju:g] *n mus.* fuga (*bir musiqiy matnning bir necha ovozda izchil takrorlanishi*)
fulcrum [ˈfʊlkrəm, ˈfʌl] *n* (*pl* **-ra** [-rə]) *fiz.* tayanch nuqtasi
fulfil [fʊlˈfɪl] *v* 1) bajarmoq, ro'yobga chiqarmoq; **to ~ a promise** va'dani bajarmoq; 2) tugatmoq
fulfilment [fʊlˈfɪlmənt] *n* 1) bajarish, ro'yobga chiqarish; **the ~ of one's desires** xohishni bajarish; 2) tugatish
full [fʊl] **1.** *a* 1) to'la; butun; **~ in** to'la; **to be ~ of** ... bilan (...ga) to'la bo'lmoq; **a ~ glass** to'la stakan; **a ~ audience** odamga to'la zal; 2) to'lin; **a ~ moon** to'lin oy; 3) keng; **a ~ skirt** keng yubka; 4) mo'l; serob; 5) to'q; 6) boy; 6) farovon; 7) eng yuqori darajaga yetgan; **2.** *adv* aniq, xuddi o'zi, rosa; **~ in the centre** qoq o'rtasida; **~ well** juda yaxshi; **~ soon** tez kunda; **3.** *v* kengaytirmoq, kattalashtirmoq
full-blooded [ˌfʊlˈblʌdɪd] *a* 1) to'laqonli, qoni ko'p, serqon; 2) kuchli, sog'lom
full-blown [ˌfʊlˈbləʊn] *a* tamoman ochilgan (*gul haqida*)
full-length [ˌfʊlˈleŋθ] *a* 1) bor bo'yicha; 2) boshdan oxirigacha
fullness [ˈfʊlnəs] *n* 1) to'lalik; 2) mo'l-ko'lchilik; 3) to'qlik
fully [ˈfʊlɪ] *adv* butunlay, tamoman, batamom; tamomila, to'la, to'liq, to'la-to'kis
fulminant [ˈfʊlmɪnənt, ˈfʌl-] *a* 1) yashin tezligidagi; yashindek tez; shiddatli; 2) tez o'tib ketadigan, vaqtinchalik, bebaqo
fulminate [ˈfʊlmɪneɪt, ˈfʌl-] *v* 1) yarqiramoq, yaltiramoq; 2) gulduramoq; gumburlamoq
fulness [ˈfʊlnəs] = **fullness**
fulsome [ˈfʊls(ə)m] *a* 1) samimiyatsiz, ikkiyuzlama, munofiq; 2) dag'al, qo'pol, to'rs
fumble [ˈfʌmb(ə)l] *v* paypaslab topmoq, siypalamoq
fume [fju:m] *n* tutun; bug'; bug'lanish
fumigate [ˈfju:mɪgeɪt] *v* dudlamoq, tutun bilan ishlamoq, tutatmoq
fumigation [ˌfju:mɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* tutatish
fumy [ˈfju:mɪ] *a* tutayotgan, tutab turgan
fun [fʌn] *n* hazil; xursandchilik; **for ~** hazil uchun, hazillashib; **we did it for ~** biz buni hazillashib qildik; **to make ~ of smb.** birovning ustidan kulmoq
function [ˈfʌŋkʃ(ə)n] **1.** *n* vazifa, belgilangan maqsad; 2) funksiya, faoliyat; 3) *pl* lavozim majburiyatlari; **2.** *v* 1) vazifasini bajarmoq; faoliyat ko'rsatmoq; 2) funksiyasini bajarmoq, majburiyatlarini ijro etmoq
functional [ˈfʌŋkʃ(ə)nəl] *a* 1) funksiyaga oid, funksional; 2) rasmiy, ishga oid; 3) kasbiy
functionary [ˈfʌŋkʃə(nə)rɪ] *a* amaldor, mansabdor shaxs
fund [fʌnd] **1.** *n* fond; pul, mablag'; **2.** *v* mablag' chiqarmoq; mablag' ajratmoq
fundamental [ˌfʌndəˈmentl] *n* asosiy, muhim, tub; **the ~ rules** asosiy qoidalar
fund-raising [ˈfʌnd,reɪzɪŋ] *n* mablag' yig'ish
funeral [ˈfju:n(ə)rəl] *n* ko'mish (dafn) marosimi; ko'mish, dafn etish
fungi [ˈfʌŋg(a)ɪ] *pl of* **fungus**
fungous [ˈfʌŋgəs] *a* 1) g'alvirak, kovak, teshik-teshik; 2) *maxs.* zamburug'li; zamburug'simon
fungus [ˈfʌŋgəs] *n* (*pl* **-gi, -guses** [-gəsɪz]) zamburug', qo'ziqorin
funicular [fjʊˈnɪkjʊlə] *a* kanatga (arqonga) oid, kanat, arqon
funk [fʌŋk] **1.** *n* 1) qo'rqinch, vahima, dahshat, qo'rqish; 2) qo'rqoq, yuraksiz; **2.** *v* 1) qo'rqmoq, cho'chimoq; 2) o'zini chetga olmoq

funnel [ˈfʌn(ə)l] *n* 1) voronka; 2) tutun chiqadigan quvur; mo'ri

funny [ˈfʌnɪ] *a* qiziq; kulgili; ajoyib

fur [fɜ:] *n* mo'yna; teri; jun

furbish [ˈfɜ:bɪʃ] *v* 1) oynaday silliqlamoq, sayqallamoq; 2) yangilamoq, pardoz berib yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq

furious [ˈfjʊ(ə)rɪəs] *a* 1) qahrli, yovuz; **to be ~ about smth.** biror ish qilgani uchun birovdan g'azablanmoq; 2) shiddatli; qaqshatqich

furl [fɜ:l] *v* o'ramoq, o'rab (yig'ishtirib) qo'ymoq

furlong [ˈfɜ:lɒŋ] *n* farlong, milning saккizdan bir qismi (= 201 m)

furlough [ˈfɜ:ləʊ] **1.** *n harb.* otpuska, mehnat ta'tili; **2.** *v* (*askarlarga*) ta'til bermoq

furnace [ˈfɜ:nɪs] *n* pechka; **a blast ~** domna pechka

furnish [ˈfɜ:nɪʃ] *v* 1) ta'minlamoq, yetkazib bermoq; 2) jihozlamoq; **~ed rooms** jihozlangan xonalar

furnishings [ˈfɜ:nɪʃɪŋz] *n* 1) uy jihozlari; 2) bezash, yasatish, bezatish

furniture [ˈfɜ:nɪtʃə] *n* jihoz, mebel

furore [fjʊˈrɔ:rɪ] *n* dabdabali (zo'r) muvaffaqiyat, katta yutuq

furrier [ˈfʌrɪə] *n* 1) mo'ynafurush; 2) mo'ynado'z

furrow [ˈfʌrəʊ] *n* 1) egat, jo'yak; 2) ajin

furrowed [ˈfʌrəʊd] *n* burushgan, ajin bosgan, burushiq

furry [ˈfɜ:rɪ] *a* mo'ynali; tivitli

further [ˈfɜ:ðə] **1.** *a* 1) keyingi, keyin keladigan, kelgusi; 2) qo'shimcha; **to obtain ~ information** to'liq ma'lumot olmoq; 3) uzoqroq; **2.** *v* siljitmoq; ko'maklashmoq, imkon tug'dirmoq

furthest [ˈfɜ:ðɪst] = **farthest**

furtive [ˈfɜ:tɪv] *a* yashirin, maxfiy

furtively [ˈfɜ:tɪvlɪ] *adv* yashirincha, bekinib, sezdirmasdan

fury [ˈfjʊ(ə)rɪ] *n* g'azab; jahl; qahr

fuse [fju:z] **1.** *n* eritish; **2.** *v* eritmoq; erimoq

fuselage [ˈfju:zəlɑ:ʒ] *n* fuzelaj (*samolyot korpusi, gavdasi*)

fusible [ˈfju:zəb(ə)l] *a* eruvchan, eriydigan

fusion [ˈfju:ʒ(ə)n] *n* eritish; eritma

fuss [fʌs] **1.** *n* 1) asabiy holat; 2) behuda ovoragarchilik; **2.** *v* behudaga hayajonlanmoq, bezovta bo'lmoq

fussy [ˈfʌsɪ] *a* 1) hovliqma, behalovat; 2) serhasham, bejamador, balandparvoz

fusty [ˈfʌstɪ] *a* 1) zax bosib qolgan, buzilgan, aynigan; 2) eskirgan, modadan qolgan, eski modadagi

futile [ˈfju:taɪl] *a* 1) befoyda, behuda; 2) yuzaki, jiddiy emas

futility [fju:ˈtɪlɪtɪ] *n* 1) yuzakilik, jiddiy emaslik; 2) puchlik, behudalik, foydasizlik, natijasizlik

future [ˈfju:tʃə] **1.** *a* kelgusi, bo'lg'usi; **the ~ tense** *gram.* kelasi zamon; **2.** *n* kelajak; **in the ~** kelajakda

futurism [ˈfju:tʃərɪz(ə)m] *n* futurizm (*XX asr boshida san'at va adabiyotda hukm surgan formalistik oqim*)

futurist [ˈfju:tʃərɪst] *n* futurist, futurizm tarafdori

futurity [fjʊˈtjʊ(ə)rɪtɪ] *n* 1) kelajak, istiqbol; 2) kelgusi voqealar; 3) *din.* narigi dunyodagi hayot

fuze [fju:z] *n* 1) zapal, pilta; 2) pilik, dori (*eski vaqtdagi miltiq yoki to'plarda*)

fuzz [fʌz] *n* 1) par, pat, tivit, momiq; 2) tuk (*odamda*); 3) tuk, momiq (*o'simlikda*)

fuzzily [ˈfʌzɪlɪ] *adv* noaniq, xira, g'irashira, tushunib bo'lmaydigan tarzda; tushunarsiz qilib

fuzzy [ˈfʌzɪ] *a* 1) tushunib bo'lmaydigan; 2) parli, momiqli

fylfot [ˈfɪlfɒt] *n* svastika (*uchlari qayrilgan salib – fashizm ramzi*)

G

G, g [dʒi:] *n* 1) ingliz alifbosining yettinchi harfi; 2) *mus.* sol notasi

gab I [gæb] **1.** *n* 1) sergaplik; 2) ezmalik; **stop your ~!** *qo'pol.* bas qil! ovozingni o'chir! **2.** *v* vaysamoq, valdiramoq

gab II [gæb] *n tex.* vilka, ilgak, ilmoq, zanjir

gabardine [ˌgæbəˈdi:n] *n* gabardin (*palto yoki kastumbop jun mato*)

gabber [ˈgæbə] *n* sergap odam, ezma, safsataboz

gabble [ˈgæb(ə)l] **1.** *n* 1) to'ng'illash, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlash; 2) g'ozlarning g'ag'alashi; tovuqlarning qaqalashi; **2.** *v* 1) ming'illamoq, g'udurlamoq; 2) g'ag'alamoq (*g'ozlar haqida*); 3) qaqalamoq (*tovuqlar haqida*)

gabbler [ˈgæblə] *n* ming'irlab gapiruvchi odam

gabby [ˈgæbɪ] *a* sergap, ezma

gaberdine [ˈgæbədi:n] *n* 1) gabardin (*palto yoki kastumbop jun mato*); 2) dag'al movutdan qilingan etaklari uzun chakmon; 3) gabardin palto

gable [ˈgeɪb(ə)l] *n me'mor.* 1) fronton (*bino fasadining uchburchak shaklida bo'lgan tepa qismi, shuningdek, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak*); 2) ikki yog'i nishab tomning tepa qirrasi

gabled [ˈgeɪb(ə)ld] *a* uchi o'tkir, uchli, nayzador (*tom haqida*); **a ~ roof** ikki nishabli tom

gaby [ˈgeɪbɪ] *n* soddadil odam, go'l odam

gad [gæd] **1.** *int.* e xudo! voy xudoyimey! astag'firullo! tavba! (*afsus, g'azab kabilarni ifodalaydi*); **2.** *v* tentiramoq, sang'imoq; **3.** *n* 1) o'tkir uch, uch; 2) *tar.* nayza; 3) *tex.* zubilo (*temir kesish, tosh tarashlash va sh. k. ishlarda qo'llaniladigan iskanasimon asbob*)

gadabout [ˈgædəbaʊt] *n* daydi, darbadar, miskin kishi

gadder [ˈgædə] *n* darbadar, daydi, miskin kishi

gad-fly [ˈgædflaɪ] *n ent.* so'na; so'na pashsha

gadget [ˈgædʒɪt] *n* moslama, asbob, buyum, jihoz

gadoid [ˈgædɔɪd] *zool.* **1.** *n* treska oilasiga mansub baliq; **2.** *a* treska oilasiga mansub bo'lgan

gadolinium [ˌgædəˈlɪnɪəm] *n kim.* gadoliniy (*kimyoviy element, metall*)

gaff [gæf] *n* 1) baliq ovlaydigan changak, sanchqi; 2) *so'zl.* arzon teatr; 3) bema'ni gap, safsata; **to blow the ~** sirini aytib qo'ymoq, og'zidan gullab qo'ymoq

gaffe [gæf] *n* xato, xatolik, noto'g'ri qadam

gaffer [ˈgæfə] *n so'zl.* qizim, hoy qizim (*murojaat shakli*)

gag [gæg] **1.** *n* tiqin; **2.** *v* 1) ovoz chiqarmaslikka majburlamoq; 2) aldamoq; 3) tiqin tiqmoq

gaga [ˈgɑ:gɑ:] *a* aqli zaif, miyasi yo'q

gage [geɪdʒ] **1.** *n* 1) garovga qo'yish; **to give on ~** garovga bermoq; 2) garov; **2.** *v* garovga bermoq

gaggle [ˈgæg(ə)l] **1.** *n* 1) g'ozlar galasi (*to'dasi*); 2) g'ozlarning g'ag'alashi; **2.** *v* g'aqillamoq, g'aq-g'aq qilmoq (*g'oz haqida*)

gag-man [ˈgægmən] *n* hazil-mutoyiba, askiya to'qiydigan odam

gaiety [ˈgeɪətɪ] *n* 1) vaqtichog'lik, xursandchilik; 2) quvnoq *yoki* ko'rkam ko'rinish

gaily [ˈgeɪlɪ] *adv* vaqtichog'lik (xursandchilik) bilan, quvnab

gain [geɪn] **1.** *v* 1) foyda keltirmoq; 2) ishlab topmoq; 3) erishmoq, qo'lga kiritmoq; **to ~ independence** mustaqillikni qo'lga kiritmoq; **to ~ weight** semirmoq; **to ~ confidence of smb.** biror kishining ishonchini qozonmoq; **to ~ experience** tajriba orttirmoq; **to ~ a prize** sovrinni yutib olmoq; **to ~ victory** g'alaba qozonmoq; **to ~ ground** oldinga siljimoq (harakat qilmoq); *ko'ch.* yutuqqa erish-

moq; **to ~ time** vaqtni tejamoq; **2.** *n* daromad; foyda, manfaat, naf

gainful [ˈgeɪnf(ə)l] *a* daromadli, foydali; foyda keltiradigan

gainings [ˈgeɪnɪŋz] *n pl* 1) ish haqi, ishlab topilgan pul; 2) yutuq

gainsaid [ˌgeɪnˈsed] *past., p. p. of* **gainsay**

gainsay [ˌgeɪnˈseɪ] *v* (**gainsaid**) rad qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq

gainst [geɪ(ɪ)nst] „**against**" *ga qarang*

gait [geɪt] *n* yurish, qadam tashlash, oyoq qo'yish; **to know smb. by his ~** kimnidir yurishidan bilmoq

gaiter [ˈgeɪtə] *n* gamashi (*boldirdan tovongacha qoplab turadigan, oyoq kiyim ustidan tushirib kiyiladigan issiq paypoq*); **ready to the last ~ button** to'la-to'kis tayyor qilib qo'yilgan

gal [gæl] *n* qiz, qizcha, qiz bola

gala [ˈgɑːlə] **1.** *n* tantanali bayram; **2.** *a* bayramona, tantanali

galactic [gəˈlæktɪk] *a astr.* galaktikaga, Somon yo'liga oid

galanty show [gəˌlæntɪˈʃəʊ] *n teatr.* ekranga soyalar tushirib turli manzaralar hosil qilish yo'li bilan ko'rsatiladigan o'yin, tomosha

galaxy [ˈgæləksɪ] *n astr.* Somon yo'li (*Quyosh sistemasini o'z ichiga olgan yulduzlar sistemasi*)

gale [geɪl] *n* 1) dovul, to'fon; **a stiff (hard) ~** kuchli bo'ron; 2) soliq, ijara to'lovi, foiz va sh. k. pulini vaqt-vaqti bilan to'lash

galeeny [gəˈliːnɪ] *n zool.* sesarka (*tovuqsimonlar turkumidagi parranda*)

galena [gəˈliːnə] *n min.* yaltiroq qo'rg'oshin tosh (*qo'rg'oshin rudasi*)

galimatias [ˌgælɪˈmeɪʃəs] *n fr.* tuturiqsiz gap

galipot [ˈgælɪpɒt] *n* ignabargli daraxtlarning smolali yelimi

gall I [gɔːl] *n* 1) o't, safro; 2) *anat.* o't pufagi (qopchasi); o'taka

gall II [gɔːl] *n* shilingan (timdalangan, sidirilgan, qirilgan) joy, chaqa (*badanda*)

gall III [gɔːl] *n bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta, xalq tibbiyotida dori sifatida ishlatiladi*)

gallant [ˈgælənt] **1.** *a* botir, mard, jasur; **a ~ soldier** jasur askar; **2.** *v* kuzatib qo'ymoq (*ayolni*)

gallantry [ˈgæl(ə)ntrɪ] *n* mardlik, botirlik, jasurlik; **to display ~** jasurlik ko'rsatmoq

gall-bladder [ˈgɔːlˌblædə] *n anat.* o't pufagi (qopchasi), o'taka

galleass [ˈgælɪæs] *n* uch machtali, ko'p eshkakli kema

gallery [ˈgælərɪ] *n* 1) yerosti yo'li; 2) galereya; **a picture ~** rasmlar galereyasi; 3) *teatr.* ayvon (*balkon*); 4) xor

galley [ˈgælɪ] *n* ko'p eshkakli kema

galley-proof [ˈgælɪpruːf] *n poligr.* granka (*sahifalanmagan, terilgan harflardan tushirib olingan nusxa*)

galley-slave [ˈgælɪsleɪv] *n* 1) eshkakchi, eshkak eshuvchi; 2) og'ir ish qiluvchi qul

Gallic [ˈgælɪk] *a* 1) gal(lar)ga oid, gal; 2) *hazil.* fransuzcha

gallicism [ˈgælɪsɪz(ə)m] *n* gallitsizm (*fransuz tilidan qabul qilingan yoxud unga taqlid qilib tuzilgan so'z yoki ibora*)

galligaskins [ˌgælɪˈgæskɪnz] *n pl* keng ishton, shim, lozim

gallimaufry [ˌgælɪˈmɔːfrɪ] *n* aralash-quralash narsa

gallinaceous [ˌgælɪˈneɪʃəs] *a zool.* tovuqqa oid, tovuq

galliot [ˈgælɪət] *n* galiot (*ko'p eshkakli yelkanli tezyurar kema*)

gallipot [ˈgælɪpɒt] *n* dorixona (apteka) bankasi, sirli banka

gallium [ˈgælɪəm] *n kim.* galliy (*kimyoviy element, oq tusli nodir metall*)

gallivant [ˈgælɪvænt] *v* ishva qilmoq, noz-karashma qilmoq

gall-nut [ˈgɔːlnʌt] *n bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta*)

Gallomaniac [ˌgælə(ʊ)ˈmeɪnɪæk] *n* galloman, fransuzparast, fransuzlar ixlosmandi

gallon [ˈgælən] *n* gallon (*Angliya va AQSHda: suyuq va sochilma jismlar uchun 4,54 litrli o'lchov birligi*)

galloon [gəˈluːn] *n* uqa (*bezak uchun gazmol buyumlar, kiyim-kechak va sh. k. narsalar chetiga tikib qadab qo'yilgan uzun ensiz mato*)

gallop [ˈgæləp] **1.** *n* sakrab chopish; **2.** *v* 1) otni qo'ymoq, yeldirmoq; 2) yelmoq, uchmoq (*ot haqida*)

galloper [ˈgæləpə] *n harb.* 1) navbatchi; 2) mototsiklda yurib xat-xabar eltuvchi

galloping [ˈgæləpɪŋ] *a* g'irillab (tez) olib keladigan

galloway [ˈgæləweɪ] *n shotl.* bo'yi past, ammo kuchli ot

gallows [ˈgæləʊz] *n* 1) (*osishga hukm qilinganlarni osadigan*) dor; 2) shimni ko'tarib, tutib turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma

gallows-bird [ˈgæləʊzbɜːd] *n* past (razil, qabih) odam

gall-stone [ˈgɔːlstəʊn] *n tib.* o'tdagi tosh

Gallup poll [ˈgæləpˌpəʊl] *n* turli masalalarda xalqning fikrini bilish (*masalan, saylov to'g'risida*)

galluses [ˈgæləsɪz] *n pl amer. so'zl.* 1) tortib taranglash, qattiqroq burab qo'yish; 2) shimni ko'tarib (tutib) turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma

galoot [gəˈluːt] *n* qo'pol, beso'naqay odam

galop [ˈgæləp] *n* galop (*qadimgi sho'x raqs va uning kuyi*)

galore [gəˈlɔː] **1.** *adv* juda ko'p, mo'l, serob; **2.** *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik

galosh [gəˈlɒʃ] *n* 1) kalish; **to wear ~es** kalish kiymoq; 2) *amer.* rezina qayiq

galumph [gəˈlʌmf] *v* xursandchilikdan sakramoq

galvanic [gælˈvænɪk] *a* galvanik (*kimyoviy reaksiya natijasida olinadigan*)

galvanism [ˈgælvənɪz(ə)m] *n* 1) *fiz.* galvanizm; 2) *tib.* galvanizatsiya (*galvani toki bilan davolash*)

galvanization [ˌgælvənaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n tib.* galvanizatsiya (*tok bilan davolash*)

galvanize [ˈgælvənaɪz] *v* galvanizatsiya qilmoq

galvanometer [ˌgælvəˈnɒmɪtə] *n* galvanometr (*kuchsiz toklarni o'lchaydigan asbob*)

gambade [gæmˈbeɪd] = **gambado**

gambado [gæmˈbeɪdəʊ] *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi

gambit [ˈgæmbɪt] *n* gambit (*shaxmatda: tezroq hujumga o'tish uchun bir donani qurbon berib o'yin boshlash*)

gamble [ˈgæmb(ə)l] **1.** *n* qimor o'yini, qimor; **2.** *v* 1) qimor o'ynamoq; **I never ~** men hech qachon pulga o'ynamayman; 2) tavakkal qilmoq; **to ~ away** yutqazmoq (*odatda, qarta o'yinida*)

gambler [ˈgæmblə] *n* 1) qartaboz, qimorboz; 2) firibgar, qallob, tovlamachi kishi

gamboge [gæmˈbəʊdʒ] *n* bir xil tropik o'simliklarning sutsimon shirasi

gambol [ˈgæmb(ə)l] *n* 1) irg'ish, sakrash; 2) o'yin-kulgi, xursandchilik

game [geɪm] **1.** *n* 1) o'yin; **a noisy ~** shovqinli o'yin; **a football ~** futbol o'yini; **the ~ of chess** shaxmat o'yini; **to play the ~** qoida bo'yicha (asosida) o'ynamoq; *ko'ch.* oliyjanoblik qilmoq (ko'rsatmoq); **to play a good ~** yaxshi o'yinchi bo'lmoq; **to play a poor ~** yomon o'yinchi bo'lmoq; 2) *pl* sport o'yinlari; **the Olimpic ~s** Olimpiada o'yinlari; 3) o'yinchoq; 4) tavakkal o'yin; **a stock market ~** birja o'yini; 5) fokus (*ayyorlik*); 6) hazil, kulgi; **to speak in ~** hazil qilmoq; 7) o'yin-kulgi; 8) o'lja; **a big ~** katta o'lja (*yovvoyi hayvonlar go'shti*); **2.** *a* jasur, baquv-

vat; **3.** *v* tavakkal o'yinlar (qimor) o'ynamoq; **to ~ away** yutqazmoq

game-bag [ˈgeɪmbæg] *n* ovchining sumkasi

game-bird [ˈgeɪmbɜ:d] *n* ovlanadigan (*qanotli*) yovvoyi qushlar

game-chicken [ˈgeɪm,tʃɪkən] = **game-cock**

game-cock [ˈgeɪmkɔk] *n* urushqoq xo'roz

game-fish [ˈgeɪmfɪʃ] *n* ovlanadigan laqqa baliq

gamekeeper [ˈgeɪm,ki:pə] *n* o'rmon qorovuli, o'rmon nazoratchisi

game-laws [ˈgeɪmlɔ:z] *n pl* ov qoidalari

game-preserve [ˌgeɪmprɪˈzɜ:v] *n* ovchilar qo'riqxonasi

games-master [ˈgeɪmz,mɑ:stə] *n* jismoniy tarbiya o'qituvchisi

games-mistress [ˈgeɪmz,mɪstrɪs] *n* jismoniy tarbiyadan dars beradigan o'qituvchi ayol

gamesome [ˈgeɪmsəm] *a* sho'x, xushchaqchaq, quvnoq, xursand, shod

gamester [ˈgeɪmstə] *n* qimorboz, qimor o'ynovchi

gamete [ˈgæmi:t] *n biol.* jinsiy hujayra

gamin [ˈgæmæŋ] *n* boqimsiz bola, qarovchisiz (ko'chada qolgan) bola

gaming-house [ˈgeɪmɪŋhaos] *n* qimorxona, qimor o'ynaydigan joy

gaming-table [ˈgeɪmɪŋteɪb(ə)l] *n* qimor stoli

gamma [ˈgæmə] *n* 1) gamma (*yunon alifbosining uchinchi harfi*); 2) *fiz.* gamma

gamma rays [ˈgæməreɪz] *n fiz.* gamma-nurlar

gammer [ˈgæmə] *n* onajon, buviginam; onaxon (*katta yoshdagi xotinlarga murojaat shakli*)

gammon [ˈgæmən] **1.** *n* aldash, aldov; **2.** *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq

gammy [ˈgæmɪ] *a* cho'loq, oqsoq

gamp [gæmp] *n* (katta) soyabon, zontik

gamut [ˈgæmət] *n mus.* gamma (*bir pardadan ko'tarilib yoki tushib boruvchi tovushlar majmuyi*)

gamy [ˈgeɪmɪ] *a* 1) qushlar ko'p bo'lgan; 2) *so'zl.* mard, jasur, botir

gander [ˈgændə] *n* 1) erkak g'oz; 2) *so'zl.* uylangan odam; 3) tentak, ahmoq

gang [gæŋ] **1.** *n* 1) ishchilar guruhi; 2) o'g'rilar to'dasi; 3) guruh; **2.** *v* 1) *shotl.* yurmoq, ketmoq, bormoq, harakat qilmoq; 2) bosqinchilar to'dasini tuzmoq; 3) (*guruh bo'lib*) tashlanmoq; **they ~ed (up) on me** ular menga tashlandilar

ganger [ˈgæŋə] *n* 1) ishboshi, o'nboshi; 2) *shotl.* piyoda, yayov yuruvchi

ganglia [ˈgæŋgliə] *pl of* **ganglion**

gangling [ˈgæŋglɪŋ] *a* 1) bo'yi uzun, novcha; 2) beso'naqay, qo'pol

ganglion [ˈgæŋgliən] *n* (*pl* **-lia** [-liə], **-s** [-z]) *anat.* asab tuguni

gang-plank [ˈgæŋplæŋk] *n* 1) taxta zina (*kemadan tushish uchun*); kema narvoni; 2) samolyotga chiqib tushish uchun maxsus yasalgan ko'chma zina

gangrene [ˈgæŋgri:n] *n tib.* biologik to'qima *yoki* a'zoning jonsizlanib tiriklayin chirishi; qorason kasalligi

gangrenous [ˈgæŋgrɪnəs] *a* qorason kasalligiga duchor bo'lgan

gang-saw [ˈgæŋsɔ:] *n* taxta tiladigan mashina (*arra*)

gangster [ˈgæŋstə] *n* bosqinchi, yo'lto'sar, qurollangan o'g'ri, bosmachi

gangway [ˈgæŋweɪ] *n deng.* taxta zina (*kema, havoza va h. k. dan tushish uchun*)

gannet [ˈgænɪt] *n* 1) *zool.* baqlan, qoravoy, qorabuzov (*qush*); 2) *so'zl.* o'taketgan qurumsoq odam, qizg'anchiq, ziqna, xasis

ganoid [ˈgænɔɪd] *a* silliq va yaltiroq (*baliq terisidagi tangachalar to'g'risida*)

gantlet [ˈgæntlɪt] *n* qo'lqop

gantry [ˈgæntrɪ] *n* portal, supacha (*kran, kema va b. da: kuzatish, boshqarish o'rni*)

gantry-crane [ˈgæntrɪ,kreɪn] *n* portalli kran

gaol [dʒeɪl] **1.** *n* qamoqxona, turma; **2.** *v* qamamoq, qamoqqa olmoq

gaol-bird [ˈdʒeɪlbɜ:d] *n* qamalgan, qamoqqa, hibsga olingan kishi, mahbus

gaoler [ˈdʒeɪlə] *n* qamoqxona nazoratchisi

gap [gæp] *n* 1) (*qarash va sh. k. dagi*) uzilish, farq, tafovut; 2) oraliq; masofa; 3) kovak, tirqish, yoriq, teshik, yorilgan joy; 4) (*matn, hikoya va sh. k. dagi*) qoldirib ketilgan, bo'sh joy

gape [geɪp] **1.** *n* esnoq, bir esnash; **2.** *v* esnamoq; **to ~ after (for)** nimanidir astoydil (juda-juda) xohlamoq; **to ~ on (upon)** nimagadir hayrat bilan qaramoq

gaper [ˈgeɪpə] *n* anqov, merov; sanqi, bekorchi

gape-seed [ˈgeɪpsi:d] *n* maqsadsiz qarash, razm solish, tikilish

gappy [ˈgæpɪ] *a* to'liq emas, to'lmagan, yarim

garage [ˈgærɑ:ʒ] **1.** *n* garaj; **2.** *v* garajga qo'ymoq

garb [gɑ:b] **1.** *n* 1) kiyim, sarpo, libos; **in the ~ of a sailor** matros kiyimida; **2.** *v* kiyinmoq

garbage [ˈgɑ:bɪdʒ] **1.** *n* 1) axlat, chiqit, tashlandiq; 2) makulatura (*chiqindi qog'oz*); **2.** *v so'zl.* chiqindi bilan oziqlanmoq

garbage-collector [ˈgɑ:bɪdʒkə,lektə] *n amer.* farrosh, supurib-sidiradigan ishchi

garble [ˈgɑ:b(ə)l] *v* buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq (*dalil-isbotlarni*)

garbled [ˈgɑ:b(ə)ld] *a* tushunarsiz (*xabar, hikoya va b. ga nisbatan qo'llanadi*)

garçon [gɑ:ˈsɔŋ] *n fr.* garson, ofitsiant (*fransuz restoranida*)

garden [ˈgɑ:dn] *n* bog'; **a botanical ~** botanika bog'i

garden-bed [ˈgɑ:dnbed] *n* pushta, jo'yak, ariq

garden city [ˌgɑ:dnˈsɪtɪ] *n* bog'-shahar

gardener [ˈgɑ:dnə] *n* bog'bon

garden-frame [ˈgɑ:dnfreɪm] *n* issiqxona romi

garden-house [ˈgɑ:dnhaos] *n* 1) shiyponcha; 2) bog'dagi kichkina uy

gardening [ˈgɑ:d(ə)nɪŋ] *n* bog'dorchilik

garden-party [ˈgɑ:dn,pɑ:tɪ] *n* mehmonlarni bog'da, ochiq havoda kutish

garden-plot [ˈgɑ:dnplɔt] *n* bog'dagi yer maydoni

garden pruner [ˈgɑ:dn,pru:nə] *n* tokqaychi; gulqaychi

garden-stuff [ˈgɑ:dnstʌf] *n* 1) sabzavotlar; 2) mevalar, ho'l meva; 3) gullar; 4) ko'kat, rezavor

garden-tillage [ˈgɑ:dn,tɪlɪdʒ] *n* bog'dorchilik, bog'shunoslik

garden truck [ˌgɑ:dnˈtrʌk] *n amer.* sotish uchun yetishtiriladigan meva va sabzavotlar

garfish [ˈgɑ:fɪʃ] *n zool.* 1) dengiz cho'rtan balig'i; 2) zirhli baliq (*usiki qobig'i qattiq baliq*)

gargantuan [gɑ:ˈgæntjoən] *a* juda katta, kattakon, ulkan, azim; **~ appetite** juda ham yaxshi ishtaha

garget [ˈgɑ:gɪt] *n* yelin (emchak)ning qattiqlashishi, mastit (*ko'krak bezlarining yallig'lanishi*)

gargle [ˈgɑ:g(ə)l] **1.** *n* (*tomoqni*) chayqash; **2.** *v* (*tomoqni*) chayqamoq

garibaldi [ˌgærɪˈbɔ:ldɪ] *n* ayollarning *yoki* bolalarning keng xonaki ko'ylagi

garish [ˈge(ə)rɪʃ] *a* ko'zni oladigan, ko'zni qamashtiradigan

garland [ˈgɑ:lənd] **1.** *n* gul (*barg, novda va sh. k.*) o'rimi, tizmasi; marjon; **2.** *v* gulchambar bilan bezamoq

garlic [ˈgɑ:lɪk] *n bot.* sarimsoq, sarimsoqpiyoz; **a clove of ~** sarimsoqpiyozning tishchasi

garlicky [ˈgɑ:lɪkɪ] *a* sarimsoqqa oid, sarimsoqpiyozga oid; sarimsoq ta'mli *yoki* hidli

garment [ˈgɑ:mənt] **1.** *n pl* kiyim, kiyim-bosh, libos; sarpo; **2.** *v* kiyinmoq

garner [ˈgɑːnə] **1.** *n* omborxona, g'alla ombori, g'allaxona; **2.** *v* omborga donni to'kmoq

garnet [ˈgɑːnɪt] 1) *min.* yoqut; 2) to'q qizil rang

garnish [ˈgɑːnɪʃ] *n* 1) garnir; 2) bezak, zeb-ziynat, pardoz; **swept and ~ed** tartibga keltirilgan; bezatilgan

garniture [ˈgɑːnɪtʃə] *n* 1) bezash, bezatish; 2) garnir; 3) *poligr.* garnitura

garret [ˈgærɪt] *n* 1) cherdak (*ustki tom bilan pastki tom yoki shipning oralig'i*); 2) qiya shipli boloxona

garreteer [ˌgærɪˈtɪə] *n* qiya shipli boloxonada yashovchi odam

garrison [ˈgærɪs(ə)n] *n harb.* garnizon; **a ~ commander** garnizon boshlig'i

garrotte [gəˈrɔt] **1.** *isp. n* bosqinchilik (o'g'rilik) qilish maqsadida bo'g'ish; **2.** *v* bosqinchilik (o'g'rilik) qilish maqsadida bo'g'ib o'ldirmoq

garrulity [gəˈruːlɪtɪ] *n* sergaplik, ezmalik, vaysaqilik

garrulous [ˈgærələs] *a* sergap, ezma, vaysaqi, ko'p gapiradigan

garter [ˈgɑːtə] *n* bog', bog'ich (*paypoqni tutib turadigan rezina bog'ich*)

garth [gɑːθ] *n* 1) hovli, qo'ra; 2) bog'; 3) *q.x.* baliq ovlash uchun to'silgan (bo'g'ilgan) suv

gas [gæs] **1.** *n* 1) gaz; **natural ~** tabiiy gaz; **to turn the ~ on** gazni yoqmoq; **to turn the ~ off** gazni o'chirmoq; 2) *amer. so'zl.* benzin (*yoqilg'i*); 3) *so'zl.* safsata; **that's all ~** bu hammasi safsata; **a ~ chamber** gaz kamerasi; **a ~ signal** *harb.* kimyoviy trevoga; **a ~ warfare** *harb.* kimyoviy urush; **2.** *v* 1) *harb.* kimyoviy moddalar bilan zaharlamoq; 2) gaz bilan to'ldirmoq; 3) *amer. so'zl.* yonilg'i bilan avtomobilni ta'minlamoq; 4) vaysamoq, bemaza gaplar gapirmoq; **stop ~ sing!** vaysashni bas qil!

gas-alarm [ˌgæsəˈlɔːm] *n harb.* kimyoviy trevoga (*xavfni bildiruvchi signal*)

gas-alert [ˌgæsəˈlɜːt] *n* kimyoviy shaylik (tayyorlik)

gasateria [ˌgæsəˈtɪərɪə] *n amer.* o'z-o'ziga xizmat qilish usulida ishlaydigan mashinalarga yonilg'i (benzin) quyish tarmog'i (kolonkasi)

gas attack [ˈgæsəˌtæk] *n harb.* kimyoviy hujum (*hamla, tajovuz*)

gas-bag [ˈgæsbæg] *n* 1) gaz balloni; 2) *so'zl.* sergap, ezma kishi

gas-bomb [ˈgæsbɒm] *n harb.* kimyoviy bomba

gasbracket [ˈgæsˌbrækɪt] *n* gaz rojogi (*rojog – ichi shox shaklida kengayib boruvchi naychasimon asbob*)

gas-burner [ˈgæsˌbɜːnə] = **gas-jet**

gas chamber [ˈgæsˌtʃeɪmbə] *n* gaz kamerasi; dushegubka (*fashistlarning odam o'ldiradigan avtomashinasi*)

Gascon [ˈgæskən] *n* maqtanchoq, manman

gasconade [ˌgæskəˈneɪd] *n* katta gapirish, maqtanchoqlik, manmanlik, maqtanish, kerilish

gas defence [ˈgæsdɪˈfens] *n harb.* kimyoviy hujumga qarshi himoya

gaselier [ˌgæsəˈlɪə] *n* gaz bilan ishlaydigan chilchiroq

gas-engine [ˈgæsˌendʒɪn] *n* gaz dvigateli

gaseous [ˈgæsɪəs] *a* gaz holidagi, gazsimon

gas-field [ˈgæsfiːld] *n* tabiiy gaz koni

gas-fire [ˈgæsˌfaɪə] *n* gaz plita

gas-fitter [ˈgæsˌfɪtə] *n* gaz quvuri chilangari

gas-furnace [ˈgæsˌfɜːnɪs] *n* gaz pechi (pechkasi)

gash [gæʃ] **1.** *n* kesik, kesilgan (yorilgan) joy; 2) jiddiy jarohat; **2.** *v* jiddiy jarohat yetkazmoq

gas-holder [ˈgæsˌhəoldə] *n* gaz ombori; gazxona, gaz saqlanadigan joy, idish

gasification [ˌgæsɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) gazga aylantirish; 2) gazlantirish, gaz bilan ta'minlash

gasiform [ˈgæsɪfɔːm] *a* gazsimon, gaz holidagi

gasify [ˈgæsɪfaɪ] *v* gazga aylantirmoq, gazlashtirmoq

gas-jet [ˈgæsdʒet] *n* gaz rojogi, gaz gorelkasi (*gorelka – suyuq yoqilg'i yoki gazni ma'lum maqsadda yoqish uchun ishlatiladigan asbob*)

gasket [ˈgæskɪt] *n tex.* 1) qistirma (*ikki narsa orasiga qistirib qo'yilgan narsa*); 2) salnik (*tirqishlarni berkitib turuvchi detal, qoplama*)

gaslight [ˈgæslaɪt] *n* 1) gaz yorug'ligi; 2) gaz lampa

gas-main [ˈgæsmeɪn] *n* 1) gazquvur; 2) asosiy gaz tarmog'i

gas-man [ˈgæsmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) gaz pullari uchun javob beradigan sayyor kassir

gas-mantle [ˈgæsˌmæntl] *n tex.* qizdiradigan setka, (*metall*) qizdirish setkasi

gas-mask [ˈgæsmɑːsk] *n* protivogaz, gazniqob

gas-meter [ˈgæsˌmiːtə] *n* gazomer, gaz o'lchagich

gasolene [ˈgæsəliːn] *n* 1) gazolin (neftdan olinadigan yonilg'i turi); 2) *amer.* benzin

gasoline [ˈgæsəliːn] = **gasolene**

gasometer [gæˈsɒmɪtə] *n tex.* gazometr (*gaz yig'ish, saqlash va tarqatish uchun maxsus idish, bak*)

gasp [gɑːsp] **1.** *n* bo'g'ilish, qiynalib nafas olish; **2.** *v* qiynalib nafas olmoq

gasper [ˈgɑːspə] *n so'zl.* arzon papiros

gaspingly [ˈgɑːspɪŋlɪ] *adv* siqilib, ezilib, harsillab, nafasi siqilib

gas-plant [ˌgæsˈplɑːnt] *n* 1) gaz koni (zavodi); 2) gazogenerator qurilmasi

gas-producer [ˈgæsprəˌdjuːsə] *n* gazogenerator (*yonuvchi gaz ishlab chiqaradigan qurilma*)

gas-proof [ˈgæspruːf] *a* gaz o'tkazmaydigan

gas-ring [ˈgæsrɪŋ] *n* gaz gorelkasi

gassed [gæst] *a* gazdan zaharlangan; **a ~ area** zaharli hudud

gas-shell [ˈgæsʃel] *n harb.* kimyoviy snaryad

gas-shelter [ˈgæsˌʃeltə] *n* gazpanagoh (*gazdan yashirinadigan joy*)

gassing [ˈgæsɪŋ] *n* gazdan zaharlanish

gas-station [ˈgæsˌsteɪʃ(ə)n] *n* 1) *so'zl.* benzokolonka (*avtomashinalarga benzin quyib beradigan kolonka, punkt*); 2) *amer.* avtomashinalarga yonilg'i quyish tarmog'i

gas-stove [ˌgæsˈstəov] *n* gaz plita

gassy [ˈgæsɪ] *a* 1) gazsimon; 2) gaz bilan to'ldirilgan, ichi to'la gaz

gas-tank [ˈgæstæŋk] *n amer.* 1) gaz balloni; rezervuar (*gaz saqlanadigan katta idish*); 2) *avto.* benzin baki

gast(e)ropoda [ˌgæstəˈrɒpədə] *n pl zool.* qorinoyoqlilar

gas-tight [ˈgæstaɪt] = **gas-proof**

gastric [ˈgæstrɪk] *a* oshqozonga oid; me'daga oid; **~ ulcer** *tib.* me'da (oshqozon) yarasi; **~ juice** *fiziol.* me'da shirasi

gastritis [gæˈstraɪtɪs] *n tib.* gastrit (*oshqozon shilliq pardasining yallig'lanishi*)

gastronome [ˈgæstrənəom] *n* 1) oziq-ovqat mahsulotlari do'koni; 2) ovqat shinavandasi, mazaxo'r

gastronomer [gæˈstrɒnəmə] = **gastronome**

gastronomic [ˌgæstrəˈnɒmɪk] *a* oziq-ovqat mahsulotlariga oid

gastronomist [gæˈstrɒnəmɪst] = **gastronome**

gastronomy [gæˈstrɒnəmɪ] *n* 1) oshpazlik, pazandalik; 2) oziq-ovqat mahsulotlari

gas-warfare [ˈgæsˈwɔːfeə] *n kim.* kimyoviy urush

gas-works [ˈgæswɜːks] *n* gaz zavodi (koni)

gat [gæt] *n amer. so'zl.* to'pponcha

gate [geɪt] **1.** *n* 1) darvoza; ko'cha eshik; 2) kirish-chiqish yo'li; 3) shahar darvozasi; **to wait at the ~** darvoza oldida kutmoq; 4) tomoshabinlar soni (*sport*

maydoni, ko'rgazma va b. da); **2.** *v* ma'lum soatdan keyin talabalarni kollejga qo'ymaslik (*Oksford va Kembrijda*)

gateau [ˈgætəʊ] *n* (*pl* **-teaux** [-təʊz]) pishiriq

gate-bill [ˈgeɪtbɪl] *n* kech qolgan talabalar uchun yoziladigan jarima qog'ozi, xatcha (*Oksford universiteti va kollejlarida*)

gate-crash [ˈgeɪtkræʃ] *v* chaqirmasdan kelmoq, chaqirilmagan mehmon bo'lmoq

gate-crasher [ˈgeɪtˌkræʃə] *n* 1) chaqirilmagan mehmon; 2) chiptasiz tomoshabin

gatehouse [ˈgeɪthaʊs] *n* (eshik) darvoza oldida turadigan qorovul

gate-keeper [ˈgeɪtˌkiːpə] *n* darvozabon, darvoza (eshik) qorovuli

gate-legged [ˈgeɪtlegd] *a*: **a ~ table** ko'tarib qo'yiladigan (qaytarma) qopqoqli va oyoqlari siljitiladigan stol

gate-money [ˈgeɪtˌmʌnɪ] *n* (*sport maydoni, ko'rgazma va b. dan*) yig'im, tushum, yig'ilgan (tushgan) pul

gate-post [ˈgeɪtpəʊst] *n* darvoza ustuni

gateway [ˈgeɪtweɪ] *n* 1) kirish yo'li; 2) darvoza

gather [ˈgæðə] *v* 1) to'plamoq, to'dalamoq; **to ~ a crowd** olomonni to'plamoq; 2) (*gul*) uzmoq, (*meva*) termoq; **the bee ~s honey** asalari asal yig'adi; 3) termoq (*yerdan*); **to ~ the pieces of a broken dish** singan likopcha parchalarini termoq; 4) xulosa qilmoq, xulosaga kelmoq

gathering [ˈgæð(ə)rɪŋ] *n* 1) yig'in; 2) majlis, uchrashuv; **a political ~** siyosiy yig'in

gauche [gəʊʃ] *a* kelishmagan; qo'pol

gaud [gɔːd] *n* 1) didsizlik bilan ishlangan bezak; 2) usti yaltiroq, ichi qaltiroq narsalar; qalbaki narsalar

gaudy [ˈgɔːdɪ] **1.** *n* tantanali katta bayram; **2.** *a* dabdabali, serhasham

gauffer [ˈgəʊfə] = **goffer**

gauge [geɪdʒ] **1.** *n* 1) miqyos, ko'lam, o'lcham, miqdor, o'lchov; **to take the ~ of smth.** o'lchamoq; 2) o'lchaydigan asbob; **2.** *v* 1) o'lchamoq; 2) (*odamning xarakteriga*) baho bermoq

gauge-glass [ˈgeɪdʒglɑːs] *n* suv sathini o'lchaydigan (ko'rsatuvchi) shisha naycha

gauging-station [ˈgeɪdʒɪŋˌsteɪʃ(ə)n] *n* gidrometrik stansiya

Gaul [gɔːl] *n tar.* gallar (*hozirgi Fransiya hududida yashagan qadimgi xalq nomi*)

Gaulish [ˈgɔːlɪʃ] **1.** *a* gallarga oid; **2.** *n* gallar tili

gaunt [gɔːnt] *a* 1) oriq, ozg'in; 2) uzun, uzaygan, cho'zilgan; 3) g'amgin, qayg'uli, ma'yus, xafa

gauntlet [ˈgɔːntlɪt] *n* qo'lqop, qo'njli qo'lqop (*haydovchi va qilichbozlarda*)

gauntry [ˈgɔːntrɪ] = **gantry**

gauss [gaʊs] *n fiz.* gauss (*magnit induksiyasi birligi*)

gauze [gɔːz] *n* 1) siyrak to'qilgan doka; 2) yupqa gazlama; 3) tutun pardasi (*havoda*)

gauzy [ˈgɔːzɪ] *a* yupqa, ingichka (*ayniqsa, mato haqida*)

gave [geɪv] *past. of* **give**

gavel [ˈgæv(ə)l] *n* (*majlis yoki sud raisining*) bolg'achasi

gawk [gɔːk] **1.** *n* ahmoq, kallavaram, to'nka; **2.** *v* ko'zlarini baqraytirib qaramoq

gawky [ˈgɔːkɪ] *a* tortinchoq, iboli, uyatchan

gawp [gɔːp] *v* angrayib boqmoq

gay [geɪ] *a* 1) shod, xursand; **a ~ fellow** xushchaqchaq yigit; 2) ochiq tusdagi, yaltiroq, yarqiroq (*bo'yoq haqida*); 3) axloqsiz, buzuq, sayoq, fosiq; 4) *so'zl.* gomoseksuallikka (besoqolbozlikka) oid

gazabo [gəˈzeɪbəʊ] = **gazebo**

gaze [geɪz] **1.** *n* tikilib (diqqat bilan) qarash; **to stand at ~** diqqat bilan qaramoq; **2.** *v* tikilib (diqqat bilan) qaramoq **(at, on, upon)**; **at (on) the first ~** birinchi ko'rishda

gazebo [gəˈziːbəʊ] *n* (*pl* **-os, oes** [-əʊz]) 1) balandlikdagi shiypon; 2) oynali boloxona ayvoni

gazelle [gəˈzel] *n* 1) *zool.* ohu; kiyik; 2) *adab.* g'azal

gazer [ˈgeɪzə] *n* diqqat bilan qaraydigan kishi; **a star-~** yulduzlarni kuzatuvchi kishi

gazette [gəˈzet] **1.** *n* davlat bulleteni (*bulleten — biror hodisa haqidagi rasmiy axborot, ma'lumot*); **2.** *v* rasmiy gazetalarda nashr qilmoq

gazetteer [ˌgæzɪˈtɪə] *n* 1) geografik ma'lumotnoma; 2) *esk.* jurnalist, gazetada ishlaydigan xodim

gazogene [ˈgæzəʊdʒiːn] *n* 1) ichimliklarni gazlashtiruvchi moslama; 2) gazogenerator (*yonuvchi gaz ishlab chiqaradigan qurilma*)

gear [gɪə] **1.** *n* 1) mexanizm, asbob, moslama; 2) tishli g'ildirak, shesternya; **2.** *v* mexanizmni ishga tushirmoq, harakatga keltirmoq

gear-box [ˈgɪəbɒks] *n tex.* uzatmalar korobkasi (qutichasi)

gear-case [ˈgɪəkeɪs] = **gear-box**

gearing [ˈgɪ(ə)rɪŋ] *n tex.* tishli uzatma (*harakatni mashinaning bir qismidan boshqa qismiga o'tkazuvchi mexanizm*)

gear-ratio [ˈgɪəˌreɪʃɪəʊ] *n tex.* uzatma miqdori; harakatni uzatish miqdori

gear-wheel [ˈgɪəwiːl] *n tex.* tishli g'ildirak, shesternya

gee [dʒiː] *int.* 1) chu, cho' (*ot haydaganda aytiladigan qiyqiriq*); 2) *amer.* ana xolos! mana bu qoyil!

geese [giːs] *pl of* **goose**

Gehenna [gɪˈhenə] *n* do'zax, jahannam

Geiger counter [ˈgaɪgəˌkaʊntə] *n fiz.* Geyger hisoblagichi

geisha [ˈgeɪʃə] *n yap.* geysha (*Yaponiya mayxonalarida: mehmonlarni xursand qilib turuvchi raqqosa-qo'shiqchi*)

gel [dʒel] *n kim.* gel

gelatin(e) [ˈdʒeləʊɪn, -tiːn] *n* 1) yelimshak, yelimga o'xshash yopishqoq narsa; 2) ilvira (*rosa qaynatilgan go'sht sardagidan tayyorlangan dirildoq ovqat*)

gelatinize [dʒɪˈlætɪnaɪz] *v* ilviraga (dirildoqqa) aylanmoq (aylantirmoq)

gelatinous [dʒɪˈlætɪnəs] *a* yelimshak (jelatin)ga oid; yelimshak (jelatin)dan tayyorlangan, yelimshakli

gelation [dʒɪˈleɪʃ(ə)n] *n* muzlash, muzlatish

geld [geld] *v* (**gelded** [-ɪd], **gelt**) axtalamoq, bichmoq

gelding [ˈgeldɪŋ] *n* hayvonlarni axtalash, bichish

gelid [ˈdʒelɪd] *a* 1) muzdan iborat, muzli; 2) juda sovuq, muzdek

gelt [gelt] *past., p. p. of* **geld**

gem [dʒem] **1.** *n* qimmatbaho tosh; **2.** *v* qimmatbaho toshlar bilan bezamoq

geminate [ˈdʒemɪneɪt] **1.** *a* ikki qavat, bir juft, ikkilangan, qavatlangan; qo'sh; **2.** *v* qavatlamoq

gemination [ˌdʒemɪˈneɪʃ(ə)n] *n* ikki hissa oshirish, ikki marta ko'paytirish

Gemini [ˈdʒemɪnaɪ] *n pl astr.* Javzo (*o'n ikki burjdan biri*)

gemma [ˈdʒemə] *n bot.* (*pl* **-ae** [-iː]) kurtak

gemmae [ˈdʒemiː] *pl of* **gemma**

gemmate [ˈdʒem(ə)ɪt] *bot.* **1.** *a* kurtak chiqazgan; **2.** *v* kurtak chiqazmoq

gemmation [dʒeˈmeɪʃ(ə)n] *n bot.* kurtaklanish, kurtaklar vositasida ko'payish

gemmiferous [dʒeˈmɪf(ə)rəs] *a* qimmatbaho toshli

gen [dʒen] *n harb. jarg.* ma'lumot, xabar, axborot

gendarme [ˈʒɒndɑːm] *n fr.* jandarm (*jandarmeriyada xizmat qiluvchi politsiyachi*)

gendarmerie [ʒɒnˈdɑːmərɪ] *fr. n* jandarmeriya

gender [ˈdʒendə] *n gram.* jins, rod
gene [dʒi:n] *n biol.* gen (*irsiyatning elementar birligi*)
genealogic, genealogical [ˌdʒi:nɪəˈlɒdʒɪkl, -(ə)l] *a* kelib chiqishga oid, shajaraga oid, nasl-nasabga oid
genealogist [ˌdʒi:nɪˈælədʒɪst] *n* genealog, shajarashunos, nasabshunos (*genealogiya bo'yicha mutaxassis*)
genealogy [ˌdʒi:nɪˈælədʒɪ] *n* nasabshunoslik, irsiyatshunoslik
genera [ˈdʒenərə] *pl of* **genus**
general [ˈdʒen(ə)rəl] **1.** *n* general; **~ of the Army** *amer.* armiya generali; **2.** *a* 1) umumiy; **a ~ meeting** umumiy yig'ilish; **in ~** umuman olganda; 2) asosiy, bosh; **a ~ committee** asosiy, bosh qo'mita; **in the ~** asosan
General Assembly [ˌdʒen(ə)rəlˈsemblɪ] *n* Bosh Assambleya (*xalqaro tashkilotning umumiy majlisi*)
general-in-chief [ˌdʒen(ə)rəlɪnˈtʃi:f] *n* bosh qo'mondon
generalissimo [ˌdʒen(ə)rəˈlɪsɪməʊ] *n* generalissimus (*harbiylarda eng katta unvon*)
generality [ˌdʒenəˈrælɪtɪ] *n* 1) umumiylik; 2) umumiy joy; 3) barchaga baravar taalluqlilik
generalization [ˌdʒen(ə)rəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) umumlashtirish; 2) umumiy qoida
generalize [ˈdʒen(ə)rəlaɪz] *v* 1) umumlashtirmoq; 2) keng tarqatmoq
generalized [ˈdʒen(ə)rəlaɪzd] *a* umumiy, umumlashgan, umumlashtirilgan
generally [ˈdʒen(ə)rəlɪ] *adv* 1) odatda, odatdagicha, qoidaga ko'ra; 2) umumiy ma'noda, umuman olganda; 3) ko'pchilik hollarda
generalship [ˈdʒen(ə)rəlʃɪp] *n* 1) generallik unvoni; 2) harbiy san'at; 3) rahbarlik san'ati
generate [ˈdʒenəreɪt] *v* sabab bo'lmoq; tug'dirmoq
generation [ˌdʒenəˈreɪʃ(ə)n] *n* avlod, nasl, zurriyot; **the rising ~** o'sib kelayotgan avlod
generative [ˈdʒen(ə)rətɪv] *a* 1) generativ, urchish uchun xizmat qiladigan, jinsiy; tug'(dir)adigan; 2) unumli, natija beradigan, foydali; samara beradigan
generator [ˈdʒenəreɪtə] *n* 1) ishlab chiqaruvchi; 2) *tex.* generator (*elektr toki ishlab chiqaradigan mashina*)
generatrices [ˌdʒenəreɪtrɪsi:z] *pl of* **generatrix**
generatrix [ˈdʒenəreɪtrɪks] *n* (*pl* **-trices** [-trɪsi:z]) *mat.* o'z harakati bilan biror yuza *yoki* sirt hosil qiladigan chiziq
generic [dʒɪˈnerɪk] *a* 1) *biol.* urug'ga oid, ma'lum bir urug'ga xos bo'lgan; 2) umumiy; **a ~ character** umumiy xarakter
generosity [ˌdʒenəˈrɒsɪtɪ] *n* 1) muruvvat, himmat, karam; oliyjanoblik, oliyhimmatlilik; 2) saxiylik, qo'li ochiqlik
generous [ˈdʒen(ə)rəs] *a* 1) saxiy, qo'li ochiq, saxovatli; 2) oliyhimmat, oliyjanob, himmatli; muruvvatli, karami keng
geneses [ˈdʒenɪsi:z] *pl of* **genesis**
genesis [ˈdʒenɪsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) kelib chiqish, paydo bo'lish, dunyoga kelish
genetic [dʒɪˈnetɪk] *a* genetik, kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan, kelib chiqishini o'rganadigan
genetics [dʒɪˈnetɪks] *n* genetika (*irsiyat va organizmlarning o'zgarishi haqidagi fan*)
geneva [dʒɪˈni:və] *n* archa urug'i solingan araq
genial [ˈdʒi:nɪəl] *a* 1) yaxshi, yaxshilikni ayamaydigan; xushchaqchaq; **a ~ old man** saxiy, yaxshi qariya; **~ company** xushchaqchaq ulfatlar; 2) yengil, yaxshi (*kun, iqlim*); 3) [dʒəˈnɪəl] *anat.* iyakka oid, iyakda bo'ladigan
geniality [ˌdʒi:nɪˈælɪtɪ] *n* 1) yaxshilik, ezgulik; 2) xushfe'llik, xushmuomalalik, muloyimlik
genially [ˈdʒi:nɪəlɪ] *adv* chin ko'ngildan (qalbdan), samimiyat bilan, samimiy
genie [ˈdʒi:nɪ] *n* (*pl* **genies, genii**) jin, ajina (*arab ertaklarida*)
genista [dʒɪˈnɪstə] *n bot.* sariq gulli, dukkakli cho'l o'simligi
genital [ˈdʒenɪtl] *a* jinsiy
genitals [ˈdʒenɪtlz] *n* jinsiy a'zolar
genitive [ˈdʒenɪtɪv] *n gram.* qaratqich kelishigi
genius [ˈdʒi:nɪəs] *n* daho, iste'dod, qobiliyat; **a man of ~** iste'dodli odam
genocide [ˈdʒenəsaɪd] *n* genosid (*milliy yoki diniy vaj bilan aholining bir toifasini qirishga qaratilgan siyosat*)
genotype [ˈdʒenə(ʊ)taɪp] *n biol.* genotip (*organizmda mavjud hamma genlar*)
genre [ˈʒɒnrə] *n* 1) janr, usul, uslub; 2) adabiy uslub
gent [dʒent] = **gentleman**
genteel [dʒenˈti:l] *a* 1) oliyjanob, oliyhimmat; 2) yaxshi tarbiya ko'rgan, tarbiyali, odobli
gentian [ˈdʒenʃ(ə)n] *n bot.* gazak o't, gajak o't
gentile [ˈdʒentaɪl] *n* butparast, majusiy
gentility [dʒenˈtɪlɪtɪ] *n* nasli tozalik, asl zotlik
gentle [ˈdʒentl] *a* 1) muloyim, yumshoq; 2) nozik, yoqimli; **a ~ look** nozik qarash; 3) yengil, kuchsiz; **a ~ push** yengil turtki; 4) gapga kiradigan, quloq soladigan, mo'min, qobil; 5) aslzoda, zodagon, oqsuyak, najib
gentlefolk(s) [ˈdʒentlfəʊk(s)] *n pl* oqsuyaklar, zodagonlar, aslzodalar
gentlehood [ˈdʒentlhʊd] *n* 1) aslzodalik, najiblik; 2) xushmuomalalik, xushaxloqlik, yaxshi tarbiya ko'rganlik
gentleman [ˈdʒentlmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) nozik muomalali, nazokatli odam; **true ~** haqiqiy, nazokatli odam; 2) janob; **young ~** yosh janob; 3) yaxshi tarbiya ko'rgan kishi; jentlmen
gentlemanlike [ˈdʒentlmənlaɪk] *a* 1) yaxshi tarbiya ko'rgan, tarbiyali; 2) jentlmenlarga xos; halol, pok; xushxulq, odamshavanda
gentlemanly [ˈdʒentlmənlɪ] = **gentlemanlike**
gentleness [ˈdʒentlnəs] *n* 1) yumshoqlik, bo'shlik, mayinlik; 2) yaxshilik, ezgulik
gentlewoman [ˈdʒentlˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) xonim, ledi
gently [ˈdʒentlɪ] *adv* 1) yumshoqqina qilib, xotirjamlik (sipolik) bilan; **to speak ~** yumshoq gapirmoq; 2) ehtiyotkorlik bilan, muloyimgina qilib
gentry [ˈdʒentrɪ] *n* yer-mulki uncha katta bo'lmagan dvoryanlar
gents [dʒents] *n so'zl.* erkaklar hojatxonasi
genual [ˈdʒi:njʊəl] *a anat.* tizzaga oid
genuflect [ˈdʒenjʊflekt] *v* tizzani bukmoq, tiz cho'kib sig'inmoq, sajda qilmoq
genuflection [ˌdʒenjʊˈflekʃ(ə)n] *n* sajda qilish, tizzani bukish, tiz cho'kib sig'inish
genuflexion [ˌdʒenjʊˈflekʃ(ə)n] = **genuflection**
genuine [ˈdʒenjʊɪn] *a* 1) asl, toza, sof, haqiqiy; **~ diamond** haqiqiy olmos; 2) samimiy, chin qalbdan (yurakdan) qilingan
genuinely [ˈdʒenjʊɪnlɪ] *adv* samimiyat (sadoqat) bilan, chin yurakdan
genus [ˈdʒi:nəs] *n* (*pl* **genera**) 1) tur, xil, nav; 2) *biol.* zot, nasl
geocentric [ˌdʒi:əʊˈsentrɪk] *a* geosentrik, geosentrik sistema
geochemistry [ˌdʒi:əʊˈkemɪstrɪ] *n* geokimyo (*kimyoviy elementlarning tarqalishi, joylanishi haqidagi fan*)
geodesy [dʒɪˈɒdəsɪ] *n* geodeziya (*yerning shakl va o'lchamini o'rganadigan hamda yer sathini xaritalarda aks ettirish uchun o'lchash bilan shug'ullanadigan fan*)
geodetic [ˌdʒi:əˈdetɪk] *a* geodeziyaga oid, geodeziya bilan bog'liq bo'lgan
geognosy [dʒɪˈɒgnəsɪ] *n* geognoziya (*geologiya bo'limi*)

geographer [dʒɪˈɒgrəfə] *n* geograf, geografiya olimi, mutaxassisi
geographic [ˌdʒɪəˈgræfɪk] = **geographical**
geographical [ˌdʒɪəˈgræfɪk(ə)l] *a* geografik; jug'rofiy
geography [dʒɪˈɒgrəfɪ] *n* geografiya; jug'rofiya
geologic, geological [ˌdʒɪəˈlɒdʒɪk, -(əl)] *a* geologiyaga oid, geologik
geologist [dʒɪˈɒlədʒɪst] *n* geolog, geologiya olimi, mutaxassisi
geologize [dʒɪˈɒlədʒaɪz] *v* 1) geologiyani o'rganmoq; 2) geologik tadqiqotlar bilan shug'ullanmoq
geology [dʒɪˈɒlədʒɪ] *n* geologiya (*yer haqidagi fan*)
geomagnetic, geomagnetical [ˌdʒi:ə(ʊ)mægˈnetɪk, -(əl)] *a* geomagnit, geomagnetik; ~ **field** Yerning magnit maydoni
geometer [dʒɪˈɒmɪtə] *n* geometriya olimi, mutaxassisi
geometric [ˌdʒɪəˈmetrɪk] *a* geometrik, geometriyaga oid
geometrical [ˌdʒɪəˈmetrɪk(ə)l] *a* geometrik; ~ **figures** geometrik shakllar
geometrically [ˌdʒɪəˈmetrɪk(ə)lɪ] *adv* geometrik prinsiplar asosida, geometriya nuqtayi nazaridan
geometrician [ˌdʒɪə(ʊ)meˈtrɪʃ(ə)n] = **geometer**
geometry [dʒɪˈɒmɪtrɪ] *n* geometriya; **a ~ book** geometriya kitobi
geophysical [ˌdʒi:ə(ʊ)ˈfɪzɪk(ə)l] *a* geofizikaga oid, geofizik
geophysics [ˌdʒi:ə(ʊ)ˈfɪzɪks] *n* geofizika (*yerning fizik xususiyatlari va unda ro'y beradigan fizik jarayonlar haqidagi fanlar majmuyi*); Yer fizikasi
George [dʒɔ:dʒ] *n* 1) uchuvchi; 2) avtopilot (*uchish apparatlarini avtomatik ravishda boshqaradigan qurilma*)
Georgian [ˈdʒɔ:dʒ(ɪ)ən] *n* 1) gruzin, gruziyalik kishi; **the ~s** gruzinlar; 2) gruzin tili
geranium [dʒeˈreɪnɪəm] *n bot.* atirshox, yorongul
gerfalcon [dʒɜ:ˈfɔ:lkən] *n zool.* Islandiya shumkari
germ [dʒɜ:m] *n* 1) *biol.* embrion, pusht, homila; 2) *bot.* urug' tugunchasi, urug'don; 3) mikrob; bakteriya
german [ˈdʒɜ:mən] *a* (*ba'zi so'zlar bilan birikib kelib tug'ishgan degan ma'noni anglatadi*); **a ~ brother** tug'ishgan aka-uka; **a ~ sister** tug'ishgan amakivachcha, tog'avachcha, xolavachcha
German [ˈdʒɜ:mən] **1.** *a* Germaniyaga va nemislarga oid; **2.** *n* 1) nemis; 2) nemis tili
germane [dʒɜ:ˈmeɪn] *a* 1) o'rinli, o'z vaqtida qilingan; 2) munosib, bop, qulay, mos, muvofiq
Germanic [dʒɜ:ˈmænɪk] **1.** *a* germanlarga oid; **2.** *n* nemislar tili
germanium [dʒɜ:ˈmeɪnɪəm] *n* germaniy (*kimyoviy element*)
Germanize [ˈdʒɜ:mənaɪz] *v* 1) nemislashtirmoq; 2) nemischaga tarjima qilmoq
German measles [ˌdʒɜ:mənˈmi:z(ə)lz] *n* qizamiq qizilchasi (*bolalar kasalligi*)
germicide [ˈdʒɜ:mɪsaɪd] **1.** *n* bakteriyalarni o'ldiradigan modda; **2.** *a* bakteriyalarni o'ldiradigan
germinal [ˈdʒɜ:mɪn(ə)l] *a* 1) embrionga (pushtga, murtakka) oid; embrion...; murtak...; embrionlik...; murtaklik; 2) kurtak (murtak) holidagi
germinate [ˈdʒɜ:mɪneɪt] *v* o'smoq, o'stirmoq (*o'simlik urug'iga nisbatan qo'llaniladi*)
germination [ˌdʒɜ:mɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) unib chiqish, ko'karish; 2) yuksalish, o'sish, rivojlanish
gerrymander [ˈdʒerɪmændə] **1.** *n* 1) saylov oldi hiyla-nayrang, saylov oldidan qilinadigan firibgarlik; 2) hiyla-nayrang, firibgarlik; **2.** *v* 1) dalil, isbot, haqiqatni buzib ko'rsatmoq
gerund [ˈdʒerənd] *n gram.* gerundiy (*-sh; -ish qo'shimchalari yordamida fe'ldan ot yasash*)
gesso [ˈdʒesəʊ] *n* (*pl* **-oes**) gips, ganch (*haykaltaroshlik uchun*)
gestation [dʒeˈsteɪʃ(ə)n] *n* homiladorlik, homiladorlik davri
gesticulate [dʒeˈstɪkjʊleɪt] *v* (*qo'l bilan*) imo-ishoralar qilmoq
gesticulation [dʒeˌstɪkjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* imo-ishoralar, ma'noli harakatlar
gesture [ˈdʒestʃə] **1.** *n* 1) imo-ishora; 2) tana harakati; **2.** *v* imo-ishoralar qilmoq
get [get] **1.** *n* nasl, avlod, urug' (*hayvonlar to'g'risida*); **2.** *v* (**got; gotten**) 1) olmoq, qo'lga kiritmoq; **to ~ tickets** chipta olmoq; **to ~ permission** ruxsat olmoq; 2) ushlab olmoq; **to ~ the thief** o'g'rini ushlamoq; 3) tushunmoq; **to ~ smb. wrong** kimnidir noto'g'ri tushunmoq; 4) o'ylantirmoq; **this problem ~s me** bu muammo meni o'ylantirib qo'ydi; 5) aloqa qilmoq; **did you ~ America?** Sen Amerika bilan bog'landingmi? 6) yod olmoq; **to ~ smth. (off) by heart** nimanidir yod olmoq; 7) yetib bormoq; **to ~ home** uyga yetib bormoq; **to ~ to London** Londonga kelmoq; 8) xalos bo'lmoq; **to ~ out of the job** bu ishdan xalos bo'lmoq; 9) boshlamoq; **to ~ to know** bilmoq; **how did you ~ to know him?** sen u bilan qanday tanishding? 10) to'g'rilamoq; o'tmoq; **to ~ over a fence** devordan (*panjaradan*) o't-moq; 11) aldamoq; 12) yengmoq; 13) yaqindan tanishmoq; **to ~ about** tarqalmoq; **to ~ a head** ulgurmoq; sharafga erishmoq; **to ~ along** o'zaro chiqishmoq; **to ~ away** qochib ketmoq; **to ~ back** qaytmoq; **to ~ by** o'tkazib yubormoq; **to ~ down** tushmoq; **to ~ in** chiqmoq; **to ~ off** tushmoq; ~ **together** to'planmoq; **to ~ up** ko'tarilmoq; **to ~ out** chiqmoq; **to ~ used** ...ga ko'nikmoq
get-at-able [ˌget ˈætəb(ə)l] *a* 1) kirish mumkin bo'lgan; 2) borib bo'ladigan; 3) erishsa bo'ladigan
getaway [ˈgetəˌweɪ] *n* 1) qochish, qochib ketish; **to make a ~** qochmoq; 2) *sport.* boshlanish payti; boshlanish joyi (*musobaqa haqida*)
getter [ˈgetə] *n* mol-dunyo orttirishga intiluvchi odam, molparast, dunyoparast
get-together [ˈgettəˌgeðə] *n* norasmiy uchrashuv, majlis, kengash, yig'in
get-tough policy [ˌget ˈtʌfˌpɒlɪsɪ] *a* qattiq siyosat
get-up [ˈget ˈʌp] *n* 1) qurilish, tuzilish; umumiy tuzilish; 2) kiyinish tarzi
gewgaw [ˈgju:gɔ:] *n* 1) mayda-chuyda bezak; 2) arzimagan narsa; 3) usti yaltiroq, ichi qaltiroq narsalar
geyser [ˈgi:zə] *n* geyzer (*o'qtin-o'qtin otilib turadigan issiq buloq*)
ghastly [ˈgɑ:stlɪ] *a* 1) qo'rqinchli, vahimali; ~ **dreams** qo'rqinchli tush; 2) *so'zl.* mudhish
gha(u)t [gɔ:t] *n* 1) tog' tizmasi; 2) tog' yo'li; 3) daryoning kemalar to'xtaydigan joyi
gherkin [ˈgɜ:kɪn] *n* sirkalash uchun uzilgan mayda bodring
ghetto [ˈgetəʊ] *n* getto (*irqiy, milliy yoki diniy jihatdan past tug'ilgan aholi guruhi uchun ajratilgan mahalla*)
ghost [gəʊst] *n* 1) boshqa shaxs uchun xufiya ishlovchi asl muallif; 2) sharpa, arvoh; 3) ruh; 4) soya, iz
ghostly [ˈgəʊstlɪ] *a* ruhoniy, diniy; din ...; cherkov...; **a ~ father** ruhoniy ota, pir
ghoul [gu:l] *n* 1) katta ko'rshapalak; 2) qabristondagi o'g'ri
ghoulish [ˈgu:lɪʃ] *a* iblisona, yovuz, yaramas, juda yomon, razil, qabih, jirkanch, iflos
giant [ˈdʒaɪənt] *n* pahlavon, juda ulkan odam, devqomat, bahodir
giantess [ˈdʒaɪəntɪs] *a* juda ulkan, bahodir, devqomat (*ayol haqida*)

giantism [ˈdʒaɪəntɪz(ə)m] *n tib.* gigantizm (*organizm yoki ayrim a'zoning nonormal kattaligi, o'sishi*)
giantlike [ˈdʒaɪəntlaɪk] *a* juda katta, ulkan, buyuk, zo'r, bahaybat
giant('s)-stride [ˌdʒaɪənt(s)ˈstraɪd] *n* chambarak arg'imchoq (*uzun xoda uchida aylanuvchi halqaga osilgan bir necha arg'imchoqli qurilma*)
giaour [ˈdʒaʊə] *n turk.* kofir, g'ayridin
gib [gɪb] *n* 1) mushuk (*erkagi*); 2) pona; 3) uzun taxtacha
gibber [ˈdʒɪbə] **1.** *n* noaniq, tushunib bo'lmaydigan gap; **2.** *v* tushunib bo'lmaydigan qilib (tez) gapirmoq
gibberish [ˈdʒɪb(ə)rɪʃ] *a* 1) tushunib bo'lmaydigan, noaniq gap; 2) tushunib bo'lmaydigan narsa
gibbet [ˈdʒɪbɪt] **1.** *n* dor; **2.** *v* ilmoq, osmoq
gibbon [ˈgɪbən] *n* gibbon (*odamsimon maymunlar turi*)
gibbous [ˈgɪbəs] *a* 1) bukur, bukchaygan; 2) qavariq, do'ng, bo'rtib chiqqan
gibe [dʒaɪb] *n* masxara qilish, birovning ustidan kulish
giber [ˈdʒaɪbə] *n* masxarachi, birovning ustidan kulishni yaxshi ko'radigan kishi
giblets [ˈdʒɪblɪts] *n pl* g'ozning ichak-chovoqlari
gibus [ˈdʒaɪbəs] *n* shapoklyak (*taxlanadigan shlapa-silindir*)
giddiness [ˈgɪdɪnəs] *n* 1) bosh aylanish, gangish; 2) yengiltaklik, mulohazasizlik, oqibatini o'ylamay ish tutish
giddy [ˈgɪdɪ] *a* 1) boshni aylantiruvchi; 2) boshi aylanadigan
gift [gɪft] **1.** *n* 1) sovg'a; **a birthday ~** tug'ilgan kun uchun sovg'a; 2) hadya; 3) iste'dod, qobiliyat; **the ~ of tongues** til bilish qobiliyati; **2.** *v* 1) in'om etmoq, qobiliyat ato etmoq; 2) hadya etmoq
gifted [ˈgɪftɪd] *a* iste'dodli, qobiliyatli; **a ~ poet** qobiliyatli shoir
gig I [gɪg] *n* 1) ochilib yopiladigan kuzov va shunday kuzovli yengil avtomobil; 2) bir ot qo'shiladigan ikki g'ildirakli yengil arava
gig II [gɪg] **1.** *n* baliq ovlaydigan changak, sanchqi; **2.** *v* sanchqi bilan baliq ovlamoq
gigantic [dʒaɪˈgæntɪk] *a* ulkan, ulug', juda zo'r
giggle [ˈgɪg(ə)l] **1.** *n* qiqirlab (hingillab) kulish, qiqir-qiqir (hingir-hingir) kulish, qiqirlash; **2.** *v* qiqirlab (hingillab) kulmoq, qiqir-qiqir kulmoq
gigolo [ˈ(d)ʒɪgələʊ] *n* dayus, sutenyor (*kapitalistik mamlakatlarda: fohisha o'ynashi, ma'shuqasi hisobiga yashovchi erkak kishi*)
GI Jane [ˈdʒiːˌaɪˈdʒeɪn] *n amer.* (**government issue Jane**) askar ayol
gild [gɪld] *v* (**gilded, gilt**) oltinlamoq, oltin yugurtirmoq, tilla suvini yugurtirmoq, zarhallamoq; **to ~ the pill** *so'zl.* yaxshi gap bilan tuzlamoq
gilded [ˈgɪldɪd] *a* zarhallangan, tilla suvi yugurtirilgan; oltin bilan qoplangan
gilder [ˈgɪldə] *n* zarhallovchi, zarhal beruvchi, zarhalchi; **carver and ~** rom, karniz va sh. k. uchun tayyorlangan ensiz jimjimador taxtalar yasaydigan usta
gilding [ˈgɪldɪŋ] *n* zarhal (*narsa sirtiga yugurtirilgan yoki qoplangan oltin qatlami*)
gill I [gɪl] *n* 1) *pl* oyquloq (*baliq va boshqa ba'zi bir suvda yashovchi jonivorlarning nafas olish a'zosi*); 2) serdaraxt chuqur jarlik
gill II [dʒɪl] *n* 0,25 pinta (*pinta – ingliz o'lchovlarini qo'llovchi mamlakatlarda: suyuqlik yoki sochiluvchi narsalarning o'lchov birligi: ingliz = 0,142 l, amer. = 0,118 l*)
gillie [ˈgɪlɪ] *n shotl.* 1) boshliqning xizmatkori; 2) baliqchi; ovchining yordamchisi
gillyflower [ˈdʒɪlɪˌflaʊə] *n* shabbo'y (*krestgullilarga mansub xushbo'y gulli, dekorativ o'simlik*)
gilt [gɪlt] **1.** *past., p. p. of* **gild**; **2.** *n* zarhal (*narsa sirtiga yugurtirilgan yoki qoplangan oltin qatlami*)
gilt-edged [ˌgɪltˈedʒd] *a* 1) cheti zarhalli; 2) a'lo sifatli, birinchi navli
gimbals [ˈdʒɪmb(ə)lz] *n pl tex.* kardan ilgagi (*kardan – avtomobilda va umuman, mashinalarda oshiq-moshiqsimon mexanizm*)
gimcrack [ˈdʒɪmkræk] *a* zar ipga, zarga oid, zardan to'qilgan, zarbof
gimlet [ˈgɪmlɪt] **1.** *n* parma, dastparma; **eyes like ~s** sinchkovlik bilan qarash; **2.** *v* parmalamoq
gimmick [ˈgɪmɪk] *n so'zl.* hiyla, nayrang, makr (qilish, ishlatish); **to pull a ~** nayrang ishlatmoq
gimp [gɪmp] *n* zar ip, zar jiyak
gin [dʒɪn] **1.** *n* 1) qopqon, tuzoq, pistirma; 2) chig'ir (*yuk ko'taradigan mashina*); 3) *tex. esk.* jin (*chigitdan paxtani ajratadigan mashina*); 4) archa urug'i solingan araq; **2.** *v* 1) tuzoq qo'yib ushlamoq; 2) paxtani tozalamoq
ginger [ˈdʒɪndʒə] *n* 1) *bot.* zanjabil (*o'simlik*); 2) malla (sariq) sochli odam
ginger-beer [ˌdʒɪndʒəˈbɪə] *n* zanjabilli pivo, zanjabil limonad
gingerbread [ˈdʒɪndʒəbred] *n* zanjabildan qilingan (tayyorlangan) shirin kulcha
gingerly [ˈdʒɪndʒəlɪ] **1.** *a* ehtiyotli, ehtiyotkor, ehtiyotkorlik bilan qilingan; **2.** *adv* ehtiyotlik bilan, ehtiyot qilib, ehtiyot bo'lib
ginger-snap [ˈdʒɪndʒəsnæp] *n* zanjabildan (qilingan, tayyorlangan) pishiriqlar
gingery [ˈdʒɪndʒərɪ] *a* 1) zanjabilga oid, zanjabilli, zanjabil qo'shilgan; 2) o'tkir, xushta'm, xushbo'y
gingham [ˈgɪŋəm] *n so'zl.* (*katta*) soyabon
gingivitis [ˌdʒɪndʒɪˈvaɪtɪs] *n tib.* milkning yallig'lanishi
gink [gɪŋk] *n amer. so'zl.* g'alati (tentaksimon) odam; qiziq tabiatli kishi
gin-mill [ˈdʒɪnmɪl] *amer.* = **gin-shop**
ginnery [ˈdʒɪn(ə)rɪ] *n* paxta tozalash fabrikasi (zavodi)
ginseng [ˈdʒɪnseŋ] *n bot.* odamgiyoh, jenshen
gin-shop [ˈdʒɪnʃɒp] *a* pivoxona
Gipsy [ˈdʒɪpsɪ] **1.** *n* 1) lo'li; lo'li ayol, lo'li qiz; 2) lo'lilar tili; **2.** *a* lo'lilarga oid, lo'licha, lo'li(lar)
Gipsy moth [ˈdʒɪpsɪmɒθ] *n zool.* ipak qurti
Gipsy-table [ˈdʒɪpsɪˌteɪbl] *n* (*uch oyoqli*) yumaloq stol
giraffe [dʒɪˈrɑːf] *n zool.* jirafa
girandole [ˈdʒɪrəndəʊl] *n* qandil, katta shamdon, chilchiroq
gird [gɜːd] **1.** *v* belbog' bog'lamoq, kamar bog'lamoq; **2.** *n* birovning ustidan kulish, birovni masxara qilish
girder [ˈgɜːdə] *n* 1) to'sin, xari; 2) bir-biriga mustahkam biriktirilgan ustun-xarilardan iborat muhandislik inshooti
girdle [ˈgɜːdl] *n* kamar, belbog'
girl [gɜːl] *n* qiz, qizcha; qiz bola, voyaga yetmagan qiz
girl-friend [ˈgɜːlfrend] *n* dugona
girlhood [ˈgɜːlhʊd] *n* qizlik davri, qiz bola, qizcha
girlie [ˈgɜːlɪ] *n* voyaga yetmagan qiz; **a ~ magazine** ayollar jurnali
girlish [ˈgɜːlɪʃ] *a* 1) qizlik davridagi; qizlarga xos bo'lgan; 2) nozik, qiz bolaga o'xshagan (*og'il bola haqida*)
giro [ˈdʒaɪ(ə)rəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) pul o'tkazish tizimi; 2) ijtimoiy ta'minot cheki
girth [gɜːθ] *n* qorinbog', ayil
gist [dʒɪst] *n* mohiyat, asl ma'no; **the ~ of the matter** ishning mohiyati
give [gɪv] *v* (**gave; given**) 1) bermoq, topshirmoq; **to ~ smb. a pencil** kimgadir qalam bermoq; 2) sovg'a qilmoq; **to ~ smb. a present** kimgadir sovg'a bermoq; 3) to'lamoq; 4) atamoq, bag'ishlamoq; 5) berilib ketmoq, kirishib ketmoq; **to ~ one's mind to study** o'qishga

butunlay kirishib ketmoq; 6) zarar yetkazmoq; **the son gives the father much trouble** og'il otasiga ko'p tashvish keltiradi; 7) ko'rsatmoq; 8) hukm qilmoq; 9) in'om qilmoq, biror narsaning bahridan o'tmoq; 10) xabar bermoq; **to ~ information** ma'lumot bermoq; 11) bog'lamoq; 12) (*yuqumli kasallikni*) tarqatmoq; **one child can ~ measles to a whole class** bir bola hammaga kasallikni yuqtirishi mumkin; 13) turmushga uzatmoq; **to ~ in marriage** turmushga chiqmoq; **to ~ about** tarqatmoq; **to ~ up** (*odatni*) tashlamoq, to'xtatmoq

give-and-take |ˌgɪvən(d)ˈteɪk| *n* bir-biriga yon berish

give-away ['gɪvəˌweɪ] **1.** *n* sirni fosh qilish *yoki* sotqinlik qilish; **2.** *a* past (*narx to'g'risida*); **at a ~ price** juda past bahoda

given ['gɪv(ə)n] **1.** *p. p. of* **give**; **2.** *a* 1) bu, shu, mana shu, ushbu; 2) belgilangan; **in a ~ time** belgilangan vaqtda

giver ['gɪvə] *n* beradigan, sovg'a qiladigan kishi

gizzard ['gɪzəd] *n* 1) ikkinchi oshqozon, me'da (*qushlarda*); 2) *so'zl.* tomoq, qorin

glabrous ['glæbrəs] *a* tekis, tep-tekis, silliq, junsiz (*teri haqida*)

glacé ['glæseɪ] *a fr.* tekis, tep-tekis, silliq

glacial ['gleɪʃ(ə)l] *a* 1) muzlikka oid, muzlikdan iborat; 2) sovuq, iltifotsiz; **a ~ smile** sovuq (yoqimsiz) tabassum

glaciate ['gleɪʃɪeɪt] *v* muzlamoq, muzlatmoq, muzga aylantirmoq

glacier ['glæsɪə] *n* muzlik, muz qatlami

glacis ['glæsɪ(s)] *n harb.* okop oldidagi yasama do'nglikning old tomoni qiyaligi (nishab joyi)

glad [glæd] *a* 1) mamnun; 2) xursand; **I'm ~ to hear it** eshitganimdan xursandman; 3) baxtli

gladden ['glædn] *v* xursand qilmoq, sevintirmoq, quvontirmoq, vaqtini chog' qilmoq

glade [gleɪd] *n* o'rmon ichidagi ochiq joy, ochiq maydon, yalanglik

gladiator ['glædɪeɪtə] *n* gladiator (*Qadimgi Rimda: sirk maydonida kurash tushirilgan qul yoki harbiy asir*)

gladiatorial [ˌglædɪəˈtɔːrɪəl] *a* gladiatorlarga oid

gladioli [ˌglædɪˈəʊlaɪ] *pl of* **gladiolus**

gladiolus [ˌglædɪˈəʊləs] *n* (*pl* **-es** [-sɪz], **-li** [-laɪ]) *bot.* gladiolus (*tugunak piyozli ko'p yillik gul*)

gladly ['glædlɪ] *adv* suyunib, xursand bo'lib, sevinib, quvonib

gladsome ['glædsəm] *a* quvnoq, xursand; **a ~ morning** quvnoq tong; **with ~ looks** ochiq chehra bilan

Gladstone ['glædstən] *n* 1) charm sakvoyaj; 2) ikki o'rinli fayton (yengil arava)

glair [gleə] **1.** *n* tuxumning oqi; **2.** *v* tuxumning oqini surtmoq

glairy ['gleɪ(ə)rɪ] *a* 1) oqsil moddasiga oid; 2) tuxumning oqi surtilgan; 3) shilimshiq, yopishqoq

glaive [gleɪv] *n* qilich, shamshir

glamor ['glæmə] *amer.* = **glamour**

glamorize ['glæməraɪz] *v* juda maqtamoq; yuqori baho bermoq; reklama qilmoq

glamorous ['glæm(ə)rəs] *amer.* = **glamourous**

glamour ['glæmə] *n* 1) afsun, sehr, jodu; 2) sehrgarlik, jodugarlik; **to cast a ~ over** sehrlab qo'ymoq; 3) dilrabolik, dilbarlik, yoqimlilik, jozibadorlik, joziba, tarovat, fatonat, fusunkorlik

glamourous ['glæm(ə)rəs] *a* dilrabo, dilbar, jozibador, yoqimli, juda go'zal, mastona, fusunkor, fatonatli

glance [glɑːns] **1.** *n* ko'z tashlash; **at a ~** bir ko'rishda; **2.** *v* nazar solmoq; **to ~ one's eye at smb.** kimgadir ko'z tashlamoq; **to ~ at** ...ga qaramoq

gland [glænd] *n* 1) *anat.* bez; 2) *tex.* salnik (*tirqishlarni berkitib turuvchi detal qoplama*)

glanderous ['glænd(ə)rəs] *n vet.* manqa kasalligiga oid

glanders ['glændəz] *n vet.* manqa (*otlarda bo'ladigan yuqumli kasallik*)

glandiferous [glænˈdɪfərəs] *a* cho'chqa yong'oqli (*cho'chqayong'oq – dub daraxtining mevasi*)

glandiform ['glændɪfɔːm] *a tib.* bezga oid, bezli

glandular ['glændjʊlə] *a tib.* bezga oid, bezli

glandule ['glændjuːl] *n* 1) bezcha, kichik bez; 2) shish, o'sma, g'urra

glare [gleə] **1.** *n* 1) ko'zni qamashtiradigan (oladigan) nur; 2) nafratli nigoh, yovuzlarcha qarash; **2.** *v* 1) yaltiramoq, ko'zni qamashtirmoq; 2) **(at, on, upon)** tikilib *yoki* g'azab bilan qaramoq; 3) (*g' azabnok nigoh bilan*) ifodalamoq

glaring ['gle(ə)rɪŋ] *a* 1) yorqin, yorug', charaqlagan (*nur haqida*); 2) ko'zga tashlanadigan; 3) qo'pol; **~ mistake** qo'pol xato; 4) yovuz, qahrli (*nigoh haqida*)

glaringly ['gle(ə)rɪŋlɪ] *adv* ravshan, yorug'; yorqin, ko'z qamashtiradigan darajada

glass [glɑːs] **1.** *a* shishali, oynali; **a ~ roof** shishali tom; **2.** *n* 1) shisha; 2) shisha idish; 3) stakan, qadah (*rumka*); **to empty a ~** rumkani quritmoq; 4) qum soat; 5) barometr; 6) *pl* ko'zoynak; 7) durbin, mikroskop; 8) oyna; ko'zgu; 9) issiqxona romi; issiqxona; **3.** *v* 1) oyna (deraza) qo'ymoq; 2) issiqxonaga joylamoq; 3) aksini ko'rmoq (*oynada*); 4) (*konserva va b. haqida*) shisha idishga germetik joylashtirmoq (bekitmoq)

glass-blower ['glɑːsˌbləʊə] *n* shisha puflovchi, shishadam (*puflab shisha buyumlar yasovchi ishchi*)

glass-blowing ['glɑːsˌbləʊɪŋ] *n* shishadamgarlik ishi, puflab shisha buyumlar tayyorlaydigan ish

glass-case ['glɑːskeɪs] *n* vitrina (*savdo korxonalarida, do'konlarda mollarning namunalari qo'yilgan oyna*)

glass-cutter ['glɑːsˌkʌtə] *n* 1) oynachi, oyna soluvchi; oyna kesuvchi; 2) olmos (*oyna kesish uchun*)

glass-dust ['glɑːsdʌst] *n* najdak, jilvir, qumqayroq

glassful ['glɑːsfʊl] *n* stakan (*o'lchov birligi*); **a ~ of milk** bir stakan sut

glass-furnace ['glɑːsˌfɜːnɪs] *n* shisha eritadigan pech

glass-house ['glɑːshaʊs] *n* 1) issiqxona; 2) shisha zavodi; 3) fotoatelye (*shisha tomli*)

glass-paper ['glɑːsˌpeɪpə] *n* jilvirli qog'oz

glass-ware ['glɑːsweə] *n* shisha idish, shishadan yasalgan buyumlar

glass-wool [ˌglɑːsˈwʊl] *n tex.* shisha momiq

glass-works ['glɑːswɜːks] *n* 1) shisha ishlab chiqarish; shisha zavodi; 2) shisha (*mahsulot*)

glassy ['glɑːsɪ] *a* 1) oynadek silliq; 2) shishaga o'xshagan, shishadek tiniq

glaucoma [glɔːˈkəʊmə] *n tib.* glaukoma, ko'ksuv (*ko'z ichi bosimining zo'rayishi, ko'ksuv kasalligi*)

glaucous ['glɔːkəs] *a* rangsiz, tussiz, xira, rangi ketgan, nursiz

glaze [gleɪz] *n* 1) sir; 2) yaltiroqlik, jilo, sayqal

glazed [gleɪzd] *a* 1) oyna solingan; 2) sirlangan, jilo berilgan

glazier ['gleɪzɪə] *n* oynachi, oyna soluvchi kishi

glazy ['gleɪzɪ] *a* 1) jiloli, yaltiroq; 2) ma'nosiz (*qarash*)

gleam [glɪːm] **1.** *n* kuchsiz yorug'lik, nur, shu'la; **2.** *v* miltillamoq, miltillab ko'rinmoq

glean [glɪːn] *v* 1) (*asos., dalil va ma'lumotlarni*) mayda-chuydasigacha yig'moq; **to ~ information** ma'lumot yig'moq; 2) (*o'rimdan keyin*) boshoq termoq, (*yig'ib olingandan keyin*) uzum termoq

gleanings ['glɪːnɪŋz] *n* 1) yig'ilgan dalillar (*faktlar*); 2) misqollab yig'ilgan

bilim; 3) o'rimdan so'ng yig'ib olingan boshoqlar

glebe [gli:b] *n* 1) cherkovning yer maydoni; 2) *tog'.* rudaga boy bo'lgan yer maydoni

glee [gli:] *n* quvnoq kayfiyat, quvnoqlik, xushvaqtlik, xushchaqchaqlik

gleeful ['gli:f(ə)l] *a* shod, xursand; ~ **news** xursand qiladigan yangilik

gleet [gli:t] *n tib.* surunkali uretrit (*uretrit – siydik yo'li kasalligi*)

glen [glen] *n* tog'li tor vodiy

glengarry [glen'gærı] *n* shotland shapkasi (*bosh kiyimi*)

glib [glıb] *a* 1) jo'shqin (*nutq*), burro (*gap*); 2) silliq (*yuza haqida*); 3) yengil (*harakat haqida*)

glide [glaıd] **1.** *a* 1) sirpanish, sirg'anish, silliq harakatlanish; 2) *fon.* oraliq tovush: **2.** *v* 1) sirpanmoq, silliq harakat qilmoq; 2) tez o'tib ketmoq (*vaqt haqida*)

glide-bomb ['glaıdbɒm] *n harb.* pastlab uchadigan bomba samolyot-snaryad

glider ['glaıdə] *n av.* planyor (*motorsiz uchadigan apparat*)

glimmer ['glımə] *v* miltillamoq, miltillab ko'rinmoq; xira nur tarqatmoq

glimpse [glımps] **1.** *n* 1) yaltirash, chaqnash; 2) bir ko'z tashlab qo'yish, qiyo boqib o'tish; **2.** *v* 1) yaltiramoq, chaqnamoq; 2) bir ko'z tashlamoq

glint [glınt] *v* yaltiramoq, chaqnamoq

glissade [glı:'sɑ:d] **1.** *n* sirg'anish, sirpanish, toyish; **2.** *v* sirg'anmoq, sirpanmoq, toymoq

glisten ['glıs(ə)n] *v* yarqiramoq, charaqlamoq; chaqnamoq; **his eyes ~ed with excitement** uning ko'zlari hayajondan chaqnadi

glitter ['glıtə] **1.** *n* yaltirash, tovlanish; **2.** *v* yaltiramoq, tovlanmoq; **all is not gold that ~s** *maq.* yaltiragan har narsa ham oltin bo'lavermaydi; ustiga qarab baho berma

gloaming ['gləomıŋ] *n* g'ira-shira payt, tong yorishgan *yoki* qosh qoraygan payt

gloat [gləot] *v* ichiqoralik qilmoq, baxillik qilmoq; (*o'zgalarning bavtsizligidan*) quvonmoq

global ['gləob(ə)l] *a* 1) umumjahon, dunyo miqyosidagi; 2) umumiy, ommaviy; ~ **disarmament** umumiy qurolsizlanish

globe [gləob] *n* 1) Yer shari; 2) globus; 3) soqqa; **the ~ of the eye** ko'z soqqasi

globe-trotter ['gləob,trotə] *n* jahongashta

globose ['gləobəos] *a* sharsimon, soqqasimon, dumaloq, yumaloq; shar shaklidagi

globular ['globjulə] *a* sharsimon, dumaloq, yumaloq

globule ['globju:l] *n* 1) tomchi; 2) pufakcha; soqqacha, sharcha

gloom [glu:m] *n* 1) umidsizlik, qayg'u; 2) qorong'ilik, yoritilmagan, qorong'i bosgan joy

gloomy ['glu:mı] *a* 1) qorong'i; 2) ma'yus, qayg'uli

glorification [,glɔ:rıfı'keıʃ(ə)n] *n* shuhrat qozonish, nom chiqarish

glorify ['glɔ:rıfaı] *v* 1) maqtamoq; 2) shuh-rat qozonmoq

gloriole ['glɔ:rıəo] *n* yorug'lik gardishi

glorious ['glɔ:rıəs] *a* 1) shonli, shuhratli, dong'i chiqqan; 2) juda soz (yaxshi), ajoyib, qoyilmaqom

glory ['glɔ:rı] **1.** *n* 1) shuhrat, dong, shon; 2) savlat, saltanat, ko'rkamlik; chiroy, go'zallik, tarovat; **2.** *v* mag'rurlanmoq, faxrlanmoq

gloss [glos] *n* 1) jilo, sayqal; pardoz, yaltiroq; 2) tashqi ko'rinishiga ishonib bo'lmaydigan

glossary ['glos(ə)rı] *n tilsh.* 1) glossariy (*biror matndagi tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati*); 2) (*kitob oxirida ilova qilingan*) lug'at

glossiness ['glosınəs] *n* yaltiroq, yaltiroqlik, jilo, sayqal

glossitis [glɒ 'saıtıs] *n tib.* tilning yallig'lanishi

glossy ['glosı] *a* jiloli, yaltiroq

glottis ['glɒtıs] *anat.* tovush chiqaruvchi oraliq

glove [glʌv] *n* qo'lqop; **to handle without ~s** qo'pol munosabatda bo'lmoq

glow [gləo] **1.** *v* 1) cho'g' bo'lguncha qizimoq; 2) yarqiramoq, yaltiramoq; 3) *ko'ch.* yonmoq, kuymoq; 4) chaqnamoq, yonmoq (*ko'z haqida*); **2.** *n* 1) jazirama issiq; 2) shafaq; shu'la; 3) yuzning qizili

glower ['glaoə] **1.** *v* g'azab bilan qaramoq; **2.** *n* g'azabli qarash

glowing ['glaoıŋ] *a* 1) oppoq bo'lib oqarguncha qizdirilgan; 2) yorqin nur taratayotgan, charaqlayotgan; 3) qizg'in, otashin, jo'shqin

glow-lamp ['gləolæmp] *n el.* cho'g'lanma lampa

glow-worm ['gləowə:m] *n ent.* yaltiroq qo'ng'iz, tillaqo'ng'iz

glucose ['glu:kəos] *n* glukoza (*uzum shakari*)

glue [glu:] **1.** *n* yelim, sirach; **2.** *v* yopishtirmoq

gluey ['glu:ı] *a* yopishqoq, yopishadigan, yelimshak, yelimshiq, shirali

glum [glʌm] *a* 1) qorong'i, qorong'ilik bosgan; zim-ziyo; 2) xo'mraygan, badqovoq

glume [glu:m] *n* (don, g'alla) po'chog'i, po'sti, qipig'i, shulxasi

glut [glʌt] *n* 1) keragidan ortiqchalik; 2) mo'llik, seroblik

glutinous ['glu:tınəs] *a* yopishqoq, yelimshiq, shirador

glutton ['glʌtn] *n* mechkay, nafsi yomon, yeb to'ymas odam

gluttony ['glʌt(ə)nı] *n* yeb to'ymaslik, mechkaylik

glycerin(e) ['glıs(ə)rın] *n kim.* glitserin (*mol yog'idan yoki nefitdan olinadigan quyuq, shirin modda*)

glyptic ['glıptık] **1.** *n* (*odatda, pl*) gliptika (*toshga naqsh o'yish san'ati*)

gnarled [nɑ:ld] *a* qiyshaygan, g'adir-budur

gnash [næʃ] *v* tishni g'ijirlatmoq

gnat [næt] *n* pashsha, chivin

gnaw [nɔ:] *v* kemirmoq, g'ajimoq

gnawer ['nɔ:ə] *n zool.* kemiruvchi

gneiss [naıs] *n geol.* gneys (*asosan, shpat, kvars va sludadan iborat tog' jinsi*)

gnome I [nəom] *n* aforizm, hikmatli so'z, ibora

gnome II [nəum] *n* gnom (*G'arbiy Yevropa afsonalarida: yer ostidagi xazinani saqlovchi badbashara, sersoqol mitti odam*)

gnu [nu:] *n zool.* gnu (*Janubiy Afrika kiyigi*)

go [gəo] *v* (**went; gone**) 1) bormoq, yurmoq; harakatda bo'lmoq; siljimoq; **the train goes to London** poyezd Londonga boradi; **who goes there?** kim u? kelayotgan kim? (*qorovul hayqirig'i*); **to ~ after smb.** birortaning ketidan bormoq, birovga ergashmoq; 2) yurmoq (*biror transport vositasida*); sayohat qilmoq; **to ~ by plane** samolyotda uchmoq; **I shall ~ to London** men Londonga boraman; **to ~ by train** poyezdda bormoq; 3) ketmoq; 4) otlanmoq; **to ~ for shopping** xarid qilish uchun otlanmoq; 5) harakatlanmoq, boshqarilmoq; 6) qabul qilinmoq (*reja*); 7) aniq natija bilan tugash; **the play went well** pyesa muvaffaqiyat bilan tugadi; 8) sarf bo'lmoq, ketmoq, o'tmoq; **much time has gone since that day** o'sha kundan keyin ko'p vaqt o'tdi; 9) vafot etmoq; yo'qotmoq; **he is gone** u vafot etdi; **my sight is going** ko'zimning nuri xiralashyapti; 10) nasib bo'lmoq, buyurmoq, tegmoq; **the house went to the elder son** uy katta o'g'ilga nasib etdi (tegdi); 11) sotilmoq (*aniq bir narxda*); **this goes 6 shillings** bu 6 shilling turadi; **to ~ cheap** arzon narxda sotilmoq; 12) yarashmoq, to'g'ri kelmoq, yaxshi turmoq; 13) : **to ~ to sea** dengizchi bo'l-

moq; **to ~ on the stage** aktyor bo'lmoq; **to ~ to school** maktabga bormoq; **to ~ about** u yoqdan bu yoqqa yurmoq; **to ~ abroad** chet elga ketmoq; **to ~ after** qidirmoq; **to ~ against** qarshi chiqmoq, qarshi gapirmoq; **to ~ ahead** davom etmoq, oldinga yurmoq; **to ~ at** *so'zl.* kimgadir tashlanmoq (*so'z bilan*); **to ~ back** orqaga qaytmoq, so'zida turmaslik; (*do'stlarga*) xiyonat qilmoq; **to ~ behind** yangidan ko'rib chiqmoq; **to ~ by** (*vaqt*) o'tmoq; kimningdir yonidan o'tib ketmoq; **to ~ down** pastga tushmoq; **to ~ far into** uzoq davom etmoq; **to ~ for** izlanishda bo'lmoq; **to ~ in for** qatnashmoq, qiziqmoq, nimanidir oldiga maqsad qilib qo'ymoq; **to ~ in with** birgalikda ish yuritmoq; **to ~ into** kirmoq, a'zo bo'lmoq; **to ~ off** qochib ketmoq; **to ~ on** davom ettirmoq; **to ~ on for** …ga yaqin kelmoq (*vaqt, yosh*); **to ~ out** 1) chiqib ketmoq; 2) nashr etilmoq (*kitob*); **to ~ over** tomoniga (tarafiga) o'tmoq; **to ~ round** aylanmoq; **to ~ through** bobma-bob o'rganmoq; **to ~ through with smth.** nimanidir (ishni) oxirigacha yetkazmoq; **to ~ under** cho'kib ketmoq, yo'qolib ketmoq, vafot etmoq; **to ~ up** yuqoriga ko'tarilmoq; **to ~ with** kuzatmoq

goad [gəʊd] *v* 1) ruhlantirmoq, undamoq; 2) (*podani*) haydamoq; 3) qonini qaynatmoq, g'azablantirmoq

go-ahead ['gəʊə,hed] *n* 1) oldinga harakat qilishga buyruq *yoki* ruxsat; start uchun signal; 2) serg'ayrat odam

goal [gəʊl] *n* 1) *sport.* gol; 2) maqsad, vazifa; 3) belgilangan joy; 4) finish; 5) *sport.* darvoza

goal-keeper ['gəʊl,ki:pə] *n sport.* darvozabon

goat [gəʊt] *n* echki; urg'ochi echki; taka, serka

goatee [gəʊ'ti:] *n* echkisoqol

goat-herd ['gəʊthə:d] *n* echki boqadigan cho'pon, podachi

goatsucker ['gəʊt,sʌkə] *n zool.* tentakqush

goaty ['gəʊtɪ] *a* echki terisidan tikilgan

gob [gɒb] *n* 1) *so'zl.* og'iz; tomoq, halqum, bo'g'iz; 2) bo'lak, parcha, burda

gobble ['gɒb(ə)l] *v* jig'ildonga urmoq, yemoq, paqqos tushirmoq

gobbledygook ['gɒb(ə)ldɪgu:k] *n* tushunish qiyin bo'lgan rasmiy til

gobelin ['gəʊb(ə)lɪn] *n* gobelen (1. *devorga osib qo'yiladigan suratli gilam;* 2. *dekorativ gazlama*)

go-between ['gəʊbɪ,twi:n] *n* vositachi; dallol

goblet ['gɒblɪt] *n* qadah, jom

goblin ['gɒblɪn] *n* jin, ajina; (*hikoyalarda*) goblin

goby ['gəʊbɪ] *n zool.* bichok (*baliq turi*)

go-cart ['gəʊkɑ:t] *n* (*yurishga o'rgatish uchun mo'ljallangan*) bolalar aravachasi

god [gɒd] *n* 1) Xudo, Alloh; 2) : **God's truth** Xudo haqi rost; **my God!** yo Allohim! voy Xudoyim!; **God Almighty** qudratli Alloh

godchild ['gɒdtʃaɪld] *n* cho'qintirilgan o'g'il

goddaughter ['gɒd,dɔ:tə] *n* cho'qintirilgan qiz

goddess ['gɒdɪs] *n* 1) ma'buda, iloha; 2) sevimli, jonajon

godfather ['gɒd,fɑ:ðə] *n* cho'qintirgan ota

godforsaken ['gɒdfəseɪkən] *a* qarovsiz, tashlandiq (*joyga nisbatan*)

godhead ['gɒdhed] *n* xudo, tangri

godless ['gɒdləs] *a* 1) badbaxt, baxtsiz; 2) xudosiz, imonsiz

godliness ['gɒdlɪnəs] *n* xudojo'ylik, dindorlik, taqvodorlik

godly ['gɒdlɪ] *a* 1) diniy; 2) dindor, dinga berilgan, xudojo'y, taqvodor

godmother ['gɒd,mʌðə] *n* cho'qintirgan ona

godparent ['gɒd,pe(ə)rənt] *n* cho'qintirgan ota *yoki* cho'qintirgan ona (*cho'qintirilgan o'g'il-qizga nisbatan*)

God's-acre ['gɒdz,eɪkə] *n* qabriston

godsend ['gɒdsend] *n* 1) favqulodda sodir bo'lgan baxtli hodisa; 2) muvaffaqiyat; 3) topilma, topilgan narsa

godson ['gɒdsʌn] *n* cho'qintirilgan o'g'il

godspeed [,gɒd'spi:d] *n* tilak, muvaffaqiyat tilash; **to bid** (*yoki* **to wish**) **smb. ~** hormanglar! xudo yor bo'lsin! oq yo'l! safar bexatar bo'lsin!

goer ['gəʊə] *n* piyoda yuradigan odam

goffer ['gəʊfə] *v* nova-nova qilmoq; qatqat burmalamoq

goggle ['gɒg(ə)l] *v* hayron (lol bo'lib) boqmoq, baqrayib qaramoq

goggles ['gɒg(ə)lz] *n* himoya ko'zoynagi

going ['gəʊɪŋ] *n* 1) qo'zg'alish; 2) sayohat, rivojlanish; 3) yer, yo'l va h. k. ning holati

going over [,gəʊɪŋ'əʊvə] *n* 1) tekshirish, nazorat; 2) bojxona nazorati, tekshiruvi, ko'rigi

goings-on [,gəʊɪŋz'ɒn] *n pl* 1) xulq-atvor (*salbiy*); 2) turmush tarzi

goitre ['gɔɪtə] *n tib.* buqoq; **exophthalmic ~** bazedov kasalligi (*qalqonsimon bez vazifasining buzilishi natijasidagi kasallik*)

go-kart ['gəʊkɑ:t] *n* tomsiz, juda kichkina poyga avtomobili

gold [gəʊld] *n* 1) oltin, tilla; 2) tillarang; 3) oltin, oltin tanga *yoki* narsa; 4) boylik, xazina; qimmatbaho narsalar

gold-cloth ['gəʊldklɒθ] *n* kimxob, zarbof, zarvaraq, kundal

gold-digger ['gəʊld,dɪgə] *n* oltin (tilla) qidiruvchi kishi

gold-diggings ['gəʊld,dɪgɪŋ] *n pl* oltin konlari

gold-dust ['gəʊlddʌst] *n* oltin zarra (qum)

golden ['gəʊld(ə)n] *a* tilladan yasalgan

gold-field ['gəʊldfi:ld] *n* oltin koni

goldfinch ['gəʊld,fɪntʃ] *n* 1) *zool.* sa'va; 2) *so'zl.* oltin pul

goldfish ['gəʊld,fɪʃ] *n* oltin baliq

gold leaf [,gəʊld'li:f] *n* 1) yupqa zarvaraq; 2) zar qog'oz

gold-mine ['gəʊldmaɪn] *n* 1) oltin koni; 2) daromad manbayi

goldsmith ['gəʊld,smɪθ] *n* zargar (usta), zarshunos

gold-thread ['gəʊld,θred] *n* 1) yupqa zarvaraq; 2) zar qog'oz; 3) zar ip

golf [gɒlf] *n sport.* golf (*to'p o'yinlaridan biri*)

golly ['gɒlɪ] *int.* yo Alloh!

gombeen [gɒm'bi:n] *n irl.* sudxo'rlik

gombeen-man [gɒm'bi:mən] *n irl.* sudxo'r

gondola ['gɒndələ] *n* gondola (*Venetsiya qayig'i*)

gone [gɒn] *p. p. of* **go**

gong [gɒŋ] *n* bong, zang

gonorrh(o)ea [,gɒnə'rɪə] *n tib.* so'zak

goo [gu:] *n* yopishqoq modda

good [gʊd] *a* **(better; best)** 1) yaxshi; **~ food** yangi mahsulot; **~ features** yuz tuzilishining chiroyliligi; **~ to see you** *so'zl.* sizni ko'rganimdan xursandman; 2) saxiy, mehribon; **~ works** xayrli ishlar; 3) yoqimli, dilbar; iltifotli, xushmuomala; **how ~ of you**? qanday iltifotlisiz-a? 4) foydali, yaroqli, layoqatli, yaraydigan; **a ~ man for** layoqatli odam; **milk is ~ for children** sut bolalar uchun foydali; 5) usta, mohir, ishbilarmon, omilkor, mahoratli, ustasi farang; 6) unumdor, hosildor, serhosil; 7) ishonchli, ishonarli, mustahkam; 8) ulkan, ko'p, bir talay; 9) sifatni kuchaytirish ma'nosida, *nas.*, **a ~ long walk** juda ham uzoq muddatli sayr; 11) salomlashish; **~ morning!** xayrli tong!; **a ~ deal of** ko'p; **to be as ~ as one's word** so'zida turmoq

good afternoon [,gʊd,ɑ:ftə'nu:n] *int.* xayrli kun!

goodbye [,gʊd'baɪ] *n int.* xayr!

good evening [gʊd'i:vnɪŋ] *int.* xayrli oqshom!

good-for-nothing ['gʊdfə,nʌθɪŋ] **1.** *n* bekorchi, tanbal, ishyoqmas; **2.** *a* yaroqsiz, layoqatsiz, nobop

good-humoured [ˌgʊdˈhju:məd] *a* xushfe'l, xushmuomala, muloyim, ko'ngilchan
good-looker [ˌgʊd ˈlʊkə] *n so'zl.* ko'rkam (chiroyli, go'zal) kishi; xushro'y (zebo, nozanin) ayol
good-looking [ˌgudˈlokɪŋ] *a* chiroyli, ko'rkam, go'zal, zebo, barno
goodly [ˈgʊdlɪ] *a* 1) chiroyli, ko'rkam; 2) yirik, katta
good-natured [ˌgʊdˈneɪtʃəd] *a* xushfe'l, xushmuomala, muloyim, ko'ngilchan
goodness [ˈgʊdnəs] *n* 1) yaxshilik, ezgulik, yaxshi ish; 2) nazokat, iltifot
good night [gʊdˈnaɪt] *int.* xayrli tun!
goods [gudz] *n pl* 1) tovar, mol; 2) yuk, bagaj; 3) buyum; **~ and chattels** shaxsiy buyumlar
good-tempered [ˌgʊdˈtempəd] *a* 1) yaxshi xarakterli, xushfe'l, ko'ngli ochiq; 2) og'ir, vazmin, bosiq
goodwill [ˌgʊdˈwɪl] *n* yaxshi niyat, boshqalarga yaxshilik istash, xayrixohlik
goody [ˈgʊdɪ] *n* shirinliklar, qand-qurs, konfet
gooey [ˈgu:ɪ] *a* yopishqoq, yelimshiq, shirador
goof [gu:f] *v* ahmoqona xato qilmoq; ishning pachavasini chiqarmoq
goofy [ˈgu:fɪ] *a* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm
goose [gu:s] *n* (*pl* **geese** [gi:z]) 1) g'oz; 2) nodon, lapashang odam
gooseberry [ˈguzb(ə)rɪ] *n bot.* krijovnik (*qorag'atlar oilasiga mansub tikanli buta o'simlik va uning mevasi*)
goose egg [ˈgu:seg] *n* 1) g'ozning tuxumi; 2) nol (*o'yinda*)
goose-flesh [ˈgu:sfleʃ] *n* g'oz go'shti
gore [gɔ:] **1.** *n* yaralangan *yoki* kesilgan joydan oqqan qon; **2.** *v* yaralamoq, kesmoq
gorgeous [ˈgɔ:dʒəs] *a* juda yaxshi, ajoyib
gorilla [gəˈrɪlə] *n* gorilla (*odamsimon katta maymun*)
gormandize [ˈgɔ:məndaz] *v* ko'p yemoq, burnidan chiqquncha yemoq
gorse [gɔ:s] *n bot.* sariq gulli, dukkakli cho'l o'simligi
gory [ˈgɔ:rɪ] *a* qonga bo'yalgan, qonga belangan
gosh [gɒʃ] *int.* tavba! astag'firullo!
goshawk [ˈgɒshɔ:k] *n zool.* qarchig'ay, qirg'iy
gosling [ˈgɒzlɪŋ] *n* g'oz bolasi
Gospel [ˈgɒsp(ə)l] *n* injil (*xristianlarning diniy kitobi*)
gospeller [ˈgɒsp(ə)lə] *n* 1) injilning to'rt afsonaviy muallifidan har biri; injilcha (*xristian dinining injilga asoslangan mazhablaridan biriga mansub kishi*); 2) din targ'ibotchisi
gossamer [ˈgɒsəmə] *n* yupqa mato, gazlama
gossip [ˈgɒsɪp] **1.** *n* g'iybat; **2.** *v* g'iybat qilmoq
gossipy [ˈgɒsɪpɪ] *a* sergap, ezma, vaysaqi
gossoon [gɔˈsu:n] *n irl.* 1) yigit, o'spirin; 2) yosh xizmatkor
Goth [gɒθ] *n* got (*qadimgi german qabilalaridan biri*)
Gothic [ˈgɒθɪk] *n* got tili
gouge [gaʊdʒ] **1.** *n* yarim doira shaklidagi iskana; **2.** *v* teshmoq, o'ymoq
gourd [guəd] *n* qovoq, oshqovoq
gourmand [ˈguəmənd] **1.** *a* yeb to'ymas, mechkay; **2.** *n* shirinxo'r, shirintomoq
gourmet [ˈguəmeɪ] *n* ovqat shinavandasi, mazaxo'r
gout [gaʊt] *n tib.* podagra (*kasallik*)
gouty [ˈgaʊtɪ] *a* podagra kasaliga oid
govern [ˈgʌvən] *v* boshqarmoq, idora qilmoq
governable [ˈgʌvənəb(ə)l] *a* gapga kiradigan (quloq soladigan), itoat qiladigan, bo'ysunadigan, itoatkor
governance [ˈgʌvənəns] *n* 1) boshqarma; hokimiyat; 2) rahbarlik, boshliqlik
governess [ˈgʌvənəs] *n* murabbiya, tarbiyachi xotin
government [ˈgʌv(ə)nmənt] *n* hukumat, hokimiyat, davlat
governmental [ˌgʌv(ə)nˈmentl] *a* hukumatga oid, hukumat...
government house [ˈgʌv(ə)nmənt,haos] *n* gubernatorning rasmiy qarorgohi
governor [ˈgʌv(ə)nə] *n* 1) hokim; 2) gubernator; 3) qamoqxona boshlig'i; 4) mudir (*maktab va kasalxonada*)
Governor-General [ˌgʌv(ə)nəˈdʒen(ə)rəl] *n* general-gubernator
gowk [gaʊk] *n shev.* 1) kakkuqush, kakku; 2) ahmoq, tentak, nodon
gown [gaʊn] *n* libos, ko'ylak (*ayollar*); **a morning ~** xalat
grab [græb] *v* tortib (yulib) olmoq
grabber [ˈgræbə] *n* yulg'ich, olg'ir, muttaham; poraxo'r, o'g'ri
grace [greɪs] *n* go'zallik, noziklik, nazokat
graceful [ˈgreɪsf(ə)l] *a* jozibali (chiroyli) harakatlanadigan
graceless [ˈgreɪsləs] *a* 1) beo'xshov harakatlanadigan; 2) qo'pol, beandisha
gracious [ˈgreɪʃəs] *n* xushfe'l, muhtaram, mehribon, iltifotli; **~ me!** ajabo! yo tavba!
gradation [grəˈdeɪʃ(ə)n] *n* gradatsiya (*bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish*)
grade [greɪd] *n* 1) daraja; 2) *amer.* sinf; **~ school** boshlang'ich maktab; 3) sifat
gradient [ˈgreɪdɪənt] *n fiz.* gradient (*biror kattalikning masofa birligiga siljish mobaynida o'zgarishlari birligi*)
gradual [ˈgrædʒʊəl] *a* asta-sekin; **~ly** sekin-asta; bora-bora
graduate [ˈgrædʒʊeɪt] *v* oliy o'quv yurtini tugatmoq (tamomlamoq)
graffiti [græˈfi:tɪ] *n* devordagi yozuv *yoki* rasmlar
graft [grɑ:ft] *v* 1) ulamoq; 2) *tib.* tirik to'qimani ko'chirib o'tqazmoq
grafter I [ˈgrɑ:ftə] *n* payvand qilinadigan qalamcha yoki kurtak
grafter II [ˈgrɑ:ftə] *n* 1) poraxo'r; 2) muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi
grain [greɪn] *n* don, g'alla
grain cleaner [ˈgrem,kli:nə] *n q.x.* don tozalagich
grain grower [ˈgrem,grəʊə] *n* g'allakor
gram [græm] = **gramme**
graminaceous, gramineous [ˌgræmɪˈneɪʃəs, grəˈmɪntəs] *a* 1) o't-o'tsimon, o't-o'landan iborat, o't-o'landan tashkil topgan; 2) o't bosgan, o't bilan qoplangan, o'tli
graminivorous [ˌgræmɪˈnɪv(ə)rəs] *a* o't yeb tirikchilik qiladigan
grammar [ˈgræmə] *n* grammatika; **~-school** *amer.* o'rta maktabning yuqori sinflari
grammarian [ˈgrəˈme(ə)rɪən] *n* 1) grammatika mutaxassisi; 2) filolog (*filologiya mutaxassisi*)
grammatical [grəˈmætɪk(ə)l] *a* 1) grammatik; 2) grammatik jihatdan to'g'ri
gramme [græm] *n* gramm
gramophone [ˈgræməfəon] *n* gramafon, patefon
grampus [ˈgræmpəs] *n zool.* delfin
gran [græn] = **grandmother**
granary [ˈgræn(ə)rɪ] *n* omborxona, ombor
grand [grænd] *a* ulug'vor, muhtasham; **~child** nabira; **~dad** bobo; **~daughter** nabira qiz; **~father** buva, bobo; **~parents** buva va buvi; **~son** (*o'g'il*) nabira; **~mother** momo, buvi
grandad [ˈgrændæd] = **grandfather**
grandeur [ˈgrændʒə] *n* 1) ulkanlik, bahaybatlik; 2) ahamiyatlilik, muhimlik
grandfather [ˈgrænd,fɑ:ðə] *n* bobo, buva
grandiloquence [græn ˈdɪlәkwəns] *n* dabdabalik, balandparvozlik, tamtaroqlilik
grandiose [ˈgrændɪəos] *a* 1) nihoyatda katta, ulkan; 2) dabdabali, balandparvoz, tumtaroqli
grandiosity [ˌgrændɪ ˈɔsɪtɪ] *n* 1) juda kamtarlik, buyuklik, ulkanlik; 2) dabdabalik, balandparvozlik, tamtaroqlilik

grandma [ˈgrænmɑ:] = **grandmother**
grandpa [ˈgrænpɑ:] *n* buva, bobo
grand piano [ˌgrændpɪ ˈænəʊ] *n mus.* royal
grandstand [ˈgrændstænd] *n* sektor (*maydonda tomoshabinlar o'tiradigan joy*)
grange [greɪndʒ] *n* qo'rg'oncha, qishloqcha
granite [ˈgrænɪt] *n min.* granit (*rangdor qattiq tog' jinsi*)
granitic, granitical [græˈnɪtɪk, -(ə)l] *a* granitdan qilingan, granit...
granny [ˈgræm] = **grandmother**
grant [grɑ:nt] **1.** *n* 1) hadya, tortiq; 2) ruxsat; 3) *pl* stipendiya; 4) kelishuv; **2.** *v* 1) tortiq qilmoq; 2) ruxsat bermoq
grant-in-aid [ˌgrɑ:ntɪnˈeɪd] *n* dotatsiya (*xarajatlarni qoplay olmaydigan korxona, muassasa va sh. k. ga davlat tomonidan beriladigan yordam puli*)
grantor [ˈgrɑ:ntə] *n* 1) tortiq qiluvchi kishi; tortiq (sovg'a) qilgan kishi; 2) *yur.* hadyachi (*o'z narsasini rasmiy yo'l bilan kimsaga hadya tariqasida o'tkazuvchi yoki o'tkazgan shaxs*)
granular [ˈgrænjʊlə] *a* 1) dona-dona; donador; 2) serdon, doni ko'p
granulate [ˈgrænjʊleɪt] *v* maydalamoq, yanchmoq; **~d sugar** shakar
granulation [ˌgrænjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* granulatsiya, (donador, dona-dona) holga kelish (keltirish); qumoqlash, qumoqlanish
granule [ˈgrænju:l] *n* mayda don, donacha, zarracha
grape [greɪp] *n* uzum; **~ sugar** uzum (shakari) shirasi; glukoza
grape-fruit [ˈgreɪpfru:t] *n bot.* greypfrut (*sitruslar turkumiga mansub apelsinsimon mevali daraxt va uning mevasi*)
grape sugar [ˈgreɪpˌʃʊgə] *n* uzum shakari, glukoza
grape-vine [ˈgreɪpvaɪn] *n* tok novdasi
graph [græf, grɑ:f] *n* diagramma, grafik
graphic [ˈgræfɪk] *a* tasviriy, ko'rgazmali; **~ art** tasviriy san'at
graphics [ˈgræfɪks] *n pl* grafika (*bo'yoqsiz, faqat chiziqlar bilan rasm solish san'ati va shunday rasmlarning o'zi*)
graphite [ˈgræfaɪt] *n* grafit (*qora qalam, bo'yoq va h. k. tayyorlashda ishlatiladigan mineral uglerodning bir ko'rinishi*)
graphology [græˈfɒlədʒɪ] *n* grafologiya (*xatiga qarab kishining xarakterini bilish mumkin degan nazariya*)
grapple [ˈgræp(ə)l] **1.** *v* yoqalashmoq, janjallashmoq; **2.** *n* olishuv, tortishuv, jang
grasp [grɑ:sp] **1.** *n* ushlash, changallash; **2.** *v* 1) ushlamoq, tutmoq; 2) tushunib olmoq
grasper [ˈgrɑ:spə] *n* olg'ir, yulg'ich, muttaham; poraxo'r, o'g'ri
grasping [ˈgrɑ:spɪŋ] *a* 1) ochko'z; 2) xasis, ziqna
grass [grɑ:s] *n* o't, alaf, ko'kat, maysa, maysazor; **~land** ko'katzor
grasshopper [ˈgrɑ:sˌhɒpə] *n* chigirtka
grass-snake [ˈgrɑ:ssneɪk] *n zool.* suvilon
grass widow [ˌgrɑ:s ˈwɪdəʊ] *n* eridan vaqtincha ayriliqda bo'lgan ayol
grassy [ˈgrɑ:sɪ] *a* o't bosgan, o't qoplagan, o'tli
grate [greɪt] *v* 1) qirqmoq, maydalamoq; 2) g'ichirlamoq (*ishqalaganda*); 3) g'ashiga (joniga) tegmoq
grateful [ˈgreɪtf(ə)l] *a* minnatdor, yaxshilikni biluvchi
gratification [ˌgrætɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* qoniqish, mamnun bo'lish, lazzatlanish
gratify [ˈgrætɪfaɪ] *v* qoniqtirmoq, lazzatlantirmoq, minnatdor qilmoq
grating [ˈgreɪtɪŋ] *n* 1) panjara; 2) panjara bilan to'sib olish
gratis [ˈgrætɪs] *a* bepul, tekin, pulsiz
gratitude [ˈgrætɪtju:d] *n* tashakkur, minnatdorchilik
gratters [ˈgrætəz] *n pl* tabrik, qutlov
gratuitous [grəˈtju:ɪtəs] *a* tekin, bepul
gratuity [grəˈtju:ɪtɪ] *n* yordam, ko'mak, yordam berish
grave [greɪv] **1.** *n* qabr; go'r; **~ yard** qabriston; **2.** *v* **(graved, graven)** o'yib yozmoq, o'yib naqsh solmoq
graveclothes [ˈgreɪvkləʊðz, -kləʊz] *n pl* kafan
gravedigger [ˈgreɪvˌdɪgə] *n* go'rkov, go'r qazuvchi
gravel [ˈgrævl] *n* shag'al
graver [ˈgreɪvə] *n* 1) keskich, kesish (yo'nish) asbobi; 2) *esk.* o'ymakor usta
gravestone [ˈgreɪvstəʊn] *n* qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik, maqbara
graveyard [ˈgreɪvjɑ:d] *n* qabriston, go'riston
gravid [ˈgrævɪd] *a kit.* homilador ayol
gravimetric [ˌgrævɪ ˈmetrɪk] *a* gravimetrik, gravimetriya...
gravitate [ˈgrævɪteɪt] *v* harakat qilmoq, surilmoq, siljimoq
gravitation [ˌgrævɪˈteɪʃ(ə)n] *n* (o'ziga) tortish, tortishish kuchi, gravitatsiya kuchi
gravity [ˈgrævɪtɪ] *n* 1) muhimlik, jiddiylik; 2) yerning tortish kuchi
gravy [ˈgreɪvɪ] *n* qayla (*mayda qovurilgan go'sht*)
gravy boat [ˈgreɪvɪbəʊt] *n* ziravor qayla idishli, qayladon
gray [greɪ] *a* kulrang
graze [greɪz] *v* 1) sal tegib ketmoq; 2) o'tlamoq
grazier [ˈgreɪzɪə] *n* chorvador, chorvachi, chorvachilik mutaxassisi
grease [gri:s] *n* 1) *tex.* solidol (*quyuq moy*); 2) yog', moy
grease-box [ˈgri:sbɒks] *n tex.* 1) moy idish; 2) buksa (*vagon g'ildiragining gupchagi*)
grease-paint [ˈgri:speɪnt] *n* grim (*teatr aktyorlarida: bo'yoq, yasama soch*)
greaser [ˈgri:sə, ˈgri:zə] *n* moylovchi (yog'lovchi) ishchi
greasing [ˈgri:sɪŋ, -zɪŋ] *n tex.* yog'lash, moylash
greasy [ˈgri:sɪ] *a* yog'li, moyli
great [greɪt] *n* buyuk, ulug', katta, ulkan
greatcoat [ˈgreɪtkəʊt] *n* 1) palto; 2) shinel
great-go [ˈgreɪtgəʊ] *n so'zl.* asosiy imtihon (*Kembrijda*)
great-grandchild [ˈgreɪtˌgræntʃaɪld] *n* evara (*nevaraning o'g'li*); evara qiz (*nevaraning qizi*)
great-granddaughter [ˈgreɪtˈgrænˌdɔ:tə] *n* evara qiz
greathearted [ˌgreɪtˈhɑ:tɪd] *a* muruvvatli, hikmatli, oliyjanob
greatly [ˈgreɪtlɪ] *adv* 1) juda, g'oyat, nihoyatda, juda ham; 2) zarb (kuch) bilan, qattiq
greatness [ˈgreɪtnəs] *n* ulug'lik, ulug'vorlik, buyuklik
greats [greɪts] *n pl* bakalavr darajasini olish uchun topshiriladigan imtihon (*Oksfordda*)
greaves [gri:vz] *n pl* jizza
grebe [gri:b] *n zool.* o'rdaksimon qush
Grecian [ˈgri:ʃ(ə)n] **1.** *a* Gretsiyaga va greklarga oid..., greklar... (*uslub haqida*); **2.** *n* ellinist (*qadimgi yunon tili va adabiyoti mutaxassisi*)
greed [gri:d] *n* ochko'zlik, suqlik
greedily [ˈgri:dɪlɪ] *adv* ochko'zlarcha, ochko'zlik bilan
greedy [ˈgri:dɪ] *a* ochko'z, suq
Greek [gri:k] *n* grek tili
green [gri:n] **1.** *a* 1) yashil; 2) xom; 3) tajribasiz; **a ~ hand** tajribasiz kishi; **2.** *n* yashil rang, ko'k (*maysa*); **~ eyed** ko'k ko'z; **~ fly** *ent.* shira
greenback [ˈgri:nbæk] *n* banknot (*bank tomonidan chiqarilgan va pul o'rnida yuradigan foizsiz kredit bilet lari*)
green card [ˈgri:nkɑ:d] *n* Amerikada yashab ishlash imkoniyatini beradigan hujjat
green cloth [ˈgri:nklɒθ] *n* yashil movut (*billiard stoli ustida*)
greenery [ˈgri:n(ə)rɪ] *n* 1) o'simliklar; 2) issiqxona, oranjereya
green-eyed [ˌgri:nˈaɪd] *a* 1) yashil ko'zli; 2) rashkchi, rashk qiladigan, qizg'ana-

digan, ichi qora; **a ~ monster** rashk, qizg'anish
greengage ['gri:ngeɪdʒ] *n* renklod (*olxo'rining bir turi*)
greengrocery ['gri:n,grəʊsərɪ] *n* ko'kat (rezavor) do'koni
greenhorn ['gri:nhɔ:n] *n* yangi odam, endigina (yangi) kelgan odam
greenhouse ['gri:nhaʊs] *n* issiqxona, oranjereya
greenish ['gri:nɪʃ] *a* yashil rang
greenness ['gri:nnəs] *n* 1) maysa, o't, barglar, o'simliklar; 2) yetilmaganlik; tajribasizlik
greenroom ['gri:nrʊm, -ru:m] *n* 1) aktyorlar dam oladigan xona; 2) (*fabrikada*) ishlov berilmagan mahsulotlar uchun ombor, bino
greensickness ['gri:n,sɪknəs] *n tib.* kamqonlik, qonsizlik (*xotin-qizlarda*)
greenstone ['gri:nstəʊn] *n min.* nefrit (*yashil yoki sutrang yarim shaffof mineral*)
greensward ['gri:nswɔ:d] *n* chimzor, chim
greet [gri:t] *v* salomlashmoq, so'rashmoq; olqishlamoq; **~ings** tabrik; salom
gregarious [grɪ'geə(ə)rɪəs] *a* odamshavanda, kirishimli
Gregorian [grɪ'gɔ:rɪən] *a* grigorian...; **the ~ calendar** grigorian kalendari, grigorian yil hisobi
grenade [grɪ'neɪd] *n harb.* granata
grenadier [,grenə'dɪə] *n* granata irg'ituvchi
grenadine [,grenə'di:n] *n* juda kuchli hidga ega bo'lgan chinnigul
grew [gru:] *past. of* **grow**
grey [greɪ] *a* kulrang, bo'z, oqargan; **to turn ~** soch-soqoliga oq tushmoq, qarimoq
greybeard ['greɪbɪəd] *n* 1) keksa (qari) odam, chol; 2) sopol ko'za (*spirtli ichimliklar uchun*)
grey-eyed [,greɪ 'aɪd] *a* kulrang ko'z, chag'ir ko'z
greyhen ['greɪhen] *n zool.* makiyon qur (*qurning modasi*)
greyhound ['greɪhaʊnd] *n* tozi it
greylag ['greɪlæg] *n zool.* yovvoyi g'oz
grid [grɪd] *n* panjara
griddle ['grɪdl] *n* dastakli tova
grief [gri:f] *n* qayg'u, hasrat, g'am
grievance ['gri:v(ə)ns] *n* 1) ozor, xafalik, shikoyat; 2) shikoyat; norozilik, rozi emaslik, domangirlik
grieve [gri:v] *v* alam tortmoq; xafa qilmoq
grievous ['gri:vəs] *a* 1) og'ir musibatli, qayg'uli, g'amgin, alamli; 2) (*hissiy kuchaytiruv*) ulkan, juda yomon, dahshatli
grig [grɪg] *n zool.* 1) ilonbaliq; 2) qora chigirtka
grill [grɪl] **1.** *n* 1) qo'ra; 2) qo'raning panjarasi; 3) qo'rada pishirilgan go'sht *yoki* baliq; **2.** *v* qo'rada pishirmoq
grille [grɪl] *n* temir panjara
grim [grɪm] *a* 1) shafqatsiz, rahmsiz, zolim, qahri qattiq; 2) yoqimsiz; nafratni qo'zg'aydigan, jirkanch, kishini sovitadigan
grimace [grɪ'meɪs] **1.** *n* aftni (basharani) burishtirish; **2.** *v* aftini burishtirmoq
grime [graɪm] **1.** *n* loy, balchiq; **2.** *a* juda kir, iflos
grimy ['graɪmɪ] *a* kir, isqirt, iflos
grin [grɪn] **1.** *n* iljayish, tirjayish, kulimsirash; **2.** *v* tirjaymoq, ishshaymoq
grind [graɪnd] **1.** *n* og'ir ish, zerikarli mehnat; **2.** *v* **(ground)** 1) maydalamoq; 2) un qilmoq; 3) qayramoq
grinder ['graɪndə] *n* 1) maydalash mashinasi; 2) charxchi, qayrovchi
grindstone ['graɪndstəʊn] *n* 1) qayroqtosh, qayroq; 2) tegirmon toshi; tegirmontosh
grip [grɪp] **1.** *n* 1) ushlab olish; siqish; changal solish; 2) (*ishning mohiyatini*) tushunish qobiliyati; aqlning o't-kirligi; **2.** *v* siqmoq, ushlamoq; 3) tushunmoq, tushunib yetmoq
gripes [graɪps] *n* (*odatda,* **the ~**) *pl* sanchib og'rish, oshqozondagi og'riq, qorinning burab og'rishi
grippe [grɪp, grɪ:p] *n tib.* gripp
grisly ['grɪzlɪ] *a* dahshatli, vahimali, mudhish, qo'rqinchli
grist [grɪst] *n* 1) tortish, un tortish, un qilish; 2) g'alla tortish
gristle ['grɪs(ə)l] *n anat.* kemirchak, tog'ay
gristly ['grɪslɪ] *a* 1) kemirchakka (tog'ayga) oid; 2) *geol.* yirik qumli
gristmill ['grɪstmɪl] *n* un chiqaradigan tegirmon
grit [grɪt] **1.** *n* qumli shag'al; **2.** *v* 1) g'ijirlatmoq; **to ~ the teeth** tishni g'ijirlatmoq; 2) qum sepmoq, shag'al yoymoq
grits [grɪts] *n* suli yormasi
gritstone ['grɪtstəʊn] *n geol.* yirik donali qumtosh
gritty ['grɪtɪ] *a* qumli, qum bilan qoplangan
grizzle ['grɪz(ə)l] *n* 1) kulrang, bo'zrang; 2) bo'zrangdagi ot
grizzled ['grɪz(ə)ld] *a* 1) oq, oqargan; 2) soch-soqoli oqargan
grizzly ['grɪzlɪ] **1.** *n* kulrang ayiq; **2.** *a* kulrang, bo'z, ko'kimtir
groan [grəʊn] **1.** *n* ingrash; **2.** *v* ingramoq, voyvoylamoq
groat [grəʊt] *n tar.* 4 pensli kumush tanga; **I don't care a ~** menga mutlaqo baribir
groats [grəʊts] *n* yorma, krupa
grocer ['grəʊsə] *n* baqqol (*oziq-ovqat bilan savdo qiluvchi do'kondor*)
groceries ['grəʊsərɪz] *n pl* baqqollik mollari, oziq-ovqat mollari (*choy, qand, qahva, un, don, murch va sh. k.*)
grocery ['grəʊs(ə)rɪ] *n* oziq-ovqat do'koni
grog [grɒg] *n* grog (*araq, rom yoki konyakdan sharbat qo'shib tayyorlanadigan issiq ichimlik*)
grog-blossom ['grɒg,blɒs(ə)m] *n so'zl.* burundagi qizillik (*araq ichgan kishida*)
groggy ['grɒgɪ] *a* 1) mast, araq ichgan; 2) oyog'ida tik tura olmaydigan; 3) liqillab (*qimirlab, likillab, chayqalib turadigan*)
groin [grɔɪn] *n* 1) qorinning ostki qismi, chot; 2) krestsimon gumbaz
groom [gru:m, grʊm] *n* 1) otboqar; 2) kuyov
groove [gru:v] *n* o'yiq, kesilgan joy
grope [grəʊp] *v* paypaslamoq, paypaslab yurmoq
gross [grəʊs] *a* 1) hajmi katta, yo'g'on, qo'pol; 2) yalpi
grossly ['grəʊslɪ] *adv* 1) qo'pol; 2) beodobona, odobsizlarcha
grotesque [grəʊ 'tesk] *a* g'alati, g'ayritabiiy
grotty ['grɒtɪ] *a* ko'rimsiz, xunuk
grouch [graʊtʃ] *n* 1) yomon kayfiyat; 2) xafalik; 3) javraqi, vaysaqi, ezma
ground I [graʊnd] *n* yer, yer qatlami, zamin; **on the Uzbek ~** o'zbek zaminida; **on the ~ that** ... asosida, ... zaminida
ground II [graʊnd] *past., p. p. of* **grind 2**
ground floor [,graʊnd'flɔ:] *n* eng pastki qavat
groundless ['graʊndləs] *a* sababsiz, asossiz
groundwork ['graʊndwɜ:k] *n* tayanch, negiz, asos, zamin, poydevor
group [gru:p] **1.** *n* 1) guruh; **a ~ of people** bir guruh odamlar; **a ~ of houses** bir qancha uylar; 2) to'da; **a political ~** siyosiy guruh, 3) guruh, sinf; **a ~ of fish** baliqlar sinfi; **2.** *v* guruhlarga ajratmoq (bo'lmoq), turkumlamoq
grouping ['gru:pɪŋ] *n* 1) guruhbozlik; 2) guruhlarga ajratish
grouse [graʊs] *n zool.* kaklik, bulduruq (*qush*)
grove [grəʊv] *n* daraxtzor, kichkina o'rmon
grovel ['grɒv(ə)l] *v* laganbardorlik (xushomadgo'ylik) qilmoq
grow [grəʊ] *v* **(grew; grown)** o'smoq; katta bo'lmoq, o'stirmoq; **to ~ corn** makkajo'xori o'stirmoq

growl [graʊl] *v* irillamoq, bo'kirmoq, o'kirmoq (*it va boshqa hayvonlar haqida*)
grown [grəʊn] *p. p. of* **grow**
grown-up **1.** *a* [ˌgrəʊnˈʌp] balog'atga yetgan, katta yoshli; **2.** *n* [ˈgrəʊnʌp] katta yoshli kishi
growth [grəʊθ] *n* 1) o'sish, rivojlanish; **full ~** to'liq o'sish; 2) o'stirish
grub [grʌb] *n* kapalak, chivin, chuvalchang va sh. k. ning tuxumdan chiqqan qurti
grubby [ˈgrʌbɪ] *a* 1) kir, iflos, loy; 2) qurtlagan, qurt bosgan
grudge [grʌdʒ] *n* gina, g'araz; kek, hasad, ko'ra olmaslik
gruel [ˈgruːəl] *n* suyuq bo'tqa
gruelling [ˈgruːə)lɪŋ] *a* sermashaqqat, holdan toydiruvchi
gruesome [ˈgruːs(ə)m] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli, mudhish
gruff [grʌf] *a* qo'pol, dag'al, qo'rs
grumble [ˈgrʌmb(ə)l] *v* nolimoq, javramoq
grumbling [ˈgrʌmblɪŋ] *n* shikoyat qilish
grumpy [ˈgrʌmpɪ] *a* ming'ir-ming'ir, mijg'ov; janjalkash
grunt [grʌnt] *v* xurxurlamoq, xur-xur qilmoq (*cho'chqa haqida*)
guarantee [ˌgærənˈtiː] **1.** *n* kafolat, kafolat beruvchi; **2.** *v* kafolat bermoq
guarantor [ˌgærənˈtɔː] *n* kafil, kafil bo'lgan kishi
guaranty [ˈgærəntɪ] *n* kafolat, kafillik, garov, ishonch
guard [gɑːd] **1.** *n* soqchi, qorovul; **to ~ a door** eshikni qo'riqlamoq; **to be on ~** qorovullikda bo'lmoq; **2.** *v* himoya qilmoq, qorovullik qilmoq, qo'riqlamoq
guard-boat [ˈgɑːdbəʊt] *n* navbatchi kema (kater)
guarded [ˈgɑːdɪd] *a* o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq
guardhouse [ˈgɑːdhaʊs] *n* 1) qorovulxona; 2) ichki qamoq, avaxta
guardian [ˈgɑːdɪən] *n* 1) posbon, xavfsizlik xizmati; 2) vasiy, boshqaruvchi
guardianship [ˈgɑːdɪənʃɪp] *n* vasiylik, vasiylik qilish
guardroom [ˈgɑːdruːm, -rʊm] = **guardhouse**
guardsman [ˈgɑːdzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) qorovul; 2) gvardiyachi, gvardiyachi qismlarda xizmat qilgan, qiluvchi (*askar, zobit*)
gudgeon [ˈgʌdʒ(ə)n] *n zool.* qum baliq, tanga baliq
guerilla [gəˈrɪlə] *n* 1) partizan; 2) partizanlar urushi
guess [ges] **1.** *n* taxmin, o'ylab topish; **2.** *v* topmoq, payqamoq; taxmin qilmoq; **to ~ a riddle** topishmoqni o'ylab topmoq
guess-work [ˈgeswɜːk] *n* 1) taxmin, faraz, gumon; 2) mo'ljal, chama
guest [gest] **1.** *n* 1) mehmon; 2) ijarachi (*mehmonxonada*); **2.** *v* 1) mehmon qabul qilmoq; 2) mehmon bo'lmoq
guffaw [gə ˈfɔː] **1.** *n* qahqaha, qattiq kulgi; xaxolab kulish; **2.** *v* qahqaha urib kulmoq, qahqaha otmoq; qattiq kulmoq, xaxolab kulmoq
guidance [ˈgaɪd(ə)ns] *n* rahbarlik; boshchilik; **under the ~ of** boshchiligida, rahbarligida
guide [gaɪd] **1.** *n* yo'l boshlovchi; **a ~-book** qo'llanma; rahnamo; **2.** *v* yo'l boshlovchilik qilmoq
guide-line [ˈgaɪdlaɪn] *n* ko'rsatma, dastur
guide-post [ˈgaɪdpəʊst] *n* ko'rsatkich ustun (*yo'l chorrahasida*)
guild [gɪld] *n* 1) *tar.* gildiya (*yirik savdogarlar yoki hunarmandlar birlashmasi*); 2) ittifoq, birlik
Guild-hall [ˈgɪldhɔːl] *n* ratusha (*shahar boshqarmasining binosi*)
guile [gaɪl] *n* hiyla, makr, shaytonlik
guileless [ˈgaɪlləs] *a* ochiqko'ngil, soddadil, sofdil, sodda, ko'ngilchan
guillotine [ˈgɪlətiːn] *n* gilotina (*bosh oladigan jodi*)
guilt [gɪlt] *n* gunoh, ayb; **~less** aybsiz; **~y** aybdor, gunohkor
guinea [ˈgɪnɪ] *n* gineya (*21 shillingga teng pul*)
guinea-pig [ˈgɪnɪpɪg] *n zool.* dengiz cho'chqasi
guise [gaɪz] *n* 1) tashqi ko'rinish, qiyofa, siymo, ro'y, aft; 2) kiyim, libos
guitar [gɪˈtɑː] *n* gitara (*torli musiqa asbobi*)
gulch [gʌlʧ] *n* tor (ensiz) dara
gulf [gʌlf] *n* 1) *geogr.* ko'rfaz; 2) chuqur joy, jar, choh
gull [gʌl] **1.** *n* 1) *zool.* baliqchi qush; 2) soddadil (go'l) odam; **2.** *v* aldamoq, ahmoq qilmoq
gullet [ˈgʌlɪt] *n* 1) qizilo'ngach (*og'iz bo'shlig'i bilan oshqozonni tutashtiruvchi naysimon ovqat yo'li*); 2) *so'zl.* tomoq, halqum, bo'g'iz; hiqildoq; 3) tarnov *yoki* kanalizatsiya quvuri
gullible [ˈgʌlə(ə)l] *a* ishonuvchan, laqma, sodda
gully [ˈgʌlɪ] *n* 1) jar, chuqurlik, jarlik; 2) nov, tarnov, ariq
gulp [gʌlp] **1.** *v* yutmoq; **2.** *n* katta yutum, qultum
gum I [gʌm] *n anat.* milk, tish milki
gum II [gʌm] **1.** *n* yelim; **2.** *v* yelimlamoq, yopishtirmoq
gum-boots [ˌgʌmbuːts] *n pl* rezinka etik
gummy [ˈgʌmɪ] *a* yopishqoq, yelimshiq, shirador
gumption [ˈgʌmpʃ(ə)n] *n* topqirlik, zehni o'tkirlik, aqllilik, **bilag'onlik**
gun [gʌn] *n* miltiq
gunboat [ˈgʌnbəʊt] *n* kanonerka (*qurollangan kichik harbiy kema*)
gunman [ˈgʌnmən] *n* qurollangan o'g'ri, bosmachi, bosqinchi
gunner [ˈgʌnə] *n* to'pchi askar
gunpowder [ˈgʌnˌpaʊdə] *n* porox, miltiqdori
gun-running [ˈgʌnˌrʌnɪŋ] *n* g'ayriqonuniy ravishda chetdan mamlakatga qurol olib kelish
gun-stock [ˈgʌnstɔk] *n* miltiqning qo'ndog'i
gurgle [ˈgɜːg(ə)l] *n* qulqullash, qulqqulq (qult-qult) qilish
guru [ˈguːruː] *n* 1) *cherk.* ruhoniylar boshlig'i (yo'lboshchisi, ustozi); 2) mash'al, yulduz (*o'z sohasida peshqadam odam haqida*); 3) yetakchi, ilg'or mutaxassis
gush [gʌʃ] **1.** *n* oqim; **2.** *v* shirillab oqmoq, yog'ilmoq; quyilmoq
gusher [ˈgʌʃə] *n* fontan, favvora
gust [gʌst] **1.** *n* kuchayish, shiddat; **2.** *v* kuchaymoq (*shamolga nisbatan*)
gusto [ˈgʌstəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) maza, lazzat, maza qilish, lazzat olish
gut [gʌt] *n* 1) ichak; 2) ichki a'zolar
gutter [ˈgʌtə] *n* 1) tarnov; 2) kichkina ariq, ariqcha
gutter-snipe [ˈgʌtəsnaɪp] *n* ko'cha bolasi, bebosh (darbadar) bola
guttural [ˈgʌt(ə)rəl] *a* hiqildoqqa (bo'g'izga) oid
guy [gaɪ] *n* 1) bola, yigit; 2) qo'riqchi
guzzle [ˈgʌz(ə)l] *v* ko'p yemoq, ko'p (ortiqcha) ovqat yeb bo'kib qolmoq
gym [dʒɪm] *n* gimnastika zali
gymnasium [dʒɪmˈneɪzɪəm] *n* 1) gimnastika zali, sport zali; 2) gimnaziya
gymnast [ˈdʒɪmnæst] *n* gimnast, gimnastikachi
gymnastic [dʒɪmˈnæstɪk] *n* gimnastikaga oid
gymnastics [dʒɪmˈnæstɪks] *n* gimnastika
gynaecologist [ˌgaɪnɪˈkɔlədʒɪst] *n* ginekolog, ginekologiya mutaxassisi
gynaecology [ˌgaɪnɪˈkɔlədʒɪ] *n* ginekologiya (*ayollar kasalliklari va ularni davolash haqidagi fan*)
gyps [dʒɪps] = **gypsum**
gypsum [ˈdʒɪps(ə)m] **1.** *n* gips; **2.** *v q.x.* gips bilan o'g'itlamoq, yerga gips solmoq, gips o'g'it bermoq
Gypsy [ˈdʒɪpsɪ] *n* lo'li
gyrate [dʒaɪˈreɪt] *v* aylanmoq, buralmoq

H

H, h [eɪtʃ] *n* ingliz alifbosining sakkizinchi harfi

ha [hɑ:] *int.* 1) hah! heh! e! buni qarang-a!; 2) e! iye! ajabo! voybo'! (*xitob, hayron qolish, ajablanishni ifoda etadi*)

habanera [ˌhæbəˈnjeə(r)rə] *n isp.* xabanera (*Ispaniyada keng tarqalgan Kuba xalq raqsi*)

hab-dabs [ˈhæbdæbz] *n pl so'zl.* 1) asabiylashgan holat, hayajonlanish; 2) qo'rqish, cho'chish

habeas corpus [ˌheɪbɪəsˈkɔ:pəs] *n lot.* qamoqqa olinganlikning to'g'ri *yoki* noto'g'riligini ko'rib chiqish uchun beriladigan buyruq

Habeas Corpus Act [ˌheɪbɪəs ˈkɔ:pəsˌækt] *n* Habeas Korpus (*1679- yilda Angliyada chiqazilgan insonlarning shaxsiyatiga tegmaslik to'g'risidagi qonun*)

haberdasher [ˈhæbədæʃə] *n* attorlik mollari sotuvchisi, attor

haberdashery [ˈhæbədæʃ(ə)rɪ] *n* 1) attorlik mollari; attorlik mollari do'koni

habergeon [ˈhæbədʒən] *n tar.* sovut (*tanani nayza, o'q zarbidan saqlash uchun kiyiladigan po'lat simdan to'qilgan kiyim*)

habile [ˈhæbɪl] *a* mohir, mahoratli, usta, chaqqon

habiliment [həˈbɪlɪmənt] *n* sarpo, libos, ust-bosh, kiyim

habilitate [həˈbɪlɪteɪt] *v* ma'lum bir faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlamoq (*masalan, o'qitish va b.*)

habit I [ˈhæbɪt] *n* 1) odat, rasm, udum, urf-odat, tamoyil; **to get into the ~** ...ga odatlanmoq; **to be in the ~ of** ...ga odatlangan (o'rganib qolgan) bo'lmoq; 2) xususiyat, xossa, asos; 3) *biol.* gabitus, tashqi ko'rinish, qiyofa

habit II [ˈhæbɪt] **1.** *n* (*maxsus maqsadlar uchun*) sarpo, libos, kiyim; **2.** *v* kiyinmoq

habitable [ˈhæbɪtəb(ə)l] *a* odamlar yashaydigan, yashash uchun yaraydigan, odamzod istiqomat qiladigan

habitant I [ˈhæbɪt(ə)nt] *n* yashovchi, turuvchi, istiqomat qiluvchi

habitant II [ˈhæbɪt(ə)nt] *n* kelib chiqishi (nasabi) fransuz bo'lgan kanadalik *yoki* luizianalik kishi

habitat [ˈhæbɪtæt] *n* 1) vatan, ona yurt; 2) turar joy; 3) tabiiy muhit

habitation [ˌhæbɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) maskan, turar joy, yashash joyi, makon, istiqomatgoh; 2) yashash, istiqomat qilish

habitual [həˈbɪtʃʊəl] *a* 1) oddiy, odatdagi; **a ~ topic** odatiy mavzu; 2) odat bo'lib qolgan, odatga aylangan

habituate [həˈbɪtʃʊeɪt] *v* 1) o'rgatmoq, odatlantirmoq; **to ~ oneself to smth.** biror narsaga o'rganmoq; 2) *amer. so'zl.* tez-tez qatnashib turmoq

habitude [ˈhæbɪtju:d] *n* 1) o'rganish; odat; 2) xususiyat, xossa

habitué [həˈbɪtʃʊeɪ] *n fr.* kanda qilmay kelib turadigan odam

hacienda [ˌhæsɪˈendə] *n* Ispaniya va Lotin Amerikasida maxsus qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan maydon

hack I [hæk] *n* 1) kirka, cho'kich; 2) kertma belgi, kertik

hack II [hæk] *v* 1) chopmoq, qismlarga bo'lmoq; yormoq, tilmoq; **to ~ smth. to pieces** mayda bo'laklarga bo'lmoq; 2) (*motiga — ketmonsimon asbob bilan*) yumshatmoq; 3) quruq, o'qtin-o'qtin yo'talmoq

hack III [hæk] **1.** *a* yollangan, ijara olingan; **2.** *v* ijaraga bermoq; **3.** *n* ijaraga olingan ot

hackee [ˈhæki:] *a zool.* olasichqon, burunduq

hackery [ˈhæk(ə)rɪ] *n hind.* bo'kizga qo'shilgan arava

hack-hammer [ˈhækˌhæmə] *n* g'isht teruvchi (quruvchi) ustaning kuvaldasi, bosqoni

hacking [ˈhækɪŋ] **1.** *a* quruq va bo'linib chiqadigan (*yo'tal haqida*); **2.** *n* otda sayr qilish; ot minish

hackle [ˈhæk(ə)l] **1.** *n* 1) qushlar bo'ynidagi par (pat); 2) taroq (*jun, kanop tolasi kabilarni ishlashda, titishda, tozalashda ishlatiladi*); **2.** *v* zig'ir tolasini titmoq (tozalamoq)

hackly [ˈhæklɪ] *a* g'adir-budur, silliqmas, dag'al, kertik-mertik

hackmatack [ˈhækmətæk] *n bot.* Amerika tilog'ochi (*tilog'och – ignabarglilarga mansub daraxt*)

hackney [ˈhæknɪ] *n* 1) qiyin ishlarga yollangan ishchi; 2) miniladigan ot

hackney-carriage [ˈhæknɪˌkærɪdʒ] *n* kiraga olingan fayton, yo'llanma arava

hackney-coach [ˈhæknɪkəʊtʃ] = **hackney-carriage**

hackneyed [ˈhæknɪd] *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan; **~ phrases** ko'p chaynalgan iboralar

hack-saw [ˈhæksɔ:] *n tex.* chilangar arrasi (*metall qirqadigan qo'l yoki mashina arra*)

hackstand [ˈhækstænd] *n amer.* taksilar to'xtash joyi (stoyankasi)

hack-work [ˈhækwɜ:k] *n* 1) og'ir va zerikarli ish; 2) pala-partish (naridan-beri) qilingan ish, xo'jako'rsin tarzida (yengil-yelpi) qilingan ish

hack-writer [ˈhækˌraɪtə] *n* adabiyot sohasida ishlaydigan kunbay ishchi

had [hæd] *past., p. p. of* **have**

haddock [ˈhædək] *n zool.* piksha (*treskasimonlar oilasiga mansub baliq*)

hade [heɪd] *n tog'.* og'ish (tushish) burchagi

Hades [ˈheɪdi:z] *n* 1) *grek. mif.* Gades (*yerosti olamining xudosi*); 2) do'zax, jahannam

Hadji [ˈhædʒɪ] *n arab.* hoji (*Ka'bani ziyorat etgan, haj qilgan odam*)

hadn't [ˈhædnt] „**had not**" *ning qisqartirilgan shakli*

haemal [ˈhi:m(ə)l] *a* 1) qonga oid, qonli; 2) *anat.* qon va qon tomirlariga oid

haematic [hɪˈmætɪk] *a* 1) qonga oid, qon; qonga ta'sir qiladigan, rangi qondek; 2) *tib.* qonga ta'sir qiladigan

haematite [ˈhemətaɪt, ˈhi:-] *n min.* gematit (*qizil temirtosh, temir rudasi*)

haemoglobin [ˌhi:mə(ʊ)ˈgləʊbɪn] *n fiziol.* gemoglobin (*qizil qon sharchalari tarkibida bo'ladigan va unga qizil rang beradigan modda*)

haemophilia [ˌhi:mə(ʊ) ˈfɪlɪə] *n tib.* gemofiliya (*to'xtamasdan qon oqadigan irsiy kasallik*)

haemorrhage [ˈhemərɪdʒ] *n tib.* qon ketish, qon oqish

haemorrhoids [ˈhemərɔɪdz] *n pl tib.* bavosil

haemostatic [ˌhi:mə(ʊ)ˈstætɪk] **1.** *a* qon to'xtatadigan; **2.** *n tib.* qonni to'xtatadigan dori-darmonlar

hafnium [ˈhæfnɪəm] *n kim.* gafniy (*kimyoviy element*)

haft [hɑ:ft] *n* dasta, band, sop (*pichoq va b. da*)

hag [hæg] *n* jodugar kampir; yalmog'iz, alvasti, shum kampir

haggard [ˈhægəd] *a* 1) horg'in, juda charchagan, ozib ketgan, o'zini oldirgan, holdan ketgan, tinkasi qurigan; 2) yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan (*lochin haqida*)

haggis [ˈhægɪs] *n shotl.* xaggis (*buzoq-ning kalla-pocha (ichak-chovoq) va qornidan tayyorlangan ovqat*)

haggish [ˈhægɪʃ] *a* ko'rimsiz, juda xunuk, badbashara

haggle [ˈhæg(ə)l] *v* 1) savdolashmoq, narx ustida tortishmoq (**about; over**); 2) qiymalamoq, burdalamoq, qiyqim-siyqim qilib tashlamoq

hagridden [ˈhægˌrɪdn] *a* yomon tush, bosinqirashdan azob (tortayotgan) chekayotgan

hah [hɑ:] = **ha**

ha-ha I [ˌhɑ:ˈhɑ:] **1.** *n* qattiq kulgi, kulish, qahqaha; **2.** *v* qattiq kulmoq, qahqaha otmoq, xaxolamoq

ha-ha II [ˌhɑ:ˈhɑ:] *n* past devor, panjara, to'siq, g'ov (*bog' atrofida*)

hail I [heɪl] **1.** *v* salomlashmoq; qichqirib chaqirmoq; **2.** *n* salomlashish, qichqirib gapirish

hail II [heɪl] **1.** *n* do'l, jala; **2.** *v* do'l yog'moq

hail-fellow-well-met [ˌheɪlfeləʊwelˈmet] *a* do'stona, samimiy

hailstone [ˈheɪlstəʊn] *n* do'l donasi, bir dona do'l

hailstorm [ˈheɪlstɔ:m] *n* jala, sharros yomg'ir, qattiq do'l

hain't [heɪnt] = **have not, has not**

hair [heə] *n* 1) soch, choch; 2) yung, qil; 3) ingichka soch tolasi

hairbreadth [ˈheəbredθ] *n* eng kichik (qisqa) masofa

hairbrush [ˈheəbrʌʃ] *n* soch taraydigan cho'tka

hairclipper [ˈheəˌklɪpə] *n* soch oladigan mashinka

haircloth [ˈheəklɒθ] *n* 1) jun gazlama; 2) *din.* xirqa, janda (*darveshlar kiyimi*)

hair-cut [ˈheəkʌt] **1.** *n* kesish, qirqish (*soch*); **2.** *v* soch oldirmoq

hair-do [ˈheədu:] *n* 1) sochni tarash, turmaklash; 2) tarab muayyan shaklga kiritilgan soch

hairdresser [ˈheəˌdresə] *n* (*ayollar*) sartaroshi

hairgrip [ˈheəˌgrɪp] *n* soch to'g'nag'ich

hairiness [ˈhe(ə)rɪnəs] *n* sertuklik, serjunlik

hairless [ˈheələs] *a* sochi yo'q, sochsiz, sochi to'kilgan, kal

hair-line [ˈheəlaɪn] *n* 1) chilvir, ingichka arqon; 2) nozik chiziq

hair-net [ˈheənet] *n* soch uchun to'r

hair-pencil [ˈheəˌpens(ə)l] *n* akvarel bo'yoq uchun mo'ljallangan ingichka cho'tka

hair-piece [ˈheəpi:s] *n* ulama soch, parik, parikcha

hairpin [ˈheəˌpɪn] *n* soch to'g'nag'ich; **a ~ bend** yo'lning tik (keskin) burilgan joyi

hair-raiser [ˈheəˌreɪzə] *n so'zl.* qo'rqinchli (vahimali) kino, kitob *va b.*

hair-raising [ˈheəˌreɪzɪŋ] *a so'zl.* qo'rqinchli, dahshatli

hair shirt [ˌheəˈʃɜ:t] *n din.* xirqa, janda (*darveshlar kiyimi*)

hair-slide [ˈheəslaɪd] *v* soch to'g'nag'ichi

hair-splitting [ˈheəˌsplɪtɪŋ] *n* arzimagan narsalar tufayli yuzaga kelgan bahs, janjal; maydakashlik, bachkanalik

hairspring [ˈheəˌsprɪŋ] *n* qilcha, qil prujina (*soat mexanizmida*)

hair-trigger I [ˌheəˈtrɪgə] *a* jahli (achchig'i, zardasi) tez, qiziqqon, jizzaki

hair trigger II [ˌheəˈtrɪgə] *n harb.* salga bosilib ketadigan tepki (*otish qurollarida*)

hair-worm [ˈheəwɜ:m] *n zool.* qililon

hairy [ˈhe(ə)rɪ] *a* 1) sochlari o'sib ketgan; serjun; 2) paxmoq, tukli, sertuk, tuk bilan qoplangan (*gazlama haqida*)

Haitian [ˈheɪʃɪən] *a* Gaiti va gaitiliklarga oid

hake [heɪk] *n zool.* xek (*baliq*)

hakeem [hə ˈki:m] *n arab.* shifokor, doktor

hakim [ˈhæki:m] *n* 1) *arab.* shifokor; 2) sudya, hukmdor, hokim

halation [hə ˈleɪʃ(ə)n] *n foto.* oreol, yorug' doira (*fotoplyonkada yorug' nuqta atrofida hosil bo'ladigan doira*)

halberd [ˈhælbəd] *n tar.* oybolta (*qadimgi urush quroli*)

haleyon [ˈhælstən] **1.** *n* 1) *zool.* ko'k-torg'oq (*qush*); **2.** *a* tinch, shamolsiz (*ob-havo to'g'risida*); **~ days** osoyishta, baxtli kunlar

hale [heɪl] **1.** *a* sog', sog'lom, tani sog'; **~ and hearty** sog'lom va tetik; **2.** *v* sudramoq, tortmoq

half [hɑ:f] **1.** *n* (*pl* **halves** [hɑ:vz]) 1) yarim, yarimta; **~ past five** besh yarim; **to cut in ~** ikkiga bo'lmoq; **to cut the cost in ~** xarajatlarni ikki baravarga qisqartirmoq; **to divide in(to) two halves** ikkiga (ikki kishiga) bo'lmoq; 2) qism; **the larger ~** katta qism; 3) semestr (*oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'quv yilining yarmi*); **2.** *a* 1) yarim hissa; **~ dead** chalajon; 2) to'la emas

half-and-half [ˌhɑ:f(ə)ndˈhɑ:f] **1.** *a* teng miqdorda qo'shilgan, aralashtirilgan; **2.** *adv* ikkiga (qoq o'rtasidan) bo'lib, ikki bo'lak qilib

half-back [ˈhɑ:fbæk] *n sport.* yarim himoyachi

half-baked [ˌhɑ:fˈbeɪkt] *a* 1) pishmagan, xom; 2) tajribasiz, kamolotga yetmagan, yetuk emas, g'o'r, yosh

half-binding [ˈhɑ:f,baɪndɪŋ] *n poligr.* qurama (birgalikdagi) jild, muqova

half-blood [ˈhɑ:fˈblʌd] *n* faqat otasi *yoki* onasi bitta bo'lgan aka, uka, opa *yoki* singil

half-bred [ˈhɑ:fbred] *a* nasli toza emas, duragay, omixta; **a ~ horse** chala zot ot

half-breed [ˈhɑ:fbri:d] *n* metis, duragay, chatishma

half-brother [ˈhɑ:f,brʌðə] *n* yo otasi, yoki onasi bir bo'lgan aka-ukalar

half-cast(e) [ˈhɑ:fkɑ:st] *n* irqi aralash odam (*ayniqsa, Hindistonda*), metis

half-cock [ˌhɑ:fˈkɒk] *n harb.* ehtiyot qiluvchi vzvod (*harbiy bo'linma*)

half-cocked [ˌhɑ:fˈkɒkt] *a* tayyorgarlik ko'rmagan, tajribasiz, tajribali emas

half-crown [ˌhɑ:fˈkraʊn] *n* yarim kron (*Angliyada: 2 shilling 6 pensli pul; 1970- yilgacha muomalada bo'lgan*)

half-dollar [ˌhɑ:fˈdɒlə] *n* yarim dollar (*Amerikaning 50 senti*)

half-done [ˌhɑ:fˈdʌn] *a* yarmi qilingan (bajarilgan); oxirigacha qilinmagan

half-dozen [ˌhɑ:fˈdʌz(ə)n] *n* yarim dyujina, olti dona

half-hardy [ˌhɑ:fˈhɑ:dɪ] *a* ochiq havoga, qishga chidamaydigan (*o'simlik*)

half-hearted [ˌhɑ:fˈhɑ:tɪd] *a* 1) ikkilanuvchi, qat'iyatsiz; 2) befarq, qiziqmaydigan, lanj, sust, bo'shashgan

half-heartedly [ˌhɑ:fˈhɑ:tɪdlɪ] *adv* ikkilanib, qat'iyatsizlik bilan

half holiday [ˌhɑ:fˈhɒlɪdɪ] *n* qisqartirilgan ish kuni; ikkinchi yarmidan olish, ko'ngil ochish va sh. k. ga ajratiladigan kun

half hose [ˌhɑ:fˈhəʊz] *n* golfi (*1. tizzadan pastroq tushib turadigan manjetli shim; 2. boldirdan tizzagacha qoplab turadigan rezinali paypoq*)

half-length [ˌhɑ:fˈleŋθ] *a* belgacha olingan (*surat to'g'risida*)

half-light [ˈhɑ:flaɪt] *n* yarim qorong'ilik, g'ira-shira payt, xira yorug'lik

half-mast [ˌhɑ:fˈmɑ:st] **1.** *a* sal (biroz) tushirilgan, sal (picha) tushirib qo'yilgan; **2.** *v* motam belgisi sifatida bayroqlarni pastga engashtirib qo'ymoq

half-measure [ˌhɑ:fˈmeʒə] *n* yarim-yorti (chala) chora, qat'iy bo'lmagan (bo'sh) chora

half-mile [ˌhɑ:fˈmaɪl] *n* yarim mil

half-moon [ˌhɑ:fˈmu:n] *n* 1) yarim oy, yarimlangan oy; 2) *harb. tar.* qal'aning tashqi tomoniga qurilgan qo'shimcha istehkom

half-pay [ˌhɑ:fˈpeɪ] *n* yarim miqdordagi maosh, yarim oylik

halfpenny [ˈheɪpnɪ] **1.** *n* (*pl* **halfpence, halfpennies**) yarim penni; **2.** *a so'zl.* juda arzon, hech narsaga arzimaydigan

halfpennyworth [ˈheɪpnɪwə:θ] *n* narxi yarim penni turadigan narsa

half-pound [ˌhɑ:fˈpaʊnd] **1.** *n* yarim funt (qadoq); **2.** *a* og'irligi yarim funt (qadoq) bo'lgan

half-pounder [ˌhɑ:fˈpaʊndə] *n* yarim funt og'irlikdagi narsa

half-price [ˌhɑ:fˈpraɪs] *n* yarim bahosi; **at ~** yarim bahosida

half-roll [ˌhɑ:fˈrəʊl] *n av.* keskin burilish

half-round [ˌhɑ:fˊraʊnd] **1.** *n* yarim doira; **2.** *a* yarim doira shaklidagi
half-seas-over [ˌhɑ:fsi:zˊəʊvə] *a predic.* 1) yarim yo'lda (*kema haqida*); 2) biroz ichgan, shirakayf
half-sister [ˊhɑ:fˌsɪstə] *n* otasi bir, onasi boshqa *yoki* onasi bir, otasi boshqa bo'lgan opa *yoki* singil
half-sovereign [ˌhɑ:fˊsɒvrɪn] *n* yarim soverena (*soverena – inglizlarning o'n shillingli oltin puli*)
half-staff [ˌhɑ:fˊstɑ:f] *n* sal (biroz) tushirib qo'yish
half term [ˌhɑ:fˊtɜ:m] *n* (*semestr; chorak va sh. k. o'rtasida*) maktabdagi ikki yoki uch kunli qisqa ta'til
half-time [ˌhɑ:fˊtaɪm] *n* to'liq bo'lmagan hafta kuni, to'liq bo'lmagan ish kuni; **to work ~** yarim kun ishlamoq
half-title [ˊhɑ:fˌtaɪtl] *n poligr.* shmustitul (*kitobning tituldan oldingi varag'i, kitob bo'limi yoki bobi oldidagi sarlavha yoziladigan sahifa*)
half-tone [ˌhɑ:fˊtəʊn] *n mus.* yarim ton, yarim parda, yarim ohang
half-track [ˊhɑ:ftræk] *n amer. harb.* har qanday yo'lda *yoki* yo'lsiz joylarda ham yura oladigan yarim gusenitsali mashina
half-truth [ˊhɑ:ftru:θ] *n* yarmi to'g'ri; yarmi yolg'on, yarmi rost
half-way [ˌhɑ:fˊweɪ] *a* yarim yo'lda yotgan, yarim yo'ldagi
half-wit [ˊhɑ:fwɪt] *n* esi yo'q odam, ahmoq kishi
half-witted [ˌhɑ:fˊwɪtɪd] *a* aqli kam, esi past, ahmoq
half-word [ˌhɑ:fˊwɜ:d] *n* shama, ishora
half-year [ˌhɑ:fˊjɪə:] *n* 1) yarim yil; 2) semestr
half-yearly [ˌhɑ:fˊjɪəlɪ] **1.** *a* yarim yillik, yarim yil mobaynidagi; **2.** *adv* yarim yilda bir marta
halibut [ˊhælɪbət] *n zool.* kambalaning bir turi (*baliq*)
halite [ˊhælaɪt] *n min.* toshtuz
halitosis [ˌhælɪˊtəʊsɪs] *n tib.* og'izdan keladigan yomon (badbo'y) hid
hall [hɔ:l] *n* 1) zal; **a dance ~** raqs zali; **a waiting ~** kutish zali (*aeroport va vokzallarda*); 2) qabulxona, vestibyul
hall bedroom [ˊhɔ:lˌbedru:m, -rʊm] *n amer.* mebellar bilan jihozlangan arzon xona
halleluiah [ˌhælɪˊlu:jə] *n* hamd-u sanolar, madhiya, ko'klarga ko'tarib maqtash
hallelujа(h) [ˌhælɪˊlu:jə] = **halleluiah**
halliard [ˊhæljəd] = **halyard**
hallmark [ˊhɔ:lmɑ:k] *n* proba, tamg'a (*oltin, kumush va platinaning soflik darajasi miqdorini ko'rsatuvchi belgi*)
hallo(a) [həˊləʊ] *int.* 1) salom (*hurmat ma'nosida*); 2) allo! labbay!
hall of residence [ˌhɔ:ləvˊrezɪd(ə)ns] *n* talabalar yotoqxonasi
halloo [həˊlu:] *v* 1) qichqirib diqqatni o'ziga jalb etmoq; 2) (*itni*) gijgijlamoq
hallow I [ˊhæləʊ] = **halloo**
hallow II [ˊhæləʊ] **1.** *a* muqaddas, aziz, tabarruk, ilohiy; **2.** *v* 1) muqaddaslashtirmoq, muqaddas narsaga aylantirmoq; 2) (xudoga) bag'ishlamoq; 3) hurmat qilmoq, izzat qilmoq
Hallowe'en, Halloween [ˌhæləʊˊi:n] *n shotl. amer.* barcha aziz-avliyolar kunining arafasi (*31- oktabr*)
Hallowmas [ˊhæləʊmæs] *n cherk.* barcha aziz-avliyolar kuni (*birinchi noyabr*)
hallucinate [həˊlu:sɪneɪt] *v* yo'q narsalarni ko'rmoq, eshitmoq, sezmoq
hallucination [həˌlu:sɪˊneɪʃ(ə)n] *n* gallutsinatsiya (*yo'q narsalarning ko'rinishi, eshitilishi, sezilishi*)
hallway [ˊhɔ:lweɪ] *n* 1) yo'lak, koridor; 2) dahliz (*ichkariga kiraverishdagi birinchi xona*)
halm [hɔ:m] = **haulm**
halo [ˊheɪləʊ] *n* (*pl* **-oes** [-əʊz]) 1) *astr.* yorug'lik gardishi; 2) *din.* nur chambar, zarhal doira (*sanam atrofidagi*)
halogen [ˊhælədʒən] *n kim.* galogen (*xlor, brom, yod va ftordan iborat kimyoviy element*)
haloid [ˊhælɔɪd] *n kim.* galoid (*kimyoviy element*)
halt [hɔ:lt] **1.** *n* 1) bekat; 2) to'xtash joyi; **2.** *v* to'xtamoq, to'xtatmoq; **3.** *int.* to'xta! (*buyruq*)
halter [ˊhɔ:ltə] **1.** *n* arqon, sirtmoq; **2.** *v* osmoq, sirtmoq solmoq
halting [ˊhɔ:ltɪŋ] *a* 1) oqsoq, cho'loq; 2) duduqlanadigan, tutilib-tutilib gapiradigan
halve [hɑ:v] *v* 1) teng ikkiga bo'lmoq; 2) teng (baravariga) qisqartirmoq
halves [hɑ:vz] *pl of* **half**
halving [ˊhɑ:vɪŋ] *n* 1) teng yarmiga bo'linish; 2) *tex.* birikish (ulanish, qo'shilish) joyi
halyard [ˊhæljəd] *n deng.* fal (*maxsus arqon, tros*)
ham [hæm] **1.** *n* 1) son; 2) son go'shti; 3) dudlangan cho'chqa go'shti; 4) *amer. so'zl.* yomon aktyor; **2.** *v amer. so'zl.* rolni yomon ijro etmoq
hamate [ˊheɪm(e)ɪt] *a* 1) egri, qiyshiq, qiyshaygan; 2) ilmoqsimon, ilmoqqa o'xshagan, qayrilgan
Hamburg [ˊhæmbɜ:g] *n* muskat (*qora uzumning navi*)
hamburger [ˊhæmbɜ:gə] *n* gamburger, to'g'ralgan bifshteksli bulochka; **~ meat** go'shtli qiyma
ham-fisted [ˌhæmˊfɪstɪd] *a so'zl.* 1) zilday (og'ir) mushtli; 2) kelishmagan, qo'pol, beso'naqay
hamlet [ˊhæmlɪt] *n* kichkina qishloq, qishloqcha
hammer [ˊhæmə] **1.** *n* bolg'a, bolg'acha, to'qmoq; **2.** *v* qoqmoq, bolg'alamoq; taqillatmoq, (*qattiq*) urmoq
hammer-blow [ˊhæməbləʊ] *n* vazmin (og'ir, qattiq) zarba
hammerer [ˊhæmərə] *n* bolg'a uruvchi, bosqonchi, temirchi
hammer-head I [ˊhæməhed] *n* bolg'aning boshi (qalpoqchasi)
hammer-head II [ˊhæməhed] *n zool.* bolg'abaliq
hammering [ˊhæmərɪŋ] *n* bolg'alash
hammerman [ˊhæməmən] = **hammerer**
hammer scale [ˊhæməskeɪl] *n tex.* metall zaki, to'pon
hammersmith [ˊhæməsmɪθ] *n* temirchi
hammer-throwing [ˌhæməˊθrəʊɪŋ] *n sport.* to'qmoq otish
hammock [ˊhæmək] *n* 1) to'r belanchak; 2) osma karavot (*asosan, kemalarda*)
hammock-chair [ˊhæmɔkˌtʃeə] *n* buklama (buklanadigan) stul
hamper [ˊhæmpə] **1.** *v* xalaqit bermoq, ishni qiyinlashtirmoq, to'sqinlik qilmoq; **2.** *n* qopqoqli savat
hamshackle [ˊhæmʃæk(ə)l] *v* hayvonlarning oldingi oyog'ini boshi bilan bog'lamoq, hayvonlarni o'rab bog'lamoq; tushovlamoq, tushovlab qo'ymoq
hamster [ˊhæmstə] *n zool.* og'maxon (*g'alla o'simliklariga zarar yetkazadigan, inlarda yashaydigan kemiruvchi hayvon*)
hamstring [ˊhæmˌstrɪŋ] **1.** *n* 1) tizza osti paylari; 2) paylarni kesish; **2.** *v* (**hamstringed, hamstrung**) 1) tizza osti payini kesmoq; 2) mayib qilmoq, nogiron qilib qo'ymoq; 3) *ko'ch.* ma'naviy shikast yetkazmoq
hamstrung [ˊhæmˌstrʌŋ] *past., p. p. of* **hamstring**
hand [hænd] **1.** *v* bermoq, topshirmoq, olib bermoq, uzatib yubormoq, uzatmoq; **to ~ over** topshirmoq, bervormoq; **to ~ out** tarqatmoq, bo'lib (taqsimlab) bermoq; **2.** *n* 1) qo'l (*panja*); **to give a ~** yordamlashmoq; **a ~ saw** dastarra; **on the one ~** bir tomonda(n); **on the other ~** boshqa tomonda(n); **~s off!** qo'lingni tort!; **~ to ~ fighting** qo'l kuchi (pichoqbozlik, nayzabozlik) jangi; **~s up!** qo'lingni ko'tar! **to send by ~** pochta bilan emas, biror kishi orqali jo'natmoq; 2) ishchi, amalga oshiruv-

chi, bajaruvchi; **a factory ~** fabrika ishchisi; **a good ~ at (in)** nimagadir usta; **an old ~ at** nimadandir tajribali; **a poor ~ at** nimagadir mohir emas (sust. usta emas)

handbag [ˈhændbæg] *n* ayollar sumkachasi, qo'lda olib yuradigan chamadoncha

handball [ˈhændbɔ:l] *n sport.* gandbol, qo'l to'pi

hand-barrow [ˈhænd,bærəʊ] *n* zambil, g'altak arava

handbell [ˈhændbel] *n* qo'ng'iroqcha, kichkina qo'ng'iroq

handbill [ˈhænd,bɪl] *n* reklama varaqasi; afisha; e'lon

handbook [ˈhændbʊk] *n* 1) qo'llanma, yo'riqnoma; ma'lumotnoma; 2) sayyohlar uchun ma'lumotnoma, yo'lko'rsatkich

handbrake [ˈhændbreɪk] *n* qo'l tormozi

handcar [ˈhændkɑ:] *n amer.* drezina (*temir yo'lda yuradigan motorli yoki motorsiz arava, vagon*)

handcart [ˈhændkɑ:t] *n* qo'l aravacha

handcuff [ˈhændkʌf] **1.** *n* qo'lkishan; **2.** *v* qo'lga kishan solmoq

handful [ˈhændful] *n* bovuch, siqim; bir dasta, bovuch, tutam, kaft

handglass [ˈhændglɑ:s] *n* qo'lda olib yuriladigan lupa, zarrabin (*katta qilib ko'rsatadigan ikki tomoni qavariq shisha*)

hand-grenade [ˈhændgrɪ,neɪd] *n* qo'l granatasi

handgrip [ˈhændgrɪp] *n* qo'lni siqish, qisish

handhold [ˈhændhəʊld] *n* 1) ushlab turadigan narsa (*mas., daraxtning shoxi*); 2) tutqich, dasta (*biror mexanizmning ushlanadigan qismi*)

handicap [ˈhændɪkæp] **1.** *n* 1) to'siq, to'sqinlik, xalal, xalaqit; 2) jismoniy yoki aqliy zaiflik; nuqson; **~ped** jismoniy nuqsonli; ko'r, kar va sh. k.; **2.** *v* 1) to'sqinlik qilmoq, xalaqit bermoq; 2) g'alaba uchun kuchlarni, imkoniyatlarni tenglashtirmoq

handicraft [ˈhændɪkrɑ:ft] *n* hunar, kasb, hunarmandchilik, kosiblik

handicraftsman [ˈhændɪ,krɑ:ftsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) hunarmand, kosib

handie-talkie [ˌhændɪˈtɔ:kɪ] *n so'zl.* ixcham (ko'tarib yurishga qulay) radiostansiya (*yo'lda aloqa qilish uchun*)

handiwork [ˈhændɪwɜ:k] *n* qo'l mehnati, qo'l hunari

handkerchief [ˈhæŋkətʃɪf] *n* ro'molcha, dastro'mol

hand-knitted [ˈhænd,nɪtɪd] *a* qo'lda to'qilgan

handle [ˈhændl] **1.** *n* sop, dasta, band, qo'lcha, tutqich; **2.** *v* 1) sopidan ushlamoq; 2) qo'lda qilmoq; 3) qo'l bilan ushlamoq

handle-bar [ˈhændlbɑ:] *n* velosipedning ruli

handlebars [ˈhændlbɑ:z] *n pl* ikki uchi yuqoriga qayrilgan uzun mo'ylov

hand-light [ˈhændlaɪt] *n* ko'chma elektrik lampa (*mashinalarni tekshirish uchun*)

handling [ˈhændlɪŋ] *n* (*kim yoki nima bilandir*) muomala, mulozamat qilish

handlist [ˈhændlɪst] **1.** *n* alifbo tartibida yozilgan ro'yxat; **2.** *v* alifbo tartibida ro'yxat tuzmoq

handmade [ˌhændˈmeɪd] **1.** *a* qo'lda qilingan, qo'l bilan qilingan; **2.** *n* qo'l bilan qilinadigan ishlar

hand-me-down [ˈhændmɪ,daʊn] *n amer.* 1) tayyor arzon kiyim; 2) kiyilgan kiyim

hand-mill [ˈhændmɪl] *n* qo'l tegirmon

hand-operated [ˌhændˈɒpəreɪtɪd] *a* qo'l bilan boshqariladigan

handout [ˈhændˈaʊt] *n* 1) xayr-ehson; 2) nashr etish uchun rasmiy ariza; 3) (*barcha ishtirokchilarga tarqatiladigan*) terilgan matn

handover [ˈhændəʊvə] *n* (*vakolat, ish, mulk va h. k. ni*) topshirish, berish

hand-pick [ˌhændˈpɪk] *v* 1) qo'lda termoq; 2) sinchiklab tanlamoq

hand-picked [ˈhændˈpɪkt] *a* saralangan, terilgan

hand-play [ˈhændpleɪ] *n* 1) urushish, mushtlashish; 2) imo-ishoralar, ma'noli harakatlar

handrail [ˈhændreɪl] *n* 1) suyanchiq, to'siq; 2) *deng.* tutqich, dasta, band

handsaw [ˈhændsɔ:] *n* qo'larra, dastarra

handsel [ˈhænds(ə)l] **1.** *n* 1) yangi yil va b. ga sovg'a; 2) oldindan sezib lazzatlanish (rohatlanish); **2.** *v* 1) sovg'a qilmoq, armug'on etmoq; 2) zavqlanmoq

handshake [ˈhændʃeɪk] **1.** *n* qo'l berib so'rashish, qo'l siqishuv; **2.** *v* (**handshook; handshaken**) qo'l berib so'rashmoq

handshaken [ˈhænd,ʃeɪkən] *p. p. of* **handshake 2**

handshaker [ˈhænd,ʃeɪkə] *n so'zl.* laganbardor, xushomadgo'y

handshook [ˈhændʃʊk] *past of* **handshake 2**

handsome [ˈhæns(ə)m] *a* 1) chiroyli, ko'rkam; kelishgan (*erkak haqida*); 2) katta, yirik, ulkan; **a ~ present** qimmatbaho sovg'a; 2) saxiy, qo'li ochiq, saxovatli

handspring [ˈhændsprɪŋ] *n* umbaloq oshish, ag'darilish, yumalash

hand-to-hand [ˌhændtəˈhænd] *a harb.* qo'l kuchi *yoki* pichoq, nayza kabilar bilan qilinadigan, mushtlashish (pichoqbozlik, nayzabozlik)...; **a ~ fight** qo'l jangi

handwork [ˈhændwɜ:k] *n* qo'l mehnati

handwriting [ˈhænd,raɪtɪŋ] *n* xat, qo'lyozma, husnixat, yozuv; **sprawling ~** yirik-yirik va oralari ochiq yozilgan xat

handy [ˈhændɪ] *a* 1) (*ishlatish uchun*) o'ng'ay, qulay; 2) yengil (oson) boshqariladigan; 3) mohir, mahoratli; 4) usta, chaqqon

handyman [ˈhændɪmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) yordam beruvchi odam, yordamchi; 2) hamma narsa qo'lidan keladigan kishi

hang [hæŋ] *v* **(hung)** 1) osmoq; ilib qo'ymoq; **to ~ out** yoymoq; **to ~ up** osib qo'ymoq; **to ~ wall-paper** gulqog'oz yopishtirmoq; 2) osib o'ldirmoq; **to ~ oneself** o'zini osib o'ldirmoq

hangar [ˈhæŋə] *n* 1) angar (*samolyot, vertolyot va sh. k. turadigan yoki ta'mirlanadigan maxsus bino*); 2) saroy; omborxona

hangdog [ˈhæŋdɒg] **1.** *n* yaramas, ablah, dor tagidan qochgan kishi; **2.** *a* razil, qabih, yaramas

hanger [ˈhæŋə] *n* 1) osilib turgan narsa; 2) ilgak; 3) kiyim ilgich; 4) iluvchi

hanger-on [ˌhæŋə(r)ˈɒn] *n* 1) sherik; 2) malay, yugurdak; 3) tekinxo'r

hangers-on [ˌhæŋəzˈɒn] *pl of* **hanger-on**

hanging [ˈhæŋɪŋ] **1.** *n* ilish, ilib (osib) qo'yish, osish; **2.** *a* osma, osilib turadigan, osib qo'yiladigan; **a ~ bridge** osma ko'prik

hangman [ˈhæŋmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) jallod

hangnail [ˈhæŋneɪl] *n* milk (*tirnoqning milki*)

hangout [ˈhæŋˈaʊt] *n amer.* doimiy uchrashuv joyi, doim uchrashadigan joy

hangover [ˈhæŋˈəʊvə] *n* 1) eskilik sarqiti; 2) (*ichkilikdan*) karaxtlik, bosh og'rig'i

hank [hæŋk] **1.** *n to'q.* koptok, kalava; **2.** *v* (*ipni*) o'ramoq

hanker [ˈhæŋkə] *v* zo'r ishtiyoq bilan orzu qilmoq, qattiq istamoq **(after, for)**

hankering [ˈhæŋk(ə)rɪŋ] *n* intilish, orzu, niyat, ishtiyoq; **to have a ~ for smth.** biror narsaga intilmoq, nimanidir juda xohlamoq

hankie [ˈhæŋkɪ] *n so'zl.* ro'molcha, dastro'mol

hanky [ˈhæŋkɪ] = **hankie**

hanky-panky [ˌhæŋkɪˈpæŋkɪ] *n so'zl.* aldash, muttahamlik, qalloblik, firibgarlik, tovlamachilik

Hansard [ˈhænsɑ:d] *n so'zl.* ingliz parlamentining kengashi to'g'risidagi rasmiy hisobot

Hansardize [ˈhænsədaɪz] *v so'zl.* parlament a'zosiga uning rasmiy hisobot to'g'risidagi oldingi bayonotini ko'rsatmoq
hansel [ˈhæns(ə)l] = **handsel**
hansom (cab) [ˈhæns(ə)m(ˌkæb)] *n* ikki g'ildirakli arava, fayton
han't [heɪnt] = **have not, has not**
hap [hæp] *v esk.* bo'lmoq, yuz bermoq, voqea sodir bo'lmoq
haphazard [ˌhæpˈhæzəd] *n* voqea, hodisa; **at (by)** ~ tasodifan, kutilmaganda
hapless [ˈhæpləs] *a* bebaxt, badbaxt, baxti qora
haplology [hæpˈlɔlədʒɪ] *n gram.* bir ma'noning bir so'zda ikki marta ifodalanishi
ha'p'orth [ˈheɪpəθ] = **halfpennyworth**
happen [ˈhæpən] *v* 1) sodir bo'lmoq, yuz bermoq; **to ~ to** ...ga nimadir bo'lmoq; **something must have ~ed** aftidan biror narsa bo'lgan; 2) birdan paydo bo'lib qolmoq; **to ~ on/~ upon** tasodifan uchrashmoq
happening [ˈhæp(ə)nɪŋ] *n* hodisa, voqea
happily [ˈhæpɪlɪ] *adv* 1) baxtimga, baxtiga, xayriyat; 2) muvaffaqiyatli ravishda, muvaffaqiyat bilan
happiness [ˈhæpɪnəs] *n* baxt, saodat, iqbol
happy [ˈhæpɪ] *a* baxtli, omadli; xushbaxt, baxtiyor; **a ~ man** baxtli odam; **a ~ thought** to'g'ri fikr; **to be ~ about** ...dan baxtli bo'lmoq
happy-go-lucky [ˌhæpɪqəʊˈlʌkɪ] *a* parvosiz, beparvo, beg'am, betashvish
hara-kiri [ˌhærəˈkɪrɪ] *n* xarakiri (*yapon samuraylarining o'z qornini chavaqlab joniga qasd qilishi*)
harangue [həˈræŋ] **1.** *n* 1) nutq (*jamoat oldidagi*); 2) gap sotish, vaysash, mahmadonalik; **2.** *v* 1) nutq so'zlamoq; 2) mahmadonalik qilmoq
haras [ˈhærəs] *n* ot zavodi (*ot zotini yaxshilash va zotli otlar yetishtirish bilan shug'ullanadigan korxona*)
harass [ˈhærəs] *v* 1) bezovta qilmoq, urintirmoq, tinchini buzmoq, ovora qilmoq; 2) charchatmoq, charchatib qo'ymoq
harassment [ˈhærəsmənt] *n* bezovtalik, ovoragarchilik, urinish, g'am yeyish, tashvishini qilish
harbinger [ˈhɑ:bɪndʒə] *n* darakchi, xabarchi
harbor [ˈhɑ:bə] *amer.* = **harbour**
harbour [ˈhɑ:bə] **1.** *n* 1) panoh, boshpana; 2) port, bandargoh; **2.** *v* 1) boshpana bermoq; 2) langar tashlab to'xtatmoq
harbourage [ˈhɑ:bərɪdʒ] *n* 1) boshpana, pana; 2) kemalarning to'xtash joyi
harbour-dues [ˈhɑ:bədju:z] *n pl* portdan tushgan mablag'lar
hard [hɑ:d] *a* 1) qattiq, **a ~ apple** qattiq olma; 2) kuchli; **a ~ blow** kuchli zarba; 3) qiyin; 4) qattiq, sovuq; 5) shiddatli, o'tkir, quloqni garang qiladigan; 6) xasis, ochko'z
hard-back [ˈhɑ:dbæk] *n* qattiq muqovali kitob
hardbake [ˈhɑ:dbeɪk] *n* bodom karameli (*karamel – konfet turi*)
hardbitten [ˌhɑ:dˈbɪtn] *a* 1) turg'un, chidamli, pishiq, puxta; 2) sabotli, matonatli, mustahkam
hard-boiled [ˌhɑ:dˈbɔɪld] *a* 1) juda qattiq qaynatilgan (*tuxum to'g'risida*); 2) juda mustahkam, qattiq, pishiq; 3) gapga kirmaydigan, o'jar; 4) qattiqqo'l; bir so'zli, cho'rtkesar
hard coal [ˈhɑ:dˈkəʊl] *n* antratsit (*toshko'mirning eng yaxshi navi*)
hard core [ˌhɑ:dˈkɔ:] *n* 1) (*guruh, partiya va sh. k. ning*) asosiy, markaziy qismi, yadrosi; 2) doimiy ishsizlar, ish topishdan umid uzgan odamlar
hard-cover [ˈhɑ:dˌkʌvə] = **hard-back**
hard disk [ˈhɑ:d ˈdɪsk] *n komp.* qattiq disk, venchester
hard-earned [ˌhɑ:dˈɜ:nd] *a* mehnat qilib topilgan, ter to'kib topilgan
harden [ˈhɑ:dn] *v* 1) qotmoq, qattiqlashmoq; 2) toblanmoq, chiniqmoq; toblamoq, chiniqtirmoq; **~ed steel** toblangan po'lat; **a ~ed criminal** ashaddiy jinoyatchi
hardener [ˈhɑ:dnə] *n tex.* metallni chiniqtiradigan modda
hoot [huːt] *n* 1) signal ovozi; 2) qichqiriq; 3) kulgili, qiziq; 4) boyo'g'li ovozi
hooves [huːvz] *pl of* **hoof**
hop [hɒp] *v* 1) sakramoq, irg'imoq; 2) hatlab o'tmoq; 3) raqsga tushmoq
hope [həʊp] **1.** *n* 1) ishonch, umid, orzu; **beyond ~** umidsizlik bilan; 2) umid qilsa bo'ladigan odam; **2.** *v* umid qilmoq, ishonmoq
hopeful [ˈhəʊpf(ə)l] *a* umidvor, umidli
hopefully [ˈhəʊpf(ə)lɪ] *adv* umid bilan, umidvorlik bilan
hopefulness [ˈhəʊpf(ə)lnəs] *n* kelajakka ishonish
hopeless [ˈhəʊpləs] *a* umid qilib bo'lmaydigan, tuzalmaydigan, tuzalishi (o'zgarishi) qiyin
hopper [ˈhɒpə] *n* sakrovchi, irg'uvchi
hopscotch [ˈhɒpskɒtʃ] *n* sopolak, chertak (*yerni katak-katak chizib, sopolakni katakdan katakka hakkalab tepib o'tkazib o'ynaladigan bolalar o'yini*)
horde [hɔːd] *n* 1) *tar.* o'rda (*qadimiy turkmo'g'ul hokimiyati*); 2) gala, to'p, to'da, guruh
horizon [həˈraɪz(ə)n] *n* ufq, ufq chizig'i
horizontal [ˌhɒrɪˈzɒntl] *n* gorizontal (*parallel chiziq*)
hormone [ˈhɔːməʊn] *n* gormon (*qonga qo'shiladigan modda*)
horn [hɔːn] **1.** *n* shox; muguz; **2.** *a* shoxdan yasalgan
hornbeam [ˈhɔːnbiːm] *n bot.* grab (*qayinlar oilasiga mansub daraxt yoki buta*)
horned [hɔːnd] *a* shoxli, muguzli; **~ cattle** shoxli mol, yirik chorva mollari
hornet [ˈhɔːnɪt] *n ent.* qovog'ari, qizil ari
horny [ˈhɔːnɪ] *a* shoxga (muguzga) ega bo'lgan, shoxli, muguzli
horoscope [ˈhɒrəskəʊp] *n* goroskop (*munajjimlar fol ochish uchun tuzgan yulduzlar jadvali*)
horrendous [hɒˈrendəs] *a* juda yomon, yoqimsiz
horrible [ˈhɒrəb(ə)l] *a* qo'rqinchli, dahshatli, jirkantiradigan, nafratli, vahimali
horrid [ˈhɒrɪd] *a* qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, qo'rqitadigan
horrific [hɒˈrɪfɪk] *a* 1) dahshatli; 2) juda yomon
horrify [ˈhɒrɪfaɪ] *v* qo'rqitib yubormoq, qattiq qo'rqitmoq
horror [ˈhɒrə] *n* 1) dahshat, vahima; **the ~s of war** urush dahshatlari; 2) *attr.* dahshatli; **a ~ film** dahshatli film
horse [hɔːs] *n zool.* ot
horseback [ˈhɔːsbæk] **1.** *n* otning orqasi; **on ~** ot ustida; **2.** *adv amer.* otda, otga minib, ot ustida
horse-breeding [ˈhɔːs,briːdɪŋ] *n* yilqichilik bilan shug'ullanadigan; yilqichilik
horse chestnut [ˌhɔːs ˈtʃesnʌt] *n bot.* 1) kashtan (*o'simlik*); 2) kashtan yong'og'i
horse-collar [ˈhɔːs,kɒlə] *n* xomut (*yog'och bo'yinchа*)
horse-flesh [ˈhɔːsfleʃ] *n* ot go'shti
horse-fly [ˈhɔːsflaɪ] *n ent.* so'na, so'na pashsha
horseless [ˈhɔːsləs] *n* oti yo'q, otsiz
horseman [ˈhɔːsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) otliq, chavandoz; 2) otboqar
horsepower [ˈhɔːs,paʊə] *n* ot kuchi (*quvvat birligi*)
horseradish [ˈhɔːs,rædɪʃ] *n* yerqalampir, xren (*tarkibida efir moyi bo'lgan va ovqatga dorivor sifatida ishlatiladigan achchiq o'simlik*)
horseshoe [ˈhɔːʃʃuː] **1.** *n* taqa; **2.** *v* otni taqalamoq

horsewhip [ˈhɔːs,wɪp] *v* qamchilamoq, savalamoq

horsewoman [ˈhɔːswʊmən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) ayol chavandoz, otliq ayol

horticulture [ˈhɔːtɪ,kʌltʃə] *n* 1) bog'-dorchilik; 2) polizchilik

hose [həʊz] *n* shlang, ichak

hosiery [ˈhəʊzɪərɪ] *n* chulki, paypoq kabi buyumlar

hospice [ˈhɒspɪs] *n* o'lim to'shagidagilar shifoxonasi

hospitable [ˈhɒspɪtəb(ə)l] *a* mehmondo'st, mehmonnavoz

hospital [ˈhɒspɪtl] *n* kasalxona, shifoxona; **to be in ~** kasalxonada yotmoq

hospitality [,hɒspɪˈtælɪtɪ] *n* mehmondo'stlik; samimiylik, iltifot

host [həʊst] **1.** *n* 1) xo'jayin; mezbon; 2) mehmonxona xo'jayini; 3) ko'pchilik; olomon; **2.** *v* 1) eshittirish olib bormoq (*radio, televideniya orqali*); 2) mehmon kutmoq

hostage [ˈhɒstɪdʒ] *n* 1) garov; 2) garov tariqasida ushlangan kishi

hostel [ˈhɒstl] *n* (*talabalar uchun*) umumiy yotoqxona

hostess [ˈhəʊstɪs] *n* uy bekasi, uy egasi

hostile [ˈhɒstaɪl] *a* dushmanlik ruhidagi, urushqoq; adovatli

hostility [hɒˈstɪlɪtɪ] *n* 1) adovat; dushmanlik; 2) *pl* harbiy harakatlar; **to open ~ties** harbiy harakatni boshlamoq

hot [hɒt] *a* 1) shiddatli; 2) issiq; 3) qiziqqon; 4) maqsadga yaqin; 5) yuqori radioaktivli; **to get one's water ~** qaynab ketmoq; **a ~ stuff** zo'r ishlaydigan ishchi

hotbed [ˈhɒtbed] *n* manba, o'choq

hot-blooded [,hɒtˈblʌdɪd] *a* 1) qizg'in, jo'shqin, otashin; 2) zotli, zotdor (*hayvon haqida*)

hotchpotch [ˈhɒtʃpɒtʃ] *n* sabzavot va go'shtdan qilingan ragu

hot dog [,hɒtˈdɒg] *n so'zl.* issiq sosiskali buterbrod

hotel [həʊˈtel] *n* mehmonxona

hotfoot [ˈhɒtfʊt] *adv* shoshilib, tez, tezda, darrov, darhol, tezlik (zudlik) bilan

hot-headed [,hɒtˈhedɪd] *a* issiq, qaynoq; qizib turgan

hothouse [ˈhɒthaʊs] *n* issiqxona

hotline [ˈhɒtlaɪn] *n* bevosita telefon aloqasi

hound [haʊnd] *n* ov iti, ovchi it

hour [aʊə] *n* soat, vaqt; **at an early ~** juda vaqtli, erta

hour-glass [ˈaʊəglɑːs] *n* qum soat

hour-hand [ˈaʊəhænd] *n* soat mili

hourly [ˈaʊəlɪ] *adv* har soatda, soat sayin

house [haʊs] **1.** *n* 1) uy, palata; 2) uy-joy; 3) oila, ro'zg'or; 4) parlament; 5) savdo firmasi; 6) birja; 7) *teatr.* tomoshabin; 8) seans; 9) mehmonxona; **to keep ~** ro'zg'orni tutmoq; **to keep the ~** uyda o'tirmoq; **2.** *v* 1) uy-joy (boshpana) bermoq; 2) uyda yashamoq; 3) boshpana topmoq

household [ˈhaʊshəʊld] **1.** *n* 1) oila, xonadon; 2) (uy) xo'jaligi; **2.** *a* xonaki, uyda tayyorlangan, qo'lda qilingan

householder [ˈhaʊs,həʊldə] *n* uy egasi *yoki* ijarachi

housekeeper [ˈhaʊs,kiːpə] *n* 1) uy xizmatchisi; 2) uy bekasi

housekeeping [ˈhaʊs,kiːpɪŋ] *n* uy-ro'zg'or tutish; uy-ro'zg'or ishlari

houseless [ˈhaʊslɪs] *a* uy-joysiz, boshpanasiz

housemaid [ˈhaʊsmeɪd] *n* oqsoch, uy xizmatchisi

houseman [ˈhaʊsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) xizmatkor, malay (*mehmonxona, xususiy uy va b. da*)

house-surgeon [ˈhaʊs,sɜːdʒ(ə)n] *n* kasalxonada yashaydigan bosh jarroh (*bosh shifokor*)

house-to-house [,haʊstəˈhaʊs] *a* uyma-uy

house-top [ˈhaʊstɒp] *n* 1) tom; 2) tom, boshpana, uy

house-warm [ˈhaʊswɔːm] *v* yangi uyga (joyga) ko'chib borganligini nishonlamoq

house-warming [ˈhaʊs,wɔːmɪŋ] *n* yangi joyga ko'chib borganligini (kelganligini) nishonlash

housewife [ˈhaʊswaɪf] *n* (*pl* **-wives** [-waɪvz]) uy bekasi

housewifely [ˈhaʊswaɪflɪ] *a* 1) xo'jalikka oid; 2) tejamkor

housewifery [ˈhaʊswɪf(ə)rɪ] *n* uy-ro'zg'or ishlari, uy-ro'zg'or tutish

housework [ˈhaʊswɜːk] *n* uy-ro'zg'or ishlari

housing I [ˈhaʊzɪŋ] *n* uy-joy, uy-joy bilan ta'minlash, uy-joy qurilishi

housing II [ˈhaʊzɪŋ] *n* yopiq (*ot va ba'zi boshqa uy hayvonlarining yopig'i*)

hove [həʊv] *past., p. p. of* **heave 2**

hovel [ˈhɒv(ə)l] *n* faqirona uy, kapa, kulba

hover [ˈhɒvə] *n* 1) tebranmoq, pirpiramoq; 2) xavf solib turmoq, tahdid qilmoq; 3) ikkilanmoq

hovercraft [ˈhɒvəkrɑːft] *n* havo yostiqli kema *yoki* poyezd

how [haʊ] **1.** *adv* 1) qanday, qanday qilib; 2) necha; **~ old is he?** u necha yoshda? 3) qanday! **~ funny** qanday kulgili; **how comes it?** nimaga bunaqa chiqyapti? **~ are you** qanday yashayapsiz, qalaysiz?; **2.** *n so'zl.* usul, yo'l

how-do-you-do [,haʊdəjəˈduː] *n* assalomu alaykum; yaxshimisiz?

how-d'ye-do [,haʊdjəˈduː] = **how-do-you-do**

however [haʊˈevə] **1.** *cj.* ammo, biroq; **2.** *adv* shunga qaramay; qanday bo'lmasin

howitzer [ˈhaʊɪtsə] *n harb.* gaubitsa (*kalta stvolli og'ir zambarak*), to'p

howl [haʊl] **1.** *n* ingrash, uvlash, yig'i, nola; **2.** *v* uvlamoq, ingramoq

howler [ˈhaʊlə] *n* 1) yig'ichi, go'yanda (*aza qo'shig'ini aytuvchi ayol*); 2) *so'zl.* eng qo'pol *yoki* ahmoqona xato

howling [ˈhaʊlɪŋ] *a* 1) ma'yus, g'amgin, umidsiz; 2) uvlaydigan

howsoever [,haʊsəʊˈevə] *adv* qanchalik (naqadar, nechog'lik) ... masin

hoy [hɔɪ] **1.** *n* barja (*shatakka olib yuriladigan yoki o'ziyurar yassi yuk kemasi*); **2.** *int* hoy! hey! (*chaqiruv, undov*)

hoyden [ˈhɔɪdn] *n* to'polonchi qizcha

hub [hʌb] *n* 1) g'ildirak gupchagi; 2) (*nimaningdir*) diqqat-markazi

hubble-bubble [ˈhʌb(ə)l,bʌb(ə)l] *n* 1) chilim; 2) qult-qult qilish; 3) qulqullagan tovush; 4) safsata, bekorchi gap

hubbub [ˈhʌbʌb] *n* 1) to'polon, shovqin-suron; 2) gumburlagan ovoz

hubby [ˈhʌbɪ] *n so'zl.* erjon, ergina (**husband**"*ning erkalash shakli*)

hubris [ˈhjuːbrɪs] *n grek.* kibr-havo, g'urur

huckaback [ˈhʌkəbæk] *n* zig'irpoya tolasidan to'qilgan polotno (*polotno – gazlamaning qalinroq bir turi, sochiq va b. uchun*)

huckleberry [ˈhʌk(ə)lb(ə)rɪ] *n bot.* chernika (*buta va mevasi*)

huckle-bone [ˈhʌk(ə)lbəʊn] *n anat.* to'piq suyagi (*hayvonlarda*)

huckster [ˈhʌkstə] *n* 1) chakana savdogar; 2) makler; dallol; 3) televideniya va radioda reklama dasturlarini tuzuvchi kishi

huddle [ˈhʌdl] *n* 1) to'p, to'plam, uyum; 2) tartibsizlik, pala-partishlik

hue [hjuː] *n* 1) tus, rang, alomat, belgi; 2) (**~ and cry**) quvish, orqasidan (ketidan) quvib borish, quvg'in; 3) shovqin-suron

huff [hʌf] **1.** *n* qattiq g'azablanish; **2.** *v* qattiq g'azablanmoq, nafratlanmoq

huffish [ˈhʌfɪʃ] *a* tez achchiqlanadigan, serjahl, tez xafa bo'ladigan

huffy [ˈhʌfɪ] *a* 1) o'zidan xursand, mag'rurona; 2) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan

hug [hʌg] **1.** *n* bag'riga qattiq bosish, qattiq quchoqlab olish; **to give smb. a ~** kimnidir bag'riga bosmoq; **2.** *v* 1) bag'-

riga qattiq bosmoq, qattiq quchoqlab olmoq; 2) tashakkur bildirmoq (*kimgadir*)

huge [hju:dʒ] *a* katta, ulkan, buyuk

hugely [ˈhju:dʒlɪ] *adv* juda, g'oyatda, benihoyat, bag'oyat

hugeness [ˈhju:dʒnəs] *n* g'oyat kattalik, ulkanlik, buyuklik, zo'rlik

hugeous [ˈhju:dʒəs] = **huge**

hugger-mugger [ˈhʌgə,mʌgə] **1.** *n* sir; **in ~** yashirincha; **2.** *a* yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan; **3.** *adv* yashirincha, maxfiy, bildirmay; **4.** *v* yashirmoq, bekitmoq

Huguenot [ˈhju:gə,nəo] *n fr. tar.* gugenotlar (*XVI – XVII asrlardagi fransuz protestantlari*)

huh [hʌh] *int.* hah! heh! (*g'azab, g'ayrat va h. k. ni izhor qilish uchun qo'llaniladi*)

hulk [hʌlk] *n* 1) katta kema (*burilmaydigan*), suzishga yaramaydigan katta kema korpusi (*tanasi*); 2) katta beso'naqay odam, „ayiq"

hulking [ˈhʌlkɪŋ] *a* ulkan, juda katta, beso'naqay

hull I [hʌl] **1.** *n* po'choq, po'st; **2.** *v* po'chog'ini archmoq, po'choqdan tozalamoq

hull II [hʌl] *n* sinch, qobirg'a; (*tank, kema va b. ning*) tanasi

hullabaloo [ˌhʌləbə ˈlu:] *n* to'polon, shov-shuv

hulled [hʌld] *a* 1) po'choqdan tozalangan, soflangan; 2) po'chog'i bor, po'choqli

hullo(a) [hʌ ˈləo] *int.* allo

hum [hʌm] **1.** *n* 1) g'o'ng'illash; 2) sassiq hid; **2.** *v* g'o'ng'illamoq; **3.** *int* hm! ha! (*shubha, kinoya, ishonchsizlik, ikkilanish va sh. k. ma'nolarni ifodalaydi*)

human [ˈhju:mən] **1.** *n* inson, odam; 2) (**the ~**) inson zoti; 3) (*hayvon va mashinalardan farqli o'laroq*) *pl* insonlar, odamlar; **2.** *a* 1) insoniy; **the ~ race** inson zoti; 2) insonga xos bo'lgan; 3) ijtimoiy

humane [hjʊˈmeɪn] *a* insonparvar odamga oid; insonparvar...; **a man of ~ character** insonparvar odam

humaneness [hjʊˈmeɪnəs] *n* yaxshilik, ezgulik; insonparvarlik; insoniylik; insoniy sifatlar

humanism [ˈhju:mənɪz(ə)m] *n* insonparvarlik, odamgarchilik, gumanitar

humanist [ˈhju:mənɪst] *n* 1) gumanizm tarafdori; 2) insonparvar, insonparvar odam

humanitarian [hju:ˌmænɪˈte(ə)rɪən] **1.** *n* gumanist, gumanizm tarafdori; **2.** *a* insonparvarlik

humanity [hjʊˈmænɪtɪ] *n* 1) insoniyat; 2) kishilik tabiati; **the humanities** gumanitar fanlar

humanize [ˈhju:mənaɪz] *v* odamga aylantirmoq

humankind [ˌhju:mənˈkaɪnd] *n* insoniyat, kishilik, odamzod, bashariyat

humanly [ˈhju:mənlɪ] *adv* insonlarcha; **all that is ~ possible** insonning qo'lidan keladigan barcha narsalar

humble [ˈhʌmb(ə)l] *a* kamtar, oddiy, kamsuqum

humble-bee [ˈhʌmb(ə)lbi:] *n ent.* tukli ari

humbug [ˈhʌmbʌg] **1.** *n* aldash, firib berish; **2.** *v* aldamoq, firib bermoq

humdinger [ˌhʌmˈdɪŋə] *n amer. so'zl.* ayni ko'ngildagi yigit

humdrum [ˈhʌmdrʌm] **1.** *n* ko'p chaynalgan gap, siyqasi chiqqan ibora; **2.** *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan (*ibora*)

humect [hjʊˈmekt] *v* ho'llamoq, namlamoq

humeral [ˈhju:m(ə)rəl] *a anat.* yelkaga oid, yelka

humid [ˈhju:mɪd] *a* zax, ho'l, nam

humidify [hju:ˈmɪdɪfaɪ] *v* ho'llamoq, namlamoq

humidity [hjʊˈmɪdɪtɪ] *n* namlik, zaxlik, ho'llik

humidor [ˈhju:mɪdə] *n* ma'lum bir foizdagi namlikni saqlab turadigan kamera *yoki* quti

humify [ˈhju:mɪfaɪ] *v* 1) namlamoq, ho'llamoq; 2) *q.x. esk.* (*yerni*) o'g'itlamoq, o'g'itlab unumdor qilmoq (*yerni*)

humiliate [hju: ˈmɪlɪeɪt] *v* xo'rlamoq, kamsitmoq, haqorat qilmoq

humiliating [hju: ˈmɪlɪeɪtɪŋ] *a* xo'rlaydigan, kamsitadigan, haqoratli

humiliation [hju:ˌmɪlɪˈeɪʃ(ə)n] *n* kamsitish, haqorat qilish, xo'rlash

humility [hju: ˈmɪlɪtɪ] *n* itoatkorlik, bo'ysunish, bo'yin egish, itoat qilish

hummel [ˈhʌm(ə)l] *a* shoxi yo'q, shoxsiz, to'qol, muguzsiz

hummer [ˈhʌmə] *n radio.* zummer (*tovush signali beradigan elektr asbob*)

humming [ˈhʌmɪŋ] *a* g'uvullaydigan, g'o'ng'illaydigan, vizillaydigan

humming-bird [ˈhʌmɪŋbə:d] *n zool.* kolibri (*Amerikada yashaydigan rangdor kichkina qush*)

humming-top [ˈhʌmɪŋtop] *n* pirildoq, pildiroq, bizbizak, g'irg'irak (*o'yinchoq*)

hummock [ˈhʌmək] *n* tepalik, do'nglik, balandlik

humor [ˈhju:mə] *amer.* = **humour**

humorist [ˈhju:m(ə)rɪst] *n* 1) xushchaqchaq odam, hazilkash; 2) qiziqchi, hazilkash

humorous [ˈhju:m(ə)rəs] *a* kulgili, qiziq, g'alati

humour [ˈhju:mə] *n* 1) yumor, hazil; hazilmutoyiba; **sense of ~** hazil tuyg'usi; 2) kayfiyat; **in good ~** yaxshi kayfiyatda

humourist [ˈhju:m(ə)rɪst] = **humorist**

humous [ˈhju:məs] *a* chirindili, chirindi aralash, chirindi aralashgan, chirindi qo'shilgan

hump [hʌmp] *n* bukur, do'ng

humpback [ˈhʌmpbæk] *n* 1) bukur odam; 2) *so'zl.* yomon kayfiyat

humpbacked [ˈhʌmpbækt] *a* bukur, bukchaygan

humph [hʌmf] *int.* hm, ha (*shubha, ikkilanish va sh. k. ma'nolarni ifodalaydi*)

humpy [ˈhʌmpɪ] *n avst.* kulba, kichik uy

humus [ˈhju:məs] *n* 1) chirindi; 2) qoratuproq

Hun [hʌn] *n* 1) vahshiy; 2) *nafr.* nemis

hunch [ˈhʌntʃ] **1.** *n* bukur, chiqiq; **2.** *v* bukmoq, egmoq, bukchaytirmoq

hunchback [ˈhʌntʃbæk] *n* bukur odam

hundred [ˈhʌndrəd] *n num. card.* yuz, yuztalik; **about ~** yuzga yaqin

hundredfold [ˈhʌndrədfəold] *a* yuz marta oshirilgan (*kattalashtirilgan, ko'paytirilgan*)

hundredth [ˈhʌndrədθ] *num. ord.* yuzinchi

hundredweight [ˈhʌndrədweɪt] *n* sentner (*Amerikada = 45,4 kg, Angliyada = 50,8 kg*)

hung [hʌŋ] *past., p. p. of* **hang**

Hungarian [hʌŋˈge(ə)rɪən] *a* 1) Vengriyaga va vengrlarga oid; 2) vengr, vengrlar tili

hunger [ˈhʌŋgə] **1.** *n* 1) ochlik; 2) (*nimagadir*) qattiq xohish, chanqoqlik (**for, after**); **2.** *v* 1) och qolmoq; 2) qattiq xohlamoq; chanqamoq

hunger-march [ˈhʌŋgəmɑ:tʃ] *n* (*ishsiz va sh. k. ning*) och yurishi

hunger-marcher [ˈhʌŋgəˌmɑ:tʃə] *n* ochlik yurishi qatnashchisi

hunger-strike [ˈhʌŋgəstraɪk] **1.** *n* norozilik bildirib ovqatdan voz kechish; **2.** *v* ochlik e'lon qilmoq

hungry [ˈhʌŋgrɪ] *a* 1) och, och qolgan, qorni och; 2) (*nimagadir*) chanqoq (**for**)

hunk [hʌŋk] *n* bir tilim yaproq, bir parcha, bir burda (bo'lak)

hunker [ˈhʌŋkə] *n amer.* jaholatparast, taraqqiyot dushmani

hunkers [ˈhʌŋkəz] *n pl so'zl.* **on one's ~** 1) o'tirib qolgan; 2) juda og'ir ahvolda

hunks [hʌŋks] *n* o'taketgan xasis (ziqna) odam

hunky-dory [ˌhʌŋkɪ ˈdɔ:rɪ] *a* birinchi darajali

hunt [hʌnt] **1.** *n* 1) ov, ov qilish; 2) (*ni-manidir*) qidirish **(for)**; **to be on the ~ for smth.** nimanidir juda qidirmoq; **2.** *v* 1) ov qilmoq; 2) izidan bormoq; **to ~ after** quvlamoq; **to ~ down** tutib olmoq

hunter ['hʌntə] *n* 1) ovchi; 2) ovchi it; 3) cho'ntakda olib yuriladigan qopqoqli soat

hunter's moon ['hʌntəzmu:n] *n* kuzgi tengkunlikdan keyingi birinchi oy to'lgan vaqt

hunting ['hʌntɪŋ] *n* ov, ovlash; ov qilish

hunting-box ['hʌntɪŋbɔks] *n* ovchining kichkina uyi (kulbasi)

hunting-crop ['hʌntɪŋkrɔp] *n* ovchining xipchini (xivichi).

hunting-ground ['hʌntɪŋgraʊnd] *n* ovlaydigan yer (joy)

hunting-horn ['hʌntɪŋhɔ:n] *n* ovchi burg'usi (*burg'u – hayvon shoxidan yasalgan cholg'u asbobi*)

hunting-party ['hʌntɪŋ,pɑ:tɪ] *n* 1) ovlash, ov qilish; 2) ovchilar, ov qatnashchilari

hunting-season ['hʌntɪŋ,si:z(ə)n] *n* ovlash, (ov) mavsumi

hunting-whip ['hʌntɪŋwɪp] = **hunting-crop**

huntress ['hʌntrɪs] *n* ovchi ayol

huntsman ['hʌntsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) ovchi; 2) ovchilikni o'ziga kasb qilib olgan ovchi

hunt-the-slipper [,hʌntðə'slɪpə] *n* davradagi tufli (*o'yin*)

hup(p) [hʌp] **1.** *int* chu, cho' (*ot haydaganda aytiladigan xitob*); **2.** *v* otni «chu» deb haydamoq

hurdle ['hɜ:dl] **1.** *n* to'siq, chetan devor, g'ov; **2.** *v* 1) g'ov tutmoq; 2) *sport.* to'siqlar osha sakrab yugurmoq

hurdler ['hɜ:dlə] *n sport.* baryerchi (*baryer osha yuguruvchi, chopuvchi sportchi, poygachi*)

hurdle-race ['hɜ:dlreɪs] *n sport.* to'siqlar osha yugurish (*chopish*)

hurdling ['hɜ:dlɪŋ] *n* to'siqlar osha yugurish (chopish)

hurdy-gurdy ['hɜ:dɪ,gɜ:dɪ] *n* sharmanka (*burab chalinadigan qutisimon musiqa asbobi*)

hurl [hɜ:l] **1.** *n* kuchli otish (uloqtirish); **2.** *v* kuch bilan otmoq (uloqtirmoq)

hurley ['hɜ:lɪ] *n* Irlandiya chim usti xokkeyi

hurly-burly ['hɜ:lɪ,bɜ:lɪ] *n* betartib (bosh boshga qovushmagan) harakat

hurra(h) [hʊ'rɑ:] **1.** *int.* ura! (qichqiriq); **2.** *v* ura deb (baqirmoq) qichqirmoq

hurray [hʊ'reɪ] = **hurra(h)**

hurricane ['hʌrɪkən] *n* dovul, bo'ron; to'fon

hurricane-lamp ['hʌrɪkənlæmp] *n* chaqmoq chirog'i

hurried ['hʌrɪd] *a* shoshadigan, shoshqaloq, hovliqma; **to write a few ~ lines** shoshib bir necha qator yozmoq

hurriedly ['hʌrɪdlɪ] *adv* shoshilinch ravishda, shoshilib, shoshib

hurry ['hʌrɪ] **1.** *n* shoshqaloqlik; shoshilish, hovliqish; **to be in a ~** shoshilmoq; **2.** *v* 1) shoshilmoq; **to ~ off** shoshilib ketmoq; 2) shoshilinch ravishda bajarmoq

hurry-scurry [,hʌrɪ'skʌrɪ] *n* 1) yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon; 2) ovoragarchilik, yugurib-yelish, yugur-yugur

hurry-up ['hʌrɪ'ʌp] *a amer.* shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan; **~ repairs** shoshilinch ta'mirlash

hurst [hɜ:st] *n* tepalik, balandlik, do'nglik

hurt [hɜ:t] **1.** *n* 1) zarar, shikast; 2) urib olish, lat yeyish; 3) og'riq; 4) ranj-alam, xafagarchilik; **2.** *v* **(hurt)** 1) zarar yetkazmoq; 2) xafa qilmoq; **to ~ smb.'s feelings** kimnidir xafa qilmoq; 3) og'rimoq; **my hand still ~s** qo'lim hali ham og'riyapti

hurtful ['hɜ:tf(ə)l] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ozor beruvchi

hurtle ['hɜ:tl] *v* 1) g'uvullab uchmoq, uchib o'tmoq; 2) kuch bilan tashlanmoq

husband ['hʌzbənd] **1.** *n* er, qalliq; xo'jayin; **2.** *v* xo'jalikni tejamkorlik bilan yurgizmoq

husbandly ['hʌzbəndlɪ] *a* 1) erga tegishli, erniki; erlarga xos; 2) tejamkor, tejab sarf qiladigan

husbandman ['hʌzbəndmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *esk.* dehqon, ziroatchi

husbandry ['hʌzbəndrɪ] *n* 1) ayash, tejamkorlik; 2) dehqonchilik; qishloq xo'jaligi; **animal ~** chorvachilik

hush [hʌʃ] **1.** *n* sukunat, sukut saqlash; tinchlik; **2.** *v* tinchimoq; jim bo'lmoq, tinchlanmoq; **3.** *int.* jim! sekinroq!

hushaby ['hʌʃəbaɪ] *int* alla, bolam, alla

hushfully ['hʌʃfʊlɪ] *adv* pichirlab, shivirlab, past ovoz bilan

hush-hush [,hʌʃ'hʌʃ] *a* maxfiy, yashirin, sir tutiladigan

hush-money ['hʌʃ,mʌnɪ] *n* biror gapni hech kimga aytmaslik uchun olinadigan pora

husk [hʌsk] **1.** *n* qobiq, po'choq, po'st; **2.** *v* archimoq, po'chog'ini (po'stini) olmoq

husky ['hʌskɪ] **1.** *a* xirillagan, xirilloq, pishillagan, ovozi bo'g'ilgan, bo'g'iq; **2.** *n* layka (*ovchi it turi*)

hussar [hʊ'zɑ:] *n* gusar (*Chor Rossiyasi va ba'zi xorijiy armiyalarda: yengil suvoriy qismlarda xizmat etuvchi askar yoki zobit*)

hussy ['hʌsɪ] *n* 1) sayoq (suyuqoyoq) xotin, buzuq; 2) qo'rs qizcha; qo'pol muomalali qiz bola

hustings ['hʌstɪŋz] *n pl* saylov kampaniyasi

hustle ['hʌs(ə)l] *v* 1) itarmoq, itarib yurgizmoq; 2) shoshiltirmoq, tezlatmoq; 3) tez harakat qilmoq

hut [hʌt] **1.** *n* kulba, kapa, uycha; **2.** *v* kulbada yashamoq

hutch [hʌtʃ] *n* 1) sandiq; 2) *so'zl.* kulba, kapa, uycha; 3) quyon va boshqalar uchun qafas

hybrid ['haɪbrɪd] *n* gibrid, chatishma, duragay

hydra ['haɪdrə] *n* (*pl* **-rae** [-ri:]) gidra (*1. mif. Yunon afsonalarida; ko'p boshli ajdar; 2. zool. umurtqasiz suv jonivorlaridan biri*)

hydrae ['haɪdri:] *pl of* **hydra**

hydrangea [haɪ'dreɪndʒə] *n bot.* gortenziya (*yirik gulli dekorativ o'simlik*)

hydrant ['haɪdrənt] *n* gidrant (*suv quvuri kolonkasi yoki jo'mragi*)

hydrate ['haɪdreɪt] *n kim.* gidrat (*biror kimyoviy moddaning suv bilan birikmasi*)

hydraulic [haɪ'drɔlɪk] *a* gidravlikaga oid; **~ cement** gidravlik sement; **~s** gidravlika (*suyuqliklar muvozanati va harakati haqidagi fan*)

hydrocarbon [,haɪdrə(ʊ)'kɑ:bən] *n kim.* uglevodorod (*uglerod bilan vodorodning kimyoviy birikmasi*)

hydroelectric [,haɪdrəʊɪ'lektrɪk] *a* suvdan elektr toki oluvchi, gidroelektrik...

hydrogen ['haɪdrədʒ(ə)n] *n* vodorod (*kislorod bilan birikib suv hosil qiladigan kimyoviy element, yengil gaz*)

hydropathic [,haɪdrə(ʊ)'pæθɪk] **1.** *a* suv bilan davolaydigan; **2.** *n so'zl.* suv bilan davolaydigan shifoxona

hydropathy [haɪ'drɔpəθɪ] *n* suv bilan davolash

hydrophobia [,haɪdrə'fəʊbɪə] *n tib.* quturish kasalligi

hydroplane ['haɪdrəpleɪn] *n* gidroplan (*suvdan uchadigan va suvga qo'nadigan samolyot*)

hyena [haɪ'i:nə] *n zool.* sirtlon, yoldor bo'ri

hygiene ['haɪdʒi:n] *n* gigiyena (*sog'liqni saqlash nazariyasi; sog'liqni saqlashga doir amaliy choralar, ozodalik*)

hygroscopic [,haɪgrə'skɔpɪk] *a* gigroskopik, nam tortadigan, suv shimadigan

hymn [hɪm] *n* madhiya

hyperbola [haɪ'pɜ:bələ] *n* (*pl* **-lae, -s** [-z]) *mat.* giperbola (*konus kesimlaridan biri*)

hyperhole [haɪ´pɜ:bəlɪ] *n* giperbola, bo'rttirish, mubolag'a
hyperbolic(al) [ˌhaɪpə´bɒlɪk(əl)] *a* 1) *adab.* mubolag'ali, mubolag'adan iborat bo'lgan; 2) *mat.* giperbolik
hyperborean [ˌhaɪpə´bɔ:rɪən] *n* shimolning chekkasida yashaydigan kishi
hypercritical [ˌhaɪpə´krɪtɪk(ə)l] *n* 1) ayb-situvchi, tirnoq ostidan kir izlovchi; 2) juda ham qattiqqo'l
hypermarket [´haɪpəˌmɑ:kɪt] *n* gipermarket, keng maydon va katta avtomobillar to'xtash joyiga ega bo'lgan shahar chekkasida joylashgan o'z-o'ziga xizmat qilish do'koni
hypersonic [ˌhaɪpə´sɒnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (*uchadigan*); **~ a speed** tovush tezligidan hâm ortiq tezlik
hyphen [´haɪf(ə)n] **1.** *n tilsh.* defis; **2.** *v* defis bilan yozmoq, defis qo'ymoq
hyphenate [´haɪfən(e)ɪt] = **hyphen 2**
hypnosis [hɪp´nəʊsɪs] *n* gipnoz (*birovning ta'siri ostida behush bo'lish, ishontirish, ta'sir o'tkazish, sehrlash yo'li bilan uxlatib qo'yish*)
hypnotic [hɪp´nɒtɪk] *a* uyqu keltiradigan, uxlatadigan
hypnotist [´hɪpnətɪst] *n* gipnozchi (gipnoz qiluvchi) odam
hypnotize [´hɪpnətaɪz] *v* gipnoz qilmoq, behush qilmoq, sehrlamoq
hypochondriac [ˌhaɪpə´kɒndrɪæk] *n* doim sog'lig'i haqida qayg'uradigan
hypocrisy [hɪ´pɒkrɪsɪ] *n* ikkiyuzlamachilik, soxtakorlik, munofiqlik, ayyorlik
hypocrite [´hɪpəkrɪt] *a* ikkiyuzlamachi, munofiq, tilyog'lama, riyokor
hypodermic [ˌhaɪpə´dɜ:mɪk] **1.** *a* teri ostidagi, teri osti; **2.** *n* teri ostiga dori yuborish
hypothec [haɪ´pɒθɪk] *n* 1) ipoteka (*1. ko'chmas mulkni garovga olib beriladigan qarz; 2. shunday qarz olish uchun garovga qo'yilgan mulk*); 2) garov xati (hujjati)
hypotheses [haɪ´pɒθɪsi:z] *pl of* **hypothesis**
hypothesis [haɪ´pɒθɪsɪs] *n* (*pl* **-ses**) gipoteza (*ilmiy faraz*), taxmin, mo'ljal, gumon
hypothetic(al) [haɪpə´θetɪk(əl)] *a* gipotezaga asoslangan, taxminiy, faraziy
hysteria [hɪ´stɪ(ə)rɪə] *n* jazava (*asabiy-ruhiy kasallik*)
hysterical [hɪ´sterɪk(ə)l] *a* 1) jazavaga oid; 2) jazava kasaliga duchor bo'lgan, jazavasi tutadigan
hysterics [hɪ´sterɪks] *n* isterika (*isteriya tutqanog'i, asabiy tutqanoq, isteriya natijasida qattiq jazavasi tutish*)

I

I, i [aɪ] *n* ingliz alifbosining to'qqizinchi harfi
I [aɪ] *pers. pron.* men; **~ say** menga qarang; **~ am a student** men talabaman
iamb [´aɪæm(b)] = **iambus**
iambi [aɪ´æmbaɪ] *pl of* **iambus**
iambic [aɪ´æmbɪk] *a* yambga oid
iambus [aɪ´æmbəs] *n* (*pl* **-bi** [-baɪ], **-es** [-ɪz]) yamb (*she'r vazni*)
Iberian [aɪ´bɪ(ə)rɪən] **1.** *a* iberiylarga oid; **2.** *n* 1) iberiylar (*1. qadimgi sharqiy gruzin qabilalari; 2. Qadimgi Ispaniyada yashagan qabilalar*); 2) iberiy tillari
ibex [´aɪbeks] *n* (*pl* **ibices** [´(a)ɪbɪsi:z]) *zool.* tog' echkisi, tog' taka
ibices [´(a)ɪbɪsi:z] *pl of* **ibex**
ibid [´ɪbɪd] *adv* „**ibidem**" *ning qisqartmasi*
ibidem [´ɪbɪdem] *adv lot.* o'sha yerda, o'sha joyda
ibis [´aɪbɪs] *n zool.* ibis (*issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o'xshash uzunoyoq qush*)
ice [aɪs] *n* muz; **to keep smth. on ~** muzlatgichda saqlamoq; **~-age** muz davri
ice-axe [´aɪsæks] *n* muzyorar bolta (*alpinistlarda*)
ice bag [´aɪsbæg] *n tib.* muz solinadigan rezinka xalta
iceberg [´aɪsbɜ:g] *n* aysberg (*suzib yuruvchi muztog'*)
iceblink [´aɪsblɪŋk] *n* muz tovlanishi, muzdagi shu'la
iceboat [´aɪsbəʊt] *n* 1) buyer (*muzda yuradigan yelkanli chana, yengil yelkanli qayiq*); 2) muzyorar, muzyorar kema
icebox [´aɪsbɒks] *n* sovuqxona, muzxona, muzlatgich
icebreaker [´aɪsˌbreɪkə] *n* 1) muzyorar, muzyorar kema; 2) *so'zl.* suhbatni boshlashga yordam beruvchi narsa, mavzu; (*suhbatda*) o'rtadagi sovuq munosabatni, tanglikni bartaraf qiladigan so'z, fikr-mulohaza
ice-cold [ˌaɪs´kəʊld] *a* muzdek (muzday) sovuq
ice-cream [ˌaɪs´kri:m] *n* morojniy, muzqaymoq
ice-cube [´aɪskju:b] *n* kubik shaklidagi muz
ice-drift [´aɪsdrɪft] *n* muzning shamol va oqim bilan siljib yurishi
ice-field [´aɪsfi:ld] *n* muz maydoni
ice-floe [´aɪsfləʊ] *n* suzib yuradigan muz
ice hockey [´aɪsˌhɒkɪ] *n sport.* muz ustida xokkey
ice-house [´aɪshaʊs] *n* sovuqxona, muzxona
Icelander [´aɪslændə] *n* islandiyalik kishi *yoki* ayol
iceman [´aɪsmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) muzqaymoq sotuvchi kishi; 2) alpinist
ice pack [´aɪspæk] *n* qutb suvlarida suzib yuradigan ko'p yillik qalin muz
ice-skate [´aɪsskeɪt] *v* konkida uchmoq
ice-yacht [´aɪsjɒt] *n* buyer (*muzda yuradigan yelkanli chana, yengil yelkanli qayiq*)
ichneumon [ɪk´nju:mən] *n zool.* ixnevmon, fir'avn sichqoni (*kichkina sutemizuvchi yirtqich hayvon, kemiruvchilar kushandasi*)
ichthyoid [´ɪkθɪɔɪd] *a* baliqsimon, baliqqa o'xshagan
ichthyologist [ˌɪkθɪ´ɒlədʒɪst] *n* ixtiologiya mutaxassisi, ixtiolog
ichthyology [ˌɪkθɪ´ɒlədʒɪ] *n* zoologiyaning baliqlar haqidagi bo'limi, ixtiologiya
ichthyosaurus [ˌɪkθɪə´sɔ:rəs] *n* (*pl* **-ri** [-raɪ]) ixtiozavr (*tuxumi qurib ketgan sudraluvchi dengiz hayvoni*)
icicle [´aɪsɪk(ə)l] *n* sumalak (*qorning erib qayta muzlashi natijasida hosil bo'lgan naysimon muz*)
icily [´aɪsɪlɪ] *adv* 1) sovuq; 2) *ko'ch.* iltifotsiz, sovuq
icing [´aɪsɪŋ] *n* muzlatish, muzlash
icon [´aɪkɒn] *n* 1) ikona ..., but, sanam; 2) o'yma naqsh, surat
iconic [aɪ´kɒnɪk] *a* 1) portretga oid; 2) ikonalarga taalluqli, oid, xos
iconoclast [aɪ ´kɒnəklæst] *n* urf-odatlarga qarshi kurashuvchi kishi
iconography [ˌaɪkə´nɒgrəfɪ] *n* ikonografiya (*biror kishi yoki sujetga doir tasvirlarni o'rganish va tavsiflash*)
iconoscope [aɪ ´kɒnəskəʊp] *n* ikonoskop (*televideniyada: tasvir uzatadigan elektron nur trubka*)
icteric [ɪk´terɪk] *a* sariq kasaliga oid
icterus [´ɪktərəs] *n tib.* sariq, sariq kasali (kasalligi)
ictus [´ɪktəs] *n tib.* tomir urishi
icy [´aɪsɪ] *a* 1) muzli, muzday, juda ham sovuq; 2) befarq, e'tiborsiz, sovuq; 3) muz bilan qoplangan
I'd [aɪd] = **I would, I should, I had**
idea [aɪ´dɪə] *n* 1) fikr, g'oya; 2) tushuncha; **to give an ~ of smth.** nimadir haqida ozgina tushuncha bermoq
ideal [aɪ´dɪəl] **1.** *n* oliy maqsad; eng yuksak orzu; **2.** *a* 1) har jihatdan yaxshi, bekam-ko'st, ko'ngildagidek, a'lo darajadagi, zo'r, ajoyib; **an ~ gift** ajoyib sovg'a; 2) tasavvuriy, xayoliy; 3) noreal, amalga oshmaydigan

idealism [aɪˈdɪəlɪz(ə)m] *n* idealizm (*butun borliqning negizi materiya emas, balki ong, ruh deb biluvchi falsafiy oqim*)
idealist [aɪˈdɪəlɪst] *n* 1) idealist, idealizmga amal qiluvchi; 2) xayolparast, orzu-xayollarga beriluvchi odam, tajribasiz odam
idealistic [ˌaɪdɪəˈlɪstɪk] *n* idealizm ruhidagi
ideality [ˌaɪdɪˈælɪtɪ] *n* har jihatdan bekam-ko'stlik
idealization [aɪˌdɪəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* ideallashtirish
idealize [aɪˈdɪəlaɪz] *v* benuqson qilib ko'rsatmoq
ideally [aɪˈdɪəlɪ] *adv* juda soz, juda yaxshi, a'lo darajada
idem [ˈ(a)ɪdem] *n* aynan o'sha muallif; aynan o'sha kitob; aynan o'sha so'z
identic [aɪˈdentɪk] = **identical**
identical [aɪˈdentɪk(ə)l] *a* 1) xuddi o'zi, o'zginasi; 2) aynan, bir xil, o'xshash; 3) teng
identification [aɪˌdentɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* shaxsni (kimligini) tanish, biror kishining shaxsiyatini tasdiqlaydigan hujjatlar
identify [aɪˈdentɪfaɪ] *v* 1) aniqlamoq; 2) tanimoq, tanib olmoq
identity [aɪˈdentɪtɪ] *n* 1) aynan o'xshashlik, tenglik, bir xillik; 2) asllik, chinlik, to'g'rilik, haqiqiylik; 3) shaxsiyat; **to establish smb.'s ~** kimningdir shaxsiyatini aniqlamoq; **an ~ card** shaxsni tasdiqlovchi hujjat; 4) o'ziga xoslik, o'ziga xos xususiyat; **national ~** millatning o'ziga xos xususiyati
ideogram [ˈɪdɪəgræm] *n* ideogramma (*butun so'z yoki tushunchani ifodalovchi yozuv belgisi*)
ideograph [ˈɪdɪəgrɑːf] = **ideogram**
ideographic(al) [ˌɪdɪəˈgræfɪk(əl)] *a* ideogramma asosidagi, ideografik, ideografikaga oid
ideological [ˌaɪdɪəˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* g'oyaviy, mafkuraviy, ideologik
ideologist [ˌaɪdɪˈɒlədʒɪst] *n* ideolog (*biror sinf, ijtimoiy-siyosiy tuzum mafkurasining himoyachisi yoki yo'lboshchisi*)
ideology [ˌaɪdɪˈɒlədʒɪ] *n* mafkura, g'oya; dunyoqarash; **to embrace smb.'s ~** kimningdir g'oyasini qo'llab-quvvatlamoq
idiocy [ˈɪdɪəsɪ] *n* 1) *tib.* esi pastlik, ovsarlik; 2) *so'zl.* ahmoqlik, tentaklik, ahmoqona ish
idiom [ˈɪdɪəm] *n* 1) idioma (*ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora*); 2) idiomatik ibora
idiomatic [ˌɪdɪəˈmætɪk] *a* idiomaga oid, idiomaga boy bo'lgan
idiosyncrasy [ˌɪdɪəˈsɪŋkrəsɪ] *n tib.* idiosinkraziya (*organizmning ba'zi narsalar ta'sirini ko'tara olmasligi*)
idiot [ˈɪdɪət] *n* esi past (ovsar, tentak, telba) odam
idiotic [ˌɪdɪˈɒtɪk] *a* 1) esi past odamlarga oid; 2) *so'zl.* ahmoqona, bema'ni
idle [ˈaɪdl] **1.** *a* 1) band bo'lmagan, ishlamaydigan, bo'sh; 2) yalqov, erinchoq; **2.** *v* 1) ishsiz yurmoq, vaqtni bekor o'tkazmoq; 2) dangasalik qilmoq
idle-headed [ˌaɪdlˈhedɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq
idleness [ˈaɪdlnəs] *n* bekorchilik, bekor (bo'sh) yurish; ishsizlik
idler [ˈaɪdlə] *n* bekorchi, erinchoq, yalqov, tanbal, ishyoqmas
idling [ˈaɪdlɪŋ] *n* bekorchilik, bo'sh yurish
idly [ˈaɪdlɪ] *adv* 1) yalqovlik (dangasalik, tanballik, ishyoqmaslik) bilan; 2) bekor, ishlamasdan, ish qilmay
idol [ˈaɪdl] *n* but, sanam
idolater [aɪˈdɒlətə] *n* butparast
idolatry [aɪˈdɒlətrɪ] *n* butparastlik
idolize [ˈaɪd(ə)laɪz] *v* haddan tashqari sevmoq; sajda qilmoq; xudo deb bilmoq
idyl(l) [ˈ(a)ɪdl] *n* 1) *adab.* tabiat quchog'idagi tinch va osoyishta hayotni tasvirlovchi kichik she'riy asar; 2) *ko'ch.* tinch va osoyishta hayot, rohat va farog'at
idyllic [(a)ɪˈdɪlɪk] *a* 1) rohat-farog'atdagi; 2) tinch, osoyishta; **an ~ life** osoyishta hayot
if [ɪf] *cj* 1) agar, agarda; 2) koshki; **as ~** go'yo, go'yoki
iffy [ˈɪfɪ] *a amer* noaniq, noma'lum
igloo [ˈɪglu:] *n* (*pl* **igloos**) iglu (*Shimoliy Amerika eskimoslarining muz plitalaridan qilingan uylari*)
igneous [ˈɪgnɪəs] *a* 1) o'tga (*alangaga*) oid; alangali; 2) *geol.* otilib chiqqan
ignite [ɪgˈnaɪt] *v* yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq
igniter [ɪgˈnaɪtə] *n tex.* o't oldirgich
ignition [ɪgˈnɪʃ(ə)n] *n* yoqish, yondirish, o't oldirish
ignoble [ɪgˈnəʊb(ə)l] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash; **an ~ person** razil odam
ignominious [ˌɪgnəˈmɪnɪəs] *a* 1) uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan; 2) vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz
ignominy [ˈɪgnəmɪnɪ] *n* 1) badnom bo'lish; 2) vijdonsizlik, tubanlik
ignoramus [ˌɪgnəˈreɪməs] *lot. n* o'qimagan odam, nodon
ignorance [ˈɪgnərəns] *n* nodonlik, johillik, bilimsizlik
ignorant [ˈɪgnərənt] *a* johil, bilimsiz, nodon, o'qimagan
ignore [ɪgˈnɔ:] *v* e'tiborsiz qoldirmoq, mensimaslik
ikon [ˈaɪkɒn] = **icon**
ilex [ˈaɪleks] *n bot.* padub (*nayza bargli daraxtning bir turi*)
ilia [ˈɪlɪə] *n pl anat.* qovurg'a bilan qorin orasidagi ichaklar
iliac [ˈɪlɪæk] *a anat.* qovurg'a bilan qorin orasidagi
ilk [ɪlk] *n* nav, tur, xil
ill [ɪl] **1.** *a* kasal, betob; **to be ~** kasal bo'lmoq; **2.** *n* balo, ofat, zarar, ziyon; **3.** *adv* yomonlik bilan, yomon tarzda
I'll [aɪl] = **I will, I shall**
ill-advised [ˌɪlədˈvaɪzd] *a* yengiltak, o'ylamasdan ish qiladigan
ill-affected [ˌɪləˈfektɪd] *a* birovga yaxshilik qilmaydigan, yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, yomonlik tilovchi (qiluvchi)
illation [ɪˈleɪʃ(ə)n] *n mant.* xulosa, natija
illative [ɪˈleɪtɪv] *a* yakunlovchi, so'nggi
ill-bred [ˌɪlˈbred] *a* 1) dag'al, qo'pol, qo'rs; 2) yomon tarbiya olgan, tarbiyasi yomon, tarbiya ko'rmagan, beadab, tarbiyasiz
ill-breeding [ˌɪlˈbri:dɪŋ] *n* tarbiya ko'rmaganlik, tarbiyasizlik, beadablik
ill-considered [ˌɪlkənˈsɪdəd] *a* yaxshi o'ylab ko'rilmagan, o'ylamasdan qilingan, bemulohaza
illegal [ɪˈli:g(ə)l] *a* qonunga xilof, yashirin, maxfiy, noqonuniy, g'ayriqonuniy
illegality [ˌɪlɪˈgælɪtɪ] *n* g'ayriqonuniylik, qonunga xiloflik
illegibility [ɪˌledʒəˈbɪlɪtɪ] *n* noaniqlik, o'qib bo'lmaydiganlik, tushunib bo'lmaydiganlik
illegible [ɪˈledʒəb(ə)l] *a* o'qilishi qiyin (*yozuv haqida*)
illegitimacy [ˌɪlɪˈdʒɪtɪməsɪ] *n* 1) g'ayriqonuniy, qonunga xiloflik, qonunsizlik; 2) nikohsiz tug'ilganlik
illegitimate [ˌɪlɪˈdʒɪtɪmɪt] **1.** *a* 1) noqonuniy, g'ayriqonuniy, qonunga xilof; 2) nikohsiz tug'ilgan, haromi; **2.** *n* nikohsiz tug'ilgan bola
ill-fated [ˌɪlˈfeɪtɪd] *a* baxtsiz, behaxt, baxti qora, peshanasi sho'r
ill-favo(u)red [ˌɪlˈfeɪvəd] *a* xunuk, yoqimsiz, noxush, ko'ngilsiz, yomon
ill-founded [ˌɪlˈfaʊndɪd] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan, noo'rin
illiberal [ɪˈlɪb(ə)rəl] *a* o'qimagan, jaholatda qolgan, nodon, yomon tarbiya topgan
illicit [ɪˈlɪsɪt] *a* 1) man etilgan; 2) qonunga xilof, g'ayriqonuniy

illimitable [ɪˈlɪmɪtəb(ə)l] *a* cheklanmagan, cheksiz, hadsiz
illiteracy [ɪˈlɪt(ə)rəsɪ] *n* savodsizlik, bilimsizlik, omilik
illiterate [ɪˈlɪt(ə)rɪt] **1.** *n* o'qimagan (bilimsiz, ilmsiz, nodon) kishi; **2.** *a* savodsiz, o'qimagan, omi
ill-judged [ˌɪlˈdʒʌdʒd] *a* aqli yo'q, beaql, aqlsiz, kaltafahm
ill-luck [ˈɪlˈlʌk] *n* sira omadi yurishmaslik, ishi yurishmaslik, omadsizlik, muvaffaqiyatsizlik
ill-mannered [ˌɪlˈmænəd] *a* tarbiya ko'rmagan, tarbiyasiz, beadab; qo'pol, qo'rs
illness [ˈɪlnəs] *n* kasallik, xastalik; illat, dard, betoblik, nosog'lik, og'riq
illogical [ɪˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* mantiqsiz, bemantiq
illogicality [ɪˌlɒdʒɪˈkælətɪ] *n* mantiqsizlik, bemantiqlik
ill-omened [ˌɪlˈəʊmənd] *a* dahshatli, vahimali, mudhish
ill-suited [ˌɪlˈs(j)u:tɪd] *a* yaroqsiz, yaramaydigan, nomunosib, nobop, noqulay
ill-tempered [ˌɪlˈtempəd] *a* fe'li buzuq; serjahl
ill-timed [ˌɪlˈtaɪmd] *a* bemavrid, o'rinsiz, noo'rin
ill-treat [ˌɪlˈtri:t] *v* yomon muomala qilmoq, qo'pol muomala qilmoq
ill-treatment [ˌɪlˈtri:tmənt] *n* yomon muomala, qo'pollik, dag'allik
illume [ɪˈl(j)u:m] = **illumine**
illuminant [ɪˈl(j)u:mɪnənt] *n* yorug'lik manbayi; yoritish vositasi, yoritgich
illuminate [ɪˈl(j)u:mɪneɪt] *v* nur sochmoq, yoritmoq, munavvar qilmoq
illuminating [ɪˈl(j)u:mɪneɪtɪŋ] *a* yoritishga oid, yoritadigan, yorituvchi, yoritish...; ~ **gas** yoritgich (yonadigan) gaz, yoritish uchun ishlatiladigan gaz
illumination [ɪˌl(j)u:mɪˈneɪʃ(ə)n] *n* yoritish, nur sochish
illuminative [ɪˈl(j)u:mɪnətɪv] *a* yoritadigan, yorituvchi
illumine [ɪˈl(j)u:mɪn] *v* nur sochmoq, yoritmoq, munavvar qilmoq
illusion [ɪˈlu:ʒ(ə)n] *n* 1) illuziya (*aldanish, soxta tushuncha*); 2) xayol, xayolot, xom xayol
illusionist [ɪˈlu:ʒ(ə)nɪst] *a* 1) orzu-xayollarga beriluvchan odam, xayolparast; 2) ko'zboylog'ich, ko'zbog'lovchi, fokuschi
illusive [ɪˈlu:sɪv] *a* yolg'ondan iborat bo'lgan, yolg'on, puch, amalga oshirib bo'lmaydigan
illusory [ɪˈlu:s(ə)rɪ] = **illusive**
illustrate [ˈɪləstreɪt] *v* rasmlar bilan bezamoq
illustration [ˌɪləsˈtreɪʃ(ə)n] *n* rasmlar bilan bezash
illustrative [ˈɪləstrətɪv] *a* tasviriy, ko'rgazmali
illustrator [ˈɪləstreɪtə] *n* musavvir, kitob, jurnal va sh. k. ni bezovchi rassom
illustrious [ɪˈlʌstrɪəs] *a* mashhur, atoqli, buyuk, taniqli
ill-wisher [ˌɪlˈwɪʃə] *n* birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan (yomonlik tilaydigan) odam, ichi qora odam
I'm [aɪm] = **I am**
image [ˈɪmɪdʒ] **1.** *n* ko'rinish, qiyofa, siymo, haykal, soya, obraz, namuna, tasvir, surat, rasm, shakl; **2.** *v* 1) tasvirlamoq, aks ettirmoq, ifoda etmoq; **a poet ~ s his hero** shoir o'z qahramonini aks ettirgan; 2) ta'riflamoq
imagery [ˈɪmɪdʒ(ə)rɪ] *n* 1) ifodalilik, ta'sirchanlik, jonlilik; 2) tasavvur
imaginable [ɪˈmædʒ(ə)nəb(ə)l] *a* xayolga keladigan, faraz qilinadigan, tasavvur qilsa bo'ladigan
imaginary [ɪˈmædʒ(ə)n(ə)rɪ] *a* tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilinadigan
imagination [ɪˌmædʒɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) o'ylash, xayol qilish; 2) xayol, faraz, tasavvur
imaginative [ɪˈmædʒ(ə)nətɪv] *a* xayoliy, tasavvuriy
imagine [ɪˈmædʒɪn] *v* 1) tasavvur qilmoq; ko'z oldiga (xayoliga) keltirmoq; 2) faraz qilmoq
imbalance [ɪmˈbæləns] *n* nomutanosiblik, mos emaslik
imbecile [ˈɪmbəsi:l] *n* aqli kam, aqli past kishi
imbecility [ˌɪmbɪˈsɪlɪtɪ] *n* aqli kamlik, aqli pastlik, aqli zaiflik
imbed [ɪmˈbed] *v* ichiga o'rnatmoq, solmoq, ichiga o'yib (joylab) ishlamoq
imbibe [ɪmˈbaɪb] *v* to'ydirmoq, to'yg'izmoq, qondirmoq; yutmoq, tortmoq
imbrex [ˈɪmbreks] *n* (*pl* **imbrices** [ˈɪmbrɪsi:z]) *qur.* tomga yopiladigan novanova sopol (*cherepitsa*)
imbroglio [ɪmˈbrəʊlɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) chigallik, chalkashlik; tushunmovchilik
imbrue [ɪmˈbru:] *v* qonga bo'yamoq, qonga belamoq, qon to'kmoq
imbue [ɪmˈbju:] *v* 1) to'ydirmoq, to'yg'izmoq; 2) (*matoni*) bo'yamoq
imitate [ˈɪmɪteɪt] *v* 1) taqlid qilmoq; 2) o'xshatmoq; 3) qalbakilashtirmoq; **to ~ money** pulni qalbakilashtirmoq
imitation [ˌɪmɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) taqlid qilish; o'xshatish; 2) o'xshatish, qalbakilashtirish
imitative [ˈɪmɪtətɪv] *a* 1) taqlidga oid, taqlidiy, o'xshatiladigan; ~ **arts** tasviriy san'at; 2) yasama, haqiqiy emas, qalbaki
imitator [ˈɪmɪteɪtə] *n* taqlidchi, taqlid qiluvchi
immaculacy [ɪˈmækjʊləsɪ] *n* ozodalik, pokizalik, tozalik, poklik, beg'uborlik
immaculate [ɪˈmækjʊlɪt] *a* beg'ubor; dog' tushmagan; toza, ozoda, pokiza
immanent [ˈɪmənənt] *a* o'ziga xos, odatdagi, doimiy
immaterial [ˌɪməˈtɪ(ə)rɪəl] *a* ahamiyatsiz, ahamiyati yo'q, hech qanday ahamiyat kasb etmaydigan
immature [ˌɪməˈtʃʊə] *a* yetilib pishmagan; xom; ~ **fruit** pishmagan mevalar
immaturity [ˌɪməˈtʃʊərətɪ] *n* yetilib pishmaganlik, yetilmaganlik, xomlik, g'o'rlik
immeasurability [ɪˌmeʒ(ə)rəˈbɪlətɪ] *n* o'lchab (solishtirib, qiyoslab) bo'lmaydiganlik, beo'lchovlik, cheksizlik
immeasurable [ɪˈmeʒ(ə)rəb(ə)l] *a* beqiyos, behad, juda katta, ulkan
immediacy [ɪˈmi:dɪəsɪ] *n* 1) kechiktirilmaslik; zud-zarurlik; orqaga (keyinga) qoldirib bo'lmaslik; 2) yaqinlik, bevositalik
immediate [ɪˈmi:dɪət] *a* 1) tez, shoshilinch; ~**ness** zudlik; 2) to'g'ridan to'g'ri, bevosita
immediately [ɪˈmi:dɪətlɪ] *adv* 1) darrov, shartta; 2) to'g'ridan to'g'ri, bevosita
immedicable [ɪˈmedɪkəb(ə)l] *a* tuzatib bo'lmaydigan, davosi yo'q, bedavo
immemorial [ˌɪməˈmɔ:rɪəl] *a* juda ilgarigi, qadimgi; ~ **customs** qadimgi urf-odatlar
immense [ɪˈmens] *a* 1) g'oyat katta, ulkan; ~ **armies** ulkan armiya; 2) cheksiz, bepoyon
immensely [ɪˈmensh] *adv* o'ta, juda ham, haddan tashqari, behad
immensity [ɪˈmensɪtɪ] *n* beo'lchovlik, cheksizlik, bepoyonlik
immerse [ɪˈmɜ:s] *v* botirmoq, sho'ng'itmoq, g'arq bo'lish; cho'ktirmoq, g'arq qilmoq
immersion [ɪˈmɜ:ʃ(ə)n] *n* botish, cho'kish, cho'ktirish, suv ostiga tushirish
immigrant [ˈɪmɪgrənt] *n* muhojir, ko'chib kelgan kishi
immigrate [ˈɪmɪgreɪt] *v* boshqa joyga ko'chirmoq
immigration [ˌɪmɪˈgreɪʃ(ə)n] *n* ko'chish, ko'chib o'tish; muhojirlik
imminence [ˈɪmɪnəns] *n* muqarrarlik, qochib (qutulib, oldini olib) bo'lmaydiganlik
imminent [ˈɪmɪnənt] *a* yaqin, yaqinlashib kelayotgan, xavf solib turgan
immitigable [ɪˈmɪtɪgəb(ə)l] *a* bir so'zli, qattiq, gapga unamaydigan

immixture [ɪˈmɪkstʃə] *n* 1) aralashish, birga qatnashish; 2) daxldorlik, aloqadorlik
immobile [ɪˈməʊbaɪl] *a* qimirlamaydigan, ko'chmaydigan, ko'chmas
immobility [ˌɪməʊˈbɪlɪtɪ] *n* qimirlamaslik, qilt etmaslik, qotib qolishlik
immobilize [ɪˈməʊbɪlaɪz] *v* qimirlamaydigan qilib qo'ymoq; muzlatib (olomaydigan, muomalada yurmaydigan) qilib qo'ymoq (*mas., hisob raqamidagi pul, mablag' va b. ni*); **their funds were ~d** ularning mablag' (pul)lari muzlatib qo'yildi
immoderate [ɪˈmɒd(ə)rɪt] *a* cheksiz, o'lchovsiz, o'ta, haddan tashqari
immodest [ɪˈmɒdɪst] *a* benomus, uyatsiz, hayosiz, beadab
immodesty [ɪˈmɒdɪstɪ] *n* bezbetlik, surbetlik, beadablik, hayosizlik
immolate [ˈɪməleɪt] *v* qurbonlik qilmoq
immolation [ˌɪməˈleɪʃ(ə)n] *n* qurbonlik, qurbonlik qilish
immoral [ɪˈmɒrəl] *a* axloqsiz, beadab
immorality [ˌɪməˈrælətɪ] *n* axloqsizlik, beadablik, odobsizlik
immortal [ɪˈmɔːt(ə)l] *a* o'lmas, boqiy, o'lmaydigan, abadiy yashaydigan
immortality [ˌɪmɔːˈtælɪtɪ] *n* mangulik; o'lmaslik, boqiylik, abadiylik
immortalization [ɪˌmɔːtəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* abadiy xotira qilib qoldirish, abadiylashtirish, abadiy nom qoldirish
immortalize [ɪˈmɔːtəlaɪz] *v* abadiylashtirmoq, umrbod esdalik qilib qoldirmoq
immortelle [ˌɪmɔːˈtel] *n bot.* o'lmas o't (*quriganda ham guli o'zgarmaydigan o't*); bo'znoch (*o'tsimon o'simlik*)
immovability [ɪˌmuːvəˈbɪlɪtɪ] *n* qo'zg'almaydiganlik, qimirlamaydiganlik, harakat qilmaydiganlik, harakatsizlik, qotganlik, qo'zg'almaslik
immovable [ɪˈmuːvəb(ə)l] *a* 1) ko'chmas; qo'zg'almas, qo'zg'almaydigan, harakat qilmaydigan; 2) puxta, mahkam
immune [ɪˈmjuːn] *a* 1) *tib.* kasal yuqmaydigan; 2) (*nimadandir*) ozod, ozod qilingan; 3) himoya qilingan
immunity [ɪˈmjuːnɪtɪ] *n* 1) *tib.* immunitet (*organizmning kasal yuqtirmasligi va kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati*); 2) daxlsizlik; 3) (*soliq to'lash va b. dan*) ozod qilish
immunization [ˌɪmjʊnaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n tib.* immunizatsiya (*organizmni kasal yuqmaydigan qilish*)
immunize [ˈɪmjʊnaɪz] *v* 1) daxlsizlik huquqini bermoq; 2) *tib.* kasal yuqmaydigan qilmoq
immure [ɪˈmjʊə] *v* qamamoq, qamab qo'ymoq, zindonga tashlamoq
immurement [ɪˈmjʊəmənt] *n* qamash, qamab qo'yish, zindonga tashlash
immutability [ɪˌmjuːtəˈbɪlɪtɪ] *n* o'zgarmaydiganlik, o'zgarmaslik, doimiylik
immutable [ɪˈmjuːtəb(ə)l] *a* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy
imp [ɪmp] *n* tirrancha, sho'x bola, shumtaka, shayton (*bola haqida*)
impact 1. *n* [ˈɪmpækt] 1) ta'sir, zarba, impuls (*ichki turtki*); 2) ta'sir; oqibat; 3) *fiz.* zarba kuchi; 2. *v* [ɪmˈpækt] 1) qismoq, qattiq mahkamlamoq; 2) zarba bermoq (*sportda*); 3) **(on)** ta'sir ko'rsatmoq
impair [ɪmˈpeə] *v* 1) zaiflashtirmoq, kuchquvvatdan qoldirmoq, kamaytirmoq; 2) (*sifatni*) pasaytirmoq; 3) yomonlashtirmoq; zarar yetkazmoq
impaired [ɪmˈpeəd] *a* sekinlashtirilgan, sekinlatilgan, susaytirilgan; sekinlashgan, susaygan
impale [ɪmˈpeɪl] *v* sanchmoq, tiqmoq
impalpability [ɪmˌpælpəˈbɪlɪtɪ] *n* sezmaydiganlik, sezilmaslik, his qilib bo'lmaydiganlik
impalpable [ɪmˈpælpəb(ə)l] *a* 1) sezilmaydigan, sezib bo'lmaydigan; eng kichik; 2) farq qilib bo'lmaydigan; 3) tushunishga qiyin, tushunilishi qiyin bo'lgan
imparity [ɪmˈpærɪtɪ] *n* tengsizlik, baravar emaslik
impark [ɪmˈpɑːk] *v* (*yovvoyi hayvonlarni*) parkka joylashtirmoq
impart [ɪmˈpɑːt] *v* 1) (*fikr va sh. k. ni*) o'rtoqlashmoq, bo'lishmoq, aytmoq, yetkazmoq; 2) bermoq, baxsh etmoq, kiritmoq, biror holatga keltirmoq (solmoq)
impartial [ɪmˈpɑːʃ(ə)l] *a* xolis; adolatli, beg'araz
impartiality [ɪmˌpɑːʃɪˈælɪtɪ] *n* betaraflik, beg'arazlik, adolatlilik
impartible [ɪmˈpɑːtɪb(ə)l] *a* bo'linmas, bo'linmaydigan
impassable [ɪmˈpɑːsəb(ə)l] *a* o'tib bo'lmaydigan, o'tish qiyin bo'lgan
impasse [æmˈpɑːs] *n fr.* 1) qiyin ahvol; 2) boshi berk ko'cha
impassibility [ɪmˌpæsəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) ehtirossizlik, beparvolik, sovuqqonlik, vazminlik; 2) his-tuyg'usi o'lganlik, sezmaslik, eti o'liklik
impassible [ɪmˈpæsəb(ə)l] *a* 1) ehtirossiz, hayajonsiz, beparvo, sovuqqon; 2) (*og'riq va sh. k. ni*) sezmaydigan
impassioned [ɪmˈpæʃ(ə)nd] *a* qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yuragida o'ti bor
impassive [ɪmˈpæsɪv] *a* (*kishiga nisbatan*) vazmin, og'ir, hovliqmaydigan
impaste [ɪmˈpeɪst] *v* qormoq, pishirmoq
impatience [ɪmˈpeɪʃ(ə)ns] *n* sabrsizlik, besabrlik, toqatsizlik; **to wait with ~ for smb.** sabrsizlik bilan kimnidir kutmoq
impatient [ɪmˈpeɪʃ(ə)nt] *a* sabrsiz, besabr, betoqat
impeach [ɪmˈpiːtʃ] *v* ayb qo'ymoq, ayblamoq
impeachment [ɪmˈpiːtʃmənt] *n* 1) oliy martabali shaxslarni javobgarlikka tortish; 2) ayblash
impeccability [ɪmˌpekəˈbɪlɪtɪ] *n* xato qilmaslik, adashmaslik, yanglishmaslik; shubhaga o'rin qoldirmaslik; bexatolik, beayblik; benuqsonlik, to'ppa-to'g'rilik
impeccable [ɪmˈpekəb(ə)l] *a* xato qilmaydigan, adashmaydigan
impecunious [ˌɪmpɪˈkjuːnɪəs] *a* kambag'al, qashshoq; pulsiz, pulga muhtoj
impede [ɪmˈpiːd] *v* 1) to'sqinlik qilmoq, xalal bermoq; 2) (*yo'l harakati, muzokara va b. ni*) og'irlashtirmoq
impediment [ɪmˌpedɪmənt] *n* 1) to'siq, g'ov; 2) duduqlanish, nutqdagi nuqson
impedimental [ɪmˌpedɪˈment(ə)l] *a* to'sqinlik qiladigan, to'siq (to'sqin, g'ov, to'g'onoq) bo'ladigan
impel [ɪmˈpel] *v* 1) harakatga keltirmoq; 2) biror ish qilishga undamoq
impellent [ɪmˈpelənt] 1. *a* harakatga soluvchi (keltiruvchi); harakatlantiruvchi; 2. *n* harakatga soluvchi (keltiruvchi, harakatlantiruvchi) kuch
impeller [ɪmˈpelə] *n tex.* parrakli g'ildirak
impend [ɪmˈpend] *v* xavf solib turmoq, tahdid qilmoq
impendence [ɪmˈpend(ə)ns] *n* yaqinlik; chetlab o'tib bo'lmaydiganlik, muqarrarlik, albatta bo'ladiganlik
impendent [ɪmˈpendənt] *a* 1) xavf tug'dirayotgan, yaqinlashib kelayotgan; 2) chetlab o'tib (qochib, qutulib) bo'lmaydigan
impending [ɪmˈpendɪŋ] *a* 1) yaqinda bo'ladigan; 2) qo'rqitadigan, xavf soladigan, xavf solib turgan
impenetrability [ɪmˌpenɪtrəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) imkoni (iloji) yo'qlik, mumkin emaslik; 2) o'tib bo'lmaslik, o'tish qiyinlik
impenetrable [ɪmˈpenɪtrəb(ə)l] *a* o'tib bo'lmaydigan, o'tish qiyin, o'tmaydigan
impenitence [ɪmˈpenɪt(ə)ns] *n* achinmaslik, afsuslanmaslik, pushaymon bo'lmaslik, o'kinmaslik, tavba qilmaslik
impenitent [ɪmˈpenɪt(ə)nt] *a* 1) achinmaydigan, afsuslanmaydigan, pushaymon bo'lmaydigan, tavba qilmaydigan; 2) mahkam o'rnashgan, tomir

yoygan, qonga (suyakka) singib ketgan

imperatival [ɪm,perə´taɪv(ə)l] *a gram.* buyruq mayliga oid

imperative [ɪm´perətɪv] *a* buyruq tarzidagi; **~ mood** *gram.* buyruq mayli

imperceptible [ˌɪmpə´septəb(ə)l] *a* sezilmaydigan, bilinmaydigan

imperfect [ɪm´pɜ:fɪkt] **1.** *a* mukammal emas, tugallanmagan; **2.** *n gram.* tugallanmagan o'tgan zamon; **~ive** *gram.* tugallanmagan (*slavyan tillaridagi ko'rinish haqida*)

imperfection [ˌɪmpə´fekʃ(ə)n] *n* 1) mukammal (barkamol, yetuk) emaslik, takomillashmaganlik, chala; 2) kamchilik, nuqson

imperial [ɪm´pɪ(ə)rɪəl] *a* 1) imperiyaga oid; imperiyaga xos; 2) imperatorga oid; 3) ulug'vor, hashamatli, muhtasham

imperialism [ɪm´pɪ(ə)rɪəlɪz(ə)m] *n* imperializm

imperialist [ɪm´pɪ(ə)rɪəlɪst] *n* imperialist

imperialistic [ɪm,pɪ(ə)rɪə´lɪstɪk] *a* imperializmga oid (xos)

imperil [ɪm´pɪ(ə)rɪl] *v* xavf ostida bo'lmoq, xavf-xatarda qolmoq

imperious [ɪm´pɪ(ə)rɪəs] *a* buyruq (farmon, amr) tarzida, amirona

imperishability [ɪm,perɪʃə´bɪlɪtɪ] *n* mustahkamlik, mahkamlik; abadiylik, azaliylik, mangulik, doimiylik

imperishable [ɪm´perɪʃəb(ə)l] *a* 1) buzilmas, buzilmaydigan, mustahkam; 2) abadiy, azaliy, mangu

impermanent [ɪm´pɜ:mənənt] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan; doimiy emas; uzoq davom etmaydigan; vaqtinchalik

impermeable [ɪm´pɜ:mɪəb(ə)l] *a* o'tkazmaydigan, o'tmaydigan; **~ to water** suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan

impermissible [ˌɪmpə´mɪsəb(ə)l] *a* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya, nojoiz

impersonal [ɪm´pɜ:s(ə)n(ə)l] *a gram.* shaxssiz, shaxsi topilmas, shaxsi noma'lum

impersonality [ɪm,pɜ:sə´nælɪtɪ] *n* 1) o'z qiyofasiga (o'ziga xos xususiyatga) ega bo'lmaganlik, boshqalardan farqli (ajralib turadigan) yeri yo'qlik; 2) xolislik, betaraflik, beg'arazlik, haqqoniyat

impersonate [ɪm´pɜ:səneɪt] *v* 1) biror narsaning timsoli bo'lmoq; gavdalantirmoq, mujassamlantirmoq; 2) rol ijro etmoq, o'ynamoq

impersonation [ɪm,pɜ:sə´neɪʃ(ə)n] *n* 1) jonlantirib tasvirlash; gavdalantirish, mujassamlantirish; 2) rol ijro etish

impersonator [ɪm´pɜ:səneɪtə] *n* 1) birovning nomi *yoki* unvonini o'zicha o'zlashtirib olish; 2) biror kimsani taqlid qiluvchi odam, parodiyachi; 3) o'zini biror kimsa qilib ko'rsatmoq

impertinence [ɪm´pɜ:tɪnəns] *n* dag'allik, qo'pollik, qo'rslik

impertinent [ɪm´pɜ:tɪnənt] *a* badfe'l, surbet, dag'al, qo'pol, qo'rs

imperturbability [ˌɪmpətɜ:bə´bɪlɪtɪ] *n* og'irlik, vazminlik, yuragi kenglik; tinchlik, jimjitlik, sokinlik, osoyishtalik

imperturbable [ˌɪmpə´tɜ:bəb(ə)l] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng; tinch, jimjit, sokin, osoyishta

impervious [ɪm´pɜ:vɪəs] *a* o'tkazmaydigan, o'tmaydigan

impetuosity [ɪm,petʃo´ɔsɪtɪ] *n* 1) tezlik, shiddatlilik; 2) shiddat, shitob; 3) sezgirlik, ta'sirchanlik

impetuous [ɪm´petʃoəs] *a* 1) shiddatli, juda tez, ildam; 2) g'ayratli, yuragida o'ti bor

impetus [´ɪmpɪtəs] *n* 1) tezlik, shiddat, turtki; 2) harakatlantiruvchi kuch

impiety [ɪm´paɪətɪ] *n* 1) xudoga ishonmaslik; 2) hurmatsizlik, behurmatlik

impinge [ɪm´pɪndʒ] *v* urilmoq, urib olmoq, qoqinmoq, qoqinib ketmoq

impingement [ɪm´pɪndʒmənt] *n* zarba, urinish, turtish

impious [´ɪmpɪəs] *a* gunohli, murtad, betavfiq

impish [´ɪmpɪʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl, jaholatli, qahri tez

implacability [ɪm,plækə´bɪlɪtɪ] *n* 1) bir so'zlilik, qattiqlik, gapga unamaydiganlik; 2) shafqatsizlik, berahmlik

implacable [ɪm´plækəb(ə)l] *a* 1) bir so'zli, qattiq, qat'iy; 2) shafqatsiz, berahm; gapga unamaydigan

implant [ɪm´plɑ:nt] *v* 1) (*g'oya, fikr, qarash va sh. k. ni*) joriy qilmoq, tarqatmoq, o'rnatmoq, yoymoq; 2) (*o'simlik, daraxt va sh. k. ni*) ekmoq, o'tqazmoq; 3) *tib.* (*to'qima teri va sh. k. ni*) ko'chirib o'tqazmoq

implantation [ˌɪmplɑ:n´teɪʃ(ə)n] *n* 1) (*g'oya, fikr, qarash, va sh. k. ni*) joriy qilish, tarqatish, o'rnatish, yoyish; 2) (*o'simlik, daraxt va sh. k.ni*) ekish, o'tqazish; 2) *tib.* (*teri, to'qima va sh. k.ni*) ko'chirib o'tqazish; implantatsiya

implausible [ɪm´plɔ:zəb(ə)l] *a* ishonarsiz, ishonib bo'lmaydigan, asossiz

implement 1. *v* [´ɪmplɪment] 1) bajarmoq, amalga oshirmoq, hayotga tatbiq qilmoq; 2) asbob-uskuna bilan ta'minlamoq; **2.** *n* [´ɪmplɪmənt] qurol, asbob; **agricultural ~s** qishloq xo'jalik qurollari

implementation [ˌɪmplɪmen´teɪʃ(ə)n] *n* 1) bajarish, amalga oshirish, joriy etish; 2) (*asbob-uskuna va sh. k. bilan*) ta'minlash

implex [´ɪmpleks] *a* 1) murakkab, og'ir; 2) chigal, chalkashgan

implicate [´ɪmplɪkeɪt] *v* aralashmoq, qo'shilib qolmoq; **to be ~d in a crime** jinoyatga aralashib qolmoq

implication [ˌɪmplɪ´keɪʃ(ə)n] *n* 1) aralashish, qo'shilib qolish; 2) (yashirin) ma'no

implicit [ɪm´plɪsɪt] *a* 1) ko'zda tutilgan; 2) so'zsiz, shubhasiz

implore [ɪm´plɔ:] *v* yalinmoq, yolvormoq; **I ~ you...** men sizdan o'tinib so'rayman...

imploringly [ɪm´plɔ:rɪŋlɪ] *adv* yalinib, yolvorib, o'tinib

imply [ɪm´plaɪ] *v* nazarda tutmoq, ko'zda tutmoq; ishora qilmoq

impolicy [ɪm´pɒlɪsɪ] *n* beandisha muomala, qo'pol harakat

impolite [ˌɪmpə´laɪt] *a* adabsiz, qo'pol, to'ng, dag'al, qo'rs

impolitic [ɪm´pɒlɪtɪk] *a* 1) ustomon (korchalon) emas; ustalik va ehtiyotkorlik bilan ish tutmaydigan; 2) aqli yo'q, beaql, aqlsiz, kaltafahm

imponderable [ɪm´pɒnd(ə)rəb(ə)l] *a* juda yengil

import 1. *v* [ɪm´pɔ:t] chet ellardan mol keltirmoq; **2.** *n* [´ɪmpɔ:t] chet ellardan mol keltirish, chet ellardan keltirilgan mol

importable [ɪm´pɔ:təb(ə)l] *a* (*chetdan*) olib (tashib) keltirilgan, kelinadigan

importance [ɪm´pɔ:t(ə)ns] *n* muhimlik, ahamiyatlilik; **to be of ~** ahamiyatga ega bo'lmoq; **of little ~** kichik ahamiyatga ega bo'lgan; **a matter of great ~** juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ish; **it is of no ~** buning ahamiyati yo'q; **a person of some ~** kerakli shaxs

important [ɪm´pɔ:t(ə)nt] *a* muhim, zarur, ahamiyatli

importation [ˌɪmpɔ:´teɪʃ(ə)n] *n* 1) chet eldan keltirilgan mollar; 2) chet eldan mol keltirish

importer [ɪm´pɔ:tə] *n* chetdan mol oluvchi

importless [´ɪmpɔ:tləs] *a* uncha ahamiyati bo'lmagan, ahamiyatsiz

importunate [ɪm´pɔ:tʃənɪt] *a* sabotli, quntli, tirishqoq, qattiq turib kurashuvchi

importune [ˌɪmpə´tju:n] *v* joniga tegmoq, zeriktirmoq; bezor qilmoq

importunity [ˌɪmpɔ:´tju:nɪtɪ] *n* xiralik, shilqimlik

impose [ɪm´pəʊz] *v* 1) zo'rlab, majburan qabul qildirmoq; 2) yuklamoq; 3) aldab sotmoq

imposing [ɪmˈpəʊzɪŋ] *a* haybatli, basavlat, zo'r taassurot tug'diradigan
imposition [ˌɪmpəˈzɪʃ(ə)n] *n* 1) ustiga qo'yish, yuklash; 2) yolg'on; 3) soliq, yig'im, boj
impossibility [ɪmˌpɒsəˈbɪlɪtɪ] *n* imkoni (iloji) yo'qlik, mumkin emaslik
impossible [ɪmˈpɒsəb(ə)l] *a* amalga oshmaydigan, bo'lishi mumkin bo'lmagan
impost [ˈɪmpəʊst] *n* soliq, o'lpon, to'lov
impostor [ɪmˈpɒstə] *n* yolg'onchi, firibgar, qallob, aldoqchi
imposture [ɪmˈpɒstʃə] *n* aldash, firib berish, yolg'on gapirish
impotence [ˈɪmpət(ə)ns] *n* kuchsizlik, darmonsizlik; zaiflik
impotent [ˈɪmpət(ə)nt] *a* kuch-quvvatdan qolgan, kuchsiz, darmonsiz, *tib.* zaif
impound [ɪmˈpaʊnd] *v* 1) yo'qolgan uy hayvonlari *yoki* taqiqlangan joylarga to'xtatib qo'yilgan avtomobillarni toki o'z egalari talab qilib olmaguncha biror joyda yig'moq va ushlab turmoq; 2) *yur.* musodara qilmoq
impoundment [ɪmˈpaʊndmənt] *n* hovuz, suv havzasi
impoverish [ɪmˈpɒv(ə)rɪʃ] *v* 1) zaif (kuchsiz) holga keltirmoq; 2) kambag'allashtirmoq
impoverished [ɪmˈpɒv(ə)rɪʃt] *a* ozib ketgan, oriq; ~ **soil** oriq yer
impoverishment [ɪmˈpɒv(ə)rɪʃmənt] *n* kambag'allashish, qashshoqlashish
impracticable [ɪmˈpræktɪkəb(ə)l] *a* amalga oshirib bo'lmaydigan, amalga oshmaydigan; **an ~ scheme** amalga oshmaydigan reja; ~ **ideas** amalga oshirib bo'lmaydigan g'oyalar
impractical [ɪmˈpræktɪk(ə)l] = **impracticable**
imprecate [ˈɪmprɪkeɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq, qarg'amoq, la'natlamoq
imprecation [ˌɪmprɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* la'nat, nafrat, qarg'ish
imprecise [ˌɪmprɪˈsaɪs] *a* xira, tiniq bo'lmagan, aniq emas; tushunib bo'lmaydigan
impregnability [ɪmˌpregnəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) egallab (olib, zabt etib) bo'lmaydiganlik; 2) qattiqlik, mustahkamlik, sabotlilik
impregnable [ɪmˈpregnəb(ə)l] *a* egallab bo'lmaydigan, ishg'ol qilib bo'lmaydigan, mustahkam
impregnate [ˈɪmpregneɪt] *v* 1) urug'lamoq, otalantirmoq; 2) to'ldirmoq, to'yintirmoq
impregnation [ˌɪmpregˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) otalantirish, homilador qilish; bo'yida (homilador, bo'g'oz) bo'lish; 2) mahsuldor (samarador, unumli) qilish
impresari [ˌɪmprɪˈsɑːrɪːɪ] *pl of* **impresario**
impresario [ˌɪmprɪˈsɑːrɪəʊ] *n it.* teatr. sirk va sh. k. ning xo'jayini
imprescriptible [ˌɪmprɪˈskrɪptəb(ə)l] *a* ajratib (olib) bo'lmaydigan, ajralmas
impress 1. *n* [ˈɪmpres] 1) iz; asar; **an ~ of a foot** oyoq izi; 2) muhr (pechat), tamg'a, belgi; **2.** *v* [ɪmˈpres] 1) taassurot qoldirmoq; **to ~ smb.** kimdadir taassurot qoldirmoq; 2) tamg'a bosmoq, muhrlamoq
impressible [ɪmˈpresəb(ə)l] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi
impression [ɪmˈpreʃ(ə)n] *n* taassurot, xotirada qolgan iz; **strong ~** zo'r taassurot
impressionability [ɪmˌpreʃ(ə)nəˈbɪlɪtɪ] *n* ta'sirchanlik, ta'sirlanuvchanlik
impressionable [ɪmˈpreʃ(ə)nəb(ə)l] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi
impressive [ɪmˈpresɪv] *a* ta'sirli, zo'r taassurot qoldiradigan
imprest [ˈɪmprest] *n* avans (*mehnatga oldindan to'lanadigan pul, haq, mablag'*)
imprimis [ɪmˈpraɪmɪs] *adv lot.* birinchidan, avvalo
imprint 1. *n* [ˈɪmprɪnt] iz; tamg'a; **2.** *v* [ɪmˈprɪnt] 1) tamg'a bosmoq; 2) iz qoldirmoq
imprison [ɪmˈprɪz(ə)n] *v* qamoqqa olmoq, qamab qo'ymoq
imprisonment [ɪmˈprɪz(ə)nmənt] *n* qamoqqa olish, ozodlikdan mahrum qilish
improbability [ɪmˌprɒbəˈbɪlɪtɪ] *n* bo'lishi mumkin emaslik, aqlga to'g'ri kelmaslik, imkonsizlik
improbable [ɪmˈprɒbəb(ə)l] *a* aqlga to'g'ri kelmaydigan, mumkin bo'lmagan, aqlga sig'maydigan
improbity [ɪmˈprəʊbɪtɪ] *n* vijdonsizlik, insofsizlik, diyonatsizlik
impromptu [ɪmˈprɒmptjuː] *n* ekspromt (*erkin shaklda yozilgan kichikroq musiqa asari*)
improper [ɪmˈprɒpə] *a* 1) noo'rin, nomunosib, o'rinsiz; 2) yaramaydigan, to'g'ri kelmaydigan
impropriety [ˌɪmprəˈpraɪətɪ] *n* 1) axloqsizlik, beadablik; 2) noo'rinlik, o'rinsizlik
improvable [ɪmˈpruːvəb(ə)l] *a* yaxshilasa (takomillashtirsa, mukammallashtirsa) bo'ladigan
improve [ɪmˈpruːv] *v* yaxshilamoq; yaxshilanmoq; **to ~ in health** sog'ayib ketmoq; **to ~ in looks** yaxshiroq ko'rinmoq; **to ~ the opportunity** qulay imkoniyatdan foydalanib olmoq; **to ~ away** yaxshilash uchun harakat qilib yomonlashtirib qo'ymoq; **to ~ the occasion (opportunity)** qulay imkoniyatdan foydalanib qolmoq; **to ~ upon** yaxshilamoq
improved [ɪmˈpruːvd] *a* mukammallashtirilgan, yaxshilangan
improvement [ɪmˈpruːvmənt] *n* yaxshilash, mukammallashtirish, yaxshilanish, tuzalish
improver [ɪmˈpruːvə] *n* amaliy ishni o'rganuvchi talaba, amaliyotchi
improvidence [ɪmˈprɒvɪd(ə)ns] *n* 1) ehtiyotsizlik, uzoqni ko'rmaydiganlik, kaltabinlik; 2) isrofgarchilik, nobudgarlik
improvident [ɪmˈprɒvɪd(ə)nt] *a* ehtiyotsiz, oxirini o'ylamay ish qiladigan
improvisation [ˌɪmprəvaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* badiha (*tayyorgarliksiz aytish, ijro etish yoki yaratish*)
improvisator [ɪmˈprɒvɪzeɪtə] *n* badihago'y
improvise [ˈɪmprəvaɪz] *v* 1) tayyorgarliksiz tashkil etmoq (uyushtirmoq); 2) tayyorgarliksiz aytmoq, yaratmoq
impudence [ɪmˈpruːd(ə)ns] *n* dag'allik, qo'pollik, qo'rslik; surbetlik, bezbetlik
impudent [ɪmˈpruːd(ə)nt] *a* 1) yuzsiz, bezbet, surbet, betsiz; uyatsiz; qo'pol; 2) kaltafahm, ehtiyotsiz
impugn [ɪmˈpjuːn] *v* shubha ostiga qoldirmoq
impugnable [ɪmˈpjuːnəb(ə)l] *a* janjalli, munozarali; bahsli
impugnment [ɪmˈpjuːnmənt] *n* haq-huquq talashish, tortishish, janjallashish
impulse [ˈɪmpʌls] *n* 1) impuls, ichki turtki, biror ishga undovchi sabab; 2) harakat miqdori
impulsion [ɪmˈpʌlʃ(ə)n] *n* istak, mayl, xohish; zarba, turtki
impulsive [ɪmˈpʌlsɪv] *a* 1) tashqi ta'sirlarga beriluvchi, sezgir, ta'sirchan; **~ness** sezgirlik, ta'sirchanlik; 2) beixtiyor; 3) ichki turtki tufayli yuzaga keladigan
impunity [ɪmˈpjuːnɪtɪ] *n* jazosizlik, jazo ko'rmaslik
impure [ˌɪmˈpjʊə] *a* nopok, kir, iflos
impurity [ɪmˈpjʊ(ə)rɪtɪ] *n* iflоslik, kirlik
in [ɪn] **1.** *prep.* 1) *o'rinni bildiradi*: -da; ~ **town** shaharda; 1) *paytni bildiradi*: -da; ~ **summer** yozda; ~ **time** o'z vaqtida; **2.** *adv* ichida, ichkarida; **father is ~** otam uy ichida, ichkarida; **to come ~** kirmoq
inability [ˌɪnəˈbɪlɪtɪ] *n* imkoni (iloji) yo'qlik, qurbi yetmaslik; ~ **to pay** to'lashga qurbi yetmaslik
in absentia [ˌɪnəbˈsenɪə] *adv* yo'qligida, usiz, ularsiz
inaccessibility [ˌɪnəksəsəˈbɪlɪtɪ] *n* erishib (yetishib) bo'lmaydiganlik, yoni-

ga borib bo'lmaydiganlik, olib (egallab) bo'lmaydiganlik

inaccessible [ˌɪnək ˈsesəb(ə)l] *a* 1) erishib (yetishib, yaqinlashib, olib, egallab) bo'lmaydigan; 2) amalga oshirib bo'lmaydigan

inaccuracy [ɪˈnækjʊrəsɪ] *n* 1) noaniqlik, noto'g'rilik, aniq emaslik; 2) xatolik, xato

inaccurate [ɪnˈækjʊrɪt] *a* 1) notayin, noaniq, noto'g'ri; 2) xato, yanglish

inaction [ɪnˈækʃ(ə)n] *n* harakatsizlik, faoliyatsizlik, bekor turish, sustlik, g'ayratsizlik

inactive [ɪnˈæktɪv] *a* faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust

inactivity [ˌɪnækˈtɪvɪtɪ] *n* faoliyatsizlik, harakatsizlik, g'ayratsizlik, faoliyat ko'rsatmay turish, sustlik

inadaptability [ˌɪnədæptəˈbɪlɪtɪ] *n* yaroqsizlik, layoqatsizlik, yaramaslik

inadequacy [ɪnˈædɪkwɪsɪ] *n* 1) yetmaslik, yetishmaslik, kamlik, ozlik; 2) talabga javob bermaslik

inadequate [ɪnˈædɪkwɪt] *a* 1) talabga javob bermaydigan; 2) yetarli bo'lmagan

inadhesive [ˌɪnədˈhi:sɪv] *a* yopishmaydigan, shirasi yo'q

inadmissible [ˌɪnədˈmɪsəb(ə)l] *a* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya, nojoiz

inadvertence [ˌɪnədˈvɜ:t(ə)ns] *n* e'tiborsizlik, beparvolik; **by ~** beparvolik bilan

inadvertency [ˌɪnədˈvɜ:t(ə)nsɪ] = **inadvertence**

inadvertent [ˌɪnədˈvɜ:t(ə)nt] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, parishonxotir

inadvertently [ˌɪnədˈvɜ:t(ə)ntlɪ] *adv* beixtiyor, bilmasdan, bexosdan, tasodifan

inadvisable [ˌɪnədˈvaɪzəb(ə)l] *a* maqsadga muvofiq emas; tavsiya qilib bo'lmaydigan

inalienability [ɪnˌeɪlɪənəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) uzoqlashmaslik, begonalashmaslik, uzoqlashib ketmaslik; 2) daxlsizlik

inalienable [ɪnˈeɪlɪənəb(ə)l] *a* ajratib olib bo'lmaydigan, daxl qilib bo'lmaydigan, ajralmas, daxlsiz

inalterable [ɪnˈɔ:lt(ə)rəb(ə)l] *a* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy

inamorata [ɪnˌæməˈrɑ:tə] *n it.* o'ynash (jazman) xotin; sevikli yor

inamorato [ɪnˌæməˈrɑ:təʊ] *n ital.* o'ynash, jazman erkak

in-and-in [ˌmən(d) ˈɪn] : **~ marriage** yaqin qarindoshlar o'rtasidagi erxotinlik

in-and-out [ˌɪnən(d)ˈaʊt] *adv* goh tashqarida, goh ichkarida; goh ichkariga (tashqariga)

inane [ɪˈneɪn] *a* 1) ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch; 2) ma'nosiz, mazmunsiz

inanimate [ɪnˈænɪmɪt] *a* jonsiz, joni yo'q, o'lik

inanimation [ɪnˌænɪˈmeɪʃ(ə)n] *n* jonsizlik, joni yo'qlik, o'liklik

inanition [ˌɪnəˈnɪʃ(ə)n] *n* ozib (oriqlab) ketish, ozib-to'zish, ozg'inlik

inanity [ɪˈnænɪtɪ] *n* bo'shlik, xolilik, quruqlik, puchlik, hech narsasi yo'qlik

inapplicability [ɪnˌæplɪkəˈbɪlɪtɪ] *n* yaroqsizlik, layoqatsizlik, yaramaslik

inapplicable [ɪnˈæplɪkəb(ə)l] *a* yaroqsiz, layoqatsiz, yaramaydigan, nobop

inapposite [ɪnˈæpəzɪt] *a* 1) to'g'ri kelmaydigan, mos kelmaydigan; 2) o'rinsiz, noo'rin, chakki, bemavrid

inappreciable [ˌɪnəˈpri:ʃəb(ə)l] *a* 1) sezilmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmaydigan; 2) kishi bilmaydigan; 3) qadrsiz

inappreciation [ˌɪnəpri:ʃɪˈeɪʃ(ə)n] *n* kamsitish, yetarli baho bermaslik, qadriga yetmaslik

inapprehensible [ˌɪnæprɪˈhensəb(ə)l] *a* aql yetmaydigan, aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan, tushunib bo'lmaydigan

inapproachable [ˌɪnəˈprəʊtʃəb(ə)l] *a* egallab bo'lmaydigan; olib (zabt etib) bo'lmaydigan

inappropriate [ˌɪnəˈprəʊprɪɪt] *a* yaroqsiz, noloyiq, noo'rin, nomunosib

inapt [ɪnˈæpt] *a* tajribasiz, mahoratsiz, ishning uddasidan chiqa olmaydigan, ishning ko'zini bilmaydigan

inaptitude [ɪnˈæptɪtju:d] *n* bilmaslik, ishning uddasidan chiqa olmaslik, ish bilmaslik, noshudlik

inarm [ɪnˈɑ:m] *v shoir.* quchoqlamoq, quchoqqa olmoq, bag'riga bosmoq

inarticulate [ˌɪnɑ:ˈtɪkjʊlɪt] *a* 1) tushunib bo'lmaydigan, noaniq; 2) kamgap, indamas

inartificial [ˌɪnɑ:tɪˈfɪʃ(ə)l] *a* soxta emas, haqiqiy, tabiiy

inartistic [ˌɪnɑ:ˈtɪstɪk] *a* san'atga oid bo'lmagan

inattention [ˌɪnəˈtenʃ(ə)n] *n* diqqatsizlik, e'tiborsizlik, beparvolik

inattentive [ˌɪnəˈtentɪv] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo

inaudibility [ɪnˌɔ:dəˈbɪlɪtɪ] *n* noaniqlik, tushunib (anglab) bo'lmaydiganlik, aniq eshitilmaydiganlik

inaudible [ɪnˈɔ:dəb(ə)l] *a* 1) noaniq, tushunib bo'lmaydigan, eshitib bo'lmaydigan; 2) past ovozda, eshitilmaydigan

inaugural [ɪˈnɔ:gjʊrəl] *a* kirish, boshlang'ich; **an ~ address** ko'rgazma, muzey va b. ning ochilish marosimidagi so'zlanadigan nutq

inaugurate [ɪˈnɔ:gjʊreɪt] *v* 1) tantanali ravishda lavozimga qo'ymoq; 2) boshlamoq; 3) ochmoq (*ko'rgazma va b. ni*)

inauguration [ɪˌnɔ:gjʊˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) rasmiy ochilish; 2) lavozimga kirishish

inauspicious [ˌɪnɔ:ˈspɪʃəs] *a* 1) shum, mash'um, mudhish; 2) o'ng'aysiz, yomon

in-between [ˌɪnbɪˈtwi:n] *n* ikki narsa orasidagi masofa, ora, oraliq; o'rta, o'rtalik; 2) vositachi, dallol

inboard [ˈɪnbɔ:d] *a* kema ichida joylashgan, kema ichidagi

inborn [ˌɪnˈbɔ:n] *a* tug'ma, tabiiy, zotida bo'lgan

inbreak [ˈɪnbreɪk] *n* 1) dushman hujumi; 2) bostirib borish, tajovuz, hujum, bostirib kirish

inbreathe [ɪnˈbri:ð] *v* nafas olmoq

inbred [ˌɪnˈbred] *a* tug'ma, tabiiy; zotida bor

incalculable [ɪnˈkælkjʊləb(ə)l] *a* hisobsiz, son-sanoqsiz, beadad, behisob, hisobi yo'q

incandesce [ˌɪnkænˈdes] *v* oqarguncha qizdirmoq; oqarguncha qizimoq

incandescence [ˌɪnkænˈdes(ə)ns] *n* 1) ravshanlik, cho'g'lanish darajasi; 2) qizish, qizdirish

incandescent [ˌɪnkænˈdes(ə)nt] *a* 1) qizigan, qizdirilgan; 2) oppoq, oqarguncha qizigan (qizitilgan)

incantation [ˌɪnkænˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) afsungarlik, jodugarlik, sehrgarlik; 2) afsun, jodu, sehr

incapability [ɪnˌkeɪpəˈbɪlɪtɪ] *n* qobiliyatsizlik, uquvsizlik, qobiliyati (uquvi) yo'qlik

incapable [ɪnˈkeɪpəb(ə)l] *a* 1) qobiliyatsiz, layoqatsiz; 2) qilolmaydigan, qo'lidan kelmaydigan; **~ of a lie (~ to lie)** yolg'on gapira olmaslik, yolg'on gapirish qo'lidan kelmaslik; **drunk and ~** qattiq (o'lguday, g'irt) mast

incapacious [ˌɪnkəˈpeɪʃəs] *a* tor, ensiz, ingichka

incapacitate [ˌɪnkəˈpæsɪteɪt] *v* huquqdan mahrum qilmoq

incapacity [ˌɪnkəˈpæsɪtɪ] *n* 1) qobiliyatsizlik; 2) mumkin emaslik, iloji (imkoni) yo'qlik

incarcerate [ɪnˈkɑ:səreɪt] *v* qamamoq, ozodlikdan mahrum qilmoq

incarceration [ɪnˌkɑ:səˈreɪʃ(ə)n] *n* ozodlikdan mahruh etish; qamoqqa qamash

incarnadine [ɪnˈkɑ:nədaɪn] *a* alvon, qirmizi, och qizil

incarnate [ɪnˈkɑ:nɪt] *a* o'zida mujassamlantirgan, timsol bo'la oladigan

incarnation [ˌɪnkɑ:ˈneɪʃ(ə)n] *n* timsol, mujassam, biror narsaning timsoli

incase [ɪnˈkeɪs] *v* o'ramoq, solmoq, joylamoq

incautious [ɪnˈkɔ:ʃəs] *a* loqayd, o'ylamasdan ish tutadigan, shoshqaloq, bemulohaza

incendiarism [ɪn´sendɪərɪz(ə)m] *n* 1) o't qo'yish, yondirish; 2) g'alamislik, ig'vogarlik; ig'vo, fitna

incendiary [ɪn´sendɪərɪ] *n* 1) qasddan o't qo'yib yuborgan odam; 2) g'alamis, ig'vogar

incense [´ɪnsens] **1.** *n* isiriqsimon xushbo'y tutatqi; **~ plant** isiriq; **2.** *v* 1) isiriq tutatmoq; 2) maqtab yubormoq

incensory [ɪn´sens(ə)rɪ] *n* isiriq (*ibodat vaqtida isiriq tutatiladigan idish*)

incentive [ɪn´sentɪv] **1.** *n* istak, mayl, xohish; **2.** *a* 1) (*biror ish qilishga*) undaydigan; 2) rag'batlantiruvchi

inception [ɪn´sepʃ(ə)n] *n* bosh, boshi, uchi, boshlanish joyi, boshlanishi

inceptive [ɪn´septɪv] *a* boshlang'ich, eng boshdagi, dastlabki, ilk

incertitude [ɪn´sə:tɪtju:d] *n* qat'iyatsizlik, jur'atsizlik; gumonsiraydiganlik, ishonmaydiganlik

incessant [ɪn´ses(ə)nt] *a* uzluksiz, to'xtovsiz, surunkali

incest [´ɪnsest] *n* yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo'lishi

incestuous [ɪn´sestʃuəs] *a* yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqada bo'lgan

inch [ɪntʃ] *n* 1) duym (*uzunlik o'lchovi 2,5 sm*); 2) *pl* bo'y, qad, qomat

inchoate [´ɪnkəueɪt] *a* 1) kurtak holidagi; 2) boshlang'ich, ibtidoiy

incidence [´ɪnsɪd(ə)ns] *n* tarqalish yoki faoliyat ko'lami, qamrab olish

incident [´ɪnsɪd(ə)nt] *n* 1) voqea, hodisa; **daily ~** kundalik hodisa; 2) epizod; **an ~ in a play** asardagi epizod; **~al** kutilmagan, nogahoniy, tasodifiy; **~ally** tasodifan, kutilmaganda

incinerate [ɪn´sɪnəreɪt] *v* yondirib kul qilmoq

incineration [ɪn,sɪnə´reɪʃ(ə)n] *n* yoqish, yondirish, kuydirish

incipient [ɪn´sɪpɪənt] *a* boshlang'ich, endi boshlanayotgan

incise [ɪn´saɪz] *v* sal kesmoq, tilib qo'ymoq, kesmoq

incision [ɪn´sɪʒ(ə)n] *n* kesilgan (tilingan) joy

incisive [ɪn´saɪsɪv] *a* kesadigan, qirqadigan, kesuvchi, qirquvchi

incisor [ɪn´saɪzə] *n* oldingi tish, old tomondagi tish

incite [ɪn´saɪt] *v* 1) qo'zg'atmoq, undamoq; 2) rag'batlantirmoq; qiziqtirmoq

incitement [ɪn´saɪtmənt] *n* 1) rag'batlantirish; qiziqtirish; 2) yomon ishga undash; 3) turtki

incivility [,ɪnsɪ´vɪlɪtɪ] *n* (*pl* **incivilities**) qo'pollik, beandishalik, madaniyatsizlik

inclement [ɪn´klemənt] *a* sovuq, og'ir (*ob-havo tog'risida*)

inclination [,ɪnklɪ´neɪʃ(ə)n] *n* 1) ko'ngil, mayil, ishtiyoq; 2) qiyalik, nishablik

incline [ɪn´klaɪn] **1.** *n* qiya, tekislik, qiyalik, yonbag'ir, nishab; **2.** *v* 1) engashmoq, engashtirmoq, egilmoq, egmoq; **to ~ one's ear to smb.** biror kishini quloq solib (diqqat bilan) eshitmoq; 2) moyil qilmoq, unatmoq, ko'ndirmoq, ko'ngliga solmoq

inclined [ɪn´klaɪnd] *a* 1) engashgan, egilgan; 2) ishtiyoqi (havasi) bo'lgan, moyil, ixlosmand

inclinometer [,ɪnklɪ´nɔmɪtə] *n* burchak o'lchagich

include [ɪn´klu:d] *v* o'z ichiga olmoq; **to ~ in** ichiga kiritmoq; **the book ~s essays** kitob asarlarni o'z ichiga oladi

including [ɪn´klu:dɪŋ] *prep.* ichiga olgan holda, qamrab, qo'shib

inclusion [ɪn´klu:ʒ(ə)n] *n* kiritish, o'z ichiga olish

inclusive [ɪn´klu:sɪv] *a* hammasini qamrab olgan, barchasini ichiga olgan

incognito [,ɪnkɔg´ni:təu] *a* yashirin, boshqa nom bilan

incognizant [ɪn´kɔgnɪz(ə)nt] *a* bilmaydigan; hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan (**of**)

incoherence [,ɪnkəu´hɪ(ə)rəns] *n* mantiqsizlik, tuturiqsizlik

incoherent [,ɪnkəu´hɪ(ə)rənt] *a* 1) poyma-poy; bog'lanmagan; 2) mantiqsiz, tuturiqsiz

incombustible [,ɪnkəm´bʌstəb(ə)l] *a* o'tga chidamlili; yonmaydigan

income [´ɪnkʌm] *n* daromad, kirim; **monthly ~** oylik ish haqi

incomer [´ɪnkʌmə] *n* 1) keladigan xat (hujjat); 2) kelgindi, musofir, begona odam

income-tax [´ɪŋkʌmtæks] *n* daromad solig'i

incoming [´ɪnkʌmɪŋ] *a* 1) kelayotgan; 2) yangi (yaqinda) saylangan

incommensurability [,ɪnkəmenʃ(ə)rə´bɪlɪtɪ] *n* 1) bir o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydiganlik, umumiy o'lchovi yo'qlik; 2) taqqoslab (tenglashtirib) bo'lmaydiganlik

incommensurable [,ɪnkə´menʃ(ə)rəb(ə)l] *a* umumiy o'lchovi yo'q; nisbatsiz

incommensurate [,ɪnkə´menʃ(ə)rɪt] *a* 1) umumiy o'lchovi yo'q, bir o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydigan; 2) nomutanosib, mutanosib emas; yetarli emas

incommode [,ɪnkə´məud] *v* bezovta qilmoq, ovora qilmoq

incommodious [,ɪnkə´məudɪəs] *a* 1) jonga tegadigan, bezor qiladigan, shilqim; 2) qulayligi yo'q, nobop; noqulay

incommunicable [,ɪnkə´mju:nɪkəb(ə)l] *a* ifodalab (tasvirlab, tushuntirib) bo'lmaydigan

incommunicative [,ɪnkə´mju:nɪkətɪv] *a* odamga qo'shilmaydigan, odamovi, damduz, pismiq

incompact [,ɪnkəm´pækt] *a* zich (g'uj, ixcham, tig'iz) emas

incomparable [ɪn´kɔmp(ə)rəb(ə)l] *a* o'xshashi yo'q, beqiyos, tengsiz

incompatibility [,ɪnkəmpætə´bɪlɪtɪ] *n* (*pl* **compatibilities**) nomuvofiqlik, nomutanosiblik, mos emaslik

incompatible [,ɪnkəm´pætəb(ə)l] *a* birbiriga to'g'ri kelmaydigan, mos emas, nomuvofiq

incompetence [ɪn´kɔmpɪt(ə)ns] *n* 1) bexabarlik, uncha yaxshi bilmaydiganlik, qobiliyatsizlik; 2) *tib.* yetishmovchilik (*biror organ faoliyatining yetarli emasligi*)

incompetent [ɪn´kɔmpɪt(ə)nt] *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan, bexabar; 2) noqobil

incomplete [,ɪnkəm´pli:t] *n* chala, to'liqsiz, tugatilmagan

incomprehensible [ɪn,kɔmprɪ´hensəb(ə)l] *a* tushunarsiz, tushunib bo'lmaydigan

incomprehension [ɪn,kɔmprɪ´henʃ(ə)n] *n* tushunmaslik, anglamaslik, tushunib yetmaslik

incomputable [,ɪnkəm´pju:təb(ə)l] *a* sonsanoqsiz, beadad, behisob, hisobiga (sanog'iga) yetib bo'lmaydigan

inconceivability [,ɪnkən,si:və´bɪlɪtɪ] *n* aql yetmaydiganlik, aqlga sig'maydiganlik, aql bovar qilmaydiganlik

inconceivable [,ɪnkən´si:vəb(ə)l] *a* aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan, haddan tashqari

inconclusive [,ɪnkən´klu:sɪv] *a* ishonarli bo'lmagan, uncha ishonchli emas, yakuniy xulosa chiqarib bo'lmaydigan; aniq bir natijaga olib kelmaydigan

incongruity [,ɪnkəŋ´gru:ɪtɪ] *n* nomuvofiqlik, nomunosiblik, noqulaylik

incongruous [ɪn´kɔŋgruəs] *a* nomuvofiq, nomunosib, noqulay

inconsecutive [,ɪnkən´sekjotɪv] *a* 1) izchil bo'lmagan, bog'lanishsiz; 2) izchillikka (mantiqqa) rioya qilmaydigan; 3) bemantiq, mantiqsiz, tuturiqsiz

inconsequence [,ɪn´kɔnsɪkwəns] *n* 1) izchil emaslik; 2) mantiqsiz ish (harakat); mantiqsizlik, tuturiqsizlik

inconsequent [ɪn´kɔnsɪkwənt] *a* mantiqqa (logikaga) to'g'ri kelmaydigan, mantiqsiz

inconsequential [ɪn,kɔnsɪ´kwenʃ(ə)l] *a* 1) ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan; 2) muntazam emas

inconsiderable [ˌɪnkənˈsɪd(ə)rəb(ə)l] *a* arzimas, arzimaydigan, kichkina
inconsiderate [ˌɪnkənˈsɪd(ə)rɪt] *a* 1) o'zgalarga e'tiborsiz, o'zgalarni o'ylamaydigan; **~ness** o'zgalarga e'tiborsizlik; 2) yaxshilab o'ylab ko'rilmagan, o'ylamasdan (mulohazasiz) qilingan, bemulohaza, yengiltaklik bilan qilingan
inconsistency [ˌɪnkənˈsɪst(ə)nsɪ] *n* 1) birga (baravar, bir vaqtda) mavjud bo'la olmaydiganlik; 2) bir-biriga to'g'ri (muvofiq, mos) kelmaydiganlik
inconsistent [ˌɪnkənˈsɪst(ə)nt] *a* 1) izchil bo'lmagan, doimo bir xil emas; 2) to'g'ri (mos) kelmaydigan; farq qiladigan
inconsolable [ˌɪnkənˈsəʊləb(ə)l] *a* yupanmaydigan, ovunmaydigan, taskin topmaydigan
inconsonant [ɪnˈkɒnsənənt] *a* 1) ohangdosh (uyg'un) emas, hamohang (muvofiq, mos, monand) emas; 2) to'g'ri kelmaydigan
inconspicuous [ˌɪnkənˈspɪkjʊəs] *adv* sezilmaydigan, ko'zga tashlanmaydigan
inconstancy [ɪnˈkɒnstənsɪ] *n* o'zgaruvchanlik, o'zgarib turadiganlik, o'zgarib turish
inconstant [ɪnˈkɒnstənt] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, betayin, beqaror
incontestable [ˌɪnkənˈtestəb(ə)l] *a* rad (inkor) qilib bo'lmaydigan, shak-shubhasiz
incontinence [ɪnˈkɒntɪnəns] *n tib.* tutib turolmaslik, qovug'i bo'shlik; ich ketish
incontinent [ɪnˈkɒntɪnənt] *a tib.* 1) qovug'i bo'sh, 2) ich o'tar
incontrovertible [ɪnˌkɒntrəˈvɜːtəb(ə)l] *a* rad qilib bo'lmaydigan, aniq, shak-shubhasiz
inconvenience [ˌɪnkənˈviːnɪəns] **1.** *n* noqulaylik, o'ng'aysizlik, bezovtalik; **2.** *v* noqulaylik tug'dirmoq, bezovta qilmoq
inconvenient [ˌɪnkənˈviːnɪənt] *a* noqulay, o'ng'aysiz, nomunosib; **if not ~ to you** agar sizni qiynab qo'ymasa, agar sizga noqulay bo'lmasa
inconvertible [ˌɪnkənˈvɜːtəb(ə)l] *a* 1) maydalanmaydigan, mayda qilib bo'lmaydigan (*pul haqida*); 2) *mol.* konversiyalab bo'lmaydigan, o'zgartirib bo'lmaydigan
incoordination [ˌɪnkəʊɔːdɪˈneɪʃ(ə)n] *n* o'zaro mos (muvofiq) emaslik, o'zaro muvofiqlashtirilmaganlik, bir-biriga to'g'ri kelmaydiganlik, nomuvofiqlik
incorporate [ɪnˈkɔːp(ə)rɪt] *v* 1) tarkibiga kirmoq; qo'shilmoq; 2) korporatsiya tashkil qilmoq
incorporation [ɪnˌkɔːpəˈreɪʃ(ə)n] *n* birlashma, uyushma; tashkilot
incorporeal [ˌɪnkɔːˈpɔːrɪəl] *a* jismsiz, tanasiz, gavdasiz; moddiy bo'lmagan
incorrect [ˌɪnkəˈrekt] *a* noto'g'ri, xato, yanglish
incorrigible [ɪnˈkɒrɪdʒəb(ə)l] *a* tuzatib (to'g'rilab) bo'lmaydigan, tuzalmaydigan, tuzalmas; **an ~ liar** tuzalmas yolg'onchi
incorrodible [ˌɪnkəˈrəʊdəb(ə)l] *a tex.* zanglamaydigan, zang bosmaydigan
incorruptibility [ˌɪnkəˌrʌptəˈbɪlɪtɪ] *n* vijdonlilik, poklik, halollik
incorruptible [ˌɪnkəˈrʌptəbl] *a* 1) abadiy, mangu, umrbod; 2) vijdonli, vijdonini sotmaydigan
increase 1. *v* [ɪŋˈkriːs] 1) o'smoq; **to ~ one's knowledge** bilimi oshmoq; 2) ko'paytirmoq, oshirmoq; **to ~ by** ...ga ko'paytirmoq; **to ~ the speed** tezlikni oshirmoq; **2.** *n* [ˈɪŋkriːs] *n* qo'shish, ko'paytirish, oshirish
increasing [ɪnˈkriːsɪŋ] *a* ortib borayotgan, o'sayotgan, oshayotgan, kuchayayotgan
increasingly [ɪnˈkriːsɪŋlɪ] *adv* tobora (juda) ko'p, borgan sari
incredibility [ɪnˌkredəˈbɪlɪtɪ] *n* bo'lishi mumkin emaslik, haqiqatga (aqlga) to'g'ri kelmaslik, ehtimoldan uzoqlik
incredible [ɪnˈkredəb(ə)l] *a* 1) favqulodda, haddan tashqari, juda zo'r; 2) aqlga sig'maydigan, ehtimoldan uzoq
incredibly [ɪnˈkredəblɪ] *adv* g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari
incredulity [ˌɪnkrɪˈdjuːlɪtɪ] *n* ishonchsizlik, ishonmaslik, shubha bilan qarash
incredulous [ɪnˈkredjʊləs] *a* badgumon, birovga (hech kimga yoki hech narsaga) ishonmaydigan, har kimga (har narsaga) shubha bilan qaraydigan
increment [ˈɪŋkrɪmənt] *a* ko'paytirish, oshirish, kattalashtirish, yiriklashish
incriminate [ɪnˈkrɪmɪneɪt] *v* ayblamoq, ayb qo'ymoq
incriminatory [ɪnˈkrɪmɪnət(ə)rɪ] *a yur.* ayblash bilan bog'liq bo'lgan, ayblaydigan, ayblash...
incrustation [ˌɪkrʌsˈteɪʃ(ə)n] *n* po'stloq, po'st, qobiq; ustki qatlam
incubate [ˈɪŋkjʊbeɪt] *v* jo'ja ochirmoq
incubation [ˌɪŋkjʊˈbeɪʃ(ə)n] *n* 1) tuxum bosib jo'ja ochib chiqish; 2) *tib.* kasallikning yashirin davri
incubator [ˈɪŋkjʊbeɪtə] *n* inkubator (*tuxumdan sun'iy yo'l bilan jo'ja ochiriladigan apparat*)
incubus [ˈɪŋkjʊbəs] *n* iblis, shayton; jin
inculcate [ˈɪnkʌlkeɪt] *v* joriy qilmoq, o'rnatmoq, tarqatmoq
inculcation [ˌɪnkʌlˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) joriy qilish, amalga oshirish; 2) bir miqdor ekish, o'tqazish, ekib (o'tqazib) barpo qilish
inculpate [ˈɪnkʌlpeɪt] *v* 1) ayblamoq, kimsaga ayb qo'ymoq; 2) tanheh bermoq
inculpation [ˌɪnkʌlˈpeɪʃ(ə)n] *n yur.* 1) ayblash, qoralash; 2) ayblov hukmi; 3) aybini ochish (fosh qilish)
inculpatory [ɪnˈkʌlpət(ə)rɪ] *a yur.* ayblash bilan bog'liq bo'lgan, ayblaydigan, ayblash ...
incumbency [ɪnˈkʌmbənsɪ] *n* majburiyat, burch, vazifa
incumbent [ɪnˈkʌmbənt] *n* 1) biror lavozimdagi shaxs; 2) ruhoniy
incunabula [ˌɪnkjʊˈnæbjʊlə] *n pl* inkunabulalar (*harf terish yo'li bilan chiqarilgan dastlabki kitoblar*)
incur [ɪnˈkɜː] *v* yo'liqmoq, duchor bo'lmoq, mubtalo bo'lmoq
incurability [ɪnˌkjʊ(ə)rəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) tuzatib bo'lmaydiganlik, davosi yo'qlik, bedavolik; 2) yo'q qilib (yo'qotib) bo'lmaydiganlik, bitirib (barham berib, tuzatib) bo'lmaydiganlik, tuzalmaslik
incurable [ɪnˈkjʊ(ə)rəb(ə)l] *a* davosiz, bedavo, tuzatib bo'lmaydigan
incuriosity [ɪnˌkjʊərɪˈɒsɪtɪ] *n* hech narsaga qiziqmaslik, sinchkov emaslik, qiziquvchan emaslik, har narsani bilishga intilmaslik
incurious [ɪnˈkjʊ(ə)rɪəs] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, befarq
incursion [ɪnˈkɜːʃ(ə)n] *n* hujum, bosqin, tajovuz, bostirib kelish
incurvation [ˌɪnkɜːˈveɪʃ(ə)n] *n* 1) egish, bukish, qayirish, qayiltirish, egilish, bukilish, qayrilish; 2) egilgan joy, egik, bukik
incurve [ˌɪnˈkɜːv] *v* (*ichkari tomonga qarab*) egilmoq, bukilmoq, qayrilmoq
indebted [ɪnˈdetɪd] *a* 1) qarzdor; **to be ~ to smb.** biror kishidan qarzdor bo'lmoq; **~ness** qarz, qarzdorlik; 2) minnatdor
indecency [ɪnˈdiːs(ə)nsɪ] *n* 1) odobdan tashqarilik, beadablik, uyatlik; 2) odobdan tashqari (beadab, uyat) gap, ish, harakat
indecent [ɪnˈdiːs(ə)nt] **1.** *n* adabsiz, behayo, uyatsiz; **2.** *a* odobdan tashqari, beadab, uyat
indecipherable [ˌɪndɪˈsaɪf(ə)rəb(ə)l] *a* o'qib bo'lmaydigan, o'qilishi qiyin bo'lgan
indecision [ˌɪndɪˈsɪʒ(ə)n] *n* ikkilanish; ishonmovchilik; taraddudlanish, taraddud
indecisive [ˌɪndɪˈsaɪsɪv] *a* ikkilanuvchi, qat'iyatsiz, ikkilanadigan

indeclinable [ˌɪndɪˈklaɪnəb(ə)l] *a gram.* turlanmaydigan
indecorous [ɪnˈdek(ə)rəs] *a* beadab, qo'pol muomalali, nazokatsiz, xunuk
indecorum [ˌɪndɪˈkɔːrəm] *n* 1) xulq-atvor qoidalarini buzish; 2) qo'pol muomaladilik
indeed [ɪnˈdiːd] *adv* 1) haqiqatan, chindan ham; **very glad ~** juda-juda (juda ham) xursandman; 2) nahotki, nahot, rostdanmi (*hayron bo'lish va shubhani ifoda etadi*)
indefatigable [ˌɪndɪˈfætɪgəb(ə)l] *a* hormas-tolmas, tinmaydigan, toliqmaydigan; **an ~ worker** tolmas ishchi
indefeasible [ˌɪndɪˈfiːzəb(ə)l] *a* 1) ajralmas, daxlsiz; 2) rad qilib bo'lmaydigan, shak-shubhasiz
indefectible [ˌɪndɪˈfektəb(ə)l] *a* benuqson, bekam-ko'st, qusursiz
indefensible [ˌɪndɪˈfensəb(ə)l] *a* 1) mudofaa uchun noqulay (*joy va b. haqida*); 2) kechirib bo'lmaydigan
indefinable [ˌɪndɪˈfaɪnəb(ə)l] *a* aniqlab (belgilab) bo'lmaydigan, aniqlash qiyin bo'lgan
indefinite [ɪnˈdef(ə)nɪt] *a* noaniq, noma'lum; **the ~ article** *gram.* noaniq artikl
indelible [ɪnˈdeləb(ə)l] *a* yuvib (ketkazib, tozalab) bo'lmaydigan, yuvgan bilan ketmaydigan; **an ~ pencil** siyoh qalam; **~ disgrace** sira yuvib bo'lmaydigan sharmandalik, abadiy dog' bo'lib qoladigan sharmandalik
indelicacy [ɪnˈdelɪkəsɪ] *n* beandishalik, qo'pollik, nazokatsizlik
indelicate [ɪnˈdelɪkɪt] *a* odobni bilmaydigan, beandisha, qo'pol
indemnification [ɪnˌdemnɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n kir.* to'lash, o'rnini to'ldirish, badalini berish, haq (badal, tovon) to'lash; badal, haq, tovon
indemnify [ɪnˈdemnɪfaɪ] *v* 1) xavfsizlantirmoq, xavfdan saqlamoq, xatarsiz qilmoq; 2) (**for**) (*zarar o'rnini*) qoplamoq, to'ldirmoq
indemnity [ɪnˈdemnɪtɪ] *n* 1) (*zarar va sh. k. o'rnini*) qoplash, kamini to'ldirish; 2) zararga (talafotga) qarshi kafolat
indent [ɪnˈdent] *v* 1) satr boshidan boshlamoq; 2) buyurtma bermoq; 3) hujjatni ikki yoki undan ortiq nusxada tuzmoq; 4) shogirdlikka (mashg'ulotga) bermoq
indentation [ˌɪndenˈteɪʃ(ə)n] *n* belgi, nishon, tamg'a
indention [ɪnˈdenʃ(ə)n] *n poligr.* abzas, xat boshi, satr boshi
indenture [ɪnˈdentʃə] *n* yozma shartnoma
independence [ˌɪndɪˈpendəns] *n* mustaqillik, erkinlik; **~ Day** Mustaqillik kuni
independency [ˌɪndɪˈpendənsɪ] *n* mustaqil davlat
independent [ˌɪndɪˈpendənt] *a* erkin, ozod, mustaqil; **an ~ state** mustaqil davlat; **to be ~ of** ...dan mustaqil bo'lmoq, ...ga qaram bo'lmaslik
independently [ˌɪndɪˈpendəntlɪ] *adv* mustaqil ravishda
in-depth [ˌɪnˈdepθ] *a* 1) butun tafsilotlari (mayda-chuyda qismlari) bilan, batafsil, tafsifiy ravishda, miridan-sirigacha, ipidan-ignasigacha; 2) chuqur, har tomonlama, diqqat bilan (puxta) bajarilgan
indescribable [ˌɪndɪsˈkraɪbəb(ə)l] *a* ta'riflab bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan
indestructible [ˌɪndɪˈstrʌktəb(ə)l] *a* mustahkam, buzilmas, bo'linmas
indeterminable [ˌɪndɪˈtɜːmɪnəb(ə)l] *a* 1) aniqlab (belgilab) bo'lmaydigan, aniqlash qiyin bo'lgan; 2) hal qilib (yechib, bartaraf etib) bo'lmaydigan, qiyin, mushkul (*bahs va b.*)
indeterminate [ˌɪndɪˈtɜːmɪnɪt] *a* 1) noaniq, noma'lum, aniqlab bo'lmaydigan; 2) jur'atsiz, qat'iyatsiz
indetermination [ˌɪndɪtɜːmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* ikkilanish, botina olmaslik, jur'atsizlik
index [ˈɪndeks] *n* indeks, ko'rsatkich; ro'yxat
index finger [ˈɪndeksˌfɪŋgə] *n* ko'rsatkich barmoq
Indian [ˈɪndɪən] **1.** *a* Hindistonga va hindlarga oid; **2.** *n* hindi, hindu; **~ summer** oltin kuz; **~ corn** makkajo'xori (*o'simligi va doni*)
Indian blue [ˌɪndɪən ˈbluː] *n* to'q ko'k rang
Indian cane [ˌɪndɪənˈkeɪn] *n bot.* bambuk (*qamishga o'xshash tropik o'simlik*)
Indian ink [ˌɪndɪənˈɪŋk] *n* tush (*siyoh*)
India paper [ˈɪndɪəˌpeɪpə] *n* 1) xitoy qog'ozi; 2) yupqa bosma qog'oz
India-rubber [ˌɪndɪəˈrʌbə] *n* 1) rezina; 2) o'chirg'ich, rezinka
indicate [ˈɪndɪkeɪt] *v* 1) ko'rsatmoq; **to ~ the way** yo'lni ko'rsatmoq; 2) bildirmoq; 3) *tex.* mashinaning kuchini o'lchagich asbobi bilan o'lchamoq
indication [ˌɪndɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* ko'rsatma, ko'rsatish, ma'lumot
indicative [ɪnˈdɪkətɪv] *a* ko'rsatuvchi, ko'rsatadigan; **the ~ mood** *gram.* fe'lning aniqlik mayli
indicator [ˈɪndɪkeɪtə] *n* ko'rsatkich
indicatory [ɪnˈdɪkət(ə)rɪ] *a* ko'rsatadigan, ko'rsatuvchi, ko'rsatish (ko'rsatkich)...
indict [ɪnˈdaɪt] *v* jazoga hukm qilmoq, jazo bermoq
indictment [ɪnˈdaɪtmənt] *n* 1) aybnoma; 2) biror narsaning yomonligini ko'rsatuvchi alomat, belgi
indifference [ɪnˈdɪf(ə)rəns] *a* beparvolik, e'tiborsizlik; loqaydlik, ahamiyat bermaslik
indifferent [ɪnˈdɪf(ə)rənt] *a* beparvo; bee'tibor, befarq, loqayd
indigenous [ɪnˈdɪdʒ(ə)nəs] *a* 1) mahalliy, shu yerli; 2) tabiiy, tug'ma
indigent [ˈɪndɪdʒ(ə)nt] *a* kambag'al, qashshoq, nochor
indigestible [ˌɪndɪˈdʒestəb(ə)l] *a* singishi (hazm bo'lishi) qiyin
indigestion [ˌɪndɪˈdʒestʃ(ə)n] *n* dispensiya (*taom hazm bo'lmasligi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*)
indignant [ɪnˈdɪgnənt] *a* achchiqlangan, g'azablangan; nafratlangan, jahli chiqqan
indignation [ˌɪndɪgˈneɪʃ(ə)n] *n* nafrat, achchiqlanish
indignity [ɪnˈdɪgnɪtɪ] *n* mensimaslik, pisand qilmaslik, nazarga ilmaslik
indigo [ˈɪndɪgəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) nil bo'yog'i; 2) to'q ko'k rang
indirect [ˌɪndɪˈrekt] *a* 1) egri; vositali; 2) *gram.* **~ speech** o'zlashtirma gap
indiscernible [ˌɪndɪˈsɜːnəb(ə)l] *a* ko'rib bo'lmaydigan, yaxshi ko'rinmaydigan
indiscreet [ˌɪndɪˈskriːt] *a* beparvo, e'tiborsiz
indiscretion [ˌɪndɪˈskreʃ(ə)n] *n* beparvolik, e'tiborsizlik
indiscriminate [ˌɪndɪˈskrɪmɪnɪt] *a* noaniq, chaplashib ketgan, o'qib bo'lmaydigan
indispensable [ˌɪndɪˈspensəb(ə)l] *a* zaruriy, kerakli, zarur (kerak) bo'lgan
indisposed [ˌɪndɪˈspəʊzd] *a* kasal, xasta, bemor, betob
indisposition [ɪnˌdɪspəˈzɪʃ(ə)n] *n* yengil xastalik, biroz betob bo'lish
indisputable [ˌɪndɪˈspjuːtəb(ə)l] *a* rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, aniq
indissoluble [ˌɪndɪˈsɒljʊb(ə)l] *a* 1) qismlarga bo'linmaydigan, bo'laklarga ajralmaydigan; 2) *kim.* erimaydigan
indistinct [ˌɪndɪˈstɪŋkt] *a* noaniq, xira
indistinguishable [ˌɪndɪˈstɪŋwɪʃəb(ə)l] *a* 1) farqlab bo'lmaydigan, ajratib bo'lmaydigan; 2) ko'rinmaydigan, ko'rinmas
indivertible [ˌɪndaɪˈvɜːtəb(ə)l] *a* muqarrar, albatta yuz beradigan, shak-shubhasiz bo'ladigan
individual [ˌɪndɪˈvɪdʒʊəl] **1.** *a* shaxsiy, ayrim, yakka, alohida, o'ziga qarashli;

2. *n* shaxs, odam, kishi; **the rights of the ~** shaxsiy huquq

individualism [ˌɪndɪˈvɪdʒʊəlɪz(ə)m] *n* shaxsiyatparastlik, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish

individuality [ˌɪndɪˌvɪdʒʊˈælɪtɪ] *n* o'ziga xoslik, shaxsiyat

individualize [ˌɪndɪˈvɪdʒʊəlaɪz] *v* **1)** individual yondashmoq; **2)** o'ziga xos xususiyatlarni aniqlamoq

indivisible [ˌɪndɪˈvɪzəb(ə)l] *a* bo'linmas, bo'linmaydigan

indoctrinate [ɪnˈdɔktrɪneɪt] *v* **1)** ta'sir ko'rsatib ishontirmoq, uqtirmoq; **2)** nazariya (ta'limot) bilan tanishtirmoq

Indo-European [ˌɪndəʊˌjʊ(ə)rəˈpɪən] *a* hind-yevropa...

indolence [ˈɪndələns] *n* **1)** *tib.* og'riqsizlik, og'ritmaslik; **2)** dangasalik, tanballik

indolent [ˈɪndələnt] *a* **1)** yalqov, dangasa, tanbal; **2)** *tib.* og'riqsiz, sezmaydigan

indomitable [ɪnˈdɒmɪtəb(ə)l] *a* kuchli, shiddatli, to'xtatib bo'lmaydigan

Indonesian [ˌɪndəʊˈni:zɪən] **1.** *n* indoneziyalik kishi *yoki* ayol; **2.** *a* Indoneziya va indoneziyaliklarga oid

indoor [ˈɪndɔ:] *a* uy ichida, xonada bo'ladigan (turadigan, o'sadigan, yashaydigan)

indoors [ˌɪnˈdɔ:z] *adv* ichkarida; ichkariga

indubitable [ɪnˈdju:bɪtəb(ə)l] *a* shubhasiz, aniq, begumon

induce [ɪnˈdju:s] *v* **1)** majburlamoq, zo'rlamoq; **2)** qo'zg'amoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq

inducement [ɪnˈdju:smənt] *n* **1)** istak, xohish; niyat; **2)** *yur.* (*hujjat va sh. k. ning*) kirish qismi

induction [ɪnˈdʌkʃ(ə)n] *n* **1)** kirish, muqaddima; so'zboshi; **2)** tanishish, tanishtirish; **3)** lavozimga rasman tayinlash

induction-coil [ɪnˈdʌkʃ(ə)nkɔɪl] *n el.* induksion g'altak

inductive [ɪnˈdʌktɪv] *a* **1)** boshlang'ich, kirish; **2)** *mant.* induktiv

indulge [ɪnˈdʌldʒ] *v* ko'ngilchanlik qilmoq, bo'sh qo'ymoq, yo'l qo'ymoq, o'ta erkalatib yubormoq

indulgence [ɪnˈdʌldʒ(ə)ns] *n* **1)** erk berish, bo'sh qo'yish, ko'ngliga qarash; **2)** rohat, farog'at, huzur baxsh etuvchi

indulgent [ɪnˈdʌldʒ(ə)nt] *a* marhamatli, ko'ngilchan, ko'ngli bo'sh

industrial [ɪnˈdʌstrɪəl] *a* sanoatlashgan, sanoati taraqqiy etgan; **~ goods** sanoat mahsulotlari

industrialist [ɪnˈdʌstrɪəlɪst] *n* sanoatchi, korxona egasi

industrialization [ɪnˌdʌstrɪəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* sanoatlashtirish

industrialize [ɪnˈdʌstrɪəlaɪz] *v* sanoatlashtirmoq

industrious [ɪnˈdʌstrɪəs] *a* mehnatsevar, serg'ayrat

industry [ˈɪndəstrɪ] *n* sanoat, sanoat tarmog'i

indwell [ɪnˈdwel] *v* (**indwelt**) **1)** istiqomat qilmoq, turmoq, yashamoq; **2)** doimiy yashamoq

indweller [ˈɪndwelə] *n* istiqomat qiluvchi, turuvchi, yashovchi kishi

inebriate [ɪˈni:brɪ(e)ɪt] *n* alkogolizmga mubtalo bo'lgan kishi; piyonista

inedible [ɪnˈedəb(ə)l] *a* yeyilmaydigan, yeb bo'lmaydigan

ineffable [ɪnˈefəb(ə)l] *a* ta'riflab (tushuntirib) bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan

ineffective [ˌɪnɪˈfektɪv] *a* natijasiz, samarasiz, befoyda, behuda

ineffectual [ˌɪnɪˈfekʧʊəl] *a* natijasiz, samarasiz, befoyda, behuda

inefficiency [ˌɪnɪˈfɪʃ(ə)nsɪ] *n* unumsizlik, samarasizlik

inefficient [ˌɪnɪˈfɪʃ(ə)nt] *a* **1)** beunum, unumi yo'q; **2)** noqobil, uquvi yo'q, uquvsiz

ineligible [ɪnˈelɪʤəb(ə)l] *a* to'g'ri kelmaydigan, noloyiq, layoqatsiz

inept [ɪˈnept] *a* **1)** qobiliyatsiz, qo'lidan kelmaydigan, uddasidan chiqa olmaydigan; **2)** nomuvofiq, noo'rin, o'rinsiz

inequality [ˌɪnɪˈkwɒlɪtɪ] *n* tengsizlik, farq, baravar emaslik

inequitable [ɪnˈekwɪtəb(ə)l] *a* adolatsiz, nohaq

ineradicable [ˌɪnɪˈrædɪkəb(ə)l] *a* yo'q qilib (yo'qotib) bo'lmaydigan, bitirib (barham berib) bo'lmaydigan, tuzalmas

inert [ɪˈnɜ:t] *a* faoliyatsiz; sust, harakatsiz

inertia [ɪˈnɜ:ʃə] *n* **1)** *fiz.* inersiya (*jismlarning tashqi ta'siri bo'lmasa, tinch yoki tekis harakatdagi holatini saqlash xususiyati*); **2)** harakatsizlik, sustlik, dangasalik

inescapable [ˌɪnɪˈskeɪpəb(ə)l] *a* qochib bo'lmaydigan, muqarrar, oldini olib bo'lmaydigan

inessential [ˌɪnɪˈsenʃ(ə)l] *a* uncha ahamiyati yo'q, unchalik ahamiyatli emas, ikkinchi darajali

inestimable [ɪnˈestɪməb(ə)l] *a* bebaho, qimmatli, qadrli

inevitability [ɪnˌevɪtəˈbɪlɪtɪ] *n* muqarrarlik, ilojsizlik, iloji yo'qlik, qochib (qutulib) bo'lmaydiganlik

inevitable [ɪˈnevɪtəb(ə)l] *a* qochib qutulib bo'lmaydigan, o'zgartirib bo'lmaydigan, muqarrar

inevitably [ɪˈnevɪtəblɪ] *n* muqarrar ravishda, muqarrar, turgan gap, ilojsiz, iloji yo'q, albatta

inexact [ˌɪnɪgˈzækt] *a* **1)** noaniq, noto'g'ri, xato, yanglish; **2)** beparvo, e'tiborsiz

inexcusable [ˌɪnɪkˈskju:zəb(ə)l] *a* kechirib bo'lmaydigan, unutib bo'lmaydigan

inexhaustible [ˌɪnɪgˈzɔ:stəb(ə)l] *a* tamom bo'lmaydigan, bitmas-tuganmas

inexorable [ɪnˈeks(ə)rəb(ə)l] *a* rahmsiz, shafqatsiz

inexpedient [ˌɪnɪkˈspi:dɪənt] *a* maqsadga muvofiq bo'lmagan, nomuvofiq

inexpensive [ˌɪnɪkˈspensɪv] *a* arzon, qimmat emas

inexperience [ˌɪnɪkˈspɪ(ə)rɪəns] *n* tajribasizlik, g'o'rlik

inexperienced [ˌɪnɪkˈspɪ(ə)rɪənst] *a* tajribasiz, g'o'r

inexpert [ɪnˈekspɜ:t] *a* noshud; tajribasiz, mahoratsiz

inexpiable [ɪnˈekspɪəb(ə)l] *a* ashaddiy, murosasiz

inexplicable [ˌɪnɪkˈsplɪkəb(ə)l] *a* tushunarsiz, tushunib (tushuntirib) bo'lmaydigan, ta'riflab bo'lmaydigan

inexplicit [ˌɪnɪkˈsplɪsɪt] *a* noaniq, noma'lum

inexpressible [ˌɪnɪkˈspresəb(ə)l] *a* ifodalab bo'lmaydigan, tasvirlab bo'lmaydigan

inexpressive [ˌɪnɪkˈspresɪv] *a* ifodasiz, hech narsa anglatmaydigan, ma'nosiz, ta'riflab bo'lmaydigan

inextinguishable [ˌɪnɪkˈstɪŋgwɪʃəb(ə)l] *a* o'chmas, o'chirib bo'lmas, doimiy, mangu, to'xtovsiz, uzluksiz

inextricable [ɪnˈekstrɪkəb(ə)l] *a* **1)** chigal, murakkab; **2)** hal qilib (yengib) bo'lmaydigan

infallible [ɪnˈfæləb(ə)l] *a* **1)** yanglishmaydigan, xato qilmaydigan, ko'zi pishgan; **2)** ishonchli, ishonsa bo'ladigan

infamous [ˈɪnfəməs] *a* **1)** yomonlik bilan nomi chiqqan; **2)** uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan

infancy [ˈɪnfənsɪ] *n* **1)** go'daklik, yoshlik; **2)** *yur.* balog'atga yetmaganlik

infant [ˈɪnfənt] **1.** *a* **1)** boshlang'ich; **2)** bolalarga xos bo'lgan; **2.** *n* go'dak; yosh bola, chaqaloq

infanticide [ɪnˈfæntɪsaɪd] *n* bolalarni o'ldiradigan (qiradigan) kishi; farzandkushlik

infantile [ˈɪnfəntaɪl] *a* go'daklarcha, yosh bolalarcha

infantry [ˈɪnfəntrɪ] *n* piyoda askarlar, piyodalar

infatuated [ɪnˈfætʃʊeɪtɪd] *a* o'tkinchi sevgiga oid

infatuation [ɪn,fætʃu´eɪʃ(ə)n] *n* o'tkinchi sevgiga oid, sevib qolish
infect [ɪn´fekt] *v* yuqtirmoq
infection [ɪn´fekʃ(ə)n] *n* 1) infeksiya (*kasallikning yuqishi*); 2) zaharlanish, yuqtirish; 3) yuqumli kasal
infectious [ɪn´fekʃəs] *a* infeksion, yuqumli
infelicity [,ɪnfɪ´lɪsɪtɪ] *a* baxtsizlik, omadsizlik
infer [ɪn´fɜ:] *v* xulosa qilmoq
inference [´ɪnf(ə)rəns] *n* xulosa qilish, xulosa
inferior [ɪn´fɪ(ə)rɪə] *n* 1) pastda joylashgan; 2) mavqeyi, unvoni, darajasi bo'yicha past; 3) ma'nosi, qadri, navi, sifatiga ko'ra past
inferiority [ɪn,fɪ(ə)rɪ´ɔrɪtɪ] *n* 1) pastroq mavqe, sifat va sh. k.; 2) ijobiy xislatlari yetarli emaslik, norasolik
infernal [ɪn´fɜ:n(ə)l] *a* 1) do'zaxga oid, do'zax...; 2) la'nati
inferno [ɪn´fɜ:nəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) do'zax; o'ta issiq joy
infertile [ɪn´fɜ:taɪl] *a* 1) hosilsiz, unumsiz (*yerga nisbatan*); 2) tug'maydigan
infertility [,ɪnfɜ:´tɪlɪtɪ] *n* 1) hosilsiz, unumsiz; 2) naslsiz
infest [ɪn´fest] *v* to'lib toshmoq, qaynamoq, bosib ketmoq
infested [ɪn´festɪd] *a* to'lib ketgan, bosib ketgan
infidel [´ɪnfɪdl] *n* 1) xudosiz; 2) dinsiz, dinga ishonmaydigan; 3) butparast
infidelity [,ɪnfɪ´delɪtɪ] *n* 1) dinga ishonmaslik, dinsizlik; ateist; 2) butparastlik; 3) bevafolik, vafosizlik, ahdini buzish, ahdidan qaytish, sodiq emaslik
infiltrate [´ɪnfɪltreɪt] *v* 1) *harb.* ichiga kirmoq, suqilib kirmoq; 2) suzmoq, suzg'ichdan o'tkazmoq
infiltration [,ɪnfɪl´treɪʃ(ə)n] *n* 1) *harb.* ichiga kirish, suqilib kirish; 2) suzish, suzg'ichdan o'tkazish
infiltrator [´ɪnfɪltreɪtə] *ni* josus, ayg'oqchi
infinite [´ɪnfɪnɪt] *a* 1) cheksiz, bepoyon; 2) *gram.* noaniq
infinitely [´ɪnfɪnɪtlɪ] *adv* juda, nihoyatda
infinitive [ɪn´fɪnɪtɪv] **1.** *n gram.* infinitiv; fe'lning noaniq shakli; **2.** *a* noaniq
infinity [ɪn´fɪnɪtɪ] *n* cheksizlik, bepoyonlik, cheki yo'qlik
infirm [ɪn´fɜ:m] *a* kuchsiz, zaif, xasta, quvvatsiz
infirmary [ɪn´fɜ:m(ə)rɪ] *n* kasalxona, kazarma
infirmity [ɪn´fɜ:mɪtɪ] *n* kuchsizlik, zaiflik, quvvatsizlik
inflame [ɪn´fleɪm] *v* 1) alanga olmoq; 2) *tib.* yallig'lanmoq, qizarmoq, shishmoq
inflamed [ɪn´fleɪmd] *a* qizargan, shishgan, yallig'langan
inflammable [ɪn´flæməb(ə)l] *a* tez yonadigan, yonuvchan
inflammation [,ɪnflə´meɪʃ(ə)n] *n tib.* yallig'lanish; gazak
inflammatory [ɪn´flæmət(ə)rɪ] *a* 1) yomon ishga undaydigan, gij-gijlaydigan, vasvasaga soladigan, ig'vo (g'alamislik) qiladigan; 2) *tib.* yallig'lanishga oid; yallig'lanish bilan bog'liq bo'lgan, yallig'lanish...
inflatable [ɪn´fleɪtəb(ə)l] *a* havo to'ldiriladigan, shishiriladigan
inflate [ɪn´fleɪt] *v* havo to'ldirmoq, havo bilan shishirmoq
inflation [ɪn´fleɪʃ(ə)n] *n* 1) pulning qadrsizlanishi (*inflatsiya*); 2) puflab shishirish
inflationary [ɪn´fleɪʃ(ə)n(ə)rɪ] *a* inflatsiyaga oid
inflect [ɪn´flekt] *v* 1) ovozini o'zgartirmoq, tuslanmoq; 2) *gram.* so'zning oxirgi bo'g'inini o'zgartirmoq; 2) egmoq, bukmoq
inflection [ɪn´flekʃ(ə)n] *n* 1) ovozini o'zgartirish, tuslanish; 2) so'z
inflective [ɪn´flektɪv] *a* 1) *gram.* o'zgaruvchi, turlanuvchi; 2) egiladigan, bukiladigan
inflexibility [ɪn,fleksə´bɪlɪtɪ] *n* egilmaslik, qayrilmaslik
inflexible [ɪn´fleksəb(ə)l] *a* bukilmas, egilmaydigan, qayrilmaydigan
inflexion [ɪn´flekʃ(ə)n] = **inflection**
inflict [ɪn´flɪkt] *v* 1) (*zarba, jarohat va sh. k.*) yetkazmoq; 2) (*jazo va sh. k.*) bermoq; 3) zo'rlab o'tkazmoq, majburan qabul qildirmoq
in-flight [,ɪn´flaɪt] *a* uchish davomidagi, parvoz vaqtidagi
inflorescence [,ɪnflɔ:´rəs(ə)ns] *n bot.* gullash
inflowing [ɪn´fləʊɪŋ] *n* 1) quyilish (*daryo haqida*); 2) jilg'a, irmoq
influence [´ɪnfluəns] **1.** *n* ta'sir; ta'sir ko'rsatish (etish); **under the ~ of** ta'siri ostida; **2.** *v* ta'sir ko'rsatmoq, ta'sir etmoq
influential [,ɪnflʊ´enʃ(ə)l] *a* ta'sirli, ta'sir ko'rsatadigan
influenza [,ɪnflʊ´enzə] *n tib.* 1) gripp; 2) influenza (*nafas yo'llarining og'ir yallig'lanishi*)
influx [´ɪnflʌks] *n* yopirilib kelish, qo'shilib kelish, oqib kelish
inform [ɪn´fɔ:m] *v* ma'lumot bermoq, bildirmoq, xabar bermoq; **to ~ of** ... haqida xabar qilmoq
informal [ɪn´fɔ:m(ə)l] *a* norasmiy, erkin; **an ~ visit** norasmiy tashrif
informant [ɪn´fɔ:mənt] *n* axborot (ma'lumot) beruvchi
information [,ɪnfə´meɪʃ(ə)n] *n* 1) axborot, xabar, ma'lumot; **to get ~** ma'lumot (xabar) olmoq; **to send ~** xabar yubormoq; **an ~ bureau** ma'lumotlar byurosi; 2) shikoyat
informative [ɪn´fɔ:mətɪv] *a* informatsion, axborot beradigan
informed [ɪn´fɔ:md] *a* xabardor, xabari bor, biladigan; bilag'on
informer [ɪn´fɔ:mə] *n* xabarchi, xabar beruvchi, darakchi, ma'lumot beruvchi
infraction [ɪn´fræk](ə)n] *v* (*qoida, qonun va sh. k. ni*) buzmoq, (*qoida, qonun va h. k. ga*) rioya qilmaslik
infra dig [,ɪnfrə´dɪg] *a* kamsitadigan, xo'rlaydigan, yerga uradigan
infra-red [,ɪnfrə´red] *a fiz.* infraqizil, ko'zga ko'rinmaydigan
infrequent [ɪn´fri:kwənt] *a* kam uchraydigan *yoki* sodir bo'ladigan
infringe [ɪn´frɪndʒ] *v* (*qonun, muallif-lik huquqini*) buzmoq
infringement [ɪn´frɪndʒmənt] *n* (*qonun, muallif-lik huquqini*) buzish
infuriate [ɪn´fjʊ(ə)rɪeɪt] *v* qattiq g'azablantirmoq, quturtirmoq
infuse [ɪn´fju:z] *v* 1) quymoq, solmoq; 2) biror his tug'dirmoq, uyg'otmoq, paydo qilmoq; 3) (*choy, giyoh va sh. k. ni*) damlamoq; dam yemoq
infusible [ɪn´fju:zəb(ə)l] *a* erimaydigan, qiyin eriydigan
infusion [ɪn´fju:ʒ(ə)n] *n* 1) damlama; 2) aralashma; 3) *tib.* (*venaga qon yoki dori*) quyish, yuborish; 4) (*fikr va sh. k. ni*) tug'dirish, uyg'otish, paydo qilish
ingathering [´ɪngæð(ə)rɪŋ] *n* hosilni yig'ishtirib olish
ingenious [ɪn´dʒi:nɪəs] *a* farosatli, fahmli
ingenuity [,ɪndʒɪ´nju:ɪtɪ] *n* zukkolik, oqillik
ingenuous [ɪn´dʒenjʊəs] *a* 1) samimiy, chin yurakdan aytilgan yoki qilingan; 2) ayyorlikni bilmaydigan, sodda, to'g'ri; ochiqko'ngil, soddadil, sofdil, ko'ngilchan
ingest [ɪn´dʒest] *v* yutmoq, yutib yubormoq
ingle-nook [´ɪŋg(ə)lnʊk] *n* kamin (o'choq) oldidagi joy
inglorious [ɪn´glɔ:rɪəs] *a* 1) uyatli, uyatga qoldiradigan; 2) taniqli bo'lmagan, mashhur emas
ingot [´ɪŋgət] *n* metall quymasi (*yombi*)
ingrained [´ɪn´greɪnd] *a* singib ketgan, ildiz otgan
ingratiate [ɪn´greɪʃɪeɪt] **1.** *v* mehrini qozonmoq; **2.** *a* mehrini qozonadigan

ingratiating [ɪn'greɪʃɪeɪtɪŋ] *a* jozibali, dilrabo, dilbar, mattunkor
ingratitude [ɪn'grætɪtju:d] *n* yaxshilikni bilmaslik, nonko'rlik, oqibatsizlik, ko'rnamaklik
ingredient [ɪn'gri:dɪənt] *n* ingrediyent, tarkibiy qism
ingress ['ɪngres] *n* kiradigan joy, kirish yo'li; kirish
inhabit [ɪn'hæbɪt] *v* yashamoq, istiqomat qilmoq, umr kechirmoq
inhabitable [ɪn'hæbɪtəb(ə)l] *a* yashash uchun yaroqli
inhabitant [ɪn'hæbɪt(ə)nt] *n* yashovchi, turuvchi, istiqomat qiluvchi, umr kechiruvchi
inhabitation [ɪn,hæbɪ'teɪʃ(ə)n] *n* biror yerda yashash, turish, istiqomat qilish
inhalant [ɪn'heɪlənt] *n tib.* 1) ingalator (*ingalatsiya apparati*); 2) ingalatsiyada qo'llaniladigan dori
inhalation [,ɪnhə'leɪʃ(ə)n] *n* 1) nafas olish, o'pkaga havo olish; 2) *tib.* ingalatsiya (*bug' yoki gaz holidagi shifobaxsh narsalar bilan nafas oldirib davolash*)
inhale [ɪn'heɪl] *v* nafas olmoq, ichiga tortmoq
inhaler [ɪn'heɪlə] *n* 1) *tib.* ingalator (*ingalatsiya apparati*); 2) respirator (*nafas olish, ko'rish va eshitish a'zolarini gaz va changdan saqlaydigan asbob*)
inhaust [ɪn'hɔ:st] *v* so'rib olmoq, tortib olmoq (*masalan, havoni*)
inherent [ɪn'hɪ(ə)rənt] *a* 1) o'ziga xos; ajralmas; 2) tug'ma, tabiiy
inherit [ɪn'herɪt] *v* 1) meros (qilib) olmoq; 2) ota-bobosidan o'tmoq; 3) qabul qilib olmoq
inheritance [ɪn'herɪt(ə)ns] *n* meros, meros qilib olish
inheritor [ɪn'herɪtə] *n* voris, davomchi, davom ettiruvchi
inhibit [ɪn'hɪbɪt] *v* to'sqinlik qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq, to'xtatib turmoq
inhibited [ɪn'hɪbɪtɪd] *a* 1) ezilgan; 2) cheklangan; mahrum qilingan
inhibition [,ɪnhɪ'bɪʃ(ə)n] *n* 1) tiyilish, ezilish; 2) mahrumlik, cheklanganlik
inhospitable [,ɪnhɔ'spɪtəb(ə)l] *a* 1) mehmondo'st emas, ko'ngli tor; 2) yashash uchun noqulay
inhuman [ɪn'hju:mən] *a* shafqatsiz, rahmsiz, zolim, qahri qattiq
inhumane [,ɪnhju:'meɪn] *a* g'ayriinsoniy, insonga xos bo'lmagan, zolim, shafqatsiz, vahshiy
inhumanity [,ɪnhju:'mænɪtɪ] *n* g'ayriinsoniylik, vahshiylik, shafqatsizlik
inimical [ɪ'nɪmɪk(ə)l] *a* dushman, dushmanlarcha, yomon ko'radigan, yoqtirmaydigan
inimitable [ɪ'nɪmɪtəb(ə)l] *a* misli yo'q, yagona, tengsiz
iniquitous [ɪ'nɪkwɪtəs] *a* adolatsiz; haqsiz, nohaq
iniquity [ɪ'nɪkwɪtɪ] *n* adolatsizlik; haqsizlik, nohaqlik
initial [ɪ'nɪʃ(ə)l] **1.** *a* boshlang'ich; **2.** *n* boshlang'ich (dastlabki) harf
initially [ɪ'nɪʃ(ə)lɪ] *adv* dastlab, avval
initiate [ɪ'nɪʃɪɪt] **1.** *v* boshlamoq, kirishmoq; **2.** *n* (*jamiyat va b. ga*) qaytadan qabul qilingan kishi; **3.** *a* (*jamiyat va b. ga*) qabul qilingan
initiation [ɪ,nɪʃɪ'eɪʃ(ə)n] *n* xabardor qilish, voqif qilish, ma'lum qilish, bildirish
initiative [ɪ'nɪʃətɪv] *n* tashabbus, tashabbuskorlik; **on the ~ of** kimningdir tashabbusi bilan
initiator [ɪ'nɪʃɪeɪtə] *n* tashabbuskor
inject [ɪn'dʒekt] *v tib.* ukol qilmoq; **~ion** ukol
injudicious [,ɪndʒu'dɪʃəs] *a* o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak
injunction [ɪn'dʒʌŋkʃ(ə)n] *n* taqiq, man, ruxsat bermaslik
injure ['ɪndʒə] *v* 1) zarar yetkazmoq; 2) jarohat yetkazmoq; 3) xafa qilmoq
injured ['ɪndʒəd] *n* shikastlanganlar, jarohatlanganlar, yaradorlar
injurious [ɪn'dʒu(ə)rɪəs] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli
injury ['ɪndʒərɪ] *n* 1) tanaga yetkazilgan zarar, jarohat, travma; 2) zarar, (*mol-mulkka yetkazilgan*) talafot; 3) xafa qilish, haqoratlash; haqorat
injustice [ɪn'dʒʌstɪs] *n* adolatsizlik; **to do smb. an ~** kimgadir adolatsizlik qilmoq
ink [ɪŋk] *n* siyoh; **in ~** siyoh bilan
inkling ['ɪŋklɪŋ] *n* shubha, gumon
ink-pot ['ɪŋkpɒt] *n* siyohdon
inkstand ['ɪŋkstænd] *n* 1) siyohdon; 2) yozuv anjomlari
inky ['ɪŋkɪ] *a* 1) siyoh bilan bo'yalgan; 2) tim qora; 3) siyohga oid
inlaid [,ɪn'leɪd] *a* mozaikaga (naqsh ishlash san'atiga) oid; koshinkor
inland ['ɪnlənd] *a* ichki; **~ trade** ichki savdo
in-laws ['ɪn:lɔ:z] *n* er *yoki* xotinning qarindoshlari
inlay ['ɪnleɪ] *n* 1) qadama naqsh; 2) mozaika (*naqsh ishlash san'ati*)
inlet ['ɪnlet] *n* qirg'oqlari qoyali, tor va chuqur dengiz ko'rfazi
inmate ['ɪnmeɪt] *n* mahbus, ruhiy kasal
inmost ['ɪnməʊst] = **innermost**
inn [ɪn] *n* mehmonxona
innate [ɪ'neɪt] *a* tabiiy, tug'ma
inner ['ɪnə] *a* ichki; **an ~ door** ichki eshik
innermost ['ɪnəməʊst] *a* 1) chuqur, teran; 2) chuqur joylashgan
innings ['ɪnɪŋz] *n* 1) to'p uzatish navbati; 2) biror narsaga erishish imkoniyati
innkeeper ['ɪn,ki:pə] *n* restoran (mehmonxona) egasi (xo'jayini)
many [´menɪ] **1.** *a* 1) ko'p, ancha, bir talay; **~ people** ko'p odamlar; **2.** *n* ko'pdan ko'p, juda ko'p, ko'pgina kishilar

many-sided [,menɪ´saɪdɪd] *a* har tomonlama, har taraflama

many-stage [,menɪ´steɪʤ] *a* ko'p pog'onali, ko'p bosqichli

Maori [´maʊrɪ] *n* (*pl* **-s** [-z] *yoki o'zgarishsiz*) maori, maori tili

map [mæp] **1.** *n* xarita; **a ~ of the world** dunyo xaritasi; **2.** *v* xaritaga kiritmoq, xaritani chizmoq

maple [´meɪp(ə)l] *n* 1) *bot.* zarang (*daraxt*); 2) *attr.* zarang daraxtiga oid, zarang yog'ochidan qilingan

maple-leaf [,meɪp(ə)l´li:f] *n* zarang daraxtining bargi

map-maker [´mæp,meɪkə] *n* kartograf (*xaritalar tuzuvchi mutaxassis, kartografiya mutaxassisi*)

mapping [´mæpɪŋ] *n* xaritaga kiritish, xaritaga olish

map range [,mæp´reɪnʤ] *n harb.* gorizontal masofa (*xarita bo'yicha*)

maquis [mæ´ki:] *n fr.* (*pl o'zgarishsiz*) maki (*Ikkinchi Jahon urushidagi fransuz partizanlarining nomi*)

mar [mɑ:] **1.** *n* urilgan joy, lat yegan joy; **2.** *v* urmoq, ziyon keltirmoq; **to make or ~** yo dong'im chiqadi, yo changim

chiqadi; yo ostidan, yo ustidan (*matal*)

marabou ['mærəbu:] *n zool.* marabu, marbut (*laylaklarga mansub katta qush*)

marabout ['mærəbu:t] *n* tarki dunyo qilgan musulmon

marasmus [mə'ræzməs] *n* 1) ma'naviy tushkunlik; 2) kuch-quvvatdan qolish

marathon ['mærəθən] *n* marafon yugurishi

maraud [mə'rɔ:d] *v* 1) shilmoq, talamoq, bosqinchilik qilmoq; qimmat sotib talamoq; 2) kafanduzdlik qilmoq

marauder [mə'rɔ:də] *n* 1) kafanduzd (*urush harakatlari hududidagi aholini yoki jang maydonida o'lgan va yaradar bo'lganlarni talovchi odam*); 2) qimmatfurush savdogar

marauding [mə'rɔ:dɪŋ] *n* kafanduzdlik, talovchilik, qimmatfurushlik

marble ['mɑ:b(ə)l] *n* marmar, marmartosh

marbled ['mɑ:b(ə)ld] *a* olachipor, xolxol dog'li

marble-topped ['mɑ:b(ə)l,tɒpt] *a* : **a ~ table** marmar taxtali stol

marc [mɑ:k] *n* (*mevalarni*) siqish

marcel [mɑ:'sel] **1.** *n* sochni qattiq qilib o'rish; **2.** *v* sochlarni issiq qisqich (fen) bilan jingalak qilib o'rmoq

March [mɑ:tʃ] *n* mart; **~ days** mart kunlari

march I [mɑ:tʃ] **1.** *n* 1) *harb.* yurish, namoyish, marsh; **forced ~** tezlashtirilgan (jadal) yurish; 2) *mus.* marsh (*safda yurish uchun yozilgan musiqa asari*); **dead ~** motam marshi; **2.** *v* marsh qilmoq, olg'a bormoq

march II [mɑ:tʃ] *v* chegaradosh bo'lmoq

marching ['mɑ:tʃɪŋ] *n* harbiycha qadam tashlab yurish

marchioness I [,mɑ:ʃə'nes] *n* eshik (deraza) soyaboni

marchioness II [,mɑ:ʃə'nes] *n* markiza

marchpane ['mɑ:tʃpeɪn] *n* mag'iz xamir

march past ['mɑ:tʃpɑ:st] *n* tantana bilan yurib o'tish, tantanali marsh

mare [meə] *n* baytal, biya

mare's-nest ['meəznest] *n* amalga oshmaydigan xom xayol

margarine [,mɑ:dʒə'ri:n] *n* margarin

marge I [mɑ:dʒ] = **margin 1**

marge II [mɑ:dʒ] = **margarine**

margin ['mɑ:dʒɪn] **1.** *n* hoshiya, qirg'oq, chet; **2.** *v* hoshiyaga (*chetiga*) qayd qilmoq

marginal ['mɑ:dʒɪnl] *a* 1) kitob chetiga yozilgan; 2) chetda turadigan; 3) o'ta, haddan tashqari; 4) eng kam, minimal, zo'rg'a yetadigan

marginalia [,mɑ:dʒɪ'neɪlɪə] *n pl* kitob chetidagi qaydlar

margrave ['mɑ:greɪv] *n tar.* markgraf

margravine ['mɑ:grəvi:n] *n* markgraf xotini

marguerite [,mɑ:g(ə)'ri:t] *n bot.* dastorgul

marigold ['mærɪgəold] *n bot.* 1) gulidovud, gulijavhar; 2) gulhamishabahor

marihuana [,mærɪ'wɑ:nə] *n isp.* marixuana, nasha

marijuana [,mærɪ'wɑ:nə] = **marihuana**

marimba [mə'rɪmbə] *n* marimba (*musiqa asbobi*)

marina [mə'ri:nə] *n* qayiqlar turadigan joy

marinade [,mærɪ'neɪd] **1.** *n* ziravorli sirkamoy; **2.** *v* 1) ziravorli sirkamoy bosmoq; 2) tuzlamoq, tuzlab qo'ymoq

marine [mə'ri:n] *n* 1) dengiz floti; 2) dengiz floti askari; 3) dengiz manzarasi tasvirlangan rasm

mariner ['mærɪnə] *n* matros, dengizchi; **master ~** savdo kemasining kapitani

marionette [,mærɪə'net] *n* qo'g'irchoq (*o'yinchi qo'g'irchoq*)

marital ['mærɪtl] *a* er-xotinga va er-xotinlikka oid

maritime ['mærɪtaɪm] *a* 1) dengizga oid; **~ climate** dengiz iqlimi; 2) dengiz bo'yidagi, (yoqasidagi, labidagi); **a ~ station** qirg'oqdagi (sohildagi) stansiya

marjoram ['mɑ:dʒ(ə)rəm] *n bot.* mayoran

mark [mɑ:k] **1.** *n* 1) belgi, nishona, ko'rsatkich; **the ~ of accent** urg'u belgisi; 2) tamg'a, shtamp; 3) iz; **~s of illness** kasallik belgisi; 4) yamoq, chandiq, xol; 5) marka; 6) baho, ball; **a good ~ in English** ingliz tilidan yaxshi baho; **2.** *v* 1) belgi qo'ymoq; **to ~ the accent** urg'u qo'ymoq; 2) tamg'alamoq, belgilamoq; marka qo'ymoq; 3) o'lchamoq, belgilamoq; 4) iz qoldirmoq; 5) baholamoq, belgilamoq; 6) fikrini bildirmoq; **to ~ down** pasaytirmoq, kamaytirmoq; **to ~ off** ajratmoq, chegara o'tkazmoq, chegaralamoq; **to ~ out** o'lchamoq; **to ~ up** ko'tarilmoq (*narx to'g'risida*)

mark-down ['mɑ:kdaon] *n* narxlarning pasayishi

marked ['mɑ:kt] *a* 1) belgilangan, belgi (ishora) qo'yilgan; 2) bilinadigan, ko'rinadigan, ko'rinib (sezilib, bilinib) turgan, ko'zga tashlanadigan, sezilarli; ko'zga ko'ringan, ma'lum; taniqli; **~ difference** sezilarli farq; **a ~ man** mashhur odam

marker ['mɑ:kə] *n* tamg'a bosuvchi, tamg'alovchi kishi

market ['mɑ:kɪt] **1.** *n* bozor; **to go to the ~** bozorga bormoq; **in the ~** bozorda; **home ~** ichki bozor; **2.** *v* 1) sotmoq; 2) bozorga olib kelmoq, bozorda sotib olmoq

marketability [,mɑ:kɪtə'bɪlɪtɪ] *n* bozorda sotishga yaroqlilik

marketable ['mɑ:kɪtəb(ə)l] *a* 1) bozori chaqqon, bozorgir, tez sotiladigan (*tovarga, molga nisbatan*); 2) bozorga oid; bozor uchun mo'ljallangan, bozor...; **~ surplus of grain** sotiladigan g'alla

market-day ['mɑ:kɪtdeɪ] *n* bozor kuni

marketeer [,mɑ:kɪ'tɪə] *n* savdogar, do'kondor

market garden [,mɑ:kɪt'gɑ:dn] *n* poliz, poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer

marketing ['mɑ:kɪtɪŋ] *n* savdo, savdo-sotiq

market-place ['mɑ:kɪtpleɪs] *n* bozor maydoni

market-price [,mɑ:kɪt 'praɪs] *n* bozor bahosi

marking ['mɑ:kɪŋ] *n* 1) marka, belgi, tamg'a; 2) rang-barang qilib bo'yash

markka ['mɑ:kə] *n* marka (*Finlandiya pul birligi*)

marksman ['mɑ:ksmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) mergan otuvchi, mergan

marksmanship ['mɑ:ksmənʃɪp] *n* bexato otilgan o'q

mark-up ['mɑ:k'ʌp] *n* (*mol, tovar*) narxining ko'tarilishi

marl [mɑ:l] *n* mergel, ohakgil

marline ['mɑ:lɪn] *n deng.* marlin

marly ['mɑ:lɪ] *a geol.* ohakgilga oid

marmalade ['mɑ:məleɪd] *n* 1) quyuq shinni; 2) povidlo, meva qiyom; 3) marmelad

marmoreal [mɑ:'mɔ:rɪəl] *a* marmarga oid

marmoset ['mɑ:məzet] *n* maymun (*martishka zoti*)

marmot ['mɑ:mət] *n zool.* sug'ur

maroon [mə'ru:n] **1.** *n* to'q qizil rang; **2.** *a* to'q qizil

marplot ['mɑ:plɒt] *n* to'siq, to'siqlik, g'ov

marquee [mɑ:'ki:] *n* katta chodir

marquis ['mɑ:kwɪs] *n* markiz (*ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: dvoryanlar unvoni va shu unvonga ega bo'lgan kishi*)

marquise [mɑ:'ki:z] *n* markiza (*markizning xotini yoki qizi*)

marriage ['mærɪdʒ] *n* er-xotinlik, uylanish, nikoh, turmushga chiqish

marriageable ['mærɪdʒəb(ə)l] *a* katta yoshli, voyaga yetgan; **a girl of ~ age** voyaga yetgan qiz

married ['mærɪd] **1.** *p. p. of* **marry**; **2.** *a* uylangan, turmushga chiqqan; **a ~ man** uylangan erkak; **to get ~** turmushga chiqmoq

marrow [ˈmærəʊ] *n* 1) ilik; 2) mohiyat, asosiy ma'no
marrowbone [ˈmærəʊbəʊn] *n* 1) ilikli suyak; 2) asl ma'no, mazmun
marrow squash [ˌmærəʊˈskwɒʃ] *n bot.* qovoqcha (*qovoqning mayda uzunchoq bir turi*)
marrowy [ˈmærəʊɪ] *a* 1) ilikli; iligi to'la; 2) kuchli; baquvvat
marry [ˈmærɪ] *v* 1) uylantirmoq, xotin olib bermoq; 2) erga bermoq; 3) uylanmoq; 4) erga tegmoq
Mars [mɑ:z] *n astr.* Mars (*Quyosh sistemasidagi to'qqizta katta sayyoralardan biri*)
Marsala [mɑ:ˈsɑ:lə] *n* marsala (*vino*)
Marseillaise [ˌmɑ:səˈleɪz] *n fr.* marselyeza (*1792-yili Fransiya burjua revolütsiyasi davrida yaratilgan revolutsion qo'shiq, keyinchalik Fransiyaning gimni*)
marsh [mɑ:ʃ] *n* botqoq, botqoqlik
marshal [ˈmɑ:ʃ(ə)l] *n* 1) marshal; 2) *amer.* sud ijrochisi; 3) *amer.* politsiya uchastkasi boshlig'i; 4) *amer.* o't o'chiruvchilar komandasi boshlig'i
marshalling yard [ˈmɑ:ʃ(ə)lɪŋˌjɑ:d] *n* (*vagonlarni*) saralaydigan stansiya
marsh gas [ˈmɑ:ʃgæs] *n* metan, botqoq gazi
marsh harrier [ˈmɑ:ʃˌhærɪə] *n zool.* botqoqlikda (to'qayda) yashaydigan bo'ktargi (*yirtqich qushlarning bir turi*)
marshland [ˈmɑ:ʃlænd] *n* serbotqoq joy
marsh mallow [ˌmɑ:ʃˈmæləʊ] *n bot.* dorivor gulxayri
marshy [ˈmɑ:ʃɪ] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq
marsupial [mɑ:ˈsju:pɪəl] **1.** *n zool.* qopchiqli hayvon, xaltali hayvon; **2.** *a* xaltali, qopchiqli
mart [mɑ:t] *n* 1) *shoir.* bozor; 2) savdo markazi
marten [ˈmɑ:tɪn] *n zool.* suvsar (*qimmatbaho mo'ynali yirtqich sutemizuvchilarning bir turi*)
martial [ˈmɑ:ʃ(ə)l] *a* jangovar, harbiyga oid; ~ **law** a) harbiy holat; b) harbiy payt qonuni
martial art [ˌmɑ:ʃ(ə)lˈɑ:t] *n sport.* yakkakurash
Martian [ˈmɑ:ʃ(ə)n] *n* marslik
martin [ˈmɑ:tɪn] *n zool.* shahar qaldirg'ochi
martinet [ˌmɑ:tɪˈnet] *n* qattiq intizom tarafdori
martingale [ˈmɑ:tɪngeɪl] *n qarta.* dov (*qimorga tikilgan pulning yutqazganda ikki baravar ko'payishi*)
Martini [mɑ:ˈti:nɪ] *n* martini (*spirtli kokteyl*)
Martinmas [ˈmɑ:tɪnməs] *n cherk.* Martin kuni (*11-noyabr*)
martlet [ˈmɑ:tlɪt] *n* 1) jonim, jonginam; 2) *zool.* qora jarqaldirg'och; qora uzunqanot
martyr [ˈmɑ:tə] **1.** *n* azob tortgan, aziyat chekkan; **2.** *v* azob bermoq, aziyat chekmoq
martyrdom [ˈmɑ:tədəm] *n* azob-uqubat-dagi ahvol, azob-uqubat tortish
martyrize [ˈmɑ:təraɪz] *v* azoblamoq, zulm qilmoq
marvel [ˈmɑ:v(ə)l] **1.** *n* mo'jiza, karomat; **2.** *v* ajablanmoq, hayron bo'lmoq, zavqlanmoq
marvel(l)ous [ˈmɑ:v(ə)ləs] *a* ajoyib, kishini hayron qiladigan (hayratda qoldiradigan)
marzipan [ˈmɑ:zɪpæn] = **marchpane**
mascara [mæˈskɑ:rə] *n* qoshga qo'yadigan tush, bo'yoq, rang
mascot [ˈmæskət] *n* tumor
masculine [ˈmæskjʊlɪn] *a* 1) erkaklarga xos bo'lgan, erkaklarcha; 2) *gram.* ~ **gender** erkak jinsi
masculinity [ˌmæskjʊˈlɪnɪtɪ] *n* mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, dovyuraklik
mash I [mæʃ] *n* atala (*pivo qilish uchun tayyorlanadigan g'alla atalasi*)
mash II [mæʃ] **1.** *n* 1) zavq, ishtiyoq; 2) qiziqish, ishqibozlik; **2.** *v* o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qiziqtirib qo'ymoq; **2.** *v* ayolning ko'nglini ovlamoq (olmoq); **to be ~ed on** ...ni sevib qolmoq; ...ga oshiq bo'lib qolmoq
mashed potatoes [ˌmæʃtəˈteɪtəʊz] *n pl* kartoshka pyuresi
masher I [ˈmæʃə] *n* mevalarni ezib suvini chiqaradigan qurilma
masher II [ˈmæʃə] *n* olifta, satang
mask [mɑ:sk] *n* 1) maska, niqob; 2) protivogaz
masked [ˈmɑ:skt] *a* 1) boshqacha kiyim kiygan, boshqacha kiyingan; 2) niqob kiygan; **a ~ ball** bal-maskarad
masker [ˈmɑ:skə] = **masquer**
mason [ˈmeɪs(ə)n] *n* g'isht teruvchi (quruvchi) usta; **~'s float** kurakcha (*suvoqchining asbobi*)
masonic [məˈsɒnɪk] *a* masonlik, masonga oid (*mason – VIII asrda paydo bo'lgan diniy, falsafiy oqim; uning tarafdorlari o'z oldiga axloqni kamolotga yetkazish vazifasini qo'ygan, lekin siyosatda reaksion yo'l tutgan*)
masonry [ˈmeɪs(ə)nrɪ] *n* toshdan qurilgan devor
masque [mɑ:sk] *n* niqob teatri
masquer [ˈmɑ:skə] *n* balmaskarad *yoki* niqob teatrining ishtirokchisi
masquerade [ˌmæskəˈreɪd] **1.** *n* 1) maskarad, niqoblanish, yasama tus olish; 2) o'zini boshqa qilib ko'rsatish; **2.** *v* 1) maskaradda qatnashmoq; 2) o'zini boshqacha qilib ko'rsatmoq
mass [mæs] *n* 1) xamir; 2) ko'p, ko'pchilik; katta miqdor; 3) omma; **in the ~** umuman, umuman aytganda, xullasi kalom; **a ~ meeting** ommaviy miting; **~ production** uzluksiz ishlab chiqarish
massacre [ˈmæsəkə] **1.** *n* qirg'in, xunrezlik; **2.** *v* xunrezlik qilmoq
massage [ˈmæsɑ:ʒ] **1.** *n* massaj, silash, uqalash; **2.** *v* silamoq, uqalamoq
masseur [mæˈsɜ:] *n fr.* massajchi (uqalovchi) kishi
masseuse [mæˈsɜ:z] *n fr.* massajchi (uqalovchi) ayol
massicot [ˈmæsɪkɒt] *n* qo'rg'oshin oksidi (*sariq bo'yoq*)
massif [ˈmæsi:f] *n* keng tog'li joy
massive [ˈmæsɪv] *n* 1) salmoqdor, yirik; 2) ulkan, katta; **~ storm** qattiq bo'ron
mass media [ˌmæsˈmi:dɪə] *n* ommaviy axborot vositalari
mass-produce [ˌmæsprəˈdju:s] *v* ko'p ishlab chiqarmoq
mass-spectrograph [ˈmæsˈspektrəgrɑ:f] *n fiz.* mass-spektrograf (*spektr tasvirini yozib oladigan asbob*)
massy [ˈmæsɪ] *a* 1) mustahkam, puxta, ishonchli; 2) katta, yirik
mast I [mɑ:st] *n q.x.* yig'ishtirilgan xashak, pichan (*hosili*)
mast II [mɑ:st] **1.** *n* machta (*kemaning yelkan osish, kuzatish, signal berish uchun xizmat qiladigan metall yoki yog'och ustuni, dori*); **2.** *v* machta qo'ymoq (o'rnatmoq)
master [ˈmɑ:stə] **1.** *n* 1) xo'jayin, ega, sohib, usta; **a ~ of a shop** magazin egasi; 2) o'qituvchi; **mathematics ~** matematika o'qituvchisi; 3) kollej direktori; 4) magistr; **~ of Law** yuridik fanlari magistri; 5) o'z ishining ustasi; 6) buyuk, mashhur rassom; 7) kapitan (*savdo kemasida*); **2.** *v* 1) (*qiyinchiliklarni*) yengmoq; **to ~ the enemy** dushmanni yengmoq; **to ~ a difficulty** qiyinchilikni yengmoq; 2) (*bilim, til*) egallamoq; **to ~ a language** tilni egallamoq; 3) boshqarmoq; **to ~ the house** xo'jalikni boshqarmoq
masterful [ˈmɑ:stəf(ə)l] *a* 1) hukmi (so'zi) o'tadigan; 2) mahorat bilan bajarilgan, ustalik bilan qilingan (ishlangan, yasalgan); mohirona, san'atkorona
master-key [ˌmɑ:stəˈki:] *n* ochqich (*qulfni ochadigan moslama*)
masterly [ˈmɑ:stəlɪ] **1.** *a* mahorat bilan bajariladigan, mohirona; **2.** *adv* mahorat bilan, ustalik bilan

mastermind [ˈmɑːstəmaɪnd] *n* 1) zo'r aql; 2) yo'lboshchi, yetakchi, boshliq, ishboshi (*asosan, maxfiy, norasmiy*)
masterpiece [ˈmɑːstəpiːs] *n* shoh (durdona) asar
mastership [ˈmɑːstəʃɪp] *n* 1) o'qituvchi, direktor va h. ning lavozimi (vazifasi); 2) hukmronlik, boshchilik, ustunlik; bosh (birinchi) o'rinda turish; 3) mahorat, san'at, ustalik; mohirlik
master-spirit [ˈmɑːstəˌspɪrɪt] *n* misli ko'rilmagan (mislsiz) aqlga ega bo'lgan kishi
master-stroke [ˈmɑːstəstrəʊk] *n* oqilona qadam; ustamonlik bilan qilingan yurish
mastery [ˈmɑːst(ə)rɪ] *n* ustalik, mahorat
mast-head [ˈmɑːsthed] *v dəng.* yelkanni ko'tarmoq
mastic [ˈmæstɪk] *n* mastika (*xushbo'y smola*)
masticate [ˈmæstɪkeɪt] *v* 1) qormoq, pishitmoq; 2) chaynamoq, kavshamoq; yemoq
mastication [ˌmæstɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* chaynash, kavshash
masticatory [ˈmæstɪkət(ə)rɪ] *a* chaynaydigan, kavshaydigan, chaynash (kavshash) uchun xizmat qiladigan; chaynash ...; kavshash...
mastitis [mæsˈtaɪtɪs] *n tib.* mastit (*ko'krak bezlarining yallig'lanishi*)
mat I [mæt] **1.** *n* 1) bo'yra, to'shak kabi narsalarning umuniy nomi; 2) dag'al poyandoz, oyoqartgich; 3) gilamcha, kichkina gilam; 4) chigallashib ketgan narsa; **2.** *v* 1) gilam va h. to'shamoq; 2) chigallashtirmoq, chalkashtirmoq, adashtirmoq
mat II [mæt] *a* xira, yaltiramaydigan, nursiz, jilosiz
match [mætʃ] **1.** *n* 1) gugurt; **to strike a ~** gugurt yoqmoq; 2) *sport.* musobaqa
match-board [ˈmætʃbɔːd] *n qur.* shpuntlangan (qirrasidan tirnoq yoki o'yiq chiqarilgan) taxta
match-box [ˈmætʃbɒks] *n* gugurt quti
matching [ˈmætʃɪŋ] *a* (*juftiga*) mos tushadigan, to'g'ri keladigan, munosib (muvofiq) bo'lgan
matchless [ˈmætʃləs] *a* 1) beqiyos, bemisl, misli yo'q, tengsiz, ajoyib, yakkayagona; 2) eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan
matchmaker I [ˈmætʃˌmeɪkə] *n tex.* tirnoq yoki o'yiq chiqaradigan randa
matchmaker II [ˈmætʃˌmeɪkə] *n* 1) (erkak) sovchi; (erkak) quda; 2) sovchi xotin; (ayol) quda
match-making [ˈmætʃˌmeɪkɪŋ] *n* 1) sovchi qo'yish (bo'lish); 2) *sport.* o'yin (uchrashuv, musobaqa)ni tashkil etish
matchwood [ˈmætʃwʊd] *n* 1) gugurt ishlab chiqishga yaraydigan (gugurt ishlab chiqariladigan) daraxt; 2) gugurtbop cho'p
mate I [meɪt] *n* 1) o'rtoq; **class ~** sinfdosh; 2) er, xotin, rafiqa
mate II [meɪt] *shax.* **1.** *n* mot; **2.** *v* mot qilmoq
material I [məˈtɪ(ə)rɪəl] *a* 1) moddiy, ashyoviy; **raw ~s** xom mol, xomashyo; 2) muhim, ahamiyatli
material II [məˈtɪ(ə)rɪəl] *n* 1) ashyo, material; **building ~s** qurilish materiallari; 2) *to'q.* gazlama, gazmol
materialism [məˈtɪərɪəlɪz(ə)m] *n* materializm (*falsafadagi asosiy oqimlardan biri*)
materialist [məˈtɪərɪəlɪst] *n* 1) materializm tarafdori; 2) manfaatparast, o'z manfaatini ko'zlab ish tutuvchi odam
materialistic [məˌtɪərɪəˈlɪstɪk] *a* materialistik
materiality [məˌtɪərɪˈælɪtɪ] *n* 1) moddiylik; 2) *yur.* muhimlik, ahamiyatlilik, zarurlik; katta ahamiyatga egalik
materialization [məˌtɪərɪəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *v* amalga oshirish, hayotga tatbiq etish
materialize [məˈtɪ(ə)rɪəlaɪz] *v* (*reja va b. ni*) amalga oshirmoq; hayotga tatbiq qilmoq
materiel [məˌtɪ(ə)rɪˈel] *n fr. harb.* 1) texnika vositalati va asbob-uskunalar; 2) jangovar texnika
maternal [məˈtɜːn(ə)l] *a* 1) onalarga xos bo'lgan, onalarcha; 2) ona tomondan; **~ uncle** tog'a
maternity [məˈtɜːnɪtɪ] *n* onalik; **~ hospital** tug'ruqxona; **~ home** tug'ruqxona; **~ nurse** doya
matey [ˈmeɪtɪ] *a so'zl.* odamga el bo'ladigan, kirishimli, ulfatchilikni yaxshi ko'radigan
mathematical [ˌmæθɪˈmætɪk] *a* matematikaga oid, matematik; matematika ...
mathematician [ˌmæθɪməˈtɪʃ(ə)n] *n* matematik, matematika olimi (mutaxassisi)
mathematics [ˌmæθɪˈmætɪks] *n* matematika
maths [mæθs] *so'zl.* **mathematics** *so'zining qisqartmasi*
matin [ˈmætɪn] *n* 1) *shoir.* ertalabki qushlarning sayrashi; 2) *pl cherk.* ertalabki ibodat
matinée [ˈmætɪneɪ] *n fr.* spektakl *yoki* konsertning kunduzgi seansi
matriarchy [ˈmeɪtrɪɑːkɪ] *n* matriarxat (*onalik davri*)
matrices [ˈmeɪtrɪsiːz] *pl of* **matrix**
matriculate [məˈtrɪkjʊleɪt] **1.** *v* oliy o'quv yurtiga qabul qilinmoq *yoki* qabul qilmoq; **2.** *n* oliy o'quv yurtiga qabul qilingan kishi
matriculation [məˌtrɪkjʊˈleɪʃ(ə)n] *a* oliy o'quv yurtiga qabul qilish
matrimonial [ˌmætrɪˈməʊnɪəl] *a* 1) er-xotinga va er-xotinlikka oid; 2) uylanish bilan bog'liq bo'lgan; uylanish...
matrimony [ˈmætrɪmənɪ] *n* er-xotinlik, nikoh
matrix [ˈmeɪtrɪks] *n* (*pl* **-rices** [-rɪsiːz]) 1) *anat.* bachadon; 2) *tex.* matritsa (o'yma qolip); 3) *geol.* qo'r jins (*tarkibida ruda, qimmatbaho tosh va sh. k. bo'lgan tog' jinsi*)
matron [ˈmeɪtrən] *n* 1) turmush qurgan ayol; 2) bosh hamshira
matronal [ˈmeɪtrən(ə)l] *a* hurmatli ayolga yarashadigan
matte [mæt] *a* nursiz, xira, jilosiz
matter [ˈmætə] *n* 1) modda; **radioactive ~** radioaktiv modda; 2) *fals.* materiya; 3) masala, ish; 4) material; **printed ~** bosilib chiqqan (bosib chiqarilgan, nashr qilingan) material; **2.** *v* ahamiyatga ega bo'lmoq, ahamiyat kasb etmoq; **it doesn't ~** bu hech qanday ahamiyatga ega emas
matter-of-course [ˌmætə(r)əv ˈkɔːs] *a* tabiiy, o'z-o'zidan ma'lum
matter of fact [ˌmætə(r)əv ˈfækt] *n* bor haqiqat, haqiqiy voqelik; haqiqatda mavjud bo'lgan borliq
matter-of-fact [ˌmætə(r)əv ˈfækt] *a* dabdabasiz, oddiy, sodda, jo'n; uydirma (yolg'on)siz
matting [ˈmætɪŋ] *n* 1) bo'yra; bordon; 2) chipta (*dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yupqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa*)
mattock [ˈmætək] *n* 1) ketmonsimon asbob; 2) dastaki so'qa (*so'qa – yer haydash uchun ishlatiladigan cho'yan tishli sodda asbob*); omoch; 2) qo'shbosh (*bir oyog'i kirkaga, bir oyog'i teshaga o'xshagan ikkiyoqlama asbob*)
mattress [ˈmætrɪs] *n* matras, to'shak
maturate [ˈmætʃʊreɪt] *v tib.* yiringlamoq, maddalamoq, madda (gazak) olmoq, yiring (fasod) bog'lamoq
maturation [ˌmætʃʊˈreɪʃ(ə)n] *n tib.* yiringlash, maddalash, madda (gazak) olish, yiring (fasod) bog'lash
mature [məˈtʃʊə] **1.** *a* 1) pishgan, yetilgan; 2) o'sgan; katta bo'lgan; **2.** *v* katta bo'lmoq, yetilmoq
maturity [məˈtʃʊ(ə)rɪtɪ] *n* 1) yetilganlik, pishganlik; 2) tugaganlik, oxiriga yetganlik

matutinal [ˌmætjʊ ˈtaɪn(ə)l] *a* 1) ertalabki, erta bilan bo'ladigan; 2) erta boshlangan

maud [mɔ:d] *n* (*shotlandiyalik cho'pon va podachilarda*) katak gulli kulrang katta qalin jun ro'mol

maudlin [ˈmɔ:dlɪn] **1.** *a* 1) yig'loqi; chakagi ochiq, seryig'i (*mastligida*); 2) ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan; **2.** *n* erkalik, tantiqlik

maul [mɔ:l] **1.** *n* bosqon, katta bolg'a; **2.** *v* burdalamoq, tilka-pora qilmoq

mauler [ˈmɔ:lə] *n* 1) qiynovchi, ezuvchi, zolim, battol, sitamgar; 2) *sport. so'zl.* bokschi

maun [mɔ:n] *shotl.* = **must**

maunder [ˈmɔ:ndə] *v* ming'illamoq, g'ulduramoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq; **to ~ along (to ~ about)** sandiroqlab (tentirab) yurmoq, sanqib (daydib) yurmoq

maundy [ˈmɔ:ndɪ] *n tar.* pasxa arafasidagi haftada bo'ladigan kambag'allarning oyoqlarini yuvish marosimi; **~ money** pasxa arafasidagi haftada tarqatiladigan xayr (ehson, sadaqa); **Maundry week** pasxa arafasidagi hafta

mausoleum [ˌmɔ:sə ˈlɪəm] *n* maqbara, qabr, go'r

mauve [məʊv] *a* qizg'ish binafsharang

mavis [ˈmeɪvɪs] *n shoir.* sayroqi qorayaloq

maw [mɔ:] *n anat.* shirdon

mawkish [ˈmɔ:kɪʃ] *a* 1) ko'ngilni aynitadigan, ko'ngilga tegadigan, ko'ngilga uradigan; 2) ortiq darajada hissiyotga beriladigan, ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan

maxilla [mækˈsɪlə] *n* (*pl* **-lae** [-li:]) (*umurtqali hayvonlarda*) tepa jag', ustki jag'

maxillary [mækˈsɪlərɪ] *a* tepa (ustki) jag'ga oid; tepa (ustki) jag'...

maxim [ˈmæksɪm] *n* 1) hikmatli so'z; ibora; 2) shior; tamoyil

maximize [ˈmæksɪmaɪz] *v* maksimallashtirmoq, maksimal darajada kattalashtirmoq

maximum [ˈmæksɪməm] *n* maksimum (*eng katta qiymat, eng ko'p miqdor, eng yuqori daraja*)

May [meɪ] *n* may, may oyi

may I [meɪ] **1.** *v* (**might**) 1) *modal fe'l bo'lib, imkon borligini bildiradi va quyidagicha tarjimaga ega bo'ladi*: ehtimol, balki, shoyad; 2) *iltimos va ruxsatni bildiradi*: **~ I come in?** kirsam maylimi?

may II [meɪ] *n shoir.* qiz

maybe [ˈmeɪbɪ] *adv* ehtimol, balki

may-bug [ˈmeɪbʌg] *n ent.* tillaqo'ng'iz

may-fly [ˈmeɪflaɪ] *n* baliqchining (qarmoqqa qo'yish uchun) tayyorlagan sun'iy xo'ragi

mayhem [ˈmeɪhem] *n yur.* mayib qilish, shikast yetkazish

Maying [ˈmeɪɪŋ] *n* (*Angliyada*) bahorning kirib kelishini bayram qilish

mayonnaise [ˌmeɪəˈneɪz] *n* mayonez

mayor [meə] *n* mer (*ba'zi mamlakatlarda: shahar boshqarmasining boshlig'i*), shahar hokimi

mayoralty [ˈme(ə)rəltɪ] *n* mer (shahar hokimi)ning mansabi (vazifasi)

mayoress [ˈme(ə)rɪs] *n* 1) mer (shahar hokimi)ning xotini; 2) mer-ayol (*shahar hokimi bo'lgan ayol*)

may-pole [ˈmeɪpəʊl] *n* 1) may ustuni (*Angliyada 1-mayda gullar bilan bezab, atrofida o'yin-kulgi qilinadigan ustun*); 2) *ko'ch.* novcha odam

mayweed [ˈmeɪwi:d] *n bot.* zargo'sh, quyonjun (*sariq gulli o'tsimon o'simlik*)

mazarine [ˌmæzə ˈri:n] **1.** *n* to'q ko'k rang; **2.** *a* to'q ko'k

maze [meɪz] 1. *n* 1) chalkash yo'l, yo'lak, ko'cha va sh. k.; 2) chigallik, chalkashlik; **2.** *v* 1) og'ir (qiyin) ahvolga solib qo'ymoq; 2) sarosimaga solib qo'ymoq

mazer [ˈmeɪzə] *n tar.* (*yog'ochdan yasalgan*) qadah, jom

mazy [ˈmeɪzɪ] *n shoir.* o'tzor, maysazor, ko'kalamzor, o'tloq, yaylov

me [mi:] *pron.* men, menga; **it is beyond ~** bunga aqlim yetmaydi

meadow [ˈmedəʊ] *n* o'tloq, yaylov

meadowy [ˈmedəʊɪ] *a* 1) o'tzorda bo'ladigan, o'sadigan; o'tzor...; o'tloq...; 2) o'tzorchilik bilan bog'liq bo'lgan; o'tzorchilik...; o'tzorlar uchun belgilangan; 3) o'tzor (maysazor, ko'kalamzor)ga boy bo'lgan (*yer to'g'risida*)

meagre [ˈmi:gə] *a* 1) yomon, yaramas; 2) foydasi kam, unumsiz

meal I [mi:l] *n* ovqat; oziq

meal II [mi:l] *v* ovqatlanmoq; ovqat yemoq

mealies [ˈmi:lɪz] *n pl janub. afr.* makkajo'xori (*o'simligi va doni*)

mealtime [ˈmi:ltaɪm] *n* ovqat(lanish) vaqti (*masalan, nonushta, tushlik va b.*)

mealy [ˈmi:lɪ] *a* 1) kraxmalli; tarkibida un *yoki* kraxmal bo'lgan; serkraxmal; 2) unli, un solingan, undan (xamirdan) tayyorlangan

mealy-mouthed [ˌmi:lɪˈmaʊðd] *a* xushomadgo'y, ikkiyuzlama, munofiq

mean I [mi:n] **1.** *a* o'rta, o'rtadagi, o'rtalikdagi; **~ line** *mat.* bissektrisa (*burchakni teng ikkiga bo'luvchi to'g'ri chiziq*); **2.** *n* 1) o'rta yer (joy), o'rtaliq, oraliq; **the happy ~** beg'alva ish, qiyinchilik tug'dirmaydigan (jon koyitmaydigan) ish, ishning beg'alva tomoni

mean II [mi:n] *v* (**meant**) 1) nazarda tutmoq; **to ~ by** ... bilan ... demoqchi bo'lmoq, ...ni nazarda tutmoq; 2) bildirmoq; 3) ma'no anglatmoq; 4) mo'ljallamoq

mean III [mi:n] *a* 1) yomon; kuchsiz, zaif; 2) qizg'anmoq; 3) pastkash, yaramas, vijdonsiz

meander [mɪˈændə] *v* 1) buralib (egri-bugri bo'lib) ketmoq (*daryo va ko'chaga nisbatan*); 2) daydib yurmoq

meaning [ˈmi:nɪŋ] *n* ahamiyat, ma'no; mazmun; **~less** ahamiyatsiz, ma'nosiz, mazmunsiz

meaningly [mi:nɪŋlɪ] *adv* 1) ma'nodor (mazmundor) qilib, ma'nodor, mazmundor; 2) tushunib (bilib); ayatin, ataylab, bilaturib, qasddan

meanness [ˈmi:nnəs] *n* 1) pastlik, pastkashlik, tubanlik, razillik, vijdonsizlik; 2) qashshoqlik, o'ta kambag'allik; 3) qizg'anchiqlik

means [mi:nz] *n* 1) iloj, chora; **by all ~** nima qilib bo'lsa ham; **by no ~** aslo, hech, zinhor; 2) vosita; **by ~ of** vositasida, yordamida

mean-spirited [ˌmi:n ˈspɪrɪtɪd] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash, past, tuban, safil, palid, murdor

meant [ment] *past., p. p. of* **mean II**

meantime [ˈmi:ntaɪm] *adv* shu paytda (orada); **in the ~** shu asnoda, shu vaqt ichida

meanwhile [ˈmi:nwaɪl] = **meantime**

measles [ˈmi:z(ə)lz] *n* 1) *tib.* qizamiq; 2) *vet.* finnoz (*finnalar qo'zg'atadigan kasallik*)

measly [ˈmi:zlɪ] *a* ozgina, arzimagan, juda kichkina

measurable [ˈmeʒ(ə)rəb(ə)l] *a* o'lchanadigan, o'lchab bo'ladigan, o'lchanishi mumkin bo'lgan; **in the ~ future** yaqin kelajakda

measure [ˈmeʒə] **1.** *n* 1) me'yor, 2) o'lchov, katta-kichiklik; **liner ~** maydonning uzunlik o'lchovi; 3) tadbir, chora; **2.** *v* 1) o'lchamoq; **to ~ a piece of cloth** bir parcha materialni o'lchamoq; 2) tenglamoq; sinab ko'rmoq; **to ~ one's strength with smb.** kim bilandir kuchini sinab ko'rmoq; 3) chegarani belgilamoq; **to ~ off** o'lchab bo'lmoq; **to ~ up** (*biror darajaga*) yetmoq, erishmoq; **to ~ out** o'lchab chiqmoq

measurement [ˈmeʒəmənt] *n* 1) o'lchash, o'lchov; 2) o'lcham, kattalik; 3) o'lchov tizimi

meat [mi:t] *n* 1) go'sht; **~y** go'shtli; 2) ovqat; **at ~** ovqat ustida; **after ~** ovqat-

dan keyin; **before ~** ovqatdan oldin

meat-ball ['mi:tbɔ:l] *n* frikadelka (*sho'rvada pishirilgan yumaloq qiyma*)

meat-chopper ['mi:t,ʧɒpə] *n* myasorubka (*go'shtni qiymaga aylantiradigan moslama*); go'shtqiymalagich

meat-grinder ['mi:t,gramdə] = **meat-chopper**

mechanic [mɪ'kænɪk] *n* mexanik, mashinist

mechanical [mɪ'kænɪk(ə)l] *a* mashinada bajariladigan, mashinaviy, mexanik

mechanism ['mekənɪz(ə)m] *n* 1) mexanizm, qurilma; 2) tizim, sistema

mechanize ['mekənaɪz] *v* mexanizatsiyalashtirmoq

medal ['medl] *n* 1) medal; 2) orden

medallion [mɪ'dælɪən] *n* medalyon

meddle ['medl] *v* birovning shaxsiy ishiga aralashmoq (**with, in**)

media I ['mi:dɪə] *n* ommaviy axborot

media II ['medɪə] *n fon.* jarangli undosh

mediaeval [,medɪ'i:v(ə)l] = **medieval**

medial ['mi:dɪəl] *a* 1) o'rta, o'rtacha; o'rta hisobdagi; 2) o'rtalikdagi, oraliqdagi

median ['mi:dɪən] **1.** *a* 1) o'rtalikdagi, oraliqdagi; 2) o'rtadagi, o'rtasidagi; **2.** *n mat.* mediana (*uchburchakning uchidan qarshi tomonning o'rtasiga o'tkazilgan kesma*)

mediate ['mi:dɪeɪt] **1.** *n* vositachi; **2.** *v* vositachilik qilmoq; **to ~ between two warring countries** ikki urushayotgan mamlakat orasida vositachilik qilmoq

mediation [,mi:dɪ'eɪʃ(ə)n] *n* vositachilik, aralashuv

mediator ['mi:dɪeɪtə] *n* vositachi (*murosaga keltiruvchi kishi*); dallol

medical ['medɪk(ə)l] *a* tibbiyotga oid, tibbiy; **~ service** tibbiy xizmat; **~ aid** tibbiy yordam

medicine ['meds(ə)n] *n* 1) tibbiyot; **to study ~** tibbiyotni o'rganmoq; 2) dori, dori-darmon

medieval [,medɪ'i:v(ə)l] *a* o'rta asrlarga oid; o'rta asrlarga xos bo'lgan, o'rta asrlardagi

mediocre [,mi:dɪ'əʊkə] *a* o'rtacha, o'rtamiyona, oddiy

meditate ['medɪteɪt] *v* 1) chuqur o'ylamoq; fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq; 2) niyat qilmoq, niyatida bo'lmoq

mediterranean [,medɪtə'reɪnɪən] *a* 1) dengiz qirg'og'idan uzoqlashgan; 2) ichki (*dengiz haqida*); 3) O'rta Yer dengiziga oid

medium ['mi:dɪəm] **1.** *n* 1) usul, yo'l; vosita; 2) *fiz.* muhit; atrof-muhit; 3) axborot tashuvchi (*qog'oz, magnit tasma va sh. k.*); **2.** *a* o'rtacha, oraliqdagi, o'rta

medley ['medlɪ] *n* 1) aralashma, qorishma; 2) aralash-quralash narsa, qorishiq narsa, qorishma, aralashma; 2) har xil (aralash-quralash) odamlar, olomon, betartib yig'in

meek [mi:k] *a* mo'min, mo'min-qobil; yuvosh, beozor, muloyim, yumshoq

meekness ['mi:knəs] *n* yuvoshlik, beozorlik, mo'minlik, yumshoqlik

meet [mi:t] *v* (**met**) 1) uchratmoq, uchrashmoq; **to ~ smb. in the street** kimnidir ko'chada uchratmoq; 2) tanishmoq; **we met in London** biz Londonda tanishganmiz (uchrashganmiz); 3) kutib olmoq

meeting ['mi:tɪŋ] *n* yig'in, majlis, yig'ilish; **at the ~** yig'ilishda, majlisda; **the ~ is over** yig'ilish (majlis) tugadi

megaphone ['megəfəʊn] *n* megafon (*ovozni kuchaytiradigan karnay*)

melancholy ['melənk(ə)lɪ] **1.** *n* ma'yuslik, g'amginlik; **2.** *a* ma'yus, g'amgin

meliorate ['mi:lɪ(ə)reɪt] *v* 1) yaxshilanmoq, tuzalmoq; 2) yaroqli holga keltirmoq

mellifluous [mə'lɪfluəs] *a* xushomadgo'y; xushomadli; tilyog'lama, shirinsuxan

mellow ['meləʊ] *a* 1) yetilgan, pishgan (*mevalar haqida*); 2) shirali, yoqimli; 3) dono, aqlli

melodious [mɪ'ləʊdɪəs] *a* xushohang, ohangdor, yoqimli

melodrama ['melədrɑ:mə] *n* melodrama (*voqealarni nihoyatda bo'rttirib, ta'sirchan qilib tasvirlaydigan drama janri va shu janrdagi asar*)

melody ['melədɪ] *n* kuy, ohang, navo

melon ['melən] *n bot.* qovun; **water ~** tarvuz

melt [melt] *v* erimoq; eritmoq

melting ['meltɪŋ] *a* 1) eriydigan; 2) nozik; nafis; yumshoq

melting-pot ['meltɪŋpɒt] *n* tigel (*o'tga chidamli gildan qilingan qozon*)

member ['membə] *n* a'zo; **M. of Parliament** parlament a'zosi

membership ['membəʃɪp] *n* 1) a'zolik; 2) a'zolar miqdori, tarkibi

membrane ['membreɪn] *n* 1) *anat.* parda; **pulmonary ~** o'pka pardasi; 2) po'st, po'stloq, po'choq

memento [mɪ'mentəʊ] *n* esdalik, xotira

memo ['meməʊ] *n* bayonnoma, bayonot

memoir ['memwɑ:] *n* 1) qisqacha tarjimayi hol; 2) *pl* xotiranomalar, yodnomalar

memorable ['mem(ə)rəb(ə)l] *a* unutilmas, unutilmaydigan, unutib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan

memorandum [,memə'rændəm] *n* 1) bayonnoma, bayonot; 2) qayd, yozma xotira; 3) xotira (esdalik) uchun yozilgan xat

memorial [mə'mɔ:rɪəl] *n* 1) haykal; 2) qadimiy yodgorlik

memorize ['meməraɪz] *v* 1) yodlamoq; 2) eslamoq

memory ['mem(ə)rɪ] *n* xotira, es; yod; **good ~** yaxshi xotira

men [men] *pl of* **man**

menace ['menɪs] **1.** *n* tahdid, do'q, xavf; **a ~ of war** urush xavfi; **2.** *v* xavf tug'dirmoq, qo'rqitmoq

menagerie [mɪ'nædʒ(ə)rɪ] *n fr. so'zl.* (*asosan, yovvoyi hayvonlarni saqlaydigan*) hayvonot bog'i

mend [mend] *v* 1) tuzatmoq, to'g'rilamoq; **to ~ shoes** poyabzal tuzatmoq; 2) yaxshilamoq; **my health is ~ing** mening sog'lig'im yaxshilanib boryapti

mendacious [men'deɪʃəs] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri, xato, yanglish; 2) yolg'ondakam, yasama, qalbaki

mendacity [men'dæsɪtɪ] *n* yolg'onlik, yolg'onchilik, aldamchilik, kazzoblik

menial ['mi:nɪəl] *n* malay, xizmatkor; laganbardor

meningitis [,menɪn'dʒaɪtɪs] *n tib.* meningit (*bosh va orqa miya pardasining yallig'lanishi*)

men-of-war [,menəv'wɔ:] *n pl* harbiy kemalar

menopause ['menəpɔ:z] *n tib.* ayollarda jinsiy bezlar faoliyatining to'xtash davri

mensurable ['menʃərəb(ə)l] *a* 1) o'lchanadigan, o'lchab bo'ladigan, o'lchanishi mumkin bo'lgan; 2) *mus.* ritmik, ritmli, bir maromda, bir maqomda

mental ['mentl] *a* aqliy; aqliy faoliyatga oid

mentality [men'tælɪtɪ] *n* tafakkur, fikrlash

mention ['menʃ(ə)n] *v* 1) yodga olmoq, eslatmoq; 2) (*gap orasida*) aytib o'tmoq, tilga olmoq, eslatib o'tmoq

mentor ['mentɔ] *n* ustoz, murabbiy, rahbar, tarbiyachi

menu ['menju:] *n fr.* menyu, taomnoma

mercantile ['mɜ:kəntaɪl] *a* 1) savdo-sotiqqa oid; 2) savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan

mercenary ['mɜ:s(ə)n(ə)rɪ] *a* g'arazli, tamagir, manfaatparast, o'z foydasini o'ylaydigan

merchandise ['mɜ:ʧ(ə)ndaɪz] **1.** *n* tovarlar, mollar; sotiladigan narsalar; **2.** *v* savdo qilmoq, sotmoq

merchant ['mɜ:ʧ(ə)nt] *n* savdogar

merciful ['mɜ:sɪf(ə)l] *a* mehribon, rahmdil, muruvvatli; **~ly** rahm-shafqat bilan

merciless ['mɜ:sɪləs] *a* rahmsiz, berahm, shafqatsiz

mercury [ˈmɜ:kjʊrɪ] *n kim.* simob
mercy [ˈmɜ:sɪ] *n* 1) rahmdillik; iltifotlilik; rahm, shafqat; 2) kechirish; afv etish
mere [mɪə] *a* oddiy; toza; **~ly** *adv* faqat; xolos
merge [mɜ:dʒ] *v* qo'shilmoq, birlashmoq, birlashtirmoq
merger [ˈmɜ:dʒə] *n* (*banklar, korxonalar*) birlashmasi, birlashma
meridian [məˈrɪdɪən] *n* 1) meridian; **~ line** meridian chizig'i; 2) oliy nuqta; cho'qqi
meringue [məˈræŋ] *n* 1) mazali (lazzatli) ovqat; 2) shirinlik; shirin narsa
merino [məˈri:nəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) merinos (*1. mayin yungli qo'y; 2. shunday qo'y yungi va undan to'qilgan mayin gazlama*)
merit [ˈmerɪt] **1.** *n* 1) obro', e'tibor; 2) taqdirga loyiq ish, xizmat; **2.** *v* loyiq bo'lmoq; arzimoq
merriment [ˈmerɪmənt] *n* xursandchilik, shodlik
merry [ˈmerɪ] *a* xursand; xushchaqchaq; **to make ~** xursandchilik qilmoq
merry-go-round [ˈmerɪgəˌraʊnd] *n* karusel (*o'tiradigan joylari ot, ayiq, sher, qayiq va sh. k. shakllarida bo'lib, doira bo'ylab aylanadigan qurilma*)
mesh [meʃ] *n* to'r, setka
mesmerize [ˈmezmərɑɪz] *v* 1) gipnoz qilmoq; 2) sehrlamoq, sehrlab qo'ymoq; 3) maftun etmoq; o'ziga asir qilmoq
mess I [mes] **1.** *n* 1) tartibsizlik, betartiblik; 2) iflos, loy; 3) ko'ngilsizlik; **2.** *v* 1) tartibsizlik qilmoq; 2) (**~ up**) buzmoq, rasvo qilmoq
mess II [mes] *n* oshxona, yemakxona
message [ˈmesɪdʒ] **1.** *n* 1) noma, xabar, maktub; **a telegraph ~** telegramma; 2) topshiriq; **to run ~s** topshiriqni bajarmoq; **2.** *v* xabar yubormoq
messenger [ˈmes(ə)ndʒə] *n* darakchi, xabarchi, xat tashuvchi
messmate [ˈmesmeɪt] *n* 1) maktabdosh, birga (bir maktabda) o'qigan; 2) birga (bir dasturxonda) ovqatlanuvchi, hamtovoq
messy [ˈmesɪ] *a* 1) iflos, loy; 2) tartibsiz, betartib
met [ˈmet] *past., p. p. of* **meet**
metal [ˈmetl] *n* metall
metallic [mɪˈtælɪk] *a* metallga o'xshash; metall rangidagi
metallurgy [ˈmetəlɜ:dʒɪ] *n* metallurgiya
metamorphosis [ˌmetəˈmɔ:fəsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) metamorfoza (*rivojlanish natijasida boshqa ko'rinishga aylanish*)
metaphor [ˈmetəfə] *n* istiora; metafora
metaphorical [ˌmetəˈfɒrɪkl] *a* kinoyali, majoziy
metaphysical [ˌmetəˈfɪzɪk(ə)l] *a* metafizikaga oid, metafizika prinsiplariga asoslangan
metaphysics [ˌmetəˈfɪzɪks] *n* metafizika (*borliqning avvali o'zgarmas, azaliy va abadiy deb qaruvchi, uning hodisalari esa bir-biridan uzilgan va turg'un holda tekshiruvchi idealistik falsafiy ta'limot, «fan»*)
mete I [mi:t] *n* chegara, hudud
mete II [mi:t] *v* belgilamoq, tayinlamoq
meteor [ˈmi:tɪə] *n* 1) *astr.* uchar yulduz; meteor; 2) atmosfera hodisasi
meteorite [ˈmi:tɪəraɪt] *n* meteorit (*fazodan yerga tushgan jism*)
meteorology [ˌmi:tɪəˈrɒlədʒɪ] *n* meteorologiya (*ob-havo va boshqa meteorologik hodisalar haqidagi fan*)
meter [ˈmi:tə] *n* 1) o'lchagich, o'lchash asbobi, o'lchaydigan asbob; 2) metr, o'lchov
method [ˈmeθəd] *n* 1) usul, uslub; yo'l, metod; 2) *pl* metodika (*fan*)
methodical [mɪˈθɒdɪk(ə)l] *a* 1) muntazam, doimiy ravishda; 2) qat'iy tartibga asoslangan, rejali
methylated spirit [ˌmeθɪleɪtɪd ˈspɪrɪt] ayniltilgan spirt
meticulous [məˈtɪkjʊləs] *a* puxta, sinchkov
metre [ˈmi:tə] *n* metr (*o'lchov*); **4 ~s by 5 ~s** to'rtga besh metr
metric [ˈmetrɪk] *a* metrik, metr o'lchovi asosidagi
metro [ˈmetrəʊ] *n* 1) metro; 2) poytaxtga oid; katta shaharga taalluqli bo'lgan
metropolis [mɪˈtrɒp(ə)lɪs] *n* poytaxt
metropolitan [ˌmetrəˈpɒlɪtn] *a* poytaxtga oid, poytaxtdagi, poytaxt...
mettle [ˈmetl] *n* 1) insonning xarakteri, tabiati, fe'li, xulqi, fe'l-atvori; 2) botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik
mew I [mju:] **1.** *n* miyovlash; miyovlash ovozi; miyov-miyov; **2.** *v* miyovlamoq
mew II [mju:] *n* chayka, baliqchi (*qush*)
mew III [mju:] **1.** *n* katak, qafas (*lochin, qirg'iy, qarchig'ay uchun*); **2.** *v* qafasga qamamoq
mews [mju:z] *n* otxona; molxona
Mexican [ˈmeksɪkən] **1.** *n* meksikalik, meksikalik ayol; **2.** *a* Meksikaga va meksikaliklarga oid
miaow [mɪˈaʊ] *n* miyovlash
mica [ˈmaɪkə] **1.** *n min.* sluda (*shaffof mineral*); **2.** *attr.* sludaga oid; sludali
mice [maɪs] *pl of* **mouse**
microbe [ˈmaɪkrəʊb] *n* mikrob
microchip [ˈmaɪkrə(ʊ)tʃɪp] *n el.* mikrochip
microcosm [ˈmaɪkrə(ʊ)kɒz(ə)m] *n* mikrokozm (*biror narsaning kichik namunasi*)
microfiche [ˈmaɪkrə(ʊ)fi:ʃ] *n* (*pl* **-s** [-ɪz]) mikrofisha
microphone [ˈmaɪkrəfəʊn] *n* mikrofon
microscope [ˈmaɪkrəskəʊp] *n* mikroskop
microscopic(al) [ˌmaɪkrəˈskɒpɪk(əl)] *a* mikroskopik, juda kichik, mayda
microwave [ˈmaɪkrəweɪv] *a radio.* mikroto'lqin
mid [mɪd] *a* o'rta, yarim
midday [ˌmɪdˈdeɪ] *n* 1) tush, choshgoh, peshin; qiyom (tush) vaqti; 2) *astr.* kun o'rtasi (*quyosh markazining yerning shu joydagi meridianidan o'tish payti*)
middle [ˈmɪdl] **1.** *n* o'rta yer (joy), o'rtalik, oraliq, yarim; **2.** *a* o'rtacha, o'rta hisobdagi; **a ~ man** dallol
middle-aged [ˌmɪdlˈeɪdʒd] *a* o'rta yoshdagi
middleman [ˈmɪdlmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) vositachi, o'rtada turuvchi; dallol (*savdo ishida*)
midge [mɪdʒ] *n* mayda chivin, mayda pashsha
midget [ˈmɪdʒɪt] *n* mitti (pakana) odam
Midlands [ˈmɪdləndz] *n* (**the ~**) Angliyaning yirik markaziy-ma'muriy viloyatlari
midnight [ˈmɪdnaɪt] *n* yarim kecha, yarim tun
midriff [ˈmɪdrɪf] *n anat.* diafragma (*ko'krak va qorin bo'shliqlarini bir-biridan ajratib turuvchi mushakli parda*)
midst [mɪdst] *n* o'rtasi
midsummer [ˈmɪdˌsʌmə] *n* 1) yoz o'rtalari; 2) *so'zl.* yozgi quyosh turishi
midway [ˌmɪdˈweɪ] *a* **1)** o'rtada, orada; 2) o'rtasi, yarmi (*vaqt haqida*)
mid-week [ˌmɪdˈwi:k] *n* hafta o'rtalari
midwife [ˈmɪdwaɪf] *n* doya, doya (ona) kampir
mien [mi:n] *n* 1) chehra, avzo, turq; 2) tashqi ko'rinish, qiyofa, bashara, aft-angor; 3) o'zini tutish (yurish-turish) tarzi
might [maɪt] *n* kuch, qudrat, quvvat
mighty [ˈmaɪtɪ] *a* kuchli, qudratli; **a ~ nation** kuchli millat (xalq)
migraine [ˈmi:greɪn] *n* migren (*boshni qattiq og'ritadigan va ko'ngilni aynitadigan asabiy kasallik*)
migrant [ˈmaɪgrənt] *a* 1) ko'chmanchi, ko'chib yuradigan; 2) ko'chmanchi, uchib o'tadigan (*qushlar haqida*)
migrate [maɪˈgreɪt] *v* ko'chmoq; ko'chib o'tmoq
migration [maɪˈgreɪʃ(ə)n] *n* ko'chib o'tish

mike [maɪk] *n so'zl.* mikrofon
milage ['maɪlɪdʒ] = **mileage**
milch [mɪltʃ] *a* sutlik, sog'in
mild [maɪld] *a* 1) yumshoq, mayin; 2) xushfe'l, muloyim; 3) chuchuk (*ovqatga nisbatan*)
mile [maɪl] *n* mil (*masofa o'lchovi 1609 m ga teng*); **within ten ~s of the lyceum** litseydan o'n mil uzoq bo'lgan masofada
mileage ['maɪlɪdʒ] *n* 1) bosib o'tilgan masofa; 2) olinadigan foyda hajmi
milepost ['maɪlpəʊst] *n tem. y.* chaqirimlarni ko'rsatadigan ustun
milestone ['maɪlstəʊn] *n* chaqirimlarni ko'rsatadigan ustun
milieu ['mɪljɜ:, 'mɪlju:] *n fr.* atrofdagi (o'rab olgan) muhit, sharoit
militancy ['mɪlɪt(ə)nsɪ] *n* urishqoqlik
militant ['mɪlɪt(ə)nt] *a* kurashchan, urishqoq, faol, jangovar
militarist ['mɪlɪt(ə)rɪst] *n* militarist, militarizm tarafdori
militarization [ˌmɪlɪtəraɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* harbiylashtirish, harbiylashish
militarize ['mɪlɪtəraɪz] *a* harbiylashtirilmoq
military ['mɪlɪt(ə)rɪ] *a* 1) harbiy, harbiy kuch; 2) harbiy xizmatchi
militia [mɪ'lɪʃə] *n* 1) militsiya; 2) *tar.* xalq lashkari (*Angliyada*)
milk [mɪlk] **1.** *n* sut; **2.** *v* sut sog'moq; **~ maid** sutchi (*ayol, qiz*); **~man** sut sotuvchi
milker ['mɪlkə] *n* 1) sut sog'uvchi; 2) sut sog'adigan mashina
milk-white [ˌmɪlk'waɪt] *a* sutdek oq
milky ['mɪlkɪ] *a* sutli
mill [mɪl] *n* 1) tegirmon; 2) yanchadigan mashina; 3) fabrika, zavod
millennium [mɪ'lenɪəm] *n* 1) ming yillik, ming yil davom etgan vaqt (davr); 2) ming yillik (*ming yil to'lgan payt va shunga bag'ishlangan marosim*); 3) oltin asr (*hamma narsa – fan, madaniyat va h. ravnaq topgan asr*)
miller ['mɪlə] *n* tegirmonchi
millet ['mɪlɪt] *n bot.* tariq
milliard ['mɪlɪɑ:d] *n num. card.* milliard
milligram(me) ['mɪlɪgræm] *n* milligramm
millilitre ['mɪlɪˌli:tə] *n* millilitr
millimetre ['mɪlɪˌmi:tə] *n* millimetr
milliner ['mɪlɪnə] *n* shlapado'z va ayollar kiyimlarini tikuvchi xotin
millinery ['mɪlɪnt(ə)rɪ] *n* 1) ayollar shlapalari; 2) ayollar shlapalarini ishlab chiqarish; 3) ayollar shlapalari savdosi; 4) ayollar shlapasi do'koni
million ['mɪljən] *num. card.* million
millstone ['mɪlstəʊn] *n* tegirmon toshi; tegirmontosh
mill-wheel ['mɪlwi:l] *n* tegirmon parragi
mime [maɪm] *n* mimika, mimika qilish
mimeograph ['mɪmɪəgrɑ:f] *n* ko'paytiruvchi apparat (*hujjatlar uchun*)
mimic ['mɪmɪk] **1.** *a* taqlidiy, taqliddan iborat bo'lgan, o'xshatiladigan; **2.** *n* taqlidchi, o'xshatuvchi (*xuddi o'zi bo'lib ketuvchi odam yoki artist*); **3.** *v* taqlid qilmoq, o'xshatmoq, xuddi o'zi bo'lmoq
minaret [ˌmɪnə'ret] *n arab.* minora, minor
minatory ['mɪnət(ə)rɪ] *a* 1) xavfli, xatarli, qo'rqinchli; 2) do'q (tahdid) qiladigan; 3) do'q (tahdidni) ifodalaydigan
mince [mɪns] *v* qiymalamoq, burdalamoq, to'g'ramoq
mincemeat ['mɪnsmi:t] *n* turshak, yong'oq va h. k. aralashmasi
mind [maɪnd] **1.** *n* 1) aql-idrok; 2) xotira; 3) fikr; **2.** *v* 1) qarshi fikr bildirmoq; **if you don't ~** agar siz qarshi bo'lmasangiz; 2) eslamoq, esda saqlamoq
mindless ['maɪndləs] *a* aqliy qobiliyat talab qilmaydigan
mine I [maɪn] *pron. poss.* meniki; **the bag is ~** bu sumka meniki
mine II [maɪn] **1.** *n* kon; **a gold ~** oltin koni; **2.** *v* kon ochmoq
miner ['maɪnə] *n* 1) konchi; 2) *harb.* minachi
mineral ['mɪn(ə)rəl] **1.** *n* 1) mineral (*qazilma noorganik modda*); 2) *pl* foydali qazilmalar
mineralogy [ˌmɪnə'rælədʒɪ] *n* mineralogiya (*minerallar haqidagi fan*)
minethrower ['maɪnˌθrəʊə] *n* minomyot
mingle ['mɪŋg(ə)l] *v* aralashib ketmoq
mingy ['mɪndʒɪ] *a* 1) *so'zl.* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; 2) past, pastkash, nazari past, maydagap
miniature ['mɪn(ə)tʃə] *n* 1) miniatura (*qadimgi qo'lyozma va kitoblardagi nafis, bejirim surat*); 2) kichik hajmdagi san'at asari
minibus ['mɪnɪbʌs] *n* marshrutka, mikroavtobus
minimal ['mɪnɪm(ə)l] *a* juda kam, juda oz, eng kichik, eng oz, juda kichkina
minimize ['mɪnɪmaɪz] *v* kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatmoq
minimum ['mɪnɪməm] *n* eng oz miqdor
mining ['maɪnɪŋ] *n* 1) kon sanoati, konchilik; 2) *harb. deng.* minalashtirish
minion ['mɪnɪən] *n* 1) sevikli, arzanda, jonajon, eng yaxshi ko'rilgan (hamma sevgan) odam; 2) birovning ko'magida martabaga erishgan odam, birovning arzandasi
minister ['mɪnɪstə] **1.** *n* vazir; **2.** *v* 1) xizmat qilmoq; 2) yordam bermoq
ministerial [ˌmɪnɪ'stɪ(ə)rɪəl] *a* 1) vazirga va vazirlikka oid; 2) hukumatga oid
ministry ['mɪnɪstrɪ] *n* vazirlik
mink [mɪŋk] *n* norka mo'ynasi
minor ['maɪnə] *a* uncha ko'p bo'lmagan, ozgina, biroz
minority [maɪ'nɒrɪtɪ] *n* 1) kamchilik, ozchilik; 2) balog'atga yetmaganlik
minster ['mɪnstə] *n* bosh cherkov; eng katta butxona; jome
mint [mɪnt] *n bot.* yalpiz
minus ['maɪnəs] **1.** *prep.* minus; **2.** *n* minus belgisi
minuscule ['mɪnəskju:l] *n* juda kichkina
minute ['mɪnɪt] *n* 1) daqiqa; 2) lahza, on
minutiae [mɪ(a)ɪ 'nju:ʃɪi:] *n pl* maydachuyda narsalar; arzimagan (arzimas) narsa; ikir-chikir narsalar
minx [mɪŋks] *n* 1) tannoz ayol, ishvagar ayol; 2) sho'x (o'yinqaroq, havoyi) qiz *yoki* ayol
miracle ['mɪrək(ə)l] *n* mo'jiza
miraculous [mɪ'rækjʊləs] *a* mo'jizaviy, g'ayritabiiy
mirage ['mɪrɑ:ʒ] *n* 1) sarob; 2) *ko'ch.* xom xayol
mire ['maɪə] *n* botqoq, botqoqlik, loy, balchiq
mirror ['mɪrə] *n* ko'zgu, oyna; **in a ~** oynada
mirth [mɜ:θ] *n* shodlik, xursandchilik, vaqtichog'lik
mis- [mɪs-] *pref.* noto'g'ri, yolg'on degan ma'nolarni ifodalovchi old qo'shimcha; *masalan,* **misunderstand** noto'g'ri tushunmoq
misadventure [ˌmɪsəd 'ventʃə] *n* badbaxtlik; omadsizlik
misapprehension [ˌmɪsæprɪ 'henʃ(ə)n] *a* tushunmovchilik, xato (noto'g'ri) tushunish
misappropriate [ˌmɪsə 'prəʊprɪeɪt] *v* 1) g'ayriqonuniy o'zlashtirmoq, egallab (o'ziniki qilib) olmoq; 2) kamomad qilmoq; qonunsiz (jinoyatkorona) sarflab yubormoq
misbehave [ˌmɪsbɪ'heɪv] *v* o'zini yomon tutmoq
miscalculate [ˌmɪs'kælkjʊleɪt] *v* yanglish hisoblamoq, oshiq hisoblamoq
miscarriage [ˌmɪs'kærɪdʒ] *n* 1) omadsizlik; 2) chala tushgan bola; bola tashlash
miscarry [mɪs'kærɪ] *v* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq
miscellaneous [ˌmɪsə 'leɪnɪəs] *a* turlituman, har xil, xilma-xil
mischance [ˌmɪs 'tʃɑ:ns] *n* muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik
mischief ['mɪstʃɪf] *n* 1) sho'xlik, shumlik; 2) zarar, ziyon
mischievous ['mɪstʃɪvəs] *a* zarar (ziyon) qiladigan, zararli, zararkunanda

misconception [ˌmɪskənˈsepʃ(ə)n] *n* anglashilmovchilik, noto'g'ri tasavvur
misconduct [ˌmɪsˈkɒndʌkt] *n* yomon xulq, yomon muomala
misconstrue [ˌmɪskənˈstru:] *v* noto'g'ri talqin qilmoq, tushuntirib (izohlab, sharhlab) bermoq
miscount [ˌmɪsˈkaʊnt] **1.** *n* hisobda yanglishish, hisobda xatoga yo'l qo'yish; xato sanash; **2.** *v* hisobda yanglishmoq, hisobda xatoga yo'l qo'ymoq, xato sanamoq
miscreant [ˈmɪskrɪənt] **1.** *n* yaramas, ablah, nobakor, razil, qabih, past odam; **2.** *a* axloqi buzuq, axloqsiz, yomon, fosiq
misdeed [ˌmɪsˈdi:d] *n* 1) jinoiy harakat, jinoyat; yovuzlik; 2) xato ish, xatolik, xato
misdemeanour [ˌmɪsdɪˈmi:nə] *n so'zl.* xato, ayb, nojo'ya ish
miser [ˈmaɪzə] *n* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq odam
miserable [ˈmɪz(ə)rəb(ə)l] *a* 1) ayanchli, achinarli; g'amgin; 2) yoqimsiz, yomon; 3) juda oz; sifatsiz
miserably [ˈmɪz(ə)rəblɪ] *adv* qayg'uli, g'amgin, ma'yus
miserly [ˈmaɪzəlɪ] *a* qurumsoq, xasis, ziqna
misery [ˈmɪz(ə)rɪ] *n* baxtsizlik, qashshoqlik, kambag'allik
misfire [ˌmɪsˈfaɪə] *n* muvaffaqiyatsizlik, ish yurishmay qolish
misfit [ˈmɪsˌfɪt] *n* moslashmagan (qovushmagan) odam
misfortune [mɪsˈfɔ:tʃ(ə)n] *n* baxtsizlik; balo, ofat; musibat
misgiving [ˌmɪsˈgɪvɪŋ] *n pl* qo'rqish, xavfsirash, cho'chish
misguide [mɪsˈgaɪd] *v* noto'g'ri yo'lga boshlamoq, adashtirmoq
mishap [ˈmɪshæp] *n* muvaffaqiyatsizlik
misinform [ˌmɪsɪnˈfɔ:m] *v* noto'g'ri ma'lumot bermoq, chalg'itmoq, adashtirmoq
misinterpret [ˌmɪsɪnˈtɜ:prɪt] *v* noto'g'ri (xato) tushunmoq
misinterpretation [ˌmɪsɪntɜ:prɪˈteɪʃ(ə)n] *n* noto'g'ri (xato) tushunish
misjudge [ˌmɪsˈdʒʌdʒ] *v* 1) noto'g'ri fikrda bo'lmoq; 2) qadriga yetmaslik, nazar-pisand qilmaslik
misjudg(e)ment [mɪsˈdʒʌdʒmənt] *n* noto'g'ri fikr, noto'g'ri talqin qilish
mislaid [mɪsˈleɪd] *past., p. p. of* **mislay**
mislay [mɪsˈleɪ] *v* (**mislaid**) o'z o'rniga qo'ymaslik; yo'qotmoq
mislead [mɪsˈli:d] *v* (**misled**) 1) noto'g'ri fikr hosil qilmoq, adashtirmoq, aldamoq; 2) yo'ldan urmoq, yomon yo'lga boshlamoq; 3) noto'g'ri yo'ldan boshlab bormoq
misleading [mɪsˈli:dɪŋ] *a* noto'g'ri fikr hosil qiluvchi; adashtiruvchi, aldovchi
misled [mɪsˈled] *past., p. p. of* **mislead**
mismanage [ˌmɪsˈmænɪdʒ] *v* yomon (qoniqarsiz) boshqarmoq
misplace [ˌmɪsˈpleɪs] *v* 1) boshqa joyga qo'ymoq; 2) yo'qotmoq, yo'qotib qo'ymoq
misprint [ˌmɪsˈprɪnt] *n* nashr (bosma) xatosi
mispronounce [ˌmɪsprəˈnaʊns] *v* noto'g'ri talaffuz qilmoq
misread [ˌmɪsˈri:d] *v* noto'g'ri o'qimoq; noto'g'ri tushunmoq
misrepresent [ˌmɪsrepɪˈzent] *v* buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq
misrepresentation [ˌmɪsreprɪzenˈteɪʃ(ə)n] *n* noto'g'ri bayonot, buzib ko'rsatish; chalg'itish, adashtirish
misrule [ˌmɪsˈru:l] **1.** *n* 1) yomon boshqarish, idora qilish; 2) tartibsizlik; **2.** *v* yomon boshqarmoq, idora qilmoq
miss I [mɪs] *n* miss; xonim; qizcha
miss II [mɪs] *v* 1) qo'ldan chiqarmoq; o'tkazib yubormoq; 2) kech qolmoq; 3) sog'inmoq
missile [ˈmɪsaɪl] **1.** *n* 1) raketa, reaktiv snaryad; 2) qurol, aslaha; **2.** *a* reaktiv
missing [ˈmɪsɪŋ] **1.** *n* (*pl* **the ~**) bedarak yo'qolgan kishilar; **2.** *a* 1) yo'q bo'lgan, kelmagan, qatnashmayotgan; 2) bedarak yo'qolgan
mission [ˈmɪʃ(ə)n] *n* 1) topshiriq, jiddiy vazifa; 2) doimiy diplomatik vakolatxona; 3) *harb.* (jangovar) topshiriq; 4) kosmik parvoz; 5) missiya, missionerlar guruhi; 6) missionerlik faoliyati; 7) topshiriq; xizmat safari
missionary [ˈmɪʃn(ə)rɪ] *n* 1) missioner (*yerli xalqni xristian diniga o'tishga targ'ib qilish uchun o'zga yurtlarga yuborilgan shaxs*); 2) elchi, elchi qilib yuborilgan odam
missive [ˈmɪsɪv] *n* rasmiy noma, maktub, xat
mis-spell [ˌmɪsˈspel] *v* (**mis-spelt**) harflarni noto'g'ri aytmoq, so'zlarni noto'g'ri yozmoq
mis-spelt [ˌmɪsˈspelt] *past., p. p. of* **mis-spell**
mis-spend [ˌmɪsˈspend] *v* (**mis-spent**) (*pul va b. ni*) bekorga sarflamoq
mis-spent [ˌmɪsˈspent] *past., p. p. of* **mis-spend**
mis-state [ˌmɪsˈsteɪt] *v* noto'g'ri bayonot bermoq, yolg'on xabar bermoq
mis-statement [ˌmɪsˈsteɪtmənt] *n* noto'g'ri, yolg'on ma'lumot
mist [mɪst] *n* 1) tuman; 2) aniq ko'rishga xalal beradigan holat; 3) (*havodagi, osmondagi*) g'ubor, chang-to'zon
mistake [mɪˈsteɪk] **1.** *n* xato, adashish; **by ~** bilmasdan, adashib; **2.** *v* (**mistook; mistaken**) adashmoq, xato qilmoq, yanglishmoq
mistaken [mɪˈsteɪkən] **1.** *p. p. of* **mistake 2**; **2.** *a* xato, yanglish, noto'g'ri
mister [ˈmɪstə] *n* janob
mistletoe [ˈmɪst(ə)ltəʊ] *n bot.* omela (*daraxtlarga yopishib yashaydigan doim yashil buta*)
mistook [mɪˈstʊk] *past. of* **mistake 2**
mistreat [ˌmɪsˈtri:t] *amer.* = **maltreat**
mistress [ˈmɪstrɪs] *n* 1) xo'jayin (*ayol*); 2) uy bekasi
mistrust [mɪsˈtrʌst] **1.** *n* ishonchsizlik, ishonmaslik; **2.** *v* gumonsiramoq; ikkilanmoq; ishonchsizlik ko'rsatmoq
misty [ˈmɪstɪ] *adv* 1) tumanli; 2) qorong'i; 3) noaniq
misunderstand [ˌmɪsʌndəˈstænd] *v* (**misunderstood**) noto'g'ri tushunmoq; **~ing** tushunmovchilik; anglashilmovchilik
misunderstood [ˌmɪsʌndəˈstʊd] *past., p. p. of* **misunderstand**
mite [maɪt] *n ent.* kana, jo'lak
mitigate [ˈmɪtɪgeɪt] *v* yumshatmoq, yengillashtirmoq; oddiylashtirmoq
mitten [ˈmɪtn] *n* boshmaldoqli qo'lqop
mix [mɪks] *v* 1) aralashtirib yubormoq; aralashtirmoq; 2) chalkashtirmoq; chigallashtirmoq
mixed [ˈmɪkst] *a* aralash, qo'shma, aralashtirilgan
mixer [ˈmɪksə] *n* qorishtiruvchi mashina, qorishtirgich
mixture [ˈmɪkstʃə] *n* aralashma, qorishma
mix-up [ˈmɪksˈʌp] **1.** *n* chigallik, chalkashlik, chatoqlik, fikrlashdagi chalkashlik; **2.** *v* 1) yaxshi aralashtirmoq; 2) chalkashtirib yubormoq
mo [məʊ] *n* (*so'zl.* **moment** *so'zining qisqartirilgan shakli*) lahza, on, payt, fursat, mavrid
moan [məʊn] **1.** *n* nola; **2.** *v* ingramoq, nola qilmoq
moat [məʊt] *n* suv to'ldirilgan chuqur, xandaq
mob [mɒb] **1.** *n* olomon, to'da, betartib yig'in; **2.** *v* to'planmoq, to'planib turmoq
mobile [ˈməʊbaɪl] *a* 1) harakatchan, chaqqon; 2) ko'chma; 3) o'zgaruvchan, beqaror
mobility [məʊˈbɪlɪtɪ] *n* 1) harakatchanlik, chaqqonlik; 2) o'zgaruvchanlik; betayinlik

mobilization [ˌməʊbɪlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* safarbar qilish, safarbarlik
mobilize [ˈməʊbɪlaɪz] *v* safarbar etmoq
mock [mɔk] *v* masxara (mazax) qilmoq; xo'rlamoq; **~er** masxaraboz
modal [ˈməʊdl] *a* modal; **~ verb** modal fe'l
mode [məʊd] *n* tur, xil, nav; usul
model [ˈmɔdl] *n* 1) andaza; 2) namuna, ibrat
modem [ˈməʊdem] *n* modem
moderate [ˈmɔd(ə)rɪt] *a* 1) o'rtacha (*sifat haqida*); 2) o'zini tuta biladigan, og'ir, vazmin
moderation [ˌmɔdəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) o'zini tutish; og'irlik; vazminlik, bosiqlik; 2) o'rtachalik
modern [ˈmɔdn] *a* yangi, zamonaviy, hozirgi; **~ architecture** zamonaviy me'morchilik
modernization [ˌmɔdənaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* zamonaviylashtirish (*zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, yangilash*)
modernize [ˈmɔdənaɪz] *v* zamonaviylashtirmoq
modest [ˈmɔdɪst] *a* sodda, kamtar
modesty [ˈmɔdɪstɪ] *n* kamtarlik
modification [ˌmɔdɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* o'zgartirish; o'zgarish
modify [ˈmɔdɪfaɪ] *v* o'zgartirmoq
modulate [ˈmɔdjʊleɪt] *v* 1) *mus.* tuslanmoq (*musiqiy ton, tovush haqida*); 2) *fiz.* o'zgartirmoq
module [ˈmɔdju:l] *n* bo'lim, qism, parcha
mohair [ˈməʊheə] *n* moxer (*angorka juni*)
moist [mɔɪst] *a* zax, ho'l, nam; **~y** zax, nam
moisten [ˈmɔɪs(ə)n] *v* namlamoq, xo'llamoq
moisture [ˈmɔɪstʃ(ə)] *n* namlik, zaxlik
molar [ˈməʊlə] *n* oziq tish, jag' tishi
molasses [məˈlæsɪz] *n* quyuq shinni, qiyom
mold [məʊld] *n* po'panak, mog'or; **to grow ~** mog'orlamoq, mog'or bosmoq
Moldavian [mɔlˈdeɪvɪən] **1.** *a* Moldaviyaga va moldavanlarga oid, moldavancha; **2.** *n* 1) moldavan, moldavan ayol; 2) moldavan tili
mole I [məʊl] *n* 1) xol; 2) *zool.* krot (*yer ostida yashaydigan bir turli sutemizuvchi hayvon*)
mole II [məʊl] *n* to'lqin to'sar; to'g'on
molecular [məˈlekjʊlə] *a* molekular, molekulaga oid
molecule [ˈmɔlɪkju:l] *n* molekula
molest [məˈlest] *v* shilqimlik qilmoq; bezor qilmoq
mollify [ˈmɔlɪfaɪ] *v* 1) yumshatmoq, muloyimlashtirmoq; 2) tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin (orom) bermoq, xotirjam qilmoq
molly-coddle [ˈmɔlɪˌkɔdl] **1.** *n* noziknihol odam; **2.** *v* erkalamoq, erkalatmoq, suymoq
molt [məʊlt] = **moult**
molten [ˈməʊltn] *a* 1) erigan, eritilgan; 2) quyilgan, quyma
mom [mɔm] *n so'zl. amer.* ona
moment [ˈməʊmənt] *n* lahza, payt, on; **just a ~** hozir, bir daqiqa
momentarily [ˈməʊmənt(ə)rəlɪ] *adv* bir lahzaga, bir zumga
momentary [ˈməʊmənt(ə)rɪ] *a* bir lahzali, bir zumli
momentous [məˈ(ʊ)mentəs] *a* o'ta muhim, katta ahamiyatga ega
momentum [məˈ(ʊ)mentəm] *n fiz.* 1) harakatga keltiruvchi kuch; 2) harakat miqdori
mommy [ˈmɔmɪ] *n so'zl.* oyi; ona
monarch [ˈmɔnək] *n* monarx, podsho, hokimi mutlaq
monarchy [ˈmɔnəkɪ] *n* monarxiya (*hokimiyat bir kishining – monarxning qo'lida bo'lgan davlat tuzumi va shunday davlatning o'zi*)
monastery [ˈmɔnəstrɪ] *n* erkaklar monastiri
Monday [ˈmʌndɪ] *n* dushanba
monetary [ˈmʌnɪt(ə)rɪ] *a* 1) tangachaqaga, oltin pulga oid; 2) pulga oid; 3) valutaga oid
money [ˈmʌnɪ] *n* pul; boylik; **~ lender** sudxo'r
Mongol [ˈmɔŋg(ə)l] **1.** *a* Mongoliyaga va mongollarga oid, Mongoliyaga va mongollarga xos bo'lgan; mongolcha; **2.** *n* 1) mongol, mongol ayol; 2) mongol tili
Mongolian [mɔŋˈgəʊlɪən] = **Mongol**
mongrel [ˈmʌŋgr(ə)l] **1.** *n* ko'ppak it, ko'ppak; **2.** *a* aralash, duragay
monition [məʊ ˈnɪʃ(ə)n] *n* 1) ogohlantirish, tanbeh; 2) sudga chaqiriq
monitor [ˈmɔnɪtə] *n* 1) boshliq; maslahatchi; 2) sinf boshlig'i
monk [mʌŋk] *n* 1) monax, rohib; 2) darvesh
monkey [ˈmʌŋkɪ] *n* 1) *zool.* maymun; 2) loydan yasalgan uzun bo'g'izli ko'za
monkey-wrench [ˈmʌŋkɪrentʃ] *n tex.* keriladigan gayka kaliti (*har qanday gaykaga tushadigan qilib sozlanadigan asbob*)
monologue [ˈmɔnəlɔg] *n* monolog (*so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchilarga, tomoshabinlarga qaratilgan nutqi*)
monopolist [məˈnɔpəlɪst] *n* monopolist, yirik kapitalist
monopolistic [məˌnɔpəˈlɪstɪk] *a* 1) monopolistik, monopoliyaga asoslangan; 2) monopoliyaga qaramli, monopoliyadan iborat bo'lgan
monopolize [məˈnɔpəlaɪz] *v* monopoliya qilib olmoq, monopoliyaga aylantirmoq
monopoly [məˈnɔp(ə)lɪ] *n* monopoliya (*biror narsa ishlab chiqarishda, biror narsadan foydalanishda va u bilan savdo qilishda bir kishi yoki tashkilot, davlat qo'lida bo'lgan tanho huquq*)
monorail [ˈmɔnə(ʊ)reɪl] *n* bir izli osma temir yo'l
monosyllable [ˈmɔnəˌsɪləb(ə)l] *n gram.* bir bo'g'inli so'z
monotone [ˈmɔnətəʊn] *n* bir xilda bo'lgan, o'xshash ovoz
monotonous [məˈnɔt(ə)nəs] *a* 1) bir ohangdagi, bir ovozli; 2) hamisha bir xil, o'zgarmaydigan, zerikarli
monotony [məˈnɔt(ə)nɪ] *n* bir xillik
monoxide [ˌməˈnɔksaɪd] *n* oksid; bir turli oksid
Monsieur [məˈsjə:] *n fr.* janob, mesye (*Fransiyada erkaklarga murojaat shakli*)
monsoon [mɔnˈsu:n] *n* 1) musson (*qishda dengiz tomon, yozda dengizdan quruqlikka tomon esadigan shamol*); 2) yomg'ir mavsumi
monster [ˈmɔnstə] *n* 1) xunuk, badbashara, bahaybat (*qo'rqinchli odam va hayvonlar haqida*); 2) xunuk (badbashara) odam
monstrous [ˈmɔnstrəs] *a* dahshatli, bahaybat
month [mʌnθ] *n* oy
monthly [ˈmʌnθlɪ] **1.** *a* oyda bir bo'ladigan, oylik, har oygi; **2.** *adv* oyma-oy, oy sayin, har oyda
monument [ˈmɔnjʊmənt] *n* haykal; yodgorlik
monumental [ˌmɔnjʊˈmentl] *a* 1) yodgorlikka oid; yodgorlik...; 2) hashamatli, ulug'vor (*binoga nisbatan qo'llaniladi*)
moo [mu:] *n* ma'rash (*molning ovozi*)
mood [mu:d] *n* 1) kayfiyat; ahvol; 2) *gram.* mayl
moody [ˈmu:dɪ] *a* 1) ma'yus, g'amgin, xafa; 2) yomon kayfiyatda
moon [mu:n] *n* oy
moonlight [ˈmu:nlaɪt] *n* oy nuri, oydin, oy yorug'ligi
moonlit [ˈmu:nˌlɪt] *a* oy nuriga to'lib ketgan
moonshine [ˈmu:nʃaɪn] *n* 1) oy nuri, oy yorug'ligi; 2) bema'ni (bo'lmag'ur, bekor, behuda) gap, safsata
moonstruck [ˈmu:nstrʌk] *a* miyasi aynigan, aqldan ozgan, telba, savdoyi, jinni, devona

Moor [muə] *n tar.* mavrlar (*qadimgi va o'rta asrlarda Mavritaniya, hozir Mavritaniya Islom Respublikasi deb atalgan, shimoliy-g'arbiy Afrikada joylashgan mamlakat xalqi*)
moor I [muə] *n* ov qiladigan joy
moor II [muə] *v* 1) (*kema, dirijabl kabilarni to'xtash joyiga*) bog'lab qo'ymoq; 2) langar tashlamoq, langar tashlab to'xtatmoq
moose [mu:s] *n* los (*bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon*)
moot [mu:t] **1.** *a* janjalli, munozarali, talash; **2.** *v* muhokamaga qo'ymoq, muhokama qilmoq
mop [mɒp] *n* shvabra, polyuvgich
mope [məup] *n* ma'yuslik, zerikish, siqilish
moped ['məped] *n* motorli velosiped, moped (*pedalli mototsikl*)
moppet ['mɒpɪt] *n* chaqaloq, go'dak
moral ['mɒrəl] *a* 1) ma'naviy; 2) ruhiy; 3) axloqiy, odob-axloqqa oid
morale [mə 'rɑ:l] *n* ruhiy holat, (*qo'shinlarning*) jangovar ruhi
morality [mə'rælɪtɪ] *n* 1) axloq, odob; 2) etika (*odob-axloq qoidalari, normalari*); 3) o'git, pand, nasihat
moralize ['mɒrəlaɪz] *v* nasihatgo'ylik qilmoq, pand-nasihat qilmoq
morass [mə'ræs] *n* botqoq, botqoqlik, ichiga tortib ketadigan botqoqlik
morbid ['mɔ:bɪd] *a* kasalmand, tez-tez kasal bo'lib turadigan
mordant ['mɔ:dnt] **1.** *a* 1) istehzoli, achchiq, zahar, qattiq botadigan, uzib oladigan; 2) o'tkir, o'yuvchi, yeyuvchi, achishtiradigan (*kimyoviy moddalar haqida*); **2.** *n* 1) *so'zl.* hasharotlarni qiradigan dori; 2) tezob (*biror narsani yedirib, o'yib naqsh solish ishlarida ishlatiladigan dori*)
more I [mɔ:] *a* katta (ko'p) qismi, aksariyati
more II [mɔ:] *adv* ko'proq
moreover [mɔ: 'rəuvə] *a* undan tashqari; uning ustiga
morgue [mɔ:g] *n* 1) morg, o'likxona; 2) *fr.* manmanlik, dimog'dorlik
moribund ['mɒrɪbʌnd] *a* 1) o'layotgan, o'lib borayotgan; 2) oshini oshagan, yoshini yashagan, umri tugagan, qarib qolgan
morn [mɔ:n] *n* 1) *shoir.* erta, ertalab, tong; 2) **(the ~)** *shotl.* ertasi kun, ertangi kun; **the ~'s morning** ertaga ertalab
morning ['mɔ:nɪŋ] **1.** *n* ertalab; tong; azon; **~ star** tongi yulduz; **good~** salom (*ertalabki salomlashuv*); **in the ~** ertalab, ertalabda; **2.** *attr.* ertalabki, erta bilan bo'ladigan
morocco [mə'rɒkəu] **1.** *n* (*pl* **-os** [-əuz]) saxtiyon teri; saxtiyon (*echki yoki qo'y terisidan pishirilgan charm*)
moron ['mɔ:rɒn] *n* aqli kam, aqli (past) zaif
morose [mə'rəus] *a* qayg'uli, g'amgin, xafa, ma'yus
morphology [mɔ:'fɒlədʒɪ] *n gram.* morfologiya
morrow ['mɒrəu] *n* 1) ertangi kun; 2) tong, ertalab, sahar
morse I [mɔ:s] : **~ code** Morze alifbosi (*harf va raqamlar, nuqta va tirelar bilan ko'rsatilgan shartli telegraf belgilari sistenasi*)
morse II [mɔ:s] *n zool.* morj
morsel ['mɔ:s(ə)l] *n* bir tishlam, kichkina bo'lak
mortal ['mɔ:tl] *a* 1) o'limga olib keladigan, o'ldiradigan; 2) qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz
mortality [mɔ:'tælɪtɪ] *n* 1) o'ldiradigan, halokatli; 2) o'lim soni, miqdori
mortar I ['mɔ:tə] *n* ohak qorishma, ohakli loy
mortar II ['mɔ:tə] *n harb.* mortira (*qisqa stvolli to'p*)
mortgage ['mɔ:gɪdʒ] *n* 1) garov; 2) garov xati
mortician [mɔ:'tɪʃ(ə)n] *n amer.* tobutsoz, tobutchi
mortification [,mɔ:tɪfɪ'keɪʃ(ə)n] *n* 1) ruhi tushganlik, tushkunlik, ma'yuslik, dili xuftonlik; 2) ko'ngil qolish, ko'ngil sovish, ixlosi qaytish; 3) *tib.* gangrena (*biologik to'qima yoki biror a'zoning jonsizlanib tiriklayin chirishi*); qorason kasalligi
mortify ['mɔ:tɪfaɪ] *v* 1) xafa qilmoq, ko'nglini ranjitmoq, dilini og'ritmoq, dilini siyoh qilmoq; 2) (*qo'rquvni*) yengmoq; 3) (*tanani, badanni*) o'ldirmoq, sezmaydigan (karaxt) qilib qo'ymoq
mortuary ['mɔ:tʃu(ə)rɪ] *n* morg, o'likxona
mosaic [mə(u)'zeɪɪk] *n* mozaika (*naqsh ishlash san'ati*)
Moslem ['mɒzlɪm] **1.** *n* musulmon, musulmon ayol; **2.** *a* islom diniga va musulmonlarga oid
mosque [mɒsk] *n* masjid, machit
mosquito [mə'ski:təu] *n* mayda chivin, iskabtopar
moss [mɒs] *n bot.* mox, yo'sin
moss-back ['mɒsbæk] *n* ashaddiy eskilik tarafdori
most [məust] *a* eng, eng ko'p; **at (the) ~** eng ko'pi bilan; **~ly** asosan; ko'pincha; odatda
mote [məut] *n* 1) chang zarrachasi, gard; 2) kichkina dog', dog'cha
motel [məu'tel] *n* motel (*mehmonxona turi*)
moth [mɒθ] *n* kapalak, parvona, kuya, tun kapalagi
moth-eaten ['mɒθ,i:tn] *a* 1) kuya yegan; 2) eskirgan, to'zgan, yeyilgan, yeyilib (eskirib) ishdan chiqqan
mother ['mʌðə] *n* ona, oyi
motherhood ['mʌðəhud] *n* onalik, onalarga xos mehr-muhabbat; 2) onalik (*ayollarning homiladorlik, tug'ish va bola emizish davridagi holati*)
mother-in-law ['mʌð(ə)rɪnlɔ:] *n* qaynana
motherland ['mʌðəlænd] *n* Vatan, onayurt
motherly ['mʌðəlɪ] *a* onalik
mother-of-pearl [,mʌð(ə)rəv'pɜ:l] *n* sadaf
mother's mark ['mʌðəzmɑ:k] *n* tug'ma dog'
motif [məu'ti:f] *n fr.* asosiy fikr, g'oya
motion ['məuʃ(ə)n] **1.** *n* harakat, imo, ishora; **2.** *v* (imo) ishora bilan ko'rsatmoq
motivate ['məutɪveɪt] *v* 1) (*biror ish qilishga*) undamoq, majbur etmoq; 2) asoslamoq, dalil ko'rsatmoq
motive ['məutɪv] *n* sabab, bahona, vaj, bois
motley ['mɒtlɪ] **1.** *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli, xilma-xil, turlituman; **2.** *n* turli musiqa asarlaridan olib tuzilgan terma musiqa asari
motor ['məutə] *n* 1) dvigatel, motor; 2) avtomobil; 3) motorli qayiq; 4) *anat.* harakatlantiruvchi mushak; harakatlantiruvchi asab
motor-car ['məutəkɑ:] *n* yengil avtomobil
motor cycle ['məutə,saɪk(ə)l] *n* mototsikl
mottle ['mɒtl] **1.** *n* maydaxol, ziraxol, kichkina dog', dog'cha; **2.** *v* 1) tomchilamoq, maydalab yog'moq; 2) yozib (chizib) tashlamoq; har xil narsalar bilan to'ldirib tashlamoq
motto ['mɒtəu] *n* 1) shior; 2) epigraf (*adabiy asarning tepasiga yozilgan jumla, ibora*)
mould I [məuld] **1.** *n* mog'or, po'panak; **2.** *v* mog'or bosmoq, po'panak bosmoq, mog'orlamoq
mould II [məuld] *n* metall quyiladigan maxsus qolip
mould III [məuld] *n* chopilgan yer
moulder ['məuldə] *n* quyuvchi; qolipchi
moult [məult] **1.** *n* tullash (*qushlar haqida*); **2.** *v* tullamoq, po'st tashlamoq (*qushlar haqida*)
mound [maund] *n* do'ng, ko'tarma; o'yib yasalgan tepalik

mount [maʊnt] **1.** *v* ko'tarilmoq, yuksalmoq; oshmoq; **2.** *n* tepalik, balandlik

mountain [ˈmaʊntɪn] *n* 1) tog'; 2) g'aram; **~eer** tog'li joyda yashovchi kishi

mountaineering [ˌmaʊntɪˈnɪərɪŋ] *n* alpinizm (*baland tog'larga, tog' cho'qqisiga ko'tarilish sporti*)

mountainous [ˈmaʊntɪnəs] *a* 1) tog'li, o'rsoyli; 2) ulkan, juda katta, azim, haybatli, mahobatli

mountebank [ˈmaʊntɪbæŋk] **1.** *n* 1) maxsaraboz, qiziqchi, hazilkash, nayrangboz; 2) aldamchi, aldoqchi, tovlamachi, firibgar; **2.** *v* 1) ahmoqlik (tentaklik) qilmoq, maynabozchilik (jinnilik) qilmoq; 2) qalloblik qilmoq, muttahamlik (g'irromlik) qilmoq; 3) aldamoq, chalg'itmoq, yolg'on gapirmoq

mounting [ˈmaʊntɪŋ] *n* 1) qo'yish, o'rnatish, qurish, o'tkazish; 2) montaj, montaj qilish, yig'ish

mourn [mɔ:n] *v* 1) aza tutmoq; 2) nolimoq, zorlanmoq; 3) yig'lamoq, ko'z yosh to'kmoq; **~ing** qayg'u, dard-alam, ta'ziya, motam

mouse [maʊs] *n* (*pl* **mice**) sichqon; **a ~ trap** qopqon (*sichqon tutadigan*)

mousse [mu:s] *n fr.* muss (*shirinliklardan tayyorlangan taom*)

moustache [məˈstɑ:ʃ] *n* mo'ylov

mouth [maʊθ] *n* og'iz; **from ~ to ~** og'izdan og'izga

mouth-organ [ˈmaʊθˌɔ:gən] *n* 1) nag'ma; 2) *mus.* sibizg'a (nay)

mouthpiece [ˈmaʊθpi:s] *n* mundshtuk (*puflab chalinadigan asboblarning og'izga olinadigan qismi*)

movable [ˈmu:vəb(ə)l] *a* qo'zg'aladigan, siljiydigan, harakatlanadigan

move [mu:v] **1.** *n* harakat, siljish, yurish; **2.** *v* harakatga keltirmoq, harakat qilmoq, surmoq, surilmoq

movement [ˈmu:vmənt] *n* 1) harakat, faoliyat; 2) siljish, joyidan qo'zg'ash

movie [ˈmu:vɪ] *n* 1) kinofilm; 2) *pl* kino sanoati

moving [ˈmu:vɪŋ] *a* 1) ta'sirli; 2) harakatlanuvchi; **~ pictures** kino

mow [məu] **1.** *n* 1) g'aram; to'p; 2) bedaxona, pichanxona; **2.** *v* (**mowed; mowed, mown**) 1) g'aramlamoq; 2) o'rmoq

mown [məun] *p. p. of* **mow 2**

Mr [ˈmɪstə] *n* janob (**mister** *so'zining qisqartirilgan shakli*)

Mrs [ˈmɪsɪz] *n* xonim, miss (**mistress** *so'zining qisqartirilgan shakli*)

much [mʌtʃ] *a* (**more; most**) *adv* mo'l; ko'p, juda

mucilage [ˈmju:sɪlɪdʒ] *n* 1) o'simlik yelimi; 2) shilimshiq, shilliq; 3) shilimshiq parda, shilliq o'tirindi

muck [mʌk] *n* 1) go'ng, tezak; 2) *so'zl.* iflos, kir

muck-rake [ˈmʌkreɪk] *v* siyosiy nayrangni har tomonlama tekshirib chiqib fosh etmoq

mucous [ˈmju:kəs] *a anat.* shilliq, shilimshiq; **~ membrane** shilliq parda

mucus [ˈmju:kəs] *n* shilimshiq, shilliq

mud [mʌd] *n* shilta loy, botqoq, balchiq, loyqa

muddle [mʌdl] *v* adashtirmoq, chalkashtirmoq; gangitmoq

muddy [ˈmʌdɪ] *a* iflos; loyqa, loyga belangan

muesli [ˈmju:zlɪ] *n* myusli (*nonushtaga tortiladigan sutli taom*)

muff I [mʌf] *n tex.* mufta (*ikki valni, o'qni ulovchi qism yoki mexanizm*)

muff II [mʌf] **1.** *n* 1) ishning uddasidan chiqa olmaydigan (tajribasiz, mahoratsiz) kishi; 2) xato, yanglish, kamchilik; 3) muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik; **2.** *v* xato qilmoq, yanglishmoq

muffin [ˈmʌfɪn] *n* 1) yopilgan shirin bulka non; 2) tovada pishirilgan qalin qaymoqsimon non

muffle I [ˈmʌf(ə)l] *n* charm qo'lqop

muffle II [ˈmʌf(ə)l] *v* o'ramoq; o'rab qo'ymoq; burkab qo'ymoq

mufti [ˈmʌftɪ] *arab. n* 1) mufti (*shariat qonunlarini talqin qiluvchi, shariat va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi kishi*); 2) *so'zl.* oddiy ko'ylak

mug [mʌg] *n* krujka (*choy ichadigan idish*); **a ~ of coffee** bir krujka qahva

mugger [ˈmʌgə] *n* 1) *so'zl.* bosqinchi; 2) sopol buyumlar sotuvchisi; 3) *zool.* hind timsohi

mugging [ˈmʌgɪŋ] *n* 1) bezorilik; 2) guruh bo'lib tashlanish, guruh bo'lib hamla (hujum) qilish

muggy [ˈmʌgɪ] *a* dim, dimiqtiradigan (*ob-havoga nisbatan qo'llaniladi*)

mulberry [ˈmʌlb(ə)rɪ] *n* 1) *bot.* tut daraxti; 2) tut mevasi; 3) *attr.* to'q qizil, qipqizil

mule I [mju:l] *n* 1) *zool.* xachir; 2) duragay, chatishma; 3) *tex.* itargich (*poyezdning ketidan*)

mule II [mju:l] *n* shippak, uyda kiyiladigan tufli

mulish [ˈmju:lɪʃ] *a* qaysar

multi- [ˈmʌltɪ-] *pref. murakkab so'zlarda* ko'p *degan ma'noni beradi*

multifarious [ˌmʌltɪˈfe(ə)rɪəs] *a* turli-tuman, xilma-xil, har xil, rang-barang

multiform [ˈmʌltɪfɔ:m] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang

multilateral [ˌmʌltɪˈlæt(ə)rəl] *a* har tomonlama, serqirra, ko'p qirrali

multinational [ˌmʌltɪˈnæʃ(ə)nəl] *a* ko'p millatli

multiparty [ˌmʌltɪˈpɑ:tɪ] *a* ko'p partiyali

multiple [ˈmʌltɪp(ə)l] *a* 1) tarkibiy, murakkab, tuzilishi murakkab bo'lgan; qo'shma; 2) ko'p bo'lim, qismlardan iborat bo'lgan; 3) *mat.* karrali son, qoldiqsiz bo'linadigan son

multiplication [ˌmʌltɪplɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) *mat.* ko'paytirish; 2) oshirish, orttirish, o'stirish

multiplicity [ˌmʌltɪˈplɪsɪtɪ] *n* 1) murakkablik; 2) xilma-xillik, har xillik

multiply [ˈmʌltɪplaɪ] *v mat.* ko'paytirmoq, ko'paytmoq, oshirmoq; **to ~ by** ...ga ko'paytirmoq (oshirmoq)

multitude [ˈmʌltɪju:d] *n* 1) ko'p, juda ko'p; anchagina, ko'pgina, birtalay; 2) bir to'da, hisobsiz

mum [mʌm] *n* ona

mumble [ˈmʌmb(ə)l] *v* javramoq, ming'illamoq, g'uldurlamoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq

mummery [ˈmʌm(ə)rɪ] *n* pantomima (*so'zsiz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladigan tomosha*)

mummy [ˈmʌmɪ] *n* 1) mumiyo (*balzamlab chirimaydigan qilingan jasad*); 2) mumiyo (*qizil mineral bo'yoq*)

mumps [ˈmʌmps] *pl tib.* tepki (*kasallik*)

munch [mʌnʧ] *v* chaynamoq, kavshamoq

mundane [mʌnˈdeɪn] *a* dunyoviy

municipal [mju:ˈnɪsɪp(ə)l] *a* 1) shaharga oid; 2) o'zini o'zi idora qiladigan, o'ziga mustaqil

munificence [mju:ˈnɪfɪs(ə)ns] *n* haddan tashqari saxiylik, qo'li ochiqlik, oliyhimmatlilik, saxovatlilik

munificent [mju:ˈnɪfɪs(ə)nt] *a* haddan tashqari saxiy, qo'li ochiq, oliyhimmat, saxovatli

munition [mju:ˈnɪʃ(ə)n] *n* harbiy aslaha, anjomlar (*yarog'-aslaha, o'q-dorilar*)

mural [ˈmju(ə)rəl] *a* 1) devoriy, devorga chizilgan; 2) devorga o'rnatiladigan, devorga osiladigan

murder [ˈmɜ:də] **1.** *n* o'ldirish, o'ldirib ketish, qatl etish, qotillik; **2.** *v* o'ldirmoq, qotillik sodir etmoq

murderer [ˈmɜ:d(ə)rə] *n* qotil; jinoyatchi

murk [mɜ:k] *n* qorong'ilik, zulmat

murky [ˈmɜ:kɪ] *a* zim-ziyo, qoramtir; qorong'i

murmur [ˈmɜ:mə] **1.** *n* shitirlash, shitirlagan ovoz; **2.** *v* 1) jildiramoq (*suv haqida*); 2) pichirlamoq

muscle [ˈmʌs(ə)l] *n* muskul, mushak; **a man of ~** kuchli odam, polvon

muscular [ˈmʌskjulə] *a* 1) muskullarga, mushaklarga oid; 2) mushakdor, kuchli, baquvvat

muse [mju:z] **1.** *n* 1) muza (*yunon afsonasida: san'at, adabiyot, fan ilohasi, xudosi*); 2) *ko'ch.* ilhom manbayi, ilhom parisi, ilhombaxsh narsa; **2.** *v* o'ylamoq, fikr yuritmoq, mulohaza qilmoq

museum [mju:ˈzɪəm] *n* muzey

mushroom [ˈmʌʃrum] **1.** *n* qo'ziqorin; **2.** *attr.* qo'ziqoringa o'xshagan

music [ˈmju:zɪk] *n* musiqa, kuy, navo; **a ~-hall** konsert zali; **a ~ master** musiqa o'qituvchisi

musical [ˈmju:zɪk(ə)l] *a* 1) musiqiy, ohangdor; 2) musiqaga oid; 3) musiqani yaxshi tushunadigan

musician [mju:ˈzɪʃ(ə)n] *n* 1) mashshoq, sozanda; 2) musiqashunos

musket [ˈmʌskɪt] *n tar.* mushket (*qadimiy pilta miltiq*)

Muslim [ˈmuzlɪm] **1.** *n* musulmon, musulmon ayol; **2.** *a* islom diniga va musulmonlarga oid

muss [mʌs] *amer. so'zl.* **1.** *n* 1) tartibsizlik, to's-to'polon; 2) chigallik, chalkashlik, chatoqlik; 3) urish, janjal, nizo, araz; **2.** *v* tartibsizlikka olib kelmoq (sabab bo'lmoq)

mussel [ˈmʌs(ə)l] *n zool.* qo'shtabaqali chig'anoq

must [mʌst] **1.** *v* (*zaruriyatni ifodalovchi modal fe'l*) kerak, zarur, lozim; shart, darkor; **2.** *n* zaruriyat, majburiyat

mustache [məˈstɑ:ʃ] *n* mo'ylov

mustard [ˈmʌstəd] *n* 1) *bot.* xantal (*o'simlik*); 2) xantal o'simligi va urug'idan tayyorlangan ziravor

muster [ˈmʌstə] **1.** *n* 1) yig'ilish, to'planish; 2) ko'rik, ko'rikdan o'tkazish, tekshirib ko'rish; 3) yo'qlama; **2.** *v* 1) yig'moq, bir yerda to'plamoq; 2) yig'ilmoq, bir yerda to'planmoq, yig'ilishmoq, to'planishmoq

muster-roll [ˈmʌstərəʊl] *n harb.* shaxsiy tarkib ro'yxati

musty [ˈmʌstɪ] *a* 1) mog'orlagan, mog'or (po'panak) bosgan; 2) eskirgan, eskirib qolgan, iste'moldan chiqqan; 3) qotib qolgan, qoloq, orqada qolgan

mutable [ˈmju:təb(ə)l] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan

mutation [mju:ˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) o'zgarish; 2) teskarilik, noto'g'rilik

mute [mju:t] **1.** *a* 1) soqov; 2) ovozsiz, unsiz, sassiz; 3) *fon.* o'qilmaydigan, talaffuz qilinmaydigan; **2.** *n* 1) soqov odam; 2) *fon.* o'qilmaydigan (talaffuz qilinmaydigan) unli yoki undosh

muted [ˈmju:tɪd] *a* bo'g'iq, xira (*ovoz haqida*)

mutilate [ˈmju:tɪleɪt] *v* mayib qilmoq, shikast yetkazmoq

mutineer [ˌmju:t(ə)ˈnɪə] *n* isyonchi, isyon qatnashchisi

mutiny [ˈmju:t(ə)nɪ] *n* isyon, g'alayon

mutt [mʌt] *n* 1) ahmoq, ablah, kallavaram, to'nka; 2) kichkina it, kuchukcha, laycha

mutter [ˈmʌtə] *v* ming'illamoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq

mutton [ˈmʌtn] *n* qo'y go'shti

mutual [ˈmju:tʃʊəl] *a* 1) o'zaro, ikki tomonlama; 2) birlashgan, qo'shma, umumiy

mutually [ˈmju:tʃʊəlɪ] *adv* bir-biriga nisbatan, bir-birini, o'zaro

muz(z) [mʌz] *n so'zl.* tushunmasdan yodlovchi, qiroatxon

muzzle [ˈmʌz(ə)l] *n* 1) tumshuq; 2) tumshuqbog', burundiq

my [maɪ] *pron. poss.* mening, o'zimning

myocarditis [ˌmaɪə(ʊ)kɑ:ˈdaɪtɪs] *n tib.* miokardit (*yurak mushaklarining yallig'lanishi*)

myriad [ˈmɪrɪəd] *a* son-sanoqsiz, behisob, ko'p, juda katta, beadad, bitmas-tuganmas

myrmidon [ˈmɜ:mɪd(ə)n] *n* laganbardor, xushomadgo'y, malay

myrrh [mɜ:] *n* mirra (*xushbo'y smola turi va shunday smola beradigan daraxt*)

myrtle [ˈmɜ:tl] *n bot.* mirt, mirta (*doim yashil, xushbo'y buta, o'simlik*)

myself [maɪˈself] *pron. refl.* 1) o'zim; 2) o'zimni; 3) o'zimcha, o'zimdan-o'zim

mysterious [mɪˈstɪ(ə)rɪəs] *a* 1) sirli, maxfiy; 2) aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan

mystery [ˈmɪst(ə)rɪ] *n* 1) sir; sir-sanoat; 2) maxfiy narsa

mystical [ˈmɪstɪk(ə)l] *a* 1) tasavvufga asoslangan, tasavvufchi; 2) sirli

mysticism [ˈmɪstɪsɪz(ə)m] *n* tasavvuf, mistika

mystify [ˈmɪstɪfaɪ] *v* 1) o'ylantirib qo'ymoq; 2) chalkashtirmoq, mujmallashtirmoq, tushunib bo'lmaydigan qilib qo'ymoq (*nimaningdir mazmunini*)

mystique [mɪˈsti:k] *n* sirlilik, maxfiylik

myth [mɪθ] *n* afsona, uydirma

mythic(al) [ˈmɪθɪk(əl)] *a* 1) afsonalarda bo'ladigan, afsonaviy; 2) aql bovar qilmaydigan, misli ko'rilmagan, 3) uydirma

mythologic(al) [ˌmɪθəˈlɒdʒɪk(əl)] *a* afsonaga oid, afsonaviy

mythology [mɪˈθɒlədʒɪ] *n* 1) afsonalar; 2) mifologiya (*afsonalarni o'rganuvchi fan*)

N

N, n [en] *n* ingliz alifbosining o'n to'rtinchi harfi

nab [næb] *v* 1) jinoyat ustida ushlamoq, tutmoq, ushlab olmoq; 2) qamamoq, qamoqqa olmoq; 3) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, o'g'irlab olmoq

nabob [ˈneɪbɒb] *n tar.* nabob (*Hindistonda yirik musulmon aristokratlarining unvoni va shu unvon sohibi*)

nacelle [næˈsel] *n* 1) havo shari, dirijabl va h. k. ning odam o'tiradigan *yoki* motor o'rnatiladigan kajavasi; 2) samolyotning kabinasi

nacre [ˈneɪkə] *n* sadaf (*rang-barang tovlanib turadigan yaltiroq modda*)

nacr(e)ous [ˈneɪkrɪəs] *a* sadafga oid, sadaf...

nadir [ˈneɪdɪə] *n* 1) eng past daraja; 2) juda ham yomon ahvolga tushish; **to be at the ~ of one's hope** barcha umidlari puchga chiqmoq

nag I [næg] *n so'zl.* kichkina ot, pastak ot, toti ot

nag II [næg] *v* aybsitmoq, gina qilmoq, asossiz ayblamoq, tirnoq ostidan kir izlamoq

nagger [ˈnægə] *n* 1) vaysaqi, javraqi, ezma, sergap kishi; 2) janjalkash ayol

nagging [ˈnægɪŋ] **1.** *a* sergap, ezma, vaysaqi; **2.** *n* ezmalik qilish, javrash, vaysash

naif [nɑ:ˈi:f] = **naive**

nail [neɪl] **1.** *n* 1) mix; 2) tirnoq; **2.** *v* mix qoqmoq, mixlamoq

nail-biting [ˈneɪlˌbaɪtɪŋ] *n* 1) tirnoqni g'ajish odati; 2) *so'zl.* befoyda, bema'ni mashg'ulot

nail-brush [ˈneɪlbrʌʃ] *n* tirnoq cho'tkasi

naildrawer [ˈneɪlˌdrɔ:ə] *n* mix tortadigan asbob

nailed-up [ˌneɪldˈʌp] *a* bir amallab qilingan, qo'l uchida qilingan

nailer [ˈneɪlə] *n* mix yasaydigan kishi

nailery [ˈneɪlərɪ] *n* mix fabrikasi, mix ishlab chiqaradigan fabrika

nail-head [ˈneɪlhed] *n* mixning qalpog'i

nailing [ˈneɪlɪŋ] *a* juda yaxshi, juda soz, ajoyib

nail-scissors [ˈneɪlˌsɪzəz] *n pl* tirnoq oladigan qaychi

nail varnish [ˈneɪlˌvɑ:nɪʃ] *n* tirnoq loki

nainsook [ˈneɪnsʊk] *n* nansuk (*gazlama*)

naive [nɑɪ ˈi:v] *a* sodda, go'l, laqma; **~ness** soddalik

naivete [nɑ:ˈi:vətɪ] *n* 1) soddalik, go'llik; soddalik bilan qilingan ish; 2) tabiiylik, oddiylik

naivety [nɑɪ´i:vtɪ] *n* soddalik, go'llik, soddadillik
naked [´neɪkɪd] *a* yalang'och; **stark ~** qip-yalang'och; **~ facts** quruq dalillar; **the ~ truth** chin (sof, bor) haqiqat; **a ~ sword** yalang'och(langan) qilich; **a ~ room** jihozlanmagan xona
namby-pamby [ˌnæmbɪ´pæmbɪ] **1.** *n* qiliqdorlik; noz-karashma, ishvagarlik; **2.** *a* nozli, noz-karashmali, ishvagar
name [neɪm] **1.** *n* 1) ism, ot, nom; **under the ~ of** nomi ostida, nomi bilan; **in the ~ of** ...ning nomidan; ...nomi bilan; **first ~** ism; **surname (family ~)** familiya; **by ~** ism bilan (ismini aytib); 2) obro'; **2.** *v* atamoq, tayinlamoq, ism qo'ymoq, nomlamoq; **to ~ after somebody** ...ning nomi bilan atamoq
name-child [´neɪmtʃaɪld] *n* kimningdir sharafiga qo'yilgan ism
name-day [´neɪmdeɪ] *n* ism to'yi
nameless [´neɪmləs] *a* 1) nomsiz, otsiz, ismsiz; 2) jirkanch, qabih
namely [´neɪmlɪ] *adv* ya'ni, chunonchi, masalan
name-part [´neɪmpɑ:t] *n* pyesadagi bosh rol
name-plate [´neɪmpleɪt] *n* nom yozilgan yupqa taxta (*eshiklarda*)
namesake [´neɪmseɪk] *n* adash, ismdosh
name-story [´neɪmˌstɔrɪ] *n* to'plamning nomi berilgan hikoya
nance [næns] *so'zl.* = **nancy**
nancy [´nænsɪ] *n* tabiati nozik erkak, ayollarga o'xshagan erkak
nanism [´nænɪz(ə)m] *n biol.* juda ham past (pak-pakana) bo'y
nankeen, nankin [næŋ´ki:n] *n* sarg'ish rang
nanny I [´nænɪ] *n* enaga, bolaga qarovchi ayol
nanny II [´nænɪ] = **nanny-goat**
nanny-goat [´nænɪgəʊt] *n* echki, urg'ochi echki
nap I [næp] **1.** *n* mudroq, mudrash; mudroq bosish, pinak; **to take a ~** ko'zi uyquga ketmoq, mizg'ib olmoq; **2.** *v* mudramoq, mudroq bosmoq
nap II [næp] **1.** *n* tuk, pat (*baxmal, movut, gilam va sh. k. ning betidagi*); **2.** *v* tuk chiqarmoq
napalm [´neɪpɑ:m] *n* napalm (*dirildoq holidagi yondiruvchi modda*)
nape [neɪp] *n* gardan, bo'yin; ensa
naphtha [´næfθə] *n* 1) ligroin (*og'ir benzin*); 2) ishlov berilmagan neft; 3) kerosin; 4) yoqiladigan moy, chiroq moyi
naphthalene [´næfθəli:n] *n* naftalin, kuyadori
napkin [´næpkɪn] *n* qog'oz sochiq, qo'l sochiq
napkin-ring [´næpkɪnˌrɪŋ] *n* qo'l sochiqlar solib qo'yiladigan halqa
napless [´næpləs] *a* tuksiz, patsiz
napoleon [nə´pəʊlɪən] *n* 1) napoleon (*qarta o'yinining nomi*); 2) *tar.* napoleondor (*20 frankka teng bo'lgan fransuzlarning oltin tangasi*)
Napoleonic [nəˌpəʊlɪ´ɔnɪk] *a* Napoleonga oid
napoo [næ´pu:] *int. harb.* hammasi tamom bo'ldi!; tugadi!; yo'qoldi!; barham topdi!; g'oyib bo'ldi!
nappe [næp] *n geol.* qoplama, qatlam
nappy [´næpɪ] *n* chaqaloq tagligi
narcissi [nɑ:´sɪsaɪ] *pl of* **narcissus**
narcissism [´nɑ:sɪsɪz(ə)m] *n* o'ziga bino qo'yganlik, o'ziga bino qo'yish, o'zini yaxshi ko'rish
narcissist [´nɑ:sɪsɪst] *n* o'ziga bino qo'ygan odam
narcissus [nɑ:´sɪsəs] *n* (*pl* **-cissi** [-sɪsaɪ]) *bot.* nargis, narkas (gul)
narcosis [nɑ:´kəʊsɪs] *n* 1) *tib.* narkoz (*og'riq sezmaydigan yoki behush qilish, etni o'ldirish*); 2) *so'zl.* narkotik modda, narkotik, narkoz
narcotic [nɑ:´kɒtɪk] **1.** *n* 1) narkotik modda; 2) uyqu dori; **2.** *a* 1) narkotik; 2) behush (*mast, karaxt qiladigan, etni o'ldiradigan*)
narcotism [´nɑ:kətɪz(ə)m] *n* 1) behush qilish, narkoz; 2) narkomanlik; nashavandlik
narcotization [ˌnɑ:kətaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n tib.* uxlatish, uxlatib qo'yish
narcotize [´nɑ:kətaɪz] *v tib.* 1) uxlatmoq, uxlatib qo'ymoq; 2) etni o'ldirmoq; 3) narkoz bermoq
nark [nɑ:k] *v* 1) tashib bo'lmoq, tashib qo'ymoq, hammasini olib borib qo'ymoq; 2) qattiq g'azablantirmoq
narrate [nə´reɪt] *v* hikoya qilmoq, so'zlab (aytib, gapirib, hikoya qilib) bermoq
narration [nə´reɪʃ(ə)n] *n* 1) hikoya, qissa; 2) hikoya qilish, aytib (so'zlab, gapirib) berish
narrative [´nærətɪv] **1.** *n* hikoya, qissa; **2.** *a* hikoyaga (qissaga) oid
narrator [nə´reɪtə] *n* hikoya qiluvchi, hikoyachi, ertak (cho'pchak) aytib beruvchi
narrow [´nærəʊ] **1.** *a* tor, ensiz, ingichka; **2.** *n* tor dara, ikki tik tog' o'rtasidagi tor yo'l; **3.** *v* 1) kamaymoq, kamaytirmoq; 2) toraytirmoq, ensiz qilib qo'ymoq
narrow-gauge [ˌnærəʊ´geɪdʒ] *a* tor izli temir yo'l
narrow goods [ˌnærəʊ´gʊdz] *n* to'qilgan tasma, jiyak, lenta, uqa
narrowly [´nærəʊlɪ] *adv* 1) zich, chambarchas; 2) ozgina, andak
narrow-minded [ˌnærəʊ´maɪndɪd] *a* bir yoqlama, tushunchasi tor, dunyoqarashi tor, ong-bilim darajasi tor
narrowness [´nærəʊnəs] *n* 1) cheklanganlik; 2) ensizlik, torlik
narwhal [´nɑ:wəl] *n zool.* yakkashox, narval (*tumshug'ida shoxsimon tishi bo'lgan kitsimon dengiz hayvoni*)
nary [´ne(ə)rɪ] *a amer. dial.* sira ham, hech ham, ozgina ham, zarracha ham
nasal [´neɪz(ə)l] **1.** *n fon.* burun tovushi; **2.** *a* burunga oid, burun..., burun orqali chiqadigan
nasality [neɪ´zælɪtɪ] *n fon.* tovushning burun orqali talaffuz qilinishi
nasalization [ˌneɪzəlaɪ´zeɪʃ(ə)n] *n fon.* burunlanish (*tovushlarning burun dimog' orqali talaffuz qilinishi*)
nasalize [´neɪzəlaɪz] *v* burun bilan gapirmoq
nascency [´næs(ə)nsɪ] *n* tug'ilish, paydo bo'lish, vujudga kelish, ro'y berish, dunyoga kelish
nascent [´næs(ə)nt] *a* 1) tug'iladigan, bunyod bo'ladigan; 2) tug'ilish arafasidagi; 3) bunyod bo'layotgan
nastily [´nɑ:stɪlɪ] *adv* juda yomon, razil, yaramas, qabih, iflos, jirkanch, ablahona, xunuk
nasturtium [nə´stɜ:ʃ(ə)m] *n bot.* lotin chechagi
nasty [´nɑ:stɪ] *a* 1) juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz, nafratni qo'zg'aydigan; **a ~ remark** achchiq tanbeh; **don't be ~** g'azablanmang, achchig'ingiz chiqmasin; 2) xavfli, xatarli, tahlikali; **a ~ fall** jiddiy yiqilish; **a ~ illness** og'ir (xavfli) kasallik; **a ~ sea** to'lqinli (to'lqinlanib turgan) dengiz
natal [´neɪtl] *a* tug'ilishga oid; **a ~ day** tug'ilgan kun; **a ~ place** tug'ilgan joy
natality [nə´tælɪtɪ] *n* 1) tug'ilish miqdori; 2) tug'ilish foizi
natatorial [ˌneɪtə´tɔ:rɪəl] *a* 1) suzish uchun xizmat qiladigan; 2) suzishga oid
natatory [´neɪtət(ə)rɪ] = **natatorial**
nates [´neɪti:z] *n pl anat.* dumba, odamning dumbasi
nation [´neɪʃ(ə)n] *n* 1) xalq, millat, el, elat; 2) davlat, mamlakat
national [´næʃ(ə)nəl] *a* 1) milliy, millatga, millatlarga oid; **~ bank** davlat (xalq) banki, milliy bank; **~ debt** davlat qarzi; **~ economy** xalq xo'jaligi; **~ forces** mamlakatning qurolli kuchlari; 2) biror millatga xos; 3) davlatga, mamlakatga oid; davlatga qarashli; 4) xalqqa oid, ommaviy
national anthem [´næʃ(ə)nəlˌænθəm] *n* davlat madhiyasi

nationalism [ˈnæʃ(ə)nəlɪz(ə)m] *n* 1) millatchilik; 2) mustamlaka xalqlarning milliy mustaqillik uchun kurashi
nationalist [ˈnæʃ(ə)nəlɪst] **1.** *n* 1) millatchi; 2) milliy ozodlik harakatining qatnashchisi; **2.** *a* 1) millatchilikka oid; 2) milliy ozodlikka qaratilgan
nationalistic [ˌnæʃ(ə)nəˈlɪstɪk] = **nationalist 2**
nationality [ˌnæʃəˈnælɪtɪ] *n* millat, milliylik, biror millatga mansublik
nationalization [ˌnæʃ(ə)nəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* milliylashtirish
nationalize [ˈnæʃ(ə)nəlaɪz] *v* 1) milliylashtirmoq; 2) davlat mulkiga aylantirmoq
nationally [ˈnæʃ(ə)nəlɪ] *adv* millatchilik ruhida
nationhood [ˈneɪʃ(ə)nhʊd] *n* davlatchilik, davlat tuzumi
nation-wide [ˈneɪʃ(ə)nwaɪd] *a* 1) umummilliy; umummillatga oid; 2) umumxalqqa oid (taalluqli); umumxalq
native [ˈneɪtɪv] *n* falon joylik, falon joyda tug'ilgan kishi, shu yerli, tub joyli kishi; **~ customs** mahalliy urf-odatlar (rasm-rusumlar)
native-born [ˌneɪtɪvˈbɔ:n] *a* shu yerlik, mahalliy
native speaker [ˌneɪtɪvˈspi:kə] *n* mahalliy tilda so'zlashuvchi kishi
nativity [nəˈtɪvɪtɪ] *n* 1) tug'ilish; 2) goroskop (*munajjimlar fol ochish uchun tuzgan yulduzlar jadvali*); 3) **(the N.)** *din.* rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*)
natrium [ˈneɪtrɪəm] *n kim.* natriy (*kimyoviy element, kumushsimon yumshoq ishqoriy metall*)
natron [ˈneɪtrɒn] *n kim.* soda (*karbonat kislotasining natriyli tuzi*)
natter [ˈnætə] *v* 1) javramoq, vaysamoq; 2) birovni asossiz ayblamoq
natterjack [ˈnætədʒæk] *n zool.* qurbaqa, cho'lbaqa
natty [ˈnætɪ] *a* 1) pokiza, ozoda, toza; 2) epchil, chaqqon, abjir, mohir, chapdast
natural [ˈnætʃ(ə)rəl] *a* 1) tabiatga oid, tabiiy, tabiat...: **~ resources** tabiiy boyliklar; 2) tabiiy, tug'ma; 3) tabiiy, asl, sof, toza
natural bar [ˈnætʃ(ə)rəlbɑ:] *a* tabiiy qumloq, sayozlik (*daryo atrofida*)
natural-ground [ˈnætʃ(ə)r(ə)l,graʊnd] *n* 1) materik, qit'a; 2) chidamli yer (tuproq)
naturalism [ˈnætʃ(ə)rəlɪz(ə)m] *n* naturalizm (*XIX asrning 60-yillarida Yevropa va AQSH adabiyoti va san'atida yuzaga kelgan va realizmga qarama-qarshi o'laroq, voqelikni faqat tashqi tomondan aniq aks ettirishga ahamiyat bergan oqim*)
naturalist [ˈnætʃ(ə)rəlɪst] *n* tabiatshunos
naturalistic [ˌnætʃ(ə)rəˈlɪstɪk] *a* naturalizmga oid, naturalistik (*voqelikni tasvirlashda maishiy tafsilotlar, ikir-chikirlar bilan cheklanib, umumlashmalardan qochadigan*)
naturalization [ˌnætʃ(ə)rəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) (*xorijlikni*) fuqarolikka qabul qilish; 2) yangi iqlimga (sharoitga) moslashish
naturalize [ˈnætʃ(ə)rəlaɪz] *v* 1) boshqa davlat fuqaroligiga o'tmoq; 2) yangi iqlimga (sharoitga) moslashmoq
naturally [ˈnætʃ(ə)rəlɪ] *adv* 1) albatta, turgan gap, tabiiy, shubhasiz; 2) o'zidan-o'zi; tabiiy ravishda
nature [ˈneɪtʃə] *n* 1) tabiat; 2) xulq, fe'l-atvor
nature study [ˈneɪtʃəˌstʌdɪ] *n* 1) tabiatni o'rganish; 2) tabiatshunoslik, o'lkashunoslik
naught [nɔ:t] *a* hech nima, hech narsa, hech qanday ish (*gap, narsa va h. k.*)
naughtiness [ˈnɔ:tɪnəs] *n* itoatsizlik, bo'ysunmaslik
naughty [ˈnɔ:tɪ] *a* itoatsiz, bo'ysunmaydigan, so'zga quloq solmaydigan; **a ~ story** uyat anekdot
nausea [ˈnɔ:zɪə] *n* 1) ko'ngil aynish; dengiz kasalligi; 2) nafrat, jirkanish
nauseate [ˈnɔ:zɪeɪt] *v* nafrat uyg'otmoq; jirkantirmoq
nauseating [ˈnɔ:zɪeɪtɪŋ] *a* ko'ngilni aynitadigan (behuzur qiladigan)
nauseous [ˈnɔ:zɪəs] *a* 1) ko'ngilni aynitadigan; 2) nafratni qo'zg'aydigan
nautical [ˈnɔ:tɪk(ə)l] *a* dengizga oid; dengizga xos bo'lgan
naval [ˈneɪv(ə)l] *a harb. deng.* flotga oid, flot...; harbiy-dengiz..., harbiy-dengizga oid; **a ~ architect** kema muhandisi; **~ forces** harbiy-dengiz kuchlari; **a ~ officer** dengiz zobiti; **a ~ service** harbiy dengiz xizmati
nave I [neɪv] *n me'mor.* butxonaning o'rta qismi
nave II [neɪv] *n tex.* g'ildirak vtulkasi
navel [ˈneɪv(ə)l] *n* 1) *anat.* kindik; 2) (*nimanidir*) o'rtasi, markazi
navel-cord [ˈneɪv(ə)lkɔ:d] = **navel-string**
navel-string [ˈneɪv(ə)lstrɪŋ] *n anat.* kindik ichakchasi, kesilmagan kindik
navigability [ˌnævɪgəˈbɪlɪtɪ] *n* kema qatnoviga yaroqlilik, kema qatnay oladigan bo'lish (*suv yo'li haqida*)
navigable [ˈnævɪgəb(ə)l] *a* 1) kema qatnoviga qulay; 2) parvoz uchun yaroqli; 3) kema yura (qatnay) oladigan
navigate [ˈnævɪgeɪt] *v* 1) (*kemada*) suzmoq; 2) (*samolyotda*) uchmoq; 3) *so'zl.* (*tadbir*) o'tkazmoq
navigating officer [ˈnævɪgeɪtɪŋˌɒfɪsə] *n av. deng.* shturman (*paroxod, samolyot kabilarni boshqaruvchi*)
navigation [ˌnævɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* 1) dengizda kemalarning yurishi; 2) kemalar qatnovi; 3) kemachilik; 4) kemalar yurishi mumkin bo'lgan mavsum; **inland ~** daryo kemachiligi
navigator [ˈnævɪgeɪtə] *n* 1) dengiz sayohati; 2) dengizda sayohat qiluvchi kishi
navvy [ˈnævɪ] *n* 1) yerkov, yer qazuvchi; qora ishlarni bajaradigan odam; **mere ~'s work** yengil-yelpi ish; **to work like a ~** qattiq ishlamoq, molday ishlamoq; 2) suv havzalarini chuqurlashtirib loybalchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina
navy [ˈneɪvɪ] *n* 1) harbiy-dengiz floti; 2) harbiy-dengiz kuchlari
navy-blue [ˌneɪvɪˈblu:] *a* 1) to'q ko'k; 2) to'q zangori
navy-yard [ˈneɪvɪjɑ:d] *n* 1) harbiy kemalar quriladigan yoki ta'mirlanadigan korxona; 2) harbiy port zavod va ustaxonalari
nay [neɪ] *n* salbiy javob, rad qilish
naze [neɪz] *n geogr.* burun, qoyali (serqoya) burun
Nazi [ˈnɑ:tsɪ] *n* natsist (*german fashisti*)
neap [ni:p] *v* kamaymoq, ozaymoq, pasaymoq; kamayib (pasayib, ozayib) ketmoq
near [nɪə] **1.** *prep.* (*joyni ko'rsatadi*) yaqin; yaqinida; **2.** *adv* yaqin, uzoq (olis) emas, yaqinda, yaqin joyda; **~ at hand** qo'l ostida; yaqinda, yaqin joyda; tez orada; **to come ~** yaqinlashmoq, yaqin kelmoq; **far and ~** har yerda (yoqda, joyda); **~ upon** deyarli, qariyb; **3.** *a* 1) yaqin joydagi, yaqindagi; 2) yaqin, qalin, qadrdon (*qarindoshlar haqida*); **a ~ translation** to'g'ri (aniq) tarjima; **~ work** serdiqqat (mayda) ish; **4.** *v* yaqinlashmoq, yaqin kelmoq; **to ~ the land** sohilga yaqinlashmoq; **to ~ one's end** o'lmoq, dunyodan o'tmoq
near-beer [ˌnɪəˈbɪə] *n* spirtsiz pivo
near-by [nɪəˈbaɪ] *a* yonma-yon joylashgan, qo'shni, yonma-yon
near desert [ˈnɪəˌdezət] *n* yarimcho'l, yarimdasht
near-earth [ˌnɪəˈɜ:θ] *a* yer yaqinidagi, yer oldidagi, yerga yaqin
nearly [ˈnɪəlɪ] *adv* 1) qariyb, taxminan, yaqin, deyarli; 2) taxminan, yonida; 3) oldida; 4) yaqin munosabatda bo'lgan
near miss [ˌnɪəˈmɪs] *n* xato otish, o'qni xato ketkizish

nearness [ˈnɪənəs] *n* 1) yaqinlik; 2) yaqin munosabatlar; 3) o'xshashlik
near sight [ˌnɪəsaɪt] *n* uzoqni yaxshi ko'rolmaslik
near-sighted [ˌnɪəˈsaɪtɪd] *a* yaqinni ko'ra oladigan, yaqinni ko'ruvchi, uzoqni ko'rolmaydigan
near-sightedness [ˌnɪəˈsaɪtɪdnɪs] = **near sight**
neat I [ni:t] *a* toza, pokiza, ozoda, saranjom-sarishta; ~ **handwriting** chiroyli yozuv
neat II [ni:t] *n* (*pl o'zgarishsiz*) ho'kiz, buqa, sigir (*katta shoxli hayvonlar*)
neat-handed [ˌni:t ˈhændɪd] *a* epchil, chaqqon, abjir, usta, mohir, chapdast
neat-herd [ˈni:thə:d] *n* cho'pon, podachi
neatly [ˈni:tlɪ] *adv* 1) o'z vaqtida, aniq, muntazam, hech kanda qilmay; 2) epchillik (chaqqonlik) bilan
neatness [ˈni:tnəs] *n* 1) tartibga aniq rioya qilish; 2) pokizalik, ozodalik
neb [neb] *n sholt.* 1) tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*); 2) uch (*qalam, ruchka va b. da*)
nebula [ˈnebjʊlə] *n* (*pl* **-lae**) *astr.* tumanlik (*g'uj bo'lib ko'ringan uzoq yulduzlar to'pi*)
nebulae [ˈnebjʊli:] *pl of* **nebula**
nebular [ˈnebjʊlə] *a* : ~ **hypothesis** nebular kosmogonik nazariyasi
nebulizer [ˈnebjʊlaɪzə] *n* purkagich, changlagich
nebulosity [ˌnebjʊˈlɒsɪtɪ] *n* 1) bulut bosganlik, bulut bilan qoplanganlik, bulutlilik; 2) noaniqlik, xiralik, qorong'ilik
nebulous [ˈnebjʊləs] *a* noaniq, xira, g'ira-shira, tumanli, qorong'i
necessarian [ˌnesɪˈse(ə)rɪən] = **necessitarian**
necessarily [ˈnesɪs(ə)rɪlɪ] *adv* albatta, muqarrar, so'zsiz, turgan gap, ilojsiz
necessary [ˈnesɪs(ə)rɪ] *a* zarur, kerak, darkor, zaruriy, kerakli, zarur bo'lgan
necessitarian [nɪˌsesɪˈte(ə)rɪən] *n fals.* determinist, determinizm tarafdori
necessitarianism [nɪˌsesɪˈte(ə)rɪəˌnɪz(ə)m] *n fals.* determinizm (*narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot*)
necessitate [nɪˈsesɪteɪt] *v* 1) zaruratga aylantirmoq; 2) majbur qilmoq; 3) rozi qilmoq; 4) sabab bo'lishi muqarrar; 5) ...ga olib borishi (kelishi) turgan gap
necessitous [nɪˈsesɪtəs] *a* kambag'al, qashshoq, nochor, faqir, bechorahol
necessity [nɪˈsesɪtɪ] *n* zarurat, ehtiyoj; **out of** ~ zarurat yuzasidan
neck [nek] **1.** *n* 1) bo'yin, gardan; 2) kiyimning yoqasi; 3) shishaning og'zi, bo'g'(i)zi; **2.** *v so'zl.* quchoqlamoq, quchmoq
neckband [ˈnekbænd] *n* kiyim yoqasi, yengil matodan tikilgan koftaning ensiz yoqasi
neckcloth [ˈnekklɒθ] *n esk.* galstuk, bo'yinbog'
neckerchief [ˈnekətʃɪf] *n esk.* uchburchak ro'mol, qiyiq ro'mol, bo'yinbog', sharf
necking [ˈnekɪŋ] *n me'mor.* ustunning chaspagi
necklace [ˈneklɪs] *n* marjon, shoda
necklet [ˈneklɪt] *n* 1) marjon, shoda; 2) tashlama mo'yna yoqa; 3) mo'yna *yoki* par sharf (*xotin-qizlar uchun*)
neck-piece [ˈnekpi:s] *n* 1) tashlama mo'yna yoqa; 2) kichkina bo'yinbog'; sharfcha
necktie [ˈnektaɪ] *n* galstuk, bo'yinbog'
neckwear [ˈnekweə] *n* galstuklar, yoqachalar
neck-yoke [ˈnekjəʊk] *n* xomut (*yog'och bo'yincha*)
necrologist [nekˈrɒlədʒɪst] *n* ta'ziyanoma muallifi
necrologue [ˈnekrəlɒg] *n* ta'ziyanoma
necrology [nɪˈkrɒlədʒɪ] *n* 1) ta'ziyanoma; 2) o'lganlar ro'yxati
necromancer [ˈnekrəmænsə] *n* jodugar, sehrgar, afsungar
necromancy [ˈnekrəmænsɪ] *n* sehrgarlik, jodu, amal
necromantic [ˌnekrəˈmæntɪk] *a* sehrgarlarga va sehrgarlikka oid, sehr-jodu bilan bog'liq bo'lgan
necrophagous [neˈkrɒfəgəs] *a* o'limtiklarni yeb kun kechiradigan
necropolis [nɪˈkrɒpəlɪs] *n* 1) qabriston (*Qadimgi Sharqda, antik mamlakatlarda*); 2) mashhur kishilar qabri
necropsy [ˈnekrɒpsɪ] *n* o'likni yorish
necroscopy [nɪˈkrɒskəpɪ] = **necropsy**
necrose [nɪˈkrəʊs] *v tib.* sezish qobiliyatini yo'qotmoq
necrosis [nɪˈkrəʊsɪs] *n tib.* jonsizlanish, o'lish, jonsiz bo'lib qolish
nectar [ˈnektə] *n* 1) *mif.* obihayot, hayot suvi; 2) gul shirasi, suvi; 3) gazlangan meva suvi
nectariferous [ˌnektəˈrɪf(ə)rəs] *a bot.* asalga boy, asal beradigan, serasal
nectarine I [ˈnektəri:n] *n* silliq shaftoli
nectarine II [ˈnektəri:n] *a* obihayotdek orombaxsh
nectary [ˈnektərɪ] *n bot.* shiradon (*o'simlik gulining nektar chiqaradigan bezi*)
neddy [ˈnedɪ] *n so'zl.* eshak, kichkina (pastak) eshak
nee, née [neɪ] *a fr.* asli, tug'ilishdan (*kelib chiqishi yoki tug'ilgan joyi jihatidan*)
need [ni:d] **1.** *n* ehtiyoj, muhtojlik; **to be in** ~ **of** nimagadir muhtoj bo'lmoq (ehtiyoj sezmoq); **2.** *v* muhtoj bo'lmoq; **the article** ~**s correction** maqolaga tuzatishlar kiritish lozim; **3.** *a* darkor, kerak, lozim; ~**ed** kerakli
needful [ˈni:df(ə)l] *a* kerakli, zarur, darkor, zaruriy, zarur bo'lgan
needle [ˈni:dl] *n* nina, igna
needle-bath [ˈni:dlbɑ:θ] *n* ignasimon dush
needle-bearing [ˈni:dlˌbe(ə)rɪŋ] *n tex.* ninasimon podshipnik
needle-case [ˈni:dlkeɪs] *n* igna qadab qo'yiladigan yostiqcha, igna quti
needle-fish [ˈni:dlˌfɪʃ] *n zool.* ninabaliq, dengiz balig'i
needleful [ˈni:dlfʊl] *n* ignaga o'tkazilgan ipning uzunligi
needle-gun [ˈni:dlgʌn] *n tar.* ignasimon miltiq
needle-lace [ˈni:dlleɪs] *n* ilgak (qarmoq) bog'langan to'r
needle-point [ˈni:dlpɔɪnt] *n* ignaning uchi
needle-shaped [ˌni:dl ˈʃeɪpt] *a* ignaga o'xshagan
needless [ˈni:dləs] *a* keraksiz, foydasiz, ortiqcha
needlewoman [ˈni:dlˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) tikuvchi ayol
needlework [ˈni:dlwə:k] *n* 1) tikish, tikuv ishlari; 2) qo'l ishi, qo'l hunari, chevarlik
needments [ˈni:dmənts] *n pl* barcha kerakli narsalar (*asosan, safar uchun*)
needs [ni:dz] *adv so'zl.* zarurat yuzasidan, zaruriyatga (talabga) qarab, zarurat tug'ilganda, kerak bo'lib qolganda
needy [ˈni:dɪ] *a* kambag'al, muhtoj
ne'er [neə] *adv* (**never** *so'zining qisqartirilgan shakli*) hech, hech qachon, hech vaqt, aslo
ne'er-do-weel [ˈneədu:ˌwi:l] *n shotl.* bekorchi, yalqov, tanbal
nefarious [nɪˈfe(ə)rɪəs] *a* 1) betafviq, munkir, gunohli; ~ **purposes** jirkanch maqsadlar; 2) vijdoni (diyonati) yo'q, vijdonsiz, insofsiz; diyonatsiz, noinsof
negate [nɪˈgeɪt] *v* inkor qilmoq
negation [nɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* tonish; tan olmaslik, inkor qilish
negationist [nɪˈgeɪʃ(ə)nɪst] *n* inkor qiluvchi, gapidan tonadigan kishi
negative [ˈnegətɪv] **1.** *a* salbiy; manfiy; **a** ~ **quantity** manfiy kattalik; **in the** ~ salbiy; **a** ~ **result** salbiy natija; ~ **form of the verb** fe'lning bo'lishsiz shakli; **2.** *v* rad qilmoq, inkor qilmoq, yuz o'girmoq, tonmoq, bosh tortmoq
negativism [ˈnegətɪvɪz(ə)m] *n* rad qilishni yaxshi ko'rish
negativity [ˌnegəˈtɪvɪtɪ] *n* inkor qilish, tonish, tan olmaslik

negatory [ˈnegət(ə)rɪ] *a* 1) inkor etadigan, salbiy; 2) qarshi, teskari
neglect [nɪˈglekt] **1.** *n* beparvolik, sovuqqonlik, mensimaslik; **in a state of ~** qarovsiz (tashlandiq) holatda; **2.** *v* beparvo bo'lmoq, e'tiborsiz bo'lmoq; **~ed** qarovsiz, tashlandiq
neglectful [nɪˈglektf(ə)l] *a* 1) beparvo, sovuqqon; diqqat-e'tiborsiz, parishonxotir; 2) behafsala, beg'am, ishyoqmas
négligé [ˈneglɪʒeɪ] *n fr.* ayollar xalati
negligee [ˈneglɪʒeɪ] *n amer.* ayollar (xotin-qizlar) xalati; ayollarning uyda kiyadigan ko'ylagi
negligence [ˈneglɪdʒ(ə)ns] *n* beparvolik, e'tiborsizlik, sovuqqonlik, pala-partishlik; **culpable ~** *yur.* jinoiy sovuqqonlik
negligent [ˈneglɪdʒ(ə)nt] *a* beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz, pala-partish (chalachulpa) ish qiladigan; **~ in his dress** 1) isqirt; 2) e'tiborsizlik bilan ishlangan; **~ of his duties** o'z vazifasiga e'tiborsiz bo'lgan
negligible [ˈneglɪdʒəb(ə)l] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina, biroz, andak; **a ~ quantity** kichik son (miqdor); 2) arzimas, arzimaydigan, ahamiyatsiz
negotiable [nɪˈgəʊʃɪəb(ə)l] *a* (*tepa, cho'qqi haqida*) o'tib bo'ladigan, borish (o'tish, chiqish) mumkin bo'lgan
negotiant [nɪˈgəʃɪənt] *n* ulgurji savdogar (*ko'pincha, chet ellar bilan savdo qiladigan katta savdogarlarga nisbatan ishlatiladi*)
negotiate [nɪˈgəʊʃɪeɪt] *v* kelishmoq, muzokara olib bormoq
negotiated peace [nɪˌgəʃɪeɪtɪd ˈpi:s] *n* kelishilgan tinchlik
negotiation [nɪˌgəʊʃɪ ˈeɪʃ(ə)n] *n* muzokara, muhokama, maslahatlashish, o'ylashib ko'rish; **~s for** ... haqida muzokaralar; **~s are under way** muzokaralar olib borilyapti
negotiator [nɪˈgəʊʃɪeɪtə] *n* muzokara olib boradigan kishi
Negress [ˈni:grɪs] *n* negr ayol
Negrillo [neˈgrɪləʊ] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əʊz]) past bo'yli qabiladagi negr
Negrito [neˈgri:təʊ] *n* negritos (*janubiy-sharqiy Osiyoning negroidlar irqiga mansub bir necha etnik guruhlariga kiradigan xalqlarning umumiy nomi*)
Negro [ˈni:grəʊ] *n* negr, habash
negro-head [ˈni:grəʊhed] *n* 1) tamakining qora va o'tkir bir navi; 2) past navli rezina
Negroid [ˈni:grɔɪd] *a* negroid irq, negroidlar irqi
Negrophobia [ˌni:grəʊˈfəʊbɪə] *n* negrlarni yomon ko'rish
Negus [ˈni:gəs] *n tar.* negus (*Abissiniya imperatorlarining unvoni*)
negus [ˈni:gəs] *n* negus (*shirinlik narsalar qo'shib, qizil vinodan tayyorlangan iliq ichimlik*)
neigh [neɪ] **1.** *n* kishnash; **2.** *v* kishnamoq
neighbour [ˈneɪbə] **1.** *n* qo'shni, hamsoya; **2.** *v* chegaradosh bo'lmoq
neighboured [ˈneɪbəd] *a* atrof, tevarakda joylashgan
neighbourhood [ˈneɪbəhʊd] *n* 1) qo'shnichilik, yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish; 2) atrof, tevarak-atrof; **in the ~ of** yonma-yon, qo'shni bo'lib; **good ~** do'stona qo'shnichilik munosabatlari
neighbourhood unit [ˈneɪbəhʊdˌju:nɪt] *n* qaytadan rejalashtirilgan shaharning odam yashaydigan joyi
neighbouring [ˈneɪb(ə)rɪŋ] *a* 1) qo'shni, yonma-yon, chegaradosh; 2) qo'shni uylarda yashaydigan; 3) o'zaro bog'langan, bir-biriga yaqin
neighbourly [ˈneɪbəlɪ] *a* do'stona, totuv (*qo'shnichilik munosabatlari haqida*)
neighbourship [ˈneɪbəʃɪp] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish
neither [ˈnaɪðə] 1) *olmosh vazifasida kelganda*: birortasi ham, bittasi ham (*ikki kishi yoki narsadan*); hech kim, hech kimsa, hech bir inson; **~ of you knows** birortangiz ham bilmaysiz; 2) *sifat vazifasida kelganda*: na u, na bu; na u, na boshqasi; 3) *ravish vazifasida kelganda: biror ish harakatni u ham bajarmasligini bildiradi*: *mas.*, **if you don't read ~ shall I** agar siz o'qimasangiz men ham o'qimayman
neither... nor [ˈnaɪðə...ˈnɔ:] *cj.* u ham emas, bu ham emas; na u, na bu
nek [nek] *n jan. afr.* dovon, tog' ustidagi yo'l
nelly [ˈnelɪ] *n* bahaybat (juda katta) bo'ronqush
nelson [ˈnels(ə)n] *n sport.* nelson (*kurash*)
Nemesis [ˈnemɪsɪs] *n* 1) *grek. afs.* Nemezida, Nemesida (*o'ch olish xudosi*); 2) qasos, o'ch, jazo
nenuphar [ˈnenjʊfa:] *n bot.* oq nilfiya
neocene [ˈni:əsi:n] **1.** *n geol.* neotsen; **2.** *a* neotsenga oid
neocolonialism [ˌni:əʊkəˈləʊnɪəlɪz(ə)m] *n* neokolonializm (*imperialistik davlatlarning sobiq mustamlaka ustidan iqtisodiy va siyosiy hukmronlik o'rnatishga qaratilgan yangicha juda nozik siyosati*)
neolithic [ˌni:əˈlɪθɪk] *a arxeol.* neolitga oid, neolit...
neologism [ni:ˈɒlədʒɪz(ə)m] *n* neologizm (*yangi so'z yoki ibora*)
neologize [ni:ˈɒlədʒaɪz] *v* yangi so'zlar kiritmoq
neology [ni:ˈɒlədʒɪ] *n* 1) neologizm (*yangi so'z yoki ibora*); 2) yangi so'z va iboralarni ishlatish *yoki* kiritish
neon [ˈni:ɒn] *n* 1) *kim.* neon (*kimyoviy element, rangsiz va hidsiz gaz*); 2) *attr.* neonga oid, neonli; **~ lamp** neon lampa
neophron [ni:əfrɒn] *n zool.* jo'rchi; kal jo'rchi (*o'limtik bilan ovqatlanadigan yirtqich qush*)
neophyte [ni:əfaɪt] *n* biror sohada yangi (yosh, tajribasiz) odam; yangi (endigina) kelgan odam
neoplasm [ˈni:ə(ʊ)plæz(ə)m] *n tib.* shish, g'urra, o'sma
neoplasty [ˈni:əplæstɪ] *n tib.* plastik operatsiya
neoteric [ˌni:əˈterɪk] *a* 1) yaqin kunlardagi, yaqindagi; 2) eng yangi; zamonaviy
neotropical [ˌni:əʊ ˈtrɒpɪk(ə)l] *a zool.* Markaziy va Janubiy Amerikada ommalashtirilgan
Neozoic [ˌni:ə(ʊ)ˈzəʊɪk] *a geol.* kaynozoy erasiga oid
nepenthes [neˈpenθi:z] *n shoir.* (*har qanday falokatdan qutqaradigan*) vosita
nephew [ˈnefju:] *n* jiyan (*o'g'il*)
nephology [neˈfɒlədʒɪ] *n* nefologiya (*bulutlarni o'rgatadigan fan*)
nephrite [ˈnefraɪt] *n min.* nefrit (*yashil yoki sutrang yarim shaffof mineral*)
nephritic [nɪˈfrɪtɪk] *a tib.* buyrakka oid
nephritis [nɪˈfraɪtɪs] *n tib.* nefrit (*buyrak yallig'lanishi*)
nepotism [ˈnepətɪz(ə)m] *n* qarindosh-urug'chilik, quda-andachilik, oshna-og'aynigarchilik, urug'-aymoqchilik, bir-birini (yaqinlarini) qo'llash
nepotist [ˈnepətɪst] *n* qarindosh-urug'lariga yordam ko'rsatadigan odam
Neptune [ˈneptju:n] *n mif. astr.* Neptun (*Quyosh sistemasining sakkizinchi katta sayyorasi*)
Neptunian [nepˈtju:nɪən] *a geol.* okeanga oid, dengizga oid, dengizda bo'ladigan; suvga oid, suvdagi, suvli
neptunium [nepˈtju:nɪəm] *n kim.* neptuniy (*tabiiy uranning parchalanishidan hosil bo'ladigan kumushsimon radioaktiv element*)
nereid [ˈnɪ(ə)rɪɪd] *n zool.* bo'g'im-bo'g'im dengiz qurti
Nero [ˈnɪ(ə)rəʊ] *n tar.* Neron
nervate [nɜ:veɪt] *a bot.* tomirli (*o'simlik barglarida*)
nervation [nɜ:ˈveɪʃ(ə)n] *n bot.* tomirlash

nerve [nɜ:v] **1.** *n* 1) asab, nerv; 2) *pl* asab sistemasi; asablar, asabiyat; 3) kuch, energiya; **to strain every ~** bor kuchni yig'moq, zo'r bermoq; **a man of ~** og'ir (vazmin) odam; **2.** *v* dadillik baxsh etmoq, tetiklashtirmoq; kuch qo'shmoq (bag'ishlamoq); **to ~ oneself** dadil bo'lmoq; o'zini qo'lga olmoq

nerve-centre ['nɜ:v,sentə] *n* asab markazi

nerve-knot ['nɜ:vnɒt] *n* asab tuguni

nerveless ['nɜ:vlɪs] *a* 1) kuchsiz, bo'sh; 2) *anat.* asab sistemasi mavjud bo'lmagan; 3) *bot.* tomirsiz

nerve-racking ['nɜ:v,rækɪŋ] *a* g'azablantiradigan, achchiqlantiradigan, asabga tegadigan

nerve-strain ['nɜ:vstreɪn] *n* haddan tashqari asabiylanish (asabiylashuv)

nervine ['nɜ:vi:n] **1.** *a tib.* asabni tinchlantiruvchi; **2.** *n* asabni tinchlantiradigan dori

nervism ['nɜ:vɪz(ə)m] *n fiziol.* nervizm

nervous ['nɜ:vəs] *a* 1) achchig'i kelgan, asabiylashgan, asabiy; **to be ~ about** ...dan asabi buzilmoq (asabiylashmoq); 2) asabga oid; 3) hayajonlangan, to'lqinlangan, iztirobli

nervy ['nɜ:vɪ] *a* 1) nervga oid, asabga oid; 2) asablari qo'zg'agan (qo'zg'algan), hayajonli, hayajonlangan; to'lqinlangan, asabiy

nescience ['nesɪəns] *n* 1) bilmaslik, bilimsizlik, xabarsizlik, bexabarlik, xabari yo'qlik, g'aflat; 2) *fals.* agnositsizm (*dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot*)

nescient ['nesɪənt] **1.** *n fals.* agnostik, agnositsizm tarafdori; **2.** *a* bilmaydigan (*nimanidir*)

ness [nes] *n* burun (*faqat geografik nomlarda*)

nest [nest] **1.** *n* uya, in; **2.** *v* uya solmoq

nest-doll ['nestdɒl] *n* biri ikkinchisining ichiga kiradigan o'yinchoqlar to'plami

nest-egg ['nestəg] *n* 1) kurk tovuqning tagiga qo'yiladigan tuxum; 2) qora kunga kerak bo'ladi deb asrab qo'yilgan pul

nesting box ['nestɪŋbɒks] *n* chug'urchiq uyasi (*maxsus qurilgan*)

nestle ['nes(ə)l] *v* 1) qulay joylashmoq (**in, into, among**); 2) yopishmoq, qapishmoq, yopishib olmoq (**against, to**); 3) uy, boshpana bermoq

nestling ['nes(t)lɪŋ] *n* qush bolasi, jo'ja

net I [net] **1.** *n* to'r, qopqon; tuzoq; **2.** *v* to'r qo'ymoq, to'r bilan ushlamoq

net II [net] **1.** *a* sof (*og'irlik haqida*); **~ cash** naqd pul; **~ efficiency** *tex.* foydali harakatning umumiy koeffitsiyenti; **2.** *n* sof daromad; **3.** *v* sof foyda keltirmoq

netful ['netfol] *n* ichi to'ldirilgan to'r

nether ['neðə] *a so'zl.* juda past; pastki, ostki, quyi; **~ garments** shim; **the ~ man** *hazil.* oyoqlar; **the ~ world** narigi dunyo; do'zax, jahannam

Netherlander ['nəð(ə)ləndə] *n* niderlandiyalik, gollandiyalik; niderlandiyalik ayol

Netherlandish ['neð(ə)ləndɪʃ] *a* niderlandiyalikka, gollandiyalikka oid

netting ['netɪŋ] *n* to'r bilan ushlash, to'r bilan ov qilish

nettle ['netl] *n* qichitqi o't, gazanda o't

nettle-fish ['netl,fɪʃ] *n zool.* meduza (*suzuvchi, qisuvchi va ovqat qamrab oladigan changali bor, dirildoq tanli dengiz jonivori*)

nettle-rash ['netlræʃ] *n tib.* eshak yemi (*kasallik*)

network ['netwɜ:k] *n* 1) to'r; 2) tarmoq, shoxobcha (*temir yo'l, kanal va b. da*)

network announcer ['netwɜ:kə,naʊn(t)sə] *n amer.* diktor, suxandon

neural ['njʊə(ə)rəl] *a anat.* asab (tizimi)ga oid; asab...

neuralgia [njʊ'rældʒə] *n* nevralgiya (*asab tizimining biror yeri kasallanishi yoki yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*)

neuralgic [njʊ'rældʒɪk] *a* nevralgiyaga oid, nevralgiya tufayli bo'lgan

neurasthenia [,njʊ(ə)rəs'θi:nɪə] *n tib.* nevrasteniya (*tez charchash, ozib ketish va bosh og'rig'i bilan xarakterlanadigan asabiy kasallik*)

neurasthenic [,njʊ(ə)rəs'θi:nɪk] **1.** *a* 1) nevrasteniklarda bo'ladigan, nevrasteniklarga xos; 2) nevrasteniya kasaliga chalingan; **2.** *n* nevrasteniya kasaliga chalingan kishi

neuritis [,njʊ(ə)'raɪtɪs] *n tib.* nevrit (*nervlarning ba'zi kasalliklar yoki shikastlanish, zaharlanish, shamollash natijasida yallig'lanishi*)

neurologist [njʊ'rɒlədʒɪst] *n* nevrolog, asab kasalliklari shifokori; nevrologiya mutaxassisi

neurology [njʊ'rɒlədʒɪ] *n* nevrologiya (*asab tizimi va uning faoliyatini o'rganadigan fan*)

neuroma [njʊ'rəʊmə] *n* (*pl* **-mata, -s** [-z]) *tib.* nevroma

neuromata [njʊ'rəʊmətə] *pl of* **neuroma**

neuropath ['njʊ(ə)rəpæθ] *n* asab kasalligidan azob tortayotgan kishi; nevrasteniya kasaliga chalingan kishi

neuropathist [,njʊ(ə)'rɒpəθɪst] *n* nevropatolog, nevropatologiya mutaxassisi

neuroses [njʊ'rəʊsi:z] *pl of* **neurosis**

neurosis [njʊ'rəʊsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) nevroz (*markaziy asab tizimining buzilishi natijasida ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik*); **anxiety ~** qo'rquv nevrozi

neurotic [njʊ'rɒtɪk] **1.** *a* 1) asabga oid, asabiy, asabi buzuq; 2) asabni qo'zg'atadigan; **2.** *n* 1) nevrasteniya kasaliga chalingan kishi; 2) asab sistemasiga ta'sir etadigan dori

neuter ['nju:tə] **1.** *a* 1) *gram.* sredniy rodga oid; 2) *gram.* o'timsiz (*fe'llar haqida*); 3) *bot.* urug'lik alomati yo'q, jinssiz; 4) *biol.* naslsiz, bola tug'maydigan, bepusht; 5) *vet.* axtalangan, bichilgan; **2.** *n* 1) *gram.* sredniy rod; 2) *gram.* o'timsiz fe'l; 3) *biol.* jinssiz hasharot; 4) *vet.* axtalangan (bichilgan) hayvon

neutral ['nju:trəl] **1.** *a* betaraf, xolis; **~ colour** kulrang; **2.** *n* betaraf davlatlar

neutralism ['nju:trəlɪz(ə)m] *n* betaraflik, xolislik

neutralist ['nju:trəlɪst] *n* betaraf, xolis kishi

neutrality [nju:'trælɪtɪ] *n* betaraflik, xolislik; **armed ~** qurolli neytralitet (*urushga shay bo'lsa-da, betaraf turish*)

neutralization [,nju:trəlaɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* betaraflashtirish, xolis qilib qo'yish

neutralize ['nju:trəlaɪz] *v* 1) zararsizlantirmoq; 2) betaraf, xolis qilib qo'ymoq

neutrino [nju:'tri:nəʊ] *n fiz.* neytrino

neutron ['nju:trɒn] *n fiz.* neytron (*atom yadrosi tarkibidagi elektr zaryadidan xoli bo'lgan zarra*)

névé ['neveɪ] *n fr.* firn (*nuzliklarning yuqori qismida bo'ladigan donador qor*)

never ['nevə] *adv* hech qachon, asti, aslo, hech, sira; **~ a one** hech kim, biror kishi, birorta ham; hech bir inson; **~ fear** xavotir bo'lmang, g'am yemang, qayg'urmang; ishoning, ishonchingiz komil bo'lsin; **~ mind** zarari (ahamiyati) yo'q; mayli, qo'yaver; hech gap emas; e'tibor bermang; **~ so** qanchalik (naqadar, nechog'liq) ... masin

never-ceasing [,nevə'si:sɪŋ] *a* to'xtamaydigan

never-dying [,nevə'daɪɪŋ] *a* o'lmaydigan, abadiy yashaydigan, o'lmas, boqiy

never-ending [,nevə(r)'endɪŋ] *a* tugamaydigan, tuganmas, bitmas-tuganmas

never-fading [,nevə'feɪdɪŋ] *a* so'nmas, o'chmas, unutilmas

nevermore [,nevə'mɔ:] *adv* boshqa, hech qachon, hech vaqt, aslo

never-never [ˌnevəˊnevə] *n* xom xayol, amalga oshmaydigan orzu
nevertheless [ˌnevəðəˊles] **1.** *adv* ...ga qaramay, ...ga qaramasdan, ... bo'lmasa ham; biroq, ammo; **2.** *cj.* shunday bo'lsa-da, shunga qaramay
never-to-be-forgotten [ˌnevətəbɪfəˊgɒtn] *a* unutilmas, unutib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan
new I [nju:] *a* yangi, endigina qilingan (qurilgan, olingan), tutilmagan; ~ **milk** yangi sog'ilgan sut; ~ **wine** yangi (yaqinda solingan) vino; ~ **potatoes** yangi (uzilgan) kartoshkalar
new II [nju:] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina
new-blown [ˈnju:bləʊn] *a* yangi gullagan
new-born [ˈnju:bɔ:n] *a* yangi tug'ilgan
new-built [ˈnju:bɪlt] *a* yangidan qurilgan, qaytadan qurilgan
new-come [ˌnju:ˊkʌm] *a* qaytadan (yana qaytib) kelgan
new-comer [ˈnju:kʌmə] *n* 1) yangi kelgan kishi; 2) kelgindi, musofir, begona odam, notanish odam
New Deal [ˌnju:ˊdi:l] *n* yangi kurs (*prezident Ruzveltning siyosati*), Ruzvelt hukumati
newel [ˈnju:əl] *n me'mor.* aylanma (*burama*) zinaning ustuni
newel post [ˈnju:əlpəʊst] = **newel**
newer literature [ˈnju:əˌlɪtərətʃə] *n* eng yangi (zamonaviy) adabiyot
new-fallen [ˌnju:ˊfɔ:lən] *a* yangi yog'gan (*qor to'g'risida*)
new-fangled [ˌnju:ˊfæŋg(ə)ld] = **new-fashioned**
new-fashioned [ˌnju:ˊfæʃ(ə)nd] *a* modaning yangi turi, yangi urf, rasm bo'lgan
new-fledged [ˌnju:ˊfledʒd] *a* yangi pat chiqazgan
new-found [ˌnju:ˊfaʊnd] *a* yangi topilgan
Newfoundland [nju:ˊfaʊndlənd] *n* Nyufaundlend oroli
Newfoundland dog [nju:ˊfaʊndlənddɒg] *n* cho'kkanlarni qutqaradigan it
Newfoundlander [nju:ˊfaʊndləndə] *n* Nyufaundlend aholisi
New Frontier [ˌnju:ˊfrʌntɪə] *n amer.* «Yangi hududlar» (*prezident Kennedining siyosati*)
Newgate [ˈnju:gɪt] *n* Nyugetdagi qarzdorlar qamoqxonasi (*Londonda*)
new growth [ˌnju: ˊgrəʊθ] *n* 1) shish, g'urra; 2) yangidan paydo bo'lish, yuzaga kelish
newish [ˈnju:ɪʃ] *a* juda yangi, eng yangi
new-laid [ˈnju:leɪd] *a* yangi tuxum qo'ygan
newly [ˈnju:lɪ] *adv* 1) yaqinda; 2) yana, qaytadan
newlywed [ˈnju:lɪwed] *n* yangi uylangan; yangi turmushga chiqqan
new-made [ˈnju:meɪd] *a* 1) yaqinda qilingan; 2) qaytadan (yangidan) qilingan
Newmarket [ˈnju:ˌmɑ:kɪt] *n* badanga yopishib turadigan uzun palto
Newmarket coat [ˈnju:mɑ:kɪtˌkəʊt] = **Newmarket**
new-minted [ˌnju:ˊmɪntɪd] *a* yaqinda bosib chiqarilgan (*tanga haqida*)
new moon [ˌnju:ˊmu:n] *n* yangi chiqqan oy, hilol
newness [ˈnju:nəs] *n* 1) yangilik; 2) yangi narsa (*gap, xabar va h. k.*)
newpenny [ˈnju:penɪ] *pl* yangi penni (*Angliyada 1971-yildagi pul*)
news [nju:z] *n* 1) yangilik; **what is the ~?** qanday yangiliklar bor? **the morning ~** yangiliklarning ertalabki soni; 2) darak, axborot, xabar
news agency [ˈnju:zˌeɪdʒ(ə)nsɪ] *n* telegraf agentligi; matbuot agentligi
newsagent [ˈnju:zˌeɪdʒ(ə)nt] *n* gazeta kioskasidagi sotuvchi
newsboy [ˈnju:zbɔɪ] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi (*o'spirin*)
news-bulletin [ˈnju:zˌbʊlətɪn] *n* yangiliklar ma'lumoti
newscast [ˈnju:zkɑ:st] *n* so'nggi xabarlar ko'rsatuvi (*radio, televedeniya orqali*)
newscaster [ˈnju:zˌkɑ:stə] *n* 1) diktor; suxandon; 2) radio sharhlovchisi
news cinema [ˈnju:zˌsɪnəmə] *n* xronik-hujjatli filmlar ko'rsatadigan kinoteatr
newsdealer [ˈnju:zˌdi:lə] = **news-agent**
news-department [ˈnju:zdɪˌpɑ:tmənt] *n* axborot bo'limi; nashr qilish bo'limi
newsflash [ˈnju:zflæʃ] *n radio.* shoshilinch ma'lumot
newshawk [ˈnju:zhɔ:k] *n so'zl.* mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*)
newsletter [ˈnju:zˌletə] *n* 1) axborot bulleteni (*savdo firmasi va b.*); 2) reklama xarakteridagi savdo-sotiq ma'lumotnomasi
newsman [ˈnju:zmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) muxbir, mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*); 2) gazeta xodimi; 3) gazeta sotuvchi
newsmonger [ˈnju:zˌmʌŋgə] *n* g'iybatchi odam, gap tashuvchi
newspaper [ˈnju:sˌpeɪpə] *n* gazeta
newspaperese [ˌnju:speɪpəˊri:z] *n* gazeta uslubi, sharhlovchiga xos uslub
newsprint [ˈnju:zˌprɪnt] *n* gazetabop qog'oz, gazeta qog'ozi
newsreader [ˈnju:zˌri:də] *n* yangiliklar dasturi suxandoni
newsreel [ˈnju:zri:l] **1.** *n* 1) kinojurnal; 2) xronika (*voqealarni xronikal tasvirlovchi hujjatli film*); 3) xronikal hujjatli film; **2.** *v* kinojurnalda suratga tushmoq
newsroom [ˈnju:zru:m] *n* gazeta va jurnallar olish mumkin bo'lgan o'qish zali
newsservice [ˈnju:zˌsɜ:vɪs] *n* axborot agentligi
news-sheet [ˈnju:zʃi:t] *n* varaqa
news-stand [ˈnju:zstænd] *n* 1) gazeta do'koni; 2) *amer.* = **bookstall**
New Style [ˈnju:staɪl] *n* yangi uslub (*grigorian yil hisobi; grigorian kalendari*)
news-theatre [ˈnju:zˌθɪətə] *n* xronik-hujjatli kinolar ko'rsatiladigan kinoteatr
newsvendor [ˈnju:zˌvendə] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi kishi
newsy I [ˈnju:zɪ] *a* 1) yangiliklarga *yoki* g'iybatga boy; 2) sinchkov, har narsani bilishga intiluvchi
newsy II [ˈnju:zɪ] *n amer.* = **newsboy**
newt [nju:t] *n zool.* ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor
Newtonian [nju:ˊtəʊnɪən] *n* Nyuton izdoshi
New Year [ˌnju:ˊjɪə] *n* yangi yil; **Happy ~!** Yangi yilingiz bilan tabriklayman! Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin!
New Year's [ˌnju:ˊjɪəz] *a* yangi yilga oid; ~ **Eve** yangi yil arafasi; ~ **day** birinchi yanvar
next [nekst] **1.** *a* keyingi, navbatdagi; ~ **day** ertasi kuni; ~ **week** kelasi haftada; ~ **month** kelasi oyda; ~ **year** kelasi yilda; **2.** *adv* keyin, so'ng, kelasi, yanagi; **what ~?** xo'sh, (undan) keyin-chi?
next-best [ˌnekstˊbest] *a* faqat eng zo'riga yon beradigan
next-door [ˌnekstˊdɔ:] *a* yaqin joydagi, yaqin o'rtadagi, qo'shni bo'lgan
next of kin [ˌnekstəvˊkɪn] *n* yaqin qarindoshlar
nexus [ˈneksəs] *n* 1) aloqa, zanjir; **the cash ~** pulga oid (pulli) munosabatlar; 2) *gram.* neksus
Niagara [naɪˊægərə] *n* 1) oqim; 2) qattiq zarba ovozi; 3) sharshara, shalola, shovva; ~ **falls** Niagara sharsharasi
nib [nɪb] **1.** *n* 1) metall pero; 2) tumshuq (*qushlarda*); 3) pichoqning o'tkir tomoni; **2.** *v* ruchkaga pero qo'ymoq
nibble [ˈnɪb(ə)l] **1.** *n* kemirish, g'ajish, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlash, kemirib (g'ajib) yeyish; **2.** *v* kemirmoq, g'ajimoq, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlamoq, kemirib (g'ajib) yemoq

niblick [ˈnɪblɪk] *n sport.* klushka (*golf o'yini uchun*)
nibs [nɪbz] *n* iltifot, lutf, yaxshilik
nice [naɪs] *a* 1) iltifotli, yoqimli; 2) o'tkir; **a ~ ear** o'tkir (yaxshi eshitadigan) quloq; **a ~ question** qaltis masala; 3) shirin, mazali (*meva*); 4) yaxshi; **a ~ weather** yaxshi ob-havo
nice-looking [ˌnaɪs ˈlʊkɪŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq
nicely [ˈnaɪslɪ] *adv* 1) yaxshi, durust; 2) yaxshilab, yaxshigina, boplab, qotirib, tuzukkina, durustgina
nicety [ˈnaɪsɪtɪ] *adv* 1) to'g'rilik, aniqlik; **to a ~** haqiqatan, chindan, rostdan; 2) puxtalik; 3) noziklik; 4) tartibga aniq rioya qilish, batartiblik, saranjom-sarishtalik
niche [nɪtʃ] **1.** *n* 1) kovak; 2) tokcha, taxmon; **2.** *v* tokchaga joylashtirmoq
Nick [nɪk] *n* shayton, iblis (*odatda,* **Old ~**)
nick [nɪk] **1.** *n* kertma belgi, kertik; **2.** *v* kertma belgi qo'ymoq
nickel [ˈnɪk(ə)l] **1.** *n kim.* nikel (*kimyoviy element, yaltiroq metall*); **2.** *v* nikellamoq, nikel yugurtirmoq
nickelage [ˈnɪk(ə)lɪdʒ] = **nickel-plating**
nickelodeon [ˌnɪk(ə)l ˈəʊdɪən] *n amer.* patefon-avtomat, pianola-avtomat
nickel-plating [ˌnɪk(ə)l ˈpleɪtɪŋ] *n tex.* 1) nikel, nikel qatlami (*buyumda*); 2) nikellash, nikel yugurtirmoq
nicker [ˈnɪkə] *v* qahqaha urib (qattiq) kulmoq, xaxolab kulmoq
nick-nack [ˈnɪknæk] *n* 1) mayda-chuyda bezak, buyum, zeb-ziynat; 2) *esk.* shirinlik; mazali taom
nickname [ˈnɪkneɪm] **1.** *n* laqab; **2.** *v* laqab qo'ymoq
nicotian [nɪˈkəʊʃ(ə)n] **1.** *a* tamakiga oid, tamakidan qilingan; **2.** *n* kashanda odam, chekadigan kishi
nicotine [ˈnɪkəti:n] *n* nikotin (*tamaki tarkibida bo'ladigan zaharli modda*)
nicotinism [ˈnɪkətɪ:nɪz(ə)m] *n* nikotindan zaharlanish
nictate [ˈnɪkteɪt] = **nictitate**
nictation [nɪkˈteɪʃ(ə)n] = **nictitation**
nictitate [ˈnɪktɪteɪt] *v* 1) pirpiratmoq, uchirmoq; 2) ko'z qismoq, ko'z bilan imlamoq, ko'z qisib imo-ishora qilmoq
nictitating membrane [ˈnɪktɪteɪtɪŋˌmembreɪn] *n* ko'zdagi pirpiratadigan parda (*qushlarda*)
nictitation [ˌnɪktɪ ˈteɪʃ(ə)n] *n* ko'z qisish, ko'z bilan imlash
nicy [ˈnaɪsɪ] *n* bol, obaki, obakidandon (*konfet*)
niddle-noddle [ˈnɪdlˌnɒdl] **1.** *a* qimirlaydigan, qaltiraydigan; **2.** *v* bosh qimirlatmoq, bosh qimirlatib (irg'itib) tabriklamoq (*yoki* rozilik bildirmoq, ma'qullamoq)
nidge [nɪdʒ] = **nig**
nidi [ˈnaɪd(a)ɪ] *pl of* **nidus**
nidificate [ˈnɪdɪfɪkeɪt] *v* uya (in) to'qimoq (qurmoq, solmoq)
nidify [ˈnɪdɪfaɪ] = **nidificate**
nid-nod [ˈnɪdnɒd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh irg'itmoq
nidus [ˈnaɪdəs] *n lot.* (*pl* **nidi, -es** [-ɪz]) *zool.* (*hasharotlar*) uyasi, ini; 2) yuqumli kasalliklar manbayi
niece [ni:s] *n* jiyan (*qiz*)
nielli [mˈel(a)ɪ] *pl of* **niello**
niello [nɪˈeləʊ] *n ital.* (*pl* **-li, -os** [-əʊz]) 1) qora kumush (*kumush, mis, oltingugurt va qalay qotishmasi, asosan, metall buyumlarni o'yib bezatishda ishlatiladi*); 2) qora kumush bilan bezalgan buyumlar
nielloed [nɪˈeləʊd] *a* qoraytirilgan, qoraga bo'yalgan
nifty [ˈnɪftɪ] **1.** *a* 1) rasm bo'lgan, keng tarqalgan; 2) a'lo darajadagi; **2.** *n* o'tkir gap; donolik bilan aytilgan so'z
nig [nɪg] *v* toshni tarashlab tekislamoq
niggard [ˈnɪgəd] **1.** *n* xasis (ziqna) odam, qurumsoq, nokas; **2.** *adv* oz, kam, ozgina, uncha yaxshi (yetarli) emas
niggardly [ˈnɪgədlɪ] **1.** *a* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; **2.** *adv* ayab, qizg'anib, ziqnalik bilan
nigger [ˈnɪgə] *n* zangi, habash; qop-qora (*iflos, isqirt*)
niggle [ˈnɪg(ə)l] *v* aldamoq, yolg'on, ahmoq qilmoq
niggling [ˈnɪg(ə)lɪŋ] *a* 1) mayda gap; 2) chalkash, o'qib bo'lmaydigan (*husnixat, yozuv haqida*)
nigh [naɪ] *a* yaqin joydagi, yaqindagi, yaqin
night [naɪt] *n* tun, kecha, oqshom, kechki payt, kechasi; **to have a good ~** yaxshi uxlamoq; **at ~** tunda; **by ~** tunda, kechasi; **~ by ~** har kecha, har kuni kechasi; **all ~ (long)** tun bo'yi tinmay
night binoculars [ˈnaɪtbɪˌnɒkjʊləz] *n pl* tunda ko'radigan durbin
night-bird [ˈnaɪtbɜ:d] *n* 1) tunda uchadigan qush; 2) kech yotadigan, kechasi uzoq ishlaydigan, kechalari daydib yuradigan
night-blindness [ˈnaɪtˌblaɪndnəs] *n tib.* shabko'rlik
nightcap [ˈnaɪtkæp] *n* 1) tungi (kechasi kiyib yotiladigan) qalpoq; 2) *amer. sport.* kunning so'nggi musobaqasi
night-cart [ˈnaɪtkɑ:t] *n* to'rt g'ildirakli arava (*axlat va najaslarni tozalash ishlari uchun ishlatiladigan*)
night-chair [ˈnaɪtʃeə] *n* tuvak (*hojat uchun*)
night-clothes [ˈnaɪtkləʊðz] *n* tunda (kechasi) kiyiladigan ich kiyim
night-club [ˈnaɪtklʌb] **1.** *n* tunda ishlaydigan klub, tungi klub; **2.** *v* kechasi ishlaydigan klublarga qatnashmoq
night-dress [ˈnaɪtdres] *n* ayollar *yoki* bolalarning tungi ko'ylagi
nightfall [ˈnaɪtfɔ:l] *n* 1) kech kirishi; 2) g'ira-shira payt, tong yorishgan *yoki* qosh qoraygan payt
night-fighter [ˈnaɪtˌfaɪtə] *n av.* kechasi qiruvchi samolyot
night-flower [ˈnaɪtˌflaʊə] *n* tunda ochiladigan gul
night-fly [ˈnaɪtflaɪ] *n* tun kapalagi
night-flying [ˈnaɪtˌflaɪɪŋ] *n av.* tungi uchishlar (parvozlar)
night-glass [ˈnaɪtglɑ:s] *n* kechasi ko'radigan dengiz durbini
night-gown [ˈnaɪtgaʊn] = **night-dress**
night-hag [ˈnaɪthæg] *n* 1) jodugar xotin, yalmog'iz, alvasti; 2) yomon tush; bosinqirash
night-hawk [ˈnaɪthɔ:k] *n* 1) kechasi bilan ishlaydigan odam; 2) kechasi bilan uxlamaydigan odam; 3) tunda ishlaydigan taksi haydovchisi
nightingale [ˈnaɪtɪŋgeɪl] *n zool.* bulbul
night-intruder [ˈnaɪtɪnˌtru:də] *n av.* tungi bombardimonchi samolyot
nightjar [ˈnaɪtdʒɑ:] *n zool.* tentakqush
night-life [ˈnaɪtlaɪf] *n* (*shahurning*) tungi hayoti
night-light [ˈnaɪtlaɪt] *n* tunda yoqib qo'yiladigan xira chiroq
night-line [ˈnaɪtlaɪn] *n* xo'rak qo'yib tunda tashlangan qarmoq
night-long [ˈnaɪtlɒŋ] **1.** *a* tun bo'yi davom etadigan; **2.** *adv* tun bo'yi, kechasi bilan
nightly [ˈnaɪtlɪ] **1.** *a* tungi, tundagi, har tunda sodir bo'ladigan; **2.** *adv* har kecha, har tun
nightman [ˈnaɪtmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) tungi qorovul; 2) axlat va najaslarni tozalash ishlari bilan shug'ullanuvchi kishi
nightmare [ˈnaɪtmeə] *n* 1) yomon tush, bosinqirash; 2) *mif.* uxlagan odamni bo'g'uvchi (bo'g'adigan) alvasti
nightmarish [ˈnaɪtme(ə)rɪtʃ] *a* dahshatli, mudhish
night-nurse [ˈnaɪtnɜ:s] *n* tungi hamshira
night-piece [ˈnaɪtpi:s] *n* tun tasvirlangan surat
night-rider [ˈnaɪtˌraɪdə] *n amer.* otliq bosqinchi (qaroqchi, bosmachi)
night-robe [ˈnaɪtrəʊb] = **night-dress**

night-school [ˈnaɪtskuːl] *n* 1) kechki maktab; 2) kechki kurslar
nightshade [ˈnaɪtʃeɪd] *n bot.* ituzum; **black ~** qora ituzum; **deadly ~** uyqu karaxtligi
night-shift [ˈnaɪtʃɪft] *n* tungi navbatchilik
nightshirt [ˈnaɪtʃɜːt] *n* tungi ko'ylak
night-soil [ˈnaɪtsɔɪl] *n* ifloslik, nopok ish (*asosan, kechalari bajariladigan*)
nightstick [ˈnaɪt,stɪk] *n amer.* militsiyalarning kechasi olib yuradigan tayog'i
night-stool [ˈnaɪtstuːl] = **night-chair**
night-suit [ˈnaɪts(j)uːt] *n* pijama (*kurtka va shimdan iborat uy kiyimi*)
night-time [ˈnaɪttaɪm] *n* tungi vaqt, tun
night-walker [ˈnaɪt,wɔːkə] *n* lunatik, oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*)
night-watch [ˌnaɪtˈwɒtʃ] *n* tungi nazorat (ko'rib chiqish); tungi soqchilar
night-watchman [ˌnaɪtˈwɒtʃmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) tungi qorovul
night-wear [ˈnaɪtweə] *n* tunda kiyiladigan kiyim
nighty [ˈnaɪtɪ] *n so'zl.* kechki ko'ylak (*bolalar yoki ayollarniki*)
nigrescence [n(a)ɪˈgres(ə)ns] *n* 1) qorayish, qorayib ketish; 2) qoralik, qorong'ilik
nigrescent [n(a)ɪˈgres(ə)nt] *a* qorayib turgan, qoraygan
nigritude [ˈnɪgrɪtjuːd] *n* qoralik, qora, qorong'ilik
nihilism [ˈnaɪəlɪz(ə)m] *n* har qanday norma va qonunlarni inkor etish
nihilist [ˈnaɪəlɪst] *n* nigilizm tarafdori, nigilist (*har qanday norma, prinsip va qonunlarni inkor etuvchi*)
nihilistic [ˌnaɪəˈlɪstɪk] *a* nigilizmga va nigilistlarga oid, nigilistik
nihility [naɪˈɪlɪtɪ] *n* fano, yo'qlik; hayotning, faoliyatning yo'q bo'lib ketishi
nil [nɪl] *n* nol, nul
nilgai [ˈnɪlgaɪ] *n zool.* antilopalar. kiyiklar (*juft tuyoqli kavsh qaytaruvchilarning katta bir guruhi*)
nimbi [ˈnɪmbaɪ] *pl of* **nimbus**
nimble [ˈnɪmb(ə)l] *n* tez, chaqqon, epchil, uddaburon, ishbilarmon
nimbus [ˈnɪmbəs] *n* (*pl* **-bi, -es** [-ɪz]) yorug'lik gardishi; nur sochish, yarqirash
niminy-piminy [ˌnɪmɪnɪˈpɪmɪnɪ] *a* nozli, noz-karashmali, sernoz
nincompoop [ˈnɪnkəmpuːp] *n* befahm (anqov, laqma) odam
nine [naɪn] *n num. card.* 1) to'qqiz; 2) to'qqizinchi raqam (*qo'lqop o'lchami*)
ninefold [ˈnaɪnfəʊld] *a* to'qqiz marta ortiq, to'qqiz baravar ko'p, to'qqiz karra, to'qqiz hissa
nine-killer [ˈnaɪn,kɪlə] *n zool.* qarqunoq, olato'g'anoq
ninepins [ˈnaɪn,pɪnz] *n pl* kegli (*ma'lum tartibda tikilgan figuralarni shar yumalatib urib yiqitish o'yini*)
nineteen [ˌnaɪnˈtiːn] *v num. card.* o'n to'qqiz
nineteenth [ˌnaɪnˈtiːnθ] *n* o'n to'qqizinchi
nineties [ˈnaɪntɪz] *n pl* to'qsoninchi yillar
ninetieth [ˈnaɪntɪəθ] *n num. ord.* 1) to'qsoninchi, 2) to'qsoninchi qism
ninety [ˈnaɪntɪ] *n num. card.* to'qson
ninny [ˈnɪnɪ] *n* aqli past, jinni, beaql odam
ninny-hammer [ˈnɪnɪˌhæmə] = **ninny**
ninth [naɪnθ] *n num.* 1) to'qqizinchi; 2) to'qqizinchi qism; 3) to'qqizinchi kun (sana)
ninthly [ˈnaɪnθlɪ] *adv* to'qqizinchi bo'lib
niobium [naɪˈəʊbɪəm] *n kim.* niobiy
Nip [nɪp] *n* (**Nipponese** *ning qisqartmasi*) 1) yapon, yaponiyalik; 2) *attr.* yaponcha
nip [nɪp] **1.** *n* chimdish, chimdilash, chimdilab olish; **2.** *v* chimdilamoq, chimchilamoq
Nipper [ˈnɪpə] *n so'zl.* yapon, yaponiyalik
nipper [ˈnɪpə] *n* 1) tishlaydigan kishi, tishlaydigan narsa; 2) ombur, qisqich
nipping [ˈnɪpɪŋ] *a* chimchilaydigan; **~ frost** qattiq (qahraton) sovuq
nipple [ˈnɪp(ə)l] *n* 1) emchak uchi; 2) so'rg'ich; 3) *tex.* nippel (*quvur, shlang va sh. k. ni germetik ravishda ulaydigan, shuningdek, kameralardan havoni chiqarmaydigan detal*)
Nipponese [ˌnɪpəˈniːz] *n* yapon ayol, yaponiyalik ayol
nippy [ˈnɪpɪ] *a* sovuq, juda sovuq
nirvana [nɪəˈvɑːnə] *n* nirvana (*budda dini ta'limotiga ko'ra: bu dunyo tashvishlaridan kechib o'zini rohat-farog'atda sezish*)
Nisei, nisei [ˈniːseɪ] *n* nasl-nasabi yapon bo'lgan amerikalik
nisi [ˈnaɪsaɪ] *cj. lot. yur.* agar, agarda, mabodo, bordi-yu, basharti..., bo'lmasa
nisi prius [ˌnaɪsaɪ ˈpraɪəs] *n yur.* sudning ko'chma majlisi
nit I [nɪt] *n* sirka (*bit tuxumi*)
nit II [nɪt] *n slotl.* yong'oq, yong'oq mag'zi, yong'oq daraxti, yong`oq ko'chati
niton [ˈnaɪtɒn] *n kim.* niton, radon (*kimyoviy element*)
nitrate [ˈnaɪtreɪt] *n kim.* nitratlar (*azot kislotasining tuzlari*)
nitration [naɪˈtreɪʃ(ə)n] *n kim.* azotlash, azotli moddalar bilan o'g'itlash
nitre [ˈnaɪtə] *n kim.* selitra (*azot kislotasining natriy, kaliy yoki ammoniyli tuzi texnikada va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi*)
nitric [ˈnaɪtrɪk] *a kim.* azotli; **~ acid** azot kislotasi
nitrification [ˌnaɪtrɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n kim.* nitrifikatsiya
nitrify [ˈnaɪtrɪfaɪ] *v kim.* selitraga aylantirmoq
nitrite [ˈnaɪtraɪt] *n kim.* nitrat (*azot kislotasining tuzi*)
nitrogen [ˈnaɪtrədʒ(ə)n] *n kim.* azot (*rangsiz va hidsiz kimyoviy element, o'simliklar ozig'ining eng muhim elementlaridan biri*)
nitrogenous [naɪˈtrɒdʒɪnəs] *a kim.* azotli, azotdan iborat bo'lgan
nitroglycerin(e) [ˌnaɪtrəʊ ˈglɪsərɪn] *n* nitroglitserin (*glitserin va nitrat kislota birikmasidan iborat moysimon modda*)
nitron [ˈnaɪtrɒn] *n* nitron (*jun o'rnida ishlatiladigan pishiq sun'iy tola*)
nitrous [ˈnaɪtrəs] *a kim.* tarkibida azot bo'lgan, azotli; **~ acid** azotli kislota
nitty [ˈnɪtɪ] *a* bitlab ketgan, bit bosgan
nitwit [ˈnɪt,wɪt] *n so'zl.* jinni, esi past, ahmoq odam
nitwitted [ˈnɪt,wɪtɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq
nival [ˈnaɪv(ə)l] *a* 1) qorli, qordan iborat bo'lgan, serqor; 2) qorning tagida o'sadigan
nix [nɪks] *n so'zl.* hech nima, hech narsa
nixie [ˈnɪksɪ] *n afs.* suv parisi
no [nəʊ] *adv* 1) yo'q; bo'lmaydi; **~ smoking!** chekish man etiladi! 2) inkor, rozi emaslik, qo'shilmaslik
nob [nɒb] *n so'zl.* baland martabali, martabasi ulug'
nobble [ˈnɒb(ə)l] *v so'zl.* 1) pora berib sotib olmoq, o'z tomoniga og'dirmoq; 2) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq (olmoq); 3) (*jinoyatchi va b. ni*) tutib olmoq, qo'lga tushirmoq
nobby [ˈnɒbɪ] *a so'zl.* kelishgan, bejirim, ko'rkam, zebo, shinam, muhtasham
nobiliary [nə(ʊ)ˈbɪlərɪ] *a* oqsuyaklarga xos (mansub) bo'lgan
nobility [nə(ʊ)ˈbɪlɪtɪ] *n* 1) dvoryanlar tabaqasi; 2) oqsuyaklar, zodagonlar; 3) muruvvat, himmat, oliyjanoblik; oliyhimmatlik
noble [ˈnəʊb(ə)l] *a* 1) himmatli, muruvvatli, oliyhimmat, oliyjanob; 2) ajoyib, a'lo darajadagi

nobleman [ˈnəʊb(ə)lmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) oqsuyak, zodagon, unvonli shaxs

noble-minded [ˌnəʊb(ə)l ˈmaɪndɪd] *a* muruvvatli, himmatli, oliyhimmat, oliyjanob

noble-mindedness [ˌnəʊb(ə)lˈmaɪndɪdnəs] *n* muruvvat, himmat, karam; oliyjanoblik, oliyhimmatlik, fe'li kengli

nobleness [ˈnəʊblnəs] *n* 1) oliyjanoblik, oliyhimmatlik, vijdonlilik, poklik, mardlik, mardonavorlik; 2) aslzodalik, zodagonlik

noblewoman [ˈnəʊb(ə)lˌwʊmən] *n* (*pl* **-women** [-ˌwɪmɪn]) oqsuyak ayol, zodagon ayol

nobody [ˈnəʊbədɪ] *pron.* hech kim, hech kimsa, hech bir inson

noctiflorous [ˌnɒktɪˈflɔːrəs] *a bot.* kechasi (tunda) gullaydigan

noctovision [ˌnɒktəˈvɪʒ(ə)n] *n* qorong'ida ko'rish qobiliyati

nocturnal [nɒkˈtɜːnl] *a* kechki, kechqurungi

nocturne [ˈnɒktɜːn] *a mus.* noktyurn (*kichkina lirik musiqa asari*)

nocuous [ˈnɒkjʊəs] *a* 1) zarar (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli; 2) zaharli, og'uli

nod [nɒd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh irg'atmoq

nodal [ˈnəʊdl] *a* markaziy, o'rtadagi, markazdagi, o'rta

noddle [ˈnɒdl] *n so'zl.* kalla, bosh

noddy [ˈnɒdɪ] *n* 1) soddadil odam, go'l odam; 2) esi yo'q (ahmoq) odam, ahmoq, tentak, esi past; 2) shimoliy qutb dengizlarida yashaydigan suv qushi

node [nəʊd] *n* 1) *tib.* o'simta; 2) *mat.* ikki chiziqning kesish nuqtasi; 3) *astr.* orbitalarning kesish nuqtasi

nodical [ˈnɒdɪk(ə)l, ˈnəʊdɪk(ə)l] *a* orbitalarning kesish nuqtasiga oid

nodose [ˈnəʊdəʊs] *a* 1) tugunli, sertugun; 2) bo'g'inlari turtib chiqqan; g'adir-budur, serko'z

nodosity [nəʊ ˈdɒsɪtɪ] *n* 1) tugunlilik, sertugunlik; 2) bo'g'inlari turtib chiqqanlik; g'adir-budurlik, serko'zlik; 3) yo'g'onlashish, qalinlashish; qalinlashtirish, yo'g'onlashtirish

nodular [ˈnɒdjʊlə] *a* kurtaksimon, buyraksimon; ~ **ore** buyraksimon ruda

nodulated [ˈnɒdjʊleɪtɪd] = **nodular**

nodule [ˈnɒdjuːl] *n* tuguncha, kichkina tugun

nodulose, nodulous [ˈnɒdjʊləʊs, ˈnɒdjʊləs] *a* bo'g'inlari turtib chiqqan, g'adir-budur

nodus [ˈnəʊdəs] *n* (*pl* **nodi**) 1) tugun (*murakkab vaziyat, sharoit, holat*); 2) qiyinchilik, qiyin (og'ir, mushkul) ahvol, mashaqqat, mushkullik, tanglik

noetic [nəʊˈetɪk] *a* aqliy, ruhiy, ma'naviy, zakovatli

nog [nɒg] *n* yog'och pona, yog'och mix, mixcho'p

noggin [ˈnɒgɪn] *n* kichkina krujka

nohow [ˈnəʊhaʊ] *adv so'zl.* aslo, hech, sira, mutlaqo

noise [nɔɪz] *n* shovqin, to'polon

noise-killer [ˈnɔɪzˌkɪlə] *n* shovqin pasaytirgich

noiseless [ˈnɔɪzləs] *a* shovqinsiz, tovushsiz, ohista

noisome [ˈnɔɪs(ə)m] *a* 1) zararli, ziyonli, yomon; 2) hidi yomon, sassiq, badbo'y; 3) juda xunuk, yoqimsiz

noisy [ˈnɔɪzɪ] *a* 1) shovqin-suronli, sershovqin, shovqinli; 2) yorqin, charaqlagan

nomad [ˈnəʊmæd] *n* ko'chmanchi, daydib yuradigan kishi

nomenclature [nəʊˈmenklətʃə] *n* 1) nomenklatura (*nomlar, atamalar, terminlar majmuyi*); 2) terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*)

nominal [ˈnɒmɪnl] *a* nominal

nominate I [ˈnɒmɪneɪt] *v* tayinlamoq (*lavozimga*)

nominate II [ˈnɒmɪnɪt] *v* (*saylovda*) nomzod ko'rsatmoq

nomination [ˌnɒmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* 1) tayinlash; 2) nomzodni ko'rsatish

nominative [ˈnɒm(ɪ)nətɪv] *n gram.* bosh kelishik

nominee [ˌnɒmɪˈniː] *n* saylovda nomzodi taklif etilgan shaxs (*nomzod*)

non-aggression [ˌnɒnəˈgreʃ(ə)n] *n* hujum qilmaslik; ~ **pact** hujum qilmaslik haqidagi shartnoma

non-aligned [ˌnɒnəˈlaɪnd] *a siyos.* qo'shilmaslik siyosatini tutuvchi; harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan

non-alignment [ˌnɒnəˈlaɪnmənt] *n siyos.* blok *yoki* harbiy guruhlarga qo'shilmaslik

non-belligerence [ˌnɒnbəˈlɪdʒ(ə)rəns] *n* urushda qatnashmaslik

nonchalant [ˈnɒnʃələnt] *a* loqayd, beparvo, ehtirossiz, hayajonsiz, sovuqqon

non-combatant [ˌnɒn ˈkɒmbət(ə)nt] *n* safdan tashqari, xizmatdagi askar

non-commissioned officer [ˌnɒnkəˈmɪʃ(ə)nd ˈɒfɪsə] *n* serjant

non-committal [ˌnɒnkəˈmɪtl] *a* gapni chalg'ituvchi; samimiy bo'lmagan

non-conductor [ˌnɒnkənˈdʌktə] *n fiz.* dielektrik (*elektr o'tkazmaydigan modda*)

nonconformist [ˌnɒnkənˈfɔːmɪst] *n* dindan qaytgan, murtad; mazhabparast

nondescript [ˈnɒndɪˌskrɪpt] *a* zerikarli, qiziq emas

none [nʌn] **1.** *pron.* hech kim, hech narsa, hech bir; **2.** *adv* zinhor, aslo, sira, hech ham

nonentity [nɒˈnentɪtɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'q odam, faqir, notavon; 2) mavjud bo'lmagan narsa, yo'q narsa; 3) fano, yo'qlik, hayotning, faoliyatning yo'q bo'lib ketishi

non-existence [ˌnɒnɪgˈzɪst(ə)ns] *a* mavjud bo'lmagan

non-ferrous [ˌnɒnˈferəs] *a* rangli (*metall to'g'risida*)

non-governmental [ˌnɒngʌv(ə)nˈmentl] *a* hukumatga qarashli bo'lmagan, nodavlat

non-interference [ˌnɒnɪntəˈfɪ(ə)rəns] *n* aralashmaslik

non-intervention [ˌnɒnɪntəˈvenʃ(ə)n] *n* aralashmaslik

nonmember [ˌnɒnˈmembə] *a* a'zo bo'lmagan

non-nuclear [ˌnɒnˈnjuːklɪə] *a* yadro qurolidan foydalanmaydigan

non-observance [ˌnɒnəbˈzɜːv(ə)ns] *n* (*qoidalar va sh. k. ga*) rioya qilmaslik; (*qonunni*) buzish

non-partisan [ˌnɒnpɑːtɪˈzæn] *a* partiyasiz, hech qaysi bir partiyaga a'zo bo'lmagan

non-party [ˌnɒnˈpɑːtɪ] *a* partiyasiz, partiyaga a'zo bo'lmagan

non-persistent [ˌnɒnpəˈsɪstənt] *a* turg'un emas, tez tarqaladigan; ~ **gas** tez tarqalib ketadigan gaz

nonplus [ˈnɒnplʌs] *n* qiyin (tang) ahvol

nonpolitical [ˌnɒnpəˈlɪtɪk(ə)l] *a* siyosat bilan bog'liq bo'lmagan

non-proliferation [ˌnɒnprəlɪfəˈreɪʃ(ə)n] *n* yadro qurolini tarqatmaslik

nonrecognition [ˌnɒnrekəgˈnɪʃ(ə)n] *n* tan olmaslik, qabul qilmaslik

nonrenewable [ˌnɒnrɪˈnjuːəb(ə)l] *a* tiklanmaydigan, tiklab bo'lmaydigan

non-self-governing [ˌnɒnselfˈgʌvənɪŋ] *a* o'z-o'zini boshqara olmaydigan

nonsense [ˈnɒns(ə)ns] *n* safsata, behuda gap; **to talk** ~ bema'ni so'zlarni gapirmoq

nonsensical [nɒnˈsensɪk(ə)l] *a* bema'ni, kelishmagan; tuturiqsiz

non-smoker [ˌnɒnˈsməʊkə] *n* chekmaydigan kishi

non-starter [ˌnɒnˈstɑːtə] *n* kelajagi yo'q (*shaxs, reja, g'oya va b. haqida*)

non-stick [ˌnɒnˈstɪk] *a* tagi kuymaydigan, tagiga olmaydigan, tagiga oldirmaydigan

non-stop [ˌnɒn ˈstɒp] *a* 1) qo'nmaydigan, to'xtamaydigan; 2) to'xtovsiz davom etadigan
non-union [ˌnɒnˈju:nɪən] **1.** *a* kasaba uyushmasiga aloqasi bo'lmagan; kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmagan; **2.** *n tib.* sinishdan keyin suyaklarning bitib ketmasligi
nonuse [ˌnɒnˈju:s] *n* ishlatilmaslik
nonviolence [ˌnɒn ˈvaɪələns] *n* zo'ravonlik uslublarini qo'llashdan voz kechish
noodle I [ˈnu:dl] *n so'zl.* befahm (anqov, laqma) odam
noodle II [ˈnu:dl] *n pl* bo'shang odam, latta
noodles [ˈnu:dlz] *n* ugra, ugra osh
nook [nʊk] *n* go'sha, burchak, pana (xilvat) joy
noon [nu:n] *n* peshin, kun o'rtasi, tun vaqti; **~ meal** tushlik; **at ~** peshinda
noose [nu:s] *n* ilmoq, sirtmoq, halqa, dor, tuzoq
nor [nɔ:] *cj.* na..., ham...; **~ ... nor** na..., na...; **neither you ~ he** na sen, na u
norm [nɔ:m] *n* 1) me'yor, tartib; 2) namuna, qolip, andaza
normal [ˈnɔ:m(ə)l] *a* 1) me'yordagi; 2) oddiy, o'rtamiyona
normalization [ˌnɔ:məlaɪˈzeɪʃn] *n* normallashtirish, tartibga solish, bir me'yorga keltirish, tartibga solish
normalize [ˈnɔ:məlaɪz] *v* normallashtirmoq, tartibga keltirmoq
north [nɔ:θ] *n* shimol; **~ Star** Qutb yulduzi; **in the ~** shimolda; **to the ~ of** a) ...dan shimolga; b) ...ning shimolida
norther [ˈnɔ:θə] *n* qattiq shimoliy shamol
northerly [ˈnɔ:ðəlɪ] *a* shimoliy, shimolda bo'ladigan
northern [ˈnɔ:ðən] *a* shimoliy; **~ east** shimoli sharq; **~ Sea** Shimoliy dengiz
northerner [ˈnɔ:ð(ə)nə] *n* shimolda yashovchi kishi; shimollik
northernmost [ˈnɔ:ðənməʊst] *a* eng shimoldagi, shimolga eng yaqin bo'lgan
northward [ˈnɔ:θwəd] *adv* shimolga, shimol tomonga
northward(s) [ˈnɔ:θwədz] = **northward**
north-west [ˌnɔ:θˈwest] *n* shimoli g'arb, shimoliy-g'arbiy taraf (tomon)
north-wester [ˌnɔ:θˈwestə] *n* shimoliy-g'arbiy shamol
Norwegian [nɔ:ˈwi:dʒ(ə)n] **1.** *a* Norvegiya va norvegiyaliklarga oid; **2.** *n* 1) norveg, norveg ayoli; 2) norveg tili
nor'-wester [ˌnɔ:ˈwestə] *n* 1) = **northwester**; 2) o'tkir musallasning stakani; bir stakan o'tkir musallas
nose [nəʊz] *n anat.* burun
nosedive [ˈnəʊzdaɪv] *v av.* sho'ng'imoq, sho'ng'ib uchmoq (*samolyot haqida*)
nosegay [ˈnəʊzgeɪ] *n* bir dasta gul, gul dastasi
nosey [ˈnəʊzɪ] *a so'zl.* 1) burni katta, burundor; 2) uzuntumshuq, tumshug'i uzun; 3) boshqalarning ishiga qiziquvchan
nostalgia [nɒˈstældʒɪə] *n* vatanni sog'inish, qo'msash
nostril [ˈnɒstrɪl] *n* burun teshigi, burun kovagi
not [nɒt] *adv* yo'q, emas; **he is ~ here** u bu yerda yo'q
notable [ˈnəʊtəb(ə)l] **1.** *n* mashhur odam; **2.** *a* taniqli, mashhur, buyuk, atoqli
notably [ˈnəʊtəblɪ] *adv* 1) ayniqsa, asosan; 2) nihoyatda, bag'oyat, juda ham; ancha sezilarli daraja
notary [ˈnəʊtərɪ] *n* notarius
notation [nəʊ ˈteɪʃ(ə)n] *n* qayd, qayd qilish; shartli belgilar bilan ko'rsatish
notch [nɒtʃ] **1.** *n* kertma belgi, kertik, belgi; **2.** *v* kertmoq, kertik solmoq, kertib belgi qo'ymoq
note [nəʊt] **1.** *n* 1) yozuv; 2) izoh, eslatma; **~book** daftar; **~pad** daftarcha; **2.** *v* 1) ahamiyat bermoq; 2) qayd qilmoq, yozmoq
noted [ˈnəʊtɪd] *a* atoqli, mashhur, buyuk, taniqli
note-paper [ˈnəʊtˌpeɪpə] *n* pochta qog'ozi
noteworthy [ˈnəʊtˌwɜ:ðɪ] *adv* diqqatga sazovor
nothing [ˈnʌθɪŋ] **1.** *pron. neg.* hech nima, hech narsa; **2.** *adv* hech, hech bir, sira, aslo, zinhor
notice [ˈnəʊtɪs] **1.** *n* e'tibor berish, payqash; **without ~** (rasmiy ravishda) ogohlantirmasdan; **2.** *v* e'tibor bermoq, payqamoq
notice-board [ˈnəʊtɪsbɔ:d] *n* e'lonlar taxtasi, e'lonlar osiladigan (yopishtiriladigan) taxta
notification [ˌnəʊtɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* bildirish, e'lon, xabarnoma
notify [ˈnəʊtɪfaɪ] *v* xabar qilmoq; bildirmoq
notion [ˈnəʊʃ(ə)n] *n* tushuncha, g'oya, niyat, maqsad, o'y, fikr
notional [ˈnəʊʃ(ə)nəl] *a fals.* mavhum, sinalmagan, tajribaga asoslanmagan; **~ words** *gram.* leksik ma'no anglatuvchi so'zlar
notoriety [ˌnəʊtəˈraɪətɪ] *v* yomon ot chiqarish, yomon shuhrat, badnomlik
notorious [nəˈ(ʊ)tɔ:rɪəs] *a* salbiy jihatdan mashhur, yomon ot chiqargan, badnom
notwithstanding [ˌnɒtwɪθˈstændɪŋ] *prep.* shunday bo'lsa ham, shunga qaramay
nought [nɔ:t] *n* 1) hech nima, hech narsa; 2) *mat.* nol
noun [naʊn] *n gram.* ot; **proper ~** atoqli ot; **common ~** turdosh ot
nourish [ˈnʌrɪʃ] *v* 1) boqmoq, ovqatlantirmoq; 2) hislarni *yoki* ishonchni kuchaytirmoq
nourishing [ˈnʌrɪʃɪŋ] *a* to'q tutadigan, to'yimli
nourishment [ˈnʌrɪʃmənt] *n* ovqat, oziq, taom
nous [naʊs] *n* 1) aql, fahm, idrok, zehn; 2) to'g'ri (sog'lom) fikr
novation [nəʊˈveɪʃ(ə)n] *n* yangilik, yangi rasm-rusum, yangi kiritilgan tartib-qoida (*usul, rasm-rusum va h. k.*), yangilik
novel [ˈnɒv(ə)l] **1.** *n* 1) roman; 2) yangi g'alla; 3) yangi hosilning doni (g'allasi); **2.** *a* yangi, noma'lum, notanish
novelist [ˈnɒv(ə)lɪst] *n* roman yozadigan yozuvchi
novelty [ˈnɒv(ə)ltɪ] *n* yangilik; yangi chiqqan narsa
November [nə(ʊ)ˈvembə] *n* noyabr
novice [ˈnɒvɪs] *n* shogird; yangi kelgan
now [naʊ] *adv* hozir; **just ~** hozirgina; **up to ~** hozirgacha
nowaday [ˈnaʊədeɪ] *a* hozirgi, shu paytdagi, hozirgi vaqtdagi
nowadays [ˈnaʊədeɪz] *adv* hozirgi kunda, bizning davrimizda, shu kunlarda
nowhere [ˈnəʊweə] *adv* hech qayerga, hech qayerda
nowise [ˈnəʊwaɪz] *adv* aslo, hech, sira, mutlaqo
noxious [ˈnɒkʃəs] *adv* zararli, zarar (ziyon) qiladigan, yomon, halokatli; **~ air** konning zaharli havosi; **~ plants** zaharli o'simliklar
nozzle [ˈnɒz(ə)l] *n tex.* suv *yoki* gaz quvurining jo'mragi
n't [nt] *so'zl. of* **not**
nth [enθ] *a mat.* biror, qandaydir, muayyan (ma'lum) bir
nuance [ˈnju:ɑ:ns] *n fr.* nozik farq, sezilar-sezilmas farq
nub [nʌb] *n* 1) yo'g'onlashish, qalinlashish; 2) asl ma'no, tub mohiyat, ishning mohiyati
nuclear [ˈnju:klɪə] *a* yadroga (atom yadrosiga) oid; **~ energy** yadro (atom) energiyasi
nuclei [ˈnju:klɪaɪ] *pl of* **nucleus**
nucleus [ˈnju:klɪəs] *n* (*pl* **-lei** [-lɪaɪ]) 1) o'zak, markaz; yadro; 2) *biol.* hujayra yadrosi; 3) atom yadrosi
nude [nju:d] *a* yalang'och; ochilib qolgan, ochiq

nudge [nʌdʒ] **1.** *n* tirsak bilan sekin turtib qo'yish; **2.** *v* tirsak bilan sekin turtib qo'ymoq (*birovning diqqatini o'ziga tortish uchun*)

nudity ['nju:dɪtɪ] *n* yalang'ochlik; yalang'och joy

nugatory ['nju:gət(ə)rɪ] *a* 1) arzimas, ahamiyatsiz, behuda, oson; 2) qonuniy kuchga ega bo'lmagan; 3) foydasiz, natijasiz

nugget ['nʌgɪt] *n* sof holda topilgan metall (oltin)

nuisance ['nju:s(ə)ns] *n* 1) ko'ngilsizlik; ko'ngilsiz; 2) alam, ranj, o'kinch, achinish

null [nʌl] *a* qonuniy kuchga ega bo'lmagan, bekor qilingan

nullify ['nʌlɪfaɪ] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq

nullity ['nʌlɪtɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'qlik, e'tiborsizlik, arzimaganlik, juda kichkinalik, haqirlik, notavonlik; 2) *yur.* qonuniy kuchga ega bo'lmaslik, bekor qilinganlik, bekor qilishlik

numb [nʌm] *a* karaxt, uvushib qolgan

number ['nʌmbə] *n* son, miqdor, raqam; **a ~ of** ko'p

numeral ['nju:m(ə)rəl] *n* 1) raqam; 2) *gram.* son

numerate ['nju:məreɪt] *v* sanamoq, hisoblamoq

numeration [ˌnju:mə'reɪʃ(ə)n] *n* 1) hisoblash, sanash, sanoq; 2) tartib raqamlari

numerator ['nju:məreɪtə] *n* 1) *mat.* surat; 2) hisoblovchi, hisobchi; 3) *tex.* hisoblagich

numerical [nju:'merɪk(ə)l] *a* raqamlarga oid, raqamlar bilan ko'rsatilgan, raqamli

numerous ['nju:m(ə)rəs] *a* 1) ko'p sonli, ko'p kishilik; 2) ko'p, ko'pgina, ancha

numskull ['nʌmskʌl] *n* ahmoq, tentak, nodon

nun [nʌn] *n* rohiba

nunnery ['nʌnərɪ] *n* ayollar monastiri

nuptial ['nʌpʃ(ə)l] **1.** *a* nikohga, er-xotinlikka oid; **2.** *n* to'y, nikoh to'yi

nurse [nɜ:s] *n* 1) boquvchi xotin, enaga; 2) hamshira

nurseling ['nɜ:slɪŋ] *n* 1) emadigan bola; 2) shogird; 3) arzanda

nursery ['nɜ:s(ə)rɪ] *n* 1) bolalar xonasi; 2) bolalar bog'chasi

nursling ['nɜ:slɪŋ] = **nurseling**

nurture ['nɜ:tʃə] *v* 1) parvarish qilmoq, boqmoq; 2) tarbiyalamoq, o'qitmoq, o'rgatmoq

nut [nʌt] **1.** *n* yong'oq; **2.** *v* yong'oq termoq

nutcracker ['nʌtˌkrækə] *n* yong'oq chaqadigan qisqich

nutmeg ['nʌtmeg] *n* muskat yong'og'i

nutrient ['nju:trɪənt] **1.** *n* ovqat bo'ladigan moddalar; ovqat (oziq) moddalari; **2.** *a* 1) yeb bo'ladigan, ovqat (oziq) bo'ladigan; 2) to'q tutadigan, to'yimli; **~ value** to'yimlilik, to'q tutish xossasi

nutrition [nju:'trɪʃ(ə)n] *n* oziq, ovqat, taom

nutritious [nju:'trɪʃəs] *a* ovqat (oziq) bo'ladigan, yeb bo'ladigan

nutritive ['nju:trɪtɪv] *n* ovqat (oziq) moddalari

nutshell ['nʌtʃel] *n* yong'oq po'chog'i; **in a ~** qisqa qilib, ikki og'iz so'z bilan

nutter ['nʌtə] *n* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam

nut-tree ['nʌttri:] *n* yong'oq daraxti

nutty ['nʌtɪ] a 1) yong'oq ta'mli; 2) mazali, lazzatli, totli, shirin; 3) qiziqarli

nutwood ['nʌtwʊd] *n* 1) yong'oq daraxti; 2) o'rmon yong'og'i (*butasimon o'simlik*)

nuzzle ['nʌz(ə)l] *v* hidlamoq, iskamoq, hidlab ko'rmoq (*itlar haqida*)

nyctalopia [ˌnɪktə'ləʊpɪə] *n* shabko'rlik

nylon ['naɪlɔn] **1.** *n* neylon (*sun'iy tola va toladan to'qilgan gazlama*); **2.** *a* neylondan tayyorlangan

nymph [nɪmf] *n* 1) nimfa (*yunon mifologiyasida: tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohiyasi*); 2) *zool.* lichinka (*kapalak, chivin, chuvalchang va sh. k. ning tuxumidan chiqqan qurti*)

O

O, o [əʊ] *n* ingliz alifbosining o'n beshinchi harfi

O' [əʊ-] *pref. irlandcha otlardan oldin qo'yiladigan prefiks, mas.*, **O'Henry** O'Henri

oaf [əʊf] *n* (*pl* **oafs** [-s], **oaves**) 1) xunuk *yoki* g'o'r bola; 2) aqli noqis, esi past, ahmoq odam

oafish ['əʊfɪʃ] *a* 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) beso'naqay, beo'xshov, qo'pol

oak [əʊk] *n bot.* dub, eman; bolut

oak-apple ['əʊkˌæpl] *n* mozi (*bolut daraxtining bargida ba'zi parazitlar ta'sirida hosil bo'ladigan yong'oqsimon o'simta*)

oaken ['əʊkən] *a* dubga oid, dubdan ishlangan

oakery ['əʊk(ə)rɪ] *n* dubzor o'rmon, emanzor

oak-fig ['əʊkfɪg] = **oak-apple**

oak-gall ['əʊkgɔ:l] = **oak-apple**

oaklet ['əʊklɪt] *n* yosh dub (eman)

oakling ['əʊklɪŋ] = **oaklet**

oak-nut ['əʊknʌt] = **oak-apple**

oak-tree ['əʊktri:] *n* dub, bolut, eman daraxti

oakum ['əʊkəm] *n* zig'irpoyaning dag'al tolasi; kanop losi

oak-wart ['əʊkwɔ:t] = **oak-apple**

oak-wood ['əʊkwʊd] *n* dubzor o'rmon, dubzor, emanzor

oaky ['əʊkɪ] *a* dubga oid, dubdan ishlangan

oar [ɔ:] *n* 1) eshkak, chovxoda, chov; **a pair ~ boat** ikki eshkakli qayiq; **a four ~ boat** to'rt eshkakli qayiq; 2) eshkak eshuvchi; **a good ~** yaxshi eshkakchi (eshkak eshuvchi); **2.** *v* eshkak eshmoq

oarage ['ɔ:rɪdʒ] *n* eshkak eshish

oared [ɔ:d] *a* eshkakka oid, eshkakli

oarer ['ɔ:rə] = **oarsman**

oarsman ['ɔ:zmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) eshkakchi, eshkak eshuvchi

oarsmanship ['ɔ:zmənʃɪp] *n* eshkak eshish san'ati, eshkak eshish qobiliyati

oases [əʊ'ɪsi:z] *pl of* **oasis**

oasis [əʊ'eɪsɪs] *n* voha, vodiy

oast [əʊst] *n* undirib yanchilgan bug'doy *yoki* arpani quritadigan pech

oast-house ['əʊsthaʊs] *n* qulmoqni (xmelni) quritadigan quritish moslamasi

oat [əʊt] **1.** *n pl* 1) suli; 2) *attr.* suliga oid; suli yormasidan (unidan) tayyorlangan

oatcake ['əʊtkeɪk] *n* suli unidan tayyorlangan non

oaten ['əʊtn] *a esk. shoir.* suliga oid, suli yormasidan tayyorlangan

oat-flakes ['əʊtfleɪks] *n pl* suli yormasi

oath [əʊθ] *n* ont, qasam; **on ~** qasamyod qilib; **~ of allegiance** harbiy qasam; **~ of office** biror mansabga o'tirishdan oldin qabul qilinadigan qasam

oath-breaker ['əʊθˌbreɪkə] *n* qasamxo'r, qasamini buzgan odam, ontidan qaytgan odam

oath-breaking ['əʊθˌbreɪkɪŋ] *n* qasamyodni buzish

oatmeal ['əʊtmi:l] *n* 1) suli uni, suli yormasi; 2) sulidan qilingan tolqon; 3) suli unidan, yormasidan tayyorlangan bo'tqa

oats [əʊts] *n pl* suli yormasi; suli bo'tqasi

oaves [əʊvz] *pl of* **oaf**

obduracy ['ɒbdʒʊrəsɪ] *n* 1) qotganlik, suvi qochganlik; 2) o'jarlik, qaysarlik

obdurate ['ɒbdʒʊrɪt] *a* 1) qotib qolgan, suvi qochgan; 2) o'jar, qaysar

obedience [ə'bi:dɪəns] *n* itoat qilish, quloq solish, itoatkorlik, bo'ysunish

obedient [ə'bi:dɪənt] *a* gapga kiradigan, itoatkor

obedientiary [ə,bi:dɪ´enʃ(ə)rɪ] *n* monax, rohib
obeisance [əʊ´beɪs(ə)ns] *n* 1) tiz cho'kib ta'zim qilish, bosh egib ta'zim qilish; 2) hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom; **to do (to make, to pay) ~** birovga hurmat (ehtirom) ko'rsatmoq
obeli [´ɒbəlaɪ] *pl of* **obelus**
obelisk [´ɒbəlɪsk] *n* yodgorlik
obelize [´ɒbəlaɪz] *v* krest (*xoch*) belgisini qo'ymoq
obelus [´ɒbɪləs] *n (pl* **-li** [-laɪ]) = **obelisk**
obese [əʊ ´bi:s] *a* 1) semiz, yo'g'on; 2) semizlikdan azob tortayotgan
obesity [əʊ´bi:sɪtɪ] *n* 1) semizlik, to'lalik; 2) semirish, yog' bosib ketish
obey [ə(ʊ)´beɪ] *v* quloq solmoq, itoat qilmoq; **to ~ the law** qonunga itoat qilmoq
obfuscate [´ɒbfəskeɪt] *v* 1) qorong'ilashtirmoq; 2) chalkashtirmoq (*savol va b. haqida*)
obi [´əʊbɪ] *n yap.* ipakdan qilingan keng belbog'
obiter [´ɒbɪtə] *adv lot.* 1) yo'l-yo'lakay, shunchaki; 2) darvoqe, aytmoqchi
obituarist [ə´bɪtʃʊ(ə)rɪst] *n* ta'ziyanoma muallifi
obituary [ə´bɪtʃʊərɪ] *n* 1) ta'ziyanoma; 2) o'lganlar ro'yxati
object I [´ɒbdʒekt] *n* 1) predmet, narsa; 2) *gram.* to'ldiruvchi; 3) maqsad
object II [əb´dʒekt] *v* qarshilik qilmoq, e'tiroz bildirmoq (**to, against**); **to ~ to** ...ga qarshi bo'lmoq, ...ga e'tiroz bildirmoq; **I ~ to drinking** men odamlarning spirtli ichimlik ichishlariga qarshiman
object-finder [´ɒbdʒɪkt,faɪndə] *n sur.* vidoiskatel (*foto va kinoapparatlarning suratga olinadigan obyekt holatini kuzatish uchun xizmat qiladigan moslamasi*)
object-glass [´ɒbdʒektglɑ:s] *n opt.* obyektiv (*optik asbob shishasi*)
objectify [əb´dʒektɪfaɪ] *v* gavdalantirmoq, mujassamlantirmoq, gavdalantirib ko'rsatmoq
objection [əb ´dʒekʃ(ə)n] *n* e'tiroz, qarshilik, norozilik; **~ to** ...ga e'tiroz; **to take ~** qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq
objectionable [əb ´dʒekʃ(ə)nəb(ə)l] *a* xush kelmaydigan, yoqmaydigan, nomatlub, yoqimsiz; munozarali
objective [əb´dʒektɪv] **1.** *n* 1) maqsad, intilish; 2) *opt.* obyektiv (*optik asbob shishasi*); **2.** *a* xolis, beg'araz; **~ case** *gram.* tushum yoki jo'nalish kelishigi; **~ method** *fals.* induktiv metod
objectivism [əb´dʒektɪvɪz(ə)m] *n fals.* obyektivizm (*ijtimoiy hayot hodisalarini passiv qayd etish bilangina cheklanib, ularni abadiylashtirishga qaratilgan idealistik falsafiy oqim*)
objectivity [,ɒbdʒek´tɪvɪtɪ] *n* xolislik
objectless [´ɒbdʒektləs] *a* ma'lum maqsadga qaratilmagan; bemaqsad, maqsadsiz
object-lesson [´ɒbdʒekt,les(ə)n] *n* ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'tiladigan dars
objector [əb´dʒektə] *n* qarshilik bildiradigan, e'tiroz bildiradigan kishi
objurgate [´ɒbdʒɜ:geɪt] *v* 1) so'kmoq, urishmoq, koyimoq; 2) gina qilmoq, o'pkalamoq, ta'na qilmoq, ayblamoq
objurgation [,ɒbdʒə´geɪʃ(ə)n] *n* ta'na, ta'na qilish, yuziga solish
objurgatory [ɒb´dʒɜ:gət(ə)rɪ] *a* ta'nali, ginali, ta'nani ifodalaydigan
oblate [´ɒbleɪt] *a cherk.* o'zini bag'ishlagan (*monaxlik hayotiga va b.*)
oblation [ə ´bleɪʃ(ə)n] *n* 1) qurbonlik, qurbon, qurbonlik qilish; 2) xayrli ishga *yoki* cherkovga xayr-ehson qilish
oblational [ə´bleɪʃ(ə)nəl] *a* qurbonga, qurbonlikka oid, qurbonlikka atalgan
oblatory [´ɒbleɪt(ə)rɪ] = **oblational**
obligate [´ɒblɪgeɪt] *v* majbur qilmoq
obligation [,ɒblɪ´geɪʃ(ə)n] *n* 1) majburiyat; **to be under an ~** kimningdir oldida qarzdor bo'lmoq; **to undertake ~s** majburiyatlar olmoq; 2) burch, vazifa; **to undertake on ~** majburiyat olmoq
obligatory [əb´blɪgət(ə)rɪ] *a* majburiy, bajarilishi (qilinishi) shart bo'lgan, albatta qilinishi kerak bo'lgan
oblige [ə´blaɪdʒ] *v* majbur etmoq, talab qilmoq, zimmasiga yuklamoq; **much ~d to you** men sizdan minnatdorman
obliged [ə´blaɪdʒd] *a* minnatdor, qarzdor
obliging [ə´blaɪdʒɪŋ] *a* xizmatga tayyor, iltifotli, so'zining ustidan chiqadigan, buyurilgan ishdan bo'yin tovlamaydigan
obligingly [ə´blaɪdʒɪŋlɪ] *adv* iltifot bilan, nazokat (muloyimlik) bilan
obligor [,ɒblɪ´gɔ:] *n yur.* o'ziga majburiyat olgan odam
oblique [ə´bli:k] *a* qiya, qiyalama, bir tomonga nishab (*yoki* qiyshaygan, yonboshlagan); **~ case** *gram.* bosh kelishikdan boshqa kelishik
obliquity [ə´blɪkwɪtɪ] *n* noto'g'ri yo'nalish
obliterate [ə ´blɪtəreɪt] *v* o'chirmoq, o'chirib tashlamoq
obliteration [ə,blɪtə´reɪʃ(ə)n] *n* o'chirish, o'chirib tashlash, chizib tashlash
oblivion [ə´blɪvɪən] *n* esdan chiqarish, unutish, yoddan chiqarish, esdan chiqarib yuborish; **act of ~** umumiy afv (kechirish, gunohidan o'tish)
oblivious [ə´blɪvɪəs] *a* xotirasi past, faromushxotir, unutuvchan, esidan chiqadigan, unutadigan, parishon
oblong [´ɒblɒŋ] *a* 1) cho'zinchoq, uzunchoq, cho'ziq; 2) uzaytirilgan
obloquy [´ɒbləkwɪ] *n* yomonlab gapirish, qattiq so'kish, haqorat qilish
obnoxious [əb ´nɒkʃəs] *a* 1) bezbet; 2) yoqimsiz, jirkanch, yomon, chidab (toqat qilib) bo'lmaydigan
oboe [´əʊbəʊ] *n it.* goboy (*puflab chalinadigan yog'och musiqa asbobi*)
oboist [´əʊbəʊɪst] *n* goboy chaluvchi sozanda
obscene [əb´si:n] *a* beadab, odobsiz, odobdan tashqari, axloqsiz, yaramas, nomunosib
obscenity [əb ´senɪtɪ] *n* 1) beadablik, uyatsizlik, yomonlik; 2) yaramas xatti-harakat, uyat gap
obscurant [ɒb ´skjʊ(ə)rənt] *n* nodon, jaholatparastlik, ilm-ma'rifat dushmani
obscurantism [,ɒbskjʊ´ræntɪz(ə)m] *n* nodonlik, jaholatparastlik, ilm-ma'rifatga dushmanlik
obscurantist [,ɒbskjʊ´ræntɪst] *a* obskurantizmga oid, jaholatparastlikdan iborat bo'lgan
obscuration [,ɒbskjʊ´reɪʃ(ə)n] *n* xiralashish, qorong'ilashish
obscure [əb´skjʊə] **1.** *a* 1) qorong'i, zulmatdagi; 2) tushunib bo'lmaydigan; **2.** *v* qorong'ilashtirmoq
obscurity [əb´skjʊ(ə)rɪtɪ] *n* 1) tim qorong'ilik, zimiston, zim-ziyo, zulmat; 2) tushunib bo'lmaydiganlik
obsecration [,ɒbsɪ´kreʃ(ə)n] *n* 1) iltijo, o'tinib so'rash; 2) rahm-shafqat so'rash
obsequial [əb´si:kwɪəl] *a* dafn etishga (ko'mishga) oid
obsequies [´ɒbsɪkwɪz] *n pl* dafn qilish marosimi, ko'mish, dafn etish
obsequious [əb´si:kwɪəs] *a* xushomadgo'y, laganbardor, qullarcha bosh eguvchi
obsequiousness [əb´si:kwɪəsnəs] *n* xushomadgo'ylik, laganbardorlik
observable [əb´zɜ:vəb(ə)l] *a* ko'zga tashlanadigan, ko'rinib (sezilib, bilinib) turgan
observance [əb´zɜ:v(ə)ns] *n* 1) (*qonunga, urf-odatga va b. ga*) rioya qilish, amal qilish; 2) tartib, taomil, odat, (*qonunni*) bajarish
observant [əb´zɜ:v(ə)nt] *a* 1) kuzatuvchan, ziyrak; 2) tirishqoq, harakatchan
observation [,ɒbzə´veɪʃ(ə)n] *n* 1) kuzatish, nazorat; 2) kuzatuvchanlik, ziyraklik; **a man of no ~** beparvo odam
observational [,ɒbzə´veɪʃ(ə)nəl] *a* 1) kuzatuvchan, ziyrak; 2) kuzatish uchun xizmat qiladigan
observatory [əb´zɜ:vət(ə)rɪ] *n* 1) kuzatish punkti; 2) rasadxona

observe [əb´zɜ:v] *v* 1) kuzatmoq; diqqat bilan qaramoq, razm solmoq, o'rganmoq; 2) amal qilmoq (*qonun va b.*); **to ~ good manners** o'ta xushmuomala bo'lmoq; **to ~ silence** sukut (sukunat) saqlamoq; indamay o'tiravermoq; indamaslik; churq etmaslik

observed [əb´zɜ:vd] *a* kuzatilgan, o'rganilgan

observer [əb´zɜ:və] *n* 1) kuzatuvchi; 2) sharhlovchi (*gazetada*); 3) nimagadir amal qiluvchi (**of**); **an ~ of his promises** doimo va'dasining (o'z so'zining) ustidan chiqadigan odam

obsess [əb´ses] *v* 1) egallamoq, egallab olmoq; 2) ta'qib qilmoq

obsession [əb´seʃ(ə)n] *n* 1) (*biror narsaga*) butun vujudi bilan berilgan kishi; 2) miyaga o'rnashib qolgan fikr

obsessive [əb´sesɪv] *a* xayoldan ketmaydigan

obsidian [əb´sɪdɪən] *n min.* obsidian (*shishasimon vulqon tog' jinsi*)

obsolescence [ˌɒbsə´les(ə)ns] *n* eskirish, iste'moldan chiqish

obsolescent [ˌɒbsə´les(ə)nt] *a* eskirib qolgan, iste'moldan chiqqan

obsolete [ˈɒbsəli:t] *a* eski, eskirgan, eskirib qolgan, ko'hna, iste'moldan chiqqan

obstacle [ˈɒbstək(ə)l] *n* to'siq, g'ov, to'siqinlik, xalal, xalaqit

obstacle-race [ˈɒbstək(ə)lreɪs] *n* to'siqlar ustidan yugurish *yoki* sakrash

obstetric(al) [əb´stetrɪk(əl)] *a* 1) homiladorga tibbiy yordam ko'rsatuvchi; 2) akusherlarga va akusherlikka oid

obstetrician [ˌɒbstɪ´trɪʃ(ə)n] *n* 1) akusher (*homiladorlarga yordam ko'rsatuvchi mutaxassis*); 2) doya

obstetrics [əb´stetrɪks] *n* akusherlik (*tibbiyotning homiladorlarga ko'rsatadigan tibbiy yordamlar haqidagi bo'limi*); 2) akusherlik, doyalik

obstinacy [´ɒbstɪnəsɪ] *n* 1) qaysarlik, o'jarlik; 2) sabot, qunt-matonat, tirishqoqlik, qat'iyat

obstinate [ˈɒbstɪnɪt] *a* 1) o'jar, qaysar; 2) sabotli, quntli, tirishqoq; 3) qiyin tuzaladigan

obstipation [ˌɒbstɪ´peɪʃ(ə)n] *n tib.* (*qattiq*) ich qotish

obstreperous [əb´strep(ə)rəs] *a* shovqin-suronli, sershovqin

obstruct [əb´strʌkt] *v* 1) to'smoq, to'sib qo'ymoq, to'siqinlik qilmoq; 2) qiyinlashtirmoq, xalal bermoq

obstruction [əb´strʌkʃ(ə)n] *n* 1) to'siqinlik, to'siq, g'ov; 2) yo'lni to'sib qo'yish

obstructionist [əb´strʌkʃənɪst] *n* obstruksiya tarafdori, qatnashchisi

obstructive [əb´strʌktɪv] *a* to'siqinlik qilayotgan, to'g'anoq bo'layotgan

obtain [əb´teɪn] *v* olmoq, erishmoq

obtainable [əb´teɪnəb(ə)l] *a* 1) kirish (borish, o'tish) mumkin bo'lgan, yo'llab (borib, chiqib) bo'ladigan; ochiq; 2) erishib bo'ladigan

obtest [ɒb´test] *v* avramoq, afsunlamoq, sehrlamoq; dam solmoq, o'qib qo'ymoq, kuf-suf qilmoq

obtestation [ˌɒbte´steɪʃ(ə)n] *n* 1) afsun, jodu, sehr, duo, kuf-suf; 2) o'tinib (yolvorib, xudoning zorini qilib) so'rash, iltijo, o'tinch, yolvorish

obtrude [əb´tru:d] *v* 1) chiqarmoq, chiqazmoq, chiqarib qo'ymoq; 2) majburan bo'yniga yuklamoq

obtruncate [əb´trʌŋkeɪt] *v* 1) kesmoq, qirqmoq, uzmoq, kesib olmoq, kesib (qirqib) tashlamoq; 2) *din.* xatna qilmoq

obtrusion [əb´tru:ʒ(ə)n] *n* bog'lash, taqish, bog'lab (taqib) qo'yish

obtrusive [əb´tru:sɪv] *a* mashhur, atoqli, misli ko'rilmagan, mislsiz

obturate [ˈɒbtjʊ(ə)reɪt] *v* teshikni biror narsa tiqib bekitmoq, tiqib qo'ymoq, bekitmoq, yopmoq

obturation [ˌɒbtjʊ(ə)´reɪʃ(ə)n] *n* 1) usti yopiq teshik, tuynuk; 2) teshikning (tuynukning) ustini biror narsa bilan yopish, bekitish

obturator [ˈɒbtjʊ(ə)reɪtə] *n* tiqin, po'kak

obtuse [əb´tju:s] *a* 1) o'tmaydigan, kesmaydigan, o'tmas, to'mtoq; 2) esi past, ahmoq, tentak

obverse [ˈɒbvɜ:s] *n* o'ng tomoni, old tomoni; yuza, bet, sath

obviate [ˈɒbvɪeɪt] *v* 1) qochmoq; 2) o'zini chetga olmoq, o'zini olib qochmoq; 3) bo'yin tovlamoq, chap bermoq; 4) chetlatmoq, chetlashtirmoq; 5) qutulmoq, xalos (ozod) bo'lmoq (*xatar va b. dan*)

obvious [ˈɒbvɪəs] *a* ko'rinib turgan, aniq, ravshan, ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, oshkora, shak-shubhasiz; **for an ~ reason** juda tushunarli sababga ko'ra (asosan)

obviously [ˈɒbvɪəsh] *adv* aniq, ravshan, shubhasiz

ocarina [ˌɒkə´ri:nə] *n mus.* okarina

occasion [ə´keɪʒ(ə)n] *n* qulay fursat (payt, vaqt), imkon, imkoniyat; **to choose one's ~** qulay fursatni tanlamoq; **on ~** kerak bo'lganda; **to give ~ to** asos bo'lib xizmat qilmoq

occasional [ə´keɪʒ(ə)nəl] *a* tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy

occasionalism [ə´keɪʒ(ə)nəlɪz(ə)m] *n fals.* okkazionalizm (*XVII asr Yevropa falsafasidagi idealistik yo'nalish*)

occasionally [ə´keɪʒ(ə)nəlɪ] *adv* ahyon-ahyonda, onda-sonda, goh-goh, orasira, ba'zan

Occident [ˈɒksɪd(ə)nt] *n* G'arb (*G'arbiy Yevropa mamlakatlari*)

Occidental [ˌɒksɪ´dent(ə)l] **1.** *a* g'arbiy, g'arbdagi, g'arb tomondagi, g'arb...; **2.** *n* g'arbda yashovchi odam

Occidentalism [ˌɒksɪ´dentəlɪz(ə)m] *n* g'arb mamlakatlarida yashovchi xalqlarning (urf-odat, rasm-rusum) taomillari

occipital [ɒk´sɪpɪtl] *a anat.* ensaga oid, ensa..., gardan...

occiput [ˈɒksɪpət] *n anat.* ensa, gardan

occlude [ə´klu:d] *v* (*tuynuk, o'tish joyi va b. ni*) to'smoq, to'sib qo'ymoq, bekitib qo'ymoq, yopib qo'ymoq

occlusion [ə´klu:ʒ(ə)n] *n* 1) to'siq, g'ov; 2) to'sish, to'sib qo'yish, g'ov solish

occult [´ɒkʌlt] **1.** *a* yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan; **2.** *v astr.* to'smoq, bekitmoq, panalamoq, pana qilmoq

occultism [´ɒkʌltɪz(ə)m] *n* okkultizm (*duoxonlik, issiq-sovuq, afsun kabi xurofotlarga ishontiruvchi mistik ta'limotlarning umumiy nomi*)

occupancy [ˈɒkjʊpənsɪ] *n* 1) ish, hunar, kasb; mashg'ulot; 2) egallash, egallab olish, qo'lga kiritish

occupant [ˈɒkjʊpənt] *n* 1) istiqomat qiluvchi, yashovchi, turuvchi; 2) ijarachi

occupation [ˌɒkjʊ´peɪʃ(ə)n] *n* 1) egallash, bosib olish; **~ bridge** xususiy ko'prik; 2) kasb

occupational [ˌɒkjʊ´peɪʃ(ə)nəl] *a* kasbga oid; kasb bilan bog'liq, kasbiy, kasb...

occupied [ˈɒkjʊpaɪd] *a* band, mashg'ul

occupier [ˈɒkjʊpaɪə] *n* 1) ijaraga oluvchi, ijarachi; 2) vaqtinchalik egalik qilish; 3) istiqomat qiluvchi, yashovchi kishi

occupy [ˈɒkjʊpaɪ] *v* 1) egallamoq, bosib olmoq, zabt etmoq; 2) ijaraga olmoq

occur [ə´kɜ:] *v* 1) sodir bo'lmoq, yuz bermoq; **to ~ again** takrorlanmoq; 2) uchramoq, ilinmoq; 2) esga kelmoq; **it ~ed to me** miyamga keldi

occurrence [ə´kʌrəns] *n* 1) hodisa, voqea, mojaro; **an everyday ~** oddiy voqea (hodisa); **a strange ~** g'alati voqea (hodisa); 2) turgan joyi, o'rni; 3) *geol.* kon

ocean [ˈəʊʃ(ə)n] *n* 1) okean; **~ lane** okean yo'li; 2) keng joy; 3) *so'zl.* katta miqdor; 4) *attr.* okeanga oid

ocean-going [ˈəʊʃ(ə)nˌgəʊɪŋ] *a* okeanda (bo'lgan) bo'ladigan (*paroxod to'g'risida*)

Oceanian [ˌəʊʃɪ´eɪnɪən] **1.** *a* Okeaniyaga taalluqli bo'lgan; **2.** *n* Okeaniya aholisi, Okeaniyada yashovchi kishi

oceanic [ˌəʊʃɪ´ænɪk] *a* okeanga oid, okeanda bo'ladigan, okean

oceanography [ˌəʊʃən´ɒgrəfɪ] *n* okeanshunoslik

ocelot [ˈɒsɪlɒt] *n zool.* otselot (*Janubiy Amerikada bo'ladigan yirik yovvoyi mushuk*)
ochre [ˈəʊkə] *n* oxra (*sariq yoki qizil tusli mineral bo'yoq*)
o'clock [əˈklɒk] *n* soat; **at five ~** soat beshda; **it is two ~** soat ikki
octa- [ˈɒktə-] *n pref.* sakkiz
octagon [ˈɒktəgən] *n* sakkiz burchak
octagonal [ɒkˈtægən(ə)l] *a* sakkiz burchakli
octahedral [ˌɒktəˈhi:drəl] *a* sakkiz yoqli, sakkiz qirrali
octahedron [ˌɒktəˈhi:drən] *n* sakkiz yoqlik
octal [ˈɒkt(ə)l] *a* sakkiz yoqli, sakkiz qirrali
octane [ˈɒkteɪn] *n kim.* oktan
octangular [ɒkˈtæŋgjələ] = **octagonal**
octant [ˈɒktənt] *n* oktant (*burchak o'lchaydigan asbob*)
octarchy [ˈɒktɑ:kɪ] *n* oktarxiya (*sakkiz kishidan iborat bo'lgan jamoa*)
octave [ˈɒkɪ(e)ɪv] *n* 1) *mus.* juda past yo'g'on ovoz; 2) *adab.* sakkiz misrali she'riy shakl
octavo [ɒkˈteɪvəʊ] *n* 1/8 hajmli qog'ozdan qilingan kitob
octennial [ɒkˈtenɪəl] *a* 1) sakkiz yillik; 2) sakkiz yilda bir marta bo'ladigan
octet(te) [ɒkˈtet] *n* 1) sonetning avvalgi sakkiz qatori (*sonet – ikkita 4 satrli va ikkita 3 satrli she'rlardan iborat 14 misrali she'r*); 2) *mus.* oktet (*1. sakkiz asbob yoki sakkiz ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. sakkiz sozanda yoki xonandadan tuzilgan ansambl*)
octillion [ɒkˈtɪljən] *n mat.* sakkiz darajasidagi million (*48 ta noldan iborat bo'lgan birliklar*)
October [ɒkˈtəʊbə] *n* 1) oktabr; 2) *attr.* oktabr oyida bo'lgan
octodecimo [ˌɒktəʊ ˈdesɪməʊ] *n* 1/18 hajmli kitob varag'i
octogenarian [ˌɒktəʊdʒɪ ˈne(ə)rɪən] *a* sakson yoshli, sakson yashar
octonarian [ˌɒktə ˈne(ə)rɪən] *a pros.* 1) sakkiz turoqli; 2) sakkiz turoqli she'r
octopus [ˈɒktəpəs] *n zool.* sakkizoyoq (*dengiz hayvoni*)
octoroon [ˈɒktəru:n] *n* rangli, rangdor, turli rangdagi
octosyllabic [ˌɒktə(ʊ)sɪˈlæbɪk] **1.** *a* sakkiz bo'g'inli; **2.** *n* sakkiz bo'g'inli she'r
octosyllable [ˈɒktə(ʊ),sɪləb(ə)l] *n* sakkiz bo'g'inli so'z
octuple [ˈɒktjʊp(ə)l] *a* sakkiz marta, sakkiz karra, sakkiz bor
ocular [ˈɒkjələ] **1.** *n* ko'zga oid, ko'z...; **2.** *n* okular (*optik asbobning ko'zga tutib qaraladigan tomondagi shishasi*)
oculist [ˈɒkjʊlɪst] *n* okulist, ko'z doktori
odalisque [ˈəʊdəlɪsk] *n* 1) kanizak, haramxona cho'risi; 2) haramdagi nikohsiz xotin; o'ynash
odd [ɒd] *a* 1) toq, juft emas; **~ members** toq sonlar; 2) ortiqcha (*summa yoki miqdordan*); **the ~ money** qaytim; 3) tasodifiy, doimiy emas; **at ~ hours** bo'sh vaqtlarda
odd-come-short [ˌɒdkʌmˈʃɔ:t] *n* 1) qoldiq, qolgan, ortgan narsa; 2) *pl* eskituski narsalar, lash-lush, latta-putta
odd-come-shortly [ˌɒdkʌmˈʃɔ:tlɪ] *n* tez kunda
Oddfellow [ˈɒd,feləʊ] *n* maxfiy ittifoq (birlik) a'zosi
oddish [ˈɒdɪʃ] *a* 1) ajib, ajoyib; 2) tabiati qiziqroq, g'alatiroq, tentaksimon; 3) juda g'alati; g'ayriodatiy
oddity [ˈɒdɪtɪ] *n* qiziqlik, g'alatilik, g'alati narsa
oddly [ˈɒdlɪ] *adv* 1) qiziq, g'alati; 2) kishini ajablantiradigan bir tarzda
oddments [ˈɒdmənts] *n pl* qoldiqlar, ortib qolgan narsalar
odds [ɒdz] *n pl* (*odatda,* **sing** *dek ishlatiladi*) 1) tengsizlik, baravar (teng, birdek) emaslik; 2) tafovut, farq; 3) imkoniyatlar; **short ~** deyarli teng imkoniyatlar
odds and ends [ˌɒdzənd ˈendz] *pl n* eskituski, lash-lush, latta-putta
ode [əʊd] *n adab.* qasida
odea [əʊˈdi:ə] *pl of* **odeum**
odeum [əʊˈdi:əm, ˈəʊdɪəm] *n* (*pl* **-s** [-z], **odea**) konsert zali, tomosha zali
Odin [ˈəʊdɪn] *n skand. mif.* Odin
odious [ˈəʊdɪəs] *a* jirkanch, nafratni keltiradigan, yaramas, razil, qabih
odium [ˈəʊdɪəm] *n* 1) nafrat, nafrat bilan qarash, dushmanlik, jirkanish; 2) uyat, sharmandalik, isnod; **to bear the ~ of** ... isnod keltirmoq
odometer [əʊˈdɒmɪtə] *n* odometr (*o'tilgan masofani, aylanishlar sonini ko'rsatadigan asbob*)
odontic [əʊ ˈdɒntɪk] *a tib.* tishga oid, tish...
odontoid [əʊˈdɒntɔɪd] *a tib.* tishga o'xshagan, tish shaklidagi
odontology [ˌɒdɒnˈtɒlədʒɪ] *n tib.* odontologiya (*tish, uning kasalliklari va ularni davolash haqidagi fan*)
odor [ˈəʊdə] *amer.* = **odour**
odoriferous [ˌəʊdəˈrɪf(ə)rəs] *a* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar
odorous [ˈəʊd(ə)rəs] = **odoriferous**
odour [ˈəʊdə] *n* 1) hid, bo'y, is; 2) muattar hid, xushbo'y is; 3) obro', e'tibor, shuhrat, dong, nom; **good ~** iltifot, lutf, yaxshilik, mehr, marhamat; **bad (ill) ~** birovni yoqtirmay qolish, xush ko'rmaslik
odourless [ˈəʊdələs] *a* 1) hidsiz, hidi yo'q; 2) hid (is) chiqarmaydigan
Odysseus [əˈdɪsɪəs] *n grek. afs.* Odissey (*Gomer poemasi*)
Odyssey [ˈɒdɪsɪ] *n* odisseya
oecumenic(al) [ˌekjʊˈmenɪk(əl)] *a* 1) *kit.* dunyo (*jahon*) miqyosidagi; 2) *cherk.* butun dunyo...; butun jahon...; **~ council** *din.* dunyo xristianlarining yig'ini (*IV – XIX asrlarda*)
oedema [ɪˈdi:mə] *n* (*pl* **-ata**) *tib.* shish; shishgan (kerkkan, solqigan) joy
oedemata [ɪˈdi:mətə] *pl of* **oedema**
Oedipus [ˈi:dɪpəs] *n grek. afs.* Edip
o'er [ɔ:,ˈəʊə] = **over**
oersted [ˈɜ:stəd] *n fiz.* ersted (*magnit maydoni kuchlanishining absolut o'lchov birligi*)
oesophagus [i:ˈsɒfəgəs] *n* (*pl* **-gi, -es** [-ɪz] *anat.* qizilo'ngach (*og'iz bo'shlig'i bilan oshqozonni tutashtiruvchi naysimon ovqat yo'li*)
oestrum, oestrus [ˈi:strəm, ˈi:strəs] *n* 1) so'na; 2) ichki turtki; 3) zo'r istak (ishtiyoq)
of [ɒv] **1)** (*to'liq shakli*); [əv] (*qisqartirilgan shakli*) *prep.* tegishlilikni yoki qarashlilikni bildiradi; **Tashkent is the capital ~ Uzbekistan** Toshkent – O'zbekistonning poytaxti; 2) **a)** (*sababni bildiradi*)gan; **to die ~ pneumonia** o'pka yallig'lanishi (zotiljam)dan o'lmoq; b) (*masofani bildiradi*); **within 5 miles of Tashkent** Toshkentdan besh mil uzoqda; d) (*yo'nalishni bildiradi*); **north ~ Tashkent** Toshkentning shimol tomonida; e) (*xalos, ozod bo'lish, qutulishni bildiradi*); **to cure ~ a disease** davolamoq, sog'aytirmoq, davolab tuzatmoq, kasallikdan qutqarmoq; 3) haqida, to'g'risida; **to think ~ one's friends** o'z do'stlari haqida o'ylamoq; 4) (*narsaning qandaydir materialdan qilinganligini bildiradi*) **houses ~ bricks** g'ishtli uylar; 5) *vaqtni ko'rsatadi; ~* **late** so'nggi paytlarda; **~ old** anchadan (ko'pdan, allaqachonlardan) beri; **~ an evening** kechki paytda
off [ɒf] **1.** *adv* 1) uzoqlashish *yoki* ketishni, qutulishni ifodalaydi; **to be ~** jo'namoq; **get ~ with you!** yo'qol! ket! daf bo'l!; **his hat is ~** uning shlapasi uchib ketdi; **to break ~** gapni bo'lib qo'ymoq; **to cut ~ the water** suvni o'chirmoq; **to pay ~** (*oxirigacha*) to'lamoq; **to drink ~** (*oxirigacha*) ichmoq; **to polish ~** sayqal berib yaltiratmoq; **2.** *v* (*muloqotni*) to'xtatmoq

offal [ˊɒf(ə)l] *n* 1) ichak-chovoq (*so'yilgan hayvonlarning qorin, ichak va sh. k. lari*); 2) kalla-pocha

off-balance [ˌɒfˊbæləns] *a* 1) yengil, fe'li yomon, betayin, bekorga (salga) lovullab ketadigan; 2) muvozanatni yo'qotgan

off-beat [ˌɒfˊbi:t] *a so'zl.* odatlanilmagan, o'rganilmagan

offcast [ˊɒfkɑ:st] **1.** *a* rad qilingan, qaytarilgan, qabul qilinmagan; **2.** *n* xo'rlangan (tahqirlangan) odam

off-chance [ˊɒftʃɑ:ns] *n* juda oz (kam) imkoniyat

off colour [ˌɒfˊkʌlə] *a* 1) g'ayrioddiy o'zgacha rangda; 2) o'zgacha, nosog'lom ko'rinishdagi

off-day [ˊɒfdeɪ] *n* muvaffaqiyatsiz kun, omadsiz kun .

offence [əˊfens] *n* 1) nohaq gapdan, ishdan yetgan ozor, ranj, ranj-alam, xafalik, dilsiyohlik, xafagarchilik; 2) xato, ayb, nojo'ya ish, noo'rin xatti-harakat

offend [əˊfend] *v* 1) xafa qilmoq, haqorat qilmoq; ranjitmoq; 2) qonunni buzmoq

offender [əˊfendə] *n* 1) jinoyatchi, jinoyat qiluvchi; **first ~** birinchi marta sudlanayotgan jinoyatchi; **juvenile ~** kichik yoshdagi jinoyatchi; **old ~** ko'p marta jinoyat qilgan kishi, ashaddiy jinoyatchi; 2) dilozor, jafokor, kimsani xafa qilgan, ranjitgan odam

offensive [əˊfensɪv] *a* 1) hujumkor, hujum bilan olib boriladigan; 2) bosqinchilikka asoslangan

offer [ˊɒfə] **1.** *v* 1) taklif qilmoq, taqdim qilmoq; **to ~ an opinion** o'zining fikrini aytmoq; 2) harakat qilib (urinib) ko'rmoq; **to ~ resistance** qarshilik ko'rsatmoq; **2.** *n* taklif, taqdim

offering [ˊɒf(ə)rɪŋ] *a* taklif, taqdim

offertory [ˊɒfət(ə)rɪ] *n* cherkov xizmatida qilinadigan xayr-ehson, sadaqa

off-hand, offhand [ˌɒfˊhænd] **1.** *a* 1) tayyorgarliksiz (ijro paytida) aytilgan; 2) tortinib o'tirmaydigan, takallufni bilmaydigan, takallufsiz, betakalluf; **an ~ manner** tortinib o'tirmaydigan odat; **2.** *adv* tortinmasdan, surbetlik bilan, uyalmay

offhanded [ˌɒfˊhændɪd] = **off-hand** 1

offhandedly [ˌɒfˊhændɪdlɪ] *adv* 1) beparvolik bilan, e'tiborsizlik bilan; 2) andisha qilib o'tirmasdan

off-hour [ˌɒfˊaʊə] *a* darsdan tashqari, ishdan bo'sh vaqtlarda, bo'sh soatda

office [ˊɒfɪs] *n* 1) idora; ishxona, muassasa; 2) xizmat, vazifa; **an ~ under Government** Davlat xizmatidagi vazifa; **to leave ~** mansabdan ketmoq; **at an ~** ofisda

office-bearer [ˊɒfɪsˌbe(ə)rə] *n* amaldor, mansabdor

office-boy [ˊɒfɪsbɔɪ] *n* xat-hujjat tashuvchi xodim

office-copy [ˊɒfɪsˌkɒpɪ] *n* tasdiqlangan hujjat nusxasi

office-holder [ˊɒfɪsˌhəʊldə] = **office-bearer**

officer [ˊɒfɪsə] *n* 1) amaldor; **the ~ of the court** sud ijrochisi (*sud hukmini ijro varaqasi asosida amalga oshiruvchi xodim*); 2) hukumat xizmatchisi; 3) politsiyachi, mirshab; 4) mas'ul shaxs; 5) ofitser, zobit

office seeker [ˊɒfɪsˌsi:kə] *n* lavozimga da'vogar

office studies [ˊɒfɪsˌstʌdɪz] *n pl geol.* kabinet *yoki* laboratoriyada ishlab chiqish

official [əˊfɪʃ(ə)l] *n* 1) rasmiy; **an ~ representative** rasmiy vakil; 2) xizmat (ish) bilan bog'liq bo'lgan; xizmat bilan belgilangan; **~ duties** ish (xizmat) vazifalari

officialdom [əˊfɪʃ(ə)ldəm] *n* 1) amaldorlik, mansabdorlik; 2) qog'ozbozlik, rasmiyatchilik

officialese [əˌfɪʃ(ə)ˊli:z] *n* rasmiy hujjat uslubi

officialism [əˊfɪʃəlɪz(ə)m] *n* amaldorlarga xos mag'rurlik

officialize [əˊfɪʃ(ə)laɪz] *v* rasmiyatchi xodim yordami bilan boshqarmoq

officially [əˊfɪʃ(ə)lɪ] *adv* rasmiy ravishda, rasmiy yo'l bilan, rasman, rasmiyatchilik bilan

officiant [əˊfɪʃɪənt] *n* ibodat qiluvchi ruhoniy, kashish, pop

officiary [əˊfɪʃərɪ] *a* vazifa (mansab) bilan bog'liq bo'lgan

officiate [əˊfɪʃɪeɪt] *v* 1) burchni (vazifani) bajarmoq; 2) ibodat qilmoq

officinal [ˌɒfɪˊsaɪnəl] *a* dorivor (*o'simlik to'g'risida*)

officious [əˊfɪʃəs] *a* jonga tegadigan, bezor qiladigan; xira, shilqim, birovning ishiga aralashib yuradigan

offing [ˊɒfɪŋ] *n* dengiz bo'yi, dengiz qirg'og'i; **in the ~** qirg'oq yaqinida; **to gain (to get) an ~** imkoniyatga ega bo'lmoq

offish [ˊɒfɪʃ] *a* o'zini tutib tura oladigan, o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq

off-key [ˌɒfˊki:] *a* 1) yasama, soxta (*ovoz*); 2) sun'iy, g'ayritabiiy

off-licence [ˊɒfˌlaɪs(ə)ns] *n* olib ketish uchun spirtli ichimliklar sotiladigan bar

off-limits [ˌɒfˊlɪmɪts] *n* „kirish man etiladi" (*yozuv*)

off-load [ˌɒfˊləʊd] *v* yukni tushirmoq, yukdan bo'shatmoq

off-peak [ˌɒf ˊpi:k] *a* mushkul, qiyin, og'ir, tig'iz, shoshilinch bo'lmagan; **~ hours** jimjitlik, (tinchlik, sokinlik, sukunat) damlar

off-position [ˊɒfpəˌzɪʃ(ə)n] *n tex.* o'chirilgan holat

off-print [ˊɒfprɪnt] *n* bosilgan maqolaning alohida nusxasi

offreckoning [ˊɒfˌrekənɪŋ] *n* (*odatda, pl*) ushlab qolingan pul, chegirma

offscourings [ˊɒfˌskaʊ(ə)rɪŋz] *n* tashlandiq, chiqit, quyqa, qoldiq, yuvindi

offscreen [ˌɒfˊskri:n] *a* 1) *kino.* kadr orqasidan eshitiladigan (aytiladigan), kadrga kirmaydigan; 2) yashirin, maxfiy, pinhoniy

offset [ˊɒfset] **1.** *n* novda, shox; **2.** *v* zarari qoplamoq, o'rnini to'ldirmoq, to'lamoq, badalini bermoq; **to ~ the illegalities** g'ayriqonuniy harakatlarga qarshi turmoq

offshoot [ˊɒfʃu:t] *n* yonidan o'sib chiqqan shox, novda, butoq

off-shore [ˌɒfˊʃɔ:] **1.** *adv* ochiq dengizda; **2.** *a* dengiz qirg'og'i tomondan harakat qilib borayotgan; **an ~ wind** qirg'oqdan kelayotgan (esayotgan) shamol

off side [ˌɒfˊsaɪd] *n* o'yindan tashqari holat

offspring [ˊɒfˌsprɪŋ] *n* avlod, nasl, urug', zurriyot, zot, bola, farzand

off-stage [ˌɒfˊsteɪdʒ] *a* 1) *teatr.* parda (sahna) orqasidagi; 2) yashirin, maxfiy, pinhoniy, sir tutilgan

off-street [ˊɒfstri:t] *a* asosiy yo'lda emas, (markaziy) yo'ldan chetda joylashgan

off-the-cuff [ˌɒfðəˊkʌf] *a* tayyorgarlik ko'rmagan, maxsus tayyorlanmagan (*nutq, gap, bayonot, chiqish va b.*)

off-the-shelf [ˌɒfðəˊʃelf] *a* tayyor, tayyorlangan, tayyor tikilgan

off-white [ˌɒfˊwaɪt] *a* juda oq emas (*rang to'g'risida*)

off-year [ˌɒfˊjɪə] *n* prezidentlikka *yoki* umuman, saylov o'tkazilmaydigan yil

oft [ɒft] *adv* tez-tez, ketma-ket; **many a time and ~** bir necha marta, takrortakror, qayta-qayta; **~-recurring** tez-tez takrorlanib turadigan; **~-told** tez-tez (ko'p marta) so'zlab berilgan

often [ˊɒf(t)ən] *adv* ko'p, ko'plab, tez-tez, ko'pincha, ketma-ket

oftentimes [ˊɒf(t)əntaɪmz] = **often**

oft-times [ˊɒfttaɪmz] = **oftentimes**

ogam [ˊɒgəm] = **ogham**

ogee [ˊəʊdʒi:] *n* 1) burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbati; 2) *me'mor.* gumbazning uchi; **an ~ arch** ikki nishabli uchli ravoq

ogham [ˊɒgəm] *n* 1) Qadimiy Irlandiya alifbosi (ogam); 2) shu alifbodagi harf *yoki* qo'lyozma

ogive [ˈəʊdʒaɪv] *a me'mor.* uchli gumbaz; uchi strelkasimon gumbaz
ogle [ˈəʊg(ə)l] **1.** *n* oshiqona qarash, sevinchli nigoh; **2.** *v* yoqimli qaramoq
ogre [ˈəʊgə] *n* juda katta yovuz (qonxo'r) maxluq
ogress [ˈəʊgrɪs] *n* juda (katta) yovuz, odamxo'r maxluq (*ayol jinsidagi*)
oh [əʊ] *int.* 1) (*gapda ifodalangan his-tuyg'uni kuchaytirish uchun ishlatiladi*) e, ey, o, oh; 2) (*tasdiq yoki inkor ma'nosini kuchaytirish uchun ishlatiladi*) e, ey, ha; 3) (*dard, alam, tashvish, achinish va shu kabi ma'nolarni bildiradi*) voy, oh, evoh, bay-bay, hayhot
ohm [əʊm] *n el.* om (*elektr qarshiligining o'lchov birligi*)
oho [əʊ ˈhəʊ] *int.* o'ho', aha, eh-ha, ho'h-ho', oho
oil [ɔɪl] **1.** *n* 1) moy, yog'; 2) neft; 3) o'simlik moyi; **2.** *v* moylamoq, yog' surtmoq; **to ~ one's hand** pora bermoq
oil-bearing [ˈɔɪl,be(ə)rɪŋ] *a* neftga boy, neftli
oilcake [ˈɔɪlkeɪk] *n* kunjara
oilcan [ˈɔɪlkæn] *n tex.* qo'lda olib yuriladigan moy idishi
oil-car [ˈɔɪlkɑ:] *n tem. y.* sisterna (*suyuqliklar tashiladigan katta idish o'rnatilgan vagon*)
oilcloth [ˈɔɪlklɒθ] *n* 1) kleyonka (*bir yoki har ikki tomoni suv o'tkazmaydigan modda bilan qoplangan mato*); 2) linoleum (*nam o'tkazmaydigan, polga qoplangan qalin material*)
oil-coat [ˈɔɪlkəʊt] *n* yomg'ir o'tkazmaydigan ust kiyim, plash
oil-colour [ˈɔɪl,kʌlə] *n* moy bo'yoq
oil-derrick [ˈɔɪl,derɪk] *n* neft vishkasi (minorasi)
oiled [ɔɪld] *a* moylangan, yog'langan
oil-engine [ˈɔɪl,endʒɪn] *n tex.* neft bilan ishlaydigan dvigatel
oiler [ˈɔɪlə] *n* 1) moylovchi, yog'lovchi kishi; 2) moy sotuvchi
oil-field [ˈɔɪlfi:ld] *n* 1) neft koni; 2) neft manbayi
oil-filler [ˈɔɪl,fɪlə] *n tex.* yog' (moy) quyadigan quvurcha
oil-fuel [ˈɔɪlfjʊəl] *n* suyuq yoqilg'i (*nefti, kerosin va sh. k.*)
oil-gland [ˈɔɪlglænd] *n anat.* yog' bezlari
oil-hole [ˈɔɪlhəʊl] *n tex.* moylaydigan, yog'laydigan teshik
oilman [ˈɔɪlmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) moylovchi, yog'lovchi ishchi; 2) *amer.* neft konlari xo'jayini; neft sanoati xodimi, ishchisi
oil-meal [ˈɔɪlmi:l] = **oilcake**
oil-paint [ˈɔɪlpeɪnt] = **oil-colour**
oil-painting [ˈɔɪl,peɪntɪŋ] *n* moybo'yoq bilan chizilgan rasm
oil-paper [ˈɔɪl,peɪpə] *n* mumlangan qog'oz
oilplant [ˈɔɪlplɑ:nt] *n* yog' (moy) beradigan o'simlik
oil-press [ˈɔɪlpres] *n* yog' (moy) ishlab chiqaradigan uskuna
oil-producing [ˌɔɪlprə ˈdju:sɪŋ] *a* neft ishlab chiqaradigan
oil seal [ˈɔɪlsi:l] *n tex.* salnik (*tirqishlarni berkitib turuvchi detal; qoplama*)
oilskin [ˈɔɪl,skɪn] *n* yupqa kleyonka
oil-stained [ˌɔɪl ˈsteɪnd] *a* neft quyilgan (shimdirilgan); neft bilan to'yintirilgan
oil-stone [ˈɔɪlstəʊn] *n* qayroqtosh
oil-tanker [ˈɔɪl,tæŋkə] *n* tanker (*suyuq va yarim suyuq mahsulotlar tashiladigan kema*)
oil-well [ˈɔɪlwel] *n* neft qudug'i
oily [ˈɔɪlɪ] *a* 1) yog'ga (moyga) oid, yog'li; moyli, yog'..., moy...; seryog', yog'i ko'p; 2) xushomadgo'y, laganbardor
ointment [ˈɔɪntmənt] *n* 1) maz, malham dori; 2) surtiladigan pardoz mollari, upa-eliklar, surtmalar
O.K., OK [əʊ ˈkeɪ] **1.** *n* 1) ma'qullash, ma'qul topish; 2) yaxshi, bo'pti, tushunarli, ma'qul; **2.** *a predic.* hammasi joyida, yaxshi, to'g'ri, ma'qul, xo'p, bo'pti
okay [əʊ ˈkeɪ] = **O.K.**
Okie [ˈəʊkɪ] *n amer.* olamni kezuvchi (yurtma-yurt yuruvchi) qishloq xo'jaligi ishchisi (*Oklaxoma shtatida*)
okie dokey [ˌəʊkɪ ˈdəʊkɪ] *amer. int.* yaxshi, xo'p, bo'pti, bo'ladi, ma'qul
old [əʊld] *a* (**older, elder; oldest, eldest**) qari, sobiq; eski: **an ~ man** chol; **an ~ woman** kampir; **~ness** eskilik; **~ people** qariyalar (chollar, kampirlar); **an ~ age** keksalik, qarilik; **to grow ~** qarimoq, keksaymoq, qarib (keksayib) qolmoq; **~ as the hills** almisoqdan qolgan, juda eski (qadimgi); **an ~ head on young shoulders** aql yoshda emas, boshda; **she is twenty years ~** u yigirma yoshda, uning yoshi yigirmada; **an ~ family** qadimgi urug' (*avlod*); **of the ~ school** eski modadagi, modadan qolgan; **an ~ boy** 1) maktabning sobiq o'quvchisi; 2) birodar, do'stim, og'ayni; **~ thing** 1) jonim, jonginam, azizim; 2) o'rtoq, o'rtoqjon; **to have a rare ~ time** *so'zl.* yaxshigina xursandchilik (vaqtichog'-lik) qilmoq; **the ~ country** vatan, diyor; **of the ~** avval (oldin, burun, ilgari)gi vaqtlarda; **from of the ~** qadimdan, azaldan; ko'pdan (qadim zamonlardan) beri; **in the days of the ~** qadimda, qadim zamonlarda; **men of the ~** qadimgi (qadim zamondagi) odamlar
old-age [ˌəʊld ˈeɪdʒ] *a* keksalarga xos bo'lgan, qarigandagi; keksalarcha; **~ pension** qarilik nafaqasi
old-clothes shop [ˌəʊld ˈkləʊðzʃɒp] *n* eski kiyimlar do'koni
olden [ˈəʊld(ə)n] **1.** *a esk.* 1) eski, ko'hna; qari; 2) o'tmish, o'tmishdagi (juda ilgarigi) davr; **2.** *v* qarimoq, keksaymoq
older [ˈəʊldə] *a* katta, kattaroq, to'ng'ich
old-established [ˌəʊldɪˈstæblɪʃt] *a* eski, ancha oldin (burun) yuzaga kelgan, anchadan beri mavjud bo'lgan
old-fangled [ˌəʊld ˈfæŋg(ə)ld] = **old-fashioned**
old-fashioned [ˌəʊldˈfæʃ(ə)nd] *a* 1) eski, eskirgan, modadan qolgan, eski modadagi; 2) qadimgi, qadimiy, qadimdan (qadimgi zamondan) qolgan, antiqiy
Old Glory [ˌəʊld ˈglɔ:rɪ] *n* AQSHning davlat bayrog'i
old-gold [ˌəʊldˈgəʊld] *a* eski oltin rangidagi
old-hat [ˌəʊldˈhæt] *a* eski, eskirgan, eskirib qolgan
oldish [ˈəʊldɪʃ] *a* eskiga o'xshagan
old-maidish [ˌəʊld ˈmeɪdɪʃ] *a* qariqizlarcha, qariqizlardek
old man's beard [ˌəʊldmænz ˈbɪəd] *n bot.* tok bargiga o'xshagan ilono't, ilonpechak
oldster [ˈəʊldstə] *n* yoshi ulug', keksa odam, yoshi qaytgan odam
old-time [ˈəʊldtaɪm] *a* qadimgi, qadimiy, qadimgi zamondan qolgan, oldingi davrdagi
old-timer [ˌəʊldˈtaɪmə] *n* 1) biror yerda ko'p vaqtdan beri yashovchi odam; 2) biror sohada ko'p xizmat qilgan xodim
Old World [ˌəʊldˈwɜ:ld] *n* ko'hna olam; sharqiy yarim shar
old-world [ˈəʊldwɜ:ld] *a* 1) qadimgi, qadimiy, qadimga oid; 2) *amer.* ko'hna
oleaginous [ˌəʊlɪˈædʒɪnəs] *a* 1) yog'li, seryog', yog'i ko'p, sermoy; 2) tilyog'lamalik bilan aytilgan, xushomadli
oleander [ˌəʊlɪˈændə] *n bot.* sambitgul (*sambitsimon doim yashil dekorativ o'simlik*)
oleaster [ˌɒlˈæstə] *n bot.* yovvoyi zaytun (*daraxti va mevasi*)
oleograph [ˈəʊlɪəgrɑ:f] *n* oleografiya (*1. moybo'yoq bilan ishlangan rasmlardan ko'plab nusxa chop qilish usuli; 2. shu usulda bosilgan rasm*)
oleomargarine [ˌəʊlɪə(ʊ),mɑ:dʒəˈri:n] *n* oleomargarin
olericulture [əʊˈlerɪ,kʌltʃə] *n* sabzavotkorlik, polizchilik, poliz ekinlarini yetishtirish
oleum [ˈəʊlɪəm] *n kim.* oleum
olfactory [ɒlˈfækt(ə)rɪ] *a* hid sezishga, isni bilishga oid, hid sezuvchi; **an ~ organ** hid sezuvchi a'zo (burun)

olid [ˈɒlɪd] *a* hidi yomon, sassiq, qo'lansa, badbo'y

oligarch [ˈɒlɪgɑ:k] *n* oligarx (*oligarxiyaga mansub kishi*)

oligarchic(al) [ˌɒlɪˈgɑ:kɪk(əl)] *a* oligarxiyaga oid, oligarxiya asosidagi

oligarchy [ˈɒlɪgɑ:kɪ] *n* oligarxiya (*1. Yunonistonda: hokimiyat bir to'da qudratli kishilar, aristokratlar qo'lida bo'lgan tuzum va shu to'daning o'zi; 2. ko'ch. bir to'da imperialistlarning, yirik monopolistik kapital vakillarining siyosiy va iqtisodiy hukmronligi*)

olio [ˈəʊlɪəʊ] *n mus.* 1) popuri (*turli musiqa asarlaridan olib tuzilgan terma musiqa asari*); 2) *so'zl.* har xil narsalar, odamlarda bor narsalar

olivaceous [ˌɒlɪ ˈveɪʃəs] *a* 1) zaytunga oid, zaytun rangidagi; 2) och jigarrang, och sariq

olivary [ˈɒlɪv(ə)rɪ] *a anat.* cho'ziq

olive [ˈɒlɪv] *n bot.* zaytun (*daraxti va mevasi*)

olive-branch [ˈɒlɪvbrɑ:ntʃ] *n* zaytun novdasi (*tinchlik ramzi sifatida e'tirof etilgan*); **to hold out the ~** tinchlik taklifini kiritmoq

olive oil [ˈɒlɪvɔɪl] *n* zaytun moyi

olive-tree [ˈɒlɪvtri:] *n* zaytun daraxti

olive-wood [ˈɒlɪvwʊd] *n* zaytunzor

ology [ˈɒlədʒɪ] *n* (*odat., pl*) ilm, fan

Olympiad [ə ˈlɪmpɪæd] *n* olimpiada (*1. Yunonistonda: olimpiada o'yinlari orasidagi to'rt yillik vaqt o'lchovi; 2. har to'rt yilda o'tadigan xalqaro sport musobaqalari*)

Olympian [ə ˈlɪmpɪən] **1.** *a* 1) Olimpga oid; olimpda yashovchi; 2) ulug'vor, marhamatli; **2.** *n* greklar xudosi

Olympic [ə ˈlɪmpɪk] *a* Olimpga oid, olimpda yashovchi

Olympic-games [əˌlɪmpɪk ˈgeɪmz] *n pl* olimpiada o'yinlari

Olympus [ə ˈlɪmpəs] *n grek. afs.* Olimp (*yunon afsonalarida xudolar makoni, xudolar majlisi*)

ombre [ˈɒmbə] *n* tomber (*qarta o'yinlarining bir turi*)

ombrometer [ɒm ˈbrɒmɪtə] *n* yomg'ir o'lchagich, pluviometr

ombudsman [ˈɒmbʊdzmən] *n* davlat ishchi-xodimlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqadigan amaldor shaxs

omega [ˈəʊmɪgə] *n* 1) omega (*grek alifbosining so'nggi harfi*); 2) oxiri, tugashi, intihosi

omelet(te) [ˈɒmlɪt] *n* quymoq, qovurilgan tuxum, tuxum quymoq; **savoury ~** xushbo'y ko'katlar solib qilingan quymoq; **sweet ~** murabboli quymoq

omen [ˈəʊmen] **1.** *n* belgi, alomat, nishona, nishon, tarng'a; **to be of good ~** yaxshilik alomati (belgisi) bo'lib xizmat qilmoq; **to be of bad ~** yomonlik alomati (belgisi) bo'lib xizmat qilmoq; **2.** *v* 1) tarng'alamoq; 2) belgi qo'ymoq

ominous [ˈɒmɪnəs] *a* dahshatli, vahimali, xatarli, xavfli

omissible [ə(ʊ) ˈmɪsɪb(ə)l] *a* unchalik ahamiyatli (muhim) bo'lmagan, ikkinchi darajali

omission [ə(ʊ) ˈmɪʃ(ə)n] *n* 1) tushirib qoldirish, orada qoldirish; 2) bo'sh qolgan joy, ochiq joy, oraliq (*matnda*); 3) adashish, kamchilik, xato ish, xatolik, xato

omit [ə(ʊ)ˈmɪt] *v* 1) o'tkazmoq, tushirib qoldirmoq; 2) tushirib qoldirmoq, qoldirib (tashlab) ketmoq; **to ~ doing** (**to ~ to do**) nimanidir qilmaslik (bajarmaslik); nimadir qilishdan o'zini saqlamoq

omnibus [ˈɒmnɪbəs] *n* 1) omnibus (*ko'p o'rinli kirakash izvoshi*); 2) avtobus; 3) kattagina to'plam; 4) bir jilddan iborat bo'lgan asar

omnidirectional [ˌɒmnɪdɪˈrekʃ(ə)nəl] *a* 1) hamma tomonga harakat qiluvchi; 2) harakat qilishga aniq bir yo'nalishi bo'lmagan

omnifarious [ˌɒmnɪˈfe(ə)rɪəs] *a* har xil, xilma-xil, turli-tuman, har turli, rang-barang

omniparity [ˌɒmnɪˈpærətɪ] *n* ommaviy tenglik

omnipotence [ɒmˈnɪpət(ə)ns] *n* qudratli (har narsaga qodir) kuch

omnipotent [ɒm ˈnɪpət(ə)nt] *a* har narsaga qodir, qudratli, kuchli

omnipresence [ˌɒmnɪˈprez(ə)ns] *n* 1) har yerda hozir bo'lish, hech yerdan qolmaslik; 2) *so'zl. hazil.* hech narsadan (joydan) qolmaydigan

omnipresent [ˌɒmnɪ ˈprez(ə)nt] *a* har yerda hozir (*xudoning epitetlaridan biri*)

omnirange [ˌɒmnɪˈreɪndʒ] *n* hamma yerga uzatiladigan radio to'lqini

omniscience [ɒmˈnɪsɪəns] *n* hamma narsani bilish, hamma narsadan xabardorlik

omnium gatherum [ˌɒmnɪəmˈgæð(ə)rəm] *n* 1) aralash-quralash narsalar, har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdagi bor narsalar; 2) qo'shma jamiyat, ittifoq, uyushma

omnivorous [ɒmˈnɪv(ə)rəs] *a* 1) har narsani yeyaveradigan; 2) hamma narsani ochko'zlik qilib yeyaveradigan

omphalocele [ˈɒmfələˌsi:l] *n tib.* kindik dabbasi

omphalos [ˈɒmfəlɒs] *n* 1) *tib.* kindik; 2) markaziy punkt; 3) biror narsa to'plangan joy, o'choq, markaz

omul [ˈɒmju:l] *n zool.* omul (*lososlar turkumiga mansub baliq*)

on [ɒn] **1.** *prep.* 1) (*joy, o'rinni ko'rsatganda*) ustida *deb tarjima qilinadi*: **to sit ~ the chair** stulda o'tirmoq; **to float ~ the water** suv ustida suzmoq (oqmoq, qalqimoq); oqib (qalqib) yurmoq; 2) *yo'nalishni bildirib* ...ga qarab, ... tomonga, ...ga *deb tarjima qilinadi*; **to throw ~ the flow** polga (qarab) tashlamoq; **the window opens ~ a sea** deraza dengizga qarab ochiladi; **a joke ~ my friends** do'stimga qaratib qilingan hazil; 3) *holat va jarayonni ko'rsatish uchun xizmat qiladi*: **~ fire** o'tda, olovda; **~ sale** sotuvda; **to be ~ the team** jamoa a'zolari safida bo'lmoq; **~ duty** xizmat vazifasini o'tayotganda; **~ the go** harakatda; **~ suspision** shubhalanib, gumon qilib; (**to be**) **~ the move** oyoqda tikka turmoq (tinmaslik); 4) *vaqt va ketma-ketlikni ifodalaydi*: **~ Sunday** yakshanbada; **~ arrival** kelib yetishi bilan; yetib kelishi bilan; **~ hearing this** buni eshitishim bilan; buni eshitgach; **~ the instant** darhol, darrov, shu onda, shu zahoti, o'sha zahoti, darrov; **~ the minute** daqiqamadaqiqa, aniq vaqtida, bir daqiqa ham kechikmay (kechikmasdan); **blow ~ blow** zarba ustiga zarba; **2.** *adv* 1) davom ettiring (eting); 2) oldinga qarab, oldinga; **~ and ~** to'xtamasdan; **go ~!** davom ettiring! **it keeps ~ raining** yomg'ir hali ham davom etyapti (yog'yapti); **to put ~** kiymoq; **the light is ~** chiroq yoniq (yonib turibdi); **to be ~** namoyish etilyapti (*kinoteatrdagi kino haqida*)

onager [ˈɒnədʒə] *n zool.* yovvoyi eshak

onagri [ˈɒnəgraɪ] *pl of* **onager**

once [wʌns] *adv* bir marta, qachondir; **~ more** yana bir marta; **all at ~** birdaniga; **~ again** yana bir marta; **~ and again** bir necha marta; **~ every day** kuniga bir marta; **~ for all** bir umrga; **~ in a way** (juda ham) kamdan-kam; **~ or twice** bir necha marta; **more than ~** bir necha marta, takror-takror, qayta-qayta; **not ~** biror marta ham, hech qachon

once-over [ˈwʌnsˌəʊvə] *n so'zl.* naridan-beri qarab chiqish; ko'z yugurtirib chiqish

oncer [ˈwʌnsə] *n so'zl.* cherkovga faqat yakshanba kunlari qatnaydigan dindor kishi

oncological [ˌɒŋkəˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* onkologiyaga oid, onkologik

oncology [ɒŋˈkɒlədʒɪ] *n* onkologiya (*tibbiyotning o'sma, shish va ularni davolash haqidagi bo'limi*)

oncoming [ˈɒnˌkʌmɪŋ] **1.** *a* yaqinlashib kelayotgan; **2.** *n* yaqinlashish; **the ~ of spring** bahorning yaqinlashishi

ondatra [ɒn´dætrə] *n zool.* ondatra
one [wʌn] *num. card.* bir; **~ by ~** birma-bir; **~ after another** bir yo'la; **on the ~ hand** bir tomonda(n); **chapter ~** birinchi bob; **to be made ~** (*cherkovda*) nikohdan o'tmoq
one-aloner [ˌwʌnə´ləunə] *n* yolg'iz odam, yakka o'zi (yolg'iz, tanho, bir o'zi) yashovchi odam
one-armed [ˌwʌn´ɑ:md] *a* bir qo'lli, bir qo'li yo'q *yoki* cho'loq
one-decker [ˌwʌn´dekə] *n* bir palubali kema
one-eyed [ˌwʌn´aid] *a* 1) bir ko'zli, bir ko'zi ko'r; 2) *amer.* vijdonsiz, insofsiz, noinsof
onefold [´wʌnfəuld] *a* 1) oddiy, sodda, uncha murakkab emas; 2) ochiqko'ngil, soddadil, sofdil, ko'ngilchan
one-handed [ˌwʌn´hændid] *a* bir qo'lli, bir qo'li yo'q
one-horse [ˌwʌn´hɔ:s] *a* 1) bir otli; 2) bir ot kuchiga ega bo'lgan
one-idea'd, one-ideaed [ˌwʌnai´diəd] *a* tor fikrli (*odam*), kaltabin (*odam*)
one-legged [ˌwʌn´leg(i)d] *a* bir oyoqli, bir oyog'i yo'q (*yoki* cho'loq)
one-man [ˌwʌn´mæn] *a* bir kishilik, bir kishi qiladigan; **a ~ show** bir kishi ko'rsatadigan tomosha
oneness [´wʌnnəs] *n* 1) birlik, bir xillik, o'xshashlik; 2) yagonalik, yolg'izlik
one-off [ˌwʌn´ɒf] *a so'zl.* bir martali, bir marta foydalanadigan
one-piece [ˌwʌn ´pi:s] *a* bir bo'lakdan iborat bo'lgan
oner [´wʌnə] *n so'zl.* 1) kamdan-kam uchraydigan odam *yoki* narsa; 2) qattiq zarba; 3) g'irt (qip-qizil) yolg'on
onerous [´ɒn(ə)rəs] *a* malol keladigan, og'ir, qiyin, mushkul, mashaqqatli
oneself [wʌn´self] 1) *pron. refl.* (*o'zlik olmoshi o'rnida kelib, ish-harakatning bajaruvchiga taalluqliligini bildiradi*) o'zini, o'zining, o'z-o'ziga, o'ziga o'zi, o'zi uchun, o'ziga; 2) *pron. emph.* (*kuchaytiruvchi ta'kid ma'nosini bildirib keladi*) o'zi, xuddi o'zi, o'zginasi; **to excuse ~** kechirim (uzr) so'ramoq
one-sided [ˌwʌn ´saidid] *a* bir tomoni katta, bir tomonlama
one-time [ˌwʌn ´taim] *a* o'tgan, bo'lib o'tgan, o'tib ketgan, o'tmish, ilgarigi, o'tmishdagi, sobiq
one-to-one [ˌwʌntə´wʌn] *a* „birma-bir" o'tib ketadigan
one-track [ˌwʌn´træk] *n* bir izli; **~ railway** bir izli temir yo'l
one-upmanship [wʌn´ʌpmənʃip] *n* boshqalardan ustun kelish
one-way [ˌwʌn´wei] *a* bir tomonlama (*aloqa, harakat va b.*); **a ~ street** transportlar faqat bir tomonga harakat qiladigan ko'cha
onfall [´ɒnfɔ:l] *n* hujum, hamla, tajovuz, bosqin
onflow [´ɒnfləu] *n* oqish, oqib ketish
on-goings [´ɒn,gəuiŋz] *n pl* axloq, xulq, fe'l-atvor, muomala, yurish-turish (*asosan, salbiy*)
onhanger [´ɒn,hæŋə] = **hanger-on**
onion [´ʌnjən] *n* 1) piyoz; 2) *so'zl.* bosh, kalla; **to be off one's ~** kallasini yo'qotmoq
onion-skin [´ʌnjən,skin] *n* piyoz po'chog'i
oniony [´ʌnjəni] *a* piyozga oid, piyoz solingan, serpiyoz
onlay [´ɒnlei] *n* 1) ziynat, bezak, pardoz; 2) biror narsani yopib turadigan ustki qismi, detali
on-licence [´ɒn,laisəns] *n* (*olib ketilmasdan sotilgan joyda ichiladigan*) spirtli ichimliklarni sotish uchun olingan patent (*patent – savdo-sotiq bilan shug'ullanish uchun beriladigan hujjat*)
on-line [´ɒn´lam] *a* 1) ulangan, qo'shilgan; **~ unit** ulangan moslama; 2) interfaol; dialogli; operativ; **~ data base** interfaol ma'lumotlar bazasi
onlooker [´ɒn,lokə] *n* tomoshabin, kuzatuvchi; **the ~ sees most of the game** chekkadan yaxshiroq ko'rinadi (*maqol*)
only [´əunli] **1.** *a* birdan-bir, yolg'iz; **2.** *adv* faqat; yolg'iz, qo'shmasdan; **~ just** hozirgina, endigina, yaqindagina; **to be ~ just in time** zo'rg'a (arang) ulgurmoq
onomatopoeia [ˌɒnəomætə´pi:ə] *n grek. tilsh.* 1) taqlidiy so'z; 2) taqlidiy tovush
onomatopoeic(al) [ˌɒnəmætə´pi:ik(əl)] *a* tovushga taqlid yo'li bilan hosil qilingan, taqlidiy
on-position [´ɒnpə,ziʃ(ə)n] *n tex.* ulangan holat
onrush [´ɒnrʌʃ] *n* qattiq (shiddatli) hujum, hujum, shiddat, siquv, kuchli ta'sir
onset [´ɒnset] *n* 1) qattiq hujum, hamla, tajovuz, bosqin; **the ~ of wind** shamolning birdan kuchayishi; 2) boshi, avvali, ibtidosi, boshlanishi; **at the first ~** darhol (tezda, darrov); bir ondayoq
onslaught [´ɒnslɔ:t] *n* shiddatli hujum
onto [´ɒntu] *pred.* -ga, ustida; **to get ~ a horse** otga o'tirmoq, otga minmoq
ontogenesis [ˌɒntə´dʒenisis] *n biol.* ontogenez (*organizmning yuzaga kelgandan boshlab to umrining oxirigacha bo'lgan alohida rivojlanish yo'li*)
ontogeny [ɒn´tɒdʒini] = **ontogenesis**
ontology [ɒn´tɒlədʒi] *n fals.* ontologiya (*falsafa bo'limi, borliq haqidagi ta'limot*)
onus [´əunəs] *n lot.* (*ko'plikda ham bir xil*) 1) og'ir yuk, og'ir g'am-tashvish, og'ir vazifa; 2) javobgarlik, mas'uliyat; 3) burch, vazifa
onward [´ɒnwəd] **1.** *adv* oldinga qarab, olg'a; **2.** *a* 1) tobora o'sib (ko'payib) boradigan; 2) taraqqiyotparvar, ilg'or; **an ~ movement** oldinga qarab harakat qilish, oldinga harakat
onwards [´ɒnwədz] = **onward 1**
onyx [´ɒniks] *n min.* oniks (*aqiqning yo'l-yo'l, taram-taram turi*)
oodles [´u:dlz] *n pl so'zl.* ko'pdan-ko'p, ko'pgina, juda ko'p, anchagina, bir talay; **~ of money** bir talay pul
oof [u:f] *n* 1) boylik, mol-mulk, dunyo, davlat, bisot; 2) pul, aqcha, mablag'
ooh [u:] *int.* voh
oolite [´əuəlait] *n geol.* oolit (*temir, marganesning yumaloq va ellips shaklidagi oksid va silikat birikmasi*)
oolitic [ˌəuə´litik] *a geol.* oolitik, oolitga oid
oology [əu´ɒlədʒi] *n* qush tuxumlarini o'rganish *yoki* kolleksiya qilish
oolong [´u:lɒŋ] *n* xitoy qora choyining bir navi
ooze [u:z] **1.** *n* 1) loyqa, balchiq, botqoq; 2) sekin oqish; taralish; **2.** *v* sekin oqmoq, tomchilamoq, tomchilab oqib turmoq
oozy [´u:zi] *a* serloyqa, serbalchiq, balchiqli
opacity [əu´pæsiti] *n* 1) tiniq emaslik, shaffof emaslik; **acoustic ~** tovush o'tkazmaydiganlik; 2) qorong'ilik, qorong'i
opal [´əup(ə)l] *n* 1) *min.* opal (*bezak buyumlariga ishlatiladigan mineral*); 2) *attr.* opalga oid, opaldan qilingan; **~ glass** xira oyna
opalescent [ˌəupə´les(ə)nt] *a* opalga oid, opaldan qilingan
opalesque [ˌəup(ə)l´esk] = **opalescent**
opaline [´əup(ə)li:n] *n* 1) xira oyna; 2) *min.* opalin
opaque [əu´peik] *a* 1) xira, qorong'i, tiniq (shaffof) emas; 2) yorug' (nur) o'tmaydigan; yorug'likni (nurni) o'tkazmaydigan
ope [əup] *a* ochiq, samimiy
open [´əupən] 1. *a* 1) ochiq; **an ~ boat** paluba (sahna)siz kema; **an ~ bridge** tagidan transport qatnaydigan ko'prik; **an ~ field** ochiq dala; **an ~ question** hal bo'lmagan (ochiq qolgan) masala; **~ space** atrofi devor bilan o'ralmagan joy, to'rt tomoni ochiq joy; **~ circuit** *el.* uzilgan zanjir; **an ~ hand** ochiq

(saxiy) qo'l; **an ~ champion** ochiq birinchilik g'olibi; **~ door policy** ochiq eshiklar siyosati; **~ to persuasion** murosaga ko'nadigan, ko'ndirsa bo'ladigan; **~ contempt** ochiqchasiga nazar-pisand qilmaslik (mensimaslik); **an ~ countenance** ochiq yuz; **to be ~ with somebody** kim bilandir ochiqchasiga gaplashmoq; **2.** *v* 1) ochmoq; **to ~ an abscess** yiring boylagan yarani ochmoq; **to ~ the bowels** ichakni tozalamoq; **to ~ the do to** *ko'ch.* kimgadir qulay imkoniyat yaratib bermoq; **to ~ the mind** saviyasini oshirmoq, bilim doirasini kengaytirmoq; **to ~ one's mind to** kim bilandir fikr almashtirmoq, o'z fikri bilan o'rtoqlashmoq; **to ~ the ball** bal (*raqs kechasi*)ni ochmoq; **to ~ the debate** muzokarani ochmoq (boshlamoq); **to ~ fire** o't ochmoq; 2) boshlamoq; **to ~ ground** yer haydamoq, yerni shudgorlamoq; **to ~ into** tutashmoq, qo'shilmoq (*xonalar haqida*); **to ~ on** 1) biror tomonga qaratilgan bo'lmoq; 2) biror tomonga qarab ochilmoq; **to ~ out one's arms** kimsaga (kimgadir) quchoq ochmoq; **to ~ out the wings** qanot yozmoq

open-air [ˌəʊp(ə)nˈeə] *a* ochiq havoda, ochiq havoda bo'ladigan

open-and-shut [ˌəʊpənənˈʃʌt] *a amer.* 1) elementar, boshlang'ich; 2) hamma biladigan; 3) juda sodda

open-armed [ˌəʊpənˈɑ:md] *a* quchoq ochib, xursandlik bilan, iliq, samimiy; **an ~ welcome** juda yaxshi (samimiy) kutib olish

opencast [ˈəʊpənkɑ:st] *a tog'.* ochiq yerda qazib olinadigan, ochiq usulda ishlab chiqariladigan

open day [ˈəʊpənˈdeɪ] *n* „ochiq eshiklar" kuni

open-eared [ˌəʊpənˈɪəd] *a* diqqat bilan eshitadigan, diqqat bilan quloq soladigan

opener [ˈəʊp(ə)nə] *n* konserva ochadigan pichoq

open-eyed [ˌəʊpənˈaɪd] *a* 1) hushyor, sergak, sezgir; 2) ko'zi katta ochilgan (*hayratdan*)

open-faced [ˌəʊpənˈfeɪst] *a* yuzi ochiq, ochiq yuzli

open-field [ˌəʊpənˈfi:ld] *a* ochiq yerdagi

open-handed [ˌəʊpənˈhændɪd] *a* saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, oliyhimmat, himmatli, hech narsani ayamaydigan

open-hearted [ˌəʊpənˈhɑ:tɪd] *a* 1) oliyjanob, muruvvatli, oliyhimmat, himmatli; 2) samimiy, oq ko'ngilli, oq ko'ngil

opening [ˈəʊp(ə)nɪŋ] *a* 1) boshlang'ich, ochuvchi; 2) kirish..., boshlanish..., ochilish...

openly [ˈəʊp(ə)nlɪ] *adv* ochiq, oshkora ravishda, dangal

open-minded [ˌəʊpənˈmaɪndɪd] *a* 1) oldindan biror (*odatda, salbiy*) fikrda bo'lmagan; 2) zehni o'tkir; 3) saviyasi keng, dunyoqarashi keng

open-mouthed [ˌəʊpənˈmaʊðd] *a* 1) ochko'z, suq, xasis, ziqna, baxil; 2) qizg'anchiq; 3) hayratdan og'zi ochilib qolgan

openness [ˈəʊpənnəs] *n* ko'ngli ochiqlik, samimiylik, samimiyat

openwork, open-work [ˈəpən,wɜ:k] *n* 1) baxya, chok; 2) ko'z-ko'z gul, to'rdo'z (*matoning ipini sug'urib tikilgan gul*); **~ cloth** to'rsimon gazlama

opera [ˈɒp(ə)rə] *n* opera

operable [ˈɒp(ə)rəbl] *a* amaldagi, muomaladagi

opera-cloak [ˈɒp(ə)rəkləʊk] *a* nakidka (*yelkaga tashlab yuriladigan yengsiz kiyim*)

opera-glass(es) [ˈɒp(ə)rə,glɑ:s(ɪz)] *n pl* teatr durbini

opera-hat [ˈɒp(ə)rəhæt] *n* shapoklyak (*prujinali, taxlanadigan shlapa-silindr*)

opera-house [ˈɒp(ə)rəhaʊs] *n* opera teatri

operand [ˌɒpəˈrænd] *n mat.* (*harakat*) obyekti

operate [ˈɒpəreɪt] *v* 1) ishlamoq, harakat qilmoq, boshqarmoq; 2) *tib.* operatsiya (jarrohlik) qilmoq

operated [ˈɒpəreɪtɪd] *a* boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan

operatic [ˌɒpəˈrætɪk] *a* operaga oid, opera...

operating [ˈɒpəreɪtɪŋ] *a* operatsiyaga (jarrohlikka) oid; jarrohlik...; **an ~ surgeon** jarroh; **an ~ table** jarrohlik stoli

operating-room [ˈɒpəreɪtɪŋru:m, -rʊm] *n* operatsiya (jarrohlik) xonasi

operating-theatre [ˈɒpəreɪtɪŋ,θɪətə] = **operating-room**

operation [ˌɒpəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) harakat, ish, faoliyat; 2) harakatga keltirish; 3) jarayon; 4) jarrohlik

operational [ˌɒpəˈreɪʃ(ə)nəl] *a* 1) harbiy harakatlarga oid; 2) *tib.* jarrohlik bilan bog'liq bo'lgan; jarrohlikka oid; 3) ishga (harakatga) oid; 4) amaldagi; kuchini yo'qotmagan

operative [ˈɒp(ə)rətɪv] *a* 1) amaldagi, kuchini yo'qotmagan; 2) muomaladagi, kuchga kirgan

operatize [ˈɒp(ə)rətaɪz] *v* kimningdir asari asosida opera yozmoq

operator [ˈɒpəreɪtə] *n* 1) operator (*murakkab dastgohlarni boshqaruvchi ixtisosli ishchi*); **a machine ~** mexanik; 2) *jar.* jarroh

operetta [ˌɒpəˈretə] *n* operetta (*ashula, raqs va so'zlashuv aralash komediya xarakteridagi musiqali sahna asari*)

ophidian [ɒˈfɪdɪən] **1.** *a zool* 1) ilonsimon, ilonga o'xshagan; 2) ilonlar guruhiga kiradigan; **2.** *n* ilon

ophiolatry [ˌɒfɪˈɒlətrɪ] *n* ilonga sig'inish

ophthalmia [ɒfˈθælmɪə] *n tib.* oftalmiya (*ko'z kasalligi*)

ophthalmic [ɒfˈθælmɪk] *a* ko'zga oid, ko'z kasalliklariga oid, ko'z...

ophthalmologist [ˌɒfθælˈmɒlədʒɪst] *n* oftalmolog, ko'z doktori

ophthalmology [ˌɒfθælˈmɒlədʒɪ] *n* oftalmologiya (*ko'z kasalliklari va ularni davolash haqidagi fan*)

opiate [ˈəʊpɪ(e)ɪt] **1.** *a* uxlatadigan, uyqu keltiradigan; **2.** *n* 1) narkotik modda; 2) tinchlantiruvchi *yoki* uxlatadigan mod-da

opine [əʊˈpaɪn] *v kit.* o'z fikrini aytmoq, fikr bildirmoq

opinion [əˈpɪnjən] *n* 1) fikr, nuqtayi nazar, mulohaza; **in one's ~** birovning fikricha; 2) mutaxassisning xulosasi

opinionated [əˈpɪnjəneɪtɪd] *a* 1) o'ta o'ziga ishonadigan; 2) o'jar, qaysar; 3) o'zboshimcha, xohlaganini (ko'ngilga kelganini) qiladigan

opium [ˈəʊpɪəm] *n* afyun (*ko'knorining dumbul boshog'idan olib quritilgan shira, qoradori, taryak ko'rinishida kayf qilish uchun, tibbiyotda esa narkotik modda sifatida ishlatiladi*)

opium den [ˈəʊpɪəmden] *n* qoradori chekuvchilar o'tiradigan xona (*yomon-xona, o'g'rixona*)

opium-eater [ˈəʊpɪəm,i:tə] *n* qoradori chekuvchi, qoradori chekadigan kishi

opium joint [ˈəʊpɪəmdʒɔɪnt] = **opium den**

opossum [əˈpɒsəm] *n zool.* opossum (*Amerikada yashaydigan qopchiqli kalamush*)

oppidan [ˈɒpɪdən] *n* shaharlik kishi, shahar kishisi, shaharlik

opponent [əˈpəʊnənt] *n* 1) opponent; muxolif (*bahs, munozara, himoya va sh. k.*); 2) raqib, qarshi tomon

opportune [ˈɒpətju:n] *a* muvofiq, qulay, yaxshi (ijobiy) ta'sir ko'rsatadigan, yordam beradigan

opportunism [ˈɒpətju:nɪz(ə)m] *n* oportunizm (*ishchilar harakatida proletariatning sinfiy manfaatlarini burjua manfaatlariga bo'ysundirishga da'vat qiluvchi oqim*)

opportunist [ˈɒpətju:nɪst] *n* oportunizm tarafdori

opportunistic [ˌɒpətju:ˈnɪstɪk] *a* oportunistik (*siyosat*), oportunizmga oid, oportunizm ruhidagi

opportunity [ˌɒpəˈtjuːnɪtɪ] *n* qulay fursat (payt, imkoniyat, sharoit)
oppose [əˈpəʊz] *v* to'sqinlik qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq, to'sqin (g'ov, to'g'onoq) bo'lmoq
opposed [əˈpəʊzd] *a* qarshi, teskari, zid
opposing [əˈpəʊzɪŋ] *a* qarama-qarshi harbiy-siyosiy ittifoqlar
opposite [ˈɒpəzɪt] *a* 1) qarama-qarshi; qarshidagi, ro'paradagi; 2) teskari, zid
opposition [ˌɒpəˈzɪʃ(ə)n] *n* 1) qarshilik, qarshi harakat, e'tiroz; 2) qarshi tomon, oppozitsiya
oppositionist [ˌɒpəˈzɪʃ(ə)nɪst] *n* oppozitsiya tarafdori, oppozitsiya qatnashchisi
oppress [əˈpres] *v* ezmoq, jabr-zulm qilmoq
oppressed [əˈprest] *a* jabr chekkan, zulm ko'rgan, ezilgan
oppression [əˈpreʃ(ə)n] *n* 1) zulm; zolimlik, jabr, sitam; 2) ezish, jabr-zulm qilish, jabrlash
oppressive [əˈpresɪv] *a* 1) shafqatsiz, zulmkor; 2) og'ir, mushkul
oppressiveness [əˈpresɪvnəs] *n* yurakni siqadigan (ziq qiladigan, ruhni ezadigan, og'ir) muhit (sharoit, vaziyat)
oppressor [əˈpresə] *n* zolim, sitamgar, zulm qiluvchi, ezuvchi, jabrlovchi
opprobrious [əˈprəʊbrɪəs] *a* haqoratomuz, tahqiromuz, haqoratli, nafsoniyatga (shaxsiyatga) tegadigan
opprobrium [əˈprəʊbrɪəm] *n* uyat, sharmandalik, isnod, rasvolik
opt [ɒpt] *v* tanlamoq, saylamoq, tanlab olmoq
optative [ˈɒptətɪv] *a* istalgan, tilangan, ma'qul, kerak
optic [ˈɒptɪk] *a* 1) ko'zga oid, ko'z..., ko'z kasalliklariga oid; 2) ko'rishga oid, qaraydigan, ko'radigan, optik; **the ~ nerve** ko'rish asabi
optical [ˈɒptɪk(ə)l] *a* 1) ko'rishga oid; 2) optimizm ruhidagi, optimistik
optician [ɒpˈtɪʃ(ə)n] *n* optik, optika mutaxassisi
optics [ˈɒptɪks] *n* 1) optika, yorug'lik (*fizikaning yorug'lik haqidagi bo'limi*); 2) optika, optik asboblar
optimism [ˈɒptɪmɪz(ə)m] *n* optimizm, nekbinlik (*dunyoga, hayotga doim umid bilan qarash, kelajakka ishonish*)
optimist [ˈɒptɪmɪst] *n* optimist, nekbin (*optimizm ruhidagi odam*)
optimistic(al) [ˌɒptɪˈmɪstɪk(əl)] *n* 1) optimizm ruhidagi, optimistik, optimizmga va optimistga oid; 2) umid-ishonch bilan to'lgan
optimum [ˈɒptɪməm] **1.** *n* eng qulay fursat, juda yaxshi (muvofiq) sharoit; **2.** *attr.* eng qulay, eng muvofiq, eng munosib, eng yaxshi, natija beradigan
option [ˈɒpʃ(ə)n] *n* 1) tanlash huquqi (erkinligi); tanlash, tanlov; 2) tanlangan narsalar
optional [ˈɒpʃ(ə)nəl] *a* ixtiyoriy, majburiy bo'lmagan, majburiy emas
optophone [ˈɒptəfəʊn] *n* optofon (*nashr etilgan matnni o'qish uchun foydalaniladigan ko'rlarning asbobi*)
opulence [ˈɒpjʊləns] *n* mo'llik, serobchilik, mo'l-ko'llik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik
opulent [ˈɒpjʊlənt] *a* 1) boy, badavlat, davlatmand; 2) mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p
opus [ˈəʊpəs] *n* opus (*biror kompozitorning ayrim musiqa asari*)
opuscule [ɒˈpʌskjuːl] *n* kichkina adabiy *yoki* musiqiy asar
or I [ɔː] *cj.* (*sanab ajratish ma'nosida qo'llaniladi*) yoki, bo'lmasa
or II [ɔː] *n* oltin *yoki* sariq rang
orach(e) [ˈɒrɪtʃ] *n bot.* olabuta, sho'ra
oracle [ˈɒrək(ə)l] *n* orakul (*1. antik davrda: go'yo xudoning irodasini biladigan ibodatchi; 2. ko'ch. karomat qiluvchi (bashorat qiluvchi) odam; 3. esk. folnoma, fol kitobi*)
oracular [ɒˈrækjʊlə] *a* 1) payg'ambarga oid; payg'ambar...; 2) bashorat qilib aytilgan
oral [ˈɔːrəl] **1.** *a* og'zaki; **2.** *n so'zl.* og'zaki imtihon
orally [ˈɔːrəlɪ] *adv* og'zaki
orange [ˈɒrɪndʒ] **1.** *n* 1) apelsin; 2) apelsin daraxti; 3) to'q sariq rang; **blood ~** go'shti qizil shirin apelsin; **2.** *a* to'q sariq, apelsinrang
Orange [ˈɒrɪndʒ] *n tar.* oranlar sulolasi
orangeade [ˌɒrɪndʒˈeɪd] *n* oranjad (*ichimlik*)
orange-blossom [ˈɒrɪndʒˌblɒsəm] *n* 1) noranja gullari; 2) kelinchakning to'y marosimida kiyadigan bosh kiyimidagi sun'iy oq gullar
orange lily [ˈɒrɪndʒˈlɪlɪ] *n bot.* qizil liliya (*lolagullilarga mansub dekorativ o'simlik*)
Orangeman [ˈɒrɪndʒmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *tar.* oranjist (*Irlandiya ultraprotestant partiyasining a'zosi*)
orange melon [ˈɒrɪndʒˌmelən] *n bot.* shakar qovun
orange-peel [ˈɒrɪndʒpiːl] *n* 1) apelsin po'chog'i; 2) shakarlangan apelsin po'chog'i
orangery [ˈɒrɪndʒ(ə)rɪ] *n* 1) apelsin bog'i; 2) apelsinlarni qishlatish, sovuqdan saqlash, qishda ham o'stirish uchun qilingan oynali issiq bino
orang-outang [ɔːˌræŋuː ˈtæŋ] *n zool.* orangutan (*odamsimon yirik maymun*)
orate [ɔːˈreɪt] *v* 1) nutq so'zlamoq; 2) va'zxonlik qilmoq, gapdonlik qilmoq, gap sotmoq, safsatabozlik
oration [əˈreɪʃ(ə)n] *n* (*dabdabali ohangdagi*) nutq
orator [ˈɒrətə] *n* notiq, nutq so'zlovchi
oratorical [ˌɒrəˈtɒrɪk(ɒ)l] *a* 1) notiqqa (notiqlikka) oid; 2) dabdabali, quruq (*gap haqida*)
oratorio [ˌɒrəˈtɔːrɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) *mus.* oratoriya (*xor yoki orkestr uchun yozilgan yirik musiqa asari*)
oratory I [ˈɒrətrɪ] *n* 1) nutq (notiqlik) san'ati; 2) gapga chechanlik (ustalik), notiqlik
oratory II [ˈɒrətrɪ] *n* mehrobsiz kichik butxona, kichkina ibodatxona
orb [ɔːb] *n* 1) shar, sfera, qubba, gumbaz; 2) osmon yoritgichlari (*quyosh, oy, yulduzlar*)
orbed [ɔːbd] *a* yumaloq, dumaloq, shar shaklidagi, sharsimon
orbicular [ɔːˈbɪkjʊlə] *a* shar shaklidagi, dumaloq
orbit [ˈɔːbɪt] *n* 1) *astr.* orbita (*samoviy jismlarning harakat yo'li*); 2) faoliyat doirasining ko'lami; 3) *anat.* ko'z kosasi (chanog'i)
orbital [ˈɔːbɪt(ə)l] *a* orbitaga oid, orbitada (orbita bo'ylab)
orbiting [ˈɔːbɪtɪŋ] **1.** *n* orbitaga chiqish; **2.** *a* orbitaga oid, orbitada (orbita bo'ylab) qilinadigan
Orcadian [ɔːˈkeɪdɪən] **1.** *a* orkneylarga oid; **2.** *n* Orkney orolining aholisi
orchard [ˈɔːtʃəd] *n* mevali bog', mevazor
orcharding [ˈɔːtʃədɪŋ] *n* meva yetishtirish, mevachilik
orchardman [ˈɔːtʃədmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) mevachi, mevachilik mutaxassisi
orchestic [ɔːˈkestɪk] *a* 1) raqsga oid; 2) raqs o'rgatishga oid; 3) raqqos va raqqoslarga oid
orchestics [ɔːˈkestɪks] *n* (*birlik va ko'plikda bir xil yoziladi*) raqs san'ati
orchestra [ˈɔːkɪstrə] *n* 1) orkestr (musiqachilar) o'tiradigan joy; 2) orkestr (*musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi cholg'u asboblari yig'indisi va shu asboblarni chaluvchi musiqachilar guruhi*)
orchestral [ɔːˈkestrəl] *a* orkestrga oid
orchestrate [ˈɔːkɪstreɪt] *a* orkestrda ijro etishga moslamoq
orchestrated [ˈɔːkɪstreɪtɪd] *a* orkestrda ijro etishga moslashtirilgan
orchestration [ˌɔːkɪˈstreɪʃ(ə)n] *n* orkestrlashtirish, orkestrga solish

orchid [ˈɔːkɪd] *n bot.* orxideya
orchidaceous [ˌɔːkɪˈdeɪʃəs] *a* orxideyaga oid, orxideya
orchil [ˈɔːtʃɪl] *n* orsel (*qizil binafsharang bo'yoq*)
orchis [ˈɔːkɪs] *n bot.* solib, orxis (*ildizidan dori tayyorlanadigan ko'p yillik o't-o'simlik*)
ordain [ɔːˈdeɪn] *v* 1) oldindan belgilab qo'ymoq, oldindan aniqlab (*tayinlab*) qo'ymoq; 2) diniy martabaga bag'ishlamoq
ordeal [ɔːˈdiːl] *n* qattiq (jiddiy, og'ir) sinov
order [ˈɔːdə] **1.** *n* 1) tartib: **in ~** tartibli, bekam-ko'st; 2) buyruq, farmoyish; amr; 3) buyurtma; **an ~ for** ...ga (...uchun) buyurtma; **by ~ of** ...(ning) buyrug'i bilan; **2.** *v* 1) buyurmoq; 2) tartibga chaqirmoq
order-book [ˈɔːdəbʊk] *n* buyurtmalar kitobi
order-form [ˈɔːdəfɔːm] *n* buyurtmalar qog'ozi (*blanki*)
orderly [ˈɔːdəlɪ] **1.** *n* 1) *harb.* navbatchi (*kazarma, lagerda*); 2) *harb.* aloqachi, aloqa uchun xizmat qiladigan; **2.** *a* tartibli, saranjom
ordinal [ˈɔːdɪn(ə)l] *a gram.* 1. *a* tartibini ko'rsatadigan, tartib...; **2.** *n* tartib son
ordinance [ˈɔːdɪnəns] *n* farmon, dekret, qonun
ordinarily [ˈɔːd(ə)n(ə)rɪlɪ] *adv* umuman, odatan, odatga ko'ra, odatdagidek
ordinary [ˈɔːd(ə)nrɪ] *a* oddiy, odatdagi, doimo bo'lib turadigan, har vaqtdagidek, doimiy, odatiy
ordnance [ˈɔːdnəns] *n* artilleriya quroli (*to'p, zambarak*)
ore [ɔː] **1.** *n* ruda (*metall*); **2.** *attr.* rudaga oid, rudali, ruda chiqadigan; **~ mining** kon-ruda sanoati ishlari; **iron ~** temir rudasi
organ [ˈɔːgən] *n* 1) organ, muassasa, idora; 2) *mus.* organ (*musiqa asbobi*); 3) a'zo
organ-grinder [ˈɔːgənˌgraɪndə] *n mus.* sharmankachi, sharmanka chaluvchi (*sharmanka – burab chalinadigan qutisimon musiqa asbobi*)
organic [ɔːˈgænɪk] *a* organik, tarkibiy
organism [ˈɔːgənɪz(ə)m] *n* a'zoyi badan; organizm; vujud
organist [ˈɔːgənɪst] *n mus.* organ chaluvchi sozanda, organchi
organization [ˌɔːgənaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* tashkilot, idora, korxona, muassasa
organize [ˈɔːgənaɪz] *v* uyushtirmoq, tashkil qilmoq
organizer [ˈɔːgənaɪzə] *n* tashkilotchi, uyushtiruvchi, tashabbuskor
orgy [ˈɔːdʒɪ] *n* ichkilik bazmi, aysh-ishrat, kayf-safo
orient [ˈɔːrɪənt] **1.** *a* sharqiy, sharqqa oid; **2.** *n* 1) sharq; 2) sharq davlatlari
Oriental [ˌɔːrɪˈent(ə)l] *a* sharqqa oid, sharqiy
Orientalist [ˌɔːrɪˈent(ə)lɪst] *n* sharqshunos
orientate [ˈɔːrɪənteɪt] *v* yo'llamoq, yo'l ko'rsatmoq, turgan joyini (yo'nalishini) aniqlash uchun yordam bermoq
orientation [ˌɔːrɪənˈteɪʃ(ə)n] *n* o'zining turgan joyini (yo'nalishini) aniqlash
orifice [ˈɒrɪfɪs] *n* 1) teshik, yoriq, tuynuk, tirqish; 2) o'tish joyi, o'tib bo'ladigan joy; 3) *tex.* konus naycha
origin [ˈɒrɪdʒɪn] *a* 1) paydo bo'lishi, kelib chiqishi; 2) manba, bosh, sabab
original [əˈrɪdʒɪn(ə)l] **1.** *n* asl nusxa (*biror yozuv yoki hujjatning asli*); **2.** *a* boshlang'ich, dastlabki
originality [əˌrɪdʒɪˈnælɪtɪ] *n* ajiblik, o'ziga xoslik, to'g'rilik, chinlik
originally [əˈrɪdʒɪn(ə)lɪ] *adv* 1) dastlabki kelib chiqishiga ko'ra; 2) asl nusxasiga ko'ra
originate [əˈrɪdʒəneɪt] *v* sabab bo'lmoq, keltirib chiqarmoq, tug'dirmoq, tug'ilmoq, vujudga (yuzaga) kelmoq, ro'y bermoq
ornament [ˈɔːnəmənt] *n* bezak, zeb-ziynat, naqsh
ornamental [ˌɔːnəˈment(ə)l] *a* bezaydigan, pardoz beradigan, zeb bag'ishlaydigan
ornamentation [ˌɔːnəmenˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) bezash, bezatish, yasatish, zeb berish, ziynatlash (*harakat*); 2) bezak
ornate [ɔːˈneɪt] *a* hashamatli, hasham bilam bezatilgan
ornithologist [ˌɔːnɪˈθɒlədʒɪst] *n* ornitolog, parrandashunos
ornithology [ˌɔːnɪˈθɒlədʒɪ] *n* ornitologiya, parrandashunoslik
orphan [ˈɔːf(ə)n] *n* yetim; **~age** yetimlik; **an ~ child** yetim bola
orthodox [ˈɔːθədɒks] *a* 1) sobitqadam; 2) e'tiqodli; 3) umumiy, hamma qabul qilgan; 4) *din.* pravoslaviyega oid
orthography [ɔːˈθɒgrəfɪ] *n* imlo, orfografiya; yozish qoidasi
oscillate [ˈɒsɪleɪt] *v* tebratmoq, silkitmoq; tebranmoq, titramoq, zirillamoq
oscillation [ˌɒsɪˈleɪʃ(ə)n] *n* tebranish, titrash, zirillash
oscillatory [ˈɒsɪlət(ə)rɪ] *a* tebranishga oid; tebranuvchi; tebranish
osier [ˈəʊzɪə] *n* 1) tol; 2) tol novdasi
ossify [ˈɒsɪfaɪ] *n* 1) sovimoq, qotmoq (*nurda haqida*); 2) muz-kesak bo'lib qotib qolmoq; 3) *ko'ch.* es-hushini yo'qotib qotib qolmoq
ostensible [ɒˈstensəb(ə)l] *a* 1) ochiqoydin ko'rinib turgan, ayon, oshkora; 2) namuna sifatida ko'rsatiladigan, ko'z-ko'z qilinadigan
ostentatious [ˌɒstenˈteɪʃəs] *a* eng yaxshi, namunali, o'rnak bo'ladigan
ostler [ˈɒslə] *n* otboqar
ostracize [ˈɒstrəsaɪz] *v* yuz o'girmoq
ostrich [ˈɒstrɪtʃ] *n zool.* tuyaqush; **~ policy** o'zini o'zi (o'z-o'zini) aldashga asoslangan siyosat
other [ˈʌðə] *a* 1) boshqa, o'zga, bo'lak; **on the ~ hand** boshqa tomonda(n); 2) qo'shimcha; **a few ~ examples** bir nechta qo'shimcha misollar
others [ˈʌðəz] *n pl* boshqalar, o'zgalar
otherwise [ˈʌðəwaɪz] *adv* bo'lmasa; aks holda
otter [ˈɒtə] *n* 1) *zool.* suvsar; qunduz; 2) qunduz mo'ynasi
ought [ɔːt] *v* (*majburiyatni ifodalovch modal so'z*) kerak, zarur
ounce I [aʊns] *n* 1) unsiya (*og'irlik o'lchov birligi*); 2) tomchi, qatra
ounce II [aʊns] *n zool.* ilvirs (*tog' qoploni*)
our [aʊə] *pron. poss.* bizning, o'zimizning
ours [ˈaʊəz] *pron. poss.* bizniki, o'zimizniki
ourselves [aʊəˈselvz] *refl. pron.* o'zimiz, o'zimizni
oust [aʊst] *v* 1) haydamoq, haydab yubormoq; 2) *yur.* ko'chishga majbur qilmoq, majburan ko'chirmoq, birovning joyini egallamoq, siqib chiqarmoq
out [aʊt] **1.** *adv* 1) tashqarida; **to be ~** tashqarida bo'lmoq; uyda (ish joyda) bo'lmaslik; 2) sirtqi; **2.** *prep.* (*joyni ko'rsatadi*) ichidan **he took a watch ~ of his pocket** u cho'ntagidan soatini oldi
out-and-out [ˌaʊtnd ˈaʊt] *a* ommaviy, umumiy
outbade [aʊtˈbeɪd] *past. of* **outbid**
outbalance [aʊtˈbæləns] *v* 1) hammani *yoki* ko'pini dorga osmoq; 2) ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (o'tib) ketmoq
outbid [aʊt ˈbɪd] *v* (**outbade, outbid; outbidden, outbid**) 1) narxni tushirmoq; 2) biror narsadan ustun kelmoq
outbidden [aʊtˈbɪdn] *p. p. of* **outbid**
outboard [ˈaʊtbɔːd] *adv* kemadan tashqarida; suvda
outbreak [ˈaʊtbreɪk] *n* (*urush, kasallik va h. k. ning*) to'satdan boshlanishi
outbuilding [ˈaʊtˌbɪldɪŋ] = **outhouse**
outburst [ˈaʊtbɜːst] *n* 1) portlash, avj olish, portlab ketish; 2) birdan (lov etib) yonish
outcast [ˈaʊtkɑːst] *n* 1) haydalgan (badarg'a qilingan) odam, 2) tashlandiq, chiqindi, axlat

outclass [ˌaʊtˈklɑːs] *v* ustunlikka ega bo'lmoq (*musobaqa yoki o'yinda*)

outcome ['aʊtkʌm] *n* 1) natija, oqibat; 2) chiqish yo'li, chiqish uchun tuynuk

outcry ['aʊtkraɪ] *n* 1) g'alva, to'polon, dod-faryod; 2) qattiq qichqiriq, hayqiriq, baqiriq

outdated [ˌaʊtˈdeɪtɪd] *a* eski, eskirgan, iste'moldan chiqqan

outdid [ˌaʊtˈdɪd] *past. of* **outdo**

outdo [ˌaʊtˈduː] *v* **(outdid; outdone)** 1) ortiq bo'lmoq; ustun chiqmoq; 2) yengib chiqmoq, bardosh bilan yengmoq

outdone [aʊtˈdʌn] *p. p. of* **outdo**

outdoor [ˌaʊtˈdɔː] *a* ochiq havoda bo'ladigan, uydan tashqarida bo'ladigan; **~ dress** ko'cha kiyimi

outdoors [ˌaʊtˈdɔːz] *adv* tashqarida, ochiq havoda

outer ['aʊtə] *a* 1) tashqi, sirtqi, tashqaridagi; **~ world** tashqi dunyo; 2) markazdan uzoqlashgan

outermost ['aʊtəməʊst] *a* uzoqdagi; chetdagi

outfit ['aʊtˌfɪt] *v* 1) shaylamoq, otlantirmoq, jihozlamoq, kerakli aslaha-anjom bilan ta'minlamoq; 2) formali kiyim-kechak bilan ta'minlamoq; 3) asbob-uskuna bilan ta'minlamoq

outflank [ˌaʊtˈflæŋk] *v* 1) *harb.* dushmanni ikki tomondan o'rab (qurshab) olmoq; 2) hiyla bilan yengmoq (ustun kelmoq); pand bermoq

outgo **1.** *n* ['aʊtgəʊ] *n* 1) xarajat, chiqim; 2) ketish, jo'nash; **2.** *v* [aʊtˈgəʊ] **(outwent; outgone)** ustun kelmoq

outgoing ['aʊtˌgəʊɪŋ] *a* 1) (*iste'foga*) chiqayotgan, ketayotgan; (*ishdan*) bo'shab ketayotgan; 2) jo'nab ketayotgan, yo'lga tushayotgan

outgoings ['aʊtˌgəʊɪŋz] *n* chiqim, sarf, xarajat

outgone [aʊtˈgɒn] *p. p. of* **outgo 2**

outgrew [aʊtˈgruː] *past. of* **outgrow**

outgrow [aʊtˈgrəʊ] *v* **(outgrew; outgrown)** o'sib (oshib) ketmoq

outgrown [aʊtˈgrəʊn] *p. p. of* **outgrow**

outhouse ['aʊthaʊs] *n* hovlidagi bino

outing ['aʊtɪŋ] *n* shahar tashqarisiga chiqib aylanib kelish; bog' sayri

outlandish [aʊtˈlændɪʃ] *a* ajib, taajjub, g'alati, qiziq

outlast [ˌaʊtˈlɑːst] *v* 1) yashamoq, umr ko'rmoq, umr kechirmoq; 2) uzoq davom etmoq

outlaw ['aʊtlɔː] **1.** *n* haydalgan (badarg'a) qilingan odam; **2.** *a* g'ayriqonuniy, qonunga xilof

outlay ['aʊtleɪ] *n* chiqim, xarajat, sarf

outlet ['aʊtlet] *n* chiqish tuynugi (teshigi)

outline ['aʊtlaɪn] *v* 1) ustidan qalam yurgizmoq; 2) biror narsaning xomqolipini chizib olmoq; 3) reja, qisqacha ma'lumot, mundarija

outlive [aʊtˈlɪv] *v* bir qancha vaqt yashamoq, umr kechirmoq

outlook ['aʊtlʊk] *n* 1) istiqbol, kelajak; 2) nuqtayi nazar; 3) dunyoqarash

outlying ['aʊtˌlaɪŋ] *a* uzoqdagi, olisdagi, olis, yiroq, uzoq

outmoded [aʊtˈməʊdɪd] *a* iste'moldan chiqqan, eskirgan

outnumber [aʊtˈnʌmbə] *v* miqdoran ko'p bo'lmoq, son jihatdan o'tib ketmoq

out-of-date [ˌaʊtəvˈdeɪt] *a* eski, eskirgan, iste'moldan chiqqan

out-of-the-way [ˌaʊtəvðəˈweɪ] *a* 1) uzoq, olis, yiroq, uzoqdagi; 2) unchalik ma'lum-mashhur bo'lmagan; tanilmagan; nomi (dong'i) chiqmagan; 3) g'ayriodiy; qiziq, g'alati

out-of-work [ˌaʊtəvˈwɜːk] *n* ishsiz, bekorchi kishi; ishdan mahrum qilingan

out-patient ['aʊtˌpeɪʃ(ə)nt] *n* ambulatoriyaga qatnab davolanuvchi bemor

outplay [aʊtˈpleɪ] *v* yutmoq, yutib olmoq, qoldirmoq

outpost ['aʊtpəʊst] *n* avanpost (*qo'shindan ilgariroqqa qo'yilgan soqchi post va uning egallab turgan joyi*)

output ['aʊtpʊt] *n* 1) mahsulot; 2) ishlab chiqarish; mahsuldorlik, unumdorlik

outrage ['aʊtreɪdʒ] *n* 1) qonunni qo'pol ravishda buzish; 2) kishini achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan, g'azabini keltiradigan holat; 3) zo'ravonlik

outrageous [aʊtˈreɪdʒəs] *a* darg'azab, shafqatsiz, vahshiyona, haqoratomuz

outran [aʊtˈræn] *past. of* **outrun**

outrank [aʊtˈræŋk] *v* 1) yuqoriroq mansabga ega bo'lmoq; 2) unvoni (faxriy nomi) yuqori bo'lmoq; 3) ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (ortib, o'tib) ketmoq, ustun (bo'lib) chiqmoq

outré ['uːtreɪ] *a fr.* 1) chegarani buzib o'tuvchi, chegaradan g'ayriqonuniy ravishda o'tuvchi; 2) (*rasm-rusum, tamoyil va b. ni*) buzuvchi; 3) juda g'alati, g'ayriodatiy; 4) oshirib (bo'rttirib) ko'rsatilgan

outright ['aʊtraɪt] *a* 1) aniq, shak-shubhasiz; to'liq; 2) ochiq, oshkora, dangal

outrival [aʊtˈraɪv(ə)l] *v* ortiq (afzal) bo'lmoq, o'tib ketmoq

outrun [aʊtˈrʌn] *v* **(outran; outrun)** 1) o'zib ketmoq, o'tib ketmoq; 2) qochmoq, qochib ketmoq

outset ['aʊtset] *n* boshi, avvali, ibtidosi, boshlanmasi, boshlanishi, boshlanish payti; **at the ~** boshida, dastavval

outshine [aʊtˈʃaɪn] *v* **(outshone)** 1) o'zib ketmoq, o'tib ketmoq; 2) yorqinroq nur sochmoq

outshone [aʊtˈʃɒn] *past., p. p. of* **outshine**

outside ['aʊtsaɪd] **1.** *n* 1) tashqi dunyo; 2) tashqi tomon; **2.** *a* tashqi, sirtqi, ustki, tashqi ko'rinish

outsider [aʊtˈsaɪdə] *n* 1) begona (kishi); 2) *sport.* eng orqada qolgan sportchi *yoki* jamoa

outsize ['aʊtsaɪz] *a* o'lchami katta (keng)

outskirts ['aʊtskɜːts] *n pl* shahar atrofi, tashqarisi

outspoken [aʊtˈspəʊkən] *a* samimiy, to'g'ri, ochiq; **~ criticism** to'g'ri tanqid

outspread [aʊtˈspred] *v* **(outspread)** 1) kengaytirmoq, yerini (chegarasini) kengaytirib yubormoq; 2) cho'zilmoq, yoyilmoq

outstanding [aʊtˈstændɪŋ] *a* 1) atoqli, mashhur; 2) to'lanmagan; 3) hal qilinmay qolgan, bahsli

outstay [aʊtˈsteɪ] *v* 1) = **outsit**; 2) chidamoq, chidab turmoq, bardosh bermoq

outstretched [aʊtˈstretʃt] *a* cho'zilgan, yoyilgan, tortilgan

outstrip [aʊtˈstrɪp] *v* quvib o'tmoq, o'zib ketmoq, oldin (ilgari) o'tib ketmoq

outvote [aʊtˈvəʊt] *v* 1) ko'p ovozga ega bo'lmoq; 2) saylovdan o'tkazmaslik

outward ['aʊtwəd] **1.** *a* sirtqi, tashqi; **an ~ form** tashqi ko'rinish, qiyofa; **2.** *n* 1) tashqi ko'rinish; 2) tashqi dunyo

outwardly ['aʊtwədlɪ] *adv* tashqi tarafdan (tomondan)

outwards ['aʊtwədz] *adv* tashqariga, tashqari tomonga

outweigh [aʊtˈweɪ] *v* 1) oshib ketmoq, oshib tushmoq; 2) og'irroq bo'lmoq

outwent [aʊtˈwent] *past. of* **outgo**

outwit [aʊtˈwɪt] *v* hiyla bilan yengmoq (ustun kelmoq); pand bermoq, aldamoq

outwork ['aʊtwɜːk] **1.** *n* 1) uyda qilinadigan ish (*zavod, ustaxona va boshqa joyda emas*); 2) *harb.* tashqi istehkom (*mudofaa inshooti*); **2.** *v* [aʊtˈwɜːk] kimgadir qaraganda yaxshiroq va tezroq ishlamoq, ishda o'zib ketmoq

outworn [aʊtˈwɔːn] *a* 1) kiyilgan, ishlatib bo'lmaydigan; 2) eskirgan (*tushuncha to'g'risida*)

ova ['əʊvə] *pl of* **ovum**

oval ['əʊv(ə)l] *a* tuxumga o'xshagan, oval

ovary ['əʊv(ə)rɪ] *n* 1) *anat.* tuxumdon; 2) *bot.* tuguncha, urug'don

ovation [əʊˈveɪʃ(ə)n] *n* gulduros olqishlar

oven ['ʌv(ə)n] *n* pech, pechka, duxovka

over ['əʊvə] *prep.* (*joyni ko'rsatadi*) ustida, yonida, bo'ylab; **~ and again**

qayta-qayta, ko'p marta; ~ **and** ~ qayta-qayta, ko'p marta; **to take** ~ **for** ...ni o'rnida bo'lmoq, ...ni almashtirmoq

overact [ˌəʊvərˈækt] *v* 1) qaytadan (boshqatdan) o'ynamoq, yangidan o'ynamoq; 2) orttirib (bo'rttirib) ko'rsatmoq, bo'rttirmoq, mubolag'a qilmoq

overall [ˈəʊvərɔ:l] **1.** *n* 1) ishga kiyiladigan xalat; korjoma, ish xalati; 2) *pl* ishga kiyiladigan keng shim; **2.** *a* 1) to'la; 2) umumiy; 3) eng yuksak, avjiga chiqqan, nihoyatda, haddan tashqari

overawe [ˌəʊvərˈɔ:] *v* biroz hayajonga tushmoq, biroz qo'rquvga tushmoq, ko'ngliga ozgina qo'rquv solmoq, ozgina qo'rqmoq, biroz cho'chimoq

overbalance [ˌəʊvəˈbæl(ə)ns] *n* keragidan ortiq, ortiqcha

overbear [ˌəʊvəˈbeə] *v* (**overbore; overborne**) 1) ustun kelmoq, zo'r chiqmoq; yengmoq; 2) kuch bilan bosmoq, yanchib tashlamoq, bo'ysundirmoq

overblown [ˌəʊvəˈbləʊn] *a* 1) benihoya bo'rttirilgan; 2) ochilgan (*gullar haqida*)

overboard [ˈəʊvəbɔ:d] *adv* kemadan tashqarida; suvda; bort ortida

overbore [ˌəʊvəˈbɔ:] *past. of* **overbear**

overborne [ˌəʊvəˈbɔ:n] *p. p. of* **overbear**

overcame [ˌəʊvəˈkeɪm] *past. of* **overcome**

overcast [ˈəʊvəkɑ:st] *n* yoppasiga (batamom) bulut bosganlik

overcharge [ˌəʊvəˈtʃɑ:dʒ] *v* ortiqcha pul talab qilmoq; ortiqcha pulga tushirmoq

overcloud [ˌəʊvəˈklaʊd] *v* tuman (bulut) qoplamoq, qorong'ilashmoq

overcoat [ˈəʊvəkəʊt] *n* 1) palto; 2) shinel

overcome [ˌəʊvəˈkʌm] *v* (**overcame; overcome**) yengmoq, ustun chiqmoq, bartaraf etmoq

overcrowd [ˌəʊvəˈkraʊd] *v* 1) (*xona va b.ni*) limmo-lim to'ldirmoq, liq to'ldirmoq; 2) to'planmoq, yig'ilishib turmoq

overcrowded [ˌəʊvəˈkraʊdɪd] *a* gavjum, odamga to'la

overdid [ˌəʊvəˈdɪd] *past. of* **overdo**

overdo [ˌəʊvəˈdu:] *v* (**overdid; overdone**) 1) ortiqcha tirishmoq, harakat qilmoq; 2) ko'p pishirib yubormoq; tagiga oldirmoq

overdone [ˌəʊvəˈdʌn] *p. p. of* **overdo**

overdose [ˈəʊvədəʊs] *n* dozadan (muayyan miqdordan) oshirib yuborish

overdraft [ˈəʊvədrɑ:ft] *n* kreditning oshishi (*bankda*)

overdress [ˌəʊvəˈdres] *v* juda yaxshi kiyinmoq, didsiz kiyinmoq

overdue [ˌəʊvəˈdju:] *a* kechikkan, vaqtidan o'tib ketgan

over-estimate [ˌəʊvərˈestɪmɪt] *v* ortiqcha baho bermoq, bo'rttirib yubormoq; mubolag'a qilmoq

overflow **1.** *n* [ˈəʊvəfləʊ] ko'p quyilib (chetidan) toshish; **2.** *v* [ˌəʊvəˈfləʊ] (**overlowed; overlown**) ko'p quyilib (chetidan) toshmoq

overflown [ˌəʊvəˈfləʊn] *p. p. of* **overflow**

overfulfil [ˌəʊvəfʊlˈfɪl] *v* oshirib bajarmoq

overgrew [ˌəʊvəˈgru:] *past. of* **overgrow**

overgrow [ˌəʊvəˈgrəʊ] *v* (**overgrew; overgrown**) 1) o'smoq, bo'yi cho'zilmoq; 2) o'sib (chiqib) ketmoq

overgrown [ˌəʊvəˈgrəʊn] *a* o'sgan, o'sib ketgan

overhang **1.** *n* [ˈəʊvəhæŋ] turtib chiqqan joy, bo'rtik, do'ng, tumshuq; **2.** *v* [ˌəʊvəˈhæŋ] (**overhung**) 1) osmoq, osilmoq, osilib qolmoq; 2) ustini qoplab olmoq

overhaul [ˈəʊvəhɔ:l] *v* sinchiklab tekshirib ko'rmoq, diqqat bilan tekshirib chiqmoq

overhead [ˌəʊvəˈhed] **1.** *a* 1) yuqoridagi, tepadagi, tepasidagi; 2) ochiq havodagi, osmondagi; 3) yer ustidagi; **2.** [ˈəʊvəhed] *adv* 1) yuqorida, tepada, yuqoridagi qavatda; 2) osmonda, ko'kda

overhear [ˌəʊvəˈhɪə] *v* (**overheard**) 1) quloq solmoq; 2) to'satdan eshitib qolmoq

overheard [ˌəʊvəˈhɜ:d] *past., p. p. of* **overhear**

overheat [ˌəʊvəˈhi:t] **1.** *n* isish, qizib ketish, ortiqcha qizib ketish; **2.** *v* ortiqcha qizib ketmoq

overhung [ˌəʊvəˈhʌŋ] *past., p. p. of* **overhang**

overjoyed [ˌəʊvəˈdʒɔɪd] *a* juda baxtli; iqboli baland, baxtiyor

overkill [ˈəʊvəkɪl] *n* qayta-qayta qirib tashlash, yo'q qilish

overland [ˌəʊvəˈlænd] *a* quruqlikdagi

overlap [ˈəʊvəlæp] *v* qisman qoplamoq (yopmoq); bir-birini qoplamoq

overleaf [ˌəʊvəˈli:f] *adv* kitob betining boshqa tomonida, kitob sahifasining teskari tomonida

overlive [ˌəʊvəˈlɪv] *v* 1) boshdan kechirmoq; 2) ko'proq yashamoq

overload [ˌəʊvəˈləʊd] *v* haddan tashqari ko'p yuklamoq; ko'p yuk ortmoq

overlook [ˌəʊvəˈlʊk] *v* 1) baland ko'tarilib turmoq; 2) (*biror narsaga*) yuqoridan qaramoq, kuzatmoq; 3) biror tomonga qaragan bo'lmoq; 4) (*biror kimsaga*) qarab turmoq; nazorat qilmoq; 5) sezmasdan qolmoq, o'tkazib yubormoq; 6) mensimaslik, yetarlicha baho bermaslik

overlord [ˌəʊvəˈlɔ:d] *v* hukmronlik qilmoq; hokim (**hukmron**) bo'lmoq

overmaster [ˌəʊvəˈmɑ:stə] *adv* haddan tashqari, juda ham, nihoyatda, ortiq darajada

overmuch [ˌəʊvəˈmʌtʃ] *adv* haddan tashqari, ortiqcha

overnight [ˌəʊvəˈnaɪt] *a* 1) kechga tomon, kuni bilan; kechki; 2) birdan, kutilmaganda

overpass [ˈəʊvəpɑ:s] *n* estakada (*yo'l tepasiga qurilgan ko'prik; osma ko'prik*)

overpower [ˌəʊvəˈpaʊə] *v* kuchli bo'lmoq, ustun kelmoq

overpowering [ˌəʊvəˈpaʊ(ə)rɪŋ] *a* juda kuchli, zo'r

over-production [ˌəʊvəprəˈdʌkʃ(ə)n] *n* ortiqcha ishlab chiqarish

overran [ˌəʊvəˈræn] *past. of* **overrun**

overrate [ˌəʊvəˈreɪt] *v* oshirib (ortiqcha) baho bermoq, yuqori baholamoq

overreach [ˈəʊvəri:tʃ] *n* 1) makkorlik, ayyorlik, hiylagarlik, makr, hiyla; 2) chalishish (*otlar illati*)

override [ˌəʊvəˈraɪd] *v* 1) rad etmoq, e'tiborga olmaslik; 2) bosib olmoq, bosib ketmoq

overriding [ˌəʊvəˈraɪdɪŋ] *a* birinchi darajali, eng ahamiyatli, juda muhim, eng zarur

overrule [ˌəʊvəˈru:l] *v* hokimlik (hukmronlik) qilmoq, hokim (hukmron) bo'lmoq

overrun [ˌəʊvəˈrʌn] *v* (**overran; overrun**) toshib ketmoq, toshmoq

oversaw [ˌəʊvəˈsɔ:] *past of* **oversee**

oversea(s) [ˌəʊvəˈsi:(z)] *a* dengiz ortidan; dengiz ortida; boshqa mamlakatlarda; ~ **trade** tashqi savdo

oversee [ˌəʊvəˈsi:] *v* (**oversaw; overseen**) nazorat qilib (ko'rib) chiqmoq

overseen [ˌəʊvəˈsi:n] *p. p. of* **oversee**

overseer [ˈəʊvəsɪə] *n* kuzatuvchi, nazoratchi, nazorat qilib (qarab) turuvchi

overshadow [ˌəʊvəˈʃædəʊ] *v* 1) to'smoq, pana (qorong'i) qilmoq; qoplab olmoq; 2) saqlamoq, ehtiyot qilmoq

overshoe [ˈəʊvəʃu:] *n* kalish; botik

oversight [ˈəʊvəsaɪt] *n* e'tiborsizlik, diqqatsizlik, xato qilishlik

over-simplify [ˌəʊvəˈsɪmplɪfaɪ] *v* 1) haddan tashqari soddalashtirmoq, osonlashtirmoq; 2) yuzakilashtirmoq, sayqallashtirmoq

oversleep [ˌəʊvəˈsli:p] *v* (**overslept**) uxlab qolmoq, odatdagidan ko'proq uxlamoq

overslept [ˌəʊvəˈslept] *past., p. p. of* **oversleep**

overstate [ˌəʊvəˊsteɪt] *v* ortlirib (boʻrttirib) yubormoq; boʻrttirib (oshirib) koʻrsatmoq
overstep [ˌəʊvəˊstep] *v* 1) oshirib yubormoq; chegaradan chiqmoq; 2) hatlamoq, hatlab oʻtmoq
overstrain [ˌəʊvəˊstreɪn] *v* juda charchatmoq (toliqtirmoq), madorini qoritmoq
overstrung [ˌəʊvəˊstrʌŋ] *a* juda tarang (*asab haqida*)
overt [əʊˊvɜːt] *a* ochiq, oshkora; ochiqdan ochiq, roʻyirost
overtake [ˌəʊvəˊteɪk] *v* (**overtook; overtaken**) yetib olmoq, quvib yetmoq
overtaken [ˌəʊvəˊteɪkən] *p. p. of* **overtake**
overtax [ˌəʊvəˊtæks] *v* 1) yuk boʻlib tushmoq, ogʻirlashtirmoq; 2) soliqlar bilan qiynab qoʻymoq
overthrew [ˌəʊvəˊθruː] *past. of* **overthrow 2**
overthrow 1. *n* [ˊəʊvəθrəʊ] agʻdarish, yiqitish, qulatish; **2.** *v* [ˌəʊvəˊθrəʊ] (**overthrew; overthrown**) agʻdarmoq, qulatmoq, yiqitmoq
overthrown [ˌəʊvəˊθrəʊn] *p. p. of* **overthrow 2**
overtime [ˊəʊvətaɪm] *adv* ish vaqtidan tashqari
overtone [ˊəʊvətəʊn] *n* 1) *mus.* oberton (*asosiy tonga alohida tus beruvchi qoʻshimcha ton*); 2) maʼno, mohiyat
overtook [ˌəʊvəˊtʊk] *past. of* **overtake**
overture [ˊəʊvətjʊə] *n* 1) zondlash (*ichki aʼzolarni naychasimon asbob bilan tekshirish yoki davolash*); 2) sinov shari (*ob-havo sharoitini tekshirib koʻrish uchun havoga uchiriladigan shar*); 3) tashabbus, gʻayrat, harakat; 4) *mus.* uvertura (*orkestr uchun yozilgan sonata shaklidagi mustaqil konsert asari*); 5) doʻstona munosabatlarni bogʻlash uchun harakat qilish
overturn 1. *n* [ˊəʊvətɜːn] yuqoridan tashlash, qulatish, tashlab yuborish; **2.** *v* [ˌəʊvəˊtɜːn] yuqoridan tashlamoq, qulatmoq, tashlab yubormoq
overvalue [ˌəʊvəˊvælju:] **1.** *n* yangidan baho qoʻyish, qaytadan narx belgilash; **2.** *v* ortiqcha baho bermoq, bahosini oshirib yuborish
overweening [ˌəʊvəˊwiːnɪŋ] *a* oʻziga juda bino qoʻygan, oʻziga ortiq darajada ishongan
overweight [ˌəʊvəˊweɪt] *a* ortiqcha vaznli, ogʻir
overwhelm [ˌəʊvəˊwelm] *v* 1) toʻldirmoq, koʻmmoq, toʻldirib (koʻmib) qoʻymoq; 2) suv bostirmoq, suv toshirmoq; 3) savol yogʻdirmoq, savolga koʻmib tashlamoq
overwhelming [ˌəʊvəˊwelmɪŋ] *a* behisob, son-sanoqsiz, beadad, bitmas-tuganmas
overwork [ˌəʊvəˊwɜːk] *v* haddan tashqari koʻp ishlamoq, madori qurimoq, holdan toymoq
overwrought [ˌəʊvəˊrɔːt] *a* 1) ishlab qattiq charchagan, holdan toygan, madori qurigan; 2) asabiy holatda, asabiylashayotgan
ovum [ˊəʊvəm] *n biol.* tuxum, hujayra
owe [əʊ] *v* 1) qarz boʻlmoq, kimdandir qarzdor boʻlmoq; 2) minnatdor boʻlmoq
owing [ˊəʊɪŋ] *a* toʻlanmagan, qarzdor
owing to [ˊəʊɪŋtʊ] *prep.* sababli, tufayli, uchun, natijasida, sharofati bilan
owl [aʊl] *n zool.* boyqush, boyoʻgʻli
own [əʊn] **1.** *v* egallamoq, ega boʻlmoq; **2.** *a* oʻziniki
owner [ˊəʊnə] *n* xoʻjayin; egasi, sohib
ownerless [ˊəʊnəlɪs] *a* 1) egasi yoʻq, hech kimga qarashli boʻlmagan; 2) qarovsiz qolgan, nazoratsiz, egasiz, xarob; 3) boqimsiz, uysiz, boshpanasiz, koʻchada qolgan
ownership [ˊəʊnəʃɪp] *n* 1) mulk, mulkchilik, egalik, egalik huquqi; 2) ega boʻlish, egalik qilish
ox [ɒks] (*pl* **oxen**) *n zool.* buqa, hoʻkiz
oxalic [ɒkˊsælɪk] *a kim.* shovulga oid, shovuldan tayyorlangan
oxbow [ˊɒksbəʊ] *n* 1) boʻyinturuq; 2) asorat, jabr-zulm, sirtmoq; 3) eski oʻzan (qurib qolgan daryo oʻzani); 4) daryo (*yoki* koʻl) qoʻltigʻi
oxen [ˊɒks(ə)n] *n* 1) *pl of* **ox**; 2) shoxli mol
oxherd [ˊɒkshɜːd] *n* choʻpon, podachi
oxidate [ˊɒksɪdeɪt] = **oxidize**
oxidation [ˌɒksɪˊdeɪʃ(ə)n] *n kim.* oksidlash; oksidlanish
oxide [ˊɒksaɪd] *n kim.* oksid (*kimyoviy elementlarning kislorod bilan birikmasi*)
oxidize [ˊɒksɪdaɪz] *v kim.* oksidlamoq, oksidlanmoq
oxter [ˊɒkstə] **1.** *n shotl.* qoʻltiq, yelkaning ichki qismi; **2.** *v* 1) qoʻltigʻidan *yoki* qoʻltidan ushlab tutib turmoq, koʻtarib turmoq; 2) quchoqlamoq, bagʻriga bosmoq
oxygen [ˊɒksɪdʒ(ə)n] *n kim.* 1) kislorod; 2) *attr.* kislorodga oid, kislorodli
oxygenate [ɒkˊsɪdʒəneɪt] *v* 1) oksidlamoq; 2) kislorodga toʻyintirmoq
oxygenous [ɒkˊsɪdʒənəs] *a* kislorodga oid, kislorodli
oxygon [ˊɒksɪgɒn] *n* oʻtkir burchakli uchburchak
oyster [ˊɔɪstə] *n* chigʻanoq, yesa boʻladigan dengiz molluskasi
ozocerite, ozokerite [ˌɒzəʊˊsɪ(ə)raɪt, -ˊkɪ(ə)r(a)ɪt] *n min.* ozokerit, togʻ mumi
ozone [ˊəʊzəʊn] *n kim.* ozon (*kislorodning uch atomli molekulasidan iborat gaz, kislorodning bir koʻrinishi*)
ozonize [ˊəʊzə(ʊ)naɪz] *v kim.* 1) ozonga aylantirmoq, ozonlamoq; 2) ozon taʼsirida (ozonlab) tozalamoq

P

P, p [piː] *n* ingliz alifbosining oʻn oltinchi harfi; **to mind one's P's and Q's** ehtiyot boʻlmoq, birovning ishiga aralashmaslik
pa [pɑː] *n* („**papa**" *ning qisqartmasi*) *soʻzl.* ota, dada, ada, dadajon
pabular(y) [ˊpæbjʊlə(rɪ)] *a* 1) oziq-ovqatga oid, oziq-ovqat…; 2) yeyiladigan, ovqatga ishlatiladigan
pabulum [ˊpæbjʊləm] *n ko'ch.* oziqa, manba, material
pace I [peɪs] **1.** *n* 1) qadam, yurish; **snail's ~** toshbaqa qadami; 2) qadamning uzunligi; 3) tezlik; **to go ~** yeldek uchmoq, yeldek (tez) uchib bormoq; **to keep ~ with** kim bilandir baravar (teng, bir qatorda) yurmoq, bormoq; 4) yoʻrgʻalash, yoʻrgʻalab yurish; **2.** *v* qadam tashlamoq
pace II [ˊpeɪsɪ] *adv lot.* kimningdir ruxsati bilan
pace-maker [ˊpeɪsˌmeɪkə] *n* 1) peshqadam (*yugurish va b. da*); 2) *tib.* elektrokardiostimulator
pacer [ˊpeɪsə] *n* yoʻrgʻa (*ot*)
pacha [ˊpɑːʃə, pəˊʃɑː] *tur.* podsho (*Turk sultonligida va Misrda generallar, aʼyonlarning oliy unvoni va shu unvonni olgan kishi*)
pachyderm [ˊpækɪdɜːm] *n zool.* qalin terili hayvon
pachydermatous [ˌpækɪˊdɜːmətəs] *a zool.* terisi qalin, qalin terili
pacific [pəˊsɪfɪk] *a* sokin, tinch, osoyishta; **~ally** tinchlik bilan; **the Pacific** Tinch okeani
pacification [ˌpæsɪfɪˊkeɪʃ(ə)n] *n* tinchitish, tinchlantirish, yupatish, ovutish, taskin (orom) berish
pacificator [pəˊsɪfɪkeɪtə] *n* tinchlik oʻrnatuvchi shaxs
pacificatory [pəˊsɪfɪkət(ə)rɪ] *a* 1) murosasozlikka oid, murosaga keltiradigan, yarashtiradigan, kelishtiradigan; 2) koʻngilni tinchlantiradigan, yupatadigan, xotirjam qiladigan
pacificism [pəˊsɪfɪsɪz(ə)m] = **pacifism**
pacificist [pəˊsɪfɪsɪst] = **pacifist**
pacifism [ˊpæsɪfɪz(ə)m] *n* patsifizm (*har qanday urushlarga, jumladan, milliy*

ozodlik urushlariga ham qarshi chiqadigan, tinchlikni passiv ravishda targ'ib qiladigan kishilar harakati)

pacifist ['pæsɪfɪst] *n* patsifizm tarafdori

pacify ['pæsɪfaɪ] *v* tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, xotirjam qilmoq

pack [pæk] **I.** *n* 1) qog'ozga o'ralgan narsa, tugun; 2) to'da; **a ~ wolves** bo'rilar to'dasi; **a ~ of crooks** mayda o'g'rilar to'dasi; **a ~ of lies** nuqul (butkul, boshdan-oyoq) yolg'on; **2.** *v* 1) joylamoq, joylashtirmoq, biror idishga solib qo'ymoq; 2) to'daga birlashtirmoq (*bo'rilar, qushlar va b. lar to'g'risida*)

package ['pækɪdʒ] *n* 1) toy, tugun, bo'xcha; 2) dasta, bog'lam, taxlam; 3) posilka; 4) qog'ozga o'ralgan narsa; 5) sigareta qutisi; 6) joylash, o'rash, solish

packaged ['pækɪdʒd] *a* o'ralgan, solingan, joylashtirilgan

package holiday ['pækɪdʒ,hɒlɪdɪ] *n* barcha xizmatlar uchun oldindan birdaniga to'lanadigan turistik sayohat

packager ['pækɪdʒə] *n amer. radio, tlv.* dastur tuzuvchi (tayyorlovchi) kishi

packaging ['pækɪdʒɪŋ] *n* joylash, o'rash, solish

pack-animal ['pæk,ænɪm(ə)l] *n* yuk tashuvchi hayvon

packed [pækt] *a* 1) joylashtirilgan, toylashtirilgan; toylangan; 2) o'ralgan, solingan

packer I ['pækə] *n* 1) o'rab joylaydigan kishi, qadoqlovchi; 2) joylovchi, toylovchi

packer II ['pækə] *n so'zl.* g'irrom, tirriq, muttaham, qallob kishi

packet ['pækɪt] *n* paket, idish, tuguncha

packet-boat ['pækɪt,bəʊt] *n* pochta yuklarini va passajirlarni tashiydigan kemа

pack-horse ['pækhɔ:s] *n* yuk tashiydigan ot, ishchi ot

pack-ice ['pækaɪs] *n* pak (*qutb suvlarida suzib yuradigan ko'p yillik qalin muz*)

packing ['pækɪŋ] *n* 1) joylash, o'rash, solish, joylashtirish; 2) ma'lum tartibda taxlash, taxlab qo'yish, g'aram qilish

packing-case ['pækɪŋkeɪs] *n* joylash uchun mo'ljallangan quti

packing-needle ['pækɪŋ,ni:dl] *n* o'ralgan narsani tikadigan igna

packing-sheet ['pækɪŋʃi:t] *n* o'rash uchun ishlatiladigan bo'z

packman ['pækmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) tashuvchi, yetkazib beruvchi, tarqatuvchi

pack-running ['pæk,rʌnɪŋ] *n* 1) podapoda (gala-gala) bo'lib yashash; 2) *ko'ch.* ongsiz ravishda ko'pchilikka ergashish

pack-saddle ['pæk,sædl] *n* yuk ortiladigan egar

packthread ['pækθred] *n* ingichka arqon, kanop, chilvir, kanop ip

pack-train ['pæktreɪn] *n* yuk tashiydigan karvon

pact [pækt] *n* ahdnoma, shartnoma, xalqaro bitim; **a non-aggression ~** hujum (tajovuz) qilmaslik haqida bitim; **to enter into a ~** shartnoma tuzmoq

pad I [pæd] *n* 1) yumshoq egar; 2) yumshoq qistirma (*ikki narsa orasiga qistirib qo'yilgan narsa*); 3) yostiq, yostiqcha, yostiqsimon yumshoq narsa

pad II [pæd] *n* to'qilgan savat (*o'lchov sifatida*)

padded ['pædɪd] *a* qoqib qo'yilgan, qoqib tashlangan

padding ['pædɪŋ] *n* 1) tiqib to'ldirish; 2) tiqib to'ldiradigan narsa; tiqma material; 3) vatin

paddle ['pædl] **1.** *v* eshkak eshmoq; **2.** eshkak, chovxoda, chov

paddle-boat ['pædl,bəʊt] *n* g'ildirakli paroxod

paddle-box ['pædlbɒks] *n* eshkak parragining g'ilofi

paddle-wheel ['pædlwi:l] *n* eshkak parrak (*kemalarda*)

paddling pool ['pædlɪŋpu:l] *n so'zl.* bolalar cho'miladigan hovuzcha

paddock ['pædək] *n* 1) ihota qilingan (o'ralgan) yaylov; 2) o'tar, qo'ton, molxona

Paddy ['pædɪ] *n so'zl.* Peddi (*irlandiyaliklarning hazillashib chaqiradigan laqabi*)

paddy I ['pædɪ] *n* ishlov berilmagan guruch

paddy II ['pædɪ] *n so'zl.* 1) qattiq g'azab, qahr; 2) g'azabning avj olishi, o'ta g'azablanish

paddywhack ['pædɪwæk] = **paddy II**

padishah ['pɑ:dɪʃɑ:] *n fors.* podsho, podshoh

padlock ['pædlɒk] **1.** *n* osma qulf; **2.** *v* osma qulf bilan bekitmoq

padre ['pɑ:dr(e)ɪ] *n isp.* katoliklar ruhoniysi

padrone [pə'drəʊnɪ] *n it.* (*pl* **-ni** [-ni:]) 1) mehmonxona xo'jayini; 2) (*O'rta Yer dengizi savdo kemasining*) kapitani

padroni ['pə'drəʊni:] *pl of* **padrone**

padronism [pə'drəʊnɪzm] *n* ko'chadagi musiqachilarning mehnatidan foydalanish

padshah ['pɑ:dʃɑ:] = **padishah**

paean ['pi:ən] *n qad. grek.* g'alaba qo'shig'i

paederasty ['pedəræstɪ] *n* bolabozlik, bachchabozlik, besoqolbozlik

paediatrician [,pi:dɪə'trɪʃ(ə)n] *n* pediatr, pediatriya mutaxassisi, bolalar shifokori

paediatrics [,pi:dɪ'ætrɪks] *n* pediatriya (*bolalar kasalliklari va ularni davolash haqidagi fan*)

paedology [pi:'dɒlədʒɪ] *n* pedologiya

pagan ['peɪgən] **1.** *n* 1) majusiy, butparast; 2) xudoga (dinga) ishonmaydigan, dinsiz kishi; **2.** *a* majusiylikka (majusiylarga, butparastlikka, butparastlarga) oid

pagandom ['peɪgəndəm] *n* majusiylik, butparastlik

paganish ['peɪgənɪʃ] *a* butparastlikka oid

paganism ['peɪgənɪz(ə)m] *n* butparastlik, majusiylik

paganize ['peɪgənaɪz] *v* butparastlikka murojaat qilmoq

page I [peɪdʒ] **1.** *n* 1) sahifa, bet; 2) *poligr.* terilgan *yoki* bosilgan matn sahifasi

page II [peɪdʒ] *n* xizmatkor bola

pageant ['pædʒ(ə)nt] *n* dabdabali tomosha, karnaval namoyishi

pageantry ['pædʒ(ə)ntrɪ] *n* jozibali manzara, dabdabali tomosha

pagehood ['peɪdʒhʊd] *n* mahramlik, xizmatkorlik davri

pager ['peɪdʒə] *n* peyjer (*xizmatchilarni chaqirish uchun mo'ljallangan kichik hajmdagi moslama*)

paginal ['pædʒɪn(ə)l] *a* betlar bo'yicha bajariladigan, har beti ko'zda tutilgan

paginate ['pædʒɪneɪt] *v* sahifalarga raqam qo'yib chiqmoq

pagination [,pædʒɪ'neɪʃ(ə)n] *n* betlarni raqamlash

pagoda [pə'gəʊdə] *n* 1) pagoda (*Qadimgi Hindistonning ibodatxona rasmi tushirilgan tilla yoki kumush tangasi*); 2) ibodatxona, budda dini ibodatxonasi; 3) gazeta, tabaka va b. sotiladigan kichkina do'koncha

pagoda-tree [pə'gəʊdətri:] *n bot.* hind anjirining daraxti

pagurian [pə'gjʊ(ə)rɪən] *a zool.* qisqichbaqasimonlarga oid

pah I [pɑ:] *int.* 1) tuf, tfu; 2) tuf, tuf-e, tuf-a (*qattiq norozilik, nafratlanish ma'nosida*)

pah II [pɑ:] *n* mustahkamlangan mahalliy qishloq (*Yangi Zelandiyada*)

paid [peɪd] *a* 1) ijaraga olingan, yollangan, kiraga olingan, kira qilingan; 2) to'langan (*haq, xarajat, soliq va b. haqida*)

paid-in [,peɪd 'ɪn] *a* to'langan, to'lab qo'yilgan, topshirilgan (*pul haqida*)

paid-up [ˌpeɪdˈʌp] *a* puli to'langan, puli berilgan
pail [peɪl] *n* 1) chelak, paqir, satil; 2) pastak yog'och idish, bak
pailful ['peɪlfʊl] *n* ichi to'ldirilgan chelak
paillasse ['pælɪæs, pælˈjæs] *n* poxol to'shak
paillette [pælˈjet] *n* 1) emalga qo'shiladigan zar qog'oz; 2) yaltiroq tangachalar
pain [peɪn] *n* og'riq, dard; alam, g'am, ranj, qayg'u; **to register ~** og'riq sezmoq; **to be in ~** biror kasalga yo'liqmoq (uchramoq, duchor bo'lmoq); **to give one ~** *so'zl.* kimnidir ranjitmoq (xafa qilmoq); **to take ~s** hafsala (harakat, qunt) qilmoq, tirishmoq, urinmoq, intilmoq
pained [peɪnd] *a* xafa bo'lgan, ranjigan; **she looked ~** uning qiynalgani (xafa bo'lgani) yuzidan ko'rinib turardi
painful ['peɪnf(ə)l] *a* azob beradigan, og'ritadigan, og'rig'i zo'r, alamli; **a ~ problem** mushkul (qiyin, chigal) masala
pain-killer ['peɪnˌkɪlə] *n so'zl.* og'riqni qoldiradigan dori-darmon
painless ['peɪnləs] *a* og'riqsiz, og'ritmaydigan, beozor; **~ dentistry** tishni og'riqsiz davolash yoki olib tashlash
pains [peɪnz] *n* 1) erishish, muvaffaq bo'lish, qozonish; 3) urinish, tirishish, harakat (hafsala) qilish; 3) harakat, hafsala, qunt; 4) harakatchanlik, tirishqoqlik
painstaking ['peɪnzˌteɪkɪŋ] **1.** *n* urinish, tirishish, harakat qilish; **2.** *a* harakatchan, tirishqoq, serharakat; **a ~ job** ko'p mehnat talab qiladigan (sermashaqqat, mashaqqatli) ish
paint [peɪnt] **1.** *n* bo'yoq; **2.** *v* bo'yamoq, chizmoq; tasvirlamoq; **wet/fresh ~** (*e'lon*) ehtiyot bo'ling, bo'yalgan; **to ~ in bright colours** yarqiragan (ochiq) ranglar bilan tasvirlamoq
paint-box ['peɪntbɒks] *n* bo'yoq qutisi
paintbrush ['peɪntbrʌʃ] *n* cho'tka, mo'yqalam
painted ['peɪntɪd] *a* bo'yalgan, bezatilgan
painter I ['peɪntə] *n* 1) rassom, musavvir; 2) bo'yoqchi
painter II ['peɪntə] *n deng.* falin (*qayiqni biror narsaga bog'lash uchun ishlatiladigan arqon*)
painter III ['peɪntə] *n amer. shev.* puma (*Amerika yovvoyi mushugi*)
painting ['peɪntɪŋ] *n* 1) musavvirlik (rassomlik) san'ati; 2) rassomlik; 3) rassomlik san'ati asarlari; 4) rasmlar, tasvirlar
painty ['peɪntɪ] *a* 1) yangi bo'yalgan; **~ smell** bo'yoq hidi (isi); 2) keragidan ko'p rang berilgan
pair [peə] **1.** *n* 1) juft; qo'sh; **in ~s** juft-juft bo'lib; 2) ikkita qismdan iborat bo'lgan narsa; **a ~ of scissors** qaychi; **2.** *v* 1) juftlamoq; 2) nikohlamoq; **to ~ off** 1) juft-juft (ikkitadan) bo'lib bo'linmoq; juft-juft (ikkitadan) bo'lib chiqib ketmoq; 2) *so'zl.* uylanmoq, turmushga chiqmoq (*with*)
pair- [-peə] *murakkab so'zlarda* xona (bo'lma, uy) *tarjimalarini beradi*; *mas.*, **four-pair front** to'rtinchi qavatdagi oynalari ko'chaga qaragan xona
pair-horse ['peəhɔːs] *a* 1) juft, juft bo'lib; 2) qo'sh otli, ikki ot qo'shilgan
pair-oar ['pe(ə)rɔː] *n sport.* ikki eshkakli qayiq
pajamas [pəˈdʒɑːməz] *n pl* pijama (*ko'pincha, kurtka va shimdan iborat uy kiyimi*)
Pakistani [ˌpækɪˈstɑːnɪ] **1.** *n* pokistonlik erkak, pokistonlik ayol; **2.** *a* Pokiston va pokistonliklarga oid
pal [pæl] *n so'zl.* oshna, og'ayni, jo'ra, o'rtoq, do'st; **to ~ up with (to)** kim bilandir do'stlashmoq
palace ['pælɪs] *n* saroy, qasr, hashamatli uy, koshona
paladin ['pælədɪn] *n tar.* paladin (*o'rta asrlarda saroy a'yoni, jasur ritsar*)
Palaeogene ['pælɪəʊdʒiːn] *n geol.* paleogen (*kaynozoy erasining birinchi davri*)
palaeographer [ˌpælɪˈɒgrəfə] *n* paleograf, paleografiya mutaxassisi
palaeography [ˌpælɪˈɒgrəfɪ] *n* paleografiya (*qadimgi qo'lyozmalarning xati va tashqi ko'rinishlarini o'rganuvchi fan*)
palaeolithic [ˌpælɪəˈlɪθɪk] *a* paleolitga oid, paleolit...; **the P. age** paleolit davri (*eng qadimgi tosh davri*)
palaeontology [ˌpælɪɒn ˈtɒlədʒɪ] *n* paleontologiya (*yer geologik tarixining qadimgi davrlarda yashagan va toshqotgan hayvon va o'simliklar haqidagi fan*)
Palaeozoic [ˌpæltə zəʊɪk] *a geol.* paleozoy erasi (*yer geologik tarixining mezozoy erasidan oldingi uchinchi erasi*)
palankeen [ˌpælənˈkiːn] *n* 1) taxtiravon; 2) zambil
palanquin [ˌpælənˈkiːn] = **palankeen**
palatable ['pælətəb(ə)l] *a* 1) mazali, lazzatli, totli, shirin, xushbo'y; 2) yoqimli, yoqimtoy, dilkash
palatal ['pælətl] *a* 1) tanglayga oid, tanglay...; 2) *fon.* yumshoq, yumshalgan
palatalization [ˌpælətəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n fon.* yumshatish (*tilning o'rta qismi yuqori tanglayga ko'tarilishi natijasida undosh tovushlarning yumshalishi*)
palatalize ['pælətəlaɪz] *v* yumshatmoq, muloyim qilmoq
palate ['pælɪt] *n* 1) *anat.* tanglay; 2) havas, qiziqish, ishtiyoq
palatial [pəˈleɪʃ(ə)l] *a* 1) saroyga oid; 2) dabdabali, hashamatli, muhtasham
palatine ['pælətaɪn] *a anat.* tanglayga oid; **~ bones** tanglay suyaklari
palaver [pəˈlɑːvə] **1.** *n* 1) kengash, kengash majlisi; 2) bekorchi gap, safsata; 3) yolg'on so'zlar; **2.** *v* 1) bekorchi gaplarni gapirmoq; 2) gapni boshqa yoqqa burmoq
pale I [peɪl] **1.** *n* 1) qoziq, qoziqpoya; 2) chegara, chiziq; **2.** *v* aylantirib o'rab olmoq, atrofini o'rab ajratmoq
pale II [peɪl] **1.** *a* rangi o'chgan, rangsiz; **to be ~ with** ...dan rangi oqargan; **2.** *v* rangi o'chmoq, oqarib (bo'zarib) ketmoq
paleaceous [ˌpeɪlɪˈeɪʃəs] *a* choriga, to'ponga oid
pale-face ['peɪlfeɪs] *n* rangi o'chgan (ketgan, oqargan, bo'zargan) odam
Palestinian [ˌpælə'stɪnɪən] **1.** *a* Falastin va falastinliklarga oid; **2.** *n* Falastin aholisi
paletot ['pæltəʊ] *n fr.* keng palto
palette ['pælɪt] *n* palitra (*musavvirlarning bo'yoq qoradigan taxtasi*)
palfrey ['pɔːlfrɪ] *n esk. shoir.* miniladigan ot
Pali ['pɑːlɪ] *n* pali (*hind shevasi*)
palimpsest ['pælɪmpsest] *a* avvalgi matnning o'rniga yozilgan
palindrome ['pælɪndrəʊm] *n adab.* palindrom (*boshidan ham, oxiridan ham bir xil o'qiladigan so'z yoki birikma*)
paling ['peɪlɪŋ] *n* qadimgi qal'a devori (*zich qoqilgan, yuqori qismi uchli qoziqlardan iborat yog'och devor*)
palinode ['pælɪnəʊd] *n grek.* o'zining aytgan so'zidan kechish
palisade [ˌpælɪˈseɪd] *n* 1) qoziqdevor; 2) yog'och qal'a devori
palisander [ˌpælɪ ˈsændə] *n* palisandr (*issiq mamlakatlarda o'sadigan ba'zi daraxtlarning pishiq va qimmatbaho yog'ochi*)
palish ['peɪlɪʃ] *a* rangi oqargan, rangi o'chgan
pall I [pɔːl] *n* parda, darparda; **a ~ of smoke** tutun qatlami
pall II [pɔːl] *v* jonga tegmoq, bezor qilmoq
palladium [pəˈleɪdɪəm] *n kim.* palladiy (*platina rudasida uchraydigan kumush tusli nodir metall*)
pallet I ['pælɪt] *n* yotish uchun poxoldan qilingan joy

pallet II [ˈpælɪt] *n* taglik (*biror narsaning tagiga qo'yiladigan buyum*)
pallet-bed [ˈpælɪtbed] = **pallet I**
pallia [ˈpælɪə] *pl of* **pallium**
palliasse [ˌpælɪˈæs] *n* poxol to'shak
palliate [ˈpælɪeɪt] *v* 1) (*og'riqni*) vaqtincha qoldirmoq; 2) (*jinoyatni, aybni*) yengillashtirmoq
palliation [ˌpælɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) (*og'riqni*) vaqtinchalik qoldirish; 2) (*aybni, jinoyatni*) yengillashtirish
palliative [ˈpælɪətɪv] **1.** *a* 1) palliativ (*kasalga vaqtincha yengillik beruvchi dori*)ga oid; palliativ...; 2) yumshatadigan, yumshoq (muloyim) qiladigan, pasaytiradigan, kamaytiradigan; **2.** *n* palliativ (*kasalga vaqtincha yengillik beruvchi dori*)
pallid [ˈpælɪd] *a* murdadek rangi o'chgan
pallidness [ˈpælɪdnəs] *n* haddan tashqari (vahimali) rangsizlik
pallium [ˈpælɪəm] *n lot.* (*pl* **-lia** [-lɪə]) 1) plash; 2) yelkaga tashlanadigan yengsiz keng kiyim
pallor [ˈpælə] *n* rangsizlik, rangi o'chganlik
palm I [pɑ:m] **1.** *n* 1) kaft; hovuch; 2) chovxoda (eshkak)ning kafti (qanoti); **2.** *v* (*qarta va b. ni*) kaftiga yashirmoq
palm II [pɑ:m] **1.** *n bot.* 1) palma, palma daraxti; 2) palma daraxtining novdasi; **2.** *attr.* palma daraxtiga oid, palma daraxtidan qilingan, palma daraxtidan olingan
palmaceous [pɑ:ˈmeɪʃəs] *a bot.* 1) palma daraxtiga oid; palma ...; 2) palma daraxtidan qilingan (olingan)
palmary [ˈpælm(ə)rɪ] *a* birinchi o'rinni (birinchilikni) bersa bo'ladigan, g'olib bo'lishga arziydigan; juda yaxshi, ajoyib
palmate [ˈpælmeɪt] *a bot.* barmoqsimon, panjasimon, shapaloq...
palm-cat [ˈpɑ:mkæt] = **palm-civet**
palm-civet [ˈpɑ:mˌsɪvɪt] *n zool.* palma suvsari
palmcrist [ˈpɑ:mkrɪst] *n bot.* kanakunjut
palmer [ˈpɑ:mə] *n* 1) ziyoratchi, hoji; 2) kapalakning tuxumdan chiqqan qurti
palmetto [pælˈmetəʊ] *n bot.* (*pl* **-os** [-əʊz]) bo'yi past palma
palmiped(e) [ˈpælmɪpə(-pi:d)] **1.** *n zool.* tutash panjali qush; **2.** *a zool.* tutash panjali
palmist [ˈpɑ:mɪst] *n* xiromant, folbin
palmistry [ˈpɑ:mɪstrɪ] *n* folbinlik (*kaftdagi chiziqlarga qarab fol ochishdan iborat firibgarlik*)
palm-oil [ˈpɑ:mɔɪl] *n* 1) palma moyi; 2) *so'zl.* pora
palm-tree [ˈpɑ:mtri:] *n* palma daraxti
palm-worm [ˈpɑ:mwɜ:m] *n* kapalakning tuxumdan chiqqan qurti
palmy [ˈpɑ:mɪ] *a* palma daraxtiga oid, palma daraxti
palp [pælp] *n zool.* paypaslagich, qisqich (*ba'zi hasharot va hayvonlarning mo'ylovsimon qo'llari*)
palpability [ˌpælpəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) sezilish, sezilish mumkinlik, seziluvchanlik; 2) aniqlik, ayonlik
palpable [ˈpælpəb(ə)l] *a* 1) sezilarli, sezib bo'ladigan, sezish mumkin bo'lgan, ko'zga ko'rinarli; 2) aniq, oydin
palpal [ˈpælpəl] *a zool.* sezadigan, sezish uchun xizmat qiladigan, sezuvchi, sezish ...
palpate [ˈpælpeɪt] *v* 1) *tib.* (*bemorning og'rigan joyini barmoqlar bilan*) paypaslab ko'rmoq; 2) paypaslamoq, ushlab ko'rmoq; paypaslab ko'rmoq
palpation [pælˈpeɪʃ(ə)n] *n tib.* paypaslash (*kasal joylarni barmoqlar bilan paypaslab ko'rish usuli*); 2) paypaslash, ushlab ko'rish, paypaslab ko'rish
palpitate [ˈpælpɪteɪt] *v* qaltiramoq, titramoq
palpitation [ˌpælpɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) tomir urishi, tomir tepishi, yurakning (qon tomirining) tepib turishi; 2) qaltirash, titroq
palpi [ˈpælpaɪ] *pl of* **palpus**
palpus [ˈpælpəs] *n* (*pl* **-pi** [-paɪ]) = **palp**
palsied [ˈpɔ:lzɪd] *a* falaj, shol, falaj (shol) bo'lgan
palsy [ˈpɔ:lzɪ] **1.** *n* paralich, shol, falaj; **2.** *v* falaj (shol) qilmoq
palter [ˈpɔ:ltə] *v* 1) ikkiyuzlama(chi)lik (munofiqlik) qilmoq, bilib turib yolg'on gapirmoq; 2) mug'ambirlik (ayyorlik) qilmoq
paltry [ˈpɔ:ltrɪ] *a* arzimagan, ahamiyatsiz, mayda-chuyda
pampas [ˈpæmpəs] *n pl* pampa (*Janubiy Amerika dashti*)
pamper [ˈpæmpə] *v* erkalamoq, suymoq, erkalatmoq, erka qilib o'stirmoq
pamphlet [ˈpæmflɪt] *n* 1) risola; 2) pamflet (*biror shaxsga, ijtimoiy tuzumga yoki hayotning ayrim illatlariga qarshi qaratilgan o'tkir satirik, badiiy-publitsistik asar*)
pamphleteer [ˌpæmflɪˈtɪə] *n* 1) pamfletchi, pamflet yozuvchi; 2) pamflet yozmoq
pan [pæn] *n* 1) kastrulka; 2) kosa; 3) tos, jom, tog'ora, tunuka, tova
panacea [ˌpænəˈsɪə] *n* panatseya (*alkimyogarlar tomonidan go'yo har qanday kasalga davo deb qaralgan dori*)
panache [pəˈnæʃ, pæ-] *n* 1) o'zini ko'rsatish (ko'z-ko'z) qilish; 2) maqtanchoqlik, maqtanishlik
panama [ˌpænəˈmɑ:] *n* 1) panama (*serbar soyabonli yozlik shlapa*); 2) panama (*oliy mansabdorlarni pora bilan sotib olish kabi yirik firibgarliklar*)
panatela [ˌpænəˈtelə] *n* ingichka uzun sigara
pancake [ˈpæŋkeɪk] *n* blin (*quymoqsimon xamir ovqat*)
pancratium [pæŋˈkreɪʃɪəm] *n yun.* kurash va boks musobaqasi
pancreas [ˈpæŋkrɪəs] *n anat.* oshqozonosti bezi, me'da ostidagi bez
panda [ˈpændə] *n zool.* mushuksimon ayiq, panda
pandect [ˈpændekt] *n* (*odat, pl*) qonunlar to'plami (majmuasi)
pandemic [pænˈdemɪk] *n tib.* pandemiya (*katta hududlarga tarqaladigan epidemik kasallik*)
pandemonium [ˌpændəˈməʊnɪəm] *n* 1) do'zax, jahannam; 2) to's-to'polon, shovqin-suron
pander [ˈpændə] *n* 1) qo'shmachi, dalla; 2) sherik, hamtovoq
pane [peɪn] *n* deraza oynasi
panegyric [ˌpænɪˈdʒɪrɪk] **1.** *n* maqtov, madhiya, haddan tashqari maqtov; **2.** *a* maqtalgan, ko'klarga ko'tarilgan
panegyrical [ˌpænɪˈdʒɪrɪk(ə)l] *a* maqtovga (madh qilishga) oid; maqtovli, maqtovdan iborat, maqtov (madhiya)...
panegyrist [ˌpænɪˈdʒɪrɪst] *n* maddoh, madhiyachi, madh etuvchi odam
panegyrize [ˌpænɪdʒɪraɪz] *v* juda maqtamoq, vasf etmoq, maqtab ko'klarga ko'tarmoq, tasanno o'qimoq
panel [ˈpænl] *n* 1) filyonka (*bir rom yoki ramkaga o'rnatilgan yupqa taxta yoki faner*); 2) panel (*devorlarning pastki qismini yog'och-taxta bilan qoplash yoki bo'yab qo'yish*); 3) panno (*1. rasm yoki naqshlar bilan bezatilgan devor yoki ship; 2. devorning biror qismini egallab turadigan katta rasm*); 4) ro'yxat; 5) komissiya; 6) mutaxassislar guruhi; 7) radio yoki teleeshittirish ishtirokchilari
pang [pæŋ] *n* to'satdan paydo bo'lgan qattiq (kuchli) og'riq
pangolin [pænˈgəʊlɪn] *n zool.* yashcher (*asosan, Afrika va Janubiy Osiyoda bo'ladigan kaltakesakka o'xshagan yirik sutemizuvchi hayvon*)
panhandle [ˈpænˌhændl] *n* kastrulkaning dastagi
panhandler [ˈpænˌhændlə] *n amer. so'zl.* gadoy, tilanchi, sadaqachi

panic [ˈpænɪk] **1.** *n* vahima, sarosima, hayajon, dahshat; **2.** *v* qo'rqitmoq, vahimaga tushmoq (solmoq)
panicky [ˈpænɪkɪ] *a so'zl.* darrov vahimaga tushadigan, qo'rqoq, yuraksiz
panicle [ˈpænɪk(ə)l] *n bot.* ro'vak, popuk
panic-monger [ˈpænɪk,mʌŋgə] *n* vahimachi
panic-stricken [ˈpænɪk,strɪkən] *a* sarosimaga tushgan, vahima bosgan
paniculate [pəˈnɪkljʊlɪt] *a bot.* popukli, ro'vakli
panne [pæn] *n* panbarxat, ipak, baxmal
pannikin [ˈpænɪkɪn] *n* tunuka krujka; kastrulka; kosa
panoplied [ˈpænəplɪd] *a* to'la qurollangan holda, shaylanib, tayyor turib
panoply [ˈpænəplɪ] *n* yarog'-aslaha, qurol-yarog'
panorama [ˌpænəˈrɑːmə] *n* panorama, manzara, ko'rinish
panoramic [ˌpænəˈræmɪk] *a* panoramaga oid; panoramali, panorama...
panpipe [ˈpænpaɪp] *n mus.* sibizg'a (nay); burg'u
pansy [ˈpænzɪ] *n bot.* kapalakgul, farang, binafsha
pant [pænt] *v* hansiramoq, harsillamoq, nafasi qaytmoq
pantaloon [ˌpæntəˈluːn] *n* shim
pantechnicon [pænˈteknɪkən] *n* mebel tashiydigan avtomobil
pantheism [ˈpænθɪɪz(ə)m] *n fals.* panteizm (*xudo bilan tabiat bir deb qaraydigan diniy-falsafiy ta'limot*)
pantheist [ˈpænθɪɪst] *n* panteist (*panteizm tarafdori*)
pantheistic(al) [ˌpænθɪˈɪstɪk(əl)] *a fals.* panteizmga oid; panteistik...
pantheon [ˈpænθɪən] *n* panteon (1. *mashhur kishilar dafn etiladigan bino, daxma*; 2. *yunon va rimlarda: barcha xudolarga atab qurilgan ibodatxona*; 3. *kit. biror dinga mansub bo'lgan hamma xudolarning umumiy nomi*)
panther [ˈpænθə] *n zool.* 1) qoplon; 2) *amer.* puma (*Amerika yovvoyi mushugi*); yaguar (*yo'lbarssimon yirtqich hayvon*)
panties [ˈpæntɪz] *n pl* bolalar trusigi (kalta ishtoni)
pantile [ˈpæntaɪl] *n* nova-nova cherepitsa (*cherepitsa – tomga yopiladigan sopol*)
panto [ˈpæntəʊ] *n* pantomima (*so'zsiz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladigan tomosha*)
pantograph [ˈpæntəgrɑːf] *n* pantograf (*chizma, plan va sh. k. ning masshtabini o'zgartirib ko'chirish uchun qo'llaniladigan asbob*)
pantomime [ˈpæntəmaɪm] *n* pantomima (*so'zsiz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladigan tomosha*)
pantomimic [ˌpæntəˈmɪmɪk] *a* pantomimaga oid; pantomimik
pantry [ˈpæntrɪ] *n* ombor, omborxona (*oziq-ovqatlar uchun*)
pantryman [ˈpæntrɪmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) bufetchi
pants [pænts] *n amer. so'zl.* ishton; shim
pap I [pæp] *n* kasha, bo'tqa
pap II [pæp] *n anat.* emchak uchi
papacy [ˈpeɪpəsɪ] *n* papalik, papa hukmronligi, papa hokimiyati
papal [ˈpeɪp(ə)l] *n* papaga oid, papa
papaveraceous [pəˌpeɪvəˈreɪʃəs] *a bot.* ko'knorgullilar sinfiga mansub (oid); ko'knorgullilar...
papaverous [pəˈpeɪv(ə)rəs] *a* 1) ko'knor o'simligiga oid; ko'knor urug'idan olingan; 2) ko'knorgullilarga oid; ko'knorgullilar...
paper [ˈpeɪpə] *n* 1) qog'oz; 2) gazeta; 3) ilmiy ma'ruza
paperback [ˈpeɪpəbæk] *n* qog'oz muqovali kitob
paper clip [ˈpeɪpəklɪp] *n* qog'oz qisqichi
paper fastener [ˈpeɪpəˌfɑːs(ə)nə] = **paper clip**
paperhanger [ˈpeɪpəˌhæŋə] *n* gulqog'oz yopishtiruvchi usta
paper knife [ˈpeɪpənaɪf] *n* qog'oz kesadigan pichoq; keskich pichoq
paper mill [ˈpeɪpəˌmɪl] *n* qog'oz fabrikasi
papers [ˈpeɪpəz] *n* hujjatlar, qog'ozlar
paper stainer [ˈpeɪpəˌsteɪnə] *n* gulqog'oz ishlab chiqaruvchi fabrika egasi
paperwork [ˈpeɪpəwɜːk] *n* 1) kanselariya ishi; 2) yozma ish; 3) hujjatlarni (yozma ishlarni) tekshirish
papery [ˈpeɪp(ə)rɪ] *a* 1) qog'ozga o'xshagan; 2) yupqa, ingichka
papier mâché [ˌpæpɪeɪˈmæʃeɪ] *n fr.* papye-mashe (*yelim, gips va bo'r aralashtirilgan qog'oz massa; pressda siqib har xil buyumlar yasashda ishlatiladi*)
papilionaceous [pəˌpɪlɪəˈneɪʃəs] *a bot.* kapalakka (parvona)ga oid; kapalak...; parvona...
papilla [pəˈpɪlə] *n* (*pl* **-lae** [-liː]) *anat. zool. bot.* 1) emchak uchi; 2) g'uddacha (*terida, shilliq pardalarda*); 3) bo'rtiqcha, do'ngcha, shishcha
papillary [pəˈpɪlərɪ] *a* 1) emchak uchiga o'xshagan; 2) g'uddacha (do'ngcha, shishcha)ga o'xshagan
papillate [ˈpæpɪleɪt] *a* g'uddacha (shishcha) bilan qoplangan
papillose [ˈpæpɪləʊs] *a* 1) g'adir-budur, g'udda-g'udda; 2) so'galli, so'gal bosgan; serbuqoq
papist [ˈpeɪpɪst] *n* katolik (*katoliklar mazhabidagi kishi*)
papistic(al) [pəˈpɪstɪk(əl)] *a* katoliklarga oid; katoliklar...
papistry [ˈpeɪpɪstrɪ] *n* katoliklik
papoose [pəˈpuːs] *n* go'dak, chaqaloq, bola (*Shimoliy Amerikaga oid yosh hindu*)
pappose [ˈpæpəʊs] *a bot.* toj (gultoj)li
pappus [ˈpæpəs] *n bot.* toj, gultoj (*gulning gulbarglardan tashkil topgan va gulkosani to'ldirib turgan qismi*)
pappy [ˈpæpɪ] *a* nozik, muloyim, yumshoq
paprika [ˈpæprɪkə] *n* qizil qalampir, garmdori
Papuan [ˈpæpjʊən] **1.** *a* papuaslarga (papuas tili va madaniyatiga) oid; **2.** *n* papuas, papuaslar (*Yangi Gvineya va Melaneziyaning ba'zi orollarida yashovchi tubjoy aholi*)
papula [ˈpæpjʊlə] *n* (*pl* **-lae** [-liː]) *tib.* papula, tuguncha (*organizmdagi ayrim hujayralarning yig'ilgan – to'plangan joyi*)
papulae [ˈpæpjʊliː] *pl of* **papula**
papular [ˈpæpjʊlə] *a tib.* tuguncha (papula)ga oid, tuguncha...
papule [ˈpæpjuːl] = **papula**
papulose [ˈpæpjʊləʊs] *a tib.* 1) g'adir-budur, g'udda-g'udda; 2) tuguncha (papula)ga oid; tuguncha...
papulous [ˈpæpjʊləs] = **papulose**
papyraceous [ˌpæpɪˈreɪʃəs] *a* qog'ozga o'xshagan, qog'ozsimon
papyri [pəˈpaɪ(ə)raɪ] *pl of* **papyrus**
papyrus [pəˈpaɪ(ə)rəs] *n* (*pl* **-ri** [-raɪ]) papirus (*tropik mamlakatlarda o'sadigan qamishsimon o'simlik*)
par [pɑː] *n* 1) tenglik, baravarlik, bir xillik; 2) ustiga yozib qo'yilgan qiymat, normal narx, o'z narxi; nominal (*biror narsaning belgilangan, ustiga yozilgan bahosi*); 3) normal holat
parable [ˈpærəb(ə)l] *n* hikoyat, shama, kesatiq, qochirim
preliminary [prɪˈlɪmɪn(ə)rɪ] **1.** *a* dastlabki, oldingi; taxminiy; **a ~ examination** kirish imtihoni; **2.** *n* dastlabki muzokaralar
prelude [ˈprelju:d] *n* 1) kirish, muqaddima, boshlanish; 2) *mus.* preludiya (*kichikroq musiqiy asar*)

premature [ˈpremətʃə] *a* 1) bevaqt, bemahal; 2) shoshilib (shoshilinch) qilingan, o'ylamay-netmay qilingan

premeditated [prɪˈmedɪteɪtɪd] *a* oldindan o'ylangan, qasddan sodir etilgan, g'arazli

premeditation [prɪˌmedɪˈteɪʃ(ə)n] *n* oldindan o'ylab qo'yilganlik, ataylab (qasddan) qilinganlik

premier [ˈpremɪə] **1.** *a* bosh, birinchi; **2.** *n* bosh vazir

première [ˈpremɪeə] *n fr.* premyera

premise [ˈpremɪs] *v kit.* muqaddima (kirish) qilmoq, muqaddima sifatida (oldindan) aytib o'tmoq

premises [ˈpremɪsɪz] *n pl* 1) bino, inshoot, yer, mulk; 2) *yur.* hujjatning kirish qismi

premium [ˈpri:mɪəm] *n* 1) qo'shimcha haq; mukofot puli; 2) sug'urta puli

premonition [ˌpri:məˈnɪʃ(ə)n] *n* 1) oldindan sezish, ko'ngilga kelish; 2) ogohlantirish

premonitory [prɪˈmɔnɪt(ə)rɪ] *a* 1) ogohlantiruvchi, tanbeh beruvchi, ogohlantiradigan, tanbeh beradigan; 2) oldindan ogohlantiradigan, oldindan xabar beradigan, oldindan ma'lum qiladigan

preoccupation [prɪˌɔkjʊˈpeɪʃ(ə)n] *n* 1) tashvishlanish; 2) tashvish, muammo; 3) boshqalardan oldin mulkka egalik qilish

preoccupy [prɪˈɔkjʊpaɪ] *v* 1) fikr-zikrini band etmoq, miyasini qamrab olmoq; 2) kimdandir oldin egallamoq

prepaid [ˌpri:ˈpeɪd] *past., p. p. of* **prepay**

preparation [ˌprepəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) taraddud, tayyorgarlik, hozirlik; **~ for** uchun tayyorgarlik; **to make ~s for the departure** jo'nashga hozirlik ko'rmoq; 2) tayyorgarlik (taraddud, hozirlik) ko'rish, tayyorlash

preparatory [prɪˈpærət(ə)rɪ] *a* tayyorlov, tayyorlaydigan, tayyorgarlikka (tayyorgarlik ko'rishga) oid

prepare [prɪˈpeə] *v* 1) tayyor bo'lmoq, tayyorlanmoq, tayyorgarlik ko'rmoq; **to ~ for** ...ga tayyorlanmoq; 2) tayyorlamoq

prepared [prɪˈpeəd] *a* tayyor, tayyorlangan

prepay [ˌpri:ˈpeɪ] *v* oldindan to'lab qo'ymoq

preponderant [prɪˈpɔndə(ə)rənt] *a* ustun (ortiq, afzal) bo'lgan, ustun, ortiq, afzal

preponderate [prɪˈpɔndəreɪt] *v* ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (ortib, o'tib) ketmoq

preposition [ˌprepəˈzɪʃ(ə)n] *n gram.* predlog, old ko'makchi

prepossess [ˌpri:pəˈzes] *v* 1) o'ziga jalb etmoq, bo'ysundirmoq; (*ongni, hissiyotni, fikrni*) egallamoq; 2) ilhomlantirmoq, ilhom baxsh etmoq, ruhini ko'tarmoq, zavqlantirmoq

prepossessing [ˌpri:pəˈzesɪŋ] *a* yoqimli, yoqimtoy, jozibador, istarasi issiq

preposterous [prɪˈpɔst(ə)rəs] *a* 1) o'rinsiz, bo'lmag'ur, bema'ni; 2) mos (muvofiq, to'g'ri) kelmaydigan, nomunosib, nomuvofiq

prerequisite [prɪˈrekwɪzɪt] *n* 1) dastlabki shart, shart-sharoit, zamin; 2) nuqtayi nazar, fikr, asos

prerogative [prɪˈrɔgətɪv] *n* 1) vakolat; 2) alohida huquq (imtiyoz)

presage [ˈpresɪdʒ] *n* belgi, alomat, nishona

prescience [ˈpreʃɪəns] *n* oldindan ko'rish (payqash), kelajakni ko'rish, bashorat qilish

prescient [ˈpreʃɪənt] *a* oldindan ko'radigan (sezadigan), kelajakni ko'ra oladigan, bashorat qiladigan

prescribe [prɪˈskraɪb] *v* 1) yozib bermoq, tayinlamoq, ko'rsatma bermoq; 2) tayinlamoq, buyurmoq

prescription [prɪˈskrɪpʃ(ə)n] *n* 1) doktor yozib beradigan dori qog'ozi; retsept; 2) ko'rsatma (yo'l-yo'riq) berish, tayinlash, buyurish, aytish

prescriptive [prɪˈskrɪptɪv] *a* 1) ko'rsatma (yo'l-yo'riq, maslahat) beradigan; 2) eski urf-odatlarga asoslangan

presence [ˈprez(ə)ns] *n* qatnashish, ishtirok etish, mavjud bo'lish, hozir bo'lish, bor bo'lish; **your ~ is obligatory** sizning bo'lishingiz shart

present I [ˈprez(ə)nt] **1.** *a* 1) qatnashayotgan, ishtirok etayotgan; 2) hozirgi, zamonaviy; **2.** *n* hozirgi zamon; **at ~** hozirgi vaqtda (kunda), hozir; **up to the ~ time** hozirgacha

present II [ˈprez(ə)nt] **1.** *n* sovg'a, hadya; **2.** *v* [prɪˈzent] sovg'a bermoq

present III [prɪˈzent] **1.** *v harb.* mo'ljalga (nishonga) olish; **2.** *v* mo'ljalga (nishonga) olmoq

presentable [prɪˈzentəb(ə)l] *a* 1) tuzuk, yaxshi, binoyidek, ko'rkam, durust; 2) odobli, tarbiyali

presentation [ˌprez(ə)nˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) taqdim etish, topshirish, taqdim etilish; 2) taqdimot marosimi

present-day [ˌprez(ə)ntˈdeɪ] *a* zamonaviy, hozirgi, hozirgi kundagi

presentiment [prɪˈzentɪmənt] *n* (*biror yomon narsani*) oldindan sezish, ko'ngilga kelish

presently [ˈprez(ə)ntlɪ] *adv* 1) tez, tezlik bilan, ildam; 2) ko'p o'tmay, tez orada, darrov; 3) hozir, ayni vaqtda

preservation [ˌprezəˈveɪʃ(ə)n] *n* saqlash, ehtiyot qilish, saqlab qolish, saqlab (ehtiyot qilib) qo'yish

preserve [prɪˈzɜ:v] *v* saqlamoq, muhofaza qilmoq; **to ~ peace** tinchlikni saqlamoq

preside [prɪˈzaɪd] *v* 1) raislik qilmoq, rais bo'lmoq; 2) rahbarlikni amalga oshirmoq, rahbarlik qilmoq

presidency [ˈprezɪd(ə)nsɪ] *n* 1) raislik; 2) prezidentlik

president [ˈprezɪd(ə)nt] *n* 1) prezident; **the ~ of** ...ning prezidenti; 2) rais

presidential [ˌprezɪˈdenʃ(ə)l] *a* prezidentga oid

presidium [prɪˈsɪdɪəm] *n* prezidium (*majlis, kengash va sh. k. katta yig'ilishlarni boshqarib borish uchun saylangan kishilar guruhi; hay'at*)

press [pres] **1.** *n* 1) matbuot; 2) bosish, nashr etish; 3) bosish, og'irligini solish, itarish; 4) ezib (siqib) bir miqdor suvini olish; **2.** *v* 1) qismoq, siqmoq, bosmoq; 2) dazmollamoq

press-gallery [ˈpresˌgælərɪ] *n* matbuot vakillari joyi (*parlament, syezd va b.*)

pressing [ˈpresɪŋ] **1.** *n* iskanja, taxtakach; **2.** *a* shoshilinch, zudlik bilan qilinadigan

pressman [ˈpresmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) matbuot xodimi; 2) bosmaxona ishchisi, matbaachi

pressure [ˈpreʃə] *n* 1) tazyiq, siquv, ta'sir, siqiq; 2) siqish, qisish, tazyiq o'tkazish; 3) bosim; **blood ~** qon bosimi

pressurize [ˈpreʃəraɪz] *v* zichlamoq, havo kirmaydigan-chiqmaydigan qilmoq

pressurized [ˈpreʃəraɪzd] *a tex.* zich yopilgan, ichiga havo kirmaydigan qilib mahkam yopilgan

prestige [preˈsti:ʒ] *n* obro', martaba, nufuz, e'tibor

presumably [prɪˈzju:məblɪ] *adv* taxminan, shartli ravishda, mo'ljallab, chamalab

presume [prɪˈzju:m] *v* ko'zlamoq, niyat qilmoq, mo'ljallamoq, taxmin qilmoq

presumption [prɪˈzʌmpʃ(ə)n] *n* 1) taxmin, faraz, gumon; 2) taxminga asoslanish; ehtimollik

presumptive [prɪˈzʌmptɪv] *a* 1) faraz (gumon) qilingan, mo'ljallangan; 2) ehtimol, bo'lishi (yuz berishi) mumkin bo'lgan

presumptuous [prɪˈzʌmptʃʊəs] *a* o'ziga juda bino qo'ygan, o'ziga ortiq darajada ishongan

presuppose [ˌpri:səˈpəʊz] *v* taxmin (faraz) qilmoq, chamalamoq

presupposition [ˌpri:sʌpəˈzɪ(ə)n] *n* taxmin, faraz, gumon

pretence [prɪˈtens] *n* 1) da'vo, talab; 2) mug'ambirlik, ayyorlik, munofiqlik, soxtalik; 3) bahona, vaj, ro'kach; **under the ~ of** biror narsani bahona qilib

pretend [prɪˈtend] *v* 1) da'vo qilmoq; talab qilmoq; 2) mug'ambirlik qilmoq, o'zini biror ko'yga solmoq
pretender [prɪˈtendə] *n* 1) mug'ambir; 2) ayyor; munofiq; 2) da'vogar, talabgor
preterit(e) [ˈpret(ə)rɪt] *n gram.* o'tgan zamon
preternatural [ˌpri:təˈnætʃ(ə)rəl] *a* g'ayritabiiy, mo'jizaviy, ilohiy, misilsiz
pretext **1.** *n* [ˈpri:tekst] vaj, bahona, ro'kach; **2.** *v* [ˌpri:ˈtekst] bahona qilib ko'rsatmoq
prettiness [ˈprɪtɪnəs] *n* yoqimlilik, yoqimtoylik, xushro'ylik; muloyimlik; istarasi issiqlik, jozibalik
pretty [ˈprɪtɪ] **1.** *a* yoqimli; dilbar, juda chiroyli, go'zal, ko'rkam, zebo; **2.** *adv so'zl.* yetarlicha, yetarli darajada
prevail [prɪˈveɪl] *v* 1) hukmronlik qilmoq; 2) tantana qilmoq; 3) ustun kelmoq, g'alaba qozonmoq (**over**); 4) maqsadga erishmoq; 5) afzal bo'lmoq, ortiq (ko'p) bo'lmoq; 6) keng tarqalmoq, keng yoyilmoq, rasm (odat) bo'lmoq
prevalent [ˈprevələnt] *a* ko'p uchraydigan, keng tarqalgan
prevaricate [prɪˈværɪkeɪt] *v* gapni chalg'itib gapirmoq, to'g'ri javobdan qochmoq, gapni chetga burib yubormoq
prevent [prɪˈvent] *v* 1) oldini olmoq, saqlab qolmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq, oldindan bartaraf qilmoq; 2) to'sqinlik qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq, g'ov bo'lmoq, xalal bermoq; 3) xalaqit (xalal) bermoq; **to ~ from** ...ga xalaqit bermoq
prevention [prɪˈvenʃ(ə)n] *n* oldini olish, bartaraf etish, to'sqinlik qilish
preventive [prɪˈventɪv] **1.** *a* 1) ogohlantiruvchi, ogohlantiradigan, oldini oladigan; 2) *tib.* profilaktikaga oid, profilaktik; **2.** *n* 1) ehtiyotdan ko'rilgan chora-tadbirlar; 2) profilaktika choralari
preview [ˈpri:vju:] *n* 1) ko'rgazma *yoki* filmlarni ommaga ko'rsatishdan oldin ko'rib chiqish; 2) reklama qilish uchun kinofilmlardan ko'rsatiladigan parcha
previous [ˈpri:vɪəs] *a* oldingi, avvalgi, ilgarigi, o'tgan, burungi
previously [ˈpri:vɪəslɪ] *adv* oldindan, ilgaridan, barvaqt
prevision [ˌprɪˈvɪʒ(ə)n] *n* oldindan ko'rish (payqash), kelajakni ko'rish, bashorat qilish
pre-war [ˌpri:ˈwɔ:] *a* urushdan oldingi (ilgarigi), urushga qadar bo'lgan
prey [preɪ] *n* o'lja, qo'lga kiritilgan narsa; **a beast of ~** yirtqich hayvon
price [praɪs] *n* baho, narx; **above (beyond, without) ~** qimmatbaho, bebaho, bahosi yo'q; **at fixed ~s** qat'iy bahoda; **at a high ~** baland narxda; **to bring down the ~** narxni tushirmoq
price-cutting [ˈpraɪsˌkʌtɪŋ] *n* baholarni tushirish
priceless [ˈpraɪsləs] *n* bebaho, qimmatli
prick [prɪk] **1.** *n* 1) tikanak, igna, nina, nish, nishtar; 2) ukol (qilish), dori yuborish; **2.** *v* sanchmoq; teshmoq
prickle [ˈprɪk(ə)l] **1.** *n* tikan, nish, nishtar; **2.** *v* sanchmoq, sanchilmoq
pride [praɪd] **1.** *n* mag'rurlik, g'urur, iftixor, kibr, faxrlanish, faxr; **2.** *v* mag'rurlanmoq; g'ururlanmoq
priest [pri:st] *n* pop, ruhoniy, kashish
priesthood [ˈpri:sthʊd] *n* ruhoniylar, poplar
prig [prɪg] *n* 1) sinchkov, o'taketgan rasmiyatchi; 2) o'g'ri
prim [prɪm] *a* jiddiy, intizomli, batartib
primacy [ˈpraɪməsɪ] *adv sport.* birinchilik (*birinchi o'rin uchun bo'ladigan musobaqa*)
primal [ˈpraɪm(ə)l] *a* 1) ibtidoiy, qadimgi, burungi; 2) eng muhim, asosiy, bosh
primarily [ˈpraɪm(ə)rəlɪ] *adv* avval, oldin, dastavval, dastlab, avvalo, boshida
primary [ˈpraɪm(ə)rɪ] *a* avvalgi, boshlang'ich, ibtidoiy, quyi, pastki
primate [ˈpraɪmɪt] *n cherk.* arxiyepiskop (*bir necha cherkov okrugini boshqaruvchi yepiskop*)
prime [praɪm] **1.** *n* 1) dastlabki; 2) gullab-yashnash, ravnaq topish, yuksalish, taraqqiy etish, kamol topish, yetuklik; **in the ~ of life** qirchillagan davrida, ayni yetilgan paytida; **2.** *a* bosh, asosiy, muhim
primer I [ˈpraɪmə] *n* alifbe (*kitobi*)
primer II [ˈpraɪmə] *n harb.* piston, portlagich modda
primeval [praɪˈmi:v(ə)l] *a* ibtidoiy, qadimgi, eng burungi
primitive [ˈprɪmɪtɪv] *a* 1) sodda, oddiy; 2) ibtidoiy, qadimgi, burungi
primordial [praɪˈmɔ:dɪəl] *a* 1) azaldan bor (bo'lgan), qadimdan mavjud, azaliy; 2) qadimgi, eng burungi
primrose [ˈprɪmrəʊz] *n bot.* navro'zgul
prince [prɪns] *n* shahzoda
princely [ˈprɪnslɪ] *a* 1) badavlat, shohona; 2) serhasham, ajoyib
princess [ˌprɪnˈses] *n* malika
principal [ˈprɪnsɪp(ə)l] **1.** *a* eng muhim, bosh, asosiy; **a ~ clause** bosh gap; **2.** *n* maktab direktori; universitet rektori
principally [ˈprɪnsɪplɪ] *adv* asosan, xususan, ko'pincha, ko'proq, ayniqsa
principle [ˈprɪnsɪp(ə)l] *n* 1) tamoyil, negiz, manba; 2) prinsip (*asosiy qonun-qoida*); 3) nuqtayi nazar, qarash; 4) tartib, tarz; 5) qoida, qonun; **as a matter of ~** umuman olganda
print [prɪnt] **1.** *n* 1) bosma nashr; 2) muhr; 3) harf, shrift; **2.** *v* bosmoq; nashr etmoq
printer [ˈprɪntə] *n* 1) printer; 2) matbaachi, tipograf
printing [ˈprɪntɪŋ] *n* bosish, bosib chiqarish, nashr etish, chop etish; **a ~ house** bosmaxona
printing-office [ˈprɪntɪŋˌɒfɪs] *n* bosmaxona, matbaa uyi
printing-type [ˈprɪntɪŋtaɪp] *n* shrift, harf, bosma harf
prior [ˈpraɪə] *n* burungi, oldingi, avvalgi, ilgarigi
priority [praɪˈɒrɪtɪ] *n* birinchilik, ulug'lik, afzallik
priory [ˈpraɪərɪ] *n* kichik monastir
prise [praɪz] *v* ko'tarmoq, ko'tarib qo'ymoq
prison [ˈprɪz(ə)n] *n* qamoq, qamoqxona
prisoner [ˈprɪz(ə)nə] *n* mahbus, asir; **to take smb. ~** asir olmoq
pristine [ˈprɪsti:n] *a* 1) qadimgi, burungi, uzoq o'tmishdagi, qadimiy; 2) pok, pokiza, toza, tegilmagan, buzilmagan
privacy [ˈpr(a)ɪvəsɪ] *n* 1) yolg'izlik, yolg'iz yashash, yakka turish; 2) sir, maxfiylik; 3) shaxsiy (xususiy) ish
private [ˈpraɪvɪt] *a* shaxsiy, xususiy; **~ income** shaxsiy daromad
privation [praɪˈveɪʃ(ə)n] *n* muhtojlik, yetishmovchilik, tanqislik, zarurat, ehtiyoj
privatize [ˈpraɪvətaɪz] *v* xususiylashtirmoq, xususiy mulkka aylantirmoq
privilege [ˈprɪvɪlɪdʒ] *n* 1) imtiyoz, yengillik; 2) ustunlik, ortiqlik, afzallik; 3) obro'-e'tibor, shon-sharaf
privileged [ˈprɪvɪlɪdʒd] *a* imtiyozli, yengillikka ega bo'lgan
privy [ˈprɪvɪ] *a* 1) xususiy, shaxsiy; 2) yolg'iz, yakka, tanho, alohida ajralib turadigan
prize [praɪz] **1.** *n* mukofot, sovrin, yutuq; **2.** *v* 1) yuqori baholamoq; 2) qadriga yetmoq, qadr (hurmat) qilmoq, qadrlamoq
prize-fighter [ˈpraɪzˌfaɪtə] *n* professional bokschi
prize-ring [ˈpraɪzrɪŋ] *n sport.* ring (*boks maydonchasi*)
prizewinner [ˈpraɪzˌwɪnə] *n* sovrindor, sovrin egasi, laureat
pro [prəʊ] *so'zl.* (**professional** *so'zining qisqartirilgan shakli*) 1) kasbga oid; 2) kasb bilan bog'liq; 3) kasb qilib olgan
pro- [prə(ʊ)-] *pref. quyidagi ma'nolarni beradi:* 1) o'rinbosar; **pro-rector** rektor o'rinbosari, prorektor; 2) biror narsa

tarafdori; **pro-fascist** fashistlarni yoqlovchi

probability [ˌprɒbəˈbɪlɪtɪ] *n* ehtimollik, yuz berishi (bo'lishi) mumkinlik; ehtimol

probable [ˈprɒbəb(ə)l] *a* ehtimol, bo'lishi mumkin bo'lgan, taxminiy

probably [ˈprɒbəblɪ] *adv* mumkin, ehtimol, balki, aftidan

probation [prəˈbeɪʃ(ə)n] *n* sinov, sinov (sinash) muddati, sinash

probationary [prəˈbeɪʃən(ə)rɪ] *a* 1) sinovga, sinab (tekshirib) ko'rishga oid; sinov...; sinash...; **a ~ sentence** shartli hukm

probe [prəʊb] *n* 1) *tib.* zond (*ichki a'zolarni tekshirish yoki davolash uchun ishlatiladigan naysimon asbob, naycha*); 2) *amer.* tekshirish, tergov qilish, tergash

probity [ˈprəʊbɪtɪ] *n* vijdonlilik, to'g'rilik, halollik, poklik

problem [ˈprɒbləm] *n* 1) muammo, chigal, masala; **to solve a ~** masalani hal etmoq; 2) savol, topshiriq; 3) og'ir (mushkul) ahvol

problematic(al) [ˌprɒblə'mætɪk(əl)] *a* shubhali, ishonib bo'lmaydigan, dargumon

proboscis [prəˈbɒsɪs] *n* xartum, uzun burun

procedure [prəˈsi:dʒə] *n* 1) bajariladigan ish tartibi; 2) rasmiy marosim; 3) ishni sudda ko'rib chiqish

proceed [prəˈsi:d] *v* davom etmoq, davom ettirmoq; **please ~** marhamat, davom ettiring; **to ~ against somebody** biror kishini sudga bermoq

proceeding [prəˈsi:dɪŋ] *n* 1) ish, harakat; 2) tajriba; 3) ishni sudda ko'rib chiqish; **to take ~s against somebody** biror kishini sudga bermoq

proceeds [ˈprəʊsi:dz] *n pl* savdodan tushgan pul, foyda, daromad, kirim

process [ˈprəʊses] *n* jarayon, taraqqiyot jarayoni, sud muhokamasi; **changes are in ~** o'zgarishlar sodir bo'lyapti; **in ~ of** ... jarayonida, ... mobaynida

procession [prəˈseʃ(ə)n] *n* marosim, tantanali yurish

proclaim [prəˈkleɪm] *v* e'lon qilmoq; **to ~ a republic** respublika deb e'lon qilmoq

proclamation [ˌprɒkləˈmeɪʃ(ə)n] *v* rasmiy e'lon qilmoq

proclivity [prəˈklɪvɪtɪ] *n* mayl, havas, ishtiyoq, havaskorlik, moyillik

procrastinate [prəˈkræstɪneɪt] *v* 1) kechiktirmoq, keyinga surmoq, keyinga qoldirmoq; 2) sustkashlik qilmoq, cho'zmoq, orqaga sudramoq, kechiktirmoq

procrastination [prəˌkræstɪˈneɪʃ(ə)n] *n* kechikish, kechiktirish, sustkashlik qilish, orqaga surish

procreate [ˈprəʊkrɪeɪt] *v* 1) nasl yetishtirmoq; 2) tug'moq, tug'dirmoq

procreation [ˌprəʊkrɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) nasl yetishtirish; 2) tug'ish, tug'dirish

procuration [ˌprɒkjʊˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) ishonch qog'oziga (vakolatnomaga) asosan ish qilish; 2) ishonch qog'ozi, vakolatnoma

procurator [ˈprɒkjʊreɪtə] *n* 1) *yur.* ishonchli vakil; 2) himoyachi, yoqlovchi

procure [prəˈkjʊə] *v* qo'lga kiritmoq, erishmoq, yetkazib bermoq, eltib (olib borib) bermoq

prod [prɒd] **1.** *n* 1) turtish, itarish; 2) zarba; **2.** *v* 1) itarmoq, turtmoq, niqtamoq; 2) dalda bermoq, qiziqtirmoq

prodigal [ˈprɒdɪg(ə)l] **1.** *a* isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiladigan, sovurib yuboradigan; **2.** *n* pulni sovuruvchi, pulxo'r

prodigious [prəˈdɪdʒəs] *a* 1) ulkan, buyuk; 2) hayratlanarli, ajoyib; 3) noodatiy, g'ayritabiiy

prodigy [ˈprɒdɪdʒɪ] *n* 1) mo'jiza, karomat; 2) iste'dod sohibi

produce [prəˈdju:s] *v* 1) ishlab chiqarmoq, mahsulot bermoq, yetishtirmoq; 2) ko'rsatmoq; **to ~ a ticket** chiptani ko'rsatmoq

producer [prəˈdju:sə] *n* 1) ishlab chiqaruvchi; 2) postanovkachi rejissor, tayyorlovchi

product [ˈprɒdʌkt] **1.** *n* mahsulot; buyum; **2.** *v* ishlab chiqarmoq, yetishtirmoq

production [prəˈdʌkʃ(ə)n] *n* 1) ishlab chiqarish; 2) mahsulot; 3) badiiy asar, postanovka, spektakl

productive [prəˈdʌktɪv] *a* 1) ishlab chiqaradigan, tayyorlaydigan, yetishtiradigan; 2) hosildor, unumdor; 3) foydali, natija beradigan; 4) samarali

productivity [ˌprɒdʌkˈtɪvɪtɪ] *n* mahsuldorlik, unumdorlik; **labour ~** mehnat unumdorligi; **~ of land** hosildorlik, serhosillik

profane [prəˈfeɪn] *a* dunyoviy, el-yurtga oid

profanity [prəˈfænɪtɪ] *n* xudoni, dinni tahqirlash, xudoga shak keltirish

profess [prəˈfes] *v* 1) ochiqdan ochiq tan olmoq, e'tirof etmoq; 2) mug'ambirlik qilmoq, yolg'on ishlatmoq

professedly [prəˈfesɪdlɪ] *adv* ochiq, oshkora suratda, ro'yirost

profession [prəˈfeʃ(ə)n] *n* kasb, hunar

professional [prəˈfeʃ(ə)nəl] *a* 1) yuqori malakali; professional; 2) kasb qilib olgan

professor [prəˈfesə] *n* professor

professorial [ˌprɒfəˈsɔ:rɪəl] *a* professorga *yoki* professorlikka oid

proffer [ˈprɒfə] **1.** *n* taklif, taqdim; **2.** *v* taklif qilmoq

proficiency [prəˈfɪʃ(ə)nsɪ] *n* tajribalilik, tajribakorlik, omilkorlik, ustalik

proficient [prəˈfɪʃ(ə)nt] *a* mutaxassis, tajribali, malakali; ustasi farang

profile [ˈprəʊfaɪl] *n* 1) yon tomon; yondan ko'rinish; 2) qisqacha biografik ocherk

profit [ˈprɒfɪt] **1.** *n* foyda, daromad, kirim, naf; **2.** *v* foyda (naf) keltirmoq

profitable [ˈprɒfɪtəb(ə)l] *a* foyda keltiradigan, foydadan iborat, foydali

profligacy [ˈprɒflɪgəsɪ] *n* 1) buzuqlik, axloqsizlik, fohishabozlik; 2) isrofgarlik, nobudgarlik

profligate [ˈprɒflɪgɪt] **1.** *n* buzuq odam, axloqsiz (*yomon yo'lga kirgan*) odam; **2.** *a* buzuq, axloqsiz

profound [prəˈfaʊnd] *a* 1) teran, chuqur; **~ idea** chuqur g'oya; 2) donishmand, uzoqni ko'ruvchi

profundity [prəˈfʌndɪtɪ] *n* 1) chuqurlik; jarlik; 2) jar, tik (chuqur) jar

profuse [prəˈfju:s] *a* juda ko'p, mo'l-ko'l, serob, boy, farovon

profusion [prəˈfju:ʒ(ə)n] *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, seroblik, to'kin-sochinlik

progenitor [prəʊˈdʒenɪtə] *n* 1) asos soluvchi, asos qurgan kishi, asoschi; 2) *biol.* (*o'simlik yoki hayvonot turining*) ajdodi

progeny [ˈprɒdʒɪnɪ] *n* nasl, avlod, urug'

prognosis [prɒgˈnəʊsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) oldindan aytish (*muayyan dalillar asosida biron hodisaning qanday bo'lishini, qanday kechishini va oqibatini oldindan aytib berish*)

prognostic [prɒgˈnɒstɪk] *n* alomat, nishona, darak, xabar

prognosticate [prɒgˈnɒstɪkeɪt] *v* (*nima bo'lishini, kelajakni*) oldindan aytmoq, bashorat qilmoq

prognostication [prɒgˌnɒstɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* belgi, alomat, nishona

program(me) [ˈprəʊgræm] **1.** *n* 1) dastur, reja; 2) *teatr.* spektakl *yoki* tomosha; **2.** *v* dastur *yoki* reja tuzmoq

progress [ˈprəʊgres] **1.** *n* 1) olg'a siljish, rivojlanish, o'sish, yuksalish, oldinga harakat qilish; 2) muvaffaqiyat, yutuq; **2.** *v* olg'a siljimoq, taraqqiy etmoq, rivojlanmoq, muvaffaqiyat qozonmoq, yutuqqa erishmoq

progression [prəˈgreʃ(ə)n] *n* 1) olg'a siljish, harakat; 2) (*voqea va sh. k. ning*) ketma-ketligi; tadrijiyligi; 3) *mat.* progressiya

progressive [prə´gresıv] *a* ilg'or, taraqqiy etayotgan, taraqqiyparvar, tobora o'sib (ko'payib) boradigan

prohibit [prə´hıbıt] *v* 1) taqiqlamoq, to'sqinlik qilmoq, man etmoq; 2) xalal bermoq

prohibition [ˌprəohı´bıʃ(ə)n] *n* 1) taqiqlash, to'sqinlik qilish, man etish; 2) xalal berish

prohibitionist [ˌprəohı´bıʃ(ə)nıst] *n* spirtli ichimliklar sotishni taqiqlash tarafdori bo'lgan kishi

prohibitive [prə´hıbıtıv] *a* 1) taqiqlaydigan, taqiq (man) qiladigan, taqiqlovchi, taqiq (man) qiluvchi; 2) nihoyatda baland, qo'l yetmas

project 1. *n* ['prɒdʒekt] loyiha, reja, dastur (*qurilish va b.*); **2.** *v* [prə´dʒekt] loyiha (reja, dastur) tuzmoq

projectile [prə´dʒektaıl] **1.** *n* o'q, zambarak o'qi; **2.** *a* otadigan, otiladigan

projection [prə´dʒekʃ(ə)n] *n* 1) loyiha tuzish, loyihalash, loyihalashtirish; 2) loyiha; reja, mo'ljal; 3) optik asboblar yordamida ekranga tasvir tushirish va tasvirning o'zi

projector [prə´dʒektə] *n* 1) loyihalovchi, loyiha tuzuvchi mutaxassis; 2) proyektor; 3) kinoproyektor; proyeksion apparat yoki fonar

proletarian [ˌprəolı´teə(ə)rıən] **1.** *n* proletar(iy) (*Qadimiy Rimda: kambag'al, qashshoq fuqaro*); **2.** *a* proletarga oid

proliferate [prə´lıfreıt] *v biol.* bolalamoq, ko'paymoq

proliferation [prəˌlıfə´reıʃ(ə)n] *n* 1) tarqatish; 2) (*tez*) ko'paytirish, ko'payish, o'sish, ortish, oshish

prolific [prə´lıfık] *a* unumdor, hosildor, serhosil

prolix ['prəolıks] *a* ortiqcha (kerakmas) so'zlari ko'p, ezma

prologue ['prəolog] *n* muqaddima, debocha

prolong [prə´lɒŋ] *v* cho'zmoq, davom ettirmoq, (*muddatini*) uzaytirmoq

prolongation [ˌprəolɒŋ´geıʃ(ə)n] *n* uzaytirish, cho'zish, (*muddatni*) davom ettirish

prom [prɒm] *n* bitirish kechasidagi talabalar raqsi

promenade [ˌprɒmə´nɑ:d] *n* sayr, tomosha, sayr qilish, aylanib kelish

prominence ['prɒmınəns] *n* 1) turtib chiqqan joy, bo'rtik, do'ng, tumshuq; 2) ko'zga ko'rinarlilik, mashhurlik; taniqlilik

prominent ['prɒmınənt] *a* 1) turtib chiqqan, ko'rinib turgan; do'ng bo'lib turgan; 2) atoqli, mashhur, misli ko'rilmagan, buyuk, nom chiqargan, dong taratgan

promiscuity [ˌprɒmı´skju:ıtı] *n* 1) har xillik, xilma-xillik, turli-tumanlik, boshqa-boshqalik, aralashlik; 2) betartiblik, tartibsizlik

promiscuous [prə´mıskjuəs] *a* 1) har xil, xilma-xil, turli, turli-tuman, boshqa-boshqa; 2) hech narsadan qaytmaydigan, hazar qilmaydigan; befarq

promise ['prɒmıs] **1.** *n* va'da, so'z, ahd; **to give a ~** va'da bermoq; **to keep one's ~** so'zining ustidan chiqmoq; **to eat one's ~** so'zidan qaytmoq; **2.** *v* va'da bermoq; va'dalashmoq, so'z bermoq

promontory ['prɒmənt(ə)rı] *n* 1) *geogr.* burun; 2) *anat.* turtib chiqqan joy, bo'rtik, tumshuq

promote [prə´məot] *v* 1) martabasini ko'tarmoq; (*xizmatda, ishda*) yuqori lavozimga ko'tarmoq; 2) yordam bermoq, ko'maklashmoq, qo'llab-quvvatlamoq

promotion [prə´məoʃ(ə)n] *n* ko'mak, yordam, rag'batlantirish, siljish, ishda yuqoriroq lavozimga ko'tarish, himoya qilish

prompt [prɒmpt] *v* aytib turmoq; suflorlik qilmoq, sekin aytmoq, esiga tushirmoq, esiga solmoq

prompter ['prɒmptə] *n* sekin (pichirlab) aytib turuvchi, gap o'rgatuvchi

promptitude ['prɒmptıtju:d] *n* tezlik, chaqqonlik, ildamlik

promulgate ['prɒm(ə)lgeıt] *v* e'lon qilmoq, hammaga bildirmoq, ma'lum qilmoq

promulgation [ˌprɒm(ə)l´geıʃ(ə)n] *n* e'lon qilish, hammaga (xalqqa) bildirish, oshkor qilish; 2) bosib chiqarish, matbuotda e'lon qilish

prone [prəon] *a* 1) yuz tuban (mukka tushib, yer tishlab) yotgan; 2) cho'zilib yotgan, har tomonga cho'zilgan; **to fall ~** mukka tushmoq; yuz tuban yiqilmoq; peshanani yerga tekkizmoq (*masalan, sajdada*)

prong [prɒŋ] *n* 1) tish, dandon (*panshaxa va b.*); 2) uchi o'tkir (*nayza*); uchli, qirrali

pronominal [prəu´nɒmın(ə)l] *a gram.* olmoshga oid, olmoshlarga xos bo'lgan, olmosh xususiyatiga ega bo'lgan

pronoun ['prəonaon] *n gram.* olmosh

pronounce [prə´naons] *v* 1) e'lon qilmoq, ma'lum qilmoq, bildirmoq; 2) talaffuz qilmoq

pronouncement [prə´naonsmənt] *n pl* (*qaror yoki hukmni*) e'lon qilish

pronunciation [prəˌnʌnsı´eıʃ(ə)n] *n* talaffuz, talaffuz qilish

proof [pru:f] *n* 1) isbot, dalil; 2) sinovdan o'tkazish; 2) o'tmaslik, o'tkazmaslik, ta'sirga berilmaslik

proof-reader ['pru:fˌri:də] *n* musahhih, korrektor (*bosilgan matnni o'qib, xatolarini tuzatuvchi kishi*)

prop [prɒp] *n* tirgak; suyanchiq, tayanch, qo'llab (madad berib) turadigan kishi

propaganda [ˌprɒpə´gændə] *n* targ'ibot, tashviqot; **to carry on a ~** tashviqot qilmoq

propagandist [ˌprɒpə´gændıst] *n* targ'ibotchi, tashviqotchi

propagate ['prɒpəgeıt] *v* 1) bolalamoq, ko'paymoq; **to ~ by seeds** urug'dan ko'paymoq; 2) tarqatmoq, targ'ib qilmoq; **to ~ an idea** g'oyani targ'ib qilmoq

propagation [ˌprɒpə´geıʃ(ə)n] *n* 1) ko'paytirish, ko'payish, bolalash; 2) tarqatish, tarqalish

propel [prə´pel] *v* surmoq, yurgizmoq, harakatga keltirmoq

propeller [prə´pelə] *n* 1) harakatlantirgich; 2) parrak, havo vinti

propensity [prə´pensıtı] *n* mayl, havas, qiziqish, ishtiyoq, yaxshi ko'rish

proper ['prɒpə] *a* 1) *gram.* atoqli; **a ~ noun** atoqli ot; 2) shaxsiy; 3) o'ziga xos, odatdagi, xos bo'lgan, odat bo'lgan; 4) to'g'ri, to'g'ri keladigan, mos, munosib, muvofiq; 5) axloq qoidalari doirasidagi, tarbiyali, xushxulq; **~ behaviour** yaxshi xulq

properly ['prɒpəlı] *adv* yaxshilab, qunt bilan; o'rinli, muvofiq tarzda, to'g'ri, rost; **~ speaking** to'g'risini aytganda

propertied ['prɒpətıd] *a* mulkdor, boy, badavlat

property ['prɒpətı] *n* 1) xususiyat, fazilat, xossa, xislat; 2) mol-mulk; boylik

prophecy ['prɒfısı] *n* 1) bashorat, karomat; 2) bashorat qilish, karomat qilish, oldindan aytish

prophesy ['prɒfsaı] *v* bashorat qilmoq, karomat qilmoq, oldindan aytmoq

prophet ['prɒfıt] *n* 1) payg'ambar; 2) bashorat qiluvchi, oldindan aytib beruvchi

prophylactic [ˌprɒfı´læktık] *a* profilaktikaga oid, profilaktik; oldini olishga qaratilgan, ogohlantiruvchi

prophylaxis [ˌprɒfı´læksıs] *n* (*pl* **-xes** [-si:z]) profilaktika (*tib. kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash va mustahkamlash tadbirlari*)

propinquity [prə´pıŋkwıtı] *n* 1) yaqinlik, qarindoshlik; 2) yaqinlik, qo'shnilik

propitiate [prə´pıʃieıt] *v* murosaga keltirmoq, yarashtirmoq, kelishtirmoq

propitiatory [prə´pıʃıət(ə)rı] *a* murosaga keltiradigan, yarashtiradigan, kelishtiradigan

proportion [prə´pɔ:ʃ(ə)n] *n* 1) proporsiya; mutanosiblik, nisbat; 2) ...ga to'g'rilik, moslik, mutanosiblik

proportional [prə´pɔ:ʃ(ə)nəl] *a* mutanosib, teng; proporsional

proposal [prə´pəʊz(ə)l] *n* taklif, taqdim; **to accept a ~** taklifni qabul qilmoq

propose [prə´pəʊz] *v* 1) taklif etmoq; taxmin qilmoq, niyat qilmoq; 2) turmush qurishni taklif qilmoq

proposition [ˌprɒpə´zɪʃ(ə)n] *n* 1) o'y, g'oya, fikr; 2) maslahat, taklif; 3) muammo, vazifa

propound [prə´paʊnd] *v* muhokamaga qo'ymoq

proprietary [prə´praɪət(ə)rɪ] *a* xususiy mulk egalariga oid, xususiy mulkchilik

proprietor [prə´praɪətə] *n* xususiy mulk egasi, mulkdor

propriety [prə´praɪətɪ] *n* to'g'rilik, rostlik, chinlik

props [prɒps] *n pl* sahnadagi yasama jihozlar

propulsion [prə´pʌlʃ(ə)n] *n* 1) oldinga harakat; harakatga keltirish; 2) energetik moslama; dvigatel; 3) harakatga keltiruvchi (undovchi) kuch

propulsive [prə´pʌlsɪv] *a* 1) harakatga keltiruvchi, harakatlantiruvchi; 2) biror ish qilishga undaydigan, qo'zg'atuvchi; **~ force** harakatlantiruvchi kuch

prorogation [ˌprəʊrə´geɪʃ(ə)n] *a* davlat rahbari ko'rsatmasiga binoan parlament ishidagi tanaffus

prorogue [prə(ʊ)´rəʊg] *v* 1) parlament ishida tanaffus e'lon qilmoq; 2) *esk.* kechiktirmoq, qoldirmoq

prosaic [prə(ʊ)´zeɪɪk] *a* 1) nasriy, nasr bilan yozilgan; 2) oddiy, har kuni bo'lib turadigan, qizig'i yo'q, zavqsiz

proscenia [prə(ʊ)´si:nɪə] *pl of* **proscenium**

proscenium [prə(ʊ)´si:nɪəm] *n* (*pl* **-ia** [-ɪə]) sahna oldi, peshsahna

prose [prəʊz] *n* 1) nasr, proza; 2) *ko'chm.* odatdagi (har kungi) hayot, oddiy turmush; 3) she'riyat

prosecute [´prɒsɪkju:t] *v* 1) *yur.* qonun yo'li bilan ta'qib qilmoq; 2) (*darsni*) olib bormoq, bajarmoq, davom ettirmoq

prosecution [ˌprɒsɪ´kju:ʃ(ə)n] *a* 1) (*ishni*) bajarish, (*ishning*) bajarilishi; 2) *yur.* ayblash, qoralash; 3) tasarruf, ixtiyor

prosecutor [ˌprɒsɪkju:tə] *n yur.* qoralovchi, ayblovchi; **a public ~** prokuror; **a ~'s office** prokuratura

proselyte [´prɒsɪlaɪt] *n* 1) biror yangi dinni qabul qilgan kishi; 2) biror narsaga sadoqat bilan kirishgan odam

prospect [´prɒspekt] *n* 1) istiqbol, kelajak; 2) kelajakdagi rejalar; 3) ko'rinish, manzara; **in ~** kelajakda; **no ~s of success** muvaffaqiyatga hech qanday umid yo'q

prospective [prə´spektɪv] *a* kelgusi, kelgusidagi, kelasi, bo'lg'usi, kelajak

prospector [prə´spektə] *n* qidiruvchi, tadqiqotchi

prospectus [prə´spektəs] *n* prospekt (*maktab, kollej, biznes haqida ma'lumot beradigan kichik broshura*)

prosper [´prɒspə] *v* muvaffaqiyat qozonmoq; gullab-yashnamoq, ravnaq topmoq

prosperity [prɒ´sperɪtɪ] *n* gullab-yashnash, ravnaq topish, rivojlanish, taraqqiy qilish

prosperous [´prɒsp(ə)rəs] *a* rivojlangan, iqtisodiy jihatdan boy, gullab-yashnagan

prostitute [´prɒstɪtju:t] *n* fohisha, buzuq

prostitution [ˌprɒstɪ´tju:ʃ(ə)n] *n* fohishalik, buzuqlik

prostrate [´prɒstreɪt] *a* cho'zilib yotgan, har tomonga cho'zilgan

prosy [´prəʊzɪ] *a* qiziqarli emas, zerikarli, siyqasi chiqqan

protagonist [prəʊ´tægənɪst] *n* bosh qahramon

protect [prə´tekt] *v* himoya qilmoq, saqlamoq, muhofaza qilmoq

protection [prə´tekʃ(ə)n] *n* himoya (mudofaa) qilish

protective [prə´tektɪv] *a* himoya qiladigan, saqlaydigan

protector [prə´tektə] *n* himoyachi, himoya qiluvchi

protein [´prəʊti:n] *n kim.* oqsil, protein

protest **1.** *n* [´prəʊtest] norozilik, qarshilik; e'tiroz; shikoyat; **2.** *v* [prə´test] norozilik (e'tiroz) bildirmoq, qarshi chiqmoq

Protestant [´prɒtɪstənt] *a* protestant va protestantlikka oid

protestation [ˌprɒtɪ´steɪʃ(ə)n] *n* 1) tantanali e'lon qilish; 2) e'tiroz (norozilik) bildirish

protocol [´prəʊtəkɒl] *n* protokol, qaror, bayonnoma

prototype [´prəʊtətaɪp] *n* prototip, timsol (*yozuvchiga badiiy obraz yaratish uchun manba bo'lgan shaxs*)

protracted [prə´træktɪd] *a* cho'zilgan, paysalga solingan, sudralgan, susaytirilgan

protrude [prə´tru:d] *v* 1) chiqarmoq, chiqazmoq; 2) chiqib turmoq, turtib chiqmoq

protrusion [prə´tru:ʒ(ə)n] *n* turtib chiqqan joy, bo'rtiq

protuberance [prə´tju:b(ə)rəns] *n* 1) do'nglik, do'ng; 2) *anat.* bo'rtmacha, bo'rtiq, shish, o'sma

protuberant [prə´tju:b(ə)rənt] *a* qavariq, do'ng

proud [praʊd] *a* dimog'i baland, kekkaygan, gerdaygan, o'ziga bino qo'ygan, kalondimog', dimog'dor, mag'rur, g'ururli; **to be ~ of** ...dan faxrlanmoq

proudly [´praʊdlɪ] *adv* 1) g'urur bilan, iftixor bilan, faxrlanib; 2) mag'rurona, mag'rur, ko'krakni kerib

prove [pru:v] *v* 1) isbotlamoq, dalil keltirmoq; 2) sinab ko'rmoq; 3) bo'lib chiqmoq, qandayligi (kimligi) ma'lum bo'lmoq, bilinmoq

provender [´prɒvɪndə] *n* xashak, pichan, yem, oziqa, don

proverb [´prɒvɜ:b] *n* maqol

proverbial [prə´vɜ:bɪəl] *a* 1) matalga aylangan, matal bo'lib qolgan; 2) hammaga ma'lum bo'lgan, hamma biladigan

provide [prə´vaɪd] *v* 1) ta'minlamoq; yetkazib bermoq; **to ~ with** ... bilan ta'minlamoq; 2) bermoq, taqdim qilmoq; 3) chora ko'rmoq

provided [prə´vaɪdɪd] **1.** *cj* sharoitda, agar, holda, shu shart bilanki (*that*); **2.** *a* yetkazib berilgan, ta'minlangan

province [´prɒvɪns] *n* 1) viloyat; 2) poytaxtdan uzoqdagi joy

provincial [prə´vɪnʃ(ə)l] *a* 1) provinsiyalik, provinsiyada yashovchi; 2) qoloq odam, go'l odam, ko'p narsadan xabarsiz

provision [prə´vɪʒ(ə)n] *n* ta'minot, yetkazib berish

provisional [prə´vɪʒ(ə)nəl] *a* muvaqqat, vaqtinchalik; **~ government** muvaqqat hukumat

proviso [prə´vaɪzəʊ] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əʊz]) shart, sharoit, garov

provocation [ˌprɒvə´keɪʃ(ə)n] *n* 1) ig'vo, ig'vogarlik, xoinona harakat; 2) qo'zg'atish; 3) g'azablanish, achchiqlanish, jahli chiqish

provocative [prə´vɒkətɪv] *a* 1) kishining g'ashiga (jig'iga) tegadigan, g'ashini keltiradigan; 2) ig'vogarlik, g'alamislik, ig'vo qilish; 3) qitiqlaydigan, qo'zg'atadigan

provoke [prə´vəʊk] *v* ig'vo qo'zg'amoq, undamoq; g'ashini keltirmoq, jahlini chiqarmoq

provost [´prɒvəst] *n* rektor (*Angliyaning bir nechta kollej va universitetlarida*)

prow [praʊ] *n maxs.* tumshuq, burun (*kema yoki samolyotning old qismi*)

prowess [´praʊɪs] *n* fidokorlik, jasorat, qahramonona xatti-harakat

prowl [praʊl] *v* 1) sekin-asta (bekinib) bormoq (kelmoq, kirmoq, yaqinlashmoq); 2) bildirmay, sezdirmay (poylab) bormoq; 3) talamoq, o'g'irlamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq

proximate [ˈprɒksɪmɪt] *a* 1) yaqin, yaqindagi; 2) taxminiy
proximity [prɒkˈsɪmɪtɪ] *n* 1) yaqinlik; qo'shnilik; 2) o'xshashlik, moslik
proxy ['prɒksɪ] *n* vakolat, ishonchnoma, vakillik, biror ish qilish huquqiga egalik
prude [pru:d] *n* 1) nozli (noz-karashmali) ayol; ishvagar ayol; 2) taqvodor odam, farishta; 3) munofiq, riyokor
prudence ['pru:d(ə)ns] *n* 1) aql bilan ish qilish, o'ylab ish qilish; 2) ehtiyotkorlik
prudent ['pru:d(ə)nt] *a* 1) aqlli, dono, mulohazali; 2) ehtiyotkor
prudish ['pru:dɪʃ] *a* 1) nozli, noz-karashmali, ishvagar, sernoz; 2) qiliqdor, serqiliq, qiyshang'i; 3) riyokor (munofiq)larga xos, riyokorona, munofiqona, ikkiyuzlamalik bilan qilingan
prune [pru:n] **1.** *n* qora olxo'ri, olxo'ri qoqi; **2.** *v* butamoq, xomtok qilmoq
prussic acid [ˌprʌsɪk ˈæsɪd] *n kim.* sianid kislota (*zahar*)
pry I [praɪ] *n* sinchkov, har narsaga qiziqib qaraydigan odam
pry II [praɪ] *n* dastak, richag
psalm [sɑ:m] *n* diniy qo'shiqlar *yoki* oyatlardan biri
pseud(o)- ['sju:dəʊ-] *pref.* soxta-, yasama-
pseudonym ['sju:dənɪm] *n* taxallus, laqab
pseudonymous [sju:'dɒnɪməs] *a* 1) taxallusi (laqabi) bilan yozuvchi; taxallusi bilan chiqqan; 2) taxallusi (laqabi) bilan
pshaw [(p)ʃɔ:] **1.** *int.* ey, vuy, uh, voybo'y; tuf, tuf-e (*qattiq norozilik, nafratlanish ma'nosida*); **2.** *v* mensimaslik *yoki* jahli chiqqanlikni ifoda etmoq
psych [saɪk] *v* o'zini ishontirmoq, ruhan tayyorlamoq
psyche ['saɪkɪ] *n* 1) qalb, ko'ngil, yurak; 2) aql, idrok, ong
psychiatrist [saɪ'kaɪətrɪst] *n* psixiatr (*ruhiy kasalliklar shifokori*)
psychiatry [saɪ'kaɪətrɪ] *n* psixiatriya (*ruhiy kasalliklar va ularni davolash haqidagi fan*)
psychic ['saɪkɪk] *a* aqliy, ruhiy, ma'naviy
psycho-analysis [ˌsaɪkəʊə'nælɪsɪs] *n* psixoanaliz
psychological [ˌsaɪkə'lɒdʒɪk(ə)l] *n* psixologik, ruhiy; **~ moment** eng qulay fursat
psychologist [saɪ'kɒlədʒɪst] *n* ruhshunos, psixolog
psychology [saɪ'kɒlədʒɪ] *n* 1) psixologiya; **child ~** bolalar psixologiyasi; **general ~** umumiy psixologiya; 2) psixika, ruhiy holat
psychopath ['saɪkəpæθ] *n* psixopat, jinni, savdoyi, telba, devona
psychotherapy [ˌsaɪkəʊ'θerəpɪ] *n* psixoterapiya (*ruhiy ta'sir qilish yo'li bilan davolash usuli, masalan, gipnoz qilish*)
pub [pʌb] *n* qovoqxona, sharobxona, mayxona
puberty ['pju:bətɪ] *n* balog'at, jinsiy yetilganlik
pubic ['pju:bɪk] *a anat.* qovga oid; tos suyaklari
public ['pʌblɪk] **1.** *a* umumiy, ijtimoiy, jamoatga, jamoatchilikka oid; **a ~ man** jamoat arbobi; **in ~** ochiq, oshkora; **a ~ figure** jamoat arbobi; **a ~ holiday** bayram; **2.** *n* 1) xalq, omma, jamiyat, jamoat, xaloyiq; 2) bir joyga yig'ilgan kishilar, tomoshabinlar, tinglovchilar
publican ['pʌblɪkən] *n* 1) restoran egasi; 2) ijarador
publication [ˌpʌblɪ'keɪʃ(ə)n] *n* nashr qilish (*kitob va b.*); bosib chiqarish, matbuotda e'lon qilish; nashr
publicity [pʌ'blɪsɪtɪ] *n* 1) oshkoralik, ochiqlik; 2) reklama; 3) mashhurlik, tanilganlik, shon-shuhrat
publicize ['pʌblɪsaɪz] *v* 1) e'lon qilmoq, ma'lum qilmoq; 2) reklama qilmoq, haddan tashqari maqtamoq, maqtab ovoza qilmoq, jar solib maqtamoq
publish ['pʌblɪʃ] *v* 1) nashr etmoq, bosib chiqarmoq; 2) e'lon qilmoq, bildirmoq
publisher ['pʌblɪʃə] *n* noshir, bosib chiqaruvchi, nashr etuvchi
puce [pju:s] *n* qizg'ish jigarrang, qizg'ish binafsharang
pucker ['pʌkə] *n* 1) ajin, burushiq; 2) taxt, qat, burma
puckish ['pʌkɪʃ] *a* makkorlikka (hiylaga) oid; makrli
pudding ['pʊdɪŋ] *n* pudding (*guruch va boshqa yormalardan pirog va mevalar qo'shib tovada pishirilgan taom*)
puddle ['pʌdl] **1.** *n* ko'lmak, ko'lob; **2.** *v* (*suvni*) loyqalatmoq, loyqalantirmoq, loyqa qilmoq
pudgy ['pʌdʒɪ] *a* 1) pastak va semiz; 2) kalta va yo'g'on (semiz)
puerile ['pjo(ə)raɪl] *a* 1) bolalarga xos, bolalarga oid; 2) xom, g'o'r, yetilmagan
puerility [ˌpjo(ə)'rɪlɪtɪ] *n* bolalik, go'daklik
puff [pʌf] *n* 1) esish; 2) havo oqimi; 3) tutun parchasi (pag'asi); bir parcha (pag'a) tutun
puff-box ['pʌfbɒks] *n* upa qutisi, upadon
puffed-up [ˌpʌft'ʌp] *a* manman, dimog'dor, dimog'i (kibr-havosi) baland, mag'rur, takabbur, kekkaygan
puffy ['pʌfɪ] *a* 1) nafasi qisilishidan azoblanayotgan, nafas siqilish kasalligiga yo'liqqan; 2) biroz shishgan, shishinqiragan
pug I [pʌg] *n* tumshug'i yapaloq laycha it
pug II [pʌg] **1.** *n* ezilgan (tepilgan) loy; **2.** *v* loyni ezmoq
pug III [pʌg] **1.** *n* hayvonning izi; **2.** *v* izidan bormoq, kuzatmoq
pugilism ['pju:dʒɪlɪz(ə)m] *n* mushtlashish; boks
pugilist ['pju:dʒɪlɪst] *n* kurashchi, kurashuvchi; professional bokschi
pugnacious [pʌg'neɪʃəs] *a* urishqoq, jangari
pugnacity [pʌg'næsɪtɪ] *n* urishqoqlik, jangarilik
pug-nosed [ˌpʌg'nəʊzd] *a* 1) puchuq, qanqaygan; 2) burni puchuq, burni qanqaygan
puissance ['pju:ɪs(ə)ns] *n* kuch, qudrat, quvvat
puke [pju:k] **1.** *n* qusish, qayt qilish; qusuq; **2.** *v* qusmoq, qayt qilmoq, ko'ngli aynimoq
pule [pju:l] *v* 1) hiqillamoq, hiqillab yig'lamoq; 2) akillamoq, vangillamoq
pull [pʊl] **1.** *v* 1) tortmoq, tortib chiqarmoq, sudramoq, yetaklamoq; **to ~ by** ...dan tortmoq; **to ~ out** tortib chiqarmoq, sug'urmoq; 2) yulmoq; **to ~ oneself together** o'zini qo'lga olmoq; **to ~ down** buzmoq; **2.** *n* sudrash, yetaklash, tortish
pullet ['pʊlɪt] *n* jo'ja tovuq, tuxum qila boshlagan tovuq
pulley ['pʊlɪ] *n* shkiv (*uzatma tasmasini harakatga keltiruvchi g'ildirak*)
pullover ['pʊlˌəʊvə] *n* pulover (*qomatga yopishib turadigan yoqasiz, tugmasiz trikotaj fufayka*)
pulmonary ['pʌlmən(ə)rɪ] *a anat.* o'pkaga oid, o'pka...
pulp [pʌlp] *n* 1) meva va sh. k. ning yumshoq joyi (go'shti); 2) suyuq bo'tqa
pulpit ['pʊlpɪt] *n* minbar, yepiskop minbari
pulpy ['pʌlpɪ] *a* yumshoq, bo'sh, mayin
pulsate [pʌl'seɪt] *v* urib turmoq, tepib turmoq (*tomir, yurak haqida*)
pulsation [pʌl'seɪʃ(ə)n] *n* tomir urishi, tomir tepishi
pulse [pʌls] *n* tomir urishi, tomir tepishi, yurakning (qon tomirining) tepib turishi; **to feel smb.'s ~** birovning tomirini ko'rmoq
pulses ['pʌlsɪz] *n* dukkakli o'simliklar
pulverize ['pʌlvəraɪz] *v* maydalamoq, kukun (un, tolqon) qilmoq
pulverizer ['pʌlvəraɪzə] *n* purkagich, changlagich

pumice [ˈpʌmɪs] *n* ko'piktosh, jilvirtosh
pummel [ˈpʌm(ə)l] *v* savalamoq, kaltaklamoq
pump [pʌmp] **1.** *n* nasos, suvnasos, havonasos; **2.** *v* bosmoq, dam bermoq, nasos bilan tortmoq
pumpkin [ˈpʌmpkɪn] *n bot.* oshqovoq, qovoq
pumps [pʌmpz] *n pl* bazmga kiyiladigan amirkon tufli
pun [pʌn] *n* so'z o'yini
punch I [pʌnʧ] **1.** *v* musht bilan urmoq, tushirmoq; **2.** *n* musht zarbasi
punch II [pʌnʧ] **1.** *n* komposter; **2.** *v* teshik-teshik belgi qo'ymoq
punctilio [pʌŋkˊtɪlɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) rasmiyat, rasmiyatchilik
punctual [ˈpʌŋktʃʊəl] *a* puxta, juda aniq, o'z vaqtida
punctuality [ˌpʌŋktʃʊˊælɪtɪ] *n* juda aniqlik, o'z vaqtida bo'lishlik, puxtalik
punctuate [ˈpʌŋktʃʊeɪt] *v* 1) tinish belgilarini qo'ymoq; 2) ta'kidlamoq
punctuation [ˌpʌŋktʃʊˊeɪʃ(ə)n] *n* punktuatsiya (*tinish belgilarini qo'yish tartibi*)
puncture [ˈpʌŋktʃə] *n* 1) teshik, sanchib teshilgan joy; 2) ukol qilish; dori yuborish
pungency [ˈpʌndʒənsɪ] *n* o'tkirlik, achchiqlik
pungent [ˈpʌndʒ(ə)nt] *a* 1) o'tkir, kuchli; 2) o'tkir, achchiq, nordon; 3) *bot.* o'tkir uchli, qirrali
punish [ˈpʌnɪʃ] *v* jazolamoq, jazo bermoq
punishment [ˈpʌnɪʃmənt] *n* jazo
punitive [ˈpju:nɪtɪv] *a* jazolashga oid; jazolash bilan bog'liq bo'lgan, jazolovchi, jazolash...
punk [pʌŋk] *n* 1) chirigan, chirindi, po'panak bosgan narsalar; 2) tarbiyasiz, bezori
punster [ˈpʌnstə] *n* hazil-mutoyibachi, askiyaboz, askiyachi
punt I [pʌnt] *n* tagi yassi qayiq, shatakka olib yuriladigan kichikroq yuk kemasi
punt II [pʌnt] *n* (*koptokni*) oyoq bilan tepish
punt III [pʌnt] *n* dov, tikilgan pul (*qimorda*)
puny [ˈpju:nɪ] *a* kichkina, kuchsiz, zaif, nimjon
pup [pʌp] **1.** *n* 1) kuchuk bolasi; 2) tulen bolasi, bo'ri bolasi, tulki bolasi; 3) *ko'ch.* xom (g'o'r) odam; go'dak
pupa [ˈpju:pə] *n ent.* g'umbak, g'undak
pupil I [ˈpju:p(ə)l] *n* o'quvchi, talaba
pupil II [ˈpju:p(ə)l] *n* ko'z qorachig'i
pupil(l)ary I [ˈpju:pɪl(ə)rɪ] *n* o'quvchiga oid, o'quvchi
pupil(l)ary II [ˈpju:pəl(ə)rɪ] *a* qorachiqqa (ko'z qorachig'iga) oid
puppet [ˈpʌpɪt] *n* (*ip bilan boshqariladigan*) qo'g'irchoq
puppet-show [ˈpʌpɪtʃəʊ] *n* qo'g'irchoq teatri
puppy [ˈpʌpɪ] *n* 1) kuchuk bolasi; 2) yosh (hali suyagi qotmagan) tulen; 3) *so'zl.* ona suti og'zidan ketmagan odam; go'l (g'o'r) yigitcha, o'ziga bino qo'yuvchi (havoyi) odam
purblind [ˈpɜ:blaɪnd] *a* 1) ko'zi yaxshi ko'rmaydigan, ko'zi xira; 2) zehni past, anqov
purchase [ˈpɜ:tʃɪs] **1.** *n* 1) xarid qilish, sotib olish; 2) sotib olingan (xarid qilingan) narsa; xarid; **~r** xaridor; **2.** *v* xarid qilmoq, sotib olmoq
pure [pjʊə] *a* 1) toza; sof; 2) zoti toza, haqiqiy; **a ~ accident** chin tasodif
purée [ˈpjʊ(ə)reɪ] *n fr.* pyure (*ba'zi go'shtlik ovqat yoniga qo'shib beriladigan, ko'pincha, sabzavot yoki mevadan tayyorlanadigan bo'tqasimon taom*)
purely [ˈpjʊəlɪ] *adv* 1) sof holda, toza...; 2) mutlaqo, tamoman, tamomila, butunlay, batamom; 3) yaxshilab
purgative [ˈpɜ:gətɪv] *a* ich suradigan, ichni bo'shashtiradigan (*dori haqida*)
purgatory [ˈpɜ:gət(ə)rɪ] *n* 1) a'rof, arosat, mahshargoh (*katoliklar afsonalarida: jannatga kirishdan oldin o'lganlarning joni gunohdan poklanadigan joy*); 2) *amer.* dara
purge [pɜ:dʒ] *v* 1) tozalamoq; 2) (*gunohni*) yuvmoq; 3) ichi ketmoq
purification [ˌpjʊ(ə)rɪfɪˊkeɪʃ(ə)n] *n* tozalanish, tozalash, poklanish
purify [ˈpjʊ(ə)rɪfaɪ] *v* tozalamoq, sof holga keltirmoq
purl I [pɜ:l] *n* galun, uqa, chok
purl II [pɜ:l] *v* shildiramoq, jildiramoq (*suv haqida*)
purlieu [ˈpɜ:lju:] *n* shaharning markazdan uzoq qismi, chekka joylari, chekkasi
purloin [pɜˊlɔɪn] *v* o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq
purple [ˈpɜ:p(ə)l] **1.** *n* to'q qizil rang; **2.** *a* to'q qizil, qirmiz
purport 1. *n* [ˈpɜ:pət] 1) ma'no, mazmun; 2) niyat, maqsad, mo'ljal; **2.** *v* [pəˊpɔ:t] ma'no anglatmoq, ma'no bermoq
purpose [ˈpɜ:pəs] *n* maqsad, niyat, orzu; **on ~** atayin, ataylab; **for this ~** shu maqsadda; **for the ~ of** ... maqsadida, ... maqsadi uchun
purposeful [ˈpɜ:pəsf(ə)l] *a* 1) maqsadga yo'naltirilgan; 2) jur'atli; 3) avvaldan o'ylab qo'yilgan, niyat qilingan
purr [pɜ:] *n* xirillash, xur-xur qilish (*mushukning xirillashi haqida*)
purse [pɜ:s] *n* hamyon; **to open one's ~** ziqnalik qilmasdan pul sarflamoq
purser [ˈpɜ:sə] *n* xazinachi, g'aznachi
pursuance [pəˊsju:əns] *n* 1) bajarish, amalga oshirish, ijro etish; 2) ta'qib qilish, izidan borish
pursuant [pəˊsju:ənt] ta'qib qiluvchi, izidan boruvchi; **~ to** tegishlicha, tegishli ravishda, mos ravishda
pursue [pəˊsju:] *v* 1) ta'qib qilmoq; ketidan (izidan) bormoq, quvlamoq; 2) (*muhokamani, mashg'ulotni, sayohatni*) davom ettirmoq
pursuit [pəˊsju:t] *n* 1) ta'qib, quvg'in, orqasidan (ketidan) quvib borish; 2) mashg'ulot; **one's daily ~** kundalik ish (mashg'ulot)
purulent [ˈpju(ə)rələnt] *a* yiringga, fasodga oid, yiringli, fasodli, gazak olgan
purvey [pɜ:ˊveɪ] *v* yetkazib bermoq, ta'minlamoq
purview [ˈpɜ:vju:] *n* 1) *yur.* huquq doirasi; 2) biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan ish sohasi
pus [pʌs] *n* yiring, fasod
push [pʊʃ] *v* surmoq, itarmoq, turtmoq
push-button [ˈpʊʃˌbʌtn] *n* bosiladigan tugma, (*qo'ng'iroq*) tugmasi
push-cart [ˈpʊʃkɑ:t] *n* qo'l aravacha
pushing [ˈpʊʃɪŋ] *a* uddaburon, epchil, tashabbuskor
pushy [ˈpʊʃɪ] *a* o'jar, qaysar
pusillanimity [ˌpju:sɪlə´nɪmɪtɪ] *n* qo'rqoqlik, yuraksizlik, irodasizlik
pusillanimous [ˌpju:sɪˊlænɪməs] *a* qo'rqoq, yuragi yo'q, yuraksiz
puss [pʊs] *n* mushuk bolasi
pussy I [ˈpʌsɪ] *a* yiringli, gazak olgan
pussy II [ˈpʊsɪ] *n* 1) mushukcha; 2) *ov.* quyon; 3) *hazil.* (*noz-karashmali, tannoz*) voyaga yetgan qiz
pussy-cat [ˈpʊsɪkæt] *n* 1) mushuk, urg'ochi mushuk; 2) mushukning laqabi
pussy-willow [ˈpʊsɪˌwɪləʊ] *n bot.* sambit (*tol va uning novdasi*), sambittol
put [pʊt] *v* (**put**) 1) qo'ymoq, kiritmoq; 2) o'rnatmoq, joylashtirmoq; **to ~ off** orqaga surmoq, keyinga qoldirmoq; **to ~ on** kiymoq, kiyib olmoq; 3) jamg'armoq, yig'moq; 4) yozmoq
putative [ˈpju:tətɪv] *a* xayoliy, xayol (faraz) qilingan
putrefaction [ˌpju:trɪˊfækʃ(ə)n] *n* chirish, buzilish, aynish
putrid [ˈpju:trɪd] *a* chirigan, chirib qolgan, buzilgan, aynigan
putsch [pʊʧ] *n nem.* fitna (*bir to'da fitnachilarning davlat o'zgarishi qilish yo'lidagi avanturistik xurujlari va shunday yo'l bilan qilingan davlat to'ntarilishi*)

puttee [ˈpʌtɪ] *n* boldirga (oyoqqa) o'raladigan paytava

putter I [ˈ´pʌtə] *n* kalta klushka (*golf uchun*)

putter II [ˈpʌtə] *v* 1) bekorga (behudaga) ishlamoq; 2) sekin harakat qilmoq; imillab yurmoq

putty [ˈ´pʌtɪ] *n* zamazka (*teshik-yoriqlarni, tirqishlarni bekitish uchun ishlatiladigan yopishqoq qorishma*)

put-up [ˈpʊtʌp] *a so'zl.* 1) o'ylab qilingan, oldindan rejalashtirilgan; 2) o'ylab chiqarilgan, soxtalashtirilgan; **a ~ affair** (*yoki* **job**) aldam-qaldam ish, hiyla-nayrang, firibgarlik

puzzle [ˈpʌz(ə)l] **I.** *n* 1) jumboq; 2) cho'pchak; **2.** *v* qiyin ahvolga olib kelmoq

puzzlement [ˈpʌz(ə)lmənt] *n* 1) parokandalik; sarosimalik; 2) topishmoq, jumboq

pygmy [ˈpɪgmɪ] *n* pakana (jussasi kichik) odam

pyjamas [pə´dʒɑ:məz] *n pl* pijama (*ko'pincha, kurtka va shimdan iborat uy kiyimi*)

pylon [ˈpaɪlən] *n* 1) *me'mor.* katta gul ustun (*arka, peshtoq, gumbaz kabilarning ustuni*); 2) tirgovuch, tirgak, suyanchiq

pyramid [ˈpɪrəmɪd] *n* 1) *mat.* piramida; 2) *tar.* piramida, ehrom; 3) piramida shaklida terib qo'yilgan narsalar; 4) *sport.* piramida (*bir-birining ustiga chiqib hosil qilingan piramidasimon shakl*); 5) *mexs.* piramida (*miltiqlarni tikka terib qo'yishga moslangan joy*); 6) piramida (*16 soqqali bilyard o'yini hamda o'yin boshida uchburchak shaklida terilgan 15 dona soqqa*)

pyre [ˈpaɪə] *n* dafn etish (ko'mish) gulxani

python [ˈpaɪθ(ə)n] *n zool.* piton (*tropik mamlakatlarda bo'ladigan yirik bo'g'ma ilon*)

Q

Q, q [kju:] *n* ingliz alifbosining o'n yettinchi harfi

qua [kweɪ] *adv lot.* ...sifatida

quack I [kwæk] **1.** *n* (*o'rdakning*) g'ag'illashi; **2.** *v* 1) g'ag'illamoq (*o'rdak haqida*); 2) tomoq qirmoq; 3) vaysamoq, ko'p gapirmoq

quack II [kwæk] *n* tabib, emchi, duoxon; **a ~ doctor** tabib; **~ medicine** tabib dorisi; **2.** *v* 1) (*xalq tabobatida qo'llaniladigan dori-darmon bilan*) davolamoq; 2) *ko'ch.* firibgarlik qilmoq

quackery [ˈkwæk(ə)rɪ] *n* tabiblik, emchilik

quackle [ˈkwækl] *v* g'ag'illamoq, g'aqg'aqlamoq, g'aq-g'aq qilmoq

quack-quack [ˌkwækˈkwæk] *n* o'rdak

quacksalver [ˈkwæk,sælvə] = **quack II**

quad [kwɒd] *n* 1) **quadrangle** *so'zining qisqartirilgan shakli;* 2) **quadrat** *so'zining qisqartirilgan shakli;* 3) **quadruplets** *so'zining qisqartirilgan shakli*

quadragenarian [ˌkwɒdrədʒɪˈne(ə)rɪən] **1.** *a* qirq yillik, qirq yil davom etgan, qirq yoshdagi; **2.** *n* qirq yoshdagi kishi, qirqqa kirgan kishi

Quadragesima [ˌkwɒdrəˈdʒesɪmə] *n din.* pasxa bayrami oldidan tutiladigan yetti haftalik ro'za

quadragesimal [ˌkwɒdrəˈdʒesɪm(ə)l] *a* qirq kun davom etadigan, qirq kunlik (*ro'za haqida*)

quadrangle [ˈkwɒdræŋg(ə)l] *n* 1) to'rtburchak, to'rtburchaklik; 2) atrofi binolar bilan o'ralgan to'rtburchak hovli; 3) to'rtburchak bino

quadrangular [kwɒˈdræŋgjələ, -gjʊlə] *a* to'rtburchakli, to'rtburchak

quadrant [ˈkwɒdrənt] *n mat.* kvadrant (*doiraning to'rtdan bir bo'lagi*)

quadrat [ˈkwɒdrət, ´kwɒdræt] *n poligr.* shpatsiya (*harf terishda so'zlar orasini ochish, abzas hosil qilish va sh. k. uchun qo'yiladigan metall plastinka*)

quadrate [´kwɒdrət, ´kwɒdreɪt] **1.** *n* 1) kvadrat (*tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak*); 2) to'rtburchak (chorsi) yer, maydon *yoki* narsa; **2.** *a* kvadrat shaklidagi, to'rtburchak

quadratic [kwɒˈdrætɪk] *a mat.* kvadrat, ikkinchi darajali; **a ~ equation** ikkinchi darajali tenglama

quadrature [ˈkwɒdrətʃə] *n* kvadratura (*1. sathning kvadratlar bilan ifodalangan kattaligi, o'lchami; 2. mat. egri chiziqlar bilan chegaralangan yuzani kvadratlarga bo'lib o'lchash; 3. astr. Yer, Quyosh va Oyning to'g'ri burchakli uchburchak hosil qilib turgan holati*)

quadrennial [kwɒˈdrenɪəl] *a* 1) to'rt yil davom etadigan; **a ~ period** to'rt yillik davr; 2) to'rt yilda bir marta bo'ladigan; **a ~ election** to'rt yilda bir marta bo'ladigan saylov

quadriga [kwəˈdri:gə] *n* (*pl* **-gae** [-gi:]) kvadriga (*qadimgi yunon va rimliklarda: to'rt otga bog'langan ikki g'ildirakli jang yoki poyga aravasi*)

quadrigae [kwəˈdri:gi:] *pl of* **quadriga**

quadrilateral [ˌkwɒdrɪˈlæt(ə)r(ə)l] **1.** *a* to'rt tarafli, to'rt tomonli, to'rt yoqli (chorqirra); 2) to'rt tomonlama; **2.** *n* to'rtburchak

quadrille [kwəˈdrɪl] *n* kadril (*juft-juft bo'lib ijro etiladigan bal raqsi va uning musiqasi*)

quadrillion [kwɒˈdrɪlɪ(ə)n] *n mat.* kvadrillion, millionning to'rt darajasiga ko'paytirilganligi (*1 dan keyin 24 ta nol yoziladi*)

quadripartite [ˌkwɒdrɪˈpɑ:taɪt] *a* to'rt qismdan iborat bo'lgan; to'rt qismga bo'lingan

quadripole [ˈkwɒdrɪpəʊl] *n* to'rt qutbli radio

quadrisyllable [ˌkwɒdrɪ ´sɪləb(ə)l] *n* to'rt bo'g'inli so'z

quadrivalent [kwɒ ´drɪvələnt] *a kim.* to'rt valentli

quadroon [kwɒˈdru:n] *n* duragay (*oq va qora tanli er-xotindan tug'ilgan bola*)

quadruped [ˈkwɒdruped] **1.** *a* to'rt oyoqli; **2.** *n* to'rt oyoqli hayvon (*asosan, sutemizuvchilar*)

quadrupedal [kwɒˈdrʊpɪdl] *a* to'rt oyoqli

quadruple [ˈkwɒdrʊp(ə)l] **1.** *n* to'rt baravar ko'paytirilgan miqdor (son); **2.** *a* to'rt baravar katta, to'rt hissa ko'paytirilgan; **3.** *v* to'rt baravar oshirmoq

quadruplets [ˈkwɒdrʊplɪts] *n pl* to'rt egizak

quadruplicate [kwɒ ´dru:plɪkɪt] **1.** *n* 1) : **in ~** to'rt nusxada; 2) *pl* to'rtta bir xildagi nusxa; **2.** *a* to'rt hissa ko'paytirilgan, to'rt baravar kattalashtirilgan; **3.** *v* [kwɒˈdru:plɪkeɪt] 1) to'rt baravarga ko'paytirmoq, to'rt hissa ko'paytirmoq; 2) to'rt nusxada chiqarmoq

quads [kwɒdz] *so'zl. of* **quadruplets**

quaere [ˈkwɪə(ə)rɪ] *n lot.* savol, so'roq

quaff [kwɒf, kwɑ:f] *v kit.* batamom (tagigacha) ichmoq; bir ko'tarishda (dam, nafas olmasdan) oxirigacha ichmoq

quag [kwæg, kwɒg] = **quagmire** 1)

rat [ræt] **1.** *n* 1) *zool.* kalamush; 2) sotqin, xoin, xiyonatchi, xiyonatkor; **2.** *v* 1) kalamushlarni qirib tashlamoq (*asosan, ilar bilan*); 2) xiyonat (xoinlik) qilmoq

ratable [´reɪtəb(ə)l] *a* soliq (o'lpon) solinadigan

ratal [´reɪtl] *n* to'lanadigan soliq miqdori

rataplan [ˌrætə´plæn] **1.** *n* 1) nog'ora (do'mbira) ovozi, nog'ora (do'mbira) chalish; 2) taqillagan (dukullagan, taraqlagan) ovoz; **2.** *v* nog'ora (do'mbira) chalmoq

ratcatcher [´rætˌkætʃə] *n* kalamush tutuvchi, kalamushlarni qiruvchi odam

ratchet wheel [´rætʃɪtwi:l] *n tex.* to'sqichli (xrapli) g'ildirak

rate I [reɪt] **1.** *n* 1) sur'at, tezlik; **growth ~** o'sish sur'ati; **at any ~** har holda; 2) baholash; 3) miqdor, marom; **at the ~ of** ... hajmda; 4) daraja, nav, xil, tur; **2.** *v* baholamoq, baho bermoq, bahosini (narxini) belgilamoq

rate II [reɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq

rateable [´reɪtəb(ə)l] *a* 1) soliq (o'lpon) to'lanadigan; 2) hajmiga yoki hissasiga mos keladigan, mos, munosib, proporsional; eni bo'yiga mos, bir-biriga mutanosib

rate-of-exchange [´reɪtɔvɪks´tʃeɪn(d)ʒ] *n* valuta kursi (*valutalarning bir-biriga nisbatan qadr-qimmati; biror mamlakat pul birligining boshqa mamlakat valutasi bilan ifodalangan qiymati*)

ratepayer [´reɪtˌpeɪə] *n* soliq to'lovchi

rater [´reɪtə] *n* hadeb so'kinaveradigan (og'zi buzuq) odam

rat-face [´rætfeɪs] *n amer. so'zl.* o'taketgan makkor; uchiga chiqqan firibgar, muttaham

rathe [reɪð] *a shoir.* 1) ertalabki, erta bilan bo'ladigan; 2) erta boshlangan, ertangi; 3) tez (katta) sur'at bilan davom etadigan; shitob bilan olib boriladigan, shiddatli, juda tez, ildam, jadal

rather [´rɑ:ðə] *adv* 1) tezroq; 2) yaxshiroq; afzalroq; 3) ko'pincha, asosan, ancha, juda

rathe-ripe [ˌreɪð´raɪp] = **rareripe**

ratification [ˌrætɪfɪ´keɪʃ(ə)n] *n yur.* tasdiqlash, tasdiq

ratify [ˈrætɪfaɪ] *n yur.* tasdiqlamoq, imzo va muhr bosib tasdiqlamoq
rating [ˈreɪtɪŋ] *n* reyting, baho, baholash
ratio [ˈreɪʃɪəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) *mat.* nisbat, proporsiya, o'zaro nisbat
ratiocination [ˌrætɪɒsɪˈneɪʃ(ə)n] *n* mantiqan to'g'ri mulohaza qilmoq, mantiqiy fikr yuritmoq
ration [ˈræʃ(ə)n] *n* ulush (*oziq-ovqat*); **~al** ma'qul; **~ality** ma'qullik, to'g'rilik
rationale [ˌræʃəˈnɑ:l] *n* 1) oqilona tushuntirib berish; 2) asosiy sabab
rationalism [ˈræʃ(ə)nəlɪz(ə)m] *n fals.* ratsionalizm; hayotga aql ko'zi bilan qarash, his-tuyg'uga berilmaslik, mulohazakorlik
rationalist [ˈræʃ(ə)nəlɪst] **1.** *n* 1) *fals.* ratsionalist, ratsionalizm tarafdori; 2) hayotga aql ko'zi bilan qaruvchi, mulohazakor; **2.** *a* 1) ratsionalizmga oid, ratsionalistik, ratsionalizm nuqtayi nazaridan qaraladigan; 2) aql-idrokka asoslangan
rationalistic [ˌræʃ(ə)nəˈlɪstɪk] *a* ratsionalistik, aql-idrokka asoslangan
rationalization [ˌræʃ(ə)nəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* ratsionallashtirish, oqilona tashkil etish
rationalize [ˈræʃ(ə)nəlaɪz] *v* oqilona (eng yaxshi) tashkil etmoq
rat race [ˈrætreɪs] *n ko'ch.* tirikchilik tashvishlari bilan yelib-yugurish, ovoragarchilik
ratsbane [ˈrætsbeɪn] *n* kalamush o'ldiradigan dori; margimush; kalamushni o'ldiradigan zahar
rat's-tail [ˈrætsteɪl] *n* 1) kalamushning dumi; 2) kalamushning dumiga o'xshagan qandaydir narsa; **~ file** *tex.* ingichka egov
rattan [ræˈtæn, rə-] *n bot.* rotang (*palma daraxtining bir turi*)
rat-tat [ˌrætˈtæt] *n* eshikni qattiq qoqish (taqillatish)
ratten [ˈrætn] *v* zimdan qarshilik qilmoq, to'sqinlik ko'rsatmoq, zarba bermoq, putur yetkazmoq
ratter [ˈrætə] *n* (*asosan, itlarga nisbatan*) kalamush tutuvchi, kalamushlarni qiruvchi
rattle [ˈrætl] **1.** *n* 1) qarsillash, jiringlash, jaranglash; **2.** *v* qarsillamoq, jiringlamoq, jaranglamoq
rattle-box [ˈrætlbɒks] *n* 1) shiqildoq (*bolalar o'yinchog'i*); 2) *amer. so'zl.* quruq gap sotuvchi odam, sergap (ezma, vaysaqi) odam
rattlebrained [ˈrætlbreɪnd] *a* qovoqbosh va baqiroq
rattler [ˈrætlə] *n* sergap (*ezma, vaysaqi, quruq gap sotuvchi*) odam
rattlesnake [ˈrætlsneɪk] *n zool.* shaqildoq ilon (*tropikda bo'ladigan zaharli ilon*)
rattle-trap [ˈrætltræp] **1.** *n* shaloq, liqildoq, liqillab qolgan, buzuq avtomobil va b.; **2.** *a* shaloq, liqildoq, liqillab qolgan, buzuq
rattling [ˈrætlɪŋ] *a* 1) kuchli, shiddatli, qattiq (*shamol haqida*); 2) *so'zl.* juda ajoyib, juda yaxshi
rat-trap [ˈrættræp] *n* 1) kalamush tutadigan qopqon; 2) kalamush tutadigan kichkina it; 3) tishchali velosiped pedali (tepkisi); 4) *so'zl.* og'iz
ratty [ˈrætɪ] *a* 1) kalamushga oid; kalamush...; 2) kalamush uchun belgilangan; 3) kalamushga o'xshagan, kalamushni eslatadigan
raucous [ˈrɔ:kəs] *a* xirillagan, xirildoq, xir-xir
ravage [ˈrævɪdʒ] **1.** *n* 1) vayron (xonavayron) qilish, yo'q qilish; **~ of weeds** begona o'tlarni yo'q qilish; **2.** *v* buzmoq, qulatmoq, vayron qilmoq
rave [reɪv] *v* 1) orzu qilmoq, shirin xayolga botmoq; 2) g'azablanmoq, qizishib ketmoq
ravel [ˈræv(ə)l] **1.** *n* 1) o'ram, kalava, koptok; 2) chigallik, chalkashlik; chatoqlik, fikrlashdagi chalkashlik; 3) uzuq-yuluq iplar; **2.** *v* chuvatmoq, chuvaltirmoq, chalkashtirmoq; chuvatib (chuvaltirib, chalkash-chulkash qilib) yubormoq (qo'ymoq) (*ip haqida*)
ravelin [ˈræv(ə)lɪn] *n harb.* ravelin (*qal'aning tashqi tomoniga qurilgan qo'shimcha istehkom*)
raven I [ˈreɪv(ə)n] *n zool.* quzg'un
raven II [ˈreɪv(ə)n] *v* 1) o'ljani qidirmoq; 2) astoydil kirishmoq; 3) yemoq, yeb qo'ymoq, yeb yubormoq
ravenous [ˈreɪv(ə)nəs] *a* 1) talonchilikka (talashga) qaratilgan, talonchilikdan iborat bo'lgan; talonchilik ...; 2) talab (tortib) olishga intiladigan; 3) yebto'ymas, badnafs, mechkay, sertomoq, xo'ra; **a ~ appetite** juda yaxshi ishtaha
ravin [ˈrævɪn] *n shoir* 1) bosqinchilik, o'g'rilik, talash; 2) talon-taroj; talonchilik, shilish, yulish, tovlash
ravine [rəˈvi:n] *n* dara, jar, jarlik, chuqurlik
raving [ˈreɪvɪŋ] **1.** *a* 1) alahsirab (yoki bosinqirab) o'tkazilayotgan, shunday holatdagi, og'ir; 2) xayoliy, bema'ni; **2.** *n* 1) alahlash, bosinqirash; 2) ahmoqona (bo'lmag'ur, yolg'on) gap
ravish [ˈrævɪʃ] *v* 1) o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq; 2) zo'rlamoq, zo'ravonlik qilmoq, nomusiga tegmoq
ravishment [ˈrævɪʃmənt] *n* 1) zo'rlash, zo'ravonlik qilish, nomusiga tegish; 2) *esk.* ayollarni o'g'irlash
raw [rɔ:] **1.** *a* ishlov berilmagan, chala pishgan, xom; **~ materials** xomashyo; **a ~ brick** xom g'isht; **2.** *n* xom mol, xom ashyo; **3.** *v* terisini shilmoq
rawboned [ˌrɔ:ˈbəʊnd] *a* juda ozg'in (oriq), quruq suyagi qolgan, qoq suyak, quruq suyak, cho'p-ustuxon, qotma
rawness [ˈrɔ:nəs] *n* 1) ishlanmaganlik, ishlov berilmaganlik; chalalik, xomlik; 2) tajribasi yo'qlik (kamlik), tajriba ko'rmaganlik (orttirmaganlik), tajribasizlik, malakasizlik; g'o'rlik, xomlik
ray I [reɪ] *n* 1) nur, shu'la, yog'du; 2) yalt etib ko'ringan yorug'lik, chaqnash; **a ~ of hope** umid uchquni
ray II [reɪ] *n zool.* skat (*dumi ingichka, yapaloq dengiz balig'i*)
rayon [ˈreɪɒn] *n* sun'iy shoyi
raze [reɪz] *v* 1) yer bilan yakson qilmoq, tep-tekis qilib yubormoq; 2) o'chirmoq
razee [reɪˈzi:] *v* 1) *tar.* (*kemaning*) yuqori palubasini kesmoq, 2) *ko'ch.* qisqartmoq, qisqartirmoq, kichraytirmoq
razor [ˈreɪzə] **1.** *n* ustara; **2.** *v* (*soch-soqolni*) qirmoq, tarashlamoq
razorback [ˈreɪzəbæk] *n* 1) polosatik (*qorin terisi qat-qat bo'lib buklangan-tirishgan katta kit*); 2) cho'ziq tog' tizmasi
razorbill [ˈreɪzəbɪl] *n zool.* gagarka (*Shimol dengizlarida yashaydigan xonaki o'rdak kattaligidagi qush*)
razor blade [ˈreɪzəˌbleɪd] *n* ustara tig'i (dami)
razor-edge [ˌreɪzə(r)ˈedʒ] *n* ustara (pichoq) dami (yuzi, tig'i, uchi)
razor-strop [ˈreɪzəstrɒp] *n* ustarani qayrash uchun ishlatiladigan qayish
razz [ræz] *v amer. so'zl.* 1) jig'iga tegmoq, achchig'ini (g'ashini) keltirmoq, hazil-mazax qilmoq; 2) masxara (mazax, mayna) qilmoq
razzle [ˈræz(ə)l] : **to be** (*yoki* **to go**) **on the ~** aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq
razzle-dazzle [ˌræz(ə)lˈdæz(ə)l] *n so'zl.* 1) betartib harakat, hovliqish, hovliqmalik, behalovatlik; 2) yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon; 3) aysh-ishrat, ichkilikbozlik, mayxo'rlik; **to go on the ~** aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq
re I [ri:] *n mus.* re
re II [ri:] *pref.* takrorlash ma'nosini bildiruvchi old qo'shimcha; **to ~write** qayta yozmoq
reach [ri:tʃ] *v* 1) erishmoq; yetishmoq; 2) cho'zmoq, uzatmoq; **within ~** (yetib) borsa bo'ladigan masofada; 3) aloqa bog'lamoq

reachless [ˈri:tʃləs] *a* erishib (yetishib, amalga oshirib) bo'lmaydigan
react [rɪˈækt] *v* 1) ta'sirlanmoq; ta'sir qilmoq; 2) *kim.* reaksiyaga kirishmoq
reactance [rɪˈæktəns] *n el.* reaktiv qarshilik (ko'rsatish)
reaction I [rɪˈækʃ(ə)n] *n* ta'sirlanish, sezish (*organizmning tashqi ta'sirga javobi*)
reaction II [rɪˈækʃ(ə)n] *n siyos.* reaksiya (*ijtimoiy taraqqiyotga qattiq qarshilik ko'rsatish va revolutsion harakatni bostirish siyosati*)
reactionary I [rɪˈækʃən(ə)rɪ] *a* teskari (qarshi) harakat qiluvchi
reactionary II [rɪˈækʃən(ə)rɪ] *n* taraqqiyotning ashaddiy dushmani, teskarichi, jaholatparast; aksilinqilobchi
reactive [rɪˈæktɪv] *a* ta'sirlanadigan, ta'sirga javob beradigan, tashqi ta'sirga javob bera oladigan
reactivity [ˌri:ækˈtɪvɪtɪ] *n* reaktivlik (1. *kimyoviy tahlillarda reaktiv bo'lib xizmat qila olish qobiliyati;* 2. *fiziol. tashqi ta'sirga javob berish qobiliyati*)
reactor [rɪˈæktə] *n* reaktor (*turli xil fizikaviy-kimyoviy reaktsiyalar asosida harakat qiluvchi apparat yoki qurilma*)
read [ri:d] **1.** *v* (**read** [red]) 1) o'qimoq, muhokama qilmoq, ko'rib chiqmoq; **~er** kitobxon; **to ~ aloud** ovoz chiqarib o'qimoq; **to ~ one to sleep** kitob o'qib uxlatib qo'ymoq; **to ~ to oneself** ichida o'qimoq; 2) izohlamoq, sharhlamoq, tushuntirib bermoq; **to ~ a riddle** topishmoqni topmoq; junboqni yechmoq; **her face doesn't ~ off** uning yuzi hech narsani ifoda etmayapti; **to ~ up** maxsus o'rganmoq; **to ~ up for examination** imtihonga tayyorgarlik ko'rmoq; **to ~ with** kim bilandir birga dars qilmoq; **2.** *n* o'qish; o'qish uchun sarflanadigan vaqt
readability [ˌri:dəˈbɪlɪtɪ] *n* o'qilishi osonlik, o'qishga qulaylik
readable [ˈri:dəb(ə)l] *a* aniq, ravshan, dona-dona, tushunarli, yaxshi yozilgan
reader [ˈri:də] *n* 1) o'quvchi, kitobxon, gazetxon, mushtariy; 2) o'qish kitobi
readily [ˈredɪlɪ] *adv* 1) jon deb, bajon-u dil, mamnuniyat bilan; 2) tez, tezda, darrov, darhol, tezlik (zudlik) bilan
readiness [ˈredɪnəs] *n* tayyorlik, hozirjavoblik, rozilik, shaylik
reading [ˈri:dɪŋ] *n* 1) o'qish; 2) bilish, xabardorlik
reading desk [ˈri:dɪŋdesk] *n* pyupitr (*nota va kitob qo'yadigan qiya moslama*)
reading glass [ˈri:dɪŋglɑ:s] *n* katta qilib ko'rsatadigan shisha (linza, lupa)
reading-room [ˈri:dɪŋru:m, -rom] *n* qiroatxona, o'quv zali
readjust [ˌri:əˈdʒʌst] *v* 1) qaytadan qilmoq, yangidan yasamoq; 2) o'zgartirmoq, tuzatmoq
ready [ˈredɪ] *a* tayyor, hozir, shay, tayyorlangan, tayyorgarlik (hozirlik) ko'rgan
ready-made [ˈredɪmeɪd] *a* tayyorlangan, tayyorgarlik ko'rgan, tayyor; **~ clothes** tayyor (tikilgan) ko'ylak
reaffirm [ˌri:əˈfɜ:m] *v* (*qayta*) tasdiqlamoq, ta'kidlamoq
reagent [ri: ˈeɪdʒ(ə)nt] *n kim.* reaktiv (*kimyoviy reaksiyani amalga oshirish uchun ishlatiladigan modda*)
real [rɪəl] *a* 1) haqiqiy, amaldagi, chinakam; asl, chin; 2) ko'chmas (*mulk haqida*)
realism [ˈrɪəlɪz(ə)m] *n* realizm (*biror narsani amalga oshirishda mavjud shart-sharoitlarni aniq hisobga olish*)
realistic [rɪəˈlɪstɪk] *a* amaliy, amaldagi, haqiqiy, chinakam
reality [rɪˈælɪtɪ] *n* voqelik, haqiqat, borlik, haqqoniyat, bor narsa, mavjud dalil; **in ~** haqiqatda
realization [ˌrɪəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) amalga oshirish; 2) anglash, tushunish
realize [ˈrɪəlaɪz] *v* 1) tushunmoq, tasavvur etmoq, anglamoq; 2) amalga oshirmoq, anglab yetmoq
really [ˈrɪ(ə)lɪ] *adv* haqiqatan, chinakam, haqiqatan ham, chindan ham, darhaqiqat
realm [relm] *n* qirollik, qirol qo'l ostidagi mamlakat, podsholik
realtor [ˈrɪəltə] *n amer.* ko'chmas mulk (*yer-suv, imorat va sh. k.*) savdosi bilan shug'ullanuvchi agent
reanimate [ri: ˈænɪmeɪt] *v* tiriltirmoq, jonini saqlab qolmoq, jon kiritmoq
reap [ri:p] *v* 1) o'rmoq; **a ~ing hook** o'roq; **a ~er** o'roqchi; **~ as you have sown** nima eksang, shuni o'rasan; 2) olmoq
reaping-hook [ˈri:pɪŋhʊk] *n* o'roq, qo'l o'roq
reappear [ˌri:əˈpɪə] *v* yana (tag'in, qaytadan, boshqatdan) paydo bo'lmoq
reappraisal [ˌri:əˈpreɪz(ə)l] *n* qaytadan (boshqatdan) ko'rish, yangidan qarab chiqish
reappraise [ˌri:əˈpreɪz] *v* qaytadan baholamoq
rear [rɪə] **1.** *n harb.* front orti; orqa tomon; **2.** *a* orqa, orqadagi; mamlakat ichkarisidagi
rear-admiral [ˌrɪəˈædm(ə)rəl] *n* kontr-admiral (*admirallik unvonining vitse-admiraldan quyi birinchi darajasi va shu unvondagi kishi*)
rearguard [ˈrɪəgɑ:d] *n* asosiy kuchlardan orqadagi harbiy qismlar
rearm [ri: ˈɑ:m] *v* qayta qurollanmoq, qurollantirmoq
rearmament [ri:ˈɑ:məmənt] *n* qayta qurollanish, qayta qurollantirish (*mamlakat qurolli kuchlari haqida*)
rearmost [ˈrɪəməʊst] *a* eng oxirgi, so'nggi, keyingi
rearrange [ˌri:əˈreɪndʒ] *v* boshqatdan (qaytadan) barpo etish
reason [ˈri:z(ə)n] *n* 1) sabab, vaj, bahona; **a ~ for** ... uchun sabab; **by ~ of** ... sababiga ko'ra; 2) aql, fahm; 3) dalil, isbot
reasonable [ˈri:z(ə)nəb(ə)l] *n* oqilona, o'rtacha, xolis, ma'qul, yaroqli; aqlli, zehnli
reasoning [ˈri:z(ə)nɪŋ] *n* fikr, mulohaza
reassessment [ˌri:əˈsesmənt] *n* o'z harbiy mavqeyiga ortiqcha baho berish
reassure [ˌri:əˈʃʊə] *v* ishontirmoq, inontirmoq; tinchlantirmoq
rebate [ˈri:beɪt] *n* kamaytirilgan narx, chegirma
rebel 1. *n* [ˈreb(ə)l] *a* isyonchi, qo'zg'olonchi; **2.** *v* [rɪˈbel] isyon (qo'zg'olon) ko'tarmoq
rebellion [rɪˈbeljən] *n* 1) isyon, qo'zg'olon; 2) bo'ysunmaslik, itoat qilmaslik
rebellious [rɪˈbeljəs] *a* isyonchi, qo'zg'olonchi
rebound [rɪˈbaʊnd] *v* urilib qaytmoq, sapchimoq
rebuff [rɪˈbʌf] **1.** *n* qat'iy voz kechish; **2.** *v* qat'iyan rad etmoq
rebuild [ˌri:ˈbɪld] *v* (**rebuilt**) qayta qurmoq
rebuilt [ˌri:ˈbɪlt] *past., p. p. of* **rebuild**
rebuke [rɪˈbju:k] *n* ta'na qilish, yuziga solish; ta'na, gina
rebus [ˈri:bəs] *n* rebus (*so'zlar, shakllar yoki harflar bilan ifodalanadigan jumboq, muammo*)
recalcitrant [rɪˈkælsɪtrənt] *a* o'z so'zida qattiq turadigan, bir so'zli, qat'iy
recall [rɪˈkɔ:l] *v* 1) chaqirib olmoq; 2) eslatmoq; 3) bekor qilmoq (*buyruq va b.*); 4) eslamoq, esga olmoq
recant [rɪˈkænt] *v* inkor qilmoq, tonmoq, qaytmoq
recapitulate [ˌri:kəˈpɪtjʊleɪt] *v* takrorlamoq, qaytarmoq
recapitulation [ˌri:kəpɪtjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* qisqacha takrorlash
recapture [ri:ˈkæptʃə] *v* qaytadan tutib olmoq
recast [ˈri:ˌkɑ:st] *n* qaytadan ishlash, yangidan ishlash, tuzatish
recede [rɪˈsi:d] *a* yo'qolmoq, ketmoq, uzoqlashmoq

receipt [rɪ´si:t] *n* 1) olganlik haqida tilxat; kvitansiya; 2) olish; 3) *pl* kirim, daromad; **~s and expenses** kirim va chiqim

receive [rɪ´si:v] *v* 1) olmoq; 2) qabul qilmoq; **to ~ stolen goods** o'g'irlangan narsalarni yashirib (bekitib) qo'ymoq

received [rɪ´si:vd] *a* hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan, rasm bo'lib qolgan

receiver [rɪ´si:və] *n* 1) qabul qiluvchi; 2) telefon go'shagi (trubkasi); **to pick up the ~** go'shakni olmoq

recent [´ri:s(ə)nt] *a* yaqindagi, oxirgi, so'nggi, yangi, yaqin kunlardagi, haligi

recently [´ri:s(ə)ntlɪ] *adv* yaqinda, yaqin kunlarda, yaqindan beri

receptacle [rɪ´septək(ə)l] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy

reception [rɪ´sepʃ(ə)n] *n* qabul, qabul qilish, qabul marosimi, kutib olish; **a ~-room** qabulxona; **to give smb. a warm ~** birovni samimiy kutib olmoq

receptive [rɪ´septɪv] *a* zehni o'tkir (baland), zehnli, idrokli

recess [rɪ´ses] *n* 1) (*parlament va boshqa yig'ilishlarda*) tanaffus; 2) *amer.* ta'til (*maktabda, universitetda*); 3) *amer.* maktabdagi katta tanaffus

recessed shelter [rɪ,sest´ʃeltə] *n harb.* yerosti boshpanasi

recession [rɪ´seʃ(ə)n] *n* 1) iqtisodiy inqiroz; 2) uzoqlashish, uzoqlashtirish; 3) pasayish, kamayish, qaytish, tushish (*mollarga bo'lgan talab, narx*)

recessive [rɪ´sesɪv] *a* 1) uzoqlashadigan, yiroqlashadigan; 2) voz kechadigan, chekinadigan

recharge [,ri:´tʃɑ:dʒ] *v* qayta zaryadlamoq

recipe [´resɪpɪ] *n* 1) shifokor yozib beradigan dori qog'ozi; 2) tayyorlash usuli

recipient [rɪ´sɪpɪənt] *n* oluvchi, qabul qilib oluvchi

reciprocal [rɪ´sɪprək(ə)l] *a* o'zaro; ikki yoqlama, ikki tomonlama

reciprocate [rɪ´sɪprəkeɪt] *v* 1) sevgiga sevgi bilan (hurmatga hurmat bilan va h. k.) javob bermoq; 2) qilmishiga yarasha javob bermoq; 3) alishmoq; alishtirmoq, ayirboshlamoq

reciprocity [,resɪ´prɔsɪtɪ] *n* 1) o'zaro do'stlik; 2) o'zaro ta'sir

recital [rɪ´saɪtl] *n* 1) o'qish; 2) bayon (hikoya) qilish, ifoda etish, aytib berish

recitation [,resɪ´teɪʃ(ə)n] *n* 1) sanab (hisoblab) chiqish (*dalil va b. ni*); 2) ifodali o'qish; 3) hikoya qilib berish

recite [rɪ´saɪt] *v* 1) ta'sirli o'qimoq, ifodali qilib o'qib bermoq; 2) bayon (hikoya) qilmoq, ifoda etmoq, aytib bermoq; 3) javob bermoq (*maktabda*)

reckless [´reklәs] *a* o'ylamay qilingan, bemulohaza, telba, tentak

reckon [´rekən] *v* 1) hisoblamoq, sanamoq; 2) hisoblab chiqmoq, natija chiqarmoq; 3) ...deb hisoblamoq, ...deb o'ylamoq

reckoning [´rekənɪŋ] *n* 1) hisoblash, sanash, hisob, sanoq; 2) to'lov

reclaim [rɪ´kleɪm] *v* 1) qaytadan tarbiyalamoq; tuzatmoq; 2) qayta ishlamoq; 3) *q. x.* haydamoq, shudgor qilmoq, o'zlashtirmoq; 4) (*chiqindilardan*) foydalanmoq

reclamation [,reklə´meɪʃ(ə)n] *n* 1) tuzatish, yaxshilash; qayta tarbiyalash; 2) *q. x.* (*yerni*) o'zlashtirish

recline [rɪ´klaɪn] *v* yonboshlamoq, tirsakka tayanmoq

recluse [rɪ´klu:s] *n* tarki dunyo qilgan kishi, monax, zohid

recognition [,rekəg´nɪʃ(ə)n] *n* tan olish; ma'qullash; rasmiy tan olish, bilib olish, e'tirof

recognize [´rekəgnaɪz] *v* tan olmoq, tanimoq, bilib olmoq, e'tirof etmoq; orqaga tisarilmoq (chekinmoq)

recoil [rɪ´kɔɪl] *v* qo'rqib ketmoq, dahshatga (vahimaga) tushmoq; orqaga tisarilmoq (chekinmoq)

recollect [,rekə´lekt] *n* eslamoq, esga solmoq

recollection [,rekə´lekʃ(ə)n] *n* eslash; xotira; **within my ~** xotiramda, esimda

recommend [,rekə´mend] *v* tavsiya etmoq, maslahat bermoq

recommendation [,rekəmen´deɪʃ(ə)n] *n* tavsiya, maslahat, tavsiyanoma

recompense [´rekəmpens] *v* haq (tovon) to'lamoq

reconcile [´rekənsaɪl] *v* yarashtirmoq, kelishtirmoq, murosaga keltirmoq

reconciliation [,rekənsɪlɪ´eɪʃ(ə)n] *n* 1) yarash, sulh, murosa, bitim; 2) yarashtirish, murosaga keltirish

recondition [,ri:kən´dɪʃ(ə)n] *n* tuzatmoq, yamamoq; ta'mirlamoq

reconnaissance [rɪ´kɔnɪs(ə)ns] *n harb.* razvedka (*dushmanning kirdikorlarini o'rganuvchi, unga qarshi kurash olib boruvchi harbiy bo'linma*)

reconnoitre [,rekə´nɔɪtə] *v* razvedka qilmoq, tekshirib bilmoq

reconsider [,ri:kən´sɪdə] *v* qaytadan ko'rib chiqmoq, yana bir bor qarab chiqmoq

reconstruct [,ri:kən´strʌkt] *v* qayta qurmoq

reconstruction [,ri:kən´strʌkʃ(ə)n] *n* qaytadan (yangidan) qurish, boshqacha qilib qurish

reconversion [,ri:kən´vɜ:ʃ(ə)n] *n* rekonversiyalash (*harbiy sanoatni avvalgi, tinchlik davridagi holiga keltirish*)

record 1. *v* [rɪ´kɔ:d] *v* yozib qo'ymoq, ro'yxatga olmoq, qarorlashtirmoq; bayonnomaga kiritmoq; **2.** *n* [´rekɔ:d] 1) yozuv, bayonnoma; 2) rekord

recorder [rɪ´kɔ:də] *n* 1) tovush yozish apparati; 2) ro'yxatchi, ro'yxatga oluvchi

recording [rɪ´kɔ:dɪŋ] **1.** *a* tovush (ovoz) yozadigan; **2.** *n* yozuv, qayd; xotira

re-count [ri: ´kaont] *v* qayta hisoblab sanab chiqmoq (*asosan, saylovdagi ovozlarni*)

recount [rɪ´kaont] *v* hikoya qilmoq, gapirib (aytib) bermoq, so'zlab bermoq

recoup [rɪ´ku:p] *v* badal (tovon, haq) to'lamoq, o'rnini to'ldirmoq

recourse [rɪ´kɔ:s] *n* yordam so'rab murojaat qilish; **to have ~ to** yordam so'rab murojaat qilmoq; yordamga yugurmoq

recover [rɪ´kʌvə] *v* 1) tuzalmoq; o'ziga kelmoq; **to ~ from** ...dan tuzalmoq; 2) qaytarib olmoq

recovery [rɪ´kʌv(ə)rɪ] *n* 1) asl holiga qaytish, sog'ayish; 2) qaytarib berish

re-create [,ri:krɪ´eɪt] *v* qayta qurmoq, qayta barpo (tashkil, bunyod) etmoq

recreate [´rekrɪeɪt] *v* 1) kuch to'plamoq; 2) hordiq chiqarmoq

recreation [,rekrɪ´eɪʃ(ə)n] *n* 1) kuchlarni qayta tiklash; 2) dam, hordiq, dam olish

recrimination [rɪ,krɪmɪ´neɪʃ(ə)n] *n* o'zaro *yoki* qarshi ayblash (qoralash)

recruit [rɪ´kru:t] *v* 1) yollamoq, ko'ngillilar to'plamoq; 2) (*sog'liqni*) mustahkamlamoq

recruitment [rɪ´kru:tmənt] *n* 1) yig'ish, yollash, to'plash, xizmatga chaqirish (*yangi olingan askarlarni*); 2) sog'likni tiklamoq

recta [´rektə] *pl of* **rectum**

rectangle [´rektæŋg(ə)l] *n* to'g'ri burchak

rectangular [rek´tæŋgjʊlə] *a* to'g'ri burchakli

rectification [,rektɪfɪ´keɪʃ(ə)n] *n* 1) to'g'rilash, tuzatish; 2) *kim.* tozalash (*suyuqlikni turli aralashmalardan ajratib olish*)

rectify [´rektɪfaɪ] *v* tekshirib (solishtirib) to'g'rilamoq, to'g'riligini tekshirmoq

rectitude [´rektɪtju:d] *n* to'g'rilik, rostlik, rostgo'ylik, dangallik

rector [´rektə] *n* 1) rektor (*oliy o'quv yurtining rahbari*); 2) pastor (*protestant mazhabidagi ruhoniy*)

rectory [´rekt(ə)rɪ] *n* 1) ruhoniyning daromadi; 2) qavm ruhoniysining uyi; 3) qavm ruhoniysining mansabi

rectum [ˈrektəm] *n* (*pl* **-ta**) *anat.* to'g'ri ichak
recumbent [rɪˈkʌmbənt] *a* yotiq, yotgan
recuperate [rɪˈk(j)u:pəreɪt] *v* sog'ay-moq, tuzalmoq, sog'ayib ketmoq
recuperation [rɪˌk(j)u:pəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) kuch to'plash; 2) sog'ayib ketish
recur [rɪˈkɜ:] *v* qaytmoq, qaytib kelmoq, takrorlanmoq
recurrence [rɪˈkʌrəns] *n* takrorlanish, qaytish
recurrent [rɪˈkʌrənt] *a* davriy, vaqt-vaqti bilan bo'ladigan, takrorlanib turadigan
recycle [ˌri:ˈsaɪk(ə)l] *v* qaytadan (boshqatdan) ishlatmoq
red [red] *a* qizil; qirmizi; **to be ~ with** ...dan rangi qizarmoq; **to turn ~** qizarmoq; **~ Crescent** Qizil Yarimoy jamiyati; **~ pepper** qalampir, garmdori
redbaiting [ˈredˌbeɪtɪŋ] *n amer.* taraqqiyparvar kishilarni ta'qib qilish
redbreast [ˈredbrest] *n* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*)
redcoat [ˈredkəʊt] *n tar.* ingliz askari
redden [ˈredn] *v* 1) qizarmoq; 2) qizil rangga bo'yamoq
reddish [ˈredɪʃ] *a* qizg'ish
redeem [rɪˈdi:m] *v* 1) pul to'lab qaytarib olmoq; 2) qaytarmoq, **to ~ one's good name** yaxshi nomni qaytarib olmoq; 3) (*va'dani*) bajarmoq; 4) (*gunohni*) yuvmoq
redemption [rɪˈdempʃ(ə)n] *n* qaytarib (yoki ajratib) olish uchun to'lanadigan pul
redevelop [ˌri:dɪˈveləp] *v* yangidan (qaytadan) qurmoq
red-handed [ˌredˈhændɪd] *a* 1) qo'llari qonga bo'yalgan; 2) jinoyat joyida ushlangan; **to be caught ~** jinoyat joyida qo'lga tushmoq
redherring [ˌredˈherɪŋ] *n* dudlangan baliq
red-hot [ˌredˈhɒt] *a* 1) cho'g'day qizdirilgan; 2) asablari qo'zg'algan
rediffusion [ˌri:dɪˈfju:ʒən] *n* ko'cha, maydon va b. ni radiolashtirish
redistribute [ˌri:dɪˈstrɪbju:t] *v* qaytadan (yangidan) taqsimlamoq, qayta (boshqatdan) bo'lmoq
redistribution [ˌri:dɪstrɪˈbju:ʃ(ə)n] *n* yangidan (qaytadan) taqsimlash, qayta taqsimlanish (bo'linish)
redolent [ˈredələnt] *a* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar
redouble [ri:ˈdʌb(ə)l] *v* 1) ikki hissa oshirmoq, ko'paytirmoq; 2) kuchaytirmoq, zo'raytirmoq, oshirmoq; 3) kuchayib ketmoq, kuchaymoq
redoubtable [rɪˈdaʊtəb(ə)l] *a* dahshatli, qo'rqinchli
redress [rɪˈdres] *v* tuzatmoq, tiklamoq, asliga keltirmoq
reduce [rɪˈdju:s] *v* qisqartirmoq, kamaytirmoq; **to ~ prices** narxlarni kamaytirmoq
reduced [rɪˈdju:st] *a* pasaygan, tushgan, kamaygan, ozaygan
reduction [rɪˈdʌkʃ(ə)n] *n* pasaytirish, tushirish, kamaytirish, qisqartirish; **~ of armaments** qurollarni qisqartirish (kamaytirish); **~ of prices** narx-navoning kamayishi
redundance, -cy [rɪˈdʌndəns, -sɪ] *n* 1) haddan tashqarilik, o'ta, ortiqlik; keragidan ortiq narsa; 2) ezmalik; 3) ish joylarini qisqartirish
redundant [rɪˈdʌndənt] *a* ortiqcha, ehtiyojidan ortiq
reed [ri:d] *n* 1) *bot.* qamish; qamishzor; 2) tomga solinadigan qamish *yoki* poxol
reef [ri:f] *n* 1) rif, suv ichidagi qoya; 2) rif (*yelkanning arqon o'tkazadigan teshigi*)
reek [ri:k] *n* sassiq (badbo'y) hid, qo'lansa hid
reel [ri:l] *n* 1) g'altak; 2) (qog'oz) ruloni, o'rami
re-elect [ˌri:ɪˈlekt] *v* qayta saylamoq, yangidan saylamoq
re-election [ˌri:ɪˈlekʃ(ə)n] *n* qayta saylash, ikkinchi marta saylanish
re-entry [ri:ˈentrɪ] *n jur.* ko'chmas mulkka qaytadan egalik qilish
re-establish [ˌri:ɪˈstæblɪʃ] *v* qayta tiklamoq, o'rnatmoq
refectory [rɪˈfekt(ə)rɪ] *n* 1) (*monastirda*) ovqat yeyiladigan xona; 2) yemakxona, oshxona (*universitetda, maktabda*)
refer [rɪˈfɜ:] *v* 1) gapirmoq, eslatmoq, tilga olmoq; qo'shmoq, dalil qilib ko'rsatmoq; murojaat qilmoq; **to ~ to** ...ga havola qilmoq; 2) bahona qilmoq; 3) aloqador bo'lmoq; 4) yubormoq, jo'natmoq, yo'llamoq
referee [ˌrefəˈri:] *n sport.* sudya, hakam
reference [ˈref(ə)rəns] *n* 1) eslash, tilga olish, aytib o'tish; 2) ma'lumot; 3) tavsifnoma, tavsiyanoma
referenda [ˌrefəˈrendə] *pl of* **referendum**
referendum [ˌrefəˈrendəm] *n* (*pl* **-da** [-də]) referendum (*umumxalq fikrini olish*)
refill [ˈri:fɪl] *n* 1) to'ldirish, to'lg'azish; 2) zapravka, to'ldirib (quyib) olish
refine [rɪˈfaɪn] *v* tozalamoq, aralashmalardan tozalamoq
refined [rɪˈfaɪnd] *a* 1) (*aralashmalardan*) tozalangan, oqlangan, oqlama; 2) nafis, nozik, kelishgan; **~ oil** tozalangan (oqlangan) yog'; **~ sugar** tozalangan kesma oq qand
refinement [rɪˈfaɪnmənt] *n* 1) (*aralashmalardan*) tozalash, oqlash, tozalanish, oqlanish; 2) nazokat; **the ~ of one's language** til nafisligini ta'minlash
refinery [rɪˈfaɪn(ə)rɪ] *n* 1) oq qand zavodi; 2) neft haydash zavodi
refit [ˈri:fɪt] *n* yamash, tuzatish, remont qilish, ta'mirlash
reflect [rɪˈflekt] *v* 1) (*nur, issiqlik, tovush kabilarni*) qaytarmoq, aks ettirmoq; 2) soyasini (tasvirini) ko'rsatmoq; 3) o'ylamoq, fikr yuritmoq
reflection [rɪˈflekʃ(ə)n] *n* 1) mulohaza; 2) aks; aks etgan (tushgan) shu'la
reflective [rɪˈflektɪv] *a* 1) aks ettiruvchi, soyasini (tasvirini) ko'rsatuvchi; 2) o'ychan (*ko'rinish haqida*)
reflector [rɪˈflektə] *n tex.* qaytargich, nurqaytargich
reflex [ˈri:fleks] *n* ko'rinish, qiyofa, shakl
reflexion [rɪˈflekʃ(ə)n] = **reflection**
reflexive [rɪˈfleksɪv] **1.** *a gram.* o'zlik; **2.** *n gram.* 1) o'zlik fe'li; 2) o'zlik olmoshi
reform [rɪˈfɔ:m] *n* isloh qilish, islohot
reformation [ˌrefəˈmeɪʃ(ə)n] *n* islohot, o'zgartirish, o'zgartirib yuborish
reformatory [rɪˈfɔ:mət(ə)rɪ] *a* axloq tuzatishga oid; axloq tuzatadigan
reformer [rɪˈfɔ:mə] *n* o'zgartiruvchi, qayta quruvchi, islohotchi
reformist [rɪˈfɔ:mɪst] *n* islohotchi
refract [rɪˈfrækt] *v fiz.* (*nurlarni*) sindirmoq, qaytarmoq, yo'nalishini o'zgartirmoq
refractory [rɪˈfrækt(ə)rɪ] **1.** *n tex.* o'tga chidamli material; **2.** *a* o'jar, qaysar
refrain [rɪˈfreɪn] **1.** *v* 1) o'zini tiymoq, betaraf qolmoq; 2) saqlamoq; **2.** *n* naqarot
refresh [rɪˈfreʃ] *v* 1) yangilamoq, shamollatmoq; 2) jonlantirmoq; 3) salqin qilmoq; 4) eslamoq, esga olmoq
refresher [rɪˈfreʃə] *n* 1) malaka oshirish kursi; 2) orom (rohat, huzur) baxsh etadigan narsa (*ichimlik*)
refreshment [rɪˈfreʃmənt] *n* 1) quvvatlash, mustahkamlash; 2) kuch to'plash; 3) dam olish, istirohat qilish; 4) yengil taom va ichimliklar; gazak
refrigerate [rɪˈfrɪdʒəreɪt] *v* 1) yaxna qilmoq; muzlatmoq; 2) sovuq joyda saqlamoq
refrigerator [rɪˈfrɪdʒəreɪtə] *n* sovitgich, muzlatgich
refuel [ˌri:ˈfju:əl] *v* yoqilg'i zaxirasini ko'paytirmoq; yoqilg'i quyib to'ldirmoq
refuge [ˈrefju:dʒ] **1.** *n* boshpana; **to take ~** boshpana topmoq; **2.** *v* 1) boshpana

bermoq; 2) boshpana topmoq, yashirinmoq

refugee [ˌrefjʊˈdʒi:] *n* 1) muhojir; 2) qochoq, qochqin

refund [rɪˈfʌnd] *v* 1) (*zararni*) qoplamoq; (*qarz va sh. k. ni*) to'lamoq, uzmoq; 2) (*to'lovni*) qaytarmoq, qaytarib bermoq

refusal [rɪˈfju:z(ə)l] *n* voz kechish, bahridan o'tish, bosh tortish; rad qilish

refuse I [rɪˈfju:z] *v* voz kechmoq, bahridan o'tmoq; rad qilmoq

refuse II [ˈrefju:s] **1.** *n* chiqindi; **2.** *a* tashlandiq

refutation [ˌrefjʊˈteɪʃ(ə)n] *n* rad qilish, noto'g'riligini isbot qilish

refute [rɪˈfju:t] *v* noto'g'riligini isbot qilmoq, rad etmoq

regain [rɪˈgeɪn] *v* qayta qo'lga kiritmoq; tiklamoq

regal [ˈri:g(ə)l] *a* 1) shohona; 2) qirolga (podshoga) oid, qarashli, qirol..., podsho...

regale [rɪˈgeɪl] *n* bazm, ziyofat

regard I [rɪˈgɑ:d] *n* 1) ta'zim; 2) hurmat; salom; e'tibor; **give my best ~s to your father** mendan otangizga otashin salom ayting; **with (in) ~ to** ... xususida, haqida

regard II [rɪˈgɑ:d] *v* ...deb qaramoq, hisoblamoq, bilmoq; **as ~s you** sizga kelganda

regarding [rɪˈgɑ:dɪŋ] *prep.* ...ga kelganda, ... haqida gap ketganda; haqida

regardless [rɪˈgɑ:dləs] *a* 1) pisand qilmaydigan; 2) e'tiborga olmaydigan; **~ of** qaramay, ...ni e'tiborga olmay

regatta [rɪˈgætə] *n* sport qayiqlari poygasi

regency [ˈri:dʒ(ə)nsɪ] *n* mamlakatni vaqtincha boshqarib turish, mamlakatga vaqtinchalik hokimlik qilish

regenerate 1. *a* [rɪˈdʒenərɪt] 1) qayta o'zgartirilgan; 2) yangilangan, yaxshilangan; **2.** *v* [rɪˈdʒenəreɪt] *v* boshqacha (o'zgacha) qilmoq, to'liq yangilamoq, yangidan qurmoq

regent [ˈri:dʒ(ə)nt] *n* muvaqqat podsho (hokim)

regime [reɪˈʒi:m] *n fr.* rejim, tartib, tuzum (*hukumat*), idora usuli

regiment [ˈredʒɪmənt] *n* 1) *harb.* polk; **infantry ~** piyodalar polki; 2) qo'shin, lashkar; 2) *pl* juda ko'p, anchagina

regimental [ˌredʒɪˈmentl] *a* polkka oid; polk...

region [ˈri:dʒ(ə)n] *n* 1) mamlakat, o'lka, viloyat, tuman; mintaqa; **~alist** o'lkashunos; 2) soha; 3) (*atmosfera va sh. k.*) qatlami; 4) *anat.* tana qismi, sohasi; 5) joy

regional [ˈri:dʒ(ə)nəl] *a* mahalliy, viloyatga qarashli, regional

register [ˈredʒɪstə] **1.** *n* jurnal (*yozish uchun*); **2.** *v* 1) ro'yxat qilmoq; ro'yxatga kiritmoq; 2) ko'rsatmoq, belgilamoq, qayd etmoq (*asbob haqida*)

registered [ˈredʒɪstəd] *a* ro'yxatga olingan, qayd qilingan, yozib qo'yilgan; **a ~ letter** buyurtma xat

registrar [ˌredʒɪˈstrɑ:] *n* 1) FHDYO (*fuqarolik holati dalolatnomalarini yozib olish bo'limi*) xodimi; 2) o'quv yurti kotibi; talabalar ro'yxatini o'zlashtirish hisobini yuritadigan universitet xodimi; 3) *yur.* sudya yordamchisi; 4) ro'yxatga olish byurosi

registration [ˌredʒɪˈstreɪʃ(ə)n] *n* 1) ro'yxatga olish, qayd qilish; 2) FHDYO (*fuqarolik holati dalolatnomalarini yozib olish bo'limi*); 3) (*asbobning*) qayd etishi, ko'rsatishi

registry [ˈredʒɪstrɪ] *n* 1) ro'yxat bo'limi; devonxona; 2) FHDYO bo'limi

regress 1. *n* [ˈri:grəs] 1) qaytish, orqaga qaytish; 2) teskari harakat; **2.** *v* [rɪˈgres] 1) orqaga qaytarmoq; 2) teskari harakat qilmoq

regression [rɪˈgreʃ(ə)n] *n* avvalgi holatiga qaytish

regret [rɪˈgret] **1.** *n* afsuslanish, achinish; afv, uzr, pushaymon bo'lish, o'kinish; **to feel ~** rahmi kelmoq; **2.** *v* afsuslanmoq, achinmoq

regrettable [rɪˈgretəb(ə)l] *a* o'ta achinarli, qayg'uli, hasratli

regrettably [rɪˈgretəblɪ] *a* achinib, qayg'urib, hasrat bilan

regular [ˈregjʊlə] **1.** *n pl* 1) muntazam (doimiy) qo'shinlar; 2) *so'zl.* doimiy mijoz; **2.** *a* 1) muntazam; 2) doimiy; 3) malakali, mahoratli; 4) hozirgi, shu paytdagi; 5) *gram.* to'g'ri; **~ verbs** to'g'ri fe'llar; 6) odatdagi

regularize [ˈregjʊləraɪz] *v* tartibga solmoq, yo'lga qo'ymoq, yaxshilamoq

regularly [ˈregjʊləlɪ] *adv* tez-tez, muntazam

regulate [ˈregjʊleɪt] *v* 1) tartibga solmoq, yo'lga qo'ymoq; 2) (*talabga, sharoitga*) moslashtirmoq

regulation [ˌregjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) tartibga solish, yo'lga qo'yish, tartib, qoida; ~s nizom; qo'llanma; 2) *attr.* belgilangan; **to exceed the ~ speed** belgilangan tezlikdan oshirmoq

rehabilitate [ˌri:(h)ə ˈbɪlɪteɪt] *v* 1) huquqni tiklamoq; 2) sog'liqni tiklamoq

rehabilitation [ˌri:(h)əbɪlɪ ˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) oqlash, huquqlarini tiklash; 2) sog'liqni tiklash

rehearsal [rɪˈhɜ:s(ə)l] *n* repetitsiya, tayyorgarlik, mashq qilish; **dress ~** so'nggi (oxirgi) tayyorgarlik

rehearse [rɪˈhɜ:s] *v* tayyorgarlik ko'rmoq; mashq qilmoq

rehouse [ˌri:ˈhaʊz] *v* yangi uylarga ko'chirmoq

reign [reɪn] **1.** *n* 1) podshoblik; 2) hokimiyat, hukmronlik; **2.** *v* hukmronlik qilmoq

reimburse [ˌri:ɪmˈbɜ:s] *v* pulni qaytarib bermoq

rein [reɪn] **1.** *v* jilovlamoq; **2.** *n* jilov; **to draw ~** otning jilovini tortmoq

reincarnation [ˌri:ɪnkɑ:ˈneɪʃ(ə)n] *n* boshqa shaklda ifodalanish, boshqacha shaklga kirish

reindeer [ˈreɪndɪə] *n zool.* shimol bug'usi

reinforce [ˌri:ɪnˈfɔ:s] *v* 1) kuchaytirmoq; mustahkamlamoq; 2) *qur.* (*betonni*) armaturalamoq

reinforced concrete [ˌri:ɪnfɔ:stˈkɒŋkri:t] *n* temir-beton

reinforcement [ˌri:ɪnˈfɔ:smənt] *n* 1) kuchaytirish, mustahkamlash; 2) *qur.* (*temir-betonning*) armaturasi

reins [reɪnz] *n* 1) jilov; 2) yugan; 3) tutib (jilovlab) turuvchi kuch

reinstate [ˌri:ɪnˈsteɪt] *v* 1) (*kimsaning huquqlarini*) tiklamoq; 2) (*o'z sog'lig'ini*) tiklamoq; 3) eski holiga qaytarmoq

reissue [ˌri:ˈɪʃu:] *n* qayta nashr qilingan kitob

reiterate [ri:ˈɪtəreɪt] *v* takrorlamoq, qaytarmoq; qaytadan bajarmoq

reject [rɪˈdʒekt] *v* rad etmoq, yuz o'girmoq

rejection [rɪˈdʒekʃ(ə)n] *n* 1) voz kechish, rad etish; 2) *pl* chiqindilar

rejoice [rɪˈdʒɔɪs] *n* 1) sevinmoq; xursand bo'lmoq; **to ~ at** nimadandir xursand bo'lmoq; 2) bayram qilmoq

rejoin [rɪˈdʒɔɪn] *v* 1) qaytmoq; 2) qayta qo'shilmoq, birlashmoq

rejoinder [rɪˈdʒɔɪndə] *n* qarshi harakat, qarshi javob

rejuvenate [rɪˈdʒu:vəneɪt] *v* yoshartirmoq, yosh qilib ko'rsatmoq

rejuvenation [rɪˌdʒu:vəˈneɪʃ(ə)n] *n* yoshartirish, yosh holiga qaytarish

re-laid [ˌri:ˈleɪd] *past., p. p. of* **re-lay**

relaid [ˈri:leɪd] *past., p. p. of* **relay I**

relapse [rɪˈlæps] *n* 1) takrorlanish, qaytarilish; 2) *tib.* kasalning qo'zishi

relate [rɪˈleɪt] *v* 1) hikoya qilib bermoq; 2) munosabat (aloqa) o'rnatmoq

related [rɪˈleɪtɪd] *a* bog'liq, aloqador; taalluqli

relation [rɪˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) qarindosh; tug'ishgan; **a near ~** yaqin qarindosh; 2) munosabat, rishta, aloqa

relations [rɪ´leɪʃənz] *n* munosabat, aloqa
relationship [rɪ´leɪʃ(ə)nʃɪp] *n* 1) o'zaro munosabat; munosabat; 2) qarindoshlik, yaqinlik
relative [´relətɪv] **1.** *a* nisbiy, qiyosiy, o'zaro; **2.** *n* qarindosh; **a remote ~** uzoq qarindosh
relax [rɪ´læks] *v* 1) (*muskullarni*) bo'shashtirmoq; 2) tanaffus qilmoq, dam olmoq
relaxation [ˌri:læk´seɪʃ(ə)n] *n* 1) bo'shashtirish, (*keskinlikni*) yumshatish; ko'ngil ochish; 2) tanaffus, dam
relaxed [rɪ´lækst] *a* xotirjam, tinch
relaxing [rɪ´læksɪŋ] *a* pasaytiradigan, kamaytiradigan; yumshoq (muloyim) qiladigan
re-lay [ˌri: ´leɪ] *v* **(re-laid)** boshqatdan (yangidan) yotqizmoq, qurmoq
relay I [´ri:leɪ] *v* **(relaid)** (*asosan, otlarni*) alishmoq, alishtirmoq
relay II [´ri:leɪ] *n sport.* estafetali musobaqa
relay-race [´ri:leɪreɪs] *n sport.* estafeta yugurish
release [rɪ´li:s] *v* 1) (*qamoqdan*) ozod qilmoq; xalos qilmoq; 2) (*og'riqni, dardni*) yumshatmoq, yengillashtirmoq; 3) *tex.* ajratmoq, uzib qo'ymoq; 4) (*ekranga*) chiqarmoq
released [rɪ´li:sd] *a* 1) (*qamoqdan*) ozod qilingan; 2) yengillashgan (*og'riq, dard*); 3) *tex.* ajratilgan
relegate [´relɪgeɪt] *v* 1) jo'natmoq, yo'llamoq, berib yubormoq; 2) (*qandaydir sinfga*) tegishli bo'lmoq
relent [rɪ´lent] *v* yumshamoq, muloyim (mayin) bo'lmoq
relentless [rɪ´lentləs] *a* ayamaydigan, shafqatsiz, berahm, qahri qattiq
relevant [´reləv(ə)nt] *a* 1) o'rinli, ahamiyatga ega bo'lgan, muhim o'rin tutgan; 2) ishga aloqador bo'lgan
reliable [rɪ´laɪəb(ə)l] *a* mustahkam, ishonchli; **~ information** ishonchli ma'lumot; **a ~ friend** ishonchli do'st
reliance [rɪ´laɪəns] *n* ishonch, ishonish
relic [´relɪk] *n* 1) iz, qoldiq; 2) sarqit; 3) *pl* chirimay saqlangan murda; 4) *pl* esdalik, yodgorlik
relief [rɪ´li:f] *n* 1) yengillashish (*og'riq, azob haqida*), taskin, tasalli; 2) ishsizlik nafaqasi; 3) yordam, ko'mak
relieve [rɪ´li:v] *v* 1) yengillashtirmoq; yengillatmoq, yengil qilmoq; 2) yordam bermoq, yordamga kelmoq
relieved [rɪ´li:vd] *a* xotirjam
religion [rɪ´lɪdʒ(ə)n] *n* 1) din; **to get ~** dinga berilmoq; 2) rohiblik; **to enter into ~** rohiblikka o'tmoq
religious [rɪ´lɪdʒəs] *a* 1) diniy; 2) dinga berilgan, xudojo'y, taqvodor
relinquish [rɪ´lɪŋkwɪ∫] *v* 1) tashlamoq, to'xtatmoq, bas qilmoq, tark etmoq; 2) bermoq, topshirmoq; 3) *yur.* (*huquqdan*) voz kechmoq
relish [´reli∫] *n* 1) lazzat, maza; 2) yoqimli ta'm, hid
relive [ˌri:´lɪv] *v* qaytadan hayotga qaytmoq, tirilmoq
relocate [ˌri:ləo´keɪt] *v* ko'chmoq, ko'chirmoq
reluctance [rɪ´lʌktəns] *n* xohlamaslik, istamaslik; **with ~** uncha xohlamasdan
reluctant [rɪ´lʌktənt] *a* 1) (*nimanidir*) istar-istamas bajaruvchi; 2) istar-istamas qilingan, majburiyat yuzasidan bajarilgan
rely [rɪ´laɪ] *v* suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq; **to ~ on** ...ga ishonmoq (suyanmoq)
remade [ˌri:´meɪd] *past., p. p. of* **remake**
remain [rɪ´meɪn] *v* qolmoq; **~der** qoldiq
remaining [rɪ´meɪnɪŋ] **1.** *a* qolgan; **2.** *n* qolish
remains [rɪ´meɪnz] *n pl* 1) qoldiq; 2) qolgan (ortgan) narsa
remake [ˌri:´meɪk] *v* **(remade)** qaytadan qilmoq, yangidan yasamoq
remark [rɪ´mɑ:k] **1.** *v* 1) ko'rib qolmoq, ko'rmoq, sezmoq; 2) fikr bildirmoq, o'z fikrini bermoq; **2.** *n* fikr, mulohaza; **to pass a ~** o'z fikrini aytmoq
remarkable [rɪ´mɑ:kəb(ə)l] *a* 1) ajoyib, ajablanarli, g'alati, ajib; juda yaxshi; 2) mashhur, atoqli, mislsiz, misli ko'rilmagan
remarkably [rɪ´mɑ:kəblɪ] *adv* juda yaxshi, ajoyib, benazir
remedy [´remɪdɪ] **1.** *v* 1) to'g'rilamoq, tuzatmoq; 2) davolamoq; **2.** *n* 1) doridarmon; 2) (*biror narsaga qarshi*) vosita, chora
remember [rɪ´membə] *v* yodda tutmoq, eslamoq, xotirlamoq
remembrance [rɪ´membrəns] *n* esdalik, yodgorlik, xotira
remind [rɪ´maɪnd] *v* esiga tushirmoq, eslatmoq, esga tushmoq; **to ~ about** ...haqida eslatmoq; yodiga tushirmoq; **to ~ of** ...ni eslatmoq; **to ~ of somebody** biror kishini eslatmoq; **to ~ of something** biror narsani eslatmoq
reminder [rɪ´maɪndə] *n* eslatish, esga solib qo'yish; ogohlantirish; eslatma; **gentle ~** shama, ishora
reminisce [ˌremɪ´nɪs] *v* o'tmishni xotirlamoq
reminiscence [ˌremɪ´nɪs(ə)ns] *n* esdalik, yodgorlik, xotira
reminiscent [ˌremɪ´nɪs(ə)nt] *a* eslatadigan, esga solib qo'yadigan
remiss [rɪ´mɪs] *a* beparvo, beg'am; ishyoqmas
remission [rɪ´mɪ∫(ə)n] *n* 1) kechirish, afv etish, gunohidan o'tish; 2) (*jarima, soliq va sh. k. dan*) ozod qilish
remit [rɪ´mɪt] *v* 1) kechirmoq, afv etmoq; 2) (*jarima, soliq va sh. k. dan*) ozod qilmoq
remittance [rɪ´mɪt(ə)ns] *n* 1) jo'natish, yuborish; 2) pulni jo'natish
remnant [´remnənt] *n* 1) sarqit, qoldiq, qolgan ovqat; 2) eskilik sarqiti (qoldig'i); 3) parcha, bo'lak, kesik, laxtak (*gazlama haqida*)
remonstrance [rɪ´mɒnstrəns] *n* 1) e'tiroz, qarshilik; 2) nasihat (o'git) qilish
remonstrate [rɪ´mənstreɪt] *v* norozilik bildirmoq, qarshilik qilmoq
remorse [rɪ´mɔ:s] *n* vijdon azobi
remorseful [rɪ´mɔ:sf(ə)l] *a* afsuslangan, pushaymon, afsus chekkan
remorseless [rɪ´mɔ:sləs] *a* rahmsiz, shafqatsiz, berahm
remorselessly [rɪ´mɔ:sləslɪ] *adv* ayamay, rahm-shafqat qilmay, shafqatsizlik bilan, beshafqat
remote [rɪ´məot] *a* 1) uzoq, olis, yiroq; **the ~ past** uzoq o'tmish; 2) unchalik katta (*yoki* ko'p) bo'lmagan, kam, oz; **a ~ controller** boshqarish pulti
remotely [rɪ´məotlɪ] *adv* sira, hech, asio, hech bir, zarracha ham
remoteness [rɪ´məotnəs] *adv* olislik, uzoqlik, yiroqlik
removal [rɪ´mu:v(ə)l] *n* 1) ko'chish, ko'chirish (*transport vositasida*); 2) olib tashlash, yig'ishtirish, yo'q qilish; 3) (*lavozimdan*) bo'shatish
remove [rɪ´mu:v] **1.** *n* 1) qadam, bosqich; uzoqlashish darajasi; **at many ~s** uzoq masofada; 2) o'quvchini keyingi sinfga o'tkazish; **his son has not got his ~** uning o'g'li ikkinchi yilga o'z sinfida qoldi **2.** *v* 1) chetlashtirmoq; olmoq, tortmoq; 2) siljitmoq, qo'zg'atmoq, o'rnini o'zgartirmoq; 3) yo'q (bartaraf) qilmoq, olib tashlamoq; 4) (*lavozimdan*) bo'shatmoq; 5) yechmoq (*kiyimni*)
removed [rɪ´mu:vd] *a* 1) uzoqlashgan, uzoqlashtirilgan; 2) uzoqdagi, olisdagi
remuneration [rɪˌmju:nə´reɪ∫(ə)n] *n* mukofot, haq
renaissance [rɪ´neɪs(ə)ns] *n* 1) **(the R)** uyg'onish davri; 2) jonlanish, tiklanish; avj olish (*san'at va b. haqida*)
rename [ri:´neɪm] *v* boshqa nom qo'ymoq, nomini o'zgartirmoq
rend [rend] *v* **(rent)** ko'chirmoq, shilmoq, ko'chirib (shilib) olmoq, ko'chirib (shilib) tashlamoq
render [´rendə] **1.** *n* 1) to'lash; 2) to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov; **2.** *v* 1) to'lamoq; 2) bermoq, ko'rsat-

moq; **to ~ assistance** yordam bermoq; 3) ifodalamoq, bayon etmoq

rendezvous [ˈrɒnd(e)ɪvu:] *n fr.* uchrashuv, ko'rishish, ko'rishuv

renegade [ˈrenɪgeɪd] *n* xoin, sotqin, xiyonatchi

renew [rɪˈnju:] *v* yangilamoq, tiklamoq, o'rnatmoq, qayta qurmoq, boshidan boshlamoq

renewable [rɪˈnju:əb(ə)l] *n* tiklanadigan resurslar, boylik resurslari

renewal [rɪˈnju:əl] *n* 1) qaytadan (yangitdan) tiklash; yangilash; yangilanish; 2) muddatini uzaytirish

renounce [rɪˈnaons] *v* 1) (*o'z huquqi, talabi, odati va b. dan*) voz kechmoq, bahridan o'tmoq; 2) (*do'stlaridan*) kechmoq, yuz o'girmoq

renovate [ˈrenəveɪt] *v* yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq, pardoz berib yangilamoq, ta'mirlamoq

renovation [ˌrenəˈveɪʃ(ə)n] *n* tuzatish, yamash, ta'mirlash

renown [rɪˈnaon] *n* shuhrat, dong, nom, mashhurlik

renowned [rɪˈnaond] *a* mashhur, atoqli, nomi chiqqan, dongdorlik

rent I [rent] **1.** *n* ijara puli; **2.** *v* 1) ijaraga olmoq; 2) ijaraga bermoq

rent II [rent] *past., p. p. of* **rend**

rental [ˈrentl] *n* ijara haqi

renunciation [rɪˌnʌnsɪˈeɪʃ(ə)n] *n* (*huquq va sh. k. dan*) rad etish, voz kechish

reorganization [ri:ˌɔ:gənaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* 1) qaytadan tuzish, qayta qurish, qayta(dan) tashkil etish; 2) o'zgartirish, qayta o'zgartirish, o'zgartirib yuborish

reorganize [ri:ˈɔ:gənaɪz] *v* qayta tashkil qilmoq

rep I [rep] *n* pishiq gazlama

rep II [rep] *n* buzuq (axloqsiz) kishi, xotinboz

repaid [rɪˈpeɪd] *past., p. p. of* **repay**

repair [rɪˈpeə] *v* tuzatmoq, sozlamoq; ta'mirlamoq; **to ~ a house** uyni ta'mirlamoq; **to be under ~** ta'mirlanmoq

reparation [ˌrepəˈreɪʃ(ə)n] *n* tovon, badal

repartee [ˌrepɑ:ˈti:] *n* gapga ustalik, piching, o'tkir gap

repast [rɪˈpɑ:st] *n* ovqat, ovqatlanish

repatriate [ri:ˈpætrɪɪt] **1.** *n* vatanga qaytgan (qaytayotgan) kishi; **2.** *v* o'z vataniga qaytarmoq

repatriation [ˌri:pæ:trɪˈeɪʃn] *n* vatanga qaytish

repay [rɪˈpeɪ] *v* (**repaid**) 1) qarzni to'lamoq (**to**); 2) (*tashrif*) buyurmoq; 3) mukofotlamoq, taqdirlamoq

repayable [rɪˈpeɪəb(ə)l] *a* qaytarib to'lanadigan

repayment [rɪˈpeɪmənt] *n* pulni qaytarish, to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov

repeal [rɪˈpi:l] *v* bekor qilmoq, kuchdan qoldirmoq (*qonun va b. haqida*)

repeat [rɪˈpi:t] *v* 1) takrorlamoq, qaytarmoq; 2) yoddan takrorlamoq; 3) takrorlanmoq, yana uchramoq

repeated [rɪˈpi:tɪd] *a* tez-tez bo'ladigan, takroriy, takror

repeatedly [rɪ ˈpi:tɪdlɪ] *adv* bir necha marta, qayta, takror-takror, takrorlab

repeater [rɪ ˈpi:tə] *n* 1) takrorlaydigan kishi; 2) takror jinoyat qiluvchi kishi

repel [rɪˈpel] *v* 1) itarib yubormoq, turtib yubormoq, surib qo'ymoq; 2) rad qilmoq, qaytarmoq

repellent [rɪ ˈpelənt] *a* 1) nafrat uyg'otadigan; 2) kishini achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan

repent [rɪ ˈpent] *v* achinmoq; pushaymon bo'lmoq; o'kinmoq; **~ance** achinish, o'kinish; **~ant** achinarli, o'kinchli

repercussion [ˌri:pə:ˈkʌʃ(ə)n] *n* 1) aks sado, uzoqdan eshitilgan (yetib kelgan) ovoz; 2) aks, oqibat; ta'sir; natija

repertoire [ˈrepətwɑ:] *n fr.* repertuar (*biror bədiiy jamoa yoki alohida aktyor tomonidan ijro etiladigan pyesalar, musiqa asarlari va boshqa asarlar majmuyi*)

repertory [ˈrepət(ə)rɪ] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy

repetition [ˌrepɪ ˈtɪʃ(ə)n] *n* takrorlash, qaytarish

repetitious [ˌrepɪˈtɪʃəs] = **repetitive**

repetitive [rɪˈpetɪtɪv] *a* 1) tinimsiz takrorlanib turadigan; 2) zerikarli, kishini zeriktiradigan

replace [rɪ ˈpleɪs] *v* 1) o'z joyiga qo'ymoq; 2) qaytarmoq; 3) o'rnini bosmoq; **to ~ the borrowed money** olgan pulni qaytarib bermoq

replaceable [rɪ ˈpleɪsəb(ə)l] *a* almashtirib (alishtirib) bo'ladigan, almashinuvchi

replacement [rɪˈpleɪsmənt] *n* 1) o'rnini olish (bosish); 2) vaqtincha o'rniga ishlash

replay [ˌri:ˈpleɪ] *v* qaytadan (boshqatdan) o'ynamoq, yangidan o'ynamoq (*chalmoq*)

replenish [rɪˈplenɪʃ] *v* qaytadan (boshqatdan) to'ldirmoq

replete [rɪˈpli:t] *a* 1) to'ydirilgan, to'ydirib yuborilgan; 2) to'la (liq), serob; 3) (*biror narsaga*) boy, mo'l

repletion [rɪˈpli:ʃ(ə)n] *n* 1) to'yib ketish, juda to'ydirish; 2) liq to'lalik, to'libtoshganlik; 3) qondirish

replica [ˈreplɪkə] *n* ko'chirma, nusxa, qolip, andaza

reply [rɪˈplaɪ] **1.** *v* javob bermoq, javob qaytarmoq, javob qilmoq; **to ~ to** ...ga javob bermoq; **2.** *n* javob; **in ~ to** ...ga javoban

report [rɪˈpɔ:t] **1.** *v* xabar bermoq, hisobot bermoq; **2.** *n* 1) xabar, hisobot; **~er** muxbir; 2) ma'ruza

reporting [rɪˈpɔ:tɪŋ] *n* reportaj

repose [rɪˈpəoz] *n* 1) dam olish, istirohat qilish, orom olish, hordiq chiqarish; 2) nafasni rostlash

repository [rɪˈpɒzɪt(ə)rɪ] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy, omborxona

reprehend [ˌreprɪˈhend] *v* 1) tanbeh bermoq, tergab koyimoq; 2) muhokama qilmoq, hukm chiqarmoq

represent [ˌreprɪˈzent] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq; **to ~ a country** mamlakat vakili bo'lmoq

representation [ˌreprɪzen ˈteɪʃ(ə)n] *n* vakillik, vakolatxona

representative [ˌreprɪˈzentətɪv] *n* vakil, delegat, vakil qilib jo'natilgan kishi; **an accredited ~** muxtor vakil

repress [rɪ ˈpres] *v* 1) (*qo'zg'olon va b. ni*) kuch bilan bosmoq; 2) jazolamoq

repressed [rɪˈprest] *a* kuch bilan bosilgan, ezilgan

repression [rɪˈpreʃ(ə)n] *n* jazo, jazo chorasi

repressive [rɪˈpresɪv] *a* jazo tariqasida (jazolash uchun) qo'llaniladigan

reprieve [rɪˈpri:v] *n* (*o'lim jazosi*) hukm ijrosini keyinga qoldirish

reprimand [ˈreprɪmɑ:nd] *v* tanbeh bermoq, hayfsan e'lon qilmoq, urishmoq

reprint [ˌri:ˈprɪnt] *v* qayta nashr qilmoq

reprisal [rɪˈpraɪz(ə)l] *n* jazo, jazo tadbirlari

reproach [rɪˈprəoʧ] *n* ta'na, malomat, gina qilish, yuziga solish

reproachful [rɪ ˈprəoʧf(ə)l] *a* ta'nali, ginali, ta'nani ifodalaydigan

reproachfully [rɪˈprəoʧf(ə)lɪ] *adv* ta'na bilan, gina qilib, o'pkalab

reprobate [ˈreprəbeɪt] *n* 1) buzuq odam, suyuqoyoq; 2) razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah, nobakor

reproduce [ˌri:prəˈdju:s] *v* 1) qayta (takror) ishlab chiqarmoq; 2) aks ettirmoq, tasvirlamoq; 3) nusxa olmoq; 4) tiklamoq, asliga keltirmoq; 5) ishlab chiqarmoq

reproduction [ˌri:prəˈdʌkʃ(ə)n] *n* 1) qayta ishlab chiqarish; 2) ko'paytirish, ko'payish, nusxa olib ko'paytirish

reproductive [ˌri:prəˈdʌktɪv] *a* qayta ishlab chiqaruvchi (chiqaradigan)

reproof [rɪˈpru:f] *n* 1) ogohlantirish, tanbeh; 2) ta'na, malomat

reprove [rɪˈpru:v] *v* tanbeh bermoq, tergab koyimoq

reptile [ˈreptaɪl] *n zool.* sudralib *yoki* o'rmalab yuradigan hayvon

republic [rɪˈpʌblɪk] *n* respublika; jumhuriyat; **to proclaim a ~** respublika deb e'lon qilmoq

republican [rɪˈpʌblɪkən] *a* respublikaga oid, jumhuriyatga oid, respublika..., jumhuriyat...

repudiate [rɪˈpju:dɪeɪt] *v* 1) rad qilmoq, inkor qilmoq, tonmoq; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq

repugnance [rɪˈpʌgnəns] *n* 1) yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; nafrat, jirkanish; 2) zidlik, to'g'ri kelmaslik

repugnant [rɪˈpʌgnənt] *a* 1) bir-biriga to'g'ri kelmaydigan; 2) yomon, chidab bo'lmaydigan, nafratni qo'zg'aydigan

repulse [rɪˈpʌls] *n* qarshi zarba, qarshilik; qarshi zarba berish, qaytarish, daf qilish

repulsion [rɪˈpʌlʃ(ə)n] *n* 1) yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; 2) (*dushmanga*) qarshi zarba berish

repulsive [rɪˈpʌlsɪv] *a* jirkanch, qabih, razil, manfur, juda yomon, yoqimsiz, sovuq

reputable [ˈrepjʊtəb(ə)l] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram

reputation [ˌrepjʊˈteɪʃ(ə)n] *n* obro', shuhrat, e'tibor, dong, yaxshi nom; **to blacken smb.'s ~** birovning obro'sini to'kmoq

repute [rɪˈpju:t] *n* obro', e'tibor, shuhrat, dong, yaxshi nom

reputed [rɪˈpju:tɪd] *a* 1) yaxshi obro'ga ega bo'lgan; 2) mashhur, nom chiqargan

reputedly [rɪˈpju:tɪdlɪ] *adv* umumiy mulohazalarga ko'ra

request [rɪˈkwest] **1.** *n* iltimos, talab; **at the ~ of** ...ning iltimosiga ko'ra; **2.** *v* iltimos qilmoq; **to grant smb.'s ~** birovning iltimosini qondirmoq

require [rɪˈkwaɪə] *v* 1) talab qilmoq; buyurmoq; 2) (*ninagadir*) muhtoj bo'lmoq

requirement [rɪˈkwaɪəmənt] *n* 1) talab, zaruriy sharoit, zarurat, talabnoma; 2) ehtiyoj

requisite [ˈrekwɪzɪt] *a* kerakli, zarur; **the number of votes ~ for election** saylash uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori

requisition [ˌrekwɪˈzɪʃ(ə)n] *n* 1) rasmiy talab; 2) ehtiyoj, talab; 3) talabnoma

rescind [rɪˈsɪnd] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq

rescue [ˈreskju:] **1.** *n* qutqarish; ozod qilish; **to come to the ~** yordamga kelmoq; **2.** *v* qutqarmoq, ozod (xalos) qilmoq

rescuer [ˈreskjʊə] *n* qutqaruvchi, xalos qiluvchi, xaloskor, najotkor

research [rɪˈsɜ:tʃ] **1.** *n* tadqiqot, o'rganish, ilmiy tekshirish; **2.** *v* ilmiy ish olib bormoq; **to be engaged in ~** ilmiy ish bilan band bo'lmoq

researcher [rɪˈsɜ:tʃə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi

reseat [ˌri:ˈsi:t] *v* 1) yana (qayta) o'tirg'izmoq; 2) yangi kreslolarni qo'ymoq (*teatr va b. da*)

resemblance [rɪˈzemblәns] *n* o'xshashlik, bir xillik, bir xil bo'lish; **to bear ~** o'xshamoq; **to have a strong ~ to smb.** kimgadir juda o'xshamoq

resemble [rɪˈzemb(ə)l] *v* o'xshamoq, o'xshash bo'lmoq

resent [rɪˈzent] *v* qattiq g'azablanmoq, achchiqlanmoq; g'azabi kelmoq

resentful [rɪˈzentf(ə)l] *a* xafa bo'lgan, ranjigan, ko'ngli og'rigan, dilsiyoh, xafa

resentment [rɪˈzentmənt] *n* g'azab, nafrat, qahr

reservation [ˌrezəˈveɪʃ(ə)n] *n* saqlash, olib qo'yish, atab qoldirish, zaxira qilib qo'yish; oldindan joy band qilib qo'yish (*mehmonxonada*)

reserve [rɪˈzɜ:v] **1.** *n* g'amlab qo'yilgan narsa, zaxira, ehtiyot; **2.** *v* 1) g'amlamoq, g'amlab qo'ymoq; 2) (*mehmonxona, restoran va sh. k. dan*) joy band qilib qo'ymoq

reserved [rɪˈzɜ:vd] *a* 1) kamgap, pismiq; 2) oldindan buyurtirilgan; **a ~ seat** a) oldindan buyurtirilgan joy; b) teatrga oldindan olingan chipta

reservoir [ˈrezəvwɑ:] *n* suv ombori, hovuz

reshaped [ˌri:ˈʃeɪpt] *a* o'zgargan, o'zgartirilgan, boshqa shaklga o'tkazilgan

reshuffle [ri:ˈʃʌf(ə)l] *n* o'rnini almashtirib qo'yish, boshqa joyga ko'chirib qo'yish, joylarini almashtirib o'rnatish

reside [rɪˈzaɪd] *v* istiqomat qilmoq, yashamoq, umr kechirmoq

residence [ˈrezɪd(ə)ns] *n* istiqomat qiladigan, yashaydigan joy; turar joy, qarorgoh

resident [ˈrezɪd(ə)nt] *n* doimiy yashovchi (turuvchi) kishi

residential [ˌrezɪˈdenʃ(ə)l] *a* 1) yashash uchun mo'ljallangan; 2) yashash joyi bilan bog'liq bo'lgan

residue [ˈrezɪdju:] *n* qoldiq, qolgani, ortgani; qolgan narsa

resign [rɪˈzaɪn] *v* iste'foga chiqmoq, ishdan bo'shamoq

resignation [ˌrezɪgˈneɪʃ(ə)n] *n* iste'foga chiqish

resigned [rɪˈzaɪnd] *a* gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, ko'ngilchan, yumshoq

resilience [rɪˈzɪlɪəns] *n* egiluvchanlik, taranglik, elastiklik, qayishqoqlik

resilient [rɪˈzɪlɪənt] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq, tarang; 2) xushchaqchaq, quvnoq

resin [ˈrezɪn] **1.** *n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*)

resist [rɪˈzɪst] *v* qarshilik ko'rsatmoq, qarshilik qilmoq

resistance [rɪˈzɪstəns] *n* qarshilik, qarshi chiqish, qarshilik ko'rsatish; **to overcome the ~ (of)** qarshilikni yengmoq; **to offer ~** qarshilik qilmoq

resistant [rɪˈzɪstənt] *a* chidamli, pishiq, puxta; mahkam, mustahkam

resolute [ˈrezəlu:t] *a* barqaror, matonatli, mustahkam, salobatli, qat'iy, dadil

resolutely [ˈrezəlu:tlɪ] *adv* qat'iyat bilan, jasurlik bilan, jasurona

resolution [ˌrezəˈlu:ʃ(ə)n] *n* qaror; **to adopt ~** qaror chiqarmoq; **joint ~** qo'shma qaror; **draft ~** qaror loyihasi

resolve [rɪˈzɒlv] **1.** *n* niyat, maqsad, o'y; qasd, ahd; **2.** *v* qaror qabul qilmoq; qarorga kelmoq

resonant [ˈrezənənt] *a* jarangdor, jarangli, yaxshi eshitiladigan

resort [rɪˈzɔ:t] *v* 1) himoya, yordam, madad; 2) taskin, tasalli; 3) kurort; 4) yordam so'rab murojaat qilish

resound [rɪˈzaʊnd] *v* ovoz (tovush) chiqarmoq, sadolanmoq

resounding [rɪˈzaʊndɪŋ] *n* tovushning qaytishi, tovushni qaytarish

resource [rɪˈsɔ:s] *n* 1) boylik, zaxiralar; **natural ~s** tabiiy boyliklar; 2) manba, vosita

resourceful [rɪˈsɔ:sf(ə)l] *a* tadbirli, tadbirkor, topqir

respect [rɪˈspekt] **1.** *n* 1) hurmat, e'tibor; **~ for** ...ga hurmat; **with (in) ~ to** ... xususida, haqida; 2) munosabat; **2.** *v* hurmat qilmoq

respectable [rɪˈspektəb(ə)l] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram, hurmatga sazovor bo'lgan, hurmatga loyiq; ulug', tartibli

respectful [rɪˈspektf(ə)l] *a* odobli, hurmat (izzat) qiladigan; hurmat bilan; ehtirom bilan

respecting [rɪˈspektɪŋ] *prep.* to'g'risida, haqida, xususida

respective [rɪˈspektɪv] *a* mos, muvofiq, tegishli, kerakli, loyiq

respectively [rɪˈspektɪvlɪ] *adv* 1) mos ravishda, tegishlicha, tegishli ravishda; yarasha; 2) ko'rsatilgan tartibda

respiration [ˌrespɪˈreɪʃ(ə)n] *n* nafas olish, nafas

respirator [ˈrespɪreɪtə] *n* respirator (*nafas olish, ko'rish va eshitish a'zolarini zaharli gaz va changdan saqlaydigan asbob*)

respite ['respaɪt] *n* 1) dam olish, nafasni rostlash; 2) keyinga qoldirish, kechiktirish, keyinga surish

resplendent [rɪ'splendənt] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan

respond [rɪ'spond] *v* javob bermoq; **to ~ with a blow** qarshi zarba bermoq

response [rɪ'spɒns] *n* 1) javob, **in ~ to** ...ga javoban; 2) sado

responsibility [rɪ,spɒnsə'bɪlɪtɪ] *n* javobgarlik, burch, mas'uliyat; **to take the ~** javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq

responsible [rɪ 'spɒnsəb(ə)l] *a* javobgar, mas'ul; **to be ~ for smth.** nimagadir mas'ul bo'lmoq; **~ for** ...ga mas'ul

responsibly [rɪ'spɒnsəblɪ] *adv* mas'uliyatni (javobgarlikni) o'z bo'yniga olib

responsive [rɪ'spɒnsɪv] *a* javob tariqasidagi (ma'nosidagi), javoban qilingan

rest I [rest] **1.** *n* dam, dam olish; **2.** *v* dam olmoq

rest II [rest] *n* 1) qoldiq; 2) qolganlar, boshqalar; **keep the ~ for yourself** qolganini o'zingizga oling

restaurant ['rest(ə)roŋ, -ront] *n* restoran

restful ['restf(ə)l] *a* tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, orom beradigan

restitution [,restɪ'tju:ʃ(ə)n] *n* 1) qaytarish, qaytarib berish; 2) tiklash

restive ['restɪv] *a* 1) o'jar, qaysar, tutgan joyini kesadigan; 2) asov (ters) ot

restless ['restləs] *a* 1) notinch; beorom, tinib-tinchimaydigan; 2) tinch (tek) tura olmaydigan; 3) tashvishli

restoration [,restə'reɪʃ(ə)n] *n* qayta qurish, tiklash, tuzatish, ta'mirlash

restorative [rɪ'stɔ:rətɪv] **1.** *a* quvvatni oshiradigan, tetiklantiradigan; **2.** *n* quvvat (darmon) beradigan vosita

restore [rɪ'stɔ:] *v* qayta qurmoq; tiklamoq, tuzatmoq, ta'mirlamoq; **to ~ one's health** sog'liqni tiklamoq

restrain [rɪ'streɪn] *v* 1) cheklamoq, chek qo'ymoq, chegaralamoq; 2) ozodlikdan mahrum qilmoq, qamoqqa olmoq

restrained [rɪ 'streɪnd] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) cheklangan

restraint [rɪ 'streɪnt] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, o'zini yo'qotmaslik, dadillik

restrict [rɪ 'strɪkt] *v* cheklamoq

restricted [rɪ'strɪktɪd] *a* cheklangan, chegaralangan, tor

restriction [rɪ'strɪkʃ(ə)n] *n* cheklash, chek qo'yish; **without ~** cheksiz

restrictive [rɪ'strɪktɪv] *a* cheklaydigan, chek qo'yadigan, cheklovchi, chegaralovchi

result [rɪ 'zʌlt] **1.** *n* natija, oqibat, samara; **without ~** natijasiz; **as a ~ of** natijada; **2.** *v* 1) kelib chiqmoq (*from*); 2) biror natija bilan tugamoq (**in**); **to ~ in** natijaga ega bo'lmoq

resume [rɪ'zju:m] *v* yangidan boshlamoq, qaytadan boshlamoq; yana davom ettirmoq; **well, to ~** demak, davom etamiz

résumé ['re(ɪ)zjomeɪ] *n fr.* 1) qisqacha avtobiografiya; 2) ma'lumot; qisqacha xulosa; konspekt

resumption [rɪ 'zʌmpʃ(ə)n] *n* yangidan, qaytadan boshlash, davom ettirish

resurgent [rɪ'sɜ:dʒ(ə)nt] *a* 1) (avvalgi) holiga qaytayotgan; 2) tiklanayotgan

resurrect [,rezə'rekt] *v so'zl.* 1) tirilmoq, hayotga qaytmoq; 2) tiriltirmoq

resurrection [,rezə'rekʃ(ə)n] *n* qaytadan vujudga kelish, tug'ilish, jonlanish, tirilish

resuscitate [rɪ'sʌsɪteɪt] *v* tiriltirmoq, hayotga qaytarmoq; tirilmoq, hayotga qaytmoq; o'ziga (hushiga) kelmoq

retail ['ri:teɪl] *n* 1) chakana savdo; **at ~** donalab; **by ~** chakanalab, donalab; 2) *attr.* chakana savdoga oid; **~ price** chakana narx

retailer ['ri:teɪlə] *n* 1) do'kondor, attor; chakana savdogar; 2) g'iybatchi odam, gap tashuvchi

retain [rɪ'teɪn] *v* 1) ushlab (saqlab) qolmoq, tutib qolmoq; 2) saqlamoq, asramoq; 3) esda tutmoq, yodda saqlamoq, eslamoq

retaliate [rɪ 'tælɪeɪt] *v* o'ch olmoq, qasos olmoq, alamini olmoq

retaliation [rɪ,tælɪ'eɪʃ(ə)n] *n* 1) ajr, evaz, mukofot; 2) o'ch, qasos

retard [rɪ'tɑ:d] *v* to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) qolmoq

retarded [rɪ 'tɑ:dɪd] *a* sekinlashgan, sekinlagan, sekinlatgan

retch [retʃ] **1.** *n* qusish, qayt qilish; qusuq; **2.** *v* kekirmoq

retention [rɪ'tenʃ(ə)n] *n* 1) tutib qolish; 2) saqlab qolish, saqlash; 3) eslab qolish qobiliyati; xotira

retentive [rɪ 'tentɪv] *a* 1) saqlab qola oladigan, saqlaydigan; 2) yaxshi (*xotira haqida*)

rethink [,ri:'θɪŋk] *v* (**rethought**) qaytadan ko'rib chiqmoq; yana bir qarab chiqmoq

rethought [,ri:'θɔ:t] *past., p. p. of* **rethink**

reticence ['retɪs(ə)ns] *n* 1) o'zini tuta bilish, vazminlik, osoyishtalik; 2) sirini (ichidagini) hech kimga aytmaslik; yashirinlik, maxfiylik

reticent ['retɪs(ə)nt] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) yashirin, maxfiy

retinue ['retɪnju:] *n* tantanali yurish, namoyish

retire [rɪ'taɪə] *v* 1) uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, uzoqqa ketmoq; 2) uxlagani yotmoq; 3) iste'foga chiqmoq; **~d** iste'foga chiqqan

retirement [rɪ 'taɪəmənt] *n* iste'foga chiqish

retiring [rɪ 'taɪ(ə)rɪŋ] *a* kamtar, oddiy, sipo; uyatchan

retort I [rɪ'tɔ:t] *n* retorta (*laboratoriyalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qaytarilgan idish*)

retort II [rɪ'tɔ:t] **1.** *n* e'tiroz, qarshilik; qo'rs javob; **2.** *v* 1) qo'rs javob bermoq; 2) rad etmoq

retouch ['ri:tʌtʃ] *n* retush, retushlash (*retush – bo'yoq, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini to'g'rilash, tuzatish*)

retrace [rɪ'treɪs] *v* iziga (ketiga) tushmoq, orqasidan poylab bormoq, ta'qib qilmoq

retract [rɪ'trækt] *v* 1) tortib (sudrab) kiritmoq (*yoki chiqarmoq*); 2) (*so'z va sh. k.ni*) qaytarib olmoq; (*va'da va sh. k. ni*) rad etmoq

retreat [rɪ'tri:t] **1.** *n* chekinish; **2.** *v* chekinmoq, orqaga qaytmoq

retrench [rɪ'trentʃ] *v* qisqartirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq

retrenchment [rɪ'trentʃmənt] *n* tejash, (*chiqim va h. nl*) kamaytirish

retribution [,retrɪ 'bju:ʃ(ə)n] *n* qasos, o'ch, jazo

retrieve [rɪ'tri:v] *v* 1) qayta topib olmoq; 2) o'ziga qaytarib olmoq; 3) oldingi holatiga qaytarmoq

retrospection [,retrə'spekʃ(ə)n] *n* o'tmishga murojaat, o'tmishga nazar tashlash

retrospective [,retrə'spektɪv] *a* o'tmishga qaratilgan, o'tmishga nazar solib qilingan

retrospectively [,retrə'spektɪvlɪ] *adv* o'tmishga nazar solib, o'tmishni hisobga olgan holda

return [rɪ'tɜ:n] **1.** *n* 1) qaytarish, qaytarib berish, qaytib kelish; **in ~** javoban; o'rniga; **in ~ for** ...ning o'rniga; 2) *pl* saylov natijalari; 3) xabar, axborot, ma'lumot; **2.** *v* qaytib kelmoq, qaytarib bermoq

returnable [rɪ'tɜ:nəbl] *a* 1) qaytarib berilishi kerak bo'lgan; 2) qaytarib olinadigan (*tara haqida*)

reunion [ri:'ju:nɪən] *n* qaytadan birlashtirish, qaytadan qo'shilish (birlashish)

reunite [ˌri:ju:ˈnaɪt] *v* qaytadan qo'shmoq, qaytadan birlashtirmoq

rev [rev] *so'zl.* **1.** *n* („**revolution II**" *ning qisqartmasi*) aylanish (*dvigatel, motor haqida*); **2.** *v* („**revolve**" *ning qisqartmasi*) aylanmoq

revanche [rɪˈvɑ:nʃ] *n fr.* qasos olish, o'ch olish, intiqom

revanchist [rɪˈvɑ:nʃɪst] *n* qasoschi, qasos oluvchi kishi

reveal [rɪˈvi:l] *v* ko'rsatmoq, ochmoq, fosh etmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; **to ~ a plot** fitnani fosh etmoq

revealing [rɪˈvi:lɪŋ] *a* fosh qiladigan, aybini (kamchiliklarini) ochadigan

reveille [rɪˈvælɪ] *n harb.* uyg'otish, uyg'otish signali, ertalabki jismoniy mashqlar

revel [ˈrev(ə)l] **1.** *n* quvnoqlik, xushchaqchaqlik, xursandlik; 2) *pl* kichik ziyofat

revelation [ˌrevəˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) (*sir va sh. k. ni*) ochish, fosh etish; 2) *din.* vahiy

revenge [rɪˈvendʒ] **1.** *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd; **2.** *v* qasos olmoq, o'ch olmoq; **to ~ oneself (up) on smb.** birovdan o'ch olmoq

revenger [rɪˈvendʒə] *n* qasos (o'ch) oluvchi; qasoskor

revenue [ˈrevɪnju:] *n* 1) daromad; 2) daromad manbayi; 3) soliq va yig'imlar departamenti; moliya boshqarmasi

reverberate [rɪˈvɜ:b(ə)reɪt] *v* aks etmoq, qaytarmoq

reverberation [rɪˌvɜ:bəˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) aks, tasvir; 2) aksini (soyasini, tasvirini) ko'rsatmoq

revere [rɪˈvɪə] *v* chuqur izzat-hurmat qilmoq, qadrlamoq, ehtirom qilmoq, ixlos qo'ymoq

reverence [ˈrev(ə)rəns] *n* chuqur hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom

reverend [ˈrev(ə)rənd] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram

reverent [ˈrev(ə)rənt] *a* hurmat (izzat) qiladigan; odobli

reverie [ˈrevərɪ] *n* 1) xayol surish, orzu-xayollarga berilish, xayol surish; 2) orzu, xayol

reversal [rɪˈvɜ:s(ə)l] *n* 1) (*siyosiy*) vaziyatning o'zgarishi; 2) bekor qilish; **the ~ of judgement** sud qarorini (hukmini) bekor qilish

reverse [rɪˈvɜ:s] *n* 1) (*tanga pul va b. ning*) teskari (orqa) tomoni; 2) teskarilik, egrilik; 3) muvaffaqiyatsizlik; **to meet with a ~** muvaffaqiyatsizlikka uchramoq

reversible [rɪˈvɜ:səb(ə)l] *a* 1) asl holiga qayta oladigan, qaytariladigan; 2) ikki tomonlama (*mato haqida*)

reversion [rɪˈvɜ:ʃ(ə)n] *n* 1) (*oldingi holatga*) qaytish; 2) *biol.* atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'indan keyingi avlodda takrorlanishi*)

revert [rɪˈvɜ:t] *v* 1) oldingi holatga qaytmoq; 2) *yur.* oldingi egasiga o'tmoq

revet [rɪˈvet] *v* ustini, sirtini qoplamoq

review [rɪˈvju:] **1.** *n* 1) ko'zdan kechirish, qayta ko'rib chiqish; 2) taqriz, sharh; **to pass in ~** ko'zdan kechirmoq; **2.** *v* ko'zdan kechirmoq, qayta ko'rib chiqmoq

reviewer [rɪˈvju:ə] *n* sharhlovchi; kuzatib boruvchi; taqrizchi

revise [rɪˈvaɪz] *v* 1) qayta ko'rib chiqmoq, tekshirmoq; 2) tuzatmoq, to'g'rilamoq; 3) qarab (ko'rib) chiqmoq

revised [rɪˈvaɪzd] *a* tahrir qilingan, tuzatilgan, to'g'rilangan

revision [rɪˈvɪʒ(ə)n] *n* qaytadan ko'rish, qaytadan qarab chiqish, takrorlash

revisionism [rɪˈvɪʒənɪzm] *n siyos.* revizionizm (*biror-bir ta'limot, nazariya, nuqtayi nazar prinsiplarini va qoidalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiluvchi ta'limot*)

revisionist [rɪˈvɪʒənɪst] *n* revizionist (*revizionizm tarafdori*)

revival [rɪˈvaɪv(ə)l] *n* uyg'onish, jonlanish, qayta tiklanish, yuksalish

revive [rɪˈvaɪv] *v* 1) tiklanmoq, jonlanmoq, ruhlanmoq; 2) qaytadan (yangidan, boshidan) boshlamoq; **to ~ a play** tomoshani boshidan boshlamoq

revoke [rɪˈvəʊk] *v* (*qonun, buyruq va b. ni*) bekor qilmoq

revolt [rɪˈvəʊlt] **1.** *n* qo'zg'olon, isyon; **2.** *v* isyon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, qo'zg'olon qilmoq

revolting [rɪˈvəʊltɪŋ] *a* 1) 1) (*biror narsaga qarshi*) bosh ko'taruvchi; 2) jirkantiradigan, juda xunuk, yoqimsiz

revolution I [ˌrevəˈlu:ʃ(ə)n] *n* 1) inqilob; 2) ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi keskin o'zgarish; to'ntarish, to'ntarilish

revolution II [ˌrevəˈlu:ʃ(ə)n] *n* 1) aylanish; 2) *tex.* aylanish, oborot

revolutionary [ˌrevəˈlu:ʃənərɪ] **1.** *a* inqilobiy; **2.** *n* inqilobchi

revolutionize [ˌrevəˈlu:ʃənaɪz] *v* revolutsion g'oyalarni tarqatmoq (yoymoq), inqilobiylashtirmoq

revolve [rɪˈvɒlv] *v* aylanmoq, aylantirmoq, buramoq, buralmoq

revolver [rɪˈvɒlvə] *n* 1) to'pponcha; 2) *tex.* baraban (*mashina va mexanizmlarning silindr shaklidagi qismi*)

revolving [rɪˈvɒlvɪŋ] *a* aylanadigan, buriladigan, aylanma

revue [rɪˈvju:] *n* 1) revyu (teatrda bir *mavzudagi ayrim nomer, epizod va ko'rinishlardan iborat tomosha*); 2) kundalik umumiy mavzudagi bir necha xil nomerdan tuzilgan estrada-teatr tomoshasi

revulsion [rɪˈvʌlʃ(ə)n] *n* 1) kutilmaganda yuz bergan o'zgarish; 2) nafrat, jirkanish; 3) *tib.* (*qonning*) kamayishi

revulsive [rɪˈvʌlsɪv] *a tib.* diqqatni chetga tortadigan, chalg'itadigan

reward [rɪˈwɔ:d] **1.** *n* mukofot; **2.** *v* mukofotlamoq, taqdirlamoq

rewind [ˌri:ˈwaɪnd] *v* qaytadan (yangidan) o'ramoq; boshqatdan o'ramoq

rewrite [ˌri:ˈraɪt] *v* (**rewrote; rewritten**) qaytadan yozib chiqmoq, ko'chirmoq

rewritten [ˌri:ˈrɪtn] *p. p. of* **rewrite**

rewrote [ˌri:ˈrəʊt] *past. of* **rewrite**

rhapsodic(al) [ræpˈsɒdɪk(əl)] *a* 1) g'oyat zavqli, quvonchli; 2) shod-xurram

rhapsody [ˈræpsədɪ] *n mus.* rapsodiya (*xalq qo'shiqlari, dostonlari mavzusidagi musiqa asari*)

rheostat [ˈrɪəstæt] *n el.* reostat (*tok kuchini va uning kuchlanishini rostlab, tartibga solib turadigan apparat*)

rhesus [ˈri:səs] *n zool.* rezus (*makakalar urug'iga mansub maymun*)

rhetor [ˈri:tə] *n* nutqi yaxshi shaxs, notiq, gapdon

rhetoric [ˈretərɪk] *n* notiqlik san'ati

rhetorical [rɪˈtɒrɪk(ə)l] *a* 1) dabdabali, ritorik; 2) notiqlik qoidalariga asoslangan

rhetorician [ˌretəˈrɪʃ(ə)n] *n* mahmadona, gapdon

rheum [ru:m] *n* tumov

rheumatic [ru:ˈmætɪk] **1.** *a* revmatizmga (*bod kasalligiga*) oid; **2.** *n* bod kasaliga yo'liqqan odam

rheumaticky [ru:ˈmætɪkɪ] *a so'zl.* bod kasalligiga oid

rheumatism [ˈru:mətɪz(ə)m] *n tib.* revmatizm, bod (*kasallik*)

rheumatiz [ˈru:mətɪz] = **rheumatism**

rhinestone [ˈraɪnstəʊn] *n* 1) tog' xrustali; 2) soxta brilliant

Rhine wine [ˌraɪn ˈwaɪn] *n* reynveyn (*uzum vinosining bir navi*)

rhino I [ˈraɪnəʊ] („**rhinoceros**" *so'zining qisqartirilgan shakli*

rhino II [ˈraɪnəʊ] *n sl.* pul, aqcha

rhinoceros [raɪˈnɒs(ə)rəs] *n zool.* 1) shoxli qo'ng'iz; 2) karkidon (*toq tuyoqli sutemizuvchilarga mansub, bitta yoki ikkita shoxi bor, terisi qalin, bahaybat katta hayvon*)

rhododendron [ˌrəʊdəˈdendrən] *n bot.* alp atirguli

rhomb [rɒm] *n mat.* romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*)

rhombi [ˈrɒmbaɪ] *pl of* **rhombus**

rhombic [ˈrɒmbɪk] *a* rombga oid, rombsimon, romb shaklidagi

rhomboid [ˈrɔmbɔɪd] *n mat.* parallelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan to'rtburchak*)
rhombus [ˈrɔmbəs] *n* (*pl* **-bi** [-baɪ]) romb
rhubarb [ˈru:bɑ:b] *n bot.* rovoch, rivoch (*yirik bargli, ildizi yo'g'on o'tsimon ko'p yillik o'simlik*)
rhumb [rʌm] *n deng.* rumb (*ufqning 32 dan bir qismiga, ya'ni 11,25 ga teng kompas darajasi*)
rhyme [raɪm] *n* qofiya, qofiyali she'r. **double ~** urg'u she'riy satrning oxiridan ikkinchi bo'g'iniga tushadigan qofiya; **single ~** urg'u she'riy satrning oxirgi bo'g'iniga tushadigan qofiya
rhymed [raɪmd] *a* qofiyali, qofiyadosh, qofiyaga solingan
rhymer [ˈraɪmə] = **rhymester**
rhymester [ˈraɪmstə] *n* qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*)
rhythm [ˈrɪð(ə)m] *n* ritm, vazn, marom, maqom
rhythmic(al) [ˈrɪðmɪk(əl)] *a* ritmli, vaznli, ohangli, bir maqomdagi; uyg'un, bir tekis
rib [rɪb] *n* 1) *anat.* qovurg'a; 2) qirra, yon, biqin; 3) o'tkir uch
ribald [ˈrɪb(ə)ld] **1.** *n* og'zi buzuq odam, qo'pol (dag'al, qo'rs, tarbiyasiz) odam; **2.** *a* uyatsiz, adabsiz, yuzsiz, beor
ribaldry [ˈrɪb(ə)ldrɪ] *n* beodob gap, behayo ibora, so'kinish, qo'pollik, dag'allik, qo'rslik
ribbed [rɪbd] *a* 1) qovurg'asi chiqqan; 2) qovurg'ali, qirrali, qovurg'asimon
ribbon [ˈrɪbən] **1.** *n* lenta, tasma; **typewriter ~** yozuv mashinasining lentasi; **2.** *v* lenta bilan bezamoq
ribboned [ˈrɪb(ə)nd] *a* lenta bilan bezatilgan
rice [raɪs] *n* 1) *bot.* sholi; 2) guruch; 3) *attr.* guruchdan qilingan, guruchli; **a ~ field** sholipoya
rice-flakes [ˌraɪsˈfleɪks] *n pl* parchalangan (yanchilgan) guruch
rice-paper [ˈraɪsˌpeɪpə] *n* sholi qog'oz (*sholi poxolidan qilingan yupqa pishiq qog'oz*)
rice-water [ˈraɪsˌwɔ:tə] *n* xo'rda, yovg'on xo'rda; guruch qaynatmasi
rich [rɪtʃ] *a* 1) boy, badavlat; **~ in** ...ga boy; 2) serhosil, hosildor; **~ harvest** mo'l hosil; 2) (diqqat-e'tiborga) arziydigan; qimmatli, loyiq; **a ~ suggestion** e'tibor berishga arziydigan taklif
Richard Roe [ˌrɪtʃədˈrəʊ] *n yur.* sud jarayonidagi aybdor (javobgar) shaxs (*asosan, ismi ma'lum bo'lmaganlarga ishlatiladi*)
riches [ˈrɪtʃɪz] *n* boylik, mol-mulk; **the ~ of the soil** yerosti boyliklari
richly [ˈrɪtʃlɪ] *adv* farovon, boy, to'q, hasham bilan
richness [ˈrɪtʃnəs] *n* boylik, mol-mulk, dunyo, davlat, hisot
rick I [rɪk] **1.** *n* g'aram, to'p; **2.** *v* g'aramlamoq, to'plamoq
rick II [rɪk] = **wrick**
rickets [ˈrɪkɪts] *n tib.* raxit, shirzada, mechkay (*yosh bolalar kasali*)
rickety [ˈrɪkɪtɪ] *a* 1) raxit (mechkay) kasalligiga oid; 2) nozik, nimjon, zaif (*sog'liq haqida*); 3) liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, shaloq, bo'sh, liqildoq; **a ~ chair** omonat (shaloq) stul
ricksha(w) [ˈrɪkʃɔ:] *n yap.* riksha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ikki g'ildirakli aravaga qo'shilib, odam va yuk tashiydigan hammol*)
ricochet [ˈrɪkəʃeɪ] *n* rikoshet (*otilgan tosh, o'q kabilarning tekkan joyidan sapchib, nari uchib ketishi*)
rictus [ˈrɪktəs] *n lot.* og'iz bo'shlig'i
rid [rɪd] *v* (**rid, ridded**) ozod qilmoq, qutqarmoq, qutulmoq, qutqazmoq; **to get ~ of smb., smth.** kimdandir, nimadandir qutulmoq
ridable [ˈraɪdəb(ə)l] *a* otda yurishga yaroqli
riddance [ˈrɪd(ə)ns] *n* 1) qutqarish, ozod qilish, xalos etish; 2) yo'qotish, yo'q qilish, bartaraf qilish, barham berish
riddel [ˈrɪd(ə)l] *n* darparda (*mehrobda, cherkov ibodatxonasida*)
ridden [ˈrɪdn] *p. p. of* **ride 2**
-ridden [-ˌrɪdn] *a murakkab so'zlar oldida ishlatilib,* (*nimaningdir*) ixtiyorida, izmida, qo'lida; (*nimagadir*) butun vujudi bilan berilgan, degan ma'nolarni anglatadi
riddle I [ˈrɪdl] **1.** *n* topishmoq; cho'pchak; **2.** *v* muammo qilib gapirmoq
riddle II [ˈrɪdl] *n* g'alvir, katta simg'alvir
riddled [ˈrɪdld] *a* 1) sepilgan, sochilgan, ekilgan; 2) elangan, elakdan o'tkazilgan
ride [raɪd] **1.** *n* safar, sayohat, sayr, tomosha (*otga minib, mashinada, velosipedda va b.*); **2.** *v* (**rode; ridden**) otga minmoq, ot minmoq
ridel [ˈrɪdl] = **riddel**
rider [ˈraɪdə] *n* otliq, ot mingan kishi, chavandoz
riderless [ˈraɪdələs] *a* chavandozsiz (*chavandozini yo'qotgan ot to'g'risida*)
ridge I [rɪdʒ] *n* 1) tog' qirrasi; 2) tog'lar tizmasi
ridge II [rɪdʒ] *v* 1) dikkaymoq, tikkaymoq; 2) yotmasdan tikka turmoq
ridged [rɪdʒd] *a* uchi o'tkir, cho'qqili
ridge-pole [ˈrɪdʒpəʊl] *n* 1) tortib cho'zish; 2) tirgak (*chodir bo'laklarini mustahkamlab va ma'lum vaziyatda ushlab turadigan to'sin*)
ridgy [ˈrɪdʒɪ] = **ridged**
ridicule [ˈrɪdɪkju:l] *n* 1) mazax (masxara) qilish; 2) masxara, istehzo, zaharxanda; **to hold up to ~** masxara (kalaka) qilmoq
ridiculous [rɪˈdɪkjʊləs] *a* kulgili, kulgidan boshqaga arzimaydigan, qiziq, qovushmagan
riding [ˈraɪdɪŋ] *n* ot minish
riding-habit [ˈraɪdɪŋˌhæbɪt] *n* amazonka (*chavandoz ayollarning maxsus uzun ko'ylagi*)
riding-hag [ˌraɪdɪŋˈhæg] *n so'zl.* 1) dahshat, tushunib bo'lmaydigan narsa; 2) bosinqirash, yomon tush
riding hall [ˈraɪdɪŋhɔ:l] *n* usti yopilgan sirk maydoni
riding master [ˈraɪdɪŋˌmɑ:stə] *n* bereytor (*otni minishga o'rgatuvchi va chavandozlikdan ta'lim beruvchi mutaxassis*)
Riesling [ˈri:slɪŋ] *n* risling (*oq uzumning bir turi*)
rife [raɪf] *a* oddiy, odatdagi; **to be ~** oddiy bo'lmoq
riffle [ˈrɪf(ə)l] *n* 1) jimirlash, mavj urish, mavjlanish; 2) ostonatosh (*daryo tagida ko'ndalang ko'tarilib turgan tosh do'nglik*)
riff-raff [ˈrɪfræf] **1.** *n* tubanlik (razolatga) tushgan kishilar; **2.** *a* keraksiz, foydasiz, nokerak
rifle [ˈraɪf(ə)l] *n* 1) miltiq, beshotar; 2) *harb.* o'qchilar qismi
rifle-green [ˌraɪf(ə)lˈgri:n] *a harb.* to'q ko'k (*ingliz o'qchi askarlari liboslarining rangi*)
rifle-grenade [ˌraɪf(ə)lgrɪˈneɪd] *n harb.* miltiq granatasi
rifleman [ˈraɪf(ə)lmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) *harb.* o'q otuvchi, mergan; **an expert ~** juda yaxshi mergan
rifle-range [ˈraɪf(ə)lreɪndʒ] *n* 1) tir (*nishonga otishni mashq qilish uchun moslangan bino*); 2) otish maydoni (*otish mashqlari, mashg'ulotlari o'tkaziladigan maydon*)
rift [rɪft] *n* 1) yoriq, darz; 2) tog'ning (*tepaning, yerning yorig'i*)
rig I [rɪg] *n* yelkanli kema jihozlari (*yelkan va arqonlar*)
rig II [rɪg] **1.** *n* 1) qiliq, hiyla-nayrang, makr ishlatish (qilish); 2) muttahamlik, makr, hiyla; **2.** *v* muttahamlik (qalloblik, firibgarlik) qilmoq; firib bermoq, aldamoq, tovlamoq
rigging [ˈrɪgɪŋ] *n deng.* takelaj (*kemaning kanop va sim arqonlari*)
right I [raɪt] **1.** *n* 1) haq, huquq; **equal ~s** teng huquqlar; 2) to'g'ri (haqqoniy) talab (**to**); 3) imtiyoz, yengillik; **~ to**

work mehnat qilish huquqi; **~s and duties** huquq va burchlar; 4) kerakli, zarur; 5) sog'lom, yaxshi holatda; **2.** *a* to'g'ri, haq, haqqoniy, adolatli; **to be ~** to'g'ri (haqli) bo'lmoq; **~ use of words** so'zlarni to'g'ri ishlatish; **3.** *adv* to'g'ri; **to get it ~** to'g'ri tushunmoq; **to do a sum ~** topshiriqni to'g'ri yechmoq; **4.** *v* tuzatmoq, to'g'rilamoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq

right II [raɪt] *n* o'ng tomon; **on the ~** o'ng tomonda; **to the ~** o'ngga; **on the ~ hand side** o'ng qo'l tarafda (tomonda)

right-angled [ˌraɪtˈæŋg(ə)ld] *a* to'g'ri burchakli

right-down [ˌraɪtˈdaʊn] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan, borib turgan, nariyog'i yo'q

righteous [ˈraɪtʃəs] *a* 1) taqvodor, taqvoli, adolatli; 2) xayrli, ezgu

righteousness [ˈraɪtʃəsnəs] *n* 1) taqvodorlik; 2) odillik

rightful [ˈraɪtf(ə)l] *a* 1) qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan; 2) adolatli, odil

right-hand [ˌraɪt ˈhænd] *a* o'ng, o'ng tomondagi

rightist [ˈraɪtɪst] *n* o'ng, reaksioner

rightly [ˈraɪtlɪ] *adv* 1) to'g'ri, rost; 2) haqqoniy ravishda

right-minded [ˌraɪt ˈmaɪndɪd] *a* yaxshi niyatli, niyati xolis

rightwards [ˈraɪtwədz] *adv* o'ngga, o'ng tomonga

right-wing [ˌraɪtˈwɪŋ] *a* o'ng qanot, reaksion

rigid [ˈrɪdʒɪd] *a* 1) qattiq, egilmaydigan; 2) shiddatli, jiddiy, qattiqqo'l, keskin

rigidity [rɪˈdʒɪdɪtɪ] *n* 1) qattiqlik; 2) mustahkamlik

rigidly [ˈrɪdʒɪdlɪ] *adv* qat'iyan, keskinlik bilan, keskin, uzil-kesil

rigmarole [ˈrɪgmərəʊl] *n* bema'ni gap, safsata

rigorism [ˈrɪgərɪz(ə)m] *n* rigorizm (*axloqiy prinsiplarga, qoidalarga juda ham qattiq amal qilish, yopishib olish*)

rigorous [ˈrɪgərəs] *a* 1) qattiqqo'l, qahri qattiq; 2) sovuq, og'ir; **a ~ climate** sovuq iqlim

rigour [ˈrɪgə] *n* talabchanlik, qattiqqo'llik

rile [raɪl] *v* g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq

rill [rɪl] **1.** *n* 1) kichkina soy, jilg'a, ariq; 2) buloq, chashma; **2.** *v* sharillab oqmoq

rim [rɪm] *n* 1) (g'ildirak) to'gini, tegarchigi; 2) (ko'zoynak) gardishi; 3) band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h. da*)

rime I [raɪm] = **rhyme**

rime II [raɪm] **1.** *n* 1) qirov; 2) bulduriq; 3) sovuq nam havo; **2.** *v* qirov bosmoq

rimer [ˈraɪmə] *n tex.* teshikni kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob

rimy [ˈraɪmɪ] *a* qirov bosgan, qirov tushgan

rind [raɪnd] **1.** *n* po'choq, po'stloq; **2.** *v* po'stloqni shilmoq

ring I [rɪŋ] **1.** *n* 1) to'da, guruh; 2) uzuk; **2.** *v* 1) halqa qilib o'rab olmoq; 2) uzuk taqmoq

ring II [rɪŋ] **1.** *n* jarang, jaranglagan ovoz; **2.** *v* (**rang; rung**) jaranglamoq; **to ~ up** qo'ng'iroq (telefon) qilmoq

ring-dove [ˈrɪŋdʌv] *n zool.* govkaptar

ringed [rɪŋd] *a* 1) aylana bilan belgilangan; 2) halqali; 3) *ko'ch.* (kimgadir) unashtirilgan

ringer [ˈrɪŋə] *n* qo'ng'iroqchi, qo'ng'iroq chaluvchi (*cherkovda*)

ring-fence [ˈrɪŋfens] *n* (*nimanidir hamma tomonidan qurshab olgan*) devor, panjara

ring-finger [ˈrɪŋˌfɪŋgə] *n* yon barmoq, so'fi barmoq (*jimjiloq yonidagi to'rtinchi barmoq*)

ringing [ˈrɪŋɪŋ] *n* jarang, jiring, jaranglash, jaranglagan (jiringlagan) ovoz

ringleader [ˈrɪŋˌli:də] *n* 1) boshchi, boshliq, sarkor; 2) yetaklab (boshlab) boruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, yo'lboshchi, rahbar; 3) sababchi, boshlagan (boshlab bergan) kishi

ringlet [ˈrɪŋlɪt] *n* jingalak soch, zulf, gajak

ringleted [ˈrɪŋlɪtɪd] *a* jingalak, sochi jingalak

ring-mail [ˈrɪŋmeɪl] *n* sovut

ring-master [ˈrɪŋˌmɑ:stə] *n* manej (sirk maydoni) nazoratchisi (inspektori)

ring-net [ˈrɪŋnet] *n* kapalak tutadigan matrap

ring ouzel [ˈrɪŋˌu:z(ə)l] *n zool.* qorayaloq (*oq bo'qoqli*)

ringtail [ˈrɪŋteɪl] *n zool.* bo'ktargi urg'ochisi (*yirtqich qushlarning bir turi*)

ringworm [ˈrɪŋwɜ:m] *n tib.* moyxo'rak, qirma temiratki

rink [rɪŋk] **1.** *n* 1) yaxmalak (*konki uchish uchun yaxlatilgan maydon*); 2) *sport.* sketingring (*rolikli konkida uchish uchun belgilangan maydoncha*); **2.** *v* g'ildirakchali konkida uchmoq

rinse [rɪns] **1.** *n* 1) og'iz (tomoq) chayqaydigan dori; 2) davolash maqsadida suyuqlik bilan chayish, chayqash; **2.** *v* chayqamoq, chaymoq

rinsing [ˈrɪnsɪŋ] *n* 1) og'iz chayqash; 2) og'iz chayqashdan qolgan suv

riot [ˈraɪət] **1.** *n* isyon, qo'zg'olon, g'alayon; **2.** *v* isyon (qo'zg'olon, g'alayon) ko'tarmoq

rioter [ˈraɪətə] *n* isyonchi, g'alayonchi; isyon (g'alayon) qatnashchisi

riotous [ˈraɪətəs] *a* 1) isyonkor; 2) fe'li tez, battol, to'polonchi

rip I [rɪp] **1.** *n* 1) yorilish, yorilib ketish; 2) kesik (kesilgan, yorilgan) joy; **2.** *v* qirqmoq, kesmoq, tilmoq, tilimlamoq, qirqib (kesib, tilib) qo'ymoq

rip II [rɪp] *n* 1) dirdov ot, qirchang'i; 2) *so'zl.* axloqsiz (yomon yo'lga kirgan) odam

riparian [raɪˈpe(ə)rɪən] *a* qirg'oq bo'yidagi (*oldidagi*)

ripe [raɪp] *a* 1) yetilgan, pishgan (*meva*); 2) balog'atga (voyaga) yetgan, yetilgan, yetuk

ripen [ˈraɪpən] *v* 1) pishmoq, yetilmoq; 2) balog'atga yetmoq

ripeness [ˈraɪpnəs] *n* 1) pishganlik, yetilganlik; 2) voyaga yetganlik

ripping [ˈrɪpɪŋ] *a* hayratda qoldiradigan, larzaga soladigan

ripple I [ˈrɪp(ə)l] *n* 1) jimirlash, mavj urish; 2) (*sochning*) jingalakligi

ripple II [ˈrɪp(ə)l] *n* zig'irpoya tozalaydigan taroq

ripply [ˈrɪplɪ] *a* to'lqinli, mavj urib turgan

rip-saw [ˈrɪpsɔ:] *n tex.* bo'ylama arra (*yog'ochni uzunasiga tiladigan arra*)

rise [raɪz] **1.** *n* 1) ko'tarish, oshirish, balandroq (yuqoriroq) qilish; **to be on the ~** (*narx-navoni*) oshirmoq, ko'tarmoq; 2) ko'tarilgan joy; **2.** *v* (**rose, risen**) ko'tarilmoq, turmoq

risen [ˈrɪz(ə)n] *p. p. of* **rise 2**

risibility [ˌrɪzəˈbɪlɪtɪ] *n* kulong'ichlik, kulag'onlik

risible [ˈrɪzəb(ə)l] *a* 1) bekorga kulaveradigan, kulong'ich, kulag'on; 2) kulgili, kulgini qistatadigan

rising [ˈraɪzɪŋ] *a* 1) qo'zg'olon, g'alayon, isyon; 2) turish, o'rnidan turish; 3) chiqish; **the ~ of the sun** quyosh (kun) chiqishi

risk [rɪsk] **1.** *n* tavakkal ish, qaltis harakat, xavf-xatar; **2.** *v* jur'at etmoq, tavakkal qilmoq

risky [ˈrɪskɪ] *a* qaltis, xatarli, xavfli

risqué [ˈrɪskeɪ] *a fr.* 1) xavfli, xatarli; 2) shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan; 3) har xil tushunsa bo'ladigan, ilmoqli (*hazil haqida*)

rissole [ˈrɪsəʊl] *n* 1) kotlet; 2) tefteli (*yumaloq qilib qovurilgan qiyma go'sht*)

rite [raɪt] *a* marosim, udum

ritual [ˈrɪtʃʊəl] *n* udum, tamil, odat

ritualism [ˈrɪtʃʊəlɪz(ə)m] *n* marosimlar, udumlar, rasm-rusumlar

ritually [ˈrɪtʃʊəlɪ] *adv* marosimga (rasm-rusumga, udumga) ko'ra
rival [ˈraɪv(ə)l] **1.** *n* raqib, raqobatchi; a ~ **team** raqib jamoa; **2.** *v* raqobat qilmoq
rivalry [ˈraɪv(ə)lrɪ] *n* raqobat, raqiblik, kurash, bahs, bellashuv; **friendly** ~ do'stona bellashuv
rive [raɪv] **1.** *n* yoriq, darz, kovak, tirqish; **2.** *v* (**rived; rived, riven**) 1) yormoq, maydalamoq, parchalamoq; 2) yorilmoq, maydalanmoq, parchalanmoq
riven [ˈrɪv(ə)n] **1.** *p. p. of* **rive 2**; **2.** *a* maydalangan, parchalangan, yorilgan
river [ˈrɪvə] *n* 1) daryo, soy, anhor; **by (near) the** ~ daryo yoqasida; 2) oqim; **to cross the** ~ daryoning narigi qirg'o-g'iga o'tmoq
river-bed [ˈrɪvəbed] *n* daryo o'zani
river-horse [ˈrɪvəhɔːs] *n* begemot, suv oti
riverine [ˈrɪvəraɪn] *a* 1) qirg'oq bo'yidagi, qirg'oq oldidagi, qirg'oq oldi; qirg'oq bo'yi...; 2) daryoga oid, daryo...; daryoda bo'ladigan; 3) daryoda suzishga mo'ljallangan; daryoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan
riverside [ˈrɪvəsaɪd] *n* 1) qirg'oq bo'yidagi yerlar; 2) daryo qirg'og'i
rivet [ˈrɪvɪt] **1.** *n* mixparchin, chega; **2.** *v* parchinlamoq, parchinlab qo'ymoq
riveting [ˈrɪvɪtɪŋ] *a* kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor
rivière [riːˈvjeə] *n fr.* marjon, shoda (*bir necha ipli*)
rivulet [ˈrɪvjolɪt] *n* soy, anhor, ariq, jilg'a, kichkina daryocha
roach [rəʊtʃ] *n zool.* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*)
road [rəʊd] *n* yo'l; **country** ~ qishloq yo'li, tuproq yo'l; **by** ~ yo'l orqali
road-bed [ˈrəʊdbed] *n* ko'tarma yo'l (*shag'al to'kib ko'tarilgan yo'l*)
Road-Board [ˈrəʊdbɔːd] *n* shosse yo'llar boshqarmasi
road-book [ˈrəʊdbʊk] *n* 1) yo'l ma'lumotnomasi; 2) avtomobil yo'llarining atlasi
road clearance [ˌrəʊd ˈklɪ(ə)rəns] *n* 1) yoriqdan tushgan shu'la, yorug'lik; 2) yo'lda harakat qilish uchun ruxsat
roadless [ˈrəʊdləs] *a* yo'lsiz, qatnov yo'llari yo'q
road-metal [ˈrəʊdˌmetl] *n* shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*)
road scraper [ˈrəʊdˌskreɪpə] *n* greyder (*tog' ishlari va qurilishlarda ishlatiladigan, tuproq tashiydigan mashina*)
road-show [ˈrəʊdʃəʊ] *n amer.* teatr *yoki* sirk ijodiy guruhining safardagi tomoshasi
roadside [ˈrəʊdsaɪd] **1.** *n* yo'l qirg'og'i (cheti, yoqasi); **2.** *a* yo'l bo'yidagi
roadstead [ˈrəʊdsted] *n deng.* reyd (*portga kirish oldida kemalar to'xtab turadigan qulay joy*)
roadster [ˈrəʊdstə] *n* yo'l (safar) velosipedi
road-test [ˈrəʊdtest] *v amer.* mashinani tabiiy sharoitda sinab ko'rmoq
roadway [ˈrəʊdweɪ] *n* 1) shosse (*asfalt, beton kabilar yotqizilgan katta yo'l*); 2) to'shama yo'l (*tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l*); 3) transport yuradigan yo'l
roam [rəʊm] **1.** *n* darbadarlik, joydan joyga ko'chib yurish, darbadar kezish, ovorayi jahon bo'lib yurish, sargardonlik; **2.** *v* 1) tentiramoq; 2) olamni (elma-el, yurtma-yurt) kezmoq; 3) darbadar kezmoq, sargardon bo'lmoq, aylanmoq; **to ~ about the world** dunyoni kezmoq
roan I [rəʊn] **1.** *a* burul (*ko'kish, xoldor*); **2.** *n* burul ot
roan II [rəʊn] *n* yumshoq qo'y terisi (*muqovalar uchun*)
roar [rɔː] **1.** *n* bo'kirish, o'kirish, na'ra; uvillash (*hayvonlar haqida*); **2.** *v* bo'kirmoq, na'ra tortmoq
roarer [ˈrɔːrə] *n* 1) baqiroq odam, shang'i; baqirib gapiradigan odam; 2) issiqlatilgan ot
roaring [ˈrɔːrɪŋ] *n* bo'kirish, o'kirish
roast [rəʊst] **1.** *n* jarkop, qovurma; **2.** *a* qovurilgan; **3.** *v* qovurmoq, pishirmoq
roaster [ˈrəʊstə] *n* 1) manqal, manqaldon, tova; 2) kabob ko'ra
roasting-jack [ˈrəʊstɪŋdʒæk] *n* kabob sixi
rob [rɔb] *v* o'g'irlamoq, bosqinchilik qilmoq, talamoq, shilmoq
robber [ˈrɔbə] *n* 1) bosqinchi, bosmachi; o'g'ri; 2) qaroqchi, yo'lto'sar
robbery [ˈrɔb(ə)rɪ] *n* 1) o'g'rilik, o'g'irlash; 2) bosqinchilik, talash, talonchilik
robe [rəʊb] *n* keng kiyim; chopon
robin [ˈrɔbɪn] *n* 1) *sl.* penni (*finlarda: mayda pul, chaqa*); 2) *zool.* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*)
robot [ˈrəʊbɔt] *n* robot (*odamsimon harakat qiladigan avtomat*)
robust [rəˈbʌst] *a* 1) mahkam, qattiq, mustahkam; 2) sog'lom, baquvvat, tetik, chidamli
robustious [rəˈbʌstʃəs] *a* 1) kuchli, shiddatli, qattiq; 2) sershovqin, shovqinli
rock I [rɔk] *n* 1) qoya, jarlik; 2) osilib turgan qoyatosh, tik qoya
rock II [rɔk] *v* silkinmoq, tebranmoq; **to ~ cradle** beshikni tebratmoq, allalamoq
rock III [rɔk] *n esk.* charx, ip yigiradigan charx
rock-crystal [ˌrɔkˈkrɪstl] *n* tog' (billuri) kristali
rock-drill [ˈrɔkdrɪl] *n tex.* 1) perforator (*tog' jinslarini parmalovchi mashina*); 2) burg'ilash iskanasi
rocker [ˈrɔkə] *n* tebranma kursi
rocket [ˈrɔkɪt] **1.** *n* 1) raketa; 2) raketa dvigateli; 3) reaktiv snaryad; **2.** *v* 1) ko'tarilmoq, parvoz qilmoq; 2) raketa uchirmoq
rocking-chair [ˈrɔkɪŋˌtʃeə] *n* tebranma kursi
rocky [ˈrɔkɪ] *a* qoyalardan iborat, qoyali, serqoya, toshli
rod [rɔd] *n* xipchin, novda, xivich, chiviq, savag'ich
rode [rəʊd] *past. of* **ride 2**
rodent [ˈrəʊd(ə)nt] *n zool.* kemiruvchi
roe [rəʊ] *n* ikra, uvuldiriq (*baliq, baqa va h. k. tuxumi, urug'i*)
rogue [rəʊg] *n* tovlamachi; aldamchi, firibgar, qallob, muttaham; **~ry** muttahamlik, qalloblik, firibgarlik, aldamchilik, tovlamachilik
roguish [ˈrəʊgɪʃ] *a* muttahamroq, qallobroq, aldam-qaldam ishlarga moyil
roister [ˈrɔɪstə] *v* jamoat tartibini buzmoq, o'zboshimchalik (beboshlik) qilmoq
role [rəʊl] *n* 1) rol, ahamiyat, xizmat, tutgan o'rin; 2) rol (*sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz*)
roll [rəʊl] **1.** *n* 1) tugun, o'ralgan narsa; 2) rulon; 3) bog'lam, dasta; 4) gumburgumbur, gumburlash; **2.** *v* 1) o'ramoq; 2) dumalamoq; 3) g'ildiramoq
roll-call [ˈrəʊlkɔːl] *n* bir-biriga ovoz (tovush) **berib turish**, bir-birini chaqirib turish
roller [ˈrəʊlə] *n* 1) *tex.* val, silindr; rolik; 2) to'lqin, po'rtana, mavj
roller-mill [ˈrəʊləmɪl] *n* jo'vali tegirmon
roller towel [ˈrəʊləˌtaʊəl] *n* bir rulon (g'o'la shaklida o'ralgan) sochiq
rollick [ˈrɔlɪk] **1.** *n* sershovqin (g'ovur-g'uvur) o'yin-kulgi; **2.** *v* vaqtini chog' qilmoq, quvonmoq
rolling-pin [ˈrəʊlɪŋpɪn] *n* o'qloq, jo'va
rolling-stock [ˈrəʊlɪŋstɔk] *n* harakatdagi sostav (*parovoz va vagonlar*)
roly-poly [ˌrəʊlɪˈpəʊlɪ] *n* murabboli pudding
Roman [ˈrəʊmən] *n* rimliklar (*Qadimgi Rim davlatining aholisi*)
romance [rə(ʊ)ˈmæns] *n* G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda: ritsarlarning ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarini tasvirlaydigan adabiy asar
romantic [rə(ʊ)ˈmæntɪk] *a* xayolparast
romp [rɔmp] **1.** *n* to'polon, shovqin-suron; **2.** *v* tipirchilamoq, o'ynashmoq

roof [ru:f] *n* 1) tom, boshpana; **iron ~** tunuka tom; **to live under the same ~** bir uyda yashamoq; 2) kulba
rook I [rʊk] *n shaxm.* rux
rook II [rʊk] *n* 1) *zool.* go'ngqarg'a; 2) muttaham, qallob, firibgar; aldamchi
room [ru:m] *n* 1) xona, zal; 2) kvartira, yashash joyi, uy; 3) bo'sh joy; **to make ~ for** joy bo'shatmoq
room-mate ['ru:m,meit] *n* xonadosh
roomy ['ru:mi] *a* keng, uzun
roost [ru:st] *n* 1) qo'noq, qo'ndoq (*masalan, tovuqlarniki*); 2) yotoq (uy); yotoqxona, uxlash xonasi
rooster ['ru:stə] *n* 1) xo'roz; 2) urishqoq, janjalkash; jangari
root [ru:t] **I.** *n* 1) ildiz; 2) o'zak; negiz; **2.** *v* ildiz otmoq
rootlet ['ru:tlit] *n* 1) yangi novda, shox, butoq; 2) temircha, ildizcha
rope [rəʊp] **1.** *n* arqon; arg'amchi; **2.** *v* arqon bilan bog'lamoq
rosary ['rəʊz(ə)ri] *n* 1) gulzor, atirgulzor, gulbog'; 2) tasbeh
rose I [rəʊz] *n bot.* atirgul; **(there is) no ~ without a thorn** atirgul tikansiz bo'lmas
rose II [rəʊz] *past. of* **rise 2**
rosebud ['rəʊzbʌd] *n* atirgul g'unchasi
rose-bush ['rəʊzbʊʃ] *n* atirgul tupi, bir tup atirgul
rosette [rəʊ 'zet] *n* 1) rozetka (*xotin-qizlar ko'ylagiga, shlapasiga taqiladigan lentadan qilingan gul-bezak*); 2) *me'mor.* to'pbarggul shaklidagi bezak, naqsh
rosin ['rɔzin] *n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*)
roster ['rɔstə] *n* 1) *harb.* navbatchilik jadvali; 2) ro'yxat
rostra ['rɔstrə] *pl of* **rostrum**
rostrum ['rɔstrəm] *n* (*pl* **-ra, -s** [-z]) 1) minbar, tribuna; 2) tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*); 3) kema tumshug'i
rosy ['rəʊzi] *a* qizil, qizg'ish, pushti rang, och qizil
rot [rɔt] **1.** *n* chirish, irish, buzilish, sasish, aynish; **2.** *v* chirimoq, buzilmoq; **~ten** chirigan; buzilgan
rota ['rəʊtə] *n* navbatchilik jadvali
rotary ['rəʊt(ə)ri] *a* aylanadigan, aylanma; **~ current** ko'p fazali tok
rotate [rəʊ 'teit] *v* aylantirmoq, buramoq, aylanmoq
rotation [rəʊ 'teiʃ(ə)n] *n* 1) aylanish; 2) galma-gal qilish, almashtirib turish; 3) vaqt-vaqti bilan takrorlanib turish
rote I [rəʊt] *n amer.* qirg'oqqa uriladigan to'lqinlarning shovullashi (shovqini)
rote II [rəʊt] *n* tushunmasdan yodlab olish
rotten ['rɔtn] *a* chirigan, irigan; chirib qolgan; buzilgan; sasigan, aynigan; palag'da
rotter ['rɔtə] *n sl* hech narsaga arzimaydigan odam
rottweiler ['rɔtwailə] *n* rotveyler (*itning zoti*)
rotund [rəʊ'tʌnd] *a* to'liq, to'la, liq to'la, semiz, to'ladan kelgan; dum-dumaloq
rouble ['ru:b(ə)l] *n* rubl (*pul birligi*)
rouge [ru:ʒ] *n* 1) pushti-qizil yog'upa (bo'yoq); 2) lab bo'yog'i (pomadasi)
rough [rʌf] *a* 1) dag'al, badhazm; **~ food** dag'al (badhazm) ovqat; 2) notekis, past-baland o'ydim-chuqur (*yo'l haqida*); **a ~ country** o'nqir-cho'nqir joy; 3) qo'pol, to'ng, qo'rs; **a ~ customer** qo'pol muomala odam; 4) ishlov berilmagan, qora; **a ~ copy** oqqa ko'chirilmagan qo'lyozma *yoki* daftar; 5) bo'ronli, to'lqinli
roughage ['rʌfidʒ] *n* 1) dag'al xashak; 2) dag'al (badhazm) ovqat; 3) dag'al, qo'pol, to'ng, qo'rs
roughcast ['rʌfkɑ:st] *n* dastlabki loyiha
roughen ['rʌf(ə)n] *v* 1) dag'al qilmoq, notekis qilmoq; 2) qo'pollashmoq, dag'allashmoq, qo'rslashmoq
rough-neck ['rʌfnek] *n amer. so'zl.* to'polonchi, urishqoq, battol
roulette [ru: 'let] *n fr.* ruletka (*aylanib turuvchi gardishga raqamlar qo'yilgan bir xil qimor o'yini*)
Roumanian [ru'meiniən] **1.** *a* ruminlar *yoki* Ruminiyaga oid; rumin...; **2.** *n* 1) rumin ayoli yoki erkagi; 2) rumin tili
round [raʊnd] **1.** *n* aylana, doira, aylanma yo'l; **all the year ~** butun yil bo'yi, yil davomida; **~ the corner** muyulishda, burchakda; **at the ~about** aylanma yo'lda; **2.** *a* 1) yumaloq, dumaloq; 2) sharsimon, sharga o'xshagan; **~ back** bukchayganlik, yelkasi chiqqanlik; **3.** *v* tugallamoq, silliqlamoq; **to ~ a sentence** jumlani silliqlamoq; **4.** *adv* 1) atrofga, tevarak-atrofga; atrofda; **~ about** gapni aylantirib, masalaga yaqindan yondashmay (yonverida aylanib); **5.** *prep.* atrofida, tevaragida; **~ the world** yer yuzi (dunyo) bo'ylab
roundabout ['raʊndəbaʊt] **1.** *a* chetlab o'tadigan, chet, aylanish, aylanma; **2.** *n* aylanma yo'l
rounders ['raʊndəz] *n pl* inglizlarning chillak o'yini
Roundhead ['raʊndhed] *n tar.* boshi yumaloq, yumaloq bosh (*XVI – XVII asrlarda ingliz shotland burjuaziyasi uyushtirgan diniy-siyosiy harakat qatnashchisi*)
roundly ['raʊndli] *adv* 1) yumaloq (dumaloq) qilib; 2) ro'yirost, ochiqdan ochiq, dangal
round-up ['raʊndʌp] *n* 1) yangiliklar hisoboti; 2) qurshab olish, o'rash; 3) qurshov
rouse [raʊz] *v* qo'zg'atmoq, uyg'otmoq
rout [raʊt] **1.** *n* tor-mor qilish; tor-mor bo'lish; **2.** *v* yer bilan yakson qilmoq; tor-mor keltirmoq
route [ru:t] *n* yo'l, yo'nalish, marshrut
routine [ru:'ti:n] *n* aniq belgilangan tartib, o'rnatilgan tartib
routinely [ru:'ti:nli] *adv* 1) joriy etilgan tartibda; 2) muntazam ravishda
rove I [rəʊv] **1.** *n* olamni kezish, sayohat, safar; **2.** *v* olamni kezmoq, sayohat qilmoq
rove II [rəʊv] *n* 1) *tex.* shayba; 2) xom ip, xom (biroz) pishitilgan ip
row I [rəʊ] *n* qator, saf; **in a ~** bir qatorda
row II [rəʊ] **1.** *n* eshkak; **2.** *v* eshkak eshmoq; **to ~ a race** eshkak eshish musobaqasida qatnashmoq
rowan ['raʊən] *n bot.* chetan (*daraxti va mevasi*)
rowdy ['raʊdi] **1.** *n* urishqoq, to'polonchi; **2.** *a* shovqin-suronli, sershovqin
rowlock ['rɔlək] *n* eshkak qulog'i (*qayiq yonida eshkak o'rnatiladigan ayri va shu ayri qozig'i uchun qilingan teshik*)
royal ['rɔiəl] *a* 1) qirolga oid, podshoga (shohga) oid; **a ~ palace** qirol saroyi; 2) shohona
royalty ['rɔiəlti] *n* 1) qirol (podsho) hokimiyati; 2) mualliflik qalam haqi
rub [rʌb] *v* 1) surtmoq, surkamoq, uqalamoq, ishqalamoq, ishqamoq; 2) artmoq; 3) o'chirmoq (*so'zni*)
rubber ['rʌbə] *n* o'chirg'ich, rezina
rubbish ['rʌbiʃ] *n* 1) eski-tuski, lash-lush, latta-putta; 2) bema'ni (behuda) gap
rubble ['rʌb(ə)l] *n* tosh yoki g'isht bo'laklari
rubella [ru:'belə] *n tib.* qizilcha (*bolalar kasalligi*)
rubicund ['ru:bikənd] *a* qizil, qip-qizil, qirmizi (*yuz haqida*)
ruby ['ru:bi] **1.** *n* la'l, yoqut; **2.** *a* qip-qizil, to'q qizil
rucksack ['rʌksæk] *n* yuk xalta
rudder ['rʌdə] *n av.* rul
ruddy ['rʌdi] *a* qizil, qip-qizil, qizargan
rude [ru:d] *a* qo'pol; qo'rs, to'ng, to'rs
rudely ['ru:dli] *adv* qo'pollik bilan, qo'pollik qilib, qo'rs ohangda
rudeness ['ru:dnəs] *n* qo'pollik, dag'allik

rudimentary [ˌru:dɪˈment(ə)rɪ] *a* boshlang'ich...; ibtidoiy
rudiments [ˈru:dɪmənts] *n* 1) boshlang'ich (*ma'lumotlar*); 2) boshlanish, ibtido
rue I [ru:] *n* rahmi kelish, achinish, rahm qilish, shafqat
rue II [ru:] *n bot.* toshbaqa toli (*zaharli sariq gulli buta o'simlik*)
rueful [ˈru:f(ə)l] *a* 1) ma'yus, g'amgin, umidsiz; 2) ayanchli, achinarli
ruff I [rʌf] *n* burma hoshiya (*biror narsaning ustiga burib tikiladigan yengil mato*)
ruff II [rʌf] *n zool.* bir turli serqiltanoq baliq
ruff III [rʌf] **1.** *n* kuzir (*qartada*); **2.** *v* kuzir bilan bosmoq
ruffian [ˈrʌfɪən] *n* 1) kallakesar; bezori; 2) bosmachi, bosqinchi; 3) yaramas, ablah, qabih odam
ruffle I [ˈrʌf(ə)l] *n* jimirlash, mavj urish
ruffle II [ˈrʌf(ə)l] *n* nog'oraning do'pir-do'piri (takir-tukuri)
rug [rʌg] *n* gilam, gilamcha, kichkina gilam
rugby [ˈrʌgbɪ] *n sport.* regbi (*futbolning bir turi*)
rugged [ˈrʌgɪd] *a* notekis, g'adir-budur, past-baland; o'nqir-cho'nqir
ruin [ˈru:ɪn] **1.** *n* 1) xaroba, vayrona; **to fall into ~** xarobaga aylanmoq; 2) barbod bo'lish, halok bo'lish, qulash; **2.** *v* 1) xarob qilmoq; 2) inqirozga uchratmoq
ruinous [ˈru:ɪnəs] *a* xarob qiladigan, xonavayron (kafangado) qiladigan
rule [ru:l] **1.** *n* 1) hukmronlik, boshqarish; 2) qoida; **the ~ of the game** o'yin qoidasi; **2.** *v* idora qilmoq, boshqarmoq
ruler I [ˈru:lə] *n* hokim, hukmdor, idora qiluvchi, boshqaruvchi
ruler II [ˈru:lə] *n* chizg'ich
ruling [ˈru:lɪŋ] **1.** *a* hukmron, hukumat tepasida turuvchi, idora qiluvchi; **2.** *n* boshqarish
rum I [rʌm] *n* 1) rom (*kuchli spirtli ichimliklarning bir xili*); 2) spirtli ichimlik
rum II [rʌm] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, g'alati; **a ~ fellow** g'alati (tentaksimon) odam
Rumanian [ru:ˈmeɪnɪən] = **Roumanian**
rumble [ˈrʌmb(ə)l] *n* 1) guldurash, gumburlash, gumbur-gumbur; 2) norozilik, hasrat, shikoyat, nolish
ruminate [ˈru:mɪneɪt] *v* 1) saqich chaynamoq; 2) yaxshilab (obdon) o'ylab ko'rmoq
rummage [ˈrʌmɪdʒ] *n* qidiruv, qidirish, izlash, axtarish; tintuv, taftish
rummy I [ˈrʌmɪ] *a* ajoyib, taajjub, qiziq, g'alati
rummy II [ˈrʌmɪ] *n* araqxo'r, piyonista
rumour [ˈru:mə] **1.** *n* mish-mish gap, ovoza; **2.** *v* ovoza tarqatmoq, mish-mish tarqatmoq
rumoured [ˈru:məd] *a* odamlarning aytishiga ko'ra ma'lum bo'lgan; **it is ~ that** ... degan mish-mishlar tarqalib yuribdi
rump [rʌmp] *n* 1) *anat.* dumg'aza; 2) *paz.* son go'shti; 3) *hazil.* orqa, ket, yumshoq joy
rumple [ˈrʌmp(ə)l] *v* to's-to'polon qilmoq, tartibsizlik qilmoq
run [rʌn] *v* (**ran; run**) 1) chopmoq, yugurmoq; **to ~ across** to'satdan uchratib qolmoq; **to ~ down** yugurib tushmoq; **to ~ in** yugurib kirmoq; **to ~ out** yugurib chiqmoq; **to ~ over** ustidan bosib ketmoq, bosib o'tmoq; 2) tez tarqalmoq (*olov, yangilik haqida*); 3) yurmoq; 4) oqmoq; 5) olib bormoq; 6) rahbarlik qilmoq
runaway [ˈrʌnəweɪ] *n* qochoq, qochqin
rung I [rʌŋ] *n* (*tirab qo'yiladigan*) narvonning pog'onasi
rung II [rʌŋ] *p. p. of* **ring II, 2**
runner [ˈrʌnə] *n* yuguruvchi; chopuvchi, chopish bilan shug'ullanuvchi sportchi
running [ˈrʌnɪŋ] **1.** *a* chopadigan, yuguradigan; **a ~ track** yugurish yo'lkasi; **2.** *n* yugurish, chopish
running-board [ˈrʌnɪŋbɔ:d] *n* zina, zinapoya (*avtomobilda*)
runny [ˈrʌnɪ] *a* oquvchan, (suyulib) oqib ketadigan, suyuq
runway [ˈrʌnweɪ] *n av.* uchish va qo'nish yo'lagi
rupture [ˈrʌptʃə] *n* 1) yorib o'tilgan joy, teshik, yoriq; 2) *tib.* churra, grija
rural [ˈrʊ(ə)rəl] *a* qishloqqa xos bo'lgan, qishloq...
ruse [ru:z] *n* hiyla, nayrang, makr ishlatish, makkorlik, ayyorlik
rush [rʌʃ] **1.** *v* 1) yeldek yugurmoq; 2) tashlanmoq; 3) shoshiltirmoq; **2.** *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; 2) bosish, bosim; 3) intilish, kuchli orzu, niyat, ishtiyoq (*ninagadir*)
rush-hours [ˈrʌʃaʊəz] *n pl* tig'iz payt
rusk [rʌsk] *n* to'g'rab qotirilgan non, qoq non
russet [ˈrʌsɪt] *n* 1) qo'lda to'qilgan qizg'ish *yoki* sarg'ish-malla dag'al gazlama; 2) qizg'ish rang; sarg'ish-malla rang
Russian [ˈrʌʃ(ə)n] **1.** *n* 1) rus, rus kishisi *yoki* ayoli; **in ~** rus tilida; 2) rus tili; **2.** *a* ruslarga oid, rusча...
rust [rʌst] **1.** *n* zang; **2.** *v* zanglamoq, zang bosmoq
rustic [ˈrʌstɪk] *a* 1) dag'al, xomaki ishlov berilgan; 2) qishloqqa xos bo'lgan, qishloq...
rusticate [ˈrʌstɪkeɪt] *v* qishloqcha hayot kechirmoq
rustle [ˈrʌs(ə)l] *v* 1) shitirlamoq, shildiramoq; 2) *amer. so'zl.* tez va chaqqon harakat qilmoq; 3) *amer. so'zl.* (*qoramol, otlarni*) o'g'irlamoq
rustler [ˈrʌslə] *n* 1) shitirlaydigan narsa; 2) *amer. so'zl.* serg'ayrat odam; 3) *amer. so'zl.* qoramol va ot og'risi
rusty I [ˈrʌstɪ] *a* 1) zanglagan, zang bosgan, zanglab qolgan; 2) eskirgan, eskirib qolgan; 3) unutilgan, yoddan chiqqan
rusty II [ˈrʌstɪ] *a* taxir, achigan
rusty III [ˈrʌstɪ] *a* 1) asov, qaysar, ters, bo'y bermaydigan (*ot haqida*); 2) *so'zl.* tez achchiqlanadigan, serzarda, serjahl
rut [rʌt] *n* 1) egat, jo'yak; 2) g'ildirak izi; arava izi
ruthless [ˈru:θləs] *a* berahm, shafqatsiz; ayamaydigan, achinmaydigan; **~ness** shafqatsizlik, rahmsizlik
rye [raɪ] *n bot.* javdar, javdari bug'doy; qora bug'doy (*o'simligi*)
rye-bread [ˌraɪ ˈbred] *n* qora bug'doy unidan qilingan non
ryot [ˈraɪət] *n* hind dehqoni, ziroatchisi

S

S, s [es] *n* ingliz alifbosining o'n to'qqizinchi harfi
Sabbath [ˈsæbəθ] *n* (*yevreylarda*) shanba; (*xristianlarda*) yakshanba (*dam olish kunlari to'g'risida*)
Sabbath-school [ˈsæbəθsku:l] *n* yakshanba maktabi (*revolutsiyadan ilgarigi Rossiyada: katta yoshdagi kishilar uchun yakshanba kunlari ishlagan maktab*)
sabbatic(al) [səˈbætɪk(əl)] *a* 1) yakshanba kuniga oid, yakshanba kunidagi, yakshanba kungi (*xristianlarda dam olish kunlari bo'ladigan ishlar nazarda tutilgan*); 2) shanba kuniga oid, shanba kunidagi, shanba kungi (*yevreylarda*)
saber [ˈseɪbə] *amer.* = **sabre**
sable I [ˈseɪb(ə)l] *n zool.* 1) sobol, Kamchatka suvsari; 2) sobol mo'ynasi; 3) *attr.* sobolga oid, suvsar mo'ynasi
sable II [ˈseɪb(ə)l] **1.** *n* 1) qora rang; 2) *pl* motam, aza; **2.** *a* motam (azaga) oid
sabot [ˈsæbəʊ] *n* yog'och kavush
sabotage [ˈsæbətɑ:ʒ] *n* 1) ishdan bo'yin tovlash; 2) zimdan qarshilik ko'rsatish, to'sqinlik qilish; **2.** *v* zimdan qarshilik

ko'rsatmoq, to'sqinlik qilmoq, zarba bermoq, putur yetkazmoq

saboteur [ˌsæ:bə´tɜ:] *n fr.* qo'poruvchi

sabre [´seɪbə] *n* qilich, shamshir

sabre-rattler [´seɪbəˌrætlə] *n* urush olovini yoquvchi

sabre-rattling [´seɪbəˌrætlɪŋ] *n* qilich yalang'ochlash, qurolni pesh qilish, urush bilan do'q urish (po'pisa qilish, tahdid solish)

sabre-toothed [ˌseɪbə´tu:θt] *a zool.* o'tkir tishli, tishi o'tkir

sabulous [´sæbjoləs] *a* qumli, qum bilan qoplangan

sac [sæk] *n* 1) *biol.* qopchiq, xalta, xaltacha; 2) sak (*ayollarning keng paltosi*)

saccate [´sæk(e)ɪt] *a biol.* 1) qopchiq (xalta, xaltacha) shaklidagi; 2) qopchiqqa (xaltachaga) joylashtirilgan

saccharic acid [səˌkærɪk ´æsɪd] *a kim.* qand (shakar) kislotasi

saccharify [sə´kærɪfaɪ] *v kim.* kraxmalga (qandga) aylantirmoq

saccharin [´sæk(ə)rɪn] *n* saxarin (*qand o'rnida ishlatiladigan juda shirin kimyoviy modda*)

saccharine I [´sækəri:n] = **saccharin**

saccharine II [´sækəri:n] *a* 1) qandga, shakarga va uni ishlab chiqarishga oid; 2) qanddan (shakardan) iborat bo'lgan

saccharose [´sækərəʊs] *n kim.* saxaroza, o'simlik (lavlagi, shakarqamish) shakari

sacciform [´sæksɪfɔ:m] *a biol.* qopchiq (xalta, xaltacha) shaklidagi

sacerdotal [ˌsækə´dəʊtl] *a* kashish (pop *yoki* ruhoniy)larga oid

sacerdotalism [ˌsækə´dəʊtəlɪz(ə)m] *n* ruhoniylar hokimiyatini tan oladigan davlat boshqarmasidagi tuzum

sachem [´seɪtʃ(ə)m] *n amer.* dohiy, sardor, qabila boshlig'i (*bir necha hind qabilalarida*)

sachet [´sæʃeɪ] *n* 1) kichkina paketcha (quticha); 2) dastro'mol solib qo'yiladigan xaltacha

sack I [sæk] **1.** *n* talash, talon-taroj qilish, o'g'irlash, o'g'irlab ketish; **to put to the ~** talab (o'g'irlab) ketmoq, talon-taroj qilib (tashib) ketmoq; **2.** *v* talamoq, o'g'irlamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq

sack II [sæk] **1.** *n* qop, to'rva; **2.** *v* qopga solmoq

sackcloth [´sækklɒθ] *n* 1) kanopdan to'qilgan mato; 2) qop-qanor tikiladigan mato; 3) dag'al kanop mato

sack-coat [´sækkəʊt] *n* ochiq (keng) palto

sackful [´sækfʊl] *n* (*biror narsa bilan*) to'ldirilgan qop; **~ of grain** bir qop g'alla bilan to'la

sacking [´sækɪŋ] *n* 1) qop-qanor tikiladigan mato; 2) qopga solish

sack-race [´sækreɪs] *n* qop ichida yugurish

sacra [´seɪkrə] *pl of* **sacrum**

sacral [´seɪkrəl] *a* 1) marosimlarga oid, marosimlarda bo'ladigan; 2) diniy marosim munosabati bilan o'tkaziladigan

sacrament [´sækrəmənt] *n cherk.* 1) sirli ibodat (*dindorlarning e'tiqodiga ko'ra, mo'jizakor ilohiy kuchga ega bo'lgan diniy marosim*); 2) ramz, belgi; 3) ont ichish, qasamyod qilish, ont, qasam

sacramental [ˌsækrə´mentl] *a* 1) diniy marosimlarda bo'ladigan (aytiladigan, qilinadigan); 2) muqaddas, aziz, mo'tabar, tabarruk

silver ['silvə] **1.** *n* kumush; **2.** *v* kumush yugurtirmoq; **3.** *a* kumush yugurtirilgan
similar ['similə] *a* o'xshash, o'xshagan, bir xil, bir xildagi
similarity [,simə'læriti] *n* o'xshashlik, bir xillik, bir xil bo'lish
similitude [si'militju:d] *n* o'xshashlik, bir xillik
simmer ['simə] *v* sekin qaynay boshlamoq, qaynamoq, qaynab chiqmoq
simper ['simpə] *n* nozli tabassum
simple ['simp(ə)l] *a* 1) oddiy, sodda; 2) qismlarga bo'linmaydigan, bo'laklarga ajralmaydigan; **a ~ fraction** oddiy kasr
simple-hearted [,simp(ə)l'hɑ:tid] *a* ochiqko'ngil, soddadil, sofdil; sodda, ko'ngilchan
simple-minded [,simp(ə)l'maindid] *a* 1) sodda, to'g'ri; 2) esi kirmagan, go'l
simpleton ['simp(ə)lt(ə)n] *n* soddadil odam, go'l odam
simplicity [sim'plisiti] *n* 1) oddiylik, soddalik; 2) soddadillik, go'llik
simplification [,simplifi'keiʃ(ə)n] *n* soddalashtirish, osonlashtirish
simplify ['simplifai] *v* soddalashtirmoq, osonlashtirmoq
simplistic [sim'plistik] *a* soddalashgan, sodda, yuzaki
simply ['simpli] *adv* osonlik bilan, osongina, qiynalmay
simulate ['simjəleit] *v* simulatsiya qilmoq, o'zini yolg'ondan biror ko'yga solmoq, mug'ambirlik qilmoq
simulation [,simjə'leiʃ(ə)n] *n* simulatsiya, o'zini yolg'ondan biror ko'yga solish, mug'ambirlik qilish
simultaneity [,sim(ə)ltə'ni:iti] *n* baravar yuz berish, ayni bir vaqtda bo'lish
simultaneous [,sim(ə)l'teiniəs] *a* bir paytda (vaqtda) bo'lgan, bo'ladigan; birdan (bir yo'la) qilinadigan; baravar yuz bergan (yuz beradigan)
sin [sin] **1.** *n* gunoh; **2.** *v* gunoh qilmoq
since [sins] **1.** *adv* shundan (o'shandan) beri; **2.** *prep.* ...dan keyin
sincere [sin'siə] *a* samimiy, sofko'ngil, sofdil, ochiqko'ngil, chin yurakdan (qalbdan) aytilgan (qilingan)
sincerely [sin'siəli] *adv* samimiylik (sofdillik) bilan, chin yurakdan
sincerity [sin'seriti] *n* samimiylik, samimiyat, ochiqko'ngillik, sofdillik
sine [sain] *n mat.* sinus (*burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga nisbati*)
sinew ['sinju:] *n* 1) pay, chandir; 2) *pl* muskullar, mushaklar
sinful ['sinf(ə)l] *a* gunohkor, gunohli; osiy
sing [siŋ] *v* (**sang; sung**) kuylamoq, ashula aytmoq
singe [sindʒ] *n* kuyish, kuyib qolish; kuydirish
singer ['siŋə] *n* 1) ashulachi, qo'shiqchi; hofiz; 2) kuychi, shoir, baxshi
singing ['siŋiŋ] *n* ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylamoq
single ['siŋg(ə)l] *a* yolg'iz, yakka
single-breasted [,siŋg(ə)l'brestid] *a* bir yoqlama tugmali
single-handed [,siŋg(ə)l'hændid] **1.** *a* 1) chetdan yordam olmay (o'z kuchi bilan) qilingan; 2) bir qo'lli, bir qo'li yo'q (*yoki* cho'loq); **2.** *adv* begona kishilarning yordamisiz
single-hearted [,siŋg(ə)l'hɑ:tid] *a* ochiq, oshkora, ro'yirost
single-minded [,siŋg(ə)l'maindid] *a* aniq bir maqsadga qaratilgan
single-seater [,siŋg(ə)l'si:tə] *n* bir o'rinli mashina *yoki* samolyot
singlet ['siŋglit] *n* 1) **fufayka** (*issiq to'qima ko'ylak*); 2) mayka
singly ['siŋgli] *adv* boshqalardan ajralgan holda, bo'lak qilib, alohida olib, boshqa-boshqa, alohida-alohida, mustaqil ravishda
singsong ['siŋsɔŋ] *a* bir ohangdagi, bir ovozli

singular ['sɪŋgjʊlə] *n gram.*: **the ~** birlik son
sinister ['sɪnɪstə] *a* 1) dahshatli, vahimali; shum; 2) badjahl, jahldor, qahrli; yovuz
sink [sɪŋk] *v* (**sank; sunk**) cho'kmoq, botmoq, g'arq bo'lmoq
sinking-fund ['sɪŋkɪŋfʌnd] *n* amortizatsiya (chegirma) fondi
sinless ['sɪnləs] *a* gunohi yo'q, gunohsiz, begunoh
sinner ['sɪnə] *n* gunohkor, osiy
sinter ['sɪntə] *n* shlak, toshqol (*1. metall eritilganda qolgan qotishma; 2. qattiq yonilg'ilarning kulga aylanmagan qoldig'i*)
sinuous ['sɪnjʊəs] *a* 1) egri-bugri, ilonizi; 2) murakkab, og'ir; 3) ayyor, mug'ambir, nosamimiy
sinus ['saɪnəs] *n* (*pl* **-es** [-z]) 1) *anat.* bo'shliq (*tananing biror organidagi bo'shliq*); 2) *tib.* teshik yara, yara teshigi
sip [sɪp] *v* ho'plamoq, ho'plab qo'ymoq, sekin-asta (oz-ozdan) ichmoq, qultumlab (oz-ozdan ho'plab, mazasini totib) ichmoq
siphon ['saɪf(ə)n] *n* sifon (*yuqoriroqdagi idishdan pastroqdagi idishga suyuqlik o'tkazadigan bukik naycha*)
sir [sɜ:] *n* janob, taqsir (*murojaatda*)
siren ['saɪ(ə)rən] *n* 1) sirena (*yunon afsonalarida: boshi ayol, tanasi qush qiyofasidagi suv parisi*); 2) havo xatarining signali (ishorasi)
sirloin ['sɜ:lɔɪn] *n* lahm go'sht, suyaksiz go'sht
siskin ['sɪskɪn] *n zool.* sa'va
sissy ['sɪsɪ] *n* xotinchalish erkak
sister ['sɪstə] *n* opa, singil
sisterly ['sɪstəlɪ] *a* opa-singillarcha
sit [sɪt] *v* (**sat**) o'tirmoq; **to ~ down** o'tirmoq
site [saɪt] *n* turgan joy, o'rnashgan (ishg'ol qilgan) joy, joylashgan joy
sitter-in [ˌsɪtər 'ɪn] *n* enaga, bolaga qarovchi ayol
sitting ['sɪtɪŋ] *n* yig'ilish, kengash, majlis
sitting-room ['sɪtɪŋru:m, -rʊm] *n* mehmonxona
situate ['sɪtjʊeɪt] *v* o'rnatmoq, joylashtirmoq
situated ['sɪtjʊeɪtɪd] *a* joylashgan, joylashtirilgan
situation [ˌsɪtjʊ'eɪʃ(ə)n] *n* ahvol, vaziyat, sharoit
six [sɪks] *num. card.* olti; **~teen** o'n olti; **~th** oltinchi
six-shooter [ˌsɪks'ʃu:tə] *n* olti o'qli to'pponcha
sixtieth ['sɪkstɪɪθ] *num. ord.* oltmishinchi
sixty ['sɪkstɪ] *num. card.* oltmish
sizable ['saɪzəb(ə)l] *n* katta (*o'lcham*)
size [saɪz] *n* o'lcham, katta-kichiklik
sizzle ['sɪz(ə)l] *n* vishillash, pishillash, shipillash, vijillash, vij-vij
skate [skeɪt] *v* konkida uchmoq
skateboard ['skeɪtbɔ:d] *n* g'ildirakli taxta, skeytbord
skating ['skeɪtɪŋ] *n* konkida uchish
skating-rink ['skeɪtɪŋrɪŋk] *n* yaxmalak, konki uchadigan joy
skeleton ['skelɪtn] *n* gavda suyaklari, skelet
skeptic ['skeptɪk] = **sceptic**
sketch [sketʃ] *n* eskiz, xomaki chizma (reja)
sketchy ['sketʃɪ] *a* 1) xomaki; 2) umumiy tarzda berilgan (tasvirlangan, ko'rsatilgan); 3) chala-chulpa, noto'la
skew [skju:] *n* qiyalik, nishab, nishablik
skewbald ['skju:bɔ:ld] *a* chavkar, ola
skewer ['skju:ə] **1.** *n* kichkina kabob sixi; **2.** *v* sanchmoq, tiqmoq
skew-eyed [ˌskju:'aɪd] *a* g'ilay; ko'zi qisiq
ski [ski:] **1.** *n* chang'i; **2.** *v* chang'ida yurmoq (uchmoq)
skid [skɪd] *n* 1) *tex.* tormoz boshmog'i; 2) chananing oyog'i (sirg'alib yuruvchi qismi)
skier ['ski:ə] *n* chang'i
skiff [skɪf] *n* ikki *yoki* to'rt eshkakli qayiq
skiing ['ski:ɪŋ] *n* chang'i sporti
skilful ['skɪlf(ə)l] *a* usta, mohir, mahoratli, ishbilarmon, omilkor, ustasi farang
skilfully ['skɪlfʊlɪ] *adv* ustalik bilan, mohirlik bilan, mohirona
skill [skɪl] *n* mahorat, san'at, mohirlik, ustalik
skilled [skɪld] *a* mohir, tajribali, malakali, mahoratli
skim [skɪm] *v* (*ko'pik va sh. k. ni*) ajratib olmoq, ajratib (olib) tashlamoq
skimmer ['skɪmə] *n* 1) kapgir, chovli; 2) suv keskich (*kemaning tumshug'i*)
skimp [skɪmp] *v* qizg'anmoq, xasislik qilmoq, qizg'anchiqlik qilmoq
skin [skɪn] **1.** *n* teri, po'st; **2.** *v* terisini (po'stini) olmoq, shilmoq
skin-deep [ˌskɪn 'di:p] *a* yuzaki, sirtqi, ustki
skinflint ['skɪnflɪnt] *n* o'taketgan xasis (ziqna) odam, qurumsoq
skin-grafting ['skɪnˌgrɑ:ftɪŋ] *n tib.* terining bir qismini kesib olib boshqa joyga ulash
skinner ['skɪnə] *n* 1) terichi; 2) mo'ynado'z
skinny ['skɪnɪ] *a* oriq, ozg'in, qotma
skin-tight [ˌskɪn 'taɪt] *a* badanga (gavdaga) yopishib turadigan, tanani siqib turadigan, xipcha (*kiyim to'g'risida*)
skip [skɪp] *v* 1) o'tkazib yubormoq; 2) sakramoq
skipper ['skɪpə] *n* (*savdo kemasining*) kapitani
skipping-rope ['skɪpɪŋrəʊp] *n* skakalka, sakramachoq o'ynaydigan arg'amchi
skirmish ['skɜ:mɪʃ] *n* 1) otishma, otishish; 2) to'qnashuv
skirt [skɜ:t] *n* yubka (*xotin-qizlar ko'ylagining beldan pastki qismi*)
skirting(-board) ['skɜ:tɪŋ(-bɔ:d)] *n qur.* chaspak (*pol bilan devor oralig'idagi yoriqni berkitib turadigan uzun, ingichka taxta*)
skit I [skɪt] *n* 1) hazil, masxaralash; 2) hajviy asar
skit II [skɪt] *n* ko'pdan ko'p, juda ko'p, ko'pgina, anchagina, bir talay
skittle ['skɪtl] *n pl* kegli (*ma'lum tartibda tikilgan figuralarni shar yumalatib urib yiqitish o'yini*)
skive [skaɪv] *v* qirqmoq, kesmoq, tilmoq
skulk [skʌlk] *v* yashirinmoq, bekinmoq, ko'zga ko'rinmay yurmoq
skull [skʌl] *n* bosh suyagi; **a ~ cap** do'ppi
skunk [skʌŋk] *n zool.* skuns (*Amerika sassiqkuzani va uning mo'ynasi*)
sky [skaɪ] *n* osmon; **~ line** ufq, osmon etagi
sky-blue [ˌskaɪ 'blu:] **1.** *n* ko'm-ko'k rang (tus), havorang bo'yoq; **2.** *a* havorang, moviy, ko'm-ko'k
sky-high [ˌskaɪ 'haɪ] **1.** *a* baland, osmonga yetadigan; **2.** *adv* juda ham baland, osmongacha
skylark ['skaɪlɑ:k] **1.** *n zool.* to'rg'ay, so'fito'rg'ay; **2.** *v* ermak qilmoq, ovunmoq, vaqtini chog' qilmoq
skylight ['skaɪlaɪt] *n* oyna solingan tom, oynali tom
sky-scraper ['skaɪˌskreɪpə] *n* osmono'par imorat, ko'p qavatli baland bino
skyward(s) ['skaɪwəd(z)] *adv* osmonga, samoga, falakka
slab [slæb] *n* 1) plita, toshtaxta; 2) bo'lak, parcha, burda; **a ~ of cheese** bir parcha sir
slack [slæk] *a* sust, lanj, juda horigan, charchagan, holdan toygan, darmonsizlangan
slacken ['slækən] *v* susaytirmoq, darmonsizlantirmoq, kuchsizlantirmoq
slacks [slæks] *n pl* keng shim
slag [slæg] *n* metall zaki, to'pon; toshqol
slag heap ['slæghi:p] *n* bir to'da toshqol (*toshqol – qattiq yonilg'ilarning kulga aylanmagan qoldig'i*)
slain [sleɪn] *p. p. of* **slay**

slake [sleɪk] *v* chanqog'ini bosmoq, ichimlikka qondirmoq
slalom ['slɑ:ləm] *n sport.* slalom (*chang'ida tepalikdan tushish sporti*)
slam [slæm] **1.** *n* (*eshikning*) qarsillashi, tarsillashi; **2.** *v* (*eshikni*) qarsillatib ochmoq *yoki* yopmoq
slander ['slɑ:ndə] **1.** *n* bo'hton, tuhmat, g'iybat; **2.** *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq, g'iybat qilmoq; **~er** chaqimchi, bo'htonchi, tuhmatchi
slang [slæŋ] *n* jargon (*faqat ma'lum guruh kishilari tushunadigan shartli til*)
slangy ['slæŋɪ] *a* jargonga xos, jargon...
slant [slɑ:nt] *n* qiyalik, nishab, yonbag'ir
slanting ['slɑ:ntɪŋ] *a* qiya, nishab
slap [slæp] **1.** *n* shapaloq, tarsaki, shappati; **2.** *v* tarsaki *yoki* shapaloq solmoq (tushirmoq)
slapdash ['slæpdæʃ] *a* shoshilinch (tez) qilinadigan, o'ylab-netmay qilingan, pala-partish ish qiladigan
slapstick ['slæp,stɪk] *n* pashsha urgich
slap-up ['slæpʌp] *a* kelishgan, ko'rkam, zebo, shinam; hashamatli, muhtasham
slash I [slæʃ] *v* 1) kesib yubormoq, chuqur yaralamoq; 2) urmoq, savalamoq; 3) qisqartirmoq, kamaytirmoq
slash II [slæʃ] *n amer.* botqoqlik, botqoq
slat [slæt] *n* 1) uzun taxtacha; yupqa taxta; 2) *pl* qovurg'a
slate [sleɪt] *n* 1) slanes (*tog' jinsi*); shifer plitasi; 2) toshtaxta (*toshqalam bilan yoziladigan taxta*)
slate-pencil [,sleɪt 'pens(ə)l] *n* toshqalam
slattern ['slætən] *n* isqirt odam, iflos
slatternly ['slætənlɪ] *a* iflos, kir, isqirt
slaughter ['slɔ:tə] *n* 1) qirg'in, qirpichoq (bo'lish), xunrezlik; 2) mollarni so'yish
slaughter-house ['slɔ:təhaʊs] *n* 1) kushxona; 2) qirg'in, xunrezlik qilingan joy
Slav [slɑ:v] *n* 1) slavyan; 2) slavyan ayol
slave [sleɪv] *n* qul, asir, bandi, mahbus
slaver I ['sleɪvə] **1.** *n* 1) so'lakay, tupuk; 2) qo'pol maqtov; **2.** *v* so'lak oqizmoq
slaver II ['sleɪvə] *n* quldor, qulfurush, qul sotuvchi, qul savdosi bilan shug'ullanuvchi kishi
slavery ['sleɪv(ə)rɪ] *n* qullik, quldorlik
slavish ['sleɪvɪʃ] *a* ko'r-ko'rona; qullarcha xushomadgo'ylik bilan; **~ imitation** ko'r-ko'rona taqlid qilish
slaw [slɔ:] *n amer.* to'g'ralgan karamdan qilingan salat
slay [sleɪ] *v* (**slew; slain**) o'ldirmoq, so'ymoq
sleazy ['sli:zɪ] *a* nozik, bo'sh, chidamsiz, pishiq (puxta) emas
sled [sled] *n* chana
sledge [sledʒ] *n* chana
sleek [sli:k] *a* silliq, tekis, tep-tekis
sleep [sli:p] **1.** *n* 1) uyqu, uxlash; 2) tush, tush ko'rish; **to go to ~** uyquga ketmoq; **to get a ~** biroz uxlab olmoq; **2.** *v* (**slept**) uxlamoq, uyquga ketmoq
sleeping-bag ['sli:pɪŋbæg] *n* qopko'rpa (*sovuq joylarda ichiga kirib yotiladigan qopsimon ko'rpa*)
sleeping-car ['sli:pɪŋkɑ:] *n* uxlab (yotib) ketiladigan vagon
sleeping-draught ['sli:pɪŋdrɑ:ft] *n* uyqu dori
sleeping-pills ['sli:pɪŋpɪlz] *n pl* uyqu dori, uxlatadigan dori
sleeping-sickness ['sli:pɪŋ,sɪknəs] *n tib.* uyqu kasali
sleepless ['sli:pləs] *a* uyqusiz, uyqusi yo'q, uyqusi qochgan, bedor
sleeplessness ['sli:plɪsnəs] *n* uyqusizlik, bedorlik; uyqusizlik kasali
sleep-walker ['sli:p,wɔ:kə] *n* oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*)
sleepy ['sli:pɪ] *a* uyquli, seruyqu, uyqudan bosh ko'tarmaydigan; uyqudagi
sleet [sli:t] *n* 1) qorli yomg'ir; ho'l qor; 2) (*yo'lda, daraxtda va h. k.*) muz qoplami, yax
sleety ['sli:tɪ] *a* yog'ingarchilik (namgarlik) ko'p bo'lgan, seryog'in, shilta loy
sleeve [sli:v] *n* yeng; **to turn up one's ~s** yenglarni shimarmoq
sleigh [sleɪ] *n* chana
sleigh-bell ['sleɪbel] *n* shiqildoq, qo'ng'iroqcha
slender ['slendə] *a* 1) nozik, ozg'in, ingichka; 2) oz, kam, ozgina, kamchil, tanqis; **~ income** arzimagan daromad; **~ hope** unchalik qat'iy bo'lmagan ishonch; ozgina umid
slept [slept] *past., p. p. of* **sleep**
sleuth-hound ['slu:θhaʊnd] *n* iskovuch it
slew I [slu:] *n* burilish, muyulish
slew II [slu:] *past. of* **slay**
slice [slaɪs] *n* burda, kesim, tilim
slick [slɪk] *a* 1) tekis, tep-tekis, silliq; 2) sirpanchiq; 3) ayyor; nosamimiy
slid [slɪd] *past., p. p. of* **slide**
slide [slaɪd] *v* (**slid**) toymoq, sirpanmoq
slight I [slaɪt] *v* kamsitmoq, mensimay qaramoq
slight II [slaɪt] *a* 1) ozg'in, ingichka; nozik; 2) kuchsiz, sal-pal, ozgina, ahamiyatsiz, jiddiy bo'lmagan; yengilgina; 3) uncha chuqur bo'lmagan, sayoz, yuzaki
slightly ['slaɪtlɪ] *adv* biroz, andak, yengilgina, sal, sal-pal, xiyol
slim [slɪm] *a* kelishgan, xushbichim; qomati raso; yupqa, ingichka
slime [slaɪm] *n* shilimshiq, shilliq
slimy ['slaɪmɪ] *a* shilliqqa (shilimshiqqa) oid, shilimshiq bilan qoplangan
sling I [slɪŋ] **1.** *n* 1) palaxmon; sopqon; 2) irg'itish, uloqtirish, otish, otib (itarib) yuborish; **2.** *v* 1) irg'itmoq, uloqtirmoq, otmoq; 2) palaxmondan otmoq
sling II [slɪŋ] *n amer.* muskat (*uzum navi va undan tayyorlangan vino*); muskat yong'og'i, shakar va suvdan tayyorlangan ichimlik
slink I [slɪŋk] *v* yashirincha (bilintirmasdan, sezdirmasdan) bormoq
slink II [slɪŋk] *n* chala tug'ilgan bola (*hayvonlar haqida*)
slip [slɪp] *v* toymoq, sirpanmoq, sirg'anmoq; **my foot ~ped** mening oyog'im toyib ketdi
slipper ['slɪpə] *n* 1) uybop (uyda kiyiladigan) tufli; tapochka, shippak; 2) tormoz boshmog'i
slippery ['slɪp(ə)rɪ] *a* 1) sirg'anchiq, sirpanchiq, silliq; 2) abjir, epchil, chaqqon; 3) ishonib bo'lmaydigan odam, ishonchsiz odam
slipshod ['slɪpʃɔd] *a* beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz, pala-partish ish qiladigan
slit [slɪt] *n* kovak, tirqish, yoriq
slither ['slɪðə] *v* sirg'anmoq, sirpanmoq; toymoq
sliver ['slɪvə] *n* mayda tarasha; payraha, tutantiriq
slob [slɔb] *n* botqoq, loy, balchiq
slobber ['slɔbə] *n* so'lakay, tupuk
sloe [sləʊ] *n bot.* tyorn (*mevali va mayda olxo'riga o'xshagan buta o'simlik hamda shu o'simlik mevasi*)
slog [slɔg] *n* kuchli zarba, qattiq zarba
slogan ['sləʊgən] *n* shior, chaqiriq, da'vat
slop I [slɔp] *n* 1) yuvundi; 2) *so'zl.* suyuq ovqat; 3) pivo; 4) ko'lmak, ko'lob, xalqob; 5) shilta loy; 6) erigan qor; 7) isqirt odam, isliqi
slop II [slɔp] *n* (*odatda, pl*) 1) maxsus ish kiyimi, korjoma; 2) tayyor arzon kiyim
slope [sləʊp] *n* qiyalik, nishab, yonbag'ir; **the ~ of a roof** tomning nishabi
slop-pail ['slɔppeɪl] *n* yuvundi chelak
sloppy ['slɔpɪ] *a* 1) serko'lmak; 2) suv bosgan, suv ostida qolgan
slosh [slɔʃ] = **slush**
slot I [slɔt] *n* kichkina (torgina) teshikcha, tirqish, kovak
slot II [slɔt] *n* bug'u izi
sloth [sləʊθ] *n* dangasalik, yalqovlik, tanballik, erinchoqlik

slot-machine [ˈslɒtməˌʃi:n] *n* savdo avtomati; o'yin avtomati
slouch [slaʊtʃ] *n* 1) beso'naqay yurish; 2) egilganlik; bukchayganlik; yelkasi chiqqanlik
sloven [ˈslʌv(ə)n] *n* isqirt odam
slovenly [ˈslʌv(ə)nlɪ] *a* isqirt
slow [sləʊ] *a* sekin, sust
slowly [ˈsləʊlɪ] *adv* sekinlik bilan, shoshilmay, imillab
slowness [ˈsləʊnəs] *n* sekinlik, shoshilmaslik, imillash
slow-witted [ˌsləʊˈwɪtɪd] *a* befahm, esi past, anqov
sludge [slʌdʒ] *n* 1) quyuq loy; 2) muzparda; 3) loyqa, balchiq
sludgy [ˈslʌdʒɪ] *a* 1) iflos, bulg'anch; loy; 2) serloyqa, serbalchiq, balchiqli
slug [slʌg] *n zool.* shilliq qurt (*molluska*)
sluggard [ˈslʌgəd] *n* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas
sluggish [ˈslʌgɪʃ] *a* sekinlik bilan sodir bo'ladigan, sekin, sust
sluice [slu:s] **1.** *n* shluz (*suv sathi turli bo'lgan bir joydan ikkinchi joyga kemalarni o'tkazish uchun xizmat qiluvchi gidrotexnik inshoot*); **2.** *v* shluzdan o'tkazmoq
slum [slʌm] *n* kulba, vayrona
slumber [ˈslʌmbə] *n* uyqu; uxlash; mudroq, pinak, mudrash
slump [slʌmp] *n* narx-navoning keskin pasayishi (tushishi, kamayishi)
slung [slʌŋ] *past., p. p. of* **sling I, 2**
slunk [slʌŋk] *past., p. p. of* **slink I**
slur [slɜ:] *n* 1) obro'ga tushirilgan dog'; 2) tuhmat qilib ayblash; 3) (*tovush, so'zlarni*) tushunarsiz talaffuz qilish
slurp [slɜ:p] *v* chapillatib chaynamoq, chapillatmoq
slush [slʌʃ] *n* 1) botqoq, loy, balchiq; 2) erigan qor
slut [slʌt] *n* 1) isqirt xotin; 2) fohisha, buzuq
sluttish [ˈslʌtɪʃ] *a* isqirt, palpis
sly [slaɪ] *a* ayyor, makkor, hiylagar, firibgar, mug'ambir
slyness [ˈslaɪnəs] *n* hiyla, makr, shaytonlik, mug'ambirlik, ayyorlik
smack I [smæk] *n* ta'mni (mazasini) sezish, ta'm sezgisi
smack II [smæk] *n* chapillatib o'pish, chapillatish
small [smɔ:l] *a* kichik, katta bo'lmagan, kichkina; **a ~ boy** yosh bola, kichkintoy
small arms [ˈsmɔ:lɑ:mz] *n pl* otish quroli
small-minded [ˌsmɔ:lˈmaɪndɪd] *a* 1) past, pastkash, nazari past, mayda gap; 2) tor, uzoqni o'ylab qilinmagan
smallpox [ˈsmɔ:lpɒks] *n tib.* chechak (*kasallik*)
smart [smɑ:t] *a* aqlli, dono, topqir, hozirjavob
smarten [ˈsmɑ:t(ə)n] *v* 1) bezamoq, yaxshilamoq; tartibga solmoq; 2) dadillashmoq, ruhlanmoq (**up**)
smartness [ˈsmɑ:tnəs] *n* dadillik, epchillik, uddaburonlik
smash [smæʃ] *n* 1) gumburlash, gumbur-gumbur (taraq-turuq) ovoz; 2) halok (nobud) bo'lish, yo'q bo'lish; 3) halokat, baxtsizlik, fojia; 4) sinish, bankrot (barbod) bo'lish
smashing [ˈsmæʃɪŋ] *a* yakson qiladigan, yanchib tashlaydigan, qaqshatqich; **a ~ blow** qaqshatqich zarba
smattering [ˈsmæt(ə)rɪŋ] *n* 1) sayoz bilim; 2) *so'zl.* oz miqdor
smear [smɪə] **1.** *n* 1) yopishqoq narsa; 2) dog', isnod; 3) tuhmat, bo'hton, g'iybat; 4) sharmandalik, badnomlik; **2.** *v* 1) (qalin qilib) surtmoq; 2) iflos qilmoq, dog' tushirmoq; 3) sharmanda qilmoq, uyatga qoldirmoq, badnom qilmoq
smell [smel] **1.** *n* hid, is; **2.** *v* (**smelt**) 1) hidlamoq; 2) hid taratmoq
smelling-bottle [ˈsmelɪŋˌbɒtl] *n* burunga tortiladigan tuz solingan kichkina shishacha
smelling-salts [ˈsmelɪŋsɔ:lts] *n* burunga tortiladigan tuz
smelt I [smelt] 1. *n* eritish; metall eritish; **2.** *v* metall eritmoq
smelt II [smelt] *past., p. p. of* **smell 2**
smile [smaɪl] **1.** tabassum; **2.** *v* tabassum qilmoq
smirch [smɜ:tʃ] **1.** *n* 1) dog', qashqa; 2) dog', isnod; **2.** *v* 1) dog' tegizmoq, dog' qilmoq; 2) dog' tushirmoq, isnod keltirmoq, sharmanda qilmoq
smirk [smɜ:k] *n* o'zidan (o'z ishidan) xursand, mag'rur bo'lib kulmoq, tirjaymoq
smite [smaɪt] *v* (**smote; smitten**) 1) urmoq, tushirmoq, mushtlamoq; 2) chilparchin qilmoq, buzmoq, qulatmoq
smithereens [ˌsmɪðəˈri:nz] *n pl* parchalar, bo'laklar, siniqlar
smithy [ˈsmɪðɪ] *n* 1) temirchilik ishxonasi; 2) *amer.* temirchi; taqachi
smitten [ˈsmɪt(ə)n] *p. p. of* **smite**
smock [smɒk] *n* 1) bolalar korjomasi; 2) ish xalati, maxsus kiyim
smog [smɒg] *n* chang, yonilg'i bug'i aralashmasidan iborat zaharlangan havo
smoke [sməʊk] **1.** *n* 1) tutun, qurum, qorakuya, is; 2) chekish; **to have a ~** chekmoq; **2.** *v* chekmoq, tutatmoq
smoked [sməʊkt] *a* 1) kulrang, ko'kish; 2) is (dud) bosgan; 3) dudlangan, qoq; **~ fish** dudlangan baliq
smoker [ˈsməʊkə] *n* kashanda odam, chekadigan kishi
smoke-screen [ˈsməʊkskri:n] *n harb.* dud niqob, tutun parda
smoking [ˈsməʊkɪŋ] *n* tutash, tutab yonish
smoking-carriage [ˈsməʊkɪŋˌkærɪdʒ] *n* chekuvchilar uchun belgilangan vagon
smoky [ˈsməʊkɪ] *a* tutayotgan, tutab turgan
smolder [ˈsməʊldə] *v* tutunsiz sekin yonmoq; miltillab yonmoq
smooth [smu:ð] **1.** *a* 1) tekis, ravon, silliq; 2) ravon; sokin; 3) ravon, yengil, yoqimli (*talaffuz*); 4) tilyog'lama, shirin; **2.** *v* 1) silliqlamoq, tekislamoq; 2) bartaraf qilmoq, hal qilmoq; 3) dazmollamoq; 4) (**~ down**) xotirjam qilmoq (bo'lmoq), tinchlan(tir)moq
smoothfaced [ˌsmu:ðˈfeɪst] *a* soch-soqoli olingan, qirilgan
smoothly [ˈsmu:ðlɪ] *adv* 1) tekislab, silliq qilib, tep-tekis; 2) tutilmasdan, qiynalmasdan, ravon, silliq
smoothness [ˈsmu:ðnəs] *n* 1) tekislik, silliqlik; 2) ravonlik
smooth-tongued [ˌsmu:ðˈtʌŋd] *a* xushtakallum, shirinso'z, gapi shirin, xushomadgo'y
smote [sməʊt] *past. of* **smite**
smother [ˈsmʌðə] *v* 1) bo'g'moq, nafasini qaytarmoq; 2) harsillamoq; 3) (*yong'inni*) o'chirmoq
smoulder [ˈsməʊldə] *v* tutunsiz sekin yonmoq, lip-lip yonib turmoq, miltillab yonmoq
smudge I [smʌdʒ] *v* 1) bulg'amoq, kir (iflos) qilmoq; ifloslanmoq; 2) (obro'-siga) dog' tushirmoq, isnod keltirmoq
smudge II [smʌdʒ] *v amer.* 1) dudlamoq, tutun ushlamoq; 2) tutatmoq
smug [smʌg] *a* 1) o'z ishidan xursand, mag'rur; 2) o'taketgan rasmiyatchi, qoidaparast, rasmiy, jiddiy
smuggle [ˈsmʌg(ə)l] *v* kontrabanda bilan shug'ullanmoq
smuggler [ˈsmʌglə] *n* kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi
smuggling [ˈsmʌglɪŋ] *n* kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazish*)
smugly [ˈsmʌglɪ] *adv* mag'rurlik bilan, mag'rurlanib, mag'rurona
smugness [ˈsmʌgnəs] *n* mag'rurlik, o'ziga ishonib ketish
smut [smʌt] *n* 1) qurum, qorakuya; 2) beadablik, uyatlik, yomonlik; 3) *q. x.* zang kasali, qorakuya
snack [snæk] *n* gazak; **to have a ~** tamaddi qilib olmoq

snack bar [ˈsnækbɑ:] *n* gazakxona, yemakxona
snag [snæg] **1.** *n* 1) suvga botgan (cho'kkan) daraxt, to'nka, cho'kindi yog'och; 2) ishkallik, chatoqlik, qiyinchilik, g'ov, to'siq; **2.** *v* 1) (*daryo va sh. k. ni*) shoxshabbalardan tozalamoq; 2) xalal bermoq, qiyinchilik tug'dirmoq; 3) ushlab olmoq, tutib olmoq; 4) ilinmoq, ilinib qolmoq, ilashib qolmoq
snail [sneɪl] *n* 1) shilliq qurt, chig'anoq; 2) *so'zl.* imildoq, sekin yuradigan, sekin yurar; 3) *tex.* spiral, burama sim
snake [sneɪk] *n* 1) *zool.* ilon; 2) o'z so'zida turmaydigan kishi, xoin, pastkash
snaky [ˈsneɪkɪ] *a* 1) ilonga oid; 2) ilon izi; 3) makkor
snap [snæp] *v* 1) chaqmoq, tishlamoq, qopmoq, tishlab (qopib, chaqib) olmoq; 2) ushlab olmoq, tutib olmoq
snappish [ˈsnæpɪʃ] *a* tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl
snapshot [ˈsnæpʃɔt] *n* surat, fotosurat
snare [sneə] **1.** *n* tuzoq, qopqon, pistirma; **2.** *v* qopqon qo'yib tutmoq
snarl I [snɑ:l] *n* irillash, bo'kirish, o'kirish, hayqirish
snarl II [snɑ:l] *n* chigal (chalkash-chulkash) ip
snatch [snætʃ] *v* ushlamoq, tutmoq, yopishmoq; ilmoq
snatchy [ˈsnætʃɪ] *a* uzuq-yuluq, qisqa-qisqa, bo'linib-bo'linib chiqqan (eshitilgan); chala-chulpa, uzilgan
sneak [sni:k] **1.** *n so'zl.* qo'rqoq, yuraksiz; yaramas odam, ablah; **2.** *v* sekin-asta (bekinib) bormoq
sneakers [ˈsni:kəz] *n pl* tapochka, shippak
sneaking [ˈsni:kɪŋ] *a* 1) razil, qabih, yaramas, pastkash; 2) yashirin, maxfiy
sneer [snɪə] *n* masxara (mazax, mayna) qilish
sneeze [sni:z] **1.** *n* aksirish; **2.** *v* aksirmoq
snide [snaɪd] *a* 1) qalbaki, yasama, soxta; 2) vijdonsiz, qallob, muttaham
sniff [snɪf] *n* shipillash, shipillagan ovoz, pish-pish
sniffle [ˈsnɪf(ə)l] *n* 1) pishillash, pish-pish qilish, pishillagan ovoz, pish-pish; 2) tumov
snigger [ˈsnɪgə] *v* qiqillab (hingillab) kulmoq, qiqirlamoq, hingillamoq
snip [snɪp] *n* kertik, kesik, tilingan (kesilgan) joy
snipe [snaɪp] *n zool.* loyxo'rak (*qush*)
sniper [ˈsnaɪpə] *n* mergan otuvchi
snippet [ˈsnɪpɪt] *n* parcha, bo'lak, kesik, laxtak
snivel [ˈsnɪv(ə)l] *v* hiqillamoq, hiqillab yig'lamoq
snob [snɔb] *n* olifta (xudbin) kishi
snobbery [ˈsnɔb(ə)rɪ] *n* quruq oliftagarchilik
snobbish [ˈsnɔbɪʃ] *a* quruq oliftagarchilikka oid; xudbinlikka oid
snook [snu:k] *n* „uzun burun" (*masxara qilish uchun ko'rsatiladigan qiliq*)
snooker [ˈsnu:kə] *n* bilyard o'yinining bir turi
snoop [snu:p] *so'zl.* **1.** *n* doimo birovning ishiga burnini tiqadigan kishi; **2.** *v* birovning ishiga burnini tiqmoq
snooty [ˈsnu:tɪ] *a so'zl.* nafratli, jirkanch
snooze [snu:z] *v so'zl.* ko'zi uyquga ketmoq, mudramoq, mijja qoqmoq
snore [snɔ:] **1.** *n* xurrak; **2.** *v* xurrak otmoq, xurrak otib uxlamoq
snort [snɔ:t] *n* pishqirish; pishqiriq, xirillash
snot [snɔt] *n* mishiq, mishiriq
snout [snaʊt] *n* aft, angor, turq, bashara, tumshuq
snow [snəʊ] *n* qor; **~man** qorbobo; **~y** qorli; **~storm** qor bo'roni
snowball [ˈsnəʊbɔ:l] *n* yumaloqlangan qor
snow-bound [ˈsnəʊbaʊnd] *a* qor qoplangan, qor bosgan
snow-drift [ˈsnəʊdrɪft] *n* qor uyumi, qortepa
snowdrop [ˈsnəʊdrɔp] *n bot.* boychechak
snow-fall [ˈsnəʊfɔ:l] *n* 1) qor yog'ish, qor yog'ishi; 2) qor ko'rinishidagi yog'in miqdori
snow-flake [ˈsnəʊfleɪk] *n* qor uchquni; qor parchasi, pag'asi
snow-plough [ˈsnəʊplaʊ] *n* qor kuraydigan mashina, qor kuragich, qor tozalagich
snow-storm [ˈsnəʊstɔ:m] *n* qor bo'roni, bo'ron, izg'irin, izg'iriq
snow-white [ˌsnəʊˈwaɪt] *a* qordek (paxtadek) oq, oppoq
snowy [ˈsnəʊɪ] *a* qorli, qordan bo'lgan, serqor
snub I [snʌb] *n* 1) muvaffaqiyatsizlik; 2) sharmandayi sharmisor bo'lish
snub II [snʌb] *a* ko'tarilgan, qanqaygan; **a ~ nose** qanqaygan burun
snub-nosed [ˌsnʌb ˈnəʊzd] *a* puchuq, qanqaygan; burni puchuq
snuff I [snʌf] *n* 1) burunaki tamaki; 2) tamaki hidlash
snuff II [snʌf] *n* shamning so'xtasini olib tashlamoq
snuff-box [ˈsnʌfbɔks] *n* tamakidon, tamaki quti; nosqovoq
snuffers [ˈsnʌfəz] *n pl* otashkurak
snuffle [ˈsnʌf(ə)l] *n* pishillash, pish-pish qilish, shipillagan ovoz
snug [snʌg] *a* o'ng'ay, qulay, orom beradigan, shinam
snuggle [ˈsnʌg(ə)l] *v* qulay joylashmoq
so [səʊ] *adv* 1) demak, shunday qilib; 2) shuncha, shunchalik, shu qadar
soak [səʊk] **1.** *n* ho'llash, namlash, ivitish; **to give a ~** namlamoq; **2.** *v* 1) shimib olmoq, singdirmoq; 2) ivitmoq, namlamoq, ho'llamoq
soaking [ˈsəʊkɪŋ] *n* ivish, bo'kish, ho'l (nam) bo'lish
so-and-so [ˈsəʊən(d)səʊ] *n* falonchi, falon kishi, falon narsa, falon ish
soap [səʊp] *n* sovun; **a bar of ~** bir bo'lak sovun
soap-box [ˈsəʊpbɔks] *n* sovun quti
soap-bubble [ˈsəʊpˌbʌb(ə)l] *n* 1) sovun pufagi; 2) *ko'ch.* sovun pufagidek asossiz, puch narsa
soap-suds [ˈsəʊpsʌdz] *n* 1) sovun ko'pigi; 2) mag'zava, kir yuvundi
soapy [ˈsəʊpɪ] *n* 1) sovunga oid; sovunli; sovun...; 2) *so'zl.* tilyog'lama, ayyor
soar [sɔ:] *v* (*qanotlarini kerib*) uchmoq, parvoz qilmoq; baland uchmoq
sob [sɔb] *v* 1) ho'ngrab (o'pkasi to'lib) yig'lamoq, zor-zor yig'lamoq, qattiq bo'zlamoq; 2) xo'rsinib yig'lamoq, hiqillab (hiq-hiq) yig'lamoq
sober [ˈsəʊbə] *a* 1) mast emas, hushyor; 2) nafsi tiyiq, sabr-qanoatli; 3) bamaˈni, aqlli, mulohazali, andishali, o'ylab (aql bilan) ish qiladigan
sobriety [sə ˈbraɪətɪ] *n* 1) hushyorlik, mast emaslik; 2) o'rtachalik, mo'tadillik
sobriquet [ˈsəʊbrɪkeɪ] *n fr.* laqab, nom
so-called [ˌsəʊ ˈkɔ:ld] *a* shunday deb nomlanadigan
soccer [ˈsɔkə] *n* futbol; **a ~ player** futbolchi
sociability [ˌsəʊʃ(ɪ)ə ˈbɪlɪtɪ] *n* odamga el bo'lish, kirishimlilik, dilkashlik
sociable [ˈsəʊʃ(ɪ)əb(ə)l] *a* odamga el bo'ladigan, kirishimli, dilkash
social [ˈsəʊʃ(ə)l] *a* ijtimoiy, jamiyatga (jamoatga) oid; **~ science** sotsiologiya, jamiyatshunoslik; **~ security** ijtimoiy ta'minot
socialism [ˈsəʊʃ(ə)lɪz(ə)m] *n tar.* sotsializm (*maqsadi ijtimoiy adolatni, erkinlik va tenglikni amalga oshirishdan iborat bo'lgan ta'limot*)
socialist [ˈsəʊʃ(ə)lɪst] **1.** *a* sotsialistik; **2.** *n* sotsialist
socially [ˈsəʊʃ(ə)lɪ] *adv* ijtimoiy jihatdan, jamiyat nuqtayi nazaridan, jamiyat uchun
society [sə ˈsaɪətɪ] *n* jamiyat
sociological [ˌsəʊsɪə ˈlɔdʒɪk(ə)l] *a* sotsiologiyaga oid, sotsiologiya...

sociologist [ˌsəʊsɪ ˈɒlədʒɪst] *n* sotsiolog, jamiyatshunos
sock [sɒk] *n* 1) paypoq; 2) patak
socket [ˈsɒkɪt] *n* 1) cho'nqir yer ichiga botgan (kirgan) joy; chuqurcha, chuqur; 2) *el.* (*lampa*) patroni, rozetka
sod I [sɒd] *past of* **seethe**
sod II [sɒd] *n* chim, chimzor
soda [ˈsəʊdə] *n* soda (*karbonat kislotasining natriyli tuzi*)
sodden I [ˈsɒdn] *a* ivigan, nam bo'lgan, ho'l, nam
sodden II [ˈsɒdn] *p. p. of* **seethe**
sodium [ˈsəʊdɪəm] *n kim.* natriy
sofa [ˈsəʊfə] *n* divan
soft [sɒft] *a* yumshoq; ~ **palate** yumshoq tanglay
soft drink [ˈsɒftdrɪŋk] *n* spirtsiz ichimlik
soften [ˈsɒf(ə)n] *v* yumshatmoq, muloyimlashtirmoq, yumshoq (mayin) qilmoq
soft-headed [ˌsɒft ˈhedɪd] *a* tentaksimon, jinnisimon, telbaroq
soft-hearted [ˌsɒftˈhɑːtɪd] *a* ko'ngli yumshoq, ko'ngilchan, rahmdil
softly [ˈsɒftlɪ] *adv* yumshoq qilib, muloyimgina, mayingina qilib, muloyimlik bilan
softness [ˈsɒftnəs] *n* yumshoqlik, bo'shlik, mayinlik
soft-spoken [ˌsɒft ˈspəʊkən] *a* xushtakallum, shirinso'z, gapi shirin; xushomadgo'y
software [ˈsɒftweə] *n* dastur bilan ta'minlash; dasturiy ta'minot
softy [ˈsɒftɪ] *n so'zl.* 1) esi yo'q odam, ahmoq odam; tentak; 2) qat'iyatsiz odam
soggy [ˈsɒgɪ] *a* nam, ho'l, zax
soil [sɔɪl] *n* yer, zamin, tuproq; **one's native** ~ ona yurt, vatan
sojourn [ˈsɒdʒɜːn] *n* (*vaqtinchalik*) bo'lish, turish
sol [sɒl] *n mus.* sol (*musiqa gammasining beshinchi notasi*)
solace [ˈsɒlɪs] **1.** *n* ovunchoq, yupanchiq; taskin, tasalli; **2.** *v* yupatmoq, ovutmoq, tasalli (taskin) bermoq
solar [ˈsəʊlə] *a* quyoshga (quyosh nuriga) oid; quyosh nuridan foydalanishga asoslangan
sold I [səʊld] *past., p. p. of* **sell**
sold II [səʊld] *a* sotilgan
solder [ˈsɒldə] **1.** *n tex.* kavshar (*kavsharlash uchun ishlatiladigan metall, qotishma*); **2.** *v* kavsharlamoq, qalaylamoq
soldier [ˈsəʊldʒə] *n* askar
sole I [səʊl] *n* taglik, tagcharm
sole II [səʊl] *n zool.* kambala, qalqon baliq
sole III [səʊl] *a* birdan-bir, yolg'iz; yakka-yagona
solely [ˈsəʊllɪ] *adv* birdan-bir, birgina, yagona
solemn [ˈsɒləm] *a* tantanali, rasmiy; **to take a ~ oath** tantanali qasamyod qilmoq
solemnity [səˈlemnɪtɪ] *n* tantana; tantanavorlik, serhashamlik
solemnize [ˈsɒləmnaɪz] *v* bayram qilmoq; nishonlamoq
solemnly [ˈsɒləmlɪ] *adv* tantanali ravishda, tantana (dabdaba) bilan
solicit [səˈlɪsɪt] *v* so'ramoq, iltimos qilmoq, o'tinmoq
solicitation [səˌlɪsɪ ˈteɪʃ(ə)n] *n* qat'iy talab, qattiq iltimos
solicitor [səˈlɪsɪtə] *n* maslahatchi huquqshunos
solicitude [səˈlɪsɪtjuːd] *n* g'amxo'rlik, mehribonlik, jonkuyarlik, kuyinchaklik
solid [ˈsɒlɪd] **1.** *a* 1) qotib qolgan, qattiq; 2) aralashtirilmagan, toza, sof, asl; ~ **gold** sof oltin; **2.** *n* 1) *fiz.* qattiq jism; 2) *mat.* jism; **a regular** ~ geometrik jism
solidarity [ˌsɒlɪˈdærɪtɪ] *n* birdamlik, yakdillik, hamfikrlik, fikrdoshlik
solidify [səˈlɪdɪfaɪ] *v* qotmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq
solidity [səˈlɪdɪtɪ] *n* qattiqlik, mustahkamlik
soliloquy [səˈlɪləkwɪ] *n* 1) o'zi bilan o'zi gaplashish (so'zlashish); 2) monolog (*so'zlashuvchining o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqi*)
solitary [ˈsɒlɪt(ə)rɪ] *a* yakka, yolg'iz, tanho; boshqalardan ajralgan
solitude [ˈsɒlɪtjuːd] *n* yolg'izlikdagi hayot, yolg'izlik, g'ariblik
solo [ˈsəʊləʊ] *n mus.* solo (*yakka ovoz yoki yakka soz uchun yozilgan musiqa asari va uning ijrosi*)
soloist [ˈsəʊləʊɪst] *n* yakka ijrochi, yakkaxon ashulachi, yakka sozanda, yakka raqqosa
soluble [ˈsɒljʊb(ə)l] *a* eriydigan, erib ketadigan
solution [səˈluːʃ(ə)n] *n* 1) (*masalani*) yechish, hal etish; yechim; 2) eritma, qorishma
solvable [ˈsɒlvəb(ə)l] *a* hal bo'ladigan, hal qilib (yechib) bo'ladigan
solve [sɒlv] *v* (*masalani*) yechmoq, hal etmoq
solvency [ˈsɒlv(ə)nsɪ] *n* 1) eriydiganlik; 2) to'lashga qodirlik (qurbi yetishlik)
solvent [ˈsɒlv(ə)nt] *n* eritgich, erituvchi (eritadigan suyuqlik)
sombre [ˈsɒmbə] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat bosgan), zulmatdagi; zim-ziyo
some [sʌm] **1.** *pron.* 1) ba'zilar, ba'zi birovlar; ayrim kishilar, kimdir; 2) ozgina, biroz, andak; **2.** *a* allaqanday, qandaydir
somebody [ˈsʌmbədɪ] **1.** *pron. indef.* kimdir, birov, allakim; **2.** *n* mo'tabar zot
somehow [ˈsʌmhaʊ] *adv* bir amallab, ilojini qilib, yo'lini topib
someone [ˈsʌmwʌn] = **somebody**
someplace [ˈsʌmpleɪs] *adv so'zl.* biror joyda; biror yerda, qayerdadir, qayergadir, qayerda bo'lmasin
somesault [ˈsʌməsɔːlt] *n* umbaloq oshib sakrash
something [ˈsʌmθɪŋ] *pron. indef.* nimadir, biror narsa, qandaydir bir narsa
sometime [ˈsʌmtaɪm] *adv* bir kunmas, bir kun, qachon bo'lmasin, bir payti kelib
sometimes [ˈsʌmtaɪmz] *adv* ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqtda, goho, onda-sonda
somewhat [ˈsʌmwɒt] *pron. indef.* nimadir, qandaydir bir narsa
somewhere [ˈsʌmweə] *adv* allaqayda, qayerdadir, bir joyda
somnambulist [sɒmˈnæmbjʊlɪst] *n* oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*)
somniferous [sɒmˈnɪf(ə)rəs] *a* uxlatadigan, uyqu keltiradigan
somnolence, -cy [ˈsɒmnələns, -sɪ] *n* uyquchilik, seruyqulik, uyqudan bosh ko'tarmaslik
son [sʌn] *n* o'g'il; **he is a true ~ of his father u** otasining xuddi o'zi (o'zginasi)
sonata [səˈnɑːtə] *n mus.* sonata (*turli tipdagi uch-to'rt qismdan iborat musiqa asari*)
song [sɒŋ] *n* ashula, qo'shiq
songwriter [ˈsɒŋˌraɪtə] *n* qo'shiq yozuvchi shoir
sonic [ˈsɒnɪk] *a* 1) akustikaga oid; 2) tovushga oid; tovush...
son-in-law [ˈsʌnɪnˌlɔː] *n* kuyov (*qizining eri*)
sonny [ˈsʌnɪ] *n so'zl.* (*murojaatda*) o'g'lim, bolam, bo'tam
sonority [səˈnɒrɪtɪ] *n* jarangdorlik, tiniqlik
sonorous [ˈsɒn(ə)rəs] *a* 1) jaranglagan, jarangdor, tiniq, qo'ng'iroqday; 2) dabdabali uslub, bejama uslub
soon [suːn] *adv* 1) tezda, yaqinda, tez kunda, hademay, ko'p o'tmay; **as ~ as** bilanoq, zahoti, zamon; 2) erta, barvaqt; **the ~er, the better** qancha erta bo'lsa shuncha yaxshi; **~er or later** ertami kechmi; **it's too ~ to tell what's the matter with him** unga nima bo'lganligini hozir aytish qiyin
soot [sʊt] **1.** *n* qorakuya, qurum, dud, is; **2.** *v* qurum bosmoq, qurum bilan qoplanmoq; **~y** is bosgan

sooth [su:θ] *n* haqiqat, chin, bor narsa, to'g'ri gap
soothe [su:ð] *v* yupatmoq, ovutmoq, tinchlantirmoq, taskin bermoq
soothing [ˈsu:ðɪŋ] *a* tinchlantiradigan, yupatadigan
soothsayer [ˈsu:θˌseɪə] *n* oldindan aytib beruvchi, bashorat qiluvchi, bashoratgo'y; folbin xotin
sooty [ˈsʊtɪ] *a* qurum bosgan, qurum bilan qoplangan
sop [sɔp] *n* bo'lak, parcha, burda, kesik
soph [sɒf] *so'zl. of* **sophomore**
sophism [ˈsɔfɪz(ə)m] *n* safsata (*yuzaki qaraganda to'g'riga o'xshab ko'rinadigan, aslida esa noto'g'ri xulosa, chalg'itadigan fikr*)
sophisticate [səˈfɪstɪkeɪtɪd] *v* buzmoq, buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq
sophisticated [səˈfɪstɪkeɪtɪd] *a* 1) o'tkir, sezgir; nozik, nafis; 2) **buzib ko'rsatilgan**
sophistication [səˌfɪstɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* nafislik, noziklik, nazokat
sophomore [ˈsɒfəmɔ:] *n amer.* ikkinchi kurs talabasi
soporific [ˌsɒpəˈrɪfɪk] **1.** *a* narkotik, behush (karaxt) qiladigan, uxlatadigan; **2.** *n* narkotik modda, uyqu dori
soppy [ˈsɒpɪ] *a* bo'l, nam, zax; nam tortgan
soprano [səˈprɑ:nəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz], **-ni** [-nɪ]) *mus.* soprano (*xotin-qizlarning eng baland ovozi va shunday ovozli xonanda*)
sorcerer [ˈsɔ:s(ə)rə] *n* jodugar, sehrgar, afsungar
sorceress [ˈsɔ:s(ə)rəs] *n* jodugar ayol
sordid [ˈsɔ:dɪd] *a* iflos, bulg'anch, loy
sore [sɔ:] *n* 1) o'ta ta'sirchan, hissiyotga beriluvchan; 2) xasta, kasal, bemor
sorely [ˈsɔ:lɪ] *adv* shafqatsizlik bilan, beshafqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona
soreness [ˈsɔ:nəs] *n* sezuvchanlik, o'ta sezgirlik; ta'sirchanlik
sorrel [ˈsɒrəl] *n bot.* otquloq, qo'ziquloq
sorrow [ˈsɒrəʊ] *n* g'am, tashvish; **to my ~** mening g'amimga
sorrowful [ˈsɒrəʊf(ə)l] *a* mahzun, qayg'uli, g'amgin, g'amli, xafa
sorry [ˈsɒrɪ] *a* achingan; **to be ~** achinmoq; **I am ~** kechirasiz; **to be ~ about** ... uchun kechirim so'ramoq; **to be ~ for doing something** biror ish qilgani uchun kechirim so'ramoq (afsuslanmoq); **to be ~ for somebody** kimgadir achinmoq; **to feel ~ for somebody** kimgadir achinmoq
sort [sɔ:t] *n* nav, xil, tur; **of ~s** aralash; **he needs all ~s of things** unga ko'p turli narsalar kerak
so-so [ˈsəʊsəʊ] *a so'zl. predic.* ahamiyatsiz, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, ahamiyati yo'q
sot [sɒt] *n* tuzalmaydigan (ashaddiy) piyonista
souffle [ˈsu:f(ə)l] *n tib.* noaniq tovush (gupullash, duk-duk urish, tepish)
soufflé [ˈsu:fleɪ] *n fr.* sufle (*tarkibida ko'pirtirilgan tuxum oqi bo'lgan konditerlik mahsuloti*)
sough I [sʌf, saʊ] *n* shitirlash, shildirash, shitir-shitir qilish
sough II [sʌf, saʊ] *n* 1) suv oqadigan kanal; 2) yerning zaxini qochirish maqsadida qurilgan quvurlar tarmog'i
sought [sɔ:t] *past., p. p. of* **seek**
soul [səʊl] *n* yurak, qalb, ko'ngil
soulful [ˈsəʊlf(ə)l] *a* his-tuyg'uga oid, hayajonli, jo'shqin; his-tuyg'uga to'la
sound [saʊnd] **1.** *n* tovush, ovoz; **2.** *v* yangramoq, eshitilmoq, ovoz (tovush) chiqarmoq
sound-film [ˈsaʊndfɪlm] *n* ovozli film
soup [su:p] *n* sho'rva
sour [ˈsaʊə] *a* achigan; **~ milk** qatiq
source [sɔ:s] *n* manba, bosh sabab, birinchi sabab; **reliable ~ of information** ma'lumotning ishonchli manbayi
sourly [ˈsaʊəlɪ] *adv* achitib, nordon (achchiq) qilib
sourness [ˈsaʊnəs] *n* nordonlik, achchiqlik; nordon (achchiq) ta'm
south [saʊθ] *n* janub; **~ern** janubiy; **in the ~** janubda; **to the ~ (of)** ...(dan) janubga
south-east [ˌsaʊθ ˈi:st] *n* janubi sharq, janubi sharq tomon (taraf)
south-eastern [ˌsaʊθˈi:stən] *a* janubiysharqiy, janubi sharqdagi
southerly [ˈsʌðəlɪ] *a* janubga oid; janubiy
southern [ˈsʌðən] **1.** *a* janubga oid; janubiy; **2.** *n* janublik
southernmost [ˈsʌðənməʊst] *a* eng janubdagi
southward [ˈsaʊθwəd] **1.** *adv* janubga; **2.** *a* ...dan janubga joylashgan; **3.** *n* janubga boradigan yo'l
southwards [ˈsaʊθwədz] *adv* janubga
south-west [ˌsaʊ(θ)ˈwest] *n* janubi g'arb, janubi g'arb tomon
south-westerly [ˌsaʊ(θ) ˈwestəlɪ] **1.** *a* 1) ...dan janubi g'arbda joylashgan; 2) janubi g'arbdan esadigan; **2.** *adv* janubi g'arb tomonga
souvenir [ˌsu:vəˈnɪə] *n fr.* esdalik, yodgorlik
sovereign [ˈsɒvrɪn] **1.** *n* hukmdor; **2.** *a* 1) mustaqil; **~ countries** mumstaqil mamlakatlar; 2) oliy, eng yuqori, bosh; **the ~ good** eng ulug' ne'mat; **~ power** oliy hokimiyat
sovereignty [ˈsɒvrɪntɪ] *n* teng huquqlilik, mustaqillik
sow [səʊ] *v* (**sowed** [-d]; **sown, sowed**) ekmoq, sochmoq, sepmoq
sower [ˈsəʊə] *n* urug' sepuvchi, urug' sochuvchi
sowing-machine [ˈsəʊɪŋməˌʃi:n] *n* seyalka
sown [səʊn] *p. p. of* **sow**
spa [spɑ:] *n* 1) mineral suvli kurort; 2) mineral suvlar bulog'i
space [speɪs] *n* 1) fazo, bo'shliq; 2) olam, koinot
spacecraft [ˈspeɪskrɑ:ft] *n* kosmik kema
spaceman [ˈspeɪsmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) kosmonavt; kosmosda (kosmosga) uchuvchi
spaceship [ˈspeɪsˌʃɪp] *n* kosmik kema
spacious [ˈspeɪʃəs] *a* keng, erkin, bepoyon
spaciousness [ˈspeɪʃəsnəs] *n* 1) kenglik, yalanglik; 2) erkinlik, imkoniyat, yayrab yashash
spade [speɪd] 1. *n* kurak, belkurak; **2.** *v* kurak bilan qazimoq
span I [spæn] *n* 1) yaqin masofa; 2) vaqt oralig'i; 3) qarich (= 9 duym)
span II [spæn] *past of* **spin**
spangle [ˈspæŋg(ə)l] *n* yaltiroq tangachalar
Spanish [ˈspænɪʃ] **1.** *n* 1) ispaniyalik; 2) ispan tili; **2.** *a* Ispaniya va ispanlarga oid
spank [spæŋk] *n* tarsaki, shapaloq
spanner [ˈspænə] *n* gayka kaliti
spar I [spɑ:] *n* shpat (*silikatlar jinsiga mansub mineral*)
spar II [spɑ:] *v* boks tushmoq, boks bilan shug'ullanmoq
spare [speə] **1.** *v* tejamoq; iqtisod qilmoq; **2.** *a* bo'sh; **~ time** bo'sh vaqt
sparing [ˈspe(ə)rɪŋ] *a* kam, ozgina, yetarli bo'lmagan
spark [spɑ:k] **1.** *n* uchqun; **2.** *v* chaqnamoq, tovlanmoq
sparkle [ˈspɑ:k(ə)l] *v* 1) uchqunlamoq; 2) porlamoq
sparklet [ˈspɑ:klɪt] *n* mayda uchqun, uchquncha, zarracha
sparkling [ˈspɑ:klɪŋ] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan
sparrow [ˈspærəʊ] *n zool.* chumchuq
sparse [spɑ:s] *a* siyrak, siyraklashib qolgan; sochib tashlangan, yoyib tashlangan
sparseness [ˈspɑ:snəs] *n* ozlik, kamlik, yetarli emaslik, tanqislik
Spartan [ˈspɑ:tn] *n* Sparta davlatiga oid

spasm [ˈspæz(ə)m] *n* siqilish, qisilish, qisilib qolish
spastic [ˈspæstɪk] *n tib.* falaj (shol) bo'lgan kishi
spat I [spæt] *n* biroz aytishib qolish, oradan gap o'tish, araz, gina
spat II [spæt] *past., p. p. of* **spit**
spate [speɪt] *n* (*to'satdan*) daryoning toshishi
spatial [ˈspeɪʃ(ə)l] *a* makonga oid; joy, makon
spatter [ˈspætə] *n* tomchi, qatra
spawn [spɔ:n] **1.** *n* 1) uvuldiriq (*baliq, baqa va h. k. tuxumi, urug'i*); 2) nasl, avlod, urug'; **2.** *v* urug' tashlamoq
speak [spi:k] *v* (**spoke; spoken**) gapirmoq, gaplashmoq; **to ~ of** ... haqida gaplashmoq; **to ~ to** ... bilan gaplashmoq
speaker [ˈspi:kə] *n* notiq, gapga usta odam, nutq so'zlovchi
spear [spɪə] *n* nayza
spearhead [ˈspɪəhed] *n* o'tkir uch, nayza uchi
spearmint [ˈspɪə,mɪnt] *n bot.* sada yalpiz
special [ˈspeʃ(ə)l] *a* maxsus, alohida
specialist [ˈspeʃ(ə)lɪst] *n* mutaxassis
speciality [,speʃɪˈælɪtɪ] *n* soha, ixtisos
specialization [,speʃəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* biror ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash, ixtisos (hunar) olish
specialize [ˈspeʃəlaɪz] *v* 1) biror soha bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishmoq; hunar olmoq; 2) ixtisoslashmoq
specialized [ˈspeʃəlaɪzd] *a* ixtisoslashtirilgan
specially [ˈspeʃ(ə)lɪ] *adv* 1) ixtisoslashtirib, maxsus, alohida; 2) xususan, ayniqsa, eng avval, avvalo
specialty [ˈspəʃ(ə)ltɪ] *n* 1) o'ziga xos xususiyat, fazilat; 2) soha, ixtisos
species [ˈspi:ʃi:z] *n biol.* tur; xil; zot
specific [spɪˈsɪfɪk] *a* o'ziga xos, alohida, maxsus, aniq
specifically [spɪˈsɪfɪk(ə)lɪ] *adv* alohida, maxsus
specification [,spesɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash
specify [ˈspesɪfaɪ] *v* aniq belgilamoq, o'rnatmoq
specimen [ˈspesɪmən] *n* nusxa, namuna
specious [ˈspi:ʃəs] *a* durust, tuzuk, yaxshi, qulay; **~ excuse** durust bahona; qulay (o'rinli) bahona
speck I [spek] *n* kichkina dog', dog'cha
speck II [spek] *n* dengiz hayvonlarining eritilgan moyi
specs [speks] *n pl so'zl.* ko'zoynak
spectacle [ˈspektək(ə)l] *n* 1) spektakl, tomosha; 2) *pl* ko'zoynak; 3) manzara, ko'rinish
spectacled [ˈspektək(ə)ld] *a* 1) ko'zoynak taqqan, ko'zoynakli; 2) ko'zoynakli (*ilon haqida*)
spectacles [ˈspektək(ə)lz] *n* ko'zoynak
spectacular [spekˈtækjulə] *a* kuchli taassurot tug'diradigan, ta'sirchan; basavlat, kelishgan
spectator [spekˈteɪtə] *n* tomoshabin
spectra [ˈspektrə] *pl of* **spectrum**
spectral [ˈspektrəl] *a* 1) xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy; 2) *fiz.* spektrga oid; spektral
spectre [ˈspektə] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish
spectrum [ˈspektrəm] *n* (*pl* **-ra** [-rə]) *fiz.* 1) spektr; 2) *attr.* spektrga oid; spektral; **~ analysis** spektral analiz, tahlil
speculate [ˈspekjuleɪt] *v* 1) o'ylamoq, fikr qilmoq; 2) olibsotarlik qilmoq, chayqovchilik qilmoq
speculation [,spekjuˈleɪʃ(ə)n] *n* o'ylash, fikr yuritish, mulohaza qilish
speculator [ˈspekjuleɪtə] *n* 1) olibsotar, chayqovchi; 2) mutafakkir, chuqur fikr qiluvchi, fikrlovchi
sped [sped] *past., p. p. of* **speed I**
speech [spi:tʃ] *n* nutq, so'zlash (gapirish) qobiliyati
speechless [ˈspi:tʃləs] *a* soqov, gung, tilsiz; 2) indamas, gapirmas
speed [spi:d] **1.** *v* (**sped**) tezlatmoq, shoshmoq, shoshilmoq, shoshilishmoq, oshiqmoq, shoshqaloqlik qilmoq; **2.** *n* 1) tezlik, jadallik; **at a ~ of** ... tezlikda; 2) ildamlik; chaqqonlik; **with all ~** shoshma-shosharlik bilan
speed-boat [ˈspi:dbəʊt] *n* tezyurar kater
speeding [ˈspi:dɪŋ] *v* katta tezlikda haydash
speed-limit [ˈspi:d,lɪmɪt] *n* ijozat (ruxsat) berilgan tezlik
speedway [ˈspi:dweɪ] *n* 1) katta tezlikda yursa bo'ladigan yo'l; 2) poyga uchun mo'ljallangan maxsus maydoncha
speedy [ˈspi:dɪ] *a* tez yuradigan, tezyurar; tezlik bilan bo'ladigan, tez, ildam, jadal
spell I [spel] **1.** *n* 1) afsun, sehr, jodu, duo, kuf-suf; 2) dilrabolik, yoqimlilik, jozibadorlik; **2.** *v* sehrlamoq, afsunlamoq, jodu qilmoq
spell II [spel] *v* (**spelled** [-d], **spelt**) so'zlarini harflab yozmoq *yoki* talaffuz qilmoq
spellbind [ˈspelbaɪnd] *v* (**spellbound**) sehrlamoq, sehr-jodu qilmoq, sehrlab qo'ymoq
spellbound [ˈspelbaʊnd] **1.** *past., p. p. of* **spellbind**; **2.** *a* sehrlangan
spelling [ˈspelɪŋ] *n* imlo, yozish qoidasi; orfografiya
spelling-book [ˈspelɪŋbʊk] *n* 1) imlo qoidalari ma'lumotnomasi; 2) imlo bo'yicha mashqlar to'plami
spelt [spelt] *past., p. p. of* **spell II**
spend [spend] *v* (**spent**) 1) sarflamoq; **to ~ on** ...ga (uchun) sarflamoq; 2) (*vaqtni*) o'tkazmoq
spendthrift [ˈspend,θrɪft] *n* isrofgar, isrof qiluvchi, behuda sarflovchi, sovurib yuboruvchi
spent I [spent] *a* ozib (oriqlab) ketgan, ozib-to'zgan
spent II [spent] *past., p. p. of* **spend**
sperm [spɜ:m] *n fiziol.* 1) sperma, maniy; 2) spermatozoid, pusht (*erkak urug'ining hujayrasi*)
sphere [sfɪə] *n* 1) doira; 2) shar; 3) globus; 4) sayyora; 5) soha
spherical [ˈsferɪk(ə)l] *a* shar shaklidagi, sharsimon, dumaloq, yumaloq
spice [spaɪs] *n* dorivor, ziravor
spicy [ˈspaɪsɪ] *a* o'tkir; xushta'm, xushbo'y
spider [ˈspaɪdə] *n zool.* o'rgimchak
spigot [ˈspɪgət] *n tex.* vtulka
spike [spaɪk] **1.** *n* 1) o'tkir uch; 2) (*etikning tagiga qoqadigan*) mix; **2.** *v* mix qoqmoq
spiky [ˈspaɪkɪ] *a* 1) uchi o'tkir, uchli, qirrali, qirra, nayzador; 2) ming'ir-ming'ir, mijg'ov, janjalkash
spill [spɪl] *v* (**spilled, spilt**) to'kmoq, to'kilmoq; **to'kib yubormoq; to ~ blood** qon to'kmoq
spillikin [ˈspɪlɪkɪn] *pl* mayda-chuyda, arzimagan narsalar bilan ovora bo'lish
spilt [spɪlt] *past., p. p. of* **spill**
spin [spɪn] *v* (**spun, span; spun**) o'rmoq, o'ramoq; buramoq; yigirmoq, eshmoq, pishitmoq; **~ner** yigiruvchi, yigiradigan ishchi
spinach [ˈspɪnɪdʒ] *n bot.* ismaloq (*o'simlik*)
spinal [ˈspaɪnl] *a anat.* orqadagi, orqa...; **a ~ column** umurtqa; **a ~ cord** orqa miya; **~ fluid** orqa miya suyuqligi
spindle [ˈspɪndl] **1.** *v* 1) cho'zmoq, uzaytirmoq, yoymoq; 2) val, o'q va sh. k. o'rnatmoq; **2.** *n to'q.* urchuq
spine [spaɪn] *n anat.* umurtqa
spineless [ˈspaɪnləs] *a zool.* umurtqasiz; umurtqa suyagi yo'q
spinster [ˈspɪnstə] *n* qari qiz
spiny [ˈspaɪnɪ] *a* 1) tikandek sanchiladigan, botadigan, o'tkir; 2) qiyin, mushkul, og'ir, tang
spiral [ˈspaɪ(ə)rəl] *n* spiral, burama chiziq; **heating ~** isitadigan burama chiziq shaklidagi sim
spire I [ˈspaɪə] *n* gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan usti, uchi

spire II [ˈspaɪə] *n* 1) spiral; burama chiziq; 2) bir buram, bir o'ram
spirit [ˈspɪrɪt] **1.** *n* ruh, kayfiyat; **2.** *v* ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq
spirited [ˈspɪrɪtɪd] *a* dadil, mardonavor; jasur, yurakli
spirit-lamp [ˈspɪrɪtlæmp] *n* spirt lampa
spiritless [ˈspɪrɪtləs] *a* 1) jonsiz, o'lik; 2) so'ligan, so'lib qolgan
spiritual [ˈspɪrɪtʃʊəl] *a* 1) ma'naviy, aqliy, ruhiy; 2) ruhoniy, diniy
spiritualism [ˈspɪrɪtʃʊəlɪz(ə)m] *n* spirtualizm (*ruhni voqelikning birinchi asosi, materiyaga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, deb biluvchi idealistik falsafiy dunyoqarash*)
spirituous [ˈspɪrɪtʃʊəs] *a* spirtli, tarkibida spirt bo'lgan
spit [spɪt] *v* **(spat)** tupurmoq, tuflamoq
spite [spaɪt] *n* adovat, xusumat, gina; g'azab, qahr, achchiq; **in ~ of** ...ga qaramasdan
spiteful [ˈspaɪtf(ə)l] *a* yomon, yovuz; serjahl, badjahl, darg'azab; ichi qora
spittle [ˈspɪtl] *n* so'lak, so'lakay; tupuk, tupurish
spittoon [spɪˈtu:n] *n* tupdon
spiv [spɪv] *n* olibsotar, chayqovchi
splash [splæʃ] *v* sochmoq, sachratmoq, purkamoq, sepmoq
splatter [ˈsplætə] *v* chayqalmoq, to'lqinlanib urilmoq; shildiramoq
splay [spleɪ] *n* qiyalik, nishab, yonbag'ir
spleen [spli:n] *n* 1) *anat.* qorajigar, taloq; 2) adovat, xusumat, gina, qahr
splendid [ˈsplendɪd] *a* hashamatli; dabdabali
splendour [ˈsplendə] *a* 1) yaltirash, yarqirash, chaqnash; shu'la; jilva; 2) dabdaba, hashamat, savlat, saltanat, ko'rkamlik
splenetic [splɪˈnetɪk] *a* 1) qorajigarga (taloqqa) oid; qorajigar, taloq...; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl
splint [splɪnt] *n* 1) parcha, bo'lak, siniq; 2) zirapcha; 3) payraxa, tarasha; 4) *tib.* shina
split [splɪt] **1.** *n* yorilish, tilinish, tilimtilim bo'lish; **2.** *v* **(split)** yorilmoq, tilinmoq
splitting [ˈsplɪtɪŋ] *a* 1) qattiq, o'tkir, kuchli, quloqni teshadigan, chinqiroq; 2) boshni aylantiradigan, gangitadigan
splodge [splɒdʒ] = **splotch**
splotch [splɒtʃ] *n* katta iflos dog'
splutter [ˈsplʌtə] *n* noaniq gapirish
spoil [spɔɪl] *v* **(spoilt, spoiled)** buzmoq, aynitmoq, yomonlashtirmoq
spoiled [spɔɪld] *a* buzilgan, ishdan chiqqan
spoils [spɔɪlz] *n* hayvon jasadi, qoldiqlari
spoilt [spɔɪlt] *past., p. p. of* **spoil**
spoke I [spəʊk] *v* (*g'ildirakda*) kegay
spoke II [spəʊk] *past. of* **speak**
spoken I [ˈspəʊkən] *a* og'zaki; **~ language** og'zaki nutq
spoken II [ˈspəʊkən] *p. p. of* **speak**
spokesman [ˈspəʊksmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) 1) vakil; 2) nutq so'zlovchi, ma'ruzachi
sponge [spʌndʒ] *n* gubka (*mochalka yoki qozon sochiq vazifasida ishlatiladigan buyum*)
sponger [ˈspʌndʒə] *n* tekinxo'r, haromtovoq
sponsor [ˈspɒnsə] *n* 1) homiy; 2) kafil, kafil bo'lgan kishi; **~ship** homiylik, kafillik
spontaneity [ˌspɒntəˈni:ɪtɪ] *n* o'z-o'zidan sodir bo'lish, beixtiyor yuz berish; g'ayriixtiyoriylik
spontaneous [spɒnˈteɪnɪəs] *a* o'z-o'zidan sodir bo'ladigan, beixtiyor yuz beradigan, g'ayriixtiyoriy, beixtiyor
spook [spu:k] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish
spooky [ˈspu:kɪ] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli, mudhish, dahshatga (vahimaga) soladigan
spool [spu:l] **1.** *n* g'altak, kalava; **2.** *v* kalava qilmoq, (g'altakka) o'rab qo'ymoq
spoon [spu:n] **1.** *n* qoshiq; **2.** *v* qoshiqni botirib olmoq
spoonful [ˈspu:nfʊl] *n* bir qoshiq to'la narsa
spoony [ˈspu:nɪ] *a so'zl.* 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) sevib (oshiq bo'lib) qolgan
spoor [spɔ:, spʊə] **1.** *n* iz; **2.** *v* izma-iz bormoq
sporadic [spəˈrædɪk] *a* onda-sonda (ahyon-ahyonda) bo'ladigan, tasodifiy
spore [spɔ:] *n biol.* spora (*gulsiz o'simliklarning va ba'zi bir hujayrali jonivorlarning urchish organi*)
sport [spɔ:t] *n* sport; sport o'yinlari
sporting [ˈspɔ:tɪŋ] *a* 1) sportga oid; 2) ovga oid
sportsman [ˈspɔ:tsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) sportchi
sportsmanlike [ˈspɔ:tsmənlaɪk] *a* sportchilarga xos bo'lgan
sportswoman [ˈspɔ:ts,wʊmən] *n* (*pl* **-women** [-,wɪmɪn]) sportchi ayol
sundae [ˈsʌndeɪ] *n* (*qaymoqli, mevali*) yong'oqli muzqaymoq
Sunday [ˈsʌndɪ] *n* yakshanba
sundew [ˈsʌndju:] *n bot.* rosanka (*botqoqlikda o'sadigan hasharotxo'r o'simlik*)
sun-dial [ˈsʌndaɪəl] *n* quyosh soati
sundown [ˈsʌndaʊn] *n* botish, quyoshning botishi
sundries [ˈsʌndrɪz] *n pl* har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdagi bor narsalar
sundry [ˈsʌndrɪ] *a* har xil, turli, bir-biridan farq qiladigan, boshqa-boshqa
sunflower [ˈsʌnˌflaʊə] *n bot.* kungaboqar
sung [sʌŋ] *p. p. of* **sing**
sunk [sʌŋk] *p. p. of* **sink**
sunken [ˈsʌŋkən] *a* 1) cho'kib ketgan, g'arq bo'lgan; 2) cho'kik, ichiga kirib ketgan; botiq, cho'kkan; **~ cheeks** ichiga kirib ketgan yuz
sunlight [ˈsʌnlaɪt] *n* quyosh yorug'ligi
sunlit [ˈsʌnˌlɪt] *a* quyosh bilan yoritilgan
sunny [ˈsʌnɪ] *a* 1) quyoshga (quyosh nuriga) oid; quyosh nuridan (energiyasidan) foydalanishga asoslangan; 2) quyoshli; 3) quvnoq, xursand, baxtli
sunrise [ˈsʌnraɪz] *n* quyosh (kun, oftob) chiqishi
sunset [ˈsʌnset] *n* quyosh (kun, oftob) botishi
sunshade [ˈsʌnʃeɪd] *n* soyabon (*quyoshdan saqlanish uchun*), chodir
sunshine [ˈsʌnʃaɪn] *n* quyosh yorug'ligi
sunspot [ˈsʌnspɒt] *n* 1) *astr.* quyoshdagi dog'; 2) sepkil
sunstroke [ˈsʌnstrəʊk] *n* issiqlik ta'sirida odamning isib ketib, kasal holatda bo'lishi, oftob urishi
sup [sʌp] *n* yutum, qultum; ho'plash; yutinish
super [ˈs(j)u:pə] *a* juda yaxshi, a'lo darajadagi
super- [ˈs(j)u:pə-] *pref.* biror narsaning ustiga qo'yilib (qo'shilib) orttirilishini bildiradi
superannuate [ˌs(j)u:pər ˈænjʊeɪt] *v* 1) qariganligi *yoki* ishga yaroqsiz bo'lganligi tufayli nafaqaga chiqmoq; 2) eskirmoq, iste'moldan chiqmoq
superannuated [ˌs(j)u:pərˈænjʊeɪtɪd] *a* juda qari, keksaygan, munkillab qolgan
superannuation [ˌs(j)u:pərænjʊˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) qarilik tufayli iste'foga chiqarish; 2) qariyalarga beriladigan nafaqa
superb [s(j)uˈpɜ:b] *a* dabdabali, serhasham, ajoyib
supercilious [ˌs(j)u:pəˈsɪlɪəs] *a* takabbur, manman, kalondimog', kekkaygan
superficial [ˌs(j)u:pəˈfɪʃ(ə)l] *a* 1) sirtqi, ustki; 2) uncha chuqur bo'lmagan, sayoz, yuzaki; 3) yuzaki, jiddiy bo'lmagan, yengil-yelpi
superficiality [ˌs(j)u:pəfɪʃɪˈælɪtɪ] *n* yuzakilik, sayozlik; yengil-yelpilik
superfine [ˌs(j)u:pəfaɪn] *a* 1) juda yupqa (ingichka); 2) yuqori navli
superfluity [ˌs(j)u:pəˈflu:ɪtɪ] *n* mo'llik, ko'plik, seroblik
superfluous [s(j)uːˈpɜ:flʊəs] *a* ortiqcha, ehtiyojdan ortiq, haddan tashqari
superhuman [ˌs(j)u:pəˈhju:mən] *a* g'ayriinsoniy, odamning qo'lidan kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan, ajoyib, mislsiz
superimpose [ˌs(j)u:p(ə)rɪmˈpəʊz] *v* (birbirining) ustiga qo'ymoq
superintend [ˌs(j)u:p(ə)rɪnˈtend] *v* boshqarmoq, yurgizmoq; idora qilmoq
superintendent [ˌs(j)u:p(ə)rɪnˈtendənt] *n* (*biror xo'jalik, muassasa va sh. k. ni*) boshqaruvchi
superior I [s(j)uːˈpɪ(ə)rɪə] *a* oliy, yuqori, eng yaxshi
superior II [s(j)uːˈpɪ(ə)rɪə] *n* katta, boshliq

superiority [s(j)u:ˌpɪ(ə)rɪˈɒrɪtɪ] *a* afzallik, ustunlik

superlative [s(j)u:ˈpɜ:lətɪv] **1.** *a* eng yuqori, eng yuksak; **2.** *n gram.* orttirma daraja

superman [ˈs(j)u:pəmæn] *n* (*pl* **--men** [-mən]) o'ta qudratli odam

supermarket [ˈs(j)u:pəˌmɑ:kɪt] *n* supermarket, universam (*turli xil oziq-ovqat va sanoat mollari bo'lgan, xaridorlar o'z-o'ziga xizmat qiladigan yirik magazin*)

supernatural [ˌs(j)u:pəˈnætʃ(ə)rəl] *a* g'ayritabiiy, mo'jizaviy; ilohiy, favqulodda; misilsiz

supernumerary [ˌs(j)u:pəˈnju:m(ə)rərɪ] *n* 1) shtatda yo'q ishchi; 2) vaqtinchalik o'rinbosar

supersede [ˌs(j)u:pəˈsi:d] *v* almashtirmoq, o'zgartirmoq, yangilamoq, o'rniga qo'ymoq

supersonic [ˌs(j)u:pəˈsɒnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (uchadigan)

superstar [ˈs(j)u:pəstɑ:] *n* eng taniqli yulduz

superstition [ˌs(j)u:pəˈstɪʃ(ə)n] *n* xurofot, bid'at, irim-chirim

superstitious [ˌs(j)u:pəˈstɪʃəs] *a* xurofotga berilgan, irim-chirimlarga ishonadigan

superstructure [ˈs(j)u:pəˌstrʌktʃə] *n* tayyor bino ustiga solingan ustki qavat

supertax [ˈs(j)u:pətæks] *n* qo'shimcha foyda uchun to'lanadigan soliq

supervene [ˌs(j)u:pəˈvi:n] *v* yaqinlashmoq, boshlanmoq, bo'lmoq, kelmoq, kirmoq

supervise [ˈs(j)u:pəvaɪz] *v* 1) kuzatmoq, nazorat qilmoq; 2) rahbarlik qilmoq, boshqarmoq

supervision [ˌs(j)u:pəˈvɪʒ(ə)n] *n* 1) kuzatish; nazorat, nazorat qilish, qarab turish; 2) rahbarlik, boshqarish

supervisor [ˈs(j)u:pəvaɪzə] *n* 1) nazoratchi, nazorat qilib (qarab) turuvchi; 2) inspektor; 3) metodist

supine [ˈs(j)u:paɪn] *a* 1) chalqanchasiga yotgan; 2) faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust

supper [ˈsʌpə] *n* kechki ovqat; **at ~** kechki ovqatda

supplant [səˈplɑ:nt] *n* siqib chiqarmoq, surib chiqarmoq; chiqarib yubormoq

supple [ˈsʌp(ə)l] *a* egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq; **~ leather** yumshoq teri

supplement [ˈsʌplɪmənt] **1.** *n* qo'shimcha (ilova) qilib berilgan narsa; **2.** *v* to'ldirmoq, qo'shmoq, ilova qilmoq

supplementary [ˌsʌplɪˈment(ə)rɪ] *a* qo'shimcha

suppleness [ˈsʌp(ə)lnəs] *n* 1) egiluvchanlik, bukiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yumshoqlik, mayinlik

suppliant [ˈsʌplɪənt] *a* yalinadigan, o'tinuvchi, yalinib-yolvorib so'raydigan, yalinuvchi

supplicate [ˈsʌplɪkeɪt] *v* yolvormoq, o'tinmoq, yalinmoq; iltijo qilmoq

supplication [ˌsʌplɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* iltijo, o'tinch, yolvorish; o'tinib (yolvorib) so'rash

supply [səˈplaɪ] **1.** *n* ta'minlash, yetkazib berish; ta'minot; **2.** *v* ta'minlamoq, yetkazib bermoq; **to ~ with** ... bilan ta'minlamoq

support [səˈpɔ:t] **1.** *n* qo'llab-quvvatlash, madad, yordam; **2.** *v* qo'llab-quvvatlamoq, yordam (madad) bermoq

supporter [səˈpɔ:tə] *n* tarafdor, yoqlovchi, ergashuvchi; muxlis

supportive [səˈpɔ:tɪv] *a* 1) madad (dalda) beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, ko'maklashuvchi, yordam beruvchi; 2) qonun-qoida chegarasidagi

suppose [səˈpəʊz] *v* 1) faraz qilmoq; 2) ...deb o'ylamoq, hisoblamoq; 3) ko'zlamoq, chamalamoq

supposedly [səˈpəʊzɪdlɪ] *adv* 1) ko'pchilikning fikriga ko'ra; 2) taxminan, mo'ljallab, chamalab

supposing [səˈpəʊzɪŋ] *cj.* agar, agarda, bordi-yu; modomiki; basharti, mabodo

supposition [ˌsʌpəˈzɪʃ(ə)n] *n* faraz, taxmin, ehtimol

suppress [səˈpres] *v* to'xtatmoq, oldini olmoq, barham bermoq, yo'q qilmoq

suppression [səˈpreʃ(ə)n] *n* kuch bilan bosish, bosib qo'yish, bostirish

suppurate [ˈsʌpjʊreɪt] *v tib.* yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq, fasod bog'lamoq

suppuration [ˌsʌpjʊˈreɪʃ(ə)n] *n tib.* yiringlash, yiring (fasod) bog'lash, maddalash

supremacy [səˈpreməsɪ] *n* 1) ustunlik; 2) rahbarlik, boshchilik, tepada turish

supreme [s(j)u:ˈpri:m] **1.** *n harb.* bosh qo'mondon; **2.** *a* eng yuqori, oliy

supremely [s(j)u:ˈpri:mlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari, juda ham, o'ta

surcharge [ˈsɜ:tʃɑ:dʒ] *n* ortiqcha ortilgan yuk; ortiqcha yuklash

sure [ʃʊə] *a* 1) ishongan, ishonchli; ishonchi komil; **to be ~ of** ...ga amin bo'lmoq; 2) shubhasiz; albatta

surely [ˈʃʊəlɪ] *adv* albatta, turgan gap, shak-shubhasiz, tabiiy

surf [sɜ:f] *n* qirg'oqqa uriladigan to'lqin, qirg'oq to'lqini

surface [ˈsɜ:fɪs] *n* yuza, ust

surfeit [ˈsɜ:fɪt] *n* ortiqchalik, keragidan ortiq ishlatish, iste'mol qilish

surge [sɜ:dʒ] *n* to'lqin, g'alayon

surgeon [ˈsɜ:dʒ(ə)n] *n* jarroh

surgery [ˈsɜ:dʒ(ə)rɪ] *n* 1) jarrohlik; 2) jarrohlik operatsiyasi; 3) operatsiya xonasi

surgical [ˈsɜ:dʒɪk(ə)l] *a* xirurgiyaga (jarrohlikka) oid; jarrohlik

surly [ˈsɜ:lɪ] *a* badqovoq, badjahl, jahli yomon, serjahl

surmise [səˈmaɪz] *n* taxmin, faraz, gumon; shubha

surmount [səˈmaʊnt] *v* bardosh bermoq; bardosh bilan yengmoq, yengib chiqmoq, ustun (g'olib) kelmoq

surname [ˈsɜ:neɪm] **1.** *n* 1) familiya; 2) laqab; **2.** *v* 1) familiya olmoq (bermoq); 2) laqab qo'ymoq

surpass [səˈpɑ:s] *v* ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (ortib) ketmoq, ustun (bo'lib) chiqmoq

surplus [ˈsɜ:pləs] *n* keragidan ortiq narsa, ortiqcha narsa

surprise [səˈpraɪz] **1.** *n* 1) ajablanish; 2) hayratda qolish; **2.** *v* 1) hayratda qoldirmoq; 2) ajablantirmoq

surprised [səˈpraɪzd] *a* ajablangan, hayron bo'lgan, hayratda qolgan; **to be ~ at** nimadandir ajablanmoq, hayratlanmoq

surprising [səˈpraɪzɪŋ] *a* hayratlanarli, ajablanarli; kutilmagan, nogahoniy, tasodifiy

surrealism [səˈrɪəlɪz(ə)m] *n tar.* surrealizm (*XX asr burjua adabiyoti va san'atidagi ijodda aql-idrok va tajriba rolini inkor qiladigan o'ta formalistik oqimlardan biri*)

surrender [səˈrendə] **1.** *n* taslim bo'lish, tan berish; **2.** *v* taslim bo'lmoq, tan bermoq

surreptitious [ˌsʌrəpˈtɪʃəs] *a* yashirin, maxfiy; zimdan, bildirmasdan, sezdirmasdan

surrogate [ˈsʌrəg(e)ɪt] *n* o'rnini oluvchi (bosuvchi), o'rinbosar

surround [səˈraʊnd] *v* atrofni o'rab olmoq, o'rab turmoq; **~ing** yaqin, qo'shni, atrofdagi; **~ings** atrof, tevarak

surtax [ˈsɜ:tæks] *n* qo'shimcha daromad solig'i

surveillance [sɜ:ˈveɪl(ə)ns] *n* nazorat, nazorat qilish, qarab turish

survey [ˈsɜ:veɪ] *n* 1) so'rash, so'roq qilish; 2) tekshirish; ko'rib chiqish, ko'zdan kechirish

survival [səˈvaɪv(ə)l] *n* 1) tirik qolish; 2) qoldiq, sarqit

survive [səˈvaɪv] *v* umr kechirmoq, boshdan kechirmoq, tirik qolmoq, qutulib qolmoq

susceptibility [sə,septə'bılıtı] *n* ta'sirlanuvchanlik, ta'sirchanlik
susceptible [sə 'septəb(ə)l] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi
suspect 1. *n* ['sʌspekt] shubhali odam; 2. *v* [sə'spekt] shubha qilmoq, shubhalanmoq
suspend [sə 'spend] *v* 1) to'xtatmoq, (*vaqtincha*) bas qilmoq; 2) ilmoq, osmoq; ilib (osib) qo'ymoq
suspender [sə 'spendə] *v* ilmoq, ilib (osib) qo'yadigan narsa
suspenders [sə'spendəz] *n pl amer.* (*biror narsani yoki kimsani tortib, tutib turish uchun xizmat qiladigan*) qayish, tasma
suspense [sə'spens] *n* 1) xavotir, sarosima (*kutganda*); 2) hal qilinmaganlik, noma'lumlik
suspension [sə'spenʃ(ə)n] *n* birmuncha vaqt to'xtatish, to'xtatib qo'yish, to'xtatib turish; biroz to'xtash, to'xtalish, to'xtab turish
suspicion [sə'spıʃ(ə)n] *v* shubha, gumon
suspicious [sə 'spıʃəs] *a* 1) shubhali, shubha tug'diradigan; 2) gumonsiraydigan, xavfsiraydigan
sustain [sə'steın] *v* 1) tutib turmoq, ko'tarib turmoq; 2) tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgak qo'ymoq
sustenance ['sʌstənəns] *n* 1) tirikchilik vositalari; tirikchilik uchun zarur narsalar, mablag'lar; 2) ovqat, oziq, taom; 3) madad (dalda) berish, qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish, yordam berish
suture ['su:tʃə] *n anat., bot.* chok, hoshiya
swab [swɒb] *n* 1) shvabra, pol yuvgich; 2) *tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan doritangan paxta yoki doka*)
swaddle ['swɒdl] *v* yo'rgaklamoq, yo'rgaklab bog'lamoq
swagger ['swægə] *n* 1) savlat to'kib yurish; 2) odobsizlik, betakalluflik, surbetlik
swallow I ['swɒləʊ] *v* yutmoq, chaynamay yutmoq
swallow II ['swɒləʊ] *n zool.* qaldirg'och
swam [swæm] *past. of* **swim 2**
swamp [swɒmp] *n* botqoq, botqoqlik, balchiqzor
swan [swɒn] *n zool.* oqqush
swank [swæŋk] *n so'zl.* maqtanchoqlik, manmanlik, maqtanish, kerilish
swap [swɒp] = **swop**
sward [swɔ:d] *n* maysazor (*park, bog', hovli va sh. k. joylarda*)
swarm I [swɔ:m] *n* gala, to'da, to'p
swarm II [swɔ:m] *v* tirmashib (o'rmashib) chiqmoq, arang ko'tarilmoq
swarthy ['swɔ:ðı] *a* qoracha, qorachadan kelgan, bug'doyrang
swat [swɒt] *n* tarsaki, shapaloq; urish, turtish, zarb
swath [swɒθ] *n* chalg'i bilan o'rilganda ochilgan joy
swathe [sweıð] 1. *n* bint; o'raladigan narsa, o'rov; 2. *v* bint bilan bog'lamoq
sway [sweı] *n* tebranish; silkitish, siltash, qoqish
swear [sweə] *v* (**swore; sworn**) qasam ichmoq, qasamyod qilmoq, ont ichmoq
swear-word ['sweəwɜ:d] *n* so'kish; haqorat
sweat [swet] 1. *n* ter; 2. *v* terlamoq
sweater ['swetə] *n* to'r ko'ylak, jemfer, sviter
swede [swi:d] *n bot.* brukva (*sholg'omsimon sabzavot*)
Swedish ['swi:dıʃ] 1. *a* shvedlarga va Shvetsiyaga oid; 2. *n* shved tili
sweep [swi:p] 1. *n* 1) supurgi; 2) supurish; 2. *v* (**swept**) supurmoq; supurib tashlamoq
sweeper ['swi:pə] *n* 1) farrosh, supuruvchi, (*ko'cha*) supuradigan kishi; 2) ko'cha supuradigan mashina
sweeping ['swi:pıŋ] *n* supurish, supurib tozalash
sweet [swi:t] 1. *a* shirin, mazali; 2. *n* shirinlik, konfet
sweeten ['swi:tn] *v* biroz shirin qilmoq, biroz shirinlik (shakar, murabbo) qo'shmoq; shirinroq qilmoq
sweetener ['swi:t(ə)nə] *n* 1) shakarning o'rnini bosuvchi narsa; 2) pora
sweetheart ['swi:thɑ:t] *n* ma'shuq, ma'shuqa, yor, sevgili
sweetmeat ['swi:tmi:t] *n* obaki, obakidandon (*konfet*)
swell [swel] *v* (**swelled; swollen**) 1) shishmoq, do'mbira bo'lmoq, shishib ketmoq, g'urra bo'lmoq; 2) shishirmoq, do'mbira qilmoq
swelling ['swelıŋ] *n* 1) shish, g'urra; 2) do'nglik, do'mboqlik
swelter ['sweltə] *n* jazirama issiq, kun qizig'i
swept [swept] *past., p. p. of* **sweep 2**
swerve [swɜ:v] *n* og'ish, chetga chiqish, farq
swift [swıft] *a* tez, ildam, jadal
swig [swıg] 1. *n* ho'plam, qultum (*spirtli ichimlik*); 2. *v* ho'plab ichmoq (*musallasni*)
swill [swıl] *v* (*suvda*) chaymoq, chayqamoq
swim [swım] 1. *n* (*suvda*) suzish; 2. *v* (**swam; swum**) (*suvda*) suzmoq; suzib yurmoq
swimmer ['swımə] *n* suzuvchi
swimming-bath ['swımıŋbɑ:θ] *n* usti yopilgan cho'milish hovuzi (basseyni)
swimmingly ['swımıŋlı] *adv* tekislab, silliq qilib, tep-tekis, sip-silliq
swimming-pool ['swımıŋpu:l] *n* usti ochiq cho'milish hovuzi (basseyni)
swindle ['swındl] *n* aldamchilik, tovlamachilik, firibgarlik
swindler ['swındlə] *n* muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi
swine [swaın] *n zool.* xonaki cho'chqa
swineherd ['swaınhɜ:d] *n* cho'chqabon, cho'chqaboqar
swing [swıŋ] 1. *n* tebranish, chayqalish, silkinish; **in full ~** eng qizg'in paytda; 2. *v* (**swung**) tebranmoq, chayqalmoq, silkinmoq
swipe [swaıp] *v* 1) zarba bermoq, urmoq; 2) o'g'irlab (o'marib) ketmoq
swirl [swɜ:l] *v* aylanmoq, gir-gir aylanmoq
swish [swıʃ] *a so'zl.* kelishgan, ko'rkam, zebo, shinam; hashamatli, muhtasham
Swiss [swıs] 1. *a* shveysariyaliklarga *yoki* Shveysariyaga oid; shveysariyaliklar...; 2. *n* shveysariyalik kishi *yoki* ayol
switch [swıtʃ] 1. *n* 1) *el.* vikluchatel; 2) kommutator (*elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2. telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*); 3) chiviq, xivich, xipchin; 2. *v* 1) xipchin bilan urmoq, savalamoq; 2) elektr toki yo'nalishini o'zgartirmoq (*yoqmoq yoki o'chirmoq*)
switchboard ['swıtʃbɔ:d] *n el.* kommutator (*1. elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2. telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*)
switch off [,swıtʃ'ɒf] *v* o'chirmoq
switch on ['swıtʃ 'ɒn] *v* yoqmoq
swivel ['swıv(ə)l] *n tex.* vertlug (*turli mexanizmlarda birikkan detallarning bir-biriga nisbatan aylanishini ta'minlovchi zveno*)
swollen ['swəʊl(ə)n] 1. *p. p. of* **swell**; 2. *a* shishgan, kattalashgan, bo'rtgan
swoon [swu:n] *n* hushdan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish, behushlik, hushsizlik
swoop [swu:p] *n* to'satdan hujum qilish
swop [swɒp] *n so'zl.* alishish, almashish, almashtirish, ayirbosh qilish, ayirboshlash
sword [sɔ:d] *n* qilich, shamshir
sword-belt ['sɔ:dbelt] *n* kamarband (*belga yoki yelkaga taqib yuriladigan, qurol osish uchun xizmat qiladigan tasma*)

swore I [swɔ:] *a* qasamyod qilgan, qasam (ont) ichgan; ~ **friends** ajralmas do'stlar
swore II [swɔ:] *past. of* **swear**
sworn [swɔ:n] *p. p. of* **swear**
swot [swɒt] *n so'zl.* 1) og'ir ish, qiyin ish; 2) tushunmasdan yodlash, yodlab olish; 3) tushunmasdan yodlovchi
swum [swʌm] *p. p. of* **swim 2**
swung [swʌŋ] *past., p. p. of* **swing 2**
sycamore ['sɪkəmɔ:] *n bot.* 1) oq zarang; 2) chinor
sycophant ['sɪkəf(ə)nt] *n* xushomadgo'y odam, laganbardor, tilyog'lamachi
syllabic [sɪ'læbɪk] *a* bo'g'inli, bo'g'inga oid
syllable ['sɪləb(ə)l] **1.** *n* bo'g'in; **2.** *v* bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilmoq
syllabus ['sɪləbəs] *n* 1) (*kurs, leksiyaning*) dasturi; 2) konspekt, reja; 3) jadval
symbol ['sɪmb(ə)l] *n* belgi, alomat; ramz, timsol
symbolic(al) [sɪm'bɒlɪk(əl)] *a* simvollar (ramzlar) orqali ifodalangan, simvolik, ramziy
symbolically [sɪm'bɒlɪk(ə)lɪ] *adv* simvolik, ramziy, ramzlar bilan (orqali), ramzlar vositasida
symbolize ['sɪmbəlaɪz] *v* simvol (ramziy ishora) bo'lib xizmat qilmoq, ramzi bo'lmoq
symmetric(al) [sɪ'metrɪk(əl)] *a* simmetrik
symmetry ['sɪmɪtrɪ] *n* 1) simmetriya; 2) ...ga moslik, to'g'rilik, mutanosiblik
sympathetic [ˌsɪmpə'θetɪk] *a* 1) rahmdillik bilan (rahmi kelib) qilingan; 2) mehribon, oqko'ngil, 3) yoqimli, yoqimtoy, istarasi issiq
sympathize ['sɪmpəθaɪz] *v* achinmoq, rahmi kelmoq; rahm qilmoq, hamdard bo'lmoq
sympathy ['sɪmpəθɪ] *n* 1) bir-birini tushunish, hamdardlik; 2) muvofiqlik, uyg'unlik
symphony ['sɪmfənɪ] *n* 1) simfoniya, simfonik musiqa; 2) simfonik; **a ~ orchestra** simfonik orkestr
symposium [sɪm 'pəʊzɪəm] *n* simpozium, ilmiy kengash
symptom ['sɪmptəm] *n* alomat, tashqi belgi, nishona
synagogue ['sɪnəgɒg] *n* sinagoga (*yahudiylar ibodatxonasi*)
synchronize ['sɪŋkrənaɪz] *v* sinxronlamoq, sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq (to'g'rilamoq)
syncopate ['sɪŋkəpeɪt] *v* 1) *mus.* urg'uning kuchli qismdan kuchsiz qismga o'tishi; 2) *gram.* so'zni qisqartirmoq, so'z o'rtasida bo'g'in *yoki* tovushni tushirib qoldirmoq
syndicate ['sɪndɪkɪt] *n* sindikat (*yirik monopolistik birlashmalarning bir turi*)
synonym ['sɪnənɪm] *n gram.* sinonim
synonymous [sɪ'nɒnɪməs] *a* sinonimlarga (ma'nodosh so'zlarga) oid; ma'nodosh
synopses [sɪ'nɒpsi:z] *pl of* **synopsis**
synopsis [sɪ 'nɒpsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) konspekt
synoptic(al) [sɪ 'nɒptɪk(əl)] *a meteor.* sinoptik
syntax ['sɪntæks] *n gram.* sintaksis, gap tuzilishi
synthesis ['sɪnθəsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-si:z]) sintez (*sodda kimyoviy birikma yoki elementlardan murakkab birikmalar hosil qilish*)
synthesizer ['sɪnθəsaɪzə] *n* sintezator (*murakkab elektron musiqa cholg'u asbobi*)
syphilis ['sɪf(ə)lɪs] *n tib.* sifilis, zaxm
syphon ['saɪf(ə)n] = **siphon**
Syrian ['sɪrɪən] **1.** *a* Suriyaga va suriyaliklarga oid; **2.** *n* suriyalik kishi, suriyalik ayol
syringe [sɪ 'rɪndʒ] **1.** *n* 1) shpris (*badanga dori yuboradigan asbob*); 2) *tex.* shpris (*mashina qismlarini moylaydigan asbob*); **2.** *v* bosim ostida suv *yoki* suyuq dori purkab yuvmoq
syrup ['sɪrəp] *n* shinni, qiyom, sharbat
system ['sɪstɪm] *n* 1) yo'l, tartib, usul; 2) tuzum; **a social ~** ijtimoiy tuzum; 3) sistema, tizim
systematic(al) [ˌsɪstɪ'mætɪk(əl)] *a* 1) sistemali, muntazam, doimiy, har doimgi; 2) tartibli, batartib
systematize ['sɪstɪmətaɪz] *a* sistemalamoq, sistemaga (tartibga, tizimga) solmoq
systemic [sɪs 'temɪk] *a fiziol.* 1) tartibli, batartib; 2) muntazam, doimiy; 3) barcha organizmga tegishli (taalluqli) bo'lgan; 4) *biol. tib.* somatik, jismoniy

T

T, t [ti:] *n* 1) ingliz alifbosining yigirmanchi harfi; 2) „T" shaklidagi qandaydir narsa; **T-beam** kesimi „t" harfi shaklidagi (temir) to'sin; **T-square** reysshina (*bir uchida ko'ndalang taxtachasi bo'lgan uzun chizg'ich*)
ta [tɑ:] *int. so'zl.* rahmat, tashakkur
tab [tæb] *n* 1) ilgak (*ustki kiyimga tikilgan yoki qadalgan halqasimon ilgak*); quloqcha, tutqich; 2) etiketka, yorliq, yozuv; 3) *amer.* chek, hisobkitob; 4) quloq (*bosh kiyimda*); 5) pastga tushirib-ko'tariladigan kichkina parda (*teatrda*)
tabard ['tæbəd] *n tar.* 1) plash; 2) yelkaga tashlanadigan yengsiz keng kiyim
tabby ['tæbɪ] *n* 1) muar, muhayyar (*tovlanadigan qalin shoyi*); 2) ola-bula mushuk; 3) qari qiz
tabernacle ['tæbənæk(ə)l] *n* 1) chodir; 2) chimildiq, go'shanga; 3) ibodatxona, butxona
tabes ['teɪbi:z] *n tib.* sifilis (zaxm) tufayli orqa miyaning (*asab sistemasining*) kasallanishi
tabescence [tə'bes(ə)ns] *n tib.* oriqlash, ozib ketish
tabetic [tə'betɪk] *a tib.* sifilis kasalligidan azob chekayotgan, sifilis kasaliga chalingan
table ['teɪb(ə)l] **1.** *n* 1) stol; 2) ovqat, ovqat tayyorlash joyi; 3) jadval; 4) ro'yxat; **upon the ~** jamoat oldida hal qilinadigan; **2.** *v* 1) stolning ustiga qo'ymoq; 2) jadval tuzmoq
tableau ['tæbləʊ] *n* (*pl* **-aux** [-əʊz]) *fr.* chiroyli manzara, chiroyli chizilgan rasm; ~ **curtains** *teatr.* ikki tomonga ochiladigan parda
tableaux ['tæbləʊz] *pl of* **tableau**
table-beer ['teɪb(ə)lbɪə] *n* oshxona pivosi (*spirtsiz pivo*)
table-book ['teɪb(ə)lbʊk] *n* 1) muqovasi rasmlar bilan bezatilgan chiroyli kitob; 2) jadvallar to'plami
table-cloth ['teɪb(ə)lklɒθ] *n* dasturxon
table-cover ['teɪb(ə)l,kʌvə] *n* chiroyli dasturxon
table d'hôte [ˌtɑ:b(ə)l'deʊt] *n fr.* tabl-dot (*G'arbiy Yevropada: umumiy ovqat stoli*)
table-flap ['teɪb(ə)lflæp] *n* stolning qaytarma taxtasi
tableful ['teɪb(ə)lfʊl] *n* 1) narsalar bilan to'ldirilgan stol; 2) ziyofat ahli
table-knife ['teɪb(ə)lnaɪf] *n* ro'zg'or pichog'i, osh pichoq
tableland ['teɪb(ə)llænd] *n geogr.* yassi tog'lik, tepalik
table-leaf ['teɪb(ə)lli:f] = **table-flap**
table-lifting ['teɪb(ə)l,lɪftɪŋ] *n* spiritizm (*o'lganlar ruhi narigi dunyoda yashaydi va ular bilan so'zlashish mumkin, deb ishonuvchi mistik oqim*)
table-linen ['teɪb(ə)l,lɪnɪn] *n* sochiq-dasturxon
tableman ['teɪb(ə)lmæn] *n* (*pl* **-men** [-mən]) tabelchi
table-money ['teɪb(ə)l,mʌnɪ] *n harb.* tirikchilik (ro'zg'or) xarajatlari uchun sarflanadigan pul
table-napkin ['teɪb(ə)l,næpkɪn] *n* qo'l sochiq, salfetka

table-spoon [ˈteɪb(ə)lspu:n] *n* osh qoshiq
table-stone [ˈteɪb(ə)lstəʊn] *n arxeol.* tosh maqbaralar
tablet [ˈtæblɪt] *n* 1) (*yozuvli*) kichkina, mayda taxta; 2) bloknot, daftarcha; 3) tabletka, tabletka dori
table-talk [ˈteɪb(ə)ltɔ:k] *n* stol (*dasturxon*) atrofidagi suhbat
table-tennis [ˈteɪb(ə)l,tenɪs] *n* stol tennisi
table-ware [ˈteɪb(ə)lweə] *n* turli idishlar, vilka, qoshiq va b.
table-water [,teɪb(ə)lˈwɔ:tə] *n* mineral ichimlik suvi
tabloid [ˈtæblɔɪd] *n* 1) tuturiqsiz gazeta; 2) qisqartirilgan matnli kichkina hajmdagi gazeta
taboo [tə ˈbu:] 1. *a* 1) man etilgan; 2) uyatsiz (*so'z haqida*); 2. *v* man etmoq, taqiqlamoq
tabor [ˈteɪbə] *n tar.* kichkina nog'ora
tabouret [ˈtæb(ə)rɪt] *n* kichkina, pastak kursi, kursicha
tabu [tə'bu:] = **taboo**
tabular [ˈtæbjələ] *a* 1) jadval shaklidagi, jadvalga oid; 2) yassi shaklli
tabulate [ˈtæbjoleɪt] 1. *a* yassi, yapaloq, tekis; 2. *v* 1) jadvalga kiritmoq; 2) yuzasini yassi qilmoq
tabulation [,tæbjʊˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) jadval tuzish; 2) jadvaldagi ma'lumot
tabulator [ˈtæbjoleɪtə] *n* 1) jadval tuzuvchi; 2) tabulator (*hisoblash mashinasining bir turi*)
tachometer [tæˈkɒmɪtə] *n tex.* taxometr (*aylanish tezligini o'lchaydigan asbob*)
tacit [ˈtæsɪt] *a* 1) so'z bilan bayon etilmagan; 2) nazarda (ko'zda) tutilgan; 3) so'zsiz, e'tirozsiz; lom-mim demay qilingan
taciturn [ˈtæsɪtɜ:n] *a* kamgap, indamas
taciturnity [,tæsɪˈtɜ:nɪtɪ] *n* kamgaplik, indamaslik
tack I [tæk] *n* 1) keng qalpoqli mix, knopka; 2) chokning (qaviqning) bir yo'li (bitta baxyasi)
tack II [tæk] *n deng.* ovqat, oziq, taom; **soft ~** non
tackle I [ˈtæk(ə)l] *n* asbob, buyum, jihoz
tackle II [ˈtæk(ə)l] *v amer.* 1) bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; 2) ushlab olmoq, tutib olmoq; 3) hal qilmoq; 4) (*futbolda koptokni*) ushlamoq, tutmoq
tacky [ˈtækɪ] *a* yopishqoq, yopishadigan
tact [tækt] *n* odob, odoblilik, xushmuomalalik, nazokat
tactful [ˈtæktf(ə)l] *a* odobli, xushmuomala, andishali, nazokatli
tactical [ˈtæktɪk(ə)l] *a* 1) *harb.* taktikaga oid; 2) harbiy, jangovar; **~ efficiency** jangga shaylik; 3) epchil, chaqqon, abjir
tactician [tækˈtɪʃ(ə)n] *n* taktik (*taktikani yaxshi biladigan odam*)
tactics [ˈtæktɪks] *n* (***sing va pl bir xilda ishlatiladi***) taktika (*1. harb. tayyorgarlik ko'rish va jang olib borish san'ati; 2. ko'ch. ko'zlangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullari*)
tactile [ˈtæktaɪl] *a* 1) sezadigan, sezuvchi, sezish uchun xizmat qiladigan; 2) sezilarli darajadagi
tactless [ˈtæktləs] *a* odobsiz, beandisha
tactual [ˈtæktʃʊəl] *a* 1) sezadigan, sezish uchun xizmat qiladigan, sezuvchi; sezish...; 2) sezilarli, sezilib turadigan, bilinib (ko'rinib) turgan, kattagina
tad [tæd] *n amer.* go'dak, farzand, bola
Tadjik [ˈtɑ:dʒɪk] 1. *a* tojiklarga, Tojikistonga oid; 2. *n* 1) tojik, tojik ayoli, tojik qiz; 2) tojik tili
tadpole [ˈtædpəʊl] *n* itbaliq, qurbaqa bolasi
ta'en [teɪn] *shoir.* **taken** *ga qarang*
taffeta [ˈtæfɪtə] *n* tafta (*gazlama turi*)
taffy [ˈtæfɪ] *n* 1) *amer.* bir dona iris; shakar va yog'dan qilingan konfet; 2) xushomad, tilyog'lama, maqtov
tafia [ˈtæfɪə] *n* arzon romning bir turi (*kuchli spirtli ichimliklarning bir turi*)
tag I [tæg] 1. *n* 1) yozuv, yorliq; 2) quloqcha, tutqich; 3) ilmoq, sirtmoq, halqa; 2. *v* 1) biriktirmoq, mahkamlamoq; 2) qo'shmoq, ilova qilmoq (*kitob, xat va b.*)
tag II [tæg] 1. *n* quvlashmachoq (*bolalar o'yini*); 2. *v* orqasidan quvib borib urmoq *yoki* koptok otib tekkizmoq (*bolalar o'yinlarida*)
tag day [ˈtægdeɪ] *n amer.* xayr-ehson (sadaqa, qurbonlik) qilish kuni
tagged [tægd] *a* belgilangan, belgi solingan (qo'yilgan, tamg'a bosilgan)
tagger [ˈtægə] *n pl* bir taxta juda yupqa tunukalar
taiga [ˈtaɪgə] *n* tayga (*Yevropa va Osiyo qit'alarining shimolidagi g'oyat zich to'qayzor*)
tail I [teɪl] 1. *n* 1) dum, orqa qism, quyruq; **at the ~ of** kimningdir izidan; 2) navbat; 3) kuchsiz, zaif qism; 4) tanganing teskari tomoni; 2. *v* 1) dum hosil qilmoq; 2) oxirini ulamoq; **to ~ away** cho'zilib ketmoq, uzoqdan yo'q bo'lmoq
tail II [teɪl] *n yur.* merosga qoldirilgan buyumlarning cheklangan shartlari
tail-board [ˈteɪlbɔ:d] *n* aravaning qaytarma (*ko'tarma*) orqasi
tail-coat [ˈteɪlkəʊt] *n* frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*)
tail-end [,teɪlˈend] *n* (*biror narsaning*) yakunlovchi qismi (oxiri)
tailings [ˈteɪlɪŋz] *n pl* qoldiq, tashlandiq, chiqit, supurindi
tail-lamp [ˈteɪllæmp] = **tail-light**
tailless [ˈteɪlləs] *a* quyruqsiz, dumi yuluq, dumsiz
tail-light [ˈteɪllaɪt] *n* mashina orqasidagi fonus (fonar)
tailor [ˈteɪlə] 1. *n* mashinachi, tikuvchi; 2. *v* tikmoq; **well ~ed** yaxshi kiyingan
tailored [ˈteɪləd] *a* tikuvchi tomonidan tikilgan
tailoring [ˈteɪlərɪŋ] *n* 1) tikuvchilik ishi; 2) kiyim (ust-bosh) tikish
tailor-made [,teɪləˈmeɪd] *a* maxsus buyurtma asosida qilingan
tailpiece [ˈteɪlpi:s] *n* oxirgi qism; quyruq qism
tailplane [ˈteɪlpleɪn] *n av.* 1) orqadagi stabilizator; 2) samolyotning dum qanoti
tail-slide [ˈteɪl,slaɪd] *n av.* samolyotning orqa tomonga og'ishi
tail-spin [ˈteɪl,spɪn] *n* 1) *av.* boshqarib bo'lmaydigan shtopor (*oliy pilotajda: samolyotning pastga qarab burilib sho'ng'ishi*); 2) iqtisodda inqirozga yuz tutish
tail-wind [ˈteɪl,wɪnd] *n* hamroh shamol
tain [teɪn] *n* qalaydan qilingan amalgama (*amalgama – simobning biror metall bilan qotishmasi*)
taint I [teɪnt] *n* 1) dog', isnod; 2) axloqi buzuqlik, axloqsizlik, badaxloqlik
taint II [teɪnt] *v* 1) yuqtirmoq; 2) buzilmoq; **meat ~s readily in hot weather** issiqda go'sht tez buziladi
tainted [ˈteɪntɪd] *a* buzuq, buzilgan
taintless [ˈteɪntləs] *a* beayb, benuqson, bekam-ko'st
Tajik [ˈtɑ:dʒɪk] = **Tadjik**
take [teɪk] *v* (**took; taken**) 1) olmoq; **to ~ prisoner** asir olmoq; 2) foydalanmoq; 3) ijaraga olmoq; 4) *kino.* kadrga olmoq; **to ~ part in** qatnashmoq; **to ~ a holiday** ta'tilga chiqmoq; **to ~ place** sodir bo'lmoq; **to ~ in** mehmon kutmoq; **to ~ on** xizmatga qabul qilmoq; **to ~ out** chiqarmoq; **to ~ up** muhokama qilmoq; **to ~ a meal** ovqatlanmoq; **to ~ by** ...dan ushlamoq, ...dan tutmoq; 5) ushlamoq, tutmoq; **to ~ fish** baliq tutmoq; **to ~ in the act** jinoyat ustiga kelib qolmoq; **to ~ wine** vino ichmoq; **to ~ a seat** o'tirmoq; **to ~ a bus** avtobusga o'tirmoq; **to ~ a taxi** taksiga o'tirmoq; **to ~ account**

hisobga (e'tiborga) olmoq, nazarda (ko'zda) tutmoq; **to ~ action** 1) so'zga chiqmoq; nutq so'zlamoq; 2) chora ko'rmoq; **to ~ care** ehtiyot bo'lmoq, tasalli (taskin) topmoq; xursand bo'lmoq, quvonmoq; **to ~ counsel** maslahatlashmoq, maslahat olmoq; **to ~ effect** ta'sir qilmoq, ta'sir ko'rsatmoq; kuchga kirmoq; **to ~ notice** payqamoq; bilib (sezib, payqab) qolmoq; **to ~ offence** xafa bo'lmoq, ranjimoq; **to ~ the offensive** hujumga o'tmoq; **to ~ root** ildiz olmoq, ildiz otmoq, tomir yoymoq; **to ~ shelter** yashirinmoq, o'zini panaga olmoq; **to ~ a shot** otmoq, o'q uzmoq; **to ~ a walk** sayr qilmoq, aylanib (o'ynab, tomosha qilib) yurmoq; **to ~ a wife** uylanmoq, xotin qilmoq; **to ~ aback** 1) bexosdan bostirib kelib tutmoq (qo'lga olmoq); 2) esankiratib (dovdiratib) qo'ymoq; **to ~ after** kimgadir qaramoq (qarab turmoq); kimnidir parvarish qilmoq; **to ~ away** 1) uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq; 2) chiqarib yubormoq; 3) olib (oldirib) tashlamoq; sug'urmoq, sug'urib tashlamoq; 4) yo'qotmoq, yo'q qilmoq; **to ~ down** (*devordan, taxta tokchadan*) olmoq, olib qo'ymoq; **to ~ from** olib (chiqarib) tashlamoq; **to ~ off** 1) yechmoq; 2) olib (chiqarib) tashlamoq

takeaway ['teɪkə´weɪ] *n* ko'tarib yurib sotiladigan ovqat

take-down ['teɪk´daun] *n* xo'rlash, yerga urish

take-home pay [teɪk´həumpeɪ] *n* sof ish haqi

take-in ['teɪk´ɪn] *n* aldash, firib berish

taken ['teɪkən] *p. p. of* **take**

take-off ['teɪk´ɒf] *n* 1) *so'zl.* taqlid qilish, o'xshatish; 2) *av.* parvoz qilish, uchish

take-over ['teɪk ´əuvə] *n* bosib olish, qo'lga olish

taker ['teɪkə] *n* oluvchi shaxs

taking ['teɪkɪŋ] 1) bosib olish; zabt qilish, qo'lga olish; 2) qamoqqa (hibsga) olish

talari ['tɑ:ləɾɪ] *n* talari (*Efiopiyaning pul birligi*)

talc [tælk] **1.** *n min.* talk (*texnika va tibbiyotda ishlatiladigan oq yoki ko'kish rangli mineral*); **2.** *v* talk sepmoq

talcum ['tælkəm] = **talc 1**

talcum powder ['tælkəm,paudə] *n* gigiyenik upa

tale [teɪl] *n* hikoya; uydirma; ertak, cho'pchak; rivoyat, qissa; to'qima (*asarlar*)

talebearer [´teɪl,be(ə)rə] *n* g'iybatchi (gap tashuvchi) odam; chaqimchi

talent [´tælənt] *n* iste'dod, layoqat, qobiliyat

talented ['tælənɪd] *a* iste'dodli, qobiliyatli

talentless [´tælənɪləs] *a* lapashang, qobiliyatsiz, iste'dodsiz

tales ['teɪli:z] *n lot. pl* sud maslahatchilari ro'yxati

talesman ['teɪli:zmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) sud maslahatchisi

taleteller ['teɪl,telə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi

tali ['teɪlaɪ] *pl of* **talus I**

taliped ['tælɪped] *a tib.* maymoqlikdan azoblanayotgan

talipes ['tælɪpi:z] *n* maymoqlik

talipot ['tælɪpɒt] *n bot.* hind palmasi (*yelpig'ichsimon palma*)

talisman ['tælɪzmən] *n* tumor

talk [tɔ:k] **1.** *n* 1) muzokara, ma'ruza; suhbat; **to ~ over** muhokama qilmoq; 2) nutq so'zlash, gaplashish, suhbatlashish; 3) mish-mish gaplar; ovoza; **there is a ~ of ...**; ... degan mish-mish gaplar (ovoza) bor; **2.** *v* gaplashmoq; suhbatlashmoq; **to ~ of** ... haqida gaplashmoq; **to ~ to** bilan gaplashmoq; **to ~ big** maqtanmoq, kerilmoq, maqtanib gapirmoq; **~ of the devil!** yo'qlaganda o'zi hozir-u nozir; xizmi yo'qlasa ham bo'lar ekan; **to ~ tall** orttirib (bo'rttirib) yubormoq, bo'rttirib (oshirib) ko'rsatmoq; **to ~ turkey** *amer.* 1) ish yuzasidan suhbatlashmoq; 2) ochiqdan ochiq (to'g'risini) gapirmoq; **to ~ down** baqirib kimdandir baland kelmoq; **to ~ over** 1) muhokama (muzokara) qilmoq, maslahatlashib olmoq; 2) ishontirmoq, ko'ndirmoq; **to ~ round** kimsani fikrdan qaytarmoq; kimsaning fikrini o'zgartirmoq; **to ~ up** baland va aniq gapirmoq

talkathon ['tɔ:kəθən] *n amer.* juda uzun nutq *yoki* munozara (bahs, tortishuv)

talkative [tɔ:kətɪv] *a* sergap, ezma, mahmadona

talker ['tɔ:kə] *n* 1) sergap (ezma) odam; 2) yaxshi notiq

talkie ['tɔ:kɪ] *n so'zl.* ovozli kino

talking [´tɔ:kɪŋ] *a* 1) ifodali, ma'noli; 2) sergap, so'zlashni yaxshi ko'ruvchi; 3) gapiradigan; **a ~ film** ovozli film

talking machine [,tɔ:kɪŋmə´ʃi:n] *n* 1) grammofon; 2) fonograf (*ovozni yozib oladigan asbob*)

talking-to ['tɔ:kɪŋtu:] *n* 1) talaffuz; 2) tanbeh, hayfsan

tall [tɔ:l] *a* 1) baland, novcha, uzun bo'yli, baland bo'yli; 2) *so'zl.* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta; **a ~ order** qiyin ish; og'ir masala

tallboy ['tɔ:lbɔɪ] *n* baland komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*)

tallow ['tæləu] *n* 1) moy; yog'; **a ~ face** *esk.* oqargan do'mboq yoki shishgan yuz; 2) arava (g'ildirak) moyi

tallow-chandler ['tæləu,ʧɑ:ndlə] *n* moy (mum) sham sotuvchi

tallowy ['tæləuɪ] *a* 1) moydan (yog'dan) qilingan; moyli, yog'li, moy (yog')...; yog' tekkan, yog'ga belangan; 2) yog'i ko'p, seryog', sermoy

tally ['tælɪ] **1.** *n* 1) xatcho'p (*belgi qo'yib biror narsa hisobi olib boriladigan tayoqcha, taxtacha*); 2) yorliq (*yuk yoki mol ustiga osib qo'yilgan yozuvli taxtacha*); 3) nusxa, ko'chirma; dublikat (*hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi*)

tally-ho [,tælɪ´həu] **1.** *int. ov.* yugur, ol, bos (*o'rgatilgan yoki ovchi itga xitob so'zi*); **2.** *v* itlarni olkishlamoq, gij-gijlamoq

tally-shop ['tælɪʃɒp] *n* mollarni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib oladigan *yoki* sotadigan magazin (do'kon)

tally trade ['tælɪtreɪd] *n* bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish *yoki* sotish

talma ['tælmə] *n fr.* talma (*ayollarning yelkaga tashlab yuradigan yengsiz uzun kiyimi*)

talon [´tælən] *n* 1) tirnoq, changal; 2) uzun tirnoq; 3) talon

taluk [tɑ:´lu:k] *n hind.* 1) soliq okrugi; 2) merosiy mulk

talus I [´teɪləs] *n anat.* to'piq suyagi

talus II [´teɪləs] *n* 1) qiyalik, yonbag'irlik; 2) *geol.* to'kilma (*tog' yonbag'ridagi ko'chib tushgan tosh, xarsang uyumi*)

tamable ['teɪməb(ə)l] *a* bo'ysunadigan, bo'ysundirib (qo'lga o'rgatib) bo'ladigan

tamarack [´tæməræk] *n bot.* Amerika tilog'ochi (*ignabarglilarga mansub daraxt*)

tamarind ['tæmərɪnd] *n bot.* tamar hindiy, hind xurmosi

tamarisk [´tæmərɪsk] *n bot.* yulg'un

tambour I ['tæmbuə] *n* do'mbira, nog'ora

tambour II [´tæmbuə] *v* (*matoga gul*) to'qimoq

tambourine [,tæmbə´ri:n] *n* childirma, doira

tame [teɪm] **1.** *a* 1) qo'lga oid, qo'lga o'rgatilgan; **a ~ bear** qo'lga o'rgatilgan ayiq; 2) xonaki (*mushuk*); **2.** *v* qo'lga o'rgatmoq

tameable ['teɪməb(ə)l] = **tamable**

tameless [´teɪmləs] *a* 1) yovvoyi, vahshiy; 2) qo'lga o'rgatib (rom qilib) bo'lmaydigan

tamer ['teɪmə] *n* 1) (*hayvonlarni*) bo'ysundiruvchi, bo'ysundirib o'rgatuvchi, rom qiluvchi

Tamil ['tæmɪl] **1.** *n* 1) tamil; 2) tamil tili; **2.** *a* tamilga oid

Tamilian [tə'mɪlɪən] *a* Tamil va tamillik-larga oid

Tammany ['tæmənɪ] *n amer.* Nyu-York-dagi mustaqil demokratik partiya tash-kiloti

Tammany Hall ['tæmənɪhɔ:l] *n amer.* Nyu-Yorkdagi demokratik partiya shtabi

tammy I ['tæmɪ] = **tam-o'-shanter**

tammy II ['tæmɪ] *n* suzg'ich, elak, g'alvir

tam-o'-shanter [ˌtæmə'ʃæntə] *n* Shot-landiya bereti (*movutdan qilingan yoki baxmaldan tikilgan bosh kiyim*)

tamp [tæmp] *v* to'ldirmoq, to'latmoq, tiqishtirmoq, zichlab tiqmoq

tampan ['tæmpæn] *n ent.* Janubiy Afrika zaharli kanasi

tamper I ['tæmpə] *v* 1) aralashmoq, tum-shug'ini suqmoq; 2) soxtalashtirmoq; 3) birovni pulga sotib olmoq

tamper II ['tæmpə] *n* shibbalagich (*shib-balaydigan, shibbalab zichlaydigan asbob yoki mashina*)

tampion ['tæmpɪən] *n* tiqin

tampon ['tæmpɒn] *n tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan paxta yoki doka*)

tamtam ['tæmtæm] = **tomtom**

tan [tæn] **1.** *n* 1) oshlaydigan teri; 2) oftobda qorayish; **2.** *a* sarg'ish-jigarrang; **3.** *v* 1) teri oshlamoq; 2) oftobda toblanib yotmoq

tana ['tɑ:nə] *n hind.* politsiya uchastkasi

tanadar [ˌtɑ:nədɑ:] *n hind.* politsiya mahkamasining boshlig'i

tandem ['tændəm] *n* o'rindig'i oldinma-keyin joylashgan ikki o'rinli velosiped

tang I [tæŋ] *n* 1) achchiq, o'tkir hid; 2) o'ziga xos xususiyat (fazilat)

tang II [tæŋ] **1.** *n* jarang, jiring, jarang-lagan (jiringlagan) ovoz, jaranglash; **2.** *v* baland jaranglamoq, jiringlamoq, jingillamoq, jarang-jurung qilmoq

tangent ['tændʒ(ə)nt] *n* 1) urinma (*egri chiziqning biror nuqtasiga tegib o'tgan to'g'ri chiziq*); 2) *mat.* tangens; **to fly** (*or* **to go**) **off at a ~** to'satdan mavzudan chetga chiqib ketmoq

tangential [tænˈdʒenʃ(ə)l] *a* tangensial (*egri chiziqqa urinma chiziq bo'yicha yo'nalgan*)

tangerine [ˌtændʒəˈri:n] *n* 1) mandarin (*daraxt va mevasi*); 2) to'q sariq rang

tangibility [ˌtændʒəˈbɪlɪtɪ] *n* 1) sezilish, sezilishi mumkinlik, seziluvchanlik; 2) haqiqiylik, chinlik

tangible ['tændʒəb(ə)l] *v* sezib bo'ladi-gan, sezish mumkin bo'lgan

tangle ['tæŋg(ə)l] **1.** *n* 1) chigallashgan koptok ip; 2) chigal, ishkal; 3) urush; 4) nizo; **2.** *v* 1) chigallashmoq; 2) ovla-moq; 3) janjallashmoq (**with**); 4) aralashib ketmoq

tangled ['tæŋg(ə)ld] *a* chigal, chalkash, chalkashib (chigallashib) ketgan

tanglefoot ['tæŋg(ə)lfʊt] *n* 1) *amer.* viski (*ingliz arag'i*); 2) pashshaga qarshi yopishqoq qog'oz

tangleleg ['tæŋg(ə)lleg] = **tanglefoot**

tangly ['tæŋglɪ] *a* chigal, chuvalgan, chal-kashgan, chigallashib ketgan

tango ['tæŋgə] *n* tango (*raqsning bir turi va shu raqs musiqasi*)

tank [tæŋk] **1.** *n* 1) sisterna (*1. suyuqlik-lar saqlanadigan katta metall idish; 2. suyuqlik yoki gaz tashiydigan maxsus vagon*); 2) *harb.* tank; **2.** *v* bochka-ga quymoq

tankage ['tæŋkɪdʒ] *n* 1) sisternaning (bak-ning) sig'imi (hajmi); 2) sisternada saq-lash

tankard ['tæŋkəd] *n* uzun pivo krujkasi (*ko'pincha, qopqoqli*)

tank-borne [ˈtæŋkbɔ:n] *a* sisternada tashiladigan

tank-car ['tæŋkkɑ:] *n* 1) *tem. y.* sisterna; 2) avtosisterna

tanked [tæŋkt] *a amer. slang.* mast, mast-alast

tank engine [ˌtæŋkˈendʒɪn] *n* tank-paro-voz

tanker I ['tæŋkə] *n* tanker (*suyuq va ya-rim suyuq mahsulotlar tashiladigan kema*)

tanker II [ˈtæŋkə] *n amer. harb.* tank-chi

tanner I ['tænə] *n* teri oshlovchi ishchi

tanner II ['tænə] *n* 6 pensli tanga pul

tannery ['tæn(ə)rɪ] *n* ko'n (ishlangan, pishirilgan teri; charm) zavodi

tannin ['tænɪn] *n* tanin (*tibbiyot va tex-nikada ishlatiladigan, tishni qamash-tiradigan modda*)

tantalize ['tæntəlaɪz] *v* yolg'on umid bilan havasini keltirmoq

tantalizing ['tæntəlaɪzɪŋ] *a* yoqimli, jozi-bali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq

tantalum ['tæntələm] *n kim.* tantal (*qiyin eriydigan qattiq kulrang nodir metall*)

Tantalus ['tæntələs] *n grek.mif.* Tantal (*Yunon afsonasi qahramoni*)

tantamount ['tæntəmaʊnt] *a* 1) teng kuch-li, kuchi baravar; 2) bahosi (qiymati) bir xil bo'lgan

tantivy [tænˈtɪvɪ] **1.** *a* tezlik bilan bo'ladi-gan, tez, ildam, tez bo'lib o'tadigan; **2.** *adv* chopib, yugurib, yelib; yelday uchirib

tantrum ['tæntrəm] *n so'zl.* birdaniga achchig'i chiqish, bir onli g'azab, lov etib bosilgan jahl

tap I [tæp] **1.** *n* 1) po'kak, tiqin; 2) jo'm-rak; **wine on ~** mayxonaning o'zida ichi-ladigan (bochkada sotiladigan) vino; 3) pivo, vino markasi; **2.** *v* tiqinni tortib (chiqarib) olmoq

tap II [tæp] *v* urmoq, tepmoq

tap-dance ['tæpdɑ:ns] *n* chechotka (*raqs turi*)

tap dancing ['tæpˌdɑ:nsɪŋ] *n* chechotka o'yinini ijro etish

tape [teɪp] *n* 1) to'qilgan tasma, uqa, jiyak; 2) tasma, kasseta; **adhesive ~** izo-latsion lenta; 3) marra (pakka, fi-nish)dagi lentacha; **2.** *v* magnitofon len-ta (tasma)siga yozib olmoq

tape-line ['teɪplaɪn] *n* 1) tasmali metr; 2) o'lchov (o'lchash uchun xizmat qila-digan) lenta

tape-machine ['teɪpməˌʃi:n] *n* harf yoza-digan telegraf apparati (*asbobi*)

tape-measure ['teɪpˌmeʒə] = **tape-line**

taper ['teɪpə] **1.** *n* 1) xira chiroq; 2) asta-sekin pasayish (susayish, zaiflashish); **2.** *v* uchini chiqarmoq; o'tkirlamoq

tape-record ['teɪprɪkɔ:d] *v* magnitofon tasmasiga yozib olmoq

tape-recorder ['teɪprɪˌkɔ:də] *n* magnito-fon

tapering ['teɪp(ə)rɪŋ] *a* 1) ingichka va uzun (*qo'l barmoqlari va b. to'g'risida*); 2) konus shaklidagi

tapestry ['tæpɪstrɪ] *n* 1) devorga osib qo'yiladigan suratli gilam; 2) gul to'qib bezatilgan gazlama (mato)

tapeworm ['teɪpwɜ:m] *n tib.* lentasimon gijja

tap-hole ['tæphəʊl] *n* 1) bochka teshigi; 2) ko'z (*metallurgiya pechlarida: eri-gan metall yoki toshqol oqib chiqadi-gan teshik*)

taphouse ['tæphaʊs] = **taproom**

tapir [ˈteɪpə] *n zool.* tapir (*qisqa xar-tumli sutemizuvchi hayvon*)

tapis ['tæpi:] *n fr. so'zl.* yopinchiq, das-turxon; gilam; **to be** (*yoki* **to come**) **on the ~** muhokamada bo'lmoq, muhoka-ma qilinmoq

tapper ['tæpə] *n* telegraf kaliti

tappet ['tæpɪt] *n tex.* klapanning turtkichi

taproom ['tæpru:m] *n* pivoxona, bar

tap-root ['tæpru:t] *n bot.* asosiy ildiz, o'qildiz

tapster ['tæpstə] *n* bufetchi, bar (may-xona) egasi, bar (mayxona) sotuvchi-si

tar [tɑ:] **1.** *n* qatron; chirkay (*yog'och, torf, toshko'mir kabilardan qizdirib olinadigan qora, quyuq modda*); **2.** *v* qatron surtmoq

taradiddle ['tærəˌdɪdl] *n so'zl.* yolg'on, yolg'on (noto'g'ri) gap, yolg'on-ya-shiq, uydirma

tarantella [ˌtærənˈtelə] *n* tarantella (*sho'x italyan xalq raqsi hamda shunday raqs musiqasi*)

tarantula [tə'ræntjulə] *n zool.* biy, o'rgimchak biyi

taraxacum [tə'ræksəkəm] *n* 1) *bot.* qoqi o't; 2) *tib.* qoqi o'tdan tayyorlangan dori

tarboosh [tɑ:'bu:ʃ] *n* hojido'ppi (*ba'zi Sharq mamlakatlarida kiyiladigan popukli bosh kiyim*)

tar-brush [tɑ:'brʌʃ] *n* qatron surtish uchun ishlatiladigan kichkina cho't-kacha

tardigrade ['tɑ:dɪgreɪd] *a zool.* imillab yuradigan, sekin harakat qiladigan

tardy ['tɑ:dɪ] *a* 1) sustkash, sust, lanj, kechikish; 2) kech qolgan; 3) orqada qolgan; **~ arrival** sust kelish, kech kelish; **to be ~ for the lyceum** litseyga kechikmoq

tare I [teə] **1.** *n* tara (*tovar-buyum joylanadigan yoki o'raladigan qog'oz, qop, quti va sh. k.*)ning og'irligi; **~ and fret** tara uchun qilinadigan chegirma; **2.** *v* taraning og'irligini aniqlamoq

tare II [teə] *n bot.* ekiladigan xashaki no'xat

targe [tɑ:dʒ] *n* kichkina yumaloq qalqon

target ['tɑ:gɪt] *n* mo'ljal, nishon

Tarheel(er) ['tɑ:,hi:l(ə)] *n amer. so'zl.* Shimoliy Karolinada yashovchi kishilarning laqabi

tariff ['tærɪf] **1.** *n* 1) tarif (*biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi*); **~ reform** proteksionizm (*biror davlatning o'z milliy iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati*) islohoti; 2) narx qo'yish; **2.** *v* 1) tarifga kiritmoq; 2) narx qo'ymoq

tarlatan ['tɑ:lət(ə)n] *n* tarlatan (*dokaga o'xshagan mato, gazlama*)

tarmac ['tɑ:mæk] = **„tar macadam"** *so'zining qisqartmasi*

tar macadam [,tɑ:mə'kædəm] *n* shossesni gudronlamoq, shossega gudron yotqizmoq

tarnation [tɑ:'neɪʃ(ə)n] = **damnation**

tarnish ['tɑ:nɪʃ] **1.** *n* xiralik, shaffof emaslik, nursizlik; **2.** *v* xira bo'lmoq; xiralanmoq, rangi o'chmoq

tar paper ['tɑ:,peɪpə] *n* to'l, qora qog'oz (*smolali qalin qog'oz*)

tarpaulin [tɑ:'pɔ:lɪn] *n* 1) brezent; 2) matros shapkasi *yoki* kurtkasi; 3) *so'zl.* matros, dengizchi

tarpon ['tɑ:pɒn] *n zool.* tarpon (*yovvoyi ot*)

tarragon ['tærəgən] *n bot.* 1) estragon, tarxun (*ko'p yillik o't, ermanning bir turi*); 2) shuvoq, yovshan

tarrock ['tærək] *n* bir nechta shimoliy dengiz qushlarining nomlari

tarry I ['tærɪ] **1.** *v* 1) sustkashlik qilmoq; 2) *amer.* kutmoq **(for)**; 3) yashamoq **(in, at)**

tarry II ['tɑ:rɪ] *a* qatron surtilgan, qatronli

tarsi ['tɑ:saɪ] *pl of* **tarsus**

tarsia ['tɑ:sɪə] *n ital.* yog'och mozaika (*mozaika –qadama (terma) naqsh va shunday naqsh ishlash san'ati*)

tarsus ['tɑ:səs] *n* (*pl* **-si**) 1) *anat.* oyoqning beti, oyoq kaftining orqasi (*oyoq kafti bilan boldir orasi*); 2) *zool.* oyoqning kafti (*qushlarda*)

tart I [tɑ:t] *a* nordon, achchiq, taxir, turush

tart II [tɑ:t] *n* 1) pirog; 2) uy torti; 3) mevali pirog

tartan ['tɑ:tn] *n* katak-katak gazlama

Tartar ['tɑ:tə] **1.** *n* 1) tatar (*kishi*); 2) tatar ayol, tatar qiz; **2.** *a* tatarcha; **young ~** injiq bola

tartar ['tɑ:tə] *n kim.* tishda paydo bo'ladigan tosh

Tartarean [tɑ:'teə(ə)rɪən] *a* do'zaxga (jahannamga) oid, do'zaxda bo'ladigan

Tartarian [tɑ:'teə(ə)rɪən] *a* tatarlarga oid

Tartarus ['tɑ:tərəs] *n mif.* jahannam, do'zax (*yunon mifologiyasida*)

tartlet ['tɑ:tlɪt] *n* kichkina pirog

task [tɑ:sk] **1.** *n* topshiriq, ish, dars, majburiyat, vazifa; **2.** *v* 1) ish bermoq; 2) haddan ortiq yuklamoq; 3) topshirmoq

taskmaster ['tɑ:sk,mɑ:stə] *n* 1) brigadir; 2) nazoratchi

taskwork ['tɑ:skwɜ:k] *n* 1) belgilangan (*kelishilgan*) ish; 2) baylashib qilinadigan ish, baylashib ishlash

tassel ['tæs(ə)l] *n* popuk, gajim

taste [teɪst] **1.** *n* 1) maza, ta'm; 2) did, ta'b; **~s differ** har kimning o'z didi bor; **2.** *v* 1) mazasini tatib ko'rmoq; 2) yemoq, ichmoq

tasteful ['teɪstf(ə)l] *a* mazali pishirilgan, did bilan bajarilgan, ta'mi shirin

tasteless ['teɪstləs] *a* mazasiz, ta'mi yo'q, ta'msiz, didsiz, bemaza

taster ['teɪstə] *n* 1) chashnachi (*mazasiga qarab sinovchi*); sinovchi, degustator; 2) nashriyot taqrizchisi

tasty ['teɪstɪ] *a* mazali, lazzatli, shirin

tat [tæt] *v* to'r to'qimoq

ta-ta [tæ'tɑ:] *int.* hozircha (vaqtincha) xayr!

Tatar ['tɑ:tə] = **Tartar**

tatter ['tætə] **1.** *n* 1) eski-tuski sotib oluvchi, eskifurush, eskichi; 2) eski-tuski; uvada; **2.** *v* yirtilmoq, eskirmoq

tatterdemal(l)ion [,tætədə'meɪlɪən] *n* yalangoyoq, juldur (yirtiq-sirtiq) kiyimli kishi

tattered ['tætəd] *a* yirtiq, yirtiq-sirtiq, uvadasi chiqqan

tatting ['tætɪŋ] *n* to'qilgan to'r

tattle ['tætl] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* valdiramoq, vaysamoq

tattler ['tætlə] *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, safsataboz

tattoo I [tæ'tu:] **1.** *n* kechki payt yotishga chalinadigan signal; **2.** *v* turishga (*yoki* yotishga) signal chalmoq

tattoo II [tæ'tu:] **1.** *n* 1) tatuirovka (*badandagi yozuvlar, naqshlar*); 2) tatuirovka qilish (*teri ostiga rang o't-kazib badanga naqsh tushirish*); **2.** *v* tatuirovka qilmoq

tatty ['tætɪ] *n hind.* xushbo'y o'tdan qilingan ho'l bo'yra (*xonaning havosini sovitish uchun eshik yoki derazaga osib qo'yiladi*)

taught [tɔ:t] *past., p. p. of* **teach**

taunt I [tɔ:nt] *v* birovning ustidan kulmoq, birovni masxara (mazax, mayna) qilmoq

taunt II [tɔ:nt] *a* juda baland (*machta haqida*)

tauromachy [tɔ:'rɒməkɪ] *n grek.* ho'kizlar urushi (*jangi*)

taut [tɔ:t] *a* 1) tarang, tarang qilib tortilgan; 2) taranglashgan, kuchlangan; **~ nerves** taranglashgan asablar

tauten ['tɔ:tn] *v* tarang qilib tortmoq

tautologize [tɔ:'tɒlədʒaɪz] *v* takrorlamoq, qaytarmoq, qayta-qayta gapirmoq

tautology [tɔ:'tɒlədʒɪ] *n* tavtologiya (*bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash*)

tavern ['tævən] *n* kichik mayxona (*Italiya va ba'zi boshqa mamlakatlarda*)

taw I [tɔ:] *n* sharchalar (*bolalar o'yini*)

taw II [tɔ:] *v* terini oshlamasdan shilib olmoq

tawdry ['tɔ:drɪ] **1.** *a* 1) usti yaltiroq; 2) savlatli, ko'zga tashlanadigan; 3) didsizlik bilan ishlangan; **2.** *n* arzon bezak (zeb-ziynat)

tawny ['tɔ:nɪ] *a* to'q sariq

tax [tæks] **1.** *n* soliq, o'lpon; **2.** *v* soliq solmoq

taxability [,tæksə'bɪlɪtɪ] *n* soliqqa tortish

taxable ['tæksəb(ə)l] *a* soliq solingan; soliq solinadigan

taxation [tæk'seɪʃ(ə)n] *n* soliq solish, soliq summasi

tax-collector ['tækskə,lektə] *n* soliq yig'uvchi kishi

tax evasion [,tæksɪ'veɪʒ(ə)n] *n* soliq to'lashdan bosh tortish

tax-exempt [,tæksɪg'zempt] *a* soliq solinmaydigan, soliqdan ozod etilgan

tax-farmer ['tæks,fɑ:mə] *n* sotib olgan kishi, ijarador

tax-free [ˌtæks ˈfri:] *a* soliq to'lashdan ozod qilingan
tax-gatherer [ˈtæksˌgæð(ə)rə] = **tax-collector**
taxi [ˈtæksi] **1.** *n* taksi; **in a ~** taksida; **2.** *v* taksida yurmoq
taxi-dance hall [ˈtæksɪdɑ:nsˌhɔ:l] *n amer.* (*qahvaxona-restoranlarda*) raqsga tushiladigan zal
taxidermy [ˈtæksɪdə:mɪ] *n* tulumning ichini to'ldirish
taxi-driver [ˈtæksɪˌdraɪvə] = **taximan**
taximan [ˈtæksɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) taksi haydovchisi
taximeter [ˈtæksɪˌmi:tə] *n* taksometr (*qancha pul to'lashni ko'rsatuvchi moslama*)
taxing [ˈtæksɪŋ] **1.** *n* soliq solish; **a ~ district** *amer.* soliq okrugi; **a ~ master** sud xarajatlari hajmini aniqlaydigan mansabdor shaxs; **2.** *a* 1) soliq yig'adigan (oladigan, oluvchi); 2) soliq yig'ish bilan shug'ullanadigan
taxis [ˈtæksɪs] *n biol.* organizmning javobiy reaksiyasi
taxpayer [ˈtæksˌpeɪə] *n* soliq to'lovchi kishi
tea [ti:] *n* choy; **a ~ house** choyxona
teabeg [ˈti:bæg] *n* bir martaga ishlatiladigan (bir martalik) choy solingan kichkina qog'ozxalta
tea-biscuit [ˈti:ˌbɪskɪt] *n* choy bilan yeyiladigan pishiriqlar (*pecheniy*)
tea-board [ˈti:bɔ:d] = **tea-tray**
tea-bread [ˈti:bred] *n* choy bilan yeyiladigan bulochka *yoki* non
tea-caddy [ˈti:ˌkædɪ] *n* choy quti, choy idish, choydon
tea-cake [ˈti:keɪk] *n* choy bilan yeyiladigan keks (bulochka)
teach [ti:tʃ] *v* (**taught**) o'qitmoq, o'rgatmoq; **to ~ children** bolalarni o'qitmoq; **to ~ somebody English** kimgadir ingliz tilini o'rgatmoq; **to ~ at school** maktabda dars bermoq
teachable [ˈti:tʃəb(ə)l] *a* 1) o'zlashtirish mumkin bo'lgan (*fan haqida*); 2) o'qishga qobiliyatli bo'lgan; 3) zehni o'tkir, farosatli
teacher [ˈti:tʃə] *n* o'qituvchi
teachers college [ˈti:tʃəzˌkɒltdʒ] *n* pedagogika instituti
teaching [ˈti:tʃɪŋ] *n* ta'lim berish, o'qitish, o'rgatish; **to take up ~** o'qituvchi bo'lmoq
tea-cloth [ˈti:klɒθ] *n* choy dasturxon; choy idishni artadigan sochiq
tea-cosy [ˈti:ˌkəʊzɪ] *n* qavilgan g'ilof, jild (*choynakka*)
teacup [ˈti:kʌp] *n* choy ichadigan piyola
tea-dealer [ˈti:ˌdi:lə] *n* choyfurush, choy sotuvchi
tea-fight [ˈti:faɪt] = **tea-party**
tea-garden [ˈti:ˌgɑ:dn] *n* ochiq havodagi qahvaxona *yoki* restoran
tea-house [ˈti:haʊs] *n* choyxona
teak [ti:k] *n bot.* tik (*issiq mamlakatlarda o'sadigan kemabop qattiq daraxt*)
tea-kettle [ˈti:ˌketl] *n* choy qaynatish uchun ishlatiladigan choynak
teal [ti:l] *n* churrok (*mayda yovvoyi hayvon*)
tea-leaf [ˈti:li:f] *n* choy bargi
team [ti:m] **1.** *n* jamoa; **a football ~** futbol jamoasi; **2.** *v* birlashmoq
team-mate [ˈti:mmeɪt] *n* bitta jamoa o'yinchisi (*jamoadosh*)
teamster [ˈti:mstə] *n* haydovchi, podachi
teamwise [ˈti:mwaɪz] *n* birga, birgalikda
team-work [ˈti:mwɜ:k] *n* o'zaro hamkorlik; kelishilgan ish, birgalikdagi harakat
tea-party [ˈti:ˌpɑ:tɪ] *n* choyga taklif qilingan uyushma
teapot [ˈti:pɒt] *n* choy damlaydigan choynak
teapoy [ˈti:pɔɪ] *n hind.* uch oyoqli kichkina stol (*asosan, choy uchun*)
tear I [tɪə] *n* ko'z yoshi; **bitter ~s** achchiq ko'z yoshlar
tear II [teə] *v* (**tore, torn**) yirtmoq, yirtib tashlamoq; **to ~ paper** qog'ozni yirtmoq
tear-drop [ˈtɪədrɒp] *n* bir qatra yosh (*ko'z yoshi*)
tear-duct [ˈtɪədʌkt] *n anat.* yosh (ko'z yoshi) yo'li
tearful [ˈtɪəf(ə)l] *a* 1) g'amli, qayg'uli; 2) ko'z yoshga to'la
tear-gas [ˈtɪəgæs] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gaz
tearing [ˈte(ə)rɪŋ] *a so'zl.* quturgan
tearless [ˈtɪələs] *a* 1) ko'z yoshsiz; **~ grief** ko'z yoshsiz g'am; 2) ko'z yoshi oqizmaydigan
tea-room [ˈti:rum] *n* shakarpazlik mahsulotlari sotiladigan qahvaxona
tea-rose [ˈti:ˌrəʊz] *n bot.* choygul (*atirgulning oq-sarg'ish turi*)
tear-shell [ˈtɪəʃel] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gazlar saqlanadigan asbob
tear-stained [ˌtɪəˈsteɪnd] *a* yig'idan qizargan, yig'layverib shishib ketgan
tease [ti:z] *v* tegajaklik qilmoq, jig'iga tegmoq, jahlini chiqarmoq
teasel [ˈti:z(ə)l] **1.** *n bot.* 1) to'ng'iztaroq; 2) to'ng'iztaroq tikanagi; **2.** *v* paxmoqlamoq, tuk chiqarmoq
teasel(l)er [ˈti:z(ə)lə] *n* tuk chiqaruvchi
teaser [ˈti:zə] *n* 1) qiyin masala; 2) hammaning jig'iga tegaveradigan (*jangari, urishqoq*)
tea-service [ˈti:ˌsɜ:vɪs] *n* choy servizi, choy idishlari
tea-set [ˈti:set] = **tea-service**
tea-shop [ˈti:ʃɒp] *n* qahvaxona, gazakxona, yemakxona
tea-spoon [ˈti:spu:n] *n* choy qoshiq
tea-strainer [ˈti:ˌstreɪnə] *n* choy suzadigan to'r
teat [ti:t] *n* 1) *anat.* emchak uchi; 2) *tex.* biror predmet (detal)ning bo'rtib chiqqan joyi
tea-table [ˈti:ˌteɪbl] *n* choy ichadigan stol, choy stoli
tea-things [ˈti:θɪŋz] *n pl* choy idishlari (*choynak, piyola va h. k.*)
teatowel [ˈti:ˌtaʊəl] *n* choy idishlari uchun sochiq
tea-tray [ˈti:treɪ] *n* choy patnisi
tea-urn [ˈti:ɜ:n] *n* samovar (*suv qaynatadigan asbob*)
tea wagon [ˈti:ˌwægən] *n* choy *yoki* yengil ovqat olib kelish uchun tayyorlangan g'ildirakli stol
teazel, teazle [ˈti:zl] = **teasel**
tec [tek] *n so'zl.* „**detective**" *so'zning qisqartirilgan shakli*
technical [ˈteknɪk(ə)l] *a* 1) texnikaviy; 2) texnikaga oid
technicality [ˌteknɪˈkælɪtɪ] *n* 1) ishning texnik tomoni (tarafi); 2) texnik detal
technician [tekˈnɪʃ(ə)n] *n* 1) o'z ishini biladigan kishi; 2) mutaxassis
technics [ˈtekmks] *n pl* (*ko'plik hamda birlik shakli bir xil yoziladi*) texnika (*mehnat qurollari va vositalari, majmuyi*); 2) texnika fanlari
technique [tekˈni:k] *n* 1) texnikaviy usullar; 2) metod, uslub
technologic(al) [ˌteknəˈlɒdʒɪk(əl)] *a* texnologik, texnologiyaga oid; texnologiya...
technologist [tekˈnɒlədʒɪst] *n* texnolog (*texnologiya bo'yicha mutaxassis*)
technology [tekˈnɒlədʒɪ] *n* texnologiya (*materialga ishlov berish usullari va shu usullar tavsifi*) texnika
techy [ˈtetʃɪ] = **tetchy**
tectonic [tekˈtɒnɪk] *a* 1) me'morchilikka oid; 2) *geol.* tektonika (*geologiyaning yer po'sti tuzilishini va tektonik harakatlar natijasida unda bo'lib turadigan o'zgarishlarni o'rganadigan bo'limi*)ga oid
tectonics [tekˈtɒnɪks] *n pl* tektonika (*bino qismlarining o'zaro joylashish tartibi*); qurilish ilmi va san'ati
ted [ted] *v* pichanni ag'darmoq
tedder [ˈtedə] *n* pichan (xashak) ag'daradigan mashina
teddy-bear [ˈtedɪbeə] *n* ayiqcha (*bolalar o'yinchog'i*)
teddy boy [ˈtedɪbɔɪ] *n so'zl.* o'ta olifta yigit

tedious [ˈti:dɪəs] *a* zerikarli, charchatadigan, toliqtiradigan, zeriktiradigan, diqqatni oshiradigan
tedium [ˈti:dɪəm] *n* 1) zerikish, toliqish; 2) charchaganlik, toliqqanlik, horg'inlik
tee I [ti:] *n* 1) „T" harfining nomi; 2) uchtalik; 3) „T" shaklidagi narsa
tee II [ti:] *n* nishon, mo'ljal (*o'yinda*); **to ~ off** birinchi zarba bermoq (*golfda*)
teem I [ti:m] *v* to'lib toshmoq, juda ko'p bo'lmoq
teem II [ti:m] *v* quymoq, quyib chiqmoq, quyib qo'ymoq (*metall quymasini*)
teen-age [ˈti:neɪdʒ] *a* 1) 13 dan 19 yoshgacha bo'lgan; 2) voyaga (halog'atga) yetmagan
teen-ager [ˈti:neɪdʒə] *n* o'spirin, o'smir, 13 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar
teens [ti:nz] *n pl* 13 dan 19 gacha bo'lgan yoshlar
teeny [ˈti:nɪ] *a so'zl.* juda kichkina, kichkinagina, uvoqqina, mushtday, zig'irday, bir burdagina, jajji, jimitdak
tee shirt [ˈti:ʃɜ:t] *n* yengli futbolka (mayka)
teeter [ˈti:tə] **1.** *v* 1) *amer. so'zl.* silkinmoq; tebranmoq, chayqalmoq; **2.** *n* bolalar arg'imchog'i (hayinchagi)
teeth [ti:θ] *n pl of* **tooth**
teethe [ti:ð] *v* milkni yorib chiqmoq
teetotal [ˌti:ˈtəʊtl] *a* mast emas, hushyor, ichmagan
teetotaller [ˌti:ˈtəʊtlə] *n* (*spirtli ichimliklar*) ichmaydigan odam
teetotum [ˌti:ˈtəʊtəm] *n* pirildoq (pildiroq, biz-bizak, g'ir-g'irak)ning bir turi
teg [teg] *n* bir yashardan o'tgan sovliq qo'y
tegular [ˈtegjolə] *a* cherepitsa (*tomga yopiladigan sopol*)ga oid
tegument [ˈtegjomənt] *n* po'st, po'stloq, po'choq, to'pon
tehee [ˌti:ˈhi:] **1.** *n* qiqir-qiqir, qiqirlab kulish; **2.** *v* qiqir-qiqir kulmoq
telautogram [teˈlɔ:təgræm] *n* fototelegramma (*fototelegraf orqali yuborilgan telegramma, xat, hujjat va sh. k.*)
telautograph [teˈlɔ:təgrɑ:f] *n* fototelegraf (*xat, hujjat, rasm va sh. k. ni telegraf yoki radio vositasida uzoq masofaga yuboradigan qurilma*)
tele [ˈtelɪ] *so'zl.* **„television"** *so'zining qisqartmasi*
telecast [ˈtelɪkɑ:st] *n* 1) teleko'rsatuv; 2) televizion ko'rsatish va eshittirish
telecasting [ˈtelɪkɑ:stɪŋ] *attr.* televideniyaga oid; **a ~ studio** televizion studiya
telecommunication [ˌtelɪkəˌmju:nɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* uzoqdagi aloqa, telefon, telegraf *yoki* radio
telecontrol [ˈtelɪkənˌtrəʊl] *n* masofadan boshqarish, uzoqdan (turib) boshqarish
telecruiser [ˈtelɪˌkru:zə] *n* ko'chma televizion stansiyasi
telefilm [ˈtelɪfɪlm] *n* televizion film
telegenic [ˌtelɪˈdʒenɪk] *a* televizor ekranida yaxshi ko'rinadigan
telegram [ˈtelɪgræm] *n* telegramma; **to receive a ~** telegramma olmoq; **to send a ~** telegramma jo'natmoq
telegraph [ˈtelɪgrɑ:f] *n* telegraf (*1. aloqa turi va apparati; 2. telegraf idorasi va binosi*); **to ~ to** ...ga telegrafdan xabar bermoq
telegrapher [tɪˈlegrəfə] = **telegraphist**
telegraphese [ˌtelɪgrəˈfi:z] *n* „telegrafcha" uslub, qisqa yozish uslubi
telegraphic [ˌtelɪˈgræfɪk] *a* 1) telegrafga oid; 2) telegraf orqali amalga oshiriladigan
telegraphist [tɪˈlegrəfɪst] *n* telegraf xodimi
telegraph-line [ˈtelɪgrɑ:flaɪn] *n* telegraf liniyasi
telegraph-pole [ˈtelɪgrɑ:fpəʊl] *n* telegraf ustuni
telegraph-post [ˈtelɪgrɑ:fpəʊst] = **telegraph-pole**
telegraphy [tɪˈlegrəfɪ] *n* telegramma berish (*telegraf orqali xabar qilish*)
telemechanics [ˌtelɪmɪˈkænɪks] *n pl* telemexanika (*1. uzoqdan turib elektr yoki radio vositasida boshqarish texnikasi; 2. uzoqdan boshqarish haqidagi fan*)
telemeter [teˈlɪmɪtə] *n* telemetr (*masofa o'lchagich*)
teleology [ˌtelɪˈɒlədʒɪ] *n* teleologiya (*tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan, maqsadga muvofiq qilib yaratilgan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot*)
telepathy [tɪˈlepəθɪ] *n* telepatiya (*go'yo uzoqdan turib fikr va tuyg'ularini boshqa kishiga bildira olish*)
telephone [ˈtelɪfəʊn] **1.** *n* telefon (*aloqa turi*); **to ~ to** ...ga qo'ng'iroq qilmoq; **a ~ booth** telefon budkasi; **a ~ call** telefon qo'ng'irog'i; **a ~ number** telefon raqami; **2.** *v* 1) qo'ng'iroq qilmoq; 2) telefon apparatini o'rnatmoq
telephone box [ˈtelɪfəʊnbɒks] *n* telefon budkasi
telephone set [ˈtelɪfəʊnˌset] **1.** *n* telefon apparati; **2.** *v* telefonlashtirmoq
telephonic [ˌtelɪˈfɒnɪk] *n* telefonga oid
telephonist [tɪˈlefənɪst] *n* telefon simlari o'rnatuvchi mutaxassis
telephony [tɪˈlefənɪ] *n* telefoniya (*elektr va radio orqali uzoqqa tovush yuborish texnikasi*)
telephotography [ˌtelɪfəˈtɒgrəfɪ] *n* telefotografiya (*fototelegraf orqali berilgan tasvir*)
teleprinter [ˈtelɪˌprɪntə] *n* teletayp (*matnni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*)
telescope I [ˈtelɪskəʊp] *n* teleskop
telescope II [ˈtelɪskəʊp] *v* 1) siljitmoq; 2) qisqartmoq (*matn, hikoya va b.*)
telescreen [ˈtelɪskri:n] *n* televizor ekrani
teletext [ˈtelɪtekst] *n* telematn
telethon [ˈteləθən] *n* saylovdan oldin biror nomzodni qo'llash maqsadida o'tqaziladigan bir necha soatli televizion dastur
teletype [ˈtelɪtaɪp] *n* teletayp (*matnni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*)
televiewer [ˈtelɪˌvju:ə] *n* teletomoshabin
televise [ˈtelɪvaɪz] *n* televizion dasturini ko'rsatmoq
television [ˈtelɪˌvɪʒ(ə)n] *n* 1) televideniya; 2) *attr.* televideniyaga oid; **a ~ set** televizor
televisional [ˌtelɪˈvɪʒ(ə)nəl] *a* televideniyaga oid
televisor [ˈtelɪvaɪzə] *n* televizor
televisual [ˌtelɪˈvɪʒʊəl] = **televisional**
teleworker [ˈtelɪˈwɜ:kə] *n* televideniya ishchisi
telex [ˈteleks] *n* teleks (*abonentlar orasida ikki tomonlama bevosita telegraf xabarlar almashish uchun mo'ljallangan xalqaro telegraf aloqa tarmog'i*)
tell [tel] *v* (**told**) 1) gapirmoq, aytib bermoq; **to ~ the world** butun olamga jar solmoq (aytmoq); 2) hikoya qilmoq; **to ~ a story** hikoya aytmoq; 3) ko'rsatmoq, guvoh bo'lmoq; **to ~ the time** vaqtni ko'rsatmoq
teller [ˈtelə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi
telling [ˈtelɪŋ] *a* 1) amaliy natija (foyda) beradigan; ta'sir ko'rsatadigan, kor qiladigan; 2) zo'r taassurot qoldiradigan; 3) ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor
telling-off [ˌtelɪŋˈɒf] *n* tanbeh, ogohlantirish, ta'zir
telltale [ˈtelteɪl] *n* 1) g'iybatchi odam; 2) chaqimchi
tellurian [teˈlʊ(j)ʊ(ə)rɪən] **1.** *n* yerda yashovchi kishi; **2.** *a* yerga oid, yerda bo'ladigan
telluric [teˈl(j)ʊ(ə)rɪk] *a* yerga (zaminga) oid, yer..., zamin...
tellurium [teˈl(j)ʊ(ə)rɪəm] *n kim.* tellur (*kimyoviy element*)
telly [ˈtelɪ] *n so'zl.* televizor
telpher [ˈtelfə] **1.** *n tex.* telfer (*yuk ko'tarish qurilmasi*); **2.** *v* osma yo'l orqali bir joydan ikkinchi joyga tashimoq
temblor [tem ˈblɔ:] *n amer.* zilzila, yer qimirlash

temerarious [ˌtemə´re(ə)rɪəs] *a* 1) o'ylamay qilingan, muhokama (mulohaza) qilib ko'rilmagan; 2) noilojlikdan qilingan
temerity [tɪ´merɪtɪ] *n* o'ylamay ish qilish, shoshqaloqlik
temp [temp] **1.** *n* vaqtincha yashaydigan kishi; **2.** *v* vaqtincha ishlamoq
temper [´tempə] *n* 1) fe'l-atvor, xulq; 2) kayfiyat
tempera [´tempərə] *n* tempera (*tuxum sarig'ida ezib tayyorlangan bo'yoq*)
temperament [´temp(ə)rəmənt] *n* 1) xarakter, fe'l, tabiat; 2) serg'ayratlik, jo'shqinlik
temperamental [ˌtemp(ə)rə´mentl] *a* jo'shqin, serg'ayrat, otashin, qiziqqan
temperance [´temp(ə)rəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik; **a ~ hotel** spirtli ichimlik bermaydigan mehmonxona
temperate [´temp(ə)rɪt] *a* 1) o'rtacha, o'rtamiyona; 2) o'zini tutib (bosib) olgan
temperature [´temp(ə)rətʃə] *n* harorat, isitma; **at a ~ of** haroratda; **to take one's ~** haroratni o'lchamoq; **to have a ~** isitmasi ko'tarilgan bo'lmoq
tempest [´tempɪst] **1.** *n* his-tuyg'u g'alayoni, tug'yon; **~ in a teapot** arzimagan sabab bilan bo'lgan g'avg'o (mojaro, iztirob); **2.** *v* hamma yoqni boshiga ko'tarmoq, to's-to'polon qilmoq
tempestuous [tem´pestʃuəs] *a* kuchli, shiddatli, qattiq; qizg'in
tempi [´tempi:] *pl of* **tempo**
template [´templɪt] *n tex.* andaza, qolip
temple I [´temp(ə)l] *n* ibodatxona, butxona, cherkov
temple II [´temp(ə)l] *n anat.* chakka
temple III [´temp(ə)l] *n tex.* bosib (tutib) turadigan planka (*uzun taxtacha*)
templet [´templɪt] = **template**
tempo [´tempəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz], **-pi** [-pi:]) 1) *mus.* temp, sur'at, tezlik, marom; 2) (*yashash*) sur'ati
temporal I [´temp(ə)rəl] *a* vaqtincha, o'tib ketadigan, muvaqqat
temporal II [´temp(ə)rəl] *anat.* **1.** *a* chakkaga oid; **2.** *n* chakka suyagi
temporality [ˌtempə´rælɪtɪ] *n* 1) tez o'zgaradigan (vaqtinchalik) fe'l-atvor; 2) ibodatxona kirimlari (daromadlari)
temporarily [ˌtemp(ə)rərɪlɪ] *adv* vaqtincha, muvaqqat
temporary [´temp(ə)rərɪ] *a* vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan, muvaqqat
temporize [´tempəraɪz] *v* 1) vaqtni cho'zmoq; 2) sustkashlik qilmoq, cho'zmoq, orqaga sudramoq, kechiktirmoq
tempt [tempt] *v* 1) jalb etmoq; undamoq; qiziqtirmoq; ishontirmoq; 2) aldab qo'ymoq, yo'ldan ozdirmoq; 3) sinab (tajriba qilib) ko'rmoq; **to ~ fate** taqdirni sinamoq, tavakkaliga harakat qilmoq
temptation [temp´teɪʃ(ə)n] *n* vasvasa, nafs (balosi), qiziqtirish, aldov
tempter [´temptə] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi kishi
tempting [´temptɪŋ] *a* qiziqtiradigan, jozibador, havasni keltiradigan
temptress [´temptrəs] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi (*ayol*)
ten [ten] *num. card.* o'n; **~th** *num.ord* o'ninchi; **the upper ~** oqsuyak, aslzoda, zodagon
tenable [´tenəb(ə)l] *a* mantiqan to'g'ri, izchil, durust, tuzuk
tenacious [tɪ´neɪʃəs] *a* tirishqoq, ishga astoydil kirishadigan; **~ memory** yaxshi xotira
tenacity [tɪ´næsɪtɪ] *n* tirishqoqlik, o'tkirlik, kuchlilik
tenancy [´tenənsɪ] *n* 1) bino (imorat, uy, joy)ni ijaraga olish; 2) ijaraning muddati; 3) ijaraga olingan yer; ijaraga olingan uy
tenant [´tenənt] **1.** *n* ijarador, ijarachi; **2.** *v* ijaraga olmoq
tenantry [´tenəntrɪ] *n* ijaraga oluvchilar, ijarachilar
tench [tenʃ] *n zool.* lin (*zog'ora baliqning bir turi*)
tend I [tend] *v* 1) moyil bo'lmoq, mayli bo'lmoq; 2) qarab bormoq, yaqinlashmoq
tend II [tend] *v* g'amini yemoq, g'amxo'rlik qilmoq, parvarish qilmoq
tendance [´tendəns] *n* g'amxo'rlik; jonkuyarlik; qarab turish, ko'z-quloq bo'lish; garov, nazorat
tendency [´tendənsɪ] *n* intilish, niyat, moyillik, mayl, havas, qiziqish; **a ~ to corpulence** semirishga moyillik
tendentious [ten´denʃəs] *a* 1) muayyan bir g'oyani ilgari suradigan; 2) sho'x, quloqsiz, gapga quloq solmaydigan
tender I [´tendə] *a* nozik, muloyim; xushmuomala, nafis
tender II [´tendə] **1.** *n* 1) (rasmiy) taklif; 2) (qarzga to'lanadigan) pul; **2.** *v* 1) taklif qilmoq; 2) talabnoma bermoq (*savdo-sotiq tashkilotlarida*); 3) (*qarzni*) to'lamoq
tenderfoot [´tendəfot] *n* (*pl* **-feet** [-fi:t]) *so'zl.* yangi odam, yangi (endigina) kelgan odam
tender-hearted [ˌtendə´hɑ:tɪd] *a* yaxshilikni ayamaydigan, ko'ngli yumshoq (bo'sh), ko'ngilchan, rahmdil
tenderling [´tendəlɪŋ] *n* 1) nozik-nihol odam, nozik; 2) kichkina bola, chaqaloq
tenderloin [´tendəlɔɪn] *n amer.* 1) biqin go'sht; 2) qirqib olingan narsa, parcha
tenderness [´tendənəs] *n* noziklik, muloyimlik, yumshoqlik, xushmuomalalik, mehribonlik, mushfiqlik
tendinous [´tendɪnəs] *a* 1) chandir; 2) sertomir, serpoya; 3) muskullari rivojlangan, baquvvat
tendon [´tendən] *n anat.* pay, chandir
tendril [´tendrɪl] *n bot.* mo'ylovchalar, shox gajagi
tenebrous [´tenɪbrəs] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat) bosgan, zulmatdagi
tenement [´tenəmənt] *n* ko'p kvartirali bino
tenement-house [ˌtenəmənt´haus] *n* ijaraga beriladigan ko'p kvartirali uy
tenet [´tenɪt] *n lot.* 1) dogmat, din aqidalari; 2) ta'limot, nazariya
tenfold [´tenfəuld] **1.** *a* o'n marta oshirilgan, o'n karra qaytarilgan; **2.** *adv* o'n marta, o'n karra, o'n baravar
tenner [´tenə] *n* o'nlik, o'ntalik (*pul*)
tennis [´tenɪs] *n* tennis (*sport o'yini*)
tennis-ball [´tenɪsbɔ:l] *n* tennis koptogi
tenon [´tenən] *n* 1) tikan, tikanak; 2) shpilka; 3) tilcha
tenor I [´tenə] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqim; 2) umumiy ma'no; 3) nusxa
tenor II [´tenə] *n mus.* tenor (*erkaklarning eng baland ovozi*); **a ~ violin** viola (*skripkasimon musiqa asbobi*)
tense I [tens] *n gram.* zamon; **past ~** o'tgan zamon
tense II [tens] *a* 1) hayajonli; hayajonlangan; 2) tarang tortilgan, keskin, murakkab, tang; **the situation is ~** ahvol murakkab
tensely [´tenslɪ] *adv* qattiq g'ayrat qilib, zo'r berib, bor kuch (zo'r, g'ayrat) bilan
tensile [´tensaɪl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan
tensility [ten´sɪlətɪ] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik
tension [´tenʃ(ə)n] *n* 1) kuchlanish; kuchanish; 2) keskinlik
tensity [´tensɪtɪ] *n* 1) qizg'inlik, zo'rlik; 2) jiddiylik, tanglik, keskinlik
ten-spot [´tenspɔt] *n amer. so'zl.* o'n dollarli qog'oz pul
ten-strike [´tenstraɪk] *n amer.* 1) birdaniga hamma kegli (o'yindagi figura)larni urib yiqitish; 2) *so'zl.* qaqshatqich zarba
tent I [tent] **1.** *n* palatka, chodir; **2.** *v* chodir qurmoq, palatkada yashamoq
tent II [tent] **1.** *n* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan dorilangan paxta yoki doka*); **2.** *v* tampon qo'ymoq
tent III [tent] *n* kuchsiz qizil ispan vinosi
tentacle [´tentək(ə)l] *n* paypaslagich (*ba'zi hayvon va hasharotlarning mo'ylovsimon qo'llari*)

tentative [ˈtentətɪv] *a* sinashga oid, sinash uchun belgilangan, tajribaga mo'ljallangan

tent-bed [ˈtentbed] *n* ko'chma karavot

tenterhooks [ˈtentəhoks] *n pl to'q.* tarang qilib tortadigan ilgak

tenth [tenθ] *num. ord.* o'ninchi

tent-peg [ˈtentpeg] *n* chodir o'rnatish uchun ishlatiladigan kichkina qoziq (qoziqcha)

tenuity [teˈnju:ɪtɪ] *n* 1) havoning siyrakligi; 2) yupqalik, nafis; ingichkalik, xipchalik

tenuous [ˈtenjʊəs] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina (*farq haqida*); 2) siyrak, siyraklashgan (*havo haqida*)

tenure [ˈtenj(ʊ)ə] *n* 1) egalik, egalik qilish; xo'jayinlik; 2) biror mansabda bo'lish (turish)

tepee [ˈti:pi:] *n* vigvam (*Shimoliy Amerika indeyslarining o'tovsimon kulbasi, chaylasi*)

tepefy [ˈtepɪfaɪ] *v* salgina isitmoq (isimoq)

tepid [ˈtepɪd] *a* iliq, sal issiq

teratology [ˌterəˈtɒlədʒɪ] *n biol.* teratologiya (*odam, hayvon va o'simliklarning rivojlanish nuqsonlari hamda nayib-majruhlikni o'rganadigan fan*)

terbium [ˈtɜ:bɪəm] *n kim.* terbiy (*lantonoidlar guruhiga mansub metall*)

tercel [ˈtɜ:s(ə)l] *n zool.* lochin (*erkagi*)

tercentenary [ˌtɜ:senˈti:n(ə)rɪ] **1.** *a* 1) uch yuz yillik; uch yuz yil mobaynidagi, uch yuz yil davom etadigan; 2) uch yuz yashar (yoshli), uch yuz yillik; uch yuz yil to'lgan; **2.** *n* uch yuz yillik marosim

tercentennial [ˌtɜ:senˈtenɪəl] = **tercentenary**

tercet [ˈtɜ:sɪt] *n* 1) *mus.* uch kishilik ansambl; 2) uch misrali she'r *yoki* she'rning uch misrali bir bandi

terebinth [ˈterəbmθ] *n* terpentin daraxti

teredo [teˈreɪdəʊ] *n zool.* yog'och qurti

terete [teˈri:t] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi

tergal [ˈtɜ:g(ə)l] *a zool. anat.* orqadagi, orqa...

tergiversate [ˈtɜ:dʒɪvəseɪt] *v* 1) chalg'itmoq, gapni boshqa yoqqa burib (aylantirib) qutulmoq; 2) sotqinlik (xoinlik) qilmoq, xiyonat qilmoq

tergiversation [ˌtɜ:dʒɪvəˈseɪʃ(ə)n] *n* hiyla, nayrang; vaj, gapni aylantirish

term [tɜ:m] **1.** *n* 1) muddat, fursat, vaqt; **~ of office** vakolat muddati; **~ of service** xizmat muddati; 2) semestr, chorak; **university ~** universitet semestri; 3) shart; **~ s of payment** to'lov sharti; 4) termin; 5) shaxsiy munosabat; **to be on good ~s** yaxshi munosabatda bo'lmoq; **2.** *v* ifoda etmoq, atamoq

termagant [ˈtɜ:məgənt] **1.** *n* janjalkash ayol; **2.** *a* janjalkash, mijg'ov

termer [ˈtɜ:mə] *n* jazo muddatini o'tayotgan jinoyatchi

terminable [ˈtɜ:mɪnəb(ə)l] *a* muddati belgilangan (cheklangan)

terminal [ˈtɜ:mɪn(ə)l] *n* 1) bekat; 2) oxirgi bo'g'in *yoki* so'z; **2.** *a* oxirgi; a **~ station** oxirgi bekat

terminate [ˈtɜ:mɪneɪt] *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq, bitirmoq, chek qo'ymoq

termination [ˌtɜ:mɪˈneɪʃ(ə)n] *n* oxir, poyon, tamom, natija; 2) muddatning tugashi

termini [ˈtɜ:mɪnaɪ] *pl of* **terminus**

terminology [ˌtɜ:mɪˈnɒlədʒɪ] *n* terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*)

terminus [ˈtɜ:mɪnəs] *n* (*pl* **-es** [-ɪz], **-ni** [-naɪ]) oxirgi stansiya, oxirgi bekat

termitary [ˈtɜ:mɪtərɪ] *n* termit (qirchumoli) ini

termite [ˈtɜ:maɪt] *n zool.* termit, qirchumoli, vahima chumoli (*chumolisimon hasharot — yog'och zararkunandasi*)

terms [tɜ:mz] *n pl* ifodalash, ifodalash usuli

tern [tɜ:n] *n* uchlik, uchta son

ternary [ˈtɜ:nərɪ] *n* uch raqami, uchlik

terra [ˈterə] *n lat.* yer, zamin, tuproq; yer yuzi, olam

terrace [ˈterɪs] *n* ayvon, peshayvon

terracotta [ˌterəˈkɒtə] *n* terrakota (*kuydirilgan qizg'ish-jigarrang gil*)dan ishlangan buyumlar

terrain [tə ˈreɪn] *n* joy, yer, maydon, sahn

terraneous [teˈreɪnɪəs] *a bot.* yerdagi, yer ustidagi (betidagi, yuzidagi)

terrapin [ˈterəpɪn] *n* 1) suv toshbaqasi; 2) ham suvda, ham quruqlikda yura oladigan avtomobil

terraqueous [teˈreɪkwɪəs] *a* 1) suv va yerdan iborat bo'lgan; 2) quruqlik va dengiz bo'ylab qilinadigan (*sayohat*); 3) ham suvda, ham quruqlikda yashovchi

terrene [teˈri:n] **1.** *a* 1) yer...; 2) *ko'ch.* dunyoviy; **2.** *n* yerning yuzi (usti, sirti)

terrestrial [təˈrestrɪəl] *a* dunyoviy; quruqlikdagi, yer yuzidagi

terrible [ˈterəb(ə)l] *a* qo'rqinchli, dahshatli; **~ news** qo'rqinchli xabar

terribly [ˈterəblɪ] *adv* odam qo'rqadigan (odamni vahimaga soladigan, qo'rqitadigan) darajada

terrier [ˈterɪə] *n* teryer (*kichik hayvonlarni ovlaydigan it*)

terrific [təˈrɪfɪk] *a* dahshatli, dahshat soladigan, vahimali, mudhish

terrifically [təˈrɪfɪk(ə)lɪ] *adv* 1) juda, g'oyat, nihoyat darajada, juda qattiq; 2) do'ndirib, juda yaxshi (soz), ajoyib

terrified [ˈterɪfaɪd] *a* 1) qo'rqib (cho'chib) qolgan; 2) yurak oldirgan

terrify [ˈterɪfaɪ] *v* qo'rqitib yubormoq, dahshatga solmoq, vahimaga solmoq

territorial [ˌterɪˈtɔ:rɪəl] *a* territorial, hududiy, mahalliy; **~ waters** territorial suvlar

territory [ˈterɪt(ə)rɪ] *n* territoriya, maydon

terror [ˈterə] *n* 1) qo'rqinch, qo'rquv, vahima, dahshat; 2) terror

terrorism [ˈterərɪz(ə)m] *n* terrorizm (*terrorlik siyosati va taktikasi*)

terrorist [ˈterərɪst] *n* terrorist, terrorchi

terrorize [ˈterəraɪz] *v* qo'rqitmoq, dahshat solmoq, qo'rqitib o'z hukmini o'tkazmoq

terror-stricken [ˈterəˌstrɪkən] *a* vahima (qo'rquv) bosgan

terry-cloth [ˈterɪklɒθ] *n* paxmoq gazlama

terse [tɜ:s] *a* qisqa, ifodali

tertian [ˈtɜ:ʃɪn(ə)] *n tib.* malariya, bezgak

tertiary [ˈtɜ:ʃ(ə)rɪ] *a* 1) *geol.* uchlamchi era (*kaynozoy erasining birinchi davriga oid*); 2) *tib.* uchinchi bosqichga *yoki* davrga oid (*kasallik haqida*)

terzetto [tɜ:ˈtsetəʊ] *n mus.* uch kishilik ansambl

tessellated [ˈtesɪleɪtɪd] *a* 1) mozaikaga oid, qadama, koshinkor; 2) turli rangdagi toshtaxta yotqizilgan

tessellation [ˌtesɪˈleɪʃ(ə)n] *n* shaxmat katagiga o'xshatilgan mozaik (koshinkor) ish

tessera [ˈtesərə] *n* (*pl* **-rae** [-ri:]) kubik (*bolalar o'yinchog'i*)

tesserae [ˈtesəri:] *pl of* **tessera**

tessitura [ˌtesəˈtɪ(j)ʊə(ə)rə] *n mus.* tessitura (*musiqa asarlarida ovozning musiqa asbobi diapozonidan yuqori turishi*)

test [test] **1.** *n* 1) sinov, tekshirish, sinash; 2) nazorat ishi; 3) imtihon; **2.** *v* tekshirmoq, sinab ko'rmoq, sinovdan o'tkazmoq

testa [ˈtestə] *n* (*pl* **-ae** [-ti:]) zirh, kosa (*umurtqasiz hayvonlarda*)

testaceous [teˈsteɪʃəs] *a* 1) *zool.* zirhli, sovutli; 2) g'isht rangidagi; qizg'ish (*hayvonlar va o'simliklar haqida*)

testae [ˈtesti:] *pl of* **testa**

testament [ˈtestəmənt] *n yur.* vasiyat, vasiyatnoma

testamentary [ˌtestəˈmentərɪ] *a* vasiyat bilan bog'liq bo'lgan

testate [ˈtesteɪt] **1.** *a* o'limdan keyin vasiyatnoma qoldirgan; **2.** *n* vasiyatnoma qoldirib o'lgan kishi

testator [tes´teɪtə] *n* vasiyat qiluvchi, vasiyat qilib qoldirgan shaxs (*erkak*)
testatrices [tes´teɪtrɪsi:z] *pl of* **testatrix**
testatrix [tes´teɪtrɪks] *n* (*pl* **-rices** [-si:z]) vasiyat qiluvchi (vasiyat qilib qoldirgan) ayol
tester I [´testə] *n* sinov (tahlil) o'tkazadigan shaxs; laborant
tester II [´testə] *n* guldor qimmatbaho chodir, choyshab (*karavot ustiga solish uchun*)
tester III [´testə] *n* teston (*qadimiy kumush tanga*)
testicle [´testɪk(ə)l] *n anat.* moyak, tuxum
testification [ˌtestɪfɪ´keɪʃən] *n* guvohlik berish
testify [´testɪfaɪ] *v* 1) guvohlik bermoq, guvoh bo'lmoq; 2) tasdiqlamoq
testily [´testɪlɪ] *adv* qizishib, jahl bilan, achchig'i chiqib
testimonial [ˌtestɪ´məʊnɪəl] **1.** *n* 1) tavsifnoma; 2) tavsiyanoma; **2.** *a* 1) minnatdorchilikni ifodalovchi; 2) tabrikka oid
testimony [´testɪmənɪ] *n* 1) og'zaki ma'lumot, ko'rsatma, guvohlik; 2) isbotlash; 2) tasdiqlash
test-mixer [´test,mɪksə] *n* menzurka (*o'lchovchi shisha idish*)
test-paper [´test,peɪpə] *n* 1) *kim.* reaktiv qog'oz; 2) yozma ish qog'ozi
test pit [´testpɪt] *n geol.* tekshirish uchun qazilgan quduq (*yoriq, teshik*)
test-tube [´testtju:b] *n* probirka (*laboratoriya ishlarida qo'llanadigan bir tomoni berk yupqa shisha naycha*)
testy [´testɪ] *a* jahli (achchig'i, zardasi) tez, qiziqqan, jizzaki
test-type [´testtaɪp] *n* ko'zning o'tkirligi (ko'rish qobiliyatining kuchliligi)ni aniqlaydigan jadval
tetanic [tе´tænɪk] *a tib.* qoqshol kasaliga oid
tetanus [´tet(ə)nəs] *n* qoqshol (*odamni tirishtirib, qotirib qo'yadigan yuqumli kasallik*)
tetchy [´tetʃɪ] *a* 1) salga xafa bo'laveradigan, ta'bi nozik; 2) asov, qaysar, ters; **a ~ horse** asov ot
tether [´teðə] **1.** *n* (*o'tlab yurgan hayvonlar bog'lab qo'yiladigan*) arqon, zanjir, qayish; **2.** *v* (*o'tlab yurgan hayvonlarni*) bog'lab qo'ymoq
tetra- [´tetrə] *pref.* to'rt-
tetragon [´tetrəgən] *n geom.* to'rtburchak; **a regular ~** kvadrat
tetragonal [tе´trægənəl] *a geom.* to'rtburchakli, to'rtburchak
tetrahedron [ˌtetrə´hedrən] *n geom.* 1) to'rt-yoqlik (*geometrik shakl*); 2) tetraedr (*hamma yoqlari uchburchakdan iborat to'rtyoqlik*)
tetralogy [tе´trælədʒɪ] *n* tetralogiya (*g'oyasi va mazmuni bir bo'lgan to'rtta adabiy yoki musiqiy asar*)
tetrameter [tе´træmɪtə] *n adab.* tetrametr (*to'rt bandli antik she'r*)
tetrastich [´tetrəstɪk] *n* to'rt qatorli she'r
tetrasyllable [´tetrə,sɪləb(ə)l] *n* to'rt bo'g'inli so'z
tetter [´tetə] *n tib.* temiratki, chilla yara, qo'tir
Teuton [´tju:tən] *n* tevtonlar (*qadimgi german qabilasi*)
Teutonic [tju:´tɔnɪk] **1.** *a* tevtonlarga oid; **2.** *n* german tillari (*nemis, ingliz va Skandinaviya xalqlari tillari*)
text [tekst] *n* tekst, matn
text-book [´tekstbʊk] *n* 1) darslik; 2) qo'llanma
textile [´tekstaɪl] **1.** *a* to'qimachilikka oid; **2.** *n pl* gazmol, to'qilgan matolar
textual [´tekstʃʊəl] *a* 1) matnga oid; **~ criticism** matnshunoslik; 2) so'zma-so'z, harfma-harf, matnga muvofiq
texture [´tekstʃə] *n* 1) gazmolning pishiqligi, matoning sifat darajasi; 2) tuzilish, tuzilma; 3) *anat.* to'qima
thaler [´tɑ:lə] *n tar.* taler (*eski nemis kumush tangasi*)
thallium [´θælɪəm] *n* talliy (*ko'kimtir yumshoq metall*)
than [ðæn] *n cj. gram.* (*qiyosiy daraja yasovchi*) ko'ra, nisbatan, qaraganda; **I know you better ~ him** Men sizni undan ko'ra yaxshiroq bilaman
thank [θæŋk] **1.** *n* tashakkur, minnatdorchilik, rahmat; **2.** *v* tashakkur aytmoq, minnatdorchilik bildirmoq
thankee [´θæŋkɪ] *so'zl.* = **thank you**
thankful [´θæŋkf(ə)l] *a* yaxshilikni biluvchi, minnatdor
thankfully [´θæŋkf(ə)lɪ] *adv* 1) baxtiga (baxtimga *va h. k.*), xayriyat; 2) xudoga shukur, shukurki...; yaxshiki...
thankless [´θæŋkləs] *a* yaxshilikni bilmaydigan; **a ~ friend** yaxshilikni bilmaydigan do'st
thank-offering [ˌθæŋk´ɒf(ə)rɪŋ] *n* minnatdorchilikni ifodalaydigan qurbonlik (sadaqa, nazr)
thanks [θæŋks] *int. so'zl.* rahmat, tashakkur (**for, to**); **~ to** ... tufayli, ... sababli
thanksgiving [ˌθæŋk´gɪvɪŋ] *n* minnatdorchilikni bildiruvchi qisqa ibodat
thankworthy [´θæŋkwɜ:ðɪ] *a* minnatdorchilikka loyiq bo'lgan
thank you [´θæŋkju:] *int.* rahmat, tashakkur
that I [ðæt] **1.** *pron. demonstr.* (*pl* **those**) 1) u, ana o'sha, anavi; o'sha; **at ~ time** o'sha vaqtda (paytda); **What is ~?** U nima? **Who is ~?** U kim?; **2.** *a* qay (qaysi) biri, qaysinisi, qaysi
that II [ðæt] *cj.* -ki; **I know ~ he never smokes** men bilamanki, u hech qachon chekmaydi
thatch [θætʃ] *n* poxol tom, poxol yopilgan tom
thatched [θætʃt] *a* ustiga poxol solingan, usti poxol bilan yopilgan
thaumaturge [´θɔ:mətɜ:dʒ] *n* mo'jiza (karomat) ko'rsatuvchi, sehrgar
thaw [θɔ:] *v* erimoq, erib ketmoq
the [ðɪ:] **1.** aniq artikl bo'lib quyidagi hollarda ishlatiladi: a) *qanday shaxs yoki buyum ekanligi vaziyat yoki matn mazmunidan ma'lum bo'lsa*; **pass me the book, please** kitobni uzatib yuboring, iltimos; b) *dunyodagi yagona bo'lgan narsa oldida*; **the sun is shining** quyosh nur sochyapti; d) *orttirma darajadagi sifat bilan kelgan ot oldida*; **the highest mountains are in Asia** eng baland tog'lar Osiyoda joylashgan; e) *tartib sonlar bilan kelgan otlar oldida*; **our classroom is on the second floor** bizning sinf xonamiz uchinchi qavatda joylashgan; **2.** *adv* „qanchalik ..., shunchalik ..." *degan iborada*; **the more the better** qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi
theater [´θɪətə] *amer.* = **theatre**
theatre [´θɪətə] *n* teatr; **at the ~** teatrda (*tomoshada*); **in the ~** teatrda (*teatr binosida*)
theatrical [θɪ´ætrɪk(ə)l] *a* 1) teatrga oid; teatr...; 2) yasama, soxta, sun'iy, g'ayritabiiy
theatricality [θɪˌætrɪ´kælɪtɪ] *n* teatrga xoslik; yasamalik, soxtalik, g'ayritabiiylik
thee [ðɪ:] *pron. pers. esk.* seni, senga
theft [θeft] *n* o'g'rilik, o'g'irlash
their [ðeə] *pron. poss.* ularning, o'zlarining
theirs [ðeəz] *pron. poss.* ularniki, o'zlariniki
theism [´θɪ:ɪz(ə)m] *n* teizm (*xudo olamni yaratgan va uni idora qiladi, deyuvchi diniy falsafiy oqim*)
them [ðem] *pron. pers.* („**they**" *kishilik olmoshining obyekt kelishigi shakli*) ularni, ularga, o'zlarini, o'zlariga
thematic [θɪ´mætɪk] *a* biror mavzuga bag'ishlangan, tematik; **a ~ catalogue** mavzular (nomlar) bo'yicha tuzilgan katalog
theme [θi:m] *n* muhokama mavzusi, mavzu
theme song [´θi:msɔŋ] *n mus.* takrorlanadigan ohang
themselves [ðəm´selvz] *pron. refl.* 1) o'zlarini, o'zlariga; 2) o'zlari; **they trans-**

lated the text ~ matnni ular o'zlari tarjima qildilar

then [ðen] *adv* 1) u vaqtda, u mahalda; **by** ~ o'shanda; o'shangacha; 2) keyin, so'ng, so'ngra

thence [ðens] *adv* 1) shundan, shu sababdan, buning natijasida; 2) o'sha vaqtdan buyon

thenceforth [ðens'fɔ:θ] *adv* o'sha vaqtdan beri, o'shandan buyon

thenceforward [ðens'fɔ:wəd] = **thenceforth**

theocracy [θi'ɔkrəsı] *n* teokratiya (*ruhoniy qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyat hamda shu usulda idora qilingan mamlakat*)

theocratic [θıə'krætık] *a* teokratiyaga oid

theodolite [θi'ɔdəlaıt] *n geod.* teodolit (*burchaklarni o'lchaydigan asbob*)

theologian [θıə'ləʊdʒı(ə)n] *n* ilohiyot mutaxassisi, teolog

theological [θıə'lɔdʒık(ə)l] *a* ilohiyotga, teologiyaga oid

theology [θi 'ɔlədʒı] *n* ilohiyot, teologiya

theorem ['θıərəm] *n mat.* teorema (*to'g'riligini isbot etish, qat'iy mantiqiy mushohadalar yuritish orqali ishonch hosil qilinadigan da'vo*)

theoretic(al) [θıə'retık(əl)] *a* nazariy, nazariyaga asoslangan; nazariya bilan bog'langan

theoretics [θıə'retıks] *n pl* nazariya

theorist ['θıərıst] *n* nazariyachi, nazariyotchi

theorize ['θıəraız] *v* nazariya bilan shug'ullanmoq

theory ['θi(ə)rı] *n* 1) nazariya (*qoidalar majmuyi*); 2) fikr, mulohaza, nuqtayi nazar

therapeutic(al) [ˌθerə'pju:tık(əl)] *a* terapiyaga va terapevtga oid

therapeutics [ˌθerə'pju:tıks] n terapiya (*ichki kasalliklarni faqat dori-darmon bilan davolash*)

therapeutist [ˌθerə'pju:tıst] *n* terapevt (*ichki kasalliklarni davolovchi shifokor*)

therapist ['θerəpıst] *n* terapevt (*ichki kasalliklarni davolovchi shifokor*)

therapy ['θerəpı] *n* terapiya (*1. ichki kasalliklarni faqat dori-darmon bilan davolash; 2. kasalliklarning bir-biri*)

there [ðeə] *adv* u yerda, o'sha yerda, o'sha joyda; **from** ~ u yerdan, u yoqdan, o'sha joydan (tomondan, yoqdan); **up to** ~ ana u yergacha

thereabout(s) [ˌðe(ə)rə'baot(s)] *adv* yaqin, yaqinda, yaqin orada

thereafter [ðe(ə)'ru:ftə] *adv* keyin, keyinchalik, nihoyasida, oqibatda, natijada

thereat [ðe(ə)'ræt] *adv* u yerda, o'sha yerda, u joyda, o'sha joyda, unda

thereby ['ðeə'baı] *adv* shunday qilib, shu tarzda, shu ravishda

therefore ['ðeəfɔ:] *adv* shuning uchun, shunga ko'ra, shu sababli, shu sababdan

therefrom [ðeə'from] *adv esk.* u yerda (yoqdan, tomondan)

therein ['ðe(ə)'rın] *adv* bu yerda (joyda, yoqda), shu yerda (joyda); bunda

thereof [ðe(ə)'rɒv] *adv* bundan (undan) kelib chiqib

thereon [ðe(ə)'rɒn] *adv esk.* 1) shu bilan; 2) keyin, so'ng, so'ngra (bir qancha vaqt o'tgach)

thereto [ðeə'tu:] *adv esk.* buning ustiga, shu bilan birga, ...dan tashqari

theretofore [ˌðeətə'fɔ:] *adv* o'sha vaqtgacha

thereunto [ðə(ə) 'rʌntu:] *adv esk.* ... ning ustiga, ustiga-ustak, ...dan tashqari, qo'shimchasiga, yana, tag'in

thereupon [ˌðe(ə)rə'pɒn] *adv* 1) undan (shundan, o'shandan) keyin; 2) sababli, tufayli; buning natijasida, oqibatida

therewith [ðeə'wıθ] *adv* 1) shu bilan, o'sha bilan; 2) darhol, darrov, shu onda, shu zahoti, o'sha zahoti

thermal ['θɜ:m(ə)l] *a* qizdirishga (issiqlikka) oid; termik

thermic ['θɜ:mık] *a* issiqlikka oid; issiqlik...; qizdirishga oid; termik...

thermite ['θɜ:maıt] *n tex.* termit (*yonganda juda katta issiqlik hosil qiladigan aralashma*)

thermochemistry [ˌθɜ:məʊ'kemıstrı] *n* termokimyo (*kimyoning kimyoviy jarayonlardagi issiqlik hodisalarini o'rganuvchi bo'limi*)

thermodynamics [ˌθɜ:məʊdaı'næmıks] *n pl* termodinamika (*fizikada: issiqlikning boshqa xillardagi energiyaga aylanishini o'rganivchi bo'limi*)

thermometer [θə'mɒmıtə] *n* termometr (*issiqlik yoki sovuqlik darajasini o'lchaydigan asbob*)

thermonuclear [ˌθɜ:məʊ'nju:klıə] *a* termoyadroviy, termoyadroga oid, termoyadro...; ~ **bomb** vodorod bombasi; ~ **weapon** termoyadro quroli

thermopile [ˌθɜ:məpaıl] *n* termoelement

thermoplegia [ˌθɜ:məʊ'pli:dʒıə] *n tib.* oftob urish

thermos ['θɜ:mɒs] *n* термос

thermostat ['θɜ:məstæt] *n* termostat (*avtomatik regulator yordami bilan haroratni bir xilda saqlab turadigan asbob*)

thesauri [θı'sɔ:r(a)ı] *pl of* **thesaurus**

thesaurus [θı'sɔ:rəs] *n* (*pl* **-ri** [-r(a)ı]) 1) xazina, g'azna; 2) ensiklopediya, qomus; 3) asosiy lug'at; tezaurus

these [ði:z] *pron.* bular

theses ['θi:si:z] *pl of* **thesis**

thesis ['θi:sıs] *n* (*pl* **theses**) 1) dissertatsiya; 2) tezis; asosiy fikr

Thespian ['θespıən] *a* fojiali, fojiaviy, musibatli

theurgy ['θi:ɜ:dʒı] *n* sehr, jodu, afsun; sehrgarlik, jodugarlik; afsungarlik

thews [θju:z] *n pl* 1) muskul kuchi; jismoniy kuch; 2) aql kuchi (qudrati)

they [ðeı] *pron. pers.* ular

thick [θık] *a* 1) yo'g'on; 2) qalin, quyuq

thicken ['θıkən] *v* quyulmoq, quyuqlanmoq

thicket ['θıkıt] *n* chakalakzor, changalzor

thick-head ['θıkhed] *n* zehni past, befarosat, befahm, esi past

thick-headed [ˌθık 'hedıd] *a* qovoqbosh, befahm

thickly ['θıklı] *adv* 1) quyuq, qalin, tig'iz, zich; 2) tez-tez, ketma-ket, ko'plab; 3) noaniq, g'uldurab

thickness ['θıknəs] *n* 1) yo'g'onlik, qalinlik; 2) qatlam, qat, qavat

thick-set [ˌθık 'set] **1.** *a* 1) qalin qilib ekilgan; 2) (*daraxt haqida*) ildizi baquvvat; **2.** *n* 1) qalin chakalakzor (butazor, changalzor)

thick-skinned [ˌθık 'skınd] *a* terisi qalin, po'sti (po'chog'i) qalin; 2) *ko'ch.* terisi qalin, gap kor qilmaydigan, surbet, bag'ritosh

thick-skulled [ˌθık'skʌld] *a* qovoqbosh, befarosat, befahm, ahmoq, tentak

thick-witted [ˌθık'wıtıd] = **thick-skulled**

thief [θi:f] *n* (*pl* **thieves**) o'g'ri, qaroqchi

thieve [θi:v] *v* o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, o'g'irlab olmoq

thieves [θi:vz] *pl of* **thief**

thievish ['θi:vıʃ] *a* 1) o'g'rinamo, egri, nopok; 2) o'g'rilarcha ehtiyotkor

thigh [θaı] *n anat.* son; ~-**bone** boldir suyagi

thigh-bone ['θaıbəon] *n anat.* boldir suyagi

thimble ['θımb(ə)l] *n* angishvona, angishona

thimbleful ['θımb(ə)lful] *n* 1) bir yutum (qultum); bir chimdim (otim, damlam)

thin [θın] *f. a* 1) ingichka, yupqa; 2) nozik; oriq, ozg'in; **2.** *v* ozmoq, oriqlamoq, ingichkalashmoq; **to ~ down** 1) oriqlamoq, ozmoq; 2) uchini chiqarmoq (ochmoq), o'tkirlamoq; **to ~ out** siyraklashmoq, ozaymoq

thine [ðaın] *pron. poss. shoir.* seniki, sening, senga qarashli, senga tegishli

thing [θıŋ] *n* narsa, predmet, buyum

think [θɪŋk] *v* (**thought**) o'ylamoq, fikr qilmoq; **to ~ of** ... haqida o'ylamoq; **to ~ over** o'ylab ko'rmoq
thinker [ˈθɪŋkə] *n* mutafakkir, chuqur fikr qiluvchi, fikrlovchi
thinking [ˈθɪŋkɪŋ] *n* o'y, fikr; o'ylash, fikr qilish
third [θɜ:d] *num. ord.* uchinchi; **~ly** uchinchidan
thirst [θɜ:st] **1.** *n* chanqash, tashnalik; **2.** *v* chanqamoq, tashna bo'lmoq
thirsty [ˈθɜ:stɪ] *a* chanqagan; **I am ~** men chanqadim
thirteen [ˌθɜ:ˈti:n] *num. card.* o'n uch; **~th** *num. ord.* o'n uchinchi
thirtieth [ˈθɜ:tɪɪθ] *num. ord.* o'ttizinchi
thirty [ˈθɜ:tɪ] *num. card.* o'ttiz
this [ðɪs] *pron. demonstr.* bu, shu, ushbu, mana bu; **at ~ time** shu vaqtda (paytda)
thistle [ˈθɪs(ə)l] *n bot.* 1) qushqo'nmas (*tikanli yovvoyi o'simlik*); 2) bo'ztikan
tho' [ðəʊ] = **though**
thole [θəʊl] *n* eshkak qulog'i (*qayiq yonida eshkak o'rnatiladigan ayri va shu ayri qozig'i uchun qilingan teshik*)
thong [θɒŋ] **1.** *n* 1) kamar, tasma, qayish; 2) o'rma qamchi; **2.** *v* 1) savalamoq, qamchilamoq; 2) tasma bilan bog'lamoq
thorax [ˈθɔ:ræks] *n anat.* ko'krak qafasi
thorn [θɔ:n] *n* tikan, tikanak
thorny [ˈθɔ:nɪ] *a* 1) tikanli; 2) tikandek sanchiladigan, botadigan, o'tkir; 2) qiyin, mashaqqat; **a ~ path** (*yoki* **way**) mashaqqatli yo'l, qiyin yo'l
thorough [ˈθʌrə] *a* to'la, asosli, puxta
thoroughbred [ˈθʌrəbred] *a* toza, zotli (aynimagan), nasldor
thoroughfare [ˈθʌrəfeə] *n* 1) gavjum, serqatnov ko'cha; 2) o'tiladigan (transport o'tadigan) yo'l; **no ~** yo'l berk
thoroughgoing [ˌθʌrəˈgəʊɪŋ] *a* 1) hech narsaga qaramasdan (to'ppa-to'g'ri) boradigan; 2) *ko'ch.* hech narsaga qaramasdan ish qiluvchi
thoroughly [ˈθʌrəlɪ] *adv* butunlay, tamoman, to'la, bemalol, yetarlicha
thoroughness [ˈθʌrənəs] *n* puxtalik, sinchiklab (diqqat bilan) bajarishlik
those [ˈðəʊz] *pron. demonstr.* o'shalar, ana ular
thou [θaʊ] *pron. pers. shoir.* sen
though [ðəʊ] *cj* ...sa ham, ammo;... ga qaramasdan, hatto, bo'lsa ham; har holda, garchi, biroq
thought I [θɔ:t] *n* fikr, g'oya, tafakkur; niyat, maqsad; **~ful** *a* o'ychan, xayolchan
thought II [θɔ:t] *past., p. p. of* **think**
thoughtless [ˈθɔ:tləs] *a* parvosiz, beparvo, beg'am
thousand [ˈθaʊz(ə)nd] *num. card.* ming; **~th** *num. ord.* minginchi
thrash [θræʃ] *v* 1) urmoq, savalamoq, kaltaklamoq, do'pposlamoq; 2) yanchmoq
thread [θred] **1.** *n* ip; **2.** *v* ip o'tkazmoq
threat [θret] *n* 1) tahdid, po'pisa, do'q; 2) xavf-xatar, tahlika, qo'rqinch
threaten [ˈθretn] *v* tahdid solmoq, do'q qilmoq, qo'rqitmoq, po'pisa qilmoq
three [θri:] *num. card.* uch
thresh [ˈθreʃ] = **thrash**
thresher [ˈθreʃə] *n* yanchish mashinasi
threshold [ˈθreʃ(h)əʊld] *n* 1) ostona, bo'sag'a; 2) eshik oldi, kiraverish
threw [θru:] *past. of* **throw**
thrice [θraɪs] *adv esk.* uch marta, uch karra
thrift [θrɪft] *n* tejamlilik, rejalilik, foydalilik, barakalilik
thriftless [ˈθrɪftləs] *a* isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi
thrifty [ˈθrɪftɪ] *a* tejamkor, ayab (tejab-tergab) sarf qiladigan
thrill [θrɪl] *n* asabiylashgan holat; hayajonlanish, to'lqinlanish; hayajon, iztirob
thrilled [θrɪld] *a* hayajonlangan, to'lqinlangan, hayajonli, tashvishli, iztirobli
thriller [ˈθrɪlə] *n so'zl.* 1) shov-shuvga sabab bo'lgan kitob, pyesa *yoki* film; sarguzasht roman; 2) detektiv (maxfiy agentlar hayotiga oid) film; jangari film, triller
thrilling [ˈθrɪlɪŋ] *a* hayajonlantiruvchi, hayajonga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi; hayajonli
thrive [θraɪv] *v* (**throve; thriven**) gullamoq, yashnamoq, taraqqiy qilmoq, ravnaq topmoq
thriven [ˈθrɪv(ə)n] *p. p. of* **thrive**
thro, thro' [θru:] = **through**
throat [θrəʊt] **1.** *n* bo'g'iz, tomoq, halqum, hiqildoq; **2.** *v* tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq
throb [θrɒb] *n* 1) tepish, urish; tomir urishi; 2) titroq, titrash, qaltirash
throe [θrəʊ] *n* 1) qattiq (kuchli) og'riq; 2) o'lim (jon) talvasasi, jon talashish
throne [θrəʊn] *n* 1) taxt; 2) podsholik
throng [θrɒŋ] *n* olomon, betartib yig'in (to'da); 2) ko'pdan ko'p, juda ko'p, ko'pgina, anchagina
throttle [ˈθrɒtl] *n tex.* drossel (*dvigatellarda: yonilg'i, gaz, bug' o'tishini tartibga solib turuvchi klapan*)
through [θru:] *prep.* orasidan, ichidan, orqali
throughout [θru:ˈaʊt] *adv* 1) hamma yoqda, hamma joyda; 2) har tomonlama, har yoqlama
throve [θrəʊv] *past. of* **thrive**
throw [θrəʊ] *v* (**threw; thrown**) otmoq, irg'itmoq, uloqtirmoq, uloqtirib tashlamoq, tashlab yubormoq, tashlamoq; **to ~ at** ...ga otmoq, irg'itmoq; **to ~ down** pastga otmoq, irg'itmoq; **to ~ over** ...dan oshirib irg'itmoq
thrown [θrəʊn] *p. p. of* **throw**
thru [θru:] *amer.* = **through**
thrust [θrʌst] *n* 1) turtish, itarish, urish; 2) zarba
thud [θʌd] *n* taqillagan (dukullagan, taraqlagan) ovoz
thug [θʌg] *n* qotil, odamkush; kallakesar, bezori
thumb [θʌm] *n* bosh barmoq
thump [θʌmp] *n* og'ir zarba
thunder [ˈθʌndə] **1.** *n* 1) momaqaldiroq, yashin; 2) gumburlash; **2.** *v* gumburlamoq, gulduramoq
thunderbolt [ˈθʌndəbəʊlt] *n* momaqaldiroqning guldurashi
thunderclap [ˈθʌndəklæp] *n* momaqaldiroqning guldurashi
thundercloud [ˈθʌndəklaʊd] *n* yomg'irli bulut
thunderous [ˈθʌnd(ə)rəs] *a* momaqaldiroqli, jalali
thunderstorm [ˈθʌndəstɔ:m] *n* momaqaldiroq; jala
thunderstruck [ˈθʌndəstrʌk] *a* 1) chaqmoqdan talafot chekkan (ko'rgan); 2) juda ham ajablantiradigan, hayratga soladigan, hayratda qoldiradigan, esankiratib qo'yadigan
Thursday [ˈθɜ:zdɪ] *n* payshanba
thus [ðʌs] *adv* 1) shunday, shunaqa; 2) shunday qilib, shu tarzda
thwack [θwæk] **1.** *n* (*kuchli*) zarba; **2.** *v* urmoq, tushirmoq, tepmoq
thwart I [θwɔ:t] *n* o'rindiq (*qayiqning odam o'tiradigan joyi*)
thwart II [θwɔ:t] **1.** *a* 1) ko'ndalang; 2) gapga kirmaydigan, qaysar; **2.** *v* 1) (*birovning istaginiy*) amalga oshishiga xalaqit bermoq; 2) (*rejani*) buzmoq
thy [ðaɪ] *pron. poss. esk.* seniki, sening, senga qarashli
tick I [tɪk] *n* g'ilof, chexol, jild
tick II [tɪk] **1.** *n* chiqillash, chiq-chiq qilish, tik-tik qilish; **2.** *v* chiqillamoq, tiqillamoq, chiq-chiq (tik-tik) qilmoq
tick III [tɪk] *n so'zl.* kredit, qarz, nasiya
tick IV [tɪk] *n ent.* kana, jo'lak
ticket [ˈtɪkɪt] *n* bilet, patta, chipta
ticking [ˈtɪkɪŋ] *n* tik (*gazlama*)
tickle [ˈtɪk(ə)l] *n* qichitish, qichishish; qitig'ini keltirish

ticklish [ˈtɪklɪʃ] *a so'zl.* 1) bekorga kulaveradigan, kulag'on; 2) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik

tidal [ˈtaɪdl] *a* suvning ko'tarilishi va pasayishiga oid; **~ wave** suvning ko'tarilishi, to'lqini

tide [taɪd] *n* 1) dengiz suvining ko'tarilishi va pasayishi (qaytishi); 2) oqim, yo'nalish, yo'l; 3) to'lqin, g'alayon; **the ~ of public discontent** xalq g'azabining to'lqini

tidiness [ˈtaɪdməs] *n* tozalik, ozodalik, pokizalik, saranjom-sarishtalik

tidy [ˈtaɪdɪ] *a* toza, ozoda, pok

tie [taɪ] **1.** *n* galstuk; **2.** *v* bog'lamoq

tier I [tɪə] *n* 1) bog'laydigan kishi *yoki* narsa; 2) mahkamlash, bog'lash; 3) *amer.* bolalar fartugi'

tier II [taɪə] *n* 1) yarus, qavat; 2) saf, qator

tiff I [tɪf] *n* biroz aytishib qolish, araz, gina

tiff II [tɪf] *n min.* kalsit, ohakli shpat

tiger [ˈtaɪgə] *n zool.* yo'lbars

tight [taɪt] *a* 1) qalin, zich; 2) tig'iz; 3) tor (*poyabzal*); 4) og'ir, qiyin; **to be in a ~ corner** og'ir ahvolga tushib qolmoq

tighten [ˈtaɪtn] *v* siqmoq, qismoq; siqilmoq, qisilmoq

tight-fisted [ˌtaɪtˈfɪstɪd] *a* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; baxil

tights [taɪts] *n pl* 1) triko (*badanga yopishib turadigan kiyim, sportchilar kiyimi*); 2) kolgotka (*xotin-qizlar kiyadigan triko-paypoq*)

tile [taɪl] *n* 1) tomga yopiladigan sopol; 2) kafel

till I [tɪl] *prep. cj.* -gacha, -guncha, qadar; **~ now** shu vaqtgacha, hozirgacha

till II [tɪl] *v* yer haydamoq, yerga ishlov bermoq; **~age** yer haydash; haydalgan yer (shudgor)

tilt I [tɪlt] *v* egmoq, engashtirmoq; og'moq, og'dirmoq

tilt II [tɪlt] *n* chodir, soyabon

tilth [tɪlθ] *n* yerga (tuproqqa) ishlov berish

timber [ˈtɪmbə] *n* 1) qurilish materiali; 2) to'sin, xoda

timbre [ˈtæmbə, tɪmbə] *n fr. mus.* tembr (*tovushning o'ziga xos xususiyatlari*)

time [taɪm] *n* vaqt, mahal, zamon, davr, payt; **at a ~** bir martada, bir vaqtda (paytda); **for a ~** biroz vaqt davomida; **in ~** o'z vaqtida; **for the ~ being** hozir; **from ~ to ~** vaqt-vaqti bilan; **at ~s** ba'zan; **~table** jadval (*poyezdlarning qatnashi, dars va b.*)

time-server [ˈtaɪmˌsɜ:və] *n* zamonasoz, moslashuvchi; munofiqlik (ikkiyuzlamachilik) bilan sharoitga moslashuvchi

timid [ˈtɪmɪd] *a* 1) uyatchan, tortinchoq; iboli; 2) jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqoq

timorous [ˈtɪm(ə)rəs] *a* jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqoq; tortinchoq

tin [tɪn] *n* 1) qalay; 2) tunuka; 3) konserva qutisi

tincture [ˈtɪŋktʃə] *n* rang turi, rangdagi nozik farq

ting [tɪŋ] *so'zl.* = **tinkle**

tinge [tɪndʒ] *n* rangdagi nozik farq

tingle [ˈtɪŋg(ə)l] *n* sanchish, sanchib og'rish; sanchiq

tinker [ˈtɪŋkə] *n* miskar

tinkle [ˈtɪŋk(ə)l] *v* jaranglamoq, jiringlamoq; jarang-jurung qilmoq

tinned [tɪnd] *a* konservalangan, konserva qilingan

tinsel [ˈtɪns(ə)l] *n* yaltiroq tangachalar

tint [tɪnt] *n* bo'yoq, rang

tiny [ˈtaɪnɪ] *a* kichkinagina, mitti, mayda

tip I [tɪp] *n* uch, oxir, uchgina

tip II [tɪp] *n* sal tegib ketish, sal turtish

tip III [tɪp] *n* choychaqa, choy puli

tipple I [ˈtɪp(ə)l] *n* spirtli ichimlik

tipple II [ˈtɪp(ə)l] *n tog'.* shaxta, kon ustiga qurilgan inshoot (bino, imorat, qurilish)

tipster [ˈtɪpstə] *n sport.* ma'lumot beruvchi kishi (*ot musobaqasida*)

tipsy [ˈtɪpsɪ] *a so'zl.* biroz ichgan, qittak ichib olgan, shirakayf

tiptoe [ˈtɪptəʊ] **1.** *n* oyoq uchi; **2.** *v* oyoq uchida yurmoq

tiptop [ˌtɪpˈtɒp] *n* tepa, uch, cho'qqi

tire I [ˈtaɪə] *n* 1) g'ildirak to'g'ini (tegarchigi); 2) *amer.* shina, pokrishka; 3) *amer.* fartuk; 4) *esk.* ayollar bosh kiyimi

tire II [ˈtaɪə] *v* 1) charchatmoq, toliqtirmoq; **I am ~d** men charchadim; 2) bezor qilmoq; 3) zeriktirmoq

tired [ˈtaɪəd] *a* charchagan, horgan, toliqqan, horg'in; **~ of** ...dan charchagan; **to be ~ with** ...dan charchamoq

tiredness [ˈtaɪədnəs] *n* charchaganlik, horganlik, toliqqanlik

tireless [ˈtaɪələs] *a* charchamas, hormas, tolmas

tiresome [ˈtaɪəsəm] *a* charchatadigan

tiro [ˈta(ɪ)rəʊ] *n lot.* (*pl* **-os** [-əʊz]) yangi odam, yangi (endigina) kelgan

tissue [ˈtɪʃu:] *n* 1) yupqa qimmatbaho gazlama, gazmol, mato; 2) *biol.* to'qima; 3) qog'oz salfetka va sh. k.

tissue-paper [ˈtɪʃu:ˌpeɪpə] *n* 1) papiros qog'oz (*yupqa qog'oz*); 2) narsa o'raydigan yupqa qog'oz

tit I [tɪt] *n* chittak

tit II [tɪt] *so'zl.* = **teat**

titbit [ˈtɪtˌbɪt] *n* 1) og'iz suvini keltiradigan narsa; 2) g'alati bir yangilik, yangi xabar

tithe [taɪð] *n* 1) o'ninchi qism; 2) uvoq, ushoq, burda

titillate [ˈtɪtɪleɪt] *v* qitiqlamoq, qitig'ini keltirmoq

titivate [ˈtɪtɪveɪt] *v so'zl.* yasantirishga (*yoki* bezashga) intilmoq, yasantirmoq, bezatmoq, oro bermoq

title [ˈtaɪtl] **1.** *n* 1) sarlavha; nom; **under the ~ of** sarlavhasi ostida; 2) unvon; 3) (*nimagadir*) huquq (**to**); **2.** *v* 1) sarlavha qo'ymoq, nom bermoq; 2) unvon bermoq

titled [ˈtaɪtld] *a* 1) atalgan, nomlangan; 2) unvonli, unvon olgan

title-holder [ˈtaɪtlˌhəʊldə] *n sport.* chempion (*biror musobaqada g'alaba qozongan sportchi*)

titmouse [ˈtɪtmaʊs] *n* (*pl* **-mice** [-maɪs]) *zool.* chittak

titter [ˈtɪtə] *v* hingillab kulmoq, hingillamoq, qiqirlamoq

tittle [ˈtɪtl] *n* 1) eng kichik bo'lak (parcha); 2) juda oz, ozgina narsa; 3) mayda tomchi

tittle-tattle [ˈtɪtlˌtætl] *v* g'iybat (suxanchilik) qilmoq; gap tashimoq, gap-so'z qilmoq

titular [ˈtɪtʃʊlə] *a* 1) unvonli, unvon olgan; 2) unvon *yoki* egallagan mansabga oid

T-junction [ˈti:ˌdʒʌŋkʃ(ə)n] *n* „T" shakldagi chorraha

to [tu:] *prep.* 1) (*yo'nalishni ko'rsatadi*) -ga; **the way ~ the lyceum** litseyga olib boradigan yo'l; 2) *harakat, vaqt, masofa, miqdorlarning chegarasini ko'rsatadi*; **from Wednesday ~ Friday** chorshanbadan jumagacha

toad [təʊd] *n zool.* qurbaqa

toadstool [ˈtəʊdstu:l] *n* qurbaqasalla (*zaharli zamburug'*)

toady [ˈtəʊdɪ] *n* xushomadgo'y, laganbardor; tilyog'lamachi

toast I [təʊst] **1.** *n* qovurilgan non; **2.** *v* qovurmoq

toast II [təʊst] *n* (*nutq so'zlab*) qadah ko'tarish

toaster [ˈtəʊstə] *n* toster (*nondan suxari tayyorlaydigan elektr asbobi*)

tobacco [tə bækəʊ] *n* tamaki

tobacconist [tə bækənɪst] *n* tamakili (tamakidan qilingan) narsalarni sotuvchi kishi

to-be [tə bi:] **1.** *n* kelajak, istiqbol; **2.** *a* kelgusi, kelgusidagi, kelasi, bo'lg'usi

toboggan [tə bɒgən] **1.** *n* chana; **2.** *v* 1) chanada uchmoq; 2) keskin (birdan) tushmoq; **prices ~ed** narxlar keskin tushib ketdi

toesin [ˈtoksɪn] *n* nabat, jom
today [təˈdeɪ] *n* 1) bugun; 2) hozirgi kunda
toddle [ˈtodl] *v* oqsoqlanmoq, sudralmoq, oqsab-to'qsab zo'rg'a yurmoq, oyoqlarini sudrab qadam bosmoq
toddler [ˈtodlə] *n* yurishni boshlagan chaqaloq
to-do [təˈduː] *n so'zl.* yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon
toe [təʊ] *n* 1) oyoq barmog'i; 2) etik, tufli tumshug'i
toe-nail [ˈtəʊneɪl] *n* oyoq barmog'ining tirnog'i
toff [tof] *n* 1) umuman muomalali, nazokatli odam; 2) olifta
toffee, toffy [ˈtofɪ] *n* bir dona iris
tog [tog] **I.** *n* 1) *so'zl.* palto, ust kiyim; 2) *pl so'zl.* kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh, libos; sarpo; **2.** *v* kiydirmoq, kiyintirmoq, kiyim-bosh olib bermoq
together [təˈgeðə] *adv* birga, birgalikda, birgalashib
toil [tɔɪl] **1.** *n* og'ir mehnat, qiyin ish; **2.** *v* qattiq mehnat qilmoq, tirishib ishlamoq
toilet [ˈtɔɪlɪt] *n* hojatxona
toiletries [ˈtɔɪlətrɪz] *n pl* pardoz-andoz buyumlari
toils [tɔɪlz] *n pl* 1) to'r, matrap; 2) tuzoq, qopqon, dom
token [ˈtəʊkən] *n* 1) belgi, alomat, ramz; 2) sovg'a
told [təʊld] *past, p. p. of* **tell**
tolerable [ˈtɒl(ə)rəb(ə)l] *a* qanoatlansa (chidasa) bo'ladigan, durust, uncha yomon emas
tolerance [ˈtɒl(ə)rəns] *n* 1) chidab turishlik; bardosh berish; 2) o'zga madaniyatni hurmat qilish
tolerant [ˈtɒl(ə)rənt] *a* 1) chidamli, bardoshli; 2) hurmat bilan munosabatda bo'lmoq
tolerate [ˈtɒləreɪt] *v* 1) chidamoq, bardosh bermoq, toqat qilmoq; 2) hurmat bilan munosabatda bo'lmoq
toleration [ˌtɒləˈreɪʃ(ə)n] *n* 1) chidab turishlik, toqatlilik, bardoshlilik; 2) hurmat bilan qilingan munosabat
toll I [təʊl] *n* qo'ng'iroq ovozi (jarangi)
toll II [təʊl] *n* boj, soliq
tom- [tɒm-] *n* turli hayvon va qushlarning erkagi; **~-cat** mushuk (*erkagi*)
tomato [təˈmɑːtəʊ] *n bot.* pomidor
tomb [tuːm] *n* maqbara, go'r, qabr; **~ stone** marmartosh
tomboy [ˈtɒmbɔɪ] *n* 1) bolalarga xos bo'lgan harakat (qiliq) qiladigan qiz bola; 2) sho'x bola, to'polonchi, shumtaka
tom-cat [ˈtɒmkæt] *n* mushuk (*erkagi*)
tome [təʊm] *n* tom, jild
tomfool [tɒmˈfuːl] *n* 1) esi yo'q odam, ahmoq odam; tentak, esi past; 2) qiziqchi, hazilkash
tommy [ˈtɒmɪ] *n* (*inglizlarda*) oddiy askar
tommy-gun [ˈtɒmɪgʌn] *n harb.* pistolet-pulemyot
tommyrot [ˈtɒmɪrɒt] *n so'zl.* bema'ni (bo'lmag'ur, bekor) gap, safsata
tomorrow [təˈmɒrəʊ] **I.** *adv* ertaga; **the day after ~** ertadan keyin, indinga; **2.** *n* ertangi kun
tomtom [ˈtɒmtɒm] *n mus.* tamtam (*Afrika va Sharq mamlakatlarida nog'orasimon musiqa asbobi*)
ton [tʌn] *n* tonna
tone [təʊn] **1.** *n* ovoz, ohang, tovush; **2.** *v* sozlamoq, muvofiqlashtirmoq
tongs [tɒŋz] *n pl* ombur; otashkurak, qisqich
tongue [tʌŋ] *n* til; **mother ~** ona tili
tongue-tied [ˈtʌŋtaɪd] *a* tutilib, soqovlanib gapiradigan, duduq, tili chuchuk
tonic [ˈtɒnɪk] *n* 1) *tib.* quvvat (darmon) beradigan dori; 2) taskin, tasalli
tonight [təˈnaɪt] *adv* bugun kechqurun (*kechasi*)
tonnage [ˈtʌnɪdʒ] *n* tonnaj (*paroxodning suvga botgan qismi tonna hisobida siqib chiqargan suv miqdori hamda paroxodning yuk ko'tarish qobiliyati*)
tonne [tʌn] *n* metrik tonna
tonsil [ˈtɒns(ə)l] *n anat.* bodomsimon bez
tonsillitis [ˌtɒnsɪˈlaɪtɪs] *n tib.* tonzilit (*tomoq bodomsimon bezlarining yallig'lanishi*)
too [tuː] *adv* 1) shuningdek; ham; 2) buning ustiga, juda, haddan tashqari
took [tʊk] *past. of* **take**
tool [tuːl] *n* dastgoh, ish asbobi
toot I [tuːt] *n* gudok ovozi, hushtak ovozi
toot II [tuːt] *n amer.* aysh-ishrat, ichkilikbozlik, mayxo'rlik
tooth [tuːθ] *n* (*pl* **teeth**) tish; **a false ~** yasama tish; **~ ache** tish og'rig'i; **a ~ brush** tish cho'tkasi; **~ paste** tish pastasi; **a ~ pick** tish kovlagich
toothsome [ˈtuːθs(ə)m] *n* xushmaza, xushta'm
tootle [ˈtuːtl] **1.** *a* 1) karnayning ovozi; 2) fleyta (*naysimon musiqa asbobi*)ning ovozi; **2.** *v* karnay (fleyta) chalmoq
top [tɒp] *a* eng yuqori, eng baland, cho'qqi, uch
top-hole [ˌtɒpˈhəʊl] *a so'zl.* birinchi darajali, a'lo darajali, eng yaxshi
topic [ˈtɒpɪk] *n* mavzu
topical [ˈtɒpɪk(ə)l] *n* juda muhim, eng zarur, mahalliy ahamiyatga ega
topless [ˈtɒpləs] *a* 1) juda baland; 2) usti (tepasi) ko'rinmaydigan
topmost [ˈtɒpməʊst] *a* 1) eng yuqoridagi; 2) eng muhim
topography [tɒˈpɒgrəfɪ] *n* topografiya (*yerning sathi va undagi punktlarning qay tarzda joylashganligi*)
topple [ˈtɒp(ə)l] *v* qulamoq, yiqilmoq, dumalamoq; tushib ketmoq
topsy-turvy [ˌtɒpsɪˈtɜːvɪ] *n* 1) oyog'i osmonda, ag'dar-to'ntar; 2) chalkashlik, chigallik, tartibsizlik; chatoqlik
torch [tɔːtʃ] *n* mash'al
tore I [tɔː] *past. f* **tear II**
tore II [tɔː] *n me'mor.* yarim doira shaklidagi friz (*bino peshanasidagi, shuningdek, devor, gilam, parket chetlaridagi keng naqshli yo'l, hoshiya*)
torment [ˈtɔːment] *n* azob-uqubat, jafo; aziyat, ozor
torn [tɔːn] *p. p. of* **tear II**
tornado [tɔː ˈneɪdəʊ] *n* (*pl* **-oes, -os** [-əʊz]) qattiq (shiddatli) shamol, bo'ron
torpedo [tɔːˈpiːdəʊ] *n* (*pl* **-oes** [-əʊz]) torpeda (*o'zi harakat qiladigan suvosti snaryadi*)
torpedo-boat [tɔːˈpiːdəʊbəʊt] *n* torpedali kater, torpeda snaryadi o'rnatilgan kema
torrent [ˈtɒrənt] *n* 1) shiddatli oqim; 2) *pl* jala, sharros yomg'ir; **the rain fell in ~s** qattiq (shiddatli) yomg'ir yog'di
torrential [tɒˈrenʃ(ə)l] *a* 1) tez oqayotgan (oqadigan); 2) sharros, shiddatli, qattiq; **~ rain** qattiq (shiddatli) yomg'ir, jala, sel
torrid [ˈtɒrɪd] *a* issiq, qizigan; lovullagan, jazirama
torsi [ˈtɔːsɪ] *pl of* **torso**
torso [ˈtɔːsəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz], **-si** [-sɪ]) gavda, tana
tortoise [ˈtɔːtəs] *n* (*quruqlikda yuruvchi*) toshbaqa
tortuous [ˈtɔːtʃʊəs] *a* 1) egri-bugri, ilonizi; 2) gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan, noaniq, mujmal
torture [ˈtɔːtʃə] **1.** *n* qiynoq, azob; **2.** *v* qiynamoq, azoblamoq
Tory [ˈtɔːrɪ] *n* 1) konservativ partiya (*Angliya*); 2) tori, konservator
tosh [tɒʃ] *n* bema'ni (bo'lmag'ur, bekor) gap, safsata
toss [tɒs] otish, irg'itish, tashlash
tot I [tɒt] *n* 1) kichkina bola, yosh bola, kichkintoy, o'g'ilcha; 2) *so'zl.* kichkina qadah (*may va b. uchun*); 3) bir (qultum) ho'plam (*sharob va b.*)
tot II [tɒt] *so'zl.* **1.** *n* umumiy son, miqdor, yig'indi, jami, majmuyi; **2.** *v* qo'shmoq, jamlamoq
total [ˈtəʊtl] **1.** *a* butun, to'la, jami; **2.** *n* umumiy miqdor, yig'indi

totally ['təʊt(ə)lɪ] *adv* to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila
totter ['tɒtə] *v* 1) oqsoqlanmoq, sudralmoq, oyoqlarini sudrab qadam tashlamoq; 2) tebranmoq, liqillamoq; 3) halokatga uchramoq, tanazzulga yuz tutmoq
touch [tʌtʃ] *v* tegmoq, turtmoq, qo'l tegizmoq
touch-and-go [ˌtʌtʃən(d)'gəʊ] *a* 1) xavfli, xatarli, tahlikali, qaltis; 2) chala-chulpa, yuzaki, naridan beri qilingan
touched [tʌtʃt] *a* hayajonlangan, to'lqinlangan, tashvishli, iztirobli
touching ['tʌtʃɪŋ] **1.** *a* ta'sirli, ko'ngilni yumshatadigan, eritadigan; **2.** *prep.* haqida, to'g'risida; taalluqli, tegishli, doir
touchy ['tʌtʃɪ] *a* salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan; ta'bi nozik, terisi yupqa
tough [tʌf] **1.** *a* qattiq, zich, tig'iz, qalin; **2.** *n* bezori, xuligan
toughen ['tʌf(ə)n] *v* 1) qattiq bo'lmoq; qotmoq; 2) qattiq qilmoq; **a ~ing-up course** katta kuch bilan (qattiq) mashg'ulot o'tkazadigan kurs
tour [tʊə] *n* sayohat, sayr
tourism ['tʊərɪzm] *n* turizm
tourist ['tʊ(ə)rɪst] *n* sayyoh, sayohatchi
tournament ['tʊənəmənt] *n* musobaqa, poyga, turnir
tousle ['taʊz(ə)l] *v* tutamlamoq, tutamlab paxmoq qilmoq (*sochni, soqolni*)
tout [taʊt] **1.** *n* qo'yarda-qo'ymay (zo'rlab) chaqirib kelish, qistab chaqirish, chorlash; **2.** *v* 1) mollarni zo'rlab o'tkazmoq; 2) mijozlarni qistab chaqirmoq
tow I [təʊ] **1.** *n* 1) pishiq arqon, arg'amchi, chilvir; 2) shatakka olish, shatakka olib tortish; **2.** *v deng.* shatakka olmoq
tow II [təʊ] *n* kanop *yoki* zig'irpoyaning titilgan tolasi
towards [tə'wɔ:dz] *prep.* -ga, -ga qarab, tomonga, tarafga
towel ['taʊəl] *n* sochiq
towel-horse ['taʊəlhɔ:s] *n* sochiq ilib qo'yiladigan ilgak
tower ['taʊə] *n* minora
towing ['təʊɪŋ] *n* shatakka olish, shatakka olib tortib borish
town [taʊn] *n* shaharcha, kichik shahar; **all over the ~** butun shahar bo'ylab; **out of ~** shahardan tashqarida; safarda
township ['taʊnʃɪp] *n amer.* shaharcha, shahar tipidagi qishloq
toxic ['tɒksɪk] **1.** *n* zahar, og'u; **2.** *a* zaharli, og'uli
toy [tɔɪ] *n* o'yinchoq
toyman ['tɔɪmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) o'yinchoq sotuvchi kishi
toyshop ['tɔɪʃɒp] *n* o'yinchoq magazini
trace [treɪs] **1.** *n* iz; **2.** *v* iziga tushmoq, izidan kuzatib bormoq
tracing ['treɪsɪŋ] *n* 1) iziga (ketiga, payiga) tushish, orqasidan poylab borish, ta'qib qilish; 2) chizmadan kalka bilan ko'chirib olish, chizmani kalkaga o'tkazish; 3) konki izi (*muzda*)
tracing-paper ['treɪsɪŋˌpeɪpə] *n* nusxa ko'chirish uchun mum bilan ishlangan qog'oz
track [træk] *n* 1) iz; **to be on the ~ of** iziga tushmoq, kuzatmoq; 2) qishloq yo'li, tuproq yo'l; 3) hayot yo'li
tract [trækt] *n* biror muammoga bag'ishlangan ilmiy asar
tractable ['træktəb(ə)l] *a* gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan, bo'ysunadigan, itoatkor
traction ['trækʃ(ə)n] *n* (*yuk*) tortuvchi kuch; (*yuk*) tortish; **electric ~** elektr kuchi bilan tortish
tractor ['træktə] *n* traktor
trade [treɪd] **1.** *n* savdo, savdo-sotiq, kasb, hunar; **2.** *v* savdo-sotiq qilmoq
trader ['treɪdə] *n* (*ulgurji*) savdogar, do'kondor
tradesman ['treɪdzmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) savdogar, do'kondor
trade-union [ˌtreɪd'ju:nɪən] *n* kasaba uyushmasi
trade-unionist [ˌtreɪd'ju:nɪənɪst] *n* kasaba uyushmasining a'zosi
tradition [trə'dɪʃ(ə)n] *n* an'ana, urf-odat, rasm
traduce [trə'dju:s] *v* yomonlab gapirmoq, yomonlamoq, g'iybat qilmoq
traffic ['træfɪk] *n* harakat, ko'cha harakati; **~ light** svetofor; **at the ~ lights** svetoforda
trafficator ['træfɪkeɪtə] *n* yo'l muyulishi (burilishi)ning ko'rsatkichi
tragedy ['trædʒɪdɪ] *n* 1) fojiali sahna asari; 2) *ko'ch.* fojia, falokat, dahshat
tragic(al) ['trədʒɪk(əl)] *a* fojiali, dahshatli
trail [treɪl] **1.** *n* iz; **to get on the ~** iziga tushmoq; **2.** *v* 1) sekin yurib bormoq, sudralib yurmoq, zo'rg'a qadam tashlab bormoq; 2) izidan bormoq
trailer ['treɪlə] *n* 1) tirkama, pritsep; 2) kinoafisha (*kino haqidagi e'lon*); 3) anons (*oldindan chiqarilgan e'lon*); 4) chirmashadigan o'simlik
train I [treɪn] *v* tarbiyalamoq, o'qitmoq; o'rgatmoq, mashq qildirmoq
train II [treɪn] *n* poyezd; **by ~** poyezd bilan
trained [treɪnd] *a* ta'lim olgan, o'qigan, o'rgangan
trainee [treɪ'ni:] *n* tajriba muddatini o'tayotgan kishi, o'qiyotganlar, mashg'ulot ishtirokchilari
trainer ['treɪnə] *n* murabbiy, mashq qildiruvchi mutaxassis
training ['treɪnɪŋ] *n* 1) ta'lim, mashq; trening-mashg'ulot; 2) o'rgatish, o'qitish
train-oil [ˌtreɪn 'ɔɪl] *n* vorvan (*dengiz hayvonlarining eritilgan moyi*)
trait [treɪ(t)] *n* 1) o'ziga xos xususiyat; 2) chiziq, ingichka chiziq
traitor ['treɪtə] *n* sotqin, xoin, xiyonatchi
trajectory [trə'dʒekt(ə)rɪ] *n* trayektoriya (*1. biror jism yoki nuqtaning harakat yo'li; 2. harb. otilgan o'q yoki snaryadning yoysimon harakati*)
tram [træm] *n* tramvay; **by ~** tramvay bilan
trammel ['træm(ə)l] *n* xalal, xalaqit, to'siq, to'sqinlik
tramp [træmp] *n* daydi, darbadar
trample ['træmp(ə)l] *n* o'tni (ko'katni) bosmoq (ezmoq)
trampoline ['træmpəli:n] *n sport.* 1) trampolin (*sakrashda balandroq ko'tarilishga yordam beradigan moslama*); 2) batut (*sakratadigan sim yoki kapron to'r*)
tramway ['træmweɪ] *n* tramvay; tramvay yo'li
trance [trɑ:ns] *n tib.* trans (*gipnoz, jazava va zo'r xursandchilik vaqtida asablarning juda qo'zg'alib ketishi, miyaning karaxt bo'lishi, hushdan ketish*)
tranquil ['træŋkwɪl] *a* tinch, jimjit, sokin
tranquility [træŋ'kwɪlɪtɪ] *n* tinchlik, jimjitlik, sokinlik, sukunat
trans- [træns-] *qo'shma so'zlarning birinchi qismi*: 1) biror masofa orqali qatnash; **transatlantic** Atlantika okeani orqali qatnaydigan; 2) biror narsaning chegarasidan tashqaridagi; *masalan,* **transalpine** Alp tog'larining narigi yog'ida
transact [træn'zækt] *v* 1) (*ish*) olib bormoq; 2) (*bitim*) tuzmoq
transaction [tran'zækʃ(ə)n] *n* 1) ish, yumush, xizmat; mashg'ulot; 2) bitim, kelishuv
transatlantic [ˌtrænzət'læntɪk] *a* Atlantika okeani orqali qatnaydigan; Atlantika okeaniga oid
transcend [træn'send] *v* oshmoq, oshirib yubormoq, chegaradan chiqmoq
transcontinental [ˌtrænzkɒntɪ'nentl] *a* transkontinental, kontinentlar orasidagi aloqaga (qatnovga) oid
transcribe [træn'skraɪb] *v* 1) qaytadan yozib chiqmoq, ko'chirmoq; 2) *fon.* transkripsiya yozmoq; 3) *mus.* aranjirovka qilmoq, moslashtirmoq
transcript ['trænskrɪpt] *n* 1) nusxa, ko'chirma; 2) rasshifrovka qilish, nimaligini aytib berish

transcription [træn´skrıpʃ(ə)n] *n* 1) ko'chirib yozish, nusxa ko'chirish; 2) transkripsiya; 3) *mus.* aranjirovka
transfer [´trænsfə:] *v* (*boshqa joyga*) ko'chirmoq, o'tkazmoq
transfigure [træns´fıgə] *v* shaklini (ko'rinishini) o'zgartirmoq, boshqa shaklga (ko'rinishga) o'tkazmoq, boshqa shakl (ko'rinish) bermoq, turlamoq
transform [træns´fɔ:m] *v* o'zgartirmoq, aylantirmoq
transformation [ˌtrænsfə´meıʃ(ə)n] *n* o'zgartirish, qayta tuzish
transformer [træns´fɔ:mə] *n* 1) o'zgartiruvchi, qayta quruvchi; 2) *tex., fiz.* o'zgartirgich, o'zgartgich
transfuse [træns´fju:z] *v* 1) quymoq, birinchisidan ikkinchisiga quymoq; 2) (*qon*) olib quymoq
transfusion [træns´fju:ʒ(ə)n] *n* (*qon*) quyish, olib quyish, bir joydan ikkinchi joyga olib quyish
transgress [trænz´gres] *v* 1) chetga chiqmoq, buzmoq (*qonun va b. haqida*); 2) (*odob doirasining*) chegarasidan chiqmoq; 3) gunoh qilmoq
transient [´trænzıənt] *a* o'tkinchi, vaqtincha, omonat
transistor [træn´zıstə] *n* (~ **radio**) ko'tarib yurishga qulay (ixcham) radiopriyomnik
transit [´trænsıt] *n* 1) (*transportda*) o'tish, o'tib ketish, yo'l yurish; 2) (*qisqa muddatli*) safar yoki sayohat, sayr; 3) tranzit
transition [træn´zıʃ(ə)n] *n* o'tish; **a ~ period** o'tish davri
transitional [træn´zıʃ(ə)nəl] *a* (*o'tish*) ko'chishga oid
transitive [´trænsıtıv] *a gram.* o'timli; **a ~ verb** o'timli fe'l
transitory [´trænsıt(ə)rı] *a* qo'nmay uchib o'tuvchi, o'tkinchi; bir lahzali, bir onli
translate [træns´leıt] *v* tarjima qilmoq; **to ~ from** ...dan tarjima qilmoq; **to ~ into** ...ga tarjima qilmoq
translation [træns´leıʃ(ə)n] *n* tarjima, tarjima qilish
translator [træns´leıtə] *n* (*yozma*) tarjimon
translucent [træns´lu:s(ə)nt] *a* yarim tiniq, yarim shaffof (*nariyog'idagi narsalar aniq ko'rinmaydigan*)
transmission [trænz´mıʃ(ə)n] *n* 1) uzatish, berish; 2) radio, televizor orqali beriladigan eshittirish *yoki* ko'rsatuv; 3) *tex.* uzatkich (*harakatni mashinaning bir qismidan boshqa qismiga o'tkazuvchi mexanizm*)
transmit [trænz´mıt] *v* 1) topshirmoq, bermoq, uzatmoq, uzatib yubormoq, olib bormoq; 2) harakatni (boshqaga) uzatib turmoq, boshqasini harakatga keltirmoq (*mexanizmlar haqida*)
transmitter [trænz´mıtə] *n radio.* to'lqin uzatuvchi moslama
transmute [trænz´mju:t] *v* boshqa narsaga aylantirmoq, o'zgartirmoq
transom [´træns(ə)m] *n* 1) parda osish uchun romning ust qismiga o'rnatilgan karniz; 2) ko'ndalang qo'yilgan to'sin
transparency [træn´spærənsı] *n* tiniqlik, shaffoflik
transparent [træn´spærənt] *a* tiniq, shaffof
transpire [træn´spaıə] *v* bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq
transplant [trænˊsplɑ:nt] *v* 1) ko'chat qilmoq, ko'chirib boshqa joyga o'tqazmoq (*daraxt va b. haqida*); 2) ko'chirib boshqa joyga joylashtirmoq; 3) *jarg.* (*organizmdan bir qismini*) kesib olib boshqa joyga ulamoq
transport 1. *n* [´trænspɔ:t] transport; 2. *v* [træn´spɔ:t] *v* tashimoq; ko'chirmoq (*boshqa joyga*)
transportation [ˌtrænspɔ:´teıʃ(ə)n] *n* tashish
transpose [træns´pəʊz] *v* aralashtirmoq, qorishtirmoq; qo'shib yubormoq
transversal [trænz´və:s(ə)l] *a* ko'ndalang, ko'ndalangiga (eniga) tushgan, ko'ndalang qo'yilgan
transverse [trænz´və:s] *a* ko'ndalang, ko'ndalangiga (eniga) tushgan, ko'ndalang qo'yilgan; **a ~ section** ko'ndalang kesim
trap [træp] 1. *n* qopqon, tuzoq; 2. *v* 1) qopqon (tuzoq) qo'ymoq; 2) tuzoqqa tushirmoq
trapdoor [´træpdɔ:] *n* qopqoqli tuynuk, teshik
trapeze [trə´pi:z] *n mat.* trapetsiya (*ikkita parallel tomoni bo'lgan to'rtburchak*)
trappings [´træpıŋz] *n pl* egar-jabduq, ot abzali
trash [træʃ] *n* 1) eski-tuski, lash-lush; tashlandiq, chiqindi, axlat; 2) *so'zl.* palapartish (naridan-beri) yozilgan badiiy asar; (*badiiy va g'oyaviy jihatdan*) xom (g'o'r) asar; bema'ni (bo'lmag'ur) asarlar
trauma [´trɔ:mə] *n tib.* shikastlanish, jarohatlanish; yara, jarohat, mayiblik
travel [´træv(ə)l] 1. *n* sayohat, safar; 2. *v* sayohat qilmoq; **to ~ around the country** mamlakat bo'ylab sayohat qilmoq
traveller [´træv(ə)lə] *n* sayohatchi, sayyoh
traverse [´trævə:s] *n* ko'ndalang to'sin, ko'ndalang o'tkazilgan (qo'yilgan) narsa
travesty [´trævıstı] *n* parodiya (*hazil yoki hajviy tarzda boshqa asarga taqlid qilib yozilgan asar*)
trawl [trɔ:l] *n* tral (*kemalardan turib baliq tutadigan katta qopsimon to'r*)
tray [treı] *n* patnis, barkash
treacherous [´treʧ(ə)rəs] *a* xiyonatkorona, xoinlik bilan qilingan
treachery [´treʧ(ə)rı] *n* sotqinlik, xoinlik
treacle [´tri:k(ə)l] *n* 1) quyuq shinni, qiyom; 2) tilyog'lamalik
tread [tred] 1. *n* qadam; qadam tashlash, yurish; 2. *v* (**trod; trodden**) yurmoq, qadam tashlamoq (qo'ymoq)
treadle [´tredl] *n* 1) pedal, tepki (*velosipedda*); 2) *tex.* oyoq bilan harakatni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan mexanizm
treason [´tri:z(ə)n] *n* xoinlik, xiyonat qilish
treasure [´treʒə] *n* qimmatbaho narsa, boylik; **buried ~** xazina
treasurer [´treʒ(ə)rə] *n* g'aznachi
treasury [´trəʒ(ə)rı] *n* 1) xazina, g'azna; 2) davlatga qarashli mol-mulk (mablag', xazina)
treat [tri:t] 1. *n* ko'ngil ochish; ziyofat; mehmondorchilik; 2. *v* 1) muomala qilmoq; 2) ishlov bermoq, tayyorlamoq; 3) talqin qilmoq, izohlamoq; sharhlamoq; 5) mehmon qilmoq, ziyofat qilmoq; 2) davolamoq, davolanmoq
treatise [´tri:tız] *n* traktat (*biror muammoga bag'ishlangan ilmiy asar*)
treatment [´tri:tmənt] *n* 1) davolash; 2) muomala qilish
treaty [´tri:tı] *n* shartnoma, bitim
treble [´treb(ə)l] *a* 1) uch marta katta, uch hissa ko'p; 2) *mus.* ingichka ovoz uchun belgilangan (yozilgan)
tree [tri:] *n* daraxt
trefoil [´trefɔıl] *n* beda, yo'ng'ichqa
trek [trek] *n* sayohat
trellis [´trelıs] *n* panjara
tremble [´tremb(ə)l] *v* titramoq, qaltiramoq, tebranmoq; **to ~ with** ...dan titramoq (qaltiramoq)
tremendous [trı´mendəs] *a* 1) qo'rqinchli, dahshatli; 2) *so'zl.* g'oyat katta, ulkan, buyuk
tremendously [trı´mendəslı] *a* qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, bahaybat, mudhish
tremor [´tremə] *n* 1) titroq, qaltiroq, titrash, qaltirash; 2) tebranish, titrash, larzaga kelish (keltirish)
tremulous [´tremjuləs] *a* jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqoq; tortinchoq
trench [trenʧ] 1. *n* o'ra, chuqur, xandaq, zovur; 2. *v* chuqur qazimoq

trend [trend] *n* 1) yo'nalish; 2) mayl, rag'bat, moyillik, intilish; 3) moda, fason, uslub

trendy ['trendɪ] *a* keng tarqalgan, hammaga rasm bo'lgan

trepidation [ˌtrepɪ'deɪʃ(ə)n] *n* 1) titrash, qaltirash, titroq, qaltiroq; 2) bezovtalik

trespass ['trespəs] **1.** *v* 1) suiiste'mol qilmoq, o'z manfaati uchun foydalanmoq; 2) *yur.* zarar yetkazmoq; zarba bermoq; **2.** *n* 1) suiiste'mol qilish; 2) buzish; 3) *din.* gunohkor, gunohli; osiy

tress [tres] *n* kokil, soch o'rimi

trestle ['tres(ə)l] *n* estakada (*yo'l tepasiga qurilgan ko'prik; osmako'prik*)

trial ['traɪəl] *n* 1) sinash, sinov, ko'rik; 2) *yur.* sud jarayoni

trial-trip [ˌtraɪəl'trɪp] *n* 1) sinash uchun bajarilgan suzish; 2) *ko'ch.* tajriba

triangle ['traɪæŋg(ə)l] *n* uchburchak, uchburchaklik

triangular [traɪ'æŋgjələ] *a* uch burchakli, uchburchak qilib yasalgan

tribe [traɪb] *n* urug', qabila

tribunal [traɪ'bju:n(ə)l] *n* sud

tribune ['trɪbju:n] *n* minbar

tributary ['trɪbjʊt(ə)rɪ] *n tar.* o'lpon (soliq) to'lovchi

tribute ['trɪbju:t] *n tar.* soliq, o'lpon, to'lov

trice I [traɪs] *n* ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt, payt, lahza; **in a ~** ko'z ochib yumguncha

trice II [traɪs] *v deng.* qattiqroq tortib bog'lamoq

trick [trɪk] *n* hiyla, ayyorlik, aldash

trickery ['trɪk(ə)rɪ] *n* aldamchilik, firibgarlik

trickle ['trɪk(ə)l] *n* tizillab otilayotgan (oqayotgan) suyuqlik

tricky ['trɪkɪ] *a* ayyor, mug'ambir; firibgar, hiylagar, makkor

tricolour ['traɪˌkʌlə] **1.** *n* uch rangli bayroq; **2.** *a* uch (xil) rangli

tricycle ['traɪsɪk(ə)l] *n* uch g'ildirakli velosiped

triennial [traɪ'enɪəl] *a* voqea, hodisa

trifle ['traɪf(ə)l] *n* arzimagan (ahamiyatsiz) gap *yoki* voqea

trig I [trɪg] *a* ozoda, toza, pokiza, saranjom-sarishta

trig II [trɪg] *v* ponalamoq, pona qoqib mahkamlamoq

trigger ['trɪgə] *n harb.* tepki (*otish qurollarida*)

trigonometry [ˌtrɪgə 'nɒmɪtrɪ] *n mat.* trigonometriya (*matematikaning uchburchak tomonlari va burchaklari o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limi*)

trill [trɪl] *n mus.* ovozning titrab (tovlanib, churullab yoki jaranglab) chiqishi

trillion ['trɪljən] *n num. card.* trillion (*ming milliard*)

trilogy ['trɪlədʒɪ] *n* trilogiya (*mazmunan bir-biriga bog'langan uchta mustaqil asar*)

trim [trɪm] **1.** *n* 1) tartib; 2) bezak; **2.** *a* 1) tartibli; 2) ziynatli; **2.** *v* 1) tartibga keltirmoq; 2) bezamoq

trinket ['trɪŋkɪt] *n* 1) mayda-chuyda bezak, buyum; 2) arzimagan (ahamiyatsiz) gap *yoki* voqea

trio ['trɪ:əʊ] *n mus.* trio (*uch kishi ijrosidagi musiqa asari*)

trip [trɪp] **1.** *n* safar, sayohat; **2.** *v* 1) safar qilmoq, sayohat qilmoq; 2) chalinmoq, qoqilmoq

tripartite ['traɪ'pɑ:taɪt] *a* uch davlat o'rtasidagi; uch davlatdan iborat bo'lgan, uch tomonlama, uchta ish ishtirokchisi

tripe [traɪp] *n* 1) qorin (*qorindan tayyorlangan ovqat*); 2) hech narsaga arzimaydigan narsa (*yoki* odam)

triplet ['trɪplɪt] *n* 1) uchlik (*uchta kishi yoki uchta predmet*); 2) uchtali *yoki* uch egizakdan biri; 3) *pl* uchtali egizak

tripod ['traɪpɒd] *n* 1) uch oyoq (*ustiga biror narsa o'rnatish uchun uchta oyog'i bo'lgan asbob*); 2) uch oyoqli stolcha *yoki* uch oyoqli kursi

tripper ['trɪpə] *n* ekskursiyachi, turist, sayyoh

trite [traɪt] *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan; oddiy

triumph ['traɪəmf] *n* zafar, tantana, g'alaba

triumphant [traɪ'ʌmf(ə)nt] *a* g'olibona, g'alabaga olib boruvchi; g'olib, zafarli

trivet ['trɪvɪt] *n* uch oyoq, uch oyoqli temir o'choq

trivial ['trɪvɪəl] *a* ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan; bemaza, bema'ni

trod [trɒd] *past. of* **tread 2**

trodden ['trɒdn] *p. p. of* **tread 2**

trolley ['trɒlɪ] *n* 1) ovqat tashish uchun mo'ljallangan g'ildirakli kichkina stul; 2) aravacha; 3) *amer.* tramvay; 4) vagoncha

trolley-bus ['trɒlɪbʌs] *n* trolleybus

trombone [trɒm'bəʊn] *n* trombon (*puflab chalinadigan musiqa asbobi*)

troop [tru:p] *n* qo'shin; lashkar; **~s** qo'shinlar

trophy ['trəʊfɪ] *n* o'lja; qo'lga kiritilgan narsa

tropic ['trɒpɪk] *n* tropik; **the ~s** tropikdagi issiq joylar

tropical ['trɒpɪk(ə)l] *a* tropikka oid, tropik...; issiq

trot [trɒt] *n* yo'rtish, yo'rtib chopish, yelish

trouble ['trʌb(ə)l] **1.** *n* notinchlik, bezovtalik, tashvish, qayg'u, alam; **2.** *v* tinchsizlantirmoq, bezovta qilmoq, tashvishga solmoq; **~some** sertashvish; notinch

troubled ['trʌb(ə)ld] *a* tashvishli, xavotirli, betinch, notinch

troublemaker ['trʌb(ə)lˌmeɪkə] *n* buzg'unchi, g'alamis, fitnachi; janjalkash kishi

troubleshoot ['trʌb(ə)lˌʃu:t] *v* 1) mojaroni (janjalni, muammoni) bartaraf qilish maqsadida har tomonlama tekshirib chiqmoq; 2) bartaraf (bir yoqlama, hal) qilmoq

troubleshooter ['trʌb(ə)lˌʃu:tə] *n* 1) avariya montyori; 2) muammo, janjal, mojarolarni bartaraf qiluvchi maxsus vakil

trough [trɒf] *n* tog'ora; xamir tog'ora

trounce [traʊns] *v* urmoq, tushirmoq, savalamoq, kaltaklamoq, do'pposlamoq

troupe [tru:p] *n fr.* truppa (*teatr yoki sirk ijodiy jamoasi*)

trousers ['traʊzəz] *n pl* shim

trousseau ['tru:səʊ] *n fr.* (*pl* **-s** [-z], **-x**) 1) sep, sep-sidirg'a; 2) chaqaloqbop kiyim-kechak

trout [traʊt] *n zool.* gulmohi (*lasoslar oilasiga mansub baliqlar*)

trowel ['traʊəl] *n* belcha (*suvoqchi belcha*), kurakcha

truancy ['tru:ənsɪ] *n* darslarni sababsiz qoldirish

truant ['tru:ənt] **1.** *n* progulchi (*o'qishga sababsiz kelmay qolgan o'quvchi*); **to play ~** o'qishga bormay *yoki* kelmay qolmoq; **2.** *a* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas; **3.** *v* darsga bormay (*yoki* kelmay) qolmoq

truce [tru:s] *n* yarash, vaqtinchalik sulh

truck [trʌk] *n* yuk avtomobili

trucker I ['trʌkə] *n amer.* sabzavotkor (sabzavotchi) fermer

trucker II ['trʌkə] *n* yuk mashinasining haydovchisi

truculent ['trʌkjʊlənt] *a* yovuz, yirtqich, vahshiy; g'azabi avj olgan, yovuzlashgan

trudge [trʌdʒ] **1.** *n* 1) uzoq va mashaqqatli yo'l; 2) charchatadigan sayr; **2.** *v* sudralib yurmoq, zo'rg'a qadam tashlab bormoq

true [tru:] *a* 1) sodiq, sadoqatli; 2) asl, chin, haqiqiy, to'g'ri; **~ly** to'g'ri; rost

truly ['tru:lɪ] *adv* haqiqatan, chindan ham; to'g'ri, rost

trump I [trʌmp] *n* kuzir (*qarta o'yinida*); **to play a ~** kuzirni yurmoq

trump II [trʌmp] *n* xristianlar aqidasiga ko'ra, qiyomat kuni Isrofil (farish-

ta)ning sur chalish ovozi (*bu ovoz bilan go'yo hamma tiriladi*)
trump-card ['trʌmpkɑ:d] *n* kuzir (*qarta o'yinida*)
trumped-up [ˌtrʌmpt'ʌp] **1.** *a* soxta, uydirma aybnoma; **2.** *v* o'ylab chiqarmoq, ixtiro qilmoq
trumpery ['trʌmp(ə)rɪ] *n* qalbaki narsa, hech narsaga arzimaydigan narsa
trumpet ['trʌmpɪt] *n* karnay
truncheon ['trʌntʃən] *n* 1) aso, hassa; 2) yo'g'on tayoq, to'qmoq
trundle ['trʌndl] *n* g'ildirakcha, kichkina g'ildirak
trunk [trʌŋk] *n* 1) daraxtning tanasi; 2) gavda; 3) xartum; 4) chamadon
trunk-call ['trʌŋkkɔ:l] *n* xalqaro telefon orqali chaqirish
truss [trʌs] *n* bog'lam; bog', dasta; o'ram
trust [trʌst] **1.** *n* ishonch, e'tiqod; **2.** *v* ishonmoq
trustee [trʌ'sti:] *n* vasiy, homiy
trusteeship [trʌ'sti:ʃɪp] *n* vasiylik, homiylik
trusting ['trʌstɪŋ] *a* sodda, ishonuvchan
trustworthy ['trʌstˌwɜ:ðɪ] *a* ishonchli, ishonarli, ishonsa bo'ladigan
truth [tru:θ] *n* 1) haqiqat; 2) adolat
truthful ['tru:θf(ə)l] *a* haqiqatgo'y (rostgo'y) odam
try [traɪ] **1.** *n* sinash, urinish; **2.** *v* 1) sinab ko'rmoq; **to ~ out** sinab ko'rmoq; 2) urinib ko'rmoq; harakat qilib ko'rmoq; **to ~ on** kiyib ko'rmoq
trying ['traɪɪŋ] *a* qiyin, og'ir, charchatadigan, holdan toydiradigan
tsar [zɑ:] *n* chor; **~dom** chorizm
T-shirt ['ti:ʃɜ:t] *n* tenniska (*qisqa yengli, yengil trikotaj ko'ylak*)
tub [tʌb] *n* tog'ora
tuba ['tju:bə] *n mus.* tuba (*bir qancha egri trubalardan tuzilgan, puflab chalinadigan musiqa asbobi*)
tube [tju:b] *n* quvur
tuberculosis [tjuˌbɜ:kjʊ'ləʊsɪs] *n* sil, sil kasali
tubing ['tju:bɪŋ] *n tex.* 1) quvurlar; 2) tubing (*shaxta, tunnellar qurilishida suv o'tkazmaydigan silindrik to'siqlar yig'ishda ishlatiladigan metall yoki temir-beton plita*)
tuck [tʌk] *n* tax, qat, burma (*ko'ylakda*)
Tuesday ['tju:zdɪ] *n* seshanba
tuft [tʌft] *n* bog', bog'lam, tutam
tug [tʌg] *v* 1) sudramoq; 2) silkitib tortmoq
tuition [tju:'ɪʃ(ə)n] *n* o'qitish, o'rgatish, ta'lim berish; **~ fee** o'qish haqi
tulip ['tju:lɪp] *n bot.* lola
tumble ['tʌmb(ə)l] *v* yiqilmoq, qulamoq, yiqilib tushmoq
tumbler ['tʌmblə] *n* 1) akrobat (*murakkab mashqlarni bajaruvchi gimnastikachi yoki sirk artisti*); 2) o'ynoqi kaptar
tumid ['tju:mɪd] *a* dabdabali; bejama, balandparvoz
tummy ['tʌmɪ] *n so'zl.* qorincha, me'da, oshqozon
tumour ['tju:mə] *n* shish, g'urra
tumult ['tju:mʌlt] *n* yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon
tumultuous [tju:'mʌltjʊəs] *a* 1) tartibsiz, betartib; 2) asablari qo'zg'algan, hayajonli; asabiy
tuna ['tju:nə] *n* tunes (*okunlar oilasiga mansub yirik yirtqich baliq*)
tundra ['tʌndrə] *n* tundra
tune [tju:n] **1.** *n* ohang; kuy; **2.** *v* sozlamoq; **~ful** ohangdor
tuneless ['tju:nləs] *a* tovushsiz, ovozsiz, past ovozli
tuner ['tju:nə] *n* 1) sozlovchi mutaxassis; 2) sozlovchi mexanizm, sozlash qurilmasi
tungsten ['tʌŋstən] *n kim.* volfram (*kimyoviy element*)
tunic ['tju:nɪk] *n* 1) bluzka (*yengil matodan tikilgan kofta*) *yoki* jaket (*ayollar kiyimi*); 2) *biol.* parda, qobiq
tunnel ['tʌnl] **1.** *n* tunnel; yerosti yo'li; **2.** *v* yerosti yo'li qurmoq
turban ['tɜ:bən] *n* salla
turbid ['tɜ:bɪd] *a* xira, bulut (tuman) bosgan
turbine ['tɜ:baɪn] *n* turbina (*suv, bug', gaz kuchi bilan ishlaydigan dvigatel*)
turbulence ['tɜ:bjʊləns] *n* qattiq jazava, hayajon, g'azab; jahl
turbulent ['tɜ:bjʊlənt] *a* 1) bo'ronli, dovulli; bo'ron aralash; 2) fe'li tez, to'poloncha
tureen [tjʊ'ri:n] *n* sho'rva idish, suyuq osh suzadigan kosa, tovoq
turf [tɜ:f] **1.** *n* chimzor; **2.** *v* chim bosmoq (bostirmoq)
turgid ['tɜ:dʒɪd] *a* 1) shishgan, shishib ketgan; 2) gerdaygan, manman
Turk [tɜ:k] *n* turk; turk ayol
turkey ['tɜ:kɪ] *n zool.* kurka
Turkish ['tɜ:kɪʃ] **1.** *a* turklarga va Turkiyaga oid; **2.** *n* turk tili
Turkmen ['tɜ:kmən] *n* 1) turkman; 2) turkman tili
Turkoman ['tɜ:kəmən] *n* (*pl* **-s** [-z]) 1) turkiy xalqlar; 2) turkmanlar, turkman xalqi
turmoil ['tɜ:mɔɪl] *n* shovqin, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur, shov-shuv, to'polon
turn [tɜ:n] **1.** *n* 1) burilish, aylanish; 2) navbat; gal; 3) o'zgarish (*holat haqida*); **2.** *v* 1) aylantirmoq; buramoq, qayirmoq; 2) burilmoq, qayrilmoq, o'girilmoq; 3) ag'darmoq, to'ntarmoq; 4) bo'lmoq, bo'lib qolmoq; **to ~ into** ...ga o'zgar(tir)moq; ...ga aylanmoq; **to ~ off** o'chirmoq (*chiroq va b. haqida*); **to ~ on** yoqmoq (*chiroq va b. haqida*); **to ~ back** iziga qaytmoq; **to ~ down** rad etmoq
turner ['tɜ:nə] *n* 1) chilangar; 2) *amer.* gimnastikachi
turncoat ['tɜ:nkəʊt] *n* xoin, murtad (*o'z maslagidan qaytgan odam*)
turning ['tɜ:nɪŋ] **1.** *n* 1) (*yo'lning*) qayrilishi, muyulishi; 2) aylanish, burilish; 3) gimnastika; **2.** *a* 1) chilangarlikka oid; 2) aylanadigan, buriladigan
turning-point ['tɜ:nɪŋpɔɪnt] *n* 1) burilish nuqtasi; hal qiluvchi (eng muhim) payt; 2) inqiroz, burilish, o'zgarish; kritik nuqta
turnip ['tɜ:nɪp] *n bot.* sholg'om
turn-out ['tɜ:naʊt] *n* 1) majlis, yig'ilish; 2) bir joyga yig'ilgan kishilar, tomoshabinlar, tinglovchilar
turpentine ['tɜ:p(ə)ntaɪn] *n* skipidar (*o'tkir hidli suyuq modda*)
turpitude ['tɜ:pɪtju:d] *n* pastkashlik, tubanlik, razillik, vijdonsizlik, razillik, qabihlik
turquoise ['tɜ:kwɔ:z] *n* 1) *min.* feruza (*fosfatlar sinfiga mansub mineral*); 2) moviy, ko'k-yashil rang
turret ['tʌrɪt] *n* kichkina minora, minoracha
turtle ['tɜ:tl] *n zool.* toshbaqa; **~-dove** *zool.* yovvoyi kaptar
tusk [tʌsk] *n anat.* qoziqtish, so'yloqtish
tussle ['tʌs(ə)l] *n* kurash, jang, olishuv
tut [tʌt] **1.** *int.* 1) eh, seni qara-yu! (*achinish va nafratni ifodalaydi*); 2) ay-ay-ay, e-e-e (*norozilik, nafrat kabi ma'no va his-tuyg'ularni ifodalaydi*)
tutor ['tju:tə] *n* ustoz, tarbiyachi, o'qituvchi
tutorial [tju:'tɔ:rɪəl] *a* 1) konsultatsiya; 2) o'quv qo'llanmasi
tutorship ['tju:təʃɪp] *n* 1) ustozlik, o'qituvchilik, murabbiylik; 2) o'qituvchi (murabbiy)ning majburiyatlari; 3) vasiylik, vasiy bo'lgan kishining vazifasi
tuxedo [tʌk'si:dəʊ] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əʊz]) *amer.* smoking (*qora movutdan qilingan, qaytarma shoyi yoqali kastum*)
TV [ˌti:'vi:] „**television**" *so'zining qisqartmasi*
twaddle ['twɒdl] *v* quruq mahmadonagarchilik qilmoq, safsata sotmoq, quruq gap bilan vaqt o'tkazmoq, valdiramoq

twang [twæŋ] *v mus.* ovoz (tovush) chiqarmoq, sadolanmoq, jaranglamoq (*tor haqida*)
tweak [twi:k] **1.** *n* chimchilash, chimchilab olish; **2.** *v* chimchilamoq, chimdilamoq; o'ymalamoq
tweet [twi:t] *n* qushlarning sayrashi
tweezers [ˈtwi:zəz] *n pl* qisqich, iskak; mo'ychinak
twelfth [twelfθ] *num. ord.* o'n ikkinchi
twelve [twelv] *num. card.* o'n ikki
twentieth [ˈtwentɪɪθ] *num. ord.* yigirmanchi
twenty [ˈwentɪ] *num. card.* yigirma
twice [twaɪs] *adv* 1) ikki marta; 2) ikki baravar
twiddle [ˈtwɪdl] *v* aylantirmoq, buramoq, g'ildiratmoq, pirillatmoq
twig [twɪg] *n* shoxcha, novda, cho'p, cho'pcha, butoq
twilight [ˈtwaɪlaɪt] *n* oqshom
twin [twɪn] *n pl* 1) egiz, egizak (*egiz bolalardan biri*); 2) *astr.* Javzo (*o'n ikki burjdan biri*)
twine [twaɪn] **1.** *n* ingichka arqon, chilvir; **2.** *v* to'qimoq, o'rmoq, eshmoq
twinge [twɪndʒ] *n* kasallikning xuruj qilishi (tutib qolishi); **a ~ of toothache** qattiq tish og'rig'i; **~s of conscience** vijdon azobi
twinkle [ˈtwɪŋk(ə)l] *v* charaqlamoq, miltiramoq
twins [twɪnz] *n* egiz, egizak
twirl [twɜ:l] *v* buramoq, aylantirmoq
twirp [twɜ:p] *n* surbet (yuzsiz, beadab) odam, qo'rs (qo'pol muomalali) odam
twist I [twɪst] *v* 1) o'rmoq, eshmoq; 2) buramoq; 3) chirmashmoq, o'ralmoq
twist II [twɪst] *n* bukish, egish; bukilish, egilish
twit [twɪt] *n so'zl.* ta'na, ta'na qilish, yuziga solish
twitch [twɪtʃ] *v* 1) siltamoq, siltab tortmoq; 2) qaltiramoq, titramoq, silkinmoq
twitter [ˈtwɪtə] **1.** *n* (*qaldirg'och, sa'va kabi*) qushlarning sayrashi, chug'urchug'ur, vijir-vijir, chiyov-chiyov va h. k.; **2.** *v* chug'urlamoq, chug'ur-chug'ur sayramoq
two [tu:] *num. card.* ikki
twofold [ˈtu:fəʊld] *a* ikki marta, ikki baravar
two-party [ˌtu:ˈpɑ:tɪ] *n* ikki partiyali tuzum
tycoon [taɪˈku:n] *n so'zl. amer.* moliya magnati (*magnat – yirik feodal yoki kapitalist*)
tying [ˈtaɪɪŋ] *n* bog'lash, tugish
type I [taɪp] *n* tip; xil; tur, nusxa, toifa, jins
type II [taɪp] *v* mashinkada yozmoq
type-setter [ˈtaɪpˌsetə] *n* harf teruvchi
typewriter [ˈtaɪpˌraɪtə] *n* yozuv mashinkasi
typhoid [ˈtaɪfɔɪd] *n tib.* ich terlama
typhoon [taɪˈfu:n] *n* kuchli to'fon
typhus [ˈtaɪfəs] *n tib.* tepkili terlama, toshmali tif
typical [ˈtɪpɪk(ə)l] *a* tipik, o'ziga xos, xarakterli
typify [ˈtɪpɪfaɪ] *v* 1) timsoli (namunasi, obrazi) bo'lmoq; 2) biror narsani o'zida (gavdalantirmoq) mujassamlantirmoq
typist [ˈtaɪpɪst] *n* yozuv mashinasida ishlovchi ayol
tyrannize [ˈtɪrənaɪz] *v* zulm qilmoq, azoblamoq, qiynamoq
tyranny [ˈtɪrənɪ] *n* zolimlik, zulm
tyrant [ˈtaɪ(ə)rənt] *n* zolim, qonxo'r
tyre [ˈtaɪə] *n* shina, balon
tyro [ˈtaɪ(ə)rəʊ] *n* biror sohadagi yangi (yosh, tajribasiz) odam
tzar [zɑ:] *n* podsho, shoh

U

U, u [ju:] *n* ingliz alifbosining yigirma birinchi harfi
ubiety [juˈbaɪətɪ] *n* turgan joyi, o'rni
ubiquitous [ju:ˈbɪkwɪtəs] *a* hamma joyda (har yerda, har yoqda) hozir, hech joydan qolmaydigan
ubiquity [juˈbɪkwɪtɪ] *n* har yerda hozirlik; har yerda bo'ladigan (uchraydigan)lik; har yerda hozir-nozirlik
udder [ˈʌdə] *n* yelin, emchak
udenominational [ˌʌndɪnɒmɪˈneɪʃ(ə)nəl] *a* birorta dinga ham daxldor bo'lmagan
udometer [juˈdɒmɪtə] *n meteor.* yomg'ir o'lchagich
UFO [ˈju:fəʊ, ˌju:efˈəʊ] *n* („**Unindentified flying object**"*ning qisqartmasi*) noma'lum uchar jism, NUJ
ugh [ʊkh, ɜ:, ʌg] *int.* tuf! tuf! tuf-a! ax! eh! (*qattiq norozilik, nafratlanish ma'nosida*)
uglify [ˈʌglɪfaɪ] *v* xusnini buzmoq, xunuk (*ko'rimsiz*) qilmoq
ugliness [ˈʌglɪnəs] *n* 1) badbasharalik, xunuklik; 2) yomonlik, yaramaslik, jirkanch
ugly [ˈʌglɪ] *a* 1) badbashara, xunuk; 2) yomon, ko'ngilsiz
uhlan [ˈ(j)u:lən] *n tar.* ulan (*inqilobdan oldingi Rossiya va ba'zi chet el armiyalarida yengil kavaleriya*)
ukase [ju:ˈkeɪz] *n rus.* farmon (*hokimiyat oliy organining qonun kuchiga ega bo'lgan qarori*)
Ukrainian [ju:ˈkreɪnɪən] **1.** *a* Ukrain va ukrainlarga oid; ukraincha; **2.** *n* 1) ukrainalik, ukrain kishi; ukrain ayol; 2) ukrain tili
ukulele [ˌju:kəˈleɪlɪ] *n* Gavaya gitarasi
ulcer [ˈʌlsə] *n tib.* 1) yara; 2) kuydirgi; yarali kasallik, jarohat
ulcerate [ˈʌlsəreɪt] *v* 1) yara qilib yubormoq, yara-chaqa bostirmoq; 2) buzmoq, yomonlashtirmoq, aynitmoq
ulcered, ulcerous [ˈʌlsəd, ˈʌls(ə)rəs] *a* yaraga oid, yarali, yara (chaqa) bosgan
uliginose, uliginous [juˈlɪdʒɪnəs] *a* serloyqa, serbalchiq, balchiqli, botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, botqoqlardan iborat bo'lgan, serbotqoq
ullage [ˈʌlɪdʒ] *n* oqib (sirqib) chiqib ketish, to'kilib kamayish
ulna [ˈʌlnə] *n* (*pl* **-nae** [-ni:]) *anat.* tirsak suyagi
ulnae [ˈʌlni:] *pl of* **ulna**
ulster [ˈʌlstə] *n* keng uzun palto (*asosan, belbog'li*)
ulterior [ʌlˈtɪ(ə)rɪə] *a* 1) yashirin, maxfiy, pinhoniy, sirli; **~ object** yashirin maqsad; 2) keyingi, kelgusi
ultima [ˈʌltɪmə] *a lot.* hal qiluvchi, yakunlovchi, oxirgi, so'nggi, qat'iy, uzilkesil; **~ ratio** so'nggi (qat'iy) dalil
ultimate [ˈʌltɪmɪt] *a* 1) eng olis; 2) yakuniy, oxirgi, so'nggi; 3) maksimal, eng ko'p (katta, yuqori); eng yuksak, haddan tashqari; **~ load** haddan tashqari (juda ko'p) yuk; **~ output** maksimal kuch
ultimately [ˈʌltɪmɪtlɪ] *adv* pirovardida, oqibatda, axiri, oxiri
ultimatum [ˌʌltɪˈmeɪtəm] *n* 1) ultimatum, qat'iy talab; 2) *so'zl.* do'q bilan qo'yilgan talab
ultimo [ˈʌltɪməʊ] *adv lot.* o'tgan oyda
ultimogeniture [ˌʌltɪmə(ʊ)ˈdʒenɪtʃə] *n yur.* eng kichik o'g'ilning merosga daxldorligi tizimi (*merosga bo'lgan huquqi*)
ultra [ˈʌltrə] *a* o'ta, haddan tashqari
ultra- [ˈʌltrə-] *pref.* 1) biror narsadan tashqarida joylashgan (bo'lgan); 2) g'oyat, juda ham
ultramarine [ˌʌltrəməˈri:n] *n* ultramarin (*och ko'k bo'yoq*)
ultra-red [ˌʌltrəˈred] *fiz.* infraqizil nurlar
ultrasonic [ˌʌltrəˈsɒnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (*uchadigan*)
ultra-violet [ˌʌltrəˈvaɪəlɪt] *a fiz.* ultrabinafsha; **~ rays** ultrabinafsha nurlar (*spektrda binafsha nurdan keyingi ko'rinmaydigan nur*)
ululate [ˈju:ljʊleɪt] *v* uvlamaq, uvullamoq, uvullab turmoq
umbel [ˈʌmb(ə)l] *n bot.* to'pgul
umbellate [ˈʌmbɪl(e)ɪt] *a bot.* soyabongullilarga oid

umbelliferous [ˌʌmbəˈlɪf(ə)rəs] = **umbellate**

umber [ˈʌmbə] 1. *n* umbra (*jigarrang mineral bo'yoq*); 2. *a* to'q jigarrang; 3. *v* jigarrang mineral bo'yoq bilan bo'yamoq

umbilical [ʌmˈbɪlɪk(ə)l] *a anat.* kindikka oid, kindik...; **an ~ cord** kindik ichakchasi, kesilmagan kindik

umbilicus [ʌmˈbɪlɪkəs] *n* (*pl* **-ici** [-ɪsaɪ]) *anat.* kindik

umbra [ˈʌmbrə] *n* (*pl* **-ae** [-i:]) o'lganning ruhi (arvohi)

umbrage [ˈʌmbrɪdʒ] *n* 1) soya, ko'lanka; 2) nohaq gapdan (ishdan) yetgan ozor, ranj-alam, xafagarchilik; **to take ~** xafa bo'lmoq; **to give ~** xafa qilmoq, ko'nglini ranjitmoq, dilini og'ritmoq

umbrageous [ʌmˈbreɪdʒəs] *a* 1) salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik, terisi yupqa, jizzaki; 2) sersoya, soya-salqin

umbrella [ʌmˈbrelə] *n* soyabon, zontik

umbrella stand [ʌmˈbreləstænd] *n* soyabonning tagiga qo'yiladigan taglik (poya)

umbrella tree [ʌmˈbrelətri:] *n bot.* magnoliya (*yirik xushbo'y gulli doim yashil daraxt yoki buta*)

umiak [ˈu:mɪæk] *n* umiak (*eskimoslarning teridan yasalgan qayig'i*)

umpire [ˈʌmpaɪə] *n* sudya, hakam

umpteen [ʌmpˈti:n] *a so'zl.* ko'p sonli, ko'p kishili; ko'pgina, ancha

umpteenth [ʌmpˈti:nθ] *a* biror, istalgan bir, qandaydir bir; muayyan (ma'lum) bir; faloncha; **for the ~ time** yuz marta, yuzinchi marta, juda ko'p

un- [ʌn-] *pref. fe'lga teskari ma'no beradi*: **to undo** bajargan ishni yo'q qilmoq

unabashed [ˌʌnəˈbæʃt] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz, uyatsiz, benomus

unabated [ˌʌnəˈbeɪtɪd] *a* (*bo'ron va b. haqida*) bo'shashmagan, susaymagan

unabbreviated [ˌʌnəˈbri:vɪeɪtɪd] = **unabridged**

unabiding [ˌʌnəˈbaɪdɪŋ] *a* o'tkinchi, vaqtincha, omonat

unable [ʌnˈeɪb(ə)l] *a* qobiliyatsiz, layoqatsiz, chorasiz, noqobil, qo'lidan kelmaydigan

unabridged [ˌʌnəˈbrɪdʒd] *a* 1) to'liq, liq to'la, limmo-lim; 2) qisqartirilgan

unaccented [ˌʌnækˈsentɪd] *a* urg'usiz (*bo'g'in, tovush*)

unacceptable [ˌʌnəkˈseptəb(ə)l] *a* to'g'ri (muvofiq) kelmaydigan, qabul qilib (ko'nib, rozi bo'lib) bo'lmaydigan, nomaqbul

unaccommodating [ˌʌnəˈkɒmədeɪtɪŋ] *a* gapga ko'nmaydigan (*unamaydigan*), o'jar, qaysar

unaccompanied [ˌʌnəˈkʌmp(ə)nɪd] *a* 1) hamroh (yo'ldosh) bo'lib borib bo'lmaydigan; 2) birga yurib bo'lmaydigan; 3) jo'r bo'lib bo'lmaydigan

unaccomplished [ˌʌnəˈkʌmplɪʃt] *a* tugatilmagan, bitirilmagan, tamom qilinmagan, oxiriga yetkazilmagan

unaccountable [ˌʌnəˈkaʊntəb(ə)l] *a* tushuntirib (tushunib) bo'lmaydigan

unaccredited [ˌʌnəˈkreditɪd] *a* vakolat bermaydigan, sug'urta qilinmagan

unaccustomed [ˌʌnəˈkʌstəmd] *a* odatlanilmagan, o'rganilmagan, odat tusiga kirmagan, yangi

unachievable [ˌʌnəˈtʃi:vəb(ə)l] *a* erishib (yetishib, amalga oshirib) bo'lmaydigan

unachieved [ˌʌnəˈtʃi:vd] *a* 1) yetib (borib) bo'lmaydigan; 2) tugatilmagan

unacknowledged [ˌʌnəkˈnɒlɪdʒd] *a* 1) dong taratmagan, shuhrat qozonmagan, tanilmagan; 2) javobsiz qolgan

unacquainted [ˌʌnəkˈweɪntɪd] *a* tanishtirilmagan, notanish, bilmaydigan, noma'lum

unactable [ʌnˈæktəb(ə)l] *a* sahnaga mos kelmaydigan, sahnabop emas (*sahna asari to'g'risida*)

unadmitted [ˌʌnədˈmɪtɪd] *a* tanilmagan, nomi chiqmagan, tan olinmagan, e'tirof etilmagan

unadopted [ˌʌnəˈdɒptɪd] *a* o'g'il qilib olinmagan

unadulterated [ˌʌnəˈdʌltəreɪtɪd] *a* 1) haqiqiy, chin, asl, toza, sof; 2) g'irt, qipqizil, haqiqiy, chin; **~ nonsense** g'irt bema'nilik

unadvised [ˌʌnədˈvaɪzd] *a* shoshilinch (tez) qilingan, shoshilib (o'ylamay-netmay) qilingan

unadvisedly [ˌʌnədˈvaɪzɪdlɪ] *adv* o'ylamay, muhokama (mulohaza) qilib ko'rmay, telbalarcha, tentaklarcha

unaffable [ʌnˈæfəb(ə)l] *a* dag'al, qo'rs, sovuq, iltifotsiz, bemehr

unaffected [ˌʌnəˈfektɪd] *a* samimiy, sofdil, ochiq ko'ngil, chin qalbdan aytilgan

unafraid [ˌʌnəˈfreɪd] *a* qo'rqmas, vahimasiz

unagreeable [ˌʌnəˈgri:əbl] *a* 1) yoqimsiz, yomon; 2) ko'ngilsiz, noxush, sovuq, xunuk; 3) rozilik berib bo'lmaydigan

unaided [ʌnˈeɪdɪd] *a* 1) yordam ko'rsatilmagan; 2) (*begonalarning, birovning*) yordamisiz

unallowable [ʌnəˈlaʊəb(ə)l] *a* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya, nojoiz, mumkin bo'lmagan

unallowed [ʌnəˈlaʊd] *a* ijozat berilmagan, taqiqlangan, man qilingan

unalloyed [ʌnəˈlɔɪd] *a* ozoda, toza, pokiza

unalterable [ʌnˈɔ:lt(ə)rəb(ə)l] *a* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy, ozgartirib bo'lmaydigan

unaltered [ʌnˈɔ:ltəd] *a* doim bir xilda bo'ladigan, bir zaylda turadigan

unambiguous [ˌʌnæmˈbɪgjʊəs] *a* ikki xil tushunishga yo'l qo'ymaydigan, aniq, to'ppa-to'g'ri

unamenable [ˌʌnəˈmi:nəb(ə)l] *a* 1) yechib (bo'shatib, burib, sindirib va h. k.) bo'lmaydigan, juda mustahkam, qattiq, pishiq; 2) gapga kirmaydigan, gapga quloq solmaydigan

unanalysable [ʌnˈænəlaɪzəb(ə)l] *a* tahlil qilinmaydigan

unanimity [ˌju:nəˈnɪmɪtɪ] *n* yakdillik, birdamlik

unanimous [ju:ˈnænɪməs] *a* 1) yakdillik bilan aytilgan, hamjihatlik bilan qilingan; 2) bir ovozdan qabul qilingan

unanswerable [ʌnˈɑ:ns(ə)rəb(ə)l] *a* 1) javob qaytarib (berib) bo'lmaydigan; 2) rad etib bo'lmaydigan

unanswered [ʌnˈɑ:nsəd] *a* javobsiz, javobsiz qolgan (*xat, iltimos*); **~ love** javobsiz muhabbat, rad etilgan sevgi

unappealable [ˌʌnəˈpi:ləb(ə)l] *a yur.* shikoyat (norozilik) arizasi tushmaydigan; qat'iy tayinlangan, o'zgartirib bo'lmaydigan

unappeasable [ˌʌnəˈpi:zəb(ə)l] *a* murosaga kelmaydigan, kelishtirib bo'lmaydigan, qondirib bo'lmaydigan

unappetizing [ʌnˈæpɪtaɪzɪŋ] *a* mazasiz, bemaza, lazzatsiz; **an ~ kitchen** shinam bo'lmagan oshxona

unappreciated [ˌʌnəˈpri:ʃɪeɪtɪd] *a* yetarlicha baho berilmagan, kam baho berilgan; e'tibordan chetda qolgan

unapproachable [ˌʌnəˈprəʊtʃəb(ə)l] *a* 1) egallab (yo'lab, chiqib) bo'lmaydigan; 2) erishib (yetishib, yoniga borib, yaqin kelib, yo'lab, chiqib, olib, egallab) bo'lmaydigan

unapproving [ˌʌnəˈpru:vɪŋ] *a* ma'qullanmagan, ma'qul deb topilmagan, ma'qullamay qilingan

unapprovingly [ˌʌnəˈpru:vɪŋlɪ] *adv* ma'qullamay, ma'qul topmay, manzur ko'rmay

unapt [ʌnˈæpt] *a* munosib kelmaydigan, nobop; noqulay, nomuvofiq; **an ~ quotation** muvofiq kelmaydigan sitata (matn parchasi)

unarm [ˌʌnˈɑ:m] *v* qurolsizlantirmoq, qurolsizlanmoq

unarmed [ˌʌnˈɑ:md] *a* 1) qurolsiz, qurollanmagan; 2) *bot. zool.* tikansiz, ignasiz

unartful |ʌnˈɑ:tf(ə)l| *a* mahoratsiz, uquvsiz, no'noq
unashamed |ˌʌnəˈʃeɪmd| *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz, uyatsiz, benomus
unasked |ʌnˈɑ:skt| *a* ixtiyoriy, ko'ngilli, kutilmagan, chaqirilmagan, aytilmagan, taklif qilinmagan
unaspiring |ˌʌnəsˈpaɪ(ə)rɪŋ| *a* mulozamatni yaxshi ko'rmaydigan
unassailable |ˌʌnəˈseɪləb(ə)l| *a* 1) egallab bo'lmaydigan; 2) olib (zabt etib) bo'lmaydigan; **an ~ fortress** mustahkam qal'a
unassertive |ˌʌnəˈsɜ:tɪv| *a* 1) kamtar, kamsuqum, oddiy, sipo; kamtarin; 2) uyatchan, tortinchoq, iboli
unassisted |ˌʌnəˈsɪstɪd| *a* yordamsiz, ko'maksiz; **my friend translated the text ~** do'stim matnni o'zi tarjima qildi
unassuming |ˌʌnəˈs(j)u:mɪŋ| *a* oddiy, kamsuqum, sipo
unassured |ˌʌnəˈʃoəd| *a* ishonmaydigan, gumonsiraydigan, ikkilanuvchi, qat'iyatsiz
unattached |ˌʌnəˈtætʃt| *a* 1) turmushga chiqmagan, uylanmagan; 2) biriktirilmagan
unattainable |ˌʌnəˈteɪnəb(ə)l| *a* erishib (yetishib, amalga oshirib) bo'lmaydigan; muyassar bo'lmaydigan
unattended |ˌʌnəˈtendɪd| *a* qarovsiz qoldirilgan, o'z holiga tashlab qo'yilgan, e'tibordan chetda qolgan; **~ wound** bog'lanmagan yara
unattending |ˌʌnəˈtendɪŋ| *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, xayoli sochilgan, parishonxotir, xotiri parishon
unattractive |ˌʌnəˈtræktɪv| *a* ko'rimsiz, badbashara, yoqimsiz, xunuk
unauthorized |ʌnˈɔ:θəraɪzd| *a* taqiqlangan, man qilingan, ruxsat berilmagan
unavailable |ˌʌnəˈveɪləb(ə)l| *a* mavjud bo'lmagan, ixtiyorida yo'q bo'lgan
unavailing |ˌʌnəˈveɪlɪŋ| *a* 1) soxta; 2) foyda bermaydigan, befoyda, foydasiz, foydasi (nafi) yo'q, behuda, bekorchi
unavoidable |ˌʌnəˈvɔɪdəb(ə)l| *a* muqarrar, albatta yuz beradigan, oldini olib bo'lmaydigan
unaware |ˌʌnəˈweə| *a* bexabar, bilmaydigan
unawares |ˌʌnəˈweəz| *adv* qo'qqisdan, to'satdan, bexosdan, g'aflatda qoldirib
unbacked |ʌnˈbækt| *a* tarafdorlari bo'lmagan, yordamchilari (madadkorlari) bo'lmagan
unbaked |ʌnˈbeɪkt| *a* pishmagan, yaxshi pishmagan, pishirilmagan
unbalance |ʌnˈbæləns| *v* ruhiy osoyishtalikdan mahrum qilmoq; ruhiy osoyishtaligini buzmoq
unbalanced |ʌnˈbælənst| *a* aynima, tuturiqsiz, sabotsiz; beqaror, betayin; yengil, fe'li yomon, badfe'l
unballast |ˌʌnˈbæləst| *a deng.* ballast (posangi yuklarni) tushirmoq (*kemadan*)
unballasted |ˌʌnˈbæləstɪd| *a* 1) *deng.* ballasti (posangi yuki) bo'lmagan; 2) *tem. y.* ballast (temir yo'l shpallari tagiga qum yoki shag'al) yotqizmagan; 3) yetarlicha qattiq bo'lmagan, yumshoq, bo'sh
unbar |ˌʌnˈbɑ:| *v* 1) surma zulfinni (lo'kidonni) surib qo'ymoq; 2) (*eshik, yo'l va b. ni*) ochmoq
unbare |ʌnˈbeə| *v* yalang'ochlamoq, yechintirmoq, libosini yechmoq
unbearable |ʌnˈbe(ə)rəb(ə)l| *a* chidab (toqat qilib) bo'lmaydigan, juda yomon, juda og'ir; **an ~ situation** jahannam
unbearded |ˌʌnˈbɪədɪd| *a* 1) soqoli yo'q, soqoli chiqmagan; 2) ko'sa
unbeatable |ʌnˈbi:təb(ə)l| *a* 1) boshqalardan ustun (afzal, ortiq) bo'lgan; 2) yengilmas, yengilmaydigan, yengib bo'lmaydigan, kuchli, zo'r
unbeaten |ʌnˈbi:t(ə)n| *a* mag'lubiyatni bilmaydigan, eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan
unbecoming |ˌʌnbɪˈkʌmɪŋ| *a* yarashmaydigan, odobdan tashqari, beadab, uyat, noloyiq, noshoyon; **an ~ conduct** nojo'ya (odobdan tashqari) xatti-harakat
unbefitting |ˌʌnbɪˈfɪtɪŋ| *a* nomunosib; noloyiq, nobop, to'g'ri kelmaydigan
unbegun |ˌʌnbɪˈgʌn| *a* 1) hali boshlanmagan; 2) abadiy amal qiladigan (*turadigan*), azaliy, abadiy
unbeknown |ˌʌnbɪˈnəʊn|, **unbeknownst** |ˌʌnbɪˈnəʊnst| *a* 1) noma'lum, notanish, allaqanday; 2) sirli; tushunib bo'lmaydigan
unbelief |ˌʌnbɪˈli:f| *n* ishonmaslik, bovar qilmaslik, umidsizlik, ishonchsizlik
unbelievable |ˌʌnbɪˈli:vəb(ə)l| *n* aqlga (haqiqatga) to'g'ri kelmaydigan, mumkin bo'lmaydigan, ehtimoldan uzoq, aql bovar qilmaydigan
unbeliever |ˌʌnbɪˈli:və| *n* 1) dinga (xudoga) ishonmaydigan, dinsiz, dahriy; 2) har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan kishi
unbelt |ˌʌnˈbelt| *v* kamar (belbog')ni yechmoq
unbend |ʌnˈbend| *v* (**unbent**) 1) to'g'rilamoq, qaddini rostlamoq; 2) dam bermoq; **~ to one's mind** boshga dam bermoq
unbending |ʌnˈbendɪŋ| **1.** *v* to'g'rilamoq, rostlamoq; **2.** *a* sabotli, matonatli, qat'iyatli
unbeneficed |ʌnˈbenɪfɪst| *a cherk.* hech qanday kirimi (daromadi) bo'lmagan
unbent |ʌnˈbent| *past., p. p. of* **unbend**
unbeseeming |ˌʌnbɪˈsi:mɪŋ| *a* nomunosib, noloyiq, yarashmaydigan, kelishmaydigan
unbias(s)ed |ʌnˈbaɪəst| *a* betaraf, beg'araz, odil, xolis, haqqoniy, adolatli
unbidden |ˌʌnˈbɪdn| *v* aytilmagan, chaqirilmagan, taklif qilinmagan, chorlanmagan
unbind |ˌʌnˈbaɪnd| *v* (**unbound**) 1) yechmoq, bo'shatmoq, ochmoq; 2) (*sochni*) yoymoq, yechmoq
unblamable |ʌnˈbleɪməb(ə)l| *a* benuqson, bekam-ko'st, qusursiz
unbleached |ʌnˈbli:tʃt| *a* oqartirilmagan, oqlanmagan
unblemished |ʌnˈblemɪʃt| *a* dog' tegmagan, benuqson, bekam-ko'st, aybsiz, nuqsonsiz
unblended |ˌʌnˈblendɪd| *a* sof, toza, ozoda, pokiza
unblock |ˌʌnˈblɒk| *v* 1) ochmoq, bo'shatmoq, ochib (bemalol qilib) qo'ymoq (*yo'l, chegara va b. haqida*); 2) to'siqni olib tashlamoq
unblooded |ˌʌnˈblʌdɪd| *a* toza emas, zotli emas, aynigan, nasldor emas, zoti past
unbloody |ˌʌnˈblʌdɪ| *a* 1) qon tegmagan; 2) qonsiz, qoni kam, qoni qochgan
unblown |ˌʌnˈbləʊn| *a* gullamagan, gul chiqarmagan
unblushing |ˌʌnˈblʌʃɪŋ| *a* besharm, uyati (yuzi) yo'q; uyatsiz, nomussiz, behayo, sharmanda
unbodied |ˌʌnˈbɒdɪd| *a* tanasiz, jismsiz, tanadan tashqari
unboiled |ʌnˈbɔɪld| *a* qaynamagan, qaynatilmagan
unbolt |ˌʌnˈbəʊlt| *v* (*zulfinni, qulfni, qulflangan narsani*) ochmoq
unbone |ˌʌnˈbəʊn| *v* (*go'shtning ichidan*) suyakni chiqarib olmoq
unbooked |ʌnˈbʊkt| *a* qayd qilinmagan, hisobga olinmagan
unborn |ˌʌnˈbɔ:n| *a* 1) (hali) tug'ilmagan; 2) kelgusi, kelgusidagi, kelasi, bo'lg'usi, kelajak
unbosom |ʌnˈbʊz(ə)m| *v* (*o'z sirini*) birovga ishonib oshkor qilmoq, aytib qo'ymoq, aytib bermoq; **to ~ oneself** dilidagi dardini ochib-sochmoq
unbound |ʌnˈbaʊnd| *n* erkin, ozoda, hur, erki o'zida bo'lgan
unbounded |ʌnˈbaʊndɪd| *a* chegaralanmagan, chegarasi yo'q

unbowed [ʌn´baʊd] *v* gapga kirmaydigan, rozi bo'lmaydigan, yon bermaydigan, ko'nmaydigan

unbrace [ʌn´breɪs] *v* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashtirmoq, kuchsizlantirmoq

unbridle [ʌn´braɪdl] *v* (*aravadan yoki qo'shdan*) chiqarmoq, yechmoq, bo'shatmoq

unbridled [ʌn´braɪdld] **1.** *v* (*aravadan*) chiqarmoq, yechmoq, bo'shatmoq; **2.** *a* 1) tiyib (jilovlab) bo'lmaydigan, shiddatli; 2) intizomsiz, tartibsiz

unbroken [ʌn´brəʊkən] *a* 1) o'tib (o'zib) bo'lmaydigan; **an ~ record** orqada (ortda) qoldirilmagan rekord; 2) sinmagan, sindirilmagan, butun; **~ spirit** sinmagan (sindirilmagan) ruhi; 3) bus-butun, sinmagan

unbuckle [ʌn´bʌkl] *v* tugmani (ilgakni, to'qani) yechmoq

unbuild [ʌn´bɪld] *v* buzmoq, yiqitmoq, qulatmoq, vayron qilmoq

unburden [ʌn´bɜ:dn] *v* og'irini (mushkulini) yengil qilmoq

unbusinesslike [ʌn´bɪznɪslaɪk] *a* 1) ishga (xizmatga) aloqador bo'lmagan, ish yuzasidan olib borilmaydigan; 2) tajribasiz, no'noq, ishning ko'zini bilmaydigan

unbutton [ʌn´bʌtn] *v* yechmoq, tugmasini yechmoq

unbuttoned [ʌn´bʌtnd] *a* tugmasi yechilgan

uncage [ˌʌn´keɪdʒ] *v* qafasdan chiqarib (qo'yib) yubormoq

uncalled-for [ʌn´kɔ:ldfɔ:] *a* o'rinsiz, no-o'rin, bemavrid; **an ~ remark** o'rinsiz tanbeh

uncanny [ʌn´kænɪ] *a* dahshatli, vahimali, mudhish, qo'rqinchli

uncap [ˌʌn´kæp] *v* 1) shlapani yechmoq; 2) qopqoqni ochmoq

uncared-for [ʌn´keədfɔ:] *a* 1) tashlandiq; 2) tashlab qo'yilgan, qarovsiz qolgan, xaroba; **~ children** qarovsiz qolgan bolalar

uncase [ˌʌn´keɪs] *v* 1) qutidan chiqarib olmoq; 2) o'rovdagi narsalarni ochib olmoq

uncaused [ˌʌn´kɔ:zd] *a* sababsiz, besabab, asossiz, bevaj

unceasing [ʌn´si:sɪŋ] *a* to'xtamaydigan, to'xtovsiz, tugamaydigan

unceremonious [ˌʌnserɪ´məʊnɪəs] *a* oddiy, norasmiy, g'ayrirasmiy

uncertain [ʌn´sɜ:tn] *a* 1) ishonmaydigan, ishonchsiz; 2) noma'lum, noaniq, notayin

uncertainty [ʌn´sɜ:t(ə)ntɪ] *n* ishonchsizlik, ishonchsizlik bilan qilinadigan harakat, ikkilanish, ishonmaslik

unchain [ʌn´tʃeɪn] *v* 1) zanjirdan yechib yubormoq; 2) taqasini olib tashlamoq; 3) kishandan bo'shatmoq, kishanni olib tashlamoq

unchallengeable [ˌʌn´tʃælɪndʒəb(ə)l] *a* bahslashmaydigan, ishonchli, shubhasiz, rad qilib bo'lmaydigan

unchancy [ʌn´tʃɑ:nsɪ] *a* muvaffaqiyatsiz, ishi o'ngidan (baroridan) kelmagan

unchanged [ʌn´tʃeɪndʒd] *a* o'zgarmagan, o'zgarishsiz qolgan

uncharitable [ʌn´tʃærɪtəb(ə)l] *a* rahmsiz, berahm, qahrli, zolim, shafqatsiz

uncharted [ʌn´tʃɑ:tɪd] *a* xaritada belgilanmagan

unchecked [ˌʌn´tʃekt] *a* 1) tekshirilmagan (*hujjat, hisob va b.*); 2) o'zboshimcha, tiyib bo'lmaydigan

unchristian [ʌn´krɪstɪən] *a* 1) xristian diniga mansub bo'lmagan; 2) *so'zl.* to'g'ri kelmaydigan, noqulay, o'rinsiz

uncial [´ʌnsɪəl] *a* 1) unsial, unsiyaga oid (*unsiya – 29,86 grammga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi*); 2) bosh (harf)

uncivil [ʌn´sɪv(ə)l] *a* 1) qo'pol, to'ng, qo'rs; 2) madaniyatsiz, madaniyatga erishmagan

uncivilized [ʌn´sɪvɪlaɪzd] *a* madaniyatsiz, madaniyatga erishmagan

unclad [ˌʌn´klæd] *a* yalang'och, kiyimsiz, kiyinmagan

unclasp [ʌn´klɑ:sp] *v* 1) tugma (ilgak)ni yechmoq; 2) (qo'ldan) chiqarmoq

uncle [´ʌŋk(ə)l] *n* amaki, tog'a

unclean [ʌn´kli:n] *a* 1) nopok, harom; kir, iflos, isqirt; 2) axloq qoidalariga xilof

unclear [ʌn´klɪə] *a* aniq (ravshan, tushunarli) emas

uncleared [ʌn´klɪəd] *a* 1) yig'ishtirilmagan, saranjom-sarishta qilinmagan; 2) to'lanmagan (*qarz haqida*)

unclench [ʌn´klentʃ] *v* yozmoq, ochmoq, ochib (yozib) yubormoq (*mushti va b. haqida*)

uncloak [ʌn´kləʊk] *v* 1) plashni yechmoq; 2) *ko'ch.* niqobini yechmoq, sirini fosh qilmoq

unclose [ʌn´kləʊz] *v* 1) ochmoq, qopqog'ini ko'tarmoq; **to ~ one's eyes** ko'zini ochmoq, ko'ziga ko'rsatib qo'ymoq; „hushyor bo'l" demoq

unclosed [ʌn´kləʊzd] *a* 1) ochiq, yopilmagan; 2) tugatilmagan, oxiriga yetkazilmagan; **~ argument** oxiriga yetkazilmagan bahs (munozara)

unclothe [ʌn´kləʊð] *v* yechintirmoq, kiyimini yechmoq, yechib qo'ymoq

unclouded [ʌn´klaʊdɪd] *a* bulutsiz, ochiq, musaffo; **~ happiness** beg'ubor (porloq) baxt; **~ life** porloq hayot; **~ childhood** beg'ubor bolalik

unco [´ʌŋkəʊ] **1.** *a shotl.* ajib, ajoyib, taajjub, qiziq, g'alati, alomat; **2.** *adv* boshqalarga o'xshamagan holda; **3.** *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) notanish odam, begona; 2) yangiliklar

uncoil [ʌn´kɔɪl] *v* yormoq, tortib chuvatmoq; yechmoq

uncoined [ʌn´kɔɪnd] *a* chekilmagan, zarb qilinmagan

uncome-at-able [ʌn ´kʌmætəb(ə)l] *a so'zl.* egallab bo'lmaydigan, zabt etib bo'lmaydigan

uncomely [ʌn´kʌmlɪ] *a* 1) xunuk, ko'rimsiz, ko'rksiz, chiroyli emas; 2) yarashmaydigan

uncomfortable [ʌn´kʌmf(ə)təb(ə)l] *a* 1) noqulay, nobop; 2) o'ng'aysiz

uncommitted [ˌʌnkə´mɪtɪd] *a* 1) betaraf, xolis; 2) qo'shilmaslik siyosatini tutuvchi (harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan)

uncommon [ʌn´kɒmən] *a* 1) kam uchraydigan, kamyob; 2) boshqalarga o'xshamagan, boshqalardan farq qiladigan, boshqacha, alomat, ajoyib, qiziq

uncommonly [ʌn´kɒmənlɪ] *adv* 1) odatdan tashqari, favqulodda; ajoyib, g'oyat, nihoyat darajada; 2) kam, ahyon-ahyonda, onda-sonda

uncommunicative [ˌʌnkə´mju:nɪkətɪv] *a* odamga el bo'lmaydigan, kirishmaydigan, odamlarga qo'shilmaydigan

uncompanionable [ˌʌnkəm´pænjənəb(ə)l] *a* kamgap, indamas, odamlarga qo'shilib ketmaydigan

uncomplaining [ˌʌnkəm´pleɪnɪŋ] *a* itoatkor, nolimaydigan, zorlanmaydigan, tovush chiqarmaydigan, sabr-toqatli

uncompliant [ˌʌnkəm´plaɪənt] *a* yechib (bo'shatib, burib, sindirib) bo'lmaydigan, juda mustahkam, qattiq, pishiq

uncomplying [ˌʌnkəm´plaɪŋ] *a* bo'yin egmaydigan, yon bermaydigan

uncompromising [ˌʌn´kɒmprəmaɪzɪŋ] *a* 1) sabotli, matonatli, mahkam, toymas, qaytmas, bukilmas, qat'iy; 2) ashaddiy, kelishib bo'lmaydigan

unconcealed [ˌʌnkən´si:ld] *a* ochiqdan ochiq ko'rinib turgan, ochiq, oshkora

unconcern [ˌʌnkən´sɜ:n] *n* beg'amlik, beparvolik, betashvishlik

unconcerned [ˌʌnkən´sɜ:nd] *a* parvosiz, beparvo, beg'am, betashvish; **~ about** nimagadir nisbatan beparvo; **~ in** nimagadir aralashmagan (qo'shilmagan); **~ with** nima bilandir qiziqmaydigan

unconditional [ˌʌnkən´dɪʃ(ə)nəl] *a* 1) so'zsiz, e'tirozsiz; **~ surrender** so'zsiz taslim bo'lish; 2) shart qo'ymasdan

unconditioned [ˌʌnkən´dɪʃ(ə)nd] *a* cheklanmagan, cheksiz, cheki yo'q

unconforming [ˌʌnkənˈfɔ:mɪŋ] *a* talabga javob bermaydigan
unconformity [ˌʌnkənˈfɔ:mɪtɪ] *n* to'g'ri kelmaslik, muvofiq emaslik, nomunosiblik
unconnected [ˌʌnkəˈnektɪd] *a* aloqasi bo'lmagan, taalluqli bo'lmagan, daxldor bo'lmagan
unconquerable [ʌnˈkɒŋk(ə)rəb(ə)l] *a* yengilmas, yengilmaydigan, yengib bo'lmaydigan
unconscionable [ʌnˈkɒnʃ(ə)nəb(ə)l] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz, uyatsiz, benomus, noinsof; vijdonsizlarcha qilingan; **~ bargain** *yur.* g'ayriqonuniy bitim
unconscious [ʌnˈkɒnʃəs] *a* 1) tushunmaydigan, bilmaydigan, anglamaydigan, fahmlamaydigan, his qilmaydigan, sezmaydigan, hushsiz, hushidan ketgan; 2) ongsiz, ongi (aqli) to'liq shakllanmagan; 3) behush, hushini yo'qotgan, hushsiz
uncontemplated [ˌʌnˈkɒntəmpleɪtɪd] *a* kutilmagan, tasodifiy, nogahoniy, to'satdan bo'lib qolgan, kutilmaganda yuz bergan
uncontented [ˌʌnkənˈtentɪd] *a* ko'ngli to'lmagan, norozi, domangir, rozi emas
uncontrollable [ˌʌnkənˈtrəʊləb(ə)l] *a* to'xtatib (tiyib, bosib) bo'lmaydigan, shiddatli, kuchli
unconventional [ˌʌnkənˈvenʃən(ə)l] *a* 1) rasm-rusumni bilmaydigan; 2) qoliplanmagan, andazalanmagan, qolip (andaza) bo'yicha qilinmagan
unconversable [ˌʌnkənˈvɜ:səbl] *a* 1) kamgap, kamsuxan, indamas; 2) odamga qo'shilmaydigan
unconverted [ˌʌnkənˈvɜ:tɪd] *n* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy
unconvertible [ˌʌnkənˈvɜ:təb(ə)l] = **inconvertible**
unconvincing [ˌʌnkənˈvɪnsɪŋ] *a* ishonarli bo'lmagan, ishontira olmaydigan, uncha ishonchli emas
uncooked [ʌnˈkʊkt] *a* xom, tayyor bo'lmagan, pishmagan (*ovqat to'g'risida*)
uncord [ʌnˈkɔ:d] *v* yechmoq, bo'shatmoq; yechib (bo'shatib) olmoq, yechib (bo'shatib) qo'ymoq (yubormoq)
uncork [ʌnˈkɔ:k] *v* ochmoq, og'zini (tiqinni, qopqog'ini) ochmoq
uncorruptible [ˌʌnkəˈrʌptəbl] *a* poraga uchmaydigan, sotilmaydigan, vijdonini sotmaydigan
uncostly [ʌnˈkɒstlɪ] *a* arzon, bahosi (narxi) past
uncountable [ʌnˈkaʊntəb(ə)l] *a* sonsiz, sanoqsiz, beadad, ko'p, son-sanoqsiz, hisobiga (sanog'iga) yetib bo'lmaydigan
uncounted [ʌnˈkaʊntɪd] *a* hisobsiz, son-sanoqsiz; cheksiz, behisob, behad
uncouple [ʌnˈkʌp(ə)l] *v* ajratmoq, uzmoq, ajratib (uzib) qo'ymoq
uncouth [ʌnˈku:θ] *a* kelishmagan, qovushmagan, o'xshovi yo'q, beso'naqay, beo'xshov, qo'pol
uncover [ʌnˈkʌvə] *v* 1) (*qopqoqni*) olib qo'ymoq, olmoq, chiqarib tashlamoq, ochmoq; 2) (*yuz va b. ni*) ochmoq
uncovered [ʌnˈkʌvəd] *a* ochiq, usti yopilmagan, qopqoqlanmagan, usti ochiq (berkitilmagan)
uncrippled [ˌʌnˈkrɪp(ə)ld] *a* lat (shikast) yemagan, ishdan chiqmagan
uncritical [ʌnˈkrɪtɪk(ə)l] *a* 1) ko'r-ko'rona qabul qilib oladigan; 2) tanqidiy ko'z bilan qaralmagan (yondoshilmagan), tanqidiy emas
uncrossed [ʌnˈkrɒst] *a* qarshiliksiz, erkin, bemalol; **an ~ cheque** puli to'lanmagan chek
uncrown [ʌnˈkraʊn] *v* taxtdan tushirmoq, tojdan mahrum qilmoq
uncrowned [ʌnˈkraʊnd] *a* 1) tugatilmagan, tugamagan, oxiriga yetmagan; 2) toj kiymagan, taxtga mingan
unction [ˈʌŋkʃ(ə)n] *n* 1) surtish, surkash (*marosim, rasm-rusum*); 2) malham dori
unctuous [ˈʌŋktʃʊəs] *a* yog'li, seryog', yog'i ko'p
uncultivated [ʌnˈkʌltɪveɪtɪd] *a* 1) rivojlanmagan (*qobiliyat va b.*); 2) haydalmagan, chopilmagan (*yer haqida*)
uncultured [ʌnˈkʌltʃəd] *a* 1) madaniyatsiz, madaniyatdan orqada qolgan; 2) tarbiya ko'rmagan, tarbiyasiz, beadab
uncurb [ʌnˈkɜ:b] *v* 1) suvlig'ini (yuganini) olib *yoki* chiqarib qo'ymoq; 2) *so'zl.* haddidan oshirib yubormoq
uncurl [ʌnˈkɜ:l] *v* rivojlanmoq, o'smoq (*zulf, gajak, jingalak soch to'g'risida*)
uncurtain [ʌnˈkɜ:t(ə)n] *v* ikki tomonga surmoq, ochmoq; pardani ochmoq
uncurtained [ˌʌnˈkɜ:tnd] *a* pardasiz, pardalanmagan, parda tutib (pardalab) qo'yilmagan
uncustomary [ˌʌnˈkʌstəm(ə)rɪ] *a* odatlanilmagan, odat tusiga kirmagan, yangi, o'rganilmagan
uncut [ʌnˈkʌt] *a* qirqilmagan, kesilmagan, tilinmagan
undamped [ˌʌnˈdæmpt] *a radio.* dempferlanmagan (*dempfer – tebranishni pasaytiruvchi yoki yutuvchi asbob; qurilma*)
undated [ʌnˈdeɪtɪd] *a* sanasi yozilmagan, sanasi ko'rsatilmagan, sanasi yo'q (noma'lum)
undaunted [ʌnˈdɔ:ntɪd] *v* jasoratli, jasur, qo'rqmas, dovyurak, botir
undeceive [ˌʌndɪˈsi:v] *v* adash, yo'lidan qaytmoq, ko'zi ochilmoq
undecided [ˌʌndɪˈsaɪdɪd] *a* 1) hal etilmagan; hal bo'lmagan; 2) hal qilinmagan, bir xulosaga kelmagan
undecipherable [ˌʌndɪˈsaɪf(ə)rəb(ə)l] *a* 1) noaniq, chaplashib ketgan, o'qib bo'lmaydigan; 2) tushunib bo'lmaydigan, noaniq
undecked [ˌʌnˈdekt] *a* bezatilmagan, yasantirilmagan, zeb berilmagan; pardozsiz
undeclared [ˌʌndɪˈkleəd] *a* e'lon qilinmagan, ma'lum qilinmagan
undemocratic [ˌʌndeməˈkrætɪk] *a* 1) demokratiyaga qarshi; 2) demokratiyaga qarshi qaratilgan, antidemokratik
undemonstrative [ˌʌndɪˈmɒnstrətɪv] *a* vazmin, og'ir, bosiq, o'zini tuta biladigan
undeniable [ˌʌndɪˈnaɪəb(ə)l] *a* 1) rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, aniq, shak-shubhasiz; 2) juda yaxshi, juda soz, a'lo darajadagi, ajoyib
under [ˈʌndə] *prep* 1) ostida, tagida; 2) pastroq, ozroq; **~ smb.'s protection** kimningdir himoyasi ostida
underact [ˌʌndərˈækt] *v* rolni sust ijro etmoq
underaction [ˌʌndərˈækʃ(ə)n] *n* ikkinchi darajali epizod
under-age [ˌʌndərˈeɪdʒ] *a* voyaga (balog'atga) yetmagan, norasida
underbade [ˌʌndəˈbeɪd] *past. of* **underbid**
underbid [ˌʌndəˈbɪd] *v* (**underbade; underbidden**) (*narxni*) pasaytirmoq, kamaytirmoq, tushirmoq
underbidden [ˌʌndəˈbɪdn] *p. p. of* **underbid**
underbought [ˌʌndəˈbɔ:t] *past., p. p. of* **underbuy**
underbred [ˌʌndəˈbred] *a* 1) yomon tarbiya olgan, tarbiyasi yomon; 2) zoti aynigan
underbrush [ˈʌndəbrʌʃ] = **underwood**
underbuy [ˌʌndəˈbaɪ] *v* (**underbought**) o'z narxidan arzon narxga sotib olmoq
undercarriage [ˈʌndəˌkærɪdʒ] *n av.* shassi (*samolyotning aerodromda yurishi, uchish va qo'nishida xizmat qiladigan g'ildirakli qismi*)
undercharge [ˈʌndətʃɑ:dʒ] **1.** *v* 1) juda ham arzon narxda olmoq; 2) yetarli darajada zaryadlamaslik; yetarlicha yuklamaslik; **2.** *n* 1) juda ham past narx; 2) yetarli bo'lmagan zaryad
underclothes [ˈʌndəkləʊ(ð)z] *n* ichki (ich) kiyimlar

undercoat ['ʌndəkəʊt] *n* boshqa kiyim ostidan kiyiladigan kiyim
undercooling ['ʌndə,ku:lɪŋ] *n* 1) yetarli bo'lmagan sovitish; 2) *fiz.* haddan tashqari sovitish, juda sovib ketish
undercover [,ʌndə 'kʌvə] *a* yashirin, maxfiy; **an ~ agent** maxfiy agent
undercroft ['ʌndəkrɒft] *n* gumbazli yer-to'la
undercurrent ['ʌndə,kʌrənt] *n* 1) pastki (qarshi) oqim; 2) *ko'ch.* yashirin tuyg'u
undercut ['ʌndəkʌt] *n* 1) (*go'shtdan*) qirqib olingan, parcha; 2 *sport.* sapchish, sakrash *yoki* pastdan berilgan zarba
underdeveloped [,ʌndədɪ'veləpt] *a* hali o'sib yetilmagan, yaxshi rivojlanmagan
underdid [,ʌndə'dɪd] *past of* **underdo**
underdo [,ʌndə'du:] *v* (**underdid; underdone**) oxiriga yetkazilmagan, tobiga yetkazilmagan
underdog ['ʌndədɒg] *n* 1) mag'lubiyatga uchragan it (kuchuk); 2) mag'lubiyatga uchragan tomon; omadsiz
underdone [,ʌndə'dʌn] *p. p. of* **underdo**
underdose [,ʌndə'dəʊz] **1.** *n* yetarli bo'lmagan doza (*dori-darmonning o'lchovli miqdori*); **2.** *v* yetarli bo'lmagan dozani bermoq
underestimate [,ʌndər'estɪmeɪt] *v* kam baho bermoq, yetarli baho bermaslik
under-expose [,ʌndərɪks'pəʊz] *v* 1) ajratilgan (ko'rsatilgan) vaqtdan kam ushlab turmoq; ma'lum vaqtgacha saqlab (ushlab, tutib) turmaslik
underfed [,ʌndə'fed] *past., p. p. of* **underfeed**
underfeed [,ʌndə 'fi:d] *v* (**underfed**) to'ydirmasdan ovqatlantirmoq, ovqatni kam bermoq, to'ydirmay boqmoq
underfoot [,ʌndə'fʊt] *adv* 1) oyoq ostida; 2) qaramog'i ostida, nazorati ostida; **to keep on ~** kimgadir qattiqqo'llik qilmoq; kimnidir iskanjada tutmoq
undergarment ['ʌndə,gɑ:mənt] *n* ichki kiyim, ko'ylak-ishton
undergo [,ʌndə'gəʊ] *v* (**underwent; underdone**) boshdan kechirmoq, uchramoq, yo'liqmoq, duchor bo'lmoq
undergone [,ʌndə'gɒn] *p. p. of* **undergo**
undergraduate [,ʌndə'grædʒuɪt] *n* 1) oxirgi kurs talabasi; 2) tajribasi yo'q, tajribasiz, malakasiz
underground 1. *n* ['ʌndəgraʊnd] 1) (**the ~**) metro; **by ~** metro orqali; 2) yashirin tashkilot; 3) yashirin (maxfiy) ish; **2.** *a* [,ʌndə'graʊnd] yer ostida joylashgan, yer ostidagi
undergrowth ['ʌndəgrəʊθ] *n* o'rmondagi butalar (*yetilmagan daraxtlar*)
underhand [,ʌndə'hænd] *a* yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan
underhung [,ʌndə'hʌŋ] *a* (*ostki jag' haqida*) oldinga turtib chiqqan
underlaid [,ʌndə'leɪd] *past, p. p. of* **underlay**
underlain [,ʌndə'leɪn] *p. p. of* **underlie**
underlay I [,ʌndə'leɪ] *v* (**underlaid**) 1) tagiga (ostiga) qo'ymoq (yotqizmoq); 2) (*biror narsaning*) tagida yotmoq
underlay II [,ʌndə'leɪ] *past. of* **underlie**
underlet [,ʌndə 'let] *v* (**underlet**) juda ham arzon narxda ijaraga bermoq
underlie [,ʌndə 'laɪ] *v* (**underlay; underlain**) 1) nimaningdir ostida yotmoq; 2) asosida yotmoq
underline [,ʌndə'laɪn] *v* 1) tagiga chizmoq; 2) ta'kidlamoq, alohida urg'u bermoq
underling ['ʌndəlɪŋ] *n* 1) mayda mansabdor; 2) kichkina (arzimagan, e'tiborsiz) odam
underlying [,ʌndə 'laɪɪŋ] *a* 1) asosiy, tub, bosh, eng muhim; 2) nimaningdir ostida yotgan *yoki* joylashtirilgan
undermanned [,ʌndə 'mænd] *a harb.* to'liq bo'lmagan shaxsiy tarkibga ega bo'lgan
undermine [,ʌndə 'maɪn] *v* 1) vayron qilmoq; yemirmoq; 2) biror joyning tagini kovlamoq; 3) portlatib buzmoq
undermost ['ʌndəməʊst] *a* eng pastdagi, quyidagi
underneath [,ʌndə'ni:θ] **1.** *adv* 1) quyida, pastda, quyi (ost) tomonda; 2) ostga, pastga, pastga qarab, pastga tomon; **2.** *prep.* tagida, tagiga
undernourish [,ʌndə'nʌrɪʃ] *v* ovqatni kam bermoq, to'ydirmay boqmoq
underpaid [,ʌndə 'peɪd] *past., p. p. of* **underpay**
underpants ['ʌndəpænts] *n pl* 1) ishton, erkaklar ishtoni; 2) (*erkaklar*) trusigi, kalta ishtoni
underpass ['ʌndəpɑ:s] *n* 1) temir yo'l ko'tarmasi ostidagi yo'l; 2) *amer.* yer ostidagi o'tish joyi
underpay [,ʌndə'peɪ] *v* (**underpaid**) juda oz oylik (maosh) to'lamoq
underpin [,ʌndə 'pɪn] *v* 1) qo'llamoq, quvvatlamoq; mustahkamlamoq; 2) tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgovuch (tirgak) qo'ymoq (*devorga*)
underplot ['ʌndəplɒt] *n* 1) fitna, zimdan tayyorlanayotgan qasd; 2) sir tutilgan fikr (*roman haqida*)
underpopulated [,ʌndə'pɒpjʊleɪtɪd] *a* aholisi kam, siyrak, kam aholi
underpressure ['ʌndə,preʃə] *v fiz.* siyraklanish, siyraklashuv, siyraklashish, kamaytirish (*bosim haqida*)
underprivileged [,ʌndə 'prɪvɪlɪdʒd] *a* 1) juda oz huquqlarga ega bo'lgan; 2) kambag'al, faqir, nochor
underprize [,ʌndə'praɪz] *v* kam baho bermoq, yetarlicha baho bermaslik
underproduce [,ʌndəprə'dju:s] *v* yetarli bo'lmagan miqdorda mahsulot ishlab chiqmoq
under-production [,ʌndəprə'dʌkʃ(ə)n] *n* yetarli ishlab chiqarmaslik, rejadan kam ishlab chiqarish
underproof [,ʌndə 'pru:f] *a* : **~ spirit** belgilangan me'yordan past gradusga ega bo'lgan spirt
underrate [,ʌndə 'reɪt] *v* 1) noto'g'ri ko'rsatmoq (*asbob-uskuna to'g'risida*); 2) kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, qadriga yetmaslik, nazar-pisand qilmaslik
under-ripe [,ʌndə'raɪp] *a* yetilib pishmagan, yetilmagan, xom
underscore [,ʌndə'skɔ:] *v* 1) tagiga chizmoq; 2) ta'kidlamoq, uqtirib o'tmoq; 3) diqqatni tortmoq, e'tiborni jalb etmoq
undersea [,ʌndə'si:] **1.** *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi, suvosti; **2.** *adv* suvning ostida
under-secretary [,ʌndə 'sekrət(ə)rɪ] *a* vazir o'rinbosari *yoki* yordamchisi
undersell [,ʌndə 'sel] *v* (**undersold**) 1) boshqalardan ko'ra arzonroq sotmoq; 2) o'z narxidan past narxga sotmoq
underset ['ʌndəset] **1.** *n deng.* suv ostidagi oqim; **2.** *v* tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgovuch (tirgak) qo'ymoq
undershirt ['ʌndəʃɜ:t] *n* ichki (ich) ko'ylak, mayka
undersign [,ʌndə'saɪn] *v* qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq
undersigned ['ʌndəsaɪnd] *a* **1.** *a* quyida qo'l qo'ygan, quyida imzo chekkan; **2.** *n* quyida imzo chekkan kishi; **we the ~** biz, quyida imzo chekkan (imzo chekuvchi) kishilar
undersized [,ʌndə'saɪzd] *a* kichik o'lchamli; o'lchami kichik
underskirt ['ʌndəskɜ:t] *n* xotin-qizlar ko'ylagining beldan pastki qismi
undersoil ['ʌndəsɔɪl] *n* tagzamin (*ishlanadigan tuproq ostidagi yer qatlami*)
undersold [,ʌndə'səʊld] *past., p. p. of* **undersell**
undersong ['ʌndəsɒŋ] *n* 1) naqarot; 2) yashirin ma'no
understaffed [,ʌndə'stɑ:ft] *a* to'lmagan, to'ldirib olinmagan, but qilib olinmagan, to'ldirilmagan
understand [,ʌndə 'stænd] *v* (**understood**) tushunmoq, anglamoq
understandable [,ʌndə'stændəb(ə)l] *a* 1) tushunarli, tushunib bo'ladigan, tushuniladigan; 2) asosli, o'rinli
understanding [,ʌndə'stændɪŋ] *n* 1) tushunish, anglash, fahmlash; **beyond**

one's ~ aqlga sig'maydigan; 2) bitim, kelishuv

understate |ˌʌndə ˈsteɪt| *v* kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatmoq, kamsitmoq

understatement |ˌʌndə ˈsteɪtmənt| *n* kichraytirib yuborish, kichraytirib (kamaytirib) ko'rsatish; kamsitish

understock |ˌʌndə ˈstɒk| *v* 1) (*mol va anjomlar bilan*) yetarli darajada ta'minlamaslik; 2) *tex.* yoqilg'ini pastdan yetkazib bermoq

understood |ˌʌndəˈstʊd| *past., p. p. of* **understand**

understrapper |ˈʌndəˌstræpə| = **underling**

understratum |ˌʌndəˈstrɑːtəm| *n* (*pl* **-ta** |-tə|) *geol.* pastki qatlam

understudy |ˈʌndəˌstʌdɪ| *n* dublyor (*biror ishni navbatlashib bajaruvchi ikki kishidan biri*)

undertake |ˌʌndəˈteɪk| *v* **(undertook; undertaken)** 1) o'z bo'yniga olmoq, zimmasiga olmoq; 2) kirishmoq; **to ~ a trip** sayohat qilmoq; **to ~ a job** ishga kirishmoq, ishga tushmoq

undertaken |ˌʌndəˈteɪkən| *p. p. of* **undertake**

undertaker |ˌʌndə ˈteɪkə| *n* korxona egasi

undertaking |ˌʌndəˈteɪkɪŋ| *n* ish, majburiyat, vazifa

undertenant |ˈʌndəˌtenənt| *n* kichik ijarachi

under-the-table |ˌʌndəðəˈteɪb(ə)l| *a* yashirin, maxfiy, birovga aytilmaydigan, sir tutiladigan

undertint |ˈʌndətɪnt| *n* nim rang, och rang

undertone|ˈʌndətəʊn| *n* yarim ohang, yarim ovoz

undertook |ˌʌndə ˈtʊk| *past of* **undertake**

undervalue |ˌʌndəˈvæljuː| *n* kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, qadriga yetmaslik

underwater |ˌʌndəˈwɔːtə| *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi, suvosti...

underwear |ˈʌndəweə| *n* ichki (ich) kiyimlar

underwent |ˌʌndə ˈwent| *past. of* **undergo**

underwood |ˈʌndəwʊd| *n* 1) o'rmondagi butalar (*yetilmagan daraxtlar*); 2) chakalakzor, yosh o'rmon

underwork |ˌʌndəˈwɜːk| *n* past sifatli ish

underworld |ˈʌndəwɜːld| *n* do'zax, jahannam

underwrite |ˌʌndəˈraɪt| *v* **(underwrote; underwritten)** qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq

underwriter |ˈʌndəˌraɪtə| *n* 1) sug'urta kompaniyasi; sug'urta qiluvchi shaxs yoki idora; 2) (*zayom, aksiya va b.*) obunachi

underwritten |ˌʌndəˈrɪtn| **1.** *p. p. of* **underwrite**; **2.** *a* quyida (tubanda) qo'l qo'yuvchi (qo'ygan)

underwrote |ˌʌndəˈrəʊt| *past. of* **underwrite**

undeservedly |ˌʌndɪˈzɜːvɪdlɪ| *adv* nohaq, o'rinsiz, asossiz

undesigned |ˌʌndɪˈzaɪnd| *a* qasddan (atayin) qilinmagan, bilmasdan qilingan

undesirable |ˌʌndɪˈzaɪə(ə)rəb(ə)l| *a* 1) maqsadga muvofiq bo'lmagan, keraksiz, to'g'ri kelmaydigan; 2) noqulay, o'rinsiz

undeterminable |ˌʌndɪˈtɜːmɪnəb(ə)l| *a* aniqlab (belgilab) bo'lmaydigan, aniqlash qiyin bo'lgan

undetermined |ˌʌndɪˈtɜːmɪnd| *a* noaniq, aniqlanmagan

undeveloped |ˌʌndɪˈveləpt| *a* 1) rivojlanmagan, taraqqiy etmagan; 2) ishlov berilmagan (*yer haqida*)

undid |ʌnˈdɪd| *past. of* **undo**

undies |ˈʌndiːz| *a pl so'zl.* ayollarning *yoki* bolalarning ichki ko'ylagi

undigested |ˌʌnd(a)ɪˈdʒestɪd| *a* 1) hazm bo'lmagan; 2) o'zlashtirilmagan; 3) yaxshi o'ylab qilinmagan

undignified |ʌnˈdɪgnɪfaɪd| *a* noloyiq, loyiq emas, nomunosib, arzimaydigan

undine |ˈʌndiːn| *n* suv parisi (*afsonalarda*)

undiplomatic |ˈʌnˌdɪplə'mætɪk| *a* 1) beandisha, odobsiz; 2) ustomonlik bilan qilinmagan

undipped |ʌnˈdɪpt| *a* cho'qintirilmagan, cho'qinmagan, xristian diniga kirmagan

undischarged |ˌʌndɪsˈtʃɑːdʒd| *a* 1) bajarilmagan; ado etilmagan (*burch haqida*); 2) to'lanmagan

undisciplined |ʌnˈdɪsplɪnd| *n* 1) o'rgatilmagan, o'qitilmagan; 2) intizomsiz, tartibsiz

undiscriminated |ˌʌndɪsˈkrɪmɪneɪtɪd| *a* teng huquqli, tahqirlanmagan, kamsitilmagan, haq-huquqi cheklab qo'yilmagan

undisguised |ˌʌndɪsˈgaɪzd| *a* ochiq, oshkora, ro'yirost

undisposed |ˌʌndɪˈspəʊzd| *a* 1) joylashtirilmagan, joy-joyiga qo'yilmagan; 2) taqsimlanmagan, bo'linmagan

undisputed |ˌʌndɪˈspjuːtɪd| *a* shubhasiz, aniq, ravshan

undistinguished |ˌʌndɪˈstɪŋgwɪʃt| *a* 1) ravshan emas, yaxshi (aniq) ko'rinmaydigan; 2) farq qilib (ajratib) bo'lmaydigan

undisturbedly |ˌʌndɪˈstɜːbdlɪ| *adv* tinchlik (osoyishtalik) bilan

undivided |ˌʌndɪ ˈvaɪdɪd| *a* 1) butun, but, to'la, to'liq; 2) bo'linmagan

undo |ʌnˈduː| **(undid; undone)** *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, yo'q qilib yubormoq; **to ~ the seam** chokidan so'kmoq; **to ~ a treaty** shartnomani bekor qilmoq

undoing |ʌnˈduːɪŋ| *n* yo'q qilish, yo'qotish, yo'q qilib tashlash

undone |ʌnˈdʌn| **1.** *p. p. of* **undo**; **2.** *a* 1) tugatilmagan, qilinmagan; 2) o'lgan; **they are ~** ular o'ldilar; 3) yechilgan, yechilib ketgan

undoubted |ʌnˈdaʊtɪd| *a* shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan, aniq, ravshan, begumon

undoubtedly |ʌnˈdaʊtɪdlɪ| *adv* shubha tug'dirmasdan, shubhasiz, shak-shubhasiz, beshak, begumon

undraw |ʌnˈdrɔː| *v* (*pardani*) ochmoq

undreamt-of |ʌnˈdremtɒv| *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, favqulodda, haddan tashqari, kutilmagan, uxlab tushida ham ko'rmagan; **~ riches** aql bovar qilmaydigan darajadagi boylik

undress |ʌnˈdres| *v* yechmoq, yechinmoq, yechintirmoq

undressed |ʌnˈdrest| *a* yechingan, yechintirilgan

undue |ˌʌnˈdjuː| *a* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta; **~ haste** o'ta shoshilinch

undulate |ˈʌndjʊleɪt| *a* to'lqinsimon, taram-taram, qat-qat, to'lqinga o'xshagan

undulated |ˈʌndjʊleɪtɪd| = **undulate**

undulation |ˌʌndjʊˈleɪʃ(ə)n| *n* to'lqinsimonlik, to'lqinga o'xshashlik

unduly |ʌnˈdjuːlɪ| *adv* haddan tashqari, juda; juda ham, nihoyatda, g'oyatda, ortiq darajada

undying |ʌnˈdaɪɪŋ| *a* azaliy va abadiy, boqiy; **~ glory** abadiy shon-shuhrat

unearned |ʌnˈɜːnd| *a* mehnat qilib olinmagan, ishlab topilmagan; **~ praise** mehnatsiz qo'lga kiritilgan maqtov

unearth |ʌnˈɜːθ| *v* 1) yer tagidan qazib olmoq; 2) uyasidan chiqarib yubormoq

unearthly |ʌnˈɜːθlɪ| *n* 1) sirli, g'ayritabiiy; 2) yerdan tashqaridagi; 3) *so'zl.* nomuvofiq, noqulay

unease |ʌnˈiːz| *n* 1) qo'pollik, beso'naqaylik, qovushmaganlik; 2) qiyinlik, tanglik, og'irlik; siqiqlik

uneasily |ʌnˈiːzɪlɪ| *adv* noqulay holda, noqulay

uneasiness |ʌnˈiːzɪnəs| *n* 1) noqulaylik, qulaysizlik, o'ng'aysizlik; 2) notinchlik, bezovtalik

uneasy [ʌnˊi:zɪ] *a* 1) o'ng'aysiz, noqulay; 2) xavotirli, tashvishli, xavf-xatarli, notinch, bezovta

uneatable [ʌnˊi:təb(ə)l] *a* yeyilmaydigan, yeb bo'lmaydigan

uneconomic [ˌʌni:kəˊnɔmɪk] *a* 1) tejab-tergashni (tejamkorlikni) bilmaydigan, isrofgar; 2) tejamasdan qilingan (qilinadigan); 3) xarajatlarni qoplamaydigan, o'zini-o'zi ko'tarmaydigan, foydasiz

uneconomical [ˌʌni:kəˊnɔmɪk(ə)l] *a* 1) tejamkorlikni bilmaydigan; 2) xo'jasiz, noshud

unedited [ʌnˊedɪtɪd] *a* 1) nashr etilmagan, bosmadan chiqmagan; 2) tahrir qilinmagan

uneducated [ʌnˊedjəkeɪtɪd] *a* ma'lumotsiz, o'qimagan, bilimsiz, omi, savodsiz

unemployed [ˌʌnɪmˊplɔɪd] *a* ishsiz, band bo'lmagan, ishsiz qolgan

unemployment [ˌʌnɪmˊplɔɪment] *n* 1) ishsizlik, bekorchilik; 2) ishchilarning ishsiz qolishlari; **~ benefit (relief)** ishsizlar uchun beriladigan yordam puli

unencumbered [ˌʌnɪnˊkʌmbəd] *a* malol kelmaydigan, og'ir tushmaydigan

unending [ʌnˊendɪŋ] *a* bitmas, tuganmas, bepoyon, cheksiz, tugamaydigan

unendowed [ˌʌnɪnˊdaʊd] *a* mablag' (sarmoya) bilan ta'minlanmagan

unendurable [ˌʌnɪnˊdjʊ(ə)rəb(ə)l] *a* chidab bo'lmaydigan, toqat qilib bo'lmaydigan

un-English [ʌnˊɪŋglɪʃ] *a* ingliz emas, inglizlarga xos bo'lmagan

unenterprising [ʌnˊentəpraɪzɪŋ] *a* noshud, biron ishning uddasidan chiqmaydigan, tashabbus ko'rsatmaydigan

unequable [ʌnˊekwəb(ə)l] *a* chidamsiz, chidolmaydigan; bo'sh, noustuvor

unequal [ʌnˊi:kwəl] *a* tengsiz, teng (baravar) bo'lmagan; **~ match** tengsiz nikoh

unequalled [ʌnˊi:kwəld] *a* mislsiz, tengi yo'q, tengsiz, benazir

unequivocal [ˌʌnɪˊkwɪvək(ə)l] *a* 1) ikki xil tushunishga yo'l qo'ymaydigan, ikki ma'noli bo'lmagan, aniq, tushunarli; 2) aniq, ma'lum bir; **to count for ~ support** ma'lum bir yordamni mo'ljallamoq; **to give ~ expression** ochiq-oydin izhor qilmoq

unerring [ʌnˊɜ:rɪŋ] *a* bexato, xatosiz, to'g'ri

uneven [ʌnˊi:v(ə)n] *a* notekis, g'adir-budur, qing'ir-qiyshiq

unexampled [ˌʌnɪgˊzɑ:mp(ə)ld] *a* tengi yo'q, mislsiz, tengsiz, misli ko'rilmagan

unexceptionable [ˌʌnɪkˊsepʃ(ə)nəb(ə)l] *a* juda yaxshi, juda soz, a'lo darajadagi, ajoyib

unexecuted [ʌnˊeksɪkju:tɪd] *a* 1) bajarilmagan, amalga oshirilmagan; 2) rasmiylashtirilmagan, qonuniylashtirilmagan

unexpected [ˌʌnɪkˊspektɪd] *a* kutilmagan, favqulodda, tasodifiy

unexperienced [ˌʌnɪkˊspɪ(ə)rɪənst] *a* tajribasiz, malakasiz

unexplored [ˌʌnɪkˊsplɔ:d] *a* tadqiq etilmagan, o'rganilmagan

unfabled [ʌnˊfeɪb(ə)ld] *a* haqiqiy, o'ylab topilmagan, to'qib chiqarilmagan

unfading [ʌnˊfeɪdɪŋ] *a* so'lmaydigan, so'lmas, so'nmas, o'chmas

unfailing [ʌnˊfeɪlɪŋ] *a* sodiq, vafodor, vafoli, sadoqatli, ajralmas; **an ~ friend** sodiq (ajralmas) do'st

unfair [ʌnˊfeə] *a* adolatsiz, harom, nohaq

unfaithful [ʌnˊfeɪθf(ə)l] *a* 1) ishonchsiz, vafosiz; 2) bevafo, xiyonatkor; **to be ~ to one's husband** eriga xiyonat qilmoq

unfaltering [ʌnˊfɔ:lt(ə)rɪŋ] *a* qattiq, mustahkam, sabotli, barqaror

unfamiliar [ˌʌnfəˊmɪljə] *a* notanish, begona, yot

unfashionable [ʌnˊfæʃ(ə)nəb(ə)l] *a* urf (rasm) bo'lmagan, modadan chiqqan

unfasten [ʌnˊfɑ:s(ə)n] *a* bo'shatmoq, yechmoq, yechib (bo'shatib) yubormoq

unfathered [ʌnˊfɑ:ðəd] *a shoir.* nikohlanmagan ota-onadan tug'ilgan, nikohsiz tug'ilgan, haromi

unfathomable [ʌnˊfæð(ə)məb(ə)l] *a* 1) tubsiz, o'lchab bo'lmaydigan, behad; 2) tushuntirib bo'lmaydigan

unfavourable [ʌnˊfeɪv(ə)rəb(ə)l] *a* 1) noqulay, nomuvofiq, nobop, o'ng'aysiz; 2) xushi (xohishi) yo'q, xush (ma'qul) ko'rmaydigan, yoqtirmaydigan

unfed [ʌnˊfed] *a* ovqatlantirilmagan, boqilmagan

unfeeling [ʌnˊfi:lɪŋ] *a* shafqatsiz, toshbag'ir, berahm, yovuz

unfeigned [ʌnˊfeɪnd] *a* soxta (qalbaki) emas, haqiqiy, chin

unfinished [ʌnˊfɪnɪʃt] *a* tugatilmagan, oxiriga yetkazilmagan

unfit [ʌnˊfɪt] *a* yaroqsiz, to'g'ri (mos) kelmaydigan, ishga yaramaydigan, ishdan chiqqan, nobop; **a house ~ to live in** yashash uchun yaroqsiz uy

unfix [ʌnˊfɪks] *a* bo'shatmoq, yechmoq, ko'chirmoq, siljitmoq

unflagging [ʌnˊflægɪŋ] *a* bo'shashmaydigan, susaymaydigan

unflappable [ʌnˊflæpəb(ə)l] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng; **~ temperament** og'ir fe'l (xulq-atvor)

unfold [ʌnˊfəʊld] *a* 1) yozmoq, ochmoq, yoymoq; 2) ochilmoq

unforeseen [ˌʌnfɔ:ˊsi:n] *a* kutilmagan, o'ylanmagan, tasodifiy, nogahoniy, xayolga ham kelmagan, to'satdan (qo'q-qisdan) bo'lib qolgan

unforgettable [ˌʌnfəˊgetəb(ə)l] *a* unutilmas, unutib bo'lmaydigan

unforgivable [ˌʌnfəˊgɪvəb(ə)l] *a* kechirilmaydigan, kechirib bo'lmaydigan

unformed [ʌnˊfɔ:md] *a* shaklsiz, hali bir shaklga keltirilmagan

unfortunate [ʌnˊfɔ:tʃənɪt] **1.** *a* bebaxt, badbaxt, baxtsiz, baxti qora, sho'rpeshana; **2.** *n* baxtsiz odam

unfortunately [ʌnˊfɔ:tʃənɪtlɪ] *a* afsuski, baxtga qarshi

unfounded [ʌnˊfaondɪd] *a* yetarli asosga ega bo'lmagan, yetarlicha asoslanmagan, asossiz, isbot qilinmagan

unfreeze [ʌnˊfri:z] *a* muzdan tushirmoq, eritmoq

unfriended [ʌnˊfrendɪd] *a* do'stsiz, do'stlari bo'lmagan, do'stlari yo'q

unfriendly [ʌnˊfrendlɪ] *a* xush ko'rmaydigan, yoqtirmaydigan, yomon ko'radigan, yaxshi ko'rmaydigan

unfrock [ʌnˊfrɔk] *a* diniy mansabdan mahrum qilmoq

unfulfilled [ˌʌnfʊlˊfɪld] *a* bajarilmagan, qilinmagan, amalga oshirilmagan

unfunded [ʌnˊfʌndɪd] *a mol.* 1) qisqa muddatli; 2) (*budjet va sh. k. dan*) mablag' bilan ta'minlanmaydigan

unfurnished [ʌnˊfɜ:nɪʃt] *a* jihozlanmagan, mebelsiz

ungainly [ʌnˊgeɪnlɪ] *a* qo'pol, beso'naqay, beo'xshov, kelishmagan, qovushmagan

ungear [ʌnˊgɪə] *v tex.* o'chirmoq, o'chirib qo'ymoq, uzmoq, uzib qo'ymoq

unget-at-able [ˌʌngetəˊtəb(ə)l] *a* 1) egallab bo'lmaydigan; 2) olib (zabt etib) bo'lmaydigan

ungloved [ʌnˊglʌvd] *a* qo'lqopsiz

ungodly [ʌnˊgɔdlɪ] *a* 1) xudosiz, dinsiz, dahriy, xudoga ishonmaydigan; 2) *so'zl.* juda, haddan tashqari, dahshatli

ungovernable [ʌnˊgʌv(ə)nəb(ə)l] *a* 1) gapga kirmaydigan, gapga rozi bo'lmaydigan; 2) asov, idora etib bo'lmaydigan

ungraceful [ʌnˊgreɪsf(ə)l] *a* nafosatsiz, kelishmagan, nazokatsiz

ungracious [ʌnˊgreɪʃəs] *a* dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, iltifotsiz, bemehr

ungrateful [ʌnˊgreɪtf(ə)l] *a* ko'rnamak; nonko'r, oqibatsiz, yaxshilikni bilmaydigan, qadr-qiymatiga yetmaydigan

ungrounded [ʌnˈgraʊndɪd] *a* 1) asossiz, tagi puch; 2) asoslanmagan
ungrudging [ʌnˈgrʌdʒɪŋ] *a* 1) saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, oliyhimmat, hotamtoy, himmatli, hech narsani ayamaydigan; 2) mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, to'kin-sochin
unguarded [ʌnˈgɑ:dɪd] *a* 1) beparvo, parvosiz, beg'am; 2) himoya qilinmagan; qo'riqlanmaydigan
unguent [ˈʌŋgwənt] *a* malham dori
ungulate [ˈʌŋgjʊl(e)ɪt] *zool.* **1.** *a* tuyoqqa oid, tuyoqli; **2.** *n* tuyoqli hayvon
unhackneyed [ʌnˈhæknɪd] *a* yangi, aynimagan, urinmagan, buzilmagan
unhallowed [ʌnˈhæləʊd] *a* gunohkor, gunohli, gunohga botgan
unhand [ʌnˈhænd] *a* 1) qo'l tortmoq; 2) nimanidir qo'ldan boy bermoq
unhandsome [ʌnˈhæns(ə)m] *a* 1) majruh, mayib, maymoq; 2) xunuk, badbashara
unhandy [ʌnˈhændɪ] *a* qo'pol, qovushmagan, beso'naqay, chaqqon (epchil) emas
unhang [ʌnˈhæŋ] *v* (**unhung**) (*osilgan narsani*) olmoq, olib qo'ymoq
unhappy [ʌnˈhæpɪ] *a* baxtsiz, baxti qora
unharmed [ʌnˈhɑ:md] *a* zarar yetkazilmagan, bezarar, zarar (shikast) topmagan, ziyon-zahmatsiz, beshikast
unharness [ʌnˈhɑ:nɪs] *v* (*aravadan yoki qo'shdan*) chiqarmoq, bo'shatmoq, yechmoq
unhealthy [ʌnˈhelθɪ] *a* kasalmand, dardchil, kasaldan chiqmaydigan; nosog', betob, xasta
unheard [ʌnˈhɜ:d] *a* 1) eshitilmagan; 2) eshitilmas, eshitilmaydigan
unheard-of [ʌnˈhɜ:dɒv] *a* quloq eshitmagan, eshitilmagan, misli ko'rilmagan, mislsiz, ajoyib
unheeded [ʌnˈhi:dɪd] *a* e'tiborga olinmagan, ko'rmay qolingan
unheeding [ʌnˈhi:dɪŋ] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, parishonxotir
unhelpful [ʌnˈhelpf(ə)l] *a* foyda bermaydigan, foydasi (nafi) yo'q, befoyda, foydasiz, behuda
unhesitating [ʌnˈhezɪteɪtɪŋ] *a* dadil, jasur, dovyurak, mard, ikkilanmaydigan
unhesitatingly [ʌnˈhezɪteɪtɪŋlɪ] *a* jasurona, tortinmay, ikkilanmay, dadillik bilan
unhewn [ʌnˈhju:n] *a* yaxshi ishlov berilmagan, tekislanmagan
unhinge [ʌnˈhɪndʒ] *v* (*eshikni*) ilgagidan chiqarmoq
unholy [ʌnˈhəʊlɪ] *a* betavfiq, munkir, gunohli, murtad
unhook [ʌnˈhʊk] *v* ilgagidan chiqarib olmoq, olib qo'ymoq, chiqarib (ko'chirib, bo'shatib) olmoq
unhorse [ʌnˈhɔ:s] *a* otdan tashlamoq, otdan sakrab tushmoq, otdan (irg'itib) tashlab yubormoq
unhoused [ʌnˈhaʊzd] *a* uy-joysiz, boshpanasiz, bevatan, uydan haydalgan (quvilgan)
unhung [ʌnˈhʌŋ] *past., p. p. of* **unhang**
unhurried [ʌnˈhʌrɪd] *a* sekin, sust, ohista, bamaylixotir, shoshilmasdan
unhurt [ʌnˈhɜ:t] *a* lat yemagan, butun, sog'-salomat
unhygienic [ˌʌnhaɪˈdʒi:nɪk] *a* 1) kasalmand, nosog', betob, xasta; 2) gigiyenaga oid bo'lmagan
uni- [ˈju:nɪ-] *a murakkab so'zlarda* „bir" *degan mazmunni beradi*
unicellular [ˌju:nɪˈseljʊlə] *a biol.* bir hujayrali
unicorn [ˈju:nɪkɔ:n] *n* bir shoxli afsonaviy hayvon
unicorn-fish [ˈju:nɪkɔ:nfɪʃ] *n zool.* yakkashox, narval (*tumshug'ida shoxsimon tish bo'lgan kitsimon dengiz hayvoni*)
unidentified [ˌʌnaɪˈdentɪfaɪd] *a* notanish, noma'lum, aniqlanmagan; **~ flying object (UFO)** noma'lum uchar jism (NUJ)
unification [ˌju:nɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *a* birlashish, birlashuv
uniform [ˈju:nɪfɔ:m] **1.** *n* forma; **2.** *a* bir xil, bir-biriga aynan o'xshagan; **3.** *v* 1) forma kiymoq; 2) bir xillashtirmoq
uniformed [ˈju:nɪfɔ:md] *a* forma kiygan
uniformity [ˌju:nɪˈfɔ:mɪtɪ] *a* bir xillik, o'xshashlik, bir qolipdalik, bir taxlitdalik
unify [ˈju:nɪfaɪ] *a* 1) birlashtirmoq, bir xillashtirmoq; 2) bir shaklga keltirmoq, bir xil qilmoq
unilateral [ˌju:nɪˈlæt(ə)rəl] *a* bir tomonlama; **~ disarmament** bir tomonlama qurolsizlanish
unimaginable [ˌʌnɪˈmædʒɪnəb(ə)l] *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, favqulodda, haddan tashqari
unimaginative [ˌʌnɪˈmædʒɪnətɪv] *a* tasavvur qila olmaydigan, ko'z oldiga (xayolga) keltirolmaydigan
unimpaired [ˌʌnɪmˈpeəd] *a* 1) qo'l tegizilmagan, qo'l urilmagan, butun; 2) susaymagan, zaiflashmagan
unimpeachable [ˌʌnɪmˈpi:tʃəb(ə)l] *a* benuqson, bekam-ko'st
unimpeded [ˌʌnɪmˈpi:dɪd] *a* qarshiliksiz, monesiz, bemalol, erkin, hech qanday to'sqinliksiz
unimportant [ˌʌnɪmˈpɔ:t(ə)nt] *a* ahamiyatsiz, ahamiyati yo'q, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan
unimprovable [ˌʌnɪmˈpru:vəb(ə)l] *a* tuzatib bo'lmaydigan, tuzalmaydigan, tuzalmas, to'g'rilab bo'lmaydigan
unimproved [ˌʌnɪmˈpru:vd] *a* tuzatish kiritilmagan, to'g'rilanmagan
uninfluenced [ʌnˈɪnfluənst] *a* ta'siri ostida bo'lmagan
uninformed [ˌʌnɪnˈfɔ:md] *a* bexabar, xabari yo'q, uncha bilmaydigan
uninhabitable [ˌʌnɪnˈhæbɪtəb(ə)l] *a* yashash uchun yaroqli bo'lmagan, yashab bo'lmaydigan
uninhabited [ˌʌnɪnˈhæbɪtɪd] *a* odam (aholi) yashamaydigan, bo'sh yotgan, kishi qadami yetmagan
uninhibited [ˌʌnɪnˈhɪbɪtɪd] *a* ozod, erki (huquqi) o'zida bo'lgan
uninjured [ʌnˈɪndʒəd] *a* jabr (zarar) ko'rmagan, shikastlanmagan
uninspired [ˌʌnɪnˈspaɪəd] *a* ruhlanmagan, ruhi ko'tarilmagan
uninsured [ˌʌnɪnˈʃʊəd] *a* 1) sug'urta qilinmagan; 2) *ko'ch.* xavfsizligi ta'minlanmagan
unintelligent [ˌʌnɪnˈtelɪdʒ(ə)nt] *a* aqlsiz, fahm-farosatsiz
unintelligible [ˌʌnɪnˈtelɪdʒɪb(ə)l] *a* tushunib bo'lmaydigan, noaniq, chalkashib ketgan
uninterested [ʌnˈɪntrɪstɪd] *a* 1) loqayd, beparvo; 2) qiziqmagan, qiziqmay (ishqi tushmay, havas qilmay) qolgan
uninterrupted [ˌʌnɪntəˈrʌptɪd] *a* uzluksiz, to'xtovsiz
uninuclear [ˌju:nɪˈnju:klɪə] *a* bir yadroli
uninvited [ˌʌnɪnˈvaɪtɪd] *a* taklif qilinmagan, chaqirilmagan
uninviting [ˌʌnɪnˈvaɪtɪŋ] *a* o'ziga jalb qilmaydigan, tortmaydigan, yoqimsiz, ko'rimsiz, jozibasiz
union [ˈju:nɪən] *n* ittifoq, birlik, uyushma
Union flag [ˈju:nɪənflæg] *n* Birlashgan Qirollikning davlat bayrog'i
unionism [ˈju:nɪənɪz(ə)m] *n* tred-yunionizm (*ishchilar harakatida: vazifa faqat iqtisodiy talablarni amalga oshirish uchun kurashdan iborat deb biladigan, siyosiy kurashdan bosh tortadigan oqim*)
unionist [ˈju:nɪənɪst] *n* kasaba uyushmasining a'zosi
unionize [ˈju:nɪənaɪz] *v* 1) birlashtirmoq; 2) kasaba uyushmasiga birlashtirmoq
Union Jack [ˌju:nɪənˈdʒæk] = **Union flag**
union-smashing [ˌju:nɪənˈsmæʃɪŋ] *n* kasaba uyushmasining tor-mor qilinishi
union suit [ˌju:nɪəns(j)u:t] *n amer.* erkaklarning ichki kombinezoni (*kombinezon – shimi bilan ko'ylagi birga qo'shib tikilgan ish kiyimi, korjoma*)

unique [juˈniːk] **1.** *a* noyob, yagona, kamdan-kam uchraydigan, misli ko'rilmagan; **2.** *n* noyob, nodir, yagona (*kimsa yoki narsa*)

unisex [ˈjuːnɪseks] *a* ikkala jinsdagi kishilar uchun ham bo'laveradigan (to'g'ri keladigan); **~ clothes** ham ayollar, ham erkaklar kiysa bo'ladigan kiyimlar

unisexual [ˌjuːnɪˈsekʃʊəl] *a bot.* bir jinsli

unison [ˈjuːnɪz(ə)n] *n mus.* unison (*bir xil balandlikdagi bir necha ovozning o'zaro mosligi yoki ohangdoshligi*)

unit [ˈjuːnɪt] *n* 1) *harb.* bo'linma, qism; 2) bir butun (yaxlit) holdagi narsa

unite [juːˈnaɪt] *v* qo'shilmoq, birikmoq, qo'shmoq, birlashtirmoq

united [juːˈnaɪtɪd] *a* 1) birlashgan, uyushgan, qo'shma; 2) ahil, inoq, totuv; **a ~ family** ahil (totuv) oila

United Nations [juːˌnaɪtɪd ˈneɪʃ(ə)nz] *n* Birlashgan Millatlar Tashkiloti

unity [ˈjuːnɪtɪ] *n* birlik, birdamlik, hamjihatlik

universal [ˌjuːnɪˈvɜːs(ə)l] *a* umumiy, ommaviy, barchaga baravar taalluqli bo'lgan

universe [ˈjuːnɪvɜːs] *n* borliq, dunyo, olam, koinot

university [ˌjuːnɪˈvɜːsɪtɪ] **1.** *n* universitet; **2.** *a* universitetga oid

unjoin [ʌnˈdʒɔɪn] *v* ayirmoq, ajratmoq, uzmoq, ayirib (ajratib, uzib) qo'ymoq

unjust [ʌnˈdʒʌst] *a* 1) adolatsiz, nohaq; 2) insofsiz, noinsof

unkempt [ˌʌnˈkempt] *a* taralmagan, to'zg'igan

unkind [ˌʌnˈkaɪnd] *a* jahli yomon, badjahl, yovuz, shafqatsiz

unknown [ʌnˈnəʊn] **1.** *a* noma'lum, notanish; **2.** *n* **(the ~)** noma'lum shaxs, notanish kishi

unlaboured [ʌnˈleɪbəd] *a esk.* mehnat qilmasdan osongina erishilgan

unlace [ʌnˈleɪs] *v* (*oyoq kiyimining*) ipini yechmoq, bog'ichini bo'shatmoq, ipini yechib (bo'shatib) qo'ymoq

unlade [ʌnˈleɪd] *v* **(unladed; unladed, unladen)** yukni tushirmoq; yukdan bo'shatmoq

unladen [ʌnˈleɪdn] *p. p. of* **unlade**

unladylike [ʌnˈleɪdɪlaɪk] *a* nozik emas, nomuloyim, yumshoq bo'lmagan, xonimlarga xos bo'lmagan

unlawful [ʌnˈlɔːf(ə)l] *a* 1) g'ayriqonuniy, qonunga to'g'ri kelmaydigan; 2) nikohsiz

unleaded [ʌnˈledɪd] *a* qo'rg'oshindan tozalangan (*yonilg'i haqida*)

unlearn [ˌʌnˈlɜːn] *v* **(unlearnt, unlearned)** bilganini esdan chiqarmoq, unutib qo'ymoq

unlearned [ˌʌnˈlɜːnɪd] *a* savodsiz, o'qish-yozishni bilmaydigan, bilimsiz, o'qimagan

unlearnt [ˌʌnˈlɜːnt] *past., p. p. of* **unlearn**

unleash [ʌnˈliːʃ] *v* 1) (*itni*) bo'shatmoq, chiqarmoq, bo'shatib (qo'yib) yubormoq; 2) biror narsaga erk bermoq

unleavened [ʌn ˈlev(ə)nd] *a* chuchuk, sho'r emas, tuzsiz

unless [ənˈles] *cj* agar (agarda, basharti, mabodo, bordi-yu) ...masa

unlettered [ʌnˈletəd] *a* savodsiz, o'qish-yozishni bilmaydigan

unlike [ˌʌnˈlaɪk] *a* o'xshamagan, boshqacha

unlikely [ʌnˈlaɪkli] *a* haqiqatdan yiroq, mumkin bo'lmagan, noto'g'ri, o'xshamaydigan, boshqacha

unlimited [ʌnˈlɪmɪtɪd] *a* cheksiz, chegarasiz, bepoyon, cheklanmagan

unlink [ʌnˈlɪŋk] *v* ajratmoq, uzmoq, ajratib (uzib) qo'ymoq

unload [ʌn ˈləʊd] *v* yukini tushirmoq, yukdan bo'shatmoq

unlock [ʌnˈlɒk] *v* (*qulfni, qulflangan narsani*) ochmoq

unlooked-for [ʌnˈlʊktfɔː] *a* kutilmagan, kutilmaganda yuz bergan, tasodifiy, nogahoniy

unlov(e)able [ʌnˈlʌvəb(ə)l] *a* 1) sevish uchun munosib bo'lmagan, sevishga arzimaydigan; 2) o'ziga jalb qilmaydigan, jozibasiz, yoqimsiz

unlovely [ˌʌnˈlʌvlɪ] *a* yoqimsiz, yomon, o'ziga jalb qilmaydigan

unlucky [ʌnˈlʌkɪ] *a* 1) muvaffaqiyatsiz, o'ngidan kelmagan; 2) baxtsiz, omadsiz

unmade [ˌʌn ˈmeɪd] *past., p. p. of* **unmake**

unmake [ˌʌnˈmeɪk] *v* **(unmade)** qilingan (bajarilgan) ishni bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq

unman [ˌʌnˈmæn] *v* 1) axtalamoq, bichmoq; 2) odamlarsiz qolmoq

unmanageable [ʌn ˈmænɪdʒəb(ə)l] *a* nazorat qilish (boshqarish) qiyin bo'lgan; nazorat qilib (boshqarib) bo'lmaydigan

unmanned [ˌʌnˈmænd] *a* 1) (*ish o'rnini*) to'ldirib olmagan; 2) odamlar bilan to'ldirilmagan; 3) aholisiz, aholisi yo'q *yoki* kam, siyrak

unmannerly [ʌnˈmænəlɪ] *a* tarbiya ko'rmagan, tarbiyasiz, beadab

unmarked [ʌnˈmɑːkt] *a* belgilanmagan, belgi qo'yilmagan

unmarketable [ʌnˈmɑːkɪtəb(ə)l] *a* bozor (sotish)ga yaramaydigan, bozorbop emas

unmarried [ˌʌnˈmærɪd] *a* uylanmagan, turmushga chiqmagan

unmask [ʌn ˈmɑːsk] *v* niqobini yechib tashlamoq

unmatched [ˌʌnˈmætʃt] *a* mislsiz, tengsiz, tengi yo'q, benazir, hech kim oldiga tusholmaydigan

unmeaning [ʌnˈmiːnɪŋ] *a* bema'ni, ma'no ifodalamaydigan, ma'nosi yo'q, ma'nosiz

unmeant [ˌʌnˈment] *a* ataylab (qasddan) qilinmagan, bexosdan qilingan, jo'rttaga (bilaturib) qilinmagan

unmeasured [ʌnˈmeʒəd] *a* 1) o'lchanmagan; 2) o'lchab (solishtirib, qiyoslab) bo'lmaydigan, beqiyos

unmeet [ʌnˈmiːt] *a* munosib (bop, qulay, o'ng'ay, mos, muvofiq) emas

unmentionable [ʌnˈmenʃ(ə)nəb(ə)l] *a* 1) uyatsiz, qo'pol; 2) taqiqlangan, man etilgan; 3) nojo'ya, nomunosib

unmerciful [ʌnˈmɜːsɪf(ə)l] *a* rahm-shafqatni bilmaydigan; berahmlik (shafqatsizlik) bilan qilingan; berahm, toshyurak

unmindful [ʌnˈmaɪndf(ə)l] *a* tez esidan chiqadigan, xotirasi past, parishonxotir

unmistakable [ˌʌnmɪsˈteɪkəb(ə)l] *a* 1) xatosiz (bexato) qilingan; 2) xatosiz, to'g'ri

unmitigated [ʌnˈmɪtɪgeɪtɪd] *a* yumshatilmagan, muloyim qilinmagan, yumshamagan; 2) kamaymagan, pasaymagan

unmoor [ʌnˈmʊə] *v deng.* shvartov (*kemani kema to'xtaydigan joyga bog'lashda ishlatiladigan yo'g'on arqon, tros*)larni yechib yubormoq

unmoral [ˌʌnˈmɒrəl] *a* axloqsiz, axloqi buzilgan

unmounted [ˌʌnˈmaʊntɪd] *a* piyoda, yayov

unmoved [ʌnˈmuːvd] *a* 1) qo'zg'almaydigan, qimirlamaydigan; 2) harakatsiz, qo'zg'almas

unmurmuring [ʌnˈmɜːm(ə)rɪŋ] *a* itoatkor, gap qaytarmaydigan, gapga kiradigan, qobil

unnamed [ʌn ˈneɪmd] *a* nomsiz, otsiz, ismsiz, nomi yo'qolgan

unnatural [ʌnˈnætʃ(ə)rəl] *a* 1) tabiatda yo'q, tabiatda bo'lmagan; 2) notabiiy, g'ayritabiiy, sun'iy, yasama, soxta

unnecessary [ʌnˈnesəs(ə)rɪ] *a* keraksiz, foydasiz, befoyda

unnerve [ʌnˈnɜːv] *v* 1) asabiylantirmoq, asabini buzmoq; 2) kuchsizlantirmoq, quvvatsizlantirmoq, madorsiz qilmoq

unnoticed [ʌnˈnəʊtɪst] *a* sezilmagan, bilinmagan, ko'rinmagan, kishi bilmagan

unnumbered [ˌʌnˈnʌmbəd] *a* 1) son-sanoqsiz, behisob, ko'p; 2) raqam qo'yib chiqilmagan, raqam qo'yilmagan

unobservant |ˌʌnəbˈzɜːv(ə)nt| *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, aqli parishon
unobstructed |ˌʌnəbˈstrʌktɪd| *a* qarshiliksiz, bemalol, erkin, to'sqinsiz
unobtainable |ˌʌnəbˈteɪnəb(ə)l| *a* erishib bo'lmaydigan, yetishib bo'lmaydigan, qo'l yetmaydigan
unobtrusive |ˌʌnəbˈtruːsɪv| *a* kamtar, oddiy, sipo, kamtarin
unoccupied |ʌnˈɒkjʊpaɪd| *a* band emas, bo'sh
unoffending |ˌʌnəˈfendɪŋ| *a* 1) ranjitmaydigan, xafa qilmaydigan; 2) beayb, begunoh, aybsiz, gunohsiz
unofficial |ˌʌnəˈfɪʃ(ə)l| *a* norasmiy, g'ayrirasmiy, oddiy
unoriginal |ˌʌnəˈrɪdʒɪn(ə)l| *a* original (asl) emas; o'zlashtirilgan
unorthodox |ʌnˈɔːθədɒks| *a* 1) dindor emas, e'tiqodsiz; 2) hamma qabul qilmagan, hammaga ma'qul bo'lmagan, rasm bo'lmagan
unpack |ʌnˈpæk| *v* ochmoq, ochib olmoq (*o'rovdan, qutidan*), o'rovini olib tashlamoq
unpaged |ˌʌnˈpeɪdʒd| *a* sahifa (bet)larига raqam qo'yilmagan
unpaid |ʌnˈpeɪd| *a* to'lanmagan, haq to'lanmagan
unpalatable |ʌnˈpælətəb(ə)l| *a* 1) maza (lazzat, to')siz, shirin (xushxo'r) emas; 2) yoqimsiz, noxush
unparalleled |ʌnˈpærəleld| *a* mislsiz, tengsiz, tengi yo'q, misli ko'rilmagan, benazir
unpardonable |ʌnˈpɑːdənəbl| *a* kechirilmaydigan, kechirib bo'lmaydigan, uzrsiz
unparented |ˌʌnˈpeərəntɪd| *a* 1) yetim qolgan, ota-onasi tashlab ketgan; 2) ota-onalik huquqidan mahrum etilgan (bo'lgan)
unpeg |ʌnˈpeg| *v* (*ichidan*) olmoq, chiqarmoq, chiqarib (tortib) olmoq
unpenetrable |ˌʌnˈpenətrəb(ə)l| *a* (*suv, yorug'lik, ovoz va h. k. ni*) o'tkazmaydigan, o'tmaydigan, o'zidan o'tkazmaydigan
unpeople |ʌnˈpiːp(ə)l| *v* 1) odamsiz qoldirmoq, huvullatib qo'ymoq; 2) odamsiz bo'lib qolmoq, kimsasiz qolmoq, huvullab qolmoq
unperturbed |ˌʌnpəˈtɜːbd| *a* og'ir, vazmin, yuragi keng
unpick |ʌnˈpɪk| *v* tilmoq, yormoq
unpin |ʌnˈpɪn| *v* (*nimadandir*) to'g'nag'ichni yechib olmoq
unpleasant |ʌnˈplez(ə)nt| *a* yoqimsiz, yomon, xunuk
unpleasantness |ʌnˈplez(ə)ntnəs| *n* 1) ko'ngilsizlik, yoqimsizlik; 2) urush, janjal, nizo, araz; 3) anglashilmovchilik, tushunmovchilik, xato (noto'g'ri) tushunish
unplug |ʌnˈplʌg| *v* (*tarmoqdan*) uzmoq, uzib qo'ymoq
unpointed |ʌnˈpɔɪntɪd| *a* o'tmaydigan, kesmaydigan, o'tmas, uchi chiqarilmagan (*qalam va b.*)
unpolitical |ˌʌnpəˈlɪtɪk(ə)l| *a* 1) siyosatga aloqador bo'lmagan; 2) o'ylamasdan ish qiladigan; 3) hech narsaga qiziqmaydigan, hafsalasi (havasi, ishtiyoqi) yo'q, loqayd
unpopular |ʌnˈpɒpjʊlə| *a* hech kim tanimaydigan, dong'i chiqmagan
unpractical |ʌnˈpræktɪk(ə)l| *a* ishning ko'zini (turmushning ilmini) bilmaydigan, tajribasiz
unpractised |ʌnˈpræktɪst| *a* 1) tajribasiz, tajribasi yo'q (kam), tajriba orttirmagan, malakasiz; 2) amaliyotda qo'llanilmagan
unprecedented |ʌnˈpresɪdentɪd| *a* mislsiz, tengsiz, tengi yo'q, misli ko'rilmagan, benazir
unprejudiced |ʌnˈpredʒədɪst| *a* oldindan biror (*odatda, salbiy*) fikrda bo'lmagan, xolis, beg'araz, odil, betaraf
unpremeditated |ˌʌnprɪˈmedɪteɪtɪd| *a* qasddan qilinmagan, bilmasdan qilib qo'yilgan, oldindan o'ylab (atayin) qilinmagan, g'araz niyat bilan qilinmagan
unprepared |ˌʌnprɪˈpeəd| *a* tayyorgarlik ko'rmagan, hozirlik ko'rmagan, tayyor (shay, hozir, tappa-tayt) emas
unprepossessed |ˌʌnpriːpəˈzest| = **unprejudiced**
unpresentable |ˌʌnprɪˈzentəb(ə)l| *a* ko'rimsiz, fayzsiz, xunuk, sovuq, ko'rksiz
unpretending |ˌʌnprɪˈtendɪŋ| = **unpretentious**
unpretentious |ˌʌnprɪˈtenʃəs| *a* kamtar, oddiy, sipo, sharm-hayoli
unpriced |ʌnˈpraɪst| *a* 1) aniq (belgilangan) narxsiz; 2) bahosi yo'q, bebaho, qimmatbaho
unprincipled |ʌnˈprɪnsɪp(ə)ld| *a* maslak-maqsadi yo'q, tuturiqsiz, betayin
unprocurable |ˌʌnprəˈkjʊərəbl| *a* erishib (yetishib, yoniga borib, chiqib, olib, egallab) bo'lmaydigan
unproductive |ˌʌnprəˈdʌktɪv| *a* unumsiz, unumi kam (oz), samarasiz
unprofessional |ˌʌnprəˈfeʃ(ə)nəl| *a* kasbga oid (kasb bilan bog'liq) bo'lmagan, kasb qilib olinmagan; hech qanday kasbi bo'lmagan
unprofitable |ʌnˈprɒfɪtəb(ə)l| *a* foyda (naf) keltirmaydigan, foydasiz, befoyda, foyda bermaydigan
unpromising |ʌnˈprɒmɪsɪŋ| *a* kam (oz) va'da beradigan; hech qanday yaxshi narsani va'da bermaydigan
unprompted |ʌnˈprɒmptɪd| *a* sekin (pichirlab, boshqalarga sezdirmay) aytib berilmagan, aytib turilmagan
unprovided |ˌʌnprəˈvaɪdɪd| *a* 1) (*pul va b. bilan*) ta'minlanmagan; 2) tayyorlanmagan; 3) ehtiyotsiz, uzoqni o'ylamay ish qiladigan
unprovoked |ˌʌnprəˈvəʊkt| *a* ataylab ig'vo qilib fitna chiqarmagan
unpublished |ʌnˈpʌblɪʃt| *a* nashr qilinmagan, bosib chiqarilmagan, matbuotda e'lon qilinmagan
unpunishable |ʌnˈpʌnɪʃəbl| *a* jazolanmaydigan, jazo berilmaydigan, jazoga tortilmaydigan
unpunished |ʌnˈpʌnɪʃt| *a* jazosiz, jazosiz qoldirilgan
unqualified |ʌnˈkwɒlɪfaɪd| *a* kerakli darajadagi ma'lumot *yoki* malakaga ega bo'lmagan
unquenchable |ʌnˈkwentʃəb(ə)l| *a* qonmaydigan, qondirib bo'lmaydigan; ~ **thirst** qattiq tashnalik
unquestionable |ʌnˈkwestʃ(ə)nəb(ə)l| *a* shubhasiz, so'zsiz, beshak, begumon, aniq
unquestioned |ʌnˈkwestʃənd| *a* shubha tug'dirmaydigan, aniq, begumon
unquestioning |ʌnˈkwestʃənɪŋ| *a* 1) ko'p savollar so'ramaydigan; 2) shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, begumon
unquiet |ʌnˈkwaɪət| *n* notinchlik, xavotirlik, bezovtalik, tashvish
unquotable |ˌʌnˈkwəʊtəb(ə)l| *a* 1) sitata olishga arzimaydigan; 2) senzurasiz
unquote |ˌʌnˈkwəʊt| *v* qo'shtirnoqni yopmoq
unravel |ʌnˈræv(ə)l| *v* 1) (*jumboq va sh. k. ning*) uchini, yechimini topmoq, o'ylab topmoq, 2) (*ip va sh. k. ning*) chigalini yechmoq
unread |ˌʌnˈred| *a* o'qilmagan, o'qib chiqilmagan, o'qib berilmagan
unreadable |ʌnˈriːdəb(ə)l| *a* (*husnixat haqida*) o'qib bo'lmaydigan
unreal |ʌnˈrɪəl| *a* 1) sun'iy, yasama, soxta, qalbaki; 2) xayoliy, xayoldagi, faraz qilingan
unrealistic |ˌʌnrɪəˈlɪstɪk| *a* xayoliy, haqiqiy bo'lmagan, amalga oshmaydigan; amalga oshirsa bo'lmaydigan
unrealizable |ˌʌnrɪəˈlaɪzəb(ə)l| *a* bajarib (amalga oshirib) bo'lmaydigan, yuzaga (ro'yobga) chiqmaydigan
unreason |ˌʌnˈriːz(ə)n| *n* aqldan ozganlik, jinnilik, aqlsizlik, befarosatlilik, noma'qullik
unreasonable |ʌnˈriːz(ə)nəb(ə)l| *a* 1) o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak; 2) aqlsiz, ongsiz; 3) o'ta, haddan tashqari, asossiz

unrecognized |ʌnˈrekəgnaɪzd| *a* tanilmagan, oti (nomi, dong'i) chiqmagan
unreel |ʌnˈri:l| *v* 1) (*g'altakni*) yozmoq, yechmoq, tortmoq, chuvatmoq; 2) yechilmoq, ochilmoq, yozilmoq; **to ~ silk** ipak tortmoq
unrelenting |ˌʌnrɪˈlentɪŋ| *a* ayanmaydigan, rahmsiz, shafqatsiz, bag'ritosh, zolim, noinsof
unreliable |ˌʌnrɪˈlaɪəb(ə)l| *a* ishonib bo'lmaydigan, ishonchsiz, bo'sh, omonat, ko'ngil to'lmaydigan
unrelieved |ˌʌnrɪˈli:vd| *a* 1) (*qandaydir lavozim, mansabdan*) bo'shatilmagan, ozod qilinmagan; 2) yordam olinmagan
unremitting |ˌʌnrɪˈmɪtɪŋ| *a* betinim, hormas-tolmas, doimiy, qattiq
unrepeatable |ˌʌnrɪˈpi:təb(ə)l| *a* 1) qaytarib aytib bo'lmaydigan; tengi yo'q, mislsiz, misli yo'q, yagona, topilmas
unrequited |ˌʌnrɪˈkwaɪtɪd| *a* tegishlicha (yarasha) taqdirlanmagan, mukofotlanmagan, haq to'lanmagan
unreserved |ˌʌnrɪˈzɜ:vd| *a* 1) oshkor, ochiqdan ochiq; 2) oldindan (buyurib) band qilib qo'yilmagan
unreservedly |ˌʌnrɪˈzɜ:vɪdlɪ| *adv* butunlay, batamom, tamomila; mutlaqo
unresolved |ˌʌnrɪˈzɒlvd| *a* 1) hal etilmagan; 2) jur'atsiz, ikkilanuvchi; 3) qaror qabul qilmagan
unrest |ʌnˈrest| *n* notinchlik, xavotirlik, bezovtalik
unresting |ʌnˈrestɪŋ| *a* charchamas, tolmas, hormas
unrestrained |ˌʌnrɪˈstreɪnd| *a* 1) o'lchovsiz, chegaralanmagan, cheklanmagan; 2) tiyib (to'xtatib) bo'lmaydigan
unrestricted |ˌʌnrɪˈstrɪktɪd| *a* cheksiz, cheklanmagan, chek qo'yilmagan
unriddle |ʌnˈrɪdl| *v* 1) (*jumboqni*) o'ylab topmoq, (*topishmoqni*) yechmoq; 2) tushuntirib (izohlab) bermoq
unrig |ʌnˈrɪg| *v* 1) qurolsizlantirmoq; 2) yechintirmoq
unrighteous |ʌnˈraɪtʃəs| *a* 1) betavfiq, munkir, murtad, gunohli; 2) adolatsiz, asossiz
unrip |ʌnˈrɪp| *v* (*chokidan*) so'kmoq
unripe |ʌnˈraɪp| *a* yetilib pishmagan, xom, g'o'r, dumbul
unrival(l)ed |ʌnˈraɪv(ə)ld| *a* eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan
unroll |ʌnˈrəʊl| *v* yozilmoq, yoyilmoq
unruffled |ʌnˈrʌf(ə)ld| *a* 1) tinch, osoyishta, tekis, tep-tekis, silliq (*dengiz va sh. k. yuzasi haqida*); 2) jimjit, tinch, sokin; osoyishta, xotirjam, bexavotir
unruly |ʌnˈru:lɪ| *a* itoatsiz, bo'ysunmaydigan, so'zga kirmaydigan, quloq solmaydigan
unsaddle |ʌnˈsædl| *v* 1) otning egarini olib qo'ymoq; 2) (*otdan*) tashlamoq, otmoq, irg'itmoq
unsafe |ʌnˈseɪf| *a* ishonib bo'lmaydigan, ishonchsiz, xavfli, qaltis
unsaid |ʌnˈsed| *a* aytilmagan, gapirilmagan, so'zlanmagan, deyilmagan
unsatisfactory |ˌʌnsætɪsˈfæktərɪ| *a* qoniqarsiz, talabga javob bermaydigan; **an ~ answer** qoniqarsiz javob
unsatisfied |ʌnˈsætɪsfaɪd| *a* qoniqmagan, qanoatlanmagan, mamnun bo'lmagan
unsavoury |ʌnˈseɪv(ə)rɪ| *a* 1) yoqimsiz, jirkanch, kishini sovitadigan, o'zidan qochiradigan; 2) bemaza, mazasi yo'q
unscathed |ʌnˈskeɪðd| *a* zarar (shikast) topmagan, eson-omon, sog'-salomat, shikastsiz, beshikast
unscrew |ʌnˈskru:| *v* burab chiqarmoq, burab chiqarib olmoq; burab bo'shatmoq
unscrupulous |ʌnˈskru:pjʊləs| *a* 1) injiq (serzarda) emas; 2) maslak-maqsadi yo'q, tuturiqsiz, betayin
unseam |ʌnˈsi:m| *v* 1) tilmoq, yormoq, chavaqlamoq; 2) (*chokidan*) so'kmoq
unseeing |ˌʌnˈsi:ɪŋ| *a* ko'rmaydigan, ojiz, ko'r
unseemly |ʌnˈsi:mlɪ| *a* nomunosib, noloyiq, yarashmaydigan, kelishmaydigan, to'g'ri kelmaydigan, noma'qul
unseen |ˌʌnˈsi:n| *a* ko'rinmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmas
unselfish |ʌnˈselfɪʃ| *a* beg'araz, xolis, tama qilmaydigan, o'z manfaatini ko'zlamaydigan
unsettled |ˌʌnˈsetld| *a* tartibga solinmagan, yo'lga qo'yilmagan, hal bo'lmagan, hal qilinmagan
unshadowed |ˌʌnˈʃædəʊd| *a* 1) bulutsiz, ochiq, musaffo; 2) *ko'ch.* porloq, beg'ubor
unshak(e)able |ʌnˈʃeɪkəb(ə)l| *a* og'ishmaydigan, qaytmaydigan; qattiq, mustahkam, sabotli, barqaror
unshapely |ʌnˈʃeɪplɪ| *a* 1) shaklsiz; 2) xunuk, ko'rimsiz, chiroyli emas; beso'naqay; **an ~ figure** beso'naqay qomat
unshared |ʌnˈʃeəd| *a* 1) bo'linmagan, taqsimlanmagan, qismlarga bo'linmagan; 2) *ko'ch.* javobsiz, bir tomonlama (*hissiyot va b.*)
unsheltered |ˌʌnˈʃeltəd| *a* 1) ochiq, yopilmagan, berkitilmagan, himoya qilinmagan; 2) boshpanasiz
unshod I |ˌʌnˈʃɒd| *a* taqasi tushib qolgan *yoki* olib tashlangan, taqasiz (*ot haqida*)
unshod II |ˌʌnˈʃɒd| *past., p. p. of* **unshoe**
unshoe |ˌʌnˈʃu:| *v* (**unshod**) olmoq, olib qo'ymoq, olib tashlamoq (*oyoq kiyimini*)
unshrinking |ʌnˈʃrɪŋkɪŋ| *a* qattiq, mustahkam sabotli, barqaror
unshutter |ʌnˈʃʌtə| *v* deraza eshiklarini ochmoq
unsightly |ʌnˈsaɪtlɪ| *a* ko'rimsiz, xunuk, badburush, yomon
unskilful |ʌnˈskɪlf(ə)l| *a* noshud, epsiz, tajribasiz, no'noq, ish bilmaydigan, ishning uddasidan chiqa olmaydigan, mahoratsiz
unskilled |ˌʌnˈskɪld| *a* 1) malakasiz, tajribasiz; **~ labour** maxsus malaka talab qilmaydigan ish; 2) yaxshi ishlanmagan, mahoratsiz ishlangan, no'noq; **~ work** no'noq ish
unsleeping |ˌʌnˈsli:pɪŋ| *a* uyg'oq, sergak, hushyor, ziyrak
unsolicited |ˌʌnsəˈlɪsɪtɪd| *a* ixtiyoriy ravishda (so'ralmasa ham) berilgan, taqdim etilgan
unsound |ˌʌnˈsaʊnd| *a* sog'lig'i qochgan, kasalmand, betob, xasta
unsparing |ʌnˈspe(ə)rɪŋ| *a* isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi
unspeakable |ʌnˈspi:kəb(ə)l| *a* ta'riflab (tavsiflab, tushuntirib, aytib) bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan
unsportsmanlike |ʌnˈspɔ:tsmənlaɪk| *a* 1) sportchilarga xos bo'lmagan; sportchiga noloyiq, nomunosib, teng (loyiq, munosib) emas; 2) sport qoidalariga nomuvofiq
unspotted |ˌʌnˈspɒtɪd| *a* dog' tushmagan, gard tegmagan, kir (iflos) qilinmagan
unstable |ʌnˈsteɪb(ə)l| *a* o'zgaruvchan, beqaror, kalovlagan, omonat
unstained |ˌʌnˈsteɪnd| *a* dog' (gard) tegmagan, badnom bo'lmagan
unstarched |ˌʌnˈstɑ:tʃt| *a* 1) kraxmallanmagan, ohorlanmagan, ohorsiz; 2) erkin, bemalol, tabiiy
unsteady |ʌnˈstedɪ| *a* beqaror, likillab (qimirlab, chayqalib) turadigan
unstirred |ˌʌnˈstɜ:d| *a* og'ir, vazmin, yuragi keng, sira hovliqmaydigan, pinagini buzmaydigan, tepsa-tebranmas
unstitch |ʌnˈstɪtʃ| *v* so'kmoq (*chok to'g'risida*)
unstop |ʌnˈstɒp| *v* 1) to'siqni, xalal beruvchi narsani olib tashlamoq; (*yo'l va sh. k. ni*) ochmoq; 2) og'zini (tiqinini, qopqog'ini) ochmoq, po'kagini (tiqinini) chiqarib olmoq
unstrained |ˌʌnˈstreɪnd| *a* 1) tarang tortilmagan (*arqon va sh. k. haqida*); 2) erkin, bemalol, tabiiy

unstrap [ʌn ˈstræp] *v* (*kamar va sh. k. ni*) yechmoq, yechib qo'ymoq, bo'shatmoq
unstressed [ˌʌnˈstrest] *a* urg'u olmaydigan, urg'usiz
unstrung [ʌnˈstrʌŋ] *a* 1) shaloq, liqildoq; 2) tarang qilib tortilmagan (*tor haqida*)
unstuck [ʌnˈstʌk] *v* (*yelimlangan, yopishtirilgan narsani*) ko'chirmoq, ko'chirib olmoq
unstudied [ˌʌn ˈstʌdɪd] *a* 1) o'rganilmagan, tekshirilmagan; 2) (*nimanidir*) bilmaydigan, (*nimadandir*) xabardor bo'lmagan; 3) erkin, bemalol, tabiiy
unsubstantial [ˌʌnsəbˈstænʃ(ə)l] *a* uncha ahamiyatli bo'lmagan, unchalik muhim bo'lmagan, ikkinchi darajali
unsuccessful [ˌʌnsəkˈsesf(ə)l] *a* muvaffaqiyatsiz; omadsiz
unsuitable [ʌnˈs(j)u:təb(ə)l] *a* nomunosib, noloyiq, yarashmaydigan, to'g'ri (mos, loyiq) kelmaydigan
unsuited [ʌn ˈs(j)u:tɪd] *a* nomunosib, nobop, noqulay, nomuvofiq
unsure [ˌʌnˈʃoə] *a* 1) ishonib bo'lmaydigan, ishonchsiz; 2) ishonchi komil emas, ikkilanuvchi
unsuspecting [ˌʌnsəˈspektɪŋ] *a* 1) ishonuvchan, inonuvchan; 2) laqma, laq etib tushadigan
unswerving [ʌnˈswɜ:vɪŋ] *a* to'g'ri yo'ldan og'ishmaydigan, qattiq, mustahkam, sabotli
untangle [ʌnˈtæŋg(ə)l] *v* (*chigal, tugun kabilarni*) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq
untaught [ˌʌnˈtɔ:t] *a* o'rgatilmagan, o'qitilmagan, maxsus ta'lim berilmagan (olmagan)
unthankful [ʌnˈθæŋkf(ə)l] *a* yaxshilikni bilmaydigan, ko'rnamak, nonko'r, oqibatsiz, qadr-qimmatiga yetmaydigan
unthinkable [ʌnˈθɪŋkəb(ə)l] *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, aqlga sig'maydigan, aqlga to'g'ri kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan
unthinking [ʌnˈθɪŋkɪŋ] *a* 1) o'ylamasdan qilingan, mulohazasiz; 2) hech narsani o'ylamaydigan
untidy [ʌnˈtaɪdɪ] *a* iflos, kir, isqirt, palapartish
untie [ʌnˈtaɪ] *v* yechmoq, bo'shatmoq, ochmoq
until [ənˈtɪl] *prep.* -maguncha, -gacha, qadar, vaqtgacha
untimely [ˌʌnˈtaɪmlɪ] *a* 1) vaqtidan ilgari (erta) yuz bergan; 2) bevaqt, bemahal
unto [ˈʌntu:] = **to**
untold [ˌʌnˈtəʊld] *a* hikoya qilinmagan, so'zlab berilmagan, hikoya qilib (gapirib, aytib) berilmagan
untouchable [ʌnˈtʌtʃəb(ə)l] *a* 1) qo'l tegizib bo'lmaydigan; 2) erishib (yetishib) bo'lmaydigan
untoward [ˌʌntəˈwɔ:d] *a* noqulay, nobop, o'ng'aysiz, yomon
untrained [ˌʌnˈtremd] *a* 1) o'rgatilmagan, o'qitilmagan; 2) malakasiz
untrammelled [ʌnˈtræm(ə)ld] *a* qarshiliksiz, erkin, bemalol
untranslatable [ˌʌntrænsˈleɪtəb(ə)l] *a* tarjima qilib bo'lmaydigan, tarjima qilinmaydigan
untrue [ʌnˈtru:] *a* yolg'on, noto'g'ri, xato
untrustworthy [ʌn ˈtrʌst,wɜ:ðɪ] *a* ishonchsiz, ishonib bo'lmaydigan
untruth [ʌnˈtru:θ] *n* nohaq (noto'g'ri, yolg'on) gap, ish va h. k.
untutored [ˌʌnˈtju:təd] *a* o'rgatilmagan, o'qitilmagan, maxsus ta'lim berilmagan (olmagan)
untwine [ʌnˈtwaɪn] *v* (*chigal, tugun kabilarni*) yechmoq, bo'shatmoq
untwist [ʌnˈtwɪst] *v* buralgan narsani aylantirib (g'ildiratib) yechmoq, bo'shatmoq
unused [ʌn ˈju:st] *a* 1) (**to** *nimagadir*) odatlanmagan; 2) [ˈʌnˈju:zd] ishlatilmagan; ishlatilmaydigan
unusual [ʌnˈju:ʒuəl] *a* odatdan tashqari, g'alati, ajoyib
unusually [ʌnˈju:ʒuəlɪ] *adv* xususan, ayniqsa, birinchi navbatda, eng avval, avvalo
unutterable [ʌnˈʌt(ə)rəb(ə)l] *a* ta'riflab (tushuntirib, aytib) bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan
unvalued [ˌʌnˈvælju:d] *a* bebaho, qimmatli
unveil [ˌʌnˈveɪl] *v* 1) ochmoq, ochib qo'ymoq, ochib tashlamoq; 2) (*yodgorlikni*) tantanali ravishda ochmoq; 3) (*sir; reja va b. ni*) ochmoq, fosh etmoq
unversed [ˌʌnˈvɜ:st] *a* uncha (yetarlicha) bilmaydigan, bexabar, yetarli tajribasi bo'lmagan
unvoice [ˌʌnˈvɔɪs] *v fon.* jarangsiz qilmoq
unwanted [ʌnˈwɒntɪd] *a* xush ko'rilmagan (kelmaydigan), yoqmaydigan, noma'qul, yoqimsiz
unwarrantable [ʌnˈwrəntəb(ə)l] *a* 1) to'g'ri deb bo'lmaydigan, asossiz; 2) noo'rin, foydasiz, o'rinsiz
unwarranted [ˌʌnˈwɒrəntɪd] *a* 1) kafilligi olinmagan; 2) ijozat berilmagan, ruxsat etilmagan, yo'l qo'yilmagan, mumkin bo'lmagan, nojoiz
unwary [ʌnˈwe(ə)rɪ] *a* ehtiyotsizlik bilan ish tutadigan, ehtiyotsiz, oqibatini o'ylamay ish qiladigan
unwearying [ʌnˈwɪ(ə)rɪɪŋ] *a* charchamas, tolmas, hormas, tinmaydigan, toliqmaydigan, serg'ayrat
unweave [ʌnˈwi:v] *v* (**unwove; unwoven**) o'ramni yozmoq (yechmoq), o'ralgan narsani yechmoq
unwelcome [ʌnˈwelkəm] *a* 1) xush ko'rilmagan (kelmaydigan), yoqmaydigan, yoqimsiz; 2) xohlanmagan, istalmagan; so'ralmagan
unwell [ʌnˈwel] *a* kasalmand, betob, xasta, sog'lig'i yomon
unwholesome [ʌnˈhəʊls(ə)m] *a* 1) sog'lig'i qochgan, kasalmand; 2) foydasiz, zararli
unwieldy [ʌnˈwi:ldɪ] *a* qo'pol, beso'naqay, katta, ko'p joy oladigan
unwilled [ʌnˈwɪld] *a* 1) bexosdan qilingan, tasodifiy; 2) atayin (jo'rttaga, bilaturib, qasddan) qilinmagan
unwilling [ʌnˈwɪlɪŋ] *a* xohishi yo'q, maylsiz, yoqtirmaydigan; mayli (havasi, ishtiyoqi) bo'lmagan
unwillingly [ʌnˈwɪlɪŋlɪ] *adv* istar-istamas, xohlamay, beixtiyor, xohlamasdan
unwind [ʌnˈwaɪnd] *v* (**unwound**) 1) yozilmoq, chuvalmoq, chuvalib (yozilib) ketmoq; 2) chuvamoq, yechmoq
unwisdom [ˌʌnˈwɪzdəm] *n* ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik, bema'nilik
unwise [ʌnˈwaɪz] *a* o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak, bema'ni
unwished [ʌnˈwɪʃt] *a* istalmagan, orzu qilinmagan, kutilmagan
unwitting [ˌʌnˈwɪtɪŋ] *a* 1) bilmaydigan, bexabar, bilimsiz, ma'lumotsiz, tajribasiz; 2) oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilmagan, atayłab (qasddan, jo'rttaga) qilinmagan
unwittingly [ˌʌnˈwɪtɪŋlɪ] *adv* noiloj, beixtiyor, xohishsiz, xohlamasdan, bexosdan, ixtiyorsiz
unwonted [ʌnˈwəʊntɪd] *a* odatlanmagan, o'rganilmagan, odat tusiga kirmagan
unworn [ˌʌnˈwɔ:n] *a* kiyilmagan, yangi, tutilmagan
unworthy [ʌnˈwɜ:ðɪ] *a* noloyiq, nomunosib, loyiq (munosib, teng) emas, arzimaydigan
unwound [ʌnˈwaond] *past., p. p. of* **unwind**
unwove [ʌnˈwəʊv] *past. of* **unweave**
unwoven [ʌnˈwəʊv(ə)n] *p. p. of* **unweave**
unwrap [ʌnˈræp] *v* ochilmoq, yechilmoq, (*tugunni, o'ralgan narsani*) yechmoq, ochmoq
unwritten [ʌn ˈrɪtn] *a* 1) yozilmagan; 2) toza, bo'sh (*bet, sahifa, varaq haqida*)
unyielding [ʌn ˈji:ldɪŋ] *a* o'z ahdidan qaytmas, sabotli, mustahkam
up [ʌp] *adv* yuqoriga, tepaga, balandga; **the time is ~** vaqt tugadi; **~ to** ...gacha

up-and-coming [ˌʌpənˈkʌmɪŋ] *a* quntli, g'ayratli, faol
up and down [ˌʌpənˈdaon] *adv* tepaga va pastga, ko'tarilib va tushib; **to move ~** tepaga va pastga harakat qilmoq
upbraid [ʌpˈbreɪd] *v* 1) birovni asossiz ayblamoq, tirnoq ostidan kir izlamoq; 2) ta'na (malomat) qilmoq; tanbeh bermoq, tergab koyimoq
upbringing [ˈʌpbrɪŋɪŋ] *n* tarbiya, tarbiyalash, parvarish qilish
upbuild [ʌpˈbɪld] *v* (**upbuilt**) qurmoq, ko'tarmoq, bino qilmoq, barpo qilmoq
upbuilt [ʌpˈbɪlt] *past., p. p. of* **upbuild**
upchuck [ʌpˈtʃʌk] *v* qusmoq, qayt qilmoq, ko'ngli aynimoq
up-country [ˈʌpkʌntrɪ] *adv* 1) mamlakatda, mamlakat ichida; 2) mamlakatga, mamlakat ichiga
update [ˌʌpˈdeɪt] *v* zamonaviylashtirmoq, hozirgi zamonga moslab qayta ishlamoq
updo [ˈʌpduː] *n* sochni yuqoriga qarab tarab turmaklash
upgrade [ˈʌpgreɪd] *n* yuksalish, rivojlanish, malaka oshirish
upgrowth [ˈʌpgrəoθ] *n* o'sish, rivojlanish, ko'tarilish
upheaval [ʌpˈhiːv(ə)l] *n* 1) siqish, surilish; 2) tub burilish
upheave [ʌpˈhiːv] *v* (**uphove**) ko'tarilmoq, yuqori chiqmoq, ko'tarmoq
upheld [ʌpˈheld] *past., p. p. of* **uphold**
uphill [ˌʌpˈhɪl] **1.** *adv* tepaga, yuqoriga; **2.** *a* tog'ga chiquvchi
uphold [ʌpˈhəold] *v* (**upheld**) 1) qo'llab-quvvatlamoq; 2) tutib turmoq; tirab turmoq
upholder [ʌpˈhəoldə] *n* tarafdor, yoqlovchi
upholster [ʌpˈhəolstə] *v* 1) (*mebelni*) qoplamoq, sirmoq; 2) (*gilam va b. ni*) ilmoq, osmoq, ilib (osib) qo'ymoq; yoymoq
upholsterer [ʌpˈhəolstərə] *n* mebel qoplovchi usta
upholstery [ʌpˈhəolst(ə)rɪ] *n* 1) mebel qoplovchilik kasbi; 2) qoplash uchun ishlatiladigan gazlama (gazmol)
uphove [ʌpˈhəov] *past., p. p. of* **upheave**
upkeep [ˈʌpkiːp] *n* yaxshi holatda ushlab turish, qarash, saqlash, asrash
upland [ˈʌplənd] *n pl* tog'li mamlakat
uplift [ˈʌpˌlɪft] *n* ko'tarish, ko'tarilish (*madaniyat va b. haqida*); ruhiy ko'tarinkilik
uplifting [ʌpˈlɪftɪŋ] *n* (*kayfiyatni*) ko'tarish
upon [əˈpɒn] *prep.* ustida, ustiga
upper [ˈʌpə] *n* yuqori, yuqoridagi, tepadagi, ustki; **the Upper House** yuqori palata (*lordlar palatasi — Angliyada; Senat — AQSHda*)
uppermost [ˈʌpəməost] *a* 1) eng yuqori o'rinni egallaydigan; 2) oliy, bosh, eng yuqori
uppish [ˈʌpɪʃ] *a so'zl.* 1) kekkaygan, g'ururli, kibrli, takabbur, dimog'dor; 2) surbet, bezbet, behayo, uyatsiz
uppity [ˈʌpɪtɪ] *a so'zl.* kekkaygan, g'ururli, takabbur, dimog'dor
upraise [ʌpˈreɪz] *v* 1) (*yerdan*) ko'tarmoq, ko'klarga ko'tarmoq; 2) e'tiborini oshirmoq; obro'yini ko'tarmoq
upright [ˈʌpraɪt] *a* 1) to'g'ri, tikka; 2) tirgovuch, tirgak, tamba
uprightly [ˈʌpraɪtlɪ] *adv* to'g'ri, to'ppa-to'g'ri, to'g'ridan to'g'ri, ochiqdan ochiq
upright piano [ˌʌpraɪtpɪˈænəo] *n* pianino
uprise [ˈʌpraɪz] **1.** *n* chiqish, quyoshning chiqish payti, tong; **2.** *v* (**uprose; uprisen**) ko'tarilmoq, yuqori chiqmoq
uprisen [ʌpˈrɪz(ə)n] *past. of* **uprise 2**
uprising [ˈʌpˌraɪzɪŋ] *n* qo'zg'olon, g'alayon, isyon
uproar [ˈʌprɔː] *n* shovqin, shovqin-suron, shov-shuv, qiy-chuv
uproarious [ʌpˈrɔːrɪəs] *a* 1) shovqinsuronli, sershovqin; 2) kuchli, shiddatli, qattiq
uproot [ˌʌpˈruːt] *v* 1) tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, ildizini quritmoq; 2) ildizi bilan sug'urib tashlamoq
uprose [ʌpˈrəoz] *past. of* **uprise**
upset [ʌpˈset] *v* 1) ag'darmoq, ag'darilmoq; 2) xafa qilmoq, ko'nglini g'ash qilmoq; **to be ~ about** ...dan kayfiyati buzilmoq (xafa bo'lmoq)
upshot [ˈʌpʃɒt] *n* yechim, oqibat, yakun, natija; **in the ~** oqibatida
upside-down [ˌʌpsaɪdˈdaon] **1.** *a* ostin-ustun qilingan; **2.** *adv* 1) ostin-ustun, to'ntarilib, to'nkarib; 2) ostin-ustun, alg'ov-dalg'ov
upstairs [ˌʌpˈsteəz] *adv* 1) yuqoriga, yuqori qavatga; 2) (*zinapoya bilan*) yuqoriga, tepaga, yuqori tomonga
upstanding [ˌʌpˈstændɪŋ] *a* 1) tik turadigan, o'zi turaveradigan, tik; 2) sog'lom, tani sog'; **~ children** sog'lom bolalar
upstart [ˈʌpstɑːt] *n* 1) qo'lidan kelmaydigan mansabga minib olgan odam; tirrancha; 2) har ishga (gapga) suqiluvchi odam, mahmadona
up-stream [ˌʌpˈstriːm] **1.** *adv* oqimga qarshi; **2.** *a* oqimga qarshi suzuvchi
upstroke [ˈʌpstrəok] *n* yuqoriga yo'naltirilgan chiziq (*xat va qo'lyozmada*)
upsurge 1. *n* [ˈʌpsɜːdʒ] o'sish, ko'tarilish, yuksalish; **2.** *v* [ʌpˈsɜːdʒ] o'smoq, ko'tarilmoq, yuksalmoq
upsweep [ˈʌpswiːp] *n* taramoq, tarab olmoq (qo'ymoq)
upswing [ˈʌpˌswɪŋ] *n* to'satdan ko'tarilish, chiqish, o'sish, yaxshilanish, ko'tarilish
uptake [ˈʌpteɪk] *n* tushunish, anglash, fahmlash
uptight [ˈʌptaɪt, ʌpˈtaɪt] *a* asablarni qo'zg'atadigan, asabni buzadigan, diqqatni oshiradigan
up-to-date [ˌʌptəˈdeɪt] *a* hozirgi kundagi (zamondagi), hozirgi, zamonaviy
up-to-the-minute [ˌʌptəðəˈmɪnɪt] *a* 1) hozir (yaqindagina) bo'lgan, hozirgi; 2) eng oxirgi, eng so'nggi
upturn [ˈʌptɜːn] *v* to'ntarmoq, ag'darib qo'ymoq, ag'darmoq
upturned [ˌʌpˈtɜːnd] *a* 1) to'ntarilgan, ag'darilgan; 2) yuqoriga ko'tarilgan
upward [ˈʌpwəd] *a* tepaga (yuqoriga) yo'naltirilgan *yoki* harakat qiladigan
upwards [ˈʌpwədz] *adv* yuqoriga, tepaga, yuqori tomonga; tepasiga, ustiga
uraemia [juˈriːmɪə] *n tib.* uremiya (*buyrak faoliyatining buzilishi tufayli paydo bo'ladigan kasallik oqibatida organizmning zaharlanishi*)
uranium [jʊˈreɪnɪəm] *n kim.* 1) uran (*radioaktiv kimyoviy element*); 2) *attr.* uranli, uranga oid; **a ~ reactor** uranli reaktor
Uranus [jʊˈreɪnəs] *n astr.* Uran (*sayyora. Quyoshdan o'rtacha uzoqligi 2871 mln. km*)
urban [ˈɜːbən] *a* shaharga oid; **~ population** shahar aholisi
urbane [ɜːˈbeɪn] *a* 1) xushmuomala, muloyim, silliq, boadab, nazokatli; 2) tarbiyali, madaniyatli
urbanity [ɜːˈbænɪtɪ] *n* xushmuomalalik, muloyimlik, boadablik, nazokat
urchin [ˈɜːtʃɪn] *n* ko'cha bolasi, o'g'il bola
urea [jʊ(ə)rɪə] *n kim.* mochevina, karbaloid (*siydik tarkibida bo'ladigan kristall modda*)
urge [ɜːdʒ] **1.** *n* biror ishga otlantiruvchi, ilhomlantiruvchi narsa, sabab, turtki; **2.** *v* (*biror ish qilishga*) undamoq, qo'zg'amoq, majbur qilmoq
urgency [ˈɜːdʒ(ə)nsɪ] *n* shoshilinchlik, zudlik
urgent [ˈɜːdʒ(ə)nt] *adv* favqulodda, shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan
uric [ˈjʊərɪk] *a* siydikka (peshobga) oid
urinal [jʊ(ə)raɪn(ə)l] *n* pissuar (*hojatxonada: siydik oqib ketadigan chanoq*)
urinate [ˈjʊ(ə)rɪneɪt] *v* siymoq, yozilmoq, bo'shanmoq
urine [ˈjʊ(ə)rɪn] *n* siydik, peshob
urn [ɜːn] *n* 1) ko'zacha, kuvacha; 2) quti; 3) axlatdon (*ko'cha va jamoat binola-*

rida: axlat, papiros qoldiqlari tashlanadigan idish)

urology [jʊ(ə)ˈrɔlədʒɪ] *n tib.* urologiya (*siydik – jinsiy organlar kasalliklarini o'rganadigan fan*)

ursine [ˈɜːs(a)ɪn] *n* ayiqqa oid, ayiq

us [ʌs] *pron. pers.* („**we**" *kishilik olmoshining obyekt kelishigi shakli*) bizni, bizga, bizdan

usage [ˈjuːsɪdʒ, ˈjuːzɪdʒ] *n* qo'llanish, foydalanish, ishlatish

use **I.** *n* [juːs] 1) qo'llash; qo'llanish, ishlatish; **out of ~** foydalanilmaydigan; **to make ~ of** ...dan foydalanmoq, ...ni ishlatmoq; 2) foyda, naf; **2.** *v* [juːz] 1) ishlatmoq, qo'llamoq, foydalanmoq; 2) o'z manfaati yo'lida ishlatmoq

used [juːsd] *a* o'rgangan, odatlangan; **to get ~ to** o'rgânib qolmoq, ko'nikmoq

useful [ˈjuːsf(ə)l] *a* foydali, foyda qiladigan, foyda keltiradigan

useless [ˈjuːsləs] *a* foydasiz, foyda qilmaydigan, foyda keltirmaydigan

user [ˈjuːzə] *n* iste'molchi, iste'mol qiluvchi, foydalanuvchi

user-friendly [ˌjuːzəˈfrendlɪ] *a* 1) ishlatilishi qulay bo'lgan; 2) do'stona, samimiy, ahil, inoq

usher [ˈʌʃə] *n* shveysar (*darbon*)

usherette [ˌʌʃəˈret] *n* chipta tekshiruvchi xodim (*teatrda*)

usquebaugh [ˈʌskwɪbɔː] *n shotl.* viski (*ingliz arag'i*)

usual [ˈjuːʒʊəl] *a* odatdagi, doimiy; **as ~** odatdagidek

usually [ˈjuːʒʊəlɪ] *adv* 1) odatda, odatga ko'ra, odatdagicha, odatdagidek; 2) ko'proq, ko'pincha

usurer [ˈjuːʒ(ə)rə] *n* sudxo'r, foydaxo'r

usurious [juːˈzjʊ(ə)rɪəs] *a* sudxo'rlik bilan, sudxo'rona

usurp [juːˈzɜːp] *v* qonunga xilof ravishda tortib olmoq, kuch ishlatmoq

usurpation [ˌjuːzɜːˈpeɪʃ(ə)n] *n* tortib olish (*hokimiyatni yoki birovning huquqini qonunga xilof ravishda tortib olish*); uzurpatsiya

usurper [juːˈzɜːpə] *n* hokimiyatni yoki birovning huquqini qonunga xilof ravishda tortib olgan shaxs

usury [ˈjuːʒ(ə)rɪ] *n* 1) sudxo'rlik; 2) sudxo'rlik foizi

utensil [juːˈtens(ə)l] *n* 1) turli idishlar, idish-tovoq; 2) asbob-anjom, buyum, jihoz, ashyo, narsa; **kitchen ~s** oshxona idishlari, qozon-tovoqlar

uteri [ˈjuːt(ə)raɪ] *pl of* **uterus**

uterine [ˈjuːtər(a)ɪn] *a* qoringa (ichga) oid, qorindagi; **a ~ brother** bir qorindan talashib tushgan onasi bir, otasi boshqa aka-uka

uterus [ˈjuːt(ə)rəs] *n anat.* bachadon

utilitarian [juːˌtɪlɪˈteə(ə)rɪən] *a* manfaatparast, faqat foyda olishga intiladigan

utilitarianism [juːˌtɪlɪˈteə(ə)rɪənɪz(ə)m] *n fals.* 1) utilitarizm (*axloqning asosi foyda olish, manfaat ko'rish deb biluvchi idealistik ta'limot*); 2) manfaatparastlik

utility [juːˈtɪlɪtɪ] *n* foyda, naf; **of no ~** befoyda

utilization [ˌjuːtɪlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* tatbiq qilish, qo'llanilish, foydalanish

utilize [ˈjuːtɪlaɪz] *v* qo'llamoq, ishlatmoq, foydalanmoq

utmost [ˈʌtməʊst] *a* eng uzoqdagi, eng uzoq joydagi, eng olis (uzoq, yiroq); **the ~ ends of earth** yerning eng olis joylari

Utopia [juːˈtəʊpɪə] *n* xom xayol, amalga oshmaydigan orzu

Utopian [juːˈtəʊpɪən] *a* utopiyaga oid, xayoliy, amalga oshmaydigan

utter I [ˈʌtə] *n* to'liq, to'la, butunlay, mutlaqo

utter II [ˈʌtə] *v* 1) so'z bilan ifoda etmoq; 2) ovoz chiqarmoq, talaffuz qilmoq

utterance [ˈʌt(ə)rəns] *n* (*vozma yoki og'zaki*) fikr bildirish

utterly [ˈʌtəlɪ] *adv* g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada

uttermost [ˈʌtəməʊst] = **utmost**

U-tube [ˈjuːtjuːb] *n* sifon naycha

U-turn [ˈjuːtɜːn] *n* burilish, muyulish; aylanish; orqaga aylanish (burilish)

uvula [ˈjuːvjʊlə] *n* (*pl* **-ae** [-liː]) *anat.* tilcha, kichik til

uvulae [ˈjuːvjʊliː] *pl of* **uvula**

uvular [ˈjuːvjʊlə] *a anat.* tilchaga (kichik tilga) oid, tilcha...

Uzbek [ˈʊzbek] **1.** *a* o'zbek, o'zbeklarga oid; **in ~** o'zbekcha, o'zbek tilida; **2.** *n* 1) o'zbek kishisi, o'zbek ayoli; 2) o'zbek tili

V

V, v [viː] *n* ingliz alifbosining yigirma ikkinchi harfi

vac [væk] *n so'zl.* 1) „**vacation**" *so'zining qisqartmasi*; 2) „**vacuum-cleaner**" *so'zining qisqartmasi*

vacancy [ˈveɪkənsɪ] *n* 1) bo'sh o'rin (*lavozim, vazifa haqida*); 2) foydalanilmayotgan joy; 3) bo'sh qolgan joy, ochiq joy, oraliq (*matnda*)

vacant [ˈveɪkənt] *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch; **to be ~** bo'sh turmoq, bo'shab qolmoq

vacantly [ˈveɪkəntlɪ] *adv* biror ma'no ifodalamagan holda, ma'nosiz, bema'ni

vacate [vəˈkeɪt] *v* 1) ozod qilmoq, qutqarmoq, xalos qilmoq; 2) qoldirib ketmoq, tashlab ketmoq

vacation [vəˈkeɪʃ(ə)n] **1.** *n* mehnat ta'tili; **2.** *v amer.* dam (orom) olmoq, istirohat qilmoq, hordiq chiqarmoq

vacationist [vəˈkeɪʃ(ə)nɪst] *n amer.* 1) dam oluvchi (istirohat qiluvchi, hordiq chiqaruvchi) kishi; 2) ta'til olgan (ta'tildagi) kishi

vaccinate [ˈvæksɪneɪt] *v tib.* chechakka qarshi emlamoq (*organizmga vaksina yubormoq*)

vaccination [ˌvæksɪˈneɪʃ(ə)n] *n tib.* emlash, em

vaccine [ˈvæksiːn] **1.** *n tib.* vaksina (*yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash uchun ishlatiladigan em dori*), emlik; **2.** *attr.* vaksinaga oid; **~ theraphy** vaksinoterapiya, vaksina bilan davolash

vacinnia [væk ˈsɪnɪə] *n vet.* sigir chechagi

vacillate [ˈvæsɪleɪt] *v* 1) tebranmoq; 2) pirpiramoq, hilpiramoq, silkinmoq; 3) chayqalmoq; 4) ikkilanmoq; o'zgarib turmoq

vacillating [ˈvæsɪleɪtɪŋ] *a* 1) ikkilanadigan; 2) o'zgarib turadigan; 3) tebranadigan

vacillation [ˌvæsɪˈleɪʃ(ə)n] *n* 1) tebranish; 2) chayqalish, ikkilanish; o'zgarib turish

vacuity [væˈkjuːɪtɪ] *n* mazmunsizlik, ma'nosizlik, tuturiqsizlik; **~ of mind** mazmunsizlik, ma'nosizlik, tuturiqsizlik

vacuous [ˈvækjʊəs] *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch; **~ stare** ma'nosiz qarash

vacuum [ˈvækjʊ(ə)m] *n fiz.* vakuum (*berk idish ichidagi havoning yoki gazning siyraklashgan holati*)

vacuum brake [ˈvækjʊ(ə)mbreɪk] *n* vakuumli tormoz

vacuum capacitor [ˈvækjʊ(ə)mkəˈpæsɪtə] *n* vakuumli kondensator

vacuum cleaner [ˈvækjʊ(ə)mˌkliːnə] *n* changso'rar, changyutgich

vacuum concrete [ˈvækjʊ(ə)mˌkɒnkriːt] *n* vakuumlangan beton

vacuum fan [ˈvækjʊ(ə)mfæn] *n tex.* tortib (so'rib) oladigan ventilator

vacuum flask [ˈvækjʊ(ə)mˌflɑːsk] *n* termos

vacuum-tube [ˈvækjʊ(ə)mtjuːb] *n rad. tekn.* elektron lampa, vakuumli lampa

vade-mecum [ˌvɑːdeɪˈmeɪkəm] *n lot.* yo'l ko'rsatkich (*yo'llarni ko'rsatuvchi kitobcha*); (*yonda, cho'ntakda olib yuriladigan*) ma'lumotnoma (*spravochnik*)

vagabond [ˈvægəbond] **1.** *n* daydi, darbadar, miskin; **2.** *a* sayoq, beqaror, ko'chmanchi; **3.** *v* daydib yurmoq, sarson-sargardonlikda hayot kechirmoq

vagabondage [ˈvægəbondɪdʒ] *n* darbadarlik, daydilik, sayoqlik; sarsonlik; sargardonlik; qo'nimsizlik, doim ko'chib yurish

vagabondism [ˈvægəbondɪz(ə)m] = **vagabondage**

vagabondize [ˈvægəbondaɪz] *v* daydib yurmoq; sarson-sargardonlikda hayot kechirmoq

vagarious [vəˈgeə(ə)rɪəs] *a* injiq, serxarxasha, tantiq; ajib, qiziq, g'alati, alomat

vagary [ˈveɪgərɪ] *n* injiqlik, mijg'ovlik, xarxasha, noz, g'alati qiliq; tantiqlik

vagina [vəˈdʒaɪnə] *n* (*pl* **-nae, -s** [-z]) 1) *anat.* moyliq (*xotinlar tanosil a'zosining ichi*); bachadon qini (*diloq*); 2) *bot.* qin (*yaproq qini*)

vaginae [vəˈdʒaɪnɪ:] *pl of* **vagina**

vagrancy [ˈveɪgrənsɪ] *n* 1) darbadarlik, daydilik, sayoqlik, sarsonlik, sargardonlik; 2) qo'nimsizlik, doim ko'chib yurish

vagrant [ˈveɪgrənt] **1.** *n* daydi, darbadar, miskin; **2.** *a* sayoq, daydi, beqaror, ko'chmanchi

vague [veɪg] *a* noaniq, noma'lum, mujmal; ~ **rumours** noaniq mishmishlar; ~ **hopes** allaqanday noaniq orzu-umidlar; ~ **resemblance** ozgina (sal-pal) o'xshatish

vail I [veɪl] *v so'zl. shoir.* 1) (*bayroqni, qurolni*) tushirmoq, pastga tushirmoq; 2) birovdan bo'sh kelmoq, birovga yon bermoq, bo'ysunmoq; bosh egmoq; 3) (*shlapani*) yechmoq, olib qo'ymoq

vail II [veɪl] *n esk.* 1) choychaqa, choy puli; 2) pora, rishva

vain [veɪn] *a* behuda, foydasiz, asossiz; quruq; **in** ~ behuda, bekorga; ~ **regrets** behuda pushaymon; ~ **efforts** behuda urinishlar; ~ **discussion** foydasiz bahs; ~ **promise** quruq va'da

vainglorious [veɪnˈglɔ:rɪəs] *a* shuhratparast, kekkaygan, mag'rur; o'ziga bino qo'ygan, maqtanchoq

vainglory [veɪnˈglɔ:rɪ] *n* manmanlik, shuhratparastlik, kekkayishlik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish

vainly [ˈveɪnlɪ] *adv* behuda, bekor, natijasiz, foydasiz

vakeel [vəˈki:l] *n hind.* 1) vakil, namoyanda; 2) elchi; 3) advokat, himoyachi, yoqlovchi

valance [ˈvælənsɪ] *n* 1) to'r hoshiya (*biror narsaning chetiga tutilgan to'r*); 2) burma; 3) guldor qimmatbaho chodir, choyshab

vale I [veɪl] *n* vodiy, soylik, uva

vale II [veɪl] **1.** *n lot.* xayrlashish; vidolashish; xayrlashuv; **2.** *int. lot.* xayr! sog' bo'ling! yaxshi qoling! alvido!

valediction [ˌvælɪˈdɪkʃ(ə)n] *n* xayrlashish, vidolashish, xayrlashuv

valedictorian [ˌvælɪdɪkˈtɔ:rɪən] *n amer.* xayrlashuv nutqini so'zlayotgan bitiruvchi talaba

valedictory [ˌvælɪˈdɪkt(ə)rɪ] **1.** *n* xayrlashuv nutqi; **2.** *a* xayrlashuvga oid, xayrlashuv

valency [ˈveɪlənsɪ] *n kim.* valentlik (*kimyoviy element atomining boshqa elementlar atomi bilan birikish yoki almashinish qobiliyati*)

valentine [ˈvæl(ə)ntaɪn] *n* 1) dildan sevilgan; yurakdan urgan; sevikli; 2) oshiq, mahbub, xushtor, yor, ma'shuqa, mahbuba, nigor, dildor, jonona; 3) avliyo Valentin kunida ma'shuqaga beriladigan sovg'a *yoki* yo'llanadigan ochiq xat, „valentinka"; 4) (**V**) avliyo Valentin kuni

valerian [vəˈlɪ(ə)rɪən] *n bot.* valeriana (*dorivor o'tsimon o'simlik*); ~ **drops** valerianka tomchisi

valeric [vəˈlɪ(ə)rɪk] *a* 1) valeriana o'simligiga oid; 2) valerianadan tayyorlangan; ~ **acid** valeriana kislotasi

valet [ˈvælɪt] **1.** *n* 1) xizmatkor, malay; 2) kamerdiner (*shaxsiy uy xizmatkori*); **2.** *v* (*mehmonxonada*) tozalash, artish, yuvish va kiyimlarni dazmollash bilan shug'ullanmoq

valetudinarian [ˌvælɪtju:dɪˈne(ə)rɪən] **1.** *a* kasalmand, dardchil, tez-tez kasal bo'lib turadigan, kasaldan chiqmaydigan, nosog'; **2.** *n* dardmand, kasalmand odam

valetudinarianism [ˌvælɪtju:dɪˈne(ə)rɪəˌnɪz(ə)m] *n* 1) kasalmandlik, dardchillik, nosog'lik; 2) vasvoslik, badgumonlik, har narsadan shubhalanish, gumonsirash

valetudinary [ˌvælɪˈtju:dɪn(ə)rɪ] = **valetudinarian**

Valhalla [vælˈhælə] *n skand. mif.* panteon (*1. mashhur kishilar dafn etiladigan bino; dahma; 2. yunon va rimliklarda barcha hindlarga atab qurilgan ibodatxona; 3. kit. biror dinga mansub bo'lgan hamma xudolarning umumiy nomi*)

valiancy [ˈvælɪənsɪ] *n* botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik, shon-shavkat, fidokorlik, fidokorona ish, jonbozlik

valiant [ˈvælɪənt] **1.** *a* botir, jasur, mard, dovyurak; **2.** *n* mard o'g'lon, botir (jasur, mard, dadil) odam

valid [ˈvælɪd] *a yur.* o'z kuchini saqlagan ta'sir, kor qiladigan, amaliy, ta'sirli, ta'sirchan; amaldagi, kuchini yo'qotmagan; **the contract is** ~ shartnoma kuchini yo'qotmagan; **the ticket is** ~ **for a week** yo'l chiptasi bir haftaga yaraydi (*bir haftagacha kuchini yo'qotmaydi*)

valid data [ˈvælɪddeɪtə] *n* ishonchli ma'lumotlar

validate [ˈvælɪdeɪt] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) tasdiq qilmoq; 3) *yur.* kuchga kiritmoq, amalga joriy etmoq

validation [ˌvælɪˈdeɪʃ(ə)n] *n* 1) tasdiqlash; 2) qonuniylashtirish, qonuniy (rasmiy) deb e'lon qilish

validity [vəˈlɪdɪtɪ] *n* 1) qonuniylik, qonunga asoslanganlik; 2) asoslanganlik, isbotlanganlik; 3) to'g'rilik, rostlik, aniqlik; 4) yaroqlilik, keraklilik, foydalilik

valise [vəˈli:z] *n* 1) chamadon; 2) *harb. tar.* safar xalta, jild. sumka (*orqaga bog'lab ko'tarib yuriladi*); 3) xurjun, gadoyto'rva

vallant [ˈvæljənt] *a* jasoratli, jasur, botir, qahramon; shavkatli

valley [ˈvælɪ] *n* 1) vodiy, uva; 2) *me'mor.* tomning qirrasi; 3) *tex.* tarnov, nov

valor [ˈvælə] *amer.* = **valour**

valorize [ˈvæləraɪz] *v* 1) davlat tomonidan ko'rsatilgan andazaga amal qilgan holda narxni ko'tarmoq; 2) davlat tomonidan maxsus tadbirlar orqali narxni oshirmoq

valorous [ˈvælərəs] *a shoir.* jasoratli, jasur, botir, qahramon, shavkatli, fidokor, jonboz

valour [ˈvælə] *n* jasorat, botirlik, qahramonlik; shon-shavkat, fidokorona ish, jasorat

valuable [ˈvæljo(ə)b(ə)l] **1.** *a* qimmatbaho, ahamiyatli, foydali, qimmatli, qadrli; ~ **information** foydali ma'lumotlar; **a** ~ **discovery** muhim kashfiyot; **a** ~ **service** katta xizmat, **a** ~ **assistance** katta yordam; **2.** *n* qimmatbaho, qimmatli narsalar

valuables [ˈvæljo(ə)bt(ə)lz] *n pl* qimmatbaho buyumlar, qimmatli narsalar

valuation [ˌvæljoˈeɪʃ(ə)n] *n* narsaning bahosi, baho, narx

value [ˈvælju:] **1.** *n* 1) qiymat, baho, narx; **commercial** ~ bozor bahosi; **to be of** ~ qiymatga ega bo'lmoq; **2.** *v* baholamoq, qadrlamoq, baho bermoq; **to** ~ **at** ...ga baholamoq

valued [ˈvælju:d] *a* qimmatbaho, qimmatli; qadrli, yuqori baholangan; **a** ~ **opinion** qimmatli fikr

valueless [ˈvælju:ləs] *a* 1) hech narsa turmaydigan, hech narsaga arzimaydigan; 2) foyda bermaydigan, befoyda, foydasiz, behuda, bekorchi

valuer [ˈvæljuə] *n* baholovchi, narx kesuvchi (qo'yuvchi)
valuta [vəˈl(j)u:tə] *n* valuta, pul (*biror mamlakatning pul sistemasi va unga asos qilib olingan pul birligi*)
valve [vælv] *n tex.* 1) klapan (*suv, havo yoki bug' yo'lini ochib-berkitib turadigan detal yoki qopqoq*); 2) jo'mrak; 3) zolotnik (*turli mashinalarda: bug', suyuqlik yoki gaz taqsimlovchi klapan*); 4) *mus.* ventil, klapan (*puflab chalinadigan musiqa asboblarida*)
valve gate [ˌvælvˈgeɪt] *n* 1) surma klapan (qopqoqli, lo'kidon; 2) (quvurda) ochib-yopuvchi mexanizm, qurilma, eshik
valve set [ˈvælvset] *n radio.* lampali priyomnik
valvular [ˈvælvjulə] *a* 1) *tib.* : **~ defect** yurak illati (*kasallik*); 2) klapanga oid
vamoose, vamose [vəˈmu:s, və-] *n* 1) ketmoq, ketib qolmoq, chiqib ketmoq, tark etmoq; 2) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq
vamp I [væmp] **1.** *n* 1) poyabzalning old qismi; 2) yamoq; **2.** *v* 1) poyabzalning old qismini yangi qo'ymoq; 2) tuzatmoq; yamamoq
vamp II [væmp] **1.** *n so'zl.* 1) qiziqtirib (havasini keltirib) yo'ldan uradigan ayol, yo'ldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi; **2.** *v* (*g'araz maqsadda erkaklarni*) o'ziga jalb qilmoq (tortmoq)
vampire [ˈvæmpaɪə] *n* 1) *zool.* katta ko'rshapalak; 2) qonxo'r, zolim, yovuz
van I [væn] *n* avangard, ilg'or
van II [væn] **1.** *n* 1) furgon (*1. soyabon arava; 2. yuk tashuvchi avtomobil, arava kabilarda yopiq kuzov*); 2) yuk vagoni; **2.** *v* furgonda bir joydan ikkinchi joyga tashimoq
vanadium [vəˈneɪdɪəm] *n kim.* vanadiy (*kimyoviy element, metall*)
vandal [ˈvændl] **1.** *n* 1) vandal (*madaniyatsiz, johil odam, nodon*); 2) xuligan, bezori; **2.** *a* 1) yovvoyilarcha; vahshiyona; 2) shafqatsiz, berahm, yovuz
vandalism [ˈvænd(ə)lɪz(ə)m] *n* 1) madaniyatsizlik, jaholat, nodonlik; 2) vahshiylik, yovvoyilik, johillik
vandalize [ˈvænd(ə)laɪz] *v* jamoat tartibini buzmoq, o'zboshimchalik (beboshlik) qilmoq
vane [veɪn] *n* 1) fluger (*shamolning yo'nalishi va tezligini ko'rsatadigan asbob*); 2) (*ventilator, shamol tegirmonning*) qanoti
vanguard [ˈvængɑ:d] *n* ilg'or, oldinda boruvchi otrad; **to be in the ~ of a movement** harakatning oldingi saflarida bo'lmoq
vanilla [vəˈnɪlə] *n* 1) *bot.* vanil (*xushbo'y mevali tropik o'simlik*); 2) *so'zl.* vanilin (vanil qo'shilgan) muzqaymoq; 3) *attr.* vanilga oid; vanilli, vanil...
vanillin [vəˈnɪlɪn] *n kim.* vanilin (*vanil mevasidan olinadigan yoki sun'iy xushbo'y modda*)
vanish [ˈvænɪʃ] **1.** *v* 1) yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, yo'q bo'lib ketmoq, g'oyib bo'lmoq; **to ~ in the crowd** odamlar ichiga kirib ketmoq; 2) *mat.* nolga qarab harakat qilmoq; **2.** *n fon.* sirg'anish
vanishing [ˈvænɪʃɪŋ] *a* yo'q bo'layotgan, yo'qoladigan, yo'q bo'ladigan; **~ fraction** *mat.* nolga harakat qiluvchi kasr
vanishing-line [ˈvænɪʃɪŋlaɪn] *n* tushish chizig'i
vanishing-point [ˈvænɪʃɪŋpɔɪnt] *n* tutash (uchrashish) nuqtasi (*parallel chiziqlarda*)
vanity [ˈvænɪtɪ] *n* 1) ortiqcha harakat, behuda (befoyda) urinish; **injured ~** tahqirlangan izzat-nafsi; 2) bekorlik, behudalik; 3) puchlik, foydasizlik, natijasizlik; **a ~ bag** ayollar sumkasi
vanity case [ˈvænɪtɪkeɪs] = **vanity bag**
vanquish [ˈvæŋkwɪʃ] *v* 1) yengmoq, g'alaba qozonmoq; 2) g'olib kelmoq, zafar qozonmoq, musobaqada yutmoq
vanquisher [ˈvæŋkwɪʃə] *n* g'olib, g'alaba qozongan kishi, muzaffar
vantage [ˈvɑ:ntɪdʒ] *n* ustunlik, ortiqlik, afzallik; **to have** (*yoki* **to hold, to take**) **smb. at a ~** kimdandir ustun turmoq
vantage-ground [ˈvɑ:ntɪdʒgraund] *n* 1) qulay vaziyat; 2) nazorat punkti
vantage-point [ˈvɑ:ntɪdʒpɔɪnt] = **vantage-ground**
vapid [ˈvæpɪd] *a* mazasi, ta'mi yo'q, mazasiz, ta'msiz, bemaza; **~ beer** mazasi (kuchi) ketib qolgan pivo
vapidity [vəˈpɪdɪtɪ] *n* mazasi yo'qlik, mazasizlik, ta'msizlik
vapor [ˈveɪpə] *amer.* = **vapour**
vaporable [ˈveɪp(ə)rəb(ə)l] *a* bug'lanadigan, bug'ga aylanadigan
vaporarium [ˌveɪpəˈre(ə)rɪəm] = **vapour bath**
vaporescense [ˌveɪpəˈres(ə)ns] *n* bug' hosil bo'lishi
vaporization [ˌveɪpəraɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* bug'lanish, bug'ga aylanish
vaporize [ˈveɪpəraɪz] *v* 1) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq; 2) bug'lantirmoq, bug'ga aylantirmoq
vaporizer [ˈveɪpəraɪzə] *n tex.* bug'latgich
vaporous [ˈveɪp(ə)rəs] *a* 1) bug'ga o'xshash, bug'simon; 2) bug' bilan to'ldirilgan
vapour [ˈveɪpə] **1.** *n* 1) bug', par; 2) xom xayol, ro'yobga chiqmaydigan (amalga oshmaydigan) orzu-umid; **2.** *v* 1) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq; 2) maqtanmoq, katta gapirmoq
vapour bath [ˈveɪpəbɑ:θ] *v* issiqxona, bug'xona (*hammomda*)
vapour trail [ˈveɪpətreɪl] *n* samolyotning siyrak (siyraklashgan) havodagi izi
vapourish [ˈveɪp(ə)rɪʃ] *a* maqtanchoq, manman
vapoury [ˈveɪp(ə)rɪ] *a* 1) noaniq, xira, salpal bilinadigan; 2) g'amli, qayg'uli
varan [ˈværən] *n zool.* echkemar
Varangian [vəˈrændʒɪən] *tar.* **1.** *a* varyaglarga oid; varyaglar; **2.** *n* 1) varyaglar; 2) *ko'ch.* kelgindilar
variability [ˌve(ə)rɪəˈbɪlɪtɪ] *n* o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish, beqarorlik, betayinlik, qarori (tayini) yo'qlik
variable [ˈve(ə)rɪəb(ə)l] *a* 1) o'zgaruvchan, beqaror, doim bir xil turmaydigan, o'zgarib turadigan; 2) *mat.* o'zgaruvchan
variance [ˈve(ə)rɪəns] *n* qarama-qarshilik, ziddiyat
variant [ˈve(ə)rɪənt] **1.** *n* variant; **2.** *a* har xil, turli, bir-biridan farq qiladigan, boshqa-boshqa
variation [ˌve(ə)rɪˈeɪʃ(ə)n] *n* 1) o'zgarish, almashtirish, og'ish; 2) tur, xil
varicella [ˌværɪˈselə] *n tib.* suvchechak
varicoloured [ˈve(ə)rɪˌkʌləd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli
varicose [ˈværɪkəʊs] *n tib.* kengaytirilgan, keng; kuchaytirilgan
varied [ˈve(ə)rɪd] *a* turli, har xil, turli-tuman; **~ opinions** turli-tuman fikrlar
variegate [ˈve(ə)rɪgeɪt] *v* xilma-xil (turli-tuman, rang-barang) qilmoq, turli tusga (shaklga) kiritmoq, turli ranglar bilan bo'yamoq
variegated [ˈve(ə)rɪəgeɪtɪd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli
variegation [ˌve(ə)rɪˈgeɪʃ(ə)n] *n* 1) guldor naqsh; 2) rang-barang qilib bo'yash
variety [vəˈraɪətɪ] *n* xilma-xillik; ko'p tomonlamalik; xilma-xillik, rang-baranglik; **~ of opinions** fikrlardagi har xillik, tafovut
variety show [vəˈraɪətɪʃəʊ] *n* 1) varyete (*yengil janrli estrada teatri*); 2) estrada konserti
variety store [vəˈraɪətɪstɔ:] *n amer.* universal magazini (*univermag*)
variform [ˈve(ə)rɪfɔ:m] *a* turli shakllarga ega bo'lgan
variola [vəˈraɪələ] *n tib.* chechak
variolate [ˈveərɪəleɪt] *v tib.* chechak chekmoq, chechakka qarshi emlamoq
variometer [ˌve(ə)rɪˈɒmɪtə] *n radio.* variometr (*radio apparatlari zanjiridagi*

induktivlikni tekis o'zgartiruvchi asbob)

variorum [ˌveə(ə)rɪˊɔːrəm] *n* 1) turli sharhlovchilarning sharhlari kiritilgan nashr; 2) bir matnning turli variantlari bilan berilgan nashr

various [ˊveə(ə)rɪəs] **1.** *a* har xil, turli, boshqa-boshqa; **2.** *n so'zl.* bir qancha; qandaydir (*kishi, odam*)

varment [ˊvɑːmənt] = **varmint**

varmint [ˊvɑːmɪnt] *n so'zl.* takasaltang, valakisalang, havoyi, sayoq

varnish [ˊvɑːnɪʃ] **1.** *n* 1) lok; 2) yaltiroqlik, jilo, sayqal; **2.** *v* loklamoq, lok surtmoq, yaltiratmoq

varnishing-day [ˊvɑːnɪʃɪŋdeɪ] *n* ko'rgazma ochilish marosimi arafasi

varsity, 'varsity [ˊvɑːsɪtɪ] *n* 1) *so'zl.* universitet, dorilfunun (*oliy o'quv yurti*); 2) *attr.* universitetga oid, universitet..., dorilfununga oid, dorilfunun...; **a ~ team** dorilfunun sport jamoasi

vary [ˊveə(ə)rɪ] *v* 1) o'zgartirmoq; 2) o'zgarmoq; 3) farq qilmoq

vascular [ˊvæskjələ] *a anat.* tomir(lar)ga oid; tomirli, tomir...; **a ~ system** tomir sistemasi (*tizimi*)

vase [vɑːz] *n* guldon, vaza

vaseline [ˊvæsɪliːn] *n* vazelin

vase-painting [ˊvɑːzˌpeɪntɪŋ] *n* guldonga chizilgan rasm

vassal [ˊvæs(ə)l] **1.** *n* 1) *tar.* vassal (*1. o'rta asrlarda: yirik feodal, hukmdorga qaram bo'lib, uning buyrug'ini bajarishga majbur bo'lgan katta yer egasi; 2. qaram bo'lgan kishi; tobe davlat*); 2) xizmatkor, malay; **2.** *attr.* qaram, tobe

vassalage [ˊvæsəlɪdʒ] *n* vassallik, qaramlik

vast [vɑːst] **1.** *a* 1) keng, bepoyon, katta, ko'p; **the ~ of ocean** okean kengligi; 2) g'oyat katta, zo'r, ulkan; **2.** *n shoir.* kenglik, yalanglik, sayhon yer

vastly [ˊvɑːstlɪ] *adv* 1) ancha, nisbatan ko'p (ortiq, tez va h. k.); 2) ma'lum (ko'p) darajada; 3) *so'zl.* juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada

vasty [ˊvɑːstɪ] = **vast 1**; 1)

vat [væt] *n* chan (*bir tomoni ochiq yog'och bochka*); bak (*suyuqlik solinadigan katta idish*); sisterna

vatic [ˊvætɪk] *a* payg'ambarga oid; payg'ambar..., payg'ambarlik...

Vatican [ˊvætɪkən] *n geogr.* Vatikan

vaticinate [væˊtɪsɪneɪt] *v* 1) payg'ambarlik qilmoq; 2) karomat qilmoq, bashorat qilmoq, oldindan aytmoq

vaticination [ˌvætɪsɪˊneɪʃ(ə)n] *n* oldindan aytish, bashorat, karomat

vaudeville [ˊvɔːdəvɪl] *n* vodevil (*bir-ikki pardali kichik komediya*)

vault I [vɔːlt] *n* gumbaz, qubba; **the ~ of a church** cherkov gumbazi; **the ~ of heaven** osmon gumbazi

vault II [vɔːlt] **1.** *n* langarcho'p bilan sakrash; **2.** *v* sakramoq; **he ~ed over the fence** u panjara ustidan sakrab o'tdi

vaulted [ˊvɔːltɪd] *a* gumbaz (qubba) shaklidagi, gumbazsimon, qubbasimon, qubbali, gumbazli

vaulting I [ˊvɔːltɪŋ] *n* gumbaz, qubba

vaulting II [ˊvɔːltɪŋ] *n* 1) sakrash, irg'ish, sapchish; 2) voltijirovka (*chopqir ot ustida qilinadigan chavandozlik mashqlari*)

vaulting-horse [ˊvɔːltɪŋhɔːs] *n* gimnastika koni (*gimnastika mashqlari bajarish uchun mo'ljallangan uzun to'rt oyoqli sport anjomi*)

vaunt [vɔːnt] *n* 1) maqtanchoqlik, manmanlik; 2) maqtanish, kerilish; **2.** *v* maqtanmoq, kerilmoq, maqtanib gapirmoq

VCR [ˌviːsiːˊɑː] (*„video cassette recorder"ning qisqartmasi*) videomagnitofon

V-Day [ˊviːdeɪ] *n* (*„Victory Day"ning qisqartmasi*) G'alaba kuni (*Ikkinchi jahon urushida*)

veal [viːl] *n* buzoq go'shti (*ovqat sifatida*)

vector [ˊvektə] **1.** *n mat.* vektor (*1. miqdor va yo'nalishga ega bo'lgan kattalik; 2. shunday kattalikni ko'rsatuvchi kesma*); **2.** *v* yo'llamoq; yo'naltirmoq, yo'l ko'rsatmoq

vector field [ˊvektəfiːld] *n* vektor maydoni

vedette [vɪˊdet] *n* otli (otda yuradigan) qorovul; **a ~ boat** nazorat qiluvchi kema

veer [vɪə] *v deng.* (*arqon, sim kabilarni*) bo'shatmoq, sekin-asta qo'yib yubormoq

veering [ˊvɪərɪŋ] *n* burilish, muyulish; muyush

vegan [ˊviːgən] *n* faqat sabzavot va sutli ovqatlarni iste'mol qilishga jiddiy amal qiluvchi kishi

vegetable [ˊvedʒ(ɪ)təb(ə)l] **1.** *n* sabzavot; **2.** *a* 1) o'simlikdan olingan, o'simlikdan qilingan, o'simlikdan tayyorlangan, o'simlik; **~ physiology** o'simliklar fiziologiyasi; **~ oil** o'simlik moyi (yog'i); 2) sabzavotga oid; sabzavot

vegetal [ˊvedʒɪtl] *a* 1) o'simliklarga oid; o'simliklar...; 2) o'simliklardan olingan

vegetarian [ˌvedʒɪˊte(ə)rɪən] **1.** *n* vegetarian (*faqat sabzavot va sutli ovqatlarni iste'mol qiluvchi odam*); **2.** *a* vegetarianlar uchun belgilangan; go'shtsiz

vegetarianism [ˌvedʒɪˊte(ə)rɪənɪz(ə)m] *n* vegetarianlik, et (go'sht) yemaslik

vegetate [ˊvedʒɪteɪt] *v* 1) o'smoq, rivojlanmoq, katta bo'lmoq; 2) betashvish hayot kechirmoq

vegetation [ˌvedʒɪˊteɪʃ(ə)n] *n* 1) o'simliklar; **tropical ~** tropik o'simliklar; 2) unish, o'sish

vegetative [ˊvedʒɪtətɪv] *a* o'simliklarga oid; o'simlik; **~ cover** o't-o'lanlar, o'simlik qoplami

vehemence [ˊvɪəməns] *n* kuch, quvvat, tinka-mador, majol, darmon

vehement [ˊvɪəmənt] *n* kuchli, quvvatli, zabardast, baquvvat

vehicle [ˊviːɪk(ə)l] *n* tashish vositalari

vehicular [viːˊhɪkjələ] *a* tashishga (o'tkazib qo'yishga) xizmat qiladigan

veil [veɪl] **1.** *n* 1) choyshab, o'rin yopinchig'i, xotin-qizlarning yopinchiqsimon libosi, yopinchiq; 2) shlapaga tutiladigan va yuzni bekitib turadigan to'r; **2.** *v* yopinchiq bilan yopmoq

veiling [ˊveɪlɪŋ] *n* 1) shlapaga tutiladigan va yuzni bekitib turadigan to'r; 2) yengil shaffof gazlama

vein [veɪn] *n anat.* vena, ko'ktomir, qon tomiri

veinstone [ˊveɪnstəʊn] *n geol.* ruda koni

veiny [ˊveɪnɪ] *a* 1) chandir, tirishqoq; 2) chayir, qotma, qotmadan kelgan

vela [ˊviːlə] *pl of* **velum**

velar [ˊviːlə] *fon.* **1.** *a* tanglay orqasi bilan talaffuz etiladigan; **2.** *n* tanglay orqasi bilan talaffuz etiladigan tovush

velaria [vɪˊle(ə)rɪə] *pl of* **velarium**

velarium [vɪˊle(ə)rɪəm] *n* hostirma, ayvon, shiypon, soyabon

veld(t) [velt] *n* cho'l, dasht, yovon

vellum [ˊveləm] *n* kalka (*chizma, rasm va sh. k. dan nusxa ko'chirish uchun ishlatiladigan shaffof qog'oz yoki gazlama*)

velocipede [vɪˊlɔsɪpiːd] *n* 1) motorsiz, drezina (*temir yo'lda yuradigan arava, vagon*); 2) *amer.* uch g'ildirakli velosiped

velocity [vɪˊlɔsɪtɪ] *n* tezlik, jadallik, ildamlik

velodrome [ˊvelədrəʊm] *n* velodrom (*velosiped mashqlari, musobaqalari va sinovlari o'tkaziladigan maydon*)

velour(s) [vəˊlʊə] *n fr.* velur (*movut turi*)

velum [ˊviːləm] *n* (*pl* **vela**) *anat.* yumshoq tanglay

velvet [ˊvelvɪt] *n* baxmal, duxoba

velveteen [ˌvelvɪˊtiːn] *n* chiyduxoba

velvety [ˊvelvɪtɪ] *a* baxmalga o'xshash mayin, yumshoq

vena [ˊviːnə] *n* (*pl* **venae**) vena, ko'ktomir

venae [ˊviːniː] *pl of* **vena**

venal [ˈvi:nl] *a* 1) sotishga (sotilishga) oid, sotiladigan; 2) poraga uchadigan sotqin
venality [vi:ˈnælɪtɪ] *n* sotqinlik
vend [vend] *v* 1) sotmoq, bozorga solmoq; 2) savdo-sotiq bilan shug'ullanmoq, savdo-sotiq qilmoq
vendee [ven ˈdi:] *n yur.* xaridor, sotib oluvchi
vender [ˈvendə] = **vendor**
vendetta [ven ˈdetə] *n ital.* xun, qasos, qonga qon bilan o'ch olish, qonga qon olish
vendor [ˈvendɔ:] *n* uy-uyiga eltib berib savdo qiluvchi savdogar
veneer [vɪˈmə] *n* 1) shpon (*bir qavatli yupqa fanera*); 2) (*g'ish*) qoplama
venerable [ˈven(ə)rəb(ə)l] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram; hurmatga sazovor bo'lgan; **a ~ age** tabarruk (ulug') yosh
venerate [ˈvenəreɪt] *v* ortiq darajada hurmat etmoq, izzat-ikrom qilmoq, aziz ko'rmoq, e'zozlamoq
veneration [ˌvenəˈreɪʃ(ə)n] *n* hurmatlash, hurmat qilish, qadrlash, ortiq darajadagi hurmat, izzat-ikrom, aziz ko'rish
venerator [ˈvenəreɪtə] *n* hurmatlovchi, qadrlovchi, hurmatini o'rniga qo'yuvchi (odam)
venereal [vɪˈnɪ(ə)rɪəl] *a* 1) tanosil kasalligiga oid, venerik; **~ desease** tanosil kasalligi; 2) shahvatparast
venereologist [vɪˌnɪ(ə)rɪˈɒlədʒɪst] *n* venerolog
Venetian [vɪˈni:ʃ(ə)n] *a* Venetsiyaga oid; **a ~ window** venetsiyancha (italyancha) deraza, uch tabaqali deraza
Venezuelan [ˌvenəˈzweɪlən] **1.** *a* Venesuelaga va venesuelaliklarga oid; Venesuela...; **2.** *n* venesuelalik, venesuelalik ayol
vengeance [ˈvendʒ(ə)ns] *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd
vengeful [ˈvendʒf(ə)l] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qo'ymaydigan, kekni unutmaydigan
venial [ˈvi:nɪəl] *a* kechirarli, uzrli, kechirsa bo'ladigan; **a ~ error** kechirsa bo'ladigan xato
venire [və ˈnaəri:] *n amer. yur.* maslahatchilarni sudga chaqirish uchun farmoyish
venison [ˈvenɪs(ə)n] *n* bug'u go'shti
venom [ˈvenəm] *n* 1) zahar, og'u (*asosan, ilonniki*); 2) kek, adovat, xusumat, gina, g'azab, qahr, achchiq
venomous [ˈvenəməs] *a* 1) zaharli, og'uli; 2) g'azabli, achchiq
vent [vent] **1.** *n* chiqadigan *yoki* kiradigan teshik (tuynuk); **2.** *v* nimanidir teshmoq
ventage [ˈventɪdʒ] *n* 1) tuynuk, yo'l (*havo, gaz, tutun chiqib turishi uchin*); 2) (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining*) klapani
venter [ˈventə] *n* 1) *anat. zool.* qorin; 2) *so'zl.* me'da, oshqozon; 3) uy hayvonlari, mol, tuyoq; 4) *yur.* **by one ~** bir tug'ishgan, bir qorindan talashib tushgan, onasi bir, otasi boshqa (*aka-ukalar, opa-singillar haqida*)
vent-hole [ˈventhəʊl] = **vent 1**
ventilate [ˈventɪleɪt] *v* shamollatmoq, havosini yangilamoq
ventilation [ˌventɪˈleɪʃ(ə)n] *n* shamollatish, havosini yangilash
ventilator [ˈventɪleɪtə] *n* ventilator, havo yangilagich
vent-peg [ˈventpeg] *n tex.* 1) vtulka; 2) probka, tiqin
vent-pipe [ˈventpaɪp] *n* tortuvchi (tortish, tortadigan, tortib oladigan) quvur
ventral [ˈventrəl] *a anat. zool.* qoringa oid, qorin
ventricle [ˈventrɪk(ə)l] *n anat.* 1) yurak qorinchasi; 2) miya qorinchasi (*bosh miyadagi bo'shliq*)
ventriloquism [ven ˈtrɪləkwɪz(ə)m] *n* labini (og'zini) qimirlatmay gapirish
ventriloquist [ven ˈtrɪləkwɪst] *n* labini qimirlatmasdan gapira oladigan odam
ventriloquize [ven ˈtrɪləkwaɪz] *v* labini (*og'zini*) qimirlatmasdan gapirmoq
venture [ˈventʃə] *a* 1) qaltis ish, avantyura; 2) chayqovchilik; **to run the ~** tavakkal qilmoq; **a joint ~** qo'shma korxona
venturer [ˈventʃ(ə)rə] *n* tavakkalchi (tavakkal qilib qaltis ishga qo'l uruvchi) korxona egasi
venturesome [ˈventʃəs(ə)m] *a* 1) jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak, yurakli; 2) tavakkal qiluvchi; 3) xavfli
venturous [ˈventʃ(ə)rəs] = **venturesome**
venue [ˈvenju:] *n* yig'ilish (uchrashuv, musobaqa) o'tkaziladigan joy
Venus [ˈvi:nəs] *n* 1) *mif.* Venera (*Qadimgi Rim afsonalarida: muhabbat va go'zallik xudosi*); 2) *astr.* Zuhra
veracious [vəˈreɪʃəs] *a* 1) haqiqatgo'y, rostgo'y, to'g'riso'z, haqgo'y, to'g'ri; 2) ishonchli, chin, haqiqiy
veracity [vəˈræsɪtɪ] *n* 1) haqqoniylik, haqqoniyat, rostgo'ylik, to'g'rilik, haqgo'ylik; 2) shubhasiz to'g'rilik, ishonchlilik
veranda(h) [və ˈrændə] *n* 1) ayvon, peshayvon; 2) sport maydonidagi bostirma ostida joylashgan tomoshabinlar joyi
verb [vɜ:b] *n gram.* fe'l
verbal [ˈvɜ:b(ə)l] **1.** *a* og'zaki; **a ~ arrangement** og'zaki kelishuv; **a ~ contract** og'zaki shartnoma; **a ~ communication** og'zaki xabar; **2.** *n* fe'lning shaxssiz (shaxsi topilmas) shakli, shaxsi noma'lum fe'l
verbalism [ˈvɜ:b(ə)lɪz(ə)m] *n* o'taketgan rasmiyatchilik
verbalist [ˈvɜ:b(ə)lɪst] *n* o'taketgan rasmiyatchi
verbally [ˈvɜ:b(ə)lɪ] *adv* 1) og'zaki; 2) faqat og'izda
verbena [vɜ:ˈbi:nə] *n bot.* tizimgul
verbiage [ˈvɜ:bɪɪdʒ] *n* 1) ortiqcha so'zlarning ko'pligi, cho'zilganlik, ezmalik; 2) quruq mahmadonagarchilik, safsatabozlik; quruq (puch) gap
verbose [vɜ:ˈbəʊs] *a* ortiqcha so'zlari ko'p, cho'zilib ketgan, ezma
verbosity [vɜ:ˈbɒsɪtɪ] *n* cho'zilganlik, ezmalik, ortiqcha (keraksiz) so'zlarning ko'pligi
verdancy [ˈvɜ:d(ə)nsɪ] *n* 1) maysa, o't; 2) yashil rang; 3) tajribasizlik, g'o'rlik, xomlik
verdant [ˈvɜ:d(ə)nt] *a* 1) yashil, bargrang, ko'm-ko'k, yam-yashil; 2) tajribasiz, xom, g'o'r
verdict [ˈvɜ:dɪkt] *n* hukm, hukmnoma, qaror, fikr, xulosa
verdigris [ˈvɜ:dɪgrɪs] *n max.* yashil bo'yoq
verdure [ˈvɜ:dʒə] *n* 1) yashil (sabza) rang; 2) ko'kat, rezavor, sabzavot
Verey light [ˈvɪərɪlaɪt] = **Very light**
verge [vɜ:dʒ] **1.** *n* chegara, qirra; **on the ~ of** ... chegarasida, yoqasida; **2.** *v* yaqinlashmoq, yaqin kelmoq
verger [ˈvɜ:dʒə] *n* cherkov xizmatchisi
veridical [vɪˈrɪdɪk(ə)l] *a* 1) haqiqatgo'y, rostgo'y, to'g'riso'z; 2) haqqoniy, rost, to'g'ri, chin
verification [ˌverɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) tekshirish; 2) tasdiqlash; **control and ~ of the fulfilment of adopted decisions** qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish va tekshirish; 3) *yur.* tasdiqlash, guvohlik berish
verify [ˈverɪfaɪ] *v* 1) (*to'g'riligini*) tekshirmoq, tekshirib ko'rmoq; 2) tasdiqlamoq, guvohlik bermoq
verily [ˈverɪlɪ] *adv* haqiqatan, chindan ham, darhaqiqat, rosti bilan
verisimilar [ˌverɪˈsɪmɪlə] *a* 1) haqiqatnamo, haqiqatga o'xshagan; 2) yuz berishi (bo'lishi) mumkin bo'lgan
verisimilitude [ˌverɪsɪˈmɪlɪtju:d] *n* haqiqatnamolik, haqiqatga o'xshashlik
veritable [ˈverɪtəb(ə)l] *a* haqiqiy, chin, rost, to'g'ri
verity [ˈverɪtɪ] *n* 1) haqiqat, chin, bor narsa, to'g'ri gap; 2) haqiqatlik, chinlik, rostlik

vermeil [ˈvɜːm(e)ɪl] *n* zarhallangan (tilla suvi yuritilgan) kumush, nuqra, mis
vermicelli [ˌvɜːmɪˈtʃelɪ] *n it.* vermishel
vermicide [ˈvɜːmɪsaɪd] = **vermifuge**
vermicular [vɜːˈmɪkjələ] = **vermiform**
vermiform [ˈvɜːmɪfɔːm] *a* chuvalchangsimon; **a ~ appendix** *anat.* chuvalchangsimon o'simta
vermifuge [ˈvɜːmɪfjuːdʒ] *n tib.* gijja tushiradigan dori
vermillion [vəˈmɪlɪən] *n* kinovar (*qizil rangli mineral, simob sulfid, simob rudasi*)
vermin [ˈvɜːmɪn] *n* 1) parazit, tekinxo'r (*bit, kana va b.*); 2) *q.x.* zararkunanda hasharot; 3) yirtqichlar (*hayvonlar va qushlar*)
verminate [ˈvɜːmɪneɪt] *v* qurtlamoq, qurt bosmoq (tushmoq), qurtlab qolmoq
vermination [ˌvɜːmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* qurtlaganlik, qurt tushganlik, qurti borlik
verminosis [ˌvɜːmɪˈnəʊsɪs] *n* (*pl* **-ses** [-siːz]) gijja kasalligi
verminous [ˈvɜːmɪnəs] *a* bitlab ketgan, bit bosgan
verm(o)uth [ˈvɜːməʊθ] *n* vermut (*vinoning bir turi*)
vernacular [vəˈnækjələ] **1.** *a* xalqqa (oid), mansub, ommaviy, xalq...; **2.** *n* ona tili
vernal [ˈvɜːnl] *a* ko'klamgi, bahorgi, bahoriy, bahor...; **the ~ equinox** bahorgi tengkunlik, bahorda kechasi bilan kunduzi teng bo'ladigan payt (*21- mart*)
veronica [və ˈrɒnɪkə] *n bot.* veronika (*binafsha gulli o'tsimon o'simlik*)
versatile [ˈvɜːsətaɪl] *a* 1) egiluvchan, bukiluvchan; 2) serqirra, har taraflama
versatility [ˌvɜːsəˈtɪlɪtɪ] *n* ko'p tomonlamalik; serqirralik, har taraflamalik
verse [vɜːs] **1.** *n* 1) band, she'r, bayt, misra; 2) poeziya, she'riyat, nazm; **in ~ or prose** nazmda *yoki* nasrda; **lyrical ~** lirik she'r; **2.** *v* 1) she'r yozmoq; 2) she'r bilan ifoda etmoq
versed I [vɜːst] *a* tajribali, tajribakor, omilkor, usta, mohir
versed II [vɜːst] *p. p. of* **verse 2**
verse-monger [ˈvɜːsˌmʌŋgə] *n* 1) qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*); 2) no'noq shoir
versicoloured [ˈvɜːsɪˌkʌlələd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli
versification [ˌvɜːsɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* she'r tuzilishi, she'r tuzish
versifier [ˈvɜːsɪfaɪə] *n* 1) *esk.* she'r texnikasini yaxshi biladigan shoir, nozim; 2) no'noq shoir, qofiyaboz
versify [ˈvɜːsɪfaɪ] *v* 1) she'r yozmoq; 2) she'rga (nazmga) aylantirmoq, she'r (nazm) bilan ifodalamoq
version [ˈvɜːʃ(ə)n] *n* 1) rivoyat, naql, taxminiy fikr; 2) variant, boshqacha ko'rinish; 3) tarjima
verso [ˈvɜːsəʊ] *n lot.* (*pl* **-os** [-əʊz]) 1) ochiq kitobning chap tomondagi sahifasi; 2) orqa (teskari) tomon (*tanga pul, medal*)
versus [ˈvɜːsəs] *lot. prep.* 1) qarshi, xilof, zid; 2) bilan solishtirganda
vert [vɜːt] *n* yashil rang
vertebra [ˈvɜːtɪbrə] *n* (*pl* **-rae** [-riː]) 1) umurtqa suyagi, umurtqa pog'onasi (*umurtqaning har bir bo'g'ini*); 2) *pl so'zl.* umurtqa
vertebrae [ˈvɜːtɪbriː] *pl of* **vertebra**
vertebral [ˈvɜːtɪbrəl] *a* 1) umurtqaga oid; umurtqali, umurtqasi bor; **a ~ column** umurtqa
vertebrate [ˈvɜːtɪbr(e)ɪt] **1.** *n* umurtqali hayvonlar; **2.** *a* umurtqali, umurtqasi bor
vertebration [ˌvɜːtɪˈbreɪʃ(ə)n] *n* umurtqa suyagining paydo bo'lishi (vujudga kelishi)
vertex [ˈvɜːteks] *n* (*pl* **-tices**) tepa, uch, cho'qqi; **the ~ of an angle** burchak uchi
vertical [ˈvɜːtɪk(ə)l] **1.** *a* vertikal yo'nalishdagi, vertikal, tik; **2.** *n* vertikal (tik) chiziq
vertices [ˈvɜːtɪsiːz] *pl of* **vertex**
verticil [ˈvɜːtɪsɪl] *n bot.* g'ushsha (*g'uj barg, gul, novda*)
vertiginous [vɜːˈtɪdʒɪnəs] *a* 1) boshni aylantiradigan, gangitadigan; 2) boshi aylanishdan azoblanayotgan; **to feel ~** boshi aylanmoq; 3) aylanadigan; **a ~ current** girdob, aylanma
vertigo [ˈvɜːtɪgəʊ] *n* (*pl* **-os** [-əʊz]) bosh aylanish, gangish, esankirash
vervain [ˈvɜːveɪn] *n bot.* tizimgul
very [ˈverɪ] **1.** *adv* juda, g'oyatda, o'ta; **~ well** juda ham yaxshi; **~ much** katta; juda ko'p; **thank you ~ much** katta rahmat; **2.** *a* chin, haqiqiy, chinakam, rostakam, ayni, g'irt, qip-qizil; **the ~ truth** chin (ayni) haqiqat
Very light [ˌvɪ(ə)rɪ ˈlaɪt] *n harb.* signal (*ishora, xabar*) beradigan raketa
vesicant [ˈvesɪkənt] *a tib.* yiringli yaraga oid, yiringli yara; chipqonga oid
vesicate [ˈvesɪkeɪt] *v* yiringlamoq, maddalamoq, fasod bog'lamoq
vesicle [ˈvesɪk(ə)l] *n anat. biol.* pufakcha; ko'pikcha
vesicular [vɪˈsɪkjələ] *a tib.* pufakchali; qavariqli; **~ desease** qavariq
vesper [ˈvespə] *n* 1) (**V**) kechki yulduz; 2) *pl cherk.* kechki ibodat (*xristianlarda*)
vesper-bell [ˈvespəbel] *n* kechki ovoz, kechki tovush
vespertine [ˈvespətaɪn] *a* 1) kechki, kechqurungi, oqshomgi; 2) *bot.* kechki payt ochiladigan; 3) *zool.* tungi, tundagi
vespiary [ˈvespɪərɪ] *n* qazandalar uyasi
vessel [ˈves(ə)l] *n* 1) kema; **a merchant ~** savdo kemasi; 2) samolyot
